ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI

ILMIY AXBOROTNOMA 2026

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY

2

journal.namdu.uz

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

Bosh muharrir
Kirgizbayev Abdugaffor Karimjonovich
tarix fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir
Nazarov Abdug'affor Abdujabborovich, geografiya fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir o'rinbosari
Ergashev Bobirjon Bahodirovich pedagogika fanlari doktori, professor

Texnik muharrir
Xoshimov Sardorbek Nozimjon o'g'li

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" 2019-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan quyidagi fan sohalari bo'yicha OAKning dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

01.00.00-Fizika-matematika fanlari (14)
02.00.00-Kimyo fanlari (18)
03.00.00-Biologiya fanlari (17)
09.00.00-Falsafa fanlari (24)
10.00.00-Filologiya fanlari (26)
13.00.00-Pedagogika fanlari (30)

Tahrir hay'ati a'zolari

Fizika-matematika fanlari

Xatamov Nosirjon Muydinovich, fizika-matemetika fanlari doktori, dotsent
Abdulazizov Baxromjon Toshmirza o'g'li, fizika-matemetika fanlari doktori, dotsent
Sattarov Iskandar Abu-aliyevich, fizika-matemetika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Mavlyanov Hasan Yusupovich, fizika- matemetika fanlari nomzodi, dotsent
Jalolov Ravshan Maxmudjonovich, fizika-matemetika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Dexqonov Farrux Nuriddin o'g'li, fizika-matemetika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Davlatov Abror Borijon o'g'li, fizika-matemetika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Mamadaliyev O'ktam Xasanboyevich, fizika-matemetika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Kimyo fanlari

Abdullayev Shavkat Vaxidovich, kimyo fanlari doktori, professor
Sultonov Boxodir Elbekovich, kimyo fanlari doktori, professor
Karimov Abdurashid Musaxonovich, kimyo fanlari doktori, professor
Doliyev G'olibjon Alisherovich, texnika fanlari doktori, professor
Rasulov A'zamjon Avazjonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Mamajanov G'ulomjon Odiljonovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Biologiya fanlari

Tojibayev Komiljon Sharobiddinovich, biologiya fanlari doktori, professor, akademik
Dexqonov Davron Burxanovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Batoshov Avazbek Risqulovich, biologiya fanlari doktori, professor
Komilov Doniyor Jo'rayevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Egamberdiyev Mehmonjon Xudoyberdiyevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor
Imomov Otabek Normirzayevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Xoshimov Xushbaxt Rustamjon o'g'li, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Texnika fanlari

Ataxanov Shuhrat Nuriddinovich, texnika fanlari doktori, professor
Dadaxanov Musoxon Xoshimxonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Boltibayev Shuxratjon Komiljanovich, fizika-matemetika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Qishloq xo'jaligi fanlari

Sulaymonov Inomjon Jamoldinovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent
Turg'unov Muzaffar Mirzaraxmatovich, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tarix fanlari

Rasulov Abdullajon Nuritdinovich, tarix fanlari doktori, professor
Dexkanov Narimon Burxonjonovich, siyosiy fanlari doktori, professor
Haydaraliyev Shuhrat Abdulazizovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Madraximov Zoxid Sharofovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Xalmuratov Baxtiyor Rejavaliyevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Erqo'ziyev Anvarjon Ashurovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
To'xtabayev A'zamjon Sharipxo'jayevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Iqtisodiyot fanlari

Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Imomov Rustamjon Narzullayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Baymirzayev Dilmurod Nematovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yoqubjonova Xulkaroy Yoqubovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Falsafa fanlari

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 -raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458) ga ega.

Ilmiy axborotnomaning 2026-2-soni NamDU Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2026-yil 28-fevraldagi 2-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga tavsiya etilgan (Bayonnoma № 2).

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Jurnal har oyda o'zbek, rus va ingliz tillarida elektron shaklda chop etiladi.

Maqolalar quyidagi rasmiy web sahifa orqali qabul qilinadi:
journal.namdu.uz

Tahririyat manzili:
Namangan shahar, Bobur shox ko'chasi, 161-uy
e-mail: science@namdu.uz

Talapov Baxriddin Alijanovich, falsafa fanlari doktori, professor
Jo'rayev Ro'zimat To'xtasinovich, siyosiy fanlari doktori, professor
Gaffarova Gulchehra Gulamjanovna, falsafa fanlari doktori, professor
Habibullayev Ma'rufjon Odiljon o'g'li, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

Filologiya fanlari

Uluqov Nosirjon Muxammadaliyevich, filologiya fanlari doktori, professor
Dosbayeva Nargiza Turg'unpo'latovna, filologiya fanlari doktori, professor
Qo'ziyev Umidjon Yandashaliyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent
Siddiqov Qosimjon Abilovich, filologiya fanlari nomzodi, professor
Darvishov Ibroxim O'rmanovich, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Tojiboyev Ilxomjon Usmonovich, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Abdurazzoqov Eldor G'ofirjonovich, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Yuldashev Otabek Toshpulat o'g'li, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Salijodjayeva Xavasxon Zakirjanovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Mamadjanova Nozima Adxamovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Geografiya fanlari

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich, geografiya fanlari doktori, dotsent
Abdurahmanov Soxibjon Turdaliyevich, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Raximov Abror Anvarjonovich, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Alimdjanov Nozimjon Nimadjanovich ,geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Pedagogika fanlari

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Uluxujayev Narzulloxon Ziyovuddinovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Hamidova Muxayyoxon Obidovna, filologiya fanlari nomzodi, professor
Misirov Sohibjon Abdupattayevich, pedagogika fanlari doktori, professor
Djurayev Akbar Salimovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent
Qambarov Musoxon Muxtorovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Urinov Bahrom Jamoliddinovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Toshibekova Munojat Xoshimovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Rashidova Nodira Habibullayevna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Sarimsakova Dilafruz Muhamadjonovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Tibbiyot fanlari

Abdullayev G'ofurjon Rahimjanovich, biologiya fanlari doktori, professor
Nurmatov Yodgormirza Xatammirzayevich, tibbiyot fanlari doktori
Abdullayev Ulug'bek Ubaydullayevich, tibbiyot fanlari nomzodi
Mirzaolimov Mirzohid Mirzavaliyevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sotsiologiya fanlari

Maxkamov Qodirjon Odiljonovich, Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sodirjonov Muxriddin Maxamadaminovich, Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzaaxmedov Xurshid Abdurashidovich, Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Qurbonov Mahmudjon Xusanboy o‘g‘li
Namangan Davlat Universiteti
Sharibayev Rosuljon Nosir o‘g‘li
Namangan Davlat Texnika Universiteti
Taratyn Igor Aleksandrovich
Belarussiya Milliy Texnika Universiteti

TO‘LQINLI TAHLIL YORDAMIDA SIGNAL DIAGNOSTIKASINI O‘RGANISHNING YANGI SAMARALI USULINI ISHLAB CHIQISH VA NAZARIY ASOSLASH

Annotatsiya. *Zamonaviy sanoat tizimlarida signal diagnostikasi texnik holat monitoringining markaziy komponentiga aylangan. Klassik spektral metodlar, xususan Furye transformatsiyasi, statsionar signallarni tahlil qilishda yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, real ishlab chiqarish muhitida signallar ko‘pincha vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan, impulsli va no-lineardir. Mazkur tadqiqotda wavelet transformatsiya asosida ko‘p masshtabli energiya diagnostikasi modeli ishlab chiqildi hamda uning matematik barqarorligi, aniqlash sezgirligi va optimal lokalizatsiyasi funksional analiz apparati yordamida nazariy isbotlandi. Taklif etilgan metod signalning lokal singulyarliklarini aniqlashda klassik yondashuvlarga nisbatan yuqori aniqlik ko‘rsatadi. Modellash natijalari diagnostik indeksning shovqin dispersiyasiga nisbatan invariantligini va impulsli buzilishlarga nisbatan kvadratik sezgirligini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuv robotlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari, pnevmotransport mexanizmlari va yuqori tezlikli rotor qurilmalarida prediktiv diagnostika algoritmlarini yaratish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *wavelet transformatsiya, signal diagnostikasi, ko‘p masshtabli tahlil, matematik modellashtirish, energiya spektri, no-statsionar signal, adaptiv filtratsiya.*

Курбонов Махмуджон Ксусанбой о'г'ли
Университет штата Наманган
Шарибаев Росульжон Носир о'г'ли
Наманганский государственный технический университет
Таратын Игорь Александрович
Национальный технический университет Беларуси

РАЗРАБОТКА И ТЕОРЕТИЗИРОВАНИЕ НОВОГО ЭФФЕКТИВНОГО МЕТОДА ИЗУЧЕНИЯ ДИАГНОСТИКИ СИГНАЛОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВОЛНОВОГО АНАЛИЗА

Аннотация. *В современных промышленных системах диагностика сигнализации стала центральным компонентом мониторинга состояния. Хотя классические спектральные методы, особенно преобразование Фурье, обладают высокой эффективностью в анализе стационарных сигналов, в реальной производственной среде сигналы часто являются временно-переменными, импульсивными и нелинейными. В этом исследовании была разработана модель многоспектральной энергетической диагностики на основе вейвлет-трансформации, а её математическая стабильность, чувствительность к обнаружению и оптимальная локализация были теоретизированы с помощью функционального анализатора. Предлагаемый метод демонстрирует высокую точность по сравнению с классическими подходами при определении локальных особенностей сигнала. Результаты моделирования показали инвариантность диагностического индекса относительно дисперсии шума и квадратичной чувствительности к импульсным возмущениям. Этот подход может служить теоретической основой для разработки предиктивных диагностических алгоритмов в системах производства роботов, пневматических транспортных механизмов и высокоскоростных роторных устройствах.*

Ключевые слова: *вейвлетное преобразование, диагностика сигналов, многомасштабный анализ, математическое моделирование, энергетический спектр, нестационарный сигнал, адаптивная фильтрация.*

Qurbonov Mahmudjon Xusanboy o‘g‘li
Namangan State University
Sharibayev Rosuljon Nosir o‘g‘li

Namangan State Technical University
Taratyn Igor Aleksandrovich
National Technical University of Belarus

DEVELOPMENT AND THEORIZING OF A NEW EFFECTIVE METHOD FOR THE STUDY OF SIGNAL DIAGNOSTICS USING WAVE ANALYSIS

Annotation. *In modern industrial systems, alarm diagnostics has become the central component of condition monitoring. While classical spectral techniques, notably the Fourier transform, have high efficiency in analyzing stationary signals, in a real-world production environment, signals are often time-variable, impulsive, and non-linear. In this study, a model of multi-spectrum energy diagnostics based on wavelet transformation was developed, and its mathematical stability, detection sensitivity and optimal localization were theorized using a functional analyzer. The proposed method shows high precision compared to classical approaches in determining local singularities of a signal. The modeling results showed an invariance of the diagnostic index with respect to noise dispersion and quadratic sensitivity to impulse disturbances. This approach can serve as a theoretical basis for the development of predictive diagnostic algorithms in robotic production systems, pneumatic transport mechanisms and high-speed rotor devices.*

Keywords: *wavelet transformation, signal diagnostics, multi-scale analysis, mathematical modeling, energy spectrum, non-stationary signal, adaptive filtration.*

Kirish

Sanoatning raqamli transformatsiyasi, Industry 4.0 konsepsiyasi va aqlli ishlab chiqarish tizimlarining jadal rivojlanishi texnologik jarayonlarni real vaqt rejimida monitoring qilish hamda nosozliklarni erta aniqlash masalasini dolzarb ilmiy yo‘nalishga aylantirdi. Zamonaviy ishlab chiqarish liniyalarida qo‘llanilayotgan robot manipulyatorlar, pnevmotransport tizimlari, yuqori tezlikli rotorlar va elektromexanik uzatmalar yuqori yuklama hamda murakkab dinamik sharoitlarda ishlaydi. Bunday muhitda kichik amplitudali vibratsion buzilishlar yoki qisqa muddatli impulslar dastlab sezilmasligi mumkin, biroq vaqt o‘tishi bilan ular jiddiy mexanik shikastlanishlarga, energiya samaradorligining pasayishiga va hatto butun texnologik liniyaning to‘xtashiga olib keladi. Shu sababli signal diagnostikasi nafaqat texnik xizmat ko‘rsatish vositasi, balki ishlab chiqarish xavfsizligini ta’minlovchi strategik mexanizm sifatida qaralmoqda.[2]

An’anaviy diagnostika metodlari asosan statsionar signal modellari asosida shakllangan bo‘lib, ular energetik spektrni global chastota fazosida baholashga tayanadi. Furye transformatsiyasi uzoq vaqt davomida signal tahlilining fundamental vositasi bo‘lib kelgan va ko‘plab muhandislik masalalarida samarali qo‘llanilgan. Biroq real sanoat signallarining aksariyati vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan, ya’ni no-statsionar xarakterga ega. Masalan, podshipnikdagi mikrodefekt paydo bo‘lishi, reduktor tishlarining notekis yeyilishi yoki pnevmotransport tizimida oqim turbulentligining ortishi signal tarkibida qisqa impulslar yoki modulyatsiyalangan komponentlarni yuzaga keltiradi. Furye tahlili signalni sinusoidal bazisga yoyish orqali vaqt koordinatasini yo‘qotadi, natijada diagnostika nuqtai nazaridan eng muhim savol — buzilishning qachon sodir bo‘lgani — ochiq qoladi. Bu holat global spektral paradigmaning asosiy cheklovi sifatida qaraladi.[5]

Signal tahlilida vaqt va chastota aniqligi o‘rtasidagi fundamental bog‘liqlik Geyzenberg noaniqlik printsipi bilan ifodalanadi. Ushbu printsipga ko‘ra, signalning vaqt bo‘yicha aniqligini oshirish chastota aniqligining pasayishiga olib keladi va aksincha. Qisqa oynali Furye transformatsiyasi (STFT) ushbu muammoni qisman yumshatishga harakat qiladi, biroq oyna kengligining o‘zgarmasligi sababli turli chastota diapazonlari uchun optimal lokalizatsiyani ta’minlay olmaydi. Yuqori chastotalarda yaxshi vaqt aniqligi talab qilinsa, past chastotalarda bu yondashuv ortiqcha segmentatsiyaga olib keladi. Natijada STFT ko‘p rezolyutsiyali strukturalarga ega signallarni tahlil qilishda yetarli darajada moslashuvchan emas.

Ko‘p masshtabli tahlil konsepsiyasiga asoslangan wavelet transformatsiya ushbu muammoning istiqbolli yechimi sifatida ilmiy hamjamiyatda keng e’tirof etilgan. Wavelet bazis funksiyalarining siqilish va cho‘zilish xossasi signalni turli rezolyutsiyalarda ko‘rib chiqish imkonini beradi: kichik masshtablarda yuqori vaqt aniqligi, katta masshtablarda esa yuqori chastota aniqligi ta’minlanadi. Shu sababli wavelet tahlil ko‘pincha “matematik mikroskop” sifatida ta’riflanadi — u signal tarkibidagi yashirin lokal strukturalarni aniqlashga qodir. Ayniqsa singulyarliklar, diskontinuitetlar va impulsli buzilishlarni aniqlashda wavelet transformatsiya klassik metodlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega.[2]

Shunga qaramay, mavjud wavelet asosidagi diagnostika metodlarining ko‘pchiligida bir qator nazariy va amaliy cheklovlar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, ko‘plab yondashuvlar qat’iy threshold tanlashga asoslanadi, bu esa shovqin dispersiyasi o‘zgarganda noto‘g‘ri signal ehtimolining oshishiga olib keladi. Ikkinchidan, diagnostik qaror ko‘pincha empirik mezonlarga tayanadi va uning statistik optimalga yaqinligi har doim ham asoslab berilmaydi. Uchinchidan, energiya invariantligi va operator barqarorligi kabi muhim matematik xossalar aksariyat ishlarda chuqur tadqiq etilmagan.

Natijada wavelet metodlarining amaliy samaradorligi yuqori bo‘lsa-da, ularning nazariy umumlashmasi yetarli darajada shakllanmagan.[6]

Signal diagnostikasini matematik nuqtai nazardan qaraganda, asosiy muammo shovqin fonida zaif strukturaviy buzilishni aniqlashdan iborat bo‘lib, bu klassik statistik gipoteza sinovi bilan chambarchas bog‘liq. Agar signal modeli stoxastik jarayon sifatida qaralsa, nosozlikni aniqlash Neyman–Pirson optimal detektori masalasiga kelib taqaladi. Biroq no-statsionar signallar uchun ehtimollik taqsimotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholash murakkab bo‘lgani sababli, wavelet fazosiga o‘tish diagnostikani sezilarli darajada soddalashtiradi. Wavelet koeffitsiyentlari signal energiyasining lokal tashuvchilari sifatida qaralishi mumkin, bu esa energiyaga asoslangan diagnostik mezonlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy g‘oyasi signalni ko‘p masshtabli energiya makonida tasvirlash hamda diagnostik qarorni logarifmik regressiya asosida shakllantirishdan iborat. Bunday yondashuv bir vaqtning o‘zida uchta muhim talabni qanoatlantiradi: statistik barqarorlik, yuqori sezgirlik va hisoblash samaradorligi. Bundan tashqari, wavelet operatorini freym nazariyasi orqali tahlil qilish energiyaning saqlanishini hamda rekonstruksiya xatosining chegaralanganligini isbotlash imkonini beradi. Bu esa metodni faqat empirik emas, balki qat’iy matematik asosga ega diagnostika vositasiga aylantiradi.[9]

Tadqiqotning ilmiy muammosi quyidagicha formulalanadi: shovqin bilan buzilgan no-statsionar signalda lokal impulsli anomaliyalarni minimal noto‘g‘ri aniqlash ehtimoli bilan aniqlay oladigan, energiyaga invariant va statistik optimalga yaqin diagnostik mezonni ishlab chiqish zarur. Ushbu muammoni hal qilish uchun wavelet transformatsiya, funksional analiz, statistik qaror nazariyasi va konveks optimallashtirish elementlarini integratsiyalash taklif etiladi.[6]

Mazkur ishning ilmiy yangiligi ko‘p masshtabli log-energiya diagnostik indeksini joriy etish, uning asimptotik taqsimotini chiqarish, wavelet freym asosida barqarorligini isbotlash hamda sparse tasvirlash yordamida signal-to-noise nisbatining oshishini nazariy ko‘rsatishdan iborat. Taklif etilayotgan metod global spektral yondashuvdan lokal adaptiv diagnostika paradigmasiga o‘tishni ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy nuqtai nazardan ham muhimdir. Yuqori sezgir diagnostika algoritmlari prediktiv texnik xizmat ko‘rsatish tizimlarining ajralmas qismi bo‘lib, ishlab chiqarish to‘xtashlarini kamaytirish, ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish va uskunalar xizmat muddatini uzaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa aqlli sensorlar va SCADA tizimlari bilan integratsiya qilinganda, wavelet asosidagi monitoring kelajakdagi kiber-fizik ishlab chiqarish tizimlarining muhim komponentiga aylanishi kutilmoqda.[1]

Shu tariqa, mazkur maqolada signal diagnostikasi uchun yangi nazariy model ishlab chiqiladi, uning matematik xossalari qat’iy isbotlanadi hamda ko‘p masshtabli energiya tahlilining sanoat signallarini aniqlashdagi ustunliklari ko‘rsatib beriladi. Taklif etilgan yondashuv diagnostika nazariyasini yanada umumlashtirish bilan birga, yuqori ishonchlilik talab qilinadigan muhandislik tizimlari uchun universal metodologik platforma yaratishga qaratilgan.

Mazkur ishning ilmiy yangiligi signal diagnostikasi uchun energiyaga asoslangan adaptiv wavelet mezonini ishlab chiqish, uning optimal aniqlash shartini chiqarish hamda Hilbert fazosidagi ortonormal yoyilish orqali konvergentsiyasini isbotlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda no-statsionar signallarni tahlil qilishda qisqa oynali Furye transformatsiyasi (STFT), WignerVille taqsimoti va wavelet transformatsiya keng qo'llanila boshladi. STFT vaqt-chastota aniqligi o'rtasida qat'iy kompromissga ega:

$$\Delta t \cdot \Delta \omega \geq \frac{1}{2}$$

bu Geyzenberg noaniqlik printsipining signal tahliliga tatbiqidir. Oyna kengligi o'zgarmas bo'Igani sababli yuqori chastotalar uchun lokalizatsiya yomonlashadi.

Wavelet transformatsiya esa adaptiv oynaga ega:

$$\psi_{a,b}(t) = \frac{1}{\sqrt{|a|}}\psi\left(\frac{t-b}{a}\right)$$

kichik masshtablarda yuqori vaqt aniqligi, katta masshtablarda esa yaxshi chastota aniqligi ta'minlanadi. Ko'plab tadqiqotlarda wavelet koeffitsiyentlarining modul maksimumlari singulyarliklarni aniqlash uchun qo'llangan. Biroq mavjud yondashuvlarning aksariyatida diagnostik qaror qat'iy chegaraga asoslanadi va shovqin dispersiyasining o'zgarishi hisobga olinmaydi. Shu sababli adaptiv energiya mezonini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Muammo qo'yilishi va matematik model

Signal quyidagicha tasvirlanadi:

$$x(t) = s(t) + n(t) + a(t)$$

bu yerda foydali signal $s(t)$, oq Gauss shovqini $n(t) \sim N(0, \sigma^2)$, nosozlik komponenti esa lokal impuls sifatida qaraladi.

Diagnostika gipotezalari:

$$H_0: a(t) = 0, H_1: a(t) \neq 0$$

Optimal detektor Neyman-Pirson mezoniga ko'ra likelihood nisbatiga asoslanadi:

$$\Lambda(x) = \frac{p(x \mid H_1)}{p(x \mid H_0)}$$

Ammo signalning no-statsionarligi sababli ehtimollik zichligini to'g'ridan-to'g'ri baholash qiyin. Shu nuqtada wavelet fazosiga o'tish diagnostikani soddalashtiradi.

Uzlukli wavelet transformatsiya:

$$W(a,b) = \langle x, \psi_{a,b} \rangle$$

Parseval identitetiga ko'ra energiya saqlanadi:

$$\|x\|^2 = \int |W(a,b)|^2 \frac{dadb}{a^2}$$

Taklif etilayotgan diagnostik mezon lokal energiyaga asoslanadi:

$$E(a,b) = |W(a,b)|^2$$

Shovqin uchun:

$$\mathbb{E}[E] = \sigma^2 \|\psi\|^2$$

Impuls mavjud bo'Iganda:

$$E = \sigma^2 + A^2 |\psi(0)|^2$$

Demak energiya ortishi nosozlik amplitudasining kvadratiga proporsional.

Teorema (optimal lokalizatsiya) -Agar nosozlik Dirak impuls bilan yaqinlashtirilsa:

$$a(t) = A\delta(t - t_0)$$

unda wavelet koeffitsiyenti:

$$W(a,b) = A\psi\left(\frac{t_0 - b}{a}\right)$$

Energiya maksimumi quyidagi shartni qanoatlantiradi:

$$\frac{\partial}{\partial b} |W(a,b)|^2 = 0$$

Hosila nolga teng bo'lishi uchun:

$$t_0 - b = 0 \Rightarrow b = t_0$$

Shunday qilib, wavelet transformatsiya impuls vaqtini xatosiz baholovchi optimal lokal operator hisoblanadi.

Wavelet operatori chiziqli va uzluksiz bo'lib,

$$\|W(x + \epsilon)\| \leq \|W(x)\| + \|W(\epsilon)\|$$

Agar shovqin energiyasi cheklangan bo'Isa, diagnostik indeksning o'zgarishi ham chegaralangan:

$$|D(x + \epsilon) - D(x)| \leq C\|\epsilon\|$$

Bu Lipschitz barqarorlik sharti bo'lib, metodning amaliy ishonchliligini tasdiqlaydi.

Taklif etilayotgan yangi diagnostik indeks. Ko'p masshtabli log-energiya regressiyasi joriy etiladi:

$$D = \sum_{i=1}^{m} \alpha_i \log(|W_i|^2)$$

Markaziy limit teoremasiga ko'ra:

$$D \xrightarrow{d} N(\mu, \sigma_D^2)$$

Optimal chegaraviy qiymat:

$$D_{\text{crit}} = \mu + z_{1-\beta}\sigma_D$$

bu yerda β - noto'g'ri rad etish ehtimoli.

Natijada aniqlash ehtimoli:

$$P_d = \Phi\left(\frac{\mu_1 - \mu_0}{\sigma_D}\right)$$

klassik energiya detektoriga nisbatan yuqori bo'ladi.

Model signal:

$$s(t) = \sin(40\pi t), a(t) = 3e^{-200(t-0.5)^2}$$

Diskret wavelet sifatida Daubechies bazisi qo'llanildi.

Jadval 1. Diagnostik ko‘rsatkichlar

Holat	Maks. wavelet energiya	Diagnostik indeks	Aniqlash ehtimoli
Normal	0.91	1.08	0.07
Mikro impuls	2.87	2.64	0.93
Kuchli buzilish	6.12	4.71	0.998

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, impuls amplitudasi ikki baravar oshganda energiya deyarli to‘rt baravar ortadi, bu kvadratik sezgirlikni tasdiqlaydi.

Hisoblash murakkabligi

Diskret wavelet transformatsiya tezkor algoritmga ega:

$$O(N)$$

Furye transformatsiyasi bilan bir xil tartibda bo'Isa-da, vaqt lokalizatsiyasi ancha yuqori. Real vaqt tizimi uchun kechikish:


$$\tau \approx \frac{L}{f_s}$$

bu yerda L - filtr uzunligi.

Muhokama (Discussion)


Olingan natijalar wavelet asosidagi diagnostika uchta muhim ustunlikka ega ekanini ko‘rsatadi. Birinchidan, vaqt-chastota adaptivligi sababli impulsli nosozliklar yuqori kontrast bilan ajraladi. Ikkinchidan, energiya invariantligi modelni shovqin dispersiyasiga nisbatan kam sezgir qiladi. Uchinchidan, logarifmik regressiya noto‘g‘ri signal ehtimolini eksponentsial kamaytiradi.[10]

Nazariy jihatdan bu metod ayniqsa rotor tizimlari, ventilyatorlar va pnevmotransport liniyalarida foydali bo‘lishi mumkin, chunki bunday qurilmalarda vibratsiya signallari ko‘pincha no-statsionar xarakterga ega. Prediktiv texnik xizmat algoritmlariga integratsiya qilinganda, ushbu yondashuv avariyalarni oldindan prognozlash imkonini beradi 1,2,3-rasmlar.




1-rasm. Impulsli statsionar bo'lmagan signal

Signal grafigida t≈0.5t da impuls aniq ko‘rinadi. Bu no-statsionar buzilish bo‘lib, klassik spektral metodlar uchun aniqlash qiyin hisoblanadi.



2-rasm. Furye spektri

Spektrda asosiy chastota mavjud, ammo impuls energiyasi butun diapazonga tarqalgan. Bu Furye transformatsiyaning vaqt lokalizatsiyasi yo‘qligini yana bir bor ko‘rsatadi.



3-rasm. To'lqin skalogrammasi (energiya xaritasi)

Skalyogrammada impuls joylashgan nuqtada ko‘p masshtabli energiya konsentratsiyasi hosil bo‘lgan. Bu wavelet diagnostikaning asosiy ustunligi — **vaqt-chastota lokal aniqligi** — ni empirik tasdiqlaydi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda signal diagnostikasi uchun yangi ko‘p masshtabli energiya modeli ishlab chiqildi va funksional analiz asosida nazariy jihatdan isbotlandi. Wavelet fazosida impuls lokalizatsiyasining optimal ekanligi ko‘rsatildi, diagnostik indeksning asimptotik normal taqsimotga yaqinlashishi esa statistik qaror qabul qilishni soddalashtiradi. Sonli tajribalar metodning yuqori sezgirligi va barqarorligini tasdiqladi. Ushbu yondashuv aqlli monitoring tizimlari va sanoat robotlari uchun keyingi avlod diagnostik algoritmlarini yaratishda muhim nazariy platforma bo‘lishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mallat, S. *A Wavelet Tour of Signal Processing*. Academic Press.
2.Daubechies, I. *Ten Lectures on Wavelets*. SIAM.
3.Cohen, L. *Time-Frequency Analysis*. Prentice Hall.
4.Addison, P. *The Illustrated Wavelet Transform Handbook*. CRC Press.
5.Percival, D., Walden, A. *Wavelet Methods for Time Series Analysis*. Cambridge University Press.
6.Donoho, D. “De-noising by soft-thresholding,” IEEE Transactions on Information Theory.
7.Kaiser, G. *A Friendly Guide to Wavelets*.
8.Vetterli, M., Kovacevic, J. *Wavelets and Subband Coding*.
9.Torrence, C., Compo, G. “A Practical Guide to Wavelet Analysis,” Bulletin of the AMS.
10. Misiti, M. et al. *Wavelet Toolbox User Guide*.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

G. Milibaeva, X. Rahimov,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Materialshunoslik Instituti, Toshkent sh.
A.Rahimov
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent sh
J.Nurmetov, K.Bobojonov,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch sh., Xorazm
A. Uzoqov
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Toshkent sh.
e-mail: gmilibaeva@gmail.com

GRAFENDAGI SOCHUVCHI MARKAZLARNING TO‘LQIN PAKETI DINAMIKASIGA TA’SIRINI NAZARIY O‘RGANISH

Abstrakt. *Ushbu ishda grafen monoqatlamida chiziqli joylashgan doirasimon elektrostatik sochuvchi markazlar mavjud bo‘lganda to‘lqin paketi dinamikasi nazariy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi sochuvchi markazlar yaqinlashtirilganda ularning potensial sohalari ustma-ust qoplanishi natijasida to‘lqin paketining potensial hududdan o‘tish ehtimolligi qanday o‘zgarishini aniqlashdan iborat. Hisoblashlar Dirak uzluksiz modeli va operatorlarni ajratish usuli yordamida bajarildi. Natijalar sochuvchi markazlar sonining ortishi bilan to‘lqin paketining to‘siqdan o‘tish ehtimolligi kamayishini, potensial baryerning yuqori qiymatlarida esa bu ta’sir yanada ortishi ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *grafen, to‘lqin paketi, elektrostatik potensial, potensial to‘siq, Dirak tenglamasi.*

Г.Милибаева, Х.Рахимов
Институт материаловедения Академии наук Республики Узбекистан, г. Ташкент
А.Рахимов
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбек, г. Ташкент
Ж.Нурметов, К.Бобожонов
Ургенчский государственный университет имени Абу Райхон Беруний, г. Ургенч, Хорезм
А.Узоков
Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низомий, г. Ташкент

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ РАССЕИВАЮЩИХ ЦЕНТРОВ В ГРАФЕНЕ НА ДИНАМИКУ ВОЛНОВОГО ПАКЕТА

Аннотация. *В данной работе теоретически исследуется динамика электронного волнового пакета в монослое графена при наличии линейно расположенных круговых электростатических рассеивающих центров. Основной целью исследования является выяснение того, как изменяется вероятность прохождения волнового пакета через потенциальную область при сближении рассеивающих центров, когда их потенциальные области частично или полностью перекрываются. Расчёты выполнены в рамках непрерывной модели Дирака с использованием метода разделения операторов. Полученные результаты показывают, что с увеличением числа рассеивающих центров вероятность прохождения волнового пакета через потенциальный барьер уменьшается, причём при более высоких значениях потенциального барьера данный эффект проявляется более выраженно.*

Ключевые слова: *графен, волновой пакет, электростатический потенциал, потенциальный барьер, уравнение Дирака*

G.Milibaeva, Kh.Rahimov
Institute of Materials Science, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent
A.Rahimov
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Tashkent

J.Nurmetov, K.Bobojonov
Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, Urgench, Khorezm
A.Uzoqov
Uzbekistan National Pedagogical University named after Nizami Ganjavi, Tashkent

THEORETICAL STUDY OF THE EFFECT OF SCATTERING CENTERS ON WAVE-PACKET DYNAMICS IN GRAPHENE

Abstract. *In this work, the dynamics of an electron wave packet in a graphene monolayer is theoretically studied in the presence of linearly arranged circular electrostatic scattering centers. The main objective is to determine how the transmission probability of the wave packet through the potential region changes when the scattering centers are brought closer together, leading to partial or complete overlap of their potential regions. The calculations are performed within the framework of the Dirac continuum model using the split-operator method. The results show that an increase in the number of scattering centers leads to a reduction in the transmission probability of the wave packet, while this effect becomes more pronounced at higher potential barrier heights.*

Keywords: *graphene, wave packet, electrostatic potential, potential barrier, Dirac equation.*

KIRISH

Grafen bir qator g'ayri oddiy xususiyatlari tufayli zamonaviy nanoelektronika uchun eng istiqbolli materiallardan biri bo'lib qolmoqda [1-4]. Dirak-fermionlarga o'xshash kvazi-zarrachalarning deyarli to'siqsiz tarqalishi va uzun sochilish yo'llari grafenda to'lqin tabiatidagi transport hodisalarini, va geometriya bilan boshqariladigan tunnellanish jarayonlarini kuzatish imkonini beradi [3-6]. Shu bilan birga, real namunalar turli turdagi nuqsonlar va zaryadli uyumlar tufayli murakkab potensial manzara hosil qilib, grafenning elektron va transport xossalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [7-10].

Grafenda kvazizarralar dinamikasini to'lqin paketi yondashuvi asosida o'rganish, vaqtga bog'liq tunnellanish jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi [11-14]. Dirak uzluksiz modeli va operatorlarni ajratish usuli yordamida olib borilgan hisoblashlar turli potensial to'siqlar va tartibli panjara kabi sun'iy potensiallar to'lqin paketining qanday tarqalishini ko'rsatib bergan [15-17]. So'nggi ishlar davriy joylashgan elektrostatik to'siqlar to'lqin paketining potensial sohadan o'tish ehtimolligi va fazoviy profilini sezilarli darajada o'zgartirishi, natijada grafen nanotuzilmalarida boshqariladigan transport rejimlari hosil bo'lishini ko'rsatdi.


Grafenda sochuvchi markazlarning soni, balandligi (potensialning qiymati) va o'lchami (radiusi) joylashuvini o'zgartirish orqali elektron to'lqin paketlari uchun fazoviy filtrlash va rektifikatsiya kabi to'lqin-optik funksiyalarni amalga oshirish mumkinligini ko'rsatuvchi nazariy va tajribaviy natijalar ham paydo bo'lmoqda [18-21]. Biroq, ushbu ishlarning aksariyati davriy yoki murakkab panjara konfiguratsiyalariga qaratilgan bo'lib, yakka yoki cheklangan sondagi sochuvchi markazlar bilan o'zaro ta'sirda Gauss tipidagi to'lqin paketlar dinamikasining vaqt bo'yicha tahlili hali yetarlicha o'rganilmagan. Aynan bunday minimal konfiguratsiyalar chiziqli, nochiziqli va kvazi-ballistik rejimlar o'rtasidagi o'tishlarni tushunish, shuningdek, kelajakdagi elektron optik elementlar dizayni uchun sodda, lekin ma'lumotga boy model tizim sifatida alohida ahamiyatga ega.

Mazkur ishda grafendagi doirasimon elektrostatik sochuvchi markazlar ishtirokida Gauss to'lqin paketi dinamikasining nazariy tahlili taqdim etiladi. Bunda Dirak uzluksiz modeli operatorlarni ajratish sxemasi asosida to'lqin paketining sochuvchi markazlar bilan o'zaro ta'sir jarayonida o'tish va qaytish ehtimolliklari hisoblab chiqiladi. E'tibor, avvalo, sochuvchi markazlarning soni, o'lchami va geometrik joylashuvi o'zgarishi bilan to'lqin paketi dinamikasida yuzaga keladigan o'zgarishlarga qaratiladi; olingan natijalar grafenda geometriya bilan boshqariladigan elektron-optik funksional elementlarni loyihalash uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan dizayn tamoyillarini shakllantiradi.

MODEL TIZIM VA NAZARIY QISM

Ushbu tadqiqotimizda qaralayotgan model tizimning sxematik tasviri 1-rasmda keltirilgan. Tizim o'lchamlari L=1024 nm (uzunligi) va W=128 nm (kengligi) bo'lgan grafen monoqatlamidan iborat bo'lib, uning ichiga doira shaklidagi elektrostatik potensial baryerlar joylashtirilgan. Tadqiqot doirasida rasmda keltirilgan kabi joylashgan potensiallar ko'rib chiqildi: (*a*) 1-namuna doiraviy potensial to'siqlar o'zaro biror uzoqlikda joylashgan; (*b*) 2-namuna esa sochuvchi markazlar o'zaro yaqinlashtirib boriladi va uning to'lqin paketi dinamikasiga ta'siri o'rganiladi. Elektron to'lqin paketi grafenning chap chegarasidan boshlang'ich impuls bilan x-yo'nalish bo'ylab tarqaladi. Ishda asosan ikkita konfiguratsiya ko'rsatilgan: 1-namunada doirasimon sochuvchi markazlar grafen monoqatlamida joylashtirilgan bo'lib ular orasida masofa kattaroq. Bu holatda har bir sochuvchi markaz alohida lokal potensial to'siq sifatida namoyon bo'ladi. 2-namunada esa doirasimon sochuvchi markazlar bir-biriga yaqin joylashib, hatto o'zaro kesishadi. Natijada alohida sochuvchilarning potensial sohalari o'zaro ustma-ust tushadi va grafen monoqatlami samarali to'siqsimon muhit vujudga keladi. Bu konfiguratsiya to'lqin paketining to'siqli sohadan o'tishi va qaytish ehtimolliklarini keskin o'zgartirishi kutiladi.

Har ikkala namuna uchun sochuvchi markazlarning radiusi va potensial balandligi bir xil saqlanadi; farq faqat ularning o‘zaro masofasi va joylashuv tartibi bilan belgilanadi. Bu esa to‘lqin paketi dinamikasiga potensiallarni o‘zaro kesishishi jarayoni ta’sirini bevosita solishtirish imkonini beradi. Potensial to‘siqlar radiusi $R = 10$ nm etib tanlandi. Potensial to‘siqlarning ta’sirini o‘rganish maqsadida 20 dan 300 meV gacha bo‘lgan qiymatlari oralig‘i tanlandi.



1-rasm. Grafenda to‘lqin paketining tarqalishining sxematik tasviri keltirilgan. Rangli to‘lqin fronti va yashil yo‘nalish to‘lqin paketining harakati yo‘nalishini ifodalaydi. Ko‘k rang sochuvchi markazlarni, ya’ni potensial to‘siqlarni bildiradi.

Natijalar Dirak uzluksiz modelining qo‘llanilishi doirasida, ya’ni Dirak konusi atrofida (quyi energiya sohasida) qolishini ta’minlash uchun to‘lqin paketining energiyasi va o‘lchami, mos ravishda, E=100 meV va a_x=10 nm ga teng qilib olindi, hamda relyativistik kvazizarrani Gauss to‘lqin paketi deb qaraldi. Xususan, Gauss to‘lqin fronti olinib, u x – yo‘nalishida chekli kenglikka ega va quyidagicha ifodalanadi:

$$\Psi(x,y,0) = N \begin{pmatrix} 1 \\ 1 \end{pmatrix} e^{ikx - \frac{x^2}{2a_x^2}} \qquad (1)$$

bu yerda N – normallashtirish doimiysi, x – yo‘nalish bo‘ylab to‘lqin tarqalishini ta’minlash uchun psevdo-spinor $\langle\sigma_x\rangle$=1 va $\langle\sigma_y\rangle$=$\langle\sigma_z\rangle$=0 etib tanlangan. To‘lqin paketining tarqalishi, dastlabki to‘lqin paketiga qo‘llaniladigan vaqt evolyutsiyasi operatori orqali ifodalanadi:

$$\Psi(x,y,t+\Delta t) = e^{-\frac{i}{\hbar}H\Delta t}\Psi(x,y,t) \qquad (2)$$

bu yerda H – grafenda quyi energiyalardagi elektron uchun Gamilton operatori bo‘lib, quyidagicha ifodalanadi:

$$H = v_F\,(\vec{\sigma}\cdot\vec{p}) + V(x,y)\,\mathbf{I}, \qquad (3)$$

bu yerda v_F – **Fermi tezligi** ($v_F \approx 10^6$ m/s), $\vec{\sigma}$ Pauli matritsalari va ***I*** birlik matritsasi, $V(x,y)$ esa skalyar potensialni ifodalaydi [22,23]. To‘lqin funksiyalari psevdo-spinorlar sifatida yoziladi $\Psi=(\Psi_A\ \Psi_B)^T$, bunda Ψ_A va Ψ_B mos ravishda elektronning A va B panjaralarida bo‘lishi ehtimolligiga mos keladi. Qulaylik uchun operatorlarni ajratish usuli qo‘llanildi [15-17]:


$$\exp\left[-\frac{i}{\hbar}H\Delta t\right] = \exp\left[-\frac{i}{2\hbar}V(x,y)\mathbf{I}\Delta t\right]\exp\left[-\frac{i}{\hbar}v_F\vec{p}\cdot\vec{\sigma}\Delta t\right]\exp\left[-\frac{i}{2\hbar}V(x,y)\mathbf{I}\Delta t\right], \qquad (4)$$

$O(\Delta t^3)$ va undan yuqori tartib shartlari e’tiborga olinmadi. Ushbu yondashuv haqiqiy va teskari fazolarda samarali takrorlash imkonini beradi hamda Furye almashtirish va $p=\hbar\vec{k}$ orqali impuls operatorining aniq farqlanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bundan tashqari, Pauli matritsalarini o‘z ichiga olgan matritsalarni qayta shakllantirish mumkin [15]. Hisoblashlar Δt = 0,1 fs vaqt qadami bilan amalga oshirildi va to‘siq mavjud bo‘lgan sohadan oldin, soha oralig‘ida va sohadan keyin elektronning topilish ehtimolligi hisoblandi. To‘siqli sohadan o‘tish ehtimolligi (P) qilib olindi. Davriy chegara shartlari bilan bog‘liq sonli takrorlanishning oldini olish uchun 1024×128 nm bo‘lgan yetarlicha katta o‘lchamlar tanlandi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Ushbu bo‘limda grafen monoqatlamida bir chiziq bo‘ylab joylashgan doirasimon sochuvchi markazlar sonining to‘lqin paketining shu sohadan o‘tishiga ta’siri tahlil qilinadi. Hisoblashlarda to‘lqin paketi o‘lchami 10 nm bo‘lgan va

energiyasi E = 100 meV ga teng deb olindi. Bu parametrlar to‘lqin paketining potensial soha bilan o‘zaro ta’sirini barqaror modellashtirish imkonini beradi.



2-rasm. Grafen monoqatlamida joylashgan doirasimon sochuvchi markazlar soni 2, 4, 6, 8, va 10 bo‘lganda to‘lqin paketining potensial to‘siqlar joylashgan hududdan o‘tish ehtimolligining vaqtga bog‘liqligi. Chap panelda potensial to‘siq balandligi V = 120 meV, o‘ng panelda esa V = 240 meV bo‘lgan qiymatlari uchun natijalar keltirilgan.

Doirasimon potensial to‘siqlar soni 2, 4, 6, 8, va 10 bo‘lgan holatlar ko‘rib chiqildi. 2-rasmda to‘lqin paketining potensial hududdan o‘tish ehtimolligining vaqtga bog‘liqligi ikkita turli potensial qiymatlari uchun keltirilgan: 120 meV (chapdagi grafik) va 240 meV (o‘ngdagi grafik). Barcha holatlarda to‘lqin paketining to‘siqli sohadan o‘tish ehtimolligi vaqt o‘tishi bilan keskin ortib, taxminan 150 fs dan keyin to‘yingan qiymatga yetadi. Chapdagi grafikdan ko‘rinishicha, V = 120 meV bo‘lganda to‘lqin paketining energiyasi potensial to‘siq balandligiga yaqin bo‘lishiga qaramay, o‘tish ehtimolligi nisbatan yuqori qiymatlarda saqlanadi. Potensial to‘siqlar soni 2 ta sochuvchi markazdan iborat bo‘lgan holatda to‘lqin paketining bu sohadan o‘tish ehtimolligi taxminan 0.9 dan yuqori qiymatga yetadi. Sochuvchi markazlar soni ortib borgani sari, yani ularning soni 4, 6, 8, va 10 ta bo‘lsa, to‘lqin paketini ushbu sohadan o‘tish ehtimolligi muntazam ravishda kamayadi.

Bu kamayish to‘lqin paketining bir qatorda joylashgan potensial to‘siqlar bilan ko‘p martalik sochilishi kuchayishi bilan izohlanadi. Har bir qo‘shimcha sochuvchi markaz to‘lqin paketini qisman qaytaradi, natijada o‘tish ehtimolligi nisbatan kamayib boradi. Shunga qaramay, grafenga xos bo‘lgan relativistik xususiyatlar sababli, hatto 10 ta sochuvchi markaz mavjud holat uchun ham o‘tish ehtimolligi ≈0.75 atrofida saqlanib qoladi, bu esa to‘lqin paketining sezilarli darajada tunnellanish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Potensial to‘siq qiymati 240 meV bo‘lgan holatda to‘lqin paketining energiyasidan ancha yuqori bo‘lib, bu o‘tish ehtimolligining keskin kamayishiga olib keladi. To‘siqlar soni 2 ta bo‘lgan holatda ham o‘tish ehtimolligi, chapdagi grafik (120 meV) holatiga nisbatan kichikroq bo‘lib, sochuvchi markazlar soni ortishi bilan yanada kamayadi.

Xususan, sochuvchi markazlar 10 ta bo‘lgan holatda o‘tish ehtimolligi taxminan 0.6 atrofida to‘yinadi. Bu natija bir-biriga yaqin joylashgan ko‘p sonli doirasimon potensial to‘siqli muhit hosil qilishi va to‘lqin paketining bu hududdan o‘tishini sezilarli darajada cheklashi bilan bog‘liq. Potensial balandligining ortishi to‘siqdan qaytish ehtimolligini ortishiga va o‘tgan to‘lqinlar ehtimolligini kamayishiga olib keladi.

Har ikkala potensial holatni solishtirish shuni ko‘rsatadiki, elektron to‘lqin paketining dinamikasi sochuvchi markazlar soni va potensial to‘siq balandligiga juda sezgir. Sochuvchi markazlar sonining ortishi bilan ularning potensial sohalari qisman yoki to‘liq ustma-ust tushib, to‘lqin paketining interferensiya manzarasini tubdan o‘zgartiradi. Natijada, grafenda kvazizarra transportini potensial to‘siq balandligi, geometrik joylashuvi va to‘lqin paketining boshlang‘ich parametrlari orqali samarali boshqarish mumkinligi namoyon bo‘ladi.

Bu natijalar grafen asosidagi nanoelektron qurilmalarda tashqi elektrostatik potensiallar yordamida elektron oqimini nazorat qilish, shuningdek, turli funksional to‘siq va filtr strukturalarini loyihalash uchun muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Ushbu ishda grafen monoqatlamida joylashgan doirasimon elektrostatik sochuvchi markazlarning to‘lqin paketi dinamikasiga ta’siri nazariy jihatdan o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sochuvchi markazlar sonining ortishi bilan to‘lqin paketining potensial to‘siqlar mavjud hududdan o‘tish ehtimolligi kamayadi, bu esa ko‘p martalik sochilishlar bilan bog‘liq. Potensial baryerning kichik qiymatlarida grafenga xos relativistik xususiyatlar tufayli o‘tish ehtimolligi nisbatan yuqori bo‘lib qolsa, potensial to‘siqlarning katta qiymatlarida o‘tish ehtimolligi sezilarli darajada kamaydi. Bir-biriga yaqin

joylashgan (o‘zaro kesishuvchi) sochuvchi markazlar samarali uzluksiz to‘siqsimon muhit hosil qilib, to‘lqin paketining tarqalishini cheklaydi.

Olingan natijalar grafenda elektron transportni potensial balandligi va sochuvchi markazlar konfiguratsiyasi orqali boshqarish mumkinligini ko‘rsatadi hamda grafen asosidagi nanoelektron qurilmalarni loyihalashda muhim nazariy asos bo’lishi mumkin.

references

[1] K. S. Novoselov, *et al.*, Science 306, 666 (2004).
[2] A. K. Geim and K. S. Novoselov, Nat. Mater. 6, 169 (2007).
[3] A. K. Geim, Science 324, 1530 (2009).
[4] A. H. Castro Neto, *et al*., Rev. Mod. Phys. 81, 109 (2009).
[5] S. Das Sarma, *et al*., Rev. Mod. Phys. 83, 407 (2011).
[6] J. Martin, *et al*., Nat. Phys. 4, 144 (2008).
[7] Y. Zhang, *et al*., Nat. Phys. 5, 722 (2009).
[8] E. R. Mucciolo and C. H. Lewenkopf, J. Phys.: Condens. Matter 22, 273201 (2010).
[9] G. Sundaram and Q. Niu, Phys. Rev. B 59, 14915 (1999).
[10] J. W. Braun, Q. Su, and R. Grobe, Phys. Rev. A 59, 604 (1999).
[11] E. Romera and F. de los Santos, Phys. Rev. B 80, 165416 (2009).
[12] A. Chaves, *et al*., Phys. Rev. B 82, 205430 (2010).
[13] A. Chaves, *et al*., Commun. Comput. Phys. 17, 850 (2015).
[14] S. Palpacelli, *et al*., Int. J. Mod. Phys. C 23, 1250080 (2012).
[15] Kh. Rakhimov, *et al*., J. Phys.: Condens. Matter 23, 275801 (2011).
[16] M. Suleimanov, *et al*., Physica B 714, 417484 (2025).
[17] Kh. Rakhimov, *et al*., J. Appl. Phys. 137, 144302 (2025).
[18] E. Paredes-Rocha, *et al*., Phys. Rev. B 103, 045404 (2021).
[19] Sh. Chen, *et al*., Science 353, 1522 (2016).
[20] P. Rickhaus, *et al*., Appl. Phys. Lett. 107, 251901 (2015).
[21] Chen-Di Han, Hong-Ya Xu, and Ying-Cheng Lai, Phys. Rev. Research 2, 033406 (2020).
[22] M.M. Musaxanov va A.S. Rahmatov, Nazariy fizika kursi, III jild. Kvant mexanikasi, «Tafakkur bo’stoni» 2011 yil, 352 b.
[23] M.I. Katsnelson, The Physics of Graphene (2nd Edition), Cambridge University Press (2020), 425 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Odamov Umarboy Omonovich
O‘zR FA Enengetika muammolari instituti, texnika fanlari nomzodi katta ilmiy xodim
Komilov Mirziyo Mirkamolovich
Guliston davlat universiteti, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
mirziyo85@mail.ru
Raxmanov Valijon Turdaliyevich
Guliston davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Abdulazizov Bakhrom Toshmirza o‘g‘li
Namangan Davlat Universiteti f.m.d. prof.

ENERGETIKA TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI VA ISTIQBOLLAR

Annotatsiya: *Bugungi kunda ishlab chiqarilgan energiyani saqlash muammolari ham mavjud. Masalan, batareyalar orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini saqlash va uni eng yuqori soatlarda, quyosh yoki shamol energiyasi mavjud bo‘lmaganda ishlatishga imkon beradi. Bundan tashqari, suv resurslaridan ya’ni gidroakkumulyatordan foydalanish, suvni zohira rezervuarlariga quyish va eng zurur soatlarda suv turbinani aylantirish va elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun foydalanish masalalari hal qilishdagi ilmiy yo’nalishlar.*

Tayanch so’z va iboralar: *“Aqqli tarmoq” Smat Grid va IoT texnologiyalari, Neyron tarmoqlari, Sun’iy intellekt tizimlari, elektr stantsiyalarining ishlashini optimallashtirish, tarmoqdagi yuklamalarni boshqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari*

Адамов Умарбой Омонович
Институт энергетических проблем
Академии наук Республики Узбекистан, Кандидат технических наук, старший научный сотрудник
Комилов Мирзиё Миркамолович
Гулистанский государственный университет, Доктор философии (PhD) по техническим наукам
Рахманов Валижон Турдалиевич
Гулистанский государственный университет доктор философии (PhD) по педагогическим наукам
Абдулазизов Бахрома Ташмирзы сын.
Наманганский государственный университет Кандидат наук. проф.

ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ: ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ПЕРСПЕКТИВЫ.

Абстрактный: *Существуют также проблемы хранения энергии, производимой сегодня. Например, аккумуляторные батареи позволяют хранить электроэнергию, вырабатываемую возобновляемыми источниками энергии, и использовать ее в часы пик, когда солнечная или ветровая энергия недоступна. Кроме того, научные направления в решении вопросов, связанных с использованием водных ресурсов, а именно, применение гидроаккумуляторов, закачка воды в поверхностные водоемы и ее использование для вращения водяной турбины в часы пик и выработки электроэнергии.*

Ключевые слова и фразы: *«Smart Grid» Технологии Smart Grid и IoT, Нейронные сети, Системы искусственного интеллекта, Оптимизация работы электростанций, Управление сетевой нагрузкой, Возобновляемые источники энергии.*

Adamov Umarboy Omonovich
Institute of Energy Problems Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Technical Sciences, Senior Researcher
Komilov Mirziyo Mirkamolovich
Gulistan State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Rakhmanov Valijon Turdaliyevich
Gulistan State University, PhD. Pedagogical Sciences.
Abdulazizov Bakhrom Tashmirzy son.
Namangan State University Candidate of Sciences. Prof.

Adamov Umarboy Omonovich**APPLICATION OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE ENERGY SYSTEM AND FUTURE PROSPECTS**

Abstract: *There are also problems with storing the energy produced today. For example, batteries allow storing electricity generated by renewable energy sources and using it during peak hours when solar or wind energy is not available. In addition, scientific directions in solving issues related to the use of water resources, namely, the use of pumped storage tanks, pumping water into surface water bodies and using it to rotate a water turbine during peak hours and generate electricity.*

Keywords and phrases: *«Smart Grid» Smart Grid and IoT technologies, Neural networks, Artificial intelligence systems, Optimization of power plants, Network load management, Renewable energy sources*

Kirish. Hozirgi kunda zamonaviy energetika innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq inqilobiy o'zgarishlar yoqasiga etib keldi. Ushbu o'zgarishlar energiya tizimlarining samaradorligi, ishonchliligi va barqarorligini oshirish, shuningdek, energiya resuruslarni ishlab chiqarishdagi chiqindilarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning asosiy yo'nalishlaridan, biri bu qayta tiklanuvchi energiya manbalari: quyosh fotoelektr stantsiyalari, shamol elektr stantsiyalari, geotermal energetika resurslaridan foydalanish, suv resurslaridan foydalanish gidro-energetika sohasi va bioenergetika sohalari kiradi. Bundan tashqari energetika sohasiga intellektual energiya tizimlar, "Aqqli tarmoq" Smat Grid va IoT texnologiyalari kirib keldi, bunda energiya tizimini boshqarish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish, ya'ni Smat Gridda elektr energiyasini iste'mol qilish ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish orqali ishlab chiqarishni optimallashtirish, yuklamalarni boshqarish, tarmoq monitoringi va baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadi, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini energiya tizimiga samarali integratsiya qilish va iste'molchilarga energiya iste'molini faol ravishda boshqarish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Intellektual energetika axborot tizimlarida IoT va Smat Grid texnologiyalaridan foydalanib, ma'lumotlarni uzatish, qabul qilish va to'plash, ularni qayta ishlash va ularning orasidan zarur ma'lumotlarni topib olish jarayonlari juda murakkab, ayniqsa juda ko'p ma'lumotlar to'planganda. Shu ma'lumotlarni tez tahlil qilish va ular orasidan zarur ma'lumotlarni ajratib olishda neyron tarmoqlaridan foydalanish juda katta imkoniyatlarni beradi [1-2].

Neyron tarmoqlar inson miyasining tuzilishi va faoliyatidan ilhomlangan kuchli mashinani o'rganish vositasidir. Ular neyronlar deb ataladigan o'zaro bog'langan tugunlardan iborat bo'lib, ular miyadagi neyronlar kabi ma'lumotlarni qayta ishlaydi va uzatadi. Mashinani o'rganish ishlab chiqarishni rejalashtirishdan tortib sifat nazoratigacha bo'lgan ishlab chiqarishdagi turli jarayonlarni avtomatlashtirish uchun qo'llaniladi. Neyron tarmoqlari ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash va samaradorlikni oshirish uchun sensorlar, mashinalar va boshqa manbalardan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishga yordam beradi [3].


Tadqiqot metodologoyasi. Ushbu ishda intellektual energetika axborot tizimlarida neyron tarmoqlardan foydalanish orqali energiya tizimlarining samaradorligi, barqarorligi va ishonchliligini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Neyron tarmoqi sun'iy neyronlar yoki tugunlar va hisob-kitoblarni amalga oshiradigan kichik dasturlardan iborat. Bunday tugunlar juda ko'p, shuning uchun ular quyidagi qatlamlarga birlashtirilgan:

- kirish, ma'lumotlarni kelish joyi;
- bir yoki bir nechta yashirin ma'lumotlar ya'ni hisob-kitoblar amalga oshiriladigan joy;
- chiqish, saralangan ma'lumotlar chiqadigan joy.

Har bir tugun o'z qo'shnilari bilan bog'lanadi, ularning aloqasi sinaps deb ataladi va ma'lum bir miqdorga ega bo'ladi. Bu qiymat qanchalik baland bo'lsa, ikkita tugun o'rtasidagi aloqa shunchalik muhimroqdir.

Neyron tarmoqining ishlash jarayonining sxemasi 1- rasmda keltirilgan.



1-rasm. Neyron tarmoqining ishlash sxemasi.

1-rasmdan ma'lumki, kirish tugunidan olingan barcha ma'lumotlar yashirish qatlamdagi barcha tugunlarga etkaziladi, chunki ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan, yashirin qatlamda ma'lumotlar qayta va qayta ishlanadi, kerakli ma'lumotlar aniqlangandan keyin chiqish tugunlariga yetkaziladi.

Natijalar va ularning tahlili. Intellektual energetika tizimlarida elektr energiyasi iste'moli bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish muammosi misolida modelni ko'rib chiqaylik. Sun'iy intellekt tizimlari va neyron tarmoqlarida ushbu sinf muammolarini hal qilish uchun ularni matematik model sifatida tavsiflash kerak, bunda faollashtirish funktsiyasidan foydalanadi:

X - tanlangan parametrlar bo'yicha elektr energiyasi iste'moli bo'yicha malumotlarni tavsiflovchi ob'ektlar to'plami;

Y - tanlangan elektr energiyasi iste'moli bo'yicha malumotlariga javoblar to'plami;

$X \to Y$ - tizim qidiradigan noma'lum bog'liqlik sun'iy intellekt;

quyidagi to'plam berilgan: $\{x_1,x_2, \ldots x_n\} \in X$ - sun'iy intellektni o'qitish tizimi bo'yicha namuna olish;

$y_i = y(x_i),\ i=1,2\ldots n$ - nazorat tizimida ilgari ishlatilgan ma'lum javoblar energetika tizimi korxonalari bo'yicha:

Topishi kerak: $X \to Y$ butun x to'plamida y ga yaqinlashuvchi funktsiyani topish algoritmi.

Vektorlar $(f_1(x),\ldots f_i(x))$ – x ob'ektining xususiyat tavsifi.

U holda, "ob'ektlar -xarakteristikalari" matritsasi quyidagi shaklga ega bo'ladi:

$$F=||f_i(x_i)_i||_{nxl}=\begin{pmatrix} f_{1(x_1)}\cdots f_{l(x_i)} \\ \cdots \quad \cdots \quad \cdots \\ f_{n(x_n)}\cdots f_{l(x_{ni})} \end{pmatrix} \quad (1)$$

Bunda predikativ model funktsiyalarning parametrik oilasidan foydalanadi.

$$A=\{a(x)=g(x,\theta) \mid \theta \in \theta\}, \quad (2)$$

Bu yerda $g(x,\theta)$ x $\theta \to Y$- belgilangan funtsiya; θ – parametrlarining aniqlangan vektori ko'p haqiqiy parametr qiymatlari bilan.

Masalan, agar soddalik uchun parametrlar vektoriga ega chiziqli modelni olsak,

$\theta = (\theta_1, \ldots \theta_n)$, $\theta=R^n$ keyin kamida ikkita sinfga tasniflash (klassifikatsiya) uchun $Y=\{-1; +1\}$ u shunday ko'rinadi.

$$g(x,\theta) = \text{sign}\sum_{j=1}^{i} \theta_j f_j(x) \quad (3)$$

Hozirgi vaqtda bunday modeldan foydalanish juda qulay hisoblanadi, shunga qaramasdan o'ziga yarasha qiyinchiliklari ham mavjud.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, intellektual energetika axborot tizimlarida qaror qabul qilishda neyron tarmoqlari qo'llash energiya tizimlarining samaradorligini, barqarorligi va ishonchliligini oshirish uchun kuchli vosita hisoblanadi. Ularning qo'llanilishi elektr stantsiyalarining ishlashini optimallashtirish, tarmoqdagi yuklamalarni boshqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olingan energiyani tarmoqqa berishni moslashtirish va energiya bilan bog'liq boshqa muammolarni hal qilish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Комашинский В. И., Смирнов Д. А. Нейронные сети и их применение в системах управления и связи. М.: Горячая линия – Телеком, 2003.

2. U.O. Odamov, F.M. Makhammadiev, Advantages of Smart Grid over conventional integrated electrical system (IES), "Problems in the textile and light industry in the context of integration of science and industry and ways to solve them (PTLICISPWS-2)", Namangan (2023).

3. U.O. Odamov, F.M. Makhammadiev, Modern directions in the development of power industry on the basis of the SG concept, Publication in a Czech scientific journal "Sciences of Europe" (Praha, Czech Republic), 119, 42-46 (2023).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Berdiyev Usmonjon Farmonovich
U.A. Arifov Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies PhD
Shermatov Turaboy Yusupboevich
U.A. Researcher at Arifov Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies

TETRAETOKSISILAN ASOSIDA GIDROFOB QOPLAMA OLISH

Annotatsiya. *Ushbu ishda zol-gel usuli orqali tetroetoksisilan (TEOS)dan sintez qilingan kremniy dioksidi (SiO_2) nanozarralari asosida gidrofob qoplama olish texnologiyasi o‘rganildi. Sintez qilingan nanozarralar shisha substrat yuzasiga qoplanib, yuza morfologiyasi va suv kontakt burchagi aniqlandi. Natijalar shundan dalolat berdiki, zol-gel orqali hosil qilingan amorf SiO_2 qatlam yuza notekisligini oshiradi gidrofob xossalarni namoyon eta oladi.*

Kalit so‘zlar: *tetroetoksisilan (TEOS), kremniy dioksidi, zol-gel usuli, gidrofob yuza, kontakt burchagi, nanotuzilma.*

Berdiyev Usmonjon Farmonovich
U.A. Arifov Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies PhD
E-mail: berdiyev@iplt.uz
Shermatov Turaboy Yusupboevich
U.A. Arifov Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies researcher

HYDROPHOBIC COATING BASED ON TETRAETHOXYSILANE

Abstract.*In this work, the technology of obtaining a hydrophobic coating based on silicon dioxide (SiO_2) nanoparticles synthesized from tetraethoxysilane (TEOS) by the sol-gel method was studied. The synthesized nanoparticles were coated on the surface of a glass substrate, and the surface morphology and water contact angle were determined. The results showed that the amorphous SiO_2 layer formed by the sol-gel method can increase the surface roughness and exhibit hydrophobic properties.*

Keywords: *tetraethoxysilane (TEOS), silicon dioxide, sol-gel method, hydrophobic surface, contact angle, nanostructure.*

Бердиев Усмонжон Фармонович
Кандидат наук Института ионно-плазменных и лазерных технологий им. У.А. Арифова
Шерматов Торабой Юсупбоевич
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий им. У.А. Арифов Научный сотрудник

ГИДРОФОБНОЕ ПОКРЫТИЕ НА ОСНОВЕ ТЕТРАЭТОКСИСИЛАНА

Аннотация. *В данной работе изучена технология получения гидрофобного покрытия на основе наночастиц диоксида кремния (SiO_2), синтезированных из тетраэтоксисилана (TEOS) золь-гель методом. Синтезированные наночастицы были нанесены на поверхность стеклянной подложки, и были определены морфология поверхности и угол смачивания водой. Результаты показали, что аморфный слой SiO_2, образованный золь-гель методом, может увеличить шероховатость поверхности и проявлять гидрофобные свойства.*


Ключевые слова: *тетраэтоксисилан (TEOS), диоксид кремния, золь-гель метод, гидрофобная поверхность, угол смачивания, наноструктура.*

Kirish

So‘nggi yillarda gidrofob va ayniqsa supergidrofob yuzalar ilmiy tadqiqotlar va amaliy sanoat sohalarida tobora katta qiziqish uyg‘otmoqda. Bunday yuzalarning o‘ziga xos xususiyati — suv yoki boshqa suyuq fazalar bilan minimal kontaktda bo‘lishi, natijada suv tomchilari yuza bo‘ylab og‘ishib harakatlanishi va iflos moddalarni olib chiqishi hisoblanadi. Bu hodisa tabiatdagi “lotos effekti” bilan izohlanadi, ya’ni lotos bargining mikroteksturali va nanoqatlamli yuzasi suvni daf etadi va o‘zini tozalab turadi [1,2].

Shunday yuzalarga ega bo‘lish sanoatning bir qator sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi: metall va polimer konstruksiyalarni zangdan himoya qilish, optik linzalarni kirlanishdan saqlash, energiya tejamkor shisha qoplamalar,

tekstil va qurilish materiallarini gidroizolyasiya qilish, shuningdek, biomedisinalada antibakterial yuzalar yaratish kabi yo‘nalishlarda [3–5].



Rasm 1. Tomchining sirtdagi tasviri[6]. (a) tekis gidrofob sirt. (b) tekis gidrofil sirt. (s) notekis sirtda gomogen namlanish. (d) notekis sitrtda getrogen namlanish.

Gidrofob va supergidrofob yuzalarni yaratishda ikki asosiy omilga e’tibor qaratiladi, bunda birinchidan yuza notekisligi (roughness) – mikron yoki nanomiqyosdagi tuzilish suv tomchisining yuza bilan to‘liq aloqa qilishini cheklaydi, ikkinchidan yuza energiyasini pasaytirish – kimyoviy modifikatsiya orqali suv bilan o‘zaro ta’sirni kamaytirish.

Bu ikki omil Venzel (Wenzel) va Kassi–Bakster (Cassie–Baxter) modellari bilan nazariy asoslanadi [6]. Venzel modelida suv tomchisi yuzani to‘liq qoplagan holda tuzilish bo‘yicha kirib boradi va kontakt burchagi yuza notekisligiga proporsional ravishda ortib boradi. Kassi–Bakster modelida esa tomchi yuzaning yuqori nuqtalari ustida havo qatlami bilan tayangan holda turadi, bu esa gidrofoblikni yanada kuchaytiradi va supergidrofob holatga olib keladi (kontakt burchagi >150°).

Gidrofob yuzalar yaratishda turli yondashuvlar mavjud bo‘lib: fizik usullar plazmali ishlov berish, lazer litografiya, anodlash, travleniye), kimyoviy usullar (zol-gel sintezi, silanlashtirish, ftororganik modifikatsiya), yoki ularning kombinatsiyasi. Kimyoviy usullar ichida zol-gel texnologiyasi ko‘p jihatdan afzal hisoblanadi, chunki u past haroratda amalga oshadi, yuqori darajada bir xil nanoqatlam hosil qiladi va turli substrat sirtlarlarga oson tatbiq etiladi [7].

Kremniy dioksidi - SiO_2 nanozarralari zol-gel jarayonlarida asosiy moddiy baza sifatida keng qo‘llaniladi. Bu materialning muhim ustunliklari — yuqori termik va kimyoviy barqarorlik, optik shaffoflik, yuqori adgeziya, va uning yuzasidagi gidroksil (–Si–OH) guruhlari sababli turli organik yoki ftororganik molekulalar bilan oson ximiyaviy bog‘ hosil qila olishi [8]. Shu bilan birga, kremniy dioksidi nanoqatlamlari mikron darajadagi notekislikni ta’minlab, silanlashtiruvchi agentlarsiz ham ma’lum darajadagi gidrofoblikni namoyon eta oladi.

Tetroetoksisilan ($Si(OC_2H_5)_4$, TEOS) esa zol-gel usulida kremniy oksidi hosil qilish uchun eng keng tarqalgan prekursor hisoblanadi. TEOS suv ta’sirida gidrolizlanib ortometasilanol ($Si(OH)_4$) hosil qiladi, keyinchalik kondensatsiya jarayoni orqali amorf SiO_2 strukturasiga aylanadi. Bu reaksiyalar odatda etanol–suv muhitida ammiak yoki kislota ishtirokida amalga oshiriladi va hosil bo‘lgan nanozarralarning o‘lchami, shakli va agregatsiya darajasi reaksiya parametrlariga bog‘liq bo‘ladi [9,10].

So‘nggi tadqiqotlar ko‘rsatganidek, TEOS asosida hosil qilingan SiO_2 nanozarralari yordamida shisha, alyuminiy yoki polimer yuzalarda silanlashtiruvchi agentlarsiz ham 120–130° gacha bo‘lgan kontakt burchagi qiymatlariga erishish mumkin. Agar yuza mikrotekstura bilan birlashtirilsa, supergidrofob holat (CA >150°) ham vujudga kelishi mumkin [11].

Shu sababli, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — tetroetoksisilan (TEOS)dan zol-gel usulida sintez qilingan kremniy dioksidi (SiO_2) nanozarralari asosida gidrofob qoplama olish texnologiyasini ishlab chiqish, hosil bo‘lgan nanoqatlamlarning strukturaviy va morfologik xususiyatlarini o‘rganish hamda ularning gidrofoblik darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqod metodologiyasi.

Reaktivlar. Tetroetoksisilan (TEOS, 98%), etanol (C_2H_5OH), ammiak eritmasi ($NH_3 \cdot H_2O$, 25%), deionizatsiyalangan suv va shisha plastinkalar substrat sifatida ishlatildi. Barcha reaktivlar “Sigma-Aldrich” firmasi mahsulotlari bo‘lib, qo‘shimcha tozalashsiz ishlatildi.

Kremniy dioksidi (SiO_2) nanozarralarini zol-gel usulida sintez qilish

Kremniy dioksidi nanozarralari tetroetoksisilan (TEOS, $Si(OC_2H_5)_4$) asosida klassik zol-gel usuli yordamida sintez qilindi. Tadqiqotda analitik tozalikdagi reagentlar ishlatildi: tetroetoksisilan (TEOS, ≥99%), etanol (C_2H_5OH, 96%), distillangan suv va ammiak eritmasi (NH_4OH, 25%).

Sintez jarayoni: Birinchi navbatda, 50 ml etanol va 10 ml distillangan suvdan iborat aralashma tayyorlandi va 40 °C haroratda magnitli aralashtirgichda 15 daqiqa davomida aralashtirildi. So‘ngra 2 ml ammiak eritmasi reaksiya muhitiga

qo‘shildi va rN ≈ 10 atrofida ushlab turildi. Bu muhitda 5 ml TEOS tomchilatib kiritildi (tomizish tezligi ~1 ml/min).

Gidroliz va kondensatsiya reaksiyalari quyidagi tenglamalar orqali kechadi:

$$Si(OC_2H_5)_4+4H_2O \rightarrow Si(OH)_4+4C_2H_5OH$$

$$Si(OH)_4 \rightarrow SiO_2+2H_2O$$

Reaksiya 2 soat davom ettirildi, natijada gel xosil bo‘lib undan keyin zol shakllandi. Hosil bo‘lgan suspenziya 24 soat davomida yetiltirildi, so‘ngra syentrifugalab (5000 ob/daq, 5 daqiqa) ajratildi. Cho‘kma bir necha marotaba etanol va distillangan suv bilan yuvildi.

Olingan gel 60 °C haroratda 12 soat davomida vakuumli shkafta quritildi. Quritilgan namuna keyinchalik 500 °C da 2 soat davomida havo muhitida kalsinatsiya qilindi. Bu jarayon natijasida amorf strukturali, diametri 20–50 nm atrofida bo‘lgan SiO_2 nanozarralari hosil bo‘ldi.

Optimal shartlar: TEOS:etanol:suv miqdori nisbati — 1:10:4; katalizator — NH_4OH (rN 9–10); Reaksiya harorati — 40 °C; kalsinatsiya harorati — 500 °C.

Gidrofob qoplama tayyorlash usuli

Olingan kremniy dioksidi (SiO_2) nanozarralari asosida gidrofob qoplama tayyorlash uchun zol-gel suspenziyasi qoplash usuli (dip-coating) yordamida ishlatildi. Substrat sifatida shisha plastinkalar (25×75 mm) tanlandi.

Substratni tayyorlash: Shisha plastinkalar avval etanol va aseton aralashmasi (1:1 hajmda)da 15 daqiqa davomida ultratovush vannasida tozalandi, so‘ngra distillangan suv bilan yuvildi va 60 °C haroratda quritildi. Bu bosqich yuzadagi organik ifloslanishlarni bartaraf etib, nanoqoplamani bir tekis yotqizishga sharoit yaratadi.

Qoplama tayyorlash jarayoni: Kremniy dioksidi zoli 10 ml etanolda qayta suspenziyalandi va magnitli aralashtirgichda 20 daqiqa davomida gomogenlashtirildi. Olingan suspenziyaga 0,5 ml tetroetoksisilan (TEOS) va 0,1 ml ammiak eritmasi (NH_4OH) qo‘shilib, reaksiya 30 daqiqa davom ettirildi. Bu jarayon orqali nanozarralar yuzasidagi gidroksil guruhlari qisman kondensatsiyalanib, yuzada mikronanotuzilma shakllanishiga yordam beradi.

Tayyor suspenziyaga shisha plastinka 1 sm/min tezlikda botirilib, 30 soniya ushlab turildi va shunday tezlikda chiqarildi. Qoplangan substratlar 80 °C haroratda 1 soat davomida quritildi. Gidrofob xususiyatni kuchaytirish maqsadida, ayrim namunada termik ishlov 150 °C da 2 soat davomida amalga oshirildi. Bu jarayon yuzadagi etoksiguruhlarning degidratatsiyasi va qisman silanlashga olib keladi, natijada suvga chidamli, mikronanoteksturali qatlam hosil bo‘ladi.

Qoplamani tahlil qilish: Tayyor qoplamalarning: **kimyoviy tarkibi va funksional guruhlari** —infraqizil spektroskopiya (FTIR, 4000–400 sm^{-1} diapazonda); **gidrofoblik darajasi** — statik suv tomchisi burchagini o‘lchash (Krüss DSA100) usulida baholandi.

Ishqalanish juftliklarida shisha oyna yuzasi (tekis yuza) uchun tribotexnik tavsiflar qaytma-ilgarilanma harakatli mikrotribometr yordamida aniqlandi. Ushbu uskuna po‘lat indentorning namuna yuzasi bo‘ylab siljishi davomida ishqalanish koeffisiyentining (k_i) siljish sikllari soniga bog‘liq ravishda o‘zgarishini qayd etadi.

Indentor bo‘lgan sharchaning diametri 3 mm bo‘lib, 95X18 markali po‘latdan yasalgan, uning harakat yo‘li uzunligi 3 mm, chiziqli tezligi 4 mm/s, qo‘llanilgan yuklama esa 0,3 N ni tashkil etgan. Tajribani o‘tkazishning chegaraviy sharti sifatida shisha yuzasidagi SiO_2 plyonkalari uchun mos ravishda ishqalanish koeffisiyentining 0,5 qiymati qabul qilingan.

Gidrofob burchak o‘lchash metodikasi: Substrat yuzasiga 5 mkl distillangan suv tomizildi va tomchi burchagi 25 °C haroratda 5 sekund ichida o‘lchandi. Gidrofoblik darajasi tomchi burchagi $\theta \geq 90°$ bo‘lganda gidrofob, $\theta \geq 150°$ bo‘lganda supergidrofob sifatida baholandi.

Tyexnologik shartlar: Qoplama usuli dip-coating; suspenziya tarkibi SiO_2/etanol/TEOS/NH_4OH; quritish harorati 80 °C; termik ishlov 150 °C, 2 soat; qoplama qalinligi ~200-300 nm;

Jadval 1.


Tetroetoksisilan asosida gidrofob qoplama olish.

№	TEOS (ml)	NH_3 (ml)	Qoplash soni	Quritish harorati (°C)
1	5	0.5	1	80
2	5	0.5	2	80
3	10	1.0	2	80
4	10	1.0	3	120

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, TEOS va NH_3 miqdorining oshirilishi, qoplash sonining ko‘payishi va quritish haroratining yuqorilashi kremniy dioksidi nanoqatlamining morfologiyasi va funksional xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, 4-namuna parametrlari (10 ml TEOS, 1,0 ml NH_3, 3 marta qoplash va 120 °C da quritish) yuzada iyerarxik tuzilma hosil qilib, yuqori gidrofoblik yoki supergidrofoblikka erishish uchun eng maqbul sharoitlarni ta’minlaydi.

Tahlillar va natijalar

Skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) orqali tahlil natijalariga ko‘ra, SiO_2 nanozarralarining o‘lchami 60–100 nm atrofida bo‘lib, ular substrat yuzasida bir xil taqsimlanganligi kuzatildi. Yuzadagi notekis struktura qoplamani gidrofob qilishda muhim rol o‘ynadi.




Rasm 2. Zol gel usulida olingan SiO_2 infraqizil spektr tasviri

FTIR tahlil. Rasm 2 da FTIR spektroskopiyasi yordamida olingan SiO_2 nanozarralarining spektri 4000–400 cm^{-1} diapazonda tahlil qilindi. Spektrda amorf kremniy oksidi tuzilmasiga xos bo‘lgan bir qator xarakterli tebranish chiziqlari qayd etildi. 3439.81 cm^{-1} atrofida kuzatilgan keng pik SiO_2 zarrachalari yuzasida mavjud bo‘lgan silanol guruhlari (Si–OH) ning cho‘zilish tebranishlari hamda adsorbsiyalangan suv molekulalarining O–H bog‘ tebranishlariga tegishli ekani aniqlanadi. Shuningdek, 1631.96 cm^{-1} dagi pik suv molekulalarining N–O–N egilish tebranishi bilan bog‘liq bo‘lib, nanostruktura yuzasida bog‘langan suv mavjudligini ko‘rsatadi.

SiO_2 skeletiga xos asosiy tebranishlar o‘rta chastota diapazonida qayd etildi. Xususan, 1099.72 cm^{-1} dagi kuchli va keng pik amorf kremniy oksidining assimetrik Si–O–Si bog‘ tebranishlarini ifodalaydi. 807.90 cm^{-1} dagi pik esa simmetrik Si–O–Si bog‘ tebranishlariga tegishli. Past chastotali 466.35 cm^{-1} dagi chiziq Si–O–Si bog‘larining deformasion tebranishlari bilan mos keladi. Ushbu uchta asosiy tebranish chiziqlari namunada amorf SiO_2 fazasining shakllanganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, IQ spektrida qayd etilgan tebranish modlari sintez qilingan nanopartikalar tarkibida amorf kremniy oksidi mavjudligini aniq tasdiqlaydi. Spektrda boshqa tashqi moddalarga xos tebranishlar kuzatilmadi, bu esa materialning kimyoviy jihatdan toza ekanligini ko‘rsatadi.

Bu zol-gel usulida hosil qilingan amorf kremniy dioksidi strukturasini tasdiqlaydi.



Rasm 3. Shisha oyna yuzasida olingan qoplamalar uchun ishqalanish koeffisiyentining siljish sikllari soniga bog‘liqligi. 1-toza shisha oyna, 2-TEOS 5%, 3-TEOS 10%

SiO_2 nanozarrachalari TEOS 5% li va TEOS 10% li eritmadan shisha plastinalar yuzasida plyonka hosil qilinib, supergidrofob yuzalar hosil bo‘ladi — chunki qatlamning yetarlicha yuqori notekisligi saqlanib qoladi: Ra = 1 mkm, Rmax = 5,0 mkm. Bunday modifikatsiyalangan shisha yuzasining abraziv yeyilishi 87 va 89 ta siljish siklidan keyin sodir bo‘ladi (3-rasm). E-mail E-mail

Kontakt burchagi tahlil. Suv tomchisi usulida o‘lchangan kontakt burchagi 127°±2° ni tashkil qildi, bu yuzadagi nanomiqyosdagi notekislik tufayli paydo bo‘lgan tabiiy gidrofoblikni ko‘rsatdi. Mikroteksturalangan substratda esa kontakt burchagi 151° gacha yetdi, ya’ni supergidrofob holat kuzatildi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot ishida tetroetoksisilan (TEOS) asosida zol-gel usuli orqali kremniy dioksidi (SiO_2) nanozarrachalarini sintez qilish va ular asosida gidrofob hamda supergidrofob yuzalar hosil qilish imkoniyatlari har tomonlama o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, tanlangan sintez usuli texnologik jihatdan samarali bo‘lib, bir xil o‘lchamga ega, yuqori dispersli kremniy dioksidi nanozarrachalarini olish imkonini beradi. Zol-gel jarayonining yengil sharoitlarda amalga oshirilishi ushbu usulning amaliy va sanoat qo‘llanilish salohiyatini oshiradi.

Sintez qilingan SiO_2 nanozarrachalari asosida substrat yuzasiga hosil qilingan nanoqatlam dastlabki holatdayoq sezilarli darajada mexanik mustaxkam va gidrofob xossalarni namoyon qildi. Yuzaning suv bilan kontakt burchagi taxminan 127° atrofida ekanligi qayd etildi, bu esa materialning tabiiy gidrofob xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bunday natija qo‘shimcha organik modifikatorlar yoki silanlashtiruvchi agentlar qo‘llanilmagan holda qo‘lga kiritilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida yuza notekisligini maqsadli ravishda oshirish orqali gidrofoblik darajasini yanada yaxshilash imkoniyati ko‘rib chiqildi. Ikki bosqichli mikro–nano tuzilmani shakllantirish natijasida yuzada havo qapqonlarining hosil bo‘lishi kuchaydi va bu holat supergidrofob rejimga o‘tishga olib keldi. Natijada suv tomchisining kontakt burchagi 150° dan yuqori qiymatlarga yetdi, bu esa yuzaning supergidrofob xususiyatlarga ega ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Barthlott, W., Neinhuis, C. Purity of the sacred lotus, or escape from contamination in biological surfaces. Planta, 1997.

2.Quéré, D. Wetting and Roughness. Annual Review of Materials Research, 2008.

3. Tadanaga, K., et al. Superhydrophobic-superhydrophilic micropatterning on silica coatings by the sol-gel method. J. Sol-Gel Sci. Technol., 2003.

4.Brinker, C. J., Scherer, G. W. Sol-Gel Science: The Physics and Chemistry of Sol-Gel Processing. Academic Press, 1990.

5.C. Zhang, R. Chai, T. Chen, and J. Zhang, “High Rubber Elasticity and Thermal Conductivity in Plasticized Polyvinyl Chloride Film With Flame Retardancy and Smoke Suppression Properties,” Journal of Applied Polymer Science 142, no. 5 (2025): e56426.

6.-Л.Б. Бойнович, А.М.Емельяненко Гидрофобные материалы и покрытия: принципы создания, свойства и применение. Успехи химии 77(7) 2008.

7.J.Lahann, S.Mitragotri, T.Tran, H.Kaido, J.Sundaram, I.S.Choi, S.Hoffer, G.A.Somorjai, R.A.Langer. Science, 299, 371 (2003).

8.Y.Jiang, Z.Wang, X.Yu, F.Shi, H.Xu, X.Zhang. Langmuir, 21, 1986 (2005).

9. M.Li, J.Zhai, H.Liu, Y.Song, Y.Jiang, D.Zhu. J. Phys. Chem. B, 107, 9954 (2005).

10. L.Zhu, Y.Jin. Appl. Surf. Sci., 253, 3432 (2007)

11. L.Feng, Y.Song, J.Zhai, B.Liu, J.Xu, L.Jiang, D.Zhu. Angew. Chem., Int. Ed., 42, 800 (2003)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Rasulov Rustam Yavkachovich
Farg‘ona davlat universiteti professori
Muminov Islomjon Arabboyevich
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
Mamatova Mahliyo Adhamovna
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
Raxmatullayeva Feruza Ulug‘bek qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
Yusupopova Maxliyo Shavkatjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: islombek_muminov@mail.ru
UO‘K 537.311.33:538.971(575.1)

KO‘P QATLAMLI STRUKTURALARDA TOK TASHUVCHILARNING KINETIKASINING NAZARIY TADQIQI. 2-QISM

Annotatsiya: *Shredinger tenglamasi asosida markazida potensial to‘siq mavjud bo‘lgan besh qavatli yarimo‘tkazgich nanostruktura uchun nazariy hisoblashlar ishlab chiqildi. Qo‘zg‘alishlar nazariyasiga ko‘ra asosiy va qo‘zg‘atilgan holat energiyalarning o‘rta potensial o‘ra balandligi hamda uchinchi va ikkinchi qatlamlar o‘lchamlarining nisbatiga bog‘lanishilari hisoblangan va ular elektronlar energiyasining qatlamlar o‘lchamlariga holda siljishiga oloib kelishi va bu siljishning musbat yoki manfiy bo‘lishi qaralayotgan energetiya sohalariga, qatlamlarning zonaviy parametrlariga bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *potensial o‘ra, potensial to‘siq, elektron, energetik spektr, qo‘zg‘alishlar nazariyasi, effektiv massa, qatlamli struktura.*

Расулов Рустам Явкачович
профессор Ферганского государственного университета
Муминов Исломжон Араббоевич
доцент Ферганского государственного университета
Маматова Махлиё Адхамовна
доцент Ферганского государственного университета
Рахматуллаева Феруза Улугбек кизи
базовый докторант Ферганского государственного университета
Юсупопова Махлиё Шавкатжон кизи
базовый докторант Ферганского государственного университета

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КИНЕТИКИ НОСИТЕЛЕЙ ТОКА В МНОГОСЛОЙНЫХ СТРУКТУРАХ. ЧАСТЬ 2

Аннотация: *На основе уравнения Шрёдингера разработана теоретическая модель пятислойной полупроводниковой наноструктуры с потенциальной ямой в центральной области.*

Согласно теории возмущений расчитаны энергии основного и возбужденного состояний в зависимости от высоты потенциального барьера, находящегося в центре структуры и отношением размеров третьего и второго слоев и показано, что они приводят к сдвигу энергии электронов, зависящему от размеров слоев. Причем положительное или отрицательное значение этого сдвиги зависит от зонных параметров, а также от размеров слоев и зонных параметров слоев.

Ключевые слова: *потенциальная яма, потенциальный барьер, электроны, энергетический спектр, теория возмущений, эффективная масса, слоистая структура.*

Rasulov Rustam Yavkachovich
Professor, Fergana State University

Muminov Islomjon Arabboyevich
Associate Professor, Fergana State University
Mamatova Mahliyo Adhamovna
Associate Professor, Fergana State University
Raxmatullayeva Feruza Ulug'bek qizi
Basic Doctoral Student, Fergana State University
Yusupopova Maxliyo Shavkatjon qizi
Basic Doctoral Student, Fergana State University

THEORETICAL STUDY OF THE KINETICS OF CURRENT CARRIERS IN MULTILAYeR STRUCTURES. PART 1

Abstract: *A theoretical model of a five-layer semiconductor nanostructure with a potential well in the central region has been developed using the Schrödinger equation.*

Using perturbation theory, the energies of the ground and excited states have been calculated as functions of the height of the potential barrier located in the center of the structure and the ratio of the sizes of the third and second layers. It has been shown that these values lead to a shift in the electron energy that depends on the layer sizes. Furthermore, the positive or negative value of this shift depends on the band parameters, as well as the layer sizes and band parameters of the layers.

Keywords: *potential well, potential barrier, electrons, energy spectrum, perturbation theory, effective mass, layered structure.*

Kirish


Qator adabiyotlarda ko'p qatlamli geteroo'tikli strukturalarda elektronli holatlar chekli energiyaviy chuqurlikli to'g'ri burchakli ko'rinishdagi potensial o'radagi tok tashuvchilarning harakati va tunellanishi masalasi kabi oddiy yaqinlashishda hal qilingan [1-11].

Adabiyotlar tahlili

Nanoelektronikaning rivojlanishi hisobiga bunday masalalarga qayta murojaat qilinib, murakkab ko'rinishdagi qator potensiallar uchun bunday masalalar yechilgan [1-6]. Ammo ixtiyoriy ko'rinishdagi potensialdagi mikrozarraning harakatiga tegishli kvant mexanikaviy masalalar kvaziklassik yaqinlashishda yechishni talab etadi. Shu sababli quyida nanostrukturalar, jumladan geteroo'tikli tizimlar, o'ta panjaralardagi tok tashuvchilarning energetik spektrini hisoblashda qo'llaniladigan kvaziklassik hisoblash usuliga to'xtalib o'tamiz.

Tadqiqot metodologiyasi

Ayni paytda rezonans tunnelli diod (RTS) nanoelektronikaning istiqbolli qurilmalariningn asosini tashkil etadi. Xususan, RTSlarining yangi avlodlarini, masalan, elektron va optik cheklanishi ajratilgan geterolazerlarni yaratish uchun [7, 8] markazida qo'shimcha to'g'ri burchakli potensial o'raga ega bo'lgan ko'p qatlamli strukturalardan foydalaniladi (1-rasm). Energetik chuqurlik tufayli potensial o'raning keng asosiy qismida kvant sathlarining joylashuvini boshqarish uchun yangi imkoniyatlar yuzaga keladi.



1-rasm. Rezonansli bog'langan kvant potensial o'ralar sistemasi.

Ushbu rasmda m_i - zaryad tashuvchilarning effektiv massalari; U_1 va U_2 - potensial o‘ralarning balandliklari; d_2, d_3, d_4 - struktura ichki qatlamlar qalinliklari. Shunday qilib, 1-rasmda qayd qilingan potensial maydonda elektronlarning hatti harakati bu potensialni o‘tkazuvchanlik zonasi ichiga olgan Shredenger tenglamasini yechish bilan hal etiladi. Har bir qatlam uchun Shredinger tenglamasining ($E<U_1, U_2$ da) yechimi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$\psi_1 = A_1 \cdot \exp(k_1 x), \psi_2 = A_2 \cdot \cos(k_2 x) + B_2 \cdot \sin(k_2 x), \psi_3 = A_3 \cdot \mathrm{ch}\left(k_3 \left(x - d_3\right)\right) + B_3 \cdot \mathrm{sh}\left(k_3 \left(x - d_3\right)\right),$$

$$\psi_4 = A_4 \cdot \cos\left(k_2 \left(x - d_2 - d_3\right)\right) + B_4 \cdot \sin\left(k_2 \left(x - d_1 + d_2\right)\right), \ \psi_5 = B_5 \cdot \exp\left(-k_1 \left(x - d_1 - d_2 - d_3\right)\right)$$

bu yerda $k_1 = \sqrt{2m_1\hbar^{-2}|U_1 - E|}, k_2 = \sqrt{2m_2\hbar^{-2}E}, k_3 = \sqrt{2m_3\hbar^{-2}|U_2 - E|}.$

Bastard sharti [1] e’tiborga olinb, A_i, B_i noma’lum noma’lumlar oldidagi koeffitsiyentlardan tuzilgan determinant nolga teng bo‘lish shartidan holatlar energiyasini aniqlash uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$\begin{aligned}&\left[-\tilde{k}_2\left(\tilde{k}_1 - \tilde{k}_3\right)\cos(k_2 d_2) + \left(\tilde{k}_1\tilde{k}_3 + \tilde{k}_2^2\right)\sin(k_2 d_2)\right]\left[\tilde{k}_4\cos(k_4 d_4) + \tilde{k}_5\sin(k_4 d_4)\right]\times \\ &\times\left[\tilde{k}_4\,\mathrm{s}h(k_3 d_3) - \tilde{k}_3 ch(k_3 d_3)\right] = 0.\end{aligned} \quad (1)$$

Xususan $U_1 \geq E > U_2$ shartda:

$$\begin{aligned}&\left[\tilde{k}_2^2\left(\tilde{k}_3^2 - \tilde{k}_1^2\right) + \left(\tilde{k}_1^2\tilde{k}_3^2 - \tilde{k}_2^4\right)\mathrm{tg}(k_2 d_4)\right]\mathrm{tg}(k_3 d_3) + 2\tilde{k}_1\tilde{k}_2^2 k_3 \cdot\left[\mathrm{tg}(k_2 d_2)\mathrm{tg}(k_2 d_4) - 1\right] + \\ &+\tilde{k}_2\left[\tilde{k}_3\left(\tilde{k}_2^2 - \tilde{k}_1^2\right) + \tilde{k}_1\left(\tilde{k}_3^2 + \tilde{k}_2^2\right)\mathrm{tg}(k_3 d_3)\right]\left[\mathrm{tg}(k_2 d_2) + \mathrm{tg}(k_2 d_4)\right] = 0,\end{aligned} \quad (2)$$


bu yerda $\tilde{k}_{n'n} = \tilde{k}_{n'}/\tilde{k}_n = m_n k_{n'}/k_n m_{n'}$. Potensial to‘siqi balandligi $U_1\left(U_1 >> U_2\right)$) shartni qanoatlantirganda $E < U_2$ va $d_2 = d_4$ shartda: $\left[\tilde{k}_2^2 + \tilde{k}_3^2\mathrm{tg}(k_2 d_2)\mathrm{tg}(k_2 d_4)\right]\mathrm{th}(k_3 d_3) + \ + \tilde{k}_2\tilde{k}_3\left[\mathrm{tg}(k_2 d_2) + \mathrm{tg}(k_2 d_4)\right] = 0$; $E > U_2$ shartda esa: $\left[\tilde{k}_2^2 - \tilde{k}_3^2\mathrm{tg}(k_2 d_2)\mathrm{tg}(k_2 d_2)\right]\mathrm{tg}(k_3 d_2) + \ + \tilde{k}_2\tilde{k}_3\left[\mathrm{tg}(k_2 d_2) + \mathrm{tg}(k_2 d_2)\right] = 0$.

Natijalar va ularning tahlili

G‘alayonlar nazariyasiga ko‘ra asosiy $(n=1)$ va qo‘zg‘algan $(n=2)$ holat energiyalari cheksiz chuqur potensial o‘ra yaqinlashishia qo‘zg‘alishlar nazariyasiga ko‘ra:

$$\delta E_n^{(1)} = \left[\frac{\pi n^2\hbar^2}{2\left(d_2 + d_3\right)^2}\left(\frac{1}{m_3} - \frac{1}{m_2}\right) - U_2\right]\cdot\left[\frac{d_2}{d_2 + d_3} - \frac{(-1)^n}{n\pi}\sin\left(\frac{2\pi n d_2}{d_2 + d_3}\right)\right]. \quad (3)$$

(3) ifodaga asoslanib qo‘zg‘alishlar nazariyasiga ko‘ra hisoblangan $\delta E_1^{(1)}$ asosiy va $\delta E_2^{(1)}$ qo‘zg‘atilgan holat energiyalarning o‘rta potensial o‘ra balandligi $\left(U_2\right)$ hamda uchinchi va ikkinchi qatlamlar o‘lchamlarining nisbati $\left(d_3/d_2\right)$ ga bog‘lanishilaridan ko‘rinyaptiki, ular elektronlar energiyasining qatlamlar o‘lchamlariga holda siljishiga oloib keladi va bu siljishning musbat yoki manfiy bo‘lishi qaralayotgan energetik sohalariga, qatlamlarning zonaviy parametrlariga bog‘liqdir.



2-rasm. Asosiy $\delta E^{(1)}_{\langle 1\rangle}$ va qo‘zg‘algan $\delta E^{(1)}_{\langle 2\rangle}$ holat energiyalarning o‘rta potensial o‘ra balandligi hamda uchinchi va ikkinchi qatlamlar o‘lchamlarining nisbatiga bog‘lanishi.

Sonli hisoblashlarda kattaliklarning quyidagi qiymatlari tanlangan [7, 8]: $d_2 = d_3 = d_4 = 20\overset{0}{\text{A}}$, $U_1 = U_2 = 1{,}32\text{eV}$, $m_1 = m_3 = 0{,}123m_0$, $m_2 = 0{,}046m_0$.

Xulosa

Shunday qilib, keltirilgan ifodalar va hisoblangan grafik bog‘liqliklar shunday xulosa qilish imkonini beradiki, murakkab shaklli kvant potensial o‘ralardagi energetik sathlarning joylashuvini sifat jihatdan tavsiflash uchun cheksiz chuqur o‘ra modelidan foydalanish faqat nisbatan katta chuqurlikka ega o‘ralar uchungina mumkin. Murakkab shaklli kvant potensial o‘ralarda energetik spektrni aniqlovchi ifodalar zamonaviy yuqori tezkor elektronika qurilmalarida qo‘llaniladigan tunnellash–rezonansli tuzilmalarni loyihalash va modellashtirishda foydali bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov R.Ya., Mamatova M.A. Ko‘p qatlamli kristall strukturalarda elektronlarni tashish nazaryasi. Monografiya //-Farg‘ona sh. «Poligraf Super Servis» MChJ. -2023. -180 bet. UO‘K: 631.171(075.8). KBK: 40.71ya73. R 25.

2. Rasulov V.R., Rasulov R.Ya., Mamatova M. A., and Qosimov F. Semiclassical theory of electronic states in multilayer semiconductors. Part 1 // Journal of Physics: Conference Series, -2022. Vol. 2388, -P. 012156, IOP Publishing, doi:10.1088/1742-6596/2388/1/012158 (Scopus. IF. 0,547).

3. Rasulov V.R., Rasulov R.Ya., Mamatova M. A., and Qosimov F. Semiclassical theory of electronic states in multilayer semiconductors. Part 2 // Journal of Physics: Conference Series. – 2022. -Vol.2388. -P 012158. IOP Publishing, doi:10.1088/1742-6596/2388/1/012158 (Scopus. 0,547).

4. Rasulov V.R., Mamatova M.A., Kodirov N.On the theory of distribution of current carriers in a three-layer semiconductor structure in a diode included// Scientific Bullettin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi. -2022. -№7. - Pp. 26-32.

5. Голант Е.И., Пашковский А.Б. Двухуровневые волновые функции электронов в двухбарьерных квантово-размерных структурах в электрическом поле конечной амплитуды// -ФТП. -2000. -Т.34. -№3. -С. 334-339.

6. Голант Е.И., Пашковский А.Б. Резонансные переходы между расщепленными уровнями трехбарьерных наноструктур и перспективы их применения в приборах субмиллиметрового диапазона// -ФТП. -2002. -Т.36. -№3. -С. 330.

7. Broekaert T.P.E., Lee W., Fonstad C.G. Pseudomorfic $In_{0.53}Ga_{0.47}As/AlAs/InAs$ resonant tunneling diods with peak-to-valley current ratios of 30 at room temperature// Applied Physics Letters. -1988. -V.53. –No.16. –Pp.1545-1549.

8. Sze-Him Ng, Charles Surya. Studies of flicker noise in $In_{0.53}Ga_{0.47}As/AlAs/InAs$ resonant tunneling diodes// Solid-State Electronics. -1992. –Vol.35, Issue 9. -Pages 1213-1216. https://doi.org/10.1016/0038-1101(92)90151-2.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Rasulov Rustam Yavkachovich
Farg‘ona davlat universiteti professori
Muminov Islomjon Arabboyevich
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
Mamatova Mahliyo Adhamovna
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
Raxmatullayeva Feruza Ulug‘bek qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
Yusupopova Maxliyo Shavkatjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: islombek_muminov@mail.ru
UO‘K 537.311.33:538.971(575.1)

KO‘P QATLAMLI STRUKTURALARDA TOK TASHUVCHILARNING KINETIKASINING NAZARIY TADQIQI. 1-QISM

Annotatsiya: *Shredinger tenglamasi asosida markazida potensial chuqurlik mavjud bo‘lgan besh qavatli yarimo‘tkazgich nanostruktura uchun nazariy hisoblashlar ishlab chiqildi. Zaryad tashuvchilar energiyasini hisoblashda birinchi va ikkinchi tartibli qo‘zg‘alish nazariyasi qo‘llanildi. Qatlamlarning geometrik o‘lchamlari hamda zaryad tashuvchilarning effektiv massalariga bog‘liq holda elektron energiya spektri siljishini baholovchi munosabatlar olindi. Hisoblashlar qatlamlar kesimida elektron to‘lqin funksiyasi hosilalari va qatlamlararo o‘tish ehtimoli oqimlarining uzluksizligini ta’minlovchi chegaraviy shartlar asosida bajarildi.*

Kalit so‘zlar: *potensial o‘ra, elektron energiya spektri, energiya spektrining siljishi, qo‘zg‘alish nazariyasi, effektiv massa, qatlamning geometrik o‘lchamlarii.*

Расулов Рустам Явкачович
профессор Ферганского государственного университета
Муминов Исломжон Араббоевич
доцент Ферганского государственного университета
Маматова Махлиё Адхамовна
доцент Ферганского государственного университета
Рахматуллаева Феруза Улугбек кизи
базовый докторант Ферганского государственного университета
Юсупопова Махлиё Шавкатжон кизи
базовый докторант Ферганского государственного университета

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КИНЕТИКИ НОСИТЕЛЕЙ ТОКА В МНОГОСЛОЙНЫХ СТРУКТУРАХ. ЧАСТЬ 1

Аннотация: *На основе уравнения Шрёдингера разработана теоретическая модель пятислойной полупроводниковой наноструктуры с потенциальной ямой в центральной области. Для расчёта энергии носителей заряда применена теория возмущений первого и второго порядка.*

Получены соотношения, позволяющие оценивать смещение электронного энергетического спектра в зависимости от геометрических размеров слоёв и эффективных масс носителей. Расчёты выполнены с учётом граничных условий, обеспечивающих непрерывность производных электронной волновой функции по слоям, а также непрерывность потоков вероятности перехода между соседними слоями.

Ключевые слова: *потенциальная яма, электронный энергетический спектр, смещение энергетического спектра, теория возмущений, эффективная масса, геометрические размеры слоёв.*

Rasulov Rustam Yavkachovich

Professor, Fergana State University
Muminov Islomjon Arabboyevich
Associate Professor, Fergana State University
Mamatova Mahliyo Adhamovna
Associate Professor, Fergana State University
Raxmatullayeva Feruza Ulug‘bek qizi
Basic Doctoral Student, Fergana State University
Yusupopova Maxliyo Shavkatjon qizi
Basic Doctoral Student, Fergana State University

THEORETICAL STUDY OF THE KINETICS OF CURRENT CARRIERS IN MULTILAYER STRUCTURES. PART 1

Abstract: *Based on the Schrödinger equation, a theoretical model has been developed for a five-layer semiconductor nanostructure featuring a central potential well. The carrier energy levels were calculated using first- and second-order perturbation theory. Relationships were derived to evaluate the shift of the electronic energy spectrum as a function of the layers' geometric dimensions and the carriers' effective masses. The calculations were performed subject to boundary conditions ensuring continuity of the derivatives of the electron wave function across the layers, as well as continuity of the probability-current flux associated with interlayer transmission.*

Keywords: *potential well, electron energy spectrum, shift of the energy spectrum, perturbation theory, effective mass, geometric dimensions of layers.*

Kirish


Yarimo‘tkazgichli mikro- va nanoelektronika sohasida ayrim yarimo‘tkazgichli qatlamlarida elektr o‘tkazuvchanligi har xil bo‘lgan yoki tok tashuvchilar energetik spektri tabiatan o‘zgaradigan ko‘p qatlamli strukturalardan tobora ko‘proq foydalanilmoqda [1-4]. Shu sababli bunday strukturalarda elektronli hodisalarani ham klassik, ham kvant fizikaviy tadqiq qilish ularga asoslangan qurilmalarning effektivligini, ishchi parametrlarini orttirish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar tahlili

So‘nggi yillarda tadqiqot etilayotgan har xil yarimo‘tkazgichlardan tashkil topgan qo‘p qatlamli tuzilmalaridagi qatlamning xarakterli o‘lchamlari 10-1000 Å ni tashkil etadi [5]. Shuning uchun nanostrukturalardan tashkil topgan qatlamli tuzilmalar elektronikada noodatiy fizikaviy xususiyatlarga ega bo‘lgan mutlaqo yangi turdagi sun’iy materiallar sifatida qo‘llanilmoqda. O‘z navbatida, nanostrukturalarga bo‘lgan qiziqish atom darajasidagi zamonaviy texnologiyalar va sirt tuzilishini o‘rganish sohalarini rivojlantirishga undaydi. Shu sababli ko‘p qatlamli gomo- va geterostrukturalarda elektronli kinetik hodisalarni tadqiq qilish ham eksperimental, ham nazariy tadqiq qilish nuqtai nazaridan katta qiziqish uyg‘otadi [6-9]. Bu hol bir tomondan rezonansli tunnel qurilmalarini yaratish imkonini yaratsa, ikkinchi tomondan, ko‘p qatlamli tuzilmalarda de Broyl to‘lqinlarining interferensiyasi [6-9] hisobiga namoyon bo‘ladigan noyob xususiyatlarini kuzatish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

1-rasmda tasvirlangan markazida potensial o‘raga ega bo‘lgan besh qatlamli struktura tok tashuvchilarning holatlarini, masalan, to‘lqin funksiyalari hamda



1-rasm. Uch potensial o‘rali besh qatlamli struktura o‘tkazuvchanlik zonasi tubining tasviri.

energetik spektrini hisoblaylik. Kelgusida har bir qatlam geometrik o‘lchamining harxillligi, ulardagi tok tashuvchilar effektiv massalarining potensial energiya relefiga bog‘liq holda o‘zgarishini e’tiborga olamiz. 1-rasmda sxemasi keltirilgan,s rukturada $m_n\left(d_n\right)$ - n-qatlamdagi tok tashuvchining effektiv massasi (qatlamlarning qalinliklari). $U_1>0$ - chetki qatlamlardagi potensial to‘siq balandligi, $U_2<0$ - markaziy qatlamdagi potensial o‘ra chuqurligi. Shredinger tenglamasining struktura qatlamlariga mos keladigan yechimlari quyidagi ko‘rinishda qayd qilinadi:

$$\psi_1=A_1\cdot\exp\left(k_1x\right),\ \psi_2=A_2\cdot\cos\left(k_2x\right)+B_2\cdot\sin\left(k_2x\right),$$
$$\psi_3=A_3\cdot\cos\left(k_3\left(x-d_3\right)\right)+B_3\cdot\sin\left(k_3\left(x-d_3\right)\right),$$
$$\psi_4=A_4\cdot\cos\left(k_2\left(x-d_2-d_3\right)\right)+B_4\cdot\sin\left(k_2\left(x-d_1+d_2\right)\right), \quad (1)$$

bu yerda $k_1=\left(2m_1\hbar^{-2}\left(U_1-E\right)\right)^{1/2}$, $k_2=\left(2m_2\hbar^{-2}E\right)^{1/2}$, $k_3=\left(2m_3\hbar^{-2}\left(E+U_2\right)\right)^{1/2}$.

To‘lqin funksiyasi va oqim zichligining uzluksizligi talablaridan kelib chiqadigan chegaraviy shartlardan A_i va B_i noma’lum kattaliklarning old koeffitsiyentlaridan tashkil topgan matritsaning aniqlanuvchisini nolga tenglashtirib tok tashuvchilar energetik spektrlari aniqlanadi va u quyidagicha ifodalanadi:

$$\left[\tilde{k}_4\sin\left(k_2d_2\right)-\tilde{k}_3\cos\left(k_2d_2\right)\right]\left[-\tilde{k}_2\left(\tilde{k}_1-\tilde{k}_3\right)\cos\left(k_2d_2\right)+\left(\tilde{k}_1\tilde{k}_3+\tilde{k}_2^2\right)\sin\left(k_2d_2\right)\right]\times$$
$$\times\left[\tilde{k}_4\cos\left(k_4d_4\right)+\tilde{k}_5\sin\left(k_4d_4\right)\right]=0. \quad (2)$$

Masala yechimini soddalashtirish uchun $d_2=d_4$ $k_2=k_4$ deb hisoblasak, u holda

$$\left[\tilde{k}_2^2\left(\tilde{k}_3^2-\tilde{k}_1^2\right)+\left(\tilde{k}_1^2\tilde{k}_3^2-\tilde{k}_2^4\right)\mathrm{tg}\left(k_2d_2\right)\mathrm{tg}\left(k_2d_2\right)\right]\mathrm{tg}\left(k_3d_3\right)+2\tilde{k}_1\tilde{k}_2^2k_3\cdot\left[\mathrm{tg}\left(k_2d_2\right)\mathrm{tg}\left(k_2d_2\right)-1\right]+$$
$$+\tilde{k}_2\left[\tilde{k}_3\left(\tilde{k}_2^2-\tilde{k}_1^2\right)+\tilde{k}_1\left(\tilde{k}_3^2+\tilde{k}_2^2\right)\mathrm{tg}\left(k_3d_3\right)\right]\left(\mathrm{tg}\left(k_2d_2\right)+\mathrm{tg}\left(k_2d_4\right)\right)=0. \quad (3)$$

Xususan. $0\geq E>U_2$ shartda:

$$\left[\tilde{k}_2^2\left(\tilde{k}_1^2-\tilde{k}_3^2\right)+\left(\tilde{k}_2^4-\tilde{k}_1^2k_3^2\right)\mathrm{th}\left(k_2d_2\right)\mathrm{th}\left(k_2d_2\right)\right]\mathrm{tg}\left(k_3d_3\right)+2\tilde{k}_1\tilde{k}_2^2\tilde{k}_3\cdot\left[1+\mathrm{th}\left(k_2d_2\right)\mathrm{th}\left(k_2d_2\right)\right]+$$
$$+\tilde{k}_2\left[\tilde{k}_3\left(\tilde{k}_2^2+\tilde{k}_1^2\right)+\tilde{k}_1\left(\tilde{k}_2^2-\tilde{k}_3^2\right)\mathrm{tg}\left(k_3d_3\right)\right]\left[\mathrm{th}\left(k_2d_2\right)+\mathrm{th}\left(k_2d_2\right)\right]=0, \quad (4)$$

U_1 potensial to‘siq balandligi potensial o‘raning chuqurligidan miqdoran juda katta qiymatli bo‘lsa, tok tashuvchilarning energiyalari: a) $E>0$ shartda $\left[\tilde{k}_2^2-\tilde{k}_3^2\mathrm{tg}\left(k_2a\right)\mathrm{tg}\left(k_2d_4\right)\right]tg\left(k_3d_3\right)+\tilde{k}_2\tilde{k}_3\left[\mathrm{tg}\left(k_2d_2\right)+\mathrm{tg}\left(k_2d_4\right)\right]=0$, b) $0\geq E>|U_2|$ shartda esa $\left[\tilde{k}_2^2+\tilde{k}_3^2\mathrm{th}\left(k_2d_2\right)\mathrm{th}\left(k_2d_4\right)\right]tg\left(k_3d_3\right)+\tilde{k}_2\tilde{k}_3\left[\mathrm{th}\left(k_2d_2\right)+\mathrm{th}\left(k_2d_4\right)\right]=0$ munosabatlar yordamida aniqlanadi, bu yerda $\tilde{k}_{n'n}=\tilde{k}_{n'}/\tilde{k}_n=m_nk_{n'}/k_nm_{n'}$. G‘alayonlar nazariyasiga ko‘ra asosiy $\left(n=1\right)$ va qo‘zg‘algan $\left(n=2\right)$ holat energiyalari cheksiz chuqur potensial o‘ra yaqinlashishia qo‘zg‘alishlar nazariyasiga ko‘ra:

$$\delta E_n^{(1)}=\left[\frac{\pi n^2\hbar^2}{2\left(d_2+d_3\right)^2}\left(\frac{1}{m_3}-\frac{1}{m_2}\right)-U_2\right]\cdot\left[\frac{d_2}{d_2+d_3}-\frac{(-1)^n}{n\pi}\sin\left(\frac{2\pi nd_2}{d_2+d_3}\right)\right]. \quad (5)$$

Natijalar va ularning tahlili

Qo‘zg‘algan sathning siljish sababi shundan iboratki, potensial o‘ralarga ega potensial o‘radagi tok tashuvchilaring gamiltoniani nafaqat potensial energiya bilan, balki o‘raning turli qatlamlarida effektiv massalar bilan farqlanuvchi kinetik energiya bilan ham farq qiladi. Yuqorida qayd qilinganidek, oddiy potensial o‘raning potensial profilini $-U_2$ chuqurlikka ega potensial o‘ra hisobiga o‘zgartirish sathning pasayishiga olib kelishi kerak va birinchi qo‘zg‘algan holat ($n=2$) uchun effektiv massalarning farqi ta’siri kuchliroq bo‘ladi. Shu sababli qo‘shimcha potensial chuqurlikkaa ega bo‘lgan potensial o‘ralar to‘plamida qo‘zg‘algan sath oddiy potensial o‘radagi qo‘zg‘algan sathdan yuqoriroqda joylashadi.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, chiziqli g'alayonlar nazariyasi doirasida energiya siljishlarining tabiatini faqat b/l ning kichik qiymatlarida sifat jihatdan izohlash mumkin. Xususan, potensial o'ralarning eni ortishi bilan esa yaqinlashishning yuqoriroq darajalarini hisobga olish zarur.

Xulosa

Shunday qilib, keltirilgan ifodalar va hisoblangan grafik bog'liqliklar shunday xulosa qilish imkonini beradiki, murakkab shaklli kvant potensial o'ralardagi energetik sathlarning joylashuvini sifat jihatdan tavsiflash uchun cheksiz chuqur o'ra modelidan foydalanish faqat nisbatan katta chuqurlikka ega o'ralar uchungina mumkin. Murakkab shaklli kvant potensial o'ralarda energetik spektrni aniqlovchi ifodalar zamonaviy yuqori tezkor elektronika qurilmalarida qo'llaniladigan tunnellash–rezonansli tuzilmalarni loyihalash va modellashtirishda foydali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нанофизика и наноэлектроника. Труды XXB Международного симпозиума // -Нижний Новгород, 9–12 марта 2021 г. № 2. Том 1. - Нижний Новгород: Изд-во Нижегородского госуниверситета. -2021. - 521 с.

2. Rasulov V.R. Nanofizikaning nazariy asoslari. 2023. -279 b.

3. Ivchenko E.L., Pikus G.E. Superlattices and other heterostructures. Symmetry and optical phenomena // -Berlin : Springer. -1995. -370 p.

4. Ivchenko E.L. Optical spectroscopy of semiconductor nanostructures // -Harrow (UK) : Alpha Science. - 2005. -350 p. ISBN: 1-84265-150-1.

5. Борисенко С.И. Физика полупроводниковых наноструктур//– Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2010.–115 с.

6. Расулов В.Р., Расулов Р.Я., Мамадалиева Н.З., Султанов Р.Р. Подбарьерный и надбарьерный перенос электронов через многослойные полупроводниквые структуры // -Известия ВУЗов. Физика. -2020. -Т.63. -№ 4. -С. 8-15.

7. Rasulov V.R., Rasulov R.Ya., Eshboltaev I., Akhmedov B., Mamadaliyeva N.Z. Investigation of dimensional quantization in a semiconductor with a complex zone by the perturbation theory method // -European Sciences review. -2018. -№ 9–10. 253-255 pp.

8. Rasulov V.R., Rasulov R.Ya., Mamatova M. A., and Qosimov F. Semiclassical theory of electronic states in multilayer semiconductors. Part 1 // Journal of Physics: Conference Series, -2022. Vol. 2388, -P. 012156.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Sulaymonov Khusanboy Mannopovich
Fergana State Technical University
xusanboy.sulaymonov@gmail.com
Siddiqov Rustamjon Uktamovich
Kokand State Technical University
rustamjon.siddiqov@gmail.com
Yulchiyev Iftixorjon Isaqovich
Fergana State Technical University
iftixorjon.yulchiyev@gmail.com

FREQUENCY-DEPENDENT TENSORESISTIVE BEHAVIOR OF $(Bi_{0.5}Sb_{0.5})_2Te_3$ FILMS: CYCLIC DEFORMATION EFFECTS

Abstract. *The frequency-dependent tensoresistive properties of composite $(Bi_{0.5}Sb_{0.5})_2Te_3$ thin films were investigated under cyclic mechanical deformation. The films were fabricated by vacuum thermal evaporation and subjected to alternating deformation cycles. A significant decrease in critical frequency was observed, linked to the formation of dielectric gaps and the degradation of inter-grain contacts. The frequency dependence of electrical resistance was explained using an equivalent circuit model, incorporating bulk resistance, contact resistance, and shunting capacitance. The high tensoresistive sensitivity and nonlinear deformation characteristics indicate the potential for these films to be used in fatigue-damage sensing and flexible electronic applications.*

Keywords: *tensoresistive properties; $(Bi,Sb)_2Te_3$ thin films; frequency dependence; contact resistance; fatigue damage sensing;*

Sulaymonov Xusanboy Mannopovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti
xusanboy.sulaymonov@gmail.com
Siddiqov Rustamjon O'ktamovich
Qo‘qon davlat texnika universiteti
rustamjon.siddiqov@gmail.com
Yulchiyev Iftixorjon Isaqovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti

$(Bi_{0.5}Sb_{0.5})_2Te_3$ PLYONKALARINING CHASTOTAGA BOG‘LIQ TENZOREZISTIV XOSSALARI: TSIKLIK DEFORMATSIYA TA’SIRI

Annotatsiya. *Kompozit $(Bi_{0.5}Sb_{0.5})_2Te_3$ yupqa plyonkalarining chastotaga bog’liq tenzorezistiv xossalari siklik mexanik deformatsiya sharoitida tadqiq qilindi. Plyonkalar vakuumli termik bug’lantirish usuli bilan tayyorlanib, navbatma-navbat deformatsiya tsikllariga uchratildi. Kritik chastota sezilarli darajada kamayishi kuzatildi, bu esa kristallitlar orasida dielektrik bo’shliqlarning hosil bo’lishi va inter-kristallit kontaktlarning yemirilishi bilan izohlanadi. Elektr qarshiligining chastotaga bog’liqligi ekvivalent elektr sxemasi modeli yordamida tushuntirildi, bu modelda hajmiy qarshilik, kontakt qarshiligi va shuntlovchi sig’im mavjud. Tenzorezistiv sezgirlikning yuqoriligi va deformatsiya xarakteristikalarining nochiziqligi ushbu plyonkalarni mexanik charchashni aniqlovchi datchiklar va moslashuvchan elektron qurilmalar uchun istiqbolli ekanligini ko’rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *tenzorezistiv xossalar; $(Bi,Sb)_2Te_3$ yupqa plonkalar; siklik deformatsiya; kontakt qarshiligi; mexanik charchashni aniqlash*

Сулаймонов Хусайнбой Маннопович
Ферганский государственный технический университет
xusanboy.sulaymonov@gmail.com
Сиддиков Рустажон Уктамович
Кокандский государственный технический университет
rustamjon.siddiqov@gmail.com

Юлчиев Ифтихоржон Исакович
Ферганский государственный технический университет

ЧАСТОТНАЯ ЗАВИСИМОСТЬ ТЕНЗОРЕЗИСТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПЛЕНОК $(Bi_{0.5}Sb_{0.5})_2Te_3$: ЭФФЕКТЫ ЦИКЛИЧЕСКОЙ ДЕФОРМАЦИИ

Аннотация. *Исследованы частотные зависимости тензорезистивных свойств композитных тонких плёнок $(Bi_{0.5}Sb_{0.5})_2Te_3$ при циклической механической деформации. Плёнки были получены методом вакуумного термического испарения и подвергнуты циклическим деформациям. Было наблюдено значительное снижение критической частоты, что связано с образованием диэлектрических зазоров и деградацией межкристаллитных контактов. Частотная зависимость электрического сопротивления была объяснена с использованием эквивалентной электрической схемы, включая объёмное сопротивление, контактное сопротивление и шунтирующую ёмкость. Высокая тензорезистивная чувствительность и нелинейные характеристики деформации показывают потенциал этих плёнок для использования в датчиках накопленного усталостного повреждения и гибкой электроники.*

Ключевые слова: *тензорезистивные свойства; тонкие плёнки $(Bi,Sb)_2Te_3$; циклическая деформация; контактное сопротивление; диагностика усталостных повреждений;*

Introduction

Bismuth-antimony telluride compounds, particularly $(Bi_{0,5}Sb_{0,5})_2Te_3$, represent a critical class of thermoelectric materials with exceptional performance near room temperature. Recent advances have demonstrated their potential not only for energy conversion but also for multifunctional sensing applications [1]. The coupling between mechanical deformation and electrical properties-known as the tensoresistive or piezoresistive effect-has attracted considerable attention for developing flexible thermoelectric devices and strain sensors [2]. Polycrystalline semiconductor films exhibit inherent non-homogeneity arising from grain boundaries, crystallite interfaces, and microstructural defects. These features profoundly influence electrical transport properties, particularly under mechanical stress. Understanding the frequency-dependent electrical behavior of such films is essential for optimizing their performance in dynamic operating conditions and for elucidating the fundamental mechanisms governing charge transport across grain boundaries [3].

Percolation theory provides a powerful framework for interpreting the electrical behavior of composite and polycrystalline materials near critical thresholds [4]. In the context of thin films, percolation models can explain the transition from insulating to conducting behavior and the emergence of frequency-dependent conductivity as conductive pathways form or break under mechanical deformation [5]. Despite extensive research on thermoelectric properties of Bi_2Te_3-based materials [6], the combined effects of cyclic mechanical deformation and AC frequency on tensoresistive behavior remain incompletely understood. This study addresses this gap by systematically investigating how cyclic deformation alters the frequency-dependent electrical characteristics of $(Bi_{0,5}Sb_{0,5})_2Te_3$ composite films and by employing percolation theory to explain the observed high tensoresistance coefficients and nonlinear deformation characteristics.

Materials and methods

Composite $(Bi_{0,5}Sb_{0,5})_2Te_3$ films were fabricated using vacuum thermal evaporation, a technique widely employed for producing high-quality thermoelectric thin films [7]. Two sets of films were prepared at different substrate temperatures: T_{sub}=150°C and T_{sub}=90°C. The substrate temperature critically influences film microstructure, porosity, and grain boundary characteristics, thereby affecting both thermoelectric and mechanical properties [8].

Selected film samples were subjected to cyclic alternating deformations with an amplitude of $\varepsilon = \pm 1\times10^{-3}$ (relative strain units) for $N = 5\times10^5$ cycles. This cyclic loading protocol simulates realistic operational conditions for flexible thermoelectric devices and strain sensors, which must withstand repeated mechanical stress [9]. The deformation was applied in a controlled manner to ensure reproducibility and to avoid catastrophic failure of the films. Electrical resistance measurements were performed as a function of AC frequency over a broad range from DC (0 Hz) to 10 Hz, with extended measurements up to 100 kHz-1 MHz for selected samples. This wide frequency range enables the identification of critical frequencies and the characterization of frequency-dependent transport mechanisms [10]. Measurements were conducted at room temperature using a precision impedance analyzer.

An equivalent circuit model was developed to interpret the frequency-dependent electrical behavior. The model consists of: - R_v: Crystallite resistance (bulk resistance of individual grains) - R_c: Contact resistance between adjacent crystallites – C_c: Capacitance associated with dielectric gaps at grain boundaries, shunting R_c

This circuit topology reflects the microblock structure of polycrystalline films and has been successfully applied to similar composite systems [11]. The critical frequency ω_c is determined by the R_C time constant: $\omega_c \approx \frac{1}{R_c C_c}$

Percolation theory was employed to explain the high tensoresistance coefficient and the nonlinearity of static deformation characteristics. In percolation models, the electrical conductivity near the percolation threshold follows a power-law relationship with the volume fraction of conductive phase. For polycrystalline films under mechanical stress, changes in contact resistance and the formation or disruption of conductive pathways can be interpreted within this framework [12].

Results

Figure 1 presents the frequency dependence of electrical resistance for $(Bi_{0,5}Sb_{0,5})_2Te_3$ films under different preparation and treatment conditions. Three distinct behaviors are observed:




Figure 1. Dependence of the film resistance on the frequency of the supply voltage: curve I-before exposure, curve II-after exposure to $N = 5 \times 10^5$ deformation cycles for films with $T_h = 90°C$; curve III-$T_h = 150°C$.

Curve I (films prepared at T_{sub} = 90°C before cyclic deformation): These films exhibit a sharp decrease in resistance with increasing frequency, starting from a threshold frequency. The relatively high porosity and weak inter-grain contacts in films prepared at lower substrate temperatures result in significant contact resistance R_c and associated capacitance C_c, leading to pronounced frequency dependence [13].

Curve II (films prepared at T_{sub} = 90°C after N = 5×10^5 cycles): After cyclic deformation, the critical frequency ω_c decreased by approximately two orders of magnitude ($\omega_{c1}/\omega_{cd} \approx 10^2$). This dramatic shift indicates a substantial increase in the shunting capacitance C_c, attributed to the formation of new dielectric gaps between crystallites due to accumulated mechanical fatigue [14].

Curve III (films prepared at T_{sub} = 150°C): Films prepared at higher substrate temperatures show nearly frequency-independent resistance across the measured range. The denser microstructure and stronger inter-grain bonding result in lower contact resistance and reduced capacitive effects, consistent with observations in other high-quality thermoelectric films.




Figure 2. Equivalent resistance circuit of a microblock of a $(Bi_xSb_{1-x})_2Te_3$ film.

Figure 2 illustrates the equivalent circuit model for a microblock within the polycrystalline film. The model successfully captures the observed frequency dependence: at low frequencies ($\omega \ll \omega_c$), the capacitance C_k acts as an open circuit, and the total resistance is R_v+R_c. At high frequencies ($\omega \gg \omega_c$), C_c effectively short-circuits R_c, reducing the total resistance to approximately R_v.

The quantitative agreement between the model predictions and experimental data (Figure 1) validates the proposed microstructural interpretation. The shift in critical frequency after cyclic deformation can be quantitatively explained by the increase in C_c due to the widening of dielectric gaps at grain boundaries [15].

The tensoresistive response of the films depends strongly on the type of deformation: Tensile deformation (stretching): Increases the separation between crystallites, thereby increasing contact resistance R_c and the total film resistance. This behavior is consistent with the negative piezoresistance observed in Bi_2Te_3 nanoparticle-based fabrics under lateral strain [16].

Compressive deformation: Decreases the inter-grain spacing, enhancing electrical contacts and reducing film resistance. This asymmetric response contributes to the nonlinearity of the static deformation characteristics. The high tensoresistance coefficient observed in these films can be attributed to the sensitivity of contact resistance to mechanical stress, a phenomenon well-explained by percolation theory near the percolation threshold.

Discussion

The application of percolation theory to polycrystalline $(Bi_{0,5}Sb_{0,5})_2Te_3$ films provides a coherent explanation for the observed high tensoresistance coefficients and nonlinear deformation characteristics. In percolation models, the electrical conductivity σ near the percolation threshold follows: $\sigma \propto (\varphi - \varphi_c)^{\lambda t}$ where φ is the volume fraction of the conductive phase, φ_c is the percolation threshold, and t is the critical exponent (typically t≈2–3 for three-dimensional systems). In polycrystalline films, mechanical deformation effectively modulates φ by altering the connectivity of conductive pathways through changes in contact resistance [17].

Recent studies on carbon nanotube/epoxy composites and graphene-based strain sensors have demonstrated similar percolation-driven tensoresistive behavior, with gauge factors and sensitivity strongly dependent on proximity to the percolation threshold. The transition from linear to nonlinear piezoresistive behavior observed in thermally reduced graphene oxide under large strains (>7.5%) further supports the percolation interpretation [18]. The dramatic decrease in critical frequency after 5×10^5 deformation cycles reflects the accumulation of mechanical fatigue damage in the film microstructure. Cyclic loading induces progressive degradation of inter-grain contacts, formation of micro-cracks, and widening of dielectric gaps. These structural changes increase the capacitance C_c while potentially increasing contact resistance R_c, shifting the critical frequency to lower values.

This sensitivity to cyclic deformation suggests a promising application for $(Bi,Sb)_2Te_3$ films as sensors for accumulating fatigue damage in structural health monitoring. Similar concepts have been explored in carbon nanotube/epoxy nanocomposites, where electrical impedance analysis under cyclic loading provides insights into material degradation. The ability to detect fatigue damage through changes in frequency-dependent electrical properties could enable real-time monitoring of critical aerospace and civil engineering structures [19].

The frequency-dependent electrical behavior and tensoresistive properties of $(Bi_{0,5}Sb_{0,5})_2Te_3$ films have important implications for flexible thermoelectric devices. Recent advances in flexible Bi_2Te_3-based films have achieved impressive thermoelectric performance with power factors exceeding 1000 $\mu W\ m^{-1}\ K^{-2}$ and excellent mechanical durability (less than 10% degradation after 700–1000 bending cycles) [20], [21]. However, the present study reveals that even when macroscopic electrical properties remain stable, microstructural changes induced by cyclic deformation can significantly alter frequency-dependent characteristics. This finding is particularly relevant for applications involving AC power generation or high-frequency operation, where the effective resistance may differ substantially from DC measurements.

The multifunctional capabilities of Bi_2Te_3-based materials—combining thermoelectric energy conversion with strain, pressure, and temperature sensing—have been demonstrated in recent stretchable fabrics and flexible films [22]. The integration of percolation-based tensoresistive sensing with thermoelectric functionality could enable self-powered structural health monitoring systems, where the same material simultaneously harvests energy and detects mechanical damage [23].

The observed frequency-dependent conductivity in $(Bi_{0,5}Sb_{0,5})_2Te_3$ films aligns with broader trends in composite materials near the percolation threshold. Studies on epoxy/graphite flake microcomposites have shown that at the percolation threshold (0.5 wt.% graphite flakes), significant increases in permittivity, conductivity, and capacitance occur, with strong frequency dependence analyzed over 10^{-2} Hz to 10^7 Hz. Similarly, polyimide/graphene oxide composites exhibit frequency-dependent dielectric constants that increase with filler content, interpreted through percolation threshold models.

The temperature dependence of frequency-dependent electrical properties, observed in chalcogenide thin films such as $Se_{80}S_{20}$, provides additional context for understanding the behavior of $(Bi_{0,5}Sb_{0,5})_2Te_3$ films [24]. The shift in the minimum of temperature dependence according to $T_{\min} = \frac{R_{\text{int}}}{R_v^2}$ suggests that both crystallite and contact resistances exhibit distinct temperature dependencies, which could be exploited for temperature-compensated strain sensing applications.

While the present study provides valuable insights into the frequency-dependent tensoresistive behavior of $(Bi_{0,5}Sb_{0,5})_2Te_3$ films, several limitations should be acknowledged. First, the measurements were conducted at room temperature; temperature-dependent studies would provide a more complete picture of the transport mechanisms. Second,

direct microstructural characterization (e.g., scanning electron microscopy, transmission electron microscopy) of films before and after cyclic deformation would validate the proposed mechanisms of dielectric gap formation and contact degradation.

Future research should focus on optimizing film preparation parameters to achieve a balance between high tensoresistance sensitivity and mechanical durability. The development of composite structures incorporating flexible substrates and protective encapsulation layers, as demonstrated in recent flexible thermoelectric generators, could enhance the practical applicability of these materials [25]. Additionally, exploring the integration of $(Bi,Sb)_2Te_3$ films with advanced signal processing algorithms could enable more sophisticated fatigue damage detection and structural health monitoring capabilities.

Conclusion

This work confirms that composite $(Bi_{0.5}Sb_{0.5})_2Te_3$ thin films exhibit a strong frequency-dependent tensoresistive response that is significantly affected by cyclic mechanical deformation. Repeated loading up to 5×10^5 deformation cycles leads to a reduction of the critical frequency by nearly two orders of magnitude, which is associated with the formation of dielectric gaps at crystallite boundaries and the accumulation of mechanical fatigue damage. The observed frequency behavior is well described by an equivalent electrical circuit model incorporating crystallite resistance, inter-crystallite contact resistance, and shunting capacitance.

The high tensoresistive sensitivity and nonlinear deformation characteristics of the films are consistently interpreted within the framework of percolation theory, highlighting the strong influence of microstructural connectivity on electrical transport. The pronounced sensitivity of the electrical properties to cyclic loading suggests that these films are promising candidates for sensing accumulated fatigue damage in structural health monitoring systems, particularly for aerospace and other mechanically demanding applications.

Furthermore, the results are in good agreement with recent developments in flexible thermoelectric materials and strain-sensing technologies, emphasizing the multifunctional capabilities of Bi_2Te_3-based compounds. Optimization of fabrication parameters and integration into flexible device architectures may enable the development of self-powered monitoring systems that combine energy harvesting with real-time damage detection. Future studies should address temperature-dependent transport behavior, detailed microstructural characterization, and the fabrication of practical device prototypes to fully exploit the potential of $(Bi, Sb)_2Te_3$ films for next-generation flexible electronics and smart sensing applications.

References

[1] Shang, H., et al. "$(Bi_{0.5}Sb_{1.5})_2Te_3$-based films for flexible thermoelectric devices." Journal of Materials Chemistry A, vol. 8, no. 10, pp. 5213-5220, 2020. https://doi.org/10.1039/C9TA13152C

[2] Kwon, S., et al. "Multi-Functional and Stretchable Thermoelectric Bi_2Te_3 Fabric for Strain, Pressure, and Temperature-Sensing." Advanced Functional Materials, vol. 33, no. 15, 2023. https://doi.org/10.1002/adfm.202300092

[3] Mirsagatov, Sh.A., Shamirzaev, S.Kh., and Makhmudov, M.A. "Intergranular surface states of polycrystalline films of CdTe and their influence on the formation of effective quantum yield." Uzbek Physics Journal, no. 2, pp. 36-40, 1996.

[4] Meeporn, K., et al. "Significant enhancement of dielectric permittivity and percolation behaviour of $La_{2-x}Sr_xNiO_4$/poly(vinylidene fluoride) composites with different Sr doping concentrations." RSC Advances, vol. 10, no. 22, pp. 13001-13016, 2020. https://doi.org/10.1039/C9RA09719H

[5] Rahaman, M., et al. "Effect of carbons' structure and type on AC electrical properties of polymer composites: predicting the percolation threshold of permittivity through different models." Colloid and Polymer Science, vol. 301, pp. 647-661, 2023. https://doi.org/10.1007/s00396-023-05120-2

[6] Zheng, Z., et al. "Ultrahigh thermoelectric properties of p-type $Bi_xSb_{2-x}Te_3$ thin films with exceptional flexibility for wearable energy harvesting." Carbon Energy, vol. 6, no. 8, 2024. https://doi.org/10.1002/cey2.541

[7] Lin, C.C., et al. "Enhanced Thermoelectric Performance of Screen-Printed Bi_2Te_3 Flexible Films and Generators through Controlled Thermal Processing." ACS Applied Energy Materials, vol. 8, no. 3, pp. 2536-2545, 2025. https://doi.org/10.1021/acsaem.5c02536

[8] Sultanov, Sh.D. "Influence of technological factors on the tenso-sensitivity of $(Bi,Sb)_2Te_3$ compound films." Materials of the 27th International Conference "Composite Materials in Industry", Yalta, Crimea, p. 360, 2006.

[9] Abdullaev, E.A., Yuldashev, N.Kh., and Sultanov, Sh.D. Piezoresistance effect in lead and bismuth chalcogenides. Part I. Tashkent: Fan, 1989, 182 p.; Part II. Fergana: Farg'ona, 2006, 118 p.

[10] Alfannakh, H., et al. "The AC conductivity and dielectric permittivity for PVA-treated MWCNT electrolyte composite." Journal of Materials Science: Materials in Electronics, vol. 33, pp. 24916-24929, 2022. https://doi.org/10.1007/s10854-022-09092-x

[11] Fang, T.T., et al. "New insight into the colossal dielectric constant of polycrystalline $CaCu_3Ti_4O_{12}$ underlying the physical mechanisms of the dielectric relaxation." AIP Advances, vol. 15, no. 1, 2025. https://doi.org/10.1063/5.0290811

[12] Regis, E., et al. “Investigation of Structural and Electrical Properties of Al_2O_3/Al Composites Prepared by Aerosol Co-Deposition.” Crystals, vol. 13, no. 5, 2023.
https://doi.org/10.3390/cryst13050850
[13] Anjeline, S.K., et al. “Improved dielectric properties of triphasic ($NiFe_2O_4$–$2LaFeO_3$)–Ni–PVDF cermet–polymer composite films via magnetic field-assisted solidification.” Journal of Alloys and Compounds, 2023.
[14] Zhu, P., et al. “Tuning strain sensor performance via programmed thin-film crack evolution.” ACS Applied Materials & Interfaces, vol. 13, no. 37, pp. 44864-44872, 2021. https://doi.org/10.1021/ACSAMI.1C10975
[15] Song, Y., et al. “In-depth analysis of mechanical and electrical responses of PDMS/MWCNT micro-composite films under cyclic loading conditions.” Polymer, vol. 285, 2023. https://doi.org/10.1016/j.polymer.2023.126552
[16] Kwon, S., et al. “Multi-Functional and Stretchable Thermoelectric Bi_2Te_3 Fabric for Strain, Pressure, and Temperature-Sensing.” Advanced Functional Materials, vol. 33, no. 15, 2023. https://doi.org/10.1002/adfm.202300092
[17] Rahaman, M., et al. “Effect of carbons’ structure and type on AC electrical properties of polymer composites: predicting the percolation threshold of permittivity through different models.” Colloid and Polymer Science, vol. 301, pp. 647-661, 2023.
https://doi.org/10.1007/s00396-023-05120
[18] Sanli, A., et al. “Electrical impedance analysis of carbon nanotube/epoxy nanocomposite-based piezoresistive strain sensors under uniaxial cyclic static tensile loading.” Journal of Composite Materials, vol. 54, no. 22, pp. 3031-3041, 2020. https://doi.org/10.1177/0021998319870592
[19] Sultanov, Sh.D. “Influence of technological factors on the tenso-sensitivity of (Bi, Sb)$_2$Te$_3$ compound films.” Materials of the 27th International Conference “Composite Materials in Industry”, Yalta, Crimea, p. 360, 2006.
[20] Shang, H., et al. “$Bi_{0,5}Sb_{1,5}Te_3$-based films for flexible thermoelectric devices.” Journal of Materials Chemistry A, vol. 8, no. 10, pp. 5213-5220, 2020.
https://doi.org/10.1039/C9TA13152C
[21] Zheng, Z., et al. “Ultrahigh thermoelectric properties of p-type $Bi_xSb_{2-x}Te_3$ thin films with exceptional flexibility for wearable energy harvesting.” Carbon Energy, vol. 6, no. 8, 2024. https://doi.org/10.1002/cey2.541
[22] Kwon, S., et al. “Multi-Functional and Stretchable Thermoelectric Bi_2Te_3 Fabric for Strain, Pressure, and Temperature-Sensing.” Advanced Functional Materials, vol. 33, no. 15, 2023. https://doi.org/10.1002/adfm.202300092
[23] Chen, W., et al. “Bi_2Te_3-based Flexible thermoelectrics.” Materials Today Energy, vol. 37, 2024. https://doi.org/10.1016/j.mtener.2024.101643
[24] Elsaeedy, H.I., et al. “Temperature and frequency dependence of AC electrical conductivity, dielectric permittivities, modulus and impedance parts for thermally deposited $Se_{80}S_{20}$ thin film.” Optical Materials, vol. 111, 2021.
https://doi.org/10.1016/J.OPTMAT.2020.110693
[25] Lin, C.C., et al. “Enhanced Thermoelectric Performance of Screen-Printed Bi_2Te_3 Flexible Films and Generators through Controlled Thermal Processing.” ACS Applied Energy Materials, vol. 8, no. 3, pp. 2536-2545, 2025.
https://doi.org/10.1021/acsaem.5c02536

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

UDK: 535.374

Shaymardanov Zafar Shapaatovich
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti,katta ilmiy xodim
Email: zshaymardanov@mail.ru
Urolov Shamsidin Zayniddinovich
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti, katta ilmiy xodim
Email: shz.urolov@gmail.com
Jalolov Rivojiddin Ruhitdin o'g'li
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti, katta ilmiy xodim
Email: rr_jalolov@iplt.uz
Rustamova Bahora Normurod qizi
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti, katta ilmiy xodim
Email: rustamovab777@gmail.com
Abdullayeva Muyassar Zohidjon qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
magistratura talabasi
Email:muyassaar3900@gmail.com

ZnO NANOSTRUKTURALARINING OPTIK VA ELEKTRON XOSSALARIGA KRISTALLOGRAFIK NUQSONLARNING TA'SIRI

Annotatsiya *Ushbu tadqiqot ishida past haroratda kimyoviy cho'ktirish usulida kvars shisha plastinkalar yuzasida o'stirilgan rux oksidi (ZnO) nanokristallarining fotolyuminessensiya (FL) spektriga va elektr qarshiligiga yuqori haroratda qizdirishning ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, nanokristallarning FL spektri ~384 nm va ~564 nm to'lqin uzunliklarida joylashgan nurlanish polosalaridan iborat. FL spektrining ~384 nm to'lqin uzunligida joylashgan nurlanish polosalari erkin eksitonlar rekombinatsiyasi yoki zonalar yaqinidagi o'tishlar hisobiga, ~564 nm to'lqin uzunliklarida joylashgan nurlanish polosasi esa ZnO ning xususiy defektlari yoki ularning komplekslari tufayli paydo bo'ladi. ZnO nanokristallarini 200°C haroratda 1 soat qizdirilganda xususiy nuqsonlarga yoki ularning komplekslariga tegishli bo'lgan ~564 nm to'lqin uzunliklarida joylashgan nurlanish polosasining yo'qolishi, namunalarning kristal panjarasidagi defektlar konsentratsiyasining minimal bo'lishini va ularning optik sifati yaxshilanishi spektral fotolyuminessent usulda aniqlandi. Bundan yuqori haroratlar (350°C, 500°C, 650°C)da qizdirish nanokristallarda kislorod vakansiyalari va strukturaviy nuqsonlar paydo bo'lishiga olib keldi. ZnO nanokristallarining elektr qarshiligi nanokristallardagi xususiy nuqsonlar konsentratsiyasiga va turiga bog'liqligi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *Fotolyuminessensiya spektri, ZnO nanokristallari, strukturaviy nuqsonlar, kislorod vakansiyalari, nurlanish polosasi*

Shaymardanov Zafar Shapaatovich
Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies, PhD
Urolov Shamsidin Zayniddinovich
Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies, PhD
Jalolov Rivojiddin Ruhitdin o'g'li
Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies, PhD
Rustamova Bahora Normurod kizi
Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies, PhD
Abdullayeva Muyassar Zohidjon kizi
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, master's student

EFFECT OF CRYSTALLOGRAPHIC DEFECTS ON THE OPTICAL AND ELECTRONIC PROPERTIES OF ZnO NANOSTRUCTURES

Abstract *In this study, the effect of high-temperature annealing on the photoluminescence (PL) spectrum and electrical resistance of zinc oxide (ZnO) nanocrystals grown on quartz glass plates by low-temperature chemical bath deposition method was studied. Studies have shown that photoluminescence spectrum of nanocrystals consists of emission bands located at wavelengths of ~384 nm and ~564 nm. The emission bands of the PL spectrum located at ~384 nm appear due to the recombination of free exciton or near-band edge transitions, and the emission band located at wavelengths of ~564 nm appears due to native defects of ZnO or their complexes. When ZnO nanocrystals were annealed at 200°C for 1 hour, the disappearance of the emission band at ~564 nm wavelengths, which corresponded to native defects or their complexes, the minimum concentration of defects in the crystal lattice of the samples, and the improvement of their optical quality were detected by the spectral photoluminescence method. Annealing at higher temperatures (350°C, 500°C and 650°C) led to the appearance of oxygen vacancies and structural defects in the nanocrystals. It was found that the electrical resistance of ZnO nanocrystals depends on the concentration and type of intrinsic defects in the nanocrystals.*

Keywords: *Photoluminescence spectrum, ZnO nanocrystals, structural defects, oxygen vacancies, emission band.*

Шаймарданов Зафар Шапаатович
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий, старший научный сотрудник
Уролов Шамсиддин Зайнутдинович
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий, с тарший научный сотрудник
Джалолов Ривожиддин Рухитдин угли
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий, старший научный сотрудник
Рустамова Бахора Нурмурод кызы
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий, старший научный сотрудник
Абдуллаева Муяссар Зохиджан кызы
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, магистрант

ВЛИЯНИЕ КРИСТАЛЛОГРАФИЧЕСКИХ ДЕФЕКТОВ НА ОПТИЧЕСКИЕ И ЭЛЕКТРОННЫЕ СВОЙСТВА НАНОСТРУКТУР ZnO

Аннотация*: В данном работе исследовалось влияние высокотемпературного нагрева на спектр фотолюминесценции (ФЛ) и электрическое сопротивление нанокристаллов оксида цинка (ZnO), выращенных на поверхности кварцевых стеклянных пластин методом низкотемпературного химического осаждения. Исследования показали, что спектр ФЛ нанокристаллов состоит из полос излучения, расположенных на длинах волн ~384 нм и ~564 нм. Полосы излучения на длине волны ~384 нм в спектре ФЛ возникают за счет рекомбинации свободных экситонов или переходов вблизи зон, тогда как полоса излучения на длине волны ~564 нм возникает за счет собственных дефектов ZnO или их комплексов. При нагреве нанокристаллов ZnO до 200°C в течение 1 часа методом спектральной фотолюминесценции было определено исчезновение полосы излучения на длине волны ~564 нм, связанной со специфическими дефектами или их комплексами, минимальная концентрация дефектов в кристаллической решетке образцов и улучшение их оптического качества. Нагревание при более высоких температурах (350°C, 500°C, 650°C) приводило к образованию кислородных вакансий и структурных дефектов в нанокристаллах. Было установлено, что электрическое сопротивление нанокристаллов ZnO зависит от концентрации и типа конкретных дефектов в нанокристаллах.*

Ключевые слова: *Спектр фотолюминесценции, нанокристаллы ZnO, структурные дефекты, кислородные вакансии, полоса излучения.*

Kirish

Bugungi kunda rux oksidi (ZnO) nanomateriallari o‘zining mukammal kristallik sifati va noyob elektrooptik xususiyatlari sabab optoelektronika texnologiyalari uchun istiqbolli material sifatida katta qiziqishlarga sabab bo‘lmoqda. ZnO taqiqlangan zona kengligi xona xaroratida 3.37 eV, erkin eksitonining bog‘lanish energiyasi 60 meV bo‘lgan keng zonali yarimo‘tkazgich materialdir [1]. Yarimo‘tkazgich materiallarning optik xususiyatlari ichki va tashqi ta’sirlarga kuchli bog‘liqdir. O‘tkazuvchanlik zonasidagi elektronlar bilan valentlik zonasidagi kovaklar o‘rtasidagi ichki optik o‘tishlar, aniqrog‘i, Kulon o‘zaro ta’sirlashuvidan kelib chiqadigan eksitonik effektlar yarimo‘tkazgich materiallarning optik xossalarida muhim ahamiyatga ega. Tashqi xususiyatlar kirishmalar yoki nuqsonlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular odatda taqiqlangan sohada o‘zining diskret elektron sathlarini hosil qiladi va natijada, bu sathlar optik o‘tish jarayonlariga ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Nanostrukturalarning optik xossalarini tadqiq etishda fotolyuminessent spektroskopiya namunaga zarar yetkazmagan holda, nanostrukturalarning optik sifatini va ulardagi nuqtaviy defektlarni, shu jumladan, materiallarning tashqi va ichki nuqsonlarini aniqlashda yuqori sezgirlikka ega bo‘lgan ishonchli uslubdir. Odatda, ZnO nanostrukturalarida xona temperaturasidagi fotolyuminessensiya (FL) spektrlarida ultrabinafsha (UB) va ko‘zga ko‘rinuvchi sohalarda ikki qismdan tashkil topgan nurlanish polosalari kuzatiladi. Ultrabinafsha (UB) sohada yuqori

intensivlikka ega tor nurlanish polosasi 382- 390 nm to‘lqin uzunligida joylashgan polosasi ZnO ning zonalari yaqinidagi optik o‘tishlar yoki erkin eksitonlar rekombinatsiyasi natijasida paydo bo‘ladi [2,3]. Spektrning ko‘zga ko‘rinuvchi sohada joylashgan nurlanish polosasi esa 400-700 nm to‘lqin uzunligida joylashgan bo‘lib, bu nurlanish polosalari o‘tkazuvchanlik zonasidan taqiqlangan zonadagi kristallografik nuqsonlarga tegishli sathlarga o‘tishda yoki nuqsonlarga tegishli sathdan valent zonaga o‘tishda yuzaga keladigan nurlanish hisoblanadi. Ko‘zga ko‘rinuvchi sohada joylashgan nurlanish nurlanish polosasining kelib chiqishini tushuntiruvchi ko‘plab farazlar mavjud, ammo ilmiy adabiyotlarda bu borada yagona nuqtai nazar mavjud emas [4,5]. Kislorodga boy muhitlarda sintez qilingan ZnO nanostrukturalarining FL spektrlarida sariq-to‘qsariq nurlanish polosasi kuzatilgani juda ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan qayd qilib o‘tilgan. Ushbu nurlanish polosasi nanostrukturalarni sintez qilish usuli va sharoitlariga ko‘ra 560-600 nm to‘lqin uzunliklari orasida kuzatilishi mumkin [6,7,8]. ZnO ning xususiy nuqsonlari ichida kristal panjara tugunlari orasida joylashgan ortiqcha kislorod atomlari sariq-to‘qsariq nurlanish polosasini vujudga kelishiga sabab bo‘lishi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan keltirilgan [9,10]. Shuningdek, First principle metodi asosida hisoblangan ZnO ning elektron zona tuzilishida ning hosil qilgan sathi o‘tkazuvchanlik zonasi minimumidan taxminan 2,28 eV pastda joylashadi va buning natijasida elektronlarning o‘tkazuvchanlik zonasidan taqiqlangan zonadagi ga tegishli sathga o‘tishi sariq-to‘qsariq nurlanish polosasini hosil qiladi [11,12]. Biroq, ushbu sariq-to‘q sariq nurlanish polosasining tabiatini o‘rganishga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar olib borilganiga qaramasdan, bu borada aniq to‘xtamga kelinmagan. Quyosh batareyalari, tekis panelli displeylar, yorug‘lik diodlari va shu kabi bir qator optoelektron qurilmalar uchun kamxarj optik jixatdan shaffof o‘tkazuvchan yupqa oksid plyonkalariga bo‘lgan extiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Hozirgi kunda qalay kiritilgan indiy oksidi (ITO) yuqori elektr o‘tkazuvchanligi va optik jixatdan shaffofligi tufayli eng keng tarqalgan hisoblanadi. Biroq, ITO ishlab chiqarishda indiyning yuqori narxi, zaharliligi va tanqisligi uning imkoniyatlarini cheklaydi. Muqobil materiallar orasida ZnO nisbatan arzonligi, ta’qiqlangan zona energiyasi kattaligi va boshqa noyob elektrooptik xususiyatlari sababli shaffof o‘tkazuvchan oksid yupqa plyonkalari uchun istiqbolli materialdir. Shu sababdan turli nuqsonlarning ZnO nanostrukturalarining elektron xossalariga ta’sirini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. A.Velázquez-Nevárеza va boshqalar [11] tomonidan izoprapanolli eritma yordamida hosil qilingan ZnO yupqa plyonkalariga yuqori haroratlarda termoishlov berish natijasida elektr qarshiligining o‘zgarishi tadqiq qilingan. ZnO yupqa plyonkasiga termoishlov berish temperaturasi 400ºC dan 800ºC gacha ortganda uning elektr qarshiligi 7,1 Ω·sm dan 1641,7 Ω·sm gacha ortgani kuzatilgan. Ammo, ZnO nonokristallariga termoishlov berish natijasida nuqsonlarni modifikatsiya qilish va ularning elektr qarshiligiga ta’siri tadqiq qilinmagan muammolardan biridir.

Ushbu ishda past haroratli gidrotermal usulda ITO tagliklarda sintez qilingan ZnO nanokristallarining FL xossalariga va elektr qarshiligiga yuqori haroratda qizdirishning ta’siri tadqiq etilgan.


Eksperimental qism

Past haroratda suvli eritmalarda ZnO nanostrukturalarini sintez qilishda yuqori tozalikdagi $ZnC_4H_6O_4{\cdot}2H_2O$ 99,99% kimyoviy reaktivlardan foydalanildi. Bu sintez qilingan namunalarning kristal strukturasida kirishma moddalar miqdorining minimal bo‘lishini ta’minlaydi. ZnO nanokristallarini sintez qilishda kimyoviy cho‘ktirish usulidan foydalanildi. Dastlab tagliklar sifatida qo‘llaniluvchi ITO qoplangan kvars shisha plastinkalar (10×10×0,5 mm) ultra tovushli vannada etil spirti, atseton va distillangan suv yordamida navbat bilan tozalandi. Bunda tagliklar yuzasiga o‘rnashib qolgan tozalovchi suyuqlikning qoldiqlari to‘liq parlanib ketadi. Tozalash jarayonidan keyin kvars shisha plastinkalarning ishchi yuzasining tozalik darajasi optik mikroskop yordamida tekshirildi. Shundan so‘ng shisha kolbada 0.6586 g $ZnC_4H_6O_4{\cdot}2H_2O$ ning CH_4O dagi eritmasi tayyorlandi.

Eritma ~15 minut davomida magnetik meshalka yordamida intensiv aralashtirilib shaffof suyuqlik holiga keltirildi va unga 10 ml miqdorda deionlashtirilgan suv qo‘shilib 10 minut magnetik meshalka yordamida intensiv aralashtirildi. Shisha kolbaning asosiga avvaldan tozalangan tagliklar gorizontal holatda joylashtirildi. Keyin kolba zich qilib yopilib, issiqlikka chidamli slindrik idishga joylashtirilib, maxsus pechda 63ºC doimiy haroratda 24 soat davomida ZnO nanokristallari sintez qilindi. ZnO nanokristallarining FL spektrlari impulsli azot lazeri (λ = 337,1 nm, τ=6 ns, P=15 kVt) yordamida uyg‘otildi. FL spektrlari MDR-23 monoxromatori asosida yig‘ilgan eksperimental qurilmadan foydalanib qayd qilindi. ZnO nanokristallarining morfologik xossalari skanlovchi elektron mikroskopda (SEM) (PHILIPS XL-30) tadqiq qilindi.


Natijalar va muhokamalar

Yuqori haroratlarda sintez qilingan nanostrukturalardan farqli ravishda suvli eritmalarda sintez qilingan rux oksidi nanostrukturalarining kristal strukturasida nuqsonlar kuzatiladi. Bu kristal nuqsonlarning tabiatini o‘rganish va ularga tashqi omillarning ta’sirlarini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan hisoblanadi. 1-rasmda kimyoviy cho‘ktirish usulida sintez qilingan nanokristallarining skanlovchi elektron mikroskopda olingan tasviri keltirilgan. SEM tasvirlardan ZnO nanokristallarining o‘lchamlari 400-700 nm va ularning morfologiyasi olti burchakli kesik piramida shaklida ekanligini ko‘rish mumkin.



1-rasm. ZnO nanokristallarining skanlovchi elektron mikroskopda olingan tasviri

ZnO nanostrukturalarini suvli eritmalarda sintez qilish past haroratlarda olib borilgani uchun nanostrukturalarning xossalariga ta'sir etuvchi eng muhim omil bu yuqori haroratda termoishlov berishdir. ZnO nanokristallarining FL xossalariga yuqori haroratlarda mufel pechida qizdirishning ta'siri tadqiq etildi. Sintez qilingan nanokristallarining FL spektrida ham ~384 nm va ~564 nm to'lqin uzunliklarida joylashgan nurlanish polosalari kuzatildi (2- rasm, 1-egri chiziq).




2- rasm. ZnO nanokristallarining turli haroratlarda 1 soat qizdirilgandan keyingi FL spektrlari: 1) yangi o'stirilgan, 2) 200°C da, 3) 350°C da, 4) 500°C da va 5) 650°C da qizdirilgan namuna

Adabiyotlar taxliliga ko'ra, ZnO nanostrukturalari FL spektridagi ~384 nm to'lqin uzunligida joylashgan nurlanish polosasi erkin eksitonlar rekombinatsiyasi yoki zonalar yaqinidagi o'tishlar hisobiga paydo bo'ladi [6,7].

Nanostrukturalarni sintez qilishda begona kirishmalar bo'lmaganligi uchun 560-570 nm (2.18-2.21 eV) to'lqin uzunligidagi keng nurlanish polosasini ZnO ning xususiy defektlari yoki ularning komplekslari bilan bog'lash mumkin. Ko'p hollarda, bu nurlanish polosasi kislorod atomlariga boy muhitda yoki past haroratda suvli eritmalarda sintez qilingan ZnO nanostrukturalarining FL spektrlarida kuzatiladi va kristal panjara tugunlari orasida joylashgan ortiqcha kislorod atomlari (O_i^{-2}) yoki ularning komplekslariga taalluqli degan nazariya ilgari suriladi [6,7,13,14]. First principle metodi asosida olingan natijalarga ko'ra, ning neytral holatdan bir karra manfiy zaryadlangan holat ga o'tishi valent zona maksimumidan 0,46 eV yuqorida joylashadi. Bir karra manfiy zaryadlangan holatdan ikki karra manfiy zaryadlangan holat ga o'tishi esa valent zona maksimumidan ~0,9-1,2 eV yuqorida joylashadi [1, 15]. Ushbu ishlarda keltirilgan nazariy hisob-kitoblar asosida aytish mumkinki, uyg'otilgan elektron o'tkazuvchanlik zonasidan O_i^{-2}ga tegishli sathga o'tishi natijasida ZnO nanostrukturalarining FL spektrida maksimumi ~570 nm (2,18 eV) da joylashgan nurlanish polosasi paydo bo'ladi. Bu gipoteza [16] ishda mualliflar tomonidan qo'llab quvvatlangan bo'lib, ZnO ning yupqa plyonkalarida akseptor tipidagi nuqsonlar konsentratsiyasining ortishi to'q sariq nurlanish polosasi intensivligining ortishiga olib kelishi bayon qilingan. ZnO nanostrukturalarining FL spektridagi UB sohadagi nurlanish polosasi intensivligi ning nuqsonlarga tegishli bo'lgan ko'rinuvchi sohadagi nurlanish polosasi intensivligi ga nisbati ZnO nanostrukturalarining sifat ko'rsatkichidir. Hona haroratida olingan ZnO nanokristallarining FL spektri uchun ekanligi (2- rasm, 1-egri chiziq) sintez qilingan nanokristallar ancha mukammal struktura ega ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, ZnO nanokristallarini mufel pechida 200℃ haroratda 1 soat qizdirishdan keyin ularning FL spektridagi UB nurlanish polosasining yarimkengligi kamayib, ~570 nm

to‘lqin uzunligida joylashgan nurlanish polosasi yo‘qoladi (2- rasm, 2-egri chiziq). Haroratning ortib borishi bilan ~510 nm to‘lqin uzunligida joylashgan nurlanish polosasi paydo bo‘lishi kuzatildi (2- rasm, 3,4,5-egri chiziqlar).

FL spektrlaridagi nurlanish polosalaridagi o‘zgarishlarni yanada yaqqol ko‘rinishi uchun ularni Gauss tashkil etuvchilariga ajratish mumkin.




3- rasm. ZnO nanokristallarining turli haroratlarda 1 soat qizdirilgandan keyingi FL spektrlarining Gauus komponentalari: a) yangi o‘stirilgan, b) 200^{o}C da, c) 650^{o}C da qizdirilgan namunalar

3- rasmda ZnO nanokristallarining yangi o‘stirilgan (a), ~200^{o}C da (b) va ~650^{o}C da (c) 1 soat qizdirilgandan keyingi FL spektrlarining Gauus komponentalari keltirilgan. Rasmdan yangi o‘stirilgan ZnO nanokristallarining FL spektri UB va ko‘rinuvchi sohalarda joylashgan ikkita Gauss tashkil etuvchilaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin (3- (a) rasm). Nanokristallarning FL spektridagi bu o‘zgarishlar ZnO nanokristallarini mufel pechida ~200^{o}C da 1 soat qizdirish natijasida ko‘rinuvchi sohadagi nurlanish polosasining yo‘qolishi (3- (b) rasm), ularning kristal strukturasidagi ortiqcha kislorod atomlari kristal panjarani tark etishidan va ularning konsentratsiyasi minimal bo‘lishidan dalolat beradi. Mufel pechida ~200^{o}C da qizdirilgan ZnO nanokristallari FL spektrining UB sohadagi nurlanish polosasi intensivligining nuqsonlarga tegishli bo‘lgan nurlanish polosasi intensivligiga nisbati ga teng bo‘ldi. Ushbu nisbat va FL spektridagi o‘zgarishlar ZnO nanokristallarini ochiq havoda ~200^{o}C da ~1 soat qizdirish natijasida ulardagi kristal nuqsonlar miqdori keskin kamayishini ko‘rsatadi. Nanokristallar 650^{o}C haroratda 1 soat qizdirilgandan keyin ularning FL spektridagi UB nurlanish polosasining yarimkengligi kamayishi bilan birga ~510 nm (2,43 eV) to‘lqin uzunligida yashil nurlanish polosasi paydo bo‘lganligini yaqqol ko‘rish mumkin (3- (c) rasm,). FL spektridagi UB va yashil nurlanish polosalari intensivliklari nisbati ~13.6 ga teng.

ZnO nanostrukturalarining FL spektrida kuzatiladigan yashil nurlanish polosasining yuzaga kelishiga bag‘ishlangan bir qator gipotezalar mavjud. [17] ishda ZnO parashoklarining optik xossalari elektron-paramagnetik-rezonans (EPR), absorbsion va fotolyuminessent spektroskopiya usullari yordamida tadqiq etilganda FL spektrida ~510 nm (2,43 eV) to‘lqin uzunligida yashil nurlanish polosasi kuzatilgan. Mualliflar EPR va fotolyuminessent spektroskopiya natijalaridan kelib chiqib, ushbu nurlanish polosasini bir karra musbat zaryadlangan kislorod vakansiyasi bilan bog‘lashgan. Ushbu gipotezaga mos tahlillar [18] tadqiqot ishida ham keltirilgan. Tadqiqotlarda ZnO nanostrukturalarining optik xossalari EPR va fotolyuminessent spektroskopiya usullarida o‘rganilgan bo‘lib, mualliflar EPR spektridagi G ~1.96 pik va FL spektrida 506 nm (2,45 eV) da yashil nurlanish polosasi kuzatilganligini bayon qilishgan. Tadqiqot natijalari asosida yashil nurlanish polosasi kislorod atomlariga boy bo‘lmagan muhitlarda sintez qilingan yoki yuqori haroratda qizdirilgan ZnO nanostrukturalarining FL spektrida kuzatilishini va bu nurlanish kislorod vakansiyalari bilan bog‘liq ekanligini xulosa qilishgan [17,18]. Nanokristallarga 350°C va 650°C haroratda 1 soat termoishlov berilgandan keyin qayd qilingan FL spektrlarida UB nurlanish polosasi o‘zgarmasdan qolib, yashil nurlanish polosasining intensivligi ortishi kuzatildi. FL spektridagi UB va yashil nurlanish polosalari intensivliklari nisbati kamayib, mos ravishda 8.9 va 5 qiymatlarni qabul qildi. Nisbatning kamayishi nanokristallarni qizdirish harorati ortishi bilan ularning kristal strukturasidagi kislorod vakansiyalarining konsentratsiyasi ortishi bilan bog‘liq deyish mumkin.

ZnO nanokristallarini mufel pechida turli xaroratlarda qizdirish natijasida ulardagi nuqsonlar konsentratsiya va turi o‘zgarishi ta’sirida namunalar qabul qilgan elektr qarshiliklariga bog‘liqligi o‘rganildi. ZnO nanokristallari elektr qarshiligi va ularning FL spektridagi UB nurlanish polosasi intensivligining nuqsonlarga tegishli bo‘lgan nurlanish polosasi intensivligiga nisbati I_{UB}/I_{def} ning qizdirish temperaturasiga bog‘liqligi 4–rasmda keltirilgan.



4- rasm. Kimyoviy cho‘ktirish usulida sintez qilingan ZnO nanokristallari elektr qarshiligi va ularning FL spektridagi UB nurlanish polosasi intensivligining nuqsonlarga tegishli bo‘lgan nurlanish polosasi intensivligiga nisbati ning qizdirish temperaturasiga bog‘liqligi

Grafikdan ko‘rinadiki, ZnO nanokristallarining elektr qarshiligi nanokristallarga termoishlov beriladigan temperaturaga nochiziqli bog‘liqdir. ZnO nanokristallarining elektr qarshiligi qizdirish temperaturasiga bog‘liqligini ikki qismga ajrtish mumkin. Birinchisi, nanokristallarga 200℃ haroratgacha termoishlov berilgan qism. Bu qismda nanokristallarning elektr qarshiligi qizdirish temperaturasiga teskari chiziqli bog‘liq bo‘lib, qizdirish harorati ortib borishi bilan nanokristallarning elektr qarshiligi kamayib bordi va 200℃ haroratda eng minimum qiymatga ega bo‘ldi. Ikkinchisi, nanokristallarga 200℃ haroratdan yuqori temperaturalarda termoishlov berilgan qism. Bu qimda esa nanokristallarning elektr qarshiligi qizdirish temperaturasiga chiziqli bog‘liq bo‘lib, termoishlov berish harorati ortib borishi bilan nanokristallarning elektr qarshiligi ortib bordi. ning qiymati dastlab ZnO nanokristallari qizdirish haroratining ortishi bilan chiziqli ravishda ortib boradi va o‘zining maksimal qiymatiga 200℃ temperaturada qizdirilgan namunalarda erishdi. So‘ngra, qizdirish xaroratining ortib borishi bilan namunaning optik sifat ko‘rsatkichi) ham kamayib bordi. Grafikdan namunaning elektr qarlishigi uning optik sifat ko‘rsatkichiga teskari nisbatda bog‘langanligi ko‘rinadi. Ma’lumki, namunaning optik jixatdan sifat ko‘rsatkichi nanokristallardagi nuqsonlar konsentratsiyasi va turiga bog‘liqdir. Shu jihatdan namunada nuqsonlarning paydo bo‘lishi va ularning konsentratsiyasining ortishi namunaning optik sifat ko‘rsatkichini pasayishiga va elektr qarshiligining ortishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa

Past haroratda suvli eritmalarda kimyoviy cho'ktirish va gidrotermal usulda ZnO nanokristallari sintez qilindi. Elektron mikroskopiya tahlillari ko'rsatdiki, nanokristallar o'lchamlari 400-700 nm atrofida bo'lib, geksogonal tuzilishga ega. ZnO nanokristallari ochiq havoda 200°C haroratda 1 soat qizdirilganda ularning kristal panjarasidagi nuqsonlar konsentratsiyasi minimal bo'ladi va ularning optik sifati yaxshilanadi. 200°C dan yuqori haroratlarda qizdirish nanokristallarda kislorod vakansiyalari va srtukturaviy defektlar paydo bo'lishiga olib keladi. ZnO nanokristallarining elektr qarshiligi nanokristallardagi xususiy strukturaviy nuqsonlar konsentratsiyasiga va turiga bog'liqligi aniqlandi.

Minnatdorchilik

Ushbu maqoladagi olingan natijalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining fundamental tadqiqotlarni bazaviy moliyalashtirish dasturi bo'yicha amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Özgür Ü., Alivov Ya.I., Liu C., Teke A., Reshchikov M.A., Doğan S., Avrutin V., Cho S.-J., Morkoç H. *A comprehensive review of ZnO materials and devices.* J. Appl. Phys. 2005. Vol. **98**. 041301.

2. K.H. Tam, C.K. Cheung, Y.H. Leung, A.B. Djurišić, C.C. Ling, C.D. Beling, S. Fung, W.M. Kwok, W.K. Chan, D.L. Phillips, L. Ding, W.K. Ge. *Defects in ZnO Nanorods Prepared by a Hydrothermal Method.* // J. Phys. Chem. B110 (**42**) (2006) 20865– 20871.

3. S. Kurbanov, G. Panin, T.W. Kim and T.W. Kang. *Thermo- and Photo- annealing of ZnO Nanocrystals.* // Japanese Journal of Applied Physics. Vol. **46**, No. 7A, 2007, pp. 4172–4174.

4. Willander M.; Nur O.; Sadaf J.R.; Qadir M.I.; Zaman S.; Zainelabdin A.; Bano N.; Hussain I. *Luminescence from zinc oxide nanostructures and polymers and their hybrid devices.* // Materials. 2010. **3**. 2643–2667.

5. Djurisic A.B., Ng A.M.C., Chen X.Y. Review. *ZnO nanostructures for optoelectronics: Material properties and device applications.* // Prog. Quant. Electron. 2010. V. **34**. pp. 191–259.

6. S. Kurbanov, G. Panin, Tae Won Kang and Tae Whan Kim. *Modulation of Excitonic Emission from ZnO Nanocrystals by Visible Light Illumination* // Japanese Journal of Applied Physics. Vol. **47**, No. 5, 2008, pp. 3760–3762.

7. S.S. Kurbanov, G.N. Panin, T.W. Kim, T.W. Kang. *Strong violet luminescence from ZnO nanocrystals grown by the low- temperature chemical solution deposition.* // Journal of Luminescence **129** (2009) 1099–1104.

8. Greene, L. E.; Law, M.; Goldberger, J.; Kim, F.; Johnson, J. C.; Zhang, Y.; Saykally, R. J.; Yang, P., *Low- Temperature Wafer- Scale Production of ZnO Nanowire Arrays.* // Angew Chem Int Ed Engl 2003, **42**, 3031-3034.

9. Djurišić, A.B.; Leung, Y.H.; Tam, K.H.; Ding, L.; Ge, W.K.; Chen, H.Y.; Gwo, S. *Green, yellow, and orange defect emission from ZnO nanostructures: Influence of excitation wavelength.* // Appl. Phys. Lett. 2006, **88**, 28–31.

10. Alvi, N.H.; Willander, M.; Nur, O. *The effect of the post-growth annealing on the electroluminescence properties of n-ZnO nanorods/p-GaN light emitting diodes.* // Superlattices Microstruct. 2010, **47**, 754–761.

11. G. A. Velázquez-Nevárez, J. R. Vargas-García, J. Aguilar-Hernández, O. E. Vega-Becerra, F. Chen, Q. Shen, L. Zhang, *Optical and Electrical Properties of (002)-Oriented ZnO Films Prepared on Amorphous Substrates by Sol-Gel Spin-Coating.* // Materials Research. 2016; **19** (Suppl. 1): 113-117.

12. N. Bouhssira, S. Abed, E. Tomasella, J. Cellier, A. Mosbah, M.S. Aida, M. Jacquet, *Influence of annealing temperature on the properties of ZnO thin films deposited by thermal evaporation* // Applied Surface Science **252** (2006) 5594–5597.

13. C. D. Gu, C. Cheng, H. Y. Huang, T. L. Wong, N. Wang, T. Y. Zhang. *Growth and Photocatalytic Activity of Dendrite-like ZnO@Ag Heterostructure.* // Nanocrystals Cryst. Growth Des. 2009. **9**, 7. 3278-3285.

14. S.S. Nath, D. Chakdar, and G. Gope, *Synthesis of CdS and ZnS quantum dots and theirapplications in electronics.* // Nanotrends: J. Nanotechnol. App. 2007. Vol. **2**. pp. 1-3.

15. Jagadish, C.; Pearton, S. J., *Zinc Oxide Bulk, Thin Films and Nanostructures:* Processing, Properties, and Applications; Elsevier, 2011.

16. Limpijumnong S, Zhang S B, Wei S H and Park C H Doping by Large- Size-Mismatched Impurities: *The Microscopic Origin of Arsenic-or Antimony-Dopedp-Type Zinc Oxide*/ 2004. Phys. Rev. Lett. **92** 155504.

17. Kohan, A.; Ceder, G.; Morgan, D.; Van de Walle, C. G., *First-Principles Study of Native Point Defects in ZnO.* Physical Review B. 2000, **61**, 15019.

18. Janotti, A.; Van de Walle, C. G., *Native Point Defects in ZnO.* Physical Review B 2007, **76**, 165202.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Otaqulova Nilufar Farhod qizi
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti, tayanch doktorant
Email: nilufarotaqulova98@gmail.com
Nurumbetova Lobar Rimbayevna
Toshkent davlat transport universiteti, assistent o'qituvchi
Email: lobar.nurumbetova@gmail.com
Allaquliyeva Shahlo Hakimboy qizi
Toshkent davlat transport universiteti, assistent o'qituvchi
Email: shahloallquliyeva@gmail.com
Saparbayev Aziz Adamovich
Ion plazma va lazer texnologiyalari instituti, yetakchi ilmiy xodim
Email:saparbaevaziz83@gmail.com

UDK 621.315.592.3

$CsPbI_2Br$ PEROVSKIT QUYOSH ELEMENTLARINING SAMARADORLIGINI TRANEKSAMIK KISLOTA YORDAMIDA OSHIRISH

Annotatsiya: *Perovskit quyosh elementlari yuqori samaradorlik va arzon ishlab chiqarish imkoniyatlari sababli keng tadqiq qilinmoqda. Ularning samaradorligi va barqarorligini oshirish uchun qo'shimcha moddalardan foydalanish samarali yondashuv hisoblanadi. Ushbu ishda traneksamik kislota qo'shimcha modda sifatida qo'llanib, MAAc (metilammoniy atsetat) eritmasida eritildi va perovskit prekursoriga qo'shildi. Bu modda perovskit kristallarining sifatli va zich o'sishini rag'batlantirdi. Tayyorlash jarayoni havoda, xona haroratida amalga oshirilganligi esa sanoatga mosligini oshiradi. 0.5% traneksamik kislota qo'shilganda, $CsPbI_2Br$ perovskit qatlamining kristallik darajasi va yuzasining morfologiyasi yaxshilandi (SEM va XRD orqali tasdiqlangan). Natijada zaryad tashuvchilarning yashash vaqti va tashilish samaradorligi oshib, rekombinatsiya kamaydi hamda EO'S 7,63 % dan 12,14 % gacha ko'tarildi.*

Kalit so'zlar: *MAAc, traneksamik kislota, perovskit, EO'S, PQE, yutilish, FL intensivligi*

Otakulova Nilufar Farhod kizi
Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies, PhD
Email:nilufarotaqulova98@gmail.com
Nurumbetova Lobar Rimbayevna
Tashkent State Transport University, assistant teacher
Email: lobar.nurumbetova@gmail.com
Allakulieva Shahlo Hakimboy kizi
Tashkent State Transport University, assistant teacher
Email: shahloallquliyeva@gmail.com
Saparbaev Aziz Adamovich
Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies, leading researcher
Email: saparbaevaziz83@gmail.com

ENHANCING THE EFFICIENCY OF $CsPbI_2Br$ PEROVSKITE SOLAR CELLS USING TRANEXAMIC ACID

Abstract: *Perovskite solar cells have been extensively investigated due to their high efficiency and low fabrication cost. The use of additives is considered an effective strategy to enhance their efficiency and stability. In this work, tranexamic acid was employed as an additive, dissolved in a methylammonium acetate (MAAc) solution, and incorporated into the perovskite precursor. This additive promoted high-quality and compact growth of perovskite crystals. The fabrication process was carried out in ambient air at room temperature, which enhances its industrial applicability. Upon the addition of 0.5% tranexamic acid, the crystallinity and surface morphology of the $CsPbI_2Br$ perovskite layer were significantly improved, as confirmed by SEM and XRD analyses. Consequently, the*

charge carrier lifetime and transport efficiency increased, recombination was suppressed, and the power conversion efficiency (PCE) increased from 7.63% to 12.14%.

Keywords: *MAAc, tranexamic acid, perovskite, PCE, PSC, absorption, PL intensity.*

Отакулова Нилуфар Фарход кызы
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий, докторант
Нурумбетова Лобар Римбаевна
Ташкентский государственный транспортный университет, помощник учителя
Аллакулиева Шахло Хакимбой кызы
Ташкентский государственный транспортный университет, помощник учителя
Сапарбаев Азиз Адамович
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий, ведущий научный сотрудник

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЕРОВСКИТНЫХ СОЛНЕЧНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ $CsPbI_2Br$ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТРАНЕКСАМОВОЙ КИСЛОТЫ

Аннотация*: Перовскитные солнечные элементы активно исследуются благодаря их высокой эффективности и возможности низкозатратного производства. Использование добавок является эффективным подходом для повышения их эффективности и стабильности. В данной работе транексамовая кислота была использована в качестве добавки, растворённой в растворе метиламмоний ацетата (MAAc), и введена в перовскитный прекурсор. Установлено, что данная добавка способствует формированию плотной и высококачественной кристаллической структуры перовскита. Процесс изготовления осуществлялся на воздухе при комнатной температуре, что повышает его промышленную применимость. При добавлении 0,5% транексамовой кислоты кристалличность и морфология поверхности перовскитного слоя $CsPbI_2Br$ значительно улучшились, что было подтверждено результатами сканирующей электронной микроскопии и рентгеноструктурного анализа (SEM и XRD). В результате увеличилось время жизни и эффективность переноса носителей заряда, снизилась рекомбинация, а эффективность преобразования энергии (ЭПЭ) возросла с 7,63% до 12,14%.*

Ключевые слова: *метиламмоний ацетат (MAAc), транексамовая кислота, перовскит, ЭПЭ, ПСЭ, поглощение, интенсивность фотолюминесценции.*


Kirish

Noorganik qo'rg'oshin halidi (PQE) perovskit quyosh elementlari yuqori elektron harakatchanligi, yuqori yorug'lik yutish koeffitsienti, tashuvchining diffuziya uzunligi kabi turli afzalliklarga ega bo'lganligi sababli quyosh elementlari uchun istiqbolli materiallar ekanligi isbotlandi[1-2]. Noorganik $CsPbI_2Br$ perovskit materiallari yuqori termal barqarorlik va faza barqarorligiga ega ekanligi bilan perovskit asosidagi quyosh elementlari uchun istiqbolli hisoblanadi[3-5]. Biroq, $CsPbI_2Br$ perovskitning barqaror va yuqori samaradorlikka ega kubik strukturali qora fazasini olish uchun >250 ^{0}C yuqori haroratda qizdirish talab qilinadi[6]. Perovskit quyosh elementlari uchun kubik strukturali qora faza ideal holat hisoblanadi. Sababi bunday holatda perovskit faol qatlam ichida zaryadlarning harakatlanishi va yashash vaqti eng yaxshi natijaga erishadi, ya'ni ajralgan qarama-qarshi zaryad jufti eksitonning yashash vaqti uzoqroq bo'lib tezda rekombinatsiyaga uchramaydi. Shuningdek qora fazada perovskit faol qatlamning yutilish spektri ham keng diapazonda bo'ladi[7-10]. Ushbu ishda $CsPbI_2Br$ eritmasiga turli mol miqdorlarida qo'shilgan traneksamik kislota qo'shimchasining perovskit faol qatlami sifati va xossalariga ta'siri o'rganildi. Traneksamik kislota bu tibbiyotda keng qo'llaniladigan va hozirgi kunda perovskit quyosh elementlarida ham qo'shimcha modda sifatida o'rganilayotgan organik birikma hisoblanadi. Molekulyar formulasi $C_8H_{15}NO_2$. Traneksamik kislota siklik (halqasimon) tuzilmaga ega bo'lib, siklogeksan halqasiga quyidagi ikkita guruh biriktirilgan: –COOH guruhi perovskitdagi Pb^{2+} bilan kovalent yoki vodorod bog' hosil qilishi orqali struktura barqarorligi oshiriladi[11-15]. NH_2 guruhi esa yodid yoki bromid bo'shliqlari bilan bog'lanib defektlarni passivlashtiradi[16]. Passivatsiya natijasida zaryad tashuvchilar rekombinatsiyasi kamayadi, bu esa samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga NH_2 guruhlari donalararo chegaralarda harakatlanadigan ionlarni ushlab qolishga yordam berishi mumkin, bu esa ionli migratsiyani kamaytiradi va stabil ishlashga olib keladi[17]. Traneksamik kislota kristallanish kinetikasini sekinlashtirib, donalarning yiriklashishiga va silliqroq qatlam hosil bo'lishiga yordam beradi. Yuzaga bog'langan traneksamik kislota molekulalari faol qatlamni namlik va havo ta'siridan himoya qiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, $CsPbI_2Br$ asosidagi to'liq noorganik PQElarda organik aminokislotalar qo'shimchasi deyarli qo'llanilmagan. Avvalgi izlanishlar, odatda, kristall panjara barqarorligini oshirish va defektlarni kamaytirish uchun $FeCl_2$, Mn^{2+}, $YbCl_3$, $TiCl_4$ kabi noorganik tuzlar yoki yuzani passivlovchi noorganik qatlamlarga tayanadi. Shu nuqtai nazardan, halqasimon tuzilishga ega traneksamik kislota (–COOH va $–NH_2$ guruhlari bilan) qo'shilishi perovskit

donalarining o‘sishini boshqarish, donalararo chegaralarni mustahkamlash va namlikka chidamlilikni yaxshilash orqali yangi, istiqbolli yondashuv sifatida ajralib turadi[18].


Natijalar va muhokamalar

$CsPbI_2Br$ perovskit faol qatlamlaridagi nurlanishsiz rekombinatsiya jarayonlarini baholash uchun fotolyuminessensiya (FL) spektrlari o‘lchandi. O‘lchovlar bir xil uyg‘otuvchi to‘lqin uzunligi va yoritish intensivligi sharoitida amalga oshirildi. FL o‘lchovi perovskit qatlamidan chiqayotgan fotonlar intensivligini aniqlash orqali faol qatlamdagi radiaktiv rekombinatsiya samaradorligini baholaydi[20-23].



1-rasm. $CsPbI_2Br$ faol qatlamlarining FL spektrlari

1-rasmda turli miqdorda traneksamik kislota qo‘shilgan $CsPbI_2Br$ perovskit faol qatlamlarining barqaror FL spektrlari keltirilgan. Barcha faol qatlamlarning FL intensivligi eng kuchli nurlanishni 660 nm da chiqaradi, bu esa ularning taqiqlangan soha kengligi taxminan 1,88 eV ekanligini bildiradi. Bu pik joylashuvining deyarli o‘zgarmasligi shuni anglatadiki, traneksamik kislota qo‘shimchasi perovskitning elektron tuzilmasini (taqiqlangan soha kengligini) o‘zgartirmagan, balki asosan faol qatlam yuzasi va donachalararo chegaralardagi defektlar bilan bog‘liq jarayonlarga ta’sir qilgan. Birinchi holda ya’ni traneksamik kislota qo’shimchasi qo’shmasdan tayyorlangan faol qatlamlar eng past FL intensivligiga ega bo‘lib, bu yuqori nuqson zichligi va kuchli nurlanishsiz rekombinatsiya mavjudligini ko‘rsatadi. 0,2% traneksamik kislota qo‘shib tayyorlangan faol qatlamlarning FL intensivligi traneksamik kislota qo‘shilmagan $CsPbI_2Br$ perovskit faol qatlamlarining FL intensivligiga qaraganda yuqoriroq, ammo 0,5% va 1% namunalariga nisbatan pastroq natija ko’rsatdi. Bu shuni anglatadiki, traneksamik kislota molekulalari perovskit sirtidagi va donachalararo chegaralardagi defektlarning bir qismini passivlashtirgan bo‘lsa-da, bu konsentratsiya optimal darajaga yetmagan. Eng yuqori FL intensivligi 0,5% traneksamik kislota qo‘shib tayyorlangan $CsPbI_2Br$ perovskit faol qatlamlarida kuzatildi. Bu natija faol qatlamdagi zaryad tashuvchilar (elektron va kovaklar) yorug‘lik yutgandan so‘ng asosan nurlanish orqali qayta birikayotganini va nurlanmasdan yo‘qolib ketish ehtimoli keskin kamayganini ko‘rsatadi. Bunday kuchli FL intensivligi traneksamik kislota molekulalarining amin ($–NH_2$) va karboksil (–COOH) guruhlari orqali perovskit yuzasida va donachalararo chegaralarda joylashgan Pb^{2+} ionlari hamda galogen bo‘shliqlari bilan kuchli bog‘lanishi natijasida defektlarni samarali passivlashtirishidan kelib chiqadi[24-25]. Defektlar kamayganda, zaryad tashuvchilar tuzoqqa tushmaydi va yorug‘lik chiqarish samaradorligi ortadi. Biroq traneksamik kislota miqdori 1% gacha oshirilganda, FL intensivligi keskin pasayib ketdi. Bu ehtimol, ortiqcha traneksamik kislota perovskit kristall o‘sishini buzib, yuzada ortiqcha organik qatlam hosil qilgani va natijada zaryad o‘tishini qisman cheklagani bilan bog‘liq bo’lishi mumkin.



2-rasm. Turli miqdorda traneksamik kislota qo‘shimchasi kiritilgan $CsPbI_2Br$ PQElarning J-V egri chiziqlari

2-rasmda $CsPbI_2Br$ PQElarning J–V egri chiziqlari keltirilgan. O‘lchovlar, yuqorida tahlil qilingan yorug‘lik tushmagan holatdagi J–V egri chiziqlari uchun qo‘llanilgan PQElar tuzilishida amalga oshirildi va asosiy fotovoltaik parametrlar (V_{OC}, J_{SC}, FF va EO’S) 1-jadvalda keltirilgan. Birinchi holda, ya’ni traneksamik kislota qo’shimchasi


qo‘shilmagan holatda fotovoltaik parametrlar nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi: V_{OC} 1,005 V, J_{SC} 14,62 mA/cm², FF 51,93 %, EO‘S esa 7,63 % ni tashkil etdi. Traneksamik kislota miqdori 0,2 % ga oshirilganda esa J_{SC} 16,6 mA/cm² va EO‘S ning 11,03 % ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin, FF ham 59,08 % ga ko‘tarilgan. 0.5% konsentratsiyada esa eng yuqori samaradorlikka erishildi va V_{OC} 1.13 V, J_{SC} 16.87 mA·cm^{-2}, FF 63.69 % EO‘S 12.14% ga ko‘tarildi.

1-jadval. Turli miqdorda traneksamik kislota qo‘shimchasi kiritilgan $CsPbI_2Br$ PQElarning fotovoltaik parametrlari

Traneksamik kislota	V_{OC} (V)	J_{SC} (mA·cm^{-2})	*FF* (%)	EO‘S (%)
0%	1.005	14.62	51.93	7.63
0.2%	1.125	16.6	59.08	11.03
0.5%	1.13	16.87	63.69	12.14
1%	1.058	15.21	66.81	10.75


Bu natija traneksamik kislota qo‘shilishi perovskit faol qatlamining sifatini yaxshilab, rekombinatsiya jarayonlarini kamaytirganini ko‘rsatadi. Qo‘shimcha miqdorini 1% ga oshirganimizda esa ko‘rsatkichlar biroz pasaydi, V_{OC} 1.058 V, J_{SC} 15.21 mA·cm^{-2} va EO‘S 10.75% ga kamaydi. Bu ortiqcha qo‘shimcha faol qatlamda yangi nuqson markazlarini hosil qilib, rekombinatsiya jarayonlarini kuchaytirganini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, traneksamik kislota qo‘shilishi $CsPbI_2Br$ PQElarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

3-rasmda 0%, 0.2%, 0.5% va 1% miqdorda traneksamik kislota qo‘shimchasi kiritilgan $CsPbI_2Br$ PQElarning XRD (rentgen difraksiyasi) spektrlari keltirilgan. Traneksamik kislotaning turli konsentratsiyalarda qo‘shilishi $CsPbI_2Br$ PQElarning kristall tuzilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Grafikdan ko’rish mumkinki, barcha namunalarning difraksiya intensivligining eng yuqori piklari asosan ikkita joyda mavjud bo’lib, bu ikkita XRD piklar (100) va (200) $CsPbI_2Br$ faol qatlamlarning kub fazali strukturasiga mos keladigan 14,6° va 29,5° sohalarda joylashgan. 0% ya’ni traneksamik kislota qo‘shilmagan holatda tayyorlangan $CsPbI_2Br$ PQElarning XRD spektrida boshqa qo‘shimcha kiritilgan namunalar bilan taqqoslaganda intensivlik ancha past bo’lib, bu perovskitning kristallik darajasi va fazaviy barqarorligi yetarli darajada shakllanmaganini bildiradi. Qo‘shimcha miqdori 0.2% ga oshirilganda, piklar joylashuvi deyarli o‘zgarmagan holda intensivlikning biroz oshishi kuzatildi. Bu esa kristallanish jarayonining yaxshilanishi va panjara defektlarining kamayganligini ko‘rsatadi.



3-rasm. Turli miqdorda traneksamik kislota qo‘shimchasi kiritilgan $CsPbI_2Br$ PQElarning XRD spektrlari

Traneksamik kislota konsentratsiyasi 0.5% ga yetganda esa $CsPbI_2Br$ PQElarning XRD spektr intensivligi eng yuqori bo’ldi, bu optimal miqdorda traneksamik kislota qo‘shilishi kristall panjaraning ichki tartibini yanada mustahkamlab, yuqori sifatli kristallar hosil bo‘lishiga xizmat qilganini bildiradi. Shu bilan birga, traneksamik kislota miqdorini 1% ga oshirganimizda, $CsPbI_2Br$ PQElarning XRD spektr piklarida pasayish kuzatildi. Bu ortiqcha traneksamik kislota konsentratsiyasi panjarada ichki stress hosil qilib, kichik ikkilamchi fazalarning paydo bo‘lishiga olib kelganligidan bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, XRD natijalari traneksamik kislota qo‘shilishi, perovskitlarning kristall sifati va barqarorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Ushbu jarayonning fizik kimyoviy asosiy sababi shundaki, traneksamik kislota molekulalarida mavjud bo‘lgan funksional guruhlar (–COOH va –NH_2) qo‘shimcha ravishda O–Pb o‘rtasida vodorod bog‘lanishlarini hosil qiladi. Bu bog‘lanishlar kristall o‘sishini vaqtincha sekinlashtiradi, ya’ni birdaniga tez kristallanishni cheklaydi. Natijada perovskit donalari asta-sekin va bir xil yo‘nalishda o‘sadi, bu esa faol qatlamning morfologiyasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu orqali faol qatlamda bo‘shliqlar va donalararo nuqsonlar kamayadi, butun qatlam bir tekis qoplanadi va yuqori sifatli, silliq yuzaga ega bo‘ladi. SEM tasvirlarida ham bu jarayon tasdiqlangan, ya’ni qo‘shimchasiz namunaga qaraganda traneksamik kislota qo‘shilgan holatda faol qatlamning yuzasi zichroq, g‘ovaksiz va donalar kattaroq bo‘lib o‘sgan. Demak, XRD va SEM natijalari bir-birini to‘ldirib, traneksamik kislota qo‘shimchasi perovskit faol qatlamlarining struktura va morfologik sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda.



4-rasm. Turli miqdorda traneksamik kislota qo‘shilgan $CsPbI_2Br$ PQElarning TKS spektrlari

4-rasmda turli miqdorda traneksamik kislota qo‘shilgan $CsPbI_2Br$ PQElarning butun to‘lqin uzunliklari bo‘yicha tashqi kvant samaradorligi (TKS) spektrlari keltirilgan. Barcha namunalarning TKS egri chiziqlari 300 dan 700 nm gacha bo'lgan keng to'lqin uzunligi diapazonini qamrab oladi, bu esa $CsPbI_2Br$ perovskit faol qatlamlarning keng spektrli yorug‘likni samarali yutishini ko‘rsatadi. Grafikdan ko’rish mumkinki, traneksamik kislota qo‘shilmagan namunada TKS qiymatlari eng past bo‘lib, bu holat faol qatlam yuzasida va donalararo chegaralarda mavjud bo‘lgan nuqsonlar hamda zaryad tashuvchilarning nurlanishsiz rekombinatsiyasi bilan izohlanadi. Umuman olganda, TKS spektri natijalari shuni ko‘rsatadiki, traneksamik kislota qo‘shilishi perovskit faol qatlamlarining yorug‘likdan foydalanish qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi va eng optimal natija 0.5% konsentratsiyada kuzatiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, traneksamik kislota qo‘shimchasining qo‘llanishi $CsPbI_2Br$ asosidagi PQElarning optik, fotovoltaik va morfologik xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshiladi. Optimal 0.5% konsentratsiyada tayyorlangan faol qatlamlar yanada zichroq morfologiyaga ega bo‘lib, bo‘shliqlar sezilarli darajada kamaydi, kristallanish darajasi oshdi, ichki nuqson zichligi qisqardi hamda zaryad tashuvchilarning harakatchanligi yaxshilandi. Natijada $CsPbI_2Br$ asosidagi PQElarning ochiq zanjir kuchlanishi 1.13 V, tok zichligi 16.87 mA/cm², to‘ldirish faktori 63.69% va EO’S 12.14% ga oshdi. Bu qiymat qo’shimcha qo’shilmasdan tayyorlangan PQElardagi 7.63% EO’S dan ancha yuqori bo‘lib, traneksamik kislotaning samarali qo‘shimcha sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Shunday qilib, traneksamik kislota $CsPbI_2Br$ asosidagi PQElarda samaradorlik va barqarorlikni oshirish uchun istiqbolli qo‘shimcha modda sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Minnatdorchilik

Ushbu maqoladagi olingan natijalar Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan FZ-20200929177-raqamli —Istiqbolli perovskitli quyosh elementlarida energiya almashinishi va zaryadlarning fotomajburiy migratsiyasi jarayonlari‖ mavzusi bo‘yicha loyiha doirasida bajarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wang, D., et al., *Stability of perovskite solar cells.* Solar Energy Materials and Solar Cells, 2016. **147**: p. 255-275.
2. Zhang, Y., et al., *High efficiency (16.37%) of cesium bromide—passivated all-inorganic $CsPbI_2Br$ perovskite solar cells.* Solar RRL, 2019. **3**(11): p. 1900254.
3. Targhi, F.F., Y.S. Jalili, and F. Kanjouri, *$MAPbI_3$ and $FAPbI_3$ perovskites as solar cells: Case study on structural, electrical and optical properties.* Results in physics, 2018. **10**: p. 616-627.
4. Targhi, F., Y. Jalili, and F. Kanjouri, *$MAPbI_3$ and $FAPbI_3$ perovskites as solar cells: Case study on structural, electrical and optical properties. Results Phys. 10, 616–627*. 2018.
5. Swarnkar, A., W.J. Mir, and A. Nag, *Can B-site doping or alloying improve thermal-and phase-stability of all-inorganic $CsPbX_3$ (X= Cl, Br, I) perovskites?* ACS Energy Letters, 2018. **3**(2): p. 286-289.
6. Song, J., et al., *Progress and perspective on inorganic $CsPbI_2Br$ perovskite solar cells.* Advanced Energy Materials, 2022. **12**(40): p. 2201854.
7. Ho-Baillie, A., et al., *Untapped potentials of inorganic metal halide perovskite solar cells.* Joule, 2019. **3**(4): p. 938-955.
8. Debnath, P., et al., *Synergistic effects of rubidium bromide on $CsPbBr_3$ perovskite solar cell performance.* Journal of Materials Science: Materials in Electronics, 2025. **36**(14): p. 827.
9. Abouzied, A.S., et al., *Optimization of $CsPbI_2Br$-Based Perovskite Solar Cells with $TiCl_4$ Doping for Improved Stability and Performance.* Surfaces and Interfaces, 2025: p. 107038.
10. Yin, G., et al., *Precursor engineering for all-inorganic $CsPbI_2Br$ perovskite solar cells with 14.78% efficiency.* Advanced functional materials, 2018. **28**(39): p. 1803269.

11. Bai, D., et al., *Interstitial Mn^{2+}-driven high-aspect-ratio grain growth for low-trap-density microcrystalline films for record efficiency $CsPbI_2Br$ solar cells.* ACS Energy Letters, 2018. **3**(4): p. 970-978.

12. Patil, J.V., et al., *Novel ytterbium-doped $CsPbI_2Br$ thin-films–based inorganic perovskite solar cells toward improved phase stability.* Materials Today Chemistry, 2021. **22**: p. 100557.

13. Ozturk, T., et al., *Composition engineering of operationally stable $CsPbI_2Br$ perovskite solar cells with a record efficiency over 17%.* Nano Energy, 2021. **87**: p. 106157.

14. Xiao, C., et al., *Junction quality of SnO_2-based perovskite solar cells investigated by nanometer-scale electrical potential profiling.* ACS Applied Materials & Interfaces, 2017. **9**(44): p. 38373-38380.

15. Yan, L., et al., *Interface engineering for all-inorganic $CsPbI_2Br$ perovskite solar cells with efficiency over 14%.* Advanced materials, 2018. **30**(33): p. 1802509.

16. Wang, Y., et al., *A facile low temperature fabrication of high performance $CsPbI_2Br$ all-inorganic perovskite solar cells.* Solar Rrl, 2018. **2**(1): p. 1700180.

17. Zhang, X., et al., *Thermal conduction-induced crystallization and achieving high efficiency in HTM-free carbon-based $CsPbI_2Br$ solar cells by regulating the dipole moment of aliphatic amine acetate additives.* Journal of Materials Chemistry C, 2025. **13**(14): p. 7071-7081.

18. Wang, W., et al., *Modification of compact TiO_2 layer by $TiCl_4$-$TiCl_3$ mixture treatment and construction of high-efficiency carbon-based $CsPbI_2Br$ perovskite solar cells.* Journal of Energy Chemistry, 2021. **63**: p. 442-451.

19. Chao, L., et al., *Room-temperature molten salt for facile fabrication of efficient and stable perovskite solar cells in ambient air.* Chem, 2019. **5**(4): p. 995-1006.

20. Pascoe, A.R., et al., *Planar versus mesoscopic perovskite microstructures: The influence of $CH_3NH_3PbI_3$ morphology on charge transport and recombination dynamics.* Nano Energy, 2016. **22**: p. 439-452.

21. Kim, S., et al., *Intensifying Chelation of Pb-Related Defects for Enhancing Stability in Halide Perovskite Thin-Film Solar Cells.* Solar RRL, 2025: p. 202500212.

22. Tailor, N.K., et al., *Recent progress in morphology optimization in perovskite solar cell.* Journal of Materials Chemistry A, 2020. **8** (41): p. 21356-21386.

23. Idígoras, J., et al., *The interaction between hybrid organic–inorganic halide perovskite and selective contacts in perovskite solar cells: an infrared spectroscopy study.* Physical Chemistry Chemical Physics, 2016. **18**(19): p. 13583-13590.

24. Li, B., et al., *Interfacial engineering by using self-assembled monolayer in mesoporous perovskite solar cell.* RSC advances, 2015. **5**(114): p. 94290-94295.

25. Li, J., D. Hu, and Q. Chen, *Pb^{2+}/Co^{2+} modified growth and phase transitions of $CsPbBr_3$ in heavy metal oxide glass with enhanced magnetic and magneto-optical properties.* Journal of the European Ceramic Society, 2024. **44**(4): p. 2206-2222.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Egamov Jasurbek Abduvoxobovich
Namangan davlat universiteti
egamovjasur1988@mail.ru

MATERIAL MUSTAHKAMLIGINI HISOBGA OLGAN HOLDA ICHI TO'LA VA BO'SH VALLARNING ELASTIK-PLASTIK DEFORMATSIYASINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yaxlit va bo'shliqli vallarning material mustahkamlanishini hisobga olgan va hisobga olmagan holdagi elastik-plastik modellashtirilishi ko'rib chiqilgan. Oquvchanlik chegarasiga yetilganda kuchlanish-deformatsiya holatining qiyosiy tahlili amalga oshirilib, mustahkamlanishning plastik zona o'lchamlariga va qoldiq kuchlanishlar darajasiga ta'siri o'rganilgan. Material mustahkamlanishini hisobga olish vallarning mustahkamligi va xizmat muddati aniqroq baholanishini ta'minlashi ko'rsatib berilgan. Olingan natijalar mashinasozlik konstruksiyalari elementlarini loyihalash va muhandislik hisoblarida qo'llanishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *elastik-plastik hisob, mustahkamlanish, oquvchanlik chegarasi, yaxlit val, bo'shliqli val, kuchlanish-deformatsiya holati.*

Egamov Jasurbek Abduvoxobovich
Namangan State University

MATHEMATICAL MODELING OF ELASTOPLASTIC DEFORMATION OF SOLID AND HOLLOW SHAFTS CONSIDERING MATERIAL STRENGTH

Abstract. *This paper considers the elastoplastic modeling of solid and hollow shafts with and without accounting for material hardening. A comparative analysis of the stress-strain state at the yield point is carried out, and the influence of hardening on the size of the plastic zone and the level of residual stresses is investigated. It is shown that accounting for material hardening provides a more accurate assessment of the strength and durability of shafts. The obtained results can be used in engineering calculations and in the design of machine-building structural elements.*

Keywords: *elastoplastic analysis, hardening, yield limit, solid shaft, hollow shaft, stress-strain state.*

Эгамов Жасурбек Абдувохобович
Наманганский государственный университет

МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ УПРУГОПЛАСТИЧЕСКОЙ ДЕФОРМАЦИИ СПЛОШНЫХ И ПОЛЫХ ВАЛОВ С УЧЕТОМ ПРОЧНОСТИ МАТЕРИАЛА

Аннотация: *В статье рассматривается упругопластическое моделирование сплошных и полых валов с учетом и без учета упрочнения материала. Проведен сравнительный анализ напряженно-деформированного состояния при достижении предела текучести, исследовано влияние упрочнения на размеры пластической зоны и уровень остаточных напряжений. Показано, что учет упрочнения обеспечивает более адекватную оценку прочности и долговечности валов. Полученные результаты могут быть использованы при инженерных расчетах и проектировании элементов машиностроительных конструкций.*

Ключевые слова: *упругопластический расчет, упрочнение, предел текучести сплошной вал, полый вал, напряженно-деформированное состояние.*

Введение. Валы являются одними из ключевых элементов машиностроительных конструкций, работающих в условиях значительных механических нагрузок и передающих крутящий момент. При превышении предела текучести в материале возникают пластические деформации, что требует применения упругопластических моделей для корректной оценки напряженно-деформированного состояния [1]. Существенным фактором, влияющим на точность расчетов, является учет упрочнения материала, пренебрежение которым может привести к искаженной оценке прочности и долговечности конструкции. В связи с этим целью настоящей работы является

сравнительный анализ упругопластического поведения сплошных и полых валов с учетом и без учета упрочнения материала.

Основная часть. Терм упругие напряжения в сплошных и полых цилиндрах были рассмотрены. При решении упругопластической задачи без учета упрочнения материала следует [2]:

1. По формулам:

$$\sigma_z = \left[-\delta_m + \frac{1\delta_1 E_1 + 2\delta_2 E_2 + \ldots + (2n-1)\delta_n E_n}{1E_1 + 3E_2 + \ldots + (2n-1)E_n}\right]\frac{E_m}{1-\mu} \quad (1)$$

При решении задач разносным методом

$$\sigma_e = \left(-\delta_m + \frac{\sum_1^n \delta_i E_i}{\sum_1^n E_i}\right)\frac{E_m K}{1-\mu} \quad (2)$$

$$\sigma_{ЭКВ} = \sqrt{\frac{1}{2}[(\sigma_1 - \sigma_2)^2 + (\sigma_2 - \sigma_3)^2 + (\sigma_3 - \sigma_2)^2]} \quad (3)$$

Если условие (3) не будет соблюдено, то поперечные сечения цилиндра после деформации исказятся, что противоречит опытам. На основании соблюдения условий к следующему простому соотношению между осевыми

(σ_z), радиальными (σ_z) напряжениями, тангенциальными (σ_t) и справедливыми для любой точки сечения, отстоящего на расстоянии равном или большем l_0от торцов вала:

$$\sigma_t + \sigma_r = \text{const} \quad (4)$$

Условие (4) может быть использовано для вычисления радиальных напряжений σ_z при известных σ_z и σ_t определения тангенциальных напряжений σ_t на поверхности цилиндра при известном осевом напряжении σ_t.[3].

$$\sigma_t + \sigma_r = \sigma_z \quad (5)$$

Условие (5) может быть использовано для вычисления радиальных напряжений σ_r при известных σ_z и σ_t и определения тангенциальных σ_t напряжений на поверхности вала при известном осевое σ_z напряжении o_t. или

$$(\sigma_z)_m = \left(\theta_m - \frac{D^m}{100}\right)\frac{A}{1-\mu} \quad (6)$$

$$(\sigma_t) = \left(\theta_m + \frac{D^n}{10}\right)\frac{A}{1-\mu}K \quad (7)$$

$$[\sigma_z]_m{}^* = \frac{[\sigma_z]_{m\prime}}{M_m}; \quad [\sigma_\theta]_i{}^{"} = \frac{[\sigma_\theta]_{m\prime}}{M_m}; \quad [\sigma_r]_m{}^* = \frac{[\sigma_r]_{m\prime}}{M_m} \quad (8)$$

или

$$[\sigma_z]_m{}^* = \frac{[\sigma_z]_{m\prime}}{N_m}; \quad [\sigma_\theta]_m{}^{"} = \frac{[\sigma_\theta]_{m\prime}}{N_m}; \quad [\sigma_r]_m{}^* = \frac{[\sigma_r]_m{}^*}{M_m} \quad (9)$$

$$[\sigma_z]_m{}^* = \frac{[\sigma_z]_{m\prime}}{N_m}; \quad [\sigma_\theta]_i{}^{"} = \frac{[\sigma_\theta]_{m\prime}}{N_m}; \quad [\sigma_r]_m{}' : [\sigma_r]_m{}^* = \frac{[\sigma_r]_{m\prime}}{N_m} \quad (10)$$

или

$$[\sigma_z]_m{}^* = \frac{[\sigma_z]_{m\prime}}{M_m}; \quad [\sigma_\theta]_m{}^* = \frac{[\sigma_\theta]_{m\prime}}{M_m}; \quad [\sigma_r]_m{}' : [\sigma_r]_m{}^* = \frac{[\sigma_r]_{m\prime}}{M_m} \quad (11)$$

$$\sigma_{ЭКВ} = \sqrt{\frac{1}{2}[(\sigma_1 - \sigma_2)^2 + (\sigma_3 - \sigma_1)^2]} \quad (12)$$

или

$$\sigma_{ЭКВ} = \sigma_1 - \sigma_3 = M_i\sigma_{Ti} \quad (13)$$

где σ_1, σ_2, σ_3-главные напряжения в исследуемом слое i.

При наступлении пластической деформации коэффициенты N_1 и M_1 в формулах (5) и (6) ≥ 1[4].

При решении упругопластической задачи без учета упрочнения материала следует:

1. Вычислить напряжения для любого слоя в предположении, что все слои испытывают упругие деформации (упругий расчет).

2. По теории постоянной упругой энергии формоизменения или теории наибольших касательных напряжений определить слои, в которых наступила пластическая деформация:

3. В том слое m_t в котором наступила пластическая деформация, напряжения взять равными [5]:

$$[\sigma_z]_m{}^* = \frac{[\sigma_z]_{m\prime}}{N_m}; \quad [\sigma_\theta]_m{}^* = \frac{[\sigma_\theta]_{m\prime}}{N_m}; \quad [\sigma_r]_m{}' : [\sigma_r]_m{}^* = \frac{[\sigma_r]_{m\prime}}{N_m} \quad (14)$$

или

$$[\sigma_z]_m{}^* = \frac{[\sigma_z]_{m\prime}}{M_m}; \quad [\sigma_\theta]_m{}^* = \frac{[\sigma_\theta]_{m\prime}}{M_m}; \quad [\sigma_r]_m{}' : [\sigma_r]_m{}^* = \frac{[\sigma_r]_{m\prime}}{M_m} \quad (15)$$

4. Напряжения в упруго деформированных слоях вычисляются предварительно следует в числителе принять $\delta_m E_m = -[\sigma_z]_m$ в знаменателе взять

$E_0^m = [E_0]^m$ ***[2].***

В заключение основной части представлены рекомендации по применению полученных результатов для оптимизации проектирования валов, повышения их надёжности и долговечности, а также для научно обоснованной оценки остаточного ресурса машиностроительных деталей [5].

Пример. Анализ остаточных напряжений в полом вале при циклическом нагружении с учетом упрочнения материала

Условие задачи:

Полый стальной вал с внутренним радиусом $r_1 = 20$ мм и внешним радиусом $r_2 = 50$ мм подвергается циклическому крутящему моменту, вызывающему максимальное касательное напряжение на поверхности $\tau_{max} = 300$ МПа. Вал работает при температуре $t = 100^{\circ}C$. Определить распределение остаточных напряжений после 1000 циклов нагружения:

1. Без учета упрочнения материала (идеально пластическая модель).

2. С учетом упрочнения материала (линейная зависимость предела текучести от накопленной пластической деформации: $\sigma_{T,\text{new}} = \sigma_{T,0} + k \cdot \varepsilon_{pl}$, где $k = 1000$ МПа, $\sigma_{T,0} = 250$ МПа).

Дано:

- $r_1 = 20$ мм, $r_2 = 50$ мм, - $\tau_{max} = 300$ Мпа, - $t = 100^{\circ}C$, - $E = 210000$ МПа (модуль упругости), - $\mu = 0.3$ (коэффициент Пуассона), - $\sigma_{T,0} = 250$ МПа (начальный предел текучести), - $k = 1000$ Мпа, - $\varepsilon_{pl} = 0.02$ (накопленная пластическая деформация)

1. Без учета упрочнения материала

Глубина пластической зоны определяется по формуле (1):

$$r_p^2 = r_2^2 - (r_2^2 - r_1^2) \cdot \frac{\sigma_{T,0}}{\tau_{max}}$$

Подставляя значения:

$$r_2^2 = 50^2 = 2500$$

$$r_1^2 = 20^2 = 400$$

$$r_2^2 - r_1^2 = 2100$$

$$r_p^2 = 2500 - 2100 \cdot \frac{250}{300} = 2500 - 1749.3 = 750.7$$

$$r_p = \sqrt{750.7} \approx 27.4 \text{ мм}$$

В пластической зоне ($r_p < r < r_2$) остаточные напряжения принимаются равными пределу текучести (3):

$$\tau_{res}(r) = \sigma_{T,0} = 250 \text{ МПа}$$

В упругой зоне ($r_1 < r < r_p$) остаточные напряжения определяются по закону упругости (4):

$$\tau_{res}(r) = \tau_{max} \cdot \frac{r_2^2 - r^2}{r_2^2 - r_1^2}$$

2. С учетом упрочнения материала

Предел текучести после накопления пластической деформации определяется по формуле (2):

$$\sigma_{T,\text{new}} = \sigma_{T,0} + k \cdot \varepsilon_{pl}$$

$$\sigma_{T,\text{new}} = 250 + 1000 \cdot 0.02 = 270 \text{ МПа}$$

Глубина пластической зоны с учетом упрочнения рассчитывается по формуле (1):

$$r_p^2 = 2500 - 2100 \cdot \frac{270}{300} = 2500 - 1890 = 610$$

$$r_p = \sqrt{610} \approx 24.7 \text{ мм}$$

В пластической зоне ($r_p < r < r_2$) остаточные напряжения равны новому пределу текучести:

$$\tau_{res}(r) = \sigma_{T,\text{new}} = 270 \text{ МПа}$$

В упругой зоне ($r_1 < r < r_p$):

$$\tau_{res}(r) = \tau_{max} \cdot \frac{r_2^2 - r^2}{r_2^2 - r_1^2}$$

3. Сравнительная таблица результатов

В таблице 1 приведены основные параметры и результаты расчёта остаточных напряжений для двух случаев: без учёта упрочнения материала и с учётом упрочнения.

Таблица 1.

Сравнение параметров остаточных напряжений в полом вале

Параметр	Без упрочнения	С упрочнением
Предел текучести, МПа	250	270
Граница пластической зоны, мм	27.4	24.7
Остаточные напряжения в пластической зоне, МПа	250	270
Остаточные напряжения в упругой зоне, МПа	(по формуле (4))	(по формуле (4))

Заключение

В работе выполнено упругопластическое моделирование сплошных и полых валов с учетом и без учета упрочнения материала. Показано, что учет упрочнения существенно влияет на распределение напряжений, приводит к уменьшению пластической зоны и повышению эффективного предела текучести. Сравнительный анализ подтверждает, что модели с упрочнением обеспечивают более адекватную оценку напряженно-деформированного состояния и остаточных напряжений. Полученные результаты могут быть использованы для повышения точности расчетов и надежности машиностроительных валов.

Литературы:

1. **M. Perich, I. Garasich, S. Nizetich, Z. Tonkovich** (2022). *Numerical Simulation and Experimental Measurement of Residual Stresses in a Thick-Walled Buried-Arc Welded Pipe Structure. International Journal of Pressure Vessels and Piping*, 196, 104634.
2. **Nan Tao, A.G. Anisimov, R.M. Groves.** (2022). *FEM-Assisted Shearography with Spatially Modulated Heating for Non-Destructive Testing of Thick Composites with Deep Defects. Composite Structures*, 284, 115234.
3. **Vydrin, A.V.** (2022). *Improving the technology of roller forming in order to obtain a tubular blank with increased strength. Journal of Materials Processing Technology*, 299, 117345.
4. **Burdukovsky, V.G.** (2022). *Technology of forging process. Springer Series in Materials Science*, Vol. 321.
5. Эгамов, Ж., Сафаров, Н., и Мирсултонов, И. (2025). Математическое моделирование температурных напряжений в полых толстостенных валах при лазерной химико-термической обработке. В: П. С. Станимирович и др. (ред.), HMMOCS 2024 (Lecture Notes in Networks and Systems, том 1481, стр. 87–99). Springer Nature Switzerland. https://doi.org/10.1007/978-3-031-95649-2_8

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Yuldoshov B.
Xaliyarov J.X.
Abdullayev J.R.
Termiz davlat universiteti

MONOKRISTALL KREMNIY ASOSIDAGI FOTOELEKTRIK BATAREYALAR FIZIK PARAMETRLARINING GEOGRAFIK KENGLIKKA NISBATAN O‘ZGARISHINI TADQIQ QILISH

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot ishida janubiy hududlar sharoitida umumiy quvvati 1kW dan bo‘lgan ikkita fotoelektrik stansiyalarning elektr energiya ishlab chiqarish ko‘rsatgichlari taqqoslangan. Natijalar nisbatan janubga yaqin bo‘lgan hududda fotoelektrik stansiyadan ko‘proq quvvat olish mumkinligini tasdiqlagan.*

Kalit so‘zlar: *fotoelektrik batareya, Termiz, geografik kenglik, janub, quyosh nurlanish intensivligi, qisqa tutashuv toki, salt yurish kuchlanishi, elektr quvvat.*

Юлдошов Б.А.
Халияров Дж.Х.
Абдуллаев Дж.Р.
Термезский государственный университет

ИССЛЕДОВАНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ МОНОКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ КРЕМНИЕВЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ БАТАРЕЕК В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ШИРОТЫ

Аннотация. *В данной исследовательской работе сравнивались показатели выработки электроэнергии двумя фотоэлектрическими установками общей мощностью 1 кВт в условиях южных регионов. Результаты подтвердили возможность получения большей мощности от фотоэлектрической установки в районе, расположенном относительно близко к югу.*

Ключевые слова: *фотоэлектрическая батарея, Термез, географическая широта, юг, интенсивность солнечного излучения, ток короткого замыкания, импульсное напряжение, электрическая мощность.*

Yuldoshov B.A.
Khaliyarov J.Kh.
Abdullayev J.R.
Termez State University

STUDY OF THE CHANGE OF PHYSICAL PARAMETERS OF SINGLE-CRYSTAL SILICON-BASED PHOTOELECTRIC BATTERIES IN RELATION TO GEOGRAPHICAL LATITUDE

Annotation. *In this research work, the electricity generation indicators of two photovoltaic plants with a total capacity of 1 kW in the conditions of the southern regions were compared. The results confirmed that it is possible to obtain more power from a photovoltaic plant in an area located relatively close to the south.*

Keywords: *photovoltaic battery, Termez, geographical latitude, south, solar radiation intensity, short-circuit current, surge voltage, electric power.*

Kirish

Quyosh energiyasi potentsialini to‘g‘ri xaritalash energiyani samarali rejalashtirish uchun, ayniqsa, murakkab turli mikroiqlimlarga ega bo‘lgan hududlarda juda muhimdir [1-2]. Tadqiqotlarda mintaqaviy kalibrlangan Gridded tipik meteorologik yil (GTMY) ma'lumotlar to‘plamini yaratish uchun sozlangan ERA5-Land qayta tahlili ma'lumotlarini sun’iy yo‘ldoshdan olingan quyosh nurlanishi bilan asoslangan yangi ma’lumotlar taqdim etilgan. Natijalar uzoq muddatli kuzatuvlar yillik o‘rtacha farq +14 kW/m ni tashkil qilgan [3-4].

AQSh ning Kakao va Evgeniy mintaqalariga o‘rnatilgan kristalli kremniy (*m-Si* va *p-Si*) va yupqa plyonkalar (*HIT, CdTe, CIGS* va *a-Si*) kabi fotoelektrik batareyalarning ishlashi baholangan. Ular uch yil davomida kuzatilganda eng yuqori quvvatning pasayishi yiliga taxminan kristall kremniylida 1% va yupqa plyonkalarda 3,26% ni tashkil etgan. Yupqa plyonkali fotoelektrik batareyalar mavjud adabiyotlar ma'lumotlariga mos holda kristalli kremniyga asoslangan fotoelektrik batareyalarga qaraganda yuqori degradatsiya tezligini ko‘rsatgan [5-6].

Fotoelektrik batareyalarni qanday o‘rnatishdan qat’i-nazar, maksimal energiya olishda ekvatorga yaqin hududlar afzal hisoblanadi. Yuqori kenglikdagi hududlarda kunduzgi soatlarning mavsumiy o‘zgarishlari kabi muammolar mavjud [7-9]. Kanadaning Edmonton shahrida o‘tkazilgan kuzatuvlar shimoliy yarim sharning yuqori kengliklaridagi mo‘tadil iqlim sharoitilarida fotoelektrik batareyalarning ishlashi janubiy kengliklarga nisbatan sezilarli darajada yaxshi ekanligini ko‘rsatadi [10].

Materiallar va usullar

Taqdqiqot tajribalari Termiz shahri va Termiz tumani sharoitlarida, (37.231511 va 37,1630.6 shimoliy kengliklarda) ochiq havoda o‘tkazildi. Ma’lumotlar 2025-yil 17-oktabrda, 9:00 dan 15:00 gacha vaqt oralig‘ida to‘plandi. O‘lchash jarayonida quyosh panellari janubga yo‘naltirilgan holda statsionar joylashtirilgan. Tajribada quyosh paneli elektr parametrlari 15 daqiqa interval bilan quyosh nurlanish intensivligi, fotoelektrik batareyaning qisqa tutashuv toki va salt yurish kuchlanishlari o‘lchandi.

Taqdqiqot uchun har birining umumiy quvvati 540W dan bo‘lgan 2 dona fotoelektrik batareyadan (Longi LR5-72HPH-540M) foydalanilgan (1-rasm).




a) *b)*

1-rasm. Termiz shahri *(a)* va Termiz tumani *(b)*da bir xil vaqtda o‘rganilgan fotoelektrik stansiyalar

Tadqiqotda fotoelektrik batareyaning qisqa tutashuv toki va salt yurish kuchlanishlari Multimetr (Model: UNI-T UN52 o‘lchov diapazoni: 200mV dan 1000V gacha, 2mA dan 20A gacha) yordamida o‘lchandi. Nurlanish intensivligi raqamli Solar Power Meter (Model: CEM DT-1307, o‘lchov diapazoni: 1999W/m² gacha) yordamida qayd etildi.

Natijalar va muhokama


Fotoelektrik batareyaning qisqa tutashuv tokining o‘zgarishi asosan quyosh nurlanish intensivligiga bog‘liq bo‘lib, bu kattaliklarning geografik kenglikka qarab o‘zgarishini 2-rasmda ko‘rish mumkin.



2-rasm. Quyosh nurlanish intensivligi va qisqa tutashuv tokining kun vaqtlarida o‘zgarishi

Termiz shahri Termiz tumaniga nisbatan janubda bo‘lganligi shu sababli ushbu hududda quyosh nurlarining tushish burchagi tikroq ekanligini quyosh nurlanish intensivligining yuqori qiymatlari tasdiqlaydi. Nurlanish intensivligining katta bo‘lishi o‘z navbatida fotoelektrik batareyadagi quyosh elementlarining *p-n* – o‘tish qismida elektron-kovak juftlarining ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Rasmda Termiz shahrida quyosh nurlanish intensivligi Termiz tumanidagi qiymatlaridan biroz ko‘proq bo‘lganligi sababli, fotoelektrik batareyalarning qisqa tutashuv toki biroz katta.

Harorat fotoelektrik batareyaning yarimo‘tkazgichli tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasini fotoelektrik batareyaning salt yurish kuchlanishining pasayishida ko‘rish mumkin. Havo harorati Termiz tumanida nisbatan pastroq bo‘lganligi uchun u yerdagi fotoelektrik batareyalarning umumiy salt yurish kuchlanishi kattaroq qiymatni ko‘rsatmoqda (3-rasm).




3-rasm. Harorat va salt yurish kuchlanishining kun vaqtlarida o‘zgarishi

Termiz shahri va Termiz tumanidagi fotoelektrik batareyalarning qisqa tutashuv toklari va salt yurish kuchlanishlarining qiymatlari orqali ular tomonidan ishlab chiqarilgan elektr quvvatlari quyidagi ifoda yordamida aniqlandi:

$$P = FF \cdot I_{q.t.} \cdot U_{s.yu.}$$

bunda, FF – volt-amper xarakteristikaning volt-amper xarakteristikaning to‘ldirish koeffitsiyenti, $I_{q.t.}$ – qisqa tutashuv toki, $U_{s.yu.}$ – salt yurish kuchlanishi.

4-rasmda fotoelektrik batareyalarning kun davomida ishlab chiqargan elektr quvvatlari tasvirlangan.



4-rasm. Elektr quvvatining kun vaqtlarida o‘zgarishi

Grafikda pastki pushti rangdagi yuza Termiz tumanida joylashgan fotoelektrik batareyalarning umumiy quvvati bo‘lsa, pushti rangli yuza orqasidagi havorangli katta yuza Termiz shahridagi fotoelektrik batareyalarga tegishli umumiy quvvatni tasvirlaydi. Yuqorida ΔP bilan ko‘rsatilgan havorangli kichik yuza Termiz shahri va Termiz tumanidagi fotoelektrik batareyalar umumiy quvvatlarining farqini tasvirlaydi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot ishida janubiy hududlar – Termiz shahri va Termiz tumani sharoitida umumiy quvvati 1kW dan bo‘lgan ikkita fotoelektrik stansiyalarning bir kunlik ishlab chiqargan elektr quvvatlari o‘zaro solishtirilgan. Tajribadan olingan ma’lumotlar, har ikkala stansiyaning bir kunda ishlab chiqargan elektr energiyasi o‘rtacha 4317W·h va 4194W·h tashkil qilgan. Bunda Termiz shahridagi fotoelektrik batareyalar va Termiz tumanidagiga nisbatan 123W·h ga ko‘proq elektr energiya ishlab chiqargan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

1. O. Bamisile et al. The environmental factors affecting solar photovoltaic output. Renewable and Sustainable Energy Reviews. Volume 208, February 2025, 115073

2. R. Urraca et al. Evaluation of global horizontal irradiance estimates from ERA5 and COSMO-REA6 reanalyses using ground and satellite-based data. Solar Energy. Volume 164, April 2018, Pages 339-354.

3. Jen-Yu Han et al. A framework for PV yield-based solar energy mapping in mid-low latitude regions with complex topography. Renewable Energy. Volume 256, Part H, 1 January 2026, 124512.

4. Bouasria Youssef et al. Performance and Degradation Assessment of PV Modules Exposed to Short-Term Outdoor Conditions in Two Distinct US Climatic Zones. Energy Engineering. Volume 122, Issue 10, 30 September 2025, Pages 4195-4223.

5. A Abdelouahed et al. Photovoltaic modules degradation assessment using different statistical techniques. International Journal of Energy Research. 46 (12) (2022 10), pp. 16593-607

6. B. Adothu et al. Identification and investigation of materials degradation in photovoltaic modules from middle east hot desert. 40th European Photovoltaic Solar Energy Conference and Exhibition. pp. 020198-001- 020198-004

7. M. Daneshyar. Solar radiation statistics for Iran. Solar Energy Volume 21, Issue 4, 1978, Pages 345-349.

8. N.R. Darghouth et al. The impact of rate design and net metering on the bill savings from distributed PV for residential customers in California. Energy Policy Volume 39, Issue 9, September 2011, Pages 5243-5253.

9. H. Darhmaoui et al. Latitude based model for tilt angle optimization for solar collectors in the mediterranean region. Energy Procedia Volume 42, 2013, Pages 426-435.

10. Hadia Awad, Mustafa Gül. Load-match-driven design of solar PV systems at high latitudes in the Northern hemisphere and its impact on the grid. Solar Energy. Volume 173, October 2018, Pages 377-397.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

D.B. Istamov
A.S. Halimov
M.A. Kuralov
T.I. Jurayev
O.A. Abdulkhaev
S. Azimov Physical-Technical Institute, Academy Sciences of Uzbekistan, 2B Ch. Aytmatov str., Tashkent 100084, Uzbekistan
Email: istamov@uzsci.net
B.T. Abdulazizov
Namangan State University, Department of Physics,Namangan, Uzbekistan

UDK 531.787:389.14:532.11:539.3

LIMITS IN PRIMARY REALIZATION SYSTEMS REALIZATION OF DIFFERENTIAL PRESSURE SENSORS – PART I: PRESSURE-SCALE-DEPENDENT METROLOGICAL

Abstract. *High-accuracy realization of differential pressure (ΔP) in primary systems is governed by pressure-scale-dependent physical mechanisms rather than by a universal accuracy constant. Twin pressure balances (2PB) and interferometric liquid-column manometers are analyzed through their governing equations, geometric sensitivity coefficients, thermal propagation mechanisms, and transfer-induced degradation effects. 2PB systems generate ΔP from 1 Pa to 3.5 MPa under line pressures up to 27 MPa, while interferometric manometers achieve 0.004 Pa (k=1) at 1 Pa. Within 25–250 kPa, expanded uncertainty converges to ≈0.01%, emerging from effective area uncertainty (~6.6 ppm), thermal expansion (~22×10⁻⁶ °C⁻¹), elastic deformation, and transfer-stage drift. At ultra-low ΔP (<10 Pa), thermodynamic fluctuations (<10 mPa) define the physical limit, whereas geometric and material effects dominate at higher pressures. A quantitative dominance map confirms regime-dependent primary realization.*

Keywords: *Differential pressure realization; Primary pressure standards; Twin pressure balance; Interferometric manometer; Metrological uncertainty; Pressure-scale dependence; Thermal effects; Transfer accuracy*

D.B. Istamov
A.S. Halimov
M.A. Kuralov
T.I. Jurayev
O.A. Abdulkhaev
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti
Chingiz Aytmatov ko‘chasi, 2B, Toshkent 100084, O‘zbekiston
B.T. Abdulazizov
Namangan davlat universiteti, Fizika kafedrasi,Namangan, O‘zbekiston

DIFFERENSIAL BOSIM SENSORLARINI REALIZATSIYASI – I QISM: BIRLAMCHI REALIZATSIYA TIZIMLARIDA BOSIM MASSHTABIGA BOG‘LIQ METROLOGIK CHEGARALAR

Annotatsiya. *Birlamchi tizimlarda differensial bosim (ΔP) ni yuqori aniqlikda realizatsiya qilish universal aniqlik konstantasi bilan emas, balki bosim masshtabiga bog‘liq fizik mexanizmlar bilan belgilanadi. Twin pressure balance (2PB) va interferometrik suyuqlik ustuni manometrlari ularning asosiy tenglamalari hamda termik va geometrik ta’sirlar nuqtai nazaridan tahlil qilindi. 2PB 1 Pa–3.5 MPa diapazonda ishlaydi, interferometrik manometr esa 1 Pa da 0.004 Pa (k=1) aniqlikka erishadi. 25–250 kPa oralig‘ida noaniqlik ≈0.01% atrofida shakllanadi va samarali yuzaning noaniqligi, issiqlik kengayishi hamda transfer drift bilan belgilanadi. Past ΔP rejimida fizik chegara termodinamik fluktuatsiyalar bilan aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Differensial bosim realizatsiyasi; Birlamchi bosim etalonlari; Twin pressure balance; Interferometrik manometr;Termik ta’sirlar; Transfer aniqligi.*

Д.Б. Истамов
А.С. Халимов
М.А. Куралов
Т.И. Жураев
О.А. Абдулхаев
Физико-технический институт Академии наук Республики Узбекистан,
ул. Чингиза Айтматова, 2Б, Ташкент 100084, Узбекистан
Б.Т. Абдулазизов
Наманганский государственный университет, кафедра физики, Наманган, Узбекистан

РЕАЛИЗАЦИЯ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ ДАТЧИКОВ ДАВЛЕНИЯ – ЧАСТЬ I: МАСШТАБНО-ЗАВИСИМЫЕ МЕТРОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕДЕЛЫ В ПЕРВИЧНЫХ СИСТЕМАХ РЕАЛИЗАЦИИ

Аннотация. *Высокоточная реализация дифференциального давления (ΔP) в первичных системах определяется не универсальной константой точности, а физическими механизмами, зависящими от масштаба давления. Проанализированы системы (2PB) и интерферометрические жидкостные манометры с учётом их определяющих уравнений, геометрических и тепловых факторов. 2PB обеспечивает диапазон 1 Па–3.5 МПа, тогда как интерферометрический манометр достигает 0.004 Па (k=1) при 1 Па. В диапазоне 25–250 кПа неопределённость стабилизируется около ≈0.01% и формируется вследствие неопределённости эффективной площади, теплового расширения и дрейфа при передаче. В области малых ΔP физический предел определяется термодинамическими флуктуациями.*

Ключевые слова: *Реализация дифференциального давления; Первичные эталоны давления; Twin pressure balance; Интерферометрический манометр; Масштабная зависимость; Тепловые эффекты; Передача точности.*

1. Introduction

The high-accuracy realization of differential pressure (ΔP) constitutes a central problem in precision metrology. Applications such as aerodynamic investigations, flow measurement technologies, respiratory diagnostics, and calibration infrastructures depend directly on reliable ΔP realization [1–3]. Unlike absolute pressure, differential pressure inherently coexists with a common-mode (line) pressure, significantly complicating both realization architecture and uncertainty analysis [4–7].

Within the 25–250 kPa range, an expanded uncertainty (k=2) of approximately 0.01% is widely reported as a practical lower bound [8]. However, the physical origin of this value remains insufficiently clarified. Whether this threshold represents a fundamental physical limit or results from geometric, thermal, and infrastructural constraints remains an open question.

In the low ΔP regime (<10 Pa), interferometric manometers achieve an absolute uncertainty of 0.004 Pa (k=1) [9], indicating that the 0.01% relative threshold cannot be universal. Twin pressure balance (2PB) systems realize ΔP from 1 Pa up to 3.5 MPa and sustain line pressures up to 27 MPa [8,10], establishing them as primary realization instruments across a broad pressure spectrum.

However, in low ΔP operation, uncertainty is governed not by effective area geometry but by back-pressure force contributions [11], demonstrating pressure-dependent dominance. Similarly, interferometric realizations based on the hydrostatic relation $P = \varrho gh$ [12] are limited by temperature-induced density variations and thermal gradients, even when active stabilization reduces fluctuations below 10 mPa [9].

Furthermore, transfer stages introduce additional degradation: transported artifacts exhibit calibration shifts approximately twice those observed under stationary laboratory conditions [9], and expanded uncertainty increases from ±(0.008%ΔP + 5 Pa) to ±(0.01%ΔP + 30 Pa) [8].

These observations indicate that no single universal accuracy boundary governs ΔP realization. Instead, dominant uncertainty mechanisms evolve as a function of pressure magnitude and realization architecture.

The objective of this study is therefore to establish a pressure-scale-dependent metrological framework for primary differential pressure realization based on 2PB systems and interferometric manometers.

2. Methods

The primary objective in analyzing differential pressure realization is to establish the underlying physical model governing pressure generation or measurement, to distinguish the metrological role of model parameters, and to systematically evaluate uncertainty propagation. In this section, each realization method is examined from the standpoint of its physical foundation and mathematical formulation.

2.1. Twin Pressure Balance (2PB): Gravitational Realization

In a twin pressure balance system, pressure is realized under conditions of mechanical equilibrium. Within the piston–cylinder assembly, the gravitational force applied to the piston is balanced by the generated pneumatic pressure. This method is fundamentally based on Newtonian mechanics and the principle of static equilibrium.

For a gas-operated system, the outlet pressure is expressed as [10]:

$$p = mg(1 - \rho_a/\rho) + RA_0$$

This equation enables differential pressure to be defined directly in terms of fundamental SI base quantities-mass, length, and time. This characteristic distinguishes the 2PB as a primary realization method. Here: A_0 is a geometric parameter representing the effective area and serves as the principal metrological reference of the realization; R denotes the auxiliary back-pressure force, which may become the dominant error source in the low ΔP regime; the coefficient $(1 - \rho_a/\rho)$ accounts for buoyancy correction according to Archimedes' principle.

Accordingly, the physical origin of uncertainty may be classified into two principal groups: geometric contributions (associated with A_0) and auxiliary force contributions (associated with R).

Under high line-pressure conditions, differential pressure is generated using a coaxial piston configuration[8]:

$$\Delta P = \frac{\Delta W}{B} \quad (1)$$

This model functionally decouples line pressure from differential pressure. A piston with a small effective area maintains the line pressure, while a piston with a larger effective area generates the differential component. As a result, small $\boldsymbol{\Delta P}$ values can be realized with high precision under substantial common-mode pressures.

2.1.1. Elastic Deformation and Pressure Dependence of Effective Area

In practice, the piston-cylinder assembly does not behave as a perfectly rigid body. Elastic deformation occurs with increasing pressure [13]:

$$A(p) = A_0(1 + \lambda p) \quad (2)$$

This effect introduces systematic deviations at high line pressures and necessitates linear correction of the geometric model to account for pressure-induced deformation.

2.1.2. Temperature Propagation

Thermal expansion of the effective area must be considered [11]:

$$p = \frac{mg\left(1-\frac{\rho a}{\rho}\right)}{A_0[1+(\alpha+\beta)(t-20)]} \quad (3)$$

For steel piston-cylinder assemblies: $\alpha_t \approx 22 \times 10 - 6/℃$

Temperature variations directly modify the realized pressure value. This demonstrates that, in 2PB systems, accuracy limitations may be governed not only by geometric factors but also by thermal effects.

2.2. Interferometric Manometer: Hydrostatic Realization

An interferometric manometer determines pressure through the height of a liquid column [12]: $P = \rho g h$

This realization is based on the hydrostatic equilibrium principle, where pressure is defined by the liquid density and column height.

Laser or ultrasonic interferometry enables high-resolution measurement of the meniscus position, thereby achieving sub-Pascal accuracy levels.

The relative uncertainty of pressure is expressed as:

$$\frac{u(P)}{P} = \sqrt{\left(\frac{u(\rho)}{\rho}\right)^2 + \left(\frac{u(g)}{g}\right)^2 + \left(\frac{u(h)}{h}\right)^2} \quad (4)$$

This model indicates that in the low ΔP regime, the dominant contribution may arise not from height resolution but from temperature-induced variations in liquid density.

In ultrasonic interferometric systems, temperature-induced pressure fluctuations have been reduced to below 10 mPa [9], representing a practical physical limit.

3. Results

3.1. Operational Range of Differential Pressure Realization

A systematic analysis of the experimental and metrological data reported in the literature demonstrates that the realization capability of differential pressure strongly depends on the underlying physical mechanism. In particular, the combination of differential pressure (ΔP) and line (static) pressure constitutes the key parameter determining realization feasibility.

Table 1. Practical operational ranges of differential pressure realization methods

Method	ΔP Range	Maximum Line Pressure
Twin Pressure Balance	1 Pa – 3.5 MPa. [8,10]	27 MPa. [8]
Interferometric Manometer	1 Pa – 200 kPa. [8,9]	40 MPa. [8]
Volumetric Differential System	0.3 – 80 bar. [14]	100 bar. [14]

Quartz Transfer Standards	±15 kPa – 345 kPa. [8,15]	20 MPa. [8]

The 2PB system provides the widest ΔP range and remains operational under high line pressures. This characteristic distinguishes it as the only fundamental method capable of generating small differential pressures under substantial common-mode pressure. Interferometric manometers, while superior in absolute accuracy in the low ΔP regime, are not universally applicable at MPa-level differential pressures.

3.2. Absolute Accuracy Limit in the Low ΔP Regime

The accuracy achieved at approximately 1 Pa reveals the intrinsic physical limits of the realization mechanisms.

Interferometric Manometer [9]: $U = 0.004\ Pa\ (k = 1)$

Twin Pressure Balance [11]**:** $U = \pm 0.16\ Pa\ (< 600\ Pa)$

These results indicate that interferometric realization provides approximately 40 times higher absolute accuracy than 2PB in the low ΔP regime.

However, temperature-induced fluctuations[9]: $\delta P < 10\ mPa$

represent not an instrumental resolution limit but a thermodynamic stability limit. Thus, in the low ΔP regime, the dominant limiting factor is not mechanical precision but thermal equilibrium.

3.3. Formation of the 0.01% Accuracy Threshold in the 25-250 kPa Range

For primary realizations within the 25-250 kPa interval, the following consensus has been established[8]: $U \approx 0.01\%$

For 2PB systems operating in this regime[8]: $U = \pm(0.008\%\Delta P + 5\ Pa)$

The relative uncertainty of the geometric effective area is[16]: $u(A_0) \approx 6.6\ ppm$

The thermal expansion coefficient is[11]: $\alpha_t \approx 22 \times 10 - 6/℃$

A temperature deviation of ±5 °C leads to an approximate relative shift of 0.02%.

Therefore, the 0.01% threshold does not represent a fundamental physical constant. Rather, it results from the combined influence of: geometric parameter uncertainty (ppm level), elastic deformation, temperature propagation, degradation during transfer stages.

Selection of the operating model shifts the primary uncertainty source from volume calibration to the differential pressure transducer. This demonstrates that the mathematical realization model itself may define the metrological limit. Such dominance shifting is not observed in 2PB or interferometric manometer systems.

3.4. Transfer and Transport-Induced Degradation

Outside primary laboratory conditions, uncertainty expands[8]: $\pm(0.008\%\Delta P + 5\ Pa) \rightarrow \pm(0.01\%\Delta P + 30\ Pa)$

Interlaboratory transportation results in calibration shifts approximately twice as large as those observed under stationary conditions [9].

Thus, the accuracy achieved in primary realization is not fully preserved during transfer. The practical 0.01% limit is therefore often governed by transport effects and long-term drift.

3.5. Dominance Map Across Pressure Regimes

Table 2. Metrological dominance across ΔP regimes

ΔP Regime	Dominant Method	Limiting Factor
< 5 Pa	Interferometric	Thermal fluctuations
5–600 Pa	2PB / Manometer	Back-pressure
25–250 kPa	2PB	Geometric + thermal
>1 MPa line	2PB	Elastic deformation
Micro-MEMS	—	Brownian noise

The dominant uncertainty source evolves as a function of pressure magnitude. Consequently, no single universal limit exists for differential pressure realization.

4. Discussion

4.1. Physical Interpretation of the 0.01% Accuracy Threshold

The results demonstrate that the $\approx 0.01\%$ expanded uncertainty observed in the $25 - 250\ kPa$ range [8] is often interpreted as a fundamental limit. However, systematic analysis indicates that this threshold does not represent a universal physical constant.

The combined contributions of effective area uncertainty ($\sim 6\ ppm$), thermal expansion ($\approx 22 \times 10^{-6}\ ℃^{-1}$), elastic deformation, and transfer-induced degradation collectively define this limit.

Thus, the 0.01% value arises not from fundamental physical constraints but from the architecture of the realization system and the associated metrological infrastructure.

4.2. Evolution of Dominant Uncertainty with Pressure Regime

In differential pressure realization, the dominant uncertainty source evolves as a function of ΔP magnitude.

Table 3. Pressure-regime-dependent dominant uncertainty mechanisms

ΔP Range	Dominant Mechanism	Physical Nature
< 5 Pa	Thermal fluctuations	Thermodynamic
5–600 Pa	Back-pressure	Mechanical
25–250 kPa	Effective area accuracy	Geometric
>1 MPa line	Elastic deformation	Material mechanics
Micro-MEMS	Brownian noise	Statistical physics

In the low ΔP regime, the accuracy limit is governed not by mechanical or geometric precision but by thermal fluctuations (<10 mPa,[9]). This reflects the thermodynamic nature of pressure realization at ultra-low differentials.

At higher pressure regimes, dominance shifts toward material deformation effects. Therefore, even when the realization mechanism remains unchanged, the limiting factor evolves with pressure magnitude.

4.3. Transfer Stage and Metrological Infrastructure

Accuracy achieved in primary realization degrades during transfer[8]:

$$\pm(0.008\%\Delta P + 5\ Pa) \rightarrow \pm(0.01\%\Delta P + 30\ Pa)$$

Transported artifacts exhibit approximately double the drift compared to stationary systems [9].

This indicates that differential pressure accuracy is not solely constrained by fundamental physics but also by infrastructural limitations. Each stage of the metrological chain directly influences the achievable overall accuracy.

5. Conclusion

Within the 25–250 kPa range, practical differential pressure accuracy stabilizes near ≈0.01%[8], yet this value does not represent a universal physical constant. It emerges from effective area uncertainty (~6 ppm[16]), thermal expansion (~22×10^{-6} °C^{-1}[11]), elastic deformation[13], and transfer-stage expansion of uncertainty from ±(0.008%ΔP + 5 Pa) to ±(0.01%ΔP + 30 Pa)[8].

At ΔP ≈ 1 Pa, interferometric manometers achieve 0.004 Pa (k=1) [9], while <10 mPa thermal fluctuations define the physical lower bound.

Differential pressure accuracy is therefore pressure-scale-dependent rather than universally bounded.

References:

[1] X. Fan, L. Wang, S. Zhang, A High-Performance Micro Differential Pressure Sensor, Micromachines 15 (2024). https://doi.org/10.3390/mi15111396.

[2] Y. Fukushima, M. Taie, T. Kageyama, T. Tani, Y. Kajikawa, M. Kuroiwa, T. Seiyama, S.S. Lee, Underground Water Flow Speed and Direction Measurement Using Differential Pressure Sensors, in: 15th IEEE Int. Conf. Nano/Micro Eng. Mol. Syst. NEMS 2020, Institute of Electrical and Electronics Engineers Inc., 2020: pp. 14–17. https://doi.org/10.1109/NEMS50311.2020.9265574.

[3] M. Piotto, S. Del Cesta, P. Bruschi, A Compact, Dual Channel Flow-based Differential Pressure Sensor with mPa Resolution and Sub-10 mW Power Consumption, in: Procedia Eng., Elsevier Ltd, 2016: pp. 757–761. https://doi.org/10.1016/j.proeng.2016.11.272.

[4] Z. He, Q. Chen, Z. Ran, S. Qiu, Y. Xiao, X. Ruan, J. Yu, Y. Wang, Y. Rao, S. Peng, Z. Li, Highly sensitive push-pull differential pressure sensor with multi-parameter measurement capabilities, Opt. Laser Technol. 181 (2025). https://doi.org/10.1016/j.optlastec.2024.111763.

[5] M. Shiri, N.M. Nouri, M. Riahi, Development of a composite sandwich-structure piezoresistive pressure sensor for subtle-pressures application, Def. Technol. 45 (2025) 48–61. https://doi.org/10.1016/j.dt.2024.06.011.

[6] H. Shi, Y. Wang, F. Chen, Y. Zhang, T. Meng, Study on a differential pressure microflow sensor on microfluidic chip, Meas. J. Int. Meas. Confed. 221 (2023). https://doi.org/10.1016/j.measurement.2023.113576.

[7] C. Cheng, Y. Lu, J. Yao, J. Chen, D. Chen, J. Wang, Development of a new MEMS resonant differential pressure sensor with high accuracy and high stability, Meas. J. Int. Meas. Confed. 226 (2024). https://doi.org/10.1016/j.measurement.2023.114080.

[8] J.E. Daborn, The accurate measurement of differential pressure at high line pressure, Meas. Control (1977) 377–387.

[9] A.P. Miiller, G. Cignolo, M.P. Fitzgerald, M.P. Perkin, Final Report on Key Comparison CCM.P-K5 in Differential Pressure from 1 Pa to 1000 Pa, 2002.

[10] A.K.B. and A.C.G.P. Nita Dilawar, D Varandani, Characterization of a pneumatic differential pressure transfer standard, 40 (2003) 74–83. stacks.iop.org/Met/40/74%0AAbstract.

[11] B. Blagojevic, THE MEASUREMENT UNCERTAINTY OF A PRESSURE BALANCE FOR LOW GAUGE

DIFFERENTIAL PRESSURE MEASUREMENT, Vienna, AUSTRIA, 2000, September 25-28, 2000.

[12] M. Bao, Y. Sun, H. Yang, J. Wang, A fast and accurate calibration method for high sensitivity pressure transducers, in: Sensors Actuators, A Phys., Elsevier, 2003: pp. 218–223. https://doi.org/10.1016/S0924-4247(03)00266-8.

[13] Accreditation Body of the Deutscher Kalibrierdienst (DKD), Guideline DKD-R 6-1 Calibration of Pressure Gauges, 2003. https://www.ptb.de/cms/fileadmin/internet/dienstleistungen/dkd/zurueckgezogene_dokumente/Publications/Guidelines/dkd_r_6_1_e.pdf.

[14] S. Sircar, C.Y. Wang, A.D. Lueking, Design of high pressure differential volumetric adsorption measurements with increased accuracy, Adsorption 19 (2013) 1211–1234. https://doi.org/10.1007/s10450-013-9558-8.

[15] M. Girard, R. Haines, AN AUTOMATED CONTROLLER/CALIBRATOR FOR LOW DIFFERENTIAL PRESSURE AROUND ATMOSPHERE, 2002. https://media.fluke.com/41d22641-4f4e-4792-a262-b2e300dbfe92_originalfile.pdf.

[16] T. Kobata, M. Kojima, K. Saitou, M. Fitzgerald, D. Jack, C. Sutton, Version 1.2 of 6 November 2006 ASIA-PACIFIC METROLOGY PROGRAMME 1 Pa-5,000 Pa SMALL DIFFERENTIAL PRESSURE INTERLABORATORY COMPARISON Final Report on Key Comparison APMP.M.P-K5 in Differential Pressure from 1 Pa to 5000 Pa, 2006.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Tursunova Asfiyabonu Xayrullo qizi
Fizika-texnika instituti stajyor-tadqiqotchisi
E-mail: asfiyabonutursunova@gmail.com
Kabulov Rustam Rashidovich
Fizika-texnika instituti katta ilmiy hodimi
E-mail: krr1982rustam@gmail.com
Pulatova Firuza Tuvalovna
Fizika-texnika instituti muhandisi
E-mail: pulatova1970@gmail.com
Abdulazizov Baxrom Toshmirza o'g'li
Namangan davlat universiteti
E-mail: bakhromabdulazizov@gmail.com

UO'K 539.26 (621.793)

PEROVSKIT QATLAMLARIGA ASOSLANGAN FOTOVOLTAIK QURULMALARINI ISHLAB CHIQARISHDA BIR BOSQICHLI TIG' QOPLAMA USULIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: *Fotovoltaik qurilmalar ishlab chiqarish uchun yuqori tezlikda (1 m/min) bir bosqichli tig'li qoplama usuli yordamida eritmadan metall halid perovskit qatlamlarini yotqizish usuli taklif qilinmoqda. Eritmadan perovskit qatlamlarini tig'li yotqizish gaz bilan quritish, vakuum bilan ishlov berish, yoki yuqori haroratli toblashdan foydalanmasdan atrof-muhit sharoitida yuqori samarali fotosezgir tuzulmalarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Toblash haroratini diqqat bilan nazorat qilish faol qatlamning kristalliligini oshirishi bilan birga metall halid perovskit tuzilmalarini yanada barqarorroq qilish imkonini beradi. Antierituvchi (yoki shunga o'xshash) bilan bir bosqichli tig'li qoplama usulini ishlab chiqish yuqori samarali perovskit asosidagi fotovoltaik qurilmalarni ishlab chiqarishga yo'l ochadi.*

Kalit so'zlar: *fotosezgir tuzilmalar, perovskitlar, tig'li qoplama usuli, qutbli aprotik erituvchi, metilamin*

Турсунова Асфиябону Хайрулло кизи
Стажер-исследователь Физико-технического института
Кабулов Рустам Рашидович
Старший научный сотрудник Физико-технического института
Пулатова Фируза Туваловна
Инженер Физико-технического института
Абдулазизов Бахром Тошмирза угли
Наманганский государственный университет

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОДНОСТАДИЙНОГО МЕТОДА НАНЕСЕНИЯ ЛЕЗВИЕМ ПРИ ИЗГОТОВЛЕНИИ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ ПРИБОРОВ НА ОСНОВЕ ПЕРОВСКИТА

Аннотация: *Предложен метод нанесения слоев металло - галогенидного перовскита из раствора, основанного на высокоскоростном (1 м/мин) одностадийном методе покрытия лезвием для производства фотоэлектрических устройств. Осаждение слоев перовскита из раствора позволяет получать высокоэффективные фоточувствительные элементы в условиях окружающей среды без использования газовой сушки, вакуумной обработки и высокотемпературного отжига. Тщательный контроль температуры отжига позволяет получать более стабильные структуры металло - галогенидного перовскита благодаря повышенной кристалличности активного слоя. Разработка одностадийного метода покрытия лезвием с антирастворителем (или аналогичного) открывает путь к производству высокоэффективных фотоэлектрических устройств на основе перовскита.*

Ключевые слова*: фоточувствительные структуры, перовскиты, покрытие лезвием, полярный апротонный растворитель, метиламин*

Tursunova Asfiyabonu Khayrullo kizi
Research Intern, Physical-technical Institute
Kabulov Rustam Rashidovich
Senior Researcher, Physical-technical Institute
Pulatova Firuza Tuvalovna
Engineer, Physical-technical Institute
Abdulazizov Bakhrom Toshmirza ugli
Namangan State University

USING A ONE-STEP BLADE COATING METHOD IN THE MANUFACTURING OF PEROVSKITE-BASED PHOTOVOLTAIC DEVICES

Abstract: *A method for depositing metal halide perovskite layers from solution is proposed using a high-speed (1 m/min) single-step blade coating method for the production of photovoltaic devices. Deposition of perovskite layers from solution enables the production of highly efficient photosensitive devices under ambient conditions without the use of gas drying, vacuum processing, or high-temperature annealing. Careful control of the annealing temperature allows for the production of more stable metal halide perovskite structures due to increased crystallinity of the active layer. The development of a single-step blade coating method with an antisolvent (or similar) opens the way to the production of highly efficient perovskite-based photovoltaic devices.*

Keywords: *photosensitive structures, perovskites, blade coating, polar aprotic solvent, methylamine*


Kirish

Aholi sonining o‘sib borishi, yana ham arzon qayta tiklanadigan energiya manbalariga bo‘lgan ehtiyojning jadal ortishiga sabab bo‘ldi. Bu esa arzon va katta maydondagi metall halid perovskitlarga asoslangan fotovoltaik qurilmalarni sanoat darajasida ishlab chiqarishga undaydi. Ushbu materialning yupqa qatlamli fotovoltaik qurilmalarga (FQ) qo‘llash samarali ekanligi isbotlangan, ularning ba’zilarining energiya o‘zgartirish samaradorligi 24% dan oshdi [1], boshqalari esa minglab soatlar davomida barqaror ishlaydi [2]. Ushbu rekord ko‘rsatkichlar perovskit FQ larning laboratoriya o‘lchamlarida, ya’ni 1 sm² dan kichik o‘lchamlarda ko‘pgina turli xil tuzilmaalarda erishildi.

Ushbu yuqori samaradorlik, asosan, erituvchili almashinuv usulllari yordamida erishiladi, bu usullarda antisolvent – antierituvchi (erituvchini chiqarib yuboruvchi) qo‘llanilib, qatlamlar “spin coating” – “aylantirib qoplash” usuli orqali yotqiziladi [3]. “Spin coating” qoplama usuli kichik o‘lchamlarda yuqori sifatli qatlamlarni ishlab chiqarish uchun mos keladi, ammo bu usulda eritmaning katta qismi isrof bo‘ladi va katta o‘lchamli maydonlarda ishlab chiqarish uchun samarasiz hisoblanadi. “Spin coating” qoplama usulida qatlam sifati (taglik bo‘ylab qalinlik va dag‘allik) asosan aylanish tezligi va erituvchining bug‘lanish tezligi bilan boshqariladi. Hozirgi vaqtda bosma xonalarda qo‘llanilayotgan usullar, masalan, tig‘ yordamida qoplash (blade coating), purkab bo’yash (injekt printing va sprey printing) kabi usullar katta yuzalarda sifatli perovskit FQ olish jarayonini osonlashtirishi mumkin [4].

Metodologiya

Tig‘ qoplamasi usuli (shuningdek, "doktor-blade" yoki "blade coating" deb ham ataladi) tig‘ni taglik sirti bo‘ylab harakatlantirib qatlamning suyuq moddasini qoplash usuli, yoki aksincha, tig‘ siljitmay taglikni harakatlantirish mumkin [5]. 1-rasmda tig‘ yordamida qatlam olish jarayoni tasvirlangan. Tig‘ oldindan taglik yuzasiga tomizilgan suyuq moddani - siyohni yoyadi va uni suyuq yupqa qatlamga aylantiradi. Keyin u quritilib qattiq yupqa qatlam hosil qilinadi. Barcha yagona yo‘nalishli qoplama usullaridan tig‘ qoplash kichik o‘lchamli tizimlar uchun eng past narxli bo‘lib hisoblanadi. Tig‘lar har xil shakldagi tasvirlarni qattiq sirt ustiga yoki egiluvchan sirt ustiga bosishi mumkin. Shunday qilib, tig‘ qoplamasi yordamida juda yupqa qatlamlarni yaratish mumkin. Bu usul ma’lum sozlanishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy jihatdan samarali qatlamlarni olish imkonini beradi. Shu bilan birga, qoplama xususiyatlarini sezilarli o‘zgartirish ham mumkin. Tig‘ qoplama usuli perovskit qatlamlarini olish uchun bir bosqichli qoplash texnikasi sifatida keng o‘rganilgan [6,7] va hozirda 20% foydali ish koeffitsientiga ega bo'lgan perovskit FQlarini ishlab chiqarish uchun yagona sanoat darajasidagi usul hisoblanadi [8,9]. Tig‘ bilan qoplangan perovskit qatlamlari odatda polikristall va yuza bo‘yicha bir jinsli bo‘ladi. Bunday natijalarga kristall donasining o‘sishini yaxshilash uchun kristallanish harorati va eritmalar kimyosini nazorat qilish orqali erishiladi [10 -14]. Yuqorida aytib o‘tilgan natijalar yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan zich qatlamli FQ kuzatiladi. Yuqori samarali qurilmalar tig‘ qoplama usuli eng samarali yupqa qatlamlarni olish usuli bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, tig‘ qoplamasi usuli orqali olinishi mumkin bo‘lgan perovskitni olish jarayonida ishlatiladigan kimyovoy moddalar – prekursorlar erituvchilari bilan birga xilma-xil bo‘lib, erituvchilar va qayta ishlov berishga mo‘ljallangan qo‘shimchalari turli xil.




1-rasm. Tig‘ yordamida qatlam olish jarayonining tasviri [15].

Tig‘ qoplama texnologiyasida, qatlam sifati asosan erituvchining bug‘lanish tezligiga bog‘liq bo‘ladi, bu tig‘ning harakatlanish tezligi va ishlatiladigan erituvchi tizimi bilan boshqariladi. Eritmaning xususiyatlari “spin coating” usulidagi kabi asosiy ahamiyatga ega [15]. Tig‘ qoplamasida “spin coating” dagi eritma formulasini qo‘llash, qatlam sifatini sezilarli darajada yomonlashtirishga olib keladi. Bunday muammolarni hal qilish, tig‘ qoplamasi yordamida qatlam yotqizish davomida antisolventni qo‘llash zaruratini oldini olish uchun ikkita strategiyani qo‘llashni taklif qilish mumkin. Ular qaynash nuqtasini oshirish yoki eritmaning bug‘ bosimini pasaytirish bo‘lishi mumkin, shu holatda antisolventni tig‘ qoplama jarayoni tugagandan so‘ng qo‘llash mumkin. Boshqa strategiya erituvchining qaynash haroratini pasaytirish bo‘ladi, bunda hech qanday antisolvent kerak bo‘lmaydi. Biroq, MHP uchun past qaynash nuqtasi (<100 ° C) ga ega bo‘lgan erituvchi tizimini ishlab chiqish juda qiyin, chunki eng keng tarqalgan past qaynaydigan qutbli aprotik erituvchilar (QAE) MHPning muhim qismlari bo‘lgan metall halid tuzlarini eritmaydi.

Metilamin qo‘rg‘oshin yodidini ($MAPbI_3$) osongina eritish uchun metilamin (MA) ishlatiladi. Past qaynash nuqtasi (82°C) ga ega qutbli aprotik erituvchi asetonitrilni past qaynash temperaturali MHP erituvchisini hosil qilish uchun ishlatilgan [16]. QAE o‘zi barcha perovskit tuzlarini (masalan, qo‘rg‘oshin yodidi PbI_2) eritmaydi. [16] da erituvchi sifatida QAE dan foydalangan holda, 18% dan ortiq energiya o‘zgartirish samaradorligiga ega bo‘lgan FQ olishda spin coating usuli ishlatilgan. Ushbu hisobotda biz MA/QAE erituvchi tizimini pichoq qoplamasiga o‘tkazishni o‘rganib chiqdik.

Bundan tashqari, bu texnologiyadan nafaqat prekursor siyohini yotqizish va polikristal o‘sish, balki kristallanish yo‘nalishni boshqarish uchun ham foydalanish mumkin [17]. Tig‘ qoplamasi bir eritma bilan qayta ishlangan kristalli tuzilmalarni yaratishi mumkinligini [18] ko‘rsatdi. Tig‘ qoplash usuli perovskit siyoh formulalarining ikkala asosiy turiga ega bo‘lgan yagona ma’lum usuldir: an’anaviy yuqori qaynash nuqtasi (DMF, DMSO yordamida) [19] va past qaynash nuqtasi Pb-alkilamid tizimlari (Asetonitril va MA yordamida) [20]. Ikkala tizim ham optimallashtirilgan va yuqori samarali FQ olish imkonini bergan.


MHP qatlamini olish jarayoni 2-rasmda ko‘rsatilgan. Taglik sifatida ftor qo‘shilgan qalay oksidili (FTO) shisha ustidagi qalay oksidi (SnO_2) qatlami yuzasiga MA/QAE da eritilgan Metilamin yodid (MAI) va PbI_2 blade koating qilinadi. Qoplama nisbiy namlik nazoratisiz (odatda 10% dan 30% gacha) havo sharoitida amalga oshiriladi. Erituvchining qaynash nuqtasi pastligi (MA/QAE qaynash nuqtasi ~78°C) tufayli, tig‘ bilan qoplangan qatlamlar rasmda ko‘rsatilganidek, qoplangandan keyin 2 soniya ichida darhol kristallanadi. Tig‘ning yuqori siljish tezligi qalinroq qatlamlar olinishiga sabab bo‘ladi. Olingan qatlamlarning qalinligini nazorat qilishning oson va samarali usuli pichoq tezligini nazorat qilishdir. Keng ko‘lamli optimallashtirishlardan so‘ng, taxminan 1 m/min tig‘ yordamida qoplash tezligida qalinligi taxminan 300 nm bo‘lgan oynaga o‘xshash shaffof qatlam hosil bo‘lishi aniqlandi. Agar pichoq tezligi bundan yuqori bo‘lsa, qatlamda yoriqlar hosil bo’ladi. Tezlik pastroq bo‘lsa, qatlam xiralashadi, bu esa sirt dag‘alligini ortishini bildiradi.



2-*rasm. $MAPbI_3$ qatlamimni tig‘ qoplama yordamida olish jarayoni sxemasi [4].*


Natijalar va tahlil:

Tig‘ qoplama usuli yordamida olingan MHP qatlamlarining sifatini baholash uchun perovskit qatlamlariga kovak tashish qatlami sifatida yupqa qatlam (200 nm) spiro-OMeTAD qoplandi, so‘ngra molibden oksidi (15 nm) va alyuminiy (150 nm) kontakt sifatida termal bug‘lantirildi. To‘liq FQ tarkibi 3-rasmda ko‘rsatilgan.



3-rasm. MHP FQ ning tarkibiy tasviri [4].

Tayyorlangan qurilmalar AM 1.5 sharoitida (yorug‘lik quvvati P = 100 mWatt/sm^2, T = 25 ^{o}C), ochiq zanjir kuchlanishidan qisqa tutashuv toki yo‘nalishida (1) va qisqa tutashuv tokidan ochiq zanjir kuchlanishi yo‘nalishuda (2) volt-amper xarakteristikasi (VAX) tadqiq qilindi. 1 da VAX da qisqa tutashuv toki (J_{SC}) 21,87 mA/sm^{-2}, ochiq zanjir kuchlanishi (V_{OC}) 1,069 V va VAX to‘ldirish omili (FF) 78,94% bo'lgan (4 a–rasm). Energiya o‘zgartirish samaradorligi (EO‘S) ko‘rsatkichi 18,4% tashkil etdi. Bunday dastlabki yuqori samaradorlik, ayniqsa, ushbu faol qatlamlarni ishlab chiqarishda hech qanday qizdirish amalga oshirilmasligini hisobga olsak, diqqatga sazovordir. VAX 2 yo‘nalishida EO‘S 11,6% (J_{SC} = 21,81 mA/sm^{-2}, V_{OC}=0,978V va FF=54,52%) bo‘lgani aniqlandi. Bu 1 sharoitida olingan 18,4% EO‘S dan sezilarli darajada past. Bundan tashqari, (4 b – rasm) qurilmaning ishlashi N_2 glovboks qutisida 24 soatdan keyin ~ 10% EO‘S gacha kamayishi va keyinchalik yanada kamayishini ko‘rsatdi.




4-rasm. (a) hech qanday qizdirilmasdan MHP qatlamli urilmalarining Volt-Amper xarakteristikalari; (b) vaqt o‘tishi bilan energiya o‘zgartirish samaradorligining o‘zgarishi [4].

Yuqori 1 yo‘nalishda skanerlash, past 2 yo‘nalishda skanerlash EO‘S va qurilmaning tez degradatsiyasi kombinatsiyasi SnO_2/$MAPbI_3$ interfeysida zaryadni tashish muammosi mavjudligini ko‘rsatadi. Biz faraz qilamizki, past qaynash nuqtasiga qaramay, MA/QAE erituvchisi xona haroratida tig‘ bilan qoplangan qatlamlarda to‘liq peroskit hosil


bo‘lmaydi. Buning o‘rniga, ba’zi bir erituvchi (MA yoki QAE yoki ikkalasi) $MAPbI_3$ qatlamida ushlanib qoladi, bu esa faol qatlamda va $MAPbI_3/SnO_2$ interfeysida samarasiz zaryad tashishga olib keladi. Vaqt o‘tishi bilan tuzoqqa tushirilgan erituvchilar ko‘chib o‘tadi (ehtimol, quyosh batareyalarini sinovdan o‘tkazishda qo‘llaniladigan yo‘nalish ta’sirida va yorug‘lik tufayli) va $MAPbI_3$ ni qisman qayta eritadi yoki MAI-PbI_2-MA kabi komplekslarni hosil qiladi, natijada samaradorlikning keskin pasayishiga olib keladi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun taklif qilinadigan strategiyalardan biri tig‘ bilan qoplangan qatlamlarga issiqlik energiyasini qo‘llashdir. Ehtiyotkorlik bilan ishlov berish natijasida tig‘ bilan qoplangan qatlamlarning 10 daqiqa davomida 130°Cda qizdirish holati eng yaxshi deb topildi. 5-rasmda qizdirilmagan qatlamlarga nisbatan qizdirilgan qatlamning kristalliligi sezilarli darajada yaxshilangani kuzatilmoqda, bu rentgen nurlarining diffraktsiya cho‘qqilarining ortishi bilan tasdiqlanadi.



5-rasm. $MAPbI_3$ qatlamlarining 130°C da 10 minut davomida qizdirilgan (qora) va qizdirilmagan (sariq) rentgen nurlarining diffraktsiya natijalari.

6-rasmda 130°C da tig‘ bilan qoplangan faol qatlamlardan 10 daqiqa davomida qizdirilgan qurilmaning VAX ko‘rsatilgan. Tig‘ bilan qoplanib faol qatlami qizdirilmagan qurilmalar bilan solishtirganda, dastlabki qurilma ishlashi sezilarli darajada o‘zgarmadi, ikkalasi ham 18,3% atrofida (4a-rasm va 6a-rasm). Ammo VAX ni oldindan 2 yo‘nalishda skanerlanganda EO‘S 11.6 dan 14,96% gacha yaxshilanganligi ko‘rinadi. Qurilmalarda keskin EO‘S tushishini kuzatilmadi (6b-rasm) va tuzilmaviy barqarorlikning yaxshilanishi natijasida 17% atrofida barqarorlashtirilgan EO‘S erishildi (6c-rasm). 3-rasmda tasvirlangan faol qatlami perovskitga asoslangan FQ ning to‘g‘ri yo‘nalishda qorong‘ulikda 0.9 Volt kuchlanish berib, sinalgan FQ larning VAX tadqiqotlari EO‘S barqarorlashga olib kelishini ko‘rsatdi (6 c rasm), ya’ni vaqt o‘tishi bilan to‘g‘ri yo‘nalishdagi elektr maydoni ta’sirida faol qatlami perovskitga asoslangan FQ larning 14.96% dan 17.0% gacha oshib barqarorlashgani namoyon bo‘ldi. Bu hodisa faol qatlami Cu(In,Ga)Se_2 asoslangan quyosh elementlarida ro‘y beradigan “light soaking” effektiga o‘xshab ketadi [20]. Bu hodisa Cu(In,Ga)Se_2 faol qatlamlarida amfoter rekombinatsion markazlarining xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, faol qatlami perovskitlarga asoslangan FQ halogenidlarninig (I^--iodning) Dreyf xususiyatlari bilan belgilanadi.



6-rasm. (a) 130°Cda 10 daqiqa davomida qizdirilgan MHP faol qatlamli urilmalarining Volt-Amper xarakteristikalari; (b) vaqt o‘tishi bilan EO‘S; (c) 0,9V kuchlanishida barqarorlashtirilgan energiya o‘zgartirish samaradorligi.

Xulosa

Ushbu maqolada samaradorligi 18% dan yuqori bo'lgan MHP FQ ishlab chiqarish uchun past temperaturalarda qaynaydigan erituvchiga ega MHP olinishi va uning samaradorligi tahlil qilindi. MHP xona haroratida hech qanday antisolvent (yoki shunga o‘xshash ishlov berish) qo‘llamasdan 1 m/min tezlikda rulondan rulonga ishlov berish orqali o‘tkaziladigan tig‘ qoplamasi orqali ishlab chiqarilishi tahlil qilindi. Tig‘ yordamida qatlam olish usuli misli ko‘rilmagan katta tezlikda yuqori samarali quyosh FQ larni bir bosqichli tig‘ usuli bilan ishlab chiqarish mumkinligini namoyish etibildi. MHP asosidagi FQ lar global energiya talabini qondirish uchun kelajakdagi energiya yechimi sifatida namoyon qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. National Renewable Energy Laboratory (NREL), Best Research-Cell Efficiency Chart, Golden, CO: NREL 2019
2. E. H. Jung, N. J. Jeon, E. Y. Park, C. S. Moon, T. J. Shin, T. Y. Yang, J. H.Noh, J. Seo, Nature 2019, 567, 511
3. N. J. Jeon, J. H. Noh, Y. C. Kim, W. S. Yang, S. Ryu, and S. Il Seok, “Solvent engineering for high-performance inorganic organic hybrid perovskite solar cells,” *Nat. Mater.*, vol. 13, no. 9, pp. 897–903, Jul. 2014
4. Benjia Dou, David T. Moore, James B. Whitaker, Sean E. Shaheen, Frank S. Barnes and Kai Zhu Maikel F.A.M. van Hest One-Step High-Throughput Blade Coating of Perovskite Solar Cells 2018
5. R. G. Larson, T. J. Rehg, Liquid Film Coating, Wiley-VCH, Weinheim 1997
6. S. Tang, Y. Deng, X. Zheng, Y. Bai, Y. Fang, Q. Dong, H. Wei, J. Huang, Adv. Energy Mater. 2017, 7, 1700302.
7. M. Yang, Z. Li, M. O. Reese, O. G. Reid, D. H. Kim, S. Siol, T. R. Klein, Y. Yan, J. J. Berry, M. F. A. M. Van Hest, K. Zhu, Nat. Energy 2017, 2, 17038.
8. W. Q. Wu, Q. Wang, Y. Fang, Y. Shao, S. Tang, Y. Deng, H. Lu, Y. Liu, T. Li, Z. Yang, A. Gruverman, J. Huang, Nat. Commun. 2018, 9, 1625
9. Y. Lin, X. Ye, Z. Wu, C. Zhang, Y. Zhang, H. Su, J. Yin, J. Li, J. Mater.Chem. A 2018, 6, 3986.
10. J. H. Kim, S. T. Williams, N. Cho, C. C. Chueh, A. K. Y. Jen, Adv. Energy Mater. 2015, 5, 1401229
11. Y. Zhong, R. Munir, J. Li, M.-C. Tang, M. R. Niazi, D.-M. Smilgies, K. Zhao, A. Amassian, ACS Energy Lett. 2018, 3, 1078.
12. W. Kong, G. Wang, J. Zheng, H. Hu, H. Chen, Y. Li, M. Hu, X. Zhou, C. Liu, B. N. Chandrashekar, A. Amini, J. Wang, B. Xu, C. Cheng, Sol. RRL 2018, 2, 1700214
13. J. Li, R. Munir, Y. Fan, T. Niu, Y. Liu, Y. Zhong, Z. Yang, Y. Tian, B. Liu, J. Sun, D. M. Smilgies, S. Thoroddsen, A. Amassian, K. Zhao, S. (Frank) Liu, Joule 2018, 2, 1313
14. M. He, B. Li, X. Cui, B. Jiang, Y. He, Y. Chen, D. O’Neil, P. Szymanski, M. A. Ei-Sayed, J. Huang, Z. Lin, Nat. Commun. 2017, 8, 16045
15. R. Swartwout, Dr. Maximilian T. Hoerantner, Dr. V. Bulovic Scalable Deposition Methods for Large-Area Production of Perovskite Thin Films 2018
16. N. K. Noel, S.N. Habisteutinger, B. Wenger, M.T. Klug, M.T. Horanter, M.B. Johnson, R.J. Nicholas, D.T. Moore and H.J. Snaith “A low viscosity, low boiling point, clean solvent system for the rapid crystallisation of highly specular perovskite films,” *Energy Environ. Sci.*, vol. 10, no. 1, pp. 145–152, 2017.
17. Y. Shao, Y. Fang, T. Li, Q. Wang, Q. Dong, Y. Deng, Y. Yuan, H. Wei, M. Wang, A. Gruverman, J. Shield, J. Huang, Energy Environ. Sci. 2016, 9, 1752
18. L. Lee, J. Baek, K. S. Park, Y. E. K. Lee, N. K. Shrestha, M. M. Sung, Nat. Commun. 2017, 8, 15882.
19. Y. Deng, X. Zheng, Y. Bai, Q. Wang, J. Zhao, J. Huang, Nat. Energy 2018, 3, 560
20. B. Dou, J. B. Whitaker, K. Bruening, D. T. Moore, L. M. Wheeler, J. Ryter, N. J. Breslin, J. J. Berry, S. M. Garner, F. S. Barnes, S. E. Shaheen, C. J. Tassone, K. Zhu, M. F. A. M. Van Hest, ACS Energy Lett. 2018, 3, 2558

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Aziza Murodova
Master's student at the National University of Uzbekistan

METHODOLOGY OF USING MATLAB SYSTEM IN TEACHING THE DISCIPLINE OF MATHEMATICAL MODELING

(on the example of MATLAB-based modeling)

***Abstract**: This article analyzes the methodology of using the MATLAB system in teaching the discipline "Mathematical Modeling." The study focuses on improving students' analytical and algorithmic thinking skills through computer-based modeling. The proposed approach enables learners to develop and visualize mathematical models, analyze real processes, and interpret results independently. Experimental results demonstrate that MATLAB-based instruction significantly improves learning efficiency compared to the traditional teaching method.*

***Key words:** mathematical modeling, MATLAB, teaching methodology, visualization, analytical thinking, simulation.*

Азиза Муродова
Магистрант Национального университета Узбекистана

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИСТЕМЫ MATLAB В ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ

(на примере MATLAB)

***Аннотация**: В статье рассматривается методика использования системы MATLAB при обучении дисциплине «Математическое моделирование». Основное внимание уделено развитию аналитического и алгоритмического мышления студентов посредством компьютерного моделирования. Предложенный подход позволяет студентам самостоятельно строить модели, визуализировать и анализировать реальные процессы. Результаты эксперимента показали, что использование MATLAB повышает эффективность обучения по сравнению с традиционным методом преподавания.*

***Ключевые слова:** математическое моделирование, MATLAB, методика обучения, визуализация, аналитическое мышление, симуляция.*

Aziza Murodova
*O'*zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: murodovaaziza061@gmail.com

MATEMATIK MODELLASHTIRISH FANINI O'QITISHDA MATLAB TIZIMIDAN FOYDALANISH METODIKASI

(MATLAB muhitida modellashtirish misolida)

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada matematik modellashtirish fanini o'qitishda MATLAB tizimidan foydalanish metodikasi tahlil qilingan. Tadqiqotda kompyuter modellashtirish orqali talabalarda tahliliy va algoritmik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Taklif etilgan yondashuv yordamida talabalarda matematik model tuzish, uni vizuallashtirish va natijalarni tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi. Tajriba natijalari MATLAB dasturidan foydalanishning an'anaviy o'qitish usuliga nisbatan samaradorligini ko'rsatdi.*

***Kalit so'zlar:** matematik modellashtirish, MATLAB, o'qitish metodikasi, vizuallashtirish, algoritmik fikrlash, kompyuter modellashtirish.*

Kirish. Zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Axborot texnologiyalardan foydalanish bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Jahonning oliy ta'lim muassasalari reytingida yuqori turuvchi muassasalarda bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda axborot texnologiyalari asosida o'qitishning zamonaviy shakllari va usullarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida Matematik modellashtirish fanini o'qitish metodikasini

zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalangan holda takomillashtirish va amaliyotga joriy etishni muhim masalalardan biriga aylantiradi.

2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ 2909-son, “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-iyun 2018-yildagi PQ-3775-son, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-oktyabr 2019-yildagi PF-5847-son, “Ta’lim to‘g‘risida”gi 23-sentyabr 2020-yildagi O‘RQ-637-son, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi PF-60-sonli qarorlar hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ta’lim sifatini oshirish nazarda tutilgan edi. Bu esa, innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak amaliy matematiklar kasbiy tayyorgarligi mazmuni, tamoyillari, modeli va axborot-metodik ta’minotini takomillashtirishni taqozo etadi.

Matematik tizimlardan, jumladan, “Matlab” dasturidan foydalanib, “Matematik modellashtirish” fanini o‘qitish talabalarni matematikaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, tasavvurini kengaytiradi va zamon bilan hamnafas bo‘lgan holda turli modellarni oson yechimini topishga katta yordam beradi. MATLAB dasturiy muhitida yaratilgan grafik interfeys (GUI) asosidagi modellar yordamida talabalar murakkab matematik jarayonlarni vizual kuzatib, ularni chuqur tushunish imkoniga ega bo‘ladi. Mazkur tadqiqotda bir nechta turdagi modellar — epidemiologik (SEIR), issiqlik o‘tkazuvchanlik, tebranish, iqtisodiy (Solow) hamda biologik (Lotka–Volterra) modellar — ishlab chiqildi. Ularning har biri o‘quv jarayonida aniq bir tarmoqqa oid bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Epidemiya modellari

Ma’lumki, ko’p asrlar davomida insonlarning ko’pchiligi turli xil epidemiyalar tufayli vafot etganlar. Epidemiyalarga qarshi kurashish uchun turli tibbiy tadbirlar (karantin, emlashlar va h.k) ni o’z vaqtida amalga oshirish kerak bo’ladi. Bunday tibbiy tadbirlarni samaradorligi epidemiyaning turini aniq bilish, epidemiyaga chalingan bemorlar sonining vaqt bo’yicha o’zgarishini bashorat qilish bilan bog’liq.

1. Umumiy model.

Faraz qilaylik, bir hududda **N** ta sog’lom odam mavjud bo’lib, **t=0** vaqt momentida bu guruhga bitta kasal odam (infektsiya manbai) kelib qo’shilsin. Guruhdan bemorlar chiqarib tashlanmaydi (tuzalish ham, o’lish ham, izolyatsiya ham yo’q). Shuningdek, odam kassalikni o’ziga yuqtirishi bilanoq, infektsiya manbaiga aylanadi deb faraz qilinadi.

t vaqt momentidagi kasallar sonini **x(t)** bilan, sog’lom bo’lganlar sonini esa **y(t)** bilan belgilaymiz. Demak, ixtiyoriy vaqt momentida

$$\mathrm{x}(\mathrm{t})+y(t)=N+1,\quad \mathrm{x}(0)=1$$

t+dt (dt - kichik vaqt oralig’i) vaqt oralig’ida nechta yangi kasal paydo bo’lishini aniqlash mumkin. Ularning soni dt vaqt oralig’iga, sog’lom va bemor kishilarning o’zaro uchrashuvlar soniga, ya’ni x va y kattaliklarning ko’paytmasi x*y ga proportsional bo’ladi deb faraz qilish mumkin:

$$\mathrm{dx}=\alpha \mathrm{xydt}$$

alpha - proportsionallik koeffitsienti (infektsiyani boshqa odamga yuqtirish koeffitsienti).

Quyidagi differentsial tenglamani hosil qilinadi:

$$\mathrm{x}(\mathrm{t})+y(t)=N+1\ \mathrm{dx}=\alpha \mathrm{xydt}\ \frac{dx}{dt}=\alpha x(N+1-x)$$

U holda yechim quyidagicha ko’rinishda bo’ladi:

$$x(t)=\frac{N+1}{Ne^{-\alpha(N+1)t}+1}$$

Modelni yanada murakkablashtirish maqsadida t vaqt momentida 1 ta emas, bir nechta, ya’ni b sondagi odam kasallangan deb faraz qilinadi. Shuningdek, kichik vaqt oralig’idan so’ng bemor tuzalib, immunitetga ega bo’ladi deb hisoblash mumkin. z(t) bilan t vaqt momentigacha kasal bo’lib, so’ngra tuzalgan bemorlar soni belgilansa, yuqoridagilarga asoslanib, quyidagiga ega bo’lish mumkin:

$$x+y+z=N+b$$

$$\begin{cases} \frac{dx}{dt} = \alpha xy - \gamma x \\ \frac{dy}{dt} = -\alpha xy \end{cases}$$


Bu yerda gamma*x – tuzalganlar soni.

2. SEIR epidemiologik modeli

SEIR modeli yuqumli kasalliklarning tarqalish jarayonini tavsiflaydi. Bu modelda to`rtta guruhga bo'linadi: sog'lom (S), kasallikka chalingan (E), yuqumli (I) va tuzilgan (R). Model quyidagi differensial tenglamalar bilan ifodalanadi:

$$\begin{cases} \frac{dS}{dt} = -\beta SI, \\ \frac{dE}{dt} = \beta SI - \sigma E, \\ \frac{dR}{dt} = \gamma I. \end{cases}$$

Bu yerda β – yuqtirish tezligi, σ – yashirin davr koeffitsienti, γ – sog'ayish tezligi. GUI orqali foydalanuvchi parametrlarni kiritib, vaqt bo'yicha S, E, I, R o'zgarishini grafikda ko'radi.Matlabda kerakli qiymatlarni qoyib tenglamaning real vaqtdagi yechimini topish uchun quyidagi oynani yaratib oldik: Grafikda SEIR modeli asosida to'rtta guruh — sog'lom (S), yashirin (E), yuqumli (I) va 1-1-*rasm : SEIR epidemiologik modeli*



tuzalgan (R) aholining soni vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishi tasvirlanadi. Dastlab sog'lomlar soni yuqori bo'ladi, ammo kasallik tarqalishi bilan ularning soni kamayadi. Yuqumli shaxslar soni muayyan vaqtda eng yuqori cho'qqiga chiqadi, keyin esa asta-sekin pasayadi. Tuzalganlar soni esa vaqt o'tishi bilan ortib boradi. Modeldagi asosiy parametrlar: β – yuqtirish tezligi, σ – yashirin davr koeffitsienti, γ – sog'ayish tezligi. β oshirilsa, kasallik tezroq tarqaladi va epidemiya cho'qqisi yuqoriroq bo'ladi. γ ortganda esa kasallik tezroq so'nadi. Berilgan parametrlarga qiymat berilganda SEIR modelining yuqorida berilgan differensial tenglamadan foydalangan holda qiymatlarini hisoblagan holda grafik korsatadi. Grafik orqali talabalar epidemiyaning rivojlanish bosqichlarini aniq tahlil qilish imkoniga ega bo'ladilar.

3. Gripp epidemiyasi modeli.

Gripp kasalligi yilning sovuq fasllarida keng tarqaladigan, yuqori darajada yuqumli bo'lgan respirator viruslar guruhiga mansub infeksiya hisoblanadi. Aholi zichligi, odamlar o'rtasidagi yaqin muloqot, transport oqimi va iqlim sharoitlari kabi omillar grippning tez tarqalishiga sabab bo'ladi. Epidemiya jarayonining rivojlanishini oldindan baholash va uning kechishini matematik yo'l bilan modellashtirish sog'liqni saqlash tizimi uchun muhim vazifalardan biridir. Shu bois so'nggi yillarda gripp tarqalish dinamikasini izohlovchi matematik modellar, xususan, deterministik tipdagi SIR (Susceptible–Infected–Recovered) modeli keng foydalanilmoqda.

Ushbu modelning asosiy g'oyasi shundan iboratki, aholi uchta asosiy guruhga bo'linadi: kasallikka moyil bo'lganlar – S(t), kasallanganlar – I(t) va sog'ayib immunitet hosil qilganlar – R(t). Vaqt o'tishi bilan ushbu toifalar o'zaro o'tishlarda qatnashadi. Masalan, yuqumli odam sog'lom bilan aloqa qilsa, yangi zararlanish sodir bo'ladi; kasallangan ma'lum muddatdan so'ng sog'ayadi va R guruhiga qo'shiladi. Mazkur jarayonlar differensial tenglamalar tizimi orqali aniqlanadi va ular epidemiyaning umumiy dinamik rivojlanishini mantiqan aks ettiradi.

Bu yerda β – yuqtirish koeffitsienti, γ – sog'ayish tezligini ifodalovchi parametrdir. Modelning matematik mazmuni shundan iboratki, kasallanish jarayoni S(t) va I(t) ning ko'paytmasiga proporsional ravishda ortadi, chunki yuqumli odam bilan muloqot qilgan sog'lom shaxs kasallanish ehtimoli bilan to'qnashadi. Aksincha, I(t) sonining kamayishi γ koeffitsient orqali aniqlanadi, ya'ni har bir kasallangan shaxs o'rtacha 1/γ vaqt davomida yuqumliligini yo'qotadi.

An'anaviy matematik tahlilda model tenglamalari sifat jihatdan o'rganiladi. Avvalo, boshlang'ich shartlar tanlanadi: epidemiyaning boshlanishida nechta odam sog'lom, nechta kasallangan va nechta sog'aygan ekanligi

aniqlanadi. Keyin esa modelning o‘zgaruvchilari vaqt bo‘yicha qanday rivojlanishi, ularning maksimal va minimal qiymatlari, infeksiya cho‘qqisi qachon yuzaga kelishi kabilar umumiy matematik mulohazaga tayangan holda baholanadi.

Bu usulning afzalligi shundaki, u epidemiyaning umumiy xususiyatlarini tushunish imkonini beradi. Masalan, kasallanganlar soni bir muddat o‘tib maksimal qiymatga erishishi, sog‘lomlar sonining barqaror pasayishi yoki sog‘ayganlar sonining bosqichma-bosqich ortib borishi sifat jihatdan taxmin qilinadi. Ammo sonli natijalar, grafiklar, parametrlarning nozik ta’siri yoki vaqt bo‘yicha miqdoriy baholarni an’anaviy metodlar yetarlicha aniq bera olmaydi. Shu bois aniq epidemiologik prognozlar berish uchun zamonaviy hisoblash texnologiyalari qo‘llanadi. MATLAB muhitida differensial tenglamalar tizimini sonli integrallash uchun tayyor funksiyalar mavjud, ulardan eng ko‘p qo‘llaniladigani ode45 hisoblanadi. Ushbu funksiya yordamida SIR modeli yuqori aniqlikda yechiladi va epidemiyaning vaqt bo‘yicha real ko‘rinishi olinadi. Parametrlarning kichik o‘zgarishlari natijaga qanchalik ta’sir qilishi MATLAB’da birdaniga grafik ko‘rinishda kuzatiladi. Masalan, β ning biroz oshirilishi yuqtirganlar sonining keskin ortishiga sabab bo‘ladi. Aksincha, γ ning ko‘payishi kasallikning tezroq pasayishiga olib keladi. Bu holatni an’anaviy yondashuvda aniq ko‘rsatish qiyin, ammo MATLAB grafiklari buni juda yaqqol aks ettiradi.

O‘quv jarayonida metodik qo‘llanish:

Har bir model o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi: 1. Real jarayonlarni matematik ifoda orqali tushuntirish. 2. Parametrlarni o‘zgartirib natijalarni tahlil qilish. 3. Grafik asosida hodisalarni tahlil qilish. 4. Mustaqil xulosa chiqarish va tahlil ko‘nikmasini rivojlantirish. Matematik modellashtirish fanini o‘qitishda an’anaviy yondashuv uzoq yillar davomida darsning asosiy shakli bo‘lib kelgan. Bu usulda o‘qituvchi markaziy rolni egallaydi — u nazariy ma’lumotlarni tushuntiradi, formulalar va matematik tenglamalarni doskada ifodalaydi, talabalar esa ularni yozib oladilar. Ushbu jarayon talabaning bilimni mustaqil izlab topishiga emas, balki tayyor axborotni eslab qolishga asoslanadi. An’anaviy o‘qitish usulining asosiy cheklovlari quyidagilardan iborat: matematik jarayonlar ko‘pincha abstrakt shaklda tushuntiriladi, dars jarayoni bir tomonlama bo‘lib, talabalar faol ishtirok etmaydi, tahliliy fikrlash va modellashtirish ko‘nikmalari rivojlanmaydi, talabalarning fanlarga qiziqishi past bo‘lishi mumkin va natijalarni tekshirish yoki eksperiment tarzida kuzatish imkoniyati yo‘q. Bunga qarshi, MATLAB asosidagi interfaol modellashtirish metodikasi darsni butunlay yangi bosqichga olib chiqadi. Unda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi rolni bajaradi, talaba esa faol ishtirokchi sifatida o‘rganish jarayonining markazida bo‘ladi. Har bir talaba o‘zi parametrlarni kiritadi, jarayonni kompyuterda kuzatadi, natijani grafik shaklda tahlil qiladi. Bu yondashuvning afzalliklari quyidagicha: vizuallik, interfaollik, tajriba asosida o‘rganish, tahliliy fikrlashni rivojlantirish va motivatsiyani oshirish. Talabalar nafaqat formulalarni yodlaydi, balki ularning natijasini anglash orqali chuqur o‘rganadi. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, MATLAB asosida o‘tilgan mashg‘ulotlarda talabalar mavzuni 25–30% tezroq o‘zlashtirgan, xatoliklarni aniqlash va yechimlarni tahlil qilish ko‘nikmalari 2 baravar yuqori bo‘lgan, talabalarning darsdagi ishtirok faolligi 1,8 marta oshgan, motivatsion so‘rovnomalarda MATLAB asosidagi yondashuvga nisbatan 85% ijobiy fikr bildirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

So‘nggi yillarda matematik modellashtirishni o‘qitish metodikasi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Axunov B. [1] tomonidan matematik modellashtirishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, unda modellashtirish tamoyillari, chiziqli va chiziqsiz modellar tuzish usullari keltirilgan. Nazarov Sh. [2] o‘z ishida o‘quv jarayoniga kompyuter modellashtirishni integratsiya qilish orqali talabalarda algoritmik tafakkurni rivojlantirish usullarini taklif etgan. Lotka va Volterra [3,4] tomonidan ishlab chiqilgan biologik modellar esa bugungi kunda MATLAB tizimi yordamida qayta tahlil qilinmoqda. Solow R. [5] iqtisodiy modellashtirishda matematik yondashuvning afzalliklarini asoslab bergan. Shuningdek, MATLAB dasturining hujjatli manbalari [6] va Xolmatov Sh. [9] asarlarida matematik modellarni kompyuter muhitida o‘qitishning metodik afzalliklari yoritilgan. Mazkur manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, matematik modellashtirish fanini o‘qitishda MATLAB tizimidan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarda tahliliy fikrlash va muammoli vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli maqolada an’anaviy o‘qitish usuli bilan MATLAB asosidagi yondashuv natijalari taqqoslab o‘rganildi.

– Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqotda deduktiv yondashuv, eksperimental kuzatish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. O‘quv jarayonida MATLAB tizimida yaratilgan demografik, biologik va iqtisodiy modellar asosida amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi. Tajriba ishtirokchilari ikki guruhga ajratilib, biri an’anaviy usulda, ikkinchisi MATLAB asosidagi modellashtirish orqali o‘qitildi. Natijalar tahlili statistik usullar yordamida amalga oshirildi.

– Tahlil va natijalar (Analysis and Results).

Tajriba jarayonida o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasi, amaliy topshiriqlarni bajarish qobiliyati va modellashtirish jarayonini tahlil qilish ko‘nikmalari baholandi. MATLAB asosida o‘qitilgan guruhda mavzuni tushunish darajasi 85 foizni, an’anaviy usulda esa 42 foizni tashkil etdi. Shuningdek, MATLAB muhitida modellashtirish talabalarda matematik jarayonlarni vizual idrok etish va natijalarni grafik tahlil qilish imkoniyatini kuchaytirdi.

– Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Tadqiqot natijalariga koʻra, matematik modellashtirish fanini oʻqitishda MATLAB tizimidan foydalanish anʼanaviy usulga nisbatan samaraliroq ekani aniqlandi. Bu yondashuv oʻquvchilarda tahliliy fikrlash, algoritmik tafakkur va muammoni modellashtirish kompetensiyalarini shakllantirishda ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Shuningdek, modellashtirishni vizuallashtirish orqali oʻquvchilarning fanga qiziqishi va ishtiroki oshdi. Taklif etilayotgan metodika texnik fanlarda zamonaviy oʻqitish vositasi sifatida qoʻllanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati;

1. Xaydarov A., Kabiljanova F.A., Matyakubov A.S. Matematik modellashtirish asoslari. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent. 2023. 172 bet
2. Xaydarov A., Kabiljanova F.A., Matyakubov A.S. Matematik modellashtirishdan masalalar toʻplami. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent. “Maʼrifat”, 2025. 91 bet
3. Хайдаров А., Жумаев Ж., Шафиев Т.Р. Основы математического моделирования. Учебник. Бухара. 2022. 216 с.
4. Xolbozorov Q., Matyakubov A. “GeoGebra” dasturi yordamida funksiya grafiklarini amaliyotga qoʻllash. Oʻzbekiston milliy universiteti xabarlari. – T., 2024. – № 1/5/2. – B. 118–120.
5. Xolbozorov Q., Matyakubov A. Differensial tenglamalar kursini oʻqitishda “GeoGebra” dasturidan foydalanish. Fan, taʼlim va ishlab chiqarish integratsiyasida raqamli iqtisodiyot istiqbollari. OʻzMU Jizzax filiali. 2021-yil 5-6-may. – B. 109–112.
6. Axunov B., Matematik modellashtirish asoslari, Toshkent: OʻzMU, 2020. -245 b
7. Nazarov Sh., Kompyuter modellari va taʼlim, Oʻzbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019. - 210 b.
8. Lotka A.J., Elements of Physical Biology, Williams and Wilkins, 1925.
9. Volterra V., Variations and Fluctuations of the Number of Individuals in Animal Species, 1931.
10. MATLAB Documentation, MathWorks, 2024.
11. Xolmatov Sh., Matematik modellashtirish va dasturlash asoslari, Toshkent, 2022.
12. **Xolmatov Sh.** *Matematik modellashtirish va dasturlash asoslari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 180 b.
13. www.scholar.google.com – xalqaro ilmiy maqolalar bazasi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Boltibayev Shuhratjon Komiljanovich
Namangan davlat universiteti dotsenti
Email: sh.boltibayev@gmail.com
Ubaydullayeva Diloromxon Maxmudjon qizi
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
Email: ubaydullayevadilorom378@gmail.com
Abduraxmanov Azizbek Shokirjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
Email: a2126ek2301@gmail.com
Nastinov Sadriddin Tojiddin o‘g‘li
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
Email: sadriddin_1995_08_29@mail.ru

“DORI VOSITALARINING JIGARDA METABOLIZM VA TOKSIK TA’SIRINI PK KLASSIK MODELI VA ALT BIOMARKER MODELLAR ORQALI MATEMATIK TAHLIL QILISH”

Annotatsiya: *Mazkur maqolada dori vositalarining jigarda metabolizm va toksik ta’siri matematik modellashtirish asosida tahlil qilindi. Klassik farmakokinetik (PK) model yordamida dori konsentratsiyasining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi ifodalandi, ALT biomarker modeli orqali esa jigar hujayralarining shikastlanish darajasi baholandi. Integratsiyalashgan PK–ALT modeli dori parchalanishi, eliminatsiya tezligi va gepatotoksiklik dinamikasini prognoz qilish imkonini beradi. Natijalar xavfsiz dozani aniqlashda matematik modellashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Farmakokinetik model (PK), ALT biomarker modeli, gepatotoksiklik, dori metabolizmi, jigar yuklanishi, differensial tenglamalar, matematik modellashtirish, eliminatsiya tezligi, klinik farmakologiya.*

Болтибаев Шухратжон Комилджанович
Доцент, Наманганский государственный университет
Убайдуллаева Дилоромхон Махмуджон кизи
Преподаватель, Наманганский государственный университет
Абдурахманов Азизбек Шокирджон угли
Преподаватель, Наманганский государственный университет
Настинов Садриддин Тоджиддин угли
Преподаватель, Наманганский государственный университет

«МАТЕМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЕТАБОЛИЗМА И ТОКСИЧЕСКОГО ДЕЙСТВИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ В ПЕЧЕНИ С ПОМОЩЬЮ КЛАССИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ПК И АЛЬТ-БИОМАРКЕРА» МОДЕЛИ

Примечание: *В данной статье метаболизм и токсическое действие лекарственных препаратов в печени были проанализированы на основе математического моделирования. Для описания динамики концентрации препарата во времени использовалась классическая фармакокинетическая (ФК) модель, а для оценки степени повреждения клеток печени — модель биомаркера АЛТ. Интегрированная ФК–АЛТ модель позволяет прогнозировать динамику деградации препарата, скорость элиминации и гепатотоксичность. Результаты показывают, что математическое моделирование важно для определения безопасной дозы.*

Ключевые слова: *Фармакокинетическая модель (ФК), модель биомаркера АЛТ, гепатотоксичность, метаболизм лекарственных препаратов, печеночная нагрузка, дифференциальные уравнения, математическое моделирование, скорость элиминации, клиническая фармакология.*

Boltibayev Shuhratjon Komiljanovich
Associate Professor, Namangan State University
Ubaydullayeva Diloromxon Makhmudjon qizi
Teacher, Namangan State University
Abdurakhmanov Azizbek Shokirjon ogli
Teacher, Namangan State University
Nastinov Sadriddin Tojiddin ogli
Teacher, Namangan State University

"MATHEMATICAL ANALYSIS OF METABOLISM AND TOXIC EFFECTS OF DRUGS IN THE LIVER THROUGH THE PK CLASSIC MODEL AND ALT BIOMARKER MODELS"

Annotation: *In this article, the metabolism and toxic effects of drugs in the liver were analyzed based on mathematical modeling. The classical pharmacokinetic (PK) model was used to describe the time course of drug concentration, while the ALT biomarker model was used to estimate the degree of liver cell damage. The integrated PK–ALT model allows predicting the dynamics of drug degradation, elimination rate, and hepatotoxicity. The results show that mathematical modeling is important in determining a safe dose.*

Keywords: *Pharmacokinetic model (PK), ALT biomarker model, hepatotoxicity, drug metabolism, liver load, differential equations, mathematical modeling, elimination rate, clinical pharmacology.*

Dori vositalarining jigarga ta'siri va metabolizm jarayonlarini oldindan prognoz qilish klinik farmakologiya va xavfsiz dozani belgilashda muhim ahamiyatga ega. Jigarda metabolizm sitoxrom P450 ferment tizimi orqali sodir bo'lib, dori moddalari organizmdan chiqarilishidan oldin biotransformatsiyaga uchraydi. Shu sababli, jigarning funksional holati va dori vositalarining konsentratsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish xavfsiz klinik qo'llash va dori toksikligini baholash uchun zarurdir. Dori vositalarining organizmdagi harakatini matematik ifodalash konsepsiyasi dastlab **Torsten Teorell (1937)** tomonidan taklif qilingan bo'lib, u dori moddasining qonga kirishi, taqsimlanishi va chiqarilishini differensial tenglamalar yordamida tavsiflagan [1]. Keyinchalik bu yondashuv **Gibaldi va Perrier (1975)** tomonidan tizimlashtirilib, klinik farmakokinetikaning nazariy bazasiga aylantirildi [2]. **Rowland va Tozer** esa ushbu modellarni klinik amaliyotga tatbiq etib, dorilarning jigarda metabolizmga uchrashi va eliminatsiya tezligi orqali jigar yuklanishini baholash mumkinligini ko'rsatdilar [3]. Shu bilan birga, FDA[1] va EMA[2] tomonidan eritromitsin, klaritromitsin va rifampitsin kabi antibiotiklarning xavfsizligini baholashda ham aynan shu klassik PK model asos qilib olingan.

Klassik PK model dori konsentratsiyasining vaqt bo'yicha o'zgarishini (absorption, distribution, metabolism, elimination) tavsiflaydi, ammo "jigar shikastlanishi (hepatotoksiklik)"ni bevosita ko'rsatmaydi. Shu sababli, PK modeli dorining jigar orqali metabolizm qilinishi jarayonida jigarga tushadigan **funktsional va metabolik bosim darajasi**ni baholash imkonini beradi, lekin shikastlanish mexanizmini tushuntirmaydi. Shu nuqtai nazardan, jigar hujayralarining toksik ta'sirini aniqlash uchun **ALT (alanin aminotransferaza) biomarker modeli** qo'llaniladi. ALT darajasi jigar hujayralarining shikastlanishini va toksik ta'sir darajasini vaqt bo'yicha baholash imkonini beradi.

Ushbu maqolada klassik PK modeli va ALT biomarker modelini birlashtirib, dori vositalarining jigarda metabolizmi va toksik ta'sirini integratsiyalashgan yondashuv orqali tahlil qilish ko'zda tutilgan. Bu yondashuv farmakokinetika, farmakodinamika va klinik farmakologiya tadqiqotlari uchun metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Klassik PK modeli va ALT biomarkerini ishlatib oddiy matematik modellashtirish qilamiz.

Modelning maqsadi

1. Dori vositasining jigarda parchalanish tezligini va jigar hujayralariga tushadigan toksik yukini hisoblash.
2. PK klassik model dori konsentratsiyasini vaqt bo'yicha tavsiflaydi.
3. ALT modeli jigar hujayralarining toksik shikastlanishini biomarker orqali prognoz qiladi.

Oddiy PK klassik model: Bir bo'linmali (one-compartment) model.

Bu modelda dorining organizmdagi barcha qismi bir bo'linmada deb hisoblanadi:

$$\frac{dC(t)}{dt} = -k_{el} * C(t) \qquad (1)$$

bunda C(t) — joriy t vaqtda qondagi dori konsentratsiyasi (mg/L), k_{el} — eliminatsiya tezligi (1/soat)

Dori organizmga IV (bevosita qon tomirga) yuborilganda, boshlang'ich konsentratsiya C_0:

$$C_0 = \frac{D}{V_d} \qquad (2)$$

bu yerda D — doza (mg), V_d — tarqalish hajmi (L).

[1] FDA- — Amerika Qo'shma Shtatlarining dori vositalari, oziq-ovqat mahsulotlari, tibbiy buyumlar va vaksinalarni nazorat qiluvchi federal agentligi.

[2] EMA — Yevropa Ittifoqida dori vositalarini baholash va nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi tashkilot.

Yuqorida keltirilgan (1) differensial tenglama va (2) dorining boshlang‘ich konsentratsiyasidan kelib chiqib quyidagi analitik yechim olinadi:

C(t)=$C_0 * e^{-k_{el}*t}$ (3)

Agar dori tez tarqaladigan va sekin chiqariladigan qismlarga bo‘linsa, ikki bo‘linmali model ishlatiladi:

C(t)=A*$e^{-\alpha t} + B * e^{-\beta t}$ (4)

bu yerda A, B — boshlang‘ich parametrlar; α, β — tarqalish va eliminatsiya tezliklarini ifodalaovchi koeffisiyentlar.

Bu model jigar metabolizmini aniqlashda yanada aniqroq natija beradi.

Yuqorida dori konsentratsiyasini o‘zgarishini ko‘rib o‘tildi. Quyida ALT biomarker modelini tahlil etamiz.

ALT (alanin aminotransferaza) jigar hujayralari shikastlanganda qon oqimiga chiqadi.

Oddiy yondashuv: ALT darajasi hujayra shikastlanishiga bog‘liq:

$$\frac{dALT(t)}{dt} = k_{tox} * C(t) - k_{clear} * ALT(t)$$

Bu allaqachon **birinchi tartibli chiziqli differensial tenglama** hisoblanadi. Uni standart differensial tenglama ko‘rinishiga keltiramiz.

bunda C(t)— qondagi dori konsentratsiyasi (PK modeldan olinadi);

k_{tox}— toksik ta’sir koeffitsienti;

k_{clear}— ALT qonni tark etish tezligi.

Ushbu differensial tenglama dori miqdori oshgan sari ALT darajasi oshishini va vaqt o‘tishi bilan biroz kamayishini tavsiflaydi.

Oddiy kompyuter simulyatsiyasida k_{tox} va $\boldsymbol{k_{clear}}$ parametrlarini tajriba qiymatlaridan olish mumkin.

Endi yuqorida keltirilgan modellarni integratsiya (PK + ALT) qilamiz.

1.PK model yordamida C(t) ni hisoblaymiz

2.ALT modelga C(t) ni PK model asosida (3) dan foydalanib aniqlanadi va ALT(t) vaqt bo‘yicha yechamiz

3.Turli dozalar va vaqt oralig‘ida jigar shikastlanish indekslarini olamiz

Standart chiziqli ko‘rinish

Birinchi tartibli chiziqli DT umumiy ko‘rinishi:

$$\frac{dy}{dt} + P(t)y = Q(t)$$

Bizning holatda: $\frac{dALT(t)}{dt} + k_{clear}ALT(t) = k_{tox}C(t)$

Bu yerda: y=ALT(t); P(t)= k_{clear}; Q(t)= $k_{tox}C(t)$

Agar C(t) ma'lum bo‘lsa

Masalan, agar: C(t)=C_0e^{-kt} (klassik PK modeldan)

unda tenglama: $\frac{dALT(t)}{dt} + k_{clear}ALT(t) = k_{tox}C_0e^{-kt}$ ko‘rinishga keladi.

Umumiy matematik ifoda

Integrallovchi ko‘paytuvchi: $\mu(t) = e^{\int k_{clear}dt} = e^{k_{clear}t}$

Shunda umumiy yechim: ALT(t)= $e^{-k_{clear}t}(\int k_{tox}C(t)e^{k_{clear}}dt + C_1$

Masalan:


Doza: 100 mg

$V_d = 1{,}5L$, $k_{el} = 0.1/h$ V_d = tarqalish hajmi

$k_{tox} = 0.05/h$, va k_{clear} =0.02/h

Shundan so‘ng C(t) va ALT(t) grafigini chizish mumkin. Bu graflar dori konsentratsiyasi va ALT darajasi vaqtga nisbatan qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotda dori vositalarining jigarda metabolizm va toksik ta’sir jarayonlari klassik farmakokinetik (PK) modeli hamda ALT biomarker modeli asosida matematik jihatdan tahlil qilindi. Bir bo‘linmali PK modeli yordamida dori konsentratsiyasining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi aniqlanib, jigar yuklanishi baholandi. ALT modeli esa jigar hujayralarining toksik shikastlanish dinamikasini ifodalash imkonini berdi.



Integratsiyalashgan PK+ALT modeli dori dozasining oshishi bilan gepatotoksiklik xavfi ortishini ko‘rsatdi hamda eliminatsiya tezligi va toksik koeffitsient parametrlarining muhim rol o‘ynashini tasdiqladi. Olingan natijalar matematik modellashtirish usullari dori vositalarining xavfsiz dozalarini aniqlash va jigar shikastlanish xavfini oldindan baholashda samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kelgusida modelni klinik ma’lumotlar asosida validatsiya qilish, ko‘p bo‘linmali tizimlar va individual farmakokinetik xususiyatlarni hisobga olish orqali yanada takomillashtirish mumkin.

Kompyuter modellashtirish natijalari:

Berilgan parametrlar asosida (D=100 mg, V_d=30,$k_{el} = 0.1, k_{\text{tox}} = 0.05, k_{clear} = 0.02$) LPK va ALT modellarining sonli yechimi Python dasturi yordamida hisoblandi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, dori konsentratsiyasi vaqt o‘tishi bilan eksponensial kamayadi. Biroq ALT darajasi dastlab oshib, ma’lum vaqtdan so‘ng maksimal qiymatga erishadi va keyinchalik sekin pasaya boshlaydi.

Bu holat gepatotoksiklik kechikib namoyon bo‘lishini matematik jihatdan tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Teorell T. Kinetics of distribution of substances administered to the body. I. The extravascular modes of administration. — *Archives Internationales de Pharmacodynamie et de Thérapie*, 1937. — Vol. 57. — P. 205–225.

2.Gibaldi M., Perrier D. *Pharmacokinetics*. — 2nd ed. — New York: Marcel Dekker, 1982. — 494 p.

3.Rowland M., Tozer T.N. *Clinical Pharmacokinetics and Pharmacodynamics: Concepts and Applications*. — 4th ed. — Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2011. — 687 p.

4.Segel I.H. *Enzyme Kinetics: Behavior and Analysis of Rapid Equilibrium and Steady-State Enzyme Systems*. — New York: Wiley, 1993. — 957 p.

5.Murray J.D. *Mathematical Biology I: An Introduction*. — 3rd ed. — New York: Springer, 2002. — 551 p.

6.Zimmerman H.J. *Hepatotoxicity: The Adverse Effects of Drugs and Other Chemicals on the Liver*. — 2nd ed. — Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 1999. — 789 p.

7.Kaplowitz N. Drug-induced liver injury. — *Clinical Infectious Diseases*, 2004. — Vol. 38 (Suppl. 2). — P. S44–S48.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Maxmanov Urol Kudratovich
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti "Nanomateriallar fotonikasi va spektroskopiyasi" laboratoriyasi mudiri,
fizika-matematika fanlari doktori, professor,
E-mail: urol_m@mail.ru
https://orcid.org/0000-0002-7185-2812
Tursunqulov Elyor Abil o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti kichik ilmiy xodimi
E-mail: elyortursunqulov1@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-7260-7897
Sattarova Nilufar Abdulaziz qizi
Mirzo Ulugbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Magistr,
Email: sattarovanilufar5@gmail.com

UDK: 546.26.043:535

C_{60} NING BENZOL/IPS TIZIMIDA VAQT BO'YICHA FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARINING O'ZGARISHI VA NANOAGREGATSIYA JARAYONINING KOMPLEKS TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu ishda C_{60} fulleren molekulalarining benzol va izopropil spirt (IPS) asosidagi binar erituvchilar tizimida sodir bo'ladigan strukturaviy hamda fizik-kimyoviy o'zgarishlari kompleks eksperimental metodlar yordamida tadqiq qilindi. Eritmalar fulleren konsentratsiyasi ~0.2 mg/ml hamda erituvchilarning turli hajmiy nisbatlarida (98:2, 96:4 94:6 va 92:8) tayyorlanib, ularning vaqt bo'yicha evolyutsiyasi o'rganildi. Raman spektrlarda fullerenga xos vibratsion tebranishlar saqlanib qolgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi va IPS konsentratsiyasi ortishi bilan piklarning kengayishi hamda intensivlikning o'zgarish kuzatildi, bu molekulalararo o'zaro ta'sir kuchayganini ko'rsatadi. Zichlik va nur sindirish ko'rsatkichi hamda Brix qiymatlarining vaqt bo'yicha o'zgarishi dispers tizimda strukturaviy relaksatsiya va klasterlanish jarayonlari kechayotganini ko'rsatdi. IPS miqdori ortishi bilan yirikroq agregatlar shakllanishi hamda optik va fizik parametrlarning mos ravishda o'zgarishi qayd etildi. Olingan natijalar C_{60} molekulalarining binar erituvchilarda o'z-o'zidan tashkil topish mexanizmlarini va ularning vaqtga bog'liq agregatsiya kinetikasini tushuntirishda muhim eksperimental asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar*. C_{60} fulleren, izopropil spirt, Raman spektroskopiyasi, zichlik, nur sindirish ko'rsatkichi, Brix.*

Махманов Урол Кудратович
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий Академии наук Республики Узбекистан Заведующий лабораторией «Фотоники и спектроскопии наноматериалов»,
доктор физико-математических наук, профессор
Турсунқулов Элёр Абил ўғли
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий Академии наук Республики Узбекистан
Стажёр-исследователь
Саттарова Нилуфар Абдулазиз кизи
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Магистр

КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ ВРЕМЕННЫХ ИЗМЕНЕНИЙ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ И ПРОЦЕССОВ НАНОАГРЕГАЦИИ C_{60} В СИСТЕМЕ БЕНЗОЛ/ИПС

Аннотация. *В данной работе с помощью комплекса экспериментальных методов исследованы структурные и физико-химические изменения молекул фуллерена C_{60} в бинарных системах растворителей на основе бензола и изопропилового спирта (ИПС). Растворы с концентрацией фуллерена 0.2 мг/мл были приготовлены в различных объемных соотношениях растворителях (98:2, 96:4, 94:6 и 92:8), и изучена их эволюция во времени. В спектрах комбинационного рассеяния сохранились характерные для фуллерена вибрационные колебания, однако с течением времени и увеличением концентрации ИПС наблюдалось уширение пиков и изменение их интенсивности, что свидетельствует об усилении*

межмолекулярного взаимодействия. Изменение плотности, показателя преломления и значений Брикса (Brix) во времени показало протекание процессов структурной релаксации и кластеризации в дисперсной системе. Зафиксировано формирование более крупных агрегатов при увеличении содержания ИПС, что сопровождалось соответствующим изменением оптических и физических параметров. Полученные результаты служат важной экспериментальной основой для объяснения механизмов самоорганизации молекул C_{60} в бинарных растворителях и их кинетики агрегации, зависящей от времени.

Ключевые слова: *фуллерен C_{60}, изопропиловый спирт, Раман-спектроскопия, плотность, показатель преломления, Брикс.*

Makhmanov Urol Kudratovich
Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Head of the "Nanomaterials Photonics & Spectroscopy"
Laboratory Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Tursunkulov Elyor Abil ugli
Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies Academy of Sciences of
the Republic of Uzbekistan Junior Researcher
Sattarova Nilufar Abdulaziz qizi
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek. Master's student

COMPREHENSIVE ANALYSIS OF TIME-DEPENDENT PHYSICOCHEMICAL PROPERTIES AND NANO-AGGREGATION PROCESSES OF C_{60} IN BENZENE/IPS SYSTEMS

Abstract. *In this work, the structural and physicochemical changes of C_{60} fullerene molecules in binary solvent systems based on benzene and isopropyl alcohol (IPA) were investigated using complex experimental methods. Solutions with a fullerene concentration of 0.02 mg/ml were prepared in different volume ratios of solvents (98:2, 96:4, 94:6 and 92:8), and their evolution over time was studied. Although the characteristic vibrational modes of fullerene were preserved in the Raman spectra, peak broadening and changes in intensity were observed with time and increasing IPA concentration, indicating enhanced intermolecular interactions. Time-dependent changes in density, refractive index, and Brix values revealed the occurrence of structural relaxation and clustering processes within the dispersed system. It was noted that larger aggregates formed as the IPA content increased, with corresponding changes in optical and physical parameters. The results obtained serve as a significant experimental basis for explaining the self-assembly mechanisms of C_{60} molecules in binary solvents and their time-dependent aggregation kinetics.*

Keywords: *C_{60} fullerene, isopropyl alcohol, Raman spectroscopy, density, refractive index, Brix.*

Kirish: Fulleren C_{60} molekulalari o'zining kvazisferik tuzilishi, yuqori simmetriyasi (I_h) hamda delokalizatsiyalangan kuchli π-elektron tizimi sababli molekulalararo o'zaro ta'sirlarga nihoyatda sezgir nanoobyekt hisoblanadi. C_{60} molekulasining elektron buluti tashqi muhitning dielektrik xossalari va qutblilik darajasiga sezilarli darajada bog'liq bo'lib, bu xususiyat uni turli erituvchilarda o'zini tutish mexanizmini o'rganishda fundamental model tizimga aylantiradi [1]. Organik erituvchilarda C_{60} molekulalari nisbatan dispers holatda mavjud bo'lishi mumkin, biroq erituvchi tarkibi, qutblilik darajasi hamda vaqt omili o'zgarishi bilan agregatsiya va klasterlanish jarayonlari yuzaga keladi. Ayniqsa, qutbsiz va qisman qutbli komponentlardan tashkil topgan binar erituvchi tizimlar fullerenga xos o'z-o'zidan tashkil topish jarayonlarini murakkablashtiradi [2-3]. Benzol kabi qutbsiz muhitda C_{60} molekulalari nisbatan barqaror solvatatsiya qobig'iga ega bo'lsa, izopropil spirt (IPS) qo'shilishi bilan muhitning effektiv dielektrik parametrlari o'zgaradi. Natijada π–π o'zaro ta'sirlar, dispers (van-der-Vaals) kuchlar hamda solvent–molekula bog'lanishlari qayta taqsimlanadi [4-6]. Bu jarayon molekulalararo masofaning kamayishi va nanoagregatlarning shakllanishiga olib keladi. Ko'plab tadqiqotlarda C_{60} agregatsiyasi erituvchi tarkibiga bog'liq holda o'rganilgan bo'lsa-da, vaqt omilining (aging effect) strukturaviy evolyutsiyaga ta'siri, ayniqsa makroskopik fizik parametrlar orqali kompleks tarzda baholanishi yetarlicha yoritilmagan. Vaqt o'tishi bilan klasterlarning qayta tashkil topishi, zichlashuvi yoki yiriklashuvi sodir bo'lishi mumkin, bu esa tizimning energetik va strukturaviy muvozanatini o'zgartiradi [7-8]. Shu sababli agregatsiya jarayonini faqat spektral metodlar bilan emas, balki integral fizik parametrlar orqali ham tahlil qilish muhimdir. Sindirish ko'rsatkichi muhitning dielektrik xossalari, molekulalararo masofa va strukturaviy zichlik bilan bevosita bog'liq parametr hisoblanadi. Nanoagregatlar hosil bo'lishi bilan eritmaning optik zichligi va qutblanish qobiliyati o'zgaradi, bu esa sindirish ko'rsatkichida aks etadi. Xuddi shuningdek, zichlik (ϱ) eritmadagi fazoviy joylashuv, solvatatsiya darajasi hamda klasterlanish jarayonining makroskopik ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Brix ko'rsatkichi esa eritmaning umumiy optik konsentratsiyasi va erigan modda miqdorining integral ifodasi sifatida strukturaviy o'zgarishlarga sezgir parametr hisoblanadi [9].

Mikrostrukturaviy darajada esa Raman spektroskopiya C_{60} molekulasining vibratsion “imzo” modalarini aniqlash orqali agregatsiya bosqichlarini baholash imkonini beradi. Xususan, $A_g(2)$ simmetriyali asosiy mod (≈1460–1470 cm^{-1}) hamda Hg turkumiga mansub modalar (≈500–1200 cm^{-1}) molekulyar muhit o‘zgarishlariga sezgir bo‘lib, chiziq kengligi, intensivlik redistribusiyasi va fon signalining o‘zgarishi orqali klasterlanish darajasi aniqlanadi. Bu usul C_{60} ning monomer → klaster → polidispers agregat holatlariga o‘tishini diagnostika qilishda yuqori sezgirlikka ega [10-11]. Mazkur ishda C_{60}/benzol hamda C_{60}/benzol/IPS (2%, 4%, 6%, 8%) eritmalarining 1, 4, 8 va 12 kun davomida strukturaviy evolyutsiyasi kompleks ravishda o‘rganildi. Tadqiqotda Raman spektroskopiya, yorug‘likning dinamik sochilishi, sindirish ko‘rsatkichi, zichlik va Brix parametrlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi tizimli tahlil qilindi. Ishning asosiy maqsadi binar erituvchi muhitda C_{60} molekulalarining o‘z-o‘zidan tashkil topish mexanizmini va vaqtga bog‘liq agregatsiya kinetikasini mikro va makroskopik parametrlar o‘rtasidagi korrelyatsiya asosida aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tajribalarda yuqori tozalikka ega C_{60} fulleren kukuni (tozaligi >99.8%, Sigma-Aldrich) ishlatildi. Qutbsiz erituvchi sifatida tozaligi >99% bo‘lgan benzol, qisman qutbli komponent sifatida esa 99.7% tozalikdagi izopropil spirt (IPS) qo‘llanildi. C_{60} molekulasi kvazisferik shaklga ega bo‘lib, ikosaedrik I_h-simmetriya bilan tavsiflanadi. Molekulaning diametri $d_0 \approx 0.714$ nm, sindirish ko‘rsatkichi $n \approx 1.96$ va dielektrik doimiysi $\varepsilon \approx 3.61$ bo‘lib, ushbu parametrlar uning optik va elektrostatik xususiyatlarini belgilaydi. Eritmalarni tayyorlash jarayonida avvalo asosiy C_{60}/benzol eritmasi hosil qilindi. Buning uchun 8 mg C_{60} kukuni analitik tarozida aniq o‘lchanib, 16 ml benzolda eritildi. Eritish jarayoni xona haroratida (24± 0.1 °C) avtomatlashtirilgan magnit aralashtirgichda 2.0–2.2 Hz chastotada 45 daqiqa davomida olib borildi. Natijada 0,5 mg/ml konsentratsiyali bir jinsli molekulyar eritma olindi. Ushbu asosiy eritmadan foydalanib ishchi binar eritmalar tayyorlandi va barcha namunalar uchun C_{60} ning yakuniy konsentratsiyasi 0.2 mg/ml qilib saqlandi. Tajriba davomida C_{60} fullerenining (0.2 mg/ml) o‘zgarmas konsentratsiyali eritmalari benzol–IPS aralashmasida turli hajmiy nisbatlarda tayyorlanib, jami beshta eritma namunalari hosil qilindi. Namunalar 1-jadvalda ko‘rastilganidek belgilab olindi. Tayyorlangan eritmalar 25 kHz chastotali ultratovushli vannada 10 °C haroratda 20 daqiqa davomida dispergatsiya qilindi, so‘ngra 8 °C haroratda 30–40 daqiqa davomida termostatda stabilizatsiya qilindi. Namunalar strukturaviy evolyutsiyani o‘rganish maqsadida germetik yopilgan sharoitda, yorug‘likdan himoyalangan holda 1, 4, 8 va 12 kun davomida saqlandi.


1-jadval. Tayyorlangan C_{60}/benzol/IPS eritmalarining tarkibi va tavsifi.

Namuna %	C_{60} fulleren konsentratsiyasi mg/ml	Erituvchilarning hajmiy nisbati benzol/IPS V_1/V_2
C_{60}/benzol	0.2	100:0
2		98:2
4		96:4
6		94:6
8		92:8


Optik yutilish spektrlari UV–Vis 5100 spektrofotometri yordamida o‘lchandi. Spektrlar 320–800 nm diapazonda 0,5 nm qadam bilan qayd etildi. Har bir namuna tayyorlangan zahoti va 1, 4, 8 hamda 12 kun o‘tgach qayta o‘lchandi. Raman spektrlari InVia Raman spektrometri (Renishaw, Buyuk Britaniya) yordamida o‘lchandi. Energiya manbai sifatida 532 nm to‘lqin uzunligiga ega Cobolt CW 532 nm DPSS lazeri ishlatildi. Sindirish ko‘rsatkichi (n) yuqori aniqlikka ega Atago PAL-BX/RI raqamli refraktometr yordamida aniqlandi (o‘lchash aniqligi ±0,0001). Qurilma Snellius qonuni asosida ishlaydi. Brix ko‘rsatkichi esa refraktometrik modul yordamida aniqlanib, eritmadagi umumiy erigan modda miqdori va optik konsentratsiyaning integral ifodasi sifatida ko‘rib chiqildi. Zichlik o‘lchovlari METTLER TOLEDO DENSITO 30PX (Yaponya) densitometer qurilmasida amalga oshirildi. Eritmalarning harorati (24± 0.1 °C) termostatik nazorat ostida saqlandi. Shunday qilib, tadqiqotda mikrostrukturaviy (Raman) va makroskopik fizik parametrlar (optik yutilish, sindirish ko‘rsatkichi, zichlik, Brix) kompleks tarzda o‘rganildi. Ushbu integrallashgan metodik yondashuv C_{60} molekulalarining binar erituvchi tizimlarda o‘z-o‘zidan tashkil topish mexanizmi, agregatsiya kinetikasi hamda vaqt bo‘yicha strukturaviy evolyutsiyasini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar va ularning tahlili. Sindirish ko‘rsatkichi (n) ning vaqt bo‘yicha evolyutsiyasida C_{60}/benzol hamda C_{60}/benzol/IPS eritmalarida sindirish ko‘rsat-kichining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi tizimning dielektrik xossalari va molekulalararo o‘zaro ta’sirlar evolyutsiyasini aks ettiradi. C_{60}/benzol tizimida n qiymatining 1.4947 dan 1.491 gacha pasayishi vaqt o‘tishi bilan molekulalarning individual dispers holatdan klasterlashgan holatga o‘tishini ko‘rsatadi (1-rasm). IPS konsentratsiyasi va vaqt ortishi bilan dielektrik muhitning bosqichli strukturaviy evolyutsiyasi kuzatiladi.Agregatsiya natijasida molekulalararo masofa qayta taqsimlanadi, bu esa muhitning effektiv qutblanish qobiliyatini kamaytiradi va optik zichlikning nisbiy pasayishiga olib keladi bunday holat boshqa ilmiy adabiyotlarda ham kuzatilgan [12-13]. 2–4% IPS qo‘shilgan eritmalarda n qiymatining 8-kunga qadar ortishi tizimda strukturaviy

kompaktlashuv bosqichi mavjudligini ko‘rsatadi. Bu davrda solvatatsiya qobig‘i qayta tashkil topadi va klasterlar energetik jihatdan qulay konfiguratsiyaga o‘tadi [14]. 12-kunga kelib n ning barqarorlashuvi tizimning kvazi-muvozanat holatiga yaqinlashganini bildiradi. 6% va 8% IPS tizimlarida esa 12-kunda sindirish ko‘rsatkichining keskin pasayishi qayd etiladi. Bu hodisa yirik nanoagregatlarning hosil bo‘lishi, polidisperslikning ortishi va tizimning fazoviy geterogenlashuvi bilan izohlanadi. Yuqori IPS konsentratsiyasida dielektrik muhitning o‘zgarishi molekulalararo π–π o‘zaro ta’sirlarni kuchaytirib, agregatsiyani tezlashtiradi. Natijalar sindirish ko‘rsatkichi oddiy monoton o‘zgarish emasligini, balki C_{60} tizimida bosqichma-bosqich strukturaviy evolyutsiya mavjudligini ko‘rsatadi bunday jarayont ilmiy manbalarda ham kuzatilgan [15-16]. Bu holat eritmalarda fizik va mexanik xususiyatlar vaqt o‘tishi bilan o‘z - o‘zidan o‘zgarishi mumkinligini tasdiqlaydi.




1-rasm. C_{60}/benzol va C_{60}/benzol/IPS (2–8%) eritmalarida sindirish ko‘rsatkichining (n) 1–12 kun davomida o‘zgarishi. Brix ko‘rsatkichining vaqt bo‘yicha o‘zgarishida brix ko‘rsatkichi eritmaning integral optik konsentratsiyasini ifodalaydi va strukturaviy qayta taqsimlanishlarga sezgir parametr hisoblanadi. C_{60}/benzol eritmasida Brix qiymatining 82.6 dan 81 gacha pasayishi vaqt o‘tishi bilan agregatsiya jarayoni natijasida tizimning optik bir jinsliligi buzilishini ko‘rsatadi (2-rasm).



2-rasm. C_{60}/benzol va C_{60}/benzol/IPS (2–8%) eritmalarida Brix ko‘rsatkichining 1–12 kun davomida o‘zgarishi.

Integral optik parametr sifatida Brix nanoagregatlarning bosqichli shakllanishini aks ettiradi. Individual molekulalarning klasterlarga birlashishi natijasida effektiv dispers fraksiya kamayadi [17-18]. 2% va 4% IPS eritmalarda Brix qiymatining 4–8-kunlarda ortishi klasterlarning kompaktlashuvi va strukturaviy qayta tashkil topishi bilan izohlanadi. Bu bosqichda tizim nisbatan barqaror nanoagregat konfiguratsiyasiga o‘tadi. 6% IPS tizimida kuzatilgan keskin ortish va keyingi pasayish agregatsiyaning bosqichli kinetikasini ko‘rsatadi: dastlab intensiv klasterlashuv, keyin esa yirik agregatlarning shakllanishi. 8% IPS eritmasida Brix qiymatining 81.37 dan 78 gacha kamayishi tizimning kolloid barqarorligi pasayganini, yirik agregatlar hosil bo‘lishi va qisman sedimentatsiya jarayoni yuz berishi mumkinligini bildiradi. Shunday qilib, Brix parametri nur sindirish ko‘rsatkichi bilan mos ravishda tizimning strukturaviy evolyutsiyasini aks ettiradi. Zichlik parametrining vaqt bo‘yicha o‘zgarishida zichlik (ϱ) tizimning makroskopik strukturaviy tashkil topish darajasini ifodalaydi [19]. Molekulalararo masofa kamaygan sari tizimning fazoviy qadoqlanish darajasi ortadi. C_{60}/benzol tizimida dastlabki kunlarda zichlikning pasayishi individual molekulalarning klasterlashuv bosqichiga o‘tishini ko‘rsatadi (3-rasm**)**. Klasterlar ichida bo‘sh fazoviy hududlar mavjud bo‘lgani sababli effektiv massaviy taqsimot kamayadi.




3-rasm. C_{60}/benzol va C_{60}/benzol/IPS (2–8%) eritmalarida zichlikning (ϱ) 1–12 kun davomida o‘zgarishi.

Zichlik parametri nanoagregatlarning fazoviy qadoqlanish darajasi va strukturaviy evolyutsiyasini aks ettiradi. 2–4% IPS tizimlarida 4–8-kunlarda zichlikning ortishi nanoagregatlarning kompaktlashuvi va fazoviy zichlashuvi bilan bog‘liq. Bu davrda molekulalararo tortishish kuchlari maksimal darajaga yetadi va tizim energetik jihatdan qulay konfiguratsiyani egallaydi. 6–8% IPS eritmalarida 12-kunga kelib zichlikning pasayishi fazoviy destabilizatsiyani ko‘rsatadi. Yirik agregatlarning hosil bo‘lishi va tizimning polidispers holatga o‘tishi natijasida makroskopik geterogenlik ortadi.

Zichlik natijalari sindirish ko‘rsatkichi va Brix o‘zgarishlari bilan mos ravishda C_{60} nanoagregatlarining bosqichli evolyutsiyasini tasdiqlaydi.

Raman spektroskopik natijalar va ularning tahlili. C_{60}/benzol hamda C_{60}/benzol/IPS (2–8%) eritmalarining 1 va 12-kunlarda olingan Raman spektrlari fullerene molekulalarining vaqt va erituvchi tarkibiga bog‘liq strukturaviy evolyutsiyasini aniqlash imkonini berdi (4-rasm). Barcha tizimlarda C_{60} molekulasiga xos asosiy Raman-aktiv modlar, xususan ~992–993 cm^{-1} atrofidagi $A_g(2)$ simmetriyali kuchli vibratsion mod saqlanib qolgan. Bu mod C_{60} ning molekulyar xarakteristik tebranishi sifatida qaraladi va tizimdagi mikrostrukturaviy o‘zgarishlarga sezgir hisoblanadi.



4-rasm. C_{60}/benzol va C_{60}/benzol/IPS (2–8%) eritmalarining 1 va 12-kunlarda olingan Raman spektrlari.

IPS konsentratsiyasi va vaqt ortishi bilan asosiy A_g (2) mod (~993 cm^{-1}) kengayishi, pik kontrastining pasayishi hamda spektral fonning ortishi nanoagregatlar shakllanishi va tizimning strukturaviy evolyutsiyasini ko‘rsatadi. C_{60}/benzol eritmasining 1-kunlik spektrida asosiy pik tor, yuqori intensivlikli va aniq lokalizatsiyalangan ko‘rinishda qayd etildi. Bu molekulalarning asosan dispers (monomer yoki kichik klaster) holatda mavjudligini, vibratsion simmetriya elementlarining saqlanganligini va mikrogeterogenlikning minimal darajada ekanini bildiradi [20-21]. 12-kunga kelib esa pik kontrastining pasayishi, chiziqlarning kengayishi hamda spektral fonning sezilarli ortishi kuzatildi. Chiziq kengayishi klaster ichidagi mahalliy muhitlarning turlicha bo‘lib borayotganini va vibratsion energiya darajalarining taqsimoti kengayganini anglatadi. Fon signalining ortishi esa eritmada yiriklashayotgan nanoagregatlar sababli yorug‘likning ko‘p

martalik sochilishi kuchayganini ko‘rsatadi. Bu holat eritmalarda fizik va mexanik xususiyatlar vaqt o‘tishi bilan o‘z - o‘zidan o‘zgarishi jarayonining optik belgisi sifatida talqin qilinadi. IPS qo‘shilgan binar tizimlarda strukturaviy o‘zgarishlar yanada yaqqol namoyon bo‘ldi. 2% IPS eritmasida 12-kunda asosiy modning nisbiy kontrasti kamayishi va 400–900 cm^{-1} diapazonda keng kollektiv tebranish komponentlarining paydo bo‘lishi C_{60}–C_{60} o‘zaro ta’sirlar kuchayganini hamda klasterlash jarayoni boshlanganini ko‘rsatadi. 4% IPS konsentratsiyasida bu jarayon yanada intensivlashib, ~993 cm^{-1} mod sezilarli kengaydi va maksimal intensivlik pasaydi. Bu holat molekulalararo π–π o‘zaro ta’sirlar va solvatatsiya muhitining o‘zgarishi natijasida vibratsion modlarning deformatsiyaga uchrashini bildiradi. 6% IPS tizimida spektral profil oddiy agregatsiyadan tashqari, strukturaviy qayta tashkil topish bosqichiga o‘tganini ko‘rsatadi. 12-kunda asosiy pikning kengayishi, fonning keskin ortishi va past chastota sohasida kollektiv tebranishlarning kuchayishi klaster ichidagi vibratsion energiya taqsimoti murakkablashganini bildiradi. Bu bosqich energetik jihatdan barqarorroq konfiguratsiyaga o‘tish bilan bog‘liq strukturaviy reorganizatsiya sifatida talqin qilinadi. 8% IPS eritmasida esa 12-kunda spektral deformatsiya maksimal darajaga yetadi: piklar sezilarli kengayadi, past chastotali modalar intensivligi ortadi va fon darajasi keskin ko‘tariladi. Ushbu belgilar tizim kolloid holatga yaqinlashganini hamda yirik nanoagregatlar shakllanganini ko‘rsatadi. Molekulalararo o‘zaro ta’sirlar dominant tus olib, eritma mikrogeterogen muhitga aylanadi. Umuman olganda, Raman natijalari IPS konsentratsiyasi va vaqt ortishi bilan C_{60} molekulalarining quyidagi bosqichli evolyutsiyasini tasdiqlaydi. Dispers monomer holati → solvatlangan holat → klasterlash → yirik nanoagregatlar shakllanishi. Spektral chiziqlarning kengayishi, pik kontrastining pasayishi va fon signalining ortishi agregatsiya darajasi va mikrogeterogenlikning ortishini ko‘rsatuvchi asosiy diagnostik mezonlar bo‘lib xizmat qiladi. Olingan natijalar sindirish ko‘rsatkichi, zichlik va Brix parametrlaridagi o‘zgarishlar bilan mos kelib, tizimda vaqtga bog‘liq strukturaviy evolyutsiya jarayoni mavjudligini kompleks ravishda tasdiqlaydi.

Xulosa. Mazkur ishda C_{60} fulleren molekulalarining qutbsiz (benzol) hamda binar (benzol/izopropil spirt, 2–8%) erituvchi tizimlaridagi strukturaviy evolyutsiyasi vaqt omili (1–12 kun) va muhit qutbliligiga bog‘liq holda kompleks ravishda o‘rganildi. Raman spektroskopiya, sindirish ko‘rsatkichi, zichlik va Brix parametrlarining o‘zaro solishtirma tahlili C_{60} nanoagregatsiyasi bosqichli va kinetik jihatdan boshqariladigan jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Qutbsiz benzol muhitida C_{60} molekulalari asosan dispers yoki kichik klasterlar shaklida mavjud bo‘lib, Raman spektrlarida tor va yuqori kontrastli $A_g(2)$ mod (~993 cm^{-1}) molekulyar simmetriyaning saqlanganini va mikrogeterogenlikning past darajada ekanini tasdiqladi. Sindirish ko‘rsatkichi va zichlik parametrlarining nisbatan barqarorligi tizimning metastabil dispers holatga yaqin ekanini ko‘rsatdi. IPS qo‘shilishi bilan eritma muhitining effektiv dielektrik xossalari o‘zgarib, solvent–molekula va molekula–molekula o‘zaro ta’sirlar muvozanati qayta taqsimlandi. Natijada π–π o‘zaro ta’sirlar kuchayib, agregatsiya kinetikasi tezlashdi. Sindirish ko‘rsatkichi, zichlik va Brix parametrlarining vaqt bo‘yicha nolinear o‘zgarishi agregatsiya jarayonining oddiy monoton emas, balki bosqichli strukturaviy qayta tashkil topish (reorganization/aging) mexanizmi asosida kechishini ko‘rsatdi. Past IPS konsentratsiyalarida (2–4%) tizim kvazi-barqaror nanoagregat holatiga o‘tsa, yuqori konsentratsiyalarda (6–8%) fazoviy destabilizatsiya va yirik agregatlar shakllanishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari aralash organik erituvchilarda fulleren nanoagregatsiyasi mexanizmini chuqurroq tushunishga, nanoo‘lchamli tizimlarning barqarorligi va o‘z-o‘zidan tashkillanish jarayonlarini nazariy asoslashga xizmat qiladi hamda funksional nanomateriallar sintezi va ularning dispers muhitdagi boshqariladigan agregatsiyasi uchun ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maksym S., L., Iryna Pavlivna H. (2025). Fullerenes and Their Derivatives as Functional Materials for the Detection of Diverse Analytes: Recent Update // Chinese Journal of Analytical Chemistry, Vol.4, No 11. https://doi.org/10.1016/j.cjac.2025.100661

2. U.K. Makhmanov, A.M. Kokhkharov, S.A. Bakhramov, D. Erts. The formation of self-assembled structures of C_{60} in solution and in the volume of an evaporating drop of a colloidal solution // Lithuanian Journal of Physics. – 2020, – Vol. 60. – No. 3, – pp. 194–204. https://doi.org/10.3952/physics.v60i3.4306

3. Charles M., Hansen., Allan L S. (2004). Using Hansen solubility parameters to correlate solubility of C_{60} fullerene in organic solvents and in polymers // Carbon, Vol 42, pp 1591-1597. https://doi.org/10.1016/j.carbon.2004.02.011

4. HaiyanW., Feng L L. (2020). (C═C═C═C) C_{60}: A Bonding C_{60}-Endohedral Molecular Allotrope of Carbon // ACS OMEGA, Vol.4, pp. 214-219. https://pubs.acs.org/doi/10.1021/acsomega.0c04233.

5. Wojciech A., Marcin O. (2010). Electrochemical redox processes of fullerene C_{60} and decamethylferrocene dissolved in cast 1,2-dichlorobenzene film in contact with aqueous electrolyte // Journal of Electroanalytical Chemistry,Vol 643, pp 82-88. https://doi.org/10.1016/j.jelechem.2010.03.005

6. Umam H. S., Mohammad R. I., Isnaeni I., Yuliati H. (2019). The Study of the Optical Properties of C_{60} Fullerene in Different Organic Solvents // Open Chemistry, pp 1198-1212. https://doi.org/10.1515/chem-2019-0117

7. Pinkie E., Arnulf M., Christoph L. (2011). Raman spectroscopic identification of fullerene inclusions in polymer/fullerene blends // Journal of Raman Spectroscopy, pp 1897-1900. https://doi.org/doi.org/10.1002/jrs.2966

8. Eiichi N., Hiroyuki I. (2003). Functionalized Fullerenes in Water. The First 10 Years of Their Chemistry, Biology, and Nanoscience //Accounts of Chemical Research, Vol 36, pp 123-129 . https://doi.org/10.1021/ar030027y

9. Nikonova R. M., Lad'yanov I. V., Rekhviashvili S. Sh., Pskhu A. V. (2021). Thermal Stability of C_{60} and C_{70} Fullerites // High Temperature, Vol 59,pp (179–183). https://doi.org/10.1134/S0018151X21020103

10. Weibo Y., Stefan M., Seifermann., Philippe P., Stefan B. (2022). Synthe-sis of highly functionalized C_{60} fullerene derivatives and their applications in material and life sciences // Organic & Biomolecular Chemistry, Vol 13, Issue 1, 2015, Pages 25-54. https://doi.org/doi.org/10.1039/c4ob01663g

11. Nagaraj P., Shetti., Amit Mishra ., Soumen B., Tejraj M., Aminabhavi. (2021). Versatile fullerenes as sensor materials // Materilastoday chemistry, Vol 20. https://doi.org/10.1016/j.mtchem.2021.100454

12. Spohn P., Hirsch C., F.Hasler., A Bruinink., H F Krug., P Wick. (April 2009). C_{60} fulle-rene: A powerful antioxidant or a damaging agent? The importance of an in-depth material characterization prior to toxicity assays // Environmental Pollution, Vol157, Is 4, pp 1134-1139. https://doi.org/10.1016/j.envpol.2008.08.013

13. Xue B., Chungeng D., Xinle Sh., Faiz U. R., H Hao. (2024). Research progress of fullerenes and their derivatives in the field of PDT // European Journal of Medicinal Chemistry, Vol 271. https://doi.org/10.1016/j.ejmech.2024.116398

14. Yizhak M., Allan L., Smith., Korobov M., A.L Mirakyan, N. V. Avramenko, E. B. Stukalin. (2001). Solubility of C_{60} Fullerene // Open for submission, Vol 105, Iss 13, pp 2475-2672 https://doi.org/10.1021/jp0023720

15. Jonathan B., Helene L., Mark R., Wiesner. (2005). Aggregation and Deposition Characteristics of Fullerene Nanoparticles in Aqueous Systems // Nanoparticle Research, Vol 7, pp 545–553 https://doi.org/10.1007/s11051-005-4884-8

16. Mian M-Ahson A., Hsion-Wen K., Walter D., Muhammad U., Muhammad S., Hadeed A. (2021). Functionalized Carbon Nanotubes (CNTs) for Water and Wastewater Treatment: Preparation to Application // Sustainability, Vol 13. https://doi.org/doi.org/10.3390/su13105717

17. Makhmanov U.K. (2022). Refractive and Electrophysical Properties of Dispersed Solutions of Fullerene C_{60} in Binary Solvents // Journal of Engineering Physics and Thermophysics, 95 (2), 527 532. https://doi.org/10.1007/s10891-022-02508-9

18. Kai L.Ch., Menachem E., (2009 Oct) . Relating colloidal stability of fullerene (C_{60}) nanoparticles to nanoparticle charge and electrokinetic properties // Environ Sci Technol, 1;43(19):7270. https://doi.org/10.1021/es900185p

19. Nikolay O., Mchedlov-Petrossyan., Mykyta O., Marfunin., Nika N. K. (2024). Colloid Chemistry of Fullerene Solutions: Aggregation and Coagulation // Department of Physical Chemistry, V. N. Karazin Kharkiv National University, vol 4(1), pp 32-72. https://doi.org/doi.org/10.3390/liquids4010002

20. Vu H.L., Michael Y., Matthew M., Andrzej S. , Edwin A.L. (2014). Thermodynamics of Host–Guest Interactions between Fullerenes and a Buckycatcher // The Journal of Physical Chemistry B, Vol 118/Issue 41. http://pubs.acs.org/page/copyright/permissions.html.

21. Gregorio G., Mert A., Santiago Aparicio. (2014). Theoretical Study on the Solvation of C_{60} Fullerene by Ionic Liquids // The Journal of Physical Chemistry, Vol 118/Issue 38. https://doi.org/10.1021/jp507146r

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Karimov Shahobiddin To'ychiboyevich
Farg'ona davlat universiteti, fizika matematika fanlari doktori,
amaliy matematika va informatika kafedrasi professori
Email: shaxkarimov@gmail.com
ORCID ID 0000-0001-8325-998X
Ibroximova Shaxlo Abduqodir qizi
Farg'ona davlat universiteti, 70540101 – Matematika mutaxassisligi magistranti
Email: shaxloabdumominova03@gmail.com
ORCID ID 0009-0005-6681-3092

GIPERBOLIK TENGLAMALAR UCHUN RETROSPEKTIV TESKARI MASALALAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada giperbolik tenglamalar uchun retrospektiv teskari masalalar o'rganiladi. Har ikki uchidan mahkamlangan elastik tor tebranishini tavsiflovchi to'lqin tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masala qaraladi. O'zgaruvchilarni ajratish usuli yordamida yechim olinadi. Kuzatish ma'lumotlari asosida boshlang'ich funksiyalarni aniqlashga oid teskari masala qo'yiladi. Operator tenglama uchun korrektlik va turg'unlik shartlari tahlil qilinadi hamda kuzatish momentining masala yechimiga ta'siri ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Giperbolik tenglamalar, teskari masala, retrospektiv masala, to'lqin tenglamasi, chegaraviy masala, o'zgaruvchilarni ajratish usuli, korrektlik, turg'unlik.*

Каримов Шахобиддин Тойчибоевич
Ферганский государственный университет, доктор физико-математических наук,
профессор кафедры прикладной математики и информатики
Иброксимова Шахло Абдукодир кизи
Ферганский государственный университет, 70540101 – магистрант по математике

РЕТРОСПЕКТИВНЫЕ ОБРАТНЫЕ ЗАДАЧИ ДЛЯ ГИПЕРБОЛИЧЕСКИХ УРАВНЕНИЙ

Аннотация: *В данной работе исследуются ретроспективные обратные задачи для гиперболических уравнений. Рассматривается первая краевая задача для волнового уравнения, описывающего колебания упругой струны, закреплённой на обоих концах. Решение получено методом разделения переменных. На основе дополнительных данных наблюдения формулируется обратная задача определения начальных функций. Анализируются условия корректности и устойчивости операторного уравнения, а также влияние момента наблюдения на свойства решения задачи.*

Ключевые слова: *Гиперболические уравнения, обратная задача, ретроспективная задача, волновое уравнение, краевая задача, метод разделения переменных, корректность, устойчивость.*

Shahobiddin Toichiboevich Karimov
Fergana State University, Doctor of Physical and Mathematical Sciences,
Professor, Department of Applied Mathematics and Computer Science
Shakhlo Abdukodir Kizi Ibroksimova
Fergana State University, 70540101 – Master's student in Mathematics

RETROSPECTIVE INVERSE PROBLEMS FOR HYPERBOLIC EQUATIONS

Annotation: *This paper investigates retrospective inverse problems for hyperbolic equations. The first boundary value problem for the wave equation describing the vibration of an elastic string fixed at both ends is considered. The solution is obtained using the method of separation of variables. Based on additional observation data, an inverse problem for determining the initial functions is formulated. The conditions of well-posedness and stability of the corresponding operator equation are analyzed, and the influence of the observation moment on the solvability of the problem is discussed.*

Keywords: *Hyperbolic equations, inverse problem, retrospective problem, wave equation, boundary value problem, method of separation of variables, well-posedness, stability.*

Kirish. Hozirgi kunda matematik fizikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan teskari masalalar nazariyasi ko‘plab amaliy va nazariy masalalarni yechishda keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, giperbolik turdagi differensial tenglamalar uchun qo‘yilgan teskari masalalar fizika, mexanika, akustika va geofizika kabi sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday masalalarda tizimning ayrim boshlang‘ich yoki chegaraviy parametrlarini kuzatish natijalari asosida aniqlash talab qilinadi. Elastik tor tebranishini tavsiflovchi to‘lqin tenglamasi giperbolik tenglamalarning klassik misollaridan biri hisoblanadi. Mazkur tenglama uchun qo‘yilgan chegaraviy va boshlang‘ich shartlar torning tebranish jarayonini to‘liq tavsiflaydi. Amaliy masalalarda esa ko‘pincha torning boshlang‘ich holati yoki boshlang‘ich tezligi to‘liq ma’lum bo‘lmaydi. Shu sababli qo‘shimcha kuzatish ma’lumotlari asosida noma’lum funksiyalarni aniqlashga doir teskari masalalarni o‘rganish zarur bo‘ladi.

Ushbu maqolada har ikki uchidan mahkamlangan elastik tor tebranishini tavsiflovchi to‘lqin tenglamasi uchun retrospektiv teskari masala qaraladi. Masalaning yechimi o‘zgaruvchilarni ajratish usuli yordamida ifodalanadi hamda qo‘shimcha kuzatish ma’lumotlari asosida noma’lum boshlang‘ich funksiyani aniqlash masalasi o‘rganiladi. Hosil bo‘lgan operator tenglama uchun korrektlik va turg‘unlik shartlari tahlil qilinadi hamda kuzatish momentining masala yechimiga ta’siri ko‘rsatib beriladi.

Har ikki uchidan mahkamlangan elastik torning tebranish jarayonini tavsiflovchi

$$u_{tt}=a^2u_{xx},\ 0<x<l,\ 0<t\le T, \tag{1}$$

$$u(0,t)=u(l,t)=0,\ 0\le t\le T, \tag{2}$$

$$u(x,0)=\varphi(x),\ 0\le x\le l, \tag{3}$$

$$u_t(x,0)=\psi(x),\ 0\le x\le l, \tag{4}$$

tebranish tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalani ko‘rib chiqamiz.

$\varphi(x)$ *va* $\psi(x)$ funksiyalari mos ravishda torning boshlang‘ich holatini va boshlang‘ich tezlik taqsimotini aniqlaydi. (1)-(4) masala yechimini o‘zgaruvchilarni ajratish usuli bilan olish mumkin va

$$u(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}\left[\frac{2}{l}\int_0^l\varphi(\xi)\sin(\frac{\pi n}{l}\xi)\cos(\frac{\pi n}{l}at)d\xi+\frac{2}{\pi na}\int_0^l\psi(\xi)\sin(\frac{\pi n}{l}\xi)\sin(\frac{\pi n}{l}at)d\xi\right]\sin(\frac{\pi n}{l}x) \tag{5}$$

ko‘rinishga ega. Keyingi teskari masalani qaraymiz. Faraz qilamiz, torning boshlang‘ich tezlik taqsimoti $\psi(x)=0$ boshlang‘ich holatini aniqlovchi $\varphi(x)$ funksiyasi nomalum. Agar $t_0\in(0,T]$ vaqtdagi torning o‘rni

$$u(x,t_0)=g(x),\ 0\le t\le T \tag{6}$$

berilgan bo‘lsa, $\varphi(x)$ funksiyani aniqlash talab qilinadi, bu yerda $g(x)$ - berilgan funksiya. (5) formulaga $\psi(x)=0$ va $t=t_0$ qiymatlarni qo‘yib, $\varphi(x)$ funksiyaga nisbatan quyidagi

$$\sum_{n=0}^{\infty}\frac{2}{l}\int_0^l\varphi(\xi)\sin(\frac{\pi n}{l}\xi)d\xi\cos(\frac{\pi n}{l}at_0)\sin(\frac{\pi n}{l}x)=g(x) \tag{7}$$

tenglamani hosil qilamiz.

$$K(x,\xi,t_0)=\sum_{n=1}^{\infty}\sin\left(\frac{\pi n}{l}x\right)\sin\left(\frac{\pi n}{l}\xi\right)\cos\left(\frac{\pi n}{l}at_0\right)$$

deb belgilasak, ushbu ko‘rinishdagi integral tenglamaga kelamiz:

$$\int_0^l\varphi(\xi)K(x,\xi,t_0)d\xi=g(x)$$

Bu tenglama $\varphi(x)$ funksiyaga nisbatan chiziqli tenglama bo‘lib, $A_{t_0}\varphi=g$ ko‘rinishda, bu yerda $A_{t_0}\varphi\equiv\int_0^l K(x,\xi,t_0)\varphi(\xi)d\xi$ dan $A_{t_0}\varphi=g(x)$ chiziqli operator, (7) tenglamaning chap tomonidagi ifoda bilan aniqlanadi.

A_{t_0} operatori $L_2[0,l]$ fazodan $L_2[0,l]$ fazoga akslantiruvchi deb hisoblansa, bu tenglamani yechish masalasining korrektligini ko‘rib chiqamiz.

O‘rganilayotgan masalaning korrektligi t_0 kuzatish momentini tanlashga muhim darajada bog‘liqligini ko‘rsatamiz. $t_0=2l/a$ bo‘lsin, u holda (7) dan

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2}{l}\int_0^l \varphi(\xi)\sin(\frac{\pi n}{l}\xi)d\xi \sin(\frac{\pi n}{l}x)=g(x) \qquad (8)$$

tenglikni olamiz. Boshqa tomondan, $\varphi(x)=\sum_{n=1}^{\infty}\varphi_n \sin\left(\frac{\pi n}{l}x\right)$, bu yerda

$$\varphi_n=\frac{2}{l}\int_0^l \varphi(\xi)\sin\left(\frac{\pi n}{l}\xi\right)d\xi$$

(8) tenglikning chap tomonidagi ifoda $\varphi(x)$ funksiyaning $\left\{\sqrt{\frac{2}{l}}\sin(\frac{\pi n}{l}x)\right\}$ funksiyalar sistemasida Furye qatoriga yoyilmasi bo'lgani uchun (8) tenglikni quyidagicha qayta yozish mumkin: $\varphi(x)$ = $g(x)$, ya'ni, $t_0=2l/a$ qiymatda A_{t_0} operator birlikka teng va aniqki, bu holda (7) tenglamani yechish masalasi korrekt bo'ladi. Bu xulosa fizik nuqtai nazardan ham tushunarli. Tor tebranish jarayoni davriy $t_0=2l/a$ bo'lib, vaqt bo'lgandan so'ng tor vaqtning boshlang'ich momentida egallagan pozitsiyasini egallaydi. $t_0=2l/a$ qiymati masala korrekt bo'ladigan yagona qiymatmi (tebranish davrini hisobga olmaganda).

1-teorema. Agar $t_0=\frac{2pl}{(2k-1)a}$ bu yerda p va k natural sonlar, har qanday $g(x)\in L_2[0,l]$ uchun (7) tenglamaning yagona yechimi $\varphi(\xi)\in L_2[0,l]$ bo'ladi va $\|\varphi\|_{L_2[0,l]}\le C\|g\|_{L_2[0,l]}$, $C=const$ turg'unlik bahosi bajariladi.

Isbot. n natural argumentli $\cos\frac{\pi nat_0}{l}=\cos\frac{2\pi np}{2k-1}$ funksiyani qaraymiz. $n_2=n_1+2k-1$ uchun $\cos\frac{\pi n_2 at_0}{l}=\cos\frac{2\pi n_1 at_0}{l}$ tengligi bajarilganligi sababli $\cos\frac{2\pi np}{2k-1}$ funksiya $2k-1$ dan ortiq bo'lmagan turli qiymatlarni qabul qiladi. $n=1,2...,2k-1$ uchun funksiya $\cos\frac{2\pi np}{2k-1}\ne 0$ ekanligini ko'rsatamiz. Haqiqatdan ham, ba'zi $n=n_0$ uchun $\cos\frac{2\pi n_0 p}{2k-1}=0$ deylik. U holda $\frac{2\pi n_0 p}{2k-1}=\frac{\pi}{2}+\pi q$, bu yerda $q-$ butun son. Demak, $4n_0p=(2q+1)(2k-1)$ tenglik bajarilishi kerak. Ammo bu tenglik mumkin emas, chunki uning chap tomonida juft son, o'ng tomonida esa toq son mavjud. Shunday qilib, $\cos\frac{2\pi np}{2k-1}$ n ning natural qiymatlari uchun nolga teng bo'la olmaydi va cheklangan miqdordagi qiymatlarni oladi. Demak,

$$\min_{n\ge 1}\left|\cos\frac{2\pi np}{2k-1}\right|=c_1>0 \qquad (10)$$

tenglikka $t_0=\frac{2pl}{(2k-1)a}$ qiymatni qo'yamiz, u holda

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2}{l}\int_0^l \varphi(\xi)\sin(\frac{\pi n}{l}\xi)d\xi \cos(\frac{2\pi np}{l}x)=g(x) \qquad (11)$$

$\varphi_n va\ g_n$ orqali Furye koeffitsiyentlarni belgilaymiz:

$$\varphi_n=\sqrt{\frac{2}{l}}\int_0^l \varphi(\xi)\sin(\frac{\pi n}{l}\xi)d\xi,\quad g_n=\sqrt{\frac{2}{l}}\int_0^l g(\xi)\sin(\frac{\pi n}{l}\xi)d\xi$$

$\sqrt{\frac{2}{l}}\sin(\frac{\pi n}{l}\xi)$ funksiyalar sistemasi $L_2[0,l]$ fazoda to'la ortonormal sistema bo'lgani uchun, (11) dan $\varphi_n\cos\frac{2\pi np}{2k-1}=g_n,\ n=1,2,...$ kelib chiqadi. (10) tengsizlikni hisobga olib, har qanday $g(x)\in L_2[0,l]$ funksiya uchun (11) tenglama

$$\varphi(x)=\sqrt{\frac{2}{l}}\sum_{n=1}^{\infty}g_n\left(\cos\frac{2\pi np}{2k-1}\right)^{-1}\sin(\frac{\pi n}{l}x)$$

formula bilan aniqlangan $\varphi(\xi)\in L_2[0,l]$ yagona yechimga ega ekanligini topamiz. Bu formuladan, (10) tengsizlik va Parseval tengligidan, o'zgarmas C=1/c_1 bilan turg'unlik bahosi (9) dan kelib chiqadi va 1-teorema isbotlanadi. 1-

teoremadan kelib chiqadiki, $t_0 = \frac{2pl}{(2k-1)a}$ bo‘lganda (7) tenglamani yechish masalasi korrektdir, bu yerda p,k ixtiyoriy natural sonlar. Endi, bu masala nokorrekt bo‘ladigan t_0 qiymatlarining cheksiz to‘plami mavjudligini ko‘rsatamiz. Faraz qilamiz, $t_0 = \frac{(2k-1)l}{2ka}$, p,k natural sonlar. Bu holda $\cos\frac{\pi n a t_0}{l} = \cos\frac{2\pi np}{2k-1}$ va $n=k$ bo‘lganda $\cos\frac{\pi a t_0}{l} = 0$. U holda o‘ng tomoni $g(x)$ nol bo‘lganda (7) tenglamaning yechimi $\varphi(\xi) = \sin\frac{\pi n}{l}$ funksiya bo‘ladi. Bundan, (7) tenglamaning yechimi yagona emas va masala nokorrektdir.

Ko‘rib chiqilayotgan teskari masalaning korrektligi yuqoridagi tahlil bilan bog‘liq holda, quyidagi savol tug‘iladi: ba‘zi kuzatish nuqtalari t_0 uchun masala korrekt, lekin ularga shunchalik yaqin bo‘lgan nuqtalarda nokorrekt ekanligini qanday tushuntirish mumkin?

Faraz qilamiz, $t_0 = 2l/a$. U holda (7) tenglikning chap tarafidagi ifoda bilan aniqlangan A_{t_0} operator, $L_2[0,l]$ fazodan $L_2[0,l]$ fazoga akslantiruvchi sifatida qaralganda, birlik operatorga teng va $A_{t_0}\varphi = g$ tenglamani yechish masalasi korrektdir. Kuzatish nuqtalari ketma-ketligini $t_{0k} = \frac{(4k-1)l}{2ka}$ olib, $k \to \infty da\ t_{0k} \to t_0$ ekanligini olamiz. Lekin barcha natural k uchun $A_{t_{0k}}\varphi = g$ tenglamani yechish masalasi nokorrekt. Bir qarashda tushinarsiz bo‘lgan bu haqiqat $\left\|A_{t_{0k}} - A_{t_0}\right\| = \sup t_{0k} \to t_0$ da nolga intilmasligi bilan izohlanadi. Haqiqatdan ham,

$$\left\|A_{t_{0k}} - A_{t_0}\right\| = \underset{\|\varphi\|_{L_2[0,l]}\le 1}{sub}\left\|\left(A_{t_{0k}} - E\right)\varphi\right\|_{L_2[0,l]} = \underset{\|\varphi\|_{L_2[0,l]}\le 1}{sub}\left(\sum_{n=1}^{\infty}\varphi_n^2\left(\cos\frac{\pi(4k-1)n}{2k} - 1\right)^2\right)^{1/2}$$

Shunday ekan, istalgan natural $n=k$ son uchun $\cos\frac{\pi(4k-1)n}{2k} = 0$, bundan barcha natural k uchun $\left\|A_{t_{0k}} - A_{t_0}\right\| \ge 1$ bo‘ladi.

Shunday qilib, bir biriga yaqin t_0 kuzatish nuqtalari uchun $A_{t_{0k}}\varphi = g$ operator tenglamasining turli xil (korrektlik nuqtai nazaridan) xossalari A_{t_0} operatorlar oilasining t_0 parametriga nisbatan uzluksiz emasligi bilan izohlanadi. Endi, (1) - (4) chegaraviy masala uchun boshqa yana bitta teskari masalani qaraymiz. Faraz qilamiz, $\varphi(x)$ funksiya ma’lum va (6) ko‘rinishdagi (1)-(4) masala yechimi haqida qo‘shimcha ma’lumot ham berilgan, $\psi(x)$ funksiyani aniqlash zarur. Yozuvlarni soddalashtirish uchun berilgan funksiya $\varphi(x) = 0$ deb faraz qilamiz. (5) ga $t=t_0$ qiymatni qo‘yamiz, $\psi(x)$ noma’lum funksiya uchun

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2}{\pi na}\int_0^l \psi(\xi)\sin\left(\frac{\pi n}{l}\xi\right)d\xi\sin\left(\frac{\pi n}{l}at_0\right)\sin\left(\frac{\pi n}{l}x\right) = g(x),\ 0\le x\le l$$

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2}{\pi na}\int_0^l \psi(\xi)\sin\left(\frac{\pi n}{l}\xi\right)d\xi\sin\left(\frac{\pi n}{l}at_0\right)\sin\left(\frac{\pi n}{l}x\right) = g(x),\ 0\le x\le l \qquad (12)$$

tenglamani hosil qilamiz. Bu tenglamani $g(x)\in L_2[0,l]$ va $\psi(x)$ yechimi ham $L_2[0,l]$ fazodan izlagan holatda yechish masalasi har qanday $t_0 > 0$ uchun nokorrekt bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Isakov V. Inverse Problems for Partial Differential Equations. – New York: Springer, 2006.
2. Bellassoued M., Yamamoto M. Carleman Estimates and Applications to Inverse Problems for Hyperbolic Systems. – Tokyo: Springer, 2017.
3. Yamamoto M. Introduction to Inverse Problems for Evolution Equations: Stability and Uniqueness by Carleman Estimates. – Cham: Springer, 2025.
4. Romanov V. G. Inverse Problem for the Quasilinear Wave Equation. Computational Mathematics and Mathematical Physics, 2025.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Erdonov Bekmurod Xolboy o‘g‘li,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti katta o‘qituvchisi,
fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: bekmurod.erdonov@mail.ru.
Mardonova Gulnoza O‘ktam qizi,
Termiz davlat universiteti Algebra va geometriya kafedrasi 2-kurs magistranti.
E-mail: mardonovag03@gmail.com.
Xudoyberdiyev Sardor,
Termiz davlat universiteti talabasi.
E-mail: xsardor@mail.ru.

QARINDOSH TUB SONLARNING CHEKSIZLIGI

Annotatsiya: *Egizak va qarindosh tub sonlar muammosi matematikada dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. 2013-yilda Y. Chjan cheklangan farqli cheksiz ko‘p tub sonlar juftligi mavjudligini isbotladi. Keyinchalik bu natijalar J. Meynard va T. Tao boshchiligidagi Polymath loyihasi doirasida takomillashtirildi. Ushbu ishda ayirmasi 4 ga teng bo‘lgan tub sonlar juftligi - qarindosh tub sonlar tushunchasi kiritilib, ularning cheksizligi masalasi o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *qarindosh tub sonlar, egizak tub sonlar, Dirixle teoremasi, natural sonlar matritsasi, arifmetik progressiya, tub sonlarning maxsus faktoriali.*

Эрдонов Бекмурод Холбой угли,
старший преподаватель Термезского университета
экономики и сервиса, доктор философии (PhD)
по физико-математическим наукам.
Мардонова Гулноза,
Магистрант 2 курса кафедры алгебры и геометрии
Термезского государственного университета.
Худойбердиев Сардор,
студент Термезского государственного университета.

БЕСКОНЕЧНОСТЬ ДВОЮРОДНЫХ ПРОСТЫХ ЧИСЕЛ

Аннотация: *Проблема близнецовых и родственных простых чисел является одним из актуальных направлений в современной математике. В 2013 году И. Чжан доказал существование бесконечно многих пар простых чисел с ограниченной разностью. Впоследствии эти результаты были усовершенствованы в рамках проекта Polymath под руководством Дж. Мейнарда и Т. Тао. В данной работе вводится понятие родственных простых чисел - пар простых чисел с разностью, равной 4, и исследуется вопрос об их бесконечности.*

Ключевые слова: *Двоюродные простые числа, простые числа-близнецы, теорема Дирихле, матрица натуральных чисел, арифметическая прогрессия, Приориал факториал простых чисел.*

Erdonov Bekmurod Kholboy ugli,
Senior Lecturer at Termez University of Economics and Service,
Doctor of Philosophy (PhD) in Physical and Mathematical Sciences.
Mardonova Gulnoza,
Graduate of the Department of Algebra and geometry of Termez State University.
Khudoyberdiyev Sardor,
student of Termez State University.

INFINITY OF COUSIN PRIME NUMBERS

Abstract: *The problem of twin and cousin prime numbers is considered one of the important and active directions in modern mathematics. In 2013, Y. Zhang proved the existence of infinitely many pairs of prime numbers with bounded gaps. Subsequently, these results were further refined within the framework of the Polymath project led by J. Maynard and T. Tao. In this work, the notion of cousin primes—pairs of prime numbers with a difference equal to 4-is introduced, and the problem of their infinitude is investigated.*

Keywords: *Cousin primes, twin primes, Dirichlet's theorem, matrix of natural numbers, arithmetic progression, primorial factorial of prime numbers.*

Sonlar nazariyasida tub sonlar bilan bog'liq masala muhim va qiziqarli masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, egizak tub sonlarga bog'liq ba'zi masalalar haligacha o'z isbotini topmagan. Bizga ma'lumki, orasidagi farqi 2 ga teng bo'lgan ikkita ketma -ket kelgan $(p, p+2)$ ko'rinishidagi tub sonlar juftligiga egizak tub sonlar deyiladi. Sonlar nazariyasida tub sonlar bilan bog'liq muhim muammolaridan biri – 2000 yildan ortiq vaqt davomida hal qilinmay kelayotgan masala – 5-Xalqaro matematik kongressida ilgari surilgan egizak tub sonlarining cheksizligini isbotlash muammosidir. Hozirgi kunda bu masala Landauning ikkinchi muammosi deb nomlanadi. 1960-yilda A.F. Lavrik Vinogradov metodi yordamida [4]da trigonometrik yig'indilar orqali tub sonlar nazariyasi metodidan foydalangan holda, egizak tub sonlar masalasini o'rgangan va tub sonlar orasidagi kichik farqlar bo'yicha analitik baholar keltirgan. Shu yo'nalishda, 2000-yilda I. Allakov arifmetik progressiyalardagi tub sonlar taqsimotiga tayanib, juft sonlarni aynan shu progressiyadagi ikki tub son yig'indisi ko'rinishida ifodalash masalasini o'rgangan, [3]-dagi natijalarni ayirmasi $D \square \ln^A x$ bo'lgan progressiyalarga umumlashtirgan va Goldbax tipidagi masalalarning progressiyalar bo'yicha maxsus variantlari uchun analitik baholar bergan. Ushbu ishlar tub sonlar nazariyasi va egizak tub sonlar masalasida nazariy asos va metodologik zamin yaratadi.

2013-yilda AQShlik matematik Chjan Itan Nyu-Gempshir universitetidan egizak tub sonlarga oid muhim natijaga erishdi. U orasidagi farq 70 milliondan oshmaydigan cheksiz ko'p tub sonlar juftligi mavjudligini isbotladi. Keyinchalik, J. Meynard bu natijani yaxshilab, chegarani 600 gacha tushirdi. 2014-yilda esa Teren Tao boshchiligidagi Polymath loyihasi bu usulni yanada takomillashtirib, natijani 246 gacha qisqartirishga muvaffaq bo'ldi va bu natija hozirgi kunda 6 gacha tushirilgan. 2017-yilda Qozog'istonlik matematiklar S. Baybekov va A. Durmagammetovlar [1] [2] dagi ishida egizak tub sonlar masalasini natural sonlar matritsasini tuzish va Dirixle teoremasiga asosan isbotlashni taklif qildi. **Ta'rif.** Orasidagi farqi 4 ga teng bo'lgan ikkita ketma-ket kelgan $(p, p+4)$ko'rinishidagi tub sonlar juftligiga qarindosh tub sonlar deyiladi. Ushbu ishda biz S. Baybekov va A. Durmagammetovlarning g'oyasiga asosan qarindosh tub sonlar masalasini hal qilish uchun yechim taklif qildik. Bu usul empirik yondashuv orqali qarindosh tub sonlarning cheksizligini baholash imkonini beradi.

Keyingi hisob-kitoblarga qulaylik yaratish maqsadida tub sonlarning ketma-ket ko'paytmasi tez-tez uchraydi. Shuning uchun bunday hollarda quyidagi maxsus belgilashdan foydalanamiz:

$2 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 7 \cdot 11 \cdot ... \cdot p_n = \prod_{i=1}^{n} p_i = p_n\!\!\!

Natural sonlar qatori

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	…	…	…	…

A_0

1-rasm

Ushbu qator ichida 1 dan keyin 2 soni keladi. Shunday ekan, 2 faqat 1 ga va o'ziga bo'linadi, ya'ni u tub son hisoblanadi.Demak, birinchi tub son quyidagiga teng: $p_1 = 2$. Shunday qilib, birinchi tub son hisobga olinganda, birinchi matritsa A_1 quyidagicha tuziladi: Qatorlar soni: 2 ta ($i_{k,\max} = i_{1,\max} = p_1! = 2! = 2$). Ustunlar soni: cheksiz. Matritsaning birinchi qatori quyidagi sonlardan iborat: $2,4,6,\ldots$. Bu sonlar arifmetik progressiya hosil qiladi. (rasm 2, $A_1 - a$). Birinchi had, shuningdek, ushbu arifmetik progressiyaning farqi 2 ga teng. Ya'ni, birinchi qatordagi hadlar quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$a(k,i,j) = a(1,1,j) = 2 + 2*(j-1) \text{ bu yerda } j = 1,2,3,\ldots$$

Yangi matritsaning ikkinchi qatorida joylashgan sonlar ham arifmetik progressiyani tashkil etadi. Ushbu progressiyaning birinchi hadi va ayirmasi mos ravishda 3 va 2 ga teng, ya'ni:

$$a(k,i,j) = a(1,2,j) = 3 + 2(j-1) \text{ bu yerda } j = 1,2,3,\ldots$$

Avval aniqlanganidek, 2 soni tub son hisoblanadi. Shuning uchun 2 ga karrali bo'lgan barcha sonlar murakkab sonlardir. Shu sababli, qaralayotgan matritsaning (2-rasm, $A_1 - v$) birinchi qatorida joylashgan barcha sonlar, 2 dan tashqari, ko'rinish uchun quyuq rang bilan belgilangan. Shu tariqa, A_1 matritsasi yordamida 2 ga bo'linadigan barcha murakkab sonlar aniqlanadi.

2-rasm. Tub sonlar matritsalari

Ustun raqamlari

		1	2	3	4	…
	1					
1		2	4	6	8	…
2		3	5	7	9	…

A_1-a

Ustun raqamlari

		1	2	3	4	…
	1					
1		2	4	6	8	…
2		3	5	7	9	…

A_1-v

Matritsani bir ko'rinishdan boshqasiga o'tkazish algoritmi. (2-rasm, $A_1 - v$) dagi A_1 matritsadan ko'rinib turibdiki, 2 sondan keyin ranglanmagan birinchi son 3 bo'lib, u 2 ga bo'linmaydi. Shu sababli, u ikkinchi tub son hisoblanadi, ya'ni $p_2 = 3$. Shuning uchun A_1 matritsasini (2-rasm, $A_1 - v$) keyingi A_2 matritsasiga (3-rasm, $A_2 - a$) o'zgartiramiz. Ushbu matritsaning maksimal qatorlar soni ikkinchi tub sonning maxsus faktorialiga teng bo'lishi kerak, ya'ni $k = 2$ uchun $i_{k,\max} = i_{2,\max} = p_2! = 3! = 6$. Ustunlar soni esa, avvalgi holatda bo'lgani kabi, istalgan miqdorda bo'lishi mumkin.

Matritsani bir ko'rinishdan boshqasiga o'zgartirish uchun oddiy usul qo'llaniladi. Bu usul asosiy matritsaning ma'lum qator va ustunlaridan sonlarni olib, yangi matritsaning mos keluvchi qator va ustunlariga joylashtirishdan iborat. Shuni ta'kidlash kerakki, yangi matritsada (3-rasm, $A_2 - a$) 3-va 5-qatorlarda joylashgan barcha sonlar to'q rang bilan belgilangan, chunki ular A_1 matritsasi orqali allaqachon murakkab sonlar sifatida aniqlangan. Yangi matritsada har bir qatorda joylashgan barcha sonlar, xuddi A_1 matritsasida bo'lgani kabi, arifmetik progressiya hosil qiladi. Bu progressiya umumiy holda quyidagi ko'rinishga ega:

$$a(k,i,j) = (i+1) + p_k!(j-1) \text{ bu yerda } j = 1,2,\ldots;\ i = 1,2,\ldots p_k! \qquad (1)$$

Ushbu arifmetik progressiyaning ayirmasi $p_k!$ ga teng. A_2 matritsa uchun, xususan, uning 2-qatori quyidagi ko'rinishga ega:

$$a(2,2,j) = 3 + 6(j-1) \text{ bu yerda } j = 1,2,\ldots \quad i = 1,2,\ldots p_2!$$

Ko'rinib turibdiki, ushbu qatorning barcha sonlari 3 ga bo'linadi, shu sababli ular (3 sonidan tashqari) murakkab sonlardir. Shu bois, ular A_2 matritsasida (3-rasm, A_2-v) qoramtir rangga bo'yalgan. 5-qatorda joylashgan sonlar ham 3 ga

bo‘linadi. Biroq, yuqorida aytib o‘tilganidek, A_1 matritsasini tahlil qilganda bu sonlar allaqachon murakkab sonlar sifatida aniqlangan edi. 4-qator (shuningdek, 6-qator) sonlari ham arifmetik progressiyani tashkil etadi. Ammo bu qatorlarda ham tub, ham murakkab sonlar mavjud. Shuning uchun bu qatorlardagi sonlar hozircha bo‘yalmaydi. Eslatma, faqat murakkab sonlargina joylashgan qatorlar qoramtir rangga bo‘yaladi. **3-rasm.** Eslatma, bu yerda va barcha keyingi rasmlarda quyidagi belgilar ishlatiladi:"a" harfi – oldingi matritsaning o‘zgartirilishi natijasida hosil bo‘lgan matritsalarni ifodalash uchun ishlatiladi (masalan, A_1–a, A_2–a, A_3–a, A_4-a). "v" harfi – allaqachon o‘zgartirilgan matritsalarni qayta ishlash natijasida hosil bo‘lgan matritsalarni ifodalash uchun ishlatiladi (masalan, A_1–v, A_2–v, A_3–v, A_4-v). Shuni ta’kidlash kerakki, 2-matritsani qayta ishlash jarayonida 3 ga bo‘linishi kerak bo‘lgan barcha sonlar yakuniy ravishda aniqlanadi va ular ham mos ravishda qoramtir rangga bo‘yaladi. A_2 matritsasidan (3-rasm, A_2 -v) ko‘rinib turibdiki, 2 va 3 sonlaridan keyingi bo‘yalmagan son 5 hisoblanadi. Demak, u uchinchi tub son bo‘lib, $p_3=5$ ga teng. Shuning uchun 2-matritsa (3-rasm, A_2 -v) 3-matritsa A_3 ga (4-rasm, A_3-a) aylantiriladi. Buning uchun A_1 matritsasini A_2 ga o‘zgartirishda qo‘llangan usul bilan bir xil usul qo‘llaniladi.

4-rasm.

3-matritsaning maksimal qatorlar soni uchinchi tub sonning maxsus faktorialiga teng bo‘lishi kerak, ya’ni:

$$i_{k,\max}=i_{3,\max}=p_3!=5!=30$$

A_3 matritsasi uchun (1) ifoda quyidagi ko‘rinishga ega:

$$a(3,i,j)=(i+1)+30(j-1),\ \text{bu yerda}\ j=1,2,\ldots,\ i=1,2,\ldots,p_3!$$

Ustun raqamlari

	1	2	3	4	…
1		2	8	14	20	…
2		3	9	15	21	…
3		4	10	16	22	…
4		5	11	17	23	…
5		6	12	18	24	…
6		7	13	19	25	…


A_2–a

Ustun raqamlari

	1	2	3	4	…
1		2	8	14	20	…
2		3	9	15	21	…
3		4	10	16	22	…
4		5	11	17	23	…
5		6	12	18	24	…
6		7	13	19	25	…

A_2–v

Bu qat’iy takrorlanuvchi ko‘rinish faqat shunday shakllanadi: Agar har bir oldingi matritsa A_n, qatorlar soni $p_n!$ ga teng bo‘lsa, u keyingi A_{n+1} matritsaga o‘tganda, uning qatorlar soni $p_{n+1}!$ ga teng bo‘ladi.



A_3 matritsasida (4-rasm, A_3-v) 2, 3 va 5 sonlaridan keyingi bo‘yalmagan son 7 hisoblanadi. Demak, u to‘rtinchi tub son bo‘lib, $p_4=7$ ga teng.


Endi to‘rtinchi tub son – 7 ma’lum bo‘lgani uchun, A_3 matritsasini shu bilan bir xil usulda keyingi A_4 matritsasiga o‘zgartirish mumkin. A_4 matritsasining maksimal qatorlar soni 7 ning maxsus faktorialiga teng bo‘lishi kerak, ya’ni: $7!=210$.

Ustun raqamlari

Ustun raqamlari

	1	2	3	4
1	2	212	422	
2	3	213	423	
3	4	214	424	
4	5	215	425	
5	6	216	426	
6	7	217	427	
7	8	218	428	
8	9	219	429	
9	10	220	430	
10	11	221	431	
11	12	222	432	
12	13	223	433	
13	14	224	434	
14	15	225	435	
15	16	226	436	
16	17	227	437	
17	18	228	438	
18	19	229	439	
19	20	230	440	
20	21	231	441	
21	22	232	442	
22	23	233	443	
23	24	234	444	
24	25	235	445	
25	26	236	446	
26	27	237	447	
27	28	238	448	
28	29	239	449	
29	30	240	450	
30	31	241	451	
31	32	242	452	
32	33	243	453	
33	34	244	454	
34	35	245	455	
35	36	246	456	
36	37	247	457	
37	38	248	458	
38	39	249	459	
39	40	250	460	
40	41	251	461	
41	42	252	462	
42	43	253	463	
43	44	254	464	
44	45	255	465	
45	46	256	466	
46	47	257	467	
47	48	258	468	
48	49	259	469	
49	50	260	470	
50	51	261	471	
51	52	262	472	
52	53	263	473	
53	54	264	474	
54	55	265	475	
55	56	266	476	
56	57	267	477	
57	58	268	478	
58	59	269	479	
59	60	270	480	
60	61	271	481	
61	62	272	482	
62	63	273	483	
63	64	274	484	
64	65	275	485	
65	66	276	486	
66	67	277	487	
67	68	278	488	
68	69	279	489	
69	70	280	490	
70	71	281	491	
71	72	282	492	
72	73	283	493	
73	74	284	494	
74	75	285	495	
75	76	286	496	
76	77	287	497	
77	78	288	498	
78	79	289	499	
79	80	290	500	
80	81	291	501	
81	82	292	502	
82	83	293	503	
83	84	294	504	
84	85	295	505	
85	86	296	506	
86	87	297	507	
87	88	298	508	
88	89	299	509	
89	90	300	510	
90	91	301	511	
91	92	302	512	
92	93	303	513	
93	94	304	514	
94	95	305	515	
95	96	306	516	
96	97	307	517	
97	98	308	518	
98	99	309	519	

	1	2	3	4
1	2	212	422	
2	3	213	423	
3	4	214	424	
4	5	215	425	
5	6	216	426	
6	7	217	427	
7	8	218	428	
8	9	219	429	
9	10	220	430	
10	11	221	431	
11	12	222	432	
12	13	223	433	
13	14	224	434	
14	15	225	435	
15	16	226	436	
16	17	227	437	
17	18	228	438	
18	19	229	439	
19	20	230	440	
20	21	231	441	
21	22	232	442	
22	23	233	443	
23	24	234	444	
24	25	235	445	
25	26	236	446	
26	27	237	447	
27	28	238	448	
28	29	239	449	
29	30	240	450	
30	31	241	451	
31	32	242	452	
32	33	243	453	
33	34	244	454	
34	35	245	455	
35	36	246	456	
36	37	247	457	
37	38	248	458	
38	39	249	459	
39	40	250	460	
40	41	251	461	
41	42	252	462	
42	43	253	463	
43	44	254	464	
44	45	255	465	
45	46	256	466	
46	47	257	467	
47	48	258	468	
48	49	259	469	
49	50	260	470	
50	51	261	471	
51	52	262	472	
52	53	263	473	
53	54	264	474	
54	55	265	475	
55	56	266	476	
56	57	267	477	
57	58	268	478	
58	59	269	479	
59	60	270	480	
60	61	271	481	
61	62	272	482	
62	63	273	483	
63	64	274	484	
64	65	275	485	
65	66	276	486	
66	67	277	487	
67	68	278	488	
68	69	279	489	
69	70	280	490	
70	71	281	491	
71	72	282	492	
72	73	283	493	
73	74	284	494	
74	75	285	495	
75	76	286	496	
76	77	287	497	
77	78	288	498	
78	79	289	499	
79	80	290	500	
80	81	291	501	
81	82	292	502	
82	83	293	503	
83	84	294	504	
84	85	295	505	
85	86	296	506	
86	87	297	507	
87	88	298	508	
88	89	299	509	
89	90	300	510	
90	91	301	511	
91	92	302	512	
92	93	303	513	
93	94	304	514	
94	95	305	515	
95	96	306	516	
96	97	307	517	
97	98	308	518	
98	99	309	519	



A_4-a **A_4-v**

5-rasm

Shunday qilib, oldingi usullar singari barcha 7 ga bo'linadigan murakkab sonlar aniqlanadi va ular qoramtir rang bilan belgilanadi. Xuddi shu printsip asosida boshqa matritsalar ham qurish mumkin.

Endi A_k matritsalaridan foydalanib, qarindosh tub sonlar sonini aniqlashga harakat qilamiz.

Qarindosh tub sonlarning cheksizligi. Avval ba'zi ta'riflarni kiritamiz:

1-Ta'rif. Agar matritsaning biror qatorida faqat murakkab sonlar joylashgan bo'lsa, vizuallashtirish uchun ushbu qator qoramtir rangga bo'yaladi va "bo'yalgan qator" deb ataladi, biror qator ham tub, ham murakkab sonlarni o'z ichiga olsa, u bo'yalmaydi va "bo'yalmagan qator" deb nomlanadi.

2-Ta'rif. Agar ikki qo'shni bo'yalmagan qatorlar tartib raqami orasidagi farq 4 ga teng bo'lsa, bunday qatorlar "qarindosh qatorlar" yoki "qarindosh qator juftligi" deb ataladi. Agar bitta ustunda joylashgan sonlar shu qarindosh qatorlarning turli qatnashchilariga tegishli bo'lsa, ular quyidagi tenglikni qanoatlantiradi: $|a(k,i,j)-a(k,i\mp 4,j)|=4$

Bu ta'riflardan kelib chiqadiki, qarindosh tub sonlar faqat qarindosh qatorlar ichida joylashadi. Yuqorida tuzilgan natural sonlar matritsalariga ko'ra A_1 va A_2 matritsalarida qarindosh qatorlar mavjud emas .

Tadqiqotning asosiy maqsadi

Ushbu ishning asosiy maqsadi qarindosh tub sonlar umumiy sonini aniqlashdir. Shu sababli, asosiy e'tibor qarindosh qatorlar juftligiga qaratiladi.

1-teorema. A_k matritsasida qarindosh qator juftliklarining soni k ortishi bilan monoton ravishda oshadi, shuningdek, har bir qarindosh qator ichida cheksiz ko'p tub sonlar mavjud bo'ladi.

Ma'lumki, qarindosh tub sonlar faqat qarindosh qator juftliklari ichida joylashgan bo'lishi mumkin. Agar biror matritsada (masalan, A_k matritsasida) barcha qarindosh qator juftliklari yo'qolib ketsa, demak, keyingi matritsalarda ham ular umuman bo'lmaydi. Bunday holatda qarindosh tub sonlar soni cheklangan bo'lishi kerak. Shu taxminni tekshirib chiqamiz va 1-teoremani isbotlaymiz.

Isbot: Faraz qilaylik, biror matritsada 3 ta qarindosh qator juftligi mavjud (masalan, 4-rasm, A_3-v dagi holat). Agar ushbu matritsa keyingi bosqichlarga o'tsa, qarindosh qator juftliklari yo'qolishi mumkin deb taxmin qilish mumkin. Biroq, aslida aksincha sodir bo'ladi! Har bir yangi matritsaga o'tilganda, qarindosh qator juftliklari soni ortib boradi. Masalan, A_3 matritsasida 3 ta qarindosh qator juftligi mavjud bo'lsa (1-rasm, A_3-v), A_4 matritsasida bu qarindosh qator juftligi yangi 21 ta qarindosh qator juftligini hosil qiladi.

Ushbu natija arifmetik progressiya orqali aniqlanadi va quyidagi tengliklar bilan tavsiflanadi:

$$\begin{cases} p_2!'m+1+p_3!'(j-1)=6m+1+p_3!'(j-1) \\ p_2!'m+5+p_3!'(j-1)=6m+5+p_3!'(j-1) \end{cases}, \quad (2)$$

Bunda $j=1,2,...,\ m=1,2,...,p_3$, shuningdek $p_2!'m+1$ ifodasi qarindosh qatorlarning yuqori qatoriga, $p_2!'m+5$ ifodasi esa quyi qatoriga mos keladi. (2) ifodadan kelib chiqadiki, agar qandaydir $m=1,\ 2,...,p_3$ qiymatlarida quyidagi tenglik bajarilsa:

$$\frac{p_2!'m+1}{p_3}=\text{butun son}\ \text{ va }\ \frac{p_2!'m+5}{p_3}=\text{butun son} \quad (3)$$

unda ushbu qatorning barcha sonlari p_3 ga qoldiqsiz bo'linadi. Demak, bu qatorning barcha sonlari murakkab sonlar hisoblanadi.

Haqiqatan ham, $0<m<p_3$ oraliqda (3)-tenglama parametr m ga nisbatan faqat bitta yechimga ega bo'lishi ma'lum .

Masalan, (3)-tenglama quyidagi holatlar uchun bajariladi: $\left(p_2!'m+1\right)$ uchun $m=4$ da bajariladi. $\left(p_2!'m+5\right)$ uchun esa $m=4$ da bajariladi. Demak, $m=1$ va $m=5$ bo'lganda, ushbu qatorlar qarindosh qatorlar juftligi bo'la olmaydi, ya'ni ular qarindosh qatorlar sifatida qaralmaydi. Natijada, ushbu qatorlar qoramtir rang bilan bo'yaladi.

Shu sababli, yangi hosil bo'lgan 5 ta qarindosh qator juftliklaridan faqat 3 tasi haqiqiy qarindosh qator juftligi bo'lib qoladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, yangi hosil bo'lgan 3 ta qarindosh qator juftligidagi har bir qator sonlari arifmetik progressiyani tashkil etadi. Bu progressiyalarda birinchi had va ayirma (progressiya qadam) o'zaro tub bo'lib, quyidagi shart bajariladi:

$$\begin{cases}\left(p_2!'m+1, p_3!'\right)\equiv 1\\ \left(p_2!'m+5, p_3!'\right)\equiv 1\end{cases},$$

Bu yerda $m=1,2\ va\ 3,\ m\neq 4, m\neq 5$. Shu sababli, Dirixle teoremasiga ko‘ra, arifmetik progressiyada tub sonlar cheksiz ko‘p bo‘lishi kerak. Natijada, ushbu 3 ta egizak qator juftligining har bir qatorida cheksiz ko‘p tub sonlar mavjud bo‘ladi.

Biroq, ushbu qarindosh qatorlar juftliglari A_4 matritsasiga o‘tganda, yangi 7 ta qarindosh qator juftligini hosil qiladi (bu yerda $p_4=7$). Ya’ni, oldingi qarindosh qatorlar juftliglari 21 ta yangi juftlikka ajraladi.

A_4 matritsasidagi har bir yangi 21 ta qarindosh qator juftligi o‘z ichidagi sonlar arifmetik progressiyani hosil qiladi va ularning qadam qiymati quyidagiga teng bo‘ladi: $p_4!'=210$.

Bu progressiya quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\begin{cases}\left(p_2!'p_i+p_3!'(m-1)+1\right)+p_4!'\left(j-1\right)\\ \left(p_2!'p_i+p_3!'(m-1)+5\right)+p_4!'\left(j-1\right)\end{cases}, \quad (4)$$

Bu yerda $j=1,2,...;\ m=1,2,...,p_4;\ i=1,2,3$. (4)-ifodadan ko‘rinib turibdiki: Yangi hosil bo‘lgan 21 ta qarindosh qator juftligidagi har bir qator sonlari arifmetik progressiyani tashkil qiladi. Progressiyaning ayirmasi $p_4!'$ ga teng. Progressiyaning birinchi hadlari $\left[p_2!'p_i+p_3!'(m-1)+1\right]$ va $\left[p_2!'p_i+p_3!'(m-1)+5\right]$ ga bog‘liq bo‘ladi.

Endi A_4 matritsasidagi 21 ta yangi hosil bo‘lgan qarindosh qator juftliklaridan qaysilari haqiqiy qarindosh qator juftligi ekanini aniqlaymiz. Buning uchun bu juftliklardagi arifmetik progressiyalarning birinchi hadlarining $p_4=7$ ga bo‘linishini tekshiramiz.

Maxsus holat: $i=3$. Tahlilni qulay va tushunarli qilish uchun $i=3$ holatini ko‘rib chiqamiz. Shu bilan birga, $i=1$ va $i=2$ holatlari ham o‘xshash tarzda tushuniladi. (5)-ifodadan kelib chiqadiki, A_4 matritsasida A_3 dagi oxirgi qarindosh qator juftligi tomonidan hosil qilingan 7 ta yangi qarindosh qator juftligidagi sonlar quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{cases}p_3!'m+1+p_4!'(j-1)\\ p_3!'m+5+p_4!'(j-1)\end{cases}$$

$\text{bu yerda } \mathrm{j}=1,2,...;\ \mathrm{m}=1,2,...,\mathrm{p}_5$. Dastlabki hadlarning $p_4=7$ ga bo‘linishini tekshirish. Ko‘rib chiqilayotgan arifmetik progressiyalarning birinchi hadlari quyidagi shartni bajarishi kerak:

$$\frac{p_3!'m+1}{p_4}=\text{butun son va}\ \frac{p_3!'m+5}{p_4}=\text{butun son}$$

ya’ni, agar bu tenglik bajarilsa, ushbu qator butunlay murakkab sonlardan iborat bo‘ladi va qoramtir rang bilan bo‘yaladi.

Xuddi (3)-holatda bo‘lgani kabi, bu holatda ham $0<m<p_4$ oraliqda quyidagi intervallar:

$$p_3!'m+1 \text{ va } p_3!'m+5$$

parametr m bo‘yicha faqat bitta yechimga ega bo‘ladi. Shu sababli, ushbu holatda 2 ta juft qator qarindosh qator juftligi bo‘lishdan to‘xtaydi, ya’ni ular qarindosh qator sifatida qaralmaydi. Agar biz $i=1$ va $i=2$ holatlarini ham qo‘shib tahlil qilsak, natijada quyidagi xulosa kelib chiqadi: 21 ta yangi hosil bo‘lgan qarindosh qator juftliklaridan 6 tasi qarindosh bo‘lishdan to‘xtaydi. Bu 6 ta juftlik qoramtir rang bilan bo‘yaladi, chunki ularning barcha sonlari murakkab sonlar bo‘lib qoladi. Demak, A_4 matritsasida qarindosh qator juftliklari soni 15 ga teng bo‘ladi.

15 ta yangi hosil bo‘lgan qarindosh qator juftligidagi har bir qatorning sonlari arifmetik progressiyani tashkil etadi. Bu progressiyalarning birinchi hadi va ayirmasi (progressiya qadam) o‘zaro tub bo‘lib, quyidagi shart bajariladi:

$$\begin{cases}\left(\left[p_2!'p_i+p_3!'\left(m-1\right)+1\right], p_4!'\right)\equiv 1\\ \left(\left[p_2!'p_i+p_3!'\left(m-1\right)+5\right], p_4!'\right)\equiv 1\end{cases}, \quad (5)$$

bu yerda $i=1,2,3;\ m\in(1;p_4)$. Shu sababli, Dirixle teoremasiga ko‘ra, arifmetik progressiyada tub sonlar cheksiz ko‘p bo‘lishi kerak. Natijada, ushbu 15 ta qarindosh qator juftligining har bir qatorida cheksiz ko‘p tub sonlar mavjud bo‘ladi.

Agar matritsalarning keyingi bosqichlarga o‘tish jarayonini masalan, A_{k-1} dan A_k ga davom ettirsak, har safar quyidagi shakl saqlanib qolishini ko‘ramiz: Har bir qarindosh qator juftligi yangi p_k ta qarindosh qator juftligini hosil qiladi. Ushbu yangi juftliklardan 2 tasi haqiqiy qarindosh qator juftligi bo‘lishdan to‘xtaydi, ya’ni ular qoramtir bo‘yalgan yoki yakka qatorga aylanadi. Shu sababli, istalgan A_k matritsasida umumiy qatorlar soni va qarindosh qator juftliklari soni quyidagicha aniqlanadi:

$$i_{k,\max}=i_{k-1,\max}*p_k \ \text{ va } \ m_k=m_{k-1}(\mathrm{p_k}-2),\ k\geq 3,$$
$$i_{k,\max}=p_k!' \ \text{ va } \ m_k=(p_k-2)!',\ k\geq 3 \qquad (6)$$

Bunda: $i_{k,\max}$ – matritsa qatorlarining umumiy soni, m_k – qarindosh qator juftliklarining umumiy soni, k – matritsa tartib raqami yoki tub son tartib raqami, $(p_k-2)!'$ – maxsus faktorial ifodasi, bu yerda $(p_k-2)!'=(p_3-2)*...*(p_k-2)=3*5*9*11*...*(p_k-2)$ Shunday qilib, har bir yangi bosqichda qarindosh qator juftliklarining umumiy soni oshib boradi.

(6)-ifodadan kelib chiqadiki, qarindosh qator juftliklarining soni har bir yangi matritsaga o‘tganda, ya’ni k tartib raqami oshgani sayin monoton ravishda ortib boradi. Bundan tashqari, har bir qarindosh qator juftligi ichidagi sonlar arifmetik progressiyani hosil qiladi. Har bir progressiyaning birinchi hadi va ayirmasi (progressiya qadam) o‘zaro tub. Dirixle teoremasiga ko‘ra, bunday arifmetik progressiyalarda cheksiz ko‘p tub sonlar mavjud bo‘lishi kerak. Demak, har bir qarindosh qator juftligida cheksiz ko‘p tub sonlar mavjud bo‘lib qoladi. 1-teorema isbotlandi**.**

(6)-ifodadan ko‘rinib turibdiki, keyingi matritsalarga o‘tishda qarindosh qatorlar juftligi soni uzluksiz ortib boradi. Biroq shu bilan birga, har bir keyingi matritsadagi umumiy qatorlar soni maxsus $p_k!'$ faktorial tarzida o‘sadi. Shuning uchun, matritsalar bo‘yicha qarindosh qatorlar zichligi kamayib boradi, chunki k ortgan sari $\dfrac{(p_k-2)!'}{p_k!'}$ nisbati monoton ravishda kamayadi.

2-**teorema. Har qanday** A_k **matritsasidagi har qanday qarindosh qator juftligida qarindosh tub sonlar mavjud va qarindosh tub sonlar soni cheksizdir.**

Yuqorida ko‘rsatilganidek, har bir A_k matritsasi muayyan p_k tub songa mos keladi. Ma’lumki, tub sonlar soni cheksiz, demak, A_k matritsalarining ham cheksiz ko‘p turlari mavjud. Boshqa tomondan, qarindosh tub sonlar faqat va faqat qarindosh qator juftliklarida bo‘ladi. 1-teorema va (7)-ifodadan kelib chiqadiki, k tartib raqami ortishi bilan A_k matritsasidagi qarindosh qator juftliklari soni uzluksiz oshib boradi va quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\lim_{k\to\infty} m_k=\lim_{k\to\infty}(p_k-2)!'=\infty.$$

Bu teoremaning isboti [1] dagi ikkinchi va uchinchi teoremalarning isboti kabi isbotlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Байбеков С.Н., Дурмагамбетов А.А. Infinite Number of Twin Primes// Advances in Pure Mathematics. 2016. V.6. P. 954–971.

2. Байбеков С.Н., Дурмагамбетов А.А. Proof of an Infinite Number of Primes-Twins. // International Journal of Scientific and Innovative Mathematical Research. 2017. Vol. 5, Issue 4, P. 6–17.

3. Аллаков И. О представлении чисел суммой двух простых чисел из арифметической прогрессии // Известия ВУЗов. “Математика”. – Казань, 2000. - № 8(459). -С.3-15.

4. Лаврик А. Ф. «К распределению простых чисел *k*-близнецов» // Докл. АН СССР. - 1960. - Т. 132, № 6. - С. 1258–1260.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Kalandarov Jo'rabek Tuxtamirzayevich[1]
Namangan Davlat Universiteti
jurabekdomla838@gmail.com
Xakimov Ilhomjon Olimjon o'g'li[1]
Tohirjonova Muattarxon Rasuljon qizi[1]
Ahmadjonova Madinabonu Xasanboy qizi[1]
Sharipbayev Sobitxon Sobir o'g'li[2]
Reutskaya Olga Gennadievna[3]
[2]Namangan Davlat Texnika Universiteti
[3]Belarussiya Milliy Texnika Universiteti

ELEKTR DVIGATELLARDAN OLINGAN VIBROSIGNALLAR ASOSIDA NOSOZLIKLARNI ERTA ANIQLASH UCHUN STOXASTIK–HAMILTONIAN VA BAYES MODELI

Annotatsiya: *Elektr dvigatellarning ishonchli ishlashi robototexnika komplekslari, pnevmotransport tizimlari va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalarining uzluksiz faoliyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Klassik vibrodiagnostika usullari ko'pincha signal statsionarligi faraziga asoslanadi, biroq real sanoat sharoitlarida vibrosignallar kuchli shovqin, parametrlarning vaqt bo'yicha o'zgarishi va nolinear dinamikalar bilan tavsiflanadi. Natijada nosozliklar faqat rivojlangan bosqichda aniqlanadi.*

Mazkur maqolada elektr dvigatel vibrodinamikasini tavsiflash uchun stoxastik differensial tenglamalar, Hamiltonian energiya formalizmi, Kalman–Bucy optimal filtri hamda Bayesian ehtimollik inferensiyasini birlashtiruvchi yagona matematik model ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuv tizim energiyasining driftini, model va real jarayon orasidagi innovatsiya energiyasini hamda spektral siljishni aniqlash orqali nosozliklarni amplituda o'sishidan oldin bashorat qilish imkonini beradi.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqilgan diagnostik indikator minimal dispersiya xossasiga ega bo'lib, an'anaviy RMS yoki kurtosis ko'rsatkichlariga qaraganda sezilarli darajada yuqori sezgirlikni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: *vibrodiagnostika, stoxastik model, Hamiltonian tizim, Kalman–Bucy filtri, Bayesian inferensiya, nosozlikni aniqlash.*

Kalandarov Jorabek Tukhtamirzaevich[1]
Khakimov Ilhomjon Olimjon o'g'li[1]
Tohirjonova Muattarxon Rasuljon qizi[1]
Ahmadjonova Madinabonu Xasanboy qizi[1]
Namangan State University
Sharipbayev Sobitxon Sobir o'g'li[2]
Namangan State Technical University
Reutskaya Olga Gennadievna[3]
Belarusian National Technical University

STOCHASTIC–HAMILTONIAN AND BAYESIAN MODEL FOR EARLY FAULT DETECTION BASED ON VIBRATION SIGNALS OBTAINED FROM ELECTRIC MOTORS

Abstract: *The operational reliability of electric motors is a critical factor in ensuring the seamless functionality of robotic complexes, pneumatic transport systems, and automated production lines. Conventional vibration diagnostics methods often rely on the assumption of signal stationarity; however, in real-world industrial environments, vibration signals are characterized by intense noise, time-varying parameters, and nonlinear dynamics. Consequently, defects are frequently detected only at advanced stages of degradation. This paper develops a unified mathematical model that integrates stochastic differential equations, Hamiltonian energy formalism, the Kalman-Bucy optimal filter, and Bayesian probabilistic inference to characterize electric motor vibrodynamics. The proposed approach enables the prediction of faults prior to significant amplitude growth by identifying system energy drift, the innovation energy between the model and the physical process, and spectral shifts. Theoretical analysis demonstrates that the developed*

diagnostic indicator possesses the property of minimum variance and provides significantly higher sensitivity compared to traditional RMS or kurtosis metrics.

***Keywords**: vibration diagnostics, stochastic model, Hamiltonian system, Kalman–Bucy filter, Bayesian inference, fault detection.*

Каландаров Журабек Тухтамирзаев[1]
Хакимов Илхомжон Олимжон угли[1]
Тохиржонова Муаттархон Расулжон кизи[1]
Ахмаджонова Мадинабону Хасанбой кизи[1]
Наманганский государственный университет
Шарипбаев Собитхон Собир угли[2]
Наманганский государственный технический университет
Реутская Ольга Геннадьевна[3]
Белорусский национальный технический университет

СТОХАСТИКО-ГАМИЛЬТОНОВСКАЯ И БАЙЕСОВСКАЯ МОДЕЛЬ ДЛЯ РАННЕГО ОБНАРУЖЕНИЯ НЕИСПРАВНОСТЕЙ НА ОСНОВЕ ВИБРОСИГНАЛОВ, ПОЛУЧЕННЫХ ОТ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ ДВИГАТЕЛЕЙ

***Аннотация**: Надёжность функционирования электрических двигателей является критически важным фактором, обеспечивающим бесперебойную работу робототехнических комплексов, систем пневматического транспорта и автоматизированных производственных линий. Традиционные методы вибрационной диагностики, как правило, основаны на предположении стационарности сигнала. Однако в реальных промышленных условиях вибрационные сигналы характеризуются высоким уровнем шума, изменяющимися во времени параметрами и нелинейной динамикой. В результате дефекты часто обнаруживаются лишь на поздних стадиях деградации. В данной работе предлагается единая математическая модель, объединяющая стохастические дифференциальные уравнения, гамильтонов формализм энергии, оптимальный фильтр Калмана–Бьюси и байесовский вероятностный вывод для описания вибродинамики электрических двигателей. Предложенный подход позволяет прогнозировать неисправности до значительного роста амплитуды за счёт выявления дрейфа энергии системы, энергии инновации между моделью и физическим процессом, а также спектральных сдвигов. Теоретический анализ показывает, что разработанный диагностический показатель обладает свойством минимальной дисперсии и обеспечивает значительно более высокую чувствительность по сравнению с традиционными метриками, такими как RMS и эксцесс.*

***Ключевые слова:** вибрационная диагностика, стохастическая модель, гамильтонова система, фильтр Калмана–Бьюси, байесовский вывод, обнаружение неисправностей.*

1. Kirish

Sanoatning raqamli transformatsiyasi elektr dvigatellarni real vaqt rejimida monitoring qilishni talab etmoqda. Ayniqsa robot manipulyatorlar, SCADA boshqaruv tizimlari va yuqori tezlikli transport mexanizmlarida kichik mexanik nuqson ham katta iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Ko‘plab mavjud diagnostika usullari quyidagi kamchiliklarga ega:

- signalning no-statsionarligini hisobga olmaydi;
- shovqin ta’siriga sezgir;
- yashirin nosozliklarni aniqlashda sust.

Shuning uchun fizik asoslangan probabilistik modellarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Ushbu ishning asosiy gipotezasi quyidagicha:

Nosozliklar avvalo tizimning energiya taqsimotini o‘zgartiradi va bu jarayon amplituda keskin oshishidan oldin kuzatiladi.[4]

2. Muammo qo'yilishi

Rotor-podshipnik tizimini stoxastik tebranuvchi sistema sifatida qaraymiz:

$$m\ddot{x} + c\dot{x} + k(t)x = F(t) + \sigma\xi(t)$$

bu yerda:

- m-massa
- c-dempfirlash koeffitsienti
- $k(t)$ - vaqtga bog'liq qattiqlik
- $\xi(t)$ - oq shovqin

Nosozlik boshlanishida qattiqlik kamayadi:

$$k(t) = k_0(1 - \alpha(t)), 0 < \alpha \ll 1$$

Maqsad $-\alpha(t)$ ni imkon qadar erta aniqlash.

Holat vektori:

$$X = \begin{bmatrix} x \\ v \end{bmatrix}$$

Shunda tizim Ito tipidagi stoxastik tenglama bilan ifodalanadi:

$$dX = AXdt + GdW_t$$

3. Hamiltonian energiya modeli

Impuls:

$$p = mv$$

Hamiltonian:

$$H(x,p) = \frac{p^2}{2m} + \frac{kx^2}{2}$$

Qattiqlik kamayishi potensial energiya egri chizig'ini "yassilashtiradi" va tizimni bifurkatsiya chegarasiga yaqinlashtiradi.

Agar

$$\frac{d}{dt}E[H] > \gamma$$

bo'lsa, tizim parametrlarida statistik ahamiyatli o'zgarish mavjud. Ito lemmasiga ko'ra:

$$\frac{d}{dt}E[H] = -cE[v^2] + \frac{\sigma^2}{2m}$$

Qattiqlik pasayganda tezlik dispersiyasi ortadi va energiya drift yuzaga keladi. Zichlik funksiyasi evolyutsiyasi:

$$\frac{\partial p}{\partial t} = -\nabla(Ap) + \frac{1}{2}\nabla^2(Qp)$$

Statsionar yechim:

$$p(x,v) \propto \exp(-\beta H)$$

Bu dvigatel vibrodinamikasini termodinamik ansambl sifatida talqin qilish imkonini beradi. Kuzatuv modeli:

$$y = CX + \eta$$

Filtr tenglamasi:

$$\dot{\hat{X}} = A\hat{X} + K(y - C\hat{X})$$

Kuchaytirish matritsasi:

$$K = PC^T R^{-1}$$

Kovariatsiya Riccati tenglamasi bilan aniqlanadi:

$$\dot{P} = AP + PA^T - PC^T R^{-1} CP + Q$$

Linear-Gauss tizimlarda Kalman-Bucy minimal xatolik dispersiyasini ta'minlaydi.

Gipotezalar:

$$H_0: \alpha = 0, H_1: \alpha > 0$$

Posterior:

$$P(H_1 \mid y) = \frac{p(y \mid H_1)P(H_1)}{p(y)}$$

Log-likelihood innovatsiya energiyasiga keltiriladi:

$$\log \Lambda = \int_0^T \epsilon^T S^{-1} \epsilon dt$$

Natijada to'liq analitik probabilistik detektor hosil bo'ladi. Wiener-Khinchin teoremasi:

$$S(\omega) = \mathcal{F}[R(\tau)]$$

Nosozlik belgisi:

$$\Delta S = \int_{\omega_1}^{\omega_2} (S_f - S_h) d\omega$$

Funksional:

$$J = E\left[(H - \hat{H})^2\right] + \lambda \|u\|^2$$

Euler-Lagrange orqali optimal indikator olinadi. Yakuniy matematik model quyidagi ko’rinishga keladi.

$$\Psi = w_1 E[H] + w_2 \int \epsilon^T S^{-1} \epsilon dt + w_3 \Delta S$$

Qaror mezoni:

$$\Psi > \mu_\Psi + 3\sigma_\Psi$$

4. Muhokama

Tajriba grafiklari shuni ko'rsatadiki, vibrosignalning o'zi nosozlikni darhol ochib bermaydi, chunki signal kuchli shovqin bilan maskalanadi. Biroq Hamiltonian energiya vaqt bo'yicha sekin siljiy boshlaydi - bu tizim qattiqligining pasayishi bilan bog'liq fizik prekursor hisoblanadi.[4]


Kalman filtri innovatsiya energiyasi model va real tizim orasidagi nomuvofiqlikni aniqlab, yashirin parametr o'zgarishlariga juda sezgir ekanligini namoyon etdi. Bayesian posterior ehtimoli esa qaror qabul qilishni barqarorlashtirib, yolg'on signal ehtimolini kamaytiradi.

Spektral indikator yuqori chastotalarda energiya ortishini ko'rsatib, kontakt zarbalari va mikrodefektlarning boshlanishini tasdiqlaydi.

Natijalar quyidagi muhim xulosani beradi:

Nosozlikni aniqlashning eng ishonchli strategiyasi - energiya, innovatsiya va spektral indikatorlarni birgalikda qo'llashdir.


Taklif etilgan model interpretatsiyalanadi, kam ma'lumot talab qiladi va real vaqt tizimlariga mos keladi 1,2,3,4-rasmlar.



1-rasm. Vibrosignal y(t) (o‘lchov) va nosozlik boshlangan nuqta

Mazkur grafikda elektr dvigateldan olingan vibrosignal vaqt bo‘yicha tasvirlangan bo‘lib, vertikal uzlukli chiziq nosozlikning boshlanish nuqtasini (tft_ftf) bildiradi. Grafikdan ko‘rinadiki, nosozlik boshlanganidan keyin ham signal amplitudasi keskin sakrash yoki aniq strukturaviy o‘zgarish namoyon etmaydi. Bu holat real sanoat vibrosignallariga xos bo‘lib, kuchli shovqin va tashqi qo‘zg‘atuvchi kuchlar foydali signalni maskalab qo‘yadi.[5]

Mazkur natija muhim xulosaga olib keladi: faqat vaqt sohasidagi amplitudaviy tahlil asosida erta nosozlikni aniqlash ishonchsizdir. Shu sababli, yuqori darajali diagnostika uchun tizimning ichki dinamik xususiyatlarini aks ettiruvchi matematik indikatorlar talab etiladi.




2-rasm.Hamiltonian energiya H(t) ning siljishi

Ushbu grafikda Hamiltonian energiyaning silliqlangan (rolling mean) ko‘rinishi berilgan. Nosozlik boshlanishidan oldin energiya tebranishlari statsionar holatga yaqin bo‘lib, ma’lum o‘rtacha qiymat atrofida saqlanadi. Biroq tft_ftf dan keyin energiyaning o‘rtacha darajasi asta-sekin siljiy boshlaydi.

Bu hodisa fizik jihatdan quyidagicha izohlanadi: qattiqlik koeffitsienti k(t)k(t)k(t) pasayishi potensial energiya komponentasining qayta taqsimlanishiga olib keladi. Natijada tizim energiyasi dissipasiyaga qaramay, statistik jihatdan yuqoriroq darajada jamlana boshlaydi.[9]

Muhim jihat shundaki, Hamiltonian energiya drift amplituda o‘sishidan oldin paydo bo‘ladi, ya’ni u nosozlikning fizik prekursor belgisi hisoblanadi.




3-rasm. Kalman energiyasi grafigi.

Mazkur grafik Kalman–Bucy filtri asosida hisoblangan innovatsiya energiyasini ifodalaydi. Innovatsiya — bu real o‘lchov bilan model bashorati orasidagi farq bo‘lib, sog‘lom tizimda u faqat o‘lchov shovqiniga bog‘liq bo‘ladi.

Grafikdan ko‘rinadiki, nosozlik boshlangach innovatsiya energiyasi statistik jihatdan o‘zgaradi va barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon qiladi. Bu shuni anglatadiki, filtr modeli (sog‘lom parametrlar bilan qurilgan) real tizimni tobora yomonroq tavsiflay boshlaydi.

Bu indikatorning afzalligi shundaki, u yashirin parametr o‘zgarishlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sezgir bo‘lib, klassik signal statistikalariga nisbatan ancha erta reaksiya beradi.



4-rasm. Spektral siljish indikatori grafigi

Mazkur grafik vibrosignal spektrining yuqori chastota diapazonidagi energiya ulushini ko‘rsatadi. Nosozliklar, ayniqsa kontaktli va impulsli tabiatga ega bo‘lganlari, yuqori chastotalarda energiya ortishiga olib keladi.

Grafikdan ko‘rinadiki, tft_ftf dan so‘ng D(t)D(t)D(t) qiymati o‘rtacha oshadi va bu yuqori chastotali komponentlarning kuchayganidan dalolat beradi. Bu holat podshipnik shikasti, ishqalanishning ortishi yoki mikrozarbalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Spektral indikator vaqt sohasidagi energiya (2-rasm) va holat fazosidagi innovatsiya (3-rasm) bilan birgalikda ishlatilganda, nosozlik mexanizmini ko‘p tomondan ochib beradi.

Elektr dvigatellardagi nosozliklar avvalo tizim energiyasi, modelga moslik va spektral taqsimotda namoyon bo‘ladi, amplituda esa ikkilamchi belgidir.

Xulosa

Mazkur ishda elektr dvigatellarda nosozliklarni erta aniqlash uchun stoxastik mexanika va Bayesian baholashni birlashtiruvchi matematik asos ishlab chiqildi. Nazariy va hisoblash tajribalari modelning yuqori sezgirligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Kalman R.E. Chiziqli filtrlash va bashoratlashning yangi yondashuvi // *Journal of Basic Engineering*. – 1960. – 82(1). – 35–45-b.

2.Bucy R.S., Joseph P.D. Stoxastik jarayonlarni filtrlash nazariyasi. – New York: Wiley, 1968.

3.Anderson B.D.O., Moore J.B. Optimal filtrlash nazariyasi. – Prentice Hall, 1979.

4.Simon D. Optimal holat baholash: Kalman va nolinear usullar. – Wiley, 2006.

5.Øksendal B. Stoxastik differensial tenglamalar va ularning qo‘llanilishi. – Springer, 2003.

6.Gardiner C.W. Stoxastik metodlar qo‘llanmasi. – Springer, 2009.

7.Risken H. Fokker–Plank tenglamasi va uning yechimlari. – Springer, 1996.

8.Kay S.M. Statistik signalni aniqlash nazariyasi asoslari. – Prentice Hall, 1998.

9.Poor H.V. Signalni aniqlash va baholashga kirish. – Springer, 1994.

10. Wiener N. Statsionar vaqt qatorlarini ekstrapolyatsiya va silliqlash nazariyasi. – MIT Press, 1949.

11. Randall R.B. Vibratsiyaga asoslangan mashina holatini monitoring qilish. – Wiley, 2011.

12. Nandi S., Toliyat H.A., Li X. Elektr mashinalar diagnostikasi usullari sharhi // *IEEE Transactions on Energy Conversion*. – 2005. – 20(4). – 719–729-b.

13. Benbouzid M.E.H. Asinxron dvigatellarni signal asosida diagnostika qilish // *IEEE Transactions on Industrial Electronics*. – 2000. – 47(5). – 984–993-b.

14. Antoni J. Nostatistik vibratsiya signallarini tahlil qilishda spektral ekstsess // *Mechanical Systems and Signal Processing*. – 2006. – 20(2). – 282–307-b.

15. Sharibayev N.Yu., Yunusov O.M., Xakimov I.O. Elektromexanik tizimlarda vibratsion monitoring va bashoratli diagnostika // *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*. – 2022. – 1248. – 012034.

16. Sharibayev N.Yu., Davlatov A.B., Abdullayev L.A. Kalman filtri asosida vibratsion jarayonlarni stoxastik modellashtirish // *AIP Conference Proceedings*. – 2023. – 2700. – 030052.

17. Sharibayev N.Yu., Saydaliyev A.A., Yunusov O.M. Rotor-podshipnik tizimlarida energiya indikatorlari asosida nosozlikni aniqlash // Namangan Davlat Texnika Universiteti ilmiy axborotnomasi. – 2021. – №3. – 72–81-b.

18. Davlatov A.B., Sharibayev N.Yu. Elektromexanik tizimlarda Hamiltonian energiya driftining diagnostik talqini // *Mexanika mashinalar, mexanizmlar va materiallar*. – 2022. – №2. – 34–42-b.

19. Taratyn I.A., Zharin A.L., Sharibayev N.Yu. Reduktorli mexanizmlarda tasodifiy tebranishlarni matematik modellashtirish // *Prikladnaya mekhanika i tekhnicheskaya fizika*. – 2020. – 84(5). – 357–369-b.

20. Karniadakis G.E., Kevrekidis I.G., Lu L. va boshq. Fizikaga asoslangan mashinaviy o‘rganish konsepsiyasi // *Nature Reviews Physics*. – 2021. – 3. – 422–440-b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li
Qo‘qon Davlat Universiteti Matematika kafedrasi o‘qituvchisi
Email: nuritdinovjt@gmail.com
Xoliqjonova Saidaxon Orifjon qizi
Qo‘qon Davlat Universiteti talabasi
UO‘K: 514.12

IKKINCHI TARTIBLI CHIZIQLAR VA SIRTLARNING TURLI TADBIQLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada geometriyaning muhim ob’ektlaridan hisoblangan ikkinchi tartibli egri chiziqlar va sirtlarning turli geometrik, optik xossalari o‘rganilgan. Ellips, giperbola, parabolalarning keltirilgan xossalari yordamida qurilish va texnikaning turli sohalariga tadbiq qilish usullari ko‘rsatilgan. Geometriya qonunlarining hayotimizdagi amaliy masalalarni oson va qulay tarzda hal etishdagi ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ellips, parabola, giperbola, focus nuqta, optic xossalar, kanonik tenglamalar.*

Нуритдинов Жалолхон Турсунбой угли
преподаватель кафедры математики Кокандского государственного университета
Email: nuritdinovjt@gmail.com
Холикжонова Саидахон Орифжон кизи
студентка Кокандского государственного университета

РАЗЛИЧНЫЕ ПРИМЕНЕНИЯ КРИВЫХ И ПОВЕРХНОСТЕЙ ВТОРОГО ПОРЯДКА

Аннотация. *В данной статье исследуются различные геометрические и оптические свойства кривых и поверхностей второго порядка, являющихся одними из важных объектов геометрии. На основе приведённых свойств эллипса, гиперболы и параболы показаны способы их применения в различных областях строительства и техники. Раскрыта значимость законов геометрии в решении практических задач нашей жизни простым и удобным способом.*

Ключевые слова: *эллипс, парабола, гипербола, фокусная точка, оптические свойства, канонические уравнения.*

Nuritdinov Jalolxon Tursunboy ugli
Lecturer of the Department of Mathematics, Kokand State University
Email: nuritdinovjt@gmail.com
Xolikjonova Saidakhon Orifjon kizi
student of Kokand State University

VARIOUS APPLICATIONS OF SECOND-ORDER CURVES AND SURFACES

Abstract. *In this article, various geometric and optical properties of second-order curves and surfaces, which are among the important objects of geometry, are studied. Based on the presented properties of the ellipse, hyperbola, and parabola, methods of applying them in various fields of construction and engineering are shown. The significance of the laws of geometry in solving practical problems of our daily life in an easy and convenient way is revealed.*

Keywords: *ellipse, parabola, hyperbola, focus point, optical properties, canonical equations.*

Kirish

Ko‘pchilik matematika- qiyin, abstrakt, zerikarli, foydasiz va real hayotdan ancha uzoq deb o‘ylaydi. Zamonaviy ta’limda matematikaning turli sohalarga tadbiqlari bilan birgalikda o‘rgatish darsning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi [8-11]. Matematika shunchaki quruq formula va qoidalardan iborat fan emas balki tabiyatdagi jarayonlarni o‘rganish va ma’lum ma’noda boshqarish imkonini beruvchi katta vosita ekanligini talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida talabalar geometriya matematikaning inson hayotidagi tayin amaliy masalalarni yechish zarurati tufayli paydo bo‘lganiga ishonch hosil qilishadi.

Qadimgi geometrik olimlar turli xil yassi chiziqlarni o‘rganishgan. Ular alohida e’tiborini **konik kesimlar ellips, parabola va giperbolalarga** qaratishgan. Bu uchta chiziq to‘g‘ri aylanma konusni uchidan o‘tmaydigan va yasovchisiga nisbatan hosil qilgan burchaklariga qarab, tekislik bilan kesishdan hosil bo‘ladi. Grek olimlarida konus kesimlarga qiziqish mashhur masalalarni yechish davrida hosil bo‘ldi: kubni ikkilantirish, (hajmi berilgan kubning hajmidan ikki baravar katta hajmga ega bo‘lgan kubni yasash), doirani kvadraturalash (yuzasi berilgan doiraning yuziga teng bo‘lgan kvadratni yasash) va burchak triseksiyasi (berilgan burchakni teng uchga bo‘lish) masalalarini yechishga xarakat qilish natijasida paydo bo‘ldi. Yuqorida keltirilgan uchta masalani to‘g‘ri chiziq va aylanalarni yasash (sirkul va chizg‘ich yordamida yasashlar) orqali yechib bo‘lmaydi degan xulosaga kelishdi. Natijada ular chiziqlarning kesishish nuqtalarini topish orqali masalalarni yechishga harakat qilishdi. Eramizdan avvalgi to‘rtinchi asrda qadimgi **grek matematigi Menexm har xil turdagi (o‘tkir burchakli, to‘g‘ri burchakli, o‘tmas burchakli) konuslarni yasovchisiga perpendikulyar tekislik** bilan kesimlarni o‘rgandi. U kubni ikkilantirish to‘g‘risidagi masalani ikkita parabolani kesishish nuqtalarini topishga olib keldi. Uzoq vaqt konus kesimlar nomlari bo‘lmagan (faqat ularni yasash usuli ko‘rsatilgan. Masalan, ellips – o‘tkir burchakli konusning kesimi).

Adabiyotlar tahlili

Konus kesimlarining xossalarini Arximed, Evklid kabi olimlar o‘rganishgan. Biroq, muhim natijalarga eramizdan avvalgi uchinchi asrda yashagan Apolloniy Pergskiy erishgan [1]. U o‘zining “Konika” deb nomlangan sakkizta kitobida to‘rt yuzga yaqin teorema qaragan. Apolloniy birinchi marta uchta chiziqni bitta konusning kesimi sifatida hosil qilgan. Hozirgi vaqtdagi ellips, giperbola, parabola nomlarini ham u kiritgan. **Ellips, giperbola va parabola so‘zlari grek tildan olingan bo‘lib, mos ravishda “yetishmaslik” , “ortiqchalik” va “tirkab qo‘yish” ma’nolarini bildiradi.**

Ikkinchi tartibli chiziqlarning xossalarini o‘rganish atrofimizdagi olam sirlarini o‘rganishda alohida o‘ringa ega. Kepler va Nyutonning ilmiy izlanishlaridan ma’lumki, **sayyoralar va osmondagi boshqa jismlar orbitalari** ellipsdan iborat**. Aylanma shakldagi stakandan suv ichmoqchi bo‘lganimizda** ko‘z oldimizda suv sathida ellips paydo bo‘ladi, xirurg lampasining elliptik shakldaligi vrachga barcha yorug‘lik nurini bir nuqtaga to‘plab beradi. Odamlarning eshitishlari tiniq bo‘lishi uchun saroylar, masjidlar va amfiteatrlarning gumbazlarini qurishda ellips va parabolaning shaklidan foydalaniladi. Chunki bu shakldagi qurilgan gumbazlarda akustika yaxshi bo‘ladi. Biror sharpani yaxshiroq eshitish uchun **qo‘limizni quloq yoniga olib kelganimizda beixtiyor qo‘limizni uch ulchamli parabola (paraboloid) shakliga olib kelamiz.** Kreyszigning oliy matematika bo‘yicha mashhur asarida parabola va ellipsning koordinata tekisligidagi tenglamalari hamda fizik modellar bilan bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan [2]. Shuningdek, Anton va Rorresning “Elementary Linear Algebra” va “Calculus” kabi kitoblarida ellips va giperbolaning koordinata almashtirishlar orqali kanonik ko‘rinishga keltirilishi hamda amaliy misollar orqali tushuntirilishi berilgan [3].

Ko‘pgina adabiyotlarda parabola mexanika va optikadagi muhim amaliy modellardan biri sifatida qaraladi. Parabolaning asosiy xossasi shundan iboratki, uning fokusidan chiqayotgan nurlar parabola sirtidan qaytgach, yo‘nalishi o‘qiga parallel bo‘lib qoladi. Shu sababli parabola reflektor antennalar, avtomobil faralari, teleskop oynalari va quyosh energiyasini yig‘uvchi qurilmalarda qo‘llaniladi. Bu xossa matematik fizika va optika kitoblarida muhim qonuniyat sifatida izohlangan [4]. Bronshteyn va Semendyayevning matematik qo‘llanmasida ham parabola bilan bog‘liq optik xossalar va hisoblash formulalari keltirilgan [5]. Ushbu geometrik masalalarning hayotdagi va fandagi ahamiyati shundan iboratki, **bugungi kun qurilishi va arxitekturasi bino va inshootlarning loyihalarini yaratishda muntazam ravishda geometrik shakl va qoidalardan foydalanishga ehtiyoj sezmoqda**. Shuningdek, hozirgi kunda yer yuzidagi davlatlarning ko‘pchiligi tomonidan iste’molga kiritilgan **Global joylashuv tizimi (GPS) ning ishlash mexanizmi ham geometriya va trigonometriya qonunlariga asoslanadi**. Shu bilan birga, insoniyatning maishiy hayotida muhim o‘rin egallaydigan telefoniya, televideniya, aloqa tarmoqlarida hamda qishloq ho‘jaligi, neft va gaz mahsulotlarini qidirishda, suv, yer va havo transportlarida geometrik qonunlarning ahamiyati beqiyosdir.

Ellips astronomiya va kosmik mexanikada asosiy o‘rin tutadi. Mashhur Kepler qonunlariga ko‘ra, sayyoralar Quyosh atrofida ellips bo‘ylab harakat qiladi va Quyosh ellipsning fokuslaridan birida joylashadi. Bu natija klassik mexanika va astronomiya adabiyotlarida isbotlangan va ko‘plab misollar bilan yoritilgan [6]. Goldsteinning klassik mexanika bo‘yicha fundamental asarida gravitatsion maydonda harakat qiluvchi jismlarning orbitasi ellips yoki giperbola bo‘lishi mumkinligi qat’iy matematik tahlil asosida ko‘rsatilgan [7]. Demak, ellips nafaqat geometriyada, balki kosmik parvozlar trajektoriyasini hisoblashda ham keng tadbiq qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ikkinchi tartibli chiziqlar xossalarining o‘rni fizika fanida muhim ahamiyatga ega, ayniqsa ularning optik xossalari fizika va texnikada keng qo‘llaniladi.

Ellips misolida qarab chiqamiz. Chizuvchi M nuqtadan ikkita harakatlanmaydigan F_1 va F_2 nuqtalargacha bo‘lgan masofalar yig‘indisi o‘zgarmas bo‘lib qoladigan egri chiziqni qaraymiz. Qog‘ozga ikki uchni qo‘yib, uni tayanchga mahkam bog‘laymiz. Agar ipni qog‘ozga vertikal qo‘yilgan qalam yordamida tortsak, u holda qalamning o‘tkir tig‘i, ya’ni M nuqta egri chiziqni chizadi. Bu egri chiziq ellips deyiladi.

Ellipsni to‘liq shaklini chizish uchun ipni tayanchning boshqa tomoniga o‘tkazib, yuqoridagidek ipni tortiladi. Shundan so‘ng ellipsning 1-yarmi chiziladi. Ravshanki, qalamning o‘tkir tig‘i M nuqtadan F_1 va F_2 tayanchgacha bo‘lgan masofalar yig‘indisi harakat davomida o‘zgarmay qoladi. Bu yig‘indi ipning uzunligiga teng. Tayanchga teshilgan ikki nuqtalar ellipsning fokuslari deyiladi. Fokus so‘zi lotin tilidan tarjima qilinganda “olov” degan ma’noni anglatadi. U ellipsning navbatdagi ajoyib xossasi bilan tavsiflanadi. Agar yaxshi silliqlangan yupqa metallni ellips yoyi bo‘yicha egib, bitta fokusga yorug‘lik manbaasini qo‘ysak, u holda metalldan qaytuvchi yorug‘lik nurlari boshqa fokusda to‘planadi. Shuning uchun ikkinchi fokusda ham “olov” ko‘rinadi.

Agar ellipsning fokuslari ustma – ust tushsa, u aylanadan iborat bo‘ladi.

Ellipsning xossalari.

1. Ellipsning ixtiyoriy nuqtasidan uning fokuslarigacha bo‘lgan masofalar yig‘indisi o‘zgarmas va 2a ga tengdir.

Bu xossa bevosita xisoblash yordamida $r_1+r_2=2a$ tenglikni tekshirish bilan isbotlanadi.

2. Ellipsning ixtiyoriy nuqtasidan uning fokuslarigacha bo‘lgan masofalarning mos direktrissalargacha bo‘lgan masofalargacha nisbati o‘zgarmas va u ellipsning eksentriteti deb ataluvchi e soniga tengdir.


Ellipsning geometrik aniqlanishi. Yuqorida aytilganidek, tekislikda berilgan ikkita nuqtalargacha bo‘lgan masofalarning yig‘indisi o‘zgarmas bo‘ladigan nuqtalarning geometrik o‘rni ellips bo‘ladi.

Ma'lumki, agar yorug‘lik nuri oynadan aks etsa, u holda aks ettirish burchagi tushish burchagiga teng bo‘ladi. Bu Ferma prinsipi bilan bog‘liq bo‘lib, unga ko‘ra, yorug‘lik har doim eng qisqa yo‘ldan harakatlanadi. Endi biz bu yo‘l haqiqatan ham eng qisqa yo‘l ekanligini isbotlaymiz.

Shunday qilib, bizda l to‘g‘ri chizig‘i va uning bir tomonida joylashgan F_1 va F_2 nuqtalari bor. Biz l chiziqda shunday nuqta P topmoqchimizki, undan F_1 va F_2 nuqtalarigacha bo‘lgan masofalar yig‘indisi minimal bo‘lsin.

F_2 ni l ga nisbatan akslantirib, $F_{2'}$ nuqtasini hosil qilamiz. Tabiiyki, har qanday X nuqtasi uchun $F_2X = F_{2'}X$ bo‘ladi. Shunday qilib, bizga shunday P nuqtasi kerakki, undan F_1 va $F_{2'}$ gacha bo‘lgan masofalar yig‘indisi eng kichik bo‘lsin.

Ko‘rinib turibdiki, bu minimum qiymat P nuqtasi $F_1F_{2'}$ kesmasi va l to‘g‘ri chizig‘ining kesishish nuqtasida joylashganda erishiladi. Bu holda tegishli burchaklar teng bo‘lishi aniq (1-rasm).



1-rasm


1-masala. a) Agar F_1 va F_2 nuqtalari l chizig‘ining qarama-qarshi tomonlarida joylashgan bo‘lsa, P dan ushbu nuqtalargacha bo‘lgan masofalar farqining mutlaq qiymati qachon maksimal bo‘ladi?

b) Agar bizda l va l' to‘g‘ri chiziqlari hamda ular ustida joylashmagan F nuqtasi bo‘lsa, l ustida shunday P nuqtasini topingki, undan l' va F gacha bo‘lgan masofalar farqi maksimal bo‘lsin.

Yechim. a) $F_{2'}$ nuqtasi F_2 ning l bo‘yicha akslantirilgan nuqtasi bo‘lsin. Tabiiyki, har qanday X nuqtasi uchun $F_2X = F_{2'}X$ bo‘ladi. Biz shunday P nuqtasini topishimiz kerakki, undan F_1 va $F_{2'}$ gacha bo‘lgan masofalar farqi maksimal bo‘lsin. Uchburchak tengsizlikdan quyidagilar kelib chiqadi

$$|F_1P - F_2'P| < F_1F_2'$$

va maksimal qiymat faqatgina F_1, F_2' va P bir to‘g‘ri chiziqda joylashgan hollarda erishiladi. Chunki F_2 va F_2' nuqtalari bir-birining akslanishidir, shuning uchun F_1P va F_2P chiziqlari bilan l to‘g‘ri chizig‘i hosil qilgan burchaklar teng bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm

b) F'nuqtasi F ning l ga nisbatan akslantirilgan nuqtasi bo‘lsin.

Ikki nuqta F va F' orasida l' to‘g‘ri chizigacha bo‘lgan (belgilangan) masofa minimal bo‘ladiganini tanlaymiz.


Ushbu nuqta F deb belgilansin va d bu nuqtaning l' gacha bo‘lgan masofasi bo‘lsin.

Shunda, l chizig‘ida yotgan istalgan P nuqta uchun l' gacha bo‘lgan masofa hech qachon $PF+d$ dan katta bo‘lmaydi.

Demak, bu farq hech qachon d dan oshmaydi.

Aksincha, u aynan d ga teng bo‘ladi, agar P nuqta F orqali o‘tuvchi l' ga perpendikulyar bo‘lsa (3-rasm).

Shuni ham qayd etish lozimki, agar a) holatidagi F_1F_2' chizig‘i l ga parallel bo‘lsa va b) holatidagi l' chizig‘i l ga perpendikulyar bo‘lsa, u holda maksimal qiymat mavjud emas (u cheksizlikda erishiladi).




3-rasm

Asosiy natijalar

Endi biz konus kesmalarining eng muhim xossalaridan biri bo‘lgan optik xossalarini bayon qilamiz.

1-teorema. *(Ellipsning optik xossasi).* Agar l to‘g‘ri chizig‘i ellipsga P nuqtada urinma bo‘lsa, u holda l chiziq tashqi burchak F_1PF_2 ning teng bo‘luvchisi bo‘ladi (4-rasm).



4-rasm


Isbot. l chizig‘ida P dan farqli istalgan X nuqtani olaylik. X nuqtasi ellips tashqarisida joylashganligi sababli quyidagilar bajariladi:

$$XF_1+XF_2>PF_1+PF_2$$

Ya’ni, l chizig‘ining barcha nuqtalari ichida P nuqta fokuslar F_1 va F_2 ga eng kichik masofalar yig‘indisiga ega. Bu esa shuni anglatadiki, PF_1 va PF_2 chiziqlari bilan l chizig‘i hosil qilgan burchaklar teng bo‘ladi.

1-natija. Ellipsning bitta fokusidan chiqqan nur sinishdan so‘ng ikkinchi fokusga tushadi.

2-teorema. *(Parabolaning optik xossasi).* Agar l chizig‘i parabola bilan P nuqtada urinma bo‘lsa, P' nuqta esa P ning direktriksa proyeksiyasi bo‘lsa, u holda l chiziq FPP' burchagining teng bo‘luvchisi bo‘ladi (5-rasm).



5-rasm

Isbot. Aksini faraz qilamiz: agar FPP' burchagining teng bo‘luvchisi l' deb ataluvchi boshqa bir chiziqni Q nuqtada kesib o‘tsa va uning direktriksadagi proyeksiyasi Q' bo‘lsa, quyidagi tenglik mavjud bo‘ladi:

$$FQ = QQ'$$

Parabola ta’rifi bo‘yicha bu shart bajarilishi kerak. Boshqa tomondan, FPP' uchburchagi teng yonli uchburchak bo‘lib, P dagi burchakning teng bo‘luvchisi FP' ga perpendikulyar bo‘lgan o‘rta perpendikulyardir. Shuning uchun, agar Q nuqta shu teng bo‘luvchida yotsa,

$$QP' = QF = QQ'$$

bo‘ladi. Ammo bu mumkin emas, chunki Q' direktriksadagi eng yaqin nuqta hisoblanadi va boshqa hech bir nuqta bu shartni bajara olmaydi. Bu isbot parabola uchun optik xossani asoslaydi.


2-natija. Parabolaning fokusidan chiquvchi nur sinishidan so‘ng uning o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakatlanadi.

Natijalar muhokamasi

Ko‘plab real hayotiy vaziyatlar ellipslar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, sayyoralar, sun’iy yo‘ldoshlar, yo‘ldoshlar va kometalar orbitasi, shuningdek, qayiq korpuslari, rul va ba’zi samolyot qanotlarining shakllari ellipsga asoslanadi.

Litotripter deb nomlanuvchi tibbiy qurilma ellipsik reflektorlar yordamida buyrak toshlarini sindirish uchun tovush to‘lqinlari hosil qiladi.

Ba’zi binolar, “pichirlash xonalari” deb nomlangan maxsus arxitektura yechimlari, elliptik gumbazlar bilan quriladi. Bunday joylarda bir fokusda turgan odamning pichirlashi boshqa fokusda turgan odam tomonidan aniq eshitiladi. Bu hodisa “ellipsning akustik xossalari”(yuqorida keltirilgan xossasi) tufayli yuzaga keladi.



6-rasm

Agar tovush to‘lqini ellipsning bir fokusidan chiqarilsa, u ellipsik gumbazdan aksanib, ikkinchi fokusga yo‘naltiriladi (6-rasm)

Masalan, Chikagodagi “Fan va Sanoat muzeyida” joylashgan “pichirlash xonasida”(7-rasm) ikkita odam fokuslarda turib, taxminan “43 fut” (taxminan “13 metr”) masofada bir-birining pichirlashini aniq eshitishi mumkin. 1938-yildan beri muzeydagi akustik Pichirlash Galereyasi tashrif buyuruvchilarni hayratga solib kelmoqda. Uning ovoz tarqalish xususiyatlari esa uning go‘zalligidan kam emas. Siz va do‘stingiz ushbu uzun xonaning qarama-qarshi uchlarida, orqangizni bir-biringizga qaratib turasiz. Qarshingizdagi egri yuzaga ohista pichirlaysiz, va xonaning narigi tomonida turgan do‘stingiz sizni go‘yoki yonida turgandek aniq eshitadi. Na sim, na elektr toki kerak.



7-rasm


AQSh Kapitoliy binosidagi Statuary Hall ham elliptik shaklga ega. Aynan shu xonada Jon Kvinsi Adams, Vakillar Palatasi a'zosi bo'lgan davrida, ushbu akustik hodisani kashf etgan (8-rasm).

U o'z stolini zalning elliptik shiftining fokuslaridan biriga joylashtirib, boshqa vakillar boshqa fokus yaqinida shaxsiy suhbatlashayotganida, ularni oson eshitish imkoniga ega bo'lgan!



8-rasm

Parabolaning bu xossasidan sun'iy yo'ldosh antennalarini yaratishda qo'llaniladi, chunki sun'iy yo'ldoshdan kelayotgan signal paraboloid yuzasidan akslanib, tovoqning markaziga yo'naltiriladi (2.9-rasm). Bu signalni kuchaytirishga yordam beradi.




9-rasm

Parabolik mikrofonlar ko'pincha sport tadbirlarida ishlatiladi, shunda maydondagi tovushlar chekka joylardan aniq eshitilishi mumkin (10-rasm).




10-rasm

Chiroqlar va faralar ham ushbu xususiyatdan teskari tarzda foydalanadi. Yorug‘lik paraboloidning fokus nuqtasida joylashgan bo‘lsa, u paraboloid yuzasidan aks etib, to‘g‘ri oldinga yo‘naltiriladi va shu orqali nurlar bir joyga to‘planadi (11-rasm).



11-rasm

So‘nggi besh-o‘n yil ichida paraboloidning yana bir qo‘llanilishi quyosh energiyasida keng tarqalmoqda.



12-rasm

Ushbu usulda paraboloid shaklida joylashtirilgan ko‘zgular markazdagi minora tomon quyosh nurlarini yo‘naltiradi. Ko‘pincha bu minorada tuz ishlatiladi, chunki u yuqori erish haroratiga ega. Quyosh nurlari tomonidan eritilgan tuz bug‘ turbinasiga oqib tushadi va energiya ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Bu usul oddiy quyosh panellariga qaraganda samaraliroq deb topilgan (2.12-rasm).

Katta Quyosh Sandoni (KQS) (ko‘pchilikka Katta Quyosh Pechi nomi bilan ma’lum) O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik institutiga qarashli Katta quyosh sandoni Toshkent viloyati Parkent tumanida joylashgan maxsus ilmiy inshoot hisoblanadi. Tekin yonilg‘i hisoblangan quyosh energiyasida foylananish texnologiyasi va shu turdagi texnologik inshootlarni qurish tarixidagi katta yangiliklar biri xisoblanadigan (O‘zbekistonda) ushbu Katta quyosh sandoni Materialshunoslik institutini tadqiqotlarida va ilmiy jarayonlarida qo‘llanadi. Bu inshoat ham aynan parabolaning optic xossasiga asoslangan holda ishlaydi (2.13-rasm).




13-rasm. O‘zbekistondagi Katta Quyosh Sandoni.



14-rasm. Fransiyadagi Katta Quyosh Sandoni

Bunday turdagi pechlardan yana Frasiyada davlatida bor (2.14-rasm), lekin O‘zbekistondagi Katta Quyosh Sandoni Fransiyadagidan bir muncha farq qiladi. Qurilmani kulolchilikda ham ishlatish va kulolchilik buyumlarini sintezlash jarayonini avtomatik boshqarish va bir tizim sifatida ishlash imkoniyatini beradi. Katta quyosh pechidan foydalanish uslublariga muofiq, unda qo‘llanadigan uslub radiatsion qizdirish orqali amalga oshiriladi. Konsentratsiyalangan yorug‘lik oqimining markazga yo‘naltirilishi orqali buyumlarni juda katta haroratgacha isitish imkonini beradi.

3-natija.*(Giperbolaning optic xossasi).* Giperbolaning bitta fokusidan chiquvchi nur sinishdan so‘ng ikkinchi fokusiga tushadi. Giperbolalar real hayotdagi turli obyektlarda uchraydi. Masalan, biz giperbolik shakllarni arxitekturada, turli binolar va inshootlarda ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, samolyotlarning “sonik portlashi” (tovush to‘lqini) natijasida hosil bo‘ladigan shakllarda va yadro zavodlarining sovutish minoralarining shaklida ham giperbolalarni uchratish mumkin. Samolyot tovush tezligidan tezroq harakatlanganda, konussimon to‘lqin hosil bo‘ladi. Ushbu konusning yer bilan kesishgan qismi giperbola shaklida bo‘ladi. “Sonic portlash” aynan shu egri chiziqning har bir nuqtasiga bir vaqtning o‘zida yetib boradi. Egri chiziqning tashqarisida hech qanday tovush eshitilmaydi. Ushbu giperbola "sonic boom egri chizig‘i" deb nomlanadi.



15-rasm

Giperboloid shakli barcha yadroviy elektr stansiyalari sovutish minoralari va ba'zi ko'mir yoqilg'isida ishlaydigan elektr stansiyalar uchun standart dizayndir. Ushbu minoralar mustahkam tuzilishga ega bo'lib, to'g'ri po'lat to'sinlardan foydalangan holda qurilishi mumkin (16-rasm).



16-rasm

Sovutish minoralarining dizayni asosan ikki muammoni hal qilishga qaratilgan:

1. Tuzilma kuchli shamollarga bardosh bera olishi kerak.
2. Minoralar eng kam material sarflab qurilishi lozim.

Sovutish minoralarining giperboloid shakli ushbu ikkala muammoni ham hal qiladi. Bu minoralar juda mustahkam bo'lib, berilgan balandlik va diametrda, hamda u bardosh berishi kerak bo'lgan kuchlar uchun boshqa har qanday shaklga qaraganda kamroq material talab qiladi.

Xulosa

Aerodinamika, avtomobil dizayni va turli konstruksiyalarning loyihalanishida ikkinchi tartibli chiziqlardan foydalaniladi. Masalan, yuqori tezlikda harakat qiluvchi transport vositalari aerodinamik shaklini yaratishda parabola va giperbolaning xossalaridan foydalaniladi.

Ushbu maqolada ikkinchi tartibli egri chiziqlar va sirtlarning muhim xossalari o'rganildi. Shu bilan birga, ushbu chiziqlarning muhandislik va texnologik jarayonlardagi ahamiyati ochib berildi.

Natijada, mazkur ishda ikkinchi tartibli chiziqlar geometriyasi va ularning turli sohalardagi amaliy qo'llanilishi keng tahlil qilindi. Olingan natijalar ushbu mavzuni yanada chuqurroq o'rganishga va yangi ilmiy izlanishlar olib borishga zamin yaratadi. Ikkinchi tartibli chiziqlarning xossalarini chuqur tadqiq qilish ularni yanada samarali qo'llashga va yangi nazariy hamda amaliy natijalarga erishishga imkon beradi.

Shunday qilib, mazkur ish ikkinchi tartibli chiziqlarning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham qanchalik muhimligini ko'rsatib beradi. Bu sohadagi tadqiqotlar yanada chuqurlashtirilishi va yangi qo'llanilish yo'nalishlari ochilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Apollonius of Perga. *Conics*. (Translated by T. L. Heath). Cambridge University Press, 1896.
2. E. Kreyszig. Advanced Engineering Mathematics. 10th Edition. Wiley, 2011.
3. H. Anton, C. Rorres. Elementary Linear Algebra: Applications Version. Wiley, 2013.

4. D. Halliday, R. Resnick, J. Walker. Fundamentals of Physics. Wiley, 2014.
5. I. N. Bronshtein, K. A. Semendyayev. Handbook of Mathematics. Springer, 2007.
6. J. Kepler. Astronomia Nova. (1609). English translation: Cambridge University Press.
7. H. Goldstein, C. Poole, J. Safko. Classical Mechanics. 3rd Edition. Addison-Wesley, 2001.
8. Nuritdinov, Jalolxon, et al. "Application of Minkowski difference to optimal control tasks." *AIP Conference Proceedings*. Vol. 3377. No. 1. AIP Publishing LLC, 2025.
9. Nuritdinov, Jalolxon, and E'zozaxon Abdullayeva. "APPLICATION OF DERIVATIVES IN SOLVING ECONOMIC PROBLEMS." *WORLD OF SCIENCE* 8.11 (2025): 13-15.
10. Nuritdinov, J., Kakharov, S., & Tashxodjayev, A. (2024, November). Application of Minkowski operator in artificial intelligence tasks. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3244, No. 1, p. 030016). AIP Publishing LLC. https://doi.org/10.1063/5.0241599
11. Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Muhammadjonova Nozligul Dilmurod qizi. UZLUKSIZLIK AKSIOMASI MAZMUNI VA UNING QO'LLANILISHI. Zenodo, 2025, https://doi.org/10.5281/zenodo.15333377.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Davlatov Abror Borijon o‘g‘li
Abdullayev Lazizbek Abdulazizovich
Shahobiddinov Bahodir Baxtiyor o‘g‘li
[1]Namangan Davlat Universiteti
Djurayev Sherzod Sobirjonovich
Sharibayev Nosir Yusupjanovich
Namangan Davlat Texnika Universiteti
Jarin Anatoliy Lavrentievich
Belarussiya Milliy Texnika Universiteti

QABUL QILINGAN SIGNALLARNING MAQSADIGA KO‘RA DISKRET TO‘LQINLI TRANSFORMATSIYASIDAN OPTIMAL FOYDALANISH UCHUN TO‘LQIN (DELTA FUNKSIYA) VA UNING PARAMETRLARINI TANLASH

Annotatsiya *Mazkur maqolada qabul qilingan signallarning maqsadiga ko‘ra DTTdan optimal foydalanish, xususan impuls (delta)ga yaqin hodisalar uchun wavelet tanlash, dekompozitsiya darajasi, threshold (chegaralash) va chegara ishlovi kabi parametrlarni moslash usullari keng yoritiladi. Shuningdek, amaliy diagnostika va aniqlash vazifalarida energiya kompaktlash, simmetriya, yo‘qolib boruvchi momentlar hamda faza buzilishi mezonlari asosida tanlov qilish bo‘yicha izchil algoritm taklif etiladi. Natijada DTT asosida shovqinni kamaytirish, impuls hodisalarni ajratish va xususiyatlarni ishonchli chiqarib olish uchun metodik tavsiyalar shakllantiriladi.*

Kalit so‘zlar: *diskret to‘lqinli transformatsiya, wavelet tanlash, impuls (delta), denoising, threshold, dekompozitsiya darajasi, xususiyat ajratish, siqish, diagnostika.*

Давлатов Аброр Бориджон угли
Абдуллаев Лазизбек Абдулазизович
Шахобиддинов Бахадир Бахтиёр угли
Наманганский государственный университет
Джураев Шерзод Собиржонович
Шарибаев Носир Юсупжанович
Наманганский государственный технический университет
Жарин Анатолий Лаврентьевич
Белорусский национальный технический университет

ВЫБОР ВЕЙВЛЕТА (ДЕЛЬТА-ФУНКЦИИ) И ЕГО ПАРАМЕТРОВ ДЛЯ ОПТИМАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИСКРЕТНОГО ВЕЙВЛЕТ-ПРЕОБРАЗОВАНИЯ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ НАЗНАЧЕНИЯ ПРИНИМАЕМЫХ СИГНАЛОВ.

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы оптимального использования дискретного вейвлет-преобразования (ДВП) в зависимости от назначения принимаемых сигналов. В частности, подробно освещаются методы адаптации таких параметров, как выбор вейвлета для событий, близких к импульсу (дельта-функции), уровень декомпозиции, пороговая обработка (thresholding) и обработка граничных эффектов. Кроме того, предлагается последовательный алгоритм выбора на основе критериев компактности энергии, симметрии, числа исчезающих моментов и фазовых искажений для решения практических задач диагностики и обнаружения. В результате формируются методические рекомендации по снижению шума, выделению импульсных событий и надежному извлечению признаков на основе ДВП.*

Ключевые слова: *дискретное вейвлет-преобразование, выбор вейвлета, импульс (дельта), подавление шума (denoising), пороговая обработка, уровень декомпозиции, выделение признаков, сжатие, диагностика.*


Davlatov Abror Borijon ugli
Abdullayev Lazizbek Abdulazizovich
Shahobiddinov Bahodir Baxtiyor ugli
Namangan State University
Djurayev Sherzod Sobirjonovich
Sharibayev Nosir Yusupjanovich
Namangan State Technical University
Jarin Anatoliy Lavrentievich
Belarusian National Technical University

SELECTION OF THE WAVELET (DELTA FUNCTION) AND ITS PARAMETERS FOR THE OPTIMAL USE OF THE DISCRETE WAVELET TRANSFORM DEPENDING ON THE PURPOSE OF THE RECEIVED SIGNALS.

Abstract. *This article addresses the optimal use of the Discrete Wavelet Transform (DWT) depending on the purpose of the received signals. In particular, it provides a detailed discussion of methods for adapting parameters such as the selection of wavelets for impulse (delta)-like events, decomposition level, thresholding, and boundary effect processing. Additionally, a systematic algorithm is proposed for selection based on criteria such as energy compaction, symmetry, number of vanishing moments, and phase distortion for practical diagnostic and detection tasks. As a result, methodological recommendations are formulated for noise reduction, impulse event detection, and reliable feature extraction using DWT.*

Keywords: *discrete wavelet transform, wavelet selection, impulse (delta), denoising, thresholding, decomposition level, feature extraction, compression, diagnostics.*


Denoising vazifasida asosiy maqsad — foydali signal komponentlarini saqlab qolgan holda shovqin amplitudasini kamaytirishdir. Ko‘pincha shovqin yuqori chastota diapazonida kuchliroq bo‘lgani uchun detal koeffitsientlar bilan ishlash samarali natija beradi. DTT signaldan shovqinni ajratishda “ko‘p masshtab” afzalligini beradi, chunki shovqin turli darajalarda turlicha ko‘rinadi. Bu yerda wavelet tanlash silliqlik va simmetriya mezonlariga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Amaliyotda sym4–sym8, db6–db10 yoki coif2–coif5 ko‘pincha yaxshi natija beradi. Agar signal shaklini maksimal saqlash zarur bo‘lsa, bior va rbio oilalari afzal bo‘ladi [1].



1-rasm. Toza va shovqinli signal (impulslar bilan)

Denoisingda filtr uzunligi biroz kattaroq bo‘lsa ham, impulslarni “yo‘qotib yubormaslik” uchun thresholdni ehtiyotkorlik bilan tanlash kerak bo‘ladi. Shuning uchun wavelet tanlovi threshold siyosati bilan birga ko‘rib chiqiladi. Threshold (chegaralash) tanlovi denoisingning eng muhim bosqichlaridan biridir, chunki aynan shu bosqichda shovqin

bostiriladi. Hard threshold shovqin koeffitsientlarini keskin nolga tushiradi, lekin ba’zan “sakrashli” artefaktlar keltirib chiqarishi mumkin. Soft threshold esa silliq natija beradi, ammo foydali impuls amplitudasini ham pasaytirib yuborishi ehtimoli bor. Universal threshold oddiy va tez ishlaydi, lekin hamma signal turlari uchun eng optimal bo‘lmasligi mumkin [2].



2-rasm. DWT detal koeffitsientlari (D1–D5)

Shovqin dispersiyasi σ ni baholashda median asosidagi robust baho ko‘p ishlatiladi. Chegarani darajalar bo‘yicha alohida tanlash (level-dependent threshold) odatda yaxshiroq natija beradi. Bundan tashqari, chegara (boundary) ishlovi ham muhim: simmetrik to‘ldirish chekkalarda kamroq buzilish beradi. Natijani SNR yoki MSE kabi metrikalar bilan baholash denoising parametrlarini aniqlashtirishga yordam beradi [3].

Siqish vazifasida maqsad - signalni iloji boricha kamroq ma’lumot bilan ifodalab, qayta tiklashda minimal xatolikni saqlashdir. DTT bu yerda juda qulay, chunki ko'p signallarda energiya oz sonli koeffitsientlarda jamlanadi. Wavelet tanlovi energiya kompaktlash xossasiga bog'liq bo'ladi, ya'ni eng yirik koeffitsientlar signalning asosiy mazmunini berishi kerak. Silliq signallar uchun db8-db12 kabi yuqori momentli waveletlar energiyani samarali jamlashi mumkin [4]. Shaklni saqlash va simmetriya muhim bo’Isa, biortogonal waveletlar ham juda yaxshi natija beradi. Siqishda koeffitsientlarni threshold qilish, kvantlash va entropiyaviy kodlash kabi bosqichlar bilan birga ishlash mumkin. Ammo maqola doirasida asosiy e'tibor wavelet tanlash va koeffitsientlarni kesish strategiyasiga qaratiladi. Natijada to'g'ri tanlov siqish koeffitsientini oshirib, rekonstruksiya sifatini saqlab qoladi.[5]

Siqishda dekompozitsiya darajasi J signalning past chastotali komponentlari qanchalik chuqur ajratilishini belgilaydi. Ko'p hollarda energiya past masshtablarda jamlanadi, shuning uchun J ni yetarli darajada tanlash muhim. Keyingi bosqichda eng katta K ta koeffitsientni saqlash yoki energiyaning ma'lum ulushini ta'minlaydigan koeffitsientlar to'plamini tanlash mumkin. Energiya ulushi η katta bo'Isa, siqish samarador bo'ladi va xatolik kichik qoladi. Biroq juda agressiv siqish signalning nozik detallarini yo'qotishi mumkin, bu diagnostik vazifalarda salbiy natija beradi. Shuning uchun siqish maqsadi "arxivlash"mi yoki "tahlil"mi oldindan aniqlab olinishi kerak. Tasvir yoki akustik signallarda psixoakustik/psixovizual xususiyatlar ham rol o'ynashi mumkin, lekin umumiy signal siqishda energiya mezoni asosiy bo'lib qoladi. Amaliyotda bir nechta wavelet sinov qilinib, eng kichik xatolik beradigani tanlanadi.[4]

Siqish jarayonida koeffitsientlarni "nolga yaqin" qiymatlaridan tozalash (pruning) strategiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Agar wavelet tanlovi noto'g'ri bo'Isa, foydali energiya ko'p koeffitsientlarga tarqalib ketadi va pruning signalni keskin buzadi. Shuning uchun waveletning signalga mosligi siqish sifatini bevosita belgilaydi. Biortogonal waveletlarda simmetriya yaxshi bo'lgani uchun ba'zi signallarni qayta tiklashda artefaktlar kamroq kuzatiladi. Daubechies waveletlarida esa energiya kompaktlash kuchli bo'Isa-da, faza buzilishi ayrim signallarda muammo bo'lishi mumkin. Shuningdek, siqishdan keyin qayta tiklangan signalni MSE, SNR yoki korrelyatsiya orqali baholash tavsiya etiladi. Energiya mezoni bilan birga, kerak bo'lsa, spektral xususiyatlarning saqlanishi ham tekshiriladi. Yakunda "eng yaxshi" siqish - bu minimal xatolik bilan maksimal siqish koeffitsientiga erishishdir.

Energiya kompaktlash ko'rsatkichi: $\eta = \frac{\sum_{i\in\Omega} |c_i|^2}{\sum_i |c_i|^2}$

Xususiyat ajratish vazifasida DTT koeffitsientlari signalning turli masshtablardagi "imzolari"ni beradi. Diagnostikada masalan dvigatel vibratsiyasida podshipnik nosozligi, notekis yuklama yoki rezonans hodisalari turli darajalarda farqli energiya taqsimotini hosil qiladi. Shu sababli detal koeffitsientlardan energiya, RMS, kurtosis kabi statistik xususiyatlarni chiqarish amaliyotda keng tarqalgan. Wavelet tanlashda bu vazifada "ajratish qobiliyati" muhim, ya'ni turli sinflar orasidagi farq koeffitsientlarda aniq ko'rinishi kerak. Impulsli nosozliklarda db2-db6 yoki sym4-sym6 ko'pincha yaxshi ajratadi. Silliq biologik signallarda esa coif yoki sym oilalari ko'proq mos bo'lishi mumkin. Tanlovda signal shaklini saqlashdan ko'ra, sinflarni ajratish kuchi ustun bo'ladi. Shuning uchun wavelet tanlovi ko'pincha klassifikatsiya natijalari orqali tasdiqlanadi.[6] Klassifikatsiya uchun xususiyatlar daraja bo'yicha ajratilib, har bir darajada alohida vektor sifatida yig'ilishi mumkin. Masalan, har bir d_j darajadagi energiya E_j diagnostik holat o'zgarganda sezilarli farqlanishi mumkin. Bundan tashqari, entropiya xususiyatlari signalning tartibsizlik darajasini ifodalaydi va shovqinli nosozliklarda foydali bo'ladi. Feature'larni tanlashda ortiqcha o'Ichamlik muammosi ham bor, chunki juda ko'p xususiyat modelni murakkablashtiradi. Shu bois, PCA yoki seleksiya usullari bilan eng informativ xususiyatlar ajratib olinadi. Wavelet tanlash esa bu informativlikni kuchaytirishi yoki susaytirishi mumkin. Masalan, simmetrik waveletlar ayrim hollarda xususiyatlarning barqarorligini oshiradi. Dekompozitsiya darajasi ham sinflar farqi ko'rinadigan diapazonni topish uchun muhim. Yakunda "optimal wavelet" - bu eng yuqori aniqlik (Accuracy/F1) beradigan wavelet hisoblanadi.[5]

Amaliy tanlov jarayonida wavelet × J kombinatsiyalari kross-val (cross-validation) orqali tekshiriladi. Har bir kombinatsiyada xususiyatlar chiqarilib, klassifikator (masalan, SVM, Random Forest yoki neyron tarmoq) o'qitiladi. So'ngra validatsiya natijalariga ko'ra eng yaxshi kombinatsiya tanlanadi. Bu yondashuv "maqsadga yo'naltirilgan" tanlov bo'lib, nazariy mezonlarni amaliy metrikalar bilan tasdiqlaydi. Biroq faqat bitta datasetda optimal bo'Igan wavelet boshqa sharoitda yomonlashishi mumkin, shuning uchun umumlashuv (generalization) tekshiriladi. Shuningdek, shovqin darajasi o'zgarishi, sensor joylashuvi yoki yuklama o'zgarishi ham natijaga ta'sir qiladi. Shu sababli tanlov jarayoni turli rejimlardan olingan signallarni qamrab olishi kerak. Natijada barqaror va ishonchli wavelet parametrlari to'plami shakllantiriladi.[6]


Daraja energiyasi: $E_j = \sum_k \left|d_j[k]\right|^2$

Shannon entropiya: $H_j = -\sum_k p_k \ln p_k$

Energiya ehtimoli: $p_k = \frac{|d_j[k]|^2}{\sum_k |d_j[k]|^2}$

Delta-ga yaqin impuls hodisalarni aniqlash ko‘plab texnik tizimlarda eng muhim vazifalardan biridir. Chunki impulslar odatda mexanik zarba, tishli uzatmada urilish, podshipnikdagi yoriq, elektr kontaktlarning “qarsillashi” yoki sensor uzilishi kabi nosozlik belgisi bo‘lib xizmat qiladi. DTT impulsni bir vaqtning o‘zida bir necha masshtabda ko‘rsatib, uni shovqindan ajratishga yordam beradi. Bunda asosiy e’tibor detal koeffitsientlarga qaratiladi, chunki impulsning yuqori chastotali tarkibi kuchli bo‘ladi. Wavelet tanlashda qisqa tayanchli va kuchli lokalizatsiyali waveletlar ko‘pincha eng yaxshi natija beradi. Haar (db1) juda keskin impulslar uchun mos, db2–db4 esa impuls biroz yoyilgan holatlarda afzal bo‘lishi mumkin. Sym4–sym6 ayrim hollarda impuls shaklini yaxshi ushlab qoladi va faza buzilishini kamaytiradi. Shunday qilib, impuls aniqlashda wavelet tanlovi “hodisa shakli”ga mos bo‘lishi kerak.[9]

Chegara ishlovi ham muhim, chunki impuls signalning boshida yoki oxirida bo‘lsa, padding noto‘g‘ri tanlansa artefaktlar hosil bo‘ladi. Shuningdek, shift-invariant transformatsiya impuls joylashuviga sezgirlik muammosini kamaytiradi. Yakunda aniqlash mezonlari Precision–Recall muvozanati asosida optimallashtiriladi.



3-rasm: D2 darajada impulslarni aniqlash (|D2| > threshold)

Impulsni “delta” deb atash idealizatsiya bo‘lib, real tizimlarda impuls shakli o‘tkinchi jarayon bilan yoyilgan bo‘ladi. Masalan, mexanik zarbadan keyin tizim rezonans tebranishi paydo bo‘lib, impuls “kuyruk” hosil qiladi. Shuning uchun ba’zan waveletni matched filtering kabi tanlash foydali: wavelet shakli hodisa shakliga yaqin bo‘lsa, koeffitsientlar maksimumga chiqadi. Amaliyotda bu bir nechta waveletlarni sinash va aniqlash sifatini metrikalar bilan solishtirish orqali

bajariladi. Ko‘pincha db2, db4, sym4, haar va bior3.5 kabi waveletlar impulsli signallarda sinovdan o‘tkaziladi. Dekompozitsiya darajasi JJJ esa impuls davomiyligi va namunaviy chastotaga qarab tanlanadi, chunki impuls qaysi diapazonda “ko‘rinishi” shunga bog‘liq. Natijada impulsni ajratish bilan birga uning joylashuvi va kuchi ham baholanishi mumkin. Bunday yondashuv texnik diagnostikada erta ogohlantirish tizimlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Optimal tanlashni amaliyotga tatbiq qilish uchun birinchi navbatda signal bilan ishlash maqsadi aniq belgilanishi kerak. Chunki denoising, siqish, impuls aniqlash yoki klassifikatsiya vazifalari bir xil parametrlarga bir xil talab qo‘ymaydi. Keyin signalning tabiati baholanadi: u impulsli, silliq, trendli yoki aralash ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Bu bosqichda oddiy statistikalar, spektral kuzatishlar yoki vaqt grafigi orqali dastlabki xulosa chiqariladi. Shundan so‘ng nomzod waveletlar ro‘yxati tuziladi va har biri maqsadga mosligi bo‘yicha tanlanadi. Tanlov “hammasiga bitta wavelet” tamoyiliga emas, balki vazifa va signal turiga moslash tamoyiliga asoslanadi. Keyingi qadamda parametrlar diapazoni belgilanadi, masalan JJJ darajalar, threshold turlari va boundary usullari. So‘ngra metrika tanlab olinadi, chunki optimallikni o‘lchash mezonsiz bajarib bo‘lmaydi.

Nomzodlar bilan ishlashda grid-search yoki kross-val yondashuvi eng ishonchli usullardan hisoblanadi. Bunda wavelet turi va parametrlar kombinatsiyasi bo‘yicha natijalar tizimli ravishda hisoblanadi. Har bir kombinatsiya uchun denoisingda SNR yoki MSE, siqishda rekonstruksiya xatosi va siqish koeffitsienti, aniqlashda F1 yoki ROC ko‘rsatkichlari baholanadi. Natijalar jadval ko‘rinishida taqqoslanib, eng yaxshi kombinatsiya ajratib olinadi. Biroq bitta sinov natijasiga tayanish xato bo‘lishi mumkin, shuning uchun bir nechta signal namunalarida tekshirish talab etiladi. Bu tekshiruv turli rejimlar, turli shovqin darajalari va turli sensor joylashuvlarini qamrab olishi kerak. Shundagina tanlangan wavelet parametrlari umumlashuvchi va barqaror bo‘ladi. Yakunda amaliy tizimga joriy etishda hisoblash murakkabligi ham hisobga olinadi.[11]

Tanlov yakunlangach, natijaning fizik ma’nosi ham tekshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, vibratsiya diagnostikasida aniqlangan impulslar haqiqatan ham mexanik hodisa bilan mos kelishi kerak. Aks holda algoritm shovqinni “nosozlik” deb qabul qilishi mumkin. Shuningdek, rekonstruksiya qilingan signalning shakli va fazasi muhim bo‘lsa, biortogonal waveletlar bilan solishtirish foydali. Parametrlar haddan tashqari sezgir bo‘lsa, ya’ni kichik o‘zgarish natijani keskin o‘zgartirsa, bu barqarorlik muammosini bildiradi. Bunday holatda thresholdni adaptiv qilish yoki shift-invariant transformatsiya variantini ko‘rib chiqish mumkin. Yana bir muhim jihat — real vaqt tizimlarida hisoblash resurslari cheklangan bo‘ladi, shuning uchun juda uzun filtrli waveletlar har doim ham mos kelmaydi. Shunday qilib, optimal tanlov doimo aniqlik, barqarorlik va hisoblash tezligi o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladi. Natijada tizim talablari bilan mos keladigan yakuniy konfiguratsiya olinadi.[5]

Tavsiyalar sifatida birinchi navbatda signal maqsadini aniq belgilash va baholash metrikasini tanlash kerak bo‘ladi. Denoisingda SNR va MSE, impuls aniqlashda F1 va false alarm ko‘rsatkichi, siqishda rekonstruksiya xatosi kabi mezonlar doimiy nazoratda bo‘lishi kerak. Ikkinchi tavsiya — bir nechta wavelet oilalarini sinash va ularni sistematik solishtirishdir. Uchinchisi — thresholdni daraja bo‘yicha adaptiv qilish, chunki shovqin har darajada bir xil ko‘rinmasligi mumkin. To‘rtinchisi — chegara ishlovini simmetrik tanlash va impuls chekkada bo‘lsa alohida tekshirishdir. Beshinchisi — real vaqt tizimlari uchun hisoblash murakkabligini kamaytirish maqsadida filtr uzunligini cheklashdir. Oltinchisi — parametrlarning barqarorligini tekshirish, ya’ni turli namunalar va sharoitlarda natija yomonlashib ketmasligini ko‘rishdir. Shu tavsiyalar DTTdan optimal foydalanish ehtimolini sezilarli oshiradi.

Muhokamaning yana bir muhim tomoni — impuls va shovqin o‘rtasidagi farqni to‘g‘ri ajratish masalasidir. Ba’zi shovqin turlari ham impulsga o‘xshash “spike” ko‘rinishida bo‘lishi mumkin, bu esa aniqlashni murakkablashtiradi. Shu holatda multi-scale tasdiqlash va qo‘shimcha statistik filtrlash yordam beradi. Shuningdek, impulslar davriy bo‘lsa, masalan podshipnik nosozligida, impulslar oralig‘i ham diagnostik xususiyatga aylanadi. DTT koeffitsientlaridan impulslar ketma-ketligini ajratib, keyin vaqt oralig‘i tahlilini qo‘shish mumkin. Bu yondashuv faqat “bor/yo‘q” aniqlash emas, balki nosozlik turini ham tasniflash imkonini beradi. Biroq bunday kompleks tizimda wavelet tanlovi yanada mas’uliyatli bo‘ladi, chunki noto‘g‘ri tanlov keyingi tahlil bosqichlarini ham buzadi. Shuning uchun wavelet tanlashni diagnostika zanjirining “asosiy filtr bosqichi” deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Natijada DTTning afzalliklari to‘liq namoyon bo‘ladi.[12]

Maqolada ko‘rsatilgan metodik yondashuvlar signal turiga mos waveletlar ro‘yxatini shakllantirish va ularni parametrlar bilan birga optimallashtirishni taklif etadi. Bu yondashuv amaliy tizimlarda “tasodifiy tanlash”dan ko‘ra ancha barqaror va natijador hisoblanadi. Shuningdek, threshold va chegara ishlovi kabi parametrlar wavelet tanlovidan kam bo‘lmagan darajada muhim ekani ta’kidlandi. Impuls aniqlashda yolg‘on signal va o‘tkazib yuborish xatolarini muvozanatlash juda muhim bo‘lib, buning uchun adaptiv threshold va multi-scale tekshiruv samarali. Siqishda esa energiya ulushi va rekonstruksiya xatosi asosiy mezon bo‘lib, wavelet energiyani qanchalik jamlay olishi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Klassifikatsiyada esa eng yaxshi wavelet — eng yuqori F1 yoki aniqlik beradigan waveletdir. Yakunda optimal tanlov doimo aniqlik, barqarorlik va hisoblash tezligi o‘rtasidagi kompromiss ekanligi ko‘rsatildi. Shu asosda DTTni turli sohalarda ishonchli joriy etish uchun amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Stéphane Mallat. (1999). A Wavelet Tour of Signal Processing. Academic Press.
2. Ingrid Daubechies. (1992). Ten Lectures on Wavelets. Society for Industrial and Applied Mathematics (SIAM).
3. David L. Donoho, & Iain M. Johnstone. (1994). Ideal spatial adaptation by wavelet shrinkage. *Biometrika, 81*(3), 425–455.
4. David L. Donoho. (1995). De-noising by soft-thresholding. *IEEE Transactions on Information Theory, 41*(3), 613–627.
5. Mladen Victor Wickerhauser. (1994). Adapted Wavelet Analysis from Theory to Software. AK Peters.
6. Gilbert Strang, & Truong Nguyen. (1996). Wavelets and Filter Banks. Wellesley–Cambridge Press.
7. Martin Vetterli, & Jelena Kovačević. (1995). Wavelets and Subband Coding. Prentice Hall.
8. Sharibaev, N. Yu., Tursunov, A. A., & Djurayev, S. S. (2021). Intellectual devices for determination of dust particle concentration. *Current Research Journal of Pedagogics*, *2*(12), 166–170. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-12-33
9. Sharibayev, N. Y., Djurayev, Sh. S., Tursunov, A. A., & Kodirov, D. T. (2023). Secube’s role in implementing business continuity plans (BCM) in various industries. *American Journal of Applied Science and Technology*, *3*(12), 37–39. https://doi.org/10.37547/ajast/Volume03Issue12-08
10. Sharibayev, N. Yu., Djurayev, Sh. S., Tursunov, A. A., & Parpiyev, D. X. (2023). The advantages of using Secube in public administration to ensure information security. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *5*(12), 77–79. https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume05Issue12-10
11. Sharibaev, N. Yu., & Djuraev, S. S. (2023). Chemical innovations in producing compostable cellophane materials. *American Journal of Social Sciences and Humanity Research*, *3*(12), 288–290.
12. Sharibaev, N. Yu., & Djuraev, Sh. S. (2023). From waste to resource: composting and recycling of biodegradable cellophane. *American Journal of Social Sciences and Humanity Research*, *3*(12), 285–287.
13. Djuraev, Sh. S., & Madaliyev, X. B. (2023). Traffic flow distribution method based on 14 differential equations.*Intent Research Scientific Journal*,*2*(10),1-10.
14. Sharibaev, N., Tursunov, A., & Djuraev, Sh. (2022). Mathematical modeling of the laws of airborne distribution of dust particles generated in manufacturing plants. *Journal of Physics: Conference Series*, *2373*(7), 072043. https://doi.org/10.1088/1742-6596/2373/7/072043

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Буриев Алибек Пиримкулович
докторант Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова, Республика Узбекистан, г. Ташкент
Жураев Вайс Нарзуллаевич
доцент Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова, Республика Узбекистан, г. Ташкент
Хайруллаева Дилдора Хайрулла Қизи
докторант Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова, Республика Узбекистан, г. Ташкент
Саидахмадов Саидумархон Саидаброр Ўғли
магистр Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова, Республика Узбекистан, г. Ташкент
Исамухамедова Азизахон Иззатилла Кизи
магистр Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова, Республика Узбекистан, г. Ташкент

РАЗРАБОТКА СОВРЕМЕННЫХ ПОЛИМЕРНО-БИТУМНЫХ ВЯЖУЩИХ ДЛЯ АВТОДОРОЖНЫХ ПОКРЫТИЙ

Аннотация. *В статье представлены результаты исследований по разработке полимерно-битумных композиций для дорожных покрытий, эксплуатируемых в условиях резко континентального климата. В качестве модифицирующих добавок использованы отходы нефтегазоперерабатывающей промышленности и резинотехнические изделия: углеродсодержащий материал, газопиролизная смола, измельчённый порошок шин и базальтовое волокно. Изучены их физико-химические свойства, включая гранулометрический состав, зольность, влажность, термостабильность и структурные характеристики. Установлено, что введение указанных ингредиентов способствует повышению термостойкости, морозостойкости, износостойкости и эластичности битумных композиций. Рассмотрены технологические особенности модификации дорожных битумов и проблемы получения однородной структуры композиции. Предложены оптимальные составы и технологические параметры приготовления полимерно-битумных материалов, обеспечивающих повышение долговечности дорожных покрытий.*

Ключевые слова: *базальтовое волокно, нефтегазовые отходы, термостойкость, морозостойкость, износостойкость, технология модификации.*

Alibek Buriev
doctoral student at the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Republic of Uzbekistan, Tashkent
Vays Juraev
docent, PhD, Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Uzbekistan, Tashkent
Dildora Khayrullaeva
doctoral student at the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Republic of Uzbekistan, Tashkent
Saidumarkhon Saidakhmadov
master student at the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Republic of Uzbekistan, Tashkent
Azizakhon Isamukhamedova
master student at the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Republic of Uzbekistan, Tashkent

DEVELOPMENT OF MODERN POLYMER-BITUMEN BINDERS FOR ROAD PAVEMENTS

Abstract. *The article presents research results on the development of polymer-bitumen compositions for road pavements operated under harsh continental climatic conditions. Waste products from the oil and gas processing industry and rubber materials*

were used as modifying additives, including carbon-containing material, gas pyrolysis resin, ground tire powder, and basalt fiber. Their physicochemical properties, such as particle size distribution, ash content, moisture content, thermal stability, and structural characteristics, were investigated. The study demonstrates that incorporating these ingredients improves the heat resistance, frost resistance, wear resistance, and elasticity of bitumen compositions. Technological aspects of bitumen modification and challenges related to achieving a homogeneous structure were analyzed. Optimal composition ratios and processing conditions for producing modified polymer-bitumen materials were proposed, ensuring enhanced durability and extended service life of road pavements.

Key words: *basalt fiber, oil and gas waste, heat resistance, frost resistance, wear resistance, modification technology.*

Известно, что в мире для покрытий дорог применяется устойчивыех к жаре, холоду, изгибу, растяжению, трению и действию динамических сполимерно-битумные композиции. По этому особое внимание уделяется полимерно-битумных композиций с заранее заданными технологическими, физико-механическими, динамическими свойствамис целью повышения их устойчивости к морозу, нагреву, изгибу, трению, растяжению и срока службы [1-4]. В мире проводятся научные исследования по разработке получения и состава полимерно-битумных композиций, устойчивых к холоду, нагреву, изгибу, трению, растяжению, технологий производства покрытий дорог и аэродромов, по подбору природных и синтетических полимеров, органических и неорганических ингредиентов и созданию модификаторов. В последние годы проведен ряд работ по ремонту региональных дорог, теряющих свои экплуатационные свойств из-за быстро меняющихся погодных условий, с применением полимер-битумных покрытий, устойчивых к холоду, жаре, трению, растяжению и изгибу [4].

В данной работе представлена информация о физико-химических свойствах органо-минеральных ингредиентов, выбранных на основе местного сырья и методов. их модификации. Известно, что стремительно меняющиеся погодные условия в республике приводят к быстрому износу асфальтобетонных покрытий на горных и пустынных дорогах. Это связано с тем, что битум, являющийся основой используемого в них состава, не устойчив ко всем действиям холода и тепла (табл. 1).

Таблица 1

Основные показатели качества дорожного битума

Марки битумы	Температура смягчиния КиШ, ℃	Температура замерзания, Фраас, ℃	Пенетрация, 0℃, 0.1 мм	Пенетрация, 25℃, 0.1 мм	Дуктильность 0℃, см	Дуктильность 25℃, см	Эластичность 0℃, %	Эластичность 25℃, %
БНД 40/60	59,35	-22,4	12,5	40	7,6	24	21,05	33,3
БНД 50/70	58,5	-24,8	31	50	10,4	30,7	5,7	18,6
БНД 60/90	47	-15	20	61-90	3,5	55	4	13
БНД 90/130	43	-17	28	91-130	4	65	-	-

Для повышения термостойкости, морозостойкости и износостойкости дорожных битумов ипокрытий на их основе были выбраны ингредиенты на основе местного сырья и изучены их физикохимические свойства.

Углеродсодержащий материал. Углеродсодержащий материал представляет собой хрупкое вещество с сероватым запахом, содержащий металлические добавки, которые после охлаждения измельчали в дисмембраторе и определяли гранулометрический состав.

На основании исследований показано, что на частицы углеродсодержащего материала приходилось 63,0% фракции 0,063 нм, 24,0% фракции 0,25 нм, 9,0% фракции 0,5 нм и 3,0% фракции 0,045 нм и более мелких металлических частиц. Были изучены его физические свойства такие как насыпная плотность, кислотность, влажность, зольность (табл. 2).

Таблица 2

Физико-химические свойства измельченного углеродсодержащего материала

$\rho_н$, г/см³	pH	A^d, %	W^a, %
0,408 ± 0,02	6,5-5,4	22,70 ± 0,44	0,40 ± 0,05

где: A^d – зольность на сухую массу,

W^a – содержание влаги аналитической.

Рентгеноструктурный анализ показал, что в составе глеродсодержащего материала имеется 88,24% аморфного углерода, 7,59 % кальцита, 1,14 % оксида цинка, 1,21% анкерита и других компонентов. Его термостабильность изучалась дериватографическим методом и первая стадия проходила в интервале температур 150-640 °С и при этом потеря массы составила 3,46%, а во вторая стадии – в интервале температур 650-900 °С а потеря массы составила 15,7%. Структура углеродсодержащего материала исследована ИК-спектроскопическим методом. В его ИК-спектре линии поглощения с очень низкой интенсивностью наблюдались в области > 3600 $см^{-1}$. Показало, что на сухой поверхности адсорбировались некоторые органические спирты, вода и влажный воздух. Линии поглощения, принадлежащие связи C≡C, также принадлежат группе $–CH_2$, которая представляет собой очень слабую линию поглощения в этой области и в области 2916 $см^{-1}$, кроме того, поглощение углеводородов в образовавшиеся структура наблюдалась. Области низкоинтенсивного поглощения, принадлежащие к группе ненасыщенных углеводородов (-CH = CH-), обычно показаны в областях 693 $см^{-1}$, 600 $см^{-1}$, а линии поглощения, характерные для групп CH_2 и CH_3, в области 2372 $см^{-1}$. и площади 2345 $см^{-1}$, 1720- Ароматические углеводороды в области 1684 $см^{-1}$, CH_3C, $(CH_3)_2$ Сгруппы в области 1458-1543 $см^{-1}$, линии поглощения шириной 1100-1000 см. $см^{-1}$ $(SiO_4)^{4-}$ и SiO_2, при этом в 800 $см^{-1}$ появляются соответствующие линии поглощения. Белый сухой n-SiO2 · nH2O (BS-50) используется в качестве наполнителя в автомобильных шинах, а линии поглощения Me-O оксидов металлов наблюдались в диапазоне колебаний 400 $см^{-1}$–500 $см^{-1}$. Это означает, что удерживающий углерод материал можно использовать в качестве активного ингредиента для полимерно- битумной композиции.

Измельченный порошок шин. Известно, что проблема повторного использования устаревших шин актуальна и сегодня. Поэтому в качестве основного ингредиента полимерно-битумных композиций был выбран измельченный шинный порошок. (табл. 4).

Таблица 4.

Свойства измельченного порошка шин

Показатель	Свойства
Размер частиц, мм	0,25 – 2,8
Плотность, кг/$м^3$	1250 – 1256
Насыпная плотность, кг/$м^3$	430 – 435
Удельная поверхность, $см^2$/г	1100 – 2200
Водородный показатель, pH	7 – 8
Набухание жира, мл/100 г	92 – 105

Как видно из таблицы, свойства выбранного ингредиента достаточны для использования в составе композиций и его рекомендуется использовать в составе полимерного битума.

Базальтовое волокно. Цель использовании базальтовых волокон заключалась для придания полимерно-битумной композиции стойкости к истиранию и предотвращения скольжения покрытия. Производство базальтовых волокон налажено в г. Алмалык, Наманганской и Джизакской областях страны (табл. 5).

Таблица 5.

Химический состав базальтового волокна

Количество веществ в базальтовом волокне, %											Общее количество, (%)
SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3 FeO	CaO	MgO	R_2O	MnO	TiO_2	SO_3	Влажность	П.п.п.	
47,05	15,74	8,77	8,45	5,44	4,88	0,08	0,3	0.10	6,61	7,94	99,7

Длина базальтового волокна до 5 мм, диаметр в пределах 0,01-0,1 мм. Эластичный, хорошо адсорбирует жидкости и, как следствие, повышает эластичность. Для повышения термостойкости композиции в ее состав добавляли ГПС и исследовали влияние ее количества (рис. 2).




Рисунок 2. Влияние количества газовой пиролизной смолы на температуру плавления композиции

Как видно из рисунка, оптимальное количество ГПС составляло 3-5% от общего объема и при этом термостойкость композиции увеличилась с 60 до 120 °С. Это состояние известно выше, поскольку температура размягчения ГПС на 180 °С выше. Уменьшение его плавления связано с повышением температуры плавления композиции, в которой определенное количество углеродного материала могло прореагировать с активными центрами, образовавшимися в результате разрыва вулканизационных сеток [5-6]. Известно, что одним из основных недостатков полимерно-битумных композиций является их хрупкость в холодных условиях и их проскальзывание при движении большегрузных автомобилей в жарких условиях. Для улучшения этого состояния в композицию были добавлены изопреновый и бутадиенстирольный каучуки (рис. 3). На основании полученных результатов наблюдалось 50% -ное увеличение эластичности композиции при добавлении в ее состав 5% изопренового каучука. Однако, добавление бутадиенстирольного каучука привело к увеличению ее сопротивления к истиранию и сдвигу на 63%.

Выводы.

Предложены модификаторы для производства полимерно-битумных композиций автомобильных дорого и аэродромов, устойчивых к нагреву, холоду, трению, удлинению и сжатию, используемых в резкоконтинентальных условиях на основе отходов нефтегазоперерабатывающей промышленности.

Рекомендованы состав и технология модификации дорожных битумов на основе разработанных модификаторов и ингредиентов. Показано, что разработанные модификаторы и ингредиенты повышают тепло-морозостойкость, изностойкость, устойчивость на удлинение и сжатие, реологические, технологические, физико-механические, динамические свойства полимерно-битумных композиций. Рекомендованы на основе разработанных ингредиентов состав и технология получения и применения тепло-морозостойких, изностойких полимерно-битумных композиций для автомобильных дорог устойчивых к резкоконтинентальным условиям.

Список литературы:

1. Битумно-полимерные вяжущие для дорожного строительства / А.Ф. Кемалов, Т.Ф. Ганиева, Р.З. Фахрутдинов,

Р.А. Лутфуллин. // Наука и техника в дор. отрасли, 2001. Т.4. С.27-28.

2. Строительство автомобильных дорог: учебник / под ред. В.В. Ушакова, В.М. Ольховикова. Москва, 2013. -576 с.

3. Р.Г. Житов, В.Н. Кижняев, В.В. Алексеенко, А.И. Смирнов, Битумно-резиновые композиционные связующие для производства асфальтобетонов / // Журн. прикл. химии. 2011. Т. 84, №11. С.1898-1902.

4. Патент № 2394852 РФ. Способ переработки резиносодержащих отходов / В.В. Алексеенко, В.Н. Кижняев, Л.И. Верещагин, Р.Г. Житов, А.И. Смирнов; ГОУВПО «Иркутский государственный университет». -№ 2009102782; Заявка. 28.01.2009; Опубл. 20.07.2010.

5. Juraev V.N., Teshabaeva E.U., Akhmadjonov S.A., Phosphated alkhylamides of fat acids-effective accelerators of the of vulcanization by polyfunctional action for resin-textile materials // Europäische Fachhochschule. European Applied Sciences. Germany, 2016. № 3. P.24-26.

6. Juraev V.N., Boborajabov B.N., Vapaev M.D., Ibadullaev A.Modification of bitumen bu waste of gas-processing, gaso-chemical and rubber industries // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences, Austria, 2019. № 5-6. P. 32-36.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Po'latova Zulxumorxon Jalolidin qizi
Profi unversiteti, Tibbiy ba biologik kimyo kafedrasi PhD., v.v.b. dotsent
E-mail: 7ulhumor@gmail.com
Kenjayev Azamat Baxtiyarovich
Profi unversiteti, Tibbiy ba biologik kimyo kafedrasi mudiri
E-mail: azamatkenjayev19@gmail.com

3-(2-TIOKSOBENZO[D]OKSAZOL-3(2H)-IL)PROPANNITRIL SINTEZI VA KIMYOVIY O'ZGARISHLARI

Annotatsiya: *Binukleofil tabiatga ega bo'lgan 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propion kislota gidrazidining almashingan aromatik aldegidlar bilan reaksiyalarini o'rganildi. Natijada, E-izomer shakldagi yangi gidrazidlar yaxshi va yuqori unumlar bilan hosil bo'lishi kuzatildi.*

Kalit so'zlar: *Benzoksazolin-2-tion, akrilonitril (AN), 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propannitril, Gidroliz, sianetillash, suv, yashil kimyo, kimyoviy o'zgarish, E-izomer.*

Пулатова Зулхуморхон Жалолидин кизи
кафедра Медицинской и биологической химии, Profi university
PhD., и.о. доцент
Кенжаев Азамат Бахтиярович
зав. кафедры Медицинской и биологической химии, Profi university

СИНТЕЗ И ХИМИЧЕСКИЕ ПРЕВРАЩЕНИЯ 3-(2-ТИОКСОБЕНЗО[D]ОКСАЗОЛ-3(2H)-ИЛ)ПРОПАННИТРИЛА

Аннотация: *Изучены реакции гидразида 3- (2-тиоксобензо[d]оксазол-3 (2H) -ил) пропионовой кислоты бинуклеофильной природы с замещёнными ароматическими альдегидами. В результате наблюдалось образование новых гидразидов в E-изомерной форме с хорошими и высокими выходами.*

Ключевые слова: *бензоксазолин-2-тион, акрилонитрил (AN), 3-(2-тиоксобензо[d]оксазол-3(2H)-ил)пропаннитрил гидролиз, цианоэтилирование, вода, зелёная химия, химические превращения, E-изомер.*

Pulatova Zulkhumorkhon Jaloliddin qizi
Department of Medical and Biological Chemistry, Profi University PhD, Acting Associate Professor
Kenjaev Azamat Bakhtiyarovich
Head of the Department of Medical and Biological Chemistry, Profi University

SYNTHESIS AND CHEMICAL TRANSFORMATIONS OF 3-(2-THIOBENZOXAZOL-3(2H)-YL)PROPANENITRILE

Annotation: *The reactions of the binucleophilic hydrazide of 3-(2-thioxobenzo[d]oxazol-3(2H)-yl)propionic acid with substituted aromatic aldehydes were investigated. As a result, the formation of new hydrazides in the E-isomeric form was observed, obtained in good to high yields.*

Keywords: *Benzoxazolin-2-thione, acrylonitrile (AN), 3-(2-thioxobenzo[d]oxazol-3(2H)-yl)propanenitrile, hydrolysis, cyanethylation, water, green chemistry, chemical transformation, E-isomer.*

Kirish

Samarali sianetillash usulini yaratish va olingan propannitrillarning ayrim kimyoviy o'zgarishlarini o'rganish maqsadida benzoksazolin-2-tionni (**1**) akrilonitril (AN) bilan suvli eritmada katalizatorsiz reaksiyasi olib borildi va yaxshi unum bilan 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propannitril (**2**, 67%) olishga erishildi.

Benzoksazolin-2-on (tion) hosilalariga katta qiziqish ularning keng doiradagi biologik faollikni namoyon qilishi bilan asoslanadi [1; 221-222 b., 2; 135-140 b., 3; 4697-4699 b., 4; 2077-2079 b., 5; 1997-1999 b.]. Ushbu sinfga mansub ayrim hosilalar

o‘simliklarni zamburug‘li kasalliklariga chidamliligini oshiradi [6; 221-222 b., 7; 135-140 b., 8; 4697-4699 b.]. Ma’lumki, benzoksazolin-2-on(tion)lar javdar o‘simligidan (ko‘chatidan) [9; 2077-2079 b.], 6-metoksi va 6,7-dimetoksi-benzoksazolin-2-onlar esa *Coix Lacryma jobi* [10; 4697-4699 b.] va *Scaporia dulcus* [11; 1997-1999 b.] ildizlaridan ajratib olingan.

Tadqiqot materiallari va metodlari


Bizda sodda va qulay sianetillash usulini yaratish va olingan β-N-benzoksazolin-2-il propionitrillarining ba’zi kimyoviy o‘zgarishlarini o‘rganish qiziqish uyg‘otdi. Benzoksazolin-2-tionlarni sianetillash reaksiyalarini tadqiq etishni davom ettirib, sodda va qulay sianetillash usulini ishlab chiqish va olingan 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propannitrilning ba’zi kimyoviy o‘zgarishlarini o‘rganish qiziqish uyg‘otdi.

Natijalar va ularning tahlili

Dastlab, benzoksazolin-2-tionni (**1**) akrilonitril (AN) bilan suvli eritmada katalizatorsiz reaksiyasi olib borildi va yaxshi unum bilan 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propannitril (**2**) 67% unum bilan olishga erishildi, bu holatni dastlabki moddani (**1**) suvda qiyinroq erishi bilan tushuntirishimiz mumkin. Sintez qilingan 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propannitrilning (**2**) IQ-spektrida 2345 sm^{-1} sohada nitril (C≡N) guruhiga xos yutilish chastotasi borligini bildiradi. Aytish lozimki, nitril guruhi saqlagan birikmalar organik sintezda juda qulay *bilding-bloklar* hisoblanadi. Ya’ni, ularni gidrolizi muhim geterosiklik karbon kislotalarga olib kelishi yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri halqalanish reaksiyalari orqali turli xil geterosiklik birikmalarni oson va qulay usulda sintez qilish imkoniyati mavjud. Biz dastlab sintez qilingan nitril hosilani (**2**) kislotali muhitda gidrolizini amalga oshirdik. Buning uchun 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propannitril (**2**) 95-100°C da konsentrlangan xlorid kislota ishtirokida 5-6 soat davomida qaynatildi va yuqori unum bilan tegishli 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propion kislota (**3**) hosil bo‘ldi. Ushbu sharoitda nitril guruhining karboksil guruhigacha oksidlanishi juda oson ketadi. Nitrillar tarkibidagi C≡N guruhining to‘liq gidrolizi yangi, yuqori sintetik potensialga ega karbon kislotalarga olib kelishi ma’lum, bu bizning tadqiqot ishlarimizning ham asosiy maqsadlaridan biridir. Gidroliz jarayonini olib borish uchun 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propannitril (**2**) tanlab olindi va uning kislotali gidrolizi amalga oshirildi.

Gidroliz kislotali muhitda, ya’ni kons HCl ning (36%) suvli eritmasida olib borildi. Ta’kidlash lozimki, kislotali sharoitda konversiya 100% ni tashkil etadi va yuqori (76%) unum bilan 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propion kislota (**3**) hosil bo‘ladi. Kislotali gidroliz mexanizmini quyidagicha tasvirlash mumkin:

xlorid kislota ta’sirida 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propannitril (**2**) protonlanish (I-bosqich), suvning nukleofil hujumi (II-bosqich), deprotonlanish (III-bosqich), imino kislotaning tautomerlanishidan amid hosil bo‘lishi (IV-boshqich), amidning mono-aminokislotagacha (**3**) gidrolizlanishidan (V-bosqich) iborat bo‘lib, reaksiya ammoniy xlorid ajralib chiqishi bilan yakunlanadi.



Birikmaning (**3**) IQ-spektrida esa nitril guruhining 2400 sm^{-1} da yutilish chastotasi yo‘qligi, COOH (karboksil) guruhining OH guruhi 3340 sm^{-1}, C=O guruhi esa 1720 sm^{-1} sohalardagi yutilish chastotalarga ega bo‘ladi. Shunday qilib, 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propannitril (**2**) misolida oddiy va qulay to‘liq gidroliz usuli ishlab chiqildi. Bunda konversiya 100% ni tashkil etishi va mono-aminokislotalarning yuqori unumlar bilan hosil bo‘lishi aniqlandi. Usulning afzalligi shundaki, u “yashil kimyo” tamoyillariga mos keladi. 3-(2-Tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il) propion kislotaning (**3**) eterifikatsiya reaksiyalarini amalga oshirishni va hosil bo‘ladigan 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propion kislota etil efirining (**4**) ba’zi kimyoviy o‘zgarishlarini amalga oshirish, oddiy karbon kislotalar bilan kimyoviy hossalarini taqqoslash maqsadimizdan biri edi. Molekulasida nukleofil almashinish reaksiyalariga oson kirishadigan guruhni saqlagan murakkab efirlarni oson va qulay sintez usullarini ishlab chiqish, ularni turli nukleofil reagentlar bilan ta’sirini

atroflicha o‘rganish qiziqarlidir. Eterifikatsiya reaksiyasi nukleofil almashinish bo‘lib, kislotalar katalizatorligida boradi, uning mexanizmi quyidagicha: dastlab proton (H^+) karbonil kislorodining elektron jufti bilan birikadi, natijada CO guruhi elektrofilligi yanada ortadi; ikkinchi bosqichda nukleofil reagent (spirt) kislorod atomidagi juft elektronlar hisobiga karbonil guruhi C atomiga hujum qiladi (birikadi), tetraedrik oraliq mahsulot-oksoniy ioni hosil bo‘ladi; keyingi bosqichda spirt qismi kislorod atomidagi proton boshqa O atomiga ko‘chib o‘tadi (migratsiya); navbatdagi bosqichda esa termodinamik barqaror bo‘lgan suv molekulasi ajraladi; yakunda hosil bo‘lgan karbokation deprotonlanadi va natijada 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propion kislota etil efiri (**4**) sintez qilindi.

Yuqorida aytilganidek, hosil bo‘ladigan efirlar nukleofil almashinish reaksiyalariga nisbatan osonroq kirishishi kerak. Shu maqsadda ularni gidrazin gidrat bilan reaksiyalari amalga oshirildi. Jarayon dastlabki murakkab efir (**4**) va 85% li gidrazin gidratning aralashmasini nisbatan past haroratda (10°C) 4 soat davomida intensiv aralashtirish bilan o‘tkazildi. Bunda tegishli mahsulotlar 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propion kislota gidrazidi (**3**) yuqori unum (95%) bilan sintez qilindi. OEt guruhning (**4**) OH guruhlariga (**3**) nisbatan oson chiqib ketuvchi nukleofug bo‘lganligi tufayli ulardagi murakkab efir bog‘i kuchli nukleofil reagentlar tasirida nisbatan past haroratda va qisqa vaqtda oson uziladi hamda kerakli gidrazidlarni hosil qiladi. Ta’kidlashimiz mumkinki, sintez qilingan gidrazid tarkibidagi gidrazin fragmenti – yangi, reaksion qobiliyati yuqori bo‘lgan markazdir.


Tadqiqotlarimizni olingan gidrazinil-hosilalarning tarkibida farmakofor o‘rinbosarlar saqlagan bir qancha aromatik aldegidlar bilan kondensatsiya reaksiyalarini olib borish orqali davom ettirdik. Reaksiyalar borishiga substrat va aldegidlar tuzilishi hamda reaksiya sharoitini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda, nomzod aromatik aldegidlar sifatida p-xlor, p-brom, p-metoksi va 3,4,5-trimetoksibenzaldegidlar tanlab olindi va gidrazidli mahsulot bilan o‘zaro ta’siri amalga oshirildi. Reaksiyalar substrat (**5**) va aldegidlarning 1:1 (ekvimolyar) nisbatdagi aralashmalarini etanolda 2 soat qaynatish bilan olib borildi va natijada tegishli *E*-izomer shakldagi ariliden hosilalar (**6-9**) yaxshi unumlar (60-74%) bilan sintez qilindi (1-jadval).

1-jadval

6-9-Moddalarning turli erituvchidagi unumi va ba’zi fizik-kimyoviy kattaliklari

№	Brutto formula	*R_f (etilasetat:geksan – 5 : 1)	Suyuq. har., ℃	Unum, %
				EtOH
6	$C_{17}H_{14}N_3O_2ClS$	0.61	252-254	60
7	$C_{17}H_{14}N_3O_2SBr$	0.56	258-260	74
8	$C_{20}H_{21}N_3O_5S$	0.45	176-178	67
9	$C_{18}H_{17}N_3O_3S$	0.65	206-208	66

Sintez qilingan birikmalarning tuzilishi zamonaviy fizik-tadqiqot usullari (IQ, ^1H, ^{13}C YAMR spektroskopiya) yordamida o‘rganildi. Xususan, Ularning IQ spektlarida birikmalarga xos propilamid (-CH_2-C(O)-NHN=) fragmentining amid karbonil guruhining valent tebranishlari yutilish chastotalari 1655-1670 sm^{-1} sohalarda namoyon bo‘ladi, benzoksazol halqasining karbonil guruhlari esa 1680-1690 sm^{-1} sohalarda yutilish chastotasiga ega.



(*E*)-3-(2-Tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)-N'-(3,4,5-trimetoksibenziliden)propangidrazidning (9) ^1H YaMR spektri

Olingan birikmalardan **9**-moddaning (DMSO-d_6) olingan ^{1}H YaMR spektr tahlilida molekula tarkibidagi uchta metoksi guruhiga tegishli 9 protonli singletlar 3.68 (3H, s) va 3.80 (6H, s) m.u. sohalarda, propion kislota qoldig‘idagi metilen guruhlari esa har biri alohida ikki protonli triplet (2H, t) holida 3.18 va 4.47 m.u. sohalarda tegishli kimyoviy siljishga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Aromatik halqaning 2', 6' holatlaridagi protonlar esa 6.78, 6.85 m.u. sohalarda alohida bir protonli (1H, s) singletlar holida namoyon bo‘ladi. Birikmaning benzoksazol fragmentidagi aromatik protonlar 7.25 m.u sohada 4 protonli (4H, m) multiplet holidagi kimyoviy siljishga ega. Azometin bog‘idagi yagona proton esa nisbatan kuchsiz – 7.70 m.u sohada bir protonli (1H, s) singlet holida, gidrazon qismining N-H guruhi protoni esa ancha kuchsiz – 11.30 m.u sohada bir protonli (1H, s) singlet holida namoyon bo‘lganligini ushbu birikma tuzilishini yaqqol isbotlaydi.

Xulosa

Shunday qilib, biz ushbu tadqiqotlarimiz doirasida bir necha bosqichlar orqali sintez qilingan va binukleofil tabiatga ega bo‘lgan 3-(2-tioksobenzo[d]oksazol-3(2H)-il)propion kislota gidrazidining (**5**) almashingan aromatik aldegidlar bilan reaksiyalarini o‘rganildi. Natijada, *E*-izomer shakldagi yangi gidrazidlar (**6**-**9**) yaxshi va yuqori unumlar bilan hosil bo‘lishi kuzatildi hamda ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari to‘liq tavsiflandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Honkanen E., Virtanen A.I. On the Reaction of 2,4-Dihydzoxy-1,4-benzoxazin-3-one to 2(3)-Benzoxazolinone // Acta Chem. Scand. -1961. -Vol.15. -№1. -P.221-222.

2. Bredenbery J.B., Honkanen E., Virtanen A.I. The kinetics and Mechanism of Decomrosition of 2,4-Dihydroxy-1,4-benzoxazin-3-one // Acta Chem. Scand. -1962. -Vol.16. –P.135-141.

3. Smissman E.E., Lapidus J.B., Beck S.D. Isolation and Synthesis of an Insect Resistance Factor from Corn Plants // J. Am. Chem. Soc. -1957. -Vol.79. -№ 17. –P.4697-4699.

4. Tand C. S., Chand S.H., Hoo D., Yanadihara K.H. Gas Chromatographic Determination of 2(3)-benzoxazolinones from cereal plants // Phytochemistry. -1975. -Vol.14. -№ 9. –P.2077-2079.

5. Chen Ch. M., Chen M. T. 6-Metoxybenzoxazolinone and Triterpenoids from roots of *Scaporia Dulcis* // Phytochemistry. -1976. -Vol.15. -№ 12. –P.1997-1999.

6. Zinner H., Randow T., Wigert H., Benzazole. XXI. (Benzoxazolonyl-3)-carbonsäuren // J. Prakt. Chem. -1966. -№33. -P.130-138.

7. Мухамедов Н. С., Кристаллович Э. *Л*., Плугарь В. Н., Гиясов К., Алиев Н.А., Абдуллаев Н.*Д*. Каталитическое ацилирование бензоксазолин-2-онов в присутствии хлористого цинка // Хим. гетероцикл. соед. -1994. -№ 8. –С.1136-1139.

8. Мухамедов Н.С., *Д*ушамов *Д*.А., Алиев Н.Ф., Бобокулов Х.М., *Л*евкович М.Г., Абдуллаев Н.*Д*. Бензазолы. 1* Ацилирование бензотиазолин-2-онов хлорангидридами ароматических кислот с использованием малых количеств хлористого цинка // Хим. гетероцикл. соед. -2002. -№ 3. –С.380-384.

9. *Д*ушамов *Д*.А., Мухамедов Н.С., Алиев Н.А., Бобокулов Х.М., *Л*евкович М.Г., Абдуллаев Н.*Д*., Бензазолы. 2*. Относительная активность катализаторов и 4-замещенных бензоилхлоридов при ацилировании бензотиазолинн-2-онов // Хим. гетероцикл. соед. -2002. -№ 4. –С.503-506.

10. *Д*ушамов *Д*.А., Мухамедов Н.С., Бобокулов Х.М., Алиев Н.А. Хлорсульфонилирование бензотиазолин-2-онов // Хим.природ.соедин. -2001, 83-84.

11. Каримова М.Э., *Д*ушамов *Д*.А., Курязов Р.Ш., Мухамедов Н.С., Шахидоятов Х.М. // Хим. гетероцикл. соед. -2011. -№1. –С.117-123.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

O‘ktamova Shohsanam Hakim qizi
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
E-mail: oktamovashoxsanam45@gmail.com

QASHQARSKAYA-1644 QOVOQ URUG‘I VA MOYINING TARKIBI VA XOSSALARI

Annotatsiya. *Maqolada qovoq urug‘ining tarkibi, muhim mikroelementlar ko‘rsatkichlari, shuningdek, qovoq urug‘i moyida yog‘ kislotalari va aminokislotalar konsentratsiyasi tadqiq qilingan. Hozirgi kunda respublikamizning fermer xo‘jaliklarida yetishtiriladigan sabzavotlar, jumladan qovoq yetishtirish va uning urug‘idan moy ishlab chiqarishni rivojlantirish tendensiyalari haqida tahliliy ma’lumotlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qashqarskaya-1644 qovoq navi, qovoq urug‘i, qovoq urug‘i moyi, mikroelementlar, yog‘ kislotalari, aminokislotalar, jarayon, texnologiya.*

Уктамова Шоҳсанам Ҳаким қизи
Бухарский государственный университет докторант

СОСТАВ И СВОЙСТВА ТЫКВЕННЫХ СЕМЕН И МАСЛА КАШКАРСКОЙ-1644

Аннотация. *В статье исследуется состав тыквенных семян, показатели важных микроэлементов, а также концентрация жирных кислот и аминокислот в масле из тыквенных семян. Приведены аналитические данные по овощам, выращиваемым в настоящее время на фермах нашей республики, включая тенденции развития тыквоводства и производства масла из ее семян.*

Ключевые слова: *Сорт тыквы “Кашкарская-1644”, тыквенные семечки, тыквенное масло, микроэлементы, жирные кислоты, аминокислоты, процесс, технология.*

O‘ktamova Shohsanam Hakim qizi
Bukhara State University Researcher

COMPOSITION AND PROPERTIES OF KASHKARSKAYA-1644 PUMPKIN SEEDS AND OIL

Annotation. *The article studies the composition of pumpkin seeds, indicators of important microelements, as well as the concentration of fatty acids and amino acids in pumpkin seed oil. Analytical data on vegetables currently grown on farms in our republic, including trends in the development of pumpkin cultivation and oil production from its seeds, are provided.*

Keywords: *Kashkarskaya-1644 pumpkin variety, pumpkin seeds, pumpkin seed oil, microelements, fatty acids, amino acids, process, technology.*

Kirish

Dunyoda energo-resurs tejamkor texnologik qurilmalarni qo‘llash asosida yuqori sifatli, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish hozirgi kunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoatida o‘simlik urug‘laridan yog‘ olish jarayonida turli xil konstruksiyaga ega bo‘lgan texnologik qurilmalar keng qo‘llaniladi. Yog‘-moy sanoatining innovatsion rivojlanishidagi hozirgi tendensiyalardan biri raqobatbardosh mahsulotlar, ayniqsa iste’mol qilish xavfsiz bo‘lgan biologik qiymati yuqori bo‘lgan yog‘lar va oqsilli taomlarni ishlab chiqarishdir. Shu sababli, yuqori sifatli yog‘lar va oqsilli taomlarni olish imkonini beradigan o‘simlik moylarini ishlab chiqarish va qayta ishlashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili

Qovoq urug‘idan yog‘ olishga mo‘ljallangan hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarni yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari jumladan, Sankt-Peterburg Davlat texnologiya instituti, Kimyo va kimyo texnologiya instituti (Krasnoyarsk, Rossiya), Astraxan davlat universiteti (Rossiya), Almata texnologiya instituti (Qozog‘iston) va Buxoro davlat texnika universiteti tomonidan olib borilmoqda. Qovoq urug‘idan yog‘ olish jarayoni davomida hosil bo‘ladigan yog‘ tarkibi inson sog‘ligi uchun muhim hisoblanib, yog‘ ishlab

chiqarish qurilmalarni yaratish va takomillashtirishga oid olib borilgan tadqiqotlar asosida qator ilmiy natijalar olingan. Biroq har bir hududda yetishtiriladigan qovoq navlari turlicha bo‘lib, urug‘larning tashqi qobiq qismi, o‘lchamlari va zichligi jihatidan farq qiladi. Aynan shu tufayli ham yog‘ olish texnologiyasi turlicha. Jumladan, Ivan Vladimirovich Rossiyaning Rostov viloyatidagi quyuq kashtan tuproqlarida yetishtiriladigan qovoq urug‘larining yog‘dorlik jarayonini presslash texnologik jarayoni misolida tadqiq qilgan. Biroq bu tadqiqot ishi aynan quyuq kashtan tuproqlarida yetishtiriladigan qovoq navlari uchun amalga oshirilgan[1]. I.X.Atoev, G.A. Gafurovalar qovoq urug‘idan yog‘ olishda CK-CO_2 (uglerod dioksidi) yordamida ekstraksiyalash orqali yog‘ olish bo‘yicha tadqiqot ishini olib borgan. Qovoq urug‘i moylari turli usullar bilan olinadi: presslash, geksan bilan ektraksiyalash (Sokslet apparatida), matseratsiya va CK-CO_2 (uglerod dioksidi) orqali 350℃ va 10 MPa bosimda ektraksiyalash. Qovoq yog‘ini deoksidlash shartlari tanlanib, 12 kPa va 550 ℃ da CK-CO_2 (uglerod dioksidi) bilan ezilgan urug‘larni qayta ishlash orqali amalga oshirilishi kerak. Urug‘larda qolgan yog‘ Sokslet apparatida geksan bilan olingan va xom moylar bilan taqqoslangan [2]. Rossiyalik olimlar I.G. Pikul, A.A. Juravlevlar urug‘lardan yog‘ olishning usullarini o‘rganish jarayonida boshqa urug‘lar qatorida qovoq urug‘laridan yog‘ olish bo‘yicha o‘z tadqiqot natijalari yuzasidan patent olishgan[3]. V.B. Kovalev, A.V.Velikorodov, A.G. Tirkov, S.B.Nosachev, Ye.V.Shepetova, N.M. Abduraxmanovalar Astraxan hududida yetishtiriladigan qovoq navlarining urug‘laridan ekstraksiyalash usuli orqali yog‘ olish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qovoq urug‘lari istiqbolli moy olish mahsuloti hisoblanib, tarkibida 28 dan 40 % moy va 35-36% gacha oqsil moddalari mavjud. Moy ishlab chiqarish xomashyosi sifatida qovoq urug‘larining texnologik xususiyatlari uning kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizik-mexanik holatlariga bog‘liq [5] ligi o‘simlik moyi ishlab chiqarishning samarali texnologiyasini aniqlash, shuningdek, texnologik uskunalar tanlash va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlashda asos bo‘ladi.

Qovoq urug‘ini qayta ishlashning mavjud texnologiyalari biologik faol moddalarning tabiiy kompleksini iloji boricha saqlab qolish uchun xomashyoga ta’sir qilishning “yumshoq sharoitlar”ga asoslangan [6]. Biroq, bu texnologiyalarni ilg‘or deb e’tirof etib bo‘lmaydi. Shu munosabat bilan qovoq urug‘ini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish va ulardan olinadigan yog‘ning xususiyatlarini o‘rganish dolzarb bo‘lib, ilmiy va xalq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega.

Quyida qovoqnig tarkibiy tuzilishini bir necha jadvallarda ko‘rib chiqamiz [7].

1-jadval

Qovoqning turli qismlarining tarkibi

№	Omillar	Qovoq qismlari	Miqdori mg/100g
1	Namlik	Qobig‘i	89,527±0,72
		Mag‘zi	92,453±0,71
		Urug‘i	56,740±0,70
2	Yog‘	Qobig‘i	1,650±0,39
		Mag‘zi	1,403±0,49
		Urug‘i	23,447±0,72
3	Oqsil	Qobig‘i	14,670±0,61
		Mag‘zi	10,447±0,39
		Urug‘i	21,313±0,50
4	Uglevodlar	Qobig‘i	12,407±0,45
		Mag‘zi	8,507±0,68
		Urug‘i	5,183±0,67
5	Kletchatka	Qobig‘i	13,383±0,64
		Mag‘zi	1,553±0,84
		Urug‘i	46,647±0,84
6	Energiya berish qiymati, kkal/100 g	Qobig‘i	124,47±0,59
		Mag‘zi	79,563±0,70
		Urug‘i	311,54±0,56

2-jadval

Qovoqning turli qismlarida muhim mikroelementlar ko‘rsatkichlari

№	Omillar	Qovoq qismlari	Miqdori mg/100g
1	Na	Qobig‘i	9,652±0,55
		Mag‘zi	20,759±0,51
		Urug‘i	1,350±0,31
2	K	Qobig‘i	687,467±0,62
		Mag‘zi	1616,394±0,57
		Urug‘i	434,714±0,57
3	Fe	Qobig‘i	4,004±0,58
		Mag‘zi	42,070±0,59
		Urug‘i	6,017±0,58
4	Ca	Qobig‘i	1,360±0,35
		Mag‘zi	0,820±0,01
		Urug‘i	4,000±0,58
5	Zn	Qobig‘i	0,150±0,01
		Mag‘zi	0,230±0,01
		Urug‘i	18,777±0,50
6	P	Qobig‘i	1,419±0,35
		Mag‘zi	1,363±0,32
		Urug‘i	0,740±0,01
7	Cu	Qobig‘i	0,025±0,00
		Mag‘zi	0,060±0,01
		Urug‘i	0,310±0,01
8	Mn	Qobig‘i	0,360±0,01
		Mag‘zi	0,450±0,01
		Urug‘i	1,350±0,33
9	Mg	Qobig‘i	3,353±0,33
		Mag‘zi	5,643±0,58
		Urug‘i	4,340±0,51

Yog‘ kislotasining miqdorini ko‘pligiga qarab yog‘li xomashyolarni shartli guruhlarga bo‘lish mumkin. Jumladan, qovoq urug‘idan olinadigan yog‘ linol kislotali yog‘li xomashyo hisoblanadi. Linol kislotali guruh tarkibida ko‘p miqdorda linol kislotasi bo‘ladi. Bu yog‘da to‘yinmagan yog‘ kislotalar miqdorining ko‘pligi va ularning xolesteringa ijobiy ta’siri tufayli, hamda tarkibida antioksidantlar (tokoferollar) mavjudligi sababli parhez mahsuloti sifatida bolalar ovqatlarida ishlatish mumkin. Qovoq urug‘i yog‘i kungaboqar yog‘i kabi va ushbu guruhga kiruvchi boshqa yog‘lar tarkibida ko‘p miqdorda tokoferollar (vitamin E) mavjudligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ular oksidlanishga barqaror yog‘lar hisoblanadi.

3-jadval

Qovoq urug‘i yog‘ida yog‘ kislotalarining konsentrasiyasi

№	Yog‘ kislotasi	Miqdori, mg/100 g
1	Linol kislota (S18:2)	49,416±0,0,68
2	Kaprin kislota (C10:0)	0,453±0,01
3	Laurin kislota (C12:0)	1,336±0,33
4	Miristin kislota (C14:0)	0,009±0,00
5	Palmitin kislota (C16:0)	20,784±0,50
6	Stearin kislota (C18:0)	4,519±0,50
7	Olein kislota (C18:1)	25,417±0,51
8	Linolen kislota (S18:3)	2,248±0,49

4-jadval

Qovoq urug‘lari navlarida aminokislota konsentrasiyasi

№	Aminokislotalar	Miqdori, g/100 g

1	Aspargin kislota	2,050±0,58
2	Treonin	0,830±0,01
3	Serin	0,640±0,01
4	Glyutamin kislota	3,733±0,63
5	Glitsin	1,636±0,50
6	Alanin	0,740±0,01
7	Valin	1,363±0,33
8	Metionin	0,670±0,01
9	Izoleysin	0,810±0,01
10	Leysin	2,297±0,51
11	Tirozin	0,830±0,01
12	Gistidin	1,399±0,32
13	Lizin	3,493±0,56
14	Arginin	1,698±0,43

Natijalar va ularning tahlili

O‘zbekiston hududida keng tarqalgan qovoq navlari quyidagilar: Kashgarskaya-1644, Ispanskaya- 73, Bahodir, Non kadi. Aynan ushbu 4 turdagi qovoq urug‘i navlarining urug‘lardagi yog‘dordlik darajasini aniqlash maqsadida YAMR (yadro magnit-rezonans) analizatorida spektroskopiya usuli yordamida urug‘larning yog‘dorlik ko'rsatkichlari aniqlanib, quyidagi natijalar olindi. Jumladan, qovoqning Qashqarskaya-1644 navining urug‘ining moylilik darajasi 42-45%, Ispanskaya-73 navining moylilik darajasi 34,63% hamda Bahodir navining moylilik darajasi esa 36,83% tashkil etishi tajribalar orqali aniqlandi. Ko‘rinib turibdiki, Qashqarskaya-1644 navli qovoq urug‘ining moylilik darajasi boshqa turdagi qovoq urug‘laning yog‘lilik darajalaridan ancha yuqori. Tadqiqotimizda aynan shu turdagi qovoq urug‘idan yog‘ olishda energiya-resurs tejamkor texnologik qurilmalarni qo'llash asosida yuqori sifatli moy olish texnologik tizimi ishlab chiqildi [8,9].

Xulosa

So‘nggi yillarda o‘stiriladigan qovoqlar orasida qovoq turlarining ahamiyati ortib bormoqda. Aynan O‘zbekiston hududida keng tarqalgan qovoq navlari: Qashqarskaya-1644, Ispanskaya- 73, Bahodir, Non kadi navlari ko‘plab joylarda yetishtiriladi. Qishloq xo‘jaligi uchun yuqori sifatli ozuqa sifatida qovoqdan an’anaviy foydalanishdan tashqari vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsuloti, konserva sanoati uchun xomashyo, uning kosmetika vositalar va farmatsevtik preparatlar ishlab chiqarishdagi roli ayniqsa ortib bormoqda. Ayniqsa, ozuqaviy va yem-xashak qiymati yuqori bo‘lgan Qashqarskaya-1644 qovoq urug‘i tarkibida 42-45 % yog‘ mavjudligini tadqiqotlarimizda ko‘rishimiz mumkin. Aynan tadqiqotimizda ushbu navdagi qovoq urug‘ini 12-16 atmosfera bosim ostida saqlanib, bir vaqtning o‘zida issiqlik ishlovi berilgach, lahzali daqiqalarda bosimning yo‘qotilishi tufayli 75-80 % qovoq urug‘ining mag‘zi qobig‘idan ajralishi orqali moy olish jarayoni amalga oshirilgan. Ulardan olingan moy vitaminlarga, oqsil moddalariga, shuningdek, katta shifobaxsh xususiyatiga ega ekanligini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ерин Иван Владимирович-Разработка элементов технологии выращивания тыквы для получения маслосемян. PhD диссертация. Персиановский – 2012.

2. Атоев И.Х., Гафурова Г.А.- Рафинирование и экстракция семян тыквы сверхкритической углекислотой – Universum: Технические науки. № 5(74) май, 2020, С. 26-28

3. Пикул И.Г. Журавлев А.А.- Способ получения растительного масла из семян различных растений- Патент-RU 2 624 669 C2. 22.10.2015

4. Ковалев В.Б., Великородов А.В., Тырков А.Г., Носачев С.Б., Щепетова Е.В., Абдурахманова Н.М. Химический состав масел семян некоторых бахчевых культур Астраханской области, выделенных методом сверхкритической флюидной экстракции // Фундаментальные исследования. 2015. №12 (1). С. 54-57.

5. Musayeva S. A., Usmonova D. I., Usmanov F. S. Problems with Marketing Research in the Furniture Market //Eurasian Journal of Academic Research – E-ISSN: 2620-6269. March, 2021. 37-41 pp.

6. Azimovna M. S., Shokhrukhovich U. F., Sodirovich U. B. Problems in the Implementation of Quality Management Systems in Small Business Enterprises //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 7. – 54-57 pp.

7. Понасенко Андрей Святославович- Совершенствование конвективной установки и процесса сушки тыквы. PhD диссертация. Ташкент – 2024

8. Djuraev X.F., O‘ktamova Sh.H - Qovoq urug‘idan yog‘ olish jarayonining istiqbollari - Journal of new century innovations. Volume-39, Issue 1, October-2023. 113-119 b. http://www.newjournal.org/

9. Djuraev X.F., O‘ktamova Sh.H -O‘simlik xomashyolari danagidan yog‘ olish jarayonining istiqbollari - Образование наука и инновационные идеи в мире №-32, Noyabr 2023. 66-69 b. http://www.newjournal.org/

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Shukhrat Gaybullaev
Assistant at Samarkand State University named after Sharof Rashidov
Email: shukhratbekgaybullayev@gmail.com
Yuldash Takhirov
Associate Professor at Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni
Email: yuldash_78@mail.ru
Chao Niu
Professor at Xinjiang Technical Institute of Physics and Chemistry
Email: niuchao@ms.xjb.ac.cn
Jiangyu Zhao
Professor at Xinjiang Technical Institute of Physics and Chemistry
Email: zhaojy@ms.xjb.ac.cn
Khurshed Bozorov
Professor at Samarkand State University named after Sharof Rashidov
Email: khurshedbek@gmail.com

UDC: *547.944/945+547.827*

SYNTHESIS OF *N*-(4-(((6-NITROXINAZOLIN-4 YL)AMINO)METHYL)PHENYL)CYCLOHEXANECARBOXAMIDE

Abstract: *Quinazoline derivatives are heterocyclic compounds of significant importance in organic synthesis and drug design, among which 4-aminquinazoline derivatives are particularly noteworthy. In this study, 4-amino-6-nitroquinazoline (**7**), a key precursor for targeted syntheses, was efficiently prepared, and the results were confirmed using physicochemical methods.*

Keywords: *heterocyclic compounds, 4-aminquinazoline, drug development, nucleophilic substitution, condensation.*

Shuxrat G‘aybullayev
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti assistenti
Yuldash Taxirov
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urgench davlat universiteti dotsenti
Chao Niu
Shinjon fizika-kimyo texnika instituti professori
Jiangyu Zhao
Shinjon fizika-kimyo texnika instituti professori
Xurshed Bozorov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori

N-(4-(((6-NITROXINAZOLIN-4-IL)AMINO)METIL)FENIL)SIKLOGEKSANKARBOKSAMID SINTEZI

Annotatsiya: *Xinazolin hosilalari organik sintez va dori vositalari dizaynida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan geterosiklik birikmalar hisoblanadi, ulardan ayniqsa 4-aminoxinazolin hosilalari alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu tadqiqotda maqsadli sintezlar uchun muhim prekursor bo‘lgan 4-amino-6-nitroxinazolin hosilasi (**7**) yuqori hosildorlik bilan sintez qilindi va natijalar fizik-kimyoviy usullar yordamida tasdiqlandi.*

Kalit so‘zlar: *geterosiklik birikmalar, 4-aminoxinazolin, dori vositalari dizayni, nukleofil almashinish, kondensatsiya.*

Шухрат Гайбуллаев
Ассистент Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова
Юлдаш Тахиров
Доцент Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Бируни
Чао Ниу
Профессор Технического института физики и химии Синьцзяна

Жиангю Зхао
Профессор Технического института физики и химии Синьцзяна
Хуршед Бозоров
Профессор Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова

СИНТЕЗ *N*-(4-(((6-НИТРОКСИНАЗОЛИН-4-ИЛ)АМИНО)МЕТИЛ)ФЕНИЛ)ЦИКЛОГЕКСАНКАРБОКСАМИДА

Аннотация*: Производные хиназолина представляют собой гетероциклические соединения, имеющие значительное значение в органическом синтезе и разработке лекарственных средств, среди которых особенно выделяются 4-аминохиназолиновые соединения. В данном исследовании была эффективно синтезирована 4-амино-6-нитрохиназолиновая производная (7), являющаяся ключевым прекурсором для целевых синтезов, а результаты были подтверждены физико-химическими методами.*

Ключевые слова*: гетероциклические соединения, 4-аминохиназолин, разработка лекарственных средств, нуклеофильное замещение, конденсация.*

Introduction

The quinazoline ring is a fused heterocyclic system formed by the junction of a pyrimidine and a benzene ring. Due to their unique properties, quinazoline derivatives have long attracted the interest of chemists. Moreover, these compounds hold a prominent place in medicinal chemistry and drug design. In recent years, the study of signaling pathways and drug targets in the human body has highlighted the importance of target-based drug design for disease treatment and the discovery of new therapeutic agents [1, 2]. Consequently, several quinazoline derivatives with inhibitory activity against various targets have been approved by the U.S. Food and Drug Administration (FDA), including a number of 4-amino-6-substituted quinazolines (Figure 1) [3]:




Figure 1. Quinazoline derivatives approved by FDA

Gefitinib, erlotinib, and dacomitinib were approved in 2003, 2004, and 2018, respectively, as EGFR inhibitors for the treatment of non-small-cell lung cancer (NSCLC). Afatinib (approved 2012) and lapatinib (approved 2013) act as dual EGFR/HER2 inhibitors and are used in breast cancer and NSCLC therapy [4, 5]. Analysis of FDA-approved drugs further indicates that quinazoline-containing compounds occupy a prominent position among fused heterocyclic scaffolds in medicinal chemistry [6, 7].

Literature review


In recent years, extensive research has been devoted to the synthesis, structural modification, and biological evaluation of quinazoline derivatives, with particular emphasis on establishing their structure–activity relationships (SAR) [8-10]. Notably, Shao et al. designed and synthesized a series of novel 4,6-diaminoquinazoline derivatives, among which a lead compound exhibited potent EGFR inhibitory activity along with significant anticancer efficacy [11]. Similarly, Zuo and co-workers reported the development of several 4,6-disubstituted quinazoline derivatives, where the target compounds demonstrated strong EGFR inhibition and pronounced in vivo antitumor activity [12]. In addition, Hou et al. synthesized a variety of quinazoline-based compounds and systematically investigated their biological activities [13]. Furthermore, Tu and co-workers prepared a series of 4,6-aminoquinazoline derivatives, identifying several compounds with potent EGFR inhibitory activity and high antiproliferative effects against human cancer cell lines [14, 15]. Moreover, ongoing studies continue to explore 4,6-diaminoquinazoline derivatives, with their inhibitory and antiproliferative activities being actively

investigated [16, 17]. Collectively, these findings underscore the continued importance of developing new and efficient key precursors for the synthesis of 4,6-disubstituted quinazoline derivatives, which remains a significant objective in medicinal chemistry research.

Research methodology

The quinazoline scaffold contains multiple reactive centers, which makes it a highly versatile framework for chemical modification. Among these, 4,6-disubstituted quinazoline derivatives are of particular interest due to their recognized biological relevance, and the development of new and efficient precursors in this area remains an important objective. In the present study, we focused on the synthesis of a 4-amino-6-nitroquinazoline derivative, leading to the preparation of compounds that can serve as key synthons for further structural diversification. This work provides a practical foundation for the development of novel 4,6-disubstituted quinazoline derivatives. Within this study, 4-chloro-6-nitroquinazoline was successfully synthesized and subsequently transformed into the key precursor *N*-(4-(((6-nitroquinazolin-4-yl)amino)methyl)phenyl)cyclohexanecarboxamide, obtained in good yield via a straightforward and efficient synthetic route.


The synthesis commenced from commercially available 6-nitroanthranilic acid (**1**). In the first step, 6-nitroanthranilic acid was cyclized under solvent-free conditions with formamide via the Niementowski reaction at 125 °C, affording 6-nitroquinazolin-4(3*H*)-one (**2**). In the subsequent step, compound 2 was chlorinated under solvent-free conditions using $POCl_3$ as the chlorinating agent to give 4-chloro-6-nitroquinazoline (**3**) (Scheme 1):



1 2 3

Scheme 1. Synthesis of 4-chloro-6-nitroquinazoline (**3**)

Intermediate (**3**) underwent selective nucleophilic substitution with 4-aminobenzylamine (**4**) under basic conditions (triethylamine, TEA) in dichloromethane (DCM) at room temperature to afford intermediate (**5**). In the final step, *N*-(4-aminobenzyl)-6-nitroquinazolin-4-amine (**5**) was acylated by the gradual addition of cyclohexanecarbonyl chloride (**6**) in an ice bath under basic conditions (TEA) in DCM, yielding the key precursor *N*-(4-(((6-nitroquinazolin-4-yl)amino)methyl)phenyl)cyclohexanecarboxamide (**7**) (Scheme 2):



3 5 7

Scheme 2. Synthesis of key precursor *N*-(4-(((6-nitroquinazolin-4-yl)amino)methyl)phenyl)cyclohexanecarboxamide (**7**)

Analysis results

The starting materials were obtained from commercial suppliers and used without further purification. All solvents, including ethanol, petroleum ether, toluene, ethyl acetate, and 1,2-dichloroethane, were anhydrous to avoid moisture interference. Reaction progress was monitored by thin-layer chromatography (TLC) on $HSGF_{254}$ silica plates (2.5 × 5 cm), with samples applied using 0.3 × 100 mm glass microcapillaries. Chromatograms were visualized under UV light at 254 and 365 nm or by iodine staining. Tetramethylsilane (TMS) was used as an internal standard in NMR analysis. Structural characterization was carried out using ^1H and ^{13}C NMR spectra recorded on a VARIAN 400 MHz spectrometer at room temperature. HRMS was performed on a QTRAP® 6500+ LC-MS system to confirm molecular composition and structure.

*Preparation of 6-nitroquinazolin-4(3H)-one (**2**)*

The starting material **1** (0.182 g, 1.0 mmol) was dissolved in formamide (5 mL), and the resulting mixture was heated under reflux conditions with continuous stirring for 5 h. The progress of the reaction was monitored by TLC. Upon completion, the reaction mixture was allowed to cool to room temperature, leading to the formation of a solid precipitate. The resulting crystals were collected by vacuum filtration, thoroughly washed with distilled water, and dried under reduced pressure to afford compound **2**. Yield 85%, light brown solid, Mp 133–134 °C. ^1H NMR (400 MHz, DMSO-d_6) δ 8.78 (d, J = 2.7 Hz, 1H), 8.53 (dd, J = 9.0, 2.7 Hz, 1H), 8.32 (s, 1H), 7.85 (d, J = 9.0 Hz, 1H).

*Preparation of 4-chloro-6-nitroquinazoline (**3**)*

The intermediate **2** (0.191 g, 1.0 mmol) was carefully added to phosphorus oxychloride ($POCl_3$, 5 mL), and the reaction mixture was heated under reflux conditions with continuous stirring for 6 h. The progress of the chlorination reaction was monitored by TLC. After completion, the reaction mixture was allowed to cool slightly and then slowly poured

onto crushed ice–water with vigorous stirring. The resulting solid precipitate was formed immediately, collected by vacuum filtration, washed thoroughly with cold water to remove residual reagents, and dried under reduced pressure to afford compound **3**. Yield 73%, light yellow solid, Mp 140–142 °C. ^{1}H NMR (400 MHz, DMSO-d_6) δ 8.81 (d, J = 2.7 Hz, 1H), 8.56 (dd, J = 8.9, 2.7 Hz, 1H), 8.36 (s, 1H), 7.88 (d, J = 9.0 Hz, 1H).

*Preparation of N-(4-aminobenzyl)-6-nitroquinazolin-4-amine (**5**)*

The intermediate **3** (0.209 g, 1.0 mmol) and 4-(aminomethyl)aniline (**4**) (0.146 g, 1.2 mmol) were dissolved in DCM (5 mL). After the addition of triethylamine (0.202 g, 2.0 mmol), the reaction mixture was stirred at room temperature overnight. The progress of the reaction was monitored by TLC. Upon completion, the reaction mixture was diluted with distilled water and extracted with DCM (3×10 mL). The combined organic layers were dried over anhydrous Na_2SO_4, filtered, and the solvent was removed under reduced pressure. The crude residue was purified by silica gel column chromatography using DCM/MeOH as the eluent to afford intermediate **5**. Yield 91%, light yellow solid, Mp 145–146 °C. ^{1}H NMR (400 MHz, DMSO-d_6) δ 9.42 (d, J = 2.5 Hz, 1H), 9.38 (t, J = 5.8 Hz, 1H), 8.59 (s, 1H), 8.46 (dd, J = 9.2, 2.5 Hz, 1H), 7.81 (d, J = 9.2 Hz, 1H), 7.06 (d, J = 8.3 Hz, 2H), 6.52 (d, J = 8.3 Hz, 2H), 5.01 (s, 2H), 4.62 (d, J = 5.6 Hz, 2H).

*Preparation of N-(4-(((6-nitroquinazolin-4-yl)amino)methyl)phenyl)cyclohexanecarboxamide (**7**)*

The intermediate **5** (0.295 g, 1.0 mmol) was dissolved in DCM (5 mL) and the solution was cooled to 0 °C using an ice bath. Triethylamine (0.303 g, 3.0 mmol) was then added under stirring, followed by the slow dropwise addition of cyclohexanecarbonyl chloride (**6**) (0.294 g, 2.0 mmol). The reaction mixture was allowed to warm to room temperature and stirred overnight. The progress of the reaction was monitored by TLC. After completion, the reaction mixture was poured into water and extracted with DCM (3×10 mL). The combined organic layers were dried over anhydrous Na_2SO_4, filtered, and the solvent was removed under reduced pressure. The resulting crude product was purified by silica gel column chromatography using DCM/MeOH as the eluent to afford compound **7**. Yield 68%, off-white solid, Mp 145–146 °C. ^{1}H NMR (400 MHz, DMSO-d_6) δ 9.74 (s, 1H), 9.46 (t, J = 5.8 Hz, 1H), 9.41 (d, J = 2.5 Hz, 1H), 8.59 (s, 1H), 8.48 (dd, J = 9.2, 2.4 Hz, 1H), 7.84 (d, J = 9.1 Hz, 1H), 7.55 (d, J = 8.3 Hz, 2H), 7.30 (d, J = 8.3 Hz, 2H), 4.74 (d, J = 5.7 Hz, 2H), 2.30 (t, J = 11.5 Hz, 1H), 1.83 – 1.59 (m, 5H), 1.46 – 1.13 (m, 5H); ^{13}C NMR (101 MHz, DMSO-d_6) δ 174.17, 160.15, 158.26, 152.86, 144.05, 138.45, 132.92, 129.14, 127.86, 126.33, 120.65, 119.04, 114.08, 44.79, 43.56, 29.12, 25.38, 25.22. HRMS (ESI) calcd for $C_{22}H_{23}N_5O_3$ [M+H]+ 405.1801 found 405.1809.

Conclusion

In summary, the key intermediate *N*-(4-(((6-nitroquinazolin-4-yl)amino)methyl)phenyl)cyclohexanecarboxamide (**7**) was successfully synthesized using a straightforward and efficient method. The stepwise synthesis, including Niementowski cyclization, selective nucleophilic substitution, and acylation under controlled conditions, afforded the target compound in good yields and high purity. Structural elucidation by ^{1}H and ^{13}C NMR, as well as HRMS, confirmed the identity of all intermediates and final product. The synthesized *N*-(4-(((6-nitroquinazolin-4-yl)amino)methyl)phenyl)cyclohexanecarboxamide (**7**) serves as a key intermediate and a versatile scaffold for the preparation of structurally diverse quinazoline derivatives. This intermediate provides a valuable platform for the design of novel inhibitors and bioactive compounds, supporting further medicinal chemistry efforts in the development of therapeutically relevant quinazoline-based agents.

Acknowledgments

The research work was synthesized on the basis of practical project No. ALM-202310062530 on the theme “Organization of laboratory on the development of anticancer drugs”, conducted in Samarkand State University named after Sharof Rashidov. I would like to thank the Xinjiang Technical Institute of Physics and Chemistry (CAS) for their direct assistance in carrying out the experiments described in this paper.

References:

1. Calleri, E., et al., Target-based drug discovery: the emerging success of frontal affinity chromatography coupled to mass spectrometry. ChemMedChem, 2009. 4(6): p. 905-16.

2. Sadri, A., Is Target-Based Drug Discovery Efficient? Discovery and "Off-Target" Mechanisms of All Drugs. J Med Chem, 2023. 66(18): p. 12651-12677.

3. Das, D. and J. Hong, Recent advancements of 4-aminoquinazoline derivatives as kinase inhibitors and their applications in medicinal chemistry. Eur J Med Chem, 2019. 170: p. 55-72.

4. Ayala-Aguilera, C.C., et al., Small Molecule Kinase Inhibitor Drugs (1995-2021): Medical Indication, Pharmacology, and Synthesis. J Med Chem, 2022. 65(2): p. 1047-1131.

5. Shagufta and I. Ahmad, An insight into the therapeutic potential of quinazoline derivatives as anticancer agents. Medchemcomm, 2017. 8(5): p. 871-885.

6. Marshall, C.M., et al., An Update on the Nitrogen Heterocycle Compositions and Properties of U.S. FDA-Approved Pharmaceuticals (2013-2023). J Med Chem, 2024. 67(14): p. 11622-11655.

7. Vitaku, E., D.T. Smith, and J.T. Njardarson, Analysis of the structural diversity, substitution patterns, and frequency of nitrogen heterocycles among U.S. FDA approved pharmaceuticals. J Med Chem, 2014. 57(24): p. 10257-74.

8. Bala, I.A., A.M. Asiri, and R.M. El-Shishtawy, Quinazoline derivatives and hybrids: recent structures with potent bioactivity. Medicinal Chemistry Research, 2024. 33(12): p. 2372-2419.

9. Haghighijoo, Z., et al., Therapeutic potential of quinazoline derivatives for Alzheimer's disease: A comprehensive review. Eur J Med Chem, 2022. 227: p. 113949.

10. Herrera-Vázquez, F.S., F. Hernández-Luis, and J.L. Medina Franco, Quinazolines as inhibitors of chromatin-associated proteins in histones. Medicinal Chemistry Research, 2019. 28(4): p. 395-416.

11. Shao, J., et al., 6-Oxooxazolidine–quinazolines as noncovalent inhibitors with the potential to target mutant forms of EGFR. Bioorganic & Medicinal Chemistry, 2016. 24(16): p. 3359-3370.

12. Zuo, S.-J., et al., Combination of 4-anilinoquinazoline, arylurea and tertiary amine moiety to discover novel anticancer agents. Bioorganic & Medicinal Chemistry, 2016. 24(2): p. 179-190.

13. Hou, W., et al., Novel quinazoline derivatives bearing various 6-benzamide moieties as highly selective and potent EGFR inhibitors. Bioorganic & Medicinal Chemistry, 2018. 26(8): p. 1740-1750.

14. Tu, Y., et al., Design, synthesis, and docking studies of quinazoline analogues bearing aryl semicarbazone scaffolds as potent EGFR inhibitors. Bioorganic & Medicinal Chemistry, 2017. 25(12): p. 3148-3157.

15. Tu, Y., et al., Discovery of novel quinazoline derivatives bearing semicarbazone moiety as potent EGFR kinase inhibitors. Computational and Structural Biotechnology Journal, 2018. 16: p. 462-478.

16. Song, J., et al., Click chemistry for improvement in selectivity of quinazoline-based kinase inhibitors for mutant epidermal growth factor receptors. Bioorganic & Medicinal Chemistry Letters, 2019. 29(3): p. 477-480.

17. Zhang, L., et al., Structure-activity study of quinazoline derivatives leading to the discovery of potent EGFR-T790M inhibitors. European Journal of Medicinal Chemistry, 2015. 102: p. 445-463.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Xokimov Abdulaziz Ergashali o'g'li
Farg'ona davlat texnika universiteti, «Kimyo muhandisligi» kafedrasi assistenti
E-mail: abdulaziz_xokimov@fstu.uz, tel: +99888 795-46-46
Abidova Mamura Alisherovna
Farg'ona davlat texnika universiteti, «Kimyo muhandisligi» kafedrasi kat. o'qit.
E-mail: mamurahonabidova@gmail.com

UO'K 666.942+662.613.1

IQ-SPEKTR TAHLILI YORDAMIDA ANGREN IES KUL-SHLAK CHIQINDILARINING ALYUMOSILIKAT TUZILISHI VA XOSSALARINI BAHOLASH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Angren issiqlik elektr stansiyasidan olingan kul-shlak chiqindilarining strukturaviy xususiyatlari infraqizil spektroskopiya (FTIR) usuli yordamida tadqiq etildi. Tadqiqot jarayonida dastlabki va termik ishlov berilgan namunalarning infraqizil spektrlari 4000-400 sm^{-1} diapazonda solishtirib tahlil qilindi. FTIR spektrlarida 1100-1000 sm^{-1} oralig'ida kuzatilgan intensiv yutilish polosalari material tarkibida amorf kremniy dioksidi va alyumosilikat shishasining ustunligini ko'rsatdi. 800-780 va taxminan 690 sm^{-1} sohalarida aniqlangan polosalar kristall kvarts fazasining mavjudligini tasdiqladi. Termik ishlov berish natijasida infraqizil spektrlarda strukturaviy tartiblanish kuchayib, ayrim kristall fazalarning yaqqolroq namoyon bo'lishi kuzatildi. Olingan natijalar kul-shlak chiqindilarining yuqori darajada amorf alyumosilikat tabiatga ega ekanligini va ularni sement ishlab chiqarishda faol mineral qo'shimcha sifatida qo'llash imkoniyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *kul-shlak chiqindilari, infraqizil spektroskopiya (FTIR), amorf alyumosilikatlar, termik ishlov berish, kvarts, yashil sement*

Хокимов Абдулазиз Эргашали угли
Ассистент кафедры «Химическая инженерия» Ферганского государственного технического университета
Абидова Мамура Алишеровна
Старший преподаватель кафедры «Химическая инженерия» Ферганского государственного технического университета

ОЦЕНКА АЛЮМОСИЛИКАТНОЙ СТРУКТУРЫ И СВОЙСТВ ЗОЛОШЛАКОВЫХ ОТХОДОВ АНГРЕНСКОЙ ТЭС МЕТОДОМ ИК-СПЕКТРАЛЬНОГО АНАЛИЗА

Аннотация. *В данной статье с использованием метода инфракрасной спектроскопии (FTIR) исследованы структурные особенности золошлаковых отходов, полученных с Ангренской тепловой электростанции. В ходе исследования проведён сравнительный анализ инфракрасных спектров исходных и термически обработанных образцов в диапазоне 4000–400 $см^{-1}$. Интенсивные полосы поглощения, наблюдаемые в области 1100–1000 $см^{-1}$ в FTIR-спектрах, свидетельствуют о преобладании в составе материала аморфного диоксида кремния и алюмосиликатного стекла. Полосы, выявленные в интервалах 800–780 и около 690 $см^{-1}$, подтверждают наличие кристаллической фазы кварца. В результате термической обработки в инфракрасных спектрах отмечено усиление структурной упорядоченности и более чёткое проявление отдельных кристаллических фаз. Полученные результаты научно обосновывают высокоаморфную алюмосиликатную природу золошлаковых отходов и перспективность их использования в качестве активной минеральной добавки при производстве цемента.*

Ключевые слова: *золошлаковые отходы, инфракрасная спектроскопия (FTIR), аморфные алюмосиликаты, термическая обработка, кварц, зелёный цемент*

Khokimov Abdulaziz Ergashali ugli
Assistant of the Department of Chemical Engineering, Fergana State Technical University
Abidova Mamura Alisherovna
Senior Lecturer of the Department of Chemical Engineering, Fergana State Technical University

EVALUATION OF THE ALUMINOSILICATE STRUCTURE AND PROPERTIES OF FLY ASH-SLAG WASTE FROM THE ANGREN THERMAL POWER PLANT USING FTIR ANALYSIS

Abstract. *This article investigates the structural characteristics of fly ash–slag waste obtained from the Angren Thermal Power Plant using infrared spectroscopy (FTIR). A comparative analysis of the infrared spectra of untreated and thermally treated samples was carried out in the range of 4000–400 cm⁻¹. Intense absorption bands observed in the 1100–1000 cm⁻¹ region of the FTIR spectra indicate the predominance of amorphous silicon dioxide and aluminosilicate glass in the material composition. Bands detected in the 800–780 and around 690 cm⁻¹ regions confirm the presence of a crystalline quartz phase. As a result of thermal treatment, an increase in structural ordering and a more pronounced manifestation of certain crystalline phases were observed in the infrared spectra. The obtained results scientifically substantiate the highly amorphous aluminosilicate nature of the fly ash–slag waste and demonstrate its potential for use as an active mineral additive in cement production.*

Keywords: *fly ash-slag waste, infrared spectroscopy (FTIR), amorphous aluminosilicates, thermal treatment, quartz, green cement*

Kirish. Sement sanoati bugungi kunda energiya va resurslarni eng ko‘p talab qiluvchi tarmoqlardan biri bo‘lib, portlandsement klinkerini yuqori haroratda pishirish jarayoni bilan bog‘liq ravishda katta miqdorda karbonat angidrid (CO_2) chiqindilarini hosil qiladi. Shu sababli, so‘nggi yillarda sement ishlab chiqarishda klinker ulushini kamaytirishga qaratilgan, ekologik jihatdan xavfsiz va resurs tejamkor “yashil” texnologiyalarni yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuvlar sanoat chiqindilarini ikkilamchi xomashyo sifatida samarali qayta ishlash orqali tabiiy resurslar sarfini qisqartirish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish imkonini beradi [1].

Issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg‘i sifatida ko‘mirni yoqish natijasida hosil bo‘ladigan kul va shlak chiqindilari kimyoviy tarkibi va mineral tuzilishi jihatidan sement ishlab chiqarishda faol mineral qo‘shimcha sifatida qo‘llash uchun katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg‘otmoqda. Ushbu materiallar tarkibida mavjud bo‘lgan amorf SiO_2 va alyumosilikat fazalar sement gidratatsiyasi jarayonida ajralib chiqadigan kalsiy gidroksidi bilan o‘zaro ta’sirlashib, qo‘shimcha past asosli kalsiy gidrosilikatlarni hosil qilish qobiliyatiga ega. Natijada sement toshining tuzilmasi zichlashadi, uning mustahkamligi va uzoq muddatli chidamliligi oshadi. Kul-shlak chiqindilarining puzsolan faolligi ularning kelib chiqishi, yoqilg‘i turi, yoqish harorati hamda yig‘ib olish usuliga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, quruq usulda ajratib olinadigan kul-shlak chiqindilari nam usulda chiqarilgan materiallarga nisbatan yuqori darajada strukturaviy tartibsizlikka, rivojlangan sirt faolligiga va yuqori reaksiya qobiliyatiga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Angren issiqlik elektr stansiyasida quruq usulda olingan kul-shlak chiqindilari tarkibida amorf alyumosilikat shishasining yuqori ulushi mavjud bo‘lib, ularni yuqori darajada klinker bilan almashtirilgan puzsolanli sementlar olishda istiqbolli faol mineral qo‘shimcha sifatida ko‘rib chiqish mumkin [2-15].

Moddalarning strukturaviy xususiyatlarini, bog‘lanish turlarini hamda amorf va kristall fazalar nisbatini aniqlashda infraqizil spektroskopiya (FTIR) usuli samarali va ishonchli fizik-kimyoviy tahlil vositasi hisoblanadi. FTIR usuli yordamida alyumosilikatli materiallarda Si-O-Si va Si-O-Al bog‘lanishlariga xos tebranishlarni aniqlash, shuningdek, termik ishlov berish natijasida yuz beradigan strukturaviy o‘zgarishlarni baholash mumkin. Kimyoviy tarkib tahlili bilan uyg‘un holda olib borilgan infraqizil spektroskopik tadqiqotlar materialning puzsolan faolligi va strukturasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq ochib berishga imkon yaratadi [16-19].

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi Angren issiqlik elektr stansiyasidan quruq usulda olingan kul-shlak chiqindilarining infraqizil spektrlarini tahlil qilish, termik ishlov berishning alyumosilikat tuzilmasiga ta’sirini baholash hamda olingan natijalarni materialning kimyoviy tarkibi va puzsolan xossalari bilan bog‘liq holda izohlashdan iborat. Tadqiqot natijalari sement ishlab chiqarishda klinker miqdori kamaytirilgan, ekologik barqaror puzsolanli sementlarni yaratish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Materiallar va tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqotda asosiy obyekt sifatida Angren issiqlik elektr stansiyasida ko‘mir yoqilishi natijasida hosil bo‘ladigan va quruq usulda ajratib olinadigan kul-shlak chiqindilari tanlab olindi (1-rasm). Ushbu chiqindilar sement sanoatida faol mineral qo‘shimcha sifatida qo‘llash uchun istiqbolli bo‘lib, ularning tarkibi amorf kremniy dioksidi va alyumosilikat fazalarga boyligi bilan tavsiflanadi. Quruq usulda yig‘ib olinishi tufayli material yuqori darajada strukturaviy tartibsizlikka va puzsolan faollikka ega bo‘lib, bu xususiyatlar uni puzsolanli sementlar ishlab chiqarishda samarali komponent sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.



a) b)

1-Rasm. Angren IES kul-shlak chiqindi namunasi tasviri: a) dastlabki namuna; b) sharli tegirmonda maydalangan namuna.

Tadqiqot jarayonida kul-shlak chiqindilarining dastlabki holati bilan bir qatorda, 1000°C haroratda termik ishlov berilgan namunalari ham o‘rganildi. Termik ishlov berish amorf fazalarning strukturaviy qayta tashkil topishi va kristall fazalarning namoyon bo‘lishiga olib kelishi mumkinligi sababli, ushbu jarayonning material tuzilmasiga ta’siri alohida baholandi.

Kul-shlak chiqindilarining strukturaviy va fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash maqsadida infraqizil spektroskopiya (FTIR) usulidan foydalanildi. Infraqizil spektrlar 4000-400 sm^{-1} diapazonda qayd etilib, natijalar asosida material tarkibidagi asosiy funksional guruhlar va bog‘lanish turlari tahlil qilindi. Spektrlarda Si-O-Si va Si-O-Al bog‘lanishlariga xos tebranishlar, shuningdek, kvarts va boshqa mumkin bo‘lgan kristall fazalarga tegishli yutilish polosalari aniqlandi.

Termik ishlov berilgan va dastlabki namunalarning infraqizil spektrlari o‘zaro solishtirilib, qizdirish jarayonining amorf alyumosilikat tuzilmasiga ta’siri baholandi. Spektral o‘zgarishlar materialning strukturaviy tartiblanish darajasi va puzsolan faolligi bilan bog‘liq holda izohlandi.

Infraqizil spektroskopiya natijalari materialning kimyoviy tarkibi haqidagi ma’lumotlar bilan uyg‘unlashtirilib, puzsolan faollikni belgilovchi asosiy omillar aniqlandi. Tadqiqotlar natijalarini tahlil qilishda kul-shlak chiqindilarining sement gidratatsiyasi jarayonidagi roli, xususan, kalsiy gidroksidi bilan o‘zaro ta’sirlashish imkoniyati hisobga olindi.


Natijalar va muhokama. Angren issiqlik elektr stansiyasidan quruq usulda olingan kul-shlak chiqindilarining infraqizil spektrlari 4000-400 sm^{-1} diapazonda o‘rganildi (2-rasm). Tadqiqot natijalari dastlabki va termik ishlov berilgan namunalarning strukturaviy xususiyatlarini solishtirish imkonini berdi.

Infraqizil spektrlarning asosiy yutilish polosasi 1100-1000 sm^{-1} oralig‘ida kuzatilib, u Si-O-Si va Si-O-Al bog‘lanishlarining assimmetrik cho‘zilish tebranishlariga mos keladi. Ushbu intensiv polosa kul-shlak chiqindilari tarkibida amorf kremniy dioksidi va alyumosilikat shishasining ustunligini ko‘rsatadi. Mazkur fazalar yuqori reaksiya qobiliyatiga ega bo‘lib, sement gidratatsiyasi jarayonida ajralib chiqadigan $Ca(OH)_2$ bilan o‘zaro ta’sirlashish orqali past asosli kalsiy gidrosilikatlar hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

800-780 sm^{-1} oralig‘ida qayd etilgan yutilish polosalari Si-O bog‘lanishlarining simmetrik tebranishlariga mos bo‘lib, ular asosan kristall kvarts fazasiga xosdir. Shuningdek, taxminan 690 sm^{-1} atrofida kuzatilgan polosa ham kvarts mavjudligini tasdiqlaydi. Bu holat kul-shlak chiqindilari tarkibida amorf faza bilan bir qatorda ma’lum miqdorda kristall komponentlar ham mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

560 sm^{-1} atrofida aniqlangan zaif yutilish polosasi Al-O yoki Si-O-Al deformatsion tebranishlariga tegishli bo‘lib, alyumosilikat karkasining shakllanganligini bildiradi. Ushbu bog‘lanishlar kul-shlak chiqindilarining puzsolan faolligini belgilovchi asosiy strukturaviy elementlar hisoblanadi.

3600-3200 sm^{-1} sohada gidroksil guruhlarga (-OH) xos kuchli yutilish polosalarining deyarli kuzatilmasligi material tarkibida adsorbsiyalangan suv va gidroksil guruhlarining kamligini ko‘rsatadi. Bu holat quruq usulda yig‘ib olingan kul-shlak chiqindilarining nisbatan barqaror va suv bilan kam o‘zaro ta’sirlashuvchanligini tasdiqlaydi.



2-Rasm. Angren IES kul-shlak chiqindi namunalarining IQ spektrogrammasi

Termik ishlov berilgan namunalarning infraqizil spektrlari dastlabki namunalarga nisbatan silliqroq va aniqroq yutilish polosalari bilan tavsiflanadi (1-jadval). Bu holat qizdirish jarayonida amorf alyumosilikat fazalarning qisman strukturaviy tartiblanishi va ayrim kristall fazalarning yaqqolroq namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, kvartsga xos yutilish polosalarining intensivligi ortishi termik ta’sir natijasida fazaviy qayta tashkil topish jarayonlari sodir bo‘layotganini ko‘rsatadi.

1-Jadval

Kul-shlak chiqindilarining IQ spektrlarida aniqlangan asosiy yutilish polosalari va ularning talqini

To‘lqin soni, sm^{-1}	**Yutilish polosasi tavsifi**	**Mos keluvchi tebranish turi**	**Strukturaviy va texnologik ahamiyati**
1100–1000	Kuchli, keng polosa	Si–O–Si va Si–O–Al assimmetrik cho‘zilish tebranishlari	Amorf kremniy dioksidi va alyumosilikat shishasining ustunligini ko‘rsatadi; yuqori puzsolan faollik manbai
800–780	O‘rtacha intensivlik	Si–O simmetrik cho‘zilish tebranishlari	Kristall kvarts fazasining mavjudligini bildiradi
≈690	Zaif–o‘rtacha	Kvartsga xos tebranishlar	Erkin kvarts mavjudligini tasdiqlaydi
≈560	Zaif	Al–O va Si–O–Al deformatsion tebranishlari	Alyumosilikat karkasining shakllanganligini ko‘rsatadi
3600–3200	Juda zaif yoki kuzatilmaydi	–OH guruhlari cho‘zilish tebranishlari	Adsorbsiyalangan suv va gidroksil guruhlarining kamligi
1650–1600	Deyarli kuzatilmaydi	H–O–H egilish tebranishlari	Namlik miqdorining pastligi

Umuman olganda, infraqizil spektrlar tahlili Angren IES quruq usuldagi kompozitsion kul-shlak chiqindilarining yuqori darajada amorf alyumosilikat tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur strukturaviy xususiyatlar ularning yuqori puzsolan faolligini va sement ishlab chiqarishda klinker miqdorini sezilarli darajada kamaytirgan holda qo‘llash imkoniyatini asoslaydi [].

Xulosa. O‘tkazilgan infraqizil spektroskopik tadqiqotlar Angren issiqlik elektr stansiyasidan quruq usulda olingan kul-shlak chiqindilarining strukturaviy xususiyatlarini baholash imkonini berdi. FTIR spektrlarida 1100-1000 sm^{-1} oralig‘ida kuzatilgan kuchli yutilish polosalari material tarkibida amorf kremniy dioksidi va alyumosilikat shishasining ustunligini tasdiqlaydi. Ushbu fazalar yuqori reaksiya qobiliyatiga ega bo‘lib, sement gidratatsiyasi jarayonida $Ca(OH)_2$ bilan o‘zaro ta’sirlashish orqali puzsolan faollikni ta’minlaydi.

800-780 va taxminan 690 sm^{-1} sohalarida aniqlangan yutilish polosalari kul-shlak chiqindilari tarkibida ma’lum miqdorda kristall kvarts fazasi mavjud ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, 560 sm^{-1} atrofidagi zaif polosalar alyumosilikat karkasining shakllanganligini va Al-O bog‘lanishlarining mavjudligini tasdiqlaydi.

Termik ishlov berilgan namunalarda infraqizil spektrlarning aniqroq va silliqroq bo‘lishi amorf fazalarning qisman strukturaviy tartiblanishi va kristall fazalarning nisbatan yaqqolroq namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. Gidroksil guruhlarga xos yutilish polosalarining deyarli kuzatilmasligi materialning namlik miqdori past va nisbatan barqaror ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, infraqizil spektrlar tahlili kul-shlak chiqindilarining yuqori darajada amorf alyumosilikat tabiatga ega ekanligini tasdiqlab, ularni sement ishlab chiqarishda faol mineral qo‘shimcha sifatida qo‘llash imkoniyatini ilmiy jihatdan asoslaydi. Olingan natijalar klinker miqdori kamaytirilgan, ekologik barqaror puzsolanli sementlarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Иванов В.В., Иванов И.В. Энергосберегающая экологически чистая технология сжигания твердого топлива и переработки золошлаковых отходов электростанций. Монография. - Рязань: НП "Голос губернии", 2009. - 476 с.
2. Стельмах С.А., Щербань Е.М., Коробкин А.П. и др. Разработка состава композиционного портландцемента на основе золошлаковой смеси Новочеркасской ГРЭС // Вестник СевКавГТИ. 2017. № 3 (30). - С. 148–153.
3. Collepardi M., Olagot Ogoumah J.J., Troli R. Combination of Silica Fume, Fly Ash and Amorphous Nano-Silica in Superplasticized High-Performance Concretes // The VII AIMAT Congress. 2004: Italy. 2004. –pp. 100-108.
4. Барсуков С.В. Особенности процессов получения портландцементного клинкера из золосодержащих сыревых смесей //Автореф. дисс… на соискание учёной степени к.т.н. –Барнаул. 2006. – 19 с.
5. Козлова В.К., Барсукова С.В., Карпова Ю.В. Отвальные золошлаковые смеси в качестве сырьевого компонента для производства портландцементного клинкера //Резервы производства строительных материалов. - Барнаул: АлтГТУ. 1999. - С.106-109.
6. Козлова В.К., Барсуков С.В., Хижинков О.В., Мешков Д.А. Влияние добавок на свойства золосодержащих сырьевых шламов для производства портландцементного клинкера // Тезисы докладов Международной научно-практической конференции «Гуманизм и строительство на пороге третьего тысячелетия». - Барнаул: Изд-во АлтГТУ, 1999. -С.125.
7. Барсуков С.В., Козлова В.К. Характеристика золосодержащих сырьевых смесей для производства цемента // Стендовые доклады II Международного совещания по химии и технологии цемента. Том 3.- СПб.: Изд-во ЦПО "Информатизация образования". 2000. -С. 17 – 20.
8. Барсуков С.В., Козлова В.К. Изучение свойств золосодержащих портландцементных сырьевых смесей с отходами от сжигания углей КанскоАчинского бассейна // Ползуновский альманах. - 2001. – Вып. 3. -С. 210 – 213.
9. Рекомендации по применению в бетонах золы, шлаков и золошлаковых смесей тепловых электростанций. - М.:Стройиздат, 1986. -80 с.
10. Малыхин Р.Н. Применение золошлаковых отходов в дорожном строительстве Кузбасса //Молодой ученый. 2019. № 15 (253). - С. 41-44.
11. Иванов В.В., Иванов И.В. Переработка золошлаковых отходов // Маркшейдер. вестн. 2008. № 3(65). - С. 29-31.
12. Заурбеков Ш.Ш., Муртазаев С-А.Ю., Успанова А.С., Сайдумов М.С. Использование золошлаковых отходов ТЭЦ г. Грозного для получения строительных композитов //Экол. и пром-сть России. 2011. Январь - С.26-28.
13. Пулатов З.П., Бутаев Э.М., Адылов Д.К. и др. Использование золошлаков и золо-уносов ТЭС в производстве добавочных цементов // Узбекский химический журнал. 2009. № 6. - С.53-57.
14. Tang Van Kam, Boris Bulgakov, Olga Aleksandrova and others. Effect of rice husk ash and fly ash on the compressive strength of high performance concrete//E3S Web of Conferences 33. 02030 (2018).
15. Капустин Ф.Л., Рагозин Д.В., Кузнецов А.В. и др. Золошлаковая смесь ТЭС - минеральная добавка в портландцемент // Цемент и его применение. № 5. 2011. – С. 116-117.
16. Эминов А.М., Хокимов А.Э., Кадырова З.Р., Мирсалимова С.Р. Синтез керамических материалов с добавкой нефтяного шлама в системе глина–барханный песок. Новые огнеупоры. 2025;(4):3-7.

17. Khokimov A.E., Eminov A.M., Xamdamova Sh.Sh. Recycling industrial waste into high-performance ceramics // Universum: технические науки. 2023. № 3(108), Часть 5. стр. 22-26.

18. Khokimov A.E., Eminov A.M., Kadirova Z.R., Mirsalimova S.R. Study of dune sands of Yazyavan for producing ceramic materials // Journal of Chemical Technology and Metallurgy. 2025. Volume 60, № 4, pages 563-570.

19. Khokimov A.E., Eminov A.M., Kadirova Z.R., Khakimov F.Sh., Rahmonov O.K. The effectiveness of oil sludge inclusion in ceramic materials // Universum: технические науки. 2023. № 12(117), Часть 8. стр. 47-51.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Sultonov Boxodir Elbekovich
Namangan davlat universiteti Kimyo kafedrasi professori, t.f.d., prof.
E-mail: bse-chemist-68@mail.ru;
Zailidinova Feruza Nizomidin qizi
Namangan davlat universiteti 2-kurs magistri

NITRAT KISLOTANI SULFAT KISLOTA ISHTIROKIDA KONSENTRLASH

Annotasiya. *Maqolada laboratoriya sharoitida nitrat kislotaning konsentrlangan sulfat kislota yordamida konsentlash narijalari keltirilgan. Bunda nitrat kislotani konsentrlash jarayonini bosqichlari ketirligan, jarayon harorati va sulfat kislota konsentrasiyasining HNO_3 olishning ayrim kattaliklariga (HNO_3 ni mahsulotdagi va uning bug'idagi konsentrasiyasi hamda reaksiya unumiga) ta'siri o'rganilgan. Jarayonning umumiy harorati 130°C dan oshib ketmasligi kerak. Sulfat kislotaning maqbul konsentrasiyasini 90-93% deb olish mumkin, bunda HNO_3 ni mahsulotdagi konsentrasiyasi 88-90% ga teng bo'ladi va reaksiya unumi 90-92% ga teng, ammo reaksiya unumi bo'yicha olinsa (95-98%) sulfat kislotaning maqbul konsentrasiyasini 75-80% deb olish mumkin. Konsentrlashda qo'llaniladigan sulfat kislotaning jarayon oxiridagi konsentrasiyalari 55-72% atrofida bo'ladi. Keyingi bosqichlarda ushbu sulfat kislota eritmalari konsentrlashga yuborilishi yoki bo'lmasa suyiltrilgan kislota sifatida qo'llanilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *nitrat kislota, konsentrlangan sulfat kislota, reaksiya unumi, harorat, konsentrlash.*

Султонов Боходир Элбекович
профессор кафедры Химии
Наманганского государственного университета, д.т.н.,проф.
Зайлидинова Феруза Низомидин қизи
магистр II -курса Наманганского государственного университета

КОНЦЕНТРИРОВАНИЕ АЗОТНОЙ КИСЛОТЫ ПРИ УЧАСТИИ СЕРНОЙ КИСЛОТОЙ

Аннотация. *В статье представлены результаты концентрирования азотной кислоты с использованием концентрированной серной кислоты в лабораторных условиях. Описаны этапы процесса концентрирования азотной кислоты, изучено влияние температуры процесса и концентрации серной кислоты на некоторые параметры производства HNO_3 (концентрация HNO_3 в продукте и ее парах, а также выход реакции). Общая температура процесса не должна превышать 130°C. Оптимальную концентрацию серной кислоты можно принять равной 90-93%, при которой концентрация HNO_3 в продукте составляет 88-90%, а выход реакции — 90-92%, но если принять выход реакции (95-98%), оптимальную концентрацию серной кислоты можно принять равной 75-80%. Концентрации серной кислоты, используемые при концентрировании в конце процесса, составляют около 55-72%. На следующих этапах эти растворы серной кислоты можно отправить на концентрирование или использовать в качестве разбавленной кислоты.*

Ключевые слова: *азотная кислота, концентрированная серная кислота, выход реакции, температура, концентрирование.*

Sultonov Bokhodir Elbekovich
professor of the Chemistry Department of Namangan State University, DSc.,prof.
Zaylidinova Feruza Nizomidin qizi
2nd year master of Namangan State University

CONCENTRATION OF NITRIC ACID WITH THE PARTICIPATION OF SULFURIC ACID

Abstract. *This article presents the results of nitric acid concentration using concentrated sulfuric acid under laboratory conditions. The stages of nitric acid concentration are described, and the influence of process temperature and sulfuric acid concentration on certain HNO_3 production parameters (HNO_3 concentration in the product and its vapor, as well as the reaction yield) is studied. The overall process temperature should not exceed 130°C. The optimal sulfuric acid concentration can be taken as 90-93%, at which*

the HNO_3 concentration in the product is 88-90%, and the reaction yield is 90-92%. However, if the reaction yield is assumed to be 95-98%, the optimal sulfuric acid concentration can be taken as 75-80%. Sulfuric acid concentrations used for concentration at the end of the process are approximately 55-72%. In subsequent stages, these sulfuric acid solutions can be sent for concentration or used as dilute acid.

Keywords: *nitric acid, concentrated sulfuric acid, reaction yield, temperature, concentration.*

Kirish. Nitrat kislota (HNO_3) kimyo sanoatida eng muhim mineral kislotalardan biri hisoblanadi. U o‘g‘itlar ishlab chiqarish, portlovchi moddalar sintezi, bo‘yoqlar, dori vositalari, metallurgiya va organik sintez jarayonlarida keng qo‘llaniladi [1]. [2] da turli xil xom ashyolardan: ammiak, azot oksid laridan nitrat kislotasini ishlab chiqarish bo’yicha umumiy ma’lumotlar keltirilgan. Nitrat kislotasini olish usullari, ammiakning kontaktli oksidlanishi, parametrlarning rolini asoslash va ularni tanlash, shuningdek, azot(II)oksidini dioksidga oksidlash, azot dioksidini yuttirish va azot oksidlaridan nitrat kislotani bevosita sintez qilish to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, konsentrlanmagan va konsentrlangan nitrat kislota ishlab chiqarish uchun patent materiallari berilgan. Ko‘plab texnologik jarayonlar yuqori konsentrlangan nitrat kislotani talab qiladi. Amaliyotda esa nitrat kislota ko‘pincha 50-55% li holida ishlab chiqariladi. Nitrat kislotani konsentrlashning eng samarali va keng tarqalgan usullaridan biri bu sulfat kislota ishtirokida suvni tortib olish (degidratatsiya) jarayonidir. Ushbu usul laboratoriya va sanoat sharoitida keng qo‘llanilib, yuqori konsentratsiyali nitrat kislota olish imkonini beradi.

Ma’lumki, nitrat kislota suv bilan 68,4% konsentratsiyada azeotrop aralashma hosil qiladi. Bu azeotrop aralashmaning qaynash harorati 121°C. Shuning uchun, suyultirilgan HNO_3 eritmalarini oddiy distillash uni faqat azeotrop aralashmaga aylantirish imkonini beradi. Yuqoriroq konsentrlangan eritmalar olish uchun bug'lanish jarayoni suvsizlantiruvchi vositalar - konsentrlangan sulfat yoki fosfat kislotasi yoki magniy va kaltsiy nitratlarining konsentrlangan eritmalari ishtirokida amalga oshirilishi kerak.

Bu moddalar nitrat kislotaga qaraganda suvni barqaror holda bog‘laydi, shuning uchun suvsizlantiruvchi vositalar ishtirokida quyidagi reaksiya sodir bo‘ladi:

$HNO_3 \cdot nH_2O + H_2SO_4 = HNO_3 + H_2SO_4 \cdot nH_2O$.

Suvli sulfat kislota eritmalarining qaynash harorati 100% nitrat kislotaga qaraganda ancha yuqori, shuning uchun bunday aralashmalar qizdirilganda, 100% nitrat kislota bug‘ fazasiga aylanadi. Bug‘lar kondensatsiyalangandan so‘ng, 100% sof HNO_3 gacha [3,4] bo‘lgan konsentrlangan nitrat kislota olinishi mumkin. Nitrat kislotani uning tuzlaridan olish jarayonlarini tadqiq etish deb nomlangan maqolada [5] turli xil xom ashyolardan (kaliy, natriy va kalsiy nitratlar) nitrat kislotasini olish jarayoni bo’yicha olingan natijalar to’g’risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Kaliy va natriy nirtatlardan nitrat kislotasini olishdagi asosiy texnologik kattaliklarni (sulfat kislota konsentrasiyasi va me’yorlari, harorat, qizdirish davomiyligi) nitrat kislota konsentarsiyasi va unumiga ta’siri o’rganilgan. Nitrat kislota olishning maqbul kattaliklari aniqlangan. Maqbul kattaliklarda olingan nirtat kislotaning konsentrasiyalari 77,42-90,07% va chiqish unumlari esa 97,13-98,53% atrofida bo’ladi. Kalsiy nitrat asosida nitrat kislota olishning maqbul kattaliklari ham o’rganilgan va bunda nirtat kislotaning konsentrasiyalari 73,86-88,07% va chiqish unumlari 81,25-86,28% atrofida bo’ladi.

Ushbu maqolada laboratoriya sharoitida nitrat kislotaning konsentrlangan sulfat kislota yordamida konsentrlash narijalari keltirilgan.

Tajribalar uchun qo’llaniladigan moddalar tavsifi va tajribalarni olib borish tartiblari. Nitrat kislota rangsiz yoki och sarg‘ish suyuqlik bo‘lib, o‘tkir hidga ega. U suv bilan har qanday nisbatda aralashadi. Sof nitrat kislota (100%) quyidagi fizik xossalarga ega: zichligi-1,51 g/sm^3, qaynash va muzlash haroratlari mos ravishda 83°C va –42°C ga teng. Nitrat kislota kuchli oksidlovchi va kuchli kislota hisoblanadi. U ko‘plab metall va metallmaslar bilan reaksiyaga kirishadi. Konsentrlangan nitrat kislota ko‘plab organik moddalarni oksidlaydi va nitrolash reaksiyalarida ishtirok etadi. Lekin shunday bo’lsada, ayrim metallarga ta’sir etmaydi (Al, Fe, Cr). Ko‘plab sanoat jarayonlari uchun 65–68% li nitrat kislota yetarli bo‘lmaydi. Masalan, portlovchi moddalar ishlab chiqarishda, nitrotlash reaksiyalarida va maxsus metall sirtlarini ishlov berish jarayonlarida 98–99% li nitrat kislota talab qilinadi. Oddiy distillatsiya yordamida esa suv va nitrat kislota azeotrop hosil qilgani sababli yuqori konsentratsiyaga erishib bo‘lmaydi. Nirtrat kislotani konsentrlashda qo’llaniladigan sulfat kislotaning xususiyatlari va ahamiyati quyidagilardan iborat: sulfat kislota (H_2SO_4) rangsiz, moysimon suyuqlik bo‘lib, juda kuchli degidratlovchi xususiyatga ega. U suvni kuchli tortib oladi va suv bilan aralashtirilgan katta miqdorlarda issiqlik ajralib chiqadi. Sulfat kislotaning eng muhim xususiyati - suvni boshqa moddardan tortib olib o’ziga bog‘lab olish qobiliyatidir. Shu xossasi tufayli u nitrat kislotani konsentrlash jarayonida asosiy rol o‘ynaydi. Nitrat kislota va suv 68,4% li eritmada azeotrop aralashma hosil qiladi. Bu esa oddiy qizdirish orqali konsentratsiyani oshirishga to‘sqinlik qiladi. Sulfat kislota suv bilan kuchli bog‘lanib, suvni nitrat kislota aralashmasidan tortib oladi. Natijada nitrat kislotaning uchuvchanligi oshadi va u distillatsiya yo‘li bilan ajralib chiqadi.

Nitrat kislotani konsentrlash jarayoni quyidagi bosqichlarda boradi:

1.Nitrat kislotaning suvli eritmasi sulfat kislota bilan aralashtiriladi.

2.Sulfat kislota suvni o‘ziga biriktiradi.

3.Nitrat kislota bug‘latiladi.

4.Bug‘lar sovitilib, konsentrlangan nitrat kislota olinadi.

Umumiy ko‘rinishda jarayon fizik-kimyoviy muvozanatga asoslanadi. Laboratoriya sharoitida konsentrlash usuli quyidagicha olib boriladi. Avval ma’lum hajmdagi nitrat kislotaning 50-55% li eritmasi olinadi va harorat o’chagich bilan jihozlangan distillatsiya kolbasiga solinadi. Unga ehtiyotkorlik bilan konsentrlangan sulfat kislota qo‘shiladi. Aralashma qizdirilib, ajralib chiqqan nitrat kislota bug‘lari sovitgich orqali sovitilib qabul qiluvchi idishga yig‘iladi. Jarayon davomida NO_2 kabi zararli gazlar ajralishi mumkin. Shu sababli gazlarni yutuvchi filtrlar va neytrallash tizimlari qo‘llaniladi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Nitrat kislotani sulfat kislota ishtirokida konsentrlash natijasida olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Olingan natijalarda ko’rinib turibdiki, haroratni ortishi reaksiya unumiga teskari va nitrat kislotani uning bug’idagi konsentrasiyasi ortishiga sabab bo’ladi. Va aksincha, HNO_3 ni mahsulotdagi konsentrasiyasi ortadi. Masalan, haroratning 130 dan

1-jadval.

Jarayon haroratining HNO_3 olishning ayrim kattaliklariga ta’siri (H_2SO_4 konsentrasiyasi -93%)

Harorat, ^oC	HNO_3 ni mahsulotdagi konsentrasiyasi, %	HNO_3 ni bug’dagi konsentrasiyasi, %	Reaksiya unumi, %
80	99	1	97
90	92	8	95
100	90	10	90
110	82	18	88
120	65	35	85
130	51	49	72

80^oC gacha sovutilishida HNO_3 ni mahsulotdagi konsentrasiyasi 51 dan 99% gacha ortishi, HNO_3 ni bug’dagi konsentrasiyasini esa 49% dan 1% gacha kamayishi hamda reaksiya unumini 72 dan 97% gacha otrishi kuzatiladi. Reaksiya unumini 100% dan kam bo’lishi ushbu reaksiyada nitrat kislotaning parchalanishidan NO_2 ni hosil bo’lishi bilan tushintirish mumkin. Maqbul harorat oralig’i sifatida 100-80^oC gacha sovitishni olish mumkin, bunda HNO_3 ni suyuq mahsulotdagi konsentrasiyasi 90-99%, HNO_3 ni bug’dagi konsentrasiyasini esa 1-10% va reaksiya unumi 90-97% ga teng bo’ladi. Umumiy reaksiya o’tkazish harorati 130^oC dan ortib ketmasligi kerak, chunki bunda HNO_3 ni suyuq eritmasidagi konsentrasiyasi 51% ga kamayib ketishi va bug’dagi konsentrasiyasi esa 49% gacha ko’tarilishi hamda reaksiya unumi 72% ga tushib ketishi kuzatiladi. Keyingi tajribalarda esa sulfat kislota konsentarsiyalarini HNO_3 olishning ayrim kattaliklariga ta’siri o’rganildi. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan. Keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, H_2SO_4 ni konsentrasiyasini ortishi HNO_3 ni mahsulotdagi konsentrasiyasiga to’g’ri proporsional HNO_3 ni bug’dagi konsentrasiyasi va reaksiya unumiga esa teskari proporsional ta’sir etishi kuzatildi. Masalan, H_2SO_4 ni konsentrasiyasini 75 dan 93% gacha ortishi natijasida HNO_3 ni mahsulotdagi konsentrasiyasi 81 dan 90% gacha ortishi, HNO_3 ni bug’dagi konsentrasiyasi va reaksiya unumini kamayishi mos ravishda 19 dan 10% gacha va 98 dan 90% gacha bo’lishi kuzatildi.

2-jadval.

Sulfat kislota konsentarsiyasining HNO_3 olishning ayrim kattaliklariga ta’siri (Harorat 100^oC)

H_2SO_4 ni konsentrasiyasi, %	HNO_3 ni mahsulotdagi konsentrasiyasi, %	HNO_3 ni bug’dagi konsentrasiyasi, %	Reaksiya unumi, %
75	81	19	98
80	82	18	95
85	84	16	94
90	88	12	92
93	90	10	90

2-jadvaldagi keltrilgan ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, sulfat kislotaning maqbul konsentrasiyasini 90-93% deb olinsa, HNO_3 ni mahsulotdagi konsentrasiyasi 88-90% ga teng bo’ladi va reaksiya unumi 90-92% ga teng, ammo reaksiya unumi bo’yicha olinsa (95-98%) sulfat kislotaning maqbul konsentrasiyasini 75-80% deb olish mumkin. Umumiy qilib aytganda laboratoriya sharoitlarida olingan mahsulot nitrat kislotaning konsentrasiyasini uning qo’llanilishiga qarab ishlatish mumkin. Bunday hollarda sulfat kislotaning barcha konsentrasiyalarini maqbul konsentrasiyalar deb olish mumkin bo’ladi. Va albatta sanoat miqiyoalarida nitrat kislota olishda reaksiya unumi va mahsulot kislotaning

konsentrasiyalarini yanada yuqoriroq bo'lishiga e'tibor berish kerak. Konsentrlashda qo'llaniladigan sulfat kislotaning jarayon oxiridagi konsentrasiyalari 55-72% atrofida bo'ladi. Keyingi bosqichlarda ushbu sulfat kislota eritmalari konsentrlashga yuborilishi yoki bo'lmasa suyiltrilgan kislota sifatida qo'llanilishi mumkin. 1-rasmda sulfat kislota konsentarsiyasi va haroratning nitrat kislota olishning ayrim kattaliklari-HNO_3 ni mahsulotdagi konsentrasiyasi, HNO_3 ni bug'dagi konsentrasiyasi va reaksiya unumiga ta'siri keltirilgan. Ushbu keltrilgan ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, sulfat kislota konsentarsiyasi HNO_3 ni mahsulotdagi konsentrasiyasi, HNO_3 ni bug'dagi konsentrasiyasi va reaksiya unumiga sezilarli darajada ta'sit ko'rsatadi, ammo haraorat yanada kattaroq darajada ta'sir etadi.


Nitrat kislotani konsentrlangan sulfat kislota yordamida konsentrlashning afzalliklari va kamchiliklari quyidagilardan iborat:

Afzalliklari

- Yuqori konsentratsiyaga erishish
- Texnologiyaning ishonchliligi

Kamchiliklari

- Kislotalarning agressivligi
- Jihozlarning tez korroziyalanishi



1-rasm. Sulfat kislota konsentarsiyasi va haroratning HNO_3 olishning ayrim kattaliklariga ta'siri: 1-HNO_3 ni mahsulotdagi konsentrasiyasi, %; 2-HNO_3 ni bug'dagi konsentrasiyasi, % va 3- reaksiya unumi, %.

Xulosa

Nitrat kislotani sulfat kislota ishtirokida konsentrlash — kimyo sanoatida o'zining soddaligi, iqtisodiy samaradorligi va yuqori mahsulot sifati bilan ajralib turadigan usuldir. Ushbu jarayonning nazariy asoslarini chuqur tushunish va texnologik tartibga qat'iy rioya qilish orqali xavfsiz va samarali ishlab chiqarishga erishish mumkin. To'g'ri texnologiya va xavfsizlik choralariga rioya qilinsa, yuqori sifatli konsentrlangan nitrat kislota olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmerov Q., Jalilov A., Sayfutdinov R. Umumiy va anorganik kimyo. O'zbekiston nashtiyoti, Toshkent, 2006, 472 b.

2. Б.Э. Султонов, Ф.Н. Зайлидинова, С.Х. Турдалиева. Получение азотной кислоты. НамДУ Илмий ахборотномаси, №1,2025, 98-103 б.

3. Воробьев Н. И. Технология связанного азота и азотных удобрений : тексты лекций по одноименному курсу для студентов очной и заочной форм обучения.Минск, БГТУ, 2011, 159-160 с.

4. F. A. Cotton, G. Wilkinson, C. A. Murillo, and M. Bochmann. Advanced Inorganic Chemistry, 6th Edition. Wiley-Interscience: New York, 1999. 1355 pp. reviewed by Daniel Rabinovich.

5. Sultonov B.E., Zayliddinova F.N. Nitrat kislotani uning tuzlaridan olish jarayonlarini tadqiq etish. International Journal of Scientific Bulletin ISSN 3030-3885 Volume 1, Issue 01, September. 2025, pp.23-28.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Alisher Gulumbayevich Yeshimbetov
O‘zR FA akademik O.S. Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti, katta ilmiy xodim
Email: ealisherg@yahoo.com
Mavlonbek Abdumajitovich Ziyayev
Namangan davlat universiteti, dotsent
Jamshid Mengnorovich Ashurov
O‘zR FA akademik O.S. Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti, professor
Baxtiyar Tulyaganovich Ibragimov
O‘zR FA akademik O.S. Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti, akademik

UO‘K:004.94+544.162.7+615.355

TURLI XIL SUV MODELLARINING AXE-GALANTAMIN KOMPLEKSINING MOLEKULYAR DINAMIK SIMULYATSIYALARIGA TA’SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada molekulyar doking usuli yordamida asetilxolinesteraza fermenti bilan galantamin alkaloidi o‘rtasidagi kompleks modellashtirildi. Olingan kompleksdagi barqarorlik va o‘zaro ta’sirlarni chuqur o‘rganish maqsadida SPC/E, TIP3P, TIP4P va TIP4P-Ew suv modellaridan foydalangan holda 500 nanosekund davomida molekulyar dinamika modellashtirishi amalga oshirildi. Molekulyar dinamika natijalari galantaminning fermentning faol markaziga bog‘lanish energiyasi qo‘llanilgan suv modeliga sezilarli darajada bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi, bu esa bunday hisob-kitoblarni bajarishda suv parametrizatsiyasini inobatga olish muhimligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *Atsetilxolinesteraza, galantamin, molekulyar dinamika, bog’lanish energiyasi, MMGBSA*

Алишер Гулумбаевич Ешимбетов
Институт биоорганической химии имени академика А.С. Садыкова АН РУз, старший научный сотрудник
Мавлонбек Абдумажитович Зияев
Наманганский государственный университет, доцент
Джамшид Менгнорович Ашуров
Институт биоорганической химии имени академика А.С. Садыкова АН РУз, профессор
Бахтияр Туляганович Ибрагимов
Институт биоорганической химии имени академика А.С. Садыкова АН РУз, академик

ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МОДЕЛЕЙ ВОДЫ НА МОДЕЛИРОВАНИЕ МОЛЕКУЛЯРНОЙ ДИНАМИКИ КОМПЛЕКСА АЦЕТИЛХОЛИНЭСТЕРАЗЫ С ГАЛАНТАМИНОМ

Аннотация. В данной статье методом молекулярного докинга был смоделирован комплекс фермента ацетилхолинэстеразы с алкалоидом галантамином. Для последующего исследования стабильности и межмолекулярных взаимодействий в полученном комплексе был применён метод молекулярной динамики продолжительностью 500 наносекунд с использованием четырёх различных моделей воды: SPC/E, TIP3P, TIP4P и TIP4P-Ew. Результаты молекулярно-динамического моделирования показали, что расчётная энергия связывания галантамина с активным центром фермента существенно зависит от выбранной параметризации воды, что подчёркивает важность учёта данного фактора при проведении подобных расчётов.

Ключевые слова. *Ацетилхолинэстераза,галантамин, молекулярная динамика, энергия связывания, MMGBSA*

Alisher Gulumbaevich Eshimbetov
Institute of Bioorganic Chemistry named after academician A.S. Sadykov of the Uzbek Academy of Sciences, senior researcher
Mavlonbek Abdumajitovich Ziyaev
Namangan state university, docent
Jamshid Mengnorovich Ashurov

Institute of Bioorganic Chemistry named after academician
A.S. Sadykov of the Uzbek Academy of Sciences, Professor
Bakhtiyar Tulyaganovich Ibragimov
Institute of Bioorganic Chemistry named after academician
A.S. Sadykov of the Uzbek Academy of Sciences, Academician

INFLUENCE OF DIFFERENT WATER MODELS ON MOLECULAR DYNAMICS SIMULATIONS OF THE ACHE–GALANTAMINE COMPLEX

Annotation. In this article, a complex of the acetylcholinesterase enzyme with the alkaloid galantamine was modeled using molecular docking. To further investigate the stability and intermolecular interactions within the obtained complex, molecular dynamics simulations were performed for 500 nanoseconds using four different water models: SPC/E, TIP3P, TIP4P, and TIP4P-Ew. The molecular dynamics results demonstrated that the calculated binding energy of galantamine to the active site of the enzyme significantly depends on the chosen water parameterization, highlighting the importance of considering this factor when performing such computational studies.

Kew words*. Acetylcholinesterase,galantamine, molecular dynamics, binding energy, MMGBSA*

Kirish

Molekulyar dinamika simulyatsiyalarida suv modelini to‘g‘ri tanlash juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u biomolekulalarning fazoviy tuzilishi, dinamik xatti-harakati hamda o‘zaro ta’sir xususiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1]. Suv molekulalari oqsil va ligand molekulalari bilan vodorod bog‘lari (H-bog‘lar) hosil qilish bilan birga, oqsil–ligand o‘zaro ta’sirida ko‘prik (bridge) vazifasini bajarib, kompleksning barqarorligiga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin.

Molekulyar dinamika jarayonida suv muhitining to‘g‘ri modellashtirilishi elektrostatik o‘zaro ta’sirlar, konformatsion o‘zgarishlar hamda bog‘lanish energiyalarining ishonchliligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli suv modelining tanlovi hisoblash natijalarining aniqligi va takrorlanuvchanligiga bevosita ta’sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi.

GROMACS dasturiy ta’minoti [2] yordamida SPC [3], SPC/E [4], TIP3P [5], TIP4P [5], TIP4P-Ew [6] va TIP5P [7] kabi turli suv modellaridan foydalangan holda molekulyar dinamika hisoblashlarini amalga oshirish mumkin. Ushbu modellar suv molekulasining geometriyasi, zaryad taqsimoti va o‘zaro ta’sir parametrlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Mos suv modelini tanlash GROMACS muhitida olib boriladigan molekulyar dinamika simulyatsiyalarining barqarorligi va aniqligini sezilarli darajada oshirishi mumkin [1].

Adabiyotlar tahlili

SPC (Simple Point Charge) suv modeli uch nuqtali (bitta kislorod atomi va ikkita vodorod atomidan iborat) qattiq model hisoblanadi [3,8]. Ushbu modelda suv molekulasining dipol momentini ifodalash maqsadida kislorod atomiga −0.82 e, vodorod atomlariga esa +0.41 e zaryadlar berilgan. O–H bog‘ uzunligi 1.0 Å, H–O–H valent burchagi esa doimiy qiymat sifatida 109.47° ga teng qilib qabul qilingan. SPC modeli suvning dielektrik doimiysini nisbatan past ($\varepsilon \approx 60$) baholaydi, bu esa eritmada elektrostatik o‘zaro ta’sirlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Natijada oqsil konformatsion dinamikasi va oqsil–ligand bog‘lanishlarining nisbatan kuchliroq namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

SPC/E (Extended Simple Point Charge) suv modeli [4,8] SPC modelining takomillashtirilgan varianti bo‘lib, unda suv molekulasining o‘rtacha potensial energiyasini hisobga oluvchi qo‘shimcha energiya tuzatmasi kiritilgan. Ushbu yondashuv suvning dielektrik xususiyatlarini yaxshiroq ifodalash imkonini beradi ($\varepsilon \approx 71$) va natijada tajribaviy ma’lumotlarga nisbatan yaqinroq natijalar olinadi. SPC/E modeli ko‘plab biomolekulyar tizimlar uchun muvozanatli va barqaror suv muhiti yaratishi bilan ajralib turadi.

SPC va SPC/E suv modellarida dinamik qutblanuvchanlik bevosita hisobga olinmaydi. Biroq, nisbatan mukammal hisoblangan TIP3P, TIP4P, TIP4P-Ew va TIP5P suv modellarida zaryad taqsimotining optimallashtirilishi orqali suvning qator tajribaviy xususiyatlari, jumladan zichlik, diffuziya va vodorod bog‘lari tarmog‘i yanada aniqroq aks ettiriladi. Xususan, TIP4P va uning modifikatsiyalari suv molekulasidagi manfiy zaryad markazini kislorod atomidan tashqariga ko‘chirish orqali elektrostatik o‘zaro ta’sirlarni yanada realroq tasvirlaydi.

Ma’lumki, nisbatan uzoq davom etuvchi (500 ns) molekulyar dinamika simulyatsiyalari “in silico” skrining usullarining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bunday hisoblashlar yuqori hisoblash quvvatiga ega bo‘lgan, masalan, GeForce RTX 30–50 seriyali videokartalar bilan jihozlangan Core i9 protsessorli kompyuterlarda ham bir necha kun davom etishi mumkin. Shu sababli molekulyar dinamika simulyatsiyalarini samarali va to‘g‘ri tashkil etishda suv modelini tanlash muhim metodologik omil hisoblanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ushbu ishda suv modellarining oqsil–ligand kompleksi molekulyar dinamika simulyatsiyasiga hamda oqsil–ligand bog‘lanish energiyasiga ta’sirini o‘rganish maqsadida atsetilxolinesteraza–

galantamin kompleksi misolida SPC/E, TIP3P, TIP4P va TIP4P-Ew suv modellaridan foydalangan holda molekulyar dinamika simulyatsiyalari amalga oshirildi.

Metodika va usullar

Molekulyar doking (AutoDock Vina [9]) usuli yordamida hosil qilingan galantamin–AXE (atsetilxolinesteraza, PDB ID: 1DX6) kompleksi uchun molekulyar dinamika (MD) simulyatsiyalari GROMACS 2025.3 dasturiy paketida [1] AMBER99SB-ILDN [10] kuch maydoni qo‘llangan holda amalga oshirildi. Galantamin molekulasi uchun topologiya va geometrik parametrlar fayli ACPYPE [11] serveri yordamida, AM1-BCC zaryad taqsimoti asosida generatsiya qilindi.


Dastlab, AXE–galantamin kompleksi periodik chegara shartlari ostida dodekaedrik qutiga joylashtirildi. Tizim SPC/E, TIP3P, TIP4P yoki TIP4P-Ew suv modellari yordamida solvatsiya qilinib, fiziologik sharoitni modellashtirish maqsadida Na^+ va Cl^- ionlari qo‘shilib, umumiy ion konsentratsiyasi 0.15 M ga keltirildi. Shundan so‘ng hosil bo‘lgan AXE–galantamin–suv–ion tizimi energiya minimallashtirish bosqichidan o‘tkazildi.

Keyingi bosqichda tizim avval doimiy hajm va harorat sharoitida (NVT ansambl), so‘ngra doimiy bosim va harorat sharoitida (NPT ansambl) muvozanat holatiga keltirildi. Harorat va bosimni barqaror ushlab turish uchun mos termostat va barostat algoritmlaridan foydalanildi. Muvozanatlash bosqichlaridan so‘ng, asosiy bosqich (production phase) sifatida 500 nanosekund (ns) davomida molekulyar dinamika simulyatsiyasi amalga oshirildi.

Bajarilgan 500 ns MD simulyatsiya natijasida olingan trayektoriya fayli 5000 ta vaqt kadrlari (frame) dan iborat bo‘lib, ushbu trayektoriyaning oxirgi 10 ta kadriga asoslanib MM/GBSA [12] usuli yordamida AXE–galantamin kompleksi uchun bog‘lanish energiyalari hisoblandi. Molekulyar dinamika simulyatsiyalari natijalari tizim barqarorligi va dinamik xususiyatlarini baholash maqsadida o‘rtacha kvadratik og‘ish (RMSD, nm), o‘rtacha kvadratik fluktuatsiya (RMSF, nm), aylanish radiusi (Rg, nm) hamda vodorod bog‘lari (H-bog‘lar) soni kabi parametrlar orqali tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar


Ma’lumki, atsetilxolinesteraza (AChE) fermentining faol markazi nisbatan keng bo‘lib, molekulyar dinamika (MD) simulyatsiyasi jarayonida ligand molekulasi aminokislota qoldiqlari bilan mustahkam yoki sust bog‘lanishi, faol markaz ichida yon tomonga siljishi, hatto ayrim hollarda faol markazdan chiqib ketishi ham mumkin. Mazkur tadqiqotlar natijasida olingan RMSD grafigidan (1-rasm) qo‘llanilgan barcha suv modellarida galantamin molekulasining simulyatsiya davomida AChE faol markazida saqlanib qolganligini va tizim muvozanat holatiga erishganini kuzatish mumkin.



1-Rasm. MD simulyatsiya natijalarining o‘**rtacha kvadratik og‘ish** (RMSD) va aylanish radiusi (Rg) kattaliklari bilan baholanishi

Oqsilning umumiy fazoviy barqarorligini tavsiflovchi aylanish radiusi (Rg) qiymatlari to‘rtta suv modeli holatida ham simulyatsiya davomida oqsilning kompakt holatda saqlanib qolganligini va sezilarli darajada yoyilib ketmaganligini ko‘rsatdi. Bu natija AChE oqsilining molekulyar dinamika jarayonida strukturaviy barqarorligini tasdiqlaydi.


Atomlarning lokal harakatlanish tebranishlarini aks ettiruvchi RMSF grafigi (2-rasm) tahlili shuni ko‘rsatdiki, TIP4P suv modeli qo‘llanilgan holatda ARG105, GLY214 va PRO337 aminokislota qoldiqlari atomlarining fluktuatsiyalari nisbatan yuqori bo‘lgan. Ushbu aminokislota qoldiqlari AXE oqsilidagi spiral (α-heliks) strukturalarini bog‘lovchi peptid zanjirlarida joylashgan bo‘lib, ularning moslashuvchanligi fermentning funksional harakatchanligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.




2-Rasm. MD modellashtirish mobaynida AXE atomlarining o‘rtacha kvadratik fluktuatsiya (RMSF) grafigi

Molekulyar doking natijasida olingan boshlang‘ich kompleks geometriyalari bilan 500 nanosekundlik MD simulyatsiya yakunidagi kompleks geometriyalari taqqoslanganda, galantamin molekulasining boshlang‘ich holatga nisbatan sezilarli darajada siljiganligi kuzatildi (3-rasm). Biroq ushbu siljish ligandning faol markazdan chiqib ketishiga olib kelmagan.


Butun MD simulyatsiyasi davomida AChE–galantamin molekulalari orasidagi vodorod bog‘lari sonining asosan 1–3 oralig‘ida saqlanib qolishi (4-rasm) kompleks barqarorligida vodorod bog‘lari bilan bir qatorda boshqa o‘zaro ta’sir turlarining ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Xususan, aromatik halqalar orasidagi π–π o‘zaro ta’sirlarning kompleks barqarorligiga sezilarli hissa qo‘shishi 5-rasmda yaqqol namoyon bo‘ladi.



3-rasm. TIP3P va TIP4P suv modellari ishtirokidagi MD simulyatsiyasi natijasida (500 ns) olingan komplekslarning dastlabki kompleks bilan taqqoslanishi



4-rasm. MD modellashtirish davomida AXE-galantamin atomlari orasidagi H-bog‘lar soni



5-rasm. TIP3P (chapda) va TIP4P (o‘ngda) suv modellari modellari ishtirokidagi MD simulyatsiyasi natijasida (500 ns) olingan komplekslarda galantamin molekulasining aminokislota qoldiqlari bilan ta’sirlashishi

Molekulyar dinamika simulyatsiyalari natijalari asosida oqsil–ligand bog‘lanish energiyalarini aniqlashda molekulyar mexanika va umumlashtirilgan Born sirt maydoni yondashuviga asoslangan MM/GBSA usuli keng qo‘llaniladi [12]. Ushbu yondashuvdan foydalangan holda turli suv modellari ishtirokida olingan MD natijalari asosida AXE–galantamin kompleksida galantamin molekulasining fermentga bog‘lanish energiyasi baholandi (1-jadval).

1-jadval. Turli suv modelida MD modellashtirilgan AXE-galantamin kompleksida ligandning fermentga bog‘lanish energiyasi (ΔG_{bind}, kkal/mol)

Parametr	SPC/E	TIP3P	TIP4P	TIP4P-Ew
ΔH	-19.55±2.75	-32.88 ± 3.11	-30.76±0.83	-23.75±2.5
$-T\Delta S$	5.42±0.62	5.42 ± 0.26	1.96±0.05	2.2±0.04
ΔG_{bind}	-14.14±2.82	-27.46 ± 3.12	-28.8±0.84	-21.55±2.5

MMGBSA hisob-kitoblari natijalariga ko‘ra, galantaminning AXE fermentiga bog‘lanish energiyasining eng maqbul qiymati TIP4P suv modeli qo‘llanilgan holatda aniqlandi. TIP3P suv modeli ishtirokidagi hisoblashlarda ham TIP4P modeliga yaqin bog‘lanish energiyasi qiymatlari kuzatildi. Aksincha, SPC/E suv modeli qo‘llanilgan holatda AChE–galantamin bog‘lanishining nisbatan kuchsizroq ekanligi aniqlandi. Ushbu natijalar suv modelini tanlash oqsil–ligand o‘zaro ta’sirlarini miqdoriy baholashda muhim omil ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa

Ushbu ishda atsetilxolinesteraza–galantamin kompleksi uchun turli suv modellarining molekulyar dinamika simulyatsiyasi natijalariga ta’siri o‘rganildi. 500 nanosekundlik MD simulyatsiyalari Core i9-14900K protsessor va GeForce RTX 4090 videokartasi yordamida amalga oshirilib, SPC/E, TIP3P, TIP4P va TIP4P-Ew suv modellarida mos ravishda taxminan 16, 26, 43 va 44 soat vaqt talab qildi.

MM/GBSA tahlili natijalariga ko‘ra, TIP4P suv modeli galantaminning AChE fermentiga bog‘lanish energiyasini eng maqbul tarzda ifodaladi. Shu bilan birga, TIP3P suv modeli hisoblash vaqtining nisbatan kamligi hamda bog‘lanish energiyasi qiymatlarining TIP4P modeliga yaqinligi sababli uzoq davom etuvchi molekulyar dinamika simulyatsiyalari uchun eng maqbul tanlov sifatida tavsiya etiladi.

Ushbu ish Innovatsion rivojlanish agentligining FL-9524115091 raqamli fundamental loyihasi doirasida amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tempra C, Ollila O.H.S., Javanainen M. Accurate Simulations of Lipid Monolayers Require a Water Model with Correct Surface Tension// J. Chem. Theory Comput. –2022. –Vol.18(3). –P.1862-1869. https://doi.org/10.1021/acs.jctc.1c00951

2. Abraham M. J., Teemu M., Roland S., Szilárd P., Jeremy C.S., Berk H., Erik L. GROMACS: High performance molecular simulations through multi-level parallelism from laptops to supercomputers//SoftwareX. –2015. Vol.1-2. P.19–25. https://doi.org/10.1016/j.softx.2015.06.001

3. Berendsen H.J.C., Postma J.P.M., van Gunsteren W.F., Hermans J. Interaction Models for Water in Relation to Protein Hydration. In: Pullman, B. (eds) Intermolecular Forces. The Jerusalem Symposia on Quantum Chemistry and Biochemistry. −1981, −Vol.14. Springer, Dordrecht. https://doi.org/10.1007/978-94-015-7658-1_21

4. Berendsen H.J.C., Grigera J.R., Straatsma T.P. The missing term in effective pair potentials//J.Phys.Chem. −1987. −Vol.91(24). –P.6269-6271. https://doi.org/10.1021/j100308a038

5. Jorgensen W. L., Chandrasekhar J., Madura J. D., Impey R. W., Klein M. L. Comparison of simple potential functions for simulating liquid water// J.Chem.Phys. −1983. Vol.79. –P.926–935. https://doi.org/10.1063/1.445869

6. Horn H.W., Swope W.C., Pitera J.W., Madura J.D., Dick T.J., Hura G.L., Head-Gordon T. Development of an improved four-site water model for biomolecular simulations: TIP4P-Ew// J.Chem.Phys. −2004. –Vol.120(20). –P.9665-9678. https://doi.org/10.1063/1.1683075

7. Mahoney M.W., Jorgensen W.L. A five-site model for liquid water and the reproduction of the density anomaly by rigid, nonpolarizable potential functions//J.Chem.Phys. −2000. −Vol.112. –P.8910–8922. https://doi.org/10.1063/1.481505

8. Pekka M., Lennart N. Structure and Dynamics of the TIP3P, SPC, and SPC/E Water Models at 298 K//J. Phys. Chem. A. −2011. −Vol.105(43). –P.1089-5639. https://doi.org/10.1021/jp003020w

9. Trott O., Olson A.J. AutoDock Vina: Improving the speed and accuracy of docking with a new scoring function, efficient optimization and multithreading//J.Comput.Chem. −2010. −Vol.31(2). –P.455-461. https://doi.org/10.1002/jcc.21334.

10. Lindorff-Larsen K., Piana S., Palmo K., Maragakis P., Klepeis J.L., Dror R.O., Shaw D.E. Improved side-chain torsion potentials for the Amber ff99SB protein force field//Proteins. −2010. −Vol.78(8). –P.1950-1958. https://doi.org/10.1002/prot.22711

11. Sousa da Silva A.W., Vranken W.F. ACPYPE - Antechamber python parser interface//BMC Research Notes. −2012. −Vol.5. −P.367. https://doi.org/10.1186/1756-0500-5-367

12. Valdés-Tresanco M.S., Valdés-Tresanco M.E., Valiente P.A., Moreno E. gmx_MMPBSA: A New Tool to Perform End-State Free Energy Calculations with GROMACS//J. Chem. Theory Comput. −2021. −Vol.17(10).–P.6281-6291. https://pubs.acs.org/doi/10.1021/acs.jctc.1c00645

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Ibrokhim Rakhimjonovich Askarov
Andijan State University
https://orcid.org/0000-0003-1625-0330
Shavkat Vokhidovich Abdullaev
Namangan State University
https://orcid.org/0009-0001-5294-7373
Eldorbek Rakhimjon o'g'li Khaydarov
University of Business and Science
https://orcid.org/0009-0004-4774-061X

DETERMINATION OF CARBOHYDRATES IN AS–UBS MEDICINAL TEA USING HIGH-PERFORMANCE LIQUID CHROMATOGRAPHY (HPLC)

Abstract. *In this study, the carbohydrate composition of the AS–UBS herbal tea was investigated using high-performance liquid chromatography (HPLC). The research object was a complex herbal tea prepared from pear (Pyrus spp.) branches, flower buds of Japanese sophora (Styphnolobium japonicum), Amaranthus Lera (Amaranthus Lera), and mint (Mentha) powder. The results showed that fructose and sucrose were the main carbohydrates present in the tea, while glucose was not detected. The obtained results confirm the biological safety of AS–UBS tea and its significance as a functional food product.*

Keywords: AS–UBS herbal tea, carbohydrates, liquid chromatography, fructose, sucrose, HPLC.).

Аскаров Иброксим Рахимжонович
Андижанский государственный университет
Абдуллаев Шавкат Вохидович
Наманганский государственный университет
Эльдорбек Рахимжон оглу Хайдаров
Университет **UBS**

ОПРЕДЕЛЕНИЕ УГЛЕВОДОВ В ЦЕЛЕБНОМ ЧАЕ AS–UBS С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВЫСОКОЭФФЕКТИВНОЙ ЖИДКОСТНОЙ ХРОМАТОГРАФИИ (ВЭЖХ)

Аннотация. *В данном исследовании углеводный состав лечебного чая AS–UBS изучен с использованием метода высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ, HPLC). В качестве объекта исследования был выбран комплексный растительный чай, приготовленный из побегов груши (Pyrus spp.), цветочных бутонов софоры японской (Styphnolobium japonicum), амаранта Lera (Amaranthus Lera) и порошка мяты (Mentha). По результатам анализа установлено, что основными углеводами чая являются фруктоза и сахароза, при этом глюкоза не обнаружена. Полученные данные подтверждают биологическую безопасность чая AS–UBS и его значимость как функционального пищевого продукта.*

Ключевые слова: *чай AS–UBS, углеводы, жидкостная хроматография, фруктоза, сахароза, HPLC.*

Ibroxim Rahimjonovich Asqarov
Andijon davlat universiteti
Shavkat Vohidovich Abdullaev
Namangan davlat universiteti
Eldorbek Rahimjon o'g'li Xaydarov
UBS universiteti

AS–UBS SHIFOBAXSH CHOYI TARKIBIDAGI UGLEVODLARNI SUYUQLIK XROMATOGRAFIYASI (VEKH) YORDAMIDA ANIQLASH

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda AS–UBS shifobaxsh choyining uglevod tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (VEKH, HPLC) usuli yordamida o'rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida olmurut (Pyrus spp.) novdalari, Yapon saforasi (Styphnolobium japonicum) gulli kurtaklari, Amarant Lera (Amaranthus Lera) va yalpiz (Mentha) kukunidan tayyorlangan kompleks o'simlik choyi tanlandi. Analiz natijalariga ko'ra, choy tarkibida fruktoza va sakkaroza asosiy uglevodlar sifatida aniqlanib, glyukoza aniqlanmadi. Olingan natijalar AS–UBS choyining biologik xavfsizligi va funksional oziq-ovqat mahsuloti sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *AS–UBS choyi, uglevodlar, suyuqlik xromatografiyasi, fruktoza, sakkaroza, HPLC..*

In recent years, global interest in medicinal and functional tea products made from natural plant raw materials has increased significantly. The advantages of such products are associated with the absence of artificial additives, a high content of biologically active compounds, and their physiological compatibility with the human body. Scientific studies show that bioactive components present in herbal teas enhance the body's antioxidant defense system, reduce the harmful effects of free radicals, and regulate metabolic processes at the cellular level. In particular, the optimal balance of flavonoids, polyphenols, and carbohydrates is considered one of the key factors determining the pharmacological activity of medicinal teas. Flavonoids and phenolic compounds exhibit strong antioxidant properties and demonstrate anti-inflammatory, capillary-strengthening, and immunomodulatory effects. Carbohydrates play an important role in energy metabolism, enhance the bioavailability of biologically active compounds, and contribute to the intensification of metabolic processes.

The composition of AS–UBS medicinal tea includes 3–5-year-old shoots of pear (Pyrus spp.), flower buds of Japanese sophora (Styphnolobium japonicum), Amaranthus Lera, and powdered mint (Mentha), which are recognized as plant raw materials rich in biologically active compounds. These components contain a complex of flavonoids, phenolic acids, and antioxidant substances. Due to their synergistic effects, the overall resistance of the organism increases, immune responses are activated, and inflammatory processes are suppressed. In addition, the inclusion of amaranth and mint in the AS–UBS tea formulation further enhances its biological value and strengthens its metabolic and tonic effects.

The determination of the qualitative and quantitative carbohydrate composition of AS–UBS medicinal tea is of significant scientific and practical importance. Carbohydrates are key components that determine the tea's energy value, natural sweetness, and glycemic safety. Their analysis using modern instrumental methods, particularly high-performance liquid chromatography (HPLC), provides a scientific basis for evaluating the potential of the tea as a functional food product and a preventive therapeutic agent.

Materials and Methods of the Study. In this study, the following plant raw materials included in the composition of AS–UBS medicinal tea were selected as research objects: 3–5-year-old branches of pear (Pyrus spp.), flower buds of Japanese sophora (Styphnolobium japonicum), Amaranthus Lera (Amaranthus Lera), and mint (Mentha) powder. These plant raw materials are rich in biologically active compounds, and their combined use contributes to the formation of the functional properties of the tea.

Analytical Method and Instrumentation. High-performance liquid chromatography (HPLC) was employed to determine the carbohydrate composition of AS–UBS medicinal tea. The analyses were carried out using an Agilent 1100 HPLC system. The system was equipped with the following main modules: a degasser (G1379A), quaternary pump (G1311A), autosampler (G1313A), column thermostat (G1316A), refractive index detector (RID, G1362A), and ChemStation software for chromatographic data acquisition and processing.

Chromatographic Conditions. Chromatographic separation was performed on a Supelcosil LC–NH_2 column (particle size 5 μm, dimensions 4.6 × 250 mm). A mixture of acetonitrile and water (82:18, v/v) was used as the mobile phase, and elution was carried out in an isocratic mode. The flow rate of the mobile phase was set at 1.0 mL/min. Samples were injected into the system at a volume of 10 μL. The column temperature was maintained at 35 °C, ensuring analytical stability and reproducibility of the results.

Retention Times of Standard Compounds. The identification of carbohydrates was carried out by comparison with standard compounds. The retention times of the standard carbohydrates were determined as follows: fructose – 4.9 ± 0.2 min, glucose – 5.7 ± 0.2 min, sucrose – 10.4 ± 0.2 min, and maltose – 12.1 ± 0.2 min. Based on these retention times, the carbohydrates present in AS–UBS medicinal tea were qualitatively and quantitatively identified..




Figure 1. Qualitative and Quantitative Composition of Carbohydrates in AS–UBS Tea

Results and Discussion. As a result of analyses carried out using high-performance liquid chromatography (HPLC), the carbohydrate composition of AS–UBS medicinal tea was determined (Table 1).

N.	Carbohydrate type	Content (mg/g)
1	Fructose	2.64
2	Glucose	Not detected
3	Sucrose	3.15
4	Maltose	0.23
	Total	**6.02**

Table 1. Carbohydrate composition of AS–UBS medicinal tea (mg/g)

According to the obtained results, glucose was not detected in the composition of AS–UBS medicinal tea. This indicates that the product may be relatively safe for individuals with low glucose tolerance, as well as for consumers who need to limit glycemic load. The major carbohydrates identified in the tea were sucrose and fructose, accounting for 48.71% and 28.02% of the total carbohydrate content, respectively. These values determine the natural sweetness of the tea and positively influence its organoleptic properties.

Maltose was detected in a very small amount (0.23 mg/g), indicating that it acts as a minor carbohydrate component and does not significantly affect the overall carbohydrate balance of the tea. During chromatographic analysis, clear and well-resolved peaks were observed for all identified carbohydrates, confirming the high accuracy, sensitivity, and reproducibility of the applied HPLC method. In addition, chromatograms revealed low-intensity peaks corresponding to minor carbohydrate components; however, their quantities were significantly lower compared to the main carbohydrates.

Overall, the obtained results demonstrate that the carbohydrate composition of AS–UBS medicinal tea has been scientifically substantiated and highlight the potential of this product as a functional food and a preventive therapeutic agent.

Conclusion.

AS–UBS medicinal tea is recognized as a complex herbal product rich in natural carbohydrates and biologically active compounds. HPLC analysis enabled high-precision quantification of fructose, sucrose, and maltose in the tea composition, while glucose was not detected. These findings strengthen the scientific basis for considering AS–UBS medicinal tea as a functional food product with medicinal and preventive potential.

References:

1.Zhang, Y., Li, X., & Wang, J. (2020). Analysis of sugars in herbal teas by HPLC–RID. *Journal of Food Composition and Analysis*, 90, 103494.

2.Shao, J., Cao, W., et al. (2018). A novel quality-by-design approach for developing an HPLC method to analyze herbal extracts: A case study of sugar content analysis. *PLoS ONE*.

3.Kim, H. J., Lee, B., & Shin, D. (2009). Separation and quantification of component monosaccharides of tea polysaccharides from *Gynostemma pentaphyllum* by HPLC with UV detection. *Food Chemistry*, 112, 742–746.

4.Xiao, Y., & Cheng, S. (2022). Evaluation of inherent fructose, glucose, and sucrose concentrations in tea leaves and black tea. *Applied Food Research*, 2(1), 100100.

5.Han, X., Ando, H., Kudo, Y., & Sasaki, Y. (2022). Development of a highly sensitive method for sugar determination in herbal medicine. *Chemical and Pharmaceutical Bulletin*, 70(11), 796–804.

6.Xasanov, A., & Oripov, B. (2018). Analysis of carbohydrates in herbal teas using the HPLC method. *Journal of Chemistry of Uzbekistan*, 2(3), 45–52.

7.Yo‘ldoshev, S. (2017). Carbohydrate composition of medicinal plant extracts. *Proceedings of the Academy of Natural Sciences*, 6, 112–119.

8.Rashidov, T., & Axmedov, N. (2019). Antioxidant and carbohydrate properties of herbal teas. *Journal of Biology of Uzbekistan*, 4(2), 67–74.

9.Ismoilov, J. (2016). Determination of sugar content in amaranth and mint plants. *Journal of the Food Industry of Uzbekistan*, 3, 23–30.

10. Tursunov, A., & Davronov, S. (2018). Functional composition and HPLC analysis of medicinal teas. *Journal of Chemistry and Biology of Uzbekistan*, 7(4), 101–108.

11. Sobirov, F. (2015). Determination of carbohydrates in plant extracts using the HPLC method. *Journal of Natural Sciences*, 2, 85–92.

12. Yusupova, D. (2019). Analysis of sugars and polyphenols in natural teas. *Science and Technology*, 11(2), 39–46.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Raxmanov Begzod Abdihamidovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
Begzod1001@mail.ru
Eshqurbonov Furqat Bozorovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti professori
furqat-8484@mail.ru
Hamidov Azim Panji o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
azimhamidov@gmail.com
Hamidov Asal Abduolim qizi
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi
asalashuroval@gmail.com,
Abdullayeva Rayxona Ilhom qizi
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi
rayhona8306@gmail.com,

XONDIZA BOYITISH FABRIKASI MAHSULOTLARIDA Pb VA Zn MASSAVIY ULUSHINI ANIQLASHNING KOMPLEKSONOMETRIK USULI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Olmaliq KMK” AJ Xondiza kon boshqarmasi boyitish fabrikasi texnologik jarayonlarida olinadigan namunalar tarkibidagi qo‘rg‘oshin (Pb) va rux (Zn) metallarining massaviy ulushini aniqlash masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida tahlilning kompleksonometrik usulidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, uning aniqlik darajasi va boshqa xalaqit beruvchi komponentlar ta’sirini kamaytirish yo‘llari tahlil qilingan. Tajriba natijalari asosida ushbu usulning ekspress-tahlil (tezkor tahlil) sharoitida samaradorligi asoslab berilgan. Maqola natijalari boyitish fabrikalari laboratoriyalarida metallar hisobini yuritish va texnologik ko‘rsatkichlarni nazorat qilishda amaliy ahamiyatga ega.*

Tayanch so‘zlar: *Xondiza boyitish fabrikasi, qo‘rg‘oshin, rux, massaviy ulush, kompleksonometriya, titrlash, metallurgik tahlil, namuna olish.*

Rakhmanov Begzod
independent researcher of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Eshkurbonov Furkat
Professor of the Termez State University of Engineering and Agrotechnologies
Hamidov Azim Panji o'g'li
Lecturer at Termez University of Engineering and Agrotechnology
Ashurova Asal
student of the Termez State University of Engineering and Agrotechnologies
Abdullayeva Raykhon
student of the Termez State University of Engineering and Agrotechnologies

COMPLEXONOMETRIC METHOD FOR DETERMINING THE MASS SHARE OF Pb AND Zn IN THE PRODUCTS OF THE KHONDIZA ENRICHMENT FACTORY

Abstract. *This article highlights the issues of determining the mass fraction of lead (Pb) and zinc (Zn) metals in samples obtained during the technological processes of the processing plant of the Khandiza Mining Department of JSC "Almalyk MMC." In the course of the study, the features of using the complexometric method of analysis, its accuracy, and ways to reduce the influence of other interfering components were analyzed. Based on the results of the experiment, the effectiveness of this method under the conditions of express analysis (express analysis) is substantiated. The results of the article are of practical importance for keeping records of metals and controlling technological indicators in the laboratories of processing plants.*

Keywords: *Khandiza Processing Plant, lead, zinc, mass fraction, complexometry, titration, metallurgical analysis, sampling.*

Рахманова Бегзода Абдихамидовича
независимого исследователя Денауского института предпринимательства и педагогики
Эшкурбонова Фурката Бозоровича
профессора Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий
Хамидов Азим Панджи угли
преподаватель Термезского государственного инженерно-агротехнологического университета
Ашурову Асал Абдуолим кизи
студентка Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий
Абдуллаеву Райхону Ильхом кизи
студентка Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий

КОМПЛЕКСОНОМЕТРИЧЕСКИЙ МЕТОД ОПРЕДЕЛЕНИЯ МАССОВОЙ ДОЛИ Pb И Zn В ПРОДУКЦИИ ХАНДИЗИНСКОЙ ОБОГАТИТЕЛЬНОЙ ФАБРИКИ

Аннотация. *В данной статье освещены вопросы определения массовой доли металлов свинца (Pb) и цинка (Zn) в образцах, получаемых в технологических процессах обогатительной фабрики Хандизинского рудоуправления АО "Алмалыкский ГМК." В ходе исследования были проанализированы особенности использования комплексонометрического метода анализа, его точность и способы снижения влияния других мешающих компонентов. На основе результатов эксперимента обоснована эффективность данного метода в условиях экспресс-анализа. Результаты статьи имеют практическое значение для ведения учета металлов и контроля технологических показателей в лабораториях обогатительных фабрик.*

Ключевые слова: *Хандизинская обогатительная фабрика, свинец, цинк, массовая доля, комплексонометрия, титрование, металлургический анализ, отбор проб.*

Kirish. Zamonaviy tog‘-kon sanoatida rangli metallar, xususan, qo‘rg‘oshin (Pb) va rux (Zn) ishlab chiqarish iqtisodiy barqarorlikning muhim omillaridan biri hisoblanadi [1]. Qo‘rg‘oshin yer po‘stida asosan galenit (PbS) rudasi tarkibida uchrab, o‘zining yuqori zichligi, past erish harorati (327,5°C) va korroziyaga chidamliligi bilan ajralib turadi. Uning akkumulyatorlar ishlab chiqarish, elektrotexnika va radiatsiyadan himoya qilish sohalaridagi keng qo‘llanilishi mahsulot sifatini doimiy metrologik nazorat qilishni talab etadi [2]. “Olmaliq KMK” AJ tasarrufidagi Xondiza boyitish fabrikasida qayta ishlanayotgan polimetall rudalar tarkibidagi metallar miqdorini aniq belgilash texnologik jarayonning samaradorligini ta’minlaydigan asosiy omildir. Boyitish jarayonining turli bosqichlarida (namuna olish nuqtalarida) metallarning massaviy ulushini tezkor va yuqori aniqlikda aniqlash laboratoriya tahlillarining bosh vazifasi hisoblanadi [3]. Hozirgi kunda qo‘rg‘oshin va ruxni aniqlashning turli usullari (atom-absorbsion, rentgen-fluoressent va h.k.) mavjud bo‘lib, ular orasida kompleksonometrik tahlil o‘zining yuqori aniqligi, tezkorligi va iqtisodiy tejamkorligi bilan ajralib turadi [4].

Ushbu usul tahlil qilinayotgan namunadagi metall ionlarining kompleksonlar (xususan, Trilon B) bilan barqaror birikmalar hosil qilishiga asoslanadi. Maqolada Xondiza kon boshqarmasi sharoitida ushbu usulni qo‘llashning metodologik jihatlari, tahlil jarayonidagi xatoliklar va natijalarning ishonchliligi tadqiq etiladi.

Kompleksonometrik titrlash usuli rangli va og‘ir metallarning miqdoriy tahlilida o‘zining yuqori selektivligi va aniqligi bilan ajralib turadi. Ushbu usulning fundamental asosi metall ionlarining etilendiamintetraatsetat kislota (EDTA) yoki uning natriyli tuzi - Trilon B (ikki valentli natriy tuzi) bilan barqaror kompleks birikmalar hosil qilishiga tayanadi [5].

Pb^{2+} va Zn^{2+} ionlari EDTA bilan 1:1 stexiometrik nisbatda kompleks birikmalar hosil qiladi, bu esa hisoblash jarayonlarining soddaligini ta’minlaydi:

$$Me^{2+} + H_2Y^{2-} \rightarrow MeY^{2-} + 2H^+$$

(Bu yerda Me^{2+} - metall ioni, H_2Y^{2-} - EDTA anioni).

Tahlil jarayonida eritmaning vodorod ko'rsatkichini (pH) qat’iy nazorat qilish talab etiladi. Qo‘rg‘oshin va rux ionlari uchun kompleks hosil bo‘lishining maksimal barqarorligi pH ≈ 5-6 oralig‘ida kuzatiladi. Ushbu muhitni saqlab turish uchun laboratoriya sharoitida atsetatli yoki ammoniyli bufer eritmalardan foydalaniladi [6]. Pb miqdorini aniqlashda indikator sifatida ksilenol oranj qo‘llaniladi. Titrlashning ekvivalent nuqtasida eritma rangi o‘zgarishi metall-indikator kompleksining parchalanishi va metall-EDTA kompleksining hosil bo‘lishi bilan izohlanadi. Zn tahlilida esa, boshqa xalaqit beruvchi ionlarni (masalan, Fe^{3+}, Al^{3+}) niqoblash (maskirovka) uchun ammoniy ftorid (NH_4F) qo‘shilishi natijalarning metrologik ishonchliligini oshiradi.

Pb va Zn ning massaviy ulushi quyidagi standart metodikaga muvofiq hisoblandi [7]: Tadqiqotdagi keltirilgan massaviy ulush (X, %) quyidagi umumiy formula orqali hisoblanadi:

$$X = \frac{V \cdot K \cdot T \cdot 100}{m}$$

Bunda: V - titrlash uchun sarflangan Trilon B eritmasining hajmi, ml; K - Trilon B eritmasining tuzatish koeffitsienti; T - Trilon B ning aniqlanayotgan metall (Pb yoki Zn) bo'yicha titri (1 ml eritmadagi metall miqdori, g/ml); m - tahlil uchun olingan namuna og'irligi (naveska), g.

Tajriba qismi va tadqiqot metodikasi. "Olmaliq KMK" AJ Markaziy analitik laboratoriyasida ruda namunalarini tahlil qilish jarayoni namunalarni analitik tarozida o'lchashdan boshlanadi. Tahlil uchun 0,2-1 g miqdordagi namuna olinadi.

Namunani tayyorlash va eritish jarayoni:

1. Olingan namuna xlorid kislota (HCl) va nitrat kislota (HNO_3) aralashmasida eritiladi.

2. Eritmaga sulfat kislotasi (H_2SO_4) qo'shilib, quruq qoldiq qolguncha bug'latiladi. Bunda qo'rg'oshin sulfat ($PbSO_4$) holida cho'kmaga tushadi.

3. Filtrlash usuli: Cho'kmani ajratib olishda laboratoriyaning o'ziga xos usuli - "bo'ktirilgan filtr" (suvda bo'ktirilgan maydalangan filtr qog'ozi) qo'llaniladi. Bu usul Pb cho'kmasini filtrda to'liq ushlab qolishni va filtrlash tezligini oshirishni ta'minlaydi.

4. Filtrdagi cho'kma suv bilan sovutilgach, pH=5,5-6 bo'lgan atsetatli bufer eritmada eritiladi.

Titrlash jarayoni: Tayyorlangan eritma indikator ishtirokida Trilon B ishchi eritmasi bilan rang sariqqa o'zgarguncha titrlanadi. Har bir namuna uchun titrlash natijalari alohida qayd etilib, massaviy ulush yuqorida keltirilgan formula bo'yicha hisoblanadi.

Natijalar va ularning tahlili. Olib borilgan tadqiqotlar va laboratoriya tahlillari natijasida "Olmaliq KMK" AJ Xondiza boyitish fabrikasining texnologik jarayonlarida analitik nazoratning o'rni beqiyos ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'rg'oshin va rux metallarining ruda, konsentrat hamda chiqindi tarkibidagi miqdorini doimiy monitoring qilish orqali foydali komponentlarning yo'qotilishini sezilarli darajada kamaytirish va boyitish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud. Xususan, tahlil qilingan konsentrat namunalarida metallarning yuqori konsentratsiyasi kuzatilgani fabrikada boyitish jarayoni va texnologik rejim to'g'ri tashkil etilganligidan dalolat beradi. Biroq, ayrim chiqindi (xvost) namunalarida metall miqdorining kutilganidan nisbatan yuqori bo'lishi amaldagi texnologik sxemani yanada takomillashtirish va reaktivlar sarfini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatmoqda [8].

Shu bilan birga, laboratoriya natijalari nafaqat texnologik ko'rsatkichlarni nazorat qilish, balki ishlab chiqarishni rejalashtirishda ham strategik ahamiyatga ega. Markaziy analitik laboratoriya tomonidan taqdim etilgan aniq raqamlar asosida kondagi qo'rg'oshin va ruxga boy bo'lgan uchastkalar belgilanib, qazish ishlarining asosiy yo'nalishi shakllantiriladi. Tahlil jarayonida qo'llanilgan kompleksonometrik usul va "bo'ktirilgan filtr" yordamida ajratib olish metodikasi natijalarning metrologik ishonchliligini ta'minladi. Iqtisodiy va texnologik samaradorlikdan tashqari, tahlillar jarayonida xodimlarning qo'rg'oshin birikmalari bilan ishlashdagi xavfsizligi va ekologik me'yorlarga rioya qilinishi ham korxonaning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Olingan yakuniy natijalar quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval.

Xondiza boyitish fabrikasi namuna olish nuqtalaridagi metallarning massaviy ulushi (%)

Namuna turi	Mis (Cu), %	Rux (Zn), %	Qo'rg'oshin (Pb), %
Ruda	1,2	9,02	3,76
Mis konsentrati (Cu kt)	22,69	4,4	3,55
Rux konsentrati (Zn kt)	0,65	57,05	2,96
Qo'rg'oshin konsentrati (Pb kt)	0,9	2,8	33,5

Jadvalda keltirilgan tahlil natijalari Xondiza boyitish fabrikasida polimetall rudalarni qayta ishlash jarayonining o'ziga xos murakkabligi va samaradorligini ko'rsatadi. Olingan ma'lumotlar asosida quyidagi ilmiy-texnik xulosalarni shakllantirish mumkin:

Ruda tarkibidagi metallar nisbati: Tahlil natijalariga ko'ra, ruda tarkibidagi Pb va Zn miqdori bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, qo'rg'oshin miqdori 1% dan 2% gacha bo'lgan diapazonni tashkil etsa, rux miqdori ancha yuqori - 2% dan 7% gacha o'zgarib turadi. Bu kabi o'zgaruvchan konsentratsiya laboratoriya tahlillari jarayonida har bir namuna uchun individual yondashuv va yuqori aniqlikdagi reagentlar sarfini talab etadi.

Texnologik tayyorgarlik: Xondiza rudasining qattiqlik darajasi yuqoriligi sababli, ishlab chiqarishda ko'p martalik maydalash jarayonidan foydalaniladi. Ushbu mexanik jarayon metallarning minerallardan ajralishini (liberatsiya) ta'minlaydi, bu esa keyingi bosqichda kompleksonometrik usul orqali olinadigan natijalarning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Boyitish samaradorligi: Jadvaldan ko'rinadiki, ruda tarkibidagi o'rtacha 3,76% Pb boyitishdan so'ng konsentratda 33,5% ga, 9,02% Zn esa rux konsentratida 57,05% ga yetgan. Bu ko'rsatkichlar fabrikadagi ko'p bosqichli maydalash va

flotatsiya sikllarining o‘zaro muvofiqligini tasdiqlaydi. Amaliy ahamiyati: Laboratoriyada “bo‘ktirilgan filtr” usuli va pH muhitini (5,5–6,0) qat’iy nazorat qilish orqali olingan ushbu aniq raqamlar, nafaqat texnologik jarayonni boshqarish, balki kondagi qattiq va murakkab tarkibli rudalarni qayta ishlash strategiyasini belgilash uchun asosiy metrologik baza bo‘lib xizmat qiladi.



1-rasm. Xondiza boyitish fabrikasi texnologik nuqtalaridan olingan namunalar tahlilining qiyosiy gistogrammasi

Ushbu diagramma laboratoriya tahlillarini avtomatlashtirilgan nazorat qilish tizimidan olingan bo‘lib, unda ruda va turli konsentratlar tarkibidagi metallarning (Cu, Zn, Pb) o‘zaro nisbati aks etgan.

Laboratoriya monitoring tizimidan olingan 1-rasmda metallarning konsentratlar bo‘yicha taqsimlanishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Diagrammadagi har bir ustun real vaqt rejimida o‘tkazilgan tahlillarning o‘rtacha qiymatlarini ifodalaydi. Xususan, rux va qo‘rg‘oshin konsentratlarining kutilgan ko‘rsatkichlarga muvofiqligi tadqiqotning asosiy yutug‘idir. Bu kabi avtomatlashtirilgan diagrammalar va ularni asoslovchi 1-jadval ma'lumotlari kondagi qazish ishlarini rejalashtirishda strategik qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Barcha olingan ma'lumotlar laboratoriyaning LIMS dasturida qayta ishlanib, ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa: Mazkur tadqiqot doirasida “Olmaliq KMK” AJ Markaziy analitik laboratoriyasida kompleksonometrik titrlash usuli yordamida polimetall rudalar va ularni boyitish mahsulotlari tarkibidagi qo‘rg‘oshin (Pb) hamda rux (Zn) miqdorini aniqlash metodikasi har tomonlama o‘rganildi. Tajriba davomida 0,2-1 g miqdordagi namunalar HNO_3 va H_2SO_4 kislotalari muhitida eritilib, olingan eritmalar Trilon B ishchi eritmasi bilan titrlash orqali yuqori aniqlikdagi metrologik ko‘rsatkichlarga erishildi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tahlil qilingan mahsulotlar tarkibida metallar miqdori keng diapazonda o‘zgarib turadi: qo‘rg‘oshin uchun 1% dan 70% gacha, rux uchun esa 2% dan 90% gacha bo‘lgan ko‘rsatkichlar qayd etildi. Bunday keng ko‘lamli farqlanish kon mahsulotlarini qayta ishlashda boyitish va ajratish jarayonlarining samaradorligini xolis baholashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, qo‘llanilgan kompleksonometrik usul va olingan tahliliy ma’lumotlar boyitish fabrikasidagi texnologik jarayonlarni optimallashtirish, foydali komponentlarning chiqish darajasini nazorat qilish hamda ishlab chiqarish unumdorligini oshirish bo‘yicha kompleks baholash ishlarini olib borish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sanaev E.S., et al. O‘zbekiston metallurgiya sanoatining rivojlanish istiqbollari. // Konchilik xabarnomasi. – 2021. – №3. – B. 15-20.
2. Murdok J. Lead and Zinc: Physical and Chemical Properties. – New York: Mineral Science, 2019. – 312 p.
3. Abdurahmonov S.A. Boyitish fabrikalarida texnologik nazorat va namuna olish asoslari. – Toshkent: Fan, 2020. – 188 b.
4. Umarov Q.G‘. Analitik kimyoda kompleksonometrik usullar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 145 b.
5. Zolotova Yu.A. Osnovi analiticheskoy ximii. Metodi ximicheskogo analiza. — M.: Visshaya shkola, 2020. — 464 s. (Kompleksonometriya nazariyasi va EDTA bilan kompleks hosil bo'lish jarayonlari uchun).
6. Sharifov R.A., Tojiev S.S. Analitik kimyo fanidan amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlari. — Toshkent: Cho‘lpon, 2019. — 212 b. (Eritmalarning pH muhitini sozlash va bufer tizimlar bo‘yicha).
7. GOST 10398-76. Reaktivi i osobo chistie veshestva. Kompleksonometricheskiy metod opredeleniya soderjaniya osnovnogo veshestva. — M.: Izdatelstvo standartov, 2005.

8. Raxmanov, B. A., Qurbonov, A., Ibragimova, T., Shovaliyeva, S. (2024). Sitovka qilish orqali xondiza polimetall konidagi olingan rudaga berilgan metil izobutil-karbanil flatoreagentining ajratiladigan mis konsentrati unumiga ta'sirini aniqlash. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 29), 103-105.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Yulchiyeva Umida Abdullajonovna
Namangan davlat universiteti Kimyo kafedrasi tayanch doktoranti
Abdullayev Shavkat Vaxidovich
Namangan davlat universiteti k.f.d,professori;
Abdulladjanova Nodira G'ulomjonovna
O'z RFA Bioorganik kimyo instituti yetakchi ilmiy hodimi,k.f.d,professori
E-mail: yulchiyevaumida1983@gmail.com

ATRAPHAXIS SPINOSA L. O'SIMLIGI TARKIBIDAGI SUVDA ERUVCHI VITAMINLARNI YUSSX USULI YORDAMIDA ANIQLASH

Annotatsiya:*Ushbu maqolada Atraphaxis spinosa o'simligi tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar miqdori YuSSX usuli yordamida aniqlandi. Tahlil jarayonida standart eritmalar yordamida piklarning saqlanish vaqti va maydoni asosida vitaminlarni identifikatsiya qilish va miqdoriy hisoblash amalga oshirildi.*

Kalit so'zlar:*Tikanli tuyasingren, suvda eruvchi vitaminlar, YuSSX, askorbin kislota, B guruhi vitaminlari, biologik faol moddalar, biotin, ekstraksiya, gipovitaminoz, gipervitaminoz.*

Юлчиева Умида Абдуллажоновна
Аспирант кафедры химии Наманганского государственного университета;
Абдуллаев Шавкат Вахидович
Доктор химический наук,профессор Наманганского государственного университета;
Абдулладжанова Нодира Гуломжоновна
Доктор химичечкий наук,профессор,
ведущий научный сотрудник Института биорганической химии АН РУз

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВОДОРАСТВОРИМЫХ ВИТАМИНОВ В СОСТАВЕ РАСТЕНИЯ ATRAPHAXIS SPINOSA L.МЕТОДОМ ВЭЖХ

Аннотация*:В данной статье с использованием метода ВЭЖХ (высокоэффективной жидкостной хроматографии) было определено содержание водорастворимых витаминов в составе растения Atraphaxis spinosa.В процессе анализа с помощью стандартных растворов была проведена идентификация витаминов и их количественное определение на основе времени удерживания и площади пиков.*

Ключевые слова*: Курчавка колючая,водорастворимые витамины, ВЭЖХ, аскорбиновая кислота, витамины группы В, биологически активные вещества, биотин, экстракция, гиповитаминоз, гипервитаминоз.*

Yulchieva Umida Abdullajonovna
PhD student,Department of Chemistry, Namangan State University;
Abdullayev Shavkat Vakhidovich
Doctor of Chemical Sciences,professor, Namangan State University;
Abdulladjonova Nodira Gulomjonovna
Doctor of Chemical Sciences,professor, Leading Researcher,Institute of Bioorganik Chemistry,
Academy of Sciences of Uzbekistan

DETERMINATION OF WATER-SOLUBLE VITAMINS IN ATRAPHAXIS SPINOSA L.BY HPLC METHOD

Abstract*.In this article,the content of water-soluble vitamins in the plant Atraphaxis spinosa was determined using the HPLC method.During the analysis,vitamins were identified and quantitatively calculated based on the retention time and peak area using standart solutions.*

Keywords*:Atraphaxis spinosa, water-soluble vitamins, HPLC, ascorbic acid, B-group vitamins, biologically active compunds, biotin, extraction, hypovitaminosis, hypervitaminosis.*

Kirish. Hozirgi kunda dorivor va ozuqaviy qiymatga ega bo'lgan o'simliklarning biologik faol moddalarini chuqur o'rganish farmatsevtika va tibbiyot sohalarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.Ayniqsa,o'simlik xomashyosi tarkibida uchraydigan vitaminlar inson salomatligini saqlash va turli kasalliklarni oldini olishda muhim o'rin tutadi.Shu bois tabiiy manbalardan vitaminlarni aniqlash va ularning miqdoriy tarkibini baholash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Vitaminlar-insonlar va hayvon organizmi uchun zarur bo'lgan hayotiy muhim biologik faol organik birikmalar hisoblanadi.Ular organizmda mustaqil ravishda sintezlanmaydi yoki juda kam miqdorda hosil bo'ladi.Shuning uchun asosan oziq-ovqat va o'simlik xomashyosidan qabul qilinadi.Vitaminlar yetishmasligi gipovitaminoz va avitaminoz holatlariga olib kelib immunitetni pasayishi,asab tizimi faoliyatini buzilishi,o'sish va rivojlanishni sekinlashishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.Shu bilan birga vitaminlarni yetarli miqdorda qabul qilinishi organizmning tashqi muhit omillariga chidamliligini oshiradi.


Adabiyotlar tahili. O'simliklar vitaminlarning asosiy tabiiy manbalaridan biri hisoblanadi. Atraphaxis spinosa L.(tikanli tuyasingren) o'simligi tikanli butasimon o'simlik bo'lib,quruq va cho'l hududlarida o'sadi[1].Xalq tabobatida uning barg,novda va ayrim hollarda ildiz qismlari shifobaxsh vosita sifatida qo'llanilib kelinmoqda.Damlama yoki qaynatma ko'rinishida shamollash va ichki yallig'lanishlarda iste'mol qilingan[2,3].Yengil diuretik ta'sirga ega deb hisoblangan.Organizmni mustahlamlash,vitamin yetishmovchiligida foydalangan[4].O'simlikni yer ustki qismini suvda eruvchi vitaminlar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida o'rganildi[5].

Tadqiqot metodologiyasi: Namuna tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar yuqori samaradorlikka ega bo'lgan suyuqlik xromatografiyasi usuli yordamida aniqlandi. Tortmadan 1 gr miqdorida analitik tarozida tortib olinib, 300 ml hajmdagi yassi kolbaga solinadi. Ustiga 50 ml 40% li etanol eritmasidan qo'shiladi. Aralashma magnit aralashtirgich, teskari sovutkich bilan jihozlanib, 1 soat davomida intensiv aralashtirib turgan holda qaynatiladi va keyinchalik 2 soat davomida xona haroratida aralashtiriladi. Aralashma tindirilib filtrlab olinadi. Qolgan qismiga 25 ml 40 % etanoldan solib 2 marta qayta ekstraksiya qilindi. Filtratlar birlashtirildi va 100 ml o'lchagich kolbaga solinib chizig'igacha 40% etanol bilan to'ldiriladi (5-10%). Hosil bo'lgan eritma sentrifugada 7000 oborot/minut tezlikda 10 daqiqa davomida aylantiriladi. Hosil bo'lgan eritma ustki qismidan analiz uchun olindi. Suvda eruvchan vitaminlar 1mg/ml konsentratsiyali ishchi eritmalari tayyorlab olindi. Buning uchun har bitta vitamin standartidan analitik tarozida 50,0 mg aniq tortma tortib olindi va 50 ml o'lchagich kolbaga 40 % li etanolda eritildi va chizig'igacha to'ldirildi. Adabiyotlarda suvda eruvchi vitaminlarni YuSSX bilan aniqlashda elyuyent sifatida fosforli, atsetatli bufer sistemalari va atsetonitrildan foydalanilgan. Biz atsetatli bufer sistemasi hamda atsetonitrildan foydalandik. Xromotografiya sharoitlari:


-Xromotograf Agilent-1200 (avtodozator bilan jihiozlangan)
-Kolonka Exlipse XDB C 18 (obrashenno-fazniy), 5 mkm, 4,6 x250mm
-Diod matritsali detektor (DAD), 250 nm identifikatsiya qilindi.
-Oqim tezligi 0,8 ml/min
- Elyuyent atsetatli bufer: atsetonitril:
0-5 min 96:4,
6-8 min 90:10,
9-15 min 80:20,
15-17 min 96:4,

termostat harorati 25^{0}C,-5 mkl kiritilgan miqdor (vkol) Xromotografga dastlab, ishchi standart eritmalar, keyinchalik tayyorlangan ishchi eritmalar kiritildi.

Natijalar va ularning tahlili: *Atraphaxis spinosa* L. o'simligi vegetativ organlari tarkibidagi suvda eriydigan vitaminlar miqdori



1-rasm



2-rasm

1,2-rasmda keltirilgan tahlil natijalariga ko'ra suvda eruvchi vitaminlardan B_6-29.2mg/gr, B_2-18.1mg/gr, B_9-10.4mg/gr, B_3-7.5mg/gr, C-6.3mg/gr, B1-2.64, C-6.3mg/gr mg/gr miqdorda aniqlandi. Vitamin B_1 -yetishmasligining o'ziga xos spesifik o'zgarishlardan biri-polinevritdir.Uning negizida nerv to'qimalarida piruvatning to'planishi va asetil-KoA yetishmasligi natijasida degenerative o'zgarishlar kelib chiqishi yotadi.Avval nerv yo'llarida og'riqlar paydo bo'ladi,so'ng sezuvchanlik yo'qoladi va falajlik kelib chiqadi.Kasallikning ikkinchi asosiy belgisi-yurak faoliyatining buzilishidir. Vitamin B_2(riboflavin) yetishmasligida o'sishdan to'xtaydi,soch to'kiladi, til, lab shilliq qavatlari, ogiz burchaklari, teri epiteliysida keratit, katarakta, mushakda umumiy va yurak mushagida kuchsizlik kuzatiladi. B_3 vitamini(niatsin,nikotin kislota)-yetishmasa pellagra kasalligi kelib chiqadi.Bunda teri(dermatit),oshqozon ichak yo'li (diareya) va markaziy asab sistemasida (demensiya) o'zgarishlar ketadi. Vitamin B_6(piridoksin)- insonlarda B6 avitaminozi kam uchraydi ,pellagrasimon dermatitlar rivojlanadi.Triptofan almashinuvining buzilishi natijasida siydik tarkibida ksanturen kislota miqdori ko'payadi,kinuren kislota esa kamayadi.Shuningdek,gomotsistinuriya va sistationuriya kuzatiladi.

B_9(folat kislota)-DNK sintezi va qon hosil bo'lishida muhim rol o'ynaydi.Bu vitamin yetishmasligida tez charchash,ishtaha yo'qolishi,homilada tug'ma nuqsonlar kuzatilishi mumkin. B_3 vitamini(niatsin,nikotin kislota)-yetishmasa pellagra kasalligi kelib chiqadi.Bunda teri(dermatit),oshqozon ichak yo'li (diareya) va markaziy asab sistemasida (demensiya) o'zgarishlar ketadi. Vitamin C(askorbin kislota) yetishmasa tana vaznining pasayishi,umumiy holsizlik,yurak urishi,yurakda og'riq kuzatiladi.Singa kasalligida asosan qon tomirlar mo'rt,o'tkazuvchanligi ortadi,natijada teri va teri ostiga mayda qon quyilishlar,milklarni qonashi,odontoblastlar degeneratsiyasiga sabab bo'ladi.

Xulosa: Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra *Atraphaxis spinosa L.*(tikanli tuyasingren) o'simligi vegetativ otganlari suvda eruvchi vitaminlarga boy ekanligi aniqlandi.YuSSX usuli orqali aniqlangan ma'lumotlar vitaminlar miqdorining bir-biridan farq qilishini ko'rsatdi.Eng yuqori miqdor B_6 vitaminida (29.2mg/g) kuzatilib,bu o'simlikning aminokislotalar almashinuvi va fermentative jarayonlarda ahamiyatli biologik faollikka ega ekanligini ko'rsatadi.Shuningdek,B_2 (18,1mg/g) va B_9 (10,4mg/g) vitaminlari ham sezilarli miqdorda to'plangani aniqlandi.B_3(7.5mg/g), C(6.3mg/g) va B_1(2.64mg/g) vitaminlari esa nisbatan kamroq bo'lsada,o'simlikning umumiy vitamin qiymatini to'ldiruvchi muhim komponentlar hisoblanadi. Olingan natijalar *Atraphaxis spinosa L.* ni tabiiy vitamin manbai sifatida dorivor preparatlar,fitochoylar va funksional oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda istiqbolli xomashyo ekanligini ko'rsatadi.Shu bilan birga,YuSSX usuli o'simlik tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlarni ishonchli va aniq miqdoriy baholash imkonini beruvchi samarali usul ekanligi tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Flora of Uzbekistan.-Tashkent,2016 412 b

2.Лекарственные растения Средней Азии и их применение/Музаффаров А.М Ташкент Фан,2015. 320б

3.Chemistry of Natural Compunds.Flavonoids of plants of the Poygonaceae family.2010.Vol.46.p123-128

4.Vitamins in Foods:Analysis,Bioavailability and Stability|Ball G.F.M-CRC Press,2006-786p

5.Journal of Chromatography A.Determination of water-soluble vitamins in plant materials by HPLC.2013.Vol.1301 p.25-32

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Yaqubova Dilfuza Tog'aymurod qizi
Termiz davlat universiteti, tayanch doktorant
https://orcid.org/**0009-0006-2383-4499**
Email; **yaqubovadilfuza@gmail.com**
To'raev Xayit Xudaynazarovich
Termiz davlat universitet, professor
https://orcid.org/**0000-0002-0627-5449**
Email; **hhturayev@rambler.ru**
Aliqulov Rustam Valievich
Termiz davlat universitet, professor
https://orcid.org/0000-0003-0800-2142
Muqumova Gulvar Jumayevna
Termiz davlat universitet, professor
Email; muqumovag@tersu.uz
https://orcid.org/0000-0003-1194-9468
Xolboyeva Aziza Ixtiyarovna
Termiz davlat universiteti, dotsent
Email; axolboyeva@mail.ru
Xolmurodova Saboxat Almaxmatovna
Termiz davlat universiteti, PhD
Email; xolmurodovas@tersu.uz
https://orcid.org/0000-0003-0002-7054

KATALITIK USULDA OLINGAN ANTISEPTIK–ANTIPIREN KOMPLEKSNING TUZILISHI VA FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARINI TADQIQ ETISH

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot ishida katalitik usul yordamida olingan antiseptik–antipiren kompleksning tuzilishi hamda fizik-kimyoviy xossalari o'rganildi. Sintez jarayonida metall asosli kompleks birikma hosil qilinib, uning tarkibi va molekulyar tuzilishi zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida aniqlangan. Olingan moddaning tuzilishi infraqizil va ultrabinafsha (UV) spektroskopiya usullari orqali tahlil qilindi hamda funksional guruhlarning mavjudligi va koordinatsion bog'lanish xususiyatlari aniqlab berildi. Tadqiqot natijalari sintez qilingan kompleks birikmaning barqarorligi, strukturaviy xususiyatlari va potensial antiseptik hamda antipiren xossalarini tasdiqlaydi. Mazkur modda antiseptik faoliyatga ega bo'lgan va olovga chidamli materiallar yaratishda istiqbolli komponent sifatida qo'llanishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *antiseptik-antipiren kompleks, katalitik sintez, kompleks birikma, rux asosli birikmalar, fizik-kimyoviy xossalar, infraqizil spektroskopiya, UV-spektroskopiya, tuzilish tahlili.*

Yakubova Dilfuza
Termez State University, basic doctoral student
Turaev Hayit
Termez State University, Professor,
Alikulov Rustam
Termez State University, Professor,
Mukumova Gulvar
Termez State University, Professor,
Kholboyeva Aziza
Termez State University, DSc, Docent,
Xolmurodova Saboxat
Termez State University, PhD

INVESTIGATION OF THE STRUCTURE AND PHYSICOCHEMICAL PROPERTIES OF AN ANTISEPTIC–ANTIPYRENE COMPLEX OBTAINED BY A CATALYTIC METHOD

Abstract. *In this study, the structure and physicochemical properties of an antiseptic–antipyrene complex obtained by a catalytic method were investigated. During the synthesis process, a metal-based complex compound was formed and its composition as well as molecular structure were analyzed using modern physicochemical characterization techniques. The structural features of the synthesized compound were examined by infrared and ultraviolet (UV) spectroscopy, allowing the identification of functional groups and coordination interactions within the complex. The obtained results confirm the structural stability and characteristic physicochemical properties of the synthesized complex compound. The developed material demonstrates promising potential as an antiseptic and flame-retardant agent and may be applied in the development of functional protective materials.*

Keywords: *antiseptic–antipyrene complex, catalytic synthesis, complex compound, zinc-based compounds, physicochemical properties, infrared spectroscopy, UV spectroscopy, structural analysis.*

Якубова Дилфуза Тогаймурод кизи
Термезский государственный университет, базовый докторант
Тураев Хайит Худайназарович
Термезский государственный университет, профессор
Аликулов Рустам Валиевич
Термезский государственный университет, профессор
Мукумова Гулвар Жумаевна
Термезский государственный университет, профессор
Холбоева Азиза Ихтияровна
Термезский государственный университет, доцент
Холмуродова Сабохат Алмахматовна
Термезский государственный университет, PhD

ИССЛЕДОВАНИЕ СТРУКТУРЫ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ АНТИСЕПТИКО-АНТИПИРЕНОВОГО КОМПЛЕКСА, ПОЛУЧЕННОГО КАТАЛИТИЧЕСКИМ МЕТОДОМ

Аннотация. *В данной работе исследованы структура и физико-химические свойства антисептическо-антипиренового комплекса, полученного каталитическим методом. В процессе синтеза образуется металлокомплексное соединение, состав и молекулярная структура которого были изучены с использованием современных физико-химических методов анализа. Структура полученного соединения исследована методами инфракрасной и ультрафиолетовой (УФ) спектроскопии, что позволило определить функциональные группы и особенности координационного взаимодействия в комплексе. Результаты исследования подтверждают структурную устойчивость и характерные физико-химические свойства синтезированного комплекса. Полученное соединение может рассматриваться как перспективный компонент для создания материалов с антисептическими и огнезащитными свойствами.*

Ключевые слова: *антисептик-антипирен комплекс, каталитический синтез, комплексное соединение, соединения цинка, физико-химические свойства, инфракрасная спектроскопия, УФ-спектроскопия, структурный анализ.*

KIRISH

Hozirgi vaqtda materiallarning biologik va termik barqarorligini oshirishga qaratilgan funksional birikmalarni yaratish ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, antiseptik va antipiren xossalarga ega moddalarning sintezi va ularning fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish to‘qimachilik, polimer kimyosi hamda qurilish materiallari texnologiyasida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday moddalarning qo‘llanilishi materiallarning mikroorganizmlarga nisbatan barqarorligini oshirish bilan birga, ularning yonuvchanligini kamaytirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda metall asosidagi kompleks birikmalar, xususan, azot tutuvchi organik ligandlar ishtirokida hosil bo‘ladigan birikmalar antiseptik va antipiren xossalarga ega istiqbolli moddalar sifatida keng o‘rganilmoqda. Ushbu birikmalar yuqori termik barqarorlik, yaxshi kompleks hosil qilish qobiliyati hamda mikroorganizmlarga qarshi faolligi bilan ajralib turadi. Shu sababli katalitik usullar yordamida bunday kompleks birikmalarni sintez qilish va ularning tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida aniqlash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

ZnO nanostrukturalari mikroorganizmlarning hujayra devorini shikastlash va reaktiv kislorod radikallari hosil qilish orqali bakteriyalarga qarshi yuqori faollik namoyon qilishini aniqlandi. Tadqiqot natijalari rux asosidagi birikmalarni antiseptik xossalarga ega materiallar yaratishda qo‘llash istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi[1].

Feng va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan kompozit to‘qimachilik materiallari namlikni boshqarish, issiqlik qulayligi hamda antibakterial faollik kabi bir nechta funksional xossalarga ega ekanligi aniqlangan. Tadqiqotda metall ionlari asosidagi antibakterial tizimlar material yuzasida barqaror faol qatlam hosil qilishi ko‘rsatib berilgan. Bu natijalar antiseptik xossalarga ega kompleks birikmalarni funksional materiallar yaratishda qo‘llash imkoniyatini tasdiqlaydi[2].

Zamonaviy nanoo‘lchamli materiallarning antibakterial xossalarini va ularning ishlash mexanizmlarini tahlil qilindi. Tadqiqotda metall asosidagi nanomateriallar yuqori sirt faolligi va barqarorligi tufayli mikroorganizmlarga qarshi samarali ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Bu turdagi birikmalar antiseptik hamda himoya xossalariga ega kompozitsion materiallar yaratishda muhim ahamiyatga ega[3].

Nanoteknologiyalar yordamida to‘qimachilik materiallariga antibakterial va UV-himoya xossalari berish usullari o‘rganildi. Mualliflar metall asosidagi nanozarrachalar mato yuzasida barqaror qoplama hosil qilib, mikroorganizmlarning rivojlanishini sezilarli darajada kamaytirishini aniqlaganlar. Ushbu natijalar antiseptik xossalarga ega kompleks birikmalarni funksional modifikatsiya jarayonlarida qo‘llash imkoniyatini ko‘rsatadi[4].

Modifikatsiyalangan paxta asosidagi to‘qilmagan materiallarning antibakterial xossalari o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, metall ionlari bilan modifikatsiyalangan matolar bakteriyalarning o‘sishini sezilarli darajada kamaytiradi hamda biologik muhitda barqarorligini saqlab qoladi. Bu esa antiseptik xossalarga ega materiallar ishlab chiqishda metall kompleks birikmalarning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi[5].

Olingan komplekslarning tuzilishi va funksional guruhlari infraqizil spektroskopiya yordamida tasdiqlandi, ularning termik barqarorligi esa differensial termogravimetrik tahlil asosida tahlil qilindi. Biologik faollik Staphylococcus aureus va Pseudomonas aeruginosa test-shtammlariga nisbatan in

vitro sharoitda aniqlanib, moddalarning antimikrob ta’siri tekshiruvdan o’tkazildi. Tadqiqot natijalari sulfosalitsil kislota tutgan metall-kompleks birikmalar yuqori biologik faollikka ega ekanligini va ularning barqaror koordinatsion tuzilishga ega ekanini ko‘rsatdi. Olingan natijalar ushbu birikmalarning antiseptik materiallar va funksional kompozitsiyalar yaratishda istiqbolli modda sifatida qo‘llanish imkoniyatini asoslaydi[6,7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Taklif etilayotgan rux sianuratni tanlangan katalizator yordamida rux gidroksid karbonat bilan sianur kislotasining kimyoviy ta’sirlashishi natijasida ekologik va iqtisodiy sammarador elementorganik birikmalar olish. Qo‘yilgan vazifani amalga oshirish uchun iqtisodiy samarador usullar orqali rux sianuratni tanlangan katalizator yordamida rux gidroksid karbonat bilan sianur kislotasining kimyoviy ta’sirlashishi natijasida olindi hamda polimer materiallarni plastifikatlovchi va antipiren-antiseptik sifatida qo‘llanildi.


Rux sianur olish usulida sianur kislotasini suvdagi 50% foizli aralashmasi hamda shu bilan farqlanadiki neionogennыe PAV, rux gidroksid karbonat va katalizatorni 100-105 ^{0}C haroratda qo‘llash orqali reaksiya olib borilishi ilmiy asoslangan.

1-Jadval

Rux sianur olish usuli qo‘yidagi nisbatda qo‘llaniladi. gr:

rux gidroksid karbonat	10-50
Sianur kislota	10-25
Katalizator	0,2-0,5
Suv	10-50
Neionogenniy PAV	0,2-0,5

Olingan rux sianurni umumiy formulasi (grafik -2):



rux sianurni umumiy formulasi

Rux sianur olish uchun qo‘yidagi kimyoviy reagentlar qo‘llanildi: sianur kislota GOST 243250; Rux gidroksid karbonat TU 2144-030-50284764-2008; katalizator tetraetilammoniy stearat, texnik tozalangan suv- ST RK GOST R 51592-2003, Neionogen PAV (Alkilpolietoksilatы) CAS 68439-46-3.

1-Usul. Issiqlikka chidamli sitakanga 10 gr rux gidroksid karbonat va 10 gr suv va 0,2 gr neionogen PAV (Alkilpolietoksilatы) solinib maxsus aralashtirigich yordamida harorat 100-105 ^{0}C da gomogen holatgacha arlashtirildi. So‘ngra aralashmaga 10 gr sianur kislota va katalizator 0,2 gr (tetraetilammoniya stearat (TEAS)) solindi va reaksiya jarayonini 100-105 ^{0}C haroratda aralashtirish 1,5 soat davom ettirildi. Rux gidroksid karbonat va sianur kislota to‘liq reaksiyaga kirishib oq rangli emulsiya hosil bo‘lguncha mishalka yordamida aralashtirilib turildi. Olingan tayyor maxsulot filtirlab olindi va 50 ^{0}C haroratda quritish pechida quritishga qoldirildi. Mahsulot unumi nazariy hisoblanganda 93 % ni tashkil etdi.

2-Jadval

Rux sianur olish usuli qo‘yidagi nisbatda qo‘llaniladi. gr:

Rux gidroksid karbonat	10
Sianur kislota	10
Katalizator	0,2
Suv	10
Neionogennыe PAV	0,2

2-Usul. Issiqlikka chidamli stakanga 10 gr rux gidroksid karbonat va 10 gr suv va 0,2 gr neionogen PAV (Alkilpolietoksilatы) solinib maxsus aralashtirigich yordamida harorat 100-105 ^{0}C da gomogen holatgacha arlashtirildi. So‘ngra aralashmaga 25gr sianur kislota va katalizator 0,2 gr (tetraetilammoniya stearat (TEAS)) solindi va reaksiya jarayonini 100-105 ^{0}C haroratda aralashtirish 1,5 soat davom ettirildi. Rux gidroksid karbonat va sianur kislota to‘liq reaksiyaga kirishib oq rangli emulsiya hosil bo‘lguncha mishalka yordamida aralashtirilib turildi. Olingan tayyor maxsulot filtirlab olindi va 50 ^{0}C haroratda quritish pechida quritishga qoldirildi. Mahsulot unumi nazariy hisoblanganda 56 % ni tashkil etdi.

3-Jadval

Rux sianur olish usuli qo‘yidagi nisbatda qo‘llaniladi. gr:

Rux gidroksid karbonat	10
Sianur kislota	25
Katalizator	0,2
Suv	5
Neionogennыe PAV	0,2

3-Usul. Issiqlikka chidamli sitakanga 50 gr rux gidroksid karbonat va 50 gr suv va 0,5 gr neionogen PAV (Alkilpolietoksilatы) solinib maxsus aralashtirigich yordamida harorat 100-105 ^{0}C da gomogen holatgacha arlashtirildi. So‘ngra aralashmaga 25gr sianur kislota va katalizator 0,5 gr (tetraetilammoniya stearat (TEAS) solindi va reaksiya jarayonini 100-105 ^{0}C haroratda aralashtirish 1,5 soat davom ettirildi. Rux gidroksid karbonat va sianur kislota to‘liq reaksiyaga kirishib oq rangli emulsiya hosil bo‘lguncha mishalka yordamida aralashtirilib turildi. Olingan tayyor maxsulot filtirlab olindi va 50 ^{0}C haroratda quritish pechida quritishga qoldirildi. Mahsulot unumi nazariy hisoblanganda 67 % ni tashkil etdi.

4-Jadval

Rux sianur olish usuli qo‘yidagi nisbatda qo‘llaniladi. gr:

rux gidroksid karbonat	50
Sianur kislota	25
Katalizator	0,5
Suv	50
Neionogennыe PAV	0,5

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan rux sianur olish usuli bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalarga muvofiq taklif etilayotgan usullarda mavjud farqlarga asoslanib quyidagicha xulosa qilindi. Birinchi usulda keltirilgan rux sianur olish usulida (rux gidroksid karbonat, sianur kislotasi va katalizator) turli massa nisbatlarda olinib reaksiya jarayoni tahlil qilinganda ikkinchi va uchinchi usullarga nisbatan birinchi usulda rux sianurni olish unumi (93%) yuqori ekanligi aniqlandi va ushbu natijadan

kelib chiqib birinchi usulda reaksiya uchun olingan boshlang‘ich moddalar to‘liq reaksiyaga kirishganligi hamda ikkinchi va uchinchi usullardan iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligi isbotlandi.

Amaliy tajribalar davomida 1-usul bo‘yicha olingan rux sianurning IQ-spektroskopiyasi ko‘rsatkichlari tahlilida asosiy tavsiflovchi kimyoviy bog‘lar 3201,83-3169,04 sm^{-1} sohasidagi valent tebranishlar =N-H guruhga mansub yutilish chiziqlari mavjudligi, 3076,46-3057,17 sm^{-1} sohalaridagi yutilish chiziqlari -OH guruhga mansub yutilish chiziqlari mavjudligi, 1693,50 sm^{-1} sohalaridagi yutilish chiziqlari C=O guruhga mansub yutilish chiziqlari mavjudligi xamda 1051,20 sm^{-1} sohalaridagi yutilish chiziqlari -C-N- bog‘larni xarakterlovchi mintaqalaridagi yutilishlar mavjud ekanligini tasdiqlaydi (1-rasm).

Taklif etilayotgan rux sianurning fizik-kimyoviy xossalari qo‘yida 1-jadvalda keltirilgan. Shu o‘rinda, rux sianur olish bo‘yicha taklif etilayotgan ixtiro analoglarga qaraganda texnologik jarayon bir bosqichdan tashkil topganligi, katalizator sifatida (tetraetilammoniya stearat (TEAS) tarkibli aralashmalar kimyoviy bog‘lar hosil qilishi natijasida solindi, rux gidroksid karbonatni PAV ishtirokidagi suvli aralashmasi va sianur kislotasi katalizator ta’sirida reaksion aktivligi oshib boradi va rux sianur hosil bo‘lish jarayoni bir bosqichning o‘zida tezlashadi. Rux sianur olish 1-usuli orqali olingan maxsulot unumi 93% gacha ekanligi, zichligi 1,08 g/sm^3, parchalanish harorati 350-400 ^0C (analog zichligi 1,05 g/sm^3, parchalanish harorati 300-400 ^0C) analoglar bilan solishtirilganda raqobatbardoshligi aniqlangan.

Bundan tashqari olingan rux sianurni yog‘och qurilish materiallari va buyumlari hamda polimer materiallari bilan modifikatsiyalarni yong‘inbardoshligi (massa yo‘qotishi va kislorod indeksi) 1 va 2 jadvallarda o‘rganilgan bo‘lib yaxshi natijalarga erishilganligi sinov tajribalar asosida isbotlangan.

Ushbu ixtiro rux sianur olish bo‘yicha iqtisodiy va ekologik samarali usulni yaratishdan iborat bo‘lib, amalga oshirilgan amaliy tadqiqotlar davomida rux sianur olishda samarali katalizator (tetraetilammoniya stearat (TEAS) taklif etildi. O‘tkazilgan tadqiqotlarda taklif etilayotgan katalizator ishtirokida mahsulotning hosil bo‘lishi unumi 93 % gacha oshib borganligi ilmiy asoslantirildi.

5-jadval

Rux sianurning fizik-kimyoviy xossalari

Ko‘rsatkichlar	Rux sianur olish usuli		
	1-Usul	2-Usul	3-Usul
Zichligi, g/sm^3	1,08	1,08	1,08
Eruvchanligi	Suvda erimaydi		
Tashqi ko‘rinishi	Oq rangli kukunsimon modda		
Parchalanish harorati	350-400 ^OS		
Rux sianur bilan ishlov berilgan yog‘och qurilish materiallari va buyumlarining olovbardoshligi			
Yonuvchanlik ko‘rsatkichi: -massa yo‘qotilishi, %	6,8	6,9	6,9
Olovbardoshlilik guruxi	I		

6-jadval

Rux sianur bilan modifikatsiyalangan polimer materiallarni kislorod indeksini tadqiq etish

Usullar	Rux sianur bilan polietilen modifikayiyasi foiz miqdorda. %	Kislorod indeks. %	
		Polietilen	polipropilen
-	-	18,5	18,0
1	5	19,5	22,3
	10	28,5	28,5
	20	32,5	30,5

Ushbu reaksiyada **rux gidroksid karbonat** va **sianur kislotasi** o‘rtasida tetraetilammoniy stearat (TEAS) katalizatorligida olib borilgan kimyoviy birikma hosil bo‘lishi jarayoni va uning **IK-spektroskopiya** tahliliga asoslangan ilmiy tahlil quyida keltiriladi: Birinchi ushbu reaksiyada ruxgidrokarbonat olishni ko‘rib chiqamiz. R**ux gidroksid karbonat** (inglizcha: *zinc hydroxycarbonate* yoki *basic zinc carbonate*) — amorf yoki mikrokristallik holda bo‘lishi mumkin bo‘lgan qiziqarli kompleks birikma bo‘lib, u ko‘plab anorganik sintezlarda, kosmetika, farmasevtika va polimer materiallarini barqarorlashtirishda qo‘llaniladi. Uning umumiy formulasi:

$$Zn_5(CO_3)_2(OH)_6$$

Rux gidroksid karbonat olinishi: ***Ushbu birikma odatda*** *rux nitrat,* ***rux sulfat, yoki*** *rux xlorid* ***kabi hal qilinuvchi rux tuzlaridan*** *natriy karbonat* ***yoki*** *ammoniy karbonat* ***bilan ishqoriy muhitda reaksiya orqali olinadi.***

$$5\,ZnSO_4 + 2\,Na_2CO_3 + 6\,NaOH \rightarrow Zn_5(CO_3)_2(OH)_6 \downarrow + 5\,Na_2SO_4$$


$ZnSO_4$ – rux sulfat

Na_2CO_3 – karbonat xom ashyosi

NaOH – ishqoriy muhitni ta'minlovchi ishqor

$Zn_5(CO_3)_2(OH)_6$ – oq kukunli, reaksiya mahsuloti

Reaksiya ≈ pH 8–10 da 50–60 ^{0}C atrofida olib boriladi va Oq kukun shakldagi modda hosil bo'ladi.



1-Rasm. rux gidroksid karbonatni IQ-spektroskopik tahlili

7-Jadval

IQ-spektroskopik tahlilarni asosiy xarakterlovchi tahlili:

To'lqin soni (cm^{-1})	Talqinlar va manba	Izoh
1052	C–O, CO_3^{2-}	Karbonat guruhining asimmetrik tebranishlari
955, 884, 838	CO_3^{2-} yoki OH	Karbonat va ON-grupp libratsion tebranishlari
735, 710	OH libratsiyasi	Halqaro holatdagi ON-grupp tebranishlari
600–453	Zn–O, Zn–OH	Rux va kislorod o'rtasidagi valentli tebranishlar

Termoliz (qizdirish) natijasida 735, 884 va 955 sm^{-1} diapazonidagi piklar yo'qoladi, bu karbonat va gidroksil guruhlarning yo'qolishini (dekompozitsiya) anglatadi. 600–400 sm^{-1} diapazonidagi piklar Zn–O bog'larining kuchayishi bilan bog'liq bo'lib, ZnO kristalli hosil bo'lganini ko'rsatadi. 710 sm^{-1} polosa termolizdan keyin ham saqlanishi mumkin, bu qoldiq koordinatsiyalangan OH-gruppalar bilan izohlanadi.

Reaksiya qobiliyati va kimyoviy faollik: Rux gidroksid karbonat — bu amfoter modda bo'lib, kislota va asoslar bilan reaksiyaga kirisha oladi: sianur kislotasi — triazin halqali kislota bo'lib, karboksil (OH) guruhlari orqali metall ionlar bilan kompleks tuzadi. Rux gidroksid karbonat esa suvli muhitda Zn^{2+} ionlarini ajratib, triazin saqlovchi organik moddalar bilan bog'lar hosil qiladi. Reaksiyaning umumiy mexanizmi: Rux gidroksid karbonat ($Zn_5(CO_3)_2(OH)_6$) suvda parsial eriydi va Zn^{2+} ionlarini ajratadi. sianur kislotasi ($C_3H_3N_3O_3$) suv muhitida gidroksil-gruppalar orqali Zn^{2+} ionlari bilan koordinatsion bog'lar hosil qiladi.

Rux Cianurat ($Zn(C_3N_3O_3H)_2$) Moddasi Elementar Tahlil Natijalari. Ushbu hujjatda rux sianurat birikmasining nazariy va amaliy yo'l bilan aniqlangan elementar tarkibi foizlarda taqqoslanadi. Tahlil ushbu formulaga asoslanadi: $Zn(C_3N_3O_3H)_2$. Ushbu formula asosida molyar massasining nazariy taqsimoti va eksperimental qiymatlar keltirilgan.

8-jadval


Rux Cianurat ($Zn(C_3N_3O_3H)_2$) elementar tahlili

Element	Nazariy %	Amaliy %
Zn	20.46	20.50
C	22.55	22.70
N	26.31	26.20
O	30.04	29.90
H	0.63	0.60

Elementar tahlil natijalari nazariy qiymatlar bilan yuqori darajada mos kelmoqda. Bu esa $Zn(C_3N_3O_3H)_2$ tarkibida Zn^{2+} ioni va ikki molekula sianur kislotasi koordinatorligida hosil bo‘lgan kompleks birikmaning to‘g‘riligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

UV–Visible Spektroskopiyasi: Rux sianurat ($Zn(C_3N_3O_3H)_2$). Yuqoridagi grafik — $Zn(C_3N_3O_3H)_2$ (rux sianurat) moddasining simulyatsiyalangan UV–Visible spektrosi bo‘lib, unda turli fotoyutish tranzishnlari aniq ko‘rsatilgan:

Rux sianurat ($Zn(C_3N_3O_3H)_2$) UV–Visible Spektroskopiyasi tahlilida UV–Visible sohada yorug‘lik yutish xossalari tahlil qilinadi. Spektral tahlil moddaning elektron tuzilmasi va ligand–metall o‘zaro ta'sirini baholash imkonini beradi. Zn^{2+} ioni o‘zi d^{10} konfiguratsiyaga ega bo‘lib, d–d o‘tishlarni namoyon qilmaydi. Biroq, organik ligand ($C_3N_3O_3H$ – cianur kislotasi) bilan kompleks hosil qilganda liganddan metallga (LMCT – Ligand-to-Metal Charge Transfer) elektron o‘tishlar yuzaga keladi.



2-Rasm. Rux sianurat ($Zn(C_3N_3O_3H)_2$) UV–Visible Spektroskopiyasi tahlili

Bundan tashqari, ligandning o‘zida π→π* va n→π* turdagi o‘tishlar ham kuzatiladi. Kutilayotgan spektral diapazonlar

- 190–220 nm: π→π* o‘tishlar (triazin halqasi)
- 240–280 nm: n→π* o‘tishlar (C=O, N–H)
- 280–320 nm: LMCT – liganddan Zn^{2+} ga elektron o‘tish

9-jadval

Simulyatsiyalangan spektrdagi asosiy cho‘qqilar

To‘lqin uzunligi (nm)	Absorbsiya (A)	Tebranish turi	Izoh
215	0.88	π→π*	Aromatik triazin tizimi
265	0.74	n→π*	C=O va N–H funksional guruhlari
302	1.20	LMCT	Liganddan Zn^{2+} ga elektron o‘tish

Rux sianurat ($Zn(C_3N_3O_3H)_2$) UV–Visible Spektroskopiyasi tahlilida 302 nm da kuzatilgan LMCT cho‘qqisi Zn^{2+} ionlari va ligand o‘rtasida kompleks hosil bo‘lganligini aniq tasdiqlaydi. Bu signal ligandlardan metall markazga elektron o‘tish borligini ko‘rsatadi. 215 va 265 nm dagi spektral cho‘qqilar esa sianur kislotasi molekulasi ichidagi elektron o‘tishlarga tegishlidir.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida katalitik usul yordamida yangi antiseptik–antipiren kompleks muvaffaqiyatli sintez qilindi. Olingan birikmaning tuzilishi zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari, jumladan infraqizil va ultrabinafsha spektroskopiya yordamida o‘rganildi. Spektral tahlil natijalari sintez qilingan kompleks tarkibida funksional guruhlar mavjudligini hamda metall ionining ligand bilan koordinatsion bog‘ hosil qilganligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, olingan kompleks birikma antiseptik va antipiren xossalarga ega istiqbolli modda hisoblanadi. Uning fizik-kimyoviy xususiyatlari materiallarni modifikatsiya qilish jarayonlarida qo‘llash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Mazkur kompleksning strukturaviy xususiyatlari va barqarorligi uni turli polimer va to‘qimachilik materiallarini funksionallashtirishda qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sirelkhatim A., Mahmud S., Seeni A., Kaus N., Ann L., Bakhori S., Hasan H., Mohamad D. Review on zinc oxide nanoparticles: antibacterial activity and toxicity mechanism // Nano-Micro Letters. – 2015. – Vol. 7, No. 3. – P. 219–242. **https://doi.org/10.1007/s40820-015-0040-x**

2. Feng F., Zhang X., Xue Z., Wang Z., Wang G., Li J., Chen W. Composite warp-knitted textile with wet–thermal comfort, support, and antimicrobial activity for personal long-term healthcare // ACS Applied Polymer Materials. – 2024. – Vol. 6, No. 9. – P. 5129–5138. **https://doi.org/10.1021/acsapm.4c00177**

3. Punz B., et al. Nano-scaled advanced materials for antimicrobial applications – mechanistic insight, functional performance measures, and potential towards sustainability and circularity // Environmental Science: Nano. – 2025. – Vol. 12, No. 3. – P. 1710–1739. **https://doi.org/10.1039/D4EN00925F**

4. Mazumdar A., Ahmed S., Syduzzaman M., et al. UV protection and antimicrobial properties of textiles using nanotechnology // Nanotechnology in Textile Finishing: Advancements and Applications. – 2024. – P. 191–232. **https://doi.org/10.1016/j.mtcomm.2024.110577**

5. Navaz R., Naqvi S. T. R., Fatima B., Zulfiqar N., Farooq M. U., Haq M. N., Hussain D., Javeed A., Rasul A., Jafri L., Khan V. Q. Economical production of modified nonwoven cotton fabric with antibacterial properties and cell viability studies // Scientific Reports. – 2022. **https://doi.org/10.1038/s41598-022-22370-**

6. *Д.* Т. Якубова, Х.Х. Тураев, Р.В. Аликулов, А.И. Холбоева, Ш.М. Умарова. Комплексные соединения на основе солей меди (II) и их антибактериальные свойства. UNIVERSUM: Технические науки; №12(141) декабрь, 2025 г. С. 50-57

DOI - 10.32743/UniTech.2025.141.12.21589

7. D.T. Yaqubova, X.X. To’rayev, R.V. Aliqulov, A.I. Xolboyeva “Sulfosalitsil kislota tutgan metall-kompleks birikmalarning biologik samaradorligini tadqiq etish” Qo’qon davlat pedagogika instituti qoshidagi “Qo‘qon DPI, Ilmiy xabarlar” 2026-yil 1-son vol:8. 274-281-B.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Amanova Dilshoda Uktamovna,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali assistenti
Email: dilshodaamanova83@gmail.com
Radjabova Zubaydabegim Zafaraliyevna,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU magitrsnti,
Email: Zubaydabegimradjabova@gmail.com
Daminova Shaxlo Sharipovna,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, k.f.d.
Email: daminova_sh@mail.ru
Abdurahimova Muyassar Abdullayevna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali talabasi
Email: muyassarabdurahimova5@gmail.com

MIS (II) VA RUX (II) ATSETILATSETONATLARNING 2-AMINO-6-METILBENZOTIAZOL BILAN KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI VA TADQIQOTI.

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda 2-amino-6-metilbenzotiazol (L1) ligandi asosida Cu(II), Ni(II), Co(II) va Zn(II) atsetilatsetonatlarning yangi koordinatsion birikmalari sintez qilindi. Sintez qilingan komplekslarning tarkibi va tuzilishi elementar tahlil, infraqizil (IQ) spektroskopiya hamda termogravimetrik tahlil usullari yordamida o'rganildi. Natijalar ligandning koordinatsiyalanish xususiyatlari va metall ionining tabiati kompleks birikmalarning tuzilishi hamda fizik-kimyoviy xossalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar Cu(II) va Zn (II) komplekslarining tuzilishini aniqlash va ularning barqarorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *2-amino-6-metilbenzotiazol, mis(II), rux (II) atsetilatsetonat, koordinatsion birikma, IQ-spektroskopiya.*

Аманова Дильшода Уктамовна,
Ассистент Термезского филиала Ташкентского государственного медицинского университета
Раджабова Зубайдбегим Зафаралиевна,
Магистр Национального медицинского университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
Даминова Шахло Шариповна,
Профессор Национального университета Узбекистана, к.э.н.
Абдурахимова Муяссар Абдуллаевна
Студент Термезского филиала Ташкентского государственного медицинского университета

СИНТЕЗ И ИССЛЕДОВАНИЕ КОМПЛЕКСНЫХ СОЕДИНЕНИЙ АЦЕТИЛАЦЕТОНАТОВ МЕДИ(II) И ЦИНКА(II) С 2-АМИНО-6-МЕТИЛБЕНЗОТИАЗОЛОМ.

Аннотация*: В данной работе синтезированы новые координационные соединения на основе лиганда 2-амино-6-метилбензотиазола (L1) с ацетилацетонатами Cu(II), Ni(II), Co(II) и Zn(II). Состав и структура полученных комплексов исследованы методами элементного анализа, инфракрасной (ИК) спектроскопии и термогравиметрического анализа. Результаты показали, что особенности координации лиганда и природа иона металла оказывают существенное влияние на строение и физико-химические свойства комплексов. Полученные данные имеют важное значение для установления структуры комплексов Cu(II) и Zn (II) и оценки их стабильности.*

Ключевые слова: *2-амино-6-метилбензотиазол, медь (II), цинк (II) ацетилацетонат, координационное соединение, ИК-спектроскопия.*

Dilshoda Uktamovna Amanova,
Assistant, Termez Branch of Tashkent State Medical University
Zubaydbegim Zafaralievna Radjabova,

Master's student, Mirzo Ulugbek National Medical University of Uzbekistan
Shakhlo Sharipovna Daminova,
Professor, National University of Uzbekistan, Candidate of Economic Sciences
Muyassar Abdullaevna Abdurahimova
Student, Termez Branch of Tashkent State Medical University


SYNTHESIS AND INVESTIGATION OF COMPLEX COMPOUNDS OF COPPER(II) AND ZINC(II) ACETYLACETONATES WITH 2-AMINO-6-METHYLBENZOTHIAZOLE.

Abstract: *In this study, novel coordination compounds of 2-amino-6-methylbenzothiazole (L1) with Cu(II), Ni(II), Co(II), and Zn(II) acetylacetonates were synthesized. The composition and structure of the obtained complexes were investigated using elemental analysis, infrared (IR) spectroscopy, and thermogravimetric analysis. The results revealed that the coordination behavior of the ligand and the nature of the metal ion significantly influence the structural features and physicochemical properties of the complexes. The findings are of particular importance for elucidating the structure of Cu(II)and Zn (II) complexes and assessing their stability.*

Keywords: *2-amino-6-methylbenzothiazole, copper(II), zinc (II) acetylacetonate, coordination compound, IR spectroscopy.*

Kirish. Tarkibida azot va oltingugurt saqlagan geteroxalqali birikmalar va ularning hosilalari farmatsevtika, korroziyaga qarshi vositalar, optoelektron materiallar hamda sensor texnologiyalarida keng qo‘llaniladi. Aminoguruh va metil substituentiga ega bo‘lgan geterobirikmalar donorlik xususiyatiga ega atomlar yuqori koordinatsion faollikka ega.

Adabiyotlar taxlili. 2-amino-6-metilbenzotiazolning mis (II) atsetat va komplekslari ligandni mos metall tuzlari bilan 2:1 molyar nisbatda reaksiyaga kiritish orqali olingan. Mis(II) metall atrofidagi koordinatsion muhit oktaedrik bo‘lib, atsetat bidentat ligand sifatida bog‘lanadi, 2-amino-6-metilbenzotiazol esa o‘zaro trans holatda joylashadi [1-2]. 2-amino-6-metilbenzotiazol molekulasi uchta potensial koordinatsiya markaziga ega: endotsiklik azot atomi, ekzotsiklik amin guruhi va oltingugurt atomi [3]. Bu holat turli geometriyaga ega metall komplekslar hosil qilish imkonini beradi. Adabiyotlar taxliliga ko‘ra, ligandda C=N bog‘ining qisqaligi va N–C–S burchaklarining o‘tkirligi koordinatsion qobiliyatni kuchaytiradi [4].



1-rasm. 2-amino-6-metilbenzotiazol molekulasining tuzilishi.

Ligand va uning metall komplekslari antibakterial, antifungal, antioksidant hamda ferment ingibatsiyasi xossalariga ega [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mis (II) atsetilatsetonat kompleksini Luis kislotasi sifatida qarash mumkin va donor ligandlar bilan qo‘shimcha birikmalar hosil qilishi ma’lum. Ma’lumki, mis(II) komplekslari turli koordinatsion ko‘p qirrali fazoviy tuzilishni hosil qilishi mumkin bo‘lib, odatda koordinatsion soni 4 dan 6 gacha o‘zgaradi. Rentgen-kristallografik ma’lumotlar mis(II) komplekslarida besh koordinatali kvadrat-asosli piramidal va trigonal-bipiramidal stereokimyoviy tuzilishi mavjudligi tasdiqlagan [6]. Metall atsetilatsetonatlarning birikmalar molekulyar sensorlar, biosensorlar, katalitik tizimlar va farmatsevtik preparatlar yaratishda istiqbolli hisoblanadi. Metall komplekslarining biofaolligi esa ularni antimikrob va antioksidant preparatlar sifatida rivojlantirish uchun asos bo‘la oladi [7-9]. Tadqiqotning maqsadi Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn(II) atsetilasetonatlarning L_1 bilan kompleks birikmalarini sintez qilish va ularning tarkibi, tuzilishi va xususiyatlarini fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida o‘rganishdan iborat.


Adabiyotlar tahliliga ko‘ra Cu^{+2}, Zn^{+2} atsetilatsetonatlarining, 2-amino-6-metilbenzotiazol bilan aralash ligandli metall komplekslarining sintezi haqida ma’lumotlar mavjud emas.

Taxlillar va natijalar. $[Me(C_5H_8O_2)_2(C_8H_8N_2S)_2]$ kompleksi sintezi: Me (II) atsetilatsetonati (0,0001 mol; 0,0262 g) 5 ml 96% etanolda ultratovushli hammomda 40^0C haroratda 10 daqiqa qattiq faza to‘liq yo‘qolguncha eritildi. Hosil bo‘lgan eritma ustiga doimiy aralashtirib turgan holda L_1 ning (0,0002 mol; 5 ml 96%li etanoldagi eritmasi tomchilab tomchilab qo‘shildi. Reaksiya davomida havo ranli eritmasi to‘q yashil ranggacha o‘zgarishi kuzatildi. Reaksiya aralashmasi idish qopqog‘i yopiq holda, xona haroratida doimiy aralashtirishda 24 soat davomida ushlab turildi. Reaksiya yakunlangach, hosil bo‘lgan eritma sekin bug‘latildi. Erituvchining asta-sekin bug‘lanishi natijasida yashil rangli kristallar hosil bo‘ldi. Kristallar sovuq etanolda bir necha marta yuvildi va fizik-kimyoviy hamda strukturaviy tahlillar uchun tayyorlandi.

$$2\ C_8H_8N_2S + Me(C_5H_8O_2)_2 \rightarrow [Me(C_5H_8O_2)_2(C_8H_8N_2S)_2]$$

L_1 va me atsetilatsetonatning kompleks hosil bo‘lish kimyoviy reaksiyasi

IQ analiz tahlili. **Cu^{+2} va Zn^{+2}** atsetilatsetonatlar va L_1 reaksiyasi natijasida sintez qilingan komplekslari hosil bo‘lishi natijasida ligandlar va mos metall komplekslarining IQ spektrlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Ushbu o‘zgarishlar ligand va kompleks molekulalarida elektron zichlikning qayta taqsimlanishi bilan bog‘liqdir. L_1 hamda uning Cu(II) va Zn(II) komplekslari uchun FT–IR spektrlari 4000–500 cm^{-1} oralig‘ida tahlil qilindi. (2-rasm). Spektrlarning taqqoslanishi ligand va metall ionlari o‘rtasidagi koordinatsiya tabiatini aniqlash imkonini berdi. L_1 spektrida 3300–3200 cm^{-1} sohada kuzatilgan keng yutilish chiziqlari $–NH_2$ guruhining valent tebranishlariga mos keladi. 3050–2900 cm^{-1} oralig‘idagi cho‘qqilar aromatik va alifatik C–H tebranishlari bilan bog‘liq. 1600–1580 cm^{-1} sohadagi intensiv signal aromatik halqa va C=N bog‘larining valent tebranishlariga taalluqlidir. 750–700 cm^{-1} oralig‘ida kuzatilgan yutilishlar esa C–S tebranishlariga mos kelib, ligand tarkibida tiozolli fragment mavjudligini tasdiqlaydi. Cu(II) va Zn(II) komplekslarining IQ spektrlari boshlang‘ich ligand spektri bilan solishtirilganda sezilarli o‘zgarishlarga ega. Avvalo, $–NH_2$ guruhiga tegishli tebranishlar intensivligining kamayishi va chastotalarning past tomonga siljishi amin azoti atomining metall ioniga koordinatsiyalanishda ishtirok etayotganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, kompleks spektrlarida 1600–1550 cm^{-1} oralig‘ida paydo bo‘lgan va kuchaygan yutilish chiziqlari β-diketon (acac) ligandidagi C=O guruhlarining metall bilan bog‘langanini bildiradi. Bu siljish karbonil guruhlarning enolat shaklda koordinatsiyaga kirishganini tasdiqlaydi. Kompleks spektrlarida 500–450 cm^{-1} oralig‘ida paydo bo‘lgan yangi past chastotali yutilishlar mos ravishda M–N va M–O (M = Cu, Zn) bog‘larining tebranishlariga tegishlidir. Bu signallar komplekslarda metall ionlari azot va kislorod donor atomlari orqali koordinatsiyalanishini aniq tasdiqlaydi.



2-rasm. $[Me(C_5H_8O_2)_2(C_8H_8N_2S)_2]$ komplekslari va L_1 IQ spektrlari.

Xulosa. Shunday qilib, IQ spektr tahliliga ko‘ra, ligand metall ionlariga asosan amin azoti orqali, atsetilat ligandlari esa kislorod atomlari orqali bidentat helat shaklida bog‘langan. Olingan natijalar Cu(II) va Zn(II) ionlari ishtirokida barqaror koordinatsion komplekslar hosil bo‘lishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Gul Z. et al. Synthesis, molecular structure, anti-microbial, anti-oxidant and enzyme inhibition activities of 2-amino-6-methylbenzothiazole and its Cu (II) and Ag (I) complexes //Journal of Molecular Structure. – 2020. – T. 1199. – C. 126956.

2.E. Khan, Z. Gul, A. Shahzad, S.M. Jan, F. Ullah, M.N. Tahir, A. Noor, Coordination compounds of 4,5,6,7-tetrahydro-1H-indazole with Cu(II), Cu(II) and Ag(I): structural, antimicrobial, antioxidant and enzyme inhibition studies, J. Coord. Chem. 70 (2017) 4054-4069.M. Hanif et al., ChemistrySelect, 2022.

3.Hanif M. et al. Schiff Bases Derived from 2-Amino-6-methylbenzothiazole, 2-Amino-5-chloropyridine and 4-Chlorobenzaldehyde: Structure, Computational Studies and Evaluation of Biological Activity //ChemistrySelect.–2022. T. 7.–№. 38.–C -202203386.

4.Joydeep Chowdhury, Jyotirmoy Sarkar, Rina De, Manash Ghosh, G.B. Talapatra Adsorption of 2-amino-6-methylbenzothiazole on colloidal silver particles: Quantum chemical calculations and surface enhanced Raman scattering study. Chemical Physics 330 (2006) 172-183.

5.Chaurasia M., Tomar D., Chandra S. Synthesis, spectroscopic characterization and DNA binding studies of Cu (II) complex of Schiff base containing benzothiazole moiety //Journal of Taibah University for Science. – 2019. – T. 13. – №. 1. – C. 1050-1059.

6.Fernandes G. F. S. et al. Electronic structure and stability of transition metal acetylacetonates TM (AcAc) n (TM= Cr, Fe, Co, Ni, Cu; n= 1, 2, 3) //Computational and Theoretical Chemistry. – 2022. – T. 1207. – C. 113502.

7.Gholiee Y. Nature of metal–bis (β-diketonate) bonds in TM (acac') 2 (acac. acetylacetonate, hexafluoroacetylacetonate, hexamethylacetylacetonate; TM= Ni (II), Pd (II), Pt (II)) complexes: A density functional theory investigation //Molecular Physics. – 2025. – T. 123. – №. 9. – C. e2390590.

8.Seyedkatouli S. et al. Molecular structure, spectroscopic studies, and copperoxygen bond strength of α-methyl and α-ethyl derivatives of copper (II) acetylacetonate; Experimental and theoretical approach //Journal of Molecular Structure. – 2018. – T. 1160. – C. 107-116.

9.Nakamoto K., Martell A. E. Infrared Spectra of Metal-Chelate Compounds. I. A Normal Coordinate Treatment on Bis-(Acetylacetonato)-Cu (II) //The Journal of Chemical Physics. – 1960. – T. 32. – №. 2. – C. 588-597.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Dursoatov Abdulla Chori o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, tayanch doktorant
Izzatullayeva Shohsanam Bahodir qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, talaba
Yo‘ldoshev Azizbek Abdug‘aniyevich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, o‘qituvchi
O‘ljayev O‘tkir Boymamatovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, dotsent (PhD)
e-mail: utkir.uljaev@outlook.com

UDK 53.536.21

AMORF KREMNIY IKKI OKSIDIDAGI G‘OVAK DIAMETRI VA BOSIMNING VODOROD ADSORBSIYASIGA TA’SIRI.

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot amorf kremniy dioksidi (a-SiO_2) ning vodorod saqlash xususiyatlari hamda vodorod adsorbsiyasini belgilovchi strukturaviy omillarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. a-SiO_2 ning yuqori sirt maydoni, iqtisodiy jihatdan qulayligi va yuqori termik barqarorligi uni yirik miqyosdagi vodorod saqlash texnologiyalari uchun istiqbolli material sifatida ajratib ko‘rsatadi. Tadqiqot doirasida molekulyar dinamika modellashtirish usuli qo‘llanilib, haroratga bog‘liq ravishda g‘ovak tuzilmasi va o‘lchamlarining o‘zgarishi vodorod sorbsiya samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sovitish tezligining pasayishi g‘ovaklarning kengayishiga olib kelib, vodorod saqlash sig‘imini sezilarli darajada oshiradi. Optimal sharoitlarda 100 MPa bosimda maksimal gravimetrik zichlik 2,07 wt.% ga yetadi. Shu bilan birga, xona haroratidagi odatiy sharoitlarda adsorbsiyalangan vodorodning strukturaviy o‘zgarishlari va materialning ichki cheklovlari sababli a-SiO_2 ning vodorod saqlash imkoniyatlari ma’lum darajada chegaralanganligi aniqlangan. Ushbu ish natijalari g‘ovak materiallar asosida samarali vodorod saqlash tizimlarini ishlab chiqishga qaratilgan keyingi eksperimental tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar. *Vodorod saqlash, amorf kremniy dioksidi, molekulyar dinamika, vodorod fizisorbsiyasi, vodorod xemosorbsiyasi.*

Дурсоатов Абдулла Чори угли
Деновского института предпринимательства и педагогики, студент
Иззатуллаева Шохсанам Баходир кизи
Деновского института предпринимательства и педагогики, студентка
Йўлдошев Азизбек Абдуғаниевич
Деновского института предпринимательства и педагогики, преподаватель
Улжаев Уткир Боймаматович
Деновского института предпринимательства и педагогики, доцент (PhD)

ВЛИЯНИЕ ДИАМЕТРА ПОР И ДАВЛЕНИЯ В АМОРФНОМ ДИОКСИДЕ КРЕМНИЯ НА АДСОРБЦИЮ ВОДОРОДА.

Аннотация. *Настоящее исследование посвящено анализу водородоаккумулирующих свойств аморфного диоксида кремния (a-SiO_2), а также структурных факторов, определяющих процесс адсорбции водорода. Высокая удельная поверхность, экономическая доступность и высокая термическая устойчивость a-SiO_2 выделяют данный материал как перспективный кандидат для крупномасштабных технологий хранения водорода. В рамках работы с использованием метода молекулярно-динамического моделирования исследовано влияние температурно-зависимых изменений пористой структуры и размеров пор на эффективность сорбции водорода. Полученные результаты показывают, что снижение скорости охлаждения приводит к расширению пор и, как следствие, к существенному увеличению емкости хранения водорода; при оптимальных условиях максимальная гравиметрическая плотность достигает 2,07 wt.% при давлении 100 МПа. В то же время установлено, что при стандартных комнатных условиях возможности хранения водорода в a-SiO_2 остаются ограниченными вследствие структурных преобразований адсорбированного водорода и внутренних ограничений материала. Результаты данного исследования представляют собой важную научную основу для дальнейших*

экспериментальных работ, направленных на разработку эффективных систем хранения водорода на основе пористых материалов.

Ключевые слова. *Хранение водорода, аморфный диоксид кремния, молекулярная динамика, физисорбция водорода, хемосорбция водорода.*

Dursoatov Abdulla Chori ugli
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, PhD student
Izzatullayeva Shohsanam Bakhodir kizi
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy student
Yuldoshev Azizbek Abduganiyevich
Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, teacher
Uljayev Utkir Boymamatovich
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Associate Professor (PhD)

EFFECT OF PORE DIAMETER AND PRESSURE IN AMORPHOUS SILICON DIOXIDE ON HYDROGEN ADSORPTION.

Abstract. *This study is devoted to the analysis of hydrogen storage properties of amorphous silicon dioxide (a-SiO_2) and the structural factors governing hydrogen adsorption. The high specific surface area, economic feasibility, and excellent thermal stability of a-SiO_2 make it a promising candidate for large-scale hydrogen storage technologies. Molecular dynamics simulations were employed to investigate how temperature-dependent variations in pore structure and pore size influence hydrogen sorption efficiency. The results demonstrate that a decrease in the cooling rate leads to pore expansion, resulting in a significant enhancement of hydrogen storage capacity; under optimal conditions, a maximum gravimetric density of 2.07 wt.% is achieved at a pressure of 100 MPa. However, under standard room-temperature conditions, the hydrogen storage capability of a-SiO_2 remains limited due to structural transformations of the adsorbed hydrogen and intrinsic material constraints. The findings of this work provide an important scientific basis for future experimental studies aimed at developing efficient hydrogen storage systems based on porous materials.*

Keywords. *Hydrogen storage, amorphous silicon dioxide, molecular dynamics, hydrogen physisorption, hydrogen chemisorption.*

Kirish.

Vodorod energiyasining ekologik tozaligi va barqarorligi uni so‘nggi yillarda eng istiqbolli “yashil” yoqilg‘ilardan biriga aylantirdi. So‘nggi yillarda uni potentsial samarali alternativ yoqilg‘i sifatida ko‘rilmoqda va yonilg‘i elementlari, elektronika sanoati va farmatsevtika kabi bir nechta sohalarda qo‘llanilishi mumkin [1,2]. Vodorod energetikasida olingan vodorodni materiallarda samarali saqlash juda muhim hisoblanadi [2,3]. Vodorodni odatda uch xil usulda saqlash mumkin: siqilgan gaz sifatida, kriogen suyuqlik sifatida va qattiq holatdagi materiallarda [4-6]. Siqilgan gaz usulida vodorod katta hajmni egallaydi [7]. Suyuqlik holatida esa juda past haroratni talab qilinadi [8]. Qattiq holatdagi saqlash (QHS) usuli boshqa ikki usulga nisbatan xavfsiz va xarajat jihatdan samaraliroq hisoblanadi. Bu yondashuv vodorodni nanomateriallarga adsorbsiyalash orqali samarali saqlash usuli sifatida qaraladi [5,9]. Qattiq holatdagi saqlashda vodorod metall gidridlar, murakkab gidridlar, metall-organik ramkalar (MOF), kovalent organik ramkalar (COF), uglerod asosidagi nanostrukturalar va g‘ovakli materiallarda saqlanadi, bunda saqlash fizisorbsiya va xemisorbsiya jarayonlari orqali amalga oshadi [10,12].


So‘nggi tadqiqotlarda yuqori sirt maydoni va sozlanishi mumkin bo‘lgan xususiyatlari tufayli g‘ovakli materiallardan samarali vodorod saqlash vositasi sifatida foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda [13]. Xususan, alyuminiy oksidi, titan oksidi, rux oksidi (ZnO) va kremniy dioksidi (SiO_2) kabi materiallar katta sirt maydoni va g‘ovakli hajmlari tufayli vodorod saqlash uchun samarali hisoblanadi [14-16]. Ushbu xususiyatlar fizisorbsiya va xemisorbsiya uchun ko‘proq faol joylar yaratib, vodorod saqlash quvvatini oshiradi va umumiy saqlash samaradorligini yaxshilaydi. Ushbu materiallar o‘zlarining g‘ovakli tuzilmalari orqali vodorod saqlash samaradorligini oshirishda istiqbolli natijalarni ko‘rsatib, ilg‘or energiya ilovalarida qo‘llashga mos keladi [14].

Xususan, ushbu tuzilmalar orasida SiO_2 asosidagi g‘ovakli materiallar vodorod saqlash uchun potentsial nomzod sifatida qaraladi, chunki ular zararsiz, arzon va yuqori termik barqarorlikka ega. Bu xususiyatlar SiO_2 ni vodorod saqlash ilovalari uchun jozibador qiladi, chunki ular xavfsizlik, iqtisodiy samaradorlik va uzoq muddatli chidamlilikni ta’minlaydi, bu esa samarali energiya saqlash tizimlari uchun muhim omillardir. Bundan tashqari, yuqori sirt maydoni va g‘ovaklik kabi struktural xususiyatlar vodorod adsorbsiyasini oshirishga yordam beradi va ularni keng miqyosli energiya saqlash yechimlari uchun samarali materialga aylantiradi. Tadqiqotlar ushbu xususiyatlar tufayli SiO_2 ni istiqbolli material sifatida ko‘rsatadi [15,16].

SiO_2 tuzilmalari asosan ikki shaklda uchraydi: kristall (c-SiO_2) [15] va amorf (a-SiO_2) [17,18]. So‘nggi yillarda vodorod saqlash ilovalari uchun a-SiO_2 tuzilmalari ko‘proq e’tibor qozonmoqda, chunki ularni sintez qilish oson va amaliy afzalliklarga ega. Amorf kremniyning yuqori sirt maydoni, g‘ovakligi va nisbatan oddiy tayyorlash usullari uni vodorod saqlash tizimlari uchun jozibador qiladi. Ushbu xususiyatlar barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik bilan birlashib, uni keng miqyosli energiya saqlash yechimlarida ishlatish potentsialini oshiradi [15,19]. Shunga qaramay, a-SiO_2 tuzilmalarida fizisorbsiya va xemisorbsiya orqali vodorod saqlash bo‘yicha turli eksperimental va nazariy tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lsa-da, bu tuzilmalar normal sharoitlarda (xona harorati va atmosferik bosim) vodorod saqlash quvvati hali ham nisbatan past bo‘lib qolmoqda. Xususan, a-SiO_2 da adsorbsiyalangan vodorod atomlari/molekulalarining boshqa moddalarga aylanishi, pora hajmiga qarab, ushbu tuzilmalar vodorod saqlash quvvatining past bo‘lishiga sabablaridan biri hisoblanadi. Tuzilmadagi g‘ovaklsrning joylashuvi vodorodning adsorbsiyasiga ta’sir qiladi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda a-SiO_2 da vodorod molekulalarining adsorbsiyasi jarayoniga pora tuzilmalari va bosim ta’siri o‘rganildi.

Modellashtirish detallari

Vodorod molekulasi (H_2) ning *a*-SiO_2 ga adsorbsiyasi mexanizmlari reaktiv molekulyar dinamika (MD) simulyatsiyalari yordamida, LAMMPS dasturiy paketidan foydalangan holda modellashtirildi [20]. Dastlab, *a*-SiO_2 tuzilmasi Chem3D dasturiy paketi yordamida yaratildi (1-rasmga qarang). *a*-SiO_2 ichidagi Si-O, O-O va Si-Si juftliklarining o‘zaro ta’sirlarini modellashtirishda Fogarty va hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan ReaxFF potentsiali ishlatildi. Ushbu potentsial *a*-SiO_2 kabi materiallarda reaktiv o‘zaro ta’sirlarni simulyatsiya qilish uchun Fogarty va uning jamoasi tomonidan belgilangan parametrlar asosida ishlaydi [21].



1-rasm. Kremniy (Si) va kislorod (O) atomlaridan iborat a-SiO_2 tuzilishi mos ravishda sariq va qizil rangga bo‘yalgan.

Umumiy tizim energiyasi bir nechta qismiy energiya komponentlarining yig‘indisidan iborat; bular orasida yolg‘iz elektron juftliklari bilan bog‘liq energiyalar, yetarli yoki ortiqcha koordinatsiya energiyalari, valent va torsion burchaklari, konjugatsiya, vodorod bog‘lanishlari, shuningdek van-der-Vaals va Kulon o‘zaro ta’sirlari hisobga olinadi [39].

Izotermik-izobarik (NpT) ansamblida *a*-SiO_2 strukturasi avval Berendsen termostatidan foydalanib, 1 ns davomida 1 K/ps tezlikda 2000 K gacha qizdirildi [22]. Shundan so‘ng, struktura turli sovutish tezliklarida (ya’ni, 1-10000 K/ps) 300 K gacha sovutildi. Keyin, Izoxorik-izotermik (NVT) ansamblida tizimning harorati Bussi termostatidan foydalanib, 100 ps uchun 300 K da ushlab turildi [23]. *a*-SiO_2 sirtiga tushayotgan H_2 molekulalari bosimi quyidagi ifoda orqali hisoblandi:

$$p = J\sqrt{2\pi MRT}/N_A \qquad (1)$$

bu yerda J - impingement oqimi ($nm^{-2}\cdot ns^{-1}$), N_A - Avagadro soni, R - universal gaz doimiysi, M - H_2 molekulasining molyar massasi ($kg\cdot mol^{-1}$) va T - tizim harorati (K).


Xususan, ushbu simulyatsiya ishida, qizdirilgan va sovutilgan *a*-SiO_2 tuzilmalariga adsorbsiyalangan H_2 molekulalarining bosimi 0,1, 1, 10 va 100 MPa ni tashkil qiladi. Tushgan zarracha (vodorod molekulasi) *a*-SiO_2 ning eng yuqori Si yoki O atomidan 10 Å yuqorida z o‘qida joylashgan. Tushgan zarrachalarning {x, y} koordinatalari tasodifiy tanlanadi. Har bir to‘qnashuv 10 ps davomida kuzatiladi. *a*-SiO_2 ga adsorbsiyalangan vodorod molekulalarining konsentratsiyasi gravimetrik sigimdan hisoblab chiqilgan:

$$wt.\% = (m_H n/(m_H n + m_{Si}N + m_O k))^1 \times 100\% \quad (2)$$

bu yerda m_H - vodorod atomining massasi, m_{Si}- tizimdagi kremniy atomining massasi, m_O - tizimdagi kislorod atomining massasi, n- adsorbsiyalangan vodorod atomlari soni, N va k mos ravishda tizimdagi kremniy va kislorod atomlarining soni.

Natijalar va muhokama.


a-SiO_2 strukturasidagi g‘ovak hajmi dastlab 2-4 Å oralig‘ida bo‘lgan bo‘lsa (2-rasmga qarang), turli tezliklarda qizdirilgan va keyin sovutilgan *a*-SiO_2 dagi g‘ovak hajmi 2 Å-4,5 Å oralig‘ida bo‘lgan. G‘ovak hajmining bu o‘zgarishi keyinchalik vodorodning adsorbsiya ko‘rsatkichlariga ta'sir qilishi mumkin. Miqdori jihatidan deyarli barcha strukturalarda eng ko‘p g‘ovak soni 2,75±0,7 Å oralig‘ida bo‘lgan. Bundan tashqari, sovutish tezligi (K/ps) oshgani sayin, g‘ovaklar miqdori ham oshdi. Bu strukturaning g‘ovaklik darajasi (ham miqdori, ham diametri jihatidan) ortib borayotganidan dalolat beradi.



2-rasm. Strukturadagi g‘ovaklarlarning sovutish tezligiga bog‘liqligi.

Tahlil jarayonida *a*-SiO_2 strukturasidagi g‘ovaklarning miqdori (soni) va o‘lchami (diametri) tahlil qilindi (2-rasmga qarang). 3-rasmda sovutish tezligi (K/ps) oshgani sayin, strukturadagi to‘ldirilgan (V_t) va bo‘shliq (V_b) hajmlarining o‘zgarishi ham tahlil qilindi. Xususan, sovutish tezligi 1 K/ps dan 500 K/ps gacha oshgani sayin, strukturadagi to‘ldirilgan hajm chiziqli ravishda kamayadi, bo‘shliq hajmi esa shunga mos ravishda oshadi. Keyinchalik, sovutish tezligi 1000 dan 10000 K/ps gacha oshishi bilan strukturaning to‘ldirilgan hajmi biroz oshdi va keyin deyarli o‘zgarishsiz qoldi.

Bu o‘zgarish turli sovutish tezligi bilan strukturaviy xususiyatlarning sezilarli darajada o‘zgarishini ko‘rsatadi, bu esa *a*-SiO_2 strukturasining zichligi va g‘ovakliligiga ta’sir qiladi. Strukturadagi bo‘sh hajm ham shunga mos ravishda juda kichik o‘zgarishni ko‘rsatadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, strukturadagi V_t/V_b, % nisbati sovutish tezligining o‘zgarishi bilan o‘zgaradi. Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida aytib o‘tilganidek, bu parametrlarning o‘zgarishi keyinchalik vodorodning adsorbsiyasi (saqlash) jarayoniga ta'sir qilishi mumkin. *a*-SiO_2 strukturasidagi g‘ovaklar sonining o‘zgarishini kuzatish (3b-rasmga qarang), g‘ovaklar soni sovutish tezligining oshishi bilan deyarli chiziqli ravishda oshadi. Dastlab, g‘ovaklar sonining ko‘payishi kichik (1-10 K/ps), ammo keyinchalik o‘sish sezilarli darajada oshadi (50-10000 K/ps).




3-rasm. *a*-SiO_2 strukturasidagi to‘ldirilgan va bo‘sh hajmlarning tahlili keltirilgan.

2. Bosim ostidagi vodorod sorbsiyasini tahlil qilish.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, *a*-SiO_2 ga adsorbsiyalangan H_2 molekulalari strukturaning turli joylarida turli shakllarda adsorbsiyalanadi (4a-rasmga qarang). *a*-SiO_2 ni turli tezliklarda (K/ps) qizdirib va sovutgandan so‘ng, vodorod molekulalari turli bosimlarda adsorbsiyalanadi (vodorod muhitiga joylashtirilganda). Ushbu strukturalarning vodorod


gravimetrik zichligi darajasi (wt.%) tahlil qilindi (4b-rasmga qarang). Natijalar shuni ko‘rsatadiki, *a*-SiO_2 strukturasining sovutish tezligi (K/ps) vodorod adsorbsiya tezligiga ta'sir qiladi. Turli tezliklarda sovutilgan strukturalardagi teshiklarning o‘lchami, diametri va miqdoridagi o‘zgarishlarni tahlil qilganda, teshik hajmining oshishi vodorod adsorbsiyasining oshishi bilan bog‘liqligi kuzatildi. Bu shuni ko‘rsatadiki, tezroq sovutish tezligi teshik o‘lchamlari kattaroq bo‘lgani uchun adsorbsiya qobiliyatini oshirishi mumkin, bu esa vodorod molekulalarining materialda qolib ketishini qulayroq qiladi.



4-rasm. *a*) *a*-SiO_2 ga adsorbsiyalangan vodorodlar, *b*) Vodorod gravimetrik zichligining sovutish tezligiga bog‘liqligi (10 MPa).

Natijalarda kuzatilganidek, 10 MPa bosimdagi vodorodni saqlash samaradorligi sovutish tezligi bilan chiziqli ravishda oshmadi (4*b*-rasmda ko‘rsatilganidek). Dastlab, sovutish tezligi 1 K/ps dan 5 K/ps gacha oshishi bilan vodorodni saqlash hajmi yaxshilandi, ammo bu nuqtadan keyin 10 K/ps da ishlash biroz pasaydi. Sovutish tezligi oshishda davom etganligi sababli (50 K/ps dan 500 K/ps gacha), vodorodni saqlash hajmi oshdi, keyin esa keskin pasayish kuzatildi. Bu vodorodni saqlash hajmi sovutish tezligi bilan doimiy ravishda oshmaganligini ko‘rsatadi. 10 MPa bosim uchun eng yuqori saqlash hajmi 500 K/ps da kuzatildi. Turli vodorod bosimlari ostida (0,1 MPa dan 100 MPa gacha) 1 K/ps dan 10000 K/ps gacha tezlikda sovutilgan *a*-SiO_2 tuzilmalarida vodorodni saqlash samaradorligini (qoplash darajasi yoki og‘irlik darajasi) taqqoslaganda, quyidagi tendentsiyalar kuzatildi: 0,1 MPa bosimda vodorodni saqlash sig‘imi sovutish tezligiga qarab 0,13% dan 0,14% gacha yoki 0,01 wt.% dan 0,02 wt.% gacha bo‘lgan. 1 MPa da shunga o‘xshash natijalar vodorodni saqlash 1,06% dan 2,01% gacha yoki 0,11 wt.% dan 0,13 wt.% gacha oshganligi bilan aniqlandi. 10 MPa da tendentsiya izchil bo‘lib, 6,46% dan 8,45% gacha yoki 0,57 wt.% dan 0,92 wt.% gacha bo‘lgan. 100 MPa da vodorod saqlash hajmi 17,16% dan 21,12% gacha yoki 1,69 wt.% dan 2,07 wt.% gacha oshdi. Bu topilmalar shuni ko‘rsatadiki, vodorod saqlash hajmi sovutish tezligi va bosimi bilan biroz oshadi, ammo o‘rganilgan bosimlar bo‘yicha umumiy o‘sish o‘rtacha (5 *a,b*-rasmlarga qarang).

Shuni ta’kidlash kerakki, amorf kremniy dioksidini (*a*-SiO_2) qizdirish va uni turli tezliklarda sovutish uning ichki g‘ovakli tuzilishiga sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin. Sovutish tezligi, ayniqsa, g‘ovaklarning miqdori, shakli va hajmli o‘lchamiga ta’sir qiladi. Sovutish jarayonida amorf material ichidagi atomlar qayta joylashishi mumkin, bu esa yangi tuzilmalarning shakllanishiga yoki mavjud tuzilmalarning o‘lchamlarini o‘zgartirishga olib keladi.



5-rasm. a) Vodorod bilan qoplanish darajasining turli bosimlarda sovutish tezligiga bog‘liqligi, b) Vodorodning gravimetrik zichligining turli bosimlarda sovutish tezligiga bog‘liqligi.

Agar amorf kremniy dioksidi (*a*-SiO_2) juda tez sovitilsa (>0,1 K/ps), g‘ovak hajmi kichikroq bo‘ladi, ammo ularning miqdori ortishi mumkin, chunki atomlar tartibli tuzilishga o‘tish uchun yetarli vaqtga ega emas.

Bu tez sovutish yuqori ichki kuchlanish va zichroq ichki tuzilishga olib keladi. Boshqa tomondan, sovutish jarayoni sekinlashganda (>1000 K/ps), atomlar moslashish uchun ko‘proq vaqtga ega bo‘ladi, bu esa kattaroq, barqarorroq g‘ovaklarning shakllanishiga olib keladi. Bu holda, g‘ovaklarning hajmi oshadi, ammo ularning umumiy miqdori kamayishi mumkin. Natijada, material yuqori g‘ovaklilikni saqlab qolgan holda nisbatan past kuchlanishga ega. Bu hodisa uning mexanik xususiyatlariga va molekulalarni adsorblash qobiliyatiga sezilarli darajada ta’sir qiladi, bu esa uni vodorodni saqlash kabi dasturlar uchun dolzarb qiladi. Umuman olganda, 300 K haroratda va 0,1 dan 100 MPa gacha

bo‘lgan bosim oralig‘ida, *a*-SiO_2 yuzasida maksimal vodorod adsorbsiyasi qoplamasi va gravimetrik zichlik mos ravishda 0,13% dan 21,12% gacha va 0,03 wt.% dan 2,07 wt.% gacha (5-rasmga qarang).

H_2 molekulalarining *a*-SiO_2 asosiy qismiga g‘ovaklarning kattalashishi bilan bog‘liq holda kira olmasligi, ularning strukturadagi o‘ziga xos joylashuvi bilan bog‘liq. Bu g‘ovaklarning ba’zilari vodorod uchun mavjud emas, bu esa fazaviy xususiyatlar va g‘ovaklarning o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq. Bu g‘ovaklarning tartibsiz yoki yopiq bo‘lgani uchun, ular umumiy g‘ovaklik oshsa ham, vodorod molekulalarining kirishiga to‘sqinlik qiladi. G‘ovak geometriyasi bunday materiallarda vodorod adsorbsiyasining samaradorligini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

G‘ovaklarning strukturadagi joylashuvi vodorodning adsorbsiyasiga ta’sir qiladi. Bu g‘ovaklarning hajmi va tarqalishi vodorod atomlari yoki molekulalarini material yuzasida qanchalik samarali saqlash mumkinligiga ta’sir qiladi. To‘g‘ri joylashtirilgan g‘ovaklar vodorodni saqlash uchun mavjud bo‘lgan sirt maydonini oshirishi va shu bilan adsorbsiya qobiliyatini yaxshilashi mumkin, yomon tuzilgan g‘ovaklar esa vodorod va material o‘rtasidagi o‘zaro ta'sirni cheklab, uning saqlash muhiti sifatida samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Xulosa.

Amorf kremniy dioksidining (*a*-SiO_2) vodorod saqlash qobiliyatini o‘rganish turli xil g‘ovak o‘lchamlariga ega tuzilmalar uchun qimmatli imkoniyatlarni ochadi. *a*-SiO_2 yuqori sirt maydoni, arzon narx va iqtisodiy samaradorlik kabi afzalliklarni taqdim etsa-da, standart xona harorati sharoitida keng ko‘lamli energiya saqlash salohiyati cheklanganligicha qolmoqda. Ushbu tadqiqot molekulyar dinamika (MD) simulyatsiyalaridan foydalangan holda *a*-SiO_2 tuzilmalaridagi g‘ovaklar soni va o‘lchamidagi haroratga bog‘liq o‘zgarishlar vodorodning so‘rilishiga qanday ta'sir qilishini o‘rganadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, *a*-SiO_2 tuzilmalarini ma'lum haroratgacha qizdirish sovutish tezligiga (K/ps) qarab, g‘ovaklar soni va diametrida o‘zgarishlarga olib keladi. Sekinroq sovutish g‘ovak hajmini sezilarli darajada oshirsa-da, tezroq sovutish g‘ovak hajmining ozgina oshishiga olib keladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, sovutish tezligi *a*-SiO_2 g‘ovak tuzilishini o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi, bu esa o‘z navbatida vodorod atomlari va molekulalarining so‘rilishiga ta'sir qiladi. Tadqiqot shuningdek, 10 MPa da vodorodning maksimal gravimetrik zichligi (qoplama darajasi) 500 K/ps sovutish tezligida erishilishi va bu yerda u 0,92 wt.% (8,45%) ga yetishi aniqlangan. Umuman olganda, 100 MPa dan bosimda maksimal vodorod gravimetrik zichligi (yoki qoplash darajasi) 2,07 wt.% (yoki 21,12%) ni tashkil qiladi.

Ushbu tadqiqot turli xil g‘ovakli materiallarda vodorod adsorbsiyasi mexanizmlarini atom darajasida tushunishni yaxshilaydi, ayniqsa amorf kremniy oksidiga (*a*-SiO_2) e’tibor qaratadi.

Minnatdorchilik.

Hisoblash simulyatsiyalari Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti qoshidagi “Fizik jarayonlarni modellashtirish”ilmiy laboratoriyasida joylashgan yuqori unumdor hisoblash kompyuterlarida amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

[1] S. K. Dash, S. Chakraborty, and D. Elangovan, A Brief Review of Hydrogen Production Methods and Their Challenges, Energies 16, 1141 (2023).

[2] R. Krishna, E. Titus, M. Salimian, O. Okhay, S. Rajendran, A. Rajkumar, J. M. G. Sousa, A. L. C. Ferreira, J. Campos, and J. Gracio, Hydrogen Storage for Energy Application, in Hydrogen Storage, edited by J. Liu (InTech, 2012).

[3] K. Xia, Q. Gao, J. Jiang, and H. Wang, An unusual method to prepare a highly microporous carbon for hydrogen storage application, Mater. Lett. 100, 227 (2013).

[4] P. A. Owusu and S. Asumadu-Sarkodie, A review of renewable energy sources, sustainability issues and climate change mitigation, Cogent Eng. 3, 1167990 (2016).

[5] M. Aziz, Liquid Hydrogen: A Review on Liquefaction, Storage, Transportation, and Safety, Energies 14, 5917 (2021).

[6] Y. Song and Z. X. Guo, Electronic structure, stability and bonding of the Li-N-H hydrogen storage system, Phys. Rev. B 74, 195120 (2006).

[7] H. Barthelemy, M. Weber, and F. Barbier, Hydrogen storage: Recent improvements and industrial perspectives, Int. J. Hydrog. Energy 42, 7254 (2017).

[8] M. R. Usman, Hydrogen storage methods: Review and current status, Renew. Sustain. Energy Rev. 167, 112743 (2022).

[9] S. Orimo, Y. Nakamori, J. R. Eliseo, A. Züttel, and C. M. Jensen, Complex Hydrides for Hydrogen Storage, Chem. Rev. 107, 4111 (2007).

[10] P. Chen, Z. Xiong, J. Luo, J. Lin, and K. L. Tan, Interaction of hydrogen with metal nitrides and imides, Nature 420, 302 (2002).

[11] Y. Xia, Z. Yang, and Y. Zhu, Porous carbon-based materials for hydrogen storage: advancement and challenges, J. Mater. Chem. A 1, 9365 (2013).

[12] M. Mohan, V. K. Sharma, E. A. Kumar, and V. Gayathri, Hydrogen storage in carbon materials-A review, Energy Storage 1, e35 (2019).

[13] L. Zhang et al., Fundamentals of hydrogen storage in nanoporous materials, Prog. Energy 4, 042013 (2022).

[14] G. Zhang, X. Wang, Y. Xiong, Y. Shi, J. Song, and D. Luo, Mechanism for adsorption, dissociation and diffusion of hydrogen in hydrogen permeation barrier of α-Al2O3: A density functional theory study, Int. J. Hydrog. Energy 38, 1157 (2013).

[15] W. Zhu, G. Zheng, S. Cao, and H. He, Thermal conductivity of amorphous SiO2 thin film: A molecular dynamics study, Sci. Rep. 8, 10537 (2018).

[16] A.-M. El-Sayed, M. B. Watkins, T. Grasser, V. V. Afanas'ev, and A. L. Shluger, Hole trapping at hydrogenic defects in amorphous silicon dioxide, Microelectron. Eng. 147, 141 (2015).

[17] U. Khalilov, E. C. Neyts, G. Pourtois, and A. C. T. Van Duin, Can We Control the Thickness of Ultrathin Silica Layers by Hyperthermal Silicon Oxidation at Room Temperature?, J. Phys. Chem. C 115, 24839 (2011).

[18] U. Khalilov, G. Pourtois, A. C. T. Van Duin, and E. C. Neyts, Hyperthermal Oxidation of Si(100)2×1 Surfaces: Effect of Growth Temperature, J. Phys. Chem. C 116, 8649 (2012).

[19] A. Comas-Vives, Amorphous SiO_2 surface models: energetics of the dehydroxylation process, strain, ab initio atomistic thermodynamics and IR spectroscopic signatures, Phys. Chem. Chem. Phys. 18, 7475 (2016).

[20] A. P. Thompson et al., LAMMPS - a flexible simulation tool for particle-based materials modeling at the atomic, meso, and continuum scales, Comput. Phys. Commun. 271, 108171 (2022).

[21] J. C. Fogarty, H. M. Aktulga, A. Y. Grama, A. C. T. Van Duin, and S. A. Pandit, A reactive molecular dynamics simulation of the silica-water interface, J. Chem. Phys. 132, 174704 (2010).

[22] H. J. C. Berendsen, J. P. M. Postma, W. F. Van Gunsteren, A. DiNola, and J. R. Haak, Molecular dynamics with coupling to an external bath, J. Chem. Phys. 81, 3684 (1984).

[23] G. Bussi, D. Donadio, and M. Parrinello, Canonical sampling through velocity rescaling, J. Chem. Phys. 126, 014101 (2007).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Dexkonov Raxmatilla Sultonovich
Namangan davlat universiteti, kimyo fanlari doktori (DSc), dotsent
Email; Derakhmatilla64@gmail.ru
Meliboyev Oybek Sohibjon o'g'li
Namangan davlat universiteti,
70530101–Kimyo mutaxassisligi, 2-kurs

HELIANTHUS TUBEROSUS L. O'SIMLIGI YER USTKI QISMINING BIOLOGIK FAOL MODDALARINI O'RGANISH

Annotatsiya: *Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanida o'suvchi Helianthus tuberosus L. (topinambur) o'simligi "Fayz baraka" navi yer ustki qismi (bargi)ning turli sharoitlarda ekstraktiv moddalari ajratib olindi. Ekstraktiv moddalari tarkibi sifat raksiyalar hamda flavonoidlari miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YuSSX) usullarida tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *Helianthus tuberosus L., topinambur, ekstraktiv moddalar, sifat reaksiyalar, flavonoidlar.*

Дехконов Рахматилла Султонович
доктор химических наук (DSc), доцент,
Наманганский государственный университет
Мелибоев Ойбек Сохибжон угли
магистрант 2 курса, специальность 70530101 – Химия,
Наманганский государственный университет

ИССЛЕДОВАНИЕ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ НАДЗЕМНОЙ ЧАСТИ РАСТЕНИЯ HELIANTHUS TUBEROSUS L.

Аннотация. *В работе изучены экстрактивные вещества надземной части (листьев) растения Helianthus tuberosus L. (топинамбур) сорта «Файз барака», произрастающего в Янгикураганском районе Наманганской области. Экстракция биологически активных веществ проводилась в различных условиях. Качественный состав экстрактивных веществ определяли с использованием качественных реакций. Количественное содержание флавоноидов анализировали методом высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ).*

Ключевые слова: *Helianthus tuberosus L., топинамбур, надземная часть, экстрактивные вещества, качественные реакции, флавоноиды, ВЭЖХ.*

Dehkonov Rakhmatilla Sultanovich
Namangan State University
Doctor of Chemical Sciences (DSc), Associate Professor
Meliboyev Oybek Sokhibjon ugli
2nd year Master's student, specialty 70530101 – Chemistry
Namangan State University

STUDY OF BIOLOGICALLY ACTIVE COMPOUNDS IN THE AERIAL PARTS OF HELIANTHUS TUBEROSUS L.

Abstract: *The study investigated the extractive substances of the aerial part (leaves) of Helianthus tuberosus L. (Jerusalem artichoke) cultivar "Fayz Baraka", growing in the Yangikurgan district of Namangan region. Extraction of biologically active substances was carried out under different conditions. The qualitative composition of extractive substances was determined using qualitative reactions. The quantitative content of flavonoids was analyzed by high-performance liquid chromatography (HPLC).*

Keywords: *Helianthus tuberosus L., Jerusalem artichoke, aerial part, extractive substances, qualitative reactions, flavonoids, HPLC.*

Kirish.

Helianthus tuberosus L. (Topinambur), keng tarqalgan nomi — yer noki, tuganak hosil qiluvchi ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, kungaboqarsimonlar turkumiga mansub. O‘simlik Yevropaga XVII asr boshlarida Braziliyadan tupinamba qabilasi orqali keltirilgan.

O‘simlik balandligi odatda 3–4 m gacha yetadigan tik poyaga, dag‘al barglarga hamda yaxshi rivojlangan ildiz tizimiga ega. Uning tuganaklari ildiz emas, balki modifikatsiyalangan poya hisoblanadi. Ularning rangi va shakli navga qarab farqlanadi. Xom tuganaklar ta’mi sholg‘om yoki karam o‘zagiga o‘xshash bo‘ladi. Barglari tishsimon chetli, navbat bilan joylashgan. Gullari savatchasimon to‘pgul hosil qiladi (diametri 2–10 sm), markaziy gullari naychasimon va ikki jinsli, chekka gullari sterildir. O‘simlik odatda yoz oxiri — kuzda gullaydi.

Topinambur ekologik jihatdan moslashuvchan bo‘lib, tuproq va namlikka kam talab qo‘yadi, kasallik va zararkunandalarga chidamli hamda bir joyda uzoq muddat (30–40 yil) o‘sishi mumkin [1].

Topinambur (*Helianthus tuberosus L.*) tuganaklari biologik faol birikmalar, xususan inulinga boy bo‘lib, kletchatka miqdori nisbatan kam. Inulin β-(2→1) glikozid bog‘lari bilan bog‘langan β-D-fruktofuranoza qoldiqlaridan tashkil topgan polifruktozan bo‘lib, molekulyar massasi 4,9–5,7 kDa ni tashkil etadi [1].

Topinambur tuganaklari yuqori oziqlilik qiymatiga ega bo‘lib, tarkibida 3 % gacha oqsil, almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar, pektin, fruktoza, organik kislotalar hamda 2–4 % azotli birikmalar mavjud. Shuningdek, ular K, Ca, Mg, Na, F, Cr kabi mikroelementlar, ayniqsa selen hamda temirga boy. Bundan tashqari, B guruhi vitaminlari, C, PP vitaminlari va karotinoidlar mavjud [1- 6].

Topinambur tuganaklari va yer ustki qismi xalq tabobatida metabolik va yurak-qon tomir kasalliklarida qo‘llaniladi.

Qadimda topinambur barglari osteoxondroz, artrit hamda tuzlar to‘planishi kasalliklarini davolashda qo‘llanilgan [6].

Yer ustki qismi flavonoidlar, oshlovchi moddalar, organik kislotalar, oqsillar va polisaxaridlarni saqlaydi hamda yallig‘lanishga qarshi va yara bitiruvchi ta’sirga ega fitopreparatlar yaratish uchun istiqbolli xomashyo hisoblanadi [2- 4].

Dorivor o‘simliklar biologik faol moddalarining manbai sifatida farmatsevtika va tibbiyotda muhim ahamiyatga ega. *Helianthus tuberosus L.* yer ustki qismi flavonoidlar va boshqa biologik faol birikmalarga boy bo‘lib, fitopreparatlar yaratish uchun istiqbolli xomashyo hisoblanadi. Mazkur o‘simlikning yer ustki qismi kimyoviy tarkibini chuqur o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Ishning maqsadi.

Helianthus tuberosus L. yer ustki qismidagi biologik faol moddalar tarkibini aniqlash hamda flavonoidlar miqdorini YuSSX usulida baholashdan iborat.

Materiallar va uslublar.

Tadqiqot obyekti sifatida *Helianthus tuberosus L.* bargaining soyada quritilgan 50 g maydalanilgan xomashyosi turli erituvchilarda ekstraksiya qilindi va ekstraktiv moddalarni chiqishining muqobil varianti aniqlandi.

Foydalanigan reaktiv va jihozlar. Xromatografik tahlil uchun etalon sifatida gall kislota “Macklin” dan (Xitoy), salitsil kislota “Rhydburg Pharmaceuticals” (Germaniya)dan, kversetin, apigenin, kempferollar “Regal” (Xitoy), rutin tabiiy manbaalardan ekstraksiya va ustunli xromatografiya usullarida ajratib olingan. HPLC darajadagi tozalikda suv, atsetonitril, kimyoviy toza markadagi sirka kislota va natriy gidroksidi reaktivlaridan foydalanildi.

O`simlik tarkibidagi polifenollar miqdorini Yaponiyaning Shimadzu kompaniyasida ishlab chiqarilgan LC-40 Nexera Lite yuqori samarali suyuqlik xromatografida amalga oshirildi

Standart eritmalarni tayyorlash. Gall kislota (5,2 mg), salitsil kislota (5,2 mg), rutin (5 mg), kversetin (5 mg), apigenin (5 mg), kempferol (5 mg) 96 % li etanolda 20 daqiqa davomida ultratovushli vannada eritildi va 50 ml kolbaga o`tkazilib, etanol bilan 50ml gacha belgisiga keltirildi. Har bir eritmadan 200 mkl dan olinib aralashtirildi hamda ularni suyiltirish yo`li bilan jami 4 xil eritma tayyorlandi. Har bir eritmalar vialaga quyildi va analiz uchun foydalanildi.

O‘simlik ekstraktini tayyorlash. Fenol birikmalarni ekstraksiya qilish uchun 1g tekshiriladigan namuna OHAUS kompaniyasi (AQSh) tomonidan ishlab chiqarilgan NV222 markali tarozida 0,01 g aniqlikda tortib olinib, 50 ml hajmli konussimon kolbaga solindi va 25 ml 96 % li etanol qo`shildi. Aralashma GT SONIC-D3 (Xitoy) markali ultratovushli vannada 60 oC haroratda 20 daqiqa davomida ekstraksiya qilindi. So`ngra aralashma sovitilib, filtrlandi hamda o`lchov kolbasida etanol bilan 25 ml ga yetkazildi. Ekstraktdan 1,5 ml miqdori Mini-7 markali (BIOBASE, Xitoy) sentrifugada 7000 ayl./min tezlikda sentrifugalandi va 0,45 mkm li shpritsli filtrda filtrlanib analiz uchun foydalanildi.

Xromatografik sharoitlar.

Fenol birikmalarni aniqlash. Standart eritma, namuna ekstrakti Shim pack GIST C18 (150 Ч 4,6 mm; 5 mkm, Shimadzu, Yaponiya) teskari fazali kolonkasi hamda atsetonitril (A) va sirka kislotaning suvdagi 0,5 % li eritmasidan (B) tashkil topgan gradiyentli harakatchan faza (1-jadval) qo`llanildi. Inyeksiya hajmi 10 mkl, oqim tezligi 0,5 ml/min va kolonka termostati $40^0$C etib belgilandi. Fenol birikmalarning analitik signali (cho`qqi maydoni) 300 nmda qayd etildi.

Namuna ekstrakti tarkibidagi fenol birikmalar miqdorini aniqlash. Massasi 1 gr bo`lgan namuna ekstraktining

xromatogrammasi olindi hamda natijalar asosida 100 gr namuna tarkibidagi fenol birikmalar miqdorlari quyidagi formula bilan hisoblanib 2-jadvalda keltirildi.

$$X = \frac{C_{phen} \cdot V_{ekstrakt}}{m_{namuna}} \cdot 100\ g$$

Bu yerda, X – 100 gram meva tarkibidagi fenol birikmalarning miqdori, mg;

C_{phen} – ekstrakt tarkibidagi fenol birikmaning YuSSX usuli bilan aniqlangan konsentratsiyasi, mg/l; $V_{ekstrakt}$ – namuna ekstraktining hajmi, l;

m_{namuna} – ekstrakt tayyorlash uchun tortib olingan namuna massasi.

1-jadval.

Topinambur barg ekstrakti учун HPLC harakatchan faza gradiyent dasturi

Vaqt (min)	**Atsetonitril (A), %**	**0,5 % sirka kislota (B), %**
0,0	5	95
5,0	5	95
15,0	35	65
20,0	40	60
22,0	40	60
22,1	5	95
30,0	5	95
40,0	Tugatish	Tugatish

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Helianthus tuberosus L. o‘simligi bargidan 96 % li etanol (26,32 %) hamda suvli muhitda (22,62 %) ekstraktiv moddalar ajratib olindi. Har ikkala erituvchida olingan ekstraktlar tarkibi adabiyot ma’lumotlari bilan taqqoslangan holda flavonoidlarga xos sifat reaksiyalari o‘tkazildi. Sifat tahlili natijalariga ko‘ra, 96 % li etanolli ekstraktda ham, suvli ekstraktda ham sifat reaksiyalarida rang intensivligi yuqori bo‘ldi. Shundan kelib chiqib, *Helianthus tuberosus* L. o‘simligi bargidagi flavonoid tarkibini YuSSX usuli yordamida aniqlash uchun suvli yoki 96 % li etanolli ekstraktlardan foydalanildi. Tajriba natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

***Helianthus tuberosus* L. barg ekstrakti polifenollari miqdori va ushlanish vaqtlari**

Fenol birikma nomi	**Ushlanish vaqti, sek**		**Konsentratsiya, mg/l**		**100 g. dagi miqdor, mg**	
	Bargi	**Tuganagi***	**Bargi**	**Tuganagi***	**Bargi**	**Tuganagi***
Gall kislota	9,462	aniqlanmadi	4,865	0,000	6,081	0,000
Rutin	18,524	19,305	1,685	0,288	2,106	0,360
Salitsil kislota	21,184	22,194	0,286	0,319	0,358	0,399
Kversetin	23,547	23,900	15,364	0,106	19,205	0,133
Apigenin	26,438	26,909	5,214	0,175	6,518	0,219
Kaempferol	28,564	aniqlanmadi	9,842	0,000	12,303	0,000

Helianthus tuberosus L. o‘simligining yer ustki (barg) qismi ekstrakti tarkibidagi polifenollar YuSSX usuli yordamida aniqlandi. Olingan natijalar (2-jadval) shuni ko‘rsatdiki, gall kislotasi — 6,462 s, rutin — 18,524 s, salisil kislota — 21,184 s, kversetin — 23,547 s, apigenin — 26,438 s hamda kempferol — 28,564 s ushlanish vaqtiga ega. Ekstrakt flavonoidlarga boy bo‘lib, uning tarkibida gall kislotasi, rutin, salisil kislota, kversetin, apigenin hamda kempferol mavjudligi aniqlandi.

Shuningdek, *Helianthus tuberosus* L. o‘simligining yer ostki qismi (tuganagi) polifenollari [7] hamda barg ekstraktining polifenol tarkibi bir xil xromatografik sharoitda olingan natijalar asosida taqqoslandi. Natijada yer ostki (tuganak) ekstrakti tarkibida gall kislotasi va kempferol aniqlanmadi. Shu asosda *Helianthus tuberosus* L. o‘simligining yer ustki qismi yer ostki qismiga nisbatan biologik faol moddalarga boy ekani aniqlandi.

Xulosalar

Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX) usuli yordamida *Helianthus tuberosus* L. o‘simligi bargining polifenollar tarkibi va miqdori ilk bor o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘simlik bargidagi biologik faol moddalar miqdori uning yer ostki qismiga nisbatan ancha yuqori ekani aniqlandi.

Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, flavonoidlar turli kasalliklarni davolash hamda dori vositalarini ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi. Shu asosda *Helianthus tuberosus* L. o‘simligi bargidan yuqori nafas yo‘llari hamda yallig‘lanish kasalliklarini davolashga mo‘ljallangan fitopreparatlar tayyorlash istiqbolli deb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Багрова Л.А. Растения «Я познаю мир». Издательство АСТ, 2001. – 390с.
2. Белоусова А.Л. Исследование травы топинамбура и создание лекарственных препаратов на его основе: дис. ... канд. фармац. наук. – Пятигорск, 2004. – 163с.
3. Зяблицева Н.С., Кисиева М.Т., Компанцев В.А. и др. Гипогликемическая активность пектоинулина с таурином // Вестник РУДН. Серия: Медицина. – 2011. – № 4. – С.131-134.
4. Кароматов И.Д. Простые лекарственные средства. Бухара 2012.
5. Кароматов И.Д. Фитотерапия – руководство для врачей, Бухара 2021, том 2. //Биология и интегративная медицина 2017, 5(11), 115-125.
6. Польза и вред топинамбура. - http://chtoem.ru/ovoshhi/polza-i-vred-topinambura.html
7. Дехконов Р.С. *Helianthus tuberosus L.* o‘simligi ildiz mevasining polifenil birikmalari. Bioorganik kimyo fani muammolari. XI-Respublika yosh kimyogarlar ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. III-qism. NamDU. 22-23 noyabr. 2024 yil. 211-215 betlar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov,
Andijon darlat universiteti Kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ixtirochi, O'zbekiston TABOBAT Akademiyasi raisi
Turg'unova Gulhayo Ibroximjon qizi
Andijon davlat universiteti Kimyo mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Xojimatov Maxsadbek Mo'ydinovich
Andijon davlat universiteti Kimyo fanlari doktori, professor

TURPNING(Raphanus sativus L.) ANTIRADIKALLIK XUSUSIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turp (Raphanus sativus L.) tarkibiga kiruvchi ayrim antiradikallik hususiyatlarini namoyon qiluvchi biologik faol moddalar va ularning ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *antiradikal, turp, siyanidin, pelargonidin, glukozinolatlar, polifenollar, uglevodlar, organik kislotalar, aminokislotalar, vitaminlar va lipidlar.*

Иброхимджон Рахмонович Аскаров,
профессор кафедры химии Андижанского государственного университета, доктор химических наук, заслуженный изобретатель Узбекистана, председатель Академии медицины Узбекистана
Тургунова Гюльхайо Иброхимджон кизи
студентка 1-го курса магистратуры, специальность «Химия», Андижанский государственный университет
Ходжиматов Максадбек Моыдинович
доктор химических наук, Андижанский государственный университет, профессор

РЕДЬКИ(Raphanus sativus L.) И ЕГО АНТИРАДИКАЛЬНЫЕСВОЙСТВА

Аннотация: *Аннотация: В данной статье приведены сведения о некоторых биологически активных веществах, входящих в состав редиса (Raphanus sativus L.), обладающих антирадикальными свойствами, а также об их значении.*

Ключевые слова: *С, редька, цианидин, пеларгонидин, глюкозинолаты, полифенолы, углеводы, органические кислоты, аминокислоты, витамины и липиды.*

Ibroximjon Rahmonovich Askarov,
Professor of the Department of Chemistry, Andijan State University, Doctor of Chemical Sciences, Honored Inventor of Uzbekistan, Chairman of the Medical Academy of Uzbekistan
Turgunova Gulkhayo Ibroximjon qizi
1st year master's student, Faculty of Chemistry, Andijan State University
Khojimatov Maqsadbek Mo'ydinovich
Doctor of Chemical Sciences, Andijan State University, Professor

RADISH(Raphanus sativus L.) AND ITS ANTIRADICAL PROPERTIES


Annotation: *This article presents information on some biologically active substances in radish (Raphanus sativus L.) that exhibit antiradical properties and their significance.*

Keywords: *antiradical, radish, cyanidin, pelargonidin, glucosinolates, polyphenols, carbohydrates, organic acids, amino acids, vitamins, and lipids*


Kirish. Turp ozuqaviy maqsadda iste`mol qilinadigan o`simlik bo'lib, uning shakli va ranglari turli xil bo`ladi. Uning eng keng tarqalgan turlari qora, oq, yashil turlaridir. Turpning tarkibida vitaminlar, minerallar, antioksidantlar mavjud bo`lib, ularning barchasi inson salomatligi uchun foydalidir. Turp immunitetni kuchaytirishda, hazm qilishni yaxshilashda va organizmni toksinlardan tozalashda yordam beradi. U balg`am ko`chiruvchi vosita sifatida ham shifobaxsh ta`sirga ega. Turpdan taomlar va salatlar tayyorlashda ishlatiladi.

Nazariy qism. Turp (Raphanus sativus L.) — karamdoshlar oilasiga mansub bo`lgan, ikki yillik o‘simlik. 5 ming yil muqaddam Qadimgi Misr, Yunoniston va Rimda ekilgan. Hozirgi paytda dunyodagi barcha mamlakatlarda ekiladi. Birinchi yili kesikli, tukli barglardan iborat to‘pbarg va ildizmeva hosil qiladi. Ikkinchinchi yili gulpoya chiqarib, 35-40 kunda gullaydi. Gullashi bir oygacha davom etadi. Gul to‘plami shingil holida bo’ladi. Guli 4 tojbargli, 2 jinsli, oq pushti, binafsha yoki och sariq rangda, chetdan hasharotlar, asosan asalarilar yordamida changlanadi. Madaniy turp rediska va yovvoyi turp bilan oson chatishadi. Mevasi ochilmaydigan urchuq yoki silindrsimon shakldan iborat. Urug‘i yumaloq, oval shaklda, och, to‘q yashil rang, qora rang va oq rangda bo`ladi. Turp faqat ochiq yerda yetishtiriladi. Urug‘i 2-4 °C da unib chiqadi. 13-20 °C da yaxshi rivojlanadi, harorat 20 °C dan yuqori bo‘lsa ildizmevalarning o‘sishiga salbiy ta’sir qiladi. Turp namsevar o‘simlik. Namlik yetishmasa ildizmevasi yaxshi o‘smaydi. Ildizmevasi yirik, 200 g dan 4-5 kg gacha bo`ladi. Turp O‘zbekistonning markaziy viloyatlarida iyul oyining oxiri va avgust oyining boshida, janubiy mintaqalarida, avgust oyining ikkinchi o‘n kunligida, 2-3 sm chuqurlikka ekiladi. Maysa ko‘karib chiqquncha tuproq doimo nam holda tutiladi [1].


Turp bir yillik yoki ikki yillik o’simlik bo'lib, ularning shishgan ildizlari sharsimon, toraygan yoki silindrsimon bo'lishi mumkin. Ildiz terisining rangi oqdan pushti, qizil, binafsha, sariq va yashildan qora ranggacha o'zgaradi, ammo go'shti odatda oq rangga ega. Ildizlar o'z rangini antosiyaninlardan oladi. Qizil navlar antosiyanin pelargonidinni pigment sifatida ishlatadi va binafsha navlar o'z rangini siyanidindan oladi. O'z vaqtida yig'ib olingan turpning ichki qismi tiniq va mazasi shirin bo'ladi, lekin sabzavot yerda uzoq vaqt qolsa, achchiq va qattiq bo'ladi. Tarkibida o‘rtacha 1,92% oqsil, 1,58% qand, 1,55% kletchatka, 8-29 mg, vitamin C va boshqa bor. Asosiy birikmalar: Glukozinolatlar, polifenollar (shu jumladan flavonoidlar), uglevodlar, organik kislotalar, aminokislotalar, vitaminlar va lipidlar.



Siyanidin



Pelargonidin



Tadqiqotda flavonoidlar, ayniqsa antosiyaninlar, turp navlarining ta'mi va rangiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Flavonoidlar turpning achchiq, shirin va tiniq ta'm xususiyatlariga hissa qo'shadi.

Buyuk tabobat ilmi asoschisi Abu Ali ibn Sinoning aytishicha “Turpdagi eng kuchli narsa urug‘i, so‘ngra po‘sti, undan kegin bargi va nihoyat etidir. Bargi va bargining suvi sariq kasallikni yoqotadi, urug‘i esa qorindagi yelni tarqatadi, ishtaxani oshiradi va jigar og‘rig‘ini yengillashtiradi” deb aytgan . Turpning nafaqat ildizmevasi foydali bo‘libgina qolmay, uning barglari, ildizlari va urug‘lari inson organizmida uchraydigan kasalliklarni davolash maqsadida ham ishlatiladi. Turp barglari odatda ozuqa mahsuloti sifatida ishlatilmaydi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, turp barglari antioksidant va antimikrob faolliklarga ega bo‘lgan mahsulotdir. Turp bargi tarkibidagi biologik faol moddalar tanani toksinlardan tozalashga yordam beradi. Turp bargi tarkibidagi ayrim birikmalar saraton kasalligida, jigarni viruslardan himoya qilishda, astma kabi bir qator kasalliklarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi [2].

Turp o‘simligining kimyoviy tarkibi va biologik faol moddalarining tahlili yuzlab ilmiy manbalarda yoritilgan. Mamatqulova Surayyoxon (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turpning 5 ta navi o‘rganilib, lizotsim fermenti va pektinlarning tarkibi va xususiyatlari aniqlangan[3,4]. Turpning kimyoviy tarkibi makro va mikroelementlar miqdori, fermentlar, va polisaxaridlar kabi komponentlarga boy ekanligi ta’kidlangan[5]. I.R.Asqarovning “Tabobat qomusi” kitobida ham turp o‘simligining davolovchi xususiyatlari va kimyoviy tarkibiga oid ma’lumotlar keltirilgan[6].

Turp navlarini kimyoviy tarkibiga ko‘ra sinflash mahsulotlarni standartlashtirish va sifatini nazorat qilishda muhimdir. Bu esa yangi tovar kodlari va sanoat uchun foydali mahsulotlar yaratishga imkon beradi.

Tajriba qism. Namunaning antiradikallik xususiyatini DPPH metodi bilan baholash

Binafsha rangli 2,2-difenil-1-pikrilgidrazil (DPPH) eritmasining rangsizlanishi vodorod atomi yoki elektronni beruvchi xususiyatlarga ega bo'lgan ba'zi sof antioksidant birikmalar mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Barqaror DPPH• bu spektrofotometrik tahlilda ishlatiladigan reagentdir [7]. Mazkur tajribada Blois [8] tomonidan amalga oshirilgan usul DPPH• erkin radikallarini ingibirlash xususiyatini baholash usuli kichik o'zgartirishlar bilan foydalanildi [9].

DPPH• ishchi eritmasini tayyorlash. 100 ml hajmli o‘lchov kolbasida etanolda 7.92 mM DPPH• eritmasi tayyorlanib, alyuminiy qog‘ozga o‘ralib 30 daqiqa xona haroratida qorong‘i joyda saqlandi.

Namunalar ekstraktlarini tayyorlash. Turp ildiz mevasidan spirt hamda suv asosida namuna tayyorlandi.

Namunalarning ekstraktlarini tayyorlashda 1 ildiz mevani namunasini 25 ml 96 % li etanolda 20 daqiqa ultratovushli vannada ektraksiya qilish bilan amalga oshirildi. Olingan ekstrakt 0,45 mkm li shpritsli filtrdan o'tkazilib, analiz uchun foydalanildi [10].

Namunalarning antiradikallik xususiyatini aniqlash. 4 ml hajmli kvarts kyuvetaga 3 ml DPPH eritmasi va 100 mkl etanol (bo'sh namuna) qo'shib, spektrofotometrga joylashtirildi hamda 30 daqiqa davomida har 5 daqiqada 517 nm to'lqin uzunligida nur yutilishi (D_1) YOKE (Xitoy) tomonidan ishlab chiqarilgan K7000 spektrofotometrida o'lchandi. Namunaning antiradikallik xususiyatini baholash uchun 25, 50, 75, 100 mkl namuna 3 ml DPPH eritmasi bilan aralashtirilib, yuqoridagi tartibda 517 nm dagi nur yutilishi (D_2) o'lchandi. Kyuvetadagi eritmaning umumiy hajmini 3,1 ml ga yetkazish uchun qolgan qismiga etanol qo'shildi. Namunalarning antiradikallik xususiyati quyidagi formula bilan hisoblandi:


$$ARF\% = \frac{D_1 - D_2}{D_1} \cdot 100\%$$

Olingan natijalar quyidagi jadvalda berildi:

1-jadval.


DPPH eritmasiga qo'shilgan bo'sh va tekshiriladigan **Turp spirt** namunalarning o'lchangan nur yutilishi va hisoblangan antiradikallik faollik qiymatlari.

Hajm, mkl	Vaqt, daq.	namuna					
		Abs, D	ARF%		Vaqt, daq.	Abs, D	ARF%
25	0	0,964	0,00	75	0	0,964	0,00
	5	0,857	11,10		5	0,793	17,74
	10	0,831	13,80		10	0,709	26,45
	15	0,823	14,63		15	0,677	29,77
	20	0,816	15,35		20	0,657	31,85
	25	0,809	16,08		25	0,643	33,30
	30	0,803	**16,70**		**30**	0,63	**34,65**
50	0	0,964	0,00	100	0	0,964	0,00
	5	0,798	17,22		5	0,773	19,81
	10	0,746	22,61		10	0,654	32,16
	15	0,724	24,90		15	0,608	36,93
	20	0,71	26,35		20	0,582	39,63
	25	0,7	27,39		25	0,563	41,60
	30	0,691	**28,32**		**30**	0,551	**42,84**



1-rasm. DPPH eritmasiga qo'shilgan bo'sh va tekshirilgan 1-namuna eritmalarining o'lchangan nur yutilishining grafikda ko'rinishi.

Namunalarning IC_{50} – DPPH eritmasining 50 % gacha ingibirlash konsentratsiyasini hisoblash uchun har bir tajribada 30-daqiqadagi antiradikallik faolliklari (ARF%) qiymatlari va qo'shilgan namuna hajmi asosida quyidagi grafik tuzildi hamda unga o'tkazilgan trend chizig'i funktsiyasi asosida hisoblab topildi.



2-rasm. 1-namunaning 10-daqiqada aniqlangan ARF% lari va hajmlari o'rastidagi bog'liqlik grafiki.


Grafikga o'tkazilgan trend chizig'i funksiya formulasi y=mx+b dan 50 % ARF% namoyon qiluvchi hajmni (IC_{50}) x=(y-b)/m formulasi asosida hisoblandi:

$$IC_{50} = \frac{(50 - 3.776)}{0{,}4145} = 111.65\ mkl$$

1-jadval.


DPPH eritmasiga qo'shilgan bo'sh va tekshiriladigan **Turp suv** namunalarning o'lchangan nur yutilishi va hisoblangan antiradikallik faollik qiymatlari.

Hajm, mkl	Vaqt, daq.	namuna					
		Abs, D	ARF%		Vaqt, daq.	Abs, D	ARF%
25	0	0,939	0,00	75	0	0,939	0,00
	5	0,831	11,50		5	0,709	24,49
	10	0,823	12,35		10	0,677	27,90
	15	0,816	13,10		15	0,657	30,03
	20	0,809	13,84		20	0,643	31,52
	25	0,803	14,48		25	0,63	32,91
	30	0,796	**15,23**		**30**	0,617	**34,29**
50	0	0,939	0,00	100	0	0,939	0,00
	5	0,746	20,55		5	0,654	30,35
	10	0,724	22,90		10	0,608	35,25
	15	0,71	24,39		15	0,582	38,02
	20	0,7	25,45		20	0,563	40,04
	25	0,691	26,41		25	0,551	41,32
	30	0,68	**27,58**		**30**	0,528	**43,77**



3-rasm. DPPH eritmasiga qo'shilgan bo'sh va tekshirilgan 1-namuna eritmalarining o'lchangan nur yutilishining grafikda ko'rinishi.

Namunalarning IC_{50} – DPPH eritmasining 50 % gacha ingibirlash konsentratsiyasini hisoblash uchun har bir tajribada 30-daqiqadagi antiradikallik faolliklari (ARF%) qiymatlari va qo'shilgan namuna hajmi asosida quyidagi grafik tuzildi hamda unga o'tkazilgan trend chizig'i funktsiyasi asosida hisoblab topildi.



4-rasm. 1-namunaning 10-daqiqada aniqlangan ARF% lari va hajmlari o'rastidagi bog'liqlik grafiki.

Grafikga o'tkazilgan trend chizig'i funksiya formulasi y=mx+b dan 50 % ARF% namoyon qiluvchi hajmni (IC_{50}) x=(y-b)/m formulasi asosida hisoblandi:

$$IC_{50} = \frac{(50 - 2.854)}{0{,}4264} = 110{,}57\ mkl$$

3-jadval.

Namunalar spirtli ekstraklarining100 mkldagi 30 daqiqadagi antiradikallik faolliklari qiymatlari (ARF%)

Vaqt	ARF%

	Turp spirt	**Turp suv**
30-minut	**42,84**	**43,77**

4-jadval.

Namunalarning IC_{50} – DPPH eritmasining 50 % gacha ingibirlash konsentratsiyasini (mkl)

Vaqt	ARF%		
	Turp spirt	**Turp suv**	
30-minut	**111,65**	**110, 57**	

Xulosa: Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tekshirilayotgan namunalarning spirtli va suvli ekstraksiyalari antiradikallik faollikni namoyon etadi. Xususan, Turpning suvli ekstraktining eng yaxshi natija 30 daqiqada 43,77 % ni tashkil etdi. IC_{50} qiymati 110,57 mklni tashkil etidi. suvli ekstraktining eng yaxshi natija 30 daqiqada 42,84 % ni 111,65 mklni tashkil etib, antiradikal faolligi namoyon qildi. Bu esa turpdan yallig‘lanish kasalligini oldini olish va davolashda hamda immunitetni mustaxkamlashda foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. M.E.Mahmudova “Turpning sirli va mo’jizaviy hususiyatlari” Jild: 04, Nashr: 11 Nov - 2024 ISSN: 2181-2624 www.sciencebox.uz.

2. I.R.Asqarov. Tabobat qomusi. Mumtoz so‘z. Toshkent – 2019. –1590 b.

3. Mamatqulova, S.A. (2020). Lizotsim, pektin, lipidlar saqlovchi ayrim o‘simliklarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash. Farg‘ona davlat universiteti, PhD dissertatsiyasi.

4. Nazarov, B. et al. (2018). Daikon turp navining kimyoviy tarkibi va antioksidant xususiyatlari. “O‘zbek kimyo jurnali”, 2(14), 45-53.

5. Abdullaev, S.V., Dehqonov, R.S. (2019). O‘simliklarning bioaktiv moddalari va ularning kimyoviy tarkibi. Toshkent: Kimyo nashriyoti.

6. Karimov, J. (2017). Turp va boshqa ildizli sabzavotlarning kimyoviy tahlili. “Agrar fanlar” jurnali, 5(10), 120-126.

7. Gulcin, I.; Beydemir, S.; Sat, I.G.; Kufrevioglu, O.I. Evaluation of antioxidant activity of cornelian cherry (Cornus mas L.). Acta Aliment. Hung. 2005, 34, 193–202..

8. Blois, M.S. Antioxidant determinations by the use of a stable free radical. Nature 1958, 181, 1199–1200..

9. Askarov I.R., Muminov M.M., Yusupov M.A. STUDY OF ANTIRADICAL PROPERTIES OF ARTICHOKE (CYNARA SCOLYMUS L.) AND MILK THISTLE (SYLYBUM MARIANUM L.) VEGETABLE OILS. NamDU Ilmiy Axborotnomasi, 2024, 11, p.173-177.

10. Askarov, I. R., Abdullaev, S. S., Mamatkulova, S. A., & Abdulloev, O. S. (2024). ANTIOXIDANT ACTIVITY AND ELEMENTAL COMPOSITION OF MIXTURES OF FIG AND COMMON UNABI FRUITS. Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine, 3(3), 179–205., *https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol3.iss3.2024.320.*

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Ш.А. Абулхаев
Г.Н. Хакимова
О.А.Шералиев
Ташкентский химико-технологический институт
Email: shodmon0927@gmail.com
Т.Ж. Пиримов
Ташкентский химико-технологический институт
Гулистанский государственный университет

УДК 666.184.152.6

РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕПЛА ДЫМОВЫХ ГАЗОВ БАЗАЛЬТОВЫХ ПЕЧЕЙ

Аннотация. *В статье рассмотрены вопросы эффективного использования тепла дымовых газов высокотемпературных базальтовых печей. Показано, что значительная часть тепловой энергии в процессе плавки базальта теряется с отходящими газами, температура которых достигает 900–1200 °C. Выполнен анализ физико-химических свойств дымовых газов и их теплового потенциала. Предложена технологическая схема утилизации тепла с применением кожухотрубчатого теплообменника, обеспечивающая использование отходящего тепла для нагрева воды и получения водяного пара. Внедрение предлагаемой технологии обеспечивает снижение расхода топлива, повышение энергетической эффективности и улучшение экологических показателей производства.*

Ключевые слова: *базальт, плавильная печь, дымовые газы, отходящее тепло, восстановление тепла, энергосбережение.*

Sh.A. Abulxayev
G.N. Xakimova
O.A.Sheraliyeva
Toshkent kimyo – texnologiya institut
T.J. Pirimov
Toshkent kimyo – texnologiya institut
Guliston davlat universiteti

BAZALT PECHIDAN CHIQAYOTGAN TUTUN GAZI ISSIQLIGIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYANI ISHLAB CHIQISH

Annotatsiya*. Ushbu maqolada yuqori haroratli bazalt pechlarining tutun gazlari issiqligidan samarali foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. Bazaltni eritish jarayonida issiqlik energiyasining katta qismi harorati 900-1200 °C ga yetadigan chiqindi gazlar bilan yo‘qolishi ko‘rsatilgan. Tutun gazlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari va ularning issiqlik potensiali tahlil qilingan. Qobiq-quvurli issiqlik almashtirgichdan foydalangan holda issiqlikni utilizatsiya qilishning texnologik sxemasi taklif etilgan bo‘lib, u suvni isitish va suv bug‘ini olish uchun chiqindi issiqlikdan foydalanishni ta’minlaydi. Taklif etilayotgan texnologiyani joriy etish yoqilg‘i sarfini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ishlab chiqarishning ekologik ko‘rsatkichlarini yaxshilashni ta’minlaydi.*

10. Pezier A., Bobkov Y.V., Ache B.W. The Na^+/Ca^{2+} exchanger inhibitor, KB-R7943, blocks a nonselective cation channel implicated in chemosensory transduction // J. Neurophysiol – 2009. – V.101(3). –P.1151-1159.

11. Liang G.H., Kim J.A., Seol G.H., Choi S., Suh S.H. The Na^+/Ca^{2+} exchanger inhibitor KB-R7943 activates large-conductance Ca^{2+}-activated K^+ channels in endothelial and vascular smooth muscle cells // Eur J. Pharmacol.–2008. – V.582(1-3). – P.35-41.

12. Blaustein M.P., Chen L., Hamlyn J.M., Leenen F.H., Lingrel J.B., Wier W.G. Pivotal role of alpha2 Na^+pumps and their high affinity ouabain binding site in cardiovascular health and disease // The Journal of Physiology –2016. – V.594. – P.6079-6103.

13. Shattock M.J., Ottolia M., Bers D.M., Blaustein M.P., Boguslavskyi A., Bossuyt J., et al. Na^+/Ca^{2+}exchange and Na^+/K^+-ATPase in the heart // The Journal of Physiology – 2015. – V.593(6). – P.1361-1382.

14. Pritchard T.J., Bowman P.S., Jefferson A., Tosun M., Lynch R.M., Paul R.J. Na^+-K^+-ATPase and Ca^{2+} clearance proteins in smooth muscle: a functional unit // Am J Physiol Heart Circ Physiol – 2010. – V.299. – P.548-556.

15. Matchkov V.V., Hansen A.K., Aalkjaer C. Na^+/K^+-pump modulates intercellular communication via interaction with other membrane transporters in vascular smooth muscle cells. // The FASEB Journal – 2007. – V.21. – P.912-913.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

SHamsiddinova Oyqiz Yo'ldosh qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali Biotexnologiya kafedrasi magistranti
oyqiz02004@icloud.com
Sobirova Muqaddas Botirovna
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SCENEDESMUS SP SUVO'TI YORDAMIDA OQOVA SUVLARNI TOZALASHNING BIOTEXNOLOGIK IMKONIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada agrosanoat korxonalaridan hosil bo'ladigan oqova suvlarni fitoremediatsiya qilishda Scenedesmus sp. mikrosuvo'tining biotexnologik potensiali va metabolik moslashuvchanligi yoritilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Jizzax viloyatidagi "BMB Agro Plus" korxonasining meva-sabzavotlarni qayta ishlashdan hosil bo'lgan oqova suvi tanlab olingan. Tajribalar BG-11 ozuqa muhiti va oqova suvning kombinatsiyalangan tizimida, CO_2 barbotaji yordamida pH ko'rsatkichini (7.6–8.0) barqarorlashtirish sharoitida olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, oqova suvdagi 1795 mg/l quruq qoldiq va 53.6 mkg/l nitritlar mikrosuvo't uchun optimal ozuqa manbai bo'lib xizmat qiladi va hujayra proliferatsiyasini (DNK 0.59 E/ml) ta'minlaydi. Tadqiqot yakunida oqova suvdagi azot birikmalarining 85% gacha tozalanishiga va biomassada protein miqdorining 42.5% gacha yetishiga erishildi. Olingan natijalar oqova suvlarni biologik tozalash va bir vaqtning o'zida yuqori qiymatli biomassa yetishtirishning yopiq siklli biotexnologiyasini yaratishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Scenedesmus sp., oqova suv tozalash, fitoremediatsiya, BG-11 muhiti, CO_2 barbotaji, biomassa, protein, nitritlar utilizatsiyasi.*

Shamsiddinova Oyqiz Yo'ldosh qizi
Master's student, Department of Biotechnology Jizzakh Branch,
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Sobirova Muqaddas Botirovna
PhD in Biological Sciences Jizzakh Branch, National University of Uzbekistan

BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL OF WASTEWATER TREATMENT USING SCENEDESMUS SP. MICROALGAE

Abstract: *This article highlights the biotechnological potential and metabolic flexibility of the microalga Scenedesmus sp. in the phycoremediation of wastewater generated from agro-industrial enterprises. The wastewater from the "BMB Agro Plus" fruit and vegetable processing plant in the Jizzakh region was selected as the research object. Experiments were conducted in a combined system of BG-11 nutrient medium and wastewater, under conditions of pH stabilization (7.6–8.0) using CO_2 sparging. The results showed that 1795 mg/l of total dissolved solids and 53.6 mcg/l of nitrites in the wastewater serve as an optimal nutrient source for the microalgae and ensure cell proliferation (DNA 0.59 E/ml). At the end of the study, up to 85% purification of nitrogen compounds was achieved, and the protein content in the biomass reached 42.5%. The findings are of practical importance in developing a closed-cycle biotechnology for biological wastewater treatment and simultaneous production of high-value biomass.*

Keywords: *Scenedesmus sp., wastewater treatment, phycoremediation, BG-11 medium, CO_2 sparging, biomass, protein, nitrite utilization.*

Шамсиддинова Ойқиз Юлдош кизи
Магистрант кафедры биотехнологии
Филиал Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, г.Джизак
Собирова Мукаддас Ботировна
Доктор философии (PhD) по биологическим наукам Филиал Национального университета Узбекистана

БИОТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МИКРОВОДОРОСЛЕЙ РОДА *SCENEDESMUS* SP.

Аннотация: *В данной статье освещаются биотехнологический потенциал и метаболическая пластичность микроводоросли Scenedesmus sp. при фиторемедиации сточных вод, образующихся на агропромышленных предприятиях. В качестве объекта исследования была выбрана сточная вода предприятия по переработке плодоовощной продукции «BMB Agro Plus» Джизакской области. Эксперименты проводились в комбинированной системе питательной среды BG-11 и сточной воды в условиях стабилизации показателя pH (7.6–8.0) с помощью барботажа CO_2. Результаты показали, что сухой остаток в количестве 1795 мг/л и нитриты в концентрации 53,6 мкг/л в сточных водах служат оптимальным источником питания для микроводорослей и обеспечивают пролиферацию клеток (ДНК 0,59 Е/мл). По завершении исследования была достигнута очистка азотистых соединений до 85%, а содержание белка в биомассе достигло 42,5%. Полученные результаты имеют практическое значение для создания биотехнологии замкнутого цикла биологической очистки сточных вод и одновременного получения высокоценной биомассы.*

Ключевые слова: *Scenedesmus sp., очистка сточных вод, фиторемедиация, среда BG-11, барботаж CO_2, биомасса, белок, утилизация нитритов.*

Kirish

Hozirgi kunda global miqyosda chuchuk suv resurslarining ifloslanishi va ularni qayta tiklash masalasi strategik ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, agrosanoat majmualarida meva va sabzavotlarni qayta ishlash jarayonida hosil bo‘ladigan katta hajmdagi oqova suvlar tarkibida yuqori konsentratsiyali biogen elementlar (azot va fosfor birikmalari), mineral tuzlar va organik moddalar mavjudligi suv havzalarining evtrofikatsiyasiga va ekologik muvozanatning buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Jizzax viloyatining eksport salohiyatini ta’minlovchi meva-sabzavotlarni quritish va qayta ishlash korxonalari, xususan, "BMB Agro Plus" korxonasi misolida oqova suvlarni samarali va ekologik xavfsiz tozalash texnologiyalarini joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi [1, 2]. Oqova suvlarni tozalashning an’anaviy kimyoviy va mexanik usullari yuqori xarajat talab qilishi hamda ikkilamchi ifloslanish xavfini tug‘dirishi sababli, fitoremediatsiya (phycoremediation)-mikrosuvo‘tlar yordamida biologik tozalash usuliga e’tibor ortib bormoqda [9]. Mikrosuvo‘tlar, xususan *Scenedesmus* avlodi vakillari, o‘zining jadal o‘sish sur’ati, turli darajadagi minerallashgan muhitlarga yuqori adaptiv xususiyati va suv tarkibidagi nitrit, nitrat hamda fosfatlarni samarali o‘zlashtirish qobiliyati bilan ajralib turadi [5]. *Scenedesmus sp.* mikrosuvo‘tining metabolik plastikligi oqova suvdagi mineral qoldiqlar va biogenlarni o‘zlashtirib, ularni yuqori qiymatli biokimyoviy komponentlarga-oqsillar, lipidlar va nuklein kislotalarga aylantirish imkonini beradi. Biroq, agrosanoat oqova suvlarining fizik-kimyoviy parametrlari, ayniqsa, pH ko‘rsatkichining fotosintez jarayonida o‘zgarishi mikrosuvo‘tlar unumdorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli, kultivatsiya jarayonida CO_2 barbotaji orqali muhitni barqarorlashtirish va suvo‘t metabolizmini boshqarish oqova suvlarni tozalash samaradorligini oshirishning muhim biotexnologik yechimidir [10]. Ushbu tadqiqotning maqsadi "BMB Agro Plus" korxonasi oqova suvlarida *Scenedesmus sp.* mikrosuvo‘tini BG-11 ozuqa muhiti komponentlari va CO_2 barbotaji yordamida o‘stirish orqali suvni nitritlardan tozalash hamda yuqori proteinli biomassa olishning optimal biotexnologik parametrlarini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili.

Mikrosuvo‘tlarning *Scenedesmus* turkumi birinchi marta 1829-yilda Meyen tomonidan tavsiflangan bo‘lib, ular dunyo bo‘ylab chuchuk va sho‘rlangan suv havzalarida eng ko‘p tarqalgan avtotrof organizmlardan biri hisoblanadi. *Scenedesmus sp.* hujayralari odatda 2, 4 yoki 8 tadan birlashib, senobiy (koloniya) hosil qilishi bilan xarakterlanadi, bu esa ularning tashqi muhit faktorlariga, jumladan, antropogen ifloslanishga chidamliligini oshiradi [6]. Bugungi kunda ushbu turkum vakillari o‘zining yuqori o‘sish sur’ati va oqova suvlardagi biogen elementlarni utilizatsiya qilish qobiliyati tufayli sanoat biotexnologiyasida alohida o‘rin egallaydi [4]. *Scenedesmus sp.* biomassasining biokimyoviy tarkibi o‘stirish sharoitiga qarab sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin. Normal sharoitda oqsil (protein) miqdori quruq vaznga nisbatan 40–60% ni tashkil etsa, ozuqa muhitidagi azot tanqisligi yoki yuqori yorug‘lik kabi stress omillari ta’sirida hujayralar tarkibida lipidlar miqdori 30–50% gacha ko‘tarilishi aniqlangan [3]. Ayniqsa, agrosanoat chiqindi suvlaridagi nitritlar va mineral suvo‘t oqsili sintezini rag‘batlantiruvchi substrat bo‘lib xizmat qiladi [1, 8]. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida suvni qayta aylantirish texnologiyalarini joriy etish suv tanqisligini 40% gacha kamaytirish imkonini beradi. Korxonalar oqova suvlarini tozalash jarayonida nafaqat ekologik xavfsizlik ta’minlanadi, balki olingan biomassadan qishloq xo‘jaligi hayvonlari va baliqlar uchun yuqori oqsilli qo‘shimcha ozuqa sifatida foydalanish mumkin [2]. Kultivatsiya jarayonida pH ko‘rsatkichini boshqarish *Scenedesmus sp.* unumdorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fotosintez jarayonida CO_2 ning yutilishi natijasida muhit pH ko‘rsatkichi 9.0 dan yuqori bo‘lib ketishi mumkin, bu esa hujayra bo‘linishini sekinlashtiradi.

Xorij olimlari tomonidan olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, havo oqimi tarkibida 1–5% CO_2 barbotaji yordamida pH darajasini 7.5–8.0 oralig‘ida saqlash biomassaning DNK va protein miqdorini mos ravishda 15–20% ga oshiradi [11]. Sanoat miqyosida *Scenedesmus* yetishtirish asosan ochiq hovuzlarda (raceway ponds) yoki yopiq tubular

fotobioreaktorlarda amalga oshiriladi. Yopiq tizimlarda karotinoidlar va oqsil unumdorligi yuqori bo‘lsa-da, agrosanoat oqova suvlarini tozalashda iqtisodiy jihatdan ochiq tizimli integratsiyalashgan hovuzlar samaraliroq hisoblanadi [7, 10].

Tadqiqot material va metodlari

Scenedesmus avlodiga mansub yashil suvo‘tlar o‘zining yuqori oqsili, tez ko‘payishi va turli sharoitlarga chidamliligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot uchun na’muna Buxoro davlat universiteti tasarrufidagi laboratoriyadan olib kelib ko`paytirildi.

Ozuqa muhiti tayyorlash.

Suvo‘tni o‘stirish uchun “BG-11” ozuqa muhitidan (1-jadval) foydalanildi. [8, 1].

1-jadval

“BG-11” ozuqa muhiti.

Modda	Mol.massa (g/mol)	Konsentratsiya
Makroelementlar		
$NaNO_3$	84.99	1.5 g/l=0.0176 M
$K_2HPO_4*3H_2O$	228.22	0.04 g/l=0.000175 M
$MgSO_4*7H_2O$	246.47	0.075 g/l=0.0003 M
$CaCl_2*2H_2O$	147.01	0.036 g/l=0.00024 M
$C_6H_8O_7$ (limon kislota)	192.12	0.006 g/l=0.000031 M
Temir ammoniy sitrat	-262.0	0.006 g/l=0.000023 M
Na_2CO_3	105.99	0.02 g/l=0.00019 M
Mikroelementlar.		
H3BO3	61.83	2.86 mg/l
MnCl2*4H2O	197.91	1.81 mg/l
ZnSO4*7H2O	287.54	0.222 mg/l
Na2MoO4*2H2O	241.95	0.39 mg/l
CuSO4*5H2O	249.68	0.079 mg/l

Yuqorida ko‘rsatilgan tarkibdagi ozuqa muhitini stok eritma sifatida saqlanadi. Scenedesmus sp. suvo‘tini o‘stirishda ushbu ozuqa muhiti o‘zining samaradorligi va unda suvo‘tning o‘sishi uchun kerak bo‘ladigan keng qamrovli tarkibi bilan ushbu tajribada qo‘l keladi.



(a) (b) (c)

1-rasm. *Scenedesmus sp.*ning (a) dastlabki, (b) eksponensial, (c) statsionar bosqichlarida o‘sish konsentratsiyasi

Yuqorida ko‘rsatilgan ozuqa muhitidan foydalanib Scenedesmus sp. suvo‘tini o‘stirishda quyidagicha natijaga erishildi: boshlang’ich konsentratsiya: 0.10 – 0.15 g/L , 14-kunda 0.80 – 1.20 g/L, 21-kunda 2.0 – 2.5 g/L konsentratsiyaga ega bo‘lindi. 8 litrlik idishda jami 16–20 gramm quruq biomassa to‘plandi (1-rasm).

Scenedesmus sp. suvo‘tini o‘stirish jarayoni ilmiy va amaliy jihatdan bir necha ketma-ket bosqichlarga bo‘linadi. Dastlab laboratoriya sharoitida toza *Scenedesmus* shtammi tanlab olindi. Ozuqa muhiti tayyorlandi va begona mikroorganizmlar ko‘payib ketmasligi uchun autoklavda (121^0C haroratda) sterillandi. Tayyor sterillangan ozuqa muhitiga suvo‘ti hujayralari kiritildi. Bu jarayon odatda, to‘liq sterillik sharoitida amalga oshirildi. Boshlang‘ich konsentratsiya odatda 10^5 - 10^6 hujayra/ml atrofida bo‘ldi. Kultivatsiya jarayonida suvo‘tlar yorug‘lik va harorat nazorat qilinadigan sharoitga qo‘yildi. Bu bosqichda ikki xil o‘stirish usuli bor:

Laboratoriya usuli: Erlenmeyer kolbalarida, magnitli aralashtirgichlar yordamida kichik hajmlarda ko‘paytiriladi.

Sanoat usuli: Fotobioreaktorlar yoki ochiq hovuzlarga ko‘chiriladi. Bu yerda doimiy ravishda havo yoki CO_2 aralashmasi berib turiladi.

O‘sish davomida muhitning pH ko‘rsatkichi (7.5–8.5) va optik zichligi (OD_{680}) har kuni o‘lchab borildi. Agar pH juda ko‘tarilib ketsa, CO_2yuborish orqali muhit neytrallanadi. [8]. "BMB Agro Plus" korxonasidan olingan oqova suv dastlab yirik mexanik aralashmalardan filtrlash orqali tozalandi (2 rasm). Na’muna uchun olingan suv qayta filtrdan o‘tkazildi. So‘ngra tindirib laboratoriya tahlillari o’tkazish uchun tekshirish muassasiga yuborildi.



2-rasm. Korxonada to‘plangan chiqindili oqova suv va uni filtrlash jarayoni.

Natiajalar va ularning tahlili.

Scenedesmus sp. biomassasi oqova suvlardagi biogen elementlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘zining biokimyoviy tarkibini o‘zgartiradi. Olib borilgan tadqiqot tahlillari natijasida biomassadagi asosiy biofaol komponentlar aniqlandi (2-jadval). Ayniqsa, oqova suvdagi nitritlar va mineral tuzlar ta’sirida protein sintezining yuqori ko‘rsatkichi qayd etildi.

2-jadval

***Scenedesmus sp.* biomassasidagi asosiy biofaol komponentlar**

Biofaol komponent	Aniqlash usuli	Biologik ahamiyati
Protein (oqsil)	Kjeldal usuli	Biomassaning ozuqaviy qiymatini belgilaydi (42.5%)
Xlorofill a	Spektrofotometriya (665 nm)	Fotosintez samaradorligi va o‘sish koeffitsiyenti
Xlorofill b	Spektrofotometriya (650 nm)	Yorug‘lik energiyasini yutilish diapozonini kengaytiradi
Lipidlar	Soxlet usuli	Energiya manbai va hujayra membranalari tarkibi
Nuklein kislotalar (DNK)	Spektrofotometriya (260 nm)	Hujayra proliferatsiyasi va bo‘linish faolligi

Scenedesmus sp. mikrosuvo‘tini "BMB Agro Plus" korxonasi oqova suvlarida o‘stirishda dastlabki bosqichda pH ko‘rsatkichi va mineral qoldiqlar miqdori nazorat qilindi. 8 litrlik kultivatorda boshlang‘ich konsentratsiya 0.15 g/L dan 14-kunda 1.1 g/L gacha, 21-kunda esa maksimal 2.4 g/L gacha ortishi kuzatildi. Oqova suvdagi begona mikroflorani cheklash uchun CO_2 barbotaji yordamida pH 7.6–8.0 oralig‘ida barqarorlashtirildi. Bu esa *Scenedesmus* hujayralarining boshqa mikroorganizmlardan ustunligini ta’minlaydi. Oqova suvni laboratoriya tahlillarida quyidagi (3-jadval) natijaga erishildi.

3-jadval

Ko‘rsatkich	Dastlabki namuna	Tozalashdan keyin	Tozalash samaradorligi
Nitritlar (mcg/l)	53.6	8.04	85%
Ammiak (mg/l)	0.52	0.05	90%
Nitratlar (mg/l)	4.4	0.8	82%
Quruq qoldiq (mg/l)	1795	1430	20.3%
Loyqaligi	1.5	0.4	73.3%

Ko‘rsatkich	Dastlabki namuna	Tozalashdan keyin	Tozalash samaradorligi

Kultivatsiyaning dastlabki haftasida suvo‘ti hujayralari oqova suvning yuqori minerallashgan muhitiga (quruq qoldiq 1795 mg/l) moslashdi. Bu davrda biomassaning ortishi sekin kechib, 0.15 g/L dan 0.45 g/L gacha ko‘tarildi. Nitritlarning utilizatsiyasi esa 20,1% ni tashkil etdi. CO_2 barbotaji yordamida pH ko‘rsatkichi 7.4–7.8 oralig‘ida barqaror ushlab turildi, bu mikrosuvo‘tning stressga chidamliligini oshirdi. Ikkinchi haftadan boshlab mikrosuvo‘tlar logarifmik o‘sish fazasiga kirdi. Biomassa konsentratsiyasi 1.60 g/L ga yetdi. Bu bosqichda azotli birikmalarning maksimal darajada o‘zlashtirilishi kuzatildi: nitritlar miqdori 53.6 mcg/l dan 16.2 mcg/l gacha (69,7% samaradorlik) kamaydi. Suvning hidi to‘liq yo‘qolib, rangi to‘q yashil tusga kirdi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida hujayralar bo‘linishi barqarorlashib, biomassa 2.40 g/L ni tashkil etdi. 21-kunga kelib, nitritlarning utilizatsiya darajasi 85,0% ga (8.04, mcg/l), ammiak esa 90% ga yetdi. Suvning loyqaligi 73% ga kamaydi. Biomassaning biokimyoviy tahlili undagi protein miqdori 42.5% ga yetganini ko‘rsatdi, bu oqova suvdagi biogen elementlarning to‘liq oqsilli biomassaga aylanganidan dalolat beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori samaradorlik azot birikmalarida Ammiak (90%) va Nitritlar (85%) utilizatsiyasida qayd etildi.

Ushbu tadqiqot natijalari agrosanoat korxonalarida oqova suvlarni tozalashning yopiq siklli biotexnologik tizimini joriy etishga mustahkam ilmiy asos bo‘ladi. *Scenedesmus sp.* hujayralarining agrosanoat chiqindilaridagi erigan azotni o‘z biomassasidagi protein (42.5%) sintezi uchun asosiy substrat sifatida yuqori darajada o‘zlashtira olishidan dalolat beradi. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida agrosanoat korxonalari oqova suvlarni *Scenedesmus sp* mikrosuvo‘ti yordamida fitoremediatsiya qilishning biotexnologik imkoniyatlarini baholash maqsadida uning texnologik sxemasi ishlab chiqildi

Xulosa

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, "BMB Agro Plus" korxonasining meva-sabzavotlarni qayta ishlashdan hosil bo‘lgan oqova suvlari tarkibidagi biogen elementlar mikrosuvo‘tlar uchun samarali ozuqa manbai bo‘lib xizmat qiladi. 21 kunlik kultivatsiya jarayonida zaharli nitritlar miqdori 85% ga, ammiak esa 90% ga kamayishiga erishildi, bu esa oqova suvlarni biologik usulda tozalashning yuqori samaradorligini amalda isbotladi. Oqova suvdagi mineral tuzlar va azotli birikmalarning mikrosuvo‘t tomonidan o‘zlashtirilishi natijasida yuqori qiymatli biomassa olindi. Biomassada protein miqdori 42,5% ga yetganligi va hujayra proliferatsiyasining faolligi olingan mahsulotdan chorvachilik hamda baliqchilikda oqsilli ozuqa qo‘shimchasi sifatida foydalanish imkoniyatini yaratadi. Tajriba davomida suvning loyqaligi 73% ga kamayib, quruq qoldiq miqdori sezilarli darajada qisqardi. CO_2 barbotaji orqali pH ko‘rsatkichini barqarorlashtirish nafaqat tozalash jarayonini tezlashtirdi, balki issiqxona gazlarini utilizatsiya qilishning ekologik xavfsiz yechimi ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Araj-Shirvani, M., et al. (2024). Biochemical profile of microalgae isolates in agro-wastewater conditions. *Food Science & Nutrition, 12*(7), 4914–4926. https://doi.org/10.1002/fsn3.4145

2. Becker, E. W. (2007). Micro-algae as a source of protein. *Biotechnology Advances, 25*(2), 207–210. https://doi.org/10.1016/j.biotechadv.2006.11.002

3. Borowitzka, M. A. (2013). High-value products from microalgae—their development and commercialisation. *Journal of Applied Phycology, 25*(3), 743–756. https://doi.org/10.1007/s10811-013-9983-9

4. FAO. (2017). *The State of Food and Agriculture: Leveraging Food Systems for Rural Transformation*. FAO.

5. Hosseini Tafreshi, A., & Shariati, M. (2009). Dunaliella and Scenedesmus biotechnology: Methods and applications. *Journal of Applied Microbiology, 107*(1), 14–35. https://doi.org/10.1111/j.1365-2672.2009.04153.x

6. Lichtenthaler, H. K., & Wellburn, A. R. (1983). Determinations of carotenoids and chlorophylls. *Biochemical Society Transactions, 11*, 591–592. https://doi.org/10.1042/bst0110591

7. Molina Grima, E., Belarbi, E. H., Acién Fernández, F. G., Robles Medina, A., & Chisti, Y. (2003). Recovery of microalgal biomass and metabolites: Process options and economics. *Biotechnology Advances, 20*(7–8), 491–515. https://doi.org/10.1016/S0734-9750(02)00050-2

8. Richmond, A., & Hu, Q. (2013). *Handbook of Microalgal Culture: Applied Phycology and Biotechnology* (2nd ed.). Wiley-Blackwell.

9. Silva, M. R., Santos, L. O., & Costa, J. A. V. (2021). Microalgae-based wastewater treatment: Mechanisms at the cellular level and practical applications. *Journal of Environmental Management, 280*, 111125. https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2020.111125

10. Yao, S., et al. (2016). Salt stress-induced lipid accumulation in microalgae and the role of pH in metabolic regulation. *Journal of Applied Phycology, 28*, 2167–2175. https://doi.org/10.1007/s10811-015-0756-2

11. Zarandi-Miandoab, L., et al. (2019). Optimization of culture medium and environmental factors for Scenedesmus biomass and protein production. *Iranian Journal of Pharmaceutical Research, 18*(3), 1566–1

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Н.А Холмирзаева
М.Ш Бакиева
Р.М Юнусова
Наманганский Государственный Университет
E-mail: turdaliyevanazira1306@gmail.com

МЕХАНИЗМЫ ОБРАЗОВАНИЯ NO И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА СОСУДИСТУЮ СТЕНКУ

Аннотация: *В настоящее время большое внимание уделяется изучению роли оксида азота (NO), как универсального трансмиттера, в развитии различных патологических состояний. NO вызывает расслабление гладких мышц сосудов, участвует в защите от патогенов, является нейромедиатором, регулирует программируемую гибель и пролиферацию клеток, играет важную роль в секреторной и репродуктивной системе. В связи с этим целью настоящего обзора является попытка обобщить данные литературы для того, чтобы приблизиться к более глубокому пониманию возможностей использования NO в биологии и медицине. В статье рассматриваются биохимические механизмы синтеза оксида азота (NO), его регуляция и ключевая роль в поддержании сосудистого гомеостаза. Показано, что оксид азота является важным сигнальным медиатором, регулирующим сосудистый тонус, агрегацию тромбоцитов и воспалительные реакции. Особое внимание уделено участию эндотелиальной NO-синтазы (eNOS) и влиянию дефицита NO на развитие эндотелиальной дисфункции. Рассмотрены современные подходы к коррекции нарушений метаболизма NO и их клиническое значение.*

Ключевые слова: *Оксид азота, эндотелий, сосудистая стенка, eNOS, эндотелиальная дисфункция, сосудистый тонус.*

N.A. Kholmirzaeva
M.Sh. Bakieva
R.M. Yunusova
Namangan State University

MECHANISMS OF NO FORMATION AND ITS EFFECT ON THE VASCULAR WALL

Annotation*: Much attention is currently being paid to studying the role of nitric oxide (NO) as a universal transmitter in the development of various pathological conditions. NO causes relaxation of vascular smooth muscles, participates in protection against pathogens, is a neurotransmitter, regulates programmed cell death and proliferation, and plays an important role in the secretory and reproductive systems. In this regard, the purpose of this review is to attempt to summarize the literature data in order to get closer to a deeper understanding of the possibilities of using NO in biology and medicine. .The article discusses the biochemical mechanisms of nitric oxide (NO) synthesis, its regulation, and its key role in maintaining vascular homeostasis. It has been shown that nitric oxide is an important signaling mediator regulating vascular tone, platelet aggregation, and inflammatory reactions. Special attention is paid to the involvement of endothelial NO synthase (eNOS) and the effect of NO deficiency on the development of endothelial dysfunction. Modern approaches to the correction of NO metabolism disorders and their clinical significance are considered.*

Key words*: Nitric oxide, endothelium, vascular wall, eNOS, endothelial dysfunction, vascular tone.*

N.A. Xolmirzayeva
M.Sh. Bakiyeva
R.M. Yunusova
Namangan davlat universiteti

NO NING HOSIL BO‘LISH MEXANIZMLARI VA UNING QON TOMIR DEVORIGA TA’SIRI

Annotatsiya: *Hozirgi kunda azot oksidi (NO) ning universal transmitter sifatidagi roli turli patologik holatlarning rivojlanishida keng o‘rganilmoqda. NO qon tomirlarning silliq mushaklarini bo‘shashtiradi, patogenlardan himoyada ishtirok etadi, neyromediator vazifasini bajaradi, hujayralarning dasturlashtirilgan o‘limi va proliferatsiyasini tartibga soladi, sekretor hamda reproduktiv tizimlarda muhim rol o‘ynaydi. Shu munosabat bilan ushbu sharhning maqsadi adabiyot ma’lumotlarini umumlashtirish*

orqali NO dan biologiya va tibbiyotda foydalanish imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yaqinlashishdir. Maqolada azot oksidining (NO) biokimyoviy sintez mexanizmlari, uning regulyatsiyasi hamda qon tomir gomeostazini saqlashdagi muhim roli ko'rib chiqilgan. Azot oksidi qon tomir tonusini, trombotsitlar agregatsiyasini va yallig'lanish reaksiyalarini tartibga soluvchi muhim signal mediator ekanligi ko'rsatib berilgan. Endotelial NO-sintaza (eNOS) ishtiroki hamda NO yetishmovchiligining endotelial disfunktsiya rivojlanishiga ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. NO metabolizmidagi buzilishlarni tuzatishning zamonaviy yondashuvlari va ularning klinik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Azot oksidi, endoteliy, qon tomir devori, eNOS, endotelial disfunktsiya, tomir tonusi.*

Введение. В ходе наших исследований мы изучили что, оксид азота (NO) является универсальной сигнальной молекулой, обеспечивающей регуляцию сосудистого тонуса, гемостаза и иммунных реакций. Открытие его роли как эндотелий-зависимого релаксирующего фактора (EDRF) стало значительным достижением в физиологии сосудов. NO участвует в обеспечении нормального кровотока, препятствует тромбообразованию и развитию атеросклеротических изменений.

1. Биохимические механизмы образования оксида азота


NO синтезируется из аминокислоты L-аргинина с образованием L-цитруллина под действием фермента NO-синтазы (NOS). В организме человека выделяют три изоформы NOS:

eNOS (эндотелиальная NO-синтаза) — регулирует сосудистый тонус;

nNOS (нейрональная) — участвует в передаче нервных импульсов;

iNOS (индуцибельная) — активируется при воспалении и обеспечивает антимикробную защиту.

Реакция синтеза NO требует кофакторов: NADPH, FAD, FMN, тетрагидробиоптерина (BH4) и Ca^{2+}/кальмодулина



1 рис. Оксида азота NO как сигнальное вещество

2. Регуляция активности эндотелиальной NO-синтазы

Активность eNOS регулируется множеством факторов:


Кальций-зависимый путь: повышение внутриклеточного Ca^{2+} активирует кальмодулин, усиливая синтез NO.

Фосфорилирование eNOS: активация сигнального пути PI3K/Akt повышает активность фермента.

Механическое воздействие кровотока: сдвиговое напряжение (shear stress) стимулирует выработку NO эндотелием, что является одним из ключевых факторов поддержания сосудистой адаптации.

3. Влияние NO на сосудистую стенку

Основной эффект NO заключается в вазодилатации — расслаблении гладкомышечных клеток сосудов. Молекула NO активирует растворимую гуанилатциклазу (sGC), что приводит к накоплению циклического гуанозинмонофосфата (цГМФ). Последующий каскад реакций вызывает снижение уровня внутриклеточного кальция и расслабление сосудистой стенки.



2 рис. Влияние NO на сосудистую стенку

Дополнительные эффекты NO включают:

Антитромботическое действие — подавление агрегации тромбоцитов;

Противовоспалительное действие — снижение экспрессии молекул адгезии и уменьшение миграции лейкоцитов;

Антипролиферативное действие — торможение избыточного роста гладкомышечных клеток сосудов.

4. Нарушение синтеза NO и сосудистая патология

Снижение продукции NO приводит к эндотелиальной дисфункции — первичному звену в развитии артериальной гипертензии, атеросклероза и ишемической болезни сердца. Основные причины дефицита NO:

Оксидативный стресс, при котором активные формы кислорода разрушают NO, образуя пероксинитрит ($ONOO^-$);

Недостаток кофактора BH4, приводящий к «разобщению» eNOS;

Инсулинорезистентность и хроническое воспаление, нарушающие внутриклеточные сигнальные пути.

5. Терапевтические подходы к коррекции дефицита NO

Современные методы повышения биодоступности NO включают:

использование L-аргинина и L-цитруллина как субстратов для NOS;

применение антиоксидантов (витаминов C и E, полифенолов);

физические нагрузки, стимулирующие эндотелиальную активность;

ингибиторы фосфодиэстеразы-5 (например, силденафил), продлевающие действие цГМФ и усиливающие вазодилатацию.

Анализ литературы и обсуждение

Многочисленные исследования указывают, что синтез оксида азота (NO) играет ключевую роль в регуляции сосудистого тонуса и поддержании нормальной функции эндотелия. По данным Moncada и соавт. (1993), основным источником NO в сосудистой стенке является эндотелиальная NO-синтаза (eNOS), активность которой зависит от наличия кофакторов, таких как тетрагидробиоптерин (BH_4), и аминокислоты L-аргинина.

Исследования Förstermann и Sessa (2012) показывают, что NO обеспечивает вазодилатацию за счёт активации гуанилатциклазы и повышения уровня циклического гуанозинмонофосфата (цГМФ), что приводит к расслаблению гладкомышечных клеток сосудов. Нарушение синтеза NO или его биодоступности приводит к эндотелиальной дисфункции, являющейся ранним этапом развития атеросклероза и гипертонии. Современные публикации (Pacher et al., 2007; Gkaliagkousi & Douma, 2009) подтверждают, что избыток активных форм кислорода вызывает «разобщение» eNOS, что приводит к образованию супероксид-аниона вместо NO. Это состояние снижает антиоксидантный потенциал сосудистой стенки и способствует воспалительным реакциям.

Методологическая основа исследования

Настоящая работа основана на анализе и обобщении научной литературы, опубликованной в ведущих международных базах данных (PubMed, Scopus, Google Scholar) за период 1993–2024 гг. При анализе учитывались результаты экспериментальных и клинических исследований, посвящённых механизмам образования NO, регуляции активности eNOS, а также влиянию оксида азота на сосудистую стенку и эндотелиальную


функцию.Сравнительный анализ источников позволил выявить общие закономерности, тенденции и противоречия в современных представлениях о роли NO в физиологии сосудов.

Результаты анализа и обсуждение

Обобщение литературных данных показало, что:

Эндотелиальная NO-синтаза (eNOS) является основным ферментом, отвечающим за физиологический синтез NO в сосудистой стенке. Активность eNOS регулируется множеством факторов — от уровня L-аргинина и BH_4 до влияния гормонов, сдвигов в окислительно-восстановительном балансе и механического сдвига кровотока. Дефицит NO приводит к снижению сосудистой эластичности, повышению агрегации тромбоцитов и развитию эндотелиальной дисфункции.

Избыточное образование реактивных форм кислорода (ROS) приводит к инактивации NO и формированию пероксинитрита ($ONOO^-$), что вызывает окислительный стресс и повреждение сосудистой стенки. Восстановление нормального уровня NO рассматривается как перспективное направление терапии сердечно-сосудистых заболеваний, включая гипертонию, ишемическую болезнь сердца и диабетическую ангиопатию.



3 рис. Образование и механизм действие NO.

Заключение

На основании анализа литературы можно сделать вывод, что оксид азота играет фундаментальную роль в регуляции сосудистого тонуса и защите эндотелия от повреждений. Нарушение его синтеза или инактивация под действием окислительных стресс-факторов приводит к развитию сосудистых патологий. Дальнейшие исследования должны быть направлены на уточнение механизмов регуляции eNOS, поиск новых антиоксидантных и донорных соединений, способных поддерживать физиологический уровень NO в сосудистой системе.

Список использованной литературы:

1. Bakiyeva M. Sh., Rustamova Sh. R., Rakhmonov T. O., Sharipova N. N., Mukhitdinova Kh. S. Benzoylgeteratisin alkaloidining kalamush aortasidagi silliq mushak hujayralarining funksional faolligiga gipotenziya ta'siri. Academic Research Journal, 2022, 1(2): 24–30. https://doi.org/10.5281/zenodo.6653236
2. Bakiyeva M. Sh., Zaynobiddinov A. D., Usmanov P. B., Esimbetov A. T. Geteratisin va 6-O-benzoylgeteratisinning aorta silliq mushak hujayralari funksional faolligiga vazorelaksant ta'siri. International Journal of Current Microbiology and Applied Sciences, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi – Toshkent, 2007. — 16 b
3. Дефицит кофактора BH4 и «разобщение» eNOS: механизмы, последствия для сосудистой функции // Cardiovascular Research. – 2005. – Vol. 65, No. 4. – P. 768–776.
4. Tetrahydrobiopterin in cardiovascular health and disease // Free access review. – 2014.

5. Endothelial dysfunction due to eNOS uncoupling – возможные механизмы и терапевтические цели // Frontiers in Physiology. – 2023. – Article 1165432.

6. Roles of vascular oxidative stress and nitric oxide in the pathogenesis of cardiovascular disease // Circulation Research. – 2017.

7. Regulation of nitric oxide generation and consumption // Review. – 2001.

8. Nitric oxide and related aspects underlying angina // Open Cardiovascular Medicine Journal. – 2017.

9. Modulation of nitric oxide synthases by oxidized LDLs // International Journal of Molecular Sciences. – 2019.

10. New therapeutic implications of endothelial nitric oxide synthase uncoupling // International Journal of Molecular Sciences. – 2019.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Nugmanova Komila Isroiljon qizi
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti
komilanugmanova@gmail.com
Axmadaliyev Boburbek Jaxongir o'g'li
O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti katta ilmiy xodimi b.f.f.d., (PhD),
ahmadaliyev_bobur@mail.ru

UO'K 578.42: 578.74: 578.85: 578.865

TOMATO BROWN RUGOSE FRUIT VIRUS MONITORINGI VA BIOLOGIYASI

Annotatsiya: *So'nggi yillarda o'simlik viruslarining paydo bo'lishi va keng tarqalishi global oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Xususan, Tomato brown rugose fruit virus (ToBRFV) pomidor yetishtirish tizimlarida yuqori yuqumli va iqtisodiy zarar keltiruvchi fitopatogen sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur tadqiqot O'zbekiston sharoitida ToBRFV ning tarqalishi, biologik xususiyatlari hamda indikator o'simliklarda namoyon bo'ladigan kasallik alomatlarini o'rganishga qaratilgan. Olingan natijalar ToBRFV ning yuqori darajada barqaror, mexanik yo'l bilan oson yuqadigan hamda mavjud genetik chidamlilik manbalarini yenga olish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot ToBRFV ga qarshi samarali nazorat choralarini ishlab chiqish, bioxavfsizlik tizimini kuchaytirish va virusga chidamli pomidor navlarini yaratish zarurligini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *Tomato brown rugose fruit virus, ToBRFV, pomidor, indikator o'simliklar, virusli kasalliklar, monitoring, bioxavfsizlik.*

Нугманова Комила Исроилжон кизи
докторант (PhD) Самаркандского института агроинноваций и исследований
Ахмадалиев Бобурбек Жахонгир ўғли
Старший научный сотрудник Института генетики и экспериментальной биологии растений АН Узбекистан, кандидат биологических наук (PhD)

ВИРУС КОРИЧНЕВОЙ МОРЩИНИСТОСТИ ПЛОДОВ ТОМАТА: МОНИТОРИНГ И БИОЛОГИЯ

Аннотация: *В последние годы появление и широкое распространение растительных вирусов представляет серьёзную угрозу глобальной продовольственной безопасности. В частности, вирус коричневой морщинистости плодов томата (Tomato brown rugose fruit virus, ToBRFV) признан высококонтагиозным и экономически опасным фитопатогеном в системах выращивания томата. Настоящее исследование направлено на изучение распространения ToBRFV в условиях Узбекистана, его биологических особенностей, а также симптомов заболевания, проявляющихся на индикаторных растениях. Полученные результаты показали, что ToBRFV обладает высокой устойчивостью, легко передаётся механическим путём и способен преодолевать существующие источники генетической устойчивости. Проведённое исследование обосновывает необходимость разработки эффективных мер контроля ToBRFV, усиления системы биобезопасности и создания устойчивых к вирусу сортов томата.*

Ключевые слова: *Вирус коричневой морщинистости плодов томата (ToBRFV), томат, индикаторные растения, вирусные заболевания, мониторинг, биобезопасность.*

Nugmanova Komila Isroiljon qizi
PhD student Samarkand Institute of Agro-Innovations and Research
Akhmadaliev Boburbek Jakhongir ugli
Senior Researcher at the Institute of Genetics and Experimental Plant Biology
Uzbekistan Academy of Sciences, PhD in Biology

MONITORING AND BIOLOGY OF TOMATO BROWN RUGOSE FRUIT

Abstract: *In recent years, the emergence and widespread distribution of plant viruses have posed a serious threat to global food security. In particular, Tomato brown rugose fruit virus (ToBRFV) has been recognized as a highly contagious and economically*

damaging phytopathogen in tomato production systems. This study aimed to investigate the spread of ToBRFV in Uzbekistan, its biological characteristics, and the disease symptoms manifested on indicator plants. The results showed that ToBRFV is highly stable, easily transmitted mechanically, and capable of overcoming existing sources of genetic resistance. The findings highlight the need to develop effective ToBRFV control measures, strengthen biosecurity systems, and create tomato cultivars resistant to this virus.

Key words: *Tomato brown rugose fruit virus (ToBRFV), tomato, indicator plants, viral diseases, monitoring, biosecurity.*

Kirish. So‘nggi davrlarda o‘simliklar orasida paydo bo‘layotgan yangi viruslar butun dunyo bo‘ylab oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu viruslarning tarqalishi asosiy oziq-ovqat ekinlarining hosildorligi va mahsulot sifati pasayishiga olib kelib, global miqyosda oziq-ovqat ta’minotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Pomidor (*Solanum lycopersicum*) dunyo miqyosida, shuningdek Markaziy Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda ham muhim agroiqtisodiy ahamiyatga ega sabzavot ekini hisoblanadi. Pomidor, bulg‘or qalampiri, achchiq qalampir, baqlajon va kartoshka kabi ekinlar *Solanaceae* oilasiga mansub bo‘lib, ushbu oila vakillari virusli kasalliklarga yuqori darajada moyilligi bilan ajralib turadi.

2025-yilda Sabzavot poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy taqdiqot institutining kolleksiyasida o‘tkazilgan monitoring natijasida kuzatuv olib borilgan pomidor navlarida viruslarga xos kasallik alomatlari mavjudligi aniqlandi. Bu holat patogen viruslarni nazorat qilishda issiqxonalarda bioxavfsizlik choralarining muhimligini zarur ekanligini anglatadi.

Adabiyotlar tahlili.

Tomato brown rugose fruit virus (ToBRFV) 2014-yilda birinchi marta Isroil va Iordaniyada aniqlanganidan buyon butun dunyo bo‘ylab pomidor yetishtirish uchun jiddiy xavf bo‘lib kelmoqda [5]. *Virgaviridae* oilasi *Tobamovirus* avlodiga mansub ToBRFV uzoq yillar davomida samarali bo‘lib kelgan viruslarga chidamli pomidor navlarini kasallantirganligi hamda mexanik va urug‘ orqali oson yuqishi sababli butun dunyo bo‘ylab tez sur’atlarda tarqalmoqda. So‘nggi yillarda ToBRFV global miqyosda - Amerika, Osiyo, Afrika va Yevropa qit’alaridagi ko‘plab mamlakatlarda aniqlanib, sezilarli hosil yo‘qotishlariga sabab bo‘lmoqda [6, 7]. ToBRFV ning muhitga nisbatan chidamliligi yuqori bo‘lib, u tuproqda, ishchilar kiyimlarida, qishloq xo‘jaligi asbob-uskunalari, hatto issiqxona devor va konstruktsiyalarida ham uzoq muddat saqlanib qoladi [4]. ToBRFV ning biror hududda tarqalgach, uni butunlay yo‘q qilish deyarli imkonsiz bo‘lib qoladi, bu esa virusga qarshi kurashishda oldini olish choralarini birlamchi strategiya sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Virusning yuqori yuqumli xususiyati, shuningdek, urug‘ orqali ham oson tarqalishi xalqaro miqyosda fitosanitar choralarni kuchaytirish va virusdan himoyalashning muqobil strategiyalarini ishlab chiqishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

O‘zbekistonda ToBRFV ning tarqalish darajasi va genomik xilma-xilligi haqida ma’lumotlar kam bo‘lishiga qaramay, ushbu virus mamlakat bo‘ylab pomidor yetishtirishiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda pomidor 60 ming gektar maydonda yetishtirilib yillik ishlab chiqarish hajmi taxminan 2,2 million tonnani tashkil etadi [3]. ToBRFV virusi O‘zbekiston hududida pomidor va bulg‘or qalampirida aniqlangan [1, 2], biroq hozirgi kunga qadar aniqlangan birorta ham ToBRFV izolatining biologik xususiyatlari tavsiflanmagan. Bu esa virusning tarqalishi, patogenligini to‘liq anglash hamda samarali nazorat strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini cheklamoqda. ToBRFV ning mamlakatimizda tarqalgan izolyatlarining biologik va molekulyar-genetik xususiyatlari, shuningdek, ushbu virusga chidamli va barqaror pomidor navlari aniqlanmaguncha ToBRFV pomidor yetishtirish uchun asosiy xavf omili bo‘lib qolaveradi.

Material va ish uslublari.

Namunalardan virusli shira tayyorlash va mexanik inokulatsiya qilish. Virusli namunadan virusli shira ajratish uchun virus bilan kasallangan o‘simlik bargidan namuna olindi va chinni havonchada bufer qo‘shilib (1:1) ezib maydalandi. Ko‘p miqdordagi namunani maydalash uchun gomogenizatordan foydalanildi. Gomogenizatordan olingandan keyin o‘simlik qoldiqlaridan tozalash uchun to‘rt qavatli dokadan o‘tkazildi. O‘simlik qoldiqlaridan tozalangan virusli shira olingan 1 minutda 6000-8000 aylanish tezligida sentrofuga qilindi. Tayyor bo‘lgan virusli shirani o‘simliklarga yuqtirish uchun barg satxi korund bilan changlatilib 2-3 tomchi shira sog‘lom indikator o‘simliklarning bargiga tomizildi va steril tibbiyot qo‘lqopi bilan yordamida oxistalik bilan surtildi. O‘simlikni 1-2 kun salqin joyda saqlandi va kuzatib borildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Fitopatogen viruslarning biologik xususiyatlarini o‘rganishda muhim mezonlardan biri - bu viruslarning indikator o‘simliklarda qanday kasallik alomatlarini yuzaga keltirishi va bu belgilar orqali virusning tabiatini aniqlashdir. Indikator o‘simliklar, odatda, viruslarga yuqori sezuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, ular bilan infeksiyalanganda aniq, o‘ziga xos va barqaror simptomlar bilan javob qaytaradi. Ushbu o‘simliklar har xil virus shtammlariga sezgir bo‘lib, simptomlarning shakli, tarqalishi va og‘irligiga qarab ularni bir-biridan ajratishga imkon beradi. Shu sababli, indikator o‘simliklar yordamida virusning tashxisini aniqlash, ularning differensial diagnostikasi, biologik tasnifi va patogenligini baholash


mumkin. Fitovirusologik tadqiqotlarda indikator o‘simliklar usuli virusli kasalliklarni aniqlashning universal, oddiy va ishonchli yo‘li sifatida keng qo‘llanilib, ayniqsa madaniy o‘simliklarga zarar yetkazuvchi viruslar ustida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, indikator o‘simliklar viruslarning tarqalish yo‘llarini aniqlash, ularning rezervuarlarini o‘rganish va profilaktik choralarni ishlab chiqishda ham muhim rol o‘ynaydi.

2025-yil avgust oyida Sabzavot poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy taqdiqot institutida mavjud bo‘lgan kolleksiyasidagi pomidorning “Marvarid” va “Universal” navlari, “AVTO2033”, “AVTO2130”, “AVTO1725”, “AVTO1916” va “AVTO2011”, achchiq qalampirning “Sharq gavxari” va “Marg’ilon” navlari, “AVPP1339”, “AVPP1344”, “AVPP1107” namunalari hamda shirin qalampirning “Zumrad”, “Dar Tashkenta”, “AVPP2021”, “AVPP1516”, “AVPP2021” navlari monitoring qilindi va namunalar yig‘ildi (1-rasm).



1-rasm. Namunalar yig‘ilgan o‘simliklarda viruslarga xos kasallik alomatlari

ToBRFV indikator o‘simliklarda keltirib chiqaradigan kasallik alomatlarini aniqlash maqsadida, u maxsus izolyatsiya qilingan virus namunasi yordamida bir qator indikator o‘simliklarni laboratoriya sharoitida mexanik usulda kasallantirildi va kasallik belgilarining paydo bo‘lishini kuzatildi. ToBRFV esa indikator o‘simliklarda, xususan *Nicotiana tabacum* va *Nicotiana glutinosa* turlarida, kattaligi 2-3 mm keladigan nekroz alomatlari inokulatsiyadan 48 soat o‘tib paydo bo‘lganligi kuzatildi (2-rasm). *Capsicum annuum* va *Lycopersicum esculentum* (pomidor) kabi o‘simliklarda esa barglarda mozaika, xloroz va deformatsiya, shuningdek mevalarda burishish hamda jigarrang dog‘lar kuzatildi (3-rasm).



2-rasm. ToBRFV ga xos kasallik belgisiga ega namuna inokulatsiya qilingan *N.glutinosa* bargidagi nekrozlar; chapda-tajriba; o‘ngda nazorat



3-rasm. ToBRFV ga xos kasallik belgisiga ega namuna inokulatsiya qilingan *C.annuum* o‘simligi

Tomato brown rugose fruit virus (ToBRFV) yuqori darajada barqaror, tez tarqalish xususiyatiga ega hamda iqtisodiy jihatdan katta zarar keltiradi. Ushbu virus pomidor yetishtirish tizimlariga jiddiy tahdid solib, issiqxona va ochiq maydon sharoitlarida hosildorlik va mahsulot sifatining keskin pasayishiga olib kelmoqda. ToBRFV ning mexanik yo‘l bilan oson yuqishi tajribalar davomida isbotlandi. Shuningdek yig‘ilgan barcha pomidor, bulg‘or va achchiq qalampir o‘simliklaridan tayyorlangan yuqumli shira yuqtirilgan indikatorlarda kasallik belgilarining kuzatilganligi mavjud genetik chidamlilik manbalarini yenga olish qobiliyatini namoyon qilishini isbotlaydi bu esa turli agrosenozda virusni nazorat qilishni murakkablashtiradi.

Xulosa. Virusga qarshi samarali kurashishda integratsiyalashgan himoya strategiyalarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv ToBRFV ga chidamli yangi nav va gibridlarni seleksiya qilish va yangi navlarini yaratishni o‘z ichiga oladi. Pomidor ekilgan maydonlarda muntazam monitoring ishlarini olib borib ToBRFV ning erta va oson aniqlanishda test o‘simliklar usuli muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akhmadaliev, B., Abduvaliev, B., Adilov, B., Sherimbetov, A., Abdikarimov, B., & Ruzmetov, D. (2025). First Report of Tomato Brown Rugose Fruit Virus Infecting Sweet Pepper (*Capsicum annuum*) in Open Fields in Uzbekistan. Plant Disease, 109(9).

2. Bakhtiyorova, M., Norov, T., Khodjaeva, S., Botirova, N., Cillo, F., & Abou Kubaa, R. (2024). First report of tomato brown rugose fruit virus on tomato (*Solanum lycopersicum* L.) in Uzbekistan. Journal of Plant Pathology, 106(2), 779-779.

3. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Available online: http://www.fao.org/faostat/en/#home (2023).

4. Levitzky N, Smith E, Lachman O, Luria N, Mizrahi Y, Bakelman H, Sela N, Laskar O, Milrot E, Dombrovsky A (2019) The bumblebee Bombus terrestris carries a primary inoculum of Tomato brown rugose fruit virus contributing to disease spread in tomatoes. PLoS ONE 14:e0210871

5. Salem N, Mansour A, Ciuffo M, Falk BW, Turina M (2016) A new tobamovirus infecting tomato crops in Jordan. Adv Virol 161:503–5064.

6. Vucurovic A, Brodaric J, Jakomin T, Pecman A, Benko Beloglavec A, Mehle N (2022) First report of tomato brown rugose fruit virus in tomato in Slovenia. New Dis Rep 45:e12079

7. Zhi-yong Y, Mei-sheng Z, Hua-yu M, Ling-zhi L, Guang-ling Y, Chao G, Yanping T, Xiang-dong L (2021) Biological and molecular characterization of tomato brown rugose fruit virus and development of quadruplex RT–PCR detection. J Integr Agric 20:1871–1879

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

R.M. Yunusova
M.Sh. Bakiyeva
N.A.Xolmirzayeva
Namangan davlat universiteti
Email: rayhonayunusova366@gmail.com

ALKALOIDLAR SILLIQ MUSHAKLARNING QISQARUVCHANLIK FAOLIYATINI MODULYATORLARI SIFATIDA: TA'SIR MEXANIZMLARI VA KARDIOVASKULYAR TERAPIYADA QO'LLASH ISTIQBOLLARI.

Annotatsiya: *Maqolada alkaloidlarning silliq mushaklarning qisqaruvchanlik faoliyatini modulyatsiya qiluvchi omil sifatidagi roli, ularning ta'sir mexanizmlari hamda kardiovaskulyar terapiyada qo'llash istiqbollari yoritilgan. Alkaloidlar farmakologik jihatdan keng ko'lamli xususiyatlarga ega bo'lib, ular orasida vazorelaksant va spazmolitik ta'sirlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu moddalarning molekulyar va hujayraviy darajadagi ta'sir mexanizmlarini chuqur o'rganish yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olish va davolashda yangi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.*

Kalit so'zlar: *silliq mushaklar, qisqaruvchanlik faoliyati, kardiovaskulyar terapiya, vazorelaksatsiya, spazmolitik ta'siri.*

Р.М. Юнусова
М.Ш. Бакиева
Н.А. Холмирзаева
Наманганский государственный университет

АЛКАЛОИДЫ КАК МОДУЛЯТОРЫ СОКРАТИТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ГЛАДКОЙ МУСКУЛАТУРЫ: МЕХАНИЗМЫ ДЕЙСТВИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ В КАРДИОВАСКУЛЯРНОЙ ТЕРАПИИ

Аннотация: *В статье освещаются роль алкалоидов как факторов, модулирующих сократительную активность гладкой мускулатуры, их механизмы действия, а также перспективы применения в кардиоваскулярной терапии. Алкалоиды обладают широким спектром фармакологических свойств, среди которых особое значение имеют их вазорелаксантное и спазмолитическое действие. Глубокое изучение молекулярных и клеточных механизмов действия этих соединений открывает важные возможности для разработки новых инновационных подходов к профилактике и лечению сердечно-сосудистых заболеваний.*

Ключевые слова: *гладкие мышцы, сократительная активность, кардиоваскулярная терапия, вазорелаксация, спазмолитическое действие.*

R.M. Yunusova
M.Sh. Bakiyeva
N.A.Kholmirzayeva
Namangan State University

ALKALOIDS AS MODULATORS OF SMOOTH MUSCLE CONTRACTILE ACTIVITY: MECHANISMS OF ACTION AND PROSPECTS FOR USE IN CARDIOVASCULAR THERAPY

Annotation: *The article discusses the role of alkaloids as factors that modulate the contractile activity of smooth muscles, their mechanisms of action, and the prospects for their use in cardiovascular therapy. Alkaloids possess a wide range of pharmacological properties, among which their vasorelaxant and spasmolytic effects are of particular importance. A thorough investigation of the molecular and cellular mechanisms of action of these compounds creates significant opportunities for developing new innovative approaches to the prevention and treatment of cardiovascular diseases.*

Key words: *smooth muscles, contractile activity, cardiovascular therapy, vasorelaxation, spasmolytic effect.*

Kirish. Qon tomirlari, xususan yurak-qon tomir tizimining ishlashi va qon bosimini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Aortaning silliq mushaklari tonusining oshishi yoki kamayishi qon oqimi va tomir qarshiligiga ta'sir

qiladi. Shu sababli, tomir mushaklarining tonusini o‘zgartiruvchi moddalarni o‘rganish, ularning qanday ishlashini aniqlash zamonaviy tibbiyot va farmakologiya sohasida muhim hisoblanadi. So‘nggi yillarda tabiiy moddalar, xususan o‘simlik alkaloidlari, aorta mushaklarining bo‘shashuvi va qisqarishiga ta’siri jihatidan keng tadqiq qilinmoqda. O‘zbekiston olimlari bu sohada qator ilmiy ishlarni amalga oshirgan. Masalan, Yulduzkhon T. Mirzaeva va Abdisalim A. Zaripov “F-19” izokinolin alkaloidining sichqon aorta mushaklariga ta’sirini o‘rganib, alkaloidning kalsiy kanallarini bloklashi orqali mushak tolalarining bo‘shashishini ta’minlashini aniqlashgan. Shuningdek, 1-O-Benzoylkarakoline alkaloidi Na^+/Ca^{2+} almashuvchisini boshqarib, aorta mushaklarining qisqarishini kamaytiradi va tomir bo‘shashuvini rag‘batlantiradi. “Ajuga turkestánica” o‘simlik ekstrakti esa mushak qisqarishini pasaytiradi va endotelga bog‘liq mexanizmlar orqali bo‘shashuvni oshiradi. O‘zbek olimlari alkaloid kimyosi bo‘yicha ham katta ishlarni amalga oshirgan. Sobir Yunusov rahbarligida 300 dan ortiq o‘simlik turidan 1300 dan ortiq alkaloid ajratilgan, shundan 650 dan ortig‘i yangi moddalar sifatida tasniflangan.

Mazkur tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, alkaloidlarning aorta mushaklarida bo‘shashuv hosil qilishdagi ta’siri asosan kalsiy kanallari va Na^+/Ca^{2+} almashuvchisi orqali amalga oshadi. Bu natijalar kelajakda tomir bo‘shashuvini rag‘batlantiruvchi va yurak-qon tomir kasalliklarini oldini oluvchi preparatlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) hozirgi kunga qadar dunyo aholisining o‘limi va nogironlikka olib keluvchi asosiy sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Har yili taxminan 18 million kishi ushbu kasalliklardan vafot etadi, bu esa global o‘lim holatlarining 32 foizini tashkil etadi. Ulardan 85 foizi yurak infarkti va insult bilan bog‘liq. YQTK rivojlanishining asosiy xavf omillari qatoriga arterial gipertenziya, ateroskleroz, metabolik buzilishlar, yallig‘lanish jarayonlari va qon tomirlarining funksional buzilishi, jumladan, silliq mushak hujayralarining (SMH) qisqaruvchanlik faoliyatidagi buzilishlar kiradi.Ushbu kasalliklarning keng tarqalganligi va ijtimoiy ahamiyati tufayli samarali va xavfsiz terapevtik vositalarni izlash dolzarb vazifa hisoblanadi [1]. Zamonaviy farmakologiyada istiqbolli yo‘nalishlardan biri bu — yurakni himoyalovchi (kardioprotektiv) va qon tomir faoliyatiga ta’sir etuvchi (vazoaktiv) xususiyatlarga ega bo‘lgan tabiiy biologik faol birikmalarni o‘rganishdir.Bu nuqtai nazardan, alkaloidlar alohida qiziqish uyg‘otadi — ular o‘simliklardan olingan geterotsiklik tuzilishga ega bo‘lib, keng ko‘lamli farmakologik ta’sirga ega: gipotenziya (qon bosimini tushiruvchi), antiaritmik, vazodilatator (qon tomir kengaytiruvchi), antioksidant va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlar [2].Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — ayrim alkaloid guruhlarining ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish va ularning yurak-qon tomir tizimi dorivor terapiyasida qo‘llanish salohiyatini baholashdan iborat. Ayniqsa, vazodilatator xususiyatlarga ega alkaloidlar va ular asosida yangi terapevtik vositalarni ishlab chiqish istiqbollari alohida ko‘rib chiqiladi.

Alkaloidlar qon tomir silliq mushaklari va miokardning fiziologik faolligini modulyatsiya qilish qobiliyatiga ega. Ular ion kanallari, retseptor komplekslari (masalan, adrenoreseptorlar, muskarin retseptorlari va boshqalar), hamda turli signal yo‘llari (masalan, NO/cGMP, PI3K/Akt, MAPK) orqali ta’sir ko‘rsatadi.Ayrim alkaloidlar, jumladan rezepin, tetrandrin, vinpotsetin va berberin, hozirda yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda qo‘llanilmoqda yoki klinik sinov bosqichida turibdi. Shunga qaramay, ko‘plab alkaloidlarning salohiyati, ayniqsa qon tomir devoridagi silliq mushak hujayralariga ko‘rsatadigan ta’siri nuqtai nazaridan, hanuz yetarlicha o‘rganilmagan [4].

Alkaloidlarning tabiiy manbalari va biologik roli

Alkaloidlar turli tirik organizmlar tomonidan sintez qilinadi. Eng ko‘p tarqalgan manba — yuqori darajadagi (oliy) o‘simliklar bo‘lib, mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu o‘simliklar turlarining 10 dan 25 foizigacha alkaloidlar saqlaydi [3].O‘simliklar o‘z hayot faoliyati davomida turli xil ikkilamchi metabolitlarni (IM) ishlab chiqaradi. Bu moddalar, bir tomondan, o‘simlikni o‘tlovchi hayvonlar, raqobatchi o‘simliklar va mikroorganizmlardan himoya qilishga xizmat qilsa, boshqa tomondan — signal birikmalar sifatida biologik aloqa va reaksiyalarni boshqarishda ishtirok etadi.Ba’zi ikkilamchi metabolitlar (masalan, alkaloidlar) aniq molekulyar nishonlarga, xususan, neyrotransmitter retseptorlariga yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatishga optimallashtirilgan. Boshqa birikmalar — masalan, fenolik birikmalar yoki terpenoidlar — kamroq spetsifik ta’sirga ega bo‘lib, ular ko‘plab oqsillar bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi. Bunda ular vodorod, gidrofob va ionik bog‘lanishlar hosil qilib, oqsillarning uch o‘lchamli tuzilmasini modulyatsiyalaydi va natijada ularning biofaolligini o‘zgartiradi.

Ko‘pgina o‘simlik ikkilamchi metabolitlarining asosiy guruhi uchun ta’sir mexanizmlari aniq tavsiflangan. Shuningdek, bu metabolitlarning ko‘p yo‘nalishli ta’siri ularning dorivor o‘simlik ekstraktlari tarkibida kompleks terapevtik faoliyat ko‘rsatishini tushuntirib beradi. Aynan shu jihat — ya’ni bir vaqtning o‘zida bir nechta biologik nishonga ta’sir ko‘rsatish — ularni ko‘p kasallik holatlari uchun samarali qilish imkonini beradi [4].

Alkaloidlarning tuzilishi, asosiy xossalari va biosintetik kelib chiqishi

Bugungi kunga qadar 27 000 dan ortiq turli alkaloid tuzilmalari aniqlangan bo‘lib, ulardan 21 000 ga yaqini o‘simliklardan ajratib olingan [5]. Alkaloidlar tarkibida odatda bir yoki undan ortiq azot atomi mavjud bo‘ladi; bu azotlar ko‘pincha birlamchi, ikkilamchi yoki uchlamchi aminlar ko‘rinishida bo‘ladi. Azotning mavjudligi alkaloidlarga asosiylik

(baziklik) xususiyatini beradi, bu esa ularni ajratish va tozalashni osonlashtiradi, chunki ular mineral kislotalar ishtirokida suvda eriydigan tuzlar hosil qila oladi. Aslida, “alkaloid” atamasi ham "ishqor" (alkali) so‘zidan kelib chiqqan.

Biroq alkaloidlarning asosiylik darajasi ularning molekulyar tuzilmasi va boshqa funktsional guruhlarning mavjudligi va joylashuviga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, amid funksiyasidagi azotni o‘z ichiga olgan alkaloidlar (masalan, ba’zi morfin hosilalari) asosan neytral bo‘ladi. Bundan tashqari, to‘rtlamchi aminlarni o‘z ichiga olgan alkaloidlar ham tabiiy holatda uchraydi.

Ko‘pgina alkaloidlarning biologik faolligi ularning amin guruhlarining fiziologik pH sharoitida protonlanib, to‘rtlamchi tuzilma hosil qilish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Alkaloidlar ko‘pincha azotli halqa strukturalariga qarab tasniflanadi, masalan:pirrolidin piperidin

xinolin,izoxinolin,indol tuzilmalar.

Biroq ayrim alkaloidlarning murakkab tuzilishi bu klassifikatsiyani yanada murakkablashtiradi va ko‘plab kichik guruhlarning ajralib chiqishiga olib keladi.

Alkaloidlardagi azot atomi odatda aminokislotalardan kelib chiqadi. Shu bilan birga, ko‘pincha alkaloid molekulalarining uglerod skeleti ham o‘sha aminokislotaning strukturasini deyarli o‘zgarmagan holda saqlab qoladi. Faqat karboksil guruh ko‘pincha dekarboksillanish reaksiyasi orqali yo‘qotiladi.

Shu asosda alkaloidlarni aminokislota prekursorlari bo‘yicha tasniflash eng ratsional va tushunarli yondashuv hisoblanadi. Alkaloidlarning biosintezida faqat cheklangan miqdordagi aminokislotalar ishtirok etadi. Ularga quyidagilar kiradi:Ornitin Lizin,Nikotinik kislota,Tirozin,Triptofan,Antranil kislotas Gistidin.

Bundan tashqari, atsetat, shikimat va metil-eritritol fosfat yo‘llari orqali hosil bo‘ladigan tuzilmaviy bloklar ham alkaloidlarning karbon skeletiga qo‘shiladi.

Shuningdek, ayrim alkaloidlar transaminatsiya reaksiyalari orqali azotni aminokislotadan oladi, ammo molekulaning qolgan qismi atsetat yoki shikimat yo‘llari orqali shakllanadi. Bunday hollarda azot aminokislotadan kelsa-da, qolgan uglerod skeleti boshqa biosintetik yo‘ldan kelib chiqqan bo‘ladi. Shu sababli bu kabi birikmalar uchun "psevdalkaloid" (soxta alkaloid) atamasi qo‘llaniladi.

Alkaloidlarning silliq mushak hujayralariga ta’siri

Alkaloidlar silliq mushak hujayralariga (SMH) turlicha farmakologik ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa yurak-qon tomir, nafas olish tizimi hamda oshqozon-ichak trakti kontekstida. Ularning ta’siri spasmolitik (bo‘shashtiruvchi) yoki stimulativ (tonusni oshiruvchi) bo‘lishi mumkin, bu alkaloidning tuzilishi, retseptorlar turi va maqsadli to‘qimalarga bog‘liq. Bu ta’sirlar ion kanallari, retseptorlar va hujayra ichidagi signal yo‘llari modulyatsiyasi orqali amalga oshadi [7].

Alkaloidlar yurak-qon tomir tizimining turli tarkibiy qismlariga, xususan, qon tomirlarning silliq mushak hujayralari (SMH) va miyokardga ta’sir qiluvchi muhim biologik faollikka ega birikmalardir. Ularning ta’siri ko‘p mexanizmlar orqali — ion kanallar, retseptorlar va hujayra ichidagi signal yo‘llarining modulyatsiyasi orqali yuzaga keladi.

Alkaloidlarning silliq mushak hujayralariga ta’sirining asosiy mexanizmlari Ion kanallar:

Ca^{2+} L-tip kanallari: ba’zi alkaloidlar tomonidan bloklanadi → hujayra ichidagi kalsiy darajasi kamayadi → SMH bo‘shaydi.

Na^{+} va K^{+} kanallari: membrana potensialiga ta’sir qiladi → hujayraning o‘zgaruvchanligi o‘zgartiriladi.

Retseptorlar orqali ta’sir:

M-xolinoretseptorlar: blokada → parasimpatik ta’sir kamayadi → bronx va oshqozon-ichak trakti spazmlarini yengillashtiradi (spazmolitik ta’sir).

α- va β-adrenoretseptorlar: antagonist yoki mediatorlarning kamayishi → qon tomir tonusi pasayadi.

Signal molekulalari:

NO/cGMP yo‘li: NO sintazani rag‘batlantiradi → cGMP darajasi oshadi → PKG faollashadi → mushaklar bo‘shaydi.

cAMP yo‘li: Fosfodiesteraza inhibitörlari (FDE) → cAMP darajasi oshadi → PKA faollashadi → MLCK inaktivatsiyalanadi → mushaklarning qisqarishi kamayadi.

Hujayra ichidagi signal kaskadlari modulyatsiyasi:

MAPK, PI3K/Akt, ERK yo‘llari orqali alkaloidlar qon tomirlarning silliq mushak hujayralarining proliferatsiyasi va migratsiyasini kamaytirishi mumkin.

Turli alkaloidlar endoteliy funksiyasini himoya qiladi, oksidlovchi stressni, endoplazmatik retikulumga tushadigan yukni va yallig‘lanishni kamaytiradi [6].

Alkaloidlar va ularning farmakologik xususiyatlari:

1. Izokinolin alkaloidlari

Vakillari: Papaverin, Berberin

Mexanizm: Fosfodiesteraza inhibitori va Ca^{2+}-kanal blokatori

Harakat turi: Antispazmodik

Ta’siri: Vazodilatatsiya va ichakning bo‘shashishi

2. Bisbenzilisovinolin
Vakillari: Tetrandrin
Mexanizm: L-tip kalsiy kanal blokatori
Harakat turi: Antispazmodik
Ta’siri: Antiipertenziv, bronxodilatator
3. Indol alkaloidlari
Vakillari: Rezerpin
Harakat turi: Antiadrenergik
Ta’siri: Qon tomirlarining tonusi va qon bosimi pasayishi
4. Tropan alkaloidlari
Vakillari: Atropin, Skopolamin
Mexanizm: M-xolinergik retseptor blokatori
Harakat turi: Antikolinergik
Ta’siri: Bronxlar va oshqozon-ichak traktining bo‘shashishi
5. Ergot alkaloidlari
Vakillari: Ergotamin, Ergometrin
Mexanizm: α va serotonin retseptor agonist/antagonistlari
Harakat turi: Prokinetik / Vazokonstriktor
Ta’siri: Vazokonstriksiya, miometriya qisqarishi
6. Purin alkaloidlari
Vakillari: Kofein, Teofillin
Mexanizm: Adenozin retseptor antagonistlari
Harakat turi: Tonik
7. Steroid alkaloidlar
Vakillari: Solanin
Mexanizm: Membranada ion tashish buzilishi
Harakat turi: Dozaga bog‘liq
Ta’siri: Toksiklik va mumkin bo‘lgan spazm

Alkaloidlarning biologik mavjudligi– bu faol moddaning qanchalik tez va qanchalik darajada tizimli qon aylanishiga tushib, farmakologik ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishini ifodalaydi. Ko‘pchilik alkaloidlar uchun og‘iz orqali qabul qilinganda biologik mavjudlik ko‘pincha past bo‘ladi va u kimyoviy tuzilmasi hamda farmakokinetik xususiyatlariga qarab farqlanadi.

Alkaloidlarning biologik mavjudligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar:

1.Ichak-oshqozon traktida (JChT) eruvchanlik va barqarorlik Ko‘plab alkaloidlar suvda yomon eriydi, bu esa ularning ichak orqali so‘rilishini cheklaydi.

2.Ichak epiteliy hujayralari orqali o‘tuvchanlik Yuqori molekulyar massa va qutblilik (polyarli) xossasi alkaloidlarning biologik membranalar orqali o‘tishini kamaytiradi

3."Birlamchi o‘tish" metabolizmi (jigar va ichakda) Alkaloidlar CYP450 fermentlari ishtirokida faol metabolizmga uchraydi, natijada moddaning qon aylanishiga yetib borishdan oldin konsentratsiyasi sezilarli darajada kamayadi

4.Hujayralardan faol chiqarib yuborilish (P-glikoprotein va boshqa tashuvchilar orqali) Ba’zi alkaloidlar bu tashuvchi oqsillar uchun substrat hisoblanadi, natijada ular yana ichak bo‘shlig‘iga qaytariladi va organizmga to‘liq singmaydi.

Garchi tabiiy alkaloidlar yuqori farmakologik faollikka ega bo‘lsa-da, ularning qo‘llanilishi ko‘pincha past biologik mavjudlik, toksiklik va noqulay farmakokinetik xususiyatlar bilan cheklanadi. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish maqsadida yarimsintetik analoglarni sintez qilish, shuningdek, kombinatsiyalangan dori shakllarini ishlab chiqish yo‘nalishlari jadal rivojlanmoqda. Bu jarayonda tabiiy alkaloidlarning kimyoviy tuzilmasini modifikatsiya qilish orqali ularning eruvchanligini, barqarorligini, selektivligini oshirish va toksikligini kamaytirish ko‘zda tutiladi. Misollar:

Vinkristin va vinblastinning yarimsintetik analoglari. Bular — barvinok (kataknav) o‘simligidan olingan alkaloidlar asosida yaratilgan hosilalar bo‘lib, yaxshilangan o‘sma qarshi faollik va farmakokinetik xususiyatlarga ega.

2. Berberinning modifikatsiyalangan hosilalari Biologik mavjudlik va terapevtik samaradorlikni oshirish maqsadida berberin molekulasiga tuzilmaviy o‘zgartirishlar kiritilgan.

Kombinatsiyalangan preparatlar:

1.Alkaloidlarni boshqa bioaktiv moddalar bilan birlashtirish Masalan, flavonoidlar, terpenoidlar yoki antioksidantlar bilan kombinatsiya qilish orqali sinergik (kuchaytiruvchi) effektga erishiladi va farmakokinetik ko‘rsatkichlar yaxshilanadi.

2.Tashuvchi tizimlar va dorini yetkazish texnologiyalari Nanohissachalar, liposomalar va boshqa dorini yetkazuvchi tizimlar yordamida alkaloidlarning bosqichma-bosqich va yo‘naltirilgan chiqarilishi ta’minlanadi, bu esa dori samaradorligini oshiradi

3.Yurak-qon tomir va onkologik kasalliklarni davolash uchun alkaloidli kompleks preparatlar Bunday kombinatsiyalar samaradorlikni oshirib, bir nechta patogenetik yo‘nalishlarga bir vaqtning o‘zida ta’sir ko‘rsatadi.

Misollar va tadqiqotlar:

1.Berberin va flavonoidlarning kombinatsiyasi Bu kombinatsiya kuchaytirilgan antioksidant va yallig‘lanishga qarshi faollikni namoyon etadi, bu esa yurak-qon tomir tizimini samarali himoya qilishga yordam beradi.

2.Terpenoidlar ta’siri Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, terpenoidlar alkaloidlarning eruvchanligi va biologik membranalar orqali o‘tuvchanligini oshiradi, natijada ularning so‘rilishi yaxshilanadi.

3.Antioksidantlar (masalan, S va E vitaminlari) Ushbu moddalar ko‘pincha kompleks preparatlar tarkibiga kiritiladi, chunki ular hujayralarni oksidlovchi zararli ta’sirlardan himoya qiladi va alkaloidlarning barqarorligini oshiradi.

Silliq muskul hujayralarining tonusi va faoliyati aorta va boshqa qon tomirlari orqali qon bosimini tartibga solishda muhim rol o’ynaydi.Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki,alkaloidlar(izokinolin,tropan,indol va boshqalar) silliq muskullarning qisqarishi va bo’shashuvini modulyatsiya qiluvchi kuchli biologik ta’sirga ega bo’lib, ularning mexanizmlari kalsiy kanallari, Na+/Ca2+ almashuvchisi va hujayra ichidagi signal yo’llari orqali amalga oshadi.

O’zbekiston olimlarining ishlari alkaloidlarning farmakologik xususiyatlarini chuqur o’rganish, ularning biologik mavjudligini aniqlash va yangi terapevtik vositalarni yaratish uchun muhim ilmiy asos bo’lib xizmat qilishini ko’rsatadi. Shu bilan birga, alkaloidlarning kardioprotektiv,vazodilatator va antispazmodik xususiyatlari yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olish va davolashda istiqbolli strategiya sifatida qaraladi, bunda farmakokinetik cheklovlarni yarimsintetik analoglar va innovatsion dorini yetkazish tizimlari yordamida bartaraf etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. Yurak-qon tomir kasalliklari (CVDs) [Elektron manba]. — Murojaat qilish manzili: https://www.who.int/health-topics/cardiovascular-diseases, erkin kirish.

2.Smith J., Johnson M. Alkaloidlar yurak-qon tomir terapiyasida silliq mushaklar faoliyatini modulyatsiya qiluvchi modda sifatida. Journal of Cardiovascular Pharmacology, 2020, 58(4): 345–356.

3.Aniszewski T. Alkaloidlar — hayot sirlari. Amsterdam: 2007. — B. 13.

4.Wink M. O‘simlik dorilari va ikkilamchi metabolitlarning ta’sir mexanizmlari. Medicines, 2015,

2(3): 251–286.

5.Dewick P. M. Tabiiy dorivor mahsulotlar: biosintetik yondashuv (2-nashr). John Wiley & .Sons, 2002. — B. 318–325.

6.Amssayef A., Eddouks M. Alkaloidlar vazodilatator (qon tomir kengaytiruvchi) modda sifatida: tahliliy sharh. Current Pharmaceutical Design, 2023, 29(24).

7.Bakiyeva M. Sh., Rustamova Sh. R., Rakhmonov T. O., Sharipova N. N., Mukhitdinova Kh. S. Benzoylgeteratisin alkaloidining kalamush aortasidagi silliq mushak hujayralarining funksional faolligiga gipotenziya ta’siri. Academic Research Journal, 2022, 1(2): 24–30. https://doi.org/10.5281/zenodo.6653236

8.Bakiyeva M. Sh., Zaynobiddinov A. D., Usmanov P. B., Esimbetov A. T. Geteratisin va 6-O-benzoylgeteratisinning aorta silliq mushak hujayralari funksional faolligiga vazorelaksant ta’siri. International Journal of Current Microbiology and Applied Sciences, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi – Toshkent, 2007. — 16 b.

9.Mirzayeva Y.T.,Zaripov A.A. “Effects of F-18 on KCl and Phenylephrine-Induced Contractions of Rat Aorta”.The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research,2021;3(6):100-108

10.Yunusov S. “Alkaloidlar kimyosi maktabi va ularning biologik faolligi”. Uzsmart Onlayn Ensiklopediya, 2023

11. Jumayev I., Usmanov P., Rustamov S., “Comparative Inotropic Effects of some Isoquinoline Alkaloids”. Biomedical &Pharmacology Journal,2020;13(1):198-204

12. Zakirova R.P. “Biologically Active Compounds of Plants in Uzbekistan Flora and their Potential Applications”. Annals of Advanced Chemistry,2025;9(1).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Rozumbetov Kenjabek Umar o'g'li
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, PhD
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi (DSc)
E-mail: rozumbetov96@mail.ru
Kdirbaeva Nargiza Baxtiyarovna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, tayanch doktorant

TURLICHA HARAKAT FAOLLIGIGA EGA NAVQIRON YOSHLI O'G'IL BOLALARDA QONNING GEMATOLOGIK KO'RSATKICHLARI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda harakat faolligi darajasiga qarab navqiron yoshli o'g'il bolalarda qonning gematologik ko'rsatkichlari o'rganildi. Tadqiqot Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazilib, 10 nafar sportchi va 13 nafar sportchi bo'lmagan talaba o'g'il bolalar ishtirok etdi. Natijalar tahliliga ko'ra, sportchilar guruhida HGB, HCT, RBC va MCHC sportchi bo'lmaganlarga nisbatan statistik jihatdan yuqori qiymatlar ko'rsatdi. Bunda MCV, MCH, СОЭ, WBC va PLT da esa sezilarli farqlar aniqlanmadi. Olingan natijalar jismoniy faollikning qonning kislorod tashuvchi tizimi faoliyatini oshirishdagi ijobiy rolini tasdiqlaydi hamda yoshlarda sport mashg'ulotlarining fiziologik ahamiyatini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *gematologik ko'rsatkichlar, gemoglobin, eritrotsitlar, jismoniy faollik, sportchilar.*

Розумбетов Кенжабек Умар угли
Нукусский филиал Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий, PhD
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, соискатель (DSc)
Кдырбаева Наргиза Бахтияровна
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, базовый докторант

ГЕМАТОЛОГИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ КРОВИ У ЮНОШЕЙ С РАЗНЫМ УРОВНЕМ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ

Аннотация. *В данном исследовании изучены гематологические показатели крови у юношей в зависимости от уровня двигательной активности. Исследование проведено в Республике Каракалпакстан с участием 10 спортсменов и 13 неспортсменов. Согласно результатам анализа, у спортсменов значения HGB, HCT, RBC и MCHC статистически значимо выше по сравнению с неспортсменами. При этом показатели MCV, MCH, СОЭ, WBC и PLT достоверных различий не имели. Полученные результаты подтверждают положительное влияние физической активности на функционирование системы кислородного транспорта крови и подчеркивают физиологическое значение занятий спортом среди молодежи.*

Ключевые слова: *гематологические показатели, гемоглобин, эритроциты, физическая активность, спортсмены.*

Rozumbetov Kenjabek Umar ugli
Nukus Branch of the Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnologies, PhD
Karakalpak State University named after Berdakh, Independent researcher (DSc)
Kdirbaeva Nargiza Bakhtiyarovna
Karakalpak State University named after Berdakh, Basic Doctoral Student

HEMATOLOGICAL BLOOD PARAMETERS IN YOUNG MEN WITH DIFFERENT LEVELS OF PHYSICAL ACTIVITY

Annotation. *This study examined the hematological parameters of blood in young males depending on their level of physical activity. The research was conducted in the Republic of Karakalpakstan and involved 10 athletes and 13 non-athlete students. According to the results, the values of HGB, HCT, RBC, and MCHC were statistically significantly higher in athletes compared to non-athletes. Meanwhile, MCV, MCH, ESR, WBC, and PLT showed no significant differences between the groups. The obtained results confirm the*

positive effect of physical activity on the functioning of the blood oxygen transport system and highlight the physiological importance of sports activities among young people.

Keywords: *hematological parameters, hemoglobin, erythrocytes, physical activity, athletes.*

Kirish.

Inson organizmining funksional imkoniyatlari, ayniqsa yurak-qon tomir va qon tizimining holati jismoniy faollik darajasiga bevosita bog‘liqdir [1, 2]. Muntazam jismoniy mashqlar nafaqat mushak tizimining rivojlanishini, balki gematopoetik tizim faoliyatining takomillashishini ham ta’minlaydi. Qonning gematologik ko‘rsatkichlari organizmning umumiy fiziologik holatini, shuningdek, kislorod tashuvchi tizimning samaradorligini hamda jismoniy yuklamalarga moslashish darajasini baholashda muhim mezon hisoblanadi [3, 4]. Qizil qon tizimi ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarni asosli talqin qilish trenerga sportchining hozirgi salomatlik holatini, uning jismoniy va funksional, xususan aerob tayyorgarlik darajasini o‘z vaqtida baholashda sezilarli darajada yordam berishi mumkin [5]. Shu bilan birga, bu yondashuv tayyorgarlikning rivojlantiruvchi bosqichlarida ham strategik, ham taktik vazifalarni hal etishda mashg‘ulot jarayonini boshqarish uchun amaliy vosita vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, eritrotsitlarning o‘rtacha hajmi kabi ko‘rsatkichni baholashda ratsional yondashuv trenerga mashg‘ulotlarni tashkil etish va mashg‘ulotlar davomida yuklamalarni rejalashtirish jarayonida o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash imkonini beradi [5].

So‘nggi yillarda navqiron yoshdagi bolalarda jismoniy faollikning kamayishi, harakatsiz turmush tarzi va sport mashg‘ulotlariga qiziqishning pasayishi sog‘lom avlod shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani haqida ilmiy manbalarda ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan [6]. Shu bois, navqiron yoshdagi o‘g‘il bolalarda harakat faolligi darajasining qon tizimi ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Jismoniy mashqlar natijasida gemopoez jarayonining faollashuvi, eritrotsitlar va gemoglobin miqdorining ortishi, shuningdek, to‘qimalarning kislorod bilan ta’minlanish samaradorligi oshishi aniqlangan [7]. Shu bilan birga, ortiqcha yoki nomutanosib yuklamalar gematologik muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun, turli darajadagi jismoniy faollikka ega yoshlar orasida qon ko‘rsatkichlarini taqqoslash organizmning fiziologik moslashuv imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi harakat faolligi darajasiga ko‘ra navqiron yoshli o‘g‘il bolalarda qonning asosiy gematologik ko‘rsatkichlaridagi farqlarni aniqlash va ularning fiziologik ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

Material va metodlar.

Ishtirokchilar kontingenti. Tadqiqot 2025-yilning bahor mavsumida Qoraqalpog‘istonning Nukus shahrida o‘tkazildi. Tadqiqotda ikki guruh ishtirok etdi. Birinchi guruhga muntazam sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanuvchi navqiron yoshdagi 10 nafar sportchi talabalar kiritildi. Jismoniy faolligi past bo‘lgan 13 nafar sportchi bo‘lmagan talaba esa ikkinchi guruhni tashkil qildi.

Gematologik parametrlarni aniqlash. Kechki ochlikdan keyin ertalab och qoringa barcha subyektlardan venoz qon olindi. Tadqiqot arafasida psixo-emotsional va jismoniy faollik va sport mashg‘ulotlari, shuningdek spirtli ichimliklar, dori-darmonlar, stimullovchi ichimliklar, tamaki chekish yoki boshqa moddalarni iste’mol qilish chiqarib tashlandi. Gematologik parametrlarni aniqlash uchun qon namunalari ertalab och qoringa olindi va Mindray BC-20S (Shenzhen Mindray Bio-Medical Electronics Co., Ltd, Xitoy) gematologik analizatorida aniqlandi.

Statistik tahlil. Ikkala guruhning gematologik parametrlari orasidagi farqlar haqidagi statistik tahlillar miqdoriy o‘zgaruvchilar uchun Mann-Uitni mezoni yordamida tekshirildi. Natijalar $p < 0,05$ darajasida statistik jihatdan ahamiyatli deb hisoblandi. Barcha hisob-kitoblar Microsoft Office 2010 dasturiy paketidagi Excel funksiyalari yordamida hamda Past (versiya 2.17, Norvegiya (Oslo) 2012) statistik ma’lumotlarni qayta ishlash dasturi yordamida amalga oshirildi. Barcha ma’lumotlar o‘rtacha qiymat (μ), pastki (LL) va yuqori (UL) chegaralari bilan 95% ishonchlilik oralig‘ida (μ; (LL; UL 95% CI)) gematologik parametr sifatida taqdim etildi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari sportchilar va sportchi bo‘lmagan talabalarda qonning gematologik ko‘rsatkichlari o‘rtasida muayyan farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, sportchilar guruhida gemoglobin miqdori, gematokrit darajasi, eritrotsitlar soni hamda gemoglobinning o‘rtacha konsentratsiyasi (MCHC) sportchi bo‘lmaganlarga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori ekanligi aniqlandi (1-jadval). Ushbu holat muntazam jismoniy mashqlar va sport faoliyatining gemopoez jarayoniga ijobiy ta’siri bilan izohlanishi mumkin.

1-jadval. Tadqiqotda ishtirok qilgan guruhlarda gematologik ko‘rsatkichlarning qiyosiy tavsifi

Gematologik parametrlar	Sportchilar (n=10)	Sportchi bo’lmaganlar (n=13)	P qiymat
Gemoglobin (HGB), g/l	125,6 (120,99; 130,21)	109,62 (96,97; 122,27)	0,03723

Eritrotsitlarning o‘rtacha hajmi (MCV), fl	87,04 (85,10; 88,98)	79,72 (68,76; 90,69)	0,438
Eritrotsitlardagi o‘rtacha gemoglobin miqdori (MCH), pg	26,12 (25,55; 26,69)	23,42 (20,91; 25,94)	0,1055
Gemoglobinning o‘rtacha konsentratsiyasi (MCHC), g/l	309,8 (302,74; 316,86)	296,15 (286,9; 305,41)	0,03648
Gematokrit (HCT), %	45,87 (43,94; 47,80)	39,02 (32,89; 45,15)	0,0377
Eritrotsitlar (RBC), ×10^12/l	4,82 (4,60; 5,03)	3,32 (2,93; 3,71)	$6,174\times10^{-5}$
Leykotsitlar (WBC), ×10^9/l	6,65 (5,78; 7,52)	5,88 (5,18; 6,59)	0,2384
Trombotsitlar (PLT), ×10^9/l	243,5 (218,91; 268,09)	225,77 (179,11; 272,43)	0,5349
Eritrositlarning cho‘kish tezligi, mm/s	8,4 (3,49; 13,31)	5,69 (4,50; 6,88)	0,8996

Ma’lumki, jismoniy mashqlar davomida organizmning kislorodga bo‘lgan ehtiyoji ortadi. Bunga javoban, suyak ko‘migi faoliyati faollashadi. Eritropoetin gormoni sekretsiyasi kuchayadi va natijada eritrotsitlar sintezi tezlashadi. Shu sababli sportchilarda qonning kislorod tashish qobiliyatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkich – gemoglobin darajasining yuqoriligi adaptatsion mexanizm sifatida baholanadi. Bundan tashqari, muntazam mashg‘ulotlar qon aylanish tizimining funktsional imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa periferik to‘qimalarga kislorod yetkazib berish samaradorligini oshiradi.

Eritrotsitlarning o‘rtacha hajmi (MCV), eritrotsitlarda o‘rtacha gemoglobin miqdori (MCH), eritrotsitlarning cho‘kish tezligi, leykotsitlar va trombotsitlar soni bo‘yicha esa ikkala guruh o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Bu ko‘rsatkichlar ko‘proq fiziologik doirada saqlanib, jismoniy faollikdan mustaqil bo‘lgan gomeostatik nazorat mexanizmlari tomonidan boshqarilishi bilan izohlanadi.

Talabalarda jismoniy faollik darajasi turlicha bo‘lgan sharoitlarda qonning morfologik tarkibini o‘rganishga bag‘ishlangan xorijiy adabiyotlar tahlili o‘xshash tadqiqotlarda bir xil natijalar olinganligini ko‘rsatadi. Jumladan, gemoglobin kontsentratsiyasi va gematokrit, qizil qon hujayrasidagi o‘rtacha gemoglobin miqdori va qizil qon hujayralarining o‘rtacha hajmi jismoniy faolligi yuqori bo‘lgan talabalarda harakat faolligi past darajadagi talabalarga qaraganda yuqori bo‘lgan [**8**]. Kam jismoniy faollik bilan shug‘ullanadigan talabalar orasida o‘rtacha qizil qon tanachalari hajmi 80 fl dan past bo‘lgan va qizil qon tanachalaridagi o‘rtacha gemoglobin miqdori ham yosh me’yorlariga (27 pg dan kam) yetib bormagan [**8**]. K.S. Gavrilyeva tadqiqotida tekshirilgan sportchilarda taqqoslash guruhi (sport bilan shug‘ullanmaydiganlar) ga nisbatan qonning morfologik ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘lgani aniqlangan [9]. Xususan, gemoglobin miqdori (148,77±6,01 ga nisbatan 130,20±9,04 g/l, p=0,001), gematokrit darajasi (42,03±1,94 ga nisbatan 38,44±3,31%, p=0,001) hamda eritrotsitdagi gemoglobinning o‘rtacha miqdori (31,94±0,70 ga nisbatan 29,03±2,53 pg, p=0,001) sportchilarda yuqori bo‘lib, sport bilan shug‘ullanmaydiganlar guruhida anemiya belgilari mavjudligini ko‘rsatgan [9]. L.S. Litvinova va boshqalar olib borgan tadqiqotida sportchilarda submaksimal jismoniy yuklamaning qonning hujayra elementlariga ta’sirini o‘rganib, eritrotsitlar yuzasi maydonining ularning hajmiga nisbati ortishi eritrotsitlar membranasi orqali kislorodning o‘tishini yaxshilashga olib kelishini aniqlagan [10].

Sportchilarning mushak yuklamalariga uzoq muddatli moslashuvi jarayonida eritrotsitlar hajmining sezilarli darajada ortishi aniqlangan [11]. Biroq, ayrim tadqiqotlarda aniqlanishicha eritrotsitlarda gemoglobinning o‘rtacha kontsentratsiyasi futbolchilar va siklik sport turlari bilan shug‘ullanuvchilarda sport bilan shug‘ullanmaydigan o‘smirlarga nisbatan ishonchli darajada past bo‘lgan [12]. Olimlar gipoxrom sport anemiyasini eritrotsitlarning destruksiyasi, gemoglobin miqdoriga nisbatan aylanib yuruvchi qon hajmining ortishi bilan izohlaydilar hamda buni jismoniy yuklamalarga moslashuv mexanizmlari bilan bog‘laydilar [12].

Olingan natijalar boshqa tadqiqotlar [5, 8, 9] bilan mos bo‘lib, ular ham sportchilar qonida gemoglobin va gematokrit miqdorining ortishi, ammo boshqa gematologik parametrlarning o‘zgarishsiz qolishini ta’kidlagan. Bu ma’lumotlar muntazam jismoniy yuklamalarning qonning kislorod tashuvchi tizimini kuchaytirishi, biroq organizmning umumiy gematologik muvozanatini buzmasligini ko‘rsatadi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari sport faoliyati ta'sirida gematologik moslashuv jarayonlari shakllanishini va bu o'zgarishlar sportchilarda yuqori ish qobiliyatini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu sababli, gematologik ko'rsatkichlarni monitoring qilish sportchilar salomatligini baholashda muhim diagnostik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мартыканова Д.С., Мавлиев Ф.А., Ибрагимова М.Я., Ахметов И.И., Жданов Р.И. Гематологические показатели крови юношей, занимающихся циклическими и игровыми видами спорта. Наука и спорт: современные тенденции. 2018. 21(4), 19-24.

2. Бойков В.Л. Комплексная характеристика автономной регуляции сердечного ритма, гематологического и биохимического профиля у пловцов высокой квалификации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата биологических наук. Ярославль 2021.

3. Кривошапкина З.Н., Миронова Г.Е., Семёнова Е.И., Олесова Л.Д., Яковлева А.И., Константинова Л.И. Оценка адаптации борцов вольного стиля в зависимости от тренировочного цикла и спортивной квалификации по клиническим показателям крови. Спортивная медицина: наука и практика. 2018. Т.8, №3. С. 5-12.

4. Tilahun Muche Z, Haile Wondimu D, Bayissa Midekssa M, Chekol Abebe E, Mengie Ayele T, Abebe Zewdie E. A Comparative Study of Hematological Parameters of Endurance Runners at Guna Athletics Sport Club (3100 Meters above Sea Level) and Ethiopian Youth Sport Academy (2400 Meters above Sea Level), Ethiopia. J Sports Med (Hindawi Publ Corp). 2021:8415100.

5. Гунина Л., Рыбина И., Котляренко Л. Показатели гематологического гомеостаза в оценке функционального состояния спортсменов. Наука в олимпийском спорте. 2020;3:65-75.

6. Балуева Т.В., Верлов Н.А., Еркудов В.О., Ланда С.Б., Пуговкин А.П., Сергеев И.В. Оценка параметров системной гемодинамики по данным исследования периферических сосудов. Регионарное кровообращение и микроциркуляция. 2011;10(2):79-84.

7. Речкина О.П., Адамов Д.Д., Стрибец Т.Б., Лапкина Н.А., Баранов А.А., Минеева Л.А., Беляева Н.В., Малахов Н.В. Эритроцитарные показатели клинического анализа крови и их референсные интервалы у мужчин и женщин в возрасте от 18 до 45 лет. Пациентоориентированная медицина и фармация. 2024;2(4):82-93.

8. Хусаинов А.Э., Зулькарнаев Т.Р., Поварго Е.А., Мочалкин П.А., Бакиров А.Б., Воскресенская Е.К. Влияние физической активности на морфологические показатели крови студентов медицинского вуза. Медицина труда и экология человека. 2023;1:68-77.

9. Гаврильева К.С., Ханды М.В., Соловьёва М.И., Винокурова С.П., Махарова Н.В. Влияние физических нагрузок на морфологический состав красной крови у подростков Якутии. Педиатрия. 2018. №11 (155). С. 27-30.

10. Литвинова Л.С., Пельменев В.К., Селедцова И.А., Муравьева Ю.А., Шуплецова В.В., Панин В.А., Гончаров А.Г., Селедцов В.И. Влияние субмаксимальной физической нагрузки на клеточные параметры крови спортсменов. Медицинская иммунология. 2012;14(3):213-218. https://doi.org/10.15789/1563-0625-2012-3-213-218

11. Викулов А.Д., Маргазин В.А., Бойков В.Л. Диаметр эритроцитов как надежный маркер текущего функционального состояния организма и физической работоспособности спортсменов. Лечебная физкультура и спортивная медицина. 2015. №1. С. 10-14.

12. Цыган В.Н., Скальный А.В., Мокеева Е.Г. Спорт. Иммунитет. Питание. – СПб: Из-во «ЭЛБИ-СПб», 2012. 240 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Shirinova Inobat Anvarovna,
Guliston davlat universiteti professori
Rustamqulova Diyora Alisher qizi
Guliston davlat universiteti magistranti

KOBALT TUTUVCHI KOBALAMIN BIRIKMASI (SIANOKOBALAMIN) NING QUYONLARDA OG‘IRLIK VA XULQ-ATVOR PARAMETRLARI BO‘YICHA TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kobalt tutuvchi kobalamin (sianokobalamin) biologik faol birikmaning quyonlar organizmidagi fiziologik ko‘rsatkichlarga ta’siri eksperimental sharoitda o‘rganildi. Tadqiqot tana vazni bir biridan ko‘p farq qilmaydigan Yangi Zelandiya qizil ko‘zli zotiga mansub quyonlarda olib borilib, kobalt tutuvchi kobalamin (sianokobalamin) ikki xil dozada in’eksiya yo‘li bilan yuborildi. Nazorat guruhi sifatida kobalt tutuvchi kobalamin (sianokobalamin) kiritilmagan I guruh hayvonlar tanlab olindi. II guruh hayvonlarga 2ml, III guruh hayvonlarga 1ml dan har uch kunda uch martadan in’eksiya qilindi. Tajriba kuz va qish mavsumlarini qamrab olgan bo‘lib, hayvonlarning tana vazni dinamikasi hamda umumiy xulq-atvori muntazam ravishda kuzatildi. Tadqiqot davomida barcha hayvonlar bir xil parvarish, oziqlantirish va saqlash sharoitlarida bo‘lishi ta’minlandi.*

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, kobalt tutuvchi kobalamin (sianokobalamin) ning yuqori dozada qo‘llanilishi quyonlarda tana vaznining barqaror oshishiga hamda umumiy faollik va xulq-atvor ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga olib keldi. Ayniqsa, kuzgi davrda bu o‘zgarishlar yanada yaqqol namoyon bo‘ldi, qishki davrda esa tana vazni ortish sur’atining nisbatan sekinlashishi kuzatildi. Bu holat mavsumiy omillar va termoregulyatsiya jarayonlari bilan izohlanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari kobalt tutuvchi kobalamin (sianokobalamin)ning hayvonlar fiziologiyasida va xulq-atvorida muhim rol o‘ynashini, shuningdek, uning ta’siri mavsumiy sharoitlarga bog‘liq holda o‘zgarishini ko‘rsatadi. Olingan ma’lumotlar chorvachilik va eksperimental biologiya sohasida amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *Kobalt tutuvchi kobalamin, sianokobalamin, quyonlar, fiziologik ko‘rsatkichlar, tana vazni, xulq-atvor, mavsumiy ta’sirlar, eksperimental tadqiqot.*

Ширинова Инобат Анваровна
Гулистанского государственного университета профессор
Рустамкулова Диёра Алишер кызы
Гулистанского государственного университета магистрант

ВЛИЯНИЕ КОБАЛЬТСОДЕРЖАЩЕГО КОБАЛАМИНОВОГО СОЕДИНЕНИЯ (ЦИАНОКОБАЛАМИНА) НА МАССУ ТЕЛА И ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ У КРОЛИКОВ

Аннотация. *В данном исследовании изучалось влияние кобальтсодержащего кобаламина (цианокобаламина), биологически активного соединения, на физиологические показатели кроликов в экспериментальных условиях. Исследование проводилось на кроликах породы Новозеландский красноглазый с сопоставимым весом тела. Кобальтсодержащий кобаламин (цианокобаламин) вводили инъекционно в двух дозах. Контрольная группа (Группа I) включала животных, не получавших цианокобаламин. Животным из Группы II вводили 2 мл, а из Группы III — 1 мл препарата три раза через каждые три дня. Эксперимент охватывал осенний и зимний периоды с регулярным наблюдением за динамикой массы тела и общим поведением. Все животные содержались в одинаковых условиях ухода, кормления и содержания.*

Результаты показали, что введение кобальтсодержащего кобаламина (цианокобаламина) в высокой дозе способствовало стабильному увеличению массы тела, а также улучшению общей активности и поведенческих показателей. Эти эффекты были особенно выражены в осенний период, тогда как зимой наблюдалось относительно замедленное увеличение массы тела. Данное явление может быть объяснено сезонными факторами и процессами терморегуляции.

Полученные данные свидетельствуют о важной роли кобальтсодержащего кобаламина (цианокобаламина) в физиологии и поведении кроликов, а также о том, что его влияние зависит от сезонных условий. Результаты исследования имеют практическое значение для животноводства и экспериментальной биологии.

Ключевые слова: *Кобальтсодержащий кобаламин, цианокобаламин, кролики, физиологические показатели, масса тела, поведение, сезонные эффекты, экспериментальное исследование.*

Shirinova Inobat Anvarovna
Gulistan State University Professor
Rustamkulova Diyora Alisher kyzy
Gulistan State University Master's Degree

EFFECT OF COBALT-CONTAINING COBALAMIN COMPOUND (CYANOCOBALAMIN) ON BODY WEIGHT AND BEHAVIORAL PARAMETERS IN RABBITS

Abstract. *In this study, the effects of cobalt-containing cobalamin (cyanocobalamin), a biologically active compound, on the physiological parameters of rabbits were investigated under experimental conditions. The study was conducted on New Zealand Red-eyed rabbits with similar body weights. Cobalt-containing cobalamin (cyanocobalamin) was administered via injection at two different doses. The control group (Group I) consisted of animals that did not receive cyanocobalamin. Group II received 2 ml, and Group III received 1 ml of the compound, administered three times every three days. The experiment covered both autumn and winter seasons, with regular monitoring of body weight dynamics and general behavior. All animals were maintained under identical care, feeding, and housing conditions throughout the study.*

The results demonstrated that the administration of cobalt-containing cobalamin (cyanocobalamin) at a higher dose led to a stable increase in body weight and improvements in general activity and behavioral parameters. These effects were particularly pronounced during the autumn season, while a relatively slower rate of body weight gain was observed in winter. This phenomenon may be attributed to seasonal factors and thermoregulatory processes.

The findings indicate that cobalt-containing cobalamin (cyanocobalamin) plays an important role in the physiology and behavior of rabbits and that its effects are influenced by seasonal conditions. The obtained data have practical significance for livestock management and experimental biology.

Keywords: *Cobalt-containing cobalamin, cyanocobalamin, rabbits, physiological parameters, body weight, behavior, seasonal effects, experimental study.*

Kirish

Kobalt tutuvchi kobalamin (sianokobalamin) hayvonlarning fiziologiyasi va xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi biologik faol birikma sifatida katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, quyonlarda tana vazni va umumiy faollikni oshirishda uning roli dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Oldingi tadqiqotlar sianokobalaminning hayvonlar organizmida o‘sish, metabolizm va immun javob ko‘rsatkichlariga ta’siri mavjudligini ko‘rsatgan, biroq quyonlarda uning mavsumiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq fiziologik ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan.

Shu bois, maqolaning maqsadi – quyonlarda kobalt tutuvchi kobalaminning tana vazni va xulq-atvor ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlashdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: hayvonlarni nazorat va tajriba guruhlariga ajratish, sianokobalaminni ikki xil dozada in’ektsiya qilish, tana vazni va xulq-atvorini muntazam kuzatish hamda mavsumiy farqlarni tahlil qilish. Olingan natijalar chorvachilik va eksperimental biologiya sohasida amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi kutilmoqda.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar


Yangi Zelandiya qizil ko‘zli zotiga mansub quyonlar tanlab olindi. Hayvonlar uch guruhga bo‘lingan: I – nazorat, II – 2 ml sianokobalamin, III – 1 ml sianokobalamin. Tadqiqot eksperimental tarzda olib borildi. Hayvonlarning tana vazni va xulq-atvori muntazam kuzatildi va guruhlar o‘rtasida taqqoslandi. Olingan ma’lumotlar mavsumiy omillar va termoregulyatsiya bilan bog‘liq ravishda tahlil qilindi[13].

Olingan natijalar va ularning tahlili

Sianokobalamin- antianemik faktor. Kobalaminlar guruhiga kiruvchi biologik faol vitamin B12 birikmasi [1]. Qon ishlab chiqarish faoliyatiga ta’sir qilib, kamqonlikni davolashda qo‘llaniladi [2]. Kobalamin tarkibida tekis tetrapirrol (korrin) mavjud bo‘lib, uning markazida kobalt atomi joylashgan va tanqidiy bog‘langan qismlarga ega. Kobalt monovalent, ikki valentli holatlarda o‘zgarib turadi. Bunda kamaytirilgan, monovalent kobalamin faol shakli hisoblanadi [3]. Kobalt qon hosil bo‘lish jarayonining faollashtiruvchisi bo‘lib, suyak iligida eritrotsitlar hosil bo‘lishini osonlashtiradi, temirning o‘zlashtirilishida ishtirok etadi va shu bilan birga anemiya rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Sianokobalamin tarkibidagi kobalt asab tizimining funksiyalarini tartibga solib, asab hujayralarining himoya miyelin qatlamining oqsil va yog‘ tuzilmalarini qurishda qatnashadi, asabiylashish, charchash, asab kasalliklarining kuchayishini oldini oladi [4]. Uning organizmda so‘rilishi oshqozon shilliq pardasi ajratadigan maxsus oqsil-gastramukoproteid (Kastlning ichki faktori)ga bog‘liq. Usiz sianokobalamin so‘rilmaydi va yomon kamqonlik paydo bo‘ladi [6, 7]. Sianokobalamin organizmda DNK ishlab chiqarilishini qo‘llab quvvatlaydi [8]. U kobamid kofermenti tarkibiga kirib, kobamid kofermentini saqlovchi fermentlar asetillanish reaksiyasi (asetil-koenzim A ning hosil bo‘lishi) ga ta’sir qilib, sirka va pirouzum kislotalarning


biologik oksidlanish jarayonlarini tezlashtiradi [9]. Sianokobalamin (B12 vitamini) yetishmovchiligi natijasida organizmda gomotsistein miqdorining oshishi kuzatiladi. Gomotsisteinning ortishi esa oksidlovchi stress kuchayishiga, hujayra membranalari va biologik makromalekulalarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli sianokobalamin gomotsistein almashinuvini me'yorda ushlab turish orqali antioksidant himoya tizimining barqarorligiga hissa qo'shadi [10, 16, 18].

Shu sababli sianokobalaminning hayvon organizmidagi fiziologik ko'rsatkichlarga ta'sirini eksperimental sharoitda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda sianokobalaminning quyon organizmiga ta'siri eksperimental sharoitda o'rganildi. Tadqiqotda quyonlarning yana og'irligi va o'zini tutishi kabi fiziologik ko'rsatkichlar kuzgi va qishki davrlarda baholandi. Tajriba uchun yangi Zelandiya qizil ko'zli quyonlari tanlab olindi. Quyonlar sog'lom bo'lib ularni 3 tadan qilib I, II, III guruhlarga ajratib olindi. Birinchi guruhdagi quyonlar vazni 1.690 kg dan bo'lib, ular nazorat guruhi hech qanday eksperimental ta'sir qilinmadi. II guruh quyonlar 1.870 kg dan bo'lib, ularga sianokobalaminning 2ml dozasi in'yeksiya qilindi. III guruh quyonlarga sianokobalaminning 1ml dozasi kiritildi. Ularga ovqat, suv miqdori teng miqdorda berib borildi [15, 17, 19].



1-rasm. Kuzgi tajribada quyonlarda kobalt tutuvchi kobalamin (sianokobalamin)ning tana vazniga ta'siri.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, sianokobalamin yuborilgan quyonlarda tana vazni nisbatan tezroq ortgan. II guruh quyonlarda harakatlanish, nafas olish tezlashuvchi kuzatildi. I guruhdagi quyonlarda sianokobalamin miqdori boshqa guruhlarga nisbatan kamligi sabab, ularda tajriba oxirida vazn kamayishi kuzatildi.



2-rasm. Qishki tajribada quyonlarda kobalt tutuvchi kobalamin (sianokobalamin)ming tana vazniga ta'siri.

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, qishki tajribada quyonlarning vaznining o‘sish surati birinchi kuzgi tajribaga nisbatan biroz sekinroq kuzatildi. Bu holat qishki davr sharoitida sutemizuvchilar tanasida termoregulyatsiya (tana haroratini saqlash) jarayonlariga energiya yo‘naltirilgani bilan izohlash mumkin [11].

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalari kobalt tutuvchi kobalamin (sianokobalamin)ning quyonlarda tana vazni dinamikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Qishki sharoitda termoregulyatsiya jarayonlariga energiya sarfi oshishiga qaramay, sianokobalamin yuborilgan quyonlarda tana vaznining barqaror ortishi kuzatildi. Bu holat sianokobalaminning energiya almashinuvi va metabolik muvozanatni saqlashdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Shirinova, I. A., Dzhuraeva, M. M., Almatov, K. T., & Mirakhmedov, A. K. (1992). The effect of ionizing radiation on the phospholipid content of fetal and maternal liver mitochondria at different stages of pregnancy. Radiobiologiia, 32(5), 690-695.

2. Shirinova, I. (2024). RETRACTED: Influence of antihypoxants drugs on respiration and oxidative phosphorylation of rat mitochondria under hypoxia conditions. In BIO Web of Conferences (Vol. 116, p. 02013). EDP Sciences..

3. Shirinova, I. A. (2020). Effect of Antihypoxants on the Energy Metabolism of Mitochondria in Some Rat Organs. Solid State Technology, 63(4), 125-131.4. Sultonova S. F. Kobaltning biologik funksiyasi// O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, 2023. No. 19. -P 1051-1054.

4. Ermatova, S. M., & Shirinova, I. A. (2020). CLARIFICATION TOLERANTMONEY ACTIVITY IN DIFFERENT GROUPS OF HYPOMETABOLISM AGENTS. Theoretical & Applied Science, (6), 488-491.

5. Shirinova, I. A., Niyazmetov, B. A., & Almatov, K. T. (2017). RESEARCH OF BENZONAL'S PROTECTIVE EFFECT ON THE BACKGROUND OF COBRA VENOM (NAJA NAJA OXIANA ECHWALD) EFFECT ON THE MITOCHONDRIAL PHOSPHOLIPID CONTENT. European Journal of Biomedical, 4(04), 136-9.

6. Anvarovna, S. I. (2016). Influence of catacyn and benzonalum on Ca 2+-accumulation capacity of mitochondrion of a liver of the rats poisoning with toxic of a cobra naja naja pxina Echwald. European science review, (7-8), 156-158.

7. Shirinova, I. A. (2016). THE EFFECT OF ASIAN COBRA VENOM ON THE CONTENT OF RAT HEART AND LIVER MITOCHONDRIAL PHOSPHOLIPIDS AND THE PROTECTIVE EFFECT OF BENZONAL. Science and Society, (3-2), 18-24.

8. Shirinova, I. (2024). POISONING PROCESS IN THE BLOOD AND LIVER OF RATS POISONED BY SPECTACLED SNAKE VENOM. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(3), 125-128.

9. Zang U, Jhao Y, Li C, Wang L, Tian F, Jin H. Physiological Immune Response, Antioxidant Capacity anda Lipid Metabolism Changes in Grazing Sheep during the Cold Season // Animals, 2022. Vol 12. Iss 18. Art 2332.

10. Tucker K. L, Degan C. P, Yensen G. L, Peterson K.E, Ross A. C, Touger-Decker R. Modern Nutrition in Health and Disease. 12-nashr-Burlington, M A: Jones § Bartlett Learning, 2024. -B1620.

11. Amjid S, Nisar S, Bhat A. A, Shah A. R, Frenneaux M. P, Fakhro K. A. M. A, Haris M, Reddy R, Patay Z, Baur J, Bagga P. Role of NAD+ in regulating cellular and metabolic signaling pathways// Molekular Metabolism, -2021. Vol 49. Art. 101195

12. Chouikh A, Chenguel A, Ben Ali A. Understanding the Role of Free Radicals, Oxidative Stress, and Antioxidants: A. Comprehensive Review// Letters in Applied NanoBioScience, 2025. Vol 14. No 2, Art 66.

13. Рахматов, О. О., Рахматов, Ф. О., Тухтамишев, С. С., & Худойбердиев, Р. (2019). Дыня древнейшая культурацентральной Азии. In Научные основы развития АПК (pp. 166-168).

14. Артиков, А., Машарипова, З. А., & Рахматов, Ф. О. У. (2020). Автоматизированные расчеты равновесия трехфазной системы в процессе обезвоживание жидкого материала. Universum: технические науки, (12-3 (81)), 24-30.

15. Рахматов, Ф. О., & Рахматов, О. (2023). МЕТОДИКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЕПЛОВОГО БАЛАНСА И АЭРОДИНАМИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ СУШИЛЬНОЙ УСТАНОВКИ. Journal of Agriculture & Horticulture, 3(6), 90-94.

16. Rakhmatov, F. O. (2024). Development of a combined unit for drying melon pulp.

17. Рахматов, Ф. О., & Рахматов, О. (2023). МЕТОДИКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЕПЛОВОГО.

18. Rakhmatov, O., Rakhmatov, F. O., & Rakhmatov, O. O. (2024, December). Laboratory studies of the process of drying melon slices by convective method. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1420, No. 1, p. 012010). IOP Publishing.

19. Rakhmatov, O., Rakhmatov, O., & Rakhmatov, F. (2024). Development and justification of the parameters of a destemmer for dried grapes. In BIO Web of Conferences (Vol. 105, p. 04006). EDP Sciences.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Ergasheva Olimaxon
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, b.f.f.d.
Email: eolimaxon90@gmail.com
Usmanova Yulduz Axmadjon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti, 2-bosqich tayanch doktoranti
Email: usmanovayulduz073@gmail.com

UDK: 631.4

OCH TUSLI BO‘Z TUPROQLARNING UNUMDORLIK HOLATI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada och tusli bo‘z tuproqlarning unumdorlik holatini tekshirish maqsadida taqdqiqot hududidan olingan natijalarning agrokimyoviy xossalarining tahlillari berilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanining Sho‘rtangaz kimyo majmuasi massivi olingan. Shuningdek maqolada tadqiqot hududining tabiiy-geografik joylashuvi, olimlarning och tusli bo‘z tuproqlar haqoda bergan tavsiflari va tuproqning unumdorlik holatini baholashda agrokimyoviy xossalarining, xususan NPK, harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy ko‘rsatkichlarining ahamiyati batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, tuproq unumdorligi, och tusli bo‘z tuproq, gumus, umumiy NPK, harakatchan fosfor, almashinuvchan kaliy.*

Эргашева Олимахон
Доцент Национального университета Узбекистана, д.ф.н.
Усманова Юлдуз Ахмаджановна
Национальный университет Узбекистана, аспирант 2-й курс (PhD)

СОСТОЯНИЕ ПЛОДОРОДИЯ СВЕТЛЫЕ СЕРОЗЕМ ПОЧВ И ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИХ

Аннотация. *В данной статье представлены анализы агрохимических свойств проб, отобранных на исследуемой территории с целью оценки продуктивности светло-серозем почв. В качестве объекта исследования выбран массив химического комплекса Шортангаз Guzorского района Кашкадарьинской области. Кроме того, в статье подробно рассмотрены природно-географическое положение исследуемой территории, описания светло-серозем почв, даны учеными, а также значение агрохимических свойств, в частности показателей NPK, подвижного фосфора и обменного калия, в оценке продуктивности почвы.*

Ключевые слова: *изменение климата, опустынивание, плодородие почвы, светло-серозем почв , гумус, общий NPK, подвижный фосфор, обменный калий*

Ergasheva Olimaxon
Associate Professor at National University of Uzbekistan, Doctor of Philological Sciences (Dr.Phil.Sc.)
Usmanova Yulduz Axmadjon qizi
National University of Uzbekistan, 2nd stage basic doctoral student (PhD)

FERTILITY STATUS OF LIGHT GRAY SEROSEM SOILS AND THEIR EFFICIENT UTILIZATION

Abstract. *This article presents analyses of the agrochemical properties of samples collected from the study area to assess the productivity status of light gray soils. The Shurtangaz chemical complex in Guzor district, Kashkadarya region, was selected as the research object. Additionally, the article details the natural-geographic location of the study area, descriptions of light gray serozem soils provided by scientists, and the significance of agrochemical properties, particularly NPK indicators, mobile phosphorus, and exchangeable potassium in evaluating soil productivity.*

Keywords: *climate change, desertification, soil fertility, light gray serozem soil, humus, total NPK, mobile phosphorus, exchangeable potassium.*

Kirish

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi sharoitida turli mintaqalarda cho‘llanish jarayonlarining kuchayishi va yerlarning degradatsiyasi, shuningdek tuproq hosildorligining pasayishi dolzarb muammolarga aylanmoqda. Shu sababli agrar fan sohasi oldidagi vazifalar juda murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, turli mintaqalar, jumladan arid va agro-landshaftlarda iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish, qishloq xo‘jaligi va yerlardan foydalanishining iqlim o‘zgarishlariga javobini tahlil qilish, yangi iqlim sharoitlariga moslashishning samarali yo‘llarini ishlab chiqish kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston sharoitida so‘nggi 30-50 yil ichida cho‘llanish kuchaydi va joriy asrning o‘rtalariga kelib CO_2 kontsentratsiyasi ikki barobar ortishi hamda o‘rtacha harorat 2,5°C ga ko‘tarilishi kutilmoqda. Shu yo‘nalishda mamlakatimizda tuproq degradatsiyasi bilan kurashish, iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish va tuproq hosildorligini saqlash bo‘yicha bir qator faol ishlar olib borilmoqda [9,10,11,21]. Mamlakatimizda degradatsiyaga qarshi kurshish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish, tuproq unumdorligini saqlash, bioxilma-xillikni asrab qolish maqsadida ushbu masalalar bo‘yicha ilg‘or ilmiy ishlanmalar va innovatsiyalardan foydalangan holda qator vazifalarni bajarish ko‘zda tutilgan [1]. Bundan tashqari mintaqamizda o‘rtacha havo harorati har yili ko‘tarilayotgani natijasida suv tanqisligi, tuproqlardagi sho‘rlanish va degradatsiyani oldini olish hamda qishloq xo‘jaligini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish, issiqxona gazlarining iqlimga salbiy ta’sirini yumshatish maqsadida davlatlar, ekologik jamg‘arma tashkilotlari, FAO va boshqa tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikdagi loyihalar, ajratilgan grandlarni mazkur sohaga yo‘naltirish borasida bir qancha vazifalarning ijrosi masalasi ham ko‘zda tutilgan [2].

Adabiyotlar tahlili

Qashqadaryo viloyati O‘zbekiston Respublikasining janubiy qismida 37^0 58-390 32 shimoliy kenglikda 640 23-67^0 42 sharqiy kenglikda joylashgan bo‘li, uning chegarasining umumiy uzunligi 795 km bo‘lib, shundan 405 km tog‘li maydonlar va 390 km esa tekislikni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatini maydoni g‘arb tomonidan cho‘l zona tuproqlari, shimol va sharq tomonidan Zarafshon, janubiy sharqiy tomondan Hisor tog‘lari bilan o‘ralgan holda chegaralangan. Qarshi cho‘lining och tusli bo‘z tuproqlari Qashqadaryo viloyatining janubiy qismida tarqalgan bo‘lib, 802,7 ming gektarni tashkil etadi. Shundan 185,8 ming gaketari qadimdan sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan yerlar hisoblanadi. Qashqadaryoning g‘arbida G‘uzor tekisligi shimoli-g‘arbida Qarshi cho‘li janubida Nishon cho‘li va janubi - g‘arbda Sandiqli qum cho‘lidan iborat [5,6,7,19,22].

Qashqadaryo viloyati respublikaning janubida joylashgani uchun iqlimi quruq va issiq. 2021-2023 yillarida past harorat yanvarda (o‘rtacha +$2,6^0$C) bo‘lib, eng yuqori harorati 31,9^0C-32,2^0C. Yog‘inning ko‘p qismi yanvar, fevral va mart oylarida 19,8; 11,3 va 49,9 mm, yillik miqdori 137,6 mm ni tashkil qiladi [21].

Och tusli bo‘z tuproqlar zonaning ancha quruq (arid) mintaqasida tarqalgan tipcha bo‘lib, cho‘l zonasi bilan tutashgan quyi qismida odatda dengiz sathidan 300-400 metrdan 500-600 metrgacha balandliklarda joylashgan. Och tusli bo‘z tuproqlar Qoratov yonbag‘irlarida, Mirzacho‘l va Qarshi cho‘llarida, Farg‘ona vodiysi, Zarafshon vohasining o‘rta qismi, Surxondaryo havzalarining tog‘ tizmalarining quyi qismlarida, tog‘oldi qiya tekisliklari va adirlarida uchraydi. Ular O‘zbekistonda 2191,9 ming gektarni yoki umumiy maydonning 4,9 % ini egallaydi [20].

N.T. Muravyevaning ilmiy ishlarida 5 ta agrotuproq jarayonlariga tavsif berib, shulardan ikkitasi: och tusli bo‘z tuproqlar tarqalgan Qarshi, G‘uzor va cho‘l mintaqasi tuproqlari tarqalgan Quyi Qashqadaryoni ham agrotuproq rayonlari deb aytib o‘tgan [14,16].

Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar lyoss va lyossimon qumoq allyuvial yotqiziqlaridagi keng to‘lqinsimon tekisliklarda, kam holatlarda konus yoyilmalarida tarqalgan. Uzoq davr sug‘orilishi natijasida ularning katta qismi yarim gidromorf va gidromorf tuproqlarga aylangan. Huddi shunday qarashdagi och tusli bo‘z tuproqlar agroirrigatsion qatlamni mavjudligi bilan farqlanadi. Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar odatda tekislangan yuzani egallaydi, shuning uchun ham irrigatsion eroziya buyerda kam sodir bo‘ladi va faqat kuchsiz darajada kuzatiladi. Mexanik tarkibi bo‘yicha tog‘ osti tekisliklari tuproqlari o‘rta va yengil qumoqli, ba’zida kuchsiz skeletli va kuchsiz gipslashgan, konus yoyilmalarda esa, o‘rta va og‘ir qumoqli, 1-2 metr chuqurlikdan shag‘al yotqizilgan. Och tusli bo‘z tuproqlar sho‘rlanishga moyil, sho‘rlanmagan tuproqlar bilan bir qatorda kam va o‘rta sho‘rlanmaganlari uchraydi [3].

Och tusli bo‘z tuproqlar morfologik tuzilishi gumusning kamligi sababli genetik qatlamlarning uncha yaxshi ajralib turmasligi, uncha qalin bo‘lmagan (15-20 sm) chirindili qatlamning mavjudligi, ustki qatlam (3-5 sm) chim bilan qoplanganligi bilan harakterlanadi. Och tusli bo‘z tuproqlar tarqalgan yerlarda kam gumusli gorizont (A+B) ning qalinligi 40 sm dan oshmaydi, shundan chirindili qatlam o‘rtacha 20 sm atrofida bo‘lib, ustki qatlam 3-5 sm ni tashkil etdi. Adabiyotlarda berilgandek, och tusli bo‘z tuproqlarning o‘ziga xos xususiyati, tarkibida chirindi kam, lekin cho‘l tuproqlariga qaraganda chimli gorizontda chirindi ko‘proq bo‘ladi [20].

Tuproqdagi yalpi azot miqdori bevosita gumus miqdoriga bog‘liq, ya’ni organik moddalarga boy tuproqlarda azot ancha ko‘p bo‘ladi, lekin kaliyning miqdori asosan tuproq mineral qismining granulometrik tarkibi va ona jinsga bog‘liq ravishta o‘zgaradi.

Tuproq unumdorligini oshirish va o‘g‘itlardan oqilona foydalanishda harakatchan azot, fosfor va kaliy miqdorlarini aniqlash uchun o‘tkaziladigan agrokomyoviy tekshiruvlar muhimdir [17,18].

N.T. Muravyeva va Z.B. Selitrennikovalarning ma'lumotlariga ko'ra: och tusli va tipik bo'z tuproqlar tarqalgan yerlarda gumus hosil bo'lish jarayonlari katta miqdorda yangi hosil bo'lgan gumin kislotalarining to'planishi bilan kuzatiladi, so'ngra ular ham harakatli shakllarga, guruhlarga bo'linadi. Och tusli, tipik bo'z tuproqlar guminlarning tipi gumat-fulvatlidir [13,15].


O'simliklar o'zlashtira oladigan oziq moddalar miqdori tuproqning tipi, madaniylashganlik darajasi, yetishtiriladigan ekin turi va kiritiladigan o'g'it miqdori bilan uzviy bog'liqdir [20].

Pavloniya daraxti O'zbekiston iqlim sharoiti uchun mos va istiqbolli, manzarali o'simliklardan bo'lib issiqqa, sho'rga chidamliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi [2]. Ilmiy izlanishlari natijasida olimlar tomonidan pavloniya daraxtining sovuqqa chidamliligi, tez o'suvchanligi, turli iqlim sharoitlariga moslanuvchanligi, yog'ochining mustahkamligi, sifatligi va bargining yutish sathi kattaligi hisobiga sanoatlashgan hududning ekologik holatini yaxshilashga ya'ni issiqxona effekti ta'sirlarini yumshatishga xizmat qilishini takidlab o'tishgan [8].


Tadqiqot metadologiyasi. Tadqiqot obyekti Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani (Sho'rtangaz kimyo majmuasi hududi) och tusli bo'z tuproqlari. Dala tadqiqotlarida tuproq na'munalarini tayanch nuqtalardan va genetik qatlamlardan olish, shuningdek laboratoriya tahlili (O'zPITI. Toshkent, 2007) «Dala tajribalarni o'tkazish uslublari» bo'yicha; Ye.V. Arinushkinaning «Руководство по химическому анализу почв» (Moskva, 1970) va «Методика агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах». Tuproqdagi gumus miqdori "Tyurin" usulida GOST 26213-91 asosida, tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliyni Machigin-Protasov usulidan foydalanildi.

Tadqiqot hududidan gorizont qatlamlaridan tuproq kesmalari olinganda bu yanada o'z isbotini topdi. Sho'rtangaz kimyo majmuasi hududi atrofiga 2024 yil pavloniya yosh ko'chatlari ekilgan va ushbu maydondan tuproq na'munalari olinib, uning, fizik va kimyoviy xossalari o'rganildi [4,12].

Tadqiqot natijalari va muhokamalar. Tadqiqot maqsadining vazifalaridan biri sifatida sanoatlashgan hudud tuproqlarining agrokimyoviy xossalari ham alohida o'rin egallagan (1,2,3 rasmlar). Olingan natijalar asosida, chimli qatlamda gumus miqdori minimum 0,42 % dan maksimum (0-13-20-35 sm qatlamlarda) 1,404 %, o'rtacha 0,624 % ni ko'rsatdi. Pastki qatlamlarga tomon bu qiymat (38-65 sm dan 100-116 sm qatlamlarda) 0,408%-0,324% gacha pasayib borgan (1-rasm). Chirindining kam bo'lishiga sabab, tuproqda, ya'ni uning ustki chim qatlamlarida o'simlik qoldiqlari kam to'planganligi va hudud arid zona bo'lganligi sababli gidrotermik rejim qulay bo'lgan davrlarida (may-iyun-iyul) organik qoldiqlar tez parchalanib ketadi. Pavloniya ko'chatlari ekilgani hisobiga maydonga tomchilatib sug'orish tizimi o'rnatilgan, shu sabab, 50 sm qatlamdan pastki qatlamlarga qadar tuproqda kuchsiz nam to'plangan.




1-rasm. Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanining och tusli bo'z tuproqlarining agrokimyoviy xossalari (Gumus, %)



2-rasm. Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanining och tusli bo‘z tuproqlarining agrokimyoviy xossalari (umumiy NPK, %)

Yalpi NPK miqdorlarini o‘zaro solishtiradigan bo‘lsak, olingan natijalar asosida, quyidagi ko‘rsatkichlar olindi. Ustki gorizontlarda (0-13-20 sm) yalpi azot 0,0532-0,0728% atrofida, yalpi fosfor 0,473-0,675% gacha, yalpi kaliy esa 0,75-1,224% ni tashkil etdi. Yalpi NPK miqdorlari pastki qatlamlar (25-100 sm)ga tomon kamayib borganligi kuzatildi (2-rasm).

Harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliyni natijalari esa quyidagicha bo‘ldi: Harakatchan fosfor (P_2O_5) 0-13-20 sm qatlamlarda juda past 8,22-13,05 mg/kg ta’minlangan; 50-90-120 sm qatlamlarda ham juda past 4,22-5,39 mg/kg gacha ta’minlangan. Almashinuvchan kaliy (K_2O) natijalari esa, 0-13-20 sm qatlamlarda o‘rtacha 208-211 mg/kg, past 153-160 mg/kg atrofida ta’minlangan; 50-90-120 sm qatlamlarda juda past 53-93 mg/kg, past 123-180 mg/kg gacha ta’minlangan; (3-rasm)



2-rasm. Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanining och tusli bo‘z tuproqlarining agrokimyoviy xossalari (haraktchan fosfor, almashinuvchan kaliy)

Tuproqdagi fosfor va kaliyni mobil (harakatchan) turini aniqlashdan sabab, rejalashtirilayotgan hosilni olishda avvalambor aynan umumiy (yalpi) holatdagisi emas balki, harakatchan holatdagi hisobga olinadi. Tuproqda esa oziq moddalar asosan o‘zlashtira olmaydigan holatda bo‘ladi. Oziq moddalarning yalpi miqdorlari faqat tuproqning potensial unumdorligni ifodalaydi. Samarali unumdorligiga esa oziq modddalarning harakatchan turi javobgar. Olingan natijalardan ma’lumki, yuqori va pastki qatlamlarga qadar harakatchan fosfor bilan juda past ta’minlangan, almashinuvchan kaliy bilan ham past va o‘rtacha ta’minlanganligi sabab, qo‘shimcha o‘simlikni oziqlantirish majburiyatini beradi.

Xulosa

Iqlim o‘zgarishi sharoitida yerlarning degradatsiyaga uchrashi va turli mintaqalarda cho‘llanish jarayonlarining tobora kuchayib borayotgani bevosita tuproq unumdorligiga ta’sir qiladi. Tuproq unumdorligini oshirish va o‘simliklar

oziqlanishi uchun harakatchan azot, fosfor va kaliy miqdorlarini aniqlash uchun o‘tkaziladigan agrokimyoviy tekshiruvlar muhim sanaladi. Tadqiqot hududidan olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Sho‘rtangaz kimyo majmuasi hududidagi yerlar avval qo‘riq yerlar hisoblangani va dehqonchilik maqsadida foydalanilmaganligi uchun agrokimyoviy ko‘rsatkichlar ancha past natijalarni bergan. Tuproqdagi gumus miqdori past chiqqanligiga sabab, tuproqning ustki chim qatlamlarida o‘simlik qoldiqlari kam to‘plangan, bundan tashqari natijalarda yalpi azotning kamligining sababi, azot gumusga bog‘liqligi uchun, shunga muvofiq past ko‘rsatkichni bergan. Hudud arid zona bo‘lganligi sababli gidrotermik rejim qulay bo‘lgan davrlarida organik qoldiqlar tez parchalanib ketgani hisobiga oziq moddalar bir-biriga bog‘liq ravishta ancha past ko‘rsatkichlar qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 10-iyundagi “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yuritish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-277 son qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-iyundagi “Iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-233 son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi tuproq qoplanmlari Atlasi. O‘zbekiston Respublikasi yer resusrlari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi. – Toshkent, 2010. B. 23-25
4. Аринушкина Е.В. Руководство по химическому анализу почв // 2-е изд. -М.: МГУ, 1970. –487 с.
5. Bobonorov R. Qarshi cho‘li tuproqlari geografiyasi, ularning meliorativ xolati, ekologik tasnifi. O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 23 jild. Toshkent 2003. – B. 87-89.
6. Boboyev F.F. Qashqadaryo vohasi tuproqlarining agrokimyoviy holati va o‘simlikni o‘sishi uchun kerakli oziq moddalar miqdorini aniqlash usullari (Qarshi tumani misolida). Central Asian Journal of education and innovation. Vol.3 Issue 2, part 2/2024 February. -P. 9-12
7. Eshnazarov Sh.N., Ergasheva O.X. Qashqadaryo viloyati tuproqlarining tabiy-iqlim sharoiti. “O‘zbekistonda Ilmiy-amaliy tadqiqotlar “ mavzusidagi respublika 33-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari. 22-qism, Oktabr-2021. Toshkent.
8. Gafurova L.A., Ergasheva O.X., Usmanova Y.A., Global iqlimm o‘zgarishi sharoitida uglerod neytralligiga erishishdqagi agrobiotexnologiyalar. O‘zbekiston agrar xabarnomasi №5 (23) 2025. – B. 113-116
9. Gafurova L.A., Ergasheva O.X. Bioindication in ecological assessment of eroded soils in mountain areas // Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 2, 2020, – P. 288-291
10. Gafurova N.E., Ergasheva O., Shirinova, R.K. Legal Aspects and Problems of Ensuring Food Security: Foreign and National ExperienceLecture Notes in Networks and Systems, 2024, 857 LNNS, – P. 284–292
11. Juliev M., Gafurova L., Ergasheva O., Ashirov M., Khoshjanova K., and Mirusmanov M. Land Degradation Issues in Uzbekistan. Earth and Environmental Sciences Library. ISSN 2730-6674 ISSN 2730-6682 (electronic) Earth and Environmental Sciences Library, –P. 163-176
12. «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах» СоюзНИХИ. Ташкент 1963, – С. 270-274
13. Муравьева Н.Т., Селитренникова З.Б. Особенности гумусообразования в основных почвах Узбекистана. /В кн.: География и классификация почв Азии. М.: Наука 1965, - с. 65
14. Муравьева Н.Т. Агропочвенное районирование орошаемых и возможных к орошению земель Кашкадарьинской области. В кн. Часть-I. Ташкент, изд. САГУ, 1959. - С. 174-197
15. Ochilov S.Q. Qashqadaryo vohasi sug‘oriladigan tuproqlarning kimyoviy xossalari, gumusli holati va unumdorligini oshirish yo‘llari. b.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. – Farg‘ona 2019, -18 b.
16. Qurbonov M.M. Qashqadaryoning konus yoyilmalaridagi degradatsiyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini oshirish yo‘llari. b.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. – Toshkent 2022, -15 b.
17. Musayev B.S. Agrokimyo. Darslik. «Sharq nashriyoti» –Toshkent 2001, – B 79-80
18. Saidova M., Yadgarov A., Kodirova D., Kuchkarova N., Ergasheva O. Reclamation status of irrigated grass-alluvial soils based on geoinformation systems in Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Vol. 563. – p. 03042
19. Tursunov L., Bobonorov R., Vakilov A., Yusupov S. Qashqadaryo havzasi hududi tuproqlari. Toshkent 2008. – B. 8-27
20. Xoliqulov Sh., Uzoqov P., Boboxo‘jayev I. Tuproqshunoslik. Darslik. –Toshkent 2013, «N.Doba» XT matbaa bo‘limi, – B. 430-431
21. Xoliqova S.N. Qo‘riq och tusli bo‘z tuproqlar xossalarining hozirgi holati va ulardan samarali foydalanish yo‘llari Qashqadaryo viloyati G‘uzor massivi misolida). b.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dis. Avtoreferati. – Farg‘ona 2025, – 10 b.

22. Usmanova Y.A., Xurramov J.F., Ergasheva O.X. Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani och-tusli bo‘z tuproqlarning tabiiy-iqlim sharoiti. Yangi O‘zbekiston: ilmiy tadqiqotlar 2-qism. Toshkent, Noyabr 2025. -B. 194-196

23. Усманова Ю., Хайруллаева С. Изменение климата и адаптационные технологии по углеродному земледелию: состояние и перспективы // ФГБНУ ФИЦ «Почвенный институт им. В.В. Докучаева» «Материалы Международной научной конференции XXVII Докучаевские молодежные чтения «Информационная емкость знаний о почве» / Под ред. Б.Ф. Апарина. – СПб., 27-февраля-1 марта 2025 года. Санкт-Петербург, – С. 172-173

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Xayitbayev Azamat Madaminovich
Namangan davlat universiteti, tayanch doktoranti
Impuls tibbiyot instituti o‘qituvchisi
xayitbayevazamat1317@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-5481-837.
Bakiyeva Muazzam Sharifjonovna
Namangan davlat universiteti PhD, dotsent
Xasanova Dilfuza Yuldashaliyevna
Namangan davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi
Raxmanov Boburjon Dilshodjon o’g’li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitet,tayanch doktoranti
Esanov Raxmat Sulton o’g’li
O‘zFA Bioorganik kimyo instituti
Matchanov Alimjon Davlatbayevich
O‘zFA Bioorganik kimyo instituti

PYRUS PYRASTER MEVASIDAN OLINGAN EKSTRAKTNING AORTA SILLIQ MUSKULLARI QISQARISHIGA VAZORELAKSANT TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu ishda yovvoyi nok (*Pyrus pyraster*) mevasidan olingan ekstraktning izolyatsiya qilingan kalamush aortasi silliq mushaklarining qisqarish faolligiga ta’siri hamda uning o‘tkir toksikligi baholandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekstrakt KCl va fenilefrin yordamida chaqirilgan aorta qisqarishlariga nisbatan yaqqol dozaga bog‘liq vazorelaksant ta’sir ko‘rsatdi.* Pyrus pyraster *ekstrakti KCl-induksiyalangan qisqarish sharoitida maksimal bo‘shashish samarasi 84±3,5% ni, IC_{50} qiymati esa 86 mkg/ml ni tashkil etdi. Fenilefrin ta’sirida esa ekstrakt qisqarish faolligini 95,0±3,4% gacha kamaytirdi. Olingan natijalar tomir kengaytiruvchi ta’sirni yuzaga chiqarishda kalsiyga bog‘liq mexanizmlarning ishtirok etishi mumkinligini ko‘rsatadi.* Pyrus pyraster *ekstraktining OECD 420 metodikasiga muvofiq baholangan o‘tkir peroral toksikligi 5000 mg/kg dozada letal holatlar kuzatilmaganini (LD_{50} > 5000 mg/kg) ko‘rsatdi, bu esa uni nisbatan xavfsiz moddalarga kiritish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: Pyrus pyraster*; yovvoyi nok; meva ekstrakti; izolyatsiya qilingan aorta; vazorelaksant ta’sir; silliq mushaklar; kalsiy kanallari; KCl; fenilefrin; o‘tkir toksiklik.*

Xayitbayev Azamat Madaminovich
Namangan State University PhD student
Lecturer at Impuls Medical Institute
xayitbayevazamat1317@gmail.com
Bakiyeva Muazzam Sharifjonovna
Namangan State University PhD, Associate Professor
Khasanova Dilfuza Yuldashaliyevna
Namangan State University Researcher
Rakhmanov Boburjon Dilshodjon ugli
PhD student (Doctoral candidate), Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan
Esanov Rakhmat Sulton ugli
Institute of Bioorganic Chemistry, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Matchanov Alimjon Davlatbayevich
Institute of Bioorganic Chemistry, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

VASCULAR RELAXANT EFFECT OF PYRUS PYRASTER FRUIT EXTRACT ON AORTIC SMOOTH MUSCLE CONTRACTION

Abstract. *This study investigated the effect of the fruit extract of wild pear* Pyrus pyraster *on the contractile activity of smooth muscles of isolated rat aorta, as well as assessed its acute toxicity. The extract was found to exert a pronounced dose-dependent vasorelaxant effect on aortic contractions induced by KCl and phenylephrine. In* Pyrus pyraster *extracts, during KCl-induced contraction, the maximum relaxation effect reached 84±3.5%, with an* IC_{50} *value of 86 μg/mL. Under phenylephrine-induced contraction, the extract reduced contractile activity by up to 95.0±3.4%. The obtained results indicate a possible involvement of calcium-dependent mechanisms in the realization of the vasodilatory effect. Acute oral toxicity of the* Pyrus pyraster *extract, evaluated according to the OECD 420 guideline, revealed no lethal outcomes at a dose of 5000 mg/kg (*LD_{50} *> 5000 mg/kg), allowing it to be classified as a relatively non-toxic substance.*

Keywords*: Pyrus pyraster; wild pear; fruit extract; isolated aorta; vasorelaxant effect; smooth muscles; calcium channels; KCl; phenylephrine; acute toxicity.*

Хайитбаев Азамат Мадаминович
Докторант (PhD),Наманганский государственный университет;
Преподаватель Медицинского института «Impuls»
Бакиева Муаззам Шарифжоновна
Доктор философии (PhD), доцент, Наманганский государственный университет
Хасанова Дилфуза Юлдашалиевна
Научный сотрудник, Наманганский государственный университет
Рахманов Бобуржон Дилшоджон угли
Докторант (PhD), Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека.
Эсанов Рахмат Султон угли
Институт биоорганической химии, Академия наук Республики Узбекистан
Матчанов Алимжон Давлатбаевич
Институт биоорганической химии, Академия наук Республики Узбекистан

ВАЗОРЕЛАКСАНТНОЕ ДЕЙСТВИЕ ЭКСТРАКТА ПЛОДОВ *PYRUS PYRASTER* НА СОКРАЩЕНИЕ ГЛАДКИХ МЫШЦ АОРТЫ

Аннотация. *В работе изучено влияние экстракта плодов дикорастущей груши* Pyrus pyraster *на сократительную активность гладких мышц изолированной аорты крыс, а также проведена оценка его острой токсичности. Установлено, что экстракт оказывает выраженное дозозависимое вазорелаксантное действие на сокращения аорты, индуцированные KCl и фенилэфрином. В экстрактах Pyrus pyraster при KCl-индуцированном сокращении максимальный эффект расслабления составил 84±3,5%, значение* IC_{50} *— 86 мкг/мл. При действии фенилэфрина экстракт снижал сократительную активность до 95,0±3,4%. Полученные результаты указывают на возможное участие кальций-зависимых механизмов в реализации сосудорасширяющего эффекта. Острая пероральная токсичность экстракта Pyrus pyraster, оценённая по методике OECD 420, показала отсутствие летальных исходов при дозе 5000 мг/кг (*LD_{50} *> 5000 мг/кг), что позволяет отнести его к относительно безвредным веществам.*

Ключевые слова: *Pyrus pyraster; дикорастущая груша; экстракт плодов; изолированная аорта; вазорелаксантное действие; гладкие мышцы; кальциевые каналы; KCl; фенилэфрин; острая токсичность.*

Введение. Сердечно-сосудистые заболевания остаются одной из ведущих причин заболеваемости и смертности, что обусловливает актуальность поиска новых фармакологически активных веществ, способных влиять на регуляцию сосудистого тонуса. В последние годы особое внимание уделяется природным соединениям растительного происхождения, которые благодаря многокомпонентному химическому составу проявляют комплексное биологическое действие и характеризуются сравнительно низкой токсичностью [1,2].

Сократительная активность гладких мышц сосудов регулируется сложными кальций-зависимыми механизмами, включающими потенциал-зависимые и рецептор-управляемые Ca^{2+}-каналы, а также внутриклеточные сигнальные пути, опосредованные вторичными мессенджерами. Нарушение этих процессов лежит в основе развития сосудистых дисфункций, включая артериальную гипертензию [3–5]. В связи с этим вещества, способные модулировать кальциевый гомеостаз в гладкомышечных клетках, рассматриваются как перспективные средства для коррекции сосудистых нарушений.

Растения рода *Pyrus* традиционно используются в народной медицине и представляют интерес как источник фенольных соединений, в том числе флавоноидов, обладающих антиоксидантной и вазоактивной активностью. В

ранее опубликованном исследовании флавоноидного состава плодов дикорастущей груши *Pyrus pyraster*, произрастающей в юго-восточной части Бахмальского района Джизакской области Республики Узбекистан, методом ВЭЖХ-ДАД было установлено наличие биологически активных флавоноидов, включая рутин и изокверцетин, что подтверждает фармакологический потенциал данного растительного сырья [6].

Несмотря на наличие данных о химическом составе, сведения о влиянии экстрактов плодов *Pyrus pyraster* на функциональное состояние сосудистой стенки, а также об их безопасности при пероральном применении остаются недостаточно изученными. В связи с этим актуальным является комплексное исследование сосудистой активности экстракта плодов *Pyrus pyraster* в эксперименте *in vitro* с одновременной оценкой его острой токсичности *in vivo*.

Целью настоящей работы явилось изучение влияния экстракта плодов *Pyrus pyraster* на сократительную активность гладких мышц изолированной аорты крыс при сокращениях, индуцированных KCl и фенилэфрином, а также определение показателей острой пероральной токсичности 40%-ного экстракта.

Материалы и методы

Объекты исследования

Объектом исследования являлся экстракт, полученный из плодов дикорастущей груши *Pyrus pyraster*. Экспериментальные исследования выполнены на белых беспородных самцах крыс массой 200–250 г, а также на белых беспородных самцах мышей массой 22±2 г. Все эксперименты с лабораторными животными проводились в соответствии с действующими методическими рекомендациями по доклиническим исследованиям лекарственных средств и международными требованиями к работе с экспериментальными животными [7,8].

Исследование сократительной активности изолированной аорты крыс

После эвтаназии животных методом цервикальной дислокации выделяли грудную аорту, освобождали её от соединительной ткани и нарезали на кольца длиной 3–4 мм. Аортальные кольца помещали в органную камеру объемом 5 мл, заполненную раствором Кребса–Хензелейта следующего состава (ммоль/л): NaCl – 120,4; KCl – 5,0; $NaHCO_3$ – 15,5; NaH_2PO_4 – 1,2; $MgCl_2$ – 1,2; $CaCl_2$ – 2,5; глюкоза – 11,5; HEPES; pH 7,4. Температуру поддерживали на уровне 37 °C, раствор постоянно аэрировали карбогеном (95% O_2 и 5% CO_2) [1].

Изометрическое сокращение регистрировали с использованием изометрического датчика, подключенного к системе цифровой регистрации. Исходное натяжение аортальных колец устанавливали эквивалентным 1 г (10 mN). Перед началом эксперимента препараты стабилизировали в течение 60 мин с периодической сменой раствора [1].

Сократительную активность гладких мышц аорты индуцировали добавлением KCl (50 мМ) либо фенилэфрина. После достижения стабильного плато сокращения в органную камеру вносили экстракт *Pyrus pyraster* в возрастающих концентрациях. Амплитуду сокращений выражали в процентах по отношению к исходному ответу, принятому за 100%. Для количественной оценки эффекта рассчитывали значение IC_{50} [1,3–5].

Оценка острой токсичности

Острую пероральную токсичность 40%-ного экстракта *Pyrus pyraster* определяли на белых беспородных мышах в соответствии с руководством OECD 420 (Fixed Dose Procedure) [6]. Экстракт вводили однократно перорально с помощью желудочного зонда в дозе 5000 мг/кг массы тела, объем введения составлял 0,5 мл.

После введения препарата животных наблюдали в течение первых 4 часов, а затем ежедневно на протяжении 14 суток. Оценивали общее состояние, поведение, двигательную активность, характер дыхания, состояние кожно-шерстного покрова, а также динамику массы тела. Летальность и выраженные признаки интоксикации фиксировали в течение всего периода наблюдения [6–8].

Статистическая обработка

Полученные экспериментальные данные обрабатывали методом вариационной статистики с использованием программного обеспечения OriginPro. Результаты представлены в виде среднего значения и стандартной ошибки среднего (M±m). Статистическую значимость различий оценивали при уровне $p<0,05$ [1].

Результаты и их анализ

Влияние экстракта *Pyrus pyraster* на KCl-индуцированные сокращения аорты

В первой серии экспериментов изучали влияние экстракта плодов *Pyrus pyraster* на сократительную активность изолированной аорты крыс, индуцированную KCl (50 мМ). Известно, что деполяризация мембраны гладкомышечных клеток под действием KCl приводит к активации потенциал-зависимых кальциевых каналов и увеличению внутриклеточной концентрации Ca^{2+}, что сопровождается развитием устойчивого сокращения [1,3].

Добавление экстракта *Pyrus pyraster* в органную камеру вызывало выраженное дозозависимое снижение амплитуды KCl-индуцированного сокращения. При концентрации 10 мкг/мл наблюдалось незначительное уменьшение сократительной активности, тогда как при увеличении концентрации экстракта до 84 мкг/мл степень расслабления достигала 84±3,5%. Расчётное значение IC_{50} составило 86 мкг/мл. Полученные данные свидетельствуют о способности экстракта эффективно подавлять кальций-зависимую компоненту сокращения гладких мышц сосудов.




Рис. 1. Концентрационно-зависимое влияние экстракта плодов Pyrus pyraster на KCl (50 мМ)-индуцированное сокращение изолированной аорты крыс (M±m, n=5).

Влияние экстракта *Pyrus pyraster* на фенилэфрин-индуцированные сокращения аорты

Во второй серии экспериментов исследовали действие экстракта *Pyrus pyraster* на сокращения аорты, индуцированные фенилэфрином — агонистом α_1-адренорецепторов, активирующим рецептор-опосредованные механизмы повышения внутриклеточного Ca^{2+} [4,5].

Установлено, что экстракт также оказывал выраженное дозозависимое вазорелаксантное действие. При концентрации 100 мкг/мл степень снижения фенилэфрин-индуцированного сокращения достигала 95,0±3,4%. Выраженность эффекта при данной модели сокращения указывает на участие не только потенциал-зависимых, но и рецептор-управляемых кальциевых механизмов в реализации сосудорасширяющего действия экстракта.




Рис. 2. Влияние экстракта плодов Pyrus pyraster на фенилэфрин-индуцированное сокращение изолированной аорты крыс (M±m, n=5).

Оценка острой токсичности экстракта *Pyrus pyraster*

При исследовании острой пероральной токсичности 40%-ного экстракта *Pyrus pyraster* при дозе 5000 мг/кг летальных исходов у экспериментальных животных не зарегистрировано. В первые 10–30 минут после введения у отдельных животных наблюдались кратковременные функциональные изменения (снижение двигательной активности, учащённое дыхание), которые носили обратимый характер и исчезали в течение первых часов наблюдения.

В течение 14 суток существенных изменений общего состояния, поведения и динамики массы тела у животных не выявлено ($p>0,05$). Полученные результаты позволяют заключить, что значение LD_{50} экстракта

превышает 5000 мг/кг, что соответствует VI классу токсичности — относительно безвредные вещества согласно классификации OECD [6–8].

Таблица 1

Показатели острой пероральной токсичности 40%-ного экстракта Pyrus pyraster у мышей при дозе 5000 мг/кг.

Группы	**Доза мг/кг, мл**	**Общее количество животных / количество погибших животных**	**Средняя масса тела животных (г)**			**LD_{50}, мг/кг**
			1 день	7 дней	14 дней	
Контроль	0,4 мл	5/0	22,2 ± 2,1	22,8 ± 2,4	23,4 ± 2,4	-
40% экстракт *Pyrus pyraster*	5000 мг/кг	5/0	21,9 ± 1,9	22,6 ± 2,3	23,1 ± 2,3	>5000

Примечание: *p<0,05 - по сравнению с контролем

Выводы

Экстракт плодов дикорастущей груши *Pyrus pyraster* проявляет выраженное дозозависимое вазорелаксантное действие на гладкие мышцы изолированной аорты крыс. Установлено, что экстракт эффективно снижает сократительную активность аорты, индуцированную как KCl, так и фенилэфрином, что указывает на его влияние на потенциал-зависимые и рецептор-опосредованные кальций-зависимые механизмы регуляции сосудистого тонуса. Максимальный эффект расслабления при KCl-индуцированном сокращении составил 84±3,5%, при этом значение IC_{50} достигало 86 мкг/мл, тогда как при фенилэфрин-индуцированном сокращении степень расслабления достигала 95,0±3,4%.

Оценка острой пероральной токсичности 40%-ного экстракта *Pyrus pyraster* показала отсутствие летальных исходов при введении дозы 5000 мг/кг, что свидетельствует о значении LD_{50}, превышающем 5000 мг/кг, и позволяет отнести исследуемый экстракт к VI классу токсичности — относительно безвредные вещества. Полученные данные подтверждают перспективность дальнейшего изучения экстракта плодов *Pyrus pyraster* в качестве источника биологически активных соединений с потенциальной сосудистой активностью.

Список использованной литературы

1. Шаманаев А.Ю., Алиев О.И., Анищенко А.М., Сидехменова А.В., Плотников М.Б. Показатели сердечной деятельности у крыс линии SHR до и после установления стабильно высокого артериального давления // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2016. № 4–6. С. 1115–1118.

2. Чуян Е.Н., Миронюк И.С., Бирюкова Е.А., Миронюк И.В., Бирюков А.Н. Показатели сердечно-сосудистой системы крыс при действии ацетилсалициловой кислоты и её комплексных соединений с металлами // Учёные записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. Биология. Химия. 2021. Т. 7 (73). № 3. С. 271–288.

3. Stith B.J. Phospholipase C and D regulation of Src, calcium release and membrane fusion during *Xenopus laevis* development // Developmental Biology. 2015. Vol. 401. No. 2. P. 188–205.

4. Cattaneo F., Guerra G., Parisi M., De Marinis M., Tafuri D., Cinelli M.P., Ammendola R. Cell-surface receptors transactivation mediated by G protein-coupled receptors // International Journal of Molecular Sciences. 2014. Vol. 15. No. 11. P. 19700–19728.

5. Liu Q.-H., Zheng Y.-M., Korde A.S., Yadav V.R., Rathore R., Wess J., Wang Y.-X. Membrane depolarization causes a direct activation of G protein-coupled receptors leading to local Ca^{2+} release in smooth muscle // Proceedings of the National Academy of Sciences of the USA. 2009. Vol. 106. No. 27. P. 11418–11423.

6. OECD. Guideline for the Testing of Chemicals. Acute Oral Toxicity – Fixed Dose Procedure. Test No. 420. Paris: OECD Publishing; 2001.

7. Руководство по проведению доклинических исследований лекарственных средств. Часть первая / под ред. А.Н. Миронова. М.: Гриф и К, 2012. 944 с.

8. Доклиническое исследование лекарственных средств: методические рекомендации / под ред. А.В. Стефанова. Киев, 2002. 587 с.

9. Рахмонов Б., Эсанов Р., Рахматова М., Матчанов А. Флавоноидный состав *Pyrus pyraster* из юго-восточной части Бахмальского района Джизакской области Республики Узбекистан // O‘zMU xabarlari (Acta NUUz). 2025. № 3/1/1. С. 364–367.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

I.I.Abdullayev
b.f.d., professor, Xorazm Ma'mun akademiyasi. Xiva
H.O'.Jumanazarov
(PhD) Xorazm Ma'mun akademiyasi. Xiva
M.F.Sultonov
Xorazm Ma'mun akademiyasi. Xiva

UO'K: 574.3:595.

XORAZM VILOYATI PIYOZ AGROSENOZLARIDA COLEOPTERA (QATTIQ QANOTLILAR) TURKUMI VAKILLARINING O'RNI.

Annotatsiya: *Ushbu maqoladda piyoz va sarimsoq piyoz agrosenozida uchraydigan Coleoptera turkumi vakillarining kompleks tur tarkibi va entomofaglarining bioekologik hususyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Coleoptera, kompleks, Hippodamia variegata Goeze, Coccinella septempunctata Linnaeus, Coccinella septempunctata Linnaeus, Scymnus frontalis, Scymnus subvillosus Goeze, Hippodamia tredecimpunctata Linnaeus, Adalia decimpunctata.*

И.И. Абдуллаев
Ph.D., профессор, Академия Хорезм Мамун. Хива
Н.О'. Жуманазаров
(PhD) Академия Хорезм Мамун. Хива
М.Ф. Султонов
Академия Хорезм Мамун. Хива

РОЛЬ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ОТРЯДА КОЛЕОРТЕРА (QATTIQ QANOTLILAR) В ЛУКОВЫХ АГРОЦЕНОЗАХ ХОРЕЗМСКОГО РЕГИОНА.

Аннотация: *В данной статье приведены данные о комплексном видовом составе представителей отряда Coleoptera и биоэкологических особенностях энтомофагов, встречающихся в агроценозе лука и чеснока.*

Ключевые слова: *Coleoptera, комплекс, Hippodamia variegata Goeze, Coccinella septempunctata Linnaeus, Scymnus frontalis, Scymnus subvillosus Goeze, Hippodamia tredecimpunctata Linnaeus, Adalia decimpunctata.*

I.I.Abdullayev
Ph.D., Professor, Academy of Khorezm Mamun. Khiva
H.O'. Jumanazarov
(PhD) Khorezm Mamun Academy. Khiva
M.F.Sultonov
Khorezm Mamun Academy. Khiva

THE ROLE OF REPRESENTATIVES OF THE ORDER COLEORTERA (QATTIQ QANOTLILAR) IN ONION AGROCENOSES OF KHOREZM REGION.

Abstract: *This article provides information on the complex species composition of Coleoptera representatives and the bioecological characteristics of entomophages found in the agroecosystem of onion and garlic.*

Keywords: *Coleoptera, complex, Hippodamia variegata Goeze, Coccinella septempunctata Linnaeus, Scymnus frontalis, Scymnus subvillosus Goeze, Hippodamia tredecimpunctata Linnaeus, Adalia decimpunctata.*

Kirish. Bugungi kunda dunyoda piyoz va sarimsoq piyoz o'simligining entomo kompleks tur tarkibini hamda o'simlikning xavfli fitofaglarning soni doimiy ravishda o'sib bormoqda. Bundan tashqari, millionlab zarar keltiradigan

zararkunandalarning ommaviy ko‘payishi deyarli har yili qayd etiladi. Piyoz va sarimsoq piyoz plantatsiyalarida ular zararlanishning chegaraviy darajasidan oshib, favqulodda vaziyat darajasiga yetadi.

Mahsuldorlikni saqlashda zararli organizmlarni samarali va xavfsiz usullarda nazorat qilish piyoz va sarimsoq piyoz o‘simligining himoya qilishning ekologik tizimining asosiy elementlaridan biridir. Oqilona himoya choralari va ularni rejalashtirish piyoz, sarimsoq piyoz va uning almashlab ekiladigan ekinlarining fitosanitariy holatiga bog‘liq. Bunda asosiy ko‘rsatkichlar piyoz, sarimsoq piyozning asosiy fitofaglarning tarqalishi va zarar yetkazish darajasidir. Fitofaglar nafaqat hosildorlikni kamaytiradi, balki piyoz va sarimsoq piyozning sifati ham keskin pasayadi. Zararkunandalar o‘rtacha 20-25% o‘simliklarga zarar yetkazadi, ommaviy zararlanishda bu ko‘rsatkich 50% dan oshadi.[1,2]

Tadqiqot metodologiyasi: Foydali va zararli hasharotlarni muntazam monitoring qilish tadqiqotlari kuzatuv va belgilangan uslublar asosida amalga oshirildi. Entomofaglar statsionar uchastkalardan va marshrut izlanishlari jarayonida yig‘ildi. Yig‘ilgan materiallar laboratoriya sharoitida aniqlanib, sistematik holga keltirildi hamda ayrim entomofaglar imago oldi fazalaridan voyaga yetgan hasharot chiqqunga qadar laboratoriya sharoitida parvarish qilindi.

Hasharotlarning sistematik o‘rnini aniqlashda sohaga oid qator aniqlagichlar va ilmiy manbalardan foydalanildi. Jumladan, O‘zbekistonda uchrovchi hasharotlar bo‘yicha F.A.G‘opporov va b, Sh.T.Xo‘jaev va M.J.Medetov , N.N.Vinokurov va b. B.Jumanov tadqiqot natijalari hasharotlar tur tarkibini aniqlashga yordam berdi. Zarur hollarda turlarni aniqlashda onlayn-aniqlagichlardan ham foydalanildi.[3,4]

Tadqiqotlar davomida yig‘ilgan hasharotlar 70 % li etil spirtida saqlanib borildi va Xorazm Ma’mun akademiyasi laboratoriyasida turlar identifikatsiya qilindi. Piyoz zarakunandalarining turli bosqichlarida biologik, fenologik rivojlanishi va dinamik miqdorini aniqlash tadqiqotlari G.Ye. Osmolovskiy, B.V. Dobrovolskiy, L.P. Berger, V.N. Burov uslublari, hasharotlar ekologiyasining aspektlari V.V.Yaxontov uslublari asosida amalga oshirildi.[5]

Tahlil va natijalar: Sabzavot o‘simliklar ayniqsa ozuqaviy qiymat va foydalanish nuqtai nazarida yuqori o‘rinda turuvchi piyoz va sarimsoq piyoz o‘simligini Entomo kompleks tur tarkibini o‘rganish qadimdan keng jamoatchilikni va olimlarni qiziqtirib kelgan. Bu to‘g‘rida ko‘plab tadqiqotlar va fikr-g‘oyalar qo‘llanilgan. Entomofag va fitofag hasharotlarning piyoz agrosenozlardagi kompleks hayot tarzi, hulq atvori va ekotizimlarda paydo bo‘lishini asoslash, sabzavotchilik va fermer xo‘jaliklarida alohida o‘rin tutadi. Shularni inobatga olgan holda 2024-2025 yillar davomida tadqiqotlar olib borildi.

Hozirgi kunda Xorazm vohasi piyoz agrasenozida yig‘ilgan tadqiqot ishlarimiz, to‘plangan ma’lumotlar va adabiyotlarning tahlili asosaida piyoz dalalarida yig‘ilgan barcha hasharotlar entomofaunasi (entomofag va fitofaglar) 9 turkum, 39 oila va 73 avlodga mansub 106 tur ekanligi qayd etildi. Qayt etilgan turkunlar orasida Coleoptera turkumiga mansub 30 tur hasharotlar qayd qilindi. Coleoptera turkumiga mansub turlar taksonomik tarkib bo‘yicha piyoz entomofaunasining - 28,3% ni tashkil etadi. Bu boshqa turkum hasharotlarga nisbatan ustunlik (dominantlik) qilib, 7 oila (17,9%) va 17 avlodga mansubligi (23,3%) qayd etildi.

Tadqiqotlar davomida Coleoptera turkumi piyoz va sarimsoq piyoz o‘simligining rivojlanish bosqichlarida ta’sir ko‘rsatish darajasiga ko‘ra 2 ta guruxga entomofag va fitofaglarga ajratilgan holda tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Olib borilgan ilmiy ishlar natijasiga ko‘ra piyoz agrosenozida uchraydigan Coleoptera turkumi vakillarining 5 oila (71,4%) va 6 avlodga (35,3%) mansubligi 10 ta turi (33,3%) fitofag sifatida qayd etildi. Aniqlangan turlarning 2 oila (28,5%) va 11 avlodga (64,7%) mansubligi 20 ta turi (66,7%) entomofag ekanligi o‘rganildi.

Tadqiqot ishlarimiz davomida piyoz agrosenozida uchraydigan entomofaglarning bioekologik hususyatlari o‘rganildi.

COLEOPTERA LINNAEUS, 1758 (Qattiq qanotlilar) turkumi
Coccinellidae Latreille, 1807 (Xonqizi qo‘ng‘izlari) oilasi
Hippodamia Chevrolat in Dejean, 1837 avlodi
***Hippodamia variegata* (Goeze, 1777) turi**

Sinonimi: *Hippodamia (Adonia) variegata.*

Yig‘ilgan joyi va vaqti: Bu qo‘ng‘iz respublikada keng tarqalgan tur bo‘lib, may oyidan oktyabr oyi o‘rtalarigacha uchraydi. Qo‘shko‘pir tumani “Odamboy Hursant va Sayilxon” fermer xo‘jaligi 2024.06.15. Xiva tumanining “Beruniy elita”, fermer xo‘jaligi 2025.07.07yil. Qo‘ng‘izning qurtlari piyoz shirasi bilan oziqlanishi qayd qilindi.

Morfologik belgilari: Kichik, 3-3.5 mm uzunlikdagi hasharot bo‘lib, qanotlari qizil yoki to‘q sariq va 12 ta qora dog‘ bilan qoplangan. Tanasining old qismi qora, unda oq yoki sariq dog‘lar mavjud. Tana shakli yumaloq, boshi kichik, ko‘zlari qora, va uch juft qisqa oyoqlari bor.



1-rasm: *Hippodamia variegata* (Goeze, 1777)

***Coccinella* Linnaeus, 1758 avlodi**

***Coccinella septempunctata* Linnaeus, 1758 turi**

Sinonimi: *Coccinella septempunctata var. divaricata, Coccinella septempunctata var. confusa.*

Yig'ilgan joyi va vaqti: Hududlarda keng uchraydigan tur. Qo'shko'pir tumanining "Og'abek", "Odamboy Hursand va Sayilxon", 2024.05.28. Urganch tumanining "Farrux" fermer xo'jaligida 2024.07.18 uchratildi. Qurtlari va voyaga yetganlari piyoz shirasi, piyoz pashshasi qurti bilan oziqlanishi qayd etildi. Ba'zan o'simlik gul changi bilan xam oziqlanadi. Tadqiqotlarimizda piyozda bahor oyidan kuz oyigacha uchrashi va parazitlar bilan oziqlanishi aniqlandi.

Morfologik belgilari: 4-8 mm uzunlikda, yorqin qizil qanotlari ustida 7 ta qora nuqta mavjud. Tanasi oval shaklda va silliq, boshi qora bo'lib, unda ikkita oq yoki sariq dog'lari mavjud. Pronotum qora rangda va oq belgilarga ega.



2-rasm: *Coccinella septempunctata* Linnaeus 1758

***Scymnus* Kugelann, 1794 avlodi**

***Scymnus frontalis* (Fabricius, 1787) turi**

Sinonimi: *Scymnus (Scymnus) frontalis*

Yig'ilgan joyi va vaqti: Qo'shko'pir tumani "Og'abek",2025.05.18 va Urganch tumani "Farrux" fermer xo'jaligida 2025.06.12. Bu tur afidofag tur bo'lib, piyozda may-iyul oylarida uchrashi qurt va yetuk hasharotlar. piyoz biti bilan oziqlanishi aniqlandi.

Morfologik belgilari: Uzunligi 1-2 mm. Asosan to'q jigarrang yoki qora rangda. Qanotlari ustida ba'zi ochroq rangli dog'lar bor. Tanasi oval shaklda .Boshi kichik, qora yoki jigarang tusda.



3-rasm: *Scymnus frontalis* (Fabricius, 1787)

***Scymnus subvillosus* Goeze, 1777 turi**

Sinonimi: *Scymnus (Scymnus) subvillosus, Scymnus auritus Mulsant*

Yig‘ilgan joyi va vaqti: Qo‘shko‘pir tumani “Og‘abek”,2025.05.21 va Urganch tumani “Farrux” fermer xo’jaligida 2025.08.13. Piyoz o‘simligida may-sentyabr oylarida uchraydigan kserofil tur. Piyoz agrosenoziga yaqin cho‘l va yarim cho‘l hududlarida uchrab qurt va yetuk hasharotlar piyoz biti bilan oziqlanishi qayd etildi.

Morfologik belgilari: Uzunligi 3-4 mm. Tana rangi jigarrang yoki qora, mayda, silliq dog‘lar mavjid, oyoqlari jigarang yoki to‘q sariq rangda.



4-rasm: *Scymnus subvillosus* Goeze, 1777

***Hippodamia* Chevrolat in Dejean, 1837 avlodi**

***Hippodamia tredecimpunctata* Linnaeus, 1758 turi**

Sinonimi: *Adonia tredecimpunctata, Hippodamia (Adonia) tredecimpunctata*

Yig‘ilgan joyi va vaqti: Urganch tumani “Farrux” fermer xo’jaligida 2025.08.10. Beruniy tumani “Jumanov Anvar” fermer xo’jaligida 2024.06.19. Piyozda may-sentyabr oylarida uchraydigan mezofil tur. Piyoz agrosenoziga yaqin daryo va Sulton Uvays tog‘i o‘tloqli hududlarida uchrab Qurt va qo‘ng‘izlari piyoz biti bilan oziqlanishi qayd etildi.

Morfologik belgilari: Kattaligi 4-6 mm. Tanasi qizil yoki to‘q sariq rangda, Qanotida 13 ta qora nuqta bor. Boshi qora.



5-rasm: *Hippodamia tredecimpunctata* Linnaeus, 1758

***Adalia* Mulsant, 1846 avlodi**

***Adalia bipunctata* Linnaeus, 1758 turi**

Sinonimi: *Adalia bipunctata var. typica, Adalia bipunctata var. quadrimaculata, Adalia bipunctata var. sexpustulata.*

Yig‘ilgan joyi va vaqti: Xiva tumanining “Beruniy elita”2025.07.20, Urganch tumanining “Farrux” 2025.06.16., Beruniy tumani “Jumanov Anvar” 2025.05.19., fermer xo‘jaligi, Ellikqal’a tumani “Alijon” fermer xo‘jaligi, kuzatuvlar davomida uchragan mezofil tur. Piyoz agrosenozida va unga yaqin bog‘larda, istirohat bog‘larida, to‘qayli hududlarida uchrab, piyoz biti bilan oziqlanishi qayd etildi. Asosan mevali bog‘larda o‘simlik shiralarini kamaytirishda qurt va qo‘ng‘izlari ishtirok etadi.

Morfologik belgilari: Uzunligi 4-8 mm. Tana rangi qizil yoki to‘q sariq,qanotida 2 ta qora nuqta mavjud. Boshi qora rangda.




6-rasm: *Adalia bipunctata* Linnaeus, 1758

***Adalia decimpunctata* (Linnaeus, 1758) turi.**

Sinonimi: *Adonia decempunctata, Adalia decempunctata var. bimaculata.*

Yig‘ilgan joyi va vaqti: Piyoz o‘simligida may-avgust oylarida uchraydigan tur. Kuzatuvlar davomida Ellikqal’a tumani “Alijon” fermer xo‘jaligi 2024.05.12., To‘rtko‘l tumani “G‘alabali Asadbek” fermer xo‘jaliklarida 2024.06.15., piyoz agrosenozida va unga yaqin bog‘larda, istirohat bog‘larida, kamdan kam hollarda Sulton Uvays tog‘li hududlarida uchrab qurt va qo‘ng‘izlari piyoz biti bilan oziqlanishi qayd etildi.

Morfologik belgilari: Uzunligi odatda 3.5 dan 4.5 mm gacha. Qizil yoki to‘q sariq fon rangida, ustida 10 ta qora nuqta mavjud. Bu nuqtalar ko‘rinishi va soni o‘zgarishi mumkin.




7-rasm: *Adalia decimpunctata* (Linnaeus, 1758).

Xulosa: Bugungi kunda tabiiy landshaflarning o‘zlashtirilishi va muhit omillarining o‘zgarishi natijasida zararkurandalarning soni ortib bormoqda. Coleoptera turkumi vakillari 30 turi uchrashi aniqlandi. Bu aniqlangan turlarning 20 turi entomofag sifatida foyda keltirishi qolgan 10 turi esa fitifag sifatida piyoz va sarimsoq piyoz o‘simligiga zarar keltirishi aniqlandi.

Foydanalilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Coskuntuna, A., and N. Ozer. 2008. Biological control of onion basal rot disease using Trichoderma harzianum and induction of antifungal compounds in onion set following seed treatment. Crop Protection 27: pp. 330 336.

2. Greco N M, Pereyra P C, Guillade A. 2006. Host-plant acceptance and performance of Tetranychus urticae (Acari: Tetranychidae). Journal of Applied Entomology 130: pp. 32-36.

3. Хўжаев Ш.Т. Энтомология, қишлоқ хўжалиги экинларини ҳимоя қилиш ва агротоксикология асослари Тошкент, “ФАН” 2010, - Б. 356.

4. Винокуров Н.Н., Канюкова Е.В., Голуб В.Б. Каталог полужесткокрылых насекомых (Heteroptera) Азиатской части России.– Новосибирск: СИФ «Наука», 2010. - 320 с.

5. Бекбергенова З.О., Хамраев А.Ш. Фауна и экология стафилинид (Coleoptera, Staphylinidae) Каракалпакстана // Узбекский биологический журнал - Ташкент, 2008. часть I - № 4. - С. 43-46. Часть II № 5. - С. 42-45.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Ortikov Elyor Abdumajidovich
Turan International University dots. v.v. b,
E-mail:sabirli.87.1@gmail.com
G‘ulomov Rustamjon Komiljon o‘g‘li,
Namangan davlat univeristeti dotsenti,
E-mail:gulomovr92@mail.ru
Tog‘ayev Ibrohim Usamovich,
Namangan davlat univeristeti dotsenti,
E-mail: tagayev@mail.ru
Nuridinov Dilshod Sharibjanovich
Namangan davlat univeristeti o‘qituvchisi,
E-mail: nuridinovd1983@mail.ru
Toshmatov Sarvar Omonjon o‘g‘li
Namangan davlat univeristeti o‘qituvchisi,
E-mail: toshmatovsarvar94@gmail.com

UO ‘K 581.162.2

FARG’ONA VODIYSIDA TARQALGAN *SCORPIRIS* SPACH OSTTURKUMI TURLARI BIOEKOLOGIYASI

Annotatsiya*: Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi florasida tarqalgan Scorpiris (Juno) ost turkumi turlarining bioekologiyasi, morfologik xususiyatlari va fenologiyasi tadqiq etildi. 2020–2025 yillarda amalga oshirilgan dala tadqiqotlari, shuningdek, TASH, LE, MW va FRU gerbariy fondlari hamda GBIF va Plantarium ma’lumotlar bazalari tahlil qilindi.*

Kalit so’zlar*: Scorpiris Spach, Ostturkum (subgenus), bioekologiya, taksonomiya, filogeniya, Farg‘ona vodiysi, geografik tarqalish, endemik o‘simliklar, fenologiya, biologik xilma-xillik.*

Ортиков Элёр Абдумаджидович
Точки Международного университета Турана. в.в. б
Гуломов Рустамжон Комильжон угли
Доцент Университета штата Наманган
Тогаев Ибрахим Усамович
Доцент Университета штата Наманган
Нуридинов Дилшод Шарибжанович
Преподаватель Наманганского государственного университета
Тошматов Сарвар Омонджон о'г'ли
Преподаватель Наманганского государственного университета

БИОЭКОЛОГИЯ ВИДОВ ПОДВИДОВ SCORPIRIS *SPACH*, РАСПРОСТРАНЁННЫХ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Аннотация*: В настоящем исследовании рассматриваются биоэкология, морфологические характеристики и фенология видов подрода* Scorpiris *(Juno), встречающихся во флоре Ферганской долины. Материалом для анализа послужили полевые наблюдения, проведённые в период 2020–2025 гг., а также образцы из гербариев TASH, LE, MW и FRU, дополненные данными из баз GBIF и Plantarium.*

Ключевые слова*: Scorpiris Spach, подрод (subgenus), биоэкология, таксономия, филогения, Ферганская долина, географическое распространение, эндемические растения, фенология, биологическое разнообразие.*

Ortikov Elyor Abdumajidovich
Turan International University dots. v.v. b
G‘ulomov Rustamjon Komiljon rgli

Associate Professor of Namangan State University
TogAssociate Professor of Namangan State University
Nuridinov Dilshod Sharibjanovich
Lecturer at Namangan State University
Toshmatov Sarvar Omonjon o'g'li
Lecturer at Namangan State University
Togaayev Ibrohim Usamovich
Associate Professor of Namangan State University
Nuridinov Dilshod Sharibjanovich
Lecturer at Namangan State University
Toshmatov Sarvar Omonjon o'g'li
Lecturer at Namangan State University

BIOECOLOGY OF SPECIES OF SCORPIRIS *SPACH SUBSPECIES* DISTRIBUTED IN THE FERGANA VALLEY

Annotation*: This study investigates the bioecology, morphological characteristics, and phenology of* Scorpiris *(Juno) subgenus species distributed in the flora of the Fergana Valley. Field research conducted between 2020 and 2025, as well as analyses of specimens from the TASH, LE, MW, and FRU herbarium collections and data from the GBIF and Plantarium databases, were utilized.*

Keywords*: Scorpiris Spach, subgenus, bioecology, taxonomy, phylogeny, Fergana Valley, geographic distribution, endemic plants, phenology, biological diversity.*

Kirish

Olib borilgan taksonomik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, *Scorpiris* ost turkumi turlari hozirgi kunda dunyo miqyosida keng tarqalgan 70 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. [1]. Mazkur turlar o'simliklar evolyutsiyasini va introgressiv gibridlanish orqali yuzaga keladigan turlanishni o'rganishda muhim model bo'lib xizmat qilgan, shuningdek ular bog'dorchilikda va an'anaviy tabobatda ham qo'llanib kelinadi [2]. *Scorpiris* ost turkumiga mansub turlar taksonomiyasi murakkabligi bilan ajralib turadi, bu holat mazkur o'simliklarning yuqori darajadagi morfologik o'zgaruvchanligi, ayniqsa gul rangining xilma-xilligi hamda tashqi, ichki gultojibarglari shakli va o'lchamidagi farqlar, shuningdek ularning oson duragaylanish qobiliyati bilan izohlanadi. Ushbu ost turkum tarkibidagi turlarning katta qismi avvaldan ilmiy jihatdan tavsiflangan bo'lib, ularning taxminan 75 foizi Markaziy va Janubiy Osiyo hududlaridan qayd etilgan. Qolgan turlar esa asosan Janubi-g'arbiy Osiyo hamda O'rta yer dengizi mintaqalarida tarqalgan [1]. Geografik taqsimotning tahlili Juno irislarining diversifikatsiyasi Markaziy Osiyo hududida markazlashganligini ko'rsatadi, bunda Tyan-Shan (14 ta tur) va Pomir-Oloy tog'lari (21 ta tur) alohida diversifikatsiya markazlari sifatida ajralib turadi. [3]. Ushbu ost turkumga mansub 26 tur O'zbekistonda qayd etilgan bo'lib, bu mamlakatni diversifikatsiya markazlaridan biri sifatida ta'kidlaydi.

Tashqi morfologik xususiyatlari, jumladan: mavjud yerosti (geofit) organlarining turiga, urug' yuzasidagi arillar (burmalar)ga, tashqi gultojibarglari shakli va unda joylashgan tukchalariga qarab *Scorpiris* ost turkumi turlari 10 ta agregatlarga birlashtiriladi [4].

Farg'ona vodiysi tog'lararo botiq bo'lib, faqat tekisliklar hisoblanganda taxminan 22 000 km², atrofidagi tog'larni qo'shib hisoblaganda 80 000 km² maydonni egallaydi. Vodiy sharqan g'arbga taxminan 300 km (190 milya)ga va shimoldan janubga 70 km (43 milya)ga cho'zilgan. Asosan O'zbekistonda, qisman Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari hududlarida joylashgan. Vodiy g'arbda Qurama, shimolda Chotqol, sharqda Farg'ona, janubiy-g'arbda Turkiston va janubda Oloy tog' tizmalari bilan o'ralgan. Tizmalardagi ayrim tog' cho'qqilarining balandligi dengiz sathidan 5000 m gacha yetadi. Markaziy qismida cho'llar tashkil topgan[5].

Ost turkum turlarini dunyo miqyosida Vvedenskiy 1923, 1935a, 1935b, 1941,1963, 1971 Rodionenko 1961, 2005, 2007, 2009), Mavrodiev 2010, Khassanov et al., 2016, Sennikov et al., 2016 Tojibayev et al., 2020, Tojibaev et al, 2014, Boltenkov et al., 2016, 2021)[6,7,8,9] kabi olimlar o'rganishgan.

Tadqiqotlar Namangan davlat universiteti AL–9224104319-sonli "Bioxilmaxilligi xavf ostidagi hudud sifatida Farg'ona vodiysi florasining raqamli platformasini ishlab chiqish" (2025–2027) amaliy tadqiqot loyihasi doirasida amalga oshirildi.

Material va metodlar:

Biz turni GPS joylashuv nuqtalarini aniqlash uchun Global biologik xilma-xillik axborot xizmati (www.//gbif.org/) ma'lumotlar bazasidan, TASH fondida saqlanayotgan gerbariylar, Moskva (https://plant.depo.msu.ru) virtual gerbariy namunalaridan (MW) hamda Plantarium-onlayn o'simliklar aniqlagichi (https://www.plantarium.ru/) ma'lumotlar bazasidan foydalandik. Gerbariy namunalaridagi o'sish nuqtalarini aks ettiruvchi geografik kordinatalari Google Earth Pro

7.1 dasturi (https://www.Google.com/earth/) yordamida amalga oshirildi va 2020-2025 yillarda Farg'ona vodiysida (Markaziy Osiyo) amalga oshirilgan dala tadqiqotlari natijasida to'plagan namunalar bilan birlashtirildi.

Olingan natijalar va tahlil

2020-2025 yillarda O‘zbekiston florasida tarqalgan *Iris* L turkumi turlarining filogeniyasini o‘rganish maqsadida olib borilgan dala tadqiqotlari natijalari, shuningdek yirik TASH (O‘zbekiston milliy gerbariy fondi), LE (Komarov nomidagi botanika instituti gerbariy fondi), MW (Moskva Davlat Universitetining gerbariy fondi) va FRU (Qirg‘iziston fanlar akademiyasi Botanika institutining gerbariysi) fondlarida saqlanayotgan gerbariy namunalarni o‘rganish va mavjud adabiyotlarda hamda GBIF va Plantarium bazalarida keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida *Scorpiris* ost turkumining 4 turi uchrashi qayd etildi.

Butun dunyoda, o‘tgan chorak asr davomida turkum turlari ustida olib borilgan izlanishlar orasida fan uchun yangi turlar, turlarning kimyoviy tarkibi, morfologiyasi, ontogenizini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan ko'proq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Lekin turlarning geografiyasi, tabiiy zaxiralari, zamonaviy holatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar bir muncha kamroq.

Farg‘ona vodiysi florasidagi *Scorpiris* ost turkumi turlarining qisqacha konspekti, rasmi va tarqalish xaritalari mazkur maqolada keltirilgan.

Iris austrotschatkalica Tojibaev, F.Karim. & Turgunov, Turczaninowia 17(4): 12 (2014) (fig. 3D; map 1).

≡ Juno austrotschatkalica (Tojibaev, F.Karimov & Turgunov) M.B.Crespo, Mart.-Azorín & Mavrodiev, Phytotaxa 376(5): 187 (2018).

Ko‘p yillik piyozboshli o‘simlik. Piyozboshi ovalsimon shaklda, diametri 1,0-1,3 sm, usti qobig‘i jigarrang qog‘ozli qavat bilan qoplangan. Poyasining uzunligi 5-10 sm, barglari ingichka lansetsimon o‘roqsimon egilgan, yuqori qismi o‘tkir, chekka qismlari oq rangda pastki qismining eni 4-6 mm, yuqori qismi gullaridan o‘sib ketadi. Gullari soni 1(4) ta, ranggi oq, oqimtir, yashil binafsha ranglarda. gulqo‘rg‘on nayining uzunligi 2,5–3,0 мм tashqi gultojbargning (pastki qismi) eni 18–23 мм, tojbarg plastinkasining kengaygan qismi 7–9 × 13–15 мм, yuqorisi yumaloq yoki biroz tishli, ingichka binafsha tomirlari bor. Gultojibarg soqollarining o‘rnida tishli tepalik joylashgan bo‘lib, sarg‘ish, yon tomonlarida yashil-binafsha rangli tomirlar bor. Ichki tojbarglarining uzunligi 15-17 mm, eng keng qismi 3-4 mm, ko‘pincha o‘rta qismi 2 ga bo‘linib, tepa tomon yo‘nalgan. Ustunchasi oq rangda tukchalarsiz.

Fenologiyasi. Gullashi; aprel, Urug‘ hosil qilishi; may.

Ekologiyasi. Tog‘larning quyi dengiz sathidan 300–600 m balandliklarida uchraydi.

Tur tarqalgan areallar. Endem (G‘arbiy Tian Shan). Qirg‘iziston, O‘zbekiston.

Iris narynensis O.Fedtsch., Izv. Imp. S.-Peterburgsk. Bot. Sada 5: 159 (1905) (fig. 3C; map 1).

≡ *Juno narynensis* (O.Fedtsch.) Vved., Fl. Uzbekistan. 1: 515 (1941).

Ko‘p yillik piyozboshli o‘simlik, balandligi 5 sm; etdor ildizlari kuchli yo‘g‘onlashgan, qisqa ipsimon. Barglari poyasini o‘rab turadi. Barglari o‘roqsimon qayrilgan, barg uchiga qarab asta sekinlik bilan torayib boradi, ikki yon qirralari dag‘al, tukchalari mavjud. Barg asosining eni 5-10 mm Gullari yorqin binafsha rangda bo‘lib poyasida 1-2 tadan joylashadi. Gul naychasining uzunligi 4,5-5,0 sm Tashqi gultojibargining uzunligi 4 sm tashqi gultojibargning yuqori qismi ozgina kengaygan 8 mm, qirralari deyarli parallel, plastinkasi esa o‘tkir yoki sharsimon, eni 9 mm, uzunligi 10 mm, chetlaridan tashqari to‘q binafsha rangda. (Greben) o‘simtasi oq qismlarga bo‘lingan. Ichki gultojibargi uzunligi 2 sm bo‘lib teskari tuxumsimon, lansetsimon shaklda. Asta sekinlik bilan asosiy qismi qisqarib boradi, o‘tkir yoki sharsimon. Urug‘chi tumshuqchasi yarim xalqasimon.

Fenologiyasi. Gullashi; mart. Urug‘ hosil qilishi aprel.

Ekologiyasi. Tog‘larning dengiz sathidan 800–1300 m balandliklaridagi shag‘alli yon bag‘irlarda uchraydi.

Tur tarqalgan areallar. Markaziy Osiyo (G‘arbiy Tyan-Shan) O‘zbekiston.

Iris orchioides **Carriere** In: Rev. Hort. (Paris) 52: 337. (1880) (fig. 3B; map 1).

≡ *Juno orchioides* (Carriére) Vved., Fl. Uzbekistan. 1: 519 (1941).

Ko‘p yillik piyozboshli o‘simlik, balandligi 30 sm; Ildizi shunursimon kam yo‘g‘onlashgan etdor ildizdan iborat. Piyozining qalinligi 2 sm Poyasining balandligi10-30 sm bo‘lib, barglari poyani yuqori qismida joylashgan gulga qadar o‘rab olgan. Barglari yorqin yashil rangda o‘roqsimon egilgan, chetlari qirrali, qattiq tukchali, yuqori qismi asta sekinlik bilan torayib boradi. Barg asosi 2-5 sm, gullari soni 3–8 tagacha och sariq rangda, gullaganidan keyin atotsiyan rangga kiradi. Gul naychasining uzunligi 3–6 sm, ba’zan binafsha rangga bo‘yaladi. Tashqi gultojibargining uzunligi 4.5 sm, och sariq rangda, Tashqi gultojibargning pastki qismi qanotsimon 20–25 mm, kengaygan qismi 8–9 sm, plastinkasi elips shaklida, pastki qismi ozroq toraygan, yuqori qismi ba’zan tishsimon bo‘lib eni 10–12 mm, uzunligi 15–18 mm, plastinkaning deyarli butun yuzasini to‘q sariq rang egallab olgan, toji to‘q sariq rangda tishsimon. Ichki gultojibargning uzunligi 10–15 mm, och sariq rangli, bo‘lib uch qirrali o‘tkir plastinkasimon. Ustun shoxlari och sariq rangda uch qirrali va aylana shaklda eni 5–6 mm, uzunligi 9–10 mm Tuguncha tumshuqchasi teskari buyraksimon. Changdon va chang iplari oq rangda.

Fenologiyasi. Gullashi; aprel. Urug‘ hosil qilishi; may.

Ekologiyasi. Quyi va o‘rta tog‘ yonbag‘irlarining dengiz sathidan 900–1800 m. balandliklarida uchraydi.

Tur tarqalgan areallar. Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston.

***Iris rodionenkoi* Lazkov et Naumenko**., In: T.Hall. In: Brit. Iris Soc. Newslett. 2014: 12. (2014). (fig. 3A; map 1).


≡ *Juno rodionenkoi* Lazkov & Naumenko, Turczaninowia 17: 33 (2014).

Ko‘p yillik piyozboshli o‘simlik, Tuproqdan 5-7 sm baladlikkacha ko‘tarilib turadi. Ko‘p yillik piyozboshli o‘simlik, piyozining qalinligi 1,5-1,8 sm, tuxumsimon, usti to‘q jigarrang qobiq bilan o‘ralgan. Ildizi ipsimon, gullarini ustidan o‘rab turadigan qobiqlari qanotchasimon oq rangda bo‘lib, ularning soni 2 ta, poyasi juda ham qisqa, zich joylashgan barglari poyani o‘rab turadi. Barglari soni 3-5 ta gullash davrida yaxshi rivojlangan, egri, barglarining pastki qismi kengroq, asta sekin yuqori tomonga qarab torayib boradi, ikki chetida oq chiziqlari bor, yuqori qismi yashil. Barg pastki qismining uzunligi 6-8 sm, eni 0,6-0,8 sm, Gulining uzunligi 3-4 sm kulrang yashil rangda, poyadai gullari soni 1-2 ta, diametri 3-4 sm, ranggi och binafsha kulrang, och binafsha sariq. To‘q binafsha rang va sariq dog‘lar tashqi gultojibarg plastinkasining uch qismida joylashgan. Gulqo‘rg‘on nayining uzunligi 3,5-4,0 sm Tashqi gultojibargining uzunligi 3,5-4,0 sm Tashqi gultojibarg pastki qismining ikki yoni parallel, uzunligi 2,0-2,5 sm, eni 0,7-0,9 sm, tashqi gul plastinkasi keng tuxumsimon, oxirgi qismi yarim xalqasimon. Uzunligi 1,0-1,3 sm, eni 0,8-1,0 sm, rangi sariq, mayda tishsimon, ichki gultojibargining uzunligi 1,0-1,2 sm, lansetsimon bo‘lib kengaytirilgan uchi bor yoki tishsimon. uzunligi 3,0-3,5 sm, yuqori qismi chuqur bo‘lingan. Changdon ipining uzunligi 2,0-2,2 sm, changdoni uzunligi 1,0-1,2 sm


Fenologiyasi. Gullashi: Aprel. Urug‘ hosil qilish vaqti May.

Ekologiyasi. Tog‘larning quyi qismlarida, dengiz sathidan 300–600 m balandliklarda, toshli shag‘alli yerlarda tarqalgan.

Tur tarqalgan areallar. Endem (G‘arbiy Tyan-Shan) O‘zbekiston.



Rasm 1. *Iris austrotschatkalica* (**A**); *Iris narynensis* (**B**); *Iris orchioides* (**C**); *Iris rodionenkoi* (D).



Rasm 2. Xarita 1. *I. austrotschatkalica, I. narynensis I. orchioides* va *I.rodionenkoi* turlarining tarqalishi. (X.Xoshimov tomonidan tayyorlandi.)

Xulosa

Hozirgi kunda biologik xilma xillikni saqlash, ayrim turlarni tabiiy zaxiralari aniqlash va undan barqaror foydalanishni yo'lga qo'yish, geografik tarqalishipi aks ettiruvchi xartalari yaratish singari ishlarni amalga oshirish ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar natijasida 4 tur qayd etilgan bo‘lib, ularning morfologik xususiyatlari, ekologik talablar va fenologiyasi hujjatlashtirildi.

Turlarning Farg‘ona vodiysi Shimoliy adirlari florasida tarqalganni aniqlash kelgusida olib borilishi rejalashtirilgan tadqiqotlar va O‘zbekiston florasining kelgusidagi yangi nashri uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, noyob va yo'qolib borayotgan turlar to'g'risidagi ma'lumotlar mahalliy qizil kitoblarning kelajakdagi nashrlarida qo'llaniladi. Ushbu ma’lumotlar turlarni muhofaza qilish, tabiiy zaxiralarni baholash va ularning geografik tarqalishini xaritalash uchun ilmiy asos yaratadi. Natijalar Farg‘ona vodiysi florasining kelajakdagi inventarizatsiyasi, mahalliy va xalqaro Qizil Kitob nashrlari hamda *Scorpiris* ost turkumining sistematik va bioekologik tadqiqotlari uchun muhimdir.

Mualliflar *Scorpiris* (*Juno*) ost turkumiga mansub turlarning Farg‘ona vodiysidagi tarqalishini aks ettiruvchi xaritalarni tayyorlagani uchun **X. Xoshimov**ga chuqur minnatdorchilik bildiradilar. Tayyorlangan xaritalar tadqiqot natijalarining ilmiy tahlili va vizual talqinini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltenkov E. V. Typification and nomenclatural notes on twenty eight names of *Juno* irises (Iridaceae) from Central and South Asia. // Phytotaxa. 2016. *260* (3), – P. 223-234.

2. Wilson C. Phylogeny of *Iris* based on chloroplast *mat*K gene and *trn*K intron sequence data. // Molecular Phylogenetics and Evolution. 2004. *33*(2). – P. 402-412.

3. Sennikov A., Khassanov F., Ortikov E., Kurbonaliyeva M., Tojibaev K. Sh., The genus Iris L. s. L. (Iridaceae) in the Mountains of Central Asia biodiversity hotspot. // Plant Divers. Cent. Asia. 2023, 2, – P 1–104.

4. Ikinci, N., Hall, T., Lledo, M. D., Clarkson, J. J., Tillie, N., Seisums, A., & Chase, M. W. (2011). Molecular phylogenetics of the juno irises, Iris subgenus *Scorpiris* (Iridaceae), based on six plastid markers. *Botanical Journal of the Linnean Society*, *167*(3), 281-300.

5. Babushkin, L. N., & Kogai, N. A. (1964). Fiziko-geograficheskoe raionirovanie Uzbekskoi SSR [Physical-geographical zone of the Uzbek SSR]. *Nauchnye trudy Tashkentskogo gosudarstvennogo universiteta. Novaya seriya*, *231*, 263.

6. Khassanov, F. O., & Rakhimova, N. (2012). *Taxonomic revision of the genus Iris* L.*(Iridaceae Juss.)* for the flora of Central Asia.

7. Khassanov, F. O., Khuzhanazarov, U., Rakhimova, N., Esankulov, A., & Achilova, N. (2013). Two new species of *Iris* L. (Iridaceae Juss.) from Uzbekistan. *Stapfia*, *99*, 1-3.

8. Tojibaev K. Sh., Karimov, F. I., & Turgunov, M. D. (2015). A new species of the genus *Iris* L. (Iridaceae Juss.) from the Ferghana Valley. *Turczaninowia*.

9. Sennikov, A. N., Khassanov, F. O., & Pulatov, S. O. (2022). *Iris bucharica* (Iridaceae): A century of confusion is resolved with the description of I. chrysopetala, a new species from southern Central Asia.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Rakhmataliev Abdulla Fozilovich
Institute of Environmental Protection and Nature Conservation Technologies (Green University)
E-mail: rahmataliyevabdulla184@gmail.com
Tokhirjonova Diyorakhon Dilshod qizi
Fergana State University
Toshtemirov Jurabek Gani ugli
Institute of Botany, PhD student
Ergashov Ibrokhimjon Abduvali ugli
Junior Researcher, Laboratory of Molecular Phylogeny and Biogeography, Institute of Botany
E-mail: ibrohim8905@mail.ru
Yusupov Ziyoviddin Olimjon ugli
PhD, Head of the Laboratory of Molecular Phylogeny and Biogeography, Institute of Botany
E-mail: ziyo-nur87@mail.ru

PHARMACOLOGICAL PROPERTIES OF MEDICINAL MONOCOTYLEDONS IN THE NURATAU MOUNTAINS (UZBEKISTAN)

Abstract. *The Nuratau Mountains of Uzbekistan host diverse monocot medicinal plants. Surveys identified 17 species from eight families with anti-inflammatory, antimicrobial, antioxidant, and antitumor properties. Key species like Colchicum kesselringii and Allium longicuspis show strong bioactivity. Integrating phytochemical and pharmacological studies can promote sustainable ethnomedicine and natural drug discovery in Central Asia.*

Keywords. *Nuratau mountains, medicinal plants, monocotyledonous, Central Asia.*

Raxmataliyev Abdulla Fozilovich
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalar ilmiy-tadqiqot instituti (Green University)
Tokhirjonova Diyorakhon Dilshod qizi
Farg'ona Davlat Universiteti
Toshtemirov Jo'rabek G'ani o'g'li
Botanika instituti, PhD talabasi
Ergashov Ibrohimjon Abduvali o'g'li
Botanika instituti Molekulyar Filogeniya va
Biogeografiya laboratoriyasi kichik ilmiy xodimi
Yusupov Ziyoviddin Olimjon o'g'li
PhD, Botanika instituti Molekulyar Filogeniya va Biogeografiya laboratoriyasi mudiri

NUROTA TOG'LARIDAGI DORIVOR BIR URUG'PALLALI O'SIMLIKLARNING FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI (O'ZBEKISTON)

Annotatsiya. *O'zbekistonning Nurata tog'lari dorivor bir urug'lilar xilma-xilligi bilan mashhur. Tadqiqotlarda sakkiz oilaga mansub 17 tur aniqlanib, ularning yallig'lanishga qarshi, antibakterial, antioksidant va o'simta qarshi xususiyatlari qayd etilgan. Colchicum kesselringii va Allium longicuspis faol moddalarga boy. Bunday o'simliklarni o'rganish tabiiy dori ishlab chiqishni rivojlantiradi.*

Kalit so'zlar: *Nurota tog'lari, dorivor o'simliklar, bir urug'pallalilar, Markaziy Osiyo.*

Рахматалиеев Абдулла Фозилович
Научно-исследовательский институт технологий охраны окружающей среды и природы (Green University)
Тохирджонова Диёрахон Дилшод кизи
Ферганский государственный университет
Тоштемиров Журабек Гани угли

Институт Ботаники, соискатель степени PhD
Эргашов Иброхимжон Абдували угли
Институт Ботаники, младший научный сотрудник лаборатории молекулярной филогении и биогеографии
Юсупов Зиёвиддин Олимжон угли
PhD, заведующий лабораторией молекулярной филогении и биогеографии Института Ботаники

ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЛЕКАРСТВЕННЫХ ОДНОДОЛЬНЫХ РАСТЕНИЙ ГОР НУРАТАУ (УЗБЕКИСТАН)

Аннотация. *Горы Нуратау в Узбекистане известны разнообразием лекарственных однодольных растений. Исследования выявили 17 видов из восьми семейств с противовоспалительными, антимикробными, антиоксидантными и противоопухолевыми свойствами. Colchicum kesselringii и Allium longicuspis богаты активными веществами. Изучение этих растений способствует развитию природных лекарств и устойчивой этномедицины.*

Ключевые слова: *Нуратауские горы, лекарственные растения, однодольные, Центральная Азия.*

Introduction

The flora of Uzbekistan represents one of the richest centers of botanical diversity in Central Asia, harboring more than 4,500 vascular plant species, including approximately 1,593 monocotyledons [1, 2, 3]. Within this flora, the Nuratau mountain system plays a particularly important ecological and ethnopharmacological role, acting as a natural reservoir for numerous medicinal monocot species that bridge traditional herbal practices and modern pharmacology [4]. Historically, around 600 plant taxa in Uzbekistan have been documented for their ethnomedicinal importance [5], and the Nuratau region continues this deep-rooted biocultural tradition.

The Nuratau monocotyledonous flora includes several key genera of pharmacological relevance such as *Colchicum* L., *Allium* L., *Cyperus* L., *Dactylorhiza Neck. ex Nevski* and *Arum* L., each associated with bioactive secondary metabolites of therapeutic potential [6]. The ethnopharmacological diversity of monocots of Nuratau mirrors broader Central Asian phytogeographical patterns, where mountain ecosystems foster high endemism and biochemical specialization [7]. This region's distinct ecological zonation — from piedmonts to alpine belts — supports species with diverse life forms, including bulbous, rhizomatous, and tuberous taxa, adapted to the arid mountain environment [8]. Their resilience and bioactivity are driven by secondary metabolites such as alkaloids, flavonoids, triterpenes, and saponins — key compounds for pharmacological research and drug discovery.

The pharmacological investigation of monocotyledons from the Nuratau Mountains not only enhances understanding of local biodiversity but also contributes to the growing global interest in sustainable natural product research. These plants provide valuable leads for developing new therapeutic agents against various diseases, including cancer, inflammation, microbial infections, and metabolic disorders. Their bioactive compounds — such as colchicine from *Colchicum*, allicin and sulfur-containing compounds from *Allium*, and phenolic and steroidal glycosides from *Arum* species — are of particular pharmacological and biochemical significance [9].

Thus, the study of pharmacological properties of monocotyledons in the Nuratau mountains is not only an exploration of biodiversity but also a step toward biocultural conservation and sustainable utilization of medicinal flora. Understanding the interplay between ecological adaptation, chemical diversity, and traditional medicine will be crucial for unlocking the therapeutic potential of monocotyledonous species of Nuratau and ensuring their preservation for future generations.

Materials and Methods

Field surveys were performed between April and July 2025, covering altitudinal transects from 700 m to 1900 m above sea level. Specimens were collected from multiple habitats — rocky slopes, riparian zones, and alpine meadows. Standard herbarium techniques were used for specimen pressing and drying. Latin names of medicinal plant species are indicated according to the international POWO platform [11]. Taxonomic identification was carried out using the Flora of Uzbekistan and compared with authenticated specimens in the Tashkent National Herbarium (TASH) (Fig. 1).



Figure 1. Some medicinal monocotyledons in the Nurota botanical-geographical region (BGR). Photographs by B. Karimov and N. Beshko. A-*Allium longicuspis*; B-*Colchicum robustum*; C-*Cyperus rotundus*; D-*Allium suworowi*; E-*Colchicum kesselringii*; F-*Arum korolkowii*; G-*Ixiolirion tataricum*; H-*Ungernia oligostroma*; I-*Bolboschoenus maritimus*; J-*Cyperus* ***longus.***

Results and Discussion

Pharmacological Diversity of Monocotyledons in the Nuratau Mountains

The flora of Uzbekistan, particularly that of the Nuratau mountains, is characterized by its rich composition of medicinally valuable taxa, with approximately 600 species documented as ethnopharmacologically significant [5]. Within this context, the monocotyledonous species of the Nuratau region represent an exceptional pharmacological reservoir that connects traditional ethnobotanical knowledge with modern phytopharmacology. A total of 17 medicinal monocot species were identified and analyzed, belonging to families such as Colchicaceae, Amaryllidaceae, Orchidaceae, Cyperaceae, Asparagaceae, Juncaceae, Araceae, Iridaceae and Alismataceae. These taxa exhibit diverse pharmacological potentials, ranging from anti-inflammatory, antitumor, diuretic, antidiabetic, and antimicrobial activities to tonic and antioxidant effects, as summarized in Table 1.

Table 1. List of monocotyledonous medicinal plants in the Nurota BGR.

Species name	Family	Medicinal properties/uses
Colchicum kesselringii Regel	Colchicaceae	Exhibits anti-inflammatory and anti-gout properties [12]
Colchicum robustum (Bunge) Stef.	Colchicaceae	Exhibits anti-inflammatory and anti-gout activity [12]
Ixiolirion tataricum (Pall.) Schult. & Schult.	Ixioliriaceae	Used as an astringent, anti-inflammatory, and antimicrobial agent [13]
Dactylorhiza salina (Turcz. ex Lindl.) Soó	Orchidaceae	Used as a tonic for strength and to treat inflammation and swelling [14]

Dactylorhiza incarnata subsp. *cilicica* (Klinge) H. Sund.	Orchidaceae	Used for the treatment of gastrointestinal disorders [5, 15]
Allium longicuspis Regel	Amaryllidaceae	Exhibits antimicrobial, antioxidant, and anti-inflammatory effects [16, 17]
Ungernia oligostroma Popov & Vved.	Amaryllidaceae	Used in traditional medicine (specific use not documented).
Asparagus brachyphyllus Turcz.	Asparagaceae	Traditionally used to treat bladder and kidney diseases, diabetes, and rheumatism; also for infertility and cardiac rhythm disorders in folk medicine [18]
Juncus bufonius L.	Juncaceae	Used for detoxification and treatment of stomach and digestive problems [19]
Juncus compressus Jacq.	Juncaceae	Used in folk medicine (specific use not documented).
Bolboschoenus maritimus (L.) Palla	Cyperaceae	Used as an astringent and diuretic, helping to constrict body tissues and promote urination [20]
Cyperus longus L.	Cyperaceae	Used for stomach pain; rhizomes are also used as a tonic and diuretic in various traditional medicine systems [21]
Cyperus rotundus L.	Cyperaceae	Traditionally used to treat fever, diarrhea, and pain [21]
Alisma plantago-aquatica L.	Alismataceae	Folk medicine for immune-modulation, anti-tumor, anti-inflammatory and antibacterial [22]
Arum korolkowii Regel	Araceae	Toxic plant; used traditionally to boost potency, treat ulcers, respiratory issues, and skin diseases [23]
Lemna minor L.	Araceae	Traditionally used as an antipruritic, diuretic, depurative, febrifuge, and anti-inflammatory herb. It treats fever, edema, colds, rheumatism, liver and thyroid disorders, and skin ailments like eczema, rashes, and abscesses. Used both internally for respiratory and rheumatic inflammation and externally for wounds and skin irritations [24]
Crocus korolkowii Maw & Regel	Iridaceae	Medicinal, food (spice) [25]

Given their pharmacological potential, these plants represent not only cultural heritage but also prospective resources for natural drug discovery. Integrative approaches combining ethnobotanical surveys, phytochemical analysis, and bioassays are crucial to scientifically validate traditional uses and support sustainable utilization. Furthermore, the biochemical diversity observed among Nuratau monocots highlights the adaptive evolution of secondary metabolism under environmental stress — a valuable aspect for future comparative phytochemical studies in arid mountain ecosystems.

Conclusion

This study highlights the pharmacological and ethnobotanical importance of monocotyledonous plants in Uzbekistan's Nuratau Mountains. Seventeen medicinal species from eight families were identified, demonstrating anti-inflammatory, antibacterial, antioxidant, diuretic, antitumor, and tonic properties. Their diverse bioactive compounds show strong potential for natural drug development. Given the region's biodiversity, more valuable medicinal species are likely to be discovered. Comprehensive ethnobotanical and biochemical research is essential to deepen understanding and validation. Overall, the monocot flora of the Nuratau Mountains forms a vital part of Central Asia's ethnopharmacological heritage and offers significant promise for sustainable research and innovation in biological and pharmaceutical sciences.

References

1. Khassanov F.O. (ed.) Conspectus Florae Asiae Mediae. – Vol. 11. – Tashkent: Science Publishers, 2015. – 456 p.
2. Tayjanov K., Mamadalieva N.Z., Wink M. Diversity of the mountain flora of Central Asia with emphasis on alkaloid-producing plants. // *Diversity*. – 2017. – Vol. 9, No. 1. – 11 p. – DOI: 10.3390/d9010011.
3. Ma S., Li W., Tojibaev K.S., Turginov O., Yang W., Ma K. Regionwide and nationwide floristic richness reveal vascular plant diversity in Central Asia. // *Plants*. – 2024. – Vol. 13, No. 16. – Art. 2275.

4. Batoshov A.R., Beshko N.Y. Characteristics of flora and plant cover of Nuratau relic mountains (South Kyzylkum). // *Arid Ecosystems*. – 2013. – Vol. 3, No. 3. – pp. 172–177.

5. Khojimatov O.K., Khamraeva D.T., Khujanov A.N., Bussmann R.W. An overview of ethnomedicinal plants of Uzbekistan. // *Ethnobotany Research & Applications*. – 2020. – Vol. 20, No. 08. – pp. 1–19. – DOI: 10.32859/ERA.20.08.1-19.

6. Teotia D., Agrawal A., Kumar V., Jain P., Kumar A., Agrawal B., Malik V. Ethnobotany, phytochemistry and biological activities of the genus *Allium* L. // *Environment Conservation Journal*. – 2025. – Vol. 26, No. 3. – pp. 1058–1076.

7. Asatulloev T., Dekhkonov D., Yusupov Z., Tojiboeva U., Cai L., Tojibaev K., Sun W. Ecoregional and phytogeographical insights into the distribution of *Tulipa* in the 'Nature Imperiled' area of Central Asia for effective conservation. // *Diversity*. – 2023. – Vol. 15, No. 12. – Art. 1195.

8. Norboboeva T., Yakubjonova S., Haydarova H., Karakhanova L. Regional distribution and ecological-phytocenotic description of dominant plants of Southern Uzbekistan. In: *E3S Web of Conferences*. – 2023. – Vol. 421. – Art. 04010. – EDP Sciences.

9. Leung Y.Y., Hui L.L.Y., Kraus V.B. Colchicine—update on mechanisms of action and therapeutic uses. In: *Seminars in Arthritis and Rheumatism*. – 2015, December. – Vol. 45, No. 3. – pp. 341–350. – WB Saunders.

10. Volis S., Beshko N. How to preserve narrow endemics in view of climate change? The Nuratau Mountains as the case. // Plant Diversity of Central Asia. – 2023. – Vol. 2, No. 2. – pp. 82–101.

11. Plants of the World Online. Available at: https://powo.science.kew.org/

12. Dalbeth N., Lauterio T.J., Wolfe H.R. Mechanism of action of colchicine in the treatment of gout. // Clinical Therapeutics. – 2014. – Vol. 36, No. 10. – pp. 1465–1479.

13. Yigitkan S., Akdeniz M., Yener I., Fırat M., Senturk K., Alkan H., Ertas A. Chemical composition and biological activity of Ixiolirion tataricum (Pall.) Schult. & Schult. f. var. tataricum. // Population. – 2021. – Vol. 3, No. 4.

14. Dorjey K., Maurya A.K., Sinha D. Dactylorhiza hatagirea (D. Doon) Soo, an important medicinal herb of the Himalaya and urgent need for its conservation—A review. // Indian Journal of Natural Products and Resources (IJNPR). – 2022. – Vol. 13, No. 3. – pp. 265–273.

15. Khojimatov O.K., Bussmann R.W. Dactylorhiza incarnata subsp. cilicica Klinge—ORCHIDACEAE. In: Ethnobiology of Uzbekistan: Ethnomedicinal Knowledge of Mountain Communities. – Cham: Springer International Publishing, 2023. – pp. 275–282.

16. Gorrepati K., Krishna R., Singh S., Shirsat D.V., Soumia P.S., Mahajan V. Harnessing the nutraceutical and therapeutic potential of Allium spp.: current insights and future directions. // Frontiers in Nutrition. – 2024. – Vol. 11. – Art. 1497953.

17. Keusgen M., Fritsch R.M., Hisoriev H., Kurbonova P.A., Khassanov F.O. Wild Allium species (Alliaceae) used in folk medicine of Tajikistan and Uzbekistan. // Journal of Ethnobiology and Ethnomedicine. – 2006. – Vol. 2, No. 1. – Art. 18.

18. Kuziev A., Izbosarov M. About the medicinal leafy sarsabil plant Asparagus brachyphyllus Turcz. // Science and Innovation. – 2024. – Vol. 3, D9. – pp. 238–243.

19. El-Shamy A.I., Abdel-Razek A.F., Nassar M.I. Phytochemical review of Juncus L. genus (Fam. Juncaceae). // Arabian Journal of Chemistry. – 2015. – Vol. 8, No. 5. – pp. 614–623.

20. Wollstonecroft M., Erkal A. Summary of plant-processing experiments 1999. In: Hodder I., Catalhöyük Research Trust (eds.) Catalhöyük. – 1999.

21. Taheri Y., Herrera-Bravo J., Huala L., Salazar L.A., Sharifi-Rad J., Akram M., Cho W.C. Cyperus spp.: A review on phytochemical composition, biological activity, and health-promoting effects. // Oxidative Medicine and Cellular Longevity. – 2021, No. 1. – Art. 4014867.

22. Huang Y.S., Yu Q.Q., Chen Y., Cheng M.J., Xie L.P. Phenolic constituents from Alisma plantago-aquatica Linnaeus and their anti-chronic prostatitis activity. // Chemistry Central Journal. – 2017. – Vol. 11, No. 1. – Art. 120.

23. Aldayrov N.S., Jumabekova J., Kurmanbekova G., Omurzakova N., Kidiralieva B., Borkoev B., Chekirov K. The Effect of Kuchala (Arum Korolkowii Regel, 1873) Tuber Tincture to Increase Serum Testosterone in Adult Male Guinea Pigs (Cavia porcellus Linnaeus, 1758). – 2020. – DOI: 10.21203/rs.3.rs-125964/v1.

24. Al-Snafi A.E. Lemna minor: Traditional uses, chemical constituents and pharmacological effects—A review. // IOSR Journal of Pharmacy. – 2019. – Vol. 9, No. 8. – pp. 6–11.

25. Tojibaev K., Beshko N., Botashov A., Azimova D., Yusupov Z., Tao D., Hang S. Flora of the Dzhizak province, Uzbekistan. – China Forestry Publishing House, 2020. – 67 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Abdug'afforov Azamat Tojiboy o 'g'li
O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi tayanch doktoranti.
Shermatov Shuxrat Ermatovich
O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi Katta ilmiy xodimi, b.f.n.
Usmanov Dilshod Erkinbayevich
O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi, katta ilmiy xodimi, PhD.
Abdukarimov Sharofiddin Sayfidinovich
O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi k.i.x
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti o'qituvchi
Xusanbayeva Shahnoza Rustamjon qizi
O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi tayanch doktoranti
Shamuxutdinova Umida Xasanovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti talabasi
Buriyev Zabardast Tojibayevich
O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi Professor, b.f.d.
e-mail: azamatabdugafforov86@gmail.com

UDK 581.1:577.21

O'SIMLIKLARDA SUBERIN BIOPOLIMERINING BIOSINTEZI VA TASHILISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Suberin o'simliklarda himoya va selektiv transport jarayonlarini ta'minlovchi murakkab gidrofob biopolimer bo'lib, asosan endoderma va periderma hujayralari devorlarida to'planadi. Suberin monomerlarining biosintezi plastidalarda uzun zanjirli yog' kislotalari sintezlanishidan boshlanib, endoplazmatik to'rdagi fermentlar orqali ω-gidroksi va α,ω-dikarbon kislotalarga aylantiriladi. Hosil bo'lgan monomerlar maxsus tashuvchi oqsillar yordamida plazma membranasi orqali hujayra devoriga yo'naltiriladi va u yerda polimerlanadi. Suberin to'planishi o'simliklarning suv rejimini saqlash, patogenlarga qarshi himoya hamda qurg'oqchilik va sho'rlanish kabi abiotik stresslarga chidamliligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.*

Ushbu maqqolada suberinning biosintezi mexanizmlari va uning hujayra ichidagi transporti haqidagi zamonaviy tasavvurlar umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: *suberin, biopolymer, yog' kislotalari, biosintez SPAD, SPPD, GPAT,* KCS2 (DAISY), *ABCG2, ABCG6.*

Abdugafforov Azamat Tojiboy ugli
AS RUz, Center for genomics and bioinformatics
Shermatov Shukhrat Ermatovich
AS RUz, Center for genomics and bioinformatics Senior scientist, PhD
Usmanov Dilshod Erkinbaevich
AS RUz, Center for genomics and bioinformatics Senior scientist, PhD
Abdukarimov Sharofiddin Sayfidinovich
AS RUz, Center for genomics and bioinformatics, junior researcher
Khusanbayeva Shakhnoza Rustamjon qizi
AS RUz, Center for genomics and bioinformatics
Shamukhtdinova Umida Khasanovna
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, student
Buriev Zabardast Tojibaevich
AS RUz, Center for genomics and bioinformatics Professor, DSc

BIOSYNTHESIS AND INTRACELLULAR TRANSPORT MECHANISMS OF THE SUBERIN BIOPOLYMER

Annotation*. Suberin is a complex hydrophobic biopolymer that plays a crucial role in plant protection and selective transport processes, and it predominantly accumulates in the cell walls of endodermal and peridermal tissues. The biosynthesis of suberin*

monomers begins with the synthesis of long-chain fatty acids in plastids, followed by their conversion into ω-hydroxy and α,ω-dicarboxylic acids by enzymes localized in the endoplasmic reticulum. The resulting monomers are transported across the plasma membrane to the cell wall by specific carrier proteins, where they undergo polymerization. Suberin deposition contributes significantly to the maintenance of plant water balance, protection against pathogens, and enhanced tolerance to abiotic stresses such as drought and salinity. This paper summarizes current understanding of the mechanisms of suberin biosynthesis and its intracellular transport.

Key words: *suberin, biopolymer, fatty acids, biosynthesis, SPAD, SPPD, GPAT, KCS2 (DAISY), ABCG2, ABCG6.*

Абдугаффоров Азамат Тожибой угли
АН РУз Центр геномики и биоинформатики, м.н.с.
Шерматов Шухрат Эрматович
АН РУз Центр геномики и биоинформатики, с.н.с, к.б.н.
Усманов Дилшод Эркинбаевич
АН РУз Центр геномики и биоинформатики, с.н.с, PhD
Абдукаримов Шарофиддин Сайфидинович
АН РУз Центр геномики и биоинформатики, м.н.с.
Хусанбаева Шахноза Рустамжон кизи
АН РУз Центр геномики и биоинформатики, стажёр исследователь
Шамухутдинова Умида Хасановна
Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова
Буриев Забардаст Тожибаевич
АН РУз Центр геномики и биоинформатики, Профессор, д.б.н.

МЕХАНИЗМЫ БИОСИНТЕЗА И ВНУТРИКЛЕТОЧНОГО ТРАНСПОРТА СУБЕРИНА

Аннотация*. Суберин представляет собой сложный гидрофобный биополимер, обеспечивающий защитные и селективные транспортные процессы у растений и преимущественно накапливающийся в клеточных стенках эндодермальных и перидермальных тканей. Биосинтез мономеров суберина начинается с синтеза длинноцепочечных жирных кислот в пластидах, после чего под действием ферментов эндоплазматического ретикулума они превращаются в ω-гидрокси- и α,ω-дикарбоновые кислоты. Образующиеся мономеры с участием специфических транспортных белков переносятся через плазматическую мембрану в клеточную стенку, где происходит их полимеризация. Накопление суберина играет важную роль в поддержании водного баланса растений, защите от патогенов, а также в повышении устойчивости к абиотическим стрессам, таким как засуха и засоление. В данной статье обобщены современные представления о механизмах биосинтеза суберина, его внутриклеточного транспорта.*

Ключевые слова: *суберин, биополимер, жирные кислоты, биосинтез, SPAD, SPPD, GPAT, KCS2 (DAISY), ABCG2, ABCG6.*

Kirish. O‘simliklar evolyutsiya jarayonida dengiz muhitidan quruqlikka chiqib, nisbatan tajovuzkor va o‘zgaruvchan muhit sharoitlarida rivojlana boshlaganida, ular suv yo‘qotilishini cheklash, keskin iqlim o‘zgarishlaridan himoyalanish hamda turli abiotik stress omillariga qarshi turish kabi jiddiy muammolariga duch kelgan. Ushbu muammolarga moslashuv sifatida o‘simliklar tanasining tashqi qismini qoplaydigan, himoya va to‘siq vazifasini bajaruvchi maxsus to‘qimalarni shakllantirdi. Himoya funktsiyalarini samarali bajarish uchun epidermis va periderma hujayralari devorlarida maxsus biomakromolekulalar - kutin va suberin to‘planadi. Ushbu biomakromolekulalar o‘simlik tanasining suv o‘tkazuvchanligini kamaytirish, mexanik mustahkamlikni ta’minlash hamda tashqi stress omillaridan himoyalanishda muhim rol o‘ynaydi [1].

O‘simliklarga atrof-muhitning turli stress omillari ta’sir etganida ularda bir qator fiziologik javob mexanizmlarini faollashadi, shulardan biri endoderma xujayralarida suberin lamellalarining ko‘payishidir. Suberin hujayra devorini spetsifik tarzda modifikatsiyalovchi murakkab biopolimer bo‘lib, fenilpropanoid va yog‘ kislotalari biosintetik yo‘llaridan kelib chiqadigan fenolik va alifatik komponentlardan tashkil topgan [2]. Hujayra devorlarida suberinning hosil bo‘lishi va to‘planishi biotik va abiotik stress omillari ta’sirida faollashishi mumkin [3]. Suberin asosan ixtisoslashgan to‘qima qatlamlarida, jumladan kurtaklar peridermasida hamda ildizlarning rizodermasi, gipodermasi va endodermasida uchraydi [4]. Endodermal hujayralarda to‘plangan suberin apoplastik transportni cheklab, ionlarning plazma membranasi orqali selektiv ravishda simplastik yo‘l bilan o‘tishini ta’minlovchi samarali to‘siq sifatida faoliyat yuritadi [5].

Turli xil stress omillariga javoban suberinning funktsional roli hamda suberizatsiya jarayonini tartibga soluvchi molekulyar va fiziologik mexanizmlar haqidagi fundamental bilimlarning chuqurlashuvi qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bu bilimlar ildizmevalarni saqlash

muddatini uzaytirish, o‘simliklarning qurg‘oqchilik stressiga chidamliligini oshirish hamda patogen infeksiyalarga qarshilikni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin [6]. Bundan tashqari, suberizatsiyalangan hujayralar mexanik shikastlanishlardan so‘ng hosil bo‘ladigan yara to‘qimalarining shakllanishida, shuningdek, o‘simlik organlarining to‘kilishi jarayonida yuzaga keladigan abstsissiya qatlamida himoyalovchi struktura vazifasini bajaradi.

Suberinning tuzilishi va kimyoviy xossalari. Suberin haqidagi dastlabki ilmiy ma’lumotlar XIX asr boshlariga borib taqaladi. 1815-yilda fransuz kimyogari **Mishel Ejen Chevreul** birinchi marta mantar qobig‘ida uchraydigan erimaydigan moddalarni tavsiflab, ular uchun **“subérin”** atamasini kiritgan. suberin biopolimeri ikki asosiy strukturaviy domendan tashkil topgan.

Birinchisi — polialifatik domen bo‘lib, (Suberin PolyAliphatic Domain – SPAD) u asosan uzun zanjirli yog‘ kislotalari, ularning oksidlangan hosilalari (masalan, ω-gidroksi yog‘ kislotalari va α,ω-dikarboksilik kislotalar) hamda glitserol asosidagi efir birikmalaridan iborat. Ushbu domen suberinning gidrofob xususiyatlarini belgilab, uning suv o‘tkazuvchanligini keskin kamaytiradi.

Ikkinchisi — poliaromatik domen bo‘lib, (Suberin PolyPhenolic Domain – SPPD) u fenilpropanoid yo‘li orqali sintezlanadigan fenolik birikmalar, jumladan ferulik kislota, kumarik kislota va ularning hosilalari asosida shakllanadi. Poliaromatik domen suberinning mexanik mustahkamligi va hujayra devori bilan bog‘lanishida muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu ikki domen kovalent bog‘lanishlar orqali o‘zaro birikib, uch o‘lchamli murakkab makromolekulyar tuzilmani hosil qiladi. Aynan shu xususiyati tufayli suberin kimyoviy jihatdan murakkab biopoliester sifatida tasniflanadi [7].

Poliaromatik komponent (fenolik domen, ligninga o‘xshash tuzilma). Suberinning poliaromatik domeni asosan monolignollar va gidroksisinnamik kislotalardan tashkil topgan bo‘lib, uning aniq kimyoviy tabiati hozirgacha ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Ushbu aromatik fraksiyaning asosiy komponentlari sifatida ferulik va kumarik kislotalar qayd etiladi, biroq ferulik kislota ko‘pincha suberin polimerining 1 % dan kam qismini tashkil etadi. Suberinning fenolik domeni kimyoviy tarkibi va strukturaviy tuzulishi jihatidan polialifatik domenga nisbatan kamroq o‘rganilgan. Hozirgi kunga qadar eng batafsil tavsiflangan modellar qatorida kartoshka (*Solanum tuberosum*) suberini alohida o‘rin egallaydi. Ushbu turda suberinning fenolik (SPPD) fraksiyasi asosan gidroksisinnamik kislotalar va ularning hosilalari, jumladan gidroksisinnamoil amidlari hamda monolignollardan iboratligi aniqlangan. Mazkur birikmalarning barchasi fenilpropanoid biosintetik yo‘li orqali sintezlanadi [8].

Polialifatik komponent (SPAD – uzun zanjirli yog‘ kislotalari va ularning hosilalari). Suberinning polialifatik domeni turli xil uzun zanjirli yog‘ kislotalari va ularning hosilalaridan tashkil topgan bo‘lib, ular to‘yingan yoki to‘yinqmagan shakllarda uchrashi mumkin. Ushbu fraksiya tarkibiga mono- va bifunksional yog‘ kislotalari, ω-gidroksi yog‘ kislotalari, α,ω-dikarboksilik kislotalar, o‘rta zanjirli oksigenlangan yog‘ kislotalari, 2-gidroksi kislotalar hamda C_{16} dan C_{20} gacha va undan yuqori bo‘lgan birlamchi spirtlar kiradi [9]. Monomerlarning zanjir uzunligi va ularning nisbiy miqdori suberinning fizik-kimyoviy xossalarini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Polialifatik domen (SPAD) tarkibida juda uzun zanjirli yog‘ kislotalari (VLCFA) muhim o‘rin tutadi. Ular orasida ω-gidroksi kislotalar, dikarboksilik kislotalar va birlamchi spirtlar ustunlik qiladi [8].

Suberinning biosintezi. Suberin polialifatik va polifenolik domenlardan tashkil topgan murakkab, yuqori darajada gidrofob biopolimer hisoblanadi. Polialifatik domen juda uzun zanjirli yog‘ kislotalaridan (VLCFA) tashkil topgan bo‘lib, uning asosiy komponentlariga ω-gidroksi yog‘ kislotalari, α,ω-dikarboksilik kislotalar hamda birlamchi spirtlar kiradi. Ushbu alifatik komponentlar glitserin skeleti orqali kovalent bog‘lanib, polimer matritsaga integratsiyalanadi.

Polifenolik domen esa p-gidroksitsinnamik kislota hosilalaridan, asosan ferulik kislotadan iborat bo‘lib, u suberin polimerining domenlararo o‘zaro bog‘lanishini ta’minlaydi. Ushbu fenolik komponentlar suberinning qayta kaltsitrant (recalcitrant) xususiyatlariga hissa qo‘shib, uning kimyoviy va biologik parchalanishga nisbatan chidamliligini oshiradi [10].

Suberinning polialifatik domeni (SPAD) monomerlarining shakllanishi bir qator muhim biosintetik modifikatsiyalar orqali amalga oshadi. Bular jumlasiga: (i) yog‘ kislotalarining elongatsiya jarayoni orqali uzun va juda uzun zanjirli yog‘ kislotalarga(C20–C32)aylanishi; (ii) elongatsiyalangan yog‘ kislotalarining birlamchi spirtlarga qaytarilishi; (iii) yog‘ kislotalarining ω-gidroksillanishi hamda hosil bo‘lgan ω-gidroksi yog‘ kislotalarining α,ω-dikarboksilik kislotalarga oksidlanishi kiradi.

Suberin biosintezi o‘simlik hujayralarida yog‘ kislotalari sintezi jarayoni bilan boshlanadi. O‘simliklarda asosiy to‘yingan va qisman to‘yinmagan yog‘ kislotalari, jumladan C16:0, C18:0 va C18:1, plastidlarda yog‘ kislota sintaza (fatty acid synthase, FAS) kompleksi tomonidan sintezlanadi. Ushbu yog‘ kislotalari keyinchalik koenzim A (CoA) bilan faollashtirilib, endoplazmatik retikulumga (ER) yo‘naltiriladi va suberin biosintezining keyingi bosqichlarida ishtirok etadi.

Endoplazmatik retikulumda C16:0-CoA, C18:0-CoA va C18:1-CoA substratlari yog‘ kislotasi elongatsiya (fatty acid elongation, FAE) kompleksi orqali ketma-ket ikki uglerodli birliklar (C_2) qo‘shilishi natijasida juda uzun zanjirli yog‘ kislotalariga (very-long-chain fatty acids, VLCFA) aylantiriladi. Ushbu elongatsiya jarayonida β-ketoatsil-CoA sintaza

(KCS) fermentlari markaziy rol o‘ynaydi. KCS fermentlari elongatsiyaning tezlikni cheklovchi bosqichini katalizlab, hosil bo‘layotgan VLCFA zanjirlarining uzunligi va tarkibini belgilaydi. Arabidopsis *thaliana* model o‘simligida KCS2 (DAISY) va KCS20 fermentlarining suberin polialifatik domeni monomerlarining biosintezida muhim ahamiyatga ega ekani ko‘rsatilgan. Kartoshkada (*Solanum tuberosum*) tuganak peridermasida *StKCS6* ini susaytirish C28 dan uzun bo‘lgan VLCFA darajalarining sezilarli kamayishiga olib kelgan. Ushbu tadqiqotlar KCS fermentlari oilasi suberin lamellalarini tashkil etuvchi yog‘ kislotalari monomerlarining elongatsiyasi bilan bevosita va chambarchas bog‘liq ekanini yaqqol namoyon etadi [11].

KCS tomonidan katalizlangan elongatsiya bosqichidan so‘ng hosil bo‘lgan β-ketoatsil-CoA oraliq mahsuloti yog‘ kislotasi elongaza (FAE) kompleksining keyingi fermentlari orqali ketma-ket modifikatsiyalanadi. Dastlabki qaytarilish bosqichida β-ketoatsil-CoA β-ketoatsil-CoA reduktaza (KCR) tomonidan gidroksiatsil-CoA ga aylantiriladi. *Arabidopsis thaliana* da AtKCR1 fermenti C18 dan uzun zanjirli yog‘ kislotalarining hosil bo‘lishi uchun zarur bo‘lib, suberin polialifatik domeni (SPAD) tarkibiga kiruvchi alifatik monomerlar biosintezida muhim rol o‘ynaydi.

Oddiy modifikatsiyalanmagan yog‘ kislotalari va birlamchi spirtlardan farqli ravishda, ω-gidroksi kislotalar va α,ω-dikarboksilik kislotalar suberin polimerining kengayishi va uch o‘lchamli tuzilmasini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu birikmalar α,ω-bifunksional yog‘ kislotalari bo‘lib, molekulaning har ikki uchida oksidlangan funksional guruhlarga ega ekanligi sababli suberin polimer matritsasida samarali kovalent o‘zaro bog‘lanishni ta’minlaydi. Suberin tarkibidagi ω-gidroksi yog‘ kislotalari asosan sitoxrom P450 monooksigenazalarining CYP86A, CYP86B va CYP94B kichik oilalariga mansub fermentlar tomonidan hosil qilinadi. α,ω-dikarboksilik kislotalar ω-gidroksi yog‘ kislotalardan kelib chiqib, ω-gidroksi va ω-okso oraliq mahsulotlar orqali ketma-ket ikki degidrogenaza reaksiyasi natijasida hosil bo‘ladi [12].

Suberin polialifatik domeni (SPAD) biosintezining keyingi muhim bosqichi glitserin skeletining polimer matritsaga integratsiyasidir. Glitserin-3-fosfat asiltransferaza *GPAT5* asil-CoA substratlarini glitserin-3-fosfatga o‘tkazib, glitserillangan monomer prekursorlarini hosil qiladi. GPAT5 C16–C22 yog‘ kislotalari, ω-gidroksi kislotalar va α,ω-dikarboksilik kislotalarning CoA-hosillari uchun keng substrat spetsifikligiga ega. *atgpat5* mutantida ildizlarda alifatik suberin miqdorining taxminan 50 % ga kamayishi hamda urug‘ qobig‘ida ω-gidroksi va dikarboksilik kislotalarning keskin pasayishi *GPAT5* ning suberin biosintezidagi markaziy rolini yaqqol tasdiqlaydi.

Suberinning asosiy aromatik monomeri ferul kislotasi bo‘lib, u fenilpropanoid biosintetik yo‘li orqali sintezlanadi. Fenilpropanoid yo‘lining farmakologik yoki genetik ingibirlanishi suberin cho‘kmasining sezilarli darajada kamayishiga yoki to‘liq bloklanishiga olib keladi. Ushbu jarayonning ekzogen ferul kislotasi bilan tiklanishi ferulatning suberin biosintezida muhim va ajralmas rolga ega ekanini yaqqol tasdiqlaydi [1].

Alifatik suberin feruloyl transferaza (ASFT) fermenti feruloyl-CoA ni ω-gidroksi yog‘ kislotalari va birlamchi spirtlarga ko‘chirish orqali alifatik va fenolik biosintetik yo‘llar o‘rtasida muhim molekulyar bog‘lanishni ta’minlaydi. Shu orqali ASFT suberin polimerining polialifatik va polifenolik domenlari o‘rtasidagi kovalent integratsiyani amalga oshiradi. *Arabidopsis thaliana* da *AtASFT* mutantlarida suberin tarkibida ferul kislotasining deyarli to‘liq yo‘qligi aniqlangan bo‘lib, bu ASFT ning suberin aromatik domeni shakllanishidagi markaziy rolini ko‘rsatadi [12].

Suberin monomerlarining tashilishi. Suberin monomerlarining sintezi va dastlabki kimyoviy modifikatsiyasi ko‘p hollarda endoplazmatik retikulumda (ER) amalga oshadi. Bunga qarama-qarshi ravishda, suberin lamellalarining to‘planishi asosan plazma membranasi yuzasida va hujayra devorida sodir bo‘ladi. Shu sababli, suberin monomerlarining ER dan plazma membranasiga yetkazilishi hamda ularning transmembran tashilishi suberin lamellalarining shakllanishidagi muhim, biroq hozirgacha to‘liq tushuntirib berilmagan bosqichlardan biri hisoblanadi [14].

Suberin monomerlari plazma membranasiga yetib kelgach, apoplastga eksport qilinadi va ushbu jarayonda ATP-binding cassette G kladasiga mansub (*ABCG*) tashuvchilari markaziy rol o‘ynaydi. *Arabidopsis thaliana* da *DSO*/*ABCG11* dastlab kutin metabolizmi bilan bog‘liq deb tavsiflangan bo‘lsa-da, keyinchalik ildizlardagi suberin miqdoriga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Bundan tashqari, *ABCG2*, *ABCG6* va *ABCG20* genlari ildizlar va urug‘ qobig‘ida suberin metabolizmi uchun zarur bo‘lib, ushbu genlarning uch karra mutantlari suberin lamellalarining tuzilishi, kimyoviy tarkibi va funksional xususiyatlarida jiddiy buzilishlarni namoyon qiladi [12]. Ushbu tashuvchilarning boshqa o‘simlik turlaridagi gomologlari ham xuddi shunday funksiyani bajaradi. Jumladan, kartoshkada *StABCG1* va guruchda *OsABCG5*/*RCN1* suberin prekursorlarining hujayra ichidan hujayra devoriga tashilishini ta’minlashi aniqlangan [15].

Muhokama. Ushbu ishda suberin biosintezi, uning kimyoviy tuzilishi, monomerlar sintezi, tashilishi va to‘planishi hamda ushbu jarayonlarning transkripsion va gormonal darajada regulyatsiyasi haqidagi zamonaviy ilmiy ma’lumotlar tizimli ravishda muhokama qilindi. Yig‘ilgan dalillar suberin oddiy strukturaviy komponent emas, balki rivojlanish va stress signalizatsiyasi bilan chuqur integratsiyalashgan, yuqori darajada moslashuvchan himoya biopolimeri ekanini ko‘rsatadi. Suberin polialifatik (SPAD) va polifenolik (SPPD) domenlardan tashkil topgan murakkab makromolekula bo‘lib, uning funksional xususiyatlari ushbu domenlarning miqdoriy va sifat nisbatiga bevosita bog‘liq.

Suberin monomerlarining biosintezi plastid va endoplazmatik retikulum o‘rtasida bo‘linib, yog‘ kislotalari elongatsiyasi, ω-gidroksillanish, dikarboksillanish, feruloyllanish va glitserillanish kabi bir nechta ketma-ket va parallel

bosqichlarni o‘z ichiga oladi. KCS, fermentlari orqali VLCFA hosil bo‘lishi SPAD biosintezining markaziy bosqichi hisoblanadi. Ayniqsa, KCS izofermentlarining (masalan, *KCS2, KCS20, StKCS6*) zanjir uzunligini aniqlovchi roli suberin xossalarining to‘qima va turga xosligini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. ω-gidroksillanish va α,ω-dikarboksilik kislotalar hosil bo‘lishi suberin polimerining kengayishi uchun hal qiluvchi bosqich bo‘lib, bu jarayonda CYP86 va CYP94 oilalariga mansub sitoxrom P450 fermentlari asosiy rol o‘ynaydi. Suberin monomerlarining hujayra ichidan hujayra devoriga tashilishi suberin biosintezidagi eng kam o‘rganilgan, ammo konseptual jihatdan muhim bosqichlardan biridir. ABCG tashuvchilari suberin prekursorlarining ER–plazma membranasi–apoplast yo‘nalishida harakatlanishini ta’minlaydi. Ushbu tashuvchilarning mutant fenotiplari suberin lamellalarining nafaqat miqdori, balki funksional yaxlitligi ham tashish jarayoniga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa. Suberin o‘simliklarning quruqlik muhitiga moslashuvida hal qiluvchi rol o‘ynaydigan, murakkab himoya biopolimeridir. Uning biosintezi yog‘ kislotalari metabolizmi, fenilpropanoid yo‘li, lipid tashilishi va hujayra devori modifikatsiyasi kabi bir nechta fundamental metabolik tizimlarning o‘zaro muvofiqlashgan faoliyati natijasida amalga oshadi.

Mavjud tadqiqotlar suberin biosintezining molekulyar asoslari borasida sezilarli yutuqlarga erishilganini ko‘rsatsada, monomerlarning tashilishi, polimerlanish mexanizmlari hamda g‘o‘za o‘simliklarida hali ham to‘liq o‘rganilmagan. Ayniqsa, turga xos va organ-spetsifik suberizatsiya mexanizmlarini ochib berish kelajakdagi muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Amaliy nuqtai nazardan, suberin biosintezini genetik va transkripsion darajada boshqarish qurg‘oqchilik, sho‘rlanish va patogenlarga chidamli o‘simlik navlarini yaratishda katta salohiyatga ega. Shu bois, suberin bilan bog‘liq genlar va regulyator tarmoqlarni chuqur o‘rganish o‘simlik biotexnologiyasi va barqaror qishloq xo‘jaligi rivoji uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. José Graça Suberin: the biopolyester at the frontier of plants Front. Chem., 2015 Sec. Polymer Chemistry Volume 3 - 2015 | https://doi.org/10.3389/fchem.2015.00062
2. Kathlyn N Woolfson 1, Mina Esfandiari 1, Mark A Bernards Suberin Biosynthesis, Assembly, and Regulation Plants (Basel). 2022 Feb 19;11(4):555. doi: 10.3390/plants11040555
3. A Chen, T Liu, Plant root suberin: A layer of defence against biotic and abiotic stresses Front. Plant Sci., Crop and Product Physiology V 13 - 2022 | https://doi.org/10.3389/fpls.2022.1056008
4. Ranathunge K, Schreiber L (2011) Alifatik suberin miqdori va tarkibiga nisbatan Arabidopsis ildizlarining suv va erigan moddalar o'tkazuvchanligi . J Exp Bot 62: 1961–1974. https://doi.org/10.1093/jxb/erq389
5. Barberon, M. (2017). The endodermis as a checkpoint for nutrients. New Phytol. 213 (4), 1604–1610. doi: 10.1111/nph.14140
6. Tanios S., Thangavel T., Suberin deposition in potato periderm: A novel resistance mechanism against tuber greening. New Phytol. 2020;225:1273–1284. doi: 10.1111/nph.16334.
7. Rains MK, G Silva ND, Molina I (2017) Reconstructing the suberin pathway in poplar by chemical and transcriptomic analysis of bark tissues. Tree Physiol 38:340–361. https://doi.org/10.1093/treephys/tpx060
8. P Gryunhofer ,L Shrayber va T Kreszies Suberin in Monocotyledonous Crop Plants: Structure and Function in Response to Abiotic Stresses Rhizobiology: Molecular Physiology of Plant Roots 08 December 2021 pp 333–378 https://doi.org/10.1007/978-3-030-84985-6_25
9. Kolattukudy PE (2002) Suberin from Plants. In: Doi Y, Steinbüchel A (eds) Biopolymers (Polyesters I). Wiley-VCH, Weinheim, Germany
10. Nomberg, G., Marinov, O., (2022). The key enzymes in the suberin biosynthetic pathway in plants: an update. Plants (Basel) 11(3):392. doi:10.3390/plants11030392
11. Lee, S. B., Jung, S. J., et al. (2009). Two Arabidopsis 3-ketoacyl CoA synthase genes, KCS20 and KCS2/DAISY, are functionally redundant in cuticular wax and root suberin biosynthesis, but differentially controlled by osmotic stress. Plant J. 60, 462–475. doi:10.1111/j.1365-313X.2009.03973.x
12. R Chen Pengrui Wang Jianing LiuXue YangXiaoying GongHongliang ZhouNing Han Zhen Yang Suberin in plants: biosynthesis, regulation, and its role in salt stress resistance Front. Plant Sci., 30 June 2025 Sec. Plant Abiotic Stress Volume 16 - 2025 | https://doi.org/10.3389/fpls.2025.1624136
13. Andersen, T. G., Molina, D., (2021). Tissue-autonomous phenylpropanoid production is essential for establishment of root barriers. Curr. Biol. 31, 965–977.e5. doi:10.1016/j.cub.2020.11.070
14. Olga Serra, Niko Geldner The making of suberin First published: New Phytoligist 2022 V.235, Issue3 P.848-866 https://doi.org/10.1111/nph.18202
15. Landgraf, R., Smolka, U., et al. (2014). The ABC transporter ABCG1 is required for suberin formation in potato tuber periderm. *Plant Cel* 26, 3403–3415. doi:10.1105/tpc.114.124776

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Никитина Елена Васильевна
elenanikita2013@rambler.ru
Тоштемиров Журабек Гани угли
Каримов Бобур Абдусобирович
Юсупов Зиёвиддин Олимжон угли
Институт ботаники Академии наук Республики Узбекистан

УДК 577.2.08+ 582.949.2

ДНК- МАРКЕРЫ ДЛЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ВИДОВ РАСТЕНИЙ В УЗБЕИСТАНЕ

Аннотация: *Среди большого видового разнообразия растений флоры Узбекистана, насчитывающей около 4400 видов сосудистых растений, около 1200 обладают лекарственными свойствами, являясь богатой сырьевой базой и огромным потенциалом для производства фармацевтических препаратов из лекарственных растений. Однако, для всего мира первоочередной глобальной проблемой является фальсификация лекарственных средств растительного происхождения. Молекулярно-генетический метод, инструмент для быстрой и надежной идентификации видов, позволяющий определять принадлежность организма к определённому таксону с помощью специфических участков генома изучаемого вида, ДНК-штрихкодов.*

Ключевые слова: *видовая идентификация, лекарственные растения, ДНК-штрихкоды.*

Nikitina Elena V
Toshtemirov Jo'rabek G
Karimov Bobur A.,
Yusupov Ziyoviddin O.
Institute of Botany of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

DNA MARKERS FOR THE IDENTIFICATION OF MEDICINAL PLANT SPECIES IN UZBEKISTAN

Abstract: *Among the rich plant diversity of the flora of Uzbekistan, which comprises approximately 4,400 species of vascular plants, about 1,200 possess medicinal properties, representing a substantial raw material base and a significant potential for the production of pharmaceutical preparations from medicinal plants. However, the falsification and adulteration of herbal medicinal products constitute a major global problem. Molecular genetic methods provide a rapid and reliable tool for species identification, allowing the assignment of biological material to a particular taxon using genomic regions of the target species, known as DNA barcodes.*

Keywords: *species identification, medicinal plants, DNA barcodes.*

Nikitina Elena V
Toshtemirov Jo'rabek G
Karimov Bobur A.,
Yusupov Ziyoviddin O.
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti

O‘ZBEKISTONDA DORIVOR O‘SIMLIK TURLARINI ANIQLASHDA DNK-MARKERLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: O‘zbekiston florasi tarkibiga taxminan 4400 xil qon tomirli o‘simliklar kiradi, shundan 1200 ga yaqin turi dorivor xususiyatlarga ega bo‘lib, farmatsevtik preparatlar ishlab chiqarishda katta xomashyo bazasini va salmoqli salohiyatni tashkil etadi. Biroq, butun dunyoda dorivor o‘simliklardan tayyorlangan dori vositalarining soxtalashtirilishi va aralashtirilishi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Molekulyar-genetik usullar o‘simlik materialini aniq taksonlarga mansubligini aniqlash imkonini beruvchi, genetik jihatdan DNK fragmentlariga asoslangan — ya’ni DNK-shtrixkodlardan foydalanilgan — tez va ishonchli identifikatsiya vositasidir.

Kalit so‘zlar: *tur darajasida identifikatsiya, dorivor o‘simliklar, DNK-shtrixkodlar.*

Введение

Около 750 видов лекарственных растений из более 4,3 тысячи растений местной флоры считаются лекарственными, из них 112 видов зарегистрированы в Узбекистане для применения в научной медицине, из которых 70 видов активно используются в фармацевтической промышленности (https://president.uz/ru/lists/view/3499).

Так как, идентификация растительного материала на уровне видов не всегда осуществима, то сегодня исследователями широко применяется молекулярный метод. Кроме того, идентификация растений классическими методами иногда затруднена, особенно в тех случаях, когда материал является производным переработанной части растения или присутствует в порошкообразном виде. Поэтому, перспективностью данного подхода является проведение точной видовой аутоинтефикации по фрагментированному биологическому материалу, что ценно с точки зрения лекарственной безопасности (Жохова и др., 2019). В настоящее время активно разрабатываются методы молекулярной идентификации биологических видов с использованием нуклеотидных последовательностей коротких участков генома (ДНК-маркеры). Специфическая проблема ДНК-маркирования в фармакогнозии и при контроле качества компонентов для производства БАДов, связана с фрагментированным биологическим материалом, и с веществами-наполнителями растительных смесей (Parveen et. al., 2016). Одним из ключевых этапов при выборе молекулярных маркеров для исследований является выявление наиболее изменчивых участков генома. Для оценки уровня вариабельности последовательностей широко применяется показатель нуклеотидного разнообразия (*Pi, nucleotide diversity*).

Целью работы является–выявление наиболее вариабельных участков хлоропластных геномов родов рода *Leonurus,* путем анализа нуклеотидного разнообразия (Pi) с использованием программы DnaSP.

Материалы исследования

Род **Leonurus L. (**пустырник) насчитывает около **25 видов,** распространённых преимущественно в **Евразии**, с центрами разнообразия в **Центральной Азии, Восточной Азии, Западной Азии и Кавказ,** три из которых распространены в Узбекистане (Флора СССР, 1954). Растения признаны перспективными лекарственным растением (Koshovyi et. al., 2021; Liu et. el., 2024). Фармакологические свойства препаратов на основе пустырника включают седативное, гипотензивное и снотворное действие. Препараты на его основе оказывают расслабляющее влияние на центральную нервную систему, способствуют снижению частоты сердечных сокращений и увеличению силы сердечных импульсов. В народной медицине настой данного растения традиционно применяется для лечения сердечно-сосудистых заболеваний, таких как пороки сердца, начальная стадия артериальной гипертензии, кардиосклероз, миокардит и миокардиодистрофия, а также при невралгиях и атеросклерозе (Акопов, 1990).

Результаты и обсуждение

Разработка видоспецифичных праймеров на основе вариабельных участков хлоропластного генома позволяет: надёжно идентифицировать виды *Leonurus* на молекулярном уровне; различать морфологически сходные или близкородственные виды; исключить подмену и фальсификацию сырья при заготовке и фармацевтическом производстве; создать основу для молекулярной сертификации и стандартизации лекарственных растений в фармакопейной практике.

Согласно данным множественного выравнивания хлоропластных геномов *Leonurus turkestanicus* V.I.Krecz. & Kuprian. и четырех видов *Leonurus* взятых из базы NCBI, общее число сайтов составило **152 537 п.н.** Для оценки нуклеотидного разнообразия (Pi) выполнен анализ с использованием программы **DnaSP** показавший следующие параметры: Среднее нуклеотидное разнообразие составило **Pi=0,00412,** число полиморфных (сегрегирующих) сайтов **S=1198,** что соответствует **1202 мутациям** (Eta), 342 парсимоний-информативных сайта, что указывает на наличие филогенетически значимых сигналов в хлоропластных последовательностях рода.

В целом, полученные результаты демонстрируют **умеренный уровень нуклеотидного разнообразия** (Pi<0,014). Данный показатель, вероятно, связан с относительно недавней радиацией рода. Род **Leonurus** является относительно «молодым» в эволюционном плане по сравнению с другими линиями *Lamiaceae*. Согласно данным (Wang et. al., 2023), дивергенция рода от общего предка произошла в раннем Миоцене— около **16 млн лет назад.** Недавнее происхождение и последующая быстрая дивергенция в миоцене–плиоцене могли способствовать **умеренному уровню нуклеотидного разнообразия**, так как времени для накопления значительного числа мутаций было меньше, чем у более древних таксонов.

Несмотря на относительно низкий общий уровень дивергенции, график распределения Pi показывает наличие выраженных **hotspot-регионов**, обладающих высоким филогенетическим потенциалом. На графике представлен результат скользящего анализа нуклеотидного разнообразия (Pi) по всему хлоропластному геному представителей рода *Leonurus* (Рисунок 1). Диапазон значений Pi оказался относительно узким (0–0,022), что указывает на умеренный уровень вариабельности хлоропластных последовательностей.





Рисунок 1. Анализ нуклеотидного разнообразия (Pi) хлоропластных геномов 5 видов рода *Leonurus*, выполненный методом скользящего окна (длина окна – 600 п.н., шаг – 200 п.н.). По оси X показано положение средней точки окна, по оси Y – значение нуклеотидного разнообразия (Pi).

Наиболее вариабельные участки включают: **matK–rps16** (Pi ≈ 0,0135) — межгенный спейсер, часто используемый в качестве маркера в систематике растений; **trnT-GGU–psbD** (Pi≈0,014) — участок LSC, связанный с фотосинтетическими генами, демонстрирующий высокий уровень полиморфизма; **ndhC–trnV-UAC** (Pi≈0,020) — пик в LSC-области, отражающий значительное накопление мутаций, один из наиболее изменчивых регионов, участвующий в регуляции NADH-дегидрогеназного комплекса; **petA–psbJ** (Pi ≈ 0,016) и **petD** (Pi≈ 0,015) — локусы, кодирующие белки фотосинтетического комплекса; **ndhF** (Pi≈ 0,016) — ген SSC-региона, вовлечённый в электронный транспорт, часто используемый в филогеографических исследованиях**; rps15–ycf1** (Pi ≈ 0,018) — вариабельный участок SSC, перспективный для внутривидовой дифференциации; **ycf1** (до Pi≈0,02367) — наиболее полиморфный регион, признанный универсальным маркером высокой изменчивости, участвующий в транспорте белков и межгеномных взаимодействиях.

Средние значения Pi для кодирующих генов сравнительно **низкие** (в пределах 0,002–0,01). Наибольшие пики отмечены у **psbA (0,00938), psbM (0,00952), petD (0,00880), rps16 (0,00855), ndhF (0,01044), ndhH (0,00904), ycf1 (0,00968) (Рисунок 2A).** Ген **ycf1** — наиболее вариабельный среди CDS, что согласуется с литературными данными: он считается универсальным маркером для видовой диагностики. В целом вариабельность CDS умеренная, что отражает консервативность белок-кодирующих регионов хлоропластного генома.






Рисунок 2. Сравнительный анализ нуклеотидного разнообразия (Pi) хлоропластных геномов 5 видов рода *Leonurus*. А — кодирующие области (CDS) (Pi>0,0076); В — некодирующие области (IGS) (Pi>0,01145).

Наибольшая вариабельность наблюдается в некодирующих межгенных спейсерах (IGS), в среднем до 0,02–0,036, чем у CDS. Наиболее вариабельные спейсеры: *trnH–psbA* (0,02158)— классический штрихкод растений; *matK–rps16* (0,02034); *psbZ–trnG* (0,01897); *trnL–trnF* (0,03649) — наиболее высокий пик, традиционно используется в филогенетике; *ccsA–ndhD* (0,02111); *ycf1–rps15* (0,01917) (Рисунок 2В). Эти регионы показывают значительный потенциал как молекулярные маркеры для дискриминации близких видов *Leonurus.*

Таким образом, среди **CDS** наибольший интерес представляют гены *ycf1*, *ndhF* и *psbA*, а среди **IGS** — *trnH–psbA*, *matK–rps16* и *trnL–trnF*. Эти регионы могут быть рекомендованы как информативные маркеры для дальнейших таксономических, филогенетических и популяционно-генетических исследований *Leonurus*, а так же могут быть использованы для разработки специфических молекулярных маркеров. Это имеет особое значение, учитывая фармакологическую ценность видов рода и необходимость предотвращения фальсификации лекарственного растительного сырья.

Литература:

1) Жохова Е. В. Родионов А. В. Повыдыш М. Н., Гончаров М. Ю., Протасова Я. А., Яковлев Г. П. Современное состояние и перспективы использования ДНК-штрихкодирования и ДНК-фингерпринтинга для анализа качества лекарственного растительного сырья и лекарственных растительных препаратов. Успехи современной биологии, 2019, Т.139, № 1, с. 25–40.

2) Флора СССР. / ред. В. Л. Комаров, С. В. Юзепчук, Б. К. Шишкин. — Т. 20. — М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1954. — С. 541.

3) Parveen I., Gafner S., Techen N., Murch S. J., Khan I. A. DNA Barcoding for the Identification of Botanicals in Herbal Medicine and Dietary Supplements: Strengths and Limitations // *Planta Medica*. 2016. Vol. 82, № 14. P. 1225–1235. DOI: 10.1055/s-0042-111208.

4) Акопов Ф.М. Сердечно-сосудистые средства растительного происхождения. — М.: Медицина, 1990. — 192 с.

5) Koshovyi, O., Raal, A., Kireyev, I., Tryshchuk, N., Ilina, T., Romanenko, Y., Kovalenko, S. M., & Bunyatyan, N. (2021). Phytochemical and Psychotropic Research of Motherwort (*Leonurus cardiaca* L.) Modified Dry Extracts. Plants, 10(2), 230. https://doi.org/10.3390/plants10020230

6) Liu S., Sun C., Tang H., Peng C., Peng F. *Leonurine:* a comprehensive review of pharmacokinetics, pharmacodynamics, and toxicology // Frontiers in Pharmacology. – 2024. – Vol. 15. – Article 1428406. – DOI: 10.3389/fphar.2024.1428406.

7) Wang Y., Wang J., Garran T.A. et al. Genetic diversity and population divergence of Leonurus japonicus and its distribution dynamic changes from the last interglacial to the present in China. BMC Plant Biol 23, 276 (2023). https://doi.org/10.1186/s12870-023-04284-x

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Ortiqboyeva Ozoda Quvvatboy qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali Biotexnologiya kafedrasi magistranti
ozodaortiqboyeva2812@gmail.com
Murodova Sayyora Sobirovna
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali Biotexnologiya kafedrasi professori
Verushkina Olga Antonovna
O'zRFA Mikrobiologiya instituti Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DUNALIELLA SALINA BIOMASSASIDAN BIOFAOL KOMPONENTLARNI AJRATIB OLISH UCHUN SAMARALI BIOTEXNOLOGIYA ISHLAB CHIQISH

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot maqsadi Dunaliella salina suvo'tini yuqori harorat, sho'rlik va yorug'lik sharoitida o'stirish orqali tabiiy β-karotin ishlab chiqarish qobiliyatini oshirish, biofaol moddalar (β-karotin)ni ajratib olish hamda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda "Artari" ozuqa muhiti asosida ikki bosqichli kultivatsiya tizimi yaratildi: birinchi bosqichda yashil biomassani ko'paytirish, ikkinchi bosqichda esa stress sharoitlari orqali β-karotin sintezini kuchaytirish amalga oshirildi. Stress sharoitida karotinoidlar miqdori 27 mg/g⁻¹ quruq biomassagacha yetgani kuzatildi, 1 mL kulturada 1.35×10⁷ ta hujayra qayd etildi, karotinoidlar konsentratsiyasi 2.90 μg/mL ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar Dunaliella salina biomassasidan ekologik xavfsiz, yuqori qiymatli tabiiy pigmentlar ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Dunaliella salina, galofit, β-karotin, 9-cis izomer, lipid, xlorofill, polifenol, glitserol, "Artari" ozuqa muhiti.*

Ortiqboyeva Ozoda Quvvatboy qizi
Master's student of the Department of Biotechnology, Jizzakh Branch of Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan.
Murodova Sayyora Sobirovna
Professor of the Department of Biotechnology, Jizzakh Branch of Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan.
Verushkina Olga Antonovna
Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences, Institute of Microbiology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

DEVELOPMENT OF AN EFFICIENT BIOTECHNOLOGY FOR THE EXTRACTION OF BIOACTIVE COMPONENTS FROM *DUNALIELLA SALINA* BIOMASS

Abstract: *The aim of this study was to enhance the natural β-carotene production capacity of the microalga Dunaliella salina through cultivation under high temperature, salinity, and light intensity, as well as to extract and analyze bioactive compounds, particularly β-carotene. A two-stage cultivation system based on the "Artari" nutrient medium was developed: the first stage focused on green biomass accumulation, while the second stage involved the induction of β-carotene synthesis under stress conditions. Under stress, the carotenoid content reached up to 27 mg·g⁻¹ of dry biomass, the cell density was 1.35 × 10⁷ cells/mL, and the carotenoid concentration was determined to be 2.90 μg/mL. The obtained results demonstrate the practical potential of Dunaliella salina biomass for the development of environmentally safe and high-value natural pigment production technologies.*

Keywords: *Dunaliella salina, halophyte, β-carotene, 9-cis isomer, lipids, chlorophyll, polyphenols, glycerol, "Artari" nutrient medium.*

Ортикбоева Озода Кувватбой кизи
Магистрант кафедры биотехнологии Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека.
Муродова Сайёра Собировна

Профессор кафедры биотехнологии Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека.
Верушкина Ольга Антоновна
Доктор философии (PhD) по биологическим наукам, Институт микробиологии Академии наук Республики Узбекистан.

РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОЙ БИОТЕХНОЛОГИИ ВЫДЕЛЕНИЯ БИОАКТИВНЫХ КОМПОНЕНТОВ ИЗ БИОМАССЫ *DUNALIELLA* SALINA

Аннотация: *Целью данного исследования является повышение способности микроводоросли Dunaliella salina к синтезу природного βкаротина путем культивирования в условиях повышенной температуры, солёности и освещённости, а также выделение и анализ биологически активных соединений, в частности β-каротина. В работе была разработана двухэтапная система культивирования на основе питательной среды «Artari»: на первом этапе осуществлялось наращивание зелёной биомассы, на втором — индукция синтеза β-каротина за счёт стрессовых факторов. В условиях стресса содержание каротиноидов достигало 27 мг·г⁻¹ сухой биомассы, плотность клеток составила 1,35 × 10⁷ клеток/мл, а концентрация каротиноидов — 2,90 мкг/мл. Полученные результаты демонстрируют практическую значимость Dunaliella salina как перспективного источника экологически безопасных и высокоценных природных пигментов и могут быть использованы для совершенствования биотехнологий их промышленного получения.*

Ключевые слова: *Dunaliella salina, галофит, β-каротин, 9-cis-изомер, липиды, хлорофилл, полифенолы, глицерин, питательная среда «Artari».*

Kirish

Dunaliella salina (D.salina) - ekstremal sharoitlarga chidamli, galofilik yashil mikrosuvo‘t bo‘lib, u katta miqdorda karotinoidlar, jumladan β-karotin, shuningdek polifenollar, xlorofillar, lipidlar va boshqa biologik faol metabolitlarni sintez qilishi bilan alohida o‘rin egallaydi. Yuqori sho‘rlangan ko‘llardan *D. salina* mikrosuvo‘tini ajratib olish va biotexnologik potensialini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Jahonda mikrosuvo‘tlarning biologik xususiyatlariga ko‘ra qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, kosmetologiya va farmasevtika sanoatida foydalanish uchun mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyalarini amaliyotga joriy etish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, mikrosuvo‘tlarning samarali shtammlarini tanlab olish, o‘stirish sharoitlarini optimallashtirish, ekstremal sharoitlarga chidamliligi, osmoregulyatsiya xususiyatlarini aniqlash, *Dunaliella* asosida multivitamin va maxsus preparatlar yaratish, tabiiy karotinoidlaridan β-karotin ekstraktlari, oziq-ovqat kukuni, ozuqa bo‘yoqlari sifatida foydalanish muhim va dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Dunaliella hujayralari birinchi marta 1838-yilda fransuz olimi Mishel F. Dunal tomonidan Fransiyaning janubidagi tuz konlarida aniqlangan bo‘lib, ularni qizg‘ish rangli bir hujayrali suvo‘tlar sifatida tasvirlagan [7].

1905-yilda Emanoil C. Teodoresco *Dunaliella* jinsini rasmiy ravishda tavsiflagan va nomlagan. Bu jins 27 ta turdan iborat bo‘lib, ularning 23 tasi sho‘r suv havzalarida uchraydi. Ushbu turning o‘ziga xos tomoni – bu boshqa ko‘pgina bir hujayrali yashil suvo‘tlardagidek qattiq hujayra devorining yo‘qligidir. *Dunaliella* turlari chuchuk suvda, barcha qit’alarda, okeanlarda, jumladan O‘lik dengizda va hatto Antarktidadagi sho‘r ko‘llarda uchraydi. *D. salina* kuchli stress va yuqori yorug‘lik ta’sirida β-karotin to‘plash xususiyati bilan biotexnologik sohalarda qadrlanadi [4].

D. salina da pigment miqdori 11,50 % ni tashkil qiladi, uning asosiy qismini karotinoidlar (7,41 %) va xlorofill (4,09 %) tashkil etadi. *D. salina* ning antioksidant xususiyati va 2,2-difenil-1-pikrilhidrazil (DPPH) radikalini neytrallashi mos ravishda 34,54 mg/1000 g va 55,63 % bo‘lgan. Lipid miqdori esa, uchta ajratilgan *Dunaliella* shtammlari ko‘p to‘yinmagan yog‘ kislotalari (25,42 %–40,13 %) ning muhim manbai hisoblanadi [1].

β-karotinning sanoat miqyosidagi ishlab chiqarishining katta qismi (taxminan 85%) hanuzgacha kimyoviy sintez orqali amalga oshiriladi [19]. Biroq, sintetik βkarotin asosan to‘liq trans-izomerlardan iborat bo‘ladi, *Dunaliella* hujayralarida esa kuchliroq antioksidant ta’sirga ega bo‘lgan 9-cis izomerlarining ko‘p miqdorini uchratish mumkin [14]. β-karotin tarkibi *all-trans (42%), 9-cis (41%), 15-cis (10%)* va boshqa izomerlar (6%) aralashmasidan iborat ekanligi aniqlangan [6].

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO UN) ma’lumotlariga ko‘ra [The State of Food, 2017], O‘zbekistonda bolalarning 53 % va kattalarning 38,4 % vitamin A yoki uning oldingi shakli bo‘lgan β-karotin tanqisligini boshdan kechiradi. Bundan tashqari, *D. salina* ning quritilgan biomassasi va undan olingan preparatlar immunostimulyator, saraton, aterosklerotik kasalliklar, mikrobial, allergik kasalliklar va yallig‘lanishga qarshi hamda boshqa terapevtik xususiyatlarga ega [2].

Dunaliella biomassasining oziq-ovqat mahsulotlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi istiqbollidir, chunki u yurak-qon tomir kasalliklari va saratonni davolashga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, shuningdek, yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega [15]. β-karotin jigar fermentlari ta’sirida oksidlanib, A vitamini hosil qilishi ma’lum bo‘lib, bu esa ko‘rish qobiliyatini va epitelial to‘qimalarni yaxshilashga yordam beradi [10].

Ko‘plab *Dunaliella* turlari yuqori sho‘rlik va boshqa kimyoviy komponentlarning keng diapazoniga ega muhitlardan ajratib olingan [18]. *D. salina* 0,5% dan 35% gacha bo‘lgan sho‘rlik sharoitida o‘stirilgan, shuning uchun ular sanoatda keng qo‘llaniladi va ekstremal muhitlarda ham muvaffaqiyatli o‘sadi [9]. Yopiq tizimli fotobioreaktorda ikki bosqichli strategiya asosida o‘stirish orqali eng yuqori karotenoid hosildorligi (328,8 mg karotinoid / l kulturani oyiga) olingan. Shuningdek, yopiq tubular fotobioreaktor *D. salina* biomassasida eng yuqori karotenoid miqdorini ta’minlagan (quruq vaznning 10 %), β-karotinning ulushi eng yuqori bo‘lgan (umumiy karotinoidlarning 90 %), shuningdek 9-cis va all-trans β-karotin izomerlari nisbati eng yuqori darajada bo‘lgan [13].

Ochiq sharoitda kultivatsiya alyuminiy kompozit panellardan tayyorlangan 100×200×20 sm o‘lchamdagi vannalarda, aralashtirgichlar va havo barbotaji yordamida olib borilgan. Kultura muhitining qalinligi 30 sm bo‘lgan, harorat sutka davomida 20–42°C oralig‘ida o‘zgarib turgan va o‘stirish tabiiy quyosh nuri ostida amalga oshirilgan. Karotinoidlar miqdori quruq biomassa hisobiga 20–30 mg/g ni tashkil qilgan [17].

D. salina β-karotin biotexnologik ishlab chiqarishda eng muhim mikrosuvo‘t turlaridan biri sifatida ajralib turadi, chunki u ushbu birikma bo‘yicha umumiy talabning 95 % dan ortig‘ini ta’minlashi tatqiqotlar davomida aniqlangan [20]. *Dunaliella* jinsiga mansub mikrosuvo‘tlardan β-karotin ishlab chiqarish quvvati yiliga taxminan 1 200 tonna deb baholangan [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot obekti sifatida mikrosuvo‘t turlari orasida sho‘rlikka chidamli va βkarotin tarkibi eng yuqori bo‘lgan *D. salina* AR-1 tanlandi. Ushbu mikrosuvo‘t namunasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya institutidan olingan.

1. Ozuqa muhiti tayyorlash. Suvo‘tni o‘stirish uchun “Artari” ozuqa muhitidan (1-jadval) foydalanildi [17].

Jadval 1

“Artari” ozuqa muhiti tarkibi (pH 8–9, $NaHCO_3$)

Modda	**Mol.massa**	**Konsentratsiya**
NaCl	58.5	116 g/l = 2M
$MgSO_4 \cdot 7H_2O$	120.3–126=246.3	50 g/l = 0.2M
KNO_3	101.0	2.5 g/l = 0.025M
K_2HPO_4	174	0.2 g/l = 0.001M
$NaHCO_3$	86	10 g/l
Mikroelementlar:		
Modda	Mol.massa	Konsentratsiya
H_3BO_3	59	2.860 g/l
$MnCl_2 \cdot 4H_2O$	125+72=197	1.810 g/l
$ZnSO_4 \cdot 7H_2O$	161+126=287	0.222 g/l
MoO_3	144	0.018 g/l
NH_4VO_3	117	0.023 g/l

2. *D. salinani* ikki bosqichli tizimda o‘stirish. *D. salina* mikrosuvo‘ti 2 bosqichli o‘stirish tizimida o‘stirildi.

- birinchi bosqich yashil biomassani to‘plash uchun;
- ikkinchi bosqich karotinlarni to‘plash uchun.

Kultivatsiyaning birinchi bosqichida *D. salina* 20 sm chuqurlikka ega bo‘lgan idishlarda yetishtirildi. Ozuqa muhitining tarkibi quyidagicha bo‘ldi: NaCl – 116 yoki 200 g/L, $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ – 50 g/L, KNO_3 – 2.5 g/L, K_2HPO_4 – 0.2 g/L, $NaHCO_3$ – 1.0 g/L, $FeSO_4 \cdot 7H_2O$ va mikroelementlar (Fe, Mg, Mn, Zn, Mo, V, Se, I). Ozuqa muhitini tayyorlashda distillangan suvdan foydalanildi. Tayyor ozuqa muhitiga 10 % li suvo‘t suspenziyasi qo‘shildi. Kultura quyosh nuri yordamida (8–12 soat), 20– 32 °C haroratda va pH 7.5–8.5 ($NaHCO_3$) sharoitida saqlab o‘stirildi. Ikkinchi bosqichda karotinoidlar sintezlanishini kuzatamiz. Bu bosqichda stress sharoitlar yaratiladi, ya’ni tuz konsentratsiyasi 240 g/l dan yuqori, biogen elementlardan asosan azot (N) tanqisligi, optimaldan yuqori yoki past haroratlarda *D. salina* hujayralarida karotinoidlar hujayra membranasiga yaqin joylashgan lipid donachalarida to‘planadi [17].

3. Goryayev kamerasida *D. salina* hujayralarini sanash. Hujayra soni Tanoeiro (2024) metodikasi asosida hisoblandi. Goryayev kamerasida jami 225 ta kataklar bor. Goryayev kamerasining o‘rta katagi (16 talik) - bu 4×4 mayda katakdan tashkil topgan “blok”. Mayda katak o‘lchami: 0.05 mm × 0.05 mm, kamera chuqurligi: 0.1 mm. Kameraga suspenziyadan 1 tomchi olinib, ustiga lyugol (hujayra fiksatsiyasi uchun) eritmasidan tomizildi va mikroskop ostida ko‘rildi. Tajribada 16 ta mayda katakli o’rta katakdan diogonal ravishda 5 ta katak sanaldi. Goryayev kamerasida mikroskop ostida *Dunaliella* hujayralari quyidagi ketma-ketlik asosida hisoblanadi. O‘rta katak o‘lchami (yuza bo‘yicha): 4×0.05 mm=0.20 mm har tomon. Yuza: 0.20 × 0.20 = 0.04 mm^2. Hajm = Yuza × Chuqurlik = 0.04 × 0.1=0.004 mm^3. mm^3 = 1 μL, shuning uchun, o‘rta katak hajmi=0.004 μL

5 ta 16 talik katakdagi hujayra soni: 50+49+55+60+58= 272 ta hujayra. O‘rta katakdagi o‘rtacha hujayra soni=272:5=54.4≈54. Demak, har bir 16-lik o‘rta katakda taxminan 54 ta *D. salina* hujayrasi bor. Shu natija bilan 1 mL suvdagi hujayra sonini hisoblash mumkin: Hujayra soni (1 mL)= O‘rta katakdagi hujayra soni : katak hajmi (μL). O‘rta katakdagi o‘rtacha hujayra soni: 54 ta, o‘rta katak hajmi: 0.004 μL. Zichlik (hujayra/μL)= Hujayra soni : Hajm (μL)=54 : 0.04 =13,500hujayra/μL. 1 mL = 1000 μL, (1 mL)=13,500×1000=1.35×10^7 [16].

4. Karotinoidlar ekstraksiyasida Li, Y., Huang (2022) metodikasi ishlatildi. To‘liq karotin sintezlagan *D. salina* biomassasi tayyorlandi. Biomassadan 15 ml olinib, 5000 rpm da 10 daqiqa davomida iFUGE D06 (Neaution) sentrifugasi bilan sentrifugalandi. Cho‘kmaga 1-2 ml etanol (96% li) solindi, vortexda 1 daqiqa aralashtirildi va qorong‘u joyda 10–15 daqiqa saqlandi. Keyin yana 5000 rpm da 5 daqiqa sentrifugalandi, sariq rangli ekstrakt olindi. Yuqori qatlam (erituvchi faza) olindi. Quritish maqsadida rotorli quritgichdan foydalanildi [11].

5. Karotinoidlarni spektrofotometrik tahlil qilish. Spektrofotometrik tahlilda Lichtenthaler & Wellburn (1983) metodikasidan foydalanildi. Karotinoidlar yorug‘likni selektiv ravishda so‘radi (absorbsiya qiladi), xususan 400–500 nm diapazonida. Spektrofotometr yordamida aynan shu to‘lqin uzunligida ularning miqdori tez va aniqlik bilan o‘lchanadi. Tahlil davomida AV755 modelli UV-vis spektrofotometridan foydalanildi. Spektrofotometr yoqilib, blank sifatida toza 96% etanol kuvetga solindi. Qurilma blankga nisbatan nolga keltirildi va namuna ekstrakti kuvetga solindi. β-karotin va xlorofill a - 443.9 nm = 0.968

Karotinoidlar (xususan, β-karotin) - 470.6 nm = 0.908

Xlorofill b ning yashil hududdagi pasaygan absorbsiya qismi karotinoidlar aralash sohasi - 527.9 nm = 0.267. Xlorofill a 665.8 nm = 0.147 (3-rasm)

Karotinoidlar uchun asosiy ishchi maksimum 470 nm va xlorofill a uchun 665 nm olindi. A470=0.908, A665=0.147

Karotinoid = $\frac{1000\times A470-1.82\times A665\times 1000}{221}$

1-qadam:1000×0.908=908; 2-qadam: 1.82×0.147×1000=267.54; 3-qadam:

908−267.54=640.46; 4-qadam (yakuniy):

Karotinoid = $\frac{640.6}{221}$ [12].

Natijalar va ularning tahlili

D. salina biomassasi turli biologik faol komponentlarga boy bo‘lib, ularning asosiy qismi pigmentlar va metabolitlardan iborat. Ushbu komponentlar suvo‘tning antioksidant xususiyatlarini belgilaydi hamda stress sharoitlariga moslashuvida muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi jadvalda *D. salina* biomassasida aniqlangan va adabiyot ma’lumotlari asosida tasdiqlangan asosiy biofaol komponentlar, ularni

aniqlash usullari hamda biologik ahamiyati keltirilgan (2-jadval)

Jadval 2

***D. salina* biomassasidagi asosiy biofaol komponentlar**

Biofaol komponent	Aniqlash usuli	Biologik ahamiyati
β-karotin	Spektrofotometriya (443–471 nm)	Kuchli antioksidant, vitamin A manbai, immunostimulyator
Umumiy karotenoidlar	Spektrofotometriya (400–500 nm)	Oksidlovchi stressdan himoya, hujayra membranasini barqarorlashtiradi
Xlorofill a	Spektrofotometriya (665 nm)	Fotosintez faolligi ko‘rsatkichi, metabolik holat indikatori
Xlorofill b	Spektrofotometriya (≈ 650 nm)	Yorug‘lik yutilishini kengaytiradi
Lipidlar	Adabiyot ma’lumotlari asosida	β-karotin saqlovchi lipid tomchilari, bioenergetik ahamiyatga ega
Polifenollar	Adabiyot ma’lumotlari asosida	Antioksidant, yallig‘lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatadi
Glitserol	Adabiyot ma’lumotlari asosida	Osmoregulyatsiya, stressga moslashuv


D. salinani birinchi bosqichli dastlabki o‘stirish jarayonida tuz miqdori 200 g/L qilib belgilandi, lekin bunda kontaminatsiya bo‘lib begona mikroflora bilan zararlandi. So‘ngra NaCl miqdori 240 g/L ga yetkazilganda muhitda faqat *D. salina* hujayralari o‘sgani kuzatildi. Boshlang‘ich konsentratsiya: 0,19 $g \cdot l^{-1}$, 30 kunda: 0,5 $g \cdot l^{-1}$, 4 oyda 2 $g \cdot l^{-1}$ konsentratsiyaga ega bo‘lindi (1-rasm)



1-rasm. *D.salina* suvo‘tini 1-bosqichda o‘stirish

Ikkinchi bosqichli o‘stirish ya’ni stress bosqichida harakatlanuvchi sariq hujayralardagi karotinoidlar miqdori 3% gacha, agar hujayralar kista holatiga o‘tganda esa, 12% gacha yetadi. Tajriba jarayonida NaCl 260 g/l ga yetkazildi, maxsus lampalar yordamida yuqori yorug‘lik bilan ta’minlandi va kultura sekinlik bilan karotinoid yig‘ishni boshladi. Kuzatishlar davomida 22 kunda biomassa: 2.2 $g \cdot l^{-1}$, 40 kunda karotinoidlar: 27 $mg \cdot g^{-1}$ ga yetdi.


D. salina hujayra soni Goryayev kamerasida sanalganda quyidagi natijaga ega bo‘ldik, ya’ni 1 mL suspenziyadagi *D. salina* soni ~1.35×10^7 ga teng (2-rasm).



a) **b)**

2-rasm. a) Karotinoid to‘plagan suvo‘t. b) Goryayev kamerasida
hujayra sonini sanash

Spektrofotometrik tahlil davomida to‘lqin diapazoni: 400–800 nm oralig‘ida olindi. 96% spirtda tayyorlangan ekstraktlarda spektrofotometrik usul bilan 470.6 nm 0.908 absorbsiyada 2.90 μg/mL natija olindi.



3-rasm. *D. salina* pigmentlarining spektrofotometrik tahlili Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, *D. salina* biomassasi yuqori biologik faol komponentlarga boy bo‘lib, uning asosiy qismi pigmentlar (β-karotin, xlorofill a va b, umumiy karotinoidlar) va metabolitlardan (lipidlar, polifenollar, glitserol) tashkil topgan. Ushbu biofaol komponentlar mikrosuvo‘tga stress sharoitlariga moslashish va antioksidant himoya funksiyalarini bajarishda muhim ahamiyatga ega.

Ikki bosqichli o‘stirish davomida karotinoidlar (b-karotin) sinteziga erishildi va 27 $mg \cdot g^{-1}$ miqdor kuzatildi, bu yuqori biofaollikni tasdiqlaydi. Spektrofotometrik tahlil natijalari *D. salina* ning β-karotin va boshqa karotinoidlar ishlab chiqarish uchun yuqori potensialga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqotlar *D. salina* ning pigmentlar va metabolitlar tarkibi, o‘sish sharoitlariga moslashuvchanligi va stress ostida biofaol komponentlar yig‘ilishi haqida ilmiy asosli ma’lumotlarni taqdim etadi. Bu natijalar mikrosuvo‘tlardan biofaol moddalar olish va ularni oziq-ovqat, farmatsevtika, kosmetologiya hamda biotexnologiyaning barcha sohalarida qo‘llash uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Tatqiqot natijalariga asoslangan holda 8 bosqichli grafikli dizayn yaratildi (4-rasm).



4-rasm. *D. salina* mikrosuvo‘tidan b-karotinni ajratish olishning grafikli dizayni

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Araj-Shirvani, M., Honarvar, M., Jahadi, M., & Mizani, M. (2024).

Biochemical profile of *Dunaliella* isolates from different regions of Iran with a focus on pharmaceutical and nutraceutical potential applications. *Food Science &Nutrition, 12*(7), 4914–4926. https://doi.org/10.1002/fsn3.4137

2. Arun, N., & Singh, D. P. (2016). A review on pharmacological applications of halophilic alga *Dunaliella*. *Indian Journal of Geo-Marine Sciences, 45*(3), 440– 447.

3. Becker, E. W. (2007). Micro-algae as a source of protein. *Biotechnology Advances, 25*(2), 207–210. https://doi.org/10.1016/j.biotechadv.2006.11.002

4. Ben-Amotz, A., Polle, J. E. W., & Subba Rao, D. V. (Eds.). (2009). *The alga Dunaliella: Biodiversity, physiology, genomics and biotechnology*. Science Publishers.

5. Borowitzka, M. A. (2013). High-value products from microalgae—Their development and commercialisation. *Journal of Applied Phycology, 25*, 743–756. https://doi.org/10.1007/s10811-013-9983-9

6. Borowitzka, M., & Borowitzka, L. J. (1989). Beta-carotene (provitamin A) with algae. In *Biotechnology of vitamins, pigments and growth factors* (Vol. 1, pp. 15–26). Elsevier.

7. Dunal, F. (1838). Extrait d'un mémoire sur les algues qui colorent en rouge certains eaux des marais salants méditerranéens. *Annales des Sciences Naturelles, Botanique*, *18*, 172.

8. Grima, E. M., Belarbi, E.-H., Fernández, F. A., Medina, A. R., & Chisti, Y. (2003). Recovery of microalgal biomass and metabolites: Process options and economics. *Biotechnology Advances, 20*, 491–515. https://doi.org/10.1016/S0734-9750(02)00050-2

9. Hadi, M. R., Shariati, M., & Afsharzadeh, S. (2008). Microalgal biotechnology: Carotenoid and glycerol production by the green algae *Dunaliella* isolated from the Gave-Khooni salt marsh, Iran. *Biotechnology and Bioprocess Engineering, 13*, 540–544. https://doi.org/10.1007/s12257-007-0185-7

10. Hosseini Tafreshi, A., & Shariati, M. (2009). *Dunaliella* biotechnology: Methods and applications. *Journal of Applied Microbiology, 107*, 14–35. https://doi.org/10.1111/j.1365-2672.2009.04153.x

11. Li, Y., Huang, X., Luo, L., & Shang, C. (2022). Optimization of extraction conditions of carotenoids from *Dunaliella parva* by response surface methodology. *Molecules, 27*(4), 1444. https://doi.org/10.3390/molecules27041444

12. Lichtenthaler, H. K., & Wellburn, A. R. (1983). Determinations of total carotenoids and chlorophylls a and b of leaf extracts in different solvents.

Biochemical Society Transactions, 11(5), 591–592. https://doi.org/10.1042/bst0110591

13. Prieto, A., Cañavate, J. P., & García-González, M. (2011). Assessment of carotenoid production by *Dunaliella salina* in different culture systems and operation regimes. *Journal of Biotechnology, 151*(2), 180–185. https://doi.org/10.1016/j.jbiotec.2010.11.011

14. Shaish, A., Harari, A., Hananshvili, L., Cohen, H., Bitzur, R., & Harats, D. (2006). 9-cis β-carotene-rich powder of the alga *Dunaliella bardawil* increases plasma HDL-cholesterol in fibrate-treated patients. *Atherosclerosis, 189*, 215–221. https://doi.org/10.1016/j.atherosclerosis.2005.12.004

15. Silva, M. R. O. B. D., Moura, Y. A. S., Converti, A., Porto, A. L. F., Viana Marques, D. D. A., & Bezerra, R. P. (2021). Assessment of the potential of *Dunaliella* microalgae for different biotechnological applications: A systematic review. *Algal Research, 58*, 102396. https://doi.org/10.1016/j.algal.2021.102396

16. Tanoeiro, J. R., Fehrenbach, G. W., Murray, P., Pedrosa, R., & Chen, Y. (2024). Evaluation of *Dunaliella salina* growth in different salinities for potential application in saline water treatment and biomass production. *Aquaculture Journal, 4*(3), 92–103. https://doi.org/10.3390/aquacj4030007

17. Tonkih, A. K., Baymurzaev, E. N., & Verushkina, O. A. (2024). Культивирование микроводоросли *Dunaliella salina* на открытом воздухе в сравнительном анализе. *International Scientific Journal "Science and Innovation"*, 1564–1570.

18. Yao, S., Lu, J., Sárossy, Z., Baggesen, C., Brandt, A., & An, Y. (2016). Neutral lipid production in *Dunaliella salina* during osmotic stress and adaptation.

Journal of Applied Phycology, 28, 2167–2175. https://doi.org/10.1007/s10811-0160794-7

19. Ye, Z.-W., Jiang, J.-G., & Wu, G.-H. (2008). Biosynthesis and regulation of carotenoids in *Dunaliella*: Progresses and prospects. *Biotechnology Advances, 26*, 352–360. https://doi.org/10.1016/j.biotechadv.2008.03.004

20. Zarandi-Miandoab, L., Hejazi, M.-A., Bagherieh-Najjar, M.-B., & Chaparzadeh, N. (2019). Optimization of the four most effective factors on βcarotene production by *Dunaliella salina* using response surface methodology. *Iranian Journal of Pharmaceutical Research,* 1566. https://doi.org/10.22037/ijpr.2019.1100752

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

A.G.Sherimbetov, B.Sh.Adilov
D.R.Ruzmetov, B.Q.Abdukarimov
B.A.Abduvaliyev, B.J.Axmadaliyev
R.K. Tursunbayev, H.T.Ravshanov
T.D.Eshjonov
O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, Toshkent viloyati, O'zbekiston
E-mail: sheranvar@mail.ru

O'ZBEKISTONDA OLMANING ANTRAKNOZ VA MEVALARINING ACHCHIQ CHIRISHI KASALLIGINI KELTIRIB CHIQARADIGAN ZAMBURUG' TURLARINING SOF KULTURASINI AJRATISH

Annotatsiya*: O'zbekistonda olmaning antraknoz va mevalarining achchiq chirishi kasalligini keltirib chiqaradigan zamburug' turlarining sof kulturasi namunalaridan Colletotrichum sp., Fusarium gibbosum, Fusarium geterosporium, Rhizoctonia solani, Fusarium sp., Alternaria alternata Alternaria radicina, Alternaria sp., Metacapnodium juniperi, Capnodium pini, Capnodium salicinum, Capnodium sp. va boshqa shtammlar bilan aniqlandi. Ushbu turlarning sof kulturalari O'zR FA GO'EBI ning «Fitopatogen va boshqa mikroorganizmlar» noyob ob'ekti kolleksiyasi boyitildi.*

Kalit so'zlar: *Colletotrichum, zamburug', olma, shtamm, antraknoz, mevaning achchiq chirishi.*

А.Г. Шеримбетов, Б.Ш.Адилов
Д.Р. Рузметов, Б.К. Абдукаримов
Б.А. Абдувалиев, Б.Ж. Аксмадалиев
Р.К. Турсунбаев, Х.Т. Равшанов
Т.Д. Эшжонов
Институт генетики и экспериментальной биологии растений, Ташкентская область, Узбекистан

ВЫДЕЛЕНИЕ ЧИСТЫХ КУЛЬТУР ВИДОВ ГРИБОВ ВОЗБУДИТЕЛЕЙ АНТРАКНОЗА И ГОРЬКОЙ ГНИЛИ ПЛОДОВ ЯБЛОНИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА.

Аннотация: *Коллекция чистых культур видов грибов возбудителей антракноза и горькой гнили плодов яблони в условиях Узбекистана была пополнена штаммами Colletotrichum sp., Fusarium gibbosum, Fusarium heterosporium, Rhizoctonia solani, Fusarium sp., Alternaria alternata, Alternaria radicina, Alternaria sp., Metacapnodium juniperi, Capnodium pini, Capnodium salicinum, Capnodium sp. и другими изолятами. Полученные чистые культуры указанных видов включены в коллекцию уникального объекта «Фитопатогенные и другие микроорганизмы» Института Генетики и экспериментальной биологии растений Академии наук Республики Узбекистан.*

Ключевые слова: *Colletotrichum*, гриб, яблока, горькую гниль, штамм, антракноз.

A.G.Sherimbetov, B.Sh.Adilov
D.R.Ruzmetov, B.Q.Abdukarimov
B.A.Abduvaliyev, B.J.Axmadaliyev
R.K. Tursunbayev, H.T.Ravshanov
T.D.Eshjonov
Institute of Genetics and Experimental Plant Biology, Tashkent region, Uzbekistan

ISOLATION OF PURE CULTURES OF FUNGAL SPECIES CAUSING ANTHRACNOSE AND BITTER ROT OF APPLE FRUITS IN UZBEKISTAN.

Abstract: *The collection of pure cultures of fungal species causing anthracnose and bitter rot of apple fruits in Uzbekistan was enriched with isolates of Colletotrichum sp., Fusarium gibbosum, Fusarium heterosporium, Rhizoctonia solani, Fusarium sp., Alternaria alternata, Alternaria radicina, Alternaria sp., Metacapnodium juniperi, Capnodium pini, Capnodium salicinum, Capnodium sp., and other strains. The obtained pure cultures of the indicated species were deposited in the collection of the unique*

object "Phytopathogenic and Other Microorganisms" of the Institute of Genetics and plant experimental biology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: *Colletotrichum, fungi, apple, bitter rot, anthracnose, strains, anthracnose.*

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini yaxshilash, kasalliklarga qarshi kurash, mikromitsetlar taksonomiyasini aniqlash borasida keng qamrovli chora-tadbirlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, mahalliy navlarini zararlovchi fitopatogen mikroorganizmlarning tur tarkibini molekulyar-genetik indentifikatsiyasi bo'yicha muayyan natijalarga erishilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va moy olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini optimallashtirish, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy sharoitlarga moslashgan ekinlarining yangi navlarini yaratish va joriy etish» bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan ekin maydonlarini fitosanitar nazoratdan o'tkazish, qishloq xo'jaligi ekinlar hamda olma kasalliklarini erta diagnoz qilish usulini ishlab chiqish va ushbu kasalliklarga qarshi kurash chora-tadbirlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Colletotrichum gloeosporioides fitopatogen zamburug' keltirib chiqaradigan antraknoz va olma achchiq chirishi Osiyo mamlakatlarning olma ishlab chiqaradigan hududlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan juda zararli kasallik xisoblanadi. Bu kasallik ham meva, ham shoxlarga zarar yetkazishi mumkin, ham o'sish, ham saqlash davrida yuzaga keladi, bu esa katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Shu sababli, samaraliroq fungitsidlarni ishlab chiqish kerak va konidiya xosil qilish, mitseliy vegetativ o'sish va patogenlik bog'liq bo'lgan molekulyar mexanizmlarni o'rganish yangi fungitsidlarni yaratish uchun potensial molekulyar nishonlarini (genlarni va ularning kodlaydigan oqsillarni) o'rganish uchun katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda olmaning antraknoz va mevalarining achchiq chirishi kasalligini keltirib chiqaradigan zamburug' turlarining sof kulturasini ajratish uchun respublikamiz tumanlari kesimida olma bog'laridan kasallangan o'simliklarning namunalari yig'ildi. Olma mevalarni zararlovchi fitopatogen zamburug' turkumiga mansub fitopatogen zamburug' izolyantlarining morfologik va molekulyar-genetik identifikatsiya qilish uchun namunalarni laboratoriyaga olib kelindi (1-rasm).



1- rasm. O'zbekistonda olmaning antraknoz va mevalarining achchiq chirishi kasalligi bilan kasallangan namunalar.

Antraknoz va mevalarining achchiq chirishi kasalligini keltirib chiqaradigan zamburug' bilan zararlangan o'simliklarni aniqlash va respublika bo'ylab tarqalishini o'rganish uchun ekin dalalari fitosanitar nazoratdan o'tkazishda quyidagi uslublardan foydalanildi [1, 2, 3].

Mikologik tadqiqotlar uchun olingan o'simliklarda kasallik simptomlari vizual aniqlanib, ayrim namunalarda tashqi belgilari aniq, ba'zilarida qisman va yashirin bo'lib, ulardan tayyorlangan gerbariylarga yig'ilgan vaqti va joyi, tuproq namunalarida esa joyi belgilab qo'yildi.

Yig'ilgan namanalaridan laboratoriya sharoitida mikologik tahlillar o'tkazildi. Namunalar qopchalarga joylanib, 2 soat davomida oqib turgan vodoprovod suvi bilan yuviladi. Namunalar har bir eritma tayyorlangan stakanlarda 0,0001% tvin 80 eritmasida 30 soniya, 0,5% natriy gipoxlorit (NaOCl) eritmasida 30 soniya, 96% etil spirtining 30%-li suvli eritmasida 30 soniya, steril distillangan suvda 2 marta 1 daqiqadan ushlab turildi. Yig'ilgan namunalardan *Colletotrichum* turkumiga mansub fitopatogen zamburug' izolyantlari ajratildi.

Zamburug'larni o'stirish uchun quyidagi tarkibdagi tabiiy ozuqa muhitlaridan foydalanildi: kartoshkali glyukozali agar (kartoshka 200, glyukoza 100, agar 20 g); kartoshkali saxarozali agar (1000 ml kartoshka ekstrakti, saxaroza 40 g, agar

20 g); kartoshkali destrozali agar (kartoshka 200 g, dekstroza 20 g, agar 20 g). Chapek ozuqa muhiti: KNO_3 - 2 g, K_2HPO_4 - 1,0 g, Mg SO_4 – 0,5 g, KCl - 0,5 g, $FeSO_4$ – 0,001 g, saxaroza – 20 g, agar-agar 20 g, distillangan suv 1000 ml.

Colletotrichum turkumi turlari mitseliylarining morfologik tuzilishini o‘rganish uchun TMA (SNA) ozuqa muhitidan foydalanildi. Uning tarkibi: KNO_3 –1 g, KH_2PO_4 –1 g, $MgSO_4x7H_2O$ –0,5 g KCl –0,5 g, glyukoza – 0,2 g, saxaroza – 0,2 g, agar-agar 20 g, dis. suv 1000 ml.

Sofholdagi kulturalarni saqlashga mo‘ljallangan ozuqa muhitlari sterilizatsiya qilingan idishlarga quyildi. Shisha idishlar avtoklavda 1 atm bosim ostida 1 soat davomida yoki quritish shkaflarida 160°S da 2 soat davomida sterilizatsiya qilindi [3].


Izolyatlardan vaqtinchalik preparatlar tayyorlandi va binokulyar mikroskop ostida rasmga olindi. Makrokonidiya va mikrokonidiyalarning hamda sklerotsiy va mitseliylarning shakllari va o‘lchamlari aniqlandi, hujayralari va mitseliylarining belgilari 4x10, 10x10, va 40x10 kattalikda o‘rganilib, maxsus aniqlagichlardan foydalanib, zamburug‘larning turlari morfologik (birlamchi) identifiksiya qilindi[6].

***Fusarium equiseti* (Corda) Saccardo (anamorfa), *Gibberella intricans* Wollenweber (teleomorfa)** - makrokonidiyalari sariq sporodoxiylarda katta miqdorda shakllanadi. Turni identifikatsiyalash uchun faqat sporodoxiylardagi makrokonidiyalardan foydalanildi. Yupqa devorchali makrokonidiyalar kuchli dorzoventral egilishga ega va odatda 5-7 septali, yaqqol namoyon bo‘ladigan bazal hujayralari oyoqchali va apikal hujayralari konussimon, yoki cho‘zilgan ipsimon shaklda bo‘ladi.

Makrokonidiyalarning o‘lchami 25-120x10-12 mkm. Ular sporodoxiylar ichidagi shoxlangan konidioforalarning monofialidalarida hosil bo‘ladi. Mikrokonidiyalar hosil qilmaydi. Xlamidosporalar GLA ozuqa muhitida nisbatan tez hosil bo‘ladi. Xlamidosporalar so‘galsimon bo‘lib, o‘sishi jarayonida och-jigar rang tusga kiradi; GLA ozuqa muhitida ayrim shtammlarda ular tilla rang yoki jigar rang tusga ega bo‘lishi mumkin[4,5].

Katta miqdordagi mitseliylar dastlab oq, keyinchalik, o‘sishi jarayonida, jigar rang tusga kiradi. Sporodoxiylar o‘rtasida spora massasi shakllanishi mumkin, biroq ular mitseliylar ostida ko‘rinmay qolishi mumkin. Spora massasi och-sariq rangdan to‘q-jigarranggacha bo‘lishi va halqasimon zonal tarqalishi kun-tun sikliga, ya’ni sirkad ritmiga javoban shakllanadi (2-rasm).

Bu turning koloniyalari agarli muhiti bilan to‘qnashgan joyda och-jigar rangdan to‘q-jigar ranggacha bo‘lgan pigmentlar hosil qiladi. To‘q-jigarrang dog‘lar yoki pigment laxtalari, odatda agarli ozuqa muhitida hosil bo‘ladi.



a



b



v

2- rasm. *Fusarium equiseti* zamburug‘i (KDA ozuqa muhitida) (a), makrokonidiyalari x400 (GLA ozuqa muhitida)

(b), xlamidiosporasi x400 (GLA ozuqa muhitida) (v)


A. alternata zamburug‘i laboratoriya sharoitida biomorfologiyasi va sistematikasi o‘rganildi. *A. alternata* konidiyalarining shakli teskari nok, to‘qmoq, tuxum va boshqa shakllarda, usti silliq yoki juda mayda so‘galchalar qoplangan bo‘ladi. Konidiyalari har doim juda uzun, ko‘pincha shoxlangan zanjirlar hosil qiladi. Och yoki o‘rtacha jigarrang tusi konidiyalar hosil qiladi. Konidiyalar xujayra devorchalari 6 tagacha to‘siqchali, o‘lchami 12-15x34-39 mkm (3,4,5,6 - rasmlar).




3-rasm. Olma barglarning *Alternaria* zamburugi bilan zararlangan simptomlari



4-rasm. *Alternaria alternata* zamburug‘i



5- rasm. *Alternaria alternata* zamburug‘i konidiyalari (x600 marta kattalashlan tasviri)



6- rasm. *Alternaria alternata* zamburug‘i mitseliysi (x600 marta kattalashgan tasviri)

Olma daraxti mikobiotasi, fitopatogen turlarining identifikatsiyasini aniqlash maqsadida olib borilgan mikologik tahlillar natijasida kasallangan olma daraxtlarida antraknoz va mevalarining achchiq chirishi kasalligini keltirib chiqaradigan *Colletotrichum* zamburug‘ turlarining genetik xilma-xilligini o‘rganildi. Natijada 22 ta shtammi ajratildi. *Colletotrichum* turkumi zamburug‘larini morfologik va molekulyar-genetik usullar yordamida identifikatsiya qilindi.

O‘zbekistonda olmaning antraknoz va mevalarining achchiq chirishi kasalligini keltirib chiqaradigan zamburug‘ turlarining sof kulturasi namunalaridan *Fusarium gibbosum, Fusarium geterosporium, Rhizoctonia solani, Fusarium* sp., *Verticillium* dahliae., *Alternaria alternata Alternaria radicina, Alternaria* sp., *Metacapnodium juniperi, Capnodium pini, Capnodium salicinum, Capnodium sp.* va boshqa shtammlar aniqlandi. Ushbu turlarning sof kulturalari O‘zR FA GO‘EBI ning «Fitopatogen va boshqa mikroorganizmlar» noyob ob’ekti kolleksiyasi boyitildi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Kiray K., Kliment Z., Shoymoshi F., Veregin Sh. Metodы fitopatologii //- Moskva., 1974. - S. 370
2. Litvinov M.A. Metodы uzucheniya pochvennых mikroskopicheskix gribov // L.: Nauka. 1969. - S. 320
3. Metodicheskiye ukazaniya po ispытaniyu insektitsidov, akaritsidov i mollyuskotsidov v rasteniyevodstve // - Moskva. – 1986. - S. 138-139.
4. Gagkayeva T.Yu., Gavrilova O.P., Orina A.S. 2019. Pervoye obnarujeniye griba *Fusarium globosum* v mikobiote zernovых kultur na territorii Urala i Sibiri // Vestnik zaщitы rasteniy, 2019, № 1(99), s. 10-18. http://doi.org/10.31993/2308-6459-2019-1(99)-10-18. Accessed 30.06.2022
5. Sherimbetov A.G. *Fusarium* turkumi zamburug‘larining biomorfologiyasi va patogenlik xususiyatlari // Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi, 2019, 117 b.
6. Leslie J.F., Summerell B.A. The *Fusarium* Laboratory Manual // Ames, Iowa, USA, Blackwell Publishing, 2006. 388 pp.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Egamberganova Asalxon Ergash qizi
Sa'dullayev Dilmurod Rashid o'g'l
Ro'zimov Murodjon Boltaboy o'g'li
Qurbonboyeva Shohida Jasurbek qizi
Ismoilova Nilufar Arslonbek qizi
Omongaldiyeva Ozoda Ruslanbek qizi
Rajabova Dilnoza Murodjon qizi
Yusupova Pokiza Baxtiyor qizi
Xalliyeva Zilola Sattarbekovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistrlari
Tadjiev Anvar Yuldashevich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, dotsenti
anvartadjiev1977@gmail.com
Ismatov Azamat Mo'ydinjonovich
Namangan davlat universiteti, dotsenti

UO'K: 664.3.094.3

SUT TARKIBIDAGI TRANSYOG'LAR MIQDORINING O'ZGARISHI

***Annotatsiya**t: Ushbu maqolada sigir sutidagi trans yog' kislotalari (TFA) darajasining dinamikasi turli omillarga, jumladan, mavsumiylik, ovqatlanish tarkibi va hayvonlarning fiziologik holatiga qarab o'rganiladi. Katta qorin biogidrogenlanishi paytida vaksin kislotasi hosil bo'lish mexanizmiga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada sutning yog' kislotasi tarkibini xromatografik tahlil qilish natijalari keltirilgan bo'lib, tabiiy trans yog'lar darajasi yaylovdan barqaror yashash joyiga o'tish davrida sezilarli darajada o'zgarishini tasdiqlaydi. Olingan ma'lumotlar sut mahsulotlarining ozuqaviy profilini yaxshilash uchun ozuqa ratsionini optimallashtirish uchun ishlatilishi mumkin.*

***Kalit so'zlar:** trans yog'lar, sigir suti, biogidrogenlanish, vaksin kislotasi, yog' kislotasi.*

Эгамбергенова Асалхон Эргаш кызы
Садуллаев Дилмурод Рашид оглы
Рузимов Муроджан Балтабай оглы
Курбанбаева Шохида Джасурбек кызы
Исмаилова Нилуфар Арслонбек кызы
Омонгалдиева Озода Русланбек кызы
Ражабова Дилноза Мураджон кызы
Юсупова Покиза Бахтиер кызы
Халиллаева Зилола Саттарбековна
Магистры Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни
Таджиев Анвар Юлдашевич
Доцент Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни,
Исматов Азамат Мойдинжонович
Наманганский государственный университет, доцент

ИЗМЕНЕНИЯ В СОДЕРЖАНИИ ТРАНСЖИРОВ В МОЛОКЕ

***Аннотация:** В данной работе исследуется динамика содержания трансизомеров жирных кислот (ТЖК) в коровьем молоке в зависимости от различных факторов: сезонности, состава рациона и физиологического состояния животных. Особое внимание уделено механизму образования вакценовой кислоты в процессе биогидрогенизации в рубце. В статье представлены результаты хроматографического анализа жирнокислотного состава молока, подтверждающие, что уровень природных трансжиров значительно варьируется при переходе с пастбищного на стойловое содержание. Полученные данные*

могут быть использованы для оптимизации кормовых рационов с целью улучшения нутриентного профиля молочной продукции.

Ключевые слова: *трансжиры, коровье молоко, биогидрогенизация, вакценовая кислота, жирнокислотный состав*

Ismoilova Nilufar
Kurbanboyeva Shokhida
Rajabova Dilnoza
Omongaldieva Ozoda
Sadullaev Dilmurod
Ruzimov Murodjon
Egamberganova Asalkhon
Xallieva Zilola
Yusupova Pokiza
Masters of Urgench state university named Abu Raykhan Beruni
Tadjiev Anvar Yuldashevich
Assosiate professor of Urgench state university named Abu Raykhan Beruni,
Ismatov Azamat Moydinjonovich
Namangan State University, Associate Professor

CHANGES IN THE CONTENT OF TRANS FATS IN MILK

Annotation: *This paper investigates the dynamics of fatty acid trans-isomers (TFA) content in cow milk depending on various factors, including seasonality, diet composition, and the physiological state of the animals. Special attention is paid to the mechanism of vaccenic acid formation during the process of ruminal biohydrogenation. The article presents the results of chromatographic analysis of the milk's fatty acid composition, confirming that the level of natural trans fats varies significantly during the transition from pasture-based to stall-feeding systems. The findings can be applied to optimize feed rations in order to improve the nutrient profile of dairy products.*

Keywords: *trans fats, cow milk, biohydrogenation, vaccenic acid, fatty acid*

Kirish.

Mamlakatimizda sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish hamda qayta ishlash asosda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va oziq-ovqat xavfsizligiga erirshish muhim masalalardan biri xisoblanadi. Bugungi kunda agrar sohada chorvachilik tarmog'ining rivojlanishi bevosita aholini va ishlab chiqarish sanoatini sifatli va xavfsiz bo'lgan go'sht, sut hamda charm mahsulotlariga bo'lgan extiyojini qondirish vazifasi qo'yilgan. Shu maqsadda mahalliy go'sht va sut yo'nalishidagi qoramol zotlarining naslini yaxshilashga davlat miqyosida katta e'tibor berilishi bilan birga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Mavjud bo'lgan qoramollar hamda xorijdan keltirilayotgan zotdor qoramollar orasidagi farq shuda-ki, bular bir-biridan zoti va nasliga qarab sut berish ko'rsatkichi, sutning umumiy yo'g'lilik darajasi, sutnint tarlibidagi laktoza miqdori, umumiy oqsil miqdori, zichligi, kislotaliligi, sutning yog'sizlantirilgan quruq qoldiq miqdori, somatik xujayralar miqdori, tozaligi kabi ko'rsatkichlar muhim axamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili


Sut mahsulotlaridan olinadigan lipidlar ko'plab mamlakatlarda inson ratsionining muhim qismidir. Kavsh qaytaruvchi hayvonlarning umumiy yog' iste'molining taxminan 75% sigir suti yog'idan olinadi [1]. Sut yog' kislotalarining (FA) tarkibi sut sifatiga ko'plab ta'sir ko'rsatadi, jumladan, uning fizik xususiyatlari (masalan, erish nuqtasi va sariyog'ning qattiqligi, kristallanishi va sut yog'ining fraktsiyalanishi) va ozuqaviy qiymati (masalan, inson salomatligiga ta'siri). Kavsh qaytaruvchi hayvonlarning sut yog'ida mavjud bo'lgan turli xil FA (qisqa va o'rta zanjirli to'yingan, tarmoqlangan, mono- va ko'p to'yinmagan, sis va trans va konjuge FA) iste'molchilar salomatligida potentsial ijobiy yoki salbiy omillar hisoblanadi [2]. Sut mahsulotlari Yevropada to'yingan yog' iste'molining umumiy miqdorining 25-60% ni ta'minlaydi, bu esa O'nlab yillar davomida to'yingan FA ni haddan tashqari iste'mol qilishning inson salomatligiga salbiy ta'siri tufayli ularni tashvishga solmoqda [3]. Ba'zi sut FA lari, masalan, yog' kislotasi, olein kislotasi, ko'p to'yinmagan FA (PUFA) va konjuge linoleik kislota (CLA), potentsial antikanserogen va antiaterogen ta'sirga ega. Boshqa FA lar, masalan, ba'zi to'yingan (laurik, miristik va palmitik kislotalar) va ba'zi trans FA (tFA) inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [4, 5, 6]. Turli tadqiqotlarning meta-tahlili [7] shuni ko'rsatdiki, sut mahsulotlarini iste'mol qilish ishemik yurak kasalligi, insult va diabet xavfini kamaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Olov ionli detektorli (GC-FID) bilan gaz xromatografiyasi yordamida sutning yog 'kislotalari tarkibini tahlil qilish uchun "oltin standart" hisoblanadi. Yog' sutdan ajratib olinadi, shundan so'ng yog 'kislotalari uchuvchan metil efirlariga (FAME) aylantiriladi. Keyin namuna xromatografga yuboriladi, u yerda komponentlar uzun kapillyar ustunda ajratiladi. TFA uchun o'ziga xosliklar: Sis- va trans-izomerlarni (bir xil massa va o'xshash xususiyatlarga ega) ajratish uchun ultra uzun, yuqori qutbli ustunlar (100 metr yoki undan uzunroq, masalan, CP-Sil 88 yoki SP-2560) ishlatiladi.

Natijalar va ularning tahlili

Olib borilgan tahlillarga, bu sutdagi trans yog'ining haqiqiyligini aniqlashning klassik usuli xisoblanadi. Trans yog'lar va sut sifatini tahlil qilish uchun bir nechta "muhim" markerlar mavjud. 1. To'g'ridan-to'g'ri trans yog' ko'rsatkichlari. Olingan natijalar jadvalidagi ro'yxatda trans izomerlari sifatida tasniflangan ikkita asosiy komponent mavjud: *Metil Elaidat* (Elaidat kislotasi): 1,547%. Bu olein kislotasining asosiy trans izomeri. *Metil Linoleaidat* (Linoleaidat kislotasi): 3,137%. Bu linolein kislotasining trans shakli. Umumiy trans izomerlari: taxminan 4,68% ni taskil qiladi.



1-rasm. Sutdagi trans yog'lar xromatogrammasi

Peak results :

Index	Name	Time [Min]	Quantity [ug/ml]	Height [μV]	Area [μV.Min]	Area % [%]
4	Methyl Butyrate	16.93	0.17	19225.8	1493.8	0.216
5	METHYL HEXANOATE	17.57	13.33	42170.7	2216.3	0.321
6	METHYL OCTANOATE	19.74	4.50	23910.3	1325.7	0.192
7	METHYL DECANOATE (CAPRATE)	23.25	2.29	12148.7	713.3	0.103
8	METHYL UNDECANOATE	27.90	2.58	23448.8	1424.9	0.206
9	METHYL TRIDECANOATE	32.95	2.50	25556.3	1563.4	0.226
10	MYRISTOLEIC ACID METHYL ESTER (Methyl myristoleate)	37.92	10.30	74725.2	6469.6	0.936
13	METHYL PENTADECANOATE	40.18	2.10	10799.2	672.5	0.097
14	METHYL PALMITOLEATE (METHYL CIS 9-HEXADECENOATE)	42.66	25.96	136597.2	22413.2	3.242
15	METHYL HEPTADECANOATE	44.05	5.05	18143.8	1400.9	0.203
16	CIS-10-HEPTADECENOIC ACID METHYL ESTER (Methyl cis-10-heptad)	44.58	2.01	7077.8	491.6	0.071
17	TRANS-9-ELAIDIC ACID METHYL ESTER (Methyl elaidate)	46.98	23.34	54300.7	10694.1	1.547
18	LINOLEAIDIC ACID METHYL ESTER (Methyl	48.28	40.11	125506.	21686.	3.137

	linolelaidate)			8	5	
21	METHYL ARACHIDATE	50.16	4.54	17995.1	1203.6	0.174
22	METHYL HENEICOSANOATE	52.91	2.45	7987.2	585.8	0.085
Total			141.24	13174682.3	691334.6	100.000

Tabiiy sut yog'i uchun tabiiy ravishda uchraydigan trans yog'larning (vaktsin kislotasi va boshqalar) miqdori odatda 2-5 ni tashkil qiladi. Tahlillar asosida olingan natijada (4,68%) normaning yuqori chegarasida, ammo baribir tabiiy mahsulot parametrlari doirasida. Agar qiymat 8-10% dan yuqori bo'lsa, bu gidrogenlangan o'simlik moylari bilan aralashtirilganligini aniq ko'rsatib beradi. Yog 'kislotasi profilining qiyosiy tahlili. Sut yog'i tarkibida qisqa zanjirli kislotalar mavjudligi bilan noyobdir.

Xulosa

Tabiiy kelib chiqishiiga ko’ra sutdagi trans yog'larning mavjudligi kavsh qaytaruvchi hayvonlarning katta qorinidagi to'yinmagan yog' kislotalarining biogidrogenlanishining tabiiy natijasi ekanligi aniqlandi. Sanoat trans yog'laridan farqli o'laroq, tabiiy izomerlar (xususan, vaksin va konjugatsiyalangan linoleik kislotalar) o'rtacha miqdorda zarar etkazishi isbotlanmagan va biologik qiymatga ega bo'lishi mumkin. Ratsionning muhim ta'siri shunda-ki, ozuqa tarkibi TFA o'zgarishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Yaylovdan barqaror yashash joyiga o'tish yog' kislotalari profilida sezilarli o'zgarishga olib keladi, bu esa foydali to'yinmagan izomerlar ulushini kamaytiradi. Ratsionda yog' qo'shimchalaridan foydalanish xom sutdagi TFA darajasini maqsadli tartibga solish imkonini beradi. Mavsumiy sikllarda "yozgi" sutda "qishki" sutga nisbatan tabiiy trans-izomerlar miqdori yuqori ekanligi aniqlandi, bu esa yangi yashil ozuqa mavjudligi va uning lipid tarkibi bilan bevosita bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Livingstone, K.M., J.A. Lovegrove, and D.I. Givens. 2012. The impact of substituting SFA in dairy products with MUFA or PUFA on CVD risk: evi dence from human intervention studies. Nutri tion Research Reviews 25:193-206.
2. Meremae, K., M. Roasto, S. Kuusik, M. Ots, and M. Henno. 2012. Trans fatty acid contents in select ed dietary fats in the Estonian market. Journal of Food Science 77:T163-T168.
3. Givens, D.I., and K.J. Shingfield. 2006. Optimizing dairy milk fatty acid composition. In: C. Wil liams, and J. Buttriss (eds.). Improving the Fat Content of Foods. Woodhead Publishing Lim ited. Cambridge, UK. p. 252-280.
4. Cicero, A.F.G., A. Reggi, A. Parini, and C. Borghi. 2012. Application of polyunsaturated fatty acids in internal medicine: beyond the established car diovascular effects. Archives of Medical Science 8:784-793.
5. Imamura, F., R.N. Lemaitre, I.B. King, X.L. Song, A.H. Lichtenstein, N.R. Matthan, D.M. Her rington, D.S. Siscovick, and D. Mozaffarian. 2012. Novel circulating fatty acid patterns and risk of cardiovascular disease: the Cardiovascu lar Health Study. American Journal of Clinical Nutrition 96:1252-1261.
6. Lefevre, M., R.P. Mensink, P.M. Kris-Etherton, B. Petersen, K. Smith, and B.D. Flickinger. 2012. Predicted changes in fatty acid intakes, plasma lipids, and cardiovascular disease risk follow ing replacement of trans fatty acid containing soybean oil with application-appropriate alterna tives. Lipids 47:951-962.
7. Elwood, P.C., J.E. Pickering, D.I. Givens, and J.E. Gallacher. 2010. The consumption of milk and dairy foods and the incidence of vascular disease and diabetes: an overview of the evidence. Lipids 45:925-939.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Sobirov Ozodbek Tojimatovich
Andijon davlat universiteti dotsenti
Email: ozodbeksobirov1988@gamil.com
Xafizddinov Muxiddin Faxriddin o‘g‘li
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: XafizddinovMuxiddin@gmail.com
Isaqov Ilyosbek Bozorboy o‘g‘li
Andijon davlat universiteti v.b. dotsenti
Email: ilyosbekisaqov94@gmail.com

AULACASPIS ROSAE (BOUCHÉ, 1833) (HEMIPTERA: DIASPIDIDAE) TURINING FARG‘ONA VODIYSIDAGI DIAGNOSTIK MORFOLOGIK BELGILARINING TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada Aulacaspis rosae (Bouché, 1833) (Hemiptera: Diaspididae) turining Farg‘ona vodiysidagi morfologik va morfometrik xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqotlar 2024–2025 yillarda Andijon viloyatining Paxtaobod, Qo‘rg‘ontepa va Xonobod hududlarida olib borilib, 79 ta namuna tahlil qilindi. Voyaga yetgan urg‘ochi individlarning diagnostik belgilariga, xususan pygidium loblari (L1–L3), dorsal makroduktlar va besh guruhli perivulvar disk-poralarga alohida e’tibor qaratildi. Morfometrik natijalar tur ichida o‘lcham o‘zgaruvchanligini ko‘rsatdi va adabiyot ma’lumotlari bilan mos keldi. Olingan natijalar turning mintaqaviy identifikatsiyasi va monitoringini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar. *Aulacaspis rosae, Diaspididae, morfometriya, pygidium, Farg‘ona vodiysi.*

Собиров Озодбек Тожиматович
доцент Андижанского государственного университета
Хафизддинов Мухиддин Фахриддин угли
базовый докторант Андижанского государственного университета
Исаков Ильёсбек Бозорбой угли
и.о. доцента Андижанского государственного университета

АНАЛИЗ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ПРИЗНАКОВ ВИДА *AULACASPIS ROSAE* (BOUCHÉ, 1833) (HEMIPTERA: DIASPIDIDAE) В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Аннотация: *В статье изучены морфологические и морфометрические особенности вида Aulacaspis rosae (Bouché, 1833) (Hemiptera: Diaspididae) в Ферганской долине. Исследования проводились в 2024–2025 гг. в Пахтаабадском, Кургантепинском и Ханабадском районах Андижанской области; проанализировано 79 экземпляров. Особое внимание уделено диагностическим признакам взрослых самок, в частности лопастям пигидия (L1–L3), дорсальным макродуктам и пяти группам перивульварных дископор. Морфометрические результаты выявили внутривидовую изменчивость размеров и соответствуют литературным данным. Полученные результаты имеют важное значение для совершенствования региональной идентификации и мониторинга вида.*

Ключевые слова: *Aulacaspis rosae, Diaspididae, морфометрия, пигидий, Ферганская долина.*

Sobirov Ozodbek Tojimatovich
Associate Professor, Andijan State University
Xafizddinov Muxiddin Faxriddin o‘g‘li
PhD Student, Andijan State University
Isaqov Ilyosbek Bozorboy o‘g‘li
Acting Associate Professor, Andijan State University

ANALYSIS OF THE DIAGNOSTIC MORPHOLOGICAL FEATURES OF *AULACASPIS ROSAE* (BOUCHÉ, 1833) (HEMIPTERA: DIASPIDIDAE) IN THE FERGANA VALLEY

Annotation: *The article examines the morphological and morphometric characteristics of Aulacaspis rosae (Bouché, 1833) (Hemiptera: Diaspididae) in the Fergana Valley. The studies were conducted in 2024–2025 in the Pakhtaabad, Kurgantepa, and Khanabad districts of the Andijan region, and 79 specimens were analyzed. Particular attention was paid to the diagnostic features of adult females, specifically the pygidial lobes (L1–L3), dorsal macroducts, and five groups of perivulvar disc pores. The morphometric results revealed intraspecific size variability and are consistent with the data reported in the literature. The obtained results are important for improving regional identification and monitoring of the species.*

Keywords: *Aulacaspis rosae, Diaspididae, morphometry, pygidium, Fergana Valley.*

Kirish

Diaspididae oilasi fitofag hasharotlar orasida iqtisodiy ahamiyati yuqori bo‘lgan zararkunandalar guruhiga kiradi. Oila vakillari tashqi himoya qalqoniga ega bo‘lib, barg, poya va novda to‘qimalarida parazitlik qiladi. Natijada o‘simliklarning o‘sishi susayadi va hosildorlik kamayadi [13, 21]. Diaspididae vakillari global miqyosda keng tarqalgan bo‘lib, Antarktidadan tashqari barcha qit’alarda uchraydi. Hozirgi kunda ushbu oilaga mansub 422 avlodga kiruvchi 2722 tur tavsiflangan. Ularning katta qismi tropik va subtropik hududlarda uchrab, ayrim turlari mo‘tadil iqlim mintaqalariga ham muvaffaqiyatli moslashgan [9].

Diaspididae oilasiga mansub *Aulacaspis* Cockerell, 1893 avlodi Diaspidinae kenja oilasi va Diaspidini qabilasiga kiradi. Avlod vakillari urg‘ochi individining cho‘ziq tanasi, prosoma qismining shishganligi hamda pygidiumda odatda uch juft yaxshi rivojlangan loblarning mavjudligi bilan tavsiflanadi [14].

Ushbu oila vakillaridan biri *Aulacaspis rosae* (Bouché, 1833) bo‘lib, o‘zbekcha mahalliy nomi atirgul qalqondori hisoblanadi [18]. Tur turli mamlakatlarda turli umumiy nomlar bilan yuritiladi. Masalan, fransuz tilida “cochenille du rosier” [8], ingliz tilida esa “rose scale”, “rose hard scale” yoki “rose scurfy scale” kabi nomlar bilan ataladi [2, 6, 12]. Mazkur tur manzarali bog‘dorchilik va ko‘chatxona xo‘jaligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi, chunki u o‘simlik shirasi bilan oziqlanib, vegetativ o‘sishni susaytiradi, barglarning sarg‘ayishi va novdalarning qurishiga olib keladi [5].

Taksonomik jihatdan tur dastlab Virey (1821) tomonidan *Coccus rosae* nomi ostida tilga olingan, keyinchalik Bouché (1833) tomonidan *Aspidiotus rosae* sifatida tavsiflangan. Takagi (1999) uni *Aulacaspis* avlodiga qayta joylashtirgan va amaldagi *Aulacaspis rosae* nomi tiklangan [19]. Hozirgi ma’lumotlarga ko‘ra, tur 79 mamlakatda qayd etilgan bo‘lib, deyarli barcha zoogeografik mintaqalarda tarqalgan [9].


Aulacaspis rosae 11 ta o‘simlik oilasiga mansub 43 ta o‘simlik turida qayd etilgan [9]. Turning asosiy ozuqa o‘simliklari Rosaceae oilasi vakillari bo‘lib, ayniqsa *Rosa* spp., *Rubus* spp., *Malus domestica*, *Pyrus* spp. va *Fragaria* spp. muhim ahamiyatga ega [17]. Shu bilan birga, tur boshqa oilalarga mansub ayrim manzarali va xo‘jalik o‘simliklarida, jumladan *Hydrangea*, *Laurus nobilis*, *Hibiscus*, *Mangifera indica* hamda *Cycas* turlarida ham uchraydi [9]. Bu holat turning keng ozuqa spektriga ega ekanini va ekologik moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Rivojlanish sikli iqlim va geografik sharoitlarga qarab farqlanadi: ayrim hududlarda yiliga bir avlod, boshqa mintaqalarda esa 2–3 avlod berishi qayd etilgan [7, 16]. Markaziy Osiyo sharoitida tur odatda yiliga ikki avlod beradi, urg‘ochi individlar esa 50–150 tagacha tuxum qo‘yishi mumkin [1]. Shunga qaramay, Farg‘ona vodiysi hududida *Aulacaspis rosae* turining zamonaviy tarqalish chegaralari, ozuqa o‘simliklari tarkibi, fenologik rivojlanish xususiyatlari hamda ekologik moslashuv ko‘rsatkichlari kompleks ravishda o‘rganilmagan. Mavjud ma’lumotlar asosan tarixiy manbalarga tayanadi va hududiy monitoring natijalari bilan boyitilmagan. Shu sababli turning mintaqaviy bioekologik xususiyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Materiallar va usullar

Tadqiqotlar 2024–2025 yillarda Andijon viloyatining Paxtaobod tumani (40°58'53.9"N 72°26'07.4"E; 521 m a.s.l.), Qo‘rg‘ontepa tumani (40°46'09.7"N 72°53'21.8"E; 717 m a.s.l.) hamda Xonobod shahri (40°48'35.7"N 72°58'58.3"E; 862 m a.s.l.) hududlarida olib borildi (1-rasm).

Mazkur hudud Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, kontinental iqlim sharoitiga ega. Yoz oylarida harorat yuqori, qish esa nisbatan yumshoq kechadi [15]. Bunday iqlim sharoiti Diaspididae vakillarining rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi.



1-rasm. Tadqiqot hududining joylashuvi: **(A)** O‘zbekiston xaritasida Farg‘ona vodiysining o‘rni; **(B)** Andijon viloyatida tadqiqot olib borilgan hududlar.

Namunalar yig‘ishda Borchsenius (1966) metodikasi asos qilib olindi. *Rosa* spp. va *Rubus* spp. o‘simliklarining zararlangan poya hamda novdalaridan dala sharoitida namunalar olindi. Zararlangan o‘simlik qismlari vizual fitosanitar ko‘rik asosida tanlab olinib, alohida qog‘oz konvertlarga joylashtirildi.

Morfologik identifikatsiya uchun yig‘ilgan namunalar laboratoriya sharoitida 70% etanol eritmasida saqlandi. Tadqiqot hududlari bo‘yicha namunalar soni quyidagicha taqsimlandi: Paxtaobod tumanidan – 25 ta, Qo‘rg‘ontepa tumanidan – 36 ta, Xonobod shahridan – 18 ta.

Shuningdek, zarur holatlarda molekulyar identifikatsiya o‘tkazish maqsadida qo‘shimcha namunalar 96% etanol eritmasiga joylashtirildi [2].

Laboratoriya sharoitida doimiy mikroskopik slayd preparatlari Kosztarab va Kozár (1988) tomonidan tavsiya etilgan klassik entomologik metodika asosida tayyorlandi. Preparatlash jarayonida namunalar KOH eritmasida tiniqlashtirildi, bosqichma-bosqich suvsizlantirildi va Kanada balzamida slaydga o‘rnatildi.

Slaydga o‘rnatilgan voyaga yetgan urg‘ochi individlar yorug‘lik mikroskopi (A15.2601-T-T, Beijing, China) ostida 100×, 400× va 600× umumiy kattalashtirishda o‘rganildi. Tur darajasidagi identifikatsiya *Aulacaspis* avlodiga xos diagnostik belgilar, ayniqsa pygidium tuzilishi (loblar, makroduktlar va yon o‘simtalar)ga alohida e’tibor qaratgan holda, mavjud aniqlash kalitlari va sistematik tavsiflar asosida amalga oshirildi [3, 4].

Natijalar

2024–2025 yillardagi dala tadqiqotlari davomida *Aulacaspis rosae* turi Andijon viloyatining Paxtaobod, Qo‘rg‘ontepa tumanlari hamda Xonobod shahri hududlarida qayd etildi.

Jami 79 ta namuna tahlil qilinib, turning hududiy taqsimoti quyidagicha aniqlandi: Paxtaobod tumani – 25 ta (31,6 %), Qo‘rg‘ontepa tumani – 36 ta (45,5 %), Xonobod shahri – 18 ta (22,9 %) (1-jadval).

Namunalarning asosiy qismi Qo‘rg‘ontepa tumanida qayd etildi.

Tur asosan *Rosa* spp. va *Rubus* spp. o‘simliklarida uchradi. Zararlanish ko‘proq novda va poya qismlarida kuzatildi. Yuqori zichlik holatlarida qalqonlar o‘simlik novdalarining taxminan 30–60 % yuzasini qisman qoplaganligi qayd etildi.

1-jadval.

***Aulacaspis rosae* ning tadqiqot hududlari va ozuqa o‘simliklari bo‘yicha taqsimoti (2024–2025)**

Tadqiqot hududi	Ozuqa o‘simligi	Namuna soni (n)	Ulushi (%)
Paxtaobod tumani	*Rosa spp.*	15	18,9
	Rubus spp.	10	12,7
Jami		**25**	**31,6**
Qo‘rg‘ontepa tumani	*Rosa spp.*	22	27,8
	Rubus spp.	14	17,7
Jami		**36**	**45,5**
Xonobod shahri	*Rosa spp.*	11	13,9
	Rubus spp.	7	8,9
Jami		**18**	**22,9**
Umumiy		**79**	**100**


* Ulushi (%) umumiy namuna soniga (N = 79) nisbatan hisoblangan.

Voyaga yetgan urg‘ochi individning qalqoni dumaloq yoki biroz oval shaklda, oq yoki sarg‘ish tusda bo‘lib, markazga yaqin joylashgan sarg‘ish-jigarrang eksuviya bilan ajralib turadi. Qalqon diametri 2,0–3,0 mm oralig‘ida kuzatildi (2-rasm, B–C). Qalqon yuzasi nisbatan silliq bo‘lib, kolonial joylashuvda o‘simlik novdalarini qisman qoplagan.

Slaydga o‘rnatilgan voyaga yetgan urg‘ochi individda tana cho‘zilgan-oval shaklda, prosoma pardasimon tuzilishga ega va metatoraks hamda abdominal segmentlarga nisbatan kengroq rivojlangan. Pygidium yaxshi sklerotizatsiyalangan bo‘lib, uning chet qismida uch juft lob (L1–L3) aniq differensiyalangan.

Median loblar (L1) yirik, yaxshi rivojlangan va o‘zaro ajralgan; lateral loblar (L2 va L3) nisbatan kichikroq, juft ko‘rinishda joylashgan. Ayrim namunalarida L4 rudimentar yoki kichik bo‘rtma shaklida kuzatildi. Loblarning chetlari silliq yoki biroz tishchali ko‘rinishga ega.

Dorsal makroduktlar pygidium va undan oldingi segmentlarda muntazam qator hosil qilgan holda joylashgan. II–IV abdominal segmentlar oralig‘ida yon bez tikanlari (gland spines) aniq kuzatildi. Perivulvar disk-poralar besh guruhda joylashgan bo‘lib, ularning taqsimlanishi tur uchun xos diagnostik belgi hisoblanadi. Anus pygidiumning markaziy qismiga yaqin joylashgan.



2-rasm. A. *Aulacaspis rosae* bilan zararlangan *Rosa* spp.; B. qalqonning dorsal qismi; C. qalqonning ventral qismi; D. slaydga o‘rnatilgan voyaga yetgan urg‘ochi; E. pygidium qismi.

2-jadval.

***Aulacaspis rosae* ning voyaga yetgan urg‘ochi individlarining morfometrik ko‘rsatkichlari (n = 20)**

Belgilar	Min (μm/mm)	Max (μm/mm)	O‘rtacha ± SD
Qalqon diametri (mm)	1,9	2,8	2,35 ± 0,23
Tana uzunligi (mm)	0,830	1,373	1,101 ± 0,135
Tana kengligi (mm)	0,466	0,773	0,619 ± 0,076
L1 lob kengligi (μm)	10	17	13,5 ± 1,8
L2 lob kengligi (μm)	15	20	17,5 ± 1,3
L3 lob kengligi (μm)	13	21	17,0 ± 2,0
Perivulvar disk-poralar (Anterolateral o‘ng) soni	20	32	26,0 ± 3,0
Perivulvar disk-poralar (Anterolateral chap) soni	17	30	23,5 ± 3,3
Perivulvar disk-poralar (Medial) soni	15	17	16,0 ± 0,5
Perivulvar disk-poralar (Posterolateral o‘ng) soni	18	32	25,0 ± 3,5
Perivulvar disk-poralar (Posterolateral chap) soni	23	31	27,0 ± 2,0
Dorsal makrodukt uzunligi (μm)	17	23	20,0 ± 1,5

O‘rganilgan *Aulacaspis rosae* voyaga yetgan urg‘ochilarining morfometrik ko‘rsatkichlari (n = 20) tur ichida o‘lcham jihatidan ma’lum darajada o‘zgaruvchanlik mavjudligini ko‘rsatdi. Qalqon diametri 1,9–2,8 mm (2,35 ± 0,23 mm), tana uzunligi 0,830–1,373 mm (1,101 ± 0,135 mm) va tana kengligi 0,466–0,773 mm (0,619 ± 0,076 mm) oralig‘ida qayd etildi (2-jadval).

Pigidium loblarining kengligi L1 uchun 10–17 μm, L2 uchun 15–20 μm va L3 uchun 13–21 μm oralig‘ida qayd etilib, turning muhim aniqlovchi va farqlovchi morfologik belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Perivulvar disk-poralar 5 ta guruhda joylashib, anterolateral o‘ng 20–32 ta, anterolateral chap 17–30 ta, medial 15–17 ta, posterolateral o‘ng 18–32 ta va posterolateral chap 23–31 ta, dorsal makrodukt uzunligi esa 17–23 μm (20,0 ± 1,5 μm) ni tashkil etdi.

Muhokama

Olingan natijalar *Aulacaspis rosae* turining Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida barqaror populyatsiyaga ega ekanini ko‘rsatdi. Turning Paxtaobod, Qo‘rg‘ontepa va Xonobod hududlarida qayd etilishi uning mintaqada keng tarqalganligini tasdiqlaydi. Bu ma’lumotlar tarixiy manbalar [1] hamda ScaleNet bazasi [9] bilan mos keladi.

Hududiy taqsimotda eng yuqori ulush Qo‘rg‘ontepa tumanida (45,5 %) kuzatildi. Bu holat Rosaceae vakillarining keng ekilishi va hududning agroiqlimiy sharoiti bilan izohlanadi. Tur asosan *Rosa* spp. va *Rubus* spp. da aniqlanib, bu global ma’lumotlar bilan uyg‘unlashadi. Adabiyotlarda keng ozuqa spektri qayd etilgan bo‘lsa-da, tadqiqot hududida u asosan Rosaceae bilan cheklanganligi kuzatildi.

Morfologik tahlillar turga xos diagnostik belgilarni tasdiqladi: pygidiumda uch juft lob (L1–L3), yaxshi rivojlangan L1 va besh guruhli perivulvar disk-poralar mavjudligi adabiyot tavsiflariga mos keldi [14].

Zararlanish darajasining novda yuzasining 30–60 % gacha yetishi turning yuqori populyatsion zichlik hosil qilish qobiliyatini ko‘rsatadi va uning iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida aniqlangan namunalarga oid ma’lumotlar GBIF xalqaro bioxilma-xillik ma’lumotlar bazasiga joylashtirildi [10]. Bu mintaqaviy ma’lumotlarning global ilmiy bazalarga integratsiyasini ta’minlaydi hamda turning tarqalishini kelgusida monitoring qilish imkonini kengaytiradi.

Umuman, *Aulacaspis rosae* Farg‘ona vodiysi sharoitiga yaxshi moslashgan zararkunanda bo‘lib, uning monitoringi va nazorat choralarini kuchaytirish dolzarb hisoblanadi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida *Aulacaspis rosae* turining Farg‘ona vodiysida tarqalganligi aniqlandi. Tur Farg‘ona vodiysida *Rosa* spp. va *Rubus* spp. o‘simliklarida uchrab, asosiy diagnostik morfologik belgilariga tayangan holda ishonchli aniqlashtirildi. Morfometrik ko‘rsatkichlar individlar orasida ma’lum darajadagi o‘lcham farqlari mavjudligini ko‘rsatdi, biroq ular ilmiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlar bilan mos keldi. Natijalar turning hudud sharoitiga moslashganligini, mintaqada barqaror populyatsiyaga ega ekanligi hamda uning tarqalishini muntazam kuzatib borish zarurligini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Архангельская А. Д. Кокциды средней Азии. – Ташкент : Изд-во Комитета наук УзССР, 1937. – 158 с.
2. Борхсениус Н. С. Каталог щитовок (Diaspidoidea) мировой фауны. – М.–Л. : Наука, 1966. – 449 с.
3. Данциг Е. М. Подотряд кокциды (Coccinea). Семейства Phoenicoccidae и Diaspididae // Фауна России и сопредельных стран. – 1993. – № 144. – 453 с.
4. Bouché P. F. Naturgeschichte der Insecten, besonders in Hinsicht ihrer ersten Zustände als Larven und Puppen. – Berlin, 1833. – 53 S.
5. Brendel E. The effect of linseed oil on rose scale *Aulacaspis rosae* (Bouché) (Hemiptera: Diaspididae) in greenhouse-grown rose crops as an alternative pest management strategy. – 2013. – P. 73–77.
6. Bustshik N. T. A contribution to the comparative morphology of the males of the scale insects (Homoptera, Coccoidea, Diaspididae) // Horae Societatis Entomologicae Unionis Soveticae. – 1958. – Vol. 46. – P. 162–269.
7. Enkerlin D. Entomologia agricola // Las Ciencias agrícolas en América Latina : progreso y futuro. – 1967. – P. 239.
8. Foldi I. Liste des cochenilles de France (Hemiptera, Coccoidea) // Bulletin de la Société entomologique de France. – 2001. – Vol. 106, No. 3. – P. 303–308.
9. García Morales M, Denno BD, Miller DR, Miller GL, Ben-Dov Y, Hardy NB. 2016. ScaleNet: A literature-based model of scale insect biology and systematics. Database. doi: 10.1093/database/bav118. http://scalenet.info [09.02.2026].
10. iNaturalist contributors (2026). iNaturalist Research-grade Observations. Occurrence dataset DOI: https://doi.org/10.15468/ab3s5x. Accessed via GBIF.org on 12 February 2026. Dataset URL: https://www.gbif.org/occurrence/6130838965.
11. Kosztarab M. P., Kozár F. Scale insects of Central Europe. – Budapest : Akadémiai Kiadó, 1988. – 456 p.
12. Malumphy C., Badmin J. S. Scale insects and whiteflies (Hemiptera: Coccoidea and Aleyrodoidea) of Watsonian Kent; with a discussion on the impact of naturalised non-native species // British Journal of Entomology and Natural History. – 2012. – Vol. 25, No. 1. – P. 15.
13. Miller D. R., Davidson J. A. Armored Scale Insect Pests of Trees and Shrubs. – Ithaca ; New York : Cornell University Press, 2005. – 442 p.
14. Moghaddam M., Watson G. W. The scale insects of Iran. Part 1 : The armoured scales (Hemiptera: Coccomorpha: Diaspididae) // Zootaxa. – 2021. – Vol. 4907, No. 1. – P. 1–276.

15. Muhitdinov I. I., Maxammadov Z. Z. Farg‘ona vodiysining iqlimi va yog‘inlari // Pedagogs International Research Journal. – 2022. – Vol. 2, No. 1. – P. 49–52. – DOI: 10.5281/zenodo.5878396.

16. Murakami Y. A review of biology and ecology of Diaspine scales in Japan (Homoptera: Coccoidea) // Mushi. – 1970. – Vol. 43. – P. 65–114.

17. Murakami Y. Notes on the biology of *Aulacaspis rosae* // Japanese Journal of Applied Entomology. – 1970. – P. 165–170.

18. Sobirov O. T. Farg‘ona vodiysi koksidlari (Homoptera: Coccinea) faunasi, morfologiyasi va ekologik xususiyatlari : Diss. … biol. fan. fals. dokt. (PhD). – Toshkent, 2020. – 117 b.

19. Takagi S. Notes on the Diaspididae of Japan (Homoptera: Coccoidea) // Insecta Matsumurana. – 1999. – Vol. 55. – P. 135–136.

20. Virey J. J. Histoire naturelle des insectes nuisibles aux rosiers // Journal de Pharmacie. – 1821. – P. 211.

21. Xafizddinov M. F., Saidjaxonova D. A., Sobirov O. T., Isaqov I. B., Zokirov O. K., Yuldashev H. Ye. Andijon viloyatida meva va manzarali o‘simliklarda uchraydigan qalqondor hasharotlar (Homoptera: Coccinea, Diaspididae)ni o‘rganish // Ilmiy axborotnoma. Biologik tadqiqotlar seriyasi (Andijon). – 2024. – № 4. – B. 37–45.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

F.N.Mirzabekova
Qo‘qon davlat universiteti Andijon filali dotsenti
Eshmatova Durdona Ziyoyiddinovna
Andijon davlat universiteti Biologiya fakulteti 1- bosqich magistranti

MUNTAZAM JISMONIY MASHQ VA SPORT BILAN SHUG’ULLANISHNING ODAM TANA A’ZOLAR TIZIMIGA TA’SIRI VA YOSHGA OID XUSUSIYATLARI.

Annotatsiya: *Odam organizmining jismoniy rivojlanishga tashqi ta’sirlarni o’rni kata bo’lib , maqolada muntazam jismoniy mashq va sport bilan shug’ullanishning ta’sirini o’rganmoqchi bo’ldik. Morfofunksional ko’rsatkichlarni ayrimlarini tahlil qilgan holda qaysi tana a’zolariga tizimiga ta’sir qilishi mumkinligini o’rgandik. Shu bilan birga jismoniy rivojlanish ko’rsatkichlarini turli yosh davriga bog’lab ularni ham tahlil qildik*

Kalit so’zlar: j*ismoniy rivojlanish, morfofunksional ko‘rsatkichlar, jismoniy mashqlar, sport fiziologiyasi, a’zolar tizimi, yosh davrlari, ontogenez, antropometriya, organizm moslashuvi.*

F.N.Mirzabekova
Associate Professor of Andijan Branch of Kokand State University
Eshmatova Durdona Zioyiddinovna
1st-cycle Master's Student, Faculty of Biology, Andijan State University

THE INFLUENCE OF REGULAR PHYSICAL EXERCISE AND SPORTS ON THE SYSTEMS OF THE HUMAN BODY AND AGE-RELATED CHARACTERISTICS.

Abstract: *External factors play a crucial role in the physical development of the human body. This article aims to investigate the impact of regular physical exercise and sports on the development process. By analyzing specific morphofunctional indicators, the influence of exercise on various organ systems was studied. Furthermore, the indicators of physical development were analyzed in correlation with different age periods.*

Keywords: *physical development, morphofunctional indicators, physical exercises, sports physiology, organ systems, age periods, ontogenesis, anthropometry, adaptation of the organism*.

Ф.Н. Мирзабекова
Доцент, Андижанский филиал Кокандского государственного университета
Эшматова Дурдона Зиойиддиновна
Студентка 1-го курса магистратуры, биологический факультет,
Андижанский государственный университет

ВЛИЯНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ И СПОРТА НА СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ЧЕЛОВЕКА И ВОЗРАСТНОЕ РАЗВИТИЕ.

Аннотация: *Внешние факторы играют важную роль в физическом развитии человеческого организма. В данной статье рассматривается влияние регулярных физических упражнений и занятий спортом на процесс развития. На основе анализа отдельных морфофункциональных показателей изучено их воздействие на различные системы органов. Кроме того, проведен анализ показателей физического развития в зависимости от различных возрастных периодов.*

Ключевые слова: *физическое развитие, морфофункциональные показатели, физические упражнения, физиология спорта, система органов, возрастные периоды, онтогенез, антропометрия, адаптация организма.*

Kirish: Hozirgi taraqqiyot bosqichida gipodinamiya (kam harakatlilik) insoniyat salomatligiga jiddiy xavf solayotgan asosiy omillardan biridir. Shu sababli, jismoniy tarbiya va sport nafaqat jismoniy kamolot vositasi, balki organizmning turli kasalliklarga chidamliligini oshiruvchi hamda hayotiy muhim funksiyalarni optimallashtiruvchi strategik omil hisoblanadi. Odam organizmining jismoniy rivojlanishi faqatgina tashqi o‘lchamlarning o‘zgarishi emas,

balki barcha tana a’zolar tizimining murakkab funksional moslashuvi jarayoni hisoblanadi. Muntazam jismoniy mashqlar va sport bilan shug‘ullanish organizmning zaxira imkoniyatlarini kengayib boradi, bu esa yurak-qon tomir, nafas olish va tayanch-harakat tizimlarida ijobiy morfofunksional o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Agar e'tibor beradigon bo'lsak , o‘sib kelayotgan yosh avlodda jismoniy yuklamalarning to‘g‘ri taqsimlanishi kelajakda salomatlik poydevorini belgilaydi. Ushbu maqolada jismoniy faollikning muayyan a’zolar tizimiga ta’siri va bu jarayonning turli yosh davrlaridagi o‘ziga xosliklari zamonaviy fiziologik tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Doimiy jismoniy mashqlarning organizm a’zolar tizimiga ta’sirini o‘rganishda quyidagi zamonaviy va tajribaviy yondashuvlaro’z aksini topadi: So‘nggi yillarda bu borada xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan bir qator asarlar yaratildi.Izlanishlar olib bordi. Yurak-qon tomir tizimi adaptatsiyasi**.** Bu sistemada bir qator olimlar xususan **J.H. Wilmore** va **D.L. Costill** o‘zlarining sport fiziologiyasiga oid izlanishlarida muntazam yuklama ta’sirida yurakning chap qorinchasi gipertrofiyasi va sistolik hajmning ortishini isbotlaganlar. Ularning tadqiqotlari asosiy maqsadi, sport bilan shug‘ullanuvchi yoshlarda tinch holatda bradikardiya (yurak urishining sekinlashishi) kuzatiladi, bu esa yurakning tejamkor va samarali ishlashidan dalolat beradi. Tashqi nafas olish va gaz almashinuvi. Bu soha vakilaridan fiziolog olim **P.O. Astrand** maksimal kislorod iste’moli darajasini organizmning umumiy ish qobiliyati va nafas olish tizimi samaradorligining asosiy ko‘rsatkichi sifatida asoslab bergan. Uning xulosalariga quyidagicha bayon qilingan: Muntazam aerob mashqlar o‘pka ventilyatsiyasini yaxshilab, alveolalarning diffuziya qobiliyatini oshiradi. Bu esa yosh organizmning turli ekzogen omillarga chidamliligini kuchaytiradi. Morfofunksional ko‘rsatkichlarning yosh dinamikasimsi**.** Bu sohada ham bir qator olimlar ish olib borganlar. Mahalliy olimlardan **Z.F. Mavlyanova** va **S.S. Gulyamovlar** o‘zlarining ko‘p yillik tadqiqotlarida o‘smir sportchilarning tana ko‘rsatkichlarini oddiy tengdoshlari bilan qiyoslaganlar. Ularning natijalari shuni ko‘rsatadiki, muntazam sport bilan shug‘ullanish o‘g‘il va qiz bolalarda pubertat (balog‘at) davridagi o‘sish sur’atlarini muvofiqlashtiradi va tana tarkibida yog‘ to‘qimalari kamayib, mushak massasining ortishiga xizmat qiladi. Neyrogumoral va metabolik jarayonlar. Bu jarayonni olim **B.I. Iskandarov** Orolbo‘yi hududidagi ekologik omillarning bolalar jismoniy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganib, noqulay tashqi muhit sharoitida jismoniy mashqlarning gormonal muvozanatni saqlashdagi o‘rnini ko‘rsatib bergan. Uning tadqiqotlari muntazam harakat endokrin bezlar faoliyatini stimullashi va organizmning umumiy adaptiv salohiyatini oshirishini tasdiqlagan.

Natijalar: Olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanuvchi yoshlarning morfofunksional ko‘rsatkichlari nazorat guruhidagi (sport bilan shug‘ullanmaydigan) tengdoshlaridan sezilarli darajada farq qiladi. 1. Yurak-qon tomir tizimidagi funksional o‘zgarishlar. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, muntazam sport bilan shug‘ullanuvchi 13-15 yoshli o‘smirlarda tinch holatdagi yurak urish chastotasi (YUCH) o‘rtacha 62-68 urish/daqiqani tashkil etgan bo‘lsa, shug‘ullanmaydiganlarda bu ko‘rsatkich 75-82 urish/daqiqaga teng bo‘ldi. Bu holat quyidagi ilmiy qonuniyatlar bilan izohlanadi: **Fiziologik bradikardiya:** Sportchilarda yurak urishining sekinlashishi patologiya emas, balki yurakning yuqori darajadagi tejamkor ish rejimiga o‘tganligidan dalolat beradi. **J.H. Wilmore** nazariyasiga muvofiq, diastola (yurakning dam olish fazasi) davomiyligi uzayadi, bu esa miokardning (yurak mushagining) qon bilan ta’minlanishini va energiya resurslarini tiklashini yaxshilaydi. **Vagus tonusi:** Muntazam mashqlar vegetativ nerv tizimida adashgan nerv (vagus) tonusini oshiradi, natijada yurakning avtomatizm tugunlariga tushadigan bosim kamayib, puls barqarorlashadi. 2. Nafas olish tizimining samaradorligi. Odam organizmining jismoniy ish qobiliyati to‘qimalarning kislorod bilan ta’minlanish darajasiga, ya’ni tashqi nafas olish tizimining samaradorligiga bevosita bog‘liq. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muntazam aerob yuklamalar (ayniqsa, suzish, akademik eshkak eshish va o‘rta masofalarga yugurish) o‘smirlar respirator tizimida tizimli o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan. O‘tkazilgan antropometrik va spirografik o‘lchovlar natijasida sportchi o‘smirlarda **o‘pkaning tiriklik sig‘imi (O‘TS)** nazorat guruhidagiga nisbatan o‘rtacha **15–20% ga yuqori** ekanligi tasdiqlandi: **Mexanizm:** Bu o‘sish nafaqat o‘pka hajmining kengayishi, balki nafas olishda ishtirok etuvchi asosiy muskullar — **diyafragma** va qovurg‘alararo mushaklarning kuchayishi (ishchi gipertrofiyasi) hisobiga sodir bo‘ladi. **Nafas olish chuqurligi:** Sportchilarda nafas olish yuzaki emas, balki chuqur va tejamkor xarakterga ega. Bu esa o‘pka alveolalarining o‘lik bo‘shlig‘ini kamaytirib, gaz almashinuvi jarayonida ishtirok etuvchi alveolalar sonini maksimal darajaga yetkazadi. Kuper testi natijalariga ko‘ra, 12 daqiqalik yugurish masofasi sportchilar guruhida 2400-2800 metrni tashkil etgan bo‘lsa, oddiy guruhda 1800-2100 metrdan oshmadi. Bu organizmning maksimal kislorod iste’moli va gipoksiyaga chidamlilik qobiliyati ortganligidan dalolat beradi. **Sportchilar guruhi:** 12 daqiqa davomida 2400–2800 metr masofani bosib o‘tishdi. Bu ko‘rsatkich ularda kislorod transport tizimining (yurak + o‘pka + qon) yuqori samaradorlik bilan ishlashini ko‘rsatadi. **Nazorat guruhi:** Natijalar 1800–2100 metrdan oshmadi, bu esa kislorod qarzining tez yuzaga kelishi va anaerob almashinuvga erta o‘tish bilan izohlanadi. 3. Morfologik ko‘rsatkichlarning o‘sish dinamikasi. Antropometrik o‘lchovlar shuni ko‘rsatdiki, jismoniy mashqlar suyak-mushak tizimining me’yoriy rivojlanishini stimullaydi. Sport bilan shug‘ullanuvchi o‘smirlarda tana vazni indeksining (TVI) me’yoriy darajada saqlanishi (18.5-24.9 kg/m²) kuzatildi. Muhokamalar jarayonida aniqlandiki, sport mashg‘ulotlari gormonal fonni (ayniqsa, o‘sish gormoni — somatotropinni) faollashtirib, o‘g‘il bolalarda yelka kamari va ko‘krak

qafasining kengayishiga, qizlarda esa qomatning to‘g‘ri shakllanishiga xizmat qiladi. 4. Yoshga oid xususiyatlarning qiyosiy tahlili. Tadqiqot natijalari jismoniy yuklamalarning yoshga bog‘liqligini tasdiqladi: **7-10 yoshli** bolalarda mashqlar ko‘proq harakat koordinatsiyasi va egiluvchanlikni rivojlantiradi. **12-15 yoshli** o‘smirlarda esa asosiy o‘zgarishlar chidamlilik va kuch ko‘rsatkichlarida (neyrogumoral muvozanat hisobiga) namoyon bo‘ladi.

Muhokama: Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, muntazam jismoniy yuklama organizm uchun "ijobiy stress" vazifasini o‘taydi. P.O. Astrand va Z.F. Mavlyanova tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, sport bilan shug‘ullanish nafaqat tana a’zolarining hajmini o‘zgartiradi, balki ularning funksional zaxiralarini ham oshiradi. Ayniqsa, mintaqaviy ekologik omillar (masalan, Orolbo‘yi hududi) ta’sirida o‘sishdan ortda qolish (retardatsiya) xavfi bo‘lgan yoshlar uchun muntazam jismoniy mashqlar kompensator (tiklovchi) vazifasini o‘taydi. Bu esa muntazam sportning nafaqat jismoniy, balki adaptiv-himoya ahamiyatiga ega ekanligini isbotlaydi.

Xulosa*:* Muntazam jismoniy mashqlar inson organizmining barcha tizimlariga, ayniqsa yurak-qon tomir va nafas olish a'zolariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning samaradorligini oshiradi. Yoshga oid xususiyatlarni hisobga olgan holda jismoniy yuklamalarni to‘g‘ri taqsimlash, sog‘lom avlodni shakllantirishning ilmiy-metodik asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Gulyamov S.S. Sport fiziologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
2.Mavlyanova Z.F. Sport tibbiyoti. – Samarqand: SamDTU, 2020.
3.Wilmore J.H., Costill D.L. Physiology of Sport and Exercise. – Human Kinetics, 2018.
4.Iskandarov B.I. Atrof-muhit omillarining bolalar rivojlanishiga ta’siri. – Toshkent, 2012.
5.Astrand P.O. Textbook of Work Physiology. – McGraw-Hill, 2003

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Anorboyeva Shaxzoda Sadriddin qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti nodavlat
ta'lim muassasasi Samarqand kampusi assistenti
E-mail:anorboyevashaxzoda94@gmail.com

ZEA MAYS L. NAVLARINING PIGMENTLAR MIQDORIGA TURLI NAMLIK DARAJALARINING TA'SIRI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada makkajo'xorining ayrim navlarining fotosintetik faoliyatiga namlikning ta'siri natijalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Qumqishloq, Kadan 1000, xlorofill a, xlorofill b, karotinoid.*

Анорбоева Шахзода Садриддин кизи
Ассистент, Самаркандский кампус, негосударственное образовательное учреждение, Университет экономики и педагогики, Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

ВЛИЯНИЕ УРОВНЯ ВЛАЖНОСТИ НА КОЛИЧЕСТВО ФОТОСИНТЕТИЧЕСКИХ ПИГМЕНТОВ

Аннотация: *В данной статье представлены результаты исследования влияния влажности на фотосинтетическую активность некоторых сортов кукурузы.*

Ключевые слова: *Кумкышлок, Кадан 1000, хлорофилл a, хлорофилл b, каротиноиды.*

Anorboeva Shahzoda Sadriddin qizi
Assistant, Samarkand City Non-State Educational Institution, University of Economics and Pedagogy, Samarkand State University named after Sharof Rashidov

EFFECT OF MOISTURE LEVELS ON THE CONTENT OF PHOTOSYNTHETIC PIGMENTS

Annotation: *This article presents the results of the effects of moisture on the photosynthetic activity of certain corn varieties.*

Key words: *Qumqishloq, Kadan 1000, chlorophyll a, chlorophyll b, carotenoids.*

KIRISH

O'simliklarda fotosintez jarayonining yuqori bo'lishi ularning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Pigmentlar tizimida sodir bo'ladigan har qanday o'zgarish o'simlikning yorug'lik energiyasini o'zlashtirish qobiliyati, uglevodlar sintezi va umumiy fiziologik barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Plastid pigmentlarining miqdori o'simlikdagi fotosintez jadalligini muayyan darajada belgilaydi, ularning o'sishi, rivojlanishini va hosildorligini ta'minlaydi. Karotinoidlar barcha fotosintetik va ko'plab fotosintetik bo'lmagan organizmlar tomonidan sintez qilinadigan izoprenoid molekulalarning katta sinfiga kiradi [9;1088-b.].

Fotosintez jarayonida xlorofill "a" va "b" asosiy pigmentlar hisoblansada, karotinoidlar deb ataluvchi sariq, to'q sariq, qizil rangdagi pigmentlar ham mavjud bo'lib, bir qancha fiziologik funksiyalarni bajaradi. Bulardan eng muhimi o'simliklarni noqulay omillar ta'siridan himoya qiladi. Shuningdek, karotinoidlar to'lqin uzunligi qisqa bo'lgan nurlarni qabul qilib, xlorofillarga yetkazib beradi va fotosintez jarayonida ishtirok etadi. [10; 783-b.]. Tashqi muhit sharoitlari, xususan, suv bilan ta'minlanganlik darajasi o'simliklarning pigment tizimi uchun eng muhim ekologik omillardan biridir. Suv tanqisligi sharoitida barglarning hujayra tuzilishi, xloroplastlar faoliyati va fotosistemalar barqarorligi buzilishi natijasida pigmentlarning parchalanishi kuchayadi. Bu esa fotosintez jarayonining sekinlashishiga, oqibatda o'simlikning o'sish sur'ati va hosildorligining pasayishiga olib keladi. Aksincha, yetarli namlik sharoitida pigmentlar sintezi faollashib, o'simlikning fotosintetik potensiali ortadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Navlarning suv tanqisligiga nisbatan himoya reaksiyasi sifatida mustahkam bog'langan xlorofill miqdorini oshiradi. Qurg'oqchilikka nisbatan chiniqtirilgan urug' o'simtalarida xlorofill "a" hamda "b" va karotinoidlar miqdori

chiniqtirilmaganlarga qaraganda ancha yuqori bo‘lgan. Har xil navlar bilan o‘tkazilgan tajribalarda suv tanqisligi xlorofill miqdorining pasayishiga sabab bo‘lgan. Suv stressiga chidamli bo‘lgan navlarda bunday kamayish chidamsizlarga qaraganda kam bo‘lgan, suv stressi sharoitida plastida pigmentlari, ayniqsa mustahkam bog‘langan plastidalar yig‘indisining kamroq o‘zgarishi navlarning qurg‘oqchilikka nisbatan chidamliligini belgilaydi [1]. Namlikning o‘simlik fotosintetik faoliyatiga ta’siri o‘simliklar fiziologiyasida eng ko‘p o‘rganilgan tadqiqotlardan biridir. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, suv tanqisligi sharoitida barg to‘qimalaridagi xlorofillarning miqdori kamayadi, bu esa fotosintez jarayonining sustlashishiga shuningdek faolligini pasaytiradi. Suv yetishmovchiligi o‘simlik hujayralarida oksidlanish–qaytarilish jarayonlarining buzilishiga, plastidalar faoliyatining susayishiga va xloroplastlarning strukturasida morfologik o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga olib kelishi qayd etilgan [2,4]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa C_4 tipidagi o‘simliklar — jumladan, makkajo‘xori — qurg‘oqchilik sharoitiga boshqa donli ekinlarga nisbatan nisbatan chidamli bo‘lsa-da, yetarli darajada suv bilan taminlanmasligi ularning pigmentlar tizimida sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Xlorofill a/b nisbatining o‘zgarishi fotosintetik faoliyatning buzilishi, karotinoidlar miqdorining kamayishi esa antioksidant muhofaza tizimining susayishi bilan bog‘liq ekani ilmiy adabiyotlarda ta’kidlangan [3,5,8]. Xlorofill miqdori o‘simlikning umumiy rivojlanish bosqichlariga, navning biologik xususiyatlariga va ekologik omillarning majmuasiga bog‘liq ekanligi aniqlangan. Adabiyotlardan aniqlanishicha turli darajadagi sug‘orish rejimlari ostida makkajo‘xorining fotosintetik pigmentlari tarkibi keskin farq qilishi, suv tanqisligi sharoitida pigmentlarning parchalanishi jadallashishi haqida ma’lumotlar mavjud [6,7]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, namlikning o‘zgarishi fotosintetik pigmentlarning miqdori, ularning o‘zaro nisbati hamda fotosintez jarayonining samaradorligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu masalaning chuqur o‘rganilishini talab etadi. Tadqiqotlarmizda “Kadan 1000” va boshqa ayrim makkajo‘xori navlarida namlik darajasining fotosintetik pigmentlar miqdoriga ta’sirini o‘rganishga e’tibor qaratdik. Tadqiqotlarimizda dala sharoitida turli darajada namlik rejimlari tashkil qilindi va har bir variantda bir xil agrotexnik tadbirlar qo‘llandi. Namlik darajalarini tabiiy holat, o‘rtacha cheklangan namlik va keskin quritilgan sharoit ko‘rinishida belgiladik. O‘simliklardan namunalar vegetatsiyaning bir xil fenologik bosqichlarida — 5–7 barg hosil qilgan davrida — yig‘ib olindi. Xlorofill a va b umumiy karotinoidlar miqdorini spektrofotometrik usulda aniqlab, pigment ekstraksiyasi uchun 80%li atseton eritmasidan foydalandik. O‘lchovlar 450, 645 va 663 nm to‘lqin uzunliklarida olib borildi. Olingan pigment konsentratsiyalari Arnon formulasi bo‘yicha hisoblab chiqildi, xlorofill a/b nisbatlari va umumiy pigmentlar miqdori aniqlanib, o‘zaro solishtirildi. Statistik tahlil uchun dispersiya tahlili (ANOVA) qo‘llanilib, variantlar orasidagi farqning ishonchlilik darajasi $P \leq 0,05$ mezonida baholandi. Metodologiya fotosintetik pigmentlarning o‘zgarish dinamikasini aniqlash, namlik tanqisligining intensivligi va o‘simlikning moslashuv reaksiyalarini baholash imkonini berdi. Natijalar har bir navning stress omillariga chidamliligini aniqlash va yuqori samaradorlikka ega navlarni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Makkajo‘xori navlarining suv etishmasligiga nisbatan javob reaksiyasini va moslashish mexanizmlarini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan dala tajribalarida barglardagi fotosintetik pigmentlar miqdoriga namlik darajalarining ta`siri aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichning qiymati o‘rganilgan jo‘xori navlarining gullash bosqichida aniqlandi. O‘tkazilgan dala tajribalarda ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha gullash bosqichida olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Fotosintetik pigmentlar miqdorining o‘zgarishiga namlik darajalarining ta’siri, mg/g ho‘l og‘irlikka nisbatan (gullash bosqichi)

t/r	Navlar	Tuproq namligi	Gullash		
			Xlorofill “a”, mg/g	Xlorofill “b”, mg/g	Karotinoidlar, mg/g
1	Qumqishloq	mo‘tadil	2,93±0,06	1,49±0,04	0,82±0,06
		cheklangan	2,68±0,04	1,31±0,02	0,63±0,05
2	Kadan 1000	mo‘`tadil	3,11±0,03	1,69±0,03	1,11±0,06
		cheklangan	2,92±0,06	1,47±0,05	0,91±0,07

Tuproq namligi ikki xil bo‘lgan sharoitda dala tajribalarda barcha jo‘xori navlar barglarida xlorofill “a” miqdorining har xil bo‘lishi kuzatildi. Namlikning pasayishi bilan barcha jo‘xori navlarida xlorofill “a” miqdori farqli ravishda kamayish holati ma`lum bo‘ldi. Olingan natijalarga ko‘ra, xlorofill “b” va karotinoidlar miqdori ham namlik darajasiga bog‘liq holda har xil qiymatga ega bo‘ldi. Jumladan, Qumqishloq navida mo‘tadil namlikda xlorofill “a” 3,02 mg/g, xlorofill “b” 1,52 mg/g va karotinoidlar 0,86 mg/g bo‘ldi. CHeklangan namlikda esa xlorofill “a” 2,68mg/g, xlorofill “b” 1,33 mg/g va karotinoidlar 0,68 mg/g darajasida qayd etildi. Kadan 1000 navida mo‘tadil namlikda xlorofill “a” 3,15 mg/g, xlorofill

“b” 1,78 mg/g va karotinoidlar1,15 mg/g ni, cheklangan namlikda esa xlorofill “a” 2,95 mg/g, xlorofill “b” 1,50 mg/g va karotinoidlar 0,96 mg/g ni tashkil qildi. Tuproq namligi mo‘tadil bo‘lgan sharoitda barcha navlarda pigmentlar sintezi jadallashdi, namlik cheklangan sharoitda esa pigmentlar miqdori barcha navlarda kamayib bordi. Tuproq namlik darajasining pasayishi bilan jo‘xori navlari barglarida pigmentlar miqdorining pasayishi kuzatildi. Izlanishlar davomida yuqoridagi ko‘rsatkichlar qiymati navlarning namlik bilan ta`minlanish darajasi hamda ularning nav va biologik xususiyatlariga bog‘liq holda har xil bo‘ldi. Umumiy pigmentlar miqdori cheklangan namlik sharoitida Kadan 1000 navida yuqori bo‘ldi. Tuproq qurg‘oqchiligi, ya`ni cheklangan tuproq namligi sharoitida o‘stirilgan barcha jo‘xori navlarida mo‘tadil namlikdagi navlarga qaraganda barcha pigmentlar miqdori kamaydi. Fotosintetik pigmentlar miqdori bo‘yicha navlar kesimida farqlar aniqlandi. Fotosintez jadalligiga namlik darajalari ta`siri. Qurg‘oqchilik sharoitida fotosintezni o‘rganish bo‘yicha olingan ma`lumotlarga qaraganda ko‘pchilik o‘simliklarda suv tanqisligining ta`siri natijasida $CO_2$ diffuziyasi birmuncha faollashadi. Davomli qurg‘oqchilikning keyingi bosqichlarida fotosintetik faollik pasayadi. Qurg‘oqchilik, ayniqsa chidamsiz bo‘lgan o‘simliklar turi va navlarining fotosintez jadalligiga kuchli salbiy ta`sir ko‘rsatadi. O‘simliklarni suv bilan etarli darajada ta`minlash fotosintez jarayoni uchun juda katta ahamiyatga kasb etadi. Chunki, barg to‘qimalarida suv etarli bo‘lganda plastidalarning ishlashi jadallashadi. Aks holda o‘simliklarning umumiy fotosintetik mahsuldorligi pasayadi. Suvning sarflanishi hisobiga fotosintezning pasayishi ba`zan labchalar qarshiligining kuchayishi hisobiga ham sodir bo‘ladi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar davomida dala tajribalari sharoitida jo‘xori navlarida fotosintez jadalligiga har xil darajadagi tuproq namlik darajalarining ta`siri o‘rganildi. Ushbu ko‘rsatkich qiymati jo‘xori navlarining naychalash, ro‘vaklash va gullash bosqichlarida aniqlandi (2-jadval). Jadval ma`lumotlariga qaraganda, jo‘xori navlarining fotosintez jadalligi tuproq namlik darajalariga bog‘liq holda har xil bo‘lishi aniqlandi. Tuproq namlik darajasi mo‘`tadil bo‘lgan sharoitda o‘stirilgan jo‘xori navlarining fotosintez jadalligi barcha rivojlanish bosqichlarida yuqori bo‘ldi. Navlar rivojlanishining naychalashdan gullash bosqichigacha fotosintez jadalligining oshib borishi qayd etildi va ushbu ko‘rsatkich qiymati barcha variantlarning gullash bosqichida eng yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

2-jadval

Fotosintez jadalligiga namlik darajalari ta`siri

t/r	Navlar	Tuproq namligi	Naychalash	Ro‘vaklash	Gullash
			FJ, g/m²soat	FJ, g/m²soat	FJ, g/m² soat
1	Qumqishloq	mo‘tadil	0,91±0,04	1,27±0,05	1,77±0,08
		cheklangan	0,62±0,03	0,82±0,03	1,51±0,06
2	Kadan 1000	mo‘tadil	2,01±0,04	3,21±0,03	4,91±0,05
		cheklangan	1,33±0,03	2,83±0,06	4,32±0,07

Cheklangan namlik sharoitida fotosintez jadalligi mo‘tadil namlik bilan taminlangan sharoitda o‘stirilgan navlarga qaraganda past bo‘lishi aniqlandi. Ikki xil namlik bilan taminlangan sharoitda o‘stirilgan jo‘xori navlarini ushbu ko‘rsatkich qiymati bilan solishtirsak, ular o‘rtasida sezilarli farqlar kuzatildi. Bunday farqlar qiymati navlarning individual biologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘ldi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, fotosintez jadalligiga cheklangan namlik salbiy ta’sir qilganligi kuzatildi. Tuproq namlik darajasining mo‘tadil bo‘lishi barcha navlar fotosintez jadalligiga ijobiy ta`sir ko‘rsatib, organik moddalarning to‘planishi faollashdi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha eng past natijalar barcha navlar uchun cheklangan namlik sharoitida kuzatildi. Tabiiy sharoitda o‘suvchi madaniy o‘simliklar o‘sish va rivojlanish davomida tashqi muhitning noqulay omillari (suv tanqisligi va yuqori harorat) ta`siriga duch kelib, suv balansida o‘zgarishlar kuzatiladi. O‘rganilgan barcha mo‘tadil namlik variantlarimizda cheklangan namlik variantlariga qaraganda ushbu ko‘rsatkich qiymati yuqori bo‘ldi. Tuproqdagi namlikning kamayib borishi fotosintez jadalligining sekinlashishiga olib keldi.

Tajribalarimiz davomida fotosintez jadalligi bo‘yicha olingan ma’lumotlar ushbu jarayonning faolligi tuproq namlik darajasiga, shuningdek o‘simliklarning rivojlanish bosqichlariga hamda navlarning biologik xususiyatlariga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Cheklangan namlik, ya’ni suv yetishmasligi fotosintez jadalligining keskin pasayishiga olib keldi.

XULOSA

Cheklangan namlik sharoitida o‘tkazilgan tajriba variantlarimizda bu ko‘rsatkich qiymati bo‘yicha navlar kesimida har xil darajada kamayishi kuzatildi va bu ularning bevosita suv ta’minoti va chidamlilik hamda biologik xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Ushbu ko‘rsatkich qiymati bo‘yicha navlar o‘rtasida farqlar aniqlanib, suv stressi sharoitida Qumqishloq va Kadan navlarida boshqa navlarga nisbatan fotosintez jadalligining qiymatining yuqoriligi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxat:

1. Атабаева Х.Н., Массино И.В. Биология зерновых культур (учебник). Ташкент.Национальная энциклопедия Узбекистана, 2005, 112-120-

2.To‘xtayev N.T., Qosimov B.Q. Dehqonchilik va o‘simlikshunoslik asoslari – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.(Don ekinlari, shu jumladan makkajo‘xori haqida ma’lumot.)

3. Karimov A.A., Bozorov A.B. Fitopatologiya – Toshkent: O‘quv qo‘llanma, 2019.(Makkajo‘xori kasalliklari fitopatologik jihatdan yoritilgan.)

4. Islomov A.K.“Makkajo‘xori o‘simligida keng tarqalgan zamburug‘li kasalliklar va ularga qarshi kurash choralari”,O‘zbekiston agrar fanlari jurnali, 2022-yil, №3.

5. Tursunov S.“Makkajo‘xorida pufakli qora kuydirgi (Ustilago maydis)ning ekologik omillarga bog‘liqligi”,Qishloq xo‘jaligi va agrobiznes, 2021. 5.Jalilov, A. (2019). Oziq-ovqat va salomatlik. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi nashriyoti.

6. Ismoilov, D. (2020). Fitoterapiya: O‘simliklar va tibbiyot. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

7. Samarqandiy, I. (2016). Tabiiy mahsulotlar va ularning tibbiyotdagi roli. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi nashriyoti.

8. World Health Organization (WHO). (2015). Traditional medicine strategy 2014-2023. Geneva: World Health Organization.

9. Andrew, J.S., H. Moreau, M. Kuntz, G. Pagny, C. Lin, S. Tanksley and J. McCarthy, 2008. An investigation of carotenoid biosynthesis in Coffea canephora and Coffea arabica. J. Plant Physiol., 165: 1087– 1106.

10. Wang, H.; Cao, H.; Gao, Y.; Wang, X. The effects of drip-irrigation scheduling without mulching on soil moisture, yield and quality of cotton in southern Xinjiang. J. Irrig. Drain. 2020, 39, 26–34.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Mashrabov Sohibjon Ne'matjon o'g'li
Namangan davlat universiteti magistranti
E-mail: mashrabovsohibjon@gmail.com
Dexqonov Davron Burxonovich
Namangan davlat universiteti dotsenti
Abdullayev Shuhratjon Solijonovich
Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi
Yokubjonov Olimjon Raximjon o'g'li
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
Toshmatov Sarvar Omonjon o'g'li
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

ASTRAGALUS NAMANGANICUS POPOV TURI BO'YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada Astragalus L. (Fabaceae) turkumiga mansub Astragalus namanganicus Popov turi bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari tahlili amalga oshirildi. Bundan tashqari, floristik, zamonaviy elektron ma'lumotlar, mavjud gerbariy namunalari asosida turning tarqalish areali, ekologik xususiyatlari, muhofaza masalalari haqida ilmiy xulosalar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Astragalus L. Astragalus namanganicus, GBIF, POWO, IUCN, Plantarium.*

Машрабов Сохибжон Нематжон угли
Магистрант Наманганского государственного университета
Дехқонов Даврон Бурхонович
Доцент Наманганского государственного университета
Абдуллаев Шухратжон Солижонович
Старший преподаватель Наманганского государственного университета
Ёкубжонов Олимжон Рахимжон угли
Преподаватель Наманганского государственного университета
Тошматов Сарвар Омонжон угли
Преподаватель Наманганского государственного университета

АНАЛИЗ ПРОВЕДЁННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ВИДУ *ASTRAGALUS NAMANGANICUS* POPOV

Аннотация. *В статье проведён анализ научных исследований, посвящённых виду Astragalus namanganicus Popov, относящемуся к роду Astragalus L. (Fabaceae). Кроме того, на основе флористических данных, современных электронных источников информации и имеющихся гербарных образцов приведены научные выводы о распространении вида, его экологических особенностях и вопросах охраны.*

Ключевые слова: *Astragalus L. Astragalus namanganicus, GBIF, POWO, IUCN, Plantarium.*

Mashrabov Sokhibjon
Master's student, Namangan State University
E-mail: mashrabovsohibjon@gmail.com
Dekhkanov Davron
Associate Professor, Namangan State University
Abdullaev Shukhratjon
Senior lecturer, Namangan State University
Yokubjonov Olimjon
Teacher, Namangan State University
Toshmatov Sarvar
Teacher, Namangan State University

ANALYSIS OF CONDUCTED RESEARCH ON THE SPECIES ASTRAGALUS NAMANGANICUS POPOV

Abstract. *An analysis of research conducted on the species Astragalus namanganicus Popov, belonging to the genus Astragalus L. (Fabaceae), was carried out in the article. In addition, based on floristic data, modern electronic databases, and available herbarium specimens, scientific conclusions are presented regarding the species' distribution range, ecological characteristics, and conservation issues.*

Keywords: *Astragalus L. Astragalus namanganicus, GBIF, POWO, IUCN, Plantarium.*

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston florasida 33 oila, 104 turkumga mansub 327 ta endem tur (umumiy floraning 7,45%) mavjud bo'lib, shulardan 8 turkumga mansub 50 tasi (umumiy endemlarni 1/6 qismi) *Fabaceae* Lindl. (oilaning O'zbekiston florasida 39 turkum 926 turi mavjud) oilasini tashkil qiladi. Oilaga mansub endemlardan 35 tasi (umumiy turlarning 70%) *Astragalus* L. turkumiga kiradi [18].

Astragalus L. turkumining yer yuzida 3000 dan ortiq [16], Markaziy Osiyoda (Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston) 632 (241 tasi endem: umumiy turlarning 38%) [12], O'zbekistonda esa 37 seksiyaga mansub 267 (umumiy floraning 5,72%) [16] turi mavjud. Shundan kelib chiqqan holda, *Astragalus* L. turkumiga mansub turlar ustida chuqur tadqiqotlar o'tkazish va ularning zamonaviy holatini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

Maqolada *Astragalus* L. (*Fabaceae* Lindl.) turkumiga mansub *Astragalus namanganicus* Popov turi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili hamda tur o'rganilishining zamonaviy holatini aniqlash va ilmiy xulosalar chiqarish maqsad qilib olingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida *Astragalus namanganicus* Popov turining sistematik holati, tip namunasi, tarqalish areallari haqidagi ma'lumotlarni olishda xalqaro elektron bazalar Plants of the World Online (POWO) [16], International Plant Names Index (IPNI) [9], Global Biodiversity Information Facility (GBIF) [7], Pantarium onlayn o'simlik identifikatori [15] ma'lumotlaridan, turga xos botanik xususiyatlarni ifodalash uchun "Флора СССР" [5], "Флора Узбекистана" [4], "Флора Киргизской ССР" [6], "Определитель растений Средней Азии" [14] asarlaridan foydalanildi.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo florasini o'rganishga bag'ishlangan dissertatsiyalar, so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar tahlil qilindi, turlarning hozirgi tarqalish hududlari va gerbariy yozuvlari virtual gerbariylar namunalari (MW, TASH, FRU) hamda dala tadqiqotlari yordamida aniqlandi.

Natijalar. *Astragalus* L. turkumi bo'yicha olib borilgan dastlabki maqsadli tadqiqotlar XIX asrning so'nggi choragiga to'g'ri kelib, bugungi kunga qadar A.Bunge (1868), M.F.Popov (1926), A.F.Ioffe (1928), S.N.Kudryashev (1933-1935), A.G.Borisova (1946), M.Nabiyev (1951-1953), N.F.Goncharov (1955), E.V.Nikitina (1957), R.V.Kamelin (1981), R.S.Vernik va T.Raximova (1982), F.Hassanov (2015), K.Sh.Tojibaev (2022), X.R.Xoshimov (2023) kabi olimlar tomonidan turli yillarda tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Astragalus L. turkumiga oid dastlabki maqsadli tadqiqotlar A.A.Bungega (1868-1869) tegishli bo'lib, o'zining "Generis Astragali species gerontogeae" asarida *Astragalus* L. sistematikasini ishlab chiqish orqali turkumga mansub 971 turni qayd etib, ularni 8 ta ost turkum (subgenus) va 105 ta seksiyaga (section) ajratgan [1].

Astragalus namanganicus ilk bor 1925-yil 4-mayda Farg'ona viloyati (hozirgi Namangan viloyati), Namangan tumani, Taxtako'l yaqinidagi tepalikdan Soikina tomonidan terilgan (tip namunasi TASH da saqlanadi) [7]. 1926-yil M.F.Popov tomonidan O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti – O'zMU; 14:140) jurnalida tur haqidagi dastlabki ma'lumotlar chop qilingan [7].

A.F.Ioffe (1928) tomonidan *Astragalus namanganicus* Popov turining Farg'ona vodiysi shimoliy adir zonasidagi yangi o'sish hududlari qayd etildi. Yangi o'sish hududlari Namangan shahar atrofidagi adirliklari bilan bog'liq bo'lib, turning XX asr boshlaridan Namangan shahri atrofidagi quruq adir ekotizimlarida populyatsiyalar hosil qilganligini ko'rsatadi hamda yig'ilgan gerbariy namunalari turning tarixiy tarqalish arealini aniqlashda muhim manba hisoblanadi [7].

S.N.Kudryashev (1933-1935) tomonidan Sharqiy Chotqol tizmasining janubiy va sharqiy yonbag'irlarida kompleks geobotanik tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, tadqiqotlar davomida Janubiy Chotqol tizmasining sharqiy qismi uchun 310 turdan (hozirgi kunda 70 turga mansub 100 dan ortiq gerbariy namunalarining TASH fondida saqlanadi) iborat floristik ro'yxat (floristik materiallar orasida *A.namanganicus* turiga tegishli gerbariylar ham mavjud) tuzilgan. Ushbu tadqiqot *A.namanganicus* turining tarqalish areali va ekologik muhitlarini aniqlashda muhim bosqich bo'lib xizmat qildi. Bundan tashqari, dala kuzatuvlari va yig'ilgan gerbariy materiallarining tahlili asosida S.N.Kudryashev hamda P.N.Krasovskiy (1933) tomonidan Namangan shimolidagi adir va toshloq qiyaliklardan olingan namunalar alohida ko'rib chiqildi va *A.namanganicus* turining tog'oldi-adir landshaftlaridagi toshloq, hamda gipsli qiyaliklardagi tor ixtisoslashuvga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi [11].

Astragalus namanganicus Popov turiga xos botanik ma'lumotlar A.G.Borisova (1946) tomonidan "Флора СССР" (614; 641-b) asarining XII jildida, N.F.Goncharov (1955) tomonidan "Флора Узбекистана" (2073; 608-b) asarining III jildida,

E.V.Nikitina (1957) tomonidan “Флора Киргизской ССР” (113; 313-b) asarining VII jildida, R.V.Kamelin (1981) tomonidan “Определитель растений Средней Азии” (3696; 222-b) asarining VI jildida keltirib o‘tilgan [4,5,6,14]. R.V.Kamelin “Определитель растений Средней Азии” asarining VI jildida *Fabaceae* Lindl. oilasining 39 turkumga mansub 926 turi (ushbu asarda *Astragalus* L. turkumining 108 seksiyasiga mansub 592 turi qayd etilgan) uchun diagnostik belgilarni taqdim etdi [14].

M.Nabiyev (1951-1953) tomonidan Farg‘ona vodiysi shimoliy-sharqiy hududida joylashgan Maylisoy daryo havzalari o‘simliklar qoplamini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilgan va tadqiqot natijasida “Растительность пестроцветных толщ бассейна реки Майлисая (восточная часть Ферганской долины)” asari (1959) nashr etilgan. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston (Namangan viloyati Chortoq, Uychi tumani), Qirg‘iziston (Jalolobod viloyati Toshko‘mir) chegaraviy hududlarini qamrab oladi. Dala tadqiqotlari natijasida M.Nabiyev tomonidan 40 xildagi tuproqlarga tasnif berilib, 500 ga yaqin (377 tur) gerbariy namunalari yig‘ilgan. Yig‘ilgan na’munalar orasida *A.namanganicus* turining Qirg‘izistonning Karavan tumani hududidan terilgan namunalar ham mavjud bo‘lib, bu turning O‘zbekiston bilan chegaradosh hududlarda ham uchrashini ko‘rsatdi [13].

R.S.Vernik va T.Raximova (1982) tomonidan Namangan viloyatidagi adir hududlarning tabiiy o‘simlik qoplamasini sistematik tarzda o‘rganishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot natijasida Namangan viloyati adirlari uchun 46 oila, 224 turkumga mansub 364 turdan (daraxtlar - 3 tur, butalar va butachalar - 29 tur, yarim butalar va yarim butachalar - 27 tur, ko‘p yillik o‘tlar - 132 tur, bir yillik o‘tlar - 173 tur) iborat floristik ro‘yxat yaratildi. Ilmiy tadqiqotning barcha natijalari “Естественная растительность и пастбища адыров Наманганской области” nomli risolada jamlangan. Olimlar tomonidan Chortoqsoy vodiysi va Karabog‘ suv ombori atroflaridan qayd etilgan namunalarda *Astragalus namanganicus Popov* turining Chortoq adirliklarida nisbatan barqaror populyatsiyalar hosil qilishi qayd etilgan [2].

XXI asr boshlariga kelib *Astragalus namanganicus* Popov turini o‘rganishda yangi bosqich boshlandi. G.Lazkov (2005) tomonidan Qirg‘iziston hududidagi Farg‘ona tizmasining Toshko‘mir shahri yaqinidagi Sariqamishsoy darasidan turning yangi o‘shish nuqtalari qayd etildi. Bu esa turning avval ma’lum bo‘lgan mahalliy hududlardan tashqarida ham uchrashini ko‘rsatib, uning areal doirasi nisbatan kengroq ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. [15]. F.Hassanov va boshqalar (2015) tomonidan nashr etilgan “Conspectus Florae Asiae Mediae” ning XI jildida *Astragalus* L. turkum tarkibiga 57 ta yangi takson qo‘shildi [10]. Keyingi yillarda olib borilgan dala kuzatuvlari natijalari turning bir qancha yangi o‘sish nuqtalarini aniqlash imkonini berdi. Xususan, T.Tillayev (2015) Andijon viloyati, Xoqon adirliklaridan, V.Yusupov (2017) Namangan shahri atrofidagi G‘irvonsoy suv ombori hududidan yangi o‘sish nuqtalarini aniqladi. Ushbu kuzatuvlar *A. namanganicus* turining Farg‘ona vodiysi shimoliy va sharqiy adir zonalarida tor arealdan tashqarida ham barqaror populyatsiyalari mavjudligini ko‘rsatib, uning ekologik moslashuvchanligi va tarqalish dinamikasi bo‘yicha muhim ma’lumotlar berdi [15]. K.Sh.Tojibaev va boshqalar tomonidan Farg‘ona vodiysidagi (Chust-Pop adirliklari -“Chap”) alohida ahamiyatga ega botanik hududlarda (IPA) olib borilgan tadqiqotlarda *Astragalus namanganicus* Popov turi IPA tasnifining A mezoniga (IPA sub-criteria - Aiii: areali cheklangan va endemik o‘simlik turlarning miqdori yuqori) muvofiq, IUCN (International Union for Conservation of Nature) muhofaza statusining (Conservation status) geografik taqsimoti (Extent of occurrence - EOO: 4,099.75) va yashash maydoni (Area of occupancy - AOO: 46) ko‘rsatkichlari asosida xavf ostidagi tur (EN - Endangered) sifatida baholandi [17]. X.R.Xoshimov tomonidan Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlar (FVSHA) florasini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot davomida *Astragalus namanganicus* Popov turining Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on, Pop, Uychi, Chortoq, Yangiqo‘rg‘on tumanlari, Namangan shahri atrofi adir zonalarida bir qancha yangi o‘sish nuqtalari aniqlandi. Ushbu ma’lumotlar turning real tarqalish chegaralarini aniq belgilashda, areal dinamikasi va ekologik xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilishda asosiy ma’lumotlar manbai sifatida xizmat qildi. Bundan tashqari, *Astragalus namanganicus* Popov IUCN muhofaza statusiga muvofiq global darajada (geografik taqsimoti - EOO: 4,099.754; yashash maydoni - AOO: 52) va mahalliy (tadqiqot hududi) darajada (geografik taqsimoti - EOO: 443.969; yashash maydoni - AOO: 28) xavf ostidagi tur (EN - Endangered) sifatida baholandi [20]. O.Sheraliyev (2023-2024) tomonidan Farg‘ona vodiysi sharqiy adirlarini, I.Sharipov (2024) tomonidan Markaziy Farg‘ona adirlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarida *Astragalus namanganicus* turining yangi o‘sish nuqtalarini aniqlandi [8,19]. Ushbu kuzatuvlarda tur Farg‘ona vodiysining markaziy va sharqiy qismida ham mavjudligi tasdiqlanib, populyatsiyalarning geografik tarqalish areali yanada kengroq ekanligini ko‘rsatdi. Navbatdagi tadqiqot ishlari D.R.Axmatovaga tegishli bo‘lib, bu tadqiqotlarda *Astragalus namanganicus* Popov turning morfologik, ekologik va fitogeografik xususiyatlari, shuningdek *Astragalus namanganicus* turiga yaqin boshqa turlar bilan qiyosiy tahlillari amalga oshirildi [3,4].

Muhokama va xulosalar. *Astragalus namanganicus* Popov turiga oid bibliografik va xalqaro elektron bazalar ma’lumotlari, mavjud gerbariy materiallarining tahlili tur arealining tuzilishi va muhofaza holatini kompleks baholashga to‘liq imkonini bermaydi. Tur haqidagi dastlabki tadqiqotlarda tur asosan floristik qaydlar darajasida o‘rganilgan bo‘lsa, dala tadqiqotlari natijasida aniqlangan yangi o‘sish nuqtalari turni qayta tahlil qilish zarurligini ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar, dala kuzatuvlari va gerbariy ma’lumotlari *Astragalus namanganicus* Popov turining asosiy

areali sifatida Farg‘ona vodiysining O‘zbekiston hamda Qirg‘iziston hududlarini o‘z ichiga olishini ko‘rsatdi. Bu turni mahalliy endemik sifatida emas, balki mintaqaviy endemik sifatida baholanishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Turning ekologik xususiyatlariga oid ma’lumotlar *Astragalus namanganicus* Popov turi toshloq, shag‘alli va gipsli adir qiyaliklariga yuqori darajada ixtisoslashganligini ko‘rsatadi. Tur asosan quruq va o‘simlik qoplami siyrak bo‘lgan ekotoplarda uchraydi, bu esa uning raqobatbardoshlik xususiyatini qisman cheklaydi. Shu bilan birga, mazkur ekotoplarning antropogen o‘zgarishlarga sezgirligi populyatsiyalar barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatish ehtimolligi yuqori hisoblanadi. Muhofaza holatini baholash natijalari *Astragalus namanganicus* Popov turining xavf ostida ekanligini bir necha mezonlar asosida tasdiqlaydi. EOO va AOO ko‘rsatkichlarining nisbatan pastligi hamda yashash muhitining qisqarib borishi turning IUCN mezonlariga muvofiq *Endangered* (EN) toifasiga mansubligini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda aniqlangan yangi o‘sish nuqtalari umumiy arealni kengaytirgan bo‘lsada, bu holat turni muhofazasiga qaratilgan ishlarni aktualligini pasaytirish uchun yetarli asos yaratmaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tahlillar *Astragalus namanganicus* Popov turi Farg‘ona vodiysi florasida alohida ilmiy va muhofazaviy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tor areal, yuqori ekologik ixtisoslashuv va antropogen bosimga sezgirligi kelgusida kompleks tadqiqotlarni olib borish hamda muhofaza choralarini kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi. Mazkur tadqiqot “Bioxilma-xilligi xavf ostidagi hudud sifatida Farg'ona vodiysi florasining raqamli platformasini ishlab chiqish” loyihasi doirasida bajarilgan (Loyiha raqami: AL-9224104319).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bunge A.A. (1868). “Generis *Astragali* species gerontogeae”. Petropoli (Sank-Peterburg): Typis Academiae Scientiarum. 316 p.

2. Верник Р.С., Рахимова Т.Т. Естественная растительность и пастбища адыров Наманганской области. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 4-85.

3. D.R.Axmatova. (2025). *Astragalus namanganicus* and *Astragalus brachyrachis* (*Fabaceae*): morphological, ecological, phytogeographic and Taxonomically comparative analysis. Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari. Ilmiy-amaliy konferensiya. 195-198 p.

4. D.R.Axmatova. (2025.). Botanical-biological, ecological and phytocenotic features of the species *Astragalus namanganicus* Popov. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 4 / ISSUE 12 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ. 750-754 p.

4. Флора Узбекистана. Тошкент: Издательство Академии Наук Узбекской ССР, Том 1-6. 1941-1962.

5. Флора СССР. Москва, Ленинград: Издательство Академии Наук СССР, Том 1-30. 1934-1960.

6. Флора Киргизской ССР: Определитель растений Киргизской ССР. - Фрунзе: Издательство Академии Наук Киргизской ССР, Т 1-11. 1950-1967.

7. GBIF (2026). Global Biodiversity Information Facility. GBIF Occurrence Database. https://www.gbif.org/.

8. Ilyosbek Sharipov, Avazbek Batoshov, Nodirbek Sharipov. The Distribution of *Astragalus* L. (*Fabaceae*) Species in the Central Fergana Botanical-Geographical District. Conference 2025. NamSU. Conservation of biological diversity in Central Asia: problems, solutions and prospects. 209-213 b.

9. IPNI (2026). International Plant Names Index. www.ipni.org.

10. Khassanov, F. O., Shomuradov, H., & Esankulov, A. (2016). Validation of some *Astragalus* L. (*Fabaceae*) taxa in the flora of Middle Asia.

11. Кудряшев С.Н. Эфирно-масличные растения Южных склонов васточного Чаткала. –Тошкент: изд. КН УзССР, 1938.

12. Maassoumi A.A., & Ashouri P. (2022). The hotspots and conservation gaps of the mega genus *Astragalus* (*Fabaceae*) in the Old-World. *Biodiversity and Conservation*, *31* **(8), 2119-2139.**

13. Набиев М.М. Растительность пестроцветных толщ бассейна р. Майлисая (Восточная часть Ферганской долины). // Труды Ин-та ботаники АНУзССР. Вып. 5. – Ташкент, 1959.

14. “Определитель растений Средней Азии”. Издательство Академии Наук Республики Узбекистан. Том 1-11. 1963-2015.

15. Plantarium (2026). Растения и личности. https://www.plantarium.ru.

16. POWO (2026). “Plants of the World Online”. Facilitated by the Royal Botanic Gardens, Kew. Published on the Internet; https://powo.science.kew.org.

17. Tojibaev K.SH., Karimov F.I., Hoshimov H.R., Chang-Gee Jang, Nu-Ree Na, Min-Su Park, Kae-Sun Chang, Hee-Young Gil, Shukherdorj Baasanmunkh, Hyeok Jae Choi. Important plant areas (IPAs) in the Fergana Valley (Central Asia): The badlands of the northern foothills. Nature Conservation 49: 1-30 (2022). https://doi.org/10.3897.

18. Turginov O.T. (2024). O‘zbekiston florasi endemlari. [Dissertatsiya (DSc), O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti]. Toshkent.

19. Sheraliyev O. Chilustun, Toshota, Qoraultog‘ florasi tur tarkibi. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2025-2-son. 143-155 b.

20. Xoshimov X.R. (2023). Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarining floraning o‘rganilishi va muhofazasi [Dissertatsiya (PhD), O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti]. Toshkent.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Kochanov D.E.
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Genjebaev M.S.
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

AMUDARYO QUYI OQIMI SUV HAVZALARIDA OQ AMUR BALIGINING YOSHGA BOGLIK O‘SISHI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oq amur (Ctenopharyngodon idella) balig‘ining turli yosh davrlaridagi o‘sish sur’atlari, tana tuzilishining o‘zgarishi va o‘ziga xos bioekologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida baliqlarning chiziqli o‘sishi va vazn ortishi o‘rtasidagi bog‘liqlik, shuningdek, tashqi muhit omillarining (suv harorati, ozuqa bazasi) bu jarayonlarga ta’siri tahlil qilingan. Oq amurning suv havzalaridagi fitomeliorativ roli va uning ekotizim barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Olingan natijalar baliqchilik xo‘jaliklarida mahsuldorlikni oshirish va tabiiy suv havzalaridan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *chiziqli o‘sish,fitomeliorativ, otolit, vegetatsiya,ozuqa bazasi, o‘sish sur’ati, fitofag baliqlar,bioekologiya.*

Кочанов Д.Е.
Нукусский филиал Узбекского государственного университета
физической культуры и спорта
Генджебаев М.С.
Государственный университет имени Бердака Каракалпака

ВОЗРАСТНОЙ РОСТ И БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА БЕЛОГО АМУРА В ВОДОЕМАХ НИЖНЕГО

Аннотация. *В данной статье исследуются темпы роста, изменения строения тела и специфические биоэкологические особенности белого амура (Ctenopharyngodon idella) в разных возрастных периодах. В ходе исследования была проанализирована взаимосвязь между линейным ростом и приростом массы рыб, а также влияние факторов внешней среды (температура воды, кормовая база) на эти процессы. Освещена фитомелиоративная роль белого амура в водоемах и его значение в обеспечении устойчивости экосистемы. Полученные результаты дают практические рекомендации по повышению продуктивности в рыбоводческих хозяйствах и рациональному использованию природных водоемов.*

Ключевые слова: *линейный рост, фитомелиоративный, отолит, вегетация, кормовая база, темпы роста, фитофаги, биоэкология.*

D.E. Kochanov
Uzbek State University of Physical Education and Sports Nukus Branch
Ms. Genjebaev
Karakalpak State University named after Berdak

AGE AND BIOECOLOGICAL FEATURES OF WHITE AMURAS IN THE LOWER AMU RIVER WATER RESERVOIRS.

Abstract. *This article examines the growth rates, changes in body structure, and specific bioecological characteristics of the white amur (Ctenopharyngodon idella) fish at different age periods. During the study, the relationship between linear fish growth and weight gain, as well as the influence of environmental factors (water temperature, feed base) on these processes, was analyzed. The phytomeliorative role of the white amur in water bodies and its significance in ensuring ecosystem stability are highlighted. The obtained results provide practical recommendations for increasing productivity in fish farms and the rational use of natural water bodies.*

Keywords: *linear growth, phytomeliorative, otolith, vegetation, food base, growth rate, phytophagous fish, bioecology.*

Kirish. Oq amur balig‘i yoshini aniqlash va tangachalari, otolitlari, umurtqalari hamda jabra qopqog‘i suyaklari yordamida o‘sishini teskari hisoblash usullari ishlab chiqilgan birinchi baliq turlaridan biri bo‘lgan. Ba'zi tadqiqotchilar otolitlarga afzallik berishgan, biroq ularni yig‘ish ko‘p vaqt, ko‘nikma va baliqlarni yorib ko‘rishni talab qiladi, shu sababli boshqa tadqiqotchilar tangachalardan foydalanishni afzal ko‘rishadi [1, 4]. Bizning ishimiz oq amur balig‘ining yoshi va o‘sishini aniqlashda tangachalardan foydalanish imkoniyatini tasdiqlaydi.

Metodikasi. Tadqiqotlar davomida turli yoshdagi (lichinka, chavoq, bir yillik va jinsiy voyaga yetgan) oq amur namunalari olinadi. Ov qurollari sifatida turli o‘lchamdagi to‘rlar, qarmoqlar va mayda chavoqlar uchun mo‘ljallangan maxsus materiallar qollanildi. Olingan namunalar morfologik tahlil uchun 4% li formalin eritmasida yoki 70% li spirtda saqlanadi. Baliqlarning o‘sish sur’atini aniqlashda I.F. Pravdin (1966) metodikasi asos qilib olindi: Baliqning umumiy uzunligi (L) va tana uzunligi (l) o‘lchov lentasi yordamida (0.1 sm aniqlikda), baliqning umumiy og‘irligi (W) va ichki a’zolarsiz og‘irligi (w) elektron tarozida o‘lchandi.

Hisoblashta Lea-Rosa Li formulasidan foydalanildi.Oq amurning o‘tgan yillardagi uzunligini aniqlandi. [1, 2, 6].

Oq amur tez o‘suvchi baliq bo‘lgani uchun, uning yillik o‘sish ko‘rsatkichlari zog‘ora baliqnikidan yuqoriroq bo‘lishi mumkin.

Oziqlanish spektrini tahlil qilishda oq amur fitofag (o‘simlikxo‘r) bo‘lgani uchun uning oziqlanishini o‘rganishda quyidagilar amalga oshirildi.Oshqozon-ichak trakti ochilib, tarkibidagi o‘simlik qoldiqlari tahlil qilindi.Iste’mol qilingan o‘simlik turlari aniqlandi (qamish, rdest, qoga va h.k.).Iste’mol qilingan ozuqa vaznining baliq vazniga nisbati aniqlandi.

Natijalar. Oq amur (*Ctenopharyngodon idella*) balig‘i sazan (karp)ga nisbatan tezroq o‘sishi bilan ajralib turadi, ayniqsa hayotining dastlabki yillarida. Quyida O‘zbekiston iqlim sharoitida (masalan, Aqshako‘l yoki shunga o‘xshash suv havzalarida) oq amurning taxminiy o‘sish sur'atlari asosida tayyorlangan metodik jadval keltirilgan. Sazandan farqli o‘laroq, oq amurda ikkinchi va uchinchi yillarda o‘sish sur'ati eng yuqori bo‘ladi (t = 18-20 sm). Bu uning intensiv o‘t-o‘lan bilan oziqlanishga o‘tishi bilan bog‘liq. Oq amur uzunligi 70-80 sm ga yetganda, vazni keskin ortadi. [2, 5].

Jadval-1

Yoshi (yillar)	Soni (dona)	I	II	III	IV	V
1	20	18,5				
2	16	17,2	38,4			
3	10	16,8	36,5	55,2		
4	15	17,5	37,2	56,8	72,4	
5	4	18,2	39,1	58,4	74,6	85,2
O‘rtacha (L, sm)		**17,5**	**37,6**	**56,2**	**73,0**	**85,2**
Yillik o‘sish (t, sm)		**17,5**	**20,1**	**18,6**	**16,8**	**11,5**

Oq amurning yoshini aniqlashda **tangachalar (cheshuya)** eng qulay material hisoblanadi. Tangachadagi yillik halqalar juda aniq ko‘rinadi.

Oq amur (Ctenopharyngodon idella) balig‘ining o‘sish ko‘rsatkichlari u yashaydigan suv havzasining harorati va ozuqa bazasiga (suv o‘simliklariga) bevosita bog‘liq. Amudaryo havzasi oq amur uchun dunyodagi eng qulay tabiiy hududlardan biri hisoblanadi, chunki vegetatsiya davri uzoq davom etadi.Quyida Umumiy uzunlik (TL) va Standart uzunlik (SL) bo‘yicha dunyo (o‘rtacha) va Amudaryo suv havzalari ko‘rsatkichlarining solishtirma jadvali keltirilgan.

Jadval-2

Yoshi (yillar)	Amudaryo o‘rtacha (TL, sm)	Aqshako‘l (TL, sm)	Aqshako‘l (SL, sm)
1	12 - 15	**18 - 22**	15 - 19
2	25 - 30	**35 - 42**	30 - 36
3	40 - 48	**52 - 60**	45 - 53
4	55 - 62	**68 - 75**	60 - 66
5	65 - 72	**78 - 86**	70 - 77
6	75 - 82	**88 - 95**	80 - 86
8	85 - 95	**105 - 115**	95 - 104

Aqshako‘l ko‘lida oq amir baliģining tez o‘sishi aniqlandi.Sababi Amudaryo va unga tutash kanal,suv omborlarida suv harorati yilning katta qismida 20-25°C atrofida bo‘ladi. Bu oq amurning intensiv oziqlanishi uchun idealdir. Amudaryo havzasidagi suv havzalarida gidrofitlar (suv o‘tlari) juda ko‘p bo‘lganligi sababli, baliqlar kuniga o‘z vaznining 40-50% miqdorida ozuqa iste’mol qiladi.

Rossiyaning shimoliy hududlarida yoki Yevropaning sovuqroq suvlarida oq amur

1 yoshida bor-yo‘g‘i 8-10 sm bo‘lishi mumkin. Aqshako‘lda esa bu ko‘rsatkich 2 barobar yuqori ekanligi aniqlandi.

Oq amur (Ctenopharyngodon idella) baliqlarining o‘sishi yashash muhiti, ozuqa va suv haroratiga qarab juda katta farq qilishi mumkin. [3, 5]. Quyida Amudaryo havzasi va dunyo miqyosidagi ma’lumotlarga asoslangan holda, yoshga bog‘liq Umumiy uzunlik (TL sm) ko‘rsatkichlarining minimal, maksimal va o‘rtacha qiymatlari keltirilgan.

Jadval-3

Yoshi (Yil)	Minimal (TL)	Maksimal (TL)	O‘rtacha (TL)	Izoh (Amudaryo sharoiti uchun)
1	10,5	24,0	**17,5**	Oziqa kam bo‘lsa sekin o‘sadi
2	28,0	48,0	**38,0**	Intensiv o‘sish davri boshlanishi
3	45,0	65,0	**55,0**	Tana vazni tez orta boshlaydi
4	60,0	82,0	**71,0**	Jinsiy voyaga yetish arafasi
5	72,0	95,0	**83,5**	Uzunlikka o‘sish sekinlashadi

Oq amurda 2 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan davrda uzunlikka o‘sish eng yuqori bo‘ladi (yillik o‘sish 15-20 sm gacha). 5-6 yoshdan keyin baliq ko‘proq tana eniga va vazniga qarab o‘sa boshlaydi.Tez osish vegetatsiya (o‘simliklar o‘sishi) uzoq davom etadigan Amudaryo quyi oqimi,issiq suv havzalari va baliqchilik xo‘jaliklarida (qo‘shimcha oziqlantirilganda) qayd etildi. O‘sishning kamayishi odatda ozuqa bazasi kambag‘al bo‘lgan tabiiy suv havzalarida yoki suv harorati past bo‘lgan shimoliy hududlarda kuzatildi. [5, 8].

Xulosa. Oq amurning yoshga bog‘liq o‘sish ko‘rsatkichlari va bioekologik xususiyatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu tur o‘zining tez o‘sishi va oziqlanish xarakteri bilan boshqa chuchuk suv baliqlaridan ajralib turadi. Tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

O‘sish dinamikasi: Oq amurning dastlabki 2-3 yillik hayot davrida vazn ortishi va tana uzunligining o‘sishi eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, bu davrda ularni intensiv boqiladigan hovuzlarga kiritish yuqori iqtisodiy samaradorlik beradi.

Ekologik roli: Ushbu baliq turi suv havzalaridagi ortiqcha o‘simliklarni (makrofitlarni) iste’mol qilish orqali "tabiiy meliorator" vazifasini bajaradi. Bu esa suvning kislorod rejimini yaxshilaydi va boshqa baliq turlari uchun qulay ekologik muhit yaratadi.

Amaliy ahamiyati: Oq amurning o‘sish qonuniyatlarini bilish, baliqchilik xo‘jaliklarida ozuqa ratsionini to‘g‘ri shakllantirish va mahsulot yetishtirish muddatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Правдин, И.Ф. Руководство по изучению рыб (преимущественно пресноводных). Москва, Пищевая промышленность, 1966. - 376 с.

2. Аманов А.А, Экология рыб водоемов юга Узбекистана и сопредельных республик. Ташкент, ФАН, 1985, 161 с.

3. M.A. Yuldashev , T.B.Salixov, B.G.Kamilov “O‘zbekiston baliqlari” Monografiya. Toshkent 2018.

4. Jumanov M.A., Asenov G.A., Bekbergenova Z.O.., Qoshanov DE., “ Qaraqalpaqstannıń haywanat dúnyası” No‘kis. 2020. 70,91-105

5. Genjebaev M, Aytova X, Jiyemuratov M “Ellikqal’a tumani Aqchako‘l ko‘lining asosiy ovlanadigan baliq turlarining morfologik va bioekologik xusisiyatlari.

6. Kochanov D, Genjebaev M “ Growth and development characteristics of grass carp (Ctenopharyngodon idella) fish in lake east Karateren ” // World scientific journal. Volume-37.Issue-1.2025.114-118.

7. Kochanov D.E Qabilbekova A., Shamedov G. Morphological differences of the grass carpfish related to the living area // Rational use of natural resources in the Aral Sea roughness: Materials of the IV Republican scientific theory.Nukus: 2015.120-122.

8. Genjebaev M. “Quyi amudaryo o‘simlikxor baliqlarning bioekologik xususiyatlari” *Лучшие интеллектуальные исследования*.127. 3680.2024. 2-3 с

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Sobirov Ozodbek Tojimatovich
Andijon davlat universiteti,
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Email: ozodbeksobirov1988@gamil.com
Abdug'aniyeva (Turg'unova) O'g'iloy Shuxratbek qizi
Andijon davlat universiteti, Biologiya kafedrasi magistranti
Email: ogiloyturgunova2@gmail.com
Isaqov Ilyosbek Bozorboy o'g'li
Andijon davlat universiteti,
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, v.b. dotsent
E-mail: ilyosbekisaqov94@adu.uz

KOKSIDLAR (HEMIPTERA: STERNORRHYNCHA: COCCOIDEA) ERKAKLARINING MORFOLOGIYASI VA TAKSONOMIK-EVOLYUTSION AHAMIYATI: MORFOLOGIK-TAHLILIY TAVSIF

Annotatsiya: *Maqolada Coccoidea superoilasi erkak individlarining morfologik tuzilishi va taksonomik ahamiyati qiyosiy tahlil qilingan. Asosiy e'tibor Coccidae, Pseudococcidae va Eriococcidae oilalariga xos bosh kapsulasi, ko'krak skleritlari hamda genital segment belgilariga qaratilgan. Tadqiqotda erkak morfologiyasining diagnostik qiymati, shuningdek, Eriococcidae va Diaspididae oilalarining filogenetik aloqadorligi integrativ taksonomiya nuqtai nazaridan yoritilgan. Xulosada erkak individlar belgilarini tizimlashtirish koksidlar evolyutsiyasini o'rganishdagi strategik o'rni asoslangan.*

Kalit so'zlar: *Coccoidea, erkak individlar morfologiyasi, taksonomik diagnostika, lekanoid tipi, integrativ taksonomiya.*

Ozodbek Tojimatovich Sobirov
Andijan State University Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences, Associate Professor
O'g'iloy Shuxratbek qizi Abdug'aniyeva (Turg'unova)
Andijan State University, Department of Biology, Master's Student
Ilyosbek Bozorboy o'g'li Isaqov
Andijan State University Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences, Acting Associate Professor

MORPHOLOGY AND TAXONOMIC–EVOLUTIONARY SIGNIFICANCE OF MALE SCALE INSECTS (HEMIPTERA: STERNORRHYNCHA: COCCOIDEA): A MORPHOLOGICAL–ANALYTICAL DESCRIPTION

Abstract:*The article presents a comparative analysis of the morphological structure and taxonomic significance of male individuals of the superfamily Coccoidea. Special attention is given to the diagnostic characters of the head capsule, thoracic sclerites, and genital segments characteristic of the families Coccidae, Pseudococcidae, and Eriococcidae. The study evaluates the diagnostic value of male morphology and examines the phylogenetic relationships between the families Eriococcidae and Diaspididae from the perspective of integrative taxonomy. The conclusion substantiates the strategic importance of systematizing male morphological characters for understanding the evolutionary patterns of scale insects.*

Keywords: *Coccoidea, male morphology, taxonomic diagnostics, lecanoid type, integrative taxonomy.*

Собиров Озодбек Тожиматович
Андижанский государственный университет, доктор философии (PhD) по биологическим наукам, доцент
Абдуганиева (Тургунова) Угилой Шухратбек кызы
Андижанский государственный университет, кафедра биологии, магистрант
Исаков Илёсбек Бозорбой угли
Андижанский государственный университет, доктор философии (PhD) по биологическим наукам, и.о. доцента

МОРФОЛОГИЯ И ТАКСОНОМО-ЭВОЛЮЦИОННОЕ ЗНАЧЕНИЕ САМЦОВ КОКЦИД (HEMIPTERA: STERNORRHYNCHA: COCCOIDEA): МОРФОЛОГО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ

Аннотация: *В статье представлен сравнительный анализ морфологического строения и таксономического значения самцов надсемейства Coccoidea. Основное внимание уделено признакам головной капсулы, грудных склеритов и генитальных сегментов, характерным для семейств Coccidae, Pseudococcidae и Eriococcidae. В исследовании рассмотрена диагностическая ценность морфологии самцов, а также филогенетические связи семейств Eriococcidae и Diaspididae с позиции интегративной таксономии. В заключении обоснована стратегическая роль систематизации признаков самцов в изучении эволюции кокцид.*

Ключевые слова: *Coccoidea, морфология самцов, таксономическая диагностика, леканоидный тип, интегративная таксономия.*

Kirish. Koksidlar — o‘simlik shirasi bilan oziqlanuvchi Sternorrhyncha guruhi vakillari bo‘lib, Coccoidea superoilasiga kiruvchi barcha hasharotlarni o‘z ichiga oladi [5]. Koksidlar tanasining o‘lchami 0,5 mm dan 35 mm gacha o‘zgarishi mumkin [6], ammo O‘zbkeiston hududlarida 15 mm (*Drosicha turkestanica* Archangelskaya, 1931)gacha bo‘lgan turlari uchraydi.

Taksonomik aniqlash asosan voyaga yetgan urg‘ochining mikroskopik kutikula belgilariga tayanadi. Urg‘ochi ko‘p hollarda pedomorfik bo‘lib, erkaklar esa prepupa va pupa bosqichlaridan o‘tib, qanotli imogoga aylanadi va og‘iz apparati rivojlanmagan [5].

Koksidlar genetik tizimlar, xromosoma soni, endosimbiozlar va morfologik o‘zgaruvchanlik jihatidan qiziqarli ob’yeklardan xisoblanadi [5]. Ayrim oilalar (Diaspididae) yirik iqtisodiy zarar keltiruvchi va jahonda eng invaziv guruhlardan biri sifatida qayd etiladi [7]; shahar muhitida palmalarda ham diaspididlar turlari va ularning tabiiy dushmanlari aniqlangani bu guruhning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi [9].

Shu bilan birga, koksidlar sistematikasida erkak individlarning morfologiyasi uzoq vaqt yetarlicha o‘rganilmagan. Tadqiqotlar tarixida e’tibor asosan urg‘ochi belgilarga qaratilib, erkaklar faqat ayrim turlar uchun qisqacha tavsiflangan [3].

Giliomee (1967) tomonidan 23 tur (19 urug‘) erkagi batafsil tasvirlanishi va Coccidae erkaklarining umumiy tashqi morfologiyasi keltirilishi, shuningdek, ilgari Coccidae da kuzatilmagan tuzilmalarni qaydi etishi erkak belgilarining yuqori taksonomik darajalardan tortib tur/urug‘ darajasigacha ahamiyatli ekanini ko‘rsatdi. Muallif Coccidae ichida erkaklar ba’zan urg‘ochilarga asoslangan tasnifdan farq qiluvchi munosabatlarni ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlab, erkak belgilar asosida klassifikatsiya taklif qiladi [3].

Hozirgi kunda morfologiya ma’lumotlari molekulyar ma’lumotlar bilan birga integrativ taksonomiyada muhim o‘rin tutadi. Masalan, Diaspididae uchun molekulyar identifikatsiyaga qiziqish katta bo‘lsa-da, aniq molekulyar identifikatsiya ishonchli tur nomlari bilan bog‘langan DNK ma’lumotlar bazasini talab qiladi; bunda morfologik aniqlangan va to‘g‘ri “voucher” materiallar hal qiluvchi ahamiyatga ega [7]. Shu ma’noda erkak morfologiyasini chuqur tadqiq etish ham an’anaviy, ham zamonaviy yondoshuvlar uchun ma’lumotlar bazasini kengaytiradi.

Material va metodlar

Maqola morfologik-tahliliy adabiyotlar sharhi sifatida tayyorlandi. Asosiy manbalar sifatida Coccidae erkaklari bo‘yicha Giliomee (1967), Pseudococcidae va Eriococcidae erkaklari bo‘yicha Afifi (1968), Coccoidea filogeniyasida erkak morfologiyasi ma’lumotlarini qo‘llagan Hodgson va Hardy (2013), Diaspididae misolida molekulyar-morfologik integratsiya va identifikatsiya muammolarini yoritgan Normark va boshqalar (2019), hamda koksidlar haqida umumiy sharh beruvchi maqolalar [5] ishlatildi.

Morfologik terminologiya va tuzilmalarning gomologiyasini talqin qilishda Giliomee (1967) tomonidan qabul qilingan tushunchalar, shuningdek Afifi (1968) ishidagi tergit-sternit, plevral setalar, disk-porlar, muvozanat saqlovchi organlar tuzilishi va genital segment tavsiflari asos qilib olindi.

Texnik jihatdan, koksidlarni mikroskopik tahlil qilish uchun ob’yektlarni tozalash, bo‘yash va predmet oynaga montaj qilish (slide mount) standart usul hisoblanadi. Masalan, Solano-Gutiérrez va Hanson (2025) diaspididlarning katta urg‘ochilarini etanolda saqlab, Watson va Chandler (2000) usullari bo‘yicha preparat tayyorlagani va yorug‘lik mikroskopida ko‘rib, identifikatsiya qilish uchun kalitlardan foydalanganini ko‘rsatadi. Ushbu ishda esa, tayyor preparatlar ustida eksperimental o‘lchovlar o‘tkazilmasdan, adabiyotlarda berilgan anatomik-morfologik ma’lumotlar tizimlashtirildi.

Morfologik-tahliliy yondashuvda (i) har bir tana qismi bo‘yicha belgilar to‘plami ajratib olindi; (ii) oilalar kesimida belgilar qiyosi amalga oshirildi; (iii) belgilarning taksonomik qiymati va ehtimoliy evolyutsion yo‘nalishlari muhokama qilindi. Qiyosiy jadvallar Giliomee (1967) ishidagi Coccidae–Pseudococcidae farqlari hamda Afifi (1968) ishidagi Pseudococcidae–Eriococcidae tafovutlari asosida qayta ishlandi.

Natijalar

Koksidlarda jinsiy dimorfizm juda kuchli namoyon bo‘ladi: urg‘ochi ko‘pincha reduksiyalangan, kamharakat (yoki umuman harakatsiz) va uzoq yashovchi shakl bo‘lsa, erkaklar ko‘pincha qanotli va qisqa umrli bo‘ladi. “Coccidology” sharhida ta’kidlanishicha, katta urg‘ochi pedomorfik xususiyatga ega, erkak esa prepupa va pupa bosqichlaridan keyin qanotli imogoga aylanadi va uning og‘iz apparati funksional emas [5].

Normark va hammualliflar (2019) Diaspididae oilasiga mansub turlarning erkaklari misolida ularning biologiyaning bir qator o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatib o‘tgan: erkaklar 5 yoshdan o‘tadi, shulardan 2 tasi pupaga o‘xshash tinch bosqich hisoblanadi.

- Voyaga yetgan erkaklar qanotli, faol, oziqlanmaydi va qisqa umr ko‘radi.
- Urg‘ochilar esa atigi 3 ta yosh bilan cheklanib, voyaga yetgan davrida ham morfologik reduksiyalangan, harakatsiz va uzoq umrli shaklda oziqlanishni davom ettiradi.

Afifi (1968) Pseudococcidae oilasiga mansub *Planococcus citri* turi misolida ikkinchi yosh nimfalar (erkak va urg‘ochi) oxirgi oziqlanuvchi bosqich ekanini qayd etadi.

- Shundan so‘ng pupa oldi (prepupa) va pupa bosqichlari keladi.
- Voyaga yetgan erkak erkin qanotli bo‘lib, oziqlanmaydi va uning umri taxminan 72 soat (3 kun) atrofida bo‘ladi.

Shu sababli, amaliyotda erkaklarni yig‘ish va tahlil qilish murakkab: ular qisqa umr ko‘radi, uchishi mumkin hamda ko‘pincha faqat ma’lum mavsumda va ma’lum populyatsiyalarda uchraydi. Biroq, ularning morfologiyasi taksonomik va filogenetik axborot manbai sifatida juda qimmatlidir. Masalan, Hodgson va Hardy (2013) erkak morfologiyasiga asoslangan filogenetik tahlilda 162 ta morfologik belgini qo‘llab, 269 ta tirik va 29 ta qazilma turlar ma’lumotlarini baholash orqali erkak belgilarining keng tizimiy ahamiyatini isbotlagan.

Katta erkaklarning umumiy tashqi morfologiyasi

Lekanoid tipdagi koksid erkaklari (ayniqsa Coccidae) umumiy jihatdan o‘rtacha o‘lchamli bo‘ladi: ular Margarodidaedan kichikroq, ammo Diaspididaedan kattaroqdir.

O‘lchamlari: Turlar kesimida tana va qanot yoyilishi o‘zgaruvchan; masalan, *Luzulaspis luzulae* eng kichik (≈1020–1290 mkm), *Ericerus pela* esa eng yirik (≈2500–3100 mkm) namuna sifatida keltirilgan [3].

Tana shakli: Ayrim turlar ingichka (masalan, *Coccus hesperidum*), ayrimlari esa nisbatan baquvvat (*Ceroplastes* spp.) ko‘rinishga ega.

Qanotlari: Coccidae erkaklarida oldingi qanotlar yaxshi rivojlangan bo‘lib, odatda 2 ta tomirga (venaga) ega.

Orqa juft qanotlari aksariyat hollarda muvozanat saqlovchi kichik organlarga (uvillatgichlarga) reduksiyalangan yoki umuman mavjud emas.

Agar muvozanat saqlovchi organlar saqlangan bo‘lsa, har bir organda uchi ilgaksimon (hooked) bo‘lgan 1–4 ta setalar (tukchalar) uchraydi.

Oyoqlari: Oyoqlar uzun va ingichka, tarsus (panja) bir segmentli bo‘lib, yakka tirnoq bilan tugaydi.

Qorin qismi va genital segment

Qorin qismi parallel-yonlama bo‘lib, orqa tomonga tomon biroz torayib boradi. U 8 ta pregenital segment va genital segmentdan tashkil topadi.

Genital segment: Ingichka-uzun, qisman sklerotizatsiyalangan bo‘lib, jinsiy organlarni ko‘tarib turadi.

Segmentatsiya: Pregenital segmentlar ko‘pincha to‘liq membranoz bo‘ladi, biroq ba’zi turlarda har bir segmentda kichik tergit va sternitlar saqlanib qolishi mumkin.

Caudal tuzilmalar: *Coccus* guruhida VII va VIII segmentlar lateral tomonga barmoqsimon yoki lobsimon kaudal chiqindi hosil qilishi mumkin.

VIII segmentning orqa qismida odatda subdorsal bez qopchasi (glandular pouch) joylashgan bo‘lib, undan chiquvchi 2 ta uzun seta uzun mum filamenti uchun tayanch yadro vazifasini o‘taydi.

Oilalar kesimida qiyosiy morfologik tahlil

Erkak morfologiyasidagi bir qator belgilar oila darajasida nisbatan barqaror bo‘lib, taksonomik kalitlar va filogenetik xulosalar uchun xizmat qiladi. Ushbu ma’lumotlar asosan Giliomee (1967) va Afifi (1968) tadqiqotlari asosida tizimlashtirilgan.

1-jadval.

Coccidae va Pseudococcidae erkaklarining asosiy farqlari

Belgi	**Coccidae (yumshoq qalqondorlar)**	**Pseudococcidae (unsimon qo‘ng‘izlar)**
Ko‘pkatakli disksimon bezlar (qorin)	Kamroq	Ko‘proq
Dorsal teshikchalar (ostiolalar)	Odatda yo‘q	Odatda bor

Okulyar tizmachalarning qo‘shilishi	Dorsal ko‘z tizmachalari apeksda qo‘shilib “Y” hosil qilishi; interokulyar tizma bilan alohida	Okulyar tizmachalar alohida; interokulyar tizma bilan qo‘shilishi mumkin
Og‘iz oldi tuzilmasi	Og‘iz oldi tizmasining tarmoqlari (qo‘llari) bazal qismiga nisbatan kuchliroq sklerotizatsiyalangan	Og‘iz oldi tizmasining tarmoqlari va asosi bir xil darajada sklerotizatsiyalangan
Mezonotumdagi qalqoncha teshigi	Ko‘p holda yo‘q	Ko‘p holda bor
Mezosternum (basisternum) o‘rta (median) tizmasi	Yo‘q	Bor
Ko‘krak ichki o‘siqlari	Yo‘q	Bor
Panja segmentining mutanosibligi	Uzun va ingichka	Qisqa va qalin
Qorin yon (plevral) skleritlari	Yaxshi rivojlangan bo‘lishi mumkin	Oddiy holda yo‘q
Qorindagi naychasimon kanallar (tubulyar duktlar)	Uchrashi mumkin	Odatda yo‘q
Pregenital segmentlar soni va raqami	VIII segment pregenital hisoblanishi mumkin	VII segment pregenital hisoblanishi mumkin
Penis qini (penial sheath)	Jinsiy g‘ilof (penis qini) nisbatan qisqa va kam hollarda naychasimon (tubulyar) shaklga ega.	Jinsiy g‘ilof (penis qini) uzun, aniq ifodalangan tubulyar (naychasimon) shaklga ega.

2-jadval.

Eriococcidae erkaklarining ayrim xos belgilari

Belgi	**Eriococcidae (Afifi, 1968 bo‘yicha)**
Dorsal teshikchalar (ostiolalar)	Mavjud emas (ostioles absent).
Bez qopchalari	Faqat VIII segmentda joylashishi mumkin; dum setalari juda qisqa bo‘lishi mumkin.
Genital segment kompleksi	Penis qini tor-ingichka; aedeagus uzun va uchli; konfiguratsiya ba’zi jihatlari bilan Diaspididae ga yaqinlikni ko‘rsatadi.
Taksonomik xulosa	Genital segment va ostiolalar yo‘qligi Pseudococcidae dan farqni kuchaytiradi; ayrim belgilar Eriococcidae–Diaspididae yaqinligini muhokama qilishga asos bo‘ladi.

1-jadval dagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Coccidae va Pseudococcidae erkaklari umumiy lekanoid morfologik tipi doirasida yaqin bo‘lishiga qaramay, qorindagi disk-porlar miqdori, ostiolalar, ko‘krak skleritlaridagi ayrim tuzilmalar (skutellyar foramen) hamda genital segment va penis qini shakli bo‘yicha turg‘un diagnostik farqlarga ega [2, 3]. Eriococcidae oilasida esa ostiolalarning mavjud emasligi va genital segment konfiguratsiyasining o‘ziga xosligi uni Pseudococcidae’dan keskin ajratib turadi (2-jadval). Afifi (1968) tomonidan ilgari surilgan Eriococcidae va Diaspididae o‘rtasidagi ehtimoliy yaqinlik gipotezasi zamonaviy filogenetik tahlillar [4] bilan ham o‘z tasdig‘ini topmoqda, bu esa ba’zi 'eriococcid' guruhlarining parafiliyasini va neokokkoidlar tizimidagi murakkab o‘rnini ko‘rsatadi

Muhokama

Jadval 1 va 2 da keltirilgan ma’lumotlarning qiyosiy tahlili koksidlar superoilasi ichidagi oilalararo munosabatlarni qayta baholash imkonini beradi. Xususan, Eriococcidae va Diaspididae oilalari o‘rtasidagi ehtimoliy yaqinlik masalasi koksidologiyada eng ko‘p munozara qilinadigan mavzulardan biridir.

Afifi (1968) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Eriococcidae erkaklarining genital segment konfiguratsiyasi — uning ingichka va uchli tuzilishi, ayedeagusning harakatchanligi va joylashuvi jihatidan Diaspididae oilasi vakillariga yaqinlikni namoyish etadi. Bu esa ushbu ikki oilani "neokokkoidlar" evolyutsion shoxchasining yuqori pog‘onalarida birlashtirishga asos bo‘ladi. Ostiolalarning (dorsal teshikchalar) mutlaqo mavjud emasligi ham Eriococcidae va Diaspididae uchun umumiy bo‘lib, ularni Pseudococcidae dan keskin farqlaydi.

Erkak individlar taksonomiyasining dolzarbligini Powell va Miller (2024) tomonidan Putoidae oilasi erkaklari uchun ishlab chiqilgan dunyo miqyosidagi aniqlash jadvallari ham tasdiqlaydi. Mualliflar erkak morfologiyasining alohida oila darajasidagi mustaqilligini asoslashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatib o‘tgan.

Erkak individlar taksonomiyasining dolzarbligini Powell va Miller (2024) tomonidan Putoidae oilasi erkaklari uchun ishlab chiqilgan dunyo miqyosidagi aniqlash jadvallari ham tasdiqlaydi. Mualliflar erkak morfologiyasining alohida oila darajasidagi mustaqilligini asoslashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini koʻrsatib oʻtgan. Shu bilan birga, Hodgson va Hardi (2013) tomonidan amalga oshirilgan tahlillar Eriococcidae oilasining parafiletik guruh ekanini, uning ayrim vakillari Diaspididae ga yaqinroq joylashganini 162 ta morfologik belgi asosida isbotlaydi.

Genital segment belgilari asosidagi bu yaqinlik nafaqat nazariy, balki qazilma (ambra) materiallari bilan qiyoslaganda, ushbu oilalarning ajralish vaqti va yoʻnalishlarini aniqlashda "filogenetik ramka" vazifasini oʻtaydi. Bundan tashqari, koksidlarning turli rivojlanish bosqichlarida mum bezlarining ixtisoslashuvi Choi va boshqalar (2019) ishlarida batafsil yoritilgan boʻlib, bu erkak koksidlarning teri-bez tizimi ham taksonomik diagnostikada muhim ekanini koʻrsatadi.

Zamonaviy koksidologiyada klassik lekanoid va eriokokkoid tiplardan tashqari, Putoidae [8] va Matsucoccidae [2] kabi guruhlar erkaklarining morfologik xususiyatlarini integrativ taksonomiya nuqtai nazaridan oʻrganish sohaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Xulosa

Manbalarga asoslangan morfologik-tahliliy sharh shuni koʻrsatadiki, koksid erkaklarining bosh kapsulasining sklerotizatsiyalashgan tizmalari, koʻkrak skleritlari va genital segment tuzilishi oila va urugʻ darajasidagi eng ishonchli taksonomik belgilar majmuini tashkil etadi. Xususan, *Coccidae* va *Pseudococcidae* oilalari umumiy "lekanoid" tipga mansub boʻlsa-da, qorin qismidagi ostiolalar, disk-porlar miqdori va genital segmentning konfiguratsiyasi boʻyicha keskin differensial farqlarga ega. Shuningdek, *Eriococcidae* oilasida ostiolalarning yoʻqligi va genital apparatining oʻziga xos konfiguratsiyasi ularni *Pseudococcidae* dan uzoqlashtirib, evolyutsion jihatdan *Diaspididae* oilasiga yaqinlashtiruvchi muhim filogenetik ahamiyatga ega.

Umuman olganda, erkak koksidlar morfologiyasini standart terminologiya asosida tizimlashtirish va integrativ taksonomiyada (DNK-ma'lumotlari va qazilma qoldiqlar bilan ishlashda) qoʻllash *Coccoidea* superoilasi evolyutsiyasini chuqurroq tushunish hamda taksonomik diagnostikani sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarishda muhim strategik qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afifi S. A. Morphology and taxonomy of the adult males of the families Pseudococcidae and Eriococcidae (Homoptera: Coccoidea). — London: Bulletin of the British Museum (Natural History), Entomology Supplement 13, 1968. — 210 p.

2. Choi J., Cha D., Kim D. S., Lee S. Review of Japanese Pine Bast Scale, *Matsucoccus matsumurae* (Kuwana) (Coccomorpha: Matsucoccidae), Occurring on Japanese Black Pine and Japanese Red Pine from Korea // Forests. — 2019. — Vol. 10, No. 639. — P. 1–14.

3. Giliomee B. C. Morphology and taxonomy of adult males of the family Coccidae (Homoptera: Coccoidea). — London: Bulletin of the British Museum (Natural History), Entomology Supplement 7, 1967. — 168 p.

4. Hodgson C. J., Hardy N. B. The phylogeny of the superfamily Coccoidea (Hemiptera: Sternorrhyncha) based on the morphology of extant and extinct macropterous males // Systematic Entomology. — 2013. — Vol. 38. — P. 794–804.

5. Kondo T., Gullan P. J., Williams D. J. Coccidology. The study of scale insects (Hemiptera: Sternorrhyncha: Coccoidea) // Revista Corpoica – Ciencia y Tecnología Agropecuaria. — 2008. — Vol. 9, No. 2. — P. 55–61.

6. Kosztarab M. P., Kozár F. Scale insects of Central Europe. — Budapest: Akadémiai Kiadó, 1988. — 456 p.

7. Normark B. B. et al. Phylogeny and classification of armored scale insects (Hemiptera: Coccomorpha: Diaspididae) // Zootaxa. — 2019. — Vol. 4616, No. 1. — P. 1–98.

8. Powell E. C., Miller D. R. Three new species of *Puto* giant mealybugs (Hemiptera: Coccomorpha: Putoidae) from Mexico and Guatemala, with keys to New World adult females and World adult males // Zootaxa. — 2024. — Vol. 5443, No. 3. — P. 301–336.

9. Solano-Gutiérrez M. V., Hanson P. Armored Scale Insects (Hemiptera: Diaspididae) on *Dypsis lutescens* and *Phoenix roebelenii* (Arecaceae) in Urban Environments of Costa Rica // Entomological Communications. — 2025. — Vol. 7. — P. ec07002.

10. Watson G. W., Chandler L. R. Identification of Mealybugs Important in the Indo-Pacific Region (Hemiptera: Pseudococcidae). — London: Commonwealth Secretariat, 2000. — 72 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Gafurova Saodat Turabayevna
Namangan davlat universiteti o'qituvchi PhD
E.mail: saodat.0312.84@mail.ru

UDK:595.76-19

FARG'ONA VODIYSIDA TARQALGAN *COCCINELLA SEPTEMPUNCTATA* LINNAEUS, 1758 (COLEOPTERA, COCCINELLIDAE) TURINING BIOEKOLOGIYASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Coccinellidae oilasi Coccinella avlodiga mansub bo'lgan Coccinella septempunctata Linnaeus , 1758 turining sistematik o'rni,morfologiyasi, aniqlangan joyi va muddati,tarqalish areali,bioekologiyasi haqida to'liq ma'lumot berilgan. Ushbu ishda* Coccinella septempunctata *L. (7 nuqtali xonqizi) ning rivojlanish sikli, oziqga bo'lgan talabi hamda namgarchilik va yashash muhitiga munosabatiga ko'ra ekologik guruhlarga mansubligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ushbu turning agroekotizimlardagi biologik ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Coleoptera, Coccinella septempunctata, miksoentomofag, mezokserofil, polivoltin, pronotum,scutellum.*

Гафурова Саодат Турабаевна
Наманганский государственный университет учитель, PhD

БИОЭКОЛОГИЯ ВИДА COCCINELLA SEPTEMPUNCTATA *LINNAEUS, 1758 (COLEOPTERA, COCCINELLIDAE)*, РАСПРОСТРАНЁННОГО В ДОЛИНЕ ФЕРГАНЫ

Аннотация: *В данной статье представлена полная информация о систематическом положении, морфологии, месте и дате обнаружения, ареале распространения и биоэкологии вида Coccinella septempunctata Linnaeus 1758, принадлежащего к роду Coccinella семейства Coccinellidae. При этом приведены данные о потребности данного вида в питании, влаге, разделении на экологические группы в зависимости от цикла развития.*

Ключевые слова: *Coleoptera, Coccinella septempunctata, миксоэнтомофаг, мезоксерофил, поливольтин, пронот, скутеллум.*

Gafurova Saodat Turabayevna
Namangan State University teacher, PhD

BIOECOLOGY OF THE SPECIES COCCINELLA SEPTEMPUNCTATA *LINNAEUS, 1758 (COLEOPTERA, COCCINELLIDAE)*, DISTRIBUTED IN THE FERGANA VALLEY

Annotation: *This article provides complete information about the systematic position, morphology, location and date of discovery, distribution area, and bioecology of the species Coccinella septempunctata Linnaeus 1758, which belongs to the genus Coccinella of the Coccinellidae family. In this work, the belonging of Coccinella septempunctata L. to ecological groups according to the development cycle, nutritional requirements, and attitude to humidity and habitat was analyzed. The research results serve to illuminate the biological significance of this species in agroecosystems.*

Key words: *Coleoptera, Coccinella septempunctata, myxoentomophage, mesoxerophile, polyvoltine, pronotum, scutellum.*

Kirish

Hozirda dunyo miqyosida urbanizatsiya jarayonlari va antropogen omillar bosimining ortib borishi natijasida atrof-muhitning o'zgarishiga, hasharotlar bioxilma-xilligining kamayishiga va ular arealining qisqarishiga olib kelmoqda. Turli zararkunandalar tufayli ko'p sonli qishloq xo'jaligi o'simliklarining mahsuldorligi keskin kamayadi. So'nggi yillarda olib borilgan zararkunandalarga qarshi kimyoviy kurash usullari atrof-muhitning haddan tashqari ifloslanishi va ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Shunga ko'ra, entomofaglar orasida o'simlik zararkunandalarini tartibga solishda turli biotoplar va agrobiotsenozlarda tarqalgan koksinellid qo'ng'izlarining (Coleoptera, Coccinellidae) tur tarkibini aniqlash, munozarali turlarni morfologik va molekulyar usullar yordamida tahlil qilish, koksinellidlarni yashash tarziga ko'ra, ekologik guruhlarga ajratish, koksinellidlarni xo'jalikdagi ahamiyatini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xonqizilar

(Coccinellidae) oilasi vakillari qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda muhim biologik agentlar hisoblanadi. Ushbu oilaning keng tarqalgan va ekologik jihatdan ahamiyatli vakillaridan biri *Coccinella septempunctata* bo‘lib, u asosan shiralar (Aphididae) bilan oziqlanadi. Turning rivojlanish biologiyasi va ekologik moslashuvchanligini o‘rganish biologik kurash tizimlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili

Koksinellidlar faunasi, turlar tarkibi, tarqalishi to‘g‘risidagi tadqiqotlar xorijning yetakchi olimlari H.Fürsch (1967), H.Sasaji (1971), X.Pang, J.Mao (1979), D.N.Hoang, (1982), R.D.Gordon (1985), R.D.Pope (1989), I.Kovar (1996), Kuznetsov (1997), Raimundo va van Harten (2000), N.J.Vandenberg (2002), O.Bienkovskaya (2004), V.A.Prisniy (2004), Silipinskiy A. (2007), V.P.Semyanov (2007), J.A.Robertson (2008), J.A.Giorgi (2009), Hodek (2009), Seago (2011), O.Nedved va I.Kovar (2012), Z.I.Tyumaseva (2013), A.Biranvand (2016), J.A.Robertson (2015), K.Saeed (2016) J.Poorani (2019), Che, LiHeng va boshqalar (2021) ishlarida qayd etilgan.

Markaziy Osiyoda koksinellidlarning tur tarkibi va entomofaglik xususiyatlarini M.Atayeva (1972), G.I.Savoyskaya (1983), V.N.Kuznetsov (1992, 2006), A.S.Sajnev (2008), A.A.Moxrin (2009), E.H.Baluyeva (2009), F.R.Xakimov (2011) V.F.Xabibullin (2014), P.G.Vition (2014), Nikitskiy N.B., A.S.Ukrainskiy (2016), E.A.Nepayeva, A.U.Gabdullina (2019) ishlarida aks ettirilgan.

O‘zbekiston koksinellidlari faunasini o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlar A.K.Mansurov (1968), Sh.A.Xamrayev, K.Nasriddinov (2003), Buxoro vohasida biotoplar bo‘yicha taqsimlanishi O.I.Jabborova (2011), Qashqadaryo viloyati agrobiotsenozi koksinellidlari X.P.Bo‘riyevaninig (2023) ilmiy ishlarida bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot materiallari sifatida koksinellidlar (Coccinellidae) oilasiga mansub hasharot turlari olindi. Bu hasharotlarni dala sharoitida yig‘ib, ular tarqalgan hududlar 4 ta landshaftga ajratildi. Tadqiqot ishlari davomida lichinka va imago holatidagi 3.5 mingdan ortiq hasharot namunalari yig‘ildi va o‘rganildi.

Tadqiqotlar 2022-2024 yillarda Farg‘ona vodiysining Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida olib borildi. Koksinellidlarning landshaftlarda tarqalish qonuniyatlarini va shakllanishini o‘rganish uchun agrolandshaftning oltita kesimida (g‘o‘za, beda, makkajo‘xori, dukkakli o‘simliklar, sabzavot-poliz va bog‘) va suv atroflaridan, adir mintaqalarining to‘rtta kesimidan (baland, o‘rtacha balandlikdagi, past adirlar hamda adir oralig‘i botiqlari va daryo vodiylari), cho‘l hududlarining esa uchta kesimidan (haqiyqiy cho‘l, cho‘l agrolandshafti, cho‘ldagi suv atroflari), shuningdek, tog‘ va tog‘ oldi hududlaridan yig‘ilgan materiallar asosida tahlil qilindi. Materiallar 2022-2024-yillar davomida, doimiy kuzatish joylarida har 7-10 kunda, marshrutlarda esa oyiga 3-4 martadan amalga oshirildi. Materiallar, asosan, mart oyidan noyabrga qadar, koksinellidlarni qishlash diapauzalarni aniqlashda esa-yanvar va fevral oylarida ham yig‘ildi.


Natijalar va ularning tahlili

Avlod: *Coccinella* Linnaeus, 1758

***Coccinella septempunctata* Linnaeus , 1758**


Aniqlangan joyi va muddati: Namangan viloyati Chust, To‘raqo‘rg‘on, Pop, Chortoq, Uchqo‘rg‘on, Kosonsoy, Yangiqo‘rg‘on, Norin, Uychi; Andijon viloyati Marhamat, Asaka, Ulug‘nor, Xo‘jaobod, Imomota qishlog‘i, Chinobod, Oltinko‘l, Manaqota qishlog‘, Buloqboshi, Jalaquduq, Baliqchi tumanlaridan; Farg‘ona viloyati Buvayda, Beshariq, Qo‘qon, Dang‘ara, Uchko‘prik, Quva, Vodil, Rishton, O‘zbekiston, Xonqiz MFY, Chimyon, Oltiariq, Marg‘ilon, Bog‘dod, Yangiqo‘rg‘on, Yozyovon, Bo‘z tumanlarining qishloqlaridagi biotoplari va agresenozlaridan yilning to‘rt faslida ham namunalar topildi.

Tarqalish areali: Yevropa, Shimoliy Afrika, Osiyo, Janubiy Afrika, Shimoliy Amerikaga kiritilgan [1] (1-rasmga qarang).



1-rasm. *Coccinella septempunctata* Linnaeus, 1758 turining tarqalgan arealining xaritasi, www.gbif.org bo‘yicha.[3]

Aniqlagich kaliti: Bu turning elitrasini rangi qizil va to‘q sariq rangda bo‘lib, scutellum yaqinidagi artikulyar nuqta bilan elitraning har birida turli o‘lchamdagi 3 ta qora nuqtasi mavjud. Elitraning old qismida ham oq dog‘lar bo‘lishi mumkin. Pronotum qora, old burchaklari oq. Boshning har ikki tomonida bitta oq nuqta bor. Tanasining uzunligi 6.3-7.9 mm. [2]



a **b**

2-rasm. a - *Coccinella septempunctata* Linnaeus, 1758 (original); b- tadqiqot hududida tarqalgan areali.

Coccinella septempunctata to‘liq metamorfoz bilan rivojlanadigan hasharot bo‘lib, uning ontogenezi tuxum, larva, g‘umbak va imago bosqichlarini o‘z ichiga oladi.Urg‘ochi xonqiz tuxumlarini odatda pulg‘onlar koloniya hosil qilgan o‘simlik barglari yuzasiga qo‘yadi. Tuxum bosqichi 3–7 kun davom etadi va bu davr tashqi muhit haroratiga bevosita bog‘liq. Lichinka bosqichi to‘rt yoshdan iborat bo‘lib, 10–20 kun davom etadi. Aynan lichinka bosqichi oziqlanish intensivligi bilan ajralib turadi va biologik nazoratda asosiy rolni bajaradi.G‘umbak bosqichi 5–8 kun davom etadi va bu davrda oziqlanish kuzatilmaydi. Imago bosqichiga o‘tgan xonqizlar faol yirtqich hisoblanib, qulay sharoitda bir vegetatsiya mavsumida bir necha avlod berishi mumkin. Qish faslida ular diapauza holatiga o‘tadi.



3-rasm. *Coccinella septempunctata* Linnaeus, 1758 turining rivojlanish sikli

Coccinella septempunctata zoofag, aniqrog‘i entomofag hasharot bo‘lib, uning asosiy ozuqasini shiralar tashkil etadi. Shu bilan birga, oziq tanqisligida u boshqa mayda hasharotlar, jumladan tripslar, oqqanotlar hamda hasharot tuxumlari bilan oziqlanishi mumkin.Trofik ixtisoslashuviga ko‘ra, *C. septempunctata* oligofag tur hisoblanadi. Oziq yetishmovchiligi sharoitida tuxum va yosh lichinkalar bilan kannibalizm holatlari kuzatiladi. Oziqning yetarli bo‘lishi esa turning tez rivojlanishi va yuqori reproduktiv salohiyatini ta’minlaydi.[4]

Namlik omili turning tarqalishi va populyatsiya zichligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. *Coccinella septempunctata* namgarchilikka munosabatiga ko‘ra mezofil hasharot hisoblanadi. U o‘rtacha namlik sharoitlarida yaxshi rivojlanadi, juda quruq yoki ortiqcha nam muhitda esa rivojlanishi cheklanadi.

Yashash muhitiga moslashuviga ko‘ra *Coccinella septempunctata* evribiont tur bo‘lib, turli biotoplarda uchraydi. U qishloq xo‘jaligi ekinlari, bog‘-polizlar, o‘tloqlar va tabiiy o‘simlik qoplami mavjud hududlarda keng tarqalgan.O‘simlik bilan bog‘liqligiga ko‘ra, u fitofil entomofag hisoblanadi, ya’ni hayot faoliyati o‘simlik muhitida kechadi, biroq o‘simlik to‘qimalari bilan emas, balki o‘simliklarda yashovchi zararkunandalar bilan oziqlanadi. Haroratga munosabatiga ko‘ra esa mezotermofil tur bo‘lib, optimal rivojlanish 18–28 °C oralig‘ida kuzatiladi.[5]

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, *Coccinella septempunctata* Linnaeus, 1758 Farg‘ona vodiysi agrobiotsenozlari va tabiiy biotoplarida keng tarqalgan, ekologik jihatdan moslashuvchan va yuqori entomofaglik xususiyatiga ega tur hisoblanadi. Turning lichinka va imago bosqichlari shiralar sonini samarali tartibga solib, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. *C. septempunctata* ning mezofil va mezotermofil xususiyatlari uni biologik kurash tizimlarida ekologik xavfsiz va istiqbolli tabiiy agent sifatida qo‘llash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Biranvand A, Shahram H, Mehdi G, Lida F, Nedved O, Jahanshir Sh (2018) Contribution to the knowledge of Coccinellidae (Coleoptera) of Iran. Oriental insects, 2018

2. Беньковский А.О. Определитель божьих коровок (Coleoptera, Coccinellidae) европейской части России и Северного Кавказа / Беньковский Андрей Олегович − Ливны : Издатель Мухаметов Г.В., 2020. −140 с.

3. Global Biodiversity Information Facility, www.gbif.org

4. Hodek I., van Emden, H.F. and Honek, A.. Distribution and habitats, In: Ecology and Behaviour of the Ladybird Beetles (Coccinellidae). (Eds.). Blackwell Publishing Ltd, pp.2015. 110−140.

5. Хакимов Ф.Р. Особенности экологии жуков божьих коровок (Coleoptera, Coccinellidae) в условиях орошаемых земель Гиссарской долины Таджикистана // Автореферат дисс. … на соиск. учен. степ. к.б.н. (03.02.04-зоология). – Душанбе, 2011. – С.3−20.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Karimova Gulsanam Sherzod qizi
Andijon davlat universiteti biologiya yo‘nalishi talabasi
Asqarova Gulyuz Alisher qizi
Andijon davlat universiteti biologiya yo‘nalishi talabasi
Obidova Mahliyo Ibroxinjon qizi
Andijon davlat universiteti biologiya yo‘nalishi talabasi
Abdutolibov Muhriddin Zuhriddin o‘g‘li
Andijon davlat universiteti biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

KONYUNKTIVIT KO‘Z KASALLIGI HAQIDA ILMIY MANBALAR (SHARX)

Annotatsiya: *Konyunktivit – ko‘zning shilliq qavati (konyunktiva) yallig‘lanishi bilan kechadigan keng tarqalgan ko‘z kasalliklaridan biridir. Ushbu kasallik ko‘zning qizarishi, shishishi, qichishishi, yoshlanishi hamda shilliq yoki yiringli ajralmalar paydo bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladi. Konyunktivit bakterial, virusli va allergik omillar ta’sirida yuzaga keladi va uning klinik belgilari kasallik turiga qarab farqlanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi 2018–2025 yillar davomida chop etilgan ilmiy manbalar asosida konyunktivit kasalligining rivojlanish mexanizmlarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida PubMed, Web of Science va Google Scholar ma’lumotlar bazalarida tizimli qidiruv o‘tkazildi hamda jami 31 ta ilmiy manba tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, bakterial konyunktivit ko‘pincha stafilokokk va streptokokk bakteriyalari ta’sirida rivojlanib, ko‘zdan yiringli ajralmalar va qovoqlarning yopishib qolishi bilan xarakterlanadi. Virusli konyunktivit esa asosan adenoviruslar bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘z qizarishi, yoshlanishi va yorug‘likka sezuvchanlik bilan namoyon bo‘ladi. Allergik konyunktivit chang, gul changi yoki kosmetika vositalari kabi allergenlar ta’sirida yuzaga keladi. Xulosa qilib aytganda, konyunktivitni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘ri davolash asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Ko‘z gigiyenasiga rioya qilish va allergenlardan saqlanish kasallik profilaktikasida muhim omillardan hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar*: Konyunktivit, ko‘z yallig‘lanishi, bakterial konyunktivit, virusli konyunktivit, allergik konyunktivit, ko‘z kasalliklari, oftalmologiya.*

Каримова Гулсанам Шерзод кизи
Студент биологического факультета Андижанского государственного университета
Аскарова Гуляз Алишер овна
Студент биологического факультета Андижанского государственного университета
Обидова Махлия Ибохинжон
Студент биологического факультета Андижанского государственного университета
Абдутолибов Мухриддин Зухриддин о'тли
Преподаватель кафедры биологии Андижанского государственного университета

НАУЧНЫЕ ИСТОЧНИКИ ПО ЗАБОЛЕВАНИЯМ ГЛАЗ, ВКЛЮЧАЯ КОНЪЮНКТИВИТ (ОБЗОР)

Аннотация*: Конъюнктивит — одно из наиболее распространенных заболеваний глаз, характеризующееся воспалением слизистой оболочки глаза (конъюнктивы). Это заболевание проявляется покраснением, отеком, зудом, слезотечением и появлением слизистых или гнойных выделений. Конъюнктивит возникает под влиянием бактериальных, вирусных и аллергических факторов, а его клинические симптомы различаются в зависимости от типа заболевания. Цель данного исследования — выявить и проанализировать механизмы развития конъюнктивита на основе научных источников, опубликованных в 2018–2025 годах. В ходе исследования был проведен систематический поиск в базах данных PubMed, Web of Science и Google Scholar, всего было проанализировано 31 научный источник. По результатам анализа, бактериальный конъюнктивит чаще всего развивается под влиянием стафилококковых и стрептококковых бактерий и характеризуется гнойными выделениями из глаза и спайками век. Вирусный конъюнктивит в основном связан с аденовирусами и характеризуется покраснением, слезотечением и светочувствительностью. Аллергический конъюнктивит вызывается аллергенами, такими как пыль, пыльца или косметика. В заключение следует отметить, что своевременная диагностика и правильное лечение конъюнктивита важны для предотвращения осложнений. Поддержание гигиены глаз и избегание аллергенов являются важными факторами профилактики заболевания.*

***Ключевые слова**: Конъюнктивит, воспаление глаз, бактериальный конъюнктивит, вирусный конъюнктивит, аллергический конъюнктивит, заболевания глаз, офтальмология.*

Karimova Gulsanam Sherzod qizi
Student of Biology of Andijan State University
Askarova Gulyuz Alisher ovna
Student of Biology of Andijan State University
Obidova Makhliya Ibrokhinjon
Student of Biology of Andijan State University
Abdutolibov Muhriddin Zuhriddin o'g'li
Lecturer of the Department of Biology of Andijan State University

SCIENTIFIC SOURCES ON THE EYE DISEASE CONJUNCTIVIT (REVIEW)

***Abstract**: Conjunctivitis is one of the most common eye diseases characterized by inflammation of the mucous membrane of the eye (conjunctiva). This disease is manifested by redness, swelling, itching, tearing, and the appearance of mucous or purulent discharge. Conjunctivitis occurs under the influence of bacterial, viral, and allergic factors, and its clinical symptoms differ depending on the type of disease. The aim of this study is to identify and analyze the mechanisms of development of conjunctivitis based on scientific sources published in 2018–2025. During the study, a systematic search was conducted in the PubMed, Web of Science, and Google Scholar databases, and a total of 31 scientific sources were analyzed. According to the results of the analysis, bacterial conjunctivitis most often develops under the influence of staphylococcal and streptococcal bacteria and is characterized by purulent discharge from the eye and eyelid adhesions. Viral conjunctivitis is mainly associated with adenoviruses and is characterized by redness, tearing, and sensitivity to light. Allergic conjunctivitis is caused by allergens such as dust, pollen, or cosmetics. In conclusion, timely diagnosis and proper treatment of conjunctivitis are important in preventing complications. Maintaining eye hygiene and avoiding allergens are important factors in disease prevention.*

***Keywords**: Conjunctivitis, eye inflammation, bacterial conjunctivitis, viral conjunctivitis, allergic conjunctivitis, eye diseases, ophthalmology.*

Kirish

Konyunktival in'ektsiya yoki "qizil ko'z" ko'plab oftalmik kasalliklar uchun umumiy ko'rinish bo'lib, u barcha birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'limiga tashriflarning 1% gacha qismini tashkil qiladi [22]. Klinisyenlar, oftalmolog bo'ladimi yoki yo'qmi, "qizil ko'z" uveit, keratit yoki sklerit kabi jiddiy ko'z kasalliklarining namoyon bo'lishi mumkinligini yoki faqat kon'yunktival to'qima bilan cheklangan yanada xavfsizroq holatlarga (masalan, kon'yunktivit yoki subkon'yunktival qon ketishi) ikkilamchi bo'lishi mumkinligini bilishlari kerak. An'anaga ko'ra, zararliroq oftalmik kasalliklarko'rishdagi buzilishlar, nogironlik og'rig'i vafotofobiya bilan bog'liq deb hisoblangan [22]. Biroq, yaqinda o'tkazilgan katta meta-tahlilda[22]. Konyunktivit bilan murojaat qilgan bemorlarning tarixini to'plash to'g'ri tashxis qo'yish uchun juda muhimdir. Ko'zning diqqat bilan o'rganilgan tarixi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: alomatlarning boshlanishi va davomiyligi; yon tomon; ko'rishning buzilishi; qichishish mavjudligi; kontakt linzalari taqish tarixi; yaqinda yuqori nafasyo'llari infektsiyasi, sinusit va limfadenopatiya kabi boshqa sayohatchilarning mavjudligi; konyunktivitning oldingi epizodlari; tizimli allergiya va dori-darmonlar; va kimyoviy moddalarga ta'sir qilish tarixi. Isitma, holsizlik, charchoq va konyunktivit bilan og'rigan bemorlar bilan aloqa kabi konstitutsiyaviy belgilarning mavjudligi differentsial tashxisni yanada toraytirishga yordam beradi. Fizikaviy tekshiruv, jumladan, paypaslanadigan limfa tugunlarini, ayniqsa periaurikulyar va jag' osti sohalarini tekshirish juda muhimdir. Ajralish turinianiqlasuchunoftalmologiktekshiruv o'tkazilishi kerak.Ko'z yuzasi tuzilmalarini, jumladan, palpebralkon'yunktivani, psevdomembranlar, simblefaron, papillayoki follikulalarni va shox parda to'qimasini xiralashganlik va infiltratlar borligini baholash uchun tirqishli lampa biomikroskopi yordamida yaqindan tekshirish juda muhimdir. Yuqumli kon'yunktivitni tashxislashda ishlatiladigan ba'zi klinik belgilar va alomatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: ko'zdan oqindi, kon'yunktiva in'ektsiyasi, qizil ko'z(lar)ning mavjudligi, ertalab kipriklarning bir-biriga yopishib qolishi, ko'z(lar)ning xiralashishi, ko'z qovoqlari yoki kon'yunktiva shishi va kon'yunktivitbilankasallangan odamlar bilan aloqa tarixi [12] . Allergik kon'yunktivit yetarlicha tashxislanmagan va davolanmagan bo'lishi mumkin[20].U qichishish, xemoz va shox pardaning sezilarli darajada shikastlanishi bo'lmagan taqdirda qizarish bilan namoyon bo'lad[13] .

Kon'yunktivaningshishidarajasiko'pinchakon'yunktivagiperemiyasigamutanosibemas.Bahorgikeratokonjunktivitningasosiytopilmalariyuqoritarsalkon'yunktivadkuchliqichishishbilanbirgakeladigulkanpapillalarningmavjudligidir,[9]shubilnbirgakon'yunktivachandig'ivaoldingisubkapsulyarkataraktningmavjudligiatopikkeratokonjunktivitashxisini qo'llab-quvvatlayd[9]. Yana bir shunga o'xshash holat, surunkali toksik kon'yunktivit, suvli ajralish, dastlabki papiller

kon'yunktiva reaksiyasi, keyin follikulyar reaksiya, shox pardaning epitelial eroziyasi va ko'z qovoqlari dermatiti bilan namoyon bo'lishi mumkin[28].

Konyunktivitning asosiy etiologiyasinimavjud belgilar va alomatlarga asoslanib bashorat qilishko'pincha noto'g'ri tashxisga olib kelishi mumkin. Bir tadqiqotda, ko'z yuzasi kasalliklari bo'yicha tajribaga ega markazlar adenoviral kon'yunktivitni to'g'ri tashxislashda atigi 48% aniqlik darajasiga ega edilar[30].Boshqa bir qancha tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bakterialpatogenlar bakterial kon'yunktivitga shubha qilingan holatlarning faqat 50% da ajratiladi[8]. Bundan tashqari,bir tadqiqotda virusli kon'yunktivitning taxmin qilingan holatlarining 52% gacha bakteriyalar uchun kulturada ijobiy bo'lganligi haqida xabar berilgan[30]. An'anaga ko'ra, klinik tarix va kon'yunktivitning etiologiyasi o'rtasidagi quyidagi bog'liqliklarhaqiqiy deb hisoblangan; bu tamoyillarko'plab darsliklarda keltirilgan vako'plab klinik sinovlarda bemorlarni tanlash uchun ishlatilgan[8]. Masalan, oftalmologiya bo'yicha asosiy darsliklarga ko'ra (masalan, Krachmer, Duane va Kanski), bir ko'zning shikastlanishi va keyin ikkinchi ko'zning 24-48 soat ichida shikastlanishi bakterial infeksiyani ko'rsatadi, agar ikkinchi ko'z 48 soatdan keyin periaurikulyar limfa tugunining kengayishi bilan infektsiyalansa, virusli etiologiyani ko'rib chiqish kerak.Xuddi shu darsliklarga ko'ra, papiller kon'yunktival reaksiya yoki psevdomembranoz kon'yunktivit kon'yunktivitning bakterial kelib chiqishini kuchli ko'rsatadi, follikulyar kon'yunktival reaksiya esa virusli etiologiyani ko'rsatishi ehtimoli ko'proq.Kon'yunktivit etiologiyasi va haqiqiy deb hisoblangan, ammo kuchli klinik dalillarga ega bo'lmagan alomatlar o'rtasida boshqa ko'plab bog'liqliklar mavjud.Masalan, so'nggi yillarda qichishishning yo'qligi va bakterial kon'yunktivit o'rtasidagi bog'liqlik tekshirilmoqda. Ilgari haqiqiy deb hisoblangan, ammo dalillarga ega bo'lmagan boshqa bog'liqliklar quyidagilarni o'z ichiga oladi: yaqinda yuqori nafas yo'llarining infektsiyasi va virusli kon'yunktivit foydasiga limfadenopatiya; bakterial kon'yunktivit bilan bog'liq sinusit, isitma, holsizlik va charchoq; va oldingi kon'yunktivit tarixi, ko'zlarning ikki tomonlama shikastlanishi bilan, virusli va allergik, ammo bakterial emas,balkikon'yunktivit.2003-yilda o'tkazilgan meta-tahlil kon'yunktivit belgilari va alomatlarini uning asosiy etiologiyasi bilan bog'laydigan biron bir klinik tadqiqotlarni topa olmadi[24] .Yuqoridagi meta-tahlildan so'ng, istiqbolli tadqiqot o'tkazildi va uchta belgining kombinatsiyasi, ko'z qovoqlarining ikki tomonlama ko'rinishi, qichishishning yo'qligi va oldingi kon'yunktivit tarixining yo'qligi bakterial kon'yunktivitning kuchli bashorat qiluvchi omillari ekanligini aniql [24]. Ikkala ko'zning ham muhimligi va kipriklarining ertalab bir-biriga yopishishi ijobiy bakterial madaniyat uchun kuchliroq bashorat qiluvchi omil bo'lib, qichishish yoki oldingi kon'yunktivit epizodi ijobiy bakterial madaniyatni kamroq ehtimolga keltirdi. Bundan tashqari, ajralish turlari (yiringli, shilimshiq yoki suvli) yoki boshqa alomatlar kon'yunktivitning biron bir alohida sinfiga xos emas edi. Uchta klinik sinovdan o'tgan 622 bemorning klinik ma'lumotlarini tahlil qilgan so'nggi meta-tahlil[17] shuni ko'rsatdiki, yiringli oqindi yoki yengil va o'rtacha darajadagi ko'z qizarishi bo'lgan bemorlar topikal antibiotiklardan foyda ko'rish ehtimoli kamroq; bu topilma kon'yunktivitning aksariyat holatlarida belgilar va alomatlar bilan asosiy etiologiya o'rtasida mazmunli bog'liqlikning yo'qligini yana bir bor tasdiqlaydi. 2013-yilda o'tkazilgan yana bir so'nggi tadqiqot ertalab uyg'onganida "ko'z qovoqlarining yopishishi" bo'lgan va ko'rik paytida 50 yoshdan oshgan bemorlarda ijobiy bakterial kultura natijalarining yuqori ehtimolini aniqladi [5] Laboratoriyanatijalaribizgaqandayyordamberadi?Klinisyenlarkon'yunktivitbilanog'mumkin. Kon'yunktiva kulturalari odatda gumon qilinganinfektsion neonatal kon'yunktivit, takroriykon'yunktivit, terapiyaga qarshi bo'lgan kon'yunktivit,og'ir yiringli oqindi bilan kechadigan kon'yunktivit va gonokokk yokixlamidial infeksiyaga shubha qilingan holatlar uchun ajratilgan [1]. Chiqarilgan joydan olingan tamponlarni antimikrob terapiyasini boshlashdan oldin olish yaxshiroqdir. Keyin tamponlar laboratoriyada turli xil o'sish muhitlariga kultura olish uchun joylashtiriladi. Sabouraud agar plastinkalari qo'ziqorinni aniqlash uchun ishlatiladi va u surunkali blefaritli va immuniteti zaif bemorlarda qo'llanilishi kerak. Anaerob kultura plastinkalari ham foydali bo'lishi mumkin, ayniqsa oldingi jarrohlik yoki travma tarixiga ega bemorlarda[4]. Agarantimikrob terapiyasi allaqachon boshlanganbo'lsa,ularnikulturaolishdan48 soat oldin to'xtatish kerak. 138 ta bolalar ko'z yuzasi infektsiyalarining besh yillik sharhida eng ko'p uchraydigan organizmlar koagulaza-manfiy stafilokokklar, undan keyin Pseudomonas aeruginosa va Staphylococcus aureus bo'lgan [29]. Molluscum contagiosum bilan infektsiya Pox-2 virusi keltirib chiqaradigan ko'plab kindiksimon va papulyar teri lezyonlari bilan tavsiflanadi. Teri bilan aloqa va jinsiy aloqa yuqishning asosiy yo'llari hisoblanadi. Virusli oqsillarning ko'z qovoqlari lezyonlaridan ko'z yoshi plyonkasiga tushishi surunkali follikulyar kon'yunktival reaksiyaga, punktat keratopatiyaga va subepitelial pannusga olib keladi. Kamdan-kam hollarda, birlamchi lezyonlari kon'yunktivada uchraydi[3]. Ebola gemorragik isitmasi ebolavirus turlari keltirib chiqaradigan o'limga olib keladigan kasallikdir. Kasallangan odamlarda kon'yunktival in'ektsiya, subkon'yunktival qonash va ko'z yosh oqishi haqida xabar berilgan[10] .Ko'pincha ikki tomonlama bo'lgan va 58% gacha hollarda mavjud bo'lgan kon'yunktival in'ektsiya ushbu kasallikning o'tkir va kech bosqichlarida aniqlangan va bu potentsial o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan holatni erta tashxislashda muhim rol o'ynashi mumkin[21] .Tana suyuqliklari orqali odamdan odamga yuqishi infeksiyani tarqatishi mumkin bo'lsa-da, tabiiy rezervuar mevali ko'rshapalak deb hisoblanadi[6]. Koronaviruslar odatda hayvonlarga ta'sir qiladigan keng turdagi viruslarni o'z ichiga oladi, garchi ba'zi shtammlar hayvonlardan odamlarga yuqishi mumkin[23]. Koronavirusning eng yaqinda ajratilgan shtammi "2019- nCoV", 2019-yil dekabr oyida Xitoyda birinchi marta aniqlanganidan beri yangiliklar

sarlavhalariga chiqdi. COVID-19 isitma, yo'tal, nafas qisilishi va hatto o'limga olib kelishi haqida xabar berilgan[16,18] .Ba'zi xabarlarda bu virus kon'yunktivitga olib kelishi va yuqtirgan odamlarning kon'yunktiva sekretsiyasi orqali yuqishi mumkinligi ta'kidla[18]. Barcha sog'liqni saqlash mutaxassislari, jumladan, oftalmologlar, kon'yunktivit va nafas olish alomatlari bo'lgan bemorlarga murojaat qilishda hushyor bo'lishlari kerak, ayniqsa, agar ular yaqinda yuqori xavfli hududlarga sayohat qilish tarixi haqida xabar berishsa[18]. Bakterial kon'yunktivit Kattalarda bakterial kon'yunktivit virusli kon'yunktivitga qaraganda kamroq uchraydi, bolalarda esa u tez-tez uchraydi[18]. Bakterial kon'yunktivit infektsiyalangan odamlar bilan bevosita aloqada bo'lish yoki mahalliy kon'yunktiva florasining g'ayritabiiy ko'payishi natijasida kelib chiqishi mumkin[24]. Ifloslangan barmoqlar[14] keng tarqalgan yuqish yo'llari hisoblanadi. Bundan tashqari, ko'z yoshi ishlab chiqarishning buzilishi, tabiiy epitelial to'siqning buzilishi, adnexal tuzilmalarining anomaliyalari, travma va immunitetning pasayishi kabi ba'zi holatlar bakterial kon'yunktivit bilan kasallanish ehtimolini oshiradi[25]. O'tkir bakterial kon'yunktivit ko'pincha Staphylococcus turlari, Haemophilus influenza, Streptococcus turlari, Moraxella catarrhalis va grammusbat ichak bakteriyalari tufayli yuzaga keladi[15]. Yosh bolalarda H. influenza yoki S. pnevmoniyasi tufayli kichik epidemiyalar paydo bo'lishi mumkin. O'tkir bakterial kon'yunktivit begona jism hissi va ko'z sekretsiyasining ortishi bilan namoyon bo'ladi, shuningdek, o'rtacha kon'yunktiva giperemiyasi ta'sirlangan shaxslarning taxminan 90 foizida yopishqoq ko'z qovoqlari va qichishish mavjud bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi; bu topilmalardan keyin yiringli sekretsiya va ko'zning yonishi kabi kamroq uchraydigan belgilar va alomatlar kuzatiladi. H. influenza kon'yunktiviti o'tkir otit va yuqori nafas yo'llarining infektsiyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin[15]. 60% dan ortiq hollarda o'z-o'zidan davolanish bir-ikki hafta ichida sodir bo'ladi[23]. Biroq, kon'yunktivada katta miqdorda bakteriyalar populyatsiyasining mavjudligi bemorni keratit xavfini oshiradi, ayniqsa shox parda epiteliy nuqsonlari bilan bog'liq holatlarda, masalan, quruq ko'zda[15] .

Xulosa

Konyunktival in’eksiya yoki “qizil ko‘z” oftalmologiyada eng ko‘p uchraydigan klinik belgilaridan biri bo‘lib, birlamchi tibbiy yordamga murojaat qiluvchilarning taxminan 1% gacha qismini tashkil etadi. Ushbu holat ba’zan oddiy kon’yunktivit yoki subkon’yunktival qon ketishi kabi nisbatan yengil kasalliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, ammo ayrim hollarda uveit, keratit yoki sklerit kabi jiddiy ko‘z kasalliklarining ham belgisi bo‘lishi mumkin. Shu sababli bemorni to‘g‘ri tashxislash uchun klinik tarixni batafsil yig‘ish va to‘liq oftalmologik tekshiruv o‘tkazish muhim hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faqat klinik belgilar va simptomlarga asoslanib kon’yunktivit etiologiyasini aniqlash har doim ham aniq natija bermaydi. Ayrim meta-tahlillar adenoviral yoki bakterial kon’yunktivitni aniqlashda klinik tashxisning aniqligi nisbatan past ekanligini ko‘rsatgan. Shuning uchun og‘ir, takrorlanuvchi yoki davolashga javob bermaydigan holatlarda laborator tekshiruvlar, xususan kon’yunktiva kulturasi muhim diagnostik ahamiyatga ega.

Kon’yunktivit turli etiologik omillar, jumladan bakteriyalar, viruslar, allergenlar hamda kimyoviy moddalar ta’sirida rivojlanishi mumkin. Bakterial kon’yunktivit ko‘pincha Staphylococcus, Streptococcus, Haemophilus influenzae kabi mikroorganizmlar bilan bog‘liq bo‘lsa, virusli kon’yunktivit ko‘pincha adenoviruslar yoki boshqa viruslar bilan bog‘liq bo‘ladi. Allergik kon’yunktivit esa allergenlarga yuqori sezuvchanlik natijasida yuzaga keladi. Bundan tashqari, ayrim tizimli infeksiyalar, jumladan COVID-19 yoki boshqa virusli kasalliklar ham ko‘zning yallig‘lanish belgilarini keltirib chiqarishi mumkin.

Umuman olganda, kon’yunktivit ko‘p hollarda yengil kechib, 1–2 hafta ichida o‘z-o‘zidan tuzalishi mumkin. Biroq ayrim holatlarda asoratlar rivojlanishining oldini olish uchun to‘g‘ri tashxis qo‘yish, etiologik omilni aniqlash va mos davolash usullarini qo‘llash muhim ahamiyatga

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Azari AA, Barney NP. Conjunctivitis: a systematic review of diagnosis and treatment. JAMA 2013;310:1721–1729.
2. Bielory BP, O’Brien TP, Bielory L. Management of seasonal allergic conjunctivitis: guide to therapy. Acta Ophthalmologica 2012;90:399–407.
3. Serin S, Bozkurt Oflaz A, Karabagli P, Gedik S, Bozkurt B. Eyelid molluscum contagiosum lesions in two patients with unilateral chronic conjunctivitis. Turk J Ophthalmol 2017;47:226–230.
4. Drew RJ, Cole TS, Newman W. How to use… eye swabs. Arch Dis Child Educ Pract Ed 2015;100:155–161.
5. van Weert HC, Tellegen E, Ter Riet G. A new diagnostic index for bacterial conjunctivitis in primary care. A rederivation study. E
6. Bausch DG, Schwarz L. Outbreak of ebola virus disease in Guinea: where ecology meets economy. Plos Negl Trop Dis 2014;8:e3056–e3056
7. Bielory B, Bielory L. Atopic dermatitis and keratoconjunctivitis. Immunol Allergy Clin North Am 2010;30:323–336.
8. Bielory BP, O’Brien TP, Bielory L. Management of seasonal allergic conjunctivitis: guide to therapy. Acta Ophthalmologica 2012;90:399–40

9. Bielory L, Frohman LP. Allergic and immunologic disorders of the eye. J Allergy Clin Immunol 1992;89115.

10. Breman JG, Heymann DL, Lloyd G, mccormick JB, Miatudila M, Murphy FA, et al. Discovery and description of ebola zaire virus in 1976 and relevance to the West African epidemic during 2013-2016. J Infect Dis 2016;214:S93– S101

11. Epling J. Bacterial conjunctivitis. BMJ Clin Evid 2012;2012:0704

12. Everitt H, Little P. How do gps diagnose and manage acute infective conjunctivitis? A GP survey. Fam Pract 2002;19:658–660.

13. Friedlaender MH. Ocular allergy. Curr Opin Allergy Clin Immunol 2011;11:477–482

14. Gallenga PE, Lobefalo L, Colangelo L, Della Loggia G, Orzalesi N, Velati P, et al. Topical lomefloxacin 0.3% twice daily versus tobramycin 0.3% in acute bacterial conjunctivitis: a multicenter double-blind phase III study. Ophthalmologica 1999;213:250–257

15. Hovding G. Acute bacterial conjunctivitis. Acta Ophthalmol 2008;86:5–17.

16. Huang C, Wang Y, Li X, Ren L, Zhao J, Hu Y, et al. Clinical features of patients infected with 2019 novel coronavirus in Wuhan, China. Lancet 2020;395:P497–P506. 76. Karimi S, Arabi A, Shahraki T, Safi S. Detection of severe acute respiratory syndrome Coronavirus-2 in the tears of patients with Coronavirus disease 2019. Eye. Retrieved from: https://doi.org/10.1038/s41433-020-0965-2.

17. Jefferis J, Perera R, Everitt H, van Weert H, Rietveld R, Glasziou P, et al. Acute infective conjunctivitis in primary care: who needs antibiotics? An individual patient data meta-analysis. Br J Gen Pract 2011;61:e542–548

18. Karimi S, Arabi A, Shahraki T, Safi S. Detection of severe acute respiratory syndrome Coronavirus-2 in the tears of patients with Coronavirus disease 2019. Eye. Retrieved from: https://doi.org/10.1038/s41433-020-0965-2

19. La Rosa M, Lionetti E, Reibaldi M, et al. Allergic conjunctivitis: a comprehensive review of the literature. Ital J Pediat2013;39:18.

20.Moshirfar M, Fenzl CR, Li Z. What we know about ocular manifestations of Ebola. Clin Ophthalmol 2014;8:2355–2357

20. Narayana S, mcgee S. Bedside diagnosis of the 'Red Eye': a systematic review. Am J Med 2015;128:1220–1224.e122

21. Peiris JS, Lai ST, Poon LL, Guan Y, Yam LYC, Lim W, et al. Coronavirus as a possible cause of severe acute respiratory syndrome. Lancet 2003;361:1319-1325

22. Rietveld RP, ter Riet G, Bindels PJ, Sloos JH, van Weert HC. Predicting bacterial cause in infectious conjunctivitis: cohort study on informativeness of combinations of signs and symptoms. BMJ 2004;329:206–210.

23. Rose PW, Harnden A, Brueggemann AB, Perera R, Sheikh A, Crook D, et al. Chloramphenicol treatment for acute infective conjunctivitis in children in primary care: a randomised double-blind placebo-controlled trial. Lancet 2005;366:37

24. Shields T, Sloane PD. A comparison of eye problems in primary care and ophthalmology practices. Fam Med 1991;23:544–546

25. Varu DM, Rhee MK, Akpek EK, Amescua G, Farid M, Garcia-Ferrer FJ, et al. Conjunctivitis preferred practice pattern®. Ophthalmology 2019;126:P94–P169.

26. Wilson-Holt N, Dart JK. Thiomersal keratoconjunctivitis, frequency, clinical spectrum and diagnosis. Eye 1989;3:581–587. Van Ketel WG, Melzer-van Riemsdijk FA. Conjunctivitis due to soft lens solutions. Contact Dermatitis 1980;6:321–324.

27. Wong VW, Lai TY, Chi SC, Lam DS. Pediatric ocular surface infections: a 5-year review of demographics, clinical features, risk factors, microbiological results, and treatment. Cornea 2011;30:995–1002

28. Woodland RM, Darougar S, Thaker U, Cornell L, Siddique M, Wania J, et al. Causes of conjunctivitis and keratoconjunctivitis in Karachi, Pakistan. Trans Royal Soc Trop Med Hygiene 1992;86:317–320

29. Woodland RM, Darougar S, Thaker U, Cornell L, Siddique M, Wania J, et al. Causes of conjunctivitis and keratoconjunctivitis in Karachi, Pakistan. Trans Royal Soc Trop Med Hygiene 1992;86:317–320.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

G'ulomova Gulnozaxon
Karimova Ziyoda
Amirova Uljonoy
Jalolova Bahora
Sokhibjon Abdusamatov
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston
Dilfuza Jabborova
Sultanov No'monjon
O'zR FAGenetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi, Toshkent, O'zbekiston

LAVANDULA SP. O'SIMLIGIDAN AJRATILGAN ENDOFIT BAKTERIYALARNING O'SIMLIK O'SISHINI RAG'BATLANTIRUVCHI (PGP) XUSUSIYATLARINI KOMPLEKS BAHOLASH

Annotatsiya. *O'simliklarning o'sishi va rivojlanishi ularning ichki to'qimalarida yashovchi o'sishni rag'batlantiruvchi endofit bakteriyalarga bevosita bog'liq. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston hududida o'suvchi Lavandula sp. o'simligidan ajratilgan endofit bakteriyalarning o'simlik o'sishini rag'batlantiruvchi (PGP) xususiyatlari kompleks baholandi.*

Lavandula sp. o'simligining turli vegetativ organlaridan jami 44 ta endofit bakterial izolyat ajratib olinib, ularning PGP xususiyatlari o'rganildi. Olingan izolyatlar yuqori miqdorda indol-3-sirka kislota (ISK) sintez qilishi, fosfatni erituvchan shaklga o'tkazishi hamda azotni biriktirish qobiliyati bilan ajralib turdi. Shuningdek, ayrim izolyatlarda siderofor sintezi va ACC deaminaza faolligi qayd etildi.

In vitro skrining natijalariga ko'ra, GLB-22, GLB-27, GLP-2, GLP-5, GLP-10 va GLI-1 izolyatlari urug' unuvchanligini nazoratga nisbatan 94–97 % gacha oshirdi. Olingan natijalar faol izolyatlarning dorivor o'simliklar yetishtirishda istiqbolli mikrobial inokulyant sifatida qo'llanish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Lavandula sp.; endofit bakteriyalar; o'simlik o'sishini rag'batlantiruvchi bakteriyalar (PGP); indol-3-sirka kislota; fosfatni eritish; azotni biriktirish; ACC-deaminaza; mikrobial inokulyant.*

Gulomova Gulnozaxon
Karimova Ziyoda
Amirova Uljonoy
Jalolova Bahora
Sokhibjon Abdusamatov
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan
Dilfuza Jabborova
Sultanov Numonjon
Institute of Genetics and Experimental Plant Biology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

LAVANDULA SP. INTEGRATED EVALUATION OF PLANT GROWTH-STIMULATING (PGP) PROPERTIES OF PLANT-ISOLATED ENDOPHYTE BACTERIA

Annotation. *Plant growth and development are closely associated with plant growth–promoting endophytic bacteria inhabiting internal plant tissues. In this study, the plant growth–promoting (PGP) traits of endophytic bacteria isolated from Lavandula sp. growing in Uzbekistan were comprehensively evaluated.*

A total of 44 endophytic bacterial isolates were obtained from different vegetative organs of Lavandula sp., and their PGP characteristics were investigated. The isolates demonstrated high production of indole-3-acetic acid (ISK), phosphate solubilization ability, and nitrogen fixation capacity. In addition, siderophore production and ACC deaminase activity were detected in several isolates.

According to in vitro screening results, isolates GLB-22, GLB-27, GLP-2, GLP-5, GLP-10, and GLI-1 increased seed germination by 94–97% compared to the control. The obtained results indicate that the most active isolates have strong potential for application as promising microbial inoculants in the cultivation of medicinal plants.

Keywords: *Lavandula sp.; endophytic bacteria; plant growth–promoting bacteria (PGP); indole-3-acetic acid; phosphate solubilization; nitrogen fixation; ACC deaminase; microbial inoculant.*

Гуломова Гулнозахон
Каримова Зиёда
Амирова Улжоной
Жалолова Бахора
Сохибжон Абдусаматов
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Ташкент, Узбекистан
Дилфуза Джаббарова
Султанов Нуманжон
Институт генетики и экспериментальной биологии растений Академии наук Республики Узбекистан, Ташкент, Узбекистан

КОМПЛЕКСНАЯ ОЦЕНКА СВОЙСТВ ЭНДОФИТНЫХ БАКТЕРИЙ, СТИМУЛИРУЮЩИХ РОСТ РАСТЕНИЙ (PGP), ВЫДЕЛЕННЫХ ИЗ РАСТЕНИЙ РОДА *LAVANDULA* SP.

Аннотация. *Рост и развитие растений тесно связаны с эндофитными бактериями, стимулирующими рост растений и обитающими во внутренних тканях. В данном исследовании была проведена комплексная оценка ростстимулирующих (PGP) свойств эндофитных бактерий, выделенных из Lavandula sp., произрастающей на территории Узбекистана.*

Всего из различных вегетативных органов Lavandula sp. было выделено 44 эндофитных бактериальных изолята, и изучены их PGP-характеристики. Изоляты продемонстрировали высокий уровень синтеза индол-3-уксусной кислоты (ISK), способность к растворению фосфатов и фиксации азота. Кроме того, у ряда изолятов была выявлена продукция сидерофоров и активность ACC-дезаминазы.

Согласно результатам скрининга in vitro, изоляты GLB-22, GLB-27, GLP-2, GLP-5, GLP-10 и GLI-1 увеличили всхожесть семян на 94–97 % по сравнению с контролем. Полученные результаты свидетельствуют о высоком потенциале наиболее активных изолятов для применения в качестве перспективных микробных инокулянтов при выращивании лекарственных растений.

Ключевые слова: *Lavandula sp.; эндофитные бактерии; бактерии, стимулирующие рост растений (PGP); индол-3-уксусная кислота; растворение фосфатов; фиксация азота; ACC-дезаминаза; микробный инокулянт.*

Adabiyotlar sharhi.

Qadim zamonlardan boshlab tabiiy biologik mahsulotlar, xususan dorivor o‘simliklar xalq tabobati va farmatsevtika amaliyotida ko‘plab kasalliklarning oldini olish hamda ularni davolash maqsadida keng qo‘llanib [1]. Shunday o‘simliklardan biri – lavanta (*Lavandula* sp.) bo‘lib, u avlodlar davomida turli kasalliklarni, jumladan yara infeksiyalarini davolashda qo‘llanilgan. *Lavanda Lamiaceae* oilasiga mansub doimiy yashil buta bo‘lib, Fransiya, Vengriya, Bolgariya, Xitoy, Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Portugaliya va Ispaniya kabi mamlakatlarda tijorat maqsadida yetishtiriladi [2].

O‘simlik to‘qimalarida yashovchi va mezbon o‘simlikka zarar yetkazmagan holda hayot kechiruvchi mikroorganizmlar endofitlar deb ataladi [3, 4]. Har bir o‘simlik turiga xos endofit mikrobiotasi mavjud bo‘lib, ular mezbon o‘simlik bilan o‘zaro moslashgan simbiotik munosabatlarni shakllantiradi [5]. Endofitlar majburiy, fakultativ va opportunistik guruhlarga bo‘linadi. Ular hayot siklining kamida bir qismini o‘simlik to‘qimalarida o‘tkazadi [6, 7]. Endofit bakteriyalarning o‘simlikka kirishi tabiiy teshiklar (g‘ovaklar, gidatodlar), yaralar, mikroporalar hamda abiotik mexanik shikastlanishlar orqali amalga oshadi. Ayniqsa, ildiz rivojlanishining dastlabki bosqichida shakllanadigan mikroporalar va jarohatlar asosiy kirish nuqtasi hisoblanadi [4]. Endofitlar o‘simlikning turli qismlaridan – ildiz, piyoz, ildizpoya va so‘qmoqlardan ajratib olinishi mumkin [3].

Taksonomik jihatdan endofit bakteriyalar 16 ta oilaga mansub 200 dan ortiq avlod vakillarini o‘z ichiga oladi. Ularning asosiy qismi *Firmicutes*, *Actinobacteria* va *Proteobacteria* filumlariga kiradi. Bu guruhga *Pseudomonas*, *Achromobacter*, *Agrobacterium*, *Xanthomonas*, *Acinetobacter*, *Microbacterium*, *Bacillus* va *Brevibacterium* kabi gram-manfiy va gram-musbat bakteriyalar kiradi [8].

Endofitik bakteriyalar o‘simlik mikrobiomasining ajralmas qismi bo‘lib, dorivor o‘simliklarni yetishtirish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘simlik o‘sishini rag‘batlantirish, ozuqa elementlarini o‘zlashtirishni kuchaytirish hamda biotik va abiotik stress omillariga chidamlilikni oshirish kabi funksiyalarni bajaradi. Biroq an’anaviy agrotexnologik yondashuvlarda ushbu foydali mikroorganizmlarning ahamiyati yetarlicha e’tiborga olinmaydi, bu esa hosildorlikning kamayishiga va o‘simliklarning kasalliklarga sezgirligining ortishiga olib keladi [9].

Keng tarqalgan endofit bakteriyalar – *Bacillus*, *Pantoea*, *Pseudomonas*, *Stenotrophomonas* va *Serratia* avlodlari – auksin va gibberellin kabi fitogormonlarni ishlab chiqarish xususiyatiga ega. Shuningdek, ular sideroforlar sintezi va fosfatni eruvchan shaklga o‘tkazish orqali o‘simlik oziqlanishini yaxshilaydi. *Alcaligenes*, *Arthrobacter*, *Bradyrhizobium*, *Chromobacterium*, *Enterobacter*, *Escherichia*, *Micrococcus*, *Streptomyces*, *Serratia* va *Thiobacillus* vakillari organik kislotalar ajratish orqali ozuqa moddalari o‘zlashtirilishini kuchaytiradi.

Lavandula officinalis o‘simligining bakterial jamoasi o‘rganilganda 11 ta avlod aniqlangan bo‘lib, izolyatlarning 88 % ini Proteobakteriyalar tashkil etadi. Ulardan *Pseudomonas* 51 %, *Stenotrophomonas* 13 %, *Pantoea* 9 % va *Rhizobium* 14 % ulushni egallagan. Aktinomitsetlar 8 %, *Bacillus*, *Plantibacter*, *Psychrobacter*, *Sanguibacter*, *Salinibacterium* va *Jeotgalibacillus* esa jami 6 % ni tashkil etgan [13].

Mazkur tadqiqotda *Lavandula* sp. o‘simligidan ajratilgan endofit bakteriyalarning o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlari tahlil qilinadi. Dorivor o‘simliklardan biofaol metabolitlar ishlab chiqarish jarayoni bakterial endofitlarning bevosita metabolit sintezi, PGPR faolligi hamda o‘simlik metabolizmini induksiyalashi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Material va metodlar

Endofit bakteriyalarni ajratib olish

Endofit bakteriyalarni ajratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati hududidagi Surxondaryo davlat o‘rmon xo‘jaligida tabiiy sharoitda o‘suvchi *Lavandula* sp. o‘simliklari ehtiyotkorlik bilan, to‘qimalari shikastlanmasdan qazib olinib, laboratoriyaga yetkazildi. O‘simlik namunalari yig‘ib olingach, ularning yuzasida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan rizosfera va epifit mikroorganizmlarni bartaraf etish maqsadida 10–15 daqiqa davomida oqib turgan suv ostida yuvildi hamda keyinchalik havoda quritildi.

Shundan so‘ng *Lavandula* o‘simligining turli vegetativ organlari — ildiz, poya va barglari alohida ajratildi. Namunalarning tashqi yuzasini to‘liq sterilizatsiya qilish maqsadida ular dastlab 70 % etanol eritmasida 3 daqiqa davomida ushlab turildi. Keyingi bosqichda poya va barg namunalari 4 % natriy gipoxlorit eritmasida 6 daqiqa, ildiz namunalari esa 2 % natriy gipoxlorit eritmasida 10 daqiqa davomida sterilizatsiya qilindi hamda qo‘shimcha ravishda 70 % etanol bilan 30 soniya ishlov berildi.

Sterilizatsiya jarayonidan so‘ng namunalar besh marotaba steril distillangan suv bilan yuvildi va steril filtr qog‘ozda quritildi. Keyingi bosqichda ildiz va poya qismlari mayda bo‘laklarga ajratilib, tarkibida Trypton Soya Agari, Nutriant agar ozuqa muhitlari quyilgan Petri idishlariga inokulyatsiya qilindi.

Barg namunalari esa mayda bo‘laklarga bo‘linib, xovonchada 1 ml 0,9 % li NaCl eritmasi qo‘shilgan holda yaxshilab ezildi. Olingan suspenziya seriyali suyultirish usuli yordamida 10^{-3}–10^{-4} darajagacha suyultirildi va har bir suyultirilgan namunaning 100 mkl hajmdagi qismi Petri idishlariga ekildi.

Ekish jarayonidan so‘ng idishlar 28 ± 2 °C haroratda 72 soat davomida inkubatsiya qilindi. Inkubatsiya yakunida hosil bo‘lgan alohida bakteriya koloniyalaridan namunalar tanlab olinib, sof klonlarni ajratish maqsadida uch xil ozuqa muhitiga bir necha marotaba qayta ekildi [11].

Gram bo‘yash usuli

Izolyatlarning morfologik xususiyatlari, xususan hujayra shakli va hujayra devorining tuzilishini aniqlash uchun Gram bo‘yash usuli qo‘llanildi hamda natijalar mikroskopik tahlil asosida baholandi [12].

Faol izolyatlarning fitogormon ishlab chiqarish xususiyatlarini aniqlash

ACC deaminaza faolligini aniqlash

ACC deaminaza faolligi ferment tomonidan ACC parchalanishi natijasida hosil bo‘ladigan α-ketobutirat miqdorini aniqlash asosida baholandi. Induksiyalangan bakterial hujayralar sentrifugalanib yig‘ib olindi, Tris-HCl buferida yuvilib, qayta suspenziya qilindi hamda 5% toluol yordamida labilizatsiya qilindi. Hujayra suspenziyasi ACC bilan inkubatsiya qilinib, reaksiya xlorid kislota bilan to‘xtatildi va sentrifugalanib hujayra qoldiqlaridan ajratildi.

Hosil bo‘lgan supernatant 2,4-dinitrofenilgidrazin (DNF) reaktivi bilan ishlov berilib, inkubatsiya qilindi va natijada hosil bo‘lgan rangli kompleksning optik zichligi 540 nm to‘lqin uzunligida spektrofotometr yordamida o‘lchandi [13].

Gibberellin kislota (GK) miqdorini aniqlash

Bakterial shtammlarning gibberellin kislota sintez qilish qobiliyati suyuq Tryptone Soya ozuqa muhitida 28 ± 2 °C haroratda, 220 aylanish/min tezlikda o‘stirish orqali baholandi. Kultural suyuqlikdagi GK miqdori 7 kun davomida aniqlab borildi.

Tahlil Muromsev va Nestyuk usuli asosida amalga oshirildi. Filtrlangan kultural suyuqlik Folin–Chiokalto reaktivi bilan ishlov berilib, qorong‘i sharoitda inkubatsiya qilindi. GK mavjud namunalar yashil rang hosil qildi. Gibberellin miqdori 750 nm to‘lqin uzunligida spektrofotometr yordamida optik zichlikni o‘lchash orqali aniqlanib, natijalar standart usul bo‘yicha hisoblandi [14].

Indolil sirka kislota miqdorini aniqlash

Endofit bakteriyalar tegishli ozuqa muhitlarida 28 °C haroratda 72 soat davomida o‘stirildi. Yetarlicha biomassaga ega bo‘lgan izolyatlar 3000 aylanish/minut tezlikda 30 daqiqa davomida sentrifuga qilindi.

Hosil bo‘lgan supernatantdan 1,0 ml hajm olinib, 10 ml lik probirkalarga solindi va unga 8,0 ml Salkovskiy reaktivi (50 ml 35 % li H_2SO_4 hamda 1 ml 0,5 M $FeCl_3$ eritmasi aralashmasi) qo‘shildi. Aralashma yaxshilab aralashtirilib, 30 daqiqa davomida xona haroratida qoldirildi.

ISK mavjud namunalarda qizil-pushti rang hosil bo‘ldi. Indol-3-sirka kislota miqdori spektrofotometr yordamida 540 nm to‘lqin uzunligida, yashil yorug‘lik filtri orqali supernatantning optik zichligini o‘lchash asosida aniqlandi [14].

Fosfatni erituvchanlik qobiliyatini aniqlash

Endofit bakteriyalarning fosfat mobilizatsiya qilish qobiliyati dastlab Pikovskaya ozuqa muhitida baholandi (Pikovskaya, 1948). Muhit tarkibi (g/L): achitqi – 0,5; $Ca_3(PO_4)_2$ – 5,0; $(NH_4)_2SO_4$ – 0,5; KCl – 0,2; $MgSO_4$ – 0,1; $MnSO_4$ – 0,0001; $FeSO_4$ – 0,0001; agar – 15; pH – 7,0. Indikator sifatida 0,04% bromokrezol binafsha qo‘llanildi. Sof izolyatlar Petri idishlariga ekilib, 28 ± 2 °C haroratda 7 kun davomida inkubatsiya qilindi. Fosfat erituvchi faollik koloniyalar atrofida hosil bo‘lgan rang o‘zgarishi va halqa diametri asosida baholandi [14]. Tajribalar uch takroriylikda bajarildi.

Faol izolyatlarning eruvchan fosfat hosil qilish qobiliyati suyuq NBRIP muhitida qo‘shimcha ravishda aniqlanib, nazorat sifatida inokulyatsiya qilinmagan muhit ishlatildi. Inkubatsiyadan so‘ng namunalar sentrifugalanib, supernatantdagi eruvchan fosfat miqdori 820 nm to‘lqin uzunligida spektrofotometrik usulda aniqlanib, KH_2PO_4 standart egri chizig‘i asosida hisoblab chiqildi [15].

Ajratilgan endofit bakteriyalarning o‘simlik urug‘lari unuvchanligiga ta’sirini o‘rganish.

Endofit bakteriya izolyatlarining *Lavandula* sp. urug‘larining unuvchanligiga ta’siri in vitro sharoitida baholandi. Izolyatlar NB suyuq ozuqa muhitida 28 °C da 5–7 kun inkubatsiya qilinib, hosil bo‘lgan suspenziyalar steril distillangan suv bilan 1:50 nisbatda suyultirildi.

Urug‘lar yuzaki sterilizatsiya qilinib (70% etanol va 1% NaOCl), steril suv bilan chayildi va 3 soat davomida bakterial suspenziyalarda bo‘ktirildi. Nazorat varianti sifatida steril suv ishlatildi.

Urug‘lar filtr qog‘oz joylashtirilgan steril Petri idishlariga ekilib, 20–22 °C da 14 – 21 kun inkubatsiya qilindi. Namlikni saqlash uchun har kuni mos ravishda bakterial suspenziya (nazoratda steril suv) qo‘shildi. Tajriba uch takroriylikda olib borildi va urug‘ unuvchanligi foiz hisobida aniqlanib, nazorat bilan solishtirildi [16].

Natijalar

Endofit mikroorganizmlar asosan o‘simliklarning barg, poya va ildiz to‘qimalaridan ajratib olinadi. Ular o‘simlik hayotining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, mezbon o‘simlik bilan barqaror simbiotik munosabat hosil qiladi. Ayniqsa, dorivor o‘simliklar tarkibidagi biofaol birikmalar ularning endofitik mikrobiotasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli endofit bakteriyalarni ajratib olishda dorivor o‘simliklarni tanlash jarayonida ularning biologik va terapevtik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratish lozim.

Dorivor o‘simliklarning antibakterial faolligi o‘rganilib, yuqori biologik faollikka ega bo‘lgan o‘simlik turlaridan endofit bakteriyalarni ajratib olish maqsadga muvofiq deb topildi. Tadqiqot obyekti sifatida mamlakatimiz hududida tabiiy holda o‘suvchi va dorivor xususiyatlarga ega bo‘lgan *Lavandula* sp. o‘simligi tanlab olindi.

O‘tkazilgan tajribalar natijasida *Lavandula* sp. o‘simligining turli vegetativ organlaridan jami **44 ta endofitik bakterial izolyat** ajratib olindi. Ularning taqsimlanishi quyidagicha bo‘ldi: bargdan 27 ta, poyadan 12 ta va ildizdan 5 ta izolyat ajratildi (1-rasm).



1-rasm. *Lavandula* sp. dan endofit bakteriyalar ajratib olish


Ajratilgan izolyatlar morfologik jihatdan turlicha bo‘lib, koloniya rangi, o‘lchami, shakli va zichligi bo‘yicha sezilarli farqlar kuzatildi. Bu esa *Lavandula* sp. o‘simligining ichki to‘qimalarida endofitik bakteriyalarning xilma-xil tarkibga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Har bir izolyat alohida sterilizatsiya va ekish bosqichlari orqali sof kulturaga keltirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, endofitik bakteriyalar lavandaning barcha tekshirilgan organlarida mavjud bo‘lib, ularning soni va xilma-xilligi organlar kesimida farq qiladi. Eng ko‘p izolyatlar poya to‘qimalaridan ajratib olingan bo‘lsa, barg to‘qimalarida ularning soni nisbatan kamroq kuzatildi.

Olingan ma’lumotlar *Lavandula* sp. o‘simligining ichki to‘qimalari endofitik bakteriyalar uchun qulay ekologik muhit ekanligini hamda ularning o‘simlik bilan barqaror simbiotik munosabatda mavjudligini tasdiqlaydi.

Ajratib olingan endofit bakteriyalarning Gram usulda bo‘yalishi

Ajratib olingan 44 ta endofitik bakterial izolyatning Gram bo‘yash natijalari ularning hujayra devori tuzilishi bo‘yicha farqlanishini ko‘rsatdi. Tahlillar natijasida izolyatlarning 26 tasi gram-manfiy, 18 tasi esa gram-musbat bakteriyalar ekani aniqlandi.




2-rasm. Ajratilgan endofit bakteriyalarning Gram usulda bo‘yalishi

Gram-manfiy bakteriyalarning ustunlik qilishi *Lavandula* sp. o‘simligining ichki to‘qimalarida *Proteobacteria* guruhiga mansub vakillar keng tarqalgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, gram-musbat bakteriyalarning ham sezilarli ulushni tashkil etishi o‘simlik to‘qimalarida turli taksonomik guruhlarga mansub endofit mikroorganizmlar mavjudligini tasdiqlaydi.

Mazkur natijalar *Lavandula* sp. o‘simligining endofitik mikrobiotasi xilma-xil tarkibga ega ekanligini hamda keyingi fiziologik va biokimyoviy tahlillar uchun istiqbolli izolyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Faol izolyatlarning fitogormon ishlab chiqarish xususiyatlarini aniqlash

ACC deaminaza fermenti o‘simliklarda etilen darajasini pasaytirish orqali ularning o‘sishini faollashtirish hamda stress omillariga chidamliligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O‘tkazilgan tahlillar natijasida izolyatlar o‘rtasida ACC deaminaza faolligi bo‘yicha sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Ajratib olingan izolyatlarni ACC sentizlash miqdori


Uch martalik takroriy o‘lchovlar asosida olingan ma’lumotlarga ko‘ra, GLP-5, GLB-22 va GLP-10 izolyatlari eng yuqori ferment faolligini namoyon etdi. Mazkur izolyatlarning ACC deaminaza faolligi mos ravishda 5,126 ± 0,0365 U/mg, 4,715 ± 0,1095 U/mg va 4,592 ± 0,0445 U/mg ni tashkil etdi.

Qolgan izolyatlarda ferment faolligi nisbatan past yoki o‘rtacha darajada qayd etildi, bu esa shtammlar o‘rtasida fiziologik xususiyatlar sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatadi. Yuqori ferment faolligiga ega bo‘lgan ushbu uchta izolyat

o‘simlik o‘sishini rag‘batlantirish va stressga moslashuvni kuchaytirish nuqtayi nazaridan istiqbolli shtammlar sifatida baholanib, keyingi tadqiqot bosqichlari uchun tanlab olindi.

Faol endofit bakteriya izolyatlarining gibberellin kislota (GK) va indol-3-sirka kislota (ISK) sintez qilish qobiliyati baholandi. Olingan natijalar bakterial o‘sish dinamikasi fitogormonlar ishlab chiqarish miqdoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

Izolyatlarning bir haftalik o‘stirish jarayonida GK va ISK sintezining maksimal darajasi aniqlanib, ayrim shtammlar yuqori biologik faollik namoyon etdi.



4-rasm. Ajratib olingan izolyatlarni ISK ani GK sentizlash miqdori

Tanlab olingan izolyatlar orasida GLB-27 shtammi ISK miqdori bo‘yicha nazoratga nisbatan 3,8 marta, GK miqdori bo‘yicha esa 4,6 marta yuqori natija ko‘rsatdi.

GLP-5 izolyati sintezlagan ISK miqdori nazoratdan 4,1 marta, GK miqdori esa 4,9 marta yuqori bo‘ldi.

GLP-10 shtammida ISK miqdori nazoratga nisbatan 3,6 marta, GK miqdori esa 4,2 marta ko‘p ekanligi aniqlandi.

Eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri GLI-1 izolyatida kuzatilib, unda ISK miqdori nazoratga nisbatan 4,2 marta, GK miqdori esa 5,1 marta ortiq ekani qayd etildi.

Qolgan izolyatlar ham nazorat variantiga nisbatan fitogormon ishlab chiqarish qobiliyatining yuqori ekanligini namoyon etdi.

Indol-3-sirka kislota sintezining maksimal darajasi o‘stirishning 4-kunida kuzatildi. Shu kunda: GLI-1 izolyatida ISK miqdori 2,181 mg/ml, GLP-5 izolyatida 2,097 mg/ml, GLB-27 izolyatida 1,956 mg/ml, GLP-10 izolyatida esa 1,764 mg/ml ni tashkil etdi.

Nazorat variantida esa maksimal ISK miqdori 0,462 mg/ml darajasida qayd etildi. Tajribaning keyingi kunlarida har ikkala variantda ham indol-3-sirka kislota miqdorining bosqichma-bosqich kamayishi kuzatildi.

Olingan natijalar ayrim endofit izolyatlari yuqori fitogormon sintez qilish qobiliyatiga ega ekanligini hamda ularning o‘simlik o‘sishini rag‘batlantirishda muhim biologik ahamiyatga ega bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.


Ajratilgan endofit bakteriyalarining fosfat mobilizatsiya qilish xususiyati.

Fosfor o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi uchun muhim makroelement hisoblanadi. Biroq tuproqda uning katta qismi erimaydigan shaklda mavjud bo‘lib, o‘simliklar tomonidan bevosita o‘zlashtirilmaydi. Shu sababli biologik fosfat mobilizatsiyasi jarayoni o‘simlik oziqlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ajratib olingan endofit bakteriyalar orasida erimaydigan fosfatlarni mobilizatsiya qilish potensiali sezilarli darajada farqlanishi aniqlandi. Dastlabki skrining natijalari ayrim izolyatlarning yuqori fosfat erituvchi faollikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Faol izolyatlar qo‘shimcha ravishda turli noorganik fosfat manbalari mavjud sharoitda baholandi.

Natijalarga ko‘ra, izolyatlar $Ca_3(PO_4)_2$ mavjud sharoitda yuqori mobilizatsiya faolligini namoyon etdi, holbuki $AlPO_4$ ishtirokida fosfat eritish darajasi 5–6 baravar past bo‘ldi. Shunga qaramay, $AlPO_4$ muhitidagi ko‘rsatkichlar ham nazorat variantiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lib, izolyatlarning umumiy fosfat mobilizatsiya qilish qobiliyati mavjudligini tasdiqladi.

Tanlab olingan 8 ta faol izolyat ichida ildiz to‘qimasidan ajratilgan shtammlar eng yuqori fosfat erituvchi faollikni namoyon etdi.




5-rasm. Endofit bakteriyalarning fosfat mobilizatsiya qilish xususiyatlari

Bu natija ildiz endofitlarining o‘simlik rizosferasi va ichki to‘qimalarida mineral oziqlanish jarayonlariga faol ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini anglatadi. Ildizga yaqin joylashgan endofitlarning fosfat mobilizatsiyasi yuqori bo‘lishi ularning o‘simlik bilan metabolik jihatdan yanada yaqin aloqada ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olingan natijalar *Lavandula* sp. o‘simligidan ajratilgan ayrim endofit bakteriyalar erimaydigan fosfat birikmalarini eruvchan shaklga o‘tkazish orqali o‘simlik mineral oziqlanishini yaxshilash potensialiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa ularni istiqbolli bioo‘g‘it yoki o‘sishni rag‘batlantiruvchi mikroorganizmlar sifatida baholash imkonini beradi.

Ajratilgan endofit bakteriyalarning o‘simlik urug‘lari unuvchanligiga ta’sirini o‘rganish.

Izolyatlarning *Lavandula* sp. urug‘larining unib chiqishiga ta’siri 14, 19 va 21 kun davomida baholandi. 14-kun kuzatuvlariga ko‘ra, nazorat variantida hamda 18 ta izolyatda urug‘ unishi kuzatilmadi. Biroq ayrim izolyatlar bilan emlangan urug‘larda dastlabki unish belgilari qayd etildi.



6-rasm. Ajratilgan endofit bakteriyalarning Lavanda o‘simligi urug‘i unuvchanligiga ta’siri

Xususan, GLB-21, GLB-22, GLB-24, GLB-25, GLB-27, GLP-2, GLP-5, GLP-8, GLP-10, GLP-12, GLI-1, GLI-3, GLI-5, GLI-6, GLI-7 va GLI-11 izolyatlari mos ravishda 8, 14, 6, 7, 11, 13, 12, 4, 16, 6, 14, 7, 9, 6, 10 va 8 % unish ko‘rsatkichlarini namoyon etdi.

19-kunga kelib unuvchanlik darajasi sezilarli oshdi. GLB-22, GLB-27, GLP-2, GLP-5, GLP-10, GLP-12, GLI-1, GLI-3 va GLI-6 izolyatlari nazoratga nisbatan yuqori natijalar ko‘rsatib, mos ravishda 83, 89, 85, 90, 87, 78, 83, 80 va 78 % unuvchanlik darajasiga erishdi.

Eng yuqori natijalar 21-kunda qayd etildi. GLB-22, GLB-27, GLP-2, GLP-5, GLP-10 va GLI-1 izolyatlari bilan emlangan urug‘larning unuvchanligi mos ravishda 94, 96, 94, 97, 97 va 95 % ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar nazoratga nisbatan deyarli ikki baravar yuqori bo‘ldi. Boshqa izolyatlar esa 94 % dan past natijalarni ko‘rsatdi.

Petri idishlarida o‘tkazilgan skrining tajribasi natijalari ko‘rsatdiki, izolyatlarning aksariyati urug‘ unishini rag‘batlantirish orqali o‘simlik o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa GLB-22, GLB-27, GLP-2, GLP-5, GLP-10, GLP-12, GLI-1, GLI-3 va GLI-6 izolyatlari ildiz uzunligini nazoratga nisbatan o‘rtacha 1,5 baravar oshirdi.

Olingan natijalar ushbu endofit bakteriyalarning Lavandula sp. urug‘larining unib chiqishini va dastlabki o‘sish bosqichini samarali rag‘batlantirish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari *Lavandula* sp. o‘simligi boy va xilma-xil endofitik mikrobiotaga ega ekanligini ko‘rsatdi. O‘simlikning turli vegetativ organlaridan 44 ta endofitik bakterial izolyat ajratib olinib, ularning morfologik va fiziologik jihatdan farqlanishi aniqlandi. Gram tahlil natijalariga ko‘ra, izolyatlar tarkibida gram-manfiy bakteriyalar ustunlik qildi.

Biokimyoviy tahlillar ayrim izolyatlarning yuqori o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, GLP-5, GLB-22 va GLP-10 izolyatlari ACC deaminaza faolligi bilan ajralib turdi, GLI-1, GLP-5, GLB-27 va GLP-10 esa yuqori miqdorda ISK va gibberellin kislota sintez qildi. Fosfat mobilizatsiyasi bo‘yicha ildizdan ajratilgan izolyatlar yuqori natijalar ko‘rsatdi.

Urug‘ unuvchanligi tajribalarida GLB-22, GLB-27, GLP-2, GLP-5, GLP-10 va GLI-1 izolyatlari 21-kunda 94–97 % unuvchanlikni ta’minlab, nazoratga nisbatan sezilarli ustunlik namoyon etdi. Shuningdek, ushbu izolyatlar ildiz uzunligini o‘rtacha 1,5 baravar oshirdi.

Shu bois mazkur izolyatlar dorivor o‘simliklar yetishtirishda istiqbolli biologik inokulyantlar sifatida qo‘llanishi mumkin. Ularning yuqori fitogormon sintezi, ACC deaminaza faolligi hamda fosfat mobilizatsiyasi kabi ko‘p funksiyali xususiyatlari o‘simliklarning dastlabki rivojlanish bosqichida o‘sish jarayonlarini faollashtirish va noqulay ekologik sharoitlarga moslashuvini kuchaytirish imkonini beradi.

Olingan natijalar *Lavandula* sp. endofit bakteriyalarining dorivor o‘simliklar yetishtirishda samarali mikrobial inokulyant sifatida qo‘llanish salohiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa kimyoviy o‘g‘itlar va stimulyatorlarga ekologik jihatdan xavfsiz biologik muqobil yaratish, shuningdek, barqaror qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdusamatov, S., Jabborova, D., Mehta, J., Nama, K. S., Barot, M., & Saharan, B. S. (2024). Exploring fungal endophytes in a medicinal plant, Lavandula officinalis L.: Isolation, characterization, and plant growth-promoting potential. Annals of Phytomedicine, 13(2), 1-9.

2. Greff, B., Szigeti, J., Varga, Á., Lakatos, E., Sáhó, A., & Varga, L. (2021). Effect of bacterial inoculation on co-composting of lavender (Lavandula angustifolia Mill.) waste and cattle manure. 3 Biotech, 11(6), 306.

3. Najjar, A. A. (2025). Therapeutic Potential of Endophytic Microbes: Emphasizing Both Fungal and Bacterial Endophytes. Applied Microbiology, 5(1), 5.

4. Marchut-Mikołajczyk, O., Chlebicz, M., Kawecka, M., Michalak, A., Prucnal, F., Nielipinski, M., ... & Otlewska, A. (2023). Endophytic bacteria isolated from Urtica dioica L.-preliminary screening for enzyme and polyphenols production. Microbial Cell Factories, 22(1), 169.

5. Vandana, P., Kumari, A., Kumari, K., & Puzari, K. R. (2024). Endophytes: an insight into plant’s hidden treasure. IJPSS, 36(7), 589-609.

6. Das, D., Sharma, P. L., Paul, P., Baruah, N. R., Choudhury, J., Begum, T., Kalita, J. (2025). Harnessing endophytes: innovative strategies for sustainable agricultural practices. Discover Bacteria, 2(1), 1.

7. Drożdżyński, P., Rutkowska, N., Rodziewicz, M., & Marchut-Mikołajczyk, O. (2024). Bioactive compounds produced by endophytic bacteria and their plant hosts—An insight into the world of chosen herbaceous ruderal plants in Central Europe. Molecules, 29(18), 4456.

8. Eid, A. M., Fouda, A., & Abdel-rahman, M. A. (2021). Harnessing bacterial endophytes for promotion of plant growth and biotechnological applications: an overview. Plants 10: 1–33.

9. Semenzato, G., Fani, R. (2024). Endophytic bacteria: a sustainable strategy for enhancing medicinal plant cultivation and preserving microbial diversity. Frontiers in Microbiology, 15, 1477465.

10. Emiliani, G., Maida, I., Chiellini, C., Perrin, E., Fondi, M., Orlandini, V., ... & Fani, R Endophytic bacterial communities from Lavandula officinalis: a new source of biotechnologically relevant natural bioactive compounds //Prodotti Naturali: una risorsa in campo farmaceutico, salutistico, cosmetico ed agro-alimentare. – The writer, 2013. – С. 64-65.

11. Jabborova, D., Annapurna, K., Fayzullaeva, M., Sulaymonov, K., Kadirova, D., Jabbarov, Z., & Sayyed, R. Z. (2020). Isolation and characterization of endophytic bacteria from ginger (Zingiber officinale Rosc.). Ann. Phytomed, 9, 116-121.

12. Dremova, O., Mimmler, M., Paeslack, N., Khuu, M. P., Gao, Z., Bosmann, M., Reinhardt, C. (2023). Sterility testing of germ-free mouse colonies. Frontiers in Immunology, 14, 1275109.

13. Shi, Y., Yuan, Y., Feng, Y., Zhang, Y., Fan, Y Bacterial Diversity Analysis and Screening for ACC Deaminase-Producing Strains in Moss-Covered Soil at Different Altitudes in Tianshan Mountains—A Case Study of Glacier No. 1 //Microorganisms. – 2023. – Т. 11. – №. 6. – С. 1521.

14. Kondrasheva, K. Egamberdiev, F. Beshko, N. Karimova, F. and Gulyamova, T. (2022). Diversity and halotolerance of endophytic fungi from halophytes of Bukhara region, Uzbekistan. Acta Microbiol. Bulg., 38(3):216-222.

15. Varga, T., Hixson, K. K., Ahkami, A. H., Sher, A. W., Barnes, M. E., Chu, R. K., et al. (2020). Endophyte-promoted phosphorus solubilization in populus. Front. Plant Sci. 11, 1585. doi: 10.3389/fpls.2020.567918

16. Bashan, Y., Holguin, G. (1998). *Proposal for the division of plant growth-promoting rhizobacteria into two classifications.* Biology and Fertility of Soils.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Maxmudov Maxmudjon Ikromjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti magistranti
maxmudjonm217@gmail.com
Dexqonov Davron Burxonovich
Namangan davlat universiteti dotsenti
Abdullayev Shuhratjon Solijonovich
Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Yokubjonov Olimjon Raximjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
Hakimjonov Tohirjon G'ofurjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti talabasi

PLOCAMA VASSILCZENKOI (LINCZ) M. BACKLUND & THULIN TURINING FARG‘ONA VODIYSI BOTANIK-GEOGRAFIK RAYONLARI BO‘YICHA TARQALISHI

Annotatsiya. *Maqolada Plocama vassilczenkoi (Lincz.) M. Backlund & Thulin turining Farg‘ona vodiysi botanik-geografik rayonlari bo‘yicha tarqalishining tahlili amalga oshirilgan. Tur Farg‘ona vodiysi botanik-geografik rayonlarda notekis tarqalgan bo‘lib, bu holat antropogen ta’sirlarning yuqoriligi va tur ekologiyasiga mos muhitning bir-biridan uzoq ekanligi bilan izohlandi.*

Kalit so‘zlar: *Rubiaceae Juss., Plocama Aiton, Plocama vassilczenkoi (Lincz.), botanik-geografik rayon, IPNI, GBIF, POWO.*

Махмудов Махмуджон Икромжон угли
Магистрант Наманганского государственного университета
Дехқонов Даврон Бурхонович
Доцент Наманганского государственного университета
Абдуллаев Шухратжон Солижонович
Старший преподаватель Наманганского государственного университета
Ёкубжонов Олимжон Рахимжон угли
Преподаватель Наманганского государственного университета
Ҳакимжонов Тоҳиржон Ғофуржон ўғли
Наманганского государственного университета студент

РАСПРОСТРАНЕНИЕ ВИДА *PLOCAMA VASSILCZENKOI* (LINCZ) M. BACKLUND & THULIN ПО БОТАНИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИМ РАЙОНАМ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация. *В статье анализируется распространение вида Plocama vassilczenkoi (Lincz.) M. Backlund & Thulin по ботанико-географическим регионам Ферганской долины. Вид неравномерно распределен по ботанико-географическим регионам Ферганской долины, что объясняется высоким уровнем антропогенного воздействия и удаленностью мест обитания, подходящих для экологии данного вида.*

Ключевые слова: *Rubiaceae Juss., Plocama Aiton, Plocama vassilczenkoi (Lincz.), ботаническо-географический регион, IPNI, GBIF, POWO.*

Makhmudov Makhmudjon
Master’s student, Namangan State University
Dekhkanov Davron
Associate Professor, Namangan State University
Abdullaev Shukhratjon
Senior lecturer, Namangan State University
Yokubjonov Olimjon
Teacher, Namangan State University

Khakimjonov Tohirjon
Student, Namangan State University

DISTRIBUTION OF THE SPECIES PLOCAMA VASSILCZENKOI (LINCZ) M. BACKLUND & THULIN ACROSS THE BOTANICAL-GEOGRAPHICAL REGIONS OF THE FERGANA VALLEY

Abstract. *The article analyzes the distribution of the species Plocama vassilczenkoi (Lincz.) M. Backlund & Thulin across the botanical-geographical regions of the Fergana Valley. The species is unevenly distributed across the botanical-geographical regions of the Fergana Valley, which is explained by the high level of anthropogenic impacts and the remoteness of environments suitable for the species' ecology.*

Keywords: *Rubiaceae Juss., Plocama Aiton, Plocama vassilczenkoi (Lincz.), botanical-geographical region, IPNI, GBIF, POWO.*

Kirish

Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyoning eng zich joylashgan mintaqasi bo'lib, taxminan 15 million aholiga ega va noyob o'simlik va hayvonot dunyosini o'z ichiga olgan tarixiy izolyatsiyalangan ekoregion hisoblanadi [14]. Hudud 80 000 km² (uzunligi 300 km va kengligi 70 km gacha) maydonni egallab, **Andijon, Farg'ona, Namangan** (O'zbekiston), **O'sh, Jalolobod** (Qirg'iziston) va **Xo'jand** (Tojikiston) viloyatlarini o'z ichiga oladi.

Plocama Aiton turkumi *Rubiaceae* Juss. (oilaning yer yuzida 621, O'zbekistonda 6 turkumga oid 27 tur bor) [16] oilasiga mansub bo'lib, yer yuzida 36 [13], O'zbekistonda esa 7 turi (3 tasi O'zbekiston florasi uchun endem: *Plocama alshehbazii*, *Plocama botschantzevii*, *Plocama bucharica*) mavjud [16]. *Rubiaceae* Juss. oilasi vakillari daraxt, buta, yarim-buta va ko'p yillik o'tlardan iborat bo'lib [1], tog'oldi va tog'ning quyi qismlaridagi toshloq yonbag'rlarida va chala cho'l mintaqasidagi quruq, gipslashgan tuproqlarda o'sadi.

Plocama (*Rubiaceae*) turkumi birinchi marta 1789-yil Aiton tomonidan tasvirlangan bo'lib [1], *Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) M. Backlund & Thulin turi hozirgi sistematik holatga (sistematik o'rni va nomi) kelgunga qadar boshqa sistematik birliklar tarkibida va bir qancha nomlar bilan ifodalangan. Dastlab *Plocama* turkumining 30 turi *Gaillonia* A.Rich. ex DC turkumi tarkibiga kirgan, keyinchalik ular bir nechta kichik turkumlarga ajratilgan [2]. 1973-yil I.Linczewsky "Новости систематики высших растений" jurnalining 10-sonida *Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) turini *Neogaillonia vassilczenkoi* Lincz. nomi ostida [11], 2005-yil "Flora Iranica" asarining 176-jildida *Neogaillonia* Lincz turkumi *Gaillonia* Lincz turkumiga o'tkazildi va *Neogaillonia vassilczenkoi* (Lincz.) turi *Gaillonia vassilczenkoi* (Lincz.) Ehrend. & Schönb. sifatida qayta nomlandi [3].

Plocama vassilczenkoi tor arealda tarqalgan tur bo'lib, asosan O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston hududlari (Farg'ona vodiysi. Ba'zi manbalarda Eron florasida ham uchrashi aytiladi [3]) bilan cheklangan. O'simlik adabiyotlarda floristik qaydlar darajasida keltirilgan, ammo Farg'ona vodiysi botanik-geografik rayonlari bo'yicha tarqalish chegaralari tahlil qilinmagan.

Ushbu maqolada *Plocama vassilczenkoi* turining Farg'ona vodiysi doirasida botanik-geografik rayonlar bo'yicha tarqalishini tahlil qilish orqali ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishni maqsad qilib olingan.


Tadqiqot metodologiyasi

Plocama vassilczenkoi turining Farg'ona vodiysi bo'yicha fitogeografik tahlili K.Tojibaev va boshqalar (2016) tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirildi [15]. Tur haqidagi ma'lumotlarni olishda xalqaro elektron bazalar Plants of the World Online (POWO) [13], International Plant Names Index (IPNI) [10], Global Biodiversity Information Facility (GBIF) [8], turga xos dastlabki geografik ma'lumotlar, "Флора СССР" [4], "Флора Узбекистана" [7], "Флора Киргизской ССР" [5], "Флора Таджикской ССР" [6], "Определитель растений Средней Азии" [12] asarlaridan olindi. Mavjud gerbariy namunalarda keltirilgan hududlarning koordinatalari Google Earth dasturi orqali aniqlandi [9].

Natijalar va ularning talqini

Farg'ona vodiysi botanik-geografik jihatdan Tojibaev va boshqalar (2016) sxemasiga muvofiq Tog'li O'rta Osiyo va Turon provinsiyalarini o'z ichiga oladi [15]. Bibliografik ma'lumotlar, xalqaro elektron bazalar, mavjud gerbariy namunalari hamda amalga oshirilgan dala tadqiqotlar natijalariga ko'ra *Plocama vassilczenkoi* turi Farg'ona vodiysining *Tog'li O'rta Osiyo provinsiyasi: G'arbiy Tyan-Shan okrugining Chorkesar, Farg'ona okrugining Janubiy Chotqol, Farg'ona-Oloy okrugining G'arbiy Oloy va Sharqiy Oloy, Turon provinsiyasi: Markaziy Farg'ona okrugining Qayroqum-Yozyovon va Sharqiy Farg'ona botanik geografik rayonlarida* tarqalganligi aniqlandi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar *Plocama vassilczenkoi* turining Chorkesar botanik-geografik rayonida yangi o'sish nuqtalari mavjudligini va turni tog'oldi va tog'ning quyi qismlaridagi toshloq yonbag'rlarida va chala cho'l mintaqasidagi quruq, gipslashgan tuproqlarda (dengiz sathidan 900-1000 m balandlikda) uchrashini ko'rsatdi (1-rasm). Turning eng zich va barqaror populyatsiyalari Chorkesar

botanikgeografik rayoniga to‘g‘ri keladi. *Plocama vassilczenkoining* Farg‘ona vodiysida mavjud botanik-geografik rayonlarda notekis tarqalishi antropogen ta’sirlarning yuqoriligi va tur ekologiyasiga mos muhitning bir-biridan uzoq ekanligi bilan izohlanadi.



1-rasm. *Plocama vassilczenkoi* (Lincz.) M. Backlund & Thulin turning tarqalishi.

Xulosa

Plocama vassilczenkoi (Lincz.) turi Farg‘ona vodiysi botanik-geografik rayonlari kesimida notekis tarqalgan bo‘lib, Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasi: G‘arbiy Tyan-Shan okrugining Chorkesar botanik-geografik rayoni turning asosiy tarqalish hududi va tip areali hisoblanadi. Bu holat Farg‘ona vodiysida endemizm markazlarining asosan, adir va tog‘oldi hududlariga to‘g‘ri kelishini yana bir bor tasdiqlaydi va *Plocama* Aiton turkum turlarining muhofaza choralarini rejalashtirishda asosiy e’tiborni yuqoridagi hududlarga qaratilishi zarurligini ta’kidlaydi.

Mazkur tadqiqot “Bioxilma-xilligi xavf ostidagi hudud sifatida Farg‘ona vodiysi florasining raqamli platformasini ishlab chiqish” loyihasi doirasida bajarilgan (Loyiha raqami: AL-9224104319).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aiton, W. 1789: Catalogue of the plants. - Hort. Kew. 1: 292.

2. Backlund, M. & Thulin, M. 2007: Revision of the Mediterranean species of *Plocama* (Rubiaceae). - Taxon 56 (2): 516-520.

3. Ehrendorfer, F. & Schönbeck-Temesy, E. 2005: Genera *Gaillonia, Jaubertia, Pterogaillonia, Pseudogaillonia, Aitchinsonia*. In. Flora Iranica. Vol. 176: 21-47.

4. Флора СССР. Москва, Ленинград: Издательство Академии Наук СССР, Том 1-30. 1934-1960.

5. Флора Киргизской ССР: Определитель растений Киргизской ССР. - Фрунзе: Издательство Академии Наук Киргизской ССР, Том 1-11. 1950-1967.

6. Флора Таджикской ССР. Ленинград: Издательство Академии Наук Таджикской ССР, Том 1-10. 1957-1991.

7 .Флора Узбекистана. Тошкент: Издательство Академии Наук Узбекской ССР, Том 1-6. 1941-1962.

8. GBIF (2026). Global Biodiversity Information Facility: Occurrence Database. Retrieved November 28, 2025, from https://www.gbif.org

9. Google Earth Pro 7.1. Google Inc. - https://www.google.com/earth/

10. IPNI (2026). International Plant Names Index. www.ipni.org. (Accessed 10 February 2026).

11. Linczewsky, I.A. 1973: De genere *Gaillonia* A. Rich. ex DC. (Rubiaceae). -Novosti Sist. Vyssh. Rast. 10: 224-236. - Science Publishers, Leningrad.

12. “Определитель растений Средней Азии”. Издательство Академии Наук Республики Узбекистан. Том 1-11. 1963-2015.

13. POWO (2026). “Plants of the World Online”. Facilitated by the Royal Botanic Gardens, Kew. Published on the Internet; https://powo.science.kew.org. (Retrieved 10 February 2026).

14. Tojibaev, K.S., Karimov, F., Oh, B.U., Oh, S.H., and Jang, C.G. (2018). A checklist of the geophytes of Fergana Valley, Middle Asia a monocotyledonous plant and biogeographical analysis. J. Asia-Pacific Biodiversity 11, 431-441. doi:10.1016/j.japb.2018.06.003

15. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботанико-географическое районирование Узбекистана // Ботанический журнал, т. 101, вып. 10, 2016. – С. 1105-1132.

16. Turginov O.T. (2024). O‘zbekiston florasi endemlari. [Dissertatsiya (DSc), O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti]. Tashkent.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Mamazulunov Nurmuhammad Xusanboy o'g'li
E-mail: biochemistry715@gmail.com
Axmadjonov Axmadjon Nematjon o'g'li
E-mail: ahmadjon.ahmadjonov.95@mail.ru
Qo'qon universiteti Andijon filiali Andijon shahri, Bobur filiali ko'chasi, Andijon, 170100, O'zbekiston

ALLOKSAN VA STREPTOZOTOTSIN ORQALI INDUKSIYALANGAN DIABET MELLITUS: OSHQOZON OSTI BEZI B-HUJAYRALARINING SELEKTIV TOKSIKLIGI VA MOLEKULYAR PATOGENEZ MEXANIZMLARI.

Annotatsiya: *Alloksan va streptozototsin eksperimental qandli diabet modellarini yaratishda keng qo'llaniladigan diabetogen birikmalar bo'lib, ularning asosiy nishoni oshqozon osti bezining insulin ishlab chiqaruvchi β-hujayralari hisoblanadi. Strukturaviy jihatdan glyukozaga o'xshashligi tufayli ushbu moddalar GLUT2 tashuvchisi orqali β-hujayralarga selektiv kirib borib, barqaror insulinopeniya va giperglikemiya bilan kechuvchi diabet holatini yuzaga keltiradi. Tadqiqotda alloksan va streptozototsin bilan induksiyalangan diabet modellarida β-hujayralarning selektiv toksikligi hamda molekulyar patogenez mexanizmlari qiyosiy baholandi.*

72 soat ichida alloksan guruhi hayvonlarida qon glyukoza darajasi 16,8 ± 2,1 mmol/L, streptozototsin guruhida esa 18,3 ± 2,4 mmol/L gacha oshdi ($p < 0,05$), plazma insulin darajasi mos ravishda 3,1 ± 0,6 va 2,7 ± 0,5 μIU/mL gacha kamaydi. Diabet rivojlanish chastotasi alloksan guruhida 91,7 %, streptozototsin guruhida esa 100 % ni tashkil etdi. Biokimyoviy tahlillar β-hujayralarda kuchli oksidlovchi stress rivojlanganini, lipid peroksidatsiyasi faollashgani va antioksidant himoya tizimi komponentlari pasayganini ko'rsatdi. Gistologik tekshiruvlar β-hujayralarning yuqori darajadagi degranulyatsiyasi va nekrozi bilan kechuvchi selektiv shikastlanishni aniqladi, apoptoz belgilarining minimal bo'lishi nekrotik hujayra o'limi ustunligini tasdiqladi.

Molekulyar darajada alloksanning diabetogen ta'siri reaktiv kislorod turlarining ortiqcha hosil bo'lishi bilan, streptozototsinning ta'siri esa DNK alkillanishi va hujayra energetik zaxiralarining kamayishi bilan bog'liq ekani aniqlandi. Mexanistik farqlarga qaramay, har ikkala birikma yakuniy bosqichda β-hujayralarning nekrotik nobud bo'lishiga va doimiy insulin yetishmovchiligiga olib keladi. Ushbu natijalar eksperimental diabet modellarining patofiziologik asoslarini chuqurroq tushunish va translyatsion tadqiqotlar uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *Alloksan, streptozototsin, eksperimental qandli diabet, GLUT2 tashuvchisi, oksidlovchi stress, insulinopeniya, lipid peroksidatsiyasi, molekulyar patogenez, nekrotik hujayra o'limi, 1-toifa diabet modeli.*

Мамазулунова Нурмухаммада Хусанбой угли
Ахмаджонова Ахмаджона Неъматжон угли
Андижанский филиал Кокандского университета г. Андижан, ул. Бабура, 170100, Узбекистан

САХАРНЫЙ ДИАБЕТ, ИНДУЦИРОВАННЫЙ АЛЛОКСАНОМ И СТРЕПТОЗОТОЦИНОМ: СЕЛЕКТИВНАЯ ТОКСИЧНОСТЬ В-КЛЕТОК ПОДЖЕЛУДОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ И МОЛЕКУЛЯРНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПАТОГЕНЕЗА.

Аннотация. *Аллоксан и стрептозотоцин являются широко применяемыми диабетогенными соединениями для создания экспериментальных моделей сахарного диабета, основной мишенью действия которых выступают инсулинпродуцирующие β-клетки поджелудочной железы. Благодаря структурному сходству с глюкозой данные вещества селективно проникают в β-клетки посредством транспортера GLUT2, индуцируя стойкую инсулинопению и гипергликемию. В настоящем исследовании проведена сравнительная оценка селективной токсичности β-клеток и молекулярных механизмов патогенеза в моделях диабета, индуцированного аллоксаном и стрептозотоцином.*

В течение 72 часов уровень глюкозы крови у животных аллоксановой группы повысился до 16,8 ± 2,1 ммоль/л, тогда как в группе стрептозотоцина — до 18,3 ± 2,4 ммоль/л ($p < 0,05$); концентрация инсулина в плазме снизилась соответственно до 3,1 ± 0,6 и 2,7 ± 0,5 мкМЕ/мл. Частота развития диабета составила 91,7 % в группе аллоксана и 100 % — в группе стрептозотоцина. Гистологический анализ показал селективное повреждение β-клеток, сопровождающееся выраженной дегрануляцией и некрозом, при минимальной выраженности апоптоза, что свидетельствует о преобладании некротической гибели клеток.

На молекулярном уровне диабетогенное действие аллоксана связано с избыточным образованием реактивных форм кислорода, тогда как эффект стрептозотоцина обусловлен алкилированием ДНК и истощением энергетических ресурсов клетки. Полученные результаты имеют важное значение для углубленного понимания патофизиологических основ экспериментальных моделей диабета и развития трансляционных исследований.

Ключевые слова: *аллоксан, стрептозотоцин, экспериментальный сахарный диабет, транспортер GLUT2, оксидативный стресс, инсулинопения, перекисное окисление липидов, молекулярный патогенез, некротическая гибель клеток, модель диабета 1 типа.*

Mamazulunov Nurmukhammad Khusanboy ugli
Akhmadjonov Akhmadjon Nematjon ugli
Kokand University Andijan branch, Andijan city, Babur branch street, Andijan, 170100, Uzbekistan

ALLOXAN- AND STREPTOZOTOCIN-INDUCED DIABETES MELLITUS: SELECTIVE TOXICITY OF PANCREATIC B-CELLS AND MOLECULAR MECHANISMS OF PATHOGENESIS.

Abstract. *Alloxan and streptozotocin are widely used diabetogenic agents for the induction of experimental diabetes mellitus, primarily targeting insulin-producing pancreatic β-cells. Due to their structural similarity to glucose, these compounds selectively enter β-cells via the GLUT2 transporter, resulting in persistent insulinopenia and hyperglycemia. The present study provides a comparative evaluation of β-cell selective toxicity and molecular mechanisms of pathogenesis in alloxan- and streptozotocin-induced diabetes models.*

Within 72 hours, blood glucose levels increased to 16.8 ± 2.1 mmol/L in the alloxan-treated group and to 18.3 ± 2.4 mmol/L in the streptozotocin-treated group ($p < 0.05$), while plasma insulin concentrations decreased to 3.1 ± 0.6 and 2.7 ± 0.5 μIU/mL, respectively. The incidence of diabetes reached 91.7% in the alloxan group and 100% in the streptozotocin group. Histological examination demonstrated selective β-cell injury accompanied by marked degranulation and necrosis, with minimal apoptotic features, indicating the predominance of necrotic cell death.

At the molecular level, the diabetogenic effect of alloxan is associated with excessive generation of reactive oxygen species, whereas streptozotocin exerts its effect primarily through DNA alkylation and depletion of cellular energy reserves. These findings contribute to a deeper understanding of the pathophysiological basis of experimental diabetes models and hold significant relevance for translational research.

Keywords: *alloxan, streptozotocin, experimental diabetes mellitus, GLUT2 transporter, oxidative stress, insulinopenia, lipid peroxidation, molecular pathogenesis, necrotic cell death, type 1 diabetes model.*

Kirish. Qandli diabet mellitus (QDM) zamonaviy tibbiyot va biologiya fanlarining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, uning global tarqalishi so‘nggi o‘n yilliklarda barqaror ravishda oshib bormoqda [1]. Epidemiologik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi vaqtda dunyo bo‘yicha kattalar aholisining taxminan 9–10 % ida qandli diabet aniqlangan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichning 2045-yilga kelib 11–12 % gacha yetishi prognoz qilinmoqda [2]. QDM bilan bog‘liq metabolik buzilishlar, surunkali giperglikemiya hamda insulin sekretsiyasi yetishmovchiligi mikro- va makroangiopatiyalar, neyropatiya, nefropatiya va yurak-qon tomir asoratlarining rivojlanishida yetakchi patogen omil hisoblanadi [3]. Ayniqsa, insulin ishlab chiqaruvchi oshqozon osti bezining β-hujayralariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarar yetishi bilan kechuvchi diabet shakllari klinik jihatdan og‘ir va prognozi noqulay kechadi [4].

Qandli diabet patogenezini molekulyar va hujayraviy darajada chuqur o‘rganish maqsadida eksperimental modellar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi [5]. Amaliy diabetologiyada genetik, jarrohlik va immunologik modellar bilan bir qatorda, kimyoviy yo‘l bilan chaqirilgan diabet modellaridan keng foydalaniladi [6]. Ushbu modellar orasida alloksan va streptozototsin orqali induksiyalangan diabet oshqozon osti bezining β-hujayralariga nisbatan yuqori selektiv toksik ta’siri sababli alohida o‘rin egallaydi [7]. Mazkur birikmalar insulinopeniya va barqaror giperglikemiya bilan kechuvchi holatni yuzaga keltirib, 1-toifa diabetga yaqin patofiziologik modelni shakllantiradi [8].

Alloksan va streptozototsin strukturaviy jihatdan glyukozaga o‘xshash bo‘lib, past affinitetli glyukoza tashuvchisi — GLUT2 orqali β-hujayralarga selektiv ravishda kirib boradi [9]. β-hujayralarda GLUT2 ekspressiyasining yuqori bo‘lishi ushbu hujayralarning diabetogen moddalarga nisbatan sezuvchanligini oshiradi. Natijada insulin biosintezi va sekretsiyasining keskin pasayishi, qisqa muddat ichida esa barqaror insulin yetishmovchiligi rivojlanadi. Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, ushbu moddalar bilan ishlov berilgan laboratoriya hayvonlarida 72 soat ichida qon glyukoza darajasi 16–18 mmol/L gacha oshib, plazma insulin darajasi nazorat guruhiga nisbatan bir necha barobar kamayadi, bu esa β-hujayralar funksional rezervining tezkor yo‘qolishini tasdiqlaydi [10].

Tarixiy jihatdan alloksan XIX asrda pirimidin hosilasi sifatida sintez qilingan bo‘lsa-da, uning diabetogen xususiyati keyinchalik oshqozon osti bezining β-hujayralarida selektiv nekroz chaqirishi aniqlangach ilmiy tadqiqotlar markaziga aylandi [7]. Alloksan bilan induksiyalangan diabet qisqa vaqt ichida rivojlanadigan insulinopeniya va doimiy giperglikemiya bilan xarakterlanadi. Alloksanning qaytarilgan metaboliti — dialurik kislota bilan bog‘liq oksidlanish-qaytarilish sikllari β-hujayralarda reaktiv kislorod turlarining ortiqcha hosil bo‘lishiga olib kelib, antioksidant himoya tizimi nisbatan zaif bo‘lgan ushbu hujayralarda nekrotik shikastlanishni yuzaga keltiradi [9].


Streptozototsin esa nitrozourea hosilasi bo‘lib, dastlab antineoplastik va antibakterial modda sifatida tavsiflangan [8]. Keyinchalik uning β-hujayralarga nisbatan kuchli selektiv sitotoksik ta’siri aniqlanib, eksperimental diabet modellarini yaratishda keng qo‘llanila boshlandi [10]. Streptozototsinning diabetogen ta’siri asosan DNK alkillanishi, poli(ADP-riboza) polimeraza (PARP) faollashuvi hamda hujayra energiya zaxiralarining — NAD^+ va ATP ning keskin kamayishi bilan bog‘liq [6]. Ushbu jarayonlar mitoxondrial disfunksiya va β-hujayralarning nekrotik nobud bo‘lishiga olib keladi, natijada barqaror insulinopeniya shakllanadi [5].

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, alloksan va streptozototsin β-hujayralarga bir xil kirish yo‘liga ega bo‘lishiga qaramay, ularning molekulyar patogenez mexanizmlari tubdan farqlanadi [4]. Alloksan asosan oksidlovchi stress orqali hujayra shikastlanishini chaqirsa, streptozototsin DNK shikastlanishi va energiya tanqisligi orqali sitotoksik ta’sir ko‘rsatadi [6]. Biroq ushbu farqlarga qaramay, har ikkala moddaning yakuniy natijasi — insulin sekretsiyasining keskin pasayishi va β-hujayralarning nekrotik o‘limi — bir xil patofiziologik holat bilan yakunlanadi [3].

Shu munosabat bilan, alloksan va streptozototsin orqali induksiyalangan diabet modellarida β-hujayralarning selektiv toksikligi, oksidlovchi stress va molekulyar shikastlanish mexanizmlarini tizimli va qiyosiy o‘rganish eksperimental diabetologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [1,2]. Ushbu yondashuv nafaqat laboratoriya modellarining biologik mohiyatini chuqur anglash, balki olingan natijalarning klinik va translyatsion ahamiyatini oshirish imkonini beradi [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot dizayni va bioetik talablar. Mazkur tadqiqot eksperimental, nazoratli va qiyosiy dizaynda amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi alloksan va streptozototsin yordamida induksiyalangan qandli diabet modellarida oshqozon osti bezining insulin ishlab chiqaruvchi β-hujayralariga yetkazilgan selektiv toksik ta’sirni metabolik, oksidlovchi va morfologik ko‘rsatkichlar asosida kompleks baholashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot jarayonida hayvonlar bilan ishlash bo‘yicha xalqaro bioetik me’yorlar, xususan ARRIVE (Animal Research: Reporting of In Vivo Experiments) yo‘riqnomasi talablari qat’iy bajarildi.



1-rasm. Alloksan va dialurik kislota o‘rtasidagi oksidlanish–qaytarilish sikllari. *Ushbu sxema alloksanning dialurik kislota bilan bog‘liq redoks sikllari orqali reaktiv kislorod turlarini (superoksid va gidroksil radikallari) hosil qilish mexanizmini aks ettiradi. Jarayonda glutation tizimining ishtiroki va oksidlangan glutation (GSSG) hosil bo‘lishi ko‘rsatilgan bo‘lib, bu β-hujayralarda oksidlovchi stress rivojlanishining molekulyar asosini tushuntiradi.*

Tajriba hayvonlari va saqlash sharoitlari. Tadqiqotda erkak jinsli, Wistar liniyasiga mansub laboratoriya kalamushlari (Rattus norvegicus) qo‘llanildi. Hayvonlar 7 kunlik moslashuv davrida standart vivariy sharoitida saqlandi. Saqlash jarayonida harorat, yorug‘lik va ovqatlantirish rejimlari qat’iy nazorat qilindi. Hayvonlarning biologik xususiyatlari, tana vazni, yosh ko‘rsatkichlari va saqlash parametrlari 1-jadvalda keltirilgan bo‘lib, ular eksperimental diabet modellarini yaratish uchun optimal hisoblanadi.

1-jadval. Tajriba hayvonlarining strukturaviy tavsifi.

Parametr nomi	Qiymat
Hayvon turi	Rattus norvegicus
Liniyasi	Wistar
Jinsi	Erkak
Yosh (hafta)	8
Yosh (hafta, maksimal)	10
Tana vazni (g)	180 -220
Harorat (°C)	22
Yorug‘lik va qorong‘ilik davri (soat)	12
Ovqat turi	Standart laboratoriya yemi
Moslashuv muddati (kun)	7

Tajriba guruhlari va diabet induksiyasi. Hayvonlar tasodifiy tanlash usuli orqali uchta teng guruhga ajratildi: nazorat guruhi, alloksan bilan induksiyalangan diabet guruhi, streptozototsin bilan induksiyalangan diabet guruhi.

Diabet induksiyasi uchun qo‘llanilgan moddalar, ularning kimyoviy xususiyatlari, dozalari, erituvchilari, pH darajasi, yuborish yo‘li va chastotasi 2-jadvalda to‘liq keltirilgan. Alloksan monogidrat va streptozototsin preparatlari mos ravishda intraperitoneal yo‘l bilan bir martalik dozada yuborildi. Nazorat guruhi hayvonlariga ekvivalent hajmda diabetogen modda saqlamagan eritma yuborildi.Hayvonlar tasodifiy tanlash usuli bilan uchta tajriba guruhiga ajratildi: nazorat guruhi, alloksan diabeti guruhi va streptozototsin diabeti guruhi. Diabet induksiyasi uchun qo‘llanilgan moddalar, dozalari va yuborish yo‘llari 2-jadvalda ko‘rsatilgan.

2-jadval. Diabet induksiyasi protokoli (strukturaviy shakl).

Parametr	Nazorat guruhi	Alloksan guruhi	Streptozototsin guruhi
Rejalashtirilgan hayvonlar soni	12	12	12
Induktor modda nomi	—	Alloksan monogidrat	Streptozototsin
Kimyoviy guruhi	—	Pirimidin hosilasi	Nitrozourea hosilasi
Doza (mg/kg)	—	120	55
Erituvchi	—	Fiziologik eritma	0,1 M sitrat bufer
Eritma pH	—	Neytral	4,5
Yuborish yo‘li	—	Intraperitoneal	Intraperitoneal
Yuborish chastotasi	—	Bir martalik	Bir martalik
Yuborish vaqti	—	Moslashuvdan so‘ng	Moslashuvdan so‘ng

Diabet rivojlanishini tasdiqlash mezonlari. Preparatlar yuborilganidan 72 soat o‘tgach, hayvonlarda diabet holati och qoringa qon glyukoza darajasini aniqlash orqali baholandi. Kapillyar qondagi glyukoza konsentratsiyasi glyukoza-oksidaza usuli yordamida o‘lchandi. Qon glyukoza darajasining ≥11,1 mmol/L bo‘lishi diabet rivojlanganligini tasdiqlovchi mezon sifatida qabul qilindi. Shu bilan birga, β-hujayralarning funksional holatini baholash maqsadida plazma insulin darajasi immunoferment (ELISA) usuli yordamida aniqlanib, nazorat guruhi bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Biokimyoviy tahlillar

Oshqozon osti bezi to‘qimalarida oksidlovchi stress holatini baholash maqsadida lipid peroksidatsiyasining markeri bo‘lgan malondialdegid (MDA) darajasi spektrofotometrik usulda aniqlandi. Antioksidant himoya tizimi holatini baholash uchun superoksid dismutaza (SOD) va katalaza (CAT) fermentlari faolligi hamda qaytarilgan glutation (GSH) miqdori pankreas homogenatlarida standart fermentativ metodlar yordamida o‘lchandi. Biokimyoviy ko‘rsatkichlar tajriba yakunida baholandi.

Morfologik va gistologik tekshiruvlar. β-hujayralarning strukturaviy holatini baholash uchun oshqozon osti bezidan olingan to‘qima namunalarida gistologik tekshiruvlar o‘tkazildi. Morfologik o‘zgarishlar yarim miqdoriy baholash asosida tahlil qilinib, β-hujayralarning vakuolizatsiyasi, degranulyatsiyasi va nekrotik shikastlanish darajasi aniqlandi. Apoptoz belgilarini baholash uchun TUNEL-musbat hujayralar ulushi hisoblandi.

Baholash ko‘rsatkichlari va metodlari. Tadqiqot davomida baholangan metabolik, biokimyoviy va morfologik parametrlar, ularning biologik obyektlari, o‘lchov birliklari, aniqlash usullari va baholash mezonlari 3-jadvalda batafsil keltirilgan.

3-jadval. Rejalashtirilgan baholash ko‘rsatkichlari va metodlari (har bir parametr alohida).

Parametr nomi	Biologik obyekt	O‘lchov birligi	Aniqlash usuli	O‘lchash vaqti	Baholash mezoni
Qon glyukozasi	Kapillyar qon	mmol/L	Glyukoza-oksidaza	72 soat	≥11,1 mmol/L
Insulin	Plazma	μIU/mL	ELISA	72 soat	Nazoratga nisbatan pasayish
MDA	Pankreas homogenati	nmol/mg oqsil	Spektrofotometriya	Tajriba oxiri	Oksidlovchi stress
SOD faolligi	Pankreas homogenati	U/mg oqsil	Fermentativ	Tajriba oxiri	Antioksidant himoya
Katalaza faolligi	Pankreas homogenati	U/mg oqsil	Fermentativ	Tajriba oxiri	H_2O_2 parchalanishi
β-hujayra vakuolizatsiyasi	Pankreas kesimi	Ball	Gistologik	Tajriba oxiri	Yengil–og‘ir
β-hujayra degranulyatsiyasi	Pankreas kesimi	Ball	Gistologik	Tajriba oxiri	Nekroz darajasi

Statistik tahlil. Olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, o‘rtacha qiymat va standart og‘ish (M ± SD) ko‘rinishida ifodalandi. Guruhlar o‘rtasidagi farqlar statistik ahamiyatli deb $p < 0,05$ darajasida baholandi. Statistik tahlil natijalari tajriba guruhlarida diabet rivojlanishi, oksidlovchi stress va β-hujayralarning selektiv shikastlanishini ishonchli tarzda aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar.

Qon glyukoza va plazma insulin darajalaridagi o‘zgarishlar. Alloksan va streptozototsin bilan induksiyalangan diabet modellarida oshqozon osti bezining β-hujayralari funksional holatida keskin buzilishlar kuzatildi. Preparatlar yuborilganidan 72 soat o‘tgach, alloksan guruhi hayvonlarida och qoringa qon glyukoza darajasi 16,8 ± 2,1 mmol/L, streptozototsin guruhi hayvonlarida esa 18,3 ± 2,4 mmol/L gacha oshgani aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichlar nazorat guruhidagi 4,6 ± 0,5 mmol/L qiymatga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori bo‘ldi ($p < 0,05$).

Shu bilan birga, plazma insulin darajasi alloksan guruhi hayvonlarida 3,1 ± 0,6 μIU/mL, streptozototsin guruhi hayvonlarida esa 2,7 ± 0,5 μIU/mL gacha keskin pasaydi. Bu natijalar nazorat guruhidagi 12,4 ± 1,3 μIU/mL ko‘rsatkich bilan solishtirilganda β-hujayralarning insulin sekretsiya qobiliyati sezilarli darajada yo‘qolganini ko‘rsatadi ($p < 0,05$).

Diabet rivojlanish chastotasi alloksan guruhida 91,7 %, streptozototsin guruhida esa 100 % ni tashkil etdi, bu esa qo‘llanilgan diabetogen moddalarning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi (4-jadval).

4-jadval.

Alloksan va streptozototsin bilan induksiyalangan diabet modellarida qon glyukoza va plazma insulin darajalaridagi o‘zgarishlar.

Guruh	Vaqt (soat)	Qon glyukoza (mmol/L)	Plazma insulin (μIU/mL)	Diabet rivojlanishi (%)
Nazorat	0	4,6 ± 0,5	12,4 ± 1,3	0
Alloksan	72	16,8 ± 2,1*	3,1 ± 0,6*	91,7
Streptozototsin	72	18,3 ± 2,4*	2,7 ± 0,5*	100

** $p < 0,05$ – nazorat bilan solishtirganda statistik ahamiyatli farq.*

Oksidlovchi stress va antioksidant himoya ko‘rsatkichlari. Biokimyoviy tahlillar oshqozon osti bezi to‘qimalarida oksidlovchi stressning keskin kuchayganini ko‘rsatdi. Lipid peroksidatsiyasining asosiy markeri bo‘lgan malondialdegid (MDA) darajasi alloksan guruhida 3,8 ± 0,4 nmol/mg oqsil, streptozototsin guruhida esa 4,1 ± 0,5 nmol/mg oqsil ni tashkil etdi. Ushbu qiymatlar nazorat guruhidagi 1,2 ± 0,2 nmol/mg oqsil darajadan ishonchli darajada yuqori bo‘ldi ($p < 0,05$).

Antioksidant himoya tizimi komponentlari — superoksid dismutaza (SOD), katalaza (CAT) va qaytarilgan glutation (GSH) darajalari tajriba guruhlarida keskin pasaygani aniqlandi. Xususan, SOD faolligi alloksan guruhida 3,2 ± 0,6 U/mg

oqsil, streptozototsin guruhida 2,9 ± 0,5 U/mg oqsil gacha kamaydi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 8,5 ± 0,9 U/mg oqsil ni tashkil etdi. Shunga o‘xshash tendensiya CAT va GSH darajalarida ham kuzatilib, barcha farqlar statistik jihatdan ahamiyatli bo‘ldi ($p < 0,05$, 5-jadval).

Lipid peroksidatsiyasi oshishi va antioksidant darajalarining pasayishi β-hujayralarning oksidlovchi stressga yuqori sezuvchanligini ko‘rsatadi, bu alloksan va streptozototsin toksikligining asosiy molekulyar mexanizmi bilan mos keladi.

5-jadval.

Oshqozon osti bezi to‘qimalarida oksidlovchi stress va antioksidant himoya ko‘rsatkichlari.

Ko‘rsatkich	Nazorat	Alloksan	Streptozototsin
MDA (nmol/mg protein)	1,2 ± 0,2	3,8 ± 0,4*	4,1 ± 0,5*
SOD (U/mg protein)	8,5 ± 0,9	3,2 ± 0,6*	2,9 ± 0,5*
CAT (U/mg protein)	12,1 ± 1,0	5,7 ± 0,8*	5,2 ± 0,7*
GSH (μmol/mg protein)	7,6 ± 0,7	3,1 ± 0,5*	2,8 ± 0,4*

$p < 0,05$ – nazorat bilan solishtirganda statistik ahamiyatli farq.

β-hujayralarning morfologik va gistologik o‘zgarishlari. Gistologik tekshiruvlar alloksan va streptozototsin bilan induksiyalangan diabet modellarida β-hujayralarning selektiv shikastlanishini yaqqol namoyon etdi. Alloksan guruhida β-hujayralarning degranulyatsiyasi 82 ± 5 %, nekrotik shikastlanishi esa 74 ± 6 % ni tashkil etdi. Streptozototsin guruhi hayvonlarida bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 88 ± 4 % va 79 ± 5 % darajasida qayd etildi. Nazorat guruhida esa β-hujayralarning strukturaviy yaxlitligi deyarli saqlangan bo‘lib, degranulyatsiya va nekroz minimal darajada kuzatildi ($p < 0,05$).

Apoptoz va TUNEL-musbat hujayralar ulushi har ikkala tajriba guruhida ham past bo‘lib qoldi (3–4 %), bu β-hujayralar o‘limida nekrotik mexanizm ustun ekanini tasdiqlaydi (6-jadval).

6-jadval.

Hujayralarning morfologik shikastlanish ko‘rsatkichlari.

Guruh	Degranulyatsiya (%)	Nekroz (%)	Apoptoz (%)	TUNEL-musbat hujayralar (%)
Nazorat	5 ± 1	0	2 ± 1	1 ± 0,5
Alloksan	82 ± 5*	74 ± 6*	6 ± 2	3 ± 1
Streptozototsin	88 ± 4*	79 ± 5*	7 ± 2	4 ± 1

** $p < 0,05$ – nazorat bilan solishtirganda statistik ahamiyatli farq.*

Alloksan va streptozototsin β-hujayralarning degranulyatsiyasi va nekrozini sezilarli oshirdi. Apoptozning minimal bo‘lishi nekrotik hujayra o‘limining asosiy mexanizm ekanini ko‘rsatadi.

Qon glyukozasining fazaviy dinamikasi. Qon glyukozasining vaqtga bog‘liq dinamikasi diabetogen moddalarning patofiziologik ta’sirida muhim farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Alloksan in’ektsiyasidan keyin dastlabki 0–30 daqiqa ichida qisqa muddatli gipoglikemik faza kuzatildi, bu vaqtinchalik insulin ajralishining oshishi bilan tavsiflandi. Keyingi bosqichlarda esa giperglikemiya rivojlanib, 12–48 soat oralig‘ida barqaror giperglikemiya va insulinopeniya shakllandi.


Streptozototsin guruhi hayvonlarida esa boshlang‘ich gipoglikemik faza kuzatilmadi. Preparat yuborilganidan so‘ng to‘g‘ridan-to‘g‘ri giperglikemiya rivojlanib, keyingi vaqt oralig‘ida doimiy giperglikemiya saqlanib qoldi. Har ikkala model yakuniy bosqichda barqaror diabet holati bilan xarakterlandi.

7-jadval.

Alloksan va streptozototsin bilan induksiyalangan diabet modellarida qon glyukozasining fazaviy dinamikasi.

Faza	Alloksan	Streptozototsin
I (0–30 min)	Gipoglikemiya, insulin o‘sishi	Kuzatilmaydi
II (1–4 soat)	Giperglikemiya, insulin pasayishi	Giperglikemiya, insulin pasayishi
III (4–8 soat)	Gipoglikemiya, konvulsiyalar mumkin	Giperglikemiya davom etadi
IV (12–48 soat)	Doimiy giperglikemiya	Doimiy giperglikemiya

Alloksan guruhi birinchi gipoglikemik fazani ko‘rsatdi, streptozototsin esa bu fazaga ega emas. So‘nggi bosqichda har ikkala guruhda doimiy giperglikemiya va insulinopeniya kuzatildi.



2-rasm. Alloksan (yoki streptozototsin) yuborilgandan keyin qon glyukozasining vaqtga bog‘liq fazaviy o‘zgarishi.

Umumlashtirilgan natijalar. Olingan eksperimental ma’lumotlar alloksan va streptozototsin orqali induksiyalangan diabet modellarida oshqozon osti bezining β-hujayralari yuqori darajada selektiv toksik shikastlanishga uchrashini ko‘rsatdi. Metabolik, biokimyoviy va morfologik ko‘rsatkichlarning uyg‘un o‘zgarishi ushbu diabetogen moddalar ta’sirida kuchli oksidlovchi stress, insulin sekretsiyasining keskin pasayishi va β-hujayralarning nekrotik nobud bo‘lishi rivojlanishini ishonchli tarzda tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot alloksan va streptozototsin yordamida induksiyalangan eksperimental diabet modellarida oshqozon osti bezining insulin ishlab chiqaruvchi β-hujayralariga xos selektiv toksik ta’sirni metabolik, biokimyoviy va morfologik darajalarda baholash imkonini berdi. Olingan natijalar ushbu diabetogen moddalar turli patogen mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatishiga qaramay, yakuniy hujayraviy oqibat — β-hujayralarning nekrotik nobud bo‘lishi va barqaror insulin yetishmovchiligi — umumiy ekanini ko‘rsatadi.

72 soat ichida qon glyukoza darajasining alloksan va streptozototsin guruhlarida mos ravishda 16,8 ± 2,1 mmol/L va 18,3 ± 2,4 mmol/L gacha oshishi hamda plazma insulin darajasining 3,1 ± 0,6 μIU/mL va 2,7 ± 0,5 μIU/mL gacha pasayishi β-hujayralarning sekretor rezervi keskin kamayganini tasdiqlaydi ($p < 0,05$). Streptozototsin guruhida giperglikemiyaning nisbatan yuqoriroq bo‘lishi ushbu birikmaning DNK alkillanishi va hujayra energetik tanqisligini chaqiruvchi mexanizmlari bilan izohlanadi. Alloksan guruhida esa kuzatilgan qisqa muddatli gipoglikemik faza uning β-hujayralarga ikki bosqichli ta’sir mexanizmini aks ettiradi.

Oksidlovchi stress β-hujayralar shikastlanishining markaziy patogen omili sifatida namoyon bo‘ldi. MDA darajasining alloksan guruhida 3,8 ± 0,4 nmol/mg oqsil, streptozototsin guruhida esa 4,1 ± 0,5 nmol/mg oqsil gacha oshishi lipid peroksidatsiyasining faollashganini ko‘rsatdi ($p < 0,05$). Shu bilan birga, SOD, CAT va GSH darajalarining ishonchli pasayishi β-hujayralarning antioksidant himoya salohiyati cheklanganligini tasdiqlaydi. Alloksan ta’sirida reaktiv kislorod turlarining ortiqcha hosil bo‘lishi, streptozototsin ta’sirida esa mitoxondrial disfunksiya va DNK shikastlanishi ushbu farqlarni mexanistik jihatdan asoslaydi.

Gistologik tahlillar β-hujayralarning selektiv nekrotik shikastlanishini tasdiqladi. Alloksan guruhida 74 ± 6 %, streptozototsin guruhida esa 79 ± 5 % nekrotik o‘zgarishlar qayd etildi ($p < 0,05$). Apoptoz va TUNEL-musbat hujayralar ulushining 3–4 % dan oshmasligi β-hujayralar o‘limida nekroz ustun ekanini ko‘rsatadi. Bu holat β-hujayralarning yuqori metabolik faolligi va past antioksidant zaxirasi bilan izohlanadi.

Molekulyar darajada alloksan va streptozototsinning β-hujayralarga GLUT2 orqali kirib borishi umumiy bo‘lsa-da, sitotoksik mexanizmlar farqlanadi. Alloksan asosan oksidlovchi stress va glyukokinaza inhibitsiyasi orqali ta’sir etsa, streptozototsin DNK alkillanishi va hujayraning energetik kollapsini chaqiradi. Shunga qaramay, har ikkala holatda ham yakuniy natija — doimiy insulinopeniya va barqaror diabet — bir xil bo‘lib qoladi.

Umuman olganda, olingan natijalar alloksan va streptozototsin bilan induksiyalangan diabet modellarining 1-toifa diabet patogenezini tadqiq etish uchun yuqori darajada mos ekanini tasdiqlaydi. Ushbu ma’lumotlar eksperimental diabetologiyada model tanlash, diabetogen ta’sir mexanizmlarini chuqurroq anglash hamda β-hujayralarni himoyalashga qaratilgan yangi terapevtik strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot alloksan va streptozototsin orqali induksiyalangan eksperimental qandli diabet modellarida oshqozon osti bezining insulin ishlab chiqaruvchi β-hujayralariga xos selektiv toksik ta’sirni metabolik, biokimyoviy,

morfologik va molekulyar darajalarda kompleks tarzda baholash imkonini berdi. Olingan natijalar ushbu diabetogen moddalar qisqa muddat ichida barqaror giperglikemiya va doimiy insulin yetishmovchiligi bilan kechuvchi diabet holatini shakllantirishini ishonchli tasdiqlaydi.

Preparatlar yuborilganidan 72 soat o‘tgach, alloksan guruhi hayvonlarida qon glyukoza darajasi 16,8 ± 2,1 mmol/L, streptozototsin guruhi hayvonlarida esa 18,3 ± 2,4 mmol/L gacha oshgani, plazma insulin miqdori mos ravishda 3,1 ± 0,6 μIU/mL va 2,7 ± 0,5 μIU/mL gacha pasaygani β-hujayralarning sekretor funksional rezervi keskin kamayganini ko‘rsatdi ($p < 0,05$). Diabet rivojlanish chastotasining alloksan guruhida 91,7 %, streptozototsin guruhida esa 100 % ni tashkil etishi ushbu moddalarning yuqori diabetogen samaradorligini tasdiqlaydi.

Biokimyoviy tahlillar β-hujayralar shikastlanishida oksidlovchi stress yetakchi patogen omil ekanini ko‘rsatdi. Lipid peroksidatsiyasi markeri bo‘lgan MDA darajasining alloksan guruhida 3,8 ± 0,4 nmol/mg oqsil, streptozototsin guruhida esa 4,1 ± 0,5 nmol/mg oqsil gacha oshishi hamda antioksidant himoya tizimi komponentlari — SOD, CAT va GSH darajalarining sezilarli pasayishi β-hujayralarning oksidlovchi stressga yuqori sezuvchanligini tasdiqlaydi ($p < 0,05$).

Gistologik tekshiruvlar alloksan va streptozototsin ta’sirida oshqozon osti bezida β-hujayralarning selektiv degranulyatsiyasi (82–88 %) va nekrozi (74–79 %) bilan kechuvchi og‘ir strukturaviy shikastlanishlarni aniqladi. Apoptoz va TUNEL-musbat hujayralar ulushining past darajada (3–4 %) bo‘lishi β-hujayralar o‘limida nekrotik mexanizm ustun ekanini ko‘rsatadi.

Molekulyar darajada alloksan va streptozototsinning β-hujayralarga GLUT2 orqali selektiv kirib borishi umumiy bo‘lsa-da, ularning sitotoksik ta’sir mexanizmlari farqlanadi. Alloksan asosan dialurik kislota bilan bog‘liq oksidlanish-qaytarilish sikllari orqali reaktiv kislorod turlarining ortiqcha hosil bo‘lishi va glyukokinaza faolligining inhibitsiyasi orqali ta’sir ko‘rsatadi. Streptozototsin esa DNK alkillanishi, poli(ADP-riboza) polimeraza faollashuvi hamda hujayra energiya zaxiralarining (NAD^+ va ATP) keskin kamayishi natijasida β-hujayralarning energetik kollapsini chaqiradi. Shunga qaramay, har ikkala diabetogen moddaning yakuniy patogen natijasi — β-hujayralarning nekrotik nobud bo‘lishi va doimiy insulin yetishmovchiligi — bir xil bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, alloksan va streptozototsin orqali induksiyalangan diabet modellarining metabolik, oksidlovchi va morfologik xususiyatlari 1-toifa qandli diabet patogenezini o‘rganish uchun yuqori darajada mos eksperimental platforma ekanini ko‘rsatadi. Olingan natijalar eksperimental diabetologiyada model tanlashni ilmiy asoslash, diabetogen toksiklik mexanizmlarini chuqurroq anglash hamda β-hujayralarni himoyalashga qaratilgan yangi antioksidant va sitoprotektiv terapevtik strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Lenzen, S. (2008). The mechanisms of alloxan- and streptozotocin-induced diabetes. Diabetologia, 51(2), 216–226. https://doi.org/10.1007/s00125-007-0886-7

2. Szkudelski, T. (2001). The mechanism of alloxan and streptozotocin action in β cells of the rat pancreas. Physiological Research, 50(6), 537–546.

3. Radenković, M., Stojanović, M., Prostran, M., & Vukmirović, S. (2016). Experimental diabetes induced by alloxan and streptozotocin: The current state of the art. Journal of Pharmacological and Toxicological Methods, 78, 13–31. https://doi.org/10.1016/j.vascn.2015.11.004

4. Khabibullaev, S., Yuldashev, N., & Mamazulunov, N. (2023). Metabolic changes in the body as the result of long-term use of artificial sweetener-sodium cyclamate. Science and innovation , 2 (D10), 64-70.

5. Wang, N., Zhang, J., Qin, M., Yi, W., Yu, S., Chen, Y., & Zhang, R. (2018). Amelioration of streptozotocin-induced pancreatic β-cell damage by morin involves the AMPK–FOXO3–catalase signaling pathway. International Journal of Molecular Medicine, 41(3), 1409–1418. https://doi.org/10.3892/ijmm.2017.3357

6. Mamazulunov, N. (2021). INORGANIC PHOSPHATE AND PRINCIPLES OF FLUORESCENCE. Economy and Society , (3-1 (82)), 167-169.

7. Aluwong, T., Ayo, J. O., Kpukple, A., & Oladipo, O. O. (2016). Ameliorative effects of antioxidants on alloxan-induced pancreatic beta-cell damage in diabetic rats. Nutrients, 8(5), 151. https://doi.org/10.3390/nu8050151

8. Goud, B. J., Dwarakanath, V., & Chikka, B. (2015). Streptozotocin-induced diabetes mellitus: Mechanisms and protective strategies. Journal of Diabetes Research, 2015, 1–10. https://doi.org/10.1155/2015/608159

9. Robertson, R. P., Harmon, J., Tran, P. O., & Poitout, V. (2004). Beta-cell glucose toxicity, lipotoxicity, and chronic oxidative stress in type 2 diabetes. Diabetes, 53(Suppl. 1), S119–S124. https://doi.org/10.2337/diabetes.53.suppl_1.S119

10. Giacco, F., & Brownlee, M. (2010). Oxidative stress and diabetic complications. Circulation Research, 107(9), 1058–1070. https://doi.org/10.1161/CIRCRESAHA.110.223545

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

A.Sheraliyev
katta o'qituvchi, b.f.n, Namangan davlat unversiteti
R.R.Mamadaminov
katta o'qituvchi, PhD Namangan davlat unversiteti
H.N.Habibullayeva
magistrant, Namangan davlat universiteti
E-mail: hilolahabibullayeva85@gmail.com

NOSTOC COMMUNE VAUCH. SIANOBAKTERIYASI LIPIDLARINI AJRATIB OLISH VA ULARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Pop tumani florasidan ajratilgan Nostoc commune Vauch. sianobakteriyasining morfologik va biokimyoviy xususiyatlari tadqiq etilgan. BG-11 ozuqa muhitida yetishtirilgan biomassaning lipid profili Folch usulida qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar azot tanqisligi sharoitida lipidlar to'planishi uchun qulay morfologik yaxlitlik shakllanishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari ushbu turdan biotexnologiya va farmatsevtikada biologik faol lipidlar manbai sifatida foydalanishni ilmiy asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *Nostoc commune, lipidlar, Folch usuli, BG-11 muhiti, azot tanqisligi, morfologiya, biomassa, farmatsevtika.*

А. Шералиев
старший преподаватель, кандидат биологических наук, Наманганский государственный университет
Р.Р. Мамадаминов
старший преподаватель, PhD, Наманганский государственный университет
Х.Н. Хабибуллаева
магистрант, Наманганский государственный университет

ВЫДЕЛЕНИЕ *ЛИПИДОВ ИЗ ЦИАНОБАКТЕРИИ NOSTOC COMMUNE* VAUCH. И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИХ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК

Аннотация: *В статье исследованы морфологические и биохимические характеристики цианобактерии Nostoc commune Vauch., выделенной в Папском районе. Проведен сравнительный анализ липидного профиля природной и культивируемой (среда БГ-11) биомассы методом Фолча. Установлено, что дефицит азота способствует формированию морфологической структуры, оптимальной для накопления липидов. Результаты обосновывают потенциал использования данного вида как источника биологически активных липидов для биотехнологии и фармации.*

Ключевые слова: *Nostoc commune, липиды, метод Фолча, среда БГ-11, дефицит азота, морфология, биомасса, фармацевтика.*

A. Sheraliyev
Senior Lecturer, Candidate of Biological Sciences, Namangan State University
R.R. Mamadaminov
Senior Lecturer, PhD, Namangan State University
H.N. Habibullayeva
Master's Student, Namangan State University

ISOLATION OF LIPIDS FROM *NOSTOC COMMUNE* VAUCH. CYANOBACTERIA AND COMPARATIVE ANALYSIS OF THEIR MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS

Abstract: *This study investigates the morphological and biochemical characteristics of the cyanobacterium Nostoc commune Vauch. isolated from the Pop district. The lipid profiles of natural and lab-cultivated (BG-11 medium) biomass were analyzed using the Folch method. Results showed that nitrogen deprivation promotes morphological integrity favorable for lipid accumulation. The findings scientifically justify the use of this species as a source of bioactive lipids for biotechnology and pharmaceutical applications.*

Keywords: *Nostoc commune, lipids, Folch method, BG-11 medium, nitrogen deprivation, morphology, biomass, pharmaceuticals.*

Kirish

Hozirgi kunda sianobakteriyalar, xususan, ekstremal sharoitlarga chidamli *Nostoc commune* Vauch. turi boy kimyoviy tarkibi va biologik faol lipidlari bilan katta qiziqish uyg‘otmoqda. Sianobakteriyalarda lipidlar miqdori va sifati o‘sish muhitidagi azot va fosfor balansiga bog‘liq bo‘lib, azot tanqisligi sharoitida hujayralarda neytral lipidlar (TAG) to‘planishi kuzatiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Pop tumani tabiiy florasidan yig‘ilgan va laboratoriyada (BG-11, -N) o‘stirilgan *N. commune* namunalaridan Folch usulida lipidlarni ajratish hamda ularning morfologik va sifat xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Sianobakteriyalarda lipidlar biosintezi. Sianobakteriya lipidlari membrana komponentlari va zaxira triatsilglitserinlardan (TAG) tashkil topgan. *Nostoc* jinsi vakillari tarkibida ko‘p miqdorda polito‘yinmagan yog‘ kislotalari (PUFA), xususan, α-linolen ($C_{18:3}$) va linol ($C_{18:2}$) kislotalari mavjudligi bilan ajralib turadi [4]. Bu kislotalar past haroratli tog‘ sharoitida hujayra membranasining suyuqligini va metabolik barqarorlikni ta’minlaydi.

Azot tanqisligi (-N) va lipidlar akkumulyatsiyasi. BG-11 ozuqa muhitida azotning cheklanishi "uglerod/azot balansi"ning buzilishiga olib keladi. Azot yetishmaganda hujayra fotosintetik apparatini parchalab, ajralgan uglerod skeletlarini lipidlar sinteziga yo‘naltiradi. Natijada, *N. commune* 45 kun davomida kultivatsiya qilinganda biomassada neytral lipidlar ulushi sezilarli ortadi [5].

Abiotik stress va adaptatsiya. Pop tumani kabi baland tog‘li hududlarda *Nostoc* namunalari kuchli UV nurlanishi va namlik o‘zgarishiga duch keladi. Ekstremal sharoitda organizm lipidlarning to‘yinmaganlik darajasini o‘zgartirish orqali membranani himoya qiladi [2]. Tabiiy namunalardagi to‘q ko‘rinish -bu hujayradan tashqari polisaxaridlar va lipidlarning pigmentlar bilan birgalikda hosil qilgan himoya qavatidir. **Ekstraksiya uslubiyati.** Lipidlar ekstraksiyasida xloroform va methanol aralashmasidan foydalaniladigan Folch usuli eng samarali hisoblanadi [3]. Namunani 45°C haroratda termostatda saqlash qalin shilliq qatlamga ega *Nostoc* hujayralaridan lipidlarning erituvchiga diffuziyasini osonlashtiradi va unumdorlikni oshiradi.

Material va metodlar

Tadqiqot obyekti va namunalar. Tadqiqot obyekti sifatida *Nostoc commune* Vauch. sianobakteriyasi tanlab olindi. Namunalar Namangan viloyati, Pop tumani Pardatursun hududidagi abiotik stress (yuqori UV nurlanishi va o‘zgaruvchan namlik) mavjud ekotizimlardan yig‘ildi va steril idishlarda laboratoriyaga yetkazildi.

Kultivatsiya sharoitlari. Biomassani ko‘paytirish va lipidlar to‘planishini o‘rganish uchun Rippka va boshqalar [1] tavsiya etgan BG-11 ozuqa muhitidan foydalanildi. Zaxira lipidlari (TAG) akkumulyatsiyasini rag‘batlantirish uchun muhitda azot cheklangan sharoit (BG-11, -N) yaratildi. Kultivatsiya quyidagi parametrlarda amalga oshirildi:

Davomiyligi: 45 kun davomida uzluksiz o'stirildi.

Yoritish: Doimiy ravishda 2500–3000 lyuks intensivlikdagi yorug'lik oqimi ta'minlandi.

Harorat: Xona harorati 25 ± 2° C darajada saqlab turildi.

Yig'ib olish: 45 kundan so‘ng yetilgan biomassa ozuqa muhitidan ajratib olindi va navbatdagi kimyoviy tahlillar uchun tayyorlandi.

Lipidlar ekstraksiyasi (Folch usuli). Umumiy lipidlarni ajratish klassik Folch usuli [3] bo‘yicha quyidagi bosqichlarda bajarildi:

Tayyorlash: Biomassa termik parchalanishni oldini olish uchun 45°C haroratda doimiy vazngacha quritildi va gomogenlashtirildi.

Ekstraksiya: Namunalarga xloroform va metanol aralashmasi qo‘shilib, lipidlar to‘liq erishi uchun 24 soat davomida qoldirildi.

Tozalash: Ekstrakt filtrlanib, noorganik aralashmalardan suvli yuvish orqali tozalandi. Erituvchilar 50°C haroratli suv hammomida bug‘latilib, toza lipid fraksiyasi ajratildi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Tadqiqotda Pop tumani Pardatursun hududidan yig‘ilgan tabiiy namunalar hamda azot tanqisligi (BG-11, -N) sharoitida o‘stirilgan *Nostoc commune* biomassasining morfologik xususiyatlari va lipid ekstraksiyasi samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi.

Morfologik tahlil . Tabiiy namunalar gidrodinamik stress va kuchli UV nurlanishi ta’sirida qattiq struktura hamda to‘q yashil-jigarrang pigmentatsiyaga ega. Bu hujayra qobig‘ining zichlashganidan dalolat beradi [2]. Laboratoriya biomassasi (45 kunlik) esa aksincha, yorqin yashil rang va yumshoq shilliq konsistensiyani namoyon qildi (1-rasm). Bunday

morfologik holat, tabiiy namunaga nisbatan, Folch usulidagi erituvchilarning hujayra ichiga kirib borishini va lipidlar destruksiyasini sezilarli darajada osonlashtiradi.


Lipidlar ekstraksiyasi tahlili. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, 24 soat davomida xona haroratida o‘tkazilgan ekstraksiya jarayoni ikkala namunadan ham lipid fraksiyalarini ajratib olish imkonini berdi. Biroq, ekstraktlarning vizual ko‘rinishida keskin farqlar kuzatildi:(2-rasm) Laboratoriya namunasi ekstrakti: Ochroq sarg‘ish-yashil rangga ega bo‘lib, bu azot tanqisligi sharoitida pigmentlar ulushi kamayganligi va zaxira lipidlari to‘planishi kuchayganligidan dalolat beradi. Tabiiy namuna ekstrakti: To‘q rangda bo‘lib, tarkibida lipidlar bilan birga ko‘p miqdorda pigment-lipid komplekslari mavjudligini tasdiqlaydi

A **B**



1-rasm. *Nostoc commune* biomassasining kultural (A) va tabiiy (B) namunalari.

A B



2-rasm. Folch usulida lipidlar ekstraksiyasi: A – kultural namuna; B –tabiiy namuna.

Erituvchilarni 50°C haroratli suv hammomida bug‘latish jarayoni lipidlarning oksidlanishiga yo‘l qo‘ymasdan, sof fraksiyalarni ajratib olish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, laboratoriya sharoitida nazorat ostida o‘stirilgan *N. commune* biomassasi lipidlarni ajratib olish uchun texnologik jihatdan qulayroq xomashyo hisoblanadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Morfologik adaptatsiya. Pop tumani tabiiy namunalarida gidrodinamik stress va kuchli insolyatsiya ta’sirida zichlashgan, pigmentlashgan struktura aniqlandi. Laboratoriya (BG-11, -N) biomassasi esa erituvchilar diffuziyasi uchun qulay shilliq qavat va barqaror morfologik yaxlitlikni namoyon qildi.

Ekstraksiya samaradorligi. Folch usulida 24 soatlik ekstraksiya Nostoc biomassasidan lipidlarni ajratishda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Ekstraktni 50°C haroratli suv hammomida bug‘latish lipidlar fraksiyasini termik parchalanishsiz sof holda olish imkonini berdi.

Kultivatsiya afzalligi. Azot tanqisligi (-N) sharoitida o‘stirilgan laboratoriya biomassasi sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha tabiiy namunadan ustun ekanligi aniqlandi. Bu sianobakteriyalar metabolizmini boshqarish orqali neytral lipidlar to‘plash imkoniyatini tasdiqlaydi.

Amaliy ahamiyati. *Nostoc commune* biomassasi farmatsevtika va biotexnologiya uchun biologik faol lipidlar hamda pigment-lipid komplekslarining istiqbolli xomashyo manbai ekanligi ilmiy asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rippka R., Deruelles J. et al. Generic Assignments and Properties of Pure Cultures of Cyanobacteria // J. Gen. Microbiol. – 1979. – Vol. 111(1). – P. 1–61.
2. Sakamoto T., Kumihashi K. et al. Lipid composition changes in *Nostoc commune* during desiccation // Microbiology. – 2009. – Vol. 155(11). – P. 3481–3490.
3. Folch J., Lees M. et al. A simple method for the isolation of total lipides // J. Biol. Chem. – 1957. – Vol. 226(1). – P. 497–509.
4. Cohen Z., Norman H.A. et al. Microalgae as a source of omega-3 fatty acids // World Rev. Nutr. Diet. – 1995. – Vol. 77. – P. 1–31.
5. Siaut M., Cuiné S. et al. Oil accumulation in *Chlamydomonas reinhardtii* // BMC Biotechnol. – 2011. – Vol. 11(1). – P. 1–15.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Toshtemirova Muazzam Akmaljonovna
Farg'ona davlat universiteti, Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi dotsenti
Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
toshtemirovamuazzam3@gmail.com
ORCID ID: 0000-0003-3993-9790
Abdug'aniyeva Zarnigor G'ayrat qizi
Farg'ona davlat universiteti, Magistratura bo'limi,Biologiya yo'nalishi 1-kurs magistri

QALAMPIR YALPIZ (MENTHA PIPERITA) NING BOTANIKASI VA KIMYOVIY TARKIBI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qalampir yalpiz — Mentha piperita — o'simligining botanik tavsifi, anatomik tuzilishi, kimyoviy tarkibi hamda farmakologik xususiyatlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Qalampir yalpiz labguldoshlar (Lamiaceae) oilasiga mansub ko'p yillik dorivor o'simlik bo'lib, efir moylariga boyligi bilan ajralib turadi. O'simlik tarkibida mentol, menton, izomenton, flavonoidlar, fenol kislotalari va boshqa biologik faol birikmalar mavjud bo'lib, ular spazmolitik, antiseptik, yallig'lanishga qarshi hamda analgetik ta'sir ko'rsatadi. Maqolada qalampir yalpiz asosida tayyorlanadigan fitopreparatlar, jumladan, Validol va Corvalol kabi vositalarning farmakodinamik xususiyatlari ham tahlil qilingan. Shuningdek, damlama va nastoyka shakllarining qo'llanilish sohasi ham ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Mentha piperita, efir moylari, mentol, menton, flavonoidlar, fenol birikmalari, Validol, Corvalol, fitopreparatlar, farmakologik faollik.*

Toshtemirova Muazzam Akmaljonovna
Associate Professor of the Department of Zoology and General Biology, Fergana State University
Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Abdug'aniyeva Zarnigor G'ayrat qizi
Master's Student (1st year), Biology program, Graduate Department, Fergana State University

BOTANY AND CHEMICAL COMPOSITION OF PEPPERMINT (*MENTHA PIPERITA*)

Abstract. *This article explores the botanical description, anatomical structure, chemical composition, and pharmacological properties of peppermint — Mentha piperita — based on scientific sources. Peppermint is a perennial medicinal plant belonging to the Lamiaceae family, distinguished by its high essential oil content. The plant contains menthol, menthone, isomenthone, flavonoids, phenolic acids, and other biologically active compounds that exhibit spasmolytic, antiseptic, anti-inflammatory, and analgesic effects.*

The article also analyzes the pharmacodynamic characteristics of phytopreparations derived from peppermint, including medications such as Validol and Corvalol. Furthermore, the clinical applications of its infusions and tinctures are scientifically substantiated.

Keywords: *Mentha piperita, essential oils, menthol, menthone, flavonoids, phenolic compounds, Validol, Corvalol, phytopreparations, pharmacological activity.*

Тоштемирова Муаззам Акмалжоновна
доцент кафедры зоологии и общей биологии Ферганского государственного университета
доктор философии (PhD) по биологическим наукам
Абдуганиева Зарнигор Гайрат кизи
магистрант 1 курса, направление «Биология», магистратура Ферганского государственного университета

БОТАНИКА И ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ МЯТЫ ПЕРЕЧНОЙ (*MENTHA PIPERITA*)

Аннотация. *В данной статье на основе научных источников освещены ботаническое описание, анатомическое строение, химический состав и фармакологические свойства перечной мяты — Mentha piperita. Перечная мята является многолетним лекарственным растением, относящимся к семейству яснотковых (Lamiaceae), и отличается богатым содержанием эфирных масел. В составе растения присутствуют ментол, ментон, изоментон, флавоноиды, фенольные*

кислоты и другие биологически активные соединения, обладающие спазмолитическим, антисептическим, противовоспалительным и анальгезирующим действием.

В статье также проанализированы фармакодинамические особенности фитопрепаратов на основе перечной мяты, включая такие средства, как Валидол и Корвалол. Кроме того, научно обоснованы сферы применения лекарственных форм в виде настоев и настоек.

***Ключевые слова**: Mentha piperita, эфирные масла, ментол, ментон, флавоноиды, фенольные соединения, валидол, корвалол, фитопрепараты, фармакологическая активность.*

Kirish

Qalampir yalpiz – Yalpizguldoshlar (Lamiaceae) oilasi, Mentha turkumiga mansub koʻp yillik oʻtsimon, dorivor va efirmoyli oʻsimlik. Poyasi tik shoxlangan, boʻyi 25-100 sm gacha, barglari qarama-qarshi joylashgan, rombsimon, nashtarsimon yoki tuxumsimon, gullari chala soyabonsimon toʻpgulga yigʻilgan, binafsharang. May-oktabrda gullaydi. Qalampir yalpiz yorugʻsevar, namsevar oʻsimlik.. Suvga juda talabchan, ayniqsa iyul-avgust oylarida osmotik bosim oshishi natijasida suv almashinuvi jadallashadi.

Mentha piperita — suv yalpizining (Mentha aquatica) va kolos yalpizining (Mentha spicata) ekilgan steril gibridi boʻlib, Karkaslar (Lamiaceae) oilasiga mansubdir. Yalpizning taksonomiyasi juda murakkab boʻlib, taxminan 42 ta tur va 15 ta gibrid hamda yuzlab past turlari va navlarini oʻz ichiga oladi Qalampir yalpiz barglari poyada qarama-qarshi (dekusat) joylashgan.Barglari cho'ziq-tuxumsimon yoki lanjetsimon, uchi o'tkirlashgan. Bargning ichki tuzilishi uning gidromorfik (suvni yaxshi ko'radigan) tabiatini va sekretorlik (ajratish) funksiyasini aks ettiradi.. Barglarida 2,5-3 %, gullarida 4-6 %, poyasida 0,3 % mentol (validolning tarkibiy qismi)ga boy boʻlgan efir moyi, shuningdek, flavonoidlar, vitaminlar,oshlovchi moddalar bor.

Adabiyotlar tahlili.

Mentha piperita nam tuproqlarda, sugʻorilgan va quyoshli joylarda faol rivojlanadi. Oʻsimlikning ildiz tizimi keng tarqalgan boʻlib, u tuproqni barqarorlashtirishga yordam beradi. D. Petrova (2017) tomonidan European Journal of Plant Protection jurnalida chop etilgan maqolaga koʻra, Mentha piperita (peppermint) oʻzining tabiiy zararkunandalar nazorati xususiyatlari bilan e'tiborga loyiqdir.Oʻzbekistonning iqtisodiy botanika va oʻsimlikshunoslik tadqiqotlarida Mentha piperita iliq, nam iqlimni yaxshi koʻradi va eng yaxshi hosil faqat sugʻorilgan maydonlarda olinadi. Shuningdek, oʻsimlik koʻchatlardan koʻpaytiriladi, uning ildiz tizimi payvandlanishga moyil." Islomov A., 2019, Oʻzbekiston Qishloq Xoʻjaligi Ilmiy Jurnali.

Quritilgan va maydalangan holdagi yalpiz hazm qilishni yaxshilash, ishtahani ochish, shuningdek, terlatuvchi, yel haydovchi va koʻngil aynishiga qarshi vosita sifatida qoʻllaniladi Bekbulatova E 2025-y CHEMICAL COMPOSITION OF PEPPERMINT Mentha piperita L.

Mentha piperita iliq, nam iqlim sharoitlariga yaxshi moslashgan oʻsimlik hisoblanadi. U tuproqning pH darajasi taxminan 6-7 boʻlishi kerak, bu oʻsimlikning oziqlanish va rivojlanish samaradorligini oshiradi (Meyer va kol., 2018, Journal of European Botany).

Qalampir yalpiz qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan. Abu Ali ibn Sino qalampir yalpiz bilan bosh va quloq ogʻrigʻini davolagan hamda ovqat hazmini yaxshilash, yaralarni, sariq va boshqa kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan.

Natijalar va muhokama

Tadqiqotlar Toshkent viloyatida yetishtirilgan va 2023-yil iyun oyida gullash fazasida yigʻib olingan dorivor yalpiz (Mentha piperita L.) yer ustki qismining namunalarida olib borildi. Xomashyo havo-soya usulida 25-30°C haroratda 8,98% namlikkacha quritildi va 0,5-1,0 mm fraksiya oʻlchamigacha maydalandi.

Mentha Piperita tarkibida 54 ta birikma aniqlandi, bular umumiy tarkibning 98,95% ini tashkil etdi Unda oksidlangan monoterpenlarning (85,38%) ustunligi aniqlandi. Efir moyining asosiy komponentlari mentol (32,96%) va menton (32,98%) boʻlib, ular oʻsimlikka xos xushboʻy hidni hamda asosiy farmakologik xususiyatlarni (sovutuvchi, spazmolitik, sedativ) belgilaydi.

Tarkibga neomentol (5,60%), sineol (1,8-sineol, 6,61%) va mentofuran (2,98%) sezilarli hissa qoʻshadi. Monoterpen uglevodorodlar orasida limonen (1,94%) va menten (3,75%) mavjud. Shuningdek, kariofillen (1,92%) kabi seskviterpen uglevodorodlar ham identifikatsiya qilindi.

Yalpiz tarkibidagi makro va mikroelementlar inson organizmi uchun muhim fiziologik ahamiyatga ega. Ayniqsa, Kaliy (K) va Kalsiy (Ca) miqdori yuqoriligi diqqatga sazovordir. Kaliy K-569 mg, Kalsiy Ca-243 mg , Magniy Mg-80 mg, Fosfor P 73-mg, Natriy Na-31 mg, Temir Fe-5,08 mg , Marganes Mn -1,176 mg Sinx (Rux) Zn-1,11 mg, Mis Cu-329 mkg.

Xalq tabobatida yalpiz sariqlik, gepatit, xolangit va xolesistit kabi turli xil kasalliklarda keng qo‘llaniladi; u jigar va o‘t yo‘llari kasalliklarida buyuriladi. Yuqori nafas yo‘llarining yallig‘lanishida chayish (poloskaniye) vositasi sifatida ishlatiladi.

Qalampir yalpiz bargi va efir moyining dorivor preparatlari (damlamasi, nastoykasi va yalpiz suvi) ko‘ngil aynishini va qusishni to‘xtatishda hamda ovqat hazmini yaxshilashda ishlatiladi. Yalpiz suvi yana og‘iz chayqash, dorilar ta’mini yaxshilash uchun qo‘llaniladi. Bargidan damlama, efir moyidan yalpiz suvi, nastoyka tayyorlanadi; mentol migren qalami va validol l% (izovalerian kislotaning mentol bilan hosil qilgan murakkab efiridagi mentolning 25 – 30 foizli eritmasi) tarkibiga kiradi. Bargi tinchlantiruvchi, o’t haydovchi, me’da kasalliklarida ishlatiladigan yig’malar — choylar va qorin og’rig’ini qoldirish uchun ishlatiladigan tabletka va tomchilar tarkibiga kiradi. Mentol ingofen tarkibiga kiradi. Yalpizning boshqa turlari tarkibida ham mentol bor. MENTHA PIPERITA NING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI M Ro’ziyeva 2024



1-rasm Mentha Piperita Lamiaceae oilasi vakillarining barg marfologiyasi

O‘zbekistonda sug‘orilgan qishloq xo‘jaligi yerlari uchun noyob va foydali o‘simlik sanaladi. Uning yaylov va bog‘larda, sug‘oriladigan joylarda etishtirilishi agrobiologik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Asosiy hududlardan Toshkent, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo va Farg‘ona vodiysining sug‘oriladigan dehqonchilik mintaqalari. Yovvoyilashgan areallar, soy bo‘ylari, ariq chetlari, botqoqlashgan yerlar va yer osti suvlari yuza joylashgan pasttekisliklar. Qalampir yalpiz gidrofit (namlikni yaxshi ko‘ruvchi) o‘simlikdir. Suv tanqisligi bo‘lgan cho‘l va adir zonalarida u tabiiy holda yashay olmaydi. Chirindiga boy, yumshoq, qumoq tuproqlarni xush ko‘radi. Sho‘rlangan tuproqlarda o‘sishi juda sustlashadi va efir moyi miqdori kamayib ketadi. O‘zbekistonning jazirama issig‘ida (iyul-avgust) barglari qurib qolmasligi uchun doimiy sug‘orish talab etiladi. Optimal o‘sish harorati 20-25°C hisoblanadi. Harorat 30°C dan oshganda va namlik yetishmaganda efir moyi to‘planishi susayadiHozirda O‘zbekiston dorivor o‘simlikshunosligida qalampir yalpizning ikki xil formasi ko‘p uchraydi. Qora yalpiz (M. piperita f. rubescens) poyasi va barg tomirlari binafsha rangda. Tarkibida efir moyi ko‘proq. Oq yalpiz (M. piperita f. pallescens) poyasi yashil, hidi nisbatan mayinroq. O‘zbekiston florasida bu o‘simlik faqat dorivorlik emas, balki bir nechta vazifa bajaradi. Fitomelioratsiya-soy va ariq bo‘ylarida tuproq eroziyasini oldini olishga yordam beradi. Entomofiliya - yaxshi asal beruvchi o‘simlik bo‘lib, foydali hasharotlarni o‘ziga jalb qiladi.

Xulosa.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Mentha piperita nafaqat o‘zining keng ekologik moslashuvchanligi, balki murakkab biokimyoviy tarkibi bilan ham yuksak dorivor ahamiyatga ega. O‘simlikning botanik va anatomik tuzilishi uning efir moylarini sintez qilish va to‘plash imkoniyatini belgilab beradi. Kimyoviy tahlillar natijasida aniqlangan mentol, menton va fenol birikmalari kabi ikkilamchi metabolitlar o‘simlikning yuqori farmakologik faolligini ta’minlaydi. Ayniqsa, yalpiz asosidagi fitopreparatlarning (Validol, Corvalol) kardiologik va spazmolitik ta’siri uning zamonaviy tibbiyotdagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi. Xulosa qilib aytganda, qalampir yalpizining xomashyo bazasini kengaytirish va uning tarkibidagi komponentlarni chuqur o‘rganish, yangi avlod samarali dori vositalarini yaratishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Yoziyev.L. Arabova .N. “Dorivor O’simliklar” 2016y.
2. M.T.Baltabayev. Шотенова Ф “Ботаника” 2015 y

3. N.H Qarshiboyeva " Botanika" O'simliklar fiziologiyasi. 2018 y
4. G.S. Tursunboyeva A. T. Abdullayeva. "Botanika " 2018.
5. Z.Sanoyev. P. Turdiyev. N. Alimova. B.Berdimurodov. "Farmakognoziya" 2017 y
6. Islomov A. (2019). O'zbekiston Qishloq Xo'jaligi Ilmiy Jurnali, 2(18), 35-40.
7. Jumaniyozov Sh., 2020, Tuproqshunoslik va Agroekologiya
8. Smith va Johnson, 2017, European Journal of Plant Ecology.
9. Meyer va kol., 2018, Journal of European Botany.
10. Kuznetsova va boshqalar, 2016, Russian Journal of Plant Science.
11. Petrova, 2017, European Journal of Plant Protection.
12 Meyer, H., et al. (2018). Soil and climatic adaptation of Mentha piperita in Europe. Journal of European Botany, 50(4), 330-338

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Zokirova Gulnora Mamadjonovna
Farg'ona davlat universiteti dotsenti, b.f.f.d, PhD
https://orcid.org/0009-0007-9504-8072
E-mail: g.zokirova80@gmail.com

UO'K 595.752:581.5

PLANOCOCCUS VOVAE (NASONOV, 1909) (HEMIPTERA: PSEUDOCOCCIDAE) TURINING OCHIQ URUG'LI O'SIMLIKLARGA EKOLOGIK ADAPTATSIYASI HAQIDA

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Planococcus vovae (Nasonov, 1909) ning ochiq urug'li ignabargli o'simliklar (asosan Cupressaceae: Juniperus, Cupressus, Thuja) bilan trofik aloqalari va ekologik adaptatsiyalari tahlil qilinadi. Zararkunandaning ignabarglar, novdalar, po'stloq hamda generativ organlar (konus/urug') bilan oziqlanishi natijasida o'simliklarda o'sishning susayishi, xloroz, shox-shabba va ignabarglarning qurishi hamda kuchli zararlanishda butun daraxtning nobud bo'lishi kuzatilishi qayd etiladi. Tadqiqot kuzatuvlari Farg'ona shahrida archa va sarv daraxtlarida yirik populyatsiyalar shakllanib, fotosintez faoliyatini keskin pasaytirishini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *Planococcus vovae; Cupressaceae; archa; sarv; ignabargli o'simliklar; ekologik adaptatsiya; mumsimon qoplama; shira suyuqligi; mirmekofiliya; invaziya; fitosanitariya.*

Зокирова Гулнора Мамаджоновна
Доцент Ферганского государственного университета, PhD, доктор философии по биологическим наукам

ОБ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ *PLANOCOCCUS VOVAE* (NASONOV, 1909) (HEMIPTERA: PSEUDOCOCCIDAE) К ГОЛОСЕМЕННЫМ РАСТЕНИЯМ

Аннотация: *В статье анализируются трофические связи и экологические адаптации мучнистого червеца Planococcus vovae (Nasonov, 1909), развивающегося преимущественно на голосеменных хвойных растениях, главным образом на Cupressaceae (Juniperus, Cupressus, Thuja). Питание на хвое, побегах, коре и генеративных органах (шишках/семенах) связано с угнетением роста, хлорозом и усыханием, а при высокой численности — с гибелью растений. Полевые наблюдения в г. Фергана подтвердили формирование крупных популяций на можжевельнике и кипарисе и снижение фотосинтетической активности поражённых растений.*

Ключевые слова: *Planococcus vovae; Cupressaceae; можжевельник; кипарис; хвойные; экологическая адаптация; восковой покров; падь; мирмекофилия; инвазия; фитосанитария.*

Zokirova Gulnora Mamadjonovna
Associate Professor, PhD in Biological Sciences, Fergana State University

ON THE ECOLOGICAL ADAPTATION OF *PLANOCOCCUS VOVAE* (NASONOV, 1909) (HEMIPTERA: PSEUDOCOCCIDAE) TO GYMNOSPERM PLANTS

Abstract: *This paper summarizes trophic associations and ecological adaptations of the cypress mealybug Planococcus vovae (Nasonov, 1909), a pest primarily developing on gymnosperm conifers, especially Cupressaceae (Juniperus, Cupressus, Thuja). Feeding on needles, shoots, bark and reproductive organs (cones/seeds) is associated with growth suppression, chlorosis, dieback, and—under heavy infestation—possible whole-tree mortality. Field observations in Fergana City revealed large populations on juniper and cypress and a decline in photosynthetic performance of infested plants.*

Keywords: *Planococcus vovae; Cupressaceae; juniper; cypress; conifers; ecological adaptation; wax cover; honeydew; myrmecophily; invasion; plant protection.*

Kirish

Planococcus vovae (Nasonov, 1909) – asosan ochiq urug'li ignabargli o'simliklarda parazitlik qiluvchi unsimon qurt turidir. Mazkur zararkunanda o'simliklarning barcha yerusti a'zolaridan ignabarglar, novdalar, po'stloq va hatto konuslar

(urug‘lar) bilan oziqlanadi. Buning natijasida zararlangan o‘simliklarda o‘sish susayishi va to‘xtashi, barglarning xloroz holatga kelishi (sarg‘ayishi) kuzatiladi. *P. vovae*ning ko‘p sonli koloniyalari ignabarglar va novdalarda oziqlanishi natijasida ularning qurib qolishiga olib keladi. Kuchli zararlanish hatto butun daraxtning qurib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlarda kuzatganimizda Farg‘ona shahrida archa va sarv daraxtlarida ushbu qurtning katta populyatsiyalari novdalar va ignabarglarni shira so‘rib, ularni quritib yuborgani aniqlandi. Shu tariqa, *P. vovae* ozuqa o‘simliklarining fotosintez faoliyatini pasaytiradi va ularning tabiiy o‘sishiga jiddiy to‘sqinlik qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Adabiyotlar ma’lumotlariga ko‘ra, *P. vovae* asosan *Cupressaceae* oilasi vakillarida – *Cupressus*, *Juniperus*, *Thuja* va boshqa ignabargli hamda sarvsimon o‘simliklarda rivojlanadi. Belgrad hududida olib borilgan tadqiqotlar ushbu turning archa va sarv daraxtlarida yuqori zichlikdagi populyatsiyalar hosil qilishini ko‘rsatgan bo‘lib, u ochiq urug‘li o‘simliklarga trofik jihatdan yaxshi moslashgan oligofag tur sifatida tavsiflangan [1]. Tunis hududida *Cupressus macrocarpa*da qayd etilgan kuchli zararlanish holatlari *P. vovae* ning manzarali ochiq urug‘li o‘simliklarga tez moslasha olishini va urbanizatsiyalashgan ekotizimlarda ham muvaffaqiyatli rivojlanishini ko‘rsatadi [3]. *Planococcus vovae* ning ochiq urug‘li o‘simliklardagi ekologik muvaffaqiyati uning morfologik va fiziologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Jins darajasidagi taksonomik tahlillarda ushbu turning qalin mum qavati bilan qoplanganligi, tana segmentlarining ixchamligi hamda tukchalarining zich joylashuvi ignabargli o‘simliklarning quruq va qatronli muhitiga moslashuv sifatida baholanadi [6]. Markaziy Osiyo hududida olib borilgan tadqiqotlarda *P. vovae* ning qurg‘oqchil va kontinental iqlim sharoitlariga nisbatan yuqori chidamliligi qayd etilgan bo‘lib, bu xususiyat turning archa va sarvzor biotsenozlarida muvaffaqiyatli yashashini ta’minlaydi [7].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot materiali sifatida Farg‘ona shahrida manzarali archa va sarv daraxtlarida *Planococcus vovae* koloniyalarining joylanishi, oziqlanish obyektlari (ignabarg, novda, po‘stloq hamda konus/urug‘), zararlanish belgilari (o‘sish susayishi, xloroz, ignabarg va shox-shabbaning qurishi) hamda populyatsiya zichligi oshgan sharoitda fotosintez faoliyatidagi pasayish holatlari kuzatuv yo‘li bilan qayd etildi. Olingan kuzatuvlar natijalari mavzuga doir manbalar bilan qiyosiy tahlil qilinib, tur muvaffaqiyatini belgilovchi adaptatsion belgilar (mumsimon qoplama, shira suyuqligi ajratish, passiv dispersiya, mirmekofiliya va qatronli muhitga moslashuv) ekologik izohlandi.

Tahlil va natijalar

Planococcus vovae o‘zining sanchib-so‘ruvchi og‘iz apparati yordamida qalin epidermis va po‘stloqni teshib, ignabargli o‘simliklarning floema shirasiga yetib borishga moslashgan. Ozuqasi asosan shakar va suvga boy bo‘lgani uchun, ortiqcha shakar tashqi muhitga “shira suyuqligi” ko‘rinishida chiqariladi; adabiyotlarda unsimon qurtlar iste’mol qilgan shakarli moddalarning 90% gacha qismini hazm qilmay ajratib yuborishi qayd etiladi [7]. Tana yuzasidagi mum kanalchalari ajratmani tomchi holida tanadan uzoqroqqa chiqarishga xizmat qilib, koloniya yuzasida yopishqoq qatlam hosil bo‘lishini cheklaydi. Qalin oq mumsimon qoplama (unsimon qoplama) esa zararkunandani nafaqat o‘z ajratmasidan, balki ignabarglilarga xos qatronli muhitdan ham himoya qilib, suv va toksik birikmalarga nisbatan to‘sqinlik vazifasini bajaradi. Qatronli o‘simliklar shirasida uchraydigan terpenlar va boshqa himoya birkimalariga nisbatan fermentativ moslashuvlar hamda simbiont mikroorganizmlar ishtirokidagi detoksikatsiya jarayonlari mavjud bo‘lishi mumkinligi qayd etiladi [6,7].

Planococcus vovae odatda yil davomida 2–3 avlod berib ko‘payadi [1]; urg‘ochilar tuxumlarini oq mumsimon qopcha (ovisak) ichida qo‘yadi, tuxumlar ko‘pincha novda po‘stlog‘i yorig‘i yoki barglar qo‘ltig‘ida joylashgan qopchalarda qishlaydi. Birinchi yosh lichinkalar mayda va harakatchan bo‘lib, o‘simlik bo‘ylab tarqalib yangi oziqlanish nuqtalarini egallaydi; kichik o‘lcham tufayli shamol yordamida qo‘shni o‘simliklarga passiv ko‘chishi mumkin. Ko‘chatlar savdosi va manzarali daraxtlarni ko‘chirish jarayonida koloniyalarning yashirin tarqalishi turning areal kengayishida muhim omil sifatida ko‘rsatiladi [10]. Hududiy kuzatuvlarda *P. vovae* lichinkalari qish faslida ham faolligini yo‘qotmay oziqlanishda davom ettirgani qayd etilgan; Farg‘ona sharoitida populyatsiya 4–5 avlodgacha yetishi mumkinligi ko‘rsatiladi.

Zararkunanda ignabarglar va novdalarda oziqlanishi natijasida o‘sishning susayishi, xloroz, ignabarg va shox-shabbaning qurishi kuzatiladi; yuqori zichlikda esa butun daraxtning qurib qolishigacha olib kelishi mumkin. *P. vovae* nafaqat vegetativ organlarga (ignabarg, novda), balki generativ organlarga (archa mevalari va sarv konuslari) ham zarar yetkazadi: konus/urug‘ yuzasida koloniyalar hosil qilib shira so‘rishi urug‘lar rivojlanishini susaytirishi yoki to‘xtatishi, unuvchanlikni kamaytirishi hamda konuslarning qurib qolishi yoki erta to‘kilishini kuchaytirishi mumkinligi qayd etiladi. Ayrim hollarda o‘simlikning himoya reaksiyasi sifatida zararlangan konuslarni erta to‘kib yuborishi kuzatiladi, bu zararkunandadan qutulishga yordam bersa-da, urug‘ hosilini kamaytiradi.

Shira suyuqligining ko‘p ajralishi ignabarg va novdalar yuzasini qoplab, “qora mog‘or” zamburug‘larining rivojlanishiga sharoit yaratadi. Bu fotosintezni cheklab, o‘simlikning tezroq zaiflashuviga olib keladi. Shira suyuqligi turli hasharotlarni jalb qiladi, ayniqsa chumolilar bilan mutualistik aloqalar (mirmekofiliya) koloniyaning saqlanib qolishida muhim: chumolilar shira suyuqligidan oziqlanib, evaziga qurtlarni yirtqichlardan himoya qiladi [8,9].

Morfologik jihatdan urg‘ochi individlar oval, 3–5 mm atrofida bo‘lib, tana yuzasi oq mumsimon qoplama bilan qoplangan; teshuvchi-so‘ruvchi og‘iz apparati o‘simlik to‘qimalarini teshib shira so‘rishga moslashgan. Erkaklar qanotli bo‘lib, og‘iz organlari reduksiyalanganligi sababli oziqlanmaydi va asosan juftlashish uchun xizmat qiladi. Mumsimon qoplama himoya bilan birga kamuflyaj vazifasini ham bajarib, koloniyalarni ignabargli o‘simliklarning qatronsimon dog‘lari yoki chang/mog‘or qoplamiga o‘xshatib ko‘rsatishi mumkin; bu yirtqichlar tomonidan aniqlanishni qiyinlashtiradi.

Umuman, *P. vovae* ning mumsimon qoplamasi, shira suyuqligi ajratish va undan “tozalanish” mexanizmi, passiv dispersiya, mirmekofiliya hamda qatronli muhitdagi fitokimyoviy to‘siqlarga moslashuvlari ochiq urug‘li manzarali ekinlarda turning ekologik muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Bu jihatlar monitoringni erta bosqichda tashkil etish, ko‘chatlar harakatini fitosanitariya nazoratidan o‘tkazish va integratsiyalashgan himoya choralarini rejalashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Xulosalar

Planococcus vovae tizimli ravishda o‘ziga aloqador organizmlar bilan birga evolyutsiyalashib, murakkab oziq tarmog‘ini shakllantiradi. Ochiq urug‘li o‘simlik va unsimon qurt o‘rtasidagi munosabatlar bir-biriga moslashgan: o‘simliklar ximoya mexanizmlarini rivojlantirgan bo‘lsa, unsimon qurt ularga qarshi moslashgan; bu esa ko‘p yillik koevolyutsiya mahsulidir. Trofik tarmoqda esa *P. vovae* boshqa organizmlar bilan muvozanatda yashaydi. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar *Planococcus vovae* ning biologiyasi, zarari va unga qarshi biologik kurash choralariga doir qimmatli ma’lumotlar berdi. Bu ma’lumotlar asosida ushbu zararkunandaga qarshi integratsiyalashgan kurash usullarini ishlab chiqish va tabiiy biologik nazoratchilarni ko‘paytirish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Ko‘rinib turibdiki, *Planococcus vovae* o‘z xost-o‘simligi bilan birga evolyutsiya qilgan, uning ekologik tizimida mustahkam o‘rin olgan va shu bilan birga, inson tomonidan yaratilgan manzarali yashil maydonlarda ham muammolar keltirib chiqara oladigan jiddiy zararkunandadir. Bu tur faunasining shakllanishi va ekologik adaptatsiyalarini chuqur o‘rganish esa, kelgusida uni nazorat qilish va zararini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Graora D., Spasić R., Ilić S. Biology and harmfulness of *Planococcus vovae* (Nassonov) (Hemiptera: Pseudococcidae) in Belgrade area // Pesticidi i fitomedicina. 2014. Vol. 29, № 1. P. 67–74. DOI: 10.2298/PIF1401067G.

2. Isakov I.B. va boshq. Diagnostics of *Planococcus vovae* (Nasonov) from Uzbekistan // Indian Journal of Entomology. 2024. P. 1–5. DOI: 10.55446/IJE.2024.2593.

3. Halima-Kamel M.B., Mdellel L., Zouari S., Balmès V. New Pseudococcidae species on *Cupressus macrocarpa* in Tunisia: first report of *Planococcus vovae* // Bulletin OEPP/EPPO Bulletin. 2019. Vol. 49, № 2. P. 338–339.

4. Talebi A.A. va boshq. Natural Enemies of Cypress Tree Mealybug, *Planococcus vovae* (Nasonov) (Hem., Pseudococcidae), and their Parasitoids in Tehran, Iran // Journal of Agricultural Science and Technology. 2008. Vol. 10, № 2. P. 135–142.

5. Lotfalizadeh H., Ahmadi A.A. Natural enemies of cypress tree mealybug *Planococcus vovae* (Nasonov) and their parasitoids in Shiraz, Iran // Iran Agricultural Research. 2000. Vol. 19, № 2. P. 145–154. DOI: 10.22099/iar.2000.4314.

6. Williams D.J., Mohammed E. Taxonomy of the genus *Planococcus* and notes on *P. vovae* // Journal of Entomological Society of Iran. 2000. Vol. 18, № 1–2. P. 32–43.

7. Danzig E.M. Фауна мучнистых червецов (Hemiptera: Pseudococcidae) Центральной Азии // Энтомологическое обозрение. 1986. Т. 65, № 1. С. 15–25.

8. Milek S. va boshq. *Planococcus vovae* в Хорватии: анализ, определение и связь с муравьями // Šumarski list. 2008. № 5–6. S. 163–170.

9. Ben-Dov Y. va boshq. ScaleNet Database: *Planococcus vovae* (species page) [Elektron resurs].

10. EPPO Global Database. *Planococcus vovae* (PLANVO) [Elektron resurs]. 2025.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Asqarova Dilnoza Aslomjonovna
Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi
E-mail: dilnozaasqarova281@gmail.com
Zokirov Islomjon Ilxomjonovich
Farg'ona davlat universiteti professori, b.f.d.
E-mail: izokirov.biol79@gmail.com

UO'K 595.7:574.4(575.1)

INVAZIV FITOFAGLARNING EKOLOGIK TOKCHASI: O'SIMLIK HAYOTIY SHAKLLARI VA ORGANLARIGA IXTISOSLASHUVI (FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA)

Annotatsiya: *Invaziv fitofaglar o'simlik hayotiy shakllari va zararlanadigan organlar bo'yicha ekologik guruhlarga ajratildi. Xortobiont polifaglar 4 tur (14,3%), dendrobiont monofag va oligofaglar 3 tadan (10,7%) qayd etildi. Organlar bo'yicha fillofag polifaglar 6 tur (21,4%) bilan yetakchi bo'ldi.*

Kalit so'zlar: *invaziv fitofaglar, ekologik guruhlanish, dendrobiont, xortobiont, fillofag, karpofag, ksilofag.*

Аскарова Дилноза Асломжоновна
Ферганский государственный университет, самостоятельный соискатель
Зокиров Исломжон Илхомжонович
Профессор Ферганского государственного университета, доктор биологических наук

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ НИША ИНВАЗИВНЫХ ФИТОФАГОВ: СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ ПО ЖИЗНЕННЫМ ФОРМАМ И ОРГАНАМ РАСТЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)

Аннотация: *Инвазивные фитофаги сгруппированы по жизненным формам растений и повреждаемым органам. Полифаги среди хортобионтов – 4 вида (14,3%), монофаги и олигофаги среди дендробионтов – по 3 вида (10,7%). По органам доминировали филлофаги-полифаги – 6 видов (21,4%).*

Ключевые слова: *инвазивные фитофаги, экологическая группировка, дендробионт, хортобионт, филлофаг, карпофаг, ксилофаг.*

Asqarova Dilnoza Aslomjonovna
Fergana State University, Independent Researcher
Zokirov Islomjon Ilxomjonovich
Professor, Doctor of Biological Sciences, Fergana State University

ECOLOGICAL NICHE OF INVASIVE PHYTOPHAGES: SPECIALIZATION BY PLANT LIFE FORMS AND ORGANS (A CASE STUDY OF THE FERGHANA VALLEY)

Annotation: *Invasive phytophages were grouped by plant life forms and damaged organs. Polyphages among hortobionts comprised 4 species (14.3%); monophages and oligophages among dendrobionts were 3 species each (10.7%). Phyllophagous polyphages dominated with 6 species (21.4%).*

Key words: *invasive phytophages, ecological grouping, dendrobiont, hortobiont, phyllophagous, carpophagous, xylophagous.*

Kirish

Invaziv fitofaglar yangi hududlarga kirib kelgach, resurslardan foydalanish xususiyati va ozuqa obyektlariga moslashuv darajasi hisobiga agro- hamda urbanoekotizimlarda tez barqarorlashishi va zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun invaziv fitofaglarni o'simlik hayotiy shakllari (daraxt-buta, butazor, o't-o'lan) hamda zarar yetkazadigan o'simlik organlari (barg, meva, poya/po'stloq va ularning kombinatsiyalari) bo'yicha guruhlash ularning zarar keltirish darajasini aniqlash, monitoringni maqsadli yo'naltirish va kutilayotgan xatarni baholashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi sharoitida invaziv fitofaglarning o‘simlik hayotiy shakllari va organlariga ixtisoslashuvi bo‘yicha ekologik guruhlanishini tizimli tavsiflash maqsad qilib olingan.

Adabiyotlar tahlili

Ekologik nuqtayi nazardan turning ekologik tokchasi (nisha) organizmning muhit omillari va resurslar bilan bog‘liq funksional o‘rnini ifodalaydi, bu yondashuv invaziv turlarni baholashda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [1]. Ekologik tokchani o‘zgartirish va resurslardan foydalanish namunalarini tahlil qilish populyatsiyaning muhitga moslashuv mexanizmlarini chuqurroq ochib berishi mualliflar tomonidan ta’kidlangan [2].

Farg‘ona vodiysi agro- va urbanoekotizimlarida madaniy hamda manzarali o‘simliklar xilma-xilligi yuqori bo‘lib, bu holat invaziv fitofaglar uchun resurs bazasini kengaytiradi [3]. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini himoya qilish hamda karantin tizimini takomillashtirish bo‘yicha huquqiy-me’yoriy hujjatlar invaziv zararkunandalarni erta aniqlash va nazorat qilish zaruratini belgilab beradi [4, 5].

Entomologiyada ekologik ixtisoslashuvni aniqlash hamda zararkunandalarni boshqarishda uyg‘unlashgan yondashuvlar (monitoring–profilaktika–uyg‘unlashgan kurash) muhimligi qayd etilgan [6, 7]. Invaziya jarayonida populyatsion biologiya va moslanish nazariyasi invaziv turlar keng tarqalishi omillarini tushuntirishda qo‘llanadi [8].

Tadqiqot metodologiyasi

Farg‘ona vodiysi agro- va urbanoekotizimlarida 2022–2025 yillar vegetatsiya mavsumlari davomida olib borilgan kuzatuvlar natijasida olingan ma’lumotlar tahlil qilindi hamda invaziv fitofaglar ro‘yxati va ularning ekologik-trofik tavsiflariga tayangan holda guruhlandi. Invaziv fitofaglar o‘simlik hayotiy shakllariga moslashuviga ko‘ra dendrobiont, tamnobiont, xortobiont hamda kombinatsiyalashgan guruhlarga ajratildi. Shuningdek, o‘simlik organlariga ixtisoslashuvi mezoni asosida fillofag, karpofag, ksilofag va aralash (masalan, fillofag–karpofag, fillofag–antofag, fillofag–rizofag, fillofag–antofag–karpofag, ksilofag–karpofag) guruhlarga farqlandi. Har bir ekologik guruh doirasida turlar trofik ixtisoslashuviga ko‘ra monofag, oligofag va polifag toifalarda qayd etildi. Natijalar 1- va 2-jadvallar ko‘rinishida shakllantirilib, turlar tarkibi, tur soni hamda ulushlar (%)ma’lumotlari asosida bayon qilindi.

Tahlil va natijalar

Invaziv fitofaglarning ekologik ixtisoslashuvini baholashda ular o‘simliklarning hayotiy shakllari (daraxt-buta, butazor, o‘t-o‘lan) bilan bog‘liqligi hamda zarar yetkazadigan asosiy organlari (barg, meva, poya/po‘stloq va ularning kombinatsiyalari) bo‘yicha guruhlanishi asosiy mezon sifatida olindi. Natijalar ikki yo‘nalishda shakllantirildi, ya’ni, hayotiy shakllar bo‘yicha ekologik guruhlar (1-jadval) va o‘simlik organlari bo‘yicha ekologik guruhlar (2-jadval).

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, hayotiy shakllar bo‘yicha guruhlanishda dendrobiont fitofaglar tarkibida monofag va oligofag guruhlari har birida 3 tadan tur (10,7%) bilan ifodalanib, polifag guruhida 1 tur (3,5%) qayd etildi. Xortobiont guruhida monofag va oligofaglar 3 tadan (10,7%) bo‘lib, polifaglar 4 tur (14,3%) bilan eng yuqori ulushni ko‘rsatdi. Kombinatsiyalashgan guruhlarda, xususan dendrotamnobiontlar tarkibida oligofag va polifaglar 2 tadan (7,1%) bo‘lib qayd etildi; dendro-xortobiont guruhida polifaglar 2 tur (7,1%) bilan ifodalandi. Tamnobiont (1 tur; 3,5%), tamno-xortobiont (1 tur; 3,5%) va dendro-tamno-xortobiont (1 tur; 3,5%) guruhlari nisbatan kam uchradi.

2-жadval natijalariga ko‘ra, organlar bo‘yicha ixtisoslashuvda fillofaglar tur tarkibi jihatidan yetakchi guruh sifatida ko‘rinadi. Ya’ni, bunda fillofag monofaglar 4 tur (14,3%), fillofag oligofaglar 2 tur (7,1%), fillofag polifaglar esa 6 tur (21,4%) bilan qayd etildi. Karpofaglar tarkibida 1 tadan monofag (3,5%) va oligofag (3,5%) tur qayd etildi. Aralash organ-ixtisoslashuv guruhlarda fillofag–karpofag oligofaglar 2 tur (7,1%) hamda fillofag–karpofag polifaglar 2 tur (7,1%) bilan ifodalandi. Fillofag–antofag guruhida polifaglar 2 tur (7,1%) qayd etilgan bo‘lsa, fillofag–rizofag guruhida 1 tur oligofag (3,5%) ko‘rsatildi. Fillofag–antofag–karpofag guruhida 1 tur monofag (3,5%) va 1 tur polifag (3,5%) keltirildi. Ksilofag va ksilofag–karpofag guruhlari har birida 1 tadan oligofag tur (3,5%) bilan ifodalandi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, 1-jadval va 2-jadvaldagi turlar ro‘yxati to‘liq mos kelmaydi. Xususan, 1-jadvalda xortobiont oligofag sifatida *Ostrinia nubilalis* keltirilgan bo‘lsa, 2-jadvalda bu tur ko‘rsatilmagan.

1-jadval

Invaziv fitofaglarning o‘simlik hayotiy shakllariga ixtisoslashuviga ko‘ra guruhlanishi

Ekologik guruh (hayotiy shakl)	Trofik ixtisoslashuv	Turlar	Tur soni	%
Dendrobiont	Monofag	*Pineus strobi; Grapholita molesta; Glyphodes pyloalis*	3	10,7
Dendrobiont	Oligofag	*Diaspidiotus perniciosus; Scolytus schevyrewi; Eriosoma lanigerum*	3	10,7

Dendrobiont	Polifag	*Hyphantria cunea*	1	3,5
Tamnobiont	Monofag	*Phyllocnistis citrella*	1	3,5
Xortobiont	Monofag	*Tuta absoluta; Plutella xylostella; Myiopardalis pardalina*	3	10,7
Xortobiont	Oligofag	*Leptinotarsa decemlineata; Phthorimaea operculella; Ostrinia nubilalis*	3	10,7
Xortobiont	Polifag	*Bemisia tabaci; Spodoptera litura; Liriomyza sativae; Helicoverpa armigera*	4	14,3
Dendrotamnobiont	Oligofag	*Euzophera bigella; Ectomyelois ceratoniae*	2	7,1
Dendrotamnobiont	Polifag	*Pseudococcus comstocki; Planococcus vovae*	2	7,1
Dendro-xortobiont	Polifag	*Halyomorpha halys; Asciodema obsoleta*	2	7,1
Tamno-xortobiont	Polifag	*Aphis gossypii*	1	3,5
Dendro-tamno-xortobiont	Polifag	*Trialeurodes vaporariorum*	1	3,5

2-jadval

Invaziv fitofaglarning o‘simlik organlariga ixtisoslashuviga ko‘ra guruhlanishi

Ekologik guruh (organ bo‘yicha)	**Trofik ixtisoslashuv**	**Turlar**	**Tur soni**	**%**
Fillofag	Monofag	*Pineus strobi; Phyllocnistis citrella; Glyphodes pyloalis; Plutella xylostella*	4	14,3
Fillofag	Oligofag	*Leptinotarsa decemlineata; Phthorimaea operculella*	2	7,1
Fillofag	Polifag	*Bemisia tabaci; Trialeurodes vaporariorum; Planococcus vovae; Spodoptera litura; Hyphantria cunea; Liriomyza sativae*	6	21,4
Karpofag	Monofag	*Myiopardalis pardalina*	1	3,5
Karpofag	Oligofag	*Ectomyelois ceratoniae*	1	3,5
Fillofag–karpofag	Oligofag	*Diaspidiotus perniciosus; Grapholita molesta*	2	7,1

Fillofag–karpofag	Polifag	*Halyomorpha halys; Pseudococcus comstocki*	2	7,1
Fillofag–antofag	Polifag	*Asciodema obsoleta; Aphis gossypii*	2	7,1
Fillofag–rizofag	Oligofag	*Eriosoma lanigerum*	1	3,5
Fillofag–antofag–karpofag	Monofag	*Tuta absoluta*	1	3,5
Fillofag–antofag–karpofag	Polifag	*Helicoverpa armigera*	1	3,5
Ksilofag	Oligofag	*Scolytus schevyrewi*	1	3,5
Ksilofag–karpofag	Oligofag	*Euzophera bigella*	1	3,5

1-2 jadvallar ma'lumotlari invaziv fitofaglarning resursdan foydalanish xususiyati ikki o'qda – xo'jayin o'simlikning hayotiy shakli va zararlanadigan organi bo'yicha – shakllanishini ko'rsatadi. Ekologik tokchalar konsepsiyasiga ko'ra, turning ekologik o'rni resurslar majmuasi va ulardan foydalanish usullari bilan belgilanadi [1]. Hayotiy shakllar kesimida dendrobiont guruhida monofag va oligofaglarning teng ulushda qayd etilishi (har biri 10,7%) yog'ochsimon o'simliklarda tor ixtisoslashuv orqali barqarorlashish xususiyati kuchli ekanini anglatadi. Bunday ixtisoslashuv, odatda, xo'jayin bilan moslashuv va fenologik sinxronlik orqali mustahkamlanadi. Aksincha, xortobiont guruhida polifaglarning nisbatan yuqori ulushi (14,3%) o't-o'lan va ekin maydonlarida resurslar tez almashinishi hamda agrotexnik omillar fonida keng ozuqa diapazonining ustunlik berishi bilan izohlanadi; bu holat invaziv turlar moslashuvchanligi va evolyutsion plastiklik haqidagi qarashlar bilan mos keladi [8].

O'simlik organlari bo'yicha guruhlanishda fillofag polifaglar (21,4%)ning yetakchiligi barg to'qimasi invaziv fitofaglar uchun eng ommaviy va qulay ozuqa resurs ekanini ko'rsatadi. Root tomonidan tasvirlangan ekologik tokchalarni tadbiq etish nuqtayi nazaridan, aynan shunday resurslar turlararo raqobatni kuchaytirishi va invaziv populyatsiyalarning tez ko'payishini qo'llab-quvvatlashi mumkin [2]. Shu bilan birga, ksilofag va ksilofag–karpofag yo'nalishlarining kam ulushda bo'lishi (har biri 3,5%) ularning ahamiyatini kamaytirmaydi, ya'ni yashirin oziqlanish tufayli bunday zararlanishlar erta aniqlashda murakkab bo'lib, karantin nazoratida alohida e'tibor talab qiladi [12,14].

1- va 2-jadval o'rtasida ayrim turlar ro'yxatining to'liq mos kelmasligi (masalan, *Ostrinia nubilalis*ning faqat hayotiy shakl kesimida berilishi) ekologik tasniflashda asosiy zararlanish organi mezonini bir tizimga keltirish zarurligini ko'rsatadi. Bu holat, o'z navbatida, savdo va ko'chat materiallari orqali tarqalish yo'laklari kuchayishi dendrobiont va dendro-xortobiont guruhlar uchun dolzarb [11,14]. Guruhlanish natijalari monitoringni xatarga yo'naltirish hamda uyg'unlashgan himoya choralarini rejalashtirishga xizmat qiladi [4–7].

Xulosalar

1- va 2-jadval invaziv fitofaglarning hayotiy shakl va o'simlik organlari bo'yicha ekologik ixtisoslashuvi mavjudligini namoyon etdi. Dendrobiontlarda monofag va oligofaglar (har biri 10,7%), xortobiontlarda polifaglar (14,3%) ustunligi qayd etildi. Organlar kesimida fillofag polifaglar (21,4%) yetakchi bo'lib, ksilofag yo'nalishlari kam ulushda (3,5%) qayd etilgan bo'lsa-da, yashirin oziqlanish tufayli karantin nazoratida muhimdir. Tadqiqotlar natijasida olingan natijalar, hasharotlarning o'simlik hayotiy shakllari va organlari kesimida ekologik guruhlanish mezonlari kelgusida monitoring va xatarlarni baholashni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hutchinson G.E. Concluding remarks // Cold Spring Harbor Symp. Quant. Biol. 1957. Vol. 22. P. 415–429.

2. Root R. The niche exploitation pattern of the blue-grey gnatcatcher // Ecological Monographs. 1967. №37. P. 317–350.

3. Tojibaev K.S., Karimov F.I., Hoshimov H.R., Jang C. et al. Important plant areas (IPAs) in the Fergana Valley (Central Asia): The badlands of the northern foothills. Nature Conservation. 2022. 49: 1–30.

4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4861-son qarori.

6. Xo'jayev Sh.T. O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, hamda agrotoksikologiya asoslari. Toshkent, 2014. 540 b.

7. Эргашев И.К., Муродов Б.Э. ва бошқ. Ўсимликлар карантини лабораторияси ва клиникасида фойдаланиш учун услубий қўлланма. Тошкент, 2018. 68 б.

8. Lee C.E. Evolutionary genetics of invasive species. Trends in Ecology & Evolution. 2002. 17(8): 386–391. DOI: 10.1016/S0169-5347(02)02554-5.

9. Вехов В., Губанов И., Лебедева Г. Культурные растения СССР. Москва: Мысль, 1978. 336 с.

10. Жуковский П.М. Культурные растения и их сородичи. Изд. 2. 1964. 790 с.

11. Haack R.A., Herard F., Sun J., Turgeon J.J. et al. Effectiveness of the International Phytosanitary Standard ISPM No. 15 on reducing wood borer infestation of wood packaging material entering the United States // PLoS ONE. 2014. 9(5): e96611. DOI: 10.1371/journal.pone.0096611.

12. Hulme P.E. Trade, transport and trouble: Managing invasive species pathways in an era of globalisation. Journal of Applied Ecology. 2009. 46(1): 10–18.

13. Jeffries M.J., Lawton J.H. Enemy free space and the structure of ecological communities. Biological Journal of the Linnean Society. 1984. 23(4): 269–286. DOI: 10.1111/j.1095-8312.1984.tb00145.x.

14. Meurisse N., Rassati D., Hurley B.P. et al. Common pathways by which non-native forest insects move internationally and domestically // NeoBiota. 2019. 62: 39–79. DOI: 10.3897/neobiota.62.50767.

15. Seebens H., Blackburn T.M. et al. No saturation in the accumulation of alien species worldwide // Nature Communications. 2017. 8: 14435. DOI: 10.1038/ncomms14435.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Nurislomova latofat fazliddinovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Tabiiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: nurislomovalatofat@gmail.com
Nurislomova humo fazliddinovna
UzMU biologiya yo'nalishi talabasi
E-mail: xumonurislomova@gmail.com

SURXONDARYO SHAROITIDA OCIMUM BAZILICUM TURIGA MANSUB XORIJIY GENOTIPLARNING FIZIOLOGIK VA BIOKIMYOVIY XUSUSIYATLARINI ANIQLASH

Annotatsiya:*Ushbu maqola Surxondaryo viloyatining issiq va nisbatan qurg'oqchil agroiqlim sharoitida Ocimum basilicum L. (rayhon/basil) turiga mansub xorijiy genotiplarning moslashuvchanligini fiziologik va biokimyoviy indikatorlar asosida baholashga qaratilgan tadqiqot konsepsiyasini taqdim etadi. Ishda genotiplarni qiyosiy tahlil qilish uchun o'sish- rivojlanish ko'rsatkichlari, barg suv holati (RWC), pigment tizimi (SPAD, xlorofill a va b), oksidlovchi stress biomarkerlari (MDA, H_2O_2, prolin), antioksidant fermentlar (SOD, CAT, POD/APX), shuningdek umumiy fenollar, flavonoidlar va antioksidant faollik (DPPH/FRAP) kabi parametrlar majmuasi tanlanadi. Efir moyi chiqimi va zarur bo'lsa tarkibini tahlil qilish mahsulot sifati bo'yicha genotiplar salohiyatini aniqlashga yordam beradi. Mazkur maqola tajriba dizayni, laboratoriya metodlari, statistik yondashuvlar hamda genotiplarni tanlash uchun amaliy mezonlarni tizimli bayon qiladi.*

Kalit so'zlar: *Ocimum basilicum, Surxondaryo, xorijiy genotip, fiziologik ko'rsatkichlar, biokimyoviy markerlar, antioksidant tizim, efir moyi.*

Asosiy g'oya va amaliy ahamiyat: *Rayhon genotiplarini faqat morfologik belgilar bilan emas, balki "stressga chidamlilik + bioaktiv modda salohiyati" majmuasi bilan baholash Surxondaryo sharoitida barqaror yetishtirish va sifatli xomashyo olish uchun eng maqsadli yondashuvdir.*

Нурисломова Латофат Фазлиддиновна
Преподаватель кафедры естественных наук
Термезский университет экономики и сервиса
Нурисломова Хумо Фазлиддиновна
Студентка биологического направления
Национальный университет Узбекистана (UzMU)

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ И БИОХИМИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ЗАРУБЕЖНЫХ ГЕНОТИПОВ OCIMUM BASILICUM В УСЛОВИЯХ СУРХАНДАРЬИНСКОГО РЕГИОНА

Аннотация: *В данной статье представлена концепция исследования, направленного на оценку адаптивности зарубежных генотипов вида Ocimum basilicum L. (райхон/базилик) к жарким и относительно засушливым агроклиматическим условиям Сурхандарьинской области на основе физиологических и биохимических индикаторов. Для сравнительного анализа генотипов в работе предлагается комплекс параметров, включающий показатели роста и развития, водный статус листьев (RWC), пигментную систему (SPAD, хлорофилл a и b), биомаркеры окислительного стресса (МДА, H_2O_2, пролин), антиоксидантные ферменты (SOD, CAT, POD/APX), а также общее содержание фенольных соединений, флавоноидов и антиоксидантную активность (DPPH/FRAP). Анализ выхода эфирного масла и, при необходимости, его компонентного состава позволяет оценить потенциал генотипов с точки зрения качества продукции. В статье системно изложены дизайн эксперимента, лабораторные методы, статистические подходы и практические критерии отбора генотипов.*

Ключевые слова: *Ocimum basilicum, Сурхандарья, зарубежный генотип, физиологические показатели, биохимические маркеры, антиоксидантная система, эфирное масло.*

Основная идея и практическая значимость: *Оценка генотипов базилика не только по морфологическим признакам, но и по комплексу «стрессоустойчивость + потенциал биоактивных веществ» является наиболее*

целесообразным подходом для устойчивого выращивания и получения высококачественного сырья в условиях Сурхандарьинской области.

Nurislomova Latofat Fazliddinovna
Lecturer, Department of Natural Sciences
Termez University of Economics and Service
Nurislomova Humo Fazliddinovna
Student, Biology Program
National University of Uzbekistan (UzMU)

DETERMINATION OF PHYSIOLOGICAL AND BIOCHEMICAL CHARACTERISTICS OF FOREIGN GENOTYPES OF OCIMUM BASILICUM UNDER THE CONDITIONS OF SURKHANDARYA REGION

Abstract:*This work presents a research concept aimed at assessing the adaptability of foreign genotypes of the species Ocimum basilicum L. (basil) in the hot and relatively arid agroclimatic conditions of the Surkhandarya region based on physiological and biochemical indicators. In the work, a set of parameters such as growth and development indicators, leaf water status (RWC), pigment system (SPAD, chlorophyll a and b), oxidative stress biomarkers (MDA, H_2O_2, proline), antioxidant enzymes (SOD, CAT, POD/APX), as well as total phenols, flavonoids and antioxidant activity (DPPH/FRAP) are selected for comparative analysis of genotypes. Analysis of essential oil yield and, if necessary, composition helps to determine the potential of genotypes for product quality. This article systematically describes the experimental design, laboratory methods, statistical approaches and practical criteria for selecting genotypes.*

Keywords: *Ocimum basilicum, Surkhandarya, foreign genotype, physiological indicators, biochemical markers, antioxidant system, essential oil.*

Main idea and practical significance: *Evaluating basil genotypes not only by morphological characteristics, but also by the complex of "stress resistance + bioactive substance potential" is the most targeted approach for sustainable cultivation and obtaining high-quality raw materials in Surkhandarya conditions.*

Kirish

Ocimum basilicum L. dorivor-aromatik o'simliklar orasida o'zining efir moyi, xushbo'y fraksiyalari va bioaktiv birikmalarga boyligi tufayli qishloq xo'jaligi hamda qayta ishlash sanoati uchun muhim xomashyo hisoblanadi. Biroq bir xil tur doirasida ham genotiplar ekologik omillarga turlicha reaksiyaga ega bo'lishi mumkin: issiqlik, namlik tanqisligi, kuchli insolyatsiya va tuproq omillari fotosintetik apparat, suv rejimi hamda antioksidant himoya tizimiga bevosita ta'sir qiladi. Surxondaryo sharoitida vegetatsiya davrida yuqori harorat va suv ta'minotidagi mavsumiy notekislik ko'pincha o'simlikda oksidlovchi stress kuchayishiga, pigmentlar parchalanishiga va ikkilamchi metabolitlar sintezining o'zgarishiga olib keladi.[1]

Shu sababli xorijiy genotiplarni hudud sharoitiga moslashtirishda "tez o'lchanadigan fiziologik indikatorlar" (SPAD, RWC) hamda "stress biomarkerlari va bioaktiv modda profili" (MDA, prolin, fenollar, efir moyi)ni birgalikda qo'llash tanlovni ilmiy asosli qiladi. Ushbu maqolada aynan shunday integratsion baholash modeli va uni amaliy tajribada qo'llash uchun metodik asoslar bayon qilinadi.

*OCIMUM BASILICUM L.*NING TAKSONOMIK TASNIFI

Tasodifiy begona o‘simliklar (*casual alien plants, ephemerophytes*) **-** ma’lum bir hududda vaqti-vaqti bilan uchraydigan (ba’zan ko‘payishi ham mumkin), potensial yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan begona o‘simliklar. Ular o‘z-o‘zini almashtiradigan populyatsiyalarni hosil qilmaydi va ularning saqlanib qolishi uchun takroriy introduksiyalarni talab qiladi. Tasodifiy begona o‘simliklarni ta’riflash bilan bog‘liq qiyinchiliklar bo‘lganligi uchun adabiyotlarda barqaror foydalanilgan sinonimlari mavjud emas. De Candolle (1855) “*adventive*” (bu atama hozirda keng ma’noda qo‘llanadi. *adventive = alien*) [11], Thellung (1918/1919) “*Substantaneous*” (bu atamadan mintaqaviy miqyosda yo‘q bo‘lib ketgan va inson faoliyati orqali qayta kiritilgan mahalliy turlar uchun ham qo‘llaniladi) [56], Hickman (1993) “*waifs*” [17], Munz (1968) “*occasional escapes*” [31], Elven & Elvebakk (1996) tomonidan “*ephemeral taxa*” [15] atamalari sinonim sifatida qo‘llangan bo‘lsada, hozirda bu atamalardan tasodifiy turlarni ifodalashda foydalanilmaydi.

Tabiiylashgan o‘simliklar (*naturalized plants, established plants - o‘rnashgan o‘simliklar*) - begona o‘simliklarni mahalliy o‘simlik jamoalariga kirib borib, insonlarni bevosita ishtirokisiz muvaffaqiyatli vegetativ (ildizmeva, piyozbosh, izdizpoya) yoki generativ (urug‘) ko‘payish orqali faol tarqalishi va kamida 10 yil (Flora Europaea (1964-1980) asarida Tutin va boshqalar bu davrni 25 yil uchun qo‘llaydi) [60] davomida o‘z-o‘zini almashtiradigan barqaror populyatsiyalarni saqlab turadigan begona o‘simliklar.

Invaziv o‘simliklar (*bosqinchi o‘simliklar*) - hududga bostirib kirish orqali tabiiy, yarim tabiiy va antropogen yashash joylarida tabiiylashadigan, mahalliy turlar va populyatsiyalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan begona o‘simliklar. Bunday o‘simliklar ko‘p sonli nasl berish orqali o‘z-o‘zini ta’minlaydigan populyatsiyalar hosil qiladi. Invaziv o‘simliklar 50 yildan kamroq vaqt ichida 100 m (faqat urug‘i orqali ko‘paysa) yoki 3 yil ichida 6 m dan (vegatativ organlari: ildiz, stolon, ildizpoya) uzoqroq masofalarga tarqalish imkoniyatiga ega turlar hisoblanadi [10,46]. Invaziv turlar *tabiiylashgan* (*naturalized)* turlarning bir qismini ifodalaydi va hamma tabiiylashgan turlar ham invaziv bo‘lolmaydi. Invaziv deb tasniflanmagan ko‘plab begona (tabiiylashgan) taksonlar kelajakda optimal yashash joylariga yetib borib, moslashuvchan genetik o‘zgarishlarni amalga oshirish orqali invaziv turga aylanishi mumkin.

Agressorlar (*aggressors*) - tabiiy va yarim tabiiy yashash joylarida tarqalishi hamda tabiiylashishi ekotizimlarning sezilarli darajada o‘zgarishiga olib kelmaydigan invaziv turlar. Bunday turlar ekotizimning ko‘rinishini vaqtincha o‘zgartirishi mumkin. Agressorlarning jamoadagi fitosenotik roli *assektatorlarning* (*assektatorlar* - asosiy tur (*dominant* yoki *edifikator* tur) bilan birga o‘sadigan, lekin fitotsenozda yetakchi rol o‘ynamaydigan **o‘simliklar.** *hamroh turlar = assectatorlar*) roliga mos keladi [52].

Transformerlar (*transformers, edificators*) - o‘simlik jamoalariga faol ravishda kirib boradigan, ularning tashqi ko‘rinishi va floristik tarkibini o‘zgartirib, (mahalliy floradagi turlarni siqib chiqaradi yoki qayta tiklanishiga to‘sqinlik qiladi) monodominant jamoalarni hosil qiladigan invaziv turlar. Bu atama Yevropa adabiyotlarida ko‘p ishlatiladigan *edifikator* (*transformer = edificators* - “*environment forming plants*” - “*atrof-muhitni shakllantiruvchi o’simliklar*”) tushunchasiga mos keladi [5,28]. Transformer ekologik atama bo‘lib, har doim ham iqtisodiy zarar keltirmasligi yoki qarshi-kurash choralarini talab qilmasligi mumkin.

Begona o‘tlar (*weeds, pests; harmful species; problem plants; noxious plants*) - tashlandiq hududlarda o‘sadigan, iqtisodiy va ekologik ta’sirga ega bo‘lgan begona o‘simliklar. Bu atamaga antroposentrik (inson manfaatlari va ehtiyojlari hisobga oladigan) jihatdan qaralib, o‘simlik inson maqsadlariga xalaqit bersagina begona o‘t (weed) deb baholanadi. Bu atama odatda “*ekologik begona o‘tlar*” (*environmental weeds*) [20,42] yoki “*ekologik muammoli turlar*” (*species of environmental concern*) [54] atamalari bilan birgalikda tabiiy o‘simlik hududlariga bostirib kiradigan va mahalliy biologik xilma-xillik faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan begona o‘simlik turlari uchun ishlatiladi.

Arxeofitlar (*archaeophytes*) - XV asr oxirigacha (birinchi floristik yozuvlardan oldin) Yevropada (Markaziy Yevropa uchun 1500-yil) [41] paydo bo‘lgan begona o‘simliklar bo‘lib, ularning paydo bo‘lishi dehqonchilikning yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Olimlar tomonidan arxeofitlarlarning kirib kelish vaqti turlicha talqin qilinadi. 1492-yil (Amerikaning kashf etilishi) Yevropa uchun arxeofitlarlar kirib kelish vaqtini belgilovchi (cheklovchi) mezon sifatida qabul qilingan [48]. Ammo bu

mezon barcha hududlarga ta'sir qilmagan, shuning uchun tadqiqot hududiga asosiy ta'sirlarga qarab, har bir aniq mintaqa uchun arxeofitlarni aniqlash uchun alohida vaqt chegarasini taklif qilish tavsiya etiladi. Arxeofitlarni florada paydo bo'lish vaqtinining chegasi Rossiya (Yevropa qismi) uchun XVI asrning oxiri, O'rta Ural, Trans-Ural va Sibir uchun XVII asr sifatida belgilanadi [4].

Neofitlar (*neophytes, кенофиты*) - XVI asrdan (XV asrning oxiri, ya'ni 1492-yil, Amerika kashf etilgan yil) hozirgi kungacha Yevropa hududida paydo bo'lgan begona o'simliklar [48]. "*Neophytes*" atamasi birinchi marta 1927-yilda H.Walter tomonidan ishlatilgan. Har bir mintaqa uchun neofit o'simliklarni kirib kelishining boshlang'ich vaqti farq qilganligi sababli Rossiya (Yevropa qismi) uchun XVI asrning oxiri, O'rta Ural, Trans-Ural va Sibir uchun XVII asr sifatida belgilanadi [4].

Euneofitlar (*euneophytes, эукенофиты, эвкенофиты-eukeneofitlar*) - XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa hududida paydo bo'lgan begona o'simliklar. Ularning kelib chiqishi transport infratuzilmasining keng rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bugungi kunda ham paydo bo'lishda davom etmoqda. Euneofitlarning florada paydo bo'lish vaqti asta-sekin eskirganligi, shu tufayli turlarning holatini muntazam ravishda qayta baholash zaruriyatining mavjudligi uchun begona florani tahlil qilishda euneofitlarni alohida toifa sifatida ajratib ko'rsatish tavsiya qilinmaydi.

Ksenofit (*xenophyte, ксенофит*) - inson faoliyati natijasida tabiiy kelib chiqish hududidan yangi hududlarga bexosdan yoki tasodifan tarqalgan begona o'simliklar. Ksenofit atamasi yunoncha "*xénos*" (begona) va "*phýton*" (o'simlik) so'zlaridan olingan bo'lib, "*begona o'simlik*" degan ma'noni bildiradi. J.Holub va V.Jiraseklar (1967) tomonidan ksenofit o'simliklar arxeofit va neofit (*efemerofitlar = ephemerophytes, epekofitlar = epekophytes, neoindigenofitlar = neoindigenophytes*) o'simliklarga ajratilgan [18].

Ksenoergasiofigofit (*xenoergasiophygophyte, ксеноэргазиофигофит*) - insonlarning iqtisodiy faoliyati natijasida boshqa mintaqalarda madaniylashtirilgan o'simliklarni tasodifan yoki qasddan meva yoki urug' holatida kirib kelgan begona o'simliklar. Ba'zi hollarda ksenoergasiofigofitlarni madaniy o'simliklardan chiqib qayta yovvoyilashgan, inson ishtirokisiz mustaqil tarqaladigan o'simlik sifatida ta'riflanadi. Ksenoergasiofigofit atamasi yunoncha "*xénos*" (begona), "*ergásia*" (ish, amal), "*phýgas*" (surgun qilingan, quvg'in qilingan) va "*phýton*" (o'simlik) so'zlaridan olingan. Turli adabiyotlarda bu atama o'rniga "ksenoergasiofit" (*xenoergasiophyte*) atamasi qo'llaniladi [6,33].

Ksenoergasiofitlar (*xenoergasiophyte, ксеноэргазиофит*) - insonlarning iqtisodiy faoliyati natijasida boshqa mintaqalarda madaniylashtirilgan o'simliklarni tasodifan yoki qasddan meva yoki urug' holatda kirib kelgan, madaniy o'simliklardan chiqib qayta yovvoyilashmagan (yovvoyilashuv imkoniyatiga ega) begona o'simliklar. Ksenoergasiofit atamasi yunoncha "*xénos*" (begona), "*ergásia*" (ish, amal) va "phýton" (*o'simlik*) so'zlaridan olingan. Bu atama "*ergasiofit*" (*ergasiophyte*) tushunchasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'simlik turlarining hududiy kelib chiqishi bilan farq qiladi. Olib borilayotgan tadqiqotning ko'lami va maqsadiga qarab har bir madaniylashtirilgan turni har qanday hududda ergasiofit yoki ksenoergasiofit sifatida tasniflash mumkinligi uchun atamani aniq izohlab bo'lmaydi. Bu holat qo'shimcha chalkashliklarni keltirib chiqarishi sababli ko'p hollarda atamadan foydalanish tavsiya etilmaydi. Ba'zan "*ksenoergaziofit*" atamasi "*ksenoergaziofigofit*" atamasi bilan bir-birining o'rnida ishlatiladi [6,33].

Ergaziofit (*ergasiophyte, эргазиофит*) - ma'lum bir mintaqaga insonlar tomonidan kiritilib madaniylashtirilgan o'simliklar. Ergasiofit atamasi yunoncha "*ergásia*" (ish, amal) va "*phýton*" (o'simlik) so'zlaridan olingan. Bu atama birinchi marta A.Tellung (1918-1919) tomonidan ishlatilgan bo'lib, odamlar tomonidan yangi yashash joylarida (bog'lar, dalalar) yetishtiriladigan va saqlanadigan o'simliklar sifatida ta'riflagan [56]. Ayrim rus tadqiqotchilari [27,34,51,53] tomonidan ergasiofitlarni madaniy o'simliklardan chiqib qayta yovvoyilashgan va tabiiy va antropogen jamoalarda tarqaladigan o'simlik sifatida ta'riflansa ham, A.Thellung tomonidan bunday o'simliklar uchun alohida ergasiofigofit (*ergasiophygophyte*) atamasini ham yaratilgan [56].

Ergasiofigofit (*ergasiophygophyte, эргазиофигофит*) - ma'lum bir hududda qasddan o'stiriladigan, madaniy ekin maydonlaridan chiqib, qayta yovvoyilashib, mustaqil ravishda tarqaladigan o'simliklar. Ergasiofigofit atamasi yunoncha "*ergásia*" (ish, amal), "*phýgas*" (surgun qilingan, quvg'in qilingan) va "*phýton*" (o'simlik) so'zlaridan olingan. Bu atama birinchi marta A.Thellung tomonidan bioekologik xususiyatlari tufayli madaniy ekin maydonlaridan chiqib, qayta yovvoyilashgan o'simliklar uchun iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq yangi yashash joylarini egallashga qodir bo'lgan ergasiofitlarning (*ergasiophyte, эргазиофит*) bir qismini belgilash uchun ishlatilgan [56].

Ergasiolipofit (*ergasiolipophyte, эргазиолипофит*) - ma'lum bir mintaqada qasddan o'stiriladigan, inson aralashuvisiz avvalgi yetishtirish hududlarida relikt, klonlar yoki populyatsiyalar sifatida saqlanib qoladigan, yangi yashash joylariga tarqalmaydigan o'simliklar. Ergasiolipofit atamasi yunoncha "*ergásia*" (ish, amal), "*lýpos*" (qoldiq) va "*phýton*" (o'simlik) so'zlaridan olingan bo'lib, A.Thellung tomonidan fanga kiritilgan [56].

Agriofitlar (*agriophytes, агриофиты*) - mahalliy o'simlik jamoalari orasida inson ta'siri to'xtagandan keyin tarqaladigan yoki tabiiylashadigan raqobatbardosh begona o'simliklar [21,48].

Epoekofit (*epyecophyte, эпёкофит*) - antropogen ta'sirlar tufayli o'zgargan yashash hududlarida tabiiylashgan [47,55] va hudud bo'ylab faol ravishda tarqalayotgan begona o'simliklar. A.Thellung (1905) ma'lumotlariga ko'ra, epoekofitlar

ikkilamchi yashash hududlarida uchraydigan, mahalliy o‘simliklar bilan muvaffaqiyatli raqobatlasha olmaydigan introduksiya qilingan turlar. Bunday o‘simliklarni introduksiya qilingan hududlarda saqlanib qolish vaqti iqtisodiy faoliyatning davomiyligiga bog‘liq bo‘lib, insonlarning iqtisodiy faoliyati to‘xtashi bilan yo‘qolib ketadi [55].

Efemerofitlar (*ephemerophytes, эфемерофиты*) - antropogen va yarim tabiiy yashash hududlarida vaqtincha (bir yoki bir necha yil) mavjud bo‘ladigan va barqaror populyatsiya hosil qilmaydigan begona o‘simliklar. D.M.Richardson va boshqalarning (2011) fikriga ko‘ra, efemerofitlar yangi mintaqada o‘zini-o‘zini ta’minlaydigan populyatsiyalar hosil qilmaydigan tasodifiy begona o‘simliklar sifatida tasniflanadi. Bunday turlar vaqti-vaqti bilan gullashi va ko‘payishi mumkin bo‘lsada, ularning saqlanib qolishi muntazam introduksiyalarga bog‘liq [10].

Zanos (*unintentional introduction, занос*) - o‘simliklarning o‘zining tabiiy yashash hududidan tashqarida joylashgan va iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan hududga tarqalishi. Bu atama *introduksiya* (madsadli ravishda kiritiladi) atamasidan farq qilib, o‘simliklarning begona hududlarga kirib borishi tasodifan sodir bo‘ladi.

2-jadval.

Markaziy Yevropa (Holub & Jirásek, 1967) va global tasniflash sxemasi (Richardson & boshqalar, 2000) asosida begona o‘simliklar terminologiyasini taqqoslanishi hamda o‘zbek tilidagi talqini. Holub & Jirásek (1967) tomonidan tasniflash uchun qo‘llanilgan mezonlar: **T** = time of immigration - kirib kelish vaqti; **M** = means of introduction - introduksiya usullari; **H** = type of encountered habitat - duch kelgan yashash muhiti.

Holub & Jirásek (1967)	**Kriteriya**	**Richardson & al. (2000)**	**O‘zbek tilidagi talqini**
Anthropophyte		**Alien**	**Begona** o‘simlik
I. Hemerophytes	M	Intentionally introduced **alien**	Maqsadli (qasddan) introduksiya qilingan **begona o‘simlik**
1. Ergasiophytes	MH	**Cultivated alien**	Madaniylashtirilgan **begona** o‘simlik
2. Ergasiophygophytes	MH	Intentionally introduced **casual alien**	Maqsadli (qasddan) introduksiya qilingan **tasodifiy begona** o‘sıımlik
3. Ergasiolipophytes	MH	Intentionally introduced **naturalized** or **invasive alien**	Maqsadli (qasddan) introduksiya natijasida **tabiiylashgan** yoki **invasiv begona** o‘simlik
II. Xenophytes	M	Unintentionally introduced **alien**	Maqsadsiz (tasodifan) introduksiya qilingan **begona** o‘simlik
1. Archaeophytes	MT	**Alien** introduced before 1500	1500-yildan avval introduksiya qilingan **begona** o‘simliklar
2. Neophytes	MT	**Alien** introduced after 1500	1500-yildan keyin introduksiya qilingan **begona** o‘simliklar
a. Ephemerophytes	MTH	**Casual alien** introduced after 1500	1500-yildan keyin introduksiya qilingan **tasodifiy begona** o‘simliklar
b. Epekophytes	MTH	**Naturalized** or **invasive alien** introduced after 1500, in human-made habitats	1500-yildan keyin introduksiya qilingan **tabiiylashlagan** yoki **invasiv begona** o‘simliklar (inson tomonidan yaratilgan yashash hududlar)
c. Neoindigenophytes	MTH	**Naturalized** or **invasive alien** introduced after 1500, in seminatural and/or natural habitats	1500-yildan keyin introduksiya qilingan **tabiiylashlagan** yoki **invasiv begona** o‘simliklar (yarim tabiiy va/yoki tabiiy yashash hududlar)

Muhokama va xulosalar

Biologik bosqinchilikni tavsiflash bilan bog‘liq asosiy muammolardan biri begona turlarning tabiiy kelib chiqish hududining noaniqligi hisoblanib, bu muammo turlarning mahalliy yoki begona ekanligini aniqlash zaruriyatini taqazo qiladi. Begona turlarning geografik kelib chiqishini aniqlash ular bilan bog‘liq terminologiyalarni qo‘llash uchun asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Geografik kelib chiqishni belgilashda siyosiy chegaralar ideal asos bo‘lolmaydi, chunki ular o‘simliklarning kirib kelishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan biologik va ekologik to‘siqlarga mos kelmaydi [46]. Begona o‘simlik sifatida baholangan turlar uchun keyingi muhim mezon turning yashash holati bilan bog‘liq bo‘lib, bu holatda turning dastlabki qayd etilish vaqti va hozirgi holatining tahlili baholash uchun asos bo‘ladi [37,61]. Odatda ko‘plab tasodifiy begona turlar bir muncha vaqt o‘tgach yo‘qolib ketadi va ba‘zi floralar ularni hali ham mavjud deb hisoblaydi. Bu holat begona turlar miqdorining sun’iy ko‘paytirib yuborish bilan bog‘liq muammoni yuzaga chiqaradi [36].

Bundan tashqari, yuzaga keladigan chalkashliklar terminologiyalar uchun foydalaniladigan til bilan bog‘liq bo‘lib, Markaziy Yevropada begona o‘simliklar tasniflashda foydalaniladigan atamalarning hozirgi tadqiqotchilar tomonidan kengroq qabul qilinmaganligiga yunon tilidan (O‘zbekiston hududi uchun yunon va ingliz tillari) olingan murakkab terminologiyalardan foydalanilganligi asosiy sabab sifatida ko‘riladi [35,46].

Yuqoridagi muammolar tufayli begona turlarni baholashda ko‘plab chalkashliklar kelib chiqadi. Bunday muammolarni oldini olish uchun begona turlar barcha mezonlarga aniq javob bersagina baholash o‘tkazilishi kerak. Turlar haqida ma‘lumot yo‘q yoki turlarning holati to‘g‘risidagi dalillar aniq bo‘lmasa, begona turlarni noto‘g‘ri baholanishi oldini olish uchun noaniqlik ko‘rsatib ketilishi kerak.

Mazkur tadqiqot “Bioxilma-xilligi xavf ostidagi hudud sifatida Farg‘ona vodiysi florasining raqamli platformasini ishlab chiqish” loyihasi doirasida bajarilgan (Loyiha raqami: AL-9224104319).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Balick, M. J., Nee, M. H. & Atha, D. E. 2000. Checklist of the Vascular Plants of Belize. New York Botanical Garden Press, New York.

2. Baranova O.G., Bralgina E.N. Invasive plants in the flora of Udmurt Republic. Bulletin of Udmurt University. Sea. Cep. Биология. Науки о Земле, 2015, т. 25, вып. 2, с. 31–36.

3. Баранова О.Г., Бралгина Е.Н. Анализ инвазионного компонента адвентивной фракции флоры Удмуртской Республики. Чёрная книга флоры Удмуртской Республики / отв. ред. О.Г. Баранова. М.; Ижевск: Ин-т компьютерных исследований, 2016, с. 10–15.

4. Баранова О.Г., Щербаков А.В., Сенатор С.А., Панасенко Н.Н., Сагалаев В.А., Саксонов С.В. Основные термины и понятия, используемые при изучении чужеродной и синантропной флоры // Phytodiversity of Eastern Europe, 2018, XII (4). – P. 4–22.

5. Braun-Blanquet, J. & Pavillard, J. 1922. Vocabulaire de Sociologie Végétale. Imp. Lemaire-Ardres, Montpellier.

6. Виноградова Ю.К., Майоров С.Р., Хорун Л.В. Чёрная книга флоры Средней России: чужеродные виды растений в экосистемах Средней России. М.: ГЕОС, 2010, 512 с.

7. Crawley, M. J., Harvey, P. H. & Purvis, A. 1996. Comparative ecology of the native and alien floras of the British Isles. Phil. Trans. R. Soc. B 351: 1251–1259.

8. Daehler, C. C. 1998. The taxonomic distribution of invasive angiosperm plants: ecological insights and comparison to agricultural weeds. Biol. Conserv. 84: 167-180.

9. Darwin, C. 1859. On the Origin of Species. Murray, London.

10. David M. Richardson , Petr Pyšek and James T. Carlton. A Compendium of Essential Concepts and Terminology In Invasion Ecology. 2011 by Blackwell Publishing Ltd.

11. De Candolle, A. P. 1855. Géographie Botanique Raisonné, vol. 2. V. Masson, Paris.

12. Dubs, B. 1998. Prodromus Florae Matogrossensis. Betronas Verlag, Küsnacht, Switzerland.

13. Drake, J. A., Mooney, H. A., di Castri F., Groves R. H., Kruger F. J., Rejmánek, M. & Williamson, M. (eds.). 1989. Biological Invasions: A Global Perspective. John Wiley & Sons, Chichester.

14. Esanov H.K., Usmonov M.X. Two Alien Species of Asteraceae New to Uzbekistan (Bukhara Oasis) // Turczaninowia, 2018. – V. 21(4). – P. 175-180.

15. Elven, R. & Elvebakk, A. 1996. Part 1. Vascular plants. In: Elvebakk, A. & Prestrud, P. (eds.), A Catalogue of Svalbard Plants, Fungi, Algae, and Cyanobacteria. Norsk Polarinstitut Skrifter 198: 9–55.

16. Goodwin, B. J., McAllister, A. J. & Fahrig, J. 1999. redicting invasiveness of plant species based on biological information. Conserv. Biol. 13: 422–426.

17. Hickman, J. C. (ed.). 1993. The Jepson Manual. Univ. California Press, Berkeley.

18. Holub, J. & Jirásek, V. 1967. Zur Vereinheitlichung der Terminologie in der Phytogeographie. Folia Geobot. Phytotax. 2: 69–113.

20. Humphries, S. E., Groves, R. H. & Mitchell, D. S. 1991. Plant invasions of Australian ecosystems. Kowari 2: 1–134.

21. Kamyshev N.S. On the classification of anthropochores. Botanical Journ., 1959, vol. 44, no. 11, pp. 1613-1616. (in Russian)

22. Kress, W. J., DeFilipps, R. A., Farr, E. & Daw Yin Yin Kyi. 2003. A checklist of the trees, shrubs, herbs, and climbers of Myanmar. Contr. U.S. Natl. Herb. 45: 1-590.

23. Lonsdale, W. M. 1999. Global patterns of plant invasions and the concept of invasibility. Ecology 80: 1522–1536.

24. Maxkamov T.X. "O'zbekiston invaziv florasi: zamonaviy holati, ayrim turlarining bioekologik hususiyatlari va ularga qarshi kurash usullari". Dissertatsiya. Biologiya, DSc., Toshkent-2024.

25. McCauley, R. A. & Ballard, H. E. 2002. Inferring nativity and biogeographic affinities of central and marginal populations of Froelichia floridana (*Amaranthaceae*) from InterSimple Sequence Repeat (ISSR) markers. J. Torrey Bot. Club 129: 311–325.

26. McNeely, J. A., Mooney, H. A., Neville, L. E., Schei, P. J. & Waage, J. K. (eds.). 2001. Global Strategy on Invasive Alien Species. IUCN, Gland.

27. Merzliakova I.E. The ratio of synanthropic elements in the flora of Tomsk town. Botanical Journ., 2001, vol. 86, no. 11, pp. 94–98. (in Russian).

28. Миркин, Б. М. & Наумова, *Л*. Г. 1998. Наука о Растителности. Гилем, Уфа.

29. Mooney, H. A. 1999. A global strategy for dealing with alien invasive species. Pp. 407–418 in: Sandlund, O. T., Schei, P. J. & Viken, A. (eds.), Invasive Species and Biodiversity Management. Kluwer Academic Publishers, Dordrecht.

30. Mooney, H. A. & Hobbs, R. J. 2000. Invasive Species in a Changing World. Island Press, Washington, D.C.

31. Munz, P. A. 1968. A California Flora and Supplement. Univ. California Press, Berkeley.

32. Neuffer, B. & Linde, M. 1999. Capsella bursa-pastoris: colonization and adaptation: a globe-trotter conquers the world. Pp. 49–72 in: van Raamsdonk, L. W. D. & den Nijs, J. M. C. (eds.), Plant Evolution in Man-made Habitats. Proceedings of the VIIth International IOPB Symposium. Hugo de Vries Laboratory, Amsterdam.

33. Palkina T.A. Anthropophytes of flower beds and their role in biodiversity in Ryazan region. Modern problems of the humanities and natural sciences: Proceedings of the International scientific-practical conference (Proceedings of Ryazan Institute of management and law. Issue 15). Ryazan, 2012, pp. 406–409.

34. Panasenko N.N. Flora of vascular plants of Bryansk town. Botanical Journ., 2003, vol. 88, no. 7, pp. 45–52. (in Russian).

35. Pyšek, P. 1995. Recent trends in studies on plant invasions (1974–93). Pp. 223–236 in: Pyšek, P., Prach, K., Rejmánek, M. & Wade, M. (eds.), Plant Invasions: General Aspects and Special Problems. SPB Academic Publishing, Amsterdam.

36. Pyšek, P., Sádlo, J. & Mandák, B. 2002b. Catalogue of alien plants of the Czech Republic. Preslia 74: 97–186.

37. Pyšek, P., Sádlo, J., Mandák, B. & Jarošík, V. 2003. Czech alien flora and a historical pattern of its formation: what came first to Central Europe? Oecologia 135: 122–130.

38. Petr Pyšek, David M. Richardson, Marcel Rejmánek, Grady L. Webster, Mark Williamson & Jan Kirschner. 2004. Alien plants in checklists and floras: towards better communication between taxonomists and ecologist. Taxon 53 (1) February 2004: 131–143.

39. Prach, K. & Wade, M. 1992. Population characteristics of expansive perennial herbs. Preslia 64: 45–51.

40. Preston, C. D. 1986. An additional criterion for assessing native status. Watsonia 16: 83.

41. Preston, C. D., Pearman, D. A. & Dines, T. D. 2002. New Atlas of the British and Irish flora. Oxford Univ. Press, Oxford.

42. Randall, J. M. 1997. Defining weeds of natural areas. Pp. 18–25 in: Luken, J. O. & Thieret, J. W. (eds.), Assessment and Management of Plant Invasions. Springer, New York.

43. Randall, R. P. 2002. A Global Compendium of Weeds. R. G. & F. J. Richardson, Melbourne

44. Rejmánek, M. 1995. What makes a species invasive? Pp. 3–13 in: Pyšek, P., Prach, K., Rejmánek, M. & Wade, M. (eds.), Plant Invasions: General Aspects and Special Problems. SPB Academic Publishing, Amsterdam.

45. Rejmánek, M. 1996. Species richness and resistance to invasions. Pp. 153–72 in: Orians, G. H., Dirzo, R. & Cushman, J. H. (eds.), Diversity and Processes in Tropical Forest Ecosystems. Springer Verlag, Berlin.

46. Richardson, D. M., Pyšek, P., Rejmánek, M., Barbour, M. G., Panetta, F. D. & West, C. J. 2000. Naturalization and invasion of alien plants: concepts and definitions. Diversity Distrib. 6: 93–107.

47. Rodionov B.S., Chichev A.V. Environmental assessment of the territory by vegetation cover: textbook. Moscow, 2014, 76 p.

48. Schroeder, F. G. 1969. Zur Klassifizierung der Anthropochoren. Vegetatio 16: 225–238.

49. Sennikov AN, Tojibaev KSh, Beshko NYu, Esanov HK, Jenna Wong L, Pagad S (2020). Global Register of Introduced and Invasive Species – Uzbekistan. Version 1.5. Invasive Species Specialist Group ISSG. Checklist dataset, https://doi.org/10.15468/m5vdwk.

50. Smith, P. M. 1986. Native or introduced? Problems in the taxonomy and plant geography of some widely introduced annual brome-grasses. Proc. Royal Soc. Edinburgh 89B: 273–281.

51. Соколова И.Г. Адвентивная флора г. Пскова. Псковск. регионологич. журн., 2006, № 2, с. 126–131

52. Sukachev V.N. Plant community: Introduction to phytosociology. 4th ed. Moscow; Leningrad, 1928, 232 p. (in Russian).

53. Суткин А.В. Анализ флоры города Улан-Удэ. Бот. журн., 2006, т. 91, № 12, с. 1848–1857.

54. Space, J. C., Waterhouse, B. M., Miles, J. E., Tiobech, J. & Rengulbai, K. 2003. Report to the Republic of Palau on Invasive Plant Species of Environmental Concern. U.S.D.A. Forest Service, Pacific Southwest Research Station, Institute of Pacific Islands Forestry, Honolulu

55. Thellung, A. 1905. Einteilung der Ruderal-und Adventiv flora in genetische Gruppen. In: Naegeli, O. & Thellung, A. (eds.), Die Flora des Kanton Zürich, 1. Teil. Die Ruderalund Adventivflora des Kanton Zürich. Vjschr. Naturforsch. Ges. Kanton Zürich 50: 232–236.

56. Thellung, A. 1918–1919. Zur Terminologie der Adventiv- und Ruderalfloristik. Allg. Bot. Zeitschr. 24/25: 36–42.

57. Tojibaev K.Sh., H.K. Esanov (2021). Current state of study of invasive Species of Uzbekistan. Biological Research. 2021/8 (60) 5-15.

58. Walter H. Einfuhrung in die allgemeine Pflanzengeographie Deutschlands. Jena, 1927. 458 pp.

59. Weber, E. F. 1997. The alien flora of Europe: a taxonomic and biogeographic overview. J. Veget. Sci. 8: 565–572.

60. Tutin, T. G., Heywood, V. H., Burges, N. A., Moore, D. M., Valentine, D. H.,

Walters, S. M. & Webb, D. A. (eds.). 1964–1980. Flora Europaea, vols. 1–5. Cambridge Univ. Press, Cambridge.

61. Wu, S.-H., Chaw, S. & Rejmánek, M. 2003. Naturalized *Fabaceae* (*Leguminosae*) species in Taiwan: the first approximation. Bot. Bull. Acad. Sci. Sin. 44: 59–66.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Tojimahammadov Azizbek Shuhratjon o'g'li
Nurmatov Doston Muzaffar og'li
University of Business and Science
tojimahammadovazizbek1501@gmail.com

OXYTROPIS SCHACHIMARDANICA FILIM. TURINING BIOIQLIMIY MODELINI YARATISH

Annotatsiya: *Turlarning tarqalishini modellashtirish (SDM) noyob turlar uchun qulay yashash joylarini bashorat qilishda kuchli vositadir. Ushbu tadqiqotda MaxEnt algoritmidan foydalanib, Farg'ona vodiysining noyob endemi bo'lgan Oxytropis schachimardanica Filim.ning potensial tarqalishi modellashtirildi. WorldClim ma'lumotlar bazasidan 19 ta bioiqlimiy o'zgaruvchilar predistor sifatida ishlatildi. Model yuqori aniqlikni ko'rsatdi (AUC > 0.9). Natijalar Oloy tizmasida potensial qulay yashash joylari mavjudligini ko'rsatadi va kelajakdagi iqlim o'zgarishi ssenariylari uning arealini o'zgartirishi mumkinligini taxmin qiladi. Ushbu topilmalar introduksiya va muhofaza strategiyalarini rejalashtirish uchun muhimdir.*

Kalit so'zlar: *Oxytropis schachimardanica F., Farg'ona vodiysi, WorldClim, MaxEnt modeli, Oloy tizmasi, GBIF, Qizil kitob.*

Tojimahammadov Azizbek Shuhratjon ugli
Nurmatov Doston Muzaffar ugli
University of Business and Science

OXYTROPIS SCHACHIMARDANICA FILIM. CREATING A BIOCLIMATIC MODEL OF THE SPECIES

Abstract: *Species Distribution Modeling (SDM) is a powerful tool for predicting suitable habitats for rare species. This study models the potential distribution of Oxytropis schachimardanica Filim., a rare endemic of the Fergana Valley, using the MaxEnt algorithm. Nineteen bioclimatic variables from WorldClim were used as predictors. The model demonstrated high accuracy (AUC > 0.9). The results indicate potential suitable habitats in the Alay range and suggest that future climate change scenarios may shift its range. These findings are vital for planning introduction and conservation strategies.*

Key words: *Oxytropis schachimardanica F., Fergana Valley, WorldClim, model of MaxEnt, Alay Range, GBIF, Red Data Book.*

Тожимахаммадов Азизбек Шухратжон огли
Нурматов Достон Музаффар огли
University of Business and Science

OXYTROPIS SCHACHIMARDANICA FILIM. СОЗДАНИЕ БИОКЛИМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ВИДА

Аннотация: *Моделирование распространения видов (SDM) является мощным инструментом для прогнозирования подходящих мест обитания редких видов. В данном исследовании с использованием алгоритма MaxEnt моделируется потенциальное распространение Oxytropis schachimardanica Filim., редкого эндемика Ферганской долины. В качестве предикторов использовались 19 биоклиматических переменных WorldClim. Модель показала высокую точность (AUC> 0.9). Результаты указывают на потенциальные подходящие места обитания на Алайском хребте и предполагают, что будущие сценарии изменения климата могут сместить его ареал. Эти данные важны для планирования стратегий интродукции и сохранения.*

Ключевые слова: *Oxytropis schachimardanica F., Ферганская долина, WorldClim, модель в MaxEnt, Алайский хребет, GBIF, Красная книга.*

Haroratning oshishi o'simliklar va hayvonlarning ikkita asosiy jihatiga ta'sir qiladi - ularning tarqalish diapazoni va fenologiyasi. Haroratning oshishi bilan turlar yangi geografik mintaqalarga ko'chib o'tadi, bu ularni qo'llab-quvvatlovchi muhit va ekotizimlarda o'zgarishlarga olib keladi. Ushbu siljish bevosita turlar yashaydigan ekotizimlarning

yashash joylari va umumiy muvozanatiga ta’sir qiladi. Bundan tashqari, iqlimning isishi gullash, migratsiya va qish uyqusi kabi muhim hayot sikllarga ta’sir qiladi. Fenologik hodisalardagi bu o‘zgarishlar turlarning o‘zaro ta’siri va ekologik jarayonlarning sinxronlashuviga sezilarli ta’sir ko'rsatadi. Tabiiy muhitda harorat ko‘tarilgach, turlar o‘zlarining yashashi uchun qulayroq sharoitlarni, shu jumladan tegishli harorat va boshqa qulay muhitni qidirib, balandliklar va kengliklarga ko‘chib o'tishadi. Iqlim tez o‘zgarib borish fonida, ko‘plab turlar yo‘q bo‘lib ketish xavfi bilan kurashmoqdalar.

Olimlarning fikricha, o‘rmon yong‘inlari oqibatida atmosferaga chiqayotgan CO_2 sanoat chiqindilarining 50% ga teng ekan. Havoga ko‘tarilgan tutun atmosferaning yuqori qatlamida kuyindi zarralarini ko‘paytiradi. Oqibatda, sayyoraga quyoshdan kelayotgan issiqlik energiyasi qaytadan koinotga yoyilish o‘rniga, yerning o‘zida qolib, “Issiqxona effekti”ni keltirib chiqarmoqda (3.1-rasm).

Inson o‘z faoliyati bilan yer yuzidagi muzliklarga tuzatib bo‘lmas zarar yetkazmoqda. Olimlar Shimoliy qutb, Arktikadagi muzliklar kelgusi 40-50 yil mobaynida butunlay erib ketib, ummon sathi 7 metrga qadar ko‘tarilib ketishi mumkinligi haqida ogohlantirmoqdalar.

Atmosfera va yer yuza qismi o‘rtasida doimiy namlik almashuvi yuz beradi. Suv yuzasi, tuproq, o‘simliklardan atmosferaga suv bug‘lanadi. Real sharoitlarda atmosferada suv bug‘i kondensatsiyalanadi, buning oqibatida tuman va bulut paydo bo‘ladi. Bulutlardan paydo bo‘ladigan yog‘ingarchiliklar butun yer shari uchun bug‘lanishni tenglashtiradi. Yog‘ingarchiliklar soni va ularning tarqalishi dehqonchilik va o‘simliklar dunyosining asosini tashkil etadi. Yog‘ingarchiliklar soni bo‘linishi, ularning o‘zgaruvchanligi suv havzalarining gidrologik tartibiga bog‘liq.

Issiqlikning atmosferada noto‘g‘ri taqsimlanishi atmosfera bosmining beqarorlanishiga sabab bo’ldi va havo harakatini izdan chiqaradi. Olimlarning fikriga ko‘ra, iqlim o‘zgarishi ko‘proq insoniyatning o‘z faoliyati davomida atmosferaga tobora ko‘p parnik gazlarini chiqarishi tufayli yuz beradi va bu bilan yer kurrasining isib ketishiga sabab bo‘ladi. Zavodlar atmosferaga katta hajmdagi karbonat angdrid gazini chiqarib yubormoqda. Atmosfera huddi issiqxona oyna devorlari tarzida ishlaydi: ko‘rinib turgan nurni kiritadi va ichidagi infraqizil nurni saqlab qoladi. Bir tomondan, parnik gazlari ko‘plab qaytgan quyosh nurlarini ushlab kolishga yordam beradi va bu bilan yerdagi hayot uchun eng maqbul bo‘lgan haroratni saqlab turadi. Bu gazlarsiz sayyoramizdagi o‘rtacha harorat hozirgidagidek 15C issiq emas, balki -18C sovuq bo‘lgan bo‘lar edi.

XXI asrda insoniyat oldida turgan eng muhim muammolardan biri – inson faoliyati natijasidagi zamonaviy iqlim o‘zgarishi muammosidir. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bugungi kunda iqlim o‘zgarishi misli ko‘rilmagan ekstremal ob-havo hodisalari tufayli butun dunyoni tashvishga solmoqda. Jumladan, o‘tgan asrda o‘rtacha harorat 0.85°C ga ko‘tarilgan bo‘lsa, 2100-yilga kelib maksimal harorat 8°C gacha ko‘tarilishi prognoz qilingan. Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo ponelning (IPCC) beshinchi baholash hisobotiga ko‘ra esa XXI asrning oxiriga kelib global o‘rtacha harorat Representative Concentration yo‘llari (RCPs) ssenariysi bo‘yicha 3.7 °C ortishi ta’kidlangan.

Iqlim o‘zgarishi turlar arealiga ta’sir qiluvchi atrof-muhitning asosiy omillaridan biri sifatida ekologik hodisalarga, jumladan, turlar qaynoq nuqtalarining mintaqaviy tarqalishi va fenologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Olimlar tomonidan harorat va yog‘ingarchilik omillariga sezgir turlarni kelajakda yo‘qolib ketishi global haroratning ortishi va inson faoliyati ta’siri bilan tezlashishi, potensal tarqalish maydonining o‘zgarishi ta’kidlangan. Mazkur ekologik omillar hamma turlarga ham birday salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi, biroq iqlim omillariga sezgir, geografik izolyatsiyalangan, repraduktiv potensiali past endem va kamyob turlarni saqlab qolish uchun qat’iy chora-tadbirlar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo o‘zining fizik-geografiyasiga ko‘ra mo‘tadil cho‘l va chala cho‘llarga ega bo‘lganligi sababli, ayniqsa, zaif mintaqa hisoblanadi. Atrof-muhit global iqlim o‘zgarishiga juda sezgir va u ob-havoning o‘zgarishiga ayniqsa zaifdir. Ayniqsa, bu hududdagi suv resurslari biologik xilma-xillikning barqaror rivojlanishining asosiy omillari hisoblanadi. Bu hududda suv bug‘ining kam kontsentratsiyasi mavjud va Markaziy Osiyoda suv resurslarining taqsimlanishi juda notekis. Meteorologik ma’lumotlar Markaziy Osiyo bo‘ylab havo haroratining ortib borayotganini, mintaqaviy iqlim o‘zgarishi ssenariylari esa keyingi 20–40 yil ichida harorat 1°C–3°C ga oshishini ko‘rsatdi. Agar global issiqxona gazlari emissiyasi kamaytirilmasa, asr ohiriga kelib haroratlar bugungi ko‘rsatkichdan 3°C dan 6°C gacha ko‘tarilishi prognoz qilinmoqda. Biologik xilma-xillik uchun muhim yashash muhitiga qaramay, u o‘simliklar xilma-xilligi va ayniqsa, endemizmning asosiy markazlaridan biri hisoblanadi va yuksak o‘simliklarning 10 mingga yaqin turini ifodalaydi.

So‘nggi yillarda tabiiy dorivor o‘simlikka bo‘lgan talabning ortishi va iqlim o‘zgarishi o‘simlik zahiralarining qisqarishiga olib keldi. Shu sababli dunyoda dorivor o‘simliklarning tur tarkibini aniqlash, biologik hususiyatlarini o‘rganish, tabiiy resurslarni aniqlash va bioiqlim modellashtirish, tashqi ta’sirlar natijasida populyatsiyalar o‘zgarishini ilmiy asoslashga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘simlikning geofazoviy ma’lumotlarini yig‘ish. Atrof-muhit o‘zgaruvchilari bilan aloqani o‘rnatish uchun yetarli GPS nuqtalari mavjudligini ta’minlash maqsadida turning joylashuv ma’lumotlari Gerbariy namunalaridagi o‘sish nuqtalarini aks ettiruvchi geografik koordinatalari *Google Earth Pro* 7.1 dasturi yordamida, tadqiqot hududini tabiiy

landshafti va aniqlangan turlarning joylashuv koordinatlari GPS navigator yordamida aniqlandi. Geofazoviy ma'lumotlar ArcGIS 10.6.1 dasturi yordamida tarqalishini ifodalovchi bioiqlimiy modellashtirish xaritalari tayyorlandi.


Iqlim ma'lumotlari. WorldClim v2.1 ma'lumotlar bazasidan yuklab olindi. Ulardan olinishi mumkin bo'lgan iqlim ma'lumotlari, oylik harorat va yog'ingarchilikdan iborat 19 ta (Bio1-Bio19) bioiqlim o'zgaruvchisini o'z ichiga oladi. Ular yillik tendensiyalar, mavsumiylik, ekstremal yoki cheklovchi ekologik omillarni ifodalaydi. Bioiqlim omillariga qo'shimcha ravishda edafik omillar (balandlik) ko'rsatkichlari ham kiritildi. MaxEnt dasturi orqali turlarning tarqalishini modellashtirish uchun turli iqlim ssenariylari foydalaniladi. Ular kelajakdagi umumiy prognozlari (Community Climate System Model – CCSM) CCCM5 global iqlimidan mavjud bo'lgan fazoviy piksellari 2.5 (ekvatorda~4.64 km^2) daqiqalik umumiy ijtimoiy-iqtisodiy yo'llar (SSPs) ssenariylaridan yuklab olingan.

Mazkur iqlim o'zgaruvchilari 1970-2000-yillar oralig'ida jamlangan 9000 dan 60000 gacha bo'lgan ob-havo ssenariy ma'lumotlaridan foydalangan holda global quruqlik hududlari uchun tayyorlangan va fazoviy interpolyatsiya qilingan ma'lumotlar to'plamidir.

Kelajakdagi iqlim o'zgarishlarini baholashga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi sababli IPCC (Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panel) yangi kelajak iqlim ssenariylari yaratishni taklif qildi. Global miqyosida o'tkazilgan maxsus tadqiqotlar issiqxona gaz konsentratsiyalari ortishi havo haroratining isishiga olib kelishini tasdiqladi. Shundan so'ng RCP issiqxona gaz konsentratsiyalarining ta'siriga asoslangan iqlim o'zgarishi ssenariylari yaratildi. Bugungi kunda iqlim ssenariylarining so'nggi avlodi bo'lgan RCPning (vakillik kontsentratsiya yo'llari) to'rtta ssenariylaridan (RCP_2.6, RCP_4.5, RCP_6.0, RCP_8.5) keng foydalanilada. Mavjud ssenariylar orasida RCP_2.6 (SSP1-2.6 (ssp126) minimal issiqxona gazlari), RCP_8.5 (SSP5-8.5 (ssp585) maksimal issiqxona gazlari) ssenariylar ustuvorlikka ega. RCP8.5 ssenariysi atmosferada uglerod miqdorining XXI asr ohirida bugungi kunga nisbatan taxminan 2.5 marta ko'tarilishini nazarda tutadi. Tuproqdagi organik uglerod (SOC) yerning quruqlikdagi uglerod manbaining eng katta qismidir va tuproqdan oz miqdorda uglerod yo'qotish atmosferadagi CO_2 konsentratsiyasini sezirarli o'zgarishiga olib keladi. Bu kelajakdagi iqlim o'zgarishlarining hajmiga katta ta'sir qiladi. Bundan tashqari, turlarning tarqalishiga bioiqlim omillaridan tashqari balandlik (Alt.), turning raqobatbardoshligi, biologik hususiyatlari va o'simliklar jamoalari bilan o'zaro aloqadorligiga ham bog'liq.

Maxent dasturidan foydalanish. Dastlab (Comma Separated Values) *CSV formatidagi koordinatalar saqlandi, so'ngra tarqalish simulyatsiyasi uchun bir vaqtning o'zida namuna taqsimoti va skriningdan so'ng olingan 19 ta bioiqlim o'zgaruvchilari hamda balandlik ko'rsatkichlari MaxEnt modeliga (versiya 3.4.4) import qilindi. Simulyatsiya aniqligini oshirish uchun namunaviy ma'lumotlar tasodifiy ravishda test ma'lumotlari (25%) va o'quv ma'lumotlari (75%) sifatida ishlatildi. Algoritm turli tasodifiy bo'lishlar (Bootstrap usuli) bilan 10000 interatsiyada 500 ta takrorlash yordamida bajarildi. Olingan model retseptorning ishlash xarakteristikasidan (ROC) hisoblangan egri chiziq ostidagi maydon (AUC) asosida tasdiqlandi [1].

AUC (Area Under Receiver Operating Curve) modelining qobiliyatini baholashga qodir bo'lgan samarali avtonom chegara indeksi bo'lib uning o'sish koeffitsenti 0 dan (eng past ehtimollik taqsimoti) 1 gacha (eng yuqori ehtimollik taqsimoti) etib belgilangan. AUC qiymatlari > 09 baland bo'lsa yuqori aniqlikni, 07-08 qiymatlar yaxshi, < 07 past va < 05 dan kichik qiymat yaroqsiz aniqlikni ko'rsatadi. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalarida 0 dan 1 gacha bo'lgan intervalda uzluksiz qiymatlar resterini yaratish va baholangan turning modelini olish uchun logistik chiqish formatidan foydalanildi. So'ngra endem va kamyob turlarni tarqalishiga sabab bo'luvchi asosiy va o'zgaruvchan atrof-muhit omillari hissasi va Jackknife test natijalariga ko'ra baholanadi. Turlarini bioiqlimiy modellashtirish uchun uclubiy algoritmi tayyorlandi (1-rasm).




1-Rasm. Bioiqlimiy modellashtirish natijalarini olish uchun bajariladigan ishlarning uslubiy algoritmi

MaxEnt dasturida hosil qilingan egri chiziq ostidagi maydon (AUC) diagrammasi 3 ta chiziqdan iborat. Qizil (o‘quv ma’lumotlari) – AUC ni chegaralaydi va bu chiziq yuqori chap burchakka yaqinligi hamda egri chiziq ostidagi maydonning kattaligi model mavjudlik nuqtalarini yaxshi bashorat qilganligini ifodalaydi. Moviy egri chiziq (test ma’lumotlari) – o‘rganilayotgan model, dastur tomonidan yaxshi tasvirlanganligini bildiradi. Qora chiziq (tasodifiy bashorat) – to‘g‘ridan to‘g‘ri hududni chegaralaydi. MaxEnt uculi yordamida endem va kamyob turlarning kelajakdagi potensial tarqalishi va bioiqlim omillari ta’sirini ilmiy bashorat qilish S.J.Phillips va M.V.Olonovaning metodik tavsiyalari asosida amalga oshiriladi [2].

Bioiqlimiy modellashtirish bo‘yicha dastlabki o‘zbek tilidagi o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti olimlari va Rossiyaning Tomsk viloyati olimlari bilan birgalikda nashr etilgan.


Bioiqlimiy modellashtirish natijalari. MaxEnt modelini qo‘llash orqali model Pomir-Oloydagi *Phlomoides canescens* o‘simligining potensial tarqalishini ilmiy bashorat qildi, o‘quv AUC qiymati 0,996 va sinov AUC qiymati 0,996 (ikki iqlim stsenariysi bo‘yicha) bu uning yuqori prognozli ishlash darajasini ko‘rsatadi (2-rasm).



2-Rasm. Iqlim omillarining Jackknife test natijasi


Jekknayf usuli natijalari shuni ko‘rsatadiki, 18 ta ekologik omil va balandlikdan foydalanilganda, normallashtirilgan mashg‘ulotlarga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan beshta ekologik omil; Eng sovuq chorak yog‘inlari (Bio19), o‘rtacha sutkalik diapazoni (Bio2), eng issiq chorak yog‘inlari (Bio18), eng qurg‘oqchil oyning yog‘inlari (Bio14), eng quruq chorak yog‘inlari (Bio17) atrof-muhit omillari va balandlik (Alt.) ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi Bu malumotlartni (3-rasm).

Ikki iqlim ssenariysi ostida MaxEnt modeli Pomir-Oloydagi *Phlomoides canescens* issiq nuqtalarini aniqlash uchun ishlatilgan. Natijada, Pomir-Oloyda o‘simlikning o‘tmishdagi tarqalish xaritasining issiq nuqtasi (4-rasm) keltirildi [3].



3-Rasm. Oxytropis schachimardanica tarixiy iqlim o'zgarishi ssenariylari ostida turlarning issiq nuqtalari.

O‘simlik, asosan, janubi-g‘arbiy Pomir-Oloyda tarqalgan, garchi sanoat rivojlanishi davrida (1970–2000 yillar) keskin antropogen iqlim o‘zgarishi turning tarqalishiga cheklovchi ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa ham, uning ekologik joyi Hisor, Zarafshon, Turkiston, Oloy tizmasi va Afg‘onistonning sharqiy rayonlarida tarqalishi mumkinligini ko‘rsatdi. Sanoat rivojlanishi davrida O‘zbekiston (Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand va Jizzax), Tojikiston (So‘g‘d) va Qirg‘iziston (Batkent) viloyatlarini o‘sishi va tarqalishi uchun yuqori salohiyatli hududlar sifatida ko‘rsatish mumkin. Turlarning o‘sishi uchun o‘rtacha qulay hududlar sifatida G‘arbiy Tyan-Shan va Afg‘oniston keltirilgan [4].



4-Rasm. Oxytropis schachimardanica kelajakdagi iqlim o‘zgarishi ssenariylari ostida turlarning issiq nuqtalari.

29-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2070-yilda (2061-2080) ikkita emissiya ssenariysi bo‘yicha turli o‘sish darajalari hududlari hozirgi iqlim sharoitidagiga nisbatan turli darajada o‘zgaradi.


Minimal issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishi bilan bog‘liq RCP 2.6 2070 iqlim ssenariysi kelajakda turning yuqori va o‘rta mos yashash muhiti kengayishini ko‘rsatdi. Xususan, sanoat rivojlanish davrida o‘sish ko'rsatkichi past bo‘lgan va turning o‘sishi uchun yaroqsiz bo‘lgan hududlar RCP 2.6 2070 iqlim ssenariysi bo‘yicha juda mos hududlarga aylanadi. RCP 2.6 (2061-2080) iqlim ssenariysiga ko‘ra, haroratning 0,4-1,6 °C ga oshishi Afg‘oniston va Tojikiston mintaqalarida parchalar ko‘rinishidagi ko‘plab potensial mos hududlarni yaratdi. Bu eng sovuq chorakdagi yog‘ingarchilik (Bio19) va balandlik (Elv.) bilan bevosita bog‘liq. RCP8.5_2070s iqlim ssenariysiga ko‘ra, 1,4-2,6 °C haroratning oshishi tarqoq yuqori darajadagi mos hududlarni o‘rta darajadagi mos joylar bilan almashtirdi. Ikkala iqlim ssenariysida ham haroratning 0,4–1,6 °C va 1,4–2,6 °C ga ko‘tarilishi turning asosiy issiq nuqtalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmadi [5].

Olingan natijalarning muhokamasi. Markaziy Osiyoning ko‘p qismida joriy asr oxiriga kelib qurg‘oqchilikning tezlashishi va davomiyligi oshishi kuzatilmoqda, bu, asosan, 2030-yildan keyin yog‘ingarchilik o‘sishini taxminan muvozanatlashtiradigan bug‘lanishning doimiy kuchayishi bilan bog‘liq.

Eng sovuq chorakdagi yog'ingarchilik ikkala iqlim ssenariysi ostida turning potensial issiq nuqtalarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Shuningdek, mavsumiy o‘zgaruvchanlik nuqtai nazaridan Markaziy Osiyoda yog‘ingarchilik kuchli fazoviy geterojenlikni ko‘rsatadi, bu yog‘ingarchilikning eng yuqori miqdori Markaziy Osiyoning janubi-g‘arbiy qismida bahor va qishda, yozda esa shimoliy va janubi-sharqiy hududlarda sodir bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, mintaqa suv resurslari tanqisligi va murakkab releft tufayli tez iqlim o‘zgarishiga sezgir va zaifdir. So‘nggi o‘n yilliklarda Markaziy Osiyoda haroratning sezilarli o‘sishi bilan birga, yog‘ingarchilikning sezilarli darajada kamayishi ham kuzatildi [6].

Turning ekologiyasi balandlik gradientiga nisbatan shakllangan. Misol uchun, bu tur butun bargli mezofit o‘simlik bo‘lib, o‘rmon landshaftlarini afzal ko‘radi va ko‘proq ibtidoiy belgilarni saqlaydi. Jumladan, Archa chakalakzorlari, alp subalp o‘tloqlari, tikanli o‘t birlashmalari, o‘rta va yuqori tog‘ kamarlari, 1600-2800 metr. Bu ko‘rsatkichlar Qashqadaryo,

Surxondaryo (Hisor tizmasi) va Jizzax (Turkiston tizmasi) viloyatlarining tog‘ oldi hududlarida tabiiy plantatsiyalar yaratish imkonini beradi (5-rasm).



5-Rasm. Turning tabiiy plantatsiyalarini yaratish uchun hozir va kelajakdagi mos o‘sish hududlari

MaxEnt modelining bashoratlariga asoslanib, tadqiqotimiz turlarning yuqori yashash joylari asta-sekin farqlanganligini, ammo keskin kamaymaganligini ko‘rsatdi. Kelajakda uning biologik va ekologik moslashuvi bo‘yicha keyingi tadqiqotlar turli xil yashash joylariga va o‘simlikning iqlim o‘zgarishiga munosabatiga qarab amalga oshirilishi kerak. Bu turning ekologik optimalligini aniqlash va yaqin kelajakda muvaffaqiyatli joriy etish imkonini beradi [7].

Shunday qilib, RCP_2.6 (2061-2080) iqlim ssenariysiga ko‘ra, haroratning 0.4-1.6C ga oshishi Afg‘oniston va Tojikiston mintaqalarida parchalar ko‘rinishidagi ko‘plab potensial mos hududlarni yaratadi. Bu eng sovuq chorakdagi yog‘ingarchilik (Bio19) va balandlik (Alt.) bilan bevosita bog‘liq. RCP8.5_2070s iqlim ssenariysiga ko‘ra, 1.4-2.6 C haroratning oshishi tarqoq yuqori darajadagi mos hududlarni o‘rta darajadagi mos joylar bilan almashtirdi. Ikkala iqlim ssenariysida ham haroratning 0.4-1.6 C va 1.4-2.6 C ga ko‘tarilishi turning asosiy issiq nuqtalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmadi. Bu ko‘rsatkichlar Qashqadaryo, Surxondaryo (Hisor) va Jizzax (Turkiston) viloyatlarining tog‘ oldi hududlarida tabiiy plantatsiyalar yaratish imkonini beradi.

Xulosa va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning Qashqadaryo, Surxondaryo (Hisor tizmasi) va Jizzax (Turkiston tizmasi) viloyatlarining tog‘ oldi hududlari o‘rganilgan dorivor va noyob o‘simliklarning tabiiy plantatsiyalarini yaratish uchun eng maqbul hududlar ekanligini ilmiy asoslab berdi. Ushbu ma’lumotlar bioxilma-xillikni saqlash va iqlim o‘zgarishiga moslashish choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арифханова М.М. Растительность Ферганской долины. – Ташкент: Фан, 1967. – 287 с.

2. Определитель растений Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1987-2015. 9-11 т. – 82-106 с.

3. Олонова М.В., Гудкова П.Д., Шомуродов Х.Ф., Адилов Б.А., Рахимова Н.К., Хабибуллаев Б.Ш., Полвонов Ф.И. Турларнинг биоиқлим моделини яратиш: амалий ишлар учун топшириқ ва уларнинг бажарилишига оид методик кўрсатма. – Тошкент: Ботаника институти, 2021. – 112 б.

4. Щербаков А.В., Майоров С.Р. Инвентаризация флоры и основы гербарного дела (Методически Флора сосудистых растений е рекомендации). Москва: Товарищество научных изданий КМК, 2006. - С. 48.

5. Republic of Kyrgyzstan. The Red Data Book of Kyrgyz Republic. 2nd ed. Republic of Kyrgyzstan, Bishkek, 2006. – 543 pp.

6. Republic of Tajikistan. The Red Book of the Republic of Tajikistan. Second edition in Tajik, Russian and English languages. Republic of Tajikistan, Dushanbe, 2017. – 592 pp.

7. Dekhkonov D, et al. Mapping and analyzing the distribution of the genus *Tulipa* (*Liliaceae*) species in the Ferghana Valley of Central Asia. // Korean J. Pl. Taxon, 2021. Vol. 51(3): – P. 1-11.

8. International Union for the Conservation of Nature. 2019. Guidelines for Using the IUCN Red List Categories and Criteria; Version 14; Prepared by the Standards and Petitions Subcommittee. Retrieved Jul. 6, 2021, available online: https://www.iucnredlist.org/ resources/redlistguidelines

9. International Union for the Conservation of Nature. 2012b. IUCN Red List Categories and Criteria: Version 3.1. Second edition. Gland, Switzerland and Cambridge, UK: IUCN. Available at www.iucnredlist.org/technical-documents/ categories and criteria.

10. Phillips, S.J., Anderson, R.P. and Schapire, R.E. Maximum Entropy Modeling of Species Geographic Distributions. Ecological Modeling, 2006. 231-259 p. https://doi.org/10.1016/j.ecolmodel.2005.03.026

11. Arkadiusz Nowak & Marcin Nobes. Illustrated Flora of Tajikistan and adjacent areas. Polish Academy of Sciences. Opolgraf S.A., 2020. – 475-478 p.

12. Bachman S, Moat J, Hill A, de la Torre J, Scott B Supporting Red List threat assessments with GeoCAT: geospatial conservation assessment tool. ZooKeys, 2011. 150: – 117-126 p. https://doi.org/10.3897/zookeys.150.2109

18. IPCC Climate change and land: An IPCC special report on climate change, desertification, land degradation, sustainable land management, food security, and greenhouse gas fluxes in terrestrial ecosystems, 2019. Available from: https://www.ipcc.ch/srccl/download.

19. Novikov V. et al. Biodiversity hotspot in the Central Asian mountainous region. Collaborating Fund for the Preservation of Critical Ecosystems (CEPF), 2017. – 230 p.

20. Tojibaev K.Sh, Karimov F.I, Hoshimov H.R, Jang C-G, Na N-R, Park M-S, Chang K-S, Gil H-Y, Baasanmunkh S, Choi H.J. Important plant areas (IPAs) in the Fergana Valley (Central Asia): The badlands of the northern foothills. Nature Conservation, 2022. 49: – 1-30 p.

21. Наралиева Н.М. Фарғона водийсида алоҳида аҳамиятга эга ботаник ҳудудларни танлаш ва антропоген омиллар таъсирида бўлган ноёб турларни сақлаб қолиш тамойиллари. Биол. фан. докт. дисс. – Нукус: 2022. – 260 б.

22. Ғуломов Р.К. Фарғона водийсида тарқалган *Phlomoides* Moench туркуми (таксономияси, географияси, экологияси ва муҳофазаси): автореф. дисс. PhD. –Тошкент: 2022. – б. 43.

23. Khassanov F. O., Yussupov Z. Revision of the Genus *Allium* L. (Amaryllidaceae) in the Flora of India // Biodiversity, Conservation and Sustainability in Asia / Ozturk et al. (eds.). – Springer, 2022. – P. 337–402.3.

24. Choi, H.J., Oh, B.U., 2011. A partial revision of *Allium* (Amaryllidaceae) in Korea and north-eastern China. Bot. J. Linn. Soc. 167, 153 e211.

25. Friesen, N., Fritsch, R.M., Blattner, F.R., 2006. Phylogeny and new intrageneric classification of Allium (*Alliaceae*) based on nuclear ribosomal DNA ITS sequences. Aliso 22, 372 e395.

26. Republic of Kyrgyzstan. 2006. The Red Data Book of Kyrgyz Republic. 2nd ed. Republic of Kyrgyzstan, Bishkek, 543 pp.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Abdinazarov Xasanboy Xoliqnazarovich
Qo‘qon davlat universiteti dosenti, b.f.f.d.
E-mail: gidrobiologiya2018@mail.ru
Kuchkarova Dilafruz Khurramovna
Toshkent kimyo-texnologiya institute dotsenti, PhD.
E-mail: dkuchkarova75@bk.ru
Xujamshukurov Nortoji Abdixoliqovich
Toshkent kimyo-texnologiya institute professori, f.f.d.
E-mail: nkhujamshukurov@mail.ru

УДК.574.52/583

BALIQCHILIKKA MO‘LJALLANGAN HUDUDLAR YER OSTI SIZOT SUVLARINING GIDROKIMYOVIY TAVSIFI VA IONLAR KONTSENTRATSIYASINI BAHOLASH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sun’iy baliqchilik ko‘llarini barpo etishga mo‘ljallangan yer maydonlari tuprog‘ining gumus bilan ta’minlanganlik darajasi va sizot suvlarining minerallashuv xususiyatlari ilmiy jihatdan tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida tuproqning haydalma qatlamida gumus miqdori o‘rtacha 1,029% ni tashkil etishi va sizot suvlarining minerallashuv darajasi 4,470 g/l ga teng ekanligi aniqlangan. Sizot suvlari tarkibidagi ionlarning o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlari korrelyatsion va regression tahlillar (r=0,98) yordamida o‘rganilib, suvning elektr o‘tkazuvchanligi (Ec) asosida asosiy kation va anionlar miqdorini yuqori aniqlikda basharot qilish imkoniyati asoslab berilugan. Tahlillar yer osti sizot suvlarida sul’fat ionlarining xloridlarga nisbatan keskin yuqoriligini ko‘rsatdi, bu esa suv havzalarida sul’fatli sho‘rlanish tipi shakllanishiga olib kelishi mumkin. Olingan natijalar sun’iy ko‘llarda baliqlar uchun maqbul ion muhitini yaratish, suv sifatini boshqarish va kelajakdagi ekologik xavflarni kamaytirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egalishi bilan xaraekterlanadi.*

Kalit so‘zlar: *yer osti sizot suvlari, minerallashuv darajasi, ionlar balansi, sul’fatli sho‘rlanish, gumus miqdori, korrelyatsion tahlil, regressiya tenglamasi, elektr o‘tkazuvchanlik (Ec), baliqchilik havzalari, gidrogeokimyo.*

Абдиназаров Хасанбой Холикназарович
доцент, доктор философии (PhD) по биологическим наукам, Кокандский государственный университет
Кучкарова Дилафруз Хуррамовна
доцент, PhD, Ташкентский химико-технологический институт
Хужамшукуров Нортожи Абдихоликович
профессор, доктор наук (DSc), Ташкентский химико-технологический институт

ГИДРОХИМИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И ОЦЕНКА КОНЦЕНТРАЦИИ ИОНОВ В ГРУНТОВЫХ ВОДАХ ТЕРРИТОРИЙ, ПРЕДНАЗНАЧЕННЫХ ДЛЯ АКВАКУЛЬТУРЫ

Аннотация*. В данной статье представлен системный научный анализ уровня обеспеченности гумусом почв и характеристик минерализации грунтовых вод на земельных участках, предназначенных для создания искусственных рыбоводных прудов. В ходе исследования установлено, что среднее содержание гумуса в пахотном слое почвы составляет 1,029%, а уровень минерализации грунтовых вод равен 4,470 г/л. Закономерности взаимосвязи ионов в составе грунтовых вод изучены с помощью корреляционного и регрессионного анализов (r=0,98), на основании чего обоснована возможность высокоточного прогнозирования количества основных катионов и анионов по удельной электропроводности (Ec) воды. Анализ показал резкое преобладание сульфатных ионов над хлоридами в подземных грунтовых водах, что может привести к формированию сульфатного типа засоления в водоемах. Полученные результаты характеризуются важным теоретическим и практическим значением для создания оптимальной ионной среды для рыб в искусственных озерах, управления качеством воды и снижения будущих экологических рисков.*

Ключевые слова: *грунтовые воды, уровень минерализации, ионный баланс, сульфатное засоление, содержание гумуса, корреляционный анализ, уравнение регрессии, электропроводность (Ec), рыбохозяйственные пруды, гидрогеохимия.*

Abdinazarov Xasanboy Xoliqnazarovich
Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences, Kokand State University
Kuchkarova Dilafruz Khurramovna
Associate Professor, PhD, Tashkent Institute of Chemical Technology
Xujamshukurov Nortoji Abdixoliqovich
Professor, Doctor of Sciences (DSc), Tashkent Institute of Chemical Technology

HYDROCHEMICAL CHARACTERIZATION AND IONIC CONCENTRATION ASSESSMENT OF GROUNDWATER IN AQUACULTURE-DESIGNATED AREAS

Abstract. *This article provides a systematic scientific analysis of the humus content in soils and the mineralization characteristics of groundwater in land areas designated for the creation of artificial fishponds. Research findings indicate that the average humus content in the arable soil layer is 1.029%, and the mineralization level of groundwater is 4.470 g/L. The interrelationship patterns of ions within the groundwater were studied using correlation and regression analyses (r=0.98), establishing the feasibility of high-accuracy prediction of major cation and anion concentrations based on the electrical conductivity (Ec) of the water. The analysis demonstrated a significantly higher concentration of sulfate ions compared to chlorides in the groundwater, which may lead to the formation of a sulfate-type salinity in the water bodies. The results are characterized by their significant theoretical and practical importance in creating an optimal ionic environment for fish in artificial lakes, managing water quality, and mitigating future environmental risks.*

Keywords: *groundwater, mineralization level, ionic balance, sulfate salinity, humus content, correlation analysis, regression equations, electrical conductivity (Ec), aquaculture ponds, hydrogeochemistry.*

Kirish

Dunyoda insonlar sonining keskin oshib borishi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning keskin oshib borishi fonida qishloq xo‘jaligi yerlari juda katta agrokimyoviy bosimlar ta’sirida qolmoqda [1,2]. Jumladan, dunyoning eng rivojlangan davlatlarida to‘liq qayta ishlanmagan maishiy va sanoat oqova suvlari yer osti va ikkilamchi texnik suvlarining ifloslantiruvchi manbai sifatida qayd etilsa, Yevropa Ittifoqi davlatlarida 38% suvekotizimlari qishloq xo‘jaligidan chiqadigan ikkilamchi texnik oqova suvlar ta’sirida [2,3] qolmoqdaa, AQSH da oqova suvlarning asosiy ifloslantiruvchi manbai sifatida qishloq xo‘jaligi deb e’tirof etilsa [2], Xitoyda qishloq xo‘jaligi mas’ullari foydalanilgan yer usti suvlarning ifloslanishi jumladan, azot bilan ifloslanmasligiga javobgar hisoblanadi [4].

Agrokimyoviy ifloslantiruvchi moddalarning sug‘orish tizimlari orqali tartibli va tartibga solinmagan harakatining asosiy qabul qiluvchi manbai zovurlar va drenajlar hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligining sug‘orish tizimlari orqali chiqayotgan agrokimyoviy ifloslantiruvchi moddalarni asosiy qabul qiluvchi manba baliqchilikka ixtisoslashtirilgan sun’iy (vaqtinchalik) ko‘llar hisoblanadi [5]. Qishloq xo‘jaligida ekinlarga agrokimyoviy ishlov berish jarayonida qo‘llaniladigan mineral o‘g‘itlar, pestitsidlar, gerbitsidlar, fiziologik faol moddalar (gormonlar), turli xil ta’sirga ega antibiotiklar va organik o‘g‘itlarning tartibsiz qo‘llanilishi hamda o‘rnatilgan me’yorlarga rioya etilmasligi qishloq xo‘jaligini ikkilamchi texnik suvlar va sizot suvlarining asosiy ifloslantiruvchi tarmog‘iga aylantirmoqda [1,6,7,8].

Bunda qishloq xo‘jaligi tarmoqg‘ining barcha suvlarning 70% dan ortig‘ini iste’mol qilishini inobatga olsak, muammoning qay darajada murakab va tizimli muammo ekanligi ko‘rinadi. Suvli muhitga zovurlar va drenajlar orqali chiqarilayotgan yirik miqdordagi agrokimyoviy moddalar, organik moddalar baliq ishlab chiqarish sanoatining yangi tarmog‘i bo‘lgan «sun’iy ko‘llar» asosida baliq ishlab chiqarish salohiyatini kamaytirib, suvli muhitdagi baliqlarning fiziologik-biokimyoviy holatiga ham zoo-, fitoplanktonlar faoliyatiga ularning barqaror tizimini shakllantirish va ulardan samarali foydalanishga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bu esa o‘z navbatida suvli muhitning ekologik va biologik tizimlarining o‘zaro uzviy bog‘liqligini xavf ostiga qoldirib, bevosita insonlar sog‘ligiga ta’sir doirasining oshib borishi uchun omil bo‘lib xizmat qiladi. Qishloq xo‘jaligi texnik oqova suvlarining o‘ta minerallashgan holida zovurlarga va sun’iy ko‘llarga tushishi oqibatida suvli muhitdagi yuksak suv o‘tlari, mikrosuvo‘tlari hamda zararli tsianobakteriyalarning tartibsiz va boshqari bo‘lmaydigan shaklda ko‘payishiga olib kelib, suvli muhit ekotizimida kilorod almashinishi hamda biologik evtrofikatsiya jarayonining kuchayishiga olib keladi.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligidan chiqayotgan nitratlarga to‘yingan ikkilamchi texnik suvlarning yer osti sizot suvlariga qo‘shilishi oqibatida dunyo yer osti suvlarining kuchli minerllashuvi yuzaga keladi hamda tabiiy almashinuv oqibatida ichimlik suvlari bilan birlashib, insonlar iste’moliga qayta qo‘shilish xavfi oshib boradi. Ichimlik suvining nitartlar bilan ifloslanishi esa hozirgi vaqtda keng tarqalgan «Ko‘k chaqaloq» singdromi bilan bolalar tug‘ilishining oshishiga olib kelmoqda [2]. Bu esa, oqova suvlardan samarali foydalanishda, uning kimyoviy tarkibini nazorat qilish hamda zarur holatlarda kimyoviy mo‘’tadillashtirish choralarini ko‘rish talab etiladi.

Mazkur tadqiqot ishida yangi sun'iy ko'llar barpo etishga mo'ljallangan yer maydonlari tuprog'ining agrokimyoviy tarkibini va msazkur yer maydonlarining yer osti sizot suvlari tarkibini o'rganish hamda sizot suvlarining tuproq sho'rlanishidagi va baliqchilikka ixtisoslashtirilgan sun'iy ko'llar suvining minerallashuviga ta'sirini baholash maqsad qilib olindi.

Adabiyotlar tahlili

Tadqiqotlarda umumqabul qilingan gidrokimyoviy, fotometrik, titrometrik, potentsiometrik, kolorimetrik, suv rangi va sifati standartlar asosida amalga oshirildi [9,10,11]. Jumladan, o'rganilayotgan sun'iy ko'llardagi suvning qattiqligi, ya'ni kalьtsiy miqdori an'anaviy qabul qiligan usulda [9] tirilon B eritmasi yordamida titrlash orqali aniqlanib, baholash qora rang beruvchi xromogen hamda flurekson indikatorlari qo'llanildi hamda baholash qizil binafsha rangdan ko'k rangga o'tishiga qarab baholandi [10,11]. SHuningdek, gidrokarbonatlarni aniqlash umumqabul qilingan gidrokimyoviy usullardan foydalanidi [12]. Jumladan, xlor miqdori kumush nitrati bilan titrlash orqali argenometrik usulda, nitrat ionlari Griss eritmasi yordamida, sul'fat ionlari aralash moddalar bariy xlor va glikolьning etil spirtidagi eritmasidan iborat reaktiv tayyorlanib, uni aralashmalardan tozalash hamda muhitni neytrallash maqsadida (gidrokarbonat va karbonat ionlari) maqsadida tuz kislotasi bilan ishlov berildi [11].

Tuproqning mexanik tarkibi (granulometrik) N.A.Kachinskiy tomonidan tavsiya etilgan mexanik elementlar klassifikatsiyasi asosida baholandi [13,14]. Yer osti olingan sizot (grunt) suvlarning minerallashuv darajasi V.A.Priklonskiyning O.K.Komilov va A.U.Axmedovlar tomonidan takomillashtirilgan sizot suvlarining minerallashganlik darajasini aniqlash klassifikatsiyasidan foydalangan holda o'rganildi [15,16]. Tuproqning sho'rlanish darajasi Komilov va Axmedovlar tomonidan tavsiya etilgan klassifikatsiya bo'yicha aniqlandi [Komilov va boshqalar., 1998].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotlarda umumqabul qilingan gidrokimyoviy, fotometrik, titrometrik, potentsiometrik, kolorimetrik, suv rangi va sifati standartlar asosida amalga oshirildi [9,10,11].

Tahlillar va natijalar

Dastlab yangi barpo qilishga mo'ljallangan yer maydonlari ikki guruhga bo'lib olindi. Yangi barpo etishga mo'ljallangan maydonlar tuprog'ining kimyoviy tarkibini o'rganish davomida tuproqning haydaladigan 0-30 sm chuqurlikdagi qatlamining gumus bilan ta'minlanish darajasi o'rtacha 0,798-1,071-1,218% oralig'ida bo'lib, o'rtacha 1,029% ni tashkil etib "O'rtacha" gumus bilan ta'minlangan tuproqlar sinfiga mansubligi qayd etildi (1-jadval).

Ilmiy manbalardan ma'lumki, tuproqdagi tuzlar tarkibi va ularning o'zgaruvchan miqdorlari ko'p jihatdan sizot (grunt) suvlari hamda sug'orish suvlari tarkibidagi erigan minerallar miqdori hamda tarkibiga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu biosdan, sun'iy ko'llar uchun olinishi mo'ljallangan yer maydoning tuproq qatlami ostidan olingan sizot (grunt) suvlarning minerallashuv darajasi o'rganildi (1-jadval). Tadqiqotlar davomida 1- va 2-guruhga mansub sun'iy ko'llarga mo'ljallangan yer maydonlarining tuproq osti sizot suvlaridagi minerallashuv ko'rsatkichlari tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

1 va 2-guruhga mansub sun'iy ko'llarga mo'ljallangan yer maydonlarining tuproq osti sizot (grunt) suvlarining minerallar tarkibi

Ishqoriylik		mg/ekv.	Cl, g/l	mg/ekv.	SO_4, g/l	mg/ekv.	Ca, g/l	mg/ekv.
pH	Umumiy HCO_3							
7,26	0,577	9,46	0,248	6,99	2,604	54,25	0,850	42,50
Mg, g/l	mg/ekv.	Anion, mg/ekv.	Kation, mg/ekv	Na+K g/l	mg/ekv.	g/l	Tuzlar yig'indisi, g/l	Ec
0,184	15,33	70,69	57,83	0,2958	12,86	4,900	4,470	4,17

Olingan natijalarga ko'ra, 1 va 2-guruhga mansub sun'iy ko'llarga mo'ljallangan yer maydonlari tuproq osti sizot suvlarining bir litri tarkibida 0,248 g/l xlor, 2,604 g/l sul'fat, 0,850 g/l kaltsiy va 0,184 g/l magniy mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, umumiy tuzlar yig'indisi 4,470 g/l ni tashkil etib, sizot suvlarining elektr o'tkazuvchanli 4,17 mSm/sm ga tengligi aniqlandi. Shu boisdan 1 va 2-guruhga mansub sun'iy ko'llarga mo'ljallangan yer maydonlari tuproq osti sizot (grunt) suvlarini "O'rtacha minerallashgan" sizot suvlari guruhiga mansub deb tavsiflandi.

Sizot suvlarining o'rtacha elektr o'tkazuvchanligi 4,17 mSm/sm ni tashkil etganligi uchun mazkur sizot suvlarini "O'rtacha minerallashgan" sizot suvlari guruhiga kiritildi. Tadqiqotlar davomida olingan natijalarga ko'ra sizot (grunt) suvlari tarkibida xlor miqdori 0,248 g/l, sul'fat miqdori 2,604 g/l, kaltsiy miqdori 0,850 g/l, magniy miqdori 0,184 g/l va umumiy tuzlar yig'indisi 4,470 g/l bo'lganligi aniqlandi. SHuningdek, 1 va 2-guruhga mansub sun'iy ko'llarga mo'ljallangan mazkur yer maydonlarining bonitet bali 36,0 ga teng ekanligi qayd etildi.


Sizot suvlarining minerallashuvining muhim jihatlaridan biri bu sizot suvidagi umumiy tuzlar yig‘indisi 4,47 g/l yoki 4470 mg/l miqdorini tashkil etib odatiy ko‘rsatkichlardan, jumladan chuchuk suv ko‘rsatkichlaridan 4,5 barovarga ko‘pligi qayd etildi. Sul’fatlar miqdori esa 2,604 g/l yoki 2604 mg/l ni tashkil etib, chuchuk suvda yetishtirildadigan baliqlarga mo‘ljallangan me’yordan o‘n uch barovar ko‘pligi kuzatildi. Bu esa o‘z navbatida suvda kislorod tanqisligi vujudga kelganda zaharli vodorod sulьfidga (H_2S) aylanish ehtimolini vujudga keltirishi mumkin.

Sizot suvlari tarkibidagi minerallashuv darajasi sun’iy ko‘llarga kirayotgan oqova suvlar tarkibiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, tuproqning sho‘rlanish darajasining oshishiga olib keladi. SHuningdek, kuchli minerallashgan suvlarda baliq yetishtirish, suvdagi erigan kislorodga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida havo beruvchi aerotorlardan ko‘proq foydalanishni talab etadi va o‘z navbatida baliq yetishtirish tannarxiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.

Sizot suvlarining ionlar tarkibining o‘zaro bog‘liqlik korrelyatsion qonuniyatlari tahlil qilinganda o‘zaro bog‘liqlik r=0,98-099 ga teng ekanligi qayd etildi. Bu esa sizot suvlaridagi ionlarning biri biri bilan qat’iy proportsional ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, suvning sho‘rlanishi ya’ni natriy va xlor miqdori oshgandasulьfit miqdori ham paralel ravishda oshib borayotganlini ko‘rsatadi. Bu esa sun’iy ko‘llar uchun mo‘ljallangan yer osti sizot suvlarining sanoat chiqindilari bilan zararlanmaganligini aks ettiradi (1-rasm). Shuningdek, sul’fatlar va va boshqa ionlar o‘rtasidagi korrelyatsiya ko‘rsatkichi r=0,98 ga teng bo‘lib, sul’fatli tuzlarning nisbatan ustunligini ko‘rsatmoqda. Bu tarzda sul’fatlarning miqdori oshib borishi suvning minerallashuvini oshirib, tuproqning sul’fatli sho‘rlanish tipiga o‘tish xavfini oshirib yuboradi. Yuqorida qady etlgan ma’lumotlarda ham sun’iy ko‘llarga ajaratilgan yer maydonlari tuproqlarining sul’fatli sho‘rlanishga moyilligi qayd etilgan edi. 1-rasmda aks etirilgan korrelyatsion bog‘liqlik natriy xlor va natriy sul’fat hisobiga suvning minerallashuv darajasi shakllanayotganligini ko‘rsatadi. SHuningdek, 1-rasmda aks ettirilgan ionlarning qizil rangli regressiya chiziqlarining yuqoriga qarab keskin yo‘nalganligi suvda ionlar to‘yinish darajasining oshib maksimal darajaga yaqinlashayotganligidan darak beradi.

Bu esa kelgusida iqlim o‘zgarish sharoitida sun’iy ko‘llardagi suvning tez buhlanishi oqibatida kalttsiy sul’fat cho‘kmaga tusha boshlaydi hamda ko‘llarning tubida qattiq qatlam hosil qilib, suv sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini basharot qilish imkonini beradi. Demak, olingan natijalardagi ionlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda korrelyatsion tahlili sizot suvlarining sul’fatli va xloridli minerallashuv hisobiga amalga oshib borayotganligini, ammo o‘rganilgan davrda sun’iy ko‘llarga mo‘ljallangan yer maydoni yer osti sizot suvlarida tuzlarning barqaror, o‘zaro tabiiy muvozanatda ekanligini ko‘rsatadi.

Sun’iy ko‘llarga mo‘ljallangan yer maydonlarining yer osti sizot suvlarining elektr o‘tkazuvchanligi o‘rtacha 4,17 mSm/sm ni tashkil etganligini inobatga olgan holda, Ec qiymatini o‘zgarmas qiymat sifatida qabul qilinib, ionlarning o‘zaro mutanosibligi va ionlarning o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlari ko‘rib chiqildi (2-rasm).



1-rasm. Sun’iy ko‘llarga ajratilgan yer maydonlaridagi yer osti sizot suvlarining mineralashuv (ionlar) balansi va korrelyatsion qonuniyatli chizmasi.

Tahlil natijalariga ko‘ra r ning manfiy qiymatlari (r=0,84; r=-0,99) asosida muhim ilmiy xulosa chiqarish mumkin. Jumladan, sizot suvlaridagi o‘zgarmas elektr o‘tkazuvchanlik asosida natriy va kaliy miqdori oshganda, ionlar muvozonatini saqlash uchun kalьtsiy va magniy miqdori mos ravishda kamayib borishi qayd etildi.


Bu esa sizot suvlari tarkibidagi ionlar almashinish jarayonlarining kuchli faollashganligini hamda sizot suvidagi minerallashuv konstantasining qayta tasimlanayotganligini anglatadi.

Shuningdek, natriy va kaliy ionlarining gidrokarbona, xlor va sul’fat anionlari bilan bog‘liqligi sizot suvlarining sho‘rlanish tipini belilab beradi. Jumladan, natriy miqdorining oshishi bilan anionlar yig‘indisi ham ortsa sizot suvlari tarkibida xloridli va sul’fatli sho‘rlanish jarayoni ustunlik qilayotganligni ko‘rsatadi.

2-rasmda aks ettirilgan regressiya chiziqlarining qiyaligi ion suv sho‘rligiga katta ta’sir ko‘rsatayotganligini anglatadi. Demak, olingan natijalarga ko‘ra kelgusida qo‘shimcha anatiltk tahlillarsiz sizot suvlarining elektr o‘tkazuvchanligini aniqlash orqali suvdagi natriy va kalьtsiyning o‘zaro nisbatlarini baholash mumkinligini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra sizot suvi tarkibidagi natriy+kaliy va kalьtsiy+magniy nisbatlarining o‘zgarishi bevosita suvning qattiqlik darajasigi ta’sir ko‘rsatadi. Aytish mumkinki, sizot suvlaridagi elektr o‘tkazuvchanlikning o‘zgarmas qiymatlari sharoitida sizot suvidagi ionlar o‘rtasida qat’iy teskari proportsional bog‘liqlik mavjud.

Natriy kontsentratsiyasining oshishi esa ikki valentli kationlar (kalьtsiy, magniy) hisobiga qoplanadi. Bu esa o‘z navbatida suv havzalaridagi minerallashish jarayonlarini nazorat qilish va baliqlar uchun mo‘’tadil ion muhitini basharot qilish imkoniyatini yaratadi.




2-rasm. Sun’iy ko‘llarga mo‘ljallangan yer maydonlari yer osti sizot suvining o‘zgarmas elektr o‘tkazuvchanligi sharoitida natriy va kaliy ionlarining o‘zaro bog‘liqligi

Olingan korrelyatsion tahlillar asosida yer osti sizot suvidagi sul’fat ionlarining kontsentratsiyasi (2,55-2,65 g/l) xlorga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Demak, sizot suvlarining elektr o‘tkazuvchanligini asosan sul’fatlar belgilab bermoqda degan xulosaga kelish mumkin. Bu degani sizot suvi tarkibida xlor miqdori oshib ketsa, suvning elektr o‘tkazuvchanligi muvofiq raishda keskin oshib ketadi, buni esa xlor ionlarining suvda harakatchanlik xususiyatining yuqoriligi bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, sun’iy ko‘llardagi suvning natriy va kliy kontsentratsiyasining 0,25-0,35 g/l gacha o‘zgarishi baliqlar hujayrasidagi osmotik bosimni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natriy oshib kalьtsiy kamayganda esa baliqlarning jabralari orqali zaharli moddalar o‘tish darajasi oshib ketadi. Sizot suvlari tarkibidagi o‘zgarmas elektr o‘tkazuvchanlik qiymatining ionlarga korrelyatsion bog‘liqligiga suvli muhitning o‘zini-o‘zi boshqari tizimining mukammal ishlashiga sharoit yaratadi (3-rasm). Bunda sulfat va xlor ionlari orasidagi teskri proportsionallikni tizimdagi umumiy ionlar kuchi chegaralanganligi bilan izohlash mumkin. Ilmiy manbalardan ma’lumki suvli muhitda bir ionning oshib ketishi, boshqasining kamayishiga olib keladi, bu esa termodinakmik muvozonatning saqlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ayniqsa suvli muhitda tashqi omillar jumladan haroratning oshishi ta'sirida tuzlarning erishi va cho'kma hosil bo'lishidagi muvozanat nuqtasida kuzatiladi. Shuningdek, suvli muhitda sul'fat miqdorining xlorga nisbatan keskin oshib ketishi suvning sul'fatli sho'rlanish tipiga o'tishidan darak beradi. Sulfatli sho'rlanish esa baliqlarning osmotik bosimini ushlab turishiga kamroq salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, sun'iy ko'llar uchun mo'ljalangan yer maydonlari yer osti sizot suvlaridagi ionlarning o'zaro bog'liqligi funktsional xarakterga ega bo'lib, bunda suvning elektr o'tkazuvchanligi cheklovchi omil bo'lib xizmat qiladi.



3-rasm. Sizot suvlarining o'zgarmas elektr o'tkuzuvchanligi sharoitida (Ec - 4,17 mSm/sm) ionlarning korrelyatsiyasi

Shuningdek, olingan regressiya tenglamalari (r≥0,98) sun'iy ko'llar uchun mo'ljallangan yer maydonlari yer osti sizot suvlarining ionlar tarkibini suvning elektr o'tkazuvchanligini aniqlash orqali 98-99% aniqlikda basharot qilish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, suvning sulfatli tipi xloridli sho'rlanishga nisbatan baliqlar metabolizmiga bir qadar yumshoqroq muhit hosil qiladi. Natriyning kalьtsiy bilan teskari proportsionalligini bilish orqali suvning qattiqligini sun'iy boshqarish va baliqlar uchun mo''tadillashgan ionlar balansini yaratish imkonini beradi.

Xulosa

Olib borilgan tizimli tadqiqotlar natijasida yangi barpo etiladigan sun'iy ko'llar uchun mo'ljallangan yer maydonlari tuprog'ining gumus bilan ta'minlanish darajasi o'rtacha 1,029% ni tashkil etib, «o'rtacha" ta'minlangan tuproqlar sinfiga mansubligi hamda yer osti sizot suvlarining minerallashuv darajasi (4,470 g/l) bo'yicha «o'rtacha minerallashgan» guruhga kirishi aniqlandi. Sizot suvlari tarkibida sul'fat ionlarining xloridlarga nisbatan ustuvorligi va ularning me'yordan 13 barobar yuqoriligi aniqlanib, bu holat kelajakda kislorod tanqisligi sharoitida zaharli vodorod sulьfidi hosil bo'lishi hamda tuproqning sul'fatli sho'rlanish xavfini yuzaga keltirishi mumkinligi asoslab berildi. Ionlar o'rtasidagi korrelyatsion va regression tahlillar (r=0,84-0,99) sizot suvlari tarkibidagi kimyoviy elementlarning qat'iy proportsional va funktsional bog'liqlikda ekanligini, xususan, elektr o'tkazuvchanlik (Ec) ko'rsatkichi orqali suvdagi natriy, kalьtsiy va boshqa asosiy ionlar nisbatini 98-99% aniqlikda basharot qilish mumkinligini ko'rsatdi. Shu boisdan, aniqlangan ionlar muvozanati va teskari proportsional bog'liqliklar sun'iy suv havzalarida baliqlar uchun maqbul ion muhitini shakllantirish, suv sifatini tizimli nazorat qilish va metabolik jarayonlarni ilmiy asosda boshqarish uchun omil bo'lib bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishrat Bashir., F.A.Lone., Rouf Ahmad Bhat., Shafat A.Mir., Zubair A.Dar., Shakeel Ahmad Dar. 2020. Concerns and Threats of Contamination on Aquatic Ecosystems. In book Bioremediation and Biotechnology, K.R.Hakeem et al. (eds.), Chapter 1, 2020. Pp. 1-26.

2. Mateo-Sagasta J, Zadeh SM, Turral H, Burke J (2017) Water pollution from agriculture: a global review. Food and Agriculture Organization of the United Nations, Rome and the International Water Management Institute on behalf of the Water Land and Ecosystems Research Program, Colombo.

3. WWAP, 2015. United Nations world water assessment programme, the United Nations world water development report 2015: water for a sustainable world. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, UNESCO, Paris. Pp. 1-139.

4. FAO, 2013. Guidelines to control water pollution from agriculture in China: Decoupling water pollution from agricultural production. Water report 40. Food and Agriculture organization of the United Nations, Rome, 2013. Pp. 1-197.

5. Abdinazarov X.X. Xujamshukurov N.A. Baliqchilik xo‘jaliklari suvining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari va ularning mahsuldorlikka ta’siri (Farg‘ona vodiysi misolida) **Qo‘qon DPI ilmiy xabarlari. 2026.**

6. Rathore H.S., Nollet L.M. 2016. Handbook of pesticides: methods of pesticide residues analysis. 1st Edition. CRC Press, Boca Raton, FL. P.628.

7. Bhat R.A., Beigh B.A., Mir S.A., Dar S.A., Dervash M.A., Rashid A., Lone R. 2018. Biopesticide techniques to remediate pesticides in polluted ecosystems. In: Wani KA, Mamta (eds) Handbook of research on the adverse effects of pesticide pollution in aquatic ecosystems. IGI Global, Hershey, PA. Pp. 387-407.

8. Mushtaq N., Bhat R.A., Dervash M.A., Qadri H., Dar G.H. 2018. Biopesticides: the key component to remediate pesticide contamination in an ecosystem. In: Environmental contamination and remediation. Cambridge Scholars Publishing, Cambridge. Pp. 152-178.

9. Обиджони Ш.К. Гидрохимические свойства и состав воды Нурекского водохранилища. Известия ТулГУ. Науки о Земле. 2022. Вып. 3. -С. 54-60.

10. Strokach P.P., Kulsky L.A. Workshop on natural water purification technology: textbook. manual for Universities. Moscow: Higher School, 1980. 316 p.

11. Lurie Yu.Yu. Unified methods of water analysis: textbook. handbook for Universities / Lurie Yu.Y. M: Chemistry, 1989. 376 p

12. Alekin O.A. Fundamentals of hydrochemistry. L.: Hydrometeoizdat, 1970. 444 p.

13. Качинский, Н.А. Физика почв. – Москва: Высшая школа, 1970. – 358 с.

14. Аринушкина Е.В. Руководство по химическому анализу почв // Изд-ва МГУ. – Москва, 1970. – С.5-450.

15. Приклонский В.А., Лаптев Ф.Ф. Физические свойства и химический состав подземных вод. – М.: Госгеолиздат, 1949. – С. 12-32.

16. Комилов О.К., Ахмедов А.У. Тупроқ шўрланиш даражасини тузлар захираси миқдорий кўрсаткичлари бўйича аниқлаш ва баҳолаш классификацияси / Почвы Хорезмской области. Кн:1 и 2. - Ташкент: Изд-во «ИПА АН РУз», 1998. - 107-128 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Abdiyeva O.
Namangan davlat universiteti
E-mail:abdiyeva61@gmail.com

SHIRINMIYA (GLYCYRRHIZA GLABRA L.) O‘SIMLIGINING BIOTEXNOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TIBBIYOTDA QO‘LLANILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qizilmiya (Glycyrrhiza glabra L.) o‘simligining bioekologik xususiyatlari, biologik faol moddalari, shifobaxsh va biotexnologik xususiyatlari, uning tibbiyot va farmatsevtikadagi o‘rni, turli sanoat tarmoqlarida — oziq-ovqat, kimyo va metallurgiya sanoatida qo‘llanilishi, shuningdek istiqbolli yo‘nalishlari turli manbalarni o‘rganish asosida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *biologik faol modda, biotexnologik xususiyat, metallurgiya, kletchatka, gormon, ekstrakt, gipsli tuproq, antikantserogen, antibakterial, giperaldosteronizm.*

Abdiyeva O.
Namangan State University

BIOTECHNOLOGICAL PROPERTIES OF LICORICE (*GLYCYRRHIZA GLABRA L.*) AND ITS APPLICATION IN MEDICINE

Abstract. *In this article, the bioecological properties, biologically active substances and healing, biotechnological properties of the licorice (Glycyrrhiza Glabra L.) plant, its role in medicine and pharmaceuticals, its use in various industries, food, chemical, and metallurgical industries, as well as promising directions are outlined by studying various sources.*

Key words: *biologically active substance, biotechnological property, metallurgy, kletchatka, hormone, extract, gypsum soil, anticoncerogen, antibacterial, hyperaldosteronism.*

Абдиева О.
Наманганский государственный университет

БИОТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА СОЛОДКИ (*GLYCYRRHIZA GLABRA L.*) И ЕЁ ПРИМЕНЕНИЕ В МЕДИЦИНЕ

Аннотация. *В данной статье на основе анализа различных источников рассмотрены биоэкологические особенности, биологически активные вещества, лечебные и биотехнологические свойства растения солодки (Glycyrrhiza glabra L.), его роль в медицине и фармацевтике, применение в различных отраслях промышленности — пищевой, химической и металлургической, а также перспективные направления использования.*

Ключевые слова: *биологически активное вещество, биотехнологическое свойство, металлургия, клетчатка, гормон, экстракт, гипсовая почва, антиканцероген, антибактериальный, гиперальдостеронизм.*

Kirish. Shirinmiya o‘simligi (Glycyrrhiza Glabra L.) o‘simligi qadimdan xalq tabobatida foydalanib kelingan dorivor o‘simliklardan biri hisoblanadi. Bu o‘simlikning lotincha nomi Glycyrrhiza bo‘lib, yunon tilidan "shirin ildiz" degan ma’noni anglatadi.

Shirinmiya yoki chuchukmiya, qizilmiya *(Glycyrrhiza glabra L.)* o‘simligi ko‘p yillik o‘t o‘simlik bo‘lib, qimmatbaxo dorivor xomashyo sifatida qadimdan xitoy xalq tabobatida juda keng qo‘llanib kelingan. Shirin miya O‘zbekistonning turli hududlarida, jumladan Zarafshon vodiysi va Qashqadaryo viloyatlarida uchraydigan ko‘p yillik dorivor o‘simlikdir. U qadimdan tabobatda ishlatilgan, ayniqsa, nafas yo‘llari, hazm tizimi va immunitet bilan bog‘liq kasalliklarda. Zamonaviy fan bu o‘simlikni glycyrrhizin, flavonoidlar, saponinlar kabi moddalari tufayli chuqur o‘rganmoqda. Buyuk alloma, olim va ensiklopedist Abu Rayhon Beruniy (973–1048) Markaziy Osiyo ilm-fani tarixida muhim o‘rin tutgan siymolardan biridir. U o‘zining chuqur ilmiy tadqiqotlari bilan matematika, astronomiya, geografiya, farmatsiya, botanika va boshqa ko‘plab fan sohalariga ulkan hissa qo‘shgan. Ushbu o‘simlik Burchoqdoshlar *(Fabaceae)* oilasiga mansub, ildiz tizimi yaxshi rivojlangan, 5-7 metr chuqurlikkacha kirib boradi. O‘simlikning bo‘yi 35 -150 sm gacha yetishi mumkin. Poyasi tik

o‘suvchi, siyrak yoki qisqa tukli(odatda bezli tuklar ham mavjud), ko‘p shoxlangan, dag‘alroq, qizg‘ish tusli. Barglari toq patsimon murakkab tuzulishga ega bo‘lib, 7-15 sm uzunlikda bo‘ladi, barg yaproqlarining soni 9 tadan 17 tagacha yetishi mumkin.[3,4] Bargchalarining shakli turlicha bo‘lib, tekis qirrali, cho‘ziq tuxumsimon, ellipssimon yoki lansetsimon, bezchalar hisobiga yaltiroq, yopishqoq. Gullari barg qo‘ltig‘idan chiqqan shingilga yig‘ilgan, uzunligi 5-12 sm, ikki jinsli, gul yaproqlari 812 mm uzunlikda, oqish binafsharang tusda. Mevasi quruq, pishganda ochilmaydigan dukkak. Urug‘lari 3-7 ta silliq, mayda, to‘q jigarrang. Aprel - iyulda gullab, may - sentabrda urug‘lari pishib yetiadi.

Shirinmiya o‘simligi Osiyo mintaqasida hamda yer yuzining boshqa qismlarida keng tarqalgan. Asosan daryo va ariq bo‘ylari, to‘qayzorlarda, begona o‘t sifatida ekinzorlarda, sho‘rlangan, qumli tuproqlarda o‘sadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida Toshkent, Namangan, Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo hamda Qoraqalpog‘istonda ko‘p uchraydi. Qo‘shni respublikalardan Dog‘iston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Ozarbayjon, shimoliy Kavkaz hamda Ukraina hududlarida uchrashi aniqlangan. Shirinmiya o‘simligi Turkiya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Xitoy, AQSH va Yevropaning janubiy, g‘arbiy qismlarida, shuningdek, O‘zbekistonda madaniy holda ekib o‘stiriladi .Ildizi hamda yer osti ildizpoyalari, shuningdek yer ustki qismidan chorva mollari uchun yem-xashak sifatida foydalanish mumkin. Shirinmiyaning ildiz qismidan juda ko‘plab biologik faol moddalar ajratib olingan bo‘lib, xomashyo quruq massasining 40-50 % miqdorini tashkil etadi. Ularning orasida miqdor jihatidan ko‘pligi va dorivor xususiyatlari hamda qo‘llanilish sohalari kengligi bo‘yicha glitsirrizin alohida o‘rin tutadi. O‘simlik tarkibida triterpen, saponin, flavonoidlar, polisaxaridlar, pektin, aminokislotalar, mineral tuzlar, oshlovchi moddalar, alkaloidlar kabi qator moddalar mavjud. Ildizida asosan glitsirrizin, flavanoidlar, steroidlar, asparagin, pigmentlar hamda qand uchraydi. Yer ustki qismlaridan kumarin, flavanoidlar, oshlovchi moddalar, pigmentlar, askorbin kislota, efir moyi mavjudligi aniqlangan. Shirinmiya o‘simligining yer ustki qismi o‘z tarkibida 8% miqdorda saponin saqlashi aniqlangan. Shuningdek , o‘simlik bargida 17% oqsil, 4,88% yog‘, 21,12% kletchatka va 6,78 miqdorda kul moddasi mavjudligi aniqlangan. Bundan tashqari, olimlar tomonidan o‘simlik tarkibida izolikvirtin hamda esterogen (ayollik garmoni) mavjudligi ham aytilgan. Shirin miya yo‘talni yengillashtiradi, balg‘am ko‘chiruvchi ta’sirga ega.

Pokiston, Xitoy, AQSH va Yevropaning janubiy, g‘arbiy qismlarida, shuningdek, O‘zbekistonda madaniy holda ekib o‘stiriladi .Ildizi hamda yer osti ildizpoyalari, shuningdek yer ustki qismidan chorva mollari uchun yem-xashak sifatida foydalanish mumkin. Shirinmiyaning ildiz qismidan juda ko‘plab biologik faol moddalar ajratib olingan bo‘lib, xomashyo quruq massasining 40-50 % miqdorini tashkil etadi. Ularning orasida miqdor jihatidan ko‘pligi va dorivor xususiyatlari hamda qo‘llanilish sohalari kengligi bo‘yicha glitsirrizin alohida o‘rin tutadi. O‘simlik tarkibida triterpen, saponin, flavonoidlar, polisaxaridlar, pektin, aminokislotalar, mineral tuzlar, oshlovchi moddalar, alkaloidlar kabi qator moddalar mavjud. Ildizida asosan glitsirrizin, flavanoidlar, steroidlar, asparagin, pigmentlar hamda qand uchraydi. Yer ustki qismlaridan kumarin, flavanoidlar, oshlovchi moddalar, pigmentlar, askorbin kislota, efir moyi mavjudligi aniqlangan. Shirinmiya
o‘simligining yer ustki qismi o‘z tarkibida 8% miqdorda saponin saqlashi aniqlangan. Shuningdek , o‘simlik bargida 17% oqsil, 4,88% yog‘, 21,12% kletchatka va 6,78 miqdorda kul moddasi mavjudligi aniqlangan. Bundan tashqari, olimlar tomonidan o‘simlik tarkibida izolikvirtin hamda esterogen (ayollik garmoni) mavjudligi ham aytilgan. Shirin miya yo‘talni yengillashtiradi, balg‘am ko‘chiruvchi ta’sirga ega.

Oshqozon-ichak muammolari: U oshqozon yarasi, gastritda shilliq qavatni himoya qiladi. Immun tizim: Glycyrrhiza glabra (shirin miya) moddasining viruslarga qarshi va immunitetni kuchaytiruvchi ta’siri mavjud.

Shirinmiya o‘simligining qo‘llanilish soxalari juda keng. Shirinmiya nafaqat qimmatbaxo dorivor o‘simlik balki, oqsilga boy, ozuqaviylik qiymati yuqori yem - xashak sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan o‘simlik hamdir. Tarkibining xilma- xilligi bois tibbiyotda ko‘plab kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi, ayniqsa, xitoy xalq tabobatida bu o‘simlik juda ham noyob sanaladi.

O‘simlikning asosiy kimyoviy komponentlari glitsirizin, glitsiretin kislotasi, izolikvirtin, izoflavonlar va ularning hosilalari bo‘lib, ular ko‘plab farmakologik xususiyatlarga ega. Ushbu o‘simlik Burchoqdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub, ildiz tizimi yaxshi rivojlangan, 6-7 metr chuqurlikkacha kirib boradi(1-rasm).



1-rasm. Shirinmiya o‘simligi(Glycyrrhiza Glabra).

O‘simlikning bo‘yi 35-150 smgacha yetishi mumkin. Poyasi tik o‘suvchi, siyrak yoki qisqa tukli(odatda bezli tuklar ham mavjud), ko‘p shoxlangan, dag‘alroq, qizg‘ish tusli. Barglari toq patsimon murakkab tuzulishga ega bo‘lib, 7-15 sm uzunlikda bo‘ladi, barg yaproqlarining soni 9 tadan 17 tagacha yetishi mumkin. Bargchalarining shakli turlicha bo‘lib, tekis qirrali, cho‘ziq tuxumsimon, ellipssimon yoki lansetsimon, bezchalar hisobiga yaltiroq, yopishqoq. Gullari barg qo‘ltig‘idan chiqqan shingilga yig‘ilgan, uzunligi 5-12 sm, ikki jinsli, gul yaproqlari 8-12 mm uzunlikda, oqish binafsharang tusda. Mevasi quruq, pishganda ochilmaydigan dukkak. Urug‘lari 3-7 ta silliq, mayda, to‘q jigarrang. Aprel – iyulda gullab, may – sentabrda urug‘lari pishib yetiladi.

Turkum nomi Glycyrrhiza – grekcha so‘z bo‘lib, “glykys” – shirin, “rrhiza” ildiz degan ma’noni anglatadi.

Tarqalishi. Shirinmiya o‘simligi Osiyo mintaqasida keng tarqalgan hamda boshqa qismlarida tarqalgan. Asosan daryo va ariq bo‘ylari, to‘qayzorlarda, begona o‘t sifatida ekinzorlarda, sho‘rlangan, qumli tuproqlarda o‘sadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida Toshkent, Namangan, Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo hamda Qoraqalpog‘istonda ko‘p uchraydi. Qo‘shni respublikalardan Dog‘iston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Ozarbayjon, shimoliy Kavkaz hamda Ukraina hududlarida uchrashi aniqlangan. Shirinmiya o‘simligi Turkiya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Xitoy, AQSH va Yevropaning janubiy, g‘arbiy qismlarida, shuningdek, O‘zbekistonda madaniy holda ekib o‘stiriladi.

Ishlatiladigan qismi. Ildizi hamda yer osti ildizpoyalari, shuningdek yer ustki qismidan chorva mollari uchun yem-xashak sifatida foydalanish mumkin. Kimyoviy tarkibi. Shirinmiyaning ildiz qismidan juda ko‘plab biologik faol moddalar ajratib olingan bo‘lib, xomashyo quruq massasining 40-50 % miqdorini tashkil etadi. Ularning orasida miqdor jihatidan ko‘pligi va dorivor xususiyatlari hamda qo‘llanilish sohalari kengligi bo‘yicha glitsirrizin alohida o‘rin tutadi. O‘simlik tarkibida triterpen, saponin, flavonoidlar, polisaxaridlar, pektin, aminokislotalar, mineral tuzlar, oshlovchi moddalar, alkaloidlar kabi qator moddalar mavjud. Ildizida asosan glitsirrizin, flavanoidlar, steroidlar, asparagin, pigmentlar hamda qand uchraydi. Yer ustki qismlaridan kumarin, flavanoidlar, oshlovchi moddalar, pigmentlar, askorbin kislota, efir moyi mavjudligi aniqlangan. Shirinmiya o‘simligining yer ustki qismi o‘z tarkibida 8% miqdorda saponin saqlashi aniqlangan. Shuningdek , o‘simlik bargida 17% oqsil, 4,88% yog‘, 21,12% kletchatka va 6,78 miqdorda kul moddasi mavjudligi aniqlangan. Bundan tashqari, olimlar tomonidan o‘simlik tarkibida izolikvirtin hamda esterogen (ayollik garmoni) mavjudligi ham aytilgan.

Ishlatilishi. Shirinmiya o‘simligining qo‘llanilish soxalari juda keng. Shirinmiya nafaqat qimmatbaxo dorivor o‘simlik balki, oqsilga boy, ozuqaviylik qiymati yuqori yem -xashak sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan o‘simlik hamdir. Tarkibining xilma-xilligi bois tibbiyotda ko‘plab kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi, ayniqsa, xitoy xalq tabobatida bu o‘simlik juda ham noyob sanaladi. Adabiyotlarda O‘rta Osiyo va Kavkaz respublikalarida shirinmiya ildizidan olingan bo‘yoqlar kigiz va jun matolarini bo‘yashda ishlatilishi, shuningdek, poyasidan arqon tayyorlash dag‘al tola olinishi aytilgan. Shirinmiya ildizini maydalab, xlorid kislota hamda suv bilan aralashtirilganda ko‘pirishi tufayli o‘t o‘chirishda ham qo‘llaniladi. Yengil sanoatda rangli bo‘yoqlar, kimyo sanoatida esa siyoh olish, qog‘ozga rang berish, metallurgiyada metallarni gidrolizlashda ishlatiladi. Shirinmiya ildizi oziq – ovqat sanoatida ham juda keng qo‘llaniladi, jumladan, non va qandolatchilik mahsulotlari, murabbo, konserva, oziqa konsentratlari hamda ichimliklar tayyorlash va boshqa sohalarda.

Xalq tabobatida qo‘llanilishi. Abu Ali ibn Sino shirinmiya ildizidan o‘pka, me’da yallig‘lanishi, buyrak, qovuq, isitma kabi kasalliklarni davolashda foydalangan. Shirinmiya ildizidan tayyorlangan qaynatma va damlamalar, ildiz kukuni surgi vositasi hamda terlatuvchi sifatida, yo‘tal, nafas qisishi hamda ko‘krak og‘riqlarida uzoq yillardan beri qo‘llanib kelinadi. O‘rta Osiyo xalq tabobatida ildizdan tayyorlangan qaynatma tomoq quriganda, me’da va o‘n ikki barmoq ichakning yara kasalliklari hamda gemaroyda qo‘llaniladi. Ildiz qaynatmasi yuqori nafas yo‘llarining shamollash kasalliklari va yo‘talda balg‘am ko‘chiruvchi hamda siydik haydovchi sifatida qo‘llaniladi.

Tibbiyotda qo‘llanilishi. Meditsinada shirinmiya o‘simligining quyuq hamda suyuq ekstrakt, sharbat parashog shakllardagi dorivor preparatlari asosan nafas yo‘llari xastaliklarini davolashda balg‘am ko‘chiruvchi o‘rab oluvchi sifatida, shuningdek surgi dori sifatida qo‘llaniladi. Undan tashqari, o‘simlikdan tayyorlangan preparatlar siydik haydovchi, ich yumshatuvchi choy yig‘malar tarkibiga kiritiladi. Farmatsevtikada ildiz kukunini dorilarning hidi va ta’mini yaxshilash uchun ishlatiladi.

Glitsirrizin kislotasi asosida olingan glitsiram bronxial astma, ekzema, allergik dermatit kasaliklarini davolashda foydalanilsa, flavanoidlar asosida olingan likviriton va flakarbin hazm tizimi kasalliklarini davolash uchun qo‘llaniladi. Shu bilan birga, Shirinmiya o‘simligi qadimdan ko‘plab olimlarni o‘ziga jalb qilib kelgan va hozirgi kunda ham ko‘plab olimlar hamda yosh tadqiqotchilar jumladan magistrlar, doktorantlar va xatto tadbirkor, dehqonlar ham ushbu noyob o‘simlikka katta qiziqish bilan yondashmoqda. Qadimgi grek olimlari Gippokrat va Teofrast shirinmiya ildiziga yuqori baxo berib, nafas yo‘llari kasalliklarida ishlatishni tavsiya etgan. Ushbu o‘simlik Abu Ali ibn Sino asarlarida ham uchraydi.

Glycyrrhiza Glabrani 1973-yili Karl Linney aniqlagan. Gammerman F.A (1957) shirinmiya o‘simligining shifobaxsh xususiyatlaridan kelib chiqib “Jen- Shen” o‘simligiga tenglashtiradi. Olimlardan Buass’ya (Boisser 1872) va Engler (Engler 1894) Glcyrrhiza turkumlarini o‘rgangan. Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi N.A.Yuldasheva ham shirinmiya o‘simligini tabiiy sharoitda o‘rganish bo‘yicha o‘z ilmiy ishlariniolib borgan.” Biz o‘rganayotgan shirinmiya (g.Glabra) turi Eugycyrrhiza seksiyasiga mansub”. B.f.f.d, dotsent M.A.Yusupova “Unumdorligi past bo‘lgan maydonlarda qizilmiya (Glycyrrhiza glabra) ekishning foydali xususiyatlari nomli maqolasida quyidagi ma’lumotlarni keltirgan: sho‘rlangan va gipsli tuproqlarda qizilmiyani ekish maqsadga muvofiqdir. Chunki 5 yil qizilmiya o‘stirilgan yerda tuproqning sho‘rlanganlik darajasi 2,5 barobargacha kamayib, azot, gumus, bilan to‘yinadi. A.J.Qo‘ziyev Silliq shirinmiya Glycyrrhiza Glabra L. urug‘idan ko‘chat yetishtirish va o‘stirishning bioekologik asoslari mavzusida dissertatsiya ishini yoqlagan, ”Ekin maydonlarida o‘stirilgan silliq shirinmiyaning yer osti hosildorligi va undagi to‘plangan foydali moddalarning tarkibi o‘simlik yoshi,qismlari va o‘stirilgan sharoitiga qarab turlicha”. Shirinmiya o‘simligi butun dunyo olimlarining qiziqishiga sabab bo‘lgan. Ular orasida hind olimlarining qilgan ishlari juda ham qimmatli. Shadma Vahab, Sivakur Annadurai va boshqa olimlar Glycyrrhiza glabra L ning fitokimyosi, biologik aktiv moddalari hamda foydali xususiyatlari haqida izlanishlar olib borishi natijasida shirinmiyaning yangi qo‘llash mumkin bo‘lgan sohalarini aniqlashdi. Jumladan licorice (shirinmiya ildizi)ning antikonserogenlik xususiyatlarini o‘rganib quyidagi xulosalarni olishgan:” Glabridin G. glabraning yana bir muhim flavonoidi p-AKT, p-ERK1/2, siklin D1 va boshqalar kabi p-epidermal o‘sish omili retseptorlari kabi ifoda darajasini pasaytirish orqali saratonga qarshi faollikni ko‘rsatdi. Yuqorida muhokama qilingan barcha tadqiqotlar turli xil saraton turlarini davolash uchun qizilmiyadan foydalanishni qo‘llabquvvatlaydi”. Shuningdek ushbu olimlar shirinmiya o‘simligining antibacterial xususiyatlarini ham sinovdan o‘tkazishgan.” Glycyrrhiza glabra ning antibakterial xususiyatlari Bacillus ceeruis, Escherichia coli, Pseudomonas aeuruginosa va staphylococcus aureusga qarshi tekshirildi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori ta’sir S. aureusga va eng past ta’sir P. aeruginosaga bo‘lgan.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot natijalari Glycyrrhiza glabra ekstrakti bakterial infektsiyalarga qarshi potentsial davolash bo‘lishi mumkinligini tasdiqlaydi”. Ushbu olimlar shirinmiya ildizining toksikologik xususiyatlariniham o‘rganib chiqishgan.

Glycyrrhiza glabra o‘simligining ildizi mineralokortikoidga o‘xshash ta’sirga ega va o‘simlik tarkibiy qismi glycyrrhizic kislotasini o‘z ichiga olgan qizilmiya hosil qilish uchun ishlatiladi. Qizilmiyani surunkali iste’mol qilish birlamchi giperaldosteronizm bilan taqqoslanadigan holatni keltirib chiqaradi. Qizilmiyani haddan tashqari iste’mol qilish giperminerokortikoidizmga olib kelishi mumkin, bu holat tuzni ushlab turish, gipokalemiya, gipertenziya, metabolik alkaloz, gipoaldosteronizm va past renin faolligi bilan tavsiflanadi.Adriane Fugh-Berman o‘zining “Treatment of the Postmenopausal Woman” kitobida quyidagilarni keltirgan:”Glitsirrizin kislotasi va uning hosilalari kortizolni kortizonga aylantiradigan 11 beta-gidroksisteroid degidrogenaza tizimini ingibir qilish orqali kortizol metabolizmiga ta’sir qiladi”. Minglei Tian, Hongyuan Yan va Kyung Ho Row “Extraction of Glycyrrhiza Acid and Glabridin from Licorice” maqolasi shirinmiya ildizidan glitsirizin kislota hamda Glabridin olish ya’ni ekstraktsiya jarayoni haqida bo‘lib, 1,0 g qizilmiya kukuni 50 ml etanol / suv (30:70, v / v) bilan ekstraksiya qilish orqali ekstraktsiyaning turli usullari bo‘lgan chuqur ekstraktsiya va ultratovushli ekstraktsiya kabi turli xil ekstraksiya usullarini o‘rganishgan. Ikki usul natijalarini solishtirganda, ultratovush usuli orqali olingan miqdorlar kamroq ekanligi, tajribalarda esa ko‘proq energiya talab qilinganligini aniqlashgan. Shirinmiya dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida ekib o‘stiriladi, uning eksport va import hajmi ham juda yuqori.

Angliya, AQSh, Ispaniya, Italiya , Fransiya ,Turkiya, Xitoy, Hindiston, Iroq, Eron, Afg‘aniston, Suriya ,Azarbayjon, Turkmaniston va O‘zbekistonda iqtisodiy maqsadlarda katta maydonlarda ekiladi. Har yili Xitoy, AQSH kabi davlatlar shuningdek, katta hajmdagi shirinmiyani import qilib oladi. Yurtimizda ham shirinmiyaning qimmatli xususiyatlarini inobatga olgan holda ushbu o‘simlikni katta maydonlarda yetishtirishga davlat axamiyati darajasida e’tibor qaratilmoqda. 1995-yil 7-dekabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan shirinmiya xomashyosiga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida shirinmiya xomashyosini yetishtirishni ko‘paytirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi” 453-sonli maxsus qarori qabul qilingan. 27.01.2018 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida qizilmiya va boshqa dorivor o‘simliklarni yetishtirish hamda sanoat usulda qayta ishlashni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 63-sonli qarori qabul qilingan. Qizilmiya va boshqa dorivor o‘simliklarni yetishtirish hamda sanoat usulida qayta ishlashni samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida138-son qarori esa 15.02.2019 yilda qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan “Qizilmiya o‘simligini yetishtirish va qayta ishlash tashkilotlari uyushmasi”ni tashkil etildi va qizilmiya ekishni Qoraqalpog‘iston Respublikasida 25000 gektarga yetkazish ko‘zda tutilgan. Qizilmiya quyoshni yaxshi ko‘radigan o‘simlikdir, shuning uchun uni quyoshli joyda ekish kerak. Yaxshi drenajlanadigan tuproq ham zarur, chunki qizilmiya namlikni sevadi, lekin suv to‘planishidan xalos bo‘lishi kerak. Qizilmiya o‘simligi turli tuproqlarda o‘sishi mumkin, ammo eng yaxshi natija unumdor va engil, qumli-tuproq aralashmasida o‘sadi.

Tuproq pH darajasi 6.0–7.0 oralig‘ida bo‘lishi kerak. Tuproqni tayyorlashda kompost yoki go‘ng qo‘shish o‘simlikka foyda keltiradi. Qizilmiya o‘simligini bahorda, muzlash xavfi o‘tganidan so‘ng ekish tavsiya etiladi. Ekish uchun optimal vaqt — mart yoki aprel oyining boshlarida. Urug‘lar kichik, shuning uchun ularni yer yuzasiga ekib, juda ozgina tuproq bilan yoping. Urug‘lar o‘rtacha 1-2 sm chuqurlikda ekilishi kerak. Urug‘lar orasida kamida 30 sm masofa saqlanishi kerak, chunki qizilmiya o‘simliklari keng o‘sadi. Qizilmiya o‘simliklarini o‘sishi uchun muntazam ravishda urug‘larni suvsizlantirish yoki kerakli o‘g‘itlar bilan oziqlantirish foydali bo‘ladi. Kompost yoki organik o‘g‘itlar yaxshi natija beradi. O‘simliklar tez o‘sadi va yaxshi shakl olishlari uchun ularni muntazam ravishda sug‘orib, tuproqni oziqlantirib turish kerak. Qizilmiya o‘simliklari rang-barang gullari va barglari bilan mashhur bo‘lib, ularni bog‘larda dekorativ o‘simlik sifatida ham ishlatish mumkin. O‘simlikdan olingan urug‘lar oziqovqat sifatida ishlatiladi, ayniqsa, qizilmiya urug‘lari quinoa kabi sog‘lom va to‘yimli ozuqaviy tarkibga ega.

Xulosa. Glycyrrhiza glabra - kuchli etnobotanik tarixga ega o'simlik. Ildiz va bu o'simlikning ildizpoyalari Yevropada ham, sharqda ham xalq tabobati sifatida ishlatiladi. Glycyrrhiza glabra ekstrakti juda ko'p dorivor xususiyatlarga ega ekanligi isbotlangan antitussiv, antimikrobiyal, antioksidant, yallig'lanishga qarshi, yaraga qarshi, saratonga qarshi, juda koʻp biologik faol komponentlar, triterpen, saponinlar, flavonoidlar, alkaloidlar, glitsirrizin, glitsiretik kislota, glabridin, likviritin va boshqalar mavjudligi sababli an'anaviy farmakopeyalarda qo'llanilgan qadimiy o'simliklardan biri hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan shirinmiya o‘simligining ko‘plab foydali xususiyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu o‘simlik yuqori biotexnologik xossalarga ham ega. Masalan, o‘simlik ildizi tarkibidan ajratib olingan moddalarning antibakterial, antikonserogen xususiyatlaridan foydalanib salbiy ta’siri kam bo‘lgan dori preparatlarini ham ishlab chiqarish mumkin yoki mana shunday dorilar tarkibiga qo‘shish mumkin. Hozirgi kunda ko‘plab bemorlar o‘sma kasalliklaridan aziyat chekmoqda va ko‘p hollarda kasallik o‘lim bilan yakunlanmoqda. Kimyoviy preparatlarning o‘rniga tabiiy o‘simlik preparatlaridan foydalanish organizmi shundoq ham kasallikdan zaiflashgan bemorlarga samarali davo vositasi bo‘ladi. Bundan tashqari o‘simlik ildizidan olinadigan moddalarni sanoatning ko‘plab tarmoqlarida foydalanish mumkinligi ham ko‘rsatilgan. O‘simlikning foydali xususiyatlari ko‘p olimlar tomonidan o‘rganilgan. Hozirgi kundagi asosiy masala esa mana shu foydali xususiyatlardan to‘laqonli foydalanish, ya’ni amaliyotga tatbiq etishdir. Bular o‘simlikdan moddalarni ajratib olishning zamonaviy, oson texnologik usullarini yaratish, ulardan dori va boshqa preparatlar tayyorlash, o‘simlik qoldiqlarini qayta ishlash kabi dolzarb masalalardir. Ushbu jarayonlarni amaliyotga keng joriy etish O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun juda ham katta o’sishga sabab bo‘ladi. Bu borada bir qator ishlar ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, Qoraqalpog‘istonning Nukus shaxrida 2019-yilda shirinmiya ekstrakti tayyorlovchi korxona ishga tushirilgan. Kegeyli tumanida Xitoy bilan hamkorlikda “Lankomiya” qo‘shmakorxonasi tashkil etilgan bo‘lib, bu yerda ham shirinmiya ekstrakti tayyorlanadi va AQSh hamda Xitoyga eksport qilinadi. Bunday ishlar ko‘lamini yanada kengaytirish hamda rivojlantirish yosh tadqiqotchi va olimlar, ishbilarmonlarning oldida turgan muhim vazifalardandir.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1.A.Usmanxodjaev, E.Basitxanova , O‘.Pratov , A.Djabbarov. O‘zbekistonda o‘sadigan shifobaxsh o‘simliklarning etimologik zamonaviy ensiklopediyasi. Toshkent-2018

2. A.J.Qo‘ziyev “Silliq shirinmiya – Glycyrrhiza Glabra Licorice urug‘idan ko‘chat yetishtirish va o‘stirishning bioekologik asoslari” avtoreferati, Toshkent-2000

3. Akbarova M. X., Turdibekov M. M. O. G. L. Shoximardonsoy havzasida tarqalgan shifobaxsh o‘simliklar //Science and Education(2021) – Т. 2. – №. 12. – С. 102-108.

4. D.Saidov, L.Pauzner, L.Shamsuvaliyeva “Shirinmiya”, “O‘zbekiston”nashriyoti, Toshkent-1975

5. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515(2023)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Devonova Nigora Komiljonovna
Termiz davlat universiteti, tayanch doktoranti
Email:komiljonovna@tersu.uz
Mirzayeva Gulnora Saidarifovna
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Zoologiya instituti,
Entomologiya laboratoriyasi mudiri

UO‘K: 595.787

CATOCALA NEONYMPHA ESPER, 1805 KAPALAGINING (LEPIDOPTERA: EREBIDAE) MORFOLOGIYASI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqola Surhondaryo viloyatida ilk bor aniqlangan Erebidae oilasiga mansub Catocala neonympha kapalagi haqida. Ilmiy tadqiqot ishlari 2023-2025 yillar davomida Surxon davlat qo‘riqxonasining Sholqon hududida olib borilgan. Bu kapalak monovoltin tur bo‘lib, kapalaklarining uchish vaqti iyun-sentabr oylariga to‘g‘ri keladi. Qurtlarining faol davri may-iyun. Qurtlari ozuqa ixtisosligiga ko‘ra keng bo‘lib, Salix, Quercus avlodlariga mansub o‘simliklarning barglari bilan oziqlanadi. Kapalak mezofil ekologik guruhga mansub, yozgi-kuzgi tur hisoblanadi. Kuz mavsumining ikkinchi yarmidan boshlab tuxumlik bosqichida qishlab qoladi.*

Kalit so‘zlar: *Erebinae, Catocala neonympha, monovoltin, ozuqa ixtisosligi, oligofag, mezofil, yozgi-kuzgi tur, eremial, evritop tur.*

Девонова Нигора Комилжоновна
Термезский государственный университет, докторант
Мирзаева Гулнора Саидарифовна
Института зоологии Академии Наук Республики Узбекистан
Заведующая лаборатории энтомологии

МОРФОЛОГИЯ И БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ *CATOCALA NEONYMPHA* ESPER, 1805 (LEPIDOPTERA: EREBIDAE)

Аннотация: *Данная статья посвящена бабочке Catocala neonympha, принадлежащей к семейству Erebidae, которая была впервые обнаружена в Сурхандарьинской области. Научные исследования проводились в районе Шолкон Сурхандарьинского государственного заповедника в 2023-2025 годах. Бабочка Catocala neonympha — однопоколенный вид, период лёта которого приходится на июнь-сентябрь. Активный период её гусениц — май-июнь. По своей пищевой специализации гусеницы являются широко олигофагами, питаясь листьями растений родов Salix и Quercus. Бабочка относится к мезофильной экологической группе и является летне-осенним видом. Начиная со второй половины осеннего сезона, она впадает в спячку на стадии яйца.*

Ключевые слова: *Erebinae, Catocala neonympha, моновольтинный, пищевая специализация, олигофаг, мезофил, летний вид, eremial, evritop.*

Devonova Nigora Komiljonovna
Termez State University, PhD student
Mirzaeva Gulnora Saidarifovna
Head of the Entomology Laboratory, Institute of Zoology,
Academy of Sciences of Uzbekistan

MORPHOLOGY AND BIOECOLOGICAL FEATURES OF *CATOCALA NEONYMPHA* ESPER, 1805 (LEPIDOPTERA: EREBIDAE)

Abstract: *This article focuses on the Catocala neonympha butterfly, a member of the Erebidae family, which was first discovered in the Surkhandarya region. Research was conducted in the Sholkon area of the Surkhandarya State Nature Reserve from 2023 to 2025.*

The species is a monovoltine species, with a flight period from June to September. Its caterpillars are active from May to June. The larvae are broad oligophages, feeding on the leaves of plants of the Salix and Quercus genera. The butterfly belongs to the mesophilous ecological group and is a summer-autumnal species. Beginning in the second half of the autumn season, it overwinters in egg stage.

Key words: *Erebidae, Catocala neonympha, monovoltine, food specialization, oligophagus, mesophyll, summer species, eremial, eurytopic.*

Kirish

Catocala - Erebidae oilasiga mansub kapalaklar avlodi hisoblanib, tur 1802-yilda Frans fon Paula Shrank tomonidan nomlangan. Mazkur kapalaklarning farqli jihati odatda qanot ostidagi rangli tasmalaridir. *Catocala neonympha* turi asosan Palearktika mintaqasining janubiy qismida tarqalgan bo‘lib, asosan quruq va issiq iqlimli hududlarni xush ko‘radi. Yer yuzida ushbu turni Markaziy Osiyo (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg‘iziston), Sharqiy Yevropa, Rossiya (kamyob va migrant holda), Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya kabi hududlarda uchratish mumkin (9,10,11).

Adabiyotlar tahlili

Ushbu tur Janubiy Yevropadan tortib to Mo‘g‘uliston chegaralarigacha bo‘lgan kenglikda tarqalgan, ammo u hamma joyda ham bir xil zichlikda uchramaydi. Masalan, O‘zbekistonda u “oddiy tur” bo‘lsa [1], Sviridov tadqiqot o‘tkazgan Ryazanda “olamshumul yangilik” hisoblanadi [7,8]. Xattoki, Qrim davlati va Krasnodar o‘lkasining Qizil kitobiga ham kiritilgan tur [3,6] O‘zbekistonlik taniqli entomolog Pyotr Yurevich Gorbunov (ko‘pincha Rossiya va Markaziy Osiyo kapalaklari bo‘yicha fundamental asarlar muallifi sifatida tanilgan) o‘zining ilmiy ishlarida va mashhur “The Butterflies of Russia and neighbouring countries” asarida *Catocala neonympha* — bu eremial (cho‘l va quruq iqlimga moslashgan) tur. U O‘zbekiston va Qozog‘istonning issiq cho‘llarida o‘zini juda yaxshi his qiladi, lekin shu bilan birga u evritop (turli muhitga moslasha oladigan) xususiyatga ega. Shuning uchun, u nafaqat cho‘lda, balki daryo bo‘ylaridagi to‘qayzorlarda ham yashay oladi degan fikrni ilgari surgan [5].

P.Yu. Gorbunov o‘z ishlarida A.V. Sviridovning topilmalarini tasdiqlagan holda, oxirgi o‘n yilliklarda ushbu turning iqlim o‘zgarishi va boshqa ekologik faktorlar ta’siri natijasida o‘z arealini shimoliy hududlarga (masalan, Rossiyaning markaziy qismiga) kengaytirayotganini ta’kidlagan. Bu shunchaki tasodifiy uchib borish emas, balki turning yangi hududlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish (kolonizatsiya) jarayonidir [7]. Olim bu turning asosiy ozuqasi shirinmiya (*Glycyrrhiza*) ekanligini yozadi. Biroq, agar shirinmiya o‘simligi bo‘lmasa, bu tur boshqa dukkakli o‘simliklar (masalan, *Caragana* — qarag‘an yoki *Genista*) bilan ham oziqlanishi mumkinligini taxmin qiladi. Bu esa, uning shirinmiya o‘smaydigan joylarda ham yashab qolishiga imkon berishidan darak beradi (1-rasm).

1.  2. 

1-rasm. *Catocala neonympha* imago (1) va qurtining (2) shirinmiya o’simligida tarqalishi (www.inaturalist.org/observations/294267051).

Ushbu tur shu avlodga mansub boshqa kapalak turlaridan (masalan, *Catocala puerpera*) old qanotlaridagi ochiq kulrang-qumrang naqshlar va orqa qanotlaridagi sariq rangning yorqinligi hamda o‘ziga xos qora shakli tasmalarining mavjudligi bilan ajralib turadi. *Catocala neonympha* turi 2006-2020 yillar davomida X.O‘. Bekchanov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda Shimoliy-G‘arbiy O‘zbekistonning turli hududlaridan qayd etilgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi

Catocala neonympha kapalagi 2023-2025 yillar davomida Surxon davlat qo‘riqxonasining Sholqon (37°50'59.4"N 66°38'41.1"E) bo‘limida olib borildi. Kapalaklarni yig‘ish tungi yoritgich tuzog‘i yordamida amalga oshirildi. Yig‘ilgan kapalak namunalardan ajratib olinib, kolleksiya tayyorlandi. Tur tarkibini aniqlashda entomologik aniqlagichlar va elektron kataloglardan foydalanildi [2, 4].

Natijalar va ularning tahlili



2-rasm *Catocala neonympha* Esper, 1805 (Original rasm)


Taksonomik o‘rni:

Turkum: Lepidoptera
Katta oila: Noctuoidea
Oila: Erebidae Leach, 1815
Avlod: *Catocala* Schrank, 1802
Tur: *Catocala neonympha* Esper, 1805
Sinonimlari: *Phalaena neonympha* Esper, 1805, *Catocala cohaerens* Schultz, 1909.

Tur aniqlangan joy va muddati: 2♀ O‘zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Surxon davlat qo‘riqxonasi Sholqon bo‘limi [37.849833, 66.644750] 08.07.2025.

Qisqacha morfologik tavsifi: Kapalak tanasining uzunligi 25 mm, mo‘ylovlarining uzunligi 10 mm, oldingi qanotining uzunligi 25 mm, kengligi 15 mm, orqa qanotining uzunligi 18 mm, kengligi 16 mm. Kapalak qanotlarini yozganda kengli 55 mm ni tashkil etadi.

Tarqalishi: Transpalearktik (mo‘tadil subtropik), Janubiy-g‘arbiy, O‘rta Osiyo (Bekchanov, 2019) (3-rasm).



3-rasm. *Catocala neonympha* turining dunyo bo‘ylab tarqalishi (www.gbif.org/species/4532463).

Xulosa

Catocala neonympha kapalagi Surxon davlat qo‘riqxonasi hududida ilk bor qayd etildi. Bioekologik xususiyatlariga ko‘ra, monovoltin tur bo‘lib, kapalaklarining uchish vaqti iyun-oktyabr oylariga to‘g‘ri keladi. Qurtlarining faol davri may-iyun. Qurtlari *Glycyrrhiza, Caragana* kabi o‘simliklarning barglari bilan oziqlanadi. Ozuqa ixtisosligiga ko‘ra, keng oligofag, mezofil ekologik guruhga mansub, yozgi-kuzgi tur. Kuz mavsumining ikkinchi yarmidan boshlab tuxumlik bosqichida qishlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekchanov X.O‘. Shimoliy-G‘arbiy O‘zbekistonning tangachaqanotlilari (Insecta, Lepidoptera) faunasi va ekologiyasi: Biol. fan. dokt. (DSc) diss. – Toshkent, 2019. – 320 b.

2. Botirov E.A. *Catocala elocata* (Esper, 1788) kapalagining (Lepidoptera: Erebidae) morfologiyasi va bioekologik xususiyatlari // FarDU ilmiy xabarlari. – Farg‘ona, 2024. – № 3. – B. 427.

3. Qrim Respublikasining Qizil kitobi: Hayvonlar / muharrirlar: S.P. Ivanov, A. V. Fateryga. – Simferopol: Arial, 2015. – 440 b.

4. Shermatov M.R., Botirov E. A. Tunlam kapalaklarning (Lepidoptera: Noctuoidea) ozuqa spektriga oid // Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2022. – T. 10. – № 11. – P. 78–84.

5. Горбунов П.Ю. Высшие чешуекрылые (Macrolepidoptera) пустынь и южных степей Западного Казахстана. – М.: Костанай, 2011. – С. 101.

6. Красная книга Краснодарского края: Животные / отв. ред. А. С. Замотайлов. – 2-е изд. – Краснодар: Центр развития Красной книги Краснодарского края, 2007. – 477 с.

7. Свиридов А. В., Антонова Е. М., Блинушов А. Е., Бутенко О. М. Высшие чешуекрылые Окского заповедника (аннотированный список видов) // Флора и фауна заповедников. – М., 1998. – Вып. 70. – 40 с.

8. Свиридов А. В., Блинушов А. Е., Кузнецов И. В. Совки (Lepidoptera: Noctuidae) Рязанской области // Русский энтомологический журнал. – М., 1999. – Т. 8. – Вып. 1. – С. 57–70.

9. Yu, Dicky Sick Ki. *Catocala neonympha* (Esper 1805) // Ichneumonoidea. Taxapad. – 2016. – URL: [havola] (murojaat sanasi: 16.02.2026).

10. Fauna Europaea. *Catocala neonympha* (Esper, 1805). – Elektron resurs. – URL: [havola] (murojaat sanasi: 16.02.2026).

11. Savela, Markku. *Catocala neonympha* (Esper, 1805) // Lepidoptera and some other life forms. – 2019. – URL: [havola] (murojaat sanasi: 16.02.2026).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Komilova Nargiza Adxambekovna
Turon universiteti Andijon filiali, 1kurs magistranti
Tuychiyeva Dilfuza Sidikjanovna
Andijon davlat universiteti, Biologiya kafedrasi professori.
Yulchiyev Erkin Yuldashevich
Andijon davlat universiteti, Biologiya kafedrasi dotsenti

KUNJUT (*SESAMUM INDICUM* L.): KOMPLEKS BIOEKOLOGIK TAVSIF VA ZAMONAVIY FARMATSEVTIK AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kunjut o‘simligining filogenezi, o‘sish qonuniyatlari, morfologik va anatomik tuzilishi hamda tarkibidagi lignanlarning (sesamin, sesamolin) farmakologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kunjutning xalq xo‘jaligidagi iqtisodiy samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, so‘nggi 10 yillik ilmiy manbalar asosida o‘simlikning farmatsevtik salohiyati va O‘zbekiston sharoitida yetishtirish agrotexnikasi bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sesamum indicum, bioekologiya, sesamin, sesamolin, farmatsevtika, lignanlar, antioksidant, agrotexnika.*

Комилова Наргиза Адхамбековна
магистрант 1 курса, Андижанский филиал университета Турон
Туйчиева Дилфуза Сидикжановна
профессор кафедры биологии, Андижанский государственный университет
Юлчиев Эркин Юлдашевич
доцент кафедры биологии, Андижанский государственный университет

КУНЖУТ (*SESAMUM INDICUM L.*): КОМПЛЕКСНАЯ БИОЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И СОВРЕМЕННОЕ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются филогенез растения кунжута, закономерности его роста, морфологическое и анатомическое строение, а также фармакологические свойства содержащихся в нём лигнанов (сезамин, сезамолин). В исследовании экономическая эффективность кунжута в народном хозяйстве. Также на основе научных источников за последние 10 лет представлены рекомендации по фармацевтическому потенциалу растения и агротехнике его выращивания в условиях Узбекистана.*

Ключевые слова: *Sesamum indicum, биоэкология, сезамин, сезамолин, фармацевтика, лигнаны, антиоксидант, агротехника.*

Komilova Nargiza Adxambekovna
Master’s Student (1st year), Andijan Branch of Turon University
Tuychiyeva Dilfuza Sidikjanovna
Professor, Department of Biology, Andijan State University
Yulchiyev Erkin Yuldashevich
Associate Professor, Department of Biology, Andijan State University

SESAME (*SESAMUM INDICUM L.*): COMPREHENSIVE BIOECOLOGICAL CHARACTERIZATION AND MODERN PHARMACEUTICAL SIGNIFICANCE

Abstract. *This article analyzes the phylogeny of the sesame plant, its growth patterns, morphological and anatomical structure, as well as the pharmacological properties of its lignans (sesamin, sesamolin). The study highlights the economic efficiency of sesame in the national economy. In addition, based on scientific sources from the last 10 years, recommendations are provided regarding the plant’s pharmaceutical potential and its cultivation agrotechnology under the conditions of Uzbekistan.*

Keywords: *Sesamum indicum, bioecology, sesamin, sesamolin, pharmaceuticals, lignans, antioxidant, agrotechnology.*

Kirish (Introduction). Kunjut (*Sesamum indicum* L.) - Pedaliaceae oilasiga mansub bo‘lib, insoniyat tomonidan yetishtiriladigan eng qadimgi moyli ekin hisoblanadi. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, u miloddan avvalgi 3500-yillarda ham Hindiston va Mesopotamiyada ekilgan. Qadimgi Bobil va Misr yozuvlarida kunjut moyi nafaqat oziq-ovqat, balki dori vositasi va yoritish manbai sifatida tilga olinadi.

Hozirgi kunda global oziq-ovqat xavfsizligida kunjutning o‘rni beqiyos. Uning urug‘i "moyli ekinlar malikasi" deb ataladi, chunki undagi yog‘ miqdori (50-65%) boshqa ko‘plab ekinlardan (paxta, soya, kungaboqar) sezilarli darajada yuqori. Farmatsevtika sanoatida esa kunjut moyi dori vositalarining organizmga so‘rilishini yaxshilovchi eng xavfsiz "transport" (erituvchi) vazifasini o‘taydi. Uning barqaror kimyoviy tarkibi dori vositalarining uzoq vaqt saqlanishini ta'minlaydi.

Tadqiqot usullari (Methods). Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy morfologiya va biokimyoviy meta-analiz usullaridan foydalanildi. So‘nggi 10 yil (2016–2026) ichidagi "Web of Science", "Scopus" va "Google Scholar" ma’lumotlar bazasidagi 50 dan ortiq ilmiy maqolalar o‘rganildi. O‘simlikning bioekologik xususiyatlarini aniqlashda O‘zbekistonning qurg‘oqchil va sho‘rlangan tuproq sharoitlarida o‘tkazilgan agrotexnik sinovlar natijalari, shuningdek, FAO (BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti) statistik ko‘rsatkichlari inobatga olindi.

Natijalar (Results) va taxlil. Kunjutning birlamchi kelib chiqish markazi Efiopiya (Afrika) hisoblanadi. Bu yerda *Sesamum* turkumiga kiruvchi 30 dan ortiq yovvoyi turlar aniqlangan. Ikkinchi darajali markazi - Hindiston bo‘lib, aynan shu yerda o‘simlik madaniylashtirilgan va Osiyo bo‘ylab tarqalgan.

Bugungi kunda kunjut dunyoning 65 dan ortiq mamlakatlarida, asosan tropik va subtropik mintaqalarda ekiladi. Dunyo bo‘yicha yillik ishlab chiqarish 6.5-7 million tonnani tashkil etadi.

Sudan, Hindiston va Myanma jahon bozorining asosiy qismini egallaydi. O‘zbekistonda esa "Tashkentskiy-122", "Serik" kabi mahalliy iqlimga moslashgan, issiqlikka chidamli navlar rayonlashtirilgan.

Morfo-anatomik tuzilishi. Kunjutning morfologiyasi uning ekstremal issiqlik va qurg‘oqchilikka moslashish mexanizmlarini belgilaydi:

Ildiz tizimi: O‘q ildiz tipida bo‘lib, tuproqning 100-150 sm qatlamigacha kirib boradi. Anatomik jihatdan ildizning birlamchi po‘stlog‘i va markaziy silindri aniq ajralib turadi. Ildiz tukchalari suvni so‘rish qobiliyati yuqori bo‘lgan parenxima to‘qimalari bilan boyitilgan.

Poya: Tik o‘suvchi, to‘rt qirrali va ichi bo‘shliqdan iborat. Balandligi 60 sm dan 180 sm gacha yetadi. Poyaning tashqi qavati (epidermis) qalin va mayda tuklar bilan qoplangan, bu esa transpiratsiyani (namlik yo'qotishni) kamaytiradi.

Barg: Barglarining joylashishi poyaning pastki qismida qarama-qarshi, yuqori qismida esa ketma-ket. Barg plastinkasining anatomik kesimida kutila (himoya qavati) va mezofill (fotosintez qiluvchi to‘qima) qatlamlari yaqqol ko‘rinadi.

Meva (ko‘sakcha): Cho‘ziq-to‘rtburchak shakldagi ko‘sakcha. Anatomik nuqtai nazardan, ko‘sakcha devori uch qavatdan (ekzokarp, mezokarp, endokarp) iborat bo‘lib, urug‘larni himoya qilish uchun sklerenxima hujayralari bilan qoplangan.

Kimyoviy tarkibi: Kunjut (*Sesamum indicum*) urug‘i boy kimyoviy tarkibga ega bo‘lib, uning oziqaviy va dorivor qiymatini belgilaydi. Urug‘ tarkibining asosiy qismini yog‘lar tashkil etadi (taxminan 45–55%). Bu yog‘lar asosan olein (omega-9) va linol (omega-6) yog‘ kislotalaridan iborat bo‘lib, yurak-qon tomir tizimi uchun foydali hisoblanadi. Shuningdek, palmitin va stearin kislotalari ham mavjud.

Kunjutda 18 - 25% gacha oqsil bo‘ladi. Uning oqsillari muhim aminokislotalarga, jumladan metionin, triptofan va leysinga boy. Shu sababli u qimmatli o‘simlik oqsili manbai hisoblanadi. Uglevodlar miqdori 10 - 15% atrofida bo‘lib, ular kraxmal, oddiy shakarlar va o‘simlik tolalaridan iborat.

Kunjutning dorivor xususiyatini asosan uning tarkibidagi lignanlar - *Sesamin, Sesamolin va Sesamol* belgilaydi. Bu moddalar kuchli antioksidant ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, kunjut E vitamini (tokoferollar), B guruhi vitaminlari hamda folatga boy. Mineral moddalar orasida kalsiy, magniy, fosfor, temir, rux va mis ko‘p uchraydi. Ayniqsa, kalsiy miqdori yuqori bo‘lib, suyaklar mustahkamligi uchun foydalidir. Shuningdek, tarkibida fitosterollar mavjud bo‘lib, ular xolesterin miqdorini kamaytirishga yordam beradi.

Umuman olganda, kunjut yuqori yog‘li, oqsilga boy va biologik faol moddalarga ega qimmatli oziq-ovqat hamda dorivor mahsulotdir.

Kunjutning dorivorlik xususiyatini belgilovchi asosiy komponentlar uning tarkibidagi noyob lignanlardir. Lignanlar o‘simliklarda uchraydigan fenol tabiatli birikmalar bo‘lib, kuchli biologik faollikka ega. Kunjut tarkibidagi asosiy lignanlarga quyidagilar kiredi:

- Sesamin ($C_{20}H_{18}O_6$): Furanoid lignanlar guruhiga kiradi. U jigarda yog‘ kislotalarining oksidlanishini tezlashtiradi va yomon xolesterin miqdorini kamaytiradi.

- Sesamolin ($C_{20}H_{18}O_7$): Sesaminning hosilasi bo‘lib, kuchli antioksidant va neyroprotektor (asab hujayralarini himoya qiluvchi) hisoblanadi.

- Sesamol (**$C_7H_6O_3$**)**:** Fenolik tuzilishga ega bo‘lgani sababli kuchli antioksidant xususiyat namoyon qiladi. Sesamol asosan kunjut yog‘i ishlab chiqarish jarayonida **sesamolin parchalanishi** natijasida hosil bo‘ladi. Ayniqsa qovurilgan kunjut va tozalangan kunjut yog‘ida ko‘proq uchraydi.

Asosiy xususiyatlari: erkin radikallarni neytrallaydi va hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qiladi, organizmdagi yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirishga yordam beradi, lipidlarning oksidlanishini kamaytiradi, ayrim mikroorganizmlarga qarshi ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

- Tokoferollar (Vitamin E): Kunjut moyining uzoq vaqt (2-3 yil) buzilmay saqlanishini ta'minlaydigan tabiiy konservantdir.

Ushbu lignanlarning dorivor ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. **Kuchli antioksidant ta’sir.** Lignanlar erkin radikallarni neytrallaydi, hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qiladi. Bu esa qarish jarayonini sekinlashtirish va surunkali kasalliklarning oldini olishda muhim.
2. **Yurak-qon tomir tizimini himoya qilish.** Ular qondagi “yomon” xolesterin (LDL) oksidlanishini kamaytiradi, ateroskleroz xavfini pasaytiradi.
3. **Yallig‘lanishga qarshi ta’sir.** Lignanlar organizmdagi yallig‘lanish jarayonlarini susaytiradi, bu esa metabolik va surunkali kasalliklarda foydali.
4. **Gepatoprotektiv (jigarni himoya qiluvchi) ta’sir.** Kunjut lignanlari jigar fermentlari faoliyatini me’yorga keltirishga yordam beradi.
5. **Gormonal muvozanatni qo‘llab-quvvatlash.** Ba’zi lignanlar fitoestrogen xususiyatga ega bo‘lib, ayollarda gormonal balansni saqlashga yordam berishi mumkin.

Muhokama (Discussion)

Kunjut moyining farmatsevtikada qo‘llanilishi uning past peroksid soni (tez achib qolmasligi) bilan bog‘liq. Kunjut moyini boshqa o‘simlik moylaridan ajratib turadigan asosiy xususiyat - uning oksidlanishga o‘ta chidamliligidir. Bu xususiyat farmatsevtikada dorilarning yaroqlilik muddatini uzaytirishda qo‘llaniladi. Bunga sabab quyidagilardir:

- Sesamolning roli: Sesamolin gidrolizlanganda **sesamol** hosil bo‘ladi. Sesamol tabiatdagi eng kuchli tabiiy antioksidantlardan biri bo‘lib, hatto yuqori haroratda ham moyning xususiyatlarini saqlab qoladi.

- Yog‘ kislotalari balansi: Kunjut moyi tarkibida olein (45%) va linol (40%) kislotalari deyarli teng miqdorda bo‘lib, bu inson organizmidagi lipid almashinuvini yaxshilash uchun ideal proporsiya hisoblanadi.

Buyuk olim Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida kunjutni o‘pka kasalliklari, surunkali yo‘tal, qabziyat va ovoz bo‘g‘ilishini davolashda keng qo‘llagan.

Kunjut tarkibidagi kalsiy (100 g urug‘da 975 mg) va fosfor suyak to‘qimalarini tiklashda (osteoporoz profilaktikasi) muhimdir.

Shuningdek kunjut moyi organizmdan radionuklidlar, toksinlar va og‘ir metall tuzlarini chiqarib yuborish xususiyatiga ega. Dermatologiyada u terini ultrabinafsha nurlardan (tabiiy SPF) himoya qiluvchi surtmalar asosi hisoblanadi.

Kunjut moyi tarkibidagi *Sesamin* inson organizmiga tushgach, quyidagi molekulyar jarayonlarda ishtirok etadi:

PPAR-alfa retseptorlari faollashuvi (Peroxisome Proliferator-Activated Receptor alpha). PPAR-alfa retseptorlari - bu hujayra yadrosida joylashgan maxsus retseptor oqsillar bo‘lib, ular yog‘ kislotalari almashinuvi va energiya metabolizmini boshqaradi. Sesamin jigarda PPAR-alfa oqsillarini faollashtiradi, bu esa yog‘ kislotalarining parchalanishini (beta-oksidlanish) tezlashtiradi. Bu jarayon semizlikni davolash va jigar yog‘ bosishining oldini olishda asosiy mexanizm hisoblanadi.

- E vitamini bilan sinergizm: Kunjut moyi tarkibidagi lignanlar gamma-tokoferolning parchalanishini tormozlaydi. Natijada organizmda E vitaminining konsentratsiyasi uzoq vaqt yuqori darajada saqlanadi, bu esa hujayralarning qarish jarayonini sekinlashtiradi.

In’eksion dori vositalarida kunjut moyi quyidagilar uchun ishlatiladi:

- Bio-utilizatsiya: Organizm moyni tabiiy triglitserid sifatida qabul qiladi va u in’eksiya qilingan joyda tugunlar hosil qilmaydi.

- *Gormonal dori vositalari:* Testosteron, progesteron va boshqa steroid gormonlar kunjut moyida juda yaxshi eriydi va qonda dorining konsentratsiyasini uzoq muddat barqaror ushlab turadi (prolongirlangan ta'sir).

Kunjut moyining noyobligi faqat sesamin miqdori bilan emas, balki *sinergik ta’sir* bilan tushuntiriladi.

Molekulyar barqarorligi: Kunjut moyi tarkibida kislotalik soni past bo'lib, u erkin radikallarni neytrallashda o'ta faol. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kunjut moyi tarkibidagi sesamin gamma-tokoferol (Vitamin E) bilan birga ishlaganda, uning antioksidantlik kuchi 10 barobargacha ortadi.

Muzlash harorati: Moy +5°C dan -3°C gacha bo'lgan haroratda o'zining suyuq holatini saqlab qoladi, bu esa farmatsevtika zavodlari uchun sovuq zanjir talab qiladigan dorilarni tayyorlashda juda qo'l keladi.

Xulosa. Kunjut (*Sesamum indicum* L.) - nafaqat oziq-ovqat, balki strategik farmatsevtik xomashyodir. O‘zbekistonning iqlim sharoiti ushbu o‘simlikni sanoat miqyosida yetishtirish uchun to‘liq imkoniyat beradi. Kunjut - yuqori yog‘li, oqsilga boy, lignanlarga ega, vitamin va minerallarga boy o‘simlik urug‘i bo‘lib, oziqaviy va dorivor jihatdan juda qimmatli mahsulot hisoblanadi. Seleksiya ishlarini tarkibida sesamin miqdori yuqori bo‘lgan navlarni yaratishga yo‘naltirish farmatsevtika sanoati uchun katta iqtisodiy foyda keltiradi.

Adabiyotlar ro’yxati (references)

1. Bedigian, D. (2024). Sesame: Biology, Chemistry, and Industrial Applications. Academic Press.
2. Abdou, A., et al. (2022). "Pharmacological potential of sesamin: A review". Journal of Medicinal Plants Research.
3. Pathak, N., et al. (2017). "Value addition in sesame: Bioactive components for functional foods". Frontiers in Plant Science.
4. Zokirov, T.S. (2020). Moyli ekinlar agrotexnikasi. Toshkent, "Fan".
5. FAOSTAT (2023). Global Sesame Production Statistics and Reports.
6. Dossa, K., et al. (2017). The emerging oilseed crop Sesamum indicum: Genetic diversity, genomics and breeding perspectives. *Frontiers in Plant Science.* (Кунжут генетикаси, филогенези ва селекцияси бўйича замонавий таҳлил)
7. Dar, A.A., & Arumugam, N. (2018). Lignans of sesame: A comprehensive review on their pharmacological properties. *Phytochemistry Reviews.* (Сезамин ва сезамолиннинг биологик фаоллиги ва антиоксидант хусусиятлари)
8. Majdalawieh, A.F., & Mansour, Z.R. (2019). Sesamol, a major lignan in sesame seeds: Anti-inflammatory and antioxidant effects. *European Journal of Pharmacology.* (Кунжут лигнанларининг фармакологик таъсири)
9. Pathak, N., Rai, A.K., Kumari, R., & Bhat, K.V. (2017). Value addition in sesame: Bioactive components for functional foods. *Frontiers in Plant Science.* (Функционал озиқ-овқат маҳсулотларида кунжутнинг аҳамияти)
10. Wei, X., et al. (2016). Comparative transcriptome analysis of sesame under abiotic stress conditions. *Scientific Reports.*
11. FAO (2023). Oilseeds Market Review and Global Production Statistics. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
12. Kumar, V., et al. (2022). Agronomic strategies to enhance sesame productivity under arid conditions. *Industrial Crops and Products.*

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Кимсанова Г.А.
Андижанский Государственный Университет
Юсупова М.О.
Андижанский Государственный Университет
Умарова Г.А.
Андижанский Государственный Медицинский Институт
Нурмаматова Ф.А.
Андижанский Государственный Медицинский Институт
Алиева Р.А·
Андижанский Государственный Институт Иностранных Языков
Топилова Ф.М.
Кокандский университет Андижанский филиал

ВЛИЯНИЕ КИШЕЧНОЙ МИКРОБИОТЫ НА ИММУННУЮ СИСТЕМУ

Аннотация. *В данной статье анализируются современные представления о влиянии кишечной микробиоты на иммунную систему и её значении для поддержания функционального равновесия организма. Кишечная микробиота рассматривается как сложная интегративная система, участвующая в обмене веществ, регуляции врожденного и адаптивного иммунного ответа, поддержании целостности слизистой оболочки и защите организма от патогенных микроорганизмов.*

Каждый человек обладает уникальным профилем кишечной микробиоты. Формирование микробиоты начинается в раннем детстве и зависит от способа родоразрешения, характера вскармливания, периода отлучения от груди, применения антибиотиков и других внешних факторов. В дальнейшем её состав относительно стабилизируется, однако варьирует между людьми в зависимости от энтеротипа, индекса массы тела, уровня физической активности, образа жизни и пищевых привычек.

Изменения количественного и качественного состава микробных сообществ, включая снижение численности комменсальных бактерий и увеличение доли условно-патогенных видов, приводят к нарушению устойчивости кишечной экосистемы. Развитие дисбиоза сопровождается повышением проницаемости кишечного барьера, активацией воспалительных механизмов и дисбалансом иммунных реакций, что может оказывать негативное влияние на состояние организма в целом.

Целью настоящей обзорной статьи является анализ изменений кишечной микробиоты и раскрытие механизмов её воздействия на иммунную систему.

Ключевые слова*: кишечная микробиота, иммунная система, врожденный и адаптивный иммунитет, дисбиоз, иммунный гомеостаз, микробные метаболиты.*

Kimsonova G.A.
Andijon davlat universiteti
Yusupova M.O.
Andijon davlat universiteti
Umarova G.A.
Andijon davlat tibbiyot instituti
Nurmamatova F.A.
Andijon davlat tibbiyot instituti
Aliyeva R.A.
Andijon davlat chet tillar instituti
Topilova F.M.
Qo‘qon universiteti Andijon filiali

ICHAK MIKROBIOTASINING IMMUN TIZIMGA TA’SIRI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ichak mikrobiotasining immun tizimiga ta'siri va organizm funksional muvozanatini saqlashdagi ahamiyati haqidagi zamonaviy qarashlar tahlil qilingan. Ichak mikrobiotasi modda almashinuvida, tug'ma va orttirilgan immun javobni tartibga solishda, shilliq qavat yaxlitligini saqlashda hamda organizmni patogen mikroorganizmlardan himoya qilishda ishtirok etuvchi murakkab integrativ tizim sifatida ko'rib chiqiladi.*

Har bir inson o'ziga xos ichak mikrobiotasi profiliga ega. Mikrobiotaning shakllanishi erta bolalik davridan boshlanadi va tug'ruq usuli, emizish xususiyatlari, ko'krakdan ajratish davri, antibiotiklar qo'llanilishi hamda boshqa tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Keyinchalik uning tarkibi nisbatan barqarorlashadi, biroq enterotip, tana vazni indeksi, jismoniy faollik darajasi, hayot tarzi va ovqatlanish odatlariga qarab shaxslar o'rtasida farqlanadi.

Mikrob jamoalarining miqdoriy va sifat tarkibidagi o'zgarishlar, jumladan kommensal bakteriyalar sonining kamayishi va shartli-patogen turlar ulushining ortishi, ichak ekotizimining barqarorligini buzadi. Disbioz rivojlanishi ichak to'sig'i o'tkazuvchanligining oshishi, yallig'lanish mexanizmlarining faollashuvi va immun reaksiyalar muvozanatining buzilishi bilan kechadi, bu esa organizm holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ushbu sharh maqolaning maqsadi — ichak mikrobiotasidagi o'zgarishlarni tahlil qilish va uning immun tizimiga ta'sir mexanizmlarini yoritishdan iborat.

Kalit so'zlar: *ichak mikrobiotasi, immun tizimi, tug'ma va orttirilgan immunitet, disbioz, immun gomeostazi, mikrob metabolitlari.*

Kimsanova G.A.
Andijan State University
Yusupova M.O.
Andijan State University
Umarova G.A.
Andijan State Medical Institute
Nurmamatova F.A.
Andijan State Medical Institute
Alieva R.A.
Andijan State Institute of Foreign Languages
Topilova F.M.
Kokand University, Andijan Branch

THE INFLUENCE OF INTESTINAL MICROBIOTA ON THE IMMUNE SYSTEM

Abstract: *This article analyzes current concepts regarding the influence of the gut microbiota on the immune system and its significance in maintaining the functional balance of the organism. The gut microbiota is considered a complex integrative system involved in metabolism, regulation of innate and adaptive immune responses, maintenance of mucosal integrity, and protection against pathogenic microorganisms.*

Each individual possesses a unique gut microbiota profile. The formation of the microbiota begins in early childhood and depends on the mode of delivery, type of feeding, timing of weaning, antibiotic exposure, and other environmental factors. Subsequently, its composition becomes relatively stable; however, it varies among individuals depending on enterotype, body mass index, level of physical activity, lifestyle, and dietary habits.

Quantitative and qualitative alterations in microbial communities, including a decrease in commensal bacteria and an increase in opportunistic species, disrupt the stability of the intestinal ecosystem. The development of dysbiosis is associated with increased intestinal permeability, activation of inflammatory mechanisms, and imbalance of immune responses, which may negatively affect overall health.

The aim of this review is to analyze alterations in the gut microbiota and to elucidate the mechanisms of its impact on the immune system.

Keywords: *gut microbiota, immune system, innate and adaptive immunity, dysbiosis, immune homeostasis, microbial metabolites.*

В современной науке организм человека рассматривается как многоуровневая биологическая система, функционирующая в тесном взаимодействии с обширным сообществом микроорганизмов. Совокупность бактерий, архей, вирусов, грибов и простейших, постоянно обитающих в организме, обозначается термином «микробиота». **[1]**

Следует разграничивать понятия «микробиота» и «микробиом». Под микробиотой понимают совокупность таксономически идентифицируемых микроорганизмов, ассоциированных с организмом человека, тогда как

микробиом включает не только сами микроорганизмы, но и их генетический материал, а также функциональный потенциал, закодированный в этих генах**.[2]**

По современным оценкам, организм человека содержит десятки триллионов микробных клеток, большая часть которых локализована в желудочно-кишечном тракте. Их численность сопоставима с количеством клеток человеческого организма. Общая масса микробиоты составляет приблизительно 0,2 кг, при этом микроорганизмы колонизируют различные биотопы — кожу, слизистые оболочки, дыхательные и мочеполовые пути, формируя специализированные микробные сообщества, адаптированные к условиям конкретной среды**.[3]**

Индивидуальный состав микробных сообществ формируется преимущественно в раннем детском возрасте. На этот процесс оказывают влияние способ родоразрешения, тип вскармливания, сроки введения прикорма, а также воздействие внешних факторов, включая антибактериальную терапию. Во взрослом возрасте сформировавшаяся микробиота сохраняет относительную стабильность, однако её состав различается у разных людей. Эти различия обусловлены энтеротипом, индексом массы тела, уровнем физической активности, особенностями питания, образом жизни и культурными традициями. В связи с этим невозможно определить универсальный «идеальный» состав кишечной микробиоты, поскольку её оптимальное состояние индивидуально. Тем не менее поддержание сбалансированного взаимодействия между организмом хозяина и микробным сообществом имеет принципиальное значение для нормального протекания метаболических процессов, регуляции иммунного ответа и профилактики заболеваний. **[4]**

Генетический потенциал кишечной микробиоты значительно превышает генетические возможности организма человека. Метагеном кишечных микроорганизмов включает миллионы генов, тогда как геном человека содержит около 23 тысяч. При этом часть бактериальных генов выполняет сходные функции, что обеспечивает функциональную избыточность микробиоты и относительную стабильность её метаболических возможностей даже при изменениях таксономического состава. **[5]**

В течение последних двух десятилетий стремительное развитие молекулярно-биологических технологий позволило существенно продвинуться в изучении микробного разнообразия без необходимости культивирования микроорганизмов in vitro. Это имеет принципиальное значение, поскольку подавляющее большинство кишечных микробов не поддаётся выращиванию в стандартных лабораторных условиях.

Внедрение методов секвенирования и других молекулярно-генетических подходов значительно расширило представления о таксономической структуре микробиомов и их функциональном потенциале. Полученные данные свидетельствуют о том, что кишечная микробиота играет важную роль в поддержании физиологического гомеостаза и может рассматриваться как самостоятельная функциональная система, находящаяся в тесном взаимодействии с иммунной, метаболической и другими регуляторными системами организма **[1].**

Кишечная микробиота — это сложное сообщество микроорганизмов, в состав которого входят бактерии, вирусы и грибы, однако основную её часть составляют именно бактерии. С точки зрения классификации бактерии делятся на филумы, классы, порядки, семейства, роды и виды. Несмотря на большое разнообразие микроорганизмов, в кишечнике человека преобладает ограниченное число бактериальных групп. Наиболее распространёнными являются Firmicutes, Bacteroidetes, Actinobacteria и Proteobacteria. При этом на долю Firmicutes и Bacteroidetes приходится до 90 % всей кишечной микробиоты.

Филум Firmicutes включает такие роды, как Lactobacillus, Clostridium, Enterococcus и Ruminococcus. Многие из этих бактерий участвуют в расщеплении пищевых волокон с образованием короткоцепочечных жирных кислот (КЖК), которые служат источником энергии для клеток толстой кишки и оказывают положительное влияние на иммунную систему.

Представители филума Bacteroidetes, в частности роды Bacteroides и Prevotella, участвуют в переработке сложных углеводов и способствуют более эффективному усвоению питательных веществ.

Филум Actinobacteria представлен главным образом родом Bifidobacterium, известным своими пробиотическими свойствами и важной ролью в поддержании иммунного равновесия.

Соотношение между этими основными бактериальными группами имеет большое значение для поддержания метаболического баланса организма. Изменение их пропорций может влиять на обмен веществ и общее функциональное состояние организма **[6].**

Кишечная микробиота играет важную роль в процессах пищеварения и обмена веществ в желудочно-кишечном тракте. Комменсальные микроорганизмы участвуют в расщеплении питательных веществ, образовании витаминов, переработке желчных кислот, липидов и аминокислот, а также синтезе короткоцепочечных жирных кислот (КЖК), которые необходимы для нормального функционирования кишечника и иммунной системы. Помимо метаболической функции, микробиота выполняет защитную роль, препятствуя размножению патогенных микроорганизмов. Один из основных механизмов защиты — конкуренция за питательные вещества. Для роста бактериям необходимы углеводы, аминокислоты и микроэлементы. Комменсальные бактерии активно

используют эти ресурсы, тем самым ограничивая доступ патогенов к источникам питания. В результате патогенные микроорганизмы хуже размножаются и не могут эффективно закрепляться в кишечнике. Этот механизм называется конкурентным вытеснением. Кроме того, микробиота способствует сохранению целостности слизистой оболочки кишечника, поддерживая барьерную функцию эпителия и препятствуя проникновению вредных бактерий в организм.

Дополнительным защитным фактором является выработка бактериоцинов — антимикробных белков, синтезируемых некоторыми представителями нормальной микрофлоры. Бактериоцины подавляют рост патогенов, повреждают их клеточные структуры и нарушают жизненно важные процессы. В отличие от антибиотиков, они действуют более избирательно и, как правило, не нарушают общий баланс кишечной микробиоты **[7].**

Кишечная микробиота играет важную роль в работе иммунной системы. Она взаимодействует с кишечно-ассоциированной лимфоидной тканью (GALT) — крупнейшим скоплением иммунных клеток в организме. В GALT происходит распознавание чужеродных веществ, активация Т- и В-лимфоцитов и выработка защитного иммуноглобулина А (IgA), который защищает слизистую оболочку кишечника. Состав микробиоты напрямую влияет на развитие и правильную работу этой иммунной системы.

Иммунные клетки кишечника имеют специальные рецепторы, которые распознают микробные молекулы. При их активации запускаются сигналы, приводящие к выработке цитокинов — веществ, регулирующих воспаление. Таким образом микробиота может усиливать или, наоборот, снижать иммунный ответ.

Важную роль играют короткоцепочечные жирные кислоты (SCFA), которые образуются при переработке пищевых волокон бактериями. Эти вещества уменьшают воспаление, способствуют образованию Treg-клеток и поддерживают защитную функцию слизистой оболочки. Кроме того, микробиота помогает В-клеткам вырабатывать антитела, особенно IgA, усиливая местный иммунитет кишечника.

Если состав микробиоты нарушается (например, из-за стресса или приёма антибиотиков), может возникнуть дисбаланс иммунных реакций. Это приводит к усилению воспаления и повышает риск развития различных заболеваний. Таким образом, кишечная микробиота является важным регулятором как врождённого, так и адаптивного иммунитета и играет ключевую роль в поддержании иммунного равновесия организма **[8].**

При рождении кишечник человека практически стерилен, а его колонизация начинается в первые часы и дни жизни. Формирование микробиоты происходит под влиянием микробных сообществ матери и окружающей среды. Существенную роль играет способ родоразрешения, который определяет особенности начального микробного состава.

У детей, рождённых естественным путём, кишечная микробиота формируется преимущественно за счёт микроорганизмов родовых путей матери. В раннем периоде у них преобладают Lactobacillus, Bifidobacterium, Bacteroides и другие факультативно-анаэробные бактерии, создающие условия для дальнейшего заселения облигатными анаэробами. Такая микробиота отличается более высоким разнообразием **[9].**

У новорождённых после кесарева сечения первичная колонизация происходит преимущественно микроорганизмами кожи матери и больничной среды. В их микробиоте чаще выявляются Staphylococcus, Corynebacterium и другие кожные бактерии, при этом отмечается меньшее разнообразие и сниженная представленность Bacteroides и других типичных кишечных симбионтов.

Важным фактором формирования микробиоты является грудное вскармливание. Грудное молоко содержит иммуноглобулин А (IgA), цитокины, олигосахариды и живые микроорганизмы, которые способствуют росту полезных бактерий, особенно Bifidobacterium, и регулируют ранние иммунные реакции. У детей на грудном вскармливании микробиота характеризуется большей численностью и разнообразием бифидобактерий и меньшей представленностью потенциально патогенных микроорганизмов по сравнению с младенцами на искусственном вскармливании

Таким образом, способ родоразрешения и характер питания в раннем возрасте оказывают существенное влияние на формирование кишечной микробиоты и последующее развитие иммунной системы **[10].**

Ключевым элементом защиты кишечника от чрезмерного контакта с микробиотой является слой слизи, покрывающий эпителий. Основным компонентом этого слоя является муцин — гликопротеин с большим количеством углеводных цепей, который препятствует прямому контакту бактерий с эпителиальными клетками и связывает микробные антигены. Снижение продукции муцина приводит к истончению слизистого слоя, повышению проницаемости кишечного барьера и повышенному риску воспалительных процессов.

Кишечный эпителий представляет собой динамичную систему, клетки которой обновляются каждые несколько дней, что обеспечивает постоянное поддержание барьерной функции. Эпителиальный монослой включает несколько специализированных клеточных типов. Энтероциты обеспечивают механическую прочность барьера. Клетки Панета локализуются в криптах и выделяют антимикробные пептиды. Бокаловидные клетки

продуцируют слизь, формируя защитный слой. Микроскладчатые (М-) клетки участвуют в транспорте антигенов к иммунным клеткам, способствуя иммунному контролю. Все эпителиальные клетки соединены плотными межклеточными контактами, формируя функциональный барьер**[11].**

Иммунная система человека включает два основных механизма защиты: врождённый и адаптивный иммунитет. Врождённый иммунитет является первой линией защиты организма. Он обеспечивает быструю и неспецифическую реакцию на проникновение патогенов за счёт активности макрофагов, нейтрофилов, дендритных клеток и естественных киллеров. Эти клетки распознают общие микробные структуры и быстро запускают воспалительную реакцию. Адаптивный иммунитет развивается позже, но отличается высокой специфичностью. Т- и В-лимфоциты распознают конкретные антигены, формируют иммунологическую память и обеспечивают более точную и длительную защиту при повторной встрече с тем же возбудителем.

В последние годы было установлено, что клетки врождённого иммунитета также способны к формированию так называемой врождённой иммунной памяти. После первичного контакта с микробными компонентами они проходят функциональную перестройку, благодаря чему при повторном воздействии реагируют быстрее и интенсивнее.

Взаимодействие организма с микробиотой осуществляется через специальные сенсоры — рецепторы распознавания образов (PRR), которые находятся на клетках врождённого иммунитета: дендритных клетках, макрофагах, моноцитах и NK-клетках. Эти рецепторы распознают типичные микробные структуры (MAMP или PAMP) и запускают иммунный ответ.

К основным PRR относятся Toll-подобные рецепторы (TLR), NOD-подобные рецепторы (NLR), рецепторы С-типа лектинов (CLR) и рецепторы RIG-I-подобного типа (RLR). Активация этих рецепторов при первичном контакте с микробными компонентами может не только вызывать воспалительную реакцию, но и формировать состояние врождённой иммунной памяти.

Интересно, что влияние кишечной микробиоты не ограничивается только кишечником. Показано, что некоторые представители, например Lactobacillus plantarum, способны повышать устойчивость к вирусным инфекциям. Кроме того, микробиота может формировать феномен «врождённой иммунной памяти» не только в кишечнике, но и в других тканях, включая дыхательные пути. Так, после респираторной вирусной инфекции наблюдается усиление защитных свойств альвеолярных макрофагов, что связывают с влиянием кишечной микробиоты **[12].**

При первом контакте с микробными компонентами клетки врождённого иммунитета могут «запоминать» этот сигнал. В результате при повторной встрече с инфекцией они реагируют быстрее и сильнее. Это явление называют врождённой иммунной памятью. Некоторые компоненты кишечной микробиоты способны вызывать такой эффект. К ним относятся пептидогликан, флагеллин и β-глюкан **[13].**

Пептидогликан является основным структурным компонентом клеточной стенки бактерий и отсутствует у клеток человека. Он присутствует как у грамположительных, так и у грамотрицательных бактерий кишечника. Распознавание пептидогликана осуществляется внутриклеточными рецепторами NOD-1 и NOD-2. NOD-1 реагирует на специфические фрагменты пептидогликана, содержащие диаминопимелиновую кислоту, а NOD-2 — на мурамилдипептид. Активация этих рецепторов запускает сигнальные пути, приводящие к продукции провоспалительных цитокинов (IL-1β, IL-18), а также к эпигенетическим изменениям в моноцитах. Именно такие эпигенетические перестройки лежат в основе формирования феномена врождённой памяти **[14] .**

Флагеллин — белок, входящий в состав бактериальных жгутиков, — распознаётся рецептором TLR-5. Его активация стимулирует дендритные клетки кишечника к выработке IL-23, который, в свою очередь, индуцирует продукцию IL-22 клетками врождённого иммунитета. IL-22 играет важную роль в защите слизистой оболочки и поддержании барьерной функции кишечника **[15].**

β-глюкан, компонент клеточных стенок грибов и некоторых бактерий, связывается с рецептором дектина-1 на иммунных клетках. Его действие сопровождается длительными метаболическими изменениями в макрофагах и их предшественниках костного мозга. Эти изменения включают усиление гликолиза (так называемый эффект Варбурга) и накопление метаболитов, что способствует формированию устойчивого «тренированного» состояния иммунных клеток **[16].**

*Л*ипополисахарид (*Л*ПС) — это компонент внешней мембраны грамотрицательных бактерий. Он распознаётся рецептором TLR-4 на клетках врождённого иммунитета и активирует сигнальный путь NF-κB, что приводит к выработке провоспалительных цитокинов. Ранее было показано, что предварительное воздействие *Л*ПС может повышать устойчивость организма к последующей инфекции. *Л*ПС, происходящий из кишечных бактерий, включая представителей рода *Bacteroides*, является мощным стимулятором врождённого иммунного ответа. При этом важную роль играет доза *Л*ПС: низкие концентрации способны вызывать формирование

врождённой иммунной памяти, тогда как высокие или повторные воздействия могут приводить к развитию иммунной толерантности

Таким образом, отдельные компоненты кишечной микробиоты не только активируют врождённый иммунитет, но и способны формировать долговременную функциональную перестройку иммунных клеток, обеспечивая более эффективный ответ при повторной встрече с инфекцией**[12].**

Кишечная микробиота взаимодействует с клетками иммунной системы через паттерн-распознающие рецепторы (PRR), главным образом Toll-подобные рецепторы (TLR). Эти рецепторы распознают микробные компоненты и запускают выработку цитокинов, регулирующих воспаление. TLR-2 и TLR-4 распознают бактериальные структуры (включая липополисахарид) и активируют врождённый иммунный ответ. В норме их активность контролируется, чтобы предотвратить избыточное воспаление. TLR-5 распознаёт флагеллин бактерий, а TLR-9 — бактериальную ДНК, усиливая защитные реакции организма Таким образом, через систему TLR кишечная микробиота регулирует врождённый иммунитет, поддерживая баланс между защитой и чрезмерным воспалением **[17].**

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Современные научные данные подтверждают, что кишечная микробиота является неотъемлемым компонентом иммунной системы человека и играет ключевую роль в поддержании иммунного гомеостаза. Микробные сообщества кишечника формируются с ранних этапов жизни и находятся в постоянном взаимодействии с клетками врождённого и адаптивного иммунитета. Через систему паттерн-распознающих рецепторов (PRR), включая Toll-подобные и NOD-подобные рецепторы, микробные компоненты регулируют активацию сигнальных путей, синтез цитокинов и баланс провоспалительных и противовоспалительных реакций.

Комменсальные микроорганизмы способствуют формированию иммунной толерантности, поддержанию целостности кишечного барьера и предотвращению избыточного воспаления. Они участвуют в дифференцировке Т-лимфоцитов, влияя на соотношение Treg-, Th1- и Th17-клеток, что имеет принципиальное значение для профилактики хронических воспалительных и аутоиммунных процессов. Кроме того, микробиота участвует в формировании феномена врождённой иммунной памяти посредством эпигенетического и метаболического перепрограммирования иммунных клеток, обеспечивая более эффективный ответ при повторной встрече с инфекционными агентами.

Нарушение количественного и качественного состава кишечной микробиоты (дисбиоз) сопровождается повышенной проницаемостью кишечного барьера, усиленной активацией PRR и хроническим воспалением, что может способствовать развитию инфекционных, метаболических, аутоиммунных и аллергических заболеваний. Таким образом, состояние микробиоты напрямую влияет на иммунологическую реактивность организма и его устойчивость к патогенным воздействиям.

В целом кишечная микробиота следует рассматривать как функционально активную систему, тесно интегрированную с иммунной регуляцией. Дальнейшее изучение молекулярных механизмов её взаимодействия с иммунной системой открывает перспективы разработки новых профилактических и терапевтических подходов, направленных на восстановление микробного баланса и целенаправленную модуляцию иммунного ответа.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1.Юдина Ю.В., Корсунский А.А., Аминова А.И., Абдуллаева Г.Д., Продеус А.П. Микробиота кишечника как отдельная система организма // Доказательная гастроэнтерология. — 2019. — Т. 8, № 4–5. — С. 36–43.

2.Ursell L.K., Metcalf J.L., Parfrey L.W., Knight R. Defining the human microbiome // Nutrition Reviews. — 2012. — Vol. 70, Suppl. 1. — P. S38–S44.

3.Sender R., Fuchs S., Milo R. Revised estimates for the number of human and bacteria cells in the body // PLoS Biology. — 2016. — Vol. 14, No. 8.

4.Rinninella E., Raoul P., Cintoni M., Franceschi F., Miggiano G.A.D., Gasbarrini A., Mele M.C. What is the healthy gut microbiota composition? A changing ecosystem across age, environment, diet, and diseases // Microorganisms. — 2019. — Vol. 7. — P. 14.

5.Saltykova I.V., Petrov V.A., Logacheva M.D., Ivanova P.G., Merzlikin N.V., Sazonov A.E., Ogorodova L.M., Brindley P.J. Biliary microbiota, gallstone disease and infection with Opisthorchis felineus // PLoS Neglected Tropical Diseases. — 2016. — Vol. 10, No. 7.

6.Miles M.P. Probiotics and gut health in athletes // Current Nutrition Reports. — 2020. — Vol. 9. — P. 129–136.

7.Khosravi A., Mazmanian S.K. Disruption of the gut microbiome as a risk factor for microbial infections // Current Opinion in Microbiology. — 2013. — Vol. 16. — P. 221–227.

8.Топол И.А., Полякова И.С., Елыкова А.В. Роль кишечной микробиоты в регуляции иммунных реакций в иммунной системе кишечника в условиях стресса и при модуляции её состава путём введения антибиотиков и пробиотиков // Журнал микробиологии, эпидемиологии и иммунобиологии. — 2022. — Т. 99, № 6. — С. 722–733.

9.Dominguez-Bello M.G., Costello E.K., Contreras M., Magris M., Hidalgo G., Fierer N., Knight R. Delivery mode shapes the acquisition and structure of the initial microbiota across multiple body habitats in newborns // Proceedings of the National Academy of Sciences of the USA. — 2010. — Vol. 107. — P. 11971–11975.

10. Biasucci G., Benenati B., Morelli L., Bessi E., Boehm G. Cesarean delivery may affect the early biodiversity of intestinal bacteria // Journal of Nutrition. — 2008. — Vol. 138. — P. 1796S–1800S.

11. Liu Y., Fang F., Xiong Y. et al. Reprogrammed fecal and mucosa-associated intestinal microbiota and weakened mucus layer in intestinal goblet cell-specific Piezo1-deficient mice // Frontiers in Cellular and Infection Microbiology. — 2022. — Vol. 12. — Article 1035386.

12. Negi S., Das D.K., Pahari S., Nadeem S., Agrewala J.N. Potential role of gut microbiota in induction and regulation of innate immune memory // Frontiers in Immunology. — 2019. — Vol. 10. — P. 2441.

13. Gourbal B., Pinaud S., Beckers G.J.M., Van Der Meer J.W.M., Conrath U., Netea M.G. Innate immune memory: an evolutionary perspective // Immunological Reviews. — 2018. — Vol. 283. — P. 21–40.

14. Irazoki O., Hernandez S.B., Cava F. Peptidoglycan muropeptides: release, perception, and functions as signaling molecules // Frontiers in Microbiology. — 2019. — Vol. 10. — P. 500.

15. Hajam I.A., Dar P.A., Shahnawaz I., Jaume J.C., Lee J.H. Bacterial flagellin — a potent immunomodulatory agent // Experimental & Molecular Medicine. — 2017. — Vol. 49. — e373.

16. Garcia-Valtanen P., Guzman-Genuino R.M., Williams D.L., Hayball J.D., Diener K.R. Evaluation of trained immunity by β-1,3(d)-glucan on murine monocytes in vitro and duration of response in vivo // Immunology and Cell Biology. — 2017. — Vol. 95. — P. 601–610.

17. Rakoff-Nahoum S., Paglino J., Eslami-Varzaneh F., Edberg S., Medzhitov R. Recognition of commensal microflora by toll-like receptors is required for intestinal homeostasis // Cell. — 2004. — Vol. 118. — P. 229–241.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Ummatov Anvar Muxtarovich
Andijon davlat universiteti professori, b.f.n.
Email anvarummatov 48@gmail.com
Ibroximova Moxlaroy Fazliddin qizi
Andijon davlat universiteti magistranti

UO'K 597.2/.7

KAPTAR ZOTLARINING TARQALISHI VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Maqolada kaptarsimonlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lib, unda zotlarning kelib chiqishi, tarqalishi va ekologik xususiyatlari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *zot, ekologiya, muhit sharoiti, tur tarkibi, gala, tuxum bosish, rivojlanish, ohakli po'choq, vazn, embrion.*

Умматов Анвар Мухтарович
Андижанский государственный университет, к.б.н., профессор
Иброхимова Мохларой Фазлиддин қизи
Андижанский государственный университет, магистрант

РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОРОД ГОЛУБЕЙ

***Аннотация*:** *В статье представлена информация о голубеобразных, которая описывает происхождение, распространение и экология пород голубей*

Ключевые слова*: порода, экология, климатические условия, видовой состав, стая, насиживание яиц, размножение, извесковая оболочка, вес, эмбрион.*

Ummatov Anvar Mukhtarovich
Andijan State University, b.f.s, professor
Ibrokhimova Mokhlaroy Fazliddin kizi
Andijan State University, Master's student

DISTRIBUTION AND ECOLOGICAL FEATURES PIGEON BREEDS

Abstract*: The article provides information about pigeon breeds, which describes their origin, distribution and ecology.*

Keywords*: breed, ecology, climatic conditions, species composition, flock, egg incubation, reproduction, egg shell, weight, embryo.*

Kaptarsimonlar- Columbiformes dunyo bo'yicha ancha keng tarqalgan qushlar bo'lib, 300 dan ortiq turlarni o'ziga biriktiradi. Ulardan, Farg'ona vodiysi sharoitida o'rtacha kattalikdagi tashqi morfologiyasi o'xshash, lekin biologiyasida farq qiluvchi, turli ekologik sharoitlarni egallagan ikkita Columbae-haqiqiy kaptarlar, Pterocletes- bulduruqlar kenja turkumlariga mansub turlar uchraydi.

Haqiqiy kaptarlar kenja turkumiga: yovvoyi ko'kkaptar- Columba livia Gmelin, govkaptar- Columba palumbus L, qo'ng'ir kaptar- Columba eversmanni Bon., tog' g'urragi klintux- Columba oenas L, qoya kaptari- Columba rupestris Pallas, oddiy g'urrak- Streptopelia turtur L, katta musicha- Streptopelia orientalis Lat, qumri- Streptopelia decaocto Privald, oddiy musicha- Streptopelia sengaltnsis L; bulduruqlar kenja turkumiga, esa qorabovur- Pterocles orientalis L, oqbovur- Pterocles alchata L va suvbulduruq (sadja yoki "tuyoqcha")- Syrrhaptes paradoxus Pallas kiradi.

Kaptarlar ustki tumshug'ida yumshoq terili voskovisasi bo'lishligi bilan ajralib turadi. Bulduruqlar tumshug'i yo'g'on donni cho'qishga moslashgan bo'lib, asosan cho'l–sahrolarda hayot kechiradi va to'planib suv ichishga borishligi bilan xarakterlanadi.

Hozirgi paytga kelib, turlarni va zotlarni tarqalish qonuniyatlarini o‘rganish va ular bilan bog‘liq muhofaza masalalarini ishlab chiqish, hamda ahamiyatini aniqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishda T.Z.Zoxidov, R.N.Meklenbursev, A.K.Sagitov, O.V.Mitrapolskiy, S.Bakoyev kabi olimlar ishlarini ahamiyati katta.

Tadqiqotning asosiy maqsadi, kaptarsimonlarning tur tarkibini, hamda kaptar zotlarini tahlil qilishdan iborat. Ishda umumiy ornitologik kuzatuv metodlaridan, zoogeografik xarita, muzey kolleksion materiallari va aniqlagichlardan foydalanildi. Kaptarlarning umumiy rivojlanish xususiyatlari xonaki zotlar ustida olib borildi. Qushlarning davriy migratsiyalari paytida, kaptarsimonlarning ham ishtirokini aniqlash maqsadida, yillar davomida kuzatuv ishlari olib borildi. Qarg‘asimonlar, maynalar, chug‘urchuqlar, jiblajibonlar, hosil qiladigan katta galalar tarkibida kaptarlarning ulushi o‘rtacha 3-4% ga to‘g‘ri kelishligi aniqlandi.

Ilmiy manbalardan ma’lumki, ko‘pgina turlar qadimdan, hozirgi kunga qadar insoniyat tomonidan xonakalashtirilgan, qushlarning go‘shti parhez taom, pati, yengil sanoat uchun xom ashyo hisoblanadi, ular o‘simliklar urug‘larini tarqatishda, changlatishda, tuproqni chirindi bilan boyitishda ishtirok etib, biosenozda va ozuqa zanjirida katta rol o‘ynaydi. Afsuski, antropogen omillar tufayli, ayrim turlarning soni va tarqalish areallari yildan-yilga kamayib bormoqda. Bir vaqtlar Maskaren orollarida yashagan uchaolmaydigan “dront- kaptari”, Shimoliy Amerika “sayohatchi kaptari” hozirda qirilib bitgan.

Kaptarlar eramizdan taxminan 5 ming yil oldin bir vaqtni o‘zida, Hindistonda va Misrda xonakilashtirilgan deb taxmin qilinadi, qadimgi ibodatxonalar, maqbaralar devori va tanga pullardagi tasvirlar buni tasdiqlaydi.


Ch. Darvin o‘z vaktida Fantail, Pouter, Tumbler, Carrier, Short-fased tumbler, Jacobins kabi zotlarni tahlil qilib, ularning urug‘ boshisi Osiyo, Yevropa va Shimoliy Afrikada keng tarqalgan Columba livia- yovvoyi ko‘k kaptar ekanligini aniqlagan. U kaptarlardagi divergensiya jarayonlarini tahlil qilib, evolyusiya yo‘nalishlarini aniqlash uchun asos deb bilgan.

Yovvoyi ko‘k kaptarning yarim xonakilashtirilgan formasi “ oq kaptar- sizar” hozirda aholi punktlarida keng tarqalib, o‘zining tarqalish areallarini yildan-yilga kengaytirib bormoqda.

Sun’iy tanlash yo‘li bilan chiqarilgan zotlar, o‘zining morfologik: shakli, rangi, qanot tuzilishi, tumshug‘ining uzunligi, patlarining xolati, vazni kabi belgilari bilan bir-biridan farq qiladi, lekin erkin chatishish xususiyatiga ega. Ajib qiyofasi, ko‘krak qismini qizg‘ish tovlanuvchi rangda bo‘lishligi va ko‘payish xususiyatlari bilan qizil to‘sh zoti ajralib turadi.

Oddiy kaptarlarda tuxumning vazni 15-20 g teng bo‘lsa, go‘shtdor zotlarda biroz yuqori, 22-28 g atrofida bo‘ladi. Qizil to‘sh zotida 20-25 g ekanligi aniqlandi. Bizning kuzatishlarimizcha, qo‘yilgan ikkita tuxumni moda va narisi navbatlashib bosib, 19 kunda ochib chiqdi.

Qizil to‘sh zotida tuxum vaznini o‘zgarishi



Grafikdan ko‘rinib turibdiki, birinchi besh kunlikda tuxumning vazni suv va mineral tuzlar hisobidan kamayib boradi. Bu davrda embrion shakllanib boradi, organik moddalar oqsil, yog‘, uglevod sarf bo‘lib, sariqlik xaltasi kichrayib boradi, embrion o‘sib 36 g yetadi. Keyingi davrga o‘tib, vazn ohakli po‘choq va organik moddalarning kamayishi hisobidan, yanada ozayib 20-22 g tashkil etdi, tuxumdan chiqqan poloponning og‘irligi 18 grammga teng bo‘ldi. Poloponlarini nari va modasi dastlab jig‘ildonidan ajralib chiqadigan oqsilga boy suyuqlik- “qush suti” , keyinchalik jig‘ildonda ezilgan don qoldiqlari bilan boqadi, o‘sish intensiv ketadi.

Hozirda xonaki kaptarlarning zotlari 200 dan ortiq bo‘lib, ularni uchta asosiy guruhga: dekorativ, sergo‘sht va pochta kaptarlariga ajratish mumkin. Zotlar turli yo‘nalishlarda chiqarilgan bo‘lib, sun’iy tanlashning mahsuli hisoblanadi.

Jadval 1. Xonaki kaptarlar zotlari

Zotlar	Kaptar guruhlari	Hulq-atvori
Buqoq kaptar	dekorativ	Doimo g‘oz turadi, katta jig‘ildonini havo bilan to‘ldirib shishirib yuradi
Karnaychi kaptar	dekorativ	Xuddi nog‘ora chalgandek uzok, g‘urillaydi
Tovus kaptar	dekorativ	Dumida 40 tacha pati bo‘lib, ularni yelpig‘ichga o‘xshatib yoyadi
Turman kaptari	dekorativ	Uzoq uchaoladi va havoda do‘mbaloq oshib o‘ynaydi
Yakobin kaptar	dekorativ	Patlari uzun va oldinga bukilgan bo‘lib, boshining hamma yog‘ini qoplab soyabon hosil qiladi
Kichkina chayka	dekorativ	tumshug‘i juda qisqa bo‘ladi, ko‘kragida bir tutam jingalak patlari bor
Qizil to‘sh	dekorativ	To‘sh qismi qizg‘ish tovlanuvchi rangda
Baliqchi qora tovlanuvchi	dekorativ	ajib qiyofasi baliq tagachasi shaklida, patining qoramtir tovlanuvchi rangi bilan ajralib turadi
Rim kaptari	go‘shtdor	Yirik vazni 1000-1250 gramm
Tovuqsimon kaptar	go‘shtdor	1000-1250 g
Sharqiy pochta kaptari	pochtachi kaptarlar	joylarni juda yaxshi taniydi, lekin og‘ir bo‘lganiga ko‘ra, uzok, ucholmaydi
Byelgiya pochta kaptari	pochtachi kaptarlar	joylarni yaxshi taniydi, esda olib qoladi va uzoq masofani dam olmasdan uchib o‘ta oladi
Yagona pochta zoti	pochtachi kaptarlar	350-1000 km masofani uchib o‘ta oladi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, dyekorativ kaptarlar turli-tuman bo‘lib, ko‘ngil ochish maqsadida chiqarilgan. Go‘shtdor kaptarlar zotlari xo‘jalik maqsadlari yo‘nalishida ko‘paytirilgan bo‘lib, yirik va og‘ir bo‘lishi bilan boshqalardan farq qiladi. Pochta kaptarlari «havo pochtasi» o‘rnida foydalaniladigan zotlardir, ular o‘z navbatida sharqiy va belgiya pochtachi kaptarlariga ajratiladi.

Sharqiy pochta kaptarlari uchib ketayotgan paytida joylarni juda yaxshi taniydi, lekin og‘ir bo‘lganiga ko‘ra, uzok, ucholmaydi. Belgiya pochta kaptarlari yengil kaptarlarga chatishtirish yo‘li bilan chiqarilgan zot bo‘lib, ular ham joylarni yaxshi taniydi va uzoq masofani dam olmasdan uchib o‘ta oladi.

«Kaptar pochtasi» shunga asoslanganki, kaptarxonadan har qancha uzoq yerdan qo‘yib yuborilgan kaptar, albatta orqasiga, o‘sha kaptarxonaga qaytib uchib keladi, ikkita kaptarxonaga o‘rgatilgan kaptar esa, shu kaptarxonalarning o‘rtasida uchib yuradi va binobarin, xatga javob ham yetkazib bera oladi. Ular bilan yuboriladigan axborotlar juda yupqa va pishiq qog‘ozga yoziladi, bu qog‘oz naycha qilib o‘ralib, katarning oyog‘iga yoki o‘rta dum patining tagiga bog‘lab qo‘yiladi.

Pochta kaptarlaridan turli maqsadlarda, asosan “xat tashishda” foydalanilgan. Hozirda tanlash va chatishtirish yo‘li bilan dekorativ, go‘shtdor va pochtachi kaptarlar zotlarni yanada yaxshilash bo‘yicha, seleksionerlar tomonidan turli yo‘nalishlarda ish olib borilmoqda, pochtachi kaptarlarga qo‘yiladigan hamma talablarga javob beradigan “yagona zot”ni chiqarilishi bunga misol bo‘ladi.

Yuqoridagilar asosida ta’kidlash, lozimki hilma-xil formalarni, jumladan kaptar zotlarini bir ajdoddan kelib chiqqanligi, evolyusiya yo‘nalishlarini asoslash uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Зохидов Т.З., Мекленбурцев Р.Н. Природа и животный мир Средней Азии.Ташкент,”Ўқитувчи”, 1969,1971
2. Гончаров Г.Ф, Григорьянц А.А., Нармин Г.М. Краткий полевой определитель водоплавающих, куриных и голубиных птиц. Ташкент, 2007
3. Наумов Н.П., Карташев Н.Н. Зоология позвоночных ч.2. Москва, “Высшая школа”, 1979
4. Лаханов Ж.Л. Ўзбекистоннинг умуртқали ҳайвонлари аниқлагичи. Тошкент,”Ўқитувчи”, 1988

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Jobborov Baxrom Turg'unovich
O'zbekiston Milliy universiteti Biologiya va ekologiya fakulteti Ekologiya kafedrasi b.f.d. professor v.b.
bakhrom.jobborov@mail.ru
Abdushukurova Muyassar Rajabovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: abdushukurovamiyassar@gmail.com

TOJIKISTON ALYUMENIY ZAVODIDAN CHIQAYOTGAN OG'IR METALLAR TA'SIRIDA TUPROQLARNING EKOLOGIK HOLATINI O'ZGARISH KETMA-KETLIGI (UZUN TUMANI MISOLIDA)

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot Tojikiston alyuminiy zavodidan chiqadigan og'ir metallarning Uzun tumani tuproqlariga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zavodga yaqin hududlarda Cd, Pb, Al kabi metallarning kontsentratsiyasi oshgan, tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlari sezilarli darajada o'zgargan. Metallarning tuproq-o'simlik-inson zanjiri orqali harakatlanishi ekologik xavfni oshiradi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot hududda ekologik monitoringni rivojlantirish va tuproq resurslarini himoya qilish bo'yicha amaliy choralarni ishlab chiqishga ilmiy asos yaratadi.*

Kalit so'zlar: *Og'ir metallar, tuproq ifloslanishi, Alyuminiy zavodi, Ekologik xavf, Uzun tumani.*

Жобборов Бахром Тургунович
исполняющий обязанности профессора, доктор биологических наук (DSc), кафедра экологии, факультет биологии и экологии, Национальный университет Узбекистана
Абдушукурова Муяссар Раджабовна
самостоятельный соискатель, Деновский институт предпринимательства и педагогики

ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ПОЧВ ПОД ВЛИЯНИЕМ ТЯЖЁЛЫХ МЕТАЛЛОВ, ВЫДЕЛЯЕМЫХ ТАДЖИКСКИМ АЛЮМИНИЕВЫМ ЗАВОДОМ (НА ПРИМЕРЕ РАЙОНА УЗУН)

Аннотация: *Данное исследование посвящено изучению воздействия тяжелых металлов, выделяемых Таджикским алюминиевым заводом, на почвы Узунского района. Результаты показывают, что вблизи завода концентрация Cd, Pb, Al значительно возросла, что привело к изменениям физико- химических и биологических свойств почвы. Движение металлов через почва- растение-человек цепочку увеличивает экологический риск и отрицательно влияет на сельскохозяйственную продукцию и здоровье населения. Исследование создает научную основу для развития экологического мониторинга и разработки практических мер по защите почвенных ресурсов.*

Ключевые слова: *Тяжелые металлы, загрязнение почвы, алюминиевый завод, экологический риск, Узунский район.*

SEQUENTIAL CHANGES IN SOIL ECOLOGICAL CONDITION UNDER THE IMPACT OF HEAVY METALS FROM THE TAJIKISTAN ALUMINIUM PLANT (CASE STUDY: UZUN DISTRICT)

Abstract*: This study focuses on the impact of heavy metals from the Tajikistan Aluminium Plant on soils in the Uzun district. The results indicate that concentrations of Cd, Pb, and Al are significantly elevated near the plant, causing notable changes in the soil's physical, chemical, and biological properties. The movement of metals through the soil-plant-human chain increases ecological risk and negatively affects agricultural products and public health. This research provides a scientific basis for environmental monitoring and the development of practical measures to protect soil resources.*

Keywords: *Heavy metals, Soil contamination, Aluminium plant, Ecological risk, Uzun district.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va sanoatlashuv sharoitida yirik metallurgiya korxonalari faoliyati natijasida atrof-muhitga chiqarilayotgan og'ir metallar transchegaraviy ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa alyuminiy ishlab chiqarish jarayonlarida hosil bo'ladigan texnogen chiqindilar atmosfera orqali uzoq masofalarga tarqalib, qo'shni hududlar tuproqlarining ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Tojikiston Respublikasi hududida

joylashgan alyuminiy zavodi mintaqadagi eng yirik sanoat ob'ektlaridan biri hisoblanib, undan chiqayotgan gaz-chaŋ aralashmalari tarkibida alyuminiy, qo'rg'oshin, kadmiy, mis, rux hamda ftor birikmalari mavjud. Meteorologik sharoitlar, ayniqsa shamol yo'nalishlari va relef xususiyatlari hisobga olinganda, mazkur chiqindilarning ma'lum qismi Surxondaryo viloyatining Uzun tumani hududiga yetib kelishi ehtimoli mavjud. Bu esa tuproq qoplamida og'ir metallarning jamlanishiga va ularning tabiiy ekologik holatini o'zgarishiga olib keladi. Uzun tumani qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hudud bo'lib, sug'oriladigan yerlarning ulushi yuqori. Shu sababli tuproqlarning og'ir metallar bilan ifloslanishi nafaqat yer unumdorligining pasayishiga, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati orqali aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfini ham kuchaytiradi. Og'ir metallarning tuproq– o'simlik–inson zanjiri orqali harakatlanishi ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan alohida e'tibor talab qiladi. Mazkur sharoitda Tojikiston alyuminiy zavodidan chiqayotgan og'ir metallar ta'sirida Uzun tumani tuproqlarining ekologik holatida yuz berayotgan o'zgarishlarning ketma-ketligini ilmiy asosda o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar hududda ekologik monitoringni takomillashtirish, ifloslanish darajasini baholash hamda yer resurslarini muhofaza qilish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Tojikiston alyuminiy zavodi faoliyatining transchegaraviy ta'siri sharoitida Uzun tumani tuproqlarining ekologik holatini o'zgarish ketma-ketligini tadqiq etish hozirgi davr uchun ilmiy, amaliy va ijtimoiy jihatdan juda dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). So'nggi yillarda yirik metallurgiya korxonalari faoliyati natijasida atrof-muhitga chiqarilayotgan og'ir metallarning transchegaraviy ta'siri masalasi xalqaro ilmiy doiralarda keng muhokama qilinmoqda. Ko'plab tadqiqotlarda alyuminiy ishlab chiqarish sanoati ekologik xavf manbalaridan biri sifatida baholanib, uning atmosfera, tuproq va biosferaga salbiy ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Alloway (2020) o'z tadqiqotlarida metallurgiya korxonalaridan chiqadigan Pb, Cd va Zn kabi og'ir metallar atmosfera orqali tarqalib, qo'shni hududlardagi tuproqlarda jamlanishini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, bu jarayon qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hududlarda tuproq unumdorligining pasayishiga olib keladi [1]. Kabata-Pendias (2021) og'ir metallarning tuproqda to'planishi va ularning kimyoviy hamda biologik xususiyatlarga ta'sirini o'rganib, alyuminiy sanoati chiqindilari tarkibidagi metallar uzoq vaqt saqlanib qolish xususiyatiga ega ekanligini qayd etadi. Bu holat tuproqning tabiiy ekologik barqarorligini buzishi mumkin [2]. Science of the Total Environment jurnalida chop etilgan tadqiqotlarda (Zhang et al., 2022) atmosfera orqali tarqaluvchi texnogen chiqindilarning transchegaraviy xususiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Mualliflar shamol yo'nalishlari va relef sharoitlari og'ir metallarning migratsiyasida hal qiluvchi omil ekanligini isbotlaydilar [3]. UNEP (2021) hisobotlarida transchegaraviy havo ifloslanishi qishloq xo'jaligi yerlari uchun asosiy ekologik xavf omillaridan biri sifatida baholanib, metallurgiya sanoati mazkur muammoning asosiy manbalaridan ekani ta'kidlangan [4]. Markaziy Osiyo hududi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda (Qosimov Sh.X., 2020; Abdullaev A.A., 2021) alyuminiy va boshqa og'ir metallarning tuproqlarda jamlanishi sug'oriladigan bo'z va allyuvial tuproqlarda yuqori ekani aniqlangan. Bu holat Uzun tumani kabi qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan hududlar uchun alohida xavf tug'diradi [5, 6]. Liu et al. (2023) tadqiqotlarida og'ir metallarning tuproq–o'simlik tizimi orqali biokumulyatsiyasi keng tahlil qilinib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari orqali inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy dalillar bilan isbotlangan [7]. MDPI nashrlarida berilgan so'nggi maqolalarda (Wang et al., 2024) og'ir metallarning tuproq mikroorganizmlariga ta'siri natijasida biologik faollik pasayishi va gumus miqdorining kamayishi qayd etilgan [8]. Tojikiston alyuminiy zavodi atrofidagi ekologik holatni o'rgangan ayrim mintaqaviy tadqiqotlarda (Rahmonov et al., 2022) atmosferaga chiqarilayotgan gaz-chaŋ aralashmalari tarkibida Al, F, Pb va Cd yuqori ulushni tashkil etishi ko'rsatilgan. Mualliflar ushbu chiqindilarning qo'shni davlat hududlariga ta'sir ko'rsatish ehtimolini ilmiy jihatdan asoslab bergan [9]. So'nggi yillarda chop etilgan tahlillarda (Chen et al., 2024) tuproq ifloslanishini baholashda geoakkumulyatsiya indeksi, ekologik xavf indeksi kabi zamonaviy usullar qo'llanilib, ular transchegaraviy ta'sirni aniqlashda samarali ekani ta'kidlangan [10]. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, alyuminiy sanoati chiqindilari ta'sirida tuproqlarning ekologik holati o'zgarishi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, ayniqsa transchegaraviy ta'sir sharoitida uni kompleks o'rganish muhim ahamiyatga ega. Uzun tumani misolida bunday tadqiqotlarni amalga oshirish mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Dala va laboratoriyada bajarilgan tajribalarda tuproqshunoslikdagi umumqabul qilingan zamonaviy usullardan foydalanib tuproqlarni ekologik holtini o'zgarish ketma-ketligi tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hozirgi globallashuv va sanoatlashuv davrida yirik metallurgiya korxonalari faoliyati atmosfera va tuproq orqali chiqarilayotgan og'ir metallarning transchegaraviy ekologik muammolarini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, alyuminiy ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan gaz-chang va texnogen chiqindilar uzoq masofalarga tarqalib, qo'shni hududlarda tuproqlarning ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tojikiston hududida joylashgan alyuminiy zavodi mintaqadagi eng yirik sanoat ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Zavoddan chiqadigan chiqindilarning tarkibida aluminiy (Al), qo'rg'oshin (Pb), kadmiy (Cd), mis (Cu), rux (Zn) va ftor (F) birikmalari mavjud bo'lib, ular tuproq va o'simliklar orqali hududdagi ekosistemaga kirib boradi. Meteorologik shartlar,

xususan, shamol yo‘nalishlari va yomg‘ir oqimi, shuningdek relef xususiyatlari hisobga olinsa, bu metallarning bir qismi Surxondaryo viloyati, Uzun tumani hududiga yetib borishi ehtimoli yuqori. Shu sababli, ushbu hudud tuproq qatlamida metallarning dastlabki jamlanishidan tortib, uzoq muddatli ekologik xavf zonalarining shakllanishigacha bo‘lgan jarayon kuzatiladi. Uzun tumani sug‘oriladigan va qishloq xo‘jaligi yerlariga boy bo‘lib, yer unumdorligi hudud aholisining oziq-ovqat xavfsizligi va yashash sharoitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Shu bois, tuproqlarning og‘ir metallarga ifloslanishi yer unumdorligi pasayishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati pasayishi, hamda inson salomatligiga salbiy ta’sir xavfini oshiradi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, zavodga yaqin hududlarda Cd, Pb va Al kabi og‘ir metallarning kontsentratsiyasi standart qiymatlardan 1,5-3 baravar yuqori, o‘rta masofalarda esa 1,2-1,8 baravar oshgan. Tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlari, jumladan pH, elektroporvodimost va organik moddalar miqdori sezilarli darajada o‘zgargan. Biologik faollik pasayib, mikroorganizmlar faolligi kamaygan. Metallar tuproq-o‘simlik-inson zanjiri orqali harakatlanadi, bu esa yuqori ekologik xavfni hosil qiladi. Yuqori xavf zonalari CF (Contamination Factor), Igeo (Geoaccumulation Index) va ERI (Ecological Risk Index) hisob-kitoblari bilan aniqlandi. Natijada, yuqori kontsentratsiyali hududlarda tuproq ifloslanishi sezilarli darajada oshgan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va aholi salomatligi uchun xavf yuqori ekani aniqlangan. Shu nuqtai nazardan, Tojikiston alyuminiy zavodidan chiqadigan metall chiqindilar ta’sirida Uzun tumani tuproqlarining ekologik holatini o‘zgarish ketma-ketligini tahlil qilindi (1-rasm).



1-rasm. Tuproqlarni turli chiqindilar ta’sirida ekologik holatini o‘zgarish ketma-ketligi.

1. Chiqindilar tarqalishi. Tojikiston alyuminiy zavodidan chiqadigan gaz-chan va texnogen chiqindilar atmosferaga tarqaladi. Ushbu chiqindilar asosiy ifloslantiruvchi manba sifatida tuproqning ustki qatlamiga yetib boradi va metallarning dastlabki jamlashiga sabab bo‘ladi.

2. Metallalar kontsentratsiyasi oshishi. Zavodga yaqin hududlarda Cd, Pb, Al, Cu kabi og‘ir metallarning kontsentratsiyasi oshadi. Tuproqning ustki qatlamida bu metallarning jamlanishi davom etadi, masofa ortishi bilan kontsentratsiya pasayadi.

3. Biologik va kimyoviy o‘zgarish. Metallarning yuqori kontsentratsiyasi tuproqning mikrobiologik faolligini pasaytiradi, organik modda va humus miqdorini kamaytiradi. pH darajasi va elektroporvodimost o‘zgaradi, natijada tuproqning fizik va kimyoviy holati sezilarli darajada ta’sirlanadi.

4. Transchegaraviy tarqalish. Metallalar shamol va yomg‘ir orqali uzoq masofalarga tarqaladi, bu esa hududning

turli qismlarida ifloslanish zonalarini hosil qiladi. Natijada, yuqori va past yer qirralarida metall kontsentratsiyasi turlicha bo‘ladi va ekologik xavf tarqaladi.

5. Ekologik xavf shakllanishi. Tuproqdagi og‘ir metallarning kontsentratsiyasi asosida CF (Contamination Factor), Igeo (Geoaccumulation Index) va ERI (Ecological Risk Index) hisoblanadi. Zavodga yaqin hududlarda yuqori ekologik xavf zonalari aniqlanadi, bu hududlarda tuproq ifloslanishi sezilarli darajada oshadi.

6. Qishloq xo‘jaligi va sog‘liqqa ta’sir. Metallalar tuproq–o‘simlik–inson zanjiri orqali harakatlanadi. Shu bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari og‘ir metallarni o‘zlashtiradi, inson organizmiga kiradi va salomatlik uchun xavf tug‘diradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, Tojikiston alyuminiy zavodidan chiqadigan texnogen chiqindilar va gaz- chang aralashmalari Uzun tumani tuproqlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Zavodga yaqin hududlarda Cd, Pb, Al va Cu kabi metalllar konsentratsiyasi standart qiymatlardan ancha yuqori bo‘lib, tuproqning fiziko-ximiyaviy va biologik xususiyatlarini o‘zgartiradi. Tuproqdagi metalllar konsentratsiyasi transchegaraviy tarzda tarqalib, Uzun tumani hududida yuqori va o‘rta ekologik xavf zonalarini shakllantiradi. Bu o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati va aholi sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradi. Metalllar tuproq-o‘simlik-inson zanjiri orqali harakatlanishi natijasida biokumulyatsiya jarayoni rivojlanadi va ushbu ta’sir qishloq xo‘jaligi yerlari, suv resurslari va ekosistema barqarorligi uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu bilan birga, tahlil natijalari Uzun tumani tuproqlarining ekologik holatini monitoring qilish, ifloslanish darajasini baholash va yer resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun ilmiy va amaliy asosni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alloway, B.J. (2020). Heavy metals in soils. Springer.
2. Kabata Pendias, A. (2021). Trace elements in soils and plants. CRC Press.
3. Zhang, X., Li, Y., Wang, H., et al. (2022). Transboundary air pollution and soil contamination. Science of the Total Environment, 817, 151673. https://doi.org/10.1016/j.scitotenv.2022.151673
4. UNEP. (2021). Transboundary air pollution assessment. Nairobi: United Nations Environment Programme.
5. Qosimov, Sh.X. (2020). Surxondaryo viloyati tuproqlarining ekologik holati. Toshkent: Tadqiqot nashriyoti.
6. Abdullaev, A.A. (2021). Tuproq ekologiyasi va antropogen ta’sir. Toshkent: Tadqiqot nashriyoti.
7. Liu, Y., Chen, R., Zhang, L., et al. (2023). Heavy metal bioaccumulation in agroecosystems. Environmental Pollution,314, 120310. https://doi.org/10.1016/j.envpol.2023.120310
8. Wang, L., Li, Q., Zhang, X., et al. (2024). Heavy metals and soil biological activity. MDPI Agronomy, 14(3), 521. https://doi.org/10.3390/agronomy14030521
9. Rahmonov, F., Nazarov, T., & Ibragimov, M. (2022). Environmental impact of aluminium industry in Tajikistan. Central Asian Journal of Environmental Science, 3(2), 45–58.
10. Chen, H., Liu, J., Wang, Y., et al. (2024). Ecological risk assessment of heavy metals in soils. Journal of Environmental Management, 347, 117768. https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2024.117768.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Rakhmanov Dilshod Ortikbaevich
PhD in Agricultural Sciences Namanga State University
Dilshadbek@1980 mail.ru

POULTRY: HEALTH BENEFITS AND DIFFERENCES FROM OTHER MEAT PRODUCTS

Annotation. *The article gives the health benefits of poultry meat: rich in protein, low fat content, rich in vitamins and minerals, low calorie content; what kind of food can be prepared from poultry meat: roast and baked meat: chicken curry: chicken soup: grill and shish kebab: stew and stew: differences between poultry meat and other types of meat, fat and protein content, vitamins and minerals, calorie content, variability of cooking.*

Keywords: *beef, sauce, soup, fat, protein.*

Рахманов Дилщод Ортикбаевич
Намангаский Государственный Университет К.с.х.н.

МЯСО ПТИЦЫ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЗДОРОВЬЯ И ОТЛИЧИЯ ОТ ДРУГИХ ВИДОВ МЯСНОЙ ПРОДУКЦИИ

Аннотация. *В статье приведённый польза мяса птицы для здоровья богаство белком, низкое содержание жира, богатство витаминами и минералами, низкое калорийное содержание; какую еду можно приготовить из мяса птицы жаркое и запеченное мясо: карри с курицей: куриный суп: гриль и шашлык: тушение и рагу: отличия мяса птицы от других видов мяса содержание жира и белка, витамины и минералы, калорийность, вариативностью приготовления.*

Ключевые слова. *говядина, соус, суп, жир, белок.*

Raxmanov Dilshod Ortikbayevich
Namangan davlat universiteti, q.x.f.n.

PARRANDA GO‘SHTI: SOG‘LIQ UCHUN FOYDALARI VA BOSHQA GO‘SHT MAHSULOTLARIDAN FARQLARI

Annotatsiya. *Maqolada oqsilga boy, yog‘i kam, vitamin va minerallarga boy, kaloriyasi past parranda go‘shtining sog‘liq uchun foydalari tasvirlangan; parranda go‘shtidan qanday ovqat tayyorlash mumkin qovurilgan va pishirilgan go‘sht: tovuqli kori: tovuq sho‘rva: panjara va shish kavob: dimlash va dimlash: qovurilgan va pishirilgan go‘shtning farqlari parranda go‘shti go‘shtning boshqa turlaridan hayvon go‘shtidan yog‘ va oqsil miqdori, vitaminlar va minerallar, kaloriya tarkibi, pishirishning o‘zgaruvchanligi qo‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar. *mol go‘shti, sous, sho‘rva, yog , oqsil.*

Meat is one of the main sources of protein and many other nutrients in our diet. Among various types of meat, poultry meat stands out for its unique properties and benefits. In this article, we'll look at why poultry is healthy, what dishes you can make from it, and how it differs from pork, beef and lamb.



Health benefits of poultry meat

Poultry meat is a valuable product for maintaining a healthy lifestyle. Here are some reasons why it is good for your body:

1. Rich in Protein: Poultry meat is an excellent source of protein that contains all the essential amino acids, making it a high quality protein.

2. Low fat content: Compared to pork and beef meat, poultry meat is low in fat. This makes it an excellent choice for those looking to lose weight.

3. Rich in Vitamins and Minerals: Poultry contains a variety of vitamins and minerals such as vitamin B6, niacin, selenium and zinc. These elements play an important role in maintaining the normal functioning of the body and immune system.

4. Low in Calories: Poultry contains fewer calories than some other meats.

What can be cooked from poultry meat

Poultry meat can be prepared in a variety of dishes. Here are some:

Roasted and baked meats: Chicken, turkey or duck can be cooked roasted or baked with a variety of spices and seasonings, which gives the meat a golden crust and juiciness.



Fig.1 Roasted and baked poultry meat.

Chicken Curry: Indian curry with chicken breast or thigh is a flavorful and delicious dish.



Fig.2 Chicken in curry sauce.

Chicken Soup: Chicken soup with vegetables and noodles is popular for colds and flu.



Fig.3 Chicken soup with a star

Grilling and kebabs: Chicken can be cooked on the grill or as a kebab.




Rice. 4 Pork and beef shish kebab.

Stews and stews: Poultry meat can be used to make stews and stews with vegetables for those who prefer a more tender and soft texture.






Rice. 5 Poultry stew

Differences between poultry and other types of meat

Now let's look at how poultry differs from other types of meat such as pork, beef and lamb:

1. Fat Content: Poultry meat generally contains less fat. Compared to pork, beef or lamb, it is a lighter and more dietary option.

2. Protein Content: Poultry meat is rich in protein.

3. Vitamins and Minerals: Poultry contains important vitamins and minerals such as vitamin B6, niacin, selenium and zinc, which help maintain health.

4. Calorie content: Poultry meat usually has a lower calorie content.

5. Cooking versatility: Poultry is ideal for a variety of cooking methods, including frying, baking, sautéing, grilling and even boiling.

Poultry meat is a valuable nutritional product, rich in protein and nutritional elements. Its low fat content and calorie content make it an excellent choice for healthy eating and weight maintenance. With a variety of cooking methods, poultry can be a tasty and healthy addition to your diet, adding variety and nutritional richness.

Literatures used.

1. Farmer's Handbook. Animal husbandry, poultry farming, beekeeping: AST; M.; 2011 ISBN 978-5-17-070986-1

2. Kostmakhin N.M. Breeding with the basics of private zootechnics. Publishing house. "Fallow deer" 2006. 448 pp.

3. Kholmatov A.Kh. 100 kilotons of heat. Tukhum ўnalishidagi tovuklarni parvarishlash. 82-kitob

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Alloberganova Zebo Bekmamatovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,b.f.n.dotsent
Sultonov Mansurbek Farxod o'g'li
Xorazm Ma'mun Akademiyasi tayanch doktoranti

UDK: 581.192:633.111

YUMSHOQ BUG'DOYDA SIFAT KO'RSATKICHLARI TAHLILI.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yumshoq bug'doyning turlicha kelib chiqishga ega bo'lgan 10 ta nav-namunasi donidagi oqsil miqdorining yillar (2023-2025) va agroekologik sharoitlar ta'sirida o'zgarishi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, eng yuqori oqsil to'planishi namlik nisbatan yuqori bo'lgan 2024-yilda (o'rtacha 14,19 %) kuzatildi. Noqulay issiq va quruq kelgan 2023-yilda esa donda oqsil to'planishi o'simlikning adaptiv reaksiyasi sifatida namoyon bo'ldi. Variatsiya koeffitsiyenti (CV) tahlili Ayvina (0,26 %) va Nikifor/Kroshka (0,81 %) navlarining oqsil miqdori bo'yicha eng yuqori barqarorlikka ega ekanligini, Kamol navi esa tashqi muhit omillariga eng ta'sirchan (3,32 %) ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar yuqori sifatli va barqaror navlarni seleksiya jarayoniga jalb qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *yumshoq bug'doy, oqsil miqdori, variatsiya koeffitsiyenti, barqarorlik, agroekologik sharoit, hosildorlik, navlararo farqlar.*

Аллоберганова Зебо Бекмаматовна
доцент, кандидат биологических наук, Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни
Султонов Мансурбек Фарход угли
докторант (PhD), Хорезмская академия Мамуна

АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КАЧЕСТВА МЯГКОЙ ПШЕНИЦЫ

Аннотация. *В данной статье анализируются изменения содержания белка в зернах десяти сортов мягкой пшеницы различного происхождения под влиянием лет (2023-2025) и агроэкологических условий. Согласно результатам исследования, наибольшее накопление белка наблюдалось в 2024 году, когда уровень влажности был относительно высоким (в среднем 14,19 %). В неблагоприятном, жарком и засушливом 2023 году накопление белка в зерне проявилось как адаптивная реакция растения. Анализ коэффициента вариации (CV) показал, что сорта Айвина (0,26 %) и Никифор/Крошка (0,81 %) имели наибольшую стабильность по содержанию белка. Сорт Камол оказался наиболее чувствительным к внешним факторам окружающей среды (3,32 %). Полученные результаты служат основой для включения высококачественных и стабильных сортов в процесс селекции.*

Ключевые слова: *мягкая пшеница, содержание белка, коэффициент вариации, стабильность, агроэкологические условия, урожайность, межсортовые различия.*

Alloberganova Zebo Bekmamatovna
Associate Professor, Candidate of Biological Sciences, Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni
Sultonov Mansurbek Farxod ogli
Doctoral Student (PhD), Khorezm Ma'mun Academy

ANALYSIS OF QUALITY INDICATORS IN SOFT WHEAT

Abstract. *This article analyses the variation in protein content in the grains of ten soft wheat accessions of diverse origin under the influence of years (2023-2025) and agro-ecological conditions. According to the research results, the highest protein accumulation was observed in 2024, when moisture levels were relatively high (average 14.19 %). In the unfavourable, hot and dry year of 2023, protein accumulation in the grain manifested as an adaptive reaction of the plant. Coefficient of variation (CV) analysis showed that the Ayvina (0.26 %) and Nikifor/Kroshka (0.81 %) varieties had the highest stability in protein content, The Kamol variety proved to be the most sensitive to external environmental factors (3.32 %). The results obtained provide a basis for incorporating high-quality and stable varieties into the selection process.*

Keywords: *soft wheat, protein content, coefficient of variation, stability, agro-ecological conditions, yield, inter-varietal differences.*

Kirish. Dunyo aholisining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bug'doy (Triticum aestivum L.) strategik ahamiyatga ega bo'lgan asosiy qishloq xo'jaligi ekini hisoblanadi. Bug'doy donining sifati, birinchi navbatda, uning tarkibidagi oqsil miqdori va aminokislotalar tarkibi bilan belgilanadi. Oqsil nafaqat donning ozuqaviy qiymatini, balki undan tayyorlanadigan mahsulotlarning texnologik xususiyatlarini (non yopish sifati, xamir elastikligi) ham belgilab beradi [1].

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi, haroratning keskin ko'tarilishi va suv resurslarining kamayishi bug'doy yetishtirishda kutilmagan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Abiotik stress omillari, ayniqsa, donning shakllanish va sut pishiqligi davridagi issiq va quruq havo o'simlikning fiziologik jarayonlariga, jumladan, azot o'zlashtirish va oqsil sinteziga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2]. Shu bois, turli agroekologik sharoitlarda oqsil miqdorini barqaror saqlab qola oladigan navlarni aniqlash hamda ularning genetik imkoniyatlarini o'rganish seleksiya va biologiya fanining muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bug'doy donida oqsil to'planishi murakkab jarayon bo'lib, u navning genetik salohiyati va tashqi muhit omillari ta'sirida shakllanadi [3]. Ko'pgina olimlarning ta'kidlashicha, havo haroratining ko'tarilishi va namlikning yetishmasligi dondagi oqsil miqdorining nisbiy ortishiga olib kelishi mumkin, biroq bu jarayon hosildorlikning pasayishi bilan kechadi (dilyusiya effekti) [4]. Ayniqsa, don to'lishish davridagi issiq va quruq havo (garmsel) oqsillarning fraksion tarkibiga va aminokislotalar sinteziga salbiy ta'sir ko'rsatadi [5]. Shu sababli, turli agroekologik sharoitlarda oqsil miqdorini barqaror saqlab qoladigan (plastik) navlarni tanlash seleksiyaning ustuvor yo'nalishidir.

Tadqiqot materiali va usullari. Tadqiqotlar 2023-2025-yillar davomida PSU va EAITI Xorazm viloyati ilmiy-tajriba maydonlarida olib borildi. Tajribalar dala va laboratoriya sharoitida o'tkazildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Markaziy Osiyo va Qirg'iziston yumshoq bug'doy germplazmasidan olingan 10 ta nav namunalari (Durdona, Vostorg, Starshina, Kamol, Sila, Ayvina, Nikifor/Kroshka, Kasiet, Adyr va Vlada) tanlab olindi. Don tarkibidagi oqsil miqdori aniqlandi.

Don tarkibidagi oqsil ko'rsatkichlari laboratoriya sharoitida aniqlandi. Ya'ni bunda umumiy oqsil miqdori Keldall metodi (Keldall apparati) yordamida aniqlanadi. Bu usul namunadagi azot miqdorini o'lchab, so'ngra maxsus koeffitsiyent yordamida uni umumiy oqsil miqdoriga aylantiradi. Olingan natijalar navlar bo'yicha o'zaro taqqoslab baholandi [6].

Natijalar va muhokama. Navlarning sifat ko'rsatkichlaridan biri bu uning oqsil miqdori hisoblanadi. Oqsil miqdori bug'doyning oziq-ovqat sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Jadvaldagi bug'doy navlarining umumiy oqsil miqdori bo'yicha o'rtacha statistik ko'rsatkichlar (±SEM, S, CV) asosida keng qamrovli tahlil olib borildi. Tahlil natijalariga ko'ra, barcha navlarda 2024-yilgi oqsil miqdori 2023-2025-yillarga nisbatan yuqoriroq bo'lgan. Bu holat, ehtimol, 2024-yilda agroekologik sharoitlarning o'simliklar tomonidan oqsil to'planishiga qulay bo'lganligi yoki hosildorlikning pasayganligi hisobiga oqsilning konsentratsiyasi oshganligi (dilyusiya effektining aksi) bilan izohlash mumkin.

2023-yilda navlarning o'rtacha oqsil miqdori 13,89±0,1 ni tashkil etgan. Navlar o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori natija ko'rsatgan Vostorg (14,58±0,1), Nikifor/Kroshka (14,52±0,1), Ayvina (14,25±0,1), Adyr (14,26±0,2) va Durdona (14,12±0,1), Kamol (13,21±0,1) va Kasiet (13,11±0,2) navlarida kuzatilgan. Eng past oqsil miqdori Kasiet navida qayd etilgan. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, Vostorg va Nikifor/Kroshka kabi navlar don sifati bo'yicha yuqori potensialga ega. Bu yerda yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki 2023-yil eng issiq va eng quruq davr bo'lgan. O'rtacha harorat 21,17 ^{0}C, eng yuqori harorat 37 ^{0}C ga yetgan. Yillik yog'ingarchilik atigi 82 mm ni tashkil etgan. Bunday qattiq stress sharoitida o'simlik vegetativ o'sishini cheklab, biomassa oshirishdan ko'ra, donni shakllantirishga urg'u beradi. Natijada, Vostorg (14,58±0,1) va Nikifor/Kroshka (14,52±0,1) kabi navlar eng yuqori oqsil miqdorini qayd etgan, bu ularning noqulay sharoitlarda ham sifatni saqlab qolish qobiliyatini ko'rsatadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval


Navlarning don tarkibidagi oqsil miqdori.

T/r	Navlar	Yillar			O'rtacha ko'rsatkich ±SEM (%)	Standart og'ish (S)	Variatsiya koeffitsiyenti (CV), %	Hosildorlik, m²/g
		2023	2024	2025				
1	Durdona	14,12±0,18	14,38±0,21	14,76±0,11	14,42±0,18	0,32	2,24	389,5±5,50
2	Vostorg	14,58±0,11	14,97±0,22	14,55±0,15	14,70±0,13	0,24	1,61	441,0±8,0
3	Starshina	13,45±0,25	13,65±0,14	13,21±0,24	13,43±0,12	0,22	1,64	265,0±4,0

4	Kamol	13,21±0,19	13,96±0,11	13,16±0,19	13,44±0,25	0,45	3,32	420,0±26,0
5	Sila	13,96±0,12	14,28±0,24	14,02±0,21	14,09±0,10	0,17	1,24	572,5±5,5
6	Ayvina	14,25±0,19	14,17±0,11	14,23±0,17	14,22±0,02	0,04	0,26	370,0±4,0
7	Nikifor/Kroshka	14,52±0,14	14,62±0,21	14,39±0,26	14,51±0,06	0,12	0,81	543,0±6,0
8	Kasiet	13,11±0,21	13,70±0,17	13,57±0,12	13,46±0,18	0,31	2,33	349,0±52,0
9	Adyr	14,26±0,28	14,11±0,18	13,90±0,14	14,09±0,10	0,18	1,27	421,0±3,0
10	Vlada	13,42±0,24	14,04±0,13	13,60±0,15	13,69±0,18	0,32	2,34	335,0±6,0
11	**O‘rtacha ko‘rsatkich**	13,89±0,19	14,19±0,18	13,94±0,17	14,00±0,13	0,24	1,99	410,5±3,46

2024-yil eng qulay va namroq yil bo‘lgan. O‘rtacha harorat 19,83 ^{0}C va yillik yog‘ingarchilik 98 mm bo‘lgan. Bunday sharoitlar o‘simlikning optimal o‘sishini ta’minlagan. Natijada, navlarning o‘rtacha oqsil miqdori 14,19±0,18 gacha ko‘tarilgan. Bu yilda Nikifor/Kroshka (14,62±0,21), Sila (14,28±0,24), Durdona (14,38±0,21) va Vostorg (14,97±0,22) navlari dondagi oqsil miqdori bo‘yicha eng yuqori natijalarga erishgan. Eng past ko‘rsatkich Starshina (13,65±0,14) navida qayd etildi.

2025-yil o‘rtacha noqulay yil bo‘lib, erta harorat stressi kuzatilgan. O‘rtacha oqsil miqdori 13,94±0,17 ni tashkil etib, 2024-yilgiga nisbatan pasaygan. Bu ob-havoning stress omillari (masalan, harorat) oqsil to‘planishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini yana bir bor isbotlaydi. Shunga qaramay, Durdona (14,12±0,18), Vostorg (14,55±0,15), Ayvina (14,25±0,19), Nikifor/Kroshka (14,39±0,26) va Adyr (14,26±0,28) navlari o‘zlarining yuqori oqsil miqdorini saqlab qola olgan.



1-rasm. Navlarning don tarkibidagi oqsil miqdori bo‘yicha farqlanishi.

В кефире этот процесс идет медленнее, что позволяет сформироваться более мягкому, «колючему» (из-за газа) сгустку. В ряженке же формируется плотный, глянцевый сгусток за счет высокого содержания денатурированных сывороточных белков.

Исследования последних 5 лет (2021–2026 гг.) подчеркивают сложность симбиотических связей в кефирных грибках. Согласно данным *Bourrie et al. (2021)*, присутствие дрожжей рода *Saccharomyces* не только обогащает продукт витаминами, но и создает буферную систему, замедляющую падение pH.

В то же время, при изучении термообработанного молока, *Tamime (2022)* указывает на роль продуктов реакции Майяра (меланоидинов) как пребиотических факторов для *Streptococcus thermophilus*. Современные модели гликолиза в молочных системах подтверждают, что доступность азотистых веществ после денатурации сывороточных белков в ряженке значительно выше, чем в пастеризованном молоке, используемом для кефира.

Различие в динамике pH между ряженкой и кефиром обусловлено не только составом микрофлоры, но и энергией активации процессов. В ряженке используется термофильная микрофлора (T=40-42°C), что согласно уравнению Аррениуса увеличивает константу скорости химической реакции k: $\mathbf{k = A \cdot e^{-E/RT}}$

где E_a - энергия активации ферментативного гидролиза лактозы. Высокая температура процесса в сочетании с предварительной денатурацией сывороточных белков снижает энергетический барьер для протеолиза, что проявляется в сокращении лаг-фазы до 1.0 –1.5 ч.

Процесс сквашивания - это контролируемая дестабилизация казеиновой мицеллы. В исходном молоке казеин несет отрицательный заряд, поддерживаемый электростатическим отталкиванием и гидратацией казеина.

- в ряженке, при достижении pH - 5.2 начинается солюбилизация коллоидного фосфата кальция ($Ca_3(PO_4)_2$), встроенного в структуру мицеллы. Из-за быстрого накопления молочной кислоты ($CH_3CH(OH)COOH$), ионы H^+ быстро нейтрализуют отрицательный заряд фосфатных групп серы.
- в кефире, присутствие дрожжевого метаболизма и накопление этанола (C_2H_5OH) изменяет диэлектрическую проницаемость среды. Это приводит к тому, что агрегация казеина происходит более плавно, формируя пространственную сетку с включениями пузырьков углекислого газа.

Роль метаболических путей - гомо- и гетероферментация. Глубокий анализ требует разделения путей утилизации глюкозы:

1. Путь Эмбдена-Мейергофа – для ряженки. Доминирует у *S. thermophilus*. 1 моль лактозы дает 4 моль молочной кислоты. Это обеспечивает «жесткую» корреляцию между потреблением сахара и падением pH.
2. Пентозофосфатный путь – для кефира. Гетероферментативные лактобациллы и дрожжи перерабатывают часть пирувата в ацетат, этанол и CO_2.

$$\text{Glucose} \longrightarrow \text{Lactate} + \text{Ethanol} + CO_2.$$

Это объясняет более высокое значение pH в кефире при аналогичном уровне потребления лактозы, так как часть субстрата превращается в нейтральные (этанол) или летучие (CO_2) соединения, не влияющие на активную кислотность так сильно, как ион лактата.

В ряженке образуются меланоидины и фурфурол. Теоретически доказано, что промежуточные продукты распада аминосахаров (например, дезоксиглюкозоны) могут выступать в роли акцепторов электронов для НАДН-зависимых дегидрогеназ бактерий. Это ускоряет регенерацию NAD^+ и, следовательно, интенсифицирует гликолиз, что мы и наблюдаем в виде крутого наклона кривой pH на графике в первые 4 часа эксперимента.

Материалы и методы (Materials and Methods)

Объект исследования.

Объектами исследования послужили:

1. Образец А - Ряженка. Молоко коровье, топленое при 95°C (3 часа), заквашенное культурой *S. thermophilus* и *L. bulgaricus* (соотношение 4:1).
2. Образец Б - Кефир. Молоко пастеризованное (85°C, 10 мин), заквашенное кефирными грибками в количестве 5% от объема сырья.

Методики измерений

- Активная кислотность (pH): Измерялась потенциометрическим методом с использованием pH-метра с термокомпенсацией.
- Титруемая кислотность: Определялась методом титрования 0,1 н. раствором NaOH (градусы Тернера, °T).
- Температурные режимы: Сквашивание ряженки проводилось при 40 °C, кефира - при 22°C.

Результаты и обсуждение (Results and Discussion)

Биохимическая модель трансформации. В обоих образцах основным источником энергии для микроорганизмов является лактоза. Процесс начинается с её гидролиза:

В ряженке доминирует гомоферментативный путь, где пируват восстанавливается до лактата:

$$C_6H_{12}O_6 + 2ADP + 2Pi \longrightarrow 2CH_3CH(OH)COOH + 2ATP$$

В кефире параллельно протекает спиртовое брожение, что обуславливает выделение CO_2 и этанола, создавая специфический «холодный» профиль ферментации.

Кинетика pH

Анализ экспериментальных данных (Таблица 1) выявил существенные различия в скорости закисления.

Таблица 1.

Сравнительная динамика pH и титруемой кислотности

Время (ч)	pH Ряженки	°T Ряженки	pH Кефира	°T Кефира
0	6.65	18	6.70	17
2	5.85	35	6.48	21
4	4.82	65	5.95	38
6	4.55	82	5.25	55
10	-	-	4.62	85

Математическое моделирование процесса

Для описания динамики pH была применена логистическая модель. Установлено, что фаза ускорения метаболизма у *S. thermophilus* в ряженке наступает на 90-й минуте, тогда как у кефирного симбиоза - только на 180–210 минуте. Коэффициент корреляции между временем и накоплением лактата составил R2 = 0.98 для ряженки и R2 = 0.94 для кефира.

Кинетика активной и титруемой кислотности

Экспериментальные данные показывают существенную гетерогенность в скорости накопления органических кислот. Для наглядности процесса в таблицу 2 добавлены производные величины - скорость изменения pH V=pH t).

Таблица 2.

Сравнительная кинетика ферментации (средние значения, n=3)

Время (t), ч	pH Ряженка	VpH (Ряж.)	pH Кефир	VpH (Кеф.)	°T Ряженка	°T Кефир
0	6.65	0.00	6.72	0.00	18	17
2	5.82	0.41	6.45	0.13	38	21
4	4.85	0.48	5.92	0.26	68	36
6	4.52	0.16	5.21	0.35	85	52
8	4.45	0.03	4.88	0.16	92	68
10	—	—	4.61	0.13	—	86

Обсуждение: Роль термической деструкции компонентов молока

Ускоренная динамика pH в ряженке (Образец А) объясняется спецификой «топленого» молока. Длительный нагрев (95°C) приводит к двум важным последствиям:

1. Высвобождение азотистых соединений. Происходит частичный гидролиз белков и денатурация сывороточных фракций, что облегчает доступ бактериальных протеаз к пептидным связям.

2. Эффект меланоидинов. Продукты реакции Майяра стимулируют синтез формиата и других факторов роста для *Streptococcus thermophilus*, что сокращает лаг-фазу.

Специфика симбиотического торможения в кефире.

В кефире (Образец Б) наблюдается более низкая скорость накопления кислоты. Мы связываем это с явлением метаболической конкуренции. Кефирный грибок - это сложная экосистема, где:

- дрожжи конкурируют с лактококками за свободные сахара (лактозу).

- часть углерода расходуется на синтез этанола и диоксида углерода (путь гетероферментативного брожения), что снижает «выход» молочной кислоты на единицу субстрата.

- низкая температура (22°C) ограничивает скорость ферментативных реакций согласно правилу Вант-Гоффа, однако именно это позволяет сформироваться уникальному аромату кефира (диацетил, ацетальдегид).

Влияние на структуру сгустка. Анализ кривых pH позволяет предсказать физические свойства продукта. В ряженке быстрое достижение pH=4.6 ведет к формированию плотного, гомогенного коагулята. В кефире медленное снижение кислотности в сочетании с выделением газа (CO_2) способствует образованию более рыхлого, «колющего» сгустка с выраженным синерезисом (выделением сыворотки), что является нормой для данного продукта.

Установлено, что в ряженке максимальная скорость снижения pH (Vmax=0.28ед/час) достигается на 3-м часу. Это объясняется высокой метаболической активностью стрептококков при 40°C. В кефире же наблюдается длительная лаг-фаза (3 часа), связанная с адаптацией микрофлоры грибка к среде. Наличие дрожжевых клеток в кефире выступает в роли «биологического буфера», препятствуя резкому скачку кислотности.

Заключение (Conclusion)

Исследование подтвердило, что выбор микробного консорциума и термическая обработка молока являются определяющими факторами кинетики ферментации. В ряженке доминирует термофильный стрептококк, который быстро расщепляет лактозу в условиях повышенной температуры. В кефире процесс протекает медленнее из-за более низкой температуры культивирования и конкуренции между молочнокислыми бактериями и дрожжами.

Полученные данные могут быть использованы для оптимизации промышленных циклов производства и обеспечения стабильного качества кисломолочных продуктов. Исходя из общего вывода мы пришли к следующим:

1.Доказано, что предварительная термообработка молока (топление) ускоряет процесс сквашивания ряженки за счет изменения структуры белков и накопления стимулирующих метаболитов Майяра.

2.Установлено, что для достижения технологически необходимого уровня pH - 4.6 ряженке требуется в среднем 6 часов, в то время как кефиру - 10-12 часов.

3.Полученные данные позволяют рекомендовать производителям использование дифференцированных графиков внесения заквасок для оптимизации поточных линий производства.

Список литературы (References)

1. Bourrie, B. C., Willing, B. P., & Cotter, P. D. (2016). The Microbiota and Health Promoting Characteristics of Kefir. *Frontiers in Microbiology*, 7, 647. [DOI: 10.3389/fmicb.2016.00647]

2. Tamime, A. Y. (Ed.). (2022). *Structure of Dairy Products*. Society of Dairy Technology Series. Wiley-Blackwell. (Описывает структурные изменения белков при термизации для ряженки).

3. Slattery, C., Cotter, P. D., & O'Toole, P. W. (2019). Analysis of Health Benefits Confirmed by In Vitro and In Vivo Studies of Yakult and Other Probiotics. *International Journal of Dairy Technology*.

4. Zannini, E., et al. (2021). Fermentation strategies to improve the nutritional and organoleptic properties of plant-based beverages and dairy alternatives. *Current Opinion in Food Science*, 42, 142-148.

5. Prado, M. R., et al. (2015). Milk kefir: Composition, microbial community, and health benefits. *Critical Reviews in Food Science and Nutrition*, 55(10), 1337-1350.

6. Gaware, K., et al. (2023). Comparative biochemical study of fermented milk products: Traditional vs Modern approaches. *Journal of Food Composition and Analysis*.

7. Bourrie, B. C., et al. (2021). The Microbiota of Kefir: A Review. *Frontiers in Microbiology*.

8. Tamime, A. Y. (2022). *Yoghurt Science and Technology*. Woodhead Publishing.

9. Zannini, E. (2023). Microbial ecology of fermented milks. *Current Opinion in Food Science*.

10. Moonga, H. B., Schoustra, S. E., et al. (2021). *Influence of fermentation temperature on microbial community composition and physicochemical properties of mabisi*. **LWT – Food Science and Technology,** *136*, 110350.

11. Li, Y., Wang, Y., Li, B., et al. (2023). *Streptococcus thermophilus JM905-Strain Carbon Source Utilization and Its Fermented Milk Metabolic Profile at Different Fermentation Stages.* Foods, 12(19), 3690.

12. **Özdal, H. R., Yıldız, B., & Arkun, G. (2018).** *Hydroxymethylfurfural (HMF) formation in milk and dairy products.* International Journal of Food Engineering Research.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Ermatova Gulzoda Zakirdjanovna
Andijon davlat universiteti Ekologiya va barqaror rivojlanish kafedrasi katta o'qituvchi
E-mail: gulzoda1712@mail.ru

UO'K 581.9(47) 582.998

INULA L. TURKUMI TURLARINING O'RGANILISHIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Inula L. turkumiga mansub turlar bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarning keng ko'lamli tahlili amalga oshirilgan. Maqolada turkumning taksonomik tarkibi, morfologik belgilari, geografik tarqalishi va yashash muhitlarini haqidagi ma'lumotlarni ilmiy asoslab berilgan. Manbalarda keltirilgan tasniflar va yondashuvlar o'zaro taqqoslanib, Inula turlarining o'rganilish darajasi hamda mavjud ilmiy muammolar aniqlangan. SHuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda qo'llanilayotgan morfologik, va molekulyar usullar tahlil qilingan. Mazkur adabiyotlar sharhi Inula turkumining taksonomiyasi va biologik xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Inula, flora, morfologiya, turkum, tur, taksonomiya, areal.*

Эрматова Гулзода Закирджановна
Андижанский государственный университет Кафедра экологии и устойчивого развития старший преподаватель

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ИЗУЧЕНИЮ ВИДОВ РОДА *INULA* L.

Аннотация: *В данной статье представлен всесторонний анализ зарубежных и отечественных научных источников, посвящённых видам рода Inula L. В работе научно обоснованы сведения о таксономическом составе, морфологических признаках, географическом распространении и экологических условиях обитания рода. Классификации и подходы, приведённые в источниках, сопоставлены между собой, определены степень изученности видов Inula и существующие научные проблемы. Кроме того, проанализированы морфологические и молекулярные методы, применяемые в современных исследованиях. Настоящий обзор литературы направлен на более глубокое изучение таксономии и биологических особенностей рода Inula.*

Ключевые слова: *Inula, флора, морфология, род, вид, таксономия, ареал.*

Ermatova Gulzoda Zakirdjanovna
Andijan State University Department of Ecology and Sustainable Development Senior Lecturer

SOME CONSIDERATIONS FOR THE STUDY OF SPECIES OF THE GENUS *INULA* L.

Abstract: *This article presents a comprehensive analysis of foreign and domestic scientific sources devoted to species of the genus Inula L. The study provides scientifically substantiated information on the taxonomic composition, morphological characteristics, geographical distribution, and ecological habitats of the genus. The classifications and approaches presented in the sources are compared, and the degree of investigation of Inula species as well as existing scientific problems are identified. In addition, morphological and molecular methods applied in modern research are analyzed. The present literature review is aimed at a deeper study of the taxonomy and biological characteristics of the genus Inula.*

Key words: *Inula, flora, morphology, genus, species, taxonomy, distribution range.*

Inula L. (Asteraceae) turkumi dunyo florasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, global miqiyosda 100 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi [1;2]. Ammo, botanika sohasiga oid raqamlashtirilgan axborot resurslarida turkumning taksonomik tarkibi bo'yicha keltirilgan ma'lumotlar bir-biridan farq qiladi. Xususan, Plantarium (https://www.plantarium.ru/page/search) bazasida 110 ta tur atrofida, Plants of the World Online (https://powo.science.kew.org/ taxon) ma'lumotlariga ko'ra 80 ga yaqin, International Plant Names Index (https://www.ipni.org/search) axborot ba'zasida esa *Inula* turlarining 150 dan ortiq nomlanishini qayd etadi. Bu holat, turkum sistematikasidagi tur darajasidagi chalkashlik masalalari, sinonimiya murakkabligi va regional reviziyalar o'rtasidagi nomutanosibliklar mavjudligi bilan izohlanadi.

Inula turkumi ilk marotaba K.Linney tomonidan "Species Plantarum" Sp. Pl. 2: 881 (1753) asarida tavsiflangan. Olim ushbu asarda mazkur turkum tarkibida o'ndan ortiq turlarni (*Inula foliis ovatis rugosis* (= *Inula helenium* L.), *Inula foliis crenatis hirsutis* (= *Inula salicina* L.), *Inula foliis oblongis integerrimis* (= *Inula hirta* L.), *Inula tomentosa* (= *Dittrichia viscosa subsp. tomentosa*), *Inula foliis lanceolatis crenatis* (= *Pentanema salicinum* (L.) D.Gut.Larr.), *Inula montana* L. (= *Pentanema montanum* (L.) D.Gut.Larr.), *Inula foliis linearibus integris* (= *Inula linariifolia* Turcz.), *hamda Inula foliis ovatis obtusis* (= *Inula obtusifolia* A. Kern.)) keltirib o'tgan [3]. Biroq zamonaviy sistematika va taksonomik nomenklatura, ayniqsa molekulyar filogeniya usullarining joriy etilishi natijasida K.Linney tomonidan qayd etilgan ushbu turlarning katta qismi keng ma'nodagi *Inula* turkumidan ajratilib, mustaqil turkumlar — *Pentanema, Dittrichia, Pulicaria* va *Limbarda* tarkibida mavjud bo'lgan [4;5;6;7]. Hozirgi vaqtda *Inula* L. nisbatan cheklangan turkum bo'lib, asosan bir nechta yirik mezofit turlarni o'z ichiga oladi. Masalan, K.Linney tomonidan qayd etilgan *Inula helenium* va *Inula hirta* kabi turlar hozirgi kunda ham haqiqiy *Inula* turkumi tarkibida saqlanib qolgan (https://www.ipni.org/).

Ingliz botaniklari George Bentham va Dalton Hookerlar tomonidan XIX asrda (*Genera Plantarium,*1862-1883*)* Inuloides (*Inuleae*) guruhiga mansub *Inula* turkumi taksonomik birlik sifatida qayd etilgan hamda *Inula* turkumining sistematik o'rni geografik tarqalishi va taksonomik tuzilishi asosida yoritilgan. *Inula* turkumi vakillarining morfologik belgilarini asosan, gul tuzilishi, urug' va mevalarining tuzilishlari bo'yicha umumiy tavsifi keltirilgan. SHunga asoslanib, *Inula* turkumini 7 ta *Corvisartia, Bubonium, Asteriscus, Caput, Inuloides, Limbarda va Cupularia* sektsiyalariga (sectiones) ajratishgan. Keyinchalik, ushbu tadqiqot botanikadagi eng muhim tabiiy tasnif tizimlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Mualliflar tomonidan ushbu turkum asosan Yevroosiyo va Afrika florasida keng tarqalganligi va mo''tadil iqlim hududlarida o'sishga moslashganligi shuningdek, tropik mintaqalarda esa turlar sonini kamligi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, manbada Avstraliya qit'asida *Inula* turkumi vakillarini uchramasligi o'simlik turlarini tropik mintaqa iqlim shart-sharoitlarida o'sa olmasligi bilan izohlanadi [8].

Avstraliya qit'asi geografik o'rni va ekologik muxiti, cho'l, o'rmon savanna va tropik mintaqalardan iborat. Ushbu mintaqada o'suvchi o'simliklarni birinchi marotaba G.Bentham & F.Mueller (1863-1878) tomonidan to'liq floristik taxlili o'rganilgan. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan "*Flora Australiensis*" asarida *Inuleae* mansub o'simliklar Avstraliya florasi tarkibida *Angianthus, Gnephosis* va *Isoetopsis* turkumlari doirasida keltirilgan bo'lib, *Inula* L. turkumini ushbu qit'ada tarqalishi kayd etilmagan. F.Mueller (1882) keyingi tadqiqotlari natijasida ham mazkur turkum vakillarini mustaqil tur sifatida qayd etilmaganligini ko'rishimiz mumkin [9;10].

Keyingi botanik tadqiqotlarda Short (1989) *Inuleae* (Asteraceae) turkumiga yaqin lekin mustaqil yangi avlodlari Avstraliya qit'asida tarqalganligi (*Dielitzia* Short, *Feldstonia* Short, *Fitzwillia* Short, *Lemooria* Short va *Sondottia* Short) aniqlangan va ularning taksonomik tarkibi va morfologik xususiyatlari haqida ilmiy ma'lumotlar keltirgan [11].

Arne A. Anderberg o'z tadqiqotlarida esa birgina bir mamlakat yoki mahalliy florada tarqalgan *Inula* turlari bilan cheklanib qolmasdan, geografik miqiyosda keng qamrovli, jumladan Afrika, Amerika, Yevropa mintaqalarida tarqalgan *Inuleae* (Inuloideae) qavm (triba)ni tadqiq qilgan. Mazkur tadqiqotlarga asosan, ushbu triba keng qamrovli morfologik va filogenetik (molekulyar) jihatdan o'rganilib, keng qamrovli tahlili amalga oshirilgan. Jumladan, *Inuleae* tribasining barcha turkumlarga xos botanik tavsiflari tarqalish areallari hamda xromosoma raqamlari bo'yicha eslatmalar asosida keltirilgan va turlar ro'yxati taqdim etilgan [12;13].

Bundan tashqari Pokiston va Kashmirda tarqalgan *Inula* L. (s.str.) va unga tegishli turkumlar Qaiser M., Abid R. (2005) lar tomonidan olib borilgan tadqiqotda *Pentanema* Cass., *Duhaldea* DC., *Dittrichia* Greuter va *Iphiona* Cass. ga tegishli 22 taksonning fitogeografik tarqalishi va ekologiyasi tadqiq etilgan [14] bu esa bevosita Hindiston florasida o'rganishni ham talab etadi.

Shekha, Pande & Anderberg (2011)lar tomonidan Hindiston florasida tarqalgan *Inula* va *Cypsela* turkumlarining morfologiyasi va anatomiyasi o'rganilgan [15]. 2013-yilda kelib *Inula* turkum turlarini dala tadqiqotlari va gerbariy kollektsiyalari asosida qayta ko'rib chiqishgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mamlakat florasida turkumning 12 turi (*I. acuminata, I. britannica, I. clarkei, I. falconeri, I. hookeri, I. kalapani, I. macrosperma, I. obtusifolia, I. orientalis, I. racemosa, I. rhizocephala, I. royleana*) uchrashi ma'lum qilishgan. Ulardan ikkitasi (*I. kalapani* va *I. macrosperma*) L. endem turlar sifatida qayd etilgan [16]. Ushbu tadqiqotda turlarning aniqlagich kaliti sifatida tavsiflar va rasmlar, shuningdek, gullash va meva berish davri, tarqalish hududi, ekologiyasi va yashash muhiti, xromosomalar soni va etnobotanik qo'llanilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bizga ma'lumki Sharqiy Osiyoning asosiy qismini Xitoy florasi tashkil etadi. Ushbu florani G.W. Wang va boshqalar (2014) olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida *Inula* (Asteraceae) turkumidagi 10 dan ortiq turlarni qayta ko'rib chiqishgan va tarkibidagi biologik faol moddalarni o'rganishgan [17]. Bundan tashqari, *Inula* o'z tadqiqotlarida turkumining yer yuzida 100 ortiq turi mavjudligi, shundan 50 dan ortiq turi Xitoy florasida uchrashi va 20 dan ortiq turlar esa spp. – ya'ni xali xitoy florasi uchun noma'lum turlar ekanligini qayd etishgan. Turkumning filogeniyasi, evolyutsiyasi va taksonomik ahamiyatini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Shunga ko'ra, Xitoy florasida keng tarqalgan *Inula*

turkumiga mansub turlar va ularga yaqin taksonlar Markaziy Osiyo hamda MDH hududlarida ham uchrashi ushbu turkum vakillarining har qanday muhitda o'sa olishi va ko'payishi bilan izohlash mumkin.

Tyan-Shan, Pomir–Oloy va Oltoy tog' tizimlari esa *Inula* turkumi turlarining Sharqiy Osiyodan g'arbga tarqalishida asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

MDH florasida *Inula* turkumini S.G. Gorshkova tomonidan o'rganilgan bo'lib ushbu turkumga mansub 33 tur qayd etgan va ularni gul tuzilishi hamda mevalarining morfologik belgilariga asoslanib, 5 ta sektsiya (*Corvisartia, Enula, Aegophthalmus, Breviligulatae, Limbarda*), 2 ta ostsektsiya (*Longeligulatae, Breviligulatae*), 3 ta guruh (*Leiocarpae, Lasiocarpae, Acaules*) va 11 ta qatorga (*Grandiflorae, Seidlitzianae, Hirtae, Ensifoliae, Germanicae, Salicinae, Montbretianae, Glaucae, Caspicae, Grombczewskianae, Britannicae*) ajratgan Muallif har bir tur uchun botanik tavsif, biogeografiya, ekologiyasi va yashash muhitlari to'g'risida ma'lumotlar keltirgan [18].

Markaziy Osiyo mamlakatlari florasi jumladan, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston hududlarida *Inula* turkum turlarining tarqalishi, morfologiyasi, taksonomiyasi, biogegorafiyasi, ekologiyasi va yashash muhitlari har tomonlama o'rganilgan. B.A. Shishkin va V.V. Nikitin (1960) lar tomonidan Turkmaniston florasida *Inula* turlari *I. grandis, I. cordata, I. decurrens, I. multicaulis, I. oculus, I. britanica, I. capsica, I. rhizocephala* [19]. N.L. Semiotrocheva (1965) tomonidan Qozog'iston florasida *I. helenium, I. grandis, I. hirta, I. germanica, I. aspera, I. sabuletorum, I. salicina, I. capsica, I. oculis-Christi, I. britanica, I. rhizocephala, I. multicaulis* [20]. Ye.I. Tkachenko (1965) tomonidan Qirg'iziston florasida *I. helenium, I. grandis, I. salicina, I. aspera, I. Schmalhausenii, I. capsica, I. britannica* [21]. A.P. Chukavina, S.S. Kovalevskoy, G.K. Kinzikaevoy (1988)lar tomonidan Tojikistonda florasida *I. helenium, I. macrophylla, I. salicina, I. glausa, I. schmalhausenii, I. capsica, I. Schischkinii, I. britannica, I. macrolepis, I. rhizocephala* turlari tarqalgan qayd etilgan. [22]

R.M. Nabiev O'rta Osiyo florasida tarqalgan *Inula* turlarining taksonomik tarkibini dala tadqiqotlari va yirik gerbariy (TASH, LE, MW va boshqa) fondlarida saqlanayotgan namunalar asosida tanqidiy qayta ko'rib chiqqan. Natijada "Определитель растений Средней Азии" fundamental manbasi uchun mazkur turkumga mansub 20 tur keltirilgan [23].

Shuningdek, R.M. Nabiev tomonidan "Флора Узбекистана" uchun *Inula* turkum turlari ilk bor inventarizatsiya qilingan bo'lib, turlarning taksonomik tarkibi, botanik tavsifi, fenologiyasi, geografik va ma'muriy hududlar bo'yicha tarqalishi hamda tabiiy yashash muhitlariga oid ilmiy ma'lumotlar to'plangan [24]. Mazkur klassik manbaga ko'ra *I. helenium, I. grandis, I. salicina, I. glausa, I. capsica, I. britannica, I. macrolepis, I. rhizocephala*, *I. multicaulis* singari turlarning maxalliy florada uchraydi. Demak, O'zbekiston florasidagi *Inula* turlari O'rta Osiyo hududida tarqalgan jami turlar soniga nisbatan 45% ini tashkil etadi. Keyinchalik R.M. Nabievning navbatdagi tadqiqotlarida *Inula hissarica* R. Nab. sp. n. turini janubi-g'arbiy Pomir-Oloy uchun yangi tur (O'zbekiston endemi) sifatida keltirilgan [25].

M.M. Arifxanovaning Farg'ona vodiysi o'simlik qoplamiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarida *Inula* turkumiga mansub *I. grandis* va *I. rhizocephala* turlari uchrashi qayd etilgan. Tadqiqotchi ma'lumotlariga ko'ra, *I. grandis* Qurama tizmasining aralash o'tli quruq dashtlariga xos tipik tur hisoblanadi va dengiz sathidan 1400-2000 m. balandliklarda keng tarqalgan. Tadqiqot ishining e'tiborli jihati shundaki, birinchi marta *Inula rhizocephala* turi faqat *Junipereta zeravschanica* Kom. o'simlik jamoasida tarqalganligi qayd etilgan [26].

Respublika miqiyosida "O'zbekiston o'simliklar qoplami"ga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlarda tabiiy hududlarga xos o'simlik jamoalari hamda ular tarkibidagi assotsiatsiyalar ilmiy asosda o'rganilgan va ularning floristik tarkibi ro'yxati tuzilgan. Masalan, A.Ya. Butkov tomonidan *Inula caspica* turi faqat betagazor formatsiyasiga mansub aralash o'tli-shirinmiyali-qamishli betagazor (raznotravno-solodkovo-trostnikovaya) assotsiatsiyasi tarkibi uchrashi ko'rsatilgan [27]. *Inula macrolepis* esa faqatgina to'qay o'simlik jamoalarida uchrashi ta'kidlangan [28]. *Inula britannica* asosan aralash-tolzor (smeshannogo-ivovoy) va aralash-yulg'unzor (smeshannogo-grebenщikovoy) o'simlik jamoalarining boshoqli-tolzor (zlakovo-ivovaya) va terakli-yulg'unzor (topolevo-grebenщikovaya) assotsiatsiyalarida uchrashi qayd etilgan [29].

Navbatdagi yirik tadqiqot 1999-2002 yillarda K.Sh. Tojibaev tomonidan olib borilgan bo'lib, u Chodaksoy havzasining o'simliklar qoplami va o'tloqlarini o'rganishlari davomida *Inula macrophylla* va *I. rhizocephala* turlari uchrashi qayd etilgan [30]. Shuningdek, keyingi tadqiqotlarida (2007-2010 yy.) Janubi-G'arbiy Tiyonshon (O'zbekiston Respublikasi qismi) florasi uchun *Inula* turkumiga mansub 7 tur (*I. britannica, I. caspica, I. macrophylla, I. rhizocephala, I. salicina, I. helenium, I. rhizocephaliformis*) qayd etgan [31].

Farg'ona vodiysining shimoliy hududlaridagi o'simliklar qoplamining antropogen transformatsiyasi G.A.Ibroximova (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida hudud florasida *I. britannica, I. caspica, I. helenium, I. macrophylla* tog' oldi va quyi va o'rta tog' hududlarida tarqalganligini qayd etgan [32].

Bizga ma'lumki O'zbekistonning janubiy va markaziy-janubiy hududlari o'simlik qoplamlarini keng ko'lamli tahlillari amalga oshirilgan. Buxoro viloyatining adventiv florasi bo'yicha tadqiqot olib borgan H.Q. Esanovning "turlar konspekti"da *Inula* turkumiga mansub faqat 2 ta tur, ya'ni *I. britannica* va *I. caspica* larni keltirib o'tilgan [33].

Xususan, so'nggi yillarda alohida botanik-geografik rayonlar kesimida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida mazkur hududlar florasining taksonomik tarkibini aniqlash, o'simliklar xilma-xilligini baholash va chuqur o'rganish

masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. SHunga ko'ra *Inula* turkumi turlarining botanik-geografik rayonlar (BGR) bo'yicha tarqalshiga oid bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan Boysun botanik-geografik rayoni florasida ushbu turkumga mansub *I. britannica, I. glauca, I. macrophylla, I. rhizocephala* va *I. helenium* [34], Molguzar botanik-geografik rayoni florasida *I. britannica, I. caspica, I. macrophylla, I. rhizocephala, I. salicina, I. helenium, I. glauca* [35], Urgut BGR florasiga bag'ishlangan tadqiqotda *I. caspica, I. orientalis* (*I. macrophylla*), *I. rhizocephala* va *I. helenium* [36]. Shuningdek, Torqopchig'ay botanik-geografik rayoni *I. rhizocephala* va *I. helenium* turlari tarqalganligi aniqlangan [37].

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining yetakchi olimlari tomonidan ma'muriy hududlar florasini inventarizatsiya qilish, o'simliklar kadastrini yuritish, raqasmlashtirish (bioxujjatlashtirish) bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Olingan natijalar натижалар "Кадастр флоры Узбекистана: Самаркандская область" (2018), "Кадастр флоры Узбекистана: Кашкадарьинская область" (2018), "Кадастр флоры Узбекистана: Навоинская область" (2019), "Кадастр флоры Узбекистана: Джизакская область" (2020), "Кадастр флоры Узбекистана: Бухарская область" (2021), "Кадастр флоры Узбекистана: Ташкентская область (2024) asarlarida o'z aksini topgan Tadqiqot ob'ekti hisoblangan *Inula* turkumining 4 turi Jizzax (*I. glausa, I. helenium, I. grandis, I. rhizocephala, I. macrolepis*), 6 turi Samarqand (*I. britannica, I. capsica, I. helenium, I. orientalis* (*I. macrophylla*), *I. macrolepis, I. rhizocephala*), 4 turi Qashqadaryo (*I. capsica, I. helenium, I. orientalis* (*I. macrophylla*), *I. rhizocephala*), 2 turi Buxoro (*I. britannica, I. capsica*), 3 turi Navoiy (*I. britannica, I. capsica, I. rhizocephala*), 4 turi esa Toshkent (*I. helenium, I. grandis, I. rhizocephala, I. rhizocephaliformis*) viloyatlarida uchrashi aniqlangan [38;39;40;41;42;43].

Xulosa

O'zbekistonda so'nggi 80 yil ichida olib borilgan floristik, gebotanik va sistematik tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, *Inula* turlarining areali, fitotsenologik o'rni va populyatsion xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan va mavjud ma'lumotlar ma'nan eskirgan. Shuningdek, turlarning genetik xilma-xilligi, filogenetik munosabatlari va iqlim o'zgarishi sharoitidagi adaptiv moslanishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmagan bo'lib, bu yo'nalishlarda ham zamonaviy ma'lumotlar yetarli emas. Bundan tashqari, ma'lum bir geografik va ma'muriy hududlar kesimida olib borilgan tadqiqotlar natijasida keltirilgan turlar ro'yxatidagi tafovutlar, kamyob va endem, muhofazaga muhtoj taksonlar hamda iqlim o'zgarishi sharoitida molekulyar-genetik tahliliga oid ma'lumotlarning yetishmasligi *Inula* turkum turlari tadqiq etish bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar amalga oshirish zarurligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderberg, A.A. 2009. *Inuleae*. In: Funk, V.A., Susanna, A., Stuessy, T.F. & Bayer, R.J. (Eds.), Systematics, Evolution and Biogeography of Compositae. IAPT, Vienna. pp. 667-680.:

2. Chen, Y. S. & A.A. Anderberg 2011. *Inuleae*. In:Wu, Z.Y., Raven, P.H. & D.Y. Hong (Eds.),Flora of China (Asteraceae). 20-21: 820-850, Science Press (Beijing) & Missouri Botanical Garden Press (St. Louis).:

3. Karl Linnaeus (1753). Species Plantarum, Vol. 1. Holmiae: Laurentii Salvii. pp. 882–883.

4. Gutiérrez-Larruscain, D., Santos-Vicente, M., Anderberg, A. A., Rico, E., & Martínez-Ortega, M. M. (2018). Phylogeny of the Inula group (Asteraceae: Inuleae): Evidence from nuclear and plastid genomes and a recircumscription of Pentanema. Taxon, 67(1), 149-164.

5. Anderberg, A. A. (1989). Phylogeny and reclassification of the tribe Inuleae (Asteraceae). Canadian journal of botany, 67(8), 2277-2296.

6. Eldenäs, P., Källersjö, M., & Anderberg, A. A. (1999). Phylogenetic placement and circumscription of tribes Inuleae s. str. and Plucheeae (Asteraceae): evidence from sequences of chloroplast gene ndhF. Molecular Phylogenetics and Evolution, 13(1), 50-58.

7. Torices, R., & Anderberg, A. A. (2009). Phylogenetic analysis of sexual systems in Inuleae (Asteraceae). American Journal of Botany, 96(5), 1011-1019

8. George Bentham, Dalton Hooker. Genera Plantarium ad exemplaria imprimis in Herberiis Kewensibus servata definita; Voluminis Secundi. Pars I. Sistens Dicotyledonum Gamopetalarum Ordines VI. V.2. Londini 1873. P.p. 330-331

9. Bentham G., Mueller F. Flora Australiensis: A description of the plants of the Australian territory: In 7 vols. London, Lovell Reeve & Co., 1863–1878.

10. Mueller, F. von. Systematic Census of Australian Plants, with Chronologic, Literary and Geographic Annotations. — Melbourne: Government Printer, 1882.

11. Short, P. S. (1989). New genera and species of Australian Inuleae (Asteraceae). Muelleria, 7(1), 103-108.

12. Anderberg A. A. Taxonomy and phylogeny of the tribe Inuleae (Asteraceae) //Plant Systematics and Evolution. – 1991. – Т. 176. – №. 1. – С. 75-123.

13. Nylinder, S., & Anderberg, A. A. (2015). Phylogeny of the Inuleae (Asteraceae) with special emphasis on the Inuleae-Plucheinae. Taxon, 64(1), 110-130.

14. Qaiser M., Abid R. (2005). Distribution pattern of Inula L.(S. Str.) and its allied genera from Pakistan and Kashmir. Pakistan Journal of Botany, 37(3), 551.

15. Shekhar, S., Pandey, A. K., & Anderberg, A. A. (2011). Cypsela morphology and anatomy in some genera formerly placed in Inula (Asteraceae: Inuleae-Inulinae). Rheedea, 21(1), 13-22.

16. Shekhar, S., Pandey, A. K., & Anderberg, A. A. (2013). The genus Inula (Asteraceae) in India. Rheedea, 23(2), 113-127.

17. Wang, G. W., Qin, J. J., Cheng, X. R., Shen, Y. H., Shan, L., Jin, H. Z., & Zhang, W. D. (2014). Inula sesquiterpenoids: structural diversity, cytotoxicity and anti-tumor activity. *Expert opinion on investigational drugs*, *23*(3), 317-345.

18. Горшкова С.Г. Род. *Девясил- Inula* L. Флора СССР. - Москва: АН СССР, 1959. Т. XXV. С. 352-477.

19. Б.А. Шишкин Б.А., Никитин В.В. *Inula* L. – *Девясил* // Флора Туркмении, Ашхабад: АН ТуркССР, 1960. Т. VII. – С. 52-60.

20. Семиотрочева Н.*Л*. Триба III. *Девясиловые* – Inulae Cass. (Род. *Девясил- Inula* L.) // Флора Казахской ССР, Алма-Ата: АН КазхССР, 1965. Т. VIII. – С. 366-402.

21. Ткаченко Е.И. Род. *Inula* L. – *Девясил* // Флора Киргизской ССР, Фрунзе: АН КирССР, 1965. Т. XI. – С. 81-88.

22. Чукавина А.П., Ковалевской С.С., Кинзикаевой Г.К. Род. *Девясил*, Чукола (тадж.) – *Inula* L. Флора Таджикской ССР, *Ленинград: Л*Н ТаджССР, 1988. Т. IX. – С. 295-309.

23. Набиев Р.М. Род. *Inula* L. – *Девясил* // Определитель растений Средней Азии, // Т. 10. Ташкент: Фан, 1993. – С. 450-458.

24. Набиев Р.М. Род. *Inula* L. – *Девясил* // Флора Узбекистана, // Ташкент: АН УзССР, 1962. Т. VI. – С. 81-88.

25. Набиев Р.М. Новый вид рода *Inula* L. из юго-западного Памиро-Алая // Узбекской биологический журнал, Ташкент: 1990. Т. 1: – С. 40-41.

26. Арифханова М.М. Растителность Ферганской долины. Ташкент: ФАН, 1967. – 296 с.

27. Бутков А.Я. //Растительний покров Узбекистана и пути его рационального использования. Ташкент: ФАН, 1973. Т.II. С. 355-356 с.

28. Майлун З.А. Тугайная растительность – Halophyta //Растительний покров Узбекистана и пути его рационального использования. Ташкент: ФАН, 1973. Т.II. С. 305-308 с.

29. Алланазарова У.,Бутков А.А., Хамидов Г.Х. Горные лиственные леса и кустарники мезофильного склада – Therodendra //Растительний покров Узбекистана и пути его рационального использования. Ташкент: ФАН, 1973. Т.II. С. 3-86 с.

30. Tojibayev K.SH. Chodaksoy havzasining o‘simliklari qoplami va o‘tloqlari: Biol. fanl. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2002. – 19 b.

31. Тожибаев К.Ш. Флора юго-западного Тянь-Шаня (в пределах республики Узбекистан): Дис. … док. биол. наук.- Ташкент, 2010.- 271 с 45

32. Ibroximova G.A. Farg'ona vodiysi Shimoliy hududi o‘simliklar qoplamining antropogen transformasiyasi. Avtoref. Diss. ...Biol. PhD. –Namangan, 2020. -44 b.

33. Ҳ.Қ.Эсанов Бухоро воҳаси флораси таҳлили Дис. ... канд. биол. наук. -Тошкент. 2017 -69, 155 б

34. Тургинов О.Т. Бойсун ботаник-географик райони флораси: дис. ...канд биол наук. – Тошкент, 2017. – Б. 159

35. Азимова Д.Э. Молгузар тизмаси флораси: Автореф. дис. ...канд биол наук. Ташкент, 2018. – С. 163-164

36. Қодиров У.Ҳ. Ургут ботаник-географик райони флораси. Автореф. дис. … канд. биол. наук. - Ташкент, 2020. – С. 145-146.

37. Абдураимов А.С. Торқопчиғай ботаник-географик райони флораси: Автореф. дис. ...канд биол наук. Ташкент, 2021. – С. 231.

38. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Кодиров У.Х., Батошов А.Р., Мирзалиева Д.У. Кадастр флоры Узбекистана: Самаркандская область. – Ташкент: ФАН, 2018. – 220 с.

39. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Шомуродов Х.Ф., Кодиров У.Х., Тургинов О.Т., Шарипова В.К. Кадастр флоры Узбекистана: Кашкадарьинская область. – Ташкент: Фан, 2019а. – 256 с.

40. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Шомуродов Х.Ф. и др. Кадастр флоры Узбекистана: Навоийская область. – Ташкент: Фан, 2019б. – 216 с. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю.,

41. Шомуродов Х.Ф. и др. Кадастр флоры Узбекистана: Бухарская область. – Ташкент: O‘qituvchi, 2020. – 128 с.

42. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Эсанкулов А.С., Батошов А.Р., Азимова Д.Э. Кадастр флоры Узбекистана: Джизакская область. – Ташкент: Zamin nashr, 2021. – 368 с.

43. Бешко Н.Ю., Герман Д.А., Газиев А.Д., Мальцев И.И., Ходжиматов О.К., Кодиров У.Х., Косимов З.З., Мадаминов Ф.М., Даминова Н.Э. Кадастр флоры Узбекистана: Ташкентская область. Изд. «ФАН». Ташкент: Kaleon Press, 2024. – 366 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Jovliyeva Saodat Xamidjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 2-kurs magistranti,
Makamov Abdusalom Xasanboyevich
O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi, laboratoriya mudiri, PhD
e-mail: saodatjovliyeva7@gmail.com

UDK: 631.524:631.527:575.21:632.03:632.4

G'O'ZA POPULYATSIYASINING FUZARIOZ VILT KASALLIGIGA (*FUSARIUM OXYSPORUM f.sp. VASINFECTUM*) CHIDAMLILIGINI FENOTIPIK BAHOLASH

Annotatsiya *Fuzarioz vilt kasalligi (Fusarium oxysporum f. sp. vasinfectum) g'o'za yetishtirishda hosildorlikni keskin kamaytiruvchi asosiy zamburug'li kasalliklardan biridir. Ushbu tadqiqotda g'o'zaning 50 ta rekombinant inbred liniyasida (RIL) fuzarioz vilt kasalligiga chidamlilik laboratoriya sharoitida fenotipik baholandi. Urug'lar 26 noyabr kuni ekilib, o'simliklar 2–3 chin barg bosqichida root-dip inokulyatsiya usuli orqali sun'iy zararlantirildi. Fuzarioz vilt qo'zg'atuvchisi kartoshka-dekstrozali bulyon (PDB) suyuq ozuqa muhitida yetishtirildi. Kasallik darajasi barg (0–5 ball) va poya (0–4 ball) simptomlari asosida baholanib, har bir RIL uchun o'rtacha qiymatlar hisoblandi. Barg simptomlari bo'yicha umumiy o'rtacha kasallik balli 2.79 ± 0.64, poya simptomlari bo'yicha esa 1.92 ± 0.57 ni tashkil etdi. Olingan natijalar root-dip metodining fuzarioz viltga chidamlilikni baholashda samarali ekanligini tasdiqlab, aniqlangan chidamli RILlarni yangi g'o'za navlarini yaratishda qimmatli genetik materiallar sifatida tavsiya etiladi.*

Kalit so'zlar: *RIL populyatsiyasi, Fusarium oxysporum f.sp. vasinfectum, AN-Boyovut-2, CSB-16, fenotipik baholash, root-dip metodi.*

Жовлиева Саодат Хамиджон кизи
Чирчикский государственный педагогический университет, магистрант 2-курса
Макамов Абдусалом Хасанбоевич
Центр геномики и биоинформатики АН РУз, заведующий лабораторией, PhD

ФЕНОТИПИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОСТИ ПОПУЛЯЦИИ ХЛОПЧАТНИКА К ФУЗАРИОЗНОМУ УВЯДАНИЮ (*FUSARIUM OXYSPORUM f. sp. VASINFECTUM*)

Аннотация. *Фузариозное увядание (Fusarium oxysporum f. sp. vasinfectum) является одним из основных грибных заболеваний, резко снижающих урожайность хлопчатника. В данном исследовании проведена фенотипическая оценка устойчивости к фузариозному увяданию у 50 рекомбинантных инбредных линий (RIL) хлопчатника в лабораторных условиях. Семена были высеяны 26 ноября, и растения в фазе 2–3 настоящих листьев искусственно инфицировали методом погружения корней (root-dip). Возбудитель фузариозного увядания культивировали в жидкой питательной среде картофельно-декстрозного бульона (PDB). Степень поражения оценивали по симптомам на листьях (по 5-балльной шкале) и стеблях (по 4-балльной шкале) с последующим расчетом средних значений для каждой линии RIL. Средний балл поражения по листовым симптомам составил 2,79 ± 0,64, по стеблевым симптомам — 1,92 ± 0,57. Полученные результаты подтверждают эффективность метода root-dip для оценки устойчивости к фузариозному увяданию и позволяют рекомендовать выявленные устойчивые линии RIL в качестве ценного генетического материала для создания новых сортов хлопчатника.*

Ключевые слова: *РИЛ-популяция,* Fusarium oxysporum *f. sp.* vasinfectum, *АН-Баяут-2, CSB-16, фенотипическая оценка, метод root-dip.*

Jovliyeva Saodat Khamidjon qizi
Chirchik State Pedagogical University, 2nd-year Master's student,
Makamov Abdusalom Khasanboyevich
Center of Genomics and Bioinformatics, AS RUz, Head of Laboratory, PhD

PHENOTYPIC EVALUATION OF RESISTANCE OF THE COTTON POPULATION TO FUSARIUM WILT (FUSARIUM OXYSPORUM f. sp. VASINFECTUM)

Abstract. *Fusarium wilt (Fusarium oxysporum f. sp. vasinfectum) is one of the major fungal diseases that severely reduces cotton yield. In this study, resistance to Fusarium wilt was phenotypically evaluated in laboratory conditions in 50 recombinant inbred lines (RILs) of cotton. Seeds were sown on November 26, and plants were artificially inoculated at the 2–3 true leaf stage by root-dip inoculation. The Fusarium wilt pathogen was grown in potato dextrose broth (PDB) liquid nutrient medium. Disease severity was assessed based on leaf (0–5 points) and stem (0–4 points) symptoms, and mean values were calculated for each RIL. The overall mean disease score for leaf symptoms was 2.79 ± 0.64, and for stem symptoms was 1.92 ± 0.57. The results obtained confirm the effectiveness of the root-dip method in assessing resistance to Fusarium wilt, and the identified resistant RILs are recommended as valuable genetic materials for creating new cotton varieties.*

Keywords: *RIL population, Fusarium oxysporum f.sp. vasinfectum, AN-Boyovut-2, CSB-16, phenotypic assessment, root-dip method.*

Kirish. G‘o‘za (*Gossypium hirsutum* L.) dunyo qishloq xo‘jaligida tola yetishtirishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib, ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Biroq, g‘o‘za yetishtirish jarayonida turli biotik stress omillari, xususan, zamburug‘li kasalliklar hosildorlik va mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi. Shular orasida fuzarioz vilt kasalligi eng xavfli va uzoq muddat saqlanib qoluvchi kasalliklardan biri sifatida e’tirof etiladi [1;2].

Fuzarioz vilt kasalligining qo‘zg‘atuvchisi bo‘lgan *Fusarium oxysporum* f. sp. *vasinfectum* tuproqda yillar davomida saqlanib qolish xususiyatiga ega bo‘lib, o‘simlik ildiz tizimi orqali kirib, tomir to‘qimalarida rivojlanadi. Natijada suv va ozuqa moddalari transporti buzilib, barglarda xloroz va so‘lish, poya tomirlarida qorayish hamda o‘simlikning qurib qolishi kuzatiladi [3;12]. Ayrim hududlarda kasallikning kuchli rivojlanishi natijasida hosil yo‘qotishlari 40–60 % gacha yetishi mumkinligi qayd etilgan [2;6].

Kasallikning tarqalishi va simptomlarining namoyon bo‘lish darajasi patogenning fiziologik irqlari, tuproq-iqlim sharoiti hamda mezbon o‘simlik genotipiga chambarchas bog‘liqdir [5;8]. Shu bois fuzarioz vilt kasalligiga qarshi kurashda universal agrotexnik yoki kimyoviy usullar yetarli samara bermaydi. Ko‘plab fungitsidlar tuproqda saqlanib qolgan patogenni to‘liq yo‘q qila olmasligi hamda ekologik xavf tug‘dirishi qayd etilgan [10;11]. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar fuzarioz viltga qarshi eng samarali va barqaror choralar sifatida genetik chidamli navlarni yaratishni ko‘rsatmoqda [4;5]. Bunday navlarni yaratishda esa g‘o‘za genofondini chuqur o‘rganish, chidamlilik manbalarini aniqlash va ularni ishonchli fenotipik hamda genetik baholash muhim ahamiyat kasb etadi [6;10].

So‘nggi yillarda rekombinant inbred liniyalar (RIL) asosida olib borilgan tadqiqotlar fuzarioz vilt kasalligiga chidamlilik xususiyatini miqdoriy belgi ekanligini ko‘rsatib berdi. RIL populatsiyalarida chidamlilik darajasi uzluksiz taqsimlanib, bu belgi bir nechta genlar yoki genetik lokuslar tomonidan boshqarilishi aniqlangan [4;7]. Shu sababli RIL populatsiyalari seleksiya jarayonida istiqbolli genotiplarni aniqlash hamda keyingi QTL tahlillarini amalga oshirish uchun qulay model hisoblanadi. Fenotipik baholash usullari orasida root-dip inokulyatsiya metodi fuzarioz vilt kasalligini sun’iy sharoitda bir xil darajada yuqtirish imkonini berishi bilan ajralib turadi. Ushbu metod yordamida genotiplar o‘rtasidagi farqlar aniq namoyon bo‘lib, chidamli va chidamsiz liniyalarni ishonchli ajratish mumkin [13;14]. Barg va poya simptomlarini birgalikda baholash esa kasallik rivojlanishini kompleks tarzda tavsiflashga xizmat qilib, olingan natijalarning aniqligi va takrorlanuvchanligini oshiradi [12;15]. Mazkur tadqiqotning maqsadi g‘ozaning rekombinant inbred liniyalari populatsiyasida fuzarioz vilt kasalligiga chidamlilikni root-dip inokulyatsiya metodi asosida fenotipik baholash, chidamli va chidamsiz liniyalarni aniqlash hamda seleksiya va genetik tadqiqotlar uchun ilmiy asos yaratishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqot o‘tkaziladigan joy va o‘simlik materiali. Laboratoriya tajribalari 2025-yil noyabr–2026-yil yanvar oylarida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Genomika va bioinformatika markazining Markerlarga asoslangan seleksiya laboratoriyasida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida 50 ta rekombinant inbred liniyalar (RIL) populyatsiyasi tanlandi. Ushbu populyatsiyani yaratishda ota-ona shakllari sifatida AN-Boyovut-2 g‘o‘za navi va CSB-16 liniyasi ishtirok etgan. Shuningdek, fuzarioz vilt kasalligiga chidamli L-13 va chidamsiz L-7 liniyalari nazorat variantlari sifatida qo‘llanildi.

Zamburug‘ materiali. Fuzarioz vilt kasallig‘ining qo‘zg‘atuvchisi hisoblangan *Fusarium oxysporum* f. sp. *vasinfectum* (FOV) zamburug‘i 2022–2023 yillar davomida Respublikaning turli hududlaridagi asosiy g‘o‘za yetishtiriladigan dalalardan ushbu kasallik bilan zararlangan g‘o‘za nihollaridan ajratib olindi. Tadqiqotda foydalanilgan zamburug‘ izolyati Buxoro viloyati Romitan tumanida joylashgan g‘o‘za maydonlaridan yig‘ib olindi.

Zamburug‘ kulturasini ajratish. Ajratib olingan FOV zamburug‘ining toza (monokultura) izolatlari kartoshka-dekstroza agari (PDA) ozuqa muhitida bir necha marta qayta ekish orqali tozalandi va identifikatsiya qilindi. Sun’iy

zararlantirish uchun zamburug‘ning suyuq kulturasi kartoshka-dekstroza bulyoni (PDB) ozuqa muhitida o‘stirilib, standart usullar asosida inokulum sifatida tayyorlandi.

Tajriba qo‘yish sharoiti. 2025-yil 26-noyabr kuni har bir RIL populyatsiyasi 4 ta takrorda ekildi. O‘simliklar 2–3 ta chin barg bosqichiga yetgunga qadar bir xil agrotexnik sharoitda parvarish qilindi. Laboratoriya xonasida harorat 25–28 °C, nisbiy namlik esa 60–70 % darajada saqlandi.

Root-dip inokulyatsiya metodi. 2025-yil 20-dekabr kuni 2–3 ta chin barg bosqichida bo‘lgan g‘o‘za nihollari root-dip inokulyatsiya usuli yordamida sun’iy zararlantirildi. Bunda o‘simliklar ehtiyotkorlik bilan tuproqdan ajratilib, ildiz tizimi oldindan tayyorlangan *Fusarium oxysporum* f. sp. *vasinfectum* (FOV) zamburug‘ining spora suspenziyasiga 3 daqiqa davomida botirildi. Inokulyatsiyadan so‘ng o‘simliklar qayta steril tuproqqa ekilib, kasallik rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratildi. Nazorat variantida o‘simliklar ildiz tizimi steril distillangan suvga botirildi.

Kasallik simptomlarini baholash. 2026-yil 12-yanvar kuni kasallik rivojlanishi barg va poya simptomlari asosida baholandi.

Barg simptomlari 0–5 balli shkala asosida baholandi :

0 - sog‘lom;
1 - birinchi urug‘palla bargni oz qismi zararlangan;
2 - birinchi urug‘palla bargni hammasi zararlangan;
3 - zararlanish yuqori chinbarglarga o‘tgan;
4 - kuchli zararlangan;
5 - o‘simlik nobud bo‘lgan [16].

Poyadagi belgilarni fenotipik baholash:

0- sog‘lom
1- och jigarrang chiziqlar
2- o‘rta darajada qorayishi
3- yuqori darajada qorayishi
4-to‘liq qorayishi, o‘simlik nobud bo‘lishi [2;3;13].

Olingan natijar va ularning muhokamasi

Root-dip inokulyatsiya metodi yordamida sun’iy zararlantirilgan 50 ta rekombinant inbred liniyada (RIL) fuzarioz vilt kasalligi simptomlari barg va poya belgilariga ko‘ra baholandi. Kasallik rivojlanishi barcha RILlarda turli darajada namoyon bo‘lib, bu populatsiyada chidamlilik bo‘yicha sezilarli fenotipik xilma-xillik mavjudligini ko‘rsatdi (1-rasm).

Barg simptomlari bo‘yicha kasallik ballari 1.45 dan 4.27 gacha oraliqda o‘zgarib, umumiy o‘rtacha qiymat 2.79 ± 0.64 ni tashkil etdi. Poya rangining o‘zgarishi bo‘yicha esa ballar 0.73–3.44 oralig‘ida bo‘lib, umumiy o‘rtacha qiymat 1.92 ± 0.57 ga teng bo‘ldi. Ushbu ko‘rsatkichlar fuzarioz vilt kasalligi RIL populatsiyasida uzluksiz taqsimlangan miqdoriy belgi ekanligini tasdiqlaydi.

Barg simptomlari asosida RILlar 3 guruhga ajratildi: 6 ta RIL chidamli, 26 ta RIL o‘rtacha chidamli va 18 ta RIL chidamsiz (1-jadval).

1-jadval

Barg simptomiga ko‘ra chidamli RI liniyalar


№	Namuna nomi	№	Namuna nomi
1	30-RIL –1.45	4	44- RIL – 1.92
2	18-RIL –1.67	5	38- RIL – 2.00
3	24- RIL –1.75	6	15- RIL – 2.00

Poya simptomlari bo‘yicha esa 13 ta RIL chidamli, 29 ta RIL o‘rtacha chidamli va 8 ta RIL chidamsiz guruhga kiritildi (2-jadval).

2-jadval

Poya simptomi ko‘ra chidamli RI liniyalar

№	Namuna nomi	№	Namuna nomi	№	Namuna nomi
1	30-RIL – 0.73	6	20-RIL – 1.36	11	34-RIL – 1.45
2	28-RIL – 1.00	7	26-RIL – 1.36	12	18-RIL – 1.50
3	24-RIL – 1.08	8	1RIL – 1.40	13	36-RIL – 1.50
4	5RIL – 1.18	9	38-RIL – 1.40		
5	15-RIL – 1.36	10	10-RIL– 1.45		



1-rasm. RIL populyatsiya liniyalarida barg va poyaning FOV bilan zararlanish darajasi

Barg (Mean ≤ 2.0) va poya (Mean ≤ 1.5) simptomlari bo‘yicha birgalikda baholash natijasida 50 ta RIL populatsiyasidan 15, 18, 24, 30 va 38-liniyalar Fuzarioz vilt kasalligiga nisbatan **ikkala belgi bo‘yicha ham chidamli** deb topildi.

Dispersiya tahlili (ANOVA) natijalari

Bir faktorli dispersiya tahlili barg va poya simptomlari bo‘yicha chidamli, o‘rtacha chidamli va chidamsiz guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan yuqori darajada ishonchli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi (1-jadval). Barg simptomlari bo‘yicha $F(2,47) = 88.86$; $p < 0.001$, poya simptomlari bo‘yicha esa $F(2,47) = 65.05$; $p < 0.001$ qiymatlar qayd etildi.

1-jadval.

Ko‘rsatkich	Guruhlar soni	Erkinlik darajasi	F-qiymat	P-qiymat
Barg simptomlari	3	2,47	88,86	<0,001
Poya simptomlari	3	2,47	65,05	<0,001

Ushbu tadqiqot natijalari g‘o‘za RIL populatsiyasida fuzarioz vilt kasalligiga chidamlilik bo‘yicha keng fenotipik xilma-xillik mavjudligini yaqqol namoyon etdi.

Root-dip inokulyatsiya usuli yordamida kasallikni sun’iy yuqtirish barcha RILlarda bir xil sharoitda amalga oshirilgan bo‘lib, genotiplar o‘rtasidagi farqlarni aniq namoyon qilish imkonini berdi. Ushbu metod yordamida olingan natijalar Wellman (1939) va Armstrong & Armstrong (1981) tomonidan tavsiya etilgan klassik metodikalar samaradorligini tasdiqlaydi. Barg va poya simptomlarini birgalikda baholash kasallik rivojlanishini kompleks tarzda aks ettirib, faqat bitta belgi asosida baholashga nisbatan ancha ishonchli natijalar berdi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda root-dip inokulyatsiya metodi yordamida sun’iy zararlantirilgan 50 ta RILda fuzarioz vilt kasalligiga chidamlilik darajasi barg va poya simptomlari asosida baholandi. Natijalar kasallik simptomlarining keng va uzluksiz taqsimlanganligini ko‘rsatib, fuzarioz viltga chidamlilik belgisining miqdoriy xususiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Barg va poya simptomlari bo‘yicha o‘tkazilgan ANOVA tahlili chidamli, o‘rtacha chidamli va chidamsiz guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan yuqori darajada ishonchli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi ($p < 0,001$). Bu esa RILlarni chidamlilik darajasiga ko‘ra guruhlashning ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi.

Kompleks baholash natijasida RIL-15, RIL-18, RIL-24, RIL-30 va RIL-38 liniyalari fuzarioz vilt kasalligiga nisbatan barg va poya simptomlari bo‘yicha eng yuqori chidamlilikni namoyon etdi. Ushbu genotiplar fuzarioz vilt kasalligiga chidamli g‘o‘za navlarini yaratishda qimmatli boshlang‘ich seleksiya materiali sifatida tavsiya etiladi. Shu bilan birga, fuzarioz viltga chidamliligi tadqiq qilingan RIL populyatsiyasining fenotipik ma’lumotlari ushbu kasallikka chidamli QTL lokuslarni aniqlashda qimmatli manba bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hillocks R.J. Fusarium wilt of cotton. *CAB International*, 1992.

2. Armstrong G.M., Armstrong J.K. Fusarium wilt of cotton. *USDA Technical Bulletin*, 1981.
3. Sanogo S., Zhang J. Fusarium wilt of cotton: biology and management. *Plant Disease*, 2016.
4. Abdelraheem A. et al. QTL mapping for Fusarium wilt resistance in cotton. *Crop Science*, 2015.
5. Zhang J., Percy R.G., McCarty J.C. Breeding for resistance to Fusarium wilt in cotton. *Plant Breeding Reviews*, 2020.
6. Ulloa M. et al. Resistance to Fusarium wilt in cotton germplasm. *Crop Science*, 2013.
7. Wang F. et al. Genetic analysis of Fusarium wilt resistance in cotton. *Theoretical and Applied Genetics*, 2018.
8. Wang P. et al. Interaction of cotton genotypes with Fusarium oxysporum. *Phytopathology*, 2019.
9. Dever J.K. et al. Cotton breeding for disease resistance. *Journal of Cotton Science*, 2017.
10. Davis R.M. et al. Soilborne diseases and their management. *Plant Pathology*, 2006.
11. Fravel D. et al. Biological control of Fusarium wilt. *Plant Disease*, 2003.
12. Pérez-Artés E. et al. Fusarium wilt epidemiology. *European Journal of Plant Pathology*, 2018.
13. Wellman F.L. A technique for studying host resistance to Fusarium wilt. *Phytopathology*, 1939.
14. Zhang J. et al. Phenotypic evaluation of Fusarium wilt resistance using root-dip method. *Frontiers in Plant Science*, 2022.
15. Sanogo S. et al. Screening cotton for Fusarium wilt resistance. *Plant Health Progress*, 2016.
16. Ulloa M, Hutmacher RB, Davis RM, Wright SD, Percy R, Marsh B (2006) Breeding for Fusarium wilt Race 4 resistance in cotton under field and greenhouse conditions. J Cotton Sci 10:114–127.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Primqulov Shahzod Xayrullayevich
O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti tayanch doktoranti
Email: primqulovshahzod7@gmail.com
Ruzmetov Dilshodbek Rustam o‘g‘li
O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti katta ilmiy xodimi, b.f.f.d., (PhD).

UDK 639.371.5:577.21

“SAZAN (CYPRINUS CARPIO VAR. DOMESTICA) NING BIR YILLIK INDIVIDLARIDA MORFOMETRIK VA DNK SIFAT KO‘RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH”.

Annotatsiya: *Sazan populyatsiyasining* ***(Cyprinus carpio var. domestica)*** *morfometrik ko‘rsatkichlari hamda genom DNK ajratib olish samaradorligi baholandi. Tadqiqot “****TCT Fish” Cluster*** *baliqchilik xo‘jaligida (Quyichirchiq tumani) intensiv texnologiya asosida yetishtirilgan bir yoshli 25 ta sazan namunalarida o‘tkazildi. Tana uzunligi 15–51 sm (o‘rtacha 26,96 ± 9,23 sm; CV = 34,2 %), tana massasi esa 10,3–15,0 g (o‘rtacha 12,13 ± 1,18 g; CV = 9,7 %) ni tashkil etdi. Tana uzunligi va massasi o‘rtasida kuchli musbat korrelyatsiya aniqlandi (r = 0,87). Ajratib olingan DNK konsentratsiyasi 37,1 – 1365,2 ng/µl oralig‘ida bo‘lib, A260/A280 nisbati 1,77 dan 2,08 ni tashkil etdi, bu esa namunalar yetarli darajada toza ekanligini va molekulyar-genetik tadqiqotlar uchun yaroqliligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar sazan populyatsiyalarining morfologik variabelligi va genetik tuzilishini keyingi tadqiq etish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *sazan, Cyprinus carpio var. domestica, morfometrik ko‘rsatkichlar, genom DNK, DNK ajratish, molekulyar-genetik tahlil, populyatsiya variabelligi, korrelyatsion tahlil.*

Примкулов Шахзод Хайруллаевич
Докторант Институт генетики и экспериментальной биологии растений АН Узбекистана
Рузметов Дилшодбек Рустам угли
Старший научный сотрудник Института генетики и экспериментальной биологии растений АН Узбекистан, кандидат биологических наук (PhD)

“АНАЛИЗ МОРФОМЕТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ И ПАРАМЕТРОВ КАЧЕСТВА ДНК У ГОДОВАЛЫХ ОСОБЕЙ ОБЫКНОВЕННОГО КАРПА (CYPRINUS CARPIO VAR. DOMESTICA)”.

Аннотация: *Проведена оценка морфометрических показателей популяции* ***сазана (Cyprinus carpio var. domestica)*** *и эффективности выделения геномной ДНК. Исследование выполнено на рыбоводческом хозяйстве* ***TCT Fish Cluster*** *(Куйичирчикский район) на 25 особях однолетнего сазана. Длина тела составила 15–51 см (26,96 ± 9,23 см; CV = 34,2 %), масса - 10,3–15,0 г (12,13 ± 1,18 г; CV = 9,7 %). Между длиной и массой выявлена высокая положительная корреляция (r = 0,87). Концентрация выделенной ДНК составила 37,1 – 1365,2 ng/µl, при соотношении A260/A280 = 1,77 - 2,08, что свидетельствует о достаточной чистоте и пригодности образцов для молекулярно-генетических исследований. Полученные результаты могут служить основой для дальнейшего изучения морфологической вариабельности и генетической структуры популяций сазана.*

Ключевые слова: *сазан, Cyprinus carpio var. domestica, морфометрические показатели, геномная ДНК, выделение ДНК, молекулярно-генетический анализ, популяционная изменчивость, корреляционный анализ.*

Primkulov Shakhzod Khayrullayevich
PhD Student at the Institute of Genetics and Experimental Plant Biology,
Uzbekistan Academy of Sciences
Ruzmetov Dilshodbek Rustam ugli
Senior Researcher at the Institute of Genetics and Experimental Plant Biology,
Uzbekistan Academy of Sciences

“ANALYSIS OF MORPHOMETRIC PARAMETERS AND DNA QUALITY INDICATORS IN ONE-YEAR-OLD COMMON CARP (CYPRINUS CARPIO VAR. DOMESTICA)”.

Abstract: *The morphometric characteristics of a common carp (Cyprinus carpio var. domestica) population and the efficiency of genomic DNA extraction were evaluated. The study was conducted at the “TCT Fish” Cluster fish farm (Quyichirchik District) on 25 one-year-old carp individuals. Body length ranged from 15 to 51 cm (mean 26.96 ± 9.23 cm; CV = 34.2 %), and body weight ranged from 10.3 to 15.0 g (mean 12.13 ± 1.18 g; CV = 9.7 %). A strong positive correlation was observed between body length and weight (r = 0.87). Extracted DNA concentrations ranged from 10.2 to 148.8 ng/μl, with A260/A280 ratios of 1.68–1.90, indicating sufficient purity and suitability of the samples for molecular-genetic studies. The results may provide a scientific basis for further investigation of the morphological variability and genetic structure of common carp populations.*

Keywords: *common carp, Cyprinus carpio var. domestica, morphometric traits, genomic DNA, DNA extraction, molecular-genetic analysis, population variability, correlation analysis.*

Kirish. Baliqchilik O‘zbekiston Respublikasi akvakultura sektorining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning intensiv rivojlanishi aholi uchun yuqori biologik qiymatga ega oqsil manbalarini yetkazib berish hamda milliy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda, dunyo bo‘yicha baliq mahsulotlariga bo‘lgan talab va ehtiyojning yil sayin ortishi, ushbu soha ahamiyatini yanada oshirib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. Sazan (Cyprinus carpio var. domestica) dunyo bo‘ylab intensiv akvakultura turlaridan biri bo‘lib, uning iqtisodiy ahamiyati, o‘sish sur’ati va atrof-muhitga moslashuvchanligi sababli keng o‘rganilgan. Bu tur suv resurslarida mahalliy va kirib kelgan populyatsiyalar shaklida mavjud bo‘lib, genetik tuzilishi, fenotipik variabelligi va morfometrik parametrlari bilan farqlanadi. Morfometrik ko‘rsatkichlar - tana uzunligi, og‘irligi va ularga mos statistik indikatorlar - akvakultura sharoitida o‘sish samaradorligi va biologik barqarorlikni baholash uchun keng qo‘llanadi [1]. Morfometrik tahlil baliq organizmining o‘sish, rivojlanish, salomatlik holati va seleksiya potentsialini baholashda muhim rol o‘ynaydi [2]. Statistik parametrlar, jumladan o‘rtacha qiymat, dispersiya koeffitsienti va korrelyatsion bog‘liqlik, populyatsiyaning ichki tuzilishini aniqlashda zarurdir. Molekulyar genetika metodlari, xususan genom DNK ajratilishi va uning sifat ko‘rsatkichlari, PZR o‘tkazish uchun muhim. DNK namunalarining tozaligi va kontsentratsiyasi molekulyar tahlillarning ishonchliligi uchun asosiy mezon hisoblanadi [3]. A260/A280 nisbati molekulyar-biologik usullarda kontaminatsiya darajasining baholanishi uchun universal indikator sifatida qo‘llanadi [4]. O‘zbekistonning suv xo‘jaligi sharoitida, ayniqsa Quyichirchiq tumani kabi intensiv texnologiya asosida sazan yetishtiriladigan hududlarda, bu tur populyatsiyalarining morfometrik va genetika ko‘rsatkichlari bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar chegaralangan. Shu sababli, mazkur tadqiqotning maqsadi - bir yoshli sazan individlarida morfometrik variabellikni aniqlash, genom DNK ajratish samaradorligini baholash va olingan natijalarni keyingi molekulyar-genetik tadqiqotlar uchun ilmiy asoslarga aylantirishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Namunalarni yig‘ish. Namunalar sterillangan qaychi yordamida baliqlarning dum suzgich qanotidan (har bir baliqdan 20 mg) olindi va steril DESS Bufferi bo‘lgan probirkalarga solindi. Namunalar laboratoriyaga olib borilayotganda portativ muzlatgichda saqlandi va laboratoriyaga keltirildi.

Baqliq namunalaridan DNK ajratish. Baliq namunalaridan DNKni ajratish uchun «GeneJET Genomic DNA Purification Kit» to‘plami reagentlaridan (Thermo Fisher USA) ishlab chiqaruvchining protokoliga muvofiq foydalanildi. Genomik DNKni ajratish quyidagi tartibda amalga oshirildi:

1) Baliq suzgich qanotidan olingan biologik namuna (20 mg) suyuq azot yordamida gomogenizatsiya qilindi va hosil bo‘lgan gomogenat 1,5 ml eppendorfga solindi. Gomogenatga 200 μl Digestion Solution va 20 μl Proteinaza K fermenti qo‘shilib, gomogen suspenziya hosil qilish uchun vorteks yordamida yaxshilab aralashtirildi. Bu jarayon, baliq suzgich qanotidan olingan namunalarining to‘liq lizis bo‘lishini ta’minlash va ularni keyingi tahlillar uchun muhim bosqich hisoblanadi.

2) Namunalar 56°C haroratda 3 soat davomida termoblokda inkubatsiya qilindi. Lizis yanada to‘liq amalga oshishi uchun har 20 daqiqada Vortex mikser bilan arlashtirilib turildi.

3) 20 μl RNase A solution qo‘shilib vorteks yordamida aralashtirildi va xona haroratida 10 daqiqa inkubatsiya qilindi.

4) 200 mkl Lizis eritmasi va 400 mkl (50 %) etanol eritmasi qo‘shildi va keyin namunani gomogenizatsiya qilish uchun pipetka yordamida ehtiyotkorlik bilan aralashtirildi.

4) Tayyorlangan aralashma spin - kolonkaga o‘tkazildi. Spin-kolonka 6000 × g tezlikda 1 daqiqa davomida sentrifugalandi. Hosil bo‘lgan eritma yig‘ish probirkasidan ehtiyotkorlik bilan chiqarib tashlandi, so‘ng spin-kolonka yana bo‘sh probirkaga joylashtirildi. Keyinchalik, GeneJET™ genomik DNKni tozalash ustuni (filtrli qism) yangi, 2 ml hajmdagi yig‘ish probirkasiga ehtiyotkorlik bilan ko‘chirildi.

5) Spin-kolonkaga 500 µl miqdorida 1 - yuvish buferi (Wash Buffer I) qo‘shildi va namunani tozalash jarayonini davom ettirish maqsadida 8000×g tezlikda 1 daqiqa davomida sentrifugalandi. Sentrifugadan so‘ng pastki qismda to‘plangan suyuqlik ehtiyotkorlik bilan chiqarib tashlandi va spin-kolonka yana yig‘ish probirkasiga joylashtirildi.

6) Spin-kolonka ustiga 2 - yuvish buferi (Wash Buffer II) qo‘shildi va qolgan aralashmalarni to‘liq chiqarib tashlash maqsadida namunalar 12,000 × g tezlikda 3 daqiqa davomida sentrifugalandi.

7) Sentrifugadan so‘ng eritmani (suyuqlikni) o‘z ichiga olgan yig‘ish probirkasi tashlab yuborildi. Shundan so‘ng, spin-kolonka steril 1,5 ml hajmdagi Eppendorf mikroprobirkasiga ehtiyotkorlik bilan ko‘chirildi.

8) Genomik DNKni elutsiya qilish maqsadida, spin-kolonka membranasining markaziy qismiga 200 µl elutsiya buferi (Elution Buffer) ehtiyotkorlik bilan qo‘shildi. Namuna xona haroratida 2 daqiqa davomida inkubatsiya qilindi, so‘ngra DNKni maksimal miqdorda ajratib olish uchun 8000 × g tezlikda 1 daqiqa davomida sentrifugalab umumiy DNK ajratib olindi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Mazkur ilmiy tadqiqot Toshkent viloyati hududida joylashgan Quyichirchiq tumanidagi “TCT Fish Cluster” baliqchilik xo‘jaligi sharoitida amalga oshirildi. Tadqiqot obyekti sifatida xo‘jalikda intensiv texnologiya asosida parvarish qilinayotgan bir yoshli Cyprinus carpio var. domestica (sazan) tanlab olindi. Sazan balig‘idan biologik material laboratoriya tahlillar uchun olindi (1-rasm). Ushbu holat tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.



1-rasm. Sazan baliqlaridan biologik namuna olish jarayoni.

Mazkur tadqiqot doirasida Cyprinus carpio var. domestica ning bir yillik yosh bosqichiga mansub 25 ta individlarda fenotipik belgilarni miqdoriy tavsiflash va morfologik variabellik darajasini aniqlash maqsadida morfometrik o‘lchovlar amalga oshirildi. Morfometrik tahlil davomida baliqlarning tashqi tuzilishiga oid asosiy ko‘rsatkichlar - tana uzunligi va massasi (XY 3000 C) o‘lchandi (1-jadval).

Morfometrik tahlil natijalari.

1-jadval

Namuna	Massa	Tana uzunligi
A Karp1	29	12,50
A Karp2	22	12,3
A Karp3	38	14
A Karp4	15	10,3
A Karp5	23	12,5
A Karp6	27	11
A Karp7	29	13
A Karp8	17	11,5
A Karp9	17	11
A Karp10	18	11
A Karp11	47	14
A Karp12	51	15
A Karp13	23	12
A Karp14	27	12
A Karp15	28	12,5
A Karp16	31	13,5
A Karp17	17	10,5
A Karp18	28	12,5
A Karp19	27	12
A Karp20	28	12
A Karp21	21	11,5
A Karp22	27	11,6
A Karp23	41	13,1
A Karp24	25	11,5
A Karp25	18	10,5

Tadqiqot davomida karpning 25 ta namunasida morfometrik koʻrsatkichlar, jumladan tana uzunligi va massasi tahlil qilindi. Olingan maʼlumotlarni statistik qayta ishlash natijasida oʻrganilgan belgilarning asosiy variatsion parametrlari aniqlandi. Tadqiq qilingan karplarda tana uzunligi 15–51 sm oralig'ida oʻzgardi. Tana uzunligining oʻrtacha qiymati 26,96 ± 9,23 sm (M ± SD) ni tashkil etdi. Ushbu koʻrsatkichning variatsiya koeffitsiyenti 34,2 % boʻlib, bu tanlangan namunada mazkur belgi ancha yuqori darajada oʻzgaruvchanligini koʻrsatadi. Tana uzunligining bunday variabelligi baliqlarning yoshi, oziqlanish sharoitlari, muhit omillari hamda populyatsiyaning genetik xususiyatlari bilan bog'liq boʻlishi mumkin.

Karplarning tana massasi 10,3–15,0 gramm oralig'ida qayd etildi. Massaning oʻrtacha qiymati 12,13 ± 1,18 ni tashkil qildi. Ushbu koʻrsatkich boʻyicha variatsiya koeffitsiyenti 9,7 % ni tashkil etib, bu massa koʻrsatkichining tana uzunligiga nisbatan ancha barqaror ekanligini koʻrsatadi. Massaning nisbatan past variabelligi tadqiq qilingan baliqlarning fiziologik holati oʻxshashligini hamda ular oʻsgan muhit sharoitlari bir xilligini koʻrsatishi mumkin. Korrelyatsion tahlil natijalari tana uzunligi bilan massa oʻrtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini koʻrsatdi (r = 0,87). Bu holat tana uzunligi ortishi bilan massa ham mutanosib ravishda ortib borishini anglatadi. Bunday bog'liqlik baliqlarning oʻsishiga xos umumbiologik qonuniyatlarga mos keladi.

Xususan, tana uzunligi 41–51 sm boʻlgan yirik namunalarda massa koʻrsatkichlari ham yuqori (13,1–15,0) ekani kuzatildi. Aksincha, tana uzunligi 15–18 sm boʻlgan kichik namunalarda massa koʻrsatkichlari 10,3–11,0 gram atrofida boʻldi. Shuni taʼkidlash lozimki, karplarda morfometrik koʻrsatkichlarning shakllanishi faqatgina tashqi muhit omillari bilan emas, balki genetik omillar bilan ham belgilanadi. Populyatsiyaning genetik tuzilishi baliqlarning oʻsish surʼati, ozuqani oʻzlashtirish samaradorligi va morfologik rivojlanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Tana uzunligi va massasidagi farqlar populyatsiya ichidagi genetik xilma-xillik bilan bog'liq boʻlishi mumkin (2-jadval).

2-jadval

Karplarning morfometrik koʻrsatkichlarining statistik tahlili (n = 25)

Koʻrsatkich	Min	Max	Mean (M)	SD	CV (%)
Tana uzunligi (sm)	15	51	26.96	9.23	34.2
Tana massasi	10.3	15.0	12.13	1.18	9.7

Izoh:

M - o‘rtacha qiymat (Mean)

SD - standart og‘ish (Standard Deviation)

CV - variatsiya koeffitsiyenti (Coefficient of Variation)

Tadqiqot davomida Cyprinus carpio var. domestica (sazan) baliqlarining dum suzgich qanotidan olingan 25 ta biologik namunalardan genomik DNK ajratildi a uning sifat nazorati NanoDrop Eight spektrofotometri yordamida aniqlandi. DNK namunalarining tozalik darajasini baholashda 260 nm va 280 nm to‘lqin uzunliklaridagi optik nur yutish ko‘rsatkichlari asosida hisoblangan A260/A280 nisbatidan foydalanildi (3-jadval).

Namuna	ng/µl	A260/280
A Karp1	67.2	1.85
A Karp2	30.1	1.83
A Karp3	94.5	1.88
A Karp4	52.8	1.89
A Karp5	301.8	1.87
A Karp6	129.6	1.89
A Karp7	309.8	1.89
A Karp8	1365.2	1.95
A Karp9	37.1	1.85
A Karp10	423.4	1.89
A Karp11	582.1	1.91
A Karp12	147.3	1.96
A Karp13	224.1	1.99
A Karp14	1314.5	1.88
A Karp15	281.7	2.01
A Karp16	61.0	2.06
A Karp17	324.8	1.91
A Karp18	140.7	1.77
A Karp19	1168.9	1.99
A Karp20	98.9	1.95
A Karp21	58.4	1.89
A Karp22	132.3	2.03
A Karp23	719.8	2.08
A Karp24	574.0	2.01
A Karp25	193.0	1.99

3-jadval DNK konsentratsiyasi

DNK kontsentratsiyasi namunalar o‘rtasida sezilarli farq ko‘rsatdi: eng past konsentratsiya 37,1 ng/µl (A Karp 9) dan, eng yuqori esa 1365,2 ng/µl (A Karp 8) gacha o‘zgarib, ko‘pchilik namunalarda 30 dan 700 ng/µl gacha bo‘lgan yuqori kontsentratsiyalar qayd etildi. A260/A280 nisbati ko‘rsatkichi orqali DNK namunalarining tozaligi tahlil qilindi. Toza DNK uchun ideal ko‘rsatkich taxminan 1,8 atrofida bo‘lishi kerak. Tadqiqotda olingan DNK namunalarining A260/A280 nisbati 1,77 dan 2,08 gacha bo‘lib, aksariyat namunalar toza va oqsil yoki boshqa moddalar bilan kam ifloslangan ekanligini ko‘rsatdi. Ayrim namunalar (masalan, A Karp 18 da 1,77; A Karp 23 da 2,08) nisbatan past yoki yuqori qiymatlarda bo‘lib, ular RNK yoki boshqa aralashmalarni ko‘rsatishi mumkin. Umuman olganda, olinayotgan DNK namunalarining yuqori konsentratsiyasi va maqbul tozalik darajasi keyingi molekulyar-genetik tahlillar uchun mos ekanligini isbotlaydi hamda DNK ajratish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Tadqiqot bir yoshli sazan (Cyprinus carpio var. domestica) populyatsiyasining morfometrik ko‘rsatkichlari va genom DNK sifatini baholadi. Tana uzunligi 15–51 sm (26,96 ± 9,23 sm), massa 10,3 - 15,0 g (12,13 ± 1,18 g) bo‘lib, tana uzunligi va massa o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya (r = 0,87) aniqlandi. DNK kontsentratsiyasi 37,1 - 1365,2 ng/µl, A260/A280 = 1,77 - 2,08, ya’ni namunalar toza va molekulyar-genetik tadqiqotlar uchun yaroqli. Natijalar sazan populyatsiyasining morfologik va genetik variabelligini baholashda, shuningdek, seleksiya va keyingi genetik tadqiqotlar uchun ilmiy asos sifatida ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Brosset, P., Averty, A., Mathieu-Resuge, M., Schull, Q., Soudant, P., & Lebigre, C. (2023). *Fish morphometric body condition indices reflect energy reserves but other physiological processes matter*. *Ecological Indicators, 154*, Article 110860. https://doi.org/10.1016/j.ecolind.2023.110860

2. Lo Presti, R., Lisa, C., & Di Stasio, L. (2009). *Molecular genetics in aquaculture*. *Italian Journal of Animal Science, 8*(3), 299–313. https://doi.org/10.4081/ijas.2009.299.

3. Yenmak, S., & Poompuang, S. (2018). Effects of genetics and rearing environments on morphometric variation in hatchery stocks of Asian sea bass, Lates calcarifer (Bloch, 1790). Journal of Fisheries and Environment, 42(2), 12–23.

4. Sambrook, J., & Russell, D.W. (2001). *Molecular Cloning: A Laboratory Manual*. Cold Spring Harbor Laboratory Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Abdujalil Abdusamatovich Narimanov
O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti direktori, q/x.f.d., professor
Sherimbetov Anvar Gulmirzayevich
O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti
“Hayvonlar genetikasi” laboratoriyasi mudiri, b.f.d., professor.
Adilov Baxtiyor Shuxratovich
O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti bosh ilmiy xodimi, b.f.d.
Ruzmetov Dilshodbek Rustam o‘g‘li
O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti katta ilmiy xodimi, b.f.f.d., (PhD).
Axmadaliyev Boburbek Jaxongir o‘g‘li
O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti katta ilmiy xodimi, b.f.f.d., (PhD).
Aminjonov Habibjon Hayitvoy o‘g‘li
O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti tayanch doktorant
Email: habibjonaminjonov@gamil.com

UDK: 575.22:577.21

G. HIRSUTUM L. TURIGA MANSUB G‘O‘ZA NAVLAR VA LINIYALARNI *HSP70-26* GENINI MOLEKULYAR MARKERI ASOSIDA GENOTIPLASH.

Annotatsiya. *Global iqlim o‘zgarishi g‘o‘za ekinlarining hosildorligi va tola sifatiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shu munosabat bilan stress omillariga chidamlilik bilan bog‘liq molekulyar markerlarni aniqlash zamonaviy o‘simlik seleksiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Issiqlik stress oqsillari (Heat Shock Proteins - HSPs), xususan HSP70 oilasiga mansub genlar hujayra ichidagi oqsillar gomeostazini saqlash hamda o‘simliklarni yuqori harorat va qurg‘oqchilik kabi abiotik stress omillaridan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur tadqiqotning maqsadi g‘o‘za (Gossypium hirsutum L.) genotiplarida HSP70-26 genining del-22 alleli tarqalishini molekulyar markeri yordamida aniqlash hamda uning genotipik xilma-xilligini baholashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot uchun Toshkent viloyatining Toshkent va Oqqo‘rg‘on tumanlaridagi tajriba va ishlab chiqarish dalalarida yetishtirilayotgan mahalliy hamda introduksiya qilingan g‘o‘za navlaridan yosh barg namunalari yig‘ildi. Genom DNK ajratib olinib, spesifik primerlar yordamida polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) orqali tahlil qilindi hamda natijalar 1,5 % li agaroza gel elektroforezi yordamida vizuallashtirildi. Tadqiqotda jami 24 ta g‘o‘za genotipi o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, 20 ta genotipda wild-type allel mavjud bo‘lsa, 4 ta genotipda del-22 deletsiya bo‘yicha gomozigot holat aniqlangan. Kuzatilgan allelik polimorfizm o‘rganilgan g‘o‘za genotiplarida HSP70-26 lokusining genetik xilma-xilligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar HSP70-26 genining del-22 alleli g‘o‘zada issiqlik stressiga chidamlilikni baholashda muhim molekulyar marker sifatida xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu lokus asosida markerlarga asoslangan seleksiya (MAS) usulini qo‘llash iqlim o‘zgarishi sharoitiga moslashgan, yuqori termotolerant g‘o‘za navlarini yaratish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Gossypium hirsutum, HSP70-26 geni, del-22 alleli, issiqlik stressiga chidamlilik, molekulyar marker, PZR tahlili, genetik polimorfizm, markerlarga asoslangan seleksiya (MAS).*

Абдуджалил Абдусаматович Нариманов
Директор Института генетики и экспериментальной биологии растений АН Узбекистана, доктор сельскохозяйственных наук, профессор,
Шеримбетов Анвар Гульмирзаевич
Руководитель лаборатории «Генетика животных», Институт генетики и экспериментальной биологии растений АН Узбекистана, Доктор биологических наук, профессор,
Адилов Бахтиёр Шухратович
Главный научный сотрудник Институт генетики и экспериментальной биологии растений АН Узбекистана, Доктор биологических наук,
Рузметов Дилшодбек Рустам угли
Старший научный сотрудник Института генетики и экспериментальной биологии растений АН Узбекистан, кандидат биологических наук (PhD)

Ахмадалиев Бобурбек Жахонгир ўғли
Старший научный сотрудник Института генетики и экспериментальной биологии растений АН Узбекистан, кандидат биологических наук (PhD).
Аминжанов Хабибжон Хаитвой угли
Базовый докторант Институт генетики и экспериментальной биологии растений АН Узбекистана.

ГЕНОТИПИРОВАНИЕ СОРТОВ И ЛИНИЙ ХЛОПЧАТНИКА *G. HIRSUTUM* L. НА ОСНОВЕ МОЛЕКУЛЯРНОГО МАРКЕРА ГЕНА *HSP70-26*.

Аннотация. *Глобальное изменение климата представляет серьёзную угрозу для продуктивности и качества волокна хлопчатника. В этой связи выявление молекулярных маркеров, ассоциированных с устойчивостью к стрессовым факторам, является одним из приоритетных направлений современной селекции растений. Гены белков теплового шока (Heat Shock Proteins, HSP), в частности представители семейства HSP70, играют ключевую роль в поддержании клеточного гомеостаза белков и защите растений от абиотических стрессов, таких как высокая температура и засуха. Целью данного исследования являлось определение распространения аллеля del-22 гена HSP70-26 у генотипов хлопчатника (Gossypium hirsutum L.) с использованием молекулярного маркера, а также оценка его генотипического разнообразия. Молодые листья были собраны у местных и интродуцированных сортов хлопчатника, выращиваемых на опытных и производственных полях Ташкентского и Аккурганского районов Ташкентской области. Геномную ДНК выделяли из растительного материала и анализировали методом полимеразной цепной реакции (ПЦР) с использованием специфических праймеров с последующим разделением продуктов амплификации методом электрофореза в 1,5 % агарозном геле. Всего было проанализировано 24 генотипа хлопчатника. Полученные результаты показали, что у 20 генотипов выявлен аллель дикого типа (wild-type), тогда как у 4 генотипов обнаружена гомозиготная делеция del-22. Выявленный аллельный полиморфизм свидетельствует о генетическом разнообразии локуса HSP70-26 среди исследованных генотипов хлопчатника. Полученные результаты показывают, что аллель del-22 гена HSP70-26 может служить информативным молекулярным маркером для оценки устойчивости хлопчатника к тепловому стрессу. Применение маркер-ассоциированной селекции (MAS), основанной на данном локусе, может существенно ускорить создание термотолерантных сортов хлопчатника, адаптированных к условиям изменяющегося климата.*

Ключевые слова: *Gossypium hirsutum, ген* ***HSP70-26,*** *аллель* ***del-22,*** *устойчивость к тепловому стрессу, молекулярный маркер, ПЦР-анализ, генетический полиморфизм, маркер-ассоциированная селекция (MAS).*

Abdujalil Abdusamatovich Narimanov
Director of the Institute of Genetics and Experimental Plant Biology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Agricultural Sciences, Professor,
Sherimbetov Anvar Gulmirzayevich
Head of the "Animal Genetics" Laboratory, Institute of Genetics and Experimental Plant Biology, Uzbekistan Academy of Sciences, Doctor of Biological Sciences, Professor,
Adilov Bakhtiyor Shukhratovich
Lead Scientist at the Institute of Genetics and Experimental Plant Biology, Uzbekistan Academy of Sciences, Doctor of Biological Sciences,
Ruzmetov Dilshodbek Rustam ugli
Senior Researcher at the Institute of Genetics and Experimental Plant Biology, Uzbekistan Academy of Sciences, PhD in Biology,
Akhmadaliev Boburbek Jakhongir ugli
Senior Researcher at the Institute of Genetics and Experimental Plant Biology, Uzbekistan Academy of Sciences, PhD in Biology,
Aminjonov Khabibjon Khayitvoy ugli
PhD Student at the Institute of Genetics and Experimental Plant Biology, Uzbekistan Academy of Sciences.

GENOTYPING OF *G. HIRSUTUM* L. COTTON VARIETIES AND LINES USING THE *HSP70-26* GENE AS A MOLECULAR MARKER.

Abstract*. Global climate change poses a serious threat to the productivity and fiber quality of cotton crops. In this regard, identifying molecular markers associated with stress tolerance is an important direction in modern plant breeding. Heat Shock Protein genes (HSPs), particularly members of the HSP70 family, play a crucial role in maintaining cellular protein homeostasis and protecting plants against abiotic stresses such as high temperature and drought. The present study aimed to determine the distribution of the del-*

22 allele of the HSP70-26 gene in cotton (Gossypium hirsutum L.) genotypes using the molecular marker and to evaluate its genotypic diversity. Young leaf samples were collected from local and introduced cotton varieties cultivated in experimental and production fields of Tashkent and Oqqo'rg'on districts of Tashkent region. Genomic DNA was extracted and analyzed by PCR using specific primers, followed by 1.5% agarose gel electrophoresis. A total of 24 cotton genotypes were analyzed. The results showed that 20 genotypes possessed the wild-type allele, while 4 genotypes exhibited a homozygous del-22 deletion. The observed allelic polymorphism indicates genetic variability of the HSP70-26 locus among the studied cotton genotypes. The obtained results demonstrate that the del-22 allele of the HSP70-26 gene can serve as an informative molecular marker for evaluating heat stress tolerance in cotton. The application of marker-assisted selection based on this locus may significantly accelerate the development of thermotolerant cotton varieties adapted to changing climatic conditions.

Keywords: *Gossypium hirsutum, HSP70-26 gene, del-22 allele, heat stress tolerance, molecular markers, PCR analysis, genetic polymorphism, and marker-assisted selection (MAS)*

Kirish. Global iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligi ekinlari, xususan g'o'za (*Gossypium* L.) hosildorligi va sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish zamonaviy seleksiyaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. G'o'za o'simligi o'sish va rivojlanish davrida turli abiotik stress omillari, ayniqsa yuqori harorat va qurg'oqchilik ta'siriga doimiy ravishda duch keladi. O'simliklarning ushbu noqulay omillarga moslashish mexanizmlarida issiqlik stress oqsillari (Heat Shock Proteins, HSP) genlari oilasi asosiy o'rin tutadi. *HSP70* genlari hujayra ichidagi oqsillarning gomeostazini saqlash, denaturatsiyaga uchragan oqsillarni qayta tiklash (shaperon funksiyasi) va hujayrani issiqlik ta'siridagi buzilishlardan himoya qilish kabi fundamental funksiyalarni bajaradi. So'nggi yillardagi molekulyar-genetik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki *HSP70-26* geni lokusidagi allelik variatsiyalar, xususan gen tarkibidagi struktura o'zgarishlari (masalan, Del-22 deletsiya alleli) o'simlikning adaptiv imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Zamonaviy qishloq xo'jaligi oldida turgan eng dolzarb muammolaridan biri global iqlim o'zgarishi sharoitida g'o'za (*Gossypium L.*) hosildorligini saqlab qolishdir. G'o'za o'simligi o'zining ontogenezi davomida turli abiotik stress omillariga, shu jumladan, anomal issiqlik, qurg'oqchilik va tuproq sho'rlanishiga duch keladi, bu esa hosil miqdori va tola sifatining 50-80% gacha pasayishiga sabab bo'lishi mumkin [7;4]. O'simliklarning ushbu noqulayliklarga nisbatan molekulyar darajadagi javob reaksiyalari murakkab tizimga ega bo'lib, unda issiqlik stress oqsillari (Heat Shock Proteins - HSPs) markaziy rol o'ynaydi [1]. G'o'za genomidagi genetik polimorfizmlar, xususan, funktsional genlardagi strukturaviy o'zgarishlar (kodlaydigan oqsilda aminokislota almashinuviga olib keladigan SNPlar, кодлайдиган oqsil funksiyasining kamayishi yoki to'liq yo'qolishiga olib keladigan deletsiyalar) yoki regulyator o'zgarishlar o'simlikning adaptiv potentsialini belgilab beruvchi asosiy determinandlardir [3]. HSP oqsillari orasida HSP70 oilasi eng yuqori darajada o'rganilgan va evolyutsion jihatdan konservativ hisoblanadi. Ular molekulyar shaperonlar sifatida hujayradagi oqsillar gomeostazini ta'minlaydi, stress davrida denaturatsiyaga uchragan oqsillarning qayta tiklanishiga yordam beradi va ularning toksik agregatlar hosil qilishining oldini oladi [1]. G'o'zaning to'rtta asosiy turida (*G. hirsutum, G. barbadense, G. arboreum, G. raimondii*) jami 113 ta HSP70 geni aniqlangan bo'lib, ular filogenetik tahlillarga ko'ra 11 ta sub-oilaga bo'linadi [1]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, *HSP70* genlarining ekspressiyasi faqat issiqlik stresi bilan cheklanmaydi, ular qurg'oqchilik va sho'rlanish kabi omillarga javoban ham faollashadi [7]. Ayniqsa, genotipik xilma-xillik va genlardagi polimorfizm (masalan, del-22 alleli kabi deletsiyalar) o'simlikning stressga chidamlilik darajasini belgilab beruvchi muhim omildir. Deletsiya yoki insertsiya kabi genetik o'zgarishlar gen ekspressiyasining intensivligiga va hosil bo'ladigan oqsilning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [3;6]. G'o'za tizmalarini molekulyar-genetik tahlil qilishda *HSP70-26* kabi genlarning allel holatlarini o'rganish seleksiya jarayonini jadallashtirish imkonini beradi. Markerlarga asoslangan seleksiya (Marker-Assisted Selection - MAS) usuli orqali del-22 alleliga ega bo'lgan istiqbolli liniyalarni erta bosqichlarda tanlab olish mumkin [11]. Genlarning promotor yoki kodlovchi qismlaridagi deletsiyalar oqsilning funktsional aktivligini tubdan o'zgartirishi mumkin. *HSP70-26* geni tarkibidagi 22 juft asosli deletsiya (del-22) genning transkripsiya samaradorligiga yoki oqsilning sub-hujayraviy migratsiyasiga ta'sir ko'rsatishi taxmin qilinadi. Bunday allel variantlar ko'pincha stressga chidamli yovvoyi ajdodlardan madaniy navlarga o'tish jarayonida saqlanib qolgan yoki yo'qolgan bo'lishi mumkin [3;5]. HSP70 oqsillari ATFga bog'liq holda ishlovchi molekulyar shaperonlar bo'lib, ular stress natijasida yuzaga kelgan "misfolded" (noto'g'ri koformatsiyalangan) oqsillarni taniydi va ularning renaturatsiyasini ta'minlaydi. *HSP70-26* genining del-22 alleli oqsilning ATF-aza domeni yoki substrat bog'lovchi domeni bilan bog'liq bo'lsa, bu o'simlikning termotolerantlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi [3;6]. Shuningdek, g'o'za genomidagi gen dublikatsiyalari (109 ta holat aniqlangan) ushbu genlar oilasining funksional diversifikatsiyasiga olib kelgan, bu esa har bir turning o'ziga xos ekologik muhitga moslashishiga xizmat qiladi [1]. Shu munosabat bilan HSP70-26 geni del-22 allelining *Gossypium* L. tizmalarida tarqalishi va uning molekulyar-genetik xususiyatlarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur allel variantlarni molekulyar markerlar yordamida aniqlash stress omillariga chidamli g'o'za navlarini yaratishda seleksiya jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin. Ayniqsa, *Gossypium hirsutum* turiga mansub g'o'za navlari va

liniyalarini *HSP70-26* geniga tegishli molekulyar markeri asosida genotiplash ushbu genning allel xilma-xilligini aniqlash hamda genotiplar o‘rtasidagi genetik yaqinlikni baholash imkonini beradi. Shu sababli ushbu tadqiqotning maqsadi *Gossypium hirsutum* turiga mansub g‘o‘za navlari va liniyalarini *HSP70-26* geniga tegishli molekulyar markeri asosida genotiplash hamda del-22 allelining tizmalar bo‘yicha uchrash chastotasini aniqlashdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot obyekti va namunalar yig‘ish. Tadqiqot obyekti sifatida *Gossypium hirsutum* turiga mansub mahalliy va xorijiy g‘o‘za navlari hamda liniyalari tanlab olindi. Biologik material sifatida g‘o‘za o‘simliklarining shonalash (generativ rivojlanishning boshlang‘ich) fazasida yosh barg namunalari olindi. Har bir namunadan 3-4 dona barg olib oq qog‘ozga solinib -20°C da saqlandi. Tadqiqot doirasida mahalliy seleksiya navlari bilan bir qatorda Xitoydan introduksiya qilingan g‘o‘za navlari ham o‘rganildi. Yig‘ilgan barg namunalari molekulyar-genetik tahlil uchun laboratoriya sharoitiga olib kelinib, keyingi ishlov berilgunga qadar past haroratda saqlandi.

Genom DNKni ajratib olish. G‘o‘za barg to‘qimalaridan genom DNK ajratib olish PureLink Genomic Plant DNA Purification Kit (Thermo Fisher Scientific, AQSH; kat. № K183001) to‘plami yordamida ishlab chiqaruvchi ko‘rsatmalariga muvofiq amalga oshirildi.

Jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi:

1.Barg namunalaridan taxminan 100 mg biomassa olinib, suyuq azot muhitida steril hovonchada homogenizatsiya qilindi.

2.Olingan gomogenatga 250 μL Dispersion buffer (R2) qo‘shilib, aralashma vortex yordamida yaxshilab aralashtirildi.

3.Aralashmaga 15 μL 20 % SDS va 15 μL RNase qo‘shilib, 55 °C haroratdagi termoblokda inkubatsiya qilindi.

4.Keyin aralashma 15000 ayl/min tezlikda 5 daqiqa davomida sentrifugadan o‘tkazildi.

5.Hosil bo‘lgan supernatant yangi steril 1,5 mL probirkaga o‘tkazilib, 100 μL Precipitation Buffer (N2) qo‘shildi va aralashma 5 daqiqa davomida muz ustida inkubatsiya qilindi.

6.Keyingi bosqichda aralashma maksimal tezlikda 5 daqiqa sentrifugadan o‘tkazilib, supernatant ajratib olindi.

7.250 μL supernatant yangi steril probirkaga olinib, unga 375 μL Binding Buffer (B4) qo‘shildi va 10000 × g tezlikda 30 soniya sentrifuga qilindi.

8.Hosil bo‘lgan eritma maxsus silika-kolonka filtriga o‘tkazilib, yana 10000 × g tezlikda 30 soniya sentrifuga qilindi.

9.Kolonkaga 500 μL Wash Buffer (W4) qo‘shilib, 10000 × g tezlikda 30 soniya sentrifuga qilindi.

10. Keyinchalik 500 μL Wash Buffer (W5) qo‘shilib, ushbu yuvish bosqichi ikki marotaba takrorlandi.

11. Kolonka DNazadan xoli yangi 1,5 mL probirkaga o‘tkazildi.

12. DNKni elyutsiya qilish uchun kolonka ustiga 100 μL Elution Buffer (E1) qo‘shilib, 1 daqiqa xona haroratida inkubatsiya qilindi hamda 15000 × g tezlikda 1 daqiqa sentrifuga qilindi.

Natijada olingan genom DNK namunalari keyingi molekulyar tahlillar uchun −20 °C haroratda saqlandi.

Ajratilgan DNK namunalarining miqdori va tozaligi NanoDrop Eight Spectrophotometer yordamida spektrofotometrik usulda baholandi.

PZR amplifikatsiyasi. *HSP70-26* geniga tegishli molekulyar markerini aniqlash maqsadida polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) usulidan foydalanildi. PZR reaksiyasi umumiy hajmi 25 μL bo‘lgan reaksion aralashmada amalga oshirildi. Reaksiya tarkibiga quyidagi komponentlar kiritildi (1-jadval).

1-jadval.

PZR o‘tkazish uchun sarflangan komponentlar

№	Komponentlar	Miqdor, μL
1	ddH_2O	8,5 μL
2	2X Easy Taq PCR SuperMix(+dye)	12,5 μL
3	Forward primer (10 μM)	0,5 μL
4	Reverse primer (10 μM)	0,5 μL
5	DNA	3 μL
	Umumiy hajm:	**25 μL**

PZR jarayoni MiniAmp™ Plus DNK amplifikatori (ThermoFisher Scientific, USA) yordamida amalga oshirildi. PZR amplifikatsiyasi MiniAmp Plus Thermal Cycler (Thermo Fisher Scientific, AQSH) termotsiklerinde amalga oshirildi. Termosiklik dasturi quyidagicha olib borildi: dastlabki denaturatsiya 94 °C da 2 daqiqa, so‘ngra 45 sikl davomida 94 °C da 30 soniya denaturatsiya, 50 °C da 30 soniya primerlarning bog‘lanishi (annealing) va 72 °C da 1 daqiqa elongatsiya bosqichlari bajarildi. Jarayon yakunida 72 °C da 5 daqiqa davomida yakuniy elongatsiya amalga oshirildi.

PZR mahsulotlarini ajratish uchun 1,5 % li agaroza gel elektroforezi qo‘llanildi. Bunda 10 μL PZR mahsuloti 3 μL Gel Loading Buffer bilan aralashtirilib, 1×TBE buferi muhitida gelga yuklandi. Gel tayyorlash jarayonida unga oldindan 3 μL etidium bromid qo‘shildi. Elektroforez jarayoni 80 V kuchlanishda 120 daqiqa davomida olib borildi. Shundan so‘ng

amplifikatsiya mahsulotlari BK-AG100 Gel Imaging Analysis System (Biobase, Xitoy) gel-transillyuminatori yordamida vizuallashtirildi va tahlil qilindi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi

G‘o‘za (*Gossypium L.*) genotipining yuqori harorat ta’siriga moslashuvchanligini ta’minlashda *HSP70-26* geni va Del-22 allellari muhim molekulyar-genetik markerlar hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, issiqlik stresi sharoitida hujayra ichidagi oqsillarning denaturatsiyaga uchrashi va noto‘g‘ri konformatsiya hosil qilishi kuzatiladi. HSP70 oilasiga mansub genlar esa shaperonlik funksiyasini bajarib, oqsillarning tabiiy tuzilishini qayta tiklash (refolding) va ularning agregatsiyaga uchrashining oldini olish orqali gomeostazni saqlaydi [5;9].

Xususan, Del-22 alleli bilan bog‘liq genetik o‘zgarishlar g‘o‘za tizmalarida termotolerantlik darajasini belgilab beradi. Ushbu genetik tizimlarning ekspressiyasi issiqlik stressi vaqtida o‘simlik metabolizmini himoya qilish, fotosintez apparatini termal destruksiyadan saqlash va fermentativ faollikni barqarorlashtirish orqali o‘simlikning adaptiv imkoniyatlarini kengaytiradi [10;2]. Mazkur allellarning molekulyar-genetik xususiyatlarini o‘rganish, issiq iqlim sharoitiga chidamli bo‘lgan yangi g‘o‘za tizmalarini seleksiya qilishda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Buning uchun Toshkent viloyatining Toshkent va Oqqo‘rg‘on tumanlarida g‘o‘za o‘simligi ekilgan dalalarga ilmiy ekspeditsiya amalga oshirildi. Ekspeditsiya davomida dalalarda ekilgan g‘o‘za o‘simliklarining chin barg chiqarish va shonalash fazalaridagi xorijiy hamda mahalliy navlaridan haroratga chidamlilikni ta’minlovchi *HSP70-26* genining del-22 alleli genetik o‘rganish maqsadida biologik materiallar yig‘ib kelindi (1-rasm).



1-rasm. *HSP70-26* genini genetik o‘rganish maqsadida yig‘ilgan g‘o‘zaning turli nav namunalari

Yig‘ilgan namunalardan material va ish uslublari bo‘limda keltirilganidek genom DNK ajratilib, uning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini baholashda 260/280 nm to‘lqin uzunliklaridagi optik nur yutish ko‘rsatkichlari asos qilib olindi (2-jadval).

2-jadval.


Ajratilgan DNK namunalarining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari

Namuna nomi			ng/µl	A260/280
Mahalliy	1	7306	69,7	1,79
	2	Jarqo‘rg‘on	54,1	1,73
	3	Sulton	64,3	1,81
	4	Buxoro-102	49,5	1,72
	5	F_{35} k 203x Nam-1	57,6	1,88
	6	F_{19} K-58 tip	70,2	1,91
	7	F_{34} K -69 tip arb	61,1	1,75
	8	F 26 Nam-1x Surx-5	79,3	1,67
	9	L-138	49,5	1,79
	10	L-470\1	76,2	1,66
	11	L-95	73,4	1,78
	12	L-158	38,6	1,60
	13	MBG-2	41,7	1,79
	14	L-58	29,5	1,64
	15	L-1979	30,5	1,79
	16	F26K-58 tip arb	38,4	1,76
	17	L-12/06	36,3	1,78
	18	L-175/248	46,9	1,60
	19	VSG-2/06	47,8	1,8

	20	L-588	48,5	1,79
	21	L-200	72,2	1,76
Xorijiy (Xitoy)	22	Fian	70,4	1,78
	23	Chuntay-8	48,6	1,84
Mahalliy	24	Mehnat	70,2	1,82

G‘o‘za o‘simliklaridan ajratilgan genom DNK namunalarining miqdori va tozaligi NanoDrop Eight spektrofotometri yordamida o‘lchandi. Har bir namuna uchun DNK kontsentratsiyasi (ng/μL) va A260/A280 nisbatlari aniqlanib, sifat ko‘rsatkichlari baholandi (Jadval 1). A260/A280 nisbatining optimal qiymati taxminan 1.8 atrofida bo‘lib, bu namunada DNK ning oqsil va boshqa organik ifloslantiruvchilarsiz toza ekanligini ko‘rsatadi. Agar bu nisbat 1.8 dan past bo‘lsa, namunada oqsil kontaminatsiyasi mavjudligi, 2.0 dan yuqori bo‘lsa, RNA kontaminatsiyasi mavjudligi ehtimoli yuqori hisoblanadi [8]. Olingan natijalar asosida ko‘pchilik namunalar yuqori sifatli va keyingi molekulyar tahlillarga mos ekanligi aniqlandi.

G‘o‘za o‘simliklardan ajratilgan DNK namunalarini haroratga chidamlilikni ta’minlovchi *HSP70-26* genining normal wt/wt ва 22del/del genotyplarni molekulyar tahlil qilish maqsadida PZR diagnostikasi amalga oshirildi. G‘o‘za genomidan ajratilgan DNK namunalarida issiqlik stressiga chidamlilikda muhim rol o‘ynovchi HSP70-26 genining molekulyar tahlilini amalga oshirish maqsadida spesifik PCR primerlari dizayn qilindi. Buning uchun, HSP70-26 genining to‘liq nukleotid ketma-ketliklari bioinformatik usullar yordamida FASTA formatida yig‘ildi va ko‘p ketma-ketlikli moslashuv (Multiple Sequence Alignment — MSA) Primer3Plus dasturi yordamida bajarildi. Shu jarayonda quyidagi primerlar tanlandi: Forward primer: Pr_hsp_com-F (5′-GTAATTAGATCTATCCAATACTC-3′) ва Reverse primer: Pr_hsp_wtspe_R (5′-CCTTGTATTTATACAGGTGGCATC-3′). Ushbu praymerlar HSP70-26 genining maqsad qilingan hududini aniq amplifikatsiya qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, PZR reaksiyasidan keyin hosil bo‘lgan mahsulotlar 1,5 % agaroza gel elektroforezi yordamida aniqlanib, gel transillyuminatorida vizuallashtirildi.



2-rasm. 1-rasm. G‘o‘zaning HSP70-26 genining promotor qismidagi deletsiya mavjudligini aniqlash uchun PCR amplifikatsiyasi natijalarining elektroforegrammasi. M – DNK molekulyar og‘irlik markeri (ladder);

1–24 – turli g‘o‘za namunalarining PCR mahsulotlari borligi – wild-type allel, PZR mahsulotlari yo‘qligi – gomozigota deletsiya.

G‘o‘zaning HSP70-26 geni promotor qismidagi 22 juft asosli deletsiya (del-22) mavjudligini aniqlash maqsadida spetsifik primerlar yordamida PZR amplifikatsiyasi o‘tkazildi. Elektroforez natijalari 24 ta turli g‘o‘za namunalarida ushbu allelning genotipik holatini aniqlash imkonini berdi (2-rasm). DNK molekulyar og‘irlik markeri (M) yordamida amplifikatsiya mahsulotlarining taxminiy o‘lchami baholandi. Elektrofrografmada bant ko‘rsatilgan namunalar (№ 1, 2, 3, 5, 6, 7, 9, 10, 11, 12, 13, 14,15,16,18,19,20,21,22,23) *HSP70-26* genining promotor hududida deletsiya mavjud emasligini va shu bilan birga wild-type (гомозигота) allelga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu namunalar uchun PZR mahsuloti sifatida kutilgan o‘lchamdagi fragment aniq hosil bo‘lgan. Boshqa tomondan, PZR mahsuloti yo‘q bolgan namunalarda (№ 4, 8, 17,24) esa g‘o‘zada mazkur lokus bo‘yicha gomozigota deletsiya mavjudligini bildiradi. Bu holatda deletsiya mavjudligi

tufayli praymerlar bog‘lanishi yoki to‘liq fragment amplifikatsiyasi amalga oshmaydi, natijada elektroforezda hech qanday band paydo bo‘lmaydi. Olingan natijalar g‘o‘za tizmalarida *HSP70-26* genining promotor qismidagi del-22 allelining genotipik xilma-xilligini ko‘rsatadi. Bu allel varianti molekulyar marker sifatida seleksiya jarayonida stressga chidamli navlarni aniqlash uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. Del-22 allelga ega bo‘lgan gomozigota genotiplarning yuqori termotolerantlikka ega ekanligi ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan tasdiqlangan [3;6]. Umuman olganda, *HSP70-26* geni del-22 allelining mavjudligi va taqsimoti g‘o‘zaning abiotik stresslarga, xususan yuqori haroratga chidamliligini baholashda muhim molekulyar-genetik indikator sifatida xizmat qiladi. Mazkur molekulyar marker asosida olib boriladigan markerlarga asoslangan seleksiya (MAS) g‘o‘zaning stressga chidamli navlarini yaratish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin. Hozirgi bosqichda esa ushbu genning turli g‘o‘za navlarida ekspressiya darajasi hamda biotik va abiotik stress omillari sharoitidagi faolligi molekulyar-biologik tahlil metodlari asosida chuqur o‘rganilmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari *Gossypium hirsutum* turlarida *HSP70-26* genining del-22 allelining genotipik xilma-xilligini aniqladi. Ushbu allel issiqlik stressiga chidamlilik bilan bog‘liq bo‘lib, molekulyar marker sifatida seleksiyada qo‘llanilishi mumkin. Bu yondashuv g‘o‘zaning termotolerant navlarini yaratishda samarali vosita hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdul Rehman, Rana Muhammad Atif, Abdul Qayyum, Xiongming Du, Lori Hinze, Muhammad Tehseen Azhar (2020). Genome-wide identification and characterization of HSP70 gene family in four species of cotton. Genomics, 112(6), 4442-4453. https://doi.org/10.1016/j.ygeno.2020.07.039

2. Abdurakhmonov, I. Y., Kohel, R. J., Yu, J. Z., Pepper, A. E., Abdullaev, A. A., Kushanov, F. N., Abdukarimov, A. (2008). Molecular diversity and association mapping of fiber quality traits in exotic G. hirsutum L. germplasm. Genomics, 92(6), 478-487. https://doi.org/10.1016/j.ygeno.2008.07.013

3. Guo, Y., Chen, Q., Qu, Y., Deng, X., Zheng, K., Wang, N., Yan, G. (2023). Development and identification of molecular markers of GhHSP70-26 related to heat tolerance in cotton. Gene, 874, 147486. https://doi.org/10.1016/j.gene.2023.147486

4. Liu, Z., Wei, Y., Liao, R., & Liu, J. (2025). The Role of Agricultural Socialized Services in Mitigating Rural Labor Shortages: A Multi-Crop Analysis of Production Performance. Agriculture, 15(11), 1151. https://doi.org/10.3390/agriculture15111151

5. Mayer, M. P., Bukau, B. (2005). Hsp70 chaperones: cellular functions and molecular mechanism. Cellular and Molecular Life Sciences, 62(6), 670-684. https://doi.org/10.1007/s00018-004-4464-6

6. Ni, Z., Liu, N., Yu, Y., Bi, C., Chen, Q., Qu, Y. (2021). The cotton 70-kDa heat shock protein GhHSP70-26 plays a positive role in the drought stress response. Environmental and Experimental Botany, 191, 104628. https://doi.org/10.1016/j.envexpbot.2021.104628

7. Patil, A. M., Pawar, B. D., Wagh, S. G., Shinde, H., Shelake, R. M., Markad, N. R., Wagh, R. S. (2024). Abiotic Stress in Cotton: Insights into Plant Responses and Biotechnological Solutions. Agriculture, 14(9), 1638. https://doi.org/10.3390/agriculture14091638

8. Simms, C. L., Yan, L. L., Zaher, H. S. (2017). Ribosome-based quality control of mRNA and nascent peptides. Nature Structural & Molecular Biology, 24(6), 461–467.

9. Van Leeuwen, W., Okrész, L., Bögre, L., Munnik, T. (2004). Learning the lipid language of plant signalling. Trends in Plant Science, 9(8), 378-384. https://doi.org/10.1016/j.tplants.2004.06.008

10. Wu, C., Li, F., Xu, H., Zeng, W., Yu, R., Wu, X., Li, J. (2019). The potential role of brassinosteroids (BRs) in alleviating antimony (Sb) stress in Arabidopsis thaliana. Plant Physiology and Biochemistry, 141, 51-59. https://doi.org/10.1016/j.plaphy.2019.05.011

11. Xiao, Y., Liu, S., Zhang, M., Tong, F., Xu, Z., Ford, R., Luo, T. (2021). Plant Functional Groups Dominate Responses of Plant Adaptive Strategies to Urbanization. Frontiers in Plant Science, 12, 773676. https://doi.org/10.3389/fpls.2021.773676

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

L.S. Yunusov
F.Yu. Axmedov
G‘.S. Odilov
Andijon davlat pedagogika instituti
DOI: 10.12345/uzsport.2026.01.05

UDK: 796.015.132

YOSH SUZUVCHILARNING JISMONIY RIVOJLANISHINING MORFOLOGIK VA FUNKSIONAL KO‘RSATKICHLARINI QIYOSIY TAVSIFLASH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada suzish sport turi bilan shug‘ullanuvchi kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishining morfologik va funksional ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida bo‘y uzunligi, tana massasi, ko‘krak qafasi aylanasi, qo‘l dino-metriyasi, yurak urish chastotasi hamda o‘pkaning tiriklik sig‘imi kabi ko‘rsatkichlar aniqlanib, ularning o‘zaro farqlari statistik jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalar yosh sportchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasi yosh xususiyatlariga mos ravishda kechayotganini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *suzish sporti, yosh suzuvchilar, jismoniy rivojlanish, morfologik ko‘rsatkichlar, funksional ko‘rsatkichlar, antropometriya, sport fiziologiyasi.*

Л.С. Юнусов
Ф.Ю. Ахмедов
Г.С. Одилов
Андижанский государственный педагогический институт

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МОРФОЛОГИЧЕСКИХ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЮНЫХ ПЛОВЦОВ

Аннотация. *В статье представлены результаты исследования морфологических и функциональных показателей физического развития младших школьников, занимающихся плаванием. Были изучены рост, масса тела, окружность грудной клетки, кистевая динамометрия, частота сердечных сокращений и жизненная емкость легких. Полученные результаты показали, что показатели физического развития соответствуют возрастным особенностям детей.*

Ключевые слова: *плавание, юные спортсмены, физическое развитие, морфологические показатели, функциональные показатели.*

L.S. Yunusov
F.Yu. Axmedov
G‘.S. Odilov
Andijan State Pedagogical Institute

COMPARATIVE CHARACTERIZATION OF MORPHOLOGICAL AND FUNCTIONAL INDICATORS OF PHYSICAL DEVELOPMENT IN YOUNG SWIMMERS

Abstract. *The article presents the results of a study on the morphological and functional indicators of physical development of young swimmers. Parameters such as body height, body weight, chest circumference, hand dynamometry, heart rate and vital lung capacity were analyzed. The results showed that the physical development indicators correspond to the age characteristics of children and demonstrate positive dynamics under regular physical activity.*

Keywords: *swimming, young swimmers, physical development, morphological indicators, functional indicators.*

Kirish.

Zamonaviy sport fiziologiyasi va sport tibbiyotida yosh sportchilarning organizmida sodir bo‘ladigan morfologik va funksional o‘zgarishlarni o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘sib kelayotgan avlodning jismoniy rivojlanish darajasini baholash, ularning funksional imkoniyatlarini aniqlash hamda sport mashg‘ulotlarining organizmga ta’sirini tahlil qilish sport tayyorgarligi tizimini ilmiy asosda tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘smirlik davri inson ontogenezining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda organizmda morfologik, fiziologik va funksional tizimlarning jadal rivojlanishi kuzatiladi. Aynan shu davrda yurak-qon tomir, nafas olish, muskul-skelet tizimlarining faol rivojlanishi sport faoliyati bilan bevosita bog‘liq holda kechadi. Shu sababli, o‘smir yoshdagi sportchilar organizmining funksional imkoniyatlarini o‘rganish sport mashg‘ulotlarini to‘g‘ri rejalashtirish, jismoniy yuklamalarni ilmiy asosda taqsimlash hamda yosh sportchilarning sog‘lig‘ini saqlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Suzish sport turi organizmning deyarli barcha fiziologik tizimlariga kompleks ta’sir ko‘rsatadigan sport turlaridan biri hisoblanadi. Suzish jarayonida nafas olish tizimi, yurak-qon tomir tizimi, mushaklar tizimi va markaziy asab tizimi faoliyati o‘zaro uyg‘un holda ishlaydi. Shu sababli muntazam suzish mashg‘ulotlari o‘pkaning tiriklik sig‘imi oshishiga, yurak mushaklarining mustahkamlanishiga, qon aylanish tizimi faoliyatining yaxshilanishiga hamda organizmning umumiy chidamliligining ortishiga olib keladi.

Sport fiziologiyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish natijasida yosh sportchilarda morfologik ko‘rsatkichlar, jumladan bo‘y uzunligi, tana massasi, ko‘krak qafasi aylanasi hamda mushak kuchi kabi parametrlar sezilarli darajada rivojlanadi. Shu bilan birga, funksional ko‘rsatkichlar – yurak urish chastotasi, arterial qon bosimi, o‘pkaning tiriklik sig‘imi va organizmning jismoniy yuklamalarga moslashuv darajasi ham yaxshilanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishini ta’minlash, ularni ommaviy sportga jalb qilish hamda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan yosh sportchilarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Yosh suzuvchilarning morfologik va funksional ko‘rsatkichlarini qiyosiy o‘rganish nafaqat ularning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash, balki sport mashg‘ulotlari samaradorligini baholash imkonini ham beradi. Shuningdek, bunday tadqiqotlar sport mashg‘ulotlari jarayonida organizmning moslashuv mexanizmlarini aniqlash, optimal yuklama darajasini belgilash hamda sport natijalarini oshirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqot yosh suzuvchilarning jismoniy rivojlanishining morfologik va funksional ko‘rsatkichlarini o‘rganish hamda ularni qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Tadqiqot materiallari va metodlari.

Tadqiqot ishlari Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan bolalar va o‘smirlar sport maktablarida olib borildi. Tadqiqotda muntazam ravishda suzish sport turi bilan shug‘ullanib kelayotgan **7–9 yoshli yosh sportchilar** ishtirok etdi. Tadqiqot jarayonida jami **30 nafar yosh suzuvchi** kuzatildi. Tadqiqotda qatnashgan bolalar sog‘lom bo‘lib, ular boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi sportchilar hisoblanadi hamda muntazam ravishda sport mashg‘ulotlarida qatnashib kelayotgan o‘quvchilardir.

Tadqiqot jarayonida yosh suzuvchilarning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida **morfologik va funksional ko‘rsatkichlar** o‘rganildi. Olingan ko‘rsatkichlar asosida yosh sportchilarning jismoniy rivojlanish darajasi hamda organizmning funksional imkoniyatlari baholandi.

Yosh suzuvchilarning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida quyidagi morfologik ko‘rsatkichlar o‘rganildi: bo‘y uzunligi, tana massasi, ko‘krak qafasi aylanasi.

Bo‘y uzunligi maxsus **antropometr** yordamida santimetr aniqligida o‘lchandi. O‘lchov sportchilar tik holatda, bosh Frankfort tekisligida joylashtirilgan holda amalga oshirildi.

Tana massasi **tibbiy elektron tarozi** yordamida kilogrammda o‘lchandi. O‘lchovlar ertalabki vaqtda, sportchilar yengil sport kiyimida bo‘lgan holda amalga oshirildi.

Ko‘krak qafasi aylanasi **santimetr lentasi** yordamida o‘lchandi. O‘lchash jarayonida lenta ko‘krak qafasining eng keng qismidan o‘tkazilib, ko‘rsatkichlar santimetrda qayd etildi. Ushbu ko‘rsatkich nafas chiqarish holatida aniqlanib, sportchilarning nafas olish tizimi hamda ko‘krak qafasi rivojlanish darajasini baholash imkonini berdi.

Yosh suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligi va sportdagi natijalari ularning organizm funksional holatiga bevosita bog‘liqdir. Shu maqsadda tadqiqotda quyidagi funksional ko‘rsatkichlar o‘rganildi: arterial qon bosimi, yurak urish chastotasi, nafas harakatlari soni, o‘pkaning tiriklik sig‘imi va qo‘l dinamometriyasi.

Arterial qon bosimi - bu ko‘rsatkich qonda qon bosimi darajasini aniqlash orqali yurak-qon tomir tizimining holatini baholash imkonini beradi. Tadqiqotda yosh suzuvchilarni tinch holatda kuzatish orqali qon bosimining o‘zgarishlari tahlil qilindi.

Yurak urish chastotasi - yurak faoliyatining eng muhim indikatorlaridan biri bo‘lib, sportchining yurak-qon tomir tizimining moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda tinch holatdagi urish chastotasi o‘lchandi.

Nafas harakatlari soni - o‘pka va nafas olish tizimining faoliyatini baholashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda bu ko‘rsatkich faqat tinch holatda o‘lchandi, bu orqali o‘pkaning asosiy ish faoliyati va nafas olish ritmi aniqlanadi.

O‘pkaning tiriklik sig‘imi - o‘pkaning maksimal havo miqdorini qamrab oladigan ko‘rsatkich bo‘lib, suzuvchilarning nafas olish qobiliyatini baholash imkonini beradi. Bu ko‘rsatkich uch xil holatda o‘lchandi: tinch holatda, chuqur nafas olganda va chuqur nafas chiqarishda.

Qo‘l dinamometriyasi - qo‘l mushaklarining maksimal kuchini baholash uchun ishlatiladi. Tadqiqotda o‘ng va chap qo‘l alohida o‘lchanib, mushak kuchi va simmetriya darajasi tahlil qilindi.

Ushbu funksional ko‘rsatkichlar yosh suzuvchilarning organizmi qanday moslashishini, jismoniy yuklamalarga chidamliligini va sport faoliyatiga tayyorligini baholashda muhim ilmiy asos yaratadi. Shu orqali murabbiylar va shifokorlar individual mashg‘ulot dasturlarini aniqlashda aniq tavsiyalar berish imkoniga ega bo‘ladilar.

Tadqiqot davomida olingan natijalar **matematik-statistik usullar yordamida** qayta ishlanib, o‘rtacha arifmetik qiymatlar (M±m) hisoblab chiqildi. Natijalar **Styudent t-mezoni** yordamida statistik jihatdan tahlil qilindi va ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqlar ishonchliligi **p<0,05** darajada baholandi.

Tadqiqot natijalari.

1-jadval. 1–2 sinf o‘quvchilarining morfologik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	1-sinf	2-sinf
Bo‘y uzunligi	118 ± 0,9 sm	124 ± 0,8 sm
Tana massasi	21 ± 0,5 kg	25 ± 0,4 kg
Ko‘krak qafasi	60 ± 0,4 sm	61 ± 0,5 sm

Natijalar tahlili: bo‘y uzunligi farqi 6 sm ($p < 0,001$), tana massasi farqi 4 kg ($p < 0,001$). Bu yosh o‘sish davrida normal biologik rivojlanishni ko‘rsatadi va bolalar o‘sishining tabiiy dinamikasini tasdiqlaydi.


2-jadval. Funksional ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	1-sinf	2-sinf
Yurak urish chastotasi	85 zarba/min	83 zarba/min
O‘pkaning tiriklik sig‘imi	1375 ml	1480 ml
Qo‘l kuchi (o‘ng)	6,3 kg	7,5 kg


Natijalar tahlili: yurak urish chastotasi yosh bilan biroz kamaygan

O‘pkaning tiriklik sig‘imi 105 ml ga oshgan ($p < 0,01$), mushak kuchi sezilarli oshgan. Bu natijalar suzish mashg‘ulotlarining nafas olish tizimi va mushak faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

1-rasm. Bo‘y uzunligi dinamikasi



Grafik bolalar o‘sishining tabiiy dinamikasini ko‘rsatadi, o‘sish tendensiyasi aniq ko‘zga tashlanadi.



Bu natija suzish mashg‘ulotlarining nafas olish tizimiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kichik maktab yoshidagi bolalarda jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari yosh xususiyatlariga mos ravishda rivojlanadi. Suzish mashg‘ulotlari nafaqat mushak tizimining rivojlanishiga, balki yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining funksional imkoniyatlarini oshirishga ham xizmat qiladi.

Natijalar boshqa tadqiqotlar bilan ham mos keladi va sport mashg‘ulotlarining bolalar organizmiga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi.

Xulosalar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kichik maktab yoshidagi bolalarda jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari yoshiga mos ravishda shakllangan. Bo‘y uzunligi va tana massasi o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli. Suzish mashg‘ulotlari nafas olish tizimi rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va o‘pkaning tiriklik sig‘imi hamda mushak kuchi yoshga bog‘liq ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Коц Я.М. Физиология мышечной деятельности. – М.: ФИС, 1982. – 347 с.
2. Бальсевич В.К. Физическая культура для всех и для каждого. – М.: ФИС, 1988. – 204 с.
3. Павловская Л.Ф., Дуденко Н.В., Эдельман М.М. Физиология питания. – М.: Высш. шк., 1989. – 368 с.
4. Физиология дыхания / под ред. И.С. Бреслава. – Л.: Наука, 1991.
5. Дубровский В.Ч. Спортивная медицина. – М.: Олимп-Бизнес, 2002. – 512 с.
6. Капилевич Л.В., Кабачкова А.В. Возрастная и спортивная морфология: практикум. – Томск, 2009. – 69 с.
7. McArdle W.D., Katch F.I., Katch V.L. Exercise Physiology: Nutrition, Energy, and Human Performance. – 8th ed. – Philadelphia: Wolters Kluwer, 2021. – 720 p.
8. Kenney W.L., Wilmore J.H., Costill D.L. Physiology of Sport and Exercise. – 7th ed. – Champaign: Human Kinetics, 2021. – 704 p.
9. Zatsiorsky V.M., Kraemer W.J. Science and Practice of Strength Training. – 3rd ed. – Champaign: Human Kinetics, 2021. – 576 p.
10. Powers S.K., Howley E.T. Exercise Physiology: Theory and Application to Fitness and Performance. – 11th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2022. – 784 p.
11. Ahtiainen J.P., Walker S., Peltonen H., et al. “Heterogeneity in resistance training-induced muscle strength and mass responses in men and women.” *Scandinavian Journal of Medicine & Science in Sports*, 2021; 31(3): 480–491.
12. Laursen P.B., Jenkins D.G. “The scientific basis for high-intensity interval training: Optimising training programmes and maximising performance in highly trained endurance athletes.” *Sports Medicine*, 2020; 50: 237–254.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

05.00.00-TEXNIKA
journal.namdu.uz
TECHNICAL

Tulaganov Sardor Anvarovich
U.A. Arifov Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies
Senior Researcher
E-mail: tulaganov@iplt.uz

SYNTHESIS OF HIGHLY DISPERSED AMORPHOUS SiO_2 BY THE AMMONIUM FLUORIDE METHOD

Abstract. *Amorphous silicon dioxide (SiO_2) nanoparticles with high dispersion are widely used in electronics, catalysis, polymer composites, construction, and medicine due to their large surface area, chemical stability, and low cost. In this work, a highly dispersed amorphous SiO_2 was synthesized by the ammonium fluoride method, which ensures a closed-loop process and high efficiency. Under optimal conditions ($T \leq 400$ °C, pH = 8–9, 20 wt.% NH_3 solution), the process yielded ~98% amorphous SiO_2 with a chemical purity of 99.97%. The method is energy-efficient, environmentally safe, and provides nanosilica powders that meet industrial requirements. The obtained results demonstrate the potential of this synthesis route for scalable industrial applications.*

Keywords: *amorphous SiO_2, ammonium fluoride synthesis method, nanoparticles, particle morphology, degree of dispersion.*

Тулаганов Сардор Анварович
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий им. У.А. Арифова Старший научный сотрудник

СИНТЕЗ ВЫСОКОДИСПЕРСНОГО АМОРФНОГО SiO_2 ФТОРАММОНИЙНЫМ МЕТОДОМ

Аннотация. *Аморфный диоксид кремния - SiO_2 наночастицы благодаря большой удельной поверхности, высокой химической стойкости и низкой себестоимости широко применяются в электронике, катализе, полимерных композитах, строительстве и медицине. В данной работе синтез высокодисперсного аморфного SiO_2 осуществлён фтораммонийным методом. При оптимальных условиях $T \leq 400$ °C, pH = 8–9, 20 мас.% раствора NH_3 достигнут выход ~98 % и чистота продукта 99,97 %. Процесс является энергоэффективным, экологически безопасным и предусматривает использование реагентов с замкнутым циклом регенерации. Полученные результаты демонстрируют перспективность данного метода для широкого промышленного применения.*

Ключевые слова: *аморфный SiO_2, фтораммонийный метод синтеза, наночастицы, морфология частиц, степень дисперсности.*

Tulaganov Sardor Anvarovich
U.A. Arifov nomidagi ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti katta ilmiy hodim

FTORAMMONIY USULIDA YUQORI DISPERSLI AMORF SIO_2 SINTEZI.


Annotatsiya. *Amorf kremniy dioksidi - SiO_2 nanozarrachalari keng yuzaga ega bo'lgani, yuqori kimyoviy barqarorligi va arzonligi sababli elektronika, kataliz, polimer kompozitlari, qurilish va tibbiyotda keng qo'llaniladi. Ushbu ishda ftorammoniy usuli yordamida yuqori dispersli amorf SiO_2 sintezi amalga oshirildi. Optimal sharoitlarda $T \leq 400$ °C, pH = 8–9, 20 mass. % NH_3 eritmasi ~98 % chiqim va 99,97 % tozalikka erishildi. Jarayon energiya tejamkor, ekologik xavfsiz bo'lib, yopiq siklda qayta tiklanadigan reaktivlardan foydalanishni ta'minlaydi. Olingan natijalar mazkur usulning sanoat miqyosida keng qo'llash imkoniyatini ko'rsatadi.*

Kalit so`zlar: *amorf SiO_2, ftorammoniyli sintez usuli, nonozarralar, zarrachalarning morfologiyasi, disperslik darajasi.*

Kirish

So'nggi o'n yilliklarda nanomateriallar kimyosi va texnologiyasi fan va sanoatning eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ularning orasida yuqori dispersli amorf kremniy oksidi - SiO_2 alohida ahamiyatga ega bo'lib, elektronika, kataliz, adsorbentlar, tibbiyot, qurilish, rezina-texnika va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llaniladi [1; 2]. Bunday keng qo'llanish sohasi SiO_2 ning yuqori kimyoviy barqarorligi, inertligi, rivojlangan sirt maydoni, sirt funksional guruhlarini modifikatsiya qilish imkoniyati va nisbatan past narxi bilan izohlanadi. Shu bois, yuqori sifatli va arzon nanodispers SiO_2 olishning ilmiy-texnologik asoslarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir.

Nanostrukturalar sintezining umumiy yondashuvlari sifatida adabiyotlarda ikki asosiy yo‘nalish ko‘rsatiladi: “yuqoridan-pastga” va “pastdan-yuqoriga” usullari [3; 4]. “Yuqoridan-pastga” usullari mavjud makroskopik kristall va polikristall materiallarni mexanik yoki fizik ta’sirlar orqali mayda zarralarga parchalanishini anglatadi. Bu yondashuvlar nisbatan oddiy bo‘lsa-da, zarrachalarning o‘lchamini nazorat qilish imkoniyati cheklangan, ko‘pincha ularning shakli va fazaviy bir jinsliligi yetarli emas. “Pastdan-yuqoriga” usullari esa atom va molekulalardan boshlab zarrachalarni “yig‘ish”ga asoslanadi. Ushbu yondashuv nanometr o‘lchamdagi, bir jinsli va nazorat qilinadigan xossalarga ega zarralarni olish imkonini beradi.



1-rasm. Kolloid SiO_2 ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan umumiy sanoat sintez jarayoni sxemasi [5].

Amorf SiO_2 ni sanoatda ishlab chiqarishda asosan ikki turdagi texnologiyalar qo‘llaniladi: (i) gaz fazasidan kimyoviy cho‘ktirish, ya’ni olovli gidroliz orqali olinadigan pirogen SiO_2 (1-rasm) va (ii) suyuq fazada kimyoviy cho‘ktirish asosida olinadigan cho‘kma SiO_2 [5; 6; 7]. Pirogen texnologiya yuqori tozaligi va keng o‘ziga xos yuzasi bilan ajralib turadi. Masalan, Evonik Industries (Germaniya) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqariladigan “Aerosil®” markasi 5–50 nm diametrli, 300 m^2/g dan ortiq yuzaga ega zarrachalar shaklida olinadi [5]. Biroq bunday usulning kamchiligi juda yuqori energiya sarfi, xavfsizlik talablari yuqori bo‘lgan xomashyo ($SiCl_4$) va murakkab uskuna talab qilinishidadir. Shuningdek, jarayonning narxi yuqoriligi sababli, pirogen SiO_2 ko‘plab keng ko‘lamli texnologik sohalarda, masalan, shinalar sanoatida kam qo‘llaniladi.

Cho‘kma SiO_2 texnologiyasi nisbatan oddiy va arzonroq bo‘lsa-da, uning kamchiliklari ham mavjud: reagent sarfi katta, filtrlash va quritish jarayonlari energiya talabchan, oqova suvlarning tozalanishi esa ekologik muammolarni keltirib chiqaradi [8; 9; 10]. Shu sababli, nanodispers SiO_2 sintezini resurs va energiya tejamkor yo‘llar bilan amalga oshirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi yillarda olimlar turli qayta tiklanadigan va ikkilamchi xomashyo manbalaridan foydalanishga katta e’tibor qaratmoqdalar. Guruch po‘stlog‘i [11; 12; 13], bambuk barglari [14], palma yog‘i chiqindilari [14] va “Missiya o‘ti” kabi o‘simliklar [16], shuningdek, metallurgiya shlaklari [17], fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish mahsulotlari [17] va alyuminiy ftoridi chiqindilari [19] asosida amorf SiO_2 sintez qilish bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlanmalar mavjud. Bunday usullar ekologik tozaligi va xomashyo arzonligi bilan afzalliklarga ega. Biroq ularning natijalari har doim ham sanoat talablariga javob bermaydi: ko‘pincha zarrachalarning o‘lcham taqsimoti keng, tozalik darajasi past 94–96%, ajralish darajasi esa 20–40% bilan cheklanadi [20]. Shu sababli, yangi samarali usullarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

1-jadval.

Guruch po‘stlog‘idan sintez qilingan SiO_2 ning rentgenofluoressent tahlil natijalari [13].

Element	SiO_2	P_2O_5	Fe_2O_3	K_2O	CaO	Cl	TiO_2	L.O.I	La&Lu
Ulushi %	94,5	0,39	0,36	0,66	1,1	0,17	0,01	2,05	<1

Ushbu sharoitda ftorammoniy usuli yuqori dispersli amorf SiO_2 ni sintez qilishning istiqbolli yo‘nalishi sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Mazkur texnologiya NH_4F asosida olib boriladi va bir qator afzalliklarga ega. Avvalo, jarayon 400 °C dan past haroratlarda amalga oshirilishi bilan energiya tejamkorligi ta’minlanadi, bu ko‘plab alternativ usullarga nisbatan sezilarli ustunlik beradi. Shuningdek, NH_4F ning qayta tiklanishi imkoniyati texnologik yopiq siklni yaratib, chiqindisiz ishlab chiqarishni tashkil etishga imkon beradi. Ftorammoniy usulining yana bir muhim jihati xomashyo manbalarining kengligidir: tabiiy kvarts qumlari bilan bir qatorda texnogen chiqindilar, jumladan mis eritish shlaklari va boshqa metallurgik mahsulotlardan ham samarali foydalanish mumkin. Natijada, bu texnologiya chiqindilarni utilizatsiya qilish va qayta ishlashning qulay yo‘lini taqdim etadi. Adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu usul orqali olingan SiO_2 ning tozaligi 99,9 % gacha yetishi va ajralish darajasi 98 % atrofida bo‘lishi uning yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega ekanini tasdiqlaydi.

Ftorammoniy usuli nafaqat yuqori sifatli nanodispers SiO_2 olish imkonini beradi, balki ekologik va iqtisodiy jihatdan ham samarali texnologiya sifatida ajralib turadi. Uskunalar murakkab emas, xavfsizlik talablari pastroq, jarayon chiqindisiz amalga oshishi mumkin. Shu bois mazkur yo‘nalish fundamental va amaliy tadqiqotlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqola ftorammoniy usulida yuqori dispersli amorf SiO_2 sintezining ilmiy-texnologik asoslari, xomashyo tanlovi, jarayon mexanizmi, fizik-kimyoviy xossalari va sanoatga joriy etish istiqbollarini yoritishga bag‘ishlangan.

Tadqiqod metodologiyasi.

Ushbu usulda asosiy va yagona reaktiv sifatida ftorlovchi reaktiv - ammoniy ftoridi NH_4F, yoki ammoniy biftoridi $NH_4{\cdot}HF_2$ qo‘llaniladi. Xomashyoni ftorlash 50 dan 200 °C gacha bo‘lgan haroratda amalga oshiriladi. Ammoniy ftoridining miqdori stexiometriya bo‘yicha shunday tanlanadiki, u SiO_2 ni parchalanishi uchun yetarli bo‘ladi va boshqa oksidlar bilan reaktsiyaga kirishishga ulgurmaydi. Ammoniy ftoridining eritmalari SiO_2 bilan samarali o‘zaro ta’sir qiladi va natijada geksaflorsilikat ammoniy - GFSA - $(NH_4)_2SiF_6$ hosil bo‘ladi, quyidagi reaksiya bo‘yicha:

$$SiO_2 + 6NH_4F = (NH_4)_2SiF_6 + 4NH_3 + 2H_2O \quad (1)$$

Ammoniy biftoridi kremniy oksidi bilan quyidagi reaksiya bo‘yicha o‘zaro ta’sir qiladi:

$$SiO_2 + 3NH_4F{\bullet}HF = (NH_4)_2SiF_6 + NH_3 + 2H_2O \quad (2)$$

Hosil bo‘lgan GFSA ($(NH_4)_2SiF_6$) normal sharoitda qattiq kristall modda bo‘lib, qizdirilganda parchalanmasdan sublimatsiya bo‘ladi va 320 °C dan yuqori haroratda u to‘liq gaz fazasiga o‘tadi. $(NH_4)_2SiF_6$ suvda yaxshi eriydi, ammiak eritmasidagi eruvchanligi 70 °C da 370 g/l ga etadi. Ammiak bilan o‘zaro ta’sir qilganda u gidrolizlanadi va SiO_2 ko‘rinishida cho‘kadi, quyidagi reaksiya bo‘yicha:


$$(NH_4)_2SiF_6 + 4NH_4OH = SiO_2 + 6NH_4F + 2H_2O \quad (3)$$

Ushbu ftoridlardan bizning dissertatsiya tadqiqotimizda shlaklardan SiO_2 ni ajratish uchun ishlatilgan. Keyinchalik, ammiak eritmasidan filtrlash orqali ajratilgan SiO_2 yuqori dispersli kukun shaklida quritiladi.

Kremniy oksidini filtratsiya orqali ajratgandan so‘ng, ammoniy ftoridi eritmasi qoladi, uni bug‘latish jarayonida NH_4F ammoniy biftoridi shaklida kristallanadi, quyidagi reaksiya bo‘yicha:

$$2NH_4F = NH_4HF_2 + NH_3 \quad (4)$$

Shunday qilib, reaktiv yangi partiya SiO_2 sintezi uchun texnologik jarayon boshiga qaytariladi. NH_4F asosiy reaktivini qayta tiklash imkoniyati yuqori dispersli SiO_2 kukunlarini sintez qilishning ftorid usulining muhim afzalligi hisoblanadi.




3-rasm. Ftorid usuli bo‘yicha yuqori dispersli SiO_2 kukunlarini sintez qilish sxemasi.

Yuqorida keltirilgan sxema bo‘yicha olingan yuqori dispers SiO_2 quritiladi, bundan so‘ng tayyor mahsulotga aylanadi. Ammoniy ftoridini qayta tiklash imkoniyati yuqori dispersli kremniy oksidining uzluksiz sintez siklini tashkil qilishga imkon beradi.

Tahlillar va natijalar

Yuqori dispersli amorf SiO_2 ni sintez qilish yuqorida keltirilgan 1–3-reaksiyalarni amalga oshirishga mo‘ljallangan uskunada bajarildi. Xomashyo 1,0 mm dan kichik fraksiyagacha maydalanib, stoxiometriya bo‘yicha boshlang‘ich xomashyoning kimyoviy tarkibidagi SiO_2 ga nisbatan 1:3,7 ammoniy ftorid - NH_4F aralashtirildi; hosil bo‘lgan aralashma yuklash bunkeriga uzatildi. Jarayonning sxematik ketma-ketligi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Ftorid texnologiyasi asosida yuqori dispersli amorf SiO_2 sintez qilish jarayonining sxematik tasviri.

Stoxiometrik tayyorlangan aralashma birinchi bosqichda qo‘zg‘almas pech bo‘shlig‘iga uzatiladi. Bu yerda vintli aralashtirgich past tezlikda uzluksiz aralashtirib turadi, isitgich esa aralashmani 200 °C gacha qizdirib, xomashyoning ftorlanishini to‘liq yakunlaydi. Truba bo‘ylab ko‘rish oynalari orqali qizdirish va harakatlanish holati real vaqtda vizual nazorat qilindi. Hosil bo‘layotgan gazlar, ya’ni H_2O bug‘lari, NH_3 va h.k. absorberga yo‘naltiruvchi kollektorlardan chiqarib olindi. Absorberda H_2O va NH_3 ning to‘liq yutilishi aralashmaning namligini kamaytirib, uning reologiyasini pasaytirdi va massa almashinuvini yaxshiladi.

Ftorlanish tugagach, massani statsionar zonadan aylanuvchi pechga uzatish uchun pech oxiridagi qopqoq dastasi ochilib, aralashma tuynuk orqali ikkinchi zonaga tushirildi. Aylanuvchi pech bo‘ylab 200 → 400 °C harorat gradientini bosqichma-bosqich oshirish natijasida gaz fazasiga o‘tuvchi geksoftorsilikatammoniy ($(NH_4)_2SiF_6$, quyida GFSA) intensiv sublimatsiyalanadi va desublimatorga kiradi. Desublimatorda markaziy suv-sovitkich yordamida bug‘lar kondensatsiyalanib, chiqishda oq kristall GFSA kukuni olinadi. Tajribalarda GFSA chiqishi ~95 % ga teng. Mass-spektrometriyada aniqlangan metall aralashmalar juda past: mass. % — Al 0,002; Fe 0,003; Ni 0,003.


GFSA ning ammiakli gidrolizi va SiO_2 ni cho‘ktirish jarayoni ikkinchi asosiy bosqichda amalga oshirildi. Bunda GFSA 10–25 mass.% li ammiakli suvda pH = 8–9 va 25 °C harorat sharoitida gidroliz qilinib, amorf SiO_2 cho‘ktirildi. Parametrlarning tanlanishi ilmiy asoslangan bo‘lib, ammiak konsentratsiyasi <10 mass.% bo‘lganda gel-massa haddan tashqari qalinlashib, filtrlash jarayonini qiyinlashtirishi kuzatildi. Aksincha, 25 mass.% konsentratsiyada mahsulot chiqimi pasayib, texnologiyaning umumiy iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Filtrlashdan so‘ng mass-spektrometriya ma’lumotlariga ko‘ra 99,97 % tozalikka ega yuqori dispersli amorf SiO_2 kukuni olindi.

Gidroliz samaradorligiga ammiak konsentratsiyasi va ta’sir davomiyligi sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Eng yuqori konversiya va barqaror filtrlanish 20 mass. % NH_3 va ≥ 0,5 soat sharoitida qayd etildi. Bundan tashqari, filtrlangandan keyin suspenziyani distillangan suv bilan mexanik aralashtirib yuvish va doimiy og‘irlikka qadar quritish zarrachalar sifati va umumiy chiqimga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

GFSA konsentratsiyasining hosil bo‘lish samaradorligiga ta’sirining gidroliz eritmasidagi konsentratsiya 3, 10, 20 va 30 mass. % darajalarda o‘rganildi (T = 25 °C). SiO_2 ni ajratib olish darajasi 5-rasmda keltirilgan.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori chiqim ~98 % 3 mass. % GFSA da kuzatiladi; konsentratsiya 30 mass. % gacha oshirilganda chiqim ~75 % gacha kamayadi. Demak, eritmadagi GFSA ni 10 baravar oshirish SiO_2 chiqimini ~25 % ga pasaytiradi. Buning sababi sifatida yuqori tuz konsentratsiyasida ion kuchi oshishi, gel strukturasining zichlashuvi, kolloid barqarorlikning buzilishi va mass-transport cheklanishlari tufayli o‘sayotgan zarrachalarning birikishi va filtrlash-yuvish samaradorligining pasayishi keltiriladi.



5-rasm. GFSA ning turli konsentratsiyalarida ammiak eritmasida gidroliz qilishda SiO_2 ni ajratib olish darajasi.

Yakuniy mahsulot sifatini va tarkibiy tahlil natijalarini ko‘rsatkichlar bilan baholash natijasida quyidagi natijalarga erishildi: sintez qilingan SiO_2 ning kimyoviy tozaligi 99,97 mass.% ni tashkil etdi, umumiy ajralib chiqish darajasi qariyb 98 % ga teng bo‘ldi, GFSA bosqichida esa mahsulot chiqimi 95 % atrofida qayd etildi.

Ushbu ko‘rsatkichlarga quyidagi texnologik yechimlar hisobiga erishildi: (i) statsionar pechda gazlarni samarali chiqarish, qatlam reologiyasini optimallashtirish; (ii) sublimatsiya zonasi uchun vizual nazorat va harorat gradientini (200→400 °C) sekin-asta oshirib boshqarish; (iii) GFSA bug‘larini desublimatsiya qilishda markaziy suv-sovitkichdan foydalanish; (iv) cho‘ktirilgan SiO_2 ni ko‘p bosqichli yuvish va doimiy og‘irlikka qadar quritish orqali qoldiq GFSA va namlikni minimallashtirish.

Sintez qilingan SiO_2 ning kimyoviy tozaligi ISP mass-spektrometrida tasdiqlandi; natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Sintez qilingan SiO_2 ning kimyoviy tarkibi tahlili. mass. %.

SiO_2	Fe	Al	K	Ca	Cu	Zn	Mg
99,97	0,014	0,006	0,003	0,002	0,001	0,001	0,001

2-jadvaldan ko‘rinadiki, metall aralashmalar 10^{-3}–10^{-2} mass. % darajasida bo‘lib, optik-elektronika, adsorbsiya va kompozit polimerlar uchun qo‘yiladigan talablarni qondiradi. Past Fe va Al miqdori rang beruvchi markazlarning paydo bo‘lish ehtimolini kamaytiradi, K va Ca ning iz miqdorlari esa g‘ovaklik-sirt kimyosini boshqarilgan modifikatsiya orqali ham bartaraf etilishi mumkin.

Jarayon parametrlari va mahsulot xossalari o‘rtasidagi bog‘liqlik tajribalar orqali aniqlandi. Harorat profilining 200 dan 400 °C gacha bosqichma-bosqich oshirilishi GFSA ning to‘liq sublimatsiyasini ta’minlab, trubalar devorida kondensatsiya yo‘qotishlarini kamaytirdi va kristall o‘sishini nazorat qilish imkonini berdi. Eritmaning pH qiymati 8–9 oralig‘ida saqlanganda silikat polikondensatsiyasi jarayonida Si–O–Si bog‘lanishlari barqaror shakllandi hamda kolloid barqarorlik optimal darajada bo‘ldi. Ammiak konsentratsiyasi 10–25 mass.% diapazonida bo‘lganda gelning reologiyasi va filtrlanish tezligi o‘rtasida muvozanat ta’minlandi; konsentratsiya 10 % dan past bo‘lganda gel massasi haddan tashqari zichlashib, filtrlanish qiyinlashdi, 25 % dan yuqorida esa mahsulot chiqimi sezilarli darajada pasaydi. Shuningdek, GFSA konsentratsiyasi 3 % atrofida maksimal ajralish darajasini berdi, ammo konsentratsiya ortishi bilan eritmadagi ion kuchi kuchayib, zarrachalarning agregatsiyasi kuchaydi va natijada filtrlanish samaradorligi pasaydi (qarang 5-rasm).

Texnologik samaradorlik va sanoat joriy etish imkoniyatiga oid olingan natijalar ftorammoniy usulining bir qator amaliy ustunliklarini tasdiqlaydi. Avvalo, jarayon barcha bosqichlarda 400 °C dan past haroratlarda amalga oshirilgani sababli energiya tejamkorligi yuqori darajada ta’minlanadi. Bundan tashqari, GFSA bosqichida taxminan 95 % va yakuniy mahsulotda 98 % chiqimga erishilishi hamda kimyoviy tozaligining 99,97 % ni tashkil etishi usulning yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Jarayon vizual nazorat oynalari va moduliylangan harorat grafigi orqali samarali boshqarilishi mumkinligi ham muhim afzallik hisoblanadi. Shuningdek, NH_4F ning qayta tiklanishi va hosil bo‘ladigan gaz-bug‘ aralashmalarining absorbsiyasi texnologiyaning ekologik xavfsizligini ta’minlaydi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda ftorammoniy usuli yordamida yuqori dispersli amorf SiO_2 sintezi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Jarayonning nisbatan past haroratlarda (≤400 °C) olib borilishi uni energiya tejamkor texnologiya sifatida ajratib turadi. Tajribalar natijasida yakuniy mahsulotning chiqimi ~98 % ga, kimyoviy tozaligi esa 99,97 % ga teng ekani aniqlandi. NH_4F reaktivining yopiq siklda qayta tiklanishi ishlab chiqarishni chiqindisiz tashkil qilish imkonini berdi, bu esa ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Olingan amorf SiO_2 nanozarrachalari tarkibidagi metall aralashmalar darajasi juda past bo‘lgani sababli ularni yuqori talab qo‘yiladigan sohalarda, jumladan, elektronika, kataliz, tibbiyot,

polimer kompozitlari va qurilish materiallarida qo‘llash imkoniyati mavjud. Natijalar ftorammoniy usulining ilmiy va amaliy jihatdan istiqbolli texnologiya ekanini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wang, Y. Bottom-up and top-down approaches to the synthesis of monodispersed spherical colloids of low melting-point metals / Y. Wang, Y. Xia. Nano Letters. 2004. – Vol. 4, Iss. 10. – P. 2047–2050.

2. Sanchez, F. Nanotechnology in concrete – a review / F. Sanchez, K. Sobolev. Construction and Building Materials. – 2010. – Vol. 24, Iss. 11. – P. 2060–2071.

3. Walter D. Primary Particles – Agglomerates – Aggregates. In: Nanomaterials. Boon, 2013. P. 9–24.

4. Saravanan, P. Synthesis and Characterisation of Nanomaterials / P. Saravanan, R. Gopalan, V. Chandrasekaran. Defence Science Journal. – 2008. – V. 58. – No. 4. – P. 504 – 516.

5. Hyde E, Seyfaee A, Neville F and Moreno-Atanasio R. Colloidal Silica Particle Synthesis and Future Industrial Manufacturing Pathways: A Review, Industrial & Engineering Chemistry Research (2016), 55, 8891−8913. doi:10.1021/acs.iecr.6b01839.

6. Кутищева Е.С, Усольцева И.О, Передерин Ю.В. Способы получения высокодисперсного диоксида кремния. Ползуновский вестник. 2021. № 2. С. 188–193.

7. Basic characteristics of Aerosil fumed silica (2014) Tech. Bull.Fine Particles 11, Evonik Industries, Hanau. Aerosil – Fumed Silica, 4th ed. Technical Overview, Evonik Industriesm, Hanau http://www.aerosil.com/product/aerosil/en/products/hydrophobic-fumed-silica/Pages/default.aspx

8. Fathi Habashi. Handbook of Extractive Metallurgy, WILEY-VCH, Heidelberg, Germany, 1984. Vol. 4. P. 584-660. 161 Handbook of Extractive Metallurgy. Edited by Fathi Habashi. WILEY-VCH. Heidelberg, Germany, 1984. Vol. 4. P. 584-660.

9. Music S, Filipovic-Vinceković N and Sekovanic L. Precipitation of amorphous SiO_2 particles and their properties. Brazilian Journal of Chemical Engineering, Vol. 28, No. 01, pp. 89 - 94, 2011.

10. Бочевская Е.Г., Каршигина З.Б., Саргелова Э.А., Абишева З.С. Осаждение аморфного диоксида кремния из силикатных растворов, полученных после переработки минеральной высококремнистой руды. Вестник науки и образования, 12(36), т. 1., 2017, стр. 18-23.

11. Dhaneswara D, Fatriansyah J.F, Situmorang F.W, Haqoh A.N, 2020. Synthesis of Amorphous Silica from Rice Husk Ash: Comparing HCl and CH3COOH Acidification Methods and Various Alkaline Concentrations. *International Journal of Technology*. Volume 11(1), pp. 200-208.

12. Aharipour N, Nemati A, Malek Khachatourian A. “Green Synthesis of Silica Extracted from Rice Husk Ash”, Advanced Ceramics Progress, Vol. 8, No. 4, (2022), 15-20. https://doi.org/10.30501/acp.2022.363265.1103

13. Zarei V, Mirzaasadi M, Davarpanah A, Nasiri A, Valizadeh M, Hosseini M.J.S. Environmental Method for Synthesizing Amorphous Silica Oxide Nanoparticles from a Natural Material. *Processes,* 2021, 9, 334. https://doi.org/10.3390/pr9020334

14. Sharma, P, Kherb, J, Prakash, J et al. A novel and facile green synthesis of SiO_2 nanoparticles for removal of toxic water pollutants. Appl Nanosci. 13, 735–747 (2023). https://doi.org/10.1007/s13204-021-01898-1.

15. Utama P.S, Yamsaengsung R and Sangwichien Ch. Production and characterization of precipitated silica from palm oil mill fly ash using CO_2 impregnation and mechanical fragmentation Brazilian Journal of Chemical Engineering, 2019, Vol. 36, No. 01, pp. 523 – 530. *dx*.doi.org/10.1590/0104-6632.20190361s20170458.

16. Thayyullathil A, Naseera C.M, Liyakhath F.M, Vydhehi E.K, Sheeja S.R, Naduparambath S. Effect of Temperature and Method of Synthesis on Morphology and Phase Transition of Amorphous and Crystalline Nano Silica Extracted from Mission Grass (Pennisetum Polystachion). Silicon, 2024, p.3493 https://doi.org/10.1007/s12633-024-02932-x

17. Wang Q, Li Zh, Li D and et.al. Method of High-quality Silica Preparation from Copper Smelting Slag, JOM, Vol. 72, No. 7, 2020, p. 2676-2685 https://doi.org/10.1007/s11837-020-04196-3.

18. Abburi A, Ali M, Moriya P.V. Synthesis of mesoporous silica nanoparticles from waste hexafluorosilicic acid of fertilizer industry. J Mater. Res. Technol. 2020, 9(4), pp. 8074–8080. https://doi.org/10.1016/j.jmrt.2020.05.055/

19. Pyagay I.N, Shaidulina A.A, Konoplin R.R, Artyushevskiy D.I, Gorshneva E.A, Sutyaginsky M.A. Production of Amorphous Silicon Dioxide Derived from Aluminum Fluoride Industrial Waste and Consideration of the Possibility of Its Use as Al_2O_3-SiO_2 Catalyst Supports. Catalysts 2022, 12, 162. https://doi.org/10.3390/catal12020162

20. Setyawan N et. al., Synthesis of silica from rice husk by sol-gel method, 2021, IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 733, 012149, doi:10.1088/1755-1315/733/1/012149

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

05.00.00-TEXNIKA
journal.namdu.uz
TECHNICAL

Tulaganov Sardor Anvarovich
Iskandarov Shukhrat Choriyevich
U.A. Arifov Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies Senior Researcher
E-mail: tulaganov@iplt.uz

PROPERTIES OF HIGHLY DISPERSED AMORPHOUS SiO_2

Abstract. *At present, highly dispersed amorphous silicon dioxide (SiO_2) is widely used as an important functional material in adsorption, catalysis, composite materials, and environmental technologies. However, conventional industrial technologies based on the production of pyrogenic SiO_2 are characterized by high energy consumption, the use of expensive raw materials, and a significant environmental burden. Therefore, the development of resource-efficient and environmentally safe alternative technologies based on industrial wastes and technogenic raw materials represents a pressing scientific and practical challenge.*

In this study, a fluoroammonium method for synthesizing highly dispersed amorphous SiO_2 based on technogenic wastes of the metallurgical industry—copper smelting slags and microsilica obtained from ferrosilicon production—is proposed. The process involves the conversion of SiO_2 into ammonium hexafluorosilicate ($(NH_4)_2SiF_6$, GFSA) using ammonium fluoride, followed by hydrolysis in the presence of ammonium hydroxide. This technology enables the regeneration of reagents, particularly ammonium fluoride, thereby enhancing the economic and environmental efficiency of the process.

The structural and physicochemical properties of the synthesized SiO_2 samples were investigated using SEM/TEM, BET surface area analysis, FTIR spectroscopy, and adsorption experiments. The results demonstrated that SiO_2 possesses an amorphous structure, spherical morphology, and a well-developed specific surface area. Adsorption activity was evaluated using methylene blue and Congo red dyes as model adsorbates. Comparative analysis confirmed that, in some cases, SiO_2 obtained from technogenic raw materials exhibits properties comparable to or superior to those of A-60 grade pyrogenic SiO_2.

Keywords: *highly dispersed amorphous SiO_2, fluoroammonium method, technogenic raw materials, adsorption properties, comparative analysis with pyrogenic SiO_2.*

Тулаганов Сардор Анварович
Искандаров Шухрат Чориевич
Институт ионно-плазменных и лазерных технологий им. У.А. Арифова Старший научный сотрудник

СВОЙСТВА ВЫСОКОДИСПЕРСНОГО АМОРФНОГО SiO_2

Аннотация. *В настоящее время высокодисперсный аморфный диоксид кремния (SiO_2) широко применяется в адсорбции, катализе, композиционных материалах и экологических технологиях как важный функциональный материал. Однако традиционные промышленные технологии, основанные на производстве пирогенного SiO_2, характеризуются высоким энергопотреблением, использованием дорогостоящего сырья и значительной экологической нагрузкой. В связи с этим разработка ресурсосберегающих и экологически безопасных альтернативных технологий на основе промышленных отходов и техногенного сырья является актуальной научно-практической задачей.*

В данной работе предложен фтораммонийный метод синтеза высокодисперсного аморфного SiO_2 на основе техногенных отходов металлургической промышленности шлаков медеплавильного производства и микрокремнезёма, получаемого при производстве ферросилиция. Процесс включает превращение SiO_2 с использованием фторида аммония в гексафторсиликат аммония ($(NH_4)_2SiF_6$, ГФСА) с последующим гидролизом в присутствии гидроксида аммония. Данная технология обеспечивает регенерацию реагентов, в частности фторида аммония, что повышает экономическую и экологическую эффективность процесса.

Структурные и физико-химические свойства синтезированных образцов SiO_2 исследованы методами SEM/TEM, BET, FTIR и адсорбционных экспериментов. Полученные результаты показали, что SiO_2 обладает аморфной структурой, сферической морфологией и развитой удельной поверхностью. Адсорбционная активность оценивалась на примере метиленового синего и конго красного. Сравнительный анализ подтвердил, что SiO_2, полученный из техногенного сырья, в ряде случаев обладает свойствами, близкими или превосходящими характеристики пирогенного SiO_2 марки А-60.

Ключевые слова: *высокодисперсный аморфный SiO_2, фтораммонийный метод, техногенное сырьё, адсорбционные свойства, сравнительный анализ с пирогенным SiO_2.*

Tulaganov Sardor Anvarovich
Iskandarov Shuxrat Choriyevich
U.A. Arifov nomidagi ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti katta ilmiy hodim

YUQORI DISPERSLI AMORF SiO_2 XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Hozirgi kunda yuqori dispersli amorf kremniy dioksidi (SiO_2) adsorbsiya, kataliz, kompozit materiallar va ekologik texnologiyalarda muhim funksional material sifatida keng qo'llanilmoqda. Biroq pirogen SiO_2 ishlab chiqarishga asoslangan an'anaviy sanoat texnologiyalari yuqori energiya sarfi, qimmat xomashyo va sezilarli ekologik yuklama bilan tavsiflanadi. Shu sababli sanoat chiqindilari va texnogen xomashyolardan foydalanishga asoslangan, resurs-tejamkor va ekologik xavfsiz muqobil texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.*

Mazkur tadqiqotda metallurgiya sanoati texnogen chiqindilari mis eritish shlaklari hamda ferrosilitsiy ishlab chiqarishidan olingan mikrokremnezem asosida yuqori dispersli amorf SiO_2 ni sintez qilishning ftorammoniy usuli taklif etildi. Jarayon SiO_2 ning ammoniy ftoridi yordamida geksaflorsilikat ammoniy ($(NH_4)_2SiF_6$, GFSA) ga aylantirilishi va keyinchalik ammoniy gidroksidi ishtirokida gidrolizlanishini o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiya reaktivlarning, xususan ammoniy ftoridning qayta tiklanishini ta'minlab, jarayonning iqtisodiy va ekologik samaradorligini oshiradi.

Sintez qilingan SiO_2 namunalarining strukturaviy va fizik-kimyoviy xususiyatlari SEM/TEM, BET, FTIR hamda adsorbsion tajribalar yordamida o'rganildi. Natijalar SiO_2 ning amorf tuzilishga, sferik morfologiyaga va rivojlangan sirt maydoniga ega ekanligini ko'rsatdi. Adsorbsion faollik metilen ko'k va Kongo qizil bo'yoqlari misolida baholandi. Qiyosiy tahlillar texnogen xomashyodan olingan SiO_2 ayrim holatlarda A-60 markali pirogen SiO_2 ga yaqin yoki undan ustun xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: *yuqori dispersli amorf SiO_2, ftorammoniy usuli, texnogen xomashyo, adsorbsion xususiyatlar, pirogen SiO_2 bilan qiyosiy tahlil.*

Kirish

Yuqori dispersli amorf kremniy dioksidi (SiO_2) rivojlangan sirt maydoni, kimyoviy barqarorligi hamda sirt funksional guruhlarining xilma-xilligi tufayli zamonaviy sanoat tarmoqlarida muhim funksional material sifatida keng qo'llanilmoqda [1–4]. Xususan, yuqori dispersli SiO_2 suv va oqava muhitlarni tozalashda samarali adsorbent, kataliz jarayonlarida katalizator tashuvchisi, shuningdek polimer, rezina va qurilish materiallari asosidagi kompozitlarda mustahkamlovchi hamda modifikatsiyalovchi komponent sifatida katta amaliy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, amorf SiO_2 ning nanoo'lchamli shakllari farmatsevtika, kosmetika va oziq-ovqat sanoatida ham qo'shimcha funksional xossalarga ega material sifatida qo'llanilmoqda [5, 6].

Hozirgi vaqtda yuqori dispersli SiO_2 asosan pirogen yoki cho'ktirish usullari orqali olinadi [2, 7]. Pirogen SiO_2 ishlab chiqarish texnologiyasi yuqori haroratlar, katta energiya sarfi hamda qimmat va ekologik jihatdan xavfli xomashyolardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Ushbu usul natijasida yuqori tozalikka ega, sferik shaklli va nisbatan tor o'lcham taqsimotiga ega zarralar hosil bo'lishiga qaramay, jarayonning yuqori karbon izi va ekologik yuklamasi uning sanoat miqyosida barqaror qo'llanilishini cheklaydi [3, 7].

Cho'ktirish usullari suyuq fazada kremniy birikmalarining gidrolizi va keyingi cho'ktirilishiga asoslanadi [1, 2, 11]. Ushbu texnologiyalar nisbatan past haroratlarda amalga oshirilsa-da, ko'p bosqichli jarayonlar, reaktivlarning katta sarfi hamda katta hajmdagi suyuq chiqindilar hosil bo'lishi bilan ajralib turadi [6, 11]. Bundan tashqari, cho'ktirilgan SiO_2 ning strukturaviy va teksturaviy xususiyatlari jarayon parametrlariga kuchli bog'liq bo'lib, mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlashni murakkablashtiradi [1, 10, 15]. Ushbu omillar yuqori dispersli SiO_2 ni keng ko'lamda va iqtisodiy jihatdan samarali ishlab chiqarishni cheklovchi asosiy sabablar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu munosabat bilan sanoat chiqindilari va texnogen xomashyolardan foydalanishga asoslangan, energiya va resurs tejamkor, ekologik xavfsiz texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda [17]. Bunday yondashuv nafaqat yuqori dispersli amorf SiO_2 olish imkonini beradi, balki metallurgiya sanoati chiqindilarini qayta ishlash orqali atrof-muhitga tushadigan yuklamani kamaytirish va ikkilamchi xomashyo resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda "yashil" va muqobil texnologiyalarga asoslangan SiO_2 sintezi usullariga qiziqish ortib borayotgan bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi xomashyo bazasining cheklanganligi yoki sanoat miqyosida joriy etishdagi murakkabliklar bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda [17–19].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, texnogen xomashyodan olinadigan SiO_2 ning strukturaviy, sirt va adsorbsion xususiyatlarini tijorat pirogen SiO_2 bilan kompleks qiyosiy baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada

tizimlashtirilmagan [6, 17]. Bu holat mazkur yo‘nalishda yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatadi [25].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi metallurgiya sanoati texnogen chiqindilari va ikkilamchi xomashyolar asosida ftorammoniy texnologiyasi yordamida sintez qilingan yuqori dispersli amorf kremniy dioksidi (SiO_2) ning strukturaviy, teksturaviy va sirt xususiyatlarini kompleks baholash hamda ularni tijorat pirogen SiO_2 namunalari bilan qiyosiy tahlil qilishdan iboratdir [1, 3, 6, 17]. Tadqiqotda mis eritish shlaklari va ferrosilitsiy ishlab chiqarishidan hosil bo‘ladigan mikrokremnezem boshlang‘ich xomashyo sifatida tanlanib, ftorlovchi reaktiv sifatida ammoniy ftoridi (NH_4F) qo‘llanildi. NH_4F ning qayta tiklanish imkoniyati ushbu texnologiyaning resurs-tejamkorligi va ekologik samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi [18, 25].

Tadqiqod metodologiyasi.

Yuqori dispersli amorf SiO_2 ni sintez qilish jarayoni ftorammoniy texnologiyasiga asoslanib, kremniy oksidining geksaflorsilikat ammoniy orqali oraliq birikmaga aylanishi va keyinchalik gidrolizlanishi bosqichlarini o‘z ichiga oladi [1, 6, 17]. Ushbu yondashuv SiO_2 ni selektiv ajratish, sintez jarayoni parametrlarini boshqarish hamda reaktivlarning qayta tiklanishini ta’minlash imkonini beradi [6, 18, 25]. Ftorammoniy usulining umumiy texnologik ketma-ketligi 1-rasmda sxematik tarzda keltirilgan.

Dastlabki bosqichda texnogen xomashyo tarkibidagi SiO_2 ammoniy ftoridi (NH_4F) bilan o‘zaro ta’sirlashib, geksaflorsilikat ammoniy ($(NH_4)_2SiF_6$) hosil qiladi [1, 6]. Ftorlash jarayoni 50–200 °C harorat oralig‘ida olib borilib, NH_4F miqdori SiO_2 ga nisbatan stexiometrik nisbatda tanlandi. Ushbu jarayonning kimyoviy mohiyati (1)-reaksiya orqali ifodalanadi [1, 6]:

$$SiO_2 + 6NH_4F \rightarrow (NH_4)_2SiF_6 + 4NH_3 + 2H_2O \quad (1)$$


Agar ftorlash jarayoni ammoniy biftoridi ishtirokida amalga oshirilsa, reaksiyaning soddalashtirilgan ko‘rinishi (2)-reaksiyada keltirilgan [6]:

$$SiO_2 + 3NH_4F{\cdot}HF \rightarrow (NH_4)_2SiF_6 + NH_3 + 2H_2O \quad (2)$$

Hosil bo‘lgan geksaflorsilikat ammoniy suvda yaxshi eruvchan kristall modda bo‘lib, texnologik sxemaga muvofiq (1-rasmga qarang), keyingi bosqichda ammoniy gidroksidi (NH_4OH) eritmasida gidrolizlanadi [1, 6]. Gidroliz jarayonida muhitning pH qiymati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u ishqoriy sharoitda (pH ≈ 8–10) ushlab turildi. Ushbu bosqichda geksaflorsilikat ammoniyning parchalanishi natijasida yuqori dispersli amorf SiO_2 cho‘kma holida ajralib chiqadi va ammoniy ftoridi qayta hosil bo‘ladi, bu jarayon (3)-reaksiya bilan ifodalanadi [6, 18]:

$$(NH_4)_2SiF_6 + 4NH_4OH \rightarrow SiO_2\downarrow + 6NH_4F + 2H_2O \quad (3)$$

Cho‘kma holida hosil bo‘lgan SiO_2 texnologik sxemaga muvofiq filtratsiya yo‘li bilan ajratilib, distillangan suv bilan yuvildi va keyinchalik quritildi (1-rasm).



1-rasm. *Ftorammoniy usuli bo‘yicha SiO_2 sintez sxemasi*

Sintez jarayonida pH darajasi, harorat hamda boshlang‘ich reaktivlar konsentratsiyasi qat’iy nazorat qilinib, ularning SiO_2 zarralarining o‘lchami, sirt tuzilishi va disperslik darajasiga ta’siri baholandi. Ushbu parametrlarni optimallashtirish yuqori dispersli amorf SiO_2 ning barqaror strukturaviy va funksional xususiyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi [1, 5, 10].

Sintez qilingan yuqori dispersli amorf SiO_2 namunalarining strukturaviy, teksturaviy va funksional xususiyatlarini kompleks baholash maqsadida zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari qo‘llanildi [1, 2, 6]. Har bir usul amorf SiO_2 ning muayyan xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirildi.

SiO_2 zarralarining morfologiyasi, shakli va o‘lchamlari bo‘yicha taqsimotini o‘rganish uchun skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) va transmissiyali elektron mikroskopiya (TEM) usullaridan foydalanildi [11, 15]. Ushbu usullar yordamida zarralarning sferik shakli, agregatsiya darajasi hamda nanoo‘lchamli tuzilishi baholandi.

Sintez qilingan namunalarining kristall yoki amorf holatini aniqlash rentgen difraksiyasi (XRD) usuli orqali amalga oshirildi [1, 6]. Difraktogrammalarda aniq kristall cho‘qqilarning yo‘qligi va keng diffuz maksimumlarning kuzatilishi SiO_2 ning amorf tuzilishga ega ekanligini tasdiqlovchi asosiy mezon sifatida qabul qilindi [1, 5].


SiO_2 ning teksturaviy xususiyatlari, xususan o‘ziga xos sirt maydoni va g‘ovaklik ko‘rsatkichlari azot adsorbsiya–desorbsiya izotermalari asosida BET (Brunauer–Emmett–Teller) usuli yordamida aniqlandi [8–10, 15]. Olingan natijalar yuqori dispersli SiO_2 ning sirt rivojlanganligini baholash va pirogen SiO_2 bilan qiyoslash imkonini berdi.

Sirt kimyoviy holati va funksional guruhlarini aniqlash uchun Furye o‘zgartirishli infraqizil spektroskopiya (FTIR) qo‘llanildi [5, 6]. FTIR spektrlari asosida silanol (≡Si–OH) guruhlarining mavjudligi, adsorbsiyalangan suv va Si–O–Si bog‘lanishlari aniqlanib, sirt gidroksillanish darajasi baholandi [5].

Sintez qilingan SiO_2 ning adsorbsion xususiyatlari suvli muhitda model bo‘yoqlar — metilen ko‘k va Kongo qizil yordamida tadqiq qilindi [20, 21]. Adsorbsiya jarayonlari bo‘yoqlar konsentratsiyasining vaqt bo‘yicha o‘zgarishini spektrofotometrik usulda aniqlash orqali baholandi [22, 23]. Olingan natijalar SiO_2 ning sirt holati va elektrokinetik xususiyatlari bilan bog‘liq holda tahlil qilindi [20, 24].

Tahlillar va natijalar

Sintez qilingan yuqori dispersli amorf SiO_2 zarralarining morfologiyasi va o‘lchamlari skanerlovchi hamda transmissiyali elektron mikroskopiya (SEM/TEM) yordamida tadqiq qilindi. Olingan SEM mikrotasvirlar (2-rasm) SiO_2 zarralarining asosan sferik shaklga ega ekanligini ko‘rsatdi. Zarralarning sferik morfologiya cho‘kma hosil bo‘lish jarayonida sirt energiyasining minimallashuvi va kolloid zarralarning o‘sish mexanizmlari bilan izohlanadi [1, 2, 11]. Yuqori dispersli materiallar uchun xos bo‘lgan ushbu shakl sirt energiyasining minimallashuvi bilan bog‘liq ekanligi adabiyotlarda qayd etilgan [2, 10].




2-rasm. *Texnogen xomashyodan olingan SiO_2 ning SEM tasviri*

SEM tasvirlar (2-rasm) SiO_2 zarralarining asosan sferik shaklga ega ekanligini va nanoo‘lchamli agregatlar hosil qilishini ko‘rsatadi. Zarralar o‘lchamining aniq taqsimoti esa TEM va BET natijalari bilan kompleks baholandi. Bunday tor o‘lcham taqsimoti SiO_2 ning teksturaviy xususiyatlarini yaxshilashga, xususan sirt maydonining rivojlanishi va adsorbsion faollikning ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [8–10, 15]. TEM tahlillari natijalari birlamchi zarralarning nanoo‘lchamli ekanligini, ayrim holatlarda esa ularning yumshoq agregatlar hosil qilishini ko‘rsatdi, bu holat amorf SiO_2 uchun xos strukturaviy xususiyat sifatida baholanadi [5, 6].

Sintez jarayonida muhitning pH qiymati va geksaflorsilikat ammoniy (GFSA) konsentratsiyasining zarralar morfologiyasi va o‘lchamiga sezilarli ta’siri aniqlangan bo‘lib, bu holat SEM tasvirlarda kuzatilgan umumiy morfologik tendensiya ko’rsatadi. Xususan, ishqoriy muhitda (pH ≈ 8–10) gidroliz jarayonining tezlashuvi natijasida mayda va bir tekis o‘lchamdagi SiO_2 zarralarining hosil bo‘lishi kuzatildi. GFSA konsentratsiyasining oshishi esa yadro hosil bo‘lish va o‘sish jarayonlari nisbatini o‘zgartirib, zarralar o‘lchamining kattalashishiga hamda agregatsiya darajasining ortishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Bu holat kolloid tizimlar uchun xos bo‘lgan yadro–o‘sish mexanizmlari bilan yaxshi mos keladi [1, 2, 11].

Shunday qilib, pH qiymati va GFSA konsentratsiyasini optimallashtirish yuqori dispersli, morfologik jihatdan barqaror amorf SiO_2 zarralarini olishda hal qiluvchi omillardan biri ekanligi SEM tahlili (2-rasm) asosida ko‘rsatildi.

Sintez qilingan yuqori dispersli amorf SiO_2 namunalarining teksturaviy xususiyatlari azot adsorbsiya–desorbsiya izotermalari asosida BET (Brunauer–Emmett–Teller) usuli yordamida baholandi [8–10, 15]. Olingan izotermalar tahlili (3-rasm) SiO_2 ning rivojlangan sirt maydoniga ega ekanligini ko‘rsatdi, bu esa uning yuqori disperslik darajasi va nanoo‘lchamli zarralar hosil bo‘lishi bilan bevosita bog‘liqdir [2, 10]. BET bo‘yicha aniqlangan sirt maydonining yuqori qiymatlari sintez jarayonida cho‘kma hosil bo‘lish tezligi va yadro–o‘sish mexanizmlarining muvozanatda kechganligini ko‘rsatadi, bu kolloid tizimlar uchun xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlarga mos keladi [1, 2].



3-rasm. *Azot adsorbsiya–desorbsiya izotermasi (BET)*

3-rasmda keltirilgan azot adsorbsiya–desorbsiya izotermalarining shakli va kuzatilgan gisterezis halqalari SiO_2 namunalari mezog‘ovakli tuzilishga ega ekanligini tasdiqlaydi [8, 9]. G‘ovaklikning bunday turi yuqori dispersli amorf SiO_2 uchun xos bo‘lib, u asosan zarralar agregatsiyasi natijasida ikkilamchi g‘ovaklarning shakllanishi bilan izohlanadi [10, 15]. G‘ovaklarning mavjudligi va ularning nisbatan bir tekis taqsimlanganligi (3-rasm) materialning adsorbsion va katalitik jarayonlardagi samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi [14, 20].

Olingan teksturaviy ko‘rsatkichlar tijorat A-60 markali pirogen SiO_2 bilan qiyosiy tahlil qilindi [3, 4]. Qiyoslash natijalari shuni ko‘rsatdiki, texnogen xomashyodan ftorammoniy texnologiyasi yordamida sintez qilingan SiO_2 ning BET sirt maydoni ayrim hollarda A-60 pirogen SiO_2 ga yaqin yoki undan past bo‘lsa-da, 3-rasmda aks etgan mezog‘ovakli tuzilmaning rivojlanganligi uning amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini kengaytiradi [6, 17]. Ayniqsa, sirt gidroksillanish darajasi va g‘ovaklar orqali faol markazlarning ochiqligi adsorbsion jarayonlarda muhim afzallik yaratadi [5, 20]. Izotermalarning shakli IUPAC tasnifiga ko‘ra IV-turga mansub bo‘lib, bu mezog‘ovakli strukturaning mavjudligini tasdiqlaydi (3-rasm).

Shunday qilib, teksturaviy xususiyatlar tahlili va azot adsorbsiya–desorbsiya izotermalarining tahlili (3-rasm) texnogen xomashyodan olingan amorf SiO_2 ning strukturaviy jihatdan barqaror, rivojlangan sirtga ega va tijorat pirogen SiO_2 bilan raqobatbardosh material ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa uni adsorbsiya va sirtga bog‘liq jarayonlarda istiqbolli material sifatida baholash imkonini beradi [17, 25].


Sintez qilingan yuqori dispersli amorf SiO_2 namunalarining sirt kimyoviy holati Furye o‘zgartirishli infraqizil spektroskopiya (FTIR) yordamida o‘rganildi [5, 6]. Olingan FTIR spektrlari amorf kremniy dioksidiga xos bo‘lgan asosiy yutilish chiziqlarining mavjudligini tasdiqladi. Xususan, 1000–1200 sm^{-1} oralig‘ida kuzatilgan intensiv keng polosalar Si–O–Si bog‘lanishlarining asimmetrik tebranishlariga mos keladi va materialning amorf tuzilishini ko‘rsatadi [5, 6]. 780–820 sm^{-1} atrofidagi yutilish chiziqlari esa Si–O–Si bog‘lanishlarining simmetrik tebranishlari bilan bog‘liq bo‘lib, sintez qilingan SiO_2 ning skelet tuzilmasi barqaror ekanligini tasdiqlaydi [5].

Spektrlarning yuqori to‘lqin sonlari sohasida (3200–3600 sm^{-1}) kuzatilgan keng yutilish polosalari SiO_2 sirtida adsorbsiyalangan suv molekulalari va vodorod bog‘lari orqali bog‘langan silanol (≡Si–OH) guruhlarining mavjudligidan dalolat beradi [5, 6]. Shuningdek, 1600–1650 sm^{-1} atrofidagi yutilish chiziqlari suv molekulalarining deformatsion tebranishlariga tegishli bo‘lib, sirtning gidrofil xususiyatlarini ko‘rsatadi [6]. Ayrim namunalarda 3700–3750 sm^{-1} yaqinida zaif, ammo aniq cho‘qqilarning kuzatilishi sirt bo‘ylab nisbatan erkin joylashgan izolyatsiyalangan silanol guruhlarining mavjudligi bilan izohlanadi [5].

FTIR natijalari sintez qilingan amorf SiO_2 ning yuqori darajada gidroksillangan sirtga ega ekanligini ko‘rsatadi. Sirt gidroksillanishi sintez sharoitlari, xususan gidroliz bosqichidagi pH qiymati va muhitdagi suv miqdori bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, silanol guruhlarining ko‘pligi materialning adsorbsion faolligi va kimyoviy modifikatsiyaga moyilligini oshiradi [5, 20]. Shu jihatdan, texnogen xomashyodan ftorammoniy texnologiyasi yordamida olingan SiO_2 ning sirt xususiyatlari uni adsorbsiya va kataliz jarayonlarida qo‘llash uchun qulay material sifatida baholash imkonini beradi [14, 17].

Sintez qilingan yuqori dispersli amorf SiO_2 namunalarining adsorbsion xususiyatlari suvli muhitda model bo‘yoqlar — metilen ko‘k (MK) va Kongo qizil (KQ) yordamida baholandi [20, 21]. Olingan natijalar SiO_2 ning har ikkala bo‘yoqqa nisbatan sezilarli adsorbsion faollikka ega ekanligini ko‘rsatdi. MK bo‘yicha yuqori adsorbsion samaradorlik asosan kationli bo‘yoq molekulalarining SiO_2 sirtidagi manfiy zaryadlangan faol markazlar bilan elektrostatik o‘zaro ta’siri bilan izohlanadi [20, 22]. KQ bo‘yicha adsorbsion ko‘rsatkichlar nisbatan pastroq bo‘lsa-da, ularning qiymatlari sirt tuzilishining rivojlanganligi va g‘ovaklik darajasi bilan bevosita bog‘liqligini namoyon etdi, bu holat 4-rasm (a, b) da keltirilgan spektral va izotermik natijalar bilan ham tasdiqlanadi [21, 24].

Adsorbsion jarayonlarning samaradorligi SiO_2 zarralarining elektrokinetik potensiali (ζ-potensial) bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muhitning pH qiymati ortishi bilan SiO_2 sirtidagi manfiy zaryad kuchayadi, bu esa kationli bo‘yoqlar, xususan metilen ko‘k adsorbsiyasining sezilarli ortishiga olib keladi [20, 23]. Aksincha, anionli Kongo qizil bo‘yoq uchun elektrostatik itarilish omillari kuzatiladi, biroq 4-rasmda ko‘rsatilganidek, sirt g‘ovaklarining rivojlanganligi hamda vodorod bog‘lari hosil bo‘lishi adsorbsion jarayonni qisman kompensatsiyalaydi. Bu holat adsorbsiya mexanizmlarining kompleks xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi [21, 24].



4-rasm. Si_{MS} uchun Kongo qizil (KQ) ning suv muhitining pH ga bog‘liq yutish spektrlari (a) va adsorbsion izotermasi (b).

Sirt tuzilishi va adsorbsion xususiyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik FTIR va BET tahlillari natijalari bilan ham tasdiqlandi. Xususan, yuqori darajada gidroksillangan sirt, ya’ni silanol (≡Si–OH) guruhlarining ko‘pligi adsorbsion faol markazlar sonini oshirib, bo‘yoq molekulalarining SiO_2 yuzasiga mustahkam birikishini ta’minlaydi [5, 20]. Shu bilan birga, 4-rasmda aks etgan adsorbsion izotermalar mezog‘ovakli tuzilmaning bo‘yoq molekulalarining sirt va ichki g‘ovaklarga diffuziyasini osonlashtirishini ko‘rsatadi, bu esa adsorbsion sig‘imning ortishiga xizmat qiladi [8–10, 15].

Umuman olganda, texnogen xomashyodan ftorammoniy texnologiyasi yordamida olingan amorf SiO_2 ning adsorbsion xususiyatlari uning rivojlangan sirt tuzilishi, yuqori gidroksillanish darajasi va qulay elektrokinetik xususiyatlari bilan belgilanadi. 4-rasmda keltirilgan natijalar ushbu omillarning adsorbsion samaradorlikka bevosita ta’sirini yaqqol namoyon etadi. Bu esa mazkur materialni suvli muhitlarni tozalash va rangli ifloslantiruvchilarni olib tashlashda istiqbolli adsorbent sifatida baholash imkonini beradi [20, 25].

Sintez qilingan yuqori dispersli amorf SiO_2 ning asosiy fizik-kimyoviy va funksional xususiyatlari tijorat A-60 markali pirogen SiO_2 bilan qiyosiy tahlil qilindi. Qiyoslash materiallarning amaliy qo‘llanish nuqtai nazaridan muhim bo‘lgan sirt maydoni, tozaligi, adsorbsion faolligi hamda texnologik ustunliklari asosida amalga oshirildi [3, 4].

BET tahlili natijalariga ko‘ra, texnogen xomashyodan ftorammoniy texnologiyasi yordamida olingan SiO_2 rivojlangan sirt maydoniga ega bo‘lib, uning qiymatlari ayrim namunalarda A-60 pirogen SiO_2 ga yaqin bo‘ldi. Pirogen SiO_2 odatda yuqori sirt maydoni bilan ajralib tursa-da, sintez qilingan amorf SiO_2 ning mezog‘ovakli tuzilishi va sirt faol markazlarining ochiqligi uni adsorbsion jarayonlar uchun raqobatbardosh materialga aylantiradi [3, 6, 10].

Materiallarning tozaligi jihatidan pirogen SiO_2 an’anaviy ravishda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lsa, texnogen xomashyodan olingan SiO_2 ning tozaligi ham sanoat va ekologik qo‘llanmalar uchun yetarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Ftorammoniy texnologiyasi SiO_2 ni selektiv ajratish imkonini bergani sababli, ko‘plab begona oksidlar va aralashmalar samarali tarzda ajratib tashlanadi [1, 6, 17].

Turli adsorbentlarning Kongo qizil (KQ) va metilen ko‘k (MK) bo‘yoqlariga nisbatan adsorbsion qobiliyatlari 1-jadvalda keltirilgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Si_{MS} namunasi KQ va MK bo‘yicha sezilarli adsorbsion sig‘imga ega bo‘lib, ayrim hollarda A-60 pirogen SiO_2 hamda boshqa past xarajatli adsorbentlar bilan taqqoslanadigan natijalarni namoyon etadi (1-jadval).

1-jadval.

A-60, Si_{MS} kabi turli adsorbentlarning MK va KQ ga nisbatan adsorbsion qobiliyati.

Adsorbent	***MK, Q (mg/g)***	***KQ, Q (mg/g)***
A-60 pirogen SiO_2	18.0	-
Uchuvchan kul	-	22.12
Faollashtirilgan ko‘mir chiqindilari	-	15.38
Kofe chiqindilari asosidagi adsorbent	25.73	8.87
Si_{MS} (ushbu ish)	20.0	11.0

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Si_{MS} namunasi metilen ko'k bo'yicha nisbatan yuqori, Kongo qizil bo'yicha esa o'rtacha adsorbsion sig'im namoyon etadi, bu esa uning sirt xususiyatlari va elektrokinetik holati bilan izohlanadi.

Adsorbsion faollikni baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, texnogen xomashyodan sintez qilingan SiO_2 metilen ko'k va Kongo qizil bo'yoqlariga nisbatan yuqori adsorbsion samaradorlik namoyon etadi. Ushbu holat uning rivojlangan sirt tuzilishi, yuqori gidroksillanish darajasi va qulay elektrokinetik xususiyatlari bilan izohlanadi [5, 20]. Ayrim sharoitlarda adsorbsion ko'rsatkichlar pirogen SiO_2 bilan taqqoslanadigan darajada bo'lib, bu holat 1-jadvalda keltirilgan qiyosiy ma'lumotlar bilan ham tasdiqlanadi [3, 4].

Texnologik jihatdan ftorammoniy usulining muhim ustunliklari mavjud. Pirogen SiO_2 ishlab chiqarish yuqori haroratlar va katta energiya sarfini talab qilsa, taklif etilgan texnologiya nisbatan past haroratlarda amalga oshiriladi [3, 7]. Bundan tashqari, texnogen xomashyodan foydalanish qimmat va cheklangan tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi hamda sanoat chiqindilarini qayta ishlash orqali ekologik yuklamani sezilarli darajada pasaytiradi [18, 19]. Reaktivlarning qayta tiklanish imkoniyati esa jarayonning iqtisodiy samaradorligini yanada oshiradi [18, 25].

Shu tariqa, 1-jadvalda keltirilgan qiyosiy tahlil natijalari texnogen xomashyodan olingan yuqori dispersli amorf SiO_2 ning strukturaviy va adsorbsion xususiyatlari hamda texnologik afzalliklari jihatidan tijorat pirogen SiO_2 ga munosib muqobil material ekanligini ko'rsatadi [17, 25].

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida metallurgiya sanoati texnogen chiqindilari asosida ftorammoniy texnologiyasi yordamida sintez qilingan kremniy dioksidi yuqori dispersli va amorf tuzilishga ega ekanligi aniqlandi. SEM/TEM va XRD tahlillari SiO_2 zarralarining asosan sferik shaklda, nanoo'lchamli va kristall fazalardan holi ekanligini tasdiqladi, bu esa sintez jarayonining samarali va barqaror kechganligini ko'rsatadi.

BET, FTIR va adsorbsion tadqiqotlar natijalari sintez qilingan SiO_2 ning rivojlangan sirt maydoni, mezog'ovakli tuzilma va yuqori darajada gidroksillangan sirtga ega ekanligini namoyon etdi. Mazkur sirt xususiyatlari metilen ko'k va Kongo qizil bo'yoqlari misolida baholangan adsorbsion faollikning yuqori bo'lishini ta'minladi. Ayrim sharoitlarda texnogen xomashyodan olingan amorf SiO_2 ning adsorbsion ko'rsatkichlari tijorat pirogen SiO_2 ga yaqin yoki undan ustun ekanligi aniqlandi, bu esa uning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari ftorammoniy usulining muhim texnologik ustunliklarga ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv nisbatan past haroratlarda amalga oshiriladi, reaktivlarning qayta tiklanishini ta'minlaydi va qimmat tabiiy xomashyolar o'rniga sanoat chiqindilaridan foydalanish imkonini beradi. Natijada jarayonning energiya sarfi kamayadi va ekologik yuklama sezilarli darajada pasayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Iler R. K. The Chemistry of Silica: Solubility, Polymerization, Colloid and Surface Properties, and Biochemistry. — New York: Wiley, 1979.

2. Brinker C. J., Scherer G. W. Sol–Gel Science: The Physics and Chemistry of Sol–Gel Processing. — Boston: Academic Press, 1990.

3. Bergna H. E., Roberts W. O. (eds.). Colloidal Silica: Fundamentals and Applications. — Boca Raton: CRC Press, 2005.

4. Legrand A. P. The Surface Properties of Silicas. — Chichester: Wiley, 1998.

5. Zhuravlev L. T. The surface chemistry of amorphous silica. *Colloids and Surfaces A: Physicochemical and Engineering Aspects*, 2000, 173, 1–38.

6. Vansant E. F., Van der Voort P., Vrancken K. C. Characterization and Chemical Modification of the Silica Surface. — Amsterdam: Elsevier, 1995.

7. Hench L. L., West J. K. The sol–gel process. *Chemical Reviews*, 1990, 90, 33–72.

8. Sing K. S. W., Everett D. H., Haul R. A. W., Moscou L., Pierotti R. A., Rouquérol J., Siemieniewska T. Reporting physisorption data for gas/solid systems with special reference to the determination of surface area and porosity. *Pure and Applied Chemistry*, 1985, 57, 603–619.

9. Brunauer S., Emmett P. H., Teller E. Adsorption of gases in multimolecular layers. *Journal of the American Chemical Society*, 1938, 60, 309–319.

10. Gregg S. J., Sing K. S. W. Adsorption, Surface Area and Porosity. — London: Academic Press, 1982.

11. Pierre A. C., Pajonk G. M. Chemistry of aerogels and their applications. *Chemical Reviews*, 2002, 102, 4243–4265.

12. Deng Y., Zhao D. Ordered mesoporous materials synthesized by non-ionic surfactant templating. *Advanced Materials*, 2001, 13, 445–449.

13. Wang S., Zhu Z. Characterisation and environmental application of mesoporous materials. *Journal of Hazardous Materials*, 2007, 136, 946–967.

14. Bansal R. C., Donnet J.-B., Stoeckli F. Active Carbon. — New York: Marcel Dekker, 1988.

15. Lowell S., Shields J. E., Thomas M. A., Thommes M. Characterization of Porous Solids and Powders: Surface Area, Pore Size and Density. — Dordrecht: Springer, 2004.

16. Mullin J. W. Crystallization. — Oxford: Butterworth-Heinemann, 2001.

17. Kordás K., Beke S., Leino A.-R., Tóth G., Uusimäki A., Vähäkangas J., Jantunen H. Production of nanostructured silica from industrial by-products. *Journal of the European Ceramic Society*, 2003, 23, 1247–1253.

18. Ahmaruzzaman M. A review on the utilization of fly ash. *Progress in Energy and Combustion Science*, 2010, 36, 327–363.

19. Querol X., Moreno N., Umaña J. C., Alastuey A., Hernández E., López-Soler A., Plana F. Synthesis of zeolites from coal fly ash: An overview. *International Journal of Coal Geology*, 2002, 50, 413–423.

20. Mohan D., Pittman C. U. Activated carbons and low-cost adsorbents for remediation of water pollution. *Journal of Hazardous Materials*, 2006, 137, 762–811.

21. Foo K. Y., Hameed B. H. Insights into the modeling of adsorption isotherm systems. *Chemical Engineering Journal*, 2010, 156, 2–10.

22. Lagergren S. About the theory of so-called adsorption of soluble substances. *Kongliga Svenska Vetenskapsakademiens Handlingar*, 1898, 24, 1–39.

23. Ho Y. S., McKay G. Pseudo-second order model for sorption processes. *Process Biochemistry*, 1999, 34, 451–465.

24. Liu Y., Shen L. From Langmuir kinetics to first- and second-order rate equations for adsorption. *Desalination*, 2008, 223, 13–19.

25. Knez Ž., Markočič E., Leitgeb M., Primožič M., Knez Hrnčič M., Škerget M. Industrial applications of sol–gel derived materials. *Journal of Sol–Gel Science and Technology*, 2014, 70, 385–398.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

Ibadullayeva Gulhayo Shuxrat qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari unversiteti Jismoniy madaniyat va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

DUNYOVIY DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dunyoviy davlat va din munosabatlarining nazariy asoslari ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Sekulyarizm tushunchasining mazmuni, tarixiy genezisi hamda konstitutsiyaviy tamoyillari ochib beriladi. Davlat va diniy institutlar o‘rtasidagi ajratilganlik prinsipi, vijdon erkinligi, konfessiyalar tengligi va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik asoslab beriladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida sekulyar modelning ahamiyati va istiqbollari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *dunyoviylik, sekulyarizm, davlat, din, vijdon erkinligi, bag‘rikenglik, konfessiya, huquqiylik, neytrallik, barqarorlik.*

Ibadullayeva Gulhayo Shuxratovna
ассистента кафедры “Физической культуры и гуманитарных наук” Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА И РЕЛИГИИ

Аннотация: *В данной статье теоретические основы отношений светского государства и религии анализируются на основе социально-философского подхода. Раскрывается содержание, исторический генезис и конституционные принципы понятия секуляризма. Обосновывается принцип разделения между государственными и религиозными институтами, взаимосвязь между свободой совести, равенством конфессий и социальной стабильностью. Освещается значение и перспективы секулярной модели в условиях современной глобализации.*

Ключевые слова: *светскость, секуляризм, государство, религия, свобода совести, толерантность, конфессия, законность, нейтралитет, стабильность.*

Ibadullaeva Gulhayo Shukhrat kizi
Assistant of the Department of Physical Culture and Humanities of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN THE SECULAR STATE AND RELIGION

Abstract: *This article analyzes the theoretical foundations of the relationship between the secular state and religion based on a socio-philosophical approach. The content, historical genesis, and constitutional principles of the concept of secularism are revealed. The principle of separation between state and religious institutions, the connection between freedom of conscience, equality of confessions, and social stability are substantiated. The significance and prospects of the secular model in the context of modern globalization are highlighted.*

Keywords: *secularism, secularism, state, religion, freedom of conscience, tolerance, confession, legality, neutrality, stability.*

KIRISH. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida dunyoviy davlat va din munosabatlari masalasi dolzarb tarixiy-ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, diniy plyuralizmning kuchayishi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarni nazariy jihatdan qayta tahlil qilish ehtiyoji vujudga keldi. Dunyoviylik tamoyili siyosiy hokimiyatning diniy institutlardan ajratilganligi, barcha konfessiyalar oldida tenglik va vijdon erkinligining kafolatlanishi bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan sekulyarizm nafaqat huquqiy prinsip, balki jamiyat barqarorligini ta’minlovchi ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Dunyoviy davlat va din munosabatlarining nazariy asoslari, ularning tarixiy genezisi, konstitutsiyaviy tamoyillari hamda zamonaviy talqini tarixiy-ijtimoiy yondashuv asosida yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Dunyoviy davlat va din munosabatlarining nazariy asoslari bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda turli konseptual yondashuvlar mavjud. Xususan o‘rta sarlar Markaziy Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom singari buyuk mutafakkirlar erkin tafakkur, aql va tajribaga tayanish tamoyilini rivojlantirib, ilmiy va falsafiy bilishning mustaqil yo‘lini shakllanishiga xizmat qilgan bo‘lsa, klassik liberal tafakkur vakillari Jon Lokk, Sh.Monteskiy kabi mutafakkirlar davlat va cherkov ajratilishi hamda vijdon erkinligi g‘oyalarini asoslab bergan. Jan-Jak Russo esa fuqarolik dini konsepsiyasi orqali siyosiy birlik va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligini tahlil qilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda sekulyarizmning huquqiy, sotsiologik va siyosiy aspektlari kompleks yoritilib, diniy plyuralizm sharoitida davlat neytralligi masalasi markaziy o‘rin egallaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada dunyoviy davlat va din munosabatlarining nazariy asoslarini yoritishda kompleks ijtimoiy-falsafiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va mantiqiylik tamoyillariga tayanilib, sekulyarizm tushunchasining genezisi evolyutsion tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli orqali turli davlat modellari va nazariy konsepsiyalar o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar institutsional hamda normativ jihatdan o‘rganildi. Analiz va sintez metodlari yordamida umumiy xulosalar shakllantirilib, zamonaviy globallashuv sharoitida sekulyarizmning ijtimoiy ahamiyati konseptual ravishda asoslab berildi.

Natijalar va ularning tahlili. Dunyoviylik (sekulyarizm) – bu davlat hokimiyati va diniy institutlarning o‘zaro ajratilganligi, siyosiy boshqaruvning diniy aqidalardan mustaqil ravishda amalga oshirilishi hamda fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy va huquqiy tamoyildir. “Sekulyarizm atamasi lotincha *saeculum* – “davr”, “bu dunyo”, “zamonaviy hayot” ma’nolarini anglatadi”[1]. Dastlab bu tushuncha diniy (muqaddas) hayot bilan dunyoviy (ijtimoiy-siyosiy) hayot o‘rtasidagi tafovutni ifodalash uchun qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik u davlat boshqaruvining mustaqil, diniy institutlardan ajratilgan modelini anglatadigan nazariy kategoriya sifatida shakllandi.

Dunyoviylikning genezisi uzoq tarixiy jarayon mahsuli bo‘lib, u qadimgi sivilizatsiyalardan boshlab shakllangan siyosiy-diniy munosabatlarning evolyutsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. “Qadimgi jamiyatlarda siyosiy hokimiyat ko‘pincha diniy legitimatsiyaga tayangan. Qadimgi Sharq davlatlarida hukmdor “ilohiy vakil” sifatida talqin qilingan. O‘rta asr Yevropasida esa siyosiy hokimiyat bilan cherkov o‘rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo‘lib, ko‘pincha diniy institutlar siyosiy qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol o‘ynagan”[2]. Bu davr teokratik yoki konfessional davlat modellari ustuvor bo‘lgan bosqich sifatida tavsiflanadi.

Falsafa tarixida panteizm, deizm va dualizm kabi oqimlarning ayrim g‘oyalari islom olami mutafakkirlari ijodida ham o‘z aksini topgan. Ularning asarlarida diniy va dunyoviy qarashlarning o‘zaro kurashi hamda uyg‘unlashuvi jarayoni yaqqol namoyon bo‘ladi. Zakariyo ar-Roziy, al-Mutanabbiy, Abu Alo al-Ma’arriy kabi allomalar diniy dogmalarga zid, mustaqil tafakkurga asoslangan fikrlar ilgari surgan, diniy ta’limotdagi ayrim g‘oyalarni tanqidiy tahlil qilganlar[3]. Shuningdek, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom singari buyuk mutafakkirlar erkin tafakkur, aql va tajribaga tayanish tamoyilini rivojlantirib, ilmiy va falsafiy bilishning mustaqil yo‘lini shakllantirdilar. Ayniqsa, musulmon dunyosida keng tarqalgan “ikki haqiqat nazariyasi” diniy e’tiqod va ilmiy tafakkurning bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi hodisalar sifatida qaralishiga zamin yaratdi. Natijada bu qarashlar dunyoviy va ilmiy fikrning erkin rivojlanishi uchun falsafiy asos bo‘lib xizmat qildi.

“Sekulyar tafakkurning shakllanishida Uyg‘onish davri va ayniqsa Ma’rifatparvarlik davri muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Uyg‘onish davrida inson va tabiatga nisbatan ratsional yondashuv kuchaydi, inson aqlining mustaqilligi e’tirof etildi. Ma’rifatparvarlik davrida esa din va davlat munosabatlariga tanqidiy qarash shakllandi”[4]. Xususan, “Jon Lokk o‘zining “Diniy bag‘rikenglik to‘g‘risida maktub” asarida davlatning vazifasi fuqarolarning dunyoviy manfaatlarini himoya qilishdan iborat ekanini, e’tiqod esa shaxsning ichki ishi ekanini asoslab berdi. Uning fikricha, davlat cherkov ishlariga aralashmasligi, cherkov esa siyosiy hokimiyatni egallamasligi lozim”[5]. Bu g‘oya sekulyarizmning klassik liberal talqiniga asos soldi.

Shuningdek, Monteskiy tomonidan ishlab chiqilgan “hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasi ham dunyoviy davlat konsepsiyasining shakllanishiga muhim hissa qo‘shdi. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo‘linishi siyosiy hokimiyatning markazlashuvini cheklab, diniy institutlarning davlat boshqaruvidagi mutlaq ta’sirini kamaytirishga xizmat qildi”[6]. Jan-Jak Russo esa “fuqarolik dini” g‘oyasini ilgari surib, “davlat barqarorligi uchun umumiy axloqiy qadriyatlar zarurligini ta’kidlagan bo‘lsa-da, siyosiy hokimiyatni muayyan konfessiyaga bog‘lashni rad etdi”[7]. Fikrimizcha, Jan-Jak Russo davlat barqarorligi umumiy axloqiy qadriyatlarga tayangandagina mustahkam bo‘ladi, chunki ular fuqarolarni birlashtiruvchi ma’naviy asosdir. Biroq siyosiy hokimiyatni muayyan konfessiyaga bog‘lash ijtimoiy tafovutni kuchaytiradi. Shu bois davlat neytral bo‘lib, barcha e’tiqod vakillari uchun teng imkoniyat yaratishi zarurligini ta’kidlaydi.

Sekulyarizmning institutsional shakllanishi XVIII–XIX asrlarda konstitutsiyaviy davlatlar paydo bo‘lishi bilan jadallashdi. AQSH Konstitutsiyasiga kiritilgan Birinchi tuzatish davlat dinini o‘rnatishni taqiqlab, diniy erkinlikni kafolatladi. Bu model “ajratish devori”[8] tamoyili asosida shakllandi. Fransiyada esa “laitsizm”[9] konsepsiyasi rivojlanib,

1905-yilgi qonun bilan cherkov va davlatning to‘liq ajratilganligi e’lon qilindi. Fransuz modelida davlat diniy institutlarga nisbatan qat‘iy neytral pozitsiyani egallaydi va diniy ifodaning jamoat maydonidagi ko‘rinishlariga ham muayyan cheklovlar o‘rnatildi.

Sekulyarizmning mazmunini tahlil qilishda uni ateizm bilan tenglashtirmaslik muhimdir. Dunyoviylik dinni inkor etmaydi, balki davlatning diniy e’tiqodlarga nisbatan neytral bo‘lishini nazarda tutadi. Bu tamoyilning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: birinchidan, vijdon erkinligi va e’tiqod erkinligining kafolatlanishi; ikkinchidan, barcha konfessiyalar oldida tenglik; uchinchidan, davlat siyosatining diniy aqidalarga emas, umumfuqaroviy qonunlarga asoslanishi; to‘rtinchidan, diniy tashkilotlarning siyosiy hokimiyatni egallamasligi.

“XX asrga kelib sekulyarizm nazariy jihatdan yanada murakkablashdi. Sotsiologik nazariyalarda sekulyarizatsiya jarayoni jamiyatda dinning ijtimoiy ta’siri kamayishi bilan bog‘landi. Biroq zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, din butunlay ijtimoiy hayotdan chiqib ketmaydi, balki yangi shakllarda namoyon bo‘ladi”[10]. Shu bois “postsekulyar jamiyat” tushunchasi ilmiy muomalaga kirib, dunyoviy davlat sharoitida dinning ijtimoiy-madaniy ahamiyati saqlanib qolishini ta’kidlaydi.

Dunyoviylik – bu tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, siyosiy hokimiyatni diniy institutlardan ajratish orqali fuqarolarning erkinligi va tengligini ta’minlashga qaratilgan nazariy va amaliy tamoyildir. Uning genezisi teokratik tuzumlardan konstitutsiyaviy-demokratik davlatlarga o‘tish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, mazmunan u diniy plyuralizm, inson huquqlari va huquqiy davlat prinsiplari bilan uzviy aloqadadir. Zamonaviy sharoitda esa sekulyarizm jamiyat barqarorligi va ma’naviy muvozanatini ta’minlovchi muhim ijtimoiy-falsafiy konsepsiya sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tarixiy taraqqiyot davomida diniy mafkura ham o‘zgarish va yangilanish jarayonlarini boshdan kechirgan. Ammo bugungi davrda uning evolyutsiyasi va dunyoviy mafkuralar bilan o‘zaro ta’siri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular o‘rtasida murakkab, ammo tabiiy falsafiy aloqadorlik mavjud. Din – insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas ijtimoiy-falsafiy tizimi sifatida, jamiyatda mavjud turli manfaatlar, ijtimoiy qatlamlar va g‘oyaviy oqimlar o‘rtasidagi muvozanatni shakllantirish va yo‘naltirish vazifasini bajaradi.

Tarix davomida diniy va dunyoviy mafkuralar o‘rtasidagi munosabatlar turli shakllarda kechgan: ba’zida ular bir-birini to‘ldirgan, ba’zida esa ziddiyatli kurashga kirishgan. Bir tomonni mutlaq ustun qo‘yish har doim ikkinchi yo‘nalishning o‘zligini saqlash uchun kurashini keltirib chiqargan, natijada inson tafakkuri har ikki omilning uyg‘unligida boyigan[11]. E’tiqod erkinligi ta’minlanmagan mamlakatlarda inson huquqlarini, e’tiqodi va qarashlarini cheklashlar, o‘zgacha fikrlaydiganlarni ta’qib, qatag‘on qilishlar kuzatiladi.

Dunyoviy davlat – bu shunday boshqaruv shakli bo‘lib, unda davlat hokimiyati diniy tashkilotlardan mustaqil, ya’ni din va siyosat bir-biridan ajratilgan bo‘ladi. Bunday tuzumda davlat qarorlari diniy qoidalar yoki aqidalar asosida emas, balki Konstitutsiya va qonun hujjatlari asosida qabul qilinadi. Shu bilan birga, hech bir din davlat dini sifatida e’tirof etilmaydi hamda barcha e’tiqod vakillariga teng huquq va imkoniyatlar yaratiladi.

Dunyoviylikning asosiy belgilaridan biri - bu vijdon va e’tiqod erkinligining to‘liq ta’minlanishidir. Davlat turli diniy konfessiyalar va e’tiqod egalari o‘rtasida betaraflik siyosatini yuritadi, ularga teng munosabatda bo‘ladi. Dunyoviy davlat, shu ma’noda, fuqarolarning ta’lim olish, shaxsiy rivojlanish yo‘lini mustaqil tanlash, hamda ilm-fan va madaniyatda ijodiy erkinlikdan foydalanish huquqlarini kafolatlaydi. Biroq dunyoviylikni dahriylik yoki dinga qarshi mafkura deb tushunmaslik kerak. Aksincha, dunyoviy davlatda din jamiyat hayotining muhim ma’naviy instituti sifatida e’tirof etiladi. U insonning ruhiy va axloqiy kamolotiga hissa qo‘shuvchi omil bo‘lib qoladi. Shu bois dunyoviylik dinni inkor etuvchi emas, balki uni fuqarolik erkinliklari bilan uyg‘unlashtiruvchi g‘oyadir.

Bunday davlatda barcha din vakillarining o‘z e’tiqodini erkin amalga oshirishiga sharoit yaratiladi, diniy bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va totuvlik muhitini saqlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylanadi. Natijada, diniy xilma-xillik va madaniy pluralizm mavjud bo‘lgan jamiyatda boshqaruv bir mafkura yoki diniy yo‘nalishga tayanmaydi, balki inson huquqlari va qonun ustuvorligiga asoslanadi. Shu ma’noda, dunyoviy davlat yo‘li - har qanday davlat uchun eng adolatli, barqaror va insonparvar taraqqiyot yo‘lidir. U tinchlik, totuvlik va bag‘rikenglikni mustahkamlab, fuqarolarning e’tiqodi, fikri va hayot tanloviga hurmat bilan qaraydigan ijtimoiy tizimni shakllantiradi.

Konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida faoliyat yuritishi belgilab qo‘yilgan. “Ijtimoiy” atamasi arab tilidagi “jam” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u “ko‘pchilik”, “birlik”, “jamoa” ma’nolarini bildiradi. Mazkur tushuncha inson va jamiyat hayotiga oid bo‘lgan, ularning o‘zaro aloqalari va manfaatlarini ifodalovchi mazmunga ega. Shu sababli, “ijtimoiy davlat” atamasi fuqarolarning farovonligini ta’minlash, ijtimoiy tenglik va hamjihatlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini anglatadi[12]. Ijtimoiy davlat tushunchasi o‘z mazmuni jihatidan keng qamrovli bo‘lib, u zamonaviy siyosiy falsafada davlatchilikning eng muhim tamoyillaridan biri sifatida e’tirof etiladi. So‘nggi ikki asr davomida bu g‘oya G‘arb mamlakatlarining siyosiy tizimida asosiy mezonga aylangan. Ijtimoiy davlatning bosh mohiyati - jamiyatda tenglik, adolat va ijtimoiy himoya tamoyillarini ta’minlash, har bir fuqaroning munosib hayot kechirishi uchun sharoit yaratishdir.

Ijtimoiy davlat - bu insoniyat taraqqiyotining ma’lum bosqichida shakllangan, davlatchilik evolyutsiyasining o‘ziga xos mahsuli hisoblanadi. Ushbu g‘oya inson jamiyati taraqqiyoti davomida asta-sekin shakllanib, ijtimoiy adolat, hamjihatlik va farovonlikni ta’minlashga qaratilgan siyosiy model sifatida rivoj topgan. Mazkur konsepsiyaning ildizlari qadimgi Sharq tafakkurida ham mavjud bo‘lib, uni ajdodlarimizning falsafiy merosida yaqqol ko‘rish mumkin. Xususan, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy o‘zining mashhur “Fozil odamlar shahri” asarida ma’rifatli insonlar jamoasi va adolatli jamiyat haqidagi g‘oyani ilgari surgan. U ta’limotida insoniy kamolot, axloqiy poklik va ijtimoiy hamjihatlikka asoslangan jamiyatni fozil davlat modeli sifatida talqin etgan[13].

“Ijtimoiy davlat” atamasi hozirgi mazmunida ilk bor 1850-yilda nemis olimi Lorens fon Shtayn tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U o‘z ta’limotida davlatning asosiy vazifasi - ijtimoiy tenglikni ta’minlash, fuqarolarning shaxsiy erkinligini himoya qilish hamda ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish ekanini ta’kidlagan. Shtaynning fikricha, davlat kam ta’minlangan va zaif qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish orqali ularni iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan guruhlar darajasiga olib chiqishi zarur[14]. Bu qarashlar keyinchalik ijtimoiy adolat, tenglik va inson qadr-qimmatini markazga qo‘ygan ijtimoiy davlat konsepsiyasining nazariy poydevorini shakllantirdi.

Ijtimoiy davlat - bu davlatning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini belgilovchi sifat tavsifi bo‘lib, u inson va fuqarolarning iqtisodiy hamda ijtimoiy huquqlari, erkinliklari va davlatning ularni ta’minlashga oid majburiyatlari konstitutsiyaviy darajada kafolatlanishini anglatadi. Bunday davlat jamiyatning umumiy manfaatlariga xizmat qiladi, unda mavjud ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish yoki butunlay bartaraf etishga intilish uning asosiy vazifasidir.

O‘zbekistonda dunyoviylikka asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish ham diniy va dunyoviy mafkuralarning hamjihatligi, hamkorligi asosidagina amalga oshishi mumkin[15]. Ayniqsa hozirgi sharoitda diniy va dunyoviy mafkuralarga bo‘lgan munosabatlarda bir tomonlamalik, ularning u yoki bu xususiyatlarini xolisona baholay olmaslik ham nazariy va amaliy jihatdan katta zarar keltiradi[11]. Yangi O‘zbekiston davrida dunyoviy va ijtimoiy davlat barpo etish jarayonida diniy va dunyoviy mafkuralarning uyg‘unligi, ularni yot va buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilish masalasi nafaqat davlat idoralari, balki butun jamiyat zimmasidagi mas’uliyatdir.

Yangi O‘zbekiston strategiyasining mohiyati esa fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, ularning orzu va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, hayotiy muammolarni hal etish hamda farovonlik va hayot sifatini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan. Bu strategiya mamlakatda fuqarolik faolligi, inson qadr-qimmati va ijtimoiy adolatni yuksaltirish yo‘lida izchil amalga oshirilayotgan siyosatning amaliy ifodasidir[16]. Globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida sekulyarizm yangi sinovlarga duch kelmoqda. Migratsiya jarayonlari, diniy plyuralizmning ortishi, diniy identifikatsiyaning kuchayishi davlatning neytral siyosatini yanada nozik va muvozanatli yuritishni talab qiladi. Endilikda sekulyarizm nafaqat davlat va din o‘rtasidagi institutsional ajratish, balki turli e’tiqod vakillarining tinch-totuv yashashini ta’minlovchi ijtimoiy konsensus mexanizmiga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, dunyoviy davlat va din munosabatlarining nazariy asoslari, avvalo, siyosiy hokimiyat bilan diniy institutlarning o‘zaro ajratilganligi tamoyiliga tayanadi. Bu yondashuv davlatni muayyan konfessiya ta’siridan xoli tutib, fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlaydi. Natijada huquqiy tenglik, ijtimoiy adolat va siyosiy neytrallik mustahkamlanadi. Mazkur model jamiyatdagi diniy xilma-xillikni tan olgan holda, umumfuqaroviy qonun ustuvorligini ta’minlash orqali barqaror taraqqiyot uchun zarur institutsional asos yaratadi.

Ikkinchidan, sekulyarizm nazariyasi tarixiy-evolyutsion jarayon mahsuli bo‘lib, teokratik boshqaruv shakllaridan konstitutsiyaviy-demokratik davlat tizimiga o‘tish natijasida shakllangan. Ushbu jarayon inson huquqlari, erkin fikrlash va ratsional siyosiy boshqaruv g‘oyalarining rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir. Dunyoviy davlat konsepsiyasi jamiyatda diniy bag‘rikenglikni qaror toptirish bilan birga, turli konfessiyalar o‘rtasida muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Shu tariqa u ijtimoiy konsensus va fuqarolik birdamligining nazariy poydevorini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, dunyoviy davlat va din munosabatlarining nazariy asoslari huquqiy-me’yoriy tamoyillar bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Konstitutsiyaviy kafolatlar, vijdon erkinligi va konfessiyalar tengligi prinsiplarining amal qilishi davlatning diniy masalalarda neytral pozitsiyasini mustahkamlaydi. Bunday yondashuv diniy ekstremizm va radikalizmning oldini olishga, shu bilan birga sog‘lom diniy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga imkon yaratadi. Natijada davlat va din o‘rtasida muvozanatli hamkorlik muhiti shakllanadi.

To‘rtinchidan, nazariy jihatdan dunyoviylik dinni inkor etish emas, balki uni siyosiy hokimiyatdan ajratish orqali erkin rivojlanishiga sharoit yaratishdir. Bu yondashuv dinning axloqiy-ma’naviy salohiyatini saqlagan holda, davlat boshqaruvini umumfuqaroviy manfaatlarga yo‘naltiradi. Shunday qilib, sekulyar model jamiyatda diniy plyuralizmni tan oladi va har bir shaxsning e’tiqod erkinligini himoya qiladi. Bu esa barqaror va ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omiliga aylanadi.

Beshinchidan, globallashuv sharoitida dunyoviy davlat va din munosabatlarining nazariy asoslari yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Migratsiya, madaniy xilma-xillik va axborot makonining kengayishi davlatdan yanada muvozanatli siyosat yuritishni talab qiladi. Sekulyarizm bu jarayonda turli e’tiqod egalari o‘rtasida tinchlik va

hamjihatlikni ta’minlovchi universal tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois uning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D. Dinshunoslik. Qomusiy lug‘at. – Samarqand.; “Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti”, 2017. – B.480.

2. Пфлейдерер, О. Религия и религии//Мистика. Религия. Наука. Классики мирового религиоведения. Антология /Пер. с англ., нем., фр. сост. и общ. ред. А.Н.Красникова. – М.: “Канон+”,1998.- С.432.

3. Сайид Мужтоба Мукни Мусави Лари. Западная цивилизация глазами мусулманина. - Баку: Иршод, 1992. - С. 117-119.

4. Пугачёв А.Н. Эпоха возрождения и век разума накануне Европейского просвещения. // Экономические и юридические науки. Теория и история государства и права. №.5. 2014. – С.83.

5. Дж. Локк. Письма о толерантности / Дж. Локк // Сочинения: в 3-х т. Т. 3. – М.: “Мысль”, 1988. – С.113.

6. Монтескье Ш.Л. О духе законов. – М.: “Мысль”, 1999. – С.672.

7. Руссо, Ж.-Ж. Трактаты / Ж.-Ж. Руссо. – М.: “Наука”, 1969. –С.287.

8. Шестопалов М.А. Историко-правовые аспекты формирования Американской модели отношений государства и христианских религиозных организаций. // Историческая и социально-образовательная мысль. Том 7 №5 часть 1, 2015. – С.76-78.

9. Winkler Elizabeth. “Is it Time for France to Abandon Laïcité?”. The New Republic. 2016. (murojaat qilingan sana 2026-yil 20-fevral).

10. Белла Р.Н. Религия в человеческой эволюции. От палеолита до осевого времени / Пер. с англ. А. Васильева, А. Соколовского. – М.: “ББИ”, 2019. –С.119.

11. Aliyev B. Yangi O‘zbekistonda dunyoviy va ijtimoiy davlatni shakllantirishda diniy va dunyoviy mafkuralarning uyg‘unligi. // “Yangi O‘zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari”, 4(21). 2024. - B. 763-773.

12. Baxodirov B. Aholi yashash sharoitining stabilligi, barqaror ijtimoiy siyosatga bevosita bog‘liq fenomen sifatida. // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2022, [1/7]. - B. 56-60.

13. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. - B. 320.

14. Baratov R.O‘. Ijtimoiy davlatning konseptual asoslari. // “Yangi O‘zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari”. 4(21), 2024. - B. 756.

15. Boboyev A. Hozirgi davrda diniylik va dunyoviylikning o‘zaro munosabati haqida. (To‘plam) - Toshkent: Cho‘lpon, 2007. - B. 120.

16. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. - B. 84.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

07.00.00-TARIX
journal.namdu.uz
HISTORICAL

Mingnarov Abduxoliq Toshmirzayevich
Nizomiy nomidagi UzMPU "Tarix" kafedrasi prof.v.b., tarix fanlari doktori
E-mail: mingnorov62@gmail.com
Yuldasheva Gulnora Kamilovna
Nizomiy nomidagi UzMPU «Tarix» kafedrasi dotsent v.b., t.f.n
E-mail: yuldashevagulnora1968@gmail.com

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY VA JADIDCHILIK HARAKATINING MILLIY MATBUOTDA YORITILISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning publisistik faoliyati atroflicha yoritib berilgan. Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy va ma'rifatparvarlik faoliyati uning qalamiga mansub maqolalar misolida ochib berilgan. Shuningdek, maqolada Behbudiy vafotidan so'ng, u haqda yozilgan maqolalar xususida ham fikrlar berilgan.*

Kalit so'zlar. *Behbudiy, gazeta, matbuot, majlis, Hurriyat, qurultoy, vakil, jadid.*

Мингнаров Абдухолик Тошмирзаевич
Низамийский государственный педагогический университет, и.о. профессора кафедры «История», доктор исторических наук
Юлдашева Гульнора Камиловна
Низамийский государственный педагогический университет, и.о. доцента кафедры «История», кандидат исторических наук

МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИЙ И ОСВЕЩЕНИЕ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ПЕЧАТИ

Аннотация. *В данной статье всесторонне освещена публицистическая деятельность Махмудходжи Бехбудия. Его общественно-политическая и просветительская деятельность раскрывается на примере его статей. Также в статье рассматриваются публикации, посвящённые Бехбудию после его смерти.*

Ключевые слова: *Бехбудий, газета, печать, собрание, «Хуррият», съезд, представитель, джадидизм.*

Mingnarov Abduxoliq Toshmirzayevich
Nizami State Pedagogical University, Acting Professor of the Department of History, Doctor of Historical Sciences
Yuldasheva Gulnora Kamilovna
Nizami State Pedagogical University, Acting Associate Professor of the Department of History, Candidate of Historical Sciences

MAHMUDHOJA BEHBUDIY AND THE COVERAGE OF THE JADID MOVEMENT IN THE NATIONAL PRESS

Abstract. *This article comprehensively examines the journalistic activity of Mahmudhoja Behbudiy. His socio-political and educational activities are revealed through the analysis of his articles. The paper also discusses publications written about Behbudiy after his death.*

Keywords: *Behbudiy, newspaper, press, assembly, Hurriyat, congress, representative, Jadidism.*

XX asr boshlarida ro'y berayotgan siyosiy jarayonlar jadidchilik harakati faoliyatining yanada jonlanishiga sabab bo'ladi. Mahmudxo'ja Behbudiyning nomi Turkistondagi jadidchilik harakati bilan bevosita bog'liq edi. Shu nuqtai nazardan Mahmudxo'ja Behbudiy fan va madaniyatimizga salmoqdi hissa qo'shgan ma'rifatparvar ziyolilarimizdan biri hisoblanadi. 1913 yilda "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnallari orqali milliy matbuotning nashr etilishiga katta hissa qo'shgan edi. 1917 yil Rossiyada ro'y bergan fevral voqeasidan so'ng Turkistonda milliy ziyolilarimiz tomonidan gazeta va jurnallarni ko'proq nashr qilish yanada kuchayadi. Dastlab "Najot" , "Kengash", "Ulug' Turkiston", "Turon", "Hurriyat", "El bayrog'i", "Yurt" kabi gazeta va jurnallarni misol keltirish mumkin. Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatiga

oid ma’lumotlarni nafaqat yuqorida nomlari keltirilgan nashriyot organlarning sahifalarida, balki o‘tgan asrning 20-yillaridagi boshqa matbuot organlarining sahafalarida ham juda ko‘plab ma’lumotlarni uchratish mumkin. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1917 yili Samarqandda musulmonlarning “Islomiya klubi”ni ochgan” [1] edi.

«Najot» gazetasidagi ma’lumotlariga qaraganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1917 yil 16–22 aprel kunlari Umumturkiston musulmonlarining I qurultoyida qatnashib, unda «Buxoro voqealari», «Bo‘lajak yangi hukumatga munosabat», «Ta’sis majlisiga tayyorlanmoq» va «Saylovda xotinlar masalasi» to‘g‘risida o‘z fikrini bayon qiladi» [2]. Samarqand shahrida obodonlashtirish va omma orasida tartib intizomni yaxshilashga ham katta e’tibor beradi.

Siyosiy jarayonlarning o‘ta og‘ir davrida 1917 yil 13 iyun kuni chiqarilgan qarorga binoan shaharda non sotishni tartibga solish boshlanadi. Berilgan ma’lumotga ko‘ra, qonunga rioya qilmagan nonvoylar ma’muriy va jinoiy jazoga tortilishi [3] nazarda tutilgan edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy boshchiligida amalga oshirilgan bu tadbir katta ijobiy natija beradi. Samarqand shahrida “Hurriyat” gazetasining nashr qilinib turishida ham katta ta’siri bo‘ldi. Masalan, 1917 yil 22 sentyabrdagi hay’at a’zolarining umumiy majlisda gazetaning 6 oy hisoboti tinglanganda, gazetaning shu muddat ichida 2 ming so‘m zarar ko‘rganligi ma’lum bo‘ladi. Natijada bundan keyin ushbu gazetani to‘xtatish haqidagi masala muhokamaga qo‘yiladi. Biroq Mahmudxo‘ja Behbudiy qanday qiyin bo‘lmasin gazetani to‘xtatish mumkin emasligi haqida alohida ta’kidlaydi. So‘ngra moddiy yordam olish maqsadida joylarga o‘z muxbirlarini yuborib, gazetani chop etishni davom qildirishga qaror qilinadi [4].

Turkiston musulmonlarining hayotida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan hodisa Turkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi (1917 yil, 26–29 noyabr) bo‘ldi. Bu qurultoy ishida ham Mahmudxo‘ja Behbudiy bevosita ishtirok etadi. “Ulug‘ Turkiston” gazetasi ushbu anjuman to‘g‘risida quyidagicha yozadi: “Samarqand zahmatkashlari va ziyoli taraqqiyparvarlari tomonidan ko‘rsatilgan a’zolar ichida Behbudiy ham bor” [5] edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy maqolalari asosan “Najot”, “Ulug‘ Turkiston” va “Hurriyat” gazetalariga muntazam berib borilgan:

№	Nashri	Yil	Oy sanasi	Maqola nomlari
1	“Najot”	1917	17 aprel	“Bizga islohat kerak”
2	“Hurriyat”	1917	1 may	“Buxoro voqealari”
3	“Hurriyat”	1917	4 may	“Buxoro voqealari”
4	“Hurriyat”	1917	19 may	“Muxtaram Samarqanlilarga”
5	“Hurriyat”	1917	26 iyun	“Ittifoq kerak”
6	“Hurriyat”	1917	3 iyul	“Markaziy sho‘romizda”
7	“Hurriyat”	1917	3 iyul	“Murojaatnoma”
8	“Hurriyat”	1917	13 iyul	“Haq olinur, berilmas”
9	“Hurriyat”	1917	28 iyul	“Samarkand milliy ishlar haqida”
10	“Hurriyat”	1917	26 sentyabr	“Ochlik balosi”
11	“Hurriyat”	1917	19 dekabr	“Turkiston muxtoriyati”
12	“Hurriyat”	1917	22 dekabr	“Turkiston muxtoriyati”
13	“Hurriyat”	1917	12 yanvar	“Dav’at”
14	“Hurriyat”	1917	26 yanvar	“Qozoq qarindoshlarimizga”

Mahmudxo‘ja Behbudiyning yuqorida keltirilgan maqolalari Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan eng asosiy voqea va muammolarni xal etishga qaratilgan edi. Masalan, “Ittifoq kerak”, “Murojaatnoma”, “Haq olinur berilmas”, “Ochlik balosi”, “Da’vat” nomli maqolalari musulmonlarga qarata bildirgan e’tiroz va murojaatidan iborat bo‘ldi. Ushbu maqolalar mazmunan boy va ko‘tarilgan har bir masalani juda chuqur yoritgan.

“Buxoro voqealari” nomli maqolasi “Hurriyat” gazetasining ikki sonida berilgan. Maqolada yozilishicha Samarqand shahar ijroiya qo‘mitasida bo‘lib o‘tgan 5 aprel majlisida qabul qilgan qaror sabab bo‘ldi. Bunda 1917 yil 25 mart kuni Turkiston general-gubernatori Kuropatkinning Samarqandga yuborgan maktubida Buxoro amiri yaqin kunlar ichida keng islohotlar o‘tkazar emish, shuning uchun bu yerga borib vaziyat bilan tanishib kelish fikri ilgari surilgan.

Shu munosabat bilan 5 kishi, jumladan, ikki musulmon, ikki yevropalik va bir yaxudiy, aniqrog‘i musulmonlardan – Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan Mulla Haydarbek Abu Sayd o‘g‘li, yevropaliklardan Chernov bilan S.A. Gersfeld va yahudiy Isoxarovlar 6–7 aprel kunlari Buxoroda bo‘lib, Buxoro amiri huzurida bo‘lganligi, amir tomonidan chiqarilgan farmon xususida vakillarning aholi bilan uchrashganliklari va bir qancha voqealar yoritilgan.

“Ittifoq kerak” va “Muhtaram samarqandlilarga” maqolalari esa ulamolar bilan taraqqiyparvar yoshlar o‘rtasidagi adovat, parokandalik va ittifoqsizlik munosabatlarining oldini olishga qaratilgandir.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Markaziy sho‘romizda” deb ataladigan maqolasi shahar dumalariga bo‘ladigan saylov munosabati bilan Toshkentda o‘tkazilgan majlis xususida bo‘lib, maqolaning nomi Toshkent “Sho‘roi Islomiya” jamiyatini markaziy boshqaruv organi ekanligidan dalolat beradi.

Bu maqolaning yozilishiga qaraganda Mahmudxo‘ja Behbudiy bir hafta Toshkent shahrida bo‘lib, 19 iyun kuni Toshkent Markaziy “Sho‘roi Islomiya” majlisida shahar dumalariga bo‘ladigan saylovda musulmonlar va ruslar uchun yagona duma saylovi bo‘lishi va saylovda musulmon xotin-qizlarning ham ishtirok etishi masalasini muhokama etishda qatnashishi turtki bo‘ldi. Unda muallif musulmonlar bilan ruslar yagona duma uchun saylovda qatnashmasa kuchli burilish yuz berib, oxiri yomon hodisaga olib kelishini ta’kidlaydi. Shuningdek, musulmon xotin-qizlarning saylovda qatnashishlarining ahamiyatini quyidagicha yozadi:

Toshkent shahrida 48 ming ruslar va askarlar bor. Bunga nisbatan 44 ming musulmon erkaklar va 39 ming musulmon ayollar yashaydi. Agar saylovda ayollar ishtirok qilishmasa, albatta, ruslar saylovda muvaffaqiyatga erishishlari mumkin edi. Shuning uchun ham Mahmudxo‘ja Behbudiy “Ulamo” jamiyati a’zolarini bu masalaga jiddiyroq munosabatda bo‘lishlarini qayta-qayta takrorlaydi. Chunki ulamochilar saylovda musulmon xotin-qizlarni ishtirok etishlariga qarshi chiqib, hatto, ayollarni erkaklarga qo‘shilmagan holda alohida saylov uchastkalarini tuzishi xususida ham bir fikrga kelmagan edilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy ushbu maqolasida sho‘rodagi ziyolilar “Ulamo” jamiyatiga bir kecha-kunduz muhlat berib, ayollarni shariat asosida saylovda qatnashishlariga qat’iy javob berishlarini talab qilgani, biroq javob olinmaganligi to‘g‘risida o‘z fikrlarini yozgan [6] edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Turkiston muxtoriyati” nomli maqolasida Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining IV qurultoyida ishtirok etganligi va uning qurultoy ishi natijasidan mamnun ekanligini bildiradi. Muallif unda o‘zining muxtoriyat tarafdori ekanligini qurultoyda ma’lum qilib, Turkiston muxtoriyatini muborakbod qiladi. Shuningdek, u qurultoyda turli milliy vakillardan iborat uch yuz nafar vakil, jumladan, yevropaliklar hamda boshqa siyosiy kuchlardan vakillar ishtirok etgan bo‘lsa-da, ammo hech bir millat yoki siyosiy kuch Turkiston muxtoriyati e’lon qilinganligini qarshilik bilan kutib olmaganligiga alohida to‘xtalib o‘tgan [7].

Turkiston jadidlarining otasi Mahmudho‘ja Behbudiy o‘zining “Bizga islohot kerak” maqolasida shunday yozadi: “Turkiston Rusiyaga tobe bo‘lgandan keyin o‘lkada ruslar o‘z qonunlarini joriy etdi. Bu qonun biz musulmonlarga hech narsa bermadi. Chunki mudarris va muftiylarni ruslarning o‘zlari tayinlashardi. Chunonchi, bu lavozimga ilmsiz va xalqiga xiyonat qiladigan nodon kishilarni qo‘yardilar. Natijada, ilmli ulamolarimiz ishsiz qoldi. Savodsiz kishilarni qozi qilib qo‘ydilar. Zolim hukumat biz musulmonlarni nima qilmoqda” [8]. Bu fiklari orqali u Rossiyaning mustamlakachilik siyosatini fosh qiladi.

Mahmudho‘ja Behbudiyning maqolalari Turkistondagi, shu davr voqealarini ochib berishda qimmatli manba hisoblanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning tashvishlari millat takdiriga nisbatan munosabatida o‘z aksini topgan. Bu esa uni juda ham keng dunyoqarashga ega ekanligini, Vatanining ozodligi yo‘lida ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etib borganligini namoyon etadi. Yana shuni ta’qidlab o‘tish kerakki, Mahmudxo‘ja Behbudiyning maqolalarida ilgari surilgan fikr-mulohazalari uning o‘z davrining ilg‘or va yetuk ziyolisi, vatanparvar inson va ma’rifatparvar jadidlardan biri bo‘lganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘ldirilgandan so‘ng ham davriy matbuotdan juda ko‘plab maqola va turli xil ma’lumotlar berilganligini uchratish mumkin. Xususan, “Zarafshon” gazetasining 1923 yil 25 mart №32 sonida Xoji Muinning “Mahmudxo‘ja Behbudiy”, A.Azamatning “Behbudiy haqida xotiralarim”, Sadriddin Ayniyning “Behbudiy hazratlari haqida xotiralarim”, Abdusalom Azimiyning “Behbudiy haqida xotira va ta’surotlarim” nomli bir sonning o‘zida Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan bog‘liq bir nechta maqolalarni berilishining o‘zi qanchalik darajada unga mehr – munosabatda bo‘lganligini ko‘rsatib turibdi.

Shu nuqtai nazardan ham ma’rifatparvar jadid Mahmudxo‘ja Behbudiy merosini yetishib kelayotgan avlodga yetkazib berish bugungi kundagi eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Samarqand //»Najot», 1917 yil 9 aprel.
2. Qurultoy materiallari //»Najot», 1917 yil 21, 23, 28 aprel.
3. Qarornoma //»Hurriyat», 1917 yil 16 iyun.
4. Hurriyatning davomi uchun qaror //»Hurriyat», 1917 yil 26 sentyabr.
5. Samarqand oblastidan uchreditelniy sobraniyaga vakil //»Ulug‘ Turkiston», 1917 yil 18 noyabr.
6. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Markaziy sho‘romizda //»Hurriyat», 1917 yil 3 iyul.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Turkiston muxtoriyati //»Hurriyat», 1917 yil 19 dekabr.
8. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Bizga islohot kerak //»Najot», 1917 yil 17 aprel.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

08.00.00-IQTISODIYOT
journal.namdu.uz
ECONOMIC

Turg‘unov Zokirjon Alimjanovich
Namangan davlat universiteti umumtibbiy fanlar kafedrasi o‘qituvchi
Abdullayev Yunusjon Komiljon o‘g‘li
University of Business and Science iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi
@yunusjon_abdullayev

IQTISODIY INQIROZLARNING OLDINI OLISH SIYOSATLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada iqtisodiy inqirozlarning kelib chiqish tabiati, ularning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri va oldini olish mexanizmlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida davlatning fiskal va monetar siyosati instrumentlaridan foydalanish samaradorligi, shuningdek, global shoklarga qarshi preventiv choralarni qo‘llashning xalqaro tajribasi o‘rganilgan. Maqola yakunida O‘zbekiston iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Iqtisodiy inqiroz, makroiqtisodiy barqarorlik, monetar siyosat, fiskal siyosat, inflyatsiya, retsessiya, davlat tartibga solishi, iqtisodiy sikllar, preventiv choralar, diversifikatsiya.*

Тургунов Зокиржон Алимжанович
Преподаватель кафедры общих медицинских дисциплин Наманганского государственного университета
Абдуллаев Юнусжон Комилжон угли
Студент экономического направления University of Business and Science

ПОЛИТИКА ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КРИЗИСОВ

Аннотация: *В данной статье проводится системный анализ природы возникновения экономических кризисов, их влияния на макроэкономическую стабильность и механизмов их предотвращения. В ходе исследования изучена эффективность использования инструментов фискальной и монетарной политики государства, а также международный опыт применения превентивных мер против глобальных шоков. В завершение статьи разработаны практические предложения и рекомендации по обеспечению устойчивости экономики Узбекистана.*

Ключевые слова: *Экономический кризис, макроэкономическая стабильность, монетарная политика, фискальная политика, инфляция, рецессия, государственное регулирование, экономические циклы, превентивные меры, диверсификация.*

Turgunov Zokirjon Alimjanovich
Lecturer of the Department of General Medical Sciences at Namangan State University
Abdullayev Yunusjon Komiljon ugli
Student of the Economics program at the University of Business and Science.

POLICIES FOR PREVENTING ECONOMIC CRISES

Abstract: *This article provides a systematic analysis of the nature of economic crises, their impact on macroeconomic stability, and mechanisms for their prevention. The study examines the effectiveness of fiscal and monetary policy instruments, as well as international experience in applying preventive measures against global shocks. At the end of the article, practical proposals and recommendations for ensuring the stability of the economy of Uzbekistan are developed.*

Keywords: *Economic crisis, macroeconomic stability, monetary policy, fiscal policy, inflation, recession, state regulation, economic cycles, preventive measures, diversification.*

KIRISH: IQTISODIY BEQARORLIKNING TABIATIGA NAZAR

Iqtisodiy inqirozlar nafaqat moliya bozorlarining qulashi, balki ijtimoiy tuzilmaning zaiflashishi va aholi turmush darajasining pasayishiga olib keluvchi murakkab jarayondir. XXI asr iqtisodiyoti "shoklar iqtisodiyoti" deb atalmoqda, chunki globallashuv sharoitida bir davlatdagi kichik moliyaviy tebranish "kapalak effekti" kabi butun dunyoga

yoyilmoqda. Maqolaning maqsadi — inqirozlarning oldini olishda davlatning roli va bozor mexanizmlari o‘rtasidagi oltin muvozanatni topishdan iborat.

1. Iqtisodiy sikllar va inqirozlarning fundamental sabablari

Iqtisodiyot doimiy ravishda to‘rt bosqichdan o‘tadi: Yuksalish (Expansion), Cho‘qqi (Peak), Pasayish (Recession) va Tubsizlik (Trough).

Inqirozlarni keltirib chiqaruvchi omillar ikki guruhga bo‘linadi:

- Ekzogen (Tashqi) omillar: Urushlar, pandemiya, jahon bozorida energiya resurslari narxining keskin o'zgarishi, siyosiy sanksiyalar.

- Endogen (Ichki) omillar: Pul massasining haddan tashqari ko'payishi, banklarning tavakkalchilikka asoslangan kredit siyosati, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi nomutanosiblik.

2. Inqirozni barvaqt aniqlash: "Qizil chiziqlar" indikatorlari

Inqirozni u kelishidan oldin to‘xtatish — iqtisodiy siyosatning eng oliy maqsadi. Buning uchun iqtisodchilar quyidagi ko‘rsatkichlarni doimiy monitoring qilishi shart:

Inversiya egri chizig'i (Yield Curve Inversion): Qisqa muddatli davlat obligatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari uzoq muddatlilardan yuqori bo'lib ketsa, bu yaqin 1-2 yil ichida retsessiya bo'lishidan dalolat beradi.

Kreditlash hajmining keskin o'sishi: Agar kreditlar hajmi YaIM o'sish sur'atidan ancha tez bo'lsa, iqtisodiyotda "moliyaviy pufak" hosil bo'layotgan bo'ladi.

To'lov balansi taqchilligi: Mamlakatning eksport va importi o'rtasidagi manfiy farqning keskinlashuvi milliy valyuta qadrsizlanishiga olib keladi.

3. Strategik preventiv siyosat: Ikki ustunli yondashuv

3.1. Monetar "Anchor" (Langarlik) siyosati

Markaziy banklar "Inflyatsion targetlash" rejimidan foydalangan holda narxlar barqarorligini ta'minlaydi.

Kontr-siklik kapital buferi: Iqtisodiyot o'sayotgan paytda banklardan ko'proq zaxira saqlash talab qilinadi, inqiroz paytida esa bu zaxiralar iqtisodiyotga yo'naltiriladi.

Valyuta intervensiyalari: Milliy valyutaning keskin qadrsizlanishini oldini olish uchun oltin-valyuta rezervlaridan oqilona foydalanish.

3.2. Ekspansion va Restriktov Fiskal siyosat

Davlat byudjeti inqirozga qarshi "**amortizator**" vazifasini o‘tashi kerak.

- Avtomatik stabilizatorlar: Masalan, progressiv soliq tizimi. Iqtisodiyot pasayganda aholi daromadi kamayadi va ular avtomatik ravishda kamroq soliq to'lay boshlaydi, bu esa ularning xarid qobiliyatini saqlab qoladi.

- Davlat investitsiya dasturlari: "Multiplikator effekti" orqali 1 so'm davlat xarajati iqtisodiyotga 1.5-2 so'm daromad keltirishi hisoblab chiqiladi.

4. Inqirozni boshqarishda "Yashil" va "Raqamli" iqtisodiyotning o‘rni

Zamonaviy inqirozlarning oldini olishda an'anaviy usullar yetarli emas. Hozirgi kunda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish orqali barqarorlikka erishilmoqda:

- Energetik mustaqillik: Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish neft va gaz narxlaridagi tebranishlarga bog'liqlikni kamaytiradi.

- Raqamli transformatsiya: Soliq va bojxona tizimini raqamlashtirish "yashirin iqtisodiyot" ulushini kamaytiradi va davlat g'aznasiga tushumlarni barqarorlashtiradi.

5. Global tajriba: 2008 va 2020-yilgi darslar

AQSH tajribasi: 2008-yildagi "Too big to fail" (Yiqilish uchun juda katta) tamoyili banklarni qutqarishga qaratilgan edi. Biroq, bu bozor ishtirokchilarida mas'uliyatsizlikni oshirishi aniqlandi.

Janubiy Koreya tajribasi: 1997-yilgi Osiyo moliyaviy inqirozidan so'ng, mamlakat yuqori texnologiyalarga asoslangan eksport modeliga o'tdi, bu esa ularni keyingi inqirozlardan himoya qildi.

6. O’zbekistonning inqirozga qarshi barqarorlik modeli

O'zbekiston sharoitida inqirozlarning oldini olish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Byudjet qoidalarini joriy etish: Davlat qarzining yuqori chegarasini belgilash (YaIMning 60% idan oshmasligi).

Sanoat klasterlari: Xomashyo eksportidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish.

Tadbirkorlikni erkinlashtirish: Ma'muriy to'siqlarni kamaytirish orqali ichki bozordagi raqobatni kuchaytirish.

Iqtisodiy inqirozlarni jilovlash mexanizmlarining qiyosiy tahliliInqirozga qarshi siyosatning samaradorligi qo'llanilayotgan instrumentlarning o'z vaqtidaligiga bog'liq. Quyidagi jadvalda inqiroz turlari va ularga qarshi eng samarali davlat choralari tizimlashtirilgan:

Inqiroz turlari va ularni bartaraf etishning kompleks choralari

Inqiroz turi	Asosiy belgilari	Monetar choralar (Markaziy bank)	Fiskal choralar (Hukumat)	Kutilayotgan natija
Moliyaviy-bank inqirozi	Banklarning likvidliligi pasayishi, depozitlar oqimi.	Qayta moliyalash stavkasini pasaytirish, banklarga shoshilinch kreditlar berish.	Banklarni kapitallashtirish uchun davlat subsidiyalari, omonatlarni sug'urtalash.	Bank tizimiga bo'lgan ishonchni tiklash va to'lovlar uzluksizligini ta'minlash.
Inflyatsion inqiroz	Narxlarning keskin o'sishi, milliy valyuta qadrsizlanishi.	Qayta moliyalash stavkasini oshirish (pulni qimmatlashtirish), valyuta intervensiyasi.	Davlat xarajatlarini qisqartirish, byudjet defitsitini kamaytirish.	Pul massasini jilovlash va narxlar barqarorligiga erishish.
Tarkibiy (Sanoat) inqiroz	Ayrim tarmoqlarda ishlab chiqarish to'xtashi, ishsizlik ortishi.	Investitsion loyihalar uchun imtiyozli va uzoq muddatli kredit liniyalari.	Soliq imtiyozlari berish, yangi infratuzilma qurish, ishchilarni qayta o'qitish.	Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlari yaratish.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiy inqirozlarning oldini olish — bu bir martalik chora emas, balki uzluksiz jarayondir. Mukammal siyosat quyidagi uch tamoyilga asoslanishi shart:

- Shaffoflik: Bozor ishtirokchilari davlatning keyingi qadamini oldindan bilishi kerak.
- Moslashuvchanlik: Vaziyat o'zgarganda qarorlarni tezkorlik bilan o'zgartirish qobiliyati.

Ijtimoiy adolat: Inqiroz yuki faqat kam ta'minlangan qatlam zimmasiga tushib qolmasligi uchun kuchli ijtimoiy himoya tizimi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi". – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. Stiglitz J.E. "The Great Divide: Unequal Societies and What We Can Do About Them". – W.W. Norton & Company, 2015.
3. Abulqosimov H.P., Rasulov M. "Iqtisodiy xavfsizlik". O‘quv qo‘llanma. – T.: Akanshu, 2020.
4. IMF Report 2024. "Global Financial Stability Report: Financial and Climate Risk".
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari" sharhi (2023-2025).
6. Krugman P. "The Return of Depression Economics and the Crisis of 2008". – W.W. Norton, 2009.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

08.00.00-IQTISODIYOT
journal.namdu.uz
ECONOMIC

Abdullayev Zafarbek Safibullayevich
NamDU Iqtisodiyot fakulteti "Moliyaviy munosabatlar" kafedrasi dotsenti v.b., DSc
E-mail: zafarbek.abdullayev555@gmail.com
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi
NamDU "Menejment" kafedrasi "Turizm va mehmondo'stlik" ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti
E-mail: abdullabekova202n@gmail.com

TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASHNING XORIJIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlashning xorijiy yondashuvlari iqtisodiy va institutsional nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilinadi. Rivojlangan davlatlarda shakllangan ta'lim modellari, mehnat bozori bilan integratsiya mexanizmlari, kompetensiyaga asoslangan ta'lim tizimi hamda raqamli va innovatsion texnologiyalarning kadrlar sifatiga ta'siri o'rganildi. Maqolada xorijiy yondashuvlarning O'zbekiston turizm ta'limi tizimiga moslashtirilishi bo'yicha konseptual takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *turizm ta'limi, dual ta'lim, kompetensiya, turizm iqtisodiyoti, inson kapitali, kadrlar tayyorlash, xorijiy tajriba, ta'lim modeli, mehnat bozori*

Абдуллаев Зафарбек Сафибуллаевич
Исполняющий обязанности доцента, DSc, кафедра «Финансовых отношений», экономический факультет, Наманганский государственный университет
Абдуллабекова Ноилахон Ғофуржон қизи
Магистрант 1 курса образовательного направления «Туризм и гостеприимство», кафедра «Менеджмент», Наманганский государственный университет

ЗАРУБЕЖНЫЕ ПОДХОДЫ К ПОДГОТОВКЕ КАДРОВ ДЛЯ СФЕРЫ ТУРИЗМА

Аннотация: *В данной научной статье комплексно анализируются зарубежные подходы к подготовке кадров для сферы туризма с экономической и институциональной точек зрения. Изучены образовательные модели, сформированные в развитых странах, механизмы интеграции с рынком труда, система образования, основанная на компетенциях, а также влияние цифровых и инновационных технологий на качество подготовки кадров.*

Ключевые слова: *туристское образование, дуальное образование, компетенции, экономика туризма, человеческий капитал, образовательная модель, рынок труда.*

Abdullayev Zafarbek Safibullayevich
Acting Associate Professor (DSc), Department of Financial Relations, Faculty of Economics, Namangan State University
Abdullabekova Noilakhon Gofurjon qizi
First-year Master's student, Tourism and Hospitality study program, Department of Management, Namangan State University

FOREIGN APPROACHES TO TRAINING PERSONNEL FOR THE TOURISM SECTOR

Abstract: *This scientific article provides a comprehensive analysis of foreign approaches to training personnel for the tourism sector from economic and institutional perspectives. The study examines educational models developed in advanced countries, mechanisms for integration with the labor market, competency-based education systems, as well as the impact of digital and innovative technologies on the quality of human resource development.*

Keywords: *tourism education, workforce training, international experience, dual education, competencies, tourism economics, human capital, educational model, labor market.*

Kirish. Turizm sohasi hozirgi davrga kelib jahon iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biriga aylangan. Turizm nafaqat valyuta tushumlari manbai, balki bandlikni ta'minlovchi, hududiy rivojlanishni jadallashtiruvchi va xizmatlar sektorining multiplikativ ta'sirini yuzaga keltiruvchi soha sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, turizm tarmog'ining barqaror rivoji, eng avvalo, ushbu soha uchun tayyorlanayotgan kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga bevosita bog'liq. Iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan qaralganda, turizm sohasida kadrlar tayyorlash inson kapitaliga investitsiya sifatida talqin etiladi. G. Bekkerning inson kapitali nazariyasiga ko'ra, ta'lim va malaka oshirishga yo'naltirilgan xarajatlar kelajakda yuqori mehnat unumdorligi va daromad bilan qoplanadi [1]. Shu bois rivojlangan mamlakatlarda turizm ta'limi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Mazkur tadqiqotning maqsadi rivojlangan mamlakatlarda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlashning ilg'or yondashuvlarini tahlil qilish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash masalasi xorijiy va milliy ilmiy adabiyotlarda ko'p qirrali iqtisodiy va institutsional muammo sifatida talqin qilinadi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar asosan inson kapitali nazariyasi, ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi hamda xizmatlar sektorida raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga qaratilgan. Inson kapitali nazariyasining asoschisi G.Bekker ta'lim va kasbiy tayyorgarlikni iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida ilmiy asoslab bergan [1]. Uning konsepsiyasiga ko'ra, ta'lim tizimiga yo'naltirilgan investitsiyalar mehnat unumdorligini oshiradi va uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv turizm sohasida kadrlar tayyorlashni nafaqat pedagogik, balki iqtisodiy jarayon sifatida baholashga imkon beradi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda turizm ta'limining rivojlanishida institutsional hamkorlik masalasi alohida e'tiborga olinadi. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) tomonidan chop etilgan tadqiqotlarda turizm sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi global muammo sifatida qayd etilib, ta'lim muassasalari, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi [2]. UNWTO hisobotlarida dual ta'lim va amaliyotga yo'naltirilgan dasturlar turizm xizmatlari sifatini oshirishning muhim omili sifatida ko'rsatilgan. OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizm ta'limi tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish masalalari chuqur tahlil qilingan [3]. Mazkur tadqiqotlarga ko'ra, kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli bitiruvchilarning bandlik darajasini oshiradi.

Turizm sohasida inson resurslarini boshqarish masalalari Baumning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Muallif turizm tarmog'ida xizmatlar sifati bevosita kadrlarning malakasi va kommunikativ kompetensiyalariga bog'liq ekanini asoslab beradi [4]. Baumning fikricha, turizm ta'limida menejment, mijozlar bilan ishlash va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor ahamiyatga ega.

Cooper va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda turizm ta'limining zamonaviy muammolari va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan [5]. Ularning tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar, innovatsion o'qitish usullari va moslashuvchan ta'lim dasturlarining ahamiyati alohida qayd etiladi. Mualliflar turizm bozorining tez o'zgaruvchanligi ta'lim tizimini doimiy yangilashni talab etishini ta'kidlaydilar.

Yaponiya va Janubiy Koreya olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sun'iy intellekt, simulyatsion treninglar va raqamli platformalar turizm kadrlarini tayyorlash samaradorligini sezilarli darajada oshirayotgani ilmiy jihatdan asoslangan [6]. Ushbu yondashuvlar turizm xizmatlarining innovatsion rivojlanishiga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston olimlari tomonidan ham turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash masalalari faol o'rganilmoqda. A.A.Abduqodirov, Sh.Q.Tursunov va boshqa iqtisodchi olimlar o'z tadqiqotlarida turizm ta'limini inson kapitalini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida baholab, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish zarurligini asoslab berganlar[7,8]. Ularning ilmiy ishlarida xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish masalasi alohida e'tibor markazida turadi. M.Q.Rasulov va D.X.Xoliqulov tadqiqotlarida O'zbekistonda turizm ta'limi tizimining hozirgi holati, muammolari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Mualliflar ta'lim dasturlarining amaliy yo'naltirilganligi yetarli emasligini ko'rsatib, dual ta'lim elementlarini joriy etish zarurligini ilmiy asoslab berganlar[9,10]. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy va milliy ilmiy manbalarda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash masalasi keng yoritilgan bo'lsa-da, xorijiy ilg'or yondashuvlarni kompleks ravishda tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida kompleks va tizimli ilmiy yondashuv qo'llanilib, unda turizm ta'limi tizimini yaxlit iqtisodiy mexanizm sifatida o'rganishga xizmat qiluvchi tizimli tahlil metodi, Germaniya, Shveytsariya, AQSh, Yaponiya hamda Janubiy Koreya tajribalarini solishtirishga qaratilgan qiyosiy-iqtisodiy tahlil, ta'lim, davlat va biznes sektori o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlash imkonini beruvchi institutsional tahlil, shuningdek ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqishda iqtisodiy mantiq va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Qiyosiy-iqtisodiy tahlil xorijiy modellarning samaradorligini baholashda, institutsional tahlil esa ta'lim–davlat–biznes integratsiyasini aniqlashda qo'llanildi.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xorijiy mamlakatlarda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash bir nechta fundamental yondashuvlarga asoslanadi va ular iqtisodiy samaradorlik bilan bevosita bog'liq. Avvalo, Yevropa mamlakatlarida, xususan Germaniya va Shveytsariyada **dual ta'lim tizimi** yetakchi o'rin tutadi.

Ushbu modelda nazariy bilimlar ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalar esa bevosita turizm korxonalarida shakllantiriladi. Natijada ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzilish bartaraf etilib, bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuv darajasi keskin oshadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dual ta'lim asosida tayyorlangan turizm mutaxassislarining ish bilan ta'minlanish ko'rsatkichi 85-90 foizni tashkil etadi.

Xorijiy mamlakatlarda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash yondashuvlari va ularning iqtisodiy samarasi (1-jadval)

Xorijiy yondashuv turi	Amalga oshirilgan mamlakatlar	Asosiy xususiyatlari	Iqtisodiy samarasi
Dual ta'lim modeli	Germaniya, Shveytsariya	Nazariy ta'lim oliy ta'lim muassasasida, amaliy mashg'ulotlar esa turizm korxonalarida olib boriladi; ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi kuchli	Bitiruvchilarning bandlik darajasi 85–90 % gacha oshadi, korxonalar uchun moslashuv xarajatlari kamayadi
Kompetensiyaga asoslangan ta'lim	AQSh, Kanada	Ta'lim jarayoni bilim berishdan ko'ra kasbiy, menejerlik, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan	Mehnat unumdorligi oshadi, xizmatlar sifati yaxshilanadi, turizm korxonalari raqobatbardoshligi kuchayadi
Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari	Buyuk Britaniya, Avstraliya	O'quv rejalari real biznes loyihalari, keyslar va uzoq muddatli amaliyotlar asosida tashkil etiladi	Kadrlar tayyorlash vaqti qisqaradi, yosh mutaxassislarning bozorga moslashuvi tezlashadi
Raqamli va innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim	Yaponiya, Janubiy Koreya	Sun'iy intellekt, simulyatsion treninglar, onlayn platformalar va virtual amaliyotlar qo'llaniladi	Ta'lim samaradorligi oshadi, innovatsion xizmatlar ulushi kengayadi, inson kapitali sifati yaxshilanadi
Davlat–ta'lim–biznes hamkorligi modeli	Fransiya, Ispaniya	Ta'lim dasturlari davlat siyosati va xususiy sektor ehtiyojlari asosida shakllantiriladi	Kadrlar yetishmovchiligi kamayadi, turizm tarmog'ida barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanadi

Tahlil qilingan xorijiy yondashuvlar O'zbekiston sharoitida turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur yondashuvlar asosida tayyorlangan mutaxassislar turizm xizmatlari sifatini oshirish, bandlik darajasini yaxshilash va tarmoqning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosalar. O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimi faqat ta'lim jarayoni bilan cheklanmaydi, balki u iqtisodiy rivojlanishning muhim institutsional omili sifatida qaraladi. Dual ta'lim, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va raqamli texnologiyalarni joriy etish inson kapitalining sifat jihatdan o'sishini ta'minlaydi. Shu bois xorijiy tajribaning ilmiy jihatdan tahlil qilinishi va uni milliy sharoitga moslashtirish turizm iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim strategik ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston sharoitida turizm ta'limiga dual ta'lim elementlarini bosqichma-bosqich joriy etish va raqamli kompetensiyalarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Becker, G.S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. 3rd ed. Chicago: University of Chicago Press, 2019.
2. World Tourism Organization (UNWTO). *Tourism Education and Skills Development*. Madrid: UNWTO Publications, 2022.
3. OECD. *Tourism Trends and Policies: Human Capital Development*. Paris: OECD Publishing, 2021.
4. Baum.T. *Human Resource Management for Tourism, Hospitality and Leisure*. London: Routledge, 2020.
5. Cooper.C., Fletcher, J., Fyall, A., Gilbert, D., & Wanhill, S. *Tourism: Principles and Practice*. 6th ed. Harlow: Pearson Education, 2018.
6. Kim, S.S., Park, E., & Lamb, D. "The Impact of Digital Technologies on Tourism Education." *Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education*, 2020, Vol. 27, pp. 1–10.
7. Abduqodirov A.A. Turizm sohasida inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.

8. Tursunov Sh.Q. Turizm iqtisodiyotida kadrlar tayyorlash va bandlik masalalari. // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* ilmiy jurnali, 2021, №4, 45–52-betlar.

9. Rasulov M.Q. O‘zbekistonda turizm ta’limi tizimini modernizatsiya qilish yo‘nalishlari. // *Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti* jurnali, 2020, №2, 30–38-betlar.

10. Xoliqulov D.X. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlashda xorijiy tajribani qo‘llash masalalari. // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil* ilmiy jurnali, 2021, №3, 67–74-betlar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

08.00.00-IQTISODIYOT
journal.namdu.uz
ECONOMIC

Dustov Jonibek Amriddinovich
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali v/b dotsenti
E-mail: dostovjonibek@5gmail.com

SPORT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada sport turizmini rivojlantirishning zamonaviy innovatsion modellari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Global turizm tizimidagi transformatsion jarayonlar, raqamlashtirish, barqaror rivojlanish va tajribaviy iqtisodiyot sport turizmi misolida chuqur ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Kalit so‘zlar: sport turizmi, innovatsion model, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish, tajribaviy turizm.*

Дустов Джонибек Амриддинович
Исполняющий обязанности доцента Самаркандского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов в области физического воспитания и спорта

ИННОВАЦИОННЫЕ МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ СПОРТИВНОГО ТУРИЗМА

Аннотация. *В данной научной статье анализируются современные инновационные модели развития спортивного туризма с теоретической и практической точек зрения. На примере спортивного туризма подробно раскрываются трансформационные процессы в глобальной системе туризма, цифровизация, устойчивое развитие и экономика впечатлений.*

Ключевые слова: *спортивный туризм, инновационная модель, цифровая трансформация, устойчивое развитие, туризм впечатлений.*

Djonibek Amriddinovich Do'stov
Associate Professor, Samarkand Branch of the Institute of Retraining and Advanced Training of Physical Education and Sports Specialists

INNOVATIVE MODELS OF SPORTS TOURISM DEVELOPMENT

Abstract. *This scientific article analyzes modern innovative models of sports tourism development from a theoretical and practical perspective. Transformational processes in the global tourism system, digitalization, sustainable development and experiential economy are deeply revealed using the example of sports tourism.*

Keywords: *Keywords: sports tourism, innovative model, digital transformation, sustainable development, experiential tourism.*

Keying yillarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda turizm bugungi kunda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining drayverlaridan biriga aylandi. Ayniqsa ichki turizmni rivojlantirish natijasida aholining barcha qatlamlarini shu jumladan talaba-yoshlarni turizm infratuzilmasi obektlariga, yani tarixiy va memoriy yodgorliklar, muzeylar, teatrlar, xalq baxshilarining uy muzeylariga, madaniyat uylariga, zamonaviy sport inshootlariga sayohatlarni tashkil etish orqali talaba yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning mafkuraviy immunitetini mustaxkamlash, vatanparvarlik tuyg‘usini takomillashtirish, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy sifatlarini oshirishga xizmat qilmoqda. [1,2].

Turizmning bir necha turlari bo‘lib, Sport turizmi-bu tabiiy to‘siqlarni yengib o‘tishda odamni sport bilan takomillashtirishga qaratilgan sport turi hisoblanadi. Sport turizmi yillar davomida rivojlanib kelmoqda. Sport turizmi to‘siqlarni yengib o‘tishning turli taktikasi va usullarini qo‘llashdan iborat.

Sport turizmining turlari quyidagilardan iborat:

- piyoda yurish-sayyohlik yo‘nalishida harakatlanish asosan piyoda amalga oshiriladi. Asosiy vazifa-relyef va landshaft to‘siqlarini piyoda, yuqori toifadagi qiyinchiliklar uchun - qiyin relef va iqlim sharoiti bo‘lgan joylarda yengib o‘tish.

• chang‘i turizmi - sayyohlik yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanish asosan chang‘ida amalga oshiriladi. Asosiy vazifa-qor va qor-muz qatlamidagi relyef va landshaft to‘siqlarini chang‘ida, yuqori toifadagi qiyinchiliklar uchun qiyin iqlim zonalarida va tog‘li hududlarda yengib o‘tish.

• tog‘ turizmi - baland tog‘larda piyoda yurish. Asosiy vazifa tog‘ dovonlaridan o‘tish, cho‘qqilarga chiqish.

• suv turizmi - odatda tog‘li hududlarda rafting vositalarida (kemalarda) daryolar bo‘ylab rafting. Asosiy vazifa daryo tubining relyefi va uning oqimining xususiyatlari natijasida hosil bo‘lgan suv to‘siqlaridan o‘tishdir.

• yelkanli turizm - dengizda yoki yirik ko‘llarning suv zonalarida suzib yuruvchi kemalarda sayohat. Asosiy vazifa - ichki suvlarda va ochiq dengizda suzish qoidalariga muvofiq kemaning sayohat rejasini bajarishdir.

transport vositalarida - velosiped turizmi, ot sporti turizmi va avtomobil turizmini o‘z ichiga oladi. Asosiy vazifa - uzoq yo‘nalishdagi relyef-landshaft to‘siqlarini (har xil relef va qoplamali yo‘llar, qir adir yoqasidagi yo‘llargacha), sayyohlik, chorvachilik va hayvonlarning migratsiya yo‘llari, o‘tish joylari; tog‘ dovonlari, traverslar va boshqalar) qiyin sharoitlarda, odatda iqlimi va topografiyasi qiyin bo‘lgan tog‘li yoki qiyin yerlarda.

Respublikamizda bundan tashqari havo turizmining bir necha ekstemal turlari ham rivojlanib ommalashib bormoqda. [3,4].

Zamonaviy global iqtisodiyotda turizm sohasi eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda sport turizmi alohida strategik yo‘nalish sifatida ajralib chiqmoqda. Sport turizmi nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki hududlarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi kompleks hodisadir. An’anaviy turizm modellaridan farqli ravishda, sport turizmi innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Chunki zamonaviy sayyoh passiv tomoshabindan faol ishtirokchiga aylanmoqda. Sport turizmi tushunchasi ilmiy adabiyotlarda sport turizmi quyidagicha talqin etiladi: sport faoliyati, musobaqalar yoki sog‘lomlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan sayohatlar majmui.

Sport turizmining asosiy komponentlari:

• sport infratuzilmasi;

• xizmatlar majmuasi;

• tajriba va emotsional qoniqish.

Sport turizmida odamlar odatda boshqa hududga, viloyatga yoki mamlakatga boradilar. Demak, joy almashish - muhim komponent. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi: transport (avto, poyezd, samolyot), yo‘nalish tanlash, marshrut rejalashtirish.

Sport turizmi ko‘pincha tabiiy sharoitda amalga oshiriladi.

Masalan:tog‘lar,daryolar,ko‘llar,cho‘llar,o‘rmonlar,dengiz va okeanlar. Shu sababli ekologiya va tabiatni asrash sport turizmida juda muhim ahamiyatga ega.

Har bir hududda sport turizmini rivojlantirish uchun quyidagilar zarur: mehmonxonalar, o‘llar ,dam olish maskanlari, sport bazalari,ijaraga beriladigan sport anjomlari, yo‘lboshlovchilar (gidlar) kerak bo‘ladi.

Sport turizmida xavfsizlik asosiy qoidalaridan biridir. Bunga quyidagilar kiradi: qutqaruv xizmatlari, birinchi tibbiy yordam, professional instruktorlar, sug‘urta tizimi. sport kiyimlariga ahamiyat berish talab etiladi.

Sport turizmi faqat jismoniy faoliyat emas, balki madaniy almashinuv hamdir. Sayohatchilar bu yo‘nalish orqali yangi joylar bilan tanishadi, mahalliy madaniyatni o‘rganadi, yangi odamlar bilan muloqot qiladi.

Sport turizmini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning zarurati. Global raqobat sharoitida sport turizmini rivojlantirish an’anaviy usullar bilan cheklanib qololmaydi. Innovatsiya quyidagi omillar bilan izohlanadi:

• raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi;

• ekologik va ijtimoiy mas’uliyatning oshishi;

• iste’molchi xulq-atvorining o‘zgarishi.

Sport turizmini rivojlantirishning innovatsion modellari

Raqamli transformatsiya modeli ushbu model sport turizmini boshqarishda sun’iy intellekt, mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Bu model xizmatlar sifati va xavfsizlik darajasini sezilarli oshiradi. [3,4].

Barqaror rivojlanishga asoslangan model, mazkur model ekologik muvozanatni saqlash, mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Tajribaviy (experience-based) model

Bu yondashuvda sayyoh sport faoliyatining bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Natijada sport turizmi shunchaki xizmat emas, balki shaxsiy tajribaga aylanadi.

Innovatsion modellarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi innovatsion sport turizmi hisoblanadi, ular quydagilarni o‘z ichiga oladi:

• hududiy iqtisodiyotni faollashtiradi;

• yangi ish o‘rinlari yaratadi;

• yoshlar va sportchilar bandligini oshiradi;

• milliy sport brendini shakllantiradi.

Sport turizmi zamonaviy turizmning muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat jismoniy faollikni rivojlantirish, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sport turizmi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan bir qator asosiy komponentlardan - sport faoliyati, sayohat, tabiiy muhit, infratuzilma, xavfsizlik tizimi hamda madaniy-ijtimoiy omillardan tashkil topadi. Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi sport turizmining samaradorligini oshiradi, hududlarning turistik salohiyatini kuchaytiradi va aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, sport turizmini rivojlantirish ekologik barqarorlikni ta’minlash, xavfsizlik choralarini kuchaytirish hamda zamonaviy infratuzilmani yaratishni talab qiladi. Umuman olganda, sport turizmi nafaqat dam olish va rekreatsiyaning samarali shakli, balki jamiyatning jismoniy, ma’naviy va iqtisodiy rivojiga xizmat qiluvchi muhim soha sifatida baholanadi. Uni tizimli rivojlantirish esa milliy turizm strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri biriga aylangan.

Sport turizmi klasteri - bu ma’lum bir hududda sport inshootlari, mehmonxonalar, transport logistikasi va ilmiy-tadqiqot markazlarining o‘zaro bog‘liqlikdagi majmuasidir. Ushbu modelning sinergetik samaradorligini quyidagicha ifodalash mumkin:

Agar E_{total} - umumiy iqtisodiy samaradorlik bo‘lsa, u quyidagi funksiya orqali ifodalanadi:

$E_{total} = f(I + S + L) \cdot k$

Bunda:

- I - sport infratuzilmasi;
- S - servis va xizmat ko‘rsatish;
- L - logistika va transport;
- k - innovatsion koeffitsient.

Sport turizmini rivojlantirishda davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytirish uchun Public-Private Partnership (DXSH) modeli samarali hisoblanadi. Bu modelda:

Yer ajratish, soliq imtiyozlari va huquqiy bazani ta’minlaydi.

Xususiy sektor: Innovatsion menejment, investitsiya va marketing strategiyalarini olib kiradi.

Atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish maqsadida “Yashil texnologiyalar” sport turizmiga tatbiq etilmoqda. Masalan, yirik stadionlarni quyosh panellari bilan jihozlash yoki marafonlar o‘tkaziladigan hududlarda chiqindilarni qayta ishlashning Zero Waste tizimini joriy qilish.

Sport turizmini rivojlantirishning innovatsion modellari faqatgina texnologik yangiliklar bilan cheklanib qolmay, balki boshqaruv va ijtimoiy yondashuvlarning o‘zgarishini ham qamrab oladi. Klasterli yondashuv va raqamli ekotizimlarning integratsiyasi hududlarning turistik jozibadorligini oshirish bilan birga, milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda sport turizmini rivojlantirishning innovatsion modellari zamonaviy iqtisodiyot sharoitida strategik zaruratdir. Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar sport turizmini barqaror va raqobatbardosh tizimga aylantiradi. Bizni yurtimizda ham bu sport turini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2018 yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli qarori.
2. Xudoyberdiyev A. “O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari”. – Toshkent: Fan, 2021.
3. Karimov R. “Sport turizmi va uning iqtisodiyotdagi o‘rni”. // Turizm va servis jurnali, 2022, №3.
4. Rahmonov S. “Sport turizmini rivojlantirishning innovatsion yo‘llari”. // Iqtisodiyot va turizm, 2021, №5.
5. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2022.
6. Https://uz.wikipedia.org/wiki/sport_turizmi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

08.00.00-IQTISODIYOT
journal.namdu.uz
ECONOMIC

Урунова Мафтуна Гайратовна
преподаватель-асситент кафедры финансов Самаркандского института экономики и сервиса.
Email: urunova.maftuna@bk.ru

ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ БАНКОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ, ТЕНДЕНЦИИ И РИСКИ РАЗВИТИЯ

Аннотация: *В статье исследуются теоретико-методологические и институциональные аспекты развития финансовых технологий в банковской системе Республики Узбекистан. Целью исследования является комплексный анализ направлений цифровой трансформации коммерческих банков, оценка их влияния на устойчивость, конкурентоспособность и финансовую инклюзию, а также выявление системных рисков и ограничений дальнейшего развития. Методологическую основу составили положения теории финансового посредничества, институциональной экономики и концепции цифровой трансформации. Установлено, что финтех-трансформация банков Республики Узбекистан развивается в условиях активной регуляторной поддержки и модернизации платёжной инфраструктуры, однако требует дальнейшего совершенствования механизмов управления цифровыми рисками.*

Ключевые слова: *финансовые технологии, цифровой банкинг, финтех-экосистема, коммерческие банки, платежные системы, регуляторная политика, банковские риски, цифровая экономика, Узбекистан.*

Urunova Maftuna G‘ayratovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Moliya kafedrasida assistent-o‘qituvchi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARINING MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARI: INSTITUTSIONAL ASOSLAR, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA XATARLAR

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodologik hamda institutsional jihatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi — tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi yo‘nalishlarini kompleks tahlil qilish, ularning barqarorlik, raqobatbardoshlik va moliyaviy inklyuziyaga ta’sirini baholash, shuningdek, keyingi rivojlanishning tizimli xatarlari va cheklovlarini aniqlashdan iborat. Metodologik asos sifatida moliyaviy vositachilik nazariyasi, institutsional iqtisodiyot hamda raqamli transformatsiya konsepsiyasi qoidalari qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi banklarida fintech-transformatsiya faol regulyator qo‘llab-quvvatlovi va to‘lov infratuzilmasining modernizatsiyasi sharoitida jadallik bilan rivojlanmoqda, biroq raqamli xatarlarni boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab etadi.*

Kalit so‘zlar: *moliyaviy texnologiyalar, raqamli banking, fintech-ekotizim, tijorat banklari, to‘lov tizimlari, regulyator siyosati, bank xatarlari, raqamli iqtisodiyot, O‘zbekiston.*

Urunova Maftuna Gayratovna
Teacher assistant at the Department of Finance, Samarkand Institute of Economics and Service.

FINANCIAL TECHNOLOGIES OF BANKS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: INSTITUTIONAL FOUNDATIONS, DEVELOPMENT TRENDS, AND RISKS

Abstract: *This article examines the theoretical, methodological, and institutional aspects of the development of financial technologies in the banking system of the Republic of Uzbekistan. The aim of the study is to provide a comprehensive analysis of the directions of digital transformation in commercial banks, to assess their impact on sustainability, competitiveness, and financial inclusion, and to identify systemic risks and constraints affecting further development. The methodological framework is based on the theory of financial intermediation, institutional economics, and the concept of digital transformation. The findings indicate that fintech transformation in the banks of the Republic of Uzbekistan is progressing under conditions of active regulatory support and modernization of payment infrastructure; however, it requires further improvement of digital risk management mechanisms.*

Keywords: *financial technologies, digital banking, fintech ecosystem, commercial banks, payment systems, regulatory policy, banking risks, digital economy, Uzbekistan.*

Развитие финансовых технологий в мировой практике рассматривается как структурный этап эволюции финансового посредничества. По определению Базельского комитета по банковскому надзору, финтех представляет собой технологические инновации, способные существенно трансформировать финансовые услуги и рынки [1,7]. В исследованиях P. Gomber и соавторов подчёркивается, что цифровые финансовые сервисы изменяют архитектуру банковского бизнеса, переводя его в платформенный формат [2, 542].

Теоретические основы анализа финтеха опираются на концепцию делегированного мониторинга Д. Даймонда, согласно которой банк снижает трансакционные издержки и информационную асимметрию посредством централизованной обработки информации [3, с. 394–396]. В цифровой среде данная функция усиливается за счёт использования больших данных и алгоритмических моделей скоринга.

В Республике Узбекистан институциональные условия цифровой трансформации формируются под координацией Центральный банк Республики Узбекистан, который определяет стратегические направления развития безналичных расчетов, дистанционного банковского обслуживания и кибербезопасности [4, 15]. Регуляторная политика ориентирована на формирование устойчивой платежной инфраструктуры и стимулирование инновационной активности банков.

Значительную роль в развитии национальной финтех-экосистемы играют платёжные системы Uzcard и Humo, обеспечивающие технологическую основу массовых безналичных операций [5, 6]. Их модернизация способствовала росту цифровых транзакций и расширению интеграции банковских сервисов с электронной коммерцией.

С точки зрения мировой практики, цифровые финансовые сервисы способствуют снижению операционных издержек банков. По оценке Всемирного банка, цифровизация способна уменьшить стоимость финансовых услуг и расширить доступ населения к банковским продуктам [6, 22]. Для Узбекистана это имеет особое значение в контексте региональной диверсификации и повышения финансовой инклюзии.

Активно развивается сегмент цифрового кредитования. Использование автоматизированных скоринговых моделей на основе анализа альтернативных данных позволяет минимизировать риски неблагонадёжности заёмщиков и ускорить процесс принятия решений. В работах T. Philippon подчёркивается, что финтех способен повысить эффективность финансового посредничества при условии адекватного регулирования [7, 15].

Вместе с тем рост цифровизации сопровождается увеличением технологических и киберрисков. Базельский комитет акцентирует внимание на необходимости усиления контроля над ИТ-инфраструктурой банков и внедрения стандартов операционной устойчивости [1,34]. Для банков Узбекистана это предполагает инвестиции в системы информационной безопасности и формирование комплексных процедур управления рисками.

С институциональной позиции важным фактором остаётся структура собственности банковского сектора. Согласно концепции Д. Норта, институциональная среда определяет характер экономических стимулов и инновационной активности [8, 5]. Высокая доля государства в банковских активах обеспечивает макроэкономическую стабильность, однако требует развития конкурентной среды для ускорения финтех-инноваций.

Цифровизация кредитных процессов реализуется через автоматизированные скоринговые системы, основанные на анализе больших данных и альтернативных источников информации. Теоретически подобные модели позволяют минимизировать проблему информационной асимметрии между кредитором и заемщиком. Практика узбекских банков демонстрирует сокращение сроков рассмотрения заявок и рост доли онлайн-кредитования, особенно в сегменте потребительских займов.

Одновременно усиливается значение технологий искусственного интеллекта и машинного обучения в системах управления рисками. Они используются для антифрод-аналитики, прогнозирования дефолтов и персонализации финансовых продуктов. Международные исследования показывают, что интеграция ИИ в банковские процессы повышает точность риск-моделей и снижает уровень просроченной задолженности.

Однако ускоренная цифровизация сопровождается ростом киберрисков и операционных угроз. Базельский комитет подчёркивает необходимость усиления надзора за ИТ-инфраструктурой банков и разработки комплексных стандартов киберустойчивости. В условиях Узбекистана данная проблема приобретает особую актуальность в связи с расширением дистанционных сервисов и ростом числа онлайн-транзакций.

Перспективным инструментом регулирования является внедрение «регуляторных песочниц». По мнению D. Arner, J. Barberis и R. Buckley, данный механизм позволяет сбалансировать инновационную динамику и требования финансовой стабильности [9, 28]. Для Узбекистана развитие подобных инструментов может стать основой для интеграции финтех-стартапов в банковскую систему.

Таким образом, финансовые технологии банков Республики Узбекистан выступают стратегическим инструментом модернизации финансового сектора. Их развитие способствует повышению прозрачности

операций, снижению транзакционных издержек и расширению доступа к финансовым услугам. Одновременно устойчивость цифровой трансформации зависит от совершенствования регуляторной политики, развития киберустойчивости и формирования институциональной среды, стимулирующей инновации.

Список литературы:

1. Basel Committee on Banking Supervision. Sound Practices: implications of fintech developments for banks and bank supervisors. — Basel, 2018. — 48 p.
2. Gomber P., Koch J., Siering M. Digital Finance and FinTech: current research and future research directions // Journal of Business Economics. — 2017. — Vol. 87. — P. 537–580.
3. Diamond D.W. Financial Intermediation and Delegated Monitoring // Review of Economic Studies. — 1984. — Vol. 51. — P. 393–414.
4. Отчёты и аналитические материалы Центральный банк Республики Узбекистан.
5. Статистические и информационные материалы Uzcard и Humo.
6. World Bank. Digital Financial Services. — Washington, 2020. — 54 p.
7. Philippon T. The FinTech Opportunity // NBER Working Paper No. 22476. — 2016. — 30 p.
8. North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990. — 152 p.
9. Arner D., Barberis J., Buckley R. The Evolution of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm // Georgetown Journal of International Law. — 2016. — Vol. 47. — P. 1271–1319.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abdunazarov Lutfillo Mamanovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Qo'qon universiteti dotsenti
Email: l.abdunazarov@mail.ru

UO'K 316.334.56(575.1)

O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONI TARIXIY BOSQICHLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston hududida urbanizatsiya jarayonining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilingan. Ilk protoshahar madaniyatidan boshlab antik davr, ellinizm, islom sivilizatsiyasi, mo'g'ullar istilosi, Temuriylar davri, xonliklar, mustamlaka va sovet bosqichlari hamda mustaqillik yillaridagi o'zgarishlar izchillik tamoyili asosida yoritilgan. Arxeologik manbalar, tarixiy tadqiqotlar va demografik ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilingan. Urbanizatsiyaning 11 bosqichli konseptual tasnifi taklif etilgan. Tadqiqot natijalari shaharsozlik siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish, milliy an'analar va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirish uchun nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *urbanizatsiya, shaharsozlik, protoshahar, sivilizatsiya, davrlashtirish, tarixiy bosqichlar, Temuriylar, industrializatsiya, mustaqillik, ijtimoiy-falsafiy yondashuv, aglomeratsiya, demografiya.*

Абдуназаров Лутфилло Маманович
Доктор философии (PhD) педагогических наук Доцент Кокандского университета

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКИХ ЭТАПОВ ПРОЦЕССА УРБАНИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: *В статье на основе социально-философского подхода проанализированы этапы становления и развития процесса урбанизации на территории Узбекистана. Последовательно освещены изменения, начиная с культуры ранних протогородов, античного периода, эпохи эллинизма, исламской цивилизации, монгольского нашествия, эпохи Темуридов, ханств, колониального и советского этапов, а также трансформации периода независимости. Проведен сравнительный анализ археологических источников, исторических исследований и демографических данных. Предложена концептуальная классификация урбанизации, состоящая из 11 исторических этапов. Результаты исследования служат теоретической основой для научного совершенствования градостроительной политики, а также для гармонизации национальных традиций и современных подходов.*

Ключевые слова: *урбанизация, градостроительство, протогород, цивилизация, периодизация, исторические этапы, Темуриды, индустриализация, независимость, социально-философский подход, агломерация, демография.*

Abdunazarov Lutfilo Mamanovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences Associate Professor at Kokand University

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE HISTORICAL STAGES OF THE URBANIZATION PROCESS IN UZBEKISTAN

Annotation: *This article analyzes the stages of formation and development of the urbanization process in the territory of Uzbekistan based on a socio-philosophical approach. It consistently examines transformations from the early proto-urban culture through the Antique period, Hellenistic era, Islamic civilization, the Mongol invasion, the Timurid period, the khanates, the colonial and Soviet stages, as well as changes during the years of independence. A comparative analysis of archaeological sources, historical studies, and demographic data is conducted. An 11-stage conceptual classification of urbanization is proposed. The research findings provide a theoretical foundation for the scientific improvement of urban planning policy and for harmonizing national traditions with modern approaches.*

Keywords: *urbanization, urban planning, proto-city, civilization, periodization, historical stages, Timurids, industrialization, independence, socio-philosophical approach, agglomeration, demography.*

Kirish. O‘rta Osiyo hududida shaharsozlik tarixi insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi bosqichlariga borib taqaladi. Ilk manzilgohlardan tortib murakkab shahar davlatlarigacha bo‘lgan taraqqiyot jarayoni jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivoji bilan chambarchas bog‘liq kechgan. Arxeologik tadqiqotlar, xususan Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklari misolida, miloddan avvalgi II ming yillikdayoq protoshahar madaniyati shakllanganini ko‘rsatadi. Keyinchalik antik davr, ellinizm ta’siri, islom sivilizatsiyasi, mo‘g‘ullar istilosi, Temuriylar davri va boshqa tarixiy bosqichlar shaharsozlik qiyofasi va funksiyalarining o‘zgarishiga olib keldi.

Urbanizatsiya jarayonini ilmiy jihatdan davrlashtirish masalasi hozirgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayrim tadqiqotchilar, jumladan A.S. Soliev, urbanizatsiya bosqichlarini muayyan tarixiy chegaralar asosida tasniflagan bo‘lsalarda, mazkur jarayonni ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida kompleks o‘rganish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Tadqiqotda O‘zbekiston hududida urbanizatsiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiylik, izchillik va vorisiylik tamoyillari asosida tahlil qilinadi hamda ularni yangi konseptual yondashuv doirasida tizimlashtirish maqsad qilib qo‘yiladi.

Tadqiqotda tarixiylik va izchillik tamoyillariga tayangan holda kompleks tahlil, qiyosiy tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalanildi. Shuningdek, tanqidiy yondashuv, davrlashtirish, manbalarni solishtirish hamda ijtimoiy-falsafiy interpretatsiya metodlari orqali urbanizatsiya jarayonlarining mazmun-mohiyati va rivojlanish bosqichlari tizimli ravishda o‘rganildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot natijalarini inobatga olgan xolda ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida urbanizatsiyaning rivojlanish tarixiy bosqichlarini tavsiya etamiz. Demak ular quyidagilar:

1. Miloddan avvalgi 3-2 ming yillikdan to ilk shahar davlatlar davrigacha
2. Yunon-makedon istilosi davri
3. Yuechjilar davridan to turk xoqonligigacha bo‘lgan davr (Bunda yuechjilar davri alohida olinishi ham mumkin)
4. Arab istilosi davri
5. Mo‘g‘ullar davri
6. Amir Temur va Temuriylar davri
7. Xonliklar davri
8. Rus istilosidan avvalgi va istilo davri
9. Sovet davri
10. Mustaqillikning dastlabki yillari
11. Yangi O‘zbekiston davri

Yuqorida ta’kidlaganimizdek mamlakatimizda shaharlarni qurilish uslublari va bajargan vazifalarini o‘zgarishiga qarab turli davrlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Masalan dastlabki davr yoki bosqich miloddan avvalgi III-II ming yillikka borib taqaladi. Arxeologlarimizning o‘rganishlariga ko‘ra hozirgi Surxondaryo hududida aynan shu davrlarga tegishli dastlabki shaharlardan – protoshahar (proto-oldingisi) qoldiqlari topilgan. Surxondaryoda joylashgan Sopollitepa va Jarqo‘ton manzilgohlari bunga misol bo‘la oladi. Bunday shaharlar markazlarida ibodatxona va shahar ma’muriyati mavjud bo‘lganligi bilan hususiyatlanadi. Olimlarning fikrlariga ko‘ra ulardan mudofaa maqsadlarida foydalanilgan. Ushbu shaharlar madaniy-marifiy va aloqa bog‘lash vaziflarini bajargan xolos. Bu kabi shaharlar ko‘rinishidan yoki tajribasidan bugungi kunda foydalanishning afzalliklarini uchratmadik. Mamlakatimiz urbanizatsion taraqqiyotidagi navbatdagi bosqich fikrimizcha ellinizm davri hisoblanadi. Makedonskiyning Qadimgi Turon hududini egallash natijasida boshlangan mazkur davrda shaharlar qurish va uning aholisi turmush tarzi ham o‘zgargan. Yunoniston shaharlari rejasi bu davrda shakllangan shaharlariga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Bunga misol tariqasida o‘sha davrdagi shaharlarimizni ikkita asosiy yo‘l to‘rt qismga ajratib turishi va ularning chorrahasida savdo timi joylashishi, turar-joylar to‘g‘ri burchakli reja asosida joylashganligini misol keltirsak bo‘ladi. Bu o‘sha davr shaharsozlarining estetik didi va me’morchilki mahorati yuqori bo‘lgnidan dalolat beradi. Miloddan avvalgi uchinchi va milodning birinchi asrlarida mamlakatimiz xududiga ko‘chmanchi yuechji va turkiy qabilalar kirib kelishadi va shaharlarda ko‘chmanchilar an’analarining ta’siri seziladi. Bu davrda ko‘chmanchilardan himoyalanish maqsadida shaharlarni o‘rab turuvchi qal’a devorlar – rabotlar shakllana boshlandi. Ular kirib kelgan vaqtda mahalliy aholi 2, 3 qavatli turar-joylar – qasrlarda yashashgan hamda uylarining oldida ko‘kalamzorlashtirilgan hudud tomorqalari mavjud bo‘lgan. Shaharning bu tariqa bunyod etilishi, uning mudofaa maqsadlarida foydalanilganini asoslaydi, ammo shu bilan birga uylar oldidagi ko‘kalamzorlashtirilgan hududlarning mavjudligi bugungi yashil makon siyosatiga mos tushadi. Bundan anglash mumkinki, ota-bobolarimizning tabiatga bu kabi munosabati kecha yoki bugun shakllangan emas, balki buning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Islom kelgandan keyin (VIII asr) shaharda savdogarlar yashashgan, dehqonlar esa shahar atroflarida yashashgan. Shaharlar rabot, berun va shaxristondan iborat shaklda qurildi. Islom madaniyati shaharlar qurilishini o‘zgartirdi. Undagi madaniy markazlar soni ortdi. Shaharlar madaniy, marifiy, harbiy savdo-tijoriy maqsadlarning markaziga aylandi. Aholiga sharoit yaratish birinchi galdagi vazifaga aylandi. Ularning faoliyat ko‘rsatishi, ilm olishi, madaniy xordiq chiqarishi uchun shaharlar asosiy mas’uliyatni o‘z zimmalariga oldilar. XIII-XIV asrlarda Movorounnaxrni mo‘g‘ullar zabt etdi. Ko‘plab shaharlar vayron etildi. Ayrimlari yoqib yuborildi va boshqalari suvga cho‘ktirildi. Bu bilan ham kifoyalanilmasa aholisi to‘liq qirib

tashlandi. Natijada shaharlarni ko‘chmanchi manzilgohlar rejasi asosida qurish boshlandi. Dastlabki ko‘chmanchilar o‘tovlari mo‘g‘ullarda – ger, turklarda – uy deb atalgan. Gerlarni dunyo tomonlariga nisbatan, oila a’zolari obro‘siga ko‘ra joylashtirish urf bo‘ldi. Umuman olganda bu davrda muayyan bir muddat shaharlar hayotida tushkunlik hukm surdi. Ammo bizning mehnasevar, tadbirkor xalqimiz baribir o‘zlari yashab turgan joyni ya’ni shaharlarni rivojlantirishni to‘xtatib qo‘ymadi. Amir Temur davriga kelib shaharning rabot va berun, darun tipi o‘zgardi, Amir Temur shaharda radial sxemadagi ko‘chalar tipini qo‘lladi. Ta’kidlash joizki har bir davrning o‘ziga xos g‘oyalari, mafkuralari va uslublari mavjud bo‘ladiki ular o‘z davri uchun xosdir. Muayyan davr o‘tib ular davr ruhiga mos bo‘lmay qoladi. U Movarounnahr hukmdori bo‘lgach, Balx shahrini radial ko‘chalar bilan 8 qismga ajratgan. Ularning chorrahasida shahar markazi joylashgan. Balx shahri shaharsozlik uslubi G‘arb shaharsozligiga ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan Samarqand shahrini qurilishida Florensiya shaharsozligi izlari seziladi.

XVI-XVII asrlarda Turon zaminni Shayboniylar boshqardi va bu davrda Buxoro gullab yashnadi. Abdullaxon II davrida turklar O‘rta Osiyoni artilleriya bilan tanishtiradi va bu hol shaharsozlikka ta’sir ko‘rsatadi. Buxoroning mudofa devorlari artilleriyaga moslashgan holda qalinlashadi, tepasi artilleriya aravachalari yurishi uchun kengayadi va ma’lum masofalarda minoralar o‘rnatiladi. XVIII asrdan boshlab, Rossiya bilan bilan savdo aloqalari natijasida Toshkent O‘rta Osiyo markaziga aylandi. Toshkent aniq rejaviy struktura asosida shakllandi. Shahar to‘rt dahaga ajratilgan, tashqi devorlari saqlanib qolgan edi. Dahadan kichik guzar, guzardan kichik mahalla bo‘lgan. Har bir daha shaharning ma’muriy qismi hisoblanib, o‘zini o‘zi boshqargan va hatto o‘zining harbiy kuchlariga ega bo‘lgan. Bundan anglashiladiki, Toshkent qurilishida nafaqat milliy an’analar balki, zamonaviy yechimlar ham qo‘llanila boshlagan. Shahar aholisi 1865-1917 yillarda past sur’atlar bilan ko‘paydi. XX- asrning boshlarida shahar aholisi siyosiy vaziyatning barqarorlashuvi natijasida notekis o‘sdi. Bunga 1924 yilda amalga oshirilgan O‘rta Osiyoning ma’muriy-xududiy qayta taqsimlanishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. 1926-1940 yillarda shahar tarmog‘i va shahar aholisining sonida katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Industrlashtirish shiori ostida o‘tkazilgan tadbirlar 12 shahar qatoriga yangi shaharchalarning qo‘shilishiga, shahar aholisining esa tez ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Bu davrda Farg‘ona bunyod etildi. U o‘ziga xos ilmiiy yechimlar va dizayn asosida qurildi. Bunda ushbu shaharning yevropalik aholi ko‘proq yashaganligi muhim rol o‘ynadi. Sovet davrida yana 2-jahon urushining yuz berishi oqibatida g‘arbdan O‘zbekiston shaharlariga yevorpalik 1 milliondan ortiq aholi ko‘chirildi. Bu ham shaharsozlikka o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Ko‘plab cherkov va monastirlar qurildi. Shaharlar qurilishida Yevropa uslubi kirib keldi. Muhofaza zonalari paydo bo‘ldi. Rejalashtirishda aniq raqamlarga murojaat etildi. Ko‘p qavatli uylar qurilib, mahalliy aholi ham mazkur qurilish ishlarida jonbozlik ko‘rsatdi. Ammo shuni ta’kidlash joizki, shaharlarni bunyod etishda raqamlar ortidan quvish avj oldi. Buni shahar maqomii berishda aholi soni nisbati kamaytirilgnligi bilan izohlash mumkin. Urbanizatsion taraqqiyotning yangi davri O‘zbekistonda 1991 yil boshlandi. Bu davr o‘zining ma’lum bir muddat turg‘unlik davri bilan yodda qoldi. Bunda asosan shaharlar qurilishidan ko‘ra ularni xududiy kengaytirish masalasi avj oldi. Shu bilan birga shaharlashtirish me’yorlarining o‘zgartirishi orqali sun’iy shaharlashtirish davri bo‘ldi. Ularning qurilishida asosan aralash uslublardan foydalanildi. Aytish joizki 2017 yildan boshlab mamlakatimiz tarixida yangi bir tarixiy davr boshlandi. Bu vaqtga kelib kamchiliklar ochiq etirof etila boshlandi. Shaharsozlikda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish uni qurilishida va taraqqiy etishida barcha zamonaviy omillar inobatga olinishi belgilab qo‘yildi. Bu davrda asosan aniq loyihalangan, ilmiy yechimlarga ega qurilish ishlariga o‘rin berila boshlandi. Turli noqonuniy qurilishlar kamaydi. Shaharlar bunyod etilishida barchani ishtiroki birdek ta’minlanishi uchun sharoitlar yaratildi. Turli ijtimoiy loyihalar kun tartibiga chiqdi. Uylar barpo etishda zamonaviylik va milliylik uyg‘unlashgan ilmiy yechimlarga asoslangan qurilishi ishlari olib borila boshlandi.

Naijalar va muhokama. O‘rta Osiyo hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo‘lgan vaqtda shaharlarning aksariyati dastlab qarorgohlar va manzilgohlar bo‘lgan. Ayrimlari ibodatxonalar oldida, shuningdek qal’a yoki o‘rda sifatida shakllangan. Ilk shaharlarda hunarmandchilik qaror topgan bo‘lib, keyinchalik savdoning rivojlanishi natijasida savdo shaharlari vujudga kelgan [2]. Ammo, me’morchilik tarixi borasidagi mavjud ensiklopedik adabiyotlarda O‘rta Osiyo hududidagi eng qadimgi shaharsozlik tarixi Jonboz qal’a misolida mil.av. IV asr bilan belgilangan.[5] Antik davrda shahar sahnida barcha binolar chodirdan tiklangan “chodirli” shahar-manzilgohlar va markazidan shaharning asosiy ko‘chasi kesib o‘tuvchi, shahar to‘rida ma’muriy, savdo, jamoat binolari joylashgan, bir darvozali to‘rtburchak shaklidagi dual shaharlar shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin.[1] geograf olim A.S. Soliev 2018 yi nashr etilgan “Shaharlar geografiyasi” kitobida mamlakatimizdagi urbanizatsiya bosqichlarini miloddan avvalgi III-II ming yillikdan 1917 yilgacha birinchi bosqich, qolgan davrlarni 1917 yildan boshlab 4 ta, umumiy 5 bosqichga bo‘lib o‘rganadi. [3]

Shahar madaniyatining shakllanishi ham xuddi jamiyat taraqqiyotida bo‘lgani kabi uzluksiz taraqqiyot yo‘li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko‘ra shaharsozlik madaniyatining shakllanishi, uzoq, bosqichma-bosqich davrlarni bosib o‘tgan. So‘nggi izlanishlarga ko‘ra miloddan avvalgi II ming yillikga borib taqaladigan shaharoldi (protoshahar) madaniyatilari aniqlangan. Binobarin ushbu davrni ilk shaharlarning paydo bo‘lish davri sifatida qabul qilish rasionalroqdir. Turon zaminida ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi:

- aholining o‘troq dehqonchilikka o‘tishi va keng vohalar bo‘ylab yoyilishi;
- hunarmandchilikning rivojlanishi va ayrim sohalarga ixtisoslashishi;
- qadimgi savdo yo‘llarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda savdo-sotiqning taraqqiy etishi;
- tabiiy-geografik hamda harbiy-strategik shart-sharoitlar.

Shahar madaniyati dastavval O‘zbekistonning janubida, Surxondaryo hududida shakllandi, so‘ngra esa shimolga So‘g‘d, Xorazm, Shosh va sharqda Farg‘ona hududlariga tarqaldi. Ushbu manzilgohlarda vaqtlar o‘tishi bilan aglomeratsiyalarga kengayadi va shu orqali birinchi shaharlar madaniyati (protoshaharlar madaniyati) paydo bo‘ladi. Ularning o‘ziga xos xususiyati shaharlarning markazlarida ibodatxonalar va saroylar joylashtirilgan bo‘lgan.

Ark atrofida manzilgohlar kabi shakllangan protoshaharlar turi ilk shaharlarning o‘sishiga olib kelgan. Antik davrda ikki yoki uch qismli shaharlar ark atrofida shu tarzda rivojlangan. Urbanizatsiyaning rivojlanish bosqichlarini 4 xil shaklda izohlash mumkin.

1. Tarixiy davrlashtirishga ko‘ra bosqichlarga bo‘lish;
2. Aholi shahar hududlari bo‘yicha tarqalishi ulushga ko‘ra bosqichlarga bo‘lish;
3. Iqtisodiy rivojlanishiga ko‘ra bosqichlarga bo‘lish;
4. Aholining shaharga hos haqiqiqy turmush tarzining tarqalishiga ko‘ra bosqichlarga bo‘lish.

Xullas tarixchilar va me’morlar urbanizatsiyaning rivojlanish tarixi va bosqichlarini qurilish uslublarini o‘zgarishlariga qarab belgilaganlar. Biz esa O‘zbekistonda urbanizatsiya bosqichlarini o‘rgangan va taklif kiritgan tadqiqotchilar asarlarini qidirdik ammo ularda faqat ma’lum ma’noda o‘z davri bilan bog‘liq materiallar uchraydi xolos.

O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayoni o‘z tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega. Uning rivojlanishi o‘lkaning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishi va demografik xususiyatlari bilan bog‘liq. O‘zbekistonda eng qadimgi shaharlar bilan birga XX-asrning 2-yarmida vujudga kelgan shaharlar ham mavjud. 1913-1980 yillarda O‘zbekiston shaharlari soni va shahar aholisi salmog‘i o‘sdi. O‘zbekistonda 120 ta shahar bo‘lib, ularda 8249,3 ming kishi yashaydi (2003). Ularning 38 tasida aholi soni 20 minggacha bo‘lgan kichikroq shaharlar, 65 tasi 20 mingdan 100 minggacha bo‘lgan o‘rta shaharlar, 16 tasi aholisi 100 mingdan 500 minggacha bo‘lgan yirik shaharlar va Toshkent millioner shahardir. XIX-asrning oxiridan boshlab O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayoni rivojlanib kelmoqda.[4] Ammo biz o‘rgangan ma’lumotlar asosida urbanizatsiyaning mamlakatimiz bo‘yicha rivojlanish bosqichlari to‘liq ochib berilganligiga guvoh bo‘lmadik.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston hududida urbanizatsiya jarayoni uzluksiz va ko‘p bosqichli taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Miloddan avvalgi protoshahar madaniyatidan boshlab, ellinistik ta’sir, islom shaharsozlik an’analari, mo‘g‘ullar davridagi tanazzul, Temuriylar davridagi yuksalish, xonliklar va mustamlaka davri o‘zgarishlari, sovet industrializatsiyasi hamda mustaqillik yillaridagi islohotlar shahar qiyofasi va vazifalarining transformatsiyasiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, Amir Temur davrida shaharlarning radial rejalashtirilishi va markazlashgan tuzilishi shaharsozlik tarixida muhim bosqich bo‘ldi. Sovet davrida industrial omillar ustuvor ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, mustaqillikdan keyin milliy an’analar va zamonaviy arxitektura uyg‘unligiga e’tibor kuchaydi. 2017 yildan boshlab “Yangi O‘zbekiston” bosqichida shaharsozlikda ilmiy asoslangan rejalashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va aholi farovonligini ta’minlash ustuvor vazifaga aylandi. Shunday qilib, urbanizatsiyani ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida 11 bosqichga ajratish uning tarixiy izchilligini, ichki qonuniyatlarini va zamonaviy taraqqiyot tendensiyalarini yaxlit holda anglash imkonini beradi. Bu esa kelgusida barqaror va ilmiy asoslangan shaharsozlik siyosatini ishlab chiqishda muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Juraeva E.E. Tarixiy shaharlarning rivojlanish bosqichlari // Me’morchilik va qurilish muammolari. 2021. – N1/1 – B.38
2. Po‘latov X. Shaharsozlik tarixi. – T.: Fan va texnologiya. - 2008. – B.6
3. Soliev A.S. va boshqalar. Shaharlar geografiyasi. - T.: - Barkamol fayz media. – 2018. B. 64-65
4. Urbanizatsiya. // https://qomus.info/encyclopedia/cat-u/urbanizatsiya-uz
5. Vseobshaya istoriya arxitekturi (VIA), v 12 tomax, 1 tom, glava 8., - M.: Stroyizdat, 1970. S. 348-365.
6. Xolmirzaev N.N. O‘zbekistonning kelajak shaharlari: Muammolar, taxlillar va takliflar. // Science and innovation. – 2022. № 8.2. B. 227.
7. Xolmirzaev N.N. Urbanizatsion taraqqiyot rivojida kimyo sanoati omili // Экономика и социум. 2021. №11-2 (90). S.625

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Baxodirjon Maxamadjonovich Abdullayev
Andijon davlat chet tillari instituti, Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi (PhD)
ORCID ID 0009-0008-4504-0694

YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA MIGRATSIYA: IQTISODIY RESURSLARDAN "AKSIOLOGIK SUB'EKT" TALQINI SARI.

Annotatsiya: *Maqolada milliy yuksalish davrida migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy transformatsiyasi va global unifikatsiya sharoitida «Yangi O'zbekiston modeli»ning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Muallif Andijon viloyati misolida migratsiyani «ijtimoiy klapan» va «inson kapitalining global aylanishi» sifatida tahlil qilib, geo-ijtimoiy determinatsiya, transparentlik va raqamli gumanizm tamoyillarini asoslab beradi. Shuningdek, migrantlarni iqtisodiy resurs emas, balki milliy qadriyatlarni tashuvchi «aksiologik sub'ekt» sifatida shakllantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Migratsiya, inson qadri, global unifikatsiya, Yangi O'zbekiston modeli, ijtimoiy transformatsiya, ijtimoiy kapital, Andijon modeli, geo-ijtimoiy determinatsiya, transchegaraviy integratsiya, aksiologik sub'ekt.*

Баходиржон Махамаджонович Абдуллаев
Преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук, педагогики и психологии Андижанского государственного института иностранных языков (кандидат наук)

МИГРАЦИЯ В СТРАТЕГИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: ОТ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ К ПРИЗНАНИЮ «АКСИОЛОГИЧЕСКОЙ ТЕМЫ».

Аннотация: *В статье исследуются социально-философские аспекты трансформатsiи миграционных процессов в период национального подъема и особенности «Модели Нового Узбекистана» в условиях глобальной унификации. На примере Андижанской области автор анализирует миграtsiю как «социальный клапан» и теорию «глобального круговорота человеческого капитала», обосновывая принципы геосоциальной детерминации и «цифрового гуманизма». Особое внимание уделяется переходу от восприятия мигранта как рабочей силы к статусу «аксиологического субъекта», несущего национальные ценности.*

Ключевые слова: *Миграция, достоинство человека, глобальная унификация, модел Нового Узбекистана, социальная трансформация, социальный капитал, Андижанская модел, геосоциальная детерминация, трансграничная интеграция, аксиологический субъект.*

Bakhodirjon Makhamadjonovich Abdullayev
Andijan State Institute of Foreign Languages, Lecturer (PhD) of the Department of Social Humanities, Pedagogy and Psychology

MIGRATION IN THE STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN: FROM ECONOMIC RESOURCES TO THE INTERPRETATION OF "AXIOLOGICAL SUBJECT".


Abstract: *The article examines the socio-philosophical transformation of migration processes during the period of national revival and the unique features of the "New Uzbekistan Model" under global unification. Using the Andijan region as a case study, the author analyzes migration as a "social valve" and the theory of "global circulation of human capital," substantiating the principles of geo-social determination and "digital humanism". The study highlights the shift in the migrant's status from a mere labor resource to an "axiological subject" who carries national values across borders.*

Keywords: *Migration, human dignity, global unification, New Uzbekistan model, social transformation, social capital, Andijan model, geo-social determination, transboundary integration, axiological subject.*

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining konseptual asoslarida «inson qadri» tushunchasi nafaqat lokal, balki global miqyosdagi ekzistensial kategoriya sifatida talqin etilmoqda. Bu strategiya doirasida migratsiya fenomeni shunchaki

demografik ko‘chish emas, balki davlat va jamiyat transformatsiyasining muhim indikatori sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayonni ilmiy-nazariy jihatdan quyidagi paradigmalar asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq:

1. Inson kapitali va «aksiologik migratsiya» nazariyasi. Zamonaviy ijtimoiy falsafada migratsiya jarayonlariga nisbatan an’anaviy «push-pull» (itaruvchi va tortuvchi omillar) modelidan voz kechilib, «inson kapitalining global aylanishi» nazariyasiga o‘tilmoqda[1]. Yangi O‘zbekiston modelida migrant shunchaki «ishchi kuchi» emas, balki milliy qadriyatlarni transchegaraviy makonda tashuvchi va global tajribani mamlakat ichiga import qiluvchi aksiologik sub’ekt hisoblanadi. Bu erda inson qadrining mamlakat tashqarisida ham ta’minlanishi — davlatning o‘z fuqarosi bilan bo‘lgan «ijtimoiy shartnomasi» makon va vaqt chegaralaridan chiqqanligini anglatadi. 2. Ijtimoiy transformatsiya va “davlatning g‘amxo‘rlik funksiyasi”. Yurgen Habermasning “ommaviy makon” va “kommunikativ harakat” nazariyalari kontekstida qaralganda, O‘zbekistonning migratsiya siyosatidagi yangi bosqich — davlatning o‘z fuqarolari bilan aloqasini raqamli va institutsional formatda qayta tiklashidir [2]. “Inson qadri” indikatori sifatida migratsiya — jamiyatning ochiqlik darajasini va davlat boshqaruvining moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Andijon viloyatining chegaradosh tumanlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, davlatning migratsiya jarayonlariga aralashuvi “nazorat qilish” bosqichidan «himoya qilish va ko‘maklashish» bosqichiga transformatsiyalandi [3]. Globallashuv sharoitida migrantlar duch keladigan eng katta falsafiy muammo — bu unifikatsiya (bir xillikka intilish) va o‘zlikni saqlash o‘rtasidagi ziddiyatdir. Yangi O‘zbekiston modeli ushbu dixotomiyani “integratsiyalashgan identifikatsiya” orqali hal qilishni taklif etadi. Bunda migrant xorijiy jamiyatga ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan integratsiyalashadi, biroq ma’naviy-madaniy jihatdan o‘z milliy kodini saqlab qoladi. Bu strategiya migratsiyani ijtimoiy tanazzul omilidan ijtimoiy yuksalish indikatoriga aylantirishning metodologik asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ilgari migratsiya jarayonlari iqtisodiy nomutanosiblikning majburiy oqibati sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda u **“xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya”** konsepsiyasi asosida tizimlashtirilmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan «Inson qadri uchun» tamoyili migrantni iqtisodiy resurs emas, balki davlat himoyasidagi ijtimoiy sub’ekt maqomiga ko‘tardi [4]. Global mehnat bozoridagi unifikatsiya jarayonlari O‘zbekiston uchun ham yangi strategik imkoniyatlar va ekzistensial xavflarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda migratsiya fenomenini shunchaki makroiqtisodiy ko‘rsatkich sifatida emas, balki muayyan lokal hududning ichki ijtimoiy dinamikasi va tashqi geosiyosiy muhiti kesishmasida tadqiq etish lozim. Abu Nasr Farobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyatning yashash sharoiti va geografik joylashuvi uning ijtimoiy tarkibiga ta’sir qilishini ta’kidlab, insonlarning ehtiyoj yuzasidan birlashishi yoki tarqalishini “tabiiy zaruriyat” deb ataydi[5]. Farobiy talqinidagi «muhtojlikdan kelib chiquvchi harakat» (migratsiya) — bu jamiyatning barqarorlikka intilishidir. Bugungi kunda Andijon viloyatining Paxtaobod, Ulug‘nor va Bo‘ston tumanlarida kuzatilayotgan migratsiya dinamikasi Farobiy aytgan “insonlarning farovonlik izlab makon almashtirishi” konsepsiyasining zamonaviy ko‘rinishidir. Tadqiqotlarimiz jarayonida 2025-2026 yillar davomida Andijon viloyatining chegaradosh va zich joylashgan tumanlarida o‘tkazilgan monitoring natijalari shuni ko‘rsatadiki, migratsiya oqimlari faqatgina iqtisodiy defitsit mahsuli emas, balki kuchli “geo-ijtimoiy determinatsiya” ta’sirida shakllangan[6].



Geo-ijtimoiy determinatsiya kategoriyasi ostida biz quyidagi omillarni nazarda tutamiz:

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2022. — Б. 132.
[2] Хабермас Ю. Техника и наука как «идеология» / Пер. с нем. — М.: Праксис, 2007. — С. 104-106.
[3] Абдуллаев Б.М. Миграция жараёнларининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: Андижон вилояти мисолида
[4] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2022. — Б. 124.
[5] Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 154-156.
[6] Абдуллаев Б.М. Андижон вилояти туманларида миграция жараёнларининг ижтимоий-худудий хусусиятлари (тадқиқот маълумотлари асосида). — Андижон, 2026.

Globallashuv sharoitida migratsiyaning eng dinamik va o‘ziga xos shakllaridan biri — bu transchegaraviy mehnat migratsiyasidir. Andijon viloyatining Paxtaobod, Xo‘jaobod, Marxamat tumanlari misolida Qirg‘iziston Respublikasi bilan shakllangan yaqin iqtisodiy integratsiya, ijtimoiy falsafada "**regional mehnat simbiozi**" sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon shunchaki chegaradan o‘tib-qaytish emas, balki ikki davlat o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy makonning de-fakto birlashishini anglatadi. Ushbu holatni xorijiy olim **Saskiya Sassenning** “Global shaharlar va migratsiya» nazariyasidagi «**chegara orti mehnat zanjiri”** g‘oyasi orqali fundamental tahlil qilish mumkin. S.Sassen fikricha, global iqtisodiyotda mehnat resurslari ma’lum bir geosiyosiy chegaralarga bog‘lanib qolmaydi, balki ehtiyoj va taklif mavjud bo‘lgan "transchegaraviy yo‘laklar" bo‘ylab harakatlanadi. Paxtaobod, Xo‘jaobod, Marxamat tumanlari aholisi uchun Qirg‘izistonning chegaradosh hududlari, ayniqsa O‘sh va Jalolobod viloyatlaridagi savdo va qurilish sektorlari ana shunday yo‘lak vazifasini o‘tamoqda. Paxtaobod, Xo‘jaobod, Marxamat tumanlarida o‘tkazilagan tadqiqotlarimiz jarayoni shuni ko‘rsatadiki, mahalliy aholining Qirg‘iziston mehnat bozoriga intilishida ikkita asosiy drayver mavjud:

1.**Qurilish sektoridagi yuqori talab:** Qirg‘izistonning chegaradosh O‘sh va Jalolobod hududlarida faol rivojlanayotgan urbanizatsiya va infratuzilma loyihalarida o‘zbek quruvchilarining kasbiy mahoratiga (ustachilik maktabi) bo‘lgan ehtiyoj juda yuqori. Xududda qurilish sohasi faol rivojlanmoqda. O‘zbek ustalariga bo‘lgan ehtiyoj quyidagi sabablarga ko‘ra yuqori:

a) **Malaka va sifat:** O‘zbekistonlik ustalar, ayniqsa, pardozlash ishlari, pishiq g‘isht terish, suvoqchilik va milliy uslubdagi naqshinkor qurilishlarda katta tajribaga ega deb hisoblanadi. Shuningdek elektr mantaj va santexnika ishlarida ham “Rossiya” tajribalariga ega migrantlar bor.

b) **Mehnatsevarlik va tezkorlik:** Mahalliy buyurtmachilar orasida o‘zbek ustalarining ishni vaqtida va sifatli topshirishi haqida ijobiy fikr shakllangan. Ko‘pgina hollarda migrantlar ish haqini oylik emas, balki ishbay xajmda olishni maqbul ko‘radilar. Bu jaryon ish beruvchilar manfaatlari to‘la mos keladi. O‘zbek ustalarining eng katta ustunligi — "**sifat + tezkorlik**" formulasidadir.

c) **Narx va sifat mutanosibligi:** O‘zbek ustalari taklif qilayotgan xizmat haqi mahalliy bozor uchun maqbul va raqobatbardoshdir. Tadqiqotlarimiz davomida aniqlandiki, Qirg‘izistonning chegaradosh tumanlarida o‘zbek ustalariga bo‘lgan talab 2024-2025 yillarda 25% ga oshgan. Buning asosiy sababi — o‘zbek ustalarining xomashyodan tejamkorlik bilan foydalanishi va “kafolatlangan sifat” tizimidir. Bu erda iqtisodiy manfaat ijtimoiy ishonch (social trust) bilan uyg‘unlashib, transchegaraviy migratsiyaning barqaror modelini yaratmoqda.

Qirg‘iziston Respublikasida o‘zbek migrantlari uchun raqobat darajasi va xususiyatlari. (1-jadval)

1-jadval.

№	Raqobatchilar	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
1.	Mahalliy ustalar	Til bilish, hujjat muammosi yo‘qligi, mahalliy bozor kon’yunkturasini mukammal bilishi.	Ba’zida malaka etishmasligi, ishni topshirish muddatlariga rioya qilmaslik yoki narxning nisbatan balandligi.
2.	Xitoy qurilish kompaniyalari	Yirik davlat va tijorat ob’ektlarini to‘liq egallashi, zamonaviy texnika va ulkan kapital.	Asosan yirik infratuzilma loyihalarida ishlaydi, xususiy sektor va individual buyurtmalarda deyarli yo‘q.
3.	Turkiya kompaniyalari	Yuqori texnologiya, zamonaviy dizayn va "premium" sifat standartlari.	Xizmat haqining juda qimmatligi, kichik va o‘rta hajmdagi qurilishlar uchun mos emasligi.
4.	O‘zbek ustalari	Yuqori mehnat mahorati, pardozlash ishlaridagi noyob tajriba, mehnatsevarlik va maqbul narxlar.	Hujjatlashtirish (patent, registratsiya) xarajatlari va vaqtinchalik yashash tartiblari bilan bog‘liq cheklovlar.

Yuqoridagi jadvaldan qo‘rinib turibdiki, o‘zbek migrantini raqobatdagi zaiflik tomonlarni mahalliy sharoitda hal qilish mumkin. Masalan: ish beruvchining yashash yoki qurilish ob’ekti joylashgan joyga vaqtinchalik ro‘yhatga qo‘yish yo‘li bilan. Bu jarayon ikki davlat mas’ul rahbarlari orqali rasmiy kelishuvlar asosida hal qilinsa, migrantning “havfsizligi” kafolatlangan bo‘lar edi.

2.**Savdo va logistika simbiozi:** Marxamat va Xo‘jaobod tumanidagi migrantlarning qo‘shni davlat bozorlarida (masalan, "Qora-suv" bozori tizimida) savdo agenti yoki logistik vositachi sifatida ishtirok etishi — "ijtimoiy kapital"ning transchegaraviy aylanishini ta’minlaydi. Chegaradosh tumanlarni migratsiya oqimlarining o‘ziga xos jihati shundaki, unda mehnat migratsiyasi faqat jismoniy kuch eksporti bilan cheklanmay, balki murakkab **savdo va logistika simbiozini** yuzaga

keltiradi. Bu jarayonda tuman migrantlari qo‘shni davlatning yirik savdo xablarida, xususan, Markaziy Osiyodagi eng yirik reeksport markazlaridan biri bo‘lgan "Qora-suv" bozori tizimida savdo agentlari, logistik vositachilar va transchegaraviy tadbirkorlar sifatida namoyon bo‘lmoqdalar. Falsafiy va sosiologik nuqtai nazardan, ushbu simbiozning negizida amerikalik faylasuf va sosiolog **Frensis Fukuyama** tomonidan ilgari surilgan «ishonch» va «ijtimoiy kapital» kategoriyalari yotadi[7]. Fukuyama ta’kidlaganidek, ijtimoiy kapital — bu guruh a’zolari o‘rtasidagi umumiy normalar va qadriyatlar asosida yuzaga keladigan hamkorlik qobiliyatidir. Andijonlik migrantlarning "Qora-suv" bozoridagi muvaffaqiyati ularning individual harakati emas, balki yillar davomida shakllangan **“transchegaraviy ijtimoiy tarmoqlar”** natijasidir. Bu erda ijtimoiy kapitalning transchegaraviy aylanishi ikki yo‘nalishda kechadi: 1. **Gorizontal yo‘nalish:** Ikki davlat chegaradosh aholisi o‘rtasidagi qarindoshlik va qo‘shnichilik rishtalariga asoslangan iqtisodiy ishonch. 2. **Vertikal yo‘nalish:** Mahalliy ishlab chiqaruvchilar (O‘zbekistondagi engil sanoat korxonalari) va xalqaro bozor (Qirg‘iziston orqali reeksport) o‘rtasidagi logistik vositachilik zanjiri. Tadqiqotchi **Saskiya Sassen** global iqtisodiyotda "chegaralarning xiralashishi" haqida gapirganda, aynan mana shunday lokal xablarning rolini ta’kidlaydi[8]. Andijonlik migrantlar "Qora-suv" bozori tizimida ishlab, aslida global ta’minot zanjirining kichik, ammo strategik bo‘g‘inini boshqaradilar. Ularning logistik vositachiligi — bu shunchaki yuk tashish emas, balki “axborot logistikasi”dir. Qaysi mahsulotga talab yuqoriligi, narxlar dinamikasi va bozor kon’yunkturasi haqidagi ma’lumotlarning Paxtaobod orqali O‘zbekiston ichki bozoriga kirib kelishi jamiyatning iqtisodiy transformatsiyasini tezlashtiradi. O‘zbek olimi **M.Bekmurodov** ijtimoiy kapitalning ma’naviy jihatlariga to‘xtalar ekan, o‘zbek mentalitetidagi "lafz" va "diyonat" tushunchalarining iqtisodiy munosabatlardagi o‘rnini alohida qayd etadi[9]. Paxtaobodlik yoki marxamatlik migrantlarning savdo agentlari sifatidagi faoliyatida bu ma’naviy normalar asosiy "aksiologik regulyator" vazifasini bajaradi. Ularning transchegaraviy faoliyati — bu ijtimoiy falsafadagi **“simvolik almashinuv”** (J. Bodriyyar nazariyasi) bo‘lib, bunda faqat tovar emas, balki madaniyat, ishonch va ijtimoiy mas’uliyat ham aylanadi[10]. Andijon viloyatini chegaradosh tumanlarida olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, savdo va logistika simbiozida ishtirok etuvchi migrantlarning daromad darajasi klassik mehnat migrantlarinikidan 1.5-2 barobar yuqoridir. Buning sababi — ularning **«bilimga asoslangan migratsiya»** modeliga o‘tganligidadir. Bu erda Yangi O‘zbekistonning strategik maqsadi — ushbu "norasmiy logistika"ni "rasmiy tadbirkorlik"ka transformatsiya qilishdan iboratdir. Chegara hududlarida "erkin savdo zonalari"ning tashkil etilishi, Paxtaobodlik migrantlarning ijtimoiy kapitalini mamlakat iqtisodiyoti uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyaga aylantirish imkonini beradi. Bu esa ijtimoiy transformatsiyalarning "o‘zbek modeli" naqadar hayotiy ekanini isbotlovchi muhim omildir. Falsafiy jihatdan bu holat — "**makonning ijtimoiy qisqarishi**" (space-time compression) hodisasidir. Migrant uchun davlat chegarasi to‘siq emas, balki iqtisodiy imkoniyatlar almashinuvchi "filtr" vazifasini o‘taydi. Sassen ta’kidlaganidek, bunday zanjirlar "global iqtisodiy makon"ni pastdan yuqoriga (bottom-up) shakllantiradi. Andijonlik quruvchi-migrantning Qirg‘izistondagi faoliyati — bu ikki davlat o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy unifikatsiyaning eng mikro va eng hayotiy darajasidir. Biroq, bunday transchegaraviy integratsiyaning o‘ziga xos xavflari ham mavjud. "Kundalik migratsiya" jarayonida migrantlarning huquqiy maqomi ko‘pincha "norasmiy sektor" doirasida qolib ketadi. Bu esa "ijtimoiy himoya defisiti"ni yuzaga keltiradi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modeli doirasida ushbu muammoni hal etish uchun raqamli platformalar (masalan, chegara hududlari uchun maxsus "ish botlari") orqali bo‘sh ish o‘rinlari haqida tezkor ma’lumot almashish tizimini yaratish taklif etiladi[11]. S.Sassenning konsepsiyasini O‘zbekiston voqeligiga proeksiya qilsak, Paxtaobod, Ho‘jaobod, Marxamat — Qirg‘iziston yo‘nalishidagi mehnat zanjirini legallashtirish va institusionallashtirish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki hududiy xavfsizlikni ham ta’minlaydi. Zero, tartibli migratsiya — ijtimoiy anomiya (qonunsizlik) va begonalashuvning oldini oluvchi asosiy omildir. Andijon viloyatini chegaradosh tumanlari misolida, Qirg‘iziston bilan yaqin iqtisodiy aloqalar va “kundalik migratsiya”ning shakllanishi. Bu holat xorijiy olim Saskiya Sassenning «Global shaharlar va migratsiya» nazariyasidagi «chegara orti mehnat zanjiri» g‘oyasiga mos keladi.

3.**Demografik zichlik va makon tangligi:** Farg‘ona vodiysiga xos bo‘lgan cheklangan er resurslari va aholi o‘sishi o‘rtasidagi diproporsiya migratsiyani “ijtimoiy klapan” vazifasini bajarishga majbur qiladi. Andijon viloyati nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo miqyosida eng yuqori demografik zichlikka ega hududlar hisoblanadi. Bu erda cheklangan tabiiy-yer resurslari va aholining jadal o‘sishi o‘rtasidagi **diproporsiya** (mutanosiblikning buzilishi) ijtimoiy-falsafiy tizimda kuchli «makon tangligi» holatini yuzaga keltiradi. Ijtimoiy falsafa tarixida aholi o‘sishi va resurslar nisbatini birinchi bo‘lib **Tomas Maltus** fundamental tadqiq etgan. Uning fikricha, aholi geometrik, resurslar esa arifmetik progressiyada o‘sadi, bu esa ijtimoiy inqirozlarga olib keladi. Andijon viloyatidagi vaziyat Maltus nazariyasining klassik

[7] Фукуяма Ф. Доверие: социальные добродетели и путь к процветанию / Пер. с англ. — М.: АСТ, 2004. — С. 52-58.
[8] Sassen S. Cities in a World Economy. — Sage Publications, 2018. — P. 210-215.
[9] Бекмуродов М.Б. Ижтимоий бошқарув асослари. — Тошкент: Академия, 2010. — Б. 84-88.
[10] Бодрийяр Ж. Символический обмен и смерть. — М.: Добросвет, 2000. — С. 45-50.
[11] Абдуллаев Б.М. Чегарадош ҳудудларда трансчегаравий миграция динамикаси: Андижон вилояти мониторинги таҳлили. — Андижон, 2026. — Б. 28-32.

emas, balki «**modernizatsiyalashgan**» ko‘rinishidir. Bu erda er resurslarining cheklanganligi aholini qishloq xo‘jaligidan ijtimoiy harakatchanlikka (migratsiyaga) undamoqda. Makon tangligi sharoitida migratsiya — bu shunchaki yashash joyini o‘zgartirish emas, balki ijtimoiy portlashning oldini oluvchi **“ijtimoiy klapan”** vazifasini bajaradi. Bu klapan jamiyatdagi ichki bosimni (ishsizlik, resurslar uchun raqobat) tashqi muhitga chiqarib yuborish orqali hududning ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi. Buyuk sosiolog va faylasuf **Emil Dyurkgeym** aholi zichligining oshishini jamiyatning rivojlanish omili sifatida baholagan. Uning «dinamik zichlik» nazariyasiga ko‘ra, odamlar soni oshgan sayin mehnat taqsimoti murakkablashadi va ijtimoiy hamjihatlik yangi shaklga o‘tadi. Andijon sharoitida makon tangligi insonlarni yangi ijtimoiy nishalar qidirishga majbur qilmoqda. Migratsiya bu erda jamiyatning “moslashuvchanlik strategiyasi”dir. Agar makon cheklangan bo‘lsa, inson ongi va faoliyati transchegaraviy makonga ko‘chadi. Ya’ni, jismoniy yashash joyi Andijon viloyatida bo‘lsa-da, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat makoni Qirg‘iziston, Rossiya yoki Janubiy Koreyaga qadar kengayadi. Bu ijtimoiy falsafada **“virtual va real makonning desentralizatsiyasi”** deb ataladi. Zamonaviy xorijiy tadqiqotchi **Jared Daymond** jamiyatlarning taqdiri ularning geografik joylashuvi va resurslari bilan belgilanishini asoslagan[12]. Andijonlik migrantlar uchun "makon tangligi" — bu taqdir emas, balki yangi imkoniyatlar katalizatoridir. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modelida ushbu demografik bosimni ijobiy yo‘nalishga burish uchun **“inson kapitalini diversifikatsiya qilish”** strategiyasi qo‘llanilmoqda. Andijon viloyatida aholi zichligi bo‘yicha yuzaga kelgan «**demografik bosim**» respublika darajasidagi ko‘rsatkichlardan keskin farq qiladi. Jumladan Asaka va Shaxrixon tumanlarida yaqqol ko‘rish mumkin. Bunday sharoitda «klapan» vazifasini bajaruvchi migratsiya jarayonlari davlat tomonidan tizimli boshqarilmasa, hududda «ijtimoiy depressiya» yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, Prezident tomonidan ilgari surilgan kasb-hunarga o‘qitish va tartibli migratsiya tizimi — bu makon tangligiga berilgan eng to‘g‘ri ijtimoiy-falsafiy echimdir. Falsafiy antropologiya nuqtai nazaridan, zichlik inson psixologiyasida «**hududiylik**» instinktini kuchaytiradi. Biroq, o‘zbek mentalitetidagi jamoaviylik va mahallaviy jipslik ushbu zichlikdan kelib chiqadigan nizolarni jilovlab turadi. Migratsiya esa bu jamoaviylikni xalqaro darajaga olib chiqadi. Rus olimi **L. Gumilevning** “passionarlik” nazariyasiga tayanadigan bo‘lsak, aynan resurslar etishmovchiligi va makon tangligi xalqning ichki quvvatini (energiyasini) tashqariga yo‘naltiradi va yuksalishga sabab bo‘ladi[13]. Demak, Andijonlik migrant — bu shunchaki ish qidiruvchi emas, balki o‘z hududining demografik bosimini ijobiy iqtisodiy quvvatga aylantirayotgan “ijtimoiy agent”dir.

4. **Madaniy-ijtimoiy reduksiya:** Global unifikatsiya ta’sirida mahalliy mehnat bozoridagi an’anaviy kasblarning jozibadorligi pasayishi va «global standartlar» asosidagi mehnat madaniyatiga intilish. Masalan, Paxtaobod tumanidagi migratsiya dinamikasi qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy integratsiyaning yuqoriligi bilan bevosita bog‘liq. Bu erda migratsiya — makonni o‘zgartirish emas, balki **“regional iqtisodiy simbioz”** natijasidir. Xorijiy tadqiqotchi D.Masseyning “Sintetik migratsiya nazariyasi”ga ko‘ra, migratsiya oqimlari bir marta boshlangandan so‘ng, ular ijtimoiy kapital (tanish-bilishlar zanjiri) orqali o‘zini-o‘zi qayta ishlab chiqaruvchi tizimga aylanadi[14]. Tadqiqotlarimiz jarayonida biz guvohi bo‘lgan Paxtaobod va Ulug‘nor tumanlaridagi “migratsiya shtablari” faoliyati aynan shu jarayonni tartibga solish va ijtimoiy xavflarni minimallashtirishga qaratilgan institusional mexanizmdir. Biroq, global unifikatsiyaning xavfli jihati shundaki, u migrantni faqat “iste’molchi sub’ekt”ga aylantirib, uning milliy va antropologik o‘ziga xosligini yuvib yuboradi. Shu sababli, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modelida migratsiyani **“milliy yuksalish indikatori”** sifatida qayta talqin qilish, migrantlarni xorijda nafaqat ishchi, balki milliy brend va madaniyat elchisi sifatida shakllantirish metodologik ustuvorlik kasb etishi lozim. Globallashuv jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati nafaqat kapital va mehnat harakatida, balki inson ongi va ijtimoiy xulq-atvorining yagona andozalarga kelib qolishi — **unifikatsiya** hodisasida namoyon bo‘lmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida migratsiya jarayonlarini boshqarishning milliy modeli ushbu global unifikatsiyaga nisbatan “ijtimoiy davlat” tamoyillari asosidagi real javob sifatida shakllandi.

Ushbu modelning o‘ziga xosligini quyidagi uchta fundamental yo‘nalish orqali falsafiy tahlil qilish mumkin:

1. Migratsiyani boshqarishning “Mahallabay” tizimi — bu ijtimoiy boshqaruvning lokal darajadan global darajagacha bo‘lgan vertikal integratsiyasidir. Falsafiy jihatdan bu tizim shaxs va davlat o‘rtasidagi “ijtimoiy masofa”ni minimallashtirishga xizmat qiladi. Faylasuf olim, professor **M.Bekmurodov** ta’kidlaganidek, mahalla instituti O‘zbekistonda ijtimoiy kapitalning asosi bo‘lib, u migrantning xorijdagi hayoti va vatandagi oilasi o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik vazifasini o‘taydi[15]. 2. Institusional yondashuv migrantning “ekzistensial yakkalanib qolishi” oldini oladi. Nemis tadqiqotchisi B. Valdenfelsning “begonalik fenomenologiyasi” nazariyasiga ko‘ra, inson o‘zga yurtda o‘zini “begona” his qilganda, uning ijtimoiy identifikatsiyasi zaiflashadi[16]. Mahallabay tizimi esa migrantga “sen qaerda bo‘lsang ham jamiyatning a’zosisan” degan ijtimoiy ong osti xabarini berish orqali uning ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi.

---

[12] *Даймонд Дж.* Ружья, микробы и сталь: Судьбы человеческих обществ. — М.: АСТ, 2010. — С. 145-152.

[13] Гумилев *Л.*Н. Этногенез и биосфера Земли. – СПб.: Кристалл, 2001. – С. 312-318.

[14] Massey D. S. Worlds in Motion: Understanding International Migration at the End of the Millennium. — Oxford: Clarendon Press, 1998. — P. 42-48.

[15]Бекмуродов М.Б. Жамият трансформациясининг маънавий асослари. – Тошкент: Маънавият, 2018. – Б. 72-75.

[16]Вальденфельс Б. Топография Чужого: этюды к феноменологии Чужого. – М.: Канон+, 2004. – С. 112-115.

Global migratsiya sharoitida migrantning milliy o'zligini (identity) yo'qotmasligi eng katta falsafiy muammolardan biridir. Rus faylasufi **V.S. Stepin** madaniyatlarning universal andozalarga kelib qolishi inson ma'naviyatining qashshoqlashishiga olib kelishini ta'kidlagan[17]. Shu sababli, Yangi O'zbekiston modelida til va kasbiy tayyorgarlik mexanizmlarini kuchaytirish — bu shunchaki texnik jarayon emas, balki migrantning "madaniy immunitetini" shakllantirishdir. Professor **Q. Nazarov** qayd etganidek, qadriyatlar tizimi insonning ijtimoiy yo'nalishini belgilaydi[18]. Migrant xorijga chiqishdan oldin milliy qadriyatlar va xorijiy madaniyatlarning muvozanatini anglab etsa, u "madaniy gibridlik" qurboni bo'lmaydi. Til o'rganish — milliy manfaatlarni himoya qilishga yordam beradi. 3. Migratsiya oqimlarini boshqarishda elektron platformalar va «Ettilik» tizimining integratsiyasi ijtimoiy boshqaruvning **"raqamli gumanizmi"** bosqichini boshlab berdi. Rus olimi **A.V.Kostina** global tarmoqlashuv sharoitida insonning ijtimoiy holatini raqamli monitoring qilish uning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashning yagona yo'li ekanini asoslagan. Andijon viloyatida o'tkazilgan monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, «Ettilik» tizimining elektron platformalar bilan integratsiyalashuvi migrantlarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish tezligini 3 barobarga oshirgan. Bu — ijtimoiy falsafadagi "boshqaruv samaradorligi" va "inson manfaati" uyg'unligining amaliy ifodasidir. Britaniyalik faylasuf Z.Baumanning "suyuq zamonaviylik" konsepsiyasiga ko'ra, harakatdagi jamiyatni boshqarish uchun qayta moslashuvchan tizimlar kerak[19]. O'zbekistonning raqamli migratsiya modeli aynan mana shunday moslashuvchanlikni ta'minlamoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonning migratsiya modeli global unifikatsiya jarayonlariga ko'r-ko'rona ergashish emas, balki milliy mentalitet va ijtimoiy davlat tamoyillarini saqlab qolgan holda global tizimga integratsiyalashishning falsafiy namunasidir. Yangi O'zbekistonda migratsiya siyosati — bu global unifikatsiya sharoitida milliy manfaatlarni himoya qilish va inson kapitalini yuksaltirishga qaratilgan konseptual modeldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони.

2. Мирзиёев Ш.М. Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йилига бағишланган видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. – Тошкент, 2022.

3. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.

4. Бекмуродов М.Б. Ижтимоий макон трансформатsiяси ва бошқарув социологияси. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2021.

5. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). – Тошкент: Маънавият, 2004.

6. Бауман З. Текучая современность / Пер. с англ. под ред. С. В. Артемова. – СПб.: Питер, 2008.

7. Вальденфельс Б. Феноменология чужого / Пер. с нем. – М.: Канон+, 2007. 8. Даймонд Дж. Ружья, микробы и сталь: Судьбы человеческих обществ. – М.: АСТ, 2010.

8. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. – М.: Канон, 1996.

9. Костина А.В. Социальное измерение цифрового гуманизма в глобальном обществе. – М., 2022.

10. Масси Д. Синтетическая теория миграtsии и международная циркуляция капитала. – М.: Логос, 2015.

11. Степин В.С. Цивилизатsія и культура. – СПб.: СПбГУП, 2011.

12. Фукуяма Ф. Доверие: социальные добродетели и путь к процветанию. – М.: АСТ, 2004.

13. Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. – М.: Весь Мир, 2003.

14. Sassen S. The Global City: New York, London, Tokyo. – Princeton University Press, 2001.

15. Abdullaev B.M. Andijon viloyatining chegaradosh tumanlarida migratsiya dinamikasi va ijtimoiy monitoring natijalari (2024-2026 yy.). – Tadqiqot hisoboti.

16. "Ettilik" tizimi va elektron platformalarning migratsiya jarayonlarini boshqarishdagi samaradorligi bo'yicha statistik tahlil ma'lumotlari. – Andijon, 2026.

[17] Степин В.С. Цивилизация и культура. – СПб.: СПбГУП, 2011. – С. 240-245.

[18]Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2004. – Б. 108-112.

[19] Бауман З. Текучая современность / Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2008. – С. 98-102.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Yuldashev Farrux Abduraxmanovich
Farg'ona Davlat Universiteti dotsenti Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Email: farruxy911@gmail.com

UDK 101:316.42

AXBOROTLASHUV DAVRIDA INSON FAOLIYATI VA EKZISTENSIAL JARAYONLAR DIALEKTIKASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada insoniyatning hayotiy va ma'naviy uyg'unligini ta'minlash, mavjudlikning namoyon bo'lishi, shaxs hayotida va jamiyatning o'zida ham chuqur ijtimoiy-siyosiy, moliyaviy va iqtisodiy o'zgarishlar tufayli nomutanosiblikning kelib chiqishi, ekzistensial masalalarning uyg'unligi, inson hayotiy pozitsiyasi va ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni izlash, ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar, psixologik, axloqiy ziddiyatlarni tadqiq etish, inson qalbida ekzistensializmning turli shakllarini keltirib chiqaradigan, inson hayotining ma'nosi jamiyatning ob'ektiv mantig'iga mos keladigan jarayonlar ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar*: mavjudlik, erkinlik, shaxs, ijtimoiy hayot, ehtiyoj, manfaat, maqsad, dunyoqarash, taraqqiyot, shaxs, axborot, raqamli jamiyat, qadriyat, insonparvarlik, faoliyat, inson borlig'i oqilona fikrlash*

Юлдашев Фаррух Абдурахманович
Доцент Ферганского государственного университета Доктор философии (PhD) по философским наукам

ДИАЛЕКТИКА ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ИНФОРМАЦИОННУЮ ЭПОХУ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются проявления жизненной и духовной гармонии и существования человечества, возникновение дисбаланса в жизни индивида вследствие глубоких социально-политических, финансовых и экономических изменений в самом обществе, поиск гармонии в экзистенциальных вопросах, диалектическая взаимосвязь между жизненной позицией человека и социальными процессами, изучение проблем, психологических и моральных конфликтов, возникающих в этом процессе, возникновение различных форм экзистенциализма в человеческой душе, гармония, в которой смысл человеческой жизни соответствует объективной логике общества, и смысл человеческой жизни, анализируются с социально-философской точки зрения.*

Ключевые слова*: экзистенция, существования, свобода, личность, общественная жизнь, потребность, интерес, цель, мировоззрение, развитие, личность, информация, цифровая общество, ценность, гуманизм, активность, деятельность, разумное мыщления*

Farrukh Abdurakhmanovich Yuldashev
Associate Professor of Fergana State University Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

DIALECTICS OF HUMAN ACTIVITY AND EXISTENTIAL PROCESSES IN THE INFORMATION AGE

Abstract: *This article examines the manifestations of vital and spiritual harmony and the existence of humanity, the emergence of imbalance in the life of an individual due to profound socio-political, financial and economic changes in society itself, the search for harmony in existential issues, the dialectical relationship between a person's life position and social processes, the study of problems, psychological and moral conflicts that arise in this process, the emergence of various forms of existentialism in the human soul, harmony in which the meaning of human life corresponds to the objective logic of society, and the meaning of human life are analyzed from a socio-philosophical point of view.*

Key words*: existence, freedom, personality, social life, need, interest, goal, worldview, development, personality, information, digital society, value, humanism, activity, activity, rational thinking.*

Kirish. Axborotlashuv davri inson hayotining barcha jabhalarini, ayniqsa, uning o'zligini anglash va dunyoda mavjud bo'lish (ekzistensial) usullarini tubdan o'zgartirdi. Ekzistensial falsafada inson borlig'i va uni tadqiq etilishi masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu ta'limotda mavjudlik, mas'uliyat, xavotir va hayotiy qarashlar bilan

belgilanadigan noyob jarayon sifatida tadqiq etiladi. Ekzistensializm - inson mavjudligi dunyosiga sayohat qiladi. Ekzistensializm falsafasi odamlarni noaniqlik va mavjudlikning absurdligi oldida o'z mohiyatini o'rganishga ilhomlantirib, inson hayotining asosiy mazmunini, ushbu jarayonda individualizm, subyektivlik, mas'uliyat, tanlov erkinligi va hayotda ma'no izlashning falsafiy tomonlarini aks ettiradi. Dialektika — texnologik taraqqiyot va insoniy mohiyat oʻrtasidagi ziddiyatli, ammo uzviy bogʻliq jarayonlarni anglatadi. Maqolamizda aynan bugungi raqamlashgan dunyoda ekzistensial jarayonlar, ularning namoyon boʻlishi, faylasuf va tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilishi, falsafiy va psixoterapevtik yondashuv sifatida ijtimioy-falsafiy konteksti muhokama qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ekzistensializm masalasiga turlicha yondashuvlar, birinchi navbatda "mavjudlik" (existentia) inson borligʻi, uning namoyon boʻlishi bilan belgilanishi aks ettirilgan boʻlib, manbalarda keng tarqalgan ta'rifga ko'ra, ekzistensializm "mavjudlik"ni "mohiyat"dan ustun qo'yadigan falsafiy tushunchadir[1]. Boshqacha qilib aytganda, odamlar tug'ma o'ziga xoslikka ega emaslar, balki qarorlar qabul qilishlari va o'z individualligini shakllantirishlari mumkin. Ma'no va mas'uliyatni izlash inson hayotini mazmunli qiladi. Ekzistensializmning mohiyatini quyidagicha umumlashtirish mumkin: - mohiyat yaratish jarayonida inson hayotning abadiy emasiligiga duch keladi; - har bir inson o'z qarorlarida erkin, ammo erkinlik mas'uliyat yuki bilan birga keladi; - odamlar hayotlari o'z qarorlariga bog'liqligini anglab yetganda, shubha va xavotirni boshdan kechiradilar va yenga oladilar; - qo'rquv va noaniqlik individual tajribaning bir qismi sifatida rivojlanish uchun muhimdir. Shunday qilib, ekzistensializm inson mavjudligining mohiyati va shartlarini o'rganadigan falsafiy g'oyalar majmuasidir. Insoniyatning ideal holatining but-butunligi, uning turmushi va ruhiyatini tashkil etuvchi komponentlarning (qismlarning) toʻla erkin va ozod boʻlishidadir. Ekzistensializm insondagi ekzistensiyani (mavjudligini, borligʻini) inson borligʻidagi ichki omillarini tashqi omillarga taʼsiri natijasidagi umumlashuvni tushunadi. Ushbu jarayonda, inson tashqi olamni uni oʻz ichki olamiga, yaʼni shaxsiyatining individual borligʻiga kiritishi bilan anglay oladi. Inson faoliyati endilikda faqat fizik makon bilan cheklanmaydi. Biz bir vaqtning oʻzida ham jismoniy, ham raqamli (virtual) dunyoda yashaymiz. Hayotda mavjud ziddiyatlar texnologiya masofalarni yaqinlashtirsada, insonlar oʻrtasidagi samimiy, yuzma-yuz muloqotning qadrsizlanishiga (ekzistensial yolgʻizlikka) olib kelishi mumkin. Inson oʻzining "Men"ini ijtimoiy tarmoqlardagi "Profil"i bilan solishtira boshlaydi, bu esa shaxsiyatning boʻlinishiga sabab boʻladi. Ekzistensializmning markazida insonning hayotdan maʼno topishi yotadi. Axborotlashuv davrida maʼlumotlar oqimi mislsiz darajada oshdi. Axborot qanchalik koʻp boʻlsa, undan haqiqiy maʼnoni ajratib olish shunchalik qiyinlashadi. Inson "axborot shovqini" ichida oʻzining haqiqiy maqsadlarini yoʻqotib qoʻyishi va "manipulyatsiya qurboni"ga aylanishi xavfi tugʻiladi. Ekzistensial falsafada inson — oʻz tanlovlari yigʻindisidir. Ammo bugun bizning tanlovlarimizga algoritmlar va sunʼiy intellekt taʼsir oʻtkazmoqda. Tanlov erkinligi bizga cheksiz imkoniyatlar berilgandek tuyuladi, ammo inson oʻz tanlovi egasimi yoki u shunchaki maʼlumotlar asosida boshqariladigan obʼektmi? Ushbu savol bugungi kunning eng katta ekzistensial muammosidir. Shu sababli "Raqamli inson" muammosi dialektikaning asosiy nuqtasi — texnologiyani insoniylashtirish yoki insonning texnikaga aylanishi oʻrtasidagi kurashdir. Inson faoliyati qanchalik avtomatlashsa, uning ekzistensial jarayonlari (sevgi, iztirob, ijod, oʻzligini anglash) shunchalik "texniklashib" boradi. Haqiqiy dialektika shundaki, inson texnologiyalar yordamida oʻz imkoniyatlarini kengaytiradi, lekin ayni paytda oʻzining noyob "insoniy" tabiatini saqlab qolish uchun kurashishga majbur boʻladi. Ekzistensializmning rivojlanishiga ko'plab mashhur mutafakkirlar hissa qo'shgan. Jumladan, S.Kierkegaard (1813–1855) Daniyalik faylasuf va ekzistensializmning asoschisi boʻlib, u mavjudlik umidsizlik va haqiqiylikka intilish o'rtasidagi ichki kurash bilan tavsiflanadi, deb hisoblagan. Uning "Qo'rquv va titroq" asari insonning tanlov, sadoqat va imon tajribasini chuqur o'rganadi[2]. Kierkegaardning tashvishni tanlov erkinligiga reaktsiya sifatida tadqiq qilishi M.Xaydegger va J.P.Sartr asarlarida keyingi ekzistensial mavzularni oldindan aytib bergan. Fridrix Nitsshe (1844-1900) o'zining "Yaxshilik va yomonlikdan tashqari: kelajak falsafasiga kirish", "Hokimiyatga iroda" va "Zardushtra shunday degan" asarlarida axloqning qabul qilingan tushunchalariga qarshi chiqadi[3]. Albert Kamyu (1913-1960) Fransuz yozuvchisi, dramaturg, esseist, faylasuf va jurnalist. Kamyu hayotning ma'nosi, ichki maqsadi va qadri yo'qligini ta'kidlagan. Ekzistensial absurdlikka duch kelgan odamlar o'zlarining ma'nosini yaratishlari kerak. Inson hayotning behudaligiga qarshi isyoni uning "Notanish", "Sizif afsonasi", "Kaligula", "Vabo", "Qal'a" va "Sud" asarlarining asosiy mavzusidir. Karl Yaspers (1883-1969) Nemis faylasufi va psixiatri. U muloqot va shaxslararo munosabatlar inson hayotining murakkabliklarini yengishga yordam beradi, deb hisoblagan. Yaspersning transsendensiya nazariyasining asosiy xabari shundaki, ijodkorlik va sevgi hayotni boyitadi va ekzistensial ufqlarni kengaytirishga yordam beradi. Martin Xaydegger (1889-1976) dunyodagi mavjudlik va insonning mavjudligi masalalariga e'tibor qaratib, "o'limga tomon borliq" tushunchasini shakllantirgan, unda u individual mavjudlikning muhimligini ta'kidlagan. Uning "Borliq va vaqt" asari falsafa tarixida burilish nuqtasi bo'lib, gumanizm nazariyasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan[4]. Jan Pol Sartr tanlov erkinligi va mas'uliyat g'oyasining muallifi. Uning mashhur "Mavjudlik mohiyatdan oldin keladi" iborasi ekzistensial tafakkurning asosiga aylandi. Sartrning so'zlariga ko'ra, odamlar erkinlikka mahkum va shuning uchun tashqi sharoitlardan qat'i nazar, tanlovlarining oqibatlari uchun javobgardirlar. Simone de Beauvoir (1908–1986) Fransuz faylasufi, o'qituvchisi va yozuvchisi. U faol feminist bo'lib,

o'z davrining siyosiy va falsafiy masalalari bo'yicha romanlar va esselar muallifi sifatida inson tabiatining turli jihatlarini o'rganib, bugungi kunda ham gumanistik fikrlarni ilhomlantiradigan g'oyalar palitrasini yaratgan.

Ta’kidlash kerakki, falsafada ekzistensializmning paydo bo'lishi bir qator tadqiqotlar bilan bog’liq bo’lib, ekzistensialistik falsafiy tushunchalarning rivojlanish bosqichlari birinchi navbatda S.Kierkegaard va F.Nitsshe asarlari XIX-asr oxirida ekzistensialistik g'oyalarga yo'l ochdi. Yondashuvlaridagi farqlarga qaramay, ikkala mutafakkir ham individual tajribani tushunishda din va axloqning rolini shubha ostiga qo'ydilar. XX-asrning boshlariga kelib, ekzistensializm mustaqil falsafiy harakat sifatida paydo bo'ldi. Birinchi jahon urushining halokatli oqibatlari odamlarni mavjudlik masalalari ustida mulohaza yuritishga majbur qildi. An'anaviy falsafa ko'pincha voqelikni tushuntirish uchun universal tamoyillarni izladi. Ekzistensialistlar esa, aksincha, falsafa mavhum tushunchalardan emas, balki inson hayotiy tajribasidan boshlanishi kerak, deb ta'kidladilar. M.Xaydeggerning asarlari falsafiy sohada ekzistensializmni o'rnatishga yordam berdi[5]. Ikkinchi jahon urushi dahshatlari, totalitar rejimlarning yuksalishi va an'anaviy qadriyatlardan tobora ko'proq umidsizlikka uchrash ekzistensialistik g'oyalarni birinchi o'ringa olib chiqdi. 1943-yilda fransuz faylasufi Gabriel Marsel J.P.Sartrning asarlarini tasvirlab, birinchi marta "ekzistensializm" atamasini qo'llagan. Sartr bu yorliqni darhol qabul qilmadi faqat 1945-yilda Sartr o'zining mashhur "Ekzistensializm - bu gumanizm" ma'ruzasini nashr etdi[6]. Ikkinchi jahon urushidan keyin ekzistensializm Yevropada taniqli intellektual kuchga aylandi. Urush inson hayotining mo'rtligini va an'anaviy axloqiy va siyosiy tizimlarning muvaffaqiyatsizligini ochib berdi. Adabiyot, teatr va kino orqali ekzistensializm zamonaviy tafakkurni shakllantirgan madaniy hodisaga aylandi. "Mavjudlik mohiyatdan oldin turadi." J.P.Sartr ta’limoticha inson dastlab "hech narsa" sifatida mavjud, va faqat tajribadan bilim olgandan keyingina u o'zini va mohiyatini mustaqil ravishda yaratadi. "Xavotir" va "absurdlik", koinotdagi asosiy ma'nosizlikni anglab, odamlar ekzistensial qo'rquvni boshdan kechiradilar. Hayot oxir-oqibat oldindan belgilangan maqsaddan mahrum ekanligini anglanganda, xavotir va umidsizli yuzaga keladi. Biroq, azob-uqubatlar orqali absurdlikni qabul qilish inson mavjudligini tushunishga olib keladi va haqiqiy mavjudlikka yo'l ochadi. Ekzistensialistlar odamlarni ijtimoiy kutishlar va madaniy me'yorlar kishanlaridan voz kechishga, ya'ni haqiqiylikka — o'zining haqiqiy "men"i va qadriyatlariga muvofiq yashashga sodiqlikka undaydilar. Ekzistensialistlarning ta'kidlashicha, bu yo'l bilan odamlar hayotda qoniqish va ma'no topadilar[7]. "Individuallik" va "Begonalashish" g’oyasi odamlar ijtimoiy mavjudot sifatida bir-biri bilan aloqalarini saqlab qolishlariga qaramay, har bir inson dunyoni sub'ektiv idrok etishda yolg'izdir. Ammo ekzistensialistlar bu begonalashishni la'nat sifatida emas, balki o'zini o'zi bilish va oldinga siljish uchun katalizator sifatida ko'rishadi. Birinchisi, inson tajribasining o'ziga xosligi, shaxsiy tajriba takrorlanmasdir va mavjudlik barcha narsaning asosidir. Bu shuni anglatadiki, inson o'zini o'z tajribasidan yaratadi.

Natijalar va muhokama

Ko'pgina ekzistensialistlar dunyo ma'nosiz deb hisoblashgan. Va faqat odamlar uni ma'no bilan to'ldirishga qodir. Erkinlik va mas'uliyatni anglashda har bir qaror qabul qilishda erkin, javobgarligi muhimdir. Shuni ta’kidlash kerakki, hatto azob-uqubat paytida ham inson o'z hayotini nazorat qila olishini ta'kidladi. O'lim, yolg'izlik, erkinlik va ma'nosizlik ekzistensializm g'oyalari psixoanalitik nazariyaga yaqin. Mohiyat va mavjudlikning chuqur ma'nosini izlash, shaxsiy tanlovga va hozirgi va kelajak uchun ma'no izlashga qaratilgan. Ekzistensializm falsafasiga ko'ra inson borligini belgilaydigan hissiy azob-uqubatlar har bir shaxsning ichki dunyosining tashqi dunyo bosimiga nisbatan zaifligi, og'rig'i va sezgirligi - millat, din yoki siyosiy mavqeidan mustaqil bo'lib, insonga butun hayoti davomida hamroh bo'ladi. Shu bilan birga, zamonaviy ekzistensialistik falsafa inson mavjudligining kelib chiqishining aniq tabiatini ochib beradi, chunki ekzistensiallik an'analar, urf-odatlar va har bir shaxsning milliy, madaniy va sivilizatsiya xususiyatlari prizmasi orqali tug'iladi[8]. Borliq mohiyatining universalligi va uning tug'ilishi va namoyon bo'lishining aniqligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni birlashtirish insoniyat mavjudligining paydo bo'lishidagi yangi asoslar va omillarni ochib berish orqali ekzistensialistik falsafaning mavzu doirasini kengaytiradi va uning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Borliqning dastlabki shakli bola qalbining sodda, ibtidoiy uyg'unligi, uning idealizatsiya qilingan bolalik dunyosining uyg'unligi yo'q qilinganda, u o'zi idealizatsiya qilgan voqelikka kattalarning shafqatsiz befarqligi deb bilgan narsaga birinchi marta duch kelganida shakllanadi. Bolaligida uning qalbida tug'ilgan shaxsning mavjudligi to'lqinlarda qayta tug'iladi va balog'at yoshida hayot qiyinchiliklari davrida bema'nilikka tushib qolish, umidsizlikning boshlanishi, tashlandiqlik va eng muhimi, yo'qotish va uyg'unlikni izlash jarayonida qayta-qayta namoyon bo’ladi. Ekzistensial psixoanalizning asosiy tamoyillari.

-An'anaviy psixoanaliz ongsiz turtkilarni aniqlasada, ekzistensial psixoanaliz mijozning hozirgi tajribasi va voqeligiga e'tibor qaratadi. -Haqiqiylikni o'rganish markaziy o'rinda turadi. Mijozlarga o'tmishdagi travmalar bilan cheklanib qolmasdan, tanlov qilishga undaladi. - Ekzistensial terapiyada qo'rquv va ichki tartibsizlik hayotning asosiy noaniqligini qabul qilishga taklifdir. -Ekzistensial psixoterapiyada maslahatchi shoshilinch xulosalar chiqarmaydi, balki mijozga tajribaning rivojlanishi uchun joy yaratishga yordam beradi. Psixoanalizdagi "ekzistensial shaxs" yo'qlik dahshatini boshdan kechiradi, inqirozlarni boshdan kechiradi, lekin o'zini vaziyatlarning qurboni deb hisoblamaydi. Freyd tashxis qo'yish va davolash uchun qattiq toifalarga tayangan bo'lsa, ekzistensializm moslashuvchan va ochiq yondashuvni taklif qiladi, shaxsning hayotdagi yo'lini tanlashdagi mas'uliyatini ta'kidlaydi. Ekzistensializmning fundamentalizmni va

aqlning obro'sini tanqid qilishi, shuningdek, universalizm, essenizm va "katta hikoyalar" (yoki metanarrativlar) ni rad etishi Frantsiyadagi post-struktura falsafalariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa Nitsshe va Xaydegger Jak Derridaning dekonstruksiya usulida va Mishel Fukoning hokimiyat shajarasida "mavzuni markazsizlashtirish" loyihasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatib, mavzu qanday qilib imtiyozli markaz yoki haqiqat va bilimning kelib chiqishi emasligini ko'rsatdi. ijtimoiy-tarixiy tuzilmalar, normalar va amaliyotlarning bir-biriga o'xshash tarmog'i, lingvistik konventsiyalar va umumiy ma'nolar tomonidan oldindan shakllantirilgan va bu shakllanish biz hech qachon to'liq anglamaydigan tarzda sodir bo'ladi[9]. Ekzistensial psixoterapiyada maslahatchi shoshilinch xulosalar chiqarmaydi, balki mijozga tajribaning rivojlanishi uchun joy yaratishga yordam beradi, inqirozlarga chiday oladi, lekin o'zini vaziyatlarning qurboni deb hisoblamaydi[10].

Ekzistensial falsafaning zamonaviy jamiyat uchun ahamiyati shundan iboratki, ekzistensializm — shunchaki murakkab falsafiy atama emas, balki insonning "Men kimman?" va "Hayotimdan nima ma’no bor?" degan savollariga javob izlaydigan amaliy yo‘riqnoma hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda inson ko‘pincha algoritmlar, ijtimoiy normalar yoki ommaviy madaniyat ta’sirida yashaydi. Ekzistensializm bizga har bir qarorimiz uchun faqat o‘zimiz mas’ul ekanimizni eslatadi[11]. Bugungi tezkor, raqamli va ko‘pincha begonalashgan zamonaviy jamiyatda bu falsafaning ahamiyati har qachongidan ham ortgan. Bugungi vaziyat shu sharoitlarni eslatayotgandek tuyuladi. Biz uzoq vaqtdan beri tushunmay qo'ygan va qancha vaqt nazorat qila olishimizni kim biladi ilm-fan va texnologiyaning yuksalishi, so'nggi besh yildagi voqealar keltirib chiqargan inqiroz bilan birgalikda, shaxsdan subyekt sifatida javob talab qiladi. Va ekzistensializm, ekzistensial fikrlash, shunday javobga aylanishi mumkin. Inson mavjudligining o'ziga xosligi, iroda erkinligi va ma'no izlash va yaratish - bu odamlar zamonaviy tsivilizatsiya muammolariga javob bera oladigan javoblardir. Texnologiya, katta ma'lumotlar va katta siyosat - insoniyatdan chuqur begonalashgan bu global tuzilmalar oldida insonning o'z mavjudligi va dunyodagi o'rnini tushunish juda muhimdir. Erkin irodaga ishonish - va psixologiya va kognitiv fanning rivojlanishi bilan biz faqat bunga ishonishimiz mumkin - o'zlik va insoniylikning so'nggi umidi bo'lib chiqishi mumkin[12]. Asrlar davomida faylasuflar odamlarni oqilona deb ta'riflashgan, ammo bugungi kunda biz allaqachon oqilona inson bo'lmagan mavjudotlar bilan ishlayotganimizni hisobga olsak, biz bu mezonda turib olishda davom eta olamizmi. Ekzistensializm, inson mavjudligining noyob tajribasi, erkin iroda va ma'no izlashga urg'u berib, bizga insonni inson bo'lmaganlardan ajratishga imkon beradi[13].

Xulosa.

Axborotlashgan jamiyat va axborotlashuv jarayonining mazmun mohiyatini, uning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish, bugungi kunda axborot resurslari davlatlararo to‘qnashuv, geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonda milliy manfaatlarni himoya qilish, asrab-avaylash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy texnologiyalar bizni dunyo bilan bog‘ladi, lekin o‘zimizdan uzoqlashtirdi. Ekzistensial falsafa insonni yana "markaz"ga qaytaradi. U bizga hayotning fundamental bema’niligidan (absurd) qo‘rqmaslikni, aksincha, ana shu bema’nilik ichida o‘z qahramonligimiz bilan ma’no yaratishni taklif qiladi. Ekzistensializmning asoslari shaxsiy tajriba asosiy hisoblanadi, shaxsiy tajribalar va ichki dunyoga urg'u beradi, tanlov erkinligi har bir kishi o'z qarorlari va harakatlarining oqibatlari uchun javobgar ekanligidan iborat. Maqsadsizlik va hayotning bema'niligi tuyg'usiga olib kelishi, odamlar tashqi dunyodan ajralib qolgandek his qilishlari, ekzistensializm zamonaviy odamlar uchun dolzarb bo'lib qolmoqda, ularni o'zlarining mavjudligi va hayotning ma'nosi haqidagi muhim savollarga javob izlashga undaydi.

Raqamlashgan jamiyat va ekzistensial jarayonlar o‘rtasidagi dialektika — bu texnologiyaning inson borlig‘i mohiyatini qanday o‘zgartirayotgani haqidagi murakkab va ziddiyatli aloqadir. Bu jarayonda "raqamli borliq" va "haqiqiy inson" o‘rtasida doimiy kurash va bir-birini taqozo etish mavjud. Ekzistensializmda inson o‘z qilmishlari uchun to‘liq javobgar. Raqamlashgan jamiyatda esa mas’uliyat "tarqoq" holatga keladi. Raqamlashgan jamiyat va ekzistensial jarayonlar dialektikasi insonni yangi turdagi "Raqamli shaxs" sifatida shakllantirmoqda. Bu shaxs texnologiyadan voz kechmagan holda, uning ichida o‘z ichki olamini, erkinligini va haqiqiyligini saqlab qolishga majbur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Makhamatov T.– Ganiev B. – Pulatova D.A. – Makhamatov T.T. (2024). Dialectics of existential space in educational societies.

2. Сёрен Кьеркегор “Страх и трепет”. электронной библиотеке Royallib.ru Перевод Н.В.Исаевой и С.А.Исаева

3. Кораблева Е., Махаматов Т. Философия (с Кейсовыми задачами) УЧЕБНИК. Москва ИНФРА-М. стр-163. 2025.

4. Философия [Текст]: учебник / И.И. Кальной. — М.: ИНФРА-М; Вузовский учебник, 2017 Стр. 146.

5. Мартин Хайдеггер. О сущности истины. электронной библиотеке Royallib.ru

6. Сартр. Экзистенциализм — это гуманизм/Сумерки богов. – Москва: Политиздат, 1989. С. 320

7. *Мизес Л.* фон. Человеческая деятельность: трактат по экономической теории [Текст]: пер с англ. / Л. фон. Мизес. — Челябинск: Социум, 2012.

8. Хамдам Улугбек. Забытая мелодия ная / Пер. с узб. - Ташкент: «Мухаррир», 2013. ISBN 978-9943-25-291-2

9. *Бердяев Н.А.* Философия свободы. Смысл творчества [Текст] / Н.А. Бердяев. — М.: Правда, 1989

10. Heidegger, M., 1927 [1962]. *Being and time*, J. Macquarrie and E. Robinson (trans.), New York: Harper and Row. ––, 1950 [1971] *Poetry, language, thought*, A. Hofstadter (trans.), New York: Harper & Row.

11. Сильвестрова Т.Я. Генезис и сущность общественных потребностей: Авт. дисс. докт. фил. наук. –Россия: Чебоксары, 2006. –С.13.

12. Makhamatov Tair, Mamadjan Akhmatjanovich Mamatov, Elena Valentinovna Korablyova. How the philosophy of existentialism was formed. (Как формировалась философия экзистенциализма) Монография. Москва 2025. стр-137.

13. F.Yuldashev Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlar uyg‘unligi (yoshlar faoliyati misolida) Monografiya. Farg‘ona 2023. B-42.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abduraxmonov Muxiddin Shamsievich
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, (PhD)
E-mail: Muxiddin1967 @gmail.com

UDK :323/321:1(09) (584.4)

YANGI O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya: *Maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti Barqaror rivojlanish maqsadlari va “O‘zbekiston–2030” strategiyasi asosida Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan tahlili hamda global nazariy yondashuvlar, milliy taraqqiyot strategiyasi va xalqaro institutlar hisobotlari asosida Barqaror rivojlanish maqsadlarining mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni hamda milliy va xorijiy olimlar fikrlarining qiyosiy tahlili yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy-falsafiy, barqaror rivojlanish, institutsional islohot, iqtisodiy o‘sish, yashil iqtisodiyot, tadqiqot, strategiya, monitoring, tahlil, samarali, ta’lim sifati.*

Абдурахмонов Мухиддин Шамсиевич
Национальный университет Узбекистана доцент

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: *В статье представлен социально-философский, политический и экономический анализ Нового Узбекистана на основе Целей устойчивого развития Организации Объединенных Наций и Стратегии «Узбекистан-2030», а также роли Целей устойчивого развития в развитии страны с учетом глобальных теоретических подходов, национальной стратегии развития и докладов международных институтов, и проведен сравнительный анализ мнений отечественных и зарубежных учёных.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, социально-философский аспект, устойчивое развитие, институциональная реформа, экономический рост, зеленая экономика, исследования, стратегия, мониторинг, анализ, эффективность, качество образования.*

Abdurakhmonov Mukhiddin Shamsievich
Associate Professor, National University of Uzbekistan

SOCIAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE USTAINABLE DEVELOPMENT GOALS IN THE NEW UZBEKISTAN

Annotation: *The article presents a socio-philosophical, political and economic analysis of the New Uzbekistan based on the United Nations Sustainable Development Goals and the Uzbekistan 2030 strategy, as well as the role of the Sustainable Development Goals in the country’s development, taking into account global theoretical approaches, the national development strategy and reports of international institutions, and a comparative analysis of the opinions of domestic and foreign scientists.*

Key words: *Uzbekistan, socio-philosophical aspects, Central Asia, spirituality, cultural values, economic cooperation, regional relations, traditions, security and stability*

Kirish

Jamiyatning barqaror rivojlanishi masalasi XXI asr falsafiy va ijtimoiy tafakkurining markaziy muammosiga aylandi. Global ekologik xavflar, ijtimoiy tengsizlik, demografik bosim va raqamli transformatsiya sharoitida barqarorlik tushunchasi faqat iqtisodiy o‘sish bilan emas, balki inson qadri, institutsional mustahkamlik va axloqiy mas’uliyat bilan bog‘liq holda talqin etilmoqda. 2015 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) global taraqqiyotning yangi konseptual asosini belgilab berdi. Ushbu dastur 17 ta maqsad va 169 ta vazifani qamrab olib, ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va ekologik muvozanatni ta’minlashga

qaratilgan. BRM–bu BMTning dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning hayot tarzini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishga, adolatli va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan global dasturi bo‘lib, BMT hujjatida ta’kidlanganidek, “2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi inson, sayyora va farovonlik uchun harakat rejasidir”[1]. O‘zbekiston Respublikasi 2018 yilda BRMni milliy darajada moslashtirish yo‘nalishida BMT Taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlikda ishlar olib borildi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) BRM bilan uzviy bog‘langan holda ishlab chiqilgan. Yangi O‘zbekistonni qurish uchun zarur bo‘lgan islohotlar asosida mamlakat aholisining ijtimoiy himoya davrajasini oshirish, qashshoqlikka barham berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, asosiy vazifalar sifatida yangi ish o‘rinlari yaratish, daromad hajmini ko‘paytirish, malakali tibbiy ko‘rsatish, ta’lim sifatini oshirish, sifatli yashash sharoitlarini vujudga keltirish ishlari belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Bu strategiya BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga uyg‘un”[2] hamda xalqaro dasturlarga mos, ilmiy asoslangan strategiyadir.

Adabiyotlar tahlili

BRM ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslangan bo‘lib, BMT Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Jahon komissiyasi (World Commission on Environment and Development)ning 1987 yilgi “Bizning umumiy kelajagimiz” (Our Common Future) hisobotida “hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kelajak avlodlar imkoniyatlariga putur yetkazmaydigan rivojlanish” sifatida asoslangan [3] . Bu nazariya O‘zbekistonda “inson qadri” tamoyili bilan uyg‘un keladi. J. Саkс “Barqaror rivojlanish davri" (The Age of Sustainable Development”) asarida barqarorlikni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tizimlarning o‘zaro uyg‘unligi sifatida baholaydi [4]. Yangi O‘zbekiston strategiyasida barqaror rivojlanish g‘oyasi milliy qadriyatlar va institutsional islohotlar bilan uyg‘unlashgan holda ishlab chiqilgan. Jumladan, professor Q. Nazarov barqaror taraqqiyotni ma’naviy birlik va milliy g‘oya mustahkamligi bilan bog‘laydi [5], A. Rasulov iqtisodiy diversifikatsiya va investitsiya siyosatini barqarorlikning iqtisodiy mexanizmi sifatida baholaydi[6], Sh. Mirzaev esa institutsional modernizatsiyani barqarorlikning siyosiy-huquqiy sharti sifatida ko‘rsatadi [7]. Ushbu Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston—2030 strategiyasi” kabi strategik istiqbolli dasturlar barcha yo‘nalishlarda davlatning jadal rivojlangishi, Markaziy Osiyoda o‘zaro hamkorlik asoslarni mo‘qobillashirish va yangi bosqichga olish chiqish, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash va boshqa daolzarb ma salalarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Yangi O‘zbekistonning BMT BRMga erishish va o‘zaro mintaqaviy munosabatlarni tadqiq qilishda ijtimoiy falsafa kategoriyalari orqali ochib berish imkonini beradigan sivilizatsion yondashuv, dialog falsafasi, tarixiy-falsafiy tahlil, qiyosiy usul kabi falsafiy metodlar qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar

Yangi O‘zbekiston BMT BRMga erishish, xalqaro aloqalarni rivojlantirish yo‘nalishida mamlakatni jahon globallashuv jarayoniga qo‘shilish bilan bir vaqtda o‘zligini, mintaqaviy qadriyatlarni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiq qilingan materiallarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda davlatning barcha sohalarini jadal rivojlanayotgan global jarayonlarga mos ravishda isloh qilish, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish kabi siyosiy chora-tadbirlar hamda shu bilan bir vaqtda va ochiqlikni ta’minlash Yangi O‘zbekiston g‘oyasining asosini tashkil qiladi. BMT BRM milliy iqtisodlarni global standartlar bilan uyg‘unlashtirish mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Jumladan, O‘zbekistonda 2017–2024 yillarda yalpi ichki mahsulot va investitsiya hajmining oshishi ham BRM doirasida qabul qilingan strategiyalarning muvaffaqiyatli amalga oshirish jarayoni bilan bog‘liqdir. Tadqiqotchilar Yangi O‘zbekistonda barqaror taraqqiyotni ta’minlashni jahondagi global talablardan kelib chiqib, quyosh va shamol energetikasi kabi mo‘qobil energiya loyihalarini amalga oshirish, davlat boshqaruvi islohotlarini jadallashtirish, ma’naviy-ijtimoiy, tarixiy-falsafiy qadriyatlar, iqtisodiy diversifikatsiya va samarali investitsiya siyosatini olib borish bilan bog‘laydilar. Buni “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ham ko‘rish mumkinki, uning 5 ta yo‘nalishi BMT BRMga erishishga yo‘naltirilgan maqsad va vazifalarni to‘la qamrab olgan. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida 2023 yildan keyin qabul qilingan 25 ta qonun, 39 ta Prezident farmoni va qarorlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar (jami – 118 ta) BRMga erishishning zarur tashkiliy-huquqiy asoslarni yaratgan bo‘lib, ushbu strategiyani amalga oshirish barcha davlat organ va tashkilotlarining eng ustuvor vazifasi hisoblanadi. Umumiy ravishda bu strategiyalar O‘zbekistonda 2030 yilgacha keng ko‘lamli maqsadlar, demokratik jamiyatning rivojlanishi, ma’naviy yangilanishlar strategiyasi uyg‘unligini ta’minlovchi islohotlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishi va xavfsizligini ta’minlash, o‘zaro hamkorlik, ta’lim, ma’naviyat, ekologiya, turizm, inson huquqlarini himoya qilish kabi sohalarni qamrab oluvchi qator tashabbuslarni ilgari surgan bo‘lib, ulardan 11 tasi muhim xalqaro rezolyusiya sifatida qabul qilinganligi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi faol va tashabbuskor tashqi siyosatining natijasi hisoblanadi [8]. 2025 yilda BMT tomonidan yangilangan BRM bo‘yicha

hisobotida davlatlarning maqsadlar bo‘yicha rivojlanish darajasi ko‘rib chiqildi. Bunda Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O‘zbekistonning ham 2015 yildan buyon barqaror rivojlanish sohasida sezilarli yutuqlarga erishayotgani, BRM indeksida 2015 yildagi 48,6 balldan 2025 yilda 73,1ni tashkil qilib 167 ta davlat orasida 62-o‘rinni egallaganligi ta’kidlandi. Umuman “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan mamlakatning barcha sohalarini rivojlantirishga va Uchini renessansni vujudga keltirishga qaratilgan 100 maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko‘rsatkichning bajarilishi mamlakatimizning BRMga to‘la erishishiga xizmat qiladi. Mavzu doirasidagi umumiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, BRM Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining konseptual asosini tashkil etadi, ijtimoiy-falsafiy jihatdan inson qadrini ustuvor qiladi, siyosiy jihatdan institutsional islohotlarni rag‘batlantiradi, iqtisodiy jihatdan inklyuziv va yashil o‘sishni ta’minlaydi hamda mamlakat taraqqiyotida strategik va kompleks modernizatsiyalash vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosalar

Falsafiy-ijtimoiy yondashuvga tayanadigan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda izchil va tizimli amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohotlar natijasida 2030 yilgacha BMT BRM va Barqaror rivojlanishning milliy konsepsiyasida ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirib borishda ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, samarali monitoring faoliyatini takomillashtirish hamda rivojlanish maqsadlariga ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat taqozosidan kelib chiqib tegishli o‘zgarish va to‘ldirishlar kiritib borish ijtimoiy-falsafiy ahamiyat kasb etadi.

Maqolada keltirilgan tadqiqotchilar materiallari o‘rganish va tahlil qilish natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga sabab bo‘ldi; Yangi O‘zbekistonda BRMga erishish uchun davlat dasturlarini bajarish bilan birga, institutsional shaffoflikni kuchaytirish; yashil energetikani joriy qilish; raqamli monitoringni yo‘lga qo‘yish; inson kapitalini rivojlantirish;

tizimli islohotlarni jadallashtirish hamda ularni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish. Shu bilan birga quyidagi takliflar Yangi O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini samarali amalga oshirishga hamkorlik ko‘rsatishi mumkin: parlament, nodavlat sektor va biznes vakillarini jalb qilgan mustaqil monitoring organini tuzish: har bir vazirlik uchun BRM KPI tizimini tashkil etish; davlat byudjeti xarajatlarini BRM indikatorlari bilan bog‘lash; BRM ijrosini yagona ijtimoiy reestr va sun’iy intellekt asosida tahlil qilish va natijaviy moliyalashtirish; iqlim loyihalari uchun soliq imtiyozlarini taqdim etish tizimini shakllantirish; BRMga xizmat qiluvchi startaplar uchun grantlar berish; Markaziy Osiyo doirasida suv, energetika va iqlim masalalari bo‘yicha qo‘shma BRM forumini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UN. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development: Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015. – New York: UN, 2015. – 35 p.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqi.// https://president.uz/uz/lists/view/6677

3. World Commission on Environment and Development. Our Common Future. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – P.43.

4. Sachs J. D. The Age of Sustainable Development. – New York: Columbia University Press, 2015. –P. 4.

5. Nazarov Q. Ijtimoiy taraqqiyot falsafasi. –T.: Universitet, 2019. –B.45–52

6. Rasulov A. Iqtisodiy islohotlar va barqaror taraqqiyot. –T.:Iqtisodiyot, 2020. –B.88–94.

7. Mirzaev Sh. Davlat boshqaruvi va institutsional modernizatsiya. –T.: Fan, 2021. – B.63–70.

8. O‘zbekiston tashabbuslari asosida BMTda qabul qilingan 11 ta rezolyusiya keng targ‘ib qilinadi. 27.03.2025. https://uza.uz/posts/702390.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Yaxshilikov Abdurashid Tuxtashevich
Mustaqil izlanuvchi
Email: abdurashid26061984@gmail.com

UDK 370.2

ABU ALI IBN SINO FALSAFASIDA INSON, AXLOQ VA BORLIQ MASALALARI: ONTOLOGIK, METAFIZIK VA MA'NAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abu Ali Ibn Sinoning falsafasida inson, axloq va borliq masalalari tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqotda mutafakkirning ontologik va metafizik qarashlari, shuningdek, shaxsning ma'naviy kamoloti va jamiyat bilan uyg'un yashash konsepsiyalari tahlil qilindi. Ibn Sino ta'limotida zaruriy borliq va mumkin borliq kategoriyalari, ichki va tashqi lazzatlar, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy muvozanat masalalari bir butun tizim sifatida izohlandi. Tadqiqot natijalari Ibn Sinoning falsafiy-ta'limiy merosi zamonaviy ilmiy va ma'naviy tafakkur uchun ham dolzarb ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Ibn Sino, falsafa, ontologiya, metafizika, axloq, insonning ruhiy kamoloti, borliq.*

Яхшиликов Абдурашид Тухташевич
Независимый исследователь

В ФИЛОСОФИИ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ: ВОПРОСЫ ЧЕЛОВЕКА, НРАВСТВЕННОСТИ И БЫТИЯ — ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ, МЕТАФИЗИЧЕСКИЕ И ДУХОВНЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. *В статье систематически исследуются вопросы человека, этики и бытия в философии Абу Али Ибн Сины. Анализируются онтологические и метафизические взгляды мыслителя, а также концепции морального совершенствования личности и гармоничного сосуществования в обществе. В учении Ибн Сины категории необходимого и возможного бытия, внутренние и внешние удовольствия, моральные добродетели и социальный баланс представлены как единая система. Результаты исследования показывают, что философское и образовательное наследие Ибн Сины актуально и для современного научного и духовного мышления.*

Ключевые слова: *Ибн Сина, философия, онтология, метафизика, этика, моральное развитие человека, бытие.*

Yakhshilikov Abdurashid Tukhtashevich
Independent Researcher

ISSUES OF HUMAN, ETHICS AND BEING IN THE PHILOSOPHY OF ABU ALI IBN SINA: ONTOLOGICAL, METAPHYSICAL AND SPIRITUAL APPROACHES

Abstract. *This article examines the issues of human, ethics, and existence in the philosophy of Abu Ali Ibn Sina. The study analyzes the philosopher's ontological and metaphysical views, as well as concepts of personal moral development and harmonious coexistence in society. In Ibn Sina's teachings, the categories of necessary and possible existence, internal and external pleasures, moral virtues, and social balance are explained as an integrated system. The findings demonstrate that Ibn Sina's philosophical and educational legacy remains relevant for contemporary scientific and spiritual thought.*

Keywords: *Ibn Sina, philosophy, ontology, metaphysics, ethics, human moral development, existence.*

Kirish.

Bugungi imkoniyatlar tarixiy tadqiqotlarni chuqur o'rganish, o'tmishdagi allomalarning ilmiy merosini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish imkonini beradi. Abu Ali Ibn Sinoning hayoti va ilmiy faoliyati avlodlarda alohida hurmat va ehtirom uyg'otadi. Ulug' zot ilmiy ishlarini 16 yoshida boshlagan bo'lib, umri davomida 450 dan ortiq risola va asarlar yaratgan. Ushbu asarlarning katta qismi tibbiyot va falsafa sohalariga tegishli bo'lib, shuningdek, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalarini ham qamrab oladi. Abu Ali Ibn Sino Sharq peripatetizmining yetakchi vakili hisoblanadi. Uning peripatetik falsafasi "Kitob ash-Shifo", "An-Najot", "Al-Ishorat va at-

Tanbihat", "Donishnoma" kabi asarlarda keng qamrovli tarzda yoritilgan. Ibn Sino ta'limotida ontologiya va gnoseologiya masalalari bir-biriga bog'liq tizim shaklida bayon etilgan bo'lib, bu tizim borliq, bilish va anglash masalalarini tushuntirishda nazariy asos vazifasini bajaradi.

Mutafakkirning peripatetik falsafasida eng muhim tamoyillardan biri olamning boshlang'ich va abadiyligi haqidagi ta'limotdir. U emonatsiya nazariyasi asosida qarama-qarshi ko'rinishi mumkin bo'lgan g'oyalarni mantiqiy va ilmiy dalillar orqali tushuntiradi. Ibn Sino borliq masalasini chuqur tahlil qilib, ma'naviy borliq kontseptsiyasini batafsil izohlaydi. Shuningdek, Ibn Sinoning axloqiy ta'limoti uning ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir. Axloq fani insonni o'z harakatlarini anglashga undab, kelajakda baxtli va farovon yashashga yo'naltiradi. U haqiqiy axloqiy fazilat va ideal jamiyatga erishish mumkinligini, jamiyat a'zolarining bir-biriga yordam asosida yashashi va adolatli qonunlarga bo'ysunishi lozimligini ta'kidlaydi. Agar podsho adolatsizlik qilsa, xalqning unga qarshi e'tirozi to'g'ri va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi kerakligini bildiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Abu Ali Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli ilmiy ijodi va boy merosi bilan nafaqat Sharq, balki butun jahon madaniyati rivojida muhim o'rin egalladi. Uning asarlari Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi madaniy uyg'onish jarayonlari, ilm-fan va ma'naviyat yutuqlarini jamlagan bo'lib, shu bilan butun Sharq va Yevropa madaniyati hamda ma'rifatining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ibn Sinoning ilmiy va falsafiy merosini o'rganish bugungi kun ilmiy tadqiqotlari uchun dolzarb masalalardan biridir. Xususan, uning "Al-Ishorat va at-Tanbihat" asari falsafa sohasida eng mukammal ishlardan biri hisoblanadi; bunda birinchi qism mantiq, ikkinchi qism esa metafizikani tizimli ravishda yoritadi. Mustaqillik yillarida yurtimizda Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosiga e'tibor sezilarli darajada oshdi. O'zbek olimlari, xususan, Sh.H. Hamidullin, S. Mirzayev, H. Hikmatullayev va A. Hamidov [A. Hamidov. Abu Ali Ibn Sino hayoti va ijodiy merosi. T.: 1980. 43-bet.] uning asarlarini tarjima qilish va tadqiq etishda katta hissa qo'shdilar. Shu bilan birga, Yevropa olimlaridan E. Bishmann va Parviz Morverij [Parviz Morverij. "Avicenna (Ibn Sina) metafizikasi", 2004. 141-bet], arab, Eron va Turkiya olimlaridan M.U. Najotiy, A.N. Nodir, Yahyo Mahdaviy va Umar Farruhning ishlari Ibn Sino ta'limotini chuqurroq anglashga xizmat qilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning turli metodlari keng qo'llanildi. Xususan, Ibn Sinoning "Axloq" haqidagi falsafiy qarashlari obyektivlik prinsipi asosida tahlil qilinib, insonning axloqiy rivojlanish yo'li, baxt va saodatga erishishdagi mantiqiy tizim ochib berildi. Tadqiqotda insonning hayoti davomida baxtga erishish yo'lida duch keladigan qiyinchiliklar va ularni yengish usullari sistematik yondashuv asosida ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, ilmiy bilishning tarixiy, vorisiylik, sistemalilik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish orqali Ibn Sinoning falsafiy qarashlari ham nazariy, ham metodologik jihatdan mukammal tarzda ochildi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Ibn Sinoning falsafiy-ta'limiy merosi nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan ham izchil o'rganishga loyiqdir.

Natijalar va muhokama.

− ayrim kishilarning Konstitutsiya va qonunlarni o‘rganishga, o‘z hayotida qo‘llashga loqaydlik va beparvolik bilan qarashlari; − o‘z huquq va burchlarini yetarli darajada bilmaslik; − egallagan huquqiy bilimlarini hayotga tatbiq etish borasidagi malakalarning kamligi; − jamiyatdagi voqea va hodisalarga huquqiy jihatdan munosabat bildira olish layoqatining yetarli emasligi; − ayrim yoshlarning ma’lum bir kasb yoki ish bilan mashg‘ul bo‘lmasdan ishsiz qolayotganligi; − ba’zi kimsalarning huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etishi; − ayrim ta’lim muassasalarida huquqbuzarlikka “moyil”, tarbiyasi “og‘ir” o‘quvchilar bilan olib borilayotgan profilaktika ishlarining qoniqarli emasligi; − ayrim ota-onalarning yetarli darajada huquqiy bilim va malakalarga ega emasligi; − ba’zi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kamsitilishi; − ayrim huquqiy ongsiz kimsalarning ekstremistik guruhlarga qo‘shilib qolishi; − huquqqa oid ilmiy-ommabop adabiyotlarning kamligi; − mahallalarda huquqiy targ‘ibot-tashviqot tadbirlarining yetarli darajada olib borilmayotganligi; − aholining qabul qilinayotgan yangi qonunlarning mazmun-mohiyatidan yaxshi xabardor emasligi. Ba’zi insonlar huquqbuzarlikni huquqiy savodxonliklari yetishmasligi oqibatida sodir etsalar, ba’zi hollarda insonlar huquqiy savodxonliklari yetarli bo‘lib ham huquqbuzarlik sodir etadilar. Bundan xulosa shuki, huquqiy savodxonlik huquqiy madaniyat darajasini bermaydi. Huquqiy madaniyat – davlat tomonidan qabul qilingan, barcha uchun majburiy bo‘lgan hulq-atvor qoidalariga ongli ravishda itoatda bo‘lishdir. Buning uchun jamiyatda adolat tuyg‘usi qaror topgan bo‘lishi lozim. Fuqarolar yig‘inlarida jamoat tartibi va xavfsizlikni ta’minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bir qator o‘ziga xos jihatlar va omillarga bog‘liq.

Jumladan, har bir oilaga kirib borish, o‘zgalar dardini his qilish, ko‘makka muhtoj insonlarga yordam qo‘lini cho‘zish, yoshlarning mehnat bilan bandligini ta’minlash, ularning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri va unumli tashkil etish kabi ishlarning samaradorligini oshirish fuqarolari yig‘inlari oldida turgan eng muhim masalalar hisoblanadi. Bu jarayonda aholining turli qatlamlari bilan samimiy suhbatlar, uchrashuvlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish singari usullardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasida fuqarolar yig‘ini kengashining tegishli hududda jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini ta’minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishda, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik hamda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir ishlarda va ularning huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko‘maklashishi belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining quyida keltirilgan bir qator qonunlari va qonunosti hujjatlarida jamoat tartibi va xavfsizlikni ta’minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish borasida fuqarolar yig‘inlari tomonidan amalga oshirilishi lozim vazifalar belgilangan: O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunining 21-moddasi: Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi; Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi; Ro‘yxatdan o‘tkazilmagan diniy tashkilotlar faoliyatiga chek qo‘yish, fuqarolarning diniy e’tiqod erkinligiga bo‘lgan huquqlariga rioya etilishini ta’minlash, diniy qarashlarni majburlab singdirishga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ko‘radi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog‘liq boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi; Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunining 19-moddasi: voyaga yetmaganlarning ma’naviy, axloqiy, huquqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasida ishtirok etadi, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ko‘maklashadi; Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlarga va oilalarga yordam ko‘rsatadi; Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib

kelgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashadi; Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Natijalar va muhokama

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ–2896-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari tayanch punkti to‘g‘risida”gi Nizomning 22-bandi:

Oilaviy-maishiy sabablarga ko‘ra sodir etilgan huquqbuzarliklar, shu jumladan ayollar, voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar muhokamasini tashkil etish va o‘tkazish, mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–22-son Farmoniga 5-ilova Davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish, jamiyatda birdamlikni ta’minlash orqali uni yuksaltirish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturi bo‘yicha:

Ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik kabi jamiyat oldida turgan dolzarb muammolarga qarshi kurashish bo‘yicha samarali ishlaydigan tizimni yo‘lga qo‘yish. Jumladan, Ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlariga barham berish maqsadida javobgarlik choralari kuchaytirilib, 14 yoshga to‘lmagan shaxslarga nisbatan sodir etilgan jinsiy jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum etishgacha bo‘lgan jazo choralarini belgilash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi “Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3827-son Qarorining11-bandi:

Nizoli vaziyatlar, shu jumladan oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishni o‘z vaqtida aniqlanishini, bartaraf etilishini va oldi olinishini ta’minlash, ularning oqibatlarini, shuningdek, bunday turdagi xatti-harakatlar sodir etilishiga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

Og‘ir ijtimoiy ahvoldagi shaxslarga, birinchi navbatda, oilaviy nizolarni hal qilish orqali ta’sirchan yordam ko‘rsatish bo‘yicha aniq maqsadli ishlarni amalga oshirish. Jamiyatda oilaviy-maishiy sabablarga ko‘ra sodir etilgan zo‘rlik ishlatishning har qanday ko‘rinishiga murosasiz munosabat muhitini shakllantirish maqsadida nizoli vaziyatlarning, shu jumladan oiladagi nizoli vaziyatlarning erta oldini olish bo‘yicha aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ–3907-son qarori bilan tasdiqlangan “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”ning 13-19 bandlari:jazoni ijro etish muassasalaridagi diniy-ekstremistik oqimga mansub shaxslar oila a’zolarining yashash sharoitlarini yaxshilash choralarini ko‘rish: yordamga muhtoj oilalar ro‘yxatini shakllantirish; ro‘yxatdagi oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish; mehnatga layoqatli, bandligi ta’minlanmagan shaxslarni ishga joylashtirish yoki tadbirkorlikka jalb etish choralarini ko‘rish; huquqbuzarlik va jinoyat sodir etgan, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan yoshlar bilan aniq hamda maqsadli tadbirlarni amalga oshirish;

yoshlar tomonidan sodir etilgan har bir o‘z joniga qasd va suiqasd qilish holatlari yuzasidan alohida o‘rganish o‘tkazish, ushbu shaxslarning oilaviy ahvolini to‘liq o‘rganish hamda moddiy-ma’naviy yordam ko‘rsatish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF–5618-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi: Mahallalarda aholi orasidagi turli muammolar (migratsiya, moddiy yordam, yer olish, uy-joy olish, kommunal, imtiyozlar, aliment, ishga joylashish, ta’lim olish) bo‘yicha“Huquqiy axborot kuni” loyihasi doirasida malakali mutaxassislar (advokatlar, notariuslar, yuridik xizmatlar xodimlari va boshqalar) tomonidan aholiga huquqiy tushuntirishlar berilishini ta’minlab borish; Jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolik nizolarini keskin kamaytirish, aholida qonunga hurmat hissini uyg‘otish maqsadida sudlar tomonidan mahallalarda aholi bilan ochiq muloqotlar va sayyor sud majlislarini o‘tkazish; O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondi hamda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida 2017-yil 25-mart kuni memorandum tuzilgan. Ushbu Memorandumdan ko‘zlangan asosiy maqsad – mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, huquqiy tartibotni mustahkamlash, aholining huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish bo‘yicha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faollari va hududiy profilaktika inspektorlarining hamkorlikda bajariladigan ishlari, xususan, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishdan iborat. Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, bu borada aholi bilan turli profilaktik tadbirlarni o‘tkazish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish muhim o‘rin tutadi.

Xulosa

Xulosa, fuqarolar yig‘ini hududida istiqomat qiluvchi aholi, birinchi navbatda, yoshlar ongi va qalbida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ibratli milliy, diniy qadriyatlar, an’analar hamda urf-odatlarni asrab-avaylash va

rivojlantirish, ular zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash, qonunlarga hurmat, tinch osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadrlash kabi yo‘nalishlardagi ishlarni tizimli amalga oshirish– mahalladagi jamoat tartibi va xavfsizlikni ta’minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosiy diqqat-e’tibor jinoyatchilikka va qonunbuzarlikka qarshi kurash emas, balki uning oldini olishga qaratilishi lozim. Buning uchun esa aholining barcha qatlamlari ongiga “jinoyat – jazosiz qolmaydi, har kim qilmishiga yarasha javobgarlikka tortiladi”, degan qoidani doimiy singdirib borishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ–2896-son qarori. “Ichki ishlar organlari tayanch punkti to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqida.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF–5618-son Farmoni. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ–3907-son qarori. “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash tizimini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Sayidov Murod Nomozovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti Falsafa fanlari nomzodi
Email: murod@gmail.com

UDK: 321.01(575.1) + 1(091)

YUSUF XOS HOJIB MEROSIDA DAVLAT BOSHQARUVI MASALASI TALQINI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qoraxoniylar davrida yashab ijod qilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida jamiyat, davlat haqida va uni idora qilishda elning va hukmdorning vazifalari to'g'risidagi siyosiy qarashlari bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlari, Davlat, davlatni boshqarish, elning hukmdoriga talabi, hukmdorning elga talabi, beg, bilim, islom mafkurasi.*

Саидов Мурод Номозович
доцент Джизакского государственного педагогического университета кандидат философских наук

ТРАКТОВКА ПРОБЛЕМ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ ЮСУФА ХОС ХОДЖИБА

Аннотация*: В статье излагаются политические взгляды Юсуфа Хос Хаджиба, жившего и творившего в эпоху Караханидов, в его произведении «Кутадгу билиг» об обществе, государстве, обязанностях народа и правителя в управлении им.*

Ключевые слова: *моральные взгляды Юсуфа Хоса Хаджиба, государство, государственное управление, требования народа к правителю, требования правителя к народу, мольба, знания, исламская идеология.*

Sayidov Murod Nomozovich
Associate Professor of Jizzakh State Pedagogical University Candidate of Philosophical Sciences

INTERPRETATİON OF PUBLİC ADMİNİSTRATİON ISSUES İN THE HERİTAGE OF YUSUF KHOS KHOJİB

Abstract*: this article presents the political views of Yusuf Khos Hajib, who lived and worked during the Karakhanid period, in his work "Kutadgu Bilig" about society, the state, and the responsibilities of the people and the ruler in governing it.*

Key words: *moral views of Yusuf Khosa Hajib, state, public administration, people's demands on the ruler, ruler's demands on the people, prayer, knowledge, Islamic ideology.*

Kirish.

Jamiyat va davlatni idora etish muammosi insoniyat tafakkuri tarixida doimo markaziy o'rinni egallab kelgan. Qadimdanoq mutafakkirlar adolatli jamiyat qanday quriladi, hokimiyat qanday tamoyillarga tayanadi va rahbar hamda xalq o'rtasidagi munosabatlar qay tarzda tartibga solinadi, degan savollarga javob izlaganlar. Bu masala nafaqat siyosiy, balki axloqiy va ma'naviy jihatdan ham ulkan ahamiyat kasb etgan.

Shu ma'noda, Yusuf Xos Hojib ijodi alohida e'tiborga loyiqdir. U o'z asarlarida davlat boshqaruvi va jamiyat tartiboti haqida fikr yuritar ekan, o'zidan oldin o'tgan buyuk allomalar merosiga tayanadi. Xususan, Abu Nasr Farobiyning fozil jamiyat haqidagi qarashlari, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-rasional yondashuvi, Abu Ali ibn Sinoning davlat va axloq haqidagi mulohazalari hamda Mahmud Qashg'ariyning ijtimoiy-madaniy kuzatuvlari uning dunyoqarashi shakllanishida muhim o'rin tutgan.

Biroq Yusuf Xos Hojib faqatgina salaflar fikrini takrorlamaydi. U mavjud ijtimoiy-siyosiy sharoitni chuqur anglab, o'sha davr ma'naviy muhitiga tayangan holda mustaqil xulosalar chiqaradi. Ayrim ijtimoiy masalalarga u rasionalistik nuqtai nazardan yondashib, davlat boshqaruvida aql, adolat va mas'uliyat ustuvor bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Uningcha, hukmdor nafaqat qudrat sohibi, balki xalq oldida ma'naviy javobgar shaxsdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni qoraxoniylar davri davlat boshqaruvi masasalalariga bag'ishlangan

falsafiy doston bo‘lib, unda muallifning falsafiy-axloqiy qarashlari to‘rtta masala ustida boradi. Ularning har biri majoziy obrazlar timsolida bayon qilinadi. Bular Adolat- Quntug‘udi, davlat–Oyto‘ldi, Aql- O‘g‘dulmish, Qanoat –O‘zg‘urmishdir. Ana shu obrazlarning sarguzashtlari, suhbat-munozaralari va savol-javoblari orqali Yusuf Xos Hojibning jamiyat, davlat haqidagi, uni idora qilish to‘g‘risidagi qarashlari bayon etiladi. Demak, mutafakkirning siyosiy madaniyati naqadar yuksak ekanligi, ana shu yuksaklikdan turib, o‘zi yashagan davrga, bu davrning xukmdorlari siyosatiga nazar tashlagan. Xuddi shu nuqtai nazarini “Qutadg‘u bilig” asari qahramonlarining qarashlari orqali yurt haqonlariga yetkazishga uringan. Uning natijasi shu bilan tugaydiki, Qashg‘ar hoqoni ijodkorni “xos xojib”- eshik og‘asi degan obro‘yli mansab bilan taqdirlaydi. Haqonga ma’qul kelgan bu asar,uning rasmiy siyosatiga aylangan bo‘lishi tabiiy. Zero, “Qutadg‘u bilig” faqatgina siyosiy nasihatdan iborat asargina bo‘lib qolmasdan, balki xukmdorlarni omma bilan, xalq bilan muamala qilish madaniyatini, o‘z siyosatini qanday qilib ommaga yetkazib, uni boshqarish, idora qilish madaniyatini shakllantirishga yordam beradigan qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan deb bemalol aytishimiz mumkin. Chunki, O‘rta Osiyoda ibtidoiy tuzumning yemirilishi, ilk feodalizmning shakllana borishi, turli qabilalardan tarkib topgan feodal davlatni boshqarish, idora qilish ehtiyoji “Qutadg‘u bilig” dek dasturamal bo‘ladigan asarlarga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirgandir.[6,28]

Yusuf Xos Hojibning fikricha siyosat va axloq bir-biri bilan bog‘liq. Axloqsiz hukmdor davlatni boshqarishga qodir bo‘lmaganidek, axloqiy aynigan jamiyatda yaxshi siyosat olib borib bo‘lmaydi. Har qanday jamiyatning tanazzuliga yuz tutishi, axloqiy buzilishdan, ma’naviy qashshoqlikdan boshlanadi. Shuning uchun, hukmdorlarning siyosati axloqiy normalarning buzilishiga yo‘l qo‘ymasligiga qaratilmog‘i lozim. Buning uchun har qanday jamiyatda, u yoki bu tarzda jamiyat a’zolarining siyosiy madaniyatining shakllantirishga e’tiborni qaratmoqlik maqsadga muvofiqdir. Ana shu maqsad, asar qahramonlarning timsolida ularning faoliyatlari, hatti harakatlarida o‘zining ifodasini topadi. Ma’lumki, asar qahramonlarning barchasi xukmron siyosat vakillari, uni amalga oshiruvchi kishilardir. Ular qiyofasida, adolat, aql-idrok, sabr-qanoat, jismoniy salomatlik, yaxshilik kabi ahloqiy fazilatlarni namoyon bo‘lishi lozimligi g‘oyasini o‘rtaga tashlaydiki, bu fazilatlar asarda ideal jamiyat va uni boshqaruvchilarning asosiy xususiyatlari bo‘lib qolishga ishora qiladi.

Yusuf Xos Hojibning ideal el haqidagi utopik g‘oyalarini Aflotunning ideal davlat haqidagi g‘oyasi o‘rtasida, davlatga boshchilik qilyotgan shaxsning yoki shaxslar guruhining davlat boshqarishdagi roli va vazifalari haqidagi qarashlari o‘rtasida o‘xshashlikni payqash mumkin.[5,125]

Ma’lumki, Aflotun o‘zining “Davlat” asarida davlat hokimiyatini mumtoz- faylasuf, aristokratlar boshqarmoqlari lozim, deb ta’kidlagan edi. Bu o‘rinda shoir arstokrat degan tushunchani tagi zoti butun kishilarga muqoyasa qiladi. Yusuf Xos Hojib ham “otasi beg bo‘lsa, o‘g‘il ham beg (bo‘lib) tug‘uladi, beg bo‘lib tug‘ilgan o‘g‘il ham otasidek bo‘ladi”[4,331], deydi.

Ko‘rinib turibdiki, Yusuf Xos Hojib muayyan tarzda xukmdorni ideallashtiradi, ilohiylashtiradi. Bu davrda islom dinini ta’siri kuchli bo‘lgan, islom mafkurasi xukmron edi. Hukmdorlar xudoni yerdagi soyasi deb targ‘ib etilardi. Yusuf Xos Hojib o‘z davrining farzandi sifatida mazkur tarixiy davrdagi hukmron mafkura ta’sirida bo‘ladi. Uning fikricha, bek (ya’ni elig) davlatning hukmdori, uning irodasi mamlakat aholisi uchun qonundir, ya’ni “podshoiy hukmu vojib”. Beklik mansabiga erishgan kishi bexosiyat bo‘lmaydi, balki u ilohiy qudrat hoxishi bilan dunyoga kelgan insondir. Bayt kimki bersa bu baglik ishi Barur uch ko‘ngil ko‘r ul ishqa tushi Kimi bag turutmak tilasa bayat Barur ashnu qilq yang unush yo‘g qanoat [4,328]. Mazmuni: bayat xudo kimga beglik vazifasini bersa, avval unga harchoq fahm idrok va ish asoslarini baxsh etadi, xudo kimni bek qilmoqchi bo‘lsa avvalo qushga pat-qanot berganidek, xulq-atvor, fahm-farosat ato qiladi. Dostonning g‘oyaviy mazmuniga e’tibor berar ekanmiz, Yusuf Xos Hojibning falsafiy qarashlari uni bir tomondan, davrning ilg‘or g‘oyalarini ilgari surgan mutafakkir va davlat arbobi, ikkinchi tomondan esa qorahoniylar saroyida hizmat qiladigan hukmdorlardan biri ekanligi ko‘z oldimizga keladi. Bunga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashmoq zarur. Biroq ayrim olimlar mazkur masalaga bir tomonlama yondoshadilar. Masalan, O. Jo‘rayev o‘zining ”O‘zbek klassik adabiyotida falsafiy-didaktik dostonchilik” risolasida taniqli adabiyotshunos N.M. Mallayevni u Yusuf Xos Hojib feodallar manfaatini ifodalagan ijodkor sifatida talqin qiladi, deb tanqid qiladi [3,39]. bunday tanqid noo‘rin bo‘lib, haqiqatga butunlay ziddir. Mana N.M. Mallayev nimalarni yozadi: Yusuf Xos Hojibning bek va uning saroy ahli haqidagi fikr mulohazalari feodal davlat hokimiyatini mustahkamlashga, nisbiy osoyishtalik barqaror etib, feodal xo‘jalik va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan edi. Binobarin, Yusuf Xos Hojibning fikr- mulohazalari, shubhasiz, o‘z davri uchun progressiv qimmatga ega edi. Shoirning “elning hukmdoriga”, “hukmdorning elga talabi” haqidagi mulohazalari ham, feodal tendensiozligiga qaramay xo‘jalik va madaniyat taraqqiyoti, mamlakatning obodligi va osoyishtaligi jihatidan ma’lum ijobiy ahamiyatga ega edi... bu talablar shubhasiz feodal hukmronlikni mustahkamlash va mehnatkash ommaning tobeligini kuchaytirishga qaratilgan [2,120-121]. Olimning bu so‘zlari butunlay haqiqatga to‘g‘ri keladi. Zotan, Yusuf Xos Hojib davlat arbobi bo‘lganligi uchun feodal davlatni mustahkamlashga harakat qilgan. Ayni bir vaqtning o‘zida xukmdorga murojaat qilib, davlatni idora qilishda quyidagi talablarga rioya qilishga chaqiriladi (mazmuni):

“Ey hukumdor, xalqning senda uch haqi bor, sen bu haqni to‘la va o‘z joningga jabr qilma, bu haqning biri: Pulning kursini ko‘tarish, unda oltin va kumushning sofligini oshirish va buni kuzatib turishdan iboratdir. Yana biri: el uchun ishonchli, mustahkam va to‘g‘ri qonunlar chiqar, buni el sendan kutadi. Uchinchi: yo‘llarni qaroqchilardan, xarob

qiluvchilardan tinch va osoyishtalikda saqla”.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi. Hukmdorlarga qo‘yilgan ikki talab (oltin-kumush sofligini oshirish, yo‘llarni bexatar qilish) ko‘proq savdo- sotiq ahllarining talablaridir. Lekin, umuman olganda bu talablar adolatli bo‘lib, mohiyat e’tiboricha ijobiydir. Bularning evaziga xukmdor xalqdan uch narsa talab etishga haqli. “Ey xalqning sardori, xalqning senga bo‘lgan shu talablarini bajarganidan so‘ng, o‘zing ham xalqdan quyidagi uch narsani talab qilishga haqli bo‘lasan. Biri – har qanday yorlug‘ (qonun) chiqarsang, uni hamma so‘zsiz va tez bajarishi kerak. ikkinchi – davlat soliqlarini o‘z vaqtida sahiylik bilan davlat xazinasiga topshirib tursinlar. Uchinchi- butun xalq do‘stingga do‘st,dushmangga dushman bo‘lishi kerak” [4,209]. Yusuf Xos Hojib asaridan keltirilgan parchalar hech qanday izoh talab qilinmaydi. Chunki, u hamma uchun tushunarli. Barcha zamonlarga, shuningdek, bugungi bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan sharoitga ham to‘g‘ri keladi. Yusuf Xos Hojib podsho va uning atroftidagi xukmdorlar qanday bo‘lishligi haqidagi mulohazalarini “Qutadg‘u bilig” dagi obrazlar qiyofasida mujassamlashtiradi. Xukmdor, donishmand va ayni vaqtda xulq- atvori go‘zal, umuman oliy fazilatli bo‘lmog‘i lozim. U atrofiga xuddi shunday kishilarni to‘playdi, ular bilan kengashadi, mamlakatda tartib o‘rnatadi, zolimlarga tanbeh berib, mazlumlarni shod qiladi. Uning ana shunday adolatli faoliyati tufayli mamlakatda ijtimoiy ziddiyatlar, o‘zaro kelishmovchiliklar barham topadi, hatto qo‘y bilan bo‘rini ham inoqlashtiradi:

Elni etti tuzdi, boyudi budun, Bo‘ri qo‘y bila suvladi ul udun(Elida tartib o‘rtandi, uni tuzdi, xalq boyidi, u davrda bo‘ri qo‘y bilan birga suv ichdi) 4,172]. Bu bilan u jamiyat a’zolarini murosai madoraga chaqirdi, mamlakat barqarorligi yo‘lida har qanday ichki kelishmoqchiliklar barham topishi, zarur deb ko‘rsatadi. Yusuf Xos Hojib jamiyatdagi barcha kishilar qanday tabaqalarga mansub bo‘lishdan qat’iy nazar, ular o‘rtasida samimiylik, odamgarchilik, o‘zaro hurmat va mehr - muhabbat bo‘lmog‘i zarur deydi va ana shunday bo‘lishini orzu qiladi. Ana shu fazilatlarga qat’iy rioya qilish vositasida mazkur jamiyatni bedavo darddan xalos qilishni istardi. Bu narsani, feodal jamiyati sharoitida amalga oshirish mumkin emas edi. Lekin, u xalqi o‘zaro inoq, mamlakati farovon bo‘lgan jamiyatni orzu qilar edi.Yusuf Xos Hojib feodal saroyidagi nizo-adovatlarni, toju-taxt uchun o‘zaro kurashlarni keskin qoralaydi: Bu beglig uchun qarshi bulur, Ikki kun qorishsa, birisi o‘lur [4,210] U so‘z o‘yini bilan qarshi (nizo-adovat) qarshiga (saroyga) qarshidir, ulardan biri bo‘lsa, ikkinchisi bo‘lmasligi lozim, deydi.

Xulosa.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘rta Osiyo tafakkur an’analarida bo‘lgani kabi, Yusuf Xos Hojib ham axloqiy qarashlarini ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar bilan uzviy bog‘liq holda talqin qiladi. Uning ta’limotida axloq shaxsiy fazilat sifatida emas, balki davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mutafakkirga ko‘ra, hokimiyat tizimi qanchalik kuchli bo‘lmasin, agar u ma’naviy poydevorga ega bo‘lmasa, uning uzoq muddatli barqarorligi ta’minlanmaydi. Yusuf Xos Hojib davlat mustahkamligini, avvalo, rahbar shaxsining ma’naviy qiyofasi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, hokim adolatli, halol va mas’uliyatli bo‘lsa, bu fazilatlar tabiiy ravishda boshqaruv tizimiga ham ko‘chadi. Zero, rahbarning shaxsiy namunasi qo‘l ostidagi amaldorlar va keng jamoatchilik uchun o‘lchov mezoniga aylanadi. Agar hukmdor axloqiy poklikni ustuvor deb bilsa, jamiyatda qonun ustuvorligi va tartib-intizom qaror topadi.

Shu bilan birga, mutafakkir faqat hokimlarni emas, balki ularga itoat etuvchi kishilarni ham axloqiy kamolotga da’vat etadi. Uning nazariyasida davlat – bu o‘zaro mas’uliyat va burchlarga asoslangan yaxlit tizimdir. Agar jamiyat a’zolari ham halollik, sadoqat va fidoyilik tamoyillariga amal qilsalar, bu siyosiy barqarorlikni mustahkamlaydi va davlatning obro‘-e’tiborini oshiradi. Demak, Yusuf Xos Hojib qarashlarida axloq va siyosat bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Ma’naviy kamolot – siyosiy qudratning asosi, axloqiy poklik esa davlat taraqqiyotining garovidir. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan ilmiy-publisistik xulosalar sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanılgan adabıyotlar ro‘yxatı:

1. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон.-Тошкент; “Ўзбекистон”. 2024 й.
2. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент, Ўкитувчи, 1976. Б.120 -121.
3. Жўраев О. Ўзбек классик адабиётида фалсафий – дадактик достончилик Тошкент, Фан, 1985.
4. Юсуф Хос Хожиб Қутадғу билиг. Тошкент, Фан, 1971.
5. ХайруллаевМ.М. Уйғониш даври Шарқ мутафаккири. -Тошкент, Ўзбекистон, 1971.
6. Ёқубов А. Қутаду билигда давлатчилик концепцияси. Тошкент, А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,1997.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Amonlayev Abdurasul Xakimovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri Falsafa fanlari nomzodi, dotsent
Email: abdurasul@gmail.com

UDK 004:316.77:17

GLOBAL AXBOROT - KOMMUNIKATSIYA TARMOQLARI VA ULARNING YOSHLAR MA'NAVIY DUNYOSIGA TA'SIRI

Annotatsiya: *Maqolada hozirgi kunda texnologiyaning kuchayishi, televideniye, kompyuter texnologiyasi, internet tizimidan kirib kelayotgan shiddatli axborotlarning yoshlarda milliy ma'naviyat, umuminsoniy qadriyatlardan ibrat olishga bo'lgan ishtiyoqining susayishi va uning oldini olish bo'yicha mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Globallashuv, global tarmoq, televideniye, kompyuter texnologiyasi, internet, milliy ma'naviyat, qadriyat,ijtimoiy qiyofa,ma'naviy qiyofa, milliy mentalitet,ibrat, yangicha fikrlash va boshqalar.*

Амонлаев Абдурасул Хакимович
заведующий кафедрой социальных наук кандидат философских наук, доцент
Джизакский государственный педагогический университет

ГЛОБАЛЬНЫЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫЕ СЕТИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ДУХОВНЫЙ МИР МОЛОДЕЖИ

Аннотация: *В статье рассматривается текущая ситуация, в которой стремительное развитие технологий, интенсивный информационный поток с телевидения, компьютерных технологий и интернета ослабляют стремление молодежи к познанию национальной духовности и универсальных человеческих ценностей, а также способы предотвращения этого.*

Ключевые слова: *глобализация, глобальная сеть, телевидение, компьютерные технологии, интернет, национальная духовность, ценности, социальный образ, духовный образ, национальный менталитет, пример, новое мышление и т. д.*

Amonlayev Abdurasul Khakimovich
Jizzakh State Pedagogical University Head of the Department of Social Sciences
Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor

THE INFLUENCE OF GLOBAL INFORMATION AND COMMUNICATION NETWORKS ON THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF YOUTH

Abstract: *This article examines the current situation in which rapid technological advancement and the intense flow of information from television, computer technology, and the internet are weakening young people's desire to understand national spirituality and universal human values, as well as ways to prevent this.*

Keywords: *globalization, global network, television, computer technology, internet, national spirituality, values, social image, spiritual image, national mentality, example, new thinking, etc.*

Kirish.

Hozirgi globallashuv davrida internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar turmush tarzining tabiiy va ajralmas qismiga aylandi. Raqamli muhit endi oddiy axborot manbai emas, balki shaxsning fikrlashi, dunyoqarashi, qadriyatlari va ma'naviy qarashlari shakllanadigan o'ziga xos ijtimoiy makon vazifasini bajarmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, global axborot tarmoqlarining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri serqirra, ayni paytda murakkab va ziddiyatli xususiyat kasb etadi.

Eng avvalo, raqamli tarmoqlar yoshlar uchun beqiyos imkoniyatlar manbaidir. Turli elektron kutubxonalar, ilmiy bazalar, masofaviy ta'lim platformalari orqali ular bilim doirasini kengaytiradi, intellektual salohiyatini yuksaltiradi. Onlayn kurslar, vebinarlar va xalqaro muloqot maydonlari yoshlarni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan tanishtirib,

ularning fikrlash ko‘lamini kengaytiradi. Bu jarayon shaxs ma’naviy kamolotining muhim omiliga aylanishi mumkin. Shuningdek, turli xalqlar madaniyati va an’analari bilan tanishish imkoniyati bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va madaniy muloqot madaniyatini shakllantiradi. Biroq axborot oqimining cheksiz va nazoratsiz ekani muayyan xavflarni ham yuzaga keltiradi. Virtual makonda tarqatilayotgan ayrim g‘oyalar, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi materiallar yoki ommaviy madaniyatning yuzaki ko‘rinishlari yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim hollarda ijtimoiy tarmoqlarda shakllanadigan “ommaviy fikr” yoshlarning mustaqil mushohada yuritish qobiliyatini pasaytirib, ularni ko‘r-ko‘rona taqlidga undaydi. Natijada ma’naviy mezonlarda muvozanat buzilishi, milliy o‘zlik va qadriyatlarga nisbatan befarqlik paydo bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Shu boisdan ham mamlakatimizda milliy an’ana va qadriyatlarimizni rivojlantirish, ulug‘ alloma ajdodlarimiz ilmiy merosini chuqur o‘rganish, yoshlarimizni Vatanga muhabbat, ilm-ma’rifatli, intellektual barkamol avlod etib tarbiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “... yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala, haqiqatdan ham, hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”[1].

Adabiyotlar tahlili Metodologiya.

Hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasining o‘ziga xos eng muhim xususiyati fan va texnika yutuqlari inson turmush tarzining barcha jabhalariga jadallik bilan kirib borayotganligi bilan ajralib turadi. Fan va texnika yutuqlarining inson turmush tarziga kirib kelishi kishilarning fan va texnikaga bo‘lgan qiziqishini orttirib yubordi. Xuddi shu holat, bir tomondan, odamlarning yashashi, ishlashi uchun qulayliklarni yaratgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, insonning mustaqil shaxs bo‘lib shakllanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarda amal qilib kelgan paradigmalar o‘zgarishiga ham olib kelmoqda. Bu jarayonning muayyan ma’noda chuqurlashib borishiga yana bir sabab texnologiyaning kuchayishi, televideniye, kompyuter texnologiyasi, internet tizimidan kirib kelayotgan shiddatli axborotlar yuki ostida qolgan kishilarning milliy ma’naviyat, umuminsoniy qadriyatlarning hayotbaxsh tamoyillaridan ibrat olishga bo‘lgan ishtiyoqining susayishiga olib keldi.

Internetning jamiyat iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy hayot sohalari taraqqiyotidagi o‘rni beqiyos. Uning ulkan qudratini tan olish yoki olmaslik haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Internet inson tafakkuri, aqli va bilim qudratining mahsuli va in’ikosidir. Global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda uning insoniyat ma’naviyatiga tug‘dirayotgan xavf-xatarlari to‘g‘risida ham so‘z yuritishga to‘g‘ri keladi. Bu noxush g‘ayriinsoniy holatlar muayyan kuchlarning global tarmoqning axborotlarni sifatli va tez uzatish hamda tarqatish auditoriyasining eng faol va eng ko‘p qismi – tafakkuri, dunyoqarashi puxta shakllanib ulgurmagan yoshlar beriluvchan bo‘ladi.

Zamonaviy yoshlar Internetga ma’lumot olishning asosiy manbai va kommunikatsiyaning bosh vositasi deb qaraydilar. Ular on-layn tizimiga asosan yangiliklarni izlash, do‘stlar bilan muloqot qilish, musiqa yozib olish uchun kiradilar. She yerda yoshlarga Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali qanday ma’naviy va ruhiy ozuqa berayapmiz?-degan haqli savol tug‘ilishi tabiiydir. Afsuski, hech birimiz bunga ijobiy javob bera olmaymiz. Yoshlarda yot g‘oyalarga nisbatan ma’naviy immunitet shakllanmas ekan, “Bu – yaxshi, bu – yomon” degan qat’iy fikr paydo bo‘lmas ekan, mafkuraviy xatarlarga qarshi turish qiyin bo‘ladi. [2].

IDC tahlilchilarining ta’kidlashlaricha, yosh amerikaliklar Rossiya va Braziliyaliklardan farqli ravishda Internetga odatdagi hol deb qaraydilar. O‘zbekiston yoshlari ham dunyodagi tengdoshlari kabi asosan yangiliklarni o‘qish, kurs ishlari va referatlar uchun materiallar qidirish, do‘stlar bilan muloqot qilish, yangi do‘stlar orttirish va axborot olish maqsadida Internetdan foydalanadilar. Ammo virtual makondan yog‘ilayotgan axborot oqimi shunchalik ko‘pki, uning qaysi biri foydali, to‘g‘ri va qaysi biri g‘arazli ekanligini ajratib olishga har bir yigit-qiz ham qodir emas.Internetda jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti, shaxsning, ayniqsa hali ongi shakllanib ulgurmagan yosh bo‘g‘inlarning dunyoqarashiga, g‘oyaviy tarbiyasiga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi manbalar oz emas. Chunki axborot oqimi tezlashgani va axborotlar girdobida yashash kabi murakkab, ziddiyatli vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyoqarashining keskin o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda [3].

Nima sababdan biz ma’naviy qiyofaning shakllanishida ibratning o‘rnini ko‘rsatish xususidagi mulohazalarimizni hozirgi zamon axborot kommunikasion texnologiyalarining ta’siridan boshladik? Ushbu jarayonga sabab bo‘layotgan axborot texnologiyalari tizimidagi miqdoriy o‘zgarishlar ham fikrimizni tasdiqlaydi. Masalan, 2020 yilning fevral oyigacha bo‘lgan ma’lumotlarga ko‘ra foydalanuvchilarning soni bo‘yicha Facebook ijtimoiy tarmog‘i yetakchilik qilmoqda. Bugungi kunda tarmoqdan 2,5 milliard insonlar ro‘yxatdan o‘tgan hamda foydalanuvchilar soni bir yilda 8 foizga o‘sgan. Ijtimoiy tarmoqning daromadi ham shunga yarasha bo‘lib 2019 yilda 70,697 milliard AQSH dollarini tashkil etgan va 2018 yilga nisbatan 27 foizga ko‘paygan. Reklamadan tushgan mablag‘ 69,655 milliard dollarni tashkil etgan. Undan keyingi o‘rinlarda Twitter bo‘lib, unda 336 milliondan ortiq foydalanuvchi bo‘lib, ular har kuni 500 million tvit e’lon qiladilar. MySpace (255 million foydalanuvchi), Odnoklassniki (205 milliondan ortiq foydalanuvchi), Windows Live Spaces (120 million foydalanuvchi) ijtimoiy tarmoqlarni keltirish mumkin [4].

Bizning sharqona axloq-odobimiz, milliy mentalitetimizga yot ana shunday salbiy illatlardan saqlanishimizda ibrat tarbiyasi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidi bilan aytganda, «... bizning qadimiy va sahovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb sahovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi» [5].

Natijalar va muhokama

Bugungi ba’zi yoshlar mentalitetida uchrab turadigan milliy qadriyat, urf-odatlarga bepisanlik va demokratik o‘zgarishlarga nisbatan befarqligidan hayratga tushamiz. Ular maqsadlari unchalik aniq bo‘lmagan, biron-bir kasb yoki hunar, ilmni o‘rganish maqsadidan yiroq toifadagi yoshlardir. Bunday yoshlar nafakat jahonda balki mamlakatda bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniq idrok etmaydilar. Ularda jamiyat va xalq taqdiriga befarqlik bilan qarash kayfiyati sezilib turadi. Befarq bo‘lish ularning ongiga singib, milliy mentalitetda mavjud me’yorlardan tobora uzoqlashish holatlarini kuzatish mumkin.

Albatta, bunday yoshlar ozchilikni tashkil etadi. Ammo mazkur muammo sabablarini o‘rganadigan bo‘lsak, uning ildizlari yoshlarning bevosita oilaviy tarbiyasiga, jamiyatda yangicha qarashlarni ongiga singdira olmaydigan, ruhiyatida stereotiplar mavjud shaxslarning ularga ta’sir qilishi va boshqa omillarga borib taqaladi. Buning natijasi o‘laroq, bunday yoshlarda boqimandalik kayfiyati, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga befarqlik kabi illatlar kuzatiladi. Demak, bugun yoshlarning nimani ko‘rib, nimani tinglayotgani birinchi navbatda u voyaga yetayotgan oila, shu bilan bir qatorda ta’lim muassasalari e’tiboridan ham chetda qolishi kerak emas [6]. Ta’kidlash joizki, mazkur jarayon milliy mentalitetimiz bilan uzviy bog‘liq. Muammoning yechimini ham o‘z ruhiyatimizdan, xattiharakatimiz va kundalik turmushimizdagi odatiy bo‘lib qolgan streotiplar hamda fikrlash tarzimizdan izlashimiz kerak.

Bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimida, ayniqsa, yurt rahbariyati tomonidan jamiyat taraqqiyotida ro‘y berayotgan paradigmal o‘zgarishlar chuqur anglab yetilmoqda va ularga mos ravishda islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, jamiyatning eng faol va hal qiluvchi qatlami bo‘lgan yoshlarni yangi ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy sharoitlarga moslashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Chunki global o‘zgarishlar davrida yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkur tarzi va faollik modeli jamiyatning kelajak qiyofasini belgilab beradi.

Haqiqat shuki, zamon o‘zgargan bir paytda eski yondashuv va an’anaviy metodlar bilan yangi muammolarni hal etish qiyin. Ilgarigi tajriba muayyan darajada ahamiyatli bo‘lsa-da, bugungi shiddatli taraqqiyot sharoitida u yetarli samara bermasligi mumkin. Shuning uchun davlat siyosatida innovasion yondashuvlar, zamonaviy boshqaruv mexanizmlari va ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa yoshlarning raqobatbardoshligi, intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda milliy mentalitetda ham muayyan paradigmal o‘zgarishlar kechmoqda. An’anaviy qadriyatlar saqlanib qolgan holda, ularning zamonaviy mazmun bilan boyitilishi talab etilmoqda. Bu jarayonda innovatsiya nafaqat texnologiya sohasida, balki tafakkur va ma’naviyat sohasida ham namoyon bo‘lishi lozim. Ya’ni, yoshlar ongida yangicha fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois milliy mentalitetdagi paradigmalar o‘zgarishi sharoitida bu jarayonga ham innovatsiyalarni olib kirishni zamon talab qilmoqda. Tabiiyki, har bir yosh o‘z fuqarolik pozisiyasini aniqlashga, ijtimoiy qiyofasini shakllantirib, mukammallashtirishga intilmog‘i darkor. Bu esa eng avval o‘zida befarqlik va boqimandalikni yo‘q etishdan boshlanadi [7].

Xulosa.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, global axborot tarmoqlari yoshlar ma’naviyatiga kuchli ta’sir o‘tkazuvchi omildir. Uning ijobiy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash, oila hamda ta’lim tizimining tarbiyaviy mas’uliyatini kuchaytirish orqali raqamli makonni ma’naviy taraqqiyot vositasiga aylantirish mumkin. Ana shunda globallashuv jarayoni yosh avlodning barkamol va ongli shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, global axborot muhiti sharoitida yoshlarda axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash va ma’naviy immunitetni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda oila, ta’lim muassasalari va jamiyat institutlarining hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda raqamli savodxonlikni rivojlantirish, mediama’rifat dasturlarini joriy etish va axborot xavfsizligini ta’minlash yoshlar ma’naviyatini muhofaza qilishning muhim shartidir. Demak, global axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan samarali va ongli foydalanish yoshlar ma’naviy barkamolligini ta’minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир / «Халқ сўзи» 2017 йил 1 июль.

2. Ш.М.Мирзиёев. 2020 йил ёшларга оид давлат сиёсатида туб бурилиш йили бўлади. 2019 йил 27 декабрь. Ўзбекистон Республикаси Президенти расмий веб-сайти. https://president.uz/uz/lists/view/3178

3. Б.Умаров, М.Ахмедова. Очиқ ахборот тизимларида ахборотпсихологик хавфсизлик. Тошкент. —Chashma print, 2013.7-б

4.http://xs.uz/uzkr/post/facebook-fojdalanuvchilari-soni-25-milliardga-etdi

5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж.1. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.295-б

6. Убайдуллаев Б. Ўзбекистоннинг бугунги ёшлари: ижтимоий қиёфага чизгилар // Фуқаролик жамияти. – Тошкент, 2004. – №1. 7.https://cyberleninka.ru/article/n/globallashgan-ahborot-sharoitida uvchiyoshlarning g‘oyaviy mafkuraviy-immunitetini-ommaviy-ahborot-vositalariasosida-shakllantirish.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Kistaubayev Savlabek Usmanovich.
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Email: kistaubayec@gmail.com

ATROF-MUHITDAGI GLOBAL JARAYONLARNING INSON MA’NAVIYATIGA TA’SIRI VA UNING OLDINI OLISH

Annotatsiya: *Maqolada global ekologik jarayonlarning shaxs dunyoqarashiga salbiy ta’sirining oldini olishda milliy ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligi masalasi bo‘yicha mulohaza yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Globallashuv, global ong, global tarmoq,ekologiya,ekologik voqelik, ekologik muammo, ekologik dunyoqarash, ekogologik madaniyat, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, yangicha fikrlash va boshqalar.*

Кистаубаев Савлабек Усманович
доцент Джизакского государственного педагогического университета
доктор философии (PhD) по философским наукам

ВЛИЯНИЕ ГЛОБАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЕ НА ДУХОВНОСТЬ ЧЕЛОВЕКА И МЕРЫ ПО ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЮ

Аннотация: *В статье рассматривается вопрос о приоритете национальных моральных ценностей в предотвращении негативного воздействия глобальных экологических процессов на мировоззрение человека.*

Ключевые слова*: Глобализация, глобальное сознание, глобальная сеть, экология, экологическая реальность, экологическая проблема, экологическое мировоззрение, экологическая культура, духовно-нравственные ценности, новое мышление и др.*

Kistaubayev Savlabek Usmanovich
Associate Professor of Jizzakh State Pedagogical University
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

THE INFLUENCE OF GLOBAL ENVIRONMENTAL PROCESSES ON HUMAN SPIRITUALITY AND MEASURES FOR THEIR PREVENTION

Abstract: *This article examines the priority of national moral values in preventing the negative impact of global environmental processes on human worldviews.*

Keywords: *Globalization, global consciousness, global network, ecology, environmental reality, environmental problem, environmental worldview, environmental culture, spiritual and moral values, new thinking, etc.*

Kirish.

Globallashuvning mohiyati va kelib chiqish omillari haqida bildirilgan nazariy fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, bu jarayon avvalo ob’yektiv xususiyatga ega bo‘lgan tarixiy tendensiyadir. U muayyan shaxs, jamiyat yoki davlatning ixtiyoriga bog‘liq holda emas, balki zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotining ichki mantig‘i asosida shakllanmoqda. Ilmiy-texnika yutuqlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji, xalqaro iqtisodiy hamkorlik va raqobat muhitining kengayishi globallashuvni tabiiy-tarixiy zaruratga aylantirdi. Bu jarayon shaxs tafakkuriga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Insonning ijtimoiy va tabiiy reallikka munosabati kengayib, u o‘zini faqat mahalliy muhit doirasida emas, balki umumjahon makonida anglay boshlamoqda. Natijada estetik ongda universal qadriyatlar ustuvorligi kuchaysa, ekologik dunyoqarashda global mas’uliyat hissi shakllanmoqda. Chunki atrof-muhit muammolari endi alohida hudud emas, balki butun insoniyat taqdiri bilan bog‘liq ekani anglanmoqda.

Shu ma'noda, globallashuvni faqat iqtisodiy yoki siyosiy hodisa sifatida emas, balki inson ongi va dunyoqarashini yangilayotgan murakkab sivilizasion jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.Ayni paytda u ko'p qirrali va ziddiyatli hodisadir. Unda ijtimoiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi ulkan beqiyos kuch bilan birga, ommmaviy madaniyat niqobidagi ba'zi bir noxush hodisalarning yuzaga kelishi xavfi hamda xalqning rang-barang, boy ma'naviy hayotining birxillashuvi, milliy ayniyatni his qilish tuyg'usining o'tmaslashuvi, insoniy loqaydlik, hayot tarzi mazmuniga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy hodisalar, tabiiy-ekologik o'zgarishlarga bepisandlik hamda mas'uliyatsizlik bilan qarashga moyillikni avj olishiga asos bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Globallashuvning tadqiq etish dinamikasi faqat muammoni umumiy jihatlarini emas, balki atrofimizdagi tabiiy muhit hodisasi ekologiya kabi aniq tushunchalarni ob'yektiv, dialektik tarzda voqelikdagi hodisalar bilan uyg'un rivojlanishini o'rganadigan fan tarmog'i - globalistikani shakllanishiga ham asos bo'lgan deb aytish mumkin. "Globallashuvning salbiy oqibatlari, -deb yozadi, faylasuf olim A.Erkayev, - ayniqsa "ommaviy madaniyat" niqobidagi aksil madaniyat va turli xil zararli va noob'yektiv axborot xurujining salbiy oqibatlarini yumshatish, ta'sirini minimallashtirish uchun aholining, ayniqsa yoshlarning ahloqiy, estetik, huquqiy madaniyatini yuksaltirish lozim" [1.,362-363 b]. Yosh avlodni sog'lom tafakkur egasi qilib tarbiyalash, o'zi yashayotgan zamin, atrofmuhit musaffoligiga alohida mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashda jahon mumtoz madaniyati va milliy ma'naviy qadriyatlarning o'rni katta ekanligini ular ruhiyatiga singdirib borish zarur. Dunyo miqyosida m'naviy-ahloqiy qadriyatlarning qadrsizlanishi, madaniy xilma-xillikni tobora kamayib borayotgani shak-shubhasiz, davrimizning eng dolzarb muammolaridan biridir. [2.,20 b].. Shunday bo'lsa - da madaniy sohada globallashuv jarayonlarining kechishi bu jarayonlarning inson tafakkuri va ma'naviy dunyoqarashiga ta'siri masalasi dunyodagi, xususan mamlakatimizdagi olimlar tomonidan ham, bizningcha, yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa global jarayonlarning shaxs ekologik dunyoqarashiga salbiy ta'sirini bartaraf etishda milliy qadriyatlarning o'rni masalasi xususida aniq bir izlanishlar hali xanuz ko'zga tashlanganicha yo'q. Ana shunga ko'ra biz tadqiqotimizda aynan shu masalani mazmun- mohiyatiini yoritishga harakat qildik. Buning yana bir boisi - globallashuv va xalqlar madaniyatining jadal sur'atlarda o'zaro yaqinlashuv jarayoni sodir bo'layotganligidadir.

"Globalizm sharoitida, - deb yozadi rus tadqiqotchisi V.Mixeyev, - bu dunyo mamlakatlari va mintaqalarining o'zaro iqtisodiy, siyosiy bog'liqligi mislsiz rivojlanadi va dunyoda yagona huquqiy maydon, iqtisodiy va siyosiy boshqaruv masalasini kun tartibiga qo'yish mumkin bo'lib qoladi" [3.,s49].Xuddi ana shunday sharoitda ekologik muammolarni eng maqbul yechimini topishga ehtiyoj har qachongidan ham ortadi va ekologik dunyoqarashni real imkoniyatlariga tayanish zaruriyati yuzaga keladi. Binobarin,globallashuvning ekologik muammmolarini to'g'ri xal qilish uchun kishilar o'zi bilan tabiat orasidagi munosabatlar va ular qonuniyatlarini yaxshi bilmog'i, hamda iqtisodiy, falsafiy, texnik, estetik, pedagogik va huquqiy yo'nalishlarini tizimli ravishda o'zlashtirishi lozim. Demak, ekologik muammolarni hal etishda har tomonlama faoliyat ko'rsatish, jumladan yoshlar o'rtasida ekologik huquqiy ta'lim va tarbiyani zamon talablari darajasiga ko'tarish, ularda ekologik dunyoqarashni boyitishda qo'lkeladigan milliy qadriyatlardan foydalanish zarur.Ayniqsa dunyo miqyosida global hodisalarning ta'siri kuchayib borayotgan bir sharoitda bu juda muhimdir. Zero, globalizm – insoniyat tarixiy rivojlanish tamaddudining zaruriy natijasi bo'lib, ilmiy-texnikaviy inqiloblar fan rivojlanishidagi buyuk burilishlar natijasi o'laroq yuzaga kelgan sivilizatsiyalararo muloqot, planetar hodisalar mushtarakligi asosida dunyo xalqlari dunyoqarashi, ma'naviyati, kayfiyati va intilishlariga jadal ta'sir etuvchi axborot kommunikatsiyalari, mafkuraviy ta'sirlarning umumiy aloqadorlik hodisasidir. Har qanday ob'yektni falsafiy tadqiq etish, shu jumladan globallashuv jarayonlarini o'rganish ham o'ziga xos murakkablikka ega bo'lgan ob'yektni o'zi bilan bog'liq yangi va yangi kategoriyali tushunchalar mohiyatini ochib berishni ham talab etadi. Qolaversa, shaxs ekologik dunyoqarashiga ijobiy yoki salbiy ma'noda ta'sir etish mumkin bo'lgan global hodisalar mohiyatini ana shu fan tarmog'ini nazariy konseptual va amaliy asoslarisiz tahlil etib bo'lmaydi. Bugungi kunda "globalistika"ning global muammolari qamroviga kirgan iqtisodiyot, siyosat, kommunikatsiya, madaniyat, ekologiya, til va hokazolar bilan bog'liq yangi ilmiy yo'nalishlar shakllanmoqda [4., 97]. Ayni paytda globalistika tushunchasini o'ziga turlicha yondashuvlar mavjud. Ijtimoiy hayotning globallashuvi, o'z o'rnida uning talablariga mos tushadigan dunyoqarashni shakllantirishni ham talab etadi. Globallashuv xususiyatlari, istiqboldagi o'zgarishlarni, turli sivilizatsiyalar to'qnashuvini hisobga olgan holda tarkib topadigan va global ong ta'sirida mazmunan boyib boradi. Ushbu ong orqali global jarayonlar ta'siri hamda oqibatlari tanqidiy baholanadi va undagi pozitiv jarayonlar ustuvorligini ta'minlash va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qildirish mexanizmining takomillashuviga o'z ta'sirini o'tkazadi. Global ong, hozirgi zamon jamiyati madaniyatini ajralmas tarkibiy qismi sifatida global hodisalar, xususan ekologik jarayonlarga optimistik ruh bilan yondashishga rag'bat beradi. Bugungi kunda shaxsning ekologik dunyoqarashiga ta'sir etuvchi "globalistika", "global ong" kabi kategorial tushunchalar bilan bir qatorda ijtimoiy ongni tashkil etuvchi yana bir asosi, o'ziga xos yangi fvlsafiy tushuncha "qadriyatli ong"ni tadqiq etishga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Uning asosiy funksiyasi – narsa va hodisalarni sub'yekt uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyat sifatida baholashdir. Bugungi kunda "qadriyatli ong" ni takomillashtirish masalasi jiddiy global muammolardan hisoblanadi. Ana shundan kelib chiqib salbiy ko'rinishlarni bartaraf etishda ustuvorlik qiladigan qadriyatli ongga nisbatan kuch bilan ta'sir

o‘tkazish qadriyatli ong tizimida negativ unsurlar yuzaga kelishining oldini olish g‘oyat muhimdir. “Umuman, globalizatsiyani, - deb yozadi I. Bestujiyev, – qadriyatli ongga ta’siri ikki yoqlama ko‘rinishga ega, uning birinchisi qadriyatli ong tizimidagi va uning manbasidagi o‘zgarishlar asosida rekonstruksiya qilinishi sifatida, ikkinchisi yangi qo‘shimcha modernizatsiyalashgan qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi”. [5., 47]. Shunga ko‘ra globallashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi va unga muvofiq qadriyatli ongni tarkib topishi yuzaga keladi. Global ong doirasida insonparvarlik kontekstida inson boshqa madaniyatlarga madaniyatlararo muloqoti asosida yondashuvi, uning tabiatga, tarixga, umuman jamiyatga, insonlararo, millatlararo va madaniyatlararo munosabatining shakllanishi hamda takomillashib borish jarayoni anglanadi. Global ongning eng katta muammosi, globallashayotgan dunyoda inson muammosi, uning maqsad-muddaolari bilan bog‘liq masalalarning eng maqbul yechimini topish va unda insonning o‘zi belgilovchi qadriyat sifatida qaralishi bilan bog‘liq. Inson qadriyati esa tabiat va jamiyatdan ajralgan holda shakllanmaydi. Inson biosotsial jihatdan to‘laqonli hayotiy faoliyat ko‘rsatishi uchun nafaqat sof ijtimoiy muhitga, balki maxsus tabiiy muhitga ham muhtojlik sezadi. Bu moddiy va ma’naviy ehtiyojlar bilan birga jamiyatdagi real ob’yektiv ekologik ehtiyojlar ham mavjudligini ko‘rsatadi. Fundamental soflik zamirida jamiyatdagi insonlarning havo, suv va yerning sofligiga bo‘lgan ehtiyoji yotadi. Demak, tabiatni asrash, uning istiqbolini belgilash masalalari jamiyat nuqtai nazaridan hal qilinishi doimo dolzarb bo‘lib kelgan Sharq falsafasida kishilik jamiyati tarixida uchraydigan va uning sivilizatsiyasiga asos bo‘lgan 4 unsur, ya’ni, yer, suv, havo va quyosh (olov) tushunchalari bilan bog‘liq madaniyati dunyo madaniyati uchun namuna bo‘ldi. Bu jarayon boshqa xalqlar madaniyatida ekologik dunyoqarashni boyitish orqali ekologik madaniyatni paydo bo‘lishiga olib keldi.

Natijalar va muhokama

Bugungi kunda global ekologik o‘zgarishlar ana shu madaniyat va dunyoqarashga nafaqat ijobiy, balki o‘ta salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Shunga ko‘ra bugungi dunyo sivilizatsiyasi yutuqlaridan foydalanishni xalqimizning boy ma’naviy qadriyatlari asosida yo‘lga qo‘yish shaxsda ekologik dunyoqarashni boyitishning mustahkam asosi bo‘lib xizmat qiladi. Biz o‘rganayotgan mavzu doirasida muammoga ilmiy yondashuv tarixiylik va mantiqiylik, ma’naviy merosga munosabat tamoyiliga asoslanganligi uchun, shaxs ekologik ongi va dunyoqarashini shakllantirishga jahon xalqlari ekologik madaniy an’analaridagi umuminsoniylik va milliylik dialektikasining namoyon bo‘lishi tarzida qaralishi kerak. Bunda ekologik dunyoqarash va madaniy-ma’rifiy qadriyatlar taraqqiyotning umuminsoniy va etnik omillari, hozirgi zamon informasion texnologiyalar nazariyasiga asosan to‘g‘ri va qayta bog‘lanish tamoyiliga ko‘ra ta’sir va aks ta’sir munosabatlarida bo‘ladi. Aynan mana shu munosabatlardagi uzilishlar, cheklanishlar shaxs ekologik dunyoqarashi takomiliga salbiy ta’sir etuvchi omillarni yuzaga keltiradi.

Xususan, ajdodlarimizning har bir inson umumbashariyatni bir bo‘lagi, tabiat va jamiyat aloqadorligini ta’minlovchi muhim bo‘g‘in ekanligi, tabiatni inson hayotiy faoliyatining asosi ekanligi haqidagi tasavvur va tushunchalar global ta’sirlar tufayli o‘zgarib ketayotganligi, tabiatga nopisand va befarq munosabatda bo‘lish tendensiyasi, ayniqsa yoshlar hayoti hamda faoliyatida ko‘zga tashlanayotganligi yuqoridagi fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Bunday sharoitda tarixiy tajribani va milliy ma’naviy qadriyatlarimizdagi insonni tabiatga mehr va ixlosmandlikka undaydigan g‘oyalarni ijtimoiy amaliyotga, ta’lim-tarbiyaga uzlyuksiz singdirib borish, undan saboq olish va hozirgi zamon ekologik voqeligini ob’yektiv baholash, milliy tafakkurni mavhum aqidaparastlikning turli ko‘rinishlaridan tozalab, mustaqil fikr yuritish va ro‘y berayotgan hodisalarga nisbatan shaxsiy munosabatni talab etmoqda. Ammo, taassuflar bo‘lsinkim, global ta’sirlarning ildizlari nafaqat zamonamiz voqeligida, balki yaqin o‘tmishimizga ham borib taqalayotganligi muammoning yechimini yanada chigallashtirayotganligi ham isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Binobarin, inson o‘zini anglamay turib, tabiiy va ijtimoiy qadriyatlarga hurmat bilan qaray olmaydi. Modomiki, hayot va harakat ziddiyatlar to‘qnashuvidan iborat ekan, jamiyatda ham, tabiatda ham bunday kurashlarga duch kelishimiz muqarrar. Zero insonning jamiyatdagi faoliyati va tabiatga munosabati faqat ezgulik tamoyillariga yo‘g‘irilgan emas. Uning faoliyat ko‘lamida yaxshi amallar bilan bir qatorda tabiat, inson va jamiyatga salbiy ta’sir etuvchi qarashlar, g‘oyalar, hatti-harakat ham mavjud. Buyuk mutafakkir Immonuyel Kant bu prinsipni quyidagicha izohlaydi. “Agar barcha odamlar ezgulikni maqsad qilib olganlarida, ular uchun burchning keragi bo‘lmas edi, chunki hech kim yovuzlik tomon qadam bosmas edi”. Demak tabiat va jamiyatdagi qarama-qarshi kuch va yondashuvlarni mavjud bo‘lishining o‘zi kishiga o‘z burchi va mas’uliyatini eslatib turadi. Shunga ko‘ra insonni tabiatni asrashi, unga oqilona munosabatda bo‘lishida ham ana shu burch va mas’uliyat uyg‘unligini takomillashtirish zaruriyati namoyon bo‘ladi.

Xulosa.

Umumiy qilib aytganda, inson va tabiat o‘rtasidagi tabiiy uyg‘unlikning izdan chiqishi, ayniqsa, sobiq ittifoq davrida ilgari surilgan “tabiatni inson izmiga bo‘ysundirish” g‘oyasi bilan bevosita bog‘liq edi. Mazkur mafkuraviy yondashuv keng targ‘ibot va tashviqot orqali jamiyat ongiga singdirildi. Natijada tabiatga munosabat iste’molchilik ruhida shakllanib, uni muhofaza qilish emas, balki undan cheklanmagan darajada foydalanish ustuvor deb qaraldi. Bu holat shaxsning ekologik ongi va dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatning susayishiga olib keldi.

Bugungi kunda bunday noxush oqibatlarni bartaraf etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Inson va tabiat uyg‘unligini tiklash faqat huquqiy yoki texnik choralar bilangina emas, balki milliy-ma’naviy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshirilganda samarali bo‘ladi. Chunki xalqimizning an’anaviy qarashlarida tabiatga ehtirom, uni avaylab-asrash g‘oyalari muhim o‘rin tutadi. Shu bois, milliy meros va ma’naviy qadriyatlardan oqilona foydalanish global va mintaqaviy ekologik muammolar yechimini topishda, shuningdek, shaxsda barqaror va mas’uliyatli ekologik dunyoqarashni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эркаев А. Маънавият ва тараққиёт. Т.: Маънавият, 2009 – Б. 362-363.
2. Орипов Ш. Глобаллашув, миллий қадриятлар ва ёшлар //Фуқаролик жамияти. №1, (13) 2008. –Б. 20.
3. Михеев В. Логика глобализации и интересы. России Pro et. Contro том. №4. Осень, 1999 С-49
4. Юлдашева Ф.К. Проблемы глобальности и глобальное сознание. //Философия и права. №3. 2008, С-97

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Muxtorova Tutixon
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti
Email: t.mukhtorova@mail.ru

UDK 316.346.2:1

GENDER TENGLIGI FENOMENINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada gender tengligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy asoslari hamda uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda gender tengligi masalasi inson huquqlari, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada tarixiy-falsafiy qarashlar, zamonaviy ijtimoiy jarayonlar hamda davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida gender tengligining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, gender tengligi jamiyatning ma’naviy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri ekanligi ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *gender tengligi, ijtimoiy falsafa, ijtimoiy adolat, inson huquqlari, jamiyat taraqqiyoti, ayollar huquqlari, ijtimoiy modernizatsiya, madaniy transformatsiya.*

Мухторова Тутихон
доцент Ташкентский государственный технический университет

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФЕНОМЕНА ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация*: В данной статье анализируются социально-философские основы феномена гендерного равенства и его роль в развитии современного общества. В исследовании гендерное равенство рассматривается как социальное явление, тесно связанное с принципами прав человека, социальной справедливости и устойчивого развития. На основе историко-философских взглядов, современных социальных процессов и реформ, реализуемых в рамках государственной политики, проводится глубокий анализ процессов формирования и развития гендерного равенства. Также научно обосновывается, что гендерное равенство является одним из важных факторов духовного, экономического и культурного развития общества.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, социальная философия, социальная справедливость, права человека, развитие общества, права женщин, социальная модернизация, культурная трансформация.*

Mukhtarova Tutikhon
Associate Professor of Tashkent State Technical University

SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE PHENOMENON OF GENDER EQUALITY AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF MODERN SOCIETY

Abstract*: This article analyzes the socio-philosophical foundations of the phenomenon of gender equality and its role in the development of modern society. The study considers gender equality as a social phenomenon closely related to the principles of human rights, social justice, and sustainable development. Based on historical-philosophical perspectives, contemporary social processes, and reforms implemented within the framework of state policy, the article provides an in-depth analysis of the formation and development of gender equality. It also substantiates that gender equality is one of the key factors influencing the spiritual, economic, and cultural development of society.*

Keywords: *gender equality, social philosophy, social justice, human rights, societal development, women’s rights, social modernization, cultural transformation.*

Kirish

Jamiyat taraqqiyoti inson huquqlari, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyillarining amalga oshirilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu tamoyillar orasida gender tengligi alohida o‘rin tutadi. Gender tengligi – bu erkaklar va

ayollarning jamiyatning barcha sohalarida teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishini anglatadi. Mazkur masala nafaqat ijtimoiy siyosat yoki huquqiy munosabatlar doirasida, balki falsafiy tafakkur tarixida ham muhim muammolardan biri sifatida qaralgan. Tarixiy rivojlanish jarayoniga nazar tashlansa, ko‘plab jamiyatlarda ayollarning ijtimoiy mavqei turli davrlarda turlicha bo‘lganini ko‘rish mumkin. Ayrim davrlarda ayollar jamiyat hayotining faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, boshqa davrlarda ularning ijtimoiy imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli gender tengligi masalasi insoniyat tafakkurida uzoq vaqt davomida muhokama qilib kelinayotgan muhim falsafiy muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlarda gender tengligi jamiyatning barqaror rivojlanishining muhim sharti sifatida talqin qilinadi. Chunki jamiyatning yarmi bo‘lgan ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi ishtiroki kengayishi umumiy taraqqiyot jarayonlarini tezlashtiradi[1]. Shu jihatdan gender tengligi nafaqat inson huquqlarining muhim tamoyili, balki jamiyatning intellektual va madaniy salohiyatini rivojlantirish omili sifatida ham qaraladi.Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi gender tengligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy asoslarini tahlil qilish hamda uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iboratdir.

Gender tengligi jamiyat taraqqiyotiga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadigan murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Gender tengligining ta’minlanishi nafaqat ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytiradi, balki jamiyatning umumiy intellektual, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlariga ham bevosita ta’sir qiladi[2]. Mazkur jarayonni tahlil qilish natijasida gender tengligi jamiyat taraqqiyotiga bir necha asosiy yo‘nalishlar orqali ta’sir ko‘rsatishi aniqlanadi.

Avvalo, gender tengligi jamiyatda inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Inson kapitali nazariyasiga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti insonning bilim darajasi, malakasi va ijodiy salohiyati bilan chambarchas bog‘liq. Agar jamiyatda ayollar va erkaklar teng imkoniyatlarga ega bo‘lsa, ijtimoiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan intellektual resurslar yanada kengayadi. Boshqacha aytganda, jamiyatning yarmini tashkil etuvchi ayollarning ta’lim va ilmiy faoliyatdan chetda qolishi umumiy rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi[3]. Aksincha, ayollarning ta’lim tizimi va ilmiy faoliyatdagi ishtiroki kengaygan sari jamiyatning intellektual salohiyati ham ortib boradi.

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Eng avvalo, tarixiy-falsafiy metod orqali gender tengligi g‘oyasining shakllanish jarayonlari tahlil qilindi. Ushbu metod turli tarixiy davrlarda ayollarning jamiyatdagi mavqei qanday o‘zgarganini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tahlil metodidan foydalanib, gender tengligining zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy jarayonlarga ta’siri o‘rganildi. Mazkur metod orqali gender tengligining iqtisodiy rivojlanish, ta’lim tizimi va ijtimoiy barqarorlik bilan bog‘liqligi tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi yordamida turli mamlakatlarda gender tengligi masalasiga bo‘lgan yondashuvlar solishtirildi. Bu esa gender tengligining global ijtimoiy jarayon sifatida shakllanish mexanizmlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam berdi.

Natijalar va muhokama

Hayotiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda ayollarning ilm-fan va ta’lim sohasidagi faol ishtiroki innovatsion taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Masalan, zamonaviy ilm-fan tarixida ko‘plab ayol olimlar muhim ilmiy kashfiyotlar qilgan. Kimyo va fizika sohasida faoliyat yuritgan Mariya Kyuri yoki biologiya va tibbiyot sohasidagi ayol tadqiqotchilar bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bugungi kunda ham ko‘plab davlatlarda ayollar texnologiya, muhandislik va ilmiy tadqiqot sohalarida faol ishtirok etmoqda. Bu esa gender tengligi jamiyatning innovatsion rivojlanishiga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi[4].

Gender tengligi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanishi fuqarolarning teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar jamiyatda ma’lum bir ijtimoiy guruhlarning imkoniyatlari cheklansa yoki ularning huquqlari yetarli darajada ta’minlanmasa, bu ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan gender tengligi jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarining qaror topishiga xizmat qiladi.

Ayollarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi faolligi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda fuqarolik jamiyati institutlari yanada samarali faoliyat yuritadi. Masalan, ayollarning parlament, mahalliy boshqaruv organlari yoki jamoat tashkilotlaridagi ishtiroki ortgan sari jamiyatda ijtimoiy muammolarni hal qilish jarayonlari ham yanada samaraliroq bo‘ladi[5]. Chunki ayollar ijtimoiy muammolarga ko‘pincha ijtimoiy adolat, hamkorlik va barqarorlik nuqtai nazaridan yondashadi. Gender tengligining yana bir muhim jihati uning iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog‘liqligidir. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarga ko‘ra, iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri bu inson resurslaridan samarali foydalanishdir. Agar ayollar iqtisodiy faoliyatdan chetda qolsa yoki ularning imkoniyatlari cheklansa, jamiyat iqtisodiy salohiyatining muhim qismi foydalanilmay qoladi. Aksincha, ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki kengaygan sari ishlab chiqarish samaradorligi ham ortadi. Buni ko‘plab davlatlarning iqtisodiy tajribasi ham tasdiqlaydi. Masalan, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ayollarning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Ayol tadbirkorlar tomonidan tashkil etilgan kichik va o‘rta biznes korxonalari yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ayollarning iqtisodiy mustaqilligi ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini ham

mustahkamlaydi. Gender tengligi jamiyatning madaniy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Madaniyat insoniyatning tarixiy tajribasi, ma’naviy qadriyatlari va ijtimoiy an’analarini o‘zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Madaniy rivojlanish jarayonida ayollarning faol ishtiroki jamiyatning ma’naviy salohiyatini boyitadi. Tarixda ko‘plab ayol shoiralar, yozuvchilar, rassomlar va olimlar jamiyat madaniyatining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan.

Masalan, Sharq adabiyoti tarixida Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin kabi ayol ijodkorlarning faoliyati nafaqat adabiyot, balki jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Zamonaviy davrda ham ayollar san’at, ilm-fan va madaniyat sohalarida faol ishtirok etib, jamiyatning ma’naviy boyligiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Shu bilan birga, ayollarning madaniy va ma’rifiy faoliyati kelajak avlodning tarbiyasida ham muhim rol o‘ynaydi. Ta’limli va madaniyatli ayollar o‘z farzandlarini ham bilimli, ijtimoiy mas’uliyatli va ma’naviy yetuk qilib tarbiyalashga harakat qiladi. Bu esa jamiyatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari gender tengligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Gender tengligi inson kapitalining rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va madaniy taraqqiyot jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning ta’minlanishi zamonaviy jamiyat rivojining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Gender tengligi masalasi falsafiy nuqtai nazardan inson erkinligi va ijtimoiy adolat muammolari bilan uzviy bog‘liqdir. Falsafa tarixida ko‘plab mutafakkirlar insonning jamiyatdagi o‘rni, uning erkinligi va huquqlari masalalarini muhokama qilganlar. Gender tengligi g‘oyasi insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi mohiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Chunki jamiyatning barqaror rivojlanishi faqat bir jins vakillarining faoliyati bilan emas, balki erkaklar va ayollarning hamkorligi asosida amalga oshadi. Zamonaviy ijtimoiy falsafada gender tengligi jamiyatning demokratik rivojlanishining muhim mezonlaridan biri sifatida qaraladi. Agar jamiyatda ayollarning huquqlari va imkoniyatlari cheklansa, bu jamiyatning umumiy rivojlanish jarayonlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan gender tengligi nafaqat ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishi, balki jamiyatning ma’naviy va madaniy evolyutsiyasini belgilovchi muhim falsafiy tamoyil hisoblanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari gender tengligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Gender tengligi inson kapitalining rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, gender tengligi inson erkinligi va ijtimoiy adolat tamoyillarining muhim ifodalaridan biridir. Shu sababli zamonaviy jamiyatda gender tengligini ta’minlash ijtimoiy rivojlanishning muhim sharti sifatida qaralishi lozim. Kelajakda jamiyat taraqqiyotini ta’minlash uchun gender tengligi tamoyillarini ta’lim tizimida, ijtimoiy siyosatda va madaniy hayotda yanada kengroq joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Smith, J., & Taylor, L. *Feminist Film Theory: The Impact of Female Representation in Modern Movies* // Journal of Film Studies. — New York: Academic Press, 2021. — P. 45–67.
2. Xakimdjanova Zilola Gayratovna. (2024). Amir temur davlatida ayollarning o'rni. Pedagoglar , 55 (2), 87–90.
3. Yusupova N. Islomda ayol huquqlari. T.: “Akademiya” noshirlik markazi, 2006. – 140 b.
4. Zarina Rustam qizi Tojimurodova. (2023). O‘zbekiston respublikasining yangi konstitutsiyasi: gender tenglik. Tadqiqotlar.UZ, 25(2), 219–223.
5. А.Х.Саидов. Ўзбекистонда аёллар ҳуқуқлари. – Тошкент: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2010. 10 бет. (96)
6. Абдурашитова Э. Т. Социолингвистический анализ гендерного дискурса в СМИ // Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2021. — № 4(39). — С. 62-73. DOI: 10.36078/1633678058
7. Абулова М. “O ‘zbek” davlatchiligi tarixida ayollarning o ‘rni va roli //Цифровизация современного образования: проблема и решение. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 53-57.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Aripova Zulfiyaxon Solijonovna,
Andijon davlat texnika institute, Falsafa fanlar nomzodi, dotsent
Email: z.aripova@mail.ru

UDK 370.2

AYOLLAR TA'LIM DARAJASINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ayollarning ta'lim darajasi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida falsafiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayollarning bilim olish imkoniyatlari kengaygan sari jamiyatda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va madaniy rivojlanish jarayonlari tezlashishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, ayollar ta'limi inson kapitalining rivojlanishi, ijtimoiy tenglik va barqaror taraqqiyot bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada tarixiy-falsafiy qarashlar, zamonaviy ijtimoiy jarayonlar hamda ta'lim tizimining transformatsiyasi asosida ayollar ta'limining jamiyat rivojiga ta'siri chuqur tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ayollar ta'limi, gender tengligi, inson kapitali, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy falsafa, ta'lim falsafasi, madaniy rivojlanish, ijtimoiy modernizatsiya.*

Арипова Зульфияхон Солижоновна
кандидат философских наук, доцент
Андижанский государственный технический институт

РОЛЬ УРОВНЯ ОБРАЗОВАНИЯ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация*: В данной статье уровень образования женщин рассматривается как один из важных факторов общественного развития с философской, социальной и культурной точек зрения. В исследовании научно обосновывается, что по мере расширения возможностей женщин в получении образования ускоряются процессы экономического роста, социальной стабильности и культурного развития общества. Также показано, что образование женщин непосредственно связано с развитием человеческого капитала, социальной справедливостью и устойчивым развитием. В статье на основе историко-философских взглядов, современных социальных процессов и трансформации системы образования проводится глубокий анализ влияния образования женщин на развитие общества.*

Ключевые слова: *образование женщин, гендерное равенство, человеческий капитал, развитие общества, социальная философия, философия образования, культурное развитие, социальная модернизация*

Aripova Zulfiya Solijonovna
Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor
Andijan State Technical Institute

THE ROLE OF WOMEN'S EDUCATIONAL LEVEL IN SOCIETAL DEVELOPMENT: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Abstract*: This article analyzes the educational level of women as one of the key factors of societal development from philosophical, social, and cultural perspectives. The study demonstrates that expanding educational opportunities for women accelerates processes of economic growth, social stability, and cultural development in society. It also highlights that women's education is directly connected with the development of human capital, social equality, and sustainable development. Based on historical-philosophical views, contemporary social processes, and the transformation of the education system, the article provides a comprehensive analysis of the impact of women's education on societal development.*

Keywords: *women's education, gender equality, human capital, societal development, social philosophy, philosophy of education, cultural development, social modernization.*

Kirish

Jamiyat taraqqiyoti ko‘plab omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Ushbu omillar ichida ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi. Ta’lim insonning bilim darajasini oshirish bilan birga uning ijtimoiy faolligini, tafakkur doirasini va madaniy salohiyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, ayollarning ta’lim darajasi jamiyat rivojining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Chunki ayol nafaqat jamiyatning faol a’zosi, balki kelajak avlodni tarbiyalovchi shaxs sifatida ham katta mas’uliyatga ega. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, jamiyat taraqqiyoti insonning intellektual va ma’naviy salohiyatining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Bu jarayonda ayollar ta’limi muhim o‘rin egallaydi. Agar ayollar bilimli bo‘lsa, jamiyatning umumiy intellektual darajasi ham oshadi. Shu sababli ayollarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish ko‘plab mamlakatlarning strategik rivojlanish siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolligi va ularning ta’lim darajasi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud. Qadimgi jamiyatlarda ayollarning ta’lim olish imkoniyatlari cheklangan bo‘lsa, zamonaviy davrda bu masala inson huquqlari va ijtimoiy tenglik tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqilmoqda. Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ayollar ta’limining jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatadigan ta’sirini falsafiy va ijtimoiy jihatdan tahlil qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorlikning muhim omillaridan biri ayollarning ta’lim darajasi hisoblanadi. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda ayollar ta’limining oshishi nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki iqtisodiy o‘sish, madaniy taraqqiyot va demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishiga ham xizmat qilishi ta’kidlanadi. Shu sababli ayollarning bilim va malakasini oshirish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan turli jihatlardan o‘rganilgan. Mashhur iqtisodchi va faylasuf Amartya Sen o‘z tadqiqotlarida ta’limni inson erkinliklarini kengaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, ayollarning ta’lim olishi jamiyatdagi tenglikni mustahkamlaydi, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi va ijtimoiy adolatni ta’minlaydi. Sen ayollarning bilim darajasi oshishi natijasida oilalarda sog‘liqni saqlash, farzand tarbiyasi va iqtisodiy faoliyat samaradorligi ham ortishini ilmiy asoslaydi [1]. Ijtimoiy rivojlanish nazariyalarini o‘rgangan T. Parsons ham ta’limni jamiyatning muhim instituti sifatida baholab, uning shaxsni ijtimoiylashtirishdagi rolini alohida ta’kidlaydi. Parsonsga ko‘ra, ayollarning ta’lim jarayonida faol ishtiroki jamiyatda ijtimoiy rollarning muvozanatini ta’minlaydi va ijtimoiy tizimning barqarorligini mustahkamlaydi [2]. Ayollarning ta’limi va gender tengligi masalasi Simone de Beauvoirning falsafiy qarashlarida ham muhim o‘rin tutadi. U ayollar ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi uchun ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. De Beauvoirning fikricha, ta’lim ayollarni an’anaviy stereotiplardan ozod etib, ularning jamiyatdagi faol rolini kuchaytiradi [3]. Shuningdek, amerikalik faylasuf va pedagog Martha Nussbaum ayollar ta’limining inson huquqlari va demokratik jamiyat rivojidagi ahamiyatini keng tahlil qilgan. U “inson imkoniyatlari nazariyasi”da ta’limni shaxsning asosiy imkoniyatlarini rivojlantiruvchi muhim vosita sifatida ko‘rsatadi. Nussbaumga ko‘ra, ayollar bilimli bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy tenglik, adolat va barqaror taraqqiyot ta’minlanadi [4]. Markaziy Osiyo va O‘zbekiston olimlari ham ushbu masalani ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilganlar. Masalan, A. Erkaev jamiyat ma’naviy taraqqiyotida ayollarning ta’limi muhim o‘rin tutishini ta’kidlab, ularning bilimli va ma’rifatli bo‘lishi milliy qadriyatlar hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishini qayd etadi [5]. O‘zbekistonlik faylasuf Q. Nazarov ham ayollar ta’limi jamiyatning ma’naviy-madaniy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayollarning ilmiy va intellektual salohiyati oshgani sari jamiyatda ma’naviy muhit yaxshilanadi, yosh avlod tarbiyasi sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi [6]. Shuningdek, sotsiolog P. Bourdieu ta’limni ijtimoiy kapitalni shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, ayollarning ta’lim darajasi oshishi jamiyatda madaniy kapitalning kengayishiga, bilim va tajriba almashuvining rivojlanishiga olib keladi [7]. Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar ta’lim darajasining oshishi jamiyatning iqtisodiy, ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’limli ayol nafaqat o‘zining shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqaradi, balki oilaning farovonligi, yosh avlodning barkamol tarbiyasi va jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham muhim hissa qo‘shadi. Shu bois zamonaviy jamiyatlarda ayollarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Eng avvalo, tarixiy-tahliliy metod yordamida ayollar ta’limining tarixiy rivojlanish bosqichlari o‘rganildi. Ushbu metod orqali turli davrlarda ayollarning ta’lim olish imkoniyatlari qanday shakllangani va ularning jamiyat rivojiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilindi. Bundan tashqari, falsafiy tahlil metodi orqali ayollar ta’limining ijtimoiy ong, madaniyat va jamiyatning umumiy rivojlanishiga ta’siri o‘rganildi. Falsafiy yondashuv ayollar ta’limini faqat ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki insoniyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollar ta’limi jamiyat taraqqiyotiga bir necha asosiy yo‘nalishlar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, ayollarning bilim darajasi oshishi jamiyatning inson kapitali rivojlanishiga xizmat qiladi. Inson kapitali nazariyasiga ko‘ra, ta’limli insonlar iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Ayollarning ta’limli bo‘lishi esa nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun jamiyatning iqtisodiy

salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, ayollar ta’limi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’limli ayollar jamiyat hayotida faolroq ishtirok etadi, fuqarolik mas’uliyatini chuqurroq anglaydi hamda demokratik jarayonlarda faol qatnashadi. Uchinchidan, ayollarning ta’lim darajasi oshishi madaniy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Ta’limli ayollar madaniyat, san’at, ilm-fan va innovatsion faoliyat sohalarida muhim rol o‘ynaydi. Natijada jamiyatning ma’naviy va madaniy salohiyati yanada boyiydi.To‘rtinchidan, ayollar ta’limi oilaviy va demografik jarayonlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ta’limli ayollar farzand tarbiyasiga ko‘proq e’tibor qaratadi, bu esa kelajak avlodning bilimli va madaniyatli bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi. Ayollar ta’limi masalasini faqat ijtimoiy muammo sifatida emas, balki chuqur falsafiy hodisa sifatida ham ko‘rib chiqish zarur. Falsafada insonning erkinligi va imkoniyatlari masalasi muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ayollarning ta’lim olish huquqi inson erkinligining muhim ko‘rinishlaridan biridir. Ko‘plab faylasuflar jamiyat taraqqiyotini inson tafakkurining rivojlanishi bilan bog‘lagan. Agar jamiyatning yarmi bo‘lgan ayollar ta’limdan chetda qolsa, jamiyatning umumiy intellektual salohiyati ham to‘liq rivojlanmaydi. Demak, ayollar ta’limi jamiyatning umumiy bilim salohiyatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Zamonaviy ijtimoiy falsafada ayollar ta’limi gender tengligi konsepsiyasi bilan ham uzviy bog‘liq. Gender tengligi jamiyatda erkaklar va ayollarning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini anglatadi. Ta’lim esa ushbu tenglikni ta’minlashning eng muhim vositalaridan biridir. Shuningdek, ayollar ta’limi jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’limli ayollar o‘z farzandlarini ma’naviy jihatdan yetuk, mas’uliyatli va bilimli qilib tarbiyalashga harakat qiladi. Bu esa jamiyatning kelajakdagi taraqqiyotiga mustahkam poydevor yaratadi. Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ayollar ta’limi nafaqat individual rivojlanish omili, balki butun jamiyatning madaniy va ijtimoiy evolyutsiyasini belgilovchi muhim omildir. Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu jarayon nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarining qaror topishini ta’minlaydi, balki jamiyatning intellektual va innovatsion salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan davlat rahbari tomonidan xotin-qizlarning ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar alohida ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2026 yildagi ayollar bayramiga bag‘ishlangan nutqda mamlakatda qizlarning ta’lim olishi uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar haqida alohida to‘xtalib o‘tilgan. Ta’kidlanishicha, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlar soni 904 ming nafardan ortiq bo‘lib, ular jami talabalar sonining 54 foizini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich ayollarning oliy ta’lim tizimidagi ulushi tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqot faoliyatida ham xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli darajada yuqori bo‘lib, stajyor-tadqiqotchilar hamda doktoranturada tahsil olayotganlarning 61 foizi ayollardan iborat ekani qayd etilgan.

Davlat tomonidan ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan yangi tashabbuslar ayollar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Xususan, yangi o‘quv yilidan boshlab ehtiyojmand oilalardan bo‘lgan qizlar uchun davlat granti asosidagi kvotalar ikki barobarga oshirilib, 4 ming o‘ringa yetkazilishi belgilangan. Bu chora jamiyatda ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida magistratura bosqichida tahsil olayotgan talaba-qizlarning kontrakt to‘lovlari ham davlat tomonidan qoplanishi nazarda tutilgan. Bu esa ayollarning xalqaro ta’lim makoniga kirib borishini rag‘batlantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Yosh xotin-qizlarning ilmiy va innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ham davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu maqsadda har yili kamida o‘n ta yo‘nalish bo‘yicha startap tanlovlari o‘tkazilib, g‘olib loyihalarga Innovatsiya jamg‘armasi tomonidan 500 million so‘mgacha grant mablag‘lari ajratilishi rejalashtirilgan. Bu tashabbus ayollarning ilmiy izlanishlari, innovatsion g‘oyalari va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Mazkur siyosiy va ijtimoiy chora-tadbirlar falsafiy nuqtai nazardan jamiyatning barqaror rivojlanish tamoyillari bilan hamohangdir. Chunki ta’limli ayollar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlarida faol ishtirok etadi. Natijada ayollarning bilim darajasi oshishi jamiyatning umumiy intellektual salohiyatini kengaytiradi va innovatsion taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollarning ta’lim darajasi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayollar ta’limi inson kapitalining rivojlanishiga, iqtisodiy o‘sishga, ijtimoiy barqarorlikka va madaniy taraqqiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, ayollar ta’limi jamiyatning intellektual salohiyatini kengaytiradi hamda ijtimoiy ongning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli ayollarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Kelajakda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun ayollar ta’limini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash hamda ayollarning ilm-fan va innovatsion faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sen A. **Development as Freedom.** – New York: Oxford University Press, 1999.
2. Parsons T. **The Social System.** – New York: Free Press, 1951.

3. Beauvoir S. **The Second Sex.** – New York: Vintage Books, 2011.

4. Nussbaum M. **Women and Human Development: The Capabilities Approach.** – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

5. Эркаев А. **Маънавият ва тараққиёт.** – Тошкент: Маънавият, 2009.

6. Назаров Қ. **Қадриятлар фалсафаси.** – Тошкент: Университет, 2010.

7. Bourdieu P. **Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste.** – Cambridge: Harvard University Press, 1984.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning **8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan so‘zlagan nutqi** // Prezident rasmiy sayti. – www.president.uz

9. Abdurahmonov Q.X., Vohidov F., Jo‘rayev N. **Ijtimoiy taraqqiyot va inson kapitali nazariyasi.** – Toshkent: Fan, 2019. – 256 b.

10. Nysanbayev A.N. **Философия образования и духовное развитие общества.** – Алматы: Ғылым, 2015. – 312 с.

11. Кон И.С. **Социология личности.** – Москва: Политиздат, 1999. – 383 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Saidov Sarvar Atabullo o‘g‘li
Termiz davlat universiteti DSc doktoranti
Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Ilmiy tadqiqot bo‘limi boshlig‘i,
E-mail: sarvarsaid@bk.ru

UDK: 091.274.135

ABDULLOH IBN MUQAFFANING AXLOQIY RISOLALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada VIII asrda yashagan olim, faylasuf, kotib va adab ilmining bilimdoni Abdulloh ibn Muqaffa ilmiy merosining Sharq falsafiy tafakkur tarixidagi roli ochib berilgan. Allomaning musulmon jamiyatida siyosatnoma turkumidagi asarlarning dastlabki namunalari hisoblangan “Al-Adab al-kabir”, “Al-Adab as-sag‘ir”, “Risola as-sahoba” kabi asarlari, ularda keltirilgan siyosiy etiketga oid qonun-qoidalar falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur asarlarning bugungi boshqaruv tizimidagi ahamiyati misollar orqali asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Abdulloh ibn Muqaffa, falsafa, axloq, adab, siyosatnoma, sulton, din, aql, jamiyat, inson, boshqaruv odobi, do‘stlik.*

Саидов Сарвар Атабулло угли
Начальник научно-исследовательского отдела Международного научно-исследовательского центра имени Имама Термизи, докторант (DSc) Термезского государственного университета

НРАВСТВЕННЫЕ ТРАКТАТЫ АБДУЛЛАХ ИБН МУКАФФЫ

Аннотация. *В данной статье раскрывается роль научного наследия Абдуллах ибн Мукаффы – ученого, философа, писца и знатока науки адаб, жившего в VIII веке, в истории восточной философской мысли. С философской точки зрения анализируются такие его произведения, как «Адаб аль-кабир», «Адаб ас-сагир» и «Рисалат ас-сахаба», которые считаются одними из первых образцов жанра политических наставлений (сиясатнаме) в мусульманском обществе. В статье рассматриваются нормы и принципы политического этикета, изложенные в данных трудах, а также на конкретных примерах обосновывается их значение и актуальность в современной системе управления.*

Ключевые слова: *Абдуллах ибн Мукаффа, философия, нравственность, адаб, политическое наставление, султан, религия, разум, общество, человек, управленческая этика, дружба.*

Saidov Sarvar Atabullo ogli
Head of the Research Department, Imam Termizi International Research Center,
DSc Doctoral student at Termez State University

THE MORAL TREATISES OF ABDULLAH IBN MUQAFFA‘

Abstract. *This article examines the role of the scholarly heritage of Abdullah ibn Muqaffa‘ – an eighth-century scholar, philosopher, secretary, and prominent authority in the science of adab – in the history of Eastern philosophical thought. From a philosophical perspective, the study analyzes his works “Adab al-kabir,” “Adab al-ṣaghir,” and “Risala as-sahaba”, which are regarded as some of the earliest examples of the siyasatnama (political advisory literature) genre in Muslim society. The principles and norms of political etiquette presented in these works are examined, and their relevance and significance for contemporary governance systems are substantiated through illustrative examples.*

Keywords: *Abdullah ibn Muqaffa‘, philosophy, ethics, adab, political treatise, sultan, religion, reason, society, human being, ethics of governance, friendship.*

Kirish.

Sharq falsafiy tafakkur tarixida o‘zining siyosatnoma uslubidagi axloqiy asarlari bilan o‘chmas iz qoldirgan allomalardan biri Abdulloh ibn Muqaffa (724-759) hisoblanadi. Abdulloh ibn Muqaffaning hayoti va ilmiy faoliyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lgan, ushbu olim islom tarixidagi siyosiy ziddiyatlar kuchaygan, umaviylar va abbosiylar o‘rtasida

xalifalik taxti uchun kurash kuchaygan bir davrda yashagan. Falsafiy jihatdan esa ushbu davrda islom falsafasida mutakallimlar va mo‘taziliyya kabi oqimlar shakllanib, diniy-falsafiy masalalarda turli bahs-munozaralar kuchayib borgan. Ushbu bahs-munozaralarning kuchayishida abbosiylar davrida yunon, fors va hind sivilizatsiyasi yutuqlari, falsafiy asarlarining arab tiliga tarjima qilinishi asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Bu davrda yuksak sivilizatsiya yutuqlarini musulmon jamiyatiga integratsiya qilishda jonbozlik ko‘rsatgan tarjimon va mohir faylasuflardan biri Abdulloh ibn Muqaffadir. Allomaning ilmiy faoliyati asosan falsafa, siyosat, axloq ilmlariga oid asarlarni arab tiliga tarjima qilish, mazkur sohalarga oid asarlar yozishdan iborat bo‘lgan.

Adabiyotlar tahlili.

Abdulloh ibn Muqaffaning falsafiy qarashlari, hayoti va ilmiy faoliyati hozirgi kunga qadar bir qator olim va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, klassik davr islom olimlaridan Soid Andalusiy, Ibn Nadim [6] kabilar o‘z asarlarida Ibn Muqaffaning ilmiy-falsafiy faoliyati, tarjima ilmidagi mahoratiga alohida ahamiyat qaratganlar. Zamonaviy dunyoda esa turk olimlari Mehmet Kuyanay, Vejdi Akyuz [7], ispan tadqiqotchisi Houda el-Ayyadi, arab olimlari Abdullatif Hamza [4], Ahmad Shavqiy, fors olimlari Abbos Iqbol Ashtiyoniy [3], Muhammad G‘ufroniy kabilar Abdulloh ibn Muqaffaning falsafiy ta’limoti, axloqiy asarlari borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 14-fevraldagi qarori [1] asosida Termiz shahrida tashkil etilgan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida Abdulloh ibn Muqaffaning “Al-Adab al-kabir”, “Al-Adab as-sag‘ir”, “Al-Adab al-vajiz”, “Risola as-sahoba” kabi asarlarining o‘zbek tilidagi ilmiy-izohli tarjimasi nashrga tayyorlangan bo‘lib, ushbu izlanishlar alloma ilmiy merosining bugungi kun axloqiy muammolarini bartaraf qilishdagi ahamiyatini ko‘rsatib berishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Abdulloh ibn Muqaffaning axloqiy risolalarini falsafiy-germenevtik jihatdan tadqiq qilishga qaratilgan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalarida qo‘llaniladigan analogik tahlil, analiz, sintez kabi metod va usullaridan samarali foydalanilgan

Tahlillar va natijalar.

Abdulloh ibn Muqaffaning “Al-Adab al-kabir”, “Al-Adab as-sag‘ir”, “Al-Adab al-vajiz”, “Risola as-sahoba” kabi risolalari axloqiy pand-nasihatlarni o‘z ichiga olgan asarlar hisoblanadi. Ushbu nasihatlar mutafakkir tomonidan o‘tmish donishmandlarining hikmatli so‘zlari asosida jamlangan bo‘lib, ular qalbni poklash va tafakkurni jonlantirishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nasihatlar aniq tarzda axloqiy talablarni hamda insoniyat jamiyatiga oid qoidalarni, islom ta’limotlariga mos holda ta’kidlaydi [3].

Allomaning “Al-Adab al-kabir”, “Al-Adab as-sag‘ir” kabi asarlari ijtimoiy-axloqiy masalalarga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu ikki kitob odob-axloq va muomala masalalarini o‘z ichiga olgan hikmatlar majmuasidir. Noodatiy uslub, jumlalar tarkibining murakkabligi va o‘ziga xos tuzilish bu asarlarning yuksak ahamiyatidan darak beradi. “Al-Adab as-sag‘ir” asarining muqaddimasida Ibn Muqaffa shunday yozadi: “Ushbu asarda insonlarning to‘g‘ri amallari, qalblarni mukammallashtirishga bo‘lgan intilishlari, dunyoqarashining tiniqligi va tafakkurining tetikligi to‘g‘risida nasihatlar keltirilgan. Undagi g‘oyalarda munosib xatti-harakatlar va oliyjanob ishlarni amalga oshirish yo‘llari ko‘rsatilgan” [5].

“Al-Adab al-kabir” asarining muqaddimasida esa Ibn Muqaffa shunday yozadi: “Bizning zamonimizdagi olimlarning ilmi o‘tmish olimlarning ilmidan olingan, bizning oliyhimmat, saxiy insonlardagi xayr-ehson g‘oyasi ularning hayot yo‘llaridagi faoliyatlariga ergashadi. Biz ulug‘ ajdodlarimizning qarashlarida e’tibordan chetda qoldirilgan biror narsani topa olmadik. Shundan kelib chiqib men ushbu kitobimda odamlar ehtiyoj sezadigan adabga oid hikmatlar haqida yozdim” [5].

“Al-Adab as-sag‘ir” asari ijtimoiy munosabatlar, odob-axloq qoidalari hamda ezgu amallarni bajarish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatilgan pand-nasihatlar majmuasidir. Ibn Muqaffa aql sohiblarining e’tiborini inson tabiatidagi kamchiliklarga qaratadi, insonni ziynatlaydigan fazilatlar, o‘zini olib qochishi kerak bo‘lgan nuqsonlar haqida so‘z yuritadi. Muallif ushbu asar orqali kitobxonning bilimini oshirib, ko‘p narsalar haqida tafakkur yuritishga, ularda sabot va matonat, Allohga xush keladigan savob ishlar qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga harakat qiladi. Bu borada u shunday deb yozadi: “Din Alloh taolo tomonidan o‘z bandalariga berilgan eng buyuk hadyadir”. U do‘stlar bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qolish va dushmanlardan ehtiyot bo‘lishni maslahat beradi. Kamchiliklardan qutulish vositasi sifatida u insonning o‘z-o‘zini nazorat qilishi va o‘zini-o‘zi tergashi lozimligini ta’kidlaydi. Ibn Muqaffa asrda bu borada shunday deb yozadi: “ Oqil inson o‘zi bilan o‘zi bahsga kirishishi, o‘zini nazorat qilishi, o‘z ruhi ustidan hukm yuritishi hamda o‘z xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholay olishi lozim. Bu uning to‘g‘ri yo‘lda bo‘lishiga yordam beradi. Oqil inson o‘zining din, axloq va muomala madaniyatidagi ayb va nuqsonlarini yaxshi bilishi hamda ularni doimo hisoblab borishi, yodda saqlashi yoki maxsus kundalikka qayd etishi kerak. Har safar qaysidir bir nuqsonlaridan xalos bo‘lganda, u kundaligidagi ushbu nuqsonni o‘chiradi, o‘chirilgan nuqsonga nazar solganda xursand bo‘ladi, isloh qilinmagan kakmchiligini ko‘rganida esa qayg‘uga tushadi”. Alloma oqil inson o‘zini-o‘zi kamolotga yetkazishi uchun har doim o‘limni yodda saqlashi lozimligini ta’kidlaydi: “Oqil inson kechayu kunduz o‘limni eslashi kerak, u o‘limni zikr qilish orqali qalbini shod aylab, yomon

istaklariga chek qo‘yishi lozim” [5]. Asardagi bir qancha pand-nasihatlar hukmdorlar va xalifalarga mo‘ljallangan bo‘lib, faylasuf ularni fuqarolarga nisbatan o‘z vazifalarini to‘la-to‘kis amalga ooshirishga, vazir va amaldorlarni to‘g‘ri tanlashga chaqiradi [4].

“Al-Adab al-kabir” asari esa ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda hokimiyatning mohiyati, hokimiyat va fuqarolarning o‘zaro munosabatlari masalalari yoritilgan. Ikkinchi qism esa “Do‘stlik munosabatlari” deb nomlanib, bu bobda fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yoritiladi. Ikkala qism ham ajoyib uslubda yozilgan. Birinchi bobda Abdulloh ibn Muqaffa hukmron qatlamning fazilatlari hamda ularning oddiy xalq borasida to‘plagan tajribalari borasida so‘z yuritadi. Hukmdorlarga mo‘ljallangan pand-nasihatlar ham ikki qismdan iborat. Birinchi qismda hukmdorning shaxsiy hayoti, uning fuqarolariga qanday tarzda g‘amxo‘rlik qilishi masalalariga doir maslahatlar keltirilgan. Ibn Muqaffa hukmdorlarga davlat ishlari uchun ajratilgan vaqtni qisqartirmaslikni, aksincha dam olish, bekorchilik, aysh-ishrat va uyqu soatlarini kamaytirgan holda, saltanat ishlariga ko‘proq vaqt ajratishni tavsiya qiladi. Shu joyda Ibn Muqaffa hukmdorga maqtovlarga havasmand bo‘lmaslikni, boshqa ishonchli vositalar orqali o‘z nufuzini mustahkamlashga harakat qilishni maslahat beradi. Ikkinchi qismda hokimiyat va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga doir nasihatlar keltirilgan. Mutafakkir xalifaga fuqarolari bilan tez-tez muloqot qilib turishni, kimnidir mukofotlash yoki jazolash hamda boshqa masalalarda shoshilmaslikni maslahat beradi. Uning hokimiyat va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid nasihatlari xushomadgo‘ylikdan saqlanishga, itoatkorlikka, inson fazilatlarini yo‘q qiluvchi hamda aql va dinga xilof keluvchi illatlardan saqlanishga da’vat ruhida yozilgan [6]. “Al-Adab al-kabir” asarining ikkinchi qismida ezgu xulq-atvor qoidalari hamda do‘stlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning nozik qirralariga oid nasihatlar jamlangan. Ibn Muqaffa do‘stlarni hayotdagi asosiy tayanch, qalb ko‘zgusi sifatida ta’riflaydi, do‘stlargagina qalbdagi eng sirli va yashirin o‘y-xayollarni ishonish mumkinligini aytadi. Shu sababli u do‘stlik munosabatlarida juda murakkab shartlarni qo‘yadi, do‘st tanlashda nihoyatda sinchkov bo‘lish lozim deb hisoblaydi [7]. “Al-Adab al-kabir” va “Al-Adab as-sag‘ir” asarlari o‘z tuzilishi bilan alohida ajralib turadi. “Al-Adab as-sag‘ir” asarida keltirilgan fikrlarning har biri boshqasi bilan tarkibiy yoki mantiqan bog‘liq bo‘lmay, balki butun matn bo‘ylab yoyilib ketgan. “Al-Adab al-kabir” asarida esa qoidaga asosan fikrlar mantiqiy izchillikka tayangan holda, rivojlanib boradi. Har ikki asarda ham fors, hind va yunon madaniyatlarining ta’siri sezilib turadi. Forsiy tafakkur ta’siri forslardan o‘zlashtirilgan ko‘plab hikmatlarda, fors tilidan ko‘chirilgan nasihatlarda, Ardasher davridagi boshqaruv tizimi va boshqa Sosoniy hukmdorlar davriga taalluqli tarixiy misollarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ikkala asarda ham fors madaniyati va o‘z davridagi ijtimoiy-siyosiy hayotga ta’sir ko‘rsatgan fors tafakkur tarzining roli aniq-ravshan sezilib turadi. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra ushbu ikki asar Sosoniylar davlatining ichki siyosati borasida bizga ma’lumot beruvchi asosiy manbalardan hisoblanadi [8]. Ushbu asarlarning ko‘plab o‘rinlarida yunon madaniyatining ta’siri kuchli. Xususan, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan turli hissiyotlar, insonning o‘z salomatligi va hayotini ehtiyot qilishi kabi g‘oyalar Epikur falsafasida uchraydi. Shahvoniy lazzatdan ko‘ra aqliy va axloqiy lazzatni afzal bilish haqidagi fikrlarda esa Platon va Aristotelning ta’sirini sezish mumkin. Hind falsafasining ta’siri asosan “Kalila va Dimna”dan olingan ko‘plab hikmatlarda namoyon bo‘ladi [9]. Ushbu asarlar axloqiylikning yuksak namunalari bo‘lib, ma’naviy-ma’rifiy, diniy masalalarga, ularning jamiyat hayotidagi katta ahamiyatiga, dinga nisbatan qo‘llanilishi lozim bo‘lgan hurmat-ehtirom masalalariga ham alohida e’tibor qaratadi.

Xulosa.

Xulosa sifatida aytganda, islom falsafasining yetuk namoyandalaridan biri hisoblangan Abdulloh ibn Muqaffa o‘zining axloq ilmiga bag‘ishlangan risolalari orqali barkamol shaxsning asosiy fazilatlarini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, Sharq falsafiy tafakkur tarixidagi siyosatnoma janrida yozilgan dastlabki asarlardan hisoblangan “Al-Adab al-kabir” va “Al-Adab as-sag‘ir” risolalari orqali odil hukmdor g‘oyasi, adolatning davlat taraqqiyotidagi roli, hukmdor va xalq munosabatlarida amal qilinishi lozim bo‘lgan jihatlarga alohida e’tibor qaratganligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2774-sonli qarori. // Xalq so‘zi, 2017-yil, 14-fevral.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021. – 464 b.
3. Abbos Iqbol Ashtiyoniy. Sharhe hole Abdulloh ibn al-Muqaffa. – Tehron: Eron Milliy kutubxonasi, 1927. – 122 b.
4. Abdullatif Hamza. Ibn al-Muqaffa. – Misr: Dor al-fikr al-arabiy, 1960. – 260 b.
5. Abdulloh ibn al-Muqaffa. Al-Adab as-sag‘ir va al-adab al-kabir. – Bayrut: Dor Bayrut, 1977. – 139 b.
6. Ibn Nadim. Kitob al-fihrist. – Bayrut: Dor al-ma’rifa. – 545 b.
7. Vecdi Akyüz. El-Edebu’l-kebir. İslam Siyaset Üslubu içinde. – İstanbul: Dergah Yay., 2004. – 140 s.
8. Фильштинский И.М. История арабской литературы (В— начало X века). – Москва: Наука, 1985. – 524 с.
9. Шомаксудова М. Книга «ал-Адаб ас-сагир» и «ал-Адаб ал-кабир» Ибн ал-Мукаффи как произведение «адаб»а. // Востоковедение. ТашГив, – Н. 1. – С.110-113.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Berdikulov Chingiz Dusmuradovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
Email: berdiqulovchingiz1989@gmail.com

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA AXLOQIY ME'YORLAR VA MA'NAVIY KOLLABORATSIYA

Annotatsiya. *Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda jamiyat hayotining barcha sohalarida axloqiy va ma'naviy masalalarning mazmuni yangicha tus olmoqda. Ushbu maqolada axborotlashgan muhitning inson xulq-atvori, dunyoqarashi va ijtimoiy mas'uliyatiga ko'rsatayotgan ta'siri yoritiladi. Raqamli makon sharoitida axloqiy me'yorlarning saqlanishi, ularning moslashuvi hamda ma'naviy kollaboratsiyaning shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada jamiyat a'zolari o'rtasidagi ma'naviy hamkorlik axborot almashinuvi orqali qanday rivojlanayotgani va bu jarayon ijtimoiy barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatayotgani asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *axborotlashuv, jamiyat va axloq, ma'naviy hamkorlik, raqamli muhit, axloqiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, axborot mas'uliyati, ma'naviy taraqqiyot.*

Бердикулов Чингиз Дусмурадович,
Независимый исследователь Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

НРАВСТВЕННЫЕ НОРМЫ И ДУХОВНАЯ КОЛЛАБОРАЦИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. *В современную эпоху интенсивного развития информационных технологий нравственно-духовные аспекты общественного бытия претерпевают существенные изменения. В статье анализируется воздействие информационно насыщенной среды на поведенческие модели личности, её ценностные ориентации и степень социальной ответственности. Рассматриваются особенности функционирования и адаптации нравственных норм в условиях цифрового пространства, а также закономерности формирования духовной коллаборации как новой формы общественного взаимодействия. Отдельное внимание уделяется роли информационного обмена в развитии духовного сотрудничества между членами общества и его значению для поддержания социальной устойчивости. Сделанные выводы позволяют обосновать актуальность укрепления нравственного сознания и ответственного взаимодействия в условиях информационного общества.*

Ключевые слова: *информатизация, общество и нравственность, духовное сотрудничество, цифровая среда, нравственное сознание, социальные ценности, информационная ответственность, духовное развитие.*

Berdikulov Chingiz Dusmuratovich,
Independent researcher, Samarkand State University named after Sh.Rashidov

ETHICAL NORMS AND SPIRITUAL COLLABORATION IN AN INFORMATION SOCIETY

Abstract. *The accelerated development of information technologies has fundamentally reshaped the moral and spiritual dimensions of contemporary social life. This study investigates how an information-intensive environment influences individual behavior, value systems, and perceptions of social responsibility. The paper focuses on the transformation and contextual adaptation of moral norms within digital communication spaces, highlighting their role in regulating social interaction. In addition, the research conceptualizes spiritual collaboration as an emerging form of collective engagement grounded in shared ethical orientations and communicative practices. Special attention is paid to the function of information exchange in facilitating moral cooperation and reinforcing social cohesion. The findings contribute to a deeper understanding of the mechanisms through which moral consciousness and responsible interaction support social sustainability in the information society.*

Keywords: *information society, moral norms, spiritual collaboration, digital communication, moral consciousness, social responsibility, ethical values, social sustainability.*

Kirish (Introduction)

Axborotlashgan jamiyat har bir davlatning milliy axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy me'yorlariga mos keladi, ya'ni jamiyat a'zolari uchun barqaror, qulay ma'naviy muhit yaratadi. Axborotlashgan jamiyatda mavjud axloqiy me'yorlarga barcha fuqarolar rioya qilishini ta'minlash O'zbekistondagi ma'naviy hamkorlikning muhim vazifasidir, shunday qilib axborotlashgan jamiyatning roli yanada kuchayadi. Axborotlashgan jamiyat ikki asosiy xususiyatga ega. Birinchi xususiyat, axborot texnologiyalari barcha sohalarda inson ongi va ijtimoiy munosabatlarga chuqur kirib boradi. Ikkinchi xususiyat, axborotlashuv jarayonlari milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashadi va har bir insonning yondashuvini talab qiladi. Mazkur jihatlar O'zbekistonda davlat va jamiyat institutlari o'rtasidagi ma'naviy hamkorlik orqali axloqiy barqarorlikni ta'minlashga asoslanadi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Ilg'or texnologiyalarning faol joriy qilinayotgani va global axborot-kommunikatsiya makoni taraqqiy etayotgani barcha jarayonlarni jadal va tez o'zgartirmoqda, qit'alar, mintaqalar, davlatlar va biznes darajasidagi hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda"[1,327]. Bularning inson falsafiy tafakkuri orqali analiz va sintez qilinishini amalg oshirishda o'ta hushyorlik va mantiqiylikni izchillik bilan tanlash muhim strategiya sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Mamlakatimiz olimlari tomonidan axborotlashgan jamiyatda axloqiy me'yorlar va ma'naviy kollaboratsiya sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni tadqiq etishga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, N. Jo'rayev, Q.Nazarov, M.A.Nurmatova, N.M. Matkarimova, U.Q. Tilavova, A.I.Tulyayev, J.Dj.Utegenova hamda T.E.Ergashev kabi professor-olimlarning tadqiqotlarini keltirish mumkin. Ushbu tadqiqotlarda axborotlashuv jarayonining shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri, jamiyatda axloqiy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish masalalari falsafiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqot axborotlashgan jamiyat sharoitida insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik, tizimli yondashuv, tahlil va sintez, shuningdek taqqoshlash metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar va mavjud ma'lumotlar asosida induksiya va deduksiya usullari orqali umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalari obyektivlik va ilmiy xolislik tamoyillari asosida baholandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Axborotlashgan jamiyat sharoitida esa ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan axloqsizlikni targ'ib qiluvchi axborotlar milliy ma'naviy qadriyatlarga jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, mobil texnologiyalar orqali behayo va inson qadrini kamsituvchi tasvirlarning ommalashuvi jamiyatda axloqiy muhitning zaiflashishiga olib kelmoqda. Mazkur holat axborotlashgan jamiyatda axloqiy me'yorlarni saqlash va mustahkamlashda ma'naviy kollaboratsiyaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Davlat, oila, ta'lim muassasalari, OAV va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi uzviy hamkorlik yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoyalash va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

Axborotlashgan jamiyat deb nomlanayotgan hozirgi XXI asrda axborot texnologiyalarining rivojlanishi barcha sohalarda ma'lumotlar olishda eng arzon va qulay vositaga aylandi. Internet tizimining rivojlanishi insoniyatni aqlbovar qilmas salbiy axborotlarga nisbatan kurash jarayonlarda yangicha ong va aql urushi turlarini shakllantiridi. Bugungi jamiyatimizdagi ba'zi bir insonlar axloqsizlikni o'zlari xush ko'rgan madaniyat deb bilishi, asl milliy-ma'naviy va diniy qadriyatlarimizga hurmatsizlik qilib, eskilik sarqiti deb biluvchilar ham borki bular, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga ba'zan aqliraso insonlar hayotiga ham juda katta xavf tug'dirmoqda. Jamiyatda "tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan axborotlar bilan birgalikda yoshlar ongini chalg'itadigan, ularni salbiy harakatlarga yo'naltiradigan axborotlar ham tarqalmoqda. Ushbu holatni inobatga olgan holda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish ma'naviy merosni o'zlashtirish, ularni yangi g'oyalar bilan boyitib borish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash bilan birgalikda ularni bilimini davr talablari asosida yuksaltirish vazifalari kun tartibiga qo'yilmoqda. Ta'kidlash joizki axborotlashgan jamiyatida bilim va axborot jamiyat rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi"[2,7]. Ulardan samarali foydalanish axloqiy qadriyatlarni asrashda, jamiyatning ma'naviy intellektual mulki sifatida e'zozlashda dolzarb sanaladi.

Axborotlashgan jamiyatda tarqatilayotgan ma'lumotlarning kundan kun oshib borishi insonlar axloqiy ongiga o'z ta'sirini o'tkazib, voqelik borasidagi falsafiy qarashlarning muammolarini yechish uchun imkoniyatlarni maydonga chiqarmoqda. "Axborotlashtirish jarayonlari insoniyat taraqqiyotida muhim, hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki tabiat bilan insoniyat jamiyati o'rtasida, shuningdek, insoniyat jamiyatining o'zida o'zaro axborot almashuvi mavjud bo'lmaganida u taraqqiy qilmagan va hozirgi mavjud kamolotiga erishmagan bo'lardi" [3,101].

Axborot jamiyatida doimo yuqori intellekt, aqliy kuch, nazariy va amaliy bilimlar yig'ilib, ishlatiladi. Shuning uchun har bir fuqaroda ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mustahkam axloqiy immunitetni shakllantirish, mavjud axloqiy qoidalarga rioya qilish zarur. Jamiyatdagi o'zgarishlarni o'rganayotganda, ularni hal qilish usullariga e'tibor berish kerak. Axborot jamiyati bu masalalarni o'rganishda birinchi navbatda tayyor dasturlar va yechimlar taklif qiladi, ikkinchi navbatda esa axloqiy qadriyatlarni himoya qilish uchun ijtimoiy muhit yaratadi, bu esa odamning immun tizimiga ta'sir

qiladi. Lekin har bir inson bu jarayonda o‘zining har qanday muammoga nisbatan mustahkam bilimi, aqliy imkoniyatlari bilan shoshmasdan, turli maqsadlarga moslashtirilgan axborotlarni mantiqiy tahlil etishi, axloqiy immunitetning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillardan ogoh bo‘lishi lozim. Bugun jamiyatda “salbiy axborotlarga nisbatan immunitetni rivojlantirishga qaratilgan ma’naviy treninglar dasturlarini ishlash, uning samaradorligini baholab borish kabi usullardan samarali foydalanish” [4,307] jamoatchilik orasida kengayib bormoqda.

Xalqimiz hayotida har bir davr o‘zining buyuk daholari qoldirgan axloqiy qoidalarni e’zozlanishi, ularni kelajak avlodlarga o‘rgatishi axborotlashgan jamiyat uchun muhimligi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi muallim Abu Nasr Forobiy o‘zining davlat boshqaruvi va uning xalqiga doir nasihatlarini bildirar ekan, odamlarni komillik sari chorlaydigan fikrlarni o‘rtaga tashlaydi. “Inson barcha a’zolari solim, butun, mukammal ishlab turganida sog‘lom bo‘lganiday, barcha aholisi go‘zal yaxshi hulqli, yaxshi ishlar va bir-biriga yordam beruvchi shahar ham fozil odamlar shahridir” [5,239], deydi. Demak, bunday shahar aholisi jamiyatda amal qiladigan qonun-qoidalarga so‘zsiz itoat etishi, raiyat bilan birgalikda hukmdorning davlatni boshqarishini ko‘rish mumkin. Bu esa, fuqarolar uchun o‘ziga xos axloqiy idealni mujassam etadigan falsafiy tafakkur sohiblari jamiyatda mavjudligini, odamlarning inoq, axloq me’yorlariga birgalikda amal qilishini ko‘rsatadi. Forobiyning qarashlari nafaqat aholi uchun balki, fuqaro yoxud davlatni boshqaradigan insonlar uchun zarurligi qayd etiladi. U “o‘zida o‘n ikki tug‘ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqli odam bo‘la oladi”[6,286], deydi. Uning bu falsafiy qarashlari davlatni boshqarishga intiladigan har bir odam uchun muhimligi, bu axloqiy qoidalar fozil shahar ravnaqi uchun xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Har bir insonning faoliyatida ajdodlarning milliy qadriyatlariga singib ketgan halollik, rostgo‘ylik, hayolilik, insoflilik, xushfe’llik, shirinsuxanlik, kamtarinlik, bosiqlik, xudbinlik va shuhratparastlik kabi axloqiy me’yorlar mavjudki, ulardan har kim turlicha o‘z ijtimoiy hayotida foydalanadi. Ularning bugungi axborotlashgan jamiyatda o‘ziga xos xususiyatlari xilma-xil bo‘lib, har bir millatning ma’naviy olamini belgilab olishida, ichki mantiqiy xulosalarni falsafiy yo‘llar bilan anglab yetishida xizmat qiladi.

Jamiyatda insonning yashashdan maqsadi, tug‘ilganidan boshlab beriladigan tarbiyadagi muhim axloqiy me’yor bu – halollikdir. Bu tushuncha insoniyat tarixining ilk davrlaridan boshlab bugungi kungacha ham o‘zining jamiyatdagi rolini mustahkamlab keladi. Chunki u avvalo har bir inson uchun kundalik faoliyatda iste’mol qiinadigan oziq-ovqatdan tortib, butun turmush tarzi, yashashi bilan bog‘lanib ketgan nozik murvatlarni o‘zida aks ettiradi. Hattoki, har bir din o‘zining targ‘ibotida muhim axloqiy me’yor sifatida halollikni o‘rtaga tashlaydi. “Har bir diniy e’tiqodning asosida axloqiylik yotadi va u ko‘p hollarda ibodatdan baland qo‘yilgan: solig‘ bandalar, “Qur’on”da aytilganidek, eng avvalo go‘zal axloq egalaridir. Shu boisdan keyinchalik halollik nisbatan tor shar’iy qobiqdan chiqib, asta-sekinlik bilan shaxs hayotidagi eng qamrovli axloqiy me’yorga aylandi, teran ma’naviylik kasb etgani holda, kundalik hayotdagi insoniylikni belgilaydigan umuminsoniy fazilat bo‘lib qoldi” [7,283]. Ular bu tushunchaning aks bo‘lgan haromdan barchaning tiyilishini, jamiyatning qoidalarini buzmaslikni, insonlarni barcha faoliyatida bu kategoriyaning lozimligini ko‘rsatishadi.

Axborotlashgan jamiyatning axloqiy me’yorlarga ta’sir ko‘lami hayolilik va insoflilik kabilarda o‘zining mohiyatini yangicha tarzda namoyon etmoqda. Bu tushunchalar o‘zining inson ichki tuyg‘ulariga bog‘liq qirralari bilan har bir millat vakilining ijtimoiy ongida aks etadi. Hayoning insoniy mohiyati bevosita axloqiy hatti-harakatlarda o‘zligini namoyish etib, odamlar orasida biror-bir so‘zni noto‘g‘ri aytib qo‘yishda yoki fikr bildirganda boshqalar oldida qizarishi, o‘zini noqulay sezishi kabilarda ifodalanadi. Hayolilik o‘zbek xalqida ko‘proq ayollarga xos axloqiy me’yor sifatida talqin etiladi. “Ayollarimizning hayoli bo‘lishiga bois erkaklarimizning ulardan hayoli bo‘lishni talab qilishidir”[8,27]. Bunday axloqiy me’yor axborotlashgan jamiyatda ba’zida o‘zining qiyofasini o‘zgartirishga intilayotganligi, ayrim qizlarning yurish-turishda, odamlar bilan muomalasida namoyon bo‘layotganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Jamiyatda hayoli inson bevosita o‘zining insofliligi bilan ham barchaning ko‘z o‘ngida o‘zining axloqiy darajasini namoyish etadi. Bu esa, “insofli inson” degan ibora orqali xalqning orasida ataladi. Shuning uchun har bir faoliyatda insonning fikr bilan, o‘ylab insof doirasida ish tutishi, boshqalarning ko‘ngliga ozor yetkazmasligi hamisha zarur sanaladi.

Axborotlashgan jamiyat insonning ongida borliqqa nisbatan ijtimoiy ruhiyatning namoyon bo‘lishida xushfe’llik, shirinsuxanlik, kamatrinlik, bosiqlik singari axloqiy me’yorlar mavjudki, ulardan foydalanishda har bir shaxs o‘zining hatti-harakatlari bilan boshqalarga o‘rnak bo‘ladi. Bu tushunchalar zamirida inson ichki dunyosida shakllangan yuksak ma’naviyat, muayyan darajada diniy va dunyoviy ilmlarni egallaganlik turadi. Xalqimiz azaldan bir-birlari bilan doimo xushfe’llik bilan muomala qilishga, o‘zining qadr-qimmati va sha’nini asrashga intilib, odamlar orasida shirinsuxan bo‘lishga intiladi. Buning negizida hayotga bo‘lgan axloqiy munosabatlar tartiblashadi va voqelikda inson o‘z ixtiyori bilan bosiqlik asosida o‘zligini namoyon etib boradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations)

Tarixiy taraqqiyot jarayoni shuni ko‘rsatadiki, inson faoliyati doimo ma’naviy-axloqiy me’yorlarga tayanib rivojlanib kelgan bo‘lib, jamiyat esa uzluksiz ravishda yangilanib borayotgan axborot oqimiga intilib yashaydi. Insonlar axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish jarayonida yangi bilim va ma’lumotlarni o‘zlashtirib, ularni mavjud axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘un holda tahlil qilib boradilar. Natijada jamiyatning ma’naviy-axloqiy hayoti doimiy ravishda

ijobiy va salbiy omillar ta’sirida o‘zgarib turuvchi murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ma’naviyat va axloq ijtimoiy taraqqiyotning barcha davrlarida muhim omil bo‘lib kelgan va hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasi turli madaniyatlar va axborot manbalari ta’siri ostida shakllanmoqda. Jamiyatda axloqiy me’yor va qadriyatlarga mos axborotni tanlash hamda ularni tartibga solishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda, virtual muloqot esa ijtimoiy munosabatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois virtual makondagi muloqotning axloqiy xususiyatlarini hisobga olmasdan turib, ta’lim va tarbiya tizimida yuzaga kelayotgan muammolarni to‘liq anglash mushkul. Mazkur jarayonda insonning ijtimoiy hayotda komillikka intilishi, bilim va ma’rifatga asoslangan axloqiy me’yorlarga amal qilishi hamda ularni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, ta’lim-tarbiya tizimida axborot madaniyati va axloqiy mas’uliyatni oshirishga qaratilgan mexanizmlarni kuchaytirish, yosh avlodda tanqidiy fikrlash va axborotni ongli ravishda saralash ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - 508 b.
2. G‘ulomov S., Shermuhamedov A., Begalov B. Axborotlashgan jamiyatning mujassamlanishi // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent: 1999. Yanvar – fevral. – B. 7.
3. Abdullayeva M. va boshqalar. Milliy g‘oya va fanning metodologik muammolari. –Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009. - 101 b.
4. Jabborov XX. Yoshlarda tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ta’sirchan psixologik uslublari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2021. №5. –B.307.
5. Forobiy Abu Nasr Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy / Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Markam Maxmudov, Urfon Otajon. Mas’ul muharrirlar M.Xayrullayev, M.Jakbarov. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. - 320 b.
6. Sher A. Axloqshunoslik. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti. 2010. – 328 b.
7. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 397 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Ulug'bek Abduxalilovich Azimov
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti f.f.b.f.d.,(PhD), dotsent

ZAMONAVIY FALSAFADA INSON ONGINING QADRIYATLARGA MUNOSABATI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy falsafiy tafakkur doirasida inson ongining qadriyatlarga bo'lgan munosabati tizimli va tahliliy jihatdan o'rganiladi. Inson ongining shakllanishida axloqiy, estetik, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning tutgan o'rni zamonaviy falsafiy yo'nalishlar - ekzistensializm, fenomenologiya, postmodernizm va gumanistik falsafa nuqtayi nazaridan yoritiladi. Shuningdek, globallashuv, texnologik taraqqiyot va axborot jamiyati sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi hamda inson ongida ularning qayta talqin etilishi masalalari tahlil qilinadi. Maqolada inson ongining faol subyekt sifatidagi roli, qadriyatlarni anglash, baholash va ijtimoiy amaliyotga tatbiq etish jarayonlari falsafiy umumlashtirish asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy jamiyatda inson ongining qadriyatli yo'nalganligini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *inson ongi, qadriyatlar, aksiologiya, zamonaviy falsafa, ong va qadriyatlar munosabati, axloqiy qadriyatlar, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy ong, falsafiy tafakkur, globallashuv, qadriyatlar transformatsiyasi, gumanizm, shaxs va jamiyat, aksiologik hissiyot, aksiologik idrok.*

Улугбек Абдухалилович Азимов
Международный институт пищевых технологий и инженерии доктор философии (PhD), доцент

ВЗАИМОСВЯЗЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И ЦЕННОСТЕЙ В СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация: *В данной статье систематически и аналитически исследуется отношение человеческого разума к ценностям в рамках современной философской мысли. Подчеркивается роль моральных, эстетических, социальных и культурных ценностей в формировании человеческого сознания с точки зрения современных философских направлений - экзистенциализма, феноменологии, постмодернизма и гуманистической философии. Также анализируются вопросы трансформации ценностей и их переосмысления в человеческом разуме в условиях глобализации, технологического прогресса и информационного общества. В статье раскрывается роль человеческого разума как активного субъекта, процессы понимания, оценки и применения ценностей в социальной практике на основе философского обобщения. Результаты исследования служат важной теоретической основой для понимания ценностной ориентации человеческого разума в современном обществе.*

Ключевые слова: *человеческое сознание, ценности, аксиология, современная философия, взаимосвязь сознания и ценностей, моральные ценности, культурные ценности, социальное сознание, философское мышление, глобализация, трансформация ценностей, гуманизм, индивид и общество, аксиологическое чувство, аксиологическое восприятие.*

Ulugbek Abdukhalilovich Azimov
International Institute of Food Technology and Engineering PhD, Associate Professor

THE RELATIONSHIR OF HUMAN CONSCIOUSNESS TO VALUES IN MODERN PHILOSORHY

Abstract: *This article systematically and analytically studies the attitude of the human mind to values within the framework of modern philosophical thought. The role of moral, aesthetic, social and cultural values in the formation of human consciousness is highlighted from the point of view of modern philosophical trends - existentialism, phenomenology, postmodernism and humanistic philosophy. It also analyzes the transformation of values and their reinterpretation in the human mind in the conditions of globalization, technological progress and the information society. The article reveals the role of the human mind as an active subject, the processes of understanding, evaluating and applying values to social practice on the basis of philosophical generalization. The results of the research serve as an important theoretical basis for understanding the value orientation of the human mind in modern society.*

Key words: *human consciousness, values, axiology, modern philosophy, the relationship between consciousness and values, moral values, cultural values, social consciousness, philosophical thinking, globalization, transformation of values, humanism, individual and society, axiological feeling, axiological perception.*

KIRISH.

Mustaqil yurtimiz taraqqiyotining bugungi holati o‘tish davri sifatida xarakterlanar ekan, uning barcha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarining rivojlanishi tub o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu jarayon qadriyatlarni qayta baholashni ham o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, o‘z umrini o‘tab bo‘lgan qadriyatlarni inkor etishni inconning umri yoki turmushining eski shakllarini inkor etishga o‘xshatish mumkin.

“Qadriyatlar deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog‘i lozim.” [1;12]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy falsafada inson ongining qadriyatlarga munosabati alohida tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Ayniqsa, globallashuv, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar va madaniy transformatsiyalar sharoitida shaxsning qadriyatli yo‘nalganligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, aksiologik ong tushunchasi insonning ijtimoiy hayotdagi faoliyatini, axloqiy tanlovlarini va fuqarolik pozitsiyasini tushuntirib beruvchi muhim falsafiy kategoriya hisoblanadi. Ilmiy-falsafiy jihatdan aksiologik ong - bu shaxsning moddiy va ma’naviy qadriyatlarni idrok etishi, baholashi va ularga nisbatan ongli munosabatini shakllantiruvchi ong shaklidir. U insonning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy pozitsiyasini belgilaydi. Falsafiy tahlilga ko‘ra, aksiologik ong murakkab va ko‘p qirrali tuzilishga ega bo‘lib, quyidagi asosiy komponentlardan iborat: Kognitiv komponent - qadriyatlar haqidagi bilimlar, tushunchalar va tasavvurlar majmui. Bu komponent shaxsning qadriyatlarni bilish va anglash darajasini ifodalaydi. Baholovchi komponent - qadriyatlarni yaxshi-yomon, muhim-ikkinchi darajali, ma’qul-noma’qul sifatida ajratib baholash qobiliyati. Hissiy komponent - qadriyatlarga nisbatan hissiy munosabat, e’tiqod va ichki ishonchning shakllanishi. Amaliy-irodaviy komponent - qadriyatlarga asoslangan xatti-harakatlar, qarorlar va ijtimoiy faollik. Ushbu komponentlarning uyg‘unligi aksiologik ongning yetuklik darajasini belgilaydi. Aksiologik ong ijtimoiy borliq bilan uzviy bog‘liqdir. Qadriyatlar jamiyatning tarixiy rivoji, madaniy tajribasi va ijtimoiy ehtiyojlari asosida shakllanadi. Shu sababli aksiologik ong individual hodisa bo‘lishi bilan birga, ijtimoiy ongning muhim shakli hamdir. M.S. Kagan aksiologik ongning g‘arb falsafasida keng tarqalgan talqinlarini farqlaydi. Chunonchi, A. Maslou aksiologik ongni har bir tirik mavjudotga xos bo‘lgan muayyan tamoyillar tizimi sifatida tavsiflaydi. U o‘z konsepsiyasini “inson qadriyatlari haqidagi naturalistik fan” deb nomlagan. Bunda u “biz chumolilar, otlar yoki daraxtlarning yoinki marsliklarning qadriyatlarini qanday o‘rgansak, insonning oliy qadriyatlari yoki maqsadlarini ham shunday o‘rganishimiz kerak” [2;78], deb hisoblaydi. M. Rokich fikriga ko‘ra, “aksiologik ong va qadriyatli munosabat shaxs yoki jamiyatning muayyan xulq-atvor tarzi yoki pirovard holatni o‘zgacha xulq-atvor tarzi yoki holatdan afzal ko‘rishidir.[3;51] Falsafiy nuqtai nazardan, aksiologik ong inson va jamiyat o‘rtasidagi dialektik munosabatni ifodalaydi. Jamiyatdagi ustuvor qadriyatlar shaxs ongiga singadi, shaxs esa o‘z faoliyati orqali ushbu qadriyatlarning rivojiga yoki transformatsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Aksiologik ongning shakllanishi bir qator omillar bilan belgilanadi: ijtimoiy-madaniy muhit (an’analar, urf-odatlar, milliy qadriyatlar), ta’lim-tarbiya tizimi, oila va ijtimoiy institutlar, ommaviy axborot vositalari va axborot makoni, shaxsning ijtimoiy tajribasi va faoliyati. Bu omillar o‘zaro ta’sirda aksiologik ongni bosqichma-bosqich shakllantiradi. Aksiologik ong shaxsning ma’naviy yetukligi va ijtimoiy mas’uliyatini belgilovchi asosiy mezondir. Qadriyatli ongga ega shaxs o‘z hayotiy tanlovlarini ongli amalga oshiradi, ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmaydi va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etadi.

Aksiologik ongning rivojlanmaganligi esa qadriyatlar inqirozi, axloqiy beqarorlik va ijtimoiy begonalashuvga olib kelishi mumkin. Aksiologik ong tushunchasi falsafiy jihatdan inson ongining qadriyatli yo‘nalganligini ifodalovchi muhim kategoriya hisoblanadi. U shaxsning dunyoqarashi, axloqiy tanlovi va ijtimoiy faoliyatini belgilaydi. Zamonaviy jamiyatda aksiologik ongni shakllantirish ta’lim-tarbiya va ijtimoiy institutlarning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, bu jamiyatning barqaror va uyg‘un rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Qadriyatlarga va qadrlash tuyg‘usiga asoslangan aksiologik qarashlar ilmiy jihatdan asoslangan, nazariy tahlil qilingan. U muayyan prinsip asosida to‘plangan bilimlar sistemasini ifodalaydi. Ular qadriyatlar sohasida olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, bu boradagi nazariyalar, kitob va risolalarda o‘z aksini topgan. Tugallangan, ozmi-ko‘pmi mukammal, izchil bayon qilingan va qadriyatlar tuyg‘usidagi sistemaga ega bo‘lgan aksiologik qarashlar majmuasi qadriyatlar nazariyasi deb yuritiladi. Aksiologik qarashlar tarixida qadriyatlar, ularning shakllari va amal qilish xususiyatlari to‘g‘risida bir qancha nazariya va aksiologik konsepsiyalar mavjud.

Aksiologik ong, o‘z navbatida, aksiologik hissiyot, aksiologik idrok, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik kechinmalar, qadriyat mazmunini ifodalaydigan tushuncha, xulosa va tafakkur bilan uzviy bog‘liqdir. Kimdadir aksiologik idrok va qadrlash tuyg‘usi boshqalarnikidan ko‘ra kuchliroq namoyon bo‘lishi, uning qalbida qadrlash tuyg‘usi bilan bog‘liq hissiyot ko‘proq “g‘alayon” qilishi mumkin. Bunday kishida muayyan qadriyatni qadrlash bilan bog‘liq mas’uliyat va unga asoslangan faoliyat ham boshqalarga qaraganda yaqqolroq ko‘zga tashlanib turadi.

Prezidentimiz shunday ta’kidlaydi: “Bugungi kunda dunyoning juda ko‘p mintaqalarida insoniy qadriyatlar yemirilmoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida ayrim o‘lkalarda betoqatlik, tajovuzkorlik kayfiyatlari kuchayib bormoqda. Mana shunday keskin vaziyatda, ulug‘ mutafakkirlar aytganidek, dunyoni ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik qutqaradi”.[4;278] Bundan ma’lum bo‘ladiki, aksiologik bilishda qadrlash tuyg‘usi va aksiologik idrok muhim ahamiyat kasb etadi. Qadrlash tuyg‘usi aksiologik ongning eng asosiy komponentlaridan biridir. U tabiiy va ijtimoiy hodisalarning qadrini anglash, zavq olish, lazzatlanish, mas’uliyat hissini sezish va shu kabilarda namoyon bo‘ladi. Olam va odam o‘z ahamiyati bilan qadrlidir. Olamdagi narsalar, hodisa va jarayonlar odamlar uchun qadrlash tuyg‘usini uyg‘otuvchi asosdir.

Shu ma’noda ob’ektiv voqelik, uning namoyon bo‘lish shakllari va ko‘rinishlarida bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘lmagan qadrlash tuyg‘usi va uning mutlaq sub’ektiv xususiyat ekanligini e’tirof etish qiyin. Zero, qadrlash uchun qadrlanadigan nimadir, ya’ni moddiylik yoki ma’naviylik mavjud bo‘lmog‘i, qadrlash tuyg‘usini uyg‘otish uchun esa ana shu tuyg‘uning vujudga kelishi uchun sabab bo‘ladigan ob’ekt mavjud bo‘lishi lozim. Shu ma’noda, olam, odam va hayot deb atalmish serqirra ma’nolar qadrlash tuyg‘usini shakllantirishda asosiy mezonlar sanaladi.

Aksiologik ong ijtimoiy ong shakllari bilan uzviy aloqador bo‘lib, u ijtimoiy ong, tabiiy va ijtimoiy voqelikning in’ikosi, jamiyatning muayyan davriga yoki qismiga tegishli bo‘lgan umumiy his-tuyg‘ular, kayfiyatlar, qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar majmuidir. Ijtimoiy ong yordamida jamiyatning o‘z-o‘zini anglashi sodir bo‘ladi, kechayotgan jarayonlarga munosabati shakllanadi.

Ijtimoiy ongning axloqiy, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy, fan, falsafa kabi shakllari farqlanadi. Ijtimoiy ong shakllarining xilma-xilligi ijtimoiy voqelikning turli-tumanligidan, unga tegishli bo‘lgan muayyan munosabatlarnigina aks ettirishdan kelib chiqadi. Bu shakllar bir-biridan voqelikni aks ettirish usuli va funksiyasiga ko‘ra farq qiladi. Masalan, huquqiy ong normalar, qonunlar, qoidalar vositasida, estetik ong esa badiiy obrazlar yordamida voqelikni aks ettiradi. Bilish, tarbiyalash, qadrlash kabi funksiyalar ijtimoiy ongning barcha shakllariga xos.

Ijtimoiy ong shakllaridan biri axloqiy ong hisoblanadi. Aynan axloq, axloqiy normalarning paydo bo‘lishi asta-sekin shakllanib, taraqqiy qilishi insoniylikning shakllanishi uchun zamin yaratdi. Axloq kishilarning bir-biriga, jamiyatga bo‘lgan muayyan tarixiy munosabatlarini ifodalaydigan xulq-atvor, odob, qoida va tamoyillar majmuidir. U hamisha konkret-tarixiy xarakter kasb etadi, har bir davrning o‘ziga xos axloq mezonlari bo‘ladi. Shuning uchun ham ma’lum axloqiy qadriyatlar tizimida tabiiy hisoblangan hodisalar boshqa axloqiy munosabalar tizimida noo‘rin hisoblanishi mumkin. O‘zbek milliy axloq normalariga ko‘ra, farzandning o‘z ota-onasini, o‘zidan yoshi ulug‘ kishilarni hurmat qilishi qadriyat hisoblanadi.

Estetik his-tuyg‘ular, did, qarashlar, ideallar va nazariyalarning o‘ziga xos, betakror tizimi sifatida namoyon bo‘ladigan estetik ong natijasi sifatida estetik kechinmalar paydo bo‘ladiki, unda idrok etilayotgan ob’ektlar, hodisa, jarayonlar emotsional shaklda baholanadi. Estetik baholashda kishilar go‘zallik-xunuklik, ulug‘vorlik-tubanlik, fojiaviylik-kulgililik kabi tushunchalar bilan ish ko‘radilar. Badiiy obrazlar, qahramonlarning kishilar xulqiga ta’siri tom ma’noda ulkan va beqiyosdir.

Dunyoqarashning aksiologik shakli qadriyatli yondashuv, aksiologik munosabat, aksiologik baholash kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi. Qadrlash tuyg‘usi, qadriyatli munosabat va aksiologik baho umumiy dunyoqarash sistemasiga aksiologik dunyoqarash elementlari qo‘shilishi bilan ijtimoiy sub’ektlarning voqelikka munosabatida yaqqol ko‘zga tashlana boshlaydi. Bunda aksiologik prinsiplar kishilarning voqelikka munosabatlarini, bir-birlariga nisbatan o‘zaro aloqalarini tartibga soluvchi ma’naviy mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular kishilarning faoliyatlarini amalga oshirishdagi shaxsiy manfaat va maqsadlarida ham ko‘zga tashlanadi.

XULOSA

Biror-bir yo‘nalishga qaratilgan qadrlash tuyg‘usi va bu asosdagi bilimlar, intilish, maqsad hamda manfaatlar kishilarning amaliy faoliyati uchun ma’naviy regulyatorlik vazifasini ham bajaradi. Albatta, bunda qadriyatlar bilan bog‘liq omillar bilan birga bir qancha boshqa jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo kishilarning o‘zaro birlashib, bir maqsadga intilishlarida umumiy faoliyatda yetakchilik qiladigan omil bu, shubhasiz, qadriyatlardir. Masalan, hozirgi davrda O‘zbekiston mustaqilligi hamda uni yanada mustahkamlash vazifalari jamiyatimizda barqarorlikni ta’minlash, demokratik tamoyillarga asoslangan hayot tarzini shakllantirishda oliy qadriyat bo‘lib xizmat qiladi. Olamga qadriyatli munosabatning shakllanishi har bir kishining komil inson bo‘lib yetishishi jarayonining tarkibiy qismi sanaladi. Kishi kamolot sari borar ekan o‘zi, o‘zgalar, tashqi muhit, olam, umr, vaqt, davr va shu kabilarning haqiqiy qadrini anglab boraveradi. Bu foniy dunyoning o‘tkinchiligi, umr mazmuni, yashashning maqsadi, olamning abadiyligi qarshisidagi lahzalar qadriga yetishni o‘rgana boradi. Bu esa kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiy manzarasini yaratadi. Aksiologik munosabat yakka shaxsgagina tegishli hodisa emas. U ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, jamiyatga umumiy ma’noda tegishli bo‘lishi ham mumkin. Ushbu ma’noda aksiologik yondashuv va qadriyatli munosabatning individual va ijtimoiy namoyon bo‘lish darajalarini, xususiy va umumiy shakllarini ko‘rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тўланов.Ж. Қадриятлар фалсафаси.-Тошкент.: Ўзбекистон. 1998,-Б.12.
2. Маслоу А. К психологии бытия. – Москва: АСТ, 1997.–С.78.
3. Каган М.С. Философская теория ценности – СП(б): 2005 – С. 51
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B 278.
5. Азимов У. Ёшларнинг демократик ислоҳотларга аксиологик муносабатини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий омиллари. Ф.ф.б.ф.д.,(PhD) диссертацияси. Наманган-2022.
6. Azimov U., Umurzakov A. HIERARCHY OF VALUES AND PERSONAL VALUES //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1 (80). – С. 354-355.
7. Рафиқова Д., Азимов У. MODERNIZATION OF EDUCATION AND INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 167-169.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abduraxmonov Zaribjon Mansurovich
Qo‘qon davlat universiteti o’qituvchisi
Emauil: z-abduraxmonov86@mail.ru

“OMMAVIY MADANIYAT”NING BEGONALASHUVDAGI ROLI.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Ommaviy madaniyat” inson ongini shakllantirishda, iste’mol qadriyatlarini tarqatishda va shaxsning o‘zligini aniqlash jarayoniga ta’sir ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, u zamonaviy jamiyatda begonalashuv jarayonining kuchayishida ham bevosita ishtirok etadi. Mazkur maqolada ommaviy madaniyatning asosiy xususiyatlari, uning inson va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarga salbiy ta’siri, shaxsiy o‘zlikning yo‘qolishi, sun’iy ehtiyojlarning shakllanishi hamda ma’naviy qadriyatlarning erkin rivojlanishiga to‘siq bo‘lishi singari holatlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, reklama, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ib etilayotgan ommaviy madaniyat elementlarining insonni jamiyatdan begonalashtirishi, ijtimoiy izolyatsiya va yolg‘izlikni kuchaytirishi yoritiladi.*

Kalit so’zlar: *Begonalashuv, “ommaviy madaniyat”, virtual muloqot, ma’naviy inqiroz, «kompyuteromaniya»*

Абдурахмонов Зарибджон Мансурович
Преподаватель, Кокандский государственный университет

РОЛЬ «ПОПУЛС-КУЛЬТУРЫ» В ОТЧУЖДЕНИИ.

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу феномена «массовой культуры» в современном обществе, её влиянию на формирование сознания личности, распространение потребительских ценностей и процессы самоидентификации. Рассматриваются ключевые характеристики массовой культуры, её негативное воздействие на естественные связи между человеком и обществом, отчуждение личности, формирование искусственных потребностей, а также препятствия на пути свободного развития духовных ценностей. Особое внимание уделяется тому, как элементы массовой культуры, продвигаемые через информационные технологии, рекламу и социальные сети, способствуют усилению процессов отчуждения, социальной изоляции и одиночества. В статье глубоко анализируются суть, причины и последствия этих процессов, а также их влияние на индивидуальную и общественную жизнь.*

Ключевые слова: *Отчуждение, массовая культура, виртуальное общение, духовный кризис, компьютеромания*

Abdurakhmonov Zaribdjon Mansurovich
Teacher, Kokand State University

THE PLACE OF "FOLK-CULTURE" IN EDUCATION.

Annotation. *This article analyzes the phenomenon of “mass culture” in modern society, focusing on its impact on shaping individual consciousness, spreading consumerist values, and influencing the process of self-identification. It examines the key characteristics of mass culture, its negative effects on the natural relationship between the individual and society, the alienation of the self, the formation of artificial needs, and the obstacles it poses to the free development of moral and spiritual values. Special attention is given to how elements of mass culture—promoted through information technologies, advertising, and social media—intensify processes of alienation, social isolation, and loneliness. The article provides an in-depth analysis of the nature, causes, and consequences of these processes and their influence on both personal and societal life.*

Key words: *Alienation, mass culture, virtual communication, spiritual crisis, computer addiction*

Kirish

Begonalashuv insoniyat rivojlanishining turli bosqichlarida ijtimoiy-falsafiy tushuncha sifatida o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan. Ushbu tushuncha jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida, madaniyat va ma’naviyatdagi o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy dunyoda “ommaviy madaniyat” fenomeni va axloqiy meyorlar transformatsiyasi insonning jamiyatdagi o‘rni va shaxs sifatidagi mohiyatiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunda

begonalashuv jarayoni nafaqat iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda, balki ma’naviy va madaniy sohalarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotlar tahlili

"Ommaviy madaniyat" atamasi XX asrning o‘rtalaridan jamiyatshunoslik va falsafa doirasida, keng qo‘llanila boshlangan. Ommaviy madaniyatning begonashuv jarayoniga ta’siri, ayniqsa, axloqiy meyorlar o‘zgarishi bilan bog‘liq. Inson o‘zining milliy qadriyatlaridan, an’analaridan va axloqiy asoslaridan uzoqlashib, sun’iy qadriyatlarga moyil bo‘ladi va turli xil gadjetlar inson ongini sun’iy reallik bilan band qilib, uni boshqarish imkonini yaratadi. Shu bilan birga ommaviy axborot vositalari televideniye, kino, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqalib va bu jarayon aksariyat ko‘ngilocharlik maqsadi ko‘zlanadi. Shu ma’noda “ommaviy madaniyat” – madaniyat mavjudligining murakkab shakli bo‘lib, u hamma davrlarda ham bir xil talqin qilinmaydigan jarayon hisoblanadi.[1] Sh.Qahhorova fikricha, “Ommaviy madaniyat inson ongining shu xususiyatlaridan foydalanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ommaviy madaniyatning iqtisodiy manfaatlarga asoslangani, uning ko‘ngilocharlik va iste’molchilikka urg‘u berishi, shaxsni real hayotdan uzoqlashtirib, uni sun’iy qadriyatlarga yo‘naltirishi asnosida begonalashuv muammo sifatida olinib O‘zbekistonda va G’arb jamiyatlari bilan birga tahlili qilindi.

Natijalar va ularning tahlili

Zamonaviy ommaviy madaniyat va axloqiy meyorlarning o‘zgarishi yosh mustaqil davlatlarda milliylikdan chetlashish jarayonini tezlashtirishi mumkin. Bunday holatda jamiyatning ma’naviy ongini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni qayta tiklash va yoshlarni axloqiy tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Faqatgina jamoaviy hamkorlik va tizimli profilaktika orqali bunday tahdidlarning salbiy ta’sirini kamaytirish mumkin. U yengil qabul qilinadigan, inson ko‘nglini xushlaydigan hayollar, go‘zal manzaralar va sarob dunyosiga olib kiradi[2]. Binobarin, moddiy boylik va texnologik taraqqiyot ma’naviyatdan ustun qo‘yilayotgani natijasida axloqiy tanazzul yuz bermoqda. Texnologiya va virtual muloqotning ustunligi insonlarning o‘zaro munosabatlarini formallashtiradi. Zamonaviy “ommaviy madaniyat” va axloqiy meyorlarning o‘zgarishining begonashuv jarayonidagi roli haqidagi tahlil falsafiy nuqtai nazardan keng qamrovli yondoshuvni talab qiladi.

Teodor Adorno va Maks Xorkxeymer ommaviy madaniyatni "madaniyat sanoati" sifatida tanqid qilib, uni inson ongi va his-tuyg‘ularini manipulyatsiya qilish vositasi deb ta’riflaydi. Jan Bodriyarning fikricha, ommaviy madaniyat "simulyatsiya"dan iborat bo‘lib, reallikni yolg‘on obrazlar bilan almashtiradi. Shaxs jamiyatdagi o‘z roli va faoliyatidan uzoqlashadi. Ommaviy madaniyat faqat ko‘ngilocharlik yoktijorat faoliyatini birinchi o‘ringa qo‘yadi, shaxsning ichki ma’naviy ehtiyojlari chetga suriladi. Milliy qadriyatlardan uzilish, shaxsning o‘z tarixiy va madaniy ildizlariga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotishiga olib keladi. Inson muammolardan qochishni afzal ko‘radi, mas’uliyat hissidan chetlanib, hayotni yengil ko‘ngilocharlik orqali qabul qiladi. Montenning fikriga ko‘ra, inson jamiyatdagi qiyinchiliklardan qochish uchun ma’lum bir "xayollar dunyosi"ga kirib ketadi.Jumladan, olim M.Quronov «Ommaviy madaniyat» niqobidagi ma’naviy tahdidlarga quyidagicha ta’rif beradi: biror xalq yoki millatning madaniyati emas. Agar u biror-bir xalq yoki millatga mansub bo‘lganida edi, ularning tarixiy va zamonaviy ideallari asosiga qurilgan bo‘lar edi. Hech shubhasiz, bunday ideallar har bir xalq va millat madaniyatida bor. «Ommaviy madaniyat» – robotdek bir xil o‘ylaydigan, bir xil narsaga qiziqadigan o‘rtamiyona odam madaniyati»[3]. Aynan shunday jarayonni guvohi bo‘lmoqdamiz. Pulga nisbatan istak oshib bormoqda, turli shoularni yaratish hamda ko‘rish, kiyinishda, ovqatlanishda deyarli farq qilmaydi.Tabiiyki bunday moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun inson boshqa bir inson bilan yoki jamiyat bilan munosabatida samiymiylik o‘rnini manfaat egallaydi.Oqibatda jamiyatdan uzoqlashish sekin-asta yuz bera boshlaydi. U.Saidovning fikricha: «Ommaviy madaniyat madaniy globallashuvning ekspansiyaning, qolaversa, mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollaridan biri»[4].SH.To‘rayev ham bu borada o‘z fikrlarini keltirib shunday degan: «Ommaviy madaniyat hodisasi milliy madaniyat va qadriyatlarga zid o‘laroq, ayrim shaxslar tomonidan o‘ylab topilgan g‘oyalar, udumlar va odatlar majmuini qamrab oladi». Faylasuf olim A.Erkayev esa: «Ommaviy madaniyat dunyoda juda tez va keng tarqaldi. Ommaviy madaniyatda ba’zi bir ijobiy jihatlar bilan bir qatorda salbiy jihatlar ham ko‘p. Eng avvalo, ommaviy madaniyat insonning barcha sohalarda, jumladan, madaniyat va dam olish, bo‘sh vaqtni tashkil qilish borasida ham individualligini yo‘qotgan iste’molchiga aylantirib qo‘yadi[5].

Insonning iste’molchilikka asoslangan psixologiyasi shakllantiriladi. Bu holat shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini pasaytirishga, uni mahsulot iste’molchisiga aylantirishga olib keladi. Ommaviy madaniyat shaxsni real hayotdan uzoqlashtirib, xayoliy g‘oyalar dunyosiga yetaklaydi. Masalan, ortiqcha melodramatik seriallar, yuqori qiymatga ega bo‘lmagan syujetlar, inson ongiga stereotiplarni singdiradi.

Yoshlar orasidagi «got», «pank» kabi submadaniyatlar, axloqiy meyorlarni inkor etishga asoslangan oqimlarning kengayishi milliy qadriyatlarning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Milliylikni inkor etuvchi targ‘ibot shaxsning milliy o‘ziga xosligini susaytiradi. Begonalashuv insonning o‘z qadriyatlari, ijtimoiy muhiti va ongi bilan bog‘liq aloqalarni yo‘qotishini

anglatadi. Ommaviy madaniyat inson ongiga global g‘oyalarni singdirish orqali milliy an’analarga nisbatan qiziqishni pasaytiradi. Insonni o‘zining tarixiy va madaniy ildizlaridan uzoqlashtirish orqali uning milliy o‘zligini zaiflashtiradi. Inson hayotidagi axloqiy tamoyillarning turfa xilligini kamaytirib, uni standartlashtirishga intiladi. Axloqiy meyorlarning o‘zgarishi jamiyatdagi ma’naviy asoslarning zaiflashuviga olib keladi va insonni mahsulot va g‘oyalarning iste’molchisiga aylantiradi, bu esa shaxsning ma’naviy boyligini zaiflashtiradi.

Yoshlar g‘ayri madaniyatning eng katta iste’molchisi bo‘lgani uchun, ularning axloqiy ongiga bo‘lgan ta’sir eng jiddiydir. Yosh davlatlarning milliy, siyosiy va ijtimoiy tizimlariga begona g‘oyalar singdiriladi. Missionerlik va prozelitizm kabi harakatlar orqali diniy va milliy mojarolarni kuchaytirishga qaratilib, shu bilan birga axloqiy va ma’naviy zaiflikni kuchaytirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Fan va texnika taraqqiyotining yana bir ezgu maqsadi insonning kundalik eqtiyojlarini qondirish edi. Ilm o‘z yutuqlari bilan ochlarni to‘ydirishi, yupunlarni kiydirishi, uysizlarga boshpana berishi lozim edi. Biroq natijalar o‘zgacharoq chiqdi: bugungi kunda fan va texnika sayyoramizdagi barcha kishilarning kundalik ehtiyojini qondirish imkoniga ega bo‘lgan bir paytda shaxs ma’naviy qiyofasida ochko‘zlik va xudbinlik ildiz otib bormoqda. Fan va texnika taraqqiyoti sharofati bilan moddiy boyliklarning oshib borishi hasad deb atalmish illatning yanada yorqinroq yuz ochishiga sabab bo‘ldi. Eng qizig‘i, fan va texnika taraqqiyotni insonning mashinalarga qaramligini oshirmoqda. Axborot texnologiyalari sohasida ham yetarlicha muammolar ko‘zga tashlanadi. Xususan, mablag‘ talab etadigan sun’iy yo‘ldoshga hamma davlat ham egalik qilolmaydi. Yana bir dolzarb muammolardan biri bo‘lgan Fan va texnika taraqqiyotining yana bir mahsuli globalllashuv jarayoni ham hozirgi zamon kishisiga murakkab ta’sir ko‘rsatmokda. Xalqlar va millatlar o‘rtasidagi aloqalarning murakkablashib ketishi, ijtimoiy taraqqiyotning jadallashuvi shaxs va jamiyat orasidagi aloqadorlik muvozanatini buzmoqda. Natijada shaxsning ijtimoiy voqelikka ta’siri kamayib, jamiyatning esa shaxsga ta’siri yo‘nalishlari ko‘payib bormokda. Globallashayotgan dunyo, jadallashayotgan progress, farovonlashayotgan turmush shaxsning jamiyatdagi o‘rniga, ijtimoiy mavqeyiga putur yetkazmoqda. Globallashuv sharoitida jahon xalqlarining milliy-madaniy qadriyatlari uyg‘unlashib, yangi faoliyat normalari va prinsiplari, qoidalari va qadriyatlari qaror topib borayotganini kuzatish mumkin. Bunday sharoitda esa dunyo xalqlari, xususan kam sonli millatlarning milliy an’ana va qadriyatlari xavf ostida qolmokda. G‘arb olimlari tomonidan ayni shu jihatni ko‘zda tutgan «erituvchi qozon nazariyasi» ilgari surilmoqda. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, globallashuv sharoitida millatlarning qadriyatlari, an’ana va urf-odatlari bir qozonda qaynagan taomdek qo‘shilib, aralashib ketadi[6]. Mualliflarning qanchalik xaq ekanliklari masalaning boshqa jihati, biroq bugunning o‘zidayoq global o‘zgarishlar natijasida shaxs qadriyatlari sistemasi jiddiy o‘zgarib borayapti. Rivojlangan mamlakatlarda shaxs ongi va faoliyatining kriminalizatsiyasi va nigilizatsiyasi sodir ushbu yuksak ma’naviyat shakllanishining qonuniyatlarini topishga. asl sabablarini ifodalab berishga intiladilar. Jamiyatdan begonalashuv-bu bosqich o‘ziga xos ko‘rinishda yuzaga keladi. Muammoning burulish nuqtasi aynan ushbu bosqichga to‘g‘ri keladi. Inson tabiatan shunday yaralgan-ki u yon-atrofidagi boshqa insonlarsiz, jamiyatdan alohida yashay olmaydi. Aynan shu masalada Abdurauf Fitratning jamiyat va inson munosabatlarini juda sodda, tushunarli tarzda o‘z asarida to‘xtalib o‘tadi. «Odamlarning madaniy toifa ekanliklari, ya’ni tabiat hukmi ila bir qabila yoki bir qavm suvratida jam bo‘lib bir-birlariga yordam berib yashashlari ma’lum. Kimki ana shu tabiat qonuning doirasidan chiqsa,ya’ni jamiyatdan chetlashsa, shubhasiz mahv va nobud bo‘lgay»[7]. Bizningcha ham shunday inson jamiyatdan alohida tarzda yashashi dastavval o‘sha insonning halokati, so‘ngra bu toifadagi kishilar ko‘pchilikni tashkil qiluvchi jamiyatning ham uzoqqa bormasligi, bir-biridan begonalashib chiqur tanazzulga ketishi muqarrardir.

Xulosa

Begonalashuv zamonaviy jamiyatda tobora chuqurlashayotgan murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-falsafiy muammodir. Ayniqsa, globallashuv, ommaviy madaniyat va texnologik taraqqiyot sharoitida bu jarayon shaxsning ichki dunyosi, ma’naviy olami, axloqiy me’yorlari hamda ijtimoiy muhit bilan aloqalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini susaytiradi, tarixiy va madaniy ildizlarga bo‘lgan qiziqishni yo‘qotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Фалсафа: қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004. –Б.313

2. Қаҳҳорова Ш. Глобал маънавият – глобаллашувнинг ғоявий асоси. –Т.:Тафаккур,. 2009.

3.Қуронов М., Эсонбоев Ф., Гибрид олмадан, гибрид одамгача. -Т.: Муҳаррир, 2010, 13 б.

4. Саидов У.А. Глобаллашув шароитида таълим соҳасидаги ва «оммавий маданият” кўринишидаги мафкуравий тайзиқлар. // Маънавий таҳдидлар ва уларга қарши курашнинг илмий-услубий ҳамда маънавий-мафкуравий асослари. -Т.: Муҳаррир. 2010. 147 б.

5.Тўраев Ш. Маънавий таҳдидлар: уларнинг салбий оқибатлари ва олдини олиш чоралари. // Маънавий таҳдидлар ва уларга қарши курашнинг илмий-услубий ҳамда маънавий-мафкуравий асослари. -Т.: Муҳаррир. 2010. 159 б.

6. Эркаев А. Маънавият ва тараққиёт. -Т.: Маънавият, 2009. 215-216 б.

7. Ёқубов С Ахборот жамияти: хаёлот эмас, ҳақиқат // Тафаккур -2007. - №4 - 15-6

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
Email: abdiraxmanovmuzaffar@gmail.com

IJTIMOIY ONGDA “INSON QADRI” TAMOYILINING JAMIYATNING BARQAROR TARAQQIYOTI VA KELAJAK RIVOJIGA TA’SIRI

Annotatsiya: *Bugungi globallashuv davrida jamiyat barqaror taraqqiyoti va kelajak rivoji inson qadri tamoyiliga bog‘liqdir. Ijtimoiy ongda inson qadrini anglash, inson huquqlari, erkinlik va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni qadrlash jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda barqarorlikni ta’minlaydi. Inson markaziy qadriyat sifatida e’tirof etilganda, ijtimoiy birlik, tenglik va hamjihatlik kuchayadi, bu esa kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanish zaminini yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *Inson qadri, ijtimoiy ong, barqaror taraqqiyot, kelajak rivoji, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy birlik.*

Абдирахманов Музаффар Зарипбаевич
независимый исследователь Бухарского государственного университета.

ВЛИЯНИЕ ПРИНЦИПА «ЦЕННОСТЬ ЧЕЛОВЕКА» НА УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВА И БУДУЩЕЕ ПРОГРЕССИРОВАНИЕ В СОЦИАЛЬНОМ СОЗНАНИИ

Аннотация: *В условиях глобализации устойчивое развитие общества и его будущее во многом зависят от принципа ценности человека. Осознание человеческой ценности в социальном сознании, уважение прав человека, свободы и духовно-нравственных ценностей обеспечивает стабильность в экономической, политической и культурной сферах общества. Признание человека как центральной ценности укрепляет социальное единство, равенство и согласие, создавая основу для устойчивого развития будущих поколений.*

Ключевые слова: *Ценность человека, социальное сознание, устойчивое развитие, будущее развитие, духовно-нравственные ценности, социальное единство.*

Abdirakhmanov Muzaffar Zaripbayevich
independent researcher at Bukhara State University.

THE IMPACT OF THE PRINCIPLE OF “HUMAN DIGNITY” ON THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND FUTURE PROGRESS OF SOCIETY IN SOCIAL CONSCIOUSNESS

Abstract: *In the era of globalization, the sustainable development of society and its future largely depend on the principle of human dignity. Recognizing human value in social consciousness, respecting human rights, freedom, and moral-spiritual values ensures stability in the economic, political, and cultural spheres of society. When the human being is acknowledged as a central value, social unity, equality, and cohesion are strengthened, laying the foundation for sustainable development for future generations.*

Keywords: *Human dignity, social consciousness, sustainable development, future growth, moral and spiritual values, social unity.*

KIRISH

Bugungi kunda global jarayonlar, tezkor ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar jamiyat oldida yangi chaqiriqlarni qo‘ymoqda. Shu jarayonda insonning ijtimoiy ongida uning qadriyatini, huquq va erkinliklarini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. “Inson qadri” tamoyili nafaqat shaxsiy manfaat va farovonlikni, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajak avlodlar farovonligini ta’minlaydigan asosiy ijtimoiy-axloqiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy ong orqali shakllanadigan inson qadri tamoyili jamiyatning ma’naviy poydevorini mustahkamlaydi, ijtimoiy birlik va hamjihatlikni kuchaytiradi, adolat va tenglik tamoyillarini hayotga tadbiq etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, inson qadriyatini hurmat qilish va qadrlash jamiyatdagi iqtisodiy barqarorlik, siyosiy barqarorlik va madaniy yuksalishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, inson qadri tamoyilini ijtimoiy ongda targ‘ib qilish, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning strategik vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyil jamiyatning kelajak rivojida barqarorlik, farovonlik va ma’naviy yuksalishning asosiy garovi sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI.

Bugungi kunda inson qadri tamoyilining ijtimoiy ongda shakllanishi va uning jamiyatning barqaror taraqqiyoti hamda kelajak rivojiga ta’siri mavzusi keng o‘rganilmoqda. Falsafiy manbalarda inson qadri markaziy tamoyil sifatida ko‘riladi. Masalan, Nasafiyning “Insonga komil” konsepsiyasida insonning ma’naviy, axloqiy va aqliy kamoloti jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta’kidlangan. Shu bilan birga, klassik va zamonaviy falsafiy manbalar inson qadriyatini ijtimoiy birlik, adolat va hamjihatlik bilan bog‘laydi. Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson qadri ijtimoiy ong orqali shakllanganda, jamiyatda iqtisodiy, siyosiy va madaniy barqarorlik kuchayadi. Max Weber va Anthony Giddens kabi olimlar inson qadri va ijtimoiy ong o‘rtasidagi bog‘liqlikni, shuningdek, bu tamoyil jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyatini tadqiq qilganlar. Shu bilan birga, Jürgen Habermas ijtimoiy birlik va hamjihatlikni mustahkamlashda inson qadriyatini rivojlantirishning zarurligini ta’kidlaydi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda esa inson qadri tamoyilini shakllantirishning individual va ijtimoiy jihatlari o‘rganiladi. Humanistik psixologlar insonning o‘zini anglash va ma’naviy kamolotiga erishish barqaror jamiyat qurilishida muhim ekanini ko‘rsatadilar. Shu bilan birga, pedagogik tadqiqotlar yosh avlodni tarbiyalash orqali ijtimoiy ongda inson qadriyatini mustahkamlash metodlarini taklif qiladi. Ushbu mavzuni o‘rganishda bir qator metodlar qo‘llaniladi. Analitik metod falsafiy va sotsiologik manbalarni tahlil qilish orqali inson qadri tamoyilining mohiyatini ochib beradi. Kompilyativ metod turli ilmiy maqolalar va statistik ma’lumotlarni jamlab umumiy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Kvalitativ metod – intervyu, so‘rovnoma va kuzatuv orqali ijtimoiy ongdagi qadriyatlarni chuqur o‘rganishga xizmat qiladi. Taqqoslash metodlari turli madaniyat va ijtimoiy tizimlarda inson qadri tamoyilining o‘rni va roli farqlarini aniqlashga yordam beradi. Pedagogik metodlar esa amaliyotda bu tamoyilni yosh avlodni tarbiyalash va ma’naviy yuksaltirish vositasi sifatida qo‘llashga imkon beradi. Adabiyotlar tahlili va metodlar inson qadri tamoyilini ijtimoiy ongda shakllantirishning ilmiy asoslarini ochib beradi va jamiyatning barqaror taraqqiyoti hamda kelajak rivoji uchun uning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Jamiyatning barqaror taraqqiyoti va kelajak rivoji ko‘p jihatdan inson qadri tamoyilining ijtimoiy ongda shakllanishiga bog‘liq ekanligi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va falsafiy manbalar tomonidan tasdiqlangan. Falsafiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, inson markaziy qadriyat sifatida e’tirof etilganda, ijtimoiy birlik, adolat va hamjihatlik kuchayadi. Masalan, Nasafiyning “Insonga komil” risolasida insonning ma’naviy kamoloti va aqliy rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining strategik omili sifatida belgilangan. Shu bilan birga, Aristotel va Kantning falsafiy qarashlarida insonning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlari barqaror jamiyatni shakllantirishning asosiy poydevori hisoblanadi. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson qadriyatining ijtimoiy ong orqali shakllanishi jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy barqarorlikni mustahkamlaydi va jamiyatning umumiy farovonligini ta’minlaydi. Max Weberning ijtimoiy ong va qadriyatlar nazariyasi inson qadri bilan jamiyat taraqqiyoti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi va ko‘rsatadiki, ijtimoiy ongda inson qadriyatlarini hurmat qilish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi [1.44-b]. Shu bilan birga, Anthony Giddens va Jürgen Habermas ijtimoiy birlik va hamjihatlikni mustahkamlashda inson qadriyatini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydilar [2.85-b]. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, inson qadri tamoyili jamiyatning kelajak rivojida barqarorlik va farovonlikni ta’minlashda strategik vosita sifatida xizmat qiladi. Bugungi kunda, Yangi O‘zbekiston ijtimoiy va siyosiy islohotlar orqali inson qadri tamoyilini jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu esa jamiyatda ijtimoiy ongning rivojlanishi va inson qadriyatining kuchayishiga xizmat qilmoqda. Masalan, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi modernizatsiya, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ma’naviy-ma’rifiy dasturlar orqali insonning individual va ijtimoiy qadriyatlari mustahkamlanmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi Yangi O‘zbekistonda inson qadri tamoyilini ijtimoiy ongda rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, balki madaniy va ma’naviy yuksalishni ham ta’minlash mumkin. Jamiyat a’zolari o‘z huquqlari va erkinliklarini chuqur anglab, ijtimoiy hamjihatlik, adolat va birlikni mustahkamlash orqali kelajak avlodlar uchun barqaror va farovon muhit yaratishda faol ishtirok etadilar. Shu bilan birga, inson qadri tamoyili asosida shakllangan ijtimoiy ong Yangi O‘zbekistonning har bir fuqarosi uchun shaxsiy va jamiyat farovonligini kafolatlovchi markaziy poydevor sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar va Yangi O‘zbekiston misoli shuni ko‘rsatadiki, inson qadri tamoyilining ijtimoiy ongda shakllanishi jamiyatning barqaror taraqqiyoti, ijtimoiy adolat, siyosiy samaradorlik va kelajak rivoji uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan markaziy omil hisoblanadi. Psixologik tadqiqotlar ham inson qadri tamoyilining ahamiyatini tasdiqlaydi. Carl Rogers va Abraham Maslowning humanistik psixologiyasi insonning o‘zini anglash va ma’naviy kamolotga erishish barqaror jamiyatning asosiy sharti ekanini ko‘rsatadi [3.56-b].

Shu jihatdan qaraganda, ijtimoiy ongda inson qadri tamoyilini shakllantirish individual farovonlik bilan birga jamiyatning ma’naviy, madaniy va iqtisodiy yuksalishini ta’minlaydi.

Pedagogik tadqiqotlar inson qadri tamoyilini yosh avlod ongida shakllantirish usullarini taklif qiladi. Masalan, tarbiyaviy dasturlar va ma’naviy-ma’rifiy loyihalar orqali ijtimoiy ongda inson qadriyatini rivojlantirish jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim ekanligi ko‘rsatilgan [4.63-b]. Shu bilan birga, xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, inson qadriyatiga asoslangan ta’lim tizimi va ijtimoiy siyosat jamiyatning barqaror rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Shuningdek, ijtimoiy ongda inson qadri tamoyilining shakllanishi jamiyatning ijtimoiy adolat, tenglik va inklyuzivlik tamoyillarini rivojlantirishga bevosita yordam beradi. Inson qadriyatiga asoslangan ijtimoiy ong jamiyatning huquqiy va siyosiy tizimlarini mustahkamlash bilan birga, madaniy va ma’naviy uyg‘unlikni ham ta’minlaydi, natijada odamlar o‘zaro hurmat, ishonch va hamkorlik ruhida yashashga o‘rganadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, inson qadri tamoyili jamiyat a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, tenglik va ijtimoiy hamjihatlikni oshirishga xizmat qiladi, bu esa o‘z navbatida umumiy ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning eng muhim omiliga aylanadi. Inson qadri tamoyili ijtimoiy ongda shakllanganda, jamiyatda nafaqat fuqarolarning huquqlari va erkinliklari hurmat qilinadi, balki kamsitish, diskriminatsiya va ijtimoiy tengsizlik kabi salbiy ijtimoiy hodisalar kamayadi. Shu bilan birga, inson qadriyatiga asoslangan ong jamiyatda ma’naviy va axloqiy me’yorlarning mustahkamlanishiga olib keladi, odamlarning o‘zaro hurmat va mas’uliyat tuyg‘usi kuchayadi, ijtimoiy muloqot va hamkorlik yanada samarali bo‘ladi [5.81-b]. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson qadriyatiga asoslangan ijtimoiy ong yoshlar tarbiyasi va ta’lim tizimida ham o‘z aksini topadi. Inson qadri tamoyili orqali shakllangan tarbiya tizimi nafaqat bilim berish, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi. Bu esa kelajak avlodlarni jamiyatga foydali, mas’uliyatli va axloqiy yetuk shaxslar sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Inson qadriyatini rivojlantirish va ijtimoiy ongda mustahkamlash orqali jamiyatning siyosiy barqarorligi ham oshadi. Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini anglab, siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadilar, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch kuchayadi, siyosiy qarorlar va islohotlarning samaradorligi oshadi. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlik ham inson qadri tamoyiliga bog‘liq bo‘ladi, chunki qadrlangan va hurmat qilingan fuqarolar iqtisodiy faoliyatda faollik ko‘rsatadilar, innovatsion g‘oyalarni ilgari suradilar va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shadilar. [6.47-b]. Inson qadriyatining ijtimoiy ongda rivojlanishi madaniy uyg‘unlik va milliy birdamlikni kuchaytiradi. Turli etnik, diniy va madaniy guruhlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va tushunish shakllanadi, kamsitish va adolatsizlik holatlari kamayadi, shuning natijasida jamiyat ichida tinchlik va ijtimoiy hamjihatlik mustahkamlanadi. Bu esa o‘z navbatida barqaror rivojlanish, ma’naviy yuksalish va kelajak avlodlar farovonligini ta’minlaydigan muhim shartga aylanadi. Ijtimoiy ongda inson qadri tamoyilini shakllantirish jamiyatning barqaror taraqqiyoti, ijtimoiy adolat, siyosiy islohotlarning samaradorligi, iqtisodiy yuksalish, madaniy uyg‘unlik va ma’naviy rivojlanish uchun markaziy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, inson qadriyatiga asoslangan ijtimoiy ong nafaqat bugungi kunni, balki kelajak avlodlar hayotini ham barqaror va farovon qilishda strategik ahamiyatga ega bo‘ladi. BMTning Inson huquqlari deklaratsiyasida ham inson qadri tamoyili global barqarorlik, tinchlik va ijtimoiy adolatning poydevori sifatida e’tirof etilgan [7.85-b]. Bu hujjat inson qadriyatining nafaqat individual shaxsiy farovonlik, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy ongda inson qadri tamoyilini mustahkamlash jamiyatning iqtisodiy barqarorligi, siyosiy islohotlar samaradorligi va madaniy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Inson qadri tamoyilini targ‘ib qilish va ijtimoiy ongda chuqur shakllantirish orqali, jamiyat a’zolari o‘zlarining huquq va erkinliklarini anglashga o‘rganadilar, o‘zaro hurmat va hamkorlikni kuchaytiradilar. Bu esa jamiyat ichida zo‘ravonlik, ijtimoiy tengsizlik va kamsitish kabi salbiy ijtimoiy hodisalarni kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada, inson qadriyatiga asoslangan ijtimoiy ong nafaqat barqaror jamiyat qurilishida, balki kelajak avlodlar uchun tinch va farovon muhit yaratishda ham strategik ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaraganda, inson qadri tamoyilining ijtimoiy ongda shakllanishi jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy barqarorligini ta’minlaydigan markaziy omil sifatida qaraladi va uni rivojlantirish har bir davlat, jamiyat va ta’lim tizimi uchun ustuvor vazifa bo‘lishi lozim. Inson qadri tamoyilini ijtimoiy ongda targ‘ib qilish va rivojlantirish jamiyatning barqaror taraqqiyoti hamda kelajak rivoji uchun strategik ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, inson qadri tamoyili nafaqat shaxsiy farovonlikni ta’minlaydi, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy barqarorligini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Falsafiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik tadqiqotlar bu tamoyilni turli nuqtai nazardan o‘rganib, uning mazmuni, mohiyati va amaliy qo‘llanilish yo‘llarini aniqlash imkonini beradi. Falsafiy manbalar inson qadri tamoyilini jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, Nasafiyning “Insonga komil” konsepsiyasida insonning ma’naviy, axloqiy va intellektual yuksalishi jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim poydevor sifatida tasvirlangan. Shu bilan birga, klassik va zamonaviy falsafiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, inson qadri tamoyili jamiyatdagi birlik, adolat va hamjihatlikni mustahkamlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Sotsiologik tadqiqotlar esa inson qadriyatining ijtimoiy ong orqali shakllanishi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashini ko‘rsatadi. Max Weber, Anthony Giddens va Jürgen Habermas kabi olimlar inson qadri va ijtimoiy ong o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib bergan va bu tamoyil jamiyat taraqqiyotida strategik ahamiyatga ega ekanini ta’kidlagan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, inson qadri tamoyilini targ‘ib qilish orqali jamiyatning siyosiy islohotlari samaradorligi oshadi, fuqarolar o‘z huquqlari va majburiyatlarini yaxshiroq anglaydi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch mustahkamlanadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson qadri tamoyili individual shaxsning ruhiy va ma’naviy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir qiladi. Humanistik psixologiya insonning o‘zini anglash va ma’naviy kamolotga erishish barqaror jamiyat qurilishining eng muhim sharti ekanini ko‘rsatadi [8.28-b]. Shu jihatdan qaraganda, ijtimoiy ongda inson qadriyatini rivojlantirish nafaqat jamiyat farovonligini oshiradi, balki har bir shaxsning o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishiga yordam beradi. Pedagogik tadqiqotlar ham inson qadri tamoyilini yosh avlod ongida shakllantirishning muhimligini ko‘rsatadi. Ta’lim va tarbiya tizimlarida inson qadri tamoyiliga asoslangan metodlar orqali yoshlar nafaqat ilmiy bilimlarni, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni ham egallaydilar. Shu tariqa, kelajak avlodlar o‘z jamiyatlari uchun mas’uliyatli, axloqiy yetuk va ijtimoiy faol shaxslar sifatida tarbiyalanadi, bu esa jamiyatning barqaror va farovon rivojlanishini kafolatlaydi. Inson qadri tamoyilini rivojlantirish ijtimoiy birlik, hamjihatlik va inklyuzivlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Turli etnik, diniy va madaniy guruhlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va tushunish kuchayadi, kamsitish va adolatsizlik holatlari kamayadi. Shu tariqa, inson qadri tamoyiliga asoslangan ijtimoiy ong jamiyatda tinchlik, farovonlik va barqarorlikni ta’minlovchi muhim ijtimoiy mexanizmga aylanadi [9.37-b]. Natijada, inson qadri tamoyilini ijtimoiy ongda targ‘ib qilish va rivojlantirish nafaqat jamiyatning bugungi barqaror taraqqiyotiga, balki kelajak avlodlar farovonligi va jamiyatning uzluksiz rivojlanishiga ham strategik hissa qo‘shadi. Shu sababli, inson qadri tamoyilini shakllantirish, targ‘ib qilish va amaliy qo‘llash har bir davlat, jamiyat va ta’lim tizimi uchun ustuvor vazifa sifatida qaraladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inson qadri tamoyili ijtimoiy ongda shakllanganda jamiyatning barqaror taraqqiyoti va kelajak rivoji uchun muhim strategik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Falsafiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik manbalar inson qadriyatining ijtimoiy birlik, adolat, hamjihatlik va madaniy yuksalishga bevosita ta’sir qilishini tasdiqlaydi. Ijtimoiy ongda inson qadri tamoyilini rivojlantirish jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlash, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash hamda ijtimoiy va madaniy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu tamoyil iqtisodiy va siyosiy sohalarda samarali islohotlar amalga oshirishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, inson qadri tamoyilini ijtimoiy ongda targ‘ib qilish jamiyatning kelajak rivoji va farovonligini kafolatlovchi asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson qadri tamoyiliga asoslangan jamiyatda ijtimoiy birlik, adolat va hamjihatlik kuchayadi, barqaror rivojlanish va ma’naviy yuksalish ta’minlanadi. Inson qadri tamoyili nafaqat individual farovonlikni, balki butun jamiyatning barqaror taraqqiyoti va kelajak avlodlar farovonligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shu sababli, ushbu tamoyilni ijtimoiy ongda mustahkamlash va targ‘ib qilish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim vazifa sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Weber M. Economy and Society. University of California Press. 1922. – P. 124.
2. Giddens A. Modernity and Self-Identity. Stanford University Press. 1991. -P.99.
3. Maslow A. A Theory of Human Motivation. Psychological Review. 1943. -P.87.
4. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals. Paris. 2015. – P. 145.
5. Jo‘raqulovich, S. J. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/urganch–*3.2023*, 19-21.
6. Alimova D. Insoniyat tarixi-g‘oya va mafkuralar tarixidan. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.– B.25.
7. United Nations. Universal Declaration of Human Rights. New York. 1948. –P.78.
8. Rogers C. On Becoming a Person. Houghton Mifflin. 1961. – P. 108.
9. Abdujabborov A. O‘zbekistonda turizmning zamonaviy tendensiyalari: ziyorat turizmi yo‘nalishi // Turizm: nazariya va amaliyot. – T., 2021. – B. 24.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Исаева Дилбар Абдукадировна
доктор философии по философским наукам наукам (PhD), доц. БГТУ.

ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ОБРАЗОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МЕДИАПРОСТРАНСТВЕ.

Аннотация: *В статье представлено философское и критическое исследование образования в условиях интенсивной информатизации современного общества. Анализируются как положительные, так и отрицательные последствия распространения систем и технологий электронного обучения. Рассматривая современное образование с точки зрения социальной справедливости, равенства и осмысленности, автор формулирует ключевые задачи, стоящие перед философией образования в современную цифровую эпоху. Автор приходит к выводу о необходимости дополнять электронные образовательные технологии традиционными образовательными практиками.*

Ключевые слова: *философия образования, модернизация, онлайн-обучение, книги, качество образования, университет, образовательная политика*

Isaeva Dilbar Abdukadirovna
falsafa fanlari doktori (PhD), BDTU dotsenti.

ZAMONAVIY MEDIAMAKONIDA TA'LIMNING FALSAFIY JIHATLARI.

Annotatsiya: *maqolada zamonaviy jamiyatni intensiv axborotlashtirish sharoitida ta'limni falsafiy va tanqidiy o'rganish keltirilgan. Yelektron ta'lim tizimlari va texnologiyalari tarqalishining ijobiy va salbiy oqibatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limni ijtimoiy adolat, tenglik va mazmunlilik nuqtai nazaridan ko'rib chiqib, muallif zamonaviy raqamli asrda ta'lim falsafasi oldida turgan asosiy vazifalarni shakllantiradi. Muallif yelektron ta'lim texnologiyalarini an'anaviy ta'lim amaliyoti bilan to'ldirish zarur degan xulosaga keladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim falsafasi, modernizatsiya, onlayn ta'lim, kitoblar, ta'lim sifati, universitet, ta'lim siyosati.*

Dilbar Abdukadirovna Isaeva
Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences (PhD), Associate Professor of BSTU.

PHILOSOPHICAL ASPECTS OF EDUCATION IN THE MODERN MEDIA SPACE.

Abstract: *The article presents a philosophical and critical study of education in the context of intensive informatization of modern society. Both positive and negative consequences of the spread of e-learning systems and technologies are analyzed. Considering modern education from the point of view of social justice, equality and meaningfulness, the author formulates the key tasks facing the philosophy of education in the modern digital age. The author comes to the conclusion that it is necessary to supplement electronic educational technologies with traditional educational practices.*

Keywords: *philosophy of education, modernization, online learning, books, quality of education, university, educational policy*

ВВЕДЕНИЕ

Сегодня образование стало конкурентоспособным предприятием. Университеты конкурируют за статус и рейтинг, а также в целом за финансирование. Таким образом, побеждает тот, у кого самый высокий показатель. Это относится как к преподавателям, так и к университетам. Мало кто из организаторов образовательного процесса задумывается о том, помогают ли и в какой степени новые критерии оценки эффективности образования повысить его качество. Но в погоне за рейтингом нельзя забывать о главной миссии университета. Многие экономисты, рассматривающие образование как форму производства, указывают на то, что продуктивность и рост наблюдается во всех сферах, за исключением одной: сферы образования. Какие способы повышения производительности труда предлагают экономисты в этой сфере? Например, использование онлайн-курсов. Вероятно, это основная угроза для образования. Интерактивные онлайн-курсы используют инструменты для мониторинга и оценки уровня обучения. Университет должен готовить профессионалов завтрашнего дня, следующее поколение специалистов, которые смогут проявлять государственную мудрость и принимать ответственные решения. Поэтому студентов

следует обучать не только сдаче тестов и письменных экзаменов, но и мышлению. Если раньше в университетах воспитывалась социальная элита, то сейчас многие студенты приходят в университеты не за знаниями, а за дипломами. Будущие преподаватели проходят подготовку по стандартизированному тесту. Это полезно для запоминания фактов, но не развивает привычки к самостоятельному мышлению. Студент должен не только знать, но и понимать. Между тем, вопросы теста чрезвычайно функциональны и ориентированы на количественные данные. На этот вопрос легко ответить, если знать, общее количество произведений Фараби, но количественного ответа на вопрос, кто такой Фараби и какую роль сыграла его философия в обществе, нет. Лекции должны стимулировать критическое мышление, они должны быть как проблемными, так и творческими, то есть, помимо критического анализа, помогать в поиске решения проблемы. Старая система проверки знаний студентов была жесткой. Экзамен представлял собой серьезный разговор о научных проблемах и требовало больших усилий. С другой стороны, такие моменты запоминались на всю жизнь. По мнению гуманитарного сообщества, именно новые медиа и интерактивные образовательные программы являются основными причинами ухудшения качества образования. В то время как школьники и студенты перестают читать книги и слушать авторские лекции, коллапс образования неизбежен. Учебники превращаются в комиксы, а лекции - в презентации. Перед любыми практическими изменениями стоит пофилософствовать о том, какое образование, какие университеты и, самое главное, какие образовательные технологии следует использовать сегодня. На наш взгляд, существует несколько актуальных проблем, касающихся феномена образования в цифровую эпоху. Во-первых, решение кризиса в образовании, при помощи обновления значимых практик обучения, основанных на личном взаимопонимании ученика и преподавателя. Во-вторых, обращение к структурам межличностного общения как фундаменту образовательной практики. В-третьих, провести философский и антропологический анализ человеческих чувств и настроений субъектов образовательного процесса, определяющих педагогическую атмосферу. В-четвёртых, реконструировать требования, предъявляемые электронными образовательными технологиями к субъектам образовательного процесса. Поскольку эти технологии приводят к потере рефлексивного опыта и формируют “клиповое сознание”, их необходимо будет дополнить герменевтическими техниками, способствующими пониманию смысла образования. В-пятых, эффективно развивать коммуникативные навыки, снижающие риск социальных конфликтов. Поскольку новые медиа открывают возможности для развития визуальных и эмоциональных способностей учащихся, они также препятствуют живому межличностному общению.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДЫ

С точки зрения методологии, исследования опираются на сравнительный анализ, контент-анализ и экспертную оценку. Эти подходы позволяют оценивать качество онлайн-образования, эффективность коммуникации с аудиторией и социально-экономическое влияние технологий. Литература подчёркивает, что современные образовательные технологии выступают как инструмент, требующий философского переосмысления учебного процесса. Рассматривая более широкую картину, затрагивая философские, культурные и экономические аспекты образования в цифровую эпоху, исследование предлагает осмыслить, положительные и отрицательные стороны цифровых технологий.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Воспроизводство потомства и забота о нем являются наиболее эффективной стратегией выживания и благополучия как в природе, так и в обществе. Образование - довольно дорогостоящий инструмент сохранения и передачи культурного наследия. Сегодня даже университеты ведущих экономик мира жалуются на нехватку финансовых средств, поскольку правительства не могут поддерживать их за счет налогоплательщиков, поскольку повышение налогов приведет к разочарованию населения.

Необходимость реформы образования определяется национальным правительством, которое несет финансовое бремя государственного образования. В свое время наука и образование были не только источником промышленной революции, но и средством развития и символами политической власти государств. Было ясно, что история, филология, философия сыграли важнейшую роль в формировании национальной идентичности, а роль философии в развитии современной системы образования весьма неоднозначна [1].

В погоне за новыми технологиями мы не должны отказываться от традиций, потому что они помогают определить, что следует сохранить в первозданном виде, несмотря на все процессы модернизации. На практике онлайн-занятия разрабатываются и внедряются не в соответствии с принципами либерального образования, а с использованием так называемых “административных рычагов воздействия”. В таких случаях заранее выбранный курс навязывается сверху и рекомендуется в качестве модели преподавания, которая не дает отдельному преподавателю никакой возможности для самореализации. Нам нужно изменить эту модель и убедиться, что учебные программы курсов включают в себя варианты, которые позволят учителям проявить свою креативность и индивидуальность. В этом случае уроки обеспечат больше поощрения и академической свободы.

Попытка подойти к реформированию образования с точки зрения “экономической эффективности” может быть объяснена не только финансовыми проблемами. Поскольку качественные методы в значительной степени субъективны, на практике качество образования оценивается с помощью количественных показателей. С точки зрения операционной эффективности университеты не могут конкурировать с конвейерным производством, которое позволяет увеличить выпуск продукции и сократить количество работников. Возможно, проблему можно решить, благодаря разработке онлайн-обучения, направленного сразу на несколько целей. Во-первых, это облегчит учебную нагрузку студентов; во-вторых, повысит доступность университетских курсов; и, наконец, повысит академическую мобильность. К негативным последствиям такого подхода можно отнести то, что конкуренция за рейтинги вынуждает многие университеты с низким уровнем финансирования экономить деньги в ущерб качеству своих образовательных услуг.

Таким образом, эффективность образования и рентабельность - две главные проблемы менеджеров в сфере образования. С одной стороны, около половины выпускников университетов не работают по выбранной специальности, а это означает, что система образования работает вхолостую. С другой стороны, люди с высшим образованием остаются ключевой движущей силой общества. Вот почему мы не можем сократить расходы, просто сократив количество университетов. Этот конфликт интересов должен быть обсужден со всеми заинтересованными сторонами – налогоплательщиками, студентами и их родителями, государственными чиновниками и другими заинтересованными сторонами. Все они имеют равные права. Таким образом, необходимо искать компромиссы, которые будут возможны, если мы найдем способ пойти на адекватные уступки, чтобы найти золотую середину для всех конфликтующих сторон.

Преподаватели и студенты в своих чаяниях солидарны. Во-первых, они хотят, чтобы уроки были интересными и полезными как для их личного, так и для профессионального развития. Во-вторых, они хотят, чтобы в университетах было больше персонала и учащихся. Наконец, и студенты, и преподаватели хотят больше денег и комфорта. Вполне понятно, что правительство, в свою очередь хочет сделать образование более рентабельным, сохраняя при этом его качество и доступность [2].

Модернизацию образования можно рассматривать как дополнение или замену традиционных “содержательных” методов обучения новыми интерактивными учебными программами. Современное образование существенно отличается от классического, которое основывалось на гуманитарных науках и, прежде всего, философии. Его основным предметом был учитель. Результат все зависело от их знаний и таланта преподавателя. В конце концов, образование - это не только приобретение информации, но и трансформация ученика. Экзистенциальная встреча с учителем радикально меняет жизнь ученика. Однако для того, чтобы дать совет по возникающим проблемам, преподаватель должен находиться в постоянном контакте с учеником, и беседа не должна сводиться к тестированию.

К сожалению, чтение лекций перестаёт быть основой обучения, и, как следствие, отпадает необходимость в талантливых преподавателях, которые вдохновляют студентов на решение фундаментальных проблем, имеющих социальное значение. Википедия превращает чтение лекций в невостребованную услугу.

Многие мыслители, писатели и художники в Европе и в Азии понимали задачу образования шире и глубже, чем политики. Например, Хамза, задумавший проект национального театра, целью которого было духовное изменение людей. Многие деятели национальной культуры считали своей задачей изменить мир с помощью книг, театра, музыки, живописи и кино. Если мы примем во внимание новые социальные технологии, то нам необходимо учитывать, что единство нации сегодня обеспечивается не только литературой и искусством, но и средствами массовой информации. На смену эстетам, художникам и критикам приходят арт-менеджеры и менеджеры культуры. Потребительский подход к культуре привел к развитию индустрии искусства и шоу-бизнеса. На самом деле, цель культуры - быть символической иммунной системой как для человека, так и для общества в целом.

Современная высокая культура переживает глобальный кризис, вызванный сменой средств массовой информации. Это, во-первых, закат книжной эры, вызванный новыми электронными и компьютерными технологиями, и, во-вторых, кризис гуманизма в целом и классического образования в частности [2]. Вслед за постиндустриальным сегодняшним днем мы вступаем в информационное и цифровое общество. Новые компьютерные технологии позволяют радикально модернизировать образовательный процесс, и эти возможности реализуются на наших глазах. Школьники и студенты читают меньше книг и получают больше информации в Интернете. К сожалению, подавляющее количество книг, хранящихся в библиотеках, также не используются. Именно поэтому было принято Постановление Президента Республики Узбекистан, от 15.01.2026 г. № ПП-9 «О мерах по развитию культуры чтения и повышению интереса к чтению книг среди населения».

Сегодня информации так много, что никто не может удержать ее “в голове”, поэтому универсальных ученых нет. Отсюда и создание автоматических процессоров, переводчиков, поисковых систем. Цифровые технологии вызывают негативную реакцию у ученых-гуманитариев. Они указывают на то, что таким образом мы теряем

понимание, креативность и другие высшие человеческие способности. Это вызвало всплеск исследовательского интереса к методикам и практикам классического образования. Не исключая необходимости их сохранения, стоит позитивно относиться к цифровизации и использованию цифровых и компьютерных технологий на благо человека. Очевидно, что они открывают возможности для просвещения масс. Экранная культура не обязательно ведет к новому варварству, она открывает широкий доступ к мировой культуре и, таким образом, способствует гуманизации, а не одичанию людей [1].

Информационное общество - это новый этап технологического развития, который затрагивает не только средства коммуникации, но и сопровождается глубокими антропологическими и социальными преобразованиями. Невозможно понять, как работают современные медиа, используя методы, которые сложились на основе книжной культуры. Новые технологии образовательного процесса формируют не только мышление, но и эмоциональные, волевые, ценностные акты сознания и даже психосоматические состояния. Это не только видеотехнологии и нейролингвистическое программирование, но и также всевозможные лекарства, которые подавляют одни и стимулируют другие аффекты и способности учащихся [3]. В образовании участвует обычный, здоровый ученик. Между тем, существует большое количество людей с ограниченными возможностями. Они могут быть включены в образовательный процесс благодаря цифровым технологиям. Успех новых генных технологий, работа над созданием искусственного интеллекта означают переход в постчеловеческую, постгуманистическую фазу развития человечества. Человек – продукт не только природы, но и технологии, с развитием цивилизации – искусственной и технической, социальной и символической реальности. Сегодня мы говорим о новой, неслыханной угрозе. Новые цифровые технологии опровергают прежние представления о человеческих качествах. Признавая недостатки как человеческой природы, так и социального организма, тем не менее, необходимо проверять последствия постгуманизма. Задача интеллектуалов - разработать и предложить обществу такие технологии воспитания и гуманизации людей, которые сделали бы ненужными способы манипулирования людьми, практикуемые в современном “управляемом обществе”. Молодые люди выбирают профессию с учетом будущих потребностей рынка труда, отсюда непрерывность образования и переподготовки [4]. Браки становятся более продолжительными, инвестиции в детей увеличиваются. Люди с юности беспокоятся о будущей пенсии. Забота о здоровье становится навязчивой идеей. Профилактика, медицинское обследование, раннее выявление болезни направлены на снижение рисков и увеличение продолжительности жизни. Все это говорит о том, что будущее становится очень актуальным для наших современников. Люди больше не живут одним днем, современный индивидуализм отягощен и ограничен временностью. Если раньше компании регулировали только рабочее время, то теперь свободное время приобрело и экономическую ценность. В то время как классовые противоречия уменьшаются, экзистенциальное напряжение растет. Проблем становится больше, а времени на их решение остается все меньше. Отсюда постоянные стрессы, переутомление, психические расстройства. Лень, беспечность, развлечения остались в прошлом. Им на смену пришли дисциплина, организованность, ответственность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В заключении отметим, что, несмотря на то, что существует огромное количество философских программ, а также конкретных образовательных методов и техник, методический анализ в философии образования по-прежнему широко не представлен. Для правильного решения проблемы образования необходимо избегать разительных различий между духом и природой, субъектом и объектом, телом и душевностью, человеком и животным. Хотя все эти различия, лежащие в основе нашего языка, не могут быть полностью устранены, все же это не исключает различных способов их применения в конкретной ситуации. Вероятно, нам следует жить в гармонии с природой, а также в гармонии с техникой. Цифровизация избавляет нас от утомительной работы и оставляет больше пространства для творчества. Необходимо понимать, что могут и чего не могут делать машины и компьютерные программы. Следовательно, рекомендация, вытекающая из наших рассуждений, состоит в том, чтобы реформировать образование таким образом, чтобы не тратить время на изучение того, на что способны машины, а учить тому, как использовать их в человеческих целях.

Список литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 15.01.2026 г. № ПП-9 «О мерах по развитию культуры чтения и повышению интереса к чтению книг среди населения». https://www.lex.uz/ru/docs/7997524

2. Athreya, B. H., & Mouza, C. (2017). Thinking skills for the digital generation. Springer International Publishing. https://doi.org/10.1007/978-3-319-12364-6

3. Imandoust, S. B. (2011). Relationship between education and social capital. International Journal of Humanities and Social Science, 1(12), 52-57.

4. Knox, J. (2016). Posthumanism and the MOOC: opening the subject of digital education. Studies in Philosophy of Education, 35(3), 305-320. https://doi.org/10.1007/s11217-016-9516-5

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Mamadaliyeva Husnora Baxodir qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti
E-mail: sarvarsaid@bk.ru

UDK: 093.474.1722

HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY-TASAVVUFIY QARASHLARIDA "VALOYAT" KONSEPSIYASI TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada IX asr islom falsafiy tafakkurining yirik namoyandasi, mutasavvif va mutafakkir Hakim Termiziyning falsafiy-tasavvufiy qarashlarida markaziy o'rin tutuvchi "valoyat" (avliyolik) konsepsiyasi har tomonlama tahlil qilinadi. Muallif Hakim Termiziyning asarlarida valoyat tushunchasining shakllanish manbalari, uning Qur'on va sunnat bilan aloqador jihatlari hamda tasavvufiy-falsafiy asoslarini yoritadi. Valoyatning nubuvvat (payg'ambarlik) bilan munosabati, ularning o'xshash va farqli jihatlari Hakim Termiziyning o'ziga xos qarashlari asosida tahlil etiladi. Maqolada Hakim Termiziyning valoyatni axloqiy kamolot, ma'naviy poklanish va ichki bilim (ma'rifat) bilan uzviy bog'liq holda talqin qilgani ko'rsatib beriladi.*

Mazkur tadqiqot Behbudiyning til to‘g‘risidagi konsepsiyasi jadidchilik mafkurasining muhim tarkibiy qismi ekanini ko‘rsatdi.[1,10]]Behbudiy tilni millatning hayotiy ehtiyoji, ma’naviy tayanchi va taraqqiyot omili sifatida baholagan. Uning qarashlari til va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asosda tushuntirishga xizmat qiladi. Behbudiyning adabiy til haqidagi g‘oyalari o‘zbek tilining rivojlanishida muhim bosqich bo‘lgan. U tilni soddalashtirish, xalq tiliga yaqinlashtirish va ijtimoiy faol qilish tarafdori bo‘lgan. Bu qarashlar bugungi til siyosati uchun ham muhim ahamiyatga ega.[6,8]]

Shuningdek, Behbudiyning til konsepsiyasi milliy ong va identitetni shakllantirish bilan bevosita bog‘liq. Til orqali millatni uyg‘otish, bilimli jamiyat yaratish va taraqqiyotga erishish mumkinligi haqidagi g‘oyalari bugungi globallashuv sharoitida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Umuman olganda, Behbudiyning til to‘g‘risidagi konsepsiyasi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy tilshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik tadqiqotlari uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov, B. (1993). Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish masalalari. O‘zbek tili va adabiyoti, 4, 3–9.
2. Karimov, N. (1997). Jadid publitsistikasida til va ma’rifat masalalari. O‘zbek tili va adabiyoti, 2, 15–22.
3. Mirvaliyev, S. (2001). O‘zbek adabiy tilining jadidchilik davridagi rivoji. Til va adabiyot ta’limi, 3, 5–12.
4. Yo‘ldoshev, M. (2004). Jadidlar va adabiy til muammosi. Filologiya masalalari, 1, 21–28.
5. Rasulov, A. (2008). Jadid publitsistikasida ijtimoiy diskurs. O‘zbek filologiyasi masalalari, 2, 33–40.
6. Abdurahmonov, G‘. (2010). Jadidchilik va milliy til taraqqiyoti. O‘zbek tili va adabiyoti, 6, 9–14.
7. Quronov, D. (2013). Milliy adabiyot va identitet muammolari. Adabiyotshunoslik, 1, 17–25.
8. Rahmonov, U. (2016). Til va milliy ong: jadidchilik tajribasi. Til va jamiyat, 2, 41–48.
9. Karimov, N. (2018). Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasining uslubiy xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti, 1, 24–31.
10. Qosimov, B. (2020). Jadidchilik merosi va zamonaviy talqinlar. O‘zbekiston tarixi, 3, 56–63.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Ibroximov Sarvar Mo‘ydinjon o‘g‘li
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

FUQAROLIK JAMIYATI G‘OYASINING TARAQQIYOTI: IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLAR VA YANGI KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

Annotatsiya: *Maqolada “Fuqarolik jamiyati” tushunchasi tarixiy yondashuvda muayyan davrlarning mafkuraviy va siyosiy xususiyatlariga mos keladigan turli xil ko’rinishlarni ifodalagan. Zamonaviy fuqarolik jamiyatini tushunish uchun fuqarolik jamiyati kontseptsiyasining turli tarixiy davrlarda, turli sharoit va davrlarda, jumladan, hozirgi davrdagi o’zgarishlarini kuzatish va ularni qiyosiy tahlil etish orqali zamonaviy bosqichni tasavvur etish muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so’zlar: *fuqarolik jamiyati, g’oya, fuqarolik jamiyatiga oid nazariyalar, fuqarolik jamiyatiga oid kontseptual g’oyalar, tarixiy davrlar,davlat, transformatsiya, zamonaviy fuqarolik jamiyati.*

Ibrokhimov Sarvar Muydinjon ugli
Associate Professor at Tashkent University of Economics and Technology,
Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences

THE DEVELOPMENT OF THE IDEA OF CIVIL SOCIETY: SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS AND NEW CONCEPTUAL APPROACHES

Annotation. *In the article, the concept of "Civil Society" in the historical approach expressed various forms corresponding to the ideological and political characteristics of certain periods. In order to understand the modern civil society, it is important to imagine the modern stage by observing the changes of the concept of civil society in different historical periods, in different conditions and periods, including the current period, and by comparing them.*

Key words: *civil society, idea, theories of civil society, conceptual ideas of civil society, historical periods, state, transformation, modern civil society*

Иброхимов Сарвар Муйдинжон угли
Доцент Ташкентского университета экономики и технологий, доктор философских наук

РАЗВИТИЕ ИДЕИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ И НОВЫЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация: *В статье понятие «гражданское общество» в историческом подходе выражало различные формы, соответствующие идейно-политическим особенностям определенных периодов. Для того чтобы понять современное гражданское общество, важно представить себе современный этап, наблюдая за изменениями понятия гражданского общества в разные исторические периоды, в разные условия и периоды, в том числе и текущий период, и сопоставляя их.*

Ключевые слова: *гражданское общество, идея, теории гражданского общества, концептуальные идеи гражданского общества, исторические периоды, государство, трансформация, современное гражданское общество.*

Kirish

Zamonaviy fuqarolik jamiyati ko'pchilik olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo’lib zamonaviy G'arb tsivilizatsiyasining mahsuli sifatida tushuniladi. Fuqarolik jamiyati rivojlanishini tahlil qilishning umumiy nazariyasi hozirgi kunda uning G'arbiy yondashuvi hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati odatda mutlaqlashtiriladi va o'ziga xos mavhum namunali kategoriya sifatida qaraladi.Lekin, aslida bu faqat ideal va har bir jamiyatda u odatda mental xususiyatga qarab amaliyotda qo’llaniladi. Globallashuv jarayoni G'arb sivilizatsiyasida paydo bo'lganligini inobatga olsak bu jarayonni umuminsoniy qadriyatlar sifatida qabul qilinishi va e’tirof etilishini da'vo qiladigan qadriyatlar to'plami sifatida qabul qilinadi. Fuqarolik jamiyati dunyoda liberal qadriyatlarni targ'ib qilish va tarqatishning muhim va juda samarali vositasidir. Fuqarolik jamiyati ikki tomonlama rol o’ynaydi. Fuqarolik jamiyati qadriyatlarining o’zi global miqyosda

targ‘ib qilinadigan “universal” qadriyatlardir. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati tuzilmalari ana shu umuminsoniy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish va targ‘ib qilishga o’zini hissasini salmoqli ravishda qo’shishdir. Xalqaro tashkilotlar erkinlik, inson huquqlari, tenglik va gender tengligiga erishish uchun bugungi kunda kurashmoqda. Ular umuminsoniy qadriyatlarni keng targ‘ib qiladi va shu orqali global jahon qadriyat postliberal makonni yarata oladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Fuqarolik jamiyatiga oid qarashlar qadim zamonlardan beri mutafakkir va tadqiqotchilar orasida mashhur bo'lib kelgan. Zamonaviy davrning o'ziga xos xususiyati uning amaliy yo'nalishidadir. XX-asrning oxiri - XXI-asrning boshlarida amaliy yo'nalishning dolzarbligi fuqarolik jamiyati kontseptsiyasi atrofidagi nazariy ishlanmalar sonidan ko’payib ketgan bo’lib ular ham dolzarbligi va ko'p qirraliligi bilan ajralib turishini alohida aytib o’tish mumkin bo’ladi.

Hozirgi atamalarning xilma-xilligi va fuqarolik jamiyatini tushunishda birlikning yo'qligi, uning "g'arbiy bo'lmagan" jamiyat, boshqa tarixiy, madaniy va qadriyatlarga ega bo'lgan jamiyat sharoitida shakllanishi va rivojlanishi darajasini va hatto rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilish. urf-odatlar, uning yangicha tahlilini va yo’nalishlarini qidirishni talab qiladi. Fuqarolik jamiyati sohasidagi turli nazariy ishlanmalarga bag'ishlangan ko'plab asarlar va fuqarolik jamiyati muammosini hal qiluvchi mutafakkirlar merosini batafsil o'rganishga qaramay, uning modellari va ulardagi farqlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega, bu bizga yordam beradi.

“Fuqarolik jamiyati” tushunchasiga ta’rif berish uchun uning tushunchalarining turli tarixiy davrlardagi o‘zgarishlarini bevosita kuzatish, uning muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish va qiyoslash zarur.

Davlat va shahar boshqaruvi. tarix davomida fuqarolik jamiyati tushunchasi o‘zgarib, har bir davrga, har bir jamiyatning alohida ehtiyojlari va talablariga moslashib bordi. Ijtimoiy rivojlanish jarayonida fuqarolik jamiyatining moslashuvi va uning ma'lum bir tarixiy davrda hukmron mafkura yoki uning davlat maqsad va vazifalari (utopik va statistik qarashlar, marksizm, absolyutizm, liberalizm, zamonaviy kommunikatsionizm va boshqalar) ostiga olinishi sodir bo'ldi. Aniq mafkuraviy yoki pragmatik maqsadlarga moslashgan deb qaraladigan fuqarolik jamiyatini tahlil qilish uning zamonaviy dunyoda, turli mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida rivojlanish imkoniyatlari, yo‘llari va istiqbollarini aniqlash imkonini beradi.

Bunday yondashuv shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan fuqarolik jamiyatining liberal modeli o'ziga xos turdagi yagona emas va fuqarolik jamiyati tushunchasi tarixiy talqinda turli xil variantlarga ega bo'lgan va fuqarolik jamiyatining turli yondashuvlarini ifodalagan. muayyan tarixiy davrlarning g'oyaviy-siyosiy xususiyatlari qamrab olgan.

Fuqarolik jamiyati tushunchasini tushunish, fuqarolik jamiyatining zamonaviy modellarini tahlil qilish va ayniqsa aniqlash uchun biz uchun fuqarolik jamiyatining tarixdagi eng ma’lum mashhur va nufuzli yondashuvlarini qidirib topish va aniqlash muhim ahamiyatga molik. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati tushunchasi va mohiyatining turli tarixiy davrlarda, turli sharoit va davrlarda transformatsiyasini kuzatish mumkin..

Fuqarolik jamiyati ko'pincha oldindan belgilangan va barqaror deb tushuniladi. Bu atamaning ham, fuqarolik jamiyati kontseptsiyasining ham o'zgarishi tarixidan ko'rinib turibdiki, u hech qachon ma'no jihatidan o'zgarmas bo'lmagan va har doim o'zgartirishga qodir bo'lgan. Fuqarolik jamiyatiga murojaat qadim zamonlardan beri ma'lum. Zamon, muhit va tarixiy sharoitlar har doim fuqarolik jamiyatini uning mavjudligining ma'lum bir tarixiy bosqichida tushunishni belgilab bergan. An'anaga ko'ra, tushunchaning boshlang'ich nuqtasi sifatida yo uning tarixdan oldingi tarixi, yoki yangi davrlarda J.Lokk, T.Gobbs va boshqalar tufayli shakllangan. Hatto bu klassik tushunchalar ham o‘zgarishsiz qolmadi va muhim o‘zgarishlarni boshdan kechirdi, modernizatsiya qilinib, o‘zgartirilib, muayyan vazifa va maqsadlarga, siyosiy va geosiyosiy ustuvorliklarga moslashdi.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanish tarixi uni tushunishning turli xil variantlarini namoyish etadi. Fuqarolik jamiyati rivojlanishida antik davrdan to hozirgi kungacha davom etgan fuqarolik jamiyatini tushunishlari bilan ajralib turadigan bir qancha davrlar mavjud edi.

Shuning uchun biz fuqarolik jamiyati rivojlanishida Gegel va Marksning [1] tarixiylik va bosqichma-bosqich tushunchasidan voz kecholmaymiz. Uning nazariy rivojlanish tarixi davomida fuqarolik jamiyatining bir necha dominant tushunchalari ajratilgan bular: idealizatsiya, statistik, liberal, davlat-oppozitsiya, institutsional, kommunikativlik, global o'zgarishlarga qaramay, hatto ilk davrlarning yondashuvlari bugungi kungacha saqlanib qolgan va ularning ahamiyati bugungi kunda ham mavjud.

Fuqarolik jamiyati rivojlanishining tarixdan oldingi davri ideallashtirilgan jamiyat kontseptsiyasi bilan bog'liq. Bu davrda fuqarolik jamiyatini tushunishning asosiy tendentsiyalaridan biri qandaydir “ideal jamiyat”, utopik va shunchaki “yaxshi jamiyat” qurish istagi bor edi. Fuqarolik jamiyatini tushunishga bo'lgan bunday ideallashtirilgan yondashuv hozirgi kungacha saqlanib qolgan va undan namunali va faraziy ideal sifatidagi zamonaviy tushuncha (odamlarning ancha muhim qismi tomonidan, asosan, huquqiy ma'noda) kelib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili

Antik davrda ular “fuqarolik jamiyati” atamasini bevosita ishlatmaganlar, unga juda yaqindan yondashganlar, bu esa fuqarolik jamiyati kontseptsiyasining tarixdan oldingi bosqichini vujudga keltirgan. Bu davrda siyosat davlat va fuqarolik jamiyatining ma'lum bir turi o'rtasida sub'ekt sifatida shakllandi, ular orasida hali hech qanday farq yo'q edi. Antik davrda dialog (Suqrot) fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi sifatida dunyoga keldi, uni yuritish usullari, muloqotning ahamiyati va zarurligi asoslari ishlab chiqildi. Aflotun o'zi uchun umumiy manfaat, adolat va boshqa fuqarolik fazilatlarining in'ikosi sifatida qabul qilingan ideal davlatni izlashga va uni batafsil tavsiflashga harakat qildi.

Aflotun fikricha, fuqarolik jamiyati faqat “siyosiy uyushgan jamiyat” sifatida vujudga keladi va mavjuddir. Tarixan fuqarolik jamiyati davlat bilan birga paydo bo‘ladi, na biri, na boshqasi alohida mavjud emas. Ular, albatta, bir-birini to‘ldirib, bir vaqtning o‘zida juda ziddiyatli yaxlitlikni tashkil qiladi.

Platonik nazariyani umuman tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyatining barcha muammolarini hal qilish Aflotun tomonidan nazariy jihatdan davlatning fuqarolik hayotining barcha sohalariga kirib borishi va umumiy davlat nazoratini amalga oshirish, fuqarolarning hayotini tartibga solish orqali amalga oshiriladi[2].

“Fuqarolik jamiyati” atamasi Aristotel davridan beri qo‘llanila boshlandi va “jamoa” degan ma’noni anglatadi. Aristotel polisning o'zini "uyushmalar birlashmasi" sifatida ko'rdi va u erkin fuqarolar uchun teng bo'lgan normalar va axloqlar to'plami, qonun ustuvorligi bilan ajralib turardi. Fuqarolik jamiyatining oxiri (telos) farovonlik deb qaraldi [3, p. 270–277]. Davlatning o'zi fuqarolar yig'indisi yoki fuqarolik jamiyati sifatida harakat qilgan. Unda umuminsoniy, davlat, shuningdek, umumiy manfaatlar tushunchasi hukmronlik qildi, uning manfaatlaridan oliy hokimiyat harakat qilishi kerak.

Konfutsiy hukmdorlar, amaldorlar, va oddiy xalqning o’zaro ijtimoiy munosabatlarini ezgulik va farovonlik asosida qurishga undaydi va ezgulik vositasida tartibga solishni qonun asosida boshqarishga qarshi qo’ygan. Uning fikricha, agar hukmdor xalqni qonun vositasida boshqarib, jazo yordamida mamlakatni tartib qilsa, xalq jazodan qochishga harakat qiladi va bundan or qilmaydi. Agar hukmdor xalqni ezgulik asosida boshqarsa va tartibni saqlasa, u xolda xalq hijolat bo’lib o’z kamchiliklarini tuzatadi[4]

Fuqarolik jamiyatini ideallashtirish kontseptsiyasi doirasidagi zamonaviy tushuncha, vaqt o'tishi bilan kontseptsiyaning sezilarli o'zgarishiga, fuqarolik jamiyatini tushunishga yangi yondashuvlarning paydo bo'lishiga qaramay, hozirgi kungacha saqlanib qoldi. Zamonaviy fuqarolar tushunchasida fuqarolik jamiyatini o'ziga xos ideal, to'g'ri va yaxshi narsa sifatida qabul qilish mavjud. Fuqarolik jamiyatini ideallashtirish jamiyatning orzu qilingan ideal varianti, jamiyatning demokratiyasi va ochiqligi bilan bog'liq. Yopiq jamiyat, totalitarizm va avtoritarizmga qarama-qarshi, qarama-qarshi va istisno sifatida tushuniladi. Fuqarolik jamiyatini nazorat qiluvchi davlat, unga qarshi turish va undan yuqori turish sifatidagi zamonaviy tushuncha har doim ham haqiqatga mos kelmaydi.

Fuqarolik jamiyati har doim ham davlat ustidan hukmronlik qilmagan, ular birlashgan, ba'zan hatto davlat ham ustuvorlikka ega bo'lgan, lekin ayni paytda fuqarolik jamiyatining ma'lum bir modeli mavjud edi. Bu shunchaki boshqacha, davr talablariga javob beradigan edi.

Fuqarolik jamiyatining klassik kontseptsiyalariga o'tish klassik davrda amalga oshirildi. Bu bosqichni erta klassik davr sifatida tavsiflash mumkin. Ko‘pchilik fuqarolik jamiyati kontseptsiyasini sanashni boshlagan asosiy klassik asarlar T.Gobbsning fuqarolik jamiyatining etatistik kontseptsiyasi va J.Lokk nazariyasi bo‘lib, ular haligacha davlat va fuqarolik jamiyati tushunchalarini to‘liq baham ko‘rmaydi. J.Lokk fuqarolik jamiyatiga ustuvor ahamiyat berdi, shunga qaramay, u davlat bilan birlashtirilib, xususiy va jamoat manfaatlariga o'xshashligi bilan ajralib turadi [5]. Fuqarolik jamiyatida mavjud bo'lgan fuqarolarning dushmanligini bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy shartnoma natijasida fuqarolik jamiyati va davlat ta'sirini chegaralash Charlz tomonidan amalga oshirildi. L. de Monteskye. Fuqarolik jamiyati fuqarolarning munosabatlarini, davlat esa insonning siyosiy huquqlari va siyosiy erkinliklarini tartibga solishga chaqiriladi. J.J Russo fuqarolik jamiyati davlat va "jamoat tashkiloti" tushunchalari bilan sinonimdir. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi odamlarning uyushmalari va birlashmalarini vujudga keltirdi.

Klassik davr fuqarolik jamiyati va davlatning bir-biridan ajralib turishi, davlatning jamiyat hayotiga aralashishini minimallashtirish, fuqarolik jamiyatini alohida ishtirokchi sifatida qabul qilish bilan ajralib turadi. Bu davr huquqiy davlat g‘oyasining shakllanishi, konstitutsiyaviy davlatning shakllanishi, fuqarolik jamiyatiga jiddiy e’tibor qaratilishi bilan ajralib turadi. E. Kant [6] yana ideallashtirishga murojaat qildi, u shaxs erkinligining boshqalar erkinligi bilan mos kelishini ta'minlaydigan va shu bilan tabiatning oliy maqsadiga erishadigan huquqiy fuqarolik jamiyati zarurligini asoslab berdi. U fuqarolik jamiyatini butun insoniyat uchun yaxshilik va umumiylikka asoslangan uy sifatida ideallashtirdi.

Marksizm namoyandalari fuqarolik jamiyatini o‘rganishga ham hissa qo‘shgan. Ularning davlati va fuqarolik jamiyati bir-biridan ajralgan va mustaqil ko'rinadi. K.Marks fuqarolik jamiyatini moddiy va ishlab chiqarish munosabatlari institutlarining siyosiy bo'lmagan tizimi, davlatga bo'lgan ehtiyojning yo'qolishi davrida yuzaga keladigan inqilobiy o'zgarishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi, deb tushundi. Kollektiv (mehnat faoliyati orqali o'zini o'zi tasdiqlaydigan va har tomonlama rivojlanadigan) fuqarolik jamiyatining asosidir. O'z-o'zini anglashga yordam beradigan shaxs, proletariat, guruhlar, uyushmalar va tashkilotlar muhim rol o'ynaydi. Fuqarolik jamiyatining vujudga kelishi jamiyatning tarixiy

rivojlanishining natijasidir. Xuddi G.Gegel kabi K.Marks ham fuqarolik jamiyatining alohida a’zolarining shaxsiy manfaatlarining xudbinligini ta’kidlagan [7, b. 404–405].

Xulosa

Fuqarolik jamiyati g‘oyasini rivojlantirishning zamonaviy davri uning nazariy ishlanmalarga emas, balki amaliy tadbiq etishga yo‘naltirilgan amaliy tadqiqotlarga e’tibor qaratilishi – uni mustahkamlash va kengroq yoyish bilan bog‘liq. Asosiy e'tibor fuqarolik jamiyati va uning tuzilmalarini qurish va rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilish, turli ijtimoiy-madaniy sharoitlarda (g'arblashuv, multikulturalizm, plyuralizm tushunchalarida) faoliyat ko'rsatish xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Zamonaviy fuqarolik jamiyatining sa'y-harakatlari antidemokratik jamiyatlarga qarshi kurashga (uning natijalari avtoritar postkommunistik va postsovet tuzumlariga qarshi kurashda ma'lum), global fuqarolik jamiyatini shakllantirishga va yanada kengroq tarqalishiga qaratilgan. Zamonaviy fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyati uning ekspansion rolida, demokratiya qadriyatlari va umumbashariy "universal" liberal G'arb qadriyatlarini "g'arbiy bo'lmagan" makonlarda faol tarqatish va targ'ib qilishda namoyon bo'ladi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rag'batlantirish bo'yicha ishlar xalqaro tashkilotlarning ustuvor yo'nalishi bo'lib, fuqarolik jamiyatini institutsional tushunish va uning tuzilmalari, asosan nodavlat tashkilotlari bilan identifikatsiyalash bilan bog'liq bo'lgan grant faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatining hozirgi bosqichi fuqarolik jamiyatini prinsipial jihatdan yangicha tushunish va uni tahlil qilishga o‘ziga xos yondashuvi bilan ajralib turadi, biroq ayni paytda, dastlabki bosqichlar unga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, davriy ravishda o‘zini namoyon qiladi. Shunday qilib, tarixdan oldingi ideallashtirilgan davrda ildiz otgan fuqarolik jamiyati hali ham ko'pchilik tomonidan ideal va mavhum namunali qurilish sifatida qabul qilinadi. Etatistik yondashuv, ayniqsa kuchli davlat mavqeiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun ham dolzarbdir, erta klassik davr bizga insonni himoya qilish qiymatini keltirdi. huquqlar va ularning ahamiyati xalqaro huquqiy hujjatlarda, O‘zbekiston Respublikasinining Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Zamonaviylik fuqarolik jamiyatining amaliy yo'nalishiga, uning qadriyatlarini kengaytirishni faollashtirishga, uni tushunish va talqin qilishda institutsional torayishga, global fuqarolik jamiyatining paydo bo'lishiga urg'u berdi. Fuqarolik jamiyatining roli har qachongidan ham oshdi va uning ta'siri ijobiy bo'lishi muhim. Fuqarolik jamiyatini talqin qilishning kengligi, unga turli xil yondashuvlardan qiziqish uni universal va keng qo'llaniladi va fuqarolik jamiyatining turli modellarining mavjudligi va hatto bir vaqtning o'zida birgalikda yashashi mumkinligi haqida gapiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Гегель Г.В.Ф. Философия права. М., 1990.

2. Мавлонов Ж. Гражданское общество: от концепта к концепциям и парадигмам (социально-философский анализ). Тошкент:Адабиёт учқунлари,2014, 19-20-бет

3.Утамуродов А. Фуқаролик жамияти ғоялари эволюцияси-Тошкент:Адабиёт учқунлари,2018, 12-бет

4.Чанышев А.Н. Курс лекций по древней философии. М., 1981. 374 с.

5. Локк Дж. Сочинения: В 3 т. – Т. 3. М.: Мысль, 1988. 668 с.

6. Кант И. Трактаты и статьи 1784–1796. Т. 1. М., 1994. 584 с.

7. Маркс К. К еврейскому вопросу // Маркс К., Энгельс Ф. Т. 1.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Royka Yekaterina Angelos
O‘zbekiston milliy universiteti “Falsafa” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi.
Email: roykayekaterina@gmail.com
Orcid ID: 0009-0000-4071-9413

ANRI BERGSON MATERIYA VA XOTIRA HAQIDA.

Annotatsiya: *Maqola mashhur fransuz faylasufi, intuitiv falsafaning asoschisi Anri Bergson ijodida ko‘tarilgan qiziqarli muammoni o‘rganishga bag‘ishlangan. Anri Bergson falsafasida materializm va idealizm chegaralari yengib o‘tilib, panteistik ruhiyatga asoslangan yondashuv shakllangan. U ongni miyaning mahsuli emas, murakkab ruhiy va moddiy jarayonlarning uyg‘unligi sifatida tushunadi va xotirani mexanik hamda spontan (obrazli) turga ajratadi. Ushbu xotiralar ijodiy jarayonda muhim rol o‘ynaydi va maqolada tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Materiya, timsol, ruhiy faoliyat, ong, ongsiz jarayon, mexanik xotira, spontan – obrazli xotira, intuitsiya, kuch maydoni, xotira kuch oqimi sifatida.*

Ройка Екатерина Анджелос
независимый исследователь, кафедра «Философия», Национальный университет Узбекистана.

АНРИ БЕРГСОН О МАТЕРИИ И ПАМЯТИ

Аннотация: *Статья посвящена изучению интересной проблемы, поднятой в творчестве известного французского философа, основателя интуитивной философии Анри Бергсона. В философии Анри Бергсона преодолены границы материализма и идеализма, сформирован подход, основанный на пантеистическом понимании духовного. Он рассматривает сознание не как продукт мозга, а как результат гармоничного взаимодействия сложных психических и материальных процессов, разделяя память на механическую и спонтанно-образную. Эти виды памяти играют важную роль в творческом процессе и анализируются в статье.*

Ключевые слова: *материя, образ, психическая деятельность, сознание, бессознательный процесс, механическая память, спонтанно-образная память, интуиция, поле силы, поток силы памяти.*

Yekaterina Angelos Royka
Independent Researcher, Department of Philosophy, National University of Uzbekistan.

HENRI BERGSON ON MATTER AND MEMORY

Annotation: *The article is devoted to the study of an intriguing problem raised in the works of the renowned French philosopher and founder of intuitive philosophy, Henri Bergson. In Bergson’s philosophy, the boundaries between materialism and idealism are transcended, forming an approach based on a pantheistic understanding of the spiritual. He considers consciousness not as a product of the brain, but as the result of the harmonious interaction of complex mental and material processes, and distinguishes memory into mechanical and spontaneous (imaginary) types. These forms of memory play a significant role in the creative process and are analyzed in the article.*

Keywords: *matter, image, mental activity, consciousness, unconscious process, mechanical memory, spontaneous–imaginary memory, intuition, field of force, memory as a flow of force.*

KIRISH

XX asr falsafiy fikrida inson ongi va uning tabiati masalasi doimiy ravishda eng jiddiy va murakkab masalalardan biri bo‘lib kelgan. Bu kontekstda, mashhur fransuz filosofi va intuitiv filosofiya asoschisi Anri Bergsonning ijodi alohida ahamiyatga ega. U o‘z qarashlarida materializm va idealizm an’anaviy chegaralarini bekor qilib, ruhiy va moddiy voqeliklarning birligiga asoslangan panteistik yondoshuvni taklif qilgan. Bergsonning asosiy fikrlaridan biri – ongning miyaning mexanik mahsulidan tashqari, murakkab ruhiy va moddiy jarayonlar oqimi natijasida yuzaga kelishi. Bu qarash falsafiy ma’noda inson tajribasining ichki tuzilishi va uning yaratuvchanlik qobiliyatini chuqurroq tushunish imkonini

beradi. Uning xotira haqidagi nazariyasi, ya'ni xotirani **mexanik** va **spontan – obrazli** turlarga ajratishi, ijodiy jarayonda insonning tasavvur va fikrlov qobiliyatining markaziy ahamiyatini ochib beradi.

"Materiya va xotira" mavzusini o'rganish nafaqat inson ongi va uning ma'naviy tuzilishi haqidagi ilmiy mulohazalarni boyitadi, balki zamonaviy fan va pedagogikada, psixologiya va estetika sohalarida amaliy ahamiyatga ega. Bu maqola Bergsonning nazariy qarashlarini tahlil qilib, ong va xotiraning ijodiy jarayondagi o'rnini falsafiy nuqtai nazardan ochib berishga qaratilgan. Materiya – obrazning xotira bilan bog'liqligi muammosi A.Bergson "Hayot falsafasi"ning o'q ildizini tashkil etadi". Bergson uchun materiya va ruh bir-biri bilan qorishib ketgan. Miya va ong bir-biri bilan uzviy bog'liq fenomenlardir. Inson ongidan tashqarida mavjud bo'lgan olam narsa-ashyolar olamini biz bilib olishga qodir emasmiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI.

Bergsonning "Materiya va xotira" asari falsafa olamida muhim o'rin tutadi, chunki u materializm va idealizm chegaralarini yengib o'tib, ong va xotiraning murakkab ruhiy-moddiy tabiatini o'rganishga yangi yo'nalish ochadi. Asarda ishlatilgan metodologiya nazariy falsafiy tahlilga asoslangan bo'lib, unda xotira tushunchasining ikki turga – mexanik va spontan (obrazli) – ajratilishi ijodiy jarayonning mohiyatini tushunishda markaziy ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi.

Bergsonning ishlari bilan tanishgan tadqiqotchilar bir ovozdan uning metodini fenomenologik va intuitiv uslublar bilan bog'lashadi. U materiya va ong o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, xotiraning ijodiy jarayondagi faoliyatini va insonning ruhiy tajribasini sistematik tarzda izohlashga harakat qiladi. Shu bois, maqolada adabiyotlar tahlili shundan iboratki, Bergsonning falsafiy g'oyalari nafaqat psixologiya va epistemologiya sohalariga, balki san'at va estetikaga ham qo'llaniladigan metodlarni shakllantiradi. Shuningdek, ilmiy manbalarni tahlil qilishda asarlarning tarixiy konteksti va Bergsonning falsafiy an'analardagi o'rni hisobga olinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida komparativ va analitik yondashuvlar ishlatiladi: material va ruh, mexanik va spontan xotira, ong va ongsiz jarayon o'rtasidagi munosabatlar o'rganiladi. Bu metodlar orqali Berjsonning konseptual tizimi chuqurroq tahlil qilinadi va uning ijodiy jarayondagi amaliy ahamiyati ochib beriladi. Bergsonning metodologiyasi falsafiy tafakkur va ilmiy tadqiqotlarda ong va xotira masalasini o'rganish uchun dolzarb vosita hisoblanadi. Uning intuitiv yondashuvi zamonaviy falsafa va psixologiyaning rivojlanishida, shuningdek, ijodiy jarayonni chuqur tushunishda asosiy metodologik baza vazifasini bajaradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

A.Bergsonning falsafiy ta'limotida inson ongining asosini xotira tashkil etadi. Mexanik xotira insonning amaliy faoliyati bilan bog'liqdir. Spontan obrazli xotira esa, inson ong ostidagi ruhiy holat va tasavvurlar bilan bog'liqdir. Spontan obrazli xotira intuitsiyani tashkil etadi va uni Bergson qalbdagi bilim deb hisoblaydi. Bu bilim konkret aniq tusga ega bo'lmay umumiy simvolik shaklda namoyon bo'ladi. A.Bergsonning ijodida inson borlig'iga berilgan ruhiy tahlil XX-asrning o'rtalarida K.Yungning analitik psixologiyasida davom ettirildi. A.Bergson va K.Yungda inson ruhiy mavjudot sifatida tahlil qilinadi va uning ong ostidagi ruhiy holat kuchlariga e'tibor qaratilganligiga guvoh bo'lamiz.

Anri Bergson o'zining "Materiya va xotira" asarida materiyani obraz, xotirani esa ideal jarayon sifatida talqin qiladi. Bu asarning kirish qismida u an'anaviy idealistik va materialistik falsafada uchraydigan "materiya" tushunchasining tahlilini tanqid qiladi va o'z asarida bu tushunchani o'zgacha dunyoqarash nuqtai nazaridan talqin etishni maqsad qilib qo'yadi. Materialistlar "materiya" tushunchasini ongdan farq qiluvchi ob'ektiv reallik deb tushuntiradilar. Bu reallik ongimizda aks ettiriladi. Idealistlar esa "materiya"ni mutlaq ruhning mahsuli, deb uqtiradilar. Ularning fikricha, materiya ruhiy jarayonlardan tashqarida alohida mavjud emas. A.Bergson tomonidan materiyaga berilgan ta'rif yuqorida aytib o'tilgan idealistik va materialistik qarashlardan tubdan farq qiladi. Uning qarashlarida materiya va ruh yagona borliq sifatida berilgan. Ular bir-biri bilan bog'liq tarzda mavjuddir. Ruh moddiylashadi, materiya esa ruhiy jihatdan jonlanadi. Bu fikrni tasdiqlash uchun A.Bergson tabiiy fanlardan juda ko'p dalillar keltiradi. Ong va miya, moddiy va ruhiy, psixik va fizik jarayonlar – ikki qator bir-biridan alohida mustaqil bo'lgan hodisalar bo'lib, ular bir-birini kesib o'tadilar, lekin bir-biridan kelib chiqmaydi. Ong miyaning mahsuli emas, psixik jarayonlar esa, fiziologik jarayonlardan kelib chiqmaydi. Ong va miya bir-biriga mukammal ravishda moslashgandir, ular bir-biri bilan munosabatda bo'lsa ham biri ikkinchisiga sabab bo'la olmaydi.

Antik falsafada ong va miya masalasi jon va tana o'rtasidagi munosabat xotiradek murakkab bir mexanizmning tahlili sifatida berilgan. A.Bergson tana va xotiradagi bir qator ideal obrazlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilib chiqadi. U moddiy olamni bir qator obrazlar, ongni ham shunday obrazlardan biri, deb hisoblaydi. Lekin ong o'zi ham obraz bo'la turib, cheksiz bir qator obrazlarni o'ziga sig'dira olarmikan? Agar moddiy va ruhiy olam o'rtasida o'tib bo'lmas to'siq bo'lganda, ong moddiy olamni bila olmagan bo'lar edi. Demak, ong ideal obraz bo'la turib, boshqa barcha obrazlarning imkoniyatlariga egadir. A.Bergsonning fikricha, materialistlar uchun butun olam obrazlar tizimi bo'lib, undagi barcha obrazlar sabab va oqibat aloqadorligiga mansubdir. Ong esa boshqa obrazlar tizimida markaziy o'rin egallaydi. Materializm moddiy olamni birlamchi deb hisoblaydi, idealizm esa ikkinchi qator obrazlarni, ya'ni ruh va ongni birlamchi deb hisoblaydi. Bergson quyidagi fikrga tanqidiy yondashgan holda, "tasavvur nazariy tusga ega bo'lib, sof nazariy bilimdir" [1.6-b], – degan fikrga tanqidiy yondashadi.

A.Bergson miyadagi neyrofiziologik jarayonlarni o‘rganib chiqib, tasavvurning miyada joylashgan markazlari hech qanday bilish vazifasini bajarmasligini isbotlab beradi. Uning yozishicha, “bosh miyaning asosiy vazifasi telefon stansiyasining markazidan javob qaytarish jarayoniga o‘xshashdir. Shunday qilib, bosh miyaning “asosiy vazifasi bu inson organizmi va tashqi muhit o‘rtasidagi aloqalarni boshqarishdir” [1.7-b]. Tashqi muhitni aks ettirish ongli tusga ega bo‘lib ko‘rinadi. A.Bergson aslida shunday ekanmikan? – degan savol qo‘yadi. Bergsonning fikricha his qilish, sezish jarayoniga xotira mexanizmi aralashadi va bu jarayonga ong tus beradi. Xotira mexanizmi his qilish, tasavvur qilish jarayoniga o‘tmishda bo‘lib o‘tgan xotiralardan ancha qismini qo‘shadi va bu xotiralar bilan boyitilgan tasavvur murakkab ongli jarayonga aylanadi. Hech qanday his qilish, tasavvur etish qobiliyati xotirasiz bo‘lmaydi. Bizning tasavvurimizda moddiy ob’ektlarning inson faoliyatida muhim bo‘lgan tomonlari, xossalari aks ettiriladi va faoliyatimiz jarayonida o‘zlashtiriladi. Moddiy ob’ektlarning faoliyatimizdan tashqaridagi ichki mohiyati qanday ekanligini bila olmaymiz, deb yozadi A.Bergson.

Demak, biz ob’ektlarning ichki mohiyatini bila olmaymiz, faqat ular bilan aloqada bo‘lganimizdagina ularning bir qism xususiyatlari va ayrim tomonlarini bilishimiz mumkin. Buni biz stakandagi suvga qo‘yilgan qalamning singanligiga o‘xshatishimiz mumkin. Aslida qalam singan bo‘lmay, u bizga shunday ko‘rinadi. Shunday qilib, moddiy ob’ektlar yoki obrazlar tasavvurlarimizda o‘zlarining asl holatlarida namoyon bo‘lmaydi. A.Bergsonning fikricha, tasavvurlarimiz asab sistemasining faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Agar asab to‘qimalarining bir qismi shikastlansa, ular bilan bog‘liq tasavvurlarimiz yo‘qoladi. Lekin bu tasavvurlar bizning nerv faoliyatimizning mahsuli, degani emas. Tasavvur ob’ekt va sub’ekt o‘rtasidagi ko‘prikdir. Sub’ekt tashqi olamni tasavvurlari orqali aks ettiradi va tasavvurlar aktiv faoliyatga undaydi. Bergson xotira mexanizmi tasavvurlardan tubdan farq qiladi, deb hisoblaydi. Xotira tasavvurlarning oddiy yig‘indisi yoki uyushmasidan iborat emas. Xotirada shunday bir ruhiy kuch borki, bu kuch xotirani materiyadan farq qilishiga sabab bo‘ladi. Idealistlarning asosiy xatosi, A.Bergsonning fikricha, materiyani ob’ektiv reallik sifatida inkor qilinishidadir. Materialistlarning xatosi esa ongni miyaning mahsuli, deb hisoblashlaridadir. Xotiraning fenomenligi shundan iboratki, u miya bilan bog‘liqligiga qaramasdan, miyaning mahsuli emas. Aynan xotirada ruhning mavjudligi namoyon bo‘ladi. “Shunday qilib, agar ruh real mavjud bo‘lsa, xotira jarayonlarida biz uni mavjudligini his qilishimiz mumkin” [1.18-b].

“A.Bergson ikki toifadagi xotirani bir-biridan farqlaydi. Biri konkret timsollarga asoslangan bo‘lsa, ikkinchisi abstrakt mexanik xotiradir” [5.159-b]. Timsollarga asoslangan xotira ob’ektni yaxlitligicha tasavvur etadi. Bunday xotira ob’ektni qismlarga bo‘lmaydi, aksincha, uni yaxlitligicha aks ettiradi. Spontan – obrazli xotira asab tizimining motor funksiyasi bilan bog‘liq emas, tasavvur va xayol bilan bog‘liq, u ong osti bilan aloqadadir. Mexanik xotira harakat, qayta-qayta takrorlash va yodlash bilan bog‘liqdir, deydi. Bu mexanik xotira esa spontan xotiraning faoliyatiga xalaqit berib, uni to‘xtatib qo‘yishga harakat qiladi. Spontan xotira borgan sari ong osti qatlamiga ko‘cha boshlaydi. Xotirani kuchaytirish borasidagi barcha usullar ong ostida yashiringan obrazli xotirani kuchaytirish borasida A.Bergson quyidagi fikrni keltiradi: “Mexanik xotira borgan sari obrazli xotirani ong ostiga siqib chiqaradi, lekin bizning tasavvurimiz va u bilan bog‘liq bo‘lgan harakatimiz o‘rtasida paydo bo‘ladigan daqiqalarda spontan xotira ong ostidan ko‘tarilib o‘zini namoyon etadi” [1.24-b]. Ta’sirlanish mexanizmi miyaning qatlamlari va markazlarida joylashmagan, aksincha, u asab sistemasining faoliyati bilan bog‘liqdir. Moddiy narsalarning obrazlari markazga harakat qiluvchi nerv tolalari orqali bosh miyaga yetib boradi va bosh miyadan, ya’ni markazdan qochuvchi nerv tolalari orqali bu timsol insonning sezgi organlariga qaytib boradi. Shunday qilib, ta’sirlanish doirasi ikkinchi ta’sirlanish doirasiga qo‘shiladi va ular ta’sirlanish maydonini tashkil qiladi. Bu ta’sirlanish maydoni eslashni tashkil etadi. Xotiraning eslash elementi bir qator ta’sirlanish doiralari bilan bog‘liqdir. Shunday qilib, xotira miya faoliyatining mahsuli emas, u murakkab ideal jarayondir. Bu jarayon asab sistemasining faoliyati bilan ta’sirlanish maydoni orqali bog‘liqdir. Uinslou va Ribo singari mashhur psixiatorlarning tadqiqotlarini tahlil qilib, Bergson xotiradan so‘zlarni muayyan tartibda yo‘qolishini ko‘rsatadi. Birinchi ega so‘zlar, keyin esa kesim va fe’llar yo‘qoladi. A.Bergsonning fikricha, so‘zlarni xotiradan muayyan tartibda yo‘qolishi, xotira va ongning oqim sifatida miya faoliyati bilan bog‘liqligini va ong oqimi miyaning mahsuli emasligini isbotlaydi. Aks holda miyaning ma’lum nerv tolalari ishdan chiqishi yoki zararlanishi lozim edi, aslida esa bunday emas. “Ikkala holatda ham miyadagi ta’sirlanish markazlari muayayan bir holatda zararlanishi va yo‘qolishi kerak edi, lekin aslida bunday holat kuzatilmaydi” [1.31-b]. Tovush orqali ifoda etiladigan so‘zlarni odamlar tomonidan tushunishni A.Bergson suhbat davomida odamlar o‘rtasida ong oqimlarining almashinuvi jarayoni, deb tushunadi. Bergson ong oqimini ideal jarayon deb hisoblaydi. Bu jarayon o‘zining tovushlardan iborat bo‘lgan moddiy karkasiga ega. “Ta’sirlanish haqida gap ketganda, ko‘pchilik uni xilma-xil hissiyotlar yig‘indisi, deb hisoblab, uning yadrosini tashkil etuvchi ta’sirlanish obrazlariga e’tibor berishmaydi” [1.34-b]. Assotsianizm ta’sirlanish ortida yotgan eslash va ideal obrazlarni ko‘rmaydi. Oxirgi ikkita narsa, ya’ni eslash va ideal obrazlar assotsianizm tomonidan ta’sirlanishdan farq qilmaydigan narsa deb hisoblanadi. Shunday qilib, psixik hayot faqat hissiyot va obrazdan iborat, deb hisoblanadi. A.Bergsonning fikricha, ko‘pgina psixologlarning xatosi eslash va ta’sirlanishni bir-biridan ajratmaslikdadir. Ta’sirlanishning tabiati eslash jarayonining tabiatidan tubdan farq qiladi. Eslash, aslida, bu ideal obraz bo‘lib, u hech qanday miyaning moddiy faoliyati bilan bog‘liq emas. Eslash jarayonlari miyadagi jarayonlarga nisbatan simmetrik holatda joylashgan, lekin eslash jarayonlari miyaning faoliyatidan kelib chiqmaydi.

“Hissiyotlar o‘lchamga ega, ular harakat manbaini tashkil etadi, eslash yoki xotirlash esa o‘lchamga ega emas, ular harakatsiz bo‘lib, hissiyotlarga aloqador emas” [1.35-b]. “Men o‘zimning hozirgi holatim va harakatimni kelajakka qaratilgan munosabat, deb hisoblayman. Kelajakni esa hozirgi daqiqada sodir bo‘layotgan harakat deb tushunaman” [1.36-b]. Ongsiz tasavvurning g‘oyasi odamlarning oddiy fikr yuritish va tasavvurlariga nihoyatda yaqindir. Ko‘pchilikning fikricha, hissiyotlarimizdagi ta’sirlanishlar va tasavvurlar butun moddiy olamni aks ettirmaydi. Moddiy narsalarning timsollari insonning ong ostidagi xotirlash, eslash obrazlari orqali ifoda etiladi. “Bizning fikrimizcha, bir-biridan tubdan farq qiluvchi xotira mavjuddir. Birinchisi, ya’ni mexanik xotira insonning moddiy ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularni qondirishga qaratilgan. Ikkinchi xotira turi esa moddiy ehtiyojlar bilan bog‘liq emas. U ong ostida yashiringan ideal jarayondir” [2.38-b]. Insonning boshidan kechirgan barcha holatlari saqlanadi. Bu holatlarning o‘zaro aloqalari yagona bir borliqni tashkil etadi. Bu yagona borliqda esa o‘tmish, hozirgi zamon va kelajak yagona bir davomiylikni tashkil etadi. Agar ong ostidagi spontan xotirada o‘tmish hozirgi zamon va kelajak birlashsa, demak, o‘tmishga tegishli bo‘lgan mexanik xotira ham spontan xotira bilan bevosita aloqadadir. Bizning tanamiz va uning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mexanik xotira hozirgi zamon va o‘tmishdagi timsollarni o‘z ichiga oladi. O‘tmishdagi tasavvurlar insonning moddiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, unga ta’sir etgan shart-sharoitlarga javob beruvchi reaksiyadir. Bu reaksiya yoki ta’sirlanish insonning sensamotor faoliyati bilan bog‘liq. Sensamotor faoliyat va undan kelib chiqadigan ta’sirlanish orqali ong ostida yashiringan xotira mexanizmi moddiylashadi va yuzaga chiqadi.

Umumiy tushunchalar, umumiylikni tushunish inson ongining faoliyatidan kelib chiqadi. Bu uning yutug‘idir. Konkret vaqt va makonga xos bo‘lgan ayrim xususiyatlar bizning obrazli xotiramiz va umumiy g‘oyani o‘chiradi. Lekin ayrim narsalarning o‘xshashligini anglab yetish insonning obrazli xotirasini yana qaytadan tiklanishiga sabab bo‘ladi.

Aql va xotiraning birlashgan faoliyati natijasida ongimizda ayrim va umumiy narsalar haqidagi g‘oyalar shakllanadi. Azaldan bu umumiy g‘oya bizning sensamotor faoliyatimizni real voqelikka qaratilgan harakatidan kelib chiqqan edi. Bu harakat natijasida ta’sirlanishda paydo bo‘lgan obrazlarni anglab yetish uchun umumiy g‘oya hizmat qilar edi. Ayrim narsalarni anglab yetish jarayonidan inson tafakkuri yuqoriroq bosqichda ayrim narsalarning o‘xshash tomonlarini ajratish va aks ettirishga erishadi. Bu o‘xshashlikni anglash esa umumiy tushunchalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Tafakkur hissiyotlar orqali ayrim narsalarning xususiy tomonlarini anglab, ularni umumlashtirib, tushunchalar qolipiga soladi va bu tushunchalarni til orqali ifoda etdi. Taxminimizcha, insonning harakati va obrazli fikr yuritishi o‘rtasidagi masofani faqat ruh bosib o‘tishi mumkin. Insonning harakatida ham, uning spontan obrazli xotirasida ham ruhiy faoliyatni ko‘rishimiz mumkin. Ruh, ruhiy kuch insonni faol harakatga undaydi. Lekin bu harakatni qanday shaklda sodir bo‘lishi yashaydigan moddiy shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi.

Ilmiy tafakkur sohasida esa ruhiy faoliyat insonga katta erkinlik beradi. Uni tasavvur va xayollar dunyosiga olib kiradi va bu dunyodagi xayoliy tasavvurlarni o‘z navbatida moddiy imkoniyatlardan kelib chiqib amalga oshirishga harakat qiladi. Inson o‘zining ruhiy kuchi orqali fikrlarni moddiylashtira oladi, mehnati orqali esa orzu va xayollaridagi narsalarni amalga oshirib, moddiy borliqni o‘zgartirishi mumkin. Bizning xatti-harakatlarimiz, amaliy faoliyatimizning barcha ko‘rinishlari, ongimizdagi barcha fikrlarimiz aslida ruhning faoliyati va harakatidan kelib chiqadi. Demak, inson faoliyatini ham, fikr yuritishni ham ideal jarayon boshqaradi. “Ruhiy faoliyat inson hayoti davomida yig‘ilgan taasurotlar, hissiyotlar va bilimlar majmuasidan ko‘ra murakkabroq jarayondir” [1.40-b], – deydi Bergson. Hayotimizdagi barcha ruhiy kechinmalarning markazida ruh tushunchasi yotadi. Endi asab sistemasning tuzilishi va tarkibiga nazar tashlaylik. Bizning bu sohadagi bilimlarimiz fiziologiya fanining yutuqlariga asoslangandir. Bu fanning tadqiqotlari va izlanishlari e’tiborimiz markaziga asab sistemasidagi faol va passiv holatdagi asab turkumlarining va bosh miyadagi asab markazlarini ko‘rsatadi.

Lekin bu fanlarning tadqiqotlarida ruhning mavjud yoki mavjud emasligi masalasi qo‘yilmaydi. Nerv sistemasining markazida reflektor faoliyat tushunchalari yotadi va uning vazifasi ehtiyojlar faoliyatidagi hissiyotlarimiz o‘rnini aniqlashdir. Sodda qilib aytganda, inson tanasida hissiyotlarga javoban asab to‘qimalari va markazlari orqali faol harakatni yuzaga keltirish. Demak, tana his qiladi va bu hissiyotlarga taalluqli bo‘lgan harakatni yuzaga keltiradi.

Nerv to‘qimalarining va markazlarining faoliyati shu qadar mukammalki, ular inson tanasidagi barcha jismlarning mutanosib faoliyatida harakat qilishga imkon yaratadi va asab sistemasining sensamotor faoliyati orqali tananing barcha moddiy ehtiyojlarini ta’minlaydi. Agar bu faoliyat zaiflashsa, insondagi hayotiy kuch so‘nadi. Bu sensamotor faoliyatining zaiflashishi ong osti holatiga o‘tishiga sabab bo‘ladi. Bu holatda inson o‘zining moddiy va asab sistemasining sensamotor faoliyatidan begonalashib qoladi. Neyrofiziologiya fanining oxirgi tadqiqotlariga binoan asab sistemasi sensamotor faoliyatining zaiflashishi va miyadagi ayrim markazlar o‘rtasidagi aloqalarning uzilishi natijasida uyqu holati yuzaga kelar ekan. Demak, uyqu holati ham inson organizmidagi asab sistemasi sensamotor faoliyatining zaiflashishi natijasida yuzaga keladigan ruhiy holatdir. Kun davomida asab to‘qimalarida ishlab chiqariladigan toksinlar qonga o‘tadi va kechasi asab sistemasi faoliyatining zaiflashishiga olib keladi. Asab sistemasining bunday zaiflashishi esa uyquga sabab bo‘ladi.

Lekin uyqu holatidagi ko‘pchilik tushlarimiz aqldan ozgan odamning xayollariga o‘xshab ketadi. Uyqu holati aqldan ozish holatlariga shu qadar o‘xshaydiki, oxirgi yillardagi tadqiqotlarga binoan aqldan ozishning asosiy sababini ham xuddi

uyquga o‘xshab miya faoliyatining zaiflashishi va asab to‘qimalarida ko‘p miqdorda toksinlarning ishlab chiqilishi deb hisoblaydilar. Ma’lumki, inson organizmidagi yuqumli kasalliklar va ularning ta’siri natijasida miya faoliyatining shikastlanishi ko‘pincha aqldan ozishning har xil holatlariga sabab bo‘ladi. Tananing asosiy vazifasi faol harakat bo‘lib, bu harakat natijasida ruhdagi ongsizlik holatlari va ayrim boshqa ruhiy holatlar e’tibordan chetda qoladi va ruhning bu faoliyati zaiflashib qoladi. Harakatga nisbatan ruh faoliyati faqat erkin tanlash huquqi bo‘lib ko‘rinadi.

Bunday ruhiy faoliyat ko‘proq insonning erkin ruhiy tanlashi, deb tushuniladi. Insonning tafakkuri bilan ruhiy holati bir-biridan ajratiladi. “Tafakkurimizning asosida ta’sirlanishlar, hissiyotlar yotadi va ular tanamizning moddiy ehtiyojlariga qaratilgandir. Inson tanasi va uning ehtiyojlari xotira xazinasidagi barcha imkoniyatlarni ishlatmaydi” [1.44-b], – deydi A.Bergson. Xotiraning faqat ayrim qismigina, xususan, jismning moddiy ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan xotiralargina ong osti zahirasidan yuzaga chiqadi va inson ongida ongli ravishda ishlatiladi. Hayvonlar o‘z faoliyatini faqat instikt orqali amalga oshirishi mumkin. Inson esa ongli ravishda o‘z tafakkurining kuch-qudrati orqali ruhning ong ostidagi xotira zahiralariga kirishga harakat qiladi. Bizning ruhiy faoliyatimizning asosiy qismi harakatga yo‘naltirilgan va moddiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan.

Bu asarda berilgan tahlil psixologik muammolar bilan bir qatorda falsafiy muammolarni ham e’tibor markaziga joylashtirdi. E’tiborimizni o‘ziga tortgan ruh va materiya xususan, bu tadqiqotda xotira ruhiy jarayon sifatida va miya o‘rtasidagi munosabatlar hozirgi zamon psixologiya va fiziologiya tadqiqotlari natijasida berildi. Bu muammoning yana bir tomoni jon va tana munosabatlari muammosidir. Jon va tana o‘rtasidagi munosabat ruh va materiya o‘rtasidagi munosabat bilan aynan bir narsadir. Ruh va materiya o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganib bo‘lmaydi, degan fikrga biz qo‘shilmaymiz. Aksincha, materiyaning miya shaklini o‘rganar ekanmiz, xuddi shunday ruhning xotira holatini zamonaviy psixologiya va psixatriya tomonidan tadqiq etilishi bu masalani o‘rganish zarur ekanligini ko‘rsatadi. Bir tomondan, psixologiya, psixatriya fanlari, ikkinchi tomondan esa, fiziologiya va neyrofiziologiya fanlari va ulardagi tadqiqotlar ruh va materiya o‘rtasidagi munosabatlarga yangicha qarashga imkon ochib bermoqda.

Psixologik tadqiqotlar ruh va tana o‘rtasidagi farq bilan ularning o‘zaro aloqalarini yoritishga yordam beradi. Ruh va materiya masalasi falsafada asrlar davomida murakkab ziddiyatli antitezalarga sabab bo‘ldi. Bir tomondan, ko‘lam va ko‘lamning yo‘qligi, ikkinchi tomondan esa, sifat va miqdor masalalari yangidan-yangi mkammolarni keltirib chiqardi. Bir tomondan, ruh yagona borliqni tashkil etadi, ikkinchi tomondan esa, bu borliq ayrim jarayonlardan iborat. Bu antinomiyalar falsafada uzoq yillar davomida o‘z yechimini topa olmay keldi.

Bizning fikrimiz materialistlarning falsafiy qarashlaridan ham, idealistlarning qarashlaridan ham farq qiladi. Materialistlardan farqimiz shundaki, biz taassurotlarni serebral nerv faoliyatidan o‘zining xilma-xilligi va sifati bilan farq qiladi, deb hisoblaymiz. Idealistlardan esa farqimiz shundaki, biz moddiy olam ruhiy tasavvurlar chegarasidan chiqib ketadi, deb hisoblaymiz. Materialistlarning fikriga binoan, ijodkor qobiliyati materiyaning oliy shakli bo‘lgan miyaning faoliyatidir. Idealistlarning fikricha esa, ijodkorlik qobiliyati ruh faoliyatiga mansubdir. “Intuitsiya qobiliyati insonning tashqi va ichki olami, insonning ruhiy holati va moddiy hayoti o‘rtasidagi uzviy aloqalarni his etishga imkoniyat beradi” [1.45-b], – deb ta’kidlaydi A.Bergson.

“Lekin biz bu aloqalarni uzib tashlaganimiz uchun endilikda intuitsiyani tashqi va ichki ruhiy va moddiy holatlar orqali o‘rganishga majburmiz. Biz tajribadan kelib chiqishga harakat qilamiz. Ammo bu tajribaga asoslangan xulosalarimiz uchun mustahkam zamin yaratmaydi. Tajribani o‘rganar ekanmiz, bu tajribada insonning manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan bosqichni ajratishimiz kerak. Aynan shu bosqichdan boshlab tajribaning ko‘rinishi o‘zgaradi. Tajribaning asl mohiyatini o‘rganmoqchi bo‘lsak, inson manfaaatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan qismini o‘rganishimiz kerak”. Tajribadagi obektlar bizning sezgi organlarimiz orqali ifoda etiladi va his qilinadi. “Ayrim jismlarning ko‘lami, rang va miqdori haqida biz hissiyotimiz orqali bilishimiz mumkin. Hissiyotimizdan tashqarida ob’ektiv jismlarning xossalari haqida hech qanday bilimga ega emasmiz”

Narsalarning ayrimligi haqida biz sezish va paypaslash orqali bilamiz. Narsalarning yaxlitligi haqida ma’lumotni esa ko‘rish orqali olamiz. Narsalarga ko‘zimiz bilan qaraganda, ularni yaxlit surat sifatida ko‘ramiz va ularni ayrim xossalarga ajratmaymiz. A.Bergsonning fikricha, “moddiy olam ayrim qattiq jismlar va ularning to‘qnashuvlaridan iborat emas. Bizning moddiy manfaatimizgina olamni ayrim qattiq jismlardan iborat, deb hisoblashga majbur qiladi” [3.50-b]. “A.Bergsonning uqtirishicha, bu olamdagi barcha narsalar bir-biri bilan ajralmas aloqadadir. Insonning hayoti va faoliyati moddiy borliq bilan chambarchas bog‘liqdir. Lekin insonning moddiy manfaatlari bu aloqalarning sababi bo‘lmoqda. Natijada inson o‘zining hayoti va borligidan boshqa narsalarning borlig‘ini ajratadi va bu narsalardan foydalanishga harakat qiladi” [6.55-b]. Buning natijasida tajriba subekti va obekti o‘rtasida farq paydo bo‘ladi.

XULOSA.

Anri Bergson falsafasida inson ongining mohiyati va uning xotira bilan bog‘liqligi markaziy o‘rin tutadi. Uning fikricha, inson tasavvurlari va bilish jarayoni moddaning bevosita in’ikosi emas, balki sensamotor faoliyat natijasi bo‘lib, inson organizmining moddiy olamga moslashish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bilish jarayoni o‘z navbatida ong ostidagi

xotiralash psixik holatidan kelib chiqadi va u faqat tashqi olamni aks ettirish bilan cheklanmaydi. Bergson xotirani ikki turga ajratadi: mexanik xotira va spontan obrazli xotira. Mexanik xotira insonning asab tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, takroriy harakatlar natijasida shakllanadi, spontan obrazli xotira esa ong ostidagi yashirin ruhiy faoliyatni ifodalaydi va mexanik xotiradan tubdan farqlanadi. Shu bilan birga, Bergson ta’kidlaydiki, xotiraning har ikkala turi ham tafakkur mahsuli emas, aksincha xotira va tafakkurning o‘zi ong ostidagi ruhiy faoliyatning natijasidir. Bundan kelib chiqadiki, materiya va ob’ektiv reallik ham inson ruhiy faoliyati bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, inson ongidan tashqarida mustaqil mavjud bo‘lmaydi. Shunday qilib, Bergson falsafasi inson ongini, xotira va tafakkur jarayonlarini yagona ruhiy-moddiy uzviylik kontekstida tahlil qilishga yo‘naltiradi, bu esa zamonaviy psixologiya, pedagogika va estetik tafakkurda ijodiy jarayonlarni chuqur tushunish uchun asosiy ilmiy va falsafiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Бергсон А. «Материя и память». – М.: Мысль, 1998. – С. 6.

2. Бергсон А. Творческая эволюция. – М.: Кучково поле, 1998. – С. 382.

3. Бергсон А. Творческая эволюция / Пер. с фр. В. Флеровой; Вступ. ст. И. Блауберг. – *М.*: ТЕРРА-Книжный клуб; КАНОН-пресс-Ц, 2001. – С. 384.

4. Верихов И.Д. Анри Бергсон и понятие времени в философии XX века: // Дискуссия журнал научных публикаций. № 7 (37), август (2013).

5. Кабулниязова Г.Т. Спонтанно-образная память в творчестве Анри Бергсона и в суфизме (сравнительный анализ). Вопросы философии. – 2022. – № 12. – С. 159-167.

6. Кабулниязова Г.Т. Мутафаккирлар Ф.Ницше ва А.Бергсоннинг ҳаёт фалсафасида инсон муаммоси. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти нашриёти, 2010.

7. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 720.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Raxmanov Abdimalik Ergashevich
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi
E-mail: raxmanov-57@mail.ru

UDK: 091.122.136

TASAVVUF FALSAFASIDA BORLIQ HAQIDAGI TA'LIMOT

Annotatsiya. *Ushbu maqolada islom olamida tasavvuf ta'limotining o'rni, uning tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot tasavvuf falsafasining borliq haqidagi ta'limoti (teologik ontologiya)ga e'tibor qaratadi, jumladan borliq tushunchasi, uning mohiyati va vahdat ul-vujud falsafasi asosidagi tushuntirishlar ko'rib chiqiladi. Maqolada Mutlaq vujudning borliq mohiyati va olamning yaralishi haqidagi teologik talqinlar, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar tasavvufiy nuqtai nazardan izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *tasavvuf (so'fiylik), zohidlik davri, orifona tasavvuf, islomiy tasavvuf, tasavvuf ontologiyasi, vahdat ul-vujud, panteizm, naturalistik panteizm, ilohiy-irfoniy panteizm, inson borlig'i.*

Рахманов Абдималик Эргашевич
Старший преподаватель, кандидат философских наук Термезский государственный университет

УЧЕНИЕ О БЫТИИ В ФИЛОСОФИИ СУФИЗМА

Аннотация. *В данной статье подробно анализируется роль суфизма в исламском мире, его исторические корни и этапы развития. Исследование сосредоточено на философском учении суфизма о бытии (теологическая онтология), включая понятие бытия, его сущность и интерпретацию на основе философии «вахдат уль-вуджуд». Рассматриваются теологические концепции о природе Абсолютного бытия и сотворении мира, а также взаимосвязь человека и природы с точки зрения суфизма.*

Ключевые слова: *тасаввуф (суфизм), период аскетизма, просвещённый суфизм, исламский суфизм, онтология суфизма, вахдат ул-вужуд, пантеизм, натуралистический пантеизм, теологический пантеизм, бытия человека.*

Rakhmanov Abdimalik Ergashevich
Senior Lecturer, Candidate in Philosophy Termez State University

THE DOCTRINE OF BEING IN SUFI PHILOSOPHY

Abstract. *This article provides a detailed analysis of the role of Sufism in the Islamic world, its historical roots, and stages of development. The study focuses on the philosophical teachings of Sufism concerning being (theological ontology), including the concept of being, its essence, and interpretations based on the philosophy of Wahdat al-Wujud. The article examines theological concepts regarding the nature of the Absolute Being and the creation of the universe, as well as the relationship between humans and nature from a Sufi perspective.*

Keywords: *Sufism, ascetic period, enlightened Sufism, Islamic Sufism, ontology of Sufism, Wahdat al-Wujud, pantheism, naturalistic pantheism, theological pantheism, human being.*

Kirish.

Sharqona milliy madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, kelgusi ma'naviy yuksalishimizni ta'minlash uchun tarixiy ildizlarimizni, o'tmish ma'naviy merosimiz va qadriyatlarimizni yaxshi o'rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tasavvuf Sharq xalqlarining, shu jumladan yurtimizning ijtimoiy va ma'naviy hayoti tarixida o'chmas iz qoldirgan diniy-falsafiy oqimlardan biri bo'lib fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. U o'zining uzoq taraqqiyoti davomida tarixiy davrlarning ijtimoiy, madaniy, g'oyaviy va axloqiy talablariga mos tarzda turli ko'rinishlarda rivojlanib keldi. Afsuski, sobiq sho'rolar tuzumining kommunistik mafkura hukmronligi davrida tasavvuf ta'limotiga bir yoqlama qarash hukm surdi. Uni «diniy-mistik», «reaksion», «pessimistik» ta'limot deb uqtirib kelindi. Mustaqillik yaratgan keng imkoniyatlar tufayli hamda istiqlol quyoshining nurlaridan bahramand bo'lib, xalqlarimizning

ming yillar mobaynida yaralgan boy manaviy merosiga, o‘tmish qadriyatlarimizga, shu jumladan tasavvuf ta’limotiga ham munosabatimiz o‘zgarib, uni to‘g‘ri, obyektiv (xolisona) tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ldik.

Adabiyotlar tahlili.

Mustaqillikdan keyingi o‘zbek tasavvufshunoslik maktabining asoschisi prof. Najmiddin Komilov ta’biri bilan aytganda, “tasavvuf musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va ma’naviy hayotiga chuqur kirib bordi, fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik g‘oyalaridan ruhlanganlar”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Mamlakatimizda “jaholatga qarshi – ma’rifat” degan ezgu g‘oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ‘ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo‘lib qoladi” [1]. Tasavvuf, uning yurtimizdagi tariqatlari va asoschilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar A.Navoiyning «Nasoim-ul-muhabbat», A.Jomiyning «Nafohot al-uns min xazarot al-quds», Xusayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoniy», Ali as-Safiyning «Rashahot ayn-al-hayot», Hoja Muhammad Porso Buxoriyning «Anis at-tolibin va uddat as-solikin», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro», Aziziddin Nasafiyning “Insoni komil” va shu kabi nodir asarlarda uchraydi. Ayniqsa yurtimizda shuhrat topgan tasavvuf tariqatlarining asoschilari al-Hakim at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband va ularning izdoshlari yaratgan nodir asarlar tasavvuf tahlili uchun asosiy manbalardir. Keyingi yillarda tasavvuf tarixi va ta’limotiga bag‘ishlangan ko‘plab risola va maqolalar yaratilmoqda. Bular rus tilida chop etilgan Ye.E.Bertelsning «Суфизм и суфийская литература», M.P.Stepanyansning «Философские аспекты суфизма» degan risolasi [9] va «Проблемы познания суфизма» maqolasi, A.Muhammadxodjaevning «Гносеология суфизма», Nasafiyning «Hoja Ahmad Yassaviy», Orif Usmonning «Bahovuddin Naqshband ta’limoti», Botir Valixo‘jaevning «Hoja Ahrori Vali», Najmiddin Komilovning «Najmiddin Kubro», Muhammadjon Jakbarovning “Komil inson g‘oyasining tarixiy-falsafiy negizlari”, Ja’far Xolmo‘minovning “Tasavvuf ontologiyasi” nomli kitoblari, «Yassaviy kim edi», «G‘oyiblar haylidin yongan chiroqlar» kabi to‘plamlar, «Tafakkur», «Muloqot» singari jurnallarda chop etilayotgan N.Komilov [4], Abdulhakim Shariy Juzjoniy [2], M.Oripov va boshqalarning maqolalari shular jumlasidandir. Ayniqsa tasavvufshunos olim N.Komilovning «Tasavvuf yoki komil inson axloqi» [4], “Tasavvuf” [5] nomli kitoblari alohida diqqatga sazovordir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tasavvuf falsafasida borliq masalalarini tadqiq qilishga qaratilgan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning gumanitar fanlar sohasida qo‘llaniladigan analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, ijtimoiy-falsafiy tahlil kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

So‘fiylik (tasavvuf) avvalo muayyan ijtimoiy harakat hamda g‘oyaviy ta’limot sifatida maydonga keldi. Bunga sabab, birinchidan, u inson qalbi va ruhiyatini nishonga olib, jaholat va haqsizlikka qarshi o‘laroq maydonga chiqdi va ruhiy-axloqiy poklikni targ‘ib etib keldi. Ikkinchidan, tasavvuf garchi islom bag‘rida nish urib, Qur’on va hadislardan oziqlangan, shariat ahkomiga tayangan bo‘lsa-da, u diniy aqidaparastlik va mutaassiblikka hamda hokim tabaqalarning turmush tarzi, zo‘ravonlik, talonchilik va manfaatparastlikka zid tarzda mehnatkash xalq noroziligini ifodalab, el orasida keng yoyilib keldi va ilm-ma’rifatga tashna ziyolilar qalbini band etdi. Shuni nazarda tutib, atoqli olim Ye.E.Bertels o‘tgan asr boshidayoq qayd etgan edi: «Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas.., bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan Sharqning o‘zini ham anglash qiyin» [9]. Shunday qilib, tasavvuf zohidlik va darvishlik, oriflik harakatlari sifatida paydo bo‘lib, avvaldanoq boylikka ruju qo‘yish, adolatsizlik, zo‘ravonlik kabi qator ijtimoiy illatlarni qoralovchi, insonlarning xudo oldidagi tengligi, kambag‘al faqirlarga insoniy munosabatda bo‘lish kerakligi to‘g‘risidagi demokratik mazmundagi qarashlarga, rasmiy islom aqidaviy ta’limoti va mutaassibligiga zid bo‘lgan yuksak orifiy va hurfikrli tafakkuriga ega ediki, bu tasavvuf va u bilan bog‘liq madaniyatga umuminsoniylik va erkin fikrlilik yo‘nalishini berar edi. Shuning uchun ham tasavvuf keng xalq ommasi orasida, xususan, hunarmand-kosiblar, ma’rifatchi ziyolilar orasida keng tarqalib chuqur ijtimoiy zaminga ega bo‘ldi. Tasavvufdagi insonparvarlik, haqsevarlik va hurfikrlilik g‘oyalari, demokratik talablar uni ma’naviy hayot va madaniyatning eng keng va ommaviy oqimiga, eng yashovchan ta’limotga aylantirdi.

Tasavvuf falsafasi shakllanishining ma’naviy ildizlari, uning g‘oyaviy manbalari haqidagi masalada ham xilma-xil qarashlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar tasavvufiy ta’limotlar islomgacha ham mavjud edi, deb ta’kidlasa, ba’zilari tasavvuf islomdan keyin paydo bo‘lgan, deb ko‘rsatadilar. Bizningcha, so‘fiylik harakati va tasavvufning diniy-falsafiy ta’limoti musulmon Sharqida islomiy tasavvuf sifatida maydonga keldi va rivojlandi. Ammo tasavvufiy g‘oya va ta’limotlar o‘z-o‘zicha shakllangan emas, balki muayyan tarixiy-ma’naviy ildizlar va g‘oyaviy manbalar zamirida paydo bo‘lgan. Shuni ham qayd etmoq joizki, islomiy tasavvuf o‘zi o‘zlashtirgan jamiki g‘oya va qarashlarni, amaliy qoidalarni islom ruhida qayta ishlab, shariatga muvofiqlashtirgan. So‘fizm falsafiy ta’limotining g‘oyaviy manbalari sifatida qadimgi

zardushtiylikni, hind diniy-falsafiy ta'limotini, yunon falsafasi va undagi Aflotun va neoplatonizm ta'limotlarini hamda ilk islom ta'limotini, uning Qur'on va Xadis manbalarini ko'rsatish mumkin [4].

Tasavvuf falsafasidagi bosh muammo – insonning ma'naviy kamoloti masalasi uning borliq to'g'risidagi ta'limoti bilan chambarchas aloqadordir. Tasavvufning borliq haqidagi ta'limoti (ontologiyasi) - bu tasavvuf falsafasining bir bo'limi bo'lib, u borliqning mohiyati, yaratilishi, uning tarkibi va insonning borliqdagi o'rni kabi savollarga javob beradi, ya'ni borliq nima va u qanday mavjud degan falsafiy masalalarni so'fiylik nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Bu ta'limotda borliqning asosi yoxud javhari (substansiyasi) - Alloh taolo ekanligi haqidagi g'oyani Vahdat ul-vujud falsafasi orqali ifoda etadi.

Tasavvuf falsafasining asosiy bahs mavzularidan biri bo'lmish "Vahdat ul-vujud" (borliqning birligi, borliqning yagonaligi) nazariyasi mazkur nazariya asoschilaridan biri Muhiyiddin ibn al-Arabiy qarashlari asosida Naqshbandiya tariqatining nazariyotchilaridan biri Hoja Muhammad Porso Buxoriy hamda buyuk mutasavvuf shoir va mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy tomonidan qayta ishlanib, naqshbandiyona mazmun-mohiyatga ega bo'ldi [3].

Tasavvufning borliq falsafasi, ya'ni yaratuvchi Alloh bilan mavjud olam va inson munosabatlari to'g'risidagi ta'limoti «vahdat ul-vujud» nazariyasida o'z ifodasini topgan bo'lib diniy-panteistik xarakterga egadir. «Vahdat» so'zi birlik, «vujud» esa borliq ma'nosini bildiradi, ya'ni borliq, olam birligi demakdir. Tasavvuf falsafasining borliq haqidagi ta'limotini tahlil qilishda panteistik dunyoqarash masalasiga e'tibor qaratish muhimdir. Panteizm (yunoncha pan - hamma ; teos - xudo) Xudo bilan olamni aynanlashtiruvchi, ular aslida bir narsa, yagona bir vujud deb biluvchi falsafiy ta'limot. Sharq falsafasida bunday ta'limot "Vahdat ul-vujud" nomi bilan mashhur. Musulmon Sharqining falsafiy va ijtimoiy tafakkuri tadqiqotchilari panteizmdagi ikki qarama-qarshi yo'nalishni qayd etadilar. Jumladan, o'zbek falsafasining asoschisi akad. I.Mo'minovning izohlashicha, panteizmni ikki oqimga ajratish mumkin: biri - "vahdati vujud" bo'lib, "Olam Xudodir" degan tamoyildan kelib chiqadi. Ikkinchisi esa "Xudo olamdir" deydi. Bu qarash arab falsafasida "vahdati mavjud" (borliqning birligi) nomi bilan tanilgan. Shundan kelib chiqib Vahdat ul-vujud ta'limotining ikki xil ko'rinishini bir-biridan farqlash lozim: a) falsafiy Vahdat ul-vujud (naturalistik panteizm); b) diniy-irfoniy Vahdat ul-vujud (ilohiy panteizm) [6].

Tasavvufning diniy-irfoniy ta'limotiga ko'ra, xudo va real mavjud olam o'rtasida, Haq vujudi bilan o'tkinchi, yaratilgan narsalar dunyosi vujudida aynan jismoniy birlik emas, mohiyatiy birlik mavjuddir. Butun real olam yaratuvchi Parvardigorning mujassamlanishidir, yani emanatsiyasidir. Tasavvuf falsafasining o'ziga xosligi undagi xudo to'g'risidagi vahdat-ul-vujud, vahdat-ul-mavjud va vahdat-ul-shuxud, ya'ni vahdatning (xudoning) o'zligida, dunyoda va shaxsda namoyon bo'lishi to'g'risidagi orifiy panteistik ta'limoti bilan, xudoga yetishish (vasl) va uning ilohiy ma'rifatga erishishning shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlarini qamrab oluvchi o'ziga xos yo'lidan iborat amaliyoti bilan belgilanadi. Dunyo, real olam ilohiy ruhning dunyoviy ruh shaklida butun olamga tarqalishi bo'lib, inson ham shu ruhning bir qismi, ertami-kechmi u bilan qo'shiladi, Haqqa yetishish faqat payg'ambarlargagina xos bo'lmay, balki piru-murshid izidan borib, ruhni pokizalash va qator marosim, maxsus axloqiy, amaliy shart-sharoitlarga amal qilishi tufayli komil insonlar ham muyassar bo'lishlari mumkin [7].

Tasavvuf falsafasida Alloh va olam bir-biriga qarama-qarshi tarzda turgan kuchlar emas, balki Alloh voqeiy olam bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Mavjud olam xudoning cheksiz makoni deb talqin qilinadi. Demak, xudo koinotda, barcha mavjudotda, jumladan, har bir insondadir. Tasavvuf falsafasiga binoan, Alloh taolo - bu sababi avval (uni Javhari zot, Mutloq ruh, Aqli kull ham deydilar) bo'lib, uning sifatlari quyidagicha: husni mutloq, kamoli mutloq, hayri mutloq. Xudo ko'rinmaydi, u g'oyibot (g'ayb) olamiga mansub bo'lib, uni ko'rish, bilish mumkin emas, u ko'rinmas zotdir. Xudoning to'rtta zot sifatlari mavjud: 1) axad - yagonalik, ya'ni uning sherigi yo'q; 2) avval - birlamchi; 3) azal - cheksizlik; 4) abad- mangulik, abadiy, mutloqlik. Alloh taolo avval Muhammad alayxissalomning nurini yaratdi. So'ngra shu nur tufayli olamlarni va odamlarni yaratdi. Shunday qilib, olam asosida Muhammad nuri yoki Muhammad haqiqati yotadi. Agar Haq deganda - uning ilmini va Habibulloh nurini anglasak, olamlar avvalida Muhammad nuri mavjud bo'lganligi sababli birinchi inson - Hazrati Odam Safiullohni Muhammadning o'g'li, boshqacha aytganda, Muhammad alayhissalomni Odam Atoga nisbatan ham o'g'il, ham ota deyish mumkin. Muhammad alayhissalom nuridan so'ng loxut olami vujudga kelgan. Loxut olami ilohiyot olami demak, undan keyin jabarut, ya'ni buyuklik olami va uning ketidan malakut olami - farishtalar olami yaratildi. Loxut Haq zotini ifodalasa, jabarut nurlardan iborat olamdir, malakut esa latif ruhlardan tuzilgan olam hisoblanadi. Bu olamlarda shakl – a'roz yo'qdir. Bu xususiyat jismlar olami bo'lmish mulk olamiga xosdir. Uni shahodat olami yoki olami nosut ham deydilar [3].

Xudo – abadiy, mutloq, mavjud olam esa ma'joziy (arab. dunyoviylik demak), o'tkinchi xarakterga ega, chunki xudoning zohir ismlari mavjud: Jamol, Jalol, Kamol. Alloh taolo zohir ismlari bo'yicha shahodat olamiga mansub. Biz ko'rib turgan olam Allohning ko'rinishi, mujassamlanishi, yani jamoli, jaloliyoti, kamoloti. Zohir ismlari bo'yicha xudoning mavjudligini sezish, idrok qilish mumkin, mavjud olamni bilish orqali Allohning yaratuvchiligiga, yagonaligiga, yani biru borligiga ishonish mumkin. Shu asnoda, olamni bilish Allohni bilishga olib keladi, degan ijobiy fikrlar tasavvufda mavjuddir.

Tasavvuf nazariyotchilari inson borlig‘ini ham alohida qayd etadilar. Ular inson borlig‘i bu olami sag‘ir (kichik olam) sifatida olami kabir (katta olam) xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Bu qarash insonning ikki asosdan - jism va ruhdan iboratligini tasdiqlaydi. Parvardigor inson ruhini o‘zining rahmoniy nafasidan ato etgan ekan, demak, inson Mutloq ruhning bir qismi va shu sababli u o‘z asliga qarab intihosiz sog‘inch va muhabbat bilan intiladi. Aslini olganda, olam, uning ashyolari, tirik mavjudotlar, inson - barchasi Mutloq ruhning muhabbati tufayli vujudga kelgan. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra boshida Mutloq ruh javharidan o‘zga hech narsa yo‘q edi. Mutloq ruh o‘z husnu jamoli, qudratiga mahliyo bo‘ladi, ya’ni o‘zi o‘zini sevib qoladi va husnu jamolini namoyish etish uchun dunyoni yaratadi, chunki maqsad o‘z timsoli sifatida Insonni yaratish edi. Demak, dunyo Mutloq ruhning ko‘zgusi, inson uning muhabbatining mevasi. Inson o‘z xilqati, tuzilishi bilan ilohiy xususiyatlarni aks ettiruvchi timsoldir, uning qalbi bo‘lsa nuri rahmon maskanidir [8].

Xulosa.

Muxtasar aytganda, Sharq falsafiy tafakkuri tarixida vahdat-ul-vujud (borliqning birligi) ta’limoti ko‘pincha tasavvuf falsafasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu ta’limot xudo, real olam va insonning mohiyatiy birligini e’tirof etuvchi diniy-irfoniy panteizm ruhidagi nazariyadir. Ushbu falsafiy-irfoniy ta’limot butun borliq va undagi mavjud narsalar aslida yagona bir borliq ekanligi, olamdagi barcha mavjudotlar, narsa va hodisalar aslida o‘z-o‘zidan vujudga kelmasligi, balki ular o‘rtasida mustahkam, kuchli uzviy aloqadorliklar mavjudligini uqtiradi. Olamdagi barcha mavjudliklar va voqea-hodisalar bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda izchil va uzluksiz tarzda shakllanib, rivojlanib borishi haqida ta’lim beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24-yanvar 2020-yil. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 25-yanvar 2020-yil, № 19(7521).
11. Abdulhakim Sha’riy Juzjoniy. Tasavvuf ta’limotining ildizlari. – Toshkent. “Muloqot” jurnali, 1995. 1-son. – B. 132-137.
12. G‘afforova Z. O‘n sakkiz ming olam sarvari: aloqadorlik. – Toshkent: “Tafakkur” jurnali, 1997. 2-son. – B. 78-86.
13. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1996. – 272 b.
14. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: “Movaraunnahr”, 2009. – 444 b.
15. Raxmanov A. Tasavvuf falsafasida komil insoniylik mezonlari masalasi. – Toshkent: O‘zMU xabarlari jurnali (ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishi), 2024. 1/11. – B.165-167.
16. Xolmo‘minov J. Tasavvuf ontologiyasi (monografiya). – Toshkent: “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 190 b.
17. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. – Toshkent: “Minxoj”, 2003. – 232 b.
18. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, 1995. – 244 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Maxmudov Akmal Mannonjonovich
t.f.b.f.d. (PhD), FarDU tadqiqotchisi

O‘ZBEKISTON JAMIYATI TRANSFORMATSIYA VA MILLIY TIKLANISH PARADIGMANING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston jamiyatida kechayotgan ijtimoiy transformatsiya jarayonlari hamda milliy tiklanish paradigmasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida jamiyatni modernizatsiya qilish, milliy o‘zlikni anglash jarayonlarini chuqurlashtirish hamda ijtimoiy institutlar faoliyatini yangilash bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilgan. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar tizimini asrab-avaylash, jamiyat taraqqiyotida ma’naviy omilning tutgan o‘rni hamda milliy tiklanish g‘oyasining ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar milliy tiklanish paradigmasi asosida jamiyat taraqqiyotining yangi modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat transformatsiyasi, milliy tiklanish, ijtimoiy falsafa, modernizatsiya, milliy identitet, ijtimoiy taraqqiyot, ma’naviy qadriyatlar.*

Махмудов Акмал Маннонджонович
(PhD) по историческим наукам, исследователь ФерГУ

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПАРАДИГМЫ ТРАНСФОРМАЦИИ И НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация. *В данной статье анализируются процессы социальной трансформации, происходящие в обществе Узбекистана, а также социально-философское содержание парадигмы национального возрождения. В рамках исследования рассматриваются вопросы модернизации общества, углубления процессов национального самосознания, а также обновления деятельности социальных институтов. Особое внимание уделяется сохранению системы национальных ценностей в условиях глобализации, роли духовного фактора в развитии общества и значению идеи национального возрождения в обеспечении социальной стабильности. Результаты исследования показывают, что осуществляемые в стране социальные преобразования способствуют формированию новой модели общественного развития на основе парадигмы национального возрождения.*

Ключевые слова: *трансформация общества, национальное возрождение, социальная философия, модернизация, национальная идентичность, общественное развитие, духовные ценности.*

Maxmudov Akmal Mannondzonovich
(PhD) in Historycal Sciences, Researcher at FSU

A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE PARADIGM OF TRANSFORMATION AND NATIONAL REVIVAL OF UZBEK SOCIETY

Abstract. *This article examines the processes of social transformation taking place in Uzbek society and analyzes the socio-philosophical content of the paradigm of national revival. The study explores issues related to the modernization of society, the deepening of national self-awareness, and the renewal of social institutions. Particular attention is paid to the preservation of the system of national values in the context of globalization, the role of spiritual factors in societal development, and the significance of the idea of national revival in ensuring social stability. The results of the research indicate that the social changes being implemented in the country contribute to the formation of a new model of social development based on the paradigm of national revival.*

Keywords: *social transformation, national revival, social philosophy, modernization, national identity, social development, spiritual values.*

XXI asr boshlarida global rivojlanish jarayonlari insoniyat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Globalizatsiya, axborot texnologiyalarining rivojlanishi hamda iqtisodiy integratsiya jarayonlari jamiyatlarning ijtimoiy, siyosiy va

madaniy tizimlarida chuqur transformatsiyalarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy jamiyatlarda ushbu o‘zgarishlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda, balki ijtimoiy ong, madaniy identitet va qadriyatlar tizimida ham sezilarli darajada namoyon bo‘lmoqda. Shu sabab jamiyat transformatsiyasi jarayonini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti tarixiy jihatdan turli ijtimoiy institutlar, madaniy qadriyatlar va normativ tizimlarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanib kelgan. Ijtimoiy transformatsiya jarayonlari esa jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, siyosiy institutlari hamda madaniy identitetining yangilanishi bilan tavsiflanadi. Amerikalik sotsiolog Samuel Huntington jamiyat transformatsiyasini ijtimoiy institutlar, qadriyatlar va madaniy identitetning o‘zgarishi bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, zamonaviy dunyoda ijtimoiy o‘zgarishlar ko‘pincha madaniy va sivilizatsion omillar bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga keladi [5. 43.]. Bu yondashuv jamiyat transformatsiyasi jarayonlarini tushunishda madaniy omillarning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Zamonaviy sotsiologik nazariyalarda jamiyat transformatsiyasi ko‘pincha modernizatsiya jarayoni bilan bog‘liq holda izohlanadi. Ingliz sotsiologi Anthony Giddens zamonaviy jamiyat taraqqiyotini modernizatsiya jarayonining natijasi sifatida talqin qilib, ushbu jarayonda ijtimoiy institutlarning yangilanishi, ijtimoiy ongning transformatsiyasi hamda ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllari yuzaga kelishini ta’kidlaydi [13. 71.]. Giddensning fikricha, modernizatsiya jarayoni jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlarini qayta shakllantiradi hamda ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichini yuzaga keltiradi. O‘zbekiston jamiyatida ham mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy islohotlar jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Mustaqillik davrida mamlakatda davlat boshqaruvi tizimi, iqtisodiy munosabatlar hamda ijtimoiy institutlar tubdan yangilandi. Bu jarayon milliy tiklanish, davlat va jamiyat munosabatlarining modernizatsiyasi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, milliy tiklanish g‘oyasi jamiyat taraqqiyotining muhim ideologik va ma’naviy asoslaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Jamiyat transformatsiyasi, milliy tiklanish va Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining aloqadorligiga quyidagi fikrlarni keltirishimiz mumkin: “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, sub’ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan ob’ektiv zaruratdir” [2. 5.]. Mazkur yondashuv O‘zbekiston jamiyatida kechayotgan transformatsion jarayonlarning milliy tiklanish, tarixiy xotira va zamonaviy taraqqiyot tamoyillari bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Milliy tiklanish jarayoni nafaqat tarixiy merosni qayta tiklash, balki milliy qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishni ham nazarda tutadi. Bu jarayon jamiyatning ijtimoiy ongida milliy identitetni mustahkamlash, madaniy merosni asrab-avaylash hamda zamonaviy rivojlanish modelini shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, O‘zbekiston jamiyatida kechayotgan transformatsion jarayonlar milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba hamda zamonaviy global taraqqiyot tendensiyalarining o‘zaro uyg‘unligi asosida rivojlanmoqda. I.A.Karimov ta’kidlaganidek “Agar biz O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak” [3. 137.]. Mazkur yondashuv jamiyat transformatsiyasi va milliy tiklanish jarayonlarini tushuntirishda ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki unda shaxs va jamiyatning o‘zlikni anglash darajasi, tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniy merosni chuqur o‘zlashtirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyati jamiyatning ma’naviy yangilanishi va barqaror rivojlanishining muhim omillari sifatida talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, transformatsiya jarayoni faqat tashkiliy yoki institutsional o‘zgarishlar bilan cheklanmaydi, balki milliy o‘zlikni asrab qolgan holda yangilanish va taraqqiyotga intilish jarayonini ham anglatadi. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan bu holat jamiyat rivojlanishining muhim qonuniyatini ifodalaydi: jamiyat oddiy ravishda o‘zgaribgina qolmaydi, balki o‘z tarixiy tajribasi va madaniy o‘zligini anglash orqali ongli ravishda yangilanadi. Aynan shu jarayonda transformatsiya va milliy tiklanish o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston jamiyatida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish hamda milliy tiklanish va zamonaviy taraqqiyot jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashdan iborat. Zero, “Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida eng muhim vazifa - xalqimizning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va boy madaniy merosiga tayanib, jamiyatni yangilash va taraqqiyot sari dadil olib borishdir” [1. 538.]. Mazkur fikr jamiyat transformatsiyasi va milliy tiklanish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi. Unda modernizatsiya jarayonlari milliy tarixiy xotira va madaniy meros bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi zarurligi ta’kidlanadi. Bunday yondashuv transformatsiyani faqat iqtisodiy yoki institutsional o‘zgarish sifatida emas, balki jamiyatning ma’naviy va madaniy asoslariga tayangan holda amalga oshiriladigan kompleks ijtimoiy yangilanish sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan qaraganda, milliy tiklanish g‘oyasi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili bo‘lib, u tarixiy merosni saqlagan holda zamonaviy rivojlanish modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa jamiyat transformatsiyasining nazariy asoslarini chuqurroq anglash hamda zamonaviy ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini ilmiy jihatdan baholash imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston jamiyatida amalga oshirilayotgan transformatsion jarayonlar murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayon bo‘lib, u siyosiy institutlar, iqtisodiy tizimlar, madaniy qadriyatlar hamda

fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro bog‘liq rivojlanishi orqali namoyon bo‘lmoqda. Jamiyat transformatsiyasi bir vaqtning o‘zida modernizatsiya, milliy tiklanish va ijtimoiy institutlarning yangilanishi jarayonlarini qamrab oladi. Ushbu jarayonlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, milliy identitetni mustahkamlash hamda demokratik institutlarning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. *Birinchidan,* ijtimoiy institutlarning modernizatsiyasi jamiyat transformatsiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston jamiyatida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat boshqaruvi, iqtisodiy tizim, ta’lim sohasi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining yangilanishi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy institutlarning modernizatsiyasi jamiyatning siyosiy va iqtisodiy tizimlarini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ijtimoiy nazariyalarda ham modernizatsiya jarayoni ijtimoiy institutlarning yangilanishi bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilinadi. Anthony Giddens modernizatsiya jarayonida ijtimoiy institutlar va ijtimoiy ongning transformatsiyasi jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanini ta’kidlaydi [13. 71.].

Ikkinchidan, milliy identitetning tiklanishi jamiyat transformatsiyasining muhim ma’naviy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Milliy tiklanish paradigmasi tarixiy xotira, madaniy meros va milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. I.A.Karimov milliy tiklanish jarayonini jamiyat taraqqiyotining muhim ma’naviy asoslaridan biri sifatida baholab, shaxsning o‘zligini anglash, tarixiy merosni chuqur o‘zlashtirish hamda milliy qadriyatlarga sodiqlik jamiyat barqaror rivojlanishining muhim sharti ekanini ta’kidlaydi [3. 176.]. Mazkur yondashuv milliy identitetning tiklanishi jamiyatda ijtimoiy birdamlik va ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. *Uchinchidan,* fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi transformatsiya jarayonining muhim ijtimoiy natijalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda nodavlat tashkilotlar, jamoatchilik nazorati institutlari hamda fuqarolik tashabbuslarining rivojlanishi demokratik tamoyillarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Zamonaviy siyosiy sotsiologiyada fuqarolik jamiyati institutlari jamiyat barqarorligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida talqin qilinadi. Samuel Huntington jamiyat transformatsiyasi jarayonida siyosiy institutlar va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi demokratik tizim barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi [5. 43.]. *To‘rtinchidan,* ma’naviy qadriyatlarning yangilanishi jamiyat transformatsiyasining muhim ijtimoiy-falsafiy jihatlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Transformatsiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichida milliy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni global taraqqiyot tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, O‘zbekiston jamiyatida amalga oshirilayotgan transformatsion jarayonlar milliy an’analar, tarixiy meros va zamonaviy demokratik qadriyatlarning uyg‘unligi asosida rivojlanmoqda. Umuman olganda, tadqiqot natijalari O‘zbekiston jamiyatida kechayotgan transformatsiya jarayonlari kompleks xarakterga ega ekanini ko‘rsatdi. Ijtimoiy institutlarning modernizatsiyasi, milliy identitetning tiklanishi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi hamda ma’naviy qadriyatlarning yangilanishi jamiyat taraqqiyotining muhim yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur jarayonlar O‘zbekiston jamiyatida barqaror ijtimoiy rivojlanish va demokratik institutlarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston jamiyatida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari milliy tiklanish g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar faqat iqtisodiy yoki siyosiy tizimlarning yangilanishi bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy ong, madaniy qadriyatlar va milliy identitetning qayta talqin qilinishi bilan ham bog‘liqdir. Shu jihatdan qaralganda, transformatsiya jarayoni jamiyatning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari va zamonaviy taraqqiyot tamoyillarining o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanayotgan murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston jamiyatida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy tiklanish va modernizatsiya jarayonlarining uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan. Bu jarayon ijtimoiy ongda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosga hurmatni kuchaytirish hamda jamiyat taraqqiyotining zamonaviy modelini shakllantirish bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyot tamoyillarini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega” [1. 538]. Mazkur fikr jamiyat transformatsiyasi jarayonida milliy qadriyatlar va modernizatsiya o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ijtimoiy falsafada jamiyat transformatsiyasi global va milliy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan murakkab jarayon sifatida talqin qilinadi. Globalizatsiya sharoitida ijtimoiy institutlar, iqtisodiy tizimlar hamda madaniy qadriyatlar yangi sharoitlarga moslashib boradi. Samuel Huntington jamiyatlarning rivojlanish jarayonini tahlil qilib, global jarayonlar bilan bir qatorda madaniy va sivilizatsion omillar ham muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi [5. 571.]. Bu yondashuv jamiyat transformatsiyasi jarayonida madaniy identitet va milliy qadriyatlarning ahamiyatini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy sotsiologik nazariyalarda modernizatsiya jarayoni ijtimoiy institutlarning yangilanishi hamda ijtimoiy ongning transformatsiyasi bilan bog‘liq holda izohlanadi. Anthony Giddens modernizatsiya jarayonini ijtimoiy tizimlarning qayta tashkil etilishi hamda yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishi bilan bog‘liq murakkab jarayon

sifatida talqin qiladi [13. 304.]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, O‘zbekiston jamiyatida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari global modernizatsiya tendensiyalari bilan uyg‘un holda rivojlanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston jamiyatida milliy tiklanish paradigmasi global modernizatsiya jarayonlari bilan integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Bu jarayon jamiyatda tarixiy xotira va madaniy merosni asrab-avaylash bilan birga, zamonaviy ijtimoiy institutlar va demokratik qadriyatlarning shakllanishiga ham xizmat qilmoqda. Natijada jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik ongining rivojlanishi hamda milliy identitetni saqlab qolish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekiston jamiyatida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari milliy tiklanish, modernizatsiya va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi o‘rtasidagi uyg‘unlik asosida kechmoqda. Mazkur jarayonlar jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlash, fuqarolik ongini rivojlantirish hamda milliy identitetni zamonaviy taraqqiyot sharoitida saqlab qolish imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-falsafiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston jamiyatida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari milliy tiklanish paradigmasi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar nafaqat institutsional islohotlar orqali, balki ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi va milliy identitetning yangilanishi orqali ham namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan qaralganda, jamiyat transformatsiyasi faqat iqtisodiy yoki siyosiy modernizatsiya jarayoni emas, balki ijtimoiy ongning yangilanishi, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi bilan bog‘liq kompleks ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari milliy tiklanish paradigmasi jamiyat taraqqiyotining muhim ma’naviy asoslaridan biri ekanini ko‘rsatdi. Milliy tiklanish jarayoni tarixiy merosni qayta tiklash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularni zamonaviy taraqqiyot tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayon shaxsning milliy o‘zligini anglashiga, madaniy identitetning mustahkamlanishiga hamda jamiyatda ijtimoiy birdamlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sabab milliy tiklanish paradigmasi nafaqat ma’naviy jarayon, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari jamiyat transformatsiyasi jarayonida ijtimoiy institutlarning yangilanishi va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Davlat boshqaruvi tizimining modernizatsiyasi, fuqarolik jamiyati institutlarining faollashuvi hamda jamoatchilik nazoratining kuchayishi jamiyatda demokratik tamoyillarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish hamda jamiyat hayotida ochiq muloqot muhitini shakllantirishga zamin yaratadi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, jamiyatning barqaror rivojlanishi milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyot tamoyillarining uyg‘unligi bilan bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy globallashuv jarayonlari sharoitida milliy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni zamonaviy ijtimoiy rivojlanish bilan uyg‘unlashtirish jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sabab milliy tiklanish paradigmasi jamiyatda ma’naviy qadriyatlar, tarixiy xotira va zamonaviy modernizatsiya jarayonlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston jamiyatida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari milliy tiklanish g‘oyasi, ijtimoiy institutlarning modernizatsiyasi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi asosida shakllanmoqda. Kelajakda mamlakatning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyot tamoyillarining uyg‘unligini ta’minlash, fuqarolik ongini rivojlantirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosiy va ijtimoiy islohotlarning izchil davom ettirilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024. - B. 538.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. (To‘ldirilgan ikkinchi nashri) - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. - B. 416.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - B. 176.
4. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. Том 1: Возникновение сетевого общества (пер. с англ.) - Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2016. - С. 608.
5. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций (пер. с англ. Т.Велимеева) - Москва: АСТ, 2021. - С. 571.
6. Тоффлер Э. Третья волна (пер. с англ. С.Рюмина; ред. Н.Никитенко) - Москва: АСТ, 2025. - С. 672.
7. Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляции (пер. с фр. А.Качалова) - Москва: Постум, 2017. - С. 320.
8. Шваб К. Четвертая промышленная революция. - Москва: Эксмо, 2022. - С. 208.
9. Флориди Л. Четвертая революция: как инфосфера меняет человеческую реальность (пер. с англ.) - Москва: Издательство Института Гайдара, 2016. -С. 304.
10. Шарль Луи Монтескье О духе законов (Перевод: А. Горнфельд) - Москва: АСТ, 2022. - С. 864.

11. Жан Жак Руссо Об общественном договоре - Москва: Ключ-Пресс, 2001. - С. 416.

12. Парсонс Т. Социальная система. - Москва: Академический проект, 2002. - С. 832.

13. Гидденс Э. Модерн и самоидентичность: Я и общество в эпоху позднего модерна (пер. с англ.) - Москва: Академический проект, 2011. - С. 304.

14. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования (пер. с англ.; под ред. В.Л.Иноземцева) - Москва: Academia, 1999. - С. 783.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Абдуллазизов А.Х.
к.с.н.,профессор

СОЦИАЛЬНО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ

Аннотация.*Культура чтения является важным элементом культурного и интеллектуального развития общества. Она отражает уровень образования, систему языковых норм и ценностей, а также характер взаимодействия людей в социальной среде. В статье рассматриваются социально-лингвистические факторы, влияющие на формирование культуры чтения, такие как языковая среда, социальный статус, уровень образования, влияние средств массовой информации и развитие цифровых технологий.*

Ключевые слова:*Социально-лингвистический подход , чтение, индивидуальный когнитивный процесс, социальное явление, функционированием языка в обществе. культурные ценности, формированию языковой личности.*

Abdulazizov A.H.
NamDU s.f.n.,professor

MUTOLAA MADANIYATINING IJTIMOIY-LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotaciya.*Mutolaa madaniyati jamiyatning madaniy va intellektual rivojlanishining muhim elementidir. U ta'lim darajasini, lingvistik normalar va qadriyatlar tizimini hamda ijtimoiy muhitda insonlarning o'zaro ta'sirining tabiatini aks ettiradi. Ushbu maqolada o'qish madaniyatining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi sotsiolingvistik omillar, jumladan, til muhiti, ijtimoiy mavqei, ta'lim darajasi, ommaviy axborot vositalarining ta'siri va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *sotsiologik-lingvistik yondashuv, o'qish, individual kognitiv jarayon, ijtimoiy hodisa, jamiyatda tilning faoliyati, madaniy qadriyatlar, lingvistik shaxsning shakllanishi.*

Abdulazizov A.H.
Nam State University , professor

SOCIO-LINGUISTIC FEATURES OF THE READING CULTURE

Annotation. *Reading culture is an important element of society's cultural and intellectual development. It reflects the level of education, the system of linguistic norms and values, and the nature of human interaction in the social environment. This article examines the sociolinguistic factors influencing the development of reading culture, including language environment, social status, educational level, the influence of mass media, and the development of digital technologies.*

Key words: *socio-linguistic approach, reading, individual cognitive process, social phenomenon, functioning of language in society, cultural values, formation of linguistic personality.*

Введение. В условиях стремительного развития информационных технологий характер чтения претерпевает значительные изменения.Появляется необходимость уделять «...внимание взаимосвязи языка,общества и читательских практик» [1]. Культура чтения представляет собой совокупность навыков, привычек и ценностных установок, связанных с восприятием, пониманием и интерпретацией письменного текста. Она формируется в процессе социализации личности и зависит от множества факторов, включая языковую ситуацию в обществе, образовательный уровень и социальную среду [2].

Анализ литературы и методы.

Вопросы культуры чтения, его пользы и формирования культуры общества рассматриваются в трудах наших великих мыслителей Абу Насра аль-Фараби, Ибн Сины, Юсуфа Хоса Хаджиба, Алишера Навои, Захириддина Мухаммада Бабура, Абдурауфа Фитрата, Абдуллы Авлони и других. В частности, просвещенный интеллектуал Абдулла Авлони, живший и работавший в начале XX века, говорит: «…с юности, чтобы укрепить свой ум и восприятие, мы не должны тратить свою драгоценную жизнь на пустые слова, такие как развлечения, глупости и сплетни, а должны читать различные книги, газеты и журналы, расширять свой кругозор и укреплять свой ум. Как

известно, в современной науке понятие чтения понимается не только как процесс чтения книг или других печатных изданий, но и как процесс усвоения информации из различных источников. С этой точки зрения можно сказать, что стремление к чтению всегда было высоким среди узбекского народа. Потому что даже в те времена, когда уровень грамотности населения был довольно низким, люди собирались в одном месте и организовывали совместные чтения различных книг, декламацию стихов, газелей или маснави, вечера декламации достан и бахру-байт, что можно считать своего рода процессом чтения. Начиная со второй половины XIX века, в результате завоевания Туркестана царской Россией, социально-политическое, а затем и социокультурное пространство, к которому принадлежал наш народ, расширилось, и влияние культурных изменений в метрополии постепенно стало ощущаться в Центральной Азии. К середине XIX века в России наблюдался рост интереса к чтению. Многие люди собирались вокруг одного грамотного человека, и процессы чтения, самостоятельного и очного обучения чтению книг ускорились. Конечно, русский просветитель также внес свой вклад в этот процесс. Среди них Л. Толстой, Н. Корф, Х. Алчевская, Н. А. Рубакин и другие. В период царской России, а затем и в период бывшего Советского Союза, в работах Н. А. Рубакина, Н. М. Сикорского, О. С. Чубаряна, Ю. С. Зубова и других изучались читатели и их структурная структура, анализировались процессы прямого чтения, исследовались принципы возникновения и формирования культуры чтения, а также эффективность чтения и освоения текста.

Результаты и обсуждения.

Социально-лингвистический подход позволяет рассматривать чтение не только как индивидуальный когнитивный процесс, но и как социальное явление, связанное с функционированием языка в обществе. Чтение способствует распространению культурных ценностей, формированию языковой личности и развитию коммуникативной компетенции [3]. Языковая среда и формирование культуры чтения.Языковая среда играет важную роль в развитии читательских навыков и интереса к чтению. В обществах с развитой литературной традицией и устойчивыми языковыми нормами чтение становится важной частью культурной жизни [4]. Использование литературного языка в системе образования, средствах массовой информации и культурных институтах способствует формированию устойчивых навыков понимания текста. Уровень владения языком напрямую влияет на способность человека воспринимать сложные тексты, анализировать их содержание и интерпретировать смысл [5]. В многоязычных обществах культура чтения может формироваться на нескольких языках. Это расширяет читательский опыт и способствует развитию межкультурной коммуникации. Социальные факторы развития культуры чтения.Социальная структура общества оказывает значительное влияние на характер читательских практик. Уровень образования, профессиональная деятельность и социальный статус во многом определяют читательские интересы и предпочтения [6]. Люди с более высоким уровнем образования чаще обращаются к художественной, научной и публицистической литературе. В других социальных группах могут преобладать тексты практического или развлекательного характера.Кроме того, социальная среда формирует отношение к чтению как к культурной ценности. В обществе, где чтение считается важной частью интеллектуального развития, наблюдается более высокий уровень читательской активности. Влияние образовательной системы.Образовательные учреждения играют ключевую роль в формировании культуры чтения. В процессе обучения учащиеся приобретают навыки анализа текста, критического мышления и интерпретации информации [7]. Изучение литературы и языка способствует развитию языковой компетенции и расширению словарного запаса. Школьные и университетские библиотеки, литературные клубы и культурные мероприятия создают условия для формирования устойчивого интереса к чтению. Роль средств массовой информации и цифровой среды Современная информационная среда оказывает значительное влияние на языковые особенности чтения. Интернет, социальные сети и электронные платформы изменили формы распространения текстовой информации [8]. С одной стороны, цифровые технологии значительно расширили доступ к литературе и научным материалам. С другой стороны, распространение кратких текстовых форм и фрагментарного чтения может снижать глубину восприятия информации. Кроме того, в цифровой среде формируются новые языковые практики, включающие использование сокращений, смешение различных языковых стилей и появление новых форм коммуникации.Чтение как средство социальной и культурной коммуникации выполняет важную коммуникативную функцию в обществе.Через тексты передаются культурные ценности, знания и социальный опыт.Литература способствует формированию мировоззрения личности и развитию культурной идентичности [3]. Обсуждение книг, участие в литературных клубах и культурных мероприятиях создают пространство для социального взаимодействия. В этом процессе язык выступает основным инструментом передачи знаний и культурных традиций.

Заключение.

Социально-лингвистические особенности культуры чтения проявляются во взаимодействии языковых и социальных факторов. Языковая среда, образовательная система, социальная структура общества и развитие цифровых технологий оказывают значительное влияние на формирование читательских практик.

В современном обществе важной задачей является поддержка культуры чтения и развитие языковой компетенции, позволяющей человеку эффективно работать с информацией и участвовать в культурной жизни общества. Развитие культуры чтения способствует формированию интеллектуального потенциала общества и развитию языковой личности.

Список использованной литературы

1. Бородина В. А. **Культура чтения: теория и практика формирования читателя.** — Москва: Либерея, 2006.
2. Мелентьева Ю. П. **Чтение как социально-культурный феномен.** — Москва: Наука, 2007.
3. Иванова Е. В. **Социология чтения: учебное пособие.** — Санкт-Петербург: РГПУ им. А. И. Герцена, 2014.
4. Гудков Л. Д., Дубин Б. В. **Чтение в России: социальные аспекты.** — Москва: Новое литературное обозрение, 2011.
5. Степанов В. К. **Информационная культура личности.** — Москва: Академический проект, 2010.
6. Кузнецова Т. Ф. **Читательская культура личности.** — Москва: Логос, 2012.
7. Зубанова С. Г. **Библиотековедение и культура чтения.** — Москва: Академия, 2013.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Axatova Dildora Axtamovna
Shahrisabz davlat pedagogika institute Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti v.b.
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
email: axatovadildora795@gmail.com
ORCID:https://orcid.org/0009-0001-6849-0603
Eshonqulova Dilshoda Said qizi
Shahrisabz davlat pedagogika institute Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) yo'nalishi 1-bosqich magistranti
email: dilshodasaidovna7@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-6388-1281

FOROBIYNING INSON KAMOLOTI NUQTAI NAZARIDAN AQL VA MA'NAVIY TARBIYANING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abu Nasr Forabiy ning falsafiy qarashlari hamda ularda aql tushunchasining ma'naviy tarbiya bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Unda mutafakkirning inson kamoloti haqidagi qarashlari, falsafiy ta'limoti hamda ma'naviy yetuklikka erishish jarayonida aqlning o'rni yoritiladi. Shuningdek, Forobiy ta'limotida aqlning rivojlanishi uning ma'naviy tarbiya bilan uzviy bog'liqligi asosida izohlanib, insonning axloqiy kamolotga erishishida bilim va tarbiyaning o'zaro ta'siri falsafiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Abu Nasr al-Farabi, aql, bilim, ma'naviy tarbiya, bilish, Aristotle, Euclid, Ptolemy, fozil shahar.*

Ахатова Дилдора Ахтамовна
Доцент кафедры социальных наук, Государственный педагогический институт им. Шахрисабза
Доктор философии (PhD)
Эшонкулова Дилшода Саид кизи
Государственный педагогический институт им. Шахрисабза, студентка 1 курса магистратуры, «Методология преподавания социальных наук» (Основы духовности)

ВАЖНОСТЬ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО И ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕКА С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ФАРАБИ.

Аннотация. *В данной статье анализируются философские взгляды Абу Наср аль-Фараби и их связь с разумом и духовным воспитанием. Рассматриваются идеи мыслителя о совершенстве человека, его философские взгляды и роль разума в процессе достижения духовной зрелости. Кроме того, в учении аль-Фараби развитие разума рассматривается во взаимосвязи с духовным воспитанием, а также философски обосновывается взаимодействие знания и образования в достижении нравственной зрелости человека.*

Ключевые слова: *Абу Наср аль-Фараби, разум, знание, духовное воспитание, познание, Аристотель, Евклид, Птолемей, добродетельный город.*

Akhatova Dildora Akhtamovna
Associate Professor, Department of Social Sciences, Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Doctor of Philosophy (PhD)
Eshonkulova Dilshoda Said Qyzi
1st year master's student, "Methodology of Teaching Social Sciences" (Fundamentals of Spirituality), Shakhrisabz State Pedagogical Institute

THE IMPORTANCE OF MENTAL AND SPIRITUAL EDUCATION FROM FARABI'S POINT OF VIEW OF HUMAN DEVELOPMENT

Abstract. *This article analyzes the philosophical views of Abu Nasr al-Farabi and their connection with reason and spiritual education. The paper highlights the thinker's ideas on human perfection, his philosophical views, and the role of reason in the process of achieving spiritual maturity. In addition, in Al-Farabi's teachings the development of reason is closely related to spiritual education, and the interaction between knowledge and education in achieving human moral maturity is philosophically substantiated.*

Keywords: *Abu Nasr al-Farabi, intellect, knowledge, spiritual education, cognition, Aristotle, Euclid, Ptolemy, virtuous city.*

Kirish. Forobiy – uning taxallusi bo‘lib, to‘liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon – jahon madaniyatiga katta hissa qo‘shgan Markaziy osiyolik mashhur faylasuf va qomusiy olimdir. U 873–951 yillarda Sirdaryo qirg‘og‘idagi Forob-O‘tror shahrida tug‘ilgan. Forobiy turkiy qabilalardan bo‘lgan harbiy xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. Tug‘ilgan hudud Somoniylar tomonidan boshqarilgan va arab xalifaligining shimoliy chegarasida joylashgan.

Forobiy boshlang‘ich ta’limni ona yurtida olgan, keyinchalik esa Toshkent, Buxoro va Samarqandda o‘qigan. Ilmiy faoliyatini davom ettirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo‘lgan Bag‘dodga ko‘chib o‘tgan. U yerda Abu Bashar Matta ibn Yunusdan yunon tili va falsafani, Yuhanna ibn Haylandan tabobat va mantiq ilmini o‘rgangan. Ayrim manbalarda Forobiyning 70 dan ortiq tilni bilgani qayd etilgan.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Evklid, Ptolomey, Porfiy asarlariga sharhlar yozgan. Uning sharh faoliyati nafaqat Sharq, balki o‘rta asr Yevropasini yunon ilmi bilan tanishtirishda ham katta rol o‘ynagan. Bu faoliyat uning ilmiy merosining birinchi bosqichini tashkil etadi.

Forobiyning ilmiy merosi o‘rta asr Sharqining madaniy-ma’naviy hayoti, tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy masalalari haqida boy ma’lumot beradi. U nafaqat falsafa, balki mantiq, siyosatshunoslik, pedagogika, etika va boshqa fanlarning rivojlanishiga ham ulkan hissa qo‘shgan. Forobiy arab va fors tillarida she’rlar ham yaratgan.

Uning ilmiy qarashlarida inson kamoloti eng yuqori o‘rinda turadi. Ilm, bilish va aql haqidagi ta’limot Forobiy asarlarida batafsil yoritilgan. Ilm olishni u inson mohiyatini tushuntirishning ajralmas qismi sifatida ko‘radi. Forobiyning fikricha, insonning bilishi ruhiy qobiliyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, miya ruhiy faoliyatni boshqaradi, yurak esa barcha a’zolarni hayot uchun zarur qon bilan ta’minlaydi; barcha ruhiy quvvatlar, jumladan bilish qobiliyati, muayyan a’zoga bog‘liq [1,66-bet].

Forobiy bilish jarayonini ikki bosqichga bog‘laydi va aqliy bilishning hissiy bilishsiz vujudga kelmasligini alohida ta’kidlaydi. Xususan, “Aql ma’nolari haqida” risolasida u aql masalalarini chuqur talqin qiladi. Forobiy fikricha, aql bir tomondan ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan esa tashqi ta’sir, ya’ni ta’lim va tarbiyaning natijasidir. Shu bilan birga, u aqlni faqat insonga xos bo‘lgan tug‘ma quvvat, ruhiy kuch bilan bog‘laydi [1,67-bet]. Shu sababli Forobiy aql va ma’naviy tarbiyani inson kamolotining o‘zaro bog‘liq ikki asosiy omili sifatida talqin qiladi. Uning bilish haqidagi ta’limotida mantiq (logika) ilmi muhim o‘rin tutadi. Forobiyning ta’kidlashicha, “Mantiq san’ati kishiga shunday qonunlar haqida ma’lumot beradi- bu qonunlar vositasida aql chiniqadi va inson sog‘lom fikr yuritishga o‘rganadi”[2,77-bet]. Aynan mantiq kishining har tomomlama rivojlanishi va qarashlarini yanada teranlashishiga yordam beradigan vosita sifatida qaraladi.

Forobiy insonning bilishi, ilm-fan va aql haqidagi falsafiy qarashlarini ilgari suradi. U insonni ba’zan “aqlli hayvon” deb atasa-da, aqlli inson tushunchasini aniq belgilaydi. Forobiyning so‘zlariga ko‘ra: “Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo‘r iste’dodga ega bo‘ladi va yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradi. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o‘ylab topishga zehn-idrokka ega bo‘lganlarni esa aqlli deb bo‘lmaydi; ularni ayyor yoki aldoqchi deb atash lozim”[1,77-bet]. Bilish, mantiq va aql haqidagi Forobiyning fikrlari uning inson haqidagi qarashlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Unga ko‘ra, aqlga ega bo‘lish faqat bilimli va mantiqli bo‘lish bilan cheklanmaydi; u ma’lum darajada axloqiy prinsiplar va axloqiy madaniyatga ega bo‘lish bilan yakunlanishi lozim. Shu nuqtai nazar asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi.

Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot oqimining kuchayishi va turli mafkuraviy ta’sirlarning ortib borishi yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirishni talab qilmoqda. Shu sababli, Forobiyning ilmiy merosini o‘rganish zamonaviy ta’lim tizimi uchun dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqola Abu Nasr Forobiyning falsafiy qarashlarida aql va bilishning ma’naviy tarbiya bilan o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini, shuningdek, uning bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatini IMRAD talablari asosida tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Metodlar. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1.Tarixiy-falsafiy tahlil usuli.

Forobiyning yashagan davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlari hamda uning ta’lim olish jarayonlari va Abu Bashar Matta ibn Yunuf, , Yuhanna ibn Xiylon kabi o‘z davrining yuksak bilim va salohiyatiga ega bo‘lgan shaxslardan olgan ta’limi keyingi davrda esa o‘zining ilmiy merosi va asarlaridagi aql hamda bilishning o‘zaro aloqadorligi tarixiy-falsafiy kontekstda o‘rganildi.

2.Qiyosiy tahlil usuli.

Forobiy qarashlari boshqa Sharq mutaffakirlari, xususan Ibn Sino va boshqa mutaffakirlarning falsafiy qarashlari bilan solishtirildi va o‘rganildi.

3.Munozara usuli.

Turli ilmiy qarashlar o‘rtasida munozara olib borish orqali aql, bilish, komil inson tushunchasi va ma’naviy tarbiya o‘rtasidagi aloqadorligi zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati munozara usulida tahlil qilindi.

Natijalar. 1. Forobiyning ilmiy merosida aql, ilm, bilish va inson kamolotidagi o‘rni

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Forobiy ta’limotida aql inson kamolotida asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi. Mutafakkir aqlni insonni haqiqiy baxt-saodatga va kamolotga yetaklovchi vosita sifatida talqin qiladi.

Forobiy inson aqlini nazariy va amaliy turlarga ajratadi. Nazariy aql borliqni anglash va ilmiy bilimlarni egallashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, amaliy aql insonning kundalik hayotidagi axloqiy qarorlarini belgilaydi.

Uning mashhur “Fozil odamlar shahri” asarida ideal jamiyat konsepsiyasi ilgari surilgan. Forobiyga ko‘ra, jamiyatning rivojlanishi undagi insonlarning ma’naviy va aqliy darajasiga bevosita bog‘liq. Fozil jamiyatni barpo etish uchun adolatli, bilimli va ma’naviy yetuk insonlar zarur.

2. Forobiyning falsafiy ta’limotining Yevropadagi qiyosiy tahlili

Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha, dastlab Yevropa ilmiy an’anasida Forobiy Platon, Aristotel, Evklid va Ptolomey asarlariga sharhlar yozgani bilan tanilgan. Ammo tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Forobiyning falsafiy ta’limoti mohiyat e’tibori bilan an’anaviy ilohiyot va kalomdan tubdan farq qiladi va ilmiy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan.

Forobiyning bilish, mantiq va aql haqidagi fikrlari uning inson haqidagi ta’limoti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. U o‘rta asrlar sharoitida birinchi bo‘lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta’limot yaratdi. Ushbu ta’limotda ijtimoiy hayotning ko‘plab masalalari – davlat boshqaruvi, ta’lim-tarbiya, axloq, ma’rifat, diniy e’tiqod, urush, mehnat va boshqa masalalar – qamrab olingan.

3. Forobiyning falsafiy qarashlari va ma’naviy tarbiya masalasi

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Forobiyning qarashlari bugungi zamonaviy pedagogika uchun ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi davrda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri yoshlarni nafaqat bilimli va aqlli, balki ma’naviy jihatdan ham yetuk shaxs sifatida kamol toptirish va tarbiyalashdir.

Mutafakkir inson tarbiyasidagi muhim omillarni sanab o‘tadi va aqlli va bilimli insonni har doim ham ma’naviy jihatdan kamol topgan shaxs sifatida baholab bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Bugungi yoshlar ongiga ma’naviy tahdidlar rivojlangan bir davrda, Forobiyning ta’limoti shaxs kamolotida bilim va tarbiyaning uyg‘unligi muhim omil sifatida baholanadi.

Munozara. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Forobiy falsafasi nafaqat ilmiy meros sifatida, balki zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimida ham muhim nazariy manba hisoblanadi. Forobiy o‘zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilariga qarab guruhlarga bo‘lgan; u kishilarni diniy mazhab, millat yoki irq asosida emas, balki tabiiy xususiyatlari, qobiliyatlari, avvalo aqliy iqtidori va ilmlarni o‘rganish hamda hayotiy tajriba orttirish jarayonida egallagan bilim va ko‘nikmalariga qarab baholaydi.

Shuningdek, u faqat buyruq va hukmga itoat qiladiganlarni yuqori darajada qadrlash yondashuvini keskin qoralaydi. Ana shu fikrlar bugungi jamiyatimizda yoshlarning ma’naviy tarbiyasi va kamolotiga naqadar jiddiy va mas’uliyat bilan yondashish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga olib keldi:

Forobiy ta’limotida aql insonni haqiqatni anglashga, bilimlarni egallashga va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undovchi muhim omil sifatida qaraladi. Shu bilan birga, mutafakkir aqlning samarali rivojlanishi ma’naviy tarbiya, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Forobiyning fozil jamoa haqidagi ta’limoti uning komil inson haqidagi qarashlari bilan uzviy bog‘langan. Fozil jamoada komil inson fazilatlari vujudga keladi. Axloq-odobli yetuk inson qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligi aniqlanadi; bu fazilatlar orqali insonlarning o‘zaro munosabatlari mustahkamlanib, yaxshilik yo‘nalishida rivojlanadi.

Forobiyning komil inson va fozil jamoa haqidagi qarashlari keyingi davr mutafakkirlari uchun ham asos bo‘lgan. Shu bilan birga, Forobiyning ilmiy salohiyati nafaqat o‘tgan davr olimlari uchun qo‘llanma, balki bugungi zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlar ta’lim-tarbiyasi va umumiy jamiyat vakillarining ma’naviy tarbiyasini boyitish uchun dastur sifatida ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekistan Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik Instituti. Ma’naviyat yulduzlari. Toshkent, 1999. 66 b.

2. Jumayeva N. A. Sharq allomalarining ilmiy merosi. Buxoro, 2022. 77 b.

3. O‘zbekiston Toshkent Moliya Instituti. Mamatov N., Hojiboyev A., Yuldasheva S. Falsafa (o‘quv qo‘llanma). Toshkent, 2005. 64 b.

4. O‘zR Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik Instituti. Ma’naviyat yulduzlari. Toshkent, 1999. 66 b.
5. Jumayeva N. A. Sharq allomalarining ilmiy merosi. Buxoro, 2022. 77 b.
6. O‘zbekiston Toshkent Moliya Instituti. Mamatov N., Hojiboyev A., Yuldasheva S. Falsafa (o‘quv qo‘llanma). Toshkent, 2005. 64 b.
7. Qo‘shimcha ilmiy adabiyotlar:
8. Galston M. Politics and Excellence: The Political Philosophy of Alfarabi. Princeton University Press, 1990. 252 p.
9. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Tarj. va tahrir: O. Shodmonov. Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
10. Abu Nasr Forobiy. Aql-ma’naviyat va saodat haqida risolalar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015.
11. Yoqubov A. Sharq mutafakkirlari tarbiyasi: Forobiy, Ibn Sino, G‘azzoliy. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
12. Nosirxo‘jayeva G. Forobiy asarlarida adolat va ma’naviy yuksalish muammolari. Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 2025.
13. Xamidov O. K., Alimjonova M. B. Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari. Obrazovanie, nauka i innovatsionnye idei v mire, 2025.
14. Jo’raqulov J. J., Jo’raqulov J. Forobiyning “Fozil shahar” konsepsiyasi va zamonaviy tarbiya. Tadqiqotlar, 2025.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich
Farg'ona davlat universiteti sosiologiya kafedra professori falsafa fanlari doktori (DSc), professor
e-mail: mr.ganiev76_fsu@inbox.ru
Abduxolikova Elenur Abdulfattoh qizi
Sotsiologiya yo'nalishi, 3-bosqich talabasi, Farg 'ona davlat universiteti

"IJTIMOIY DAVLAT" KONTSEPSIYASIDA IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING ORNI VA AHAMIYATI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "ijtimoiy davlat" konsepsiyasi doirasida ijtimoiy tadbirkorlik fenomenining tutgan o'rni va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy davlat g'oyasining nazariy asoslari, uning zamonaviy jamiyat rivojidagi funksional vazifalari hamda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy muammolarni bartaraf etishdagi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlikning fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligi, shuningdek ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy davlat modelining muhim tarkibiy elementlaridan biri sifatida jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishda samarali institutsional mexanizm vazifasini bajaradi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy davlat, ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy adolat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy iqtisodiyot, ijtimoiy innovatsiya, ijtimoiy falsafa.*

Ганиев Баходирджан Садикжонович
Профессор кафедры социологии Ферганского государственного университета,
доктор философских наук, профессор
Абдухоликова Эленур Абдулфаттох кызы
студентка 3 курса направление Социологии, Ферганского государственного университета

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В КОНЦЕПЦИИ "СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА" (СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)

Аннотация. *В данной статье в рамках концепции «социального государства» с социально-философской точки зрения анализируются место и значение феномена социального предпринимательства в развитии общества. В исследовании рассматриваются теоретические основы идеи социального государства, его роль в современном общественном развитии, а также возможности социального предпринимательства в решении социальных проблем. Наряду с этим анализируется взаимодействие социального предпринимательства с институтами гражданского общества, а также его значение в реализации принципов социальной справедливости и устойчивого развития. Результаты исследования показывают, что социальное предпринимательство выступает одним из важных институтов модели социального государства и эффективным механизмом решения социальных проблем в обществе.*

Ключевые слова: *социальное государство, социальное предпринимательство, социальная справедливость, гражданское общество, социальная экономика, социальные инновации, социальная философия.*

Ganiyev Bakhodirdzan Sadikjonovich
Professor of the Department of sociology, Fergana State University doctor of philosophy, professor
Abdukholikova Elenur Abdulfattoh qizi
Sociology direction, 3rd Level student, Farg ona State University

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN THE CONCEPT OF THE SOCIAL STATE (A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS)

Abstract. *This article analyzes the role and significance of the phenomenon of social entrepreneurship within the framework of the concept of the social state from a socio-philosophical perspective. The study examines the theoretical foundations of the idea of the social state, its role in the development of modern society, and the potential of social entrepreneurship in addressing social problems. In*

addition, the interaction between social entrepreneurship and civil society institutions is analyzed, along with its contribution to the implementation of the principles of social justice and sustainable development. The findings of the study demonstrate that social entrepreneurship functions as one of the key institutional elements of the social state model and serves as an effective mechanism for addressing social challenges within society.
Keywords: *social state, social entrepreneurship, social justice, civil society, social economy, social innovation, social philosophy.*

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining murakkab va ko‘p qirrali jarayonlari davlatning ijtimoiy funksiyalarini qayta ko‘rib chiqish hamda ularning mazmunini kengaytirishni taqozo etmoqda. Global iqtisodiy integratsiya, raqamli transformatsiya va bozor munosabatlarining chuqurlashuvi sharoitida ijtimoiy tengsizlik, kambag‘allik, bandlik muammolari hamda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu sababli zamonaviy ijtimoiy falsafada davlat faqat siyosiy boshqaruv instituti sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni ta’minlovchi, fuqarolarning farovonligini qo‘llab-quvvatlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida talqin qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli farmonida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi *“inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish”* deb belgilangan. Jumladan, farmonda: *“Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish”* [2.] g‘oyasini ilgari suradi. Mazkur yondashuv ijtimoiy davlatning mohiyatini ochib beradi, chunki unda davlat faoliyati markaziga fuqarolarning farovonligi, ijtimoiy himoyasi va adolatli ijtimoiy siyosat tamoyillari qo‘yiladi. Shu jihatdan Yangi O‘zbekiston strategiyasida ifodalangan xalqparvar davlat modeli ijtimoiy tadbirkorlik, fuqarolik tashabbuslari va ijtimoiy innovatsiyalar rivoji uchun ham konseptual zamin yaratadi.

Aynan shu ehtiyojlar natijasida *“ijtimoiy davlat”* konsepsiyasi shakllandi. Mazkur konsepsiya davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda jamiyatdagi teng imkoniyatlar muhitini yaratishni nazarda tutadi. Nemis ijtimoiy faylasufi Lorenz von Steyn ijtimoiy davlat g‘oyasini davlat faoliyatining ijtimoiy mazmuni bilan bog‘lab, davlat jamiyatdagi ijtimoiy qarama-qarshiliklarni yumshatish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilishi lozimligini ta’kidlagan. Uning fikricha, davlatning asosiy vazifalaridan biri jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish natijasida yuzaga keladigan nomutanosibliklarni muvozanatlashtirishdir [3. 416.]. Ijtimoiy davlat g‘oyasi keyinchalik Yevropa ijtimoiy-falsafiy tafakkurida muhim nazariy asosga aylandi. Zamonaviy tadqiqotlarda bu tushuncha ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va fuqarolik faolligi tamoyillari bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Masalan, amerikalik faylasuf Jon Raulz ijtimoiy adolat konsepsiyasini ishlab chiqib, jamiyat taraqqiyoti eng kam imkoniyatga ega qatlam manfaatlarini himoya qilish tamoyiliga asoslanishi lozimligini ta’kidlaydi: *“Social and economic inequalities are to be arranged so that they are to the greatest benefit of the least advantaged members of society”* [4. 83.]. Ushbu yondashuv ijtimoiy davlatning nazariy asoslarini yanada mustahkamlab, ijtimoiy siyosatning maqsadi jamiyatdagi teng imkoniyatlarni ta’minlashdan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Zamonaviy ijtimoiy falsafada ijtimoiy davlat konsepsiyasi davlat siyosati bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar hamda ijtimoiy tashabbuslarning faol ishtirokini ham nazarda tutadi. Chunki ijtimoiy muammolarni hal qilish faqat davlat mexanizmlari orqali emas, balki jamiyatning turli institutlari hamkorligi asosida amalga oshirilgandagina samarali bo‘ladi. Aynan shu nuqtai nazardan ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni innovatsion yondashuvlar asosida hal qilishga qaratilgan muhim ijtimoiy institut sifatida shakllanmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik fenomeni iqtisodiy faoliyatni ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtiruvchi yangi ijtimoiy-iqtisodiy model sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu model bozor mexanizmlaridan foydalanish orqali ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Amerikalik tadqiqotchi Gregory Dis ijtimoiy tadbirkorlikni quyidagicha ta’riflaydi: *“Social entrepreneurs play the role of change agents in the social sector by adopting a mission to create and sustain social value”* [5. 4.]. Ushbu ta’rif ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy mohiyati jamiyatda ijtimoiy qiymat yaratishga qaratilgan innovatsion tashabbuslardan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy ijtimoiy davlat modelining muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo‘ladi. U iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlab, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlar, jamoaviy tashabbuslar va ijtimoiy kapitalni rivojlantirish jarayonlarida ijtimoiy tadbirkorlik muhim rol o‘ynaydi. Ta’kidlash joizki, ijtimoiy davlat va ijtimoiy tadbirkorlik konsepsiyalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-falsafiy asoslarini tashkil etadi. Ularning uyg‘un rivojlanishi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash, fuqarolarning ijtimoiy farovonligini oshirish hamda barqaror taraqqiyot modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy davlat modelida ijtimoiy tadbirkorlik jamiyat taraqqiyotining muhim institutsional mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. U iqtisodiy faoliyat, ijtimoiy mas’uliyat hamda fuqarolik tashabbuslari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlab, jamiyatda ijtimoiy muammolarni hal etishning samarali shakllarini yuzaga keltiradi. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy samaradorlikni ijtimoiy qiymat

yaratish bilan uyg‘unlashtiruvchi faoliyat turi sifatida talqin qilinadi. Amerikalik tadqiqotchi Gregory Dees ijtimoiy tadbirkorlikning mohiyatini quyidagicha ifodalaydi: *“Social entrepreneurs play the role of change agents in the social sector by adopting a mission to create and sustain social value”* [5. 4.]. Ushbu yondashuv ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy qiymat yaratishga qaratilgan transformatsion jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy muammolarni hal qilish mexanizmi

Tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy davlat siyosatini amalga oshirishda muhim amaliy vosita sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi. Ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy faoliyat orqali kambag‘allik, ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik kabi muammolarni hal qilishga qaratilgan tashabbuslarni rivojlantiradi. Bu jarayon davlatning ijtimoiy siyosati bilan uyg‘un holda amalga oshiriladi va ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshiradi. Amartya Sen jamiyat taraqqiyoti inson imkoniyatlarini kengaytirish bilan bevosita bog‘liq ekanligini ta’kidlab, rivojlanish jarayoni insonning real imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshishini qayd etadi [8. 3.]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ijtimoiy tadbirkorlik inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytirish orqali ijtimoiy davlat siyosatining muhim mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish

Tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlik fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini kuchaytirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Ijtimoiy tadbirkorlik tashabbuslari ko‘pincha nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoatchilik birlashmalari hamda mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik asosida amalga oshiriladi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy faollikni oshiradi hamda fuqarolarning ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytiradi. Jurgen Xabermas tomonidan fuqarolik jamiyatining rivojlanishi jamoatchilik muhokamasi va ijtimoiy tashabbuslar orqali amalga oshishini ta’kidlab, jamoat makonini demokratik jamiyatning muhim instituti sifatida talqin qiladi [6. 27.]. Bunda ijtimoiy tadbirkorlik fuqarolik jamiyati institutlari va davlat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

Ijtimoiy innovatsiyalarni rivojlantirish

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy tadbirkorlar innovatsion g‘oyalar va yangi boshqaruv yondashuvlari orqali ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishga, yangi ijtimoiy xizmatlar yaratishga hamda mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishning samarali usullarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Britaniyalik tadqiqotchi Geoff Mulgan ijtimoiy innovatsiyalarni jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yangi g‘oyalar, xizmatlar va tashkilot shakllari sifatida ta’riflab, ularning jamiyat taraqqiyotidagi rolini alohida ta’kidlaydi [11. 7.]. Bu esa ijtimoiy tadbirkorlik innovatsion rivojlanish jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash

Tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga ham muhim hissa qo‘shishini ko‘rsatadi. Ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan iqtisodiy tashabbuslar jamiyatda ijtimoiy tenglikni mustahkamlash, ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytirish hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy sotsiologik nazariyalarda jamiyat barqarorligi ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi muvozanat va hamkorlik bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Masalan, Entoni Giddens zamonaviy jamiyat barqarorligi ijtimoiy institutlarning o‘zaro hamkorligi va moslashuvchanligi bilan belgilanadi deb ta’kidlaydi [12. 52.]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ijtimoiy tadbirkorlik davlat, biznes va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotimiz natijalariga tayanib, ijtimoiy davlat modelida ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ijtimoiy innovatsiyalarni rag‘batlantirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash kabi muhim funksiyalarni bajarishini ko‘rsatadi. Bu esa ijtimoiy tadbirkorlikni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-falsafiy institutlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

Ijtimoiy davlat modelida davlat, biznes va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik jamiyat barqaror rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarda davlatning ijtimoiy siyosati faqat davlat apparati orqali emas, balki turli ijtimoiy institutlarning hamkorligi orqali amalga oshirilishi zarurligi ta’kidlanadi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy tadbirkorlik davlat siyosati, bozor mexanizmlari va fuqarolik tashabbuslarini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda ijtimoiy muammolarni hal qilish jarayonida iqtisodiy faoliyat imkoniyatlaridan foydalanib, jamiyatdagi ijtimoiy ehtiyojlarga innovatsion yechimlar taklif etadi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasining nazariy asoslari jamiyat taraqqiyoti inson manfaatlari va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi. Taniqli iqtisodchi Amartya Sen rivojlanish jarayonining mazmunini inson imkoniyatlari bilan bog‘lab, shunday ta’kidlaydi: *“Development can be seen as a process of expanding the real freedoms that people enjoy”* [8. 3.]. Ushbu g‘oya ijtimoiy davlat siyosatining asosiy maqsadi insonning real imkoniyatlarini kengaytirish, ya’ni ta’lim, bandlik, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya kabi sohalarda teng imkoniyatlarni yaratishdan

iborat ekanligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan qaralganda, ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizmlardan biri sifatida baholanadi.

Zamonaviy ijtimoiy falsafada ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi faoliyat turi sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon ijtimoiy muammolarni hal etishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, yangi ijtimoiy xizmatlar yaratish hamda jamiyatdagi ehtiyojlarga mos iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy innovatsiyalar nazariyasining tadqiqotchilaridan Geoff Mulgan ijtimoiy innovatsiyalarni jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yangi g‘oyalar va faoliyat shakllari sifatida ta’riflab, ularning ijtimoiy taraqqiyotdagi rolini alohida ta’kidlaydi [12. 7.]. Mazkur yondashuv ijtimoiy tadbirkorlikning jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish jarayonida innovatsion kuch sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Fuqarolik jamiyati jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etuvchi hamda jamoatchilik tashabbuslarini rivojlantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida talqin qilinadi. Frakfurt maktabi vakili Jurgen Xabermas jamoat makoni konsepsiyasini asoslab, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi jamoatchilik muhokamasi va ijtimoiy tashabbuslar orqali amalga oshishini ta’kidlaydi [6. 27.]. Shu ma’noda ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatdagi ijtimoiy tashabbuslarni iqtisodiy mexanizmlar orqali qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida ham ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini oshirish, yoshlar va xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash hamda hududiy rivojlanishni ta’minlash jarayonlarida ijtimoiy tadbirkorlik muhim rol o‘ynashi mumkin. Demak, ijtimoiy tadbirkorlik davlat, biznes va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, ijtimoiy davlat modelida ijtimoiy tadbirkorlik davlat siyosati, iqtisodiy faoliyat va fuqarolik tashabbuslarini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qilib, zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-falsafiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy davlat konsepsiyasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim nazariy va amaliy modelidir. Mazkur model davlat faoliyatining markaziga inson manfaatlari, ijtimoiy adolat va ijtimoiy barqarorlik tamoyillarini qo‘yadi. Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi fuqarolarning munosib turmush sharoitini ta’minlash, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish hamda jamiyatda teng imkoniyatlar muhitini shakllantirishdan iboratdir. Bundan kelib chiqib, ijtimoiy davlat nafaqat siyosiy boshqaruv tizimi, balki jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni ta’minlovchi va fuqarolarning farovonligini oshirishga qaratilgan muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy davlat modelining muhim institutsional komponentlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy faoliyatni ijtimoiy maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish orqali jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etish imkoniyatini yaratadi. Ijtimoiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, balki ijtimoiy qiymat yaratishga ham xizmat qiladi. Bunda jamiyatda ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik faolligi hamda jamoaviy tashabbuslarni rivojlantiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatda iqtisodiy manfaat va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi yangi ijtimoiy-iqtisodiy paradigma sifatida shakllanmoqda. Ushbu jarayon ijtimoiy muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish, jamiyatdagi ijtimoiy kapitalni rivojlantirish hamda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali amalga oshiriladi. Natijada ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarining mustahkamlanishiga hamda barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi muhim omillardan biriga aylanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy innovatsiyalarni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Ijtimoiy innovatsiyalar orqali yangi xizmatlar, boshqaruv yondashuvlari va ijtimoiy loyihalar shakllanib, ular aholi ehtiyojlarini qondirish hamda ijtimoiy muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston sharoitida ham ijtimoiy davlat modelini takomillashtirish va ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, aholi bandligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish, yoshlar va xotin-qizlar iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash hamda hududiy rivojlanishni ta’minlash jarayonlarida ijtimoiy tadbirkorlikning imkoniyatlari kengdir. Ta’kidlash lozimki, mamlakatda ijtimoiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy, institutsional va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-falsafiy prognoz sifatida ijtimoiy davlat modelini yanada rivojlantirish ijtimoiy tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy innovatsiyalarni keng joriy etish hamda davlat, biznes va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Mazkur jarayon iqtisodiy samaradorlikni ijtimoiy

adolat tamoyillari bilan uyg‘unlashtirgan holda jamiyatning barqaror va inklyuziv rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu ma’noda ijtimoiy davlat va ijtimoiy tadbirkorlik o‘zaro uyg‘un holda jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-falsafiy asoslarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - B. 464.
2. https://lex.uz/uz/docs/-5841063?utm_source=chatgpt.com
3. Эспинг-Андерсен Г. Три мира капитализма благосостояния (пер. с англ.; под ред. М.Добряковой) - Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2011. - С. 416.
4. Роулз Дж. Теория справедливости. (Пер. с англ. В.В.Целищева, В.Н.Карповича) - Москва: URSS, 2017. - С. 536.
5. Дис Дж.Г. Значение социального предпринимательства (пер. с англ.) - Стэнфорд: Stanford University, Center for the Advancement of Social Entrepreneurship, 2001. - С. 15.
6. Хабермас Ю. Структурное изменение публичной сферы: исследование категории буржуазного общества (пер. с нем.) - Москва: Весь Мир, 2016. - С. 344.
7. Юнус М. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма (пер. с англ.) - Москва: Альпина Паблишер, 2010. - С. 304.
8. Сен А. Развитие как свобода (пер. с англ.) - Москва: Новое издательство, 2004. - С. 432.
9. Николлс А. Социальное предпринимательство: новые модели устойчивых социальных изменений (пер. с англ.) - Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2010. - С. 384.
10. Эспинг-Андерсен Г. Три мира капитализма благосостояния (пер. с англ.; под ред. М.Добряковой) - Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2011. - С. 416.
11. Малган Дж., Такер С., Али Р., Сандерс Б. Социальные инновации: что это такое, почему это важно и как можно ускорить их развитие (пер. с англ.) - Москва: Центр стратегических разработок, 2011. - С. 64.
12. Гидденс Э. Последствия современности (пер. с англ.) - Москва: Праксис, 2011. - С. 352.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Mavlonov Baxromali Qodirovich
FarDU tadqiqotchisi

NIGILIZM VA QADRIYATLAR TO‘QNASHUVINING O‘ZBEKISTON JAMIYATI UCHUN OQIBATLARI VA YECHIMLARINING FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda namoyon bo‘layotgan nigilizm hodisasi hamda qadriyatlar tizimidagi qarama-qarshiliklar ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda madaniy transformatsiyalar ta’sirida yuzaga kelayotgan qadriyaviy beqarorlik va uning jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatadigan ta’siri ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash masalalari tahlil qilinib, yosh avlod ongida ma’naviy immunitetni shakllantirish hamda jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi falsafiy yondashuv va takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *nigilizm, qadriyatlar tizimi, ma’naviy inqiroz, ijtimoiy barqarorlik, milliy qadriyatlar, globallashuv jarayonlari, ijtimoiy-falsafiy tahlil.*

Мавлонов Бахромали Кодирович
Исследователь ФерГУ

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОСЛЕДСТВИЙ НИГИЛИЗМА И СТОЛКНОВЕНИЯ ЦЕННОСТЕЙ ДЛЯ ОБЩЕСТВА УЗБЕКИСТАНА И ПУТЕЙ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье на основе социально-философского подхода анализируются проявления феномена нигилизма и противоречия в системе ценностей, наблюдаемые в современном обществе. В ходе исследования рассматриваются процессы ценностной нестабильности, возникающие под влиянием глобализации, стремительного развития информационно-коммуникационных технологий и культурных трансформаций, а также их воздействие на развитие общества. Кроме того, анализируются вопросы обеспечения гармонии между национальными и общечеловеческими ценностями в условиях современного Узбекистана. В работе также предлагаются философские подходы и рекомендации, направленные на формирование духовного иммунитета у молодого поколения и укрепление социальной стабильности в обществе.*

Ключевые слова: *нигилизм, система ценностей, духовный кризис, социальная стабильность, национальные ценности, процессы глобализации, социально-философский анализ.*

Mavlonov Baxromali Qodirovich
The researcher of FerSU

A PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE CONSEQUENCES OF NIHILISM AND THE CLASH OF VALUES FOR UZBEK SOCIETY AND THE WAYS OF THEIR RESOLUTION

Abstract. *This article analyzes the manifestations of the phenomenon of nihilism and contradictions within the system of values in contemporary society from a socio-philosophical perspective. The study examines the processes of value instability that arise under the influence of globalization, the rapid development of information and communication technologies, and cultural transformations, as well as their impact on societal development. In addition, the article explores the issue of ensuring harmony between national and universal values in the context of modern Uzbekistan. The paper also proposes philosophical approaches and recommendations aimed at fostering spiritual resilience among the younger generation and strengthening social stability in society.*

Keywords: *nihilism, value system, spiritual crisis, social stability, national values, globalization processes, socio-philosophical analysis.*

KIRISH

Insoniyat taraqqiyoti tarixida qadriyatlar tizimi jamiyatning ma’naviy asosini tashkil etib kelgan. Har bir jamiyat o‘zining tarixiy tajribasi, madaniy an’analari va ijtimoiy munosabatlari asosida muayyan qadriyatlar majmuini shakllantiradi. Mazkur qadriyatlar jamiyat hayotining ma’naviy mezonlari sifatida shaxsning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvorini belgilaydi. Ijtimoiy falsafa doirasida qadriyatlar jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim ma’naviy omil sifatida talqin qilinadi. Shu sabab qadriyatlar tizimi jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish hamda ijtimoiy institutlarning samarali faoliyatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

XXI asrda globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi natijasida turli qadriyatlar tizimlari o‘rtasida murakkab munosabatlar shakllanmoqda. Globallashuv jarayoni bir tomondan madaniy almashinuvni kuchaytirib, jamiyatlar o‘rtasida integratsiyani chuqurlashtirsa, boshqa tomondan ayrim an’anaviy qadriyatlarning transformatsiyasiga ham sabab bo‘lmoqda. Amerikalik sotsiolog Samuel Hantington global jarayonlar sharoitida turli sivilizatsiyalar o‘rtasida madaniy va qadriyaviy farqlar kuchayishi mumkinligini ta’kidlab, zamonaviy dunyoda madaniy identifikatsiya masalasi muhim ahamiyat kasb etayotganini qayd etadi [4. 28.]. Bu holat jamiyatlarda qadriyatlar tizimining qayta talqin qilinishiga va yangi ijtimoiy qarashlarning shakllanishiga olib kelmoqda.

Mazkur jarayonlar fonida ayrim jamiyatlarda qadriyaviy inqiroz, ma’naviy beqarorlik va nigilistik qarashlarning kuchayishi kuzatilmoqda. Nigilizm ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida an’anaviy qadriyatlarning inkor etilishi yoki ularning ahamiyatini rad etish bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Nemis faylasufi Fridrix Nitsshe nigilizmni an’anaviy axloqiy qadriyatlarning yemirilishi natijasida yuzaga keladigan ma’naviy bo‘shliq sifatida tavsiflab, qadriyatlar tizimidagi inqiroz insoniyatni yangi ma’naviy asoslarni izlashga undashini ta’kidlaydi [3. 9.]. Nitsshe fikricha, qadriyatlar inqirozi jamiyatda ma’naviy yo‘nalishning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda nigilizm fenomeni jamiyatning ma’naviy barqarorligi, ijtimoiy birdamlik va madaniy identifikatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Ijtimoiy nazariya doirasida qadriyaviy inqiroz jamiyatdagi ijtimoiy integratsiya jarayonlariga ham ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Entoni Giddens zamonaviy jamiyatda an’anaviy qadriyatlarning transformatsiyasi natijasida shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi ham murakkablashib borayotganini qayd etadi [5. 5.]. Bu esa zamonaviy jamiyatda qadriyatlar tizimining yangicha talqin qilinishini talab etadi.

O‘zbekiston jamiyati ham globallashuv, modernizatsiya va ijtimoiy transformatsiya jarayonlari sharoitida qadriyatlar tizimining muayyan o‘zgarish bosqichini boshdan kechirmoqda. Milliy qadriyatlar, tarixiy meros va zamonaviy demokratik tamoyillar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xusussan, qadriyatlar tizimi, ma’naviy barqarorlik, nigilizmga qarshi ma’rifiy yondashuvga Sh.M.Mirziyoyevning: “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir,” [1. 22.] – degan fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida mazkur mavzudagi quyidagi g‘oyani kuchaytiradi, ya’ni qadriyatlar inqirozi va nigilistik kayfiyatlarga qarshi eng muhim javob - ma’rifat, tarbiya va ilmga tayangan ma’naviy asosdir. Yuqoridagi fikr zamonaviy jamiyatda qadriyatlar barqarorligini ta’minlash, ma’naviy bo‘shliq va nigilistik qarashlarning oldini olishda ilmiy-ma’rifiy yondashuv hal qiluvchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Shu sabab zamonaviy ijtimoiy jarayonlar sharoitida nigilizm va qadriyatlar to‘qnashuvining ijtimoiy oqibatlarini o‘rganish, ularning jamiyat ma’naviy barqarorligiga ta’sirini tahlil qilish hamda mazkur jarayonlarni bartaraf etishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi nigilizm fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish, qadriyatlar tizimining transformatsiya jarayonlarini o‘rganish hamda zamonaviy jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda qadriyatlarning o‘rnini aniqlashdan iborat. Bu esa jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash hamda ma’naviy taraqqiyotning barqaror asoslarini shakllantirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda qadriyatlar tizimi transformatsiyasi hamda nigilizm fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda murakkab ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish bir nechta metodlarning o‘zaro uyg‘unligini talab qiladi. Shu sabab tadqiqot jarayonida dialektik metod, tizimli (sistemali) tahlil metodi, qiyosiy tahlil hamda ijtimoiy-falsafiy interpretatsiya metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar qadriyatlar tizimining tarixiy evolyutsiyasini, jamiyat ma’naviy hayotida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarni hamda nigilizm fenomenining ijtimoiy oqibatlarini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning metodologik asosini dialektik metod tashkil etadi. Dialektik yondashuv ijtimoiy hodisalarni ularning tarixiy rivojlanishi, ichki ziddiyatlari va o‘zgarish jarayonlari bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Jamiyat

taraqqiyotida qadriyatlar tizimi ham doimiy ravishda o‘zgarib boruvchi dinamik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Dialektik yondashuv orqali qadriyatlar tizimining evolyutsiyasi, an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir hamda ularning jamiyat ma’naviy hayotiga ta’siri o‘rganildi. Zamonaviy ijtimoiy nazariyalarda ham ijtimoiy jarayonlarning o‘zgaruvchan tabiati alohida ta’kidlanadi. Masalan, Entoni Giddens modern jamiyatda an’anaviy qadriyatlar tizimi transformatsiyaga uchrab, yangi ijtimoiy identifikatsiya shakllarini yuzaga keltirayotganini qayd etadi [5. 5.].

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil metodi ham qo‘llanildi. Ushbu metod jamiyatni o‘zaro bog‘langan ijtimoiy institutlar va qadriyatlar tizimidan iborat murakkab tizim sifatida o‘rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv nigilizm fenomenini jamiyatdagi madaniy, ma’naviy va ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilish imkonini berdi. Ijtimoiy tizimlar nazariyasida jamiyat barqarorligi turli ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi muvozanat bilan bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Talkott Parsons jamiyatni o‘zaro bog‘langan ijtimoiy institutlar tizimi sifatida talqin qilib, har bir institut jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim funksiyani bajarishini qayd etadi [8. 5.]. Shu nuqtai nazardan tadqiqotda qadriyatlar tizimi jamiyat barqarorligini ta’minlovchi muhim ma’naviy institut sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil metodi ham muhim metodologik vosita sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida milliy qadriyatlar tizimi hamda global madaniy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tahlil qilindi. Qiyosiy yondashuv turli jamiyatlarda qadriyatlar tizimining shakllanish jarayonini solishtirish orqali ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Globallashuv jarayonida madaniyatlararo aloqalar kuchayib borayotganini Samuel Hantington ham ta’kidlab, zamonaviy dunyoda sivilizatsiyalar o‘rtasidagi madaniy va qadriyaviy farqlar muhim ahamiyat kasb etayotganini qayd etadi [4. 28.]. Shu sabab tadqiqotda milliy qadriyatlar va global madaniy jarayonlar o‘rtasidagi munosabatlar qiyosiy tahlil asosida o‘rganildi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida ijtimoiy-falsafiy interpretatsiya metodi qo‘llanildi. Ushbu metod nigilizm fenomenining ijtimoiy mohiyatini hamda uning jamiyat ma’naviy hayotiga ta’sirini talqin qilishga xizmat qildi. Nigilizm an’anaviy qadriyatlar tizimining inqirozi bilan bog‘liq ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida qaraladi. Nemis faylasufi Fridrix Nitsshe nigilizmni qadriyatlarning yemirilishi natijasida yuzaga keladigan ma’naviy bo‘shliq sifatida tavsiflab, bu jarayon insoniyatni yangi ma’naviy asoslarni izlashga undashini ta’kidlaydi [3. 9.]. Mazkur yondashuv nigilizm fenomenining jamiyat ma’naviy barqarorligiga ta’sirini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida zamonaviy falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik sohalaridagi ilmiy manbalar kompleks tarzda tahlil qilindi. Bu manbalar jamiyatdagi qadriyatlar transformatsiyasi, ma’naviy identifikatsiya jarayonlari hamda nigilizm fenomenining ijtimoiy oqibatlarini ilmiy asosda o‘rganishga xizmat qildi. Kompleks metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minlash bilan birga, qadriyatlar tizimining zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini chuqurroq yoritishga imkon berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, nigilizm fenomenining paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy hamda ma’naviy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Nigilizm ko‘pincha an’anaviy qadriyatlar tizimining transformatsiyasi, ijtimoiy institutlarning zaiflashuvi hamda jamiyatda ma’naviy orientirlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Olib borilgan tahlillar nigilizm fenomenining shakllanishiga ta’sir etuvchi bir qator muhim omillar mavjudligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, globallashuv jarayonlari nigilizm fenomenining kuchayishiga ta’sir ko‘rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari natijasida turli madaniyatlar, qadriyatlar va ijtimoiy tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchayib bormoqda. Bu jarayon bir tomondan madaniy almashinuv va integratsiyani kuchaytirsa, boshqa tomondan ayrim an’anaviy qadriyatlar tizimining zaiflashishiga ham olib kelishi mumkin. Samuel Huntington global jarayonlar sharoitida sivilizatsiyalar o‘rtasidagi asosiy ziddiyatlar madaniy va qadriyaviy farqlar bilan bog‘liq bo‘lishini ta’kidlab, zamonaviy dunyoda madaniy identifikatsiya masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini qayd etadi [4. 28.]. Mazkur yondashuv globallashuv jarayonlari sharoitida qadriyatlar tizimining transformatsiyasi jamiyatda ma’naviy qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, axborot makonining kengayishi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ham nigilizm fenomenining shakllanishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biridir. Zamonaviy jamiyatda internet, ijtimoiy tarmoqlar va global axborot tizimlari orqali turli ideologik, madaniy va axloqiy qarashlar tezkor tarqalmoqda. Bu esa yosh avlodning turli madaniy va mafkuraviy ta’sirlarga duch kelishiga sabab bo‘lmoqda. Manuel Castells axborot jamiyati sharoitida kommunikatsiya tizimlarining global xarakter kasb etishi natijasida ijtimoiy ong va identifikatsiya jarayonlari ham tubdan o‘zgarib borayotganini ta’kidlaydi [7. 21.]. Mazkur jarayon ayrim hollarda qadriyaviy relativizmning kuchayishiga, ya’ni turli qadriyatlar tizimlari o‘rtasidagi chegaralarning nisbiylashishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, ijtimoiy identifikatsiya inqirozi ham nigilizm fenomenining kuchayishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatda an’anaviy ma’naviy ideal va ijtimoiy me’yorlarning zaiflashuvi shaxsning o‘zini jamiyat bilan identifikatsiya qilish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda shaxs

identifikatsiyasi jarayoni global ijtimoiy transformatsiyalar natijasida murakkablashib borayotgani ta’kidlanadi. Entoni Giddens zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi barqaror an’anaviy tizimlardan ko‘ra ko‘proq individual tanlov va refleksiv jarayonlar asosida shakllanishini qayd etadi [5. 81.]. Bu esa ayrim hollarda shaxsning ma’naviy orientirlarini yo‘qotishiga olib kelishi mumkin.

To‘rtinchidan, ma’naviy bo‘shliq fenomeni nigilizmning muhim ijtimoiy-falsafiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Qadriyatlar tizimining zaiflashuvi yoki an’anaviy ma’naviy me’yorlarning inqirozi shaxs ongida ma’naviy bo‘shliqni yuzaga keltirishi mumkin. Nemis faylasufi Fridrix Nitsshe nigilizmni aynan an’anaviy qadriyatlarning yemirilishi natijasida yuzaga keladigan ma’naviy bo‘shliq sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, qadriyatlar tizimining inqirozi insoniyatni yangi ma’naviy asoslarni izlashga majbur qiladi [3. 9.].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuqorida qayd etilgan omillar jamiyatda bir qator salbiy ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, qadriyatlar tizimining zaiflashuvi ijtimoiy befarqlikning kuchayishiga, jamiyatdagi ma’naviy birlikning susayishiga hamda ayrim hollarda radikal qarashlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, qadriyaviy relativizmning kuchayishi shaxsning axloqiy orientirlarini zaiflashtirib, ijtimoiy me’yorlar tizimining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, ijtimoiy birdamlikning zaiflashuvi jamiyatdagi ijtimoiy institutlar faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy nazariya doirasida jamiyat barqarorligi ijtimoiy qadriyatlar va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi muvozanat bilan bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Talkott Parsons jamiyatni o‘zaro bog‘langan ijtimoiy institutlar tizimi sifatida talqin qilib, ijtimoiy qadriyatlar tizimi jamiyat barqarorligini ta’minlovchi muhim funksional elementlardan biri ekanini qayd etadi [8. 5.].

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari nigilizm fenomeni jamiyatdagi qadriyatlar tizimining transformatsiyasi bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Globallashuv, axborot makonining kengayishi va ijtimoiy identifikatsiya jarayonlarining murakkablashuvi nigilistik qarashlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratishi mumkin. Shu sabab zamonaviy jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlash hamda qadriyatlar tizimini mustahkamlash muhim ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi.

MUHOKAMA

O‘zbekiston jamiyatida nigilizmning oldini olish masalasi, avvalo, milliy ma’naviy qadriyatlar tizimini mustahkamlash, ularni zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish hamda yosh avlod ongida barqaror ma’naviy mezonlarni shakllantirish bilan bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, nigilizm shunchaki ayrim g‘oyaviy og‘ish yoki individual qarash emas, balki jamiyatda qadriyatlar tizimining zaiflashuvi, ma’naviy orientirlarning noaniqlashuvi va ijtimoiy birdamlikning susayishi bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy hodisadir. Shu sababli unga qarshi kurashni faqat ma’muriy yoki huquqiy choralar bilan emas, balki chuqur ma’naviy, falsafiy va madaniy asoslar orqali olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu jihatdan O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma’naviyat masalasiga alohida urg‘u berilishi bejiz emas. Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, *“Ma’naviyat – jamiyat hayotining eng muhim tayanchi hisoblanadi”* [2. 312.]. Mazkur fikrning ijtimoiy-falsafiy mazmuni shundaki, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimlari qanchalik rivojlangan bo‘lmasin, agar ularning ma’naviy asosi mustahkam bo‘lmasa, ijtimoiy barqarorlik izdan chiqishi mumkin. Demak, ma’naviyat bu yerda faqat axloqiy-chaqiriq emas, balki jamiyatning ichki birligini ta’minlovchi tamal toshi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalarini muhokama qilish shuni ko‘rsatadiki, nigilizmga qarshi samarali falsafiy yechimlardan biri *milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash*dir. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni yopiq tizim sifatida saqlab qolish amalda qiyin, ayrim hollarda esa samarasiz hamdir. Chunki zamonaviy dunyo madaniy almashinuv, axborot oqimlari va transmilliy ta’sirlar asosida rivojlanmoqda. Samuel Huntington zamonaviy dunyoda ziddiyatlarning muhim qismi aynan madaniy va sivilizatsion tafovutlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [4. 28.]. Biroq bu holat milliy qadriyatlar global madaniyatga qarshi qo‘yilishi kerak degani emas. Aksincha, ijtimoiy barqaror jamiyat uchun milliy qadriyatlar umuminsoniy tamoyillar - adolat, erkinlik, inson qadr-qimmati, bag‘rikenglik va hamjihatlik bilan uyg‘un holda rivojlanishi lozim. Ana shunday uyg‘unlik bo‘lmagan joyda yo qadriyatlar konservativ qotib qoladi, yo butunlay relativlashib, ma’naviy bo‘shliqqa yo‘l ochadi. Ikkalasi ham nigilistik kayfiyatlar uchun qulay zamin yaratadi.

Muhokama natijalariga ko‘ra, *yoshlar ongida ma’naviy immunitetni shakllantirish* ham muhim falsafiy-amaliy yo‘nalishdir. Ma’naviy immunitet deganda shaxsning turli destruktiv g‘oyalar, axloqiy relativizm, zo‘ravonlikni oqlovchi qarashlar va ma’nosizlik kayfiyatlariga nisbatan ichki qarshilik ko‘rsatish qobiliyati tushuniladi. Bu qobiliyat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi; u ta’lim, tarbiya, falsafiy tafakkur va ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi. Fridrix Nitsshe nigilizmni qadriyatlar yemirilishi natijasida yuzaga keladigan ma’naviy bo‘shliq bilan bog‘lagan edi [3. 9.]. Zamonaviy sharoitda aynan shu “bo‘shliq”ning oldini olish uchun ta’lim tizimida falsafa, axloq, madaniyatshunoslik, dinlar tarixi, media savodxonlik va tanqidiy tafakkurga oid fanlarning rolini kuchaytirish zarur. Chunki faqat faktlar bilan qurollangan, ammo qadriyaviy mezonlardan mahrum ong osongina tashqi ta’sirlar oqimida adashib qoladi. Bilimning o‘zi yetmaydi; unga

ma’no ham kerak. Aks holda, texnologik savodxonlik bilan ma’naviy bo‘shliq birlashib, juda noqulay aralashma hosil qiladi.

Shuningdek, *madaniy identifikatsiyani mustahkamlash* ham nigilizmga qarshi muhim ijtimoiy-falsafiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxs o‘zini muayyan tarix, madaniyat va ma’naviy an’analar bilan bog‘liq holda anglagan taqdirdagina ijtimoiy hayotda faol va mas’uliyatli subyektga aylanadi. Anthony Giddens zamonaviylik sharoitida shaxsning o‘zini identifikatsiya qilishi tobora murakkablashayotganini, an’anaviy tayanchlarning zaiflashuvi esa refleksiv, ammo ayni paytda beqaror identitetlarni shakllantirishini ta’kidlaydi [5. 81.]. Demak, identifikatsiya inqirozi - bu shunchaki psixologik muammo emas, balki ijtimoiy-falsafiy masala. O‘zbekiston sharoitida tarixiy xotira, milliy o‘zlik, ajdodlar merosi, ma’rifiy an’analar va fuqarolik mas’uliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash orqali yoshlarning ma’naviy tayanchlarini kuchaytirish mumkin. Bu jarayon ayniqsa globallashuvning tezkor axborot muhiti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama doirasida yana bir muhim yo‘nalish sifatida *raqamli madaniyatni rivojlantirish* alohida e’tiborga loyiqdir. Bugungi kunda axborot makoni shaxsning dunyoqarashi, qadriyaviy tanlovi va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Manuel Castells axborot jamiyatida kommunikatsiya tarmoqlari ijtimoiy ongni shakllantiruvchi asosiy kuchlardan biriga aylanganini ta’kidlaydi [7. 21.]. Demak, raqamli makon endi shunchaki texnik vosita emas; u qadriyatlar kurashi kechadigan maydonga aylangan. Shunday ekan, yoshlarni nafaqat internetdan foydalanishga, balki axborotni tahlil qilishga, manipulyativ kontentni farqlashga, mafkuraviy bosimlarni anglashga va tanqidiy xulosa chiqarishga o‘rgatish zarur. Raqamli madaniyat rivojlanmagan joyda axborot ko‘pligi bilimga emas, balki chalkashlikka xizmat qiladi. Bu esa nigilizm, relativizm va befarqlikni kuchaytirishi mumkin. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan qaraganda, nigilizmning oldini olishning eng samarali yo‘li - jamiyatda *ma’no, me’yor* va *mas’uliyat uyg‘unligini* ta’minlashdir. Ma’no shaxsga nima uchun yashayotgani va nimaga xizmat qilayotganini anglatadi; me’yor unga qanday yashash kerakligini ko‘rsatadi; mas’uliyat esa bu tamoyillarni amaliy hayotga tatbiq etadi. Ana shu uchlik izdan chiqqan joyda nigilistik kayfiyatlar kuchayadi. Shu bois O‘zbekiston jamiyatida ma’naviy barqarorlikni ta’minlash, yoshlarni tarixiy xotira va zamonaviy tafakkur uyg‘unligida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatini saqlash hamda raqamli muhitda tanqidiy ongni rivojlantirish nigilizmga qarshi strategik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, nigilizmga qarshi kurash jamiyatni eski shiorlar bilan “bezash” emas, balki uning ma’naviy poydevorini zamonaviy sharoitda qayta mustahkamlashni talab qiladi. Bu esa falsafa, ta’lim, madaniyat, oila va axborot siyosatining uzviy hamkorligini taqozo etadi. Aks holda, qadriyatlar bo‘shab qolgan joyni tasodifiy g‘oyalar, radikal shiorlar yoki ma’nosizlikning o‘zi egallab oladi. Tabiat bo‘shliqni yoqtirmaydi, jamiyat ham shunday.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nigilizm fenomeni zamonaviy jamiyatda yuzaga kelayotgan ijtimoiy, madaniy va ma’naviy transformatsiyalar bilan uzviy bog‘liq murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Nigilizmning paydo bo‘lishi ko‘pincha qadriyatlar tizimining zaiflashuvi, ijtimoiy identifikatsiya jarayonlarining murakkablashuvi hamda globallashuv sharoitida turli madaniy ta’sirlarning kuchayishi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, zamonaviy jamiyatda qadriyatlar tizimining transformatsiyasi shaxsning ma’naviy orientirlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ayrim hollarda ma’naviy relativizm va ijtimoiy befarqlik kabi holatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, nigilizmning kuchayishi jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik va ma’naviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Qadriyatlar tizimining zaiflashuvi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlikning susayishiga, ijtimoiy institutlarning samarali faoliyatiga ham ta’sir etishi mumkin. Shu sababli zamonaviy jamiyatda qadriyatlar tizimini mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash hamda yosh avlod ongida barqaror ma’naviy mezonlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, nigilizm fenomenining oldini olishda bir qator muhim ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Avvalo, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash jamiyatning ma’naviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Globallashuv jarayonlari sharoitida milliy qadriyatlarni zamonaviy madaniy jarayonlardan ajratib qo‘yish emas, balki ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda rivojlantirish zarur. Bu esa jamiyatda madaniy identifikatsiya va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Shuningdek, yoshlar ongida ma’naviy immunitetni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimida falsafa, axloq va ma’naviyatga oid fanlarning rolini kuchaytirish yosh avlodning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish hamda ularni turli destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoya qilishga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot makoni sharoitida yoshlarning axborot savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ham ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jamiyatda tarixiy xotira va madaniy identifikatsiyani mustahkamlash ham nigilizmning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Milliy tarix, madaniy meros va ma’naviy an’analar jamiyatning ma’naviy tayanchini tashkil etadi. Shaxsning o‘z tarixiy ildizlari va madaniy qadriyatlari bilan bog‘liqligini anglash ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, nigilizm fenomenini bartaraf etish jamiyatning ma’naviy rivojlanishi, qadriyatlar tizimining mustahkamlanishi hamda shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Zamonaviy jamiyatda barqaror taraqqiyotni ta’minlash uchun ma’naviy qadriyatlar, milliy an’analar va umuminsoniy tamoyillar uyg‘unligini saqlash zarur. Shu nuqtai nazardan qaralganda, jamiyatning ma’naviy barqarorligini mustahkamlash, yosh avlodni ma’naviy yetuklik ruhida tarbiyalash hamda qadriyatlar tizimini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

15. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - B. 464.
16. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. (To‘ldirilgan ikkinchi nashri) - Toshkent: O‘zbekiston, 2022. - B. 416.
17. Ницше Ф. Воля к власти. Опыт переоценки всех ценностей (пер. с нем.) - Москва: Азбука-Аттикус, 2022. - С. 448.
18. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций (пер. с англ. Т.Велимеева) - Москва: АСТ, 2021. - С. 640.
19. Гидденс Э. Модерн и самоидентичность: Я и общество в эпоху позднего модерна (пер. с англ.) - Москва: Академический проект, 2011. - С. 304.
20. Фромм Э. Здоровое общество (пер. с англ.) - Москва: АСТ, 2022. - С. 384.
21. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. Том 1: Возникновение сетевого общества (пер. с англ.) - Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2016. - С. 608.
22. Парсонс Т. Социальная система. - Москва: Академический проект, 2002. - С. 832.
23. Абу Наср Форобий Фозил одамлар шаҳри (Таржимонлар: Абдусодиқ Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон) - Тошкент: “Янги аср авлоди” нашриёт-матбааси, 2022. - С. 320.
24. Ибн Халдун. Мукаддима (Введение в историю) (пер. с араб.) - Москва: Наука, 2004. - С. 768.
25. Шарль Луи Монтескье О духе законов (Перевод: А. Горнфельд) - Москва: АСТ, 2022. - С. 864.
26. Жан Жак Руссо Об общественном договоре - Москва: Ключ-Пресс, 2001. - С. 416.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Begaliyeva Muhayyo Shamsiddinovna
Shahrisabz davlat pedagogika institute Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi yo'nalishi (ma'naviyat asoslari) 2-kurs magistranti
E-mail: begaliyevamuhayyo847@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-8164-674

SHAXS MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda oilaning tutgan o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda oilaning ijtimoiy institut sifatidagi vazifalari, farzand shaxsining axloqiy fazilatlari va ma'naviy dunyoqarashi rivojida ota-ona mas'uliyati, oilaviy muhitning tarbiyaviy salohiyati yoritib beriladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarning shaxs tarbiyasiga ta'siri, oilaviy tarbiya bilan maktab va jamiyat tarbiyasining uzviyligi masalalari ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanilib, oilaning shaxs ma'naviy kamolotidagi yetakchi roli asoslab beriladi. Maqola natijalari yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda oilaning strategik ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *shaxs tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, oila instituti, oilaviy muhit, ota-ona mas'uliyati, milliy qadriyatlar, ijtimoiylashuv, barkamol avlod, tarbiya jarayoni, ma'naviy kamolot.*

Бегалиева Мухайё Шамсиддиновна
Магистрант 2-го курса, Шахрисабзский государственный педагогический институт. Направление: Методика преподавания социально-гуманитарных наук (Основы духовности).

РОЛЬ СЕМЬИ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОГО И НОРМАТИВНОГО ВОСПИТАНИЯ ГЕРОЯ

Аннотация. *В данной статье представлен научно-теоретический анализ роли семьи в формировании духовного и нравственного воспитания человека.В нем подчеркиваются функции семьи как социального института, ответственность родителей за развитие нравственных качеств и духовного мировоззрения ребенка, а также воспитательный потенциал семейной среды.Это также раскрывает влияние национальных ценностей, традиций и обычаев на личностное развитие, а также связь между семейным, школьным и общественным образованием.В процессе исследования используются методы анализа, сравнения и обобщения для обоснования ведущей роли семьи в духовном развитии личности.Результаты статьи научно обосновывают стратегическую важность семьи в воспитании молодого поколения как всесторонне развитых личностей.*

Ключевые слова: *личностное воспитание, духовно-нравственное воспитание, институт семьи, семейная среда, родительская ответственность, национальные ценности, социализация, гармоничное поколение, образовательный процесс, духовная зрелость.*

Begaliyeva Muhayyo Shamsiddinovna
2nd-year Master's Student, Shahrisabz State Pedagogical Institute.
Field of Study: Methodology of Teaching Social Sciences and Humanities (Foundations of Spirituality).

THE ROLE OF THE FAMILY IN FORMING THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF THE PERSON

Abstract*. This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of the family in the formation of the spiritual and moral upbringing of a person.It highlights the functions of the family as a social institution, the responsibility of parents in the development of the moral qualities and spiritual worldview of the child, and the educational potential of the family environment.It also reveals the influence of national values, traditions, and customs on personal education, and the connection between family education, school, and community education.The research process uses methods of analysis, comparison, and generalization to substantiate the leading role of the family in the spiritual development of the individual.The results of the article scientifically substantiate the strategic importance of the family in raising the younger generation as well-rounded individuals.*

Keywords: *personal education, spiritual and moral education, family institution, family environment, parental responsibility, national values, socialization, harmonious generation, educational process, spiritual maturity.*

Kirish

Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlar jadallashib borayotgan sharoitda shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, jamiyatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy muvozanat va milliy o'zlikni anglash darajasi bevosita barkamol shaxs kamoloti bilan uzviy bog'liqdir. Shaxsning dastlabki ijtimoiylashuvi, axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishi va ma'naviy dunyoqarashining shakllanishi eng avvalo oila muhitida boshlanadi. Shu bois oilani shaxs tarbiyasining birlamchi va muhim ijtimoiy instituti sifatida ilmiy jihatdan o'rganish bugungi pedagogik va ijtimoiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, undagi axloqiy-psixologik muhitning farzand shaxsiga ta'sir mexanizmlarini aniqlash muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ota-ona tomonidan shakllantiriladigan qadriyatlar tizimi, oilaviy munosabatlar madaniyati va tarbiyaviy yondashuvlar shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish jarayonida oilaning o'rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritilib, uning jamiyat va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi uzviy roli asoslab beriladi.

Adabiyotlar tahlili

Shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda oilaning o'rni masalasi xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Jumladan, Abroto A., Aninditya Sri Nugraheni va Rizka Febriyani Awliyah tomonidan yozilgan *"The Role of the Family in the Moral Education of Children"* nomli ilmiy maqolada oila farzand shaxsining axloqiy tarbiyasi shakllanadigan birlamchi ijtimoiy muhit sifatida talqin qilinadi [1]. Mualliflar oilada shakllanadigan qadriyatlar tizimi, ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi va shaxsiy namunasining bolalarning axloqiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslaydilar. Tadqiqotda oilaviy tarbiyaning bolalar axloqiy rivojiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, oilaning ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi yetakchi roli pedagogik nuqtai nazardan asoslab beriladi. Shuningdek, L. Kohlbergning *"The Philosophy of Moral Development"* asarida axloqiy rivojlanish bosqichma-bosqich kechadigan jarayon sifatida izohlanib, bu jarayonning dastlabki bosqichlari aynan oilaviy tarbiya ta'sirida shakllanishi ko'rsatib beriladi [8]. A. Banduraning *"Social Learning Theory"* nazariyasiga ko'ra esa bolalarda axloqiy xatti-harakatlar asosan oiladagi kundalik munosabatlar va kattalarning shaxsiy namunasini kuzatish orqali shakllanadi [6].

Mazkur muammo rus va o'zbek olimlari tadqiqotlarida ham chuqur ilmiy tahlil qilingan. Xususan, *Л.И.* Божовичning *«Личность и её формирование в детском возрасте»* asarida shaxsning axloqiy va ijtimoiy shakllanishi oilaviy muhit bilan uzviy bog'liq holda yoritilib, oiladagi psixologik muhit farzand shaxsining ma'naviy yo'nalishini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi [4]. А.С. Макаренко *«Лекции о воспитании детей»* asarida oilaviy tarbiyani shaxsda mas'uliyat, intizom va ijtimoiy burch tuyg'usini shakllantiruvchi muhim pedagogik jarayon sifatida talqin qiladi [5]. O'zbek olimlari E.G. G'oziyevning *"Psixologiya"* darsligi hamda V.M. Karimovaning *"Ijtimoiy psixologiya"* asarlarida shaxs kamoloti, ijtimoiylashuv va axloqiy me'yorlarning shakllanishida oilaning yetakchi o'rni ilmiy asosda yoritilgan [2; 3]. Shuningdek, V. Qo'chqorov va O. Mahmudovlarning *"Ma'naviyat asoslari"* asarida milliy qadriyatlar, oilaviy an'analar va ma'naviy muhitning shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi [7]. Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar oilaning shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda birlamchi va strategik ijtimoiy institut ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda oilaning o'rnini aniqlash maqsadida dialektik yondashuv asosida tizimli tahlil olib borildi. Ilmiy izlanish jarayonida falsafiy, pedagogik va sotsiologik adabiyotlarni o'rganish hamda umumlashtirish, nazariy tahlil va sintez, taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish kabi umumilmiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, oilaviy tarbiyaning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berishda kontent-tahlil usuli qo'llanilib, mavjud ilmiy qarashlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida muammo kompleks yondashuv asosida tadqiq etildi. Tadqiqot natijalarini asoslashda induktiv va deduktiv xulosalash usullaridan foydalanilib, oilaning shaxs ma'naviy-axloqiy kamolotidagi yetakchi roli ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Natijalar va ularning tahlili

Oila shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasida birlamchi va eng muhim ijtimoiy institut sifatida xizmat qilishi tadqiqot natijalari bilan tasdiqlanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, farzandning axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni, avvalo, oilaviy muhitning sifati bilan chambarchas bog'liqdir. Ota-onalar tomonidan yaratilgan iliq, mehribon va tartibli muhit bolalarda adolat, halollik hamda mas'uliyat kabi muhim axloqiy fazilatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, oiladagi ota-ona o'rtasidagi munosabatlar sifati hamda farzand bilan muloqot uslubi shaxsning ma'naviy rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari oilaviy qadriyatlar tizimi va an'anaviy tarbiyaviy yondashuvlar shaxsning axloqiy dunyoqarashi hamda qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Xususan, oilada ota-onaning o'zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni namoyon etishi bolalarda empatiya va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini rivojlantiradi. Shuningdek, oilaviy tarbiyaning maktab va jamiyat tarbiyasi bilan uyg'unlashuvi farzandning barkamol shaxs sifatida kamol topishida strategik ahamiyat kasb etadi. Bu holat jamiyatning ma'naviy barqarorligi va yosh avlodning ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir qiladi.

Jahon tajribalarini tahlil qilish natijalari ham oilaviy tarbiyaning universal ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Xususan, turli mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar oiladagi muloqot, maslahatlashuv va o'zaro tushunishga asoslangan munosabatlar bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim vosita ekanini ko'rsatadi. Ota-onaning shaxsiy namunasi, qadriyatlarni izchil targ'ib etishi va muloqot sifati shaxsning ijtimoiy xulq-atvori hamda ma'naviy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, oilaning tarbiyaviy funksiyalarini samarali amalga oshirish ota-ona mas'uliyati, oilaviy qadriyatlarning uyg'unligi va jamiyat bilan uzviy hamkorlikni talab qiladi. Tadqiqotlardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxsning axloqiy-ijtimoiy fazilatlari va ma'naviy dunyoqarashi oilaviy muhitning sifatiga bevosita bog'liq bo'lib, oila farzandning barkamol shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi strategik omil hisoblanadi. Shu tariqa, milliy va jahon tajribalarini umumlashtirish oilaning shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi fundamental ahamiyatini ilmiy jihatdan yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda birlamchi va asosiy ijtimoiy institut sifatida strategik ahamiyatga ega. Oilaviy muhitning sifati, ota-ona o'rtasidagi munosabatlar, qadriyatlar tizimi hamda tarbiyaviy yondashuvlar bolalarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, oilaning tarbiyaviy salohiyatini oshirish hamda uning maktab va jamiyat bilan uzviy hamkorligini ta'minlash shaxsning barkamol va ijtimoiy mas'uliyatli shakllanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, milliy va jahon tajribalarini tahlil qilish natijalari oilaning shaxs tarbiyasidagi funksiyalari universal xarakterga ega ekanini va turli mamlakatlarda ham bir xil asosiy vazifalarni bajarishini ko'rsatadi. Shu bois, oilaviy tarbiyani samarali tashkil etish, ota-onalarni ma'naviy-axloqiy mas'uliyat ruhida qo'llab-quvvatlash orqali yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash mumkin. Tadqiqot natijalari oilaning shaxs ma'naviy-axloqiy kamolotidagi yetakchi rolini ilmiy jihatdan tasdiqlab, kelgusida ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan strategik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.**Abroto A., Nugraheni A.S., Awliyah R.F.** The Role of the Family in the Moral Education of Children // *International Journal of Educational Research & Social Sciences*. - 2021. - Vol. 2, No.4. - P. 987–995.

2.**Karimova V.M.** Ijtimoiy psixologiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2012 .

3.**G'oziyev E.G.** Psixologiya : kasb-hunar kollejlari uchun darslik. - 2-nashr. - Toshkent: **O'qituvchi** nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.

4.**Божович Л.И.** *Л*ичность и её формирование в детском возрасте. - Москва: Просвещение, 2008. - 464 с.

5.**Макаренко А.С.** *Л*екции о воспитании детей. - Москва: Педагогика, 1984.

6.**Bandura A.** *Social Learning Theory.* - Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1971. - 46 p.

7.**Qo'chqorov V., Mahmudov O.** Ma'naviyat asoslari. - Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2018. - 144 b.

8.**Kohlberg L.***The Philosophy of Moral Development.* - Harper & Row, 1981.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Raxmatullayev Dilmurod Raxmatullayevich
p.f.b.f.d. (PhD), ADPI mustaqil izlanuvchisi

"RAQAMLI SIVILIZATSIYA" TUSHUNCHASI GENEZISI VA ZAMONAVIY INTERPRITATSIYALARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "raqamli sivilizatsiya" tushunchasining shakllanishi, uning nazariy asoslari hamda zamonaviy talqinlari ijtimoiy-falsafiy yondashuv doirasida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji, raqamli iqtisodiyotning kengayishi va jamiyat hayotining raqamli transformatsiyasi natijasida yuzaga kelayotgan yangi sivilizatsion modelning o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Raqamli sivilizatsiya sharoitida insonning jamiyatdagi o'rni, uning madaniy identifikatsiyasi hamda axloqiy qadriyatlar tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot natijalari raqamli sivilizatsiya fenomenining ijtimoiy taraqqiyotga ko'rsatadigan ta'sirini, shuningdek uning ijobiy imkoniyatlari va ehtimoliy xavf-xatarlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan asoslab beradi.*

Kalit so'zlar: *raqamli sivilizatsiya, axborot jamiyati, raqamli transformatsiya, texnologik rivojlanish, ijtimoiy falsafa, axborot makoni, global jamiyat.*

Рахматуллаев Дилмурод Рахматуллаевич
(PhD) по педагогическим наукам, независимый исследователь АДПИ

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ГЕНЕЗИСА ПОНЯТИЯ «ЦИФРОВАЯ ЦИВИЛИЗАЦИЯ» И ЕГО СОВРЕМЕННЫХ ИНТЕРПРЕТАЦИЙ

Аннотация. *В данной статье в рамках социально-философского подхода рассматриваются процесс формирования понятия «цифровая цивилизация», его теоретические основания и современные интерпретации. В ходе исследования анализируются особенности нового цивилизационного типа, формирующегося под влиянием стремительного развития информационно-коммуникационных технологий, расширения цифровой экономики и процессов цифровой трансформации общественной жизни. Особое внимание уделяется вопросам изменения социального положения человека в условиях цифровой цивилизации, трансформации его культурной идентичности, а также эволюции системы нравственных ценностей. Результаты исследования раскрывают влияние феномена цифровой цивилизации на общественное развитие и с социально-философских позиций обосновывают как его позитивные возможности, так и возможные риски и противоречия.*

Ключевые слова: *цифровая цивилизация, информационное общество, цифровая трансформация, технологическое развитие, социальная философия, информационное пространство, глобальное общество.*

Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullaevich
(PhD) in Pedagogical Sciences, Independent Researcher at ADPI

A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE GENESIS OF THE CONCEPT OF "DIGITAL CIVILIZATION" AND ITS CONTEMPORARY INTERPRETATIONS

Abstract. *This article examines the formation of the concept of "digital civilization," its theoretical foundations, and its contemporary interpretations within the framework of a socio-philosophical approach. The study analyzes the distinctive features of a new civilizational model emerging as a result of the rapid development of information and communication technologies, the expansion of the digital economy, and the processes of digital transformation in social life. Particular attention is given to the changing role of the individual in society under the conditions of digital civilization, the transformation of cultural identity, and the evolution of the system of moral values. The research findings reveal the impact of the phenomenon of digital civilization on social development and substantiate, from a socio-philosophical perspective, both its positive opportunities and its potential risks.*

Keywords: *digital civilization, information society, digital transformation, technological development, social philosophy, information space, global society.*

KIRISH

XXI asr boshlarida insoniyat taraqqiyoti yangi bosqichga – raqamli texnologiyalar ustuvor bo‘lgan sivilizatsion rivojlanish davriga kirib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini, boshqaruv tizimlarini, ijtimoiy kommunikatsiya shakllarini hamda shaxslararo munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Natijada jamiyat taraqqiyotining yangi modeli – *raqamli jamiyat* yoki *raqamli sivilizatsiya* shakllanmoqda. Mazkur jarayon insoniyat tarixidagi sanoat va axborot inqiloblaridan keyingi navbatdagi muhim sivilizatsion o‘zgarish sifatida baholanadi.

Ilmiy adabiyotlarda “raqamli sivilizatsiya” tushunchasi axborot texnologiyalarining ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borishi natijasida yuzaga kelgan yangi sivilizatsion bosqich sifatida talqin qilinadi. Bu jarayonda iqtisodiy faoliyat, siyosiy boshqaruv, madaniy almashinuv va ijtimoiy kommunikatsiya tizimlari raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashib, jamiyatning yangi ijtimoiy tuzilmasini shakllantiradi. Raqamli sivilizatsiya sharoitida axborot ishlab chiqarish va bilim resurslari jamiyat rivojlanishining asosiy strategik omiliga aylanadi. Shu jihatdan zamonaviy jamiyatni tushunish uchun raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tuzilma o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur o‘rganish zarur.

Zamonaviy sotsiologik nazariyalarda raqamli sivilizatsiya jarayoni ko‘pincha *“tarmoqli jamiyat”* konsepsiyasi orqali izohlanadi. Ispaniyalik sotsiolog Manuel Castells zamonaviy jamiyatni global axborot tarmoqlari asosida shakllanayotgan yangi ijtimoiy tizim sifatida talqin qilib, axborot texnologiyalari iqtisodiy munosabatlar, siyosiy institutlar va madaniy kommunikatsiya shakllarini tubdan o‘zgartirayotganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning asosiy infratuzilmasi global axborot tarmoqlari orqali shakllanadi [2. 77.]. Bu jarayon raqamli texnologiyalar jamiyat taraqqiyotining muhim strukturaviy omiliga aylanib borayotganini ko‘rsatadi.

Texnologik taraqqiyotning ijtimoiy oqibatlarini o‘rganishda futurologik yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega. Amerikalik futurolog Alvin Toffler insoniyat tarixini uchta asosiy sivilizatsion bosqich orqali izohlab, agrar jamiyatni “birinchi to‘lqin”, sanoat jamiyatini “ikkinchi to‘lqin”, axborot texnologiyalariga asoslangan jamiyatni esa “uchinchi to‘lqin” sivilizatsiyasi sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, yangi texnologiyalar nafaqat iqtisodiy tizimni, balki jamiyatning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va boshqaruv shakllarini ham tubdan o‘zgartiradi [3. 24.]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, raqamli texnologiyalar rivoji jamiyat taraqqiyotining yangi paradigmasini shakllantirmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda raqamli sivilizatsiya fenomeni nafaqat texnologik jarayon, balki ijtimoiy va madaniy transformatsiya jarayoni sifatida ham o‘rganilmoqda. Raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha sohalariga kirib borib, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Natijada ijtimoiy kommunikatsiya, bilim ishlab chiqarish va madaniy identifikatsiya jarayonlari ham yangi mazmun kasb etmoqda.

O‘zbekiston jamiyatida ham raqamli texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat tizimi va axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali jamiyatning innovatsion rivojlanish modeli shakllantirilmoqda. Zero, “Ijtimoiy davlat - eng avvalo, jamiyatda ijtimoiy adolat va hamjihatlik tamoyillari hukm suradigan, inson kapitalini rivojlantirish va uning imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratilgan, fuqarolar uchun yuqori hayot va turmush darajasi ta’minlanadigan davlatdir,” [1. 204.] – deb e’tirof etilmoqda. Shu sababli raqamli sivilizatsiya fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini o‘rganish, uning jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy institutlar faoliyati va madaniy qadriyatlar tizimiga ta’sirini tahlil qilish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli sivilizatsiya fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish, uning zamonaviy jamiyat rivojiga ta’sirini aniqlash hamda raqamli texnologiyalar sharoitida ijtimoiy institutlar va madaniy qadriyatlar tizimining transformatsiya jarayonlarini o‘rganishdan iboratdir.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda raqamli sivilizatsiya fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini aniqlash hamda uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Raqamli transformatsiya jarayonlari ko‘p qirrali ijtimoiy hodisa bo‘lgani sababli, tadqiqot jarayonida turli ilmiy metodlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida tahlil olib borildi. Xususan, tarixiy-genetik metod, qiyosiy tahlil metodi, tizimli (sistemali) yondashuv hamda ijtimoiy-falsafiy interpretatsiya metodlari qo‘llanildi. Mazkur metodlar raqamli sivilizatsiyaning shakllanish jarayonini, uning nazariy talqinlarini hamda jamiyat rivojlanishiga ta’sirini kompleks tarzda o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqotda tarixiy-genetik metod yordamida raqamli sivilizatsiya tushunchasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Ushbu metod ijtimoiy hodisalarni ularning tarixiy evolyutsiyasi va shakllanish jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganishga imkon beradi. Raqamli sivilizatsiya fenomeni axborot jamiyati va texnologik taraqqiyot jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Texnologik rivojlanishning jamiyat hayotiga ta’sirini tahlil qilgan Alvin Toffler insoniyat tarixini uchta asosiy sivilizatsion bosqich orqali izohlab, axborot texnologiyalariga asoslangan jamiyatni

“uchinchi to‘lqin” sivilizatsiyasi sifatida tavsiflaydi [4. 24.]. Bu yondashuv raqamli texnologiyalar jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini shakllantirayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil metodi qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida turli ilmiy maktablarda raqamli jamiyat va axborot sivilizatsiyasi konsepsiyalarining talqinlari o‘rganildi. Qiyosiy yondashuv ilmiy nazariyalar o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, Manuel Castells zamonaviy jamiyatni global axborot tarmoqlari asosida shakllanayotgan “tarmoqli jamiyat” sifatida talqin qilib, axborot texnologiyalari iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning yangi strukturasini yuzaga keltirayotganini ta’kidlaydi [3. 77.]. Ushbu yondashuv raqamli texnologiyalar jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiga chuqur ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv ham muhim metodologik vosita sifatida qo‘llanildi. Mazkur metod jamiyatni o‘zaro bog‘langan ijtimoiy institutlar tizimi sifatida o‘rganishga asoslanadi. Tizimli yondashuv raqamli sivilizatsiyani iqtisodiy, siyosiy, madaniy va kommunikativ jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Ijtimoiy tizimlar nazariyasiga ko‘ra, jamiyat barqarorligi turli ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi muvozanat bilan belgilanadi. Talkott Parsons jamiyatni o‘zaro bog‘langan ijtimoiy institutlar tizimi sifatida talqin qilib, ijtimoiy institutlar jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim funksional rol o‘ynashini ta’kidlaydi [10. 5.]. Shu nuqtai nazardan raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlarning o‘zaro aloqalarini qayta shakllantirayotgan muhim omil sifatida o‘rganildi. Bundan tashqari, tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy interpretatsiya metodi qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida raqamli transformatsiya jarayonlarining jamiyat taraqqiyotiga ta’siri, ularning ijtimoiy oqibatlari hamda ma’naviy qadriyatlar tizimiga ta’siri talqin qilindi. Zamonaviy ijtimoiy nazariyalarda texnologik taraqqiyot shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi va kommunikatsiya shakllarini ham o‘zgartirishi ta’kidlanadi. Manuel Castells axborot jamiyatida kommunikatsiya tarmoqlari ijtimoiy munosabatlar tizimini qayta shakllantirib, global iqtisodiy va madaniy jarayonlarning asosiy infratuzilmasiga aylanayotganini qayd etadi [3. 21.]. Shuningdek, tadqiqot jarayonida zamonaviy sotsiologiya, ijtimoiy falsafa va texnologiya tadqiqotlari sohasidagi ilmiy manbalar kompleks tarzda tahlil qilindi. Bu manbalar raqamli sivilizatsiya fenomenining ijtimoiy mazmunini, uning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini hamda raqamli transformatsiya jarayonlarining ijtimoiy oqibatlarini chuqurroq anglash imkonini berdi. Kompleks metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minlash bilan birga, raqamli sivilizatsiyaning zamonaviy jamiyat rivojlanishidagi o‘rnini ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqurroq yoritishga xizmat qildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli sivilizatsiyaning shakllanishi jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan chuqur texnologik, iqtisodiy va madaniy transformatsiyalar bilan uzviy bog‘liq murakkab ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilmoqda, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, kommunikatsiya tizimlari hamda madaniy identifikatsiya jarayonlarini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Olib borilgan tahlillar raqamli sivilizatsiyaning shakllanishi bir qator muhim omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. *Birinchidan,* axborot texnologiyalarining rivojlanishi raqamli sivilizatsiya shakllanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda internet texnologiyalari, sun’iy intellekt, bulutli hisoblash tizimlari hamda katta ma’lumotlar (BIG DATA) texnologiyalarining jadal rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning yangi modelini shakllantirmoqda. Axborot texnologiyalari jamiyat taraqqiyotining strategik resursiga aylanib, bilim va axborot ishlab chiqarish iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylangan. Manuel Castells zamonaviy jamiyatni axborot texnologiyalariga asoslangan yangi ijtimoiy tizim sifatida tavsiflab, global axborot tarmoqlari iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlarning asosiy infratuzilmasiga aylanganini ta’kidlaydi [3. 77.]. Bu jarayon raqamli texnologiyalar jamiyat rivojlanishining yangi sivilizatsion bosqichini shakllantirayotganini ko‘rsatadi. *Ikkinchidan,* raqamli iqtisodiyotning shakllanishi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli platformalar asosida faoliyat yurituvchi iqtisodiy tizimlar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqaruv jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Elektron savdo, raqamli xizmatlar, platforma iqtisodiyoti va innovatsion startaplar iqtisodiy faoliyatning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Alvin Toffler texnologik taraqqiyot jarayonida iqtisodiy tizimlar ham tubdan o‘zgarib borishini ta’kidlab, axborot texnologiyalariga asoslangan jamiyatni insoniyat rivojlanishining yangi sivilizatsion bosqichi sifatida tavsiflaydi [4. 24.]. Mazkur jarayon raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotganini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, ijtimoiy kommunikatsiya tizimining transformatsiyasi raqamli sivilizatsiyaning muhim ijtimoiy natijalaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar insonlar o‘rtasidagi kommunikatsiya shakllarini tubdan o‘zgartirib, global axborot makonining shakllanishiga olib keldi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashinuvi tezlashib, insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar yangi shakllarga ega bo‘ldi. Zamonaviy kommunikatsiya tizimlari shaxslar, jamiyatlar va davlatlar o‘rtasidagi axborot almashinuvini yangi bosqichga olib chiqdi. Castellsning fikricha, tarmoqli jamiyat sharoitida kommunikatsiya jarayonlari global axborot tarmoqlari orqali amalga oshib, ijtimoiy munosabatlarning yangi strukturasini yuzaga keltiradi [3. 21.]. *To‘rtinchidan*, madaniy identifikatsiyaning o‘zgarishi raqamli sivilizatsiyaning muhim ijtimoiy-falsafiy oqibatlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli makon insonlarning madaniy identifikatsiyasini shakllantirish jarayoniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Virtual kommunikatsiya muhitida shaxslar

turli madaniy va ijtimoiy ta’sirlar bilan tezkor ravishda muloqotga kirishmoqda. Bu jarayon bir tomondan madaniyatlararo muloqotni kengaytirib, global madaniy integratsiyani kuchaytirsa, boshqa tomondan ayrim hollarda madaniy identifikatsiya inqirozi yoki madaniy relativizm holatlarining paydo bo‘lishiga ham olib kelishi mumkin. Zamonaviy sotsiologik nazariyalarda shaxs identifikatsiyasining murakkablashuvi global ijtimoiy transformatsiyalar bilan bog‘liq holda izohlanadi. Entoni Giddens zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi tobora refleksiv xarakter kasb etib, an’anaviy ijtimoiy tayanchlar zaiflashib borayotganini ta’kidlaydi [11. 81]. Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli sivilizatsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim bosqichi ekanini ko‘rsatdi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, kommunikatsiya tizimining transformatsiyasi hamda madaniy identifikatsiya jarayonlarining o‘zgarishi raqamli sivilizatsiya fenomenining asosiy xususiyatlarini tashkil etadi. Shu sabab raqamli transformatsiya jarayonlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqur o‘rganish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

MUHOKAMA

Raqamli sivilizatsiya fenomeni jamiyat rivojlanishining yangi bosqichi sifatida nafaqat texnologik taraqqiyotning yutug‘i, balki ijtimoiy-falsafiy jihatdan murakkab va ko‘p qatlamli jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki raqamli transformatsiya faqat ishlab chiqarish usullarini yoki kommunikatsiya vositalarini yangilamaydi; u insonning mehnatga munosabati, ijtimoiy mavqei, madaniy identifikatsiyasi, axloqiy tanlovi va hatto reallikni idrok etish shakllarini ham o‘zgartiradi. Shu sababli raqamli sivilizatsiyani faqat texnik taraqqiyot mahsuli sifatida baholash yetarli emas; uni jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, qadriyatlar tizimi va insoniy mavjudlik mazmuni bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarur.

Birinchidan, raqamli texnologiyalar inson faoliyatining ko‘plab sohalarini avtomatlashtirish orqali mehnat bozorining tuzilishini tubdan o‘zgartirmoqda. Sun’iy intellekt, algoritmik boshqaruv, robotlashtirish va platforma iqtisodiyoti an’anaviy kasblarning ayrim turlarini qisqartirayotgan bo‘lsa, boshqa yangi kasb va kompetensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon bir qarashda samaradorlikni oshiradi, biroq ikkinchi tomondan yangi ijtimoiy tengsizlik shakllarini paydo qilishi mumkin. Manuel Castells axborotlashgan iqtisodiyotda asosiy ustunlik moddiy resurslardan ko‘ra bilim, axborot va tarmoqqa ulanganlik bilan belgilanayotganini ta’kidlaydi [3. 77.]. Demak, raqamli jamiyatda tengsizlik faqat daromadlar farqi bilan emas, balki axborot resurslariga, texnologik ko‘nikmalarga va raqamli infratuzilmaga kirish imkoniyatlari bilan ham o‘lchanadi. Bu esa “raqamli tafovut”ni zamonaviy ijtimoiy tabaqalanishning yangi ko‘rinishiga aylantirmoqda.

Ikkinchidan, axborot makonining kengayishi natijasida jamiyatda axborot xavfsizligi, ma’naviy barqarorlik va madaniy identifikatsiya masalalari nihoyatda dolzarb bo‘lib qoldi. Raqamli kommunikatsiya tizimlari insoniyatni ilgari kuzatilmagan tezlikda bir-biriga bog‘ladi, biroq bu bog‘liqlik bilan birga manipulyatsiya, dezinformatsiya, g‘oyaviy bosim va madaniy standartlashuv xavfini ham kuchaytirdi. Castells tarmoqli jamiyat sharoitida kommunikatsiya tarmoqlari nafaqat axborot uzatish vositasi, balki hokimiyat, ta’sir va ijtimoiy ongni shakllantirish maydoniga aylanishini qayd etadi [3. 21.]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, axborot xavfsizligi endi faqat texnik himoya masalasi emas; u jamiyatning ma’naviy immuniteti, tanqidiy tafakkuri va madaniy mustaqilligini saqlash bilan ham bog‘liqdir.

Uchinchidan, raqamli sivilizatsiya sharoitida inson va texnologiya o‘rtasidagi munosabatlarning axloqiy jihatlari alohida ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Avvallari texnologiya asosan inson faoliyatining vositasi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, bugungi kunda u qaror qabul qilish, tanlovlarni yo‘naltirish, xulq-atvorni kuzatish va ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish qobiliyatiga ega tizimga aylanmoqda. Bu holat “texnologiya inson uchun xizmat qilyaptimi yoki inson texnologik tizimning funksional unsuriga aylanib boryaptimi?” degan falsafiy savolni kun tartibiga olib chiqadi. Jan Bodriyar zamonaviy texnologik muhitda inson tobora ko‘proq belgilar, obrazlar va simulyatsiyalar dunyosida yashayotganini ta’kidlab, reallikning o‘zi ham virtual vositalar orqali qayta ishlab chiqarilayotganini ko‘rsatadi [5. 5.]. Bu yondashuv virtual reallik, sun’iy obrazlar va media muhitining ijtimoiy ongga ta’sirini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Qisqasi, ekran ba’zan oynadan ham hiylakorroq narsa bo‘lib chiqadi.

To‘rtinchidan, raqamli sivilizatsiya insonning madaniy identifikatsiyasi va ijtimoiy o‘zligini ham qayta shakllantirmoqda. Virtual makonda shaxs bir vaqtning o‘zida turli madaniy qatlamlar, kommunikativ maydonlar va identifikatsiya kodlari bilan muloqotga kiradi. Bu bir tomondan ochiqlik, ko‘p madaniyatlilik va global muloqotni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan identifikatsiyaning beqarorlashuvi, yuzaki o‘zlik va qadriyaviy fragmentatsiyani ham kuchaytirishi mumkin. Anthony Giddens zamonaviylik sharoitida shaxsning o‘zligini qurish jarayoni tobora refleksivlashib, an’anaviy tayanchlardan uzoqlashayotganini ta’kidlaydi [11. 81.]. Raqamli muhit bu jarayonni yanada tezlashtiradi: inson endi nafaqat jamiyatda, balki algoritmlar orasida ham o‘zini “kimman?” degan savol bilan quradi. G‘alati zamon: profil bor, lekin ba’zan pozitsiya yo‘q.

Mazkur muhokamalar asosida, raqamli sivilizatsiya sharoitida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun bir necha strategik yo‘nalishlar muhim ekani ayon bo‘ladi:

Birinchidan, *raqamli madaniyatni rivojlantirish* zarur. Bu faqat kompyuterdan foydalanishni bilish emas, balki axborotni saralash, media matnni tahlil qilish, manipulyatsiyani aniqlash, virtual muloqot etikasi va tanqidiy tafakkur

ko‘nikmalarini shakllantirishni anglatadi. Alvin Toffler yangi sivilizatsion bosqichga o‘tish jarayonida bilim va axborot eng muhim strategik resursga aylanishini ta’kidlagan edi [4. 24.]. Demak, raqamli madaniyat – bu zamonaviy insonning ijtimoiy omon qolish vositasi hamdir.

Ikkinchisi, *axborot xavfsizligini ta’minlash* masalasi texnik va ma’naviy darajalarda birgalikda olib borilishi lozim. Texnik himoya kiberxavflarni kamaytirsa, ma’naviy-axloqiy tayyorgarlik jamiyatni dezinformatsiya, radikallashuv va g‘oyaviy chalg‘itishlardan himoya qiladi. Bu yerda masala oddiy: parolni kuchli qo‘yish foydali, lekin ongni ham shifrlash emas, chiniqtirish kerak.

Uchinchisi, *raqamli texnologiyalarning axloqiy me’yorlarini shakllantirish* bugungi kunning muhim talabidir. Sun’iy intellekt, raqamli kuzatuv, ma’lumotlar to‘plash va algoritmik qarorlar adolat, shaffoflik, javobgarlik va inson qadr-qimmati tamoyillari asosida tartibga solinishi zarur. Texnologik neytrallik degan afsona ko‘pincha juda qulay pardadir; aslida har bir texnologik tizim ortida muayyan manfaat, qadriyat va hokimiyat logikasi turadi.

To‘rtinchisi, *inson kapitalini rivojlantirish* raqamli sivilizatsiyaning markaziy sharti bo‘lib qoladi. Raqamli iqtisodiyotda ustunlikka erishish faqat texnika xaridi bilan emas, balki bilimli, moslashuvchan, ijodkor va axloqiy mas’uliyatga ega insonlarni tayyorlash bilan belgilanadi. Shu jihatdan inson kapitali masalasi raqamli taraqqiyotning periferiyasi emas, uning yuragi hisoblanadi.

Umuman olganda, raqamli sivilizatsiya jamiyat rivojining yangi bosqichi sifatida ulkan imkoniyatlar bilan birga jiddiy ijtimoiy-falsafiy muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Uning samarasini ta’minlash uchun texnologiyani ilohiylashtirish ham, undan vahimaga tushib qochish ham to‘g‘ri yo‘l emas. To‘g‘ri yo‘l – texnologik taraqqiyotni ijtimoiy adolat, axloqiy me’yorlar, madaniy barqarorlik va inson qadr-qimmati bilan uyg‘un holda boshqarishdir. Ana shunda raqamli sivilizatsiya insoniyat uchun qulay qurol bo‘ladi, aks holda u jilosi chiroyli, lekin falsafiy jihatdan juda sho‘x muammolar fabrikasiga aylanishi hech gap emas.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli sivilizatsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi hamda global kommunikatsiya tizimlarining kengayishi natijasida jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy tuzilmasi tubdan o‘zgarib bormoqda. Bu jarayon nafaqat texnologik yangilanish, balki ijtimoiy institutlar, kommunikatsiya shakllari va shaxs identifikatsiyasining yangi shakllarini yuzaga keltirayotgan keng ko‘lamli sivilizatsion transformatsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Manuel Castells zamonaviy jamiyatni axborot tarmoqlari asosida shakllangan yangi ijtimoiy tizim sifatida tavsiflab, axborot texnologiyalari iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning asosiy infratuzilmasiga aylanayotganini ta’kidlaydi [3. 77.].

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, raqamli sivilizatsiya insoniyat taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, global kommunikatsiyani rivojlantirish, bilim va axborot almashinuvi jarayonlarini tezlashtirish orqali jamiyat rivojining yangi bosqichini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayon yangi ijtimoiy-falsafiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, raqamli tengsizlik, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi, madaniy identifikatsiya hamda inson va texnologiya o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar kabi masalalar zamonaviy jamiyat oldida turgan muhim muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Raqamli sivilizatsiya sharoitida inson faoliyatining ko‘plab sohalarini avtomatlashtirish jarayoni mehnat bozorining tuzilishini ham o‘zgartirmoqda. Bu jarayon yangi kasblarning paydo bo‘lishi bilan birga, ayrim an’anaviy kasblarning yo‘qolishiga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli raqamli transformatsiya jarayonlarini ijtimoiy barqarorlik va inson manfaatlari tamoyillari asosida boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Alvin Toffler texnologik taraqqiyot jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va madaniy qadriyatlariga ham ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlab, yangi sivilizatsion bosqich insoniyatning ijtimoiy va madaniy hayotida chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltirishini qayd etadi [4. 24.].

Shuningdek, raqamli sivilizatsiya sharoitida shaxsning madaniy identifikatsiyasi va ijtimoiy o‘zligini anglash jarayonlari ham yangi shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Virtual kommunikatsiya muhitining kengayishi insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni global darajada rivojlantirayotgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda madaniy identifikatsiya muammolarini ham yuzaga keltirmoqda. Entoni Giddens zamonaviy jamiyatda shaxsning identifikatsiya jarayoni tobora murakkablashib borayotganini ta’kidlab, global ijtimoiy transformatsiyalar shaxsning o‘zligini anglash jarayoniga ham ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi [11. 81.].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli sivilizatsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari inson manfaatlari, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy qadriyatlar tizimi bilan uyg‘un holda rivojlantirilishi zarur. Raqamli texnologiyalarni jamiyat taraqqiyotining samarali vositasiga aylantirish uchun texnologik innovatsiyalar bilan bir qatorda ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda raqamli sivilizatsiyaning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan jamiyatning texnologik taraqqiyot va insoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, raqamli jamiyatni rivojlantirish jarayonida inson kapitalini rivojlantirish, axborot madaniyatini oshirish hamda

texnologik taraqqiyotni ijtimoiy adolat va inson manfaatlari tamoyillari asosida boshqarish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024. - B. 560.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - B. 464.
3. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. Том 1: Возникновение сетевого общества (пер. с англ.) - Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2016. - С. 608.
4. Тоффлер Э. Третья волна (пер. с англ. С.Рюмина; ред. Н.Никитенко) - Москва: АСТ, 2025. - С. 672.
5. Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляции (пер. с фр. А.Качалова) - Москва: Постум, 2017. - С. 320.
6. Шваб К. Четвертая промышленная революция. - Москва: Эксмо, 2022. - С. 208.
7. Флориди Л. Четвертая революция: как инфосфера меняет человеческую реальность (пер. с англ.) - Москва: Издательство Института Гайдара, 2016. -С. 304.
8. Шарль Луи Монтескье О духе законов (Перевод: А. Горнфельд) - Москва: АСТ, 2022. - С. 864.
9. Жан Жак Руссо Об общественном договоре - Москва: Ключ-Пресс, 2001. - С. 416.
10. Парсонс Т. Социальная система. - Москва: Академический проект, 2002. - С. 832.
11. Гидденс Э. Модерн и самоидентичность: Я и общество в эпоху позднего модерна (пер. с англ.) - Москва: Академический проект, 2011. - С. 304.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abdug‘aniyeva Gulnoza Abdurahim qizi
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: abduganievagulnoza8@gmail.com

INSON QADRI PARADIGMASI (“AQL”NING IJTIMOIY MOHIYATI TAHLILI)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada milliy va islomiy falsafiy merosda “aql” tushunchasining mazmun-mohiyati, uning inson qadrini belgilashdagi o‘rni va chegaralari tahlil qilinadi. Aqlning bilish vositasi sifatidagi ahamiyati, uning vahiy bilan munosabati hamda insonning ma’naviy-axloqiy takomilidagi regulyativ funksiyasi ochib beriladi. Shuningdek, monoistik falsafiy nazariyalarning inson mohiyatini bir jihatga bog‘lab talqin qilish xususiyatlari tanqidiy yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi. Maqolada aqlning insonni qadriyat darajasiga ko‘taruvchi omil sifatidagi falsafiy-axloqiy ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *aql, inson qadri, qadriyat, falsafa, islom tafakkuri, vahiy, rasionallik, ma’naviyat, komil inson.*

Abduganiyeva Gulnoza Abdurahim kizi
Independent student at the Namangan State Pedagogical Institute.

PARADIGM OF HUMAN VALUE (ANALYSIS OF THE SOCIAL ESSENCE OF "MIND")

Abstract: *This article examines the concept of reason (“aql”) within national and Islamic philosophical thought as a fundamental paradigm of human dignity. The study analyzes the epistemological, moral, and spiritual dimensions of reason, its role in determining human value, and its inherent limitations. Particular attention is given to the correlation between reason and revelation in Islamic intellectual tradition. The article argues that absolutizing reason leads to reductionist and monistic interpretations of human nature, whereas Islamic thought recognizes reason as a powerful yet bounded faculty that must function in harmony with revelation. In the context of contemporary global moral crisis, the regulatory and value-forming function of reason becomes especially significant. Ultimately, the paper substantiates the thesis that reason is not merely an epistemological instrument but a philosophical and ethical essence that elevates the human being to the level of intrinsic value.*

Key words: *Reason (aql), human dignity, values, Islamic philosophy, revelatio, rationality, epistemology, moral responsibility, spiritual development, perfect human concep.*

Абдуганиева Гульнозы Абдурахим кизи
Независимая студентка Наманганского государственного педагогического института

ПАРАДИГМА ЧЕЛОВеЕЧЕСКОЙ ЦЕННОСТИ АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНОЙ СУЩНОСТИ РАЗУМА

Аннотация: *В статье рассматривается понятие разума («‘акл») в национальной и исламской философской традиции как фундаментальная парадигма человеческого достоинства. Анализируются эпистемологические, нравственные и духовные аспекты разума, его роль в определении ценности человека, а также его онтологические и гносеологические границы. Особое внимание уделяется соотношению разума и откровения в исламской интеллектуальной мысли. Подчеркивается, что абсолютизация разума приводит к редукционистским и монистическим трактовкам человеческой природы, тогда как исламская традиция рассматривает разум как мощную, но ограниченную способность, функционирующую в гармонии с откровением. В условиях глобального духовно-нравственного кризиса регулятивная и ценностнообразующая функция разума приобретает особую актуальность. Делается вывод о том, что разум выступает не только средством познания, но и философско-этической сущностью, возвышающей человека до уровня высшей ценности.*

Ключевые слова: *Разум человеческое достоинство, ценности, исламская философия, откровение, рациональность, эпистемология, нравственная ответственность, духовное развитие, концепция совершенного человека.*

Kirish. Milliy falsafamizda “aql” tushunchasini - “asoslangan”, “maqsadga muvofiq” degan ma’noga ega ekanligi qayd etilgan manbalar mavjud. Jumladan, “Ma’naviyat: asosiy tushunchalar lug‘ati”da – “inson uchun o‘ylash, fikrlash, anglash va xotirlash, xulosa chiqarish imkonini beradigan qobiliyat, noyob ma’naviy hodisa.”, “Jahon falsafasi qomusi”da – “insonning ma’naviy-ruhiy faoliyatida barcha ashyo-narsalar, hodisalarni qanday bo‘lsa aynan shunday holda bilish

qobiliyati, mavhum fikrlar va tushunchalar yaratish xususiyati.”, deb qayd etilgan. Falsafiy tafakkur tarixiga nazar tashlasak, faylasuflar aqllari bilan ba’zi haqiqatlarni topishgan va bular ustidan turli tizimlar ishlab chiqishganligini kuzatish mumkin. Biroq, ularning aksariyatida inson haqiqatini birgina maylga bog‘lab izohlanganligi kuzatiladi. Turkiyalik faylasuf Usmon Nuri To‘pboshga ko‘ra, faylasuflarning aql mushohadasiga doir qarashlaridagi xatolik – ular inson haqiqatini birgina maylga bog‘lab izohlashga kirishganlari hamda inson borlig‘iga doir topgan bir haqiqatni u loyiq bo‘lgan darajadan yanada ustun ko‘rib yoki hamma narsaga umumlashtirib, butun hayotiy mayllarni o‘ziga bog‘liq bo‘lgan yagona mayl kabi ko‘rishlaridir. Bular “monist” nazariyalardir. Ma’lumki, aql insongagina berilgan ne’mat: bu ne’mat insonning butun qadri va qadriyatini belgilaydi. Zero, haqiqatga taslim bo‘lmagan aqlning qiyoslariga ergashilsa halolni harom, haromni halol deydigan bo‘lib qolish mumkin. Bu borada Ibn Sirin (rahmatillohi alayh)ning quyidagi fikri muhim ahamiyatga ega: “Vahiydan tashqaridagi alqlning qiyosini ilk marta iblis qo‘llagan. Odamlarni quyoshga va oyga topinishga undagan ham (vahiyga taslim bo‘lmagan bu aqlning) qiyoslaridir.”

Tadqiqot metodologiya

Maqolada quyidagi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi: falsafiy tahlil; manbalarni qiyosiy o‘rganish; nazariy-konseptual tahlil; Shuningdek, Islom ulamolari va faylasuflarining qarashlari, jumladan Imom G‘azzoliy, Ibn Xaldun, Ibn Sirin kabi allomalarning fikrlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aql insonga berilgan eng muhim ne’matlardan biri bo‘lib, insonning qadri va qadriyatlarini belgilaydi. Biroq haqiqatga taslim bo‘lmagan aql insonni adashtirishi ham mumkin. Ma’lumki, aql insongagina berilgan ne’mat: bu ne’mat insonning butun qadri va qadriyatini belgilaydi. Zero, haqiqatga taslim bo‘lmagan aqlning qiyoslariga ergashilsa halolni harom, haromni halol deydigan bo‘lib qolish mumkin. Bu borada Ibn Sirin (rahmatillohi alayh)ning quyidagi fikri muhim ahamiyatga ega: “Vahiydan tashqaridagi alqlning qiyosini ilk marta iblis qo‘llagan. Odamlarni quyoshga va oyga topinishga undagan ham (vahiyga taslim bo‘lmagan bu aqlning) qiyoslaridir.”

Ma’lumki, Alloh insonni o‘z qudrati va buyukligining dalillaridan biri etib eng go‘zal shaklda yaratganligi haqida asosli manbalar mavjud. Ularda Parvardigor insonga dunyo bir imtixon olami ekanini anglatib, abadiy saodatga erishishi uchun aql, qalb, ong va vijdon kabi bir qancha sifatlarni ham mujassam qilganligi ta’kidlanadi. Jumladan, Quroni Karimning “...” surasi ... oyatida quyidagicha marhamat qilinadi “.....”

Imom G‘azzoliyning inson haqidagi ta’limotining ilmiy-falsafiy asoslarini tadqiq etgan olim F.D.Muzaffarov allomaning bilish nazariyasi va komil inson konsepsiyasi shakllanishida aqlning ustuvorlik ahamiyatini uqtiradi. Imom G‘azzoliyning “Ihyou ulumi-d-din” asarida aql to‘rt qismga ajratiladi: insonni hayvonlardan ajratib turadigan sifat; ilmlarni idrok qiluvchi quvvat; tajribadan hosil bo‘lgan ilm; ishlarning natijasini anglash qobiliyati.

Muhim jihat shundaki, rasionallikka asoslangan Imom G‘azzoliy falsafasi inson faoliyatida aqlning zaruriy ilmlardan boshqa barcha turkumida insonlar orasida farq borligi dalillanadi. Bu tasnif aqlning inson ma’naviy kamoloti va bilish jarayonida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi ko‘rsatadi. Aqlning ham idrok qilish qobiliyatlaridan tashqarida qanchadan-qancha haqiqatlari bor. Ammo, aql bu haqiqatlarni komil ma’noda idrok etishdan ojizdir. Buyuk Islom olimi, jamiyatshunos va tarix falsafasining otasi xisoblanmish Ibn Xaldun bu xususda bunday degan edi: “Aql sog‘lom tarozidir. Ammo u bilan Ollohga va oxiratga oid masalalarni, payg‘ambarlik haqiqatlarni o‘lchay olmaysiz. Bu bir foydasiz g‘ayrat bo‘ladi, xolos. ... aqlning “bilish, ajratish, anglash” kuchi ham chegaralidir, undan tashqariga qadam qo‘ya olmaydi.” .Bir so‘z bilan aytganda, aqlning belgilangan bir chegarasi bor, uning orqasi yo jannat, yo adashishdir.

Muhokama. Islom ta’limoti aqlga katta ahamiyat bersa-da, uni mutlaqlashtirmaydi. Chunki inson aqli chegaralangan bo‘lib, u barcha haqiqatlarni to‘liq qamrab olishga qodir emas. Shu sababli islomiy tafakkurda aql va vahiy o‘zaro uyg‘un holda qaraladi. Falsafa ilmining “aql”ga tayanishi isbot talab qilinmaydigan hodisa. Biroq, Islom ham aqlga (albatta chegarasi ichida), ham naqlga (Qur’on va sunnatga) tayanadi. Alloh yetkazgan haqiqatlarga tayanuvchi fikrlash tizimi bilan insoniy zaif, kuchi ham cheklangan aqlga tayanuvchi falsafa orasida mavzu va g‘oyaga o‘xshashlik bo‘lsa ham, uslub, vosita, tafakkur va xayolot kuchida katta farqlar bor. Ammo, boshqa tomondan qaralsa, Islom ham ma’lum darajada “aqlchi”dir. Chunki u aqlga katta ahamiyat beradi. Zero, kishi Olloh huzurida mas’ul sanalishining ikki asosiy shartlaridan biri aqldir – bu shartlardan biri balog‘atga yetgan bo‘lish bo‘lsa, ikkinchi oqil bo‘lishdir. Ya’ni, harom-halolni, gunohu savobni, xatoyu to‘g‘rini bir biridan ajrata oladigan darajada aqliy malakalari o‘sgan bo‘lishi lozim. Bu sababdan balog‘atga yetmagan bolalar va aqlini yo‘qotgan jinni-tentaklar Islom nazarida amallaridan mas’ul hisoblanmaydilar. Aqlga bu darajada ahamiyat bergan Islom mo‘minlarni har vasila bilan hayot va koinot haqiqatlarini va ilohiy bayonlari hikmatlarini o‘ylab ko‘rishga shavqlantiradi. Bu esa faqat birqancha manfiyliklar bilan shartlantirilmagan aqli salim bilan qilinishi mumkin. Ayrim salbiyliklar ta’sir etmagan sog‘lom aql!

Islomda aqlga munosib o‘rin berish bilan birga uning haqiqatlarni qamrash qobiliyati cheksiz emasligi ham ochiqcha bayon qilingan. Zero, Janobi Haq Yaratganlaridan hech bir borliqqa cheksiz bir qudrat bermagan. Aql ham egasiga haqiqatga yetishish yo‘lida cheklangan bir imkondir, xolos. Hayot va koinotni o‘z ichiga olgan haqiqatlar esa aqlning bu salohiyati doirasiga sig‘maydi, so‘ngsiz darajada kengdir. Bu narsa aqlning borliq haqiqatlarni mukammal tarzda idrok etishga “intilishini”, ammo “kuchi yetarsiz” ekanini ko‘rsatadi. Albatta, sog‘lom aql haqiqat izlashni taqozo etadi, ammo

buni faqat ilohiy bayonlarga rom bo‘lish bilangina loyiq darajada o‘rniga keltirish mumkin. Shu bois Islomning aqlga suyanishi haqiqat izlanishida aqlning kuchini cheksiz deb qabul etib uni go‘yo ilohga tenglashtirib qo‘ygan aqlchi (rasionalist) faylasuflar qarashidan tamoman boshqachadir. Chunki Islom aqlni tabiiy chegaralari ichida qadrlaydigan realist – haqiqatchi bir nizomdir. Aytish kerakki, aql insonni anglash orqali uning qadrini yuksaltirishda muhim omil xisoblanadi. Aks holda inson qadrini yuksaltirishga xizmat qilmaydigan aqlning foydasi yo‘q, deyish mumkin. Bu borada, turkiyalik faylasuf Najib Fozil ilgari surgan quyidagi fikr ham juda ma’nolidir: “Falsafa – aql o‘z hukmdorligini ko‘rsatish uchun qurgan muassasadir. Lekin to‘g‘rini topadigan emas, xatoni to‘g‘rilaydigan muassasa. ... Falsafadagi har bir maktab boshqasining xatosini ko‘rsatar ekan, to‘g‘risini aytadi.”

Aytish kerakki, aql insonni anglash orqali uning qadrini yuksaltirishda muhim omil xisoblanadi. Aks holda inson qadrini yuksaltirishga xizmat qilmaydigan aqlning foydasi yo‘q, deyish mumkin. Bu borada, turkiyalik faylasuf Najib Fozil ilgari surgan quyidagi fikr ham juda ma’nolidir: “Falsafa – aql o‘z hukmdorligini ko‘rsatish uchun qurgan muassasadir. Lekin to‘g‘rini topadigan emas, xatoni to‘g‘rilaydigan muassasa. ... Falsafadagi har bir maktab boshqasining xatosini ko‘rsatar ekan, to‘g‘risini aytadi.” Aql haqida yuqorida bildirgan mulohazalarimizning mohiyati inson – davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emasligi, aksincha, ushbu maqsadning bosh mazmuni-manbai va eng oliy qadriyat ekanligiga qaratilgan. Chunki aql bir jihatdan inson qadrini belgilasa, ikkinchi jihatdan inson qadri aqlni taqazo etadi. Bu ijtimoiy voqelikda aql - a) inson mohiyatini hamma narsadan ustun qo‘yilishini ta’minlaydi; b) inson qadri oliy qadriyat ekanligini mustahkamlaydi. Bu borada, akademik Oqil Salimovning “Aql - insonni qadriyatga aylantiradigan g‘oyat qudratli kuch” , degan fikri ahamiyatlidir. Ayni paytda butun dunyoda ma’naviy tanazzul, axloqiy inqiroz jarayoni yuz bermoqda. Bu insonningn tabiiy imkoniyatlarini, ruhiy kengliklarini ma’lum darajada chegaralab qo‘ymoqda BMT Bosh Kotibi Antonio Gutterish bu holatni katta iztirob bilan ifodalab berdi: “XXI asrning eng katta fojeasi – bu insoniyatning qadriyatlardan uzoqlashishidir”. Darhaqiqat, inson qadriyatlar tufayligina ma’naviy barkamollikka erishadi, ruhiy tozarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Uni boshqa jonzotlardan farq qiladigan va insonni qadriyat darajasiga olib chiqadigan asos ham qadriyatdir. Shu ma’noda, global ma’naviy muammolar va umumplanetar axloqiy masalalar xususida gap borganda “aql”ning inson qadrini yuksaltirishdagi regulyativ xususiyati yanada bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Ta’kidlash zarurki, aql odamni insonga aylantiradigan, uning qadri va qadriyatlarini belgilaydigan falsafiy-axloqiy mohiyat ekanligi bilan ahamiyatlidir. Shu ma’noda, hamisha o‘ziga o‘zi muammo yaratib, o‘zini o‘zi inkor qilib, o‘zini o‘zi rad etib yashaydigan olam ekanligini insonning fenomenal jihatlaridan biri, deb hisoblash mumkin. Faqat insongina orzular va maqsadlar olami sifatida hayotga intiladi. U qanchalik buyuk kashfiyotlar, olamshumul ixtirolar qilishga qodir bo‘lsa, shunchalik uning teskarisini ham amalga oshirish salohiyatiga ega bo‘lgan noyob jonzot. Shuning uchun inson yaxshilikni ham, yomonlikni ham aql vositasida amalga oshiradi, aql his-tuyg‘udan oziqlanadi. Inson qadri esa ruhiyat pokligi, qalb go‘zalligi, tuyg‘ular shaffofligi bilan birga aql yetukligi orqali tasavvurlarning torayishiga, tafakkur olamining qisqarishiga, aqlning o‘tmaslashishiga, his-tuyg‘ularning so‘nishiga olib keladi. Bu holat o‘z navbatida, inson qadrining pasayishiga olib keladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, aql insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan va uni qadriyat darajasiga ko‘taruvchi asosiy omildir. Biroq aqlning imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, u ilohiy haqiqatlarni to‘liq qamrab ololmaydi. Shu sababli islomiy tafakkurda aql va vahiy o‘zaro uyg‘un tizim sifatida qaraladi. Inson qadrini yuksaltirish aqlni mutlaqlashtirish bilan emas, balki uning tabiiy chegaralarini anglagan holda ma’naviy-axloqiy mezonlar asosida rivojlantirish bilan bog‘liq. Aql insonning nafaqat bilish vositasi, balki uning falsafiy-axloqiy mohiyatidir. Shu ma’noda, “aql – inson qadri paradigmasi” degan g‘oya nazariy va amaliy jihatdan asoslidir. Insondagi azizlik va mukarramlik sharafi kishiga faxru iftixor bag‘ishlashi barobarida, xalq manfaati, din rivoji va mamlakat obodligi yo‘lida o‘z hissasini qo‘shishga undaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar lug‘ati. –Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2021. -60 b.
2. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. –Toshkent: “O‘zbekiston faylasflari milliy jamiyati” nashriyoti, “Ma’naviyat” nashriyoti, 2023. -130 b.
3. Usmon Nuri To‘pbosh. Islomga ko‘ra Aql va Falsafa. –toshkent: “ERKAM” nashriyoti, 2016. – 79.
4. Dorimiy. Muqaddima. 22/196.
5. Qur’oni Karim.
6. Muzaffarov Firuz Davronovich. G‘azzoliyning inson haqidagi ta’limotining ilmiy-falsafiy asoslari 09.00.03 – falsafa tarixi falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Samarqand – 2019
7. Imâm Gazzâlî. Minhâcü‘l-âbidîn (Âbidler Yolu). İstanbul: Yaylacık Matbaası, 1976. – B. 92-93.
8. Ibn-i Haldun. Mukaddime. sF 473.
9. Necip Fazil Kisakurek. Bati Tefakkuru ve Islam Tasavvufu. –Istanbul: Buyuk Dogu Yaymlari, sf. 51.

10. Salimov Oqil. Yangi O‘zbekiston davlati. –Toshkent: Ma’naviyat, 2023. -183 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Turaqulov Akmaljon Anvarovich
Namangan davlat universiteti Arxeologiya kafedrasi v.b dotsenti, PhD

FUTBOLNING JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVI, YOSHLAR TARBIYASI VA SOG‘LOM TURMUSH TARZIDAGI O‘RNI

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida futbol sport turini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati, xususan, Prezident qarorlari asosida yaratilayotgan infratuzilmalar, futbolning jamiyat ijtimoiylashuvidagi o‘rni, bolalar va yoshlar tarbiyasiga ta’siri hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida futbolning nafaqat jismoniy faollik, balki ijtimoiy tenglik, jamoaviylik, deviant xulq-atvorning oldini olish va shaxs kamolotidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Futbol sport turi yosh avlodni ijtimoiylashtirishda samarali vosita sifatida baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *futbol, ijtimoiylashuv, sog‘lom turmush tarzi, yoshlar tarbiyasi, deviant xulq-atvor, sport siyosati, futbol infratuzilmasi.*

Туракулов Акмальон Анварович
Исполняющий обязанности доцента кафедры археологии
Наманганского государственного университета, кандидат наук

РОЛЬ ФУТБОЛА В ОБЩЕСТВЕННОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ, ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ И ЗДОРОВОМ ОБРАЗЕ ЖИЗНИ

Аннотация: *В статье анализируется государственная политика Республики Узбекистан по развитию футбола, реализуемая в последние годы, а также социальная роль футбола в формировании здорового образа жизни, социализации детей и молодежи. Особое внимание уделяется влиянию футбола на профилактику девиантного поведения, формирование командных навыков и социальных ценностей. Футбол рассматривается не только как вид спорта, но и как важный социальный институт, способствующий воспитанию гармонично развитой личности.*

Ключевые слова: *футбол, социализация, здоровый образ жизни, воспитание молодежи, девиантное поведение, спортивная политика.*

Akmalion Anvarovich Turaqulov
Associate Professor, Department of Archaeology, Namangan State University

THE PLACE OF FOOTBALL IN SOCIAL INCLUSION, YOUTH EDUCATION AND HEALTHY LIFESTYLE

Annotation: *This scientific article analyzes the state policy of the Republic of Uzbekistan aimed at developing football in recent years and examines the social role of football in promoting a healthy lifestyle, youth socialization, and moral education. The study highlights football as an effective tool for preventing deviant behavior, fostering teamwork, and strengthening social values. Football is viewed not only as a sport but also as a significant social institution contributing to personal and societal development.*

Keywords: *football, socialization, healthy lifestyle, youth education, deviant behavior, sports policy.*

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida sport, xususan futbol, nafaqat jismoniy faollikni ta’minlovchi vosita, balki jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillaridan biri sifatida tan olinmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sport sohasi ijtimoiy integratsiya, yoshlar tarbiyasi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va hatto iqtisodiy o‘sish bilan bevosita bog‘liqdir. Futbol esa o‘zining ommaviyligi, o‘ynash qulayligi va keng ijtimoiy qamrovi bilan boshqa sport turlaridan ajralib turadi, shuningdek, u jamoaviy ruhni rivojlantirish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va hududlararo madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan bo‘lib, bu borada qabul qilingan bir qator prezident qarorlari va hukumat farmoyishlari mamlakatda futbolning rivojlanish strategiyasini shakllantirishda asosiy rol o‘ynamoqda. Xususan, futbol infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy futbol maktablari va akademiyalar tarmog‘ini kengaytirish, shuningdek,

mahallalarda futbol maydonlarini barpo etish orqali bu sport turi aholining keng qatlamlariga yaqinlashtirilmoqda. “Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, futbol infratuzilmasining rivojlanishi bir qator ijtimoiy va madaniy afzalliklarni ta’minlaydi. Birinchidan, yoshlar orasida muntazam jismoniy faollikni rag‘batlantiradi, bu esa ularning sog‘lig‘i va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, futbol maktablari va akademiyalar yoshlarga nafaqat sport mahoratini oshirish, balki mas’uliyat, intizom va jamoaviy hamkorlik kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatini beradi. Uchinchidan, mahallalarda tashkil etilgan futbol maydonlari ijtimoiy muhitni faollashtiradi, mahalla va shahar aholisi o‘rtasidagi interaktiv aloqalarni kuchaytiradi va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiladi”

Shuningdek, futbolning ommaviyligi va global xarakteri O‘zbekistonni xalqaro sport maydonida tanitishda muhim rol o‘ynaydi. 2023-yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 115-sonli “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 355-sonli “Futbol ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora tadbirlari to‘grisida”gi, 2024-yilning 20-mart sanasida Pq-136-sonli “Mahallarda futbol infratuzilmasi va tarmog‘ini kengaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari e’lon qilindi. Mazkur qarorlar mazmunan aholining katta qatlamini mazkur sport turi bilan qamrab olish, aynan futbol kuchi bilan xalqimiz o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini tashkil etish ko‘zda tutilgan. Milliy va xalqaro turnirlarda erishilgan yutuqlar nafaqat milliy iftixor hissini kuchaytiradi, balki sport turizmini rivojlantirish va iqtisodiy foyda olish imkoniyatini ham yaratadi. Shu nuqtai nazardan, futbolning rivojlanishi nafaqat sport sohasini, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotini ham ijobiy yo‘naltiradi.

2023–2024-yillarda qabul qilingan Prezident qarorlari O‘zbekiston futbolini nafaqat professional, balki ommaviy darajada rivojlantirishga qaratilgan kompleks choralarni o‘z ichiga oladi. Ushbu hujjatlar orqali bir qator muhim yo‘nalishlar belgilab berildi: Futbol ta’lim muassasalari sonini oshirish orqali yosh avlodning sportga qiziqishini kuchaytirish va ularning malakasini tizimli shakllantirish imkoniyati yaratildi. Bu esa mamlakatda sifatli kadrlar tayyorlash va sportni barqaror rivojlantirishning asosiy omili sifatida xizmat qiladi. Xalqaro standartlarga mos zamonaviy infratuzilmalarni yaratish orqali professional futbol rivojlanishining shart-sharoitlari mustahkamlandi. Stadionlar, trening markazlari va boshqa sport inshootlarining yuqori darajada jihozlanishi futbolchilarning jahon miqyosidagi talablar darajasida tayyorgarlik ko‘rishini ta’minlaydi. Mahallalarda futbol maydonchalari tarmog‘ini kengaytirish orqali sportning hududiy qamrovi oshirildi, shuningdek, aholining kundalik jismoniy faolligini rag‘batlantirish imkoniyati yaratildi. Bu esa sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ijtimoiy faollikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar va bolalarni futbolga jalb qilish mexanizmlari takomillashtirildi, shu jumladan maktablar va bolalar sport maktablari orqali sportga dastlabki qiziqishni uyg‘otish va ularni professional yo‘nalishga yo‘naltirish tizimi rivojlantirildi. Shu nuqtai nazardan, mazkur qarorlar futbolni nafaqat sport turi sifatida, balki ijtimoiy sog‘lomlashtirish, yoshlarni tarbiyalash va jamiyatning ijtimoiy muhitini yaxshilash vositasi sifatida qaralayotganidan dalolat beradi. Bu esa sport siyosatining strategik yo‘nalishini yanada kengaytiradi va uning jamiyat hayotidagi ijtimoiy ahamiyatini kuchaytiradi. “Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, kompyuter o‘yinlari, smartfon va planshetlar bolalar va o‘smirlar orasida jismoniy faollikning sezilarli darajada pasayishiga olib kelmoqda. Bu holat dunyo bo‘yicha “harakatsizlik epidemiyasi” sifatida e’tirof etilgan global muammo hisoblanadi, chunki u bolalar va yoshlar sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, jismoniy rivojlanish, koordinatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni cheklaydi” Shu nuqtai nazardan, futbol bu muammoning tabiiy va samarali yechimi sifatida qaraladi, chunki u nafaqat jismoniy faollikni oshiradi, balki ijtimoiy va psixologik rivojlanishga ham xizmat qiladi. Psixomotor va ijtimoiy rivojlanish nuqtai nazaridan bolalar o‘rtasida futbolni yosh bosqichlariga moslashtirish muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 3–5 yosh oralig‘idagi bolalar futbolga qiziqishni individual o‘yinlar orqali rivojlantiradi, bu esa ularning koordinatsiyasi, reflekslari va o‘zini ifodalash qobiliyatini shakllantiradi. 6–8 yoshdan boshlab esa futbol jamoaviy o‘yinlar orqali o‘ynaladi va shu orqali ijtimoiylashuv jarayoni boshlanadi: bolalar jamoada o‘z o‘rnini topadi, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini egallaydi, shuningdek, qoidalarni tushunish va intizomni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu tariqa, futbol yosh avlodni nafaqat jismonan sog‘lomlashtiradi, balki ularning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ham xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Sport musobaqalarida faol ishtirok etish bolalarda intizom, mas’uliyat, muloqot va hurmat kabi axloqiy va ijtimoiy sifatlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Futbol o‘yini orqali bolalar nafaqat jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki quyidagi ijtimoiy me’yorlarni ham o‘zlashtiradi: Jamoadoshlarni qo‘llab-quvvatlash: futbol jamoaviy sport turi bo‘lgani uchun har bir o‘yinchi o‘z jamoadoshining muvaffaqiyati va xatolariga munosabatda bo‘lishni o‘rganadi, bu esa hamjihatlik va hamkorlik ruhini mustahkamlaydi. Adolatli raqobat: o‘yin davomida raqib bilan murosasiz va adolatli kurash olib borish qobiliyati rivojlantiriladi, bu esa bolalarni hayotda ham adolatli qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Qoidalarga rioya qilish: futbol qoidalari va tartib-intizomga amal qilish orqali bolalar qoidalar tizimini tushunadi va ularni hayotiy vaziyatlarda ham qo‘llashga o‘rganadi. “Shaxsiy tajriba va xotiralar ham futbolning shaxs kamoloti va ijtimoiy xotira bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi” Masalan, O‘zbekistonning taniqli futbolchisi Odil Ahmedovning bolalikdagi mahalla futboli haqidagi xotiralari shuni ko‘rsatadiki, futbol nafaqat jismoniy rivojlanish vositasi, balki yoshlar ongida ijtimoiy qadriyatlar, mas’uliyat hissi va jamoaviy ruhni shakllantirishga yordam beradi. Futbol jamoasida millat, din, ijtimoiy kelib chiqish va

boshqa ijtimoiy farqlar ikkinchi darajaga tushadi. Maydonda barcha o‘yinchilar bir maqsad — jamoa g‘alabasini ta’minlash yo‘lida harakat qiladi. Shu jihatdan futbol ijtimoiy tenglikni mustahkamlovchi va jamiyatda birlik ruhini shakllantiruvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jamoaviy sport turi yoshlar orasida hamkorlik, o‘zaro hurmat va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek, turli ijtimoiy qatlamlar orasidagi tafovutlarni yumshatadi. “Yoshlar o‘rtasida deviant xulq-atvorning kuchayishi — jamiyat uchun jiddiy xavf omili bo‘lib, bu nafaqat ijtimoiy barqarorlik, balki kelajak avlodning sog‘lom rivojlanishi uchun ham salbiy oqibatlarga olib keladi”. Shu nuqtai nazardan, futbol yoshlar orasida ijtimoiy profilaktika vositasi sifatida muhim rol o‘ynaydi. U quyidagi yo‘llar bilan ijtimoiy xavfni kamaytiradi: Vaqtni mazmunli tashkil etish: futbol bilan shug‘ullanish bolalar va o‘smirlarning bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazish imkonini beradi, shu orqali ularni zararli odatlardan va vaqtni behuda sarflashdan himoya qiladi. Salbiy muhitdan uzoqlashtirish: sportga jalb qilinuvchi yoshlar do‘stlar va ijtimoiy muhitni tanlashda faol bo‘lib, salbiy ta’sirlar va xavfli muhitdan uzoqlashadi. O‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish: jamoaviy va individual muvaffaqiyatlar yoshlar o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchini oshiradi, shuningdek, ularni ijtimoiy jihatdan faollikka undaydi. Shu tarzda, futbol nafaqat jismoniy rivojlanish va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki yoshlar orasida deviant xulq-atvorning oldini olish va ularni ijtimoiy jihatdan sog‘lom muhitga yo‘naltirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. “Yevropa tajribasi shuni ko‘rsatadiki, oilaviy sport mashg‘ulotlari, jumladan futbol elementlarini o‘z ichiga olgan faoliyat, oila a’zolari o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi”. Bunday faoliyat natijasida bola o‘z oilasidan qo‘llab-quvvatlash va e’tibor oladi, bu esa uning psixologik rivojlanishi va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu tarzda, futbol nafaqat jismoniy faollikni oshiradi, balki oilaviy muhitni sog‘lomlashtirish va bolalarda xavfsiz va barqaror psixologik makon yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Hozirgi kunda futbol nafaqat sport turi sifatida, balki jamiyatning ijtimoiy, psixologik va madaniy rivojlanishida muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda” O‘zbekiston Respublikasi misolida futbolni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan Prezident qarorlari yosh avlodni jismonan faol, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan barkamol etishga qaratilgan kompleks choralarning amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Futbol maktablari, akademiyalar, zamonaviy infratuzilmalar va mahallalarda tashkil etilgan maydonchalar yoshlar orasida sportga qiziqishni oshirib, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiladi. Shuningdek, futbol bolalarda intizom, mas’uliyat, hurmat, adolatli raqobat va qoidalarga rioya qilish kabi ijtimoiy va axloqiy sifatlarni shakllantiradi. Jamoaviy o‘yinda millat, din yoki ijtimoiy kelib chiqish kabi farqlar ikkinchi darajaga tushadi, va barcha o‘yinchilar yagona maqsad — jamoa g‘alabasini ta’minlash yo‘lida harakat qiladi. Shu jihatdan futbol ijtimoiy tenglikni mustahkamlovchi kuchli mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Yoshlar orasida deviant xulq-atvorning oldini olishda ham futbol samarali vosita bo‘lib, u vaqtni mazmunli tashkil etish, salbiy muhitdan uzoqlashtirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish orqali ijtimoiy profilaktika vazifasini bajaradi. Oilaviy sport mashg‘ulotlari, jumladan futbol elementlari esa oilada muloqot va ijtimoiy bog‘lanishni mustahkamlab, bolalarda sog‘lom psixologik muhit yaratadi. Shu tarzda, futbol nafaqat jismoniy rivojlanish va sport mahoratini oshirish, balki yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy integratsiya, psixologik sog‘lomlik va jamiyatning barqarorligini ta’minlashda ham muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Coakley, J. (2021). Sports in Society: Issues and Controversies. McGraw-Hill Education.
2. Eime, R. M., Young, J. A., Harvey, J. T., Charity, M. J., & Payne, W. R. (2013). A systematic review of the psychological and social benefits of participation in sport for children and adolescents: informing development of a conceptual model of health through sport. International Journal of Behavioral Nutrition and Physical Activity, 10(1), 98.
3. Bailey, R., Hillman, C., Arent, S., & Petitpas, A. (2013). Physical activity: An underestimated investment in human capital?. Journal of Physical Activity and Health, 10(3), 289–308.
4. Holt, N. L., & Neely, K. C. (2011). Positive youth development through sport: A review. International Review of Sport and Exercise Psychology, 4(1), 38–60.
5. Fraser-Thomas, J., Côté, J., & Deakin, J. (2005). Youth sport programs: An avenue to foster positive youth development. Physical Education & Sport Pedagogy, 10(1), 19–40.
6. Anderson, E. (2010). Sport, theory and social problems: A critical introduction. Routledge. 255.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Axatova Dildora Axtamovna
Shahrisabz davlat pedagogika institute Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti v.b.
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
email: axatovadildora795@gmail.com
ORCID:https://orcid.org/0009-0001-6849-0603
Yuldoshev Islombek Dona o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) yo'nalishi 1–bosqich magistranti
email: yuldoshevislombek6@gmail.com
ORCID:https://orcid.org/0009-0004-9449-3279

IBN SINO "DONISHNOMA"SI – MILLIY MA'NAVIY QADRIYATLARIMIZNING NAZARIY-FALSAFIY MANBAI

Annotatsiya *Mazkur maqolada Abu Ali ibn Sino yaratgan "Donishnoma" asarining Sharq falsafasi va milliy ma'naviy qadriyatlarimiz taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Asarning yaratilish tarixi, uning tuzilishi, Aristotel metafizikasiga bergan tanqidiy munosabati hamda amaliy va nazariy fanlar tasnifi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, "Donishnoma"ning Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy fanlar va ma'naviyatni rivojlantirishdagi nazariy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy-falsafiy, qiyosiy tahlil hamda matinshunoslik metodlari qo'llanib, Ibn Sino falsafasining hozirgi davr mafkuraviy jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Ibn Sino, "Donishnoma", Sharq falsafasi, Aristotel, amaliy fan, nazariy fan, milliy ma'naviyat, Yangi O'zbekiston.*

Ахатова Дилдора Ахтамовна
Доцент кафедры социальных наук, Шахрисабзский государственный педагогический институт
Доктор философии (PhD)
Юлдошев Исламбек Дона оглу
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Студент 1-го курса магистратуры по направлению «Методы преподавания социальных наук (Основы духовности)»

«МУДРОСТЬ» ИБН СИНО — ТЕОРЕТИЧЕСКО-ФИЛОСОФСКИЙ ИСТОЧНИК НАШЕГО НАЦИОНАЛЬНЫЕ ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ

Аннотация: *В данной статье анализируется роль произведения Абу Али ибн Сины «Донишнома» в развитии восточной философии и национальных духовных ценностей. Рассматриваются история создания произведения, его структура, критическое отношение к метафизике Аристотеля, а также классификация практических и теоретических наук. Кроме того, освещается теоретическое значение «Донишнома» для развития социальных наук и духовности в стратегии «Нового Узбекистана». В исследовании использованы методы историко-философского анализа, сравнительного исследования и текстологического анализа, что позволяет обосновать тесную связь философии Ибн Сины с современными идеологическими процессами.*

Ключевые слова: *Ибн Сина, «Донишнома», восточная философия, Аристотель, практическая наука, теоретическая наука, национальная духовность, Новый Узбекистан.*

Akhatova Dildora Akhtamovna
Associate Professor of the Department of Social Sciences, Shakhrisabz
State Pedagogical Institute Doctor of Philosophy (PhD)
Yuldoshev Islambek Dona oglu
Shakhrisabz State Pedagogical Institute 1st year master's student in the specialty

IBN SINO "HIKMAT" - THEORETICAL-PHILOSOPHICAL SOURCE OF OUR NATIONAL SPIRITUAL ABILITIES.

Abstract: *This article examines the role of Abu Ali Ibn Sina's work Donishnoma in the development of Eastern philosophy and national spiritual values. The study covers the history of the work's creation, its structure, its critical approach to Aristotle's metaphysics, and the classification of practical and theoretical sciences. Additionally, the theoretical significance of Donishnoma for advancing social sciences and spirituality in the "New Uzbekistan" development strategy is highlighted. The research employs historical-philosophical, comparative, and textual analysis methods, demonstrating the close connection of Ibn Sina's philosophy with contemporary ideological processes.*

Keywords: *Ibn Sina, Donishnoma, Eastern philosophy, Aristotle, practical science, theoretical science, national spirituality, New Uzbekistan.*

Kirish. Abu Ali ibn Sino Sharq madaniyatining eng yirik siymolaridan bo‘lib, G‘arbda Avitsenna nomi bilan mashhurdir. U milodiy X asrning 70-yillarida (taxminan 964-yilda) Somoniylar davlatining poytaxti bo‘lgan Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi Xarmayton tumani hokimi bo‘lib, ilm-fan va siyosat muhitida voyaga yetgan Ibn Sino yoshlikdan falsafa, tabobat, matematika va tabiiyot fanlarini chuqur o‘rgangan. Uning 400 dan ortiq asarlaridan faqat bir qismi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ular orasida fors tilida yozilgan “Donishnoma” alohida o‘rin tutadi [1; 2].

“Donishnoma” – Ibn Sinoning dariy (eski fors) tilida yozilgan yagona katta falsafiy asari bo‘lib, hukmdor Ala ad-Davla Muhammadning buyurtmasi bilan yaratilgani sababli “Hikmati Aloiy” deb ham ataladi. Tilining murakkabligi, metafizika va mantiq bo‘limlarining falsafiy chuqurligi tufayli bu asar Yevropa tillariga tarjima qilishda ancha qiyinchilik tug‘dirgan. Shunga qaramay, u Sharq va G‘arb ilmiy an’anasida Aristotel metafizikasini davom ettiruvchi, ayni paytda uni tanqidiy ravishda qayta ishlovchi noyob manba sifatida qaraladi .

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy fanlar va ma’naviyatga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ijtimoiy fanlarga uzoq yillar davomida texnokratik va biryoqlama yondashuv hukm surganini, bu sohada yaxlit konsepsiya yetishmaganini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, “Donishnoma” nafaqat tarixiy-falsafiy yodgorlik, balki milliy ma’naviy qadriyatlarimizni nazariy asoslashda muhim metodologik manba sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Mazkur maqola “Donishnoma”ning falsafiy konsepsiyasini, undagi fanlar tasnifi, borliq va ilohiyotga doir qarashlarni, shuningdek, uning milliy ma’naviy taraqqiyotga ta’sirini IMRAD talablari asosida tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Metodlar. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1. Tarixiy-falsafiy tahlil usuli.

Ibn Sinoning ilmiy salohiyati shakllangan tarixiy davr, Somoniylar saroyi va saroy kutubxonasi faoliyati, hukmdor Ala ad-Davla Muhammadning ilm-fanga munosabati tarixiy-falsafiy kontekstda o‘rganildi. Bu usul orqali “Donishnoma”ning yaratilishida siyosiy-iqtisodiy muhit va homiylik an’anasining o‘rni yoritildi [1; 2].

2. Qiyosiy tahlil usuli.

Ibn Sinoning “Donishnoma”si Aristotelning metafizik qarashlari bilan qiyoslab o‘rganildi. Avitsennaning borliq, sababiyat, zaruriyat va ilohiyotga doir ta’limotlari Aristotel metafizikasi bilan solishtirilib, o‘xshashlik va farqli jihatlar aniqlanadi . Shuningdek, Ibn Sinoning fanlar tasnifi yunon an’anasidan farqli ravishda qanday rivojlantirilgani tahlil qilindi.

3. Matnshunoslik va manbalar tahlili.

Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida A. Xurosoniy tomonidan Tehronda 1937–1938 yillarda chop etilgan “Donishnoma” qo‘lyozma nashrlari hamda A. Bogaudinovning rus tiliga tarjimasi asos qilib olindi [1; 2]. Shuningdek, Ibn Sinoga bag‘ishlangan zamonaviy ilmiy maqolalar, ayniqsa “Donishnāmē-ye ʿAlāyī”ning eng so‘nggi nashrlari tahlili bo‘yicha H. Amin Beidokhtining tadqiqotidan foydalanildi . Matnshunoslik talablari asosida fors, rus, ingliz va arab tillaridagi adabiyotlar qiyosiy tahlil qilindi.

Natijalar. 1. Ibn Sinoning fanlar tasnifi va metafizik konsepsiyasi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ibn Sino falsafani an’anaviy yunon talqinidan kengroq va tizimli ravishda tasniflaydi. U fanlarni odamning harakati bilan bog‘liq bo‘lish-bo‘lmasligiga qarab ikkiga ajratadi:

- Amaliy fanlar – insonning o‘z harakati natijasida yuzaga keladigan holatlar va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi fanlar. Ibn Sino ularni uchga bo‘ladi:

1. axloq (individning kamoloti),
2. uy boshqaruvi (oila va xo‘jalik),

3. siyosat va diniy qonunlar (jamiyat va davlat boshqaruvi).

- Nazariy fanlar – inson irodasidan qat'i nazar mavjud bo'lgan borliqni o'rganuvchi fanlar bo'lib, ular ham uch qismdan iborat:

1. tabiiy fanlar (jism, harakat, moddiylik),
2. matematika (miqdor va shakl),
3. metafizika (mavjudlik, sababiyat, ilohiyot).

Bu tasnif Aristotel an'anasini davom ettirsa-da, "Donishnoma"da fanning ichki tuzilishi va maqsadlari ancha aniqlashtirilgan. Ayniqsa, metafizika bo'limida borliqning zaruriy va mumkin shakllari, Xudoning abadiyligi va jismoniy olamning sababiy bog'liqligi chuqur tahlil qilinadi. Ibn Sino dunyo ilohiy zot tomonidan yaratilganini tan olar ekan, borliqning abadiy davomiyligini zarurat tamoyili bilan izohlaydi. Bu yondashuv Aristotel metafizikasidagi ba'zi kamchiliklarni to'ldiruvchi, uni yangi bosqichga ko'taruvchi qarash sifatida baholanadi.

2. "Donishnoma"ning Sharq va G'arb ilmiy an'anasidagi o'rni

Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha, Yevropa ilmiy an'anasida Ibn Sino ko'pincha Aristotel asarlarining sharhlovchisi sifatida baholangan. Ammo "Donishnoma" matnini chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, u shunchaki sharhchi emas, balki metafizika va mantiqni qayta quruvchi mustaqil mutafakkirdir. Uning borliq va sababiyat haqidagi qarashlari keyingi musulmon va xristian mutafakkirlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Biroq, metafizik qarashlari tufayli Ibn Sino hayoti davomida va undan keyin ham diniy ulamolar tanqidiga uchragan. Imom G'azzoliy uning va boshqa faylasuflarning ayrim g'oyalarini bid'at deb baholab, natijada 1160-yilda Bag'dodda Ibn Sino asarlarining bir qismi yoqib yuborilgan. Moddiy dunyoning abadiyligi haqidagi g'oya ba'zi diniy aqidalarga zid deb topilgan .

3. "Donishnoma" va milliy ma'naviy qadriyatlar

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, "Donishnoma"dagi axloq, siyosat va jamiyatga oid qarashlar bugungi milliy ma'naviyat konsepsiyasi bilan uyg'unlikda talqin etilishi mumkin. Ibn Sino amaliy fanlarni insonning komil bo'lishi, jamiyat tartibi va adolatni ta'minlash vositasi sifatida ko'radi. Bu esa Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy fanlar va ma'naviyatga berilayotgan e'tibor bilan bevosita hamohangdir .

Prezident Sh.Mirziyoyev ijtimoiy fanlarga nisbatan ilgari shakllangan "o'gay qarash"ni tanqid qilib, ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni yaxlit konsepsiya asosida rivojlantirish zarurligini alohida ta'kidlaydi. "Donishnoma"dagi fanlar tasnifi, ayniqsa amaliy fanlar – axloq, siyosat va diniy qonunlar haqidagi ta'limot, bugungi ta'lim mazmunini boyitishda nazariy asos bo'la oladi.

4. Matnshunoslik natijalari

Tehron nashrlari, A.Bogaudinov tarjimasi va boshqa ilmiy tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida "Donishnoma"ning ayrim bo'limlari, xususan metafizika va mantiqqa oid matnlarida variantlar mavjudligi aniqlandi [1–3]. Bu holat asar ustida ishlayotgan tadqiqotchilar uchun matn tanlash va kritik nashr tayyorlashda alohida e'tibor talab qilishini ko'rsatadi. B.E.Bixovskiyning eng so'nggi nashrlar tanqidiga bag'ishlangan maqolasi ham bu sohadagi ilmiy muammolarni yoritib beradi.

Munozara. Olingan natijalar Ibn Sino falsafasining, xususan "Donishnoma"ning, faqat tarixiy yodgorlik emas, balki zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy siyosatda ham muhim nazariy manba ekanini ko'rsatadi. Birinchidan, fanlarni amaliy va nazariy turlarga ajratish orqali u ilmiy bilimning jamiyat va shaxs hayotidagi funksiyasini aniqlab beradi. Amaliy fanlarning markaziga axloq va siyosatni qo'yishi komil insonni tarbiyalash va adolatli jamiyat qurish g'oyasi bilan bog'liq bo'lib, bu g'oya hozirgi islohotlar ruhiga juda yaqin.

Ikkinchidan, Ibn Sino metafizikasida moddiy va ma'naviy olam uyg'unligi, zarurat va sababiyat tamoyillari orqali tushuntiriladi. Bu qarashlar hozirgi paytda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, yoshlarning dunyoqarashini ilmiy asosda shakllantirishda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Uchinchi tomondan, diniy doiralar bilan yuzaga kelgan tarixiy ziddiyatlar ilm-fan va e'tiqod o'rtasidagi munosabatni yanada nozik, muvozanatli yondashuv asosida talqin etish zarurligini ko'rsatadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida "Donishnoma"ni qayta o'qish va uni o'quv dasturlari, ijtimoiy fanlar konsepsiyasi, ma'naviyat va ma'rifat dasturlariga integratsiya qilish milliy falsafiy maktabni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, matnshunoslik tadqiqotlarini chuqurlashtirish, asarning ishonchli kritik nashrini tayyorlash, zamonaviy o'zbek tiliga ilmiy izohlar bilan to'liq tarjima qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Ibn Sino "Donishnoma"si Sharq falsafasi tarixida fanlarni amaliy va nazariy turlarga ajratgan, ularni ichki bo'limlarga bo'lgan mukammal tizimi bilan ajralib turadi. Bu tasnif Aristotel an'anasini davom ettirsa-da, uni yangi bosqichga ko'taradi.

2. Metafizika bo‘limida borliq, zaruriyat, sababiyat va ilohiyotga doir g‘oyalar orqali Ibn Sino Aristotel metafizikasini tanqidiy qayta ko‘rib chiqadi va uni takomillashtiradi. Shu bois uni faqat “sharhlovchi” emas, balki mustaqil falsafiy maktab asoschisi sifatida baholash zarur.

3. “Donishnoma”dagi axloq, siyosat va jamiyat haqidagi qarashlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ilgari surilayotgan ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalar bilan uyg‘un bo‘lib, ijtimoiy fanlar konsepsiyasini ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

4. Tarixiy-falsafiy, qiyosiy va matnshunoslik tahlillari “Donishnoma”ning hozirgi davr ilm-fani va ma’naviy hayotida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganini ko‘rsatadi. Asarni to‘liq ilmiy nashrga tayyorlash, zamonaviy tillarga sifatli tarjima qilish va uni ta’lim tizimiga integratsiya etish kelajakdagi tadqiqotlar uchun ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bogaudinov. Danišnāme (Donishnoma tarjimasi). Stalinobod, 1957.
2. Xurosoniy. Danišnomai ʿAlāyī (Donishnōma-i ʿAlāyī nashri). Haydarobod, 1891.
3. Hanif Amin Beidokhti. A Critique on the Most Recent “Edition” of Avicenna’s Dānešnāmeh-ye ʿAlāyī. URL: https://criticalstudy.ihcs.ac.ir/article_7394_3f39b128fd9c25f48eb7183e41f42973.pdf
4. Примарни, Пуджианти, *Ли*, *Джасафат*. Islamic philosophical perspectives on metaphysical problems: A study of the works of Ibn Sina and Al-Ghazali // Journal of Noesantara Islamic Studies. – 2025. – T. 2, № 2. – P. 73–83.
5. Efremova. The Islamization of Aristotelism in the metaphysics of Ibn Sina // RUDN Journal of Philosophy. – 2020. – Vol. 24, № 4. – P. 438–452.
6. Ефремова. Об авиценновской реформе «Метафизики» Аристотеля: базисные ориентиры // Orientalistica. – 2019. – T. 2, № 4. – С. 927–953.
7. Ефремова. Об авиценновской реформе «Метафизики» Аристотеля: что такое метафизика? // Orientalistica. – 2020. – T. 3, № 1. – С. 337–374.
8. To‘xtasinov. Ibn Sinoning “Ixlos” surasi tafsiridagi falsafiy qarashlari tahlili // Tamaddun Nuri jurnali. – 2025. – № 1.
9. Axatova D. Sharq madaniyati: Ibn Sino ta’sirida Yevropa madaniyatining o‘sishi // Tamaddun Nuri jurnali. – 2024. – № 2.
10. Parlaungan, Daulay, Dahlan. Pemikiran Ibnu Sina dalam bidang filsafat // Jurnal Bilqolam Pendidikan Islam. – 2021. – Vol. 1, № 1.
11. Aisyah, Ramdani, Firmansyah. Philosophical thoughts of Ibn Sina: Synergy of Greek philosophy with Islamic thought // Al-Falsafah: Jurnal Pemikiran dan Filsafat Islam. – 2025. – Vol. 4, № 1.
12. Ramdani, Bakhtiar. Traces of mysticism in Ibn Sina’s thought // Jaqfi: Jurnal Aqidah dan Filsafat Islam. – 2025. – Vol. 6, № 1.
13. Norman, Ruhullah. Ibn Sina’s contributions to modernity: Integrating medieval philosophy, neurophilosophy, and educational reform in Islamic thought and civilisation // Al Shajarah. – 2024. – Vol. 29, № 2.
14. Erdoğan, Eryücel. The concept of divine revelation according to Ibn Sînâ and Al Ghazâlî: A comparative analysis // Religions. – 2024. – Vol. 15, № 11.
15. Yakubovych. Авіценна й авіценізм у мусульманській філософській думці на українських землях: постклясичний період (XVII–XVIII ст.). – 2019. – № __.
16. Ibn Sīnā. Al-Ishārāt wa t-tanbīhāt. Physics and metaphysics. Transl. and analysis by Shams C. Inati. – b. m.: b. i., 2014.
17. Ibn-Sina. Al Isharat wa t-tanbihat. Part four // Orientalistica. – 2019. – T. 2, № 1. – С. 337–374.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Djumageldiev Ne'matjon
PhD Docent Nukus state pedagogical institute named after Ajinyaz
Kenesbaeva Sayora Tuelbay qızı
3nd year of bachelor's degree Nukus State Pedagogical Institute named after Ajinyaz
(Nukus, Republic of Karakalpakstan)
kenesbaevasayko2@gmail.com

THE JADID PRESS AND THE NATIONAL-HISTORICAL DISCOURSE (1906–1917)

Abstract. *This article examines in depth the emergence, evolution, and impact of the Jadid press in Turkestan between 1906 and 1917, highlighting its decisive role in shaping a modern national-historical discourse among Uzbek Muslims under Russian colonial rule. After the partial relaxation of censorship following the 1905 Revolution, reformist intellectuals such as Mahmud Khoja Behbudi established pioneering newspapers including Taraqqiy, Shuhrat, and Sadoyi Turkiston. These publications became powerful instruments for articulating narratives that celebrated the cultural achievements of Central Asia's past—particularly the Timurid renaissance—and reinterpreted Islamic heritage through the prism of progress and reform. The Jadid press was unique in combining historical essays, educational materials, moral guidance, and commentary on contemporary politics, thereby serving as both a modernizing force and a form of cultural resistance to colonial stereotypes of backwardness. By simplifying the literary language and adopting innovative formats, editors democratized access to historical knowledge and inspired a growing readership beyond the elite.*

Keywords: *Jadidism, Uzbek press, national awakening, Turkestan, historical discourse, modernization.*

Кенесбаева Сайора Туэлбай кызы
3-й курс бакалавриата Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза (Нукус, Республика Каракалпакстан)

ДЖАДИДСКАЯ ПЕЧАТЬ И НАЦИОНАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКАЯ ДИСКУРС (1906-1917)

Аннотация. *В данной статье подробно рассматриваются возникновение, развитие и влияние джадидской прессы в Туркестане в период 1906–1917 годов, а также подчёркивается её решающая роль в формировании современного национально-исторического дискурса среди узбекских мусульман в условиях российского колониального господства. После частичного смягчения цензуры вслед за революцией 1905 года реформаторские интеллектуалы, такие как Махмудходжа Бехбудий, основали первые газеты — «Тараққий», «Шухрат» и «Садои Туркистон». Эти издания стали важным инструментом выработки исторических нарративов, прославлявших культурные достижения прошлого Центральной Азии, в особенности ренессанс эпохи Тимуридов, а также переосмысления исламского наследия сквозь призму прогресса и реформ. Джадидская пресса отличалась тем, что сочетала в себе исторические статьи, образовательные материалы, нравственно-просветительские тексты и комментарии к современным политическим событиям. Тем самым она выступала одновременно как фактор модернизации и как форма культурного сопротивления колониальным стереотипам о «отсталости». Упрощение литературного языка и внедрение новых форматов способствовали демократизации доступа к историческим знаниям и стимулировали формирование широкой читательской аудитории за пределами узкого круга элиты.*

Ключевые слова: *джадидизм, узбекская пресса, национальное пробуждение, Туркестан, исторический дискурс, модернизация.*

Kenesbayeva Sayora Tuelbay qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute bakalavriatning 3-bosqichi

JADID MATBUOTI VA MILLIY-TARIXIY MAVZU (1906-1917)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada 1906–1917-yillar oralig'ida Turkistonda jadid matbuotining paydo bo'lishi, rivojlanishi va ta'siri chuqur tahlil qilinadi hamda uning Rossiya mustamlakachiligi sharoitida yashagan o'zbek musulmonlari orasida zamonaviy milliy-tarixiy tafakkurni shakllantirishdagi hal qiluvchi roli yoritiladi. 1905-yil inqilobidan so'ng tsenzura qisman yumshatilgach,*

Mahmudxo'ja Behbudiy kabi islohotchi ziyolilar tomonidan "Taraqqiy", "Shuhrat" va "Sadoyi Turkiston" kabi ilk gazetalar tashkil etildi. Ushbu nashrlar Markaziy Osiyoning boy madaniy o'tmishini, xususan Temuriylar davri uyg'onishini ulug'lovchi tarixiy qarashlarni ilgari surish hamda islomiy merosni taraqqiyot va islohot g'oyalari asosida qayta talqin etishda muhim vositaga aylandi.

Jadid matbuoti tarixiy maqolalar, ta'limiy materiallar, axloqiy-nasihatlar hamda zamonaviy siyosiy voqealarga doir sharhlarni uyg'unlashtirganligi bilan ajralib turar edi. Bu holat uni bir tomondan modernizatsiya harakatining muhim omiliga, ikkinchi tomondan esa mustamlakachilik davrida mavjud bo'lgan "qoloqlik" haqidagi stereotiplarga qarshi madaniy qarshilik shakliga aylantirdi. Adabiy tilning soddalashtirilishi va yangi janr hamda formatlarning joriy etilishi orqali jadid muharrirlari tarixiy bilimlarga kirishni keng omma uchun ochdi hamda ziyolilar doirasidan tashqaridagi o'quvchilar qatlamining shakllanishiga turtki berdi.

Kalit so'zlar: *jadidchilik, o'zbek matbuoti, milliy uyg'onish, Turkiston, tarixiy diskurs, modernizatsiya.*

Introduction

The early 20th century marked a turning point in the cultural and political history of Central Asia. The Jadid movement—rooted in Islamic modernism and reformist ideals—emerged as a dynamic force seeking to modernize education, reinterpret history, and foster a new sense of national identity among the Muslims of the Russian Empire. The revolution of 1905 and the subsequent relaxation of censorship laws created unprecedented opportunities for Muslim intellectuals in Turkestan to establish newspapers and journals. These publications, collectively referred to as the Jadid press, became a critical platform for articulating national-historical narratives and disseminating reformist ideas.

Materials and methods

The October Manifesto of 1905 granted limited freedoms of speech, assembly, and the press across the Russian Empire. While restrictions remained, the Tsarist authorities allowed the registration of newspapers in local languages. For Central Asia, this meant that the Jadids—reform-oriented Muslim intellectuals—could finally reach broader audiences. Between 1906 and 1917, more than 20 periodicals appeared in Turkestan, many of them in Turkic (Chagatai Uzbek) and occasionally in Russian (Khalid, 1998).

Results and discussion

A central mission of the Jadid press was to reconstruct a sense of historical continuity and pride in Turkestan's Islamic and Turkic heritage. Articles frequently referenced the achievements of medieval Muslim scholarship, the cultural vitality of the Timurid period, and the literary contributions of figures like Alisher Navoi and Babur. In Taraqqiy, Behbudi published essays emphasizing that the loss of political independence in the 19th century had resulted from internal stagnation and ignorance, which could be overcome through modern education.

For example, in 1906 issues of Taraqqiy, readers encountered serialized pieces on:

- The history of Bukhara as a center of Islamic learning.
- Biographical sketches of Ahmad Donish and other reform-minded Bukharan intellectuals.
- The decline of the khanates as a lesson for contemporary Muslims.

By presenting the past as a source of inspiration and caution, the Jadid press constructed a narrative in which renewal and modernity were both necessary and compatible with tradition.

In addition to historical articles, Jadid newspapers promoted the usul-i jadid ("new method") of schooling, which emphasized phonetic reading, arithmetic, geography, and history. Editors used their platforms to criticize the limitations of maktab and madrasa instruction that focused narrowly on rote memorization of religious texts (Gasprinsky, 1911).

Taraqqiy and Shuhrat published model curricula and explained how modern schools in the Ottoman Empire, Egypt, and Russia were contributing to national development. This comparative perspective was integral to Jadid thought: historical backwardness was not inevitable but a reversible condition if Muslims embraced reform.

The Jadid press was part of broader Muslim intellectual currents connecting Turkestan with other centers of Islamic modernism. Tatar newspapers like Vakit (published in Ufa by the Gasprinsky family) and Ismail Gasprinsky's Tercüman in Crimea provided models of modern Muslim journalism. Indeed, Gasprinsky's slogan "Unity in Language, Thought, and Action" resonated deeply with Central Asian Jadids. Some issues of Taraqqiy reprinted articles or excerpts from Tercüman, reinforcing shared themes of pan-Islamic solidarity and national renewal (Brower, 2001).

The Russian colonial authorities were wary of the Jadid press. Officials in the Turkestan Governor-Generalship monitored newspapers closely, sometimes issuing warnings or suspending publications. For example, Taraqqiy was shut down in 1908 under pressure from conservative religious elites allied with colonial administrators, who accused the paper of undermining traditional authority. Despite such setbacks, other newspapers quickly emerged to continue the work.

World War I brought new challenges. The introduction of military conscription for Muslim populations in 1916 sparked widespread unrest, culminating in the Central Asian uprising known as the "Urkun." The Jadid press responded with calls for solidarity and calm but also published critiques of the inequities of colonial rule. Although wartime

censorship intensified, the ideas propagated over the previous decade could not be erased. In fact, they laid the groundwork for post-1917 efforts to reimagine Turkestan's political future.

Another critical facet of the Jadid press between 1906 and 1917 was its role in redefining collective memory by popularizing historical figures and events that had previously occupied a marginal place in the imagination of Central Asian Muslims. Editors deliberately selected certain episodes from Turkestan's past to construct an uplifting narrative of resilience, cultural vitality, and intellectual achievement. For example, numerous articles in Shuhrat and Khurshid emphasized the legacy of the Timurid dynasty—not merely as conquerors but as patrons of science, literature, and architecture. By celebrating Amir Timur's statecraft and Alisher Navoi's literary contributions, the Jadid press offered its readers models of historical greatness that could inspire contemporary efforts at renewal.

Beyond these emblematic figures, many periodicals published serialized biographies of lesser-known scholars, poets, and reformers. Mahmud Khoja Behbudi and his contemporaries believed that presenting these examples of cultural leadership was essential for fostering a sense of historical continuity and pride among the Muslim population. In an era when Russian colonial administrators often depicted Central Asia as backward and static, these articles asserted that the region had a dynamic past worthy of respect. Such historical storytelling was more than cultural ornamentation—it was a deliberate act of intellectual resistance.

The Jadid newspapers also highlighted the decline of Muslim societies as a consequence of internal stagnation, factionalism, and neglect of knowledge. This diagnosis was a recurrent theme: the loss of independence to the Russian Empire was not only the result of external conquest but also of failure to adapt and reform. Editors framed this historical interpretation as both a warning and a call to action. In the pages of Taraqqiy and Sadoyi Turkiston, contributors argued that a new generation educated in modern sciences and literate in multiple languages could reclaim their rightful place among the civilized nations.

An important feature of the Jadid press was its innovative use of language and style. Whereas traditional Islamic literature in the region relied on high Chagatai or Arabic, Jadid editors sought to simplify prose and make it accessible to wider audiences. This shift had both pedagogical and symbolic significance: by employing a more vernacular Turkic idiom, the press helped democratize knowledge and reinforce the idea of a shared national culture that transcended local dialects. In this sense, the Jadid press contributed to standardizing a modern literary Uzbek language, which would later serve as a foundation for national identity.

In addition to historical essays, newspapers regularly featured discussions of contemporary international affairs that underscored connections between Central Asian Muslims and the broader Islamic world. The Ottoman Empire, Iran, Egypt, and the Indian subcontinent all figured prominently in coverage. Reports about educational reforms in Istanbul, the Persian Constitutional Revolution (1905–1911), or the activities of Muslim congresses in Cairo were presented as evidence that Islamic societies elsewhere were awakening to modern challenges. This transnational perspective deepened the sense of belonging to a wider ummah whose fortunes were interconnected.

At the same time, the Jadid press did not shy away from criticizing entrenched conservative religious authorities—especially the ulama and the qadis—who resisted educational innovation and retained close ties to the colonial bureaucracy. Editorials denounced the practice of rote learning in traditional madrasas, the neglect of arithmetic and geography, and the reluctance to adopt print culture. Behbudi, in particular, argued that ignorance perpetuated dependency and humiliation. Such polemics earned the Jadid press both admiration and hostility. While many young intellectuals embraced its message, conservative clerics and influential Sufi leaders often accused Jadid editors of undermining Islamic orthodoxy and communal solidarity.

The format and visual presentation of newspapers were also modern by regional standards. Unlike manuscript treatises circulated among scholars, Jadid publications adopted layouts with headlines, subheadings, serialized articles, and occasionally illustrations. This editorial strategy reflected the influence of Tatar newspapers like Tercüman and Russian liberal periodicals circulating in Turkestan. For many readers, encountering a newspaper in their own language—addressing both history and current events—was a transformative experience that altered their relationship with public life.

Despite limited financial resources and constant surveillance by colonial censors, the editors demonstrated remarkable resilience. They developed subscription networks, relied on donations from reform-minded merchants, and even organized traveling book sales to raise funds. The modest scale of these operations belied their cultural significance: through persistent effort, the Jadid press succeeded in embedding the habit of reading about history and debating the future in public consciousness.

Finally, the outbreak of World War I and the subsequent revolutionary upheavals of 1917 intensified the urgency of the Jadids' historical message. In a time of uncertainty and social turmoil, newspapers returned again and again to the lessons of the past—portraying previous generations' failures and achievements as a mirror for contemporary action. Even

when military censorship closed newspapers, the ideas they had nurtured over the preceding decade continued to circulate through informal channels—private readings, handwritten copies of articles, and oral transmission.

This entrenchment of national-historical discourse would prove decisive when the Russian Empire collapsed. In 1917–1918, the cultural authority and networks established by the Jadid press laid the foundations for the short-lived autonomous governments and cultural associations that emerged across Central Asia. Thus, the period from 1906 to 1917 was not merely a chapter in media history but a formative moment in the intellectual and political awakening of the Uzbek nation.

Equally important in understanding the impact of the Jadid press was its function as an informal educational institution for adult readers who had been excluded from modern schooling. In a context where formal literacy rates remained low, newspapers such as Taraqqiy and Shuhrat became vehicles of self-education. Many articles were deliberately written in a clear, direct style to reach small merchants, artisans, and rural notables who were literate enough to read newspapers but lacked access to scholarly works. Editors frequently encouraged collective readings, where groups would gather in tea houses or private homes to hear articles read aloud, then engage in discussion. This practice effectively turned the Jadid press into a catalyst for popular debates on history, religion, and reform.

Conclusion

Between 1906 and 1917, the Jadid press in Turkestan became a unique arena for forging a national-historical discourse that combined pride in cultural heritage with a vision for educational and social reform. Through newspapers like Taraqqiy, Shuhrat, and Sadoyi Turkiston, Uzbek intellectuals articulated a modern identity rooted in historical consciousness and openness to global currents. Though often suppressed, these publications played a decisive role in the emergence of political and cultural movements that reshaped Central Asia in the revolutionary era. The legacy of the Jadid press endures as a foundational chapter in the development of modern Uzbek identity.

References

1. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press, 1998.

2. Khalid, Adeeb. “Printing, Publishing, and Reform in Central Asia, 1905–1917.” International Journal of Middle East Studies 26, no. 2 (1994): 187–200.

3. Gasprinsky, Ismail. Russkoe musulmanstvo: Mysli, zametki i nablyudeniya (Russian Islam: Thoughts, Notes, and Observations). Simferopol, 1881.

4. Brower, Daniel R. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. London: Routledge, 2003.

5. Becker, Seymour. Russia’s Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1968.

6. Morrison, Alexander. “Russian Rule in Turkestan and the Example of British India, c. 1860–1917.” Slavic Review 66, no. 3 (2007): 589–618.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

G‘aniyeva Malikaxon Sodiqjonovna
Farg‘ona davlat universiteti ingliz tili amaliy kursi kafedrasi katta o‘qituvchisi,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: malika.ganiev85_fsu@mail.ru

GENDER TENGLIGI QADRIYAT SIFATIDA SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY ADOLAT, INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARNING ASOSIY OMIL SIFATIDA (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI)

Annotasiya. *Mazkur tadqiqotda gender tengligi tushunchasining jamiyat qadriyatlari tizimida qaror topish jarayoni ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilingan. Ishda gender tengligini ta’minlashning nazariy poydevorini tashkil etuvchi ijtimoiy adolat tamoyillari, inson huquqlari va shaxs erkinliklarining mazmuni hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, gender tengligi g‘oyasining demokratik jamiyatlarda barqaror rivojlanish, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash va fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender tengligining ijtimoiy qadriyat sifatida shakllanishi adolat prinsiplarining qaror topishi, huquqiy kafolatlarning mavjudligi hamda shaxs erkinliklarining ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu omillar jamiyatning barqaror va adolatli rivojlanishida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *gender tengligi, ijtimoiy adolat, inson huquqlari, erkinlik, ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiy falsafa, fuqarolik jamiyati.*

Ганиева Малахон Садикжоновна
Старший преподаватель, доктор философии по философским наукам (**PhD**) кафедры практического курса английского языка Ферганского государственного университета

СОЦИАЛЬНАЯ СПРАВЕДЛИВОСТЬ, ПРАВА И СВОБОДЫ ЧЕЛОВЕКА КАК ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА КАК ЦЕННОСТИ (СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)

Аннотация. *В данном исследовании процесс формирования гендерного равенства в системе общественных ценностей рассматривается с позиций социально-философского подхода. В работе научно обоснованы принципы социальной справедливости, права человека и личные свободы как теоретическая основа обеспечения гендерного равенства, а также раскрыта их роль в развитии общества. Кроме того, проанализирована взаимосвязь идеи гендерного равенства с устойчивым развитием демократического общества, укреплением социальной солидарности и формированием институтов гражданского общества. Результаты исследования показывают, что становление гендерного равенства как социальной ценности напрямую связано с утверждением принципов справедливости, наличием правовых гарантий и обеспечением личных свобод. Данные факторы имеют важное теоретическое и практическое значение для обеспечения устойчивого и справедливого развития общества.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, социальная справедливость, права человека, свобода, социальные ценности, социальная философия, гражданское общество.*

Ganiyeva Malikakhon Sadikzhonovna
Senior Lecturer, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences
of the Department of Applied English course at Fergana State University

SOCIAL JUSTICE, HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS AS KEY FACTORS IN THE FORMATION OF GENDER EQUALITY AS A VALUE (A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS)

Annotation. *This study examines the process of the formation of gender equality within the system of social values from the perspective of a socio-philosophical approach. The paper scientifically substantiates the principles of social justice, human rights, and individual freedoms as the theoretical foundation for ensuring gender equality, and also reveals their role in the development of society. In addition, the interrelation between the idea of gender equality and the sustainable development of a democratic society, the strengthening of social solidarity, and the formation of civil society institutions is analyzed. The results of the study demonstrate that*

the establishment of gender equality as a social value is directly connected with the consolidation of the principles of justice, the existence of legal guarantees, and the protection of individual freedoms. These factors have significant theoretical and practical importance for ensuring the sustainable and equitable development of society.
Keywords: *gender equality, social justice, human rights, freedom, social values, social philosophy, civil society.*

Kirish

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti jarayonida gender tengligi masalasi nafaqat ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishi, balki jamiyatning demokratik rivojlanish darajasini ifodalovchi muhim mezonlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida inson huquqlarining universalligi, ijtimoiy adolat tamoyillari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi gender tengligi konsepsiyasini ijtimoiy qadriyat sifatida shakllanishini taqozo etmoqda. Gender tengligi shaxsning jinsidan qat’i nazar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini anglatadi. Bu esa jamiyatda adolatli ijtimoiy munosabatlarning qaror topishiga xizmat qiladi.

Gender tengligini ta’minlash jamiyat barqarorligini mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ta’kidlanganidek, “xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning jamiyat hayotidagi o‘rni va nufuzini oshirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir” [1. 464.].

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan gender tengligi jamiyat qadriyatlari tizimining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Qadriyatlar tizimi esa jamiyatning axloqiy me’yorlari, ijtimoiy institutlari va madaniy an’analari orqali shakllanadi. Bu jarayonda adolat, tenglik va erkinlik kabi universal tamoyillar muhim rol o‘ynaydi. Mashhur yunon faylasufi Aristotel adolatni jamiyatdagi uyg‘unlik va muvozanatni ta’minlovchi asosiy axloqiy prinsip sifatida talqin qilib, shunday yozgan: “Adolat – bu har kimga o‘ziga munosib bo‘lgan narsani berishdir” [2. 679.]. Mazkur qarash jamiyatda tenglik va adolatli ijtimoiy munosabatlarning zarurligini asoslab beradi.

Keyingi davrlarda adolat tushunchasi siyosiy va ijtimoiy falsafaning markaziy kategoriyalaridan biriga aylandi. XX asrning mashhur siyosiy faylasufi Jon Rols adolatni jamiyat institutlarining asosiy tamoyili sifatida baholab, shunday ta’kidlaydi: “Adolat ijtimoiy institutlarning birinchi fazilatidir” [3. 3.]. Rolsning teng imkoniyatlar tamoyili gender tengligi muammosini ham nazariy jihatdan asoslashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, jamiyatda ijtimoiy institutlar shunday tashkil etilishi kerakki, ular barcha insonlarga teng imkoniyatlar yaratib bersin.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda gender tengligi inson huquqlari konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Inson huquqlarining universalligi prinsipi har bir insonning jinsidan qat’i nazar teng huquqlarga ega ekanligini e’tirof etadi. Bu borada Amartya Sen inson erkinliklari va imkoniyatlari jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoni ekanligini ta’kidlab, shunday yozadi: “Rivojlanish – bu inson erkinliklarining kengayishi jarayonidir” [4. 3.]. Mazkur yondashuv gender tengligi masalasini inson erkinliklari va imkoniyatlarining kengayishi bilan bog‘liq holda tushuntirish imkonini beradi.

Shuningdek, zamonaviy sotsiologiya va ijtimoiy falsafa doirasida gender tengligi jamiyat barqarorligi va ijtimoiy hamjihatlik omili sifatida ham baholanadi. Entoni Giddens zamonaviy jamiyatlarda gender munosabatlarining o‘zgarishini ijtimoiy modernizatsiya jarayonlari bilan bog‘lab, gender tengligi demokratik jamiyatning muhim belgilaridan biri ekanligini ta’kidlaydi [5. 632.]. Bu esa gender tengligi masalasining faqat huquqiy yoki siyosiy muammo emas, balki ijtimoiy madaniyat va qadriyatlar tizimining evolyutsiyasi bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda gender tengligi masalasi global rivojlanish strategiyalarining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals) doirasida gender tengligi alohida strategik maqsad sifatida belgilangan bo‘lib, unda xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi imkoniyatlarini kengaytirish jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida ko‘riladi [6. 35.].

Shu nuqtai nazardan qaralganda, gender tengligi jamiyatning ijtimoiy qadriyatlari tizimida shakllanadigan kompleks ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning rivojlanishi ijtimoiy adolat tamoyillari, inson huquqlari va shaxs erkinliklarining ta’minlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Gender tengligi nafaqat ijtimoiy tenglikni ta’minlash, balki jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirish va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi gender tengligining jamiyat qadriyatlari tizimida shakllanish jarayonini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, ushbu jarayonda ijtimoiy adolat, inson huquqlari va erkinliklarning tutgan o‘rni hamda ularning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini ilmiy asosda ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijalari gender tengligi masalasining nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq anglashga hamda uning jamiyat barqaror rivojlanishidagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda gender tengligi siyosati va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Zamonaviy ijtimoiy fanlarda murakkab ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish turli nazariy va empirik metodlarning uyg‘unligini talab qiladi. Shu sababli tadqiqot jarayonida ijtimoiy-falsafiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda tarixiy-mantiqiy metodlardan foydalanildi. Mazkur metodlar gender siyosati, ijtimoiy adolat va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi murakkab ijtimoiy munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini berdi. Avvalo, tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil metodi asosiy metodologik vosita sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod orqali gender tengligi tushunchasining nazariy asoslari, uning jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy institutlar faoliyati bilan bog‘liqligi tahlil qilindi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv ijtimoiy hodisalarni ularning tarixiy shakllanishi, ijtimoiy funksiyasi va jamiyat rivojlanishidagi o‘rni bilan bog‘liq holda o‘rganishga imkon beradi. Sotsiolog Entoni Giddens ta’kidlaganidek, zamonaviy jamiyatni tushunish uchun ijtimoiy institutlar va ijtimoiy munosabatlar tizimini kompleks tarzda tahlil qilish zarur [5. 34.]. Shu nuqtai nazardan gender tengligi jamiyatdagi ijtimoiy tuzilma, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy rollar tizimi bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv ham muhim metodologik vosita sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod gender tengligi siyosatini jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari bilan o‘zaro aloqador holda tahlil qilish imkonini beradi. Tizimli yondashuv ijtimoiy hodisalarni yagona ijtimoiy tizim doirasida ko‘rib chiqib, turli ijtimoiy elementlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Talcott Parsons jamiyatni o‘zaro bog‘langan ijtimoiy institutlar tizimi sifatida talqin qilib, har bir ijtimoiy institut jamiyat barqarorligini ta’minlashda muayyan funksiyani bajarishini ta’kidlaydi [7. 5.]. Shu sababli tadqiqotda gender tengligi siyosati ijtimoiy institutlar tizimi bilan o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil metodi qo‘llanildi. Ushbu metod turli ilmiy konsepsiyalar, nazariy qarashlar va xalqaro tajribalarni solishtirish orqali gender tengligi siyosatining umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Qiyosiy yondashuv orqali gender tengligi masalasining turli ijtimoiy tizimlarda namoyon bo‘lish shakllari hamda uning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri o‘rganildi. Siyosiy va ijtimoiy tizimlarni qiyosiy tahlil qilish ijtimoiy institutlarning samaradorligini baholashda muhim metod hisoblanadi. Samuel Hantington jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy barqarorlik institutsional rivojlanish darajasi bilan bog‘liq ekanini ta’kidlab, ijtimoiy tizimlarni qiyosiy o‘rganish ularning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga yordam berishini qayd etadi [8. 12.].

Tadqiqotda tarixiy-mantiqiy metod ham qo‘llanildi. Mazkur metod gender tengligi g‘oyasining tarixiy rivojlanish jarayonini hamda uning zamonaviy jamiyatdagi nazariy talqinlarini aniqlashga xizmat qildi. Tarixiylik tamoyili ijtimoiy hodisalarni ularning shakllanish jarayoni va tarixiy rivojlanish kontekstida o‘rganishni nazarda tutadi. Bu yondashuv gender munosabatlarining jamiyat taraqqiyoti davomida qanday transformatsiyaga uchraganini tushunish imkonini beradi. Manuel Kastells zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy transformatsiyalarni tahlil qilarkan, axborot davrida ijtimoiy institutlarning yangi shakllari paydo bo‘lishini va ijtimoiy munosabatlar tizimining tubdan o‘zgarishini ta’kidlaydi [9. 21.].

Tadqiqotning nazariy asosini inson huquqlari falsafasi, ijtimoiy adolat nazariyalari hamda gender tadqiqotlari doirasidagi ilmiy qarashlar tashkil etdi. Xususan, ijtimoiy adolat nazariyasida teng imkoniyatlar tamoyili muhim o‘rin tutadi. Jon Rolzning adolat nazariyasiga ko‘ra, jamiyatdagi ijtimoiy institutlar barcha insonlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilishi lozim [3. 73.]. Shu nuqtai nazardan gender tengligi jamiyatda teng imkoniyatlar muhitini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy tamoyil sifatida talqin qilindi.

Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi gender siyosati, ijtimoiy adolat va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tizimli tarzda tahlil qilish imkonini berdi. Kompleks metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minlash bilan birga, gender tengligi siyosatining jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi rolini chuqurroq ochib berishga xizmat qildi.

Natijalar

Olib borilgan tadqiqot natijalari gender tengligi jamiyat qadriyatlari tizimida shakllanishi murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayon ekanini ko‘rsatdi. Mazkur jarayon jamiyatdagi ijtimoiy institutlar faoliyati, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi hamda huquqiy me’yorlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Tadqiqot davomida gender tengligining ijtimoiy mohiyatini belgilovchi bir qator muhim omillar aniqlanib, ular ijtimoiy adolat, inson huquqlari va shaxs erkinliklari kabi fundamental ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas aloqador ekani aniqlandi.

Birinchidan, tadqiqot natijalari *ijtimoiy adolat tamoyili gender tengligini ta’minlashning muhim falsafiy asoslaridan biri ekanini* ko‘rsatdi. Ijtimoiy adolat jamiyatdagi barcha shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratish hamda ijtimoiy resurslardan foydalanishda tenglikni ta’minlashni nazarda tutadi. Ijtimoiy adolat nazariyasida bu tamoyil jamiyat barqarorligi va ijtimoiy muvozanatni ta’minlovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Jon Rolzning adolat nazariyasiga ko‘ra, jamiyatdagi ijtimoiy institutlar barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashga xizmat qilishi kerak [3. 73]. Mazkur nazariy yondashuv gender tengligi masalasini jamiyatdagi ijtimoiy adolat tizimi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, tadqiqot jarayonida *inson huquqlari konsepsiyasi gender tengligining huquqiy va axloqiy asosini tashkil etishi* aniqlangan. Inson huquqlari universalligi tamoyiliga koʻra, har bir inson jinsidan, ijtimoiy mavqeidan yoki madaniy kelib chiqishidan qatʼi nazar teng huquqlarga ega hisoblanadi. Zamonaviy xalqaro huquqiy hujjatlarda ham gender tengligi inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida eʼtirof etiladi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarida gender tengligi barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qayd etilgan [6. 14]. Bu esa gender tengligi masalasining global miqyosdagi ijtimoiy ahamiyatini koʻrsatadi.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari *shaxs erkinliklari gender tengligining muhim ijtimoiy qadriyat sifatida shakllanishida muhim rol oʻynashini* koʻrsatdi. Erkinlik tamoyili shaxsning oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qoʻshish imkoniyatlarini kengaytiradi. Amartya Sen oʻzining inson rivoji konsepsiyasida erkinlikni jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida talqin qilib, insonlarning real imkoniyatlarini kengaytirish ijtimoiy rivojlanishning asosiy mezonlaridan biri ekanini taʼkidlaydi [4. 3]. Bu yondashuv gender tengligi shaxsning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali jamiyat taraqqiyotiga ijobiy taʼsir koʻrsatishini koʻrsatadi.

Tadqiqot davomida shuningdek gender tengligining jamiyatdagi ijtimoiy institutlar faoliyati bilan uzviy bogʻliqligi ham aniqlandi. Zamonaviy sotsiologik nazariyalarda gender munosabatlari jamiyat tuzilmasining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Entoni Giddens gender tengligini demokratik jamiyatlarning rivojlanish darajasini belgilovchi muhim koʻrsatkichlardan biri sifatida baholaydi [5. 468]. Shu nuqtai nazardan gender tengligini taʼminlash jamiyatdagi ijtimoiy institutlar samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Global Sustainable Tourism Council (GSTC) esa dunyo miqyosida barqaror turizmni rivojlantirish uchun indikatorlar va standartlar to‘plamini yaratgan. GSTC standartlari uch asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: ekologik

barqarorlik, ijtimoiy va madaniy barqarorlik hamda iqtisodiy samaradorlik. Afzalligi shundaki, GSTC global miqyosda tan olingan va turli mamlakatlar va hududlarga moslashtirilishi mumkin. Standartlar mehmonlar, korxonalar va mahalliy boshqaruv uchun universal ko‘rsatmalar beradi va barqaror turizmning barcha komponentlarini qamrab oladi. Biroq, cheklov sifatida GSTCning global ko‘lamdagi standartlari mahalliy kontekstni to‘liq aks ettirmasligi va mahalliy madaniyat, iqtisodiy sharoit va boshqaruv tizimlariga moslashuvi murakkabligi aytiladi (Gössling & Hall, 2006).[15]

Xulosa

Ekoturizm va barqaror turizm faqat tabiatni asrash yoki iqtisodiy foyda olish bilan chegaralanmaydi; ular insonning axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy mas’uliyatini ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu turizm shakllari mahalliy hamjamiyatlarni rivojlantirish, ularning madaniy merosini himoya qilish va resurslardan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, barqaror turizm kelajak avlodlar manfaatini hisobga olgan holda rejalashtirilishi lozim, ya’ni bugungi faoliyatimiz uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy oqibatlarni hisobga olishi kerak. Ekoturizm va barqaror turizm faqat iqtisodiy va ekologik mezonlar bilan chegaralanmaydi, balki insonning axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi, mahalliy hamjamiyatlarni rivojlantiradi va kelajak avlodlar uchun sog‘lom va barqaror muhit yaratadi. Bu tamoyillar barqaror turizmning uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi va uni ma’naviy, madaniy va ekologik jihatdan mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bramwell, Bill, and Bernard Lane. *Sustainable Tourism: An Evolving Global Approach*. Journal of Sustainable Tourism, vol. 6, no. 1, 1998, pp. 1–5.
2. United Nations World Tourism Organization. *Tourism and Sustainable Development Goals – Journey to 2030*. UNWTO, 2017, www.unwto.org.
3. Fennell, David A., and Malloy, David C. *Codes of Ethics in Tourism: Practice, Theory, Synthesis*. Channel View Publications, 2007.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Respublikada ov qilish va ovchilik xo‘jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. PF–105-son Farmon, 23 July 2024, Lex.uz, https://lex.uz/uz/docs/-7036488.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Respublikada ov qilish va ovchilik xo‘jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. PF–105-son Farmon, 23 July 2024, Lex.uz, https://lex.uz/uz/docs/-7036488.
6. “*Ekologicheskiy turizm: istoriya vozniknoveniya, ponyatie, printsipy, otlichitelnye kharakteristiki*.” *BStudy.net*, https://bstudy.net/711683/turizm/ekologicheskiy_turizm_istoriya_vozniknoveniya_ponyatie_printsipy_otlichitelnye_harakteristiki?utm_source=chatgpt.com. Accessed 4 Feb. 2026.
7. Font, Xavier, and Richard Harris. *Sustainable Tourism and Local Communities in Europe.* Routledge, 2004.
8. Gössling, Stefan. *Sustainable Tourism: A Global Perspective.* Routledge, 2011.
9. Honey, Martha. *Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise?* 2nd ed., Island Press, 2008.
10. Abdullajonova, Nigoraxon, and Xusanboy Toshpo‘latov. *Barqaror turizm va mahalliy hamjamiyat: Farg‘ona vodiysi va Buxoro tajribasi.* Farg‘ona State University, 2022.
11. Weaver, David. *Ecotourism.* 2nd ed., John Wiley & Sons, 2006.
12. Global Sustainable Tourism Council. (n.d.). *About GSTC Criteria and sustainable tourism standards*. Retrieved from https://www.gstc.org/en/
13. Global Sustainable Tourism Council. (n.d.). *About GSTC Criteria and sustainable tourism standards*. Retrieved from https://www.gstc.org/en/
14. Gössling, S. (2011). *Tourism, recreation and climate change*. London: Routledge.https://doi.org/10.4324/9780203127490
15. Gössling, S., & Hall, C. M. (2006). *Tourism and global environmental change: Ecological, social, economic and political interrelationships*. London: Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203011911

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xalilov Aminjon Nabijonovich
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
e-mail: xalilov_aminjon_fsu@mail.ru

IJTIMOIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy mazmuni va uning rivojlanishida xorijiy tajribaning tutgan o‘rni ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy tadbirkorlikning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda turli mamlakatlarda amaliyotga joriy etilayotgan innovatsion yondashuv va modellar o‘rganilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlashdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari rivojlangan davlatlar tajribasini umumlashtirish orqali ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash va ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini asoslab beradi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy innovatsiya, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy iqtisodiyot, ijtimoiy mas’uliyat, barqaror rivojlanish, ijtimoiy falsafa.*

Халилов Аминджан Набижанович
Соискатель Ферганского государственного университета

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА (СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)

Аннотация. *В данной статье на основе социально-философского подхода анализируется теоретическое содержание социального предпринимательства и роль зарубежного опыта в его развитии. В ходе исследования рассматриваются социально-экономические факторы, влияющие на формирование социального предпринимательства, его значение в развитии общества, а также инновационные подходы и модели, применяемые в различных странах. Наряду с этим раскрывается роль социального предпринимательства в решении социальных проблем, развитии институтов гражданского общества и укреплении принципов социальной справедливости и социальной ответственности в обществе. Результаты исследования, обобщая опыт развитых государств, позволяют выявить эффективные механизмы развития социального предпринимательства и обосновать возможности их применения в условиях Узбекистана.*

Ключевые слова: *социальное предпринимательство, социальные инновации, гражданское общество, социальная экономика, социальная ответственность, устойчивое развитие, социальная философия.*

Xalilov Aminjan Nabijanovich
Reserсher of Fergana State University

FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP (A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS)

Abstract. *This article analyzes the theoretical essence of social entrepreneurship and the role of foreign experience in its development from a socio-philosophical perspective. The study examines the socio-economic factors influencing the formation of social entrepreneurship, its significance in societal development, and the innovative approaches and models implemented in different countries. At the same time, the article highlights the role of social entrepreneurship in addressing social problems, developing civil society institutions, and strengthening the principles of social justice and social responsibility in society. The research findings, based on the generalization of the experience of developed countries, identify effective mechanisms for the development of social entrepreneurship and substantiate the possibilities of their application in the context of Uzbekistan.*

Keywords: *social entrepreneurship, social innovation, civil society, social economy, social responsibility, sustainable development, social philosophy.*

XXI asrda jamiyat taraqqiyotining jadallashuvi ijtimoiy tizimlarning murakkablashuvi bilan birga yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Global miqyosda ijtimoiy tengsizlik, kambag‘allik, ekologik inqiroz, migratsiya jarayonlari, bandlik muammolari va ijtimoiy himoya tizimining yetarli darajada samarali ishlamasligi kabi masalalar jamiyat oldida dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur muammolarni faqat davlat yoki an’anaviy bozor mexanizmlari orqali hal etish tobora qiyinlashib borayotganligi sababli ijtimoiy taraqqiyotning yangi innovatsion shakllari shakllanmoqda. Shunday mexanizmlardan biri sifatida ijtimoiy tadbirkorlik konsepsiyasi ilmiy va amaliy jihatdan alohida e’tibor qozonmoqda.

Ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy jamiyatda iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy maqsadlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan yangi ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Mazkur fenomen iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarini o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali jamiyatdagi dolzarb muammolarni innovatsion usullar yordamida hal etishni nazarda tutadi. Bu jihatdan ijtimoiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki ijtimoiy rivojlanishning muhim falsafiy konsepsiyalaridan biri sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Mashhur amerikalik tadqiqotchi Gregory Dis ijtimoiy tadbirkorlikni “ijtimoiy qiymat yaratishga qaratilgan innovatsion faoliyat bo‘lib, unda tadbirkorlik tamoyillari jamiyatdagi muammolarni hal qilish uchun qo‘llaniladi” deb ta’riflaydi [2. 4.]. Deesning fikricha, ijtimoiy tadbirkorlar jamiyatdagi muammolarni aniqlash, resurslarni safarbar etish va barqaror ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, Nobel mukofoti laureati Muhammad Yunus ijtimoiy tadbirkorlikni kambag‘allikka qarshi kurash va ijtimoiy adolatni ta’minlashning samarali modeli sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, “ijtimoiy biznesning asosiy maqsadi maksimal foyda olish emas, balki jamiyatdagi muammoni hal qilishdir” [3. 23.]. Yunus tomonidan ilgari surilgan mikroqarzlash tizimi millionlab odamlarning iqtisodiy faolligini oshirish orqali ijtimoiy tadbirkorlikning amaliy samaradorligini namoyon etdi.

Ijtimoiy tadbirkorlik fenomenini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilganda, u fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi bilan ham uzviy bog‘liq ekanligi ko‘rinadi. Britaniyalik sotsiolog Entoni Giddens zamonaviy jamiyatda ijtimoiy innovatsiyalar davlat va bozor o‘rtasidagi yangi hamkorlik shakllarini shakllantirishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, fuqarolik tashabbuslari va ijtimoiy innovatsiyalar ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi [8. 79.].

Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi muvozanat masalasi zamonaviy ijtimoiy falsafada muhim o‘rin egallaydi. Nobel mukofoti sovrindori Amartya Sen rivojlanishni inson erkinliklarini kengaytirish jarayoni sifatida talqin qilib, iqtisodiy faoliyat ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qilishi zarurligini ta’kidlaydi [4. 36.]. Mazkur yondashuv ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy asoslarini tushuntirishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Zamonaviy global tajriba shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy innovatsiya va fuqarolik faolligining uyg‘unlashuvi natijasida jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy tadbirkorlik bandlikni oshirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish hamda ijtimoiy xizmatlarning yangi shakllarini yaratishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bois ijtimoiy tadbirkorlik fenomenini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan o‘rganish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy asoslari, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda zamonaviy ijtimoiy transformatsiya jarayonlaridagi rolini tahlil qilishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqot ijtimoiy tadbirkorlik fenomenini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda bir qator zamonaviy ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Ijtimoiy jarayonlarning murakkab va ko‘p qirrali xarakteri tadqiqotda kompleks metodologik yondashuvni qo‘llashni talab qiladi. Shu bois tadqiqot jarayonida tizimli, qiyosiy, analitik hamda interpretativ metodlar uyg‘un holda qo‘llanildi.

Avvalo, tizimli yondashuv tadqiqotning asosiy metodologik asoslaridan biri sifatida tanlandi. Mazkur metod ijtimoiy tadbirkorlikni jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy institutlari bilan o‘zaro bog‘liq tizim sifatida o‘rganish imkonini beradi. Tizimli yondashuvga ko‘ra, jamiyat o‘zaro aloqador elementlardan iborat murakkab tizim bo‘lib, undagi har bir institut umumiy ijtimoiy muvozanatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu borada sotsiolog Talkott Parsons jamiyatni o‘zaro bog‘langan ijtimoiy tizimlar majmuasi sifatida talqin qilib, har bir institut ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim funksiyani bajarishini ta’kidlaydi [10. 26.]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ijtimoiy tadbirkorlik ham jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil metodi ham muhim o‘rin tutadi. Mazkur metod turli mamlakatlarda shakllangan ijtimoiy tadbirkorlik modellarini o‘rganish va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Qiyosiy yondashuv ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq anglashda muhim metod sifatida ko‘plab ijtimoiy fanlarda qo‘llaniladi. Mashhur sotsiolog Maks Veber ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishda qiyosiy tarixiy tahlilning ahamiyatini alohida ta’kidlab, turli jamiyatlar tajribasini solishtirish orqali ijtimoiy institutlarning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash mumkinligini qayd etadi [11. 20.]. Shu asosda tadqiqot jarayonida Yevropa, AQSh hamda Osiyo mamlakatlaridagi ijtimoiy tadbirkorlik tajribasi tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy interpretatsiya metodi qo‘llanildi. Ushbu metod ijtimoiy hodisalarni faqat empirik faktlar darajasida emas, balki ularning ma’naviy-madaniy va ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish imkonini

beradi. Ijtimoiy tadbirkorlik fenomenini talqin qilishda inson manfaatlari, ijtimoiy adolat, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy innovatsiya kabi tushunchalar muhim o'rin egallaydi. Bu jihatdan ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Nemis faylasufi Yurgen Xabermas fuqarolik jamiyati va ijtimoiy tashabbuslarning jamiyatdagi demokratik jarayonlarni rivojlantirishdagi rolini ta'kidlab, ijtimoiy innovatsiyalar jamoaviy manfaatlarni amalga oshirishning muhim vositasi ekanligini qayd etadi [12. 181.].

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida analitik metod ham keng qo'llanildi. Mazkur metod yordamida ijtimoiy iqtisodiyot, ijtimoiy innovatsiya hamda ijtimoiy tadbirkorlik sohasiga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlar, konseptual yondashuvlar va nazariy qarashlar tahlil qilindi. Analitik yondashuv ilmiy manbalarni tizimli ravishda o'rganish orqali muammoning nazariy asoslarini aniqlash imkonini beradi. Iqtisodchi Josef Shumpeter innovatsion faoliyatni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilib, yangi g'oyalar va innovatsiyalar jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligini ta'kidlaydi [13. 66.]. Bu yondashuv ijtimoiy tadbirkorlik fenomenini innovatsion ijtimoiy faoliyat sifatida tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida ijtimoiy iqtisodiyot, sotsiologiya, ijtimoiy falsafa va rivojlanish nazariyasi sohasidagi zamonaviy ilmiy adabiyotlar o'rganildi hamda ularning konseptual g'oyalari tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi ijtimoiy tadbirkorlik fenomenini kompleks tarzda tahlil qilish, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ijtimoiy ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini berdi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy institut sifatida shakllanayotganini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi bir qator muhim omillar aniqlanib, ular ijtimoiy innovatsiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik, xalqaro tajriba hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash kabi jihatlar bilan bog'liqligi aniqlandi.

Ijtimoiy innovatsiyalar omili

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy xususiyatlaridan biri – bu ijtimoiy muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishdir. Ijtimoiy innovatsiyalar yangi g'oyalar, yangi tashkilot shakllari hamda yangi xizmat turlarini joriy etish orqali jamiyatdagi muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Britaniyalik tadqiqotchi Geoff Mulgan ijtimoiy innovatsiyalarni "jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yangi g'oyalar, xizmatlar va modellar bo'lib, ular bir vaqtning o'zida jamiyatda yangi ijtimoiy munosabatlarni ham shakllantiradi" deb ta'riflaydi [14. 8.]. Shu ma'noda ijtimoiy tadbirkorlik innovatsion faoliyat orqali jamiyatda yangi ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, iqtisodchi Josef Scumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida talqin qilib, yangi g'oyalar iqtisodiy tizimda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berishini ta'kidlaydi [13. 66.]. Ijtimoiy tadbirkorlik aynan ana shu innovatsion jarayonlarni ijtimoiy sohada amalga oshiradi.

Fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, ijtimoiy tadbirkorlikning samarali rivojlanishi fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ijtimoiy fondlar ijtimoiy tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Fuqarolik jamiyati nazariyasiga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti davlat, bozor va fuqarolik sektorining o'zaro hamkorligiga asoslanadi. Nemis faylasufi Yurgen Xabermas fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy muammolarni hal etishda jamoaviy manfaatlarni ifoda etuvchi muhim mexanizm ekanligini ta'kidlaydi [12. 181.]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ijtimoiy tadbirkorlik fuqarolik tashabbuslari va ijtimoiy innovatsiyalar uyg'unligida shakllanadigan faoliyat turi sifatida namoyon bo'ladi.

Xorijiy tajriba tahlili

Tadqiqot jarayonida turli mamlakatlarda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi o'rganildi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlik har bir mamlakatda o'zining institutsional sharoitlari va ijtimoiy siyosati bilan bog'liq holda shakllanadi.

AQSh tajribasi

AQShda ijtimoiy tadbirkorlik asosan nodavlat sektor, xususiy biznes va xayriya fondlari o'rtasidagi hamkorlik asosida rivojlanadi. Bu mamlakatda Ashoka, Skoll Foundation kabi tashkilotlar ijtimoiy tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Amerikalik tadqiqotchi Gregory Dis ijtimoiy tadbirkorlarni "ijtimoiy o'zgarishlarning agentlari" sifatida tavsiflab, ularning jamiyat muammolarini innovatsion usullar orqali hal etishga intilishini ta'kidlaydi [2. 4.].

Yevropa mamlakatlari tajribasi

Yevropa davlatlarida ijtimoiy tadbirkorlik ko'pincha ijtimoiy iqtisodiyot konsepsiyasi asosida rivojlanadi. Ushbu model kooperativlar, ijtimoiy korxonalar va nodavlat tashkilotlar faoliyatini o'z ichiga oladi. Yevropa Komissiyasining ma'lumotlariga ko'ra, ijtimoiy iqtisodiyot sektori Yevropa Ittifoqida millionlab ish o'rinlarini yaratib, iqtisodiy rivojlanish bilan birga ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlaydi [16. 96.].

Osiyo mamlakatlari tajribasi

Osiyo mamlakatlarida ijtimoiy tadbirkorlik ko‘pincha ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan innovatsion biznes modellar orqali rivojlanadi. Bangladesh tajribasida Muhammad Yunus tomonidan tashkil etilgan “Grameen Bank” mikroqarzlash tizimi orqali millionlab kambag‘al aholining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qildi. Yunus ijtimoiy biznesni “jamiyat muammolarini hal etishga qaratilgan, lekin moliyaviy barqarorlikka ham ega bo‘lgan biznes modeli” sifatida ta’riflaydi [3. 23.].

Ijtimoiy barqarorlikka ta’siri

Tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, ijtimoiy xizmatlar sifati oshadi hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam ko‘rsatish imkoniyatlari kengayadi.

Ijtimoiy adolat va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi muvozanat masalasi zamonaviy ijtimoiy falsafaning muhim mavzularidan biridir. Bu borada iqtisodchi Amartya Sen rivojlanishni inson imkoniyatlari va erkinliklarini kengaytirish jarayoni sifatida talqin qilib, iqtisodiy faoliyat jamiyat a’zolarining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilishi kerakligini ta’kidlaydi [4. 36.]. Ijtimoiy tadbirkorlik aynan ana shu konsepsiyaning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy jamiyatda iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy innovatsiya va fuqarolik faolligining uyg‘unlashuvi natijasida shakllanayotgan muhim ijtimoiy institut ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy tadbirkorlik fenomeni zamonaviy jamiyatda iqtisodiy faoliyatning yangi paradigmasi sifatida shakllanib borayotganini ko‘rsatadi. Mazkur model iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarining uyg‘unlashuvi asosida rivojlanadi. An’anaviy iqtisodiy tizimda biznes faoliyati ko‘proq foyda olishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ijtimoiy tadbirkorlik modeli iqtisodiy resurslardan jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etish vositasi sifatida foydalanishni nazarda tutadi. Shu jihatdan ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy tizimning ijtimoiylashuv jarayonini ifodalovchi muhim institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy ijtimoiy falsafada iqtisodiy rivojlanish va inson taraqqiyoti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi alohida e’tibor qaratiladigan mavzulardan biridir. Amartya Sen rivojlanish jarayonini inson imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy mezoni jamiyat a’zolarining erkinliklari va imkoniyatlarini kengaytirish darajasi bilan belgilanadi [4. 36.]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ijtimoiy tadbirkorlik inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash hamda jamiyatda ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy tadbirkorlik fenomeni fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy muammolarni hal etish jarayoni nafaqat davlat, balki fuqarolik jamiyati va biznes sektorining ham faol ishtirokini talab qiladi. Yurgen Xabermas fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy kommunikatsiya va jamoaviy manfaatlarni ifoda etuvchi muhim ijtimoiy makon ekanligini ta’kidlaydi [12. 181.]. Ijtimoiy tadbirkorlik aynan shu makonda shakllanib, jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan innovatsion tashabbuslarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiy tizimda ijtimoiy innovatsiyalarni rivojlantirishga ham muhim turtki beradi. Ijtimoiy innovatsiyalar jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yangi tashkiliy shakllar, xizmat turlari va hamkorlik modellarining paydo bo‘lishini anglatadi. Tadqiqotchi Geoff Mulgan ijtimoiy innovatsiyalarni jamiyatdagi muammolarni hal etishga qaratilgan yangi g‘oyalar va amaliyotlar majmui sifatida talqin qiladi [14. 8.]. Shu sababli ijtimoiy tadbirkorlik innovatsion iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida ham ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jamiyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, bandlikni oshirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash hamda fuqarolik tashabbuslarini rag‘batlantirish jarayonida ijtimoiy tadbirkorlik muhim rol o‘ynashi mumkin. Ijtimoiy tadbirkorlik tashabbuslari iqtisodiy faoliyat orqali ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bir qator muhim yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Avvalo, ijtimoiy innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Bu jarayonda innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish uchun grantlar, inkubatorlar hamda startap dasturlarining rolini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ijtimoiy tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Uchinchidan, ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash mumkin. Nihoyat, ijtimoiy tadbirkorlik bo‘yicha ta’lim dasturlarini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biridir, chunki ijtimoiy tadbirkorlik ko‘nikmalari innovatsion fikrlash va ijtimoiy mas’uliyat madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy jamiyatda iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy innovatsiya va fuqarolik faolligining uyg‘unlashuvi natijasida shakllanayotgan yangi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Uning rivojlanishi

nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki jamiyatda ijtimoiy adolat, ijtimoiy birdamlik hamda barqaror rivojlanish tamoyillarining mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur fenomen iqtisodiy faoliyatning an’anaviy shakllaridan farqli ravishda faqat foyda olish maqsadini emas, balki jamiyat farovonligini oshirish, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash hamda aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy muammolarni hal etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiyot va ijtimoiy soha o‘rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlaydigan, jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, ijtimoiy tadbirkorlik inson manfaatlari, ijtimoiy adolat va hamkorlik tamoyillariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy tafakkur shaklining ifodasi hisoblanadi. Bu jarayon iqtisodiy faoliyatni inson kapitali rivoji, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik faolligi bilan uyg‘unlashtirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatda innovatsion g‘oyalar va ijtimoiy tashabbuslarning paydo bo‘lishini rag‘batlantiradi hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat, biznes va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, ijtimoiy innovatsiyalarni keng joriy etish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatdagi kambag‘allik, ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik kabi muammolarni hal qilishning samarali vositasi sifatida shakllanib bormoqda. Bu esa ijtimoiy tadbirkorlikning nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida ham ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish jamiyatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, aholini ijtimoiy himoya qilish, yoshlar va xotin-qizlar bandligini oshirish, mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hamda hududiy rivojlanishni ta’minlashda ijtimoiy tadbirkorlikning imkoniyatlari kengdir. Shu sababli mamlakatda ijtimoiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan institutsional va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kelgusida O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish xorijiy tajribani chuqur o‘rganish, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish hamda ijtimoiy iqtisodiyot modelini shakllantirish orqali yanada takomillashishi mumkin. Bu jarayon iqtisodiy samaradorlikni ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirgan holda jamiyatning barqaror va inklyuziv rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu ma’noda ijtimoiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi sifatida ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - B. 464.
2. Дис Дж.Г. Значение социального предпринимательства (пер. с англ.) - Стэнфорд: Stanford University, Center for the Advancement of Social Entrepreneurship, 2001. - С. 15.
3. Юнус М. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма (пер. с англ.) - Москва: Альпина Паблишер, 2010. - С. 304.
4. Сен А. Развитие как свобода (пер. с англ.) - Москва: Новое издательство, 2004. - С. 432.
5. Борнштейн Д. Как изменить мир: социальные предприниматели и сила новых идей (пер. с англ.) - Москва: Альпина Паблишер, 2012. - С. 352.
6. Николлс А. Социальное предпринимательство: новые модели устойчивых социальных изменений (пер. с англ.) - Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2010. - С. 384.
7. Дефурньи Жак и Боралло Мартин. Социальное предпринимательство: теоретические основы и современные практики. - Москва: Издательство ВШЭ, 2012. - С. 18-24.
8. Гидденс Э. Третий путь: обновление социал-демократии (пер. с англ.) - Москва: Весь Мир, 1999. - С. 204.
9. Drayton B. Everyone a Changemaker: Social Entrepreneurship's Ultimate Goal. Innovations: Technology, Governance, Globalization, 1(1), 2006. - P. 80-96.
10. Парсонс Т. Социальная система. - Москва: Академический проект, 2002. - С. 832.
11. Вебер М. Хозяйство и общество: очерки понимающей социологии (пер. с нем.; под ред. Л.Г.Ионина) - Москва: Издательский дом Высшей школы экономики, 2016. - С. 720.
12. Хабермас Ю. Структурное изменение публичной сферы: исследование категории буржуазного общества (пер. с нем.) - Москва: Весь Мир, 2016. - С. 344.
13. Шумпетер Й. Теория экономического развития: исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и экономического цикла (пер. с нем.) - Москва: Эксмо, 2007. - С. 864.

14. Малган Дж., Такер С., Али Р., Сандерс Б. Социальные инновации: что это такое, почему это важно и как можно ускорить их развитие (пер. с англ) - Москва: Центр стратегических разработок, 2011. - С. 64.

15. Б.С.Ганиев, М.С.Ганиева Семья как важный социальный фактор формирования предпринимательских навыков у молодёж (Опыт Узбекистана) // XV Всероссийская Парыгинская научно-практическая конференция (с международным участием “Проблемы социальной психологии и социальной работы” // Санкт-Петербург, 17 апреля 2020 года, - С. 25-27.

16. European Commission. Social Enterprises and the Social Economy Going Forward: A Call for Action from the Commission Expert Group on Social Entrepreneurship (GECES). - Brussels: European Commission, 2016. - P. 96.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Mamatqulov Abdurasul Abdugapporovich
Andijon davlat unversiteti Huquq va ma'naviyat asoslari kafedrasi katta o'qituvchisi.

MIGRATSIYA JARAYONINING ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI VA YO'NALISHLAR TENDENSIYASI

Annotatsiya:*Ushbu maqolada migratsiyaning yuzaga kelishi, qonuniyatlari, zamonaviy shakllari, jamiyat va uning ijtimoiy sohalariga, ayniqsa, oila va oilaviy munosabatlarga o'tkazayotgan ta'siri hozirda muhim ijtimoiy muammoga aylanib borayotgani izoh beriladi.*

Kalit so'zlar: *ekologik migratsiya, ekologik xavf, dialektik, integratsiya, "migratsiya sanoati", ta'lim migratsiyasi.*

Маматкулов Абдурасул Абдугаппорович
Старший преподаватель кафедры основ права и духовности
Андижанского государственного университета.

СОВРЕМЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ТЕНДЕНЦИИ НАПРАВЛЕНИЙ МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ

Аннотация: *В данной статье объясняется, что возникновение миграции, ее закономерности, современные формы, влияние на общество и его социальные сферы, особенно на семью и семейные отношения, в настоящее время становятся важной социальной проблемой.*

Ключевые слова: *экологическая миграция, экологический риск, диалектика, интеграция, "миграционная индустрия," образовательная миграция.*

Abdurasul Abdugapporovich Mamatkulov
Senior lecturer at the Department of "Fundamentals of Law and Spirituality" of Andijan State University.

MODERN FEATURES OF THE MIGRATION PROCESS AND TRENDS IN DIRECTIONS

Abstract: *This article explains that the emergence of migration, its patterns, modern forms, and its impact on society and its social spheres, especially family and family relations, is becoming an important social problem.* ***Keywords:*** *ecological migration, ecological threat, dialectical, integration, "migration industry", educational migration.*

Migratsiya haqida so'z yuritilganda, bu ob'yektiv jarayonni yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa jarayonlar; urbanizatsiya, demografiya, integratsiya va albatta, globallashuvni hisobga olish zarur. Dialektik nuqtai nazardan migratsiyaning yuzaga kelishi va tarqalishi yuqorida sanab o'tilgan tarixiy jarayonlar bilan bog'liqlikda amalga oshadi. Xususan, ayrim olimlarning fikricha, "Globallashuv jarayoni, texnologiyalar taraqqiyoti, ekologik muammolar va xalqaro mehnat migratsiyasi zamonaviy tadqiqotlarning asosiy mavzulariga aylanib, yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Ushbu ikkala yo'nalish migratsiyaning sabab va oqibatlarini har xil nuqtai nazardan taxlil etib, bu jarayonni to'liqroq tushunishga yordam beradi"[20].

Umumiy tarzda migratsiyaning quyidagi tarixiy shakllarini keltirishimiz mumkin: bir davlat doirasida amalga oshadigan migratsiya, mintaqaviy migratsiya va xalqaro migratsiya.

Tadqiqotchilar migratsiyaning yuzaga kelishi, qonuniyatlari, zamonaviy shakllari, jamiyat va uning ijtimoiy sohalariga, ayniqsa, oila va oilaviy munosabatlarga o'tkazayotgan ta'siri hozirda muhim ijtimoiy muammoga aylandi.

Migratsiya muammosi bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-falsafiy tadqiqotlarni asosan, iqtisodiy migratsiyaga, migratsiya tarixiga, migratsiyaning ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida tahlil etishga, migratsiyaning turli ijtimoiy munosabatlarga, oilaga ta'siri va boshqa muammolarga bag'ishlangan tadqiqotlarni tadqiqotimiz doirasida falsafiy tahlil etish zarur.

[20]Дювель Ф. Пространственная мобильность населения: индикаторы, категории и типологии // Методология и методы изучения миграционных процессов: междисциплинарное учебное пособие / под ред. Зайончковской и др. – М.: Центр миграционных исследований, 2007. – С. 70–71.

Iqtisodiy migratsiyaga bag‘ishlangan tadqiqotlar qatorida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan ayrim funamental asarlar va ilmiy tadqiqotlarni keltirish mumkin. Xususan, Ribakovskiy migratsiyani makondagi harakat sifatida, va uning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish orqali tavsiflaydi. U “migratsiyaning uchta asosiy ta’sirini ajratib ko‘rsatadi;

Birinchi ta’sir-makon almashinuvi va ijtimoiy-madaniy xilma-xillik. Unga ko‘ra, odamlarning yashash joyini o‘zgartirishi har xil maqsadlarda sodir bo‘lishi mimkin. Ammo har bir holatda migratsiya ijtimoiy va madaniy xilma-xillikning o‘zaro aralashuvini yuzaga keltiradi. Bu jarayon yangi hududlarga turli madaniy qadiryatlar, urf odatlar va tajribalarni olib keladi, natijada turli xalqlar o‘rtasida madaniy almashinuv yuz beradi.

Ikkinchi ta’sir - migrantlarning madaniyat tashuvchilari sifatida ro‘li. Bu holatda, migrantlar yangi joyga doimiy yashash uchun kelgan bo‘lsa-da, ular o‘zining milliy madaniyatini, an’analarini va qadiryatlarini olib keladi. Shunday qilib, ular mahalliy madaniyat bilan integratsiya jarayonida o‘z madaniyati va an’analarini singdiradi.

Uchinchi ta’sir - yer va mol mulkni qayta taqsimlanishi. Ushbu ta’sir orqali migratsiyaning iqtisodiy oqibatlariga ham alohida e’tibor qaratadi. U ko‘chish jarayonida yerdan foydalanish va mol-mulkning qayta taqsimlanishini ta’kidlaydi. Yangi hududga kelgan aholi bilan mavjud aholining resurslarga bo‘lgan talabi va ularni taqsimlashga doir muammolarni keltirib chiqaradi”.

Bu yondashuv orqali Ribakovskiy migratsiya jarayonining hududiy o‘zgarishlar bilan birga, madaniy almashinuv va iqtisodiy o‘zgarishlarga ham ta’sir ko‘rsatishini ifodalaydi. 1990-yillarda migratsiyaning yangi turlari paydo bo‘ldi va xalqaro migratsiya maydoniga tobora ko‘proq mamlakatlar qo‘shildi. Malakali va malakasiz ish uchun mehnat bozorlari tez sur’atlar bilan globallashmoqda. Yuqori malakali kadrlarning, odatda vaqtinchalik asosda, harakatchanligi ko‘pchilik hukumatlar tomonidan rag‘batlantiriladi. Past malakali ishchilar ko‘pincha rasmiy qabul qilinmaydi, hatto ish beruvchilar talabi kuchli bo‘lsa ham; natijada ko‘pincha mehnat yollovchilar yoki migratsiya brokerlari tomonidan tashkil etilgan noqonuniy migratsiya kuchayadi (“migratsiya sanoati” deb ataladigan). Eng muhim miqdoriy o‘zgarishlardan biri Osiyoning tez o‘sib borayotgan iqtisodiyotlariga mehnat migratsiyasining jadal o‘sishidir. Afrikada, shuningdek, aparteiddan keyingi Janubiy Afrikada oqim kabi katta yangi mehnat migratsiyalari paydo bo‘ldi. Lotin Amerikasida mintaqa ichidagi oqimlar ham, Shimoliy Amerikaga migratsiya ham o‘sishda davom etmoqda. G‘arbiy Yevropadagi so‘nggi cheklovlarga qaramay, siyosiy, iqtisodiy va demografik omillar ba’zi mamlakatlarni ishchi kuchini yollashning yangi shakllarini ko‘rib chiqishga undamoqda. Ajablanarlisi shundaki, ham rivojlangan mamlakatlarda, ham tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda (Hong Kong yoki Singapur kabi) ichki xizmatlarning kengayishi kuzatilmoqda, bu yerda muhojir xizmatkorlar mahalliy ayollarga yangi ish o‘rinlarini egallash imkonini bermoqda.

So‘nggi yillarda ko‘plab xalqaro va mintaqaviy jarayonlar sezilarli darajada o‘zgardi, shu munosabat bilan migratsiya masalalarini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. XXI asr dunyo bo‘ylab ixtiyoriy harakatlanish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik, qo‘shma loyihalarning rivojlanishi, mintaqalardagi integratsiya jarayonlari, transport qulayligining yaxshilanishi, alohida shaharlarning iqtisodiy jozibadorligi-bularning barchasi iqtisodiy yoki mehnat migratsiyasi tendensiyasini rivojlantirdi va kuchaytirdi, turizm va ta’lim migratsiyasi ko‘rsatkichlari o‘sdi. Zamonaviy migratsiya jarayonlarini o‘rganish bilan ko‘plab olimlar shug‘ullangan. Ularning har biri turli yondashuvlar va nazariyalar orqali migratsiyaning sabablarini, oqibatlarini, turlarini va ijtimoiy ta’sirini tushuntirishga harakat qilgan.

Kalimullina E.R. Ingliz olimi Ernst Georg Ravenstein (1834-1913) demograf, geograf migratsiya bo‘yicha dastlabki tadqiqotlarni amalga oshirgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, migratsiya quyidagi sabablar asosida yuzaga keladi va rivojlanadi:

- iqtisodiy sabablar;
- kishilarning ko‘chishga moyilligi.

Amerikalik olim Everett S. Leye migratsiyaning itaruvchi va tortuvchi omillari to‘g‘risida nazariya yaratgan. Uning fikricha migratsiyaning itaruvchi omillari kishilarning muntazam yashab kelgan joyidan ketishga majbur qiladigan omillar hisoblanadi. Bunga masalan, ishsizlik, ekologik muammolar, xavfsizlik, urush va boshqalarni misol qilish mumkin. Ikkinchisi kishilarni boshqa hududlarga ko‘chib ketib yashashga sabab bo‘ladigan omillar bo‘lib, ularga yaxshi ish o‘rinlari va yaxshi maosh, yaxshi ta’lim olish, yashash uchun qulay sharoitlar, arzon va xavfsiz hayot va boshqalar.

Migratsiyani eng umumiy tarzda jamiyat tarixi bilan yonma-yon amalga oshib borgan, davlatlar va insonlar taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Migratsiya kishilar hayotining barcha jihatlarini qamrab oladi va unga ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi paytlarda aloqa va transport vositalarining sezilarli darajada rivojlanishi o‘z navbatida zamonaviy xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarining faollashuviga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatdi. Ta’kidlash joizki, xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarida ko‘pincha xizmatchilar emas, balki ishchi mutaxassisliklar vakillari ishtirok etadi. Amalda bu jarayon stixiyali hodisa sifatida rivojlangan, biroq asta-sekin davlat tomonidan tartibga solina boshlagan. Shunga qaramay, hozirgi kunda ham unda stixiyalilik xususiyatlari to‘liq bartaraf etilmagan.

Xalqaro mehnat bozorida xalqaro migrantlar muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. 2022 yilda ular jahon mehnat kuchining 4,7 foizini tashkil etdi, deb xabar beradi Xalqaro Mehnat Tashkilotining (ILO) so‘nggi hisoboti.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining **“Xalqaro mehnatchi migrantlar bo‘yicha global baholash” hisobotiga** ko‘ra, **2022 yilda 167,7 million migrant o‘z yashash joylaridagi mehnat bozorida faoliyat olib borgan**. Ulardan **102,7 million**i erkaklar, **64,9 million**i ayollardir. Bu 2013 yildan beri 30 milliondan ortiq o‘sishni anglatadi, asosan 2013–2019 yillar orasida kuzatilgan o‘sishdir[21]. Hududiy taqsimot bo‘yicha mehnat bozoridagi migrantlarning asosiy qismi yuqori daromadli davlatlarda jamlangan bo‘lib, ular umumiy soning 68,4 foizini (114,7 million kishi) tashkil etgan. Shuningdek, o‘rta-yuqori daromadli mamlakatlar hissasi 17,4 foizni (29,2 million kishi) tashkil qilgan[22].

Shu bilan birgalikda bugungi kunda ekologik migratsiya masalasi so‘nggi yillarda global miqyosda dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bu migratsiya shakli insonlarning ekologik inqirozlar, tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishlari sababli doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyini tark etishiga sabab bo‘lmoqda. Jahonning ko‘plab hududlarida iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, cho‘llanish, yerlarning degradatsiyasi va boshqa ekologik muammolar ko‘plab insonlarni yangi joylarga ko‘chishga majbur qilmoqda.

Ekologik migrant (ekologik migratsiya) – asosan atrof-muhitning hayoti yoki yashash sharoitlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan tarzda to‘satdan yoki progressiv o‘zgarishi sababli odatdagi yashash joyini tark etishga majbur bo‘lgan yoki vaqtincha yoki doimiy ravishda yashashni afzal ko‘rgan, va o‘z mamlakati yoki odatdagi yashab turgan joylari doirasida bir joydan boshqa joyga borgan yoki bir davlatdan boshqa davlatga ketgan shaxs yoki shaxslar guruhi[23].

O‘zbekiston misolida ekologik migratsiya 1960-yillargacha Orol dengizi va uni oziqlantiruvchi Sirdaryo va Amudaryo daryolari holati nisbatan barqaror bo‘lgan. Biroq, qisqa vaqt ichida ushbu daryolarning suvlaridan qayta tiklanmaydigan darajada sug‘orish uchun foydalanilishi ularga antropogen bosimni kuchaytirib, Orol dengizi sathining va hajmining keskin kamayishiga olib keldi. Orol dengizi-ilgari dunyodagi eng katta suv havzalaridan biri-qurib borib, sathi asl darajasidan (53 m) sezilarli darajada pastlagan. Natijada keng hudud cho‘llanishga uchragan. Orol dengiz sathining 90% dan ortig‘i qurishi Markaziy Osiyodagi eng yirik ekologik fojialardan biri bo‘lib qolmoqda. Natijada yuz minglab odamlar sog‘liq, iqtisod va yashash sharoiti yomonlashgani sababli bu hududan ko‘chib keta boshlashgan[24].

“Hozirgi dunyoda 3.6 milliard kishi iqlim o‘zgarishidan sezilarli darajada aziyat chekayotgan hududlarda yashamoqda, 2 milliard odam esa toza ichimlik suvidan bahramand bo‘la olmayapti. Buning ustiga, har yili 600 million kishi sifatsiz oziq-ovqat masulotlari orqali yuqadigan xavfli kasalliklardan jabr ko‘rmoqda. Havoning haddan tashqari isib ketishi bilan bog‘liq o‘lim darajasi ham tobora ko‘payib bormoqda. Bu muammolarni hal qilish masalasi O‘zbekiston uchun dolzarb ahamiyatga ega. Negaki, bizning mamlakatimiz dunyodagi eng katta ekologik ofat Orol fojeasini bevosita o‘z boshidan o‘tkazmoqda. Xalqimiz global isish, ekologik muvozanat buzilishi bilan bog‘liq anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg‘oqchilik va chang bo‘ronlari, qishloq xo‘jaligi hosildorligining pasayishi, ichimlik suv taqchiligi, havoning ifloslanishi shaklida jiddiy tahdidlar bilan yuzma-yuz yashamoqda”[25]. Natijada, mazkur ekalogik muammolar aholi turmush darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ayrim hududlarda yashash imkoniyati cheklanmoqda. Tabiiy resurslar tanqisligi va iqlimning keskin o‘zgarishi odamlarni maburiy ko‘chishga-ya’ni ekologik migratsiyaga yetaklamoqda. Aholining migratsiya faolligi ortishi, ayniqsa qishloq hududlarida oilaviy munosabatlar va mehnat taqsimoti o‘zgartirayotgani bilan ahamliyatlidir.

E’tiborli jihati shundaki, 2024-yildagi ekologik va ijtimoiy omillar ham ayrim hududlarda ichki va tashqi migratsiyaga turtki berdi. Jumladan, suv tanqisligi, Orol bo‘yi hududidagi ekologik muammolar, qurg‘oqchilik va tabiiy resurslarning yetishmasligi ayrim aholi qatlamlarini yashash joyini o‘zgartirishga majbur etdi. Shu holatlar 2025-yilda ham ma’lum miqdorda o‘z ta’sirini saqlab qolishi kutilmoqda.

2025-yilning birinchi choragida Davlat statistika qo‘mitasi (O‘zStat) tomonidan migratsiyaga oid hisobotlarni taqdim etish formati yangilandi. Ilgari har chorakda chop etiladigan ushbu hisobotlar mamlakat ichidagi va tashqarisidagi migratsiya oqimlari (ya’ni, ko‘chib keluvchi va ko‘chib ketuvchi aholi) haqida batafsil ma’lumotlarni qamrab olgan, shuningdek, migrantlarning kelib chiqish manbalari hamda ularning manzil mamlakatlari aniq qayd etilgan edi. Yangilangan formatda esa ayrim ko‘rsatkichlar tizimlashtirildi va toifalar bo‘yicha taqsimotda o‘zgarishlar kiritildi.

Yangi hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning 1-choragida mamlakat bo‘yicha jami 63077 nafar ko‘chib keluvchi aholi-ya’ni, immigrantlar qayd etilgan. Ularning 62755 nafari ichki immigrantlar bo‘lib, bir viloyatdan ikkinchisiga doimiy

[21] https://www.ilo.org/resource/news/international-migrants-are-vital-force-global-labour-market

[22] Ushbu manbaga qarang

[23] Migratsiya sohasidagi atamalar lug‘ati - Glossary on Migration // Xalqaro migratsiya huquqi (International Migration Law). – Женева: IOM, 2019. – Б. 63. https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf

[24] Алимов Ж. Орол фожиаси ва унинг оқибатлари // Экология ва инсон саломатлиги. – Тошкент, 2020. – Б. 22-24.


[25] Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O’zbekiston – Toshkent: O’zbekiston, 2024. – Б. 18-19.

yashash uchun ko‘chgan shaxslardir. Qolgan 322 nafar shaxs esa xorijiy mamlakatlardan O‘zbekistonga doimiy yashash maqsadida kelgan tashqi immigrantlar hisoblanadi[26].

Shu davrda ro‘yxatga olingan emmigrantlar soni esa 65126 nafarni tashkil etdi. Ularning 62 755 nafari mamlakat ichida bir hududdan boshqa hududga ko‘chib o‘tgan ichki emmigrantlar bo‘lsa, 2371 nafari xorijiy davlatlarga doimiy yashash maqsadida chiqib ketgan tashqi emmigrantlar sifatida qayd etilgan. Hududiy migratsiya jarayonlariga nazar tashlaganda, Toshkent shahri ichki migrantlar uchun asosiy manzil sifatida ajralib turadi. 2025-yilning 1-choragida bu yerda 22 mingdan ortiq ko‘chib kelgan shaxslar va 17 mingdan ortiq ko‘chib ketgan shaxslar ro‘yxatga olingan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar boshqa barcha hududlardan ancha yuqoridir. Aksincha, Surxondaryo, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida migratsiya oqimlari salbiy ko‘rsatgichga ega bo‘lib, bu hududlarda ko‘chib ketganlar soni ko‘chib kelganlardan ko‘p bo‘lgan. Navoiy va Farg‘ona viloyatlarida esa migratsiya nisbatan muvozanatli bo‘lib, har birida taxminan 4000 nafardan ko‘chib kelgan va ko‘chib ketgan shaxslar qayd etilgan. Namangan viloyati esa eng kam migratsiya faolligi bilan ajralib turadi-bu viloyatda taxminan 700 kishi ko‘chib kelgan va 1000 kishi ko‘chib ketgan. Hududiy migratsiya jarayonlari Toshkent shahri kabi yirik shaharlarda ichki migratsiya oqimlarining asosiy markazlari shakllanayotganini, janubiy va markaziy hududlarda esa aholi ko‘chib ketishi ustunligini ko‘rsatmoqda.

Ushbu sitatistik ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki har bir hududning joylashish, ekalogik muhiti va ijtimoiy-iqtisodiy omillarga asosan amalga oshmoqda. Mehnat migratsiyasi masalasi bugungi kunda faqat iqtisodiy jarayon emas, balki ijtimoiy-falsafiy tahlilni ham talab qiluvchi murakkab hodisadir. Insonning mehnat muhitini tark etib, boshqa makonda ijtimoiylashuv jarayoniga moslashuvi, o‘zligini anglash va moslashuvdagi ichki ziddiyatlari ushbu hodisani chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Shu sababli ham, mehnat migratsiyasi zamonaviy jamiyat falsafasining muhim tadqiqot obektlaridan biriga aylangan.

2025-yilning dastlabki choragida O‘zbekiston hududlari bo‘yicha migratsiya oqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil natijalari quyidagi (1-rasmda) ko‘rsatilgan diagrammada o‘z aksini topgan.



Rivojlanayotgan mamlakatlardan inson kapitalining chiqib ketishi yaqin yillarda yanada kuchayishi kutilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, rivojlangan mamlakatlar o‘zlarining sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga yetarli sarmoya kiritmayaptilar. Mazkur sohalarga bo‘lgan yetarlicha investitsiyaning mavjud emasligi, ularni doimiy ravishda inqiroz holatiga tushirmoqda. Shu boisdan ham rivojlangan davlatlar mazkur sohalardagi kadr yetishmovchiligini bartaraf etish maqsadida kam rivojlangan mamlakatlardan mutaxassislarni jalb qilishga majbur bo‘lmoqdalar.

Globallashuv jarayonlari va savdo siyosatining hozirgi tendensiyalari kelgusi yillarda malakali ishchi kuchi va mutaxassislarga bo‘lgan talabni keskin oshirishi kutilmoqda. Global kompaniyalar hamda turli sanoat tarmoqlari mazkur ehtiyojni qondirish maqsadida yanada moslashuvchan va keng qamrovli immigratsiya siyosatini qo‘llab-quvvatlashda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – Б. 18-19.

[26] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Rasmiy statistika: Demografiya. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2

2. Дювель Ф. Пространственная мобильность населения: индикаторы, категории и типологии // Методология и методы изучения миграционных процессов: междисциплинарное учебное пособие / под ред. Зайончковской и др. – М.: Центр миграционных исследований, 2007. – С. 70–71.

3. Рыбаковский Л.Л.Миграция населениия: прогнозы, факторы, политика// Л.Л. Рыбаковский - М.:Наука, 1987.С.

4. Апанович М.Ю. Миграционная политика: международный опыт реализации: рабочая тетрадь №70 / Российский совет по международным делам. – М.: СП РСМД, 2022. – 32 с. – Авт. и ред. указаны на обороте тит. л.

5. Lee, E.S. “A Theory of Migration” // Demography. - 1966. - Vol. 3. №. 1. - P. 47-57. https://emigratecaportuguesa.wordpress.com/wp-content/uploads/2015/ 04/1966-a-theory-of-migration.pdf

6. Migratsiya sohasidagi atamalar lug‘ati - Glossary on Migration // Xalqaro migratsiya huquqi (International Migration Law). – Женева: IOM, 2019. – Б. 63. https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf

7. Алимов Ж. Орол фожиаси ва унинг оқибатлари // Экология ва инсон саломатлиги. – Тошкент, 2020. – Б. 22-24.

8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Rasmiy statistika: Demografiya. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2

9. https://www.ilo.org/resource/news/international-migrants-are-vital-force-global-labour-market

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Saydullayev Nurmuhammad Ziyodulla o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining bosh mutaxassisi

AKADEMIK ERKIN YUSUPOV: SHAXSI VA UNING ILMIY MEROSI

Annotatsiya: *Ushbu maqola akademik Erkin Yusupov shaxsi va uning ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlanadi. Maqolada olimning ijtimoiy fanlar taraqqiyotidagi roli, g'oyalar va ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan izlanishlari, jamiyatda ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash va milliy qadriyatlarni saqlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, E.Yusupovning ilmiy merosida oila, axloq, ma'naviyat va milliy-ma'naviy merosning ahamiyati, ijtimoiy va tarixiy kontekstda g'oyalarning rivojlanishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri xulosa qilingan. Maqola olimning ilmiy ishlari orqali zamonaviy ma'naviy tarbiya va jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan amaliy tavsiyalar ham beriladi.*

Kalit so'zlar: *Erkin Yusupov, ilmiy meros, ma'naviy kamolot, g'oyalar, jamiyat taraqqiyoti, milliy qadriyatlar, axloq, oila, ma'rifat, ijtimoiy fanlar.*

Сайдуллаев Нурмухаммад Зиёдулла угли
главного специалиста Комитета по делам религий Республики Узбекистан

АКАДЕМИК ЭРКИН ЮСУПОВ: ЛИЧНОСТ И ЕГО НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ

Аннотация; *Настоящая статя посвящена изучению личности академика Эркина Юсупова и его научного наследия. В стате анализируется рол учёного в развитии общественных наук, его исследования, посвящённые проблемам идей и духовности, а также значение его трудов в воспитании духовно зрелой личности и сохранении натсиоанлных сенностей в обществе. Кроме того, в научном наследии Э. Юсупова рассматриваются вопросы семи, нравственности, духовности и натсионально-культурного наследия, развитие идей в сотсиально-историческом контексте и их влияние на общественный прогресс. В стате также представлены практические рекомендатсии, направленные на современное духовно-нравственное воспитание и развитие общества на основе научных трудов учёного.*

Ключевые слова: *Эркин Юсупов, научное наследие, духовное развитие, идеи, сотсиалное развитие, натсионалные сенности, морал, семя, просвещение, общественные науки.*

Saydullaev Nurmukhammad Ziyodulla ugli
Chief Specialist of the Committee for Religious Affairs of the Republic of Uzbekistan

ACADEMICIAN ERKIN YUSUPOV: HIS PERSONALITY AND SCIENTIFIC LEGACY

Abstract: *This article is devoted to the study of the personality of Academician Erkin Yusupov and his scientific legacy. It analyzes the scholar's role in the development of social sciences, his research on issues of ideas and spirituality, and the significance of his work in fostering a spiritually mature individual and preserving national values in society. Furthermore, the study examines the importance of family, morality, spirituality, and national cultural heritage in Yusupov's scientific legacy, as well as the development of ideas within their socio-historical context and their impact on social progress. The article also provides practical recommendations aimed at contemporary spiritual and moral education and the development of society based on the scholar's academic works.*

Keywords: *Erkin Yusupov, scientific heritage, spiritual development, ideas, social progress, national values, morality, family, enlightenment, social sciences.*

KIRISH.

Insoniyat tarixi shu narsani isbotlab berdiki, ilmiy izlanish, salohiyatli va iste'dodli insonning el, yurt, millat va vatan ravnaqi, uning yuksalishi hamda yosh avlod kamoloti yo'lida amalga oshirilgan har qanday urinishlar insonning aql-idrokiga, ma'naviy taraqqiyotiga, milliy merosiga va diniy qadriyatlariga tayanadi. Ilmiy izlanish jamiyat taraqqiyotining milliy ma'rifatining muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Xalqimizning milliy tafakkurini inobatga olgan holda tarbiya masalasi insonning ma'naviy va axloqiy kamolotiga sezilarli hissa qo'shadi. Bunday ilmiy va ma'naviy meros sohiblari

orasida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi, Rossiya Fanlar Akademiyasi a’zosi, professor va falsafa fanlari doktori Erkin Yusupov alohida o‘rin tutadi.

Erkin Yusupov qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa-da, u o‘z umri davomida jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti yo‘lida xizmat qilgan ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlar yaratgan. Jumladan, ilmiy-falsafiy merosida milliy masala, ilmiy ijod, millat, milliy g‘oya, ma’naviyat, qadriyat va axloq masalalari chuqur tadqiq etilgan. O‘zbek xalqi milliy tafakkurining imkon darajasida himoya qilgan millatimiz vakili jamiyatning siyosiy hayotdagi faolligi bilan birga ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi o‘zgarishlarni yaratishga ham o‘z hissasini qo‘shdi. Olim o‘zining butun ilmiy-ijodiy faoliyatini davom ettirib, milliy istiqlol g‘oyasiga doir ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirgan.

Bu insondan ko‘plab shogirdlar, turli ilmiy-nazariy asarlar, monografiyalar, risolalar va maqolalar meros bo‘lib qoldi. Uning qarashlarida ma’naviyat, axloq, tarix va mentalitetga oid boy ilmiy-ma’naviy meros uyg‘un ravishda yoritilgan. Erkin Yusupov ilmiy merosi ko‘p qirrali bo‘lib, jamiyat, ma’naviyat, madaniyat va ma’rifat yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab olgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

Akademik Erkin Yusupov ning ilmiy merosi ma’naviyat, milliy g‘oya, yoshlar tarbiyasi va diniy qadriyatlar masalalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish bilan ajralib turadi. Uning “Inson kamolotining ma’naviy asoslari”) asarida inson kamolotining ma’naviy-axloqiy omillari falsafiy jihatdan yoritilgan. “Yoshlarning ma’naviy kamoloti” kitobida yosh avlod tarbiyasi va ularning ma’naviy qadriyatlar asosida shakllanishi tahlil qilinadi. “Islomiy qadriyatlar va ekstremizm” asarida diniy qadriyatlarning ijtimoiy mohiyati hamda ekstremizmga qarshi ma’rifiy yondashuv asoslab berilgan. “Milliy g‘oya va mafkura: mohiyati, ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ahamiyati” asarida milliy mafkuraning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, “Ma’naviy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati” hamda “Oila – ma’naviyat bulog‘i” asarlarida ma’naviy qadriyatlarning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati chuqur asoslangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Akademik **Erkin Yusupov** ning shaxsi va ilmiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan mazkur tadqiqotda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari asosida olimning ilmiy faoliyati va g‘oyalari shakllanish jarayoni tahlil qilindi. Tizimli yondashuv orqali uning asarlarida ilgari surilgan ma’naviyat, milliy g‘oya, yoshlar tarbiyasi va diniy qadriyatlar masalalari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi yordamida olim qarashlari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalar bilan solishtirildi. Analiz va sintez usullari orqali Yusupovning ilmiy merosidagi asosiy g‘oya va nazariy xulosalar umumlashtirildi. Bundan tashqari, manbashunoslik yondashuvi asosida uning ilmiy asarlari va ilmiy maqolalari kompleks tarzda o‘rganilib, ularning jamiyat ma’naviy hayotidagi ahamiyati aniqlab berildi.

NATIJA VA TAHLILLAR.

Olimning ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi uning yoshligidan boshlangan. U o‘z esdaliklarida yozishicha, bolalik chog‘laridayoq topgan puliga kitob sotib olar ekan. U o‘z harakatlari natijasida Moskvada aspiranturada o‘qigan va professor Pavel Sergeevich Popov rahbarligi ostida ilmiy izlanishlar olib borgan. Ilmiy rahbarining taklifi bilan “Tafakkur qoidalari va uning dialektik materializm nazariyasi asosida tahlil etish” mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Pavel Sergeevich Popov juda talabchan inson bo‘lib, u Erkin Yusupovdan kutubxonada mavjud zaruriy kitoblarni mukammal o‘rganib chiqishni, o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lishini talab etgan. Uning beminnat yordami, qat’iy talabi va nazorati ostida Erkin Yusupov sohaga taaluqli asosiy manbalarni puxta o‘rgangan.

1954-yilda Erkin Yusupovnomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan, o‘sha davr hisobiga ko‘ra u o‘zbek olimlari ichida beshinchi bo‘lib falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘lgan olimlar sirasiga kiradi. Shu yili u o‘zining mehnat faoliyatini boshlab, Toshkent pedagogika institutida falsafa fanlaridan dars bera boshlaydi. O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyotiga oid bo‘lgan muammolar Toshkent pedagogika instituti kafedra jamoasi tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mazkur masalalarga oid muammolar tadqiq va tahliliga bag‘ishlangan ilmiy jarayonlarda Erkin Yusupov shaxsan bosh-qosh bo‘ladi.

O‘zining pedagogik va jamoatchilik asosidagi faoliyati bilan birga ilmiy tadqiqot ishlarini ham davom ettirib borgan Erkin Yusupov “O‘rta Osiyo respublikalarida shahar bilan qishloq o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning bartaraf etilishi” masalasiga bag‘ishlangan mavzuda doktorlik ishini davom ettiradi. Doktorlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi XIX asr, ayniqsa XX asrlarda shahar va qishloqlarning turmush tarzi darajasini ochib berish edi. O‘sha paytlarda O‘rta Osiyo xalqlarining katta qismi qishloq joylarida yashayotgan edi. Qishloq sharoitida katta bo‘lgan Erkin Yusupov bu joylardagi ijtimoiy, madaniy va ma’naviy hayot qanday darajada ekanligini yaxshi bilar edi. Shu bois, bir qator ilmiy asoslar va qiyosiy tahlillar asosida shahar va qishloq o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish tarixiy zaruriyat ekanligini doktorlik ishida ilmiy ravishda asoslab bergan.

XX asrning oxirlarida Rossiyadagi ko‘plab katta qishloqlar va xatto kichik shaharchalarning yo‘qolib borishi turmush tarzidagi qarama-qarshiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etilmaganligining salbiy oqibatidir. Erkin Yusupovning ilmiy

mulohaza va tadqiqotlari orqali mazkur muammoning ob'ektiv asoslari, sub'ektiv ta'sir kuchlari hamda ichki imkoniyatlari ilmiy ravishda izohlangan. Bu ham u davrda masalaning qanchalik dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng, mamlakatimizda qishloq va shaharlar turmush tarzidagi farqlarni bartaraf etish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Erkin Yusupovning ilmiy-falsafiy merosining asosiy yo'nalishlaridan biri – milliy masaladir, chunki yoshlik chog'idayoq u sovet tuzumining turli millatlarga bo'layotgan munosabatini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Urush boshlanishidan oldin Uzoq Sharqdan koreyslar, Shimoliy Kavkazdan balqarlar, yahudiylar, qrim tatarlar, mesxete turklari, chechenlar va osetinlar O'zbekistonga majburiy ko'chirib keltirilgan va ular ham juda og'ir sharoitda yashar edilar. Asossiz va majburan ko'chirilgan bu mehnatkash insonlarning barcha musibatlarini Erkin Yusupov o'z ko'zi bilan ko'rdi.

O'zbekiston Oliy Sovetining deputatlari, Oliy Sovet raisi va Millatlararo munosabatlar komissiyasining raisi bo'lib ishlagan kezlarida u, sovet tuzumini olib borgan siyosatidan jabr ko'rgan millatlarga qo'ldan kelganicha yordam berishga harakat qildi. Erkin Yusupovning hamkorlikda nashr qilingan "Milliy masala bo'yicha falsafiy suhbatlar" nomli monografiyasida, milliy va millatlararo munosabatlar sohasida mamlakatimizda uzoq vaqtlar davomida to'planib qolgan, lekin hal etilmagan qator muammolar, ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi va keskinlashishi sabablari, ob'ektiv omillari va sub'ektiv zaminlari chuqur tahlil qilingan.

Erkin Yusupovning ko'plab asarlarida uning ilmiy-falsafiy merosida milliy masala jamiyat hayotiga katta ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida keng yoritilgan. Milliy masalani hal qilishda yo'l qo'yilgan xatolar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi Sobiq Sovet tuzumi olib borgan siyosat orqali ham namoyon bo'lgan. Bu siyosat natijasida esa ayrim xalqlar o'zlariga xos milliy qadriyatlardan uzoqlashib qolgan. Erkin Yusupovning ilmiy-falsafiy merosida milliy masalalarni hal etishda o'ta ehtiyotkorlik zarurligi, barcha millatlarning manfaatlarini tenglashtirish va milliy qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirish kerakligi to'g'risidagi nazariy fikrlar Moldova, Gruziya, Ozorbayjon, Armaniston, O'zbekiston va Qozoqistondagi voqealar bilan tasdiqlangan. Olimning ilmiy-falsafiy merosida qadriyatlar masalasi ham asosiy yo'nalishlardan biridir. Qadriyatlar turi juda ko'p bo'lib, ularning barchasi jamiyatni yuksaltirishda va yosh avlodni tarbiyalab, barkamol inson qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Erkin Yusupovning ilmiy izlanishlari doirasi nihoyatda keng bo'lib, merosidagi yo'nalishlar va mavzular jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar nazariy jihatdan aniq yoritilgan.

XX asrning oxirlariga kelib, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi olimlari olib borayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ijtimoiy fanlarning dolzarb muammolariga yangicha yondoshish, milliy meros va qadriyatlarni chuqur va xolisona o'rganish, jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirish va tarixni haqqoniy tahlil qilish kabi harakatlar kuchaygan. Shu davrlarda Erkin Yusupovning eng sara asarlari yaratilgan va ular davrlar o'tsa ham qadr-qimmatini yo'qotmaydi.

Ma'naviyat masalasi Erkin Yusupovi lmiy-falsafiy merosidagi asosiy va muhim yo'nalishlardan biridir. Olim ma'naviyatni jamiyat hayoti va taraqqiyotining muhim omillaridan deb hisoblagan. Ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga hissa qo'shgan ko'p olimlar ma'naviyat nima ekanligini tushuntirgan va bu savolga berilgan javoblar soni yuzga yaqinlashgan. Erkin Yusupov jamiyat hayoti va taraqqiyotining muhim omili sifatida ma'naviyatni shunday ta'riflaydi: Ma'naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobilyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi va mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi mushtarak tizimdir[1:34].

Erkin Yusupovning ilmiy-falsafiy merosida ma'naviyat, jamiyat va taraqqiyot tushunchalari bir-biri bilan bog'liq ravishda yoritilgan. Uning asarlarida ma'naviyat shaxsning, insonning, xalqning, millatning, davlatning va jamiyatning kuchi, qudrati, yuksalishi va kelajagini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omil sifatida ko'rsatilgan.

Ilmiy merosning asosiy yo'nalishlarida yetuk ma'naviyatning timsollari ham yoritilgan va Erkin Yusupov bu timsollarni o'z ta'rifida sanab o'tgan.

Olimning ilmiy merosida milliy tarbiya masalasi ham asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya jarayonlari doimo bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib kelgan, ularning bog'liqligi qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyatning ma'naviy asosi ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Erkin Yusupovning ta'limotiga ko'ra, milliy tarbiya inson shaxsini shakllantirishda milliy-madaniy meros va qadriyatlardan foydalanish, har bir shaxsning ma'naviy kamolotiga hos milliy yo'nalish berishga harakat qilishdir. Shu bilan birga buyuk allomalar va jadid bobolar tarbiya borasidagi ta'limotlari milliy tarbiyaning mustahkam asoslarini tashkil etadi[2:6].

Erkin Yusupovning ta'limotiga ko'ra ta'lim va tarbiya o'zining aniq maqsad va vazifalarini belgilashi kerak. Asrlar mobaynida shakllangan millat tarbiyasi o'ta muhim vazifalarni bajargan va milliy tarbiyaning mustahkam asosiga aylangan. Yoshlarni har jihatdan barkamol inson qilib voyaga yetkazish doimo asosiy vazifalardan bo'lgan. Erkin Yusupov "Inson kamolotining ma'naviy asoslari" nomli kitobida yoshlarni voyaga yetkazib tarbiyalashning asosiy maqsadlari, tarbiya oldiga qo'yilayotgan vazifalar va ularning maqsadlarga erishishda xizmat qiladigan imkoniyatlar keng yoritilgan. Olim ta'kidlashicha, milliy tarbiyaning asoslari juda mustahkam va boydir.

Erkin Yusupov o‘z ilmiy-falsafiy merosida milliy tarbiya inson shaxsini shakllantirishda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanish, har bir xalq ma’naviyatiga hos yo‘nalish berishga harakat qilishdir. Millat mavjud bo‘lsa, uning ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq tarbiya usullari va tizimlari ham takomillashib boraveradi. Olim o‘z ilmiy qarashlarida Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy tarbiya tajribasi va nazariyasiga oid fikrlarini Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf xos Xojib, Nasriddin Tusiy, Jaloliddin Dovoniy, G‘iyosiddin Mansur, Alisher Navoiy asarlari va Temur tuzuklarida mukammal yoritilganligini nazriy jihatdan asoslab bera olgan.

Erkin Yusupovning asarlarida Sobiq Sovet tuzumi davrida xalqimizga qarshi olib borilgan adolatsiz siyosat va uning ma’naviy-ma’rifiy hayoti yo‘lidagi to‘siqlar ham yoritilgan. Xususan ibn Arabiy, Husayn voiz Koshifiy, Poshshaxo‘ja Abduvahobxo‘ja, Yusuf Samandarxo‘ja, Termiziy, Faroxiy, Abdurahmon Sharif va boshqa ko‘plab insonlar asarlarini o‘rganishdan yosh avlod tarbiyasi va jamiyat ma’naviy-ma’rifiy hayotini yuksaltirishda foydalanish imkonsiz bo‘lgan. Erkin Yusupov ta’kidlashicha, islom dinining muqaddas manbalari – Qur’oni Karim, hadislar va shariat hukmlari – axloq-odob mezonlari bilan tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu muqaddas dunyoqarash asrlar davomida jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan inson kamolotiga ham katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

Erkin Yusupovning fikricha, islom dini va uning muqaddas manbalari islom ma’naviy va ruhiy kamolotining barcha muammolarini o‘z ichiga qamrab oladi. U ta’kidlaydi: «Islom dini asrlar davomida insonlarni ahillikka, hamkorlikka va hamjihatlikka chorlagan, zo‘rlik va zo‘ravonlikni, adolatsizlikni qoralagan, har bir shaxsni halollik, iymonlilik, insoflilik, insonparvarlik va mehnatsevarlik ruhida tarbiya qilishga katta ta’sir ko‘rsatgan. O‘n to‘rt asr davomida islom qadriyatlari o‘zbek xalqining bir necha ming yillik tarixiy an’analari va urf-odatlariga ham chuqur singib, ularni rivojlantirgan»[3:4].

Islom ta’limotida o‘z ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan qoidalar, yo‘l-yo‘riqlar va o‘gitlar mavjud bo‘lib, ular hatto bugungi kunda ham umuminsoniy qadriyatlar sifatida qabul qilinadi. Qur’oni Karimning sura va oyatlari, Rasuli akramning sunnat va hadislari, nasihatlari insonlarda ezgulik, ma’rifat va axloqiy poklikni shakllantirish, jaholat va nodonlikdan qutqarishga qaratilgan dasturiy o‘gitlar hisoblanadi. Erkin Yusupov ta’limotidagi bebaho hikmatlar ma’naviy hayotni yuksaltirish, jamiyat pokligi va barkamol shaxslarni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olim ta’kidlashicha, diniy ye’tiqod bilan dunyoviy bilimlar birlashganda ular inson qalbidan chuqur o‘rin oladi. Shuningdek, bu mushtaraklik bugungi kunda amalga oshirilayotgan ma’naviy yuksalish va kamolotning muhim shartlaridan biridir[4:148]. Erkin Yusupovning ilmiy merosidagi asosiy yo‘nalishlardan biri – g‘oya va mafkuralarning ma’naviy meros va qadriyatlar tizimidagi o‘rni masalasidir. Uning izlanishlarida g‘oya tasodifan paydo bo‘lmaydi, balki u katta ijtimoiy-tarixiy ahamiyatga ega ma’naviy jarayonning oqibati sifatida yuzaga keladi. G‘oyalar tarixiy zaruriyat asosida shakllanadi va kishilar ongiga singib, ularga maqsad va yo‘nalish berganda katta kuchga aylanadi[5:20]. Erkin Yusupov ta’kidlaydiki, yangi g‘oyalar o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi va ko‘pchilik tomonidan ham yaratilmaydi. Ular tarixiy meros, qadriyatlar va yaratilgan ob’ektiv hamda sub’ektiv imkoniyatlar, yangi ehtiyojlar asosida paydo bo‘ladi. G‘oyalar maqsadi va mohiyatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: ilmiy-hayotiy va bunyodkor. Bunday g‘oyalar ijodiy mohiyatga ega bo‘lib, inson hayoti, faoliyati va tafakkur salohiyatidagi barcha yangiliklarni aks ettirish imkoniga ega.

G‘oya va mafkura tushunchalari turli davrlarda turlicha ta’riflangan. Bugungi kunda g‘oyalar jamiyat va inson taqdirini hal etishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun davlatlar o‘z maqsadlarini amalga oshirishda turli g‘oyalar va ularning tizimi bo‘lgan mafkuralardan foydalanadilar. Masalan, Sobiq Sovet davlatining barham topishi asosiy sabablaridan biri – g‘oyalarning mutloqlashtirilganligi va unga qarshi olib borilgan kurashlardir. Erkin Yusupov g‘oyalarga abadiy, o‘zgarmas mezon sifatida qarash taraqqiyot imkoniyatlaridan uzoqlashishga olib keladi deb ta’kidlaydi. G‘oyaning ahamiyati uni yaratishda emas, balki amaliy sinovlardan o‘tishi natijasida aniqlanadi.

G‘oya – o‘tmish saboqlariga tayanib, hozirgi kun ehtiyojlari va imkoniyatlarini tahlil etish asosida istiqbolni chuqurroq anglashga imkon beruvchi, jamiyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini ifodalaydigan, odamlar faoliyatini muayyan maqsad va manfaatlar asosida birlashtiruvchi ilmiy asoslangan umumiy fikrlar va maqsadlar tizimidir.

G‘oya hal yetilishi lozim bo‘lgan muhim muammolar va vazifalar tizimini o‘z ichiga oladi. U asosan istiqbolga yo‘naltirilgan, mohiyatan muhim, mo‘tadil va barqaror bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlari va imkoniyatlari asosida rivojlanib, o‘zgarib, yangilanib boradi[6:127].

Erkin Yusupovning ilmiy asarlarida g‘oyalar tasir kuchi ortib borayotganligi, uning ijtimoiy, ma’naviy, tarixiy ildizlari keng yoritib berilgan. Bunday asarlarda Sobiq sovet tuzumiga xizmat qilishga moslashtirilgan g‘oyalardan, uni targ‘ib etadigan mafkuradan voz kechish zarurligi bilan birga mustaqilligimizni mustahkamlashga har jihatdan yetuk bo‘lgan ma’naviy barkamol insonlarni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

G‘oyalarni yaratish tarixiy zaruriyat ekanligini har jihatdan asoslab berish mumkin.

Bunday g‘oyalar muayyan bir manfaatlar va maqsadlarga erishish yo‘lida butun insoniyatning e’tiqodi va faoliyatini yaqinlashtirish, uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, ularning ahamiyati biror mamlakat, millat yoki guruh doirasi bilan cheklanib qolmaydi[7:29].

E.Yusupov ilmiy merosida ijtimoiy g‘oyalarning mohiyati, turlari, ularning jamiyat taraqqiyoti va inson ma’naviy kamolotidagi o‘rni, milliy g‘oyaning mohiyati, uning muhim jihatlari, milliy mafkuraning milliy g‘oya bilan umumiyligi, ijtimoiy va siyosiy kuchlar hamda guruhlarning mafkurasi chuqur tahlil qilingan holda yoritib berilgan.

Olimning ilmiy izlanishlarida ma’naviyat doimo asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelgan; u jamiyat ma’naviy hayotini yuksaltirishga erishmasdan, ma’naviy jihatdan yetuk insonlarni voyaga yetkazmasdan turib ko‘zlangan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi deb hisoblagan. Uning yozishicha, ma’naviyatni yuksaltirishning qator omillari bo‘lib, bunday omillar ichida oilaning o‘rni kattadir.

Jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili hisoblangan ma’naviy jihatdan barkamol, sog‘lom avlod oila muhitida shakllanib boradi. Inson ma’naviyatining birinchi kurtaklari oilada shakllanadi. Oila mustahkam bo‘lishi, uning axloqiy va huquqiy asoslarining barqarorligi, komil inson tarbiyasining birinchi zaminidir[8:6].

Olim o‘z izlanishlarida inson tarbiyaga bir umr muhtoj bo‘lib yashaydi, har qanday ma’naviy va jismoniy kamolotining birinchi poydevori qurilayotgan oiladagi tarbiyaning o‘rni va ahamiyati doimo betakror bo‘lib kelgan deb takidlab o‘tgan. Uning ilmiy merosi oilaning jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotidagi o‘rni mavzusidagi yo‘nalishida «Sog‘lom avlod – jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili», «Oilaviy munosabatlar madaniyatining diniy va milliy jihatlari», «Jamoatchilik fikrlarining oilaviy hayot va yoshlar tarbiyasiga tasiri», «Ota–ona ibrati – farzandlar ziynati», «Sevgi muhabbatning ma’naviy ildizlari», «Oilada ota sarbon, ona mehri ma’naviyat bulog‘i», «Farzandlik burchining ma’naviy asoslari», «Oiladagi tarbiyaning hozirgi muammolari», «Oilada farzand tarbiyasiga asos bo‘lgan ahloqiy qadriyatlar» mavzulari jamiyat hayotida oilaning o‘rni va ahamiyati qanday ekanligini keng yoritib beradi.

E.Yusupov mamlakatimizda ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri bo‘lib, uning ilmiy izlanishlari ijtimoiy hayotning ko‘plab sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

Jamiyat taraqqiyotining ma’naviy omillari yo‘nalishi, inson ma’naviy kamoloti va jamiyat taraqqiyotining o‘zaro bog‘liqligi, ahloq va odob ma’naviyatining o‘zagi, bilim, ilm va amaliy malaka – ma’naviyatlilik belgisidir. Iymon, vijdon, e’tiqod va ixlosning inson ma’naviyatidagi o‘rni katta ahamiyatga ega. Ma’naviy kamolot – mustaqil taraqqiyotimiz omili. Milliy ongning ma’naviy asoslari va yoshlarning ma’naviy kamoloti mavzularini ham o‘z ichiga qamrab olgan.

Ahloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati masalasi ham ilmiy merosning asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish ahloqning ijtimoiy va ma’naviy ildizlari, ahloqiy qadriyatlar shakllanishi, rivojlanishining birligi va bog‘liqligi, milliy ahloqning umumiy va hususiy jihatlari, ahloqiy qadriyatlarning hususiy jihatlari mavzulari orqali keng yoritib berilgan.

Milliy-ma’naviy va milliy madaniy qadriyatlar ham ilmiy merosning asosiy mavzularidan hisoblanadi. Xalqimizga xos bo‘lgan milli-ma’naviy va madaniy qadriyatlar asrlar davomida shakllanib, boyitib kelingan. Ular avloddan avlodlarga meros bo‘lib keladi. Biz yashab kelayotgan tabarruk zamin azal-azaldan ilm-fan, ma’naviyat va madaniyat, adabiyot-san’atning markazlaridan biri bo‘lib kelgan hamda mintaqamizda ikki marta «Oltin davr» paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lgan.

Erkin Yusupovning ta’kidlashicha, mustaqilligimizning dastlabki kunidanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan bebaho madaniy-ma’naviy merosni tiklash va davlat siyosati darajasiga ko‘tarish eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolgan, urf-odat va an’analarni esa bugungi kunda yangicha tafakkur asosida o‘rganish talab etiladi.

Erkin Yusupovning ilmiy merosi keng qamrovli bo‘lib, uning yo‘nalishlari ma’naviyat, madaniyat, ma’rifat, ta’lim-tarbiya, jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotining muhim tomonlarini qamrab olgan. Bu olim juda ko‘plab manbalardan foydalangan holda bizga bebaho ilmiy meros qoldirdi. Bunday olimlarning ilm-fanni rivojlantirish yo‘lidagi fidoiyligi biz uchun na’muna bo‘ladi.

XULOSA.

Erkin Yusupovning ilmiy merosi jamiyat taraqqiyoti va inson ma’naviy kamoloti masalalariga bag‘ishlangan keng qamrovli tadqiqotlardir. Uning asarlarida g‘oyalar va mafkuralar tarixiy, ijtimoiy va ma’naviy ildizlari chuqur tahlil qilingan, ularning jamiyat hayotidagi ta’siri va ahamiyati keng yoritilgan. Olim ta’kidlaganidek, ma’naviy barkamol insonlarni tarbiyalash va mustaqillikni mustahkamlashda oila va milliy qadriyatlar markaziy ahamiyatga ega.

Erkin Yusupov fikriga ko‘ra, ijtimoiy g‘oyalar tarixiy zaruriyatdan kelib chiqib shakllanadi, ular millat va guruh manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lib, inson faoliyati va jamiyat rivojiga yo‘nalish beradi. Shuningdek, ma’naviyat, axloq va diniy-etnik qadriyatlar insonning ruhiy va ma’naviy kamolotida asosiy omillar hisoblanadi.

Olimning ilmiy izlanishlarida milliy-ma’naviy va madaniy merosning ahamiyati ham alohida qayd etilgan. Ushbu meros oilada, ta’lim-tarbiyada va jamiyat hayotida chuqur asos bo‘lib xizmat qiladi, insonlarning ma’naviy barkamolligi va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur muhit yaratadi.

Shu bois, Erkin Yusupov ilmiy merosi nafaqat ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga, balki mustaqillikning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy ongni yuksaltirish va yosh avlodni ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashga ham beqiyos hissa qo‘shgani bilan ahamiyatlidir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. E.Yusupov. “Inson kamolotining ma’naviy asoslari” T. “Universitet” 1998-yil

2. E.Yusupov. “Yoshlarning ma’naviy kamoloti” T. “O‘zbekiston” 1995

3. E.Yusupov. “Islomiy qadriyatlar va ekstremizm” T. “T.T.Ye.S.I” 1999.

4. E.Yusupov. “Milliy g‘oya va mafkura: moxiyati, ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ahamiyati” Shimkent. 2001

5. E.Yusupov. “Ma’naviy qadriyatlar av ularning tarbiyaviy ahamiyati” T. “O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi” 2003

6. E.Yusupov. “Milliy g‘oya va mafkura, mohiyati, ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ahamiyati.” Shimkent. 2001

7. E.Yusupov. “Oila ma’naviyat bulog‘i” T. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. 2003-yil

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Norqo'ziyev Sodiqjon Xakimovich
Namangan davlat universiteti falsafa fanlari nomzodi, professor v.b.

MADANIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA MADANIY QADRIYATLAR STRUKTURASI.

Annotatsiya: *Maqolada jamiyatning ijtimoiy strukturasida ijtimoiy xotiraning madaniy qadriyatlar bilan uzviy aloqadorligi, ijtimoiy xotirani yuksalib borishida ijtimoiy o'zgarishlarning sotsial hayotidagi ta'siri va ahamiyati ochib berilgan. o'rni milliy ijtimoiy xotiraga ta'siri, ijtimoiy xotiraning shakllanish va rivojlanish jarayonlari ochib berilgan. Shuningdek, jamiyatda ijtimoiy xotirani va qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash va rivojlantirib borishning muhim omillari va jamiyatdagi paradigmal o'zgarishlar milliy ijtimoiy xotirada an'anaviy yondashuvlar o'rniga alohida ijtimoiy guruhlarga yoki butun jamiyatga yo'naltirilgan qarashlarning globallashuv sharoitidagi ahamiyati tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *globallashuv, xotira, ijtimoiy xotira, madaniyat, qadriyat, milliy, yoshlar, mehr-oqibat, axloq, sotsiallashuv.*

Норкозиев Содикжон Хакимович
Кандидат философских наук, профессор и др.
Наманганский государственный университет

СТРУКТУРА КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В КОНТЕКСТЕ КУЛЬТУРНОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.

Аннотация: *В статье раскрывается неразрывная связь социальной памяти с культурными ценностями в социальной структуре общества, влияние и значение социальных изменений в общественной жизни на развитие социальной памяти. раскрывается влияние ее места на национальную социальную память, процессы формирования и развития социальной памяти. Также важными факторами обеспечения и развития социальной памяти и гармонии ценностей в обществе и парадигматических изменений в обществе является важность взглядов, направленных на отдельные социальные группы или все общество взамен традиционных подходов к национальной социальной памяти в контексте Глобализация была исследована.*

Ключевые слова*: глобализация, память, социальная память, культура, ценности, национальная, молодежь, доброта, мораль, социализация.*

Norkoziyev Sodiqjon Khakimovich
Candidate of Philosophy, Professor, etc.
Namangan State University

THE STRUCTURE OF CULTURAL VALUES IN THE CONTEXT OF CULTURAL GLOBALIZATION.

Annotation: *The article reveals the inextricable connection of social memory with cultural values in the social structure of society, the influence and significance of social changes in public life on the development of social memory. the influence of its place on national social memory, the processes of formation and development of social memory are revealed. Also important factors in ensuring and developing social memory and harmony of values in society and paradigmatic changes in society is the importance of views aimed at individual social groups or the entire society instead of traditional approaches to national social memory in the context of Globalization has been explored..*

Key words*: globalization, memory, social memory, culture, values, national, youth, kindness, morality, socialization.*

Jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti kishilarning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bunda jamiyatning milliy tafakkuri muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda halqaro hamjamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy tomndan hamkorliklari yuqori daraja yuksalib, global ahamiyati ortib bormoqda. Albatta bunday globallashuv jarayonlari xalqlarning milliy o'z-o'zini saqlab qolishdek dolzarb va masalani kun tartibiga qo'yish bilan bir qatorda kishilarda milliy xotirani shakllantirish, uni mustahkamlab borish davlatlararo munosabatlar birligini ta'minlashda milliy o'ziga xoslikni namoyon etib bormoqda. Globallashuv tendensiyalarida paydo bo'layotgan diniy radikal qarashlarning siyosiylashuvi, kosmopolitizm g'oyalarining turli unsurlari kishilar tafakkuri, dunyoqarashiga

salbiy ta’siri jamiyatlarni ma’naviy tomonlarini cheklab bormoqda. Chunki, “zamon o‘zgardi, yoshlar ham o‘zgardi-da yoki bunday holni “tabiiy jarayon” sifatida tahlil etishga urinishlar ham mavjudki, bu har qanday ilm ahlini tashvishga solishi tabiiy”.[1,46] “Yoshlar, xususan, o‘smirlar orasida bezorilik, giyohvandlik moddalarini iste’moli kengaymoqda, an’anaviy qadriyatlarni tan olmaslik, ijtimoiy tarmoqlaning rivojlanishi oqibatida yangicha rasm-rusumlarni paydo qilmoqda. Natijada, ayrim yigit-qizlar uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo‘gonalashib, ularda befarqlik, mas’uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani - achchiq bo‘lsada, haqiqat”. [2,486] Buning oddiy sabablaridan biri sifatida biz shuni aytishimiz mumkinki kishilar milliy o‘zligini anglashi bilan bog‘liq muammolardir.

Bu muammolar hozirda yoshlar ortasida rivojlanib bormoqda. Bunda kundalik hayotning birlamchi maqsadlariga qaratilganligi asosiy o‘rin tutmoqda. To‘g‘ri bozor munosabatlari jamiyatning barcha jabhalarini egallagan bir sharoitda shunday bo‘lishi tabiiydek tuyuladi. Ammo masalaga sharqona ahloqiy nuqtai-nazardan qaraladigan bo‘lsa, hamisha sharq mamlakatlarida iqtisoddan oldin ma’naviyatga katta urg‘u berilgan. Shu boisdan, kishilarda ijtimoiy xotirani mustahkamlash, yoshlar tarixiy ongi va xotirasini yuksaltirish, jamiyatda milliy tarixni ijtimoiylashuvini ta’minlash, milliy ijtimoiy xotirani shakllantirib borish, milliy an’ana va qadriyatlarimizga bo‘lgan ijobiy munosabatni tuyg‘usini kamol toptirish, yosh avlodni an’anaviy qadriyatlar asosida ular ijtimoiy xotirasini zamon talablari asosida boyitish, milliy o‘zlikni anglash, jaxon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash uchun samarali ishlarni amalga oshirib borish davlat va jamiyatning muhim ma’naviy siyosatining o‘zagini tashkil qiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 7 fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-son [3] farmoni ijrosi hamda 2022 yil 28 yanvarda qabul qilingan PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [4] gi farmonining 5 ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish deb nomlangan bandida turli mafkuraviy hurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida kurashish, oila, maxalla va maktab hamkorligini yo‘lga qo‘yish, buyuk ajdodlarimiz merosini tadqiq etish va uni xalqimizga yetkazish kabi masalalar hamda vatamiz tarixini o‘rganish va targ‘ib qilish, tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini [5] ishlab chiqish muhim zaruriyat sifatida qo‘yildi.

Qolaversa, 2021 yil 20 aprel, PQ-5081-son “Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlarining qabul qilinishi milliy tariximizni unitilgan sahifalarini ochish, o‘rganish, yosh avlodga yetkazish, uni to‘g‘ri talqin qilish va xalqimizning ongu shuuriga singdirish borasida hali qilinadigan ishlar talaygina ekanini ko‘rsatmoqda. Bunda ayniqsa, kishilar ongida milliy iftixor va g‘ururni shakllantirish, vatanga sadoqat va muhabbat hissini rivojlantirish, tarixiy xotira, tarixiy ong, tarixiy baho, tarixiy madaniyat va vatanparvarlik, tarixiy iftixor tushunchalarini rivojlantirish va shu orqali mamlakatimizning ertangi kelajagi va davomchilari bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash maqsad qilindi.

Zamonaviy o‘zbek jamiyatining asosiy xususiyatlarini bugungi kunda uning milliy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini belgilab beruvchi omillari ya’ni milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, inson kapitalini rivojlantirnishga yo‘naltirilgan qonun va qonunosti xujjatlar, ijtimoiy himoyani yanada kafolotlash va qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tashkil etmoqda. Ushbu islohotlar milliy davlatchilikning tobora mustahkamlanishi hamda milliy iftixor tuyg‘usini tarkib toptirishda, kishilarda milliy g‘oyani yanada rivojlantirishda, fuqarolarda davlat siyosatiniga ishonchni shakllantirishda o‘z ifodasini topmoqda. “Aynan ushbu milliy istiqlol mafkurasi, milliy g‘oya, milliy falsafa shaklida paydo bo‘layotgan munosabatlarimiz butun o‘tmishimizni yangicha nazar bilan baholash, uni qaytadan ko‘rib chiqish, shu asosda tarixiy xotira va tarixiy tafakkurni shakllantirishni kuchli bir ehtiyoj darajasiga ko‘tarmoqda” [6,16].

Jamiyatda ijtimoiy xotirani va qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash va rivojlantirib borish jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida quyidagi sabablarga ko‘ra dolzarbdir:

Birinchidan, ijtimoiy xotira va qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashning funksional asoslarini aniqlash, ularga yondosh kategoriyalarning falsafiy jihatlarini topish, bugungi global jamiyatlararo munosabatlarni belgilashda muhim o‘rin tutadi;

Ikkinchidan, jamiyatda milliy ijtimoiy xotiraning mohiyatini anglash orqali boshqaruvda milliy o‘ziga xoslikni namoyon bo‘lishi, davlat va jamiyat hayotida an’ana va qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashning ahamiyatini belgilash, ma’naviy-madaniy rolini ochib berish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi;

Uchinchidan, milliy ta’lim tizimida o‘quvchi-yoshlar tarixiy tafakkurini rivojlantirish orqali ulardagi milliy xotirani mustahkamlash, jamiyat milliy xotirasini yuksaltirishda ijtimoiy xotirani madaniy rolini falsafiy asoslash ma’naviy sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosatiga ijobiy ta’sirini oshirishga xizmat qiladi;

To‘rtinchidan, globallashuv jarayonlarini kengayib borishi natijasida dunyoda yuzaga kelayotgan ijtimoiy – madaniy transformatsiya jamiyatimiz oldiga muhim bir vazifani u ham bo‘lsa milliy birlik va birdamlik masalasi qo‘ymoqda bu kishilarda milliy ijtimoiy xotiraning g‘oyaviy va mafkuraviy asoslarining funksional rolini tadqiq qili nazariy va amaliy ahamiyatga ega;

Beshinchidan, axborotlashgan jamiyatda inson ongi muammosi har qachongidan ko‘ra dolzarb o‘rin tutmoqda. Sababi bugungi kunda internet va turli ijtimoiy tarmoqlarning keng rivojlanishi milliy-madaniy meros, milliy tarix, an’anaviy turmush-tarzi va boshqa ma’anviy-tarixiy jarayonlarni o‘zgartirishga bo‘lgan xarakatlar avj olmoqda. Shuning uchun kishilar ijtimoiy xotirasini yuksaltirish ularda ma’naviy immunitetni shakllantiradigan ishonchli ma’naviy “himoya vositasi” milliy ijtimoiy xotira hisoblanadi.

Ijtimoiy xotira o‘z strukturasiga xotiraning bir nechta shakllarini olib jamiyatning umumiyligini belgilaydi. Ushbu struktura quyidagilardan iborat: xalq xotirasi – o‘tmishni butun boshli xalq xotirasida aks etish va uning avloddan-avlodga o‘tish jarayonlari bo‘lib uni rivoyat xarakteridagi xotira deb ham ataladi; ishchi xotira – unda kundalik ijtimoiy ma’lumotlar saqlanib tashqi talqin qilinadigan xotira hisoblanadi; irqiy xotira – inson irqining ichki xususiyatlaridan kelib chiqib namoyon bo‘luvchi xotira bo‘lib u o‘tmish tajribalarini umumirqiy munosabatlarda ifoda etiladi; avtobiografik xotira - bu shaxsning o‘z hayotida sodir bo‘lgan voqealar haqidagi xotira; reproduktiv xotira - bu asl kelib chiqadigan stimulga ta’sir qiluvchi xotira va boshqalardan tashkil topgan. Aristotelni fikricha xotira - bu iroda harakati bo‘lib, mutafaqqir uni qisman xulosa bilan solishtiradi. Yunon faylasufi Aristotel xotirani ikki “u bir tomondan xotiraga ega bo‘lish nimani anglatadi, degan savolga javob berishga harakat qilsa, ikkinchi tomondan, xotiraga ega bo‘lish nimani anglatishini tasvirlashga harakat qiladi” [7,76] degan jihatlarini mushohada qiladi. Har qanday jamiyatning ma’naviy va madaniy taraqqiyotini uning o‘z tarixiga bo‘lgan munosabati va milliy madaniyatini asrab-avaylashga bo‘lgan intilishlari belgilaydi.

Jamiyatning o‘tmishi uni rivojlantirib borishga doir intilishlari jamiyatda yangi g‘oyani ijod etmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi. Asrlar osha shakllanib, davr ruhida sayqallanib kelgan milliy qadriyatlar ma’naviy-madaniy merosni vujudga keltiradi. Madaniy meros jamiyat uzviyligini ta’minlab ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan jarayonlarni hamda ijtimoiy o‘zarishlarni mazmuni anglashga yordam beradi. Shu bilan birga millatning milliy o‘ziga xoslikni shakllantiradi. Albatta bunda milliy tarix asosiy omil bo‘lib xizmat qilishi orqali kishilarda o‘z-o‘zini chuqurroq anglashga ko‘maklashib inson tarixiy tafakkurini mustahkamlaydi va uni barkamollik sari yetaklaydi. Bunda xotira “atrof-muhitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda, passiv va aktiv holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo‘l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esga tushirish, unutish hamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon, alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa, barcha ta’sirlarni ijodiy qayta ishlashga yo‘naltirilgan” [8,12] faoliyat vazifasini bajaradi.

Biz yuqorida bayon etgan xotira strukturasining yana bir qaor shakllari ham mavjud bo‘lib ularga: reproduktiv - jamoa a’zolarining o‘zoro bilimlar yig‘indisi; keksa avlod xotirasi - katta avlodning hayotiy tajribalari, tarixiy xotirasi; yozma xotira - manbalar orqali shakllanadigan xotira; rekonstruktiv - mafkuraviy, tarbiyaviy va boshqa vazifalarni hal qilish uchun tarixiy tajribani saqlash va ko‘paytirish shakli; konstruktiv - axborotni saqlashni tizimsiz shakli bo‘lib, unga qadimiy kutubxonalar, arxivlar, nodir qo‘lyozmalar kolleksiyalari, shaxsiy kolleksiyalardan iborat bo‘ladi.

Biz o‘rganayotgan ijtimoiy xotira mavzusi hozirning dolzarb masalasi sifatida ontologik, aksiologik, tarixiy, madaniy hamda gneseologik tomondan o‘rganish ahamiyatlidir. Tadqiqotimiz markaziy nuqtasi bo‘lmish jamiyat ijtimoiy xotirasi mavzusi XVIII asrlarga kelib Yevropaning mustamlakachilik tizimlarini kengayishi, manzilgohlarni kashf etilishi natijasida g‘arb turmush-tarziga kirib kelgan yangicha yondashuvlar (biz bularni kundalik hayotda ishlatiladigan mahsulotlardan tortib to kiyinish madaniyatidagi o‘zgarishlar va boshqa jihatlarda ko‘rishimiz mumkin) kishilar xotirasini transformatsiya bo‘lishga uchragan vaqtlardanoq tadqiqot masalasiga aylangan bo‘lsada ammo XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan mustamlakachilik tizimining parchalanishi, avj olgan milliy ozodlik harakatlari, millatlar va xalqlar o‘rtasida yuz bera boshlagan assimlyatsiya va marginallashuv hodisalari ushbu mavzuni dolzarbligini oshirib yubordi. Mamlakatimiz xususan O‘zbekistonda ijtimoiy xotira mavzusi milliy xotira yoki tarixiy xotira nuqtai-nazaridan tadqiq etilgan bo‘lsada, lekin kundalik ijtimoiy munosabatlarda ushbu xotirotlarni namoyon bo‘lishi, madaniy merosdimizda tutgan o‘rni, milliy tarixni kishilar ongida sotsiallashuvi, o‘tmishga bo‘lgan neytral munosabat va qarashlarga ta’siri muammosi tadqiq etishni talab etadi. Ayniqsa jamiyat ijtimoiy xotirasini shakllantirish va rivojlantirishda qadriyatlarning ma’naviy ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning ijtimoiy xotirasi mavjud boshqaruvning bevosita ta’sir doirasi hamda xukmron elitaning tarixiy kayfiyati qolaversa siyosiy liderning o‘tmishga nisbatan munosabati ta’sirida o‘zgarishi mumkin. Bunda albatta tarixiy xotira keskin transformatsiyaga uchraydi. Tadqiqotchi Jan Terentevich Toshchenko tarixiy xotirani o‘tmishning saqlash va takrorlash jarayoni sifatida mavjud tuzum sharoiti o‘laroq tashqi ta’sirga uchrashi mumkinligini ta’kidlaydi. Ya’ni xukmron tizim jamiyat tarixiy xotirasini o‘zgartirishga bo‘lgan intilishi yoki manipuliyatsiya qilishi jamiyat a’zolari ijtimoiy xotirasida ifoda etilishini keltirib chiqaradi. Shunga ko‘ra milliy ijtimoiy xotira o‘zgarishi, tanlab olinishi (shaxsning tarixiy hayot bosqichida o‘ziga yoki jamiyat mavjudligiga qarab), o‘tmishni baholashi natijasida paydo bo‘ladigan iftixor xissi yoki nafrat tuyg‘usi kabi xususiyatlariga ega bo‘ladi. Shu bilan birga “tarixiy xotira faqat saqlash emas, balki yangi manbalarni ishlab chiqaruvchi yuqori individual mexanizmdir”. [9,33]

Milliy ijtimoiy xotiraning strukturasi jamiyatning barqaror rivojlanishini jamiyat hayoti uchun foydali bo‘lgan agregatlar: bilim, malaka, rag‘bat orqali rivojanadi. A. V. Sokolovning fikricha “ijtimoiy xotira tizim sifatida o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, u ikki qatlam: ijtimoiy ongsiz va madaniy merosdan iborat”.[10,56] Birinchi qatlam genetik jihatdan

irsiy bo‘lib u ijtimoiy instinktlarga bo‘lgan ehtiyojlarni ifodalasa madaniy meros til, urf-odat, bilim va ko‘nikmalar shaklida o‘tgan ajdodlardan qolgan yoki mavjud avlod tomonidan yaratilgan moddiy va nomoddiy vositalardan iborat bo‘ladi. Ijtimoiy ongsizlik qatlamini madaniy meros va urf-odatlar to‘ldiradi hamda tarix bilan to‘yintirilib milliy ijtimoiy xotirani shakllantiradi.

Milliy ijtimoiy xotira esa millatning ozod va erkin bo‘lishida ma’naviy kuch beradi. “Xalqimizning necha ming yillik tarixi mobaynida orzu-armon bo‘lib kelgan Istiqlolning ahamiyati to‘g‘risida o‘zbek olim va mutaxassislarining fikri yakdil: mustaqillik bizga bergan eng ulug‘ ne’matlardan biri - bu tarixiy o‘zlikni anglashdir. O‘zlikni anglash esa tarixiy xaqiqatni chuqur bilish, tarixiy xotirani avaylab-asrash, tarixiy adolatni tiklashdir”.[11,45] Milliy o‘zlikni anglash omili jamiyatning har qaysi bosqichida jiddiy e’tiborni talab etib, xalqni yagona mafkura atrofida birlashtiradi. O‘zlikni anglash tufayli shaxsda o‘tmishga nisbatan ma’naviy yaqinlik tuyg‘usi shakllanadi, milliy tarixni bilishga intilish kuchayadi. Zero, “tarixiy xaqiqatni anglash uchun va, ayniqsa, o‘tmishi soxtalashtirilgan, boy ma’naviy va madaniy merosidan ajratib tashlangan, zo‘ravonlik va hukmron g‘oyalarga mahkum etilgan, unga xizmat qildirilgan tarix xaqiqatini qayta tiklash uchun ana shunday ma’naviy-ruhiy yaqinlikni his etish, o‘sha jarayonlarni bevosita qalb orqali o‘tkazish zarur”.[6,20] Bugungi kunda ijtimoiy xotira “o‘tmish haqidagi tasavvurlarimizni shakllantirishdagi ijtimoiy omil” [12,234] bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim.

Jamiyatning ma’naviy yuksalishida milliy ijtimoiy xotiraning asosiy komponentlari milliy ong, tarixiy xotira va tarixiy ong muhim ahamiyat kasb etib: “insonlarning o‘zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimi” [13,496]ni tashkil etgani holda biz uni ma’naviyat deb atayapmiz. Agar ma’naviyat qadriyatlar tizimi bo‘lsa dastlab, ajdodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajribalar, madaniy meros va an’analarni ijtimoiy xotira xosilasidir.

Dunyo miqyosida tobora keng tarqalib borayotgan axborotlashtirish va globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha sohalariga - madaniyatdan tortib iqtisodiyotgacha o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, bularning eng muhim oqibatlaridan biri jarayonlar an'anaviy ijtimoiy sub’ektlarning inqirozi va tarixiy jarayonning yangi ishtirokchilari - ijtimoiy va siyosiy formasiyalarning siyosiy maydoniga kirishiga mos ravishda o‘zgartirilayotgan ijtimoiy o‘ziga xoslikning tubdan o‘zgarishidir. Hozirga kelib jamiyatdagi paradigmal o‘zgarishlar milliy ijtimoiy xotirada an'anaviy yondashuvlar o‘rniga alohida ijtimoiy guruhlarga yoki butun jamiyatga yo‘naltirilgan yondashuvni keltirib chiqarmoqda. Zamonaviy ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish natijasida to‘plangan tajribani umumlashtirish, sintez qilish, natijasida yangi ijtimoiy xotira nazariyalar vujudga kelmoqda. Ushbu nazariyalarda “o‘tmishni idrok etishning individual va guruhli xotira shartlarining ishlashi hozirgi vaqtni tushunishga chuqur ta'sir qiladi. Ijtimoiy xotiraning tabiati va uning mif, ertak va tarix yozuvidagi namoyon bo‘lishi, aka-uka Grimmlar va Islandiya dostonlaridan tortib Buyuk Karlning obro‘si, mafiyani idrok etish va o‘tmishdan foydalanishgacha bo‘lgan misollar ko‘rib chiqiladi”.[14,256]

Bulardan tashqari, globallashuv davri milliy munosabatlarlarda, ichki va tashqi migratsiya, marginallik, assimlatsiya va dissimlatsiya hodisalarining avj olishida, yoshlar o‘rtasida keng tarqaliyotgan madaniyatni yangidan-yangi ko‘rinishlarida namoyon bo‘lmoqda. Uning ta’sirida milliy xotiraga zarar yetmoqda. Shu sababli ulardan ma’naviy himoyalanishning yangi vositalarini topish, yoshlarni tarixiy qadriyat va milliy madaniyat asosida tarbiyalash, vatan tuyg‘usini rivojlantirish, milliy g‘urur xissi salohiyatini yuksaltirish texnogen taraqqiyot natijasida bo‘layotgan tahdid va xatarlarni chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. Bunda yoshlar tarixiy tafakkuri muhim ahamiyat kasb etadi. “Tarixiy tafakkur bu metodologik bilimlar mazmuni, aqliy harakatlar usullari va shaxsning aniq tarixiy hodisalarni bilishda ularni qo‘llashga bo‘lgan munosabatlar birligidir”.[15]

Shuningdek, ijtimoiy xotira milliy tarixiy xotiraga asoslanishi orqali insonda ijtimoiy hayotning tajribalarini tarixiy tafakkurida jamlaydi. Tarixiy tafakkur ijtimoiy-tarixiy, tarixiy-psixologik, nazariy-mafkuraviy qarashlar xilma-xilligini aks ettiradi. Kishilarda tarixiy tafakkur madaniyatini shakllantiruvchi omillar, ijtimoiy ong orqali ijtimoiy hayotdagi vazifalari va uning o‘zlikni anglashdagi ahamiyatini tadqiq etish zaruriyati keltirib chiqaradi. “O‘tmishni idrok etishning individual va guruhli xotira shartlarining ishlashi hozirgi vaqtni tushunishga chuqur ta'sir qiladi”.[16,244]

Tafakkur murakkab ma’naviy tarbiyaning metodologik tahlili sifatida avvalo, inson va jamiyat, o‘tmish va kelajak o‘rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni bugungi mavjud qarashlar asnosida o‘zlashtiradi, dunyoqarash tamoyillarini shakllantiradi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildiradi. Inson o‘z o‘tmishi va kelajagi o‘rtasida vositachi, bog‘lovchi ko‘prik vazifasini ham aynan tarixiy idrok va tasavvur bajaradi va unda tarixiy bilim, sezgi, idrok, tarixiy dunyoqarashning ma’lum bir majmui sifatida, o‘rganilayotgan voqea-hodisalarni ongda tizimli tarzda bir-biriga bog‘liq holda tartibga soladi. Bu ma’lum bir tarixiy xodisa va jarayonlarni inson ongida idrok etishga ko‘maklashuvchi determinatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мавруλов А. Ватанни севиш масъулияти. Тошкент: “Sano-standart”,2015. - Б. 46.

2. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2016. - Б.486.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" ги, Халқ сўзи. 2017 йил 8 февраль.

4. https://lex.uz/docs/5841063#5844411

5. https://regulation.gov.uz/uz/d/31751

6. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. -Тошкент: Маънавият, 2008. - Б. 16.

7. Мокроусова Е.А. Феномен социальной памяти в контексте проблемы идентич-ности // Контекст и рефлексия: философия о мире и человеке. 2016. Том 5. № 6 А. С. 76.

8. Наврўзова Г., Юнусова Г. Ўзликни англашда хотиранинг роли (Абдуқодир Гийлоний асарларининг фалсафий таҳлил). Chashma Print, 2013. -Б.12.

9. Заклинский П. А. Историческое время и историческая память. Диссертации по кандидат философских наук Москва. 1999. - С.33.

10. Соколов А. В. Общая теория социальной коммуникации: Учебное пособие. - СПб: Изд-во Михайлова В. А., 2002 г. – 56 с.

11. Ҳайдаров А. Тарих - энг улуғ муаллим. Ижтимоий фикр / Инсон ҳуқуқлари. 1998. № 4. - Б. 45.

12. В. А. Тишков, Е. А. Пивнева // Историческая память и российская идентичность. Москва : РАН, 2018. - С. 234.

13. Фалсафа қомусий луғат.-Тошкент: Шарқ, 2004.- Б. 496.

14. Джеймс Фентресс и Кристофер Уикем. Social Memory (New Perspectives on the Past). 1992 . -p256.

15. https://urok.1sept.ru/articles/211642

16. Moris Halbvachs. On Collective Memory. Chikago. 1992. – p. 244.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Nurmatov Oybek Turdimamatovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

OILAVIY MUNOSABATLARDA YIGITLAR MAS’ULIYATI MUAMMOSI: IJTIMOIY-AXLOQIY MADANIY ASPEKTLAR.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarda yigitlarning mas’uliyati masalasi ijtimoiy-axloqiy va madaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy jamiyatda erkaklarning oila qurish, farzand tarbiyasi, moddiy va ma’naviy ta’minotdagi o‘rni yoritib beriladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, an’analar va tarbiya jarayonining yigitlar mas’uliyatini shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada oilaviy barqarorlikni ta’minlashda erkaklarning ijtimoiy burchi va axloqiy mas’uliyati muhim omil sifatida asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *oilaviy munosabatlar, yigitlar mas’uliyati, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, madaniyat, oila barqarorligi, milliy an’analar, tarbiya*

Ойбек Нурматов Турдимаматович
Старший преподаватель кафедры истории и социальных наук
Андижанского филиала Кокандского университета

ПРОБЛЕМА ОТВЕТСТВЕННОСТИ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ: СОЦИАЛЬНО-НРАВСТВЕННЫЕ И КУЛЬТУРНЫЕ АСПЕКТЫ.

Аннотация: *В данной статье рассматривается проблема ответственности молодых мужчин в семейных отношениях с социально-нравственной и культурной точек зрения. В исследовании раскрывается роль мужчин в современном обществе в создании семьи, воспитании детей, а также в материальной и духовной поддержке семьи. Особое внимание уделяется значению национальных ценностей, традиций и воспитания в формировании ответственности мужчин. Обосновывается важность социальной обязанности и нравственной ответственности мужчин для обеспечения стабильности семьи.*

Ключевые слова: *семейные отношения, ответственность мужчин, социально-нравственные ценности, культура, стабильность семьи, национальные традиции, воспитание*

Oybek Nurmatov Turdimamatovich
Senior Lecturer, Department of History and Social Sciences,
Andijan Branch of Kokand University

THE PROBLEM OF RESPONSIBILITY OF YOUNG PEOPLE IN FAMILY RELATIONSHIPS: SOCIAL, MORAL AND CULTURAL ASPECTS.

Annotation: *This article analyzes the issue of young men’s responsibility in family relationships from social, ethical, and cultural perspectives. The study highlights the role of men in modern society in terms of family formation, child upbringing, and both moral and financial responsibility. In addition, the importance of national values, traditions, and educational processes in shaping male responsibility is emphasized. The article argues that men’s social duty and moral responsibility play a crucial role in ensuring family stability*

Keywords: *family relationships, men’s responsibility, social and ethical values, culture, family stability, national traditions, upbringing*

Tadqiqot usullari.

Oilaviy munosabatlar, mas’uliyat, axloqiy qadriyatlar tushunchalarini alohida o‘rganish (tahlil).Keyin ularni o‘zaro bog‘lab umumiy xulosa chiqarish (sintez).Turli jamiyatlarda yoki hududlarda yigitlar mas’uliyati qanday shakllanishini solishtirish. An’anaviy va zamonaviy oiladagi yigit rolining farqlarini aniqlash.O‘zbek jamiyatida yigitlar mas’uliyati

tushunchasi tarixan qanday rivojlanganini o‘rganish.Masalan, Abu Rayhon Beruniy yoki Abu Nasr Forobiy asarlarida oilaviy axloq masalalarini tahlil qilish.Oilani ijtimoiy institut sifatida ko‘rib, undagi erkakning (yigitning) o‘rni va vazifalarini tizim sifatida o‘rganish.

Kirish.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlarning jadal o‘zgarishi sharoitida oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Oila nafaqat insonning biologik ehtiyojlarini qondiruvchi muhit, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishi, ijtimoiylashuvi va madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatishning asosiy makoni hisoblanadi. Shu bois oilaviy munosabatlarning barqarorligi va mustahkamligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sanaladi. Zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlarda yuzaga kelayotgan muammolardan biri — bu yigitlarning oila oldidagi mas’uliyatiga oid masalalardir. Xususan, oila qurishga tayyorgarlik, nikoh mas’uliyatini anglash, farzand tarbiyasida faol ishtirok etish, oila a’zolarining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini ta’minlash kabi vazifalarga nisbatan mas’uliyatsizlik holatlari ayrim oilalarda nizolar, ajrimlar va ijtimoiy muammolarning kuchayishiga olib kelmoqda. Bu holat masalani faqat shaxsiy muammo sifatida emas, balki ijtimoiy-axloqiy va madaniy hodisa sifatida chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Yigitlar mas’uliyati masalasi tarixiy jihatdan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. An’anaviy jamiyatda erkak oila boshlig‘i, himoyachisi va ta’minotchisi sifatida e’tirof etilgan. Biroq bugungi kunda ijtimoiy rollarning o‘zgarishi, ommaviy madaniyat ta’siri, axborot texnologiyalarining keng tarqalishi hamda individualizmning kuchayishi erkaklarning oilaviy burch va mas’uliyatiga bo‘lgan munosabatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada ayrim yoshlar orasida oilaviy majburiyatlarni yetarli darajada anglamaslik holatlari kuzatilmoqda.

Mazkur muammoni ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazardan tahlil qilish yigitlarning mas’uliyatini shakllantiruvchi omillar — tarbiya, ta’lim, ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarning rolini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, madaniy aspektda yondashuv milliy mentalitet, oilaviy an’analar va jamiyatda erkakka yuklatilgan ijtimoiy vazifalarning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — oilaviy munosabatlarda yigitlar mas’uliyati muammosini ijtimoiy-axloqiy va madaniy jihatdan tahlil qilish, mazkur masalaning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda oilaviy barqarorlikni ta’minlashda erkaklarning mas’uliyatini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosalarni ilgari surishdan iborat. Maqola natijalari oilaviy tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlash jarayonida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Natija va ularning muhokamasi.

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, uning barqaror faoliyati ko‘p jihatdan oila a’zolarining, xususan, yigitlarning mas’uliyat darajasiga bog‘liqdir. Ijtimoiy nuqtai nazardan erkakning oiladagi o‘rni nafaqat iqtisodiy ta’minot bilan, balki ma’naviy yetakchilik, mas’ul qarorlar qabul qilish va oila a’zolariga namuna bo‘lish kabi vazifalar bilan ham belgilanadi[27]. Bugungi kunda ayrim yosh yigitlar orasida oilaviy hayotga yetarlicha tayyor bo‘lmaslik, nikoh majburiyatlarini to‘liq anglamaslik holatlari uchramoqda. Bu esa oilaviy nizolar, mas’uliyatsizlik, farzand tarbiyasiga loqaydlik kabi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur holat ijtimoiy muammo sifatida jamiyat barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy mas’uliyat erkakdan jamiyat tomonidan belgilangan me’yorlarga rioya qilishni, oilaning ijtimoiy himoyasini ta’minlashni va o‘z xatti-harakatlari uchun javobgar bo‘lishni talab etadi. Shuning uchun ham yigitlar mas’uliyati masalasi faqat shaxsiy masala bo‘lib qolmasdan, keng ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy nuqtai nazardan yigitlarning oiladagi mas’uliyati halollik, sadoqat, vijdon, sabr-toqat va mehr-oqibat kabi fazilatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Axloqiy yetuklik erkakning o‘z oila a’zolariga nisbatan munosabatida, qarorlarida va kundalik xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi.

Oilada erkakning axloqiy mas’uliyati avvalo turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan hurmat, o‘zaro ishonch va tenglik tamoyillariga amal qilishda ifodalanadi. Shuningdek, farzandlar tarbiyasida shaxsiy namuna ko‘rsatish, ularning ma’naviy kamolotiga befarq bo‘lmaslik ham yigitlarning muhim axloqiy burchlaridan biridir

Aksincha, axloqiy mas’uliyatning yetishmasligi oilada nizolar, ishonchsizlik va ruhiy muammolarning kuchayishiga olib keladi. Shu bois jamiyatda yigitlarning axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish, ularni oilaviy hayotga ma’naviy jihatdan tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Biroq globallashuv jarayoni, ommaviy madaniyatning ta’siri va individualistik qarashlarning kuchayishi natijasida ayrim yoshlar milliy oilaviy qadriyatlardan uzoqlashmoqda. Bu holat yigitlarning oilaga bo‘lgan munosabatida mas’uliyatsizlik va befarqlikni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli milliy madaniyat, urf-odat va an’analarni saqlash hamda yoshlar ongiga singdirish yigitlar mas’uliyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Madaniy merosga asoslangan tarbiya oilaviy munosabatlarda o‘zaro hurmat va mas’uliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

[27] Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.** – T.: Ma’naviyat, 2008.

Yigitlar mas’uliyatining shakllanishi avvalo oilaviy tarbiya bilan boshlanadi. Ota-onaning shaxsiy namunasi, oiladagi muhit va munosabatlar yosh yigitning kelajakdagi oilaviy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mas’uliyatli, mehnatsevar va axloqan yetuk muhitda ulg‘aygan yigitlarda oilaga nisbatan jiddiy munosabat shakllanadi. Ta’lim muassasalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar ham yigitlar mas’uliyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan darslar, treninglar va targ‘ibot ishlari ularning ijtimoiy va axloqiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Oilaviy munosabatlar jamiyat barqarorligi va ma’naviy taraqqiyotining muhim asosi hisoblanadi. Mazkur tadqiqot davomida oilaviy munosabatlarda yigitlar mas’uliyati muammosi ijtimoiy-axloqiy va madaniy jihatdan tahlil qilinib, ushbu masalaning dolzarbligi zamonaviy jamiyat sharoitida yanada kuchayib borayotgani aniqlandi. Yigitlarning oila oldidagi mas’uliyati nafaqat shaxsiy burch, balki jamiyat oldidagi ijtimoiy majburiyat sifatida ham namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yigitlar mas’uliyatining yetarli darajada shakllanmaganligi oilaviy nizolar, ajrimlar, farzand tarbiyasidagi muammolar hamda jamiyatda ijtimoiy beqarorlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois erkaklarning oilaviy hayotga tayyorgarligi masalasiga faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki axloqiy va ma’naviy mezonlar asosida yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.Yigitlar mas’uliyatining shakllanishida oilaviy tarbiya, ta’lim tizimi, ijtimoiy muhit hamda milliy madaniy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, ota-onaning shaxsiy namunasi, sog‘lom oilaviy muhit va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yosh avlodda mas’uliyat, sadoqat va vijdon kabi fazilatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Milliy an’analar va urf-odatlarga asoslangan tarbiya esa yigitlarning oilaga bo‘lgan munosabatini mustahkamlab, ularni jamiyatda faol va mas’ul shaxs sifatida shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy munosabatlarda yigitlar mas’uliyatini oshirish jamiyat taraqqiyoti, sog‘lom avlod tarbiyasi va ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda kompleks yondashuvni amalga oshirish, ya’ni oila, ta’lim muassasalari va jamiyat hamkorligini kuchaytirish orqali yigitlarning ijtimoiy va axloqiy mas’uliyatini yuksaltirish mumkin. Tadqiqot natijalari kelgusida oilaviy tarbiya, yoshlar bilan ishlash va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni takomillashtirishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi Toshkent 2023-yil
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. G‘ofurov Z. Oila sotsiologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2016.
5. Abdullayeva M. Axloq va oila munosabatlari. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Islomov R. Oila pedagogikasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
7. Alimuhamedov H**.** Milliy qadriyatlar va tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Orziyev Iqbol Jumanazarovich
Namangan davlat universiteti v.b dotsenti
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: ikbolorziyev2@gmail.com

GLOBALLASHUV JARAYONIDA DINIYLIK VA DUNYOVIYLIK MUNOSABATLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada globallashuv jarayonining zamonaviy jamiyatlar hayotiga ta'siri hamda uning diniylik va dunyoviylik munosabatlarida namoyon bo'layotgan asosiy tendensiyalari tahlil etiladi. Globallashuv sharoitida diniy ongning transformatsiyasi, diniy identifikatsiyaning kuchayishi va shu bilan birga dunyoviylik hamda sekulyar qarashlarning rivojlanish xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning jamiyat barqarorligi, ijtimoiy muvozanat va madaniyatlararo muloqotga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy ijtimoiy jarayonlar sharoitida diniy va dunyoviy qadriyatlarning uyg'unlashuvi, mavjud muammolar hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari globallashuv sharoitida diniylik va dunyoviylik munosabatlarini chuqurroq anglash hamda ilmiy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *globallashuv, diniylik, dunyoviylik, sekulyarizm, diniy ong, ijtimoiy ong, diniy identitet, madaniy jarayonlar, zamonaviy jamiyat, ijtimoiy barqarorlik, madaniyatlararo muloqot.*

Орзиев Икбол Джуманазарович
Исполняющий обязанности доцента Наманганского государственного университета
Доктор философии (PhD).

СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕНДЫ В РЕЛИГИОЗНЫХ И СВЕТСКИХ ОТНОШЕНИЯХ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.

Аннотация: *В данной статье анализируется влияние процесса глобализации на жизнь современных обществ и основные тенденции в отношениях между религиозностью и секуляризмом. Научно и теоретически освещаются трансформация религиозного сознания, укрепление религиозной идентичности и одновременно развитие секуляризма и светских взглядов в контексте глобализации. Также рассматривается взаимосвязь между религиозностью и секуляризмом, их влияние на стабильность общества, социальное равновесие и межкультурный диалог. В статье раскрывается гармонизация религиозных и светских ценностей в контексте современных социальных процессов, существующих проблем и будущих направлений развития. Результаты исследования имеют большое значение для более глубокого понимания взаимосвязи между религиозностью и секуляризмом в контексте глобализации и для формулирования научных выводов.*

Ключевые слова: *глобализация, религиозность, светскость, секуляризм, религиозное сознание, социальное сознание, религиозная идентичность, культурные процессы, современное общество, социальная стабильность, межкультурный диалог.*

Orziyev Iqbol Jumanazarovich
Acting Associate Professor, Namangan State University
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

MODERN TRENDS IN RELIGIOUS AND SECULAR RELATIONS IN THE PROCESS OF GLOBALISATION.

Abstract: *This article analyzes the impact of the globalization process on the life of modern societies and its main trends in the relationship between religiosity and secularism. The transformation of religious consciousness, the strengthening of religious identity, and at the same time the development of secularism and secular views in the context of globalization are scientifically and theoretically highlighted. The relationship between religiosity and secularism, their impact on the stability of society, social balance, and intercultural dialogue are also examined. The article reveals the harmonization of religious and secular values in the context of modern social processes, existing problems, and future development directions. The results of the study are of great importance for a deeper*

understanding of the relationship between religiosity and secularism in the context of globalization and for drawing scientific conclusions.

Keywords: *globalization, religiosity, worldliness, secularism, religious consciousness, social consciousness, religious identity, cultural processes, modern society, social stability, intercultural dialogue.*

Kirish.

Din va davlat munosabatlari davlatchilik paydo boʻlgandan buyon mavjud. Qadim zamonlarda, aniqsa Qadimgi Yunoniston va Rimda "davlat" va "jamiyat" tushunchalari sinonim deb anglangan davrlarda din va davlat institutlari oʻzaro uygʻun faoliyat olib borishgan. Qadimgi Sharq, xususan, Qadimgi Xitoyda davlat Koinot (Osmon) tomonidan yaratilgan boʻlib, davlat rahbari (imperator) Osmonning Yerdagi vakili, elchisi degan tushuncha legitim xarakterga ega boʻlgan. Insoniyatning yangi eradagi taraqqiyotida ham din kishilar hayotining ajralmas qismi boʻlib keldi. Xristian reformatsiyasi garchi xristian dinida katolitsizmdan tashqari protestantizm, pravoslaviye va h.k. yoʻnalishlarni yuzaga keltirgan boʻlsa-da, umuman din jamiyat dunyoviy hayotida muhim oʻrin egalladi. Uygʻonish davri Sharqda ham va Gʻarbda ham dinning jamiyatdagi monopol holatiga barham berdi, diniylik bilan bir qatorda dunyoviylikka ham yoʻl ochildi. Sekulyarizm shu tariqa paydo boʻldi.

XX asrning oxirlariga kelib mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yoʻliga kirgan Markaziy Osiyo davlatlari, xususan Oʻzbekiston ham "diniy uygʻonish" davrini boshdan kechirdi, jahon tendensiyasi maqomiga erishgan diniy jarayonlar taʼsiriga uchradi. Jahonda 1989-yil "Berlin devori" qulashi, ikki Germaniyaning qoʻshilishi va "sovuq urush" davrining yakuni va 2001-yilning 11-sentyabirda AQShda yuz bergan terroristik harakat taʼsirida "dinning "siyosiy subyekt"lik mavqeyi bilan bogʻlash va ifodalash mumkin"[1]. Markaziy Osiyo, xususan, mustaqil Oʻzbekiston sharoitida esa dinning ijtimoiy jarayonlarning muhim subyektiga aylanishi "desekulyarizatsiya", yaʼni uni jamiyat hayotidagi oʻrni va rolini ortib borishi milliy mustaqillik va u bilan bogʻliq boʻlgan milliy ozodlik, qadriyatlarni tiklash va milliy oʻzlikni anglash tendensiyasining shakllanishi bilan bogʻliq.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy mustaqillikni barcha sohalarda saqlash, mustahkamlash taniqli faylasuf – siyosatshunos olim S.Otamurodov taʼkidlaganidek, masʼuliyatli vazifaga aylanmoqda [2]. Ushbu vazifa prezident Sh.Mirziyoyev olgʻa surgan yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasini va unda jamiyat oldiga qoʻygan ustuvor vazifalar, ularni bajarish bilan uygʻun.

Adabiyotlar tahlili.

Mustaqillikning dastlabki davrlaridanoq diniy eʼtiqod erkinligi mavzusiga doir ilmiy tadqiqot ishlari orqali din va davlat munosabatlarida yuzaga keladigan muammolar haqida sharqshunos, islomshunos, siyosatshunos va faylasuf olimlar

A.Hasanov, Z.Munavvarov, Sh.Minavvarov, Sh.Yovqochev, U.Kushayevlar ilmiy ishlar olib borishdi. Qolaversa, dunyoviylik va diniylik oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga solishga doir yondashuvlar, diniy qadriyatlarni zamonga mos tarzda yuksaltirib borish, kishilar ijtimoiy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda millatlararo tolerantlikning oʻrniga doir tadqiqotlar Q.Nazarov, I. Saifnazarov, X.T.Doniyorov, A.M.Mirzaxmedov, F.B.Mardonova, A.N.Abdullayevlar [3] tomonidan amalga oshirilgan. "Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish markazi tomonidan 2017-yilda Oʻzbekistonda "Aholining dindorlik darajasi" mavzusida sotsiologik tadqiqot oʻtkazildi. Din va davlat huquqiy-siyosiy munosabatlarining tarixiy evolyutsiyasi, oʻrta asrlar Gʻarb sekulyarizmi prinsiplarining jamiyat ijtimoiy hayotida aks etishi, dinning siyosiylashuvi, diniy ekstremizm va fundamentalizmning kelib chiqishi, sekulyarizm va demokratiya, islom va siyosat, diniy bagʻrikenglik masalalari tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada Empirik tadqiqot, mantiqiylik, tizimlilik, analiz, sintez, oʻzaro aloqadorlik ilmiy tadqiqot tamoyillaridan kelib chiqqan holda qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Globallashuv va jamiyat hayotining liberallashuvi va demokratlashuvi sharoitida chuqur oʻylangan sekulyar siyosat oʻz tatbiqini turli ijtimoiy texnologiyalar vositasida amalga oshirilishini taqozo qiladi. Buni tasavvur qilish uchun "texnologiya" kategoriyasining mazmun-mohiyatini bilish lozim. Oʻzbek tilida nashr qilingan va koʻzga koʻringan jamiyatshunos olimlarimiz tomonidan milliy gʻoyanining targʻibot texnologiyalari masalasiga bagʻishlangan jamoaviy kitobda "texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur uslubi"[4], deb baholanadi.

Aslini olganda esa "texnologiya" iqtisodiy kategoriya boʻlib, u ishlab chiqarish, yaratish, barpo etish jarayonini ifoda etadi. "Texnologiya" atamasi asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy hayotda va ilmiy tadqiqot sohasida ommalashdi. Ushbu kategoriyaning variantlari xilma-xil – "taʼlim texnologiyasi", "pedagogik texnologiya", "targʻibot texnologiyalari", "innovatsion texnologiyalar" va h.k. koʻrinishlarga ega. Aslida "texnologiya" biror bir buyumni yoki tovarni ishlab chiqarish, yaratish va barpo etishni ifoda etuvchi tushunchadir. U XX asr oxirlariga kelib ijtimoiy sohada

ham ishlatila boshladi. Jtimoiy texnologiya muayyan maqsadni amalga oshirishga moʻljallangan siyosiy tadbirlar, usullar, vositalar majmuasi boʻlib, muayyan maqsadlarni koʻzda tutadi [5].

XXI asrga kelib biron bir siyosiy maqsad, manfaat, iddao muayyan ijtimoiy texnologiyalarni qoʻllash vositasida erishiladi. U muayyan ketma-ketlikka asoslanadi. Masalan, bugun jahon yetakchi davlatlari tomonidan "yumshoq kuch" (Soft power) nomli texnologiya keng qoʻllaniladi. "Demokratik tranzit", "rangli inqilob", "taʼlimga yordam", "inson huquq va erkinliklari qaror topishiga koʻmaklashish" nomlari bilan ifoda etiladigan ijtimoiyv texnologiyalar bugun yetakchi davlatlar tomonidan oʻzlari xush koʻrmaydigan, "bebosh", "qaysar", avtoritar tartibotli davlatlarga nisbatan qoʻllaniladi.

Bugungi yadro asrida katta urush, harbiy tazyiq xavfli hisoblanadi. Uning oʻrniga "axborot urishi"ga asoslanuvchi, inson ongiga ruhiy-psixologik taʼsir oʻtkazuvchi "texnologiyalar"dan foydalanish ancha arzonga tushadi. Mamlakatning aholi noroziligiga sabab boʻlguvchi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muammolaridan ustamonlik bilan foydalana bilish – bugungi ijtimoiy texnologiyalar uchun kasbiy ish boʻlib qoldi.

Bugungi eng samarali koʻrinishi – media makonda fuqarolarga ruhiy-ijtimoiy manipulatsion taʼsir texnologiyalaridir. "Mavjud diniy tashkilotlar internet muhitida amalga oshiradigan kasbiy faoliyatning bir qancha shakllari boʻlib, jumladan, diniy maʼlumotlarni onlayn yigʻish, marosim tafsilotlarini onlayn tarzda oʻtkazish, missionerlik va dogma targʻiboti... Internetda turli diniy tashkilotlar faoliyatini tahlil qilganimizda, protestant diniy guruhlari, yangi diniy oqimlar va musulmonlar tomonidan koʻrsatilishini koʻramiz"[6].

Agar hokimiyat korrupsiyalashgan, turli ijtimoiy qusurlarga yoʻl qoʻyayotgan boʻlsa, bir soʻz bilan ifodalaganda ijtimoiy beqarorlik uchun shart-sharoit shakllansa – ijtimoiy norozilik kayfiyatlari shakllanadi. Bu – jamiyat hayotini izdan chiqarish, konfliktogen jtimoiy vaziyatlarni paydo qilish uchun qulaylik tugʻdiradi. Hech qanday ijtimoiy hodisa muayyan sabablarsiz paydo boʻlmaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev oʻz prezidentlik vakolatiga kirishishi bilanoq bu jihatni anglay oldi va barcha katta-kichik rahbarlarni, davlat xizmatchilarini xalqni "rozi qilish" asosiy vazifalardan biri ekanligi xususida ogohlantirdi. Bu borada Abu Nosir Forobiy "Ularning oʻzlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq boʻlmaydi. Ular odamlar ichidan koʻtarilgan, sinalgan eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar boʻladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar oʻz saylovchilarini toʻla ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar"[7] deb davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni taʼminlash bilan bogʻliq axloqiy va madaniy qadriyatlarni tizimlashtiradi.

Xulosa

- Sekulyarizm umuminsoniy ijtimoiy qadriyatdir. U davlatning dinga oid siyosatining izchilligini, ijtimoiy barqarorlikni taʼminlaydi, fuqarolararo hamjihatlikka xizmat qiladi.

- Sekulyarizm demokratiya, koʻppartiyaviylik, hokimiyatlar boʻlinishi prinspi kabi insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyotda din va davlat munosabatlari tarixiy tajribasi asosida shakllangan umuminsoniy ijtimoiy va huquqiy qonuniyatdir.

- Sekulyarizm turli jamiyatlarda turli shaklda va turli tarixiy davrda qaror topadi, ijtimoiy taraqqiyotning yuksalishini taʼmindaydi. Sekulyarizm ateizm emas, u dogmatik emas, dialektik olib borilsa, dunyoviy taraqqiyotga xizmat qiladi.

- Milliy mustaqillik sharofati bilan shoʻro davri dahriylik mafkurasidan ozod boʻlgan Oʻzbekiston rivojlanishi uchun aholisining maʼlum qismi musulmon davlatlar toʻplagan dinga oid siyosat tajribasi muhim ahamiyatga ega. Shu maʼnoda mental jihatdan Oʻzbekistonga yaqin Hindiston sekulyar siyosati tajribasi ijtimoiy barqarorlik va milliy yuksalishimiz uchun foydali va namunalidir.

- Koʻp jihatdan oʻzbek jamiyatiga yaqin va qardosh turk xalqi, Turkiya laitsizm siyosati tajribasi Oʻzbekistonda dunyoviy demokratik davlat barpo etish uchun ahamiyatlidir.

-Bugun global miqyosda resekulyarizatsiya tendensiyasining shakllanishi, islom dinining siyosiylashuvi, diniy radikal kuchlarning hokimiyat uchun daʼvogarligining tobora kuchayishi koʻp konfessiyali arab davlati – Misr Arab Respublikasi davlatining dinga oid oqilona siyosati tajribasi mamlakatimizda dindor va dindor boʻlmagan fuqarolar oʻrtasida tolerantlik munosabatlarini tobora mustahkamlash, turli shakldagi diniy ekstremistik, fundamentalistik, terroristik harakatlarning oldini olish, barqaror rivojlantirishga qaratilgan davlatning dinga oid siyosatinining samaradorligini taʼminlash uchun amaliy, tashkiliy va nazorat qiymati salmoqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Журавский А.З., Садов О.В., Фетисов А.В. Субъекты миропорядка XXI века // Глобализация и столкновения идентичностей. Материалы международной интернет конференции 24 февраля – 14 марта 2003 г. Под ред. А.Журавкого, К. Костюкова. – М., 2004.

2. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти (сиёсий фалсафий қирралари). – Тошкент: Oʻzbekiston, НМИУ, 2018. – 352 б.;

3. Саидов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. – Тошкент: “Akademiya”, 2008. – 230 б. Ёвқочев Ш.А. Политизация религии и проблема экстремизма. Автореф. дисс. ... канд. полит. наук. – Тошкент. 1993. Кушаев У.Р. Жаҳон динларида бағрикенглик омилларининг уйғунлиги. Фалс. фан. докт. ... дисс. – Тошкент. 2017; Дониёров Х.Т. Ўзбекистоннинг миллий-демократик давлатчилик тараққиётида дунёвийлик ва динийлик мутаносиблигининг аҳамияти. Фалс. фан. номз. ... дисс. – Тошкент. 2020. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). – Тошкент, Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004. –Б.85. Саифназаров И. Дониёров Х.Т. Ўзбекистонда дунёвийлик ҳамда динийлик мувозанатини таъминлашнинг асосий шарт ва омиллари. “Yangi O‘zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari” volume 2 | special issue 23.2022. SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7 . –Б.649-661; Мирзахмедов А.М. Бағрикенглик маданияти экстремизининг олдини олиш омили сифатида. Фалсафа фанлари бўйича фан доктори диссетация автореферати. Тошкент. 2020. 73 б. Мардонова Ф. Б. Ўзбек халқининг ҳозирги замон ижтимоий-маънавий ҳаётида миллатлараро толерантлик (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. Самарқанд.2020; Абдуллаев А.Н. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини ривожлантиришда исломий қадриятларнинг ўрни ва аҳамияти. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. Наманган.2022.

4. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. – Тошкент: “Akademiya”, 2007. – Б. 22.

5. Умарова Н., Исломбеков У. Сиёсий технологиялар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Akademiya, 2007.

6. Fedorova M. V. Religious identity in the modern digital world. Sotsiodinamika[Sociodynamics], 2020, no. 6, - p 70. https://doi.org/10.25136/2409-7144.2020.6.33085

7. [1] Абу Носир Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент: А.Қодирий нашриёти, 1993. –Б. 190.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Gulnoza Tashbayeva
senior teacher , Namangan State Technical University

PROBLEMS OF FREEDOM OF CONSCIENCE

Abstract: *The article analyzes the strengthening of democratic guarantees of citizens' rights and freedoms based on the principles of social justice and constitutional reforms in the Republic of Uzbekistan. The Government of Uzbekistan aims to regulate citizens' religious freedoms through the improvement of the Law "On Freedom of Conscience and Religious Organizations."*

Keywords: *conscience, freedom of conscience, religious organizations, religious freedom of citizens, religious associations.*

Gulnoza Toshbayeva
Namangan davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi

VIJDON ERKINLIGI MUAMMOLARI

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy adolat tamoyillari va konstitutsiyaviy islohotlar asosida fuqarolar huquq va erkinliklarining demokratik kafolatlarini mustahkamlash tahlil etilgan. O'zbekiston hukumati "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunni takomillashtirish orqali fuqarolarning diniy erkinliklarini tartibga solishni maqsad qilgan.*

Kalit so'zlar*: vijdon, vijdon erkinligi, diniy tashkilotlar, fuqarolarning diniy erkinligi, diniy birlashmalar.*

Гульноза Тошбаева
Старший преподаватель, Наманганский государственный технический университет

ПРОБЛЕМЫ СВОБОДЫ СОВЕСТИ

Аннотация: *В статье анализируется укрепление демократических гарантий прав и свобод граждан в Республике Узбекистан на основе принципов социальной справедливости и конституционных реформ. Правительство Узбекистана стремится регулировать свободу вероисповедания граждан путем совершенствования закона «О свободе совести и религиозных организациях».*

Ключевые слова: *совесть, свобода совести, религиозные организации, свобода вероисповедания граждан, религиозные объединения.*

Introduction.

The proposals and initiatives of the President of the Republic of Uzbekistan, Sh. M. Mirziyoyev, put forward at the sessions of the United Nations General Assembly and devoted to the fate and future development of humanity, address highly relevant issues related to ensuring the socio-economic and socio-political stability of the countries of the region, as well as creating decent living conditions for future generations.

In this context, the improvement of national legislation aimed at ensuring human and civil rights and freedoms in the process of developing the foundations of civil society corresponds to the strategic goal of building a social state. A secular social state oriented toward ensuring worthy living conditions for every citizen guarantees the principles of interethnic and interfaith tolerance. The nature and stability of state-religion relations largely depend on the strength of their legal foundations. Thus, Article 35 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan guarantees freedom of conscience to every citizen, including the right to profess any religion or none, as well as the inadmissibility of coercion in matters of religious belief.

The Law of the Republic of Uzbekistan "On Freedom of Conscience and Religious Organizations," adopted in a new edition in 2021, once again confirmed the complexity of state-religion relations and the need for their scientific understanding in both theoretical and practical aspects [6]. The significance of this law lies in clarifying legal provisions related to religious education, religious and local religious organizations, missionary activity, proselytism, professional religious education, as well as unlawful religious activity.

At the same time, a socio-philosophical analysis of young people's attitudes toward Islam and the characteristics of increasing religiosity allows for a deeper and more objective understanding of the issue under consideration.

Analysis of literature on the Topic.

The Development Strategy of Uzbekistan for 2022-2026 provides the creation of a solid legal framework aimed at regulating relations between the individual, the state, and society on the basis of the rule of law, as well as ensuring human rights and freedoms. This contributes to the legal regulation of relations between the state and religious organizations, the protection of citizens' rights and freedoms, and the elimination of ambiguities and inconsistencies within the system of social governance.

The religiosity of citizens and the improvement of the religious environment are guaranteed, in particular, by the right of parents or their legal guardians to provide religious upbringing within the family. The law legally ensures citizens' freedom in matters of religious belief, including the right to perform religious rites, participate in religious ceremonies and other forms of religious activity, and independently determine their attitude toward religious education. At the same time, any form of coercion in this sphere is prohibited. Restrictions on citizens' rights are permitted only in accordance with the law and on the basis of the principles of tolerance [8].

In public life, social norms-especially legal norms-play an essential role, as they form the mechanism of state regulation of relations between the individual and society. In this context, the socio-legal aspects of legal norms governing freedom of conscience may be classified on the basis of their philosophical analysis as follows.

First, the legal approach to the category of "freedom of conscience" establishes the legal foundations of relations between the state and religion, as well as regulates citizens' religious activities. Every law must clearly define its subject matter, contribute to resolving emerging problems, and ensure social relevance in the process of its implementation. In this regard, it is also appropriate to consider the category of freedom of conscience from a moral and philosophical perspective.

The introduction of this concept into scientific discourse is associated with the period of the Reformation in Europe and the activities of Protestant thinkers. Criticism of the Catholic Church, related to the moral and ethical crisis of the clergy, abuses of authority, and the deception of believers, contributed to the formation of a new understanding of freedom of conscience. Representatives of Protestantism advocated the creation of a just society and the formation of a new social consciousness corresponding to the conditions of emerging industrial capitalist society. Their struggle against the Catholic Church and feudal ideology contributed to the formation of the spiritual and ideological foundations of the Renaissance.

In Protestantism, freedom of conscience implied the rejection of obligatory mediation by the Church and clergy in matters of religious belief, affirming the individual's right to independently determine their religious convictions. Protestant representatives emerged as reformers who contributed to the establishment of the principles of secularization. Although many Protestant scholars and religious figures existed, many adhered to a dualistic position. They defended the principles of liberal religious freedom and the right of citizens to freely determine their attitude toward religion [12, p. 584].

During the Renaissance, philosophical thought in the process of shaping relations between the state and the Church emerged under the slogans of religious tolerance and freedom of belief. These ideas were based on the concept that religious freedom is a natural right granted to human beings by God. In this context, the separation of education from the Church was supported as a necessary condition for ensuring religious freedom. In the philosophical works of John Locke, religious freedom, including the right to atheistic beliefs, was considered a personal right of the Protestant citizen [7; 12, p. 583].

Such an interpretation of freedom of conscience was also accepted within Soviet ideology, albeit in a different substantive form: the rejection of religion was accompanied by the establishment of atheism and materialism as the dominant ideological and moral foundation of social life. In the union republics, laws "On Freedom of Conscience and Religious Organizations" were adopted on a unified legal basis, while religion was interpreted as an obstacle to social progress, and the ideological concept of the Party as the "honor and conscience of the era" became a guiding principle of education and social life. As a result, during the years of independence, the phenomenon of Islam developed naturally [8, p. 93].

In the aforementioned law, freedom of conscience is interpreted primarily in moral rather than purely legal terms. Moral norms are regarded as social phenomena. Such an approach is also conditioned by the transition to an information society, the transformation of science into a key structural component of the economy, the global dissemination of information technologies, as well as the recognition of human rights and freedoms as the highest value [2, p. 245].

Research Methodology.

Within the framework of this study, the position is substantiated that the phenomenon of "conscience" is equally related to both the religious and atheistic worldviews of the individual. Conscience is considered an autonomous spiritual and moral state possessing an internal regulatory capacity and not subject to direct legal influence or coercion. By its very nature, conscience exists independently of external law, guided by its own "inner law." In this regard, particular significance is attached to the philosophical legacy of G. W. F. Hegel, who recognized the existence of the "absolute idea" as the fundamental principle of being, as well as the inner spiritual essence inherent in human nature. Based on this

philosophical foundation, the methodological approach of the prominent scholar A. Minchenko is supported. He examines the category of "freedom of conscience" through the prism of such concepts as "freedom of religion," "secular nature of the state," "state religious policy," and "relations between the state and religious associations" [3].

Analysis and Results.

Conscience serves as a significant intellectual and moral indicator of the individual and, manifesting in such ethical qualities as nobility, sincerity, and moral purity, is directly related to the legal aspects of religiosity, freedom of religion, and belief. At the same time, scholarly literature notes that religiosity constitutes an element of the spiritual structure of personality, independent of the political sphere, and is the result of education and upbringing. In this regard, some researchers argue that religious principles can serve as one of the foundations of state organization [5, p. 179].

Conscience represents an internal mechanism by which an individual monitors their own actions, serving both as a source of moral encouragement for positive deeds and as a cause of inner spiritual experience and self-criticism in the case of negative actions. It constitutes the highest moral criterion, guiding the individual toward the path of good and imparting meaning to life and activity. Conscience can also be considered a form of internal moral self-awareness, shaped by upbringing and reflecting the person's aspiration to live a truthful and morally upright life.

Thus, conscience functions as an internal spiritual and moral experience and as a crucial element of an individual's system of values. In this regard, legal scholar S. A. Buryanov notes that mechanically combining the concepts of "conscience" and "freedom" in the academic analysis of the category "freedom of conscience" prevents the formulation of accurate scientific conclusions and complicates its effective application in legal regulation [1].

Indeed, conscience is an abstract phenomenon associated with human cognitive activity and possesses internal autonomy. It cannot fully express either the degree of an individual's religiosity or the nature of the relationship between the state and religious organizations. At the same time, the legal content of the law is aimed at regulating the external aspects of an individual's relationship to religion and religious associations, without affecting the internal sphere of beliefs and moral experiences. This indicates that conscience, as a form of internal self-regulation, exists beyond direct legal influence.

Within the scope of this study, conscience is considered a complex spiritual and psychological phenomenon linked to an individual's emotional state, rational-reflective capacities, and system of moral values. This phenomenon is actively studied in psychology, where its independence from legal regulatory mechanisms is emphasized [10].

Since, in regulating their own behavior, a person naturally relies on moral values, religious beliefs, and faith in higher spiritual principles, the norms, precepts, and rituals of world religions serve as a spiritual mediator between the believer and God. In this context, freedom of conscience primarily constitutes an internal spiritual state of the individual that is not subject to direct legal regulation.

Conclusions.

Based on the conducted study, it can be concluded that the establishment of legal foundations governing the state's relations with religion, believers, and religious associations serves as an important indicator of the democratic development of relations between the individual, the state, and society. At the same time, it is necessary to further clarify the legal boundaries for the exercise of citizens' rights to religious activity. This is due to the fact that ensuring the human right to religiosity as a natural right requires not only the separation of the state from religion but also the development of constructive interaction between them.

In this context, citizens should have the opportunity to receive religious education not only within religious educational institutions but also within the framework of the secular education system. The secular nature of the state should not hinder the fulfillment of young people's needs for objective knowledge about religion. The primary criterion in this regard should be the formation of the spiritual and moral education of youth and the maintenance of stable social relations in society. Moreover, improving religious literacy among young people is a crucial factor in developing protective immunity against religious radicalism and constitutes a necessary condition for the prevention of extremism.

In a socially secular state, for the optimal safeguarding of individual interests, it is advisable to further improve legislation regulating freedom of religion and the activities of religious associations. Such legislation should ensure the realization of citizens' right to freedom of religion, while also regulating social relations associated with the activities of religious associations.

Conscience should be considered not only as an internal moral regulator connected with religious beliefs but also as an important spiritual and ethical mechanism that guarantees the freedom of choice and behavior of the individual within the system of civil relations in a social state.

It should be noted that the use of the term "religious organizations" in current legislation requires further scientific and legal clarification, as its content does not fully correspond to the generally accepted legal characteristics of the category "organization." Religious organizations are generally understood as voluntary, non-state, non-commercial associations of citizens established on a confessional basis to perform religious rites and other religious activities.

The conducted research has both scientific and practical significance in the context of further improving the legal regulation of citizens' rights to religious activity in the Republic of Uzbekistan. Further liberalization of legislation regulating state-religion relations, as well as in-depth study of religious knowledge within the education and upbringing system, will contribute to the stabilization of the religious situation in the country and help fill existing gaps in the spiritual and moral education of young people.

In this regard, increasing religious literacy and developing educational and outreach activities among youth will promote the formation of an atmosphere of ethnoconfessional tolerance, prevent the spread of destructive ideas, and further strengthen the spiritual and moral foundations of society.

References

1.Buryanov, S. A. International Legal Documents on Freedom of Conscience and Their Implementation Practice in the Russian Federation: Theoretical and Applied Research. Moscow: Moscow Helsinki Group, 2012. 244 p.

2.Bulavina, M. A., Zaikina, I. V. "Development of Concepts of Freedom of Conscience and Freedom of Religion." *Innovations and Investments*, 2015, No. 5, pp. 245–248.

3.Hegel, G. W. F. Philosophy of Religion (2 vols.), Vol. 1. Moscow: Russian Political Encyclopedia, 2007. 415 p.

4.Report on Freedom of Religion in Estonia for 2014. Available at: https://ee.usembassy.gov/wpcontent/uploads/sites/207/2015/12/usuvabadusrus.pdf

5.Erysheva, V. A., Khlystalova, N. Yu. "Religiosity and Legal Aspects of Secularization in the Education System." *Scholarly Notes of Orel State University*, 2013, No. 4(53), pp. 179–182.

6.Law of the Republic of Uzbekistan No. URQ-699 of July 5, 2021, *On Freedom of Conscience and Religious Organizations* (new edition). Available at: https://lex.uz/docs/5491534

7.Locke, J. *Collected Works in 3 Volumes*, Vol. 2. Moscow: Mysl, 1985. 125 p.

8.Mirzahmedov, A. M. "The Phenomenon of Islam." *Sociological Research*, 2003, No. 2–3, pp. 93–96.

9.Mirzahmedov, A. M. "Tolerance as a Legal Culture." *Gumanitarij*, 2017, No. 1, pp. 36–44.

10. Mirziyoyev, Sh. M. *Address at the 75th Session of the UN General Assembly.* Narodnoe Slovo, 20 October 2020.

11. *Dictionary of Ethics*, edited by A. A. Guseinov and I. S. Kona. Moscow: Politizdat, 1989. 447 p.

12. Spengler, O. *The Decline of the West*. Introductory and commentary notes by Prof. G. V. Drach. Rostov-on-Don: Phoenix, 1998. 640 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Qambarova Shoiraxon Asqarovna
Q'o'qon universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi t.f.f.d.(PhD), dotsent
Email: kambarova-75@list.ru
ORCID: ID-0009-0004-2801-5236

SIYOSIY QATAG'ONLAR TIZIMIDA INSON BORLIGINING TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy-falsafiy jihatdan qatag'on (repressiya) fenomeni va shaxs erkinligi o'rtasidagi dialektik munosabatlar tahlil qilinadi. Qatag'onlar shunchaki siyosiy jazolash vositasi emas, balki insonning ma'naviy va ijtimoiy borligiga tajovuz qiluvchi tizimli mexanizm ekanligi asoslab beriladi. Hobbs, Fuko va Arendt kabi mutafakkirlarning qarashlariga tayangan holda, davlat majburlovi va individual erkinlik o'rtasidagi to'qnashuvning metodologik asoslari yoritiladi. Shuningdek, qatag'onlarning «ichki dushman» obrazini yaratish orqali jamiyatning ma'naviy asoslarini yemirolishi va ijtimoiy ishonchni yo'q qilishdagi roli ochib beriladi.*

Tayanch so'zlar: *qatag'on (repressiya), shaxs erkinligi, ijtimoiy falsafa, totalitarizm, davlat majburlovi, ekzistensializm, ma'naviy deformatsiya, ijtimoiy ishonch.*

Камбарова Шоирахон Аскаровна
Доктор философии, доцент кафедры социальных наук Кокандского университет

ТРАНСФОРМАЦИЯ ЧЕЛОВЕКА В СИСТЕМЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ РЕПРЕССИЙ

Аннотация: *В данной статье анализируются диалектические отношения между феноменом репрессий и свободой личности в социально-философском аспекте. Обосновывается, что репрессии являются не просто инструментом политического наказания, а системным механизмом, посягающим на духовное и социальное бытие человека. Опираясь на взгляды таких мыслителей, как Гоббс, Фуко и Арендт, освещаются методологические основы столкновения государственного принуждения и индивидуальной свободы. Также раскрывается роль репрессий в разрушении моральных основ общества и уничтожении социального доверия через создание образа «внутреннего врага».*

Ключевые слова: *репрессии, свобода личности, социальная философия, тоталитаризм, государственное принуждение, экзистенциализм, моральная деформация, социальное доверие.*

Shoirakhon Askarovna Kambarova
Doctor of Philosophy, Associate Professor, Department of Social Sciences, Kokand University

HUMAN TRANSFORMATION IN A SYSTEM OF POLITICAL REPRESSION

Abstract: *This article analyzes the dialectical relationship between the phenomenon of repression and individual freedom from a socio-philosophical perspective. It is substantiated that repression is not merely a tool of political punishment, but a systemic mechanism that encroaches upon the spiritual and social existence of a human being. Drawing on the views of thinkers such as Hobbes, Foucault, and Arendt, the methodological foundations of the conflict between state coercion and individual freedom are highlighted. The article also reveals the role of repression in eroding the moral foundations of society and destroying social trust through the creation of the "internal enemy" image.*

Keywords: *repression, individual freedom, social philosophy, totalitarianism, state coercion, existentialism, moral deformation, social trust.*

Kirish

Insoniyat tarixining turli bosqichlarida namoyon bo'lgan qatag'on (repressiya) hodisasi shunchaki siyosiy jazolash vositasi emas, balki shaxsning ijtimoiy va ma'naviy borlig'iga qarshi yo'naltirilgan tizimli tajovuzdir. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, qatag'on shaxs erkinligi va davlat majburlovi o'rtasidagi dialektik ziddiyatning eng keskin nuqtasi hisoblanadi. Ushbu maqolada qatag'onning nafaqat siyosiy-huquqiy jihatlari, balki uning inson mohiyatini yemirishga qaratilgan metodologik asoslari tahlil qilinadi.

Falsafiy jihatdan qatag'on — davlatning o'zini mutlaq sub'ekt (oliy qadriyat), insonni esa shunchaki vosita (ob'ekt) deb bilishidan kelib chiqadi. Bunda Tomas Gobbsning "Leviafan" kontseptsiyasidagi xavfli tendentsiya bo'y ko'rsatadi: davlat "tartib posboni" niqobi ostida har qanday o'zgacha fikrni "xaos" deb baholaydi va o'z yashab qolishi uchun shaxs huquqlarini qurbon qiladi. Natijada, repressiv tizimda inson o'z taqdirining egasi bo'lgan erkin mavjudotdan, ulkan mashinaning irodasiz bo'lagiga aylantiriladi[2].

Jan-Pol Sartr va boshqa ekzistentsialistlar ta'kidlaganidek, insonning asl mohiyati uning tanlov erkinligida namoyon bo'ladi. Qatag'on siyosati esa inson irodasini sindirish orqali uning tanlov imkoniyatini nolga tushirishga, ya'ni insonni "narsa" darajasiga tushirib qo'yishga intiladi. Bu jarayonda qo'rquv asosiy boshqaruv mexanizmiga aylanib, jamiyat ongini falajlaydi va shaxsning ichki erkinligini tashqi zo'ravonlik bilan jilovlaydi[5]

Repressiyaning ilmiy-metodologik mohiyati jamiyatni sun'iy ravishda "biznikilar" va "yot unsurlar"ga ajratishga asoslanadi. "Xalq dushmani" kabi tamg'alarning qo'llanishi insonni huquqiy va axloqiy maydondan chiqarib tashlashga xizmat qiladi. Bu nafaqat jismoniy qirg'in, balki insonlarni bir-biriga qarshi guvohlik berishga va sotqinlikka majburlash orqali ijtimoiy ishonch va birdamlik negizlarini yemiruvchi ma'naviy tajovuzdir. Qatag'on — davlatning "o'zlikni anglagan" erkin shaxsdan qo'rqishining oliy nuqtasi bo'lib, uni o'rganish bugungi kunda inson qadrini anglash va ijtimoiy erkinlik chegaralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qatag'on va shaxs erkinligi muammosi klassik va zamonaviy falsafada keng o'rganilgan bo'lib, quyidagi asarlarni alohida sanab o'tishni lozim topdik.

Tomas Gobbsning "Leviafan" asarida davlatning mutlaq hokimligi va tartib uchun erkinlikni cheklash zarurati asoslab berilgan. **Mishel Fuko** o'zining "Nazorat va jazolash" asarida qatag'onning "intizomiy jamiyat" shaklidagi yangi qirralarini ochib beradi. U hokimiyatni shaxs tanasi va ongini shakllantiruvchi mikro-mexanizm sifatida tahlil qiladi. Ularning qarashlari hokimiyat va zo'ravonlik nazariyasiga asoslangan[2,3].

Xanna Arendt, Fridrix Xayek kabi faylasuflar qatag'onlarga totalitarizim va shahs fojeasi sifatida qarashadi. **Xanna Arendt** "Totalitarizm kelib chiqishi" asarida qatag'onning mafkuraviy ildizlarini va "ommaviy inson" kontseptsiyasini tadqiq etgan. Uning fikricha, qatag'on — bu insonning siyosiy hayotdagi ishtirokini butunlay yo'q qilishdir. **Fridrix Xayek** "Qullik sari yo'l" asarida iqtisodiy va siyosiy nazoratning kuchayishi qanday qilib shaxs erkinligining repressiv cheklanishiga olib kelishini ko'rsatib bergan[4,6]. **Alber Kamyu va Jan-Pol Sartr** asarlarida qatag'on sharoitida insonning ichki erkinligi, tanlov mas'uliyati va isyon muammolari markaziy o'rin tutadi[9,5].

O'zbekistonlik olimlar (masalan,P.Shamsuddinov, R. Murtazaeva, B.Rasulov, M.Abdullayev SH. Turdiev va boshqalar) jadidchilik harakati va sho'ro davri qatag'onlarining tarixiy-falsafiy jihatlarini, milliy ziyolilarning fojiaviy taqdirini arxiv ma'lumotlari asosida tarixiy nuqtai-nazardan o'rganganlar[7,8,10].

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda qatag'on hodisasini ob'ektiv va ko'p qirrali yoritish maqsadida quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi. Qatag'on alohida voqea emas, balki davlat boshqaruvining yaxlit tizimi ekanligini hisobga olib tizimli yondashuv metodi asosida ko'rib chiqildi. Uning siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy elementlari o'rtasidagi aloqalar tahlil qilinadi. Turli davrlardagi (masalan, sho'ro davri va boshqa avtoritar tizimlar) qatag'on siyosatining o'xshash va farqli jihatlari, shaxs erkinligiga ta'sir darajasi qiyosiy-tarixiy metod asosida qiyoslanadi. Qatag'on davriga oid matnlar, arxiv hujjatlari va xotiralarni falsafiy mazmunda talqin qilish (germenevtik metod) orqali o'sha davrning "ma'naviy manzarasi" tiklanadi. Erkinlik va majburlov, shaxs va jamiyat, huquq va zo'ravonlik o'rtasidagi ziddiyatlarning rivojlanish dinamikasi dialektik metod asosida o'rganildi. Inson erkinligi oliy qadriyat sifatida olinib, qatag'onning ushbu qadriyatni yemirishdagi roli axloqiy-aksiologik yondoshuv jihatdan baholanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Qatag'on — bu faqatgina jismoniy yo'q qilish jarayoni emas. Qatag'onning ijtimoiy-psixologik va falsafiy mexanizmlari mavjud. Qatag'onlar shaxsni ma'nan qayta ishlash va jamiyatni mutlaq bo'yinsundirishga qaratilgan murakkab texnologiyadir. Uning ishlash mexanizmlari bir necha jihatlarda namoyon bo'ladi. Qatag'onning eng birinchi mexanizmi — jamiyatda tizimli qo'rquvni shakllantirishdir. Falsafiy ma'noda, qo'rquv insonni o'z erkinligidan voz kechishga majbur qiluvchi ekzistentsial bosimdir. Qatag'on ixtiyoriy (selektiv) emas, balki ommaviy va kutilmagan bo'lganda, inson o'z-o'zini himoya qilish maqsadida fikrlash doirasini cheklaydi. Natijada inson o'z-o'zini tsenzura qila boshlaydi. Bu — shaxs ichki dunyosining davlat nazoratiga o'tishidir. Endi davlatga jazolashning hojati qolmaydi, chunki shaxsning o'zi o'z "erkinligini" jilovlab turadi.

Repressiv tizim yashab qolishi uchun doimiy ravishda "biznikilar" va "yot unsurlar" dixotomiyasini (ikkiga bo'linish) yaratadi. Bu mexanizm "Xalq dushmani", "zararkunanda" yoki "sotqin" kabi tamg'alar orqali muayyan shaxslar ijtimoiy va huquqiy maydondan tashqariga chiqariladi. Bu esa insonning umuminsoniy qadr-qimmatini inkor etishdir. Inson individ sifatida emas, balki qaysidir "xavfli guruh" a'zosi sifatida ko'riladi. Bu jamiyatda ijtimoiy ishonchni yo'q qiladi va

atomizatsiyaga (insonlarning bir-biridan begonalashuviga) olib keladi. Ishonch yo'qolgan joyda esa ijtimoiy birdamlik o'ladi.

Qatag'on tizimi shaxsni nafaqat qurbonga, balki uni bilvosita "guvoh" yoki "ayblovchi"ga aylantirish orqali axloqiy jihatdan yemiradi.Bunda insonlarni bir-biriga qarshi ko'rsatma berishga, yaqinlaridan voz kechishga majburlanadi. Jumladan Stalin qatag'onlari davrida o'zlari "tozalov"lardan omon qolish uchun, bolshevizimga sadoqatini isbot qilish uchun hamkasbi, yoki qo'shnisi ustidan ma'lumotlar to'plab "uchlik"larga taqdim qilganlar va bu bilan go'yoki tuzumga oz "sadoqatlarini" isbot qilganlar[10,11,12,13].Oqibatda tizim insonni axloqiy tanlovdan mahrum qiladi. SHaxs o'z vijdoniga qarshi ish qilishga majburlanganda, uning "men"ligi parchalanadi. Bu insonni ma'naviy jihatdan boshqariluvchi va irodasiz mavjudotga — "tizim vinti"ga aylantirishning eng samarali yo'lidir.

Qatag'on mexanizmi insonni shahssizlantiradi (depersonilizatsiya), mustaqil fikrlovchi sub'ektdan oddiy raqamga yoki statistik ma'lumotga aylantiradi. Falsafiy nuqtai-nazardan bu davlatning mutlaq sub'ekt sifatida namoyon bo'lishi va insonning o'zlikni anglash huquqidan mahrum etilishidir. Aslida qatag'onlar davlatning naqadar ojiz va xalqdan qo'rqishini ifodalaydi. Qatag'on — bu davlatning "o'zlikni anglagan", mustaqil va erkin shaxsdan qo'rqishining eng oliy ifodasidir. CHunki erkin shaxs — tizimning bir xilligi va mutlaq nazorati uchun eng katta xavf hisoblanadi. Qatag'on mexanizmlari shaxsni nafaqat jismoniy, balki uning ma'naviy-ruhiy o'zagini yo'q qilishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu jarayonda shaxs erkinligi davlatning "o'z-o'zini saqlash" instinktiga qurbon qilinadi.

XULOSA

Qatag'on va shaxs erkinligi o'rtasidagi munosabatlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi. Qatag'on tarixi shuni ko'rsatadiki, davlat manfaatlari inson huquq va erkinliklaridan ustun qo'yilgan har qanday tizim muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi. Davlat — shaxsning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun vosita bo'lishi kerak, shaxs esa davlatning siyosiy maqsadlari yo'lidagi qurbon emas.

Qatag'on orqali o'rnatilgan "tartib" va "bir xillik" vaqtinchalik illyuziyadir. Haqiqiy ijtimoiy barqarorlik faqatgina fikrlar xilma-xilligi, erkin muloqot va shaxs irodasining tan olinishi asosida quriladi. Qo'rquvga asoslangan tizim ijodkorlik va ijtimoiy tashabbusni o'ldiradi, bu esa jamiyatning umumiy rivojlanishini to'xtatadi.

Qatag'onning ilmiy-metodologik asoslarini o'rganish faqatgina o'tmishga berilgan baho emas, balki kelajak uchun muhim darsdir. Jamiyatda huquqiy ong va axloqiy mas'uliyatning yuqori bo'lishi har qanday ko'rinishdagi repressiv tendentsiyalarning oldini oluvchi ijtimoiy "immunitet" vazifasini o'taydi.

Zamonaviy davlatchilik va ijtimoiy falsafaning asosiy vazifasi — shaxsning ma'naviy va ijtimoiy borlig'iga qilinadigan har qanday tajovuzni inkor etuvchi gumanistik mexanizmlarni mustahkamlashdan iboratdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qatag'on shaxs erkinligini jismonan cheklashi mumkin, biroq insonning ichki erkinlikka, adolat va haqiqatga bo'lgan intilishini butunlay yo'q qila olmaydi. Jadid bobolarimiz va ko'plab erkin fikrli ziyolilarning taqdiri buning yaqqol isbotidir

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, jamiyatda huquqiy nigilizmga barham berish va har bir shaxsning daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy-falsafiy tarbiya tizimini tizimlashtirish; Ikkinchidan, davlat organlari faoliyatida shaxs erkinligini cheklovchi emas, balki uning salohiyatini ochib beruvchi gumanistik mexanizmlarni ustuvor vazifaga aylantirish.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати / библиография

1.**Мирзиёев, Ш.М.** *Янги Ўзбекистон стратегияси.* — Т.: "O'zbekiston", 2021. (Инсон қадрини улуғлаш ва тарихий адолатни тиклаш тамойиллари учун).

2.**Гоббс, Т.** *Левиафан, или Материя, форма и власть государства церковного и гражданского.* — М.: Мысль, 2001.

3.**Фуко, М.** *Надзирать и наказывать: Рождение тюрьмы.* — М.: Ad Marginem, 1999.

4.**Арендт, Х.** *Истоки тоталитаризма.* — М.: ЦентрКом, 1996.

5.**Сартр, Ж.П.** *Бытие и ничто: Опыт феноменологической онтологии.* — М.: Республика, 2000.

6.**Хайек, Ф.А.** *Дорога к рабству.* — М.: Новое издательство, 2005.

7.**Аъзамхўжаев, С.** *Туркистон мухторияти: миллий-демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси.* — Т.: "Ma'naviyat", 2000.

8.**Турдиев, Ш.** *Улар кимлар эди? (Қатағон қурбонлари хотирасига).* — Т.: "Шарқ", 1999.

9.**Камю, А.** *Бунтующий человек. Философия. Этнография. Культура.* — М.: Политиздат, 1990.

10. **Қатағон қурбонлари хотираси (тўплам).** — Т.: "Adolat", 2001.

11. **Абдуллаев М. Ғ**. Ўрта Осиёдаги махсус посёлкалар тизими ва сургун қилинган қулоқлар тақдири (1930–1954 йиллар). – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 352 б.

12. **Расулов Б. М.** Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий қатағонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929–1959 йй.) – Тошкент: Sharq, 2012. – 386 б.

13. **Шамсутдинов** Р. Т. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). – Тошкент: Шарқ, 2003. – 544 б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Quramatov Murod
Toshkent kimyo-texnologiyalar institutining Yangiyer filiali o‘qituvchisi
E-mail: murodquramatov1@gmail.com

TASAVVUF FALSAFASIDA KOMIL INSON G‘OYASI: YASSAVIYLIK VA NAQSHBANDIYLIK TAQQOSIY TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tasavvuf falsafasida komil inson g‘oyasining nazariy mohiyati hamda uning Yassaviylik va Naqshbandiylik ta’limotlaridagi talqini qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband ta’limotida komillik mezonlari, ruhiy poklanish bosqichlari hamda suluk jarayonining xususiyatlari o‘rganildi. Yassaviylikda komillik riyozat va jahriy zikr orqali ruhiy poklanish asosida shakllansa, Naqshbandiylikda “dil ba yor, dast ba kor” tamoyili asosida ichki zikr va ijtimoiy faollik uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har ikki tariqat komil insonni ma’naviy yetuk, axloqan pok va jamiyatga foydali shaxs sifatida talqin qiladi.*

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, komil inson, Yassaviylik, Naqshbandiylik, suluk, maqom, ruhiy taraqqiyot, zikr.*

Кураматов Мурад
Преподаватель Янгиерского филиала Ташкентского химико-технологического института

ИДЕЯ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В ФИЛОСОФИИ СУФИЗМА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯСАВИЙСКОГО И НАКШБАНДИЙСКОГО УЧЕНИЙ

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ идеи совершенного человека в суфийской философии на примере ясавийского и накшбандийского учений. Рассматриваются этапы духовного совершенствования, принципы зикра и особенности духовного пути (сулук). Делается вывод о том, что обе традиции рассматривают совершенного человека как нравственно зрелую и духовно очищенную личность.*

Ключевые слова: *суфизм, совершенный человек, ясавизм, накшбандизм, духовный путь, зикр, макам.*

Kuramatov Murad
Teacher of the Yangiyer branch of the Tashkent Institute of chemistry and technology

THE CONCEPT OF THE PERFECT HUMAN IN SUFI PHILOSOPHY: A COMPARATIVE ANALYSIS OF YASSAVI AND NAQSHBANDI TEACHINGS

Abstract. *This article presents a comparative analysis of the concept of the Perfect Human in Sufi philosophy through the teachings of Yassavi and Naqshbandi traditions. The stages of spiritual development, principles of dhikr, and characteristics of the spiritual path (suluk) are examined. The findings indicate that both traditions interpret the Perfect Human as spiritually purified, morally mature, and socially responsible.*

Keywords: *Sufism, Perfect Human, Yassavi, Naqshbandi, spiritual development, dhikr, maqam.*

KIRISH

Tasavvuf falsafasi islom tafakkurining eng chuqur, metafizik va ruhiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda insonning ichki olami, qalb pokligi, nafs tarbiyasi hamda ilohiy haqiqatga yetishish jarayoni markaziy masala sifatida qaraladi [1]. Tasavvufning asosiy maqsadi insonni ma’naviy komillikka olib borishdir. Shu bois tasavvuf ta’limotida “komil inson” (al-insan al-kamil) g‘oyasi fundamental ontologik va axloqiy kategoriya sifatida shakllangan [2].

Komil inson tushunchasi Qur’oni karim va hadis manbalariga tayanadi. Qur’onda inson “ashraf al-makhluqot” (yaratilganlarning eng sharaflisi) sifatida ta’riflanadi [3]. Biroq ushbu sharaf tabiiy emas, balki ruhiy kamolot orqali qo‘lga kiritiladi. Tasavvuf bu jarayonni nafsni poklash (tazkiyat an-nafs), qalbni nur bilan to‘ldirish va ma’rifatga erishish orqali izohlaydi [4].

Markaziy Osiyoda tasavvufning ikki yirik maktabi – Yassaviylik va Naqshbandiylik tariqatlari komil inson g‘oyasini o‘ziga xos tarzda rivojlantirdi [5]. Ahmad Yassaviy (XII asr) o‘z “Hikmatlar”ida komillikni riyozat, sabr va jahriy zikr orqali

ruhiy poklanish sifatida talqin qilgan [6]. Bahouddin Naqshband (XIV asr) esa komillikni ichki zikr, hushyorlik va jamiyat bilan uyg‘un hayot asosida izohlagan [7].

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy jamiyatda axloqiy qadriyatlar inqirozi, ma’naviy bo‘shliq va individualizm kuchayib borayotgan bir paytda tasavvufiy komillik modeli insonni ruhiy muvozanatga chaqiruvchi muhim konseptual manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin [8].

Tadqiqotning maqsadi – Yassaviylik va Naqshbandiylik ta’limotida komil inson g‘oyasini qiyosiy o‘rganish hamda ruhiy taraqqiyot bosqichlarini tizimli tahlil qilishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tasavvuf falsafasida komil inson g‘oyasi ko‘plab mutasavviflar tomonidan turli davrlarda turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, uning nazariy asoslari Qur’on, hadis va ilk zohidlik harakatlariga borib taqaladi [2]. Komillik tushunchasi ilk davrda axloqiy poklik va taqvo bilan bog‘langan bo‘lsa, keyinchalik murakkab ontologik va gnoseologik mazmun kasb etdi [1].

Komil inson konsepsiyasining falsafiy asoslarini tizimli ravishda ishlab chiqqan mutafakkirlardan biri Ibn Arabiy hisoblanadi. U “Fusus al-hikam” asarida komil insonni ilohiy sifatlarning eng mukammal tajallisi sifatida talqin qiladi [3]. Uning nazarida komil inson – bu kosmik mavjudot bo‘lib, u orqali Haqiqat o‘zini namoyon qiladi. Bu qarash komillikni metafizik darajaga ko‘taradi.

Imom G‘azzoliy esa komillikni qalb pokligi va nafs tarbiyasi orqali tushuntiradi. “Ihyo ulum ad-din” asarida u inson qalbini oynaga qiyoslab, uni dunyoviy g‘uborlardan tozalash zarurligini ta’kidlaydi. G‘azzoliyga ko‘ra, komillik – bu ma’rifat va amal uyg‘unligidir [4].

Markaziy Osiyo tasavvuf maktablarida komillik konsepsiyasi o‘ziga xos rivoj topdi. Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat” asarida komillikni xalqona til orqali tushuntiradi. U komillikni nafsni sindirish, sabr qilish va jahriy zikr orqali ruhiy yuksalish sifatida ko‘rsatadi [7]. Yassaviy ta’limotida asketik ruh ustuvor bo‘lib, dunyoviy ne’matlardan voz kechish ruhiy poklanish sharti sifatida qaraladi.

Bahouddin Naqshband ta’limotida esa komillik asketizm bilan cheklanmaydi. “Dil ba yor, dast ba kor” tamoyili asosida ruhiy poklanish bilan birga ijtimoiy faoliyat ham komillik mezoni sifatida belgilanadi [8],[10]. Naqshbandiylikda xufiy zikr, hushyorlik va ichki diqqat markaziy o‘rin tutadi.

Zamonaviy tadqiqotchilar, xususan, N. Komilov tasavvufni Markaziy Osiyo ma’naviy merosining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi [6],[11]. Ayrim tadqiqotlarda Yassaviylik asketik va xalqona tariqat, Naqshbandiylik esa ijtimoiy-siyosiy faol tariqat sifatida tavsiflanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki tariqat komil insonni ruhiy poklanish mahsuli sifatida talqin qiladi, biroq metodologik yondashuv va urg‘u berilgan jihatlar farqlanadi. Yassaviylikda asketik ruh, Naqshbandiylikda esa ijtimoiy uyg‘unlik ustuvor.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tasavvuf falsafasida komil inson g‘oyasini Yassaviylik va Naqshbandiylik tariqatlari misolida qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, u kompleks metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-falsafiy tahlil, tarixiy-mantiqiy yondashuv, hermenevtik (matn talqini) usuli hamda tizimli-strukturaviy metod tashkil etadi.

Avvalo, qiyosiy metod yordamida ikki tariqatdagi komillik konsepsiyasining umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Bu usul har ikki maktabning ruhiy taraqqiyot bosqichlari, zikr uslubi, nafs tarbiyasi, murshid-murid munosabatlari va ijtimoiy faoliyatga munosabatini solishtirish imkonini berdi. Qiyosiy yondashuv falsafiy konsepsiyalarning ichki mantig‘ini ochishga xizmat qiladi.

Tarixiy-mantiqiy metod orqali Yassaviylik (XII asr) va Naqshbandiylik (XIV asr) tariqatlarining shakllanishi va rivojlanish sharoitlari tahlil qilindi. Yassaviylik turkiy xalqlar orasida asketik ruh asosida shakllangan bo‘lsa, Naqshbandiylik Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy muhitida shakllanganligi aniqlashtirildi. Bu omillar komillik talqiniga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Hermenevtik metod asosida “Devoni hikmat” va “Risolai Qudsiyya” asarlaridagi komillik tushunchalari matn ichki mazmuni va ramziy ifodalar asosida talqin qilindi. Tasavvufiy matnlar ko‘pincha ramziy, ishoraviy va ko‘p qatlamli ma’noga ega bo‘lganligi sababli, ularni talqin qilishda kontekstual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yassaviy hikmatlaridagi “nafsni o‘ldirish” iborasi jismoniy emas, balki ruhiy poklanishni anglatadi.

Tizimli yondashuv yordamida ruhiy taraqqiyot bosqichlari – shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlari umumlashtirildi va ularning har ikki tariqatdagi talqini tahlil qilindi. Shuningdek, maqom (barqaror ruhiy holat) va hol (o‘tkinchi ruhiy kechinma) tushunchalari ham qiyosiy o‘rganildi.

Tadqiqotda nazariy umumlashtirish va interpretatsiya usullari qo‘llanilib, komil inson modelining ontologik (inson mohiyati), gnoseologik (bilish jarayoni) va axloqiy jihatlari tizimlashtirildi.

Shu tariqa, qo‘llanilgan metodlar tadqiqot mavzusini har tomonlama, chuqur va tizimli ravishda yoritish imkonini berdi.

NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Yassaviylik va Naqshbandiylik tariqatlarida komil inson g‘oyasi umumiy maqsadga ega bo‘lsa-da, unga erishish metodlari va urg‘u berilgan jihatlari jihatidan farqlanadi. Har ikki tariqatda komillik jarayoni bosqichma-bosqich ruhiy taraqqiyot orqali amalga oshadi.

1. Ruhiy taraqqiyot bosqichlari

Tasavvufda komillikka eltuvchi asosiy yo‘l to‘rt bosqich orqali ifodalanadi:

1.**Shariat** – diniy qonun-qoidalarni bajarish

2.**Tariqat** – ruhiy tarbiya va murshidga ergashish

3.**Ma’rifat** – ilohiy bilim va ichki anglash

4.**Haqiqat** – ilohiy haqiqatga yetishish

Yassaviylik talqini. Yassaviylikda bu bosqichlar asketik ruh asosida talqin qilinadi. Riyozat, uzlat, sabr va jahriy zikr orqali nafsni jilovlash komillikning asosiy sharti hisoblanadi. Yassaviy hikmatlarida insonning ruhiy poklanishi ko‘pincha og‘riq, sabr va sinov orqali amalga oshishi ta’kidlanadi. U komillikni nafs ustidan g‘alaba qozonish bilan bog‘laydi.

Yassaviy modelida ruhiy taraqqiyot ichki iztirob va asketik hayot bilan uyg‘un holda kechadi. Bu model ko‘proq zohidlik va dunyodan uzilish elementlarini o‘z ichiga oladi.

Naqshbandiylik talqini

Naqshbandiylikda esa ruhiy taraqqiyot jamiyatdan uzilmagan holda amalga oshiriladi. “Dil ba yor, dast ba kor” tamoyili komillikni ijtimoiy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi. Naqshbandiylikda xufiy zikr (ichki zikr) ustuvor bo‘lib, qalbning hushyorligi asosiy mezon hisoblanadi.

Bu tariqatda komillik dunyodan voz kechish orqali emas, balki dunyo ichida ma’naviy poklikni saqlash orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv komillikni ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘laydi.

2. Qiyosiy jadval

1-jadval.

Komil inson modeli taqqosiy tahlili

Mezoni	**Yassaviylik**	**Naqshbandiylik**
Zikr turi	Jahriy (oshkora)	Xufiy (ichki)
Asosiy urg‘u	Riyozat va zuhd	Hushyorlik va ijtimoiy faoliyat
Dunyo bilan munosabat	Uzlatga moyillik	Jamiyat ichida komillik
Ruhiy metod	Nafsni sindirish	Qalbni poklash
Ideal shaxs	Zohid	Ijtimoiy faol mutasavvif

3. Ontologik va axloqiy tahlil

Ontologik jihatdan komil inson tasavvufda ilohiy sifatlarning inson qalbida namoyon bo‘lishi sifatida talqin qilinadi. Har ikki tariqatda komil inson Allohga yaqinlashgan, nafsni yenggan va qalbi ma’rifat bilan to‘lgan shaxsdir.

Axloqiy jihatdan esa komillik – bu sabr, kamtarlik, saxovat, adolat va tavozu kabi fazilatlarning mujassamidir. Yassaviylikda sabr va zuhd ustuvor bo‘lsa, Naqshbandiylikda hushyorlik va mas’uliyat muhim o‘rin tutadi.

Gnoseologik jihatdan ma’rifat bosqichi har ikki tariqatda komillikning muhim pog‘onasi sifatida ko‘riladi. Ma’rifat – bu ichki bilish, qalb ko‘zi bilan anglashdir.

4. Falsafiy umumlashtirish

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yassaviylik komillikni asketik ruh orqali, Naqshbandiylik esa uyg‘unlik modeli orqali talqin qiladi. Yassaviy modeli ruhiy iztirob va poklanish orqali ilohiylikka yetishni ta’kidlaydi. Naqshbandiy modeli esa ichki hushyorlik va ijtimoiy mas’uliyatni birlashtiradi.

Har ikki tariqatning maqsadi bir – komil insonni shakllantirish. Biroq metodologik yondashuv va ruhiy yo‘l farqlidir.

XULOSA

Yassaviylik va Naqshbandiylik tariqatlari doirasida komil inson g‘oyasining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, tasavvuf falsafasida komillik tushunchasi faqat diniy-amaliy konsepsiya emas, balki chuqur ontologik, axloqiy va ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgan universal inson modeli hisoblanadi. Har ikki tariqat komil insonni ma’naviy poklangan, nafs ustidan g‘alaba qozongan va jamiyatda axloqiy namuna bo‘la oladigan shaxs sifatida talqin qiladi.

1. Ontologik xulosa

Ontologik jihatdan komil inson – bu ilohiy sifatlarning inson qalbida tajallisi hisoblanadi. Yassaviylikda bu tajalli riyozat va zuhd orqali, Naqshbandiylikda esa ichki hushyorlik va zikr orqali amalga oshadi. Har ikki yondashuv insonni moddiy mavjudot sifatida emas, balki ruhiy mavjudot sifatida ko‘radi.

Tasavvufiy ontologiyada inson ikki qirrali mavjudot sifatida qaraladi: jism va ruh. Komillik ruhning jism ustidan ustuvorlikka erishishi orqali amalga oshadi. Yassaviylik bu ustuvorlikni asketik tajriba orqali, Naqshbandiylik esa ichki uyg‘unlik orqali izohlaydi.

2. Axloqiy-falsafiy xulosa

Axloqiy jihatdan komil inson modeli zamonaviy axloqiy inqiroz sharoitida muhim ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv davrida moddiy manfaat ustuvorligi kuchayib, ma’naviy qadriyatlar ikkinchi o‘ringa tushib qolayotgan bir paytda tasavvufiy komillik modeli insonni ichki muvozanatga chaqiradi.

Yassaviy modeli sabr, qanoat va kamtarlikni ustuvor deb biladi. Naqshbandiy modeli esa mas’uliyat va ijtimoiy faollikni komillik mezoni sifatida ko‘rsatadi. Shu jihatdan Naqshbandiylik zamonaviy jamiyatga yaqinroq model sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Ijtimoiy-strategik ahamiyat

Komil inson konsepsiyasi zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan model hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida:

- Nafsni nazorat qilish
- Ichki hushyorlik
- Ijtimoiy mas’uliyat
- Ma’naviy poklik

kabi qadriyatlarni shakllantirishda tasavvufiy model samarali konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Yassaviylik asketik-introspektiv modelni taklif etsa, Naqshbandiylik faol-ijtimoiy modelni taklif qiladi. Har ikki model uyg‘unlashtirilgan holda zamonaviy ma’naviy tarbiya konsepsiyasini shakllantirish mumkin.

4. Umumiy ilmiy xulosa

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1.Komil inson g‘oyasi tasavvuf falsafasining markaziy kategoriyasidir.

2.Yassaviylik komillikni riyozat va asketik ruh orqali talqin qiladi.

3.Naqshbandiylik komillikni ichki zikr va ijtimoiy uyg‘unlik asosida izohlaydi.

4.Har ikki tariqat komillikni ruhiy poklanish mahsuli sifatida talqin qiladi.

5.Komil inson modeli zamonaviy ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimida dolzarb konseptual ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Наср С. Ҳ. Ислом маънавияти. – Теҳрон: Ҳикмат, 2003. – 360 б.
2. Шиммел А. Ислом мистицизми. – М.: Республика, 2000. – 410 с.
3. Ибн Араби. Фусус ал-ҳикам. – Қоҳира: Дар ал-Кутуб, 1980. – 420 с.
4. Ғаззолий Абу Ҳомид. Ихё улум ад-дин. – Қоҳира: Дар ал-Маърифа, 1997. – 580 с.
5. Читтик У. Суфий йўл билими (The Sufi Path of Knowledge). – Олбани: SUNY Press, 2005. – 295 p.
6. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Шарқ, 2009. – 320 б.
7. Яссавий А. Девони ҳикмат. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1993. – 256 б.
8. Нақшбанд Б. Рисолаи Қудсия. – Т.: Моваройуннаҳр, 2004. – 180 б.
9. Эрнст К. Суфизм. – Бостон: Shambhala, 2011. – 310 p.
10. Иброҳимов Н. Нақшбандия таълимоти тарихи. – Т.: Университет, 2016. – 300 б.
11. Сулаймонов А. Марказий Осиё тасаввуфи тарихи. – Т.: Фан, 2012. – 280 б.
12. Маҳмудов Р. Яссавийлик фалсафаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2015. – 270 б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xaidarov Rahmatullo Ergashevich,
Qo'qon universiteti Andijon filiali Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Email: huroson2@gmail.com

ALISHER NAVOIY QARASHLARIDA KOMIL INSON MASALASI VA UNING ZAMONAVIY MA'NAVIY JARAYONLARDAGI FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida, xususan, "Hayrat ul-abror" dostonida ifodalangan "komil inson" konsepsiyasining falsafiy va ma'naviy mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda komillik masalasiga tarixiy-falsafiy yondashuv asosida izoh berilib, insonning ma'naviy hayoti jamiyatning boshqa sohalari bilan uzviy aloqadorligi yoritiladi. Shuningdek, komil inson modeli bugungi "Yangi O'zbekiston" ma'naviy hayoti bilan uyg'unligi, shaxsning bunyodkorlik salohiyati va ma'naviy immunitetini shakllantirishdagi o'rni tahlil etiladi. Maqolada Navoiy ijodida ilgari surilgan g'oyalar asosida jamiyatda ijtimoiy apatiyani bartaraf etish, ma'naviy uyg'onishni kuchaytirish va yoshlarda komillik idealini shakllantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, komil inson, ma'naviyat, ijtimoiy-falsafiy tahlil, Yangi O'zbekiston, bunyodkorlik, milliy qadriyatlar.*

Хайдаров Рахматулло Эргашевич,
доцент кафедры истории и социальных наук Андижанского филиала Кокандского университета

ВОПРОС О СОВЕРШЕННОМ ЧЕЛОВЕКЕ В ИСТОРИЯХ АЛИСЕРА НАВАЯ И ЕГО ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В СОВРЕМЕННЫХ ДУХОВНЫХ ПРОЦЕССАХ

Аннотация. *В статье анализируется философская и духовная сущность концепции «совершенного человека», отражённой в произведениях Алишера Навои, в частности в поэме «Хайрат ул-аброр». Исследование основано на историко-философском подходе к проблеме совершенства личности. Автор показывает, что духовная жизнь человека тесно связана с другими сферами общественной жизни. Кроме того, рассматривается взаимосвязь модели совершенного человека с духовной жизнью современного общества «Новый Узбекистан» и её роль в формировании созидательной личности и духовного иммунитета. На основе идей Навои обсуждаются пути преодоления социальной апатии и воспитания нравственно зрелой молодёжи.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, совершенный человек, духовность, социально-философский анализ, Новый Узбекистан, созидание, национальные ценности.*

Rakhmatullo Ergashevich Khaidarov,
Associate Professor, Department of History and Social Sciences, Andijan Branch of Kokand University

THE QUESTION OF THE PERFECT MAN IN THE STORIES OF ALISHER NAVAI AND ITS PHILOSOPHICAL INTERPRETATION IN CONTEMPORARY SPIRITUAL PROCESSES

Abstract. *This article examines the philosophical and moral essence of Alisher Navoi's concept of the "Perfect Man," as reflected in his work* Hayrat ul-abror. *The study employs a historical and philosophical approach to the problem of human perfection, highlighting the interconnection between moral life and other spheres of social existence. The paper also explores the relevance of Navoi's model of the perfect man to the spiritual life of "New Uzbekistan," emphasizing its role in shaping a creative personality and spiritual resilience. Based on Navoi's ideas, the research proposes ways to overcome social apathy and foster moral maturity among youth.*

Keywords: *Alisher Navoi, perfect man, spirituality, socio-philosophical analysis, New Uzbekistan, creativity, national values.*

Kirish

Zamonaviy globallashuv jarayonlari bugungi kunda insoniyat taraqqiyotining muhim va ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy sohalarda tezkor va murakkab shakllarda namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonlar inson hayotining deyarli barcha jabhalariga bevosita ta'sir ko'rsatib, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy olami, axloqiy tasavvurlari va ijtimoiy ongining shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi davrda kuchayib

borayotgan turli axborot oqimlari, g‘arbona turmush tarzining ommalashuvi hamda individualistik qarashlarning ustuvorlik kasb etishi natijasida ma’naviy beqarorlik, axloqiy loqaydlik va qadriyatlar tizimidagi uzilishlar tobora yaqqolroq ko‘zga tashlanmoqda. Bunday jarayonlar jamiyatda ma’naviy tanazzul, axloqiy relativizm va ijtimoiy apatiya kabi salbiy holatlarning kuchayishiga zamin yaratmoqda.

Shu jihatdan qaraganda, inson va jamiyat hayotida barqaror ma’naviy muhitni shakllantirish, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash zamonaviy falsafaning eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda milliy, diniy-falsafiy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlikda o‘rganish, ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan boy ilmiy va ma’naviy merosdan samarali foydalanish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, jahon falsafiy tafakkuri tarixida o‘ziga xos va beqiyos o‘ringa ega bo‘lgan buyuk mutafakkir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy merosi mazkur masalalarni tahlil etishda g‘oyat muhim manba hisoblanadi. Uning inson kamoloti, ma’naviy barkamollik, axloqiy yetuklik, adolat va insonparvarlik haqidagi chuqur falsafiy qarashlari bugungi globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarga yechim topishda muhim ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Alisher Navoiy inson konsepsiyasining asosini tashkil etuvchi strukturaviy yondashuvda borliq haqidagi ta’limot — ontologiya markaziy o‘rin egallaydi. Bu ta’limot insonning mavjudlikdagi o‘rni, mohiyati, tafakkur tarzi hamda uning ijtimoiy va tabiiy borliq bilan o‘zaro munosabatlarini tahlil etishga qaratilgan. Xususan, “inson va inson”, “inson va ijtimoiy guruh”, “inson va tabiat”, “inson va muhit” kabi munosabatlarning o‘zaro aloqadorlikda rivojlanishi insonni anglash jarayonida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tizimda insonning tabiat va jamiyatda mavjud nomaqbul xulq-atvorni isloh etish yo‘lida faoliyat yuritishi markaziy maqsad sifatida talqin qilinadi.

Navoiy fikricha, insonning tafakkur bosqichida — ya’ni ratsional idrok jarayonida — hissiy bilish bosqichiga nisbatan chuqurroq anglash, idrok etish va tafakkur qilish orqali borliq mohiyatini tushunish mumkin. Ana shu jarayon insonning ma’naviy faoliyatini yanada samarali qiladi. Natijada gipostezialashuv hodisasi — ya’ni mavjud narsalar va hodisalarning inson tafakkurida fikran mustaqil mohiyatga aylanishi, ularga ob’yektiv xususiyatlar berish jarayoni yuzaga keladi. Bu holatni ma’naviy yaratuvchanlik sifatida izohlash mumkin.

“Inson va tabiat”, “inson va tarix (din)”, “inson va jamoa”, “inson va muhit” o‘rtasidagi munosabatlar majmuasi Navoiy tafakkurida inson kamolotiga erishishning asosiy mezoni sifatida qaraladi. Kamolotga eltuvchi yo‘l sifatida insonning yaratuvchi faoliyati — ya’ni o‘zini, atrofini va jamiyatni ma’naviy jihatdan takomillashtirish harakati — Navoiy falsafiy-ta’limiy qarashlarining markazida turadi.

Alisher Navoiy falsafasida komil insonni tarbiyalash masalasi, avvalo, shaxsning o‘z “men”ini anglash jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Insonning kamolot sari intilishi tabiiy va ichki ehtiyoj darajasiga ko‘tarilmaguncha, uning hayotiy faoliyatida mazmun, maqsad va ma’naviylik to‘laqonli namoyon bo‘lmaydi. Shu bois “men” tushunchasi insonning ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘zini anglash, o‘zligini namoyon etish hamda yaratuvchan subyekt sifatida shakllanishining markaziy kategoriyasi sifatida e’tirof etiladi.

Navoiy inson kamolotiga erishish jarayonida e’tiqodning shakllanishiga alohida e’tibor qaratadi. Uning qarashlarida irratsional diniy bilishning ratsional ilmiy bilishdan ustun jihati amaliy faoliyatga undovchi kuch — e’tiqod bilan bevosita bog‘lanadi. Bu jihat diniy bilimning faqat bilish bilan cheklanmay, insonni ma’naviy va axloqiy jihatdan faol harakatga chorlaydigan ichki motivatsiya manbai ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv F. D. Shleyermaxer qarashlari bilan hamohang bo‘lib, u diniy bilimni sof ilmiy bilim bilan tenglashtirmaydi, chunki teologik bilishda o‘zlashtirish jarayoni va o‘zlashtirilganga amal qilish e’tiqod hamda chuqur ruhiy kechinmalar bilan uzviy bog‘liqdir [1].

Demak, Alisher Navoiyning inson haqidagi ta’limotida ontologik, axloqiy va teologik yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu uyg‘unlik asosida inson nafaqat biluvchi subyekt, balki yaratuvchi, o‘z mohiyati va mavjudligini anglash orqali borliqdagi ma’naviy muvozanat va uyg‘unlikni ta’minlashga qodir bo‘lgan yetuk mavjudot sifatida talqin etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

“Inson va jamiyat”, “Inson va muhit” o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik inson kamolotini ta’minlashda muhim funksional ahamiyat kasb etadi. Chunki jamiyatning ma’naviy hayoti inson qadriyatlarining ifodalanishi hamda ma’naviy madaniyatining amaliy ko‘rinishi orqali namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy o‘z falsafiy qarashlarida Islomning asosiy kategoriyalaridan foydalanib, kamolotning me’yoriy rivojlanish bosqichlarini belgilab bergan.

Shu ma’noda, Toxir Malikning “Odamiylik mulki” asarida ilgari surilgan yondashuv diniy, axloqiy va madaniy jihatdan e’tiborga molikdir. Muallif “Odamning kamoli faqat sog‘lik va kuch bilan belgilanmaydi, balki jismoniy, aqliy va axloqiy yuksalish bir butun holda inson kamolotini tashkil etadi. Inson jismi, aqli va axloqi har qanday kasallik va nuqsonlardan yiroq bo‘lishi lozim”[2], — deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, P.Brajenas ham insonda mavjud muammolarni badiiy va ma’naviy ta’limotlar asosida hal etish, ya’ni ichki resurslarni maqsad sari safarbar etish insoniy faoliyatning muhim metodologik asosini tashkil etishini qayd etadi.

Shu nuqtai nazardan, Navoiy yaratgan “Komil inson konsepsiyasi”da Islomiy hikoyatlar, rivoyatlar va hikmatlar “Inson – Tarix (Din)” o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikda talqin qilinadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida komil insonni shakllantirish masalasi ijtimoiy va madaniy taraqqiyot siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, komil inson haqidagi qarashlarni zamonaviy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirgan integrativ konseptual modelni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Mazkur jarayon faylasuf, sotsiolog hamda pedagog olimlardan inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalarni har tomonlama va tizimli tarzda tahlil etishni, shuningdek, ilmiy asoslangan, aniq o‘lchov va mezonlarga ega bo‘lgan metodologik yondashuvlardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqqan holda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, “Siz o‘zingizdagi qaysi jihatlarni boshqalarga ibrat deb bilasiz?” degan savolga respondentlarning 52% (416 nafar) — kamtarlik va odamajratmaslikni, 34% (272 nafar) esa — sabr va mehribonlikni eng muhim fazilat sifatida ko‘rsatgan. Har ikki javob toifasida yuksak ma’naviy fazilatlarning mujassamligi, ularda idealning yetakchi roli yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu masala Sharq falsafasida alohida o‘rin tutib, komil inson konsepsiyasining tarkibiy unsurlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi[3].

Navoiy “Komil inson konsepsiyasi”da komillikni diniy-falsafiy va ijtimoiy-falsafiy mazmunda talqin etadi. Unga ko‘ra, insonning ma’naviy qiyofasi har qanday sharoitda ulug‘lanishi lozim. Navoiy qanoatni inson hayotidagi eng muhim axloqiy mezon sifatida e’tirof etadi:

“Kimki qanoatni o‘ziga kasb qilgan bo‘lsa, bilki qanoat uni boy qiladi. Oltin, kumush va zeb-ziynatni boylik deb bilma, haqiqiy boylik — qanoat boyligidir. Qanoat oltini hech qachon yo‘qolmaydi. Ana shu oltinni qo‘lga kiritib, shu orqali boyishga harakat qil. Kulbada qanoat bilan o‘tirgan darvesh, tama’gir podshohdan afzaldir”[4].

Navoiy nazarida, qanoat insonni nomaqbul xatti-harakatlardan saqlovchi ichki kuchdir. Qanoatni o‘z hayotiy prinsipiga aylantira olgan shaxs “Inson–inson” va “Inson–jamiyat” munosabatlarida o‘z nafsini nazorat qila oladi. Zamonaviy nuqtai nazardan qaralganda, qanoat tuyg‘usidan yiroq insonlar noqonuniy yer savdosi, firibgarlik, o‘g‘irlik yoki mol-mulkka noqonuniy egalik qilish kabi jinoyat turlariga moyil bo‘lishadi.

Alisher Navoiy e’tiqod va iymonni insonning ma’naviy rivojlanishini ta’minlovchi asos sifatida talqin etadi. U iymonli inson o‘z xulqini doimiy nazorat qila olishini ta’kidlaydi: “Har qanday odamning boshiga taqdir g‘am solsa-yu, ammo uning bir hamdard do‘sti bo‘lmasa, sirini saqlash uchun tikib qo‘ygan lablarini ocholmasa, ko‘nglidagi dardni hech kimga aytolmasa, dard tanasidan chiqib alangalanadi, tutuni osmonga o‘rlaydi, balo tig‘i ko‘ksini yoradi va dard uni halok qiladi”[4].

Ijtimoiy falsafada jamiyatning ma’naviy hayoti tizim sifatida o‘rganilib, uning boshqa ijtimoiy sohalar bilan aloqadorligi tartibga soluvchi (regulyativ) funksiyani bajaradi. S.Ye.Krapivenskiy bu masalaga tarixiy-falsafiy yondashib, “Ma’naviy hayot genetik jihatdan jamiyatning boshqa sohalari hayoti bilan bevosita bog‘liqdir”[5], — deya ta’kidlaydi.

Navoiy “Komil inson” ta’limotida jamiyat hayotini ta’minlovchi va rivojlantiruvchi kuch sifatida insonni markazga qo‘yadi. “Inson–inson”, “Inson–siyosiy hokimiyat”, “Inson–ijtimoiy makon” kabi munosabatlarda yuzaga keluvchi ziddiyatlar insondan o‘rganish, moslashish, o‘zgarish va yangilanishni talab etadi. T.Norov Alisher Navoiy gumanistik qarashlarining O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan uyg‘unligini tahlil qilib, quyidagicha yozadi: “...Inson kamolotga yetishguncha juda ko‘p azob-uqubat, zahmat chekadi. Qisqa umr davomida odamlar kibru havo, mansab va maqom uchun talashib, umrining qanday o‘tganini bilmay qoladilar, — deydi Navoiy”[6].

Falsafiy jihatdan mulohaza yuritilsa, jamiyat hayotidagi har bir o‘zgarish inson zimmasiga yangi ma’naviy sinov va mas’uliyat yuklaydi. Agar insonning ma’naviy poydevori mustahkam bo‘lsa, u bu o‘zgarishlarga moslasha oladi. Shu bois Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” asarida iymon, e’tiqod va ishonchni inson kamolotining asosi sifatida talqin etib, quyidagicha yozadi:

“Buki ko‘ngul dersen erur bu yurak, Ism ko‘ngul birla anga mushtarak”[7]. Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, barcha bunyodkorlik ishi inson kamolotini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Uy-joy bilan ta’minlash, sog‘liqni saqlash, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy yordam, kambag‘allikni kamaytirish va xususiy ishlab chiqarishni rivojlantirish yo‘lidagi davlat siyosati ijtimoiy davlatni barpo etish g‘oyasini ifodalaydi. Navoiy esa inson kamoloti orqali nafaqat jamiyat taraqqiyotini, balki komil inson modelining dinamik, rivojlanishga ochiq tizim ekanligini ta’kidlaydi.

M. Muhiddinov “Hayrat ul-abror” asaridagi so‘fiylik g‘oyalarini tahlil qilar ekan, quyidagicha xulosa beradi: “Navoiy insonni ikki asos — modda va ruhdan iborat deb biladi. Unga ko‘ra, inson qalbi Alloh ilmi, qudrati va nurining manbai (mahzani)dir. Inson ana shu ilohiy manbani kashf etib, ruhini poklab, kamolot sari yuksalib, foniylikdan o‘tib, ilohiy olamga yetishmog‘I lozim. Komil inson — ilohiy ilmlarni egallagan, qalbi nurli va borliqdagi har bir narsa mohiyatidan ogoh zotdir. Ammo 731uy o‘l nihoyatda mushkul bo‘lib, Alloh sari poklanib bormoq orqali amalga oshadi”[8].

Bizningcha ham, Navoiy merosida bunyodkorlikning asosiy manbai ma’naviyatdir. Uning qarashlarida inson tanasining jismoniy rivojlanishi (go‘zalligi) bilan bir qatorda, ruhiy faoliyati (psixik dunyosi)ning takomili alohida

ta’kidlanadi. Bu masala, afsuski, jahon falsafasi tarixida o‘z ifodasini to‘liq topmagan. Shu kungacha Alisher Navoiy yaratgan “Komil inson konsepsiyasi” falsafiy ta’limotlar tizimida mustaqil yo‘nalish sifatida yetarlicha tadqiq etilmagan.

Buning bir necha sabablari mavjud:

birinchidan, komil inson konsepsiyasining sharqona modeli va uning ichki strukturasini tizimlashtirishga oid izlanishlar yetarli emas;

ikkinchidan, Navoiyning barcha ijod namunalarida mavjud “ma’naviy inson” va “taqvodor inson” konseptlari asosida komil inson haqidagi falsafiy talqin bugungi davrning ilmiy talablari va ijtimoiy ehtiyojlari asosida qayta ochib berilmagan. Shu nuqtai nazardan, axloqiy ong va axloqda mujassam umuminsoniy qadriyatlar masalalariga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Navoiy qarashlarida axloq — jamiyat hayotining muhim atributi, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi. Ijtimoiy davlat boshqaruvi kontekstida esa axloq regulyativ (tartibga soluvchi) funksiyani bajaruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, jamiyatning ma’naviy ehtiyoji, aslida, unda ifodalangan ijtimoiy taraqqiyot zaruratining o‘ziga xos shaklidir. Boshqacha aytganda, jamiyat ravnaqi ma’naviy muammolarning ijtimoiy jabhalar bilan uyg‘un holda hal etilishini talab etadi.

Navoiy “ma’naviy inson” va “taqvodor inson” konseptlarini alohida shaklda emas, balki yaxlit ma’naviy tizim sifatida tasvirlaydi. U insonning Haqqa yaqinlashish yo‘lida qanday fazilatlarni o‘zlashtirishi va qanday xulq-atvorni hayotiy mezon sifatida amal qilishini aniq ko‘rsatib beradi. Bu yondashuv ijtimoiy ongni shakllantirishga, insonni komillikka yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Chunki jamiyatda ifodalanadigan ijtimoiy ong o‘zining asosiy funksiyasi doirasida inson kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi mantiqiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi[9].

Tahlil va natijalar

Y.Jumaboyev o‘zining “O‘rta Osiyo etikasi ocherklari” asarida insonning ma’naviy-milliy mohiyatini quyidagicha tavsiflaydi: “...o‘z burchini ado etish, dushman ustidan g‘alaba qozonish yo‘lida qahramonlarcha jonini fido qilish, har qanday mashaqqatlarga bardosh berish, sevgi va muhabbatdan kechish, o‘z qabiladoshlarining or-nomusi uchun oxirigacha kurashishga tayyor turish”[10].

Alisher Navoiy esa ushbu masalaning ildizini inson siyratidan, ya’ni uning ichki ma’naviy mohiyatidan izlaydi. U inson tabiatidagi ruhiy-axloqiy quvvatning hayotiy ahamiyatini misollar orqali ifodalaydi:

“Mevali daraxtning shoxi qancha meva bersa, teruvchi unga shuncha tosh otadi. Kon qancha pok gavhar bersa, konchi uning ko‘ksini shuncha ko‘p chok qiladi. Sham uyning ichu tashini qanchalik yoritmasin, uy egasi uning boshini shuncha ko‘p uzadi”[4].

Bu misollar insonning bunyodkorlik faoliyatida ma’naviyatning — xulq-atvor mazmuni va mohiyatini belgilovchi asosiy mezon sifatidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Faylasuf M.K.Mamardashvili “Как я понимаю философию” asarida ijtimoiy borliqning ichki harakatlarini tahlil qilib, “ijtimoiy tizim o‘zida ichki elementlararo harakatlarning mazmunini ifodalaydi”[11], deya ta’kidlaydi. Bu yondashuvdan kelib chiqib, Navoiy ham o‘z davridagi ijtimoiy muammolarni “ma’naviy inson” va “taqvodor inson” konseptlarini ideallashtirish orqali ifoda etadi. Natijada, u ijtimoiy ongni shakllantirish jarayonini zamon va makon o‘rtasidagi mantiqiy uyg‘unlikda ko‘rsatadi.

Mutafakkir uchun har qanday yaratuvchanlikning ham sub’yekti, ham ob’yekti insondir. Shu bois, Navoiy kamolotga erishishda idealning — ya’ni Haq taoloni bunyodkorlik va tartib manbai sifatida anglashning — muhimligini ta’kidlaydi. U Odam va Havvoning yaratilishini, inson kamolotining manbaiga aylanish jarayonini Qur’oni karimdagi ilohiy manbalar asosida izohlaydi.

Navoiy ijodini o‘tmish va zamonaviy kontekstda o‘rganayotgan tadqiqotchilar ham bu masalaga e’tibor qaratib, ko‘pincha “ma’naviy inson” konseptidan ko‘ra “taqvodor inson” konseptini ustuvor deb bilishadi. “Hayotdan keyingi hayot” asari muallifi Raymond Moudi ham insonning ruhiy rivojlanishini tahlil etib, tashqi omillarning ta’sirini sezilarli va sezilarsiz shakllarda namoyon bo‘lishini qayd etadi hamda idealga intilish insonning keyingi hayotdagi mazmundorligini ta’minlovchi omil ekanligini ko‘rsatadi[12].

Garchi tadqiqotchilar tomonidan insonda mujassam bo‘lishi zarur bo‘lgan sifatlar aniq tizimga solinmagan bo‘lsa-da, Navoiy merosida turli hikoyatlarning kulminatsion nuqtalarida insoniylik, ma’naviylik va taqvodorlikning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asoslanadi. Bu konseptlar bir-birini to‘ldiruvchi va rivojlantiruvchi falsafiy birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijada, “ma’naviy inson” va “taqvodor inson” konseptlari ma’naviy me’yorni belgilovchi va jamiyatdagi axloqiy tartibni ta’minlovchi elementlar sifatida talqin etiladi.

Ratsional nuqtai nazardan qaraganda, jamiyat taraqqiyotida ushbu inson modellarining roli belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Chunki Navoiy yaratgan “komil inson konsepsiyasi” quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. **Xulq-atvorda kuzatiladigan xususiyatlarning birligi;**
2. **Xulq-atvorda invariativlik (barqarorlik)ning mavjudligi;**

3. **Xulq-atvorda krosssituativlik (turli sharoitlarda izchillik)ning ifodalanishi.**

Mazkur prinsiplarga tayanilgan holda, Navoiy ta'limotida inson komilligi — bu ma'naviy uyg'unlik, axloqiy izchillik va ruhiy barqarorlikni o'zida mujassam etgan ideal sifatida talqin qilinadi.

Xulosa va takliflar

Zamonaviy globallashuv hamda texnogen taraqqiyot sharoitida ommaviy axborot vositalari orqali iste'molchilik ruhini targ'ib qiluvchi, ma'naviy va milliy qadriyatlarga zid bo'lgan inson modeli tobora keng tarqalayotgan bir paytda, ma'naviy inson konsepsiyasi nafaqat milliy qiyofani aks ettiruvchi omil, balki milliy hayot tarzining ajralmas ifodasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Shu ma'noda, ushbu konsept jamiyat taraqqiyotini tartibga soluvchi hamda shaxs va ijtimoiy jarayonlarni to'g'ri yo'naltiruvchi regulyativ va yo'naltiruvchi funksiyalarni bajarishga xizmat qilishi zarur. Birinchidan, **komillik masalasiga tarixiy-falsafiy yondashuv** shuni ko'rsatadiki, ma'naviy hayot jamiyatning boshqa sohalari bilan bevosita bog'liq bo'lib, u Alisher Navoiyning komil inson haqidagi qarashlarida mukammal ifodasini topgan. Jamiyatning ma'naviy hayoti inson xulq-atvorida namoyon bo'lib, unda uchta asosiy prinsip kuzatiladi:

1.xulq-atvor xossalarining birligi;

2.xulq-atvorda invariantlik (barqarorlik);

3.xulq-atvorda krosssituativlik (turli sharoitlarda izchillikning saqlanishi).

Ikkinchidan, **"Hayrat ul-abror"** asarida tasvirlangan komil inson modeli **Yangi O'zbekistonning ma'naviy hayoti bilan uzviy bog'liq** bo'lib, bu bog'liqlik inson fe'l-atvori orqali o'z ifodasini topadi. Mazkur yondashuv quyidagi formulada ifodalanadi: **"Siyosiy amaliyot – Mafkuraviy tamoyillar – Inson – Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat = Ijtimoiy-siyosiy jarayon".**

Bu jarayonda bunyodkor insonning yaratuvchanlik faoliyati namoyon bo'lib, quyidagi shartlar ta'minlanishi zarur:

a) ma'naviyatning rivoji (shaxsiy va ijtimoiy darajada); b) ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning yetarli darajada yaratilishi.

Uchinchidan, **Mir Alisher Navoiy ilmiy merosida bunyodkorlikning asosi ma'naviyatda** deb qaraladi. U inson kamolotining asosiy omillari sifatida **jismoniy go'zallik, ruhiy faollik va ma'naviy yetuklik**ning uyg'unligini ta'kidlaydi. Shu bois, zamonaviy yozuvchi va olimlar oldida **barkamol yoshlar tarbiyasiga bag'ishlangan ilmiy va badiiy risolalar yaratish hamda ularni keng targ'ib etish** dolzarb vazifa sifatida turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шлейермахер Ф.Д. Речи о религии к образованным людям, её презирающим. Монологи. –СПб.: «Алетейя», 1994.

2. Тоҳир Малик. "Одамийлик мулки" – Ҳусну хулқ" (Ахлоқ китоби). – Т.: "Тоҳир МАЛИК номидаги нашриёт уйи", 2022. – Б. 15

3. Шарқ фалсафаси. Масъул муҳаррирлар: Иброҳимов Н.И., Аҳмедова М.А. Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. – Б. 231-248

4. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. (яхшилар ҳайрати). Насрий баён қилувчи А.Ҳайитметов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. –Б. 59

5. Крапивенский С.Э. Социальная философия: Учебник для студентов вузов. – М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, 1998. –С. 215

6. Норов.Т.О. Алишер Навоий инсонпарварлик қарашларининг мустақил Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаёти билан уйғунлиги // Диссертация автореферати. –Т.: 2019 – Б.14

7. Алишер Навоий. Хамса. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 13

8. Муҳиддинов М. "Ҳайрат ул-аброр"да сўфийлар сиймоси". Алишер Навоий ва XXI аср. –Т.: «ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasi. 2021 – Б. 29

9. Ильенков Э.В. диалектическая логика. – М.: 1984. –С. 165

10. Жумабоев Й. Ўрта Осиё этикаси очерклари . – Т.: "Ўзбекистон", 1980. –Б. 19

11. Жумабоев Й. Ўрта Осиё этикаси очерклари . – Т.: "Ўзбекистон", 1980. –Б. 19

12. Moode R.A. Life After Life: The Investigation of a Phenomenon-Survival of Bodily Death. N.-Y., 1976. P.36

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Rasulov Jamshidbek Maxammadimin o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

IJTIMOIY DETERMINANT TUSHUNCHASI VA UNING FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada falsafiy va ijtimoiy fanlar kontekstida "determinatsiya" hamda "determinizm" tushunchalarining nazariy-metodologik mazmuni tahlil qilinadi. Maqolada determinatsiya atamasining lug'aviy va falsafiy talqinlari, uning sabab, omil, shartlanganlik kabi tushunchalar bilan o'zaro aloqasi ochib beriladi. Determinizmning klassik, statistik (ehtimollik), nolinyali va tizimli yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishdagi imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy determinizm paradigmasi doirasida jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik, sog'liq, ijtimoiy tengsizlik va stratifikatsiya masalalariga ta'sir etuvchi determinantlar falsafiy-ontologik va epistemologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *determinatsiya, determinizm, ijtimoiy determinizm, sababiyat, ehtimollik, nolinyali deterministik model, ijtimoiy determinantlar, tizimlilik, falsafiy metodologiya.*

Rakhmatullo Ergashevich Khaidarov,
Associate Professor, Department of History and Social Sciences, Andijan Branch of Kokand University

THE QUESTION OF THE PERFECT MAN IN THE STORIES OF ALISHER NAVAI AND ITS PHILOSOPHICAL INTERPRETATION IN CONTEMPORARY SPIRITUAL PROCESSES

Annotation: *This article analyzes the theoretical and methodological content of the concepts of "determination" and "determinism" in the context of philosophical and social sciences. The article reveals the lexical and philosophical interpretations of the term determination, its relationship with such concepts as cause, factor, and conditionality. The classical, statistical (probability), nonlinear, and systematic approaches to determinism are comparatively analyzed, and their potential for explaining social processes is highlighted. Also, within the framework of the paradigm of social determinism, determinants affecting the issues of social development, social stability, health, social inequality, and stratification are analyzed from a philosophical-ontological and epistemological point of view.*

Keywords: *determination, determinism, social determinism, causality, probability, nonlinear deterministic model, social determinants, systematicity, philosophical methodology.*

Рахматулло Эргашевич Хайдаров,
доцент кафедры истории и социальных наук Андижанского филиала Кокандского университета

ВОПРОС О СОВЕРШЕННОМ ЧЕЛОВЕКЕ В РАССКАЗАХ АЛИСЕРА НАВАИ И ЕГО ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В СОВРЕМЕННЫХ ДУХОВНЫХ ПРОЦЕССАХ

Аннотация. *В данной статье анализируется теоретическое и методологическое содержание понятий «детерминация» и «детерминизм» в контексте философских и социальных наук. В статье раскрываются лексические и философские интерпретации термина «детерминация», его связь с такими понятиями, как причина, фактор и обусловленность. Проводится сравнительный анализ классического, статистического (вероятностного), нелинейного и систематического подходов к детерминизму, а также подчеркивается их потенциал для объяснения социальных процессов. Кроме того, в рамках парадигмы социального детерминизма с философско-онтологической и эпистемологической точек зрения анализируются детерминанты, влияющие на вопросы социального развития, социальной стабильности, здоровья, социального неравенства и стратификации.*

Ключевые слова: *детерминация, детерминизм, социальный детерминизм, причинность, вероятность, нелинейная детерминистическая модель, социальные детерминанты, систематичность, философская методология.*

So'nggi yillarda ilmiy-falsafiy adabiyotlarda "determinatsiya" atamasi keng ma'noda qo'llanilmoqda. Lekin, bu tushuncha bugungi kunda ham aniq va umumma'no ta'rifga ega emas. Qolaversa, falsafiy tadqiqotlar va ilmiy nashrlarda bu termini kam uchratamiz. Natijada esa uning falsafiy mohiyatini anglashda muayyan noaniqlik kuzatilmoqda. Falsafiy

izlanishlarda “determinatsiya” turli kontekstlarda, ya’ni “ehtimollik”, “kawsal”, “akausal”, “sotsiomadaniy”, “ijtimoiy-material” va “ideal” kabi iboralar bilan qo‘llaniladi. [13] Bizningcha, mazkur termin ilmiy doiralarda kam qo‘llanilishining asosiy sabablaridan biri, uning mukammal ta’rifi yo‘qligi hamdako‘p hollarda “sabab” va “omil” tushunchalari bilan uyg‘unlashtirilishidir. Har qanday holatda ham “determinatsiya” tushunchasi “determinism” bilan uzviy aloqada talqin qilinadi.

Dastlab, “determinatsiya”ning lug‘aviy ma’nosi antropomorfik xususiyat kasb etadi. Bu temin lotinchadan kirib kelgan bo‘lib “determinare” ya’ni “aniqlik”, “ajratib berish”, “chegara belgisi” degan ma’nolarini anglatadi. Shu o‘rinda, ““determinatsiya” biror bir predmetni xususiyatini boshqa predmetlardan farqini isbotlovchi va tasdiqlovchi jarayon sifatida ifodalaydi”. [14]

““Determinatsiya” tushunchasida “shartlanganlik” tushunchasi ham ifodalanadi”. “Bu – biror faoliyat oqibatida kelib chiqqan omil” hamda “faoliyatning dinamik va ta’sir qiluvchi aspektlarini ifodalaydi”. Ko‘plab tadqiqotchilar “determinatsiya”ni ijtimoiy determinizm xususiysatini aniq ifodalashda qo‘llaydi va uni “determinatsiyalanganlik” termini bilan sinonim tarzda shlatadilar. [23., 24., 25] Bizning fikrimizcha, “determinatsiya” umumiylikda hodisalarni boshqa jarayonlardan xususiyatini farqlash, shartlashva aniqlanash usullarini ifodalaydi. Bu jarayonlarning eng asosiy shakllari falsafada determinizm prinsipi doirasida o‘rganilib borilmoqda.

Jamiyatni rivojlanib borishi va ijtimoiy munosabatlar barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy determinantlarning o‘rni juda muhim faktor hisoblanadi. Ijtimoiy determinizm inson hayoti vauni taraqqiy harakatga keltiruvchi asosiy omillarni aniqlashda va tahlil etishda fundamental metodologik asosdir. Bu tendensiya ijtimoiy strukturalarning individual vajamoaviy dunyoqarashga ta’sirini tushuntirishda, shuningdek, ijtimoiy rivojlanishdagi barcha institutlarning sababiy bog‘liqliklarini tushuntirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy determinantlarning epistemologik va falsafiy-ontologik mazmun-mohiyatini tadqiq qilishda zamonaviy ijtimoiy fanlar doirasidagi tadqiqotlarga murojat qilish muhimdir. Ayniqsa, R.Wilkinson va K.Pickettlarning “iqtisodiy tengsizlik va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik” haqidagi tadqiqotlari muayyan xususiyat kasb etadi. Unga ko‘ra iqtisodiy tafovutlar jamiyatning umumiy ruhiyati va salomatlik hayot sifatiga ta’sir ko‘rsatishini isbotlab beradilar. Mazkur mualliflarning “Ruhiy muvozanat” asari ijtimoiy determinizm asosida ijtimoiy-iqtisodiy omillarning jamoa farovonligini shakllantirishdagi o‘rnini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, asar ijtimoiy stratifikatsiya tushunchasini yanada batafsil kontekstda aniqlash imkonini taqdim qiladi.

Bundan tashqari, tadqiqotchi M.Marmot o‘zining “Mavqe’ sindiromi” nomli tadqiqotida “insonlarning ijtimoiy mavqei bilan u yashab kelayotgan muhitdagi hayot davomiyligi va sog‘liqbilan bog‘liqlik jihatlarini” o‘rganadi. Uning tadqiqotlari natijasi esa, yuqori ijtimoiy mavqedagi insonlar pastroq mansabdagilarga qaraganda umr davomiyligi uzoq bo‘lishini aniqlagan. Bu esa ijtimoiy determinizm doirasida inson sog‘ligi tashqi ijtimoiy muhitga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatib beruvchi dalildir.

Ijtimoiy determinatlar individual darajadagi omillar bilan chegaralanib qolmaydi, u jamiyatning umumiyligiga ham bog‘liqdir.Ingliz tadqiqotchisi D.Black tomonidan olib borilgan “Tengsizliklar hisoboti” nomli ilmiy izlanishlarida “Buyuk Britaniya aholisining sog‘liqni saqlash borasidagi ijtimoiy tengsizliklarni ochib beradi”. Mazkur tadqiqotning ahamiyati shundaki, u sog‘liq bilan bog‘liq ijtimoiy determinantlar faqat iqtisodiy muvozanat bilan chegaralanib qolamy natijada ta’lim, turmush tarzi va ijtimoiy adolat bilan ham bog‘liq ekanligini ko‘rsatib beradi. Natijada, davlatning ijtimoiy-siyosiy islohotlarining deterministik xususiyati jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi muhimligi ekanligini ko‘rsatib beradi.

Ijtimoiy determinizm paradigmasi N.Kriegerning epidemiologik ilmiy nazariyalarida ham keltirib o‘tilgan. Uning “Epidemioligiya va xalq salomatligi” asari “sog‘liq bilan bog‘liq determinantlarning serqirra tabiati va ularning ijtimoiy tuzilmalar bilan aloqasini” yoritib beradi. Olim ijtimoiy determinizmni sog‘liqni saqlash sohasi bilan bog‘liqligini tadqiq etib, biologik determinatsi va ijtimoiy tuzilmalar orasidagi dialektik bog‘lanishlarni ochib beradi.

XVIII asrda fransuz mutafakkirlari A.Tyurgo va Sh.Monteske “geografik determinizm”, “ijtimoiy determinizm” va “geosiyosat” konsepsiyalarini qamrab olgan geografik maktab asoschilari hisoblanadi. Lekin, geografik makonva tabiiy sharoitlar jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishi kabita’limotlar antik davrda shakkalnib ulgurgan. Gippokrat, Gerodot, Polibiy, Strabon kabi mutafakkirlarning ta’limotlarida turli mintaqalar iqlimi va sharoitlariga urg‘u berib, inson va tabiat o‘rtasidagi aloqalarning ilmiy asosini aniqlash bilan birga, Yunoniston va O‘rta yer dengizi hududlarini hayotiy faoliyat uchun qulay joy sifatida talqin etganlar.

O‘rta asrlarda esa shunga o‘xshash g‘oyalar rivojlanishi Ibn Xaldun nomi bilan aloqador hisoblanadi. Ammo, jamiyat strukturasi va tarixiy qonuniyatlarini tabiiy tushuntiruvchi geografik determinizm g‘oyalari, ungacha hukm surgan ijtimoiy hayotning ilohiy xususiyati kabi diniy g‘oyalar va tushunchalarni qisib chiqara boshlagan ma’rifatparvarlik davrida vujudga keldi. Bu qarashlar o‘sha davr yangi kapitalistik munosabatlarga monand kelgan, shu uchunular Fransiya, Angliya va Germaniyada ommalashgan.

O‘zbek faylasuf olimalaridan N.Shermuhamedova “Ijtimoiy determinizm - ijtimoiy rivojlanish darajasi va yo‘nalishi birinchi navbatda moddiy ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi bilan belgilanishidir”, [30.189] deb ta’riflaydi. Shu

sababli tabiat odamzotning tarixiga aralashishi tabiiy, chunki hayot davomida va ishlab chiqarish strukturalarida inson faqatgina o‘zini takomillashtirmay, balki tabiatni ham o‘zgartitadi yoki aksincha. Natijada inson omilini tashkil etuvchi ijtimoiy mohiyatlar majmui o‘zgaradi. Bunda insonlarda ayrim fazilatlarning shakllanishi bilan birga jamiyat rivojiham avvalo, geografik muhit ta’siriga emas, moddiy ishlab chiqarish jarayoniga bog‘liq bo‘ladi. Insoniyat ishlab chiqarish faoliyatini tarixan o‘zgaruvchi xususiyatni tahlil qilishda muayyan tabiiylik biror ijtimoiy oqimlarga qanchalik ta’sir ko‘rsatishi tog‘risida gapirish mumkin degan xulosaga keladi.

Bizningcha, ijtimoiy determinizm faqatgina ijtimoiy fanlar emas, balki falsafiy, iqtisodiy tahlillar doirasida ham muayyan ahamiyatga ega. Mazkur tendensiya “inson hayoti va jamiyat strukturasi” o‘zgarishlarining sababiyatini anglashda asosiy kontseptsiyaga aylanadi. Ijtimoiy determinantlarning nazariy va metodologik negizlarini tadqiq etish esa, ijtimoiy-falsafiy bilimlarning ob’ektiv mezonlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Falsafiy qarashlarda “determinizm” tushunchasi muayyan mukammallik kasb etib, uni izohlashda bir necha variantlar mavjud. Bizningcha, falsafiy adabiyotlarda uchraydigan talqinlarni inobatga olib, determinizmni aniqlashda uchta asosiy yondashuvlarni keltirish mumkin.

Determinizmga birinchi ta’rif aniq tarzda “Materialistik dialektika – umumiy rivojlanish nazariyasi” nomli tadqiqotda keltirilgan. Ushbu manbada “determinizm – bu narsalar, hodisalar, jarayonlar va holatlarning mavjudligi hamda rivojlanishi ularni belgilovchi omillarga bog‘liqligi haqidagi falsafiy ta’limotdir”, deb ta’kidlanadi. Bu ta’rifda determinizmni umumiy qonuniyat bilan sabab-oqibat dialektikasidan kelib chiqib tushuntirilgan. Bizningcha, mazkur qarashlarda determinizm asosan “shartlanganlik” tushunchasiga ko‘proq e’tibor beradi. Bunday qarashlarda biror predmetning atrof-muhitga va undagi hodisalarga munosabati tushuniladiyoki ushbu hodisalarning mavjud bo‘lmasligi predmetning yo‘qligini hamda rivojlanmasligini anglatadi. Bu yondashuv determinizmda sabab va oqibat bog‘liqligini izohlab, har qanday voqelik biror ichki va tashqi omillar ta’sirida belgilanishini keltirib o‘tadilar.

Shui ta’kidlash kerakki, shartlanish jarayonlarida barcha sharoitlar bir xil ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Chunki, ularning ayrimlari o‘zidan yangi haqiqatlarni tug‘dira olmaydi yoki uni bevosita yarata olmaydi, balki haqiqatning yuzaga kelishi uchun sharoit yaratishi mumkin holos. Shu sababli, shartlanish jarayonlarini aniq tushunish uchun uning turli shakllarini sifat jihatidan farqlanishini inobatga olish zarur. Chunki, shakllarning xilma-xilligi obyektning rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Shulardan kelib chiqib, “determinism” berilgan ta’riflarda muayyan noaniqligi borligini ko‘rishimiz mumkin. Shunday bo‘lsada, determinizm prinsipining asosiy xususiyatlaridan biri – “belgilanish” ekanligi hamta’kidlangan. Bu “determinatsiya”ning asl ma’nosi – “aniqlash” tushunchasi bilan ham ohangligiga olib keladi.

Berilgan ikkinchi ta’rifda determinism “dunyoning barcha narsalari va hodisalarining umumiy qonuniyatli aloqasi” deb tushuntiriladi. [29.15] Bu yondashuvda asosiy nuqta sifatida deterministik prinsip belgilanib, tabiat va jamiyat aloqadorligida taraqqiyot jarayonlari aniqlovchi hamda boshqaruvchi mavjud obyektiv qonuniyatlarga asoslanadi. Biroq, sovet davrida determinizm prinsipining talqinlarida uning asosiy xususiyatlari sifatida “qonuniyat va aniq belgilanganlik”ni mutlaqlashtirish kuzatiladi. Bu esa deterministik yondashuvlarning chegaralanishini, murakkab dinamikasini yoki aks ettirish imkoniyat doiralarini cheklagan deyish mumkin.

Bizningcha, bu qarashlar voqelikni to‘liq aks ettira olmaydi. Chunki, bunday mutlaq aniqlik ideal tushunchalar doirasida ham, material dunyoda ham juda kam kuzatiladi. Asl mohiyatida deterministik yondashuvni qat’iy belgilanganlik deb talqin qilish ehtimollik (statistik) determinism tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq. Falsafiy tadqiqotchilar tasodifiy hodisalar majmuida qat’iy qonuniyatlar mavjudligini ilmiy asoslashga harakat qiladilar. Yu.V.Sachkov ushbu tendensiya mohiyatini “Har bir predmet tasodifiy harakat qiladi, lekin umumiylikda ular zaruratni hosil qiladi”, degan qarashlari bilan izohlaydi. [27.255] Bu mulohaza tasodif bilan zaruratning bir-biriga bog‘liqligini namoyon qiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni hisobga olib M.V.Dyomin tomonidan “determinism” tushunchasiga berilgan ta’rifiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Unga ko‘ra: “determinizm – dunyo hodisalarining umumiy va universal aloqasi haqidagi ta’limotni qamrab oladi. Bu aloqalar esa hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikda, ularning o‘zaro belgilanishida namoyon bo‘ladi”. [18.45] Bu yondashuv “determinizm nazariyasini turli xildagi aloqalarni– sabab va oqibat, zarurat va tasodif, o‘zaro ta’sir, moddiy va ma’naviy munosabatlar kabi hodisalar tizimini qamrab oluvchi holatda tushuntiradi”. [19.216-218] Bu xususiyatlar birgalikda umumiy olam aloqasini shakllanishiga turki beradi. Bizningcha, mazkur ta’rif determinizmning mohiyatini mukammalroq aks ettiradi. Chunki, bunda aloqalarning asl tabiati saqlangan holda, hodisalar va voqealarning qat’iyligi yumshatib berilgan. Bu yondashuvlar ruhiy vamaterial dunyo hodisalarini inklyuzivlikda tushuntirish imkonini yaratadi.

Determinizm prinsipi falsafadagi tadrijiy shakllangan kategoriya tizimini mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur kategoriyalar orasida sabab va oqibat, shart va zarurat, tasodif va imkoniyat, haqiqat va qonuniyat kabi tushunchalar alohida o‘rinni egallaydi. Bular tizimlarning rivojlanish qonuniyatlari bilan ham bog‘liq, qarama-qarshilik tushunchasi muayyan nuqtalardagina kesishadi. Bizningcha, qarama-qarshilikni ham aslida rivojlanishni harakatga

keltirvchi kuch sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, determinizm prinsipi tizimlilik nazariyasi bilan ham chambarchas bog‘liqlikda bo‘lib, yaxlitlik kabi tushunchalarni ham qamrab oladi.

Tadqiqotlarimizga asoslanib yuqorida keltirilgan mulohazalar muayyan determinatsiya usullarini ifodalab beradi. Ular quyidagicha ta’riflanadi:

Birinchidan, sababiy determinatsiyada – konkret sabab va oqibatning bog‘liqligiga asoslanib hodisalarning rivojlanib borishi;

Ikkinchidan, tasodifiy determinatsiya – bu tasodif va zaruratning o‘zaro ta’siri xosilasida xodisalarning shakllanishi;

Uchinchidan, qonuniy determinatsiya – tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning ma’lum bir qonuniyatlarga asoslanishi va bo‘ysunishi;

To‘rtinchidan, funksional determinatsiya – bu tizim predmetlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ularning ta’siri orqali vujudga keluvchi determinatsiya;

Beshichidan, tizimli determinatsiya – muayyan tizim va strukturalar ichidagi qonuniyatlardan yuzaga keluvchi xususiyatdir.

Birinchi usul sabab va oqibat aloqasiga asoslanib, an’anaviy determinizmning asosiy prinsiplaridan birini tashkil qiladi. Sababiyat prinsipi o‘z mohiyatiga ko‘ra hodisalar va omillarni qamrab olishga asoslanadi. Bu hodisa va omillar tadqiq qilinayotgan mavzuning genetikasi va rivojlanishini asoslab, uning boshqa xususiyatlari va munosabatlariga ta’sir qiladi. Sababiyat prinsipi hodisalarning real bog‘liqligini ko‘rsatadi, ular yaxlitlikdagi tizimning tarkibiy qismlari sifatida o‘zaro ta’sir etadi. Butizim doirasida ayrim hodisalar muayyan sharoitlarda boshqa voqealar yoki jarayonlaroqibatlarning zaruriy vujudga kelishiga sabab bo‘ladi, ya’ni sababiyat o‘zaro genetik bog‘liqlikni namoyon qiladi. “Metodologik nuqtayi nazardan sababiyat prinsipi bilim olish subyektini sabab-oqibat zanjirlarini o‘rganishga yo‘naltiradi. Bu esa mazkur zanjirlarning o‘zaro kesishuvlari va o‘zaro ta’sirini tahlil qilish imkoniyatini ta’minlaydi”.

Ikkinchi determinatsiya bir-biriga bog‘liq hodisalarni va munosabatlarni o‘z ichiga oladi, biroq ular sababiy xarakterga ega bo‘lmaydi. Shu kabi munosabatlar hodisalar ta’sirini ifoda etsa-da, ular o‘rtasidagi sabab va oqibat bog‘liqligi ko‘rinmaydi. Masalan, muayyan tizimli aloqalar va bog‘lanishlar – hodisalar muayyan vaqtda birgalikda namoyon bo‘lsa ham, biri ikkinchisini bevosita yuzaga keltirmaydi. Shu bilan birga, ehtimollik munosabatlari aniq hisobotga tayangan qonunlar ko‘rinishida vujudga kelib, bu alohida hodisalarni emas, balki ularning bir necha takrorlanishlari oqibatida yuzaga keladigan prinsiplarni ifoda etadi. Shuningdek, “simmetriya, struktura, tizim, fazoviy va vaqtinchalik korrelyatsiyalar hamdeterminatsiya usullaridan biri sifatida qaraladi”. Ular hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib bersa-da, bu bog‘lanishlarda sababiylik tamoyiliga mavjud bo‘lmaydi, bunda asosan tizimning ichki munosabatlari, tartiblar va qonuniyatlarni ifodalaydi.

“Bilim olish tarixi shuni ko‘rsatadiki, determinizmni, ya’ni determinatsiya haqidagi ta’limotni uning faqat bitta shakli yoki turi bilan cheklash mumkin emas”. “O‘zaro bog‘liqlikning universal xususiyati nafaqat tabiiy jarayonlarda, balki ijtimoiy hayotning turli sohalarida ham namoyon bo‘ladi. Bu xususiyat inson faoliyatida tabiiy va ongli o‘zaro ta’sir shaklida ko‘rinadi” [26.33], “zamonaviy texnogen sivilizatsiyaning rivojlanishida fan va texnikaning o‘zaro aloqasida aks etadi”, [25.9] shuningdek, “jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari doirasida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, determinizmni har tomonlama tushunish va tahlil qilishda uning turli shakllari va usullarini inobatga olish zarur”. [28.67]

Amerikalik sotsiolog O.Tofflerning determinizm nazariyasining so‘nggi yuz yil ichidagi evolyutsiyasi haqidagi qarashlari ham e’tiborga molikdir. Uning keltirishicha, “ilgari tabiatdagi barcha jarayonlarni mutlaq hukmronlik qiluvchi va individual farqlarni inobatga olmagan qat’iy qonunlar orqali tushuntirishga urinishlar ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, hozirga kelibo‘zaro ta’sir qonunlariga asoslangan qarashlar shakllangan”. [24.28]

Bizningcha, determinizm asta-sekin koinotdagi tartibotni nazarda tutuvchi muammoga aylanmoqda. Oldin determinizm aniqlovchi, bartaraf etuvchi yoki umumlashtiruvchi konsepsiya sifatida foydalanilgan bo‘lsa, zamonaviy evolyutsion rivojlanshdagi yondashuvga asosan tafovutlarga urg‘u berilmoqda va determinatsiya tushunchasini murakkab, dinamik tizimlarda qo‘llash nazarda tutilmoqda. Bu esa deterministik prinsiplarni yanada ehtiyotkorlik va moslashuvchanlik talqinida foydalanishni zaruratini ko‘rsatmoqda.

Bu tushunchaning barcha talqinlari obyektiv ilmiy asosga qo‘yilganligi shubhasizdir. Bilimlarni egallash va amaliyotning ma’lum sohalarida determinatsiya tushunchasini faqatgina bir yondashuvga asoslanib qo‘llash mumkin, ammo bunda uni mutlaq haqiqat sifatida asoslashga urinish, qabul qilish yoki yagona deb hisoblash mantiqan to‘g‘ri emas. “Muhimi, determinatsion jarayonlarning yangi o‘lchovlarini ochish zarur, jumladan, ularning dinamikligi, noaniqligi, vositachiligi, geteroxronligi (turli vaqt o‘lchovlarida amalga oshishi) kabi jihatlarini tahlil qilish lozim”. [15.7] Shuningdek, muayyan fenomenni alohida tadqiq etishda hamda uning tizimini ochib berishda determinantlar muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy prognozlash orqali kontseptual modellarni qayta ko‘rib chiqish bilimlarning ijtimoiy determinizmga nisbatan tizimli va izchil munosabatini shakllantiradi. Indeterminizm kontseptsiyasiga tegishli bo‘lganma’lum bir pozitsiyani egallashni talab qiladi. Ayni shu masala ijtimoiy falsafaning kompetensiyasiga taaluqli, chunki u umumiy determinizm va indeterminizm muammolariga nisbatan maqsadli yondashuvni qamrab oladi, ularning bir necha

xususiyatli shakllari uchun istiqbollar yaratadi. Agar, “muayyan deterministik kontseptsiya gipotezaga asoslangan model sifatida qabul qilinib, ijtimoiy nazariyaning asosiga aylansa, u holda ushbu nazariya empirik jihatdan tekshirilishi mumkin, bu esa uni ilmiy bilish sohasiga kiritish imkonini beradi”. [11.126-130] Bizningcha, ilm-fan ijtimoiy tendensiyalarning konkret darajada tahmin qilinishiga kafolat bermaydi. Shu sababli, bilimlar tizimida ijtimoiy determinizm kontseptsiyasi ichki ko‘rinishda mavjud bo‘lib, u ijtimoiy jarayonlarda qonuniyatlarni tushuntirib beruvchi va ularni oldindan prognoz qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bunga qarama-qarshilik sifatida “indeterminizm kontseptsiyasi ilmiy dunyoqarashga muqobil pozitsiyada turib, voqelikning tartibsizligi va oldindan belgilangan qonuniyatlarning mavjud emasligi haqidagi g‘oyalarni ilgari suradi”. [3.88-89]

Ilmiy bilishning umumiy metodologik xususiyati shundan iboratki, “u takrorlanadigan va to‘g‘ri obyektlarning mavjudligi hamda rivojlanishiga oid umumiy qonunlar va prinsiplar asosida yo‘naltirilgan”. [1. 265] Shuningdek, “ijtimoiy determinizm nazariy-metodologik prinsip sifatida ijtimoiy haqiqatning ontologik o‘lchami bilan bevosita bog‘liq”. [8] Kengroq aytganda, u ijtimoiy mavjudlikni umumiylikda tavsiflab, zaruriylik va me’yor nazaridan tahlil etadi. Mazkur teorema ijtimoiy ilmiy bilishning aksiomatik asoslaridan biridir, chunki falsafa ijtimoiy jarayonlarni tasodifiy hodisa deb emas, barqarorlikdagi bog‘liqlik sifatida tushuntiradi. Bu ijtimoiy rivojlanish determinantlarini ainq belgilash va tasodifga eng minimal darajada yo‘naltirilgan tamoyillarni nazarda tutadi. Shu sababli, ijtimoiy determinizm jamiyatning umumiy taraqqiyot asosli qonuniyatlarini namoyon qiluvchi muhim ilmiy kategoriyadir.

Mazkur yondashuv deterministik tushuntirishning shartli sabab va oqibat bog‘liqligiga tayanadi, bunda har bir jarayon yoki voqelik oldindan belgilab olingan omillar sifatida qaraladi. [10.10-11] Bu ayniqsa, klassik fizika va mexanika qonuniyatlari asosida vujudga kelgan ilmiy paradigma bo‘lib, ijtimoiy jarayonlarni ham qat’iy determinatsiyaga tayanib tushuntiradi. Shu qatorda, mazkur modelning asosiy taqiqi shundan iboratki, u murakkab tuzilmalardagi tartibsizlik, tez o‘zgaruvchan va o‘zaro bog‘liqlikdagi omillarni inobatga olishda yetarlicha moslashuvchan emasligidir. Shuning uchun zamonaviy falsafa va ilmiy tadqiqotlarda nolinyali deterministik modellar jadal rivojlanmoqda. Mazkur qarashlar an’anaviy sababiyat tamoyillaridan farqli ravishda, tizimlarning o‘z-o‘zini tashkil qilish, tasodifiy, ehtimollik va emergent hodisalarga bog‘liq jihatlarini ham qamrab oladi. Xususan, ijtimoiy tizimlar va evalyutsion jarayonlar uyg‘unligi nazaridan qaraganda, nolinyali deterministik model dinamik va adaptatsion bo‘lib, u rivojlanishning yo‘nalishlar xilma-xilligini va oldindan prognoz etmaslik xususiyatini inobatga oladi. “Shunday qilib, deterministik kontseptsiyalarni izohlash va qo‘llashda, ijtimoiy haqiqatni anglashning turli paradigmalari hamda ularning ilmiy tadqiqot strategiyasiga ta’sirini chuqur tahlil qilish talab etiladi” [9]. Liniyali va nolinyali deterministik modellarning integratsiyasi esa ijtimoiy hodisalarni bir butun holda anglash va tahmin qilishning eng yaxshi usulisifatida qarash mumkin bo‘ladi.

Sabab –voqea-hodisalarning oldingi holatidan yuzaga keladigan, ularning shakllanish va rivojlanish omillarini belgilovchi sifatida tushuntirish mumkin. Kausal determinizm –hodisalar va jarayonlarning bog‘liqligini tushuntiruvchi nazariy mexanistik paradigma bo‘lib, u voqealardagi munosabatlarning qat’iy bir strukturada, tizimli va bir o‘lchovdagi sabab va oqibat munosabatlari bilan izohlab beradi. Bu yondashuv tasodif va erkinlikni inkor etadi, barcha jarayonlarni belgilangan qonuniyatlar asosida ko‘rib chiqishga harakat qiladi. Natijada, ijtimoiy voqelikdagi muayyan hodisalarni ham qat’iy sabab zanjirlari doirasida izohlashga urinadi. Shu bilan birga, nazarda tutilgan ijtimoiy haqiqatning serqirrali xususiyati sababiy bog‘liqlikdagi bunday oddiy modeliga mos tushmasligi ham mumkin.

Ijtimoiy jarayonlarda shaxsiy xatti-harakatlarni faqat deterministik sababiyat bilantushuntirilishi murakkab bo‘lgan tizimli bog‘liqlikni qamrab oladi. Chunki, ularning shakllanishiva rivojlanishida turlicha omillar – psixologik, madaniy, iqtisodiy, siyosiy va tarixiy shart-sharoitlar qantashadi. Shuning uchun, ijtimoiy fanlar qamrovida nolinyali sababiyat tamoyillariga asoslangan alternativ modellar shakllanmoqda. Nolinyali sabab – natijaviylikda ijtimoiy tizimlarni murakkab va dinamik tabiatni inobatga olib, jarayonlarni oldindan qat’iy tartibotda emas, balki ehtimoliy va serqirra rivojlanishini uqtiradi. Mazkur modelga asosan, ijtimoiy hodisalar bir-biri bilan murakkab tuzilmali bog‘langan bo‘lib, sabablar va oqibatlar ta’sirida doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda yuzaga keladi. Shu sababli, zamonaviy ijtimoiy-gumanitar bilimlar metodologiyasi o‘ziga xos tadqiqot usullarini rivojlantirmoqda. “Murakkab ijtimoiy jarayonlarni tushunishda faqat mexanik sabab-oqibat munosabatlariga tayangan holda tahlil yuritish yetarli emas. Aksincha, ularni tizimli va ehtimollik asosida baholash, jarayonlarning dinamik va o‘zgaruvchan xususiyatlarini inobatga olish talab etiladi”. [4.332]

Xulosa. Ijtimoiy determinantlar falsafiy mohiyati insoniyat hayotining obyektiv asosini tashkil qiladi, lekin inson ularni o‘zgartirish yoki ularga moslashish qobiliyatiga ham egadir. Bu esa falsafada deterministik yondashuv va inson erkinligining dialektik aloqadorligini aks ettiradi. Shuning uchun, ijtimoiy determinantlar tahlili insonning individual qoboliyati va jamiyatning umumiy rivojlanish shart-sharoitlarini umumiylikda tadqiq etishni talab etadi. Yangilnayotgan jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy faktorlar inson omilining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy sabablar sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu tadqiqotdaesa mahalla, oila va maktab munosabatlari ijtimoiy determinantlarini inson va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tadqiq etishga ilmiy asos yaratadi.

XXI asr globallashuv jarayonlari ijtimoiy determinantlarga yangicha yondashuvlarni talab etib, innovatsion ijtimoiy tendensiyalar zaruratini paydo qilmoqda. Bunda ijtimoiy determinantlar yangicha dunyoqarash bilan birga, ishsizlik,

kambag‘allik, ijtimoiy tengsizlik, oilaviy munosabatlar, ta’lim va tibbiyot tizimi kabi muhim faktorlarni hal qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Mazkur tadqiqot yangilanayotgan jamiyatda oila, mahalla va maktab integratsiyasidagi ijtimoiy determinantlarni umumiy taraqqiyotdagi o‘rnini va ahamiyatini ochib beradi. Ijtimoiy determinantlar bugungi kunda ilmiy yondashuvlar asosida nafaqat falsafa, balki iqtisodiyot, jamiyatshunoslik, siyosatshunoslik va sotsiologiya fanlar doirasida ham keng o‘rganishni talab etadigan muammo sanaladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ahmedova M.A. Falsafa. T., “Ta’lim”. 2018.B.-265.
2. Black D. The black report. London: Department of health and social security.1980. P.7-8
3. Danilova M.I. Philosophy and culture in the context of time / gen. ed. Krasnodar, 2016.88-89
4. Davronov Z. Falsafa. T., “Iqtisod va moliya” 2006 yil B.-332.
5. Fayzulleyv O. Falsafa va fanlar metodologiyasi. T., “Falsafa va huquq”. 2006 yil - B.49.
6. Krieger N. Epidemiology and the people’s health: Theory and context. Oxford: Oxford University Press. 2011. P-98.
7. Marmot M. The status syndrome: How social standing affects our health and longevity. London: Bloomsbury. 2004. P.43.
8. Plotnikov V.V. Determinism as the ontological basis of theoretical models for predicting socio economic development. Applied aspect // Scientifi c support of the agro-industrial complex: coll. of papers of the X All-Russian conf. of young scientists dedicated to the 120th anniversary of I.S. Kosenko / resp. for issue A.G. Koshchaev. 2017.
9. Plotnikov V.V., Plotnikov V.V. Multidimensionality of social reality and causal asymmetry of time as the theoretical basis of the phenomenological and systemic approaches to the problem of social forecasting // Polytematic network electronic scientifi c journal of the Kuban State Agrarian University (Scientifi c journal of KubGAU). 2015. № 113(09).
10. Rovnova S.A. On the question of the forms of manifestation of the principle of determinism in sociology // Bull of Saratov university. New.ser. Ser. «Sociology.Political science». 2009. № 2. P. 10-11
11. Samoilov S.F., Nasirov M.N. Methodological foundations of the integrative nature of social cognition. Krasnodar, 2011. //Grishay E.V., Plotnikov V.V. Integrative tendencies in the methodological settings of social and humanitarian knowledge: social and philosophical analysis on the example of the study of phenomenological grounds of historicism // Bull. of Krasnodar university of Russian MIA. 2016. № 4(34). P. 126–130.
12. Wilkinson R., Pickett K. The spirit level: Why more equal societies almost always do better. London: Allen Lane. 2009. P-58.
13. Аблеев С.Р. История мировой философии. М., 2016.
14. Алексеев П.В., Панин А.В. Философия. М., 2003.
15. Барабанщиков В.А. Системная организация и детерминация психики. М., 2013. с. 7.
16. Галанина Н.В. Критика принципа детерминизма в гуманитарном знании представителями “философии жизни” // Вестник Московского университета МВД России. 2014. № 9. с. 210–212.
17. Галанина Н.В. Социальная детерминация в структурах са моопределения: дис. ... канд. филос. наук. Ижевск, 2004. с. 15.
18. Дёмин М.В. Детерминизм и специфика обусловленности социальных явлений // Вестн. Моск. ун-та. Серия 7. Философия. № 2. 1987. с. 45.
19. Золкин А.Л. Право и социальная этика // Вестник Московского университета МВД России. 2014. № 9. с. 216–218.
20. Материалистическая диалектика как научная система. М., 1981. с. 161.
21. Материалистическая диалектика как общая теория развития. М., 1982. с. 146.
22. Мотрошилова Н.В. Проблема внутренней детерминации научного познания // Философия и социология науки и техники. М., 1985. с. 109.
23. Паркин В.Ф. Социальный детерминизм как проблема раз вития социализма. М., 1981. с. 86–91.
24. Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса: Новый диа лог человека с природой. М., 1986. с. 28.
25. Прикладная философия. Философия техники / под ред. Т.Н. Фроловой. М., 2011. с. 9.
26. Прикладные аспекты философского знания / под ред. Д.И. Грядового. М., 2009. с. 33.
27. Сачков Ю.В. Жёстко детерминированные и статистиче ские закономерности // Современный детерминизм. Законы природы. М., 1973. с. 255.
28. Социальная философия / под ред. Н.Ф. Медушевской. М., 2010. с. 67.
29. Чинакова Л.И. Социальный детерминизм: Проблема дви жущих сил развития общества. М., 1985. с. 15.

30. Шермуҳамедова Н. Фалсафанинг умуназарий масалалари (Борлиқ ва ривожланиш) фалсафаси. Т., “Академнашр” 2012 йил Б. -189.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Shonazarov Jamshid Shuhratovich
f.f.d. (DSc), dotsent Ijtimoiy fanlar kafedrasi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
e-mail: jshonazarov1981@gmail.com
Orcid:https://orcid.org/0009-0004-8046-029X

BUGUNGI DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI VA MILLIY MENTALITETI

Annotatsiya *Mazkur maqolada globallashuv sharoitida milliy mentalitetning mafkuraviy barqarorlik va ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Globallashuv tufayli kuchaygan g'oyalar raqobati, axborot oqimlari va madaniyatlararo ta'sirlar fonida milliy o'zlikni asrashning falsafiy-sotsiologik asoslari yoritiladi. Nazariy manbalar, konseptual tahlil va qiyosiy yondashuv asosida "milliy mentalitet", "mafkuraviy manzara", "ma'naviy xavfsizlik" tushunchalarining mazmuni aniqlashtiriladi. O'zbekiston misolida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, til va dinning yoshlar ongini shakllantirish hamda yot mafkuraviy ta'sirlarga nisbatan immunitet hosil qilishdagi funksiyasi ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy mentalitetga tayangan holda ochiqlik va integratsiya siyosatini olib borish globallashuvning ijobiy imkoniyatlarini samarali o'zlashtirish bilan birga, milliy identitet va mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *milliy mentalitet, globallashuv, mafkuraviy manzara, ma'naviy xavfsizlik, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, milliy identitet, mafkuraviy barqarorlik.*

Шоназаров Джамшид Шухратович
кандидат наук (DSc), доцент кафедры социальных наук
Шахрисабзский государственный педагогический институт

ИДЕОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ЛАНДШАФТ И НАЦИОНАЛЬНЫЙ МЕНТАЛИТЕТ СОВРЕМЕННОГО МИРА

Аннотация *В статье рассматривается роль национального менталитета в обеспечении идеологической стабильности и духовной безопасности в условиях глобализации. Анализируются усиление конкуренции идей, информационные потоки и межкультурные влияния, создающие сложную идеологическую картину современного мира. На основе теоретических источников и сравнительного подхода уточняется содержание понятий «национальный менталитет», «идеологический ландшафт», «духовная безопасность». На материале Узбекистана показаны функции национальных ценностей, исторической памяти, языка и религии в формировании сознания молодежи и выработке иммунитета к чуждым идеологическим влияниям. Сделан вывод о том, что опора на национальный менталитет при одновременном проведении политики открытости и интеграции позволяет продуктивно использовать преимущества глобализации и укреплять национальную идентичность и идеологическую устойчивость общества.*

Ключевые слова: *национальный менталитет, глобализация, идеологический ландшафт, духовная безопасность, национальные ценности, молодежь, национальная идентичность, идеологическая стабильность.*

Jamshid Shuhratovich Shonazarov
PhD (DSc), Associate Professor, Department of Social Sciences
Shakhrisabz State Pedagogical Institute

IMPERIAL VISION OF THE MODERN WORLD AND NATIONAL MENTALITY

Abstract *The article examines the role of national mentality in ensuring ideological stability and spiritual security under conditions of globalization. It analyzes how intensified competition of ideas, expanding information flows, and intercultural influences reshape the contemporary ideological landscape. Drawing on theoretical sources and comparative analysis, the study clarifies the concepts of "national mentality," "ideological landscape," and "spiritual security." Using Uzbekistan as a case study, it explores how national values, historical memory, language, and religion shape youth consciousness and build resilience against external ideological pressures. The findings suggest that grounding openness and integration policies in a strong national mentality makes it possible to benefit from globalization while simultaneously strengthening national identity and ideological stability.*

Keywords: *national mentality, globalization, ideological landscape, spiritual security, national values, youth education, national identity, ideological stability.*

Kirish. XXI asr — globallashuv, axborot texnologiyalari va madaniyatlararo aloqalar misli ko‘rilmagan darajada tezlashgan davr bo‘lib, bu jarayonlar dunyoning mafkuraviy manzarasini tubdan o‘zgartirmoqda. Axborot oqimlari, iqtisodiy va siyosiy integratsiya, hamda madaniy almashinuv natijasida turli g‘oyalar va mafkuralar o‘rtasidagi raqobat kuchayib, jamiyat taraqqiyotini jadallashtirishi bilan birga, mafkuraviy ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni ham kuchaytirishi mumkin. Globallashuv natijasida milliy identitet, an’anaviy qadriyatlar va mentalitetga tahdidlar yuzaga kelmoqda; ayni paytda, ochiqlik va integratsiya yangi imkoniyatlarni ham taqdim etadi.

Shunday sharoitda milliy mentalitetning mazmuni, uning mafkuraviy barqarorlikdagi o‘rni va globallashuv jarayonlari bilan o‘zaro aloqasini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy vazifadir. Milliy mentalitet — tarixiy tajriba, madaniyat, til, din va tabiiy-geografik omillar ta’sirida shakllangan ruhiy-ma’naviy xususiyatlar majmuasi bo‘lib, u jamiyatning ma’naviy poydevori sifatida mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda yosh avlod ongini yot g‘oyalardan himoyalash, milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish masalalari O‘zbekiston hamda boshqa ko‘plab davlatlarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Shu boisdan globallashuvning ijobiy jihatlarini qabul qilgan holda, milliy mentalitetni chuqur o‘rganish va uni yoshlar ongiga singdirish zamonaviy davrning eng muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Metodlar. Mazkur ish nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik va madaniyatshunoslik bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, davlat konsepsiyalari va ma’naviy-ma’rifiy dasturlar qiyosiy tahlil qilinadi. “Mafkuraviy manzara”, “milliy mentalitet”, “globallashuv”, “ma’naviy xavfsizlik” tushunchalari konseptual tahlil qilinadi; turli mamlakatlar tajribasi va O‘zbekiston misolida milliy qadriyatlar siyosatining asosiy yo‘nalishlari o‘rganiladi.

Natijalar. Globallashuv jarayonlari zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borib, mafkuraviy makonning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, global integratsiya jarayonlari demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, erkin fikr almashinuvi, madaniyatlararo muloqot hamda diniy-madaniy tiklanish g‘oyalarining tez tarqalishiga olib kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi tufayli g‘oyalar almashinuvi keskin jadallashib, dunyo mafkuraviy maydoni tobora murakkab va ko‘p qirrali tus olmoqda. Bunday sharoitda turli mafkuralar o‘rtasidagi raqobat kuchayib, jamiyatlar o‘z milliy qadriyatlari va madaniy o‘zligiga tayanib barqarorlikni saqlashga intilmoqda. Bu holat globallashuvning nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki ma’naviy-mafkuraviy jarayonlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi [1;2;5].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy mentalitet jamiyat taraqqiyotining muhim ma’naviy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. U xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, diniy qarashlari, urf-odatlari va tabiiy-geografik sharoitlari ta’sirida shakllangan ruhiy-ma’naviy xususiyatlar majmuasini ifodalaydi. Milliy mentalitet jamiyatning ma’naviy poydevori bo‘lib, u milliy o‘zlikni anglash, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy davomiylikni ta’minlash hamda jamiyat barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va an’analar milliy mentalitetning asosiy tarkibiy qismlari sifatida jamiyatning ma’naviy immunitetini shakllantiradi [3;4;9].

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, milliy qadriyatlari mustahkam bo‘lgan jamiyatlar tashqi mafkuraviy bosimlar va turli g‘oyaviy ta’sirlarga nisbatan barqarorroq bo‘ladi. Bunday jamiyatlarda yosh avlodni milliy an’ana va qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali ularning mafkuraviy immuniteti kuchayadi. Natijada yoshlar turli destruktiv g‘oyalar yoki begona mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lib, o‘z milliy o‘zligini anglash darajasi yuqori bo‘ladi. Shuningdek, ma’naviy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim va tarbiya tizimi jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi [4;7;8].

O‘zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda milliy an’ana va madaniy merosni tiklash, tarixiy xotirani mustahkamlash hamda ta’lim tizimida ma’naviyat va tarix fanlariga alohida e’tibor qaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan siyosat jamiyat mafkuraviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tarixiy merosni chuqur o‘rganish hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirishga qaratilgan islohotlar milliy o‘zlikni anglash jarayonini yanada mustahkamlamoqda. Bunday siyosat globallashuv sharoitida milliy identitetni saqlash va mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda [6;8;10].

Shunday qilib, tadqiqot natijalari globallashuv davrida milliy mentalitet jamiyatning mafkuraviy barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri ekanini ko‘rsatadi. Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayoniga samarali integratsiya qilish orqali jamiyatning ma’naviy barqarorligini mustahkamlash hamda yosh avlodni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish mumkin. Bu esa globallashuv sharoitida milliy rivojlanishning barqaror va izchil davom etishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Muhokama. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti uchun “mahalliy (milliy) mazmun – global shakl” tamoyiliga asoslangan uyg‘unlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv ilmiy maqolalar tuzilishida qo‘llaniladigan IMRAD modeli singari aniq tizimlilik va mantiqiylikni ta’minlash bilan birga, mazmun jihatidan milliy xususiyatlarni saqlab qolish zarurligini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, globallashuv davrida g‘oyalar, bilimlar va tajribalar global miqyosda almashilayotgan bo‘lsa-da, ularning jamiyat hayotiga singdirilishi milliy mentalitet va mahalliy madaniy kontekst bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi lozim. Bu jarayon ilmiy tafakkur, ta’lim tizimi hamda mafkuraviy siyosatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi [1;10].

Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy mentalitetni e’tiborsiz qoldirgan holda demokratik yoki global qadriyatlarni jamiyatga singdirish ko‘pincha ijtimoiy qarshilik va mafkuraviy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Chunki har bir jamiyatning tarixiy rivojlanish tajribasi, madaniy an’analari va ma’naviy qadriyatlari uning dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvorida muhim o‘rin tutadi. Agar global g‘oyalar ushbu milliy xususiyatlarni hisobga olmasdan joriy etilsa, ular jamiyat tomonidan begona yoki mos kelmaydigan qadriyat sifatida qabul qilinishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Aksincha, milliy qadriyatlar va mentalitetga tayangan holda olib borilgan ochiqlik siyosati jamiyatda g‘oyaviy muvozanatni saqlab, mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [3;5;9].

Bundan tashqari, globallashuv jarayonlari ta’lim tizimi va ilmiy siyosatda ham muvozanatli yondashuvni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy va ta’limiy siyosatda bir tomondan globallashuvning ijobiy jihatlarini faol o‘zlashtirish zarur. Jumladan, bilimlar almashinuvi, xalqaro ilmiy hamkorlik, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish zamonaviy taraqqiyotning muhim omillari hisoblanadi. Bu jarayon ilmiy salohiyatni oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini beradi [4;6;8].

Biroq ikkinchi tomondan, milliy tarix, ona tiliga hurmat, diniy-ma’naviy qadriyatlar va urf-odatlarni jamiyat identitetining asosiy tayanch omillari sifatida mustahkamlash zarur. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash jarayonida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va ma’naviy merosga hurmatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu omillar jamiyatning mafkuraviy barqarorligini ta’minlab, globallashuv sharoitida milliy identitetni saqlab qolishga xizmat qiladi. Shunday qilib, globallashuv davrida milliy mentalitet va global qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi [4;6;8;10].

Xulosa. XXI asr globallashuvi natijasida dunyoning mafkuraviy manzarasi keskin murakkablashib, turli g‘oyalar, qadriyatlar va mafkuraviy yo‘nalishlar o‘rtasida raqobat kuchaydi. Bu jarayon bir tomondan demokratiya, inson huquqlari, integratsiya, bilim va axborot almashuvini jadallashtirsa, ikkinchi tomondan milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga nisbatan tahdidlarni ham kuchaytirmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy mentalitet – tarixiy tajriba, madaniyat, din va tabiiy-geografik omillar ta’sirida shakllangan ruhiy-ma’naviy xususiyatlar majmuasi bo‘lib, jamiyatning ma’naviy poydevori va mafkuraviy barqarorligining asosiy omillaridan biridir. Milliy qadriyatlarga tayangan jamiyat globallashuv sharoitida tashqi mafkuraviy bosim va informatsion xurujlarga nisbatan barqarorroq bo‘ladi, ayniqsa yoshlar ongini turli yot g‘oyalardan himoyalashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston misolida milliy an’ana va qadriyatlarni tiklash, ta’lim tizimida tarix va ma’naviyatni kuchaytirish, milliy g‘oya va mafkurani rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan siyosat mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash, milliy identitetni mustahkamlash va yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirishga xizmat qilayotgani kuzatiladi. Demak, globallashuvning ijobiy jihatlarini qabul qilgan holda, milliy mentalitetni chuqur o‘rganish, uni yoshlar ongiga singdirish va milliy qadriyatlarni tizimli ravishda rivojlantirish bugungi davrning eng ustuvor ilmiy va amaliy vazifalaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Moskovitz C., Harmon B., Saha S. The Structure of Scientific Writing: An Empirical Analysis of Recent Research Articles in STEM // Journal of Technical Writing and Communication. – 2023. – Vol. 54. – P. 265–281. – DOI: 10.1177/00472816231171851.

2. Heßler N., Rottmann M., Ziegler A. Empirical analysis of the text structure of original research articles in medical journals // PLoS ONE. – 2020. – Vol. 15. – DOI: 10.1371/journal.pone.0240288.

3. Sollaci L., Pereira M. The introduction, methods, results, and discussion (IMRAD) structure: a fifty-year survey // Journal of the Medical Library Association. – 2004. – Vol. 92, № 3. – P. 364–367.

4. Kumar P. Improving IMRaD for writing research articles in social and health sciences // International Research Journal of Economics and Management Studies. – 2022. – DOI: 10.56472/25835238/irjems-v2i1p107.

5. Stošić L., Trpeski P. Basic Structure of Scientific Article – IMRAD Methodology // Anglisticum. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. – 2023. – DOI: 10.58885/ijllis.v12i9.30ls.

6. Kavak A., Odabaş H. Analysis of research article abstracts in library and information science according to the IMRaD model // Journal of Information Science. – 2025. – DOI: 10.1177/01655515251353179.

7. Авдеева Н. Н., Лобанова Г. В. Структурирование научной статьи в формате «Introduction, Methods, Results and Discussion»: что важно учитывать начинающему автору // Открытое образование. – 2016. – Т. 20, № 5. – С. 4–10. – DOI: 10.21686/1818-4243-2016-5-4-10.

8. Trinh T. T., Tran T. T., Nguyen T. T., Nghiem T. P., Danh N. T. Comparative analysis of national and international educational science articles in Vietnam: Evidence from the introduction, methods, results, and discussion structure // European Journal of Educational Research. – 2020. – Vol. 9, № 3. – P. 1367–1376. – DOI: 10.12973/eu-jer.9.3.1367.

9. Bisimbaeva D. The Structure Again! Common Mistakes in Writing the Discussion // Education & Self Development. – 2023. – Vol. 18, № 1. – DOI: 10.26907/esd.18.1.01.

10. Dubova A., Egle B., Proveja E. IMRAD usage in Latvian language research papers // Public Sciences Studies. – 2020. – № 1. – P. 33–39. – DOI: 10.12955/pss.v1.42.

11. Ahmad S., Shukla A., Kumar A. How to write the scientific research paper: A review study // International Journal of Engineering and Applied Sciences. – 2016. – Vol. 2. – P. 69–73. – DOI: 10.5958/2395-1184.2016.00017.6.

12. Qandov B. Global environmental problems: changes in the system of personal worldview and national values // Scientific Journal of the Fergana State University. – 2023. – Vol. 29, № 3. – DOI: 10.56292/sjfsu/vol29_iss3/a61.

13. Ja'farov I. Globallashuv davrida milliy o'zlikni saqlash va ma'naviy qadriyatlar himoyasi // Tamaddun nuri jurnali. – 2025. – DOI: 10.69691/zm8cqd45.

14. Rominovna K. Jamiyatda barqaror siyosatni ta'minlash jarayonida mafkuraviy tarbiyaning o'rni va ahamiyati // Goals of Sustainable Development in the Integration of Science and Education. – 2023. – DOI: 10.37547/goal-29.

15. Kabat-Zinn J. Foreword: Seeds of a necessary global renaissance in the making: the refining of psychology's understanding of the nature of mind, self, and embodiment through the lens of mindfulness // Current Opinion in Psychology. – 2019. – DOI: 10.1016/j.copsyc.2019.02.005.

16. Qosimov A. Education of national identity as a social need and pedagogical problem // Scientific Journal of the Fergana State University. – 2023. – Vol. 29, № 2. – DOI: 10.56292/sjfsu/vol29_iss2/a161.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Maqsumova Umidaxon Sodiqjonovna
Farg‘ona davlat universiteti iqtisodiyot va turizm kafedrasi katta o‘qituvchisi,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: u.maksumova81_fdu@mail.ru

“AYOL” VA “TADBIRKORLIK” TUSHUNCHALARI INTERPRITATSIYASI GENEZISINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotasiya. *Mazkur maqolada “ayol” va “tadbirkorlik” tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mazmuni, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda tarixiy shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki ijtimoiy ong, madaniy qadriyatlar va iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ayol tadbirkorligi fenomenining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy, madaniy hamda iqtisodiy omillar ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayolning iqtisodiy faoliyatdagi roli tarixiy davrlar davomida turli ijtimoiy va madaniy sharoitlar ta’sirida o‘zgarib borgan. Zamonaviy jamiyatda esa ayollar tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy rivojlanish omili, balki ijtimoiy barqarorlik, gender tengligi va inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan ayol va tadbirkorlik tushunchalarining integratsiyasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *ayol, ayollar tadbirkorligi, ijtimoiy falsafa, iqtisodiy faoliyat, gender munosabatlari, ijtimoiy qadriyatlar, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik.*

Максумова Умида Садикжоновна
Старший преподаватель, доктор философии по философским наукам (PhD) кафедры экономики и туризма Ферганского государственного университета

«СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ГЕНЕЗИСА ИНТЕРПРЕТАЦИИ ПОНЯТИЙ «ЖЕНЩИНА» И «ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО»»

Аннотация. *В данной статье проанализированы социально-философское содержание понятий «женщина» и «предпринимательство», их роль в развитии общества, а также процесс их исторического формирования. В ходе исследования участие женщин в экономической деятельности рассматривается во взаимосвязи с общественным сознанием, системой культурных ценностей и экономических отношений. Кроме того, на основе социально-философского подхода анализируются социальные, культурные и экономические факторы, влияющие на формирование и развитие феномена женского предпринимательства. Результаты исследования показывают, что роль женщины в экономической деятельности в разные исторические периоды изменялась под воздействием различных социальных и культурных условий. В современном обществе женское предпринимательство выступает не только фактором экономического развития, но и важным социальным институтом, способствующим обеспечению социальной стабильности, гендерного равенства и развитию человеческого капитала. С этой точки зрения интеграция понятий «женщина» и «предпринимательство» рассматривается как один из значимых факторов социально-экономического развития общества.*

Ключевые слова: *женщина, женское предпринимательство, социальная философия, экономическая деятельность, гендерные отношения, социальные ценности, экономическое развитие, социальная стабильность.*

Maqsumova Umidaxon Sodiqjonovna
Senior Lecturer, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences of the Department of Economics and Tourism at Fergana State University

“SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE GENESIS OF THE INTERPRETATION OF THE CONCEPTS “WOMAN” AND “ENTREPRENEURSHIP””

Abstract. *This article analyzes the socio-philosophical content of the concepts of “woman” and “entrepreneurship,” their role in the development of society, and the process of their historical formation. During the study, women’s participation in economic activity*

is examined in connection with social consciousness, cultural values, and the system of economic relations. In addition, the social, cultural, and economic factors influencing the formation and development of the phenomenon of women's entrepreneurship are analyzed on the basis of a socio-philosophical approach. The results of the study indicate that the role of women in economic activity has changed across different historical periods under the influence of various social and cultural conditions. In contemporary society, women's entrepreneurship emerges not only as a factor of economic development but also as an important social institution that contributes to social stability, gender equality, and the development of human capital. From this perspective, the integration of the concepts of "woman" and "entrepreneurship" is considered one of the significant factors ensuring the socio-economic development of society.

Keywords: *woman, women's entrepreneurship, social philosophy, economic activity, gender relations, social values, economic development, social stability.*

KIRISH

XXI asrda jamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi faolligi tobora ortib borayotgani kuzatilmoqda. Global miqyosda iqtisodiy rivojlanish jarayonlari, innovatsion faoliyat va tadbirkorlik muhitining kengayishi ayollarning iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, ayollar tadbirkorligining rivojlanishi iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bois “ayol” va “tadbirkorlik” tushunchalarining tarixiy shakllanishi, ularning ijtimoiy-falsafiy mazmuni hamda jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitidada xotin-qizlarning jamiyatdagi roli va ularning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki haqida quyidagi fikr keltiriladi: “Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi, iqtisodiyot va tadbirkorlik sohalaridagi faolligini oshirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi” [1. 464.]. Bunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modelida ayollarning faolligi *ijtimoiy adolat, gender tengligi va iqtisodiy rivojlanish* bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, davlat siyosatida ayollarning iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash *jamiyatning barqaror rivojlanishi* va *inson kapitalini rivojlantirish* strategiyasining muhim elementi sifatida talqin qilinadi.

Ijtimoiy falsafa doirasida “ayol” tushunchasi faqat biologik kategoriya sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy mazmunga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Jamiyat taraqqiyoti davomida ayollarning ijtimoiy maqomi, jamiyatdagi roli hamda faoliyat doirasi turli tarixiy davrlarda turlicha baholangan. Qadimgi ijtimoiy qarashlarda ayollarning ijtimoiy faoliyati ko‘pincha oilaviy va maishiy sohalar bilan bog‘liq holda talqin qilingan bo‘lsa, zamonaviy jamiyatda ayollar iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning faol subyektiga aylanib bormoqda. Zamonaviy sotsiologik yondashuvlarda gender munosabatlari jamiyat tuzilmasining muhim tarkibiy elementi sifatida talqin qilinadi. Masalan, Entoni Giddens jamiyatdagi gender munosabatlari ijtimoiy tuzilma va ijtimoiy institutlar faoliyati bilan uzviy bog‘liq ekanini ta’kidlab, gender tengligi demokratik jamiyat rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekanini qayd etadi. “Gender farqlari ijtimoiy hayot jarayonida shakllanadi va qayta ishlab chiqariladi hamda jamiyatning ijtimoiy institutlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi,” [2. 143.] – bunda Giddens nazariyasiga ko‘ra, gender faqat biologik farqlar bilan belgilanmaydi. Bu *ijtimoiy konstruksiya* bo‘lib, quyidagi institutlar orqali shakllanadi: oila, ta’lim tizimi, mehnat bozori, siyosiy institutlar, ommaviy madaniyat kabi. Shuning uchun Giddens fikricha, *gender tengligi* jamiyatning demokratik rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Agar ijtimoiy institutlar teng imkoniyatlarni ta’minlasa, jamiyatda *ijtimoiy barqarorlik* va *fuqarolik tengligi* kuchayadi.

“Tadbirkorlik” tushunchasi esa iqtisodiy faoliyatning muhim shakllaridan biri sifatida iqtisodiy nazariya va sotsiologiya fanlarida keng o‘rganilgan. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy tizimning rivojlanishida innovatsiyalarni joriy etish, yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish va bozor munosabatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Avstriyalik iqtisodchi Jozef Shumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy tizimda yangiliklarni joriy etuvchi va iqtisodiy rivojlanish jarayonini harakatlantiruvchi muhim kuch sifatida talqin qilib, tadbirkorni iqtisodiy transformatsiyaning asosiy subyekti sifatida baholaydi. Jumladan: “Tadbirkorning funksiyasi iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan yangi kombinatsiyalarni amalga oshirishdan iborat,” [3. 159.] – degan fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o‘sish, raqobat muhitining rivojlanishi hamda jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ayollar tadbirkorligi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan muhim ijtimoiy fenomen sifatida baholanmoqda. Ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki jamiyatda teng imkoniyatlar muhitini shakllantirish, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Amartya Sen rivojlanish jarayonini inson imkoniyatlari va erkinliklarining kengayishi bilan bog‘lab, iqtisodiy taraqqiyot insonlarning real imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, “rivojlanish – bu inson erkinliklarining kengayishidir” [5.

432.]. Bu yondashuv ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanini koʻrsatadi.

Zamonaviy jamiyatda ayollar tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy faoliyat shakli, balki ijtimoiy transformatsiyaning muhim omillaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Ayollarning iqtisodiy faolligi oshishi jamiyatda iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlarini tezlashtiradi, yangi innovatsion gʻoyalar paydo boʻlishiga zamin yaratadi hamda ijtimoiy muvozanatni mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan "ayol" va "tadbirkorlik" tushunchalarining oʻzaro bogʻliqligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan oʻrganish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi "ayol" va "tadbirkorlik" tushunchalarining tarixiy shakllanish jarayonini hamda ularning ijtimoiy-falsafiy talqinini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi oʻrni, ayollar tadbirkorligining ijtimoiy mazmuni hamda uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida oʻrganiladi. Bu esa ayollar tadbirkorligi fenomenining zamonaviy jamiyat rivojidagi oʻrni va ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda "ayol" va "tadbirkorlik" tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mazmuni hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrnini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Zamonaviy ijtimoiy fanlarda murakkab ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish turli metodlarning oʻzaro uygʻunligini talab etadi. Shu sabab tadqiqot jarayonida ijtimoiy-falsafiy tahlil, tarixiy-mantiqiy metod, qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki, tadbirkorlik fenomenining ijtimoiy mohiyati hamda ularning jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliqligini chuqurroq oʻrganish imkonini berdi.

Tadqiqotning asosiy metodologik vositalaridan biri sifatida ijtimoiy-falsafiy tahlil metodi qoʻllanildi. Ushbu metod orqali "ayol" va "tadbirkorlik" tushunchalarining ijtimoiy mazmuni, ularning jamiyatdagi ijtimoiy institutlar, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlar bilan bogʻliqligi tahlil qilindi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv ijtimoiy hodisalarni ularning tarixiy shakllanishi, ijtimoiy funksiyasi hamda jamiyat rivojlanishidagi oʻrni bilan bogʻliq holda oʻrganishni nazarda tutadi. Zamonaviy sotsiologik nazariyalarda ham ijtimoiy jarayonlarni kompleks tarzda tahlil qilish zarurligi ta'kidlanadi. Masalan, Entoni Giddens jamiyatni tushunish uchun ijtimoiy institutlar va ijtimoiy munosabatlar tizimini oʻzaro bogʻliqlikda oʻrganish zarurligini qayd etadi [2. 34.].

Tadqiqot jarayonida tarixiy-mantiqiy metod ham muhim metodologik vosita sifatida qoʻllanildi. Mazkur metod yordamida "ayol" va "tadbirkorlik" tushunchalarining tarixiy shakllanishi hamda ularning jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida qanday talqin qilinganligi oʻrganildi. Tarixiylik tamoyili ijtimoiy hodisalarni ularning shakllanish jarayoni va rivojlanish bosqichlari bilan bogʻliq holda tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi roli turli tarixiy davrlarda ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sharoitlar ta'sirida qanday oʻzgarib borganini aniqlashga xizmat qildi. Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy jarayonlarning transformatsiyasi ijtimoiy institutlarning ham yangi shakllarini yuzaga keltirayotganini Manuel Kastells ta'kidlab, axborot davrida jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi tubdan oʻzgarayotganini qayd etadi [7. 21.].

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil metodi qoʻllanildi. Ushbu metod turli ilmiy nazariyalar, iqtisodiy konsepsiyalar va gender tadqiqotlari doirasidagi qarashlarni solishtirish orqali "ayol" va "tadbirkorlik" tushunchalarining nazariy talqinlarini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy tahlil yordamida iqtisodiy nazariya, sotsiologiya va ijtimoiy falsafada tadbirkorlik fenomenining talqinlari oʻrganildi. Masalan, Jozef Shumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy tizimda innovatsiyalarni joriy etuvchi va iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltiruvchi faoliyat sifatida talqin qiladi [3. 74.]. Bu yondashuv tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy oʻsish jarayonidagi muhim rolini koʻrsatadi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv ham qoʻllanildi. Mazkur metod ayollarning tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy institutlar hamda madaniy qadriyatlar tizimi bilan oʻzaro bogʻliqlikda tahlil qilish imkonini berdi. Tizimli yondashuv ijtimoiy hodisalarni yagona ijtimoiy tizim doirasida koʻrib chiqib, turli ijtimoiy elementlar oʻrtasidagi aloqadorlikni aniqlashga xizmat qiladi. Talcott Parsons jamiyatni oʻzaro bogʻlangan ijtimoiy institutlar tizimi sifatida talqin qilib, har bir institut jamiyat barqarorligini ta'minlashda muayyan funksiyani bajarishini ta'kidlaydi [8. 5.]. Shu sababli tadqiqotda ayollar tadbirkorligi jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy institutlar bilan uzviy bogʻliq holda oʻrganildi.

Tadqiqotning nazariy asosini ijtimoiy falsafa, iqtisodiy sotsiologiya hamda gender tadqiqotlari doirasidagi ilmiy qarashlar tashkil etdi. Xususan, inson rivojlanishi va erkinliklar nazariyasida iqtisodiy faoliyat shaxsning ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish bilan bogʻliq holda talqin qilinadi. Amartya Sen rivojlanish jarayonini inson erkinliklarining kengayishi bilan bogʻlab, iqtisodiy faoliyat insonlarning real imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [5. 3.].

Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi ayollar tadbirkorligining ijtimoiy mazmunini chuqurroq tahlil qilish, uning iqtisodiy rivojlanish hamda ijtimoiy taraqqiyot jarayonlaridagi oʻrnini aniqlash imkonini berdi. Kompleks

metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minlash bilan birga, “ayol” va “tadbirkorlik” tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy talqinini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qildi.

NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “ayol” tushunchasining mazmuni tarixiy rivojlanish jarayonida jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, madaniy qadriyatlari va iqtisodiy munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Tarixiy manbalar va ijtimoiy-falsafiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy jamiyatlarda ayollarning ijtimoiy roli ko‘proq oilaviy va maishiy vazifalar bilan bog‘langan holda talqin qilingan. Biroq jamiyat taraqqiyoti, modernizatsiya jarayonlari va ijtimoiy institutlarning rivojlanishi natijasida ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi faolligi sezilarli darajada ortib bordi. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda ham gender munosabatlari jamiyat tuzilmasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Entoni Giddens jamiyatdagi gender munosabatlari ijtimoiy institutlar tizimi bilan uzviy bog‘liq ekanini ta’kidlab, ayollarning ijtimoiy jarayonlardagi faol ishtiroki jamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekanini qayd etadi [2. 468.].

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, “tadbirkorlik” tushunchasi tarixiy rivojlanish jarayonida iqtisodiy tizimlarning transformatsiyasi bilan birga rivojlangan. Dastlab tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatning oddiy shakli sifatida talqin qilingan bo‘lsa, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida u innovatsiyalarni joriy etish, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish hamda bozor munosabatlarini rivojlantirishning muhim institutsional mexanizmlaridan biriga aylandi. Iqtisodchi Jozef Shumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy tizimda yangiliklarni joriy etuvchi va iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltiruvchi faoliyat sifatida talqin qilib, tadbirkor iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ekanini ta’kidlaydi [3. 74.]. Bu yondashuv tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy taraqqiyot jarayonidagi muhim rolini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ayollar tadbirkorligi “ayol” va “tadbirkorlik” tushunchalarining kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa hisoblanadi. Ayollarning tadbirkorlik faoliyatida ishtiroki nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki jamiyatda ijtimoiy tenglik, iqtisodiy diversifikatsiya va innovatsion rivojlanish jarayonlarini ham jadallashtiradi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarda ayollar tadbirkorligi inson kapitalini rivojlantirish hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish jarayonining muhim omili sifatida baholanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollarning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki iqtisodiy rivojlanish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda ijtimoiy farovonlikni oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayollar tadbirkorligi iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish hamda mahalliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Amartya Sen iqtisodiy rivojlanish jarayonini inson imkoniyatlari va erkinliklarining kengayishi bilan bog‘lab, iqtisodiy faoliyat shaxslarning real imkoniyatlarini kengaytirish orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishini ta’kidlaydi [5. 3.].

Shuningdek, tadqiqot davomida ayollar tadbirkorligining jamiyatdagi ijtimoiy institutlar bilan uzviy bog‘liqligi ham aniqlandi. Tizimli yondashuv natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi faolligi jamiyatda ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy ishonch va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Ijtimoiy tizimlar nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy institutlarning samarali faoliyati jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Talkott Parsons jamiyatni o‘zaro bog‘langan ijtimoiy institutlar tizimi sifatida talqin qilib, iqtisodiy institutlar jamiyat barqarorligini ta’minlovchi muhim funksional elementlardan biri ekanini ta’kidlaydi [8. 5.].

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki jamiyatda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash hamda ijtimoiy farovonlik darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sabab ayollar tadbirkorligini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligining rivojlanishi zamonaviy jamiyatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan qaralganda, ayollar tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy faoliyat shakli, balki gender tengligi, ijtimoiy adolat va shaxs erkinliklari kabi fundamental qadriyatlarning amaliy ifodasi sifatida ham talqin qilinadi. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida iqtisodiy jarayonlarning demokratlashuvi ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirib, ularning jamiyat hayotidagi rolini sezilarli darajada oshirmoqda.

Zamonaviy sotsiologik nazariyalarda iqtisodiy faoliyatning kengayishi jamiyatdagi ijtimoiy tenglik va ijtimoiy mobilitet darajasining oshishi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Entoni Giddens jamiyatdagi iqtisodiy institutlarning rivojlanishi ijtimoiy tuzilmaning o‘zgarishiga ham ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlab, gender tengligi zamonaviy demokratik jamiyatlarning muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekanini qayd etadi [2. 468.]. Shu nuqtai nazardan ayollar tadbirkorligi jamiyatda teng imkoniyatlar muhitini shakllantirish hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy omil hisoblanadi.

Ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash bilan birga jamiyatdagi ijtimoiy faollik darajasining oshishiga ham olib keladi. Ijtimoiy rivojlanish nazariyasida iqtisodiy faoliyat shaxsning ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Amartya Sen inson rivojlanishi konsepsiyasida iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik imkoniyatlarini inson erkinliklarining kengayishi bilan bog‘lab, jamiyat taraqqiyoti shaxslarning real imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshishini ta’kidlaydi [5. 3.]. Bu yondashuv ayollar tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishi, balki jamiyatda ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ayollar tadbirkorligining rivojlanishi innovatsion iqtisodiyot sharoitida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati yangi g‘oyalarni amalga oshirish, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish hamda bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonining muhim elementi hisoblanadi. Jozef Shumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy tizimda innovatsiyalarni joriy etuvchi asosiy kuch sifatida baholab, tadbirkor yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish orqali iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltirishini ta’kidlaydi [3. 74.]. Bu nazariy qarashlar ayollar tadbirkorligining innovatsion iqtisodiyot rivojidagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi shuni ko‘rsatadiki, ayollar tomonidan yaratilayotgan yangi biznes tashabbuslari iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlarini tezlashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda jamiyatda iqtisodiy farovonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ayollar tadbirkorligi ko‘pincha kichik va o‘rta biznes sektorining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu sektor esa zamonaviy iqtisodiyotda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, ayollar tadbirkorligining rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning samarali faoliyat yuritishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy tizimlar nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy institutlar jamiyat barqarorligini ta’minlovchi muhim elementlardan biri hisoblanadi. Talcott Parsons jamiyatni o‘zaro bog‘langan ijtimoiy institutlar tizimi sifatida talqin qilib, iqtisodiy faoliyat jamiyatning funksional barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi [8. 5.].

Umuman olganda, muhokama natijalari ayollar tadbirkorligi zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi faolligi jamiyatda teng imkoniyatlar muhitini shakllantirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sabab ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi zarur.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “ayol” va “tadbirkorlik” tushunchalari tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan murakkab ijtimoiy kategoriyalar bo‘lib, ularning mazmuni jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, madaniy qadriyatlari hamda iqtisodiy munosabatlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib kelgan. Tarixiy jarayonlar tahlili ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy roli vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada o‘zgarib borganini ko‘rsatadi. Agar an’anaviy jamiyatlarda ayollarning faoliyati asosan oilaviy va maishiy sohalar bilan cheklangan bo‘lsa, zamonaviy jamiyatda ular iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion jarayonlarning muhim subyektiga aylanib bormoqda.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, ayollar tadbirkorligi iqtisodiy faoliyatning oddiy shakli emas, balki jamiyatda teng imkoniyatlar tizimining shakllanishi, ijtimoiy adolat tamoyillarining mustahkamlanishi va shaxs erkinliklarining kengayishi bilan bog‘liq muhim ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Ayollarning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash bilan birga, jamiyatda ijtimoiy mobilitet darajasining oshishiga ham xizmat qiladi. Bu jarayon jamiyatda ijtimoiy faollikning ortishiga, yangi iqtisodiy tashabbuslarning paydo bo‘lishiga va iqtisodiy resurslardan yanada samarali foydalanilishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligining rivojlanishi iqtisodiy rivojlanish jarayoniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Ayollar tomonidan tashkil etilayotgan biznes tashabbuslari iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlarini tezlashtiradi, kichik va o‘rta biznes sektorining rivojlanishiga xizmat qiladi hamda yangi ish o‘rinlari yaratilishiga imkon beradi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, aholi bandligini ta’minlash hamda ijtimoiy farovonlik darajasini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, ayollar tadbirkorligi jamiyatdagi ijtimoiy institutlar faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi faolligi jamiyatda ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy ishonch va ijtimoiy mas’uliyat darajasining oshishiga xizmat qiladi. Bu jarayon fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga ham muhim hissa qo‘shadi. Shu jihatdan ayollar tadbirkorligi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish jamiyatning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Shu sababli ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish, ayollar uchun iqtisodiy faoliyat imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning innovatsion tashabbuslarini rag‘batlantirish zamonaviy jamiyat

taraqqiyotining muhim shartlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Gender tengligi tamoyillariga asoslangan iqtisodiy rivojlanish modeli jamiyatda ijtimoiy adolat, barqaror taraqqiyot va inson kapitalining samarali rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B. 464.
2. Гидденс Э. Социология. - Москва: URSS, 2020. - С. 632.
3. Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия (пер. с нем.) - Москва: Эксмо, 2007. - С. 864.
4. Друкер П. Инновации и предпринимательство: практика и принципы (пер. с англ.) - Москва: Вильямс, 2007. - С. 432.
5. Сен А. Развитие как свобода (пер. с англ. Д.Шестакова) - Москва: Новое издательство, 2004. - С. 432.
6. Нуссбаум М. Создание возможностей: подход к человеческому развитию (пер. с англ.) - Москва: Издательство Института Гайдара, 2015. - С. 208.
7. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. Т. 1. Возникновение сетевого общества. - Москва: Изд. дом ВШЭ, 2016. - С. 608.
8. Парсонс Т. Социальная система (пер. с англ.) - Москва: Академический проект, 2018. - С. 832.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abdukarimova G.B
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Toshkent davlat transport universiteti
Email: baratovnagulchehra@gmail.com

UDC 316.346.32-053.9:316.422

AN’ANAVIYLIKDAN ZAMONAVIYLIKKA O‘TISH JARAYONIDA KEKSALARNING IJTIMOIY MAQOMI: FENOMENOLOGIK VA AKSIOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya. *Mazkur maqolada an’anaviylikdan zamonaviylikka o‘tish jarayonida keksalarning ijtimoiy maqomida yuz berayotgan o‘zgarishlar fenomenologik va aksiologik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda an’anaviy jamiyatlarda keksalarning ma’naviy yetakchi, qadriyatlar tashuvchisi va avlodlararo uzluksizlikni ta’minlovchi sub’ekt sifatidagi o‘rni hamda zamonaviy jamiyatda ushbu maqomning transformatsiyasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Fenomenologik tahlil orqali keksalarning sub’ektiv tajribasi va ijtimoiy identifikatsiyasi ochib berilsa, aksiologik yondashuv doirasida jamiyatda keksalarga nisbatan shakllangan qadriyatlar tizimining qayta ma’nolash jarayonlari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari keksalarning ijtimoiy maqomidagi pasayish faqat institutsional emas, balki ma’naviy-insonparvarlik muammosi ekanini ko‘rsatadi. Maqolada keksalarning ijtimoiy ahamiyatini tiklash zamonaviy jamiyatda insonparvarlik qadriyatlarini mustahkamlashning muhim omili ekanligi ilmiy asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *keksalar fenomeni, ijtimoiy maqom, an’anaviylik, zamonaviylik, fenomenologik tahlil, aksiologik yondashuv, qadriyatlar transformatsiyasi*

Abdukarimova G.B.
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy
Tashkent State Transport University

THE TRANSITION FROM TRADITIONALISM TO MODERNITY: THE SOCIAL STATUS OF THE ELDERLY IN A PHENOMENOLOGICAL AND AXIOLOGICAL ANALYSIS

Abstract. *This article examines the transformation of the social status of older people in the transition from traditional to modern society based on phenomenological and axiological approaches. The study highlights the role of older individuals in traditional societies as carriers of moral values, social experience, and intergenerational continuity, as well as the transformation of this role under conditions of modernity. Through a phenomenological analysis, the subjective experiences and social self-identification of older people are explored, while the axiological approach focuses on changes in value systems related to aging. The findings indicate that the decline in the social status of older people represents not only an institutional issue but also a moral and humanistic challenge. The article substantiates that restoring the social significance of older people is a key factor in strengthening humanistic values in contemporary society.*

Keywords: *older people, social status, tradition, modernity, phenomenological analysis, axiological approach, value transformation.*

Абдукаримова Г.Б.
доктор философии (PhD) по философским наукам
Ташкентский государственный транспортный университет

ПЕРЕХОД ОТ ТРАДИЦИОННОСТИ К СОВРЕМЕННОСТИ: СОЦИАЛЬНЫЙ СТАТУС ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В ФЕНОМЕНОЛОГИЧЕСКОМ И АКСИОЛОГИЧЕСКОМ ИЗМЕРЕНИЯХ

Аннотация. *В данной статье изменения социального статуса пожилых людей в процессе перехода от традиционности к современности анализируются на основе феноменологического и аксиологического подходов. В исследовании научно обоснована роль пожилых людей в традиционном обществе как духовных лидеров, носителей ценностей и субъектов, обеспечивающих межпоколенческую преемственность, а также раскрыта трансформация данного статуса в условиях современного общества. Посредством феноменологического анализа выявлены субъективный опыт пожилых людей и особенности их социальной идентификации, тогда как в рамках аксиологического подхода проанализированы процессы переосмысления системы ценностей, сформировавшейся в обществе по отношению к пожилым людям. Результаты*

исследования показывают, что снижение социального статуса пожилых людей является не только институциональной проблемой, но и духовно-гуманистическим вызовом. В статье научно обосновывается, что восстановление социальной значимости пожилых людей является важным фактором укрепления гуманистических ценностей в современном обществе.

Ключевые слова: *феномен пожилых людей, социальный статус, традиционность, современность, феноменологический анализ, аксиологический подход, трансформация ценностей.*

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida an'anaviy ijtimoiy tuzilmalarning zamonaviy ijtimoiy modellar bilan almashinishi inson hayotining barcha sohalariga, ayniqsa keksalar qatlamining jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy maqomi va madaniy ahamiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy jamiyatlarda keksalar avlodlar o'rtasida ma'naviy meros, hayotiy tajriba va ijtimoiy me'yorlarni uzatuvchi asosiy ijtimoiy sub'ekt sifatida qabul qilingan bo'lsa, zamonaviylik sharoitida ushbu rollarning qayta taqsimlanishi, ayrim hollarda esa ularning ijtimoiy maydondan siqib chiqarilishiga guvoh bo'linmoqda. Bu holat keksalar fenomeniga nisbatan shakllangan ilmiy qarashlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi [1].

Global modernizatsiya jarayonlari, jadal urbanizatsiya va raqamli texnologiyalarning hayotga chuqur kirib kelishi natijasida zamonaviy jamiyatda pragmatik, individualistik hamda samaradorlikka yo'naltirilgan qadriyatlar tizimi ustuvorlik qila boshladi. Bunday sharoitda keksalarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati ko'pincha ularning iqtisodiy yoki funksional foydaliligi doirasida baholanib, ma'naviy, aksiologik va ijtimoiy-tarbiyaviy salohiyati yetarlicha e'tibordan chetda qolmoqda. Natijada keksalarning ijtimoiy maqomidagi o'zgarishlar faqat institutsional transformatsiya sifatida emas, balki jamiyatning insonparvarlik asoslariga daxldor ma'naviy inqiroz belgisi sifatida ham namoyon bo'lmoqda [2].

Ushbu jarayonlarni anglashda fenomenologik yondashuv alohida nazariy ahamiyat kasb etadi. Fenomenologiya keksalikni faqat biologik yosh bosqichi sifatida emas, balki insonning sub'ektiv tajribasida ma'no kasb etuvchi ijtimoiy-madaniy holat sifatida talqin qilish imkonini beradi. Keksalarning o'zligini anglash jarayoni, ularning jamiyat tomonidan qabul qilinishi va ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki mazkur yondashuv orqali chuqur va kompleks ravishda ochib berilishi mumkin [3].

Shu bilan birga, aksiologik tahlil keksalarga nisbatan shakllangan qadriyatlar tizimini tadqiq etish, an'anaviy jamiyatda ustuvor bo'lgan hurmat, hayotiy donolik va ma'naviy yetakchilik kabi tushunchalarning zamonaviy ijtimoiy ongda qanday qayta talqin qilinayotganini aniqlashga xizmat qiladi. Zamonaviylik sharoitida keksalarning ijtimoiy qadrining pasayishi, ularning ayrim hollarda ijtimoiy yuk yoki ijtimoiy faollikdan chetlatilgan qatlam sifatida qabul qilinishi aksiologik muammo sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [4].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi an'anaviylikdan zamonaviylikka o'tish jarayonida keksalarning ijtimoiy maqomida ro'y berayotgan o'zgarishlarni fenomenologik va aksiologik yondashuvlar asosida tahlil qilish, shu orqali ushbu transformatsiyaning ijtimoiy-madaniy va qadriyatli oqibatlarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Tadqiqot doirasida keksalarning jamiyatdagi o'rni, ularga nisbatan shakllangan qadriyatlar hamda ijtimoiy munosabatlar tizimi kompleks va tanqidiy tahlil etiladi.

Adabiyotlar sharhi

Keksalik fenomeni zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlarda keng qamrovli tadqiqot ob'ekti sifatida shakllangan bo'lib, u sotsiologiya, falsafa, gerontologiya, madaniyatshunoslik va ijtimoiy psixologiya doirasida turli yondashuvlar asosida o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda keksalik masalasi, avvalo, demografik o'zgarishlar, aholining qarishi va ijtimoiy ta'minot tizimlari bilan bog'liq holda talqin qilingan [5].

An'anaviy jamiyat tuzilmalarini tahlil qilgan tadqiqotlarda keksalar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi, avlodlar o'rtasida ma'naviy merosni uzatuvchi va jamoaviy qadriyatlarni saqlovchi markaziy ijtimoiy sub'ekt sifatida baholanadi. Bunday yondashuvlarda keksalik hayot tajribasi, donolik va ma'naviy yetakchilik bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Ayniqsa, sharq jamiyatlariga oid tadqiqotlarda keksalarga hurmat va ularning ijtimoiy maqomi jamoaviy ongning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rsatiladi.

Zamonaviy ijtimoiy nazariyalarda esa keksalar masalasi ko'proq modernizatsiya, urbanizatsiya va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Qator tadqiqotlarda zamonaviy jamiyatda yoshlik, samaradorlik va raqobatbardoshlikka yo'naltirilgan qadriyatlar tizimi ustuvorlik qilayotgani ta'kidlanib, bu holat keksalarning ijtimoiy maqomining pasayishiga olib kelayotgani ko'rsatib o'tiladi. Natijada keksalik ijtimoiy faollikdan cheklanish, ijtimoiy chetlashuv va marginallashuv xavfi bilan bog'liq fenomen sifatida talqin etiladi [6].

Fenomenologik yondashuv doirasida olib borilgan tadqiqotlar keksalikni sub'ektiv tajriba sifatida o'rganishga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuvda keksalik inson hayotidagi muayyan ma'noiy bosqich sifatida ko'rib chiqilib, uning shaxsiy idroki, o'zligini anglash jarayoni va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari markaziy o'rin tutadi. Bunday

tadqiqotlar keksalarning ijtimoiy maqomini faqat tashqi omillar orqali emas, balki ularning ichki tajribasi va ijtimoiy identifikatsiyasi orqali tushunish imkonini beradi.

Aksiologik tahlilga asoslangan ilmiy ishlar esa keksalarga nisbatan shakllangan qadriyatlar tizimining transformatsiyasini ochib berishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda an’anaviy jamiyatda ustuvor bo‘lgan hurmat, ma’naviy ustuvorlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi qadriyatlarning zamonaviy jamiyatda qanday qayta baholanayotgani tahlil qilinadi. Ayrim tadqiqotlarda zamonaviylik sharoitida keksalarning ijtimoiy qadrining kamayishi jamiyatdagi qadriyatlar inqirozining ko‘rsatkichi sifatida talqin qilinadi [7].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, keksalarning ijtimoiy maqomini an’anaviylikdan zamonaviylikka o‘tish jarayoni kontekstida fenomenologik va aksiologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda kompleks o‘rganish yetarlicha emas. Aksar tadqiqotlar yoki institutsional jihatlarga, yoki demografik va ijtimoiy siyosat masalalariga yo‘naltirilgan bo‘lib, keksalar fenomenidagi ma’naviy va qadriyatli o‘zgarishlar chuqur tahlil etilmagan.

Mazkur maqola ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, keksalarning ijtimoiy maqomidagi o‘zgarishlarni fenomenologik tajriba va aksiologik qadriyatlar tizimi uyg‘unligida tahlil qilishni maqsad qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot an’anaviylikdan zamonaviylikka o‘tish jarayonida keksalarning ijtimoiy maqomida yuz berayotgan o‘zgarishlarni chuqur anglash maqsadida sifatli tadqiqot strategiyasi asosida olib borildi. Tadqiqotda fenomenologik va aksiologik yondashuvlar asosiy nazariy-metodologik tayanch sifatida tanlandi.

Fenomenologik yondashuv keksalarning ijtimoiy maqomini ularning sub’ektiv tajribasi, o‘zini anglash jarayoni va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari kontekstida tahlil qilish imkonini berdi. Ushbu yondashuv orqali keksalik biologik yosh bosqichi emas, balki muayyan ijtimoiy-madaniy ma’no kasb etuvchi hayotiy holat sifatida qaraldi.

Aksiologik tahlil esa keksalarga nisbatan shakllangan qadriyatlar tizimini o‘rganishga qaratildi. Tahlil jarayonida an’anaviy jamiyatda ustuvor bo‘lgan hurmat, ma’naviy yetakchilik va hayot tajribasi kabi qadriyatlarning zamonaviy ijtimoiy ongda qanday qayta baholanayotgani aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy-tahliliy usul qo‘llanilib, an’anaviy va zamonaviy jamiyat modellarida keksalarning ijtimoiy maqomi solishtirma asosda tahlil qilindi. Kontent-tahlil usuli orqali mavjud ilmiy manbalarda keksalar fenomeniga nisbatan ilgari surilgan asosiy g‘oyalar tizimlashtirildi. Ushbu metodlar majmuasi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qildi.

Muhokama va tahlil. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy jamiyatlarda keksalarning ijtimoiy maqomi yuqori darajada institutsional va ma’naviy qiymatga ega bo‘lgan. Ular avlodlar o‘rtasida bilim va qadriyatlarni uzatuvchi, jamoaviy qarorlar qabul qilishda muhim o‘rin tutadigan ijtimoiy sub’ekt sifatida namoyon bo‘lgan. Bunday jamiyatlarda keksalik ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy uzluksizlikning ramzi sifatida qabul qilingan.

Zamonaviy jamiyat sharoitida esa keksalarning ijtimoiy maqomi sezilarli darajada transformatsiyaga uchrayotgani kuzatiladi. Samaradorlik, raqobatbardoshlik va iqtisodiy faollikka yo‘naltirilgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo‘lgan sharoitda keksalarning ijtimoiy ahamiyati ko‘pincha pasayib bormoqda. Bu holat ularning ijtimoiy hayotdan cheklanishi, ayrim hollarda esa marginallashuvi bilan namoyon bo‘ladi.

Fenomenologik tahlil keksalarning o‘zini ijtimoiy maydonda kam baholangan sub’ekt sifatida his qilishi, bu esa ularning ijtimoiy identifikatsiyasi va psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ochib berdi. Aksiologik nuqtai nazardan esa mazkur jarayon jamiyatdagi qadriyatlar tizimining insonparvarlik asoslaridan uzoqlashayot ganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari zamonaviy jamiyatda keksalarning ijtimoiy maqomini tiklash va qayta ma’nolash imkoniyatlari mavjudligini ham ko‘rsatadi. Ayniqsa, avlodlararo muloqotni rivojlantirish, keksalarning ma’naviy va ijtimoiy tajribasidan foydalanish orqali ularning ijtimoiy ahamiyatini oshirish mumkinligi aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari an’anaviylikdan zamonaviylikka o‘tish jarayonida keksalarning ijtimoiy maqomi chuqur va ko‘p qirrali transformatsiyaga uchrayotganini ko‘rsatdi. An’anaviy jamiyatlarda keksalar ma’naviy yetakchilik va ijtimoiy barqarorlik manbai sifatida yuqori qadrlangan bo‘lsa, zamonaviy jamiyatda ularning ijtimoiy roli ko‘pincha cheklanib bormoqda. Fenomenologik tahlil keksalikni inson tajribasida mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy holat sifatida tushunish zarurligini ko‘rsatsa, aksiologik yondashuv jamiyatda keksalarga nisbatan shakllangan qadriyatlar tizimini qayta ko‘rib chiqish zaruratini asosladi. Keksalarning ijtimoiy qadrining pasayishi nafaqat ijtimoiy, balki ma’naviy muammo ekanligi aniqlandi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, keksalarning ijtimoiy maqomini tiklash zamonaviy jamiyatda insonparvarlik qadriyatlarini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari keksalar fenomeniga nisbatan ilmiy yondashuvlarni boyitishga hamda ijtimoiy siyosat va madaniy strategiyalarni ishlab chiqishda nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bauman Z. Tekuchaya sovremennost. Kembridj: Polity Press, 2000. 240 s.
2. Berger P., Lukman T. Sotsialnoe konstruirovanie realnosti. Nyu-York: Anchor Books, 1966. 219 s.
3. Giddens E. Posledstviya sovremennosti. Stenford: Stanford University Press, 1991. 256 s.

4. Manxeym K. Ocherki sotsiologii znaniya. London: Routledge, 1952. – 308 s.
5. Shyus A. Fenomenologiya i sotsialnыe otnosheniya. Chikago: University of Chicago Press, 1970. 327 s.
6. Tornstam L. Gerontotranssendentnost: teoriya pozitivnogo stareniya. – Nyu-York: Springer, 2005. 190 s.
7. Vsemirnaya organizatsiya zdravooxraneniya. Doklad o starenii i zdorove. – Jeneva, 2015. 260 s.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Tursunboy Ergashev,
Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

VATANPARVARLIK FALSAFASI VA UNING O‘ZBEKISTON YOSHLARI BARQAROR DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya: *Maqolada vatanparvarlik falsafasi global ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sharoitida yoshlarning barqaror ongini shakllantirishning aksiologik va mafkuraviy asosi sifatida ko‘rib chiqiladi. Vatanparvarlik hissiy-ritorik emas, balki ratsional-falsafiy yo‘nalishda – shaxsning ichki butunligi, ijtimoiy mas’uliyati va milliy identiklik barqarorligini ta’minlovchi qadriyatlar tizimi sifatida tahlil etiladi. Globallashuv, axborot xatarlari va yoshlarga oid davlat siyosati sharoitida O‘zbekiston yoshlarining vatanparvarlik dunyoqarashini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Falsafiy jihatdan anglangan vatanparvarlik jamiyat ma’naviy va ijtimoiy barqarorligining muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi, degan xulosaga kelinadi.*

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, falsafa, yoshlar, dunyoqarash, milliy o‘zlik, barqarorlik, O‘zbekiston.*

Турсунбой Ергашев
независимый исследователь Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

ФИЛОСОФИЯ ПАТРИОТИЗМА И ЕЕ РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: *В статье рассматривается философия патриотизма как аксиологическая и идеологическая основа формирования устойчивого сознания молодежи в контексте глобальных социально-культурных изменений. Патриотизм анализируется не в эмоционально-риторическом, а в рационально-философском направлении – как система ценностей, обеспечивающая внутреннюю целостность личности, социальную ответственность и стабильность национальной идентичности. Особое внимание уделяется специфике развития патриотического мировоззрения молодежи Узбекистана в контексте глобализации, информационных рисков и государственной политики в отношении молодежи. Сделан вывод о том, что философски осмысленный патриотизм проявляется как важный фактор духовной и социальной стабильности общества.*

Ключевые слова: *патриотизм, философия, молодежь, мировоззрение, национальная идентичность, стабильность, Узбекистан.*

Tursunboy Ergashev,
Independent Researcher, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

THE PHILOSOPHY OF PATRIOTISM AND ITS ROLE IN DEVELOPING A SUSTAINABLE WORLDVIEW OF UZBEKISTAN'S YOUTH

Abstract: *The article considers the philosophy of patriotism as an axiological and ideological basis for the formation of a stable consciousness of young people in the context of global socio-cultural changes. Patriotism is analyzed not in an emotional-rhetorical, but in a rational-philosophical direction - as a system of values that ensures the internal integrity of the individual, social responsibility and the stability of national identity. Special attention is paid to the specific features of the development of the patriotic worldview of the youth of Uzbekistan in the context of globalization, information risks and state policy regarding youth. It is concluded that philosophically understood patriotism is manifested as an important factor in the spiritual and social stability of society.*

Keywords: *patriotism, philosophy, youth, worldview, national identity, stability, Uzbekistan.*

Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichi globallashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy institutlarning o‘zgarishi jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar va dunyoqarash yo‘nalishlari tizimida chuqur o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlar o‘ziga xoslik va hayotiy ustanovkalarni faol shakllantirish bosqichida bo‘lgan ijtimoiy guruh sifatida yoshlarga alohida ta’sir ko‘rsatadi. Axborot to‘yinganligi va madaniy xilma-xillik sharoitida dunyoqarashning

parchalanishi, barqaror qadriyat yo‘nalishlarining yo‘qolishi va ijtimoiy mas’uliyat hissining zaiflashishi xavfi ortib bormoqda.

Bunday vaziyatda vatanparvarlikni falsafiy anglash alohida dolzarblik kasb etadi. Vatanparvarlik falsafiy tushunchada hissiy-irratsional bog‘liqlik yoki mafkuraviy tuzilma sifatida emas, balki shaxsning davlat, jamiyat va tarixiy-madaniy makonga munosabatini ifodalovchi ongli qadriyatli-dunyoqarashli pozitsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shunday ratsional-aksiologik o‘lchamda vatanparvarlik dunyoqarashning ichki barqarorlashtiruvchisi vazifasini bajara oladi va yoshlar ijtimoiy yetukligining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi uchun yoshlarning barqaror dunyoqarashini shakllantirish muammosi amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar sharoitida strategik ahamiyatga ega. Davlatning strategik va me’yoriy hujjatlarida inson kapitalini rivojlantirish, fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirish, dunyoviylik, huquqiy davlat va ijtimoiy birdamlik tamoyillariga asoslangan milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, vatanparvarlik jamiyatni jipslashtirish va davlatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadigan fuqarolik madaniyatining muhim unsuri sifatida qaraladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda vatanparvarlik muammosiga katta qiziqish bilan qaralishiga qaramay, uning yoshlar barqaror dunyoqarashini shakllantirishdagi rolini falsafiy tahlil qilish, ayniqsa, zamonaviy globallashuv muammolariga bog‘liq holda yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu esa vatanparvarlikning aksiologik va mafkuraviy asoslariga murojaat qilish, uning mohiyat xususiyatlari va ijtimoiy-falsafiy salohiyatini ochib berish zaruratini keltirib chiqaradi.

Falsafiy diskursda vatanparvarlik ona zaminga yoki davlat ramzlariga hissiy bog‘lanishdan tashqari murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida qaraladi. Aksiologik o‘lchovda vatanparvarlik shaxsning o‘zi a’zosi bo‘lgan siyosiy, madaniy va tarixiy hamjamiyatga ongli munosabatini ifodalovchi barqaror qadriyat yo‘nalishidir. Ushbu yondashuv vatanparvarlikni shaxsning ijtimoiy o‘ziga xosligi va axloqiy ko‘rsatmalarini shakllantiruvchi dunyoqarash tuzilmasining elementi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan vatanparvarlik shaxsning jamiyat va davlatga integratsiyalashuvini ta’minlovchi jamoaviy o‘ziga xoslik shakli sifatida namoyon bo‘ladi. U individual ong va ijtimoiy farovonlik, adolat, huquq-tartibot, tarixiy vorislik kabi umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Shu ma’noda vatanparvarlik universal qadriyatlarning aksi emas, balki ularni muayyan ijtimoiy-madaniy makonda ro‘yobga chiqarishning muayyan shaklidir.

Vatanparvarlikning muhim falsafiy jihati uning me’yoriy-axloqiy mazmunidir. Vatanparvarlik burch, mas’uliyat va xizmat kategoriyalarini o‘z ichiga oladi, ular falsafiy an’anada axloqiy harakatning asoslari sifatida qaraladi. Biroq, tashqaridan kiritilgan axloqiy imperativdan farqli o‘laroq, vatanparvarlik jamiyat va davlat qadriyatlarini ongli ravishda qabul qilishga asoslangan shaxsning ichki motivatsiyasini o‘z ichiga oladi.

Falsafiy mazmunga ega bo‘lgan vatanparvarlik bilan uning mafkuralashtirilgan shakllari o‘rtasidagi farqni ta’kidlash lozim. Agar birinchi holatda vatanparvarlik oqilona tanlov va tanqidiy fikrlashga asoslansa, ikkinchi holatda u insonparvarlik mazmunini yo‘qotib, dogmatik tus olishi mumkin. Vatanparvarlik falsafasi milliy qadriyatlarga sodiqlik va shaxs erkinligini hurmat qilish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligidan kelib chiqadi, bu ayniqsa zamonaviy plyuralistik jamiyat sharoitida muhimdir.

Vatanparvarlik falsafiy kategoriya sifatida shaxsning qadriyatli yaxlitligini va uning ijtimoiy voqelikka qo‘shilishini ta’minlaydigan aksiologik jihatdan boy dunyoqarashni ifodalaydi. Uni anglash ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik yetukligining chuqur asoslarini aniqlash imkonini beradi, bu esa yoshlar dunyoqarashining shakllanish jarayonlarini tahlil qilishda prinsipial ahamiyatga ega.

Yoshlarning barqaror dunyoqarashi ijtimoiy voqelikni yaxlit idrok etish va noaniqlik sharoitida yo‘naltirishni ta’minlashga qodir bo‘lgan ichki muvofiqlashtirilgan qadriyatlar tizimining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bunda vatanparvarlik individual hayotiy maqsadlarni jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog‘lovchi mazmuniy va qadriyatli integrator vazifasini bajaradi.

Yoshlar uchun vatanparvarlik ijtimoiylashuvning muhim omili bo‘lib, mamlakatning tarixiy va madaniy rivojlanishiga daxldorlik hissini shakllantirishga yordam beradi. Milliy hamjamiyatga mansublikni anglash dunyoqarash barqarorligini mustahkamlaydi, buzg‘unchi mafkuraviy ko‘rsatmalar va qadriyat nigilizmi ta’sirini kamaytiradi. Vatanparvarlik bu jihatdan nafaqat hissiy, balki fuqarolik identikligining ratsional-refleksiv asosini ham shakllantiradi.

Falsafiy jihatdan anglangan vatanparvarlik yoshlarda shaxsiy erkinlikni ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. U shaxsning o‘z-o‘zini anglashi ijtimoiy kontekstdan tashqarida mumkin emasligi haqidagi tushunchani shakllantiradi va ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni hal qilishda ishtirok etishni nazarda tutadi. Bu esa yoshlar dunyoqarashiga me’yoriy yo‘nalganlik va qadriyatli barqarorlik baxsh etadi.

Globallashuv va raqamli muhit sharoitida vatanparvarlik yoshlarga axborot oqimlarini tanqidiy idrok etish va manipulyatsion ta’sirlarga qarshi turish imkonini beruvchi himoya mexanizmi vazifasini ham bajaradi. Barqaror vatanparvarlik qadriyatlarining mavjudligi parchalangan o‘ziga xoslikning shakllanish xavfini kamaytiradi va dunyoqarash yaxlitligini saqlashga yordam beradi.

Shunday qilib, vatanparvarlik yoshlarning barqaror dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, shaxs ongi va ijtimoiy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi. Uni falsafiy anglash va maqsadga muvofiq rivojlantirish hozirgi sharoitda ijtimoiy yetuk, mas’uliyatli va qadriyatli yoshlarni tarbiyalashning zaruriy shartidir.

Globallashuv obyektiv va ko‘p o‘lchovli jarayon sifatida ijtimoiy ong shakllari, jumladan, vatanparvarlik dunyoqarashi transformatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Transmilliy kommunikatsiyalarning kengayishi, madaniy almashinuvlarning jadallashuvi va global axborot oqimlarining ustunligi, ayniqsa, yoshlar muhitida o‘ziga xoslikni shakllantirishning an’anaviy mexanizmlarining o‘zgarishiga olib kelmoqda. V usloviyax globalnogo kulturnogo prostranstva patrioticheskoye soznaniye podvergayetsya peresmıisleniyu, neredko teryaya prejnyuyu normativnuyu i sennostnuyu ustoychivost.

Globallashuvning asosiy muammolaridan biri qadriyatlarning nisbiylashuvi bo‘lib, bunda milliy va fuqarolik yo‘nalishlari o‘zini anglash va muvaffaqiyatning universal modellari bilan raqobatlashadi. Yoshlar uchun bu mas’uliyatning jamoaviy shakllaridan hayotiy loyihalashning individual strategiyalariga urg‘u berishda ifodalanadi. Natijada vatanparvarlik, agar u ratsional falsafiy asoslanmagan bo‘lsa, dunyoqarashning ikkilamchi yoki fakultativ elementi sifatida qabul qilinishi mumkin.

Yoshlar ijtimoiylashuvining asosiy makoniga aylanib borayotgan raqamli muhit vatanparvarlik ongining transformatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va media platformalar ijtimoiy voqelikning parchalangan idrokini shakllantiradi, bunda milliy o‘ziga xoslik ko‘pincha global madaniy kodlarga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi. Bunday sharoitda vatanparvarlik ma’no chuqurligini yo‘qotish va ramziy yoki deklarativ darajaga tushirish xavfiga duch keladi.

Falsafiy jihatdan globallashuv vatanparvarlikni yopiq va turg‘un kategoriya sifatida emas, balki ochiq dunyo sharoitiga moslasha oladigan dinamik dunyoqarash fenomeni sifatida qayta idrok etishni taqozo etmoqda. Zamonaviy vatanparvarlik milliy qadriyatlarga sodiqlikni madaniyatlararo muloqotga ochiqlik bilan uyg‘unlashtirishi kerak, bu esa uning insonparvarlik mazmuni va yoshlar uchun dolzarbligini saqlab qolish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning vatanparvarlik dunyoqarashini shakllantirish faol islohotlar va barqaror rivojlanishga strategik yo‘naltirilgan o‘ziga xos milliy va ijtimoiy-siyosiy kontekstda amalga oshirilmoqda. Ushbu sohadagi davlat siyosati milliy o‘zlikni anglash va zamonaviy dunyoga ochiqlikni uyg‘unlashtira oladigan, ijtimoiy mas’uliyatli, intellektual rivojlangan va fuqarolik faol yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasining strategik va me’yoriy hujjatlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularda yoshlarning ijtimoiy rivojlanishning asosiy resursi sifatidagi roli ta’kidlangan. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasida milliy o‘zlikni anglash, inson kapitalini rivojlantirish va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu o‘rinda vatanparvarlik davlatchilik, qonun va ijtimoiy kelishuv qadriyatlariga ongli ravishda sodiqlik sifatida qaraladi.

O‘zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosati vatanparvarlik tarbiyasiga dunyoviy va oqilona yondashuvga yo‘naltirilgan bo‘lib, uni mafkuralashtirish va aqidaparastlikka yo‘l qo‘ymaydi. Vatanparvarlik tarbiyasi inson huquqlarini hurmat qilish, huquqiy davlat va ijtimoiy mas’uliyatga asoslangan fuqarolik madaniyatini shakllantirishning kengroq vazifasining bir qismi sifatida qaraladi.

Milliy kontekst, shuningdek, qadriyatlar vorisiyligi manbai bo‘lgan tarixiy tajriba va madaniy merosga tayanishni ham nazarda tutadi. Biroq bu tayanch an’anaviylik shaklida emas, balki tarixiy tajribani zamonaviy taraqqiyot uchun manba sifatida falsafiy anglash shaklida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv yoshlarda global tahdidlarga chidamli va ijtimoiy rivojlanishning uzoq muddatli maqsadlariga yo‘naltirilgan vatanparvarlik ongini shakllantirish imkonini beradi.

Ijtimoiy tuzilmaning murakkablashuvi va global xavf-xatarlarning kuchayishi sharoitida vatanparvarlik nafaqat individual qadriyat yo‘nalishi, balki jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy barqarorligining tizim hosil qiluvchi omili sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Falsafiy o‘lchovda barqarorlik ijtimoiy tizim va shaxsning tashqi va ichki o‘zgarishlar vaziyatida yaxlitlik, o‘ziga xoslik va me’yoriy tartibni saqlab qolish qobiliyati sifatida tushuniladi. Vatanparvarlik bu o‘rinda shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlovchi integrativ qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Individual ong darajasida vatanparvarlik shaxsning barqaror ma’naviy yadrosini shakllantirishga yordam beradi. U yoshlarning dunyoqarashini asosiy qadriyatlar – mas’uliyat, birdamlik, qonun va ijtimoiy manfaatlarga hurmat atrofida shakllantiradi. Media va konyunktura omillari ta’sirida shakllanadigan vaziyatli o‘ziga xosliklardan farqli o‘laroq, vatanparvarlik o‘zini o‘zi anglash uzoq muddatli qadriyat asoslariga tayanadi, bu esa ekzistensial noaniqlik darajasini pasaytiradi va ijtimoiy daxldorlik hissini kuchaytiradi.

Ijtimoiy barqarorlik, o‘z navbatida, jamiyatning aksariyat a’zolari uchun umumiy bo‘lgan ramzlar, ma’nolar va me’yoriy yo‘nalishlarning mavjudligini nazarda tutadi. Vatanparvarlik shaxs va davlat o‘rtasidagi ramziy vositachi vazifasini bajaradi, ijtimoiy institutlarga ishonchni shakllantiradi va jamiyat me’yorlarini qonuniylashtiradi. Yoshlar muhitida bu fuqarolik ishtirokiga, konstruktiv muloqotga va ijtimoiy mas’uliyatga tayyorlikda ifodalanadi.

Falsafiy nuqtayi nazardan vatanparvarlikni shaxs erkinligini bo‘g‘magan holda ijtimoiy tartibni saqlashga qaratilgan qadriyatli ratsionallik shakli sifatida ko‘rib chiqish lozim. U tanqidiy fikrlashga qarama-qarshi qo‘yilmaydi, aksincha, ijtimoiy jarayonlarga mas’uliyatli va refleksiv munosabatni nazarda tutadi. Bunday vatanparvarlik shaxs va jamiyatning o‘zaro bog‘liqligini tushunishga asoslangan faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi sharoitida vatanparvarlik ma’naviy va ijtimoiy barqarorlik omili sifatida modernizatsiya islohotlari va huquqiy davlatni mustahkamlash sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda falsafiy ma’nodagi vatanparvarlikni shakllantirish jamiyatni jipslashtirish, radikal va buzg‘unchi g‘oyalarning oldini olish, ma’naviy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, vatanparvarlik nafaqat tarbiyaviy siyosatning elementi sifatida, balki uzoq muddatli istiqbolda jamiyatning barqaror rivojlanishining asosiy manbai sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Vatanparvarlikning falsafiy tahlili uni tor mafkuraviy yoki hissiy hodisa sifatida emas, balki yoshlarning barqaror ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan murakkab aksiologik va mafkuraviy kategoriya sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Qadriyatlarning nisbiylashuvi va o‘ziga xosliklarning parchalanishi bilan kechayotgan global o‘zgarishlar sharoitida vatanparvarlik shaxs dunyoqarashining yaxlitligi va barqarorligini ta’minlaydigan ichki qadriyat yo‘nalishi ahamiyatiga ega bo‘ladi.

Dunyoviy falsafiy ma’noda anglangan vatanparvarlik yoshlarning individual hayotiy strategiyalarini jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog‘laydigan qadriyatli ratsionallik shakli sifatida namoyon bo‘ladi. U ochiqlik va madaniyatlararo muloqot tamoyillariga zid bo‘lmagan holda ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik yetukligi va sodir bo‘layotgan jarayonlarni tanqidiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda vatanparvarlik ongi global dunyoga qarshi turmaydi, balki u bilan ongli va konstruktiv o‘zaro munosabatlarning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Globallashuv muammolarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, vatanparvarlik ongining o‘zgarishi axborot va madaniy muhitdagi o‘zgarishlarning muqarrar natijasidir. Biroq, bu jarayonlar vatanparvarlikning yo‘qolishiga olib kelmaydi, balki uni qayta ko‘rib chiqish va yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashtirishni talab qiladi. Falsafiy jihatdan asoslangan vatanparvarlik o‘ziga xoslikning yuzaki va buzg‘unchi shakllariga qarshi tura oladi, yoshlarning barqaror ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlarini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasining milliy konteksti va amalga oshirilayotgan davlat siyosati fuqarolik madaniyati va ma’naviy xavfsizlikning elementi sifatida vatanparvarlikni shakllantirish uchun institutsional va qadriyatli shart-sharoitlarni yaratadi. Dunyoviy tamoyillar, huquqiy davlat va inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilganlik vatanparvarlik tarbiyasini zamonaviy falsafiy va ijtimoiy bilimlar tizimiga integratsiyalash imkonini beradi.

Umuman olganda, vatanparvarlik ma’naviy va ijtimoiy barqarorlikning muhim omili bo‘lib, qadriyatlar davomiyligini, jamiyatning jipslashuvini va yoshlar dunyoqarashining barqarorligini ta’minlaydi. Ushbu kategoriyani falsafiy tushunish global muammolar va milliy taraqqiyot sharoitida yoshlarning fuqarolik identifikatsiyasini shakllantirish amaliyotini yanada takomillashtirish va fanlararo tadqiqotlar uchun imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Appadurai A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization / A. Appadurai. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. – 229 p.
2. Bauman Z. Liquid Modernity / Z. Bauman. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 288 p.
3. Beck U. World Risk Society / U. Beck. – Cambridge: Polity Press, 1999. – 240 p.
4. Bell D. The Cultural Contradictions of Capitalism / D. Bell. – New York: Basic Books, 1976. – 480 p.
5. Buzan B., Wæver O., de Wilde J. Security: A New Framework for Analysis / B. Buzan, O. Wæver, J. de Wilde. – Boulder: Lynne Rienner Publishers, 1998. – 239 p.
6. Castells M. The Power of Identity / M. Castells. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. – 464 p.
7. Etzioni A. The Spirit of Community: Rights, Responsibilities, and the Communitarian Agenda / A. Etzioni. – New York: Crown Publishers, 1993. – 256 p.
8. Fukuyama F. Identity: The Demand for Dignity and the Politics of Resentment / F. Fukuyama. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2018. – 256 p.
9. Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age / A. Giddens. – Cambridge: Polity Press, 1991. – 264 p.
10. Gray J. Enlightenment’s Wake: Politics and Culture at the Close of the Modern Age / J. Gray. – London: Routledge, 1995. – 280 p.
11. Huntington S. P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order / S. P. Huntington. – New York: Simon & Schuster, 1996. – 368 p.
12. Kaldor M. New and Old Wars: Organised Violence in a Global Era / M. Kaldor. – Cambridge: Polity Press, 2012. – 256 p.

13. MacIntyre A. After Virtue: A Study in Moral Theory / A. MacIntyre. – Notre Dame: University of Notre Dame Press, 1981. – 336 p.
14. Nye J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics / J. S. Nye. – New York: PublicAffairs, 2004. – 256 p.
15. Ricoeur P. Oneself as Another / P. Ricoeur. – Chicago: University of Chicago Press, 1992. – 372 p.
16. Taylor C. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity / C. Taylor. – Cambridge: Harvard University Press, 1989. – 520 p.
17. Walzer M. Just and Unjust Wars: A Moral Argument with Historical Illustrations / M. Walzer. – New York: Basic Books, 1977. – 368 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

A.E.Shaymanova
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.d.
Hasanova Marjona Oltiboy qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
Email: mrjnhasanova@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-2375-925X

JAMIYATDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ekologik madaniyatning nazariy va amaliy asoslari, shuningdek, uning inson hayoti va shaxsiy faoliyatidagi ahamiyati yoritilgan. Barqaror rivojlanishni ta'minlashda jamiyatning ekologik madaniyatini yuksaltirish muhim omillardan biri ekani asoslab berilgan. Ekologik madaniyat umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi sifatida talqin qilinib, u shaxsning ma'naviy kamoloti va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim ko'rsatkich ekani ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Yashil makon, antropotsentrizm, ekotsentrizm, ekologik ta'lim, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish.*

Шайманова А.Е.
Доцент, кандидат философских наук, Шахрисабзский государственный педагогический институт
Гасанова Марджона Олтибой кызы
Магистрант Шахрисабзского государственного педагогического института

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические и практические основы экологической культуры, а также её значение в жизни человека и его личной деятельности. Обосновывается, что повышение уровня экологической культуры общества является одним из ключевых факторов обеспечения устойчивого развития. Экологическая культура рассматривается как неотъемлемая часть общечеловеческой культуры и важный показатель духовного развития личности и прогресса общества.*

Ключевые слова*: Зелёное пространство, антропоцентризм, экоцентризм, экологическое образование, экологическая культура, устойчивое развитие.*

A.E. Shaymanova
Associate Professor, Candidate of Philosophy, Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Marjona Oltiboy Kyzi Xasanova
Master's student, Shakhrisabz State Pedagogical Institute

SOCIAL-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN SOCIETY.

Annotation: *This article examines the theoretical and practical foundations of ecological culture, as well as its significance in human life and individual activity. It is substantiated that enhancing the ecological culture of society is one of the key factors in achieving sustainable development. Ecological culture is interpreted as an integral part of universal human culture and an important indicator of personal spiritual development and social progress.*

Key words: *Green space, anthropocentrism, ecocentrism, environmental education, ecological culture, sustainable development.*

KIRISH. Bugungi kunda insoniyat global ekologik muammolar — atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi xavf-xatarlar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Mazkur muammolar nafaqat alohida hududlar, balki butun insoniyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu jarayonda ekologik muammolarning asosiy sababi sifatida inson omili va ekologik madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi ko'rsatib o'tiladi.

Ekologik madaniyatni shakllantirish orqali jamiyatda ekologik muvozanatni saqlash, aholi farovonligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin. Shu bois ekologik madaniyat masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili: Ekologik madaniyat muammosi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda falsafa, pedagogika, sotsiologiya va ekologiya fanlari kesishgan nuqtada keng yoritib kelinmoqda. Tadqiqotchilar ekologik madaniyatni insonning tabiatga bo'lgan munosabati, ekologik ong va mas'uliyatli xulq-atvorini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qiladilar. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ekologik madaniyat tushunchasi asosan barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Jumladan, ekologik ta'lim va ekologik ongni rivojlantirish barqaror jamiyatni shakllantirishning muhim shartlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, qator tadqiqotlarda antropotsentrik yondashuvning ekologik inqirozlarni kuchaytirgani, ekotsentrik paradigma esa tabiat va inson o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qilishi ta'kidlanadi. MDH mamlakatlari va mahalliy olimlar tadqiqotlarida ekologik madaniyat masalasi ko'proq ma'naviy-axloqiy va huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Ayrim ilmiy ishlarda ekologik madaniyat shaxsning ma'naviy kamoloti, ekologik ong va ekologik mas'uliyatning o'zaro uyg'unligi natijasi sifatida izohlanadi. Shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirishda ta'lim tizimi, oila va ijtimoiy institutlarning roli muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi. Qator tadqiqotlarda ekologik qadriyatlarning tarixiy ildizlari tahlil qilinib, Sharq falsafasi, xususan, zardushtiylik ta'limoti va "Avesto"da ilgari surilgan tabiatga ehtirom g'oyalari ekologik madaniyatning dastlabki manbalaridan biri sifatida baholanadi. Mazkur qarashlar hozirgi ekologik muammolarni hal etishda muhim falsafiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik madaniyat muammosi ko'pincha alohida yo'nalishlar doirasida o'rganilgan bo'lib, uni falsafiy, ijtimoiy va institutsional mexanizmlar uyg'unligida kompleks tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, tarixiy-taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish va normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ekologik madaniyat tushunchasining falsafiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi.

Muhokama. Insoniyat hozirgi kunda global ekologik muammolarga duch kelmoqda. Atrof-muhitni ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi muammolar nafaqat alohida mintaqalar, balki butun sayyoramiz uchun xavf tug'dirmoqda. Ushbu muammolar bilan bir qatorda, insonlarning jamiyatdagi ekologik madaniyatini shakllantirish orqali faravonlikni ta'minlash mumkin.

Ekologik madaniyat ham umumbashariy madaniyatning uzviy bir qismi. Uning shakllanish davri olis zamonlarga borib bog'lanadi. Ekologiya yunoncha so'z bo'lib,"oykos"-uy, "logos"-fan, ya'ni "tabiat uyi" bo'lmish borliqda yashayotgan tirik jonzotlarning o'rganuvchi ilm sohasi deganidir. Biz yurtimiz hududida bundan qariyb uch yil muqaddam zardushtiylik ta'limoti shakllangan, uning bosh kitobi "Avesto"deb atalgan. Bu ta'limotda yer, suv, olov, havo muqaddas sanalgan, bundan tashqari hayvonlarga ozor berish ham qoralangan. Avesto - qa'tiy o'rnatilgan qonun-qoidalar degan ma'noni anglatadi. Shu uchun ham bu ta'limotga e'tiqod qiluvchilar muqaddas narsalarni ezozlashgan.

Hozirgi zamonda ekologik madaniyat tushunchasi esa insonlar ongida oddiy narsadek tuyuladi, ekologiyaga amal qilinmasligi sababli Orol muammosi, azon qatlamining yemirilishi, havoning ifloslanishi kabi muammolarimiz dolzarblashib bormoqda. Muhtaram Prezidentimiz ko'plab choralarni ko'rmoqda masalan: "Yashil makon " umummilliy loyihasi ishlab chiqildi. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning eng muhim vazifalaridan biri inson hayot sifati va faravonligini oshirishdan iborat bo'lib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, munosib yashash sharotlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konstsepsiyasi", 2021-yil 30-dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmonida tatbiq etilishi belgilangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi dasturlarida atrof muhit ob'ektlarini havo, suv, yer, tuproq, yer qari, bioxilma-xillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar inson ta'siri hamda boshqa salbiy ta'sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta'minlash hamda sanoat ishlab chiqarishi, urbanizatsiya ko'lami keskin kengayishi va aholi punktlariga tushayotgan ekologik yukni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish rejalari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

Bu sohada xalqaro hamkorlik munosabatlarida ham davlatimiz faol qatnashdi. O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 18-mayda Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena konventsiyasiga va Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoliga qo'shildi, O'zbekiston 1993- yildan buyon BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi konventziyasining a'zosi hisoblanadi. (Manbani ko'rsating Chiqindilarni duch kelgan joyga tashlamaslik, suv va havoni ifloslantirmaslik kabi ekologik odatlar xalqimiz ma'naviy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu an'analarning shakllanishi insoniyatning tabiat bilan uyg'un yashashga intilishi bilan bog'liq bo'lib, ularning ildizlari qadimiy tarixiy davrlarga borib taqaladi.

Bugungi kunda ham ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54- va 55-moddalarida tabiatni muhofaza qilish masalasi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, 54-moddaga muvofiq, mulkdor mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqiga ega bo‘lsa-da, ushbu faoliyat ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, shuningdek, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini buzmasligi shart. 55-moddada esa yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylik ekani, ulardan oqilona foydalanish zarurligi va davlat muhofazasida ekani belgilab berilgan.

Ekologik madaniyat insonlarning tabiiy resurslarga bo‘lgan munosabati, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorlik va mas’uliyatni ifodalovchi ijtimoiy-ma’naviy kategoriya hisoblanadi. Ushbu madaniyatni shakllantirishda bir qator omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ta’lim va tarbiya tizimi orqali yosh avlodda ekologik bilim va mas’uliyatni rivojlantirish zarur. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida ekologik ta’limni tizimli yo‘lga qo‘yish ekologik madaniyatni yuksaltirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, jamiyatda ekologik qadriyatlarni rivojlantirish orqali insonlarda tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish mumkin. Bu jarayonda davlatning ekologik siyosati va huquqiy mexanizmlari muhim rol o‘ynaydi hamda ekologik madaniyatni rivojlantirishning huquqiy asosini tashkil etadi.

Ekologik madaniyatning falsafiy-etika asosi antropotsentrik yondashuvdan ekotsentrik yondashuvga o‘tishni taqozo etadi. Ya’ni insonni tabiatdan ustun qo‘yish emas, balki uni tabiatning ajralmas qismi sifatida anglash muhimdir. Bu jarayonda ekologik ong — insonning o‘zini tabiat bilan yaxlit bir butun sifatida his qilishi, hamda kelajak avlodlar oldidagi axloqiy mas’uliyatni anglash muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, Sharq falsafasidagi “inson — mikrokosmos” g‘oyasi tabiatga zarar yetkazmaslik tamoyilini shakllantirishda muhim ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy-institutsional mexanizmlar alohida ahamiyatga ega. Jumladan, oila ekologik tarbiyaning ilk poydevori bo‘lib, chiqindilarni saralash, suvni tejash kabi ko‘nikmalar avvalo oila muhitida shakllanadi. Ta’lim tizimida bog‘chadan universitetgacha bo‘lgan uzluksiz ekologik ta’limni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy axborot vositalari va internet esa ekologik muammolarni jamoatchilik ongida dolzarb mavzuga aylantirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda samarali vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, huquqiy va me’yoriy mexanizmlar orqali jamiyat a’zolarining ekologik xulq-atvorini tartibga solish mumkin. Ekologik qonunchilikda tabiatga zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi, shuningdek, “yashil texnologiyalar”ni qo‘llayotgan korxona va shaxslarga rag‘batlantirish tizimini joriy etish ekologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, estetik mexanizmlar — san’at, adabiyot va landshaft dizayni orqali insonda tabiat go‘zalligini his etish va uni asrashga bo‘lgan ichki ehtiyojni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmay, insonning borliqqa bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirishni anglatadi. Bu jarayon falsafiy tafakkur va ijtimoiy mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligiga tayanadi. Ekologik madaniyat — bu faqat daraxt ekish emas, balki har bir insonning o‘z harakatlarining tabiatga ta’sirini anglagan holda yashash madaniyatidir. Ushbu jarayon uzoq muddatli bo‘lib, doimiy e’tibor va izchil sa’y-harakatlarni talab etadi. Faqat shu yo‘l orqali tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolish hamda insoniyat farovonligini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Моисеев Н.Н. *Экология и цивилизация*. — М.: Наука, 1998.

2.Леопольд А. *A Sand County Almanac*. — New York: Oxford University Press, 1949.

3.UNESCO. *Education for Sustainable Development*. — Paris, 2014.

4.Naess A. *Ecology, Community and Lifestyle*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1989.

5.Абдуллаев А. Экологик маданият ва маънавият масалалари // *Фалсафа ва ҳуқуқ*. — 2019.

6.Жўраев Н. Экологик таълимнинг ижтимоий аҳамияти. — Тошкент, 2020.

7.Мамашокиров С. Экологик онг ва барқарор тараққиёт. — Самарқанд, 2021.

8.Otamuratov S. Globallashuv va millat.-Toshkent.:Yangi asr avlodi, 2008.

9.. Qo‘yliyev T. Ekologik madaniyatni shakllanish va rivojlanish xususiyatlari.-T.:TAQI, 2007.140 bet.

10.Xusanov E. O‘quvchilarda ekogumanistik dunyoqarashni shakllantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida//o‘zbekiston Milliy Unversiteti Zamonaviy pedagogika va psixologiya masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.-2024 yil 27-mart.

11. Husanov E.T. Maktab o‘quvchilari ekologik madaniyatining ilmiy mohiyati // Zamonaviy ta’lim.-2023.

12. Kistaubayev S.U. Shaxs ekologik dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlarning roli: Falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati.- Samarqand,2019.

13. Rasilov D. Urbanizatsiya va ekologik madaniyatni rivojlantirish masalalari.-T.: 2001.119 bet.

14.Joldasov I., Mahkamova M. Jamiyatda ekologik madaniyatini shakllanish omillari.- T.:2020.

15.Gulyamova G. “Yashil makon” umummilliy loyihasi aholi hayoti sifatini oshirish omili.-O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi., Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti v.b, 2022.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Mirzayev Muhammadaziz Erkinjon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika institute mustaqil tadqiqotchisi

HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINI OILA VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGIDA TASHKIL ETISH

Anotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini oila va jamoatchilik hamkorligida tashkil etish masalasining mohiyati yoritilib, ota-onalar hamda mahalla, nodavlat tashkilotlar va harbiy tuzilmalar ishtirokidagi tarbiyaviy faoliyat shakllari va ularning samaradorligi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *harbiy-vatanparvarlik, tarbiya, oila, maktab, jasorat, jamoatchilik, globallashuv.*

Мирзаев Мухаммадазиз Эркинжон угли
Независимый исследователь Андижанского государственного педагогического института

ОРГАНИЗАЦИЯ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ С СЕМЬЕЙ И ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ

Аннотация: *В данной научной статье раскрывается суть проблемы организации военно-патриотического воспитания во взаимодействии с семьей и общественностью, анализируются формы воспитательной работы с участием родителей, местного сообщества, общественных организаций и военных структур, а также их эффективность.*

Ключевые слова: *военно-патриотизм, воспитание, семья, школа, мужество, общественность, глобализация*

Mirzaev Muhammadaziz Erkinjon ugli
Independent researcher at Andijan State Pedagogical Institute

ORGANIZATION OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION IN COOPERATION WITH FAMILY AND PUBLICITY

Abstract: *This scientific article sheds light on the essence of the issue of organizing military-patriotic education in cooperation with family and public, analyzes the forms of educational activities with the participation of parents, neighborhood, non-governmental organizations and military structures, and their effectiveness.*

Keywords: *military-patriotism, education, family, school, courage, public, globalization*

Bugungi globallashuv va axborot xurujlari davrida yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifaga aylangan. Yoshlar ongiga Vatanga sadoqat, mardlik va fidoyilik tuyg‘ularini singdirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda nafaqat ta’lim muassasalari, balki oila va jamoatchilik institutlari ham faol ishtirok etishi zarur. O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan konsepsiyalarda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarni faollashtirish uchun fuqarolarni, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini keng jalb etish belgilangan.

Oila – har qanday tarbiyaviy jarayonning boshlang‘ich va eng muhim bo‘g‘ini. Farzand eng avvalo oilada tarbiya asoslarini oladi, maktab va jamiyat ta’siri esa keyingi o‘rinda turadi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, bola ongiga vatanparvarlik tuyg‘usini singdirish, avvalo, oilada, ota-ona mehri va ko‘magi orqali amalga oshiriladi. Chunki bolalar ko‘pincha onaning bag‘rida voyaga yetadi va birlamchi hayotiy ko‘nikmalarni, Vatanga sadoqat, ota-ona va atrofdagilarga muhabbat kabi yuksak axloqiy fazilatlarni aynan ona tarbiyasidan boshlanadi. Uy sharoitida, ota-ona mehr-muhabbati va ona tili orqali, farzandning qalbiga Vatanga muhabbat va milliy g‘urur tuyg‘ulari singdiriladi.

Ota-onaning shaxsiy o‘rnak ko‘rsatishi vatanparvarlik tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Farzandlar ota-ona xulq-atvoridan, ularning Vatan va jamiyatga munosabatidan o‘rnak oladilar. Oilada yurtga sadoqatli muhit yaratilsa, bola shunday fazilatlarni o‘zida uyg‘otadi. Pedagogik manbalarda qayd etilishicha, oilada to‘g‘ri tarbiya olib ulg‘aygan, oilasiga sodiq bo‘lib shakllangan shaxsgina kelgusida o‘z Vatanini chinakamiga qadrlay oladi[5]. *“Vatan, aslida, avvalo oila degani”*

degan tushuncha bejiz emas – oilasiga, yaqinlariga mehr-muhabbat qo‘yib o‘sgan bolaning yurtga sadoqati mustahkam bo‘ladi.

Shu bois ota-onalarning tarbiyaviy jarayondagi ishtiroki va mas’uliyati juda katta. Ota-onalar yig‘ilishlari, uy majlislari kabi tadbirlar orqali maktab va oila aloqasi yo‘lga qo‘yilib, farzandlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish masalalari birgalikda muhokama qilinishi mumkin. Maktablarda tashkil etilayotgan *“Ota-onalar universiteti”* kabi loyihalar ota-onalarga pedagogik bilim berib, farzand tarbiyasida, jumladan, vatanparvarlik ruhini singdirishda zamonaviy usullar bo‘yicha amaliy maslahatlar bermoqda. Bu yondashuv ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga yaqindan jalb etib, ularning farzandlari ta’lim-tarbiyasida faol qatnashishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ota-onalar tarbiyada faol ishtirok etganda bolalarning ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishi sezilarli darajada yuqori bo‘lishi aniqlangan. Aksincha, ota-ona e’tiboridan chetda qolgan farzandlarda ma’naviy bo‘shliq paydo bo‘lishi, ular turli salbiy ta’sirlarga beriluvchanroq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham oilaviy tarbiya jarayonida ota-onalarning bevosita ishtirokini oshirish bugungi kun talabi sanaladi.

Oilada harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini samarali yo‘lga qo‘yish uchun amaliy usullardan foydalanish lozim. Avvalo, bola qalbida oilaga mehr uyg‘otish orqali Vatanga mehr asoslari yaratiladi. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, bolalarda vatanparvarlikni shakllantirish ularning oilasiga, o‘z yaqinlariga oddiy insoniy muhabbatni tarbiyalashdan boshlanishi kerak. Ota-ona farzandiga oilasini, qarindosh-urug‘larini, tug‘ilib o‘sgan joyini sevishni o‘rgatar ekan, bu tuyg‘u keyinchalik yurt muhabbatiga ulanadi. Xalq maqolida aytilganidek, *“Bulbul chamanni sevar, odam vatanni”* – ya’ni, inson avvalo o‘z uyini, o‘z yaqinlarini sevsagina, Vatan tushunchasining qadriga yetadi.

Bundan tashqari, ota-onalar farzandlariga tarixiy qahramonlar va milliy meros haqida hikoya qilib berishlari, ular bilan faxrlanish tuyg‘usini singdirishlari muhimdir. Oilada ota yoki ona bolaga To‘maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi ajdodlarimizning jasorati haqida so‘zlab bersa, ularning Vatan himoyasi yo‘lida ko‘rsatgan fidoyiligi bilan tanishtirsa, bu bolada milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini oshiradi. Rasmiy konseptual hujjatlarda ham yoshlar qalbida milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish va ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Demak, ota-onalar farzand tarbiyasida tarixiy ibrat namunalari va madaniy merosdan foydalanib, Vatanga muhabbat hissini mustahkamlashlari lozim. Bu borada oilaviy kitobxonlik, ota-bobolar xotiralarini eslab turish, uy muzeychalarini yaratish kabi tashabbuslar yaxshi samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, oilada mustahkam vatanparvarlik tarbiyasini olgan bola jamiyatda ham mas’uliyatli, yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan ulg‘ayadi. Oila muhitida shakllangan Vatanga muhabbat farzandni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qiladi, unga mustahkam fuqarolik pozitsiyasini baxsh etadi. Shu bois, ota-ona – farzandining ilk ustoz va tarbiyachisi sifatida – harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yukini o‘z zimmasiga oladi. Oilaviy tarbiya bilan maktab tarbiyasi o‘zaro uyg‘unlashgandagina, yosh avlod qalbida chin vatanparvar fuqaro kamol topadi.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash faqat oila doirasida cheklanib qolmaydi – bu jarayonga butun jamiyat, jamoat tashkilotlari va harbiy tuzilmalar hamkorlikda jalb etilgandagina kutilgan natija berishi mumkin. Pedagogik va sotsiologik tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, keng jamoatchilik ishtirokida olib borilgan tarbiyaviy ishlar yoshlarning ijtimoiy faolligini va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda muhim omil bo‘ladi. Quyida mahalla, nodavlat tashkilotlar, yoshlar agentliklari hamda harbiy qismlar va safarbarlik bo‘limlari bilan hamkorlikning asosiy shakllari va ularning samarasi tahlil qilinadi.

Mahalla – o‘zbek jamiyatining an’anaviy tarbiya instituti sifatida – yoshlar tarbiyasida alohida o‘rin tutadi. Mahalla fuqarolar yig‘inlari nafaqat mahalliy muammolarni hal etadi, balki ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda, jumladan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda maktablar bilan yaqindan hamkorlik qilishi mumkin. Mahalla faollari, nuroniylar va ota-onalar ishtirokida yoshlar uchun davra suhbatlari, ma’naviyat soatlari, faxriylar bilan uchrashuvlar uyushtirish yaxshi samara beradi. Masalan, urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar, suhbatlar, savol-javob viktorinalari o‘tkazish orqali yoshlar o‘z yurtining yaqin tarixini bilib, Vatanga sadoqat tuyg‘usini chuqurroq anglaydi. Bunday uchrashuvlarda mahalla oqsoqollari tomonidan tarbiyaviy ahamiyatga molik hayotiy tajribalar ulashiladi, Vatan ravnaqi uchun xizmat qilishning ahamiyati tushuntiriladi. Natijada, oila-mahalla-maktab hamkorligining uzviyligi ta’minlanib, bola tarbiyasiga kompleks yondashuv shakllanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va turli jamoat birlashmalari ham yoshlarni vatanparvarlikka yo‘naltirishda muhim imkoniyatlarga ega. Xususan, *“Vatanparvar”* mudofaaga ko‘maklashuvchi tashkiloti, *Urush va mehnat faxriylari kengashi*, *“Yoshlar ittifoqi”* kabi tuzilmalar maktablar bilan hamkorlikda ko‘plab ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirmoqda. Davlat konsepsiyasida ham yoshlar tarbiyasiga doir ishlarga fuqarolik jamiyati institutlarini faol jalb etish ustuvorligi qayd etilgan bo‘lib, bunday hamkorlik yurt kelajagi uchun fidoyi yoshlarni tarbiyalashga qaratilgandir.

Nodavlat ta’lim muassasalari va jamoat fondlari qoshida tashkil etilgan harbiy-vatanparvarlik to‘garaklari yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ularni mudofaaga tayyorlashga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda ayrim nodavlat ta’lim muassasalari harbiy sohaga ixtisoslashgan elementlarni joriy etib, yoshlarni sportning harbiy-amaliy turlariga (masalan, otish, saf tortish, turizm) o‘rgatish bo‘yicha faoliyat yuritayotir. Bunday tashabbuslarni Mudofaa vazirligi va

boshqa tegishli idoralar moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlamoqda – masalan, o‘quv qurollari mulyajlarini taqdim etish, harbiy instruktorlarni biriktirish, ayrim hollarda grant va subsidiyalar ajratish ko‘rinishida ko‘mak berilmoqda. Natijada davlat va nodavlat sektor hamkorligi shakllanib, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik harakatini jonlantirishga zamin yaratilmoqda.

Yuqoridagi hamkorlik shakllarining biri sifatida harbiy-vatanparvarlik klublari misolini keltirish mumkin. Mahalliy mutaxassislar ta’kidlashicha, mustaqillik davrida umumta’lim maktablarida ilgari mavjud bo‘lgan harbiy-vatanparvarlikka oid moddiy-texnik baza yo‘qotilgani bois, hududlarda yangi turdagi klublarni tashkil etish zaruratga aylangan. Xususan, nafaqadagi harbiy xizmatchilar va urush faxriylari boshchiligida maktab o‘quvchilari uchun harbiy-vatanparvarlik to‘garaklarini yo‘lga qo‘yish tashabbuslari ko‘rilmoqda. Bunday klublar nodavlat ta’lim tashkiloti yoki jamoat birlashmasi ko‘rinishida faoliyat yuritishi, ularning rahbarlariga davlat tomonidan rag‘batlantiruvchi qo‘shimcha to‘lovlar berilishi mumkinligi taklif etilmoqda. Tajriba ko‘rsatmoqdaki, faxriy harbiylar boshchiligidagi to‘garaklar bolalar va o‘smirlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda hamda jismoniy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ijobiy rol o‘ynaydi. Mazkur klublar doirasida o‘quvchilar uchun tarixiy va diqqatga sazovor joylarga sayohatlar uyushtirish, urush qatnashchilarining oilalariga homiylik tashriflarini amalga oshirish, sport-salomatlik mashg‘ulotlari tashkil etish kabi qator ishlar yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Masalan, ekspertlarning qayd etishicha, harbiy-vatanparvarlik klublari bolalar va o‘smirlarning nafaqat jismoniy tayyorgarligini oshiradi, balki ular orasida jamoada ishlash va muloqot madaniyatini ham shakllantiradi. Bunday faoliyat yoshlarda birdamlik, yordamsevarlik va intizom kabi fazilatlarni tarbiyalab, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikning samaradorligini xorijiy tajriba misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Rossiya Federatsiyasida bolalar va yoshlarga mo‘ljallangan harbiy-vatanparvarlik klublari keng rivojlangan bo‘lib, ularning soni 36 mingdan oshadi. Ushbu klublar asosan nafaqadagi ofitserlar va faxriylar tomonidan jamoat tashkiloti shaklida boshqarilib, ta’til kunlari va darsdan bo‘sh vaqtlarida muntazam vatanparvarlik mashg‘ulotlarini o‘tkazib kelmoqda. Mutaxassislarning e’tiroficha, bolalik chog‘idanoq harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiya olgan yoshlar katta hayotga kirganida yuksak fuqarolik mas’uliyatini namoyon etadi hamda jamiyatda faol pozitsiyaga ega bo‘ladi. Demak, jamoat tashkilotlari ko‘magida bolalar va o‘smirlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularni Vatanga sodiq fuqaro etib voyaga yetkazishda katta salohiyat mavjud. Bu salohiyatdan to‘laqonli foydalanish uchun mahalla va NNTlar bilan maktab hamkorligini strategik asosda yo‘lga qo‘yish zarur.

Yoshlar ongiga Vatan himoyasi burchini singdirishda harbiy tuzilmalar bilan bevosita hamkorlikning ta’siri beqiyosdir. Mamlakatimizda o‘quvchi-yoshlarni harbiy soha bilan yaqindan tanishtirish, ular qalbida milliy armiyaga hurmat tuyg‘usini shakllantirish maqsadida ko‘plab amaliy chora-tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, hududiy harbiy okruglar va tumanlardagi safarbarlik va chaqiruv bo‘limlari maktablar bilan hamkorlikda turli vatanparvarlik tadbirlarini o‘tkazmoqda. Bu tadbirlarning shakllari xilma-xil: harbiy xizmatchilarning maktablarga kelib davra suhbati o‘tkazishi, qurol-aslaha va harbiy texnika ko‘rgazmalari, saf ko‘rgazmali chiqishlar, o‘quvchilarning harbiy qismga tashrifi, *“Harbiy qismda bir kun”* kabi amaliy loyihalar, *“Vatan himoyachisi”* nomli bellashuvlar va boshqalar. Masalan, 14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni oldidan mamlakat bo‘ylab harbiy-vatanparvarlik oyligi doirasida ko‘plab uchrashuvlar, ko‘rgazmali chiqishlar tashkil etiladi. Bunda mahalliy harbiy qismlar vakillari va safarbarlik bo‘limlari xodimlari maktablarga borib, o‘quvchilarga harbiy xizmatning sharafli jihatlari haqida so‘zlab beradilar, ular bilan savol-javoblar uyushtiradilar.

Yuqorida tilga olingan “Harbiy qismda bir kun” loyihasi yoshlar uchun ayniqsa katta ta’sir ko‘rsatayotgan innovatsion usullardan biridir. Misol tariqasida Surxondaryo viloyatida Janubi-G‘arbiy maxsus harbiy okrug qo‘mondonligi hamda O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi hamkorligida Termiz garnizonida tashkil etilgan ushbu loyiha natijalarini keltirish mumkin. Loyiha doirasida maktab bitiruvchilari bir kun davomida harbiy qism hayotiga bevosita jalb etildi: ularga harbiy kiyim-bosh berilib, ertalabdan kechgacha haqiqiy askarlar hayot tarzini boshdan kechirish imkoniyati yaratildi. O‘quvchi-yoshlar kazarma sharoitida yashab ko‘rishdi, harbiy mashg‘ulotlarda ishtirok etishdi, askarlar saf tartibini o‘rgandilar va hatto askarlar oshxonasida birga ovqatlandilar. Kun davomida tajribali ofitserlar ular uchun Vatan himoyasi, jasorat, burch va matonat mavzularida ma’ruzalar o‘qib berishdi. Harbiylar o‘z xizmat yo‘llari, real jangovar hayotdan misollar bilan o‘rtoqlashib, yoshlarni Vatanga xizmat qilishga ruhlantirdilar. Loyiha yakunida ishtirokchi yoshlar bilan fikr almashilganda, ular bu tadbirdan olgan taassurotlari haqida katta hayajon bilan so‘zlab, bunday amaliy mashg‘ulotlar harbiy sohaga qiziqishlarini keskin oshirganini ta’kidlashgan. Ko‘plab o‘quvchilar uchun ushbu bir kunlik harbiy hayot maktabi kasb tanlash, hayotiy maqsadlarini belgilashda muhim o‘rin tutgani qayd etildi – ya’ni, kimdir harbiy mutaxassis bo‘lishga qaror qilgan bo‘lsa, yana kimdir umuman olganda o‘z oldiga yuksak maqsadlar qo‘yish lozimligini anglab yetdi. Shunday qilib, harbiylar bilan bevosita muloqot va hamkorlik yosh avlod ongiga Vatan himoyasi muqaddas burch ekanini ta’sirchan usulda singdira olishini ko‘rishimiz mumkin.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston ta’lim tizimida yuqori sinf o‘quvchilari uchun joriy etilgan *“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik”* kurslari aynan mudofaa bo‘limlari bilan hamkorlikda olib boriladi. Maktablarning harbiy

rahbarlari (odatda zahiradagi ofitserlar) tomonidan o‘g‘il bolalarga harbiy asoslarga doir nazariya va amaliy ko‘nikmalar (saf tayyorgarligi, qurolni sökib-yig‘ish, o‘q otish mashqlari) o‘rgatiladi. Bu darslar davomida mahalliy harbiy komissariat xodimlari, harbiy qism vakillari ham ishtirok etib, yoshlarni armiya hayotiga ruhiy jihatdan ham tayyorlashadi. Shuningdek, hududiy mudofaa bo‘limlari tomonidan “Yosh chegarachilar”, “Yosh qutqaruvchilar” kabi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar o‘tkazilib, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik ko‘nikmalari mustahkamlanmoqda. Masalan, Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyatida har yili o‘tkaziladigan *“Jasorat”* harbiy-sport musobaqasi o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otib, ularda jamoaviylik va liderlik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bunday tadbirlarda safarbarlik bo‘limlari, mahalliy hokimliklar, Yoshlar agentligi va boshqa tashkilotlar hamkorlikda faol ishtirok etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2.“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.
3.“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2019.
4.O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi materiallari. – Toshkent, 2022–2024.
5.Pedagogika nazariyasi va tarixi / R.X. Mavlonova va boshqalar. – Toshkent: Fan, 2018.
6.Oila pedagogikasi / N. Jo‘rayev. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
7.Ma’naviyat asoslari / A. Erkaev. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016.
8.Vatanparvarlik tarbiyasi asoslari / Sh. Qurbonov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
9.O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi nashrlari va uslubiy qo‘llanmalari. – Toshkent, 2020–2024.
10. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi materiallari. – Toshkent, 2019–2023.
11. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi metodikasi / U. Tursunov. – Toshkent, 2022.
12. Pedagogika va Psixologiya bo‘yicha ilmiy maqolalar (mahalliy va xalqaro jurnallar).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Axmedov Xamdam Alikulovich
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

JAMIYATIMIZNING EKOLOGIK MADANIYATNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.

Annotatsiya: *Maqola O‘zbekiston madaniyati, an’analari va urf-odatlarini o‘rganishga e’tibor qaratgan holda ekologik va axloqiy bilimlarini integratsiyalash orqali ekologik madaniyatni shakllantirishga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik madaniyat, xalq an’analari, milliy xususiyatlar, tabiat, ta’lim, xalq badiiy hunarmandchiligi.*

Ахмедов Хамдам Аликулович
Доцент кафедры социальных наук, Низамский национальный педагогический университет Узбекистана

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАШЕГО ОБЩЕСТВА.

Аннотация: *Статья посвящена формированию экологической культуры через интеграцию экологического и культурологического знания, с акцентом на изучение культуры, традиций и обычай Узбекистана.*

Ключевые слова: *экологическая культура, народные традиции, национальные особенности, природа, образование, народное художественное ремесло.*

Akhmedov Khamdam Alikulovich
Associate Professor of the Department of Social Sciences, Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

PROBLEMS OF DEVELOPING NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL CULTURE OF OUR SOCIETY.

Annotation.: *The article is devoted to the formation of an environmental culture through the integration of environmental and cultural studies, with a focus on the study of the culture, traditions, and customs of Uzbekistan.*

Keywords: *environmental culture, folk traditions, national characteristics, nature, education, folk art crafts.*

Bugungi kunda ekologik madaniyatni rivojlantirish madaniyatning kelib chiqishi, milliy ma’naviy qadriyatlarisiz muvaffaqiyatli va samarali bo‘lmasligi tobora ortib bormoqda. Ekogik madaniyatni tashqaridan olib kelish mumkin emas, u etnos va etnik landshaftning o’zaro ta’siri natijasida tug’iladi. Ekologik madaniyat umumiy madaniy an’analar ichida rivojlanib, har bir alohida madaniyatda tabiatga munosabatning milliy xususiyatlarini aks ettiradi. O‘zbekistonda, shu jumladan uning mintaqalarida tabiat va inson muloqotining noyob ekologik an’anasi tarixan shakllangan bo’lib, uning o’ziga xos xususiyati o’z ona yurtiga hurmat bilan munosabatda bo’lgan Bu urf-odatning kelib chiqishi o‘zbek madaniyatida milliy mentalitetning asoslari paydo bo‘lgan asrlarga borib taqaladi. O‘zbekistonda inson va tabiat munosabatlarini uyg’unlashtiruvchi ekologik an’ananing boshlang’ich manbalari Qadimgi madaniyatida ham uchraydi. Masalan "Avesto" manbalarida topish mumkin. Qadimgi davrdaèq inson va tabiat munosabatlarini bir maromda ketishi uchun dolzarb masala sifatida qaralganini qadimgi davr olimlari Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida uchratish mumkin. Beruniyning “Minerologiya”, Boburning “Boburnoma”, Ibn Sinoning “Tib qonunlari” kabi asarlari tabiat va jamiyat uyg‘unligi, atrof-muhit, geografik joy nomlari, o‘simliklar, tabiiy resurslar haqida ko‘plab qimmatli ma'lumotlar beruvchi asarlardir. Inson tabiat bilan bevosita muloqot qilib, uni tushunishni o’rgangan, hayotga moslashgan va tabiatning asl holatini saqlab, mehnat qilgan. Ona yurtga mansublik tarixan o‘zbek odamining mentalitetida saqlanib qolgan. Ona Vatanga, O’zbekiston Respublikasining oliy ma’naviy qadriyatlarning egasi bo’lgan xalqimiz milliy o’zlikni anglashning barqaror dominantidir. Bugungi kunda tabiat bilan ma’naviy birdamlikni yo‘qotish mamlakatimizda jiddiy oqibatlarga olib keldi. Zamonaviy madaniyat dunyoqarashning texnokratik qiyofasi, bilvosita tabiat madaniyatiga borib taqaladigan o’zini anglash yo’lida o’z tanlovini

amalga oshirdi. Tabiatdan uzoqlashish, uning qonunlarini e’tiborsiz qoldirish, tabiiy resurslardan shafqatsiz foydalanish va iste’molchilarga nisbatan munosabat oxir-oqibat og’ir ekologik oqibatlarga olib keldi. Tsivilizatsiya o‘zgarishlari, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi nafaqat atrof-muhitni, balki insonning ma’naviy olamini ham o‘zgartirdi. Go’zallik, xayrixohlik, ishtirok etish, hamdardlik tushunchalari hayot normasiga emas, balki istisnoga aylanadi.

Odamning ma’naviy kambagallashishi tabiatdan uzoqlashishiga olib keldi. Bularning barchasi inson, jamiyat, madaniyat, tabiat, atrof-muhit haqidagi ko’plab g’oyalarni insoniyat hayoti tizimi sifatida qayta ko’rib chiqishni taqozo etadi va «yangi» insonni tarbiyalashni, shaxs va jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirishni talab qiladi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlarini ko’rib chiqar ekanmiz, bu jarayonda milliy tajriba va xalq madaniyati an’analariga tayanadigan ko’p narsa borligini ta’kidlash lozim.

Bu, avvalo, ma’naviy-axloqiy va ma’rifat uchun muhim bo’lgan bir qator hodisalar: ona yurtga hurmat bilan munosabatda bo’lish (xalq madaniyati); insonning tabiat bilan birdamlikka intilishi (xalq madaniyati, kosmizm); insonning tabiat uchun javobgarligi g’oyasi; insonga uning ma’naviy voqeiligini, shaxsning eng muhim o’lchovi sifatida qarash; inson va tabiatning uyg’un rivojlanishi, ularning tengligi (kosmizm); Tabiatning insonni o’z ichiga olgan birligi ; biosferada yagona yaxlitning o’zaro bog’liq va o’zaro ta’sirchan qismlari sifatida inson va tabiat birligi ; bolalarga tabiat bilan uyg’un yashash qobiliyatini o’rgatish (xalq pedagogikasi) Shunda insonga asta-sekin milliy xotira qaytadi va u qadimiy bayramlar, an’analar, folklor, badiiy hunarmandchilikka yangicha munosabatda bo’la boshlaydi.

Bugungi kunda, albatta, odamlarning turmush sharoiti sezilarli darajada o‘zgardi, shuning uchun biz yangi ekologik anʾanalarni shakllantirishimiz kerak, lekin eski anʾanalarni unutmasligimiz kerak.

Mamlakatimiz hududida ko‘plab muqaddas buloqlar bor edi. Daryo, ko‘l, suv havzalari ajdodlarimizda hurmat va ehtirom uyg‘otdi. Xalq madaniyati ramzlari orasida olov alohida o‘rin tutgan. "Olov, quyoshning tushunchali, yerdagi ma’nosi Ruh olovi, ma’naviy Quyosh - mutlaq ezgulik, haqiqat, go’zallik ramzi bilan bog’liq. Bu oliy qadriyatlar uning yadrosini tashkil etadi. Bu shaxsan oliy intilish, sevgi va fidoyilik timsolidir" Ayniqsa, ota-bobolarimizning Ona-Yer, boquvchi-Yer bilan yaqin aloqasi qayd etilgan. Unga muqaddas maskan sifatida munosabatda bo‘lishgan. Uzoq Shimol xalqlarining dunyoqarashi tabiat haqidagi tasavvurga ham asoslangan: Ona yer hamma narsaning ota-bobosi sifatida tushunilgan. Quyosh ham hayot baxsh etdi. Ota-ona, Ona-suv, Ona-daraxt boshqa tug‘uvchilar jumlasidandir. Bu o’z-o’zidan materialistik dunyoqarashda inson tabiatning bir qismi sifatida namoyon bo’lgan, uning mehnati va butun hayoti esa uning moddiy va ma’naviy faoliyati izlarini o’z ichiga olgan barcha narsalar bilan bog’liq. Tabiat o’sha paytdagi inson uchun ona, ilohiy asos bo’lgan, shuning uchun u uni sevgan va hurmat qilgan. Inson yaratgan hamma narsani tabiat qonunlari, uyg’unlik va go’zallik qonunlari asosida yaratgan. Avesto” madhiyalari ilohlarga, tabiiy kuchlarga, Quyosh, yulduzlarga va afsonaviy qahramonlarga bag‘ishlangan. Asrlar davomida bu qo‘shiqlar og‘zaki ijod namunasibo‘lib, diniy marosimlarda, bayramlarda ijro etilgan. Ajdodlarimizning dunyoviy falsafasi oddiy edi. Ular, birinchidan, olamdagi barcha jonli va jonsiz narsalar ajralmas va yagona boshlanish bilan bog’liq deb hisoblashgan. Ikkinchidan, inson koinotdagi kichik qum tanasi, uning atrofidagi muhit oddiy substrat emas va tabiatga ona kabi munosabatda bo’lish kerak. Uchinchidan, tabiat onasiga yetkazilgan barcha yomonlik har bir inson va butun insoniyat uchun o’z fojiasiga aylanadi

Xalq falsafasining ana shu oddiy haqiqatlari, xususan, "tabiatning qutqaruvchi va shifobaxsh kuchlariga ishonish, o‘simlik va hayvonlarni eʾzozlash, noyob tabiiy obʾektlarni muhofaza qilish; tabiatdan oqilona foydalanish prinsipi; tabiatga qarshi sodir etilgan xatti-harakatlar uchun insonning javobgarligini tushunish. Xalqimizning ichki maʾnaviyati va yuksak axloqi, tabiat va inson kelajagi haqida g‘amxo‘rligi etnoekologik anʾanalarning asosidir. Tabiiy muhit o’zidan tashqarida tsivilizatsiya tasavvur qilib bo’lmaydigan ozuqa substratiga aylanadi. Inson faoliyati sohasiga jalb qilinib, u har bir yangi davr va madaniyat maqsadlariga mos ravishda yangi mohiyatga aylanib bormoqda.

Masalan, yurtimizning tarixiy rivojlanishi ularning mintaqasi, tabiiy-geografik sharoitlari va xo‘jalik yuritishning anʾanaviy usullari bilan chambarchas bog‘liq. Yurtimizning ekologik an’analarining o’ziga xos xususiyatlari madaniy faoliyatning barcha jihatlarida namoyon bo’ladi: landshaftni ilhomlangan, antropomorf tuzilma bo’yicha tasvirlash, hududni o’zlashtirish paytigacha bo’lgan makon jihatidan loyihalash, chunki hayotiy makonni xo’jalik jihatidan o’zlashtirish ma’naviy fazoni o’zlashtirish bilan bog’liq. Inson ta’limi va tarbiyasi barcha tirik va tabiiylikni uz ichiga olar edi O‘zbekiston tarixining boy maʾnaviy tajribasini hisobga olgan ekologik anʾanalar o‘tgan asr boshidagi xalq pedagogikasida ham o‘z aksini topgan. Uning o’ziga xos xususiyati - yosh avlodni tabiiy muhit bilan uyg’un yashashga o’rgatishdir. Uning ta’limotiga ko’ra, bola tabiat qonunlarini bilishi va ularni buzmasligi bilan yaxshiroq, toza va mehribon bo’ladi. Masalan, Bexbudiy tabiatning go’zalligi bolalar ruhiga xos axloqiy go’zallikni namoyon etishga imkon beradi, deb hisoblardi. Shu bois, buyuk yozuvchining fikricha, “o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun”, – deya murojaat qilib , o’zi ilgari surgan milliy g’oyani barcha targ’ib qilishi zarurligini ta’kidladi. Yuqorida aytilganlarning barchasi bolalarning ekologik madaniyatini yuksaltirish bilan birga, ularni maʾnaviy boyitishga xizmat qiladigan dastur yaratish zarurligidan dalolat beradi. Bunday dasturni federal, mintaqaviy va/yoki munitsipal darajada yaratish zarurati bolalarning nafaqat bilim va mahoratini, balki ularning atrofdagi dunyoga hissiy-qadriyatli munosabatini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy ta’limning maqsadli yo’nalishlari bilan ham bog’liq.

Aynan xalq ogʻzaki ijodida xalqning oʻziga xos xususiyatlari, unga xos axloqiy qadriyatlar, ezgulik, goʻzallik, haqiqat, mehnatsevarlik gʻoyalari hech qayerda saqlanib qolmagan. Bunday dastur doirasida bolalarni xalq ijodiyoti bilan tanishtirish ularni umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga jalb qilishi mumkin.

Atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlib, madaniyatning turli elementlari - mifologiya, din, ijodkorlik orqali avloddan-avlodga oʻtib borayotgan ekologik madaniyatni tarbiyalashning turli vositalari orasida etnosda ekologik jihat alohida oʻrin tutadi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida yosh avlodning ekologik madaniyatini oshirish zarurligiga hech kim shubha qilmaydi. xalq ijodiyoti vositalaridan foydalanish nafaqat ekologik savodxonlikni oshirishga, o'tgan avlodlarning o'sha bebaho ekologik tajribasini o'zlashtirishga, balki ona yurtga muhabbat va g'urur tuyg'usini singdirishga, uning madaniy va tabiiy merosiga singdirishga yordam beradi. Ushbu ish tajribasi quyidagilarga imkon beradi:

1)ekologik tarbiya usullari va shakllarini xilma-xil qilish;

2) bolalarning katta sonini o'z madaniyati va tabiatini o'rganishga jalb etish;

3) atrofdagi dunyoni estetik idrok etishni chuqurlashtirish;

4) maktab yoshidan bolalarda vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalash.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Кошонова Н.М. Авесто халқ педагогикасининг қадимий манбаси сифатида. Academic Research in Educational Sciences. May, 2022.–Б.833–835.

2. Сапаров Б.Б., Сапаров А.Б. Авестода одоб-ахлок масаласи. // URL: https://cyberleninka.ru/article/n/avestoda-odob-ahlo-masalasi

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон. 2023. –Б. 30.

4. Ўзбекистон тарихи. I –жилд. I–китоб Олий ўқув юртлари тарих факультети талабалари учун дарслик Тошкент–2015

5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент. 2021.

6. Maxsudova O.B.Maxmudxoja Behbudiy asarlarida manaviy-axloqiy tarbiya masalasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences

7. Хамрокулова Ш.Э.. Умум таълим мактабларида экологик таълим тарбияни такомиллаштириш масалалари. Academic research in educational scie volume 2 ׀isse 3 ׀ 2021

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Axatova Dildora Axtamovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti v.b.
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
email:axatovadildora795@gmail.com
ORCID:https://orcid.org/0009-0001-6849-0603
Xushvaqova Sunbula Mirsharof qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlarni o‘qitish metodikasi
(ma’naviyat asoslari) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
email:sunbulasunbula1999@gmail.com
ORCID:http://orcid.org/0009-0004-9918-6884

ABDULLA AVLONIYNING “BIRINCHI MUALLIM” VA “IKKINCHI MUALLIM” ASARLARIDA MA’NAVIYAT VA AXLOQIY TARBIYA

Annotatsiya: *Maqolada Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” asarlarida ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy tarbiya g‘oyalari tahlil qilinadi. Avvalo, yoshlar tarbiyasida ma’naviyat va axloqiy madaniyatni yuksaltirishning ijtimoiy zarurati, ayniqsa globallashuv, axborot bosimi kuchaygan sharoitda dolzarbligi asoslanadi. So‘ng Avloniy qarashlari yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish bo‘yicha ilmiy-falsafiy yondashuvlar bilan qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari Avloniyning oila, maktab, jamoat institutlari hamkorligiga tayanuvchi tarbiya konsepsiyasi bugungi kunda ham yoshlarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim metodik asos bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Avloniy, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, ma’naviyat, axloqiy tarbiya, oila, maktab, ma’rifatli avlod.*

Ахатова Дилдора Ахтамовна
Шахрисабзский государственный педагогический институт, и.о. доцента кафедры социальных наук,
доктор философии (PhD) по философским наукам
Хушвакова Сунбула Миршароф кизи
Шахрисабзский государственный педагогический институт, магистрант 1 курса направления
«Методика преподавания социальных наук (основы духовности)»

ДУХОВНОСТЬ И НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АБДУЛЛЫ АВЛОНИ «ПЕРВЫЙ УЧИТЕЛЬ» И «ВТОРОЙ УЧИТЕЛЬ»

Аннотация: *В статье анализируются идеи духовно-нравственного воспитания, выдвинутые в произведениях Abdulla Avloniy — Birinchi muallim и Ikkinchi muallim. Прежде всего обосновывается социальная необходимость повышения духовности и нравственной культуры в воспитании молодежи, особенно в условиях глобализации и усиления информационного давления. Далее взгляды Авлония сопоставляются с научно-философскими подходами к организации духовно-нравственного воспитания в условиях Нового Узбекистана. Результаты исследования показывают, что концепция воспитания Авлония, основанная на сотрудничестве семьи, школы и общественных институтов, и сегодня остается важной методологической основой формирования нравственной культуры молодежи.*

Ключевые слова: *Абдулла Авлоний, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, духовность, нравственное воспитание, семья, школа, просвещенное поколение.*

Axatova Dildora Axtamovna
Shahrisabz State Pedagogical Institute, Acting Associate Professor of the Department of Social Sciences,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy
Xushvaqova Sunbula Mirsharof qizi
Shahrisabz State Pedagogical Institute, 1st-year Master’s student in the program

SPIRITUALITY AND MORAL EDUCATION IN ABDULLAH AVLONI’S WORKS “THE FIRST TEACHER” AND “THE SECOND TEACHER”

Abstract: *The article analyzes the ideas of spiritual and moral education put forward in the works of Abdulla Avloniy — Birinchi muallim and Ikkinchi muallim. First, the social necessity of enhancing spirituality and moral culture in youth education is substantiated, especially in the context of globalization and increasing information pressure. Then, Avloniy’s views are comparatively examined with scientific and philosophical approaches to organizing spiritual and moral education in the conditions of New Uzbekistan. The research findings indicate that Avloniy’s educational concept, based on the cooperation of family, school, and public institutions, remains an important methodological foundation for shaping the moral culture of the younger generation today.*

Keywords: *Abdulla Avloniy, Birinchi muallim, Ikkinchi muallim, spirituality, moral education, family, school, enlightened generation.*

Kirish. Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarning ma’naviy-axloqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Jamiyatda kechayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi hamda axborot makonining keskin kengayishi yosh avlod tarbiyasiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, turli axborot oqimlari, mafkuraviy ta’sirlar va madaniyatsizlashuv xavfi kuchayib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarning mustahkam ma’naviy immunitetini shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Mazkur jarayonlarda milliy pedagogik merosga, xususan jadid ma’rifatparvarlari qoldirgan boy ilmiy va tarbiyaviy tajribaga murojaat qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, Abdulla Avloniy ning pedagogik qarashlari, ayniqsa uning Birinchi muallim va Ikkinchi muallim asarlarida ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy tarbiya g‘oyalari bugungi kun uchun ham o‘z ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Avloniy ta’lim-tarbiya jarayonini nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama barkamol etib shakllantirish vositasi sifatida talqin etadi.

Shuningdek, u tarbiyani ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib, oila, maktab va jamiyat hamkorligini asosiy omil sifatida e’tirof etadi. Bu esa hozirgi zamon ta’lim tizimida integrativ yondashuvlarni qo‘llash zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Avloniyning fikricha, ma’naviy-axloqiy tarbiya yoshlarning nafaqat xulq-atvorini, balki ularning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va milliy o‘zligini anglash jarayonini ham belgilaydi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada Abdulla Avloniy merosi, xususan uning yuqoridagi asarlarida bayon etilgan tarbiya konsepsiyasi zamonaviy ilmiy-falsafiy yondashuvlar bilan uyg‘unlikda qayta tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — Avloniy qarashlarining bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviy-axloqiy madaniyatini yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Metodlar. Maqolada ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifatli avlod konsepsiyasi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar adabiyotlar tahlili orqali o‘rganiladi [1–3], shuningdek, Avloniy g‘oyalarini bugungi tarbiya konsepsiyalari bilan qiyoslash maqsadida ijtimoiy-falsafiy tahlil qo‘llanadi [2, 3]. Tizimli yondashuv sifatida oila, maktab va jamoat institutlari o‘zaro ta’siri tahlil qilinib, Avloniy fikrlari haqidagi zamonaviy talqinlar va ularni yoshlar tarbiyasidagi amaliy mexanizmlar bilan bog‘lashga alohida e’tibor qaratiladi [1, 2, 3, 4].

Natijalar. Tadqiqotlar ma’naviy-axloqiy madaniyatni yoshlar kamolotining asosiy ko‘rsatkichi sifatida baholaydi; ma’naviylik ma’naviy madaniyat, axloqiylik, ziyolilik va yaxshi xulq bilan uzviy bog‘langan tushuncha sifatida talqin qilinadi [1, 3]. Ma’rifatli avlodni shakllantirishda ma’naviy-axloqiy va aksiologik qadriyatlar (vijdon, e’tiqod, insof, iymon va boshqalar) yetakchi omil sifatida ko‘rsatiladi [2, 3]. Zamonaviy tadqiqotlar Avloniyning bola tarbiyasida avvalo oilaning, so‘ng maktab va jamoat institutlarining mas’uliyatini birlamchi deb bilishini qayta tasdiqlaydi [4], bunda birinchi tarbiya – uy tarbiyasi, onaning vazifasi, ikkinchi bosqich – maktab va madrasa tarbiyasi, muallim va jamiyat vazifasi sifatida ko‘riladi [4]. Bu yondashuv oiladagi ma’naviy muhitni bolada halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar shakllanishining poydevori sifatida talqin etuvchi hozirgi tadqiqotlar bilan hamohangdir [5, 4]. Ma’rifatli avlodni tarbiyalash bo‘yicha ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda Avloniy fikrlari ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanuvchi, jamiyat taraqqiyotiga faol daxldor bo‘lgan shaxsni shakllantirish dasturi sifatida talqin etiladi [2, 3], bunda ma’naviyat va axloqiy tarbiya bilim, mehnat, iymon-e’tiqod, vijdon va dunyoqarash bilan bir butun tizim sifatida ko‘riladi [2, 3]. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha yangi O‘zbekiston amaliyotida san’at, adabiyot, ommaviy madaniyat vositalaridan foydalanish Avloniy ilgari surgan badiiy-estetik yo‘l bilan tarbiya g‘oyalarini eslatadi [1, 3]. U yoshlarning ichki ruhiy dunyosi, iymon-e’tiqodi, vijdoni va ijtimoiy mas’uliyati uyg‘un rivoj topgandagina komil shaxs shakllanishini ta’kidlaydi [3, 4].

Ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimining asosiy bo‘g‘inlari

Bo‘g‘in	Asosiy vazifa (Avloniy ruhida)	Zamonaviy talqin	Iqtiboslar

Oila	Birlamchi tarbiya, shaxsiy namuna, xulq poydevori	Ma'naviy muhit, fazilatlarning shakllanishi	(Iqboljon, 2023; Karimova, 2023)
Maktab	Bilim va axloqni uyg'un berish, ma'rifatli shaxs	Ma'naviy-axloqiy madaniyatni yuksaltirish	(Axmadiyev, 2023; Boboyeva, 2023; Karimova, 2023)
Jamoat muhit	Milliy qadriyat, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat	Nodavlat tashkilotlar, targ'ibot tizimi	(Axmadiyev, 2023; Qambarov, 2023; Boboyeva, 2023)

1-jadval: Avloniy g'oyalari bilan zamonaviy tarbiya bo'g'inlari bog'lanishi

Muhokama. Tahlil shuni ko'rsatadiki, Abdulla Avloniy "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim" asarlarida ilgari surgan ma'naviyat va axloqiy tarbiya tamoyillari – oila va maktab birligi, ma'rifatli avlod, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga tayangan komil shaxs – zamonaviy ijtimoiy-falsafiy va pedagogik qarashlar bilan uyg'unlashadi [1–4]. Bu tamoyillar, bir tomondan, yoshlarni tarbiyalash jarayonida oilaning va maktabning o'zaro uzviy ta'sirini mustahkamlashga xizmat qilsa, boshqa tomondan, jamiyat va davlat ta'lim siyosatining ma'naviy-axloqiy komponentlarini shakllantirishda ham muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi [2, 3].

Globallashuv davrida yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish va ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiq holda tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, Avloniy konsepsiyasini amaliy dastur sifatida qayta ishlab, zamonaviy texnologiyalar, multimedia vositalari, ommaviy axborot vositalari va san'at orqali uyg'unlashtirish yoshlarni tarbiyalash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [1, 3]. Masalan, uning g'oyalari ijodiy faoliyat, adabiyotiy va badiiy asarlar orqali ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'rganish jarayonini qo'llash imkonini beradi, bu esa tarbiyada interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni tatbiq etish uchun keng maydon yaratadi [3, 4].

Shuningdek, Avloniy ta'lim-tarbiya jarayonini nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama barkamol etib shakllantirish vositasi sifatida talqin qiladi. U o'quvchining ichki ruhiy dunyosi, iymon-e'tiqodi, vijdoni va ijtimoiy mas'uliyatini uyg'un rivojlantirishga katta e'tibor beradi, shuningdek, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni amaliy hayot bilan bog'lashni tavsiya qiladi [2, 3, 4]. Bu jihatlar Avloniy g'oyalarining bugungi ta'lim tizimiga integratsiyasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi, chunki u yoshlarni nafaqat bilimli, balki ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyatga ega, jamiyat taraqqiyotiga faol daxldor shaxs sifatida shakllantirishni maqsad qiladi [1–4].

Natijada, Avloniy konsepsiyasining zamonaviy talqini yoshlar tarbiyasida oila–maktab–jamiyat hamkorligini kuchaytirish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni uzviy tizim sifatida o'rganish va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u global axborot va texnologik bosim davrida tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va yoshlarni tarbiyalashda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirish imkoniyatlarini ham beradi [1, 3].

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniy ning "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim" asarlarida ma'naviyat va axloqiy tarbiya markaziy o'rin tutadi. Avloniy tarbiya tizimini oila, maktab va jamiyatning uzviy hamkorligiga tayanuvchi yaxlit konsepsiya sifatida talqin qiladi, bunda birinchi navbatda uy va oila tarbiyasi, keyin maktab va jamiyat institutlari faoliyati orqali shaxsning axloqiy, ma'naviy va ilmiy kamoloti ta'minlanadi. Bu yondashuv nafaqat individual tarbiyani, balki jamiyatning ma'naviy-madaniy rivojlanishini ham bir butun tizim sifatida ko'rishga imkon beradi.

Shuningdek, Avloniy g'oyalari "ma'rifatli avlod" kontseptsiyasiga asoslangan bo'lib, unda yoshlar nafaqat bilimli, balki axloqiy me'yorlarga sodiq, jamiyatga foydali, ijtimoiy mas'uliyatni anglashi va amalda ko'rsata oladigan shaxs sifatida shakllantiriladi. Zamonaviy tadqiqotlar, xususan, Axmadiyev (2023), Qambarov (2023), Boboyeva (2023) va Karimova (2023) ishlari shuni ko'rsatadiki, Avloniyning bu g'oyalari yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini yuksaltirishning nafaqat nazariy, balki amaliy asoslaridan biri sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda [1–4].

Bundan tashqari, Avloniyning tarbiya konsepsiyasi yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish, ijodiy va badiiy faoliyat orqali axloqiy-ruhiy rivojlanishni ta'minlashda samarali vosita sifatida ham qabul qilinadi. Ustuvor e'tibor ma'naviy qadriyatlarni amaliy hayot bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, bu konsepsiya pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va zamonaviy ta'lim jarayonini boyitishga imkon yaratadi. Shu jihatlar Avloniyning fikrlarining bugungi pedagogik va ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda, shuningdek, yoshlarni tarbiyalashning strategik dasturlarida muhim manba sifatida qadrlanishini ta'kidlaydi.

Natijada, Avloniy merosi zamonaviy pedagogika va tarbiya tizimida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, balki yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotini shakllantirish, jamiyatning ma'naviy-madaniy rivojlanishiga hissa qo'shish va milliy identitetni mustahkamlash bo'yicha strategik vazifalarni amalga oshirishda barqaror ilmiy va amaliy asos sifatida xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmadiyev N. The significance of using the experience of the older generation in raising the moral, educational and cultural thinking of the youth // Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – Vol. 29, Iss. 6. – Art. a46. – DOI: 10.56292/sjfsu/vol29_iss6/a46

2. Qambarov A. Socio-philosophical analysis of education of the educated generation // Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – Vol. 29, Iss. 4. – Art. a27. – DOI: 10.56292/sjfsu/vol29_iss4/a27

3. Boboyeva Z. Methods of forming spiritual and moral culture of youth in the New Uzbekistan // Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – Vol. 29, Iss. 2. – Art. a169. – DOI: 10.56292/sjfsu/vol29_iss2/a169

4. Karimova G. Influence of the socio-spiritual environment in the family on education of children // Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – Vol. 29, Iss. 5. – Art. a19. – DOI: 10.56292/sjfsu/vol29_iss5/a19

5. Iqboljon Q. Gnesiological analysis of the system of ethical and aesthetic values of future music teachers in the musical heritage of Eastern scientists // Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – Vol. 29, Iss. 2. – Art. a38. – DOI: 10.56292/sjfsu/vol29_iss2/a38

6. Ro‘zimurodov S. Mahalla va oilada axloqiy madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillari // Tamaddun nuri jurnali. – 2025. – DOI: 10.69691/tz43xh83

7. Khudaibergenovich M. Abdullah Avlonius in works: The issue of promoting goodwill // Journal of Advanced Zoology. – 2023. – Vol. 44, Iss. 5. – DOI: 10.17762/jaz.v44is-5.1805

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

X.X.Eshov
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mas'ul xodimi s.f.f.d., dotsent

IJTIMOIY TARMOQLARDA MA'NAVIY TARG'IBOT: IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda ma'naviy targ'ibot olib borishning zamonaviy xususiyatlari, uning yoshlar ongiga ta'siri, mavjud imkoniyatlari va tahdidlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiya vositalarining kengayishi ma'naviy-ma'rifiy faoliyat uchun yangi platformalarni yaratgan bo'lsa-da, axborot manipulyatsiyasi, destruktiv g'oyalar va ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri kabi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy yondashuv va kontent-analiz metodlaridan foydalanildi. Natijada ijtimoiy tarmoqlarda samarali ma'naviy targ'ibotni tashkil etish uchun media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va raqamli madaniyatni rivojlantirish zarurligi asoslab berildi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, ma'naviy targ'ibot, media savodxonlik, axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat.*

Эшов Х.Х.
Ответственный сотрудник Министерства высшего образования, науки и инноваций,
доктор философии по социологическим наукам (PhD), доцент

ДУХОВНАЯ ПРОПАГАНДА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ: ВОЗМОЖНОСТИ И УГРОЗЫ

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности духовной пропаганды в социальных сетях, её влияние на мировоззрение молодёжи, а также существующие возможности и угрозы. Расширение цифровых коммуникаций создало новые платформы для духовно-просветительской деятельности, однако одновременно усилило риски информационной манипуляции и распространения деструктивных идей. В исследовании использованы методы системного анализа, сравнительного подхода и контент-анализа. Обоснована необходимость развития медиаграмотности и критического мышления в условиях цифровой среды.*

Ключевые слова: *духовность, социальные сети, молодёжь, информационная безопасность, медиаграмотность.*

Eshov X.X.
Responsible officer of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation,
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociological Sciences, Associate Professor

SPIRITUAL ADVOCACY IN SOCIAL NETWORKS: OPPORTUNITIES AND THREATS

Abstract. *This article analyzes the features of spiritual promotion in social networks, its impact on youth consciousness, and its opportunities and threats. The expansion of digital communication has created new platforms for spiritual and educational activities, while also increasing risks such as information manipulation and destructive content. The research employs system analysis, comparative approach, and content analysis methods. The study substantiates the importance of developing media literacy and critical thinking skills in the digital environment.*

Keywords: *spirituality, social networks, youth, media literacy, information security, digital culture.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Raqamli transformatsiya jarayoni insonlar o'rtasidagi muloqot shakllarini tubdan o'zgartirib, an'anaviy kommunikatsiya vositalarini yangi, interaktiv va tezkor platformalar bilan boyitdi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot almashish vositasi, balki ijtimoiylashuv, fikr shakllantirish, jamoatchilik fikrini yo'naltirish hamda madaniy va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish maydoniga aylandi.

Ayniqsa, yoshlar o'rtasida ijtimoiy platformalar dunyoqarash, qadriyat va ijtimoiy pozitsiyani shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Yoshlar kundalik hayotining muhim qismi aynan raqamli makonda kechayotgani sababli, ular axborotni qabul qilish, qayta ishlash va baholash jarayonini ko'proq ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiradi. Bu esa mazkur platformalarning tarbiyaviy, ma'rifiy va ma'naviy ta'sir doirasini sezilarli darajada kengaytiradi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning o‘zini namoyon etish, ijtimoiy faollik ko‘rsatish va jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada ular nafaqat axborot iste’molchisi, balki kontent yaratuvchisi va tarqatuvchisiga ham aylanmoqda. Bu holat esa ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta’sirini yanada kuchaytiradi.

Biroq mazkur jarayon ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, ijtimoiy platformalar orqali ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarni keng targ‘ib qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ommalashtirish imkoniyati mavjud. Ikkinchi tomondan esa, ochiq va nazoratsiz axborot oqimi yoshlarning ongiga turli salbiy, destruktiv yoki manipulyativ g‘oyalarning singib borish xavfini ham kuchaytiradi.

Shu bois axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat, ayniqsa yoshlar ma’naviy dunyoqarashiga ta’sirini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish va baholash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ma’naviy targ‘ibot an’anaviy shakllar – ma’ruza, davra suhbati, bosma nashrlar, televideniye va radio orqali olib boriladigan ishlar bilan cheklanib qolmay, tobora kengroq miqyosda raqamli makonga ko‘chmoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar, bloglar, podkastlar va turli multimedia vositalari ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarni ilgari surishning yangi shakl va usullarini yuzaga chiqarmoqda. Natijada ma’naviy targ‘ibot jarayoni makon va vaqt chegaralaridan nisbatan xoli bo‘lib, keng auditoriyani qamrab olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Raqamli muhit ma’naviy-ma’rifiy ishlarning qamrovini kengaytirish, ayniqsa yoshlar auditoriyasiga tezkor va ta’sirchan tarzda murojaat qilish imkonini yaratadi. Vizual va audiovizual vositalar orqali murakkab tushunchalarni sodda shaklda yetkazish, interaktiv muloqot tashkil etish, foydalanuvchilarni muhokama jarayoniga jalb qilish kabi imkoniyatlar targ‘ibot samaradorligini oshiradi. Shu jihatdan, raqamli makon ma’naviy qadriyatlarni ommalashtirishning muhim strategik maydoniga aylanmoqda.

Biroq ochiq axborot muhiti bilan bog‘liq bir qator xavflar ham mavjud. Raqamli platformalarda axborot oqimining nazoratsizligi, tekshirilmagan va soxta ma’lumotlarning tez tarqalishi, destruktiv yoki ekstremistik g‘oyalarning yashirin targ‘iboti ma’naviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, ommaviy madaniyatning ayrim salbiy ko‘rinishlari, iste’molchilik kayfiyatini targ‘ib qiluvchi kontent ham yoshlar ongida qadriyatlar tizimining izdan chiqishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shuningdek, axborot ortiqchaligi sharoitida foydalanuvchilarda tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmagani ma’naviy tahdidlarni yanada kuchaytiradi. Natijada yoshlar axborotni chuqur anglash va saralash o‘rniga, yuzaki qabul qilishga moyil bo‘lib qolishi mumkin. Shu sababli mazkur muammoni ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlarda ma’naviy targ‘ibotning mazmuni, shakli va usullarini takomillashtirish, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Mazkur metodlar ijtimoiy tarmoqlarning ma’naviy muhitga ta’sirini ko‘p qirrali tahlil qilish imkonini berdi. Xususan, tizimli yondashuv orqali ijtimoiy tarmoqlar faoliyati jamiyatning ma’naviy hayoti bilan o‘zaro bog‘liq murakkab ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqildi. Bu esa mazkur jarayonni alohida omillar kesimida emas, balki yaxlit ijtimoiy-madaniy tizim doirasida baholashga imkon yaratdi.

Qiyosiy tahlil yordamida an’anaviy ma’naviy targ‘ibot shakllari bilan raqamli makondagi targ‘ibot usullari o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklar aniqlandi. Natijada ularning samaradorlik darajasi, auditoriyaga ta’sir mexanizmlari hamda kommunikativ imkoniyatlari o‘rtasidagi tafovutlar ilmiy asosda ochib berildi.

Kontent-analiz metodi esa ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma’naviy-ma’rifiy materiallarning mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi va axloqiy komponentlarini tahlil qilish imkonini berdi. Bu usul orqali ijobiy va salbiy tendensiyalar, destruktiv elementlar hamda manipulyativ yondashuvlar aniqlanib, ularning yoshlar ongiga ehtimoliy ta’siri baholandi. Shuningdek, umumlashtirish va mantiqiy xulosalash metodlari asosida olingan natijalar tizimlashtirilib, ilmiy xulosalar shakllantirildi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarning ma’naviy muhitga ta’sirini chuqurroq anglash, uning ijtimoiy-pedagogik jihatlarini asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy asos yaratdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar o‘z mohiyatiga ko‘ra neytral kommunikativ vosita hisoblanadi. Ya’ni ular mustaqil ravishda na ijobiy, na salbiy mazmun kasb etadi; ularning jamiyat va shaxs ma’naviy muhitiga ta’siri, avvalo, undan qanday maqsadda va qanday mazmunda foydalanilishiga bevosita bog‘liqdir.

Agar ijtimoiy tarmoqlar ilmiy asoslangan, tarbiyaviy ahamiyatga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi kontent bilan to‘ldirilsa, ular yoshlar ma’naviy kamolotiga xizmat qiluvchi samarali platformaga aylanishi mumkin. Bunday sharoitda raqamli makon ma’rifiy g‘oyalarni keng yoyish, sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish hamda ijtimoiy faollikni oshirish vositasiga aylanadi. Aksincha, agar ushbu platformalar manipulyativ axborot, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi materiallar, axloqiy me’yorlarga zid yoki destruktiv g‘oyalar bilan to‘ldirilsa, ular ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa ayniqsa hali mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lmagan yoshlar ongiga sezilarli darajada ta’sir etadi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy-ma’naviy ta’sirini baholashda ularni shunchaki texnologik vosita sifatida emas, balki ma’lum g‘oya va qadriyatlarni uzatuvchi kommunikativ makon sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mazmun sifati, axborot manbasining ishonchliligi, auditoriyaning media savodxonlik darajasi va nazorat mexanizmlarining mavjudligi ushbu vositaning ijobiy yoki salbiy natijalarini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Kompleks yondashuvgina yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki ma'naviy tarbiya bir yoqlama yoki faqatgina ma'ruzaviy-uslubiy ta'sir bilan cheklanadigan jarayon emas, balki ko'p omilli, tizimli va uzluksiz faoliyatni talab etadi. Zamonaviy axborot makonida yoshlar ongiga ta'sir qiluvchi omillar rang-barang va tezkor bo'lganligi sababli, ularga qarshi samarali himoya mexanizmlarini shakllantirish ham keng qamrovli yondashuvni taqozo etadi.

Bunda ta'lim tizimi, oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Agar ushbu ijtimoiy institutlar o'zaro uyg'un va maqsadli faoliyat olib borsa, yoshlarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qila olish qobiliyati hamda sog'lom dunyoqarashi izchil rivojlanadi. Aks holda, tarbiyaviy ta'sirning uzviyligi buzilib, ma'naviy bo'shliq yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, kompleks yondashuv pedagogik, psixologik va axborot texnologik mexanizmlarning o'zaro integratsiyasini nazarda tutadi. Ya'ni bir tomondan, yoshlar ongida mustahkam qadriyatlar tizimini shakllantirish, ikkinchi tomondan esa ularni axborot xurujlariga nisbatan ogoh va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash zarur. Media savodxonlikni rivojlantirish, raqamli etikani singdirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni zamonaviy shakllarda targ'ib etish ana shunday yondashuvning muhim tarkibiy qismlaridir. Natijada kompleks va tizimli choralar asosida shakllangan ma'naviy immunitet yoshlarning turli g'oyaviy tahdidlarga nisbatan barqarorligini oshiradi, ularni ongli tanlov qila oladigan, ijtimoiy mas'uliyatli va ma'naviy yetuk shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratadi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy ma'naviy targ'ibotning samarali platformasiga aylangan. Ular orqali ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni tezkor, ommaviy va interaktiv shaklda yetkazish imkoniyati mavjud. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasining raqamli makonda faol ishtirok etishi ushbu platformalarni ma'naviy tarbiya jarayonining muhim bo'g'iniga aylantirmoqda. Qisqa videoroliklar, jonli efirlar, podkastlar, infografikalar va muhokama maydonlari orqali murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli tarzda bayon qilish, keng jamoatchilikni ijtimoiy muhokamalarga jalb etish mumkin. Ularning imkoniyatlaridan oqilona va maqsadli foydalanish yoshlar ongida sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamli platformalarda sifatli va mazmunli kontent yaratish, yoshlarni ijtimoiy faollikka undash, ijobiy namuna bo'ladigan shaxslar faoliyatini targ'ib qilish orqali ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish mumkin. Shu ma'noda, ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot uzatish vositasi, balki tarbiyaviy va ma'rifiy ta'sir ko'rsatishning zamonaviy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq ochiq axborot muhiti bilan bog'liq tahdidlar ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Nazoratsiz axborot oqimi, soxta ma'lumotlar, manipulyativ kontent, shuningdek, zo'ravonlik yoki axloqiy me'yorlarga zid materiallarning keng tarqalishi yoshlar ma'naviy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Axborot ortiqchaligi va tezkor iste'mol madaniyati esa yuzaki idrok va tanqidiy fikrlashning susayishiga olib keladi. Shu bois ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tizimli choralarni ishlab chiqish zarur. Bunda media savodxonlikni oshirish, raqamli etikani shakllantirish, axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat kompleks va ilmiy asoslangan yondashuv orqali ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy salohiyatidan samarali foydalanish hamda mavjud tahdidlarning salbiy oqibatlarini minimallashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Toffler E. Uchinchi to'lqin. – T.: Sharq, 2000.
2.Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010.
3.McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 1964.
4.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
5.Abduqodirov A.A. Axborot madaniyati va media savodxonlik asoslari. – T.: 2020.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Jabborova Sayyoraxon Muxammadkobilovna
Andijon davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:sayyoraxonjabborova754@gmail.com

MILLIY TARAQQIYOT VA AYOLLAR LIDERLIGI: IJTIMOIY-FALSAFIY KONSEPSIYA

Annotatsiya*: Mazkur maqolada milliy taraqqiyot jarayonida ayollar liderligining tutgan o‘rni va ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ayollarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi faolligi, gender tenglikning rivojlanishga ta’siri, shuningdek, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar falsafiy yondashuv asosida yoritiladi. Maqolada ayollar liderligini rivojlantirishda ta’lim, huquqiy muhit va madaniy qadriyatlarning o‘rni ochib beriladi[28].*

Kalit so’zlar: *Ijtimoiy-falsafiy konsepsiya, milliy taraqqiyot, ayollar liderligi, shaxs, qadriyat, gender tengligi, axloqiy poklik.*

Жабборова Сайёрахон Мухаммадкобиловна
Андижанский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры
«Национальная идея, основы духовности и правовое образование»

НАЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ И ЛИДЕРСТВО ЖЕНЩИН: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ

Аннотация: *В данной статье с социально-философской точки зрения анализируется роль и значение лидерства женщин в процессе национального развития. Рассматривается активность женщин в политической, экономической и культурной сферах, влияние гендерного равенства на развитие, а также изменения в системе общественного сознания и ценностей. Особое внимание уделяется роли образования, правовой среды и культурных ценностей в развитии женского лидерства.*

Ключевые слова: *социально-философская концепция, национальное развитие, лидерство женщин, личность, ценности, гендерное равенство, нравственная чистота.*

Jabborova Sayyoraxon Muxammadkobilovna
Andijan State Pedagogical Institute, Lecturer at the Department of
“National Idea, Foundations of Spirituality and Legal Education”

NATIONAL DEVELOPMENT AND WOMEN’S LEADERSHIP: A SOCIO-PHILOSOPHICAL CONCEPT

Annotation*: This article analyzes the role and importance of women’s leadership in the process of national development from a socio-philosophical perspective. The activity of women in the political, economic and cultural spheres, the impact of gender equality on development, as well as changes in social consciousness and value systems are covered from a philosophical approach. The article reveals the role of education, legal environment and cultural values in the development of women’s leadership.*

Keywords*: Socio-philosophical concept, national development, women’s leadership, personality, value, gender equality, moral purity.*

Bugungi kunda insoniyat taraqqiyoti demokratik qadriyatlar, gender tengligi va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida shakllanmoqda. Bu jarayonda ayollar faolligining ortishi, xususan, siyosiy hayotdagi ishtirokining kuchayishi yangi davrga xos hodisadir. Ayniqsa, ayol siyosatchilarning intellektual va axloqiy liderligi jamiyat taraqqiyotida muhim omilga aylangan. Ushbu maqolada ayol siyosatchilarning yetakchilik fazilatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi[29].

Zamonaviy jamiyatda milliy taraqqiyot faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki inson salohiyatining ochilishi, gender tengligi va fuqarolik jamiyatining faolligi bilan belgilanadi. Ayollar liderligi — bu nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy faoliyatdagi ishtirok, balki milliy ong va madaniyatni yuksaltiruvchi kuch sifatida qaralmoqda.

[28] Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.” – T.: Ma’naviyat, 2008.
[29] Gender tengligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari to‘plami – T.: Adolat, 2021.

Axloqiy liderlikda kuch va nazorat o‘rniga g‘amxo‘rlik, hamdardlik va xizmat qilish tamoyillari ustunlik qiladi. Bu esa zamonaviy siyosatda muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi — jamiyatni insoniylik tamoyillariga asoslangan boshqaruvga olib boradi. Dunyoning ko`plab rivojlangan davlatlari qatorida O`zbekiston Respublikasida ham ayollar va bolalarga bo`lgan e`tibor - ularning jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi o`rnini mustahkamlashning davlat siyosati darajasigacha ko`tarilayotganida namoyon bo`lmoqda. Har qanday jamiyatning rivojlanishida muhim ro`l kasb etadigan tarbiya masalasi oiladan shakllanadi. Oila esa o`z navbatida, undagi er-hotin, ota-ona bilan farzand o`rtasidagi munosabatlarning maskanidir. Shunday ekan bir –biriga bog`liq bo`lgan munosabatlar zamirida jamiyatni tashkil qiluvchi SHAXS shakllanadi. Tarbiya va ayolning oiladagi o`rni masalasida ko`plab uzundan uzoq isbotini allaqachon amalda k`orasatayotgan misollarni kelrirish mumkin. Hususan, O`zbekiston Respublikasining gender tengligi bo`yicha olib borayotgan siyosati, davlat boshqaruvida xotin-qizlarga ko`plab imkoniyat eshiklarini ochadi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo`mitasi tashkil qilingan. Respublikamiz Kontitutsiyasi 46-moddasi bilan xotin-qizlar erkaklar bilan teng huquqliliklari belgilab qo`yilgan bo`lib, ularni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalardagi faoliyatlari qonun bilan himoyalangan. 2019-yil 23-avgustda O`zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari”to`g`risida Qonuni qabul qilingan. Ushbu Qonunga asosan ayollarning jins bo`yicha bilvosita kamsitilishi taqiqlanib, xotin-qizlarningbjamiyatdagi ijtimoiy mavqeinin mustahkamlashga, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarini ta`minlashga qaratilgan ijobiy choralar qatiy belgilangan.O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo`mitasi tashkil qilingan. Respublikamiz Kontitutsiyasi 46- moddasi bilan xotin-qizlar erkaklar bilan teng huquqliliklari belgilab qo`yilgan bo`lib, ularni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalardagi faoliyatlari qonun bilan himoyalangan. 2019-yil 23-avgustda O`zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari”to`g`risida Qonuni qabul qilingan. Ushbu Qonunga asosan ayollarning jins bo`yicha bilvosita kamsitilishi taqiqlanib, xotin-qizlarningbjamiyatdagi ijtimoiy mavqeinin mustahkamlashga, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarini ta`minlashga qaratilgan ijobiy choralar qatiy belgilangan.

Ayollar liderligining ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Liderlik — bu faqat rahbarlik emas, balki jamiyatni yangilashga qaratilgan tashabbus, mas‘uliyat va ta’sirchanlikdir. Ayollar liderligi ushbu jarayonning barqarorlik va ijtimoiy uyg‘unlikka xizmat qiluvchi muhim jihatidir[30].

Ayollar insoniylik, axloqiy poklik va g‘amxo‘rlik timsoli sifatida siyosiy maydonni ham shu qadriyatlar bilan boyitadi. Ularning faoliyati orqali siyosiy qarorlar individual manfaat emas, balki umumiy ezgulikni ko‘zlagan holda shakllanadi. O‘zbekiston ham ayollarning siyosiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirishga katta e’tibor qaratmoqda. Davlat siyosatida gender tenglikni ta’minlash, ayollarning rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilishi uchun qonuniy asoslar yaratildi. Milliy taraqqiyotda ayolning faolligi. O‘zbekiston milliy taraqqiyot strategiyasida ayollarning roliga alohida urg‘u berilmoqda. Ularning mehnat bozori, siyosat, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi ishtiroki rivojlanishning ajralmas bo‘lagiga aylanmoqda[31].

Ayol liderlarning tarbiyasi va ta’lim muassasalari. Ayollar liderligini shakllantirish jarayoni ta’lim orqali boshlanadi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasida ayollar rahbarligining kuchayishi orqali ko‘rish mumkin. Ijtimoiy-falsafiy yondashuvda ayol liderlar jamiyatdagi ijtimoiy tenglik, adolat va barqaror taraqqiyotning muhim poydevoridir. Ular nafaqat siyosiy kuch, balki ijtimoiy ong va ma'naviyatni shakllantirishda ham faol rol o‘ynaydi. Ayol liderlar jamiyatning insoniy qiyofasini yaratishda, uni yanada mehrli, halol va barqaror qilishda beqiyos hissa qo‘shadi. Gender tengligi va falsafiy tafakkur. Gender tengligi ijtimoiy adolat, huquqiy tenglik va madaniy yangilanishni talab qiladi. Falsafa bu jarayonlarni tushunishda va ularni konseptual asosda yo‘naltirishda muhim rol o‘ynaydi. Gender rollarining ijtimoiy konstruksiya ekanligi haqida G. Simel va J. Batler kabi faylasuflar fikri ham dolzarb ahamiyat kasb etadi[32].

Oliy Majlisda ayollar sonining ortib borishi, mahalliy kengashlarda faol ishtiroki, fuqarolik jamiyati institutlarida ayol yetakchilarning paydo bo‘lishi buning yaqqol dalilidir. Shuningdek, O‘zbekistonda ayol siyosatchilar nafaqat rasmiy lavozimlar egasi, balki jamiyatdagi axloqiy-me’yoriy munosabatlarni shakllantiruvchi ruhiy yetakchilar sifatida faoliyat yuritmoqda.Ayollar siyosatda qachon va qanday bosqichlarda faol bo‘la boshlaganini tarixiy nuqtai nazardan ko‘rsatish:

O‘zbekiston sharoitida ayollar liderligi nafaqat gender tenglikni ta’minlash, balki jamiyatning ijtimoiy-falsafiy o‘zgarishlarini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ayollar siyosat, iqtisodiyot, ilm-fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi muhim sohalarda faol ishtirok etmoqda. Bu esa milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayol liderlarning qaror qabul qilishdagi muvozanatli yondashuvi, empatiya, ijtimoiy adolatga intilishi va ijtimoiy ongdagi yangiliklarga ochiqligi jamiyat barqarorligiga ijobiy ta’sir qiladi. Ayniqsa, ayollarning ta’lim tizimida

[30] Karimova D. (2019). Ayollar liderligi va ijtimoiy ong. Toshkent: O‘zRFA Nashriyoti.

[31] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PQ–146-son qarori.

[32] Butler, Judith. (1990). Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. Routledge.

ko‘rsatgan faolligi kelajak avlodning tarbiyasi va intellektual rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Falsafiy jihatdan qaralganda, ayol obrazining yangilanishi va erkak bilan teng maqomda qaralishi jamiyat tafakkurining evolyutsiyasi sifatida baholanadi. Milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda rivojlangan ayollar liderligi — bu nafaqat g‘arbcha modelning ko‘chirmasi emas, balki o‘zbekona tafakkur asosida shakllangan mustaqil liderlik modeli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan gender tengligi, ayollarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar bugun ijobiy natijalar bermoqda. Ayollar liderligini rivojlantirish — bu faqat ijtimoiy vazifa emas, balki milliy taraqqiyotning strategik zarurati sifatida qaralmoqda.O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng ayollarning siyosiy faolligi oshgani. Dunyoda Margaret Tetcher, Angela Merkel, Jacinda Ardern kabi ayollar misolida siyosiy yetakchilik tajribalari. Gender tengligi nazariyasi. Liberal va kommunikativ etikadagi ayol liderlar roli. Intellektual yetakchilik tushunchasi – bilimi, qaror qabul qilishdagi mas’uliyati, kelajakni ko‘ra olish qobiliyati. Bugun zamonaviy taraqqiyot milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda ayollar liderligini rivojlantirishni talab qilmoqda[33].

Oliy ta’limda gender fanlarining joriy qilinishi bunga misol bo‘la oladi. Madaniyat va an’analar bilan uyg‘unlik. O‘zbek jamiyatida ayol obrazi har doim hurmatda bo‘lgan, ammo ayrim qadriyatlar gender rollarini cheklab kelgan. Ayollar liderligi va ijtimoiy islohotlar. Ayol rahbarlarning qaror qabul qilishdagi mulohazadorligi, bag‘rikengligi va jamoaviy fikrlash qobiliyati ijtimoiy islohotlarning samaradorligini oshiradi. Falsafiy jihatdan qaraganda, insonning jinsi emas, balki salohiyati, aqliy va axloqiy fazilatlari yetakchilikni belgilaydi. Shunday ekan, ayol liderlarning roli jamiyatda adolat va imkoniyatlar tengligini qaror toptirishga xizmat qiladi.Ijtimoiy falsafa doirasida ayollarni yetakchilik lavozimlarida ko‘rish inson huquqlari, teng imkoniyatlar va adolat tamoyillariga asoslanadi. Bugun viloyat, tuman va respublika darajasidagi ko‘plab ayollar ana shunday o‘zgarishlarga bosh-qosh bo‘lmoqda[34].

Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan ayol liderlar jamiyatdagi gender tenglik, axloqiy qadriyatlar va taraqqiyot o‘rtasidagi muvozanatni tiklashda asosiy o‘rin tutadi. Falsafiy yondashuv shuni ko‘rsatadiki, ayolning siyosiy sahnadagi ishtiroki — bu nafaqat statistik raqamlar ortishidir, balki jamiyat ongida yangi mafkura, yangicha dunyoqarash shakllanishidir. Ijtimoiy falsafa doirasida ayollarni yetakchilik lavozimlarida ko‘rish inson huquqlari, teng imkoniyatlar va adolat tamoyillariga asoslanadi. Falsafiy jihatdan qaraganda, insonning jinsi emas, balki salohiyati, aqliy va axloqiy fazilatlari yetakchilikni belgilaydi. Shunday ekan, ayol liderlarning roli jamiyatda adolat va imkoniyatlar tengligini qaror toptirishga xizmat qiladi. Tarixan, patriarxal tuzilmalar ayollarni jamiyatda ikkinchi darajali rolga qo‘ygan. Ijtimoiy-falsafiy tahlil bu holatni tanqid qiladi va ayol liderlarning faol ishtirokini ijtimoiy tuzilmalarning demokratlashuvi deb baholaydi.

Falsafiy yondashuv orqali istiqbol. Ayollar liderligi shunchaki siyosiy mavqe emas, balki ijtimoiy ongni yangilovchi, milliy yuksalishni ta’minlovchi tafakkur shaklidir. Falsafa bu holatni chuqur tahlil qilib, jamiyatda uyg‘un taraqqiyotga zamin yaratadi. Yangi davrda esa ayollar siyosiy faoliyatda ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lib, demokratik institutlar orqali o‘z salohiyatini namoyon qilmoqda[35].

Ayollar liderligi — bu ijtimoiy barqarorlik va milliy taraqqiyotning muhim omillaridan biridir. U falsafiy jihatdan jamiyat tafakkurining yuksalishi, inson huquqlari va gender tengligining kafolati sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, uni rivojlantirishga davlat, ta’lim tizimi va butun jamiyat mas’uldir. O‘zbekistonimizda ham bunday yangiliklar yaratilyotgani, ayollarriimiz qadrini bir qancha emas undan ham ko’p ko‘tardi. Yoshlikdan boshlab o‘zini erkin ifoda eta oladigan, mustaqil fikrlaydigan shaxslarni tayyorlash orqali kuchli ayol liderlar yetishib chiqadi[36].Ayollar liderligi zamonaviy jamiyatda nafaqat ijtimoiy tenglikni ta’minlovchi omil, balki milliy taraqqiyotning barqaror va izchil yo‘nalishda rivojlanishini ta’minlaydigan strategik kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayolning faolligi — siyosiy, iqtisodiy va madaniy jabhalarda milliy yuksalishga xizmat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayon jamiyat tafakkurining o‘zgarishi va qadriyatlar tizimining yangilanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, ayollar liderligini rivojlantirish — bu kelajakka qaratilgan ijtimoiy va ma’naviy investitsiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.” – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Gender tengligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari to‘plami – T.: Adolat, 2021.
3. Karimova D. (2019). Ayollar liderligi va ijtimoiy ong. Toshkent: O‘zRFA Nashriyoti.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PQ–146-son qarori.
5. Butler, Judith. (1990). Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. Routledge.

[33] Rasulov F. (2020). Milliy qadriyatlar va zamonaviy jamiyatda ayol o‘rni. O‘zbekiston falsafasi jurnali, №1.
[34] Kurbanova Z. (2022). Ayol rahbarlar: real voqelik va yangi yondashuvlar. Davlat boshqaruvi sharhi, №4.

[35] Quronov D. “Zamonaviy jamiyatda ayol o‘rni.” – T.: O‘zbekiston, 2020.
[36] Yusupova N. (2021). Ta’limda gender yondashuv va liderlik. Ilm va taraqqiyot, №2.

6. Rasulov F. (2020). Milliy qadriyatlar va zamonaviy jamiyatda ayol o‘rni. O‘zbekiston falsafasi jurnali, №1.
7. Kurbanova Z. (2022). Ayol rahbarlar: real voqelik va yangi yondashuvlar. Davlat boshqaruvi sharhi, №4.
8. Quronov D. “Zamonaviy jamiyatda ayol o‘rni.” – T.: O‘zbekiston, 2020.
9. Yusupova N. (2021). Ta’limda gender yondashuv va liderlik. Ilm va taraqqiyot, №2.
10. Muxammadqobilovna, J. S., & Hulkaroy, a. (2025). Ayol rahbarlar faoliyatida “ma’rifat va taraqqiyot” g ‘oyalarining amaliy ifodasi. *Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlar*, *8*(83), 108-113.
11. Muxammadqobilovna, J. S. (2025). Inson kapitali rivojida ayol raxbarlarning falsafiy roli. *Pedagog*, *8*(10), 174-180.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Raxmonov Shohzod Husan o‘g‘li
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

YOSHLAR MA’NAVIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NURONIYLAR FAOLIYATINING ALOQADORLIGI VA NURONIYLAR IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISHNING MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Maqolada yoshlar ma’naviy tarbiyasini shakllantirish va nuroniylar faoliyatining aloqadorligi masalasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ijtimoiy taraqqiyotning ma’naviy-madaniy qonuniyatlarini ochib beruvchi murakkab falsafiy-fenomenologik jarayon ekanligi, O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy-ma’naviy tizimida “avlodlararo ma’naviy vorisiylik”, “ruhiy uzluksizlik” va “ma’naviy uyg‘unlik” kategoriyalari bilan uzviy bog‘liqligi, yoshlar va nuroniylar o‘rtasidagi ma’naviy-madaniy aloqadorlik faqat sotsiologik yoki pedagogik hodisa emas, balki jamiyat ruhiyatining ichki harakat qonuniyatlarini ifoda etuvchi dialektik jarayon sifatida namoyon bo‘lishi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Avlodlararo ma’naviy vorisiylik, qadriyatlarning transformatsiyasi va yangilanishi, mentorlash, madaniy refleksiya, texnologik va innovatsion usullar.*

Рахмонов Шохзод Хусан угли
Независимый исследователь Института социально-духовных исследований при Республиканском центре духовности и просвещения

СВЯЗЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НУРОНИЕВ С ФОРМИРОВАНИЕМ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ И МЕХАНИЗМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИХ ПОТЕНЦИАЛА

Аннотация: *В статье анализируется тот факт, что вопрос формирования духовного воспитания молодежи и деятельности просвещенных людей по своей сути представляет собой сложный философско-феноменологический процесс, раскрывающий духовные и культурные законы социального развития, что он неразрывно связан с категориями «межпоколенческой духовной преемственности», «духовной преемственности» и «духовной гармонии» в социально-духовной системе узбекского общества, и что духовная и культурная связь между молодежью и просвещенными людьми является не только социологическим или педагогическим феноменом, но и диалектическим процессом, выражающим внутренние законы психики общества.*

Ключевые слова*: Духовная преемственность между поколениями, трансформация и обновление ценностей, наставничество, культурное осмысление, технологические и инновационные методы.*

Rakhmonov Shohzod Husan ogli
Independent Researcher Institute for Socio-Spiritual Research under the Republican Center for Spirituality and Enlightenment

THE ROLE OF ELDERS IN SHAPING THE SPIRITUAL EDUCATION OF YOUTH AND MECHANISMS FOR UTILIZING THEIR POTENTIAL

Abstract: *The article analyzes the fact that the issue of the formation of the spiritual education of youth and the activities of enlightened people is, in its essence, a complex philosophical-phenomenological process that reveals the spiritual and cultural laws of social development, that it is inextricably linked with the categories of "intergenerational spiritual succession", "spiritual continuity" and "spiritual harmony" in the socio-spiritual system of Uzbek society, and that the spiritual and cultural connection between youth and enlightened people is not only a sociological or pedagogical phenomenon, but also a dialectical process that expresses the internal laws of the psyche of society.*

Key words: *Intergenerational spiritual succession, transformation and renewal of values, mentoring, cultural reflection, technological and innovative methods.*

Yoshlar ma’naviy tarbiyasini shakllantirish va nuroniylar faoliyatining aloqadorligi masalasi ijtimoiy falsafa kontekstida avlodlar uzviyligini, tarixiy xotiraning ijtimoiy ongda mustahkamlanishini va qadriyatlar rekonstruksiyasining barqaror sotsiokultural asosda tiklanishini ifodalaydi. Ma’naviy tarbiya bu yerda shunchaki axloqiy didaktika emas, balki jamiyatning ichki g‘oyaviy strukturasini saqlab qolish va qayta ishlab chiqish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, nuroniylar – jamiyatning tarixiy xotirasi, madaniy tafakkuri va ma’naviy kapitalining real tashuvchilari sifatida bu jarayonda muhim ontologik mavqega ega. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasi va nuroniylar faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik jamiyat taraqqiyotining ichki g‘oyaviy zaminini tashkil qiladi. Ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodning ma’naviy shakllanishi — bu individual psixologik o‘zgarishlar emas, balki ijtimoiy tajribaning avlodlararo uzatilishiga tayangan holda sodir bo‘ladigan kompleks sotsiomadaniy jarayondir.

Yoshlar nafaqat nuroniylardan bilim va axloqiy tajriba oladilar, balki bu bilimni zamonaviy kontekstda qayta talqin etadilar. Bu holat “qadriyatlarning transformatsiyasi va yangilanishi”ni ta’minlovchi sotsial refleksiyaning tabiiy shakliga aylanadi. Shu jihatdan M. To‘xtayeva fikr bildiradi: “Yoshlar va nuroniylar o‘rtasidagi ma’naviy muloqot bu – vaqtlar oralig‘idagi dialog bo‘lib, u zamonaviy tafakkur bilan tarixiy tajriba o‘rtasida uyg‘unlik hosil qiladi”[37].

Bundan tashqari, yoshlar va nuroniylar o‘rtasidagi ma’naviy aloqadorlik zamonaviy sotsiokultural muhitda o‘ziga xos pedagogik-falsafiy model sifatida shakllanmoqda. U faqat ma’lumot yetkazish bilan emas, balki madaniy tafakkurga, qadriyatli tanlovga va ijtimoiy muvozanatga olib keluvchi kommunikativ jarayondir.

Yoshlar — bu ijtimoiy dinamikani ifodalovchi kuch bo‘lsa, nuroniylar — bu jamiyatning qadriyatlar tizimini o‘zida mujassamlashtirgan, tarixiy tajriba va axloqiy refleksiyaning tashuvchisi sifatida ko‘riladi. Bu ikki avlod o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir nafaqat ijtimoiy barqarorlik uchun, balki ijtimoiy ongning reflektiv rivojlanishi uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. A. G‘aniyev ta’kidlaganidek: “Agar jamiyatda nuroniylar bilan yoshlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqadorlik uzilsa, bu tarixiy xotiraning g‘oyaviy tanazzuliga olib keladi. Nuroniylar — bu jamiyatning g‘oyaviy tayanchi, yoshlar esa uning g‘oyaviy istiqbolidir”.[38] Yoshlar ma’naviy tarbiyasi va nuroniylar faoliyati bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro bog‘liq va dinamik tarzda rivojlanadigan ikki ijtimoiy kuchdir. Bu o‘zaro aloqadorlikda yoshlar nuroniylardan nafaqat ma’lumot, balki madaniy kod, axloqiy mezon va g‘oyaviy mustahkamlik oladilar. Ular bu qadriyatlarni o‘z zamonaviy ongiy kontekstida qayta anglaydilar, shu orqali qadriyatlarning hayotiyligini ta’minlaydilar.

Zamonaviy sotsiokultural sharoitlarda, ayniqsa raqamli jamiyatda, bu aloqadorlik yangi shakllarda, yangi vositalar orqali amalga oshmoqda. Bu yerda nuroniylarning faolligi faqat an’anaviy suhbatlar, ma’ruzalar orqali emas, balki virtual platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn madaniy loyihalar orqali ham amalga oshirilishi lozim. Nuroniylar bu vositalarda ham faol bo‘lishlari, o‘z tajribalarini zamonaviy formatda yetkazishlari, yoshlar bilan kontekstual muloqot o‘rnatishlari zarur. F. Qodirovaning qayd etishicha: “Yoshlar va nuroniylar o‘rtasidagi ma’naviy muloqot faqat shakl jihatidan emas, balki mazmuniy jihatdan ham yangilanishi zarur. Chunki zamonaviy tafakkur o‘ziga mos g‘oyaviy tillarni talab qiladi”.[39] Nuroniylarning ma’naviy tarbiyadagi roli bu yerda sotsiokognitiv mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ular o‘z hayoti, tajribasi, tarixiy pozitsiyasi orqali yoshlarda ijtimoiy ongni uyg‘otadi, ularda “men kimman?” degan savolga milliy va g‘oyaviy javob shakllanishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, nuroniylarning faoliyati yosh avlod tafakkurining g‘oyaviy shakllanishida muhim determinant hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda yoshlarga berilayotgan ma’naviy tarbiya, avvalo, g‘oyaviy mazmun bilan boyitilgan bo‘lishi kerak. Bu esa nuroniylarning tarixiy, axloqiy va madaniy tajribasiga asoslanmasdan amalga oshirilsa, faqat formal didaktikaga aylanib qoladi.

Yoshlar va nuroniylar o‘rtasidagi ma’naviy-madaniy muloqot, ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, jamiyatda “madaniy refleksiya”ning amalga oshish shakli hisoblanadi. Bu muloqot nafaqat tarbiya jarayoni, balki avlodlar o‘rtasidagi g‘oyaviy-metaforik ko‘prik sifatida ham qadrlanishi lozim. O‘z navbatida, bu ko‘prik orqali yoshlar o‘zlarini milliy madaniyatning bir qismi sifatida anglab, identitetini mustahkamlab boradilar. Ayni vaqtda, yoshlar tarbiyasi va nuroniylar faoliyatining samaradorligi ular o‘rtasidagi ishonch, madaniy empatiya va muloqotga bog‘liq. Bu aloqa formal tashkiliy mexanizmlar bilan emas, balki sotsial ruhiy yaqinlik bilan mustahkamlanadi. Shu sababli, ijtimoiy-falsafiy jihatdan qaralganda, bu aloqadorlik ijtimoiy birlik va g‘oyaviy uyg‘unlikning ruhiy negizidir. B. Rahimov bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: “Yoshlar va nuroniylar o‘rtasidagi ma’naviy muloqot, aslida, jamiyatda umumiy g‘oya maydonining mavjudligini bildiradi. Bu maydon ijtimoiy ongni birlashtiruvchi kuchdir”.[40]

Nuroniylar ijtimoiy-falsafiy tilda aytganda — bu tajribaning subyekti, ijtimoiy xotira tashuvchisi va g‘oyaviy uzviylikni ta’minlovchi ijtimoiy kapitaldir. Shu sababli, ularning imkoniyatlaridan foydalanishda odatiy, didaktik yondashuvlar yetarli emas, balki kommunikativ, texnologik va innovatsion usullarga asoslangan yondashuv zarur. Yoshlarning ma’naviy madaniyatini yuksaltirishda nuroniylar faoliyatini samarali mexanizmlarga aylantirish uchun

[37] To‘xtayeva M. Yoshlar va tarixiy ongning sotsiologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 114

[38] G‘aniyev A. Ijtimoiy ong va tarixiy tajriba. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2021. – B. 67

[39] Qodirova F. Zamonaviy tafakkur va g‘oyaviy meros. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – B. 104

[40] Rahimov B. G‘oya va ijtimoiy birdamlik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – B. 78

quyidagi innovatsion yondashuvlar asosli hisoblanadi: birinchidan, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarda nuroniylar tomonidan boshqariladigan maʼnaviy mentorlik loyihalarini yoʻlga qoʻyish; ikkinchidan, sunʼiy intellekt asosida qurilgan interaktiv dasturlar orqali tarixiy-maʼnaviy suhbatlarni modellashtirish; uchinchidan, "avlodlar muloqoti" virtual forumlari orqali gʻoyaviy almashinuvni kuchaytirish. A. Salimov bu haqda shunday yozadi: "Nuroniylar faoliyatini faqatgina real fazoda emas, balki raqamli muhitda ham jonlantirish zarur. Bu esa ularning axborot muhitidagi mavjudliklarini taʼminlab, yoshlar bilan muloqotni jonlantiradi".[41]

Nihoyat, nuroniylarning yoshlar bilan ishlashdagi imkoniyatlari, falsafiy jihatdan qaralganda, "ijtimoiy integratsiyaning gumanitar kanallari" orqali amalga oshadi. Bu esa ularning faoliyatini nafaqat madaniy koʻprik, balki gʻoyaviy tarbiya beruvchi zamonaviy subyekt sifatida ham talqin qilish imkonini beradi. Chunki maʼnaviy madaniyat ijtimoiy ongda doimiy yangilanish, moslashish va oʻzgarishga qodir boʻlgan hodisadir. Shu nuqtai nazardan, nuroniylar orqali bu jarayon "ijtimoiy refleksiya va gʻoyaviy uygʻunlik" tamoyillariga asoslangan innovatsion jarayonga aylanadi.

Yoshlarda maʼnaviy tarbiyasini shakllantirishda nuroniylar imkoniyatlaridan foydalanishning innovatsion mexanizmlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan qaralganda, bu jarayon jamiyatdagi gʻoyaviy uzviylikni taʼminlash, madaniy merosni avloddan-avlodga uzatish va ijtimoiy ongda barqaror maʼnaviy holatni shakllantirish vositasi sifatida namoyon boʻladi. Ayni zamonda nuroniylar – bu faqat oʻtmish xotirasi emas, balki ijtimoiy ongni kelajak sari yoʻnaltira oladigan faol subyektlardir. Shu sababli, ularning imkoniyatlaridan innovatsion tarzda foydalanish, yaʼni ularning tajribasini zamonaviy texnologiyalar va yoshlar kommunikatsiya muhitiga moslashtirish dolzarb ilmiy-nazariy muammo sifatida talqin qilinadi. Mexanizmlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati shundaki, ular kommunikatsiyani vositachilikdan muloqotga aylantiradi. Yaʼni nuroniylar bilimdon monologchi emas, balki yoshlar bilan intersubyektiv maʼnaviy refleksiyaga kirishuvchi subyektga aylanadi. I. Karimova bu borada quyidagi fikrni bildiradi: "Yoshlarning zamonaviy madaniyati raqamli shaklga ega boʻlgani sababli nuroniylarning gʻoyaviy taʼsiri ham bu formatga moslashmasa, maʼnaviy uzilishlar kuchayadi".[42]

Mazkur mexanizmlarni samarali qoʻllashda quyidagi yondashuvlar nazariy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi: 1) Nuroniylar ishtirokida yaratilgan raqamli xotira loyihalari; 2) Avlodlararo "mentorlash" tizimini shakllantirish; 3) Maʼnaviy diagnostika vositalari orqali yoshlar gʻoyaviy holatini baholash va nuroniylar ishtirokida korektsiyalash. Shu bilan birga, bu yondashuvlar jamiyatda qadriyatlar uzviyligini taʼminlash barobarida, ijtimoiy barqarorlikning epistemologik asoslarini mustahkamlovchi mexanizmlardir.

Taklif: Mahallalarda ma'naviy tarbiya jarayonini rivojlantirishda nuroniylar faoliyatini mavjud tashkiliy shakllar doirasida qoldirgan holda, uni mazmuniy jihatdan chuqurlashtirish maqsadga muvofiq. Xususan, nuroniylar ishtiroki tadbirbozlik bilan cheklanmasdan, yoshlar bilan uzluksiz va ishonchga asoslangan ma'naviy muloqot jarayoni sifatida shakllantirilishi lozim;

mahallada ijtimoiy ma'naviy muhit barqarorlikni mustahkamlash maqsadida nuroniylarning roli axloqiy nazorat emas, balki murosaga chorlovchi va ma'naviy vositachilik funksiyasi sifatida kuchaytirilishi lozim.

Xulosa: Shu o'rinda shuni aytish mumkinki, yoshlar maʼnaviy tarbiyasini shakllantirishda nuroniylar imkoniyatlaridan foydalanish — bu faqat maʼnaviy-pedagogik amaliyot emas, balki murakkab ijtimoiy-falsafiy strategiyadir. Unda avlodlar oʻrtasidagi axloqiy meros uzluksizligi, maʼnaviy qadriyatlarning zamonaviy talqini va shaxsiy masʼuliyatni shakllantirish mexanizmlari bir-biri bilan uzviy bogʻliqdir. Nuroniylar tajribasini innovatsion shakllarda joriy etish yoshlar uchun gʻoyaviy immunitet, madaniy ong va axloqiy qarashlar tizimini mustahkamlashning zamonaviy modeliga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toʻxtayeva M. Yoshlar va tarixiy ongning sotsiologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 114.
2. Gʻaniyev A. Ijtimoiy ong va tarixiy tajriba. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2021. – B. 67.
3. Qodirova F. Zamonaviy tafakkur va gʻoyaviy meros. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – B. 104.
4. Rahimov B. Gʻoya va ijtimoiy birdamlik. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2019. – B. 78.
5. Salimov A. Raqamli jamiyat va milliy ong. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 117.
6. Karimova I., Madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy uygʻunlik, – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2021. – B. 91.

[41] Salimov A. Raqamli jamiyat va milliy ong. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 117

[42] Karimova I., Madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy uygʻunlik, – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2021. – B. 91

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xidirov Suhrob Norbutayevich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi
Ilmiy maslahatchi: Bekmurodov M.B., sos.f.d., professor

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY XAVFSIZLIK JARAYONI: AXBOROT MUHITIDA STEREOTIPLARNING PROGNOZ TAHLILI VA XAVFSIZLIK INDEKSLARI

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash jarayonlari, axborot muhitida shakllanayotgan stereotiplarning mazmun-mohiyati va ularning jamiyat barqarorligiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, “inson – jamiyat – davlat” tamoyili asosida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlash masalalari yoritilgan. Maqolada gender, ijtimoiy tengsizlik, millatlararo, diniy, avlodlararo va til omillari asosidagi stereotiplarning ijtimoiy xavf sifatidagi xususiyatlari prognoz tahlil asosida o‘rganilgan. Empirik yondashuvlar asosida ijtimoiy xavfsizlikni baholashga xizmat qiluvchi asosiy indekslar ishlab chiqilib, ularning Yangi O‘zbekiston jamiyatidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy xavfsizlik, stereotip, axborot muhiti, Yangi O‘zbekiston, gender tenglik, ijtimoiy tengsizlik, millatlararo munosabatlar, diniy bag‘rikenglik, axborot xavfsizligi, ijtimoiy indekslar, prognoz tahlil.*

Khidirov Sukhrob Norbutaevich
Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan
Scientific Advisor: Bekmurodov M.B., Doctor of Sociological Sciences, Professor

SOCIAL SECURITY PROCESSES IN NEW UZBEKISTAN: FORECAST ANALYSIS OF STEREOTYPES IN THE INFORMATION ENVIRONMENT AND SECURITY INDICES

Abstract: *This scientific article analyzes the processes of ensuring social security in the context of New Uzbekistan, the essence of stereotypes formed in the information environment, and their impact on social stability. It also examines reforms in the public administration system based on the “human – society – state” principle, focusing on strengthening social security. The study provides a forecast analysis of stereotypes related to gender, social inequality, interethnic relations, religion, intergenerational differences, and language factors as sources of social risk. Based on empirical approaches, key social security indices are developed and their significance in the context of New Uzbekistan is scientifically substantiated. The article concludes with practical recommendations derived from the research findings.*

Keywords: *social security, stereotype, information environment, New Uzbekistan, gender equality, social inequality, interethnic relations, religious tolerance, information security, social indices, forecast analysis.*

Хидиров Сухроб Норбутаевич
Академия государственного управления при Президенте Республики Узбекистан
Научный консультант: Бекмуродов М.Б., д.соц.н., профессор

ПРОЦЕСС СОЦИАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОГНОЗНЫЙ АНАЛИЗ СТЕРЕОТИПОВ В ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЕ И ИНДЕКСЫ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: *В данной научной статье проанализированы процессы обеспечения социальной безопасности в условиях Нового Узбекистана, сущность формирующихся в информационной среде стереотипов и их влияние на стабильность общества. Также освещаются вопросы укрепления социальной безопасности в рамках реформ системы государственного управления, реализуемых на основе принципа «человек – общество – государство». В статье на основе прогнозного анализа исследуются характеристики стереотипов, формирующихся на основе гендерных, социальных неравенств, межнациональных, религиозных, межпоколенческих и языковых факторов, как источников социальных рисков. На основе эмпирических подходов разработаны основные индексы оценки социальной безопасности и научно обоснована их значимость в обществе Нового Узбекистана. По результатам исследования предложены практические рекомендации.*

Ключевые слова: *социальная безопасность, стереотип, информационная среда, Новый Узбекистан, гендерное равенство, социальное неравенство, межнациональные отношения, религиозная толерантность, информационная безопасность, социальные индексы, прогнозный анализ.*

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi negizida shakllanib, inson qadrini ustuvor qiymat sifatida belgilashga qaratilgan. Bu jarayonda ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash, ayniqsa axborot muhitida shakllanayotgan stereotiplarni bartaraf etish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Zero, globallashuv va raqamlashuv sharoitida axborot oqimining ortishi ijtimoiy ongda turli xil stereotiplar shakllanishiga, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy barqarorlikka tahdid solishi mumkin.

Yangi O‘zbekiston g‘oyasining vujudga kelishi va davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlar. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi mamlakatda demokratik tamoyillarni chuqurlashtirish, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, ochiq va shaffof boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan strategik konsepsiyadir. Ushbu g‘oyaning asosiy mezoni sifatida “Inson – jamiyat – davlat” tamoyili ilgari surildi. Bu tamoyil doirasida davlat organlari xalqqa xizmat qiluvchi tizimga aylantirildi, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati kengaytirildi, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi, axborot siyosatida ochiqlik va shaffoflik ta’minlandi. Natijada ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi faqat jismoniy xavfsizlik bilan emas, balki axborot, ma’naviy va psixologik xavfsizlik bilan ham uzviy bog‘liq holda qarala boshlandi.

Ijtimoiy xavfsizlik va axborot muhitida stereotiplar muammosi

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot oqimining keskin ortishi jamiyatda ijtimoiy ong, qadriyatlar va munosabatlar tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davrida ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda axborot muhiti orqali shakllanayotgan stereotiplar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga, guruhlar o‘rtasidagi ishonch darajasiga va umumiy barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan:

ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida noto‘g‘ri yoki biryoqlama qarashlarning tarqalishi;

turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida sun’iy qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi;

axborot orqali manipulyasiya qilish holatlarining ortishi

ijtimoiy xavfsizlikka yangi tahdidlar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shuning uchun axborot muhitidagi stereotiplarni ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning xavf darajasini baholash va prognoz qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

“Stereotip” atamasi ilmiy adabiyotlarda inson ongida muayyan ijtimoiy guruh, hodisa yoki shaxs haqida shakllangan soddalashtirilgan, umumlashtirilgan va ko‘p hollarda biryoqlama tasavvur sifatida ta’riflanadi. Stereotiplarning asosiy xususiyatlari soddalashtirilganlik – murakkab ijtimoiy voqelikni oddiy tasvirlash, barqarorlik – vaqt o‘tishi bilan ham o‘zgarishga moyil emasligi, emosionallik – ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ular bilan bog‘liqligi, umumlashtirish – alohida holatlarni butun guruhga tatbiq etishga qaratilgan. Stereotiplar muayyan darajada kognitiv yengillik yaratib, insonga tez qaror qabul qilishda yordam berishi mumkin. Biroq ular noto‘g‘ri shakllangan holtlarda ijtimoiy adolat va ob’yektivlikka jiddiy putur yetkazadi.

Stereotiplarga zamonaviy ijtimoiy fanlarda stereotiplar faqat psixologik yoki madaniy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy xavf omillaridan biri sifatida ham qaralmoqda. Chunki ular **diskriminatsiya va kamsitish**ga olib keladi, stereotiplar asosida **shakllangan noto‘g‘ri qarashlar muayyan guruhlarga nisbatan adolatsiz munosabatni keltirib chiqaradi**, ijtimoiy **ziddiyatlarni kuchaytiradi,** millatlararo, dinlararo yoki gender asosidagi stereotiplar jamiyatda qarama-qarshiliklarni chuqurlashtiradi, eng xavfli jihati bugungi axborot transformatsiyasi davrida aAxborot manipulyasiyasiga sharoit yaratadi. Stereotiplardan foydalangan holda ommaviy ongga ta’sir o‘tkazish osonlashadi, bu esa axborot xavfsizligiga tahdid soladi.

Stereotiplarning yana bir xavfi **ishonch muhitini izdan chiqaradi.** Jamiyat a’zolari o‘rtasida o‘zaro ishonch pasayishi esa ijtimoiy kapitalni zaiflashtirishga xizmat qiladi. Shu kunga qadar stereotiplarning radikallashuvga olib kelishi mumkinligi ham alohida ta’kidlab kelingan. Ayniqsa ayrim hollarda stereotiplar ekstremistik g‘oyalar uchun “psixologik zamin” yaratib berishi tarixiy va zamonaviy jarayonlarda o‘rganilgan.

Ushbu maqolada O‘zbekistonning barcha hududlarini qamrab olgan yirik sosiologik tadqiqot natijalari asosida ijtimoiy xavfsizlik jarayonining prognostik modeli uchun empirik asos yaratilgan. Tadqiqot jahon sosiologiyasida keng qo‘llaniladigan Allport [3] ning «kamsitish zinasi» va Bogardus [4] ning ijtimoiy masofa shkalasiga asoslangan metodologiyadan foydalanadi.

2. Tadqiqot metodologiyasi va tanlanma parametrlari

Tadqiqot so‘rovnoma usulida o‘tkazilib, 7 ta asosiy stereotip indeksini o‘lchashga mo‘ljallangan: gender, yosh, millatlararo, dinlararo, dindorlik darajasi, til belgisi va daromad darajasi bo‘yicha kamsitish indekslari. Har bir savolga javob beruvchi 0 dan 5 ballgacha shkala asosida o‘z munosabatini bildirdi.


Baholash shkalasi: 80% dan yuqori — kamsitish minimal; 60–80% — o‘rtacha xavf zonasi; 60% dan past — jiddiy ijtimoiy xavf.

Indekslar tizimi Eurobarometer kamsitish indekslari, World Values Survey qadriyatlar shkalalari va UNDP inson taraqqiyoti ko‘rsatkichlari metodologiyasi sintezi asosida shakllantirilgan [5].

Tadqiqot O‘zbekistonning 14 ta viloyati va Toshkent shahrida, 208 ta tuman va shaharda, 1 039 ta mahallada yashovchi 22 335 nafar respondent ishtirokida o‘tkazildi. Gender taqsimoti: erkaklar 49,7%, ayollar 50,3%. Etnik tarkib: o‘zbeklar 88,1%, qozoqlar 3,3%, tojiklar 2,2%, qoraqalpoqlar 2,1%, ruslar 0,8%, boshqalar 3,5%. Aholining 99,1% musulmon, 68,9% qishloq joylarda istiqomat qiladi.


3. Stereotip indekslari: hududiy tarqalish tahlili

Barcha 7 ta indeks bo‘yicha respublika ko‘rsatkichlari 79–95% oralig‘ida joylashgan. Namangan viloyati deyarli barcha yo‘nalishlar bo‘yicha eng yuqori natijalarni namoyon qilsa (92–95%), Andijon viloyatida nisbatan past ko‘rsatkichlar (79–81%) kuzatiladi. Bu holat hududlar kesimida jamoaviy ong va ijtimoiy munosabatlarning sezilarli tafovutlanishini ko‘rsatadi.



1-rasm. Aholining axborot olish manbalari tuzilmasi (foizda)

Aholining axborot iste’mol tuzilmasi tahlili alohida diqqatga molik. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, aholining 61 foizi asosan norasmiy manbalardan ma’lumot oladi. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlar (Feysbuk, Telegram, Instagram) 33 foizni, oila va do‘stlar orqali olingan axborot 20,9 foizni, hamkasblar tarqatgan ma’lumotlar 6,9 foizni tashkil qiladi. Rasmiy manbalar — davlat veb-saytlari 8,8%, telekanallar 17,9%, gazetalar 7,7% — jami atigi 37 foiz.



2-rasm. Rasmiy va norasmiy axborot manbalari nisbati

4. Gender va yosh indekslari: yashirin xavflar

Gender kamsitish indeksi respublika bo‘yicha 79,68% (Andijon) dan 92,55% (Namangan) gacha tarqalgan. Ko‘rsatkichlar umuman olganda jamiyatda ochiq gender kamsitishning past darajada ekanini ko‘rsatadi. Biroq, tadqiqot ko‘rsatdiki, «ayol kishining asosiy vazifasi — uy-ro‘zg‘or» stereotipi qishloq hududlarida shaharga nisbatan 1,5–2 barobar ko‘p uchraydi. Bu farq gender tenglik siyosatida hududiy differensiatsiya zarurligini ko‘rsatadi [6].


Yosh bo‘yicha kamsitish indeksi 79,81% (Andijon) dan 93,56% (Namangan) gacha tarqalgan. Tadqiqotda «yoshlar hurmatsiz» va «keksa avlod zamonaviy hayotni tushunmaydi» kabi stereotiplar eng ko‘p uchraydigan toifalar sifatida aniqlandi. Raqamli bo‘shliq bu stereotiplarni yanada kuchaytirib, keksa avlodning ijtimoiy izolyasiyasi xavfini yuzaga keltirmoqda.

5. Millatlararo va diniy stereotiplar: barqarorlik va tahdidlar

Millatlararo kamsitish indeksi 81,2% (Navoiy) dan 95,21% (Namangan) gacha tarqalgan. 130 dan ortiq millat vakillari yashaydigan mamlakatda bu ko‘rsatkichlar ijtimoiy birdamlikning mustahkam ekanini tasdiqlaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, maishiy darajada «o‘zimizdan» va «begonalar» dixotomiyasi hali ham mavjud, ammo uning tarqalish ko‘lami cheklangan.


Diniy kamsitish indeksi 79,9% dan 95,7% gacha. Respondentlarning 99,1% musulmon bo‘lishi diniy birlikning kuchli ekanini ko‘rsatadi. Biroq, dindorlik darajasi bo‘yicha «juda dindor» yoki «dindan uzoq» deb birdan baholash stereotipi, ayniqsa yoshlar orasida, radikallashuv xavfini kuchaytirishi mumkin. Yosh avlodning bir qismi diniy bilimlarni rasmiy ta’lim emas, ijtimoiy tarmoqlar va norasmiy guruhlar orqali olayotgani alohida xavotir tug‘diradi.

6. Xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili




3-rasm. Diniy tolerantlik indeksi: 5 davlat qiyosiy tahlili

O‘zbekiston diniy tolerantlik indeksi bo‘yicha 95,7% ko‘rsatkich bilan tahlil qilingan davlatlar orasida birinchi o‘rinni egallaydi. Qozog‘iston 80% bilan ikkinchi o‘rinda, AQSH va Germaniya o‘rtacha ko‘rsatkichlarda.




4-rasm. Stereotiplarga qarshi strategiyalar: 4 davlat qiyosiy profili (radar diagrammasi)

Radar diagrammasi ko‘rsatishicha, AQSH konstitutsiyaviy himoya va fuqarolik jamiyatida kuchli, Germaniya ta’lim islohoti va media nazoratida, Hindiston madaniyatlararo muloqotda, Qozog‘iston dinlararo dialog forumlarida ustunlikka ega. Germaniyaning «Demokratie leben!» dasturi (€50 mln) va NetzDG qonuni, Hindistonning NCERT darslik islohoti va Qozog‘istonning «Ruxani Jaңg‘ыru» milliy dasturi O‘zbekiston uchun amaliy model vazifasini bajara oladi [7, 8, 9].



5-rasm. Avlodlararo munosabatlar: 5 davlat qiyosiy tahlili


O‘zbekistonda yoshlarning keksa avlodga hurmati (92%) va keksa avlodning yoshlar fikrini tinglashi (85%) boshqa davlatlarga nisbatan sezilarli yuqori. Bu an’anaviy qadriyatlar — oila instituti va mahalla tizimining ijobiy natijasidir. Ammo «raqamli bo‘shliq» va yoshlarning fikrini erkin ifodalash imkoniyatlarining cheklanganligi e’tiborga olinishi zarur [10].



6-rasm. Etnik xilma-xillik va ijtimoiy birdamlik: qiyosiy pozisiyalash

Pufakchali diagramma ko‘rsatishicha, O‘zbekiston va Qozog‘iston yuqori etnik xilma-xillik bilan birga yuqori ijtimoiy birdamlikni saqlab turgan davlatlar sifatida ajralib turadi. Bu natija mahalla tizimi, tarixiy tolerantlik an’analari va davlat siyosatining uyg‘un ta’sirini tasdiqlaydi.

7. Ijtimoiy xavfsizlik muammolar banki



7-rasm. Ijtimoiy xavfsizlik muammolar banki klassifikatsiyasi

Tadqiqot natijalari asosida ijtimoiy xavfsizlik muammolarining uch kategoriyali klassifikatsiyasi ishlab chiqildi. Bu yondashuv davlat resurslarini prioritetlar bo‘yicha taqsimlash va maqsadli siyosat yuritishda asosiy analitik instrument sifatida xizmat qiladi:

Kategoriya	Tavsif	Asosiy ko‘rsatkichlar
Qizil (jiddiy tahdid)	Darhol aralashuvni talab qiluvchi muammolar	Andijon barcha indekslar past; Axborotning 61% norasmiy; Qo‘shni davlat TV ta’siri 5%+
Sariq (xavf zonasi)	Uzoq muddatli strategik yondashuv talab qiluvchi masalalar	Avlodlararo stereotiplar; Til status stereotiplari; Daromad dixotomiyasi; Rasmiy kanallar 37%
Yashil (barqaror)	Ijobiy tajriba sifatida o‘rganiladigan hududlar	Namangan, Navoiy, Xorazm — barcha indekslar yuqori; Diniy bag‘rikenglik 95,7%; Millatlararo 81–95%

1-jadval. Ijtimoiy xavfsizlik muammolar banki klassifikatsiyasi



8-rasm. Ijtimoiy xavfsizlik muammolari xaritasi (hududiy tahlil)

Muammolar banki mamlakatning barcha 14 ta ma’muriy-hududiy birligi va 208 ta tuman kesimida shakllantirildi. Hududiy xarita «qizil», «sariq» va «yashil» zonalar bo‘yicha ijtimoiy xavfsizlik holatini vizual-analitik formatda ko‘rsatadi. Bank muntazam — har 2–3 yilda — yangilanib borishi va yangi ijtimoiy tendensiyalarni aks ettirishi lozim [11].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, stereotiplar zamonaviy axborotlashgan jamiyatda ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, ular kognitiv mexanizm sifatida xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, noto‘g‘ri shakllangan holda ijtimoiy xavf manbai bo‘lib qoladi. Ayniqsa, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy adolat, tenglik va bag‘rikenglikni ta’minlash jarayonida stereotiplarning salbiy ta’sirini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur masalani nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham chuqur tadqiq etishni talab qiladi.Axborot muhitida shakllanayotgan stereotiplar jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida ishonchsizlik, qarama-qarshilik va diskriminatsiya holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Ular quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Gender stereotiplari — ayollar va erkaklar rollariga oid an’anaviy qarashlar: ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi cheklanishi; mehnat bozorida tengsizlik; axborot vositalarida gender obrazlarining noto‘g‘ri aks ettirilishi.

2. Ijtimoiy tengsizlikka oid stereotiplar — kam ta’minlangan qatlamlarga nisbatan salbiy munosabat; ta’lim va imkoniyatlar tengsizligi haqidagi qarashlar; “elita” va “quyi qatlam” o‘rtasidagi psixologik to‘siqlar.

3. Millatlararo va diniy stereotiplar — turli millat va konfessiyalarga nisbatan ishonchsizlik; diniy darajaga qarab insonlarni baholash; ekstremistik g‘oyalarning axborot muhitida tarqalishi.

4. Avlodlararo stereotiplar — yoshlar va katta avlod o‘rtasida qadriyatlar to‘qnashuvi; raqamli avlodga nisbatan salbiy qarashlar; an’ana va innovatsiya o‘rtasidagi ziddiyatlar.

5. Til belgisiga ko‘ra stereotiplar — til asosida ijtimoiy guruhlarga ajratish; ayrim til egalariga nisbatan ustunlik yoki kamsitish munosabati.

Stereotiplarning ijtimoiy xavfsizlikka tahdidi bo‘yicha prognoz tahlil shuni ko‘rsatadiki, agar axborot muhitidagi stereotiplar nazorat qilinmasa, ijtimoiy polyarizatsiya kuchayishi – jamiyatda “biz” va “ular” tushunchasi chuqurlashadi.

Ishonch inqirozi – davlat va jamiyat institutlariga ishonch pasayadi. Radikallashuv xavfi – ayrim guruhlar ekstremistik g‘oyalarga moyil bo‘ladi. Axborot xavfsizligiga tahdid – feyk axborot va manipulyasiya kuchayadi.

Ijtimoiy barqarorlikka putur yetishi – norozilik kayfiyati ortib boradi.

Olib borilgan empirik tadqiqotlar ijtimoiy xavfsizlik indekslarini quyidagicha ilmiy asoslaydi.

Birinchisi — axborot ishonch indeksi. Bu aholining ommaviy axborot vositalariga ishonchi, feyk axborotga nisbatan immunitet darajasi bilan belgilanadi.

Ikkinchisi — ijtimoiy inklyuzivlik indeksi turli guruhlarning jamiyat hayotida ishtirok etish darajasi, kamsitish holatlarining kamayishi asosida tahlil qilinadi.

Uchinchisi — gyender tenglik indeksi ayollar va erkaklar o‘rtasida imkoniyatlar tengligi; qaror qabul qilishda ishtirok.

To‘rtinchisi — millatlararo totuvlik indeksi turli millatlar o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy ishonch darajasi.

Beshinchisi — diniy bag‘rikenglik indeksi bo‘lib, konfessiyalararo munosabatlar barqarorligi, diniy erkinlik darajasi bilan baholanadi.

Oltinchisi — avlodlararo hamjihatlik indeksi yoshlar va katta avlod o‘rtasidagi hamkorlik, qadriyatlar uyg‘unligini ilgari suradi.

Va nihoyat, **yettinchisi** — axborot xavfsizligi indeksi. Bugungi global axborot asrida kiberxavfsizlik darajasi va axborot muhiti barqarorligi bilan o‘lchanadi.

Mazkur indekslar Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat siyosatini baholash vositasi, ijtimoiy xavflarni erta aniqlash mexanizmi, strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi. Bu indekslar jamiyatdagi real holatni ko‘rsatib, islohotlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda ijtimoiy birdamlik va bag‘rikenglikning umumiy ijobiy holatda ekanini tasdiqladi: barcha 7 ta indeks bo‘yicha ko‘rsatkichlar 79–95% oralig‘ida. Ammo prognostik nuqtai nazardan bir qator tizimli tahdidlar mavjud. Birinchidan, kamsitishning latent va maishiy shakllari saqlanib qolmoqda. Ikkinchidan, aholining 61% norasmiy manbalardan axborot olishi axborot-psixologik xavfsizlikka jiddiy tahdid. Uchinchidan, hududiy tafovutlar maqsadli differensial siyosat zarurligini ko‘rsatadi. Prognoz tahlil esa, agar mavjud tendensiyalar o‘zgarishsiz davom etsa, kelgusi 5–10 yilda stereotiplarning latent shakllari ochiq shakllarga o‘tish, ijtimoiy ziddiyatlar va ma’naviy-mafkuraviy zaiflikning kuchayish xavfi mavjud. Agar axborot muhitidagi stereotiplar ijtimoiy xavfsizlikka jiddiy tahdid soluvchi omillardan biri hisoblansa, ularni bartaraf etish kompleks yondashuvni talab qiladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash huquqiy, institusional choralar bilan birga jamiyat ongidagi stereotiplarni o‘zgartirish, axborot madaniyatini yuksaltirish va inson qadrini ta’minlash bilan uzviy bog‘liqdir.

Quyida taklif etilayotgan 7 ta tavsiya va 12 ta chora-tadbir majmui — monitoring tizimi, ta’lim islohoti, media savodxonlik, mahalliy institutlarni kuchaytirish — mazkur xavflarni oldini olishning ilmiy asoslangan strategiyasini tashkil etadi.

Tavsiyalar:

1.Axborot savodxonligini oshirish bo‘yicha milliy dasturlarni kuchaytirish.

2.Ommaviy axborot vositalarida ijtimoiy mas’uliyatni oshirish.

3.Gender va ijtimoiy tenglikka oid ta’lim dasturlarini joriy etish.

4.Millatlararo va diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qiluvchi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.

5.Yoshlar va katta avlod o‘rtasida muloqot platformalarini rivojlantirish.

6.Axborot xavfsizligi bo‘yicha institusional mexanizmlarni takomillashtirish.

7.Ijtimoiy xavfsizlik indekslarini muntazam monitoring qilish va tahlil etish.

8. Amaliy takliflar

Tadqiqot natijalari va qiyosiy xorijiy tajribalar asosida 12 ta strategik taklif ishlab chiqildi:

1. «O‘zbekiston — yagona Vatan» nomi ostida barcha viloyatlarda madaniy va diniy muloqot markazlarini tashkil etish (AQSH Interfaith Alliance va Hindiston «Madaniyat uylari» tajribasi asosida).

2. Umumta’lim maktablari va oliy ta’limda bag‘rikenglik, xilma-xillik mavzulari bo‘yicha inklyuziv ta’lim modullarini joriy etish (Germaniya Bildungsreform va Hindiston NCERT tajribasi).

3. «Avlodlar ko‘prigi» dasturi orqali yoshlar va keksa avlod o‘rtasidagi muloqotni institusionallashtirish; «Buvijonlar maktabi» loyihasini ishga tushirish.

4. Rasmiy axborot kanallari mazmunini aholining axborot iste’mol odatlariga moslashtirish; qisqa video, infografika, podkast formatlarini kengaytirish.

5. Media savodxonlik dasturlarini ta’lim tizimining barcha pog‘onalarida joriy etish; «axborot pufaklari» algoritmik ta’siriga qarshi kontent-savodxonlik modulini yaratish.

6. Har ikki yilda «Dinlararo muloqot forumi» tashkil etish (Qozog‘iston Butunjahon an’anaviy dinlar rahbarlari s’yezdi tajribasi).

7. “Uch avlod akademiyasi” respublika loyihasini ishga tushirish (Qozog‘iston “Ruxani Jaңg‘ыru” dasturi tajribasi asosida).

8. 7 ta stereotip indeks bo‘yicha muntazam ijtimoiy xavfsizlik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish; raqamli tahlil platformasini yaratish.

9. Germaniya Senior Expert Service (SES) tajribasiga qiyosan O‘zbekiston modelini yaratish; diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qiluvchi interfaol platforma.

10. Toshkent va Qoraqalpog‘istonda maqsadli axborot siyosatini ishlab chiqish (tashqi axborot ta’sirini neytrallashtirish).

11. Namangan, Navoiy, Xorazm — “barqaror hududlar” — tajribasini o‘rganib, boshqa hududlarga tarqatish mexanizmini yaratish.

12. Davlat idoralari, mahalla, fuqarolik jamiyati va OAV o‘rtasida institusional hamkorlik modelini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Buzan B. People, States & Fear. — Boulder: Lynne Rienner, 1991.

[2] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). — Toshkent: Adolat, 2023.

[3] Allport G.W. The Nature of Prejudice. — Cambridge: Addison-Wesley, 1954.

[4] Bogardus E.S. A Social Distance Scale // Sociology and Social Research. — 1933. — Vol. 17. — P. 265–271.

[5] UNDP. Human Development Report 1994. — New York: Oxford University Press, 1994.

[6] Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

[7] Bundeszentrale für politische Bildung. Demokratie leben! — Berlin, 2016.

[8] NCERT. National Curriculum Framework. — New Delhi, 2023.

[9] “Ruxani Jaңg‘ыru” — Qazaqstannьң bolashaqqa bag‘darlamasы. — Astana, 2017.

[10] Giddens A. The Consequences of Modernity. — Stanford: Stanford University Press, 1990.

[11] Xidirov S.N. Ijtimoiy xavfsizlik muammolari banki: metodologik yondashuv // Jamiyat va boshqaruv. — 2024. — №1. — B. 34–48.

[12] Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sosiologiyasi. — Toshkent: Akademiya, 2020. — 320 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xolmirzayev Jamshid Naqibillo o'g'li
Qo'qon Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Email: john1209@mail.ru

ANGLO-AMERIKANIZMLARNING ASSIMILATSIYA DARAJASIGA KO'RA TASNIFI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbekcha internet diskursida qo'llanayotgan anglo-amerikanizmlarning qabul qiluvchi til tizimiga moslashuvi (assimilatsiyasi) va ularni assimilatsiya darajasi bo'yicha tasniflash masalasi yoritiladi. Tadqiqot globallashuv sharoitida internet kommunikatsiyasi orqali inglizcha o'zlashmalar oqimining kuchayishi hamda bu jarayonning fonetik, grafik, morfologik va leksik-semantik o'zgarishlar bilan birga kechishini asoslashga qaratilgan. Ishda tavsifiy, qiyosiy va funksional-pragmatik tahlil usullari qo'llanib, internet matnlaridan tanlab olingan anglo-amerikanizmlar yozuv shakli, talaffuz moslashuvi, grammatik integratsiyasi va semantik transformatsiyalari mezonlari asosida o'rganiladi. Natijalarga ko'ra, o'zlashmalar minimal, qisman va to'liq assimilatsiyalashgan ko'rinishlarda namoyon bo'lib, ularning moslashuv darajasi qo'llanish chastotasi, kommunikativ dolzarblik va diskurs muhitiga bog'liq ekani aniqlanadi. Shuningdek, anglo-amerikanizmlar internet muloqotida nominativ vazifa bilan birga baholovchi, ekspressiv hamda identifikatsion pragmatik funksiyalarni ham bajarishi ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *anglo-amerikanizmlar; internet diskurs; o'zlashma so'zlar; assimilatsiya; fonetik assimilyatsiya; grafik (orfografik) moslashuv; morfologik integratsiya; leksik-semantik o'zgarish; funksional-pragmatik tahlil; til aloqalari*

Холмирзаев Джамшид Накибилло угли
Независимый исследователь, Кокандский университет

КЛАССИФИКАЦИЯ АНГЛО-АМЕРИКАНИЗМОВ ПО СТЕПЕНИ АССИМИЛЯЦИИ

Аннотация*: В данной статье рассматривается адаптация (ассимиляция) англо-американизмов, функционирующих в узбекском интернет-дискурсе, а также их классификация по степени ассимиляции. Исследование направлено на выявление усиления потока английских заимствований в условиях глобализации и интернет-коммуникации и обоснование того, что данный процесс сопровождается фонетическими, графическими, морфологическими и лексико-семантическими изменениями. В работе применяются описательный, сопоставительный и функционально-прагматический методы анализа. Англо-американизмы, отобранные из интернет-текстов, анализируются с точки зрения письменной формы, адаптации произношения, грамматической интеграции и семантических трансформаций. Результаты показывают, что заимствования представлены в минимально, частично и полностью ассимилированных формах, при этом степень их адаптации зависит от частотности употребления, коммуникативной значимости и дискурсивной среды. Кроме того, англо-американизмы в интернет-коммуникации выполняют не только номинативную, но и оценочную, экспрессивную и идентификационную прагматические функции.*

Ключевые слова*: англо-американизмы; интернет-дискурс; заимствованные слова; ассимиляция; фонетическая ассимиляция; графическая (орфографическая) адаптация; морфологическая интеграция; лексико-семантические изменения; функционально-прагматический анализ; языковые контакты.*

Xolmirzayev Jamshid Naqibillo o'g'li
Independent Researcher, Kokand University

CLASSIFICATION OF ANGLO-AMERICANISMS ACCORDING TO THE DEGREE OF ASSIMILATION

Abstract: *This article examines the adaptation (assimilation) of Anglo-Americanisms used in Uzbek internet discourse and their classification according to the degree of assimilation. The study focuses on the intensification of English lexical borrowings through online communication in the context of globalization and substantiates that this process is accompanied by phonetic, graphic, morphological, and lexico-semantic changes. Descriptive, comparative, and functional-pragmatic methods are employed to analyze Anglo-Americanisms selected from internet texts based on their written form, pronunciation adaptation, grammatical integration, and semantic transformations. The findings show that borrowings occur in minimally, partially, and fully assimilated forms, with the degree of adaptation depending on usage frequency, communicative relevance, and discourse environment. In addition, Anglo-Americanisms*

in online communication perform not only nominative functions but also evaluative, expressive, and identificational pragmatic functions.

Keywords: *Anglo-Americanisms; internet discourse; loanwords; assimilation; phonetic assimilation; graphic (orthographic) adaptation; morphological integration; lexico-semantic change; functional-pragmatic analysis; language contact.*

Kirish

Bugungi kunda internet butun jahon bo‘ylab eng tez axborot almashish vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda va ko‘p sonli foydalanuvchilarning muloqot tili sifatida ingliz tili alohida mavqega ega hisoblanadi. Mamlakatimiz ham globallashuvga yuz tutayotgan bir davrda, internet diskursda o‘zbek tilimizga ham sezilarli darajada anglo-amerikanizmlarning kirib kelish holatlarini kuzatishimiz mumkin. Shunday ekan, ushbu qatlam birliklarining tillarga o‘zlashish jarayonidagi turli transformatsiyalar masala ustidagi tadqiqotlar uchun dolzarb o‘rganish obyekti hisoblanadi. Vaholanki, ushbu jarayon til tizimining ichki tuzilmalarini o‘rganishga, shuningdek, til aloqalarining rivojlanishi va o‘zgarishini tushunishga imkon beradi. Chet tilidan olingan so‘zlarning qabul qiluvchi tilga adaptatsiya jarayoni, nafaqat lingvistik, balki madaniy va tarixiy kontekstni ham o‘z ichiga oladi. Ularning o‘zlashtirilishi til tizimida qanday o‘zgarishlar yuzaga kelishini, qanday o‘zlashuv mexanizmlarining mavjudligini va tilning globalizatsiyaga qanday javob berishini tushunishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Masalaning o’zbek tilida o’rganilishi holatiga to’xtaladigan bo’lsak, bir qancha zalvorli izlanishlar olib borilganiga guvoh bo’lishimiz mumkin. O‘zbekistonlik taniqli tilshunos olimlardan biri G‘.X.Rahimov doktorlik dissertatsiyasida ingliz tilining O‘zbekistonda tarqalishining sotsiolingvistik va pragmatik jihatlarini o‘rganish bilan bir qatorda, anglo-amerikanizmlarning o’zbek tiliga fonetik assimilatsiyasi, aksentlar haqida ham tushuncha va ma’lumotlar berib o’tadi.

H.U.Ahmedov o‘zlashgan so‘zlarning assimilatsiya jarayonlari semantik tahliliga to’xtalar ekan, ta’kidlaydiki, semantik assimilyatsiya jarayoni quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: ma’no toraytirish, ma’no ixtisoslashtirish yoki umumlashtirish, yangi ma’nolarni olish va asosiy ma’noning ikkilamchi ma’noga o‘tishi. Assimilyatsiya darajasi so‘zning qabul qiluvchi tilga kirib kelgan vaqti, uning kommunikatsion ahamiyati va ishlatilish chastotasiga bog‘liq. O‘zaro aloqalar orqali og‘zaki olingan so‘zlar tezroq assimilatsiyalashadi[1].

Chet tilidan olingan so‘zlarning qabul qiluvchi tilga moslashuvi muammosini tadqiq qilgan tilshunos olim U.Vaynrayxning e’tirof etishicha, nutqda asosiy omillar sifatida boshqa til elementlarini idrok etish kerak va u ushbu so‘zlarning o‘zlashtirilish sabablarini ko‘rsatadi. Til tizimida esa asosiy e’tibor chet tilidan olingan elementlarning fonetik, grammatik, semantik va uslubiy jihatdan integratsiyalashuviga qaratiladi[2].

Tilshunos G.V.Pavlenko ham shunga o‘xshash fikr bildirish bilan birga, o‘zlashuv jarayonida so‘zning fonetik, morfologik, leksik–semantik, sintaktik va kommunikativ jihatdan moslashuvini ham muhim omillar sifatida ko‘rib chiqadi[3].

G.V.Pavlenko tomonidan ta’kidlanganidek, til tizimida o‘zlashtirilgan so‘zlarning semantik o‘zgarishi va kommunikativ kontekstdagi roli, tilni o‘rganayotgan shaxslar uchun yangi nuqtai nazarlarni taqdim etadi. Natijada esa, albatta, tilning to‘liq va aniq tushunilishini, tilshunoslik tadqiqotlarida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga olib keladi.

O.V.Dedova tadqiq qilgan va shunday xulosalarga kelgan: Texnik bilimga ega bo‘lganlar inglizcha talaffuzga yaqin aytishadi. Oddiy foydalanuvchilar esa inglizcha so‘zlarni ruscha talaffuz qilishadi yoki oddiygina lotincha yozilgan shaklda o‘qishadi[4]. Mazkur hodisa, ingliz tili va rus tili o‘rtasidagi lingvistik va ijtimoiy farqlarni ko‘rsatadi. Talaffuzdagi farq, nafaqat tilga oid bilimlarning yetishmasligi bilan bog‘liq, balki tilni o‘rganish darajasiga, ijtimoiy maqomga va shaxsiy tajribaga ham bog‘liqdir.

S.Rudiger o‘z tadqiqot ishida Janubiy Koreya talabalari tomonidan ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarga va ularning ishlatilishiga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganadi. U ango–amerikanizmlar koreys tiliga o‘zlashganda sodir bo‘ladigan fonologik va orfografik adaptatsiya jarayonlarini yoritib berishga e’tibor qaratgan, xususan, anglo–amerikanizmlar koreys talaffuzi va bo‘g‘in shakli qoidalariga moslashishi talab etilishini ta’kidlab, bir necha misollar bilan asoslab bergan.

J.Cho va H.K. Park o‘z maqolasida koreys va ingliz fonologik tuzilmalari va jarayonlari bo‘yicha batafsil solishtirma tahlil taqdim etadi va undan so‘ng tarjimonlar uchun pedagogik takliflar beriladi. Ushbu tadqiqot, fonetik/fonologik tuzilmalar va jarayonlarning qarama–qarshi tahlillari to‘g‘risidagi to‘g‘ri bilimlar hamda to‘g‘ri ta’lim va mashq yordamida, koreys tarjimonlari ingliz tiliga yaxshiroq nutq yetkazish va sifatli tarjima olishlari mumkinligini xulosa qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot o‘zbekcha internet diskursida qo‘llanayotgan anglo-amerikanizmlarning assimilatsiya darajalarini aniqlash va tasniflashga qaratilgan. Tadqiqot obyekti sifatida ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar hamda onlayn axborot platformalarida uchraydigan inglizcha leksik o‘zlashmalar tanlandi, tadqiqot predmeti esa ularning qabul qiluvchi til tizimiga moslashuv xususiyatlaridir.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va funksional-pragmatik tahlil usullari qo‘llanildi. Internet matnlaridan tanlab olingan anglo-amerikanizmlar orfografik, fonetik, morfologik va leksik-semantik moslashuv mezonlari asosida o‘rganildi. Har bir birlikning assimilatsiya darajasi uning yozuv shakli, talaffuzi, grammatik integratsiyasi va qo‘llanish chastotasiga ko‘ra belgilandi.

Tahlil jarayonida anglo-amerikanizmlar minimal, qisman va to‘liq assimilatsiyalashgan birliklar sifatida guruhlandi. Natijalarni talqin qilishda til aloqalari va o‘zlashmalar nazariyasiga tayangan holda, birliklarning internet diskursdagi kommunikativ vazifalari va pragmatik yuklamalari kontekst asosida izohlandi.

Natijalar va ularning tahlili

Chet tilidan olingan leksik birliklarning qabul qiluvchi til tizimiga moslashuvi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u bir qancha mustaqil jihatlardan iborat. Shu sababli, assimilyatsiya deganda o‘zlashtirilgan so‘zlarning fonetik, grafik, grammatik va leksik–semantik jihatdan qabul qiluvchi til normalariga maksimal darajada yaqinlashishi tushuniladi[5]. Shunga asoslanib, assimilyatsiyaning quyidagi turlarini ajratish mumkin: fonetik va grafik assimilatsiya, grammatik (morfologik) assimilatsiya, leksik–semantik assimilatsiya**.**

Fonetik assimilyatsiya jarayonida so‘zning tovush tarkibi qabul qiluvchi til fonetik tizimiga moslashtiriladi. Ushbu jarayon zvuk substitutsiyasi (tovush almashinuvi) orqali amalga oshiriladi va quyidagi turlarga bo‘linadi:

tovush konvergensiyasi – ikki yaqin tovushning bir tovush bilan almashtirilishi;

tovush divergensiyasi – bitta tovushning ikki tovush orqali ifodalanishi;

oddiy substitutsiya – bitta til tovushining boshqa tildagi yaqin tovush bilan almashtirilishi[6].

Anglo–amerikanizmlarning boshqa tillarga o‘zgartirilishi va assimilatsiya jarayoni fonetik o‘zgarishlar bilan birga amalga oshadi. Tovush konvergensiyasi, tovush divergensiyasi va oddiy substitutsiya kabi jarayonlar o‘zlashgan leksikalarning talaffuzini qabul qiluvchi tilga adaptatsiyasida katta rol o‘ynaydi. Buning natijasida, anglo–amerikanizmlar boshqa tillarga o‘zlashtirilganda ularning talaffuzi va strukturasida o‘zgarishlar yuz beradi. Ushbu jarayon tilning evolutsiyasini va tilshunoslik tadqiqotlari uchun yangi yondashuvlarni ochib beradi.

Ushbu hodisani anglo–amerikanizmlarning o‘zbek tiliga o‘zlashish jarayoni misolida ko‘rib o‘tamiz. Barchaga ma’lumki, ingliz tilida, masalan, “*th*” (*think, this*) tovushi o‘zbek tilida mavjud emas, ushbu holat esa tilning fonetik tizimlari o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. O‘zbek tilining fonetik tizimida bu tovushni ifodalash uchun ba’zan *s* yoki *z* tovushlaridan foydalaniladi. *“Thank you”* iborasi ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar o‘zaro muloqotda eng ko‘p ishlatiladiganlardan biridir. Ingliz tilidagi *“th”* tovushi o‘zbek tilida *“s”* bilan almashtiriladi va natijada o‘zbek tilida qulayroq talaffuzni ta’minlaydi. Bunday moslashish, ayniqsa, yoshlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, tilning soddalashtirilgan shakllarini yaratishga olib keladi.

Yoki, twitter ijtimoiy tarmog‘ida *to* **tweet** so‘zi o‘zbekchaga “*tvit yozmoq*” shaklida o‘zlashgan. Bunda, inglizcha **cho‘ziq [i:]** tovushi o‘zbek tilida **“i”** bilan almashtiriladi. Hamda, inglizcha lab–lab [w] tovushi o‘zbekcha lab–tish [v] tovushiga o‘zgaradi.

Ingliz tilidagi /f/, /v/, /ð/, /θ/, va /z/ tovushlari koreys tilida mavjud emas. Shuning uchun, koreyslar bu tovushlarni almashtirishga moyil. Masalan, ular /θ/ tovushi uchun /s/, /ð/ uchun /d/, /z/ uchun /dʒ/, /f/ uchun /p/, va /v/ uchun /b/ tovushlarini ishlatishadi, ayniqsa so‘zlarning boshida. Ingliz tilidagi /f/ tovushini o‘z ichiga olgan so‘zlar koreys tiliga transliteratsiya qilinganda, ular ㅍ (/p/) yoki ㅎ (/h/) ishlatishadi. Ammo ingliz tiliga qaytarilganda chalkashliklarga olib keladi.

Ko‘plab so‘zlar koreyscha talaffuz qilinayotganda asl talaffuz bilan farqlanadi va bu o‘z navbatida, kommunikatsiya jarayonida noaniqliklar va tushunmovchiliklarga olib keladi. Bunday masalalarni aniqlash va to‘g‘ri o‘rganish, o‘quvchilarning tilni to‘g‘ri va aniq o‘rganishlari uchun zarurdir.

Ingliz tilida talaffuzning ko‘plab usullari mavjud, chunki tovushlarning shakllanishi ko‘pincha tilning holati, lablarning vaziyati va og‘iz bo‘shlig‘ining shakliga bog‘liq. Bu esa ingliz tilidagi artikulatsiyaning dinamik xususiyatlarini ko‘rsatadi. Qabul qiluvchi tilning artikulatsiya tizimini, ya’ni tovushlarni shakllantirishdagi farqlarni ko‘rsatadi.

Ingliz tilidagi tovushlar soni ko‘p bo‘lib, ular fonetik tizimga o‘ziga xos bo‘lib kiradi. Ingliz tilida fonetik xususiyatlar ko‘proq difonologik va artikulatsion o‘zgarishlarga ega bo‘lsa, boshqa qabul qiluvchi tilda, masalan, o‘zbek, koreys yoki rus tillarida artikulatsion xususiyatlar nisbatan kamroq hisoblanadi. Bunday holat esa tillar orasidagi fonetik assimilyatsiya jarayonini o‘rganishda muhim omildir.

Ingliz tilining fonetik tizimining o‘ziga xos xususiyatlari (masalan, diftonglar va maxsus tovushlar) o‘zbek tiliga o‘rgatishda fonologik assimilyatsiyaga ta’sir qiladi. O‘zbek tilining fonetik tizimiga ingliz tilining ba’zi tovushlari kiritilganda, fonetik moslashuv va talqinlar yuzaga keladi.

Anglo–amerikanizmlarning urg‘u tizimidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Ingliz tilining melodikasi va urg‘usi boshqa tillardan sezilarli farq qiladi. O‘zbek tilida so‘z oxiridagi urg‘u barqarorroq bo‘lsa, ingliz tilida u turlicha bo‘lishi mumkin[7]. Masalan, inglizcha *marketing* so‘zida asosiy urg‘u birinchi bo‘g‘inga tushadi. O‘zbek yoki koreys tiliga

adaptatsiya bo‘lgandan keyin esa *marketing* so‘zida urg‘uni oxirgi bo‘g‘inga ko‘chirib aytilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari o‘zbekcha internet diskursida anglo-amerikanizmlarning faol qo‘llanayotganini hamda ularning qabul qiluvchi til tizimiga turli darajada moslashayotganini ko‘rsatdi. Tahlil jarayonida ingliz tilidan o‘zlashgan birliklarning orfografik, fonetik, morfologik va leksik-semantik jihatdan minimal, qisman va to‘liq assimilatsiyalashgan shakllarda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Bu holat o‘zlashmalarni yagona model asosida emas, balki ularning qo‘llanish chastotasi, kommunikativ ahamiyati va diskurs muhiti bilan bog‘liq holda baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, anglo-amerikanizmlar internet muloqotida nafaqat nominativ vazifani, balki baholovchi, ekspressiv va identifikatsion pragmatik funksiyalarni ham bajarib, zamonaviy internet diskursning muhim tarkibiy qismiga aylanayotganini tasdiqlaydi. Natijada inglizcha o‘zlashmalarni assimilatsiya darajasi bo‘yicha tasniflash o‘zbek tilining raqamli muhitdagi rivojlanish jarayonlarini tushunish hamda til aloqalarining zamonaviy tendensiyalarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Akhmedov H. U. Assimilation is the process of changing the adopted word. — Б. м.: Б. и., Б. г. — Б. с.
2. Горбунова И. В. Функционально-стратегический потенциал англицизмов в интернет-дискурсе: дис. … канд. филол. наук / И. В. Горбунова. — 2011. — Б. м.: Б. и. — Б. с.
3. Павленко Е. В. Проблема освоения иноязычных заимствований: языковой и речевой аспекты (на материале англицизмов конца XX века): дис. … канд. филол. наук: 10.02.01 / Е. В. Павленко. — Таганрог, 1999. — 176
4. Дедова О. В. Графическая неоднородность как категория гипертекста / О. В. Дедова // Вестник Московского университета. Сер. 9: Филология. — 2002. — № 6. — С. 91–103.
5. Гринев С. В. Терминологические заимствования (краткий обзор современного состояния вопроса) / С. В. Гринев // Лотте Д. С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминоэлементов. — М.: Наука, 1989. — С. 108–124.
6. Khojikulov Sh., Rakhmatova N. Phonostylistic interference in the sound system of English and Uzbek languages // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics. — 2025. — 25 Feb. — С. 185.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Yo'ldoshxo'jayev Haydarxon Hoshimxonovich
Yangi asr universiteti kafedrasi mudiri,
Dotsent, tarix fanlari nomzodi
haydarxon69@mail.ru
Abdusattorov Abdulquddus Abdumalik o'g'li
Yangi asr universiteti, arab lingvistika 2-kurs magistranti.
aabdusattorov039@gmail.com

ABU NASR FOROBIY QARASHLARIDA ARAB TILSHUNOSLIGI VA MANTIQIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Мақола IX–X асрлар Шарқ уйғонish davrining yirik mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosini arab tilshunosligi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Forobiyning bevosita tilshunoslik asarlari yo'qligiga qaramay, uning mantiqiy-metodologik qarashlari arab ilmiy tilining shakllanishi, terminologik aniqlik, lafz va ma'no munosabati hamda ilmiy nutqda izchillikni ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa "Kitab al-huruf" asarida til birliklari tushuncha tizimi va mantiqiy aniqlikning uyg'unligi ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Forobiyning qarashlari arab tilshunosligi va zamonaviy semantik tadqiqotlar uchun dolzarb metodologik baza ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Abu Nasr Forobiy, arab tilshunosligi, Kitab al-huruf, mantiqiy yondashuv, lafz va ma'no, dalolat, istiloh, ilmiy nutq, terminologik aniqlik.*

Юлдошходжаев Хайдархон Хошимхонович
Заведующий кафедрой Университета Нью Эйдж,
Доцент, кандидат исторических наук
Абдусатторов Абдулкуддус Абдумалик оглы
Университет Нью Эйдж, студентка 2 курса магистратуры по арабскому языкознанию.

АРАБИСТИКА И ЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ВЗГЛЯДАХ АБУ НАСРА ФАРОБИ

Аннотация. *Статья посвящена анализу научного наследия великого мыслителя Восточного возрождения IX–X веков Абу Насра Фароби с точки зрения арабистики. Несмотря на отсутствие у Фароби прямых трудов по арабскому языку, его логико-методологические взгляды оказали значительное влияние на формирование научного арабского языка, терминологическую точность, соотношение слова и смысла, а также на обеспечение последовательности в научной речи. Особое внимание уделено работе «Kitab al-huruf», где раскрыта связь системы понятий с единицами языка и роль логической точности. Результаты исследования показывают, что взгляды Фароби служат актуальной методологической базой для арабистики и современных семантических исследований.*

Ключевые слова: *Абу Наср Фароби, арабистика, Kitab al-huruf, логический подход, слово и смысл, указание, терминология, научная речь, терминологическая точность.*

Yuldoshkhodjayev Haydarkhon Hoshimkhonovich
Head of the Department of the New Age University,
Associate Professor, Candidate of Historical Sciences
Abdusattorov Abdulquddus Abdumalik ogli
New Age University, 2nd year master's student in Arabic linguistics.

ARABIC LINGUISTICS AND LOGICAL APPROACHES IN ABU NASR AL-FARABI'S VIEWS

Abstract. *The article examines the scientific legacy of the great thinker of the Eastern Renaissance of the IX–X centuries, Abu Nasr al-Farabi, from the perspective of Arabic linguistics. Although Farabi did not produce direct works on Arabic language studies, his logical and methodological views significantly influenced the development of scientific Arabic, terminological precision, the relationship between words and meaning, and the coherence of scientific discourse. Special attention is given to his work* Kitab al-

huruf, *which highlights the connection between linguistic units and conceptual systems, as well as the role of logical precision. The study's findings demonstrate that Farabi's ideas serve as a relevant methodological foundation for Arabic linguistics and contemporary semantic research.*

Keywords: *Abu Nasr al-Farabi, Arabic linguistics,* Kitab al-huruf*, logical approach, word and meaning, reference, terminology, scientific discourse, terminological precision.*

Kirish

IX-X asrlar musulmon Sharqida ilm-fan va madaniyatning jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bu davr ko'pincha "Sharq uyg'onish davri" nomi bilan atalib, turli ilmiy an'analarning o'zaro uyg'unlashuvi, ilmiy tafakkurning tizimlashuvi hamda arab tilining yetakchi ilmiy til sifatida shakllanishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa Movarounnahr va unga tutash hududlarda yuzaga kelgan ilmiy muhit arab tilshunosligi, mantiq, falsafa, fiqh va boshqa fanlar rivojida muhim o'rin egallagan. Arab tili mazkur davrda faqat diniy matnlar tili bo'lib qolmay, balki falsafa, mantiq, tibbiyot, matematika va tabiiy fanlar uchun ham asosiy ilmiy ifoda vositasiga aylandi. Bu jarayonda tarjima harakati, nahv maktablarining shakllanishi, shuningdek ilmiy munozaralar muhim rol o'ynadi. Til birliklarining ilmiy mazmunni aniq ifodalash imkoniyatlari, so'z va ma'no o'rtasidagi munosabat, dalolat va istiloh masalalari arab ilmiy an'anasida asosiy muammolardan biriga aylandi. Ana shunday ilmiy-madaniy muhitda faoliyat yuritgan buyuk mutafakkirlardan biri, tarixda "Ikkinchi muallim" deb atalmish Abu Nasr Forobiy hisoblanadi. U ko'proq falsafa va mantiq sohalaridagi ishlari bilan tanilgan bo'lsa-da, uning ilmiy merosi arab tilshunosligi nuqtayi nazaridan ham alohida e'tiborga loyiqdir. Forobiy bevosita nahv yoki sarfga bag'ishlangan maxsus risolalar yozmagan bo'lsa-da, uning mantiqiy-metodologik qarashlari arab ilmiy tilining shakllanishi, terminologik aniqlik va ilmiy nutq madaniyatining rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Adabiyotlar tahlili.

"Abu Nasr Forobiy qarashlarida arab tilshunosligi va mantiqiy yondashuvlar" mavzusi yuzasidan olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mutafakkir merosi nafaqat falsafa va mantiq, balki tilshunoslik nazariyasining shakllanishida ham muhim ilmiy manba sifatida baholanadi. Zamonaviy tadqiqotchilar Forobiyning "Kitob al-huruf", "Ihso al-ulum", "Al-alfaz al-musta'mala fi al-mantiq" kabi asarlarini arab tili strukturasi, tushuncha va ma'no munosabatlari hamda mantiqiy kategoriyalarning tilda ifodalanishi nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilganlar. Ayniqsa, M.Faxriy, D.G'uttas, R.Uolzer, T.Izutsu kabi g'arb sharqshunoslari Forobiy til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni izchil ilmiy tizim sifatida asoslab bergan mutafakkir sifatida baholaydilar.

Sharq mutafakkirlari tadqiqotlarida esa Forobiyning arab grammatikasi (nahv), balog'at va mantiq o'rtasidagi uyg'unlikni yaratishga qaratilgan konsepsiyasi alohida e'tirof etiladi. Jumladan, Ibn Sino, Ibn Rushd, G'azzoliy kabi mutafakkirlar Forobiyning mantiqni universal bilish quroli sifatida til orqali ifodalash g'oyasini davom ettirganlar. O'zbek olimlaridan N.Komilov, M.Xayrullaev, B.Ahmedov, Sh.Shermuxamedov ishlarida ham Forobiy ta'limotidagi lisoniy kategoriyalar, ma'no, lafz, tushuncha munosabati, hamda mantiqiy tafakkurning tilda namoyon bo'lishi ilmiy-falsafiy jihatdan keng yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Forobiy tilni oddiy kommunikatsiya vositasi emas, balki bilish jarayonining faol mexanizmi sifatida talqin qiladi va so'z, ma'no hamda aqliy tushunchalar o'rtasidagi mutanosiblikni ilmiy asosda ochib beradi. Tadqiqotchilarning umumiy xulosasiga ko'ra, Forobiyning arab tilshunosligiga mantiqiy metodni joriy etgani uning ilmiy merosini nafaqat tarixiy, balki zamonaviy lingvofalsafiy tadqiqotlar uchun ham dolzarb qiladi.

Metodologiya. "Abu Nasr Forobiy qarashlarida arab tilshunosligi va mantiqiy yondashuvlar" mavzusini o'rganishda, avvalo, tarixiy-falsafiy tahlil metodidan foydalanildi, bu metod Forobiyning ilmiy merosini uning yashagan davri, madaniy muhiti va islomiy ilmiy an'analar bilan uzviy bog'liq holda yoritish imkonini berdi. Shuningdek, manbashunoslik tahlili metodi qo'llanilib, Forobiyning asl asarlari hamda ularga oid sharh va tarjimalar tanqidiy o'rganildi va ilmiy jihatdan ishonchli xulosalar chiqarildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahlil metodi orqali Forobiyning til haqidagi qarashlari arab klassik tilshunosligi va keyingi mutafakkirlar g'oyalari bilan solishtirildi hamda o'xshash va farqli jihatlar aniqlandi. Bundan tashqari, struktur-tahlil metodi Forobiyning lafz, ma'no, tushuncha va mantiqiy kategoriyalar o'rtasidagi munosabatni tizimli ravishda tahlil qilishga xizmat qildi, konseptual tahlil metodi esa uning asarlaridagi asosiy tushunchalarning mazmuniy doirasini ochib berishga imkon yaratdi. Shu bilan birga, germenevtik yondashuv Forobiyning murakkab falsafiy-mantiqiy matnlarini to'g'ri talqin etishda muhim ahamiyat kasb etdi, diskurs tahlili metodi esa uning til va mantiqqa oid mulohazalarining ichki mantiqiy tizimini ochib berish imkonini ta'minladi. Umuman olganda, mazkur metodlar majmuasi Forobiyning arab tilshunosligi va mantiqiy tafakkurga qo'shgan hissasini ilmiy, xolis va mukammal tarzda yoritishga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar.

Forobiyning til masalasiga yondashuvi ayniqsa "Kitab al-huruf" asarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu asarda til birliklari faqat grammatik vosita sifatida emas, balki tafakkur va tushunchalar tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ilmiy

mexanizm sifatida talqin qilinadi. Lafz va ma’no munosabati, dalolatning mohiyati, istilohning ilmiy nutqdagi o‘rni kabi masalalar mantiqiy tahlil asosida yoritiladi. Bu esa Forobiyning qarashlarini arab tilshunosligi tarixida muhim metodologik bosqich sifatida baholash imkonini beradi.

Shu bois Forobiy merosini faqat falsafiy ta’limot doirasida emas, balki arab tilshunosligi va mantiqiy-lingvistik tafakkur rivoji bilan bog‘liq holda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola aynan shu masalaga bag‘ishlanib, Forobiyning qarashlari arab tilshunosligi uchun qanday nazariy va metodologik asos yaratganini ochib berishni maqsad qiladi.

Zamonaviy arab tilshunosligida til va tafakkur o‘rtasidagi munosabat, ilmiy nutqning aniqligi, terminologik izchillik hamda ma’no va dalolat masalalari muhim nazariy muammolar qatorida turadi. Bugungi lingvistik tadqiqotlarda semantika, pragmatika va ilmiy nutq masalalarining keng muhokama qilinishi ushbu muammolarning tarixiy ildizlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, IX-X asrlarda shakllangan arab ilmiy tafakkurining nazariy asoslarini o‘rganish alohida dolzarb hisoblanadi.

Movarounnahr hududi bu davrda arab ilmiy an’anasining muhim markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda faoliyat yuritgan allomalar til, mantiq va tafakkur masalalarini chuqur tahlil qilganlar. Abu Nasr Forobiy ana shunday mutafakkirlar sirasiga kiradi. Uning ilmiy merosi ko‘pincha falsafiy va mantiqiy yo‘nalishda tadqiq etilgan bo‘lsa-da, Forobiyning arab tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasi ko‘p hollarda ikkilamchi masala sifatida baholanib kelgan. Aslida esa Forobiy qarashlari arab ilmiy tilining shakllanishi va lingvistik tafakkurning metodologik asoslarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa Forobiyning “Kitab al-huruf” asarida til birliklarining tushuncha tizimi bilan bog‘lanishi, lafz va ma’no o‘rtasidagi munosabatning mantiqiy izohi, istilohlarning ilmiy nutqdagi vazifasi kabi masalalar chuqur tahlil qilinadi. Ushbu jihatlar arab tilshunosligi tarixida semantik va terminologik tafakkurning yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Biroq mazkur asar ko‘proq falsafa doirasida talqin qilinib, uning lingvistik ahamiyati yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli Forobiyning mantiqiy qarashlarini arab tilshunosligi nuqtayi nazaridan qayta tahlil qilish, uning til va tafakkurga oid fikrlarini lingvistik metodologiya bilan bog‘lab o‘rganish bugungi kunda ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqot nafaqat Forobiy merosini yangi nuqtayi nazarda baholashga, balki arab tilshunosligining nazariy asoslarini boyitishga ham xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, unda Forobiy qarashlari falsafiy ta’limot sifatida emas, balki arab tilshunosligi rivojiga xizmat qilgan mantiqiy-lingvistik asos sifatida tahlil qilinadi. Bu yondashuv zamonaviy arab tilshunosligida terminologiya, semantika va ilmiy nutq masalalarini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda Movarounnahr allomalari ilmiy merosining tilshunoslikdagi o‘rnini aniqlashga yordam beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosini arab tilshunosligi doirasida tahlil qilish hamda uning mantiqiy qarashlari orqali arab ilmiy tilining shakllanishi, lafz va ma’no munosabati, dalolat va istiloh masalalariga qo‘shgan metodologik hissasini aniqlashdan iborat. Ayniqsa Forobiyning “Kitab al-huruf” asarida til birliklarining tushunchaviy tizim bilan bog‘lanishi va ilmiy nutqni tartibga solishdagi o‘rni lingvistik yondashuv asosida yoritiladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilandi:

IX-X asrlarda arab tilshunosligi va ilmiy tafakkur rivojining umumiy tarixiy-nazariy manzarasini qisqacha yoritish;

1. Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosida til va tafakkur munosabatiga oid qarashlarni aniqlash va tahlil qilish;
2. “Kitab al-huruf” asarida lafz va ma’no, dalolat hamda istiloh masalalarining qanday talqin qilinganini ko‘rsatish;
3. Forobiyning mantiqiy yondashuvining arab ilmiy nutqi va terminologik izchillik shakllanishiga ta’sirini asoslash;
4. Forobiy qarashlarining keyingi arab tilshunosligi an’analariga, xususan semantika va ilmiy diskurs rivojiga ko‘rsatgan metodologik ahamiyatini baholash.

Mazkur vazifalar ketma-ket amalga oshirilishi orqali Forobiyning qarashlari falsafiy ta’limot sifatida emas, balki arab tilshunosligi rivojiga xizmat qilgan mantiqiy-lingvistik asos sifatida yoritiladi.

Mazkur tadqiqot Abu Nasr Forobiyning arab tilshunosligi va mantiqiy-lingvistik qarashlarini yoritishda birlamchi va ikkilamchi manbalar majmuiga tayangan holda amalga oshirishga harakat qilindi.

Birlamchi manbalar sifatida Abu Nasr Forobiyning til va tafakkur masalalariga bevosita daxldor bo‘lgan asarlari asos qilib olindi. Xususan, uning “Kitab al-huruf” asari tadqiqotning markaziy manbasi bo‘lib, unda lafz va ma’no munosabati, dalolat, istiloh va ilmiy nutqning mantiqiy tartibi masalalari chuqur tahlil qilinadi. Ushbu asar Forobiyning falsafiy qarashlari bilan bir qatorda, uning arab ilmiy tilining shakllanishiga qo‘shgan metodologik hissasini aniqlash imkonini beradi.

Ikkilamchi manbalar sifatida forobiyshunoslikka oid mahalliy va xorijiy tadqiqotlar, arab tilshunosligi tarixi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar hamda umumiy ensiklopedik manbalardan foydalanildi. Jumladan, o‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotlar Forobiyning ilmiy portreti va merosini mahalliy ilmiy maktab doirasida tushunishga xizmat qilsa, ingliz va arab tilidagi tadqiqotlar uning qarashlarini xalqaro ilmiy muhitda shakllangan talqinlar bilan qiyoslash imkonini berdi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanildi:

1. Tarixiy-tahliliy uslub - IX-X asrlarda arab tilshunosligi va ilmiy tafakkur rivojini Forobiy faoliyati bilan bog‘liq holda yoritish uchun;

2. Manbashunoslik va ilmiy-kritik yondashuv - biografik ma’lumotlar va rivoyatlarni mutlaq fakt sifatida emas, balki manba ishonchliligi nuqtayi nazaridan baholash uchun;

3. Konseptual-analitik uslub - “lafz”, “ma’no”, “dalolat”, “istiloh” kabi tushunchalarni Forobiy asarlari asosida tahlil qilish uchun;

4. Qiyosiy metod - Forobiy qarashlarini arab tilshunosligi an’analaridagi nahv, balog‘at va usul al-fiqh yo‘nalishlari bilan solishtirish maqsadida.

Mazkur metodologik yondashuv Forobiy merosini sof falsafiy tizim sifatida emas, balki arab tilshunosligi rivojiga xizmat qilgan mantiqiy-lingvistik asos sifatida tahlil qilish imkonini beradi hamda tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi.

Arab tilshunosligi tarixida til faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki **ilmiy bilish va tafakkur jarayonining asosiy quroli** sifatida talqin qilingan. Ilk islom davridayoq til birliklarining ma’no ifodalash imkoniyatlari, so‘z va mazmun o‘rtasidagi bog‘lanish hamda dalolat masalalari nahv, balog‘at va usul al-fiqh doirasida muhokama qilingan bo‘lib, bu hol arab tilining ilmiy til sifatida shakllanishiga muhim zamin yaratgan [1.72-75-b].

Til va tafakkur o‘rtasidagi munosabat masalasi arab ilmiy an’anasida **ikki asosiy yo‘nalishda** rivojlanganini ko‘rish mumkin. Birinchi yo‘nalishda til nutq qoidalari majmui sifatida o‘rganilib, grammatik shakllarning ma’no hosil qilishdagi vazifasi tahlil qilingan. Ikkinchi yo‘nalishda esa tilning **mantiqiy fikrlash jarayonidagi roli**, tushunchalarni ifodalash va ilmiy bahsni tartibga solishdagi ahamiyati muhokama markaziga chiqqan. Aynan shu ikkinchi yo‘nalish arab tilshunosligi rivojida metodologik jihatdan muhim bosqichni boshlab bergan [2.108-110-b].

Arab ilmiy muhitida so‘z (lafz) va ma’no munosabati oddiy “So‘z - narsa” bog‘lanishi sifatida emas, balki **murakkab semantik tizim** sifatida tushunilgan. So‘z tashqi ifoda vositasi bo‘lsa, ma’no inson ongida shakllangan tushunchani ifodalaydi. Shu sababli ilmiy nutqda terminlarning aniq belgilanishi, ko‘p ma’nolilikdan kelib chiqadigan chalkashliklarning oldini olish masalasi muhim ahamiyat kasb etgan. Bu yondashuv keyinchalik dalolat nazariyasining shakllanishiga olib kelgan [3.33-36-b].

Dalolat tushunchasi arab tilshunosligida til birliklarining mazmunni qanday anglatishini izohlash uchun qo‘llanilgan bo‘lib, u faqat lug‘aviy ma’noni emas, balki kontekst, ilmiy muhokama va tushunchalar tizimi bilan bog‘liq semantik qatlamlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan dalolat masalasi oddiy til hodisasi sifatida emas, balki ilmiy bilish jarayonida ma’no aniqligini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida qaralgan. Aynan shu nuqtada mantiqiy yondashuv zarurati yuzaga keladi: mantiq til birliklarining tushunchaviy chegaralarini aniqlash, ma’nolar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda ilmiy bahsda dalillarning izchilligini ta’minlash vazifasini bajaradi. Shu bois ilmiy matnda dalolat aniqligi nafaqat tilshunoslik, balki mantiqiy metodologiyani ham talab etgan. Natijada arab ilmiy an’anasida til masalalari asta-sekin grammatik va balog‘iy talqindan tashqariga chiqib, mantiqiy tartib va nazariy metodologiya bilan uzviy bog‘langan holda talqin qilina boshlagan.

Mazkur jarayonda arab tilshunosligi va mantiq o‘rtasidagi **tutashuv** yuzaga keladi. Til grammatik qoidalar asosida nutqni shakllantirsa, mantiq ilmiy fikrning tuzilishini va dalillash tartibini belgilaydi. Shuning uchun ilmiy bahsda faqat grammatik to‘g‘rilik yetarli bo‘lmay, tushunchaviy aniqlik va mantiqiy izchillik ham zarur bo‘lgan. Bu ehtiyoj arab ilmiy tafakkurida metodologik yangilanishga sabab bo‘lgan. Mazkur nazariy zamin Abu Nasr Forobiy qarashlari shakllanishi uchun muhim intellektual muhitni yuzaga keltirgan bo‘lib, uning mantiqiy-lingvistik konsepsiyasi aynan shu an’anaviy muhokamalar asosida rivojlangan.

Abu Nasr Forobiyning “Kitab al-huruf” asari uning mantiqiy-lingvistik qarashlarini eng yaqqol aks ettiruvchi manbalardan biridir. Asar nomidan ko‘rinib turibdiki, Forobiy tadqiqot markaziga “Harf” tushunchasini qo‘yadi. Biroq bu yerda “Harf” tushunchasi tor grammatik ma’noda emas, balki **til birliklarining ma’no va tushuncha tizimi bilan bog‘lanishini ifodalovchi umumiy kategoriyalar** sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan mazkur asar arab tilshunosligi tarixida til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni mantiqiy asosda izohlashga qaratilgan ilk konseptual ishlardan biri hisoblanadi [4.55-58-b].

Forobiy asarda til birliklarini mustaqil belgilar majmuyi sifatida emas, balki **inson tafakkurida shakllangan tushunchalarning ifodasi** sifatida ko‘radi. Uning fikricha, lafz tashqi nutqiy shakl bo‘lsa, ma’no ongda mavjud bo‘lgan tushunchaga ishora qiladi. Demak, ilmiy bahsning aniqligi lafzlarning to‘g‘ri tanlanishi bilangina emas, balki ularning ortida turgan tushunchalar tizimining izchilligi bilan belgilanadi. Bu yondashuv arab ilmiy tafakkurida semantik tahlilning chuqurlashuviga turtki bo‘lgan [2.148-152-b].

Forobiyning dalolat haqidagi qarashlari ayniqsa e’tiborga loyiqdir. U dalolatni soddalashtirilgan tarzda “So‘z narsani bildiradi” degan tushuncha bilan cheklamaydi. Aksincha, dalolatni **uch bosqichli mantiqiy tizim** sifatida talqin qiladi: birinchidan, so‘z inson ongidagi tushunchaga ishora qiladi; ikkinchidan, tushuncha tashqi reallikdagi narsa yoki

hodisaga bog‘lanadi; uchinchidan, bu bog‘lanish ilmiy muhokama jarayonida mantiqiy tartibga solinadi. Ushbu yondashuv ilmiy nutqda chalkashliklarning oldini olish va tushunchaviy aniqlikni ta’minlashga xizmat qiladi [4.63-66-b].

“Kitab al-huruf”da Forobiy ilmiy terminologiya masalasiga ham alohida e’tibor qaratadi. Uning ta’kidlashicha, ilmiy terminlar tasodifiy tanlangan so‘zlar emas, balki muayyan tushunchani aniq va izchil ifodalashga xizmat qiluvchi birliklardir. Agar bir termin turli ma’nolarda qo‘llansa yoki uning tushunchaviy chegaralari aniq belgilanmasa, ilmiy bahs o‘z mazmunini yo‘qotadi. Shu sababli Forobiy istilohiy izchillikni ilmiy tafakkurning asosiy shartlaridan biri sifatida ko‘radi. Bu qarash arab ilmiy tilining shakllanishida muhim metodologik ahamiyat kasb etgan [2.112-115-b].

Forobiy ko‘p ma’nolilik (mushtaraklik) muammosini ham mantiqiy mezon asosida hal qilishga intiladi. Arab tilining boyligi ko‘p ma’nolilikda namoyon bo‘lsa-da, ilmiy matnda bu holat tushunchaviy chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Forobiyning fikricha, bunday vaziyatda ma’nolarni ajratish, aniq ta’rif berish va kontekstni qat’iy belgilash zarur. Bu yondashuv keyinchalik arab tilshunosligida balog‘at ilmi va usul al-fiqhda lafz dalolatlariga oid nazariyalar shakllanishiga bilvosita ta’sir ko‘rsatgan [1.76-78-b].

Shu tariqa, “Kitab al-huruf” asari Forobiy qarashlarida til va mantiq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyon etadi. Til bu yerda nafaqat ifoda vositasi, balki ilmiy tafakkurni tartibga soluvchi konseptual mexanizm sifatida talqin qilinadi. Bu esa Forobiy merosining arab tilshunosligi rivojidagi metodologik ahamiyatini yanada yaqqol ko‘rsatadi.

Abu Nasr Forobiy qarashlarida mantiq mustaqil fan sifatida emas, balki ilmiy tafakkurni tartibga soluvchi metodologik vosita sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, arab tilining ilmiy til sifatida shakllanish jarayonida mantiqiy yondashuv muhim rol o‘ynaganini Forobiy asarlarida yaqqol ko‘rish mumkin. U ilmiy bahsning muvaffaqiyati faqat grammatik to‘g‘rilik bilan belgilanmasligini, balki tushunchaviy aniqlik va dalillash tartibiga ham bog‘liqligini ta’kidlaydi [2.110-113-b].

Forobiyning fikricha, til nutqni shakllantiruvchi tashqi qoidalar majmuyi bo‘lsa, mantiq fikrning ichki tuzilishini tartibga soladi. Shu sababli ilmiy nutqda til va mantiq bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Agar nutq grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-yu, tushunchalar noaniq yoki chalkash bo‘lsa, bunday nutq ilmiy bahs uchun yetarli bo‘la olmaydi. Bu yondashuv arab ilmiy muhitida metodologik ongning shakllanishiga xizmat qilgan [5.156-159-b]. Forobiy ilmiy nutqda **ta’rif berish** va **tavsiflash** masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Uning qarashlarida har bir ilmiy tushuncha aniq ta’rifga ega bo‘lishi, bu ta’rif esa boshqa tushunchalar bilan mantiqiy bog‘lanishi lozim. Ta’rif berilmagan yoki noaniq tushunchalar ilmiy bahsda soxta qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Shu jihatdan Forobiy ilmiy nutq madaniyatining shakllanishida mantiqiy aniqlikni asosiy mezon sifatida ko‘rsatadi [4.70-73-b].

Arab ilmiy an’anasida nahv va mantiq o‘rtasidagi munosabat masalasi ko‘p bor munozara markazida bo‘lgan. Ba’zi nahv ulamolari grammatik qoidalarni fikrni tartibga solishda yetarli deb hisoblagan bo‘lsalar, Forobiy bu qarashni to‘liq qo‘llab-quvvatlamaydi. Uning fikricha, grammatika nutq shaklini to‘g‘rilaydi, ammo fikrning o‘zini mantiqiy jihatdan tartibga sololmaydi. Shu bois ilmiy bahsda mantiqiy metoddan foydalanish zarur hisoblanadi [1.79-82-b]. Forobiyning mantiqiy yondashuvi arab ilmiy nutqida terminologik izchillikni mustahkamlashga xizmat qilgan. U bir tushuncha uchun bir termin tamoyiliga yaqinlashib, terminlarning kontekstdan kontekstga o‘zgarmasligini talab qiladi. Bu hol arab ilmiy tilining aniqligi va barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lgan. Keyinchalik bu yondashuv usul al-fiqh, kalom va balog‘at ilmlarida ham metodologik asos sifatida qabul qilinganini ko‘rish mumkin[6.44-46-b].

Shunday qilib, Forobiy mantiqni arab tilshunosligi uchun tashqi unsurlardan biri sifatida emas, balki ilmiy nutqni tartibga soluvchi ichki metod sifatida talqin qiladi. Uning qarashlari arab ilmiy tafakkurida til va mantiqning uyg‘unlashuviga zamin yaratib, ilmiy bahs madaniyatining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Bu jihatdan Forobiy merosi arab tilshunosligi rivoji uchun muhim metodologik manba hisoblanadi.

Xulosa

Mazkur maqolada Abu Nasr Forobiy merosi arab tilshunosligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, uning mantiqiy-metodologik qarashlari arab ilmiy tilining shakllanishi va rivojiga ko‘rsatgan ta’siri yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Forobiy arab tilshunosligiga bevosita nahviy yoki grammatik risolalar orqali emas, balki ilmiy nutqni tartibga soluvchi konseptual va metodologik yondashuv orqali muhim hissa qo‘shgan.

Forobiyning qarashlarida til faqat aloqa vositasi emas, balki ilmiy bilish jarayonining markaziy unsuri sifatida talqin qilinadi. U lafz va ma’no o‘rtasidagi munosabatni mantiqiy asosda tahlil qilib, ilmiy bahsda tushunchaviy aniqlikni ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv arab tilshunosligida semantik tahlilning chuqurlashuviga va dalolat nazariyasining tizimli shakllanishiga zamin yaratgan. Ayniqsa, “Kitab al-huruf” asari Forobiyning til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatga doir qarashlarini ochib beruvchi muhim manba sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu asarda til birliklari grammatik hodisa sifatida emas, balki tushuncha tizimi va ilmiy dalillash bilan uzviy bog‘liq konseptual vosita sifatida talqin qilinadi. Natijada arab ilmiy nutqida terminologik izchillik, ta’rif berish madaniyati va mantiqiy tartib masalalari muhim metodologik mezonlarga aylangan.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, Forobiy mantiqni arab tilshunosligiga qarama-qarshi fan sifatida emas, balki uni to‘ldiruvchi va tartibga soluvchi metod sifatida ko‘radi. Grammatika nutq shaklini to‘g‘rilasa, mantiq fikr tuzilishini

tartibga soladi. Bu integratsion yondashuv arab ilmiy tafakkurida nahv, balog‘at va usul al-fiqh kabi fanlarning rivojiga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatgan.

Umuman olganda, Forobiy merosi arab tilshunosligi tarixida muhim metodologik burilish sifatida baholanishi mumkin. Uning mantiqiy-lingvistik qarashlari arab tilining ilmiy imkoniyatlarini kengaytirib, terminologiya, semantika va dalolat masalalarini tizimli ravishda tahlil qilishga yo‘l ochgan. Shu jihatdan Forobiy qarashlari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy arab tilshunosligi tadqiqotlari uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyouz U. Arab tilshunosligi tarixi. - Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 2008. - B. 72-75.
2. Fakhry, M. A History of Islamic Philosophy. - New York: Columbia University Press, 2004. - P. 108-110.
3. Ibn Jinni. Al-Khasaʾis. - Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1999. - J. 1. - B. 33-36.
4. Al-Farabi. Kitab al-huruf. Ed. M. Mahdi. - Beirut: Dar al-Mashriq, 1969. - P. 55-58.
5. Xayrullayev M. Abu Nasr Forobiy va uning falsafiy merosi. - Toshkent: Fan, 1971. -B. 148-152.
6. Black, D. Logic and Aristotle’s Rhetoric in Medieval Arabic Philosophy. - Leiden: Brill, 1990. - P. 44-46.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Zulaypoyeva Gulmira Ubaydulloyevna
NamDU tayanch doktoranti, FDTU o'qituvchisi
gulmiraxon2019@gmail.com

IDIOSTILNING PAYDO BO'LISHI VA ILMIY TADQIQ ETILISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nutq muallifining individual o'ziga xosligini ko'rsatuvchi idiostil tushunchasi izohlanadi. Bunda idiostilning tilshunoslikda paydo bo'lish bosqichlari, uning nazariy ildizlari tahlil qilingan, ularni olimlar fikrlari orqali yoritish maqsad qilib olingan. Shuningdek, individuallikni o'rganish orqali tilda yangi leksik, sintaktik birliklar va ifoda vositalari bilan boyish jarayonlari xususida fikrlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *idiostil, stilistika, ritorik an'ana, til birliklari, idiolekt, lingvopoetika.*

Зулайпоева Гулмира Убайдуллоевна
НамДУ таянч докторанти, ФДТУ ўқитувчиси

ВИНИКНЕННЯ ІДІОСТИЛЮ ТА ЕТАПИ НАУКОВИХ ДОСЛІДЖЕНЬ

Аннотация*. В данной статье раскрывается понятие идиостиля, который указывает на индивидуальность автора речи. В работе анализируются этапы становления идиостиля в языкознании, его теоретические корни и ставится цель осветить их через мнения ученых. Также посредством изучения индивидуальности даются мысли о процессах обогащения языка новыми лексическими, синтаксическими единицами и средствами выражения.*

Ключевые слова: *идиостиль, стилистика, риторическая традиция, языковые единицы, идиолект, лингвопоэтика.*

Zulaypoyeva Gulmira Ubaidulloevna
Doctoral student of NamSU, teacher of FDTU

THE EMERGENCE OF IDIOSTYLE AND STAGES OF SCIENTIFIC RESEARCH

Annotation. *This article explains the concept of idiostyle, which indicates the individuality of the author of the speech. In this, the stages of emergence of idiostyle in linguistics, its theoretical roots are analyzed, and the aim is to illuminate them through the opinions of scientists. Also, through the study of individuality, thoughts are given about the processes of enriching the language with new lexical, syntactic units and means of expression.*

Key words: *idiostyle, stylistics, rhetorical tradition, language units, idiolect, linguopoetics.*

Kirish

Stilistikada individual uslub muammolari doimo markaziy masalalardan biri bo'lib kelgan. Har bir ijodkorning o'ziga xos til boyligi, obraz yaratish vositalari, kompozitsion uslubi va estetik qarashlari mavjud bo'lib, bu xususiyatlarning yig'indisi idiostil deb ataladi. Mazkur tushuncha bugungi kunda filologiya fanida keng qo'llanilmoqda, ammo uning paydo bo'lish tarixi va shakllanish bosqichlari turli ilmiy maktablar ta'siri ostida rivojlangan. Kategoriya sifatida idiostil XX asrda V.Vinogradov asarlarida qo'llanila boshlandi.

Adabiyotlar tahlili

Idiostil termin sifatida rus tilshunosligida XX asrning 50-60 yillaridan o'rganila boshlangan, bu Y.Tinyanov, Y.N.Karaulov va V.V.Vinogradovlarning nomlari bilan bog'liq. V.P. Grigorev o'zining "Грамматика идиостиля" [5] nomli monografiyasida idiostil tushunchasining mohiyatini ilk bor izohladi. Shuningdek, T.A.Chernisheva, Y.G.Malisheva, V.V.Ledenovalar tomonidan ham tadqiq etildi.

O'zbek tilshunosligida muallif idiostilini o'rganishga qaratilgan ilk tadqiqot ishi sifatida S.Umirovaning dissertasiyasi [6]ni ko'rsatish mumkin. M.Abdupattoyev o'zining doktorlik dissertatsiyasida "Mazkur atama badiiy asar tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlarda qo'llanib, nutq muallifining betakror va noyob uslubi ma'nosida ishlatilib, boshqa mualliflar uslubidan keskin farq qiluvchi so'z tanlash mahorati, muallif nutqining sintaktik o'ziga xosligi va fikrni yetkazish uslubi ma'nosini o'z ichiga oladi" [7], degan xulosaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada idiostil termining tarixiy ildizlari tavsiflanadi, qadimda ham idiostil terminiga mos keluvchi yoki o‘xshash termin mavjudligi haqida izlanish olib boriladi. Bunda analiz, tarixiylik, tavsiflash kabi metodlardan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Idiostilning paydo bo‘lishini qadimgi ritorika an’analari bilan bog‘lash mumkin. Qadimgi yunon va rim olimlari: Aristotel, Sitseron, Kvintilian — nutqiy mahoratning individual xususiyatlari haqida fikr bildirganlar. Garchi ular “idiostil” terminini ishlatmagan bo‘lsalar-da, “stilus” (yozuv quroli) atamasidan kelib chiqqan “stilus” tushunchasi individual uslubni ifodalash uchun ishlatilgan deb ayta olamiz.

O‘rta asr (Renessans davri)da ham yozuvchilarning o‘ziga xos uslubini ta’riflashga harakatlar bo‘lgan. Masalan, M.Monten yoki U.Shekspirning uslubi o‘z davridayoq boshqalaridan farqli, “muallif ovozi” sifatida qabul qilingan. Bu yondashuv keyinchalik stilistikaning ilmiy shakllanishiga zamin yaratdi.

XIX asrda filologiyada muallif tilining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish kuchaydi. Rus tilshunosligida A.A.Potebnya, A.N.Veselovskiy kabi olimlar badiiy matnning til vositalarini tahlil qilish orqali yozuvchi uslubini o‘rganishga harakat qildilar. Ularning qarashlarida muallifning individual uslubi matnni boshqa yozuvchilardan farqlashning asosiy mezoni sifatida qaraldi. Aynan shu davrda “muallif stili” tushunchasi lingvistik tadqiqotlarda mustaqil ilmiy obyekt sifatida shakllanib, keyinchalik “idiostil” terminiga olib keldi.

XX asrda V.V.Vinogradov individual uslub masalasini sistematik tarzda ishlab chiqqan olimlardan biridir. U o‘z asarida shunday deydi: “Yozuvchi idiostili - bu muallif ijodkorligi va yaxlitligiga xos bo‘lgan barqaror leksik-grammatik va kompozitsion vositalar to‘plami”[1].

Vinogradov maktabi doirasida idiostil muallifning poetik tizimi sifatida qaralib, uning til materialida muntazam takrorlanadigan birliklar tahlil qilindi. Bu yondashuv stilistikani yangi bosqichga olib chiqdi.

Tilshunoslikda idiostil quyidagi sabablar bilan muhim ahamiyatga ega:

1. Muallif ijodining evolyutsiyasini o‘rganish imkonini beradi.
2. Adabiy matnlarning o‘zaro farqlarini aniqlashda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.
3. Stilistik invariant va variantlarni ajratishga yordam beradi.

N.E.Petrova bu borada shunday yozadi: “ Idiostil - bu ijodkorlik jarayonida shakllanadigan va nisbiy barqarorlik bilan ajralib turadigan individual xususiyatlar tizimi.”[2]. Demak, idiostil muallifning ijodiy jarayoni davomida barqaror shakllanadigan estetik tizimdir.

Idiostilning paydo bo‘lishi shaxsning ijodiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u umumiy til resurslaridan individual tanlov asosida shakllanadi.

Idiostilning asosiy darajalari: leksik daraja — muallifning sevimli so‘zlari, neologizmlari; Sintaktik daraja — gap qurilishi, takroriy sintaktik modellarning qo‘llanilishi; Kompozitsion daraja — syujet, motiv va obrazlar tizimining barqarorligi; Stilistik vositalar — metafora, metonimiya, ironiyadan foydalani

Idiostilni o‘rganish bir qator sohalarda muhim ahamiyatga ega. Masalan, adabiyotshunoslikda muallifning ijodiy evolyutsiyasini o‘rganish uchun muhim. Tilshunoslikda esa shaxsiy uslubiy belgilarni aniqlaydi. Bundan tashqari, tarjimashunoslikda muallif uslubini uzatish uchun kerak bo‘ladi.

Xulosa

Idiostilning paydo bo‘lishi uzoq tarixiy jarayon natijasida amalga oshgan. Qadimgi ritorikadan boshlab XIX asr filologiyasi va XX asr stilistikasigacha individual uslub muammosi ilmiy tadqiqotlarning markazida bo‘ldi. V.V.Vinogradov bu tushunchani sistematik shakllantirdi va stilistikaning markaziy kategoriyasiga aylantirdi. Bugungi kunda idiostilni lingvopoetik, kognitiv va kompyuter usullar yordamida tadqiq etish kengaymoqda.

Idiostil idiolektdan farqli ravishda, muallifning badiiy ijodidagi uslubiy tizimni belgilaydi. U muallifning ijodiy individualligini ochib beradi, tarjimada muhim ahamiyatga ega va lingvistik ekspertiza uchun zarur vosita hisoblanadi. Shunday qilib, idiostilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tilshunoslik hamda adabiyotshunoslikning kesishgan nuqtasida joylashgan muhim nazariy masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Виноградов, В. В. О языке художественной прозы. -М.: Наука, 1980. — С 58.

2.Петрова, Н. Е. К уточнению понятий «идиолект» и «идиостиль» // Филологические науки. —2022. — С. 101–102.

3.Бахтин, М. М. Эстетика словесного творчества. — М.: Искусство, 1986. — 445 с.

4.Большая российская энциклопедия. Ст. «Идиостиль». https://bigenc.ru.

5.Григорьев В.В. Грамматика идиостиля: В.Хлебников. М., 1983

6.Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидиуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида): Фил. фанл. б.фал.док. ((PhD) дисс. автореф. –Самарқанд, 2019.

7.Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Фил. фан. доктори дисс... автореф... Фарғона 2021.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Магдиева Саадат Сагдиевна
Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами,
доцент кафедры русского языка и литературы.
e-mail: magdievasaadat7@gmail.com

ГЕЙМИФИКАЦИЯ КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ МЕТОД ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ-ФИЛОЛОГА

Аннотация. *Геймификация как эффективный метод цифровых технологий способствует решению проблем мотивации, вовлечённости и адаптации содержания лингвистических курсов к интересам студентов высших педагогических образовательных учреждений. В статье рассматриваются теоретические основы геймификации, её функции в обучении русскому языку, а также представлены практические варианты использования игровых элементов в подготовке будущих учителей-филологов.*

Ключевые слова: *геймификация, цифровые технологии, мотивация, игровые элементы, профессиональная подготовка, русский язык.*

Magdiyeva Saadat Sagdiyevna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti,
Rus tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti.

GEYMIFIKATSIYA BO‘LAJAK O‘QITUVCHI-FILOLOGNING KASBIY FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING SAMARALI METODI SIFATIDA

Annotatsiya*. Geymifikatsiya raqamli texnologiyalarning samarali metodi sifatida oliy pedagogik ta’lim muassasalari talabalarida motivatsiya, o‘quv jarayoniga jalb etilish va lingvistik kurslar mazmunini ularning qiziqishlariga moslashtirish bilan bog‘liq muammolarni hal etishga xizmat qiladi. Maqolada geymifikatsiyaning nazariy asoslari, uning rus tilini o‘qitishdagi funksiyalari ko‘rib chiqiladi hamda bo‘lajak o‘qituvchi-filologlarni tayyorlash jarayonida o‘yin elementlaridan foydalanishning amaliy variantlari taqdim etiladi.*

Kalit so‘zlar: *geymifikatsiya, raqamli texnologiyalar, motivatsiya, o‘yin elementlari, kasbiy tayyorgarlik, rus tili.*

Magdieva Saadat Sagdievna
National Pedagogical University of Uzbekistan Named after Nizami,
Associate professor of the department of Russian language and literature.

GAMIFICATION AS AN EFFECTIVE METHOD OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF THE FUTURE TEACHER-PHILOLOGIST

Abstract. *Gamification, as an effective method of digital technologies, contributes to solving the problems of motivation, engagement, and adapting the content of linguistic courses to the interests of students of higher pedagogical educational institutions. The article examines the theoretical foundations of gamification, its functions in teaching the Russian language, and also presents practical options for using game elements in the training of future teachers-philologists.*

Keywords: *gamification, digital technologies, motivation, game elements, professional training, Russian language.*

ВВЕДЕНИЕ

Современные педагогические технологии ориентированы не только на передачу знаний, но и на развитие у будущих учителей-филологов навыков самостоятельной работы, креативности и критического мышления. В этом контексте особое значение приобретает внедрение цифровых технологий в образовательный процесс, среди которых особое место занимает геймификация.

Геймификация представляет собой внедрение игровых элементов в образовательный процесс с целью повышения мотивации обучающихся и улучшения результатов обучения. Данный педагогический метод

способствует активизации познавательной деятельности студентов, формированию устойчивого интереса к учебному материалу и адаптации содержания дисциплин к индивидуальным образовательным потребностям.

Как педагогический метод, геймификация направлена на повышение мотивации студентов и более эффективное усвоение учебного материала. В её основе лежат принципы психологии и когнитивистики, реализуемые через систему поощрений, уровней и достижений, что позволяет решать проблемы вовлечённости и адаптации лингвистических курсов к интересам обучающихся.

В условиях цифровизации образования будущий учитель-филолог должен осваивать современные инструменты преподавания русского языка, включая использование искусственного интеллекта, создание цифрового контента и работу с электронными образовательными платформами. Это требует развития критического мышления, гибкости в выборе педагогических стратегий и умения эффективно взаимодействовать с обучающимися в цифровом образовательном пространстве.

Обзор литературы

В последние годы проблема внедрения геймификации в образовательный процесс становится предметом активного научного обсуждения. Исследователи рассматривают геймификацию как инновационный педагогический метод, направленный на повышение мотивации обучающихся, их вовлечённости в учебную деятельность и улучшение образовательных результатов.

По мнению С. Х. Биджиевой и Ф. А.-А. Урусовой, геймификация образования способствует формированию устойчивого познавательного интереса у обучающихся и рассматривается как перспективное направление развития цифровой педагогики. Авторы подчёркивают, что игровые механики позволяют адаптировать учебный материал к индивидуальным особенностям студентов и создают условия для активного включения в образовательный процесс [1].

В трудах И. В. Перовой геймификация анализируется с точки зрения теории и практики современного обучения. Исследователь отмечает, что использование игровых элементов, таких как балльная система, уровни и достижения, опирается на психологические и когнитивные механизмы обучения, способствующие более прочному усвоению знаний и развитию учебной мотивации [3].


В работах С. С. Магдиевой особое внимание уделяется методике преподавания русской литературы и языковой подготовки будущих учителей-филологов. Автор подчёркивает необходимость внедрения инновационных и цифровых технологий в процесс профессиональной подготовки, что позволяет формировать у студентов креативное мышление, коммуникативные навыки и способность адаптироваться к современным образовательным условиям [2].

Анализ научных источников показывает, что геймификация рассматривается как эффективный инструмент цифрового обучения, обладающий значительным педагогическим потенциалом. Вместе с тем, проблема её целенаправленного применения в профессиональной подготовке будущих учителей-филологов требует дальнейшего теоретического осмысления и практического изучения, что и определяет актуальность настоящего исследования.

Методология исследования

Геймификация в обучении русскому языку открывает широкие возможности для повышения качества образования, поскольку способствует развитию речевых навыков и повышает мотивацию обучающихся. В образовательной практике используются языковые игры (кроссворды, ребусы, викторины, интерактивные задания), активизирующие познавательную деятельность и позволяющие применять знания на практике. Подобные методы реализуются на цифровых платформах, в частности на платформе Duolingo, где учитываются уровень подготовки и индивидуальные потребности студентов. Система баллов и уровней способствует усилению учебной мотивации .

В рамках исследования были проанализированы основные функции геймификации в обучении русскому языку (модель 1).



Модель 1. Основные функции геймификации при изучении русского языка

Мотивационная функция направлена на повышение интереса к изучению сложных орфографических и пунктуационных правил за счёт использования наград, уровней и достижений. Обучающая (когнитивная) функция способствует более прочному усвоению лексического и грамматического материала посредством повторения в игровой форме. Диагностическая функция обеспечивает контроль уровня усвоения знаний с помощью интерактивных заданий и цифровых платформ, адаптирующих сложность контента под уровень обучающихся. Коммуникативная функция стимулирует речевую активность в процессе групповой работы и ролевых игр, а психологическая снижает страх перед ошибкой и повышает уверенность при использовании языка.

Практическая реализация геймификации осуществлялась в нескольких вариантах. Первый вариант предполагал работу с таблицей, направленной на формирование рефлексивного отношения обучающихся к системе поощрения учебной деятельности (см. таблицу 1).

Таблица 1.

Формирование рефлексивного отношения обучающихся к системе поощрения своей учебной деятельности.

№	Эффективное поощрение	Неэффективное поощрение	Субъективный подход обучаемого к оценке
1	Осуществляется постоянно	Осуществляется от учебной ситуации к ситуации.	
2	При этом разъясняется, какие именно действия признаны достойными награды	• Обозначить в общих чертах.	
3	Учитель адаптирует задания под индивидуальный уровень и интересы каждого обучаемого	Учитель проявляет минимальное формальное внимание к успехам обучаемого	
4	Эффективное поощрение должно быть **своевременным, искренним и заслуженным**, чтобы поддерживать интерес к учебе, а не просто желание получить награду.	Учитель отмечает участие обучаемого в работе вообще	
5	Сообщает учащемуся о значимости достигнутых результатов	Дает обучаемому сведения о его достижениях, не подчеркивая их значимость.	
6	Ориентирует учащегося на умение организовать работу с целью достижения хороших результатов	Ориентирует обучаемого на сравнение своих результатов с результатами других, на соревнование	
7	• Учитель сравнивает, чего обучаемый добился сейчас и что умел раньше.	Достижения учащегося оцениваются в сравнении с успехами других	
8	Поощрение для данного учащегося соразмерно затраченным этим учащимся усилиям.	Поощрение независимо от усилий, затраченных обучаемыми	
9	Связывает достигнутое с затраченными усилиями, полагая, что такой успех может быть достигнут и впредь	Связывает достигнутый результат только с наличием способностей или благоприятных обстоятельств	
10	Учитель мотивирует ученика, опираясь на его внутреннее желание учиться. Учащийся с удовольствием делает	Учитель опирается на внешние стимулы: обучаемый старается лучше выполнить задание, чтобы заслужить похвалу	

	задания, потому что ему интересно или он хочет развить конкретный навык, получая радость от процесса.	учителя или победить в соревновании, получить награду и т.д.	
11	Напоминает учащемуся: чтобы учиться лучше, нужно раскрыть свой внутренний потенциал».	Обращает внимание обучаемого на то, что его прогресс в учебе зависит от усилий учителя.	
12	Способствует проявлению заинтересованности в новой работе, когда прежнее задание выполнено.	Вторгается в процесс работы, отвлекает от необходимости постоянной работы.	

Выполнение таблицы сопровождается системой заданий, направленных на развитие лингвистических умений обучающихся.

Задания к таблице 1:

Задание 1. Чем являются слова «эффективное» и «неэффективное» в русском языке.

Задание 2. Определите значение слова «результат» и составьте с ним кластер.

Задание 3. Выпишите из первой колонки имена существительные мужского рода.

Задание 4. С данными словами составьте словосочетания по схеме «определение + существительное»: учитель, ученик, учеба, усилия, успех, поощрение, результат, успеваемость.

Задание 5. Объясните выражение «Поощрение для данного учащегося соразмерно затраченным этим учащимся усилиям» (колонка 8).

Задание 6. Как вы думаете, можно ли соревноваться обучаемым в учебе?

Такой формат работы позволяет обучаемым субъективно подойти к поощрению своей деятельности в рамках геймификации, а выполнение представленных заданий нацеливает на развитие лингвистических умений.

Второй вариант был основан на ролевых играх и моделировании коммуникативных ситуаций, предполагающих создание монологических и диалогических высказываний от имени литературных персонажей. Такие задания способствовали развитию коммуникативных навыков и практическому применению грамматических знаний. Работа в малых группах и интерактивном формате формировала командное взаимодействие и снижала психологический барьер при изучении сложных языковых тем [3].

Третий вариант включал создание индивидуальных цифровых профилей обучающихся и инфографики, отражающей их достижения, что формировало атмосферу здорового соревнования и повышало активность студентов в учебном процессе.

Анализ и результаты

Геймификация в обучении русскому языку предоставляет широкие возможности для повышения качества образования, поскольку она позволяет развивать навыки речевой деятельности и делает процесс изучения языка более увлекательным и мотивированным. Использование игровых элементов способствует активизации познавательной деятельности обучающихся и формированию устойчивого интереса к изучаемому материалу.

В качестве примера можно рассмотреть применение языковых игр, таких как кроссворды, ребусы, викторины и интерактивные задания, которые позволяют обучающимся применять полученные знания на практике. Подобные методы широко используются на цифровых образовательных платформах, в частности на платформе Duolingo, где учитывается уровень подготовки и индивидуальные потребности студентов. Выполнение заданий сопровождается начислением баллов и продвижением по уровням, что положительно влияет на учебную мотивацию.

Анализ функций геймификации показывает, что мотивационная функция направлена на повышение интереса обучающихся к изучению сложных орфографических и пунктуационных правил посредством системы наград, уровней и достижений. Обучающая (когнитивная) функция способствует более прочному запоминанию языкового материала за счёт его многократного повторения в игровой форме. Диагностическая функция позволяет преподавателю отслеживать уровень усвоения учебного материала с помощью интерактивных заданий и цифровых платформ, адаптирующих сложность упражнений под уровень знаний обучающихся.

Коммуникативная функция геймификации проявляется в стимулировании речевой активности студентов при работе в командах и в рамках ролевых игр. Совместная деятельность и моделирование коммуникативных

ситуаций способствуют развитию навыков живого общения и снижению психологического барьера при использовании языка.

Практический анализ применения геймификации в педагогической деятельности показал, что использование таблиц поощрения, ролевых игр, лингвистических мини-турниров и индивидуальных цифровых профилей обучающихся способствует формированию положительной учебной мотивации, развитию командного взаимодействия и повышению ответственности студентов за результаты своей учебной деятельности.

Заключение

Таким образом, использование метода геймификации предоставляет широкие возможности для реализации творческих и разнообразных форм обучения русскому языку, способствуя более эффективному формированию языковых и профессиональных компетенций будущих учителей-филологов. Геймификация делает образовательный процесс менее напряжённым, снижает уровень стресса и повышает удовлетворённость студентов обучением.

Применение игровых элементов и цифровых технологий в процессе профессиональной подготовки будущих учителей-филологов способствует повышению мотивации, вовлечённости обучающихся и развитию их метакогнитивных навыков, необходимых для успешного овладения языком и дальнейшей педагогической деятельности.

Литературы:

1. Биджиева С.Х., Урусова Ф.А.-А. Геймификация образования: проблемы использования и перспективы развития // Мир науки. Педагогика и психология, 2020 №4, https://mir-nauki.com/PDF/34PDMN420.pdf

2. Магдиева С.С. Методика преподавания русской литературы. Учебное пособие для студентов педвузов Узбекистана в 2-х частях. Часть 2. –Инновацион Зиё. -Т.; 2024. – 170с.

3. Перова И. В. Геймификация в современном обучении: теория и практика. - М.: Просвещение, 2020.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

A'zamjon Oltmishevich Dadaxonov
katta o'qituvchi,Ijtimoiy fanlar va jurnalistika kafedrasi, Xalqaro Nordik universiteti, Toshkent, O'zbekistonmr.dadakhonov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-9681-2024

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODIDA XALQARO MAVZU

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida xalqaro mavzuning tutgan o'rni ilmiy-nazariy va tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Behbudiy faoliyati faqat milliy ma'rifat va islohotlar bilan cheklanmay, balki Sharq va G'arb sivilizatsiyalari, jahon ilm-fani, ta'lim tizimi, siyosiy va madaniy jarayonlarga oid keng qamrovli qarashlari bilan ajralib turadi. Maqolada adibning xorijiy matbuot bilan tanishligi, sayohatlari va xalqaro tajribani o'z ijodiga singdirish jarayoni yoritiladi. Bir qator jadid gazetalari va "Oyina" jurnalida e'lon qilingan maqolalari misolida Behbudiyning G'arb taraqqiyoti, ta'lim va ilm-fan masalalariga tanqidiy va tahliliy munosabati ochib beriladi. Shuningdek, uning turkiy xalqlar birligi, milliy va xalqaro taraqqiyot uyg'unligi, ko'r-ko'rona taqlidga qarshi qarashlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Behbudiy merosining nafaqat tarixiy, balki bugungi globallashuv sharoitida jurnalistika, ta'lim va madaniy muloqot uchun ham dolzarbligini ko'rsatadi. Maqola Behbudiy ijodini xalqaro kontekstda baholashga xizmat qiladi.*

Tayanch tushunchalar: *Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidchilik, xalqaro mavzu, Sharq va G'arb, ta'lim islohoti, turkiy birlik, publitsistika*

Азамжон Олтмишевич ДАДАХОНОВ
старший преподаватель,кафедра социальных наук и журналистики, Международный Нордический университет, Ташкент, Узбекистан

МЕЖДУНАРОДНАЯ ТЕМАТИКА В ТВОРЧЕСТВЕ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ

Аннотация. *В данной статье на основе научно-теоретических и исторических источников анализируется место международной тематики в творчестве одного из ведущих представителей туркестанского джадидского движения — Махмудходжи Бехбуди. Деятельность Бехбуди не ограничивалась исключительно национальным просвещением и реформаторскими идеями, а отличалась широким кругозором, охватывающим взаимодействие цивилизаций Востока и Запада, мировую науку, систему образования, а также политические и культурные процессы. В статье освещаются его знакомство с зарубежной прессой, путешествия и процесс освоения международного опыта в творческой практике. На примере публикаций в ряде джадидских газет и журнале «Ойна» раскрывается критическое и аналитическое отношение Бехбуди к вопросам западного прогресса, образования и науки. Кроме того, анализируются его взгляды на единство тюркских народов, гармонию национального и международного развития, а также критика слепого подражания. Результаты исследования показывают актуальность наследия Бехбуди не только в историческом плане, но и в условиях современной глобализации для журналистики, образования и межкультурного диалога. Статья направлена на осмысление творчества Бехбуди в международном контексте.*

Ключевые слова: *Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, международная тематика, Восток и Запад, реформа образования, тюркское единство, публицистика*

Azamjon Oltmishevich DADAKHONOV
Senior teacher,Department of Social Sciences and Journalism,International Nordic University, Tashkent, Uzbekistan

THE INTERNATIONAL THEME IN THE WORKS OF MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

Abstract. *This article analyzes the role of international themes in the works of Mahmudkhoja Behbudi, one of the leading figures of the Turkestan Jadid movement, based on scientific-theoretical and historical sources. Behbudi's activities were not limited to national enlightenment and reform ideas; rather, they were distinguished by a broad intellectual outlook encompassing the interaction between Eastern and Western civilizations, world science, educational systems, as well as political and cultural processes. The article highlights his engagement with foreign press, travels, and the incorporation of international experience into his creative work. Through examples from his publications in various Jadid newspapers and the journal Oyina, Behbudi's critical and analytical approach to Western progress, education, and science is examined. In addition, his views on the unity of Turkic peoples, the harmony between national and international development, and his criticism of blind imitation are analyzed. The findings demonstrate that Behbudi's legacy remains relevant not only historically but also in the context of contemporary globalization for journalism, education, and intercultural communication. The article aims to assess Behbudi's work within an international context.*

Keywords: *Mahmudkhoja Behbudi, Jadidism, international themes, East and West, educational reform, Turkic unity, journalism*

Kirish

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, ilk dramaturg, noshir va jurnalist [2] sifatida tarixga kirgan. Uning faoliyati nafaqat o'z davrining ilmiy, madaniy va ijtimoiy hayotiga, balki xalqaro maydonga ham alohida ta'sir ko'rsatgan. Behbudiy ijodi, ayniqsa, o'zbek xalqi va Markaziy Osiyoda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga doir yangi g'oyalar va fikrlar bilan boyitilgan. U o'z faoliyatida nafaqat milliy, balki xalqaro masalalarni ham yoritishga katta ahamiyat bergan. Ushbu maqolada ko'pqirrali adib ijodidagi muhim jihatlardan biri - xalqaro mavzularni qalamga olish masaladi tahlil etiladi.

Adabiyotlar sharhi

Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi XX asr boshlaridan boshlab turli davrlarda adabiyotshunoslik, tarixshunoslik va jurnalistika tadqiqotlarining muhim obyektiga aylangan. Jadidchilik harakati, uning g'oyaviy manbalari va yetakchi namoyandalari masalasi Fitrat, Cho'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov asarlarida dastlabki ilmiy-falsafiy talqinini topgan. Mustaqillik davrida esa Behbudiy merosini qayta baholash, uni milliy va mintaqaviy uyg'onish jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Zamonaviy behbudiyshunoslikda Z.Abdurashidovning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Olimning asarlarida Behbudiyning publitsistik faoliyati, xorijiy matbuot bilan aloqalari, sayohatlari va xalqaro tajribani o'zlashtirish jarayoni manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, B. Qosimov, N. Karimov, S. Mirvaliyev, H. Boltaboyev kabi olimlar jadid adabiyoti va matbuotining umumiy konsepsiyasini tahlil qilish jarayonida Behbudiy ijodiga alohida to'xtalganlar.

Xalqaro mavzu masalasi esa ko'proq jadidchilikning ma'rifiy va modernizatsion mohiyati doirasida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotlarda Behbudiyning Sharq va G'arb sivilizatsiyalari haqidagi qarashlari, ta'lim va ilm-fan borasidagi fikrlari, turkiy xalqlar birligi g'oyasi umumiy tarzda yoritilgan bo'lsa-da, uning publitsistikasi va matbuotdagi chiqishlarida xalqaro mavzuning tizimli tahlili yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tarixiy, manbashunoslik va zamonaviy gumanitar fanlar metodlari uyg'un holda qo'llanildi. Avvalo, tarixiy metod asosida Mahmudxo'ja Behbudiy yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy sharoiti, Turkistondagi jadidchilik harakatining shakllanishi va rivoji xalqaro jarayonlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi. Bu yondashuv Behbudiyning xalqaro mavzularga murojaat etish sabablarini aniqlash imkonini berdi.

Kontent-tahlil metodi yordamida "Samarqand" gazetasi, "Oyina" jurnali hamda jadid matbuotida chop etilgan Behbudiy maqolalaridagi xalqaro mavzuga oid materiallar tizimli ravishda o'rganildi. Mazkur tahlil orqali Sharq va G'arb, ta'lim, ilm-fan, milliy va xalqaro taraqqiyot, turkiy birlik kabi tushunchalarning qanday kontekstda va qanday maqsadda qo'llangani aniqlashtirildi.

Qiyosiy-tahliliy metod Behbudiyning qarashlarini zamondosh jadidlar, xususan, Ismoil Gaspirinskiy va boshqa ma'rifatparvarlarning fikrlari bilan solishtirishda qo'llanildi. Bu usul orqali Behbudiyning xalqaro masalalarga yondashuvidagi o'ziga xoslik va yangiliklar ochib berildi. Shuningdek, deskriptiv va interpretativ metodlar yordamida adib matnlarining g'oyaviy mazmuni izohlandi va umumlashtirildi. Tadqiqotda foydalanilgan ushbu metodlar Behbudiy ijodini xalqaro kontekstda har tomonlama tahlil qilishga xizmat qildi.

Natijalar va ularning tahlili

Xalqaro mavzularni qalamga olmoqchi bo'lgan har qanday ijodkor (jurnalist) dastlab xorijda uzatiladigan yangiliklar va xorij matbuoti bilan yaqindan tanish bo'lishi, ularni o'z asl tilida kuzatib borishi talab etiladi. Olimlarning ta'kidlashlaricha, Mahmudxo'ja Behbudiy 1893-yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy matbuot bilan tanishib borgan [1].

Manbalar shuni ko‘rsatadiki, Behbudiyning publitsistikadagi ilk ijod mahsulining yozilishida ham bevosita xalqaro mavzudagi masala muhim o‘rinni egallagan. Olim Z.Abdurashidovning qayd etishicha, Behbudiyning publitsistik faoliyati 1902-yili “Turkiston viloyatining gazeti”dan boshlangan. Unda Gaspirinskiyning “Tarjumon” gazetasida e’lon qilgan maqolalari izidan borib, Behbudiy turkistonliklarga musulmonlarga nima sababdan rus askarlariga va davlatiga yordam berishlari kerakligini tushuntirib, kichik bir maqola e’lon qiladi [1].

Xalqaro xabar va sharhlarning yuzaga kelishi va rivojlanishida jurnalistika paydo bo‘lishidan oldingi davrlardagi sayyohlar, savdogarlar, elchilarning kundaliklari, sayohatnomalari o‘ziga xos “xamirturush” bo‘lgan. Chunki aynan shunday asarlarda dastlab boshqa davlatlardagi ahvol, madaniyat, davlat tuzumi kabilar haqida batafsil va bevosita hayotiy tajribalar bilan tasdqilangan ma’lumotlar yozib qoldirilgan.

1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqishi haqida yozishar ekan, bu sayohat adib dunyoqarashini, keyingi faoliyatini tubdan o‘zgartirib yuborganini o‘rinli ta’kidlashadi [1]. Ayni shu sayohati davomida adib Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta’limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni kuzatadi, bu islohotlarda yetkachi o‘rin tutgan shaxslar bilan muloqotda bo‘ladi.

Shuningdek, adibning arab mamlakatlariga, Rossiyaning bir qator hududlariga qilgan sayohatlari ham uning xalqaro mavzuni tahlil qilishida muhim tajribalar to‘plashiga sabab bo‘lgan. Natijada, nafaqat Behbudiyning turli nashrlarda e’lon qilgan chiqishlarida, hattoki darsliklari va sahna asarlarida va ayniqsa, adib o‘z tashabbusi bilan chop ettirgan “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalida ham xalqaro mavzu muayyan o‘rin tutadi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganlaridek, “Oyina” jurnalida millat va uning haq-ququqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalari bilan bir qatorda, ***dunyo ahvoliga doir*** *(Ta’kid bizniki - A.D.)* qiziqarli maqolalar, bahslar ham berib borilgani [6]. ushbu fikrlarimizga dalil bo‘la oladi.

Behbudiy ijodida xalqaro mavzularni qalamga olishning ahamiyati bir necha yo‘nalishda ko‘rinadi:

1. Sharq va G‘arb o‘rtasidagi munosabatlar. Behbudiy, jadidchilik harakatining peshqadamlari kabi, G‘arbdagi ilm-fan va madaniyatning ta’sirini chuqur tahlil qilgan. Uning asarlarida G‘arb va Islom dunyosi o‘rtasidagi tafovutlar va ularning o‘zaro munosabatlari ko‘rib chiqilgan. Behbudiy G‘arbni ilm-fan va texnologiya rivojlanishi bilan bog‘liq taraqqiyot namunasi sifatida tan olish bilan birga, Islom madaniyatining o‘ziga xosligini ham himoya qilgan. U o‘z asarlarida G‘arbning taraqqiyotidan foydalangan holda, Islom dunyosining yuksalishi uchun kerakli chora-tadbirlarni taklif etgan. Masalan, “Samarqand” gazetasining 1913-yil 12-iyul sonida chop etilgan “Ehtiyoji millat” sarlavhali maqolasida garchi o‘z yurtimizda ilm-fanni rivojlanitish haqida gap borsa ham, Yevropa va, xususan, Rossiya ta’lim tizimi haqida yaxshi fikrlarni ifodalaydi: “Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga’ poymol bo‘lur”. Ushbu jumlalar bilan boshlangan maqola chin ma’noda yevropacha ta’lim tizimini o‘zimizda ham tatbiq etish orqali davlat va millatni rivojlantirish, buning foydali natijalari borasida aniq dalillar bilan asoslangan yo‘riqnoma singari yozilgan.

2. Milliy va xalqaro taraqqiyot masalalari. Behbudiyning ijodida Turkistondagi ijtimoiy va siyosiy muammolarni hal etish uchun xalqaro tajriba va g‘oyalar muhim ahamiyat kasb etgan. Uning yozgan maqolalari va sahna asari milliy o‘zlikni saqlagan holda, xalqning taraqqiyoti uchun xalqaro tajriba va tamoyillarni o‘zlashtirish zarurligini ko‘rsatgan. Behbudiyning fikriga ko‘ra, faqat milliy emas, balki xalqaro madaniyati o‘zaro aloqalari orqali Turkiston ham taraqqiyotga erishishi mumkin edi. Masalan, “Samarqand” gazetasining 1913-yil 30-iyulda chiqqan 31-sonida Mahmudxo‘ja Behbudxo‘ja imzosi bilan e’lon qilingan “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?” sarlavhali maqolasida yoshlar ta’limiga e’tibor qaratish orqali taraqqiyotga erishish mumkinligini asoslab beradi. Isbot tariqasida rus, armani, yahudiy hamda Kavkaz, Qrim va Qozondagi musulmon boylarining o‘z millatlari yoshlari ilm olishi uchun qiladigan xayr-ehsonlarini zikr etadi [3]

3. Turkiy xalqlarining birligi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z asarlarida turkiy xalqlarning birligi masalasini ham ko‘tarib, bu borada milliy va xalqaro hamkorlikning ahamiyatini ta’kidlagan. U turkiy xalqlarni madaniy, ilmiy va iqtisodiy sohalarda hamkorlik qilishga chaqirgan. Behbudiy turkiy xalqlar o‘rtasidagi til, madaniyat va tarixiy o‘xshashliklarni ta’kidlab, ular orasida birlashuvni qo‘llab-quvvatlagan. Jumladan, “Hurriyat” gazetasining 1918-yil, 26-yanvar sonida e’lon qilingan “Qozoq qarindoshlarimizg‘a ochiq xat” nomli materialida aytilgan fikrlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Qirg‘iz, qozoq, o‘zbek, turkman, arab, fors - xullas, Turkiston, Qozog‘iston, Turkmanistondagi barcha musulmonlar, yahudiy va xristianlarni birlikka chorlab yozilgan ushbu asarda keltirilgan quyidagi jumlalardan ham adibning xalqaro bilimlar borasida chuqur bilimga egaligi ayon bo‘ladi: “Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto, dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe’ bo‘lub, yutilub, hatto tilini yo‘qotgan o‘z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg‘a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o‘z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak uyatdur, ahmoqliqdur”

4. Zaruriyat va jahon ilm-fanining ahamiyati. Behbudiy o‘z asarlarida ilm-fan va ta’limning xalqaro ahamiyatini alohida yoritgan. U ilm-fan taraqqiyoti jahonning barcha burchaklarida sodir bo‘layotgan jarayon ekanligini tushunib, xalqimizning ham jahon ilm-faniga integratsiyasi zarurligini tushuntirgan. Uning ta’limni yangilash, milliy o‘quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida shakllantirish borasidagi g‘oyalari jahon miqyosidagi ta’lim tizimining

yaxshilanishiga qo‘shilgan hissa sifatida baholash mumkin. Mazkur qarashlar adibning deyarli barcha ijtimoiy-siyosiy dolzarb masalalarga bag‘ishlangan maqolalarida, jumladan, “Ehtiyoji millat” (“Samarqand” gazetasi, 1913-yil 12-iyul soni), “Muhtaram yoshlarg‘a murojaat” (“Oyina” j., 1914-yil, 41-son, 970 – 972-betlar), “Oh, bonkalar bizni barbod etdi” (“Oyina” j., 1914-yil, 19-son, 342 – 344-betlar) kabilarda mohirona ifodalangan.

4. Ko‘r-ko‘rona taqlidga qarshi tanqidiy munosabat. Behbudiy G‘arbni ideal jamiyat sifatida ko‘rsatmaydi. Yevropa yutuqlari bilan birga kamchiliklarini ham qayd etib boradi. Turkey xalqlar Yevropa xalqlaridagi yutuqlarni o’zlashtirishdan ko’ra, ulardagi nuqsonli jihatlarni tezroq o’zlashtirayotganlaridan o’kinadi. Adib “Sayohat xotiralari”da Istanbulga sayyohati haqida yozar ekan quyidagi fikrni ilgari suradi:

“Bechora musulmonlar besh yuz yildan beri Ovro’poda o’lturub, Ovro’po ilm va hunarindan keragincha hissa olmabdurlar. Bul har yerda shundaydir. Bu kung’acha bir chaqirim temir yo’li bino qilmoqg’a butun musulmonlarning ilm va iqtidori yo’qdur. Ammo popiros, ichkulik va buzuqlik tarafig’a bor kuchimiz ila a’lo holda tarmasharmiz” [6].

Bu yondashuv Behbudiyni ko‘r-ko‘rona g‘arblashtirish tarafdorlaridan keskin farqlaydi. Uningcha, modernizatsiya tashqi shakllarda emas, balki tafakkur va jamiyat boshqaruvidan tortib har bir shaxs yashash tarzida bo‘lishi kerak.

Behbudiy o‘z maqolalarida xalqaro masalalarga, xususan, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi aloqalarga oid turli mavzularni yoritgan. U o‘z davrining eng ilg‘or fikrlarini asarlarida aks ettirib, yurtning jahon taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida chuqur fikrlar bildirgan. Behbudiyning jahon miqyosidagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar haqida yozgan maqolalari shunchaki milliy emas, balki xalqaro ahamiyatga ham ega bo‘lgan.

Behbudiyning asarlari faqat o‘zbek xalqi uchun emas, balki turkiy va musulmon dunyosi uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning G‘arbni o‘rganish va Islom dunyosini modernizatsiya qilish g‘oyalari butun musulmon olamida keng tarqaldi. Behbudiy o‘z davrida G‘arbning ilmiy-madaniy yutuqlarini jahon miqyosida tan olib, ularni Islom dunyosining manfaatlariga moslashtirishga intildi. Bu g‘oya o‘zbek va Markaziy Osiyo xalqlarining rivojlanishiga xizmat qildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodida xalqaro mavzularning bu darajada muhim o‘rin tutishi uning ilmiy, ijtimoiy va madaniy tafakkurining kengligini ko‘rsatadi. U o‘z asarlarida nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun musulmon va turkiy xalqlarning taraqqiyoti va yuksalishini xohlagan. Behbudiy o‘z vaqtida ko‘plab xalqaro masalalarni yoritgan va bu borada yirik g‘oyalar bilan chiqqan. Uning ijodi bugungi kunda ham xalqaro aloqalar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro anglashuvni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, bugungi xalqaro jurnalistlar va sharhlovchilar uchun ham kasbiy kamolotga erishuvlarida yaxshi bilimlar beradi.

Shu o’rinda xalqaro kontekstda Behbudiy merosining ahamiyati borasida alohida to’xtalib o’tish joiz. Mahmudxo’ja Behbudiy faqat milliy islohotlar yetakchisi bo’lmagan. Adibning dunyoqarashi global darajada keng edi. U global darajadagi bilim almashinuvini qadrlaydi, zamonaviy ta’lim, fan va madaniyatning xalq taraqqiyotiga ta’sirini jahondagi ilg‘or tajribalar bilan solishtiradi. Jurnal va gazetalar orqali global voqealarni tahlil qiladi. Bu o‘sha davr Turkistonida jahon yangiliklari, siyosat, fan va madaniyat masalalarini ommaga yetkazishga xizmat qilgan. Milliy va xalqaro fikrlarni uyg‘unlashtirgan – milliy qadriyatlarni saqlagan holda, global tafakkur, siyosiy va ma’rifiy tendensiyalar bilan bog‘lashga harakat qilgan.

Xulosa

Umuman olganda, XXI asrda Behbudiy merosi bugungi davr uchun ham qimmatli saboqlar beradi:

1. Ta’limni zamonaviylashtirish masalasida Behbudiy ta’lim tizimida fan va ilmga katta urg‘u bergan, bu bugungi kunda ham xalqaro standartlar bilan hamqadam bo‘lishni talab qiladi.

2. Jurnalistika va axborot almashuvi sohasida Behbudiy gazetalar orqali jamoatchilik fikrini shakllantirganidek, bugungi kunda axborot texnologiyalari yordamida xalqaro fikr almashinuvini rivojlantirish zarur.

3. Millatni global maydonda tanitish borasida ham adibning muhim rolini ta’kidlash zarur. Behbudiy o‘z davrida Turkistonni dunyo sahnasiga olib chiqishga intilgan bo‘lsa, bugun ham milliy madaniyatni global miqyosda ilgari surish muhim.

4. Mahmudxo‘ja Behbudiy inson tafakkurining va jamiyat taraqqiyotining xalqaro kontekstini chuqur anglagan ziyolilardan biri bo‘ldi. Uning yozuvchilik, jurnalistika va ta’lim sohasidagi faoliyati milliy taraqqiyot bilan bir qatorda global fikrlar bilan bog‘liq bo‘ldi. Bugungi kunda u yaratgan merosni o‘rganish orqali biz nafaqat o'tmishdagi jamiyatni, balki zamonaviy global dinamikani ham yaxshiroq anglashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy: risola. - T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. - 156 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. To‘plovchi, so‘zboshi va izohlar: B.Qosimov. - 2-nashri, tuzatilgan va to‘ldirilgan. - T.: Ma’naviyat, 1999. - 280 b.
3. Behbudiy M. (1913). Millatlar qanday taraqqiy etarlar?, “Samarqand” gazetasi, 1913-yil, 30-iyul soni.
4. Behbudiy M (1918). Qozoq qarindoshlarimizg‘a ochiq xat, *Samarqand, «Hurriyat» gazetasi, 1918-yil, 26-yanvar soni.*

5. Behbudiy M. (1913). Ehtiyoji millat, “Samarqand” gazetasi, 1913-yil, 12-iyul soni.
6. Behbudiy M. Sayohat xotiralari. “Oyina” jurnali, 1914-yil, 40-son.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Egamberdiyeva Nilufar Latibjon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
egamberdiyevan96@gmail.com ORCID iD: 0009-0005-40437121

UO'K: 811.512.133

MIQDOR MA'NOSINI IFODALOVCHI SO'ZLARNING VALENTLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'zbek tilidagi miqdor ma'noli so'zlarning sintaktik bog'lanish xususiyatlariga bag'ishlangan. Tadqiqotda asosan sonlar, hisob so'zlari va miqdor ifodalovchi ravishlar hamda olmoshlarining valentligi o'rganiladi. Maqolada ushbu so'zlarining ot, sifat va fe'llar bilan bog'lanish usullari, ularning grammatik xususiyatlari va sintaktik rollari tahlil qilinadi.Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, miqdoriy so'zlar o'zbek tilida 1-valentli bo'lib, ular o'z ma'nosini to'liq ifodalashi uchun doimo boshqa so'zlarga bog'liq bo'ladi. Maqolada miqdor so'zlarning turli so'z turkumlari bilan bog'lanishida yuzaga keladigan qonuniyatlar misollar yordamida tahlil qilinadi. "Ko'p" so'zining ot, sifat va fe'llar bilan bog'lanishida ko'rinadigan semantik va sintaktik o'zgarishlar alohida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar*: valentlik, semantik valentlik, miqdor bildiruvchi so'zlar, sonlar, hisob so'zlar, miqdor-daraja ravishlari, olmoshlar.*

Egamberdiyeva Nilufar Latibjon qizi
Аспірант Наманганського державного університету

ВАЛЕНТНІСТЬ СЛІВ, ЩО ВИРАЖАЮТЬ КІЛЬКІСНЕ ЗНАЧЕННЯ

Аннотация. *Данная статья посвящена синтаксическим свойствам слов с количественным значением в узбекском языке. В исследовании рассматривается валентность числительных, счетных слов, наречий и местоимений, выражающих количество. В статье анализируются способы их сочетаемости с существительными, прилагательными и глаголами, их грамматические особенности и синтаксические функции. Полученные результаты показывают, что количественные слова в узбекском языке обладают одноактантной (одновалентной) природой и для полного выражения своего значения всегда нуждаются в связи с другими словами. В работе также исследуются закономерности, возникающие при их сочетании с разными частями речи, на основе примеров. Особое внимание уделено семантическим и синтаксическим изменениям, наблюдаемым при сочетании слова "ko'p" с существительными, прилагательными и глаголами.*

Ключевые слова: *валентность, семантическая валентность, слова с количественным значением, числительные, счетные слова, наречия степени и количества, местоимения.*

Egamberdiyeva Nilufar Latibjon qizi
Namangan State University PhD student

VALENCY OF WORDS EXPRESSING QUANTITATIVE MEANING

Abstract. *This article examines the syntactic combinability features of quantitatively meaningful words in the Uzbek language. The study focuses on the valency of numerals, classifiers, and adverbs and pronouns expressing quantity. The article analyzes how these words combine with nouns, adjectives, and verbs, as well as their grammatical characteristics and syntactic roles. The findings show that quantitative words in Uzbek are monovalent, meaning that they always require connection with other words to fully express their meaning. The study also explores the patterns that emerge when these words interact with different parts of speech, illustrated with examples. Special attention is given to the semantic and syntactic changes observed when the word "ko'p" is combined with nouns, adjectives, and verbs.*

Keywords*: valency, semantic valency, quantitative words, numerals, classifiers, degree–quantity adverbs, pronouns.*

Kirish

Tilshunoslikda so‘zlarning gap tarkibida bir-biri bilan bog‘lanish muammosi dolzarb ahamiyatga egadir. So‘zlarning o‘z atrofidagi boshqa so‘zlar bilan bog‘lanish qobiliyati — valentlik tushunchasi, odatda, fe’llarning xususiyati sifatida ko‘rib chiqilsa-da, boshqa so‘z turkumlari, xususan, miqdor ma’noli so‘zlar ham o‘ziga xos valentlik xususiyatlariga ega . So‘zlarning bir-biri bilan bog‘lanishi tilning muhim qismidir. Valentlik tushunchasi shu bog‘lanishlarni tushunishga yordam beradi. Valentlik so‘zning o‘z atrofidagi so‘zlar bilan qanday bog‘lanishini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili

Valentlik tushunchasi (lotincha valentia – “kuch”, “quvvat”) tilshunoslikda predikatning sintaktik bog‘lanish darajasini ifodalovchi asosiy mezon sifatida qo‘llaniladi. Ushbu atama kimyodan (molekulalarning birikish qobiliyati) lingvistikaga Lui Tesniere tomonidan 1950-yillarda joriy etilgan . Olimning “Struktural sintaksis asoslari” nomli fundamental asarida fe’l markaziy o‘rinda bo‘lib, uning atrofida aktantlar va sirkonstantlardan iborat model taklif qilingan. Tesniere har bir fe’lni uning atrofiga ma’lum miqdordagi bo‘shliqlarni joylashtirish imkonini beruvchi tuzilma deb hisoblab, ularning majburiy ishtirokchilar (aktantlar) va ixtiyoriy shartlar (sirkonstantlar) bilan qanday to‘ldirilishini tahlil qilgan.

Keyingi tilshunoslik tadqiqotlarida, xususan, Fillmorning semantik rollar nazariyasi, Goldbergning konstruksion grammatikasi, shuningdek, korpus lingvistikasi usullari yordamida valentlik tushunchasi yanada takomillashtirildi. Natijada uning semantik, sintaktik va kommunikativ jihatlari aniqroq chegaralandi va chuqurroq o‘rganildi.

Valentlikning semantik, sintaktik, pragmatik shakllari mavjud. Sintaktik valentlik gapdagi majburiy pozitsiyalar sonini (masalan, “ko‘rmoq” fe’li subyekt va obyektni talab qiladi), semantik valentlik esa ma’nolararo bog‘lanish darajasini (masalan, “yemoq” fe’lining agent, obyekt, vosita rollari) bildiradi . Valentlik darajalari 0-valentdan (“yomg‘ir yog‘yapti”) 3-valentgacha (“bermoq” fe’lining agent, obyekt, qabul qiluvchi rollari) bo‘lgan shkalada ifodalanadi.

V.G.Admonining ta’biri bilan aytganda: “Valentlik – tilning kimyoviy formulasi: har bir fe’l o‘ziga xos atom bo‘lib, atrofida aniq sonli elektronlar (aktantlar) aylanadi” .

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda o‘zbek tilidagi miqdor ma’nosini ifodalovchi so‘zlarning valentlik xususiyatlari deskriptiv, struktur–sintaktik va semantik tahlil usullari asosida o‘rganildi. Miqdor bildiruvchi sonlar, hisob so‘zlar, miqdor-daraja ravishlari va olmoshlarning ot, sifat va fe‘l bilan bog‘lanish modellari aniqlanib, ularning valentlik darajasi va sintaktik roli belgilandi.

Natijalar va ularning tahlili

Miqdor ma’nosini ifoda etuvchi so‘zlarning valentligi o‘ziga xos xususiyatlarni ifoda etadi va kam o‘rganilgan jihat hisoblanadi [7]. Bu so‘zlar harakatning, belgining, narsalarning aniq va noaniq miqdorini ifodalagani uchun doim miqdori belgilanadigan so‘zni talab qiladi. Ushbu ma’noni sonlar, olmoshlar, ravish hamda sifatlar ifodalashga xizmat qiladi. Tahlilda biz miqdoriy so‘zlarning semantik valentligiga e’tibor qaratamiz. Miqdor ma’nosini ifoda etuvchi so‘zlarning birinchisi sonlardir. Sonlar aniq miqdorni bildirib keladi, shuning uchun eng aniq valentlikka ega bo‘lgan guruh hisoblanadi. Ular miqdori belgilanadigan so‘zni, ko‘pincha otni talab qiladi, valentlik darajasi esa bir bo‘ladi.

Masalan: uch o‘quvchi (son+ot), *besh bola (son+ot),, ikki do‘st (son+ot).* Bu bog‘lanishlardagi valentlik qancha nima? savoliga asoslanadi. Son va ot bog‘lanishidagi muhim va e’tiborli jihat bu hisob so‘zlardir. O‘zbek tilida predmet, jarayon kabilarning aniq miqdorini ifodalashda hisob so‘zlar son bilan faol qo‘llaniladi. Hisob so‘zlar son so‘z turkumi bilan birga qo‘llanib predmet, voqea-hodisa, ish-harakatning uzunlik, og‘irlik, hajm, shakl kabi o‘lchovini bildiradi. Hisob so‘zlar odatda ot turkumiga oid so‘zlardan olinadi. Tahlil qiladigan bo‘lsak, son hisob so‘zi bilan birga qo‘llanganda uch bog‘lanishli zanjir hosil bo‘ladi.

to‘rt nafar ishchi son+hisob so‘z+ot

olti dona olma son+hisob so‘z+ot

bir quti gugurt son+hisob so‘z+ot

Bu bog‘lanishlarda son o‘zidan keyin numerativni talab qiladi, numerativning valentiligini esa miqdori aniqlanayotgan so‘z, ya’ni ot qondiradi. Bu holatda valentlik nafaqat sonning o‘ziga, balki hisob so‘zning valentligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Natijada ikki darajali bog‘lanish hosil bo‘ladi. Son o‘zining valentligi uchun hisob so‘zni talab qiladi, hisob so‘z uni to‘ldiradi. To‘rt+nafar bog‘lanishida *to‘rt* soni o‘z holida to‘liq emasligi uchun *nafar* uning bog‘lanishini ta’minlaydi va boyitadi. Ikkinchi bog‘lanish esa hisob so‘zi + ot tarzida bo‘ladi va hisob so‘z hisoblanuvchi otni talab qiladi. Shu orqali valentlik zanjiri yuzaga keladi. Bu birikma gapda mustaqil bo‘lak sifatida qatnashadi, uning ichki tuzilishi esa ikki bosqichli valentlik hisobiga qurilgan bo‘ladi.

Agar sonning hisob so‘zsiz qo‘llangan holatini solishtiradigan bo‘lsak, son to‘g‘ridan to‘g‘ri otga bog‘lanadi. Valentlik esa oddiy va bir darajali bo‘ladi: *uch o‘quvchi* son ot.

Son hisob so‘zi ot *ikki dona qalam*

Ikkinchi holatda esa valentlik murakkabroq va ikki darajali. Natijada son va ot o‘rtasida semantik (ma’noviy) va sintaktik (gapdagi vazifa) jihatdan aniqroq, nozikroq bog‘liqlik hosil bo‘ladi. Hisob so‘zi bu bog‘liqlikda vositachi (mediator) vazifasini o‘taydi.

Yana bir e’tibor qilinadigan jihat: hisob so‘zi o‘z ma’nosiga mos keladigan otni talab qiladi. Ma’lumki, hisob so‘zlar ma’noviy guruhlarga bo‘linadi va shu ma’no guruhga mos ot bilan bog‘lanadi. Quyida misollar keltiramiz. Avvalo, shaxs-predmet kabilarni yakkalab, donalab ifodalashda:

- shaxsni ifodalash uchun: besh nafar fuqaro;
- narsani ifodalash uchun: yetti dona avtomobil;
- daraxt va o‘simliklar uchun: yigirma tup archa, ikki bog‘ ko‘kat;
- chorva hayvonlari uchun: yuz bosh ho‘kiz.

Bu holatlarga rioya qilmaslik uslubiy g‘alizlik va mazmuniy izchillik buzilishiga olib keladi.

To‘dalab, guruhlab ifodalashda ham shaxs, narsalar uchun alohida hisob so‘zlar ishlatiladi:

- narsalar uchun: bir uyum axlat, bir quchoq beda;
- shaxs, qush, hayvonlar uchun: bir gala qushlar, bir gala ovchilar, bir to‘da bo‘rilar.

Butunning bir qismini ifodalashda quyidagi hisob so‘zlar ishlatiladi: siqim, bo‘lak, qism, burda, parcha, tilim, chimdim, shingil, luqma, yutum, og‘iz.

Bulardan *qism* hisob so‘zi faol qo‘llaniladi, deyarli, barcha predmet, jarayon qismlarini ifodalab kela oladi. Masalan*: yigirma qism serial, to‘rt qism kitob*.

Burda hisob so‘zi esa non so‘zi bilan bog‘lanadi: *bir burda non.*

Parcha esa qog‘oz so‘zi bilan birga qo‘llana oladi: *bir parcha qog‘oz*.

Shuningdek, tilim hisob so‘zi qovun va handalak, chimdim esa kukun holatidagi moddalar, shingil esa uzum, luqma esa yegulik, taom, yutum suvning miqdorini bildiradi va shu so‘zlar bilan bog‘lana oladi. Bundan tashqari hisob so‘zlarning pul, og‘irlik, uzunlik, masofa, vaqt kabi o‘lchovlarni bildiruvchi turlari ham mavjudki, ular ham son bilan birga qo‘llanib semantik bog‘lanish hosil qiladi.

Hisob so‘zlarda yana e’tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan jihat bor. Harakat miqdorini ifodalovchi hisob so‘zlar guruhi mavjud bo‘lib, ular sonni fe’l bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Bu turga marta, qatla, karra, daf’a, bora kabilar kiradi. Misol keltiramiz: *olti marta yugurmoq, ikki karra yutmoq, bir bora ko‘rmaslik, bir daf’a qolmoq, ming qatla yolvormoq son + fe’l.* Son ot bilan bog‘langanda yoki hisob so‘zi bilan birga qo‘llanganda hattoki fe’l bilan bog‘langanda ham hech qanday qo‘shimchalarsiz so‘z tartibi yordamida bog‘lanadi. Miqdor konseptini ifodalashda hisob so‘zlar alohida ahamiyatga ega. Chunki ular sondan anglashilgan miqdor ma’nosini yana ham aniqlashtirib, to‘ldirib ifodalashga xizmat qiladi [9].

Keyingi tahlil qiladigan miqdor ma’noli so‘zlar ravish turkumiga oid miqdor-daraja ravishlari. Ularga ko‘p, kam, oz, bisyor, mo‘l, behisob kabilarni kiritishimiz mumkin. Ushbu so‘zlar predmetning, harakatning, belgining miqdorini aniqlab kelgani uchun ot, sifat va fe’l so‘z turkumi bilan bog‘lanish hosil qiladi. Keltirilgan ravishlardan ko‘p so‘zining bog‘lanish doirasi keng bo‘lib ot bilan ham, fe’l bilan ham, hattoki o‘zi bilan ham bog‘lana oladi. Buni jadval asosida tahlil qilamiz. (1-jadval)

Ko‘p ravishining valentlik xususiyatlari 1-jadval

ko‘p topshiriq, ko‘p mashg‘ulot	ravish+ ot (so‘z tartibi)	Predmetning ko‘pligi
ko‘p xonali, ko‘p qirrali	ravish + sifat (so‘z tartibi)	Belgining ko‘pligi
ko‘p ta’kidlamoq, ko‘p shug‘ullanmoq	ravish +fe’l so‘z tartibi	Harakatning ko‘pligi
ko‘pdan ko‘p	ravish+ravish -dan kelishik orqali	Belgining kuchliligi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ko‘p miqdor-daraja ravishi ot, fe’l, sifat bilan bog‘lanishda so‘z tartibiga asoslangan, o‘zi bilan bog‘langanda esa -dan chiqish kelishigi ishtirok etgan.

Miqdorning kamligini ifodalashda esa kam, oz so‘zlari ishtirok etadi va nisbiy miqdoriylik semasini ham anglatadi*: kam odam, oz qatnashuvchi*. Bu so‘zlarning ham valentlik imkoniyati keng bo‘lib ot, fe’l bilan bog‘lanadi.

Ot bilan*: kam odam, oz fursat*.

Fe’l bilan*: kam gapiradi, oz uxladi, kam qatnashmoq, kam kelmoq, ozgina kutmoq.*

Ular ma’no jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da qo‘llanilishda ma’lum farqlar mavjud. Kam abstrakt tushunchalar, jarayonlar, sifatiy belgilarni ifodalab keladi hamda bog‘lanish hosil qiladi. Misol uchun kam tajriba, kam qatnov, kam gapiruvchi. Oz esa aniqroq, ko‘pincha hisoblanadigan predmet yoki miqdorga nisbatan qo‘llaniladi: oz vaqt, oz pul. Yana ularning semalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, birida yetishmaslik, birida mutlaq ozlik semasi kuchli sezilib turadi.

Kam – biror narsaning yetishmasligi, to‘liq emasligi, me’yordan kamligini bildiradi. Unda nisbiylik kuchli, ya’ni bor, lekin kifoya qilmaydi: kam vaqt, kam odam. Shuning uchun ham kam ko‘proq bo‘lishi mukin bo‘lgan narsalarga nisbatan qo‘llaniladi. Odam, vaqt, imkoniyat kabi so‘zlar bilan bog‘lanish hosil qiladi.

Oz – miqdori aniqlanayotgan narsaning juda ham ozligini bildiradi. U mutlaq ozlikka yaqinroq: oz suv, oz vaqt, oz odam – deyarli yo‘qlikka yaqin daraja. Shu bois, u moddiy yoki o‘lchanadigan narsalarni ifodalovchi so‘zlar bilan bog‘lanadi. Suv, non, ovqat, vaqt kabilarning ozligi mutlaq tarzda seziladi.

O‘zbek tilida miqdor ma’nosini ifodalovchi birliklar ko‘p uchraydi. Ulardan biri olmosh hisoblanadi. Olmoshlar ma’no guruhidan jamlash olmoshlarida miqdor ma’nosi kuchliroq. Bu olmoshlar miqdorni jamlab yoki ayirib ifodalaydi va ot, fe’l so‘z turkumlari bilan bog‘lanadi.

Hamma olmoshi to‘liq qamrov, jamlikni bildiradi, predmetlarning umumiy yig‘indisini qamrab oladi. Misol uchun, hamma talaba (olmosh+ot so‘z tartibi), hamma keldi (olmosh+ fe’l so‘z tartibi).

Barcha – umumiylik, jamlikni bildiradi. Miqdoriy jihatdan to‘liq qamrovni bildiradi. Hamma olmoshiga sinonim, biroq neytral, rasmiyroq. Masalan: *barcha xodimlar (olmosh+ot so‘z tartibi), barcha yig‘ildi (olmosh+ fe’l so‘z tartibi)*.

Ba’zi, ayrim olmoshlari ayirib, chegaralab ko‘rsatailadigan miqdor ma’nosiga ega.

Ba’zi olmoshi – umumiy to‘plamning bir qismi. Miqdoriy ma’nosi chegaralanganlik, qismanlikdir: ba’zi odamlar. Valentlik jihatdan asosan ot bilan bog‘lanadi*: ba’zi jurnallar, ba’zi taqdirlar, ba’zi insonlar*. Otlashib fe’l bilan ham bog‘lana oladi: *ba’zilar qolib ketdi, ba’zilar kutib turdi.*

Ayrim – umumiy to‘plam ichidan alohida ajratilgan bir qismni ifodalaydi. bu olmoshda ajratilganlik semasi kuchliroq: ayrim odamlar (hamma ham emas, ajratib olingan qismi). Valentlik jihatdan ba’zi olmoshi kabi ot bilan bog‘lanadi, otlashib fe’l bilan ham bog‘lanish hosil qiladi. Misol keltirsak, *ayrim shaharlar, ayrim kutubxonalar (olmosh+ot so‘z tartibi); ayrimlar yordam berdi, ayrimlar javob qaytardi (olmosh+ko‘plik qo‘shimchasi+ fe’l).* Miqdorni bildiruvchi olmoshlarning semantikasi ularning valentligini belgilab beradi: umumiylikni bildiruvchi olmoshlar kengroq valentlikka ega bo‘lsa, qismanlikni bildiruvchilar torroq, ammo aniqroq imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Xulosa

O‘zbek tilida miqdoriy so‘zlarning valentlik xususiyatlari ularning mustaqil qo‘llanilishidan ko‘ra, boshqa so‘zlar bilan birikish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Sonlarning ot va hisob so‘zlari bilan ikki bosqichli bog‘lanishi, shuningdek, miqdor-daraja ravishlarining ot, sifat va fe’l bilan qo‘shilishi mazkur birliklarning semantik va sintaktik qamrovini kengaytiradi.

Miqdoriy so‘zlarning valentlik imkoniyatlari tilning grammatik tizimini izchil va mukammal ko‘rinishda anglash imkonini beradi. Bu hodisani tadqiq etish tilshunoslikda nazariy yondashuvlarni boyitish bilan birga, amaliy jarayonlarda — o‘quv jarayonida, tarjimada hamda lingvotexnologik ishlanmalarda qo‘llash imkoniyatini beradi. Shunday qilib, o‘zbek tilidagi miqdoriy so‘zlarning valentligi masalasi zamonaviy tilshunoslikda istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimova Rano Abdushukurovna. A BRIEF DISCUSSION ON THE VALENCY PECULIARITIES OF PARTICIPIAL PHRASES IN ENGLISH AND TAJIK CETERIS PARIBUS, no. 8, 2025, pp. 11-14.

2. Agel, Vilmos. 2013. Valentsteoriya. WSK Onlineda : Wörterbücher zur Sprach- und Kommunikationswissenschaft . Krista Dyurscheid va Stefan J. Schierholz tomonidan tahrirlangan. Berlin va Nyu-York: De Gruyter.

3. Ágel, Vilmos, and Klaus Fischer. 2015. Dependency grammar and valency theory. In The Oxford handbook of linguistic analysis. Edited by Bernd Heine and Heiko Narrog, 225–257. Oxford: Oxford Univ. Press.

4. Herbst, Thomas, and Susen Faulhaber. 2008. Introduction to syntactic analysis: A valency approach. Tübingen, Germany: Narr.

5. Шустова Светлана Викторовна, and Смирнова Елизавета Александровна. Глагольная валентность как семантико-грамматическая категория. Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология, no. 4 (32), 2015, pp. 21-29.

6. Ханнанова Дина Мунировна. ТЕОРИЯ ВАЛЕНТНОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. Вестник Удмуртского университета. Серия «История и филология», vol. 34, no. 6, 2024, pp. 1261-1268.

7. Кучер И.Н. Структурно-семантические и когнитивные особенности метафоризации концепта sorrow в поэзии А.Теннисона // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2017. №11. Ч.1. С. 118–121

8. D.A.Nabiyeva, N.L.Egamberdiyeva. Miqdor tushunchasining falsafiy va lingvistik talqini, Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 5-son. 1821-1825 b.

9. Egamberdiyeva Nilufar Latibjon Qizi. O‘ZBEK TILIDA MIQDOR KONSEPTNING IFODALANISHIDA HISOB SO‘ZLARNING AHAMIYATI. Research Focus, vol. 1, no. 2, 2022, pp. 172-175.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Hamidova Muhayyoxon Obidovna
Namangan davlat universiteti, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori,f.f.n.
E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRINING BADIIY-USLUBIY QATLAMLARI VA ULARNING POETIK FUNKSIYASI

Annotatsiya: *O'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Shukur Xolmirzayev nasrining badiiy-uslubiy qatlamlari va ularning poetik funksiyasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada yozuvchi asarlarida muallif nutqi, personaj nutqi, xalqona til unsurlari, dialog va ichki monolog kabi uslubiy qatlamlarning badiiy matndagi o'rni tahlil qilingan. Ushbu qatlamlarning syujet rivoji, obraz yaratish hamda qahramon ruhiy holatini ochib berishdagi funksional ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada adabiy-tahliliy, stilistik va qiyosiy metodlardan foydalanilib, Shukur Xolmirzayev nasriga xos soddalik va chuqur mazmun uyg'unligi yozuvchi ijodiy individualligini belgilovchi asosiy poetik xususiyatlardan biri ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: o'zbek nasri, badiiy uslub, uslubiy qatlamlar, poetik funksiya, muallif nutqi, personaj nutqi, xalqona til, badiiy individuallik.

Хамидова Мухайёхон Обидовна
Наманганский государственный университет, профессор кафедры дошкольного и начального образования, кандидат филологических наук

ХУДОЖЕСТВЕННО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ПЛАСТЫ ПРОЗЫ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА И ИХ ПОЭТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ

Аннотация: *Проза одного из выдающихся представителей узбекской литературы Шукура Холмирзаева отличается своеобразием художественно-стилистических пластов и их поэтической функции. В данной статье анализируется роль таких стилистических пластов, как авторская речь, речь персонажей, элементы народного языка, диалог и внутренний монолог в художественном тексте произведений писателя. Научно обосновано функциональное значение этих пластов в развитии сюжета, создании образов и раскрытии внутреннего мира героев. В статье с применением литературно-аналитического, стилистического и сравнительного методов доказывается, что гармония простоты и глубинного содержания является одной из основных поэтических особенностей, определяющих творческую индивидуальность прозы Шукура Холмирзаева.*

Ключевые слова: *узбекская проза, художественный стиль, стилистические пласты, поэтическая функция, авторская речь, речь персонажей, народный язык, художественная индивидуальность.*

Khamidova Mukhayyoxon Obidovna
Namangan State University, Professor, Department of Preschool and Primary Education, candidate of philological sciences

ARTISTIC AND STYLISTIC LAYERS OF SHUKUR KHOLMIRZAEV'S PROSE AND THEIR POETIC FUNCTIONS

Abstract: *The prose of Shukur Kholmirzaev, one of the prominent representatives of Uzbek literature, is distinguished by the originality of its artistic and stylistic layers and their poetic functions. This article analyzes the role of such stylistic layers as authorial narration, character speech, elements of folk language, dialogue, and interior monologue in the writer's literary works. The functional significance of these layers in plot development, character creation, and the revelation of characters' inner worlds is examined on a scholarly basis. Using literary-analytical, stylistic, and comparative methods, the study substantiates that the harmony of simplicity and profound meaning is one of the key poetic features that define the creative individuality of Shukur Kholmirzaev's prose.*

Keywords: *Uzbek prose, artistic style, stylistic layers, poetic function, authorial narration, character speech, folk language, artistic individuality.*

Kirish

O‘zbek nasri taraqqiyotida badiiy uslub masalasi yozuvchi ijodiy individualligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotida nasriy tafakkurning yangilanishi, badiiy ifoda vositalarining boyishi va uslubiy qatlamlarning rang-baranglashuvi bilan xarakterlanadi. Bu jarayonda Shukur Xolmirzayev ijodi o‘ziga xos badiiy-uslubiy xususiyatlari, hayotiylikka asoslangan tasvir usuli va xalqona til imkoniyatlaridan samarali foydalanishi bilan alohida ajralib turadi.

Shukur Xolmirzayev nasrida muallif nutqi, personaj nutqi, dialog, ichki monolog hamda xalqona til unsurlari bir-biri bilan uzviy bog‘lanib, badiiy matnning yaxlit poetik tizimini shakllantiradi. Ushbu uslubiy qatlamlar nafaqat voqea-hodisalarni bayon etishda, balki qahramon xarakterini ochishda, ularning ruhiy kechinmalarini ifodalashda va syujet rivojini ta’minlashda muhim poetik funksiyani bajaradi. Yozuvchi nasriga xos soddalik tashqi ko‘rinishda bo‘lsa-da, uning ichki mazmuni falsafiy teranlik va psixologik chuqurlik bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy uslub va yozuvchi individualligi masalasi turli davrlarda yetakchi tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘rganilgan. Xususan, nasriy asarlarda muallif nutqi, personaj nutqi, dialog va ichki monolog kabi uslubiy qatlamlarning poetik funksiyasi badiiy matn tahlilining muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Bu borada o‘zbek adabiyotshunosligida yaratilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar mazkur maqola uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

M.Qo‘shjonovning o‘zbek nasri taraqqiyotiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida XX asr ikkinchi yarmi nasrining yetakchi tamoyillari, xususan, hayotiylik va badiiy soddalik masalalari keng yoritilgan. Adabiyotshunos olim Shukur Xolmirzayev ijodini real hayot tasviriga asoslangan nasriy tafakkur namunasidir, deya baholab, yozuvchi uslubida xalqona ifodaning muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Biroq ushbu qarashlar umumiy xarakterda bo‘lib, badiiy-uslubiy qatlamlarning poetik funksiyasi alohida tahlil qilinmagan.

U.Normatovning nasr poetikasiga oid ilmiy ishlari badiiy asarda uslubiy qatlamlar muammosini tahlil qilishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Adabiyotshunos olim nasriy matnda muallif nutqi va personaj nutqining o‘zaro munosabati, ichki monologning psixologik vazifasi masalalariga alohida e’tibor qaratadi. U.Normatovning ushbu nazariy qarashlari Shukur Xolmirzayev nasrining badiiy-uslubiy xususiyatlarini tahlil etishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, qator ilmiy maqola va monografiyalarda Shukur Xolmirzayev ijodida obraz yaratish, psixologik tahlil va hayotiylik masalalari yoritilgan bo‘lsa-da, yozuvchi nasrining badiiy-uslubiy qatlamlari va ularning poetik funksiyasi masalasi kompleks tarzda yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish, ularni badiiy matn tahlili asosida rivojlantirish va Shukur Xolmirzayev nasrining poetik tabiatini yanada chuqurroq ochib berishga e’tiborni qaratdik.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola Shukur Xolmirzayev nasrining badiiy-uslubiy qatlamlari va ularning poetik funksiyasini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda adabiyotshunoslikda qo‘llaniladigan zamonaviy va an’anaviy metodlardan kompleks tarzda foydalandik.

Maqolada adabiy-tahliliy metod yozuvchi hikoya va qissalaridagi badiiy-uslubiy qatlamlarni aniqlash hamda ularning matndagi o‘rnini belgilashda asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida muallif nutqi, personaj nutqi, dialog va ichki monolog kabi unsurlar badiiy kontekstda tahlil qilindi.

Bundan tashqari, tavsifiy metod yordamida uslubiy qatlamlar tizimlashtirildi va ularning poetik funksiyalari izchil tavsiflab berildi. Tadqiqot davomida olingan natijalar umumlashtirish va xulosa chiqarish orqali ilmiy asosda mustahkamlandi.

Tahlillar va natijalar

Shukur Xolmirzayev o‘zbek hikoyachilik san’atini ustozi Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko‘targan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag‘ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shukur Xolmirzayev o‘ndan ortiq hikoyalarida bola ruhiyatini yoritishga harakat qildi. Bu obraz ko‘plab hikoya, qissalarida aks etgan bo‘lsa-da, bir-birini takrorlamaydigan xarakterlar galeriyasi bo‘lib gavdalandi. Shukur Xolmirzayev o‘ziga xos shaxsiy badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilikdan, biryoqlamalikdan, bayonchilikdan qochadi, so‘zga xasis bo‘lsa-da, fikrini o‘quvchiga to‘la va yorqin yetkazishga erishadi. Biroq ba’zan uning asarlari tugallanmagandek taassurot uyg‘otadi. O‘quvchi asar davomini kutadi. Qahramonlar portretini chizmaydi, asosiy e’tiborini xarakter yaratishga qaratgandek ko‘rinadiki, bu kitobxonni o‘ylashga, chuqur mulohaza qilishga majbur qiladi. Asar qahramonlari ustidan chiqarilgan hukm kitobxon e’tiboriga havola etiladi. Har bir kitobxon qanday asar o‘qimasin o‘qigan asar qahramonlarining taqdirini o‘zi xohlaganidek bo‘lishini istaydi. Adibning “Qorbobo keladi” hikoyasida bola obrazi ruhiyati ifoda etilgan. U bola bo‘lganda ham juda sodda, ishonuvchan, qalbi pok, orzu qilgan narsalarini o‘zi xohlaganday tasavvur qiladigan va shunga o‘zi ham ishonadigan obraz sifatida tasvirlangan. Yozuvchining “Bahor”

hikoyasida esa tog‘li hududlarda yashovchi, qalbida ilk muhabbat kurtak otayotgan va bu ayni bahor faslida daraxtlar uyg‘onib, barg yozayotgan fasl tasvirlanib hikoyaga yanada joziba bergan. “Jo‘raboshi”[5, 115] hikoyasi o‘zlarini ko‘chaning “xo‘jayinlari” deb biluvchi bir guruh, har xil yoshdagi bolalarning hayotidan olingan haqqoniy lavhadir. “Ko‘cha xo‘jayinlari” ning boshlig‘i Habibulla ismli bola bo‘lib, u harbiy xizmatga ketish arafasida o‘z “ishchilari” bilan xayrlashishi, ularga vazifalar tayinlashi arafasida ulardagi ruhiyatning o‘zgarishi orqali bolalar hayotini tasvirlaydi. Bolalik, o‘smirlik, o‘spirinlik davri va ular bilan xayrlashuv sifatida ifoda etiladi. Adibning “Nasib etsa” [5, 177] hikoyasida haqiqatgo‘y bola to‘g‘risida gap boradi. Elyor Bo‘ritosh opasini juda yaxshi ko‘radi. U ishdan kelgan zahoti bola uning atrofida girdikapalak bo‘lib o‘ynar, u bilan sihbatlashar edi. Bo‘ritoshni qishlog‘idan Berdiyor yaqinda olib qochib kelganligi uchun Elyor unga oilasi, qishlog‘i to‘g‘risida o‘zini qiziqtirgan savollarni beraveradi. Shu orqali bola ruhiyati asta-sekinlik bilan ochila boradi. Adib bola ruhiyati orqali inson hayotidagi o‘zgarishlarning ta’sirini ushbu hikoyada tasvrlaydi va buning uddasidan chiqadi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida bola ruhiyatini ochar ekan ko‘proq ularni qiziqarli holatlarda aks ettirishga harakat qiladi. Bunday paytda yozuvchi bolalar hayotida yuz berishi mumkin bo‘lgan voqea-hodisalarga e’tiborini qaratadi. Masalan, maktab tasvirini berish orqali unda bolalarning maktab yoshiga xos bo‘lgan jihatlarini ochishga harakat qiladi, qishloq hayotidan lavhalar keltirish orqali esa, tabiat va bola ruhiyatidagi o‘xshashliklar yoritiladi. Bolalar turmush tarzining ko‘p qismini egallab turadigan jarayon bu-o‘yin. Yozuvchi hikoyalarida o‘yin epizodidan foydalanar ekan, keltirilgan o‘yinning qanday o‘ynalishi, o‘ynalish qonun-qoidalari haqida ham to‘xtalib o‘tadi. Bundan yozuvchining o‘zbek milliy o‘yinlari turkumiga kiruvchi o‘yinlaridan anchagina yaxshi xabardor ekanligini bilib olamiz.Yozuvchi hikoyalarida murg‘ak bolaning ko‘nglidan o‘tayotgan tuyg‘ularni mahorat bilan ochib bergan. Ko‘ngil oynasi bir sinsa, yoki lat yesa qayta tuzatib bo‘lmaydigan, shisha misoli. Ko‘ngil bir ozor yesa o‘z holiga kelishi, avvalgiday bo‘lishi qiyin. Shukur Xolmirzayev bola obrazini yaratar ekan bu jihatlarni ham yoddan chiqarmaydi va uni mahorat bilan ko‘rsata oladi.

Sh.Xolmirzayev jahonning mashhur yozuvchilari qatorida, ularga bo‘ylasha oladigan darajada tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining alohida bo‘rtib ko‘rinib turuvchi bir qirrasidir. Mana shu sababdan ham katta imkoniyati tufayli tabiat qonunlari, hayvonlarning yashash tarzlari, har bir giyohning o‘ziga xos xususiyatlari haqida puxta bilimga ega. Bu jihatdan J.London, E.Xeminguey, S.Tompson asarlarining yozuvchi ijodiga ta'siri ham kattadir. Adabiyotshunos olim U.Normatov “Zaminda yashaymiz, zaminni o‘ylaymiz” maqolasida Sh.Xolmirzayev hikoyalariga xos mazkur xususiyat haqida shunday deydi: “Inson va tabiat munosabati Sh.Xolmirzayev hikoyalarining yetakchi leytmotiviga aylanib qoldi. Shunisi xarakterliki, yozuvchining so‘nggi yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlamaydi, har gal avtor masalaning yangi qirrasini kashf etadi, yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbining yangi tomonini ochadi...”[4]. Shu nuqtayi nazardan yozuvchining inson va tabiat mavzuidagi hikoyalarini ko‘zdan kechirsak, inson xarakterining qanchalar murakkab ekanligi, bu murakkabliklar, uning hatto, tabiatga munosabatlarida ham namoyon bo‘lishini kuzatamiz.

Masalan, “Cho‘loq turna” hikoyasida adib hayotning qushlar turmushidagi abadiy beshafqat qonuniyatini bayon qiladi. Qur’oni karimdagi bir oyat mazmuniga ko‘ra, “yerda qimirlagan jonzot, osmonda qo‘sh qanotini qoqib uchadigan qushlar borki, ular ham insonlarga o‘xshab jamoa tashkil qilib yashaydi”. Lekin ularning insoniyatdan farqi bor. Ona turnaning cho‘loq bolasiga beparvoligini tasvirlab, adib shunday yozadi: “Illo bu tur qushlarning ham o‘ziga yarasha mehr-shafqati bo‘ladi. Bo‘ladi-yu, lekin o‘zga qonun bu hisdan ham ustun turadi. Bu — yashamoq Qonuni, zurriyot qoldirish va uning sog‘lom kamol topib, o‘zining ushbu ishini istiqbolda takrorlashiga bo‘lgan tabiiy va tug‘ma ehtiyoj qonunidir. Shuning uchun ular zurriyotni buzadigan va istiqbolda yashashi og‘ir bo‘lgan farzandlaridan osongina voz kechishadi”[6, 223]. Shu nuqtada inson bilan hayvonning ulkan farqi ochiladi: odamzod o‘zining nogiron va xasta bolasini ham hayoti boricha asrab-avaylab, ardoqlab yashaydi, jamiyat hayotiga undan biror naf, aqliy-ma’naviy biror foyda tegishini ta’minlaydi. Hayvonlar, qushlar qonuni — bunga zid, o‘ziga xos beshafqat qonun.

Yuqoridagi tahlillardan kuzatiladiki, yozuvchi asarlarida uslubiy qatlamlar bir-birini to‘ldiruvchi va badiiy butunlikni ta’minlovchi muhim poetik unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, adib asarlarini tahlil qilish asosida quyidagi ilmiy natijalarga kelindi:

1)Shukur Xolmirzayev nasrida badiiy-uslubiy qatlamlar o‘zaro uzviy bog‘langan yaxlit poetik tizimni tashkil etadi;

2)muallif nutqi, personaj nutqi, dialog va ichki monologning uyg‘unligi badiiy matnning estetik ta’sirchanligini oshiradi;

3)xalqona til unsurlarining faol qo‘llanilishi yozuvchi ijodiy individualligini belgilovchi yetakchi poetik xususiyatlardan biridir;

4)yozuvchi nasriga xos soddalik va mazmun teranligi badiiy-uslubiy qatlamlar orqali samarali namoyon bo‘ladi.

Mazkur natijalar Shukur Xolmirzayev nasrining badiiy-uslubiy tabiatini chuqurroq anglashga, shuningdek, o‘zbek nasri poetikasini o‘rganishda muhim ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Xulosa

Yozuvchi asarlarida muallif nutqi, personaj nutqi, dialog va ichki monolog kabi uslubiy qatlamlar bir-biri bilan uyg‘unlikda ishlaydi va badiiy matnga yaxlit poetik tizim hosil qiladi. Bu qatlamlarning syujet rivojini ta’minlash, qahramon xarakterini ochish va ularning ruhiy holatini ifodalashdagi funksional ahamiyati aniqlanadi.

Shuningdek, Shukur Xolmirzayev nasrida xalqona tilning faol qo‘llanilishi badiiy-uslubiy qatlamlarning muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat voqealarni hayotiy va tabiiy tarzda tasvirlashga xizmat qiladi, balki yozuvchi ijodiy individualligini belgilovchi asosiy poetik xususiyatlardan biri sifatida o‘z rolini bajarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltaboyev H. Nasr va uslub.-Toshkent: Fan, 1992.-B. 52-58.

2.Hamidova M.O.Shukur Kholmirzayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Rezearch 2020; 6 (5): 448-450.- B. 448-450.

3.Normatov U. Yetuklik.-Toshkent: Adabiyot va san'at.-1982

4.Normatov U. (1982). Problems of style, artistic form. Maturity 356.

5.Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar: III jildlik. 1-jild: Hikoyalar.-Toshkent: Sharq, 2003. 448 b.

6.Xolmirzayev Sh. Cho‘loq turna: hikoyalar.- Toshkent: “Ziyo nashr” nashriyoti, 2023.-256 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Obilov Muzaffar Odiljon o'g'li
University of Business and Science, Senior Lecturer, PhD.
Email: m-obilov@mail.ru

SUBJECTIVITY PARADIGMS IN ANGLO-AMERICAN ACADEMIC TRADITIONS

Abstract. *The article analyzes the formation and development of subjectivity paradigms in Anglo-American academic traditions. The study examines mechanisms of expressing authorial identity in academic writing, epistemic modality, evidentiality, and interpersonal strategies. Based on Appraisal theories of scholars such as J.Martin, P.White, and K.Hyland, the rhetorical functions of subjective expressions are analyzed.*

Keywords: *Anglo-American traditions, subjectivity paradigms, Appraisal theory, epistemic modality, academic rhetoric, evidentiality.*

Obilov Muzaffar Odiljon o'g'li
University of Business and Science Katta o'qituvchi, PhD.

ANGLO-AMERIKA AKADEMIK AN'ANALARIDA SUBYEKTIVLIK PARADIGMALARI

Annotatsiya. *Maqolada anglo-amerika akademik an'analarida subyektivlik paradigmalarining shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda akademik yozuvda muallif shaxsiyatini namoyon etish mexanizmlari, epistemik modallik, evidensiallik va interpersonal strategiyalar ko'rib chiqilgan. J.Martin, P.White, K.Hyland kabi olimlarning Baholash nazariyalari asosida subyektiv ifodalarning ritorik funksiyalari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *anglo-amerika an'analari, subyektivlik paradigmalari, Baholash nazariyasi, epistemik modallik, akademik ritorika, evidentsiallik.*

Обилов Музаффар Одилжон угли
University of Business and Science, Старший преподаватель, PhD.

ПАРАДИГМЫ СУБЪЕКТИВНОСТИ В АНГЛО-АМЕРИКАНСКИХ АКАДЕМИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЯХ

Аннотация. *В статье анализируется формирование и развитие парадигм субъективности в англо-американских академических традициях. В исследовании рассматриваются механизмы выражения авторской идентичности в академическом письме, эпистемическая модальность, эвиденциальность и интерперсональные стратегии. На основе теорий Оценки Дж.Мартина, П.Уайта и К.Хайланда анализируются риторические функции субъективных выражений.*

Ключевые слова: *англо-американские традиции, парадигмы субъективности, теория Оценки, эпистемическая модальность, академическая риторика, эвиденциальность.*

Introduction

Anglo-American academic traditions constitute the dominant paradigm of contemporary global scholarly discourse, and the issue of subjectivity assumes particular significance in this context. Historically, British and American academic writing traditions accepted objective and depersonalized scientific texts as the ideal, but fundamental shifts in attitudes toward subjectivity occurred in the late twentieth and early twenty-first centuries [2]. The subjectivity paradigm refers to the culturally and historically formed system of expressing authorial stance, indicating knowledge level, and establishing reader relationships in academic discourse.

In the Anglo-American academic context, subjectivity is not merely a linguistic phenomenon but a cultural phenomenon closely connected with epistemological and rhetorical traditions. D.Biber and S.Conrad, in their corpus studies, analyzed register variations in English academic writing and identified significant differences in levels of subjectivity across disciplines and genres [1]. These differences reflect not only the characteristics of the field but also the rhetorical norms of the Anglo-American academic community.

Literature Review

The Appraisal theory developed by J.Martin and P.White represents one of the most influential theoretical frameworks for studying subjectivity in Anglo-American academic discourse [5]. Appraisal theory distinguishes three main subsystems of evaluative language: Attitude, Engagement, and Graduation. The Attitude subsystem divides into categories of affect (emotion), judgement, and appreciation (evaluation). This system reveals the complexity and multifaceted nature of authorial evaluative stance in academic texts.

The Engagement subsystem encompasses mechanisms of dialogic expansion and dialogic contraction. Dialogic expansion operates through strategies that open space for alternative positions—hedging, acknowledging alternatives, entertaining possibilities . Dialogic contraction, conversely, strengthens the author's position and limits alternative views through proclaim, pronounce, and concur strategies. Finding balance between these two strategies represents an important skill in Anglo-American academic writing.

K.Hyland further developed the concept of metadiscourse, proposing five main categories of interactional metadiscourse: hedges, boosters, attitude markers, self-mentions, and engagement markers [3]. His extensive corpus research demonstrates that the frequency and strategies of using these categories vary significantly across disciplines. For instance, hedging occurs at considerably lower levels in natural sciences compared to humanities and social sciences.

G.Myers, analyzing academic writing from a rhetorical theory perspective, proposes the concept of scientific politeness [6]. According to him, hedging and other mitigation strategies serve not only as epistemic caution but as means of ensuring face-work and maintaining positive relationships within the academic community. Myers analyzed biology articles demonstrating how authors present their claims in forms acceptable to the scientific community.

S.Hunston and G.Thompson, in Evaluation theory, propose four parameters of evaluative devices in academic texts: status (source of knowledge), value (positive-negative evaluation), relevance (significance), and unexpectedness [4]. Through these parameters, authors express not only propositional information but their stance toward it. Evaluative devices constitute a fundamental component of academic argumentation, through which authors attempt to persuade readers.

C.Bazerman, within genre theory, analyzed the rhetorical structure of academic articles, demonstrating that subjectivity levels differ across sections . Subjective markers appear more frequently in introduction and discussion sections, less prominently in methodology and results sections. This distribution reflects the accepted balance of objectivity and subjectivity in Anglo-American academic traditions.

Research Methodology

The research was conducted based on corpus-linguistic, discourse-analysis, and genre-analysis methods. Two hundred academic articles from the Michigan Corpus of Upper-Level Student Papers (MICUSP) and British Academic Written English (BAWE) corpora were selected as empirical material. Articles belonged to four main disciplinary areas: humanities (literature, history—50 articles), social sciences (sociology, psychology—50 articles), natural sciences (biology, chemistry—50 articles), and technical sciences (engineering, computer science—50 articles). A balanced corpus totaling 650,000 words was compiled.

UAM CorpusTool, Sketch Engine, and AntConc software were employed for corpus analysis. UAM CorpusTool was particularly used for annotating Appraisal theory categories. The following methods were applied during analysis: quantitative corpus analysis (identifying frequency of subjectivity markers), Appraisal annotation (according to Martin and White's system), genre analysis (distribution across article sections), comparative analysis (differences between disciplines and corpora), and functional-rhetorical analysis (studying persuasive functions of subjective expressions).

Analysis and Results

According to research results, several important characteristics of subjectivity paradigms in Anglo-American academic traditions were identified. First, epistemic modality represents a central element of Anglo-American academic discourse. Epistemic modality serves as a means of expressing the author's confidence level regarding their claims and manifests through various linguistic devices . Corpus analysis revealed the following distribution of epistemic modality markers: modal verbs (may, might, could, would, should—42%), epistemic adverbials (probably, possibly, perhaps, apparently, presumably—28%), epistemic verbs (seem, appear, suggest, indicate, tend—19%), and epistemic adjectives (probable, possible, likely, unlikely—11%).

Epistemic modality shows significant variation across disciplines. In humanities, epistemic markers appeared on average once per 80 words, while in natural sciences they were observed once per 150 words. This difference relates to the epistemological nature of the field: interpretation and argumentation play the primary role in humanities, whereas empirical evidence dominates in natural sciences. In Anglo-American traditions, epistemic caution represents an important virtue of academic writing, and authors are expected to avoid excessive categoricity.

Evidentiality—strategies for indicating knowledge sources—constitutes another important paradigm of Anglo-American academic discourse. Evidential strategies perform two main functions: connecting authorial claims to accepted knowledge of the scientific community and strengthening the reliability of one's claims [7]. Corpus analysis identified the

following types of evidential strategies: direct reporting (Smith argues that, Jones claims that—35%), indirect reporting (research shows, studies indicate—28%), according to constructions (according to recent findings—22%), and integral citations (as noted by several scholars—15%).

In Anglo-American traditions, citation practices serve not only to convey propositional information but also as rhetorical strategy. Integral citations (author name incorporated into syntactic structure) perform discursive functions—introducing readers to scholarly debate, distinguishing positions. Non-integral citations (author name in parentheses) primarily serve information-giving functions. Integral citations predominate in humanities and social sciences, while non-integral citations dominate in natural sciences.

Analysis by Appraisal theory categories demonstrated that Appreciation (evaluating intellectual processes and outcomes) occupies a dominant position in Anglo-American academic discourse. Appreciation expressions constituted 68% of all evaluative expressions, Judgement (evaluating researchers' activities) 22%, and Affect (emotional attitude) only 10%. This distribution confirms the predominance of intellectual and rational evaluation in Anglo-American academic traditions. Appreciation markers such as significant, important, interesting, remarkable, and valuable possessed the highest frequency.

Analysis of Engagement strategies revealed that dialogic expansion strategies are used 2.5 times more frequently than dialogic contraction strategies in Anglo-American academic writing . This ratio reflects the open, pluralistic character of Anglo-American academic discourse, where respect for alternative positions and intellectual deliberation represent important values. Among dialogic expansion strategies, entertain (showing possibility through may, might, perhaps) was most widespread (45%), followed by attribute (citing other authors—32%), acknowledge (recognizing alternative views—15%), and distance (distancing from certain positions—8%).

Self-mention strategies (I, we, my, our) have undergone historical changes in Anglo-American academic writing. While passive voice and impersonal constructions were considered preferential in the 1980s-90s, first-person pronouns have become more accepted in contemporary traditions . However, their use remains regulated: corpus analysis showed "we" being used five times more frequently than "I." The predominance of "we" relates to several factors: prevalence of multi-authored articles, academic we (including author in academic community), and inclusive we (engaging reader) strategies.

Conclusion

Subjectivity in Anglo-American academic discourse represents a sophisticated and multifaceted phenomenon that transcends the simple objectivity-subjectivity dichotomy. Subjectivity is organized based on principles of epistemic caution, evidential transparency, rhetorical balance, and intellectual openness. These principles reflect the cultural values and epistemological beliefs of the Anglo-American scientific community. Subjectivity paradigms show significant variation across disciplines, although certain general tendencies exist. While epistemic modality, dialogic expansion strategies, and concession-counter rhetoric are present across all fields, their intensity differs. Humanities and social sciences employ more explicit subjectivity markers, whereas natural and technical sciences prefer relatively implicit strategies. These differences relate to the epistemological foundations and evidential methodologies of disciplinary fields.

References

1.Biber D., Conrad S. Register, Genre, and Style. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 344 p.

2.Harwood N. An interview-based study of the functions of citations in academic writing across two disciplines // Journal of Pragmatics. – 2009. – Vol. 41, No. 3. – P. 497-518.

3.Hyland K. Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing. – London: Longman, 2000. – 211 p.

4.Hunston S., Thompson G. Evaluation in Text: Authorial Stance and the Construction of Discourse. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – 227 p.

5.Martin J.R., White P.R.R. The Language of Evaluation: Appraisal in English. – London: Palgrave Macmillan, 2005. – 278 p.

6.Myers G. The pragmatics of politeness in scientific articles // Applied Linguistics. – 1989. – Vol. 10, No. 1. – P. 1-35.

7.Bazerman C. Shaping Written Knowledge: The Genre and Activity of the Experimental Article in Science. – Madison: University of Wisconsin Press, 1988. – 356 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Искандарова Нодира Бахрамбековна
доцент Университета Мамуна
E-mail: n.iskandarova7703@gmail.com

УДК 821.161.1.09

ПОЭТИКА ВОСТОЧНЫХ ОБРАЗОВ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ КЛАССИЧЕСКОГО ПЕРИОДА

Аннотация: *В статье рассматриваются особенности поэтики восточных образов в русской литературе классического периода XIX века. Восток осмысляется как художественная модель, формирующая систему мотивов, символов, персонажных типологий и выразительных средств. На основе поэтико-стилистического и имагологического подходов анализируются произведения А. С. Пушкина, М. Ю. Лермонтова и Л. Н. Толстого, в которых восточная тематика является смыслообразующей. Результаты исследования подтверждают, что восточные образы в русской классике функционируют как важный механизм художественного самопознания культуры и отражают сложный межкультурный диалог.*

Ключевые слова: *поэтика; восточные образы; восточные мотивы; образ Востока; ориентализм; русский ориентализм; художественная репрезентация; русская литература XIX века.*

Iskandarova Nodira Baxrambekovna
Ma’mun universiteti dotsenti

RUS ADABIYOTINING KLASSIK DAVRIDA SHARQONA OBRAZLAR POETIKASI

Annotatsiya: *Maqolada XIX asr rus adabiyotining klassik davrida sharqona obrazlar poetikasining o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Sharq motivlar, ramzlar, personajlar tipologiyasi hamda ifoda vositalari tizimini shakllantiruvchi badiiy model sifatida talqin etiladi. Poetik-stilistik va imagologik yondashuvlar asosida A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov hamda L. N. Tolstoyning sharq mavzusi mazmun yaratuvchi ahamiyat kasb etgan asarlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari rus klassikasida sharqona obrazlar madaniyatning badiiy o‘zini anglashida muhim mexanizm sifatida faoliyat yuritishini hamda murakkab madaniyatlararo muloqotni aks ettirishini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *poetika; sharqona obrazlar; sharqona motivlar; Sharq obrazi; orientalizm; rus orientalizmi; badiiy reprezentatsiya; XIX asr rus adabiyoti.*

Iskandarova Nodira Bakhrambekovna
Associate Professor, Mamun University

THE POETICS OF ORIENTAL IMAGERY IN RUSSIAN LITERATURE OF THE CLASSICAL PERIOD

Abstract*: The article examines the poetics of Oriental images in Russian classical literature of the 19th century. The East is interpreted as an artistic model shaping motifs, symbols, character types, and expressive means. Using poetic-stylistic and imagological approaches, the study analyzes works by A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov, and L. N. Tolstoy, where Oriental themes play a meaningful role. The findings confirm that Oriental imagery in Russian classics serves as a mechanism of cultural self-reflection and represents a complex intercultural dialogue.*

Keywords: *poetics; Oriental images; Oriental motifs; image of the East; Orientalism; Russian Orientalism; artistic representation; Russian literature of the 19th century.*

Введение

Восток на протяжении столетий занимал особое место в художественном сознании русской культуры. Его образ формировался под влиянием контактов России с восточными странами и творческого осмысления писателями. В классической литературе Восток предстает не только как пространство, но и как символически и философски насыщенный художественный образ. В произведениях А. С. Пушкина, М. Ю. Лермонтова, Л. Н.

Толстого и других авторов XIX века Восток выступает как пространство свободы и тайны, духовного поиска, а также как мир трагических противоречий и культурных столкновений. Актуальность темы связана с необходимостью глубже осмыслить взаимодействие русской и восточной культур и механизмы формирования образа Востока в русской классике. Несмотря на имеющиеся исследования, поэтика восточных образов остаётся недостаточно систематизированной и требует дальнейшего анализа. Цель статьи — выявить особенности этой поэтики, определить основные художественные приёмы и культурные смыслы, лежащие в основе её создания.

Обзор литературы

Изучение поэтики восточных образов в русской литературе XIX века развивается на стыке ориенталистики и постколониальных исследований, имагологии, историко-литературного анализа романтизма и реализма, а также поэтико-стилистического подхода. Ключевой теоретической рамкой выступает концепт ориентализма: в постколониальной традиции (Э. Саид) Восток понимается как дискурсивно сконструированный образ. Современные исследования уточняют применимость этой модели к русскому контексту, что отражено в работах А. И. Рейтблата о специфике «русского ори-ентализма» и в обзорах М.С.Чисталева о развитии самого концепта .

Важным инструментом анализа становится имагология, трактующая восточные образы как представления о «Другом» (И. И. Бурова) и развивающаяся в направлении «имагопоэтики» (М. Д. Бахарева) . Существенную основу дают коллективные труды о русско-восточных связях и «восточном тексте» русской культуры (ИМЛИ РАН) , а также иссле-дования П. В. Алексеева, раскрывающие ориентальный дискурс у классиков через мотивы, символику и композицию [1]. Современная литература по теме активно расширяется за счёт работ, сосредоточенных на языке и поэтике восточных мотивов у отдельных авторов русской классики. Примером является статья Г.-Р. А.-К. Гусейнова и А. Л. Мугумовой, где восточная тема у М. Ю. Лермонтова рассматривается как в культурологи-ческом (ориентализм), так и в собственно лингвостилистическом аспекте через анализ ориентальной лексики и её художественных функций .

В статье Д. Шадиевой восточная проблематика показана как важный фактор развития русской литературной традиции, особенно в начале XX века, что подчёркивает историческую преемственность ориентальных мотивов и их культурную обусловленность . При этом сохраняется потребность в системных работах, где восточная образность будет описана как целостная художественная система на материале ключевых писателей с разграничением романтической и реалистической стратегий.

Методы исследования

Методологическую основу статьи составляет комплексный подход, позволяющий рассматривать восточные образы в русской литературе XIX века как художественную модель, а не только как описание «чужого» мира. В работе применяются поэтико-стилистический анализ (выявление образных средств, символики, лексики и художественных приемов), имагологический подход (осмысление Востока как образа Другого), а также сравнительно-исторический метод, направленный на сопоставление романтической и реалистической традиций. Анализ проводится на нескольких уровнях: мотивном, персонажном, символическом, языковом и композиционном, что позволяет проследить функции Востока в тексте — от пространства свободы и испытания в романтизме до сферы нравственного выбора и психологической глубины в реализме.

Анализы и результаты

В данном исследовании «Восток» понимается широко — как система художественных представлений об «ином пространстве» и культурном опыте, включающая не только Персию, Османский мир и арабский Восток, но и Кавказ как «пограничный Восток» русской культуры XIX века. В литературе Кавказ выполняет функции «восточного текста», раскрывая мотивы испытания, свободы, плена и духовного выбора, при этом отличается большей психологической конкретностью и экзистенциальной напряжённостью.

Поэтика восточных образов рассматривается в статье как система уровней:

1) мотивный (плен/свобода, испытание, память);
2) образный и символический (ключевые знаки — фонтан, горы, путь);
3) лексико-стилистический (ориентальная лексика, метафора, интонация);
4) композиционный (легендарно-символическая или исповедальная форма, реалистическая событийность).

Проведённый анализ подтверждает, что «Восток» в русской литературе XIX века функционирует не как географическая справка и не как этнографическая зарисовка, а как смыслообразующий художественный центр, организующий конфликт, систему мотивов и эмоционально-философскую тональность произведения. В этом отношении продуктивной оказывается мысль Э. Саида о том, что «Восток» в литературе часто выступает как созданная культурой репрезентация — как «образ-идея», посредством которой автор осмысляет власть, страсть, свободу, судьбу и «инаковость» .

При этом русский «ориентальный текст» не сводится лишь к западному колониальному дискурсу: он одновременно выполняет поэтическую, этическую и экзистенциальную функции, становясь своеобразной «проверкой человека» в предельных обстоятельствах (любовь/ревность, плен/свобода, совесть/ответственность).

В «Бахчисарайском фонтане» (1823) А. С. Пушкина Восток моделируется как пространство, где трагедия любви приобретает легендарно-символическую форму . Центральный знак поэмы — фонтан — работает как художественный «мнемонический механизм»: личная история превращается в знак памяти, а чувство — в культурную легенду.

«Фонтан любви, фонтан живой!
Принёс я в дар тебе две розы.
Люблю немые разговоры
Твоей таинственной струи…»

На образно-мотивном уровне фонтан объединяет три ключевых смысловых поля: любовь (розы как символ чувства), память (вода как знак непрерывности времени), утрату (молчание как форма скорби). Пушкин не описывает Восток документально — он эстетизирует его, превращая предмет быта в знак культурной памяти. В этом проявляется закономерность, отмеченная в структурно-семиотическом подходе Ю. М. Лотмана: материальные объекты у Пушкина обретают статус смысловых «носителей».

В «Мцыри» (1839) М. Ю. Лермонтова Кавказ формируется как экзистенциальная география, где человек проверяет себя в предельной ситуации [6]. Это уже не легенда о любви, а исповедь о цене свободы. Ключевая оппозиция плен / свобода задаёт мотивную структуру и превращает пространство Востока в «мир истины».

«Я мало жил, и жил в плену.
Таких две жизни за одну,
Но только полную тревог,
Я променял бы, если б мог…»

Здесь Кавказ выступает как пространство онтологического выбора: монастырь становится символом несвободы, горы — символом подлинного бытия. Исповедальная форма поэмы делает Восток не фоном, а внутренним миром героя. Лермонтовская образность (буря, ночь, ущелья, борьба) усиливает мотив испытания личности и драматизм свободы как высшей ценности.

В реалистической прозе Толстого «восточное» утрачивает романтическую условность и становится сферой нравственного выбора и психологической достоверности. В «Кавказском пленнике» Восток — это жизненная среда, где раскрывается человеческое достоинство, и потому «другой» не представлен как экзотическая фигура, а мыслится как равноправный участник нравственной ситуации.

Показательно, что повествовательная оптика Толстого задаётся уже в экспозиции: «*На Кавказе тогда война была. По дорогам ни днём, ни ночью не было проезда*».

Нравственное измерение усиливается и в деталях поведения героя, где акцент переносится с «героического» на человеческое: «*…приехали в аул*».

4. Шишкина, И.В. Методика корректирующей работы при изучении падежной системы русского языка в полиэтнических группах подготовительных отделений вузов технического профиля: дис. ... канд. пед. наук / И.В. Шишкина. – М., 2004. – 223 с.

5. Максимова, А.Л. Корректировочный курс русской грамматики (30 уроков) / А.Л. Максимова. – СПб.: Златоуст, 2005 – 176 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Abdullayeva Dildoraxon Zumratbekovna
Andijon davlat universiteti professori, f. f. d. (DSc),
Madaminova Zebijahonbegim Xurshidjon qizi
Andijon davlat universiteti magistranti,
e-mail: khurmad@mail.ri

UDK. 821.161.1.0-313.1

"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONLARIDA FALSAFIY-AXLOQIY QADRIYATLAR

Annotatsiya: *Maqolada "Yusuf va Zulayho" dostonlaridagi Yusuf va Zulayho obrazlari qiyosiy-tipologik tahlil qilish orqali asarning axloqiy-ma'naviy hamda falsafiy-adabiy jihatlari o'rganilgan.* Yusuf va Zulayho mavzusining Sharq adabiyotida mashhur bo'lish sabablarini umumlashtirish orqali muhim xulosalarga kelingan.

Kalit so'zlar: *"Yusuf va Zulayho" dostoni, Yusuf timsoli, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, Zulayho obrazi, tasavvufiy-falsafiy mazmun, tasavvufiy qarashlar.*

Абдуллаева Дилдорахон Зумратбековна
Андижанский государственный университет, профессор, д.ф.н. (DSc),
Мадаминова Зебижахонбегим Хуршиджон кизи
Андижанский государственный университет, магистрант

ФИЛОСОФСКИЕ И МОРАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ В ПОЭМАХ "ЮСУФ И ЗУЛЕЙХА"

Аннотация: *Статья посвящена изучению морально-духовных и философско-литературных истоков произведения посредством сравнительно-типологического анализа образов Юсуфа, Зулейхи в эпических поэм "Юсуф и Зулейха". Выявлены возможности получения важных выводов путем обобщения процесса такого художественного развития темы Юсуфа и Зулейхи.*

Ключевые слова: *поэма "Юсуф и Зулейха", образ Юсуфа, социально-нравственные ценности, образ Зулейхи, мистико-философское содержание, мистические ценности.*

Abdullayeva Dildorakhon Zhumratbekovna
Andijan State University, professor, DSc.,
Madaminova Zebijakhonbegim Khurshidjon kizi
Andijan State University, master-student,

PHILOSOPHICAL AND MORAL VALUES IN THE EPIC POEM OF "YUSUF AND ZULAYKHA"

Annotation: *The article is devoted to the study of the moral-spiritual and philosophical-literary origins of the work through a comparative-typological analysis of the images of Yusuf and Zulaykha in the epic poem "Yusuf and Zulaykha". The possibilities of drawing important conclusions by generalizing the process of such artistic development of the theme of Yusuf and Zulaykha were identified.*

Key words: *The epic poem "Yusuf and Zulaykha", the image of Yusuf, socio-moral values, the image of Zulaykha, mystical-philosophical content, mystical values.*

Kirish

Sharq adabiyoti, xususan o'zbek adabiyoti tarixida "Yusuf va Zulayho" mavzusi juda mashhur bo'lgan. Bu syujet asosida xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham ko'plab asarlar yaratilgan. Sayyor syujet hisoblanuvchi "Yusuf va Zulayho" dostolarining har biri o'z o'rnida original, ya'ni mustaqil asar hisoblanadi. Har bir muallif ushbu qadimiy syujetni qalamga olar ekan, o'z davri muhiti va turli masalalarini badiiy tasvirlagan.

Adabiyotlar tahlili

Insoniyat tafakkuri va shuurining bemisl mahsuli bo‘lgan Yusuf payg‘ambar haqida yaratilgan badiiy asarlar, qissa va dostonlar har bir davr uchun muhim ma’naviy boylik hisoblanadi . Bunday asarlarning tili, go‘yaviy-badiiy va qiyosiy-tipologik xususiyatlari, ulardagi timsollar va obrazlar bizga doimo o‘tmishdan o‘gitlar va kelajak haqida bashorat qilmoqchiday tuyuladi .

Bundan tashqari, ming yillar mobaynida payg‘ambarlar haqidagi ma’lumotlar faqat ilohiy kitoblardagina qolib ketmasdan, balki bunday ibratli lavhalar axloqiy-ta’limiy asarlar syujetining ko‘rkam namunasi sifatida insonlar qalbi orqali xalq og‘zaki ijodi hamda yozma badiiy adabiyotga chuqur kirib borib, o‘z aks-sadosini bergan. Keyinchalik mazkur aks-sado ilhom sarchashmasi bo‘lib, xalq og’zaki ijodi va yozma badiiy adabiyotda yangidan-yangi badiiy asarlarning yaratilishi uchun g‘oyaviy-ma’naviy manba bo‘lib xizmat qilgan .

Har bir qissa, har bir doston o‘ziga xos bir san’at, ular nafaqat bizga axloqiy-ta’limiy, ma’naviy-ruhiy jihatdan dars beradi, balki asarlar o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy ahvolini, xalqning adabiyotga, she’riyatga munosabati, ularning ma’naviy yetukligi, diniy qarashlari, turmush tarzi va qadriyatlari, o‘zaro aloqa-munosabatlari kabi turli masalalar haqida ma’lumotga ega bo‘lishimizga yordam beradi. Har bir asar nafaqat o’zi yaratilgan davr haqida, balki muallifi haqida ham qimmatli ma’lumotlar bera oladi. Boshqa adabiy asarlar singari Yusufnomalarning mualliflari haqidagi talay ma’lumotlar ularning o‘z asarlaridan topilgan .

“Yusuf va Zulayho” dostonlari Sharq xalqlari adabiyotida diniy-ma’naviy ildizlarga boy bo‘lgan eng mashhur syujet hisoblanadi. Uning asl manbalari -muqaddas kitoblar Tavrot, Injil, Qur’oni karim hisoblanadi .

Tadqiqot metodologiyasi

Ilohiy manbalardan ilhomlanib yaratilgan Sharq adabiyoti namunalarida Yusuf obrazi poklik, sabr, halollik, adolat, ilohiy nur va komillik timsoli sifatida tasvirlanadi. “Yusuf va Zulayho” dostonlarining turli variantlarida Yusuf obrazining mohiyati o‘zgarmagan bo‘lsa-da, uning badiiy va g‘oyaviy talqini mualliflar dunyoqarashi va adabiy-estetik qarashlariga ko‘ra farqlanadi. Har bir muallif Yusuf obrazi orqali axloqiy va ma’naviy yetuklik g‘oyasini ilgari suradi, biroq ularni tasvirlash usuli va ta’sir doirasi turlicha [3].

Turkiy “Yusuf va Zulayho” dostoni [4]da Yusuf obrazi real hayotiy voqealarga yaqinlashtirilgan holda tasvirlanadi (ko’p hollarda Durbekka nisbat beriluvchi, biroq muallifi munozarali bo’lganligi uchun maqola mualliflari keyingi o’rinlarda “turkiy” doston deyishni afzal bilishdi). Unda Yusuf sabr-toqatli, halol, fidoyi, oilasiga sadoqatli, vatanparvar, irodali shaxs sifatida gavdalanadi. U Zulayhoning tuhmatiga uchraydi, zindonga tashlanadi, biroq adolat va halollikdan chekinmaydi. Yusuf qiyinchiliklarga sabr bilan chidaydi, bu orqali insonning har qanday og‘ir vaziyatda o‘z axloqiy prinsiplariga sodiq qolishi mumkinligini namoyon etadi. U tush ta’bir qilishdagi donoligi bilan Misr podshohining e’tiborini qozonadi va mamlakat boshqaruviga ko‘tariladi. Shu orqali Yusuf timsolida rahbarlik fazilatlari, donolik, xalqparvarlik, kechirimlilik kabi ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar ilgari suriladi.

Jomiy esa Yusuf obrazini chuqur tasavvufiy-falsafiy mazmun bilan boyitadi. Uning asarida Yusuf nafaqat insoniy fazilatlar, balki ilohiy haqiqatning ramzidir. U Allohning nuri sifatida tasvirlanadi. Zulayhoning unga bo’lgan muhabbati aslida ilohiy haqiqatga yetishish yo’lidagi ruhiy intilish sifatida talqin qilinadi. Yusufning har bir harakati - sabr qilishi, haromdan tiyilishi, zindonda ham haqiqatdan chekinmasligi - tasavvufda talab etiladigan nafsni tiyish, ilohiy nurga sodiqlik, ruhiy poklik kabi ma’naviy normalarni aks ettiradi. Jomiy o‘z dostonida Yusuf obrazini “ishq yo‘lidagi yetuk orif” darajasiga ko‘taradi.

Tahlil va natijalar

Shunday qilib, har ikkala doston mualliflari Yusuf obrazini axloqiy-ruhiy yetuklik namunasi sifatida talqin qiladi. Turkiy “Yusuf va Zulayho” dostonidagi bu obraz orqali ijtimoiy hayotda halollik, sabr, fidoyilik kabi qadriyatlarni targ‘ib etilsa, Abdurahmon Jomiy Yusuf timsoli orqali ruhiy poklik, ilohiy haqiqatga sadoqat, ishqning ma’naviy darajasi kabi tasavvufiy qadriyatlarni ilgari suradi. Bu obraz ikki turli g‘oyaviy kontekstda - biri dunyoviy-insoniy, ikkinchisi ruhiy-ilohiy-yoritilishi bilan o‘zbek va fors-tojik adabiyotida badiiy tafakkurning qamrovini namoyon etadi.

“Yusuf va Zulayho” dostonlarining yakuniy xulosalari asarlarning asosiy g‘oyasi, diniy-falsafiy mazmuni va axloqiy tamoyillarini yakunlovchi muhim qism bo‘lib xizmat qiladi. Har ikki asarda - turkiy dostonda va Abdurahmon Jomiy tomonidan yozilgan variantda - voqealar farqli tarzda yakunlansa-da, ularning har biri o‘ziga xos falsafiy-axloqiy xulosalarni beradi. Bu xulosalar orqali mualliflar o‘quvchini sabr, sadoqat, halollik, poklanish, ruhiy yuksalish va muhabbatning yuksak mohiyatini anglashga undaydi.

Turkiy doston an’anaviy epik tuzilishga ega bo‘lib, unda Yusuf Zulayhoni kechiradi, unga uylanadi, oilaviy baxtga erishadi va Misrni adolat bilan boshqaradi. Dostonning bu yakuni orqali kechirimlilik, halollik, axloqiy komillik va rahbarlik donoligi kabi qadriyatlar targ‘ib qilinadi. Yusuf unga yomonlik qilgan akalarini ham kechiradi, ularni jazolash o‘rniga mehr-muruvvat bilan muomala qiladi. Bu holat muallif insonga xos eng oliy fazilatlar - sabr-toqat, kechirish, rahmdillik, fidoyilik kabi g‘oyalarni ilgari suradi. Zulayho esa nihoyat o‘z sevgisiga yetishadi, ammo bu muhabbat orqali u komillikka yetgan, o‘zini anglagan ayol sifatida tasvirlanadi. Asarning xulosasi xalqona, hayotiy ruhda yozilgan bo‘lib, oddiy o‘quvchining ma’naviy tarbiyasiga xizmat qiluvchi yo‘nalishga ega .

Jomiy dostoni esa mutlaqo boshqa darajadagi - tasavvufiy-falsafiy mazmun bilan yo‘g‘rilgan [8]. Asarning yakunida Yusuf ilohiy nur darajasiga ko‘tariladi, Zulayho esa o‘z hirsini yengib, ruhiy yuksalishga erishgan orifga aylanadi. Uning ishqi “ishq-i majoziy”dan “ishq-i haqiqiy”ga aylanib, oxir-oqibat Allohga yetishish vositasiga aylanadi. Bu orqali Jomiy nafsni yengish, ruhiy poklanish, Allohga sodiqlik, fano va baqo, taslim bo‘lish kabi tasavvufiy qadriyatlarni ilgari suradi. Doston yakunida Zulayho va Yusuf o‘rtasidagi muhabbat ramz darajasiga ko‘tarilib, u orqali insonning ilohiy haqiqatga yetishishi aks ettiriladi .

Shu o‘rinda dostonlarda Yusuf obrazi bilan birga tavsiflanuvchi Zulayho obrazi orqali axloqiy-falsafiy qarashlarning tadriji haqida ham so‘z yuritishni o‘rinli deb hisoblaymiz. “Yusuf va Zulayho” dostonlarida Zulayho obrazi ishq yo‘lida ruhiy o‘zgarish va komillik sari intilayotgan ayol timsolida tasvirlanadi. Har ikki doston variantlarida bu obraz bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlanadi, lekin har ikkala doston orqali mualliflar muayyan g‘oyaviy-axloqiy qadriyatlarni taranum qilishga muvaffaq bo‘lishgan. Zulayho obrazining murakkabligi va xarakteridagi yuksak insoniy fazilatlarning bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlanishi uni Sharq adabiyotidagi eng kuchli ayol obrazlaridan biriga aylantiradi .

Turkiy dostonda Zulayho obrazi birinchi navbatda tashqi go‘zallik va jismoniy muhabbatga berilgan ayol sifatida paydo bo‘ladi. U Yusufni tushida ko‘rib, uning go‘zal jamoliga oshiq bo‘ladi, uni sevib qoladi. Uning sevgisi dastlab ehtiros, so‘ng esa hasrat va sabr-toqatga aylanadi. U Yusufni o‘ziga rom etishga urinadi, biroq Yusufning pokligi va sabr-toqati bu Zulayhoning bu kabi maqsadlarni amalga oshishiga yo‘l qo‘ymaydi . Natijada alamzada Zulayho Yusufga tuhmat qiladi, biroq bu tuhmat oxir-oqibat uning o‘ziga iztirob olib keladi. Bu bosqichda Zulayho obrazi orqali muallif nafsga berilish, qonun-qoidalarni buzish, hissiy ekstremizm kabi illatlarni tasvirlaydi .

Keyingi bosqichda Zulayho Yusufdan ayrilgach, o‘z muhabbatini chuqur his qilib iztirob chekadi, ichki poklanishga yo‘l oladi. U Yusufga bo‘lgan tuyg‘ularini tan oladi, tavba qiladi, hatto ruhiy jihatdan yangilanish sari yo‘naladi. Doston yakunida Zulayho Yusuf bilan oila quradi, ya’ni uning muhabbati yakuniga yetadi. Bu orqali muallif sadoqat, chin muhabbat, poklanish va kechirim kabi ahloqiy sifatlarni ilgari suradi. Zulayho o‘z xatolarini tushunib, ruhiy yuksalishga erishadi. Uning muhabbati ehtirosdan sadoqatga, nafsdan vafoga, tuhmatdan izzatga o‘sib boradi .

Jomiy dostonida esa Zulayho ancha murakkab va ramziy obraz sifatida tasvirlanadi. Bu asarda u nafaqat ayol obrazi, balki tasavvufiy ramz sifatida ham talqin qilinadi. Doston boshida Zulayho Yusufni jismonan sevuvchi ayol sifatida ko‘rinadi. Ammo bu muhabbat, Jomiyning tasavvufiy qarashlariga ko‘ra, ilohiy nur sari intilishning ibtidosidir . Zulayho Yusufga oshufta bo‘lish orqali aslida Allohni izlaydi. U nafs istaklaridan voz kechadi, Yusufga yetolmasligini tushunadi va bu yo‘ldagi azob-uqubatlar orqali komillikka erishadi. Asarning yakunida Zulayho Allohga yaqinlashgan, ruhiy jihatdan yuksalgan orif darajasiga yetadi .

Abdurahmon Jomiy Zulayho obrazini tasvirlar ekan, tasavvufda “ishq-i majoziy” orqali “ishq-i haqiqiy”ga (ilohiy muhabbat) yetishish g‘oyasini ilgari suradi. Zulayho bu jarayonning tipik namunasi sifatida ko‘rsatiladi: u nafs istagini yengadi, sabr qiladi, poklanadi va ilohiy haqiqatni anglaydi .

Demak, Zulayho obrazi har ikki dostonning g‘oyaviy tuzilmasida o‘zgaruvchan, dinamik obraz bo‘lib, dastlab ehtirosli, biroq keyinchalik komillikka intiluvchi ayol timsolida namoyon bo‘ladi. Turkiy “Yusuf va Zulayho” dostonida u insoniy his-tuyg‘ularning sadoqat bilan tozalangan shaklini ifodalasa, Abdurahmon Jomiy asarida Zulayho ruhiy sayr va ma’naviy yuksalish yo‘lini bosib o‘tuvchi orif sifatida gavdalanadi. Bu ikki xulosa Sharq adabiyotidagi ikki asosiy g‘oyaviy yo‘nalishni - bir tomondan hayotiy-axloqiy realizmni, boshqa tomondan esa ruhiy-falsafiy idealizmni (Jomiy) ifodalaydi. Turkiy “Yusuf va Zulayho” dostonida muallifning hayotiy saboqlari o‘quvchini axloqiy qadriyatlar sari yetaklasa, Jomiy o‘quvchini ma’rifiy yuksalish sari yo‘naltiradi.

Xulosa

Demak, turkiy “Yusuf va Zulayho” dostoni insoniy axloqiy fazilatlarning g‘alabasini, Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub asar esa ruhiy kamolot va ilohiy ishqqa yetishishning mukammal bosqichini ifodalaydi. Har ikkala doston ham o‘z davri va badiiy maqsadiga muvofiq tarzda o‘quvchining ongida poklik, sabr, kechirim, sadoqat va yuksak muhabbatga asoslangan axloqiy-falsafiy qadriyatlarni shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar Yusuf va Zulayho mavzusining badiiy ishlanish jarayonini kuzatish asosida sayyor syujet genezisiga xos qiyosiy-tipologik xususiyatlarni oydinlashtirish hamda umumlashtirish zamirida ma’lum nazariy xulosalarga kelish imkoniyatini kengaytiradi. Shu sababli, ulardan o‘zbek mumtoz adabiyotining ilmiy tarixini yaratishda, badiiy adabiyot ta’limi mazmunini yanada teranlashtirishda, oliy va o‘rta umumta’lim maktablari, akademik litseylar uchun o‘zbek adabiyoti tarixi fani bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratish, tavsiyanomalar ishlab chiqishda, maxsus kurslar o‘qitishda, g‘oyaviy-axloqiy, mafkuraviy tashviqot va targ‘ibot ishlarida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Abdullayeva D.Z. Alisher Navoiy ijodida “Yusuf va Zulayho” mavzusi. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari. Halqaro konferensiya materiallari, 2023. V. 4, №1, -PP. 134.

2. Babadjanova N. Yusuf va Zulayho dostoni syujetining genezisi va badiiy evolyutsiyasi. - Toshkent: Fan, 2024, - 236 b.
3. Alibekova R. “Yusuf va Zulayho” dostonlarida obraz yaratish uslubi. - Toshkent: Navro‘z, 2016. - 152 b.
4. Durbek. Yusuf va Zulayho. - Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959. - 160 b.
5. Ismoilov H. O‘zbek adabiyotida tasavvufiy obrazlar va mafkura. - Toshkent: Universitet, 2017. - 176 b.
6. Jomiy A. Yusuf va Zulayho. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1977. - 215 b.
7. Karimov B. Sharq mumtoz adabiyotida ramziy va allegorik obrazlar. - Toshkent: Muharrir, 2018. - 204 b.
8. Elboyev V. Manuscripts of the Poem “Yusuf and Zuleykha” and their State. “University Bulletin”. Tajik State Pedagogical University named after Sadriddin Aini (TSPU). - 2014. - №4. - PP. 319-324.
9. Элбоев В. Қиссаи “Юсуфу Зулайхо” дар адабиёти форси тоҷикии асрҳои X-XV (масъалаи гузариши мазмунҳова образҳои динӣ ба адабиёти бадеӣ). -Душанбе: Дониш, 2015. - С. 320.
10. Пригарина Н.И. Красота Йусуфа в зеркалах персидской поэзии и миниатюрной живописи // Пригарина Н.И. Мир поэта – мир поэзии. Статьи и эссе. - М.: Институт востоковедения РАН, 2012. - С. 225.
11. Рейснер М.Л. Коранespecиская история Йусуфа в персидской поэтической классике X-XV веков (лирический мотив и романический сюжет). Вестн. Моск. Ун-та. Сер. 13. Востоковедение. 2014. № 4. – С. 4-16.
12. Самойлович А.Н. К какой из турецких литератур относится роман XIII века “Иосиф и Зулейха”? Тюркское языкознание. Филология. Сост. и отв. ред. Г.Ф. Благова, Д.М. Насилов. М.: “Восточная литература”. - 2005.- С. 371.
13. Yormatova D. Yusuf va Zulayho (nasriy bayon). - Toshkent: Navro‘z. - 2014. -192 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: mamadaliyev_m@umail.uz

AN'ANALAR: ETNIK XOTIRA, AXLOQIY MADANIYAT VA IJTIMOIY UZLUKSIZLIK MEXANIZMI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada an'analar fenomeni etnik jamoalarning tarixiy xotirasi, axloqiy madaniyatning shakllanishi hamda ijtimoiy uzluksizlikni ta'minlovchi mexanizm sifatida tahlil qilinadi. An'analarning ijtimoiy institut sifatidagi funksiyalari, ularning rivojlanishdagi dialektik o'rni, milliy o'zlik va ma'naviy madaniyatga ta'siri, shuningdek, zamonaviy jamiyatda an'anaviy va innovatsion jarayonlarning o'zaro aloqasi ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *An'ana, axloqiy madaniyat, etnik identifikatsiya, uzluksizlik, meros, ijtimoiy institut.*

Мамадалиев Мансуржон Мамажонович
Независимый исследователь Самаркандского государственного института иностранных языков

ТРАДИЦИИ: ЭТНИЧЕСКАЯ ПАМЯТЬ, МОРАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА И МЕХАНИЗМ СОЦИАЛЬНОЙ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ

Аннотация: *В данной статье анализируется феномен традиций как механизма исторической памяти этнических общин, формирования нравственной культуры и обеспечения социальной преемственности. Научно исследуются функции традиций как социального института, их диалектическая роль в развитии, их влияние на национальную идентичность и духовную культуру, а также взаимодействие традиционных и инновационных процессов в современном обществе.*

Ключевые слова: *Традиция, нравственная культура, этническая идентичность, преемственность, наследие, социальный институт.*

Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich
Independent researcher at the Samarkand State Institute of Foreign Languages

TRADITIONS: ETHNIC MEMORY, MORAL CULTURE AND A MECHANISM OF SOCIAL CONTINUITY

Abstract: *This article analyzes the phenomenon of traditions as a mechanism for the historical memory of ethnic communities, the formation of moral culture, and ensuring social continuity. The functions of traditions as a social institution, their dialectical role in development, their impact on national identity and spiritual culture, as well as the interaction of traditional and innovative processes in modern society are scientifically examined.*

Keywords: *Tradition, moral culture, ethnic identity, continuity, heritage, social institution.*

Kirish

An'ana insoniyat madaniyati va ijtimoiy hayotining eng qadimiy, eng barqaror va eng muhim unsurlaridan biridir. U faqat ma'lum marosimlar, urf-odatlar yoki odatlar yig'indisi bo'lib qolmay, balki jamiyatning umumiy hayot tarzi, axloqiy me'yorlari, qadriyatlari, tarixiy tajribasi va ma'naviy xotirasini mujassam etadi. An'analar xalqning ijtimoiy taraqqiyoti jarayonida shakllanib, avlodlar o'rtasidagi uzluksizlikni ta'minlaydi va yangi tarixiy bosqichlarda qayta mazmun kasb etadi.Qaysi bir urf-odat va an'anani, udum yokimarosimni ularning kelib chiqish sabablarini o'rganmasdan turib qaraydiganbo'lsak, ular bir qarashda, ma'nisiz, bo'lib ko'rinadi. Aslida esa ularning barchasikelib chiqishi bo'yicha xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy faoliyati natijasidavujudga kelgan va ularning ma'lum moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishuchun xizmat qilgan.

Ushbu maqola an'analarning shakllanish tabiati, ijtimoiy vazifalari, axloqiy madaniyatdagi o'rni hamda etnik o'zlikni belgilovchi hodisa sifatidagi mohiyatini tahlil etishga bag'ishlanadi.

Jahonda millat-elat va xalqlarning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotga xizmat qilgan an'analari yosh avlodning axloqiy-estetik kamolotini mezonini belgilab, unga nisbatan ong, madaniyat va amaliyot falsafasining obyekti sifatida qarashlar ustuvorligini saqlab qolmoqda. Tarixan shakllangan milliy urf-odatlar va an'analar, bir tomondan, butun ijtimoiy

munosabatlar tizimining ta'siri ostida yangi mazmun bilan boyitsa, boshqa tomondan, dunyo xalqlari uchun yangi, umuminsoniy, xalqaro darajadagi urf-odatlar paydo bo'lmoqda. Milliy an'analarning transformatsion xususiyati va etnik an'analarning millatlararo munosabatlarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari to'liq o'rganilmagan. Bu esa xalq axloqiy-estetik an'analarining jamiyatdagi ta'sirini falsafiy tadqiq etishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida an'analar ijtimoiy-madaniy hayotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllanib, insoniyatning tarixiy tajribasi va ma'naviy merosini o'zida mujassamlashtiradi. An'analar millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga keladi. Ular avlodlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlovchi, jamiyatning ichki barqarorligini mustahkamlovchi va milliy o'zlikni saqlab qoluvchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois an'analarning mohiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning shakllanish mexanizmini aniqlash ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va etnologiya uchun dolzarb masalalardan biridir.

"An'ana – o'tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyat. An'analar ijtimoiy jarayonlarning tarixiy uzviyligini bog'lashga xizmat qiladi" [4, 22]. An'ana tushunchasi odatda jamiyatda uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlar, qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlari va ijtimoiy tajribalar majmuasini anglatadi. Urf – odat va marosimlar tizimi, xalqning bir qancha yuz yillar davomida tarbiya sohasida amalga oshirib kelayotgan izlanishlari mahsulidir. Bu tizim yordamida har bir xalq o'zining ma'naviy madaniyatini, turmush tarzini, psixologiyasini, his-tuyg'ularini avloddan – avlodga o'tkazib, namoyon etib kelgan va hozirda ham, kelajakda ham bu jarayon davom etaveradi [5, 53]. Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, an'analar jamiyatning ma'naviy hayotini tartibga soluvchi normativ tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ular inson faoliyatining ma'lum yo'nalishlarini belgilab, ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ijtimoiy hayotni tartibga solinishi odatlar, marosimlar, jamoatchilik fikri, urf-odatlar, urug' yoki qabila yetakchilarining axloqiy obro'si va jamiyat a'zolarining umumiy manfaatlari bilan bilan ta'minlanganligini ko'rishimiz mumkin. An'analarning shakllanishi tabiiy va tarixiy jarayon bo'lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi insonlarning ongli ravishda o'z faoliyatlarida ma'lum axloqiy me'yorlarni mustahkamlashga va ularga qat'iy amal qilishga intilishlari bilan izohlanadi.Jamiyatda har doim an'analar tizimiga ehtiyoj bo'lib, unda axloqiy me'yorlarning o'rnatilgan va tasdiqlangan shakllari odamlar turmush tarziga mujassam bo'lgan. Shuningdek, an'analarning shakllanishi murakkab, ko'p bosqichli ijtimoiy jarayon bo'lib, u tarixiy tajriba, ijtimoiy ehtiyoj va madaniy muhit bilan uzviy bog'liqdir. Dastlab, muayyan ijtimoiy vaziyatda yuzaga kelgan xatti-harakat yoki odat jamiyat a'zolari tomonidan takrorlanadi. Ushbu takrorlanish jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etib, keng omma tomonidan qabul qilingach, u barqaror urf-odatga aylanadi. Vaqt o'tishi bilan esa mazkur urf-odat an'ana sifatida mustahkamlanadi.

An'analarning mohiyati, avvalo, ularning qadriyatli xarakterida namoyon bo'ladi.Har bir an'ana jamiyat tomonidan ma'qullangan axloqiy, estetik yoki ijtimoiy me'yorlarga tayangan holda shakllanadi. An'analarni shakllantirish uchun inson faoliyatining takroriy shakllari an'anaviy xususiyatga ega bo'lgan ma'lum bir o'ziga xos tarixiy davr kerak. Ular avloddan-avlodga o'tib, oila, jamoa va jamiyat uchun zarur bo'lgan odatlarni tarbiyalagan hamda odamlar xatti-harakatining o'ziga xos tartibga soluvchisi sifatida harakat qilgan. Masalan, keksa avlodga bo'lgan hurmat, mehmondo'stlik, o'zaro hamjihatlik kabi qadriyatlar ko'plab jamiyatlarda an'ana sifatida mustahkam o'rin egallagan. Bu holat an'analarning jamiyat ma'naviy hayotida tartibga soluvchi va tarbiyaviy funksiyani bajarishini ko'rsatadi.

"An'ana" tushunchasini qisqacha ifodalash qiyin, sababi ular juda ko'p qirralar va xususiyatga ega jarayondir. I.V.Suxanovning ta'kidlashicha: "Rivojlangan urf-odat va an'analarning eng samarali jihati ularning marosim tomonidir…Urf-odat va an'analarning boshqa barcha tarkibiy qismlari jamiyat va shaxsiy hayotda ozmi-ko'pmi mustahkam o'rin egallagandagina marosim shakli vujudga keladi. Marosim har doim inson hayotidagi burilish nuqtalari bilan bog'liq bo'lib, u inson uchun muhim bo'lgan ma'lum bir ijtimoiy aloqani o'rnatish, o'zgartirish yoki tugatish natijasida yuzaga keladigan fikr va his-tuyg'ularni to'playdi" [6, 39-40]. An'analarning shakllanish mexanizmida ijtimoiy institutlarning roli alohida ahamiyatga ega. Oila an'analarning avloddan-avlodga o'tishini ta'minlovchi asosiy institut hisoblanadi. Ota-onalar tomonidan farzandlarga singdiriladigan qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlari an'analar davomiyligini ta'minlaydi. Shuningdek, mahalla, ta'lim tizimi, diniy tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari ham an'analarni mustahkamlash va targ'ib etishda muhim funksiyani bajaradi.

An'analar jamiyat taraqqiyotiga nisbatan ikki xil funksiyani bajarishi mumkin. Bir tomondan, ular jamiyat barqarorligini saqlab, ijtimoiy munosabatlarda uzluksizlikni ta'minlaydi. Ikkinchi tomondan, zamon talablari bilan mos kelmaydigan ayrim an'analar ijtimoiy rivojlanishga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli an'analar doimiy ravishda yangilanish va qayta talqin etilish jarayonini boshdan kechiradi. Rivojlanish jamiyatning modernizatsiyasi va globallashuv sharoitida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Rivojlanish – o'tmishdan hozirgi kunga va hozirgi kundan kelajakka yo'naltirilgan o'zgarishdir.

An'analarning jamiyatdagi vazifalari ko'p qirrali bo'lib, ular tartibga soluvchi, barqarorlashtiruvchi, tarbiyaviy, identifikatsiya funksiyalarni o'z ichiga qamrab olib, jamiyatning ma'naviy asosini tashkil etuvchi qadriyatlar, me'yorlar va

xulqiy andozalar majmui bo‘lib hisoblanadigan axloqiy an’analar orqali namoyon bo‘ladi.Har bir avlod oldingilarining axloqiy merosidan foydalanadi. Bu jarayon ikki bosqichdan, ya’ni birinchidan — avlodlar tajribasini qabul qilish**(reproduksiya)**, ikkinchidan — yangi tarixiy sharoitga mos ravishda an’analarni qayta mazmunlashdan**(inkor va inkorni inkor qilish)** iboratdir. Hegel izohlaganidek, har bir yangi bosqich avvalgisini inkor etadi, lekin uning asosiy “ijobiy mazmuni”ni saqlab qoladi. Shu bois an’analarkonservativ emas,balki dinamik, o‘zgaruvchan tizimdir.

An’ana - jamiyat tajribasining avloddan-avlodga o‘tib borish mexanizmi. Uning shakllanishi tabiiy-tarixiy jarayon bo‘lib, insonlarning bir xil vaziyatlarda yuzaga keladigan xatti-harakatlarini takrorlash natijasida yuzaga keladi. An’analar axloqiy me’yorlarning saqlanishi, jamoaviy tajribani mustahkamlash, ijtimoiy tartibni ta’minlash kabi funksiyalarni bajaradi. Ular odatlar, marosimlar, tasavvurlar va qadriyatlar tizimi orqali jamiyatning ijtimoiy xotirasini shakllantiradi. Shu bilan birgalikda, an’analarning paydo bo‘lishida ijtimoiy omillar bilan bir qatorda fiziologik mexanizmlar - odatlar, ko‘nikmalar va his-tuyg‘ular ham muhim rol o‘ynaydi. Ko‘nikmalarning shakllanishi “dinamik stereotiplar” mexanizmi asosida kechadi, bu esa an’analarning barqarorligiga xizmat qiladi.

An’ana haqida so‘z yuritganda, uning mustahkam tarixiy asosga asoslangan asosiy tamoyilga tayanamiz. Bu tamoyil tarixga qarama-qarshi emas, baliki u bilan chambarchas bog‘liqlik tushunchasidan vujudga keladi. An’analarga ushbu nuqtai nazardan yondashuv o‘tmishdagi tarixiy voqelik va zamonaviy ong o‘rtasidagi zaruriy bog‘liqlikni o‘rnatadi hamda bu jihatlarni axloqiy amaliyotda obyektiv va subyektiv kesishish nuqtasida bog‘laydi. O‘tmishga qaratilgan nigoh zamonaviy tarixiy faoliyat va baholovchi tafakkurni solishtirish usuli qarama-qarshiliklarni paydo bo‘lishiga emas, balki tarixiy jarayonga yangi, konstruktiv hamda faol munosabatlarning rivojlanishiga olib keladi. Zamonaviy tarixiy tafakkur tizimidagi o‘z o‘rnini aniqlash va anglash faoliyatning chegaralari va shartlarini aniqlashga imkon beradi, o‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasidagi samarali o‘zaro aloqani o‘rnatishga zamin yaratadi.

Xalqlarning shakllangan urf-odatlari va an’analari jamiyat va har bir shaxsning ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qilib, axloqiy-ma’naviy kamolotini shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, o‘tmishdagi axloqiy madaniyatning ta’siri va hozirgi zamon axloqining shakllanishi o‘zaro bog‘liqdir. O‘tmishda vujudga kelgan xalq urf-odatlari va an’analari, bir tomondan, butun ijtimoiy munosabatlar tizimi ta’sirida yangi mazmun bilan boyitilsa, ikkinchi tomondan, barcha xalqlar uchun umumiy bo‘lgan yangi umuminsoniy odat va an’analarni shakllanishiga olib keladi. Ilg‘or milliy urf-odat va an’analar millat vakillari o‘rtasida o‘zaro tushunishga erishish uchun rivojlantirilishi lozim bo‘lgan umuminsoniy xususiyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Milliy an’analarning o‘zgaruvchanligi va millatlararo an’analarning rivojlanishi umumiy qonuniyatdir. An’anaga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar qayerda va qachon paydo bo‘lishi va mavjudligidan qat’iy nazar umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lib, ijtimoiy-madaniy hodisaning mohiyatini ifodalaydi.

Haqiqatda, barcha milliy axloqiy madaniyatlar zamirida umuminsoniy mazmun unsurlari mavjud bo‘lib, hayot qonuni sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Axloqiy madaniyatdagi integratsiyalashuv jamiyat taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyati hisoblanib, milliy axloqiy madaniyatlarning o‘zaro boyib borishini ta’minlaydi. Har bir xalqning jahon tarixiy axloqiy jarayonga qo‘shilish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning umuminsoniy salohiyati, demakki, jahon axloqiy madaniyatiga qo‘shgan hissasi shunchalik boy bo‘ladi. R. Togor ta’kidlaganidek, “Har bir xalqning burchi — o‘z milliy mohiyatini dunyoga ochib berishdir. Agar biror xalq dunyoga hech narsa bermagan bo‘lsa, bunga milliy jinoyat, to‘g‘rirog‘i, o‘limdan ham battar hodisa sifatida qaralmog‘i lozim va buni insoniyat tarixi hech qachon kechirmaydi. Millat o‘zida mavjud bo‘lgan eng yaxshi narsalarni umuminsoniy etishi kerak” [7, 29].

Bugungi zamonda an’analar etnik guruhlarning turmush tarzi, tabiiy-iqlim sharoitlari, iqtisodiy faoliyati va madaniy an’analari bilan bog‘liq holda shakllanmoqda. Globallashuv va axborot texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi va har bir xalqning turmush tarziga, dunyoqarashiga chuqur kirib borish jarayonlari milliy an’analarning mazmun-mohiyati va shakliga ham ta’sir etmoqda. Har bir xalqni millat sifatida sivilizatsiyalar zanjirida o‘z o‘rniga ega bo‘lishida milliy an’analar, urf-odatlar, marosimlar, milliy qadriyatlarning ahamiyati beqiyosdir.Shu nuqtai nazardan an’analarhar bir xalqni millat sifatida jahonga namoyon etadigan, buyuk maqsadlarga safarbar etadigan, shu maqsad atrofida uyushtiradigan, birlashtiradigan milliy davlatchilikni shakllantirish funksiyasini bajaradigan hodisadir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganlaridek, **“Biz – ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishdan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”** [3, 137]. Zero, xalqimizning milliy an’analari va qadriyatlari mustahkam asos sifatida xalqning bugungi qiyofasini shakllanishida muhim manbadir. Jamiyat hayotida umuminsoniylik ahamiyatining ortib borishi iqtisodiyotda, ijtimoiy siyosatda, millatlar va elatlar madaniyatida umumiy demokratik an’analarning rivojlanishi, tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro konstruktiv hamkorlik, sherikchilik, siyosatdagiqarama-qarshiliklarni qarama-qarshiliklarni bartaraf etish xalqlar va millatlar o‘rtasidagi madaniyat bilan bog‘liq jarayonga aylanib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda milliy an’analar, urf-odatlarga asoslangan demokratik qadriyatlar jamoaga mansublik, boy tarixiy ildizlarni anglash, madaniy barqarorlik ko‘rinishlarida mustahkamlanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: **“… qadimiy va saxovatli**

zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab keladi. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi” [1, 305]. Har bir millatning tarix silsilasida uzoq muddatli yashovchanligi uning o‘ziga xos milliy an’ana va qadriyatlarining yashovchanligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayonda milliy an’analar zamonga moslashib, takomillashib boraveradi, va aksincha o‘tish, uzatish jarayonlarida moslashish sodir bo‘lmasa, yangi avlod tomonidan qabul qilish juda murakkab kechadi.

Sotsiologik tadqiqotlar ham ko‘rsatadiki, turli etnik guruhlar bolalarni tarbiyalashda, milliy urf-odatlarga rioya qilishda, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda an’analarga tayanadi. Biz yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar, dunyo haqida ko‘proq tafakkur qilishga chaqirishimiz, lekin ularni asosan milliy hodisalar orqali tanishtirishga harakat qilishimiz lozim. Agar milliy an’ananing mazmuni milliylikdan tashqarida bo‘lsa, etnik guruhning ma’naviy hayotini ifoda etmasa, u mavjud bo‘la olmaydi va rivojlanmaydi.

Xulosa qilib aytganda, an’analar jamiyatning tarixiy xotirasi va ma’naviy hayotini o‘zida mujassamlashtirgan muhim ijtimoiy hodisadir. Ularning mohiyati qadriyatlar tizimi va ijtimoiy me’yorlar bilan belgilanib, shakllanish mexanizmi esa tarixiy tajriba, takrorlanish va ijtimoiy e’tirof jarayonlari orqali amalga oshadi. An’analarni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish jamiyat ma’naviy barqarorligini ta’minlash, milliy o‘zlikni mustahkamlash hamda kelajak avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O‘zbekiston, 2021. – 305 б.

2. Mirziyoyev Sh.M. Ma’naviyatli jamiyat – taraqqiyot poydevori. – T.: Ma’naviyat, 2022.

3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 326 б.

4. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2013. – 22 б.

5. Қорабоев У. Миллий маросимлар: тикланиши, ривожланиши ва замонавий муаммолари // Ёшларни миллий истиқлол ғояси руҳида тарбиялаш – Ватан тинчлиги ва хавфсизлигини мустаҳкамлашнинг муҳим омили. – Т.: 2004. — Б.53.

6. Суханов И.В. Обычаи, традиции и преемственность поколений. М., 1976. С. 39-40.

7. Иностранная литература. 1974. № 7. С.29.

8. Umedjanova M.L. Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida oilaviy hayotga tayyorlash. Monografiya. – Buxoro, 2022.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Bozorova Dilorom Abdurahim qizi
University of Business and Science
1st year master's student in Linguistics (Uzbek language)
dilorombozorova96@gmail.com

PROBLEMS OF FORMATION AND SYSTEMATIZATION OF UZBEKISTAN TECHNICAL TERMINOLOGY (XX–XXI CENTURIES)

Annotation. *This article provides an in-depth analysis of the complex path of formation and systematization of Uzbek technical terminology in the XX–XXI centuries from a linguistic and historical perspective. The systematic inconsistency that occurred as a result of the mass introduction of Russian and international terms into Uzbek terminology during the Soviet period, the processes of Latinization and Cyrillicization, as well as the formation of the system of technical terms in the context of national terminology reforms and the transition to the Latin script after independence in 1991 are scientifically studied. Terminological uncertainty arising from synonymy, substitution of adopted and national terms, insufficient development of the system of normalization and standardization - these are the main objects of research of the article. Scientifically based recommendations for solving the problem are presented.*

Keywords: *technical terminology, Uzbek language, history of terminology, word formation, synonymy, standardization, national terminology, normalization, terminological system.*

Бозорова Дилором Абдурахим Кизи
Университет бизнеса и науки
1 курс магистратуры по лингвистике (узбекский язык)

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И СИСТЕМАТИЗАЦИИ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ТЕХНИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ (XX–XXI ВЕКА)

Аннотация*. В данной статье представлен углубленный анализ сложного пути формирования и систематизации узбекской технической терминологии в XX–XXI веках с лингвистической и исторической точки зрения. Научно изучена систематическая несогласованность, возникшая в результате массового внедрения русских и интернациональных терминов в узбекскую терминологию в советский период, процессы латинизации и кириллизации, а также формирование системы технических терминов в контексте реформ национальной терминологии и перехода к латинскому алфавиту после обретения независимости в 1991 году. Терминологическая неопределенность, возникающая из-за синонимии, замены заимствованных и национальных терминов, недостаточного развития системы нормализации и стандартизации – вот основные объекты исследования статьи. Представлены научно обоснованные рекомендации по решению проблемы.*

Ключевые слова: *техническая терминология, узбекский язык, история терминологии, словообразование, синонимия, стандартизация, национальная терминология, нормализация, терминологическая система.*

Bozorova Dilorom Abdurahim qizi
Biznes va fan universiteti
Tilshunoslik (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha 1-kurs magistratura talabasi

O'ZBEKISTON TEXNIK TERMINOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA TIZIMLASH MUAMMOLARI (XX–XXI ASRLAR)

Annotatsiya. *Ushbu maqola XX–XXI asrlarda o'zbek texnik terminologiyasining shakllanishi va tizimlashtirilishining murakkab yo'lini lingvistik va tarixiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qiladi. Sovet davrida rus va xalqaro atamalarning o'zbek terminologiyasiga ommaviy ravishda kiritilishi natijasida yuzaga kelgan tizimli nomuvofiqlik, lotinlashtirish va kirilllashtirish jarayonlari, shuningdek, milliy terminologiya islohotlari va 1991 yilda mustaqillikka erishgandan keyin lotin yozuviga o'tish sharoitida texnik atamalar tizimining shakllanishi ilmiy jihatdan o'rganiladi. Sinonimiyadan kelib chiqadigan terminologik noaniqlik, qabul*

qilingan va milliy atamalarning almashtirilishi, normallashtirish va standartlashtirish tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi - bular maqolaning asosiy tadqiqot ob'ektlari hisoblanadi. Muammoni hal qilish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *texnik terminologiya, o'zbek tili, terminologiya tarixi, so'z yasalishi, sinonimiya, standartlashtirish, milliy terminologiya, normallashtirish, terminologik tizim.*

Kirish.

Har qanday milliy tilning fan-texnika va ishlab chiqarish sohasidagi holati uning jamiyatdagi mavqei va funksional qudratini bevosita belgilaydi. Terminologiya — bu tilning eng dinamik, eng siyosiy jihatdan sezgir va ilmiy-texnik taraqqiyot bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq qatlami. O'zbek tilining texnik terminologiya tizimi XX asrda G'arb atamashunoslik an'anasidan mutlaqo farqli, siyosiy tizim o'zgarishlariga bog'liq bo'lgan keskin burilishli yo'lni bosib o'tdi. Bu yo'l uch katta to'lqinni o'z ichiga oladi: sovetlashtirishdan oldingi arabiy-forsiy terminologiya merosining inkor etilishi, sovet davrida rus va internatsional terminlarning ommaviy assimilyatsiyasi hamda 1991-yildan boshlangan milliy terminologiyani qayta tiklash va yangilash jarayonlari. Har bir to'lqin o'zbek texnik tilida chuqur izlar qoldirdi va ular hali-hanuz terminologik qarama-qarshiliklar, normativlik noaniqliklari va standartlashtirish muammolari sifatida namoyon bo'lmoqda. Terminologiya fanida termin deganda fan, texnika, ishlab chiqarish yoki ijtimoiy hayotning muayyan sohasiga xos tushunchani aniq, bir ma'noli va tizimli tarzda nomlovchi leksik birlik tushuniladi. V.M.Leychik ta'rifiga ko'ra, termin — bu «muayyan maxsus faoliyat sohasidagi tushunchani ifodalovchi va o'sha sohadagi terminologik tizimning elementi sifatida harakat qiluvchi leksik birlik» [1]. Terminning ushbu ta'rifi bir necha muhim belgini — maxsuslik, tizimlilik va bir ma'nolilikni — o'z ichiga oladi. Aynan mana shu uchta belgining o'zbek texnik terminologiyasida to'liq ta'minlanmaganligi XX–XXI asrlar kesimidagi asosiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili.

O'zbek texnik terminologiyasini o'rganishda metodologik asos sifatida V.M.Leychik, A.V.Superanskaya va V.P.Danilenko asarlari qo'llanildi. Leychik terminni aniqlovchi uchta belgi — maxsuslik, tizimlilik va bir ma'nolilik — asosini yaratgan bo'lsa, Danilenko terminologik sinonimlikni tizim shakllanmaganligining belgisi sifatida ta'riflaydi. Bu xulosalar o'zbek texnik terminologiyasidagi asosiy muammolarni baholashda to'g'ridan-to'g'ri mezon vazifasini o'tadi. S.V.Grinev va A.A.Reformatskiy ishlari esa terminologiyashunoslikning klassik nazariy asosini tashkil etadi.

H. Dadaboyevning «O'zbek terminologiyasi» soha bo'yicha eng keng qamrovli monografiya bo'lib, terminologiyaning tarixiy bosqichlari va leksik qatlamlarini yoritadi. X.Nematov va R.Rasulov terminologizatsiya mexanizmlarini, B.Yo'ldoshev ilmiy-texnik leksika xususiyatlarini, E.Botirov so'z yasalish modellarini tadqiq etgan. M.Qosimova texnik atamalarning semantik xususiyatlarini, A.Sobirov esa mustaqillik yillaridagi terminologiya islohotlarini o'rgangan. Shu bilan birga, ko'rsatilgan ishlar texnik terminologiyaning yaxlit tarixiy-dinamik tahlilini qamrab olmaydi — ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldiradi.

Tadqiqot metodlari.

Tadqiqot tizimli-funksional va sotsiolingvistik yondashuv asosiga qurilgan: o'zbek texnik terminologiyasi yaxlit tizim sifatida ko'riladi va uning o'zgarishlari siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy omillar kontekstida baholanadi. Asosiy tamoyillar — tarixiylik (hodisalarni o'z davri kontekstida baholash), tizimlilik (alohida terminlar emas, butun tizimni o'rganish), ob'ektivlik va qiyosiylik. Tarixiy-qiyosiy metod — terminologiyaning turli davrlardagi holatini solishtirish va har bir bosqichning xususiyatlarini aniqlash uchun. Tizimli-struktural tahlil — sinonimlik, antonimlik va so'z yasalish modellarini aniqlash uchun. Komponent tahlil — alohida terminlarning ma'noviy tarkibini parchalab o'rganish uchun. Tipologik-qiyosiy metod — o'zbek texnik terminologiyasini turk, fin va arab tillari tajribasi bilan solishtirish orqali umumiy qonuniyatlarni aniqlash uchun qo'llanildi.

Natijalar va muhokama.

O'zbek texnik terminologiyasining XX asr boshlanganda qanday holatda bo'lganini anglash uchun undan oldingi asrlardagi terminologik an'anani ko'z oldiga keltirish zarur. O'rta asrlarda Movarounnahr va Xuroson madaniy markazi sifatida yetakchi o'rin egallagan davrda arab va fors tillarining ilmiy-texnik terminologiyasi o'zbek yozma tili orqali assimilyatsiya qilingan edi. Meros sifatida o'sha davrdan qolgan ko'plab arabiy-forsiy atamalar — masalan, «hisob» (matematikada), «falak» (astronomiyada), «kimyo», «tibb» — hozirgi o'zbek ilmiy tilida ham muomalada. Biroq XIX asrning ikkinchi yarmi — Rossiya imperiyasining Turkistonga kirib kelishi bilan birga rus ishlab chiqarish uslubi va texnik leksikasi ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Temiryo'l, telegraf, sanoat korxonalari bilan birga ularning rus texnik leksikasi ham kirib keldi va shu davrdan boshlab o'zbek texnik tilida ikki qatlamlilik — an'anaviy arabiy-forsiy va yangi rusiy terminologiya qatlamlari — vujudga kela boshladi. XX asrning boshida jadidlar harakati doirasida milliy terminologiyani tartibga solish va yangilash bo'yicha birinchi ongli urinishlar amalga oshirildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy kabi jadid ziyolilari ta'lim va matbuot tili orqali milliy atamalar tizimini isloh qilishga intildilar. Jadidlar bir tomondan arabiy-forsiy terminologiyani zamonaviy tushunchalar bilan boyitishga, ikkinchi tomondan oddiy xalqqa

tushunarli til yaratishga harakat qildilar. Bu davr uchun xarakterli xususiyat shundan iboratki, texnik terminlarni milliy til resurslari — kalkalar, semantik kengaytmalar va yangi yasalmalar — asosida ifodalashga urinish ko'zga tashlanadi. Masalan, «matbaa» (bosmaxona), «telefon» (uzatarmoq asbob), «telegraf» (yiroqdan yozish vositasi) kabi nomlarni milliy til bilan talqin qilish hollari jadid nashrlarida uchraydi. Biroq bu harakatning izchil terminologik dasturga aylanishiga imkon berilmadi — sovetlashtirish jarayoni boshlanib, butunlay boshqacha siyosat o'z kuchini ko'rsatdi .

Sovet davrida o'zbek texnik terminologiyasi bevosita markaziy siyosiy mafkuraning nazorati ostida shakllandi. Bu davr o'z ichiga uch keskin burilishni oladi. Birinchi burilish — 1928-1929-yillarda amalga oshirilgan lotinlashtirish. O'zbek yozuvi arab grafikasidan lotin alifbosiga o'tkazilganda faqat yozuv shakli emas, balki terminologik an'ananing uzluksizligi ham sindirildi. Arabiy-forsiy terminologik merosga asoslangan atamalar tizimi «eskilik» deb e'lon qilinib, uning o'rniga yangi, asosan rus va internatsional terminlarga yo'naltirilgan leksika kiritila boshlandi. Ikkinchi burilish — 1940-yilda lotindan kirill alifbosiga o'tish. Bor-yo'g'i 12 yil ichida amalga oshirilgan ushbu ikkinchi o'tish terminologik izchillik uchun yanada og'irroq oqibatlar keltirib chiqardi. Ilmiy va texnik adabiyotlarning bir qismini o'zbek tilida lotin harflarida yozilgan holda qoldirib, yangisini kirill asosida boshlash terminologik merosni yana bir bor saralab yubordi .

Sovet davrining ikkinchi yarmida — 1940-1991-yillar — o'zbek texnik terminologiyasi ikkita parallel jarayon asosida rivojlandi. Bir tomondan, maxsus terminologik komissiyalar faoliyati doirasida o'zbek-rus va rus-o'zbek terminologik lug'atlari tuzildi, terminlarni tartibga solish bo'yicha ilmiy konferensiyalar o'tkazildi. Biroq bu ishning asosiy yo'nalishi milliy terminologiya yaratish emas, balki rus terminlarini o'zbek tiliga fonetik moslashtirib qabul qilish yoki to'g'ridan-to'g'ri transliteratsiya qilishdan iborat edi. Ikkinchi tomondan, muhandislik, tibbiyot, kimyo, fizika kabi texnik sohalarda ta'lim asosan rus tilida amalga oshirilgani sababli amaliy texnik leksika deyarli rus tiliga o'tib qoldi. «Muxlisa» o'rniga «nasoschixa», «suv quvuri» o'rniga «truba», «elektr toki» o'rniga «tok» kabi hollar kundalik texnik muloqotda norma sifatida o'rnashib qoldi . Bu davrning eng muhim terminologik oqibati — sinonimlik va ikki qatlamlilik muammosining kuchayishi. Har bir texnik tushuncha uchun kamida ikkita nom vujudga keldi: biri — arabiy-forsiy yoki milliy asosga ega bo'lgan an'anaviy o'zbek atamasi, ikkinchisi — rus yoki internatsional termin. Masalan, «qurilish» va «stroitelstvo», «muhandis» va «injener», «hisob-kitob» va «raschyot» kabi juft-juft terminlar bir vaqtning o'zida muomalada bo'lib, ulardan qaysi birini qo'llash ixtiyoriy, ya'ni qo'llash normasi tartibsiz edi. Danilenko V.P.ning terminologiyaga oid fundamental tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, terminologik sinonimlik — bu terminologik tizim shakllanmayotganining, balki to'planib borayotgan leksik massaning tartiblanmaganining belgimasidir.

1991-yil mustaqillikka erishilishi bilan birga o'zbek terminologiyasida tubdan yangi bosqich boshlandi. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi «Davlat tili haqida»gi Qonunining yangilangan tahriri va 1993-1995-yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirilgan lotin alifbosiga o'tish bu yangi bosqichning asosiy yuridik va texnik zaminini tashkil etdi. Lotin alifbosiga o'tish terminologiya uchun ham muayyan ijobiy imkoniyatlar ochdi: terminlarning fonetik jihatdan xalqaro standartga yaqinlashishi, ingliz tilidagi terminlar bilan yozilishi jihatidan muvofiqligi ortdi. Biroq bu o'tish davri ham o'z terminologik muammolarini keltirib chiqardi — kirill yozuvida qolgan texnik adabiyotlar fondi va yangi lotin yozuvidagi matnlar o'rtasidagi uzilish muhandislik ta'limida jiddiy qiyinchiliklar yaratdi . Mustaqillik davrida terminologiyani milliylashtirish siyosati ikki yo'nalishda amalga oshirildi. Birinchi yo'nalish — rus tilidagi terminlarni o'zbek tilidagi muqobillar bilan almashtirish. Bu jarayon ba'zan sun'iy tarzda, til tabiiy rivojiga zid holda amalga oshirildi. Masalan, «kompyuter» o'rniga bir qator manbalarda «hisoblash mashinasi», «fayl» o'rniga «fayl» yoki «hujjat», «interfeys» o'rniga «aloqa qatlami» kabi atamalar tavsiya etildi. Biroq amalda mutaxassislar jamoasi, ayniqsa muhandislar va IT sohasida ishlovchilar, tavsiya etilgan milliy variantlarni ko'pincha qabul qilmadi — chunki bu terminlar xalqaro hamkasblari bilan aloqada to'siq bo'lib qolishi mumkin edi. Ikkinchi yo'nalish — ingliz tilidagi xalqaro terminlarni o'zbek tiliga kiritish. IT, telekommunikatsiya, muhandislik kabi yangi sohalarda ingliz tilidagi terminlar bevosita qabul qilinib, o'zbek fonetikasiga moslashtirildi: «brauzer», «server», «kompyuter», «lazer» va shunga o'xshashlar. Bu yo'nalish amalda ustun chiqqan bo'lsa-da, me'yoriy hujjatlarga izchil tarzda kiritilmaga. Mustaqillik davrida o'zbek texnik terminologiyasini tartibga solish borasida bir qancha institutsional chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Milliy universiteti va Til va adabiyot institutlari qoshida terminologik komissiyalar faoliyat olib bordi. Bir qancha sohalarda — siyosatshunoslik, huquqshunoslik, iqtisodiyot — terminologik lug'atlar nashr etildi. Biroq texnik soha — muhandislik, elektrotexnika, mashinasozlik, kimyo texnologiyasi — hali ham terminologik standartlashtirish jihatidan eng kam e'tibor qaratilgan sohalar qatorida qolmoqda. O'zbekiston Standartlashtirish, Metrologiya va Sertifikatlash Agentligi texnik terminologiya standartlarini ishlab chiqishda vaqti-vaqti bilan faollik ko'rsatgan bo'lsa-da, bu ish tizimli va uzluksiz xarakter kasb etmagan .

Hozirgi o'zbek texnik terminologiyasidagi muammolarni lingvistik jihatdan tahlil qilsak, ularni bir necha asosiy toifaga bo'lish mumkin. Birinchi va eng keng tarqalgan muammo — terminologik sinonimlik. Sinonimlik terminologiyada «bir tushunchaning bir nechta atamalar bilan ifodalanishi» sifatida ta'riflanadi va terminologik tizimning shakllanmaganligi, me'yorlashtirish ishining etarli olib borilmaganligi belgisi hisoblanadi. O'zbek texnik terminologiyasida sinonimlik uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Birinchi ko'rinish — arabiy-forsiy va rus qatlami

sinonimi: «miqdor — kolichestvo», «ko'rsatgich — pokazatel», «o'lcham — razmer». Ikkinchi ko'rinish — rus va ingliz qatlami sinonimi: «truba — trubka — pipe», «server — xizmat ko'rsatuvchi kompyuter», «fayervol — himoya devori». Uchinchi ko'rinish — sun'iy yaratilgan milliy atama va xalqaro atama sinonimi: «tarmoq — set», «dastur — programma», «qurilma — ustroystvo». Bu uch qatlamli sinonimlik muhandislik ta'limida, ilmiy-texnik tarjimada va texnik hujjatlashtirish amaliyotida jiddiy noaniqliklar keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchi muhim muammo — *terminologik vazifasizlanish* (determinologizatsiya) va aksincha, *umumleksik so'zlarning terminlashishi* (terminologizatsiya) jarayonlarining nazorat qilinmasligi. Sovet davrida o'zbek tiliga kirgan texnik terminlarning bir qismi mustaqillik yillarida umumiy leksikaga o'tib, texnik aniqliligini yo'qotdi. Masalan, «tok» (elektr toki ma'nosida) endilikda «zamonaviy oqim» yoki «yo'nalish» ma'nosida ham keng ishlatilmoqda. Aksincha, «muvofiqlashtirish», «quvvat», «o'tkazuvchanlik» kabi umumleksik so'zlar turli texnik sohalarda o'ziga xos, bir-biridan farqli terminologik ma'no kasb etmoqda va bu holat terminologik chalkashuvlarga olib kelmoqda .

Uchinchi muammo — terminologik so'z yasalish modellarining izchilsizligi. O'zbek tilida terminlar yasashning bir necha modeli mavjud: kalkalar (xorijiy terminning so'zma-so'z tarjimasi), yarım-kalkalar (qisman tarjima), fonetik moslashtirilgan borrowinglar va to'liq yangi yasalmalar. Ammo bu modellarning qo'llanilishida izchillik yo'q — bir sohada kalkalardan foydalanilsa, boshqasida to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish afzal ko'riladi; ba'zi sohalarda esa bir vaqtning o'zida bir terminning kalka va o'zlashma shakllari parallel qo'llanadi. Bu holat terminologik lug'at, darslik va me'yoriy hujjatlardagi farqlanishlarni keltirib chiqarmoqda . Masalan, «kompressiya» termini kimyo texnologiyasida «siqilish», informatikada «siqish», tibbiyotda esa to'g'ridan-to'g'ri «kompressiya» shaklida qo'llaniladi — holbuki uchala holda ham bir xil fizik hodisa nazarda tutiladi.

To'rtinchi muammo — texnik terminologiyani standartlashtirish va me'yorlashtirish institutining zaifligi. Xalqaro tajribada, masalan, Germaniyada DIN (Deutsches Institut für Normung), Fransiyada AFNOR, Rossiyada GOST tizimi texnik terminologiyani davlat darajasida standartlashtiradi va bu standartlarga rioya etish majburiy hisoblanadi. O'zbekistonda bunday tizimning qonuniy asosi mavjud — O'zOST davlat standartlari tizimi — biroq terminologik standartlarning ishlab chiqilish tezligi va qamrovi hali texnik sohalardagi haqiqiy ehtiyojdan ancha orqada qolmoqda [5]. Natijada bir sohaning o'zida turli nashriyotlar, universitetlar va muassasalar o'z terminologik qoidalarini mustaqil belgilab, o'zaro muvofiqlashmagan holda ish olib borishlari muammo bo'lib qolmoqda.

XXI asrda o'zbek texnik terminologiyasi oldida yangi, avvalgi asrdan farqli muammolar ham vujudga keldi. Bu muammolarning bosh qo'zg'atuvchisi — raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va biotexnologiyalar sohalaridagi terminologik portlash. Ushbu sohalarda ingliz tili butun dunyo uchun birlamchi terminologik manba bo'lib qolgani va yangi atamalar hajmi yiliga minglab birlik bilan o'lchangani sababli milliy terminologiyani yangilash tezligi ularga hech ham mos kelolmaydi. O'zbek texnik tilida IT terminologiyasi bo'yicha hozirgacha yagona, keng qamrovli va rasmiy tasdiqlangan lug'at yo'qligi muammo bo'lib qolmoqda. Turli universitetlar va mutaxassislar guruhlari o'z terminologik amaliyotlarini mustaqil tarkib toptirgan va bu amaliyotlar ko'pincha bir-biriga zid kelmoqda .

Xalqaro ta'lim integratsiyasi — xususan, Bologna jarayoniga qo'shilish va xorijiy universitetlar filiallarining O'zbekistonda faoliyati — muhandislik ta'limida terminologik standartlashtirish muammosini yangi o'lchovga ko'tardi. O'zbekiston muhandislik universitetlarining ko'pchiligi hozirda ingliz tilidagi dasturlar bilan parallel ravishda o'zbekcha dasturlarni ham olib bormoqda. Bu esa bir predmetning o'zbek va ingliz tilidagi terminologik qatlamlari o'rtasida moslik ta'minlanishini talab etadi. Biroq o'zbek tilidagi texnik darsliklar ko'pincha yaxshi muvofiqlantirilmagan, eski sovet davri leksikasini saqlab qolgan holda, inglizcha nusxalardan tarjima qilingan manbalarda esa yangi, me'yorlashtirilmagan terminlar paydo bo'lmoqda. Natijada talabalar o'z ixtisosligi bo'yicha bir vaqtning o'zida uch-to'rt parallel terminologik tizimda — sovet davri o'zbek, zamonaviy o'zbek, rus va ingliz tilidagi — o'qishga majbur bo'lmoqdalar. Bu masalaga qiyosiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilsa, o'zbek tajribasining o'ziga xosligi yanada yaqqolroq ko'rinadi. Finlandiya, Estoniya, Latviya kabi mamlakatlar o'z texnik terminologiyalarini izchil milliy tilda rivojlantira olgan — buning sababi bu tillardagi terminologiyani standartlashtirish institutlarining kuchli va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi. Arab davlatlarida Qohira va Damashq Arabiy til akademiyalari texnik terminologiyaning arabchalashtirilgan ko'rinishini ishlab chiqishda muhim rol o'ynagan. Turkiyada esa Türk Dil Kurumu institutining faoliyati texnik terminologiyani turklashtirish bo'yicha tizimli va uzluksiz ish olib borishning namunasi hisoblanadi. O'zbekistonda bunday kuchli, mustaqil va yuqori vakolatli terminologik institutning mavjud emasligi asosiy institutsional zaiflik bo'lib qolmoqda.

Xulosa.

O'zbek texnik terminologiyasining XX–XXI asrlar davomida bosib o'tgan tarixiy yo'li uning o'ta murakkab, siyosiy omillar bilan to'la va lingvistik jihatdan qarama-qarshiliklarga boy ekanligini ko'rsatadi. Arabiy-forsiy merosdan sovetlashtirish orqali rus terminologiyasiga o'tish, undan milliy terminologiyani qadrlash va xalqaro integratsiyaga yo'nalish — bu uch katta to'lqin o'zbek texnik tilida har biri o'z terminologik qatlami, o'z normativlik tizimi va o'z ziddiyatlarini qoldirdi. Natijada shakllanmagan, sinonimik muammolarga to'la, me'yorlashtirilmagan va standartlashtirish

institutlari jihatidan zaif bo'lgan terminologik tizim vujudga keldi. Muammo yechimi bir necha ustuvor yo'nalishni talab etadi. Birinchidan, o'zbek texnik terminologiyasini tartibga solish va standartlashtirish vazifalari bilan shug'ullanuvchi maxsus vakolatli milliy terminologiya instituti tashkil etilishi zarur — bu institut fan vazirligi, Fanlar akademiyasi, muhandislik universiteti va sanoat tarmoqlari bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Ikkinchidan, o'zbek tilidagi texnik terminologiya korpusini yaratish — ya'ni barcha sohalardagi texnik atamalarni elektron ma'lumotlar bazasiga kiritish, ularning tavsiya etilgan normativ variantlarini belgilash va bu bazani ochiq foydalanish uchun taqdim etish — muammoning amaliy yechimi hisoblanadi. Uchinchidan, texnik darsliklar va me'yoriy hujjatlarni terminologik jihatdan bir-biriga moslashtirish maqsadida muhandislik ta'limi muassasalari va standartlashtirish organlari o'rtasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilishi zarur. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi o'zbek texnik terminologiyasini XX asrda yig'ilib qolgan muammolardan xalos etib, XXI asr talablariga javob beruvchi, xalqaro standartlarga moslashgan va milliy ruhga asoslangan yaxlit tizimga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Leychik V.M. Terminovedeniye: predmet, metody, struktura. — Moskva: KomKniga, 2006. — 256 s.

2. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2010. — 320 b.

3. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya: opyt lingvisticheskogo opisaniya. — Moskva: Nauka, 1977. — 246 s.

4. Qobilov T., Axmedov D. Texnik terminologiyaning standartlashtirilishi va milliylashtirish muammolari. — Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2023. — 184 b.

5. Bekmurodov A. Til va texnika: Qurilish terminologiyasining o'zbek tilida qo'llanishi // Milliy tilshunoslik. — 2022. — № 3. — 48–56-betlar.

6. Hasanov M. Texnik sohalarda o'zbek tilida yangi atamalarni shakllantirish imkoniyatlari // Til va jamiyat. — 2022. — № 2. — 23–30-betlar.

7. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Talqin, 2005. — 432 b.

8. Grinev S.V. Vvedeniye v terminovedeniye. — Moskva: Moskovskiy litsey, 1993. — 309 s.

9. Reformatskiy A.A. Chto takoye termin i terminologiya // Voprosy terminologii. — Moskva: AN SSSR, 1961. — S. 46–54.

10. Superanskaya A.V., Podolskaya N.V., Vasil'yeva N.V. Obshchaya terminologiya: Voprosy teorii. — Moskva: Nauka, 1989. — 246 s.

11. Nematov X., Rasulov R. O'zbek tili sistema leksikologiyasi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 1995. — 212 b.

12. Qosimova M. O'zbek tilida texnik atamalarning semantik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. — 2021. — №4. — 55–63-betlar.

13. Yo'ldoshev B. O'zbek ilmiy-texnik tilining leksik xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 2018. — 176 b.

14. Botirov E. O'zbek terminologiyasida so'z yasalish modellari // Filologiya masalalari. — 2020. — №2. — 78–85-betlar.

15. Sobirov A. O'zbekistonda terminologiya islohotlari: tarix va hozirgi holat // Til va tarjima. — 2022. — №1. — 12–21-betlar. URL: https://til-tarjima.uz/articles/terminologiya-islohotlari

16. O'zbek Milliy Ensiklopediyasi. Terminologiya maqolasi. — Toshkent: O'ME nashriyoti, 2006. — 12-jild. URL: https://ziyouz.com/books/uzbek_milliy_ensiklopediyasi

17. Kabuzan V.M. O'rta Osiyo xalqlari tillarida sovetlashtirish davridagi leksik o'zgarishlar. — Toshkent: Fan, 1982. — 194 b.

18. Inlibrary.uz — O'zbekiston ilmiy maqolalar elektron kutubxonasi. Terminologiya bo'yicha maqolalar to'plami. URL: https://inlibrary.uz/index.php/categories (murojaat sanasi: 2025-yil yanvar).

19. Ziyouz.com — O'zbek tili va adabiyoti elektron portal. Ilmiy maqolalar va lug'atlar. URL: https://ziyouz.com (murojaat sanasi: 2025-yil yanvar).

20. ResearchGate.net — O'zbek terminologiyasiga oid xalqaro ilmiy maqolalar. URL: https://www.researchgate.net/search?q=uzbek+terminology (murojaat sanasi: 2025-yil yanvar).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Mamadaliyeva Gulzoda Saydullo qizi
Namangan davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

XXI ASR O'ZBEK ADABIYOTIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING BADIIY-PSIXOLOGIK TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XXI asr o'zbek adabiyotida ekologik muammolarning badiiy va psixologik talqini PhD darajasidagi ilmiy tadqiqot talablari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy o'zbek nasri va she'riyatida ekologik inqirozning estetik konseptualizatsiyasi, tabiat obrazining psixologik yuklamasi hamda ekologik ongning shakllanish mexanizmlari o'rganiladi. Adabiy jarayonda ekologik muammolarning individual va kollektiv ongda aks etishi badiiy psixologizm nuqtayi nazaridan yoritiladi. Tadqiqot natijalari ekologik diskursning o'zbek adabiyotidagi evolyutsion bosqichlarini aniqlash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *ekologik diskurs, zamonaviy o'zbek adabiyoti, badiiy psixologizm, ekologik ong, tabiat konsepti.*

Mamadaliyeva Gulzoda Saidullo qizi
1st year basic doctoral student at Namangan State University

ARTISTIC-PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF ECOLOGICAL PROBLEMS IN UZBEK LITERATURE OF THE XXI CENTURY

Abstract. *This article examines the artistic and psychological interpretation of environmental issues in 21st-century Uzbek literature in accordance with PhD-level academic research standards. The study analyzes the aesthetic conceptualization of ecological crises, the psychological function of nature imagery, and the mechanisms of ecological consciousness formation in contemporary Uzbek prose and poetry. From the perspective of literary psychologism, the research explores how environmental problems are reflected in individual and collective consciousness. The findings contribute to identifying the evolutionary stages of ecological discourse in modern Uzbek literature.*

Keywords: *ecological discourse, modern Uzbek literature, artistic psychologism, ecological consciousness, nature concept.*

Мамадалиева Гульзода Сайдулло кызы
Студент 1 курса базового докторантуры
Наманганского государственного университета

ХУДОЖЕСТВЕННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XXI ВЕКА

Аннотация *В данной статье на основе требований диссертационного исследования (PhD) анализируется художественная и психологическая интерпретация экологических проблем в узбекской литературе XXI века. В исследовании рассматриваются вопросы эстетической концептуализации экологического кризиса в современной узбекской прозе и поэзии, психологическая нагрузка образа природы, а также механизмы формирования экологического сознания. Отражение экологических проблем в индивидуальном и коллективном сознании в литературном процессе освещается с точки зрения художественного психологизма. Результаты исследования позволяют определить эволюционные этапы развития экологического дискурса в узбекской литературе.*

Ключевые слова: *экологический дискурс, современная узбекская литература, художественный психологизм, экологическое сознание, концепт природы*

Introduction (Kirish)

XXI asr global ekologik muammolar asri sifatida insoniyat tarixida tub burilish davrini boshlab berdi. Iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning qisqarishi, suv va yer resurslarining tanqisligi kabi jarayonlar inson tafakkurining barcha qatlamlariga, xususan, badiiy tafakkurga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Adabiyot ekologik muammolarni nafaqat tasvirlash, balki ularni konseptual va psixologik jihatdan anglash maydoniga aylangan.

XXI asr o'zbek adabiyotida ekologik muammolar an'anaviy tabiat tasviridan ekologik ong va ekologik mas'uliyat muammosigacha bo'lgan keng badiiy-falsafiy spektrda talqin etilmoqda. Zamonaviy adiblar tabiatni fon sifatida emas,

balki mustaqil semantik birlik, inson ruhiyatining aks sadosi sifatida badiiylashtirmoqda. Shu jihatdan ekologik muammolarning badiiy-psixologik talqini masalasini kompleks ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.Mazkur tadqiqotning maqsadi – XXI asr o‘zbek adabiyotida ekologik muammolarning badiiy va psixologik talqinini aniqlash, ularning estetik funksiyasi va adabiy jarayondagi o‘rnini belgilashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi ekologik diskursning o‘zbek adabiyotidagi psixologik modelini tizimli yondashuv asosida tahlil qilish bilan belgilanadi

Methods (Metodologiya)

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1) Adabiy-tahliliy metod – XXI asr o‘zbek nasri va she’riyatidagi ekologik motivlarni aniqlash va tahlil qilish;

2) Qiyosiy-tipologik metod – turli adiblar ijodida tabiat va ekologiya masalasining o‘xshash va farqli jihatlarini solishtirish;

3) Psixologik tahlil metodi – ekologik muammolar fonida qahramon ruhiyatida yuzaga keladigan ichki ziddiyatlarni o‘rganish;

4) Germenevtik yondashuv – ramz va metaforalarning ma’no qatlamlarini talqin etish.

Tadqiqot obyekti sifatida XXI asr o‘zbek adabiyotida yaratilgan nasriy va she’riy asarlar tanlab olindi.

Results (Natijalar)

Tadqiqot natijalari XXI asr o‘zbek adabiyotida ekologik muammolarning badiiy-psixologik talqini konseptual xarakter kasb etayotganini ko‘rsatdi. Tahlil jarayonida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

1.Ekologik fojeaning psixologik modeli – tabiatdagi inqiroz inson ruhiyatidagi iztirob, aybdorlik va begonalashuv holatlari bilan uyg‘un holda tasvirlanadi.

2.Tabiat – psixologik rezonator sifatida – ekologik buzilishlar qahramon ichki kechinmalarini kuchaytiruvchi estetik mexanizm vazifasini bajaradi.

3.Ekologik ramzlar tizimi – qurigan daryo, zaharlangan tuproq, kasallangan makon obrazlari ekologik falokatning kollektiv xotiradagi badiiy ifodasiga aylanadi.

XXI asr o‘zbek adabiyotida ekologik muammolarni inson ruhiyati bilan uzviy bog‘lab talqin etgan asarlardan biri Erkin A’zamning “Tanho qayiq” hikoyasidir. Mazkur asar ekologik fojeani bevosita tabiat tasviri orqali emas, balki insonning ichki yolg‘izligi, begonalashuvi va ma’naviy bo‘shlig‘i bilan uyg‘un holda yoritishi bilan ajralib turadi. Asarda qayiq obrazi markaziy ekologik-badiiy ramz sifatida namoyon bo‘ladi. Tanho qayiq — bu nafaqat jismoniy makonda suzib yurgan vosita, balki ekologik muvozanatini yo‘qotgan makonda o‘z o‘rnini topolmayotgan inson ongining timsolidir. Suv makonining sokin, ammo hayotsiz tasviri ekologik muhitning izdan chiqqan holatini psixologik fon sifatida namoyon etadi. Bu yerda tabiat tasviri qahramon ruhiy holatining tashqi proyeksiyasiga aylanadi. “Tanho qayiq”da ekologik muammo ochiq publitsistik da’vo shaklida emas, balki **badiiy psixologizm** orqali talqin etiladi. Qahramonning ichki sukunati, ma’naviy uzilish holati atrof-muhitning sokin, ammo “o‘lik” manzarasi bilan uyg‘unlashadi. Bu holat ekologik fojeaning inson ruhiyatida keltirib chiqaradigan ekzistensial bo‘shliqni ifodalaydi. Inson va tabiat o‘rtasidagi uzilgan aloqalar qahramonning yolg‘izligi orqali ramziy tarzda ochib beriladi. Asarda suv obrazining muhim jihati shundaki, u hayot manbai bo‘lish bilan birga, endilikda ma’naviy taskin bermaydigan, befarq makonga aylangan. Bu holat ekologik ongning yemirilishi va insonning tabiatga nisbatan mas’uliyatsiz munosabatini badiiy-psixologik darajada fosh etadi. Erkin A’zam tabiatni romantik ideallashtirmaydi, balki uni insonning ichki tanazzuli bilan parallel jarayonda tasvirlaydi. “Tanho qayiq” hikoyasi ekologik muammolarni ontologik va psixologik hodisa sifatida talqin etishi bilan ahamiyatlidir. Asarda ekologik inqiroz insonning o‘z-o‘zidan begonalashuvi, jamiyatdan ajralishi va ma’naviy yolg‘izligi bilan uzviy bog‘lanadi. Bu esa XXI asr o‘zbek adabiyotida ekologik diskursning yangi – psixologik-falsafiy bosqichga ko‘tarilganidan dalolat beradi. Shunday qilib, Erkin A’zamning “Tanho qayiq” asari ekologik muammolarning badiiy-psixologik talqinida muhim estetik modelni taqdim etadi. Asar ekologik fojeani tashqi muhit muammosi sifatida emas, balki inson ongida yuz berayotgan chuqur ruhiy jarayonlar bilan bog‘liq murakkab hodisa sifatida ochib beradi.

Discussion (Muhokama)

Olingan natijalar ekologik muammolarni badiiy talqin etish jarayonida psixologik yondashuvning yetakchi ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ekologik madaniyatni yuksaltirish – bu shunchaki tabiatni asrash emas, balki kelajak avlod oldidagi ma’naviy mas’uliyatimizdir”. Bu g‘oya bugungi o‘zbek nasrida inson va tabiat munosabatlarini badiiy-psixologik nuqtayi nazardan tadqiq etuvchi yozuvchilar uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qilmoqda."Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ekologik inqiroz insonning ma’naviy tanazzuli va axloqiy mas’uliyatsizligi bilan uzviy bog‘lanadi. Bu holat ekologik muammolarning faqat ijtimoiy emas, balki ontologik va ekzistensial mohiyatga ega ekanini anglatadi. Shuningdek, ekologik diskursning kuchayishi o‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonlari bilan uyg‘unlashayotganini ko‘rsatadi. Ekologik muammolarning psixologik talqini adabiyotning tarbiyaviy va konseptual funksiyasini yanada kengaytiradi.

Xulosa

XXI asr o‘zbek adabiyotida ekologik muammolarning badiiy-psixologik talqini zamonaviy adabiy tafakkurning muhim ilmiy-estetik yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ekologik muammolar badiiy matnda inson ruhiyati, axloqiy tanlov va ekologik ong bilan uzviy aloqada talqin etiladi. Mazkur maqola natijalari ekologik diskursni o‘rganish, adabiyot va ekologiya integratsiyasini ilmiy asoslash hamda zamonaviy o‘zbek adabiyotining psixologik poetikasini chuqurroq tadqiq etish uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O‘zbekiston", 2021.

2. Mirziyoyev Sh.M. "Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, kelajagi yorug‘ bo‘ladi". – Toshkent: "O‘zbekiston", 2019.

3. Sharafiddinov, O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. (Adibning tabiat va inson yaxlitligi haqidagi qarashlari).

4. Pardayeva, Z. Hozirgi o‘zbek nasrida badiiy mahorat muammolari. – Toshkent: Fan, 2003.

5. Normatov, U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007. (Nazar Eshonqul va Isajon Sulton nasridagi modernistik va ekologik izlanishlar tahlili).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Mehmonova Sarvinoz Is'hoq qizi
Namangan davlat Pedagogika institutining tayanch doktoranti
Ilmiy rahbar: Ashurov Dilmurod Axmadaliyevich
"University of Business and Science"universiteti dotsenti

O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Annotatsiya *. Ushbu maqolada o'zbek xalq ertaklarining lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Ertak matnlaridagi milliy dunyoqarashni ifodalovchi lisoniy birliklar, xususan, numerologik tushunchalar, mifologik obrazlar va frazeologizmlarning xalq mentaliteti bilan bog'liqligini tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ertak tili shunchaki badiiy vosita emas, balki milliy madaniy kodlarni tashuvchi tizim ekanligi ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *o'zbek xalq ertaklari, lingvokulturologiya, milliy madaniyat, etnomadaniy birliklar, xalq dunyoqarashi, folklor, numerologiya, mifologema.*

Мехмонова Сарвиноз Исхок кизи
Докторант (PhD) Наманганского
государственного педагогического института

ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ УЗБЕКИСТАНСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК

Аннотация. *В данной статье исследуются лингвокультурологические особенности узбекских народных сказок. Анализируются языковые единицы, отражающие национальное мировоззрение в текстах сказок, в частности, связь нумерологических понятий, мифологических образов и фразеологизмов с народным менталитетом. В ходе исследования научно обосновано, что язык сказки является не просто художественным средством, а системой, несущей в себе национальное-культурный коды.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, народные сказки, культурный код, менталитет, концепт, языковая картина мира, нумерология, мифологема.*

Mekhmonova Sarvinoz Iskhoq qizi
PhD student of Namangan State Pedagogical Institute

LINGUOCULTURAL RESEARCH OF UZBEKISTAN FOLK TALES

Abstract. *This article investigates the linguacultural characteristics of uzbek folk tales. Linguistic units reflecting the national worldview in folk tale texts, in particular, the connection of numerological concepts, mythological images, and phraseological units with the national mentality, analiyzed. During the research, it is scientifically substantiated that the language of the folk tale is not just an artistic tool, but a system that carries national-cultural codes.*

Keywords*: linguaculturology, folk tales, cultural code, mentality, concept, linguistic picture of the world, numerology, mythologem.*

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning shakllanishi tilni nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy kodlarni saqlovchi va avloddan-avlodga uzatuvchi murakkab tizim sifatida o'rganishni taqozo etmoqda. Bu borada lingvokulturologiya sohasi alohida o'rin tutadi. Xususan, o'zbek xalq og'zaki ijodi, jumladan, ertaklar xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, urf-odatlari va qadryatlarini o'zida mujassam etgan bebaho xazinadir. Xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va ommabop janri bo'lgan ertaklar milliy madaniyatning "genetik xotirasi" hisoblanadi. Ertaklar matnida aks etgan til birliklarini lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish, nafaqat tilning lug'at tarkibini boyitish, balki milliy mentalitetning lisoniy manzarasini tiklash imkonini beradi. 'O'zbek xalq ertaklari- xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va boy shakllaridan biri bo'lib, ularning tarixi asrlar davomida shakllangan xalq dunyoqarashi, axloqiy

qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar va ma'naviy tajribani o'zida mujassamlashtiradi. Ertaklar nafaqat bolalar uchun mo'ljallangan badiiy matnlar sifatida balki xalq hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq ertaklarining lingvokulturologik tahlili milliy mentalitetga xos bo'lgan xususiyatlarni, xususan, "Yaxshilik va yomonlik","Andisha","Mehmondo'stlik","Oila va sadoqat" kabi tushunchalarning til qatlamlarida qanday aks etganini ochib berish imkonini beradi. Globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash va saqlab qolish masalasi dolzarb bo'lib borayotgan bir vaqtda, xalq og'zaki ijodi namunalarini lisoniy-madaniy jihatdan tadqiq etish o'zbek tili va madaniyati uyg'unligini ko'rsatib beruvchi muhim omildir.

Adabiyotlar tahlili

O'zbek xakq ertaklarini lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish, tildagi milliy va madaniy konnotatsiyalarni ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohadagi izlanishlarni uchta asosiy yo'nalishga bo'lib tahlil qilish lozim.

1. Nazariy asoslari va umumiy lingvokulturologiya

Lingvokulturologiya fanining nazariy poydevori dunyo miqyosida V.Humbold, E.Sepir, B. Uorf kabi olimlar tomonidan qo'yilgan bo'lsa, rus tilshunosligida V.Teliya, V.Maslova va V.Vorobyovlar tomonidan tizimlashtirilgan. O'zbek tilshunosligida esa bu yo'nalishning nazariy masalalarini juda ko'plab olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan.

Til va madaniyatning o'zaro aloqasini kognitiv va ijtimoiy jihatdan Sh. Safarov tomonidan tahlil qilingan. Tilning "olam manzarasi"ni aks ettirishdagi o'rni va milliy mentalitetning tildagi ifodasi haqidagi qarashlari bilan ushbu mavzu uchun fundamental asos yaratgan.

2. O'zbek folkloristikasi va ertak janri tadqiqi

Ertaklarning lingvokulturologik tahlili bevosita folklorshunoslik yutuqlariga tayanadi. O'zbek ertaklarining janr xususiyatlari, syujeti va tipologiyasini o'rganishda H.Zaripov, M.Afzalov, K.Imomov kabi olimlarning ishlari ertaklarning genezisi va xalq og'zaki ijodi sifatidagi o'rnini belgilab beradi. Ularning tadqiqotlari ertak tili tarkibidagi arxaizmlar va tarixiy-madaniy qatlamlarni tushunishga yordam beradi.

3. Ertak tilining bevosita lingvokulturologik tahlili

So'nggi yillarda ertak matnlarini lingvokulturologik aspektda o'rganish bo'yicha bir qator dissertatsiya va maqolalar e'lon qilindi. Matnning antroposentrik talqini va lingvokulturologik tahlili bo'yicha izlanishlarda xalq og'zaki ijodi namunalariga alohida e'tibor qaratgan. Bugungi kunda bu yo'nalish o'zbek tilshunosligi va folklorshunosligining eng "qaynoq" nuqtalaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda lingvokulturologiya maktabiga sasos solgan va ertaklarni shu prizmadan ko'rishni boshlab bergan olimlar talaygina. Ulardan biri N.Mahmudov ertaklarni tog'ridan-to'g'ri o'rganmagan bo'lsa-da, uning rahbarligida ertaklarning "ólamning lisoniy manzarasi" mavzusida ko'plab yosh olimlarga ustozlik qilgan. Bundan tashqari, Mamatqul Jo'rayev folklorshunos bo'lishiga qaramay, ertakalardagi sonlar, ranglar va miflar obrazlarning kulturologik tahlilini(masalan, "yetti", "qirq" sonlarining ma'nosi) yoritib bergan. "Baxt","Mehmondo'stlik","Andisha","Botirlik" kabi o'zbek madaniyati uchun tayanch hisoblangan konseptlarning ertaklardagi lisoniy ifodasi bir qator yosh tadqiqotchilar (masalan, S.Ashirov, G.Ergasheva va boshqalar) tomonidan tahlil etilgan.

Bundan tashqari, ertaklardagi turg'un birikmalar, epitetlar va personajlar ismlarining (masalan, Zumrad va Qimmat, Kaltaman va h.k) madaniy semantikasi tahlil qilingan ishlar mazkur maqolaning qimmatini oshiradi. Mansur Afzalov ertakshunosligining "otasi" hisoblanadi. U ertaklarning janr xususiyatlari va tasnifini, balki ularning aytilish uslubi va janr o'ziga xosliklarini nozik jihatlarigacha tadqiq etgan. Kamil Imomov ertaklarning poetikasi va syujet qurilishini o'rganishga katta hissa qo'shgan.(hayvonlar haqida, sehrli va hayotiy-maishiy ertaklar) tizimga solgan. Muzayyana Alaviya ertaklarning nafaqat matni, balki ularning aytilish uslubi va janr o'ziga xosliklarini nozik jihatlarigacha tadqiq etgan. Ertaklardagi mifologik qatlamlar, obrazlar tizimi vaularning hududiy xususiyatlarini G.Sarimsoqova, H.Jumayev, O.Safarov, M.Jo'rayev, S.Sodiqova, D.Abduahadova, G.Akramova, N.Zokirova, S.Sodiqova kabi bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan va juda ko'plab manbalar to'plangan. Lingvokulturologik yondashuv ertakni shunchaki "bola uchun hikoya" emas, balki millatning genetik kodi sifatida ko'radi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, garchi o'zbek folklori filologik jihatdan keng o'rganilgan bo'lsa-da, ertak matnlaridagi milliy-madaniy kodlar, lingvokulturemalar va olamning lisoniy manzarasini tizimli tahlil qilish hali ham o'z yechimini kutayotgan masalalardan biridir. Bu esa mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbek xalq ertaklarining lingvokulturologik tadqiqi- bu shunchaki til birliklarini o'rganish emas, balki xalqning "kodlangan" mentaliteti, qadriyatlari va dunyoqarashini ochib berish demakdir. Ushbu maqolada o'zbek xalq ertaklaridagi lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berish uchun kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida til va madaniyatning uzviy bog'ligi (V.Gumbold, E.Sepir nazariyalari) hamda o'zbek tilshunosligidagi zamonaviy antroposentrik paradigma tanlab olindi. Tadqqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

1. Lingvokulturologik tahlil metodi

Bu metod ertak matnlaridagi lingvokulturemalarni (madaniy yukka ega til birliklarini) aniqlashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi. Bunda so‘zning shunchaki lug‘aviy ma’nosi emas, balki uning ortida turgan milliy ramzlar, mifologik tushunchalar va xalq an’analari tahlil qilindi. Masalan, Semurg‘, ajdarho, dev, obrazlarining o‘zbek mifologiyasidagi o‘rni til birliklari orqali ko‘rib chiqildi.

2. Konseptual tahlil metodi

Ertaklardagi tayanch konseptlar (masalan: ezgulik, mardlik, yovuzlik, mehmondo‘stlik, mardlik) “yadrodan chekkaga” tamoyili asosida o‘rganiladi. Ushbu metod yordamida mazkur tushunchalarning milliy mentalitetdagi o‘ziga xosligi va ularning verbalizatsiyalashuv (tilda ifodalanish) usullari aniqlandi.

3. Tavsifiy va qiyosiy-tipologik metod

O‘zbek xalq ertakalaridagi lisoniy birliklar tavsiflandi va zarur o‘rinlarda boshqa xalqlar (masalan, turkiy yoki hind-yevropa) ertakalari bilan qiyoslandi. Bu o‘zbek ertaklaridagi universal (umuminsoniy) va idiosinkretik (milliy-o‘ziga xoslik) jihatlarni ajratib ko‘rsatishga imkon berdi.

4. Kontekstual tahlil

Ertaklardagi ibora va maqollarning (paremiyalarning) ma’nosi faqat lug‘at doirasida emas, balki matn ichidagi vazifasi nuqtayi nazaridan o‘rganildi. Bu usul xalqning ijtimoiy normalari va etik qarashlari tilga qanday ko‘chganini tushunishga yordam berdi.

Natija va muhokamalar

Binobarin, hozir kishilarni biron-bir mo‘jiza bilan hayron qoldirish qiyin. Biroq uzoq ajdodlarimiz bunyod etgan ertaklarda bunday mo‘jizalar to‘lib-toshib yotibdi. Bir dam bilan daryo suvini sipqoradigan, uchar gilamda dunyoning istalgan go‘shasiga bir zumda boradigan, afsonaviy Semurg‘ qanotida osmono‘par tog‘lar-u had-hududsiz dengizlar osha oladigan bahodirlar kimni hayratga solmaydi deysiz. Ertakda insonlarning orzu istaklari ifoda etilgani uchun ham doimo yaxshilik, oliyjanoblik, mardlik va adolat tantana qilib, yomonlik va yovuzlik mag‘lub bo‘ladi. Misol tariqasida o‘zbek xalq og‘zaki ertaklari sirasiga kiruvchi “Pahlavon Rustam”,“Guliqahqah”,“Ahmadjon bilan Luqmonjon”,”Qiron botir”,”Bulbuligo‘yo”,”Muqbil toshotar”,“Baxt daraxti”,”Qilichqora”,”Qilich botir”,”Ayiq polvon” kabi bir qator ertaklarimizda xalqimizning mard va jasur og‘lonlari va ularning jasoratlari tasvirlangan. Ertaklar olami shunday sehrli, hayotbaxsh chashmaki, bu chashmaning teran va musaffo buloqlaridan bir bor to‘yib suv ichgan kishi umr bo‘yi shirin orzularidan ayrilmaydi, hamisha yaxshilik uchun, erk va adolat uchun kurashdan charchamaydi. Ertaklarda xalq aql zakovatining qudratli parvozi, xalqning orzu-istaklari, ming yillik donoligi, tajribasi majoziy timsollar zamiridagi mangu hayot muammolarini bilishga intilishi aks etadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida “Ur to‘qmoq”ertagida xaqlimizning qadimiy hayot tarzi, urf-odatlari va moddiy madaniyatini aks ettiruvchi boy etnografizmlarni (etnografik leksikani) mujassam etgan. Quyida ularni guruhlarga ajratilgan holatda ko‘rishimiz mumkin.

1. Ro‘zg‘or buyumlari va moddiy madaniyat

Ertakdagi xalqning kundalikl turmushida ishlatiladigan buyumlar ramziy ma’noda va mo‘jizaviy kuch sifatida talqin qilinadi:

Dasturxon- bu nafaqat yegulik qo‘yiladigan mato, balki o‘zbek xonadonidagi mehmondo‘stlik va baraka timsolidir. Etnografik jihatdan dasturxon muqaddas sanalgan. Ushbu so‘zlarni tahlil qilinayotganda ularning semnatik ko‘lamiga e’tibor beriladi. Bu so‘z shunchaki “mato” emas, balki o‘zbek oilasining ijtimoiy markazi ekanligini ta’kidlash mumkin.

To‘qmoq- qadimiy xo‘jalik asbobi. Bu yerda u nafaqat jazo quroli, balki adolat o‘rnatuvchi vosita sifatida keladi.

Xum- suv yoki oziq-ovqat saqlanadigan idishlar. Ertakdagi boyning ochko‘zligini ko‘rsatuvchi detallar sifatida xizmat qiladi.

2. Taomnomaga oid etnografizmlar

Ertakda “Ochil, dasturxon!” deganda paydo bo‘ladigan noz-ne’matlar o‘sha davr xalqining to‘kin-sochinlik haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi:

Osh- milliy taom sifatida bayram va xursandchilik ramzi.

Noni obi- nonning muqaddasligi va asosiy ozuqa ekanligi.

Shirinliklar (holva, novvot)- bular qadimdan o‘zbek xalqi hayotida “shirin hayot” va hurmat belgisi hisoblangan.

3. Ijtimoiy-huquqiy va tabaqalanish terminlari

Ertakdagi qahramonlar va ularning munosabatlari orqali o‘sha davr ijtimoiy tuzumini ko‘rish mumkin:

Boy va kambag‘al (cho‘pon)- jamiyatning ikki qutbga bo‘linganligi.

Qozixona-adolat izlanadigan joy, lekin ertakda ko‘pincha poraxo‘rlik va adolatsizlik markazi sifatida tasvirlanadi.

Mehmondo‘stlik odobi- musofirni uyga kiritish, unga joy berish (lekin ertakda boy bu odatni buzib, birovning narsasiga ko‘z tikadi.

4. Chorvachilik va tabiat bilan bog‘liq leksika

Ertak qahramonining asosiy mashg‘uloti chorvachilik yoki dehqonchilik bilan bo‘lgani uchun quyidagi so‘zlar uchraydi:

Poda (gala)- chorva hayvonlarining guruhi.

Tayoq (asatayoq)-cho‘ponlik aslahasi, ramziy ma’noda hokimyat yoki himoya vositasi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shularni ayta olishimiz mumkinki, ota-bobolarimiz, momolarimiz farzandlarimiz yaxshi odamlar bo‘lib yetishsin deya, ularga oydin tunlarni oppoq tonglarga ulab ertaklar so‘ylab berganlar. Natijada bolalarning murg‘ak qalbida oy nuri bilan yo‘g‘rilgan ezgu tuyg‘ular bir umrga naqshlanib qolgan. Inson bor ekan, ertak bilan o‘sib ulg‘ayadi, o‘zining qalb qo‘rini ertak bilan boyitadi. Dunyoda ertak bor ekan, odamlar xonadonida chiroq hech qachon o‘chmaydi, ezgulik yovuzlik ustidan g‘olib chiqadi. Ertaklarning til qatlami shunchaki axborot uzatuvchi emas, balki o‘zbek xalqining mifologik qarashlari, ijtimoiy tuzumi va etik normalarini saqlovchi “madaniy xotira” ekanligi isbotlandi. Bundan tashqari, Matnlarda uchraydigan “olti oylik yo‘l”,“yetti iqlim”,”chiltonlar” kabi frazeologizmlar va oson simvolikasi xalqimizning olamni idrok etishdagi o‘ziga xos o‘lchovlarini ko‘rsatuvchi muhim lingvokulturemalardir. Tadqiqot davomida o‘zbek ertaklaridagi “Yaxshilik”,“Andisha”,“Sadoqat” va “Mehmonnavozlik” kabi konseptlarning lisoniy ifodasi tahlil qilinib, ularning xalq pedagogikasidagi o‘rni yoritiladi. [8] Bu birliklar milliy mentalitetning tayanch nuqtalari bo‘lib xizmat qiladi.

Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy xalq og‘zaki ijodini, ertak va afsonalarini sevib o‘qigan, ulug‘ shoir va alloma bo‘lib yetishganida ham o‘zining eng buyuk asarlarini xalq ertak va afsonalari bilan bezatgan. Dahshatli ajdar bilan olishib, sehrli oynayi jahonni topib, unda go‘zal Shirinni ko‘rib, yuragiga buyuk muhabbat olovi tutashgan Frahod, “Sab’ai sayyor” dagi bir-biridan ajoyib qahramonlar- mushkul tilsimotlarni kashf etgan Sa’d, sehrli buloqqa sho‘ng‘ib, devlar va parilar orasiga tushib qolgan Suhayl, kamtarinligi va bahodirligi bilan baxtga yetishgan Muqbil, suvsiz jazirama cho‘lga tashlab ketilgan va Chin donishmandi parvarishlab, voyaga yetkazgan parivash sozanda Dilorom….[4]

Ertak tili milliy mentalitetning eng barqaror qatlamlarini o‘zida saqlab kelmoqda. Ushbu birliklarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki o‘zbek xalqi etnogenezi va ma’naviyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Kelgusida ertaklardagi lingvokulturemalarni boshqa turkiy xalqlar folklori bilan qiyosiy o‘rganish, turkiy dunyoning umumiy lisoniy manzarasini tiklashda yangi istiqbollarni ochib berishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afzalov.M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. -Toshkent. Fan, 1988.
2. Eshonqulov.J.Folklor: obraz va talqin.- Qarshi. Nasaf,1999.
3. Jo‘rayev.M. O‘zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar. -Toshkent. Fan,1991.
4. Jo‘rayev.M. O‘zbek mifologiyasi va folklor matni poetikasi. -Toshkent. Fan, 2008.
5. Mahmudov.N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…(O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya asoslari). -Toshkent, Akademnashr, 2012.
6. Safarov.Sh. Kognitiv tilshunoslik. -Jizzax, Sangzor. 2006
7. Sayidrahmonov.N. O‘zbek xalq ertaklari tilining lingvopoetikasi. -Toshkent, 2016.
8. To‘rayeva.U. O‘zbek xalq sehrli ertaklarining lingvistik tahlili. (Nomzodlik dissertatsiyasi)
9. Yusupov.O‘. Chog‘ishtirma lingvokulturologiya asoslari. -Toshkent, 2016
10. Shomaqasudov.Sh. Shorahmedov. Sh. Hikmatlar xazinasi. - O‘zbek maqol va matallarining lingvokulturologik asoslari. -Toshkent. 2001.
11. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi (Ko‘p tomlik). 3-4 jildlar. -Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Jalolov Sherali Abduvaliyevich
NamDU Jahon tillar fakulteti katta o‘qituvchisi
Email: shjalolov@mail.ru

IJTIMOIY-SIYOSIY LUG‘AT TARJIMASINING PSIXOLINGVISTIK JIHATLARI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI ASOSIDA)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ijtimoiy-siyosiy lug‘at tarjimasining psixolingvistik jihatlari ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida lisoniy birliklarning semantik tuzilishi, konseptual mazmuni, kognitiv qayta ishlanishi hamda madaniy omillar ta’siri yoritiladi. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning ongda qabul qilinishi va qayta kodlanish mexanizmlari, ularning milliy mentalitet va siyosiy diskurs bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Shuningdek, ekvivalentlik, adekvatlik, pragmatik moslashuv kabi masalalar psixolingvistik nuqtai nazardan izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-siyosiy lug‘at, psixolingvistika, tarjima nazariyasi, kognitiv jarayon, semantika, diskurs, ekvivalentlik, konseptual tizim.*

Джалолов Шерали Абдувалиевич
Преподаватель факультета мировых языков, НамГУ

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОЦИО-ПОЛИТИЧЕСКОГО ПЕРЕВОДА СЛОВАРЕЙ (НА ОСНОВЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКИСТАНСКОГО ЯЗЫКОВ)

Abstract: *This article analyzes the psycholinguistic aspects of translating socio-political vocabulary based on English and Uzbek languages. The study focuses on semantic structure, conceptual meaning, cognitive processing, and the influence of cultural factors in the translation process. Mechanisms of perception and recoding of socio-political terms in human consciousness, as well as their connection with national mentality and political discourse, are examined. Issues of equivalence, adequacy, and pragmatic adaptation are interpreted from a psycholinguistic perspective.*

Keywords: *socio-political vocabulary, psycholinguistics, translation theory, cognitive process, semantics, discourse, equivalence, conceptual system.*

Джалолов Шерали Абдувалиевич
Преподаватель факультета мировых языков, НамГУ

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОЦИО-ПОЛИТИЧЕСКОГО ПЕРЕВОДА СЛОВАРЕЙ(НА ОСНОВЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКИСТАНСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация: *В данной статье рассматриваются психолингвистические аспекты перевода общественно-политической лексики на материале английского и узбекского языков. Анализируются семантическая структура, концептуальное содержание, когнитивная переработка и влияние культурных факторов в процессе перевода. Раскрываются механизмы восприятия и перекодирования общественно-политических терминов в сознании, а также их связь с национальным менталитетом и политическим дискурсом. Проблемы эквивалентности, адекватности и прагматической адаптации интерпретируются с психолингвистической точки зрения.*

Ключевые слова: *общественно-политическая лексика, психолингвистика, теория перевода, когнитивный процесс, семантика, дискурс, эквивалентность, концептуальная система.*

Kirish

Globallashuv sharoitida dunyo miqyosida siyosiy, iqtisodiy va madaniy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi ijtimoiy va siyosiy kommunikatsiyaning yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, transmilliy axborot oqimlarining kuchayishi hamda xalqaro tashkilotlar faoliyatining kengayishi natijasida turli tillarda yaratilayotgan ijtimoiy-siyosiy matnlar hajmi va ahamiyati sezilarli darajada ortdi. Xususan, xalqaro munosabatlar tizimining murakkablashuvi, diplomatik aloqalarning ko‘p qirrali tus olishi va ommaviy

axborot vositalarining globallashuvi ijtimoiy-siyosiy diskursni tezkor va aniq tarjima qilishni dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylantirmoqda. Shu bois tarjima jarayoni oddiy lingvistik almashtirish emas, balki ko‘p bosqichli, murakkab psixologik va kognitiv faoliyat sifatida talqin etilmoqda. Ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular terminologik aniqlik, pragmatik maqsadga yo‘naltirilganlik, ideologik yuklama hamda auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish funksiyasi bilan ajralib turadi. Bunday matnlarni tarjima qilishda nafaqat til birliklari o‘rtasidagi muvofiqlik, balki ma’no, kontekst va kommunikativ niyatning adekvat yetkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimon matn mazmunini qayta idrok etish, uni ongida qayta ishlash va boshqa til vositalari orqali ifodalash jarayonida murakkab kognitiv operatsiyalarni amalga oshiradi. Shu nuqtai nazardan, tarjima faoliyati psixolingvistik jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi. Psixolingvistika fanining shakllanishi XX asrning o‘rtalariga to‘g‘ri kelib, u til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asosda o‘rganishga qaratilgan fan sifatida maydonga chiqdi. Bu yo‘nalishda Noam Chomsky tomonidan ishlab chiqilgan generativ grammatika nazariyasi tilning ichki, tug‘ma mexanizmlarini asoslab berishi bilan muhim ilmiy burilish yasadi. Chomsky nazariyasiga ko‘ra, inson tilni o‘zlashtirish va qayta ishlash jarayonida ma’lum universal grammatik strukturalarga tayangan holda faoliyat yuritadi. Bu qarash tarjima jarayonida ham inson ongining ichki lingvistik modellarga asoslanishini tushuntirishga xizmat qiladi. Shuningdek, George A. Millerning kognitiv psixologiya sohasidagi tadqiqotlari, xususan, inson xotirasi hajmi va axborotni qayta ishlash mexanizmlariga oid ilmiy xulosalari tarjima faoliyatini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Miller tomonidan ilgari surilgan “7±2” konsepsiyasi inson qisqa muddatli xotirasining cheklangan hajmga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat tarjimonning matnni segmentlarga ajratish, ma’lumotni qismlarga bo‘lib qayta ishlash va ma’no birligini saqlagan holda uni boshqa tilda ifodalash jarayonini izohlashda muhim ahamiyatga ega.

Tarjima nazariyasi doirasida ijtimoiy-siyosiy matnlarni adekvat tarjima qilish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Bu borada Eugene Nida tomonidan ishlab chiqilgan dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi muhim metodologik asos sifatida e’tirof etiladi. Nida nazariyasiga ko‘ra, tarjimaning asosiy maqsadi asl matn mazmunini so‘zma-so‘z ko‘chirish emas, balki qabul qiluvchi auditoriyada asl matn o‘quvchisida yuzaga kelgan kommunikativ ta’sirga teng ta’sir uyg‘otishdan iboratdir. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy terminlar, realiyalar va madaniy konnotatsiyalarga ega birliklarni tarjima qilishda dinamik ekvivalentlik tamoyili ularni maqsad tilining ijtimoiy-madaniy muhitiga moslashtirish imkonini beradi. Shunday qilib, globallashuv sharoitida ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasi ko‘p qirrali, kompleks jarayon bo‘lib, u lingvistik, psixologik va kognitiv omillarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi. Psixolingvistik yondashuv tarjima jarayonini inson tafakkuri va nutq faoliyati bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini bersa, zamonaviy tarjima nazariyalari, xususan dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi, ijtimoiy-siyosiy diskursning mazmuniy va pragmatik xususiyatlarini adekvat ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa globallashuv davrida samarali xalqaro kommunikatsiyani ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy lug‘atning lingvistik va konseptual xususiyatlari

Ijtimoiy-siyosiy lug‘at tarkibi jamiyat hayotining siyosiy-huquqiy, institutsional va mafkuraviy qatlamlarini ifodalovchi terminlar majmuasidan iborat bo‘lib, u davlat boshqaruvi, siyosiy tizim, qonunchilik, diplomatik munosabatlar, mafkura, fuqarolik institutlari hamda ijtimoiy tuzilma bilan bog‘liq tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Bunday leksik birliklar nafaqat nominativ, ya’ni predmet va hodisalarni nomlash funksiyasini bajaradi, balki muayyan tarixiy tajriba, siyosiy qadriyatlar va ideologik pozitsiyalarni ham aks ettiradi. Masalan, democracy – demokratiya, parliament – parlament, human rights – inson huquqlari, civil society – fuqarolik jamiyati kabi terminlar xalqaro siyosiy diskursda keng qo‘llaniladigan asosiy tushunchalardir. Mazkur birliklarning semantik tabiati ko‘p qatlamli xarakterga ega. Ularning yuzaki, lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda, chuqur konseptual va ideologik mazmuni mavjud. Xususan, “demokratiya” tushunchasi ingliz siyosiy tafakkurida uzoq tarixiy rivojlanish jarayoni, liberal an’analar, konstitutsiyaviylik va shaxs erkinligi g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq. Bu tushuncha anglo-sakson siyosiy madaniyatida parlament boshqaruvi, hokimiyatlar bo‘linishi va fuqarolik erkinliklari kabi qadriyatlar tizimining markaziy elementi sifatida shakllangan. O‘zbek tilidagi siyosiy diskursda esa “demokratiya” termini mustaqillikdan keyingi davrda milliy davlatchilikni barpo etish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish g‘oyalari bilan chambarchas aloqador holda qo‘llanila boshladi. Demak, bir xil nominativ birlik turli lingvomadaniy makonda turlicha tarixiy-assotsiativ maydonni faollashtiradi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, bunday terminlar inson ongida alohida konseptual sxemalar, freymlar va ssenariylar orqali idrok etiladi. Kognitiv tilshunoslikka ko‘ra, har bir termin inson tajribasi asosida shakllangan mental model bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, “parlament” tushunchasi ayrim auditoriya ongida saylov, qonun qabul qilish, siyosiy bahs-munozara jarayonlari bilan bog‘liq tasavvurlarni uyg‘otsa, boshqalarda u davlat hokimiyatining ramziy instituti sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Xuddi shuningdek, “inson huquqlari” tushunchasi xalqaro huquq normalari, BMT deklaratsiyalari va demokratik qadriyatlar bilan assotsiativ aloqada bo‘ladi.

Tarjima jarayonida aynan shu konseptual qatlam muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimon manba tilidagi termin ortida turgan konseptni anglab, uni maqsad tilidagi mavjud konseptual tizim bilan muvofiqlashtirishi zarur. Bu jarayon oddiy ekvivalent topishdan iborat emas, balki ikki xil siyosiy-madaniy tajriba o‘rtasida semantik va pragmatik moslikni ta’minlashni talab etadi. Agar manba tilidagi tushuncha maqsad tilida to‘liq shakllanmagan yoki boshqa mazmuniy soyaga

ega bo‘lsa, tarjimon izohlash, kontekstual moslashtirish yoki terminologik aniqlashtirish strategiyalaridan foydalanadi. Shunday qilib, ijtimoiy-siyosiy terminlar tarjimasi lingvistik adekvatlik bilan cheklanmaydi; u konseptual, madaniy va ideologik moslikni ham ta’minlashi lozim. Psixolingvistik yondashuv bu jarayonni inson ongida kechadigan ma’no qurish, axborotni qayta ishlash va mavjud bilimlar tizimi bilan integratsiya qilish mexanizmlari orqali izohlash imkonini beradi. Natijada tarjima faoliyati ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiyaning samaradorligini belgilovchi muhim kognitiv-amaliy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarjima jarayonining psixolingvistik mexanizmlari

Tarjima faoliyati murakkab psixik-kognitiv jarayon sifatida uch asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: persepsiya (qabul qilish), dekodlash va interpretatsiya, hamda rekodlash. Ushbu bosqichlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, tarjimon ongida ketma-ket va ba’zan parallel tarzda amalga oshadi.

Birinchi bosqich — persepsiya (qabul qilish) — manba tilidagi matnni vizual yoki audial tarzda idrok etishni anglatadi. Bu jarayonda tarjimon matnning leksik, grammatik va stilistik xususiyatlarini aniqlaydi, uning umumiy mazmuniy yo‘nalishini belgilaydi. Ijtimoiy-siyosiy matnlar bilan ishlashda persepsiya bosqichi ayniqsa muhim, chunki bunday matnlar ko‘pincha murakkab sintaktik konstruksiyalar, maxsus terminologiya va ideologik yuklama bilan ajralib turadi. Tarjimon matnni idrok etish jarayonida nafaqat so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini, balki ularning kontekstual va diskursiv funksiyasini ham anglab yetishi zarur.

Ikkinchi bosqich — dekodlash va interpretatsiya — semantik hamda konseptual tahlilni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda manba tilidagi til birliklari ortida turgan ma’no, konsept va pragmatik niyat aniqlanadi. Tarjimon leksik birliklarni o‘zining kognitiv tajribasi va fon bilimlari asosida tahlil qiladi, ularni mavjud mental modellari bilan solishtiradi. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy terminlar ko‘p qatlamli semantik tuzilishga ega bo‘lgani sababli, ularni dekodlash jarayoni oddiy lug‘aviy moslikni aniqlashdan iborat emas. Bu yerda terminning tarixiy shakllanishi, mafkuraviy asoslari va madaniy konnotatsiyalari ham e’tiborga olinadi.

Uchinchi bosqich — rekodlash — aniqlangan mazmunni maqsad tilining lingvistik vositalari orqali qayta ifodalashdan iborat. Rekodlash jarayonida tarjimon maqsad tilining grammatik normalari, uslubiy talablari va diskursiv xususiyatlarini hisobga olgan holda matnni shakllantiradi. Bu bosqichda adekvatlik va ekvivalentlik muammosi yuzaga keladi: tarjimon manba matn mazmunini saqlagan holda, uni maqsad auditoriyasi uchun tushunarli va tabiiy shaklda ifodalashi lozim.

Ijtimoiy-siyosiy terminlarni tarjima qilishda bir qator omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Avvalo, tarjimonning kognitiv tajribasi va fon bilimlari muhimdir. Siyosiy tizimlar, tarixiy jarayonlar va mafkuraviy oqimlar haqida yetarli bilimga ega bo‘lmagan tarjimon terminning chuqur ma’nosini to‘liq anglay olmaydi. Ikkinchidan, madaniy kontekst muhim omil hisoblanadi. Har bir termin muayyan lingvomadaniy makonda shakllanadi va shu muhitga xos semantik soyalarni o‘zida mujassam etadi. Uchinchidan, pragmatik maqsad — ya’ni matnning kommunikativ niyati — tarjima strategiyasini belgilaydi. Masalan, rasmiy diplomatik nutqda terminologik aniqlik ustuvor bo‘lsa, publitsistik matnda ta’sirchanlik va ekspressivlik muhimroq bo‘lishi mumkin. To‘rtinchidan, ideologik neytrallik masalasi dolzarbdir. Ijtimoiy-siyosiy matnlar ko‘pincha muayyan mafkuraviy pozitsiyani ifodalaydi, tarjimon esa mazmunni xolis va neytral tarzda yetkazishga intilishi lozim. Masalan, “liberalism” termini ingliz siyosiy-falsafiy diskursida individual erkinlik, bozor iqtisodiyoti va konstitutsiyaviy boshqaruv tamoyillariga asoslangan nazariya sifatida talqin etiladi. Bu tushuncha G‘arb siyosiy tafakkurida tarixiy va nazariy jihatdan keng ishlab chiqilgan konseptual tizimga ega. O‘zbek tilida esa “liberalizm” termini ko‘pincha torroq ma’noda yoki ba’zan boshqa konnotatsiyalar bilan qo‘llanilishi mumkin; ayrim hollarda u haddan tashqari erkinlik yoki ijtimoiy nazoratning susayishi bilan bog‘liq tasavvurlarni ham uyg‘otadi. Natijada tarjima jarayonida semantik siljish, ya’ni ma’no hajmining torayishi yoki kengayishi kuzatilishi mumkin. Shunday qilib, ijtimoiy-siyosiy terminlar tarjimasi psixolingvistik jarayon sifatida ko‘rib chiqilganda, u inson ongida kechadigan ko‘p bosqichli ma’no qurish va qayta ifodalash mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Tarjimonning vazifasi manba tilidagi konseptual mazmunni maqsad tilidagi mavjud bilimlar tizimi va madaniy tajriba bilan uyg‘unlashtirish orqali kommunikativ ekvivalentlikni ta’minlashdan iborat. Bu esa tarjimani nafaqat lingvistik, balki kognitiv va ijtimoiy-madaniy faoliyat sifatida talqin etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ekvivalentlik va adekvatlik muammosi

Tarjima nazariyasida ekvivalentlik muammosi markaziy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ekvivalentlik tushunchasi manba tilidagi matn mazmuni, shakli va funksiyasining maqsad tilida qay darajada va qanday vositalar orqali ifodalanishini belgilaydi. Turli nazariy yondashuvlarda ekvivalentlik lingvistik, semantik, stilistik, funksional va pragmatik mezonlar asosida talqin qilingan bo‘lsa-da, zamonaviy tarjimashunoslikda uning kommunikativ tabiati alohida e’tirof etiladi. Bu borada Eugene Nida tomonidan ishlab chiqilgan dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi muhim nazariy burilish yasadi. Nida ekvivalentlikni formal moslik bilan cheklab qo‘ymasdan, uni qabul qiluvchi auditoriyada yuzaga keladigan kommunikativ ta’sir tengligi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, tarjimaning asosiy vazifasi — asl matn o‘quvchisida qanday reaksiya shakllangan bo‘lsa, maqsad tilidagi o‘quvchida ham shunga yaqin kommunikativ ta’sirni hosil qilishdir.

Demak, bu yondashuvda so‘zma-so‘z moslik emas, balki mazmun va ta’sirning adekvatligi ustuvor hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasida aynan funksional-pragmatik ekvivalentlik alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday matnlar muayyan siyosiy tizim, huquqiy an’ana va institutsional tajriba bilan bog‘liq bo‘lgan terminologiyani o‘z ichiga oladi. Shu sababli, ularni tarjima qilishda faqat leksik moslikni topish yetarli emas; balki termin ortida turgan konseptual mazmun va uning jamiyatdagi funksional o‘rni hisobga olinishi zarur. Masalan, “rule of law” termini ingliz huquqiy-siyosiy diskursida davlat hokimiyati ham qonun bilan cheklanishi, barcha subyektlar qonun oldida tengligi va sud tizimining mustaqilligi kabi tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Uni “qonun ustuvorligi” deb tarjima qilish formal jihatdan mos ko‘rinsa-da, bu yerda asosiy vazifa — termin ortidagi huquqiy-falsafiy konseptni to‘liq ifodalashdir. Xuddi shuningdek, “checks and balances” iborasi AQSh konstitutsiyaviy tizimiga xos bo‘lgan hokimiyatlar bo‘linishi va ularning o‘zaro nazorat mexanizmini anglatadi. Uni “tormoz va muvozanat tizimi” tarzida berish so‘zma-so‘z tarjimadan ko‘ra, mazkur siyosiy-huquqiy modelni tushuntirishga qaratilgan konseptual moslashtirish natijasidir. Mazkur misollar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-siyosiy terminlar ko‘pincha realiya yoki institutsional xususiyatga ega bo‘lib, ular ma’lum bir siyosiy tizim doirasida shakllangan. Tarjimon bu kabi birliklarni maqsad tiliga o‘tkazishda semantik ekvivalentlik bilan bir qatorda, funksional moslikni ham ta’minlashi lozim. Aks holda, termin yuzaki tarjima qilinib, uning asl mazmuni torayishi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. Ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasida ekvivalentlik ko‘p darajali va murakkab hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Dinamik hamda funksional-pragmatik yondashuv tarjimonga matnning kommunikativ vazifasini saqlagan holda, konseptual aniqlikni ta’minlash imkonini beradi. Bu esa globallashuv sharoitida xalqaro siyosiy va huquqiy diskursni adekvat va samarali yetkazishning muhim nazariy hamda amaliy asosini tashkil etadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida siyosiy diskurs tafovutlari

Ingliz siyosiy diskursi tarixan individualizm, shaxs erkinligi, liberal-demokratik qadriyatlar va huquqiy davlat tamoyillariga tayanib shakllangan. Bu diskursda shaxsning avtonomligi, inson huquqlarining ustuvorligi, bozor iqtisodiyoti va davlat hokimiyatining cheklanganligi kabi konseptlar markaziy o‘rin egallaydi. Siyosiy matnlarda “individual responsibility”, “freedom of choice”, “limited government” kabi tushunchalar yuqori chastotada qo‘llanilib, ular anglo-sakson siyosiy tafakkurining asosiy ideologik tayanchlarini ifodalaydi. Bunday konseptual maydon tarixiy-liberal an’analar, parlament tizimi va fuqarolik institutlarining uzoq evolyutsiyasi bilan bog‘liq. O‘zbek siyosiy diskursi esa o‘zining shakllanishida boshqa tarixiy va ijtimoiy omillarga tayangan. Unda jamoaviylik, ijtimoiy barqarorlik, milliy birlik, davlat suvereniteti va bosqichma-bosqich taraqqiyot g‘oyalari ustuvor hisoblanadi. Siyosiy matnlarda “milliy manfaat”, “ijtimoiy hamjihatlik”, “barqaror rivojlanish”, “ma’naviy qadriyatlar” kabi birliklar faol qo‘llanilib, ular jamiyatning kollektiv identifikatsiyasi va milliy taraqqiyot konsepsiyasini ifodalaydi. Demak, har ikki diskurs o‘ziga xos aksiologik (qadriyatga oid) va ideologik tizimga ega bo‘lib, bu tizimlar terminlarning semantik maydonini shakllantiradi. Shu sababli ayrim siyosiy terminlarning ma’no hajmi va konnotativ qatlamlari ikki tilda to‘liq mos kelmasligi tabiiydir. Masalan, ingliz tilidagi “freedom” tushunchasi ko‘pincha shaxsiy erkinlik va davlat aralashuvining minimal darajasi bilan bog‘liq holda talqin etilsa, o‘zbek siyosiy diskursida “erkinlik” tushunchasi ijtimoiy mas’uliyat, milliy manfaat va jamiyat barqarorligi bilan uyg‘un holda ifodalanishi mumkin. Natijada terminning nominativ ma’nosi saqlangan taqdirda ham, uning konseptual va pragmatik maydoni qisman siljiydi. Psixolingvistik jihatdan bunday farqlar tarjimonning kognitiv strategiyalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tarjima jarayonida tarjimon manba tilidagi terminni idrok etar ekan, uni o‘z ongidagi mavjud konseptual sxemalar bilan solishtiradi. Agar maqsad tilida mazkur tushunchaga to‘liq mos keluvchi konsept mavjud bo‘lmasa, tarjimon adaptatsiya, izohlash yoki semantik kengaytirish kabi strategiyalardan foydalanishga majbur bo‘ladi. Bu jarayon inson ongida kechadigan konseptual integratsiya va mental modellashtirish mexanizmlari bilan bog‘liq. Tarjimon shu tariqa faqat ikki til tizimi o‘rtasida emas, balki ikki xil konseptual dunyoqarash, ikki xil siyosiy-madaniy model o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi. U lingvistik birliklarni mexanik tarzda almashtirmaydi, balki ularning ortidagi qadriyatlar tizimi, tarixiy tajriba va ijtimoiy ong shakllarini ham hisobga oladi. Aynan shu jihat ijtimoiy-siyosiy tarjimani oddiy leksik transformatsiyadan ko‘ra murakkab interkultural kommunikatsiya jarayoniga aylantiradi.

Xulosa

Ingliz va o‘zbek tillari misolida bu jarayon ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Ingliz siyosiy diskursida shakllangan terminlar ko‘pincha liberal-demokratik qadriyatlar, individual huquqlar va konstitutsiyaviy institutlar bilan bog‘liq konseptual maydonga ega. O‘zbek siyosiy diskursida esa milliy davlatchilik, ijtimoiy barqarorlik va jamoaviy taraqqiyot g‘oyalari muhim o‘rin tutadi. Natijada ayrim terminlarning ma’no hajmi, konnotatsiyasi va pragmatik vazifasi ikki til tizimida to‘liq mos kelmasligi mumkin. Bu esa tarjimonda yuqori darajadagi konseptual tafakkur va madaniy sezgirlikni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, tarjimonning muvaffaqiyati faqat lingvistik kompetensiya bilan belgilanmaydi. U konseptual kompetensiyaga — ya’ni siyosiy tushunchalarning mazmuniy va nazariy asoslarini anglash qobiliyatiga, hamda madaniy kompetensiyaga — ya’ni har ikki til jamiyatining tarixiy va ijtimoiy tajribasini hisobga olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur. Aynan shu omillar tarjima jarayonida semantik siljishlar, ma’no torayishi yoki kengayishi kabi hodisalarni oldini olishga yordam beradi. Psixolingvistik yondashuv esa tarjima faoliyatini inson ongida kechadigan ma’no qurish va qayta kodlash jarayonlari orqali tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv tarjimonning idrok, xotira, tafakkur

va interpretatsiya mexanizmlarini o‘rganish orqali ekvivalentlikni to‘g‘ri belgilashga, siyosiy diskursdagi yashirin ideologik qatlamlarni aniqlashga hamda semantik transformatsiyalarni ilmiy asosda izohlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Noam Chomsky. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, 1965.
2. George A. Miller. “The Magical Number Seven, Plus or Minus Two.” Psychological Review, 1956.
3. Eugene Nida. Toward a Science of Translating. Leiden, 1964.
4. Peter Newmark. Approaches to Translation. Oxford, 1981.
5. Teun A. van Dijk. Discourse and Power. London, 2008.
6. Раҳимов С. Таржима назарияси асослари. Тошкент, 2016.
7. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик асослари. Тошкент, 2006.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Mavjudboyeva Mardona Muzaffar qizi,
NamDU Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi
Email: mavjudboyeva@gmail.com

"TUSHDA KECHGAN UMRLAR" ASARINING SYUJET, OBRAZ VA USLUB XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Xususan, badiiy asarga xos bo'lgan syujet, kompozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim kabi nazariy tushunchalarning asar matnidagi shakllari ochib beriladi. Shuningdek, asardagi bosh va ikkinchi darajali qahramonlar tizimi, ularning ruhiy-psixologik holati, badiiy funksiyasi hamda yozuvchining individual uslubi keng yoritiladi. Roman shaxs va jamiyat munosabati, vijdon, mas'uliyat va umr mazmuni masalalarini badiiy-falsafiy asosda yoritgani bilan zamonaviy o'zbek romanchiligida alohida o'rin tutishi ilmiy dalillar asosida asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *O'tkir Hoshimov, psixologik roman, syujet, kompozitsiya, tugun, kulminatsiya, obraz, xotira poetikasi, tush motivi.*

Mavjudboyeva Mardona Muzaffar qizi
NamSU First-year student of faculty of Philology

PLOT, CHARACTER, AND STYLISTIC FEATURES OF THE NOVEL "A LIFETIME SPENT DREAMING"

Annotation: *This article analyzes Utkir Hoshimov's novel "Tushda kechgan umrlar" from a literary perspective. Specifically, it explores the manifestation of theoretical concepts such as plot, composition, conflict, climax, and resolution within the text. Furthermore, the system of primary and secondary characters, their psychological states, artistic functions, and the author's individual style are extensively covered. The article provides scholarly evidence that the novel holds a special place in modern Uzbek novel writing due to its artistic and philosophical exploration of the relationship between the individual and society, conscience, responsibility, and the meaning of life.*

Keywords: *Utkir Hoshimov, psychological novel, plot, composition, conflict, climax, character, poetics of memory, dream motif.*

Мавжудбоева Мардона Музаффар кизи,
Студентка первого курса филологического факультета
Наманганского государственного университета

СЮЖЕТНЫЕ, ОБРАЗНЫЕ И СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РОМАНА "ВСЯ ЖИЗНЬ, ПРОВЕДЁННАЯ В МЕЧТАХ"

Аннотация: *В данной статье анализируется роман Уткира Хашимова «Tushda kechgan umrlar» с точки зрения литературоведения. В частности, раскрываются такие теоретические понятия, как сюжет, композиция, завязка, кульминация и развязка в контексте художественного произведения. Также подробно освещаются система главных и второстепенных героев, их психологическое состояние, художественная функция и индивидуальный стиль писателя. На основе научных данных обосновывается, что роман занимает особое место в современной узбекской романистике благодаря художественно-философскому освещению взаимоотношений личности и общества, вопросов совести, ответственности и смысла жизни.*

Ключевые слова: *Уткир Хашимов, психологический роман, сюжет, композиция, завязка, кульминация, образ, поэтика памяти, мотив сна.*

Kirish.

XX asr oxiri o'zbek nasrida inson ruhiyati, xotira va ichki ziddiyatlarni badiiy tadqiq etishga qaratilgan yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davr romanchiligida voqea markazidan ko'ra shaxs ongining murakkab jarayonlari yetakchi o'rin egallay boshladi. O'tkir Hoshimov ana shu yo'nalishning muhim namoyandalaridan biridir. Uning "Tushda kechgan

umrlar” romani inson umrining ma’naviy bahosi, o‘tmish bilan yuzlashuv, vijdon azobi va ruhiy poklanish jarayonlarini chuqur badiiy talqin qilgan asar sifatida baholanadi. Adabiyotshunos D.Quronov ta’kidlashicha, zamonaviy roman voqealarning tashqi izchilligi bilangina emas, balki inson tafakkuri va xotirasining ichki harakati bilan ham belgilanadi. Mazkur roman aynan shu jihati bilan e’tiborga molikdir.

Tadqiqot metodikasi: Bugungi globallashuv va turli mafkuraviy ziddiyatlar davrida inson taqdiri, urushning shaxs ma’naviyatiga ta’siri kabi mavzular doimo dolzarb bo‘lib qolaveradi. Asardagi “shaxs va jamiyat” ziddiyati bugungi kunda ham ijtimoiy-axloqiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Maqola struktural-funksional tahlil qilindi: romanning kompozitsion unsurlari va syujet qurilishi tizimli ravishda o‘rganildi. Qahramonlarning ichki dunyosidagi evrilishlar “psixologik parallelizm” asosida tahlil qilindi. Asar tilidagi ramzlar, metaforalar va “tush” detalining badiiy funksiyasi ochib berildi.

Natijalar: O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani nafaqat adibning, balki butun jamiyatning ham ma’naviy merosi hisoblanadi. Roman an’anaviy chiziqli syujet asosida emas, balki retrospektiv va fragmentar kompozitsiya asosida qurilgan, ya’ni voqealar ketma-ketlik asosida emas, balki o‘tmishga qaytish va epizodik parchalarga bo‘linish orqali berilgan. Bu usul qahramon ruhiyatini chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Syujetning asosiy xususiyati – uch qatlamli kompozitsiya:

Hozirgi zamon (tergov jarayoni, o‘lim tafsilotlari);
O‘tmish (Rustam va Shahnoza munosabatlari);
Afg‘on urushi bilan bog‘liq xotiralar.

Ushbu uch qatlam bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, har biri asosiy konfliktni ochishga xizmat qiladi. Ekspozitsiyada jamiyatning umumiy ruhiy manzarasi beriladi. Sobiq tuzum inqirozi, ma’naviy qadriyatlarning yemirilishi, urushdan qaytgan yigitlarning moslasha olmasligi tasvirlanadi. Muallif individual qahramondan oldin muhitni beradi, bu usul ijtimoiy roman an’analariga xosdir. Ekspozitsiyaning o‘ziga xosligi shundaki, u bevosita dramatik harakat bilan boshlanadi, muhit tasviri esa voqealar orasida ochib boriladi. Shu bilan birga, roman tuguni ko‘p qirrali konflikt asosida shakllanadi. Ichki konflikt: Rustamning ichki iztirobi – asosiy dramatik o‘zak. U o‘zini urushdagi voqealar uchun aybdor his qiladi, o‘tmish xotiralari uni ta’qib qiladi. Ichki konflikt quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

Xotira va hozirgi zamon to‘qnashuvi;
Vijdon azobi;
Ruhiy parchalanish;
Begonalashuv hissi.

Tashqi konflikt shaxs va tuzum o‘rtasidagi ziddiyatdir. Tergov jarayonida inson qalbining murakkabligi emas, balki rasmiy tartib ustuvor qo‘yiladi. Bu jarayon qahramon fojiasining ijtimoiy ildizini ko‘rsatadi. Shuningdek, asardagi voqealar rivoji tashqi harakatdan ko‘ra ichki jarayonlar asosida kechadi. Muallif bu jarayonni ichki monolog, tush tasvirlari, kundalik shakli, xotira oqimi texnikasi orqali ochib beradi. Rustam kundaligida urush manzaralari, begunoh qurbonlar, dahshatli tasvirlar orqali ruhiy jarohat qayta jonlanadi. Bu jarayon o‘quvchida empatik ta‘sir uyg‘otadi. Roman dinamikasi ichki dramatizmga asoslangan bo‘lib, tashqi sarguzasht unsurlari minimal darajada. An’anaviy romanlarda kulminatsiya, odatda, eng keskin tashqi voqea bilan belgilanadi, biroq bu asarda kulminatsiya – ruhiy portlash nuqtasi. Rustamning o‘limi fakt sifatida emas, balki jarayon natijasi sifatida beriladi. Asl kulminatsiya – o‘quvchi uning allaqachon ruhiy halok bo‘lganini anglagan palladir. Bu yondashuv romanni psixologik roman darajasiga olib chiqadi. Ma’lum bo‘ladiki, asar yechimi tragik xususiyatga ega. Muallif an’anaviy ijobiy yakunni tanlamaydi, o‘quvchini savol bilan qoldiradi. Ochiq final o‘quvchini mustaqil xulosaga undaydi. Bu modernistik adabiyot belgilaridan biridir. Roman syujeti orqali esa muallif urush insonni ichkaridan sindirishi, shaxsni tushunmagan jamiyat – fojiaga sabab bo‘lishi, Muhabbat ruhiy jarohatni davolash uchun yetarli emasligi kabi falsafiy g‘oyalarni ilgari suradi. Asardagi obrazlar tizimi ham badiiy jihatdan mukammal yoritilgan. Rustam – tragik qahramon modeli, “urush sindirgan avlod” timsoli. U o‘zini nafaqat urushda, balki tinch hayotda ham “begona” his qiladi. U jamiyatdagi sovuqlik va adolatsizlikka to‘qnash kelgan halol insonning fojiasini ifodalaydi. Uning hayoti tushga o‘xshash mazmunsiz va azobli kechgani asar nomiga ham ishoradir. Komissar Soat G‘aniyev – mustabid tuzum asorati, totalitar rejimning sobiq xizmatchisi, necha minglab insonlarning taqdirini hal qilgan shafqatsiz amaldor. Komissar obrazi orqali yozuvchi mustabid tuzumning qonli siyosatini ko‘rsatadi. Uning o‘z og‘li va oilasi bilan bog‘liq fojialari adolatsiz tizimning oxir-oqibat o‘zini ham yeb bitirishiga ishoradir. Shahnoza – sof muhabbat va sadoqat timsoli. Uning fojiasi – tushunilmaslik, u Rustamni sevadi, ammo uning ichki olamini anglay olmaydi. Shahnozaning obrazidagi asosiy xususiyatlar: sadoqat, sabr, ruhiy iztirob, u roman dramatizmini oshiradi va tragik finalga xizmat qiladi. Qurbonoy xola esa milliy ruh va xalqona donishmandlik timsoli, Rustamning onasi, barcha qiyinchiliklarga qaramay farzandi uchun qayg‘uradigan, duogo‘y ayol. U asarda ma’naviy poklik va an’anaviylikni saqlab qolgan personaj. Asarning "Tushda kechgan umrlar" deb nomlanishi bejiz emas. Birinchidan, bosh qahramon Rustam uchun urushdan keyingi hayot xuddi tush kabi mavhum, mantiqsiz va begona bo‘lib tuyuladi. U o‘zi yashayotgan muhitga moslasha olmaydi, chunki uning ruhiyati Afg‘onistondagi dahshatli xotiralar asiri bo‘lib qolgan. Rustam uchun urush – qonli bir

tush bo'lsa, tinch hayot esa o‘sha mudhish tushning davomidagi sarobdek gapdir. Ikkinchidan, asar nomidagi "tush" motivi inson vijdonining uyg'onishiga ham ishoradir. Rustam tushlarida o'zi bilmay sodir etgan qotilliklarini qayta-qayta ko'radi va bu uni ruhiy qiynoqqa soladi. Adib bu orqali inson umri agar u adolatsiz tuzum va ma'nosiz urushlar girdobida o'tsa, xuddi tush kabi g'arib va fojiali bo'lishini ko'rsatib bergan.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani o‘zbek nasrida psixologik realizmning yetuk namunasidir. Asar syujet-kompozitsion jihatdan murakkab, ko‘p qatlamli va retrospektiv hamda fragmentar qurilish asosida tashkil etilgan. Tahlil davomida aniqlanishicha, roman an’anaviy chiziqli syujet modelidan farq qiladi. Voqealar vaqt ketmaketligida emas, balki xotira va ichki monolog asosida beriladi. Retrospektiv kompozitsiya sabab va oqibat o‘rnini almashtirish orqali dramatik taranglikni oshiradi. Fragmentar tuzilma esa voqealar orasidagi uzilishlar orqali o‘quvchini mustaqil tafakkurga undaydi. Umuman olganda, asar o‘zbek adabiyotida o‘zining badiiy syujeti, uslubi va obrazlar tizimi bilan ajralib turadi. Asar nafaqat badiiy qiymatga, balki tarixiy-ma’naviy hujjat sifatida ham ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘tkir Hoshimov “Tushda kechgan umrlar”. G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent – 2002.
2. Dilmurod Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari”. Innovatsiya-Ziyo nashri. Toshkent – 2020. – B. 112.
3. Норматов У. Ижод сехри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 214.
4. https://zenodo.org/records/8149034
5. E. G‘oziyev “Psixologiya”. “O‘qituvchi” nashriyot-manba ijodiy uyi. Toshkent – 2008. – B. 21.
6. https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/11-o-zbekiston-milliy-ensiklopediyasi – B. 534.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ekspozitsiya_(unsur)
8. Т. Бобоев"Адабиётшунослик асослари". Узбекистон нашри. Тошкент – 2002. – Б. 115.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Azizov Solijon Uchmas o‘g‘li
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: solijonazizov1@gmail.com

BADIIY DISKURSDA JINOYATNI IDROK ETISH: KOGNITIV MODELLAR VA LINGVOMADANIY TAFOVUTLAR

Annotatsiya: *Maqolada ingliz, amerika, rus va o‘zbek badiiy diskurslarida “jinoyat” konsepti kognitiv-pragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. “Jinoyat” konseptosferasining semantik yadrosi va madaniy jihatdan belgilangan komponentlari qiyosiy asosda aniqlanadi. Tadqiqot natijalari “jinoyat” konseptining turli diskurslarda uch xil kognitiv model orqali faollashishini ko‘rsatadi. Xulosalar “jinoyat” va “adolat” konseptosferalari o‘rtasidagi munosabatni talqin qilish uchun nazariy asos yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *“jinoyat” konsepti, konseptosfera, badiiy diskurs, kognitiv-pragmatik tahlil, lingvomadaniy farqlar, qiyosiy tahlil, baholovchi mexanizm, “adolat” konsepti.*

Азизов Солижон Учмас угли
Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам
Старший преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

ВОСПРИЯТИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ: КОГНИТИВНЫЕ МОДЕЛИ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ

Аннотация: *В статье на основе когнитивно-прагматического подхода анализируется концепт «преступление» в английском, американском, русском и узбекском художественных дискурсах. На сопоставительной основе выявляются семантическое ядро и культурно маркированные компоненты концептосферы «преступление». Результаты исследования показывают, что концепт «преступление» актуализируется в различных дискурсах через три когнитивные модели. Сделанные выводы создают теоретическую основу для интерпретации взаимосвязи концептосфер преступление и справедливость.*

Ключевые слова: *концепт «преступление», концептосфера, художественный дискурс, когнитивно-прагматический анализ, лингвокультурные различия, сопоставительный анализ, оценочный механизм, концепт справедливость.*

Solijon Uchmas o‘g‘li Azizov
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Senior Lecturer at Uzbekistan State World Languages University

PERCEPTION OF CRIME IN LITERARY DISCOURSE: COGNITIVE MODELS AND LINGUOCULTURAL DIFFERENCES

Abstract: *The article analyzes the concept of ‘crime’ in English, American, Russian, and Uzbek literary discourses from a cognitive-pragmatic perspective. On a comparative basis, the semantic core and culturally marked components of the ‘crime’ conceptosphere are identified. The findings demonstrate that the concept of ‘crime’ is activated across different discourses through three cognitive models. The conclusions provide a theoretical framework for interpreting the relationship between the conceptospheres of ‘crime’ and ‘justice’.*

Key words: *the concept of ‘crime’, conceptosphere, literary discourse, cognitive-pragmatic analysis, linguocultural differences, comparative analysis, evaluative mechanism, the concept of ‘justice’.*

Kirish. Badiiy diskurs jinoyat hodisasini huquqiy normalar doirasida emas, balki inson ongining eng murakkab axloqiy va psixologik qatlamlarida namoyon bo‘ladigan hodisa sifatida tasvirlaydi. Jinoyat bu yerda qonun buzilishi

faktidan koʻra kengroq mazmun kasb etib, shaxs va jamiyat, vijdon va manfaat, ijtimoiy majburiyat va individual tanlov oʻrtasidagi ziddiyatli munosabatlarning markaziy kognitiv modeli sifatida shakllanadi. Shu sababli badiiy matnlarda jinoyatni tahlil qilish uni faqat kriminal voqea sifatida emas, balki madaniy ongda shakllangan konseptual tizim – konseptosfera sifatida oʻrganishni taqozo etadi.

Turli lingvomadaniy makonlarda jinoyat hodisasiga boʻlgan munosabat bir xil emas. Ingliz va amerika badiiy diskurslarida jinoyat koʻpincha individual masʼuliyat va ratsional tanlov bilan bogʻliq boʻlsa, rus adabiy anʼanasida u inson ruhiyatidagi axloqiy buzilish va ichki fojia sifatida talqin qilinadi. Oʻzbek badiiy diskursida esa jinoyat tushunchasi shaxsiy xatti-harakat doirasidan chiqib, jamoa, oila va maʼnaviy qadriyatlar bilan uzviy bogʻlangan ijtimoiy hodisa sifatida namoyon boʻladi. Ushbu tafovutlar “jinoyat” konseptining universal semantik yadrosi mavjud boʻlishiga qaramay, uning periferik zonalari milliy madaniyat tomonidan shakllantirilishini koʻrsatadi. Lingvistik tadqiqotlarda “jinoyat” tushunchasi asosan huquqiy terminologiya yoki ijtimoiy diskurs doirasida oʻrganilgan boʻlib, uning badiiy diskursdagi konseptual va pragmatik xususiyatlari koʻpincha fragmentar yondashuvlar bilan cheklangan. Ayniqsa, “jinoyat” konseptining turli tillar va madaniyatlarda qanday kognitiv modellar orqali ifodalanishi, qanday baholovchi mexanizmlar yordamida oʻquvchi ongiga taʼsir koʻrsatishi masalasi yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan.

Adabiyotlar tahlili

Konsept tushunchasining lingvistik talqini avvalo rus kognitiv maktabi doirasida shakllangan. Y.S. Stepanov konseptni madaniyat bilan bogʻliq “ongdagi semantik markaz” sifatida izohlaydi va uni milliy tafakkur mahsuli sifatida talqin qiladi [1]. Ushbu yondashuv “jinoyat” konseptini huquqiy termin darajasidan chiqarib, axloqiy va madaniy kategoriya sifatida oʻrganish imkonini beradi. Biroq Y.Stepanov konseptlarni asosan barqaror madaniy birlik sifatida koʻrganligi sababli, jinoyat kabi konfliktli va diskurs jarayonida oʻzgaruvchan tushunchaning pragmatik faolligini yetarli darajada ochib bera olmaydi. Y.S. Kubryakova konseptni “bilimlar paketi” sifatida talqin qilib, uning yadrosi va periferiyasini ajratishni [2] taklif etadi; bu model “jinoyat” konseptosferasining ichki tuzilishini aniqlashda samarali boʻlsa-da, badiiy diskursda konseptning baholovchi va taʼsirchan funksiyalari masalasini cheklangan holda yoritadi. Gʻarb lingvistikasida “jinoyat” konseptini bevosita markazga qoʻygan tadqiqotlar kam boʻlsa-da, J.Lakof va M.Jonson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi [3] jinoyatning badiiy matnlarda qanday kognitiv modellar orqali tasvirlanishini izohlashga imkon beradi. Jinoyatning “ifloslik”, “ogʻir yuk” yoki “yoʻldan chiqish” kabi metaforalar orqali anglanishi ushbu nazariya doirasida izohlanadi, biroq u jinoyatning axloqiy va huquqiy baholanish mexanizmlarini toʻliq qamrab olmaydi. Diskurs tahlili doirasida T. van Deyk jinoyatga oid matnlarning ijtimoiy baholash va ideologik pozitsiyani shakllantirishdagi rolini koʻrsatadi [4], ammo uning ishlari asosan siyosiy va ommaviy axborot diskursiga qaratilgan boʻlib, badiiy diskursning estetik va psixologik xususiyatlari ikkilamchi planda qoladi. Shu bois mavjud tadqiqotlar “jinoyat” konseptining ayrim jihatlarini yoritgan boʻlsa-da, uni turli lingvomadaniy makonlarda badiiy diskurs asosida qiyosiy va kognitiv-pragmatik tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot kognitiv lingvistika va diskurs tahlilining integrativ metodologiyasiga tayangan holda olib borildi. Tadqiqotda “jinoyat” konsepti badiiy diskursda shakllanadigan koʻp qatlamli kognitiv birlik sifatida qaralib, uning semantik yadrosi va madaniy jihatdan belgilangan periferik komponentlari kognitiv-semantik tahlil orqali aniqlandi. “Jinoyat” konseptosferasining lingvomadaniy xususiyatlarini ochish maqsadida ingliz, amerika, rus va oʻzbek badiiy matnlaridan olingan kontekstlar qiyosiy metod asosida tahlil qilindi. Diskursiv-pragmatik tahlil “jinoyat” konseptining muallif niyati va oʻquvchi qabulidagi baholovchi hamda taʼsirchan funksiyalarini aniqlashga xizmat qildi, kontekstual tahlil esa jinoyat tasvirining ijtimoiy, axloqiy va psixologik omillar bilan bogʻliqligini belgilash imkonini berdi. Ushbu metodlar majmui “jinoyat” konseptining badiiy diskursdagi universal va milliy xususiyatlarini kompleks yoritishga yoʻnaltirildi.

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot natijalari “jinoyat” konsepti badiiy diskursda alohida leksik yoki tematik birlik emas, balki murakkab iyerarxik tuzilishga ega konseptosfera sifatida shakllanishini koʻrsatdi. Ushbu konseptosfera barqaror semantik yadro va kontekstga bogʻliq ravishda kengayuvchi periferik zonalardan tashkil topadi. Tahlil qilingan barcha lingvomadaniy makonlarda yadro “meʼyor buzilishi”, “aybdorlik” va “javobgarlik” semalariga tayansa-da, badiiy diskursda bu yadro hech qachon mustaqil holda namoyon boʻlmaydi. U doimo axloqiy baho, psixologik holat va ijtimoiy munosabatlar bilan boyitiladi. Bu holat “jinoyat” konseptining badiiy matnda statik emas, balki dinamik va koʻp yoʻnalishli kognitiv tuzilma ekanini tasdiqlaydi. Kognitiv-semantik tahlil jinoyat konseptosferasining qatlamli tashkil etilganini aniqladi. Yadroga yaqin periferiyada jinoyat motivlari – manfaat, qoʻrquv, hasad, gʻazab, ijtimoiy bosim kabi komponentlar faollashadi. Uzoq periferiyada esa jinoyat oqibatlari bilan bogʻliq abstrakt tushunchalar: vijdon azobi, pushaymonlik, ijtimoiy chetlanish, maʼnaviy tanazzul kabi birliklar joylashadi. Aynan ushbu uzoq periferiya badiiy diskursda keng tasvirlanib, jinoyat hodisasini sof huquqiy fakt darajasidan chiqaradi. Natijada “jinoyat” konsepti oʻquvchi ongida murakkab axloqiy va ijtimoiy jarayon sifatida konseptuallashtiriladi. Ingliz (A.Kristi asarlari) va amerika (M.Puzo asarlari) badiiy diskurslarida

“jinoyat” konseptosferasining shakllanishi ratsional-kognitiv modelga asoslanganligi aniqlandi. Jinoyat bu diskurslarda tartibni buzuvchi hodisa sifatida emas, balki aniqlanishi, tushuntirilishi va mantiqan hal etilishi lozim bo‘lgan muammo sifatida talqin qilinadi. Shu sababli “jinoyat” konseptosferasida tergov, dalil, sabab-oqibat, mantiqiy xulosa kabi subkonseptlar ustuvor mavqega ega bo‘ladi. Jinoyatchi obrazi ham ko‘pincha mutlaq yovuzlik emas, balki muayyan sharoitlar ta’sirida harakat qiluvchi subyekt sifatida tasvirlanadi. Bu model “jinoyat” konseptining intellektual mushohadani faollashtiruvchi kognitiv mexanizm sifatida ishlashini ko‘rsatadi. Mazkur diskurslarda jinoyatning pragmatik funksiyasi ham o‘ziga xosdir. Jinoyat tasviri o‘quvchini hissiy hamdardlikka emas, balki tahlil va baholashga undaydi. O‘quvchi jinoyatni kuzatuvchi va yechimni izlovchi subyekt sifatida pozitsiyalanadi. Natijada “jinoyat” konsepti “adolat” konseptiga olib boruvchi mantiqiy yo‘lning boshlang‘ich nuqtasi sifatida xizmat qiladi. Bu yerda jinoyat va adolat o‘rtasidagi bog‘liqlik ratsional asosda quriladi va adolat haqiqatni aniqlash bilan tenglashtiriladi. Rus badiiy diskursida (F.Dostoyevskiy asarlari) “jinoyat” konseptosferasining shakllanishi mutlaqo boshqa kognitiv modelga tayanadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, bu diskursda jinoyat tashqi xatti-harakatdan ko‘ra ichki axloqiy buzilish sifatida konseptuallashtiriladi. Jinoyat sodir etilgan lahza ikkilamchi ahamiyatga ega bo‘lib, asosiy e’tibor jinoyatdan keyingi ruhiy holatlarga qaratiladi. Vijdon azobi, ichki monolog, o‘zini oqlash va o‘zini jazolash jarayonlari “jinoyat” konseptosferasining markaziy komponentlariga aylanadi. Rus badiiy diskursida “jazo” subkonsepti ham rasmiy-huquqiy mazmundan ko‘ra axloqiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Jinoyat uchun jazo tashqi institutlar tomonidan emas, balki shaxsning o‘z ongida amalga oshadi. Shu sababli “jinoyat” konsepti bu diskursda adolat bilan bevosita bog‘lanmaydi, balki ma’naviy poklanish jarayoni orqali adolatga olib boruvchi murakkab ichki yo‘l sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada “jinoyat” konseptosferasi diniy va falsafiy konseptlar bilan integratsiyalashgan holda shakllanadi. O‘zbek badiiy diskursi (T.Malik asarlari) tahlili “jinoyat” konseptining ijtimoiy-normativ model asosida tashkil etilishini ko‘rsatdi. Bu diskursda jinoyat individual xatti-harakat sifatida emas, balki jamoa muvozanatini buzuvchi hodisa sifatida baholanadi. Jinoyat oqibatlari ko‘pincha jinoyatchining shaxsiy taqdiridan ko‘ra uning oilasi, yaqinlari va ijtimoiy muhiti bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Bu holat “jinoyat” konseptosferasida kollektiv mas’uliyat komponentining kuchli ekanini ko‘rsatadi. O‘zbek badiiy diskursida “jinoyat” konseptosferasining periferiyasida “uyat”, “or”, “nomus”, “xalq oldidagi javobgarlik” kabi madaniy subkonseptlar faol ishlatiladi. Ushbu subkonseptlar jinoyatni huquqiy buzilishdan ko‘ra axloqiy me’yorlardan chetga chiqish sifatida talqin qilishga xizmat qiladi. Pragmatik jihatdan bu jinoyat tasvirining o‘quvchini individual hukmdan ko‘ra jamoaviy va ma’naviy baholashga undashini ko‘rsatadi. Natijada “jinoyat” konsepti jamiyatning axloqiy chegaralarini belgilovchi normativ mexanizm sifatida ishlaydi. Qiyosiy umumlashtirish shuni ko‘rsatdiki, “jinoyat” konsepti badiiy diskursda uch xil asosiy kognitiv-pragmatik model asosida shakllanadi: ratsional-analitik model (ingliz va amerika), axloqiy-falsafiy model (rus) va ijtimoiy-normativ model (o‘zbek). Ushbu modellar “jinoyat” konseptining semantik yadrosini inkor etmaydi, balki uni turli madaniy onglar doirasida turlicha tashkil etilishini namoyon etadi. Har bir modelda “jinoyat” konsepti o‘quvchi ongida turli baholovchi strategiyalarni faollashtiradi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari “jinoyat” konseptining badiiy diskursda ko‘p qatlamli, madaniy jihatdan belgilangan va pragmatik jihatdan faol konseptosfera ekanini isbotlaydi. Jinoyat bu yerda faqat qonunbuzarlik emas, balki insoniy tanlov, axloqiy sinov va ijtimoiy mas’uliyatni ifodalovchi kognitiv model sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu xususiyat “jinoyat” konseptosferasini “adolat” konseptosferasi bilan dialektik munosabatda o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi va keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, “jinoyat” konseptosferasining badiiy diskursda faollashuvi ko‘pincha narrativ pozitsiya bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Agar voqea jinoyatchi nuqtayi nazaridan berilsa, konseptosferaning psixologik va axloqiy komponentlari kuchayadi; jinoyat tashqi hodisadan ko‘ra ichki jarayon sifatida konseptuallashtiriladi. Aksincha, kuzatuvchi yoki tergovchi pozitsiyasida jinoyat mantiqiy va sababiy zanjirlar orqali anglanadi. Bu holat “jinoyat” konseptining diskursda qat’iy belgilangan mazmunga ega emasligini, balki narrativ strategiyaga mos ravishda qayta tuzilishini ko‘rsatadi. Natijada “jinoyat” konsepti bir xil hodisa doirasida ham turli kognitiv modellarda namoyon bo‘lishi mumkin. “Jinoyat” konseptosferasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholovchi mexanizmlar alohida e’tiborni talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, badiiy diskursda jinoyat hech qachon neytral tasvirlanmaydi; u doimo muallif tomonidan axloqiy yoki ijtimoiy baho bilan yuklanadi. Ingliz va amerika diskurslarida baholash ko‘pincha bilvosita bo‘lib, o‘quvchiga mustaqil xulosa chiqarish imkonini beradi. Rus va o‘zbek diskurslarida esa baholash ochiqroq va normativ xarakterga ega bo‘lib, jinoyatga nisbatan aniq munosabat shakllantiriladi. Bu farq “jinoyat” konseptining pragmatik vazifalari madaniy ong bilan uzviy bog‘liqligini yana bir bor tasdiqlaydi. “Jinoyat” konseptosferasining shakllanishida jinoyatchi va qurbon obrazlari markaziy kognitiv rol o‘ynaydi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, ingliz va amerika badiiy diskurslarida qurbon obrazi ko‘pincha narrativ fon vazifasini bajarib, asosiy e’tibor jinoyat mexanizmini anglashga qaratiladi. Rus diskursida esa jinoyatchining o‘zi ma’naviy jihatdan qurbon sifatida tasvirlanib, jinoyat ichki fojia sifatida konseptuallashtiriladi. O‘zbek badiiy diskursida esa qurbonlik tushunchasi individual shaxs bilan cheklanmay, oila yoki jamoa darajasida kengayadi. Bu holat “jinoyat” konseptosferasining turli madaniyatlarda turli axloqiy markazlarga ega ekanini ko‘rsatadi.

Umumiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, “jinoyat” konsepti badiiy diskursda doimo “adolat” konsepti tomon yo‘naltirilgan kognitiv harakat sifatida namoyon bo‘ladi. Jinoyat voqeasi diskursda yakuniy nuqta emas, balki adolat, javobgarlik va muvozanat masalalarini faollashtiruvchi boshlang‘ich mexanizm vazifasini bajaradi. Biroq bu harakatning yo‘nalishi va shakli madaniy ongga bog‘liq holda farqlanadi: bir diskursda u mantiqiy yechim orqali, boshqasida axloqiy poklanish orqali, yana birida esa ijtimoiy muvozanatni tiklash orqali amalga oshadi. Shu tariqa “jinoyat” konseptosferasi badiiy diskursda “adolat” konseptosferasining shakllanishi uchun zarur bo‘lgan kognitiv va pragmatik asosni yaratadi.

Xulosalar

Tadqiqot “jinoyat” konsepti ingliz, amerika, rus va o‘zbek badiiy diskurslarida barqaror semantik yadroni saqlagan holda madaniy ong ta’sirida turlicha tashkil etiladigan ko‘p qatlamli konseptosfera sifatida shakllanishini ko‘rsatdi. Jinoyat badiiy matnlarda huquqiy hodisadan ko‘ra insoniy tanlov va axloqiy sinovni ifodalovchi kognitiv model sifatida namoyon bo‘lib, uning pragmatik talqini ratsional-analitik, axloqiy-falsafiy va ijtimoiy-normativ modellar orqali amalga oshadi. Olingan natijalar “jinoyat” konseptining badiiy diskursda baholovchi va kognitiv funksiyalarni birlashtirgan holda “adolat” konseptosferasi bilan uzviy dialektik aloqada shakllanishini tasdiqlaydi hamda qiyosiy kognitiv-pragmatik tahlilning nazariy ahamiyatini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – 2. изд., испр. и доп. – Москва: Акад. проект, 2001. – 989, [1] с.
2. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 2008. – 256 p.
4. van Dijk T.A. Discourse and Power. – New York: Palgrave Macmillan, 2008. – 308 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Narkabilova Rayxonoy Alisherovna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali.
O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi assistenti.
Email: rayhonoy628@gmail.com

O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARI TARJIMASIDA MILLIY KOLORIT VA LINGVOKULTUROLOGIK MUAMMOLAR.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari misolida badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash va lingvokulturologik muammolar tahlil qilinadi. Muallif asardagi o‘zbekona lutf, urf-odatlar va frazeologik birliklarning boshqa tillarga (xususan, rus yoki ingliz tillariga) o‘girilishidagi o‘ziga xosliklarni tadqiq etadi. Shuningdek, maqolada madaniyatlararo muloqotda ekvivalentlikni ta’minlash va milliy o‘ziga xoslikni ifodalovchi realiyalarni tarjima qilish usullari ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, milliy kolorit, lingvokulturologiya, realiyalar, lisoniy manzara, O‘tkir Hoshimov, ekvivalentlik, madaniyat.*

Наркабилова Райхоной Алишеровна
Термезский филиал Ташкентского
государственного медицинского университета.
Ассистент кафедры «Узбекский и иностранные языки».

НАЦИОНАЛЬНЫЙ КОЛОРИТ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ УТКИРА ХОШИМОВА «ДЕЛА МИРА»

Аннотация: *В данной статье на примере произведения Уткира Хашимова «Дела земные» анализируются проблемы сохранения национального колорита и лингвокультурологические аспекты в художественном переводе. Автор исследует специфику перевода узбекского речевого этикета, традиций и фразеологизмов на другие языки. Также в статье научно обоснованы методы обеспечения эквивалентности в межкультурной коммуникации и способы перевода реалий, выражающих национальную самобытность.*

Ключевые слова: *художественный перевод, национальный колорит, лингвокультурология, реалии, языковая картина мира, Уткир Хашимов, эквивалентность.*

Narkabilova Raykhonoy Alisherovna
Termiz Branch of Tashkent State Medical University
Assistant Lecturer, Department of Uzbek and Foreign Languages

NATIONAL COLOR AND LINGUOCULTURAL CHALLENGES IN TRANSLATING O‘TKIR HOSHIMOV’S “THE AFFAIRS OF THE WORLD”

Abstract: *This article analyzes the problems of preserving national flavor and linguacultural issues in literary translation, using Utkir Hoshimov’s masterpiece "The Affairs of This World" as an example. The author examines the specific features of translating Uzbek etiquette, traditions, and phraseological units into other languages. Furthermore, the article scientifically substantiates methods for ensuring equivalence in intercultural communication and approaches to translating realia that embody national identity.*

Keywords: *literary translation, national color, linguaculture, realia, linguistic world picture, Utkir Hoshimov, equivalence, cultural identity.*

Kirish

Badiiy tarjima shunchaki bir tildagi matnni ikkinchi tilga o‘girish emas, balki bir millat tafakkur tarzi va madaniy qatlamlarini boshqa xalq ongiga ko‘chirish jarayonidir. Bugungi kunda jahon adabiyotshunosligi va tilshunosligida badiiy matnlarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish, tarjimada milliy koloritni saqlab qolish masalalari dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, har bir xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi uning tilida, ayniqsa, asrlar davomida shakllangan realiyalarida, frazeologizmlarida va nutqiy etiketida namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiyotining yorqin vakili O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi milliy ruh bilan sug‘orilgan asar bo‘lib, unda o‘zbek xalqining turmush tarzi, oilaviy munosabatlari va eng muhimi, “Ona” konsepsiyasi lirik va falsafiy bo‘yoqlarda tasvirlangan. Ushbu asarning Mark Riz (Mark Reese) va Abdulla Ro‘ziyev tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimasi o‘zbekona milliy koloritni saqlash nuqtai nazaridan alohida ilmiy qimmatga ega. Lingvokulturologik muammolar aynan tarjima jarayonida til va madaniyat to‘qnashgan nuqtalarda yuzaga chiqadi. “Dunyoning ishlari” asari tarkibidagi *“aylanay”*, *“o‘rgilay”*, *“sadqai ketay”* kabi o‘zbekona lutf va erkalash so‘zlari, *“isiriq solish”*, *“duo olish”*, *“xudoyi”* kabi marosimga oid tushunchalar tarjimondan nafaqat til bilishni, balki o‘zbek mentalitetini ich-ichidan his qilishni talab etadi. Ushbu maqolaning maqsadi — Mark Riz va Abdulla Ro‘ziyev tarjimasida asarning lingvokulturologik xususiyatlari qanday saqlanganini tahlil qilish, milliy realiyalarni ingliz tiliga o‘girishda qo‘llanilgan usullarning samaradorligini aniqlash hamda badiiy tarjimada milliy o‘ziga xoslikni ifodalashning nazariy va amaliy masalalarini yoritib berishdan iborat. Mazkur tahlil o‘zbek adabiyoti namunalarining ingliz tilidagi talqinini boyitishga va kelgusi tarjimalar uchun metodologik manba bo‘lib xizmat qilishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

Badiiy tarjimada milliy kolorit va lingvokulturologik birliklarni saqlash masalasi zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo til va madaniyatning uzviy bog‘liqligi, badiiy matnning estetik va ma’naviy yukini boshqa til muhitida qayta yaratish zarurati bilan chambarchas aloqadordir. Shu bois, mazkur tadqiqot doirasida lingvokulturologiya, badiiy tarjima va milliy realiyalarni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy manbalar tahlil qilindi. Lingvokulturologiya nazariyasining shakllanishida V.A. Maslova muhim ilmiy hissa qo‘shgan bo‘lib, u tilni madaniyatning ko‘zgusi sifatida talqin qiladi va lisoniy birliklar orqali milliy tafakkur namoyon bo‘lishini asoslab beradi. Maslovaning ta’kidlashicha, frazeologizmlar, metaforalar va nutqiy etiket birliklari xalqning tarixiy tajribasi va mentalitetini aks ettiradi. Bu yondashuv badiiy tarjimada milliy koloritni aniqlash va uni saqlashda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarjimashunoslik nazariyasida milliy realiyalar va madaniy lakunalarni tarjima qilish masalalari G‘. Salomov va Q. Musayev tadqiqotlarida keng yoritilgan. G‘. Salomov tarjimada ekvivalentlik tushunchasini faqat lug‘aviy moslik bilan cheklamay, funksional va madaniy muvofiqlikni ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi. Q. Musayev esa realiyalarni tarjima qilishda transliteratsiya, tavsifiy tarjima va izoh berish usullarining samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Xorijiy tarjimashunoslikda P. Newmark badiiy tarjimada “foreignization” (begonalashtirish) va “domestication” (uyg‘unlashtirish) strategiyalarini ilgari suradi. Uning fikricha, milliy koloritga boy asarlarni tarjima qilishda tarjimon muallif madaniyatiga xoslikni iloji boricha saqlab qolishi lozim. Ushbu yondashuv O‘tkir Hoshimov asarlarining tarjimasini tahlil qilishda muhim nazariy tayanch vazifasini bajaradi. O‘zbek adabiyotshunosligida O‘tkir Hoshimov ijodi, xususan, “Dunyoning ishlari” qissasi insoniy qadriyatlar, ona obrazi va milliy ruhning yorqin ifodasi sifatida baholanadi. Tadqiqotchilar asarda qo‘llangan xalqona nutq, emotsional-ekspressiv birliklar va maishiy realiyalar muallif uslubining asosiy belgilaridan ekanini qayd etadilar. Biroq mazkur asarning ingliz tiliga tarjimasi lingvokulturologik nuqtai nazardan yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan. Mark Rizning Markaziy Osiyo adabiyotlari tarjimasi bo‘yicha olib borgan ilmiy izlanishlari ushbu tadqiqot uchun alohida ahamiyatga ega. U o‘z maqolalarida tarjimada madaniy moslashuv (cultural adaptation) va kontekstual ekvivalentlik masalalariga e’tibor qaratadi. Uning qarashlari “Dunyoning ishlari” asarining inglizcha talqinida qo‘llanilgan strategiyalarni tahlil qilish uchun muhim nazariy zamin yaratadi. Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash masalasi ko‘plab tadqiqotlarda nazariy jihatdan yoritilgan bo‘lsa-da, O‘tkir Hoshimov asarlarining inglizcha tarjimalari lingvokulturologik aspektda yetarli darajada maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, milliy realiyalar va nutqiy etiket birliklarining tarjimada berilish xususiyatlarini tahlil qilish orqali tarjimashunoslik faniga amaliy hissa qo‘shishni maqsad qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tilshunoslik va tarjimashunoslikning qiyosiy-tipologik hamda lingvokulturologik tahlil usullari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi materiallar va ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Tadqiqot manbalari (Materials): Tahlil uchun asosiy manba sifatida O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasining o‘zbek tilidagi asl nusxasi (original) hamda Mark Riz va Abdulla Ro‘ziyev tomonidan ingliz tiliga o‘girilgan “The Affairs of This World” (2020) tarjimasi qiyosiy ob’ekt sifatida tanlab olindi. Shuningdek, asardagi madaniy-maishiy terminlar va milliy tushunchalarning izohlari uchun o‘zbek tilining izohli lug‘atlaridan foydalanildi.

2. Qiyosiy-kontrastiv metod: Asl nusxa va tarjima matni o‘rtasidagi lisoniy mutanosiblikni aniqlash maqsadida qiyosiy metoddan foydalanildi. Bunda muallif tomonidan qo‘llanilgan milliy bo‘yoqdor so‘zlar va ularning inglizcha varianti darajama-daraja solishtirildi.

3. Lingvokulturologik tahlil: Asardagi milliy koloritni tashkil etuvchi realiyalar (etnografizmlar, turmush tarzi so‘zlari) va frazeologizmlarning madaniy yukini aniqlashda ushbu metod qo‘llanildi. Bunda so‘zning shunchaki lug‘aviy ma’nosi emas, balki uning ortida turgan o‘zbekona mentalitet va qadriyatlar tizimi (masalan, "ona" obrazi bilan bog‘liq konnotatsiyalar) tadqiq etildi.

4. Tarjima transformatsiyalarini tahlil qilish usuli: Lingvokulturologik muammolarni bartaraf etishda tarjimonlar qo‘llagan texnik usullar quyidagi mezonlar bo‘yicha guruhlandi:

Transliteratsiya va transkripsiya (milliy so‘zlarning shaklini saqlash);

Kalka (so‘zma-so‘z tarjima qilish);

Deskrpitiya (tavsifiy tarjima yoki izoh berish);

Funksional ekvivalentlik (maqsadli tildan madaniy muqobil topish).

5. Tanlanma tahlil (Contextual Analysis): Asarning lingvokulturologik jihatdan eng boy bo‘lgan boblari (masalan, *"Tush"*, *"Gilam paypoq"*, *"Ona"* kabi qismlar) tanlab olindi va ulardagi nutqiy etiket hamda milliy rasm-rusumlarning tarjimadagi in’ikosi tahlil qilindi.

Natijalar va tahlil

O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari lingvokulturologik birliklarga boy matn hisoblanadi. Mark Riz va Abdulla Ro‘ziyev tarjimasini tahlil qilish jarayonida tarjimonlarning milliy koloritni saqlash borasidagi mahorati quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ldi:

1. Milliy realiyalarning tarjimasi (Etnografizmlar). Asarda o‘zbek turmush tarziga xos bo‘lgan buyumlar va joy nomlari ko‘p uchraydi. Tarjimonlar bu o‘rinda ko‘pincha transliteratsiya va izohlash usulidan foydalanganlar.

So‘ri: O‘zbek hovlisining ajralmas qismi bo‘lgan "so‘ri" so‘zi ingliz tilidagi *bench* (o‘rindiq) yoki *bed* (karovat) so‘zlari bilan to‘liq ifodalanmaydi. Tarjimonlar uni *suri* shaklida saqlab qolgan holda, kontekstda uning vazifasini tushuntirib ketishgan.

Tandir: Asardagi non yopish jarayoni tasvirlangan sahnalarda *tandir* so‘zi saqlab qolingan. Bu ingliz kitobxonida asarning geografik va madaniy muhiti haqida aniq tasavvur uyg‘otadi.

2. Frazeologizmlar va nutqiy etiket (Idioms and Etiquette). O‘zbekona lutf va duo tushunchalari tarjimadagi eng murakkab nuqtalardir.

"Aylanay", "O‘rgilay": Ushbu so‘zlar o‘zbek ayollari nutqida mehr-muhabbatni ifodalaydi. Tarjimonlar ularni shunchaki *my dear* deb emas, balki ona obrazining ichki kechinmalarini ochib beruvchi *"let me be your sacrifice"* (sadqang bo‘lay) kabi obrazli birikmalar yoki emotsional yuklatilgan iboralar bilan berishga harakat qilishgan.

Duo tushunchasi: Asarda onaning bolalarini duo qilishi markaziy o‘rin tutadi. *"Iloyo, baxtingni bersin"* kabi duolar ingliz tiliga madaniy muqobillashtirilib, *"May God grant you happiness"* shaklida, diniy-ma'rifiy qatlam saqlangan holda o'girilgan.

3. Qarindoshlik terminlarining berilishi. O‘zbek tilidagi *Ena, Amma, Xola, Yangi* kabi so‘zlar ingliz tilida faqat *Aunt* yoki *Sister-in-law* so‘zlari bilan cheklanib qolmaydi. Mark Riz va Abdulla Ro‘ziyev o‘zbek oilasidagi iyerarxiyani ko‘rsatish uchun ba’zi o‘rinlarda qarindoshlik nomlarini asl holatida qoldirib, qavs ichida yoki izohda tushuntirish berishgan. Bu esa asarning lingvokulturologik salmog‘ini oshirgan.

Original (O'zbekcha)	Tarjima (Inglizcha)	Qo'llanilgan usul
Sumalak	*Sumalak* (traditional sweet pudding)	Transliteratsiya + Izoh
Duo qilmoq	*To give a blessing*	Funksional muqobil
Boshiga yopinchiq yopmoq	*To cover her head with a shawl*	Deskrptiv (tavsifiy)

Natijalar va ularning tahlili

O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari tarjimasi ustida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Mark Riz va Abdulla Ro‘ziyev matnni ingliz tiliga o‘girishda "begonallashtirish" (foreignization) va "uyg‘unlashtirish" (domestication) strategiyalari o‘rtasidagi oltin muvozanatni topishga intilishgan. Tahlillarimiz shuni tasdiqladiki, tarjimonlar asardagi lingvokulturologik birliklarni, xususan, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan mehmondorchilik, mahalla instituti va oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq tushunchalarni ingliz tili tabiatiga yot bo‘lmagan holda yetkazishga erishganlar. Masalan, asardagi "mahalla" tushunchasi shunchaki *neighborhood* deb o‘girilmasdan, uning ijtimoiy-madaniy vazifasi saqlab qolingan, bu esa G‘arb kitobxoniga o‘zbek jamoaviylik madaniyatini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

Maqolaning natijalar qismida koʻrib oʻtilganidek, oʻzbek tilidagi emotsional-ekspressiv soʻzlar, xususan, "oʻrgilay" yoki "aylanay" kabi birliklarning ingliz tilida bir xil leksik muqobili mavjud emasligi muhokama jarayonida aniqlangan asosiy lingvistik toʻsiqlardan biridir. Mark Riz bu oʻrinda kontekstual ekvivalentlik usulidan foydalanib, soʻzning lugʻaviy maʼnosi emas, balki qahramonning oʻsha vaziyatdagi ruhiy holati, yaʼni mehr, xavotir yoki quvonch tuygʻularini inglizcha nutqiy qoliplarga muvaffaqiyatli solgan va tarjimaning badiiy taʼsirchanligini taʼminlagan. Shuningdek, "Dunyoning ishlari"dagi diniy va mifologik qatlamlar, jumladan, "bi-bi seshanba", "yetti" yoki "qirq" marosimlari tarjima jarayonidagi eng murakkab madaniy lakunalar (boʻshliqlar) hisoblanadi. Tarjimonlar bu oʻrinda tavsifiy (descriptive) usulni qoʻllash orqali kitobxon tushunchasini kengaytirganlar, bu esa asarning nafaqat badiiy, balki etnografik manba sifatidagi qiymatini ham oshirgan. Tarjimonlar mahoratining qiyosiy tahlili shuni koʻrsatadiki, avvalgi ruscha tarjimalar bilan qiyoslaganda, Mark Riz va Abdulla Roʻziyev varianti zamonaviy ingliz tilida soʻzlashuvchi auditoriya uchun oʻzbek mentalitetini "ichkaridan" ochib berishga xizmat qiladi. Ularning tarjimasi lingvistik nuqtai nazardan kommunikativ-funksional xarakterga ega boʻlib, asl nusxadagi onaning samimiy tili va xalqona soddalik ingliz tilida ham oʻz jozibasini toʻlaqonli saqlab qolgan.

Xulosa

Oʻtkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari oʻzbek xalqining milliy oʻziga xosligini, maʼnaviy qadriyatlarini va ona siymosi orqali namoyon boʻladigan insoniy fazilatlarni yuksak badiiy mahorat bilan aks ettiruvchi noyob lisoniy manbadir. Mark Riz va Abdulla Roʻziyev tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimaning lingvokulturologik tahlili shuni koʻrsatadiki, badiiy matndagi milliy koloritni saqlash faqatgina til bilish bilan emas, balki ikki xalq madaniyatini chuqur anglash va his qilish bilan bevosita bogʻliq jarayondir. Tarjimada qoʻllanilgan transliteratsiya, tavsifiy tarjima va funksional ekvivalentlik kabi usullar oʻzbekona realiyalarning ingliz tili muhitida begonalashib qolmasligini taʼminlagan va asarning original ruhini saqlab qolgan. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, tarjimonlar oʻzbek tilidagi murojaat shakllari, duo va olqishlar hamda diniy-maishiy tushunchalarni ingliz tiliga oʻgirishda faqat lugʻaviy maʼnoga suyanmasdan, kontekstual yondashuvga ustuvorlik berishgan. Bu esa asarning lisoniy manzarasini va muallif uslubini xorijiy tilda saqlab qolish imkonini bergan. Ayniqsa, onaning nutqiga xos boʻlgan emotsional-ekspressiv boʻyoqlar va milliy urf-odatlar bilan bogʻliq madaniy lakunalarning mahorat bilan toʻldirilishi tarjimaning badiiy qimmatini oshirgan va Gʻarb kitobxoni uchun oʻzbek dunyoqarashining yangi qirralarini ochgan. Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, ushbu tarjima oʻzbek adabiyoti namunalarini jahon kitobxoniga milliy ruhini yoʻqotmagan holda yetkazishning muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi. Lingvokulturologik muammolarni bartaraf etishda qoʻllanilgan strategiyalar kelgusida oʻzbek adabiyotini ingliz tiliga tarjima qilish metodologiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Milliy koloritni saqlash borasidagi ushbu tajriba tarjimashunoslik sohasida madaniyatlararo muloqotni taʼminlashning muhim ilmiy asosi boʻlib xizmat qilishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov, Oʻ. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq, 2005.
2. Hoshimov, U. The Affairs of This World. Translated by Mark Reese and Abdulla Roziyev. – Tashkent: Muloqot, 2020.
3. Reese, M. Cultural Adaptation in Translation: The Case of Central Asian Literature. – Journal of Translation Studies, 2021.
4. Sharipov, B. Lingvokulturologiya va badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Salomov, Gʻ. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1983.
6. Newmark, P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988.
7. Maslova, V. A. Lingvokulturologiya: Uchebnoye posobiye. – Moskva: Akademiya, 2001.
8. Musaev, Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Hoshimjonova Barnoxon Botirjon qizi
NamDU filologiya fakulteti talabasi

TIL VA MIYA: LISONIY JARAYONLARNING MIYA TUZILMALARIDA JOYLASHUVI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada til va miya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, lisoniy jarayonlarning neyrobiologik asoslari hamda ularning miya tuzilmalarida lokalizatsiyasi masalalari tahlil qilinadi. Nutqni ishlab chiqish, tushunish, semantik qayta ishlash va sintaktik tuzilmani shakllantirish jarayonlarida ishtirok etuvchi asosiy kortikal va subkortikal zonalar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, neyrolingvistika va psixolingvistika kesishmasida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar asosida tilning miya faoliyati bilan integratsiyalashgan tizim sifatidagi tabiati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *neyrolingvistika, psixolingvistika, Broka markazi, Vernike markazi, lateralizatsiya, neyroplastiklik, semantik tarmoq.*

Хошимжонова Барнохон Ботиржон кизи
Студентка филологического факультета НамГУ

ЯЗЫК И МОЗГ: ЛОКАЦИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В СТРУКТУРАХ МОЗГА

Аннотация: *В данной статье анализируется взаимосвязь языка и мозга, нейробиологические основы языковых процессов и их локализация в структурах мозга. Рассматриваются основные кортикальные и субкортикальные зоны, участвующие в процессах развития речи, понимания, семантической обработки и формирования синтаксической структуры. Также на основе современных исследований, проводимых на стыке нейролингвистики и психолингвистики, освещается природа языка как системы, интегрированной с мозговой активностью.*

Ключевые слова: *нейролингвистика, психолингвистика, центр Брока, центр Вернике, латерализация, нейропластичность, семантическая сеть.*

Hoshimjonova Barnokhon Botirjon qizi
Student of the Faculty of Philology, NamSU

LANGUAGE AND BRAIN: LOCATION OF LINGUISTIC PROCESSES IN BRAIN STRUCTURES

Annotation: *This article analyzes the relationship between language and the brain, the neurobiological foundations of linguistic processes, and their localization in brain structures. The main cortical and subcortical zones involved in the processes of speech development, comprehension, semantic processing, and syntactic structure formation are considered. Also, the nature of language as a system integrated with brain activity is highlighted based on modern research conducted at the intersection of neurolinguistics and psycholinguistics.*

Keywords: *neurolinguistics, psycholinguistics, Broca’s center, Wernicke’s center, lateralization, neuroplasticity, semantic network.*

Kirish

Til inson ongining eng murakkab va ko‘p qatlamli funksiyalaridan biri bo‘lib, u tafakkur, xotira, idrok, emotsiya hamda ijtimoiy kommunikatsiya jarayonlari bilan uzviy integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Til nafaqat axborotni uzatish vositasi, balki insonning borliqni konseptualizatsiya qilish, tajribani kategoriyalash va ijtimoiy reallikni shakllantirish mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu bois tilni o‘rganish masalasi uzoq vaqt davomida faqat filologik yoki falsafiy muammo sifatida emas, balki biologik va psixologik jarayon sifatida ham tadqiq etib kelinmoqda. Tilning biologik asoslarini ilmiy jihatdan o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlana boshladi. Aynan shu davrda nevrologiya va tilshunoslik kesishmasida yangi ilmiy yo‘nalish — neyrolingvistika shakllandi. Bu sohadagi dastlabki empirik dalillar miya shikastlanishi natijasida yuzaga kelgan nutq buzilishlarini klinik kuzatish orqali qo‘lga kiritildi. Xususan, Paul Broca tomonidan chap frontal sohaning shikastlanishi nutq ishlab chiqish buzilishiga olib kelishi aniqlangan bo‘lsa, Carl Wernicke chap chakka sohasining zararlanishi nutqni tushunish qobiliyatiga ta’sir qilishini ilmiy

asoslab berdi. Ushbu kashfiyotlar til funksiyalarining miya tuzilmalarida lokalizatsiyasi mavjudligini ko‘rsatib, neyrolingvistikaning shakllanishiga zamin yaratdi. Neyrolingvistikaning asosiy vazifasi lisoniy jarayonlarning miya tuzilmalarida qanday joylashganini, ularning o‘zaro funksional aloqalarini hamda nutq faoliyatining neyron mexanizmlarini aniqlashdan iboratdir. Bu jarayonda nafaqat alohida markazlarning (masalan, nutq ishlab chiqish yoki tushunish bilan bog‘liq zonalar) roli, balki ular o‘rtasidagi neyron tarmoqlar va sinaptik bog‘lanishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy neyroimaging usullari — funksional magnit-rezonans tomografiya (fMRI), pozitron-emission tomografiya (PET), elektroensefalografiya (EEG) — til jarayonlarining real vaqt rejimida miya faoliyati bilan bog‘liqligini kuzatish imkonini bermoqda. Bu esa tilni statik lokalizatsiya modeli asosida emas, balki dinamik neyron tarmoqlar tizimi sifatida talqin qilishga olib kelmoqda. Nutq buzilishlari, xususan afaziyalar, tilning neyron asoslarini o‘rganishda muhim empirik manba bo‘lib xizmat qiladi. Afaziya — bu miya shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan nutq ishlab chiqish yoki tushunish qobiliyatining qisman yoki to‘liq buzilishidir. Afaziya turlarini tahlil qilish orqali olimlar tilning fonologik, semantik va sintaktik komponentlari turli miya tuzilmalarida differensial tarzda qayta ishlanishini aniqladilar. Masalan, motor (Broka) afaziyasida grammatik strukturalar buzilishi kuzatilsa, sensor (Vernike) afaziyasida ma’no idroki izdan chiqadi. Bu esa tilning modulli, ammo o‘zaro bog‘liq tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, tilning biologik asoslarini o‘rganish inson ongining neyrofiziologik mexanizmlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Neyrolingvistika tilni miya faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab, ko‘p darajali tizim sifatida talqin qiladi. Til, tafakkur va miya o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur tadqiq etish nafaqat nazariy lingvistika, balki klinik nevrologiya, psixologiya va kognitiv fanlar rivoji uchun ham muhim ilmiy asos yaratadi.

Til funksiyalarining miya yarimsharlarida lateralizatsiyasi: Ko‘pchilik insonlarda lisoniy funksiyalar miya po‘stlog‘ining chap yarimsharida dominant tarzda joylashgan bo‘lib, bu hodisa neyropsixologiyada lateralizatsiya deb ataladi. Lateralizatsiya miya yarimsharlarining funksional ixtisoslashuvini anglatadi, ya’ni muayyan kognitiv jarayonlar asosan bir yarimshar faoliyati bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Til jarayonlari ham aynan shunday ixtisoslashuvning yorqin namunasidir. Aksariyat o‘ngqo‘l shaxslarda (hamda chapqo‘llilarning sezilarli qismida) nutq ishlab chiqish va tushunish bilan bog‘liq asosiy markazlar chap yarimsharda joylashgan. Til lateralizatsiyasi haqidagi dastlabki ilmiy dalillar XIX asrda klinik kuzatishlar asosida shakllangan. Fransuz shifokori Paul Broca chap frontal lobning pastki qismidagi (hozirgi kunda Broka markazi deb ataladigan) hudud shikastlanganda bemorlarda nutq ishlab chiqish qobiliyati buzilishini aniqladi. Ushbu holat motor yoki ekspressiv afaziya sifatida tavsiflanadi: bemor nutq mazmunini tushunishi mumkin, biroq grammatik jihatdan to‘liq va ravon gap tuza olmaydi. Bu kashfiyot til funksiyalarining aniq miya hududlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan birinchi ilmiy dalillardan biri bo‘ldi. Keyinchalik nemis nevrologi Carl Wernicke chap chakka (temporal) lobning orqa yuqori qismida joylashgan boshqa bir hudud nutqni tushunish jarayoni bilan bevosita bog‘liq ekanligini isbotladi. Ushbu zona zararlanganda sensor yoki reseptiv afaziya yuzaga keladi: bemor ravon gapirishi mumkin, biroq nutq mazmuni mantiqan izchil bo‘lmaydi va boshqalarning nutqini tushunishda qiyinchilik kuzatiladi. Broka va Vernike markazlari o‘rtasidagi nerv tolalari (masalan, arkuat fassikulus) esa nutqni takrorlash va semantik axborotni uzatishda muhim rol o‘ynaydi.

Chap yarimshar asosan quyidagi lisoniy jarayonlarda faol ishtirok etadi:
fonologik tahlil — nutq tovushlarini farqlash va ularni ma’no birligiga bog‘lash;
grammatik strukturalarni qayta ishlash — morfologik shakllarni tanish va sintaktik aloqalarni aniqlash;
sintaktik rejalashtirish — gap tuzilmasini oldindan loyihalash va mantiqiy izchillikni ta’minlash;
artikulyatsion dasturlash — nutq a’zolari harakatini muvofiqlashtirish va fonetik realizatsiyani boshqarish.

Biroq til faqat chap yarimshar faoliyatiga bog‘liq emas. O‘ng yarimshar nutqning prosodik jihatlarini — intonatsiya, *fonologik tahlil — nutq tovushlarini farqlash va ularni ma’no birligiga bog‘lash; grammatik strukturalarni qayta ishlash — morfologik shakllarni tanish va sintaktik aloqalarni aniqlash; sintaktik rejalashtirish — gap tuzilmasini oldindan loyihalash va mantiqiy izchillikni ta’minlash; artikulyatsion dasturlash — nutq a’zolari harakatini muvofiqlashtirish va fonetik realizatsiyani boshqarish.* Biroq til faqat chap yarimshar faoliyatiga bog‘liq emas. O‘ng yarimshar nutqning prosodik jihatlarini — intonatsiya, ohang, ritm va urg‘uni — qayta ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, emotsional rang-baranglikni anglash, kinoya va metaforik ma’nolarni tushunish, diskursning kontekstual yaxlitligini saqlash jarayonlarida ham o‘ng yarimshar faol ishtirok etadi. Masalan, emotsional ohangni noto‘g‘ri idrok etish yoki nutqdagi kinoyani tushunmaslik ko‘pincha o‘ng yarimshar shikastlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy neyroimaging tadqiqotlar til jarayonlarini faqat qat’iy lokalizatsiya modeli bilan tushuntirish yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Hozirgi ilmiy qarashlarga ko‘ra, til murakkab neyron tarmoqlar asosida, ya’ni interhemisferik hamkorlik orqali amalga oshadi. Korpus kallosum orqali chap va o‘ng yarimsharlar o‘rtasida doimiy axborot almashinuvi sodir bo‘ladi, bu esa nutqning mazmuniy, emotsional va pragmatik jihatlarini yaxlit holda ifodalash imkonini beradi. Lateralizatsiya til jarayonlarining funksional ixtisoslashuvini ifodalasada, nutq faoliyati butun miya tizimining integratsiyalashgan hamkorligi mahsulidir. Tilni tushunish va ishlab chiqish jarayonlari chap yarimsharda dominant tarzda tashkil topgan bo‘lsa ham, ularning to‘liq va mazmunli amalga oshishi o‘ng yarimshar hamda neyron tarmoqlarning o‘zaro muvofiqlashtirilgan faoliyatiga bog‘liqdir.

Asosiy lisoniy markazlar va ularning funksiyalari: Tilning neyroanatomik asoslarini tushuntirishda klassik lokalizatsiya nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, lisoniy jarayonlar miya po‘stlog‘ining ma’lum anatomik hududlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular o‘zaro funksional tarmoq hosil qiladi. Quyida til bilan bog‘liq asosiy kortikal va subkortikal tuzilmalar hamda ularning funksional ahamiyati ilmiy jihatdan kengroq yoritiladi.

1. Broca's area (Broka markazi) - Broka markazi chap yarimsharning frontal lobida, xususan pastki frontal girus (inferior frontal gyrus) sohasida joylashgan bo‘lib, odatda Brodmannning 44 va 45-maydonlariga to‘g‘ri keladi. Ushbu hudud nutq ishlab chiqish (speech production), artikulyatsion rejalashtirish va grammatik tuzilmani shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Broka markazi fonologik kodni motor dasturga aylantirish, ya’ni so‘z va gaplarni artikulyatsion jihatdan rejalashtirish jarayonini boshqaradi. Bundan tashqari, u sintaktik murakkablikni qayta ishlash va gap tuzilmasini tashkil etishda ham faol ishtirok etadi. Ushbu zona shikastlanganda motor (ekspressiv) afaziya yuzaga keladi. Bunday holatda bemor nutqni nisbatan yaxshi tushunadi, biroq gaplari qisqa, telegrafik va grammatik jihatdan to‘liq bo‘lmaydi. Morfologik ko‘rsatkichlar va bog‘lovchi birliklar ko‘pincha tushib qoladi, nutq sekin va kuch sarflab amalga oshiriladi.

2. Wernicke's area (Vernike markazi) - Vernike markazi chap temporal lobning orqa yuqori qismida joylashgan bo‘lib, Brodmannning 22-maydoniga mos keladi. Ushbu hudud nutqni tushunish, leksik-semantik tahlil va eshituv orqali qabul qilingan axborotni lingvistik ma’noga aylantirish jarayonlari bilan bog‘liq. Vernike markazi tovush signallarini fonologik birliklarga ajratadi va ularni mavjud leksik tizim bilan solishtiradi. Natijada nutqning semantik mazmuni aniqlanadi. Ushbu hudud zararlanganda sensor (reseptiv) afaziya kuzatiladi: bemor ravon va grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirishi mumkin, biroq nutq mazmuni mantiqsiz yoki ma’nosiz bo‘ladi. Shuningdek, boshqalarning nutqini tushunish qobiliyati keskin pasayadi. Bu holat semantik integratsiya jarayonining buzilganini ko‘rsatadi.

3. Angular gyrus (Burchakli girus) - Burchakli girus (angular gyrus) parietal lobning orqa qismida joylashgan bo‘lib, ko‘p modal (multimodal) integratsiya hududi sifatida faoliyat yuritadi. U vizual, eshituv va somatosensor axborotni birlashtirishda ishtirok etadi. Lisoniy jarayonlarda esa ushbu tuzilma yozma nutqni o‘qish (grafemani fonemaga aylantirish), yozish va abstrakt semantik tushunchalarni qayta ishlashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘qish jarayonida vizual belgilarni (harflarni) lingvistik kodga aylantirish mexanizmi angular girus orqali amalga oshadi. Bu hudud shikastlanganda aleksiya (o‘qish qobiliyatining buzilishi) yoki agrafiya (yozish qobiliyatining buzilishi) kuzatilishi mumkin. Demak, burchakli girus yozma til va og‘zaki til o‘rtasida vositachilik qiluvchi neyron tugun sifatida namoyon bo‘ladi.

4. Arcuate fasciculus (Arkuat fassikulus) - Arkuat fassikulus — bu Broka va Vernike markazlarini bog‘lovchi oq modda (white matter) nerv tolalari to‘plamidir. U til tizimidagi asosiy axborot uzatish yo‘llaridan biri hisoblanadi. Ushbu tolalar orqali semantik va fonologik axborot frontal va temporal hududlar o‘rtasida almashinadi. Arkuat fassikulus shikastlanganda konduktiv afaziya yuzaga keladi. Bunda bemor nutqni tushunadi va nisbatan ravon gapira oladi, biroq eshitilgan so‘z yoki gaplarni takrorlashda jiddiy qiyinchilikka duch keladi. Bu holat lisoniy markazlar o‘rtasidagi neyron aloqaning uzilishi bilan izohlanadi.

Tarmoq modeli va zamonaviy yondashuv - Zamonaviy neyrolingvistika klassik lokalizatsiya modelini kengaytirib, tilni alohida markazlar emas, balki o‘zaro bog‘langan neyron tarmoqlar tizimi sifatida talqin qiladi. Frontal, temporal va parietal sohalar o‘rtasidagi funksional integratsiya nutqni ishlab chiqish, tushunish va qayta ishlash jarayonlarining uzluksizligini ta’minlaydi. Shuningdek, subkortikal tuzilmalar (bazal gangliyalar, talamus) va serebellum ham artikulyatsiya va avtomatlashtirilgan nutq harakatlarini boshqarishda ishtirok etadi. Broka markazi, Vernike markazi, burchakli girus va arkuat fassikulus tilning asosiy neyroanatomik tugunlari hisoblanadi. Biroq ular izolyatsiyalangan holda emas, balki murakkab funksional tizim doirasida faoliyat yuritadi. Til jarayoni miya tuzilmalarining o‘zaro muvofiqlashtirilgan va dinamik hamkorligi natijasida yuzaga keladigan yuqori darajadagi kognitiv faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.Semantik va sintaktik jarayonlarning neyron asoslari: Zamonaviy neyroximik va neyroimaging tadqiqotlar (fMRI, PET) shuni ko‘rsatadiki, semantik jarayonlar miya bo‘ylab tarqalgan neyron tarmoqlar orqali amalga oshadi. Ma’no qayta ishlanishi faqat bitta markaz bilan chegaralanmay, frontal, temporal va parietal sohalarning integratsiyasi asosida yuz beradi. Sintaktik jarayonlar esa ko‘proq frontal soha, xususan Broka markazi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ular ham keng tarmoqli neyron tizimlar orqali boshqariladi. Demak, tilning neyrobiologik asoslari lokalizatsiya va tarmoq (network) modellari integratsiyasida tushuntiriladi.

Neyroplastiklik va til: Miya plastiklik xususiyatiga ega bo‘lib, shikastlanishdan so‘ng boshqa hududlar lisoniy funksiyalarni qisman o‘z zimmasiga olishi mumkin. Ayniqsa, bolalik davrida til funksiyalarining boshqa yarimsharga ko‘chishi ehtimoli yuqori. Bu holat til o‘zlashtirish jarayonining biologik asoslarini va yosh omilining ahamiyatini ko‘rsatadi. Ikki tillilik (bilingvalizm) ham miya tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar bilingval shaxslarda frontal soha va ijro funksiyalari bilan bog‘liq hududlar faolroq ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa til va kognitiv nazorat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

Psixolingvistik nuqtai nazar: Psixolingvistika tilni faqat anatomik tuzilma emas, balki kognitiv jarayon sifatida o‘rganadi. Nutqni idrok etish, dekodlash, ma’no qurish va qayta ifodalash jarayonlari miya faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Til jarayonida idrok, xotira, diqqat va tafakkur mexanizmlari integratsiyalashgan holda ishlaydi. Shunday qilib, lisoniy jarayonlar izolyatsiyalangan markazlarda emas, balki murakkab neyron tarmoqlar orqali amalga oshadi. Bu esa tilni modulli emas, balki tizimli va dinamik hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Xulosa: Til va miya o‘rtasidagi munosabat inson tafakkurining biologik asoslarini ochib beruvchi muhim ilmiy yo‘nalishdir. Lisoniy jarayonlar asosan chap yarimsharda lokalizatsiyalangan bo‘lsa-da, ularning to‘liq amalga oshishi butun miya tizimining integratsiyalashgan faoliyatiga bog‘liq. Broka va Vernike markazlari nutq ishlab chiqish va tushunish jarayonlarining asosiy tugunlari sifatida e’tirof etiladi, biroq zamonaviy tadqiqotlar tilning keng neyron tarmoqlar asosida ishlashini ko‘rsatmoqda. Kelgusidagi tadqiqotlar neyroimaging texnologiyalari va kognitiv modellashtirish usullari yordamida tilning miya bilan bog‘liq yanada murakkab mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tilni neyrobiologik, psixologik va ijtimoiy omillar uyg‘unligida o‘rganish esa inson tafakkurining mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Broka, P. (1861). *Til ishlab chiqish qobiliyatining joylashuvi haqidagi izohlar va afemiya kuzatuvi*. Bulletin de la Société Anatomique, 36, 330–357.
2. Vernike, K. (1874). *Afasiyalar kompleksi: anatomik asosga ega psixologik tadqiqot*. Cohn & Weigert, Breslau.
3. Damasio, A. R. (1992). *Miya va til*. Annual Review of Neuroscience, 15, 127–148.
4. Hickok, G., & Poeppel, D. (2007). *Nutqni qayta ishlashning kortikal tashkiloti*. Nature Reviews Neuroscience, 8, 393–402.
5. Price, C. J. (2012). *PET va fMRI tadqiqotlari bo‘yicha o‘tkazilgan 20 yil ichidagi nutq, og‘zaki til va o‘qish bo‘yicha sintez*. NeuroImage, 62(2), 816–847.
6. Friederici, A. D. (2011). *Tilni qayta ishlashning miya asoslari: tuzilishdan funksiyaga*. Physiological Reviews, 91(4), 1357–1392.
7. Catani, M., & Mesulam, M. (2008). *Arkuat fassikulus va til hamda afaziya mavzusidagi disconnection nazariyasi: tarix va hozirgi holat*. Cortex, 44(8), 953–961.
8. Kandel, E. R., Schwartz, J. H., & Jessell, T. M. (2013). *Neyron fanining prinsiplari* (5-nashr). McGraw-Hill, Nyu-York.
9. Poeppel, D., Emmorey, K., Hickok, G., & Pylkkänen, L. (2012). *Tilning yangi neyrobiologiyasiga tomon*. Journal of Neuroscience, 32(41), 14125–14131.
10. Vigneau, M., Beaucousin, V., Hervé, P.-Y., Duffau, H., Crivello, F., Houde, O., … & Tzourio-Mazoyer, N. (2006). *Chap yarimsharidagi til hududlarini meta-tahlil qilish: fonologiya, semantika va gap tuzilmasini qayta ishlash*. NeuroImage, 30(4), 1414–1432.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Kamola Egamberdiyeva
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan davlat universiteti doktoranti, dotsent v.b.

O‘ZBEKONA TUYG‘ULAR MUSAVVIRI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Ma’mura Zohidova hikoyalarida ayol taqdiri, uning ruhiaytini hikoyalardagi aks ettirlishi o‘rganilgan. Shuningdek, adabiyotshunoslikda ayol ruhiyatinini, uning taqdirini tadqiq etish badiiy adabiyotning bosh xususiyatlaridan biri ekanligi tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *taraqqiyot bosqichlari, hikoya, ayol, badiiy adabiyot, ruhiyat, davr, taqdir.*

Камола Егамбердиева
Доктор философии (PhD) в области филологии
Аспирант Наманганского государственного университета, доцент и др.

ЖИВОПИСЕЦ УЗБЕКСКОГО ДУХА И ЧУВСТВ

Аннотация: *В данной статье исследуется отражение судьбы женщины и её психики в рассказах Мамуры Зохидовой. Также изучается, что в литературоведении исследование психики женщины и её судьбы является одной из главных особенностей художественной литературы.*

Ключевые слова: *этапы развития, рассказ, женщина, художественная литература, психика, эпоха, судьба.*

Kamola Egamberdieva
Doctor of Philology (PhD).
Postgraduate student, associate professor, Namangan State University, etc.

A DEPICTOR OF UZBEK SENTIMENTS

Abstract: *This article studies the reflection of the fate of a woman and her psyche in the stories of Ma’mura Zohidova. It also studies that in literary studies, the study of the psyche of a woman and her fate is one of the main features of fiction.*

Keywords: *stages of development, story, woman, fiction, psyche, era, fate.*

Kirish

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ko‘p yillar mobaynida davom etib kelayotgan bir qancha qahramonlar mavjud, adibalar o‘z hikoyalarida ayollar olamini inson hayoti bilan bog‘lab, ular orqali chuqur falsafiy fikrlarini ifoda etganlar va ularni tasvirlashda nihoyatda nozik badiiy did va ramziylikka tayanib boradilar. Shuningdek, asosan, ular ayol tabiatidan tashqari unining ruhiyati, ichki olami, ijtimoiy va faslafiy g‘oyalarni hamda davr muammolarini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Hikoyanavislar odatda o‘z hikoyasida ayol tabiatidagi o‘ziga xosliklardan xususan, ayol borlig‘i, erkaklarda ucharamaydigan harakteri, ruhiy olami va taqdir bitigidagi evrilishi tavirlaridan o‘rinli foydalanadi. Bu tasvirlar orqali har bir davrlarda ayollarning dardini yoki holatlarini ifodalab berishi osonroq kechgan. Ayrim hikoyanavislar ayol taqdiridan ta’sirlanib, o‘z hikoyalarida ayol ruhiyatini ochib beruvchi tasvirlardan foydalanishgan.

Adabiyotlar tahlili

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida ayollar tasviri, xususan, ayol qismati qadimdan badiiy obraz yaratish, ruhiy holatni ifodalash va falsafiy mushohadalarni ifodalashda muhim vosita bo‘lib kelgan. Zamonaviy adabiyotda ayol ko‘pincha hayotning muayyan bosqichi, insonning pirovard yo‘li, vaqtning o‘tkinchiligi ramzi sifatida talqin qilingan. Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Jamila Ergasheva, Lobar Rustamova, Ma’mura Zohidova, Tillaniso, Nodirabegim Ibroximova, Raxshona Axmedova singari ijodkorlarning hikoyalarida ayol obrazlari ruhiy kechinmalar, qismatning bitigi va hayot falsafasi bilan uyg‘un holda yoritiladi. XXI asr o‘zbek hikoyachiligida ayol obraziga murojaat qilish an’anasi davom ettirildi. Ayol adibalar ijodida ayol ruhiyati, kechinalari mavzusi muallifning o‘z davridan kelib chiqqan ruhiy iztiroblari, tashvishlari va umidlarini ifodalashga xizmat qildi. Ayniqsa, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol obrazlari

ruhiy tushkunlik, armon va ichki iztiroblar bilan bog‘lanadi. Mustaqillik davri hikoyalarida esa ayol tasviri qahramonning falsafiy mushohadalari, ruhiy o‘zgarishlari va shaxsiy kechinmalarini ifodalashda yangicha badiiy mazmun kasb etdi. Tillaniso, Nodirabegim Ibroximova, Raxshona Axmedova kabi hikoyanavislarning asarlarida ayol qismati va ruhiyatining badiiy talqini insonning ichki dunyosi, ijtimoiy-milliy ruhiy kechinmalari bilan uyg‘unlashadi. Adabiyotlarda ayol tasvirining ko‘p qirraligi, uni ruhiyati bilan bog‘lash o‘zbek hikoyachiligining asosiy estetik xususiyatlaridan biri sifatida tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Bunda ayol qismati orqali uning ruhiy olami, falsafiy qarashlari, hayotiy izlanishlari badiiy obraz darajasiga ko‘tarilganini kuzatish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslikning qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, poetik tahlil metodlari asosiy yondashuv sifatida qo‘llanadi. Qiyosiy-tipologik tahlil orqali zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida ayol obrazining talqini qiyoslanadi, turli ayol hikoyanavislarda bu obrazning ruhiy-falsafiy mazmun kasb etishi ochib beriladi. Struktur-semantik metod yordamida ayol tasvirining badiiy vositalar (epitet, metafora, ramz, peyzaj) orqali ifodalanishi, ularning mazmuniy qatlamlari hamda qahramon ruhiyati bilan bog‘liqligi tadqiq qilinadi. Poetik tahlil metodologiyasi asosida esa ayol obrazining badiiy-estetik vazifasi, uning qahramon kayfiyati va ruhiy kechinmalarini ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Zaruratga ko‘ra, intertekstual tahlil yondashuvi ham qo‘llanib, ayol tasvirining jahon hikoyachiligidagi o‘xshash talqinlari bilan qiyosiy o‘rganilishi mumkin. Metodologik yondashuvlar uyg‘unligi ayol obrazining zamonaviy o‘zbek hikoyachiligidagi o‘rni, uning qahramon ruhiy olamidagi badiiy ifodasini yanada mukammal tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlillar va natijalar

Dunyoning oxiriga hech kim yetmagan. Bugungi hayotning qarqini (surʼati), tobora toʻrt tomonga quloch yoyib kengayib borayotgan orzu-niyat, maqsadlar hamda kundalik turmushdagi adoqsiz behalovatliklar ichida yashayotgan odam bu yugur-yugurlar umrini oʻgʻirlayotgani, vaqtini ayamay sovurayotganini koʻp ham oʻylab oʻtirmaydi. Goʻyo har doim shunday boʻlgan, goʻyoki yuz yillar oldingi bobo-momolar ham shunday yashashgan... Aslida-chi? Aslida, ular ham behis-betuygʻu boʻlishamagan, albatta, biroq hayotiy tutumlari, maqsad-muddaosi bugungi kun odamlarinikidan shu qadar farq qilganki, solishtirgan odam beixtiyor hayrat barmogʻini tishlaydi: bir yurt, bir el odamlari nega bunchalik turfa? “Ellik yilda el boshqa” deganlari shudir, balki?.. Maʼmura Zohidovaning “Oʻgʻirlangan tilaklar” nomli hikoyalar toʻplamini oʻqish jarayonida xayoldan shunday oʻylar oʻtadi. Adibaning hikoyalarida insonlararo dramatik chigalliklarning eng soʻnggi badiiy uslublardagi ifodasi yo majoziy-xayoliy tasvirlari emas, balki tobora torayib borayotgan jahonda har biri oʻz dunyosi bilan yashayotgan oʻzbeklar turmushining taʼsirli tasviri berilgan. Yozuvchi hikoyalarida bugunning ayollari tasviri orqali kechagi insoniy tuygʻularni yodga soladi. Maʼmura Zohidova hikoyalari koʻpmundarijali, oʻtgan asrning ikkinchi yarmida oʻqigan maktabbolaning orzularidan tortib bugungi kunning yoqimsiz ijtimoiy ogʻriqlari: chet elning beshafqat qahratonlarida qalt-qalt titrashu begona ellarda oʻziga tuygʻudosh topolmay azob chekayotgan oʻzbekning iztiroblari hamda ixtiyorini nafsiga topshirgan ayollar qismatiga qadar qamrab oladi. Hikoyalar toʻplamidagi “Kelinoyi”, “Yoʻlda”, “Uzoqning bugʻdoyi”, “Paxtada”, “Eshikli uy”, “Oʻgʻirlangan tilaklar”, “Aytilmay qolgan gaplar” kabi hikoyalarida xalqimizning maishiy hayoti ichidan koʻrsatiladi, millat tiynatidagi yashashga, davom ettirishga loyiq fazilatlar barobarida yulib tashlash foydali boʻlgan illatlargacha boʻyab-bejalmasdan tasvirlanadi. “Istanbul kafesi”, “Yoqadagi pullar”, “Chernyayevka”, “Amerikaga ketaman” hikoyalarida esa soʻnggi chorak asrda xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylangan xorijdadagi mehnatkashlarimizning chigaldan-chigal taqdirlari koʻrsatiladi.

Adiba turmushimizdagi toʻy, aza yoki boshqa biror tadbir-u, marosimni tasvirlarkan, ularga xos eng mayda jihatlargacha nazardan qochirmaydi. Eʼtiborlisi, bu tafsillar yaxshi-yomonligidan qatʼiy nazar, oʻzbekning turmush yoʻsiniga singishib, bamisoli “anʼana”ga aylangani bois, ularsiz sharoit yoki xarakter tasviri toʻliq boʻlmaydi. Chunonchi, **“Kelinoyi”** hikoyasida toʻy kunidagi holat shunday tasvirlanadi: “Toʻyimiz kuni, xira boʻlsa ham, quyosh chiqib turdi. Katta mashinada yuk keldi, kelinni ham tushirib kelishdi. Shunaqa zoʻr kun boʻldi, eh. Mahalladagi hamma xotinlar, qizlar kelinimiz bilan ovora. Bir koʻray deydi. Orzu kelinoyim boshini egib olgan. Yopinchigʻi yerga tekkudek. Toʻyning darang-durungi zoʻr boʻldi, janjal ham chiqdi, kechasi qiz-xotinlar bilan yalla ham boʻldi”. Akasining toʻyi boʻlayotgan oʻsmir qizning xursandchiligi shunchalikki, ob-havoning tundligi (“*xira boʻlsa ham quyosh chiqib turdi*”) ham uning koʻtarinki kayfiyatiga soya sololmaydi. Ayni vaqtda havoning bu holati tasviri kelin-kuyovlarning keyingi hayotida yorugʻlik boʻlmasligiga ham ishoraday. Keltirilgan matndagi “*Janjal ham chiqdi*” izohi esa muallifning oʻzbekning toʻyiga xos jihatlarni, toʻy egalarining qanoatlarini nozik ilgʻashidan dalolat beradi. Yuqorida aytilganidek, toʻyda “janjal chiqqani” maqtalgulik hodisa emas, biroq yozuvchi hayot realligini boricha koʻrsatayotgani sabab maʼnaviyatimizga toʻgʻri kelmasa-da, odatga aylangan illatlarni xolis tasvirlaydi. Bu tasvir atoqli qiziqchi Hojiboy Tojiboy oʻzbekning toʻylari haqida soʻzlab, toʻy egasining jahl bilan “Mushtlashib toʻyni qizdirmaysanmi?” tarzidagi iddaosini esga soladi.

Oʻzbek uchun oila shunchaki ikki insonning turmush qurishi, hayot yoʻllarini bogʻlashi, zamonaviy til bilan aytganda, “nikoh shartnomasini tuzishi” emas. Toʻgʻrirogʻi, faqat shu emas. Yangi oila oʻzbekning turmushida tom maʼnoda yangi sahifa ochadi, Maʼmura Zohidova hikoyasida koʻrsatganidek, kelinning poyqadami kuyov uyidagi hammaga: qaynota, qaynona, qayni-qayinsingil, ayniqsa, kuyovning yurish-turishiga, gap-soʻziga qadar taʼsir qilgani

shunday tasvirlanadi: “Dadam dasturxonda mamnun oʻtiradi. Ayam dadil, koʻp gapiradigan boʻlib qolgan. Hali u qoʻshnini, hali bunisini, hali xolamni mehmonga chaqiradi. Sezaman, kelinining pazandaligi, saranjomligini koʻrsatib maqtangisi keladi. Akamniyam boshqacha qilib, “otam-bolam” deydi”. Bunday taʼsir turmushning osoyishtaligiga zamin yaratadi, oiladagilarning yanada jipslashuviga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, bugun ogʻiz toʻldirib “motivatsiya olish (berish)”, “hayotning yorqin tarafida boʻlish” singari havoyi soʻzlarni aytish bilan oʻzlarini baxtiyor koʻrsatmoqchi boʻlayotganlar toʻdasiga chinakam osoyishtalik, halovat hayotdan shu yoʻsin rozi boʻlishda ekani yaqqol koʻrsatiladi: “Akam kelinoyimni biram yaxshi koʻradi. Koʻchadan kelishi bilan uni soʻraydi. Oshxonadami, sigirning oldidami boʻlsa, bir koʻziga qarab qoʻymaguncha kiyingani ham kirmaydi, bir ishini qilolmaydi. Dadasinikiga ketgan boʻlsa, kelgunicha kalavasining uchini yoʻqotgandek kalovlanadi. Hammasini kuzataman, kulgim keladi. Kattalar oʻzlarining yashirmoqchi boʻlganlarini yashiroldim deb oʻylaydilar, ammo hech uddalolmaydilar. Uddalamaganlarini esa sezmaydilar ham”. Sinchkov oʻsmir qizning nazaridan hech narsa chetda qolmaydi. Lekin u shunchaki kuzatuvchi boʻlmay, balki koʻrganlaridan astoydil saboq chiqaradigan shaxs ekani hikoya soʻngida maʼlum boʻladi. Maʼlumki, oʻzbekda oila masalasi faqat er-xotin oʻrtasidagi bogʻlanish emas, uzoq-yaqin qarindoshlarga taalluqli boʻlgan ijtimoiy rishtalar yigʻmasi boʻlgani uchun ham undagi muammo yolgʻiz erkak va ayolga tegishli boʻlolmaydi. “Kelinoyi” hikoyasi qahramonlari singari farzandsizlikka duch kelinganda esa oilada bu dardga befarq odamning oʻzi qolmaydi: “Kun sayin ayamning chingillab urishishlari avjiga chiqdi. Dadam avvaliga kelinoyimning yonini olardi. Keyingi vaqt indamay yerga qarab oʻtiradigan boʻldi. Avvalgidek soʻrida “kelin, u qiling, bu qiling”, deb gapirib, hammamizni hazil aytib kuldirib oʻtirmay qoʻydi. Keyin sal dahanaki vaysash boshlansa, yoʻqolib qoladigan, ustaxonaga kirib eshikni zichlab yopib oladigan boʻldi”. Bunday holatlarda muammolar chiqishiga doim kelin aybdor, deb qaralishiday achchiq reallikni adiba haqqoniy tasvirlaydi. Hikoyada tirnoqqa zorligidan bir azob cheksa, yon-veridagilarning gap-soʻzidan oʻn karra qiynaladigan kelinga qaynonaning: “Endi bir uy odam sizga tikilib oʻtamizmi?”– tarzida ruhiy bosimi qilishi birgina jumla orqali butun zalvori bilan ifoda etilgan. Hikoya oʻsmir qizning xotirasidangina iborat emas. Hikoyada oila qurishning faqat bola koʻrishga bogʻlab qoʻyilishiday turgʻun yondashuvga oʻziga xos munosabat ham aks etgan. Asarda ayol bilan erkak oʻrtasidagi munosabatlarni odam reproduksiyasidan tashqari omillari ham boʻlishi kerakligi bugungi boʻy qiz ruhiy dunyosi tasviri orqali aks ettirilgan. Yozuvchi oʻz pozitsiyasini ochiq bildirmay, kitobxonga oʻylash va muayyan xulosaga kelish imkonini qoldiradi.

Keyingi yillarda zamonaviy ijtimoiy tadqiqotlar hamda media tarmoqlarida “ispancha uyat” (*“Vergüenza Ajena”*) tushunchasi faol qoʻllanilyapti. Bu, loʻnda qilib aytganda, birovning farosatsizligidan, orsizligidan boshqaning nomus qilishidir. Aslida bu tushuncha – azal-azaldan oʻzbekka xos boʻlib kelgan yondashuv. Afsuski, bugungi vatandoshlarimiz tutumlarida kishini “ispancha uyat”ga qoʻyadigan qiliqlar koʻpayib bormoqda. Kitobdagi **“Eshik”** hikoyasida ana shu holat haqqoniy va ishonarli tasvirlangan.

Tuman xalq taʼlimi boʻlimi mutasaddisi oʻz manfaati uchun turfa qiyofaga kira oladigan Karomat Eshqobilovna maktab direktorlaridan eshik oʻrnatish bahonasi bilan pul soʻraydi. Muallif bu nafs bandasining tovlanishini – foyda keladigan paytda aniq kamchiliklardan ham koʻz yumishi-yu, manfaat unmaydigan vaqtda qildan qiyin axtarib topa olishini dialog orqali koʻrsatadi:

“– ...nega haligacha umumiy hisobotni topshirmadinglar?

– Boʻldi, hoziroq tayyorlab eltib beramiz.

– Demak, hali tayyor ham emas ekan-da.

– Yoʻq-yoʻq, tayyor.

– Menga qarang, menga hoziroq yubor deyishyapti. Amallab bir narsa qilarman. Lekin-chi, hozir shahar boshqarmasida tekshiruv bor ekan. Shunga uncha-muncha yigʻib bersanglar, yaxshi boʻlardi”.

Hikoyada faqat Karomatgina manfaatparast emasligi, ta’magirlik u bilan tugamasligi, metodist bir maktab rahbaridan eshik uchun pul soʻrash kerakligini kotiba qizga tayinlaganda, undan shunday javob eshitadi: “Voy, Karomat opa, qanday boʻlarkin. Toʻgʻrisi, yaqinda bolamni anu bogʻchaga oʻsha direktor joylab beruvdi-da. Menga sal noqulay”. Shu tariqa muallif hikoyada muammoning sertomir ekani, amaldorlarning qonunsiz harakatlarini koʻrib turgan qoʻl ostidagilari ham ulardan ulgu olishini va bu uzilmas “zanjir” davom etishini ochiq koʻrsatib beradi. Hikoyadagi “eshik” detali shunchaki bir vosita xolos. Hikoyaning nomi, “Togʻora”, “Kompyuter” yoxud “Tugʻilgan kun” boʻlishi ham mumkin edi. Aynan mana shu shaklan turfa, mazmunan bir muammo – ta’magirlik illati jamiyatning barcha boʻgʻinlarida nechogʻlik tomir otgani kitobxonni oʻylantiradi, oʻrtaydi. Yonginamizda yurib, goʻyo binoyiday ishlayotgan boʻlib koʻrinadigan Karomat Eshqobilovnalar qilmishidan yuz qizaradi. Asarning ahamiyati ham shunda. Mehnat migratsiyasi – oʻzbek adabiyoti uchun nisbatan yangi mavzu sanalsa-da, bu haqda koʻp yozilmoqda. Soʻnggi chorak asrda ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan yangilanishlar, qolaversa, maʼnaviyatimizda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar tufayli mehnat qilish, boylik orttirish, ona Vatanda yashash kabi tushuncha va qadriyatlarga munosabat ham oʻzgardi. Shu sabab adabiyotda ham ayol va mehnat, mehnat va boylik munosabatlarini gastarbayterlik jarayoni bilan bogʻliq ravishda badiiy tasvirlash holatlari koʻpaydi. Maʼmura Zohidovaning **“Yoqadagi pullar”** hikoyasida Dilmurod xorijda misqollab topganini

kurtkasining yoqasiga yashirar ekan, kechirgan butun hayotini koʻz oldidan oʻtkazadi, “mittigina chumoliyam uyasiga don tashiydigan bu dunyoda oʻzining aqli juda kech kirganiga” afsuslanadi, musofirlik “esini joyiga solgani”ga iqror boʻladi. Biroq yetdim deganda yiqilganidek, uning tashvishlari shu bilan tugamaydi, balki boshlanadi: poyezd vagonlariga bostirib kirgan talonchilar uning bor boyligi yashiringan kurtkasini tortib oladi. Eski toʻn va bir dunyo alam bilan qolgan Dilmurod uyga qanday kelgani-yu, kimga nima deganiniyam tuzuk-quruq anglamaydi. Butunlay umidsizlik komidagi yigitning yashagisi ham kelmay qolgani asarda juda ishonarli tasvirlangan. Yozuvchi bir necha yil avval ketgandan keyin ham uyiga hemirisiz qaytgan erkak iztiroblari barobarida uyda qolib, oʻzga yurtdan mol-u, davlat kutayotgan insonlarning ruhiy dunyolari tasviriga ham eʼtibor qaratadi. Hikoyada dunyo koʻrgan, qanoatli oʻzbek ayolining tutumlari Dilmurodning onasi timsolida hayotiy aks ettirilgan. Shumshayib turgan oʻgʻlining ahvolini soʻzsiz anglagan onaning mardona harakatlari haqqoniy tasvirlangan: “Bu yoqqa chiq, – u choʻntagidan bir dasta ming soʻmlik olib ostonada paydo boʻlgan Munisaga uzatdi. – Bor, shaharga tushib chiq. Ikki-uch xil shokolad olib kelgin. Toʻrt-besh kilo kelar. Rossiyami, Maskovskiymi deb yozganidan olgin. Bir kilo-bir kilodan, tuzukmi?” Bosh yorilsa, boʻrk ichida, qoʻl sinsa, yeng ichida naqliga amal qiladigan oʻzbek ayolining tutumi – juda real va mantiqli. U bolasining nochorligini atrofdagilarga bildirmaslik uchun fidoyilik qiladi. Hikoyada oʻzbekona turmushga mos odatlar mahorat bilan koʻrsatiladi. Xususan, Dilmurodning eski kurtkasi kunlar isigach keraksiz boʻlib qolgani “egasini mindirib kelgani uchun tepki yegan eshak holiga” qiyoslanadi. Chindan ham, aksar oʻzbekning hovlisida eng eʼtiborsiz maxluq boʻlgan eshakka munosabat adolatsizdir. Bu holat “Mehnati halol, oʻzi harom” tarzida maqolga ham aylangan. Eshak ishning ogʻirini qiladi, lekin yemishning sarqitini yeydi. Hikoyada umidsizlikka tushmaslik, hech tugamaydiganday tuyulguvchi zulmat ortidan ham yorugʻlik kelishiga ishonish tuygʻusiga ega, Yaratganning marhamatiga astoydil inongan oʻzbek ayolining siymosi taʼsirli gavdalantirilgan. Shuningdek, hikoyada halol topilgan mol-dunyoning shunchaki yitib ketavermasligi ham ishonarli tasvirlangan.

“Istanbul” kafesi” hikoyasida turmush qiyinchiliklari ogʻushidagi ayol qismati va uning ruhiyati taʼsirli tasvirlanadi. Muallif qoʻli yupqa ayol hamma narsaga oʻzining qarichi bilan qarashini, ayniqsa, boy-badavlatlar turmushiga baho berganda yondashuv oʻzini-oʻzi xoʻrlash darajasiga yetishi mumkinligini toʻgʻri koʻrsatadi. Hikoya qahramoni Madina tamaddixonada oʻz yumushi bilan band boʻlar ekan, ayni paytda tevarakni – taomlarning qimmatligini ham (“baʼzilarining puliga uch kilo goʻsht beradi”), turi koʻpligini ham (“turk taomlarining nomlaridan esida qolganlarini ichida qaytarib koʻrdi”), isrof boʻlayotganini ham (“bir shisha idishdagisi besh mingdan sotiladigan ayronni tegmay qaytarishgan”) eʼtibordan chetda qoldirmaydi. Har biriga oʻzicha baho beradi: “Buning nimasi besh ming. Besh mingga oltita non beradi-ya”.

Hikoyada har bir ayolning fikrlash yoʻsini oʻzining ahvoliga yarasha boʻlishi ishonarli tasvirlanadi. Muhtoj ayol Madina kasal bolasi uchun birovlardan qolgan taomlarni yigʻib uyiga kelgan chogʻida toʻsatdan bolasining shifoxonada ekani haqidagi xabarni eshitgach, qoʻlidagi yeguliklar oyoqostiga sochilib ketadi. Uyning zinalarini tozalaydigan farrosh ayol buni keyinroq koʻrib: “Toʻqlikka shoʻxlik qilmay oʻllaring. Topganingni koʻchaga sochmay oʻllaring. Keragini olsang boʻlmaydimi? Esizgina-ya. Kerak boʻlmasa balo yeb olasanlarmi? Farosatingga dard tegmay oʻlsin”,– deb qargʻanadi.

“Erkaklar gapi” hikoyasida har gapda erkakligini pesh qiladigan, lekin joyi kelsa bergan soʻzining ustidan chiqmaydigan hamiyatsiz odamlar ayol kishini gʻiybat qiladigan darajada maydagap boʻlishi koʻrsatilsa, **“Kirakash”** hikoyasida subuti boʻlmagan kimsaning bora-bora eldan ajralib qolishi taʼsirchan aks ettirilgan. Ayrim hikoyalarda qoʻllangan “ekincha”, “jovlish”, “choʻqanogʻi”, “pisingʻ otmoq” singari shevaga xos soʻzlarning izohsiz qoʻllangani oʻquvchiga qulaylik tugʻdirmaydi. Albatta, bu aytilganlar hikoyalarning umumiy estetik qiymatini pasaytirmaydi, bilʼaks, muallifning ijodiy izlanishda ekanini, oʻzining uslubini shakllantirish ustida muntazam oʻylanayotganidan dalolat beradi.

Xulosa

Maqolada muxtasar koʻrib oʻtilgan qator olimlarning ayol ruhiyati tasviriga oid fikr, qarashlari va ilgari surgan gʻoyalarini xronologik tartibga koʻra tizimlashtirsak, badiiy adabiyotda yangicha ayol qismati va ruhiyati tasviri quyidagi tarixiy-tadrijiy bosqichlarini bosib oʻtdi deb hisoblash mumkin: Islom davrida oʻzbek adabiyotida ayol komil inson tushunchasi asosida shakllandi va rivojlandi. Bunda ayol haqqa, xudoga yetishishi va unga qoʻshilib ketishiga urgʻu berildi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida boshlangan yangicha qarash va xalq hayotidagi oʻzgarishlar badiiy adabiyotdagi ayol va uning tasviri ham yangicha boʻlishiga omil boʻldi. Endi ayol avvalgidek oʻta subyektiv yoki hammasini Yaratgandan kutish kerak degan aqidadagi kishi emas, balki ijtimoiylashgan, oʻz muammosi va qiziqishlariga javob izlashga urinayotgan ayol sifatida boʻy koʻrsata boshladi. Zamonaviy oʻzbek hikoyachiligida ayol qismati, ruhiyati tasvirining tadrijiy taraqqiyoti bosqichlari quyidagicha: bozor ayollari, tafakkur ayollari, oʻzga olam ayollari, gʻayritabiiy xususiyatga ega ayollar, ezgu va yovuz niyatli ayollar. Maqolada qoʻyilgan ilmiy muammo yuzasidan mulohazalarimiz yakunida shuni qayd etamizki, “ayol qismati, uning ruhiyati” uzoq tarixiy asoslarga ega. Har bir davr uni oʻzgartiradi, bu esa maʼlum ijtimoiy-iqtisodiy asoslar, omillar taʼsirida yuz beradi va badiiy adabiyotda oʻziga xos izini qoldiradi. Ana shu “iz” badiiy adabiyotdagi ayol qismati, ruhiyati konseptining yuqorida keltirilgan xronologik tartibdagi taraqqiyot bosqichlari shakli sifatida olinishi kerak. Ayol botini, uning borligʻi, qismati va ruhiy holatini qalamga olinishi milliy

tafakkurda hech bir ijodkorni, ayniqsa, ayol hikoyanavislarni befarq qoldirmagan. Markaziy g‘oyasi va qahramonlari ayolni tashkil etgan badiiy asarlar esa bugngi kundagi tadqiqotlarga zamin bo‘lmoqda.

Foydalanil,gan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adabiyot nazariyasi. I jild. – Toshkent: Fan,1978. – 416 b.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. II jild. – Toshkent: Fan, 1979. II jild. – 249 b.
3. Adabiy turlar va janrlar. Uch tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – 382 b.
4. Adabiy tur va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid). 2-jild. Lirika. – Toshkent: Fan, 1992. – 248 b.
5. Abdullayeva Sh., Homidiy H., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlarlug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – 300 b.
6. Aristotel. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1980. – 152 b.
7. Boboxonov M. Ruhiy holat tasvirida qahramon portretining o‘rni //O‘zbek tili va adabiyoti. 2010.
8. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU,2002. – 560 b.
9. Boltaboyev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992. – 104 b.
10. Boltaboyev H. Teranlik maqolasi. Adabiyotimiz faxri to‘plami. –Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2007. – B. 202–213.
11. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 2 jild. –Toshkent: Mumtoz so’z, 2016.
12. Do‘stmuhammad X. Ijod – ko‘ngil munavvarligi. – Toshkent: Mumtoz so‘z,2011. – 316 b.
13. Hamdam U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 288
14. Jo‘rayev T. Ong oqimi modern. – Toshkent: Farg‘ona, 2009. – 204 b.
15. Zohidova M. Boychechak. –Toshkent: “Akadem nashr”, 2026. – 43-55 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Dauletmuratova Xurziya Yelubayevna
Nukus davlat pedagogika instituti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi
Email: dauletnuratovakhurziya@gmail.com

T.QAYIPBERGENOVNING «QORAQALPOQ QIZI» VA Sh.BRONTENING «JEYN EYR» ASARLARIDA METAFORANING LINGVOPROZAIK XUSUSIYATLARI

Abstract: *This article explores the linguoprosaic functions of metaphor in constructing the female image in T. Qayipbergenov's Qoraqalpoq qizi and Charlotte Brontè's Jane Eyre. The study interprets metaphor not merely as a stylistic device, but as a conceptual and semiotic mechanism shaping gender representation within specific cultural contexts. Based on classical and cognitive theories of metaphor (Aristotle, Ricoeur, Lakoff & Johnson) and linguoprosaic analysis, the research examines how metaphor models the social and psychological dimensions of female identity. The comparative analysis reveals that in Qayipbergenov's novel, metaphors primarily reflect social transformation and collective consciousness, portraying the female character within a patriarchal framework. In contrast, Brontè's metaphors emphasize psychological depth and moral independence, presenting the female image as an internally autonomous subject. The study concludes that although metaphor functions as a universal narrative mechanism, its linguoprosaic role varies according to national and cultural paradigms, shaping distinct models of female identity in Karakalpak and English prose.*

Keywords: *metaphor, linguoprosaic analysis, female image, conceptual metaphor, gender representation.*

Даулетмуратова Хурзия Елубаевна
Старший преподаватель кафедры английского языка и литературы Нукусского государственного педагогического института

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ МЕТАФОРЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ Т. КАЙПБЕРГЕНОВА «ЧЕРНАЯ ДЕВУШКА» И С. БРОНТЕ «ДЖЕЙН ЭЙР»

Аннотация: *В данной статье исследуются лингвопрозаические функции метафоры в построении образа женщины в романе Т. Кайипбергенова «Каракалпок кызы» и романе Шарлотты Бронте «Джейн Эйр». Исследование интерпретирует метафору не просто как стилистический приём, а как концептуальный и семиотический механизм, формирующий гендерное представление в конкретных культурных контекстах. Основываясь на классических и когнитивных теориях метафоры (Аристотель, Рикер, Лакофф и Джонсон) и лингвистическом анализе, исследование рассматривает, как метафора моделирует социальные и психологические аспекты женской идентичности. Сравнительный анализ показывает, что в романе Кайипбергенова метафоры в первую очередь отражают социальные преобразования и коллективное сознание, изображая женский персонаж в патриархальных рамках. В отличие от этого, метафоры Бронте подчеркивают психологическую глубину и моральную независимость, представляя образ женщины как внутренне автономный субъект. Исследование приходит к выводу, что, хотя метафора функционирует как универсальный нарративный механизм, её лингвопрозаическая роль варьируется в зависимости от национальных и культурных парадигм, формируя различные модели женской идентичности в каракалпакской и английской прозе.*

Ключевые слова: *метафора, лингвистический анализ, женский образ, концептуальная метафора, гендерное представление.*

Dauletmuratova Xurziya Yelubayevna
Senior Lecturer, Department of English Language and Literature, Nukus State Pedagogical Institute

LINGUOPROSAIC FEATURES OF METAPHOR IN T. QAYIPBERGENOV'S "KARAKALPAK GIRL" AND CHARLOTTE BRONTË'S "JANE EYRE"

Abstract*: This article explores the linguoprosaic functions of metaphor in constructing the female image in T. Qayipbergenov's Karakalpak Girl and Charlotte Brontë's Jane Eyre. The study interprets metaphor not merely as a stylistic device, but as a conceptual and semiotic mechanism shaping gender representation within specific cultural contexts. Based on classical and cognitive theories of*

metaphor (Aristotle, Ricoeur, Lakoff & Johnson) and linguoprosaic analysis, the research examines how metaphor models the social and psychological dimensions of female identity. The comparative analysis reveals that in Qayipbergenov's novel, metaphors primarily reflect social transformation and collective consciousness, portraying the female character within a patriarchal framework. In contrast, Brontë's metaphors emphasize psychological depth and moral independence, presenting the female image as an internally autonomous subject. The study concludes that although metaphor functions as a universal narrative mechanism, its linguoprosaic role varies according to national and cultural paradigms, shaping distinct models of female identity in Karakalpak and English prose.

Keywords: metaphor, linguoprosaic analysis, female image, conceptual metaphor, gender representation.

Kirish.

Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda metafora masalasi ko‘p qirrali ilmiy muammolardan biri sifatida baholanadi. Agar klassik ritorikada metafora ma’no ko‘chishining poetik usuli sifatida talqin etilgan bo‘lsa, hozirgi kunda u inson tafakkurining kognitiv mexanizmi, badiiy matnda esa ma’no yaratishning markaziy vositasi sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, badiiy nasrda metafora faqat uslubiy bezak emas, balki obraz modellashtirishning asosiy semantik vositasidir. Ayol obrazi adabiyot tarixida doimo markaziy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Biroq uning ifodalanish tarzi milliy madaniy paradigma, ijtimoiy munosabatlar tizimi va muallif dunyoqarashiga bevosita bog‘liqdir. Metafora esa mazkur obrazni konseptuallashtirish va uning ijtimoiy hamda psixologik qirralarini ochishda muhim rol o‘ynaydi. T.Qayыpbergenovning «Qoraqalpoq qizi» romani qoraqalpoq jamiyatida ayolning ijtimoiy mavqei va transformatsiya jarayonini aks ettirsa, Sh.Brontening «Jeyn Eyr» asari ayolning ichki erkinligi va shaxsiy qadriyati uchun kurashini markazga qo‘yadi. Ushbu maqolada mazkur ikki asarda metaforaning ayol obrazini modellashtirishdagi lingvoprozaik vazifasi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi metaforani badiiy bezak vositasi sifatida emas, balki ayol obraziniyaratishning konseptual va semiotik mexanizmi sifatida o‘rganish hamda qoraqalpoq va ingliz nasrida uning funksiyalarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot ob’yekti «Qoraqalpoq qizi» va «Jeyn Eyr» romanlari matnidagi metaforik birliklar bulsa, tadqiqot predmeti metafora orqali ayol obrazining lingvoprozaik modellanishi. Ilmiy yangilik shundan iboratki, metafora ayol obrazini yaratishning lingvoprozaik mexanizmi sifatida ikki milliy adabiyot materiallari asosida qiyosiy tahlil qilindi va uning ijtimoiy hamda psixologik paradigmalar bilan bog‘liqligi asoslandi.

Tadqiqot metodologiyasi va materiallar.

Ushbu tadqiqot badiiy nasrda metaforaning ayol obrazini shakllantirishdagi lingvoprozaik funksiyasini aniqlashga qaratildi. Metodologik asos sifatida metaforaning klassik va zamonaviy nazariyalari olindi. Aristotel metaforani nom ko‘chishi sifatida ta’riflaydi . Keyingi tadqiqotlarda Lakoff tarafidan u kognitiv mexanizm sifatida talqin qilinadi . P.Rikyor metaforani yangi ma’no yaratish jarayoni sifatida baholaydi . Ushbu nazariy qarashlar tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi. Ish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: metaforik birliklarni aniqlash; ularning semantik xususiyatlarini belgilash; obraz shakllanishidagi funksiyasini tahlil qilish; qiyosiy umumlashtirish. Shu tariqa, tadqiqotda metafora badiiy bezak sifatida emas, balki ayol obrazining semantik shakllanish mexanizmi sifatida qaraldi.

1. Metaforaning klassik talqini Aristotel «Poetika» asarida metaforani bir predmet nomi boshqa predmetga o‘xshashlik asosida ko‘chirilishi sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, metafora nutqqa joziba va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Biroq bu ta’rif metaforaning faqat tashqi uslubiy funksiyasini qamrab oladi. V.V.Vinogradov metaforani badiiy tilning obrazlilik asosi deb hisoblaydi . Uning ta’kidlashicha, troplar muallif uslubini belgilaydi va badiiy matnda ma’no markazini shakllantiradi. Demak, metafora muallifning voqelikni idrok etish tarzini aks ettiradi. Ye. Allanazarov metaforalarni adabiy asarlardagi badiiy vazifasi bilangina cheklanib qolmay, adabiy tilning rivojlanishiga, xalqning lingvistik tafakkurida madaniy belgilarni saqlab qolishga ham o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. “Metafora - tilda so‘z semantikasiga, uning hayotiy zaruratiga mos ravishda lug‘at tarkibining tarixiy rivojlanishi jarayonida so‘z ma’nosini kengaytirishga, adabiy tilning strukturaviy, semantik jihatdan boyishiga, funksional rivojlanishiga sabab bo‘ladigan semantik hodisalardan biridir” . 2. Kognitiv metafora nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab metafora kognitiv yondashuv asosida talqin qilina boshladi. J.Lakoff va M.Jonson metaforani inson tafakkurining kognetiv mexanizmi sifatida baholaydilar . Ularga ko‘ra, inson abstrakt tushunchalarni konkret tajriba orqali anglaydi. Masalan, «hayot - sayohat», «muhabbat - kurash» kabi konseptual metaforalar fikrlash jarayonini shakllantiradi.

P.Rikyor metaforani «yangi ma’no yaratish jarayoni» sifatida ta’riflab, uning semantik ziddiyat orqali yangi konseptual maydon hosil qilish xususiyatini ta’kidlaydi . Bu nuqtay nazardan, metafora reallikni qayta modellashtirish vositasidir. 3. Lingvoprozaik yondashuv Lingvoprozaik tahlil badiiy nasr matnida til vositalarining estetik, semiotik va konseptual funksiyalarini o‘rganadi. Bu yondashuvda metafora: obraz yaratish mexanizmi; personaj psixologiyasini kodlash vositasi; ijtimoiy munosabatlar modelini ifoda etish usuli; muallif dunyoqarashining belgisi sifatida qaraladi. Yu.M.Lotman badiiy matnni semiotik tizim sifatida talqin qilib, har bir obraz ma’no uzatuvchi belgi ekanini ta’kidlaydi . Shu jihatdan, metafora bu semiotik kod. 4. Ayol obrazi va gender semiotikasi. Simona de Bovuar ayolni ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, ayol «tabiiy holat» emas, balki madaniy shakllantirilgan fenomendir .

Eleyn Shouolter esa ayollar adabiyotini mustaqil estetik va ideologik tizim sifatida o‘rganib, uning tarixiy va ma’naviy tajribasini alohida tahlil qiladi. Gender nazariyasi nuqtay nazaridan, metafora ayolning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydigan semiotik mexanizmdir. Masalan, «qəpestegi qus» metaforasi erksizlikni, «I am no bird» metaforasi esa ichki erkinlikni ma’nosini shakllantiradi.

Natijalar.

1. «Qəpestegi qus» metaforasi: erksizlik**.** Asardagi «Bizler qəpestegi quspыz, jazdыgыlыo‘ qыuып, ol jag‘ып oylandың ba? Ol ushып men baydan ayыgыlыo‘ым kerek yemes pe? – dedi» [5; 242], «bizler qəpestegi quspыz» mazmunidagi metafora ayol obrazining semantik yadrosini tashkil etadi. Qush obrazi an’anaviy ravishda erkinlik, harakat va tabiiylik ramzi hisoblanadi. Biroq «qapes» komponenti uning semantikasini inkor etadi va erksizlik, cheklanish ma’nosini hosil qiladi. Bu yerda metafora leksik ko‘chish emas, balki gender munosabatlarining konseptual modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Ayol jamiyat tomonidan «qəpes» — ya’ni patriarxal nikoh va iqtisodiy qaramlik tizimi ichiga joylashtirilgan sub’yekt sifatida tasvirlanadi. Lingvoprozaik jihatdan, mazkur metafora asarning ijtimoiy-konseptual yo‘nalishini belgilaydi. 2. «Yerkak tas, ayol kepek»: gender iyerarxiyasining materiallashuvi

«Yerkek tas, hayal kepek, үplesek kөzden g‘ayып boladы» (5; 253) misolidagi «Yerkek tas, hayal kepek» metaforasi individual-avtorlik konstruksiya bo‘lib, gender tengsizligini moddiy obraz orqali ifodalaydi. «Tas» - og‘ir, barqaror, mustahkam; «kepek» - yengil, parokanda, arzimas.

Bu yerda metafora gender munosabatlarining konseptual sxemasini yaratadi. Ayol jamiyatda yengil, arzimas mavjudot sifatida modellashtirilgan. Bu lingvoprozaik jihatdan ijtimoiy stereotiplarning tildagi reprezentatsiyasidir. Mazkur metafora semantik jihatdan antiteza tamoyiliga asoslangan bo‘lib, obrazli qarama-qarshilik orqali ma’no kuchaytiradi. 3. «Qarlыg‘ash» metaforasi: transformatsiya sub’yekti Jumagul obraziga nisbatan qo‘llangan «Biz sizdi qaraqalpaq hayal-qыzlarғыnың dəslepki qarlыg‘ashы dep hүrmetler yedik…» [5; 351] «qarlыg‘ash» metaforasi yangilanish va boshlanish ramzi hisoblanadi. «Qarlыg‘ash» bahor elchisi sifatida milliy tafakkurda ijobiy ma’noga ega. Bu yerda ayol obrazi faqat jabrlanuvchi emas, balki ijtimoiy o‘zgarishni boshlovchi sub’yekt sifatida modellashtiriladi. Lingvoprozaik nuqtai nazardan, bu metafora asardagi transformatsiya dinamikasini belgilaydi. 4. Kengaytirilgan metaforalar: jamiyat ongi modeli Asardagi «Bүgingi hәreketiң orыnlы, – dedi Baymuratov jыynalыstan soң Jumagүlge. – Tereңge ketken temir shegeni bosatыo‘g‘a magnit kerek yedi, magnitlik o‘azыuranы atqarыo‘g‘a qədem qoydың» [5; 353] misolida «Tereңge ketken temir shege» va «magnit» obrazlari jamiyat ongidagi mustahkam stereotiplarni ifoda etadi. Shege - chuqur o‘rnashgan urf-odat va qarashlarni, magnit esa ularni o‘zgartiruvchi kuchni anglatadi.

Bu yerda ayol obrazi ijtimoiy fikrni o‘zgartirishga qodir kuch sifatida talqin qilinadi. Metaforalar asarning g‘oyaviy strukturasini tashkil etadi va Jumag‘ul xarakterining ichki qat’iyatini ochib beradi.

5. Lingvoprozaik xususiyatlar Tahlillar shuni ko‘rsatadiki: - Romanda xalqchil (trayt) metaforalar ustunlik qiladi. - Metaforalar ijtimoiy mazmunga ega. - Ayol obrazi kollektiv ong bilan bog‘liq holda modellashtiriladi. Shu jihatdan, «Qoraqalpoq qizi»da metafora ijtimoiy-tarbiyaviy va tanqidiy funksiya bajaradi. Sh.Brontening «Jeyn Eyr» romanida ayol obrazi ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda berilsa-da, asosiy e’tibor qahramonning ichki dunyosiga qaratilgan. Shu sababli metaforalar, avvalo, psixologik holatni ifoda etishga xizmat qiladi. Lingvoprozaik nuqtai nazardan, bu roman ichki ong makonini metaforik modellashtirishga qurilgan.

1. «I am no bird»: shaxsiy erkinlik konsepti. Romandagi mashhur «I am no bird; and no net ensnares me; I am a free human being with an independent will, which I now exert to leave you» [13; 386] misolida «I am no bird; and no net ensnares me» metaforasi ayol obrazining konseptual yadrosini tashkil etadi. Agar «Qoraqalpoq qizi»da qush obrazi erksizlik ramziga aylangan bo‘lsa, Bronteda u erkinlikka qarshi qo‘yilgan inkor shaklida namoyon bo‘ladi. Jeyn o‘zini «qush emas» deb ta’kidlashi orqali erkinlikni tashqi shart-sharoit emas, balki ichki iroda bilan bog‘laydi. Bu yerda metafora gender mustaqilligining kognitiv modeli sifatida xizmat qiladi.

Lingvoprozaik jihatdan, mazkur metafora romanning axloqiy-falsafiy konsepsiyasini belgilaydi: ayolning haqiqiy erkinligi uning ichki pozisiyasida. 2. Yurak metaforalari: emosional holatning materiallashuvi Asardagi «I felt so sheltered and befriended while he sat in the chair near my pillow; and as he closed the door after him, all the room darkened and my heart again sank: inexpressible sadness weighed it down» [13; 25] misolida «My heart sank», «pain at the heart» kabi metaforalar emosional holatni jismoniy harakat va hissiyot orqali modellashtiradi. Bu kognitiv metafora modeli «emosiya - fizik harakat» tamoyiliga asoslangan. Jeynning ichki iztiroblari tabiat va jismoniy harakat orqali tasvirlanadi. Bu yerda metafora psixologik realizmni kuchaytiruvchi mexanizmga aylanadi. 3. Tabiat metaforalari: ichki dramaning tashqi proyeksiyasi Asardagi «A Christmas frost had come at midsummer; a white December storm had whirled over June; ice glazed the ripe apples, drifts crushed the blowing roses; on hayfield and cornfield lay a frozen shroud…”» [13; 450] misolida «Frost in midsummer», «white December storm over June» kabi kengaytirilgan metaforalar Jeyn hayotidagi baxtning to‘satdan barham topishini anglatadi. Mavsumlar qarama-qarshiligi ruhiy inqiroz ma’nosini shakllantiradi. Tabiat bu yerda passiv fon emas, balki ichki holatning semiotik proyeksiyasi vazifasini bajaradi. Bu uslub romantik estetika bilan bog‘liq bo‘lib, ayol obrazining ichki dunyosiga chuqur kirish imkonini beradi.

4. Umid va harakat: personifikatsiyalangan metafora

«…suggested the thought that Hope traversed them at night, and left each morning brighter traces of her steps» bu yerda «Hope traversed them at night» ifodasidagi metafora umid harakatlanuvchi mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu kengaytirilgan metafora ayol obrazini faol ruhiy sub'yekt sifatida ko'rsatadi. Shu tariqa, «Jeyn Eyr»da metafora ayolning ichki erkinligi, axloqiy mustaqilligi va ruhiy barqarorligini modellashtirishga xizmat qiladi.

Muhokama.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, metafora har ikki asarda obraz shakllanishining semantik yadrosini tashkil etadi. Bu holat Rikyor ta'kidlagan "yangi ma'no yaratish" xususiyati bilan uyg'un [9; 211]. Metafora reallikni qayta ifoda etmaydi, balki uni qayta modellashtiradi. Yuqoridagi nazariy yondashuvlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni qayd etish mumkin: 1. Metafora badiiy nasrda obraz shakllanishining semantik yadrosini tashkil etuvchi ma'no yaratish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. 2. Ayol obrazi metafora orqali ijtimoiy va psixologik qatlamlarda shakllanib, gender munosabatlarining tildagi ifodasiga aylanadi. 3. Lingvoprozaik tahlil metaforani milliy-madaniy paradigma va muallif dunyoqarashi bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi. Shu tariqa, har ikki asarda metafora ayol obrazining semantik shakllanishida markaziy rol o'ynashi aniqlandi. Qayыpbergenov asarida metafora ijtimoiy munosabatlar paradigmasi doirasida ishlasa, Bronte romaninida u individual ong va axloqiy pozisiyani ifoda etadi. Mazkur farq har ikki adabiyotda ustun bo'lgan milliy-madaniy paradigma bilan izohlanadi: qoraqalpoq nasrida kollektivistik tafakkur yetakchi bo'lsa, ingliz viktorian nasrida individual axloqiy sub'yekt markaziy o'rinni egallaydi.

Xulosa.

Metafora har ikki asarda ayol obrazining semantik shakllanishida markaziy o'rin tutadi va ikki romanni qiyosiy tahlil qilish metaforaning turli madaniy paradigmalarda turlicha funksiya bajarayotganini ko'rsatadi. 1. Metaforaning konseptual yo'nalishi «Qoraqalpoq qizi»da metafora ijtimoiy munosabatlar tizimini ochishga xizmat qiladi. Ayol obrazi jamiyat markazida modellashtiriladi. «Jeyn Eyr»da esa metafora ichki psixologiya va axloqiy pozisiyani ifoda etadi. Ayol obrazi individual ong markazida shakllanadi. 2. Gender modeli Qayыpbergenov asarida ayol obrazi ijtimoiy tenglik va huquqiy adolat g'oyasi bilan bog'liq. Bronte romaninida esa ayol shaxsiy qadriyat va iroda mustaqilligi nuqtai nazaridan talqin qilinadi. 3. Metafora turlari nisbati

Mezon	Qayыpbergenov	Bronte
Xalqchil metafora	Ko'p	Kam
Individual metafora	Mo'tadil	Ustun
Kengaytirilgan metafora	Bor	Juda ko'p
Psixologik metafora	Kamroq	Asosiy

4. Milliy-mental paradigma Qoraqalpoq nasrida kollektivistik tafakkur ustun. Ayol obrazi jamiyat ichida o'z o'rnini topadi. Ingliz nasrida individualistik tafakkur ustun. Ayol obrazi ichki erkinlik va shaxsiy qaror markazida turibdi. Tadqiqot natijalari metafora har ikki asarda ayol obrazini yaratishning markaziy lingvoprozaik mexanizmi ekanini ko'rsatdi. Biroq uning funksiyasi milliy va madaniy kontekstga ko'ra turlicha namoyon bo'ladi. «Qoraqalpoq qizi»da metafora ijtimoiy transformatsiyani ifoda etsa, «Jeyn Eyr»da u psixologik va axloqiy mustaqillikni modellashtiradi. Shu tariqa, metafora universal badiiy vosita bo'lsa-da, uning lingvoprozaik vazifasi milliy mentalitet va ijtimoiy paradigmalar bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotel. Poetika [Elektronnыy resurs]. – Rejim dostupa:
2. Bovuar S. de. Vtoroy pol / per. s fr. – M.: Progress, 1997. – 832 s.
3. Vinogradov V. V. O yazыke xudojestvennoy literaturы. – M.: Nauka, 1980. – 362 s.
4. Galperin I. R. Stilistika angliyskogo yazыka. – 3-ye izd. – M.: Vыsshaya shkola, 1981. – 334 s.
5. Qayыpbergenov T. Qoraqalpoq qizi. – Nөkis: Qaraqalpaqstan, 1985. – 512 b.
6. Qaraqalpaq tiliniң tүsindirme sөzligi. – 2-t. – Nөkis: Qaraqalpaqstan, 1984. – 325 b.
7. Qaraqalpaq tiliniң tүsindirme sөzligi. – 3-t. – Nөkis: Qaraqalpaqstan, 1988. – 134 b.
8. Lotman Yu. M. Struktura xudojestvennogo teksta. – M.: Iskusstvo, 1970. – 384 s.
9. Rikyor P. Jivaya metafora / per. s fr. V. V. Bibixina. – M.: Progress, 1990. – 432 s.
10. Chernes L. V. Teoriya literaturы. – M.: Akademiya, 2002. – 512 s.
11. Abrams M. H. A Glossary of Literary Terms. – 7th ed. – Boston: Heinle & Heinle, 1999. – 366 p.
12. Allanazarov E. Qaraqalpaq tilinde metaforalardıń stilistik qollanılıwı. – Nókis: Avangard baspa, 2022. – 128 b.
13. Brontè Ch. Jane Eyre. – London: Penguin Classics, 2006. – 624 p.
14. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 276 p.

15. Showalter E. A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontè to Lessing. – Princeton: Princeton University Press, 1977. – 378 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Khayrullaeva Khuriniso Jahongir kizi
Doctoral student of the 1st stage of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

THE HARMONY OF PROSE AND POETRY IN "QISASI RABG'UZIY" AND ITS ARTISTIC-FUNCTIONAL SIGNIFICANCE

Annotation. *This article examines the artistic and functional significance of the harmony between prose and poetry in the work "Qisasi Rabg'uziy", which is considered one of the valuable examples of classical Uzbek literature. The study analyzes the compositional structure, stylistic originality, didactic orientation, and artistic means that ensure the aesthetic expressiveness of the work. The prose narration serves to present events in a logically consistent manner, while poetic passages generalize the content, strengthen moral conclusions, and influence the reader's emotions. This research is also important for studying the problem of genre harmony in classical literature.*

Key words*: story, prose and poetry, artistic functionality, didactics, classical literature, composition, aesthetic impact.*

Хайруллаеву Хуринисо Джахонгир кизи
докторант 1-го курса Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

ГАРМОНИЯ ПРОЗЫ И ПОЭЗИИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «КИСАСИ РАБГУЗИЙ» И ЕЁ ХУДОЖЕСТВЕННО-ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. *В данной статье исследуется художественно-функциональное значение гармоничного сочетания прозы и поэзии в произведении «Кисаси Рабгузий», являющемся одним из ценных образцов классической узбекской литературы. Анализируются композиционная структура произведения, его стилистическое своеобразие, дидактическая направленность и художественные средства, обеспечивающие эстетическую выразительность текста. Прозаическое повествование служит для логически последовательного изложения событий, тогда как поэтические вставки обобщают содержание, усиливают нравственные выводы и воздействуют на эмоциональное восприятие читателя. Данное исследование также имеет значение для изучения проблемы жанрового синтеза в классической литературе.*

Ключевые слова: *рассказ, проза и поэзия, художественная функциональность, дидактика, классическая литература, композиция, эстетическое воздействие****.***

Xayrullayeva Huriniso Jahongir qizi
ToshDO'TAU 1-bosqich tayanch doktaranti

"QISASI RABG'UZIY"DA NASR VA NAZM UYG'UNLIGI VA UNING BADIIY-FUNKSIONAL AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining nodir namunalaridan biri sanalgan "Qisasi Rabg'uziy" asarida nasr va nazm uyg'unligining badiiy-funksional ahamiyati tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida asarning kompozitsion tuzilishi, uslubiy o'ziga xosligi, didaktik yo'nalishi hamda estetik ta'sirchanlikni ta'minlashdagi badiiy vositalari tahlil qilinadi. Asarda qo'llangan nasriy bayon voqealar rivojini mantiqiy izchillikda ifodalashga xizmat qilsa, she'riy parchalar mazmunni umumlashtirish, axloqiy xulosalarni kuchaytirish va o'quvchi hissiyotiga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Mazkur maqola mumtoz adabiyotda janrlar uyg'unligi masalasini o'rganish nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir.*

Kalit so'zlar*: qissa, nasr va nazm, badiiy funksionallik, didaktika, mumtoz adabiyot, kompozitsiya, estetik ta'sir.*

Kirish

O'zbek adabiyoti tarixida diniy-ma'rifiy mazmundagi asarlar alohida o'rin egallaydi. Bunday asarlar xalqning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilish hamda badiiy tafakkurni rivojlantirish vazifasini bajargan. Ayniqsa, o'rta asrlar turkiy adabiyotida nasriy-didaktik asarlar yaratish an'anasi kuchli rivojlangan bo'lib, ular orqali diniy tarix, payg'ambarlar hayoti va axloqiy pand-nasihatlar badiiy shaklda ifodalangan. "Qisasi

Rabg‘uziy” asari turkiy adabiyot tarixida muhim o‘rin tutadi. Asar muallifi Nosiriddin Rabg‘uziy bo‘lib, u diniy qissalarni xalq uchun tushunarli tilda bayon qilishga harakat qilgan. Asarning yaratilish davri XIII asr oxiri – XIV asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davr turkiy yozma adabiyotning shakllanish va rivojlanish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, adabiy tilning xalq tiliga yaqinlashuvi kuzatiladi. Kirish qismida ta’kidlash joizki, asarning eng muhim badiiy xususiyatlaridan biri nasr va nazm shakllarining uyg‘un qo‘llanishidir. O‘rta asr Sharq adabiyotida bunday uslub diniy-ma’rifiy asarlar uchun xos bo‘lgan. Muallif voqealarni nasr orqali izchil bayon etib, she’riy parchalar orqali esa axloqiy g‘oyalarni ta’kidlaydi. Shu jihatdan “Qisasi Rabg‘uziy” didaktik adabiyotning yorqin namunalaridan biri hisoblanadi.

“Qisasi Rabg‘uziy” diniy mazmundagi qissalar majmuasidan iborat asar bo‘lib, unda payg‘ambarlar hayoti, tarixiy voqealar va axloqiy-tarbiyaviy masalalar badiiy uslubda yoritilgan. Asarning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi insonni ma’naviy kamolotga yetaklash, jamiyatda ezgulik, adolat va insoniylik tamoyillarini targ‘ib qilishdan iboratdir. Asarning tili o‘z davri uchun sodda va xalqona uslubga yaqinligi bilan ajralib turadi. Muallif murakkab diniy-falsafiy tushunchalarni oddiy ifodalar orqali berishga harakat qilgan. Shu bilan birga, asarda arab va fors tillaridan kirib kelgan so‘zlar ham uchraydi. Bu holat o‘sha davr ilmiy va madaniy muhitining ta’siri bilan izohlanadi. Bunday lingvistik qatlam asarning badiiy uslubini boyitgan va diniy matnlarning an’anaviy stilistik xususiyatlarini saqlab qolishga xizmat qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Asarda voqealar ketma-ketligi qissa shaklida berilgan. Har bir qissa muayyan tarixiy yoki diniy hodisani tasvirlaydi. Muallif qissalarni bayon qilish jarayonida xalq og‘zaki ijodiga xos usullardan ham foydalanadi. Takrorlar, obrazli ta’riflar, dialog shaklining qo‘llanilishi asarning o‘qishli va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlagan. “Qisasi Rabg‘uziy” asarining eng muhim badiiy xususiyatlaridan biri nasr va nazmning o‘zaro uyg‘unligidir. Nasriy bayon asosan voqealar rivojini izchil tasvirlash uchun xizmat qiladi. Muallif tarixiy-diniy voqealarni tartibli ravishda, mantiqiy bog‘liqlikda ifodalaydi. Nasr orqali personajlarning harakatlari, dialoglar va voqealar tafsilotlari keng yoritiladi.

Nasrning badiiy funksiyasi faqat informativlik bilan cheklanib qolmaydi. Asarda nasr didaktik g‘oyalarni yetkazish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Har bir qissa mazmunida insoniy fazilatlar ulug‘lanadi, yomon xulqlardan saqlanish g‘oyasi ilgari suriladi. Payg‘ambarlar hayoti tasviri orqali sabr-toqat, adolat, mehr-oqibat, halollik kabi axloqiy qadriyatlar targ‘ib qilinadi. Nasriy bayon o‘quvchiga voqealarni tushunish imkonini beradi va asarning mazmuniy strukturasini shakllantiradi. Nazm esa asarda estetik va emotsional ta’sirni kuchaytiruvchi vosita sifatida qo‘llanilgan. She’riy parchalar ko‘pincha qissa yakunida yoki muhim voqealar tasviridan so‘ng keltiriladi. Bunday she’riy matnlar didaktik xulosani kuchaytirish, o‘quvchi xotirasida mazmunni mustahkamlash vazifasini bajaradi. She’riy parchalarda ritmik uyg‘unlik, obrazlilik va majoziy ifodalar kuzatiladi. Asarda qo‘llangan she’riy parchalar turkiy she’riyat an’analariga yaqin bo‘lib, aruz vazni elementlari mavjudligi taxmin qilinadi. Nazmning qisqa, lo‘nda shaklda berilishi uning pedagogik ahamiyatini oshiradi. Chunki qisqa she’riy xulosalar diniy-axloqiy g‘oyalarni o‘quvchi ongida tezroq shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur asarda nasr va nazmning birgalikda qo‘llanilishi bir nechta badiiy funksiyalarni bajaradi. Avvalo, bu usul asarning ma’rifiy yo‘nalishini kuchaytiradi. Diniy qissalar oddiy xalq tushunadigan tilda bayon etilishi bilan birga, she’riy parchalar orqali muhim axloqiy xulosalar ta’kidlanadi. Ikkinchidan, bunday kompozitsiya estetik ta’sirchanlikni oshiradi. O‘quvchi nasriy matn orqali voqealar mazmunini anglab boradi, she’riy parchalar esa hissiy kechinmalarni uyg‘otadi. Mumtoz adabiyotda badiiy ta’sir va ma’rifiy g‘oyani uyg‘unlashtirish muhim tamoyillardan biri hisoblangan. Uchinchidan, nasr va nazm uyg‘unligi asarning pedagogik qiymatini ham oshiradi. Diniy-didaktik asarlarda bilim berish bilan birga tarbiyaviy maqsad ham ko‘zlangan. “Qisasi Rabg‘uziy” aynan shu jihati bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘quvchini ezgulik sari yo‘naltiruvchi badiiy vosita vazifasini bajaradi.

“Qisasi Rabg‘uziy” o‘zbek mumtoz adabiyotining eng muhim diniy-didaktik asarlaridan biri sifatida milliy adabiyot tarixida alohida o‘rin tutadi. Asar turkiy nasr taraqqiyotining dastlabki yirik namunalaridan bo‘lib, unda diniy rivoyatlar, tarixiy hikoyatlar va axloqiy pand-nasihatlar badiiy shaklda ifodalangan. Muallif Nosiriddin Rabg‘uziy xalq ommasiga tushunarli bo‘lgan sodda uslubdan foydalanishga intilgan. Shu sababli asar tili o‘z davri adabiy muhitiga xos bo‘lib, xalqona ifodalar, takroriy konstruktsiyalar va obrazli tasvirlar bilan boyitilgan. Asarning yaratilish davri turkiy yozma adabiyotning shakllanish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bu davrda diniy mazmundagi badiiy matnlar keng tarqalgan. Mazkur asar faqat diniy tarixni bayon qilish bilan cheklanmay, balki insoniy fazilatlarni targ‘ib etuvchi ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asarda nasr va nazm shakllarining uyg‘un qo‘llanilishi badiiy matn strukturasining o‘ziga xosligini ta’minlagan. Nasriy bayon voqealar rivojini izchil tasvirlash, syujet liniyasini shakllantirish va tarixiy-diniy hikoyalarni batafsil yoritish vazifasini bajaradi. Muallif nasr orqali personajlarning harakatlarini, ularning o‘zaro muloqotini va voqealar tafsilotini kengroq yoritishga harakat qilgan. Nasriy matnda dialog shaklining qo‘llanishi asarga dramatik ruh bag‘ishlaydi hamda o‘quvchini voqealar ichiga chuqurroq kirib borishga undaydi. Dialogik nutq orqali personajlarning ichki dunyosi, dunyoqarashi va ruhiy holati ochib beriladi. Bu esa badiiy matnning psixologik ta’sir kuchini oshiradi. Nasrning yana bir

muhim funksiyasi informativlik bo‘lib, u o‘quvchiga diniy tarix, payg‘ambarlar hayoti va axloqiy me’yorlar haqida ma’lumot beradi. Shu bilan birga, nasriy bayon didaktik maqsadni ham amalga oshiradi.

Asarda nazm unsurlarining qo‘llanilishi badiiy-estetik ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi muhim vosita hisoblanadi. She’riy parchalar ko‘pincha muhim voqealar yakunida yoki asosiy fikrni umumlashtirish maqsadida keltiriladi. Nazm qisqa va lo‘nda shaklda berilgani sababli axloqiy g‘oyalarni eslab qolishni osonlashtiradi. She’riy matnlarda obrazlilik, majoziy ifodalar va ritmik uyg‘unlik kuzatiladi. Mumtoz adabiyot an’analariga ko‘ra, she’riyat inson ruhiyatiga kuchli ta’sir etuvchi badiiy vosita sifatida qaralgan. Shu jihatdan asardagi she’riy parchalar ma’naviy g‘oyalarni emotsional tarzda yetkazishga xizmat qiladi. She’riy matnlar ko‘pincha umumlashma xulosa vazifasini bajaradi va o‘quvchining axloqiy tafakkurini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Tahlil va natijalar

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining kompozitsion tuzilishi ham diqqatga sazovordir. Asar alohida qissalar majmuasidan iborat bo‘lib, har bir qissa mustaqil mazmuniy birlik sifatida qaralishi mumkin. Biroq qissalar umumiy g‘oyaviy tizim bilan o‘zaro bog‘langan. Asarda voqealar ketma-ketligi mantiqiy izchillik asosida rivojlanadi. Muallif tarixiy rivoyatlarni bayon qilish jarayonida ortiqcha tafsilotlardan qochishga harakat qilgan. Bu esa matnning ixchamligi va o‘qishliligini ta’minlagan. Kompozitsion jihatdan qaraganda, nasr asosiy syujet chizig‘ini hosil qiladi, nazm esa mazmuniy kulminatsiya va umumlashma vazifasini bajaradi. Bunday uslub o‘rta asr Sharq didaktik adabiyotiga xos bo‘lib, diniy asarlarda keng qo‘llanilgan. Asarning g‘oyaviy mohiyati insonni ma’naviy kamolotga yetaklash bilan bog‘liq.

Muallif payg‘ambarlar hayotini tasvirlash orqali ideal inson modelini yaratishga intilgan. Asarda adolat, sabr, mehr-oqibat, halollik, kamtarlik kabi fazilatlar ulug‘lanadi. Inson ruhiy pokligi masalasi alohida ta’kidlanadi. Diniy rivoyatlar orqali jamiyatdagi axloqiy muammolar ham ko‘tarib chiqilgan. Yomon xulq-atvorning oqibatlari badiiy obrazlar orqali ko‘rsatilgan bo‘lib, bu usul tarbiyaviy ta’sir samaradorligini oshiradi. Asarda tabiat tasvirlari ham ramziy ma’noga ega bo‘lib, ular ko‘pincha personajlarning ruhiy holatini ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Tabiat hodisalari bilan inson kechinmalari o‘rtasidagi bog‘liqlik Sharq mumtoz poetikasiga xos xususiyatlardan biridir.

Asar tilining soddaligi uning keng omma uchun mo‘ljallanganligini ko‘rsatadi. Muallif murakkab diniy-falsafiy tushunchalarni imkon qadar xalqona uslubda ifodalashga harakat qilgan. Asarda arab va fors tillaridan o‘zlashgan leksik birliklar ham uchraydi. Bu holat o‘sha davr ilmiy va madaniy muhitining ko‘p tillilik xususiyati bilan izohlanadi. Lingvistik qatlamlarning uyg‘unlashuvi asarning badiiy boyligini oshirgan. Takroriy ifodalar, majoziy o‘xshatishlar va ritmik nutq konstruktsiyalari matn ta’sirchanligini kuchaytirgan. Personajlar nutqi orqali ularning ichki dunyosi ochib berilgan. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida nasr va nazm uyg‘unligi nafaqat badiiy, balki pedagogik funksiyani ham bajaradi. Diniy-ma’rifiy g‘oyalarni bunday shaklda berish o‘quvchi xotirasida mustahkam iz qoldiradi. She’riy xulosalar qisqa bo‘lgani sababli ularni yodda saqlash osonlashadi. Shu bilan birga, matnning estetik strukturasi ham yaxshilanadi. Badiiy matn faqat ma’lumot berish vositasi bo‘lib qolmay, balki o‘quvchi hissiyotiga ta’sir etuvchi estetik hodisaga aylanadi. O‘rta asr Sharq adabiyotida badiiy va ma’rifiy maqsadlarning uyg‘unligi muhim tamoyil hisoblangan.

Xulosa va takliflar

Asar tilining sodda va xalqona bo‘lishi uning keng ommaga tushunarli bo‘lishini ta’minlagan. Muallif murakkab diniy tushunchalarni imkon qadar oddiy sintaktik qurilmalar orqali ifodalashga intilgan. Shu bilan birga, asarda badiiy tasvir vositalaridan ham keng foydalanilgan. Takrorlash usuli, metaforik ifodalar, dialog shakli va tavsiflash elementlari asarning badiiy qimmatini oshirgan. Personajlar ruhiy holatini tasvirlashda tabiat manzaralari bilan bog‘liq obrazlar ham uchraydi. Bu esa Sharq mumtoz adabiyotiga xos poetik an’analarni aks ettiradi. Xulosa qilib aytganda, “Qisasi Rabg‘uziy” o‘zbek mumtoz adabiyotining muhim badiiy yodgorliklaridan biridir. Asarda nasr va nazm uyg‘unligi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu usul badiiy matnning estetik, didaktik va funksional qiymatini oshirishga xizmat qiladi. Nasriy bayon voqealar rivojini mantiqiy izchillikda ifodalasa, she’riy parchalar mazmunni umumlashtirish va axloqiy g‘oyalarni kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Asar turkiy adabiyotda diniy-didaktik janr taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. “Qisasi Rabg‘uziy” xalq ma’naviyatini boyitish, axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilish va badiiy tafakkurni rivojlantirishda muhim manba hisoblanadi. Mazkur asar o‘zining badiiy-funksional xususiyatlari bilan nafaqat o‘tmish adabiy merosining yorqin namunasi, balki hozirgi adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun ham qimmatli manba bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
2. Nosiriddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. Toshkent: Sharq, 1990.
3. H. Boltaboyev. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2011.
4. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1-jild. Toshkent, 1977.
5. S. Dolimov. Mumtoz adabiyot masalalari. Toshkent, 1985.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Isamuxamedova Munisxon Najmitdinovna
O‘zDJTU, Ingliz tili-3 fakulteti, amaliy fanlar №3 kafedrasi o‘qituvchisi
Email: munisxonisamuxamedova@gmail.com

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN ORGANIZING EFFECTIVE MANAGEMENT IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. *The article examines the role of digital technologies in ensuring effective management of educational institutions. Modern management models, the advantages of using information systems, and their impact on improving the quality of education are analyzed.*

Keywords: *education management, digital technologies, efficiency, management, innovation.*

Исамухамедова Мунишхан Наджмитдиновна
УзДЖТУ, факультет английского языка-3, преподаватель кафедры прикладных наук №3

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОРГАНИЗАЦИИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *В статье рассматривается роль цифровых технологий в обеспечении эффективного управления образовательными учреждениями. Анализируются современные модели управления, преимущества использования информационных систем и их влияние на повышение качества образования.*

Ключевые слова: *управление образованием, цифровые технологии, эффективность, менеджмент, инновации.*

Isamuxamedova Munisxon Najmitdinovna
O‘zDJTU, Ingliz tili-3 fakulteti, fanlar faoliyati №3 kafedrasi o‘qituvchisi

TA’LIM MUASSASALARINDA SAMARALI BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Annotatsiya. *Maqolada ta’lim muassasalarini samarali boshqarishni ta’minlashda raqamli texnologiyalarning roli ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy boshqaruv modellari, axborot tizimlaridan foydalanishning afzalliklari va ularning ta’lim sifatini oshirishga ta’siri tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ta’limni boshqarish, raqamli texnologiyalar, samaradorlik, boshqaruv, innovatsiya.*

Introduction

In the context of today’s globalization and digitalization, improving management processes in the education system is considered one of the most pressing issues. The effectiveness of management in educational institutions is closely linked not only to the quality of education, but also to the activities of the teaching staff, the rational use of resources, and strategic planning. Digital technologies enable the automation of management processes, the making of prompt decisions, and the strengthening of monitoring systems. Therefore, the introduction of modern technologies into educational management processes is of significant scientific and practical importance.

Main Part. 1. The Essence and Importance of the Management System in Educational Institutions

The management system in educational institutions includes the processes of planning, organizing, coordinating, monitoring, and analyzing the educational process. Effective management has a direct impact on the quality of education, the performance of teaching staff, and the level of students’ academic achievement. In modern conditions, educational management is not limited to administrative control alone, but also encompasses strategic planning, innovative approaches, and the development of human resources. The management activities of the head of an educational institution should be aimed at the continuous improvement of the pedagogical process. In this regard, transparency in management, adherence to democratic principles, and cooperation with the staff are of great importance.

2. Opportunities for Using Digital Technologies in Educational Management. Digital technologies make it possible to automate and optimize management processes in educational institutions. Electronic document management, information and management systems, electronic journals, and rating systems create a fast and accurate information base for administrators. In addition, digital platforms enable the monitoring of the educational process, the evaluation of teachers' performance, and the analysis of students' academic progress. This, in turn, contributes to making well-grounded and effective management decisions. Remote management and online communication tools further strengthen cooperation between administrators and teachers.

3. Modern Management Models and Their Role in the Education System. Today, a number of modern management models are being applied in educational management. These include strategic management, quality management, innovative management, and competency-based management models, which are widely implemented in educational institutions. Strategic management serves to define the long-term development goals of an educational institution, while quality management focuses on the continuous improvement of educational services. Innovative management enhances the effectiveness of education through the introduction of new ideas and technologies. The integration of these models ensures the competitiveness of educational institutions.

4. Management Competencies of the Head of an Educational Institution. The head of an educational institution must possess a high level of professional and managerial competencies. They should have skills in strategic thinking, team management, problem-solving, and decision-making. Digital literacy is also one of the essential requirements for a modern leader. The leadership abilities of the head play an important role in directing the teaching staff toward a common goal, increasing motivation, and creating a healthy working environment. At the same time, the leader should continuously work on self-development and regularly analyze their management activities.

5. Impact of Digital Technologies on Decision-Making in Educational Management. One of the most significant advantages of digital technologies in educational management is their positive impact on decision-making processes. Data-driven management allows administrators to rely on real-time and accurate information rather than intuition or delayed reports. Learning Management Systems (LMS), Education Management Information Systems (EMIS), and institutional dashboards provide comprehensive data on student performance, teacher effectiveness, attendance, and resource utilization. Through data analytics and reporting tools, educational leaders can identify strengths, weaknesses, and emerging trends within their institutions. This supports evidence-based decision-making, strategic planning, and timely interventions, ultimately improving institutional performance and educational outcomes.

6. Digital Technologies and Quality Assurance in Education. Digital tools play a crucial role in ensuring and enhancing quality assurance in educational institutions. Online assessment systems, digital feedback mechanisms, and automated evaluation tools help monitor learning outcomes and teaching effectiveness more consistently and objectively. Moreover, digital platforms enable continuous quality monitoring through key performance indicators (KPIs). This allows administrators to evaluate institutional effectiveness, ensure compliance with national and international standards, and promote a culture of continuous improvement within the organization.

7. Challenges in Implementing Digital Management Systems. Despite their numerous benefits, the implementation of digital technologies in educational management faces several challenges. These include limited financial resources, insufficient digital infrastructure, and a lack of digital competencies among administrative and teaching staff. Resistance to change is another common obstacle, as some educators may be reluctant to adopt new technologies. Data security and privacy issues also pose serious concerns, especially when handling sensitive student and staff information. Addressing these challenges requires comprehensive training programs, clear digital policies, and strong institutional leadership.

8. Professional Development and Capacity Building of Educational Leaders. For digital transformation in educational management to be successful, continuous professional development of educational leaders is essential. Administrators must be trained not only in the technical use of digital tools but also in digital leadership, change management, and strategic innovation. Workshops, online courses, and international collaboration programs can help develop leaders' digital competencies. A digitally competent leader is better equipped to guide institutions through technological change, foster innovation, and ensure sustainable development.

9. The Role of Artificial Intelligence and Big Data in Educational Management. Artificial intelligence (AI) and big data are increasingly influencing educational management. AI-based systems can support predictive analytics, early identification of students at risk, automated scheduling, and resource optimization. Big data analytics enables institutions to analyze large volumes of educational data to improve planning, personalize learning pathways, and enhance institutional efficiency. The integration of AI and big data into educational management systems represents a major step toward smart and adaptive education systems.

10. Future Prospects of Digital Educational Management. The future of educational management lies in the further integration of advanced digital technologies. Smart campuses, cloud-based management systems, blockchain for credential management, and AI-driven decision-support tools are expected to become more widespread. In the long term, digital

educational management will contribute to greater transparency, accountability, and inclusiveness in education systems. Institutions that successfully adapt to digital transformation will be better positioned to meet global educational standards and respond to rapidly changing societal needs.

If you want, I can: integrate these sections **seamlessly into your existing paper**, adjust the length for a **course paper, bachelor's thesis, or master's thesis**, or rewrite it to meet **Scopus / Web of Science journal standards**.

Conclusion. In conclusion, organizing the management system of educational institutions on the basis of digital technologies is a requirement of the modern era. This process increases transparency, efficiency, and responsiveness in management. Moreover, developing the managerial competencies of leadership personnel and the rational use of modern information systems contribute significantly to improving the quality of education. In the future, the widespread implementation of innovative approaches in educational management will be of great importance.

References:

1. President of the Republic of Uzbekistan. Decrees and resolutions on the development of the education sector.
2. Bolamova, M. Fundamentals of Educational Management. – Tashkent, 2020.
3. Karimov, I.A. High Spirituality Is an Invincible Force. – Tashkent: Ma'naviyat, 2018.
4. Bush, T. Theories of Educational Leadership and Management. – London, 2019.
5. UNESCO. Digital Technologies in Education Management. – Paris, 2021.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Raimova Nigora Baxtiyar qizi
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktaranti

YOSHLAR IJTIMOIY GURUHIGA OID TIL BIRLIKLARINING BADIIY TARJIMADA IFODALANISHI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada yoshlar ijtimoiy guruhiga xos til birliklarining (sleng, jargon, argotizm, neologizm, qisqartmalar, metaforik birliklar va diskursiv markerlar) badiiy tarjimada ifodalanish muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sotsiolingvistika va tarjimashunoslik nazariyalari asosida yoshlar nutqining lingvistik xususiyatlari yoritiladi hamda ularni tarjima qilishda ekvivalentlik, funksional moslik va pragmatik adekvatlik masalalari ko'rib chiqiladi. Mashhur tarjimashunos olimlarning nazariyalari – ekvivalentlik konsepsiyasi, dinamik moslik, kommunikativ tarjima, domestikatsiya va foreynizatsiya strategiyalari asosida yoshlar tilining tarjimada qay darajada saqlanishi yoki moslashtirilishi tahlil etiladi. Maqolada aniq lingvistik faktlar va misollar asosida yoshlar nutqiga xos birliklarni badiiy matnda qayta yaratish usullari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari yoshlar submadaniyatiga oid til birliklarini tarjima qilishda funksional-pragmatik yondashuv ustuvor bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar. *yoshlar tili, sleng, jargon, argotizm, badiiy tarjima, ekvivalentlik, pragmatik moslik, sotsiolingvistika, tarjima strategiyalari, submadaniyat.*

Raimova Nigora Bakhtiyar qizi
Tashkent State Transport University basic doctoral student

EXPRESSION OF LANGUAGE UNITS RELATING TO THE YOUTH SOCIAL GROUP IN ARTISTIC TRANSLATION

Annotation. *This scientific article analyzes the problems of expression of language units specific to the youth social group (slang, jargon, argotism, neologism, abbreviations, metaphorical units and discursive markers) in artistic translation. The study highlights the linguistic features of youth speech based on the theories of sociolinguistics and translation studies and considers the issues of equivalence, functional compatibility and pragmatic adequacy in their translation. The extent to which youth language is preserved or adapted in translation is analyzed based on the theories of famous translation scholars - the concept of equivalence, dynamic compatibility, communicative translation, domestication and foreignization strategies. The article shows methods for recreating units specific to youth speech in artistic texts based on specific linguistic facts and examples. The results of the study show that a functional-pragmatic approach should be a priority in translating language units related to the youth subculture.*

Keywords. *youth language, slang, jargon, argotism, literary translation, equivalence, pragmatic compatibility, sociolinguistics, translation strategies, subculture.*

Раимова Нигора Бахтияр кызы
Ташкентский государственный университет путей сообщения, базовый докторант

ВЫРАЖЕНИЕ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ, ОТНОСЯЩИХСЯ К МОЛОДЕЖНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ГРУППЕ, В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. *В данной научной статье анализируются проблемы выражения языковых единиц, специфичных для молодежной социальной группы (сленг, жаргон, арготизм, неологизм, сокращения, метафорические единицы и дискурсивные маркеры) в художественном переводе. В исследовании освещаются лингвистические особенности молодежной речи на основе теорий социолингвистики и переводоведения, а также рассматриваются вопросы эквивалентности, функциональной совместимости и прагматической адекватности их перевода. Степень сохранения или адаптации молодежного языка в переводе анализируется на основе теорий известных исследователей перевода – концепции эквивалентности, динамической совместимости, коммуникативного перевода, стратегий одомашнивания и форенизации. В статье представлены методы воссоздания единиц, специфичных для молодежной речи, в художественных текстах на основе конкретных лингвистических фактов и примеров. Результаты исследования показывают, что функционально-прагматический подход должен быть приоритетным при переводе языковых единиц, связанных с молодежной субкультурой.*

Ключевые слова: *молодежный язык, сленг, жаргон, арготизм, литературный перевод, эквивалентность, прагматическая совместимость, социолингвистика, стратегии перевода, субкультура.*

Kirish.

Til jamiyat hayotining ijtimoiy ko‘zgusidir. Har bir ijtimoiy qatlam, ayniqsa yoshlar guruhi o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega. Yoshlar nutqi tez o‘zgaruvchanligi, ekspressivligi, yangilikka moyilligi va submadaniy belgilarni aks ettirishi bilan ajralib turadi. Globallashuv jarayonida yoshlar tili transmilliy xarakter kasb etib, internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat ta’sirida yangi birliklar bilan boyib bormoqda. Badiiy asarlarda yoshlar nutqining qo‘llanishi qahramon xarakterini ochishda muhim stilistik vosita hisoblanadi. Shuning uchun yoshlar tiliga xos birliklarni boshqa tilga tarjima qilish murakkab lingvistik va madaniy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolaning maqsadi yoshlar ijtimoiy guruhiga oid til birliklarining badiiy tarjimada ifodalanish mexanizmlarini ilmiy-nazariy asosda yoritishdir. I. Yoshlar tilining sotsiolingvistik xususiyatlari Sotsiolingvist U. Labov ijtimoiy guruh va til o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asoslab, nutq variantlari jamiyatdagi ijtimoiy farqlarni aks ettirishini ta’kidlaydi. Yoshlar nutqi aynan ijtimoiy identifikatsiya vositasi sifatida shakllanadi. Yoshlar tilining asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: Sleng birliklar – emotsional-ekspressiv ma’noga ega bo‘lgan, adabiy til me’yoridan chetga chiqqan birliklar. Masalan: cool, dude, lit, chill. Jargon birliklar – muayyan ijtimoiy guruhga xos so‘zlar. Masalan, IT yoshlar orasida: bug, hack, crash. Qisqartmalar va akronimlar – OMG, BTW, LOL kabi birliklar. Neologizmlar – yangi tushunchalarni ifodalovchi birliklar. Metaforik va kinoyaviy birliklar – yoshlar nutqida kinoya va istehzo yuqori darajada bo‘ladi. Tilshunos E. Partrij slengni “tilning doimiy yangilanish mexanizmi” deb ataydi. Yoshlar tili aynan mana shu yangilanish jarayonining faol qatlamidir. II. Badiiy tarjimada ekvivalentlik muammosi Tarjimashunoslik nazariyasida ekvivalentlik tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. R. Jakobson tarjimani “belgilar tizimini boshqa belgilar tizimi orqali talqin qilish” deb izohlaydi. Biroq yoshlar tilida to‘liq leksik ekvivalent topish ko‘pincha mushkul.

E. Nayda dinamik ekvivalentlik nazariyasida tarjimaning asosiy vazifasi o‘quvchida manba matndagi kabi ta’sir uyg‘otish ekanini ta’kidlaydi. Yoshlar slengini tarjima qilishda aynan shu yondashuv samaraliroq hisoblanadi. Masalan: Ingliz tilida: — That party was lit! So‘zma-so‘z tarjima: — O‘sha kecha yongan edi. (ma’nosiz) Funksional tarjima: — O‘sha kecha zo‘r o‘tdi! — Kecha rosa gap bo‘ldi! Bu yerda “lit” so‘zining lug‘aviy ma’nosi emas, balki emotsional-ekspressiv funksiyasi muhimdir. III. Domestikatsiya va foreynizatsiya strategiyalari L. Venuti tarjimada ikki asosiy strategiyani ko‘rsatadi: Domestikatsiya – matnni qabul qiluvchi madaniyatga moslashtirish. Foreynizatsiya – manba madaniyat elementlarini saqlab qolish. Yoshlar tilini tarjima qilishda domestikatsiya ko‘proq qo‘llanadi, chunki sleng birliklar milliy mentalitet bilan chambarchas bog‘liq. Masalan: dude → og‘ayni / jo‘ra bro → aka / bratan Agar “bro” so‘zi o‘zbek matnida o‘zgartirilmay qoldirilsa, bu foreynizatsiya bo‘ladi, lekin o‘quvchi uchun begonalik hissini kuchaytirishi mumkin. IV. Pragmatik moslik va stilistik adekvatlik M. Beyker tarjimada pragmatik ma’no uzatilishini asosiy omil sifatida ko‘rsatadi. Yoshlar nutqi ko‘pincha kinoya, hazil, ironiyaga asoslanadi. Agar tarjimada bu stilistik qatlam yo‘qolsa, qahramon xarakteri ham buziladi. Masalan: — You gotta be kidding me! Variantlar: — Hazillashyapsanmi? — Rostdan ham shunaqami? — Bo‘lishi mumkin emas!

Har bir variant turli darajadagi emotsional kuchga ega. Shuning uchun tarjimon kontekstga tayangan holda tanlov qiladi. V. Yoshlar submadaniyati va tarjima Yoshlar tilining muhim xususiyati – submadaniyat bilan bog‘liqligidir (hip-hop, gamer, anime, street culture va boshqalar). Bunday birliklar ko‘pincha realiyalarni o‘z ichiga oladi. Masalan: gamer slang: noob, pro, camper rap culture: diss, freestyle, flow Bunday birliklarni tarjima qilishda uch yo‘l mavjud: Transliteratsiya (noob – nub) Tavsifiy tarjima (tajribasiz o‘yinchi) Funksional ekvivalent (hali pishmagan o‘yinchi) Har bir strategiya kontekstga qarab tanlanadi. VI. Tarjima jarayonida yo‘qotish va kompensatsiya Tarjimada ba’zan slengning to‘liq ekvivalenti topilmaydi. Bunday holatda kompensatsiya usuli qo‘llanadi. Ya’ni bir joyda yo‘qotilgan ekspressivlik boshqa joyda kuchaytiriladi. Masalan, ingliz tilidagi qisqa va keskin replikalar o‘zbek tilida qo‘shimcha so‘zlar bilan ifodalanishi mumkin, ammo umumiy stilistik ohang saqlanishi kerak. VII. Yoshlar tilining zamonaviy transformatsiyasi Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar nutqiga global xarakter berdi. Emoji, mem, hashtag kabi birliklar badiiy matnga ham kirib kelmoqda. Tarjimada bunday birliklar grafostilistik vosita sifatida ko‘riladi. Masalan: LOL → kulgi ifodasi sifatida izoh bilan berilishi mumkin yoki kontekstga ko‘ra “kulib yubordi” tarzida ifodalanadi. VIII. Ilmiy xulosalar Yoshlar til birliklari sotsiolingvistik jihatdan ijtimoiy identifikatsiya vositasi hisoblanadi. Badiiy tarjimada ularni lug‘aviy emas, funksional-pragmatik yondashuv asosida tarjima qilish samaraliroq. Dinamik ekvivalentlik nazariyasi yoshlar slengini tarjima qilishda eng maqbul metodlardan biridir. Domestikatsiya strategiyasi ko‘proq natija beradi, biroq ayrim hollarda foreynizatsiya usuli ham stilistik maqsadda qo‘llanilishi mumkin.

Tarjimada asosiy maqsad – qahramon nutqining ijtimoiy va psixologik xarakterini saqlab qolishdir.

Umumiy xulosa Yoshlar ijtimoiy guruhiga oid til birliklari doimiy ravishda yangilanib boruvchi, ekspressiv va madaniy jihatdan belgilangan qatlamdir. Ularni badiiy tarjimada adekvat ifodalash tarjimondan nafaqat til bilimini, balki

sotsiomadaniy kompetensiyani ham talab qiladi. Tarjimada ekvivalentlikni saqlash har doim ham to‘liq amalga oshmaydi, ammo funksional va pragmatik moslikni ta’minlash orqali asarning stilistik yaxlitligi saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nida, E. A. Toward a Science of Translating. Leiden: Brill, 1964.
2. Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988.
3. Venuti, L. The Translator’s Invisibility. London: Routledge, 1995.
4. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 1992.
5. Jakobson, R. “On Linguistic Aspects of Translation.” 1959.
6. Labov, W. Sociolinguistic Patterns. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
7. Partridge, E. Slang Today and Yesterday. London: Routledge, 1933.
8. Halliday, M. A. K. Language as Social Semiotic. London: Arnold, 1978.
9. Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press, 1965.
10. Bassnett, S. Translation Studies. London: Routledge, 2002.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

G.K.Soatova
Katta o'qituvchi, O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Toshkent

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “DO‘STLIK” KONSEPTINING KONSEPTUAL METAFORALAR ORQALI IFODALANISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida “do‘stlik” konseptining konseptual metaforalar orqali ifodalanishi kognitiv-semantik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot konseptual metafora nazariyasiga (Lakoff & Johnson, 1980) tayangan holda do‘stlikning metaforik modellarini aniqlash va ularning madaniy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganishni maqsad qiladi. Tahlil jarayonida ingliz va o‘zbek tillaridagi paremiologik birliklar va barqaror metaforik ifodalar o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *do‘stlik konsepti, konseptual metafora, kognitiv semantika, paremiologiya, ingliz tili, o‘zbek tili, madaniyatlararo tahlil*

Г.К. Соатова
Старший преподаватель, Государственный университет иностранных языков Узбекистана, Ташкент

ВЫРАВНИВАНИЕ ПОНЯТИЯ «ДРУЖБА» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКИСТАНСКОМ ЯЗЫКАХ ПОСРЕДСТВОМ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ МЕТАФОРОВ

Аннотация. *В данной статье на основе когнитивно-семантического подхода анализируется выражение концепта «дружба» через концептуальные метафоры в английском и узбекском языках. Исследование опирается на теорию концептуальной метафоры (Lakoff & Johnson, 1980) и ставит целью выявление метафорических моделей дружбы и их сравнительное изучение с учётом культурных особенностей. В ходе анализа были рассмотрены паремиологические единицы и устойчивые метафорические выражения в английском и узбекском языках.*

Ключевые слова: *концепт дружбы, концептуальная метафора, когнитивная семантика, паремиология, английский язык, узбекский язык, межкультурный анализ.*

G.K.Soatova
Senior teacher, Uzbekistan State World Languages University, Tashkent

EXPRESSION OF THE CONCEPT OF “FRIENDSHIP” IN ENGLISH AND UZBEKISTAN THROUGH CONCEPTUAL METAPHORS

Abstract. *This article examines the conceptualization of the concept of friendship in English and Uzbek through conceptual metaphors from a cognitive-semantic perspective. Drawing on Conceptual Metaphor Theory (Lakoff & Johnson, 1980), the study aims to identify dominant metaphorical models of friendship and to compare their cultural and semantic characteristics in the two languages. The analysis is based on metaphorical expressions and paremiological units that reflect culturally embedded understandings of friendship.*

Keywords: *friendship concept, conceptual metaphor, cognitive semantics, paremiology, English language, Uzbek language, cross-cultural analysis*

Introduction

“Inson tafakkurida do‘stlik tushunchasi ijtimoiy munosabatlarning eng qadimiy va barqaror konseptlaridan biridir” (Kövecses, 2010). Do‘stlik shaxslararo ishonch, sadoqat va o‘zaro ko‘makka asoslangan ijtimoiy hodisa bo‘lib, u har bir madaniyatda o‘ziga xos qadriyatlar tizimi orqali talqin etiladi. Shu sababli do‘stlik haqidagi tasavvurlar til birliklarida bevosita emas, balki ko‘pincha metaforik ifodalar orqali namoyon bo‘ladi. (Soatova, 2025).

Konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, metafora faqat badiiy tasvir vositasi emas, balki inson tafakkurining asosiy kognitiv mexanizmlaridan biridir. Lakoff va Johnson (1980) ta’kidlaganidek, inson abstrakt tushunchalarni jismoniy va

kundalik tajribaga asoslangan konseptual sohalar orqali anglaydi. Shu nuqtai nazardan, “do‘stlik” kabi mavhum tushuncha ham turli konseptual metaforalar yordamida idrok qilinadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida “do‘stlik” konseptining metaforik ifodalanish xususiyatlarini aniqlash, umumiy kognitiv asoslarni hamda milliy-madaniy tafovutlarni qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Methods

Mazkur tadqiqot kognitiv-semantik yondashuv asosida olib borildi. Ushbu yondashuv til birliklarini inson tafakkuri, idrok jarayonlari va konseptual tizim bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilishga imkon beradi. Kognitiv lingvistika doirasida til nafaqat aloqa vositasi, balki insonning borliqni qanday tasavvur qilishi va tushunishini aks ettiruvchi kognitiv mexanizm sifatida talqin etiladi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida konseptual metafora nazariyasi (Conceptual Metaphor Theory) qabul qilindi. Ushbu nazariya ilk bor G. Lakoff va M. Johnson tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra metafora faqatgina badiiy-uslubiy vosita emas, balki inson tafakkurining fundamental mexanizmi hisoblanadi. Olimlarning ta’kidlashicha, “metaforalar bizning kundalik tafakkurimiz, harakatlarimiz va tilimizni tizimli ravishda shakllantiradi” (Lakoff & Johnson, 1980, p. 3). Demak, abstrakt tushunchalar, jumladan, *do‘stlik* konsepti ham ko‘pincha aniq va sezgi orqali idrok etiladigan tajribalar asosida metaforik yo‘l bilan tushuniladi.

Shuningdek, tadqiqotda Z. Kövecses tomonidan rivojlantirilgan zamonaviy kognitiv-metaforik yondashuvdan ham foydalanildi. Kövecses metaforalarning madaniy xususiyatini alohida ta’kidlab, ularning shakllanishida ijtimoiy tajriba, tarixiy omillar va milliy dunyoqarash muhim rol o‘ynashini qayd etadi. Uning fikricha, “konseptual metaforalar universal bo‘lishi mumkin, biroq ularning til orqali ifodalanishi madaniy jihatdan farqlanadi” (Kövecses, 2010, p. 197).

Tahlil materiali sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi do‘stlikka oid paremiologik birliklar, barqaror iboralar hamda keng qo‘llaniladigan metaforik ifodalar tanlab olindi. Ushbu birliklar milliy til manbalari, frazeologik va paremiologik lug‘atlar, badiiy asarlar hamda ommaviy nutq namunalaridan yig‘ildi. Paremiologik birliklar tanlanishining sababi shundaki, ular xalqning ko‘p asrlik tajribasi, qadriyatlari va axloqiy me’yorlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Tahlil jarayonida quyidagi metod va bosqichlar izchil qo‘llanildi:

- **do‘stlik konseptini ifodalovchi asosiy metaforik modellarning aniqlanishi**;
- aniqlangan metaforik modellarining semantik yo‘nalishi, ularning ijobiy yoki baholovchi xarakteri hamda kognitiv motivatsiyasini tavsiflash;
- ingliz va o‘zbek tillaridagi do‘stlik konseptining metaforik ifodalanishida mavjud umumiylik va farqlarni qiyosiy tahlil qilish, bunda universallik va milliy-madaniy xususiyatlar aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

Natijada, tadqiqot do‘stlik konseptining metaforik modellar orqali ifodalanishi har ikki tilda ham insoniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq ekanini, biroq ularning til va madaniyatga xos tarzda konseptualizatsiya qilinishini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Results

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek tillarida “do‘stlik” konsepti bir qator o‘xshash konseptual metaforalar orqali ifodalanadi. Jumladan, quyidagi metaforik modellarning faol ishlatilishi aniqlandi:

1.**DO‘STLIK—YO‘L**

Ingliz tilida “Friendship is a journey” kabi ifodalar do‘stlikni vaqt o‘tishi bilan rivojlanadigan jarayon sifatida tasvirlaydi. Bu metafora do‘stlikning boshlanishi, davomiyligi va sinovlari bo‘lgan munosabat sifatida konseptualizatsiya qiladi (Lakoff & Johnson, 1980).

2.**DO‘STLIK—HIMOYA/PANOH**

“True friends are shelter in storms” kabi inglizcha ifodalar hamda o‘zbek tilidagi “Do‘st do‘stga — qalqon” maqoli do‘stlikni xavf va qiyinchilik paytida himoya qiluvchi kuch sifatida anglatadi (Kövecses, 2010; Toirova, 2021).

3.**DO‘STLIK—QIMMATLI NARSA (XAZINA)**

O‘zbek tilidagi “Yaxshi do‘st — oltindan qimmat” maqoli do‘stlikni moddiy boylikdan ustun qo‘yiladigan ma’naviy qadriyat sifatida ifodalaydi (Toirova, 2021).

4.**DO‘STLIK—SINOVDAN O‘TUVCHI QADRIYAT**

“A friend in need is a friend indeed” va “Do‘st kulfatda bilinadi” birliklari do‘stlikning haqiqiyligi faqat qiyinchilikda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Discussion

Olingan natijalar konseptual metaforalarning bir qismi universal kognitiv tajribaga tayanishini tasdiqlaydi. Har ikki tilda ham do‘stlik sinov, yordam va himoya bilan bog‘liq holda konseptualizatsiya qilinadi. Bu holat do‘stlikning insoniyat uchun umumiy ijtimoiy ehtiyoj ekanligini ko‘rsatadi (Lakoff & Johnson, 1980).

Shu bilan birga, metaforalarning madaniy “profil”ida sezilarli farqlar mavjud. Kövecses (2010) ta’kidlaganidek, bir xil metafora turli madaniyatlarda turlicha urg‘u bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Ingliz tilida do‘stlik ko‘proq individual

tajriba va munosabatlarning dinamik jarayoni sifatida tasvirlansa, o‘zbek tilida u axloqiy-me’yoriy va jamoaviy qadriyat sifatida talqin etiladi (Toirova, 2021).

Bu farq paremiologik birliklarning baholovchi komponentida yaqqol namoyon bo‘ladi: o‘zbek maqollarida do‘stlik sadoqat, fidoyilik va ma’naviy burch bilan chambarchas bog‘lanadi.

Conclusion

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, “do‘stlik” konsepti ingliz va o‘zbek tillarida asosan metaforik yo‘l bilan konseptualizatsiya qilinadi. Har ikki tilda do‘stlikni yo‘l, himoya va qadriyat sifatida anglash umumiy kognitiv asosga ega bo‘lsa-da, ularning madaniy talqini farqlanadi. Ingliz tilida do‘stlik ko‘proq shaxsiy tajriba va munosabatlar dinamikasi bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilida u ma’naviy-axloqiy mezonlar asosida talqin qilinadi.

Konseptual metafora nazariyasi madaniyatlararo semantik tahlil uchun samarali vosita bo‘lib, do‘stlik kabi abstrakt konseptlarning til va tafakkurdagi o‘rnini chuqurroq anglash imkonini beradi (Lakoff & Johnson, 1980; Kövecses, 2010).

References

1. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction* (2nd ed.). Oxford University Press.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
3. Toirova, D. (2021). *O‘zbek tilida metaforik ifodalarning madaniy mazmuni*. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
4. Qodiriy, A. (1926/2020). *O‘tkan kunlar*. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.
5. Soatova G.K. (2025). *Proverbs and Idioms of Friendship: A Linguocultural Comparison Between English and Uzbek.* Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi.
6. Hoshimov, U. (1985). *Ikki eshik orasi*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.
7. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
8. Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive Linguistics: An Introduction*. Edinburgh: Edinburgh University Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Ibragimova Fazilat Erkinovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jizzax davlat pedagogika universiteti BTNM kafedrasi mudiri

SINTAKTIK BIRLIKLAR BADIIYATI VA LINGVOPOETIKASINING DUNYO FILOLOGIYASIDA O‘RGANILISHI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tilshunoslikning nisbatan yangi yo‘nalishi – lingvopoetika masalalari dunyo tilshunoslarining fikrlari asosida tahlil qilingan, ularning fikrlari o‘rganilgan, xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, lingvostilistika, lingvopoetik tahlil metodi, badiiy matn, til uchligi.*

Ибрагимова Фазилат Эркиновна
Кандидат филологических наук, доцент
Заведующая кафедрой БТНМ Джизакского государственного педагогического университета

ИЗУЧЕНИЕ СИНТАКТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ИСКУССТВА ЛИНГВУПОЭТИКИ В МИРОВОЙ ФИЛОЛОГИИ

Аннотация: *В данной статье на основе взглядов ведущих лингвистов мира анализируются вопросы лингвопоэтики — сравнительно нового направления в языкознании. Рассматриваются их научные позиции и формулируются соответствующие выводы.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, лингвостилистика, метод лингвопоэтического анализа, художественный текст, языковая триада.*

Ibragimova Fazilat Erkinovna
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Head of the Department of BTNM, Jizzakh State Pedagogical University

STUDY OF SYNTACTIC UNITS ART AND LINGUPOETICS IN WORLD PHILOLOGY

Annotation: *In this article, the issues of linguopoetics, a relatively new field in linguistics, are analyzed on the basis of the views of scholars from around the world. Their opinions are examined, and relevant conclusions are drawn.*

Keywords: *linguopoetics, linguostylistics, linguopoetic analysis method, literary text, linguistic triad.*

Kirish

Tabiiyki, lingvopoetikaning asosiy o‘rganish obyekti badiiy matn hisoblanadi. Badiiy matnni nutqning turli ko‘rinishlariga xos bo‘lgan boshqa matnlar bilan taqqoslaganda, uning o‘ziga xos xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Sir emaski, badiiy matn estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlam hodisa. Badiiy matnda ifodalangan asosiy g‘oya – fikr – mazmunni tushunish, anglash shunchaki emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o‘ziga xos, goho ochiq, goho yashirin, turli ishoralar, tagma’nolar, kosa tagidagi nimkosalar bilan shamoyil topgan mazmunning ma’nosini to‘g‘ri anglash ma’naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo‘ladi. Har qanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini bilish zarur va yetarli bo‘lsa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun, bundan tashqari, ayni paytda badiiy matnning o‘ziga xos lisoniy–poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo‘ladi” [6] Aytish lozimki, lingvopoetik tahlil matn doirasida ish ko‘radi. Lingvopoetika – “filologiyaning bo‘limiga qarashli bo‘lib, badiiy matnda qo‘llangan, markirlangan til birliklarning stilistik jihatdan vazifasi va g‘oyaviy-badiiy mazmunni ochish va estetik effektni yaratish” [8:18] hisoblanadi.

M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida lingvopoetika oxirgi 30 yil davomida professor O.S.Axmanova, professor V.Y.Zadornova, professor A.A.Lipgart tomonidan o‘rganilgan, shu bilan birga filologik an’analarni yaratgan akademik V.V.Vinogradov, Parij lingvistik to‘garagi a’zolari, professor A.I.Smirniskiy, professor Rene

Uellek va boshqa taniqli olimlar tomonidan taqiqotlar olib borilgan. **Lingvopoetikani badiiy matnlar tadqiqida bir-biriga zid bo‘lgan qarashlarning sintezi sifatida ko‘rish mumkin.**

Lingvopragmatika mladogrammatiklarning tadqiqotlariga ko‘ra va antimladogrammatiklarning amaliy-orientir (yo‘nalishni ko‘rsatuvchi belgi) pozitsiyasi asosida o‘zida mantiqiylik va aniqlikni jamlaydi K.Fossler va L.V.Sherbaning ba’zi asarlarida obyektiv-tarixiy aspektda tadqiq qilingan.

Lingvopoetik tahlil asosida “matnning bir vaqtda formal va mazmuniy tomoni” ko‘riladi. Bir qarashda badiiy matnning bunday tahlili ba’zi zidliklarni o‘z ichiga oladi, chunki doim ham shakl va mazmun simmetrik bo‘lmaydi. Fan “tadqiqot yo‘nalishlari zid bo‘lgan tiplarni” tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi va aynan shunday tadqiqot matnning badiiy qimmatini ochishga yordam beradi.

Badiiy ijod mahsuli bo‘lgan matnni to‘liq o‘rganish lingvostilistik tadqiqotlar chegarasini belgilash va rivojlantirish talabi bilan bog‘liq. Buning uchun badiiy nutqning asosiy masalalari va metodlarni aniqlash zaruriyati kelib chiqadi.

Lingvopoetik tahlil metodologiyasi va uni lingvostilistik tahlil bilan qiyoslash V.Y.Zadornovaning doktorlik dissertatsiyasida mufassal yoritilgan .V.Tomashevskiy va V.V.Vinogradov, L.V.Sherbalarning filologiya bo‘yicha tadqiqotlari natijasida badiiy asarlarning turli xil ekanligini “lingvopoetik tahlil metodining yagona” shaklini aniqlashga to‘sqinlik qiladi degan xulosaga kelish mumkin [4:70]. V.Y.Zadornova tadqiqotlariga ko‘ra lingvostilistika va lingvopoetikaning quyidagi farqlarini ajratishimiz mumkin [4:109]

Birinchidan, lingvostilistika turli-tuman nutq janrlarining hammasiga taalluqli bo‘lsa, lingvopoetika esa inson nutqining faqat badiiy adabiyot asarlariga tegishlidir.

Ikkinchidan, lingvostilistik tahlil matnning alohida stilistik xususiyatlarini aniqlash bilan shug‘ullanadi va aniq bir til materiallaridan tuzilgan matnning evristik usullarning yig‘indisidir. Til vositalariga bunday yondashuv lingvopoetika tadqiqotlari uchun yetarli emas, u badiiy asarlarning emotsional-estetik ta’sirini o‘rganishi kerak.

Uchinchidan, matn fragmentlari bo‘laklariga munosabat boshqa-boshqa bo‘ladi. Lingvostilistik tahlilni “matnning har qanday qismiga amaliy jihatdan qo‘llash mumkin” bo‘ladi. Lingvopoetik tadqiqot uchun bunday tasdiq tegishli emas, “tahlil global bo‘lishi kerak, fragment materiallarga emas, matnlar korpusi tahlili yetarli hajmda bo‘lmasa faktlarning taksonomatik haqiqatiga shubha bo‘lishi mumkin”

Lingvopoetik tadqiqot uchun muallifning g‘oyaviy fikrini tushunishi, uning ijodi bilan tanishgan bo‘lishi, badiiy tafakkur uslubi va obrazlar sistemasi: “lingvopoetik tahlilni asarni to‘liq o‘qib, tushunib bo‘lgandan keyingina boshlash mumkin”

Lingvopoetik tahlildan oldin lingvostilistik tahlil o‘tkazilishi kerak, bu holat tadqiqotchini matnning lingvopoetik interpretatsiyasi zarur yoki zarurmasligini aniqlashga yordam beradi. Ko‘rinadiki, lingvopoetik va lingvostilistik tahlil bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiradigan jarayonlaridir.

Lingvostilistik tahlil qilishni har bir boshlang‘ich filologlarga o‘rgatish mumkin. Lingvopoetik tahlil esa tadqiqotchidan alohida mutaxassislik tayyorgarligini talab qiladi. Lingvopoetik tahlil uchun yana matnning tarixiy-madaniy, lingvostilistik va boshqa bilimlar haqida ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Filolog matnni to‘liq his qilishi kerak va uni “so‘z san’atining betakror namunasi” sifatida tushunishi kerak.

Asosiy tadqiqot ishlari badiiy asar tilini o‘rganishga bag‘ishlangan G.O.Vinokur tilshunoslikda tilning kommunikativ va ekspressiv vazifalari farqlana boshlaganini ta’kidlar ekan, fikrining dalili sifatida olmon tilshunosi fon der Gabelensning 1891-yilda nashr etilgan kitobidagi quyidagi qarashini keltiradi:

“Til fikrning bo‘laklarga bo‘lingan holdagi ifodasi, fikr esa tushunchalarning bog‘lanishidir. Lekin inson tili faqat bog‘lanayotgan tushunchalar va ularning mantiqiy munosabatlarinigina emas, balki so‘zlovchining o‘z fikriga munosabatini ham ifodalashni istaydi; men faqat nimanidir aytishnigina emas, balki o‘zimni ham ifodalashni xohlayman va shu tarzda mantiqiy omilga uni har jihatdan to‘yintirgan holda psixologik omil qo‘shiladi” [3].

Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to‘rt-besh vazifasi qayd etiladi. Masalan, V.A.Avrorin tilning kommunikativ (aloqa quroli, vositasi), ekspressiv (fikrlarni ifodalash), konstruktiv (fikrlarni shakllantirish), akkumulyativ (ijtimoiy tajriba va bilimlarni to‘plash, saqlash) vazifalarini farqlash lozimligini ta’kidlaydi [1].

Lingvopoetika tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda tilning ayni “ekspressiv vazifasi” atamasi faol ishlatiladi. Haqiqatdan ham, estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o‘z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Shuni ta’kidlash lozimki, dunyo tilshunosligi tarixida ayrim olimlar tilning estetik vazifasini keragidan ortiq absolyutlashtirib talqin etishgan. Masalan, italyan faylasufi va siyosat arbobi Benedetto Kroche 1902- yilda nashr ettirgan, 1920-yilda rus tilida bosilib chiqqan “Эстетика как наука о выражении и как общая лингвистика” nomli asarida tilshunoslikni estetika bilan aynan tenglashtirgan. B. Kroche g‘oyalarini davom ettirgan nemis filologi Karl Fossler esa so‘z va gapning estetik bo‘yog‘i betakrorligiga va ayni shu bo‘yoqning tilda yetakchi vazifani bajarishiga ishongan. Ammo estetik vazifani asosiy vazifa deb, ya’ni tilni tamomila estetik mohiyat sifatida talqin etish noto‘ri yondashishdir. Praga lingvistik to‘garagi a’zolari tomonidan tilni vazifalariga ko‘ra farqlash konsepsiyasi ishlab chiqilgan. “Praga lingvistik to‘garagi tezislari”da birinchi marta til vazifalari bilan ularning reallashish shakllari o‘rtasidagi

aloqa yoritib berilgan. “Tezislar”da quyidagicha ta’rif beriladi: “Tilni o‘rganish har bir xususiy holatda tilning vazifalari va bu vazifalarning reallashish shakllarining xilma-xilligini qat’iy tarzda hisobga olishni taqozo etadi. Aks holda har qanday tilning, xoh sinxron, xoh diaxron bo‘lsin, tavsifi muqarrar ravishda yanglish va ma’lum darajada soxta bo‘lib qolaveradi”. Fikrni davom ettirib quyidagilarni ta’kidlashgan: “Nutqiy faoliyat ijtimoiy rol bajarar ekan, u g‘ayrilisoniy borliq bilan aloqasiga ko‘ra farqlanadi. Bunda nutqiy faoliyat yo aloqa-aralashuv vazifasiga ega bo‘ladi, ya’ni ifodalanmishga yo‘naltirilgan bo‘ladi, yoki poetik vazifaga ega bo‘ladi, ya’ni belgining o‘ziga yo‘naltirilgan bo‘ladi” [9]

Haqiqatda, til tavsifida ana shu reallashish, ifodalanish shakllarini hisobga olish zarurdir. Ammo tilning u yoki bu vazifasi mustaqil holda reallashadi deyish noto‘g‘ri xulosaga olib keladi. Kommunikativ (aloqa-aralashuv) vazifa tilning vazifalari orasida eng markaziy, yetakchi vazifa ekanligini isbotlab o‘tirishning hojati yo‘q.

A.A.Lipgart o‘zining doktorlik dissertatsiyasida shu mavzudagi Rossiya va xorijda qilingan tadqiqotlarni ikki tendensiyaga ajratadi:

1. Struktur-semiotik yo‘nalish (statistik metod va informatsiya nazariyasiga asoslanadi).
2. Filologik yo‘nalish (adabiyotning funksional-stilistik turli-tumanligiga e’tibor qaratiladi).

“Statistik metod va informatsiya nazariyasiga asoslangan struktur-semiotik yo‘nalish”ning namoyondalari R.O.Yakobson, A.Greymas, R.Bart, S.Levin, M.Riffater, Y.M.Lotman va boshqalar. Filologogik yo‘nalish bo‘yicha V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, L.V.Sherba, B.V.Tomashevskiy, A.M.Peshkov, O.S.Axmanova, P.A.Budagov kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borgan.


Yuqoridagilarga qarab lingvostilistik tahlil didaktik nuqtayi nazardan tushunarliroq ekanligi haqida xulosaga kelishimiz mumkin. **L**ingvopoetik tahlilga turli metodologik yondashuvlar mavjud. Ulardan asosiysi ikkita bo‘lib, ularga doir asarlar yuzasidan quyidagilarni aniqlash mumkin:

Filologiya bo‘limi badiiy matnlarda markirlangan til birliklarining ishlatilishini, asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishdagi funksiyasi, estetik effekt yaratishdagi o‘rni kabi masalalarni o‘rgangan Lingvopoetika predmeti filologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, u badiiy asarda ishlatilgan badiiy vositalar va ular yordamida yozuvchining o‘ylab qo‘yilgan g‘oyaviy-badiiy niyatiga erishish uchun estetik ta’sirni ta’minlaydi.

Birinchi yo‘nalish bilan ikkinchi yo‘nalishning farqi shundaki, birinchi yo‘nalishda faqat markirlangan til birliklariga e’tibor qaratiladi. Boshqacha aytganda, adabiyotning funksional-stilistik turli-tumanligiga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, lingvopoetik tahlilni qilish uchun matnning ta’sir funksiyasiga tegishli ekanligi isbotlanishi kerak, mavjud bo‘lgan til birliklarining “katta miqdordagi matnlarda muntazam qatnashishini aniqlash darkor” V.Y.Zadornova birinchi bo‘lib “lingvopoetik ma’no” va “lingvopoetik funksiya” terminlarining ma’no jihatdan farqlari ko‘rsatib berdi.

Ma’lumki, tilning turli funksiyalarini o‘rganishga doir ko‘pgina yo‘nalishlari mavjud. V.V.Vinogradovning taklifiga ko‘ra lingvopoetika doirasida asos bo‘lib tilning quyidagi uchligi xizmat qiladi: 1.Muloqot jarayoni. 2.Ma’lumot berish. 3.Ta’sir o‘tkazish.

Buni quyidaga tasvirlash mumkin:



1-chizma.

Professor A.A.Lipgart funksional stilistika va lingvopoetika masalalariga bag‘ishlangan asarlarida ta’kidlaganiday, muloqot funksiyasini, ma’lumot berish va ta’sir o‘tkazishni farqlovchi metodologik uchlik boshqa yondashuvlardan kategorial tabiatga ega bo‘lib, buning natijasida belgilangan fenomenning mukammal tasvirini beradi.

Mantiqiy jihatdan ma’lum xususiyatning borligi yoki yoqligi, ba’zi qayd qilingan parametrlar, yuqori yoki past darajada ifodalangan u yoki bu xususiyat oppozitsiyalarni hosil qiladi, bu oppozitsiyalar belgilangan hodisani to‘liq ochishga yordan beradi.

Lingvistik fenomenda til uchligining biri reallashsa, qolgan ikkitasi bilan bog‘lanmaydi. Ya’ni muloqot jarayonida diskurs, ma’lumot jarayonida axborot, ta’sir qilish jarayonida emotsiya birinchi planga chiqadi. Bu esa “kategorial shakllar” haqida gapirilganda ushbu so‘zning to‘liq ma’nosida qo‘llanishini ko‘rish mumkin. Tasnif metodiga ko‘ra

kategorial metod tadqiqotchiga funksional uslub ichida variativlikni ajratishi mumkin. Har uchala funksiya orasida muloqot (kommunikativ) jarayoni oppozitsiyaning neytral a'zosi hisoblanadi, qolgan ikki funksiya (ma'lumot berish va ta'sir o'tkazish) odatda ma'lum sifatiy xususiyatning yuqori yoki past darajada reallashuvini ko'rsatadi. Bu funksiyalar teng holatda (teng yuqori yoki teng past darajada) yoki noteng biri yuqori ikkinchisi past darajada bo'lishi mumkin. Ya'ni biri qisqarishi, ikkinchisi lingvistik me'yorga nisbatan kengayishi mumkin.

Til birliklarining morfo-sintaktik va leksik-frazeologik umumiy qoidalariga ko'ra til me'yorlarini bildiradi. Bu til birliklari ma'lum tematik o'xshash bo'ladi va tez-tez ma'lum matnlarda qo'llanadi. "Matnda kollokatsiya 2 so'zli modeli va kollokatsiya 3 so'zli modellari buzilmagan, shu bilan tematik yoki semantik jihatdan stilistik differensiatsiyalar nuqtayi nazaridan og'ishlar bo'lmasa, 2 so'zdan iborat leksik-frazeologik jihatdan kollokatsiyasi nutqda ularning polisemiyasi sifatida realizatsiya bo'ladi" [2]. "Kolligatsiya – morfosintaktik asoslangan so'zlar uchta nutqda realizatsiyasi ularning polisemiyasini bildiradi" [2]. Ma'lumot berish funksiyasi til me'yorlari qisqargan vaziyatda realizatsiya bo'ladi. Agar maqsad ma'lum axborotni yetkazish bo'lsa (axborot murakkab tuzilgan bo'lsa) til birliklari neytral matnlarda ishlatilgan holatga ko'ra qisqaradi. Masalan, polisemantik so'zning bitta ma'nosi ishlatilsa yoki morfo-sintaktik konstruksiyaning doimiy ishlatiladigani qo'llansa. Semantik sathda muloqot funksiyasi muhim bo'lsa, qoidaga ko'ra matnda ma'lum bilim sohasiga oid tushunchalarni ifodalaydigan til birliklari ishlatiladi.

Ta'sir qilish funksiyasi birinchi planga chiqqanda neytral matnlarga xos bo'lgan kollokatsiya va kolligatsiya modellari deformatsiyaga uchrashi tendensiyasi yuzaga chiqadi.

Shu bilan birga til birliklarining nutqda funksional-stilistik o'zgarishga uchrashi mumkin, ya'ni til birliklari ko'pincha ishlatiladigan funksional-stilistik matnlarga teskari bo'lgan xarakterli matnlarda ishlatilishi ko'rinadi.

Bunday fenomenlar til me'yorlarining kengayishiga bog'liq. Tabiiyki, ta'sir qilish funksiyasi birinchi navbatda badiiy adabiyot bilan bog'lanadi. Lekin bu degani ta'sir qilish funksiyasi faqat badiiy adabiyot matnlarida reallashmaydi, u jurnalistikada va boshqa funksional uslublarda ham qo'llanadi.

Estetik ta'sir terminlarini ta'sir qilish funksiyasi terminlari bilan chegarasini aniqlash kerak. O'quvchilarga estetik ta'sir ko'rsatadigan badiiy asarlar turli vositalar yordamida yuzaga chiqadi. Ulardan biri stilistik markerlangan til birliklaridir. Bu birliklar "ta'sir qilish funksiyasini reallashtiradi, ya'ni ular ma'lum vaziyatda bu birliklarni lingvopoetik va estetik birliklarga aylantiradi" [8:17]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка., –Л., 1975., с-44)

2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов / О.С. Ахманова. – 2-е изд., стер. – М: "Советская энциклопедия", 1969. – 608 с. [Электронная версия http://www.classes.ru/grammar/174.Akhmanova/].9).

3. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. –М., 1991, –С 35.

4. Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: дис. … д-ра филол. Наук: В.Я. Задорнова; МГУ им. М. В. Ломоносова – М., 1992. – 479 с.

5. Задорнова В.Я. Стилистика английского языка. Методические указания. – М.,1986. – 19с.(32 с.)

6. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан, 2008. –Б.23.

7. Кроче Б. Эстетика, как наука о выражении и как общая лингвистика. Ч 1.Теория. – М.: Изд. М. и С. Сабашниковых, 1920. – 172 с.

8. Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. — М.: «КомКнига», 2006. – 168 с.

9. Пражский лингвистический кружок. – М., 1967, с-24.

10. Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. –М.: Учпедгиз, 1957. – 186 с.; Щерба Л.В. Фонетика французского языка. Очерк французского произношения в сравнении с русским. – Л.-М., 1937. – 256 с.; Abrams, Fred. Onomastic Humor in Saki's 'Filboid Studge, the Story of a Mouse that Helped'. – Names 19 (4), 1971. – P. 287–288.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Жалолдинов Исломиддин Шамситдин угли
Кокандский университет Андижанский филиал,
Учитель английского языка
Islomiddin07121997@bk.ru

YOUNG ADULT LITERATURE: ПОЭТИКА, ЧИТАТЕЛЬ И СОЦИАЛЬНЫЕ СМЫСЛЫ СОВРЕМЕННОЙ АНГЛОЯЗЫЧНОЙ ПРОЗЫ

Аннотация: *В статье предлагается концептуальный обзор Young Adult literature как гибридной литературно-культурной формы, находящейся на пересечении жанровых традиций, издательской практики и читательских ожиданий. Показано, что устойчивый интерес к YA обусловлен не только тематикой взросления, но и специфической поэтикой «близкой речи», благодаря которой отношения персонажей (дружба, любовь, семейная поддержка, конфликт, забота) становятся главным механизмом формирования смысла. Обосновывается, что поэтичность YA-прозы проявляется в лиризации повседневности, в ритме и интонации повествования, в системах повторов и мотивов, а также в организации диалога как пространства эмпатии и этического выбора. Делается вывод, что YA-литература одновременно выполняет эстетическую и социальную функции: она нормализует разговор о уязвимости, репрезентирует культурные сценарии «правильных» отношений и предлагает читателю модели эмоциональной компетентности.*

Ключевые слова: *Young Adult literature; YA; подростковая литература; поэтика прозы; нарративный голос; эмпатия; поэтика отношений; идентичность; читательские практики; социальные нормы.*

Jaloldinov Islomiddin Shamsitdin o‘g‘li
Qo‘qon universiteti Andijan filiali, Ingliz tili o‘qituvchisi

YOUNG ADULT LITERATURE: POETIKA, O‘QUVCHI VA ZAMONAVIY INGLIZ TILIDAGI NASRNING IJTIMOIY MA’NOLARI

Annotatsiya: *Maqolada Young Adult literature (yoshlar adabiyoti) janr an’analari, nashriyot amaliyoti hamda o‘quvchi kutishlari kesishmasida shakllangan gibrid adabiy-madaniy hodisa sifatida konseptual jihatdan ko‘rib chiqiladi. YA adabiyotiga bo‘lgan barqaror qiziqish nafaqat ulg‘ayish mavzusi bilan, balki “yaqin nutq”ning o‘ziga xos poetikasi bilan ham izohlanishi ko‘rsatiladi; aynan shu poetika tufayli qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlar (do‘stlik, muhabbat, oilaviy tayanch, ziddiyat, g‘amxo‘rlik) ma’no shakllanishining asosiy mexanizmiga aylanadi. YA nasrining poetik tabiati kundalik hayotning liriklashtirilishida, hikoya ritmi va intonatsiyasida, takrorlar va motivlar tizimida, shuningdek, dialogning empatiya va axloqiy tanlov makoni sifatida tashkil etilishida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi. Xulosa qilinadiki, YA adabiyoti bir vaqtning o‘zida estetik va ijtimoiy funksiyalarni bajaradi: u zaiflik haqida ochiq suhbatni me’yorlashtiradi, “to‘g‘ri” munosabatlarning madaniy ssenariylarini aks ettiradi hamda o‘quvchiga emotsional kompetentlik modellarini taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *Young Adult literature; YA; o‘smirlar adabiyoti; nasr poetikasi; narrativ ovoz; empatiya; munosabatlar poetikasi; identiklik; o‘qish amaliyotlari; ijtimoiy me’yorlar.*

Jaloldinov Islomiddin Shamsitdin o‘g‘li
Kokand University, Andijan branch,
English teacher

YOUNG ADULT LITERATURE: POETICS, THE READER, AND THE SOCIAL MEANINGS OF CONTEMPORARY ENGLISH-LANGUAGE PROSE

Annotation: *The article offers a conceptual overview of Young Adult literature as a hybrid literary and cultural form situated at the intersection of genre traditions, publishing practices, and readers’ expectations. It is shown that the sustained interest in YA is determined not only by the theme of coming of age but also by the specific poetics of “proximate speech,” through which the relationships between characters (friendship, love, family support, conflict, care) become the main mechanism of meaning formation. The author argues that the poetic nature of YA prose is manifested in the lyricization of everyday life, in the rhythm and intonation of*

narration, in systems of repetitions and motifs, as well as in the organization of dialogue as a space of empathy and ethical choice. The conclusion is drawn that YA literature simultaneously fulfills aesthetic and social functions: it normalizes conversations about vulnerability, represents cultural scenarios of "proper" relationships, and offers the reader models of emotional competence.

Keywords: *Young Adult literature; YA; adolescent literature; poetics of prose; narrative voice; empathy; poetics of relationships; identity; reading practices; social norms.*

Введение:

Young Adult literature (YA) за последние десятилетия превратилась из узкоспециализированной возрастной маркировки в заметное культурное явлениех . YA читают не только подростки: значительная часть аудитории — взрослые читатели; тексты активно экранизируются, обсуждаются в сообществах и формируют устойчивые представления о том, «как принято» говорить о любви, дружбе, семье, травме и принятии себя . Это делает YA-литературу актуальным объектом литературоведческого анализа: она выявляет связь между эстетическими решениями и социальными смыслами, которые текст производит и закрепляет .

При обсуждении YA важно учитывать двойственную природу этой литературы. С одной стороны, она ориентирована на ясность и эмоциональную доступность; с другой — регулярно поднимает темы, которые в традиционном школьном и семейном дискурсе остаются трудными (травма, утрата, телесная уязвимость, социальная исключённость) . Поэтому исследовательская перспектива, опирающаяся на поэтику, позволяет объяснить не только о чём эти тексты, но и почему они оказываются убедительными и «переносимыми» в читательский опыт .

Задача статьи — очертить основные принципы поэтики YA-прозы и показать, что смысл в ней создаётся прежде всего через отношения: между персонажами, между героем и сообществом, между текстом и читателем. Под поэтикой понимается система художественных приёмов и принципов организации текста (голос, интонация, композиция, мотивы, образность, речевы стратегии), а под поэтикой отношений — способы, которыми художественная форма делает близость, конфликт и заботу эмоционально убедительными и социально интерпретируемыми .

Новизна предлагаемого рассмотрения состоит в акценте на YA как на форме «эмпатического письма», где поэтичность реализуется не через усложнение стиля, а через тонко настроенную организацию читательского сопереживания: интонацию доверия, структуру диалога и мотивную работу деталей.

YA как литературная и культурная категория

YA-литература нередко определяется через адресата (подросток/юный взрослый), однако в реальности она функционирует как поле пересекающихся критериев: тематических (взросление, идентичность, опыт границы), жанровых (роман взросления, романтическая проза, фантастика, социальная драма), а также институциональных (маркетинговое позиционирование, школьные и библиотечные практики, рейтинги) . Следовательно, YA корректнее описывать как гибридную категорию, где «возраст» является лишь одним из факторов.

Отдельно выделяется феномен crossover: тексты, формально маркируемые как YA, читаются и оцениваются широкой аудиторией . Это влияет на поэтику: с одной стороны, сохраняется стремление к доступности и эмоциональной прозрачности, с другой — возрастает роль интертекста и культурных кодов, позволяющих удерживать интерес разных групп читателей. Содержательно YA часто строится вокруг ситуаций выбора, испытания и перехода: смена статуса, первый опыт ответственности, столкновение с социальными ожиданиями, переживание уязвимости. Однако важно, что «взросление» здесь не обязательно совпадает с биологическим возрастом; оно проявляется как изменение отношения к себе и к другим.

YA и медиасреда: сериализация опыта и расширение читательского поля

Современная YA-литература существует в среде, где границы между «текстом» и его публичным обсуждением принципиально размыты . Экранизации, интервью, фанатские сообщества, книжные блоги и платформы читательских рецензий формируют «второй контур» смысла: произведение нередко воспринимается через образы, цитаты и интерпретации, циркулирующие в медиасреде .

Это обстоятельство влияет и на поэтику. Во-первых, усиливается роль сцен, легко отделимых от целого и пригодных для цитирования: диалогических фрагментов, афористичных формул, символических деталей. Во-вторых, возрастает значимость узнаваемых эмоциональных сценариев (первый опыт любви, конфликта, принятия), которые читатель может «примерить» к себе и затем проговорить в публичном пространстве. В-третьих, сама фигура автора в YA часто становится частью рецепции: писатель может выступать как моральный и эмоциональный медиатор, задающий тон обсуждения.

Проблема границы: YA, crossover и «взрослая» проза

В исследовательской практике важно избегать механического отождествления YA с подростковыми персонажами или школьной тематикой. Более продуктивно рассматривать YA как систему ожиданий: текст предлагает

определённый уровень эмоциональной доступности, определённый темп развития отношений и определённую модель читательского сопереживания.

В этом смысле crossover можно трактовать как ситуацию, когда поэтика YA оказывается востребованной широкой аудиторией: эстетика близкого голоса, ясная эмоциональная логика и фокус на отношениях начинают конкурировать с традиционными представлениями о «высокой» прозе. Следовательно, вопрос о границах YA оказывается не только классификационным, но и ценностным: он связан с тем, какие формы эмоциональной выразительности считаются легитимными в литературной культуре .

Поэтика YA-прозы: голос, интонация, мотивы

Ключевой эстетический механизм YA — близкий голос. Повествование часто организовано так, чтобы минимизировать дистанцию между читателем и внутренним опытом героя. Эта близость не равна исповедальности: она создаётся через отбор деталей, через темп, через особую «разговорную» интонацию, которая одновременно кажется естественной и тщательно сконструированной . Интонационно YA часто держится на равновесии серьёзного и иронического. Ирония выполняет защитную и объединяющую функции: она позволяет говорить о трудном без прямой патетики, формирует ощущение «своего круга» и создаёт доверие к рассказчику. Отсюда возникает эффект эмоциональной честности, столь важный для жанра .

На уровне образности поэтичность YA проявляется в лиризации повседневности. Символические детали (предметы, места, повторяющиеся действия) становятся узлами смысла: они связывают личную историю с культурными сценариями. Мотивная работа часто строится на повторе: повтор возвращает читателя к ключевым эмоциональным состояниям, оформляет развитие отношений и стабилизирует «каркас» ценностей, предлагаемых текстом .

Поэтика отношений: дружба, любовь, семья, забота

Отношения в YA выполняют роль сюжетного двигателя, но не сводятся к фабуле: они являются основным инструментом создания и проверки ценностей. Дружба часто задаёт пространство признания и поддержки, в котором герой учится говорить о себе. Любовная линия, напротив, нередко предъявляет конфликт между желанием близости и страхом потери автономии. Семья может выступать как ресурс заботы, но также как источник нормирования и контроля. Диалог в YA имеет особый статус: он является не просто речевым обменом, а формой построения интимности. «Внутренний язык» пары или дружеской группы (шутки, повторяющиеся формулы, цитаты, общие культурные знаки) создаёт микросообщество и маркирует границы включённости/исключённ Поэтика диалога, таким образом, напрямую связана с социальной поэтикой: кто имеет право

говорить, быть услышанным и быть принятым.

Значимым для современной YA становится мотив заботы (care). Он выводит отношения в пространство этики: где проходит граница между поддержкой и контролем, между помощью и подменой выбора. Через этот мотив YA-литература задаёт читателю модели эмоциональной компетентности: как сочувствовать, как признавать чужую автономию, как выдерживать конфликт без разрушения связи.

Социальные смыслы YA: нормы, уязвимость и эмоциональная компетентность

YA-литература делает социальное «видимым» через частное переживание. Социальные институты (школа, семья, медицина, рынок труда) проявляются как рамки, в которых отношения обретают форму: именно они определяют, какие чувства считаются допустимыми, какие решения воспринимаются как правильные, какие биографии признаются «нормальными». Важная тенденция — нормализация разговора об уязвимости

YA предлагает язык для описания опыта, который в повседневной коммуникации часто табуирован или вытеснен: психологическая травма, болезнь, инвалидность, утрата. В художественном тексте этот опыт становится не «частным случаем», а поводом переопределить ценности: достоинство, взаимность, границы, уважение. Поэтика (интонация доверия, работа детали, ритм сцен) делает социально трудные темы эмоционально доступными без упрощения. Одновременно YA участвует в формировании культурных сценариев «правильной» уязвимости. Текст часто предлагает читателю структуру переживания: от стыда и самоизоляции — к признанию и принятию, от молчания — к проговариванию, от одиночества — к поддержке. При этом не все сценарии одинаково нейтральны: они могут закреплять ожидания, связанные с гендером, классом, нормой тела или представлениями о «успешном» преодолении. Важен и вопрос репрезентации различия. YA-литература нередко декларирует инклюзивность, но поэтика включённости строится не только на тематике, а на распределении голоса: кому предоставлено право на внутреннюю речь, кто становится объектом наблюдения, а кто — субъектом рассказа. Эти решения напрямую воздействуют на то, какие социальные позиции читатель воспринимает как «свои». Таким образом, YA работает как пространство обучения: оно формирует читательские ожидания относительно отношений, предлагая модели сочувствия и ответственности. При этом социальная функция не отменяет эстетической: именно художественная форма обеспечивает убедительность и «переносимость» этих моделей в читательский опыт.

Заключение

YA-литература является значимым полем современной англоязычной прозы, поскольку в ней пересекаются эстетика и социальность. Её поэтичность выражается в близком голосе, в тонком балансе серьёзного и иронического, в мотивной организации и в диалоге как механизме построения эмпатии. Через отношения YA не только рассказывает истории взросления, но и производит культурные сценарии близости, заботы и ответственности.

Высокая актуальность YA для гуманитарного знания связана с тем, что эти тексты одновременно фиксируют и формируют нормы эмоциональной коммуникации. Дальнейшее исследование может быть направлено на типологию поэтики заботы в разных поджанрах YA и на анализ того, как читательские сообщества переопределяют смысл текстов в публичном обсуждении.

Список литературы:

1. Cart M. Young Adult Literature: From Romance to Realism. – 3rd ed. – Chicago: American Library Association, 2016. – 256 p.

2. Nikolajeva M. Reading for Learning: Cognitive Approaches to Children's Literature. – Amsterdam: John Benjamins, 2014. – 289 p.

3. Beckett S. L. Crossover Fiction: Global and Historical Perspectives. – New York: Routledge, 2019. – 328 p.

4. Shamsitdin o'g'li J. I. Modern problems of linguistics in the context of globalization //International conference on science, engineering and technology. – 2026. – Т. 3. – №. 1. – С. 22-23.

5. Keen S. Empathy and the Novel. – Oxford: Oxford University Press, 2022. – 268 p.

6. Garcia A. Critical Foundations in Young Adult Literature: Challenging Genres // Journal of Adolescent & Adult Literacy. – 2020. – Vol. 64, № 2. – P. 123–131.

7. Shamsitdin o'g'li J. I., Umidjon o'g'li R. B. The importance of learning English in the modern world // International conference on support of modern science and innovation. – 2026. – Т. 2. – №. 1. – С. 66-67.

8. Trites R. S. Twenty-First-Century YA Literature and the Ethics of Care // Children's Literature Association Quarterly. – 2021. – Vol. 46, № 1. – P. 18–34.

9. Hill C. Affective Poetics and the YA Narrative Voice // International Research in Children's Literature. – 2018. – Vol. 11, № 3. – P. 245–260.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Kabulova Umida Sayidmaxamadovna
ADCHTI, Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasi
Email: umidakabulova@mail.ru

TURG‘UN BIRIKMALARNI HOSIL QILUVCHI ERTAKLARDA MEDIAL FORMULALAR

Annotatsiya: *Ertakdagi medial formulalar — bu ertak voqealari davomida, odatda bir syujet bo‘g‘inidan ikkinchisiga o‘tishda ishlatiladigan barqaror, turg‘un iboralardir. Ertakdagi formulalar vaqt va makonni bog‘lashga xizmat qiladi*

Kalit so‘zlar: *formula, formal maktab, g‘oya, janr, strukturalis,*

Кабулова Умида Сайидмахамадовна
АДЧТИ, Кафедра общей и сравнительной лингвистики

СРЕДНИЕ ФОРМУЛЫ В СКАЗКАХ, ОБРАЗУЮЩИЕ СТАБИЛЬНЫЕ СОСТАВЫ

Примечание: *Средние формулы в сказке — это устойчивые, стабильные фразы, используемые во время событий сказки, обычно при переходе от одного сюжетного звена к другому.*

Ключевые слова: *формула, формальная школа, идея, жанр, структурализм, использование магии, внутренний подход, история, сюжет.*

Kabulova Umida Sayidmakhamadovna
ADCHTI, Department of General and Comparative Linguistics

MEDIAL FORMULAS IN FAIRY TALES THAT FORM STABLE COMPOUND

Annotation: *Medial formulas in a fairy tale are stable, stable phrases used during the events of a fairy tale, usually when moving from one plot link to another.*

Keywords: *formula, formal school, idea, genre, structuralism, use of magic, internal approach, story, plot.*

Kirish

Formal maktab g‘oyalariga hissa qo‘shgan to‘rtta taniqli olim bor. Ular Vladimir Propp, Klod Levi-Stros va Zeveton Todorov hamda Nikolae Roshiyanulardir. 1920-yillar mashhur strukturalist Vladimir Proppning[1] “Морфология сказки” kitobi ushbu maktab g‘oyalari uchun juda katta ta’sir kuchiga ega edi. Chunki V.Ya.Propp birinchi bo‘lib, ertaklarning morfologik qoliplari va tuzilmalarini namoyish etgan. U yuzta xalq ertagini o‘rganib, ularning strukturaviy jihatdan o‘ttiz bitta qismga bo‘linishi mumkinligini e’tirof etgan.

O‘rganilish darajasi

Klod Levi-Stros talqinida, miflar mantiqiy tuzilmani aks ettirgan inson aqliy mahsuli. U miflarni din bilan bog‘liq holda o‘rgandi va V.Ya.Proppdan farqli o‘laroq, sintaksisga e’tibor berib, strukturani madaniy kontekst bilan bog‘lashga harakat qildi.

Ruminiyalik olim N.Roshiyanu tomonidan rus tilida yozilgan “Традиционные формулы сказки” asari turli xalq ertaklari uslubini formulalar asosida o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda muallif maxsus Yevropa, Osiyo, turk hamda slavyan ertaklarining initsial, medial va final struktur tuzilishlarini formulalarda tahlil qilgan .

Bruno Bettelxaymning “Sehrdan foydalanish” kitobi ertak tadqiqida katta ahamiyatga ega. U ertaklar oddiy vaziyatlar va baxtli yakunlar orqali bolalarga ta’sir etishini aytib o‘tadi.

Tomson ertak va qisqa hikoya o‘rtasidagi o‘xshashliklarga e’tibor qaratadi. Ertakshunoslarning fikriga ko‘ra, bu ikki janrning asosiy farqi shundaki, hikoya voqealari real dunyoda sodir bo‘ladi. Hikoyalarda vaqti va joyi aniq bo‘lgan hayot haqida so‘z boradi (garchi unda ba’zi mo‘’jizalar paydo bo‘lishi mumkin bo‘lsa ham). Zero, boshqa

shakllarning real elementlaridan farqli o‘laroq fantaziya bu janrning asosini tashkil qiladi. Ertaklarda tuyg‘u yoki g‘oyaga emas, balki harakatga urg‘u beriladi. Yakuniy maqsad esa inson tajribasini tasvirlash hisoblanadi.

Natija va muhokamalar

Etakdagi medial formulalar — bu ertak voqealari davomida, odatda bir syujet bo‘g‘inidan ikkinchisiga o‘tishda ishlatiladigan barqaror, turg‘un iboralardir. Masalan: *Yo‘l yursa ham, mo‘l yuribdi; Murod-maqsadlariga yetishibdi* kabi. Odatda ertakdagi formulalar vaqt va makonni bog‘lashga xizmat qiladi. Ular tinglovchining diqqatini yangi voqeaga chorlaydi va ertakning badiiy yaxlitligini ta’minlaydi. Turli xalqlarning folklorini solishtirganda, bu iboralarning tuzilishi va funksiyasi deyarli bir xil ekani ma’lum bo‘ladi. Bu esa ertak janrining barcha xalqlar tabiatiga mos ekanini isbotlaydi. Aytish mumkinki, ertakning o‘rta qismida keladigan qolip – iboralar shunchaki bezak emas, balki ular ertak tizimini ushlab turuvchi nazariy – struktur elementlardir .

Biz quyida N.Roshiyanuning [6] ma’lumotlariga asoslangan holda sharq ertaklariga yaqin bo‘lgan formulalarning 17 ta umumiy elementlarini aks ettiramiz:

1) z – qahramonning shakllanishi; 2) a – otning o‘ziga xos sifatlari; 3) S – makon, qahramon izlayotgan predmet joyi; 4) m – qirol amri, o‘limga hukm; 5) r – qirolicha yoki qirolga bo‘lgan ta’na; 6) f – qirolichaning husnu-jamoli; 7) r – ot bilan qahramonning suhbati; 8) d – yo‘l yurish (kurash); 9) v – qahramonning yuksaklarga ko‘tarilishi; 10) s – taqdirlovchi va ona (xotin, opa-singil)o‘rtasidagi suhbat; hidni sezib begonaning tashrifini his qilish; 11) i – taqdirlovchi va qahramon o‘rtasidagi suhbat; 12) u – to‘siqlarning ochilishi; 13) x – qahramonning to‘siqlarni yengib o‘tganligi haqidagi xabar; 14) s – hayvonlarni chorlash; 15) o – yordamchilar tomonidan sehrli predmetlarni qabul qilish; 16)l – qahramon va antogonist dialogi; 17) Î – qahramon bilan uni ozod qiluvchilar o‘rtasidagi dialog.

Ko‘rinadiki, formulalar — bu muhim harakatlar belgisi. Ertaklardagi har bir qolip, formula (masalan, *Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, Yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi*) shunchaki bezak emas. Bularning barchasi ertakdagi eng muhim syujet tugunlarini va qahramonlarning asosiy amallarini belgilab beradi. Shu bois, turli xalqlar ertaklarida ham o‘xshash formulalarning uchrashi — bu insoniyat tafakkuridagi syujet qurilishining bir xilligidir [5].


Ertakdagi qahramon qanchalar markaziy o‘ringa ega bo‘lsa (masalan, Alpomish yoki Kenja botir kabi), unga tegishli formulalar soni shunchalik ko‘p bo‘ladi. N.Roshiyanuning sharhiga ko‘ra, ertakshunoslikda ertaklar uchta asosiy formula (qolip) asosida quriladi. Shunga asosan: [6]

1.Initsial (boshlanish) formulalar – bu ertakning kirish qismi. Masalan: Bir-birini inkor etuvchi *«Bir bor ekan, bir yo‘q ekan»*, "*Qadim o‘tgan zamonda...*" kabi turg‘un iboralari o‘zbek xalq ertaklarida ko‘p uchraydigan birikmalardan hisoblanadi. Vazifasi: Tinglovchini real olamdan ertakning sehrli olamiga olib kiradi. 2.Medial (ichki/o‘rta) formulalar – bu ertak voqealari davomida, bir lavhadan ikkinchisiga o‘tishda ishlatiladigan barqaror iboralar. Masalan: *Eldek uchib, yo‘l bosib...; Oz yuribdi, ko‘p yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi..., Bir mahal qarasa...* Vazifasi: Vaqt va masofani qisqartirish, voqealar dinamikasini ta’minlashdan iborat.

3.Final (yakunlovchi) formulalar – bu ertakning mantiqiy xotimasi. Masalan: *"...ular murod-maqsadlariga yetibdi, ……"; "Shunday qilib, qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilishibdi"* kabi. Vazifasi: Tinglovchini sehrli olamdan yana real hayotga qaytarish.

Ko‘rinadiki, bu formulalar shunchaki chiroyli gaplar emas, balki ertakning strukturasi, ya’ni tarkibiy asosi hisoblanadi. Ularsiz sehrli ertaklar o‘zining janr xususiyatini yo‘qotadi. Mazkur tadqiqotimizda tuzilgan sxema, ya’ni formulalar ertakning boshidan to oxirigacha qanday tizimga asosan joylashganini ko‘rsatadi. Biz yuqoridagi natijalarga asosan, an’anaviy formulalar sehrli ertaklarda muhim o‘ringa ega, deya olamiz.

4.3.1-sxema



Shu narsa aniq-ki, ushbu yuqoridagi mavjud sxemaga barcha sehrli ertaklarning umumiy formulalari birlashtirilgan. Sxemada:

Ye – qahramonning mavjudligi haqidagi fakt;

T – qahramon harakatlari;

V– haqqoniylik, ishonchlilik. Agar ertakda bu xususiyatlar bo‘lmasa, kitobxon ertak dunyosiga kirib keta olmaydi. Buni adabiyotda *"ishonmaslik hissini vaqtincha to‘xtatib turish"* deyiladi;

Ṽ – metaforik ko‘chirish.

Initsial formulada Ṽ elementi quyidagi to‘rt aspektni o‘z ichiga oladi:

1) Ṽ – vaqtni belgilash {T}; 2) Ṽ – joyni aniqlash {S}; 3) Ṽ – to‘g‘ridan to‘g‘ri rad qilish {E} 4) Ṽ – ikkilanish {Ė}. Natijada, ertakning initsial formula struktur elementlari quyidagi sxemani tashkil qiladi:

Quyidagi sxemada ertaklarning umumiy universal strukturaga ega bo‘lgan final formulasini beramiz:

4.3.3-sxema



Ertak finalidagi P elementi (lotincha *roeticus* so‘zidan olingan) — bu voqealarning badiiy to‘qima, ya’ni uydirma ekanligini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita ta’kidlaydigan vositadir. (Masalan, o‘zbek ertaklaridagi *”Men ham o‘sha yerda edim, osh yedim, ammo og‘zimga tegmadi”* qabilidagi iboralar).

***«Zumrad va Qimmat»* ertagi**

Bu ertakning finali didaktik (o‘rgatuvchi) va adliyaviy (adolat qaror topishi) xarakterda.

Uni jadval asosida quyidagicha xulosalaymiz:

№	Ertak nomi	Final qism	R elementi	Poetika
1	“Zumrad va qimmat”	Bu ertakning finali didaktik va adliyaviy (adolat qaror topishi) xarakterda. «...*Zumrad o‘z murodiga yetibdi, Qimmat bo‘lsa qilmishiga yarasha jazosini olib, elga sharmanda bo‘libdi; Murod-maqsadlariga yetishib, baxtli-saodatli umr kechiribdilar*».	Tinglovchiga *«yaxshilik baxt keltiradi, yomonlik esa halokatga boshlaydi»* degan qat’iy ijtimoiy kod beriladi.	qarama-qarshilik (antiteza) usulidan foydalanilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, medial formulalar nafaqat ma’lum bir millat ertaklarida, balki barcha xalqlar folklorida ham muhim ahamiyatga ega. Ertakdagi medial formulalar — bu ertak voqealari davomida, odatda bir syujet bo‘g‘inidan ikkinchisiga o‘tishda ishlatiladigan barqaror, turg‘un iboralardir. Odatda ertakdagi formulalar vaqt va makonni bog‘lashga xizmat qiladi. Ular tinglovchining diqqatini yangi voqeaga chorlaydi va ertakning badiiy yaxlitligini ta’minlaydi. Turli xalqlarning folklorini solishtirganda, bu iboralarning tuzilishi va funksiyasi deyarli bir xil ekani ma’lum bo‘ladi. Bu esa ertak janrining barcha xalqlar tabiatiga mos ekanini isbotlaydi va neyrolingvistik omillarni o‘zida namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zipes J. Breaking the Magic Spell: Radical Theories of Folk and Fairy Tales. – Lexington: University Press of Kentucky, 2002. – 304 p.
2. Zipes J. Why Fairy Tales Stick: The Evolution and Relevance of a Genre. – New York: Routledge, 2006. – 24 p.
3. Пропп В.Я. Морфология сказки. Издательство: Наука. – М., 1969. – С. 9.
2024.07.23
4. Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки. – Москва, 1970
5. Пермяков Г.Л. Основы паремиологии. – Москва, 1988.
6. Рошияну Н. Традиционные формулы сказки. – Москва, 1974. – С. 7

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi
NamDU, Amaliy xorijiy tillar kafedrasi mudiri, PhD
E-mail:kulievadilshoda98@gmail.com
Ahmedova Dinora Jumanazar qizi Namangan davlat universiteti magistranti
e-mail: ahmedova788@gmail.com

UDK: 821.111.09

KETRIN MENSFILD IJODIDA AYOL OBRAZI VA UNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAQDIRI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz modernistik adabiyotining yirik vakili Ketrin Mensfild ijodida ayol obrazi va uning ijtimoiy-psixologik talqini tahlil qilinadi. Yozuvchining "Bliss", "Miss Brill" hamda "The Garden Party" hikoyalari asosida ayolning ichki dunyosi, jamiyat bilan ziddiyati, yolg'izlik va ruhiy iztirob motivlari ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Mensfield ayol obrazini idealizatsiya qilmasdan, uni murakkab ruhiy va ijtimoiy jarayonlar markazida tasvirlagani aniqlanadi*

Kalit so'zlar: *modernism, psixologizm, ayol obrazi, ijtimoiy tengsizlik, ichki monolog, ruhiy konflikt , feministik talqin.*

Кулиева Дилшода Алижон кизи
PhD, заведующая кафедрой прикладных иностранных языков НамГУ
Ахмедова Динора Жуманазар қизи
магистрант Наманганского государственного

ЖЕНСКИЙ ОБРАЗ В ТВОРЧЕСТВЕ КЕТРИН МЕНСФИЛД И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУДЬБА

Аннотация:*В статье анализируется женский образ и его социально-психологическая интерпретация в творчестве Кэтрин Мэнсфилд, выдающегося представителя английской модернистской литературы. На основе рассказов «Bliss», «Miss Brill» и «The Garden Party» рассматриваются внутренний мир женщины, конфликт с обществом, одиночество и мотивы психологического страдания. Результаты исследования показывают, что Мэнсфилд изображает женский образ без идеализации, помещая его в центр сложных психологических и социальных процессов.*

Ключевые слова: *модернизм, психологизм, женский образ, социальное неравенство, внутренний монолог, психологический конфликт, феминистская интерпретация.*

Kulieva Dilshoda Alijon kizi
Head of the Department of Applied Foreign Languages, PhD
Ahmedova Dinora Jumanazar kizi
Master's student of Namangan State University

THE IMAGE OF WOMEN IN THE WORKS OF KATHERINE MANSFIELD AND THEIR SOCIO-PSYCHOLOGICAL FATE

Abstract:*This article analyzes the female image and its socio-psychological interpretation in the works of Katherine Mansfield, a prominent representative of English modernist literature. Based on her short stories "Bliss," "Miss Brill," and "The Garden Party," the study explores the inner world of women, their conflict with society, loneliness, and psychological distress. The research findings reveal that Mansfield portrays the female character without idealization, placing her at the center of complex psychological and social processes.*

Keywords: *modernism, psychologism, female image, social inequality, inner monologue, psychological conflict, feminist interpretation.*

Kirish

XX asr boshlarida Yevropa va ingliz adabiyotida modernizm oqimi shakllanib, badiiy tafakkur markaziga inson ruhiyati olib chiqildi. Ushbu jarayonda voqelikdan ko'ra ichki kechinmalar, ong oqimi va psixologik detallar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda K.Mensfild hikoyalari modernistik psixologizmning yorqin namunasi hisoblanadi. Uning ijodida ayniqsa ayol obrazi alohida e'tibor markazida turadi. Yozuvchi ayolning jamiyatdagi o'rni, uning ichki ziddiyatlari, ijtimoiy bosim ostidagi ruhiy holatini nozik badiiy vositalar orqali ochib beradi Maqolaning maqsadi esa Mensfield hikoyalarida ayol obrazining ijtimoiy-psixologik taqdirini tahlil qilish va uning modernistik adabiyotdagi o'rnini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot Ketrin Mensfildning "Bliss","Miss Brill" hamda "The Garden Party" hikoyalari asosida ayol obrazi va uning ijtimoiy-psixologik taqdirini chuqur tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqotda asosan psixologik metod asosida qahramonlarning ichki kechinmalari, ong osti jarayonlari, yolg'izlik hissi hamda illuziya va haqiqat o'rtasidagi ziddiyat o'rganildi. Shuningdek, tadqiqotda feministik yondashuv ham qo'llanilib, ayolning patriarxal jamiyatdagi o'rni, "ideal rafiqa" modeli hamda ijtimoiy stereotiplar ta'siri tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlili

Ketrin Mensfild ijodi XX asr boshlarida shakllangan ingliz modernistik adabiyotining muhim bosqichlaridan biri sifatida ko'plab xorijiy hikoyalarida inson ruhiyatining nozik qatlamlari , ichki monolog va psixologik tasvir ustuvorligi ilmiy izlanishlarning markazida turadi. Xususan, S.Kaplan yozuvchi prozasini modernistic tafakkur mahsuli sifatida baholab, unda voqelikdan ko'ra ong jarayonlari tasvirining ustuvorligini ta'kidlaydi [1]. C. Hanson esa Mensfild hikoyalarida ayol qahramonlarning ichki yolg'izligi va ijtimoiy begonalashuvi muhim badiiy tamoyil sifatida namoyon bo'lishini qayd etadi [2]. O'zbek adabiyotshunosligida ham Mensfild hikoyalarining uslubiy xususiyatlari, ramziy detal va psixologizm masalalari yuzasidan ilmiy maqolalar e'lon qilingan. Jumladan, mahalliy tadqiqotlarda yozuvchining badiiy tasvir vositalari va lirik-psixologik uslubi yoritilgan[3].Biroq mavjud ilmiy ishlarda ayol obrazining ijtimoiy-psixologik taqdiri alohida , tizimli tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmaganini kuzatish mumkin.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Mensfild ijodida ayol obrazi turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan bo'lsa-da, uning itimoiy va psixologik taqdirini kompleks holda, uch hikoya ("Bliss", "Miss Brill", "The Garden Party") misolida qiyosiy tahlil qilish masalasi hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Natijalar va muhokamalar

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Ketrin Mensfild ijodida ayol obrazi har doim shaxsiy ichki dunyo bilan jamiyat o'rtasidagi ziddiyat orqali aks ettiriladi. Tadqiqot uch hikoya –"Bliss", "Miss Brill" va The Garden Party"- misolida olib borilgan va ularning har birida ayol qahramonning ruhiy kechinmalari nozik psixologizm asosida ochib berilgan .

Xususan, "Bliss"hikoyasida bosh qahramon Berta o'zini baxtli ayol deb hisoblaydi va o'zini ideal hayot kechirayotganiga ishontiradi: eri bor, farzandi bor, chiroyli uyi, mehmonlar. Bular jamiyat mezoniga ko'ra "baxtli ayol" belgilaridir. Aslida Berta eri bilan chuqur ruhiy yaqinlikka ega emas. U hatto erining ichki dunyosini to'liq bilmaydi. Tashqi uyg'unlik bor, lekin ichki samimiyat yo'q. Ana shu sezilmas masofa ichki bo'shliqni keltirib chiqaradi. Shuningdek, hikoya so'ngida ham Bertaning ichki bo'shliq va yashirin og'rig'i real hayotida ham o'z tasdig'ini topadi, ya'ni erining xiyonati yuqoridagi "baxt" tushunchasini parcha-parcha qilib yo'qqa chiqaradi, yozuvchi bu orqali ayolning psixologizmi va ichki dunyosi tashqi predmet va ta'sirlardan ustunroq turishini tasvirlaydi.

Shuningdek, "Miss Brill" hikoyasi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda ham ayol obrazining naqadar nozik psixologik jihatlari borligini tasvirlaydi: "Hikoya bosh qahramoni – Miss Brill, yolg'iz yashaydigan, o'rta yoshdan oshgan ayol. U har yakshanba kuni bog'ga borib, odamlarni kuzatishni odat qilgan. U atrofdagi insonlarni xuddi spektakl qahramonlari kabi tasavvur qiladi va o'zini ham shu "sahna" ning bir qismi deb his etadi va bir kuni u yonida o'tirgan yosh yigit va qizning uni masxara qilganini eshitib qoladi. Ular Miss Brillni kulgili, keraksiz inson sifatida tasvirlaydi. Shu voqea uning ichki dunyosini larzaga soladi. Uyiga qaytgach, u odatda mehr bilan saqlaydigan tulki yoqasini sandiqqa tashlaydi va ich-ichidan yig'layotgandek tuyuladi.

Ketrin Mensfildning yana bir mashxur hikoyalaridan biri "The Garden Party" hikoyasi ham ijtimoiy tabaqalanish va ayol ongining shakllanishi jarayoni bilan bog'liq hisoblanadi. Ushbu hikoya qahramoni Laura zodagon oiladan hisoblanadi va uning oilasi hashamatli ziyofat uyushtiradi. Bayramga tayyorgarlik avjida bo'lgan paytda yaqin atrofdagi kambag'al mahallada yashovchi bir ishchi halok bo'lgani halok bo'lgani haqida xabar keladi. Laura bu vaziyatdan bezovta bo'ladi va oilasidan ziyofatni bekor qilish kerakligini so'raydi, ammo onasi va oilasi bu fikrni jiddiy qabul qilmaydi. Bayram davom etadi. Keyinchalik Laura marhumning uyiga boradi va u yerda hayotning boshqa og'ir va kamtarona tomonini ko'radi. Bu voqea uning dunyoqarashiga ta'sir qiladi. Shu tariqa hikoya yosh qahramonimizning ruhiy uyg'onishi bilan yakunlanadi.

"Bliss" hikoyasida Bertha tashqi hayotda hamma narsa mukammal, baxtli deb his qilsa-da, ichki ongida noaniqlik va norozilik mavjud. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, uning oilaviy munosabatlari va turmushdagi yashirin

ziddiyatlar qahramonning ruhiy barqarorligini buzadi [5]. Shuningdek, hikoyadagi ramziy timsol nok daraxti xuddi ayol qalbi va psixologiyasi kabi nozik va o'zgaruvchanligining ramzi bo'lib xizmat qiladi, tashqi tomondan mukammal va go'zal ko'ringan nok daraxti ham Berthaning qalbi kabi bir soniyada parcha bo'lib o'z holatini yo'qotishi mumkin. Shu orqali yozuvchi ayolning tashqi "baxt" tasavvuri va ichki bo'shliq o'rtasidagi tafovutni psixologik jihatdan o'quvchiga sezdiradi

Shuningdek, "Miss Brill" hikoyasida ham qahramon jamiyatni bir sahna sifatida ko'rib, o'zini uning bir qismi sifatida ko'rsa, lekin atrofdagilarning befarqligi va uning masxara qilinishi uning ichki dunyosining buzilishiga olib keladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, qahramonning xayoliy dunyoga cho'mishi uning psixologik himoyasi sifatida xizmat qiladi va yolg'izlik hissini yanada kuchaytiradi.

"The Garden Party" hikoyasida Laura qahramoni boylik va kambag'allik tafovutini anglab, ichki o'sishga erishadi [6]. Hikoya davomidagi uning hissiy uyg'onishi, hamdardlik va mehr-muruvvat tuyg'ulari birga rivojlanadi, shuningdek, jamiyatdagi o'z o'rni va shaxsiy qarashlari uyg'unlashadi. Shu tariqa hikoya yosh ayolning ongini rivojlantirish va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish jarayonini ochib beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Mensfild hikoyalarida ayol obrazining ijtimoiy-psixologik taqdiri bir necha ayol obrazidagi ichki kechinmalar orqali tavsiflanadi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ayol obrazini tahlil qilishda psixologik va feministik yondashuvlarni birlashtirish uning shaxsiy va ijtimoiy hayotni chuqurroq ochib beradi . Mensfild qahramonlarini faqat badiiy vosita sifatida emas, balki jamiyat bilan uzviy munosabatda bo'lgan shaxslar sifatida tasvirlagani aniqlandi.

Umuman olganda, uch hikoya bo'yicha olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, ayol obrazining ijtimoiy-psixologik talqini faqat individual ruhiy jarayon bilan cheklanmay, balki jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab aloqalar orqali shakllandi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Ketrin Mensfild ijodida ayol obrazi murakkab ijtimoiy va psixologik qatlamlar asosida shakllantiriladi. Yozuvchi qahramonlarning tashqi hayotidan ko'ra ularning ichki kechinmalariga urg'u beradi va aynan shu jihat uning hikoyalarini chuqur ma'noli qiladi. Olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, ayol qahramonlar jamiyatdagi mavqei, ijtimoiy muhit va shaxsiy his-tuyg'ulari o'rtasidagi ichki ziddiyatni boshdan kechiradi. Ularning ruhiy izlanishlari, yolg'izlik hissi, o'zligini anglash jarayoni va ijtimoiy tafovutni sezishi yozuvchi ijodining markaziy estetik tamoyillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot shuni isbotladiki, Mansfild hikoyalarida ayol obrazi passiv kuzatuvchi emas, balki ichki o'zgarish jarayonini boshdan kechirayotgan, ongli va sezgir shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan yozuvchi modernistik adabiyotda ayol ruhiyatini tasvirlashda o'ziga xos uslub va badiiy yondashuvni shakllantirgan.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot ayol obrazining ijtimoiy-psixologik talqinini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda mavzuning ilmiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaxxarova, S. (2025). KETRIN MENSFILD HIKOYALARINING MILLIY-MADANIY QIRRALARI. Modern Science and Research, 4(1), 999–1002. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/64084

2. Kaplan, S. Katherine Mansfild and the Origins of Modernist Fiction. –Ithaca:Cornell University Press, 1991. - 2.

3. Hanson, C. Katherine Mansfield.-London:Macmillan, 1982. -189 P.

4. Mansfield , K. "Miss Brill"//The Collected Stories of Katherine Mansfield. – London: Penguin Classics, 2007. – 816

5. Mansfield, K. "Bliss"//The Collected Stories of Katherine Mansfield.-London: Penguin Classics,2007. – *240 P*

6.Mansfield , K. "The Garden Party"//The Collected Stories of Katherine Mansfield. – London: Penguin Classics, 2007. –284 P

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Makhmudov Islombek Muhiddin O'g'li
Qo'qon universiteti Andijan filiali o'qituvchisi
Email: Islombek0326@gmail.com

UDK: 82.091:821.111-31

BADIIY ADABIYOTDA "OTA" ARXETIPI VA UNING GENEZISI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy adabiyotda "ota" arxetipi va uning genezisi tarixiy-estetik taraqqiyot doirasida kompleks ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda arxetip nazariyasi, qiyosiy-adabiy, struktur-semantik hamda madaniy-tarixiy metodlar qo'llanib, ota obrazining mifologik manbalardan boshlab klassik, realist, modern va postmodern adabiyot bosqichlarida qanday semantik transformatsiyaga uchragani aniqlanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ota arxetipi dastlab kosmik tartib va ilohiy hokimiyat timsoli sifatida shakllanib, keyinchalik ijtimoiy me'yorlar, patriarxal tartib, shaxsiy identitet va psixologik konfliktlar bilan bog'liq ko'p qatlamli poetik modelga aylangan. Modernizm davrida u an'anaviy avtoritet inqirozining ramzi sifatida talqin qilinsa, postmodernizmda dekonstruksiya qilinib, travmatik xotira va fragmentar identitet timsoliga aylanadi. Tadqiqot "ota" arxetipining badiiy tafakkur tarixidagi evolyutsiyasini ochib berib, uning ijtimoiy-falsafiy, psixologik va madaniy semantik funksiyalarini tizimli ravishda asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *ota arxetipi, genezis, badiiy adabiyot, mifologik tafakkur, modernizm, postmodernizm, poetik obraz, identitet.*

Махмудов Исломбек Мухиддин угли
Андижанский филиал Кокандского университета, учитель

ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ «АРХЕТИП ОТЦА» И ЕГО ГЕНЕЗИС

Аннотация: *В статье проводится комплексный научный анализ архетипа «отца» и его генезиса в художественной литературе в контексте историко-эстетического развития. В исследовании применяются архетипическая теория, сравнительно-литературный, структурно-семантический и культурно-исторический методы, что позволяет проследить трансформацию образа отца от мифологических представлений до классической, реалистической, модернистской и постмодернистской литературы. Установлено, что архетип отца изначально формировался как символ космического порядка и сакральной власти, а в дальнейшем эволюционировал в многослойную поэтическую модель, связанную с социальными нормами, патриархальной системой, личной идентичностью и психологическими конфликтами. В модернизме данный образ интерпретируется как знак кризиса традиционного авторитета, тогда как в постмодернизме он подвергается деконструкции и приобретает значение травматической памяти и фрагментарной идентичности. Результаты исследования системно раскрывают эволюцию архетипа «отца» и его социально-философские, психологические и культурные функции в художественном дискурсе.*

Ключевые слова: *архетип отца, генезис, художественная литература, мифологическое сознание, модернизм, постмодернизм, поэтический образ, идентичность.*

Makhmudov Islombek Muhiddin O'g'li
Andijan Branch of Kokand University, teacher

THE ARCHETYPE OF THE "FATHER" IN FICTION AND ITS GENESIS

Abstract: *This article presents a comprehensive analysis of the archetype of the "father" and its genesis in fiction within the framework of historical and aesthetic development. The study employs archetypal theory, comparative literary analysis, structural-semantic and cultural-historical methods to trace the transformation of the father figure from mythological representations to classical, realist, modernist and postmodern literary paradigms. The findings demonstrate that the father archetype initially emerged as a symbol of cosmic order and sacred authority and later evolved into a multilayered poetic model associated with social norms, patriarchal order, personal identity and psychological conflicts. In modernist literature, the father figure is interpreted as a marker of the crisis of traditional authority, whereas in postmodern texts it is deconstructed and reinterpreted as a sign of traumatic memory and fragmented*

identity. The study systematizes the evolutionary trajectory of the father archetype and substantiates its socio-philosophical, psychological and cultural semantic functions in literary discourse.

Keywords: *father archetype, genesis, fiction, mythological consciousness, modernism, postmodernism, poetic image, identity.*

Kirish

Insoniyat madaniy tafakkuri tarixida “ota” obrazi eng qadimiy va barqaror arxetiplardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat biologik ota timsolini, balki hokimiyat, tartib, an’ana, meros, qonun, ruhiy himoya va identitetni shakllantiruvchi kuch timsolini ham o‘zida mujassam etadi. Badiiy adabiyotda “ota” arxetipi mifologik qatlamlardan tortib zamonaviy postmodern matnlargacha evolyutsion taraqqiyotni bosib o‘tgan murakkab semantik tizimdir. Ushbu arxetipning genezisini o‘rganish adabiy obrazlar tizimidagi ma’naviy-psixologik transformatsiyalarni anglash, shuningdek, ijtimoiy ong va badiiy tafakkur o‘rtasidagi dialektik aloqalarni aniqlash uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

“Arxetip” tushunchasi psixoanalitik va madaniy-tarixiy yondashuvlarda insoniyat kollektiv ongsizligining universal ramziy modellarini ifodalash uchun qo‘llanadi. Ota arxetipi ana shu universal modellar orasida alohida o‘rin egallaydi. U dastlab ibtidoiy mifologik tafakkurda kosmik tartibni saqlovchi ilohiy kuch sifatida tasavvur etilgan bo‘lsa[6], keyinchalik epik asarlarda urug‘-qabila boshlig‘i, feodal jamiyatda patriarxal hokimiyat egasi, modernizm davrida esa inqirozga uchragan avtoritet sifatida talqin qilina boshlaydi Postmodernizmda esa “ota” obrazi dekonstruksiya qilinib, ko‘pincha yo‘qolgan, rad etilgan yoki travmatik xotira sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – badiiy adabiyotda “ota” arxetipining genezisini tarixiy-estetik taraqqiyot kontekstida ilmiy tahlil qilish, uning mifologik ildizlari, klassik adabiyotdagi shakllanishi hamda modern va postmodern bosqichlardagi semantik transformatsiyalarini aniqlashdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqotda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Birinchidan, qiyosiy-adabiy metod orqali turli davr adabiyotlaridagi “ota” obrazi o‘zaro solishtirildi. Ikkinchidan, arxetipik tahlil usuli yordamida mazkur obrazning mifologik va psixoanalitik ildizlari aniqlashtirildi[. Uchinchi metod sifatida struktur-semantik tahlil tanlanib, badiiy matnlarda “ota” timsolining poetik funksiyalari va semantik o‘zgarishlari o‘rganildi.

Shuningdek, madaniy-tarixiy yondashuv asosida ota arxetipining jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq evolyutsiyasi izohlandi. Tadqiqot materiali sifatida jahon adabiyotining turli davrlariga mansub epik, dramatik va roman janridagi asarlar nazariy jihatdan umumlashtirildi. Bunda muayyan asarlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtibos keltirishdan ko‘ra, ularning badiiy modeli va obrazlar tizimi konseptual tahlil qilindi, bu esa ilmiy mustaqillikni ta’minlashga xizmat qildi.

Metodologik asos sifatida arxetip nazariyasi, psixoanalitik yondashuv, madaniy semiotika hamda zamonaviy adabiyotshunoslikdagi interdisiplinar metodlar sintezidan foydalanildi. Mazkur yondashuv “ota” obrazining genezisini biryoqlama emas, balki ko‘p qatlamli madaniy fenomen sifatida talqin etish imkonini berdi.

Natijalar

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, badiiy adabiyotda “ota” arxetipi bir necha tarixiy bosqichlar asosida shakllangan. Dastlabki bosqichda ota arxetipi kosmogonik miflarda yaratuvchi va tartib o‘rnatuvchi ilohiy kuch sifatida talqin qilingan. Bu davrda “ota” – osmon, quyosh, hukmronlik va qonun timsoli bo‘lib, u kosmik ierarxiyani belgilovchi markaziy figuradir. Mifologik tafakkurda ota obrazining asosiy funksiyasi – dunyo tuzilishini muqaddas tartib asosida boshqarishdir.

Epik asarlarda ota obrazi urug‘, sulola va davlat ramziga aylanadi. U avlodlar davomiyligini ta’minlovchi patriarx sifatida tasvirlanadi. Klassik adabiyotda esa ota ko‘pincha axloqiy me’yor va ijtimoiy tartibning timsoli bo‘lib, farzand taqdirini belgilovchi muhim figura sifatida namoyon bo‘ladi. Bu bosqichda ota obrazi ijobiy, barqaror va normativ xarakterga ega.

Realistik adabiyotda ota arxetipi murakkablashadi. U endi faqat ideal hokimiyat timsoli emas, balki ijtimoiy muammolar va ma’naviy ziddiyatlar tashuvchisiga aylanadi. Realistik matnlarda otaning obrazida iqtisodiy qiyinchiliklar, ma’naviy mas’uliyat va shaxsiy fojiaviylik uyg‘unlashadi. Natijada ota obrazi idealizatsiyadan realistik psixologik portret darajasiga o‘tadi.

Modernizm davrida “ota” arxetipi keskin semantik transformatsiyani boshdan kechiradi. U an’anaviy avtoritetning yemirilishi, ruhiy begonalashuv va identitet inqirozi timsoliga aylanadi. Bu davr asarlarida ota ko‘pincha yo‘qolgan, tushunilmagan yoki rad etilgan figura sifatida talqin qilinadi. Shaxs va hokimiyat o‘rtasidagi konflikt modernistik poetikaning markaziy motivlaridan biri bo‘lib qoladi.

Postmodern adabiyotda ota arxetipi dekonstruksiya qilinadi. U endi yagona ma’no markazi emas, balki ko‘p qatlamli, paradoksal va ironik obraz sifatida tasvirlanadi. Ota timsoli ko‘pincha xotira fragmentlari, travmatik tajriba yoki

identitet izlanishlarining ramziy belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada “ota” arxetipi metaforik va psixologik semantik kengayishga uchraydi.

Natijalar umumlashtirilganda, ota arxetipining genezisi mifologik yaratuvchi kuchdan tortib postmodernistik travmatik ramzgacha bo‘lgan murakkab evolyutsiyani aks ettirishi aniqlandi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, “ota” arxetipi badiiy adabiyotda faqat oilaviy munosabatlar doirasida emas, balki keng ijtimoiy-falsafiy mazmunni ifodalaydi. U hokimiyat va tartib timsoli sifatida jamiyatning normativ tizimini, psixologik nuqtai nazardan esa shaxsiy identitetning shakllanish jarayonini belgilaydi.

Mifologik qatlamda ota kosmik tartibni ifodalasa, klassik adabiyotda u axloqiy ideal darajasiga ko‘tariladi. Realizmda bu ideal parchalanib, otaning ichki dramatizmi ochiladi. Modernizm esa ushbu arxetipni inqirozga uchragan avtoritet sifatida talqin qilib, shaxsiy erkinlik va an’anaviy tartib o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi. Postmodernizm esa otani yagona markazdan mahrum qilib, ko‘p ma’noli va fragmentar semantik tizimga aylantiradi.

Shuningdek, psixoanalitik nuqtai nazardan ota arxetipi shaxsning ruhiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. U ijtimoiy qonun, taqiqlar va me’yorlar tizimini ifodalab, individning ongiy va ongsiz qatlamlari o‘rtasidagi muvozanatni belgilaydi. Shu bois badiiy matnlarda ota obrazi ko‘pincha ichki konfliktlar, travmatik xotiralar va identitet izlanishlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi: har bir tarixiy davr ota arxetipiga o‘z ijtimoiy-madaniy talqinini yuklaydi. Patriarxal jamiyatlarda u hokimiyat va an’ana timsoli bo‘lsa, individualistik jamiyatlarda u ko‘proq psixologik muammo va avtoritet inqirozining ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu holat arxetipning o‘zgarmas emas, balki tarixiy kontekst bilan uzviy bog‘liq holda transformatsiyaga uchrashini ko‘rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari badiiy adabiyotda “ota” arxetipi chuqur tarixiy va madaniy ildizlarga ega universal obraz ekanligini tasdiqladi. Uning genezisi mifologik yaratuvchi kuch obrazidan boshlanib, klassik adabiyotda axloqiy ideal, realizmda psixologik murakkab shaxs, modernizmda inqirozga uchragan avtoritet, postmodernizmda esa dekonstruksiya qilingan travmatik ramz darajasigacha evolyutsion rivojlangan[3; 5; 6].

Shu tariqa, “ota” arxetipi badiiy tafakkur tarixida ijtimoiy hokimiyat, ma’naviy tartib, psixologik identitet va madaniy xotira kabi ko‘p qatlamli semantik funksiyalarni bajargan. Uning poetik talqini har bir davr estetikasi va mafkuraviy qarashlariga mos ravishda o‘zgarib borgan. Bu esa mazkur arxetipni adabiyotshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda “ota” arxetipining milliy adabiyotlar kesimidagi qiyosiy tahlili, shuningdek, gender va identitet nazariyalari bilan integratsiyalashgan holda o‘rganilishi muhim ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin. Mazkur maqola esa badiiy adabiyotda “ota” arxetipi genezisini kompleks ilmiy yondashuv asosida talqin qilishga qaratilgan konseptual modelni taklif etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jung, C. G. *The Archetypes and the Collective Unconscious*. Princeton: Princeton University Press, 1981.
2. Jung, C. G. *Symbols of Transformation*. Princeton: Princeton University Press, 1990.
3. Freud, S. *The Interpretation of Dreams*. New York: Basic Books, 2010.
4. Freud, S. *Totem and Taboo*. London: Routledge, 2001.
5. Lacan, J. *Écrits: A Selection*. London: Routledge, 2001.
6. Campbell, J. *The Hero with a Thousand Faces*. Novato: New World Library, 2008.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Nargiza Maxsudova Aslanbekovna
Kokand University Andijon filiali,
Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi
ORCID ID 0009-0003-4325-7789

KONSEPTLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINIDA KOGNITIV TILSHUNOSLIK YUTUQLARINI QO'LLASH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kognitiv tilshunoslik doirasida erishilgan ilmiy yutuqlarni konseptlarning leksikografik talqiniga tatbiq etish masalasi kompleks tarzda tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi hozirgi tilshunoslik paradigmasida ma'no va konseptni insonning bilish faoliyati, mental tuzilmalar, madaniy tajriba hamda pragmatik omillar bilan uzviy aloqadorlikda izohlash zarurati bilan belgilanadi. Maqolada konsept va lug'aviy ma'no o'rtasidagi munosabatlar kognitiv yondashuvlar asosida tahlil qilinib, ularning leksikografik ifodalanish imkoniyatlari yoritib beriladi. Tadqiqot jarayonida kognitiv tilshunoslikning yetakchi nazariyalari, xususan, prototipik kategorizatsiya nazariyasi, konseptual metafora, freym semantikasi, konseptual integratsiya hamda ideallashtirilgan kognitiv modellar nazariyalari tizimli ravishda ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *kognitiv tilshunoslik, leksikografiya, konsept, ma'no, prototiplar nazariyasi, konseptual metafora, freym semantikasi, konseptual integratsiya, kognitiv-pragmatik yondashuv, lug'at talqini*

Наргиза Махсудова Аслонбековна
Предподаватель Андижанского филиала Кокандского Университета Кафедры иностранных языков

ВОПРОС ПРИМЕНЕНИЯ ДОСТИЖЕНИЙ КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ КОНЦЕПТОВ

Аннотация: *В данной статье комплексно исследуется проблема применения научных достижений когнитивной лингвистики в лексикографической интерпретации концептов. Актуальность исследования определяется необходимостью интерпретации значения и концепта в рамках современной лингвистической парадигмы в неразрывной связи с познавательной деятельностью человека, ментальными структурами, культурным опытом и прагматическими факторами. В статье анализируются соотношения между концептом и лексическим значением с позиций когнитивных подходов, а также раскрываются возможности их лексикографического представления. В ходе исследования системно рассматриваются ведущие теории когнитивной лингвистики, в частности теория прототипической категоризации, теория концептуальной метафоры, фреймовая семантика, теория концептуальной интеграции, а также теория идеализированных когнитивных моделей.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, лексикография, концепт, значение, теория прототипов, концептуальная метафора, фреймовая семантика, концептуальная интеграция, когнитивно-прагматический подход, статья словаря*

Nargiza Maxsudova Aslonbekovna
Andijan branch Kokand University Teacher at the Department of Foreign Languages

THE APPLICATION OF COGNITIVE LINGUISTICS ACHIEVEMENTS IN THE LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF CONCEPTUAL MEANING.

Abstract*: This article provides a comprehensive analysis of the application of cognitive linguistics achievements to the lexicographic interpretation of concepts. The relevance of the study is determined by the necessity of interpreting meaning and concepts within the framework of contemporary linguistic paradigms, inextricably linked to human cognitive activity, mental structures, cultural experience, and pragmatic factors. The article examines the relationships between concepts and lexical meaning from the perspective of cognitive approaches and explores their potential for lexicographic representation. In the course of the study, the leading theories of cognitive linguistics are systematically considered, including prototype theory, conceptual metaphor theory, frame semantics, conceptual integration theory, and the theory of idealized cognitive models.*

Key words: *cognitive linguistics, lexicography, concept, meaning, prototype theory, conceptual metaphor, frame semantics, conceptual integration, cognitive-pragmatic approach, dictionary entry*

Kirish

Til – bu inson tafakkuri va bilish jarayonlarini aks ettiruvchi jonli, dinamik tizim. Shu sababli so‘nggi o‘n yilliklarda tilni idrok, xotira va fikrlash kabi aqliy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kognitiv mexanizm sifatida o‘rganadigan fanlararo soha bo‘lgan kognitiv tilshunoslikka qiziqish ortib bormoqda. Kognitiv tilshunoslikning yutuqlari leksikografiyada, lug‘atlarni tuzishda tobora ko‘proq qo‘llanmoqda.

Kognitologiya bilish, odamlarning dunyoni qanday qabul qilishi va kognitiv faoliyatda mazmunli ma’lumotlarning inson ongida muntazam ravishda saqlanib borishi bilan shug‘ullanadi. Ushbu ma’lumotlar mental jarayonlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Konsept, avvalo, u ongning konseptual jihatlarini, odamlar o‘zlari va dunyo haqida nimani tushunishlari, bu bilimlarni qanday egallashlari hamda ulardan amaliy foydalanishlarini o‘rganadi

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Amerika kognitiv tilshunosligining taniqli arbobi N.Xomskiyning fikricha, tilning tuzilishini o‘rganish inson ongi haqidagi tushunchamizni yaxshilashi mumkin. Bu g‘oya tilni inson ongiga oyna deb hisoblaydigan kognitiv tilshunoslikning asosiy tamoyiliga aylandi. Til tuzilmalari mental, kognitiv modellar, tasvir sxemalari kabi mental tasavvurlarni baholash uchun ishlatiladi.

Tilshunoslikning so‘nggi yutuqlari shuni ko‘rsatadiki, lingvistik tuzilish o‘z-o‘zidan emas, balki tabiiy tilda aks ettirilgan kognitiv tuzilmalar tomonidan shakllantiriladi.

Konsept va ma’no o‘rtasidagi munosabatni hisobga olgan holda, Ye.S.Kubryakova ma’no ramz (belgi) yordamida yetkaziladigan tushuncha ekanligini ta’kidlaydi. Biroq konseptning o‘zi har doim ham ma’lum bir so‘z yoki boshqa lingvistik ifoda shakllari bilan bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Ongda noverbal ko‘plab konseptlar mavjud. Konseptning ko‘plab nominatsiyalari (nomlanishlari) uning dolzarbligini ko‘rsatadi. Ye.S.Kubryakovaning ta’kidlashicha, eng muhim konseptlar tilda ifoda topadi. Konseptlar leksik, frazeologik yoki sintaktik kabi turli yo‘llar bilan shakllantirilishi va yangilanishi mumkin.[4.] Akademik D.S.Lixachevning so‘zlariga ko‘ra, konseptlar ongda til tajribasiga javoban paydo bo‘lib, konseptual tuzilma sifatida shaxsning so‘z boyligi va tasavvur qilish imkoniyatlarini ta’kidlaydi.[5].

Konsept ham, ma’no ham voqelikni ong bilan aks ettirish natijasida paydo bo‘ladigan kognitiv hodisalardir. Konsept va ma’no o‘rtasidagi farq kognitiv hamjamiyatda keng muhokama qilingan. Ba’zi olimlarning ta’kidlashicha, konseptlar yuqori sub’yektlar bilan bog‘liq bo‘lgan etnomadaniy o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan bilim birliklari sanaladi. Yu.A.Sterninning fikricha, konsept – bu shaxs aqliy kodining asosiy birligini ifodalovchi, ichki tuzilgan va obyekt yoki hodisa haqida ensiklopedik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan diskret mental shakllanish.

I.A.Sternin ma’no va konseptni ajratadi. Lug‘at ta’rifini konseptdan ajratish oson, chunki lug‘at ta’rifi so‘zning turli xil ishlatilishidan olingan soddalashtirilgan tasvirdir, konsept esa muhim xususiyatlarni o‘z ichiga olgan murakkab tuzilmadir. Biroq ongda mavjud bo‘lgan semantik komponentlarni qamrab oladigan va inson tajribasini aks ettiruvchi lug‘at ta’rifidan tashqariga chiqadigan psixologik haqiqiy ma’noni ko‘rib chiqayotganda uni konseptdan ajratish qiyin vazifaga aylanadi. Sternin konseptni ham, psixologik jihatdan haqiqiy ma’noni ham testlar, introspektsiya va eksperimental kabi umumiy usullar yordamida tushunish mumkin, degan xulosaga keladi.

Kognitiv fan sohasida asosiy e’tibor nafaqat kuzatilgan harakatlarni, balki ularning ichki tasavvurlarini yoki mental modellarini ham o‘rganishga qaratilgan. 1970-1980 yillarda paydo bo‘lgan deb hisoblanadigan ushbu ilmiy paradigma ko‘pincha Qo‘shma Shtatlarda “kognitiv grammatika” va Rossiyada “kognitiv semantika” deb nomlanadi, bu tadqiqot manbasining turli jihatlarini aks ettiradi.

Mental jarayonlarni hisobga olgan holda kognitiv tilshunoslikda markaziy tushuncha va o‘rganish obyekti konseptdir.

Tilshunoslikda keng qo‘llanadigan konseptologiya zamonaviy tilshunoslik fanining jadal rivojlanayotgan sohasidir.

Kognitiv tilshunoslik sezilarli ta’sir ko‘rsatgan sohalardan biri bu leksikografiya va lug‘atlarda konseptlarni talqin qilishdir.

Anglashiladiki, konsept kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, til, fikrlash va inson tajribasi o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishga imkon beradi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: 1. Tilni bilimdan ajratib bo‘lmaydi. 2. Til strukturalari inson tajribasi va ongi tomonidan shakllantirib boriladi. 3. Ma’no hissiy tajriba asosida quriladi. 4. Til kategoriyalari “xiralashgan” prototipik tuzilishga ega.

Kognitiv tilshunoslikning leksikografiyaga ta’siri quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. So‘z ma’nolarida hissiy va madaniy tajribani aks ettirish.
2. Tasniflashga prototipik yondashuv.
3. Lug‘at ta’riflarining entsiklopedik tabiati.

4. Ko‘p o‘lchovli leksik ma’no.

Lug‘at ta’rifida leksemaning obyektiv, entsiklopedik ma’nosi beriladi. Biroq zamonaviy kognitiv nazariyalar shuni ko‘rsatadiki, insonning sub’yektiv tajribasini, uning tashqi dunyo bilan o‘zaro ta’sirini, madaniy va ijtimoiy omillarni hisobga olmasdan so‘zlarning ma’nosini tushunish mumkin emas.

Kognitiv tilshunoslik yutuqlarini qo‘llash konseptlarni leksikografik talqin qilish uchun yangi istiqbollarni ochadi. Zamonaviy lug‘atlar tobora ko‘proq an’anaviy ta’riflaridan tashqari semantik o‘zgarishlarning boyligini, madaniy ma’nolarni va ma’nolarning kontekstual o‘zgaruvchanligini har tomonlama aks ettirishga intiladi. Bu inson ongining mental tuzilmalariga chuqurroq kirib borish va tilning leksik tizimini tavsiflash uchun aniqroq, keng qamrovli vositani yaratish imkonini beradi.

Nemis tilshunosi Dirk Gerarts leksikografiyada kognitiv yondashuvlarni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. U konseptual tuzilma va prototipik modellar asosida ta’riflar berish metodologiyasini ishlab chiqdi. Shuningdek, u majoziy ma’nolarning motivatsiyasini yaxshiroq tushunishga hissa qo‘shadigan konseptual metaforalarni qayta tiklashga alohida e’tibor berdi.

Kognitiv fanning muhim yutug‘i – Dj.Lakoff va M.Jonsonning konseptual metafora nazariyasi. Olimlarning fikricha, mavhum konseptlar ko‘pincha metaforalar orqali aniqroq tushuniladi (masalan, vaqt – pul). Bunday metaforalarni tahlil qilish til egalarining konseptual tizimiga chuqurroq kirib borish va lug‘atlarda ma’no bo‘yoqlarini aniqroq tasvirlash imkonini beradi.

Inson tafakkurining metaforikligi haqidagi ilk g‘oyalar Jorj Lakoff va Mark Jonsonning mashhur “Метафоры, которымы мы живём.” (“Biz yashayotgan metaforalar”) asarida ifodalangan. Olimlar shuni ko‘rsatdiki, mavhum konseptlar ko‘pincha metafora tizimi orqali ifodalanadi, ularning manbai insonning tana, hissiy tajribasi hisoblanadi. Konseptual metaforalarni hisobga olish leksikograflarga ko‘plab leksik ma’nolarning ichki shakli va ta’sirini aniqroq tasvirlashga imkon beradi.

Metaforik va metonimik yangi ma’nolar paydo bo‘lishi konseptual integratsiya nazariyasining asosini tashkil etilishi Jillem Fokonьye va Mark Terner tomonidan ishlab chiqilgan.

Kognitiv fanda ma’no aloqa jarayonida paydo bo‘ladigan va kontekstga bog‘liq bo‘lgan dinamik, harakatchan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu situatsion va pragmatik omillarni hisobga olgan holda so‘zlarning haqiqiy nutqda ishlatilishini tahlil qilishga imkon beradigan leksikografiyaning korpus usullarida aks etadi.

Ushbu yondashuvning prototiplar nazariyasini birinchilardan bo‘lib taklif qilgan amerikalik tilshunos Eleanor Rosh edi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, kategoriyalar aniq chegaralarga ega bo‘lmasa-da, lekin odatiy prototip misollari atrofida tashkil etiladi. Ushbu konseptsiya so‘zni ishlatishning yadroviy, prototipik holatlari atrofida shakllangan moslashuvchan, erkin ifodaga yangicha qarashga imkon beradi. Anglashiladiki, so‘zning ma’nosi uni ishlatishning eng xarakterli holatlari asosida shakllanadi.

Kommunikatsiya jarayonida yuzaga keladigan dinamik hodisa sifatida ma’no g‘oyasi leksikografiyaning korpus usullarida aks etadi.

Zamonaviy leksikografiyada pragmatik omillarga va ma’noni shakllantirishda kontekstning roliga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Kognitiv-pragmatik nazariyalarning rivojlanishi lug‘at ta’riflarida so‘zlardan foydalanishning pragmatik jihatlarini hisobga olish uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Bunday jihatlarga kommunikativ ma’lumotlar, pragmatik taxminlar va implikaturalar, kommunikativ vaziyat omillari, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy mavqe va boshqalar haqidagi ma’lumotlar kiradi. Pragmatik tarkibiy qismlarning talqinlarga kiritilishi muloqotda ma’nolarni qurish va talqin qilish jarayonlarini yanada aniqroq aks ettirishga yordam beradi.

Kognitiv leksikografiya bo‘yicha yetakchi mutaxassislardan biri belgiyalik tilshunos Dirk Giydir. U ma’nolarni internet manbalari orqali ifodalash va semantik o‘zgarishlar zanjirlari orqali ular orasidagi aloqalarni aniqlash texnikasini ishlab chiqdi .

Rossiya olimlari V.Z.Demyankov va Yu.D.Apresyan leksikografik talqinning kognitiv tamoyillarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi.

Konseptual metaforalarni diaxronik o‘rganish va ularning semantik hosiladagi roli samarali maydon hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metafora modellari ko‘pincha diaxronik jihatdan barqaror va ko‘p asrlar davomida yagona konseptual tizim ichida yangi olingan ma’nolarni yaratishi mumkin. Metaforalarning tarixiy evolyutsiyasini qayta qurish lug‘at maqolalarida ko‘p ma’nolilikni aniqroq tasvirlashga imkon beradi.

Natija va muhokamalar

An’anaviy ta’riflardan tashqari lug‘at maqolalarida so‘z uchraydigan tipik kontekstlarning tavsiflari, haqiqiy nutqdan illyustrativ misollar, madaniy assotsiatsiyalarning ko‘rsatmalari va metaforik ifodalar bo‘lishi mumkin. Korpus tilshunosligi usullaridan foydalangan holda leksikograflar turli nutq vaziyatlarida so‘zlarning chastotasini, ularning birikmalarini va semantik afzalliklarini o‘rganadilar.

Kognitiv tilshunoslik g‘oyalari va usullarini qo‘llash konseptlarni leksikografik talqin qilish uchun yangi ufqlarni ochadi. Zamonaviy lug‘atlar so‘zning kognitiv makonining ko‘p o‘lchovliligini, shu jumladan, prototipik foydalanish kontekstlarini, metaforik modellarni va voqelikni tasniflash hamda konseptsiyalashning madaniy jihatdan o‘ziga xos usullarini aks ettirishga intiladi. Bu tilning leksik birliklarining yanada nozik va adekvat semantik obrazlarini yaratishga imkon beradi.

Ko‘rinadiki, leksikografiyadagi kognitiv yondashuv yangi uslubiy vositalarni taklif etadi va shaxsning sub’yektiv tajribasini, bilimlarini, pragmatik omillarni, konseptual integratsiya jarayonlarini, nutqning o‘zaro ta’sirida ma’nolarning dinamik qurilishini ta’kidlab, an’anaviy semasiologiyani chuqurlashtiradi. Bu lingvistik iboralar semantikasining murakkabligi va ko‘p qirraliligini aks ettiruvchi yanada adekvat hamda batafsil leksikografik tavsiflarni yaratish istiqbollarini ochadi.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda leksikografiyaga korpus-kognitiv yondashuv faol rivojlanmoqda, korpusni tahlil qilish usullarini kognitiv modellarni aniqlash uchun introspektiv protseduralar bilan birlashtirmoqda. Empirik ma’lumotlar konseptual modellashtirish natijalari bilan to‘ldiriladi, bu talqinni qimmatli ma’lumotlar bilan boyitadi.

Kognitiv-pragmatik yo‘nalish pragmatik omillarni leksikografik tavsiflarga kiritishga alohida e’tibor beradi. Unda kommunikativ kontekstning roli, ma’ruzachilarning niyatlari va implikaturalari, aloqa ishtirokchilarining ijtimoiy xususiyatlari va so‘zning ma’nosini qurish, talqin qilishga ta’sir qiluvchi boshqa pragmatik parametrlar kabi jihatlar hisobga olinadi.

Muayyan qiyinchiliklarga qaramay, kognitiv tilshunoslik leksikografik amaliyot uchun yangi ufqlarni ochadi. Uning tamoyillari insonning dunyoni bilish tajribasining yaxlitligini aks ettiruvchi lingvistik ma’nolarning mohiyatiga chuqurroq kirib borishga imkon beradi.

Insonning konseptual tuzilmalari, madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda, haqiqiy kognitiv jarayonlarga iloji boricha yaqinroq bo‘lgan yangi avlodning leksikografik manbalarini yaratishga imkon beradi.

Konseptlarni tavsiflash uchun foydalaniladigan kognitiv tilshunoslikning yutuqlarini tahlil qilsak:

1. Prototipik yondashuv. Kognitiv tilshunoslikning markaziy tamoyillaridan biri bu chegaralari “xiralashgan” konseptual toifalarning prototipik tashkil etilishini tan olishdir. An’anaga ko‘ra, lug‘at ta’riflari kategoriyalarni aniq chegaralovchi umumiy muhim xususiyatlarni izlashga asoslangan edi. Biroq kognitiv soha olimlari kategoriyalar prototipik namunalar atrofida joylashtirilganligini va qolgan kategoriya a’zolari prototipga turli darajadagi o‘xshashliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Masalan, “qushlar” konsepti uchun eng prototipik vakillar chumchuq, kaptar, kaklik va boshqalar. Periferik a’zolar (tuyaqush, pingvin) prototipga kamroq ega. Lug‘atda konseptning prototipik yadrosi dastlabki lug‘at talqini bo‘lib, so‘ngra ushbu toifaga tegishli referentlarning butun to‘plamini qamrab olish uchun periferiyadagi kengaytmalar tushuntiriladi.

2. Konseptual metafora nazariyasi. Kognitiv semantikaning eng muhim yutuqlaridan biri bu Dj.Lakoff va M.Jonsonning konseptual metafora nazariyasidir.

3. Freym semantikasi. Murakkab tuzilishga ega konseptlar stereotipik vaziyatlarni va ularning ishtirokchilarini, sabab-oqibat munosabatlarini hamda boshqa xususiyatlarni aks ettiruvchi bilim freymlari – tuzilmalari orqali ifodalanishi mumkin. Konseptning ramka tahlili uning asosiy tarkibiy komponentlarini – ishtirokchilar, tarkibiy qismlar, tsiklik jarayonlar va boshqalarni aniqlashga imkon beradi. Masalan, *saylov* konseptining freym tavsifi:

Qatnashuvchilvr: saylovchilar, nomzodlar, saylov komissiyalari va boshqalar.

Komponentlar: nomzodlarni ro‘yxatga olish, saylovoldi tashviqoti, ovoz berish, ovozlarni hisoblash.

Vaqt: saylovoldi davri, saylov kuni, saylovdan keyingi davr.

Manzil: saylov uchastkalari.

Tadbirlar ketma-ketligi: nominatsiya - > tashviqot - > ovoz berish - > hisoblash - > natijalarni e’lon qilish.

4. Konseptual integratsiya. J.Fakonьye va M.Terner tomonidan konseptual integratsiya nazariyasi turli konseptual sohalardagi tuzilmalarni mental maydonga ulash mexanizmini tavsiflaydi. Ushbu mexanizm ko‘plab leksik ma’nolar, ayniqsa majoziy va idiomatik iboralar asosida yotadi.

5. Ideallashtirilgan kognitiv modellar nazariyasi. Dj.Lakoffning kognitiv modellar nazariyasi tomonidan ilgari surilgan dunyoni konseptualizatsiya qilish asosida ideallashtirilgan tasvir va obrazlar tasvirlangan.

Kognitiv-lingvistik yutuqlar so‘z va iboralarning ma’nosini chuqurroq tushunish uchun konseptlarni leksikografik talqin qilishda qo‘llaniladi. Masalan, “do‘stlik” konsepti tahlil qilinganda, u bog‘liq asosiy assotsiatsiya va metaforalarni aniqlash uchun kognitiv usullardan foydalaniladi. “Do‘stlik – rishta” ifodasida kognitiv tahlil do‘stlik ko‘pincha odamlarni birlashtiradigan narsa bilan bog‘liqligini va ular o‘rtasida qandaydir aloqani yaratishini aniqlashga yordam beradi. Ushbu tahlil leksikograflarga berilgan iboraning ma’nosini va uning turli kontekstlarda ishlatilishini aniqroq tasvirlashga imkon beradi.

Leksikografiyada kognitiv-lingvistik usullarni qo‘llashning yana bir misoli metaforik iboralarni tahlil qilishdir. Agar “vaqt – pul” metaforasi kognitiv tahlil qilinsa, bu metaforada vaqt pul bilan bog‘liq bo‘lib, bu vaqtni sarflash yoki

investitsiya qilish mumkin bo‘lgan qimmatli manba sifatida tushunishga yordam beradi, shuningdek, nutqda “vaqtni behuda sarflash”, “vaqtni tejash” va hokazo iboralarni qo‘llab, ma’lum pragmatik maqsadni ifoda etishni ta’minlaydi.

Leksikograflar ushbu tahlildan tildagi metaforik iboralarning ma’nolari va ishlatilishini aniqroq tasvirlash, shuningdek, ushbu konseptlar bilan qanday assotsiatsiyalar bog‘liqligini tushunish uchun foydalanishlari mumkin.

Leksikografik yechimlarga quyidagi yondashuvlarni taklif etish mumkin:

1. Metaforik ma’nolarni ifodalash (“etak” – “ko‘ylakning etagi”, “tog‘ etagi”).

2. Prototiplar asosida kategoriyalash (“qush”: yadro – chumchuq, kaptar; periferiya – pingvin, tuyaqush).

3. Hodisa nomlarini tavsiflash uchun freym-stsenariy tahlili (“tushlik” – ishtirokchilar, joy, vaqt, harakatlar ketma-ketligi).

4. Mavhum tushunchalar uchun konseptual metafora (“sevgi” – “sevgi – bu sayohat”, sevgi – bu hayot).

Xulosa

Ko‘rinadiki, kognitiv tilshunoslik leksikografik amaliyotda lingvistik ma’nolarni eng to‘liq va adekvat ifodalash uchun yangi uslubiy vositalarni taklif etadi. Prototipik kategorizatsiya va konseptualizatsiya lug‘at ta’riflarini boyitadi, ularni foydalanuvchilar uchun yanada ishonchli va ma’lumotga boy qiladi.

Leksikografiyada kognitiv yondashuvning muammolari va istiqbollari quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Kognitiv modellarni rasmiylashtirishning murakkabligi. Konseptlarni tavsiflash uchun yagona universal sxemalarni yaratishdagi qiyinchiliklar.

2. Noaniq kategoriyadagi chegaralarni ifodalash muammosi.

3. Entsiklopedik ma’lumotlar hajmi. To‘liq tavsif fonida haddan tashqari tafsilotlar ko‘pligining xavfi bo‘lishi mumkin. Lingvistik va entsiklopedik ma’lumotlarning maqbul muvozanatini izlash qiyinchilik tug‘diradi.

Konseptlarni leksikografik tasvirlashning taklif etilayotgan parametrlari yangi avlod lug‘atlarida leksik ma’noning to‘liq va ko‘p o‘lchovli ko‘rinishini ta’minlash uchun mo‘ljallangan. Turli uslubiy yondashuvlarning kombinatsiyasi konseptning qirralarini birlashtirgan kompleks modelini yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Хомский Н. Язык и мышление. – М., 1972. – 126 с.

2. Fauconnier G. Methods and Generalizations // Th. Janssen, G. Redeker (eds). Cognitive Linguistics: Foundations, Scope, and Methodology. Berlin, N.Y.: Mouton de Gruyter, 1999. – P. 95-127.

3. Кибрик А.Е. Лингвистическая реконструкция когнитивной структуры // Вопросы языкознания. 2008. № 4. – С. 51-77.

4. Кубрякова Е.С. Семантика в когнитивной лингвистике (о концепте контейнера и формах его объективации в языке) // Известия АН. Серия литературы и языка. 1999. № 5-6. – С. 3-12.

5. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность: Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 28-37.

6. Стернин И.А. Типы значений и концепт // Концептуальное пространство языка: сборник научных трудов. Посвящается юбилею профессора Николая Николаевича Болдырева / под ред. Е.С.Кубряковой. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2005. – С. 257-282.

7. Чалова Л.В. Концепт как объект исследования когнитивной лингвистики // Альманах современной науки и образования. – Тамбов: Грамота, 2007. № 3 (3): в 3-х ч. Ч. I. – С. 244-245.

8. Kövecses Z. Where Metaphors Come From: Reconsidering Context in Metaphor. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 232 p.

9. Kövecses Z. Where Metaphors Come From: Reconsidering Context in Metaphor. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 232 p.

10. Kövecses Z. Where Metaphors Come From: Reconsidering Context in Metaphor. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 232 p.

11. Gries S.T., Stefanowitsch A. (Eds.). Corpora in cognitive linguistics: corpus-based approaches to syntax and lexis. Berlin: Mouton de Gruyter, 2007. – 352 p.

12. Kecskes, I. What is pragmatics interested in?. In C. Chapelle (Ed.), The Encyclopedia of Applied Linguistics. Oxford: Wiley-Blackwell. – 2013. – 621-624 p.

13. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – М: Едиториал УРСС, **2004.** – 256 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Mavlanova Oybarchin Sheraliyevna
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Mustaqil izlanuvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SIMPATIYA VA EMPATIYA TUSHUNCHALARINING NUTQIY VOQEALANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida simpatiya va empatiya tushunchalarining nutqiy voqealanishi psixolingvistik va pragmalingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda simpatiyaning ekspressiv nutq akti sifatidagi xususiyatlari, uning verbal va noverbal ifodalanish vositalari hamda illokutiv va perlokutiv jihatlari yoritiladi. Shuningdek, simpatiyaning kognitiv va emotsional mexanizmlari ingliz va o'zbek adabiy matnlari asosida qiyosiy tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *simpatiya, empatiya, nutqiy faoliyat, ekspressiv nutq akti, psixolingvistika, pragmalingvistika*

Мавланова Ойбарчин Шералиевна
Национальный университет имени Мирзо Улугбека в Узбекистане Независимый исследователь

РЕЧЕСКАЯ ЧАСТОТА ПОНЯТИЙ СОЧУВСТВИЯ И ЭМПАТИИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКИСТАНСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье анализируется речевая частота встречаемости понятий сочувствия и эмпатии в английском и узбекском языках на основе психолингвистического и прагмалингвистического подхода. В исследовании освещаются особенности сочувствия как выразительного речевого акта, его вербальные и невербальные средства выражения, а также иллокутивные и перлокутивные аспекты. Кроме того, когнитивные и эмоциональные механизмы сочувствия анализируются сравнительно на основе английской и узбекской литературных текстов.*

Ключевые слова*: сочувствие, эмпатия, речевая деятельность, выразительный речевой акт, психолингвистика, прагмалингвистика*

Mavlanova Oybarchin Sheraliyevna
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan Independent researcher


SPEECH OCCURRENCE OF THE CONCEPTS OF SYMPATHY AND EMPATHY IN ENGLISH AND UZBEKISTAN

Annotation. *This article analyzes the speech occurrence of the concepts of sympathy and empathy in English and Uzbek based on a psycholinguistic and pragmalinguistic approach. The study highlights the features of sympathy as an expressive speech act, its verbal and nonverbal means of expression, and illocutionary and perlocutionary aspects. Also, the cognitive and emotional mechanisms of sympathy are analyzed comparatively based on English and Uzbek literary texts.*

Keywords: *sympathy, empathy, speech activity, expressive speech act, psycholinguistics, pragmalinguistics*

Kirish

Tilshunoslik nafaqat lisoniy masalalar bilan balki individning psixologik o'ziga xosligi, harakteri ya'ni uning nutqini ham tadqiq etadi. Bunda so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarning muayyan vaziyatlardagi ahamiyati o'rinlidir.



Til va millat, til va xalq, til va shaxs, til va tafakkur, til va jamiyat kabi tushunchalar bir-biridan ajralmas, bir-biriga ma'no jihatdan bog 'langan bo 'lish bilan birlikda, bir-birini boyitib, to 'ldirib boruvchi hodisalardir. Kishilar til yordamida fikr almashadilar. Til tafakkur bilan chambarchas bog 'liq bo 'lib, fikrni moddiylashtiradigan, reallashtiradigan vositadir. Tafakkur inson oliy nerv sistemasinning faoliyati bo 'lib, tilda o 'z ifodasini topadi. Uning moddiy qobig'i tildir.[2]

Til va millat bir-biri bila chuqur bog'langan, chunki til millatning o'ligini saqlash va namoyish qilish vositasi hisoblanadi. Ya'ni millatni millat, elat qiladigan bu tildir. Agar ma'lum bir millatning tili yo'qolsa, bu shu millatning yo'q bo'lib ketishiga, millat sifatida unutilishiga olib keladi.

Til xalqni birlashtiradi va o'zaro aloqa qilish imkonini beradi. Ma'lum bir xalqqa oid bo'lgan tarixiy xotiralar, urf-odatlar, marosimlar, qo'shiqlar yoki qadriyatlar til orqali avloddan-avlodga o'tib, uning yagona, o'ziga xos ekanligini ta'minlab beradi. Misol uchun "Alpomish" dostonini olsak, bu doston o'zbek tilida yozilgan bo'lib, o'zbek xalqining ma'naviy merosi hisoblanadi.

Inson o'z fikrlarini ifoda etish orqali tilni shakllantiradi. Til orqali inson o'z-o'zini ifoda qiladi, madaniyatini, emotsiyalarni ma'lum bir ohang, intonatsiya, so'z tanlashi va uslubi bilan ifoda etadi va shaxsiyatini namoyon qiladi. Bularning hammasi insonning qaysi tilli millatga, xalqga tegishli ekanligini aks ettiradi.

Til va tafakkur uyg'unligini biz tilsiz fikrni ifoda etib bo'lmaganidek, tafakkursiz ham til ifoda jihatini shakllantirib bo'lmaydi. So'zlashimizdan avval tafakkur qilishimiz xotiramizda ma'lum kerakli so'zlarni tanlab, ularni sintaktik, morfologik ham fonetik jihatini idrok qilib keyin ularni nutqimizda ifoda etamiz. Shuni ham unutmaslik kerakki, til va tafakkur bir-biriga bog'liq ammo ayni bir hodisa emas.

Til ijtimoiy harakterga ega. Til jamiyatda ro'y berayotgan hodisalar, voqealar bilan uzviy bog'liq chunki jamiyatda sodir bo'lgan har bir o'zgarish tilning taraqqiyotida ma'lum iz qoldiradi. Jamiyat tilning yashashini, taraqqiy etishini belgilab beruvchidir.

Shuningdek, til va tafakkur masalalari bir xil bo'lmasa-da, bu ikki hodisa bir-biriga ta'sir qila olmaydi degani emas. Tilning asosiy vazifalaridan biri fikrimizni ifodalashdir va biz so'zlashayotgan til ham bizning dunyo haqidagi fikrlashimizga va idrok qilishimizga ta'sir qiladi. Demak bundan ko'rinib turibdiki, til va idrok jarayoni alohida ammo bir-biriga bog'liq jarayonlar ekan. Tadqiqot ishimiz obyekti hisoblangan simpatiya tushunchasi avvalo tilshunoslikka psixologiya va falsafa kabi sohalardan kirib kelganligi uchun, biz uni eng birinchi psxilogik tushuncha sifatida tushunamiz va keyin uni lisoniy jihatlarini o'rganamiz. Shu boisdan, simpatiya tushunchasini tilshunoslik sohasi bilan bog'lab o'rganishda, uni tilshunoslikning inson nutq faoliyati, ruhiyati va nutq faoliyatining egasi hisoblangan inson, til egasi bilan bog'lab o'rganuvchi sohasi psixolingvistika bilan chambarchas tadqiq etish va simpatiyaning nutqiy voqealinishiga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Usmanova Sh. "Psxolingvistika" kitobida P. Fressni quyidagi ta'rifini keltiradi "til orali taqdim etiladigan bizning ekspressiv va kommunikativ ehtiyojlarimiz va vostalarimiz o'rtasidagi munosabatlar haqidagi fan."[3] Mashxur shvetsariyalik tilshunos Sh. Balli izlanishlarida affektiv nutq holatini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. Olim affektiv nutq holatini yuzaga kelishida ma'lum maqsad yotadi deydi. Bular:

1. so 'zlovchining his-tuyg 'usi, kayfiyatini ifodalash hamda ma'lum qilinayotgan axborotga baho berish;
2. muloqot ishtirokchilariga ta'sir o'tkazish maqsadida ma'lum turdagi lisoniy vositalardan foydalanish.[4]

Psixolingvistikani ba'zi adabiyotlarda *nutqiy faoliyat* tushunchasi bilan ham bir xil o'rinda ishlatishadi. Nutqiy faoliyat aniq bir maqsadga qaratilgan, lison vositasida amalga oshiriladigan muloqot jarayoni hisoblanadi. Shuningdek, til – ijtimoy, nutq individual hisoblanadi. Ya'ni til –umumiy, nutq esa xoslangan bo'ladi. Nutqiy faoliyat shaxslararo o'zaro muloqotda yuzaga keladi. Bunda nutqiy vaziyat, nutq maqsadi kabi hodisalar muhim o'rin egallaydi. Nutqiy faoliyatda


[2] Nasirova G.M. Psixolingvistik tadqiqotlar ahamiyatining dolzarbligi. Volume 1, Issue 1, 2022. – B. 211.
[3] Usmanova Sh. Psixolingvistika. Toshkent, Universitet, 2014. – b 5.
[4] Nasirova G.M. Psixolingvistik tadqiqotlar ahamiyatining dolzarbligi. Volume 1, Issue 1, 2022. – B. 210.

so’zlovchi va tinglovchi o’rtasidagi aloqa, so’zlashuv nutqiy tugallanganlikni ya’ni kommunikativ maqsadga erishilganlikni belgilaydi. Nutqiy faoliyatda o’sha faoliyatni amalga oshiradigan inson omili birinchi o’ringa qo’yiladi. Bunda albatta antroposentrik paradigmlarni hisobga olgan holda tadqiqot amalga oshiriladi.

Antroposentrik paradigmlarni yuzaga kelishini Sh. Safarovning “Pragmalingvistika” nomli kitobida quyidagicha tavsiflanadi: “Sistem-struktur paradigma o‘zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning “atomistik”, ya’ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf etish yo‘lini tutdi. Sistem-struktur yo‘nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma’lum bo‘ldi: bu yo‘nalishlarda til o‘z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo‘ldi.”[5]

Metodologiya. Nutqiy faoliyat bosqichli strukturadan tashkil topgan. Bular *qo‘zg‘atuvchi motivatsion, yo‘naltiruvchi tadqiqot* va *ijro* kabi uch bosqichlar hisoblanadi. Ushbu bosqichlarda birinchisida *nutqiy niyat*(intention) ikkinchisida ongli harakat (action) va uchinchisida nutqiy ifodalarni *amalga oshirish* asosiy o’rin egallaydi.

Nutqiy faoliyat murakkab psixologik mexanizmlardan tashkil topgan va bu mexanizmlar orqali his-tuyg’ularni quyidagicha idrok etish mumkin.[6]



Natija. Bu mexanizmlarni ushbu keltirilgan misol yordamida ko’radigan bo’lsak:

The doctor spread his delicate fingers on the cap he held and smiled. “Youare in such a hurry to get back to the front?”

“Why not?”

“It is very beautiful,” he said.“You are a noble young man.” He stooped over and kissed me very delicately on the forehead. “I will send for Valentini. Do not worry and excite yourself. Be a good boy.”

Yuqoridagi gapda keltirilgan jumladan doktorning bemoriga nisbatan qanday qilib simpatiyasini ifodalagani va kognitiv jarayonning simpatiyani nutqda ifoda etishdagi rolini ko’rishimiz mumkin. Doktor bemor yigitning frontga qaytish istagini uning tashvishlanishidan va bezovtaligidan sezadi va bu idrok qilish(perception) jarayoni doktor uchun bemoriga simpatiya bildirishni yuzaga keltiradi. Natijada doktor bemoriga *“Youare in such a hurry to get back to the front?”* deb bergan savoli, u askarning urushga borish ishtiyoqini va tashvishlangan holatini tushunganini ko’rsatadi. Bundan tashqari, doktorning jismoniy harakatlari (fingers on the cap, smile, kiss the forehead) ham simpatiyani ifoda etishdagi dastlabki hissiy belgilar hisoblanadi (emotional cues).


Nutqni xotirada tutish(memory) ham nutqni anglashdan qolishmaydi. Simpatiya talqinida xotira individlarga o’tmishda boshidan kechirganlarini eslash va bu asosida kishilarning hozirgi holatini baholash, tushunish va ular bilan hissiyotlarini bo’lishish bilimini beradi. Nuqtda uning predmetining aks etishi, ya’ni borliqdagi u yoki bu hodisani – inson hotirasidagi bilimlari va atrofini o’rab olgan dunyo haqidagi tasavvurlarining faollashuvisiz mavjud bo’lishi mumkin emas.[7] Ushbu mexanizmni yuqoridagi holat asosida ko’radigan bo’lsak, doktorning askarni xotirjam qilishi va uni tinchlantirishga urinishi, doctor avval ham bu kabi hissiy holatni(yupatishni) boshqa bemorlar yoki harbiylar bilan boshidan kechirganini bildiradi. Bu holat doctor bilan birinchi marta sodir bo’layotgani yo’q va bu emotsional vaziyat uning xotirasida mavjud. Nutqni oldindan aytish (prediction) hali to’liq tadqiq etilmagan mexanizm hisoblanadi.

[5] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent. “O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2008. – B. 35.

[6] Usmanova Sh. Psixolingvistika. Toshkent, Universitet, 2014. – B 44.

[7] Yuqoridagi manba. – B. 45

Inson muloqoti ko'pincha nutq orqali sodir bo'ladi, shuning uchun nutq jarayonini tushunish (so'zlashuv) va anglash insonning til qobiliyatlarini tushunish uchun asos yaratadi. Nutqni ishlab chiqarish haqida bir qancha nazariyalar mavjud. Shulardan Matthew J. Traxlerning fikriga ko'ra, nutqiy faoliyatini vujudga keltirish uchun kamida ushbu uchta aqliy jarayon kerak bo'ladi.[8]



Demak, *conceptualization* (konseptuallashtirish)– siz avvalo nima deyish haqida o'ylashingiz kerak bo'ladi va albatta biron-bir g'oya yoki tushuncha, fikr haqida o'ylaganingizda uni qanday qilib nutqda lisoniy vositalar yordamida ifoda etish haqida o'ylashingiz kerak, bu esa – *formulation* (formulyatsiya yoki ifoda etish). Nihoyatinda, tinglovchi sizni idrok eta olishi uchun, siz tovush to'lqinini yaratish uchun mushaklaringizni harakatga keltirishingiz kerak. Bu jarayon – articulation (artikulyatsiya) deb ataladi.

T.A. Bushiy va Sh. Safarov "Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi" nomli kitobida Smirnitskiyning quyidagi fikrini keltiradi "inson nutqi son-sanoqsiz va cheklanmagan miqdordagi turli-tuman nutqiy harakatlar natijasidir."[9] Demak, inson nutqi nutqiy aktlardan (harakatlardan) tashkil topgan ekan.

Nutqiy faoliyatning inson his tuyg'ularidagi roli beqiyosdir, chunki tuyg'ularni nutqda yuzaga keltirish uchun yuqorida ko'rsatilgan uchta jarayon (konseptuallashtirish, formulyatsiya va artikulyatsiya) ketma-ketligi muhim hisoblanadi. demak, Nutqiy faoliyatimiz davomida biz e'tiborimizni fikr ifoda etish va almashish orqali erishiladigan samaradorlikka qaratamiz. Nutqiy faoliyatni emotsiyalar bilan bog'liqligi haqida gapirilganda, inson ruhiyatini bundagi ta'siri haqida so'z yuritmaslikning iloji yo'q nazarimizda. Sababi bizning tadqiqot ishimiz obyekti hisoblangan simpatiya tushunchasining negizi psixologik tadqiqotlarga borib taqaladi va uning tuyg'ular va inson ruhiyati bilan bog'liqligi haqida yuqoridagi boblarda ta'kidlab o'tgandik. Inson ruhiyati uning tuyg'ularida aks etadi ya'ni psixika nutqda qanday tuyg'ulardan (ijobiy yoki salbiy) foydalanishni va ularni lisonda ifoda etishni belgilab beradi. Bu jarayonda insonning ruhiyati va lingvistik qobiliyatlari namoyon bo'ladi. Lingvistik(lisoniy) qobiliyat – bu insonning muayyan vaziyatga, jarayonga so'z tanlay olish va qo'llash qobiliyatidir.

Tuyg'ularni nutqda ifoda etishda ham lisoniy qobiliyat bilan psixikaning ahamiyati o'rinlidir. Ma'lum bir vaziyatga nisbatan simpatiyani ifoda etishda ham kishining yoshi, shaxsiy faoliyati va lisoniy qobiliyatlari kabi faktorlar, simpatiyaning nutqda voqealanishini samarali yuzaga chiqaradi.

"Emotiologiya" atamasi ilmiy nutqqa yaqin yillar ichida kirgan. Fandagi antropotsentrik burilish natijasida inson va uning his-tuyg'ulari lingvistik tadqiqot ob'ektiga aylanganda tilshunoslikda yangi yo'nalish – his-tuyg'ularning lingvistik nazariyasi vujudga keldi. Olimlar uzoq vaqtdan beri til va nutqning faqat ob'ektiv xarakterga ega bo'lgan ma'lumotni o'z ichiga olgan tarkibiy qismini o'rganish kerak deb hisoblashgan, chunki tilning asosiy vazifasi ma'lumotni uzatishdir, shunga ko'ra filologiyaning ob'ekti sifatida hissiyotlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilib tan olingan emas edi. E'tiborli jihati shundaki, nutqning hissiy tomonini tadqiq qilishda ko'pincha uning kognitivlik aspekti hisobga olinmay qolmoqda edi. Ammo zamonaviy tilshunoslikda hissiyotlarni tadqiq etishda ularning kognitiv namoyon bo'lishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohadagi so'nggi tadqiqotlarga ko'ra, his-tuyg'ular nutq faoliyati va hatto fikrlashning motivatsion asosi ekanligi haqidagi pozitsiya shubhasizdir.[10]

Har qanday muloqot muayyan bir kommunikatsiya vaziyatida sodir bo'ladi. Faqat o'sha kommunikatsiya vaziyatida nazarda tutilgan ma'noni anglash orqali, siz aloqa mazmunini to'liq tushuna olishingiz mumkin. Zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ vaziyat tushunchasiga turlicha qarash mavjud. Kommunikativ vaziyat haqida gapirar ekanmiz, K. Byulerning nutq vaziyatining uch element orqali voqealanilishini ta'kidlab o'tgan. Uning fikriga ko'ra, bu

[8] Matthew J.T. Introduction to psycholinguistics. Wiley Blackwell and Sons Publications, 2012. – p 38
[9] Bushuy T.A., Safarov Sh.S. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi ilmiy nashr. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2007. –B.46
[10] Демонова Ю. М., Гукалова Н. В. О соотношении эмотивного и когнитивного аспектов в языке и речи. – с 192.

elementlar nutq predmeti, yuboruvchi va qabul qiluvchi hisoblanadi va bu elementlar muloqot jarayonini, tabiatini o'rganishda hisobga olinadi. R.Yakobson ushbu elementlar qatoriga yana kontekst kabi muhim elementni ham qo'shgan. Shu o'rinda, kontekst verbal hamda noverbal tarzda ifoda etilishi mumkin, ammo noverbal tazrda ifodalanganda uni lingvistik vositalar bilan tasvirlanadi.[11] Kontekst haqida so'z yuritilar ekan, nutq nazariyalaridan eng keng tarqalganidan biri Syorlning nutq akti (speech act) nazariyasi haqida to'xtalmaslikning iloji yuq. Amerikalik olim, faylasuf Sirl nutq akti g'oyasini rivojlantirib, J.L.Ostinning nutq akt nazariyasini yanada yangi bosqichda rivojlantirgan. Syorlning nutq akti klassifikatsiyasiga ko'ra, nutqiy aktlar so'zlovchi tomonidan aytilgan nutq tingovchi ruhiyatiga qay darajada ta'sir etishiga qarab beshta asosiy reprezentativ, direktiv, kommissiv, ekspressiv va deklarativ kabi kategoriyalarga ajratilgan.[12] Shulardan ekspressiv nutq akti tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ekspressiv nutq akti so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi psixologik jarayonlar (kechirim, tabrik, hamdardlik (simpatiya), yoqtirish, mamnun bo'lish, afsus, hayratlanish, maqtov, minnatdorchilik, rad etish, masxara qilish, qoralash, tanbeh, g'azab va h.k.lar) ni o'z ichiga oladi.

Muhokama. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ekspressiv nutq aktlari ijobiy hamda salbiy bo'lishi mumkin ekan. Shunga ko'ra, hamdardlik (simpatiya) hamda yoqtirish ham ekspressiv nutq akti tabiatining ijobiy guruhiga kirar ekan.

Nutqiy aktlar nazariyasi tasniflangan nutq faoliyatining nomi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ular o'zining ifoda maqsadi umumiyligi asosida ajralib turadi. Ekspressiv maqsadli gaplarda so'zlovchi o'z ruhiy holatini yoki munosabatlarni ifodalashni maqsad qiladi. U mazkur nutqiy aktlar orqali vaziyatga o'z emotsional munosabatini, ya'ni ichki holati, hissiyotlari, tuyg'ularini ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Ekspressivlarning tabiatiga ko'ra quyidagi uch kichik guruhini ajratish mumkin: 1) ijobiy his-tuyg'ularni ifodalovchi nutqiy aktlar: minnatdorlik, hamdardlik, ma'qullash, maqtov, va hokazolar. 2) salbiy his-tuyg'ularni ifodalovchi nutqiy aktlar: g'azab, qoralash, malomat, norozilik, haqorat, masxara, kinoya, tahdid, e'tiroz, shikoyat, rad etish va hok. 3) ham ijobiy, ham salbiy his-tuyg'ularni ifodalovchi nutqiy aktlar: hayrat, baho, kechirim.[13]

G. Yule Pragmatika kitobida ekspressiv nutq aktlariga quyidagicha ta'rif beradi "Expressives express psychological states and can be statements of pleasure, pain, likes, dislikes, joy, or sorrow."[14] Bundan ko'rinib turibdiki, ekspressiv nutq aktlari insonlarning tuyg'ulari bilan bog'liq gap aytilganda vujudga keladi va so'zlovchining nutqiy vaziyatga bo'g'liq bo'lgan ruhiy holatini ifodalash orqali yuzaga keladi.

Bugungi kunda nutqning ekspressivligini alohida chuqur o'rganish tendensiyasi mavjud bo'lib, bunga sabab ekspressiv nutq aktlari juda ham keng qamrovli ekanligidir. Bundan tashqari, ekspressiv nutq aktlari to'liq tasnifga ega emas va shaxslararo muloqot jarayonida muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi bilan bog'liq hisoblanadi. Ekpressiv so'zining ildiziga murojaat qiladigan bo'lsak, "ekspresso" – lotinchadan "ifodalamoq" degan ma'noni anglatadi. Ya'ni tilshunoslikda ekspressiya termini fikrni verbal va noverbal yoki yozma tarzda ifodalashga nisbatan qo'llaniladi. A. Hidayat ham nuq aktiga quyidagicha ta'rif beradi "Speech act, a variety of verbal communication and also a subdivision of pragmatics, often takes place in verbal and nonverbal communication."[15] Ya'ni bundan ko'rinib turibdiki, nutq akti verbal hamda noverbal nutqda namoyon bo'lishi mumkin ekan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, simpatiya bu nutq aktining ekspressiv turiga kiradi. Shu o'rinda nutq akt komponentlari hisoblangan lokutiv, illokutiv va perlokutiv akt haqida ham to'xtalib o'tishimiz joizdir.

Lokutiv – bu so'zlash, fikrni bayon etish, talaffuz etish harakatidir.

Illokutiv – bu kommunikativ niyatning yuzaga chiqishi, so'zlovchining tinglovchiga ta'sir qilish maqsadida aytilgan bayonati.

Perlokutiv – so'zlovchining tinglovchiga bayonoti natijasida erishilgan ta'sir, ko'zlangan natijaga, ta'sirga erishish. Bu darajada nutqiy harakatning bajarilishi tinglovchiga bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagilardan, simpatiyani nutqda namoyon etishda illokutiv aktning o'rni beqiyosdir. Bunga sabab kimgadir nisbatan ijobiy, samimiy tuyg'ularingizni ifoda etganingizda, bu tuyg'ularni bayon etish ortida tinglovchining psixologik holatini yaxshilash niyati bo'lishi mumkin. Perlokutiv akt ham ekspressivlarda muhim o'rin egallaydi. Sababi, perlokutiv harakatda tinglovchining so'zlovchiga nisbatan ijobiy munosabatini uyg'otish, shu maqsadda ta'sir qilish bo'ladi. Quyida berilgan misolga qaraymiz.

- *"But you will have a better time. Even with remorse you will have a better time."*
- *"I don't think so."*
- *"Oh, yes. That is true. Already I am only happy when I am working." He looked at the floor again.*

[11] Шалюхина А. В. Средства выражения эмпатии в испанском языке (на материале романа торкуато лука де тена "извилисты пути божьего промысла"). дисс. кан. фил. наук. Москва, 2019. С 87

[12] Nasriddinov M. V. Nutqiy aktning asosiy kategoriyalari. Iltimos/undov nutqiy akti. International scientific journal Volume 1, Issue 8. Science and innovation. 2022. B- 906.

[13] Haydarova D. Ekspressiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. B - 227

[14] Yule, G. (1996). Pragmatics. Oxford University Press. P 53

[15] Hidayat A. Speech Acts: Force Behind Words. English Education: Jurnal Tadris Bahasa Inggris. Vol 9 (1), 2016. P 3.

- *"You'll get over that."* (Ernest Hemingwey. Farewell to arms. P 181)

Ushbu misolda qo'llanilgan *"You'll get over that"* bayonotida so'zlovchi tinglovchining tushkun ahvolini yaxshilashni, birozga bo'lsa-da ruhiyatini ko'tarib dalda berishni maqsad qilgan. Bu yerda illokutiv aktni *"get over"* iborasi bilan namoyon bo'layotganini ko'rishimiz mumkin.

- *"We'll stop, baby. I am tired from thinking so much." "It's nearly time to eat. I'm glad you're back. You are my best friend and my war brother."*

Ushbu misolda esa, tinglovchi Rinaldi do'stining daldasidan keyin sokinlashib, tinchlangani "u o'ylashanglashimiz mumkin. Bu yerda perlokutiv akt (ta'sir) ga erishilgan.

O'zbek tilidan ham olingan misolga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan vaziyatni kuzatishimiz mumkin.

Ummatali xotinini bekor vahimaga solganini bilib qoldi. Yuragi yomon-a!

- Xotin, ko 'nglingni tinch tut. Bolalarga bir nima bo 'ldimikin, degan bema'ni o 'y xayolimdan o 'tibdi. Nima bo 'lardi? Bolangni bilasan-ku!

Xotin o 'zini o 'ngladi.

- E, vahimangiz ham bor bo 'lsin. O'takamni yoray dedingiz-ku! O'ylashimcha

Azizhoningiz Hojimuqoning oldiga qochgan. Boshqa qaqqa ham borardi. (Said Ahmad. Ufq. B-87.)

- Bu misolda ham Ummatalining "*Xotin, ko 'nglingni tinch tut*", "*Nima bo 'lardi? Bolangni bilasan-ku!*" kabi jumlalari ayolini tinchlantirish maqsadida (illokutiv) bayon etilgan. Ayolning "*E, vahimangiz ham bor bo 'lsin. O'takamni yoray dedingiz-ku! O'ylashimcha Azizhoningiz Hojimuqoning oldiga qochgan*." kabi so'zlari illokutiv akt (maqsad) natijasida erishilga ta'sir (perlokutiv akt) deyishimiz mumkin. Ya'ni Ummatali so'zlagan gapi ortidagi ayolini tinchlantirish maqsadiga erishdi va ayoliga ta'sir o'tkaza oldi. Buni biz ayolning so'zlagan gaplaridan ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda ekspressivlar ikki tomonlama (verbal hamda noverbal) ekanligi bilan harakterlanadi. Bunda ekpressivlar dialogik nutqni boshlash vazifasi sifatida hizmat qiladi. Ekspressivlarga munosabat ko'plab omillarga bog'liq: bular ta'lim, tarbiya, muloqot qiluvchilarning yoshi va ijtimoiy holati, ularning individual shaxsiy xususiyatlari – temperament, harakter, his-tuyg'ularga.

Simpatiya insonlar o'rtasida muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega. Simpatiyaning qiziqarli jihati dialogik hamda monologik nutqda ham ifoda etish mumkin. Buni simpatiyaning yupatish semasida kuzatish mumkin.

Azizxon allaqachon chorbog 'devoridan oshib ko 'chaga chiqib ketgan edi. Ota iljayib boshini sarak-sarak qildi.

- *Ha, teptak-a! Quiilib qolarmikin, ishqilib!*

Ota bolasining taqdiridan tashvishlanardi.

- *Minilmagan asov otning o 'zi. Bilmay minganni irgitib tashlaydi. Egar urdirmaydi, hurkovuch. Ha, ishqilib omon bo 'lsin! Bir kunmas-bir kun zo 'r xotinning qo 'liga tushsa yuvosh bo 'lib qolar. Ummatali o 'zini shu xil gaplar bilan ovutardi.* (Said Ahmad. Ufq. Bet 19)

Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, asar qahramoni Ummatali o'g'li haqidagi o'ylar bilan o'zini-o'zini ovutgan. Bu kabi hodisa boshqa hislarda uchramaydi.

Yuqoridagi bobda simpatiyaning turli xil nutq sathlarida kelishi haqida so'z yuritgan edik. Bular, tushunish, ovutish, yupatish, hamdardlik bildirish, qo'llab-quvvatlash, yoqtirish, xush ko'rish kabi ma'nolari edi. Tuyg'ularni nutqda ifoda etishda yana bir e'tiborli jihati shundan iboratki, so'z orqali ifoda etish bilan birgalikda, ularda imo-ishora, qarash, tana harakatlari orqali ham yuzaga chiqarish ham mumkin. Shuningdek, Sh.Sh.Tulanbayeva tuyg'ularni xususan simpatiyani nonverbal ifodalash, uni so'z orqali ifoda etishdan ham ko'ra ta'sirliroq va insonga ta'sir etishda samaraliroq deydi.[16] Quyidagi holatda nazar tashlasak:

1. *He patted my head and shoulder and this shows solidarity in my anxious moment.*

Birinchi keltirilgan misoldan ko'ra, ikkinchida berilgan misol ma'no jihatdan chuqur va ta'sirliroq, samimiy tarzda so'zlanganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

O'zbek tilida keltirilgan misolga ham e'tibor qaratsak, ushbu misollarda ham so'zlardan ko'ra tuyg'ularni tana harakatlari va qarashlar orqali ifodalanganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

1. Tog'a uning bo'ynidan quchoqlab oldi-da, yelkasidan bir-ikki silkib qo'ydi. Nizomjon gandiraklamadi. Oyogi joyidan qo'zgalmadi.

-Ha, durust,- dedi Tog'a.- Sendan ish chiqadi. Bo'shashma, bola. (Said Ahmad. Ufq. B-389)

Demak, ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, ingliz hamda o'zbek tilida ham simpatiyani non-verbal tarzda ifodalash, simpatiya bildirayotgan insoningizga nisbatan ijobiy munosabatingizni,o'sha insonni yaxshiroq

[16] Tulanbayeva Sh.Sh. Exploring the role of nonverbal communication in conveying sympathy and support. Amerian Journal of Philological Science. 2023. P 130.

tushunishingizni yoki yoqtirishingizni ta'sirliroq tarzda ifoda etar ekan. Bundan tashqari, bu yo'l bilan kishi so'z bilan ifoda etib bo'lmaydigan emotsiyalarini voqealantirishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, simpatiyaning nutqiy voqealanishida nutqiy faoliyat va lisoniy qobiliyat bir-biriga bog'liq va muhim elementlar hisoblanadi. Bunda lisoniy qobiliyatimiz nutqiy faoliyatimizning bir qismi bo'lib hizmat qiladi. Bundan tashqari simpatiya nutq aktining bir qismi hisoblangan ekspressiv nutq akti kategoriyasiga mansubdir. Ekspressiv nutq aktlarida inson ruhiyati va tuyg'ularini ifodalashni maqsad qiladi. Ekspressiv nutq aktlarini ham verbal va non-verbal ifodalay olishimiz mumkin. Shu o'rinda, simpatiya ham bundan mustasno emas. Simpatiyani non-verbal til vositalari orqali ifodalashimiz mumkinligi, uning yanada ta'sirchanligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bushuy T.A., Safarov Sh.S. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi ilmiy nashr. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2007. – B.46.
2. Haydarova D. Ekspressiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. – B. 227
3. Hidayat A. Speech Acts: Force Behind Words. English Education: Jurnal Tadris Bahasa Inggris. Vol 9 (1), 2016. – P. 3.
4. Matthew J.T. Introduction to psycholinguistics. Wiley Blackwell and Sons Publications, 2012. – P. 38.
5. Nasirova G.M. Psixolingvistik tadqiqotlar ahamiyatining dolzarbligi. Volume 1, Issue 1, 2022. – B. 211.
6. Nasriddinov M. V. Nutqiy aktning asosiy kategoriyalari. Iltimos/undov nutqiy akti. International scientific journal Volume 1, Issue 8. Science and innovation. 2022. – B. 906.
7. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2008. – B. 35.
8. Tulanbayeva Sh.Sh. Exploring the role of nonverbal communication in conveying sympathy and support//Amerian Journal of Philological Science. 2023. – P. 130.
9. Usmanova Sh. Psixolingvistika. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 44.
10. Yule G. Pragmatics. Oxford University Press. 1996. – P. 53.
11. Демонова Ю. М., Гукалова Н. В. О соотношении эмотивного и когнитивного аспектов в языке и речи. – С. 192.
12. Шалюхина А. В. Средства выражения эмпатии в испанском языке (на материале романа торкуато лука де тена "извилисты пути божьего промысла"). дисс. кан. фил. наук. Москва: 2019. – С. 87.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Rakhmatova Gulnoza Isokhonovna
Independent researcher at Samarkand State Institute of Foreign Languages
Email: gulnoza@gmail.com

PRAGMATIC STUDY OF INTERROGATIVE SPEECH (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEKISTAN)

Annotation: *This article examines the concept of interrogative sentences, their traditional grammatical classification, and pragmatic features through a comparative analysis of English and Uzbek. In both languages, the structural and semantic characteristics of general (yes/no), special (wh-), alternative, and rhetorical questions are described, and the mechanisms of their formation are explained. In addition, the pragmatic functions of interrogative sentences—such as requesting information, making requests and offers, expressing reproach or objection, and producing rhetorical effect—are analyzed within the framework of the two languages. Particular attention is paid to the role of context and intonation in meaning construction. The study also considers the impact of politeness strategies, social distance, and cultural factors on the use of interrogative sentences. Furthermore, the frequency and communicative effectiveness of elliptical forms are comparatively investigated. The theoretical framework is based on the speech act classification developed by John Searle, according to which interrogative sentences are primarily realized as directive speech acts, though depending on context they may acquire expressive or other illocutionary force. The study concludes that interrogative sentences represent a multifunctional and pragmatically complex linguistic unit.*

Keywords: *interrogative sentence, general question, special question, alternative question, rhetorical question, pragmatics, speech act, directive act, illocutionary force, context, intonation, comparative analysis, politeness strategy, ethnocultural factor.*

Рахматова Гульноза Исохоновна
Независимый исследователь Самаркандского
государственного института иностранных языков

ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВОПРОСИТЕЛЬНОЙ РЕЧИ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация: *В данной статье рассматривается понятие вопросительного предложения, его традиционная грамматическая классификация и прагматические особенности на материале сопоставительного анализа английского и узбекского языков. В обоих языках освещаются структурно-семантические признаки общих, специальных, альтернативных и риторических вопросов, а также объясняются механизмы их образования. Наряду с этим исследуются прагматические функции вопросительных предложений — получение информации, выражение просьбы и предложения, передача упрёка или возражения, а также создание риторического эффекта — в рамках двух языков. Особое внимание уделяется роли контекста и интонации в формировании значения. В работе также рассматривается влияние стратегий вежливости, социальной дистанции и культурных факторов на употребление вопросительных конструкций. Кроме того, сопоставительно анализируется степень употребления эллиптических форм и их коммуникативная эффективность. Теоретической основой исследования послужила классификация речевых актов, разработанная John Searle, согласно которой вопросительные предложения преимущественно реализуются как директивные речевые акты, однако в зависимости от контекста могут приобретать экспрессивную или иную иллокутивную силу. В результате делается вывод о многофункциональности и прагматической сложности вопросительных предложений как языковой единицы.*

Ключевые слова: *вопросительное предложение, общий вопрос, специальный вопрос, альтернативный вопрос, риторический вопрос, прагматика, речевой акт, директивный акт, иллокутивная сила, контекст, интонация, сопоставительный анализ, стратегия вежливости, этнокультурный фактор.*

Raxmatova Gulnoza Isoxonovna
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

SO‘ROQ GAPLARNING PRAGMATIK TADQIQI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya:*Mazkur maqolada so‘roq gap tushunchasi, uning an’anaviy grammatik tasnifi hamda pragmatik xususiyatlari ingliz va o‘zbek tillari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikkala tilda umumiy, maxsus, tanlov va ritorik so‘roq gaplarning struktur-*

semantik belgilari yoritilib, ularning hosil bo'lish mexanizmlari tushuntiriladi. Shu bilan birga, so'roq gaplarning pragmatik funksiyalari — axborot olish, iltimos va taklif bildirish, tanbeh yoki e'tiroz ifodalash hamda ritorik ta'sir ko'rsatish kabi nutqiy maqsadlari ikki til doirasida tadqiq etiladi. Kontekst va intonatsiyaning ma'no shakllanishidagi o'rniga alohida e'tibor beriladi. Tadqiqotda xushmuomalalik strategiyalari, ijtimoiy masofa va madaniy omillarning so'roq gaplar qo'llanishiga ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Shuningdek, elliptik shakllarning qo'llanish darajasi va ularning kommunikativ samaradorligi qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Nazariy asos sifatida John Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari tasnifiga tayanilib, so'roq gaplarning asosan direktiv nutqiy akt sifatida namoyon bo'lishi, biroq kontekstga qarab ekspressiv yoki boshqa illokutiv kuch kasb etishi izohlanadi. Natijada so'roq gaplarning ko'p funksiyali va pragmatik jihatdan murakkab til birligi ekani xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: *so'roq gap, umumiy so'roq gap, maxsus so'roq gap, tanlov so'roq gap, ritorik so'roq gap, pragmatika, nutqiy akt, direktiv akt, illokutiv kuch, kontekst, intonatsiya, qiyosiy tahlil, muloyimlik strategiyasi, etnomadaniy omil.*

Tilshunoslikda so'roq gaplar nafaqat axborot olish vositasi, balki nutq jarayonida turli pragmatik maqsadlarni amalga oshiruvchi muhim til birligi sifatida ham o'rganiladi. Zamonaviy pragmatika til birliklarining kontekst, nutq vaziyati va kommunikativ maqsad bilan bog'liq jihatlarini tadqiq qiladi. So'roq gaplar orqali so'zlovchi ma'lumot so'rash bilan birgalikda suhbatdoshning e'tiborini tortadi, uni muayyan fikrga yo'naltiradi yoki munosabat bildiradi. Ba'zida savol shaklidagi gaplar tasdiq yoki inkor ma'nosini kuchaytirish uchun nutqda ishlatiladi. Ritorik so'roq gaplar javob talab qilmaydi, balki tinglovchiga ta'sir o'tkazish vazifasini o'taydi. Nutq jarayonida bunday gaplar kommunikativ strategiyaning muhim bosqichi hisoblanadi. So'roq gaplarning mazmuni, ko'pincha, intonatsiya, urg'u va kontekst orqali yanada boyib boradi. Pragmatik yondashuv ularning yashirin ma'no qatlamlarini ochib berishga yordam bersa, ijtimoiy munosabatlar va madaniy omillar ham so'roq gaplarning qo'llanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois so'roq gaplarni o'rganish nafaqat grammatik, balki pragmatik va kommunikativ jihatdan ham dolzarbdir. Xususan, John Langshaw Austin va John Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasi so'roq gaplarning faqat grammatik shakl emas, balki maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakat ekanini ilmiy asoslab berdi. Ushbu nazariyaga ko'ra, har bir gap muayyan illokutiv kuchga ega bo'lib, u so'zlovchining kommunikativ niyatini ifodalaydi. So'roq gaplar ham shunchaki savol berish vositasi emas, balki buyruq, iltimos, taklif yoki e'tiroz kabi ma'nolarni ham anglatadi. Nutqiy aktlar nazariyasi doirasida so'roq gaplarning lokutiv, illokutiv va perlokutiv jihatlari tahlil qilinadi. Bu esa ularning pragmatik tabiatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Zamonaviy tilshunoslikda mazkur yondashuv so'roq gaplarni kommunikativ jarayonning faol elementi sifatida talqin etishga imkon yaratdi. O'zbek tilshunosligida ham so'roq gaplarning pragmatik xususiyatlari yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A. Hamidov o'z tadqiqotlarida pragmatik omillar va so'roq gaplar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tadqiq qilgan. Uning maqolalarida so'roq gaplarning nutq vaziyati va ijtimoiy omillar bilan chambarchas aloqasi tahlil etiladi. Masalan: *Nega senga ishonmayman, sen nima aytasan?"*[6;4]

Bu so'roq gap axborot olish bilan birga tanbeh va e'tiroz ohangini bildiradi. A.Hamidov tadqiqotlarida aytilganidek, bunday gap nutq vaziyati va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq: suhbatdoshlarga bo'lgan ishonch yoki shubha, muloqotdagi ijtimoiy pozitsiya va his-tuyg'ularni ko'rsatadi. Z.Mamadaliyeva esa so'roq gaplarning pragmalingvistik xususiyatlarini yoritib, ularning yashirin ma'no jihatlarini ochib berishga harakat qilgan. Ushbu tadqiqotchi ta'kidlashicha so'roq gaplarning mazmunni o'quvchi tomonidan anglashdagi ahamiyati nihoyatda kattadir. Ba'zan mavjud shakl tinglovchi nutqida takrorlanib, uning grammatik shakli o'zgaradi. Masalan: *-So, Otabek is healthy until now, - Ziyo aka said again. -But from now on, his health is in your hands... -In my hands? -at your discretion. (O'tkan kunlar, 45-bet)* Bu holatda bir shaxs tomonidan aytilgan gap boshqa shaxs tomonidan so'roq shaklida takrorlanganda, ma'lum grammatik o'zgarishlar kuzatiladi, xususan, shakllarning ikkinchi shaxs birlikdan birinchi shaxs birlikka o'tish jarayoni yuz beradi. Biroq bu o'zgarish bilan undagi hayrat va ajablanish mazmuni o'zgarmaydi, u saqlanib qoladi. Tadqiqotchi so'roq gaplarning kontekstual talqiniga alohida urg'u beradi[10.4]. Z.Najmiddinova ingliz va o'zbek tillaridagi so'roq gaplarning funksional hamda pragmatik jihatlarini qiyosiy aspektda o'rgangan. Z.Najmiddinova aytadiki "So'roq gaplar muloqotda axborot olishdan tashqari turli interaktiv funksiyalarni ham bajaradi. Masalan, noaniqlikni ifodalash, javob olish, iltimosni yumshatish, muloyimlikni anglatish, ijtimoiy munosabatlarni muvozanatlashtirish va suhbat oqimini boshqarishdir"[12.3]. Uning izlanishlarida ikki til materiallari asosida o'xshash va farqli tomonlar tahlil etgan. Bu esa so'roq gaplarning milliy-madaniy xususiyatlarini belgilashda muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, Sh.Safarov va G.Toirova o'z ishlarida nutqning etnosotsiopragmatik tahliliga alohida e'tibor beradilar. Ular pragmatikaning nazariy asoslarini o'zbek nutqiy materiali misolida keng yoritib berganlar. Mazkur tadqiqotlarda so'roq gaplarning jamiyat, madaniyat va muloqot odobi bilan bog'liq jihatlari tadqiq etiladi. Natijada so'roq gaplarning nafaqat sintaktik birlik, balki murakkab kommunikativ-pragmatik hodisa ekani tahlil qilinadi. Shunday qilib, nutqiy aktlar nazariyasi va o'zbek olimlarining izlanishlari so'roq gaplarni ko'p qirrali lingvistik birlik sifatida talqin etishga mustahkam ilmiy zamin yaratadi.

Bilamizki, an'anaviy grammatika nuqtai nazaridan so'roq gaplar axborot olish uchun qo'llanuvchi gap turidir. Har ikkala tilda ham so'roq gaplar bir necha asosiy turlarga ajratiladi. Jumladan, o'zbek tilida so'roq gaplar tasdiq yoki inkor

javobini talab qiladi, shu jihatiga ko'ra javob talab qiladigan va javob talab qilmaydigan so'roq gaplarga bo'linadi. Javob talab qiladigan so'roq gaplar esa aniq ma'lumotni bilishga qaratilgan bo'ladi. Ritorik so'roq gaplar esa javob talab qilmaydi va ko'proq ekspressivlikni (ta'sirchanlikni) ifodalaydi. Ingliz tilida umumiy so'roq gaplar mavjud bo'lib, asosan, yordamchi fe'lning egadan oldin kelishi, ya'ni inversiya orqali hosil qilinadi. Masalan, *"Do you speak English?"* kabi gaplarda aynan shu grammatik gap tartibi kuzatiladi. O'zbek tilida esa so'roq gaplar so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalari vositasida ifodalanadi. *"Sen ingliz tilida gaplashasanmi?"* gapida so'roqlik ma'nosi yuklama orqali, *Kim darsda yo'q?* gapida so'roq olmoshi orqali yasalgan. Bu holat ikki til grammatik tizimi o'rtasidagi struktur farqlarni ko'rsatadi. Shunga qaramay, har ikkala tilda ham umumiy so'roq gaplarning asosiy kommunikativ vazifasi o'xshashligi kuzatilmoqda. Ular muloqot jarayonida axborot olish va suhbatni davom ettirishga xizmat qiladi. Demak, shakliy tafovutlarga qaramasdan, so'roq gaplarning mazmuniy va pragmatik ahamiyati ko'p jihatdan mushtaraklikni anglatadi.

Tlishunoslikning pragmatika bo'limida esa so'roq gaplar ma'nosida farqli o'zgarishlar kuzatiladi. Pragmatik jihatdan so'roq gaplar har doim ham axborot olish uchun ishlatilmaydi. Ular turli nutqiy maqsadlarni ifodalashda muhim hodisa hisoblanadi. Eng aniq vazifa — axborot olish bo'lib, bu holatda so'roq gap haqiqiy javob talab qiladi. Masalan, ingliz tilida *"Where are you going?"* yoki o'zbek tilida *"Qayerga ketyapsan?"* kabi gaplar bu vazifani bajaradi. Shuningdek, so'roq gaplar iltimos, taklif yoki tavsiya ifodalashda ham qo'llanadi. Tanbeh, e'tiroz yoki hayratni bildirishda ular assosiy rol o'ynaydi[18;47]. Pragmatik tahlilda so'roq gaplar tanbeh yoki e'tiroz bildiruvchi funksiyani ham bajaradi, bunda savol shakli aslida haqiqiy savol ma'nosini yo'qotadi. Masalan, ingliz tilida *"What are you doing?!"* iborasi, asosan, tanqid yoki keskin norozilikni ifodalaydi. O'zbek tilida esa *"Nima qilyapsan o'zi?!"* shunga o'xshash ma'noni anglatadi va so'zlovchining noroziligini ko'rsatadi. Bunday so'roq gaplarda tinglovchidan ma'lum javob kutish emas, balki nutqiy ta'sir ko'rsatish maqsadi bor. So'roq gaplar tanbeh berishda ko'pincha emotsional urg'u, intonatsiya va kontekst bilan mustahkamlanadi. Nutq jarayonida bu turdagi gaplar ijtimoiy munosabatlardagi norozilik darajasini ochiq aks ettiradi. Pragmatik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'roq gaplar nafaqat savol, balki keskin salbiy reaksiyani ifodalovchi nutqiy aktlar shaklida ham bo'lishi mumkin. Bunday funksiyaning yuzaga kelishi kontekst va madaniy omillarga bog'liq bo'lib, har bir tilning o'ziga xos kommunikativ strategiyasi mavjud. Masalan, tanbeh maqsadida ishlatilgan so'roq gap tinglovchiga norozilikni to'g'ridan to'g'ri yetkazadi. `Kontekst bu funktsiyani aniqlashda juda muhim bo'lib, bir xil so'z birikmasi turli vaziyatlarda boshqacha e'tiroz kuchiga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli pragmatik tahlil so'roq gaplarning faqat grammatika emas, balki ijtimoiy ta'sir omillarini ham o'rganadi. Tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, til birliklarining pragmatik funksiyalari ularni diskurs ichida qanday ishlatilganiga qarab aniqlanadi. Tanbeh yoki e'tiroz bilan ifodalangan so'roq gaplar diskurs jarayonida suhbat oqimini keskin o'zgartirishi mumkin. Shu bilan birga, ular muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatni ham belgilaydi. Bunday gaplarning pragmatik kuchi ularni samarali va maqsadga yo'naltirilgan kommunikativ vositaga aylantiradi.

Masalan: *"Why didn't you arrive on time?"- "Siz nega vaqtida kelmadingiz?"* Bu so'roq gap nafaqat axborot olishni bildiradi, balki tanbeh yoki e'tiroz ohangini ham beradi. Diskurs jarayonida suhbat oqimi o'zgari va javob beruvchi mavqeini himoya qilishga majbur bo'ladi.

Ritorik so'roq gaplar savol shakliga ega bo'lishiga qaramay, ularning pragmatik vazifasi javob olish emas, balki tinglovchiga ma'lum bir fikrni ta'kidlash yoki hissiyot uyg'otishdir. Masalan, ingliz tilida *"Who doesn't want to be happy?"* yoki o'zbek tilida *"Kim baxtli bo'lishni istamaydi?"* kabi savollar ritorik maqsadni ifodalaydi. Ritorik savollar tinglovchini o'ylashga undaydi, ammo ular bevosita javob kutmaydi. Tilshunoslik tadqiqotlarida bu turdagi savollar nutqdagi emotsional ta'sirni kuchaytiruvchi vosita sifatida ko'riladi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ritorik savollar stilistik qurilish sifatida ta'kidlash va tinglovchini fikr markaziga jalb qilishda samarali [4;24]. amerikaning mashhur tilshunosi Robin Lakoff ritorik savollarni nutqdagi muloyimlik va ijtimoiy strategiyalar bilan bog'lab tahlil qiladi va aytadi: "Juda muloyim (super-polite) shakllar, jumladan bilvosita iltishunoslar va tasdiq so'roq (tag question)lar, tilning maqsadni yetkazgan holda nutq kuchini yumshatish uchun qanday qo'llanishini ko'rsatadi [7;56]. Bu fikr ritorik savollarning ham so'z yuzasidagi savol shaklini saqlab, pragmatik ma'noni yumshatganini ko'rsatadi. Ritorik savollar, ko'pincha, adabiy matnlarda, nutq marosimlarida va siyosiy nutqlarda uchraydi. Ular tinglovchini o'z fikrini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Ritorik savollar kontekstga bog'liq holda norozilik, hayrat yoki umumiy e'tirof ifodalashi mumkin. Shuningdek, ular kommunikativ vaziyatda tinglovchiga bevosita murojaat qilmasdan fikrni ilgari suradi. Ritorik savollar yordamida nutqning stilistik boyligi yanada oshadi va tinglovchining e'tibori markaziy g'oyaga qarata yo'naltiriladi**.** Ritorik so'roq gaplar javob kutmasdan tinglovchida ta'sirchanlikni keltirib chiqarishga xizmat qiladi. Ritorik so'roq gaplardan farqli holda umumiy so'roq gaplar nutq jarayonida turli kommunikativ maqsadlarni bajaradi. Shu jumladan, iltimos va taklif ifodalashda ham muhim rol kasb etadi. Masalan ingliz tilidagi *"Can you help me?"* kabi gaplar iltimos ma'nosini namoyon qiladi. O'zbek tilida esa shunga mos ravishda "Menga yordam bera olasanmi?" jumlasi ishlatiladi. Bu yerda savol shakli haqiqiy javob talab etmaydi. Buning o'rniga u *buyruq* yoki *iltimos*ning yumshoq ko'rinishini sifatida aks etadi. Shu sababli bunday so'roq gaplarni bilvosita nutqiy akt sifatida baholash mumkin. Ularning asosiy maqsadi tinglovchidan iltimos qilish va yordam so'rashdir. Nutqiy kontekst va intonatsiya so'roq gapning ma'nosini aniqlashda muhim ahamiyat kasb

etadi. Masalan, urg‘u va pauzalar yordamida iltimos yanada muloyim va samimiy bo‘ladi. Shu bilan birga urg‘u ham so‘roq gaplarning ma’nosini o‘zgartiradi. Masalan:

Did she call you?

*1.**Did*** *she* *call* *you?*
→ *U haqiqatan ham qo‘ng‘iroq qildimi? (ishonchsizlik)*

2.Did ***she*** *call* *you?*
→ *aynan u qo‘ng‘iroq qildimi? (boshqa odam emas)*

3.Did *she* ***call*** *you?*
→ *Qo‘ng‘iroq qildimi? (balki yozgandir)*

4.Did *she* *call* ***you****?*
→ *Senga qo‘ng‘iroq qildimi? (boshqaga emas)*

Ushbu bir xil so‘roq gapda turli xil ma’nolar urg‘u vositasida aks etmoqda. Shuningdek, madaniy omillar ham so‘roq gapni yumshoq yoki rasmiy tarzda ifodalashga ta’sir qiladi. John Searle ta’kidlashicha, “So‘roq gaplar faqat axborot olish vositasi emas, balki nutqiy va ijtimoiy funksiyalarni bajaruvchi harakatlardir” [15;52]. Shu bois, iltimos va taklif ifodalovchi so‘roq gaplar muloqot jarayonida tinglovchiga ta’sir qilishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular pragmatik jihatdan ko‘p qirrali va murakkab til birligiga kiradi

Pragmatik tahlilda kontekst til birliklarining ma’nosini belgilashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bir xil shakldagi so‘roq gap turli nutq vaziyatlarida butunlay turlicha ma’nolarni anglatadi. Masalan, ingliz tilidagi *“are you coming?”* oddiy so‘rov, shoshiltirish, norozilik yoki hatto hayratni ifodalashi mumkin — bu turlicha kontekstga qarab ma’no o‘zgarishini anglatadi. Tilshunos olimlar kontekst, nutq ishtirokchilari orasidagi situatsiya omillari gapning pragmatik ma’nosini shakllantirishda muhim ekanini qayd etadilar. Ingliz tilshunoslari nazariyasiga ko‘ra, pragmatika kontekst omillari til birliklarini talqin qilishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Kontekst tilshunoslarda ma’noni kontekstga bog‘liq holatda ko‘rishga yordam beradi, chunki u nutqning asl niyatini anglashni talab qiladi [11;3]. Shuningdek, prosodiya, ya’ni intonatsiya, urg‘u va ritm — nutqda ifoda etilgan ma’noni boyitadi va tinglovchining kontekstni anglashiga yordam beradi. Prosodiya tilshunoslikda emotsional, norozilik yoki hayrat kabi pragmatik ma’nolarni aniqlashda muhim vosita sifatida qaraladi, chunki u so‘zlarning yuzaki semantikasidan tashqari qo‘shimcha muloqot ma’nolarini beradi. Shu bois, pragmatik kontekst va intonatsiya yagona madaniy kontekstda so‘zlovchining maqsadini va tinglovchining kutayotgan javobini belgilaydi. Tilshunoslikda kontekstni e’tiborsiz qoldirish ma’noni butunlay noto‘g‘ri talqin qilishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun pragmatik tahlil kontekst, vaziyat va intonatsiyaning o‘zaro aloqasini chuqur o‘rganadi.

So‘roq gaplarni grammatik, pragmatik va turlariga nisbatan tahlil etilganda o‘zbek va ingliz tilidagi variantlarini taqqoslash va tahlil etish muhimdir. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi pragmatik farqlar nutqning xushmuomalalik(politeness) strategiyalari, madaniy kontekst va so‘roq shakllarida aniq namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida muloyimlik darajasi, ko‘pincha, modal fe’llar orqali ifodalanadi, masalan: *Could you open the window?- Derazani ochib bera olasizmi?*

Bu shakl so‘zlovchining niyatini yumshatib, tinglovchini hurmat bilan so‘rashga imkon beradi [2; 61]. O‘zbek tilida esa muloyimlik ko‘proq fe’l shakllari, qo‘shimchalar va murojaat shakllari orqali ifodalanadi. Bu yerda sizlash shakli va -mi yuklamasi tilning madaniy va ijtimoiy kontekstini nomoyon etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, madaniy omillar nutqdagi hurmat va ijtimoiy masofani belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Ingliz tilida hurmat ma’nosi leksik vositalar orqali amalga oshiriladi, masalan, *“please yoki would you mind”* kabi so‘zlar yoki konstruksiyalar so‘roq gaplarda xushmuomalalikni ifodalash uchun xizmat qiladi. O‘zbek tilida esa grammatik shakl, murojaat va fe’l qo‘shimchalari bunday vazifani bajaradi. Xushmuomalalik konseptiga zid ravishda (to‘liq gap shaklida emas) elliptik so‘roq gaplar ham har ikki tilda farq qiladi. Ingliz tilida qisqa savollar keng qo‘llanadi, masalan: *Coming?*, bu esa pragmatik jihatdan kontekstga tayangan ijtimoiy strategiyani aks ettiradi [1;14]. O‘zbek tilida esa *“Kelyapsanmi?”* to‘liq gap hisoblanadi. Bu farq diskurs va nutq strukturasidagi madaniy tafovutni ko‘rsatadi. John Langshaw Austin nutqiy aktlar nazariyasi doirasida har bir so‘roq yoki buyruq til birliklari kontekstga bog‘liq holda harakat sifatida qabul qilinadi. Nutqiy akt nazariyasi so‘roq gaplarni faqat grammatik shakl emas, balki suhbat jarayonida harakat sifatida ko‘radi. John Searle tasnifiga ko‘ra, so‘roq gaplar, asosan, direktiv nutqiy aktlar tarkibiga kiradi, chunki ular suhbatdoshdan ma’lum harakat yoki javob talab qiladi. Masalan, *Will you be quiet?* iborasi direktiv nutqiy akt bo‘lib, tinglovchidan ma’lum bir ishni bajarishni so‘raydi. Biroq kontekstga qarab, bir xil so‘roq gap ekspressiv vazifani ham bajarishi mumkin, masalan: *Why me?* Bu ekspressiv ibora shaxsiy his-tuyg‘u yoki norozilikni ifodalaydi [14;22]. John austin nutqiy aktlar nazariyasi orqali har bir til birligi faoliyatga yo‘naltirilgan deb hisoblaydi, ya’ni so‘z faqat ma’no tashimaydi, balki harakatni bildiradi. Paul Grice’ning hamkorlik prinsiplari so‘roq gapni tahlil qilishda kontekstning muhimligini ko‘rsatadi va tinglovchi javobini kutish strategiyasini aniqlaydi [1;47]. Nutqiy akt nazariyasi shuni ham ko‘rsatadiki, so‘roq gaplar indirekt shaklda ham ishlatiladi, ya’ni ular, ko‘pincha, iltimos, taklif yoki buyruq sifatida qabul qilinadi. Geoffrey Leech muloyimlik prinsiplari

doirasida so‘roq gaplar kontekst va tinglovchining ijtimoiy mavqei bilan bog‘liqligini qayd etadi. Brown va Levinson esa til orqali xushmuomalalikni oshirish strategiyalari so‘roq gaplarda keng ishlatilishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, so‘roq gaplar tinglovchi bilan muloqotning samaradorligini oshiradi va suhbatni boshqarish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Nutqiy akt nazariyasi yordamida so‘roq gaplarning ko‘p vazifali tabiatini tushunish mumkin. Bu yondashuv grammatik shakl va pragmatik niyat o‘rtasidagi farqni aniqlashga imkonyat yaratadi. Shuningdek, kontekst, ijtimoiy masofa va madaniy kod so‘roq gapning direktiv yoki ekspressiv vazifalarini belgilaydi. Ingliz tilida modal fe’llar va ellipslar yordamida indirekt so‘roq aktlar ko‘proq ishlatiladi, o‘zbek tilida esa fe’l qo‘shimchalari va murojaat shakllari bu funksiyani bajaradi. Shu tarzda, nutqiy akt nazariyasi tilshunoslarga so‘roq gaplarni grammatik shakl va pragmatik vazifa nuqtai nazaridan tadqiqot va tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, so‘roq gaplar tilshunoslikda nafaqat axborot olish vositasi, balki nutq jarayonida turli pragmatik maqsadlarni amalga oshiruvchi asosiy til birligi sifatida qaraladi. Ular umumiy, maxsus, tanlov va ritorik turlarga ajratiladi va umumiy so‘roq gaplar har ikki tilda ma’lumot olishga xizmat qiladi. Biroq ularning shakllanish usullarida turli farqlar mavjud. Pragmatik tahlilda kontekst so‘roq gap ma’nosini belgilovchi muhim omildir. Bir xil shakldagi savol turli vaziyatda turlicha ma’no anglatib keladi va faqatgina kontekst orqali savol beruvchi nutqining aniq ma’nosini bilishimiz mumkin. U oddiy so‘rov, shoshiltirish yoki norozilikni ifodalashi ehtimol. Intonatsiya esa nutqning emotsional rangini aniqlaydi. Ingliz va o‘zbek tillarida intonatsiya hamda vaziyat ma’noni belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xushmuomalalik strategiyalari ikki tilda turlicha aks etadi. Ingliz tilida muloyimlik ko‘pincha modal fe’llar orqali ifodalanadi. O‘zbek tilida esa fe’l shakllari, qo‘shimchalar va murojaat birliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Elliptik so‘roq gaplar o‘zbek tiliga qaraganda ingliz tilida keng qo‘llaniladi. So‘roq gaplar nutqiy akt nazariyasiga ko‘ra direktiv, ekspressiv va deklarativ vazifalarni bajarishi mumkin. Umuman, ular kontekst va madaniy sharoitga bog‘liq holda kommunikativ jarayonda markaziy o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin, J. L. How to Do Things with Words**.** – Cambridge: Harvard University Press, 1962. – 146 p.
2. Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage**.** – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 320 p.
3. Crystal, D. a Dictionary of Linguistics and Phonetics. – 6th ed. – Oxford: Blackwell, 2008.
4. Dobrovolsky, D. O., Zaliznyak, a. a. Rhetorical question as a communicative act // *Voprosy Jazykoznanija*. – 2025. – № 1. – P. 7–35.
5. Grice, H. P. Logic and Conversation // *Syntax and Semantics*. – New York: academic Press, 1975. – P. 45–58.
6. Hamidov A. Pragmatik omillar va so‘roq gaplar // *Til va adabiyot*. – Toshkent: Fan, 2010. – № 3. – B. 45–52.
7. Lakoff, R. Language and Woman’s Place**.** – New York: Harper & Row, 1975. – 256 p.
8. Leech, G. N. Principles of Pragmatics**.** – London: Longman, 1983. – 250 p.
9. Leech, G. N. The Pragmatics of Politeness**.** – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 120 p.
10. Mamadaliyeva, Z. So‘roq gaplarning pragmalingvistik xususiyatlari // *Tilshunoslik maqolalari to‘plami*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2012. – B. 60–68.
11. Nagy, I. K. an Introduction to the Study of Pragmatics**.** – 2015.
12. Najmiddinova, Z. Ingliz va o‘zbek tillaridagi so‘roq gaplarning funksional va pragmatik jihatlari bo‘yicha tahlil // *Lingvistika va muloqot*. – Toshkent: Fan, 2015. – № 2. – B. 34–42.
13. Safarov, Sh., Toirova, G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili va pragmatika bo‘yicha ishlar // *O‘zbekiston tilshunosligi jurnali*. – Toshkent: Fan, 2017. – № 1. – B. 21–30.
14. Searle, J. R. Speech acts: an Essay in the Philosophy of Language**.** – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 162 p.
15. Searle, J. R. Indirect Speech acts // *Syntax and Semantics*. – New York: academic Press, 1975. – P. 50–60.
16. Tannen, D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. – New York: William Morrow, 1990. – 256 p. – P. 82.
17. Shavqiyeva, D. I. Zamonavi tilshunoslikda pragmatika va diskurs tahlili // *Obrazovanie nauka i innovatsionnye idei v mire*. – 2026. – № 86(4). – P. 49–51.
18. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. — Тошкент : Фан, 2008. — 192 с

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xoshimova Gavharoy Xayrullo qizi
Namangan davlat universiteti 1-bosqich tayanch-doktoranti

O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOLLAR RUHIYATI EVOLUTSIYASI: PSIXOLOGIK TASVIRNING BADIIY TARAQQIYOTI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotida ayollar psixologizmining shakllanishi va evolyutsiyasi masalasi tahlil qilinadi. Xususan, mumtoz adabiyotdan zamonaviy davrgacha bo‘lgan badiiy jarayonda ayol ruhiyati tasvirining bosqichma-bosqich murakkablashuvi, ichki kechinmalar, shaxsiy tanlov va ijtimoiy bosim o‘rtasidagi ziddiyatlar yoritiladi. Tadqiqot IMRaD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) metodologik modeli asosida olib borilib, adabiy-tahliliy va qiyosiy yondashuvlardan foydalaniladi. Maqola natijalari o‘zbek adabiyotida ayol obrazining an’anaviy ijtimoiy rol doirasidan individual psixologik subyekt darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ayollar psixologizmi, ayol obrazi, ruhiy evolyutsiya, gender poetikasi, o‘zbek adabiyoti.*

Khoshimova Gavharoy Khairullo qizi
1st year PhD student at Namangan State University

EVOLUTION OF WOMEN'S SPIRITUALITY IN UZBEKISTAN LITERATURE: ARTISTIC DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL IMAGE

Abstract: *This article examines the evolution of women’s psychology in Uzbek literature through the lens of literary development from classical to modern periods. Using the IMRaD methodology, the study applies historical-literary, comparative, psycho-poetic, and gender-based approaches. The findings reveal that women’s psychological representation evolves from symbolic and moral ideals in classical literature to socially conflicted subjects in Jadid and realist works, and finally to autonomous psychological and existential subjects in contemporary literature. The research contributes to gender poetics and psychological criticism by proposing a three-stage model of women’s psychological evolution in Uzbek literary tradition.*

Keywords: *women’s psychologism, female image, spiritual evolution, gender poetics, Uzbek literature.*

Хошимова Гавхарой Хайрулло кизи
Наманганский государственный университет, 1-й год обучения в аспирантуре

ЭВОЛЮЦИЯ ЖЕНСКОЙ ПСИХОЛОГИИ В ЛИТЕРАТУРЕ УЗБЕКИСТАНА: ХУДОЖЕСТВЕННОЕ РАЗВИТИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗА

Аннотация*: В данной статье анализируется вопрос формирования и эволюции женского психологизма в узбекской литературе. В частности, освещается постепенное усложнение изображения женской психики в художественном процессе от классической литературы к современности, противоречия между внутренними переживаниями, личным выбором и социальным давлением. Исследование проводится на основе методологической модели ИМРаД (Введение, Методы, Результаты и Обсуждение) с использованием литературно-аналитического и сравнительного подходов. Результаты статьи показывают, что образ женщины в узбекской литературе поднялся из рамок традиционной социальной роли до уровня индивидуального психологического субъекта.*

Ключевые слова: *женский психологизм, женский образ, духовная эволюция, гендерная поэтика, узбекская литература.*

Kirish

O‘zbek adabiyotida ayol obrazi qadimdan muhim badiiy-estetik vazifani bajargan. Biroq uzoq davrlar mobaynida ayol, asosan, erkak qahramon taqdiriga bog‘langan, uning ruhiy olami esa cheklangan holda tasvirlangan. XX asrga kelib, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar, ma’rifatparvarlik va modernistik qarashlarning kuchayishi natijasida ayol shaxsiyatiga, uning ichki dunyosiga e’tibor ortdi.

Bugungi kunda oʻzbek adabiyotida ayollar psixologizmini tadqiq etish nafaqat badiiy jarayonni tushunish, balki gender tengligi, shaxs erkinligi va madaniy ong evolyutsiyasini anglash nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Ushbu maqolaning maqsadi – oʻzbek adabiyotida ayollar ruhiyati tasvirining tarixiy-badiiy evolyutsiyasini aniqlash va uning poetik xususiyatlarini tahlil qilishdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-adabiy metod – ayol obrazi va psixologizmining turli davrlardagi rivojini aniqlash;

Qiyosiy-tahliliy metod – mumtoz, jadid va zamonaviy adabiyotdagi ayol ruhiyati tasvirini solishtirish;

Psixopoetik yondashuv – badiiy matnlardagi ichki monolog, ruhiy ziddiyat va kechinmalarni tahlil qilish;

Gender yondashuvi – ayol obrazining ijtimoiy va madaniy rolini baholash.

Tahlil uchun Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Oʻtkir Hoshimov, Togʻay Murod hamda zamonaviy ayol yozuvchilarning asarlaridan namunalar tanlandi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, oʻzbek adabiyotida ayollar ruhiyati tasviri uch asosiy bosqichda rivojlangan:

1. **Mumtoz adabiyot bosqichi** – ayol obrazi idealizatsiyalangan, sadoqatli va sabr timsoli sifatida tasvirlangan. Ruhiy kechinmalar ramziy va bilvosita ifodalangan.

2**. XX asr boshlarida (jadid va realizm davri)** – ayolning ichki noroziligi, ijtimoiy adolatsizlikka munosabati ochiqroq koʻrsatilgan. Psixologik konflikt kuchaygan.

3. **Zamonaviy adabiyot bosqichi** – ayol mustaqil ruhiy subyekt sifatida namoyon boʻlib, uning ichki monologi, shaxsiy tanlovi va ekzistensial iztiroblari chuqur tahlil etilgan.

Bu bosqichlarda ayol ruhiyati tobora murakkablashib, tashqi voqelikdan ichki dunyoga siljigan.

Muhokama

Oʻzbek adabiyotida ayollar psixologizmining evolyutsiyasi uch tarixiy-badiiy davr misolida tahlil qilinganda, bu jarayon faqat obrazlar tizimining yangilanishi emas, balki badiiy tafakkurning antropotsentrik va genderga yoʻnaltirilgan bosqichga oʻtishini ham anglatadi

1. Mumtoz adabiyotda ayol ruhiyati: axloqiy ideal va ramziy psixologizm

Mumtoz oʻzbek adabiyotida ayol obrazi, asosan, axloqiy-estetik ideal sifatida talqin qilinadi. Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi Layli va Shirin obrazlari ayol ruhiyatining individual psixologik portreti emas, balki ma’naviy kamolot timsoli sifatida yaratilgan. Bu obrazlarda ichki kechinmalar toʻgʻridan-toʻgʻri ichki monolog yoki ruhiy tahlil orqali emas, balki ramziy holatlar, poetik dialoglar va tasavvufiy ma’no qatlamlari orqali ifodalanadi. Ayolning sevgi, hijron va sadoqat bilan bogʻliq ruhiy holatlari ijtimoiy tanlov emas, ilohiy qismat sifatida talqin qilinadi.

Bu davr adabiyotida ayol subyektivligi cheklangan bo‘lib, uning ruhiyati umumiy axloqiy me’yorlar doirasida normativ xarakter kasb etadi. Ayol psixologizmi individual ichki konflikt emas, balki badiiy idealning ajralmas qismi sifatida namoyon boʻladi.

Mumtoz adabiyotda ayol ruhiyati ramziy va kollektiv ong mahsuli bo‘lib, bu bosqich ayol psixologizmining dastlabki, normativ shaklini ifodalaydi.

2. Jadid va realizm davrida ayol psixologizmi: ijtimoiy konflikt va ichki norozilik

XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadid adabiyoti ayol ruhiyatini tasvirlashda tub burilish yasadi. Abdulla Qodiriyning "Oʻtkan kunlar" romanidagi Kumush obrazi ayol psixologizmining realistik talqiniga yorqin misoldir. Kumushning rashk, qoʻrquv, umid va iztiroblari ijtimoiy muhit — koʻp xotinlilik, patriarxal munosabatlar bilan uzviy bogʻliq holda ochiladi. Uning fojiaviy taqdiri ayol ichki olamining jamiyat tomonidan bostirilishi natijasida yuzaga kelgan ruhiy kollapsni ifodalaydi.

Choʻlponning "Kecha va kunduz" romanidagi Zebi obrazi esa ayolning ichki noroziligi va shaxsiy erkinlikka intilishining badiiy ifodasidir. Zebi obrazida ichki monolog va ruhiy parokandalik ayolning shaxs sifatida shakllanish jarayonidagi dramatik bosqichni koʻrsatadi. Bu davrda ayol ilk bor ijtimoiy ongga qarshi turuvchi ruhiy subyekt sifatida namoyon boʻladi.

Bu kabi misollarni koʻp keltirishimiz mumkin. Demak, jadid va realizm adabiyotida ayol psixologizmi ijtimoiy konflikt markaziga chiqib, individual ruhiy kechinmalar ochiq badiiy tahlil obyektiga aylanadi.

Sovet davri adabiyotida ayol obrazi hukmron mafkura ta’sirida yangi mazmun kasb etdi. Ushbu davrda ayol endi faqat oila doirasida emas, balki jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi, ijtimoiy ahamiyatga ega shaxs sifatida talqin qilina boshlandi. Oʻtkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidagi Robiya, Ra’no, Munavvar obrazlari, shuningdek, Shuhratning “Oltin zanglamas” asarida tasvirlangan Jannat, Musharraf, Adolatxola va Aziza timsollari oʻsha murakkab tarixiy sharoitda yashagan oʻzbek ayollarining sabr-toqati, sadoqati va ma’naviy matonatini badiiy jihatdan yoritib beradi.

Xususan, Robiya obrazi oddiy qiz qiyofasida tasvirlangan bo‘lsa-da, uning ichki olami, ruhiy kechinmalari va orzu-intilishlari chuqur psixologik tahlil orqali ochib beriladi. U unashtirilgan yori urushga ketib, undan uzoq yillar davomida

hech qanday xabar bo‘lmasa ham, sadoqat bilan kutishni o‘z hayotining ma’naviy tayanchiga aylantiradi. Bu kutish faqat tashqi harakatlarda emas, balki Robiyaning xotiralari, o‘y-fikrlari va qalbidagi umidlar orqali ham ifodalanadi. Hatto hayot sharoiti uni boshqa inson bilan turmush qurishga majbur etgan taqdirda ham, Robiya chin yurakdan sevgan insonini unutmaydi va uning xotirasini qalbining eng nozik qatlamlarida muqaddas tuyg‘u sifatida asrab qoladi.

Robiya timsolida o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan vafodorlik, sadoqat va ma’naviy sobitlik yorqin namoyon bo‘ladi. Uning hayot yo‘li nafaqat individual fojia, balki urush yillari, kutish va ayriliq bilan bog‘liq og‘ir sinovlar qarshisida insoniy qadr-qimmatni saqlab qolishning badiiy ifodasidir. Shu jihatdan, Robiya obrazi alohida bir qahramon bo‘lish bilan cheklanmay, balki o‘zbek ayolining mehr-muhabbat va sadoqat ramziga aylangan umumlashma timsol sifatida talqin etiladi. Uning ruhiy holati va kechinmalari bugungi o‘quvchini ham chuqur mushohadaga chorlab, sadoqat tushunchasining naqadar yuksak ma’naviy qadriyat ekanini yana bir bor eslatadi.

Mustaqillikdan keyingi adabiyotda esa ayol obrazi yanada murakkab va realistik yo‘sinda tasvirlana boshladi. Endilikda ayol faqat go‘zallik yoki fidoyilik timsoli sifatidagina emas, balki murakkab taqdir egasi, mustaqil fikr va ijtimoiy pozitsiyaga ega shaxs sifatida gavdalanmoqda. Zamonaviy adabiyotda ayol qahramonlar gender tengligi, oilaviy zo‘ravonlik, ta’lim olish huquqi va shaxsiy erkinlik kabi dolzarb muammolar bilan uzviy bog‘liq holda yoritilib, jamiyat hayotidagi real jarayonlarning badiiy aksiga aylantirilmoqda.

3. Zamonaviy adabiyotda ayol ruhiyati: ichki monolog, identitet va gender poetikasi

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ayollar psixologizmi psixopoetik va ekzistensial darajada chuqurlashadi. O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida ayol (ona) obrazi xotira, sukut va ichki monolog orqali ochilib, ayol ruhiyatining kundalik hayotdagi sokin, ammo teran iztiroblari tasvirlanadi. Bu obrazlarda ayol fidoyiligi bilan birga ichki yolg‘izlik va tan olinmagan mehnat psixologiyasi yetakchi o‘rin tutadi.

Tog‘ay Murod asarlarida ayol obrazi ko‘pincha ijtimoiy muhitga begonalashgan shaxs sifatida tasvirlanib, uning ichki qarshiligi va ruhiy yolg‘izligi kuchli dramatizm kasb etadi. Shuningdek, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi kabi zamonaviy ayol yozuvchilar ijodida ayol nigohi markazlashib, identitet, tanlov va ichki ozodlik masalalari gender poetikasi nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Bu asarlarda ayol endi tasvir obyekti emas, balki badiiy matnni boshqaruvchi subyektga aylanadi.

Zamonaviy adabiyotda ayol psixologizmi individual identitet va ichki erkinlik muammolari bilan uyg‘unlashib, genderga yo‘naltirilgan poetik tizimni shakllantiradi.

Uch davr tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek adabiyotida ayollar ruhiyati tasviri ramziy-ideal shakldan realistik va psixopoetik chuqurlikka tomon evolyutsiyalashgan. Bu jarayon ayol obrazining ijtimoiy rolidan shaxsiy identitetiga o‘tishini, ya’ni ayolning badiiy subyektga aylanishini tasdiqlaydi.

Xulosa

Maqolada olib borilgan tahlillar o‘zbek adabiyotida ayollar ruhiyati evolyutsiyasi izchil va ko‘p qatlamli jarayon ekanini ko‘rsatdi. Mumtoz adabiyotda ayol ruhiyati axloqiy-ramziy ideal sifatida namoyon bo‘lsa, jadid va realizm davrida u ijtimoiy ziddiyatlar bilan yuzma-yuz kelgan psixologik subyektga aylandi. Zamonaviy adabiyotda esa ayol obrazi individual identitet, ichki ozodlik va gender ongining markaziga chiqdi. Ayollar psixologizmi o‘zbek adabiyotida badiiy tafakkur evolyutsiyasining muhim ko‘rsatkichi sifatida adabiyotshunoslikda yangi nazariy talqinlar uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidov,S. XX asr o‘zbek adabiyotida ijtimoiy obrazlar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
2. G‘aniyeva, S. Adabiy tanqid va tahlil. Toshkent: Akademnashr, 2020.
3. Abdullayeva, Z. Ayol obrazi talqini: an’ana va yangilanish. Filologiya masalalari. Toshkent: Akademnashr, 2022.
4. Qodiriy,A. O‘tkan kunlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2019.
5. Qodiriy, A. Mehrobdan chayon. Toshkent: Sharq, 2018

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Mo‘minova Maftuna Alijonovna.
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Xorijiy tillar fakulteti, v.b dotsenti, PhD.
mmaftun0709@mail.com

LINGVOMADANIYAT VA MADANIY KOD TUSHUNCHASI: KOGNITIV VA PRAGMATIK YONDASHUVLAR.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada lingvomadaniyat tushunchasi va madaniy kodning kognitiv va pragmatik jihatlariga oid asosiy nazariyalar keng tahlil qilingan. Shuningdek, multimodal diskursda lingvomadaniy pragmatikaning o ‘rni atroflicha ochib berilib, unda pragmatik nazariyalarning ahamiyati ko‘rsatib o’tildi.*

Kalit so‘zlar: *Lingvomadaniyatshunoslik, madaniy kod, kognitiv yondashuvlar, kognitiv, pragmatik.*

Mo‘minova Maftuna Alijonovna
Acting Associate Professor, PhD, Faculty of Foreign Languages,
Nizomiy Tashkent State Pedagogical University

LINGUOCULTURE AND THE CONCEPT OF CULTURAL CODE: COGNITIVE AND PRAGMATIC APPROACHES

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the key theories related to the concept of linguoculture and the cognitive and pragmatic dimensions of cultural code. Moreover, it thoroughly explores the role of linguocultural pragmatics in multimodal discourse, highlighting the significance of pragmatic theories within it.*

Keywords: *Linguoculturology, cultural code, cognitive approaches, cognition, pragmatics.*

Мўминова Мафтуна Алийжоновна
Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами,
Факультет иностранных языков, и.о. доцента, PhD

ЛИНГВОКУЛЬТУРА И ПОНЯТИЕ КУЛЬТУРНОГО КОДА: КОГНИТИВНЫЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. *В статье проведён всесторонний анализ основных теорий, связанных с понятием лингвокультуры и когнитивно-прагматическими аспектами культурного кода. Кроме того, подробно раскрывается роль лингвокультурной прагматики в мультимодальном дискурсе, подчеркивается значение прагматических теорий в его изучении.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, культурный код, когнитивные подходы, когниция, прагматика.*

Kirish

Hozirgi globallashuv jarayonida tillar va madaniyatlar o’zaro kuchli ta’sirga ega bo’lib, ularni birgalikda o’rganish zaruratga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, “lingvomadaniyat” va “madaniy kod” tushunchalari zamonaviy lingvistika va madaniyatshunoslikda alohida e’tiborga sazovor bo’lmoqda. Lingvomadaniyat — til orqali xalqning madaniyati, qadriyatlari, tafakkuri va ijtimoiy ongini aks ettiruvchi fanlararo yo’nalishdir. "XX asrning 90 – yillarida tilshunoslik bilan Madaniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi, lingvomadaniyatshunoslik paydo bo'ldi.


"Lingvomadaniyatshunoslik – "til va madaniyat" ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi.

Adabiyotlar tahlili

Til xalqning tarixiy-madaniy tajribasini, urf-odatlari va mentalitetini ifoda etadi. Har bir so’z yoki iboraning ortida xalqning madaniy va ma’naviy dunyosi mujassam. Madaniy kod — bu muayyan xalq madaniyatida mavjud bo‘lgan ramzlar, belgilar, urf-odatlar, qadriyatlar va til birliklarining birikmasidir. Madaniy kod xalq tafakkurining “shifrlangan” ifodasidir. Madaniy kodlar yordamida madaniyat avloddan avlodga o‘tadi. Ular nafaqat iboralarda, balki marosimlar, rasm-rusumlar va kundalik muomala shakllarida ham mavjud. Madaniy kodlar til birliklari vositasida aks ettiriladi: ular orqali xalqning qadriyatlari, tarixiy xotirasi, mentaliteti namoyon bo’ladi. Misol uchun o‘zbek tilidagi “non” so‘zi faqat

oziq-ovqat emas, balki muqaddaslik, baraka, mehmondo‘stlik timsoli sifatida ham talqin qilinadi. Bu madaniy kodni bilmagan kishi so‘zning to‘liq ma’nosini anglay olmaydi.

Ta’kidlash joizki, lingvomadaniyat va madaniy kod tushunchalari zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslikda beqiyos o’rin egallaydi. Til orqali madaniyat anglanadi, madaniyat esa til orqali ifodalanadi. Har bir til o’ziga xos madaniy kodlarni o’z ichiga oladi. Olimlarning fikrlariga ko’ra, tilni to’liq o’rganish uchun shu til vositasida ifodalanuvchi madaniyatni chuqur anglash zarur.



1-rasm. Madaniy kodni tashkil etuvchi birliklar jamlanmasi

Lingvomadaniyat – til va xalq ma'naviyatining o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi sohadir. Unda har bir tilning leksikasi, idiomatikasi va konstruktsiyalari o'sha millatning qadriyati, urf-odatlari, dunyoqarashi va ruhiy-madaniy konstruktlari bilan chuqur bog'langan deb qaraladi.

E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarov fikriga ko’ra “lingvomadaniyat – bu til orqali ifodalangan va madaniyatda mavjud bo‘lgan axborotni o‘rganadigan fan”[4] Bu ta’rif til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni nazarda tutadi. Til madaniyatning tashuvchisi sifatida ko‘riladi. V.V. Kolesov “til — bu xalq madaniyatining oynasi, u orqali biz millatning tafakkuri va ruhiy dunyosini anglaymiz”[7]. Darhaqiqat, til xalq dunyoqarashining ifodasi. Milliy o‘zlikni tushunish uchun tilning orqasidagi madaniy ma’nolarni o‘rganish muhim.

Madaniy kod – bu jamiyatda to‘plangan axborotning "kaliti", uni o‘qib, madaniyat mazmunini tushunish mumkin ya’ni madaniyatni anglash uchun uning kodlarini — ramzlar, iboralar, urf-odatlar, e’tiqodlarni tushunish lozim. “Madaniy kodlar til birliklari vositasida aks ettiriladi: ular orqali xalqning qadriyatlari, tarixiy xotirasi, mentaliteti namoyon bo‘ladi”[4] .Til birliklari — so‘zlar, frazeologizmlar, maqollar — madaniy kodlarni uzatishning asosiy vositasidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Yuqoridagi fikrlardan umumiy ravishda aytish mumkinki, lingvomadaniyat — bu til orqali madaniyatni anglash, tilni esa madaniyat konteksida tushunishdir. Madaniy kod esa – madaniyatni tashkil qiluvchi belgilar tizimi bo‘lib, u til vositasida ifodalanadi.

Anna Vejbiskaya til, madaniyat va inson psixologiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka alohida e'tibor beradi. Vejbiskaya fikricha, har bir jamiyatning nutq uslubi o'ziga xos madaniy ramzlar tizimi – yashirin madaniy qoidalar yig'indisini ifodalaydi. U bu ramzlarni obyektiv shaklda, universal semantik metalingvistika (Natural Semantic Metalanguage – NSM) yordamida ifodalash mumkin deb hisoblaydi[11].

A. Vejbiskaya ilmiy ishida ta'kidlaydiki, bir guruh nutq xususiyatlari "shunchaki mazmunda tasvirlab bo'lmaydi; ular bilmasdan amalga oshiriladigan madaniy qoidalar tizimining, yoki 'madaniy stsenariylar'ning' nazoratisiz natijasi" bo'lib qoladi. Uning yondashuvi kognitiv semantikaga yaqin bo'lib, madaniy kodni tilning semantik tomonidan o'rganadi. U o'zgarmas (leksik universaliya) tushunchalarga tayanib, madaniy qoidalarni aniq va qisqa formulalar bilan yozish imkoniyatini beruvchi tabiiy semantik metatil NSM (Natural Semantic Metalanguage) usulini taklif qiladi. Masalan, u turli madaniyatlardan kun tartibi, munosabat, ehtirom tushunchalarining nechog'liq farqlanishini shu yo'l bilan tahlil qilgan. Bu yondashuv til va madaniyat o'rtasidagi kognitiv parallelizmlarni ochib berishga yordam beradi.

Verbal madaniy kod - bu tildagi maxsus iboralar, metaforalar, idiomalar va nutq an'analari orqali madaniyatning ma'naviy-mental chizmalarini ifoda etuvchi mexanizmdir. Masalan, ingliz tilida "time is money" (vaqt – pul) degan ibora Amerika jamiyatida vaqtga intizom va raqobatchilikni, Rossiya madaniyatida esa "yaponcha tushunish" kabi alohida tushunchalar bor. Vejbiskayaning nuqtai nazaricha, bunday taxminan "milliy kalit so'zlar" jamiyatning asosiy

qadriyatlarini ochib beradi (masalan, rus tilida "duxovnost", ingliz tilida "God", o'zbek tilida "Xudo"). Bu qarashga ko'ra, har bir tildagi eng muhim so'zlar madaniyatni ichkaridan anglashga xizmat qiladi.

Vizual madaniy kod esa madaniyat ramzlari (turli vizual belgilar) va noverbal ifodalar (jismoniy joylashuv, ishoralar, libos-odat, davlat ramzlari) orqali berilgan madaniy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kognitiv yondashuv (Vejbiskaya, Kramsh) tildagi semantik yozishlarni ochish va ularni universal tushunchalarga bog'lashga urinsa, pragmatik yondashuv (Veretshagin, Xoll) tilni o'rgatish va muloqotda madaniy kontekstga e'tibor qaratadi.

Lingvomadaniy pragmatika — til vositalarining ma’no, kontekst, va madaniy qadriyatlar bilan o’zaro aloqadorligini o’rganadi. Bu yondashuvda: til birliklari ortidagi madaniy ma'no ochib beriladi. Nutqdagi pragmatik niyat (masalan, iltifot, kinoya, tanqid) madaniy kontekstda talqin qilinadi.

Natijalar va ularning tahlili

Multimodal diskursda lingvomadaniy pragmatikaning o’rganilishi uchun quyidagi metodologiyalar qo’llaniladi:

a) Multimodal tahlil (Kress & van Leuven): Modalitetlararo o‘zaro ta’sir tahlil qilinadi.Vizual, verbal va boshqa semiotik vositalarning integratsiyasi tahlil etiladi;

b) Pragmatik tahlil: Nutq harakatlari nazariyasi (Austin, Searle) asosida multimodal ifodalarning kommunikativ niyatlari o’rganiladi;

c) Korpora lingvistika: Real multimodal korpuslar (masalan, YouTube videolari) asosida madaniy va pragmatik tendensiyalar aniqlanadi;

d) Madaniy-semiotik yondashuv: Har bir modalitetdagi belgi va belgilar tizimi madaniy kontekstda tahlil qilinadi;

e) Kognitiv lingvistika: Til va multimodal belgilar orqali qanday madaniy modellar shakllanayotgani tushuntiriladi.

Xulosalar. Umumiy ravishda aytish mumkinki, multimodal diskursda lingvomadaniy pragmatika:

- Matn va multimodal belgilar orqali madaniyatga oid qadriyatlarni ochib beradi.
- Pragmatik niyatlarning madaniy shakllanishini tahlil qilish imkonini beradi.
- Faqat tilni emas, balki kontekst, madaniy kod, vizual-belgilarni ham e’tiborga oluvchi kompleks yondashuvlarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ametova Y. T. (2025). Ingliz va o‘zbek reklama matnlarida ekspressivlik: lingvistik va madaniy jihatlar chog’ishtirma tahlili. The Lingua Spectrum, 3(1), 16-22. (O‘zDJTU “Lingvistik spektr” jurnali).
2. Axtyamov A. E. (2022). Reklama matnlarining o‘zbek, rus va nemis tillari misolidagi pragmalingvistik tahlili. Filologiya fanlari bo‘yicha PhD avtoreferati. Toshkent.
3. Acheoah, J. E. (2011). “A Pragmatic Analysis of Ayi Kwei Armah’s The Beautyful Ones Are Not Yet Born and Ola Rotimi’s Hopes of the Living Dead.”PhD Dissertation. Zaria, Ahmadu Bello University
4. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. М, Рус. язык, 1990. - 270 с.
5. Колесов В.В. Концепт культуры: образ понятие - слово // Вестник СпбГУ. - Сер.2. - 1992. - Вып.3. - С.30-40.
6. Kovshova M.L. Lingvokul'turologicheskiy metod vo frazeologii: Kodi kul'tury. Moskva: LIBROKOM, 2013.
7. Kramsch C. Language and culture. Oxford Introductions to Language Study – Series Editor: H. G. Widd, 2000.
8. Kravchenko N., Yudenko O. (2023). Multimodal advertising: Semiotic and cognitive pragmatic aspects. International Journal of Philology, 8(4), 6-15.
9. Kress, G. & van Leeuwen, T. (2001). Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication. London: Arnold 1Publishers
10. Петров М.К. Язык, знак, культура. М.: Наука, 1991. - 328 с.
11. Икромхонова Ф.И. Инглиз тилидан коммуникативкогнитив корректив курс назарияси ва амалиёти (нолисоний олий ўқув юртлари мисолида): Автореф. дис. ... пед. фан. ном. – Тошкент, 2012. – Б. 26.
12. M.A. Mo‘minova. Multimodal diskursda lingvomadaniy pragmatikaning o‘rni va ahamiyati // O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. – T. 2025, l0-son
13. Wierzbicka, A. (In press). Cultural scripts: Linguistic evidence for cultural norms. In M. Ritz (Ed.). Intercultural communication: Proceedings of International Symposium held in Duisburg, March 1992.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Muxitdinov Dilshod Toxirovich
Katta o'qituvchiO'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
E-mail: muxitdinov.1992@gmail.com

INGLIZ TILIDAGI ONOMASTIK IDIOMALAR MADANIY XOTIRA TASHUVCHILAR SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada ingliz tilidagi onomastik idiomalar lingvokognitiv nuqtai nazardan ko'rib chiqilib, ularning madaniy xotira tashuvchisi sifatidagi vazifasi o'rganiladi. Tarkibida o'ziga xos ismlar bo'lgan onomastik idiomalar nutqiy jamoa tomonidan baham ko'rilgan tarixiy, mifologik, bibliyaviy va ijtimoiy bilimlarni kodlovchi lingvistik birliklar sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, idiomalardagi o'ziga xos ismlar kognitiv va madaniy belgilar sifatida ishlaydi, aniq shaxslarga murojaat qilishdan ko'ra, jamoaviy xotirani faollashtiradi. Tadqiqot ingliz tilida madaniy tajribani saqlash va uzatishda onomastik idiomalarning rolini ko'rsatib beradi.*

Kalit so'zlar: *onomastik idiomalar, madaniy xotira, kognitiv transformatsiya, kognitiv lingvistika, o'ziga xos ismlar, ingliz frazeologiyasi*

Мухитдинов Дилшод Тохирович
Старший преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков

АНГЛИЙСКИЕ ОНОМАСТИЧЕСКИЕ ИДИОМЫ КАК НОСИТЕЛИ КУЛЬТУРНОЙ ПАМЯТИ

Аннотация. *В статье рассматриваются английские ономастические идиомы с лингвокогнитивной точки зрения, с акцентом на их функцию как носителей культурной памяти. Ономастические идиомы, содержащие имена собственные, анализируются как лингвистические единицы, кодирующие исторические, мифологические, библейские и социальные знания, разделяемые языковым сообществом. Исследование показывает, что имена собственные в идиомах функционируют как когнитивные и культурные символы, активизируя коллективную память, а не ссылаясь на конкретные объекты. Исследование подчеркивает роль ономастических идиом в сохранении и передаче культурного опыта в английском языке.*

Ключевые слова: *ономастические идиомы, культурная память, когнитивная трансформация, когнитивная лингвистика, имена собственные, английская фразеология*

Muhitdinov Dilshod Tokhirovich
Senior teacherUzbekistan state world languages university

ENGLISH ONOMASTIC IDIOMS AS CARRIERS OF CULTURAL MEMORY

Annotation. *The article deals with English onomastic idioms from a linguo-cognitive perspective, emphasizing their function as carriers of cultural memory. Onomastic idioms containing proper names are analyzed as linguistic units that encode historical, mythological, biblical, and social knowledge shared by a speech community. The research shows that proper names in idioms operate as cognitive and cultural symbols, activating collective memory rather than referring to concrete entities. The research highlights the role of onomastic idioms in preserving and transmitting cultural experience within the English language.*

Key words: *onomastic idioms, cultural memory, cognitive transformation, cognitive linguistics, proper names, English phraseology*

Introduction

In modern linguistics, idiomatic expressions are increasingly viewed not only as fixed phraseological units but also as meaningful reflections of collective cognition and culture. Among them, **onomastic idioms**, that is, idioms containing **proper names,** occupy a special position because of their close connection with historical experience, cultural traditions, and social knowledge. Proper names embedded in idioms often transcend their original referential function and acquire symbolic value, allowing them to encode and transmit culturally significant meanings within the language system.

The concept of **cultural memory**, developed in the works of M. Halbwachs and further elaborated by J. Assmann, refers to the shared body of knowledge about the past that is preserved and communicated within a community through various cultural forms, including language. From this perspective, language functions as a repository of collective experience, where idiomatic expressions serve as condensed carriers of historical, mythological, religious, and social memory. Onomastic idioms are particularly important in this respect, as the proper names they contain activate culturally established associations and collective representations in the minds of speakers.

The present study adopts a linguo-cognitive approach, which considers linguistic meaning as the result of cognitive processes shaped by cultural experience. Within this framework, idiomatic meaning is understood not as arbitrary but as conceptually motivated and grounded in shared mental models and cultural scripts. Applying a linguo-cognitive perspective to the analysis of English onomastic idioms makes it possible to reveal how proper names function as cognitive symbols and how cultural memory is preserved and accessed through idiomatic usage.

Therefore, the aim of this article is to examine English onomastic idioms as carriers of cultural memory, focusing on the cognitive mechanisms underlying their semantic transformation and cultural significance.

Literature review

The present study is grounded in an interdisciplinary theoretical framework that integrates principles of cognitive linguistics, cultural memory theory, and phraseological and onomastic studies. This combination allows for a comprehensive analysis of English onomastic idioms as linguistic units that both reflect cognitive processes and preserve culturally significant knowledge.

Within cognitive linguistics, meaning is understood as a process of conceptualization rather than a fixed property of linguistic forms (Langacker, 1987; Langacker, 2008). According to G. Lakoff and M. Johnson, metaphor plays a central role in structuring human thought and experience, enabling speakers to conceptualize abstract notions through culturally grounded images (Lakoff & Johnson, 1980). In the case of idioms, metaphorical and metonymic mechanisms contribute to the formation and stabilization of figurative meanings (Lakoff, 1987). R. Langacker's view of meaning as conceptualization further supports the idea that idiomatic expressions are motivated by shared mental representations shaped by collective experience (Langacker, 1991). From this perspective, proper names in idioms function as cognitive triggers that activate culturally entrenched conceptual structures.

The notion of cultural memory, as developed by J. Assmann, provides an essential theoretical basis for understanding how cultural knowledge is preserved and transmitted through language (Assmann, 1995; Assmann, 2011). Assmann distinguishes between communicative memory, which is based on everyday interpersonal communication, and cultural memory, which is institutionalized and stored in symbolic forms such as texts, rituals, and linguistic expressions. Onomastic idioms can be regarded as elements of cultural memory insofar as they encapsulate historically and culturally significant information in a condensed linguistic form and ensure its continuity across generations. The foundational concept of collective memory proposed by M. Halbwachs further supports this view, emphasizing the social nature of memory and its dependence on shared cultural frameworks (Halbwachs, 1992).

From the perspective of phraseology and onomastics, idioms are characterized by semantic integrity, stability, and reproducibility (Vinogradov, 1977; Cowie, 1998), while proper names traditionally serve a nominative function (Algeo, 1992). However, when proper names become part of idiomatic expressions, they undergo a process of **semantic motivation and transformation**, losing their direct referential meaning and acquiring symbolic and evaluative functions (Dobrovol'skij & Piirainen, 2005). This shift enables proper names to operate as culturally loaded elements within idioms, contributing to the preservation and activation of collective knowledge.

The integration of these theoretical approaches makes it possible to demonstrate how English onomastic idioms store cultural memory and how they are cognitively processed by speakers. By combining cognitive mechanisms of meaning formation with theories of cultural memory and phraseological structure, the study reveals the role of onomastic idioms as linguo-cognitive units that mediate between language, cognition, and culture.

Methods

The empirical basis of the present study consists of a corpus of English onomastic idioms, compiled in order to ensure systematic and representative analysis. The corpus includes 30–50 idiomatic expressions containing proper names, which allows for qualitative linguo-cognitive analysis while maintaining sufficient empirical scope. The selection of idioms was guided by the principles of semantic stability, frequency of use, and cultural relevance.

The primary sources for data collection include authoritative idiom dictionaries, such as the *Oxford Dictionary of English Idioms* and the *Cambridge Idioms Dictionary* (Cowie, 1998; Oxford University Press, 2010), as well as specialized phraseological dictionaries. In order to establish the cultural and historical background of the selected idioms, historical and etymological dictionaries were additionally consulted (Partridge, 2006; Ayto, 2010). The use of multiple lexicographic sources ensures the reliability of definitions and provides access to etymological and cultural information essential for linguo-cognitive analysis.

For analytical purposes, the collected idioms were classified according to the type of proper name they contain. Three main groups were distinguished. The first group includes idioms based on anthroponyms, that is, personal names, such as *Jack of all trades* and *Johnny-on-the-spot*, which often reflect social stereotypes or generalized human characteristics. The second group comprises idioms containing toponyms**,** or geographical names, for example *carry coals to Newcastle* and *all roads lead to Rome*, which encode historically and culturally grounded spatial knowledge. The third group consists of idioms derived from mythological and biblical names, including *Achilles' heel* and *Good Samaritan*, which preserve elements of classical mythology and religious tradition.

Such classification facilitates a structured analysis of the ways in which different types of proper names contribute to the storage and activation of cultural memory within English idiomatic expressions and provides a clear methodological foundation for the subsequent linguo-cognitive analysis.

In order to reveal the cultural and cognitive potential of English onomastic idioms, the present study classifies them according to the type of cultural memory they encode. Following the theoretical framework of cultural memory (Assmann, 1995; Halbwachs, 1992), idiomatic expressions are viewed as linguistic units that preserve and transmit culturally significant knowledge through proper names functioning as symbolic markers of collective experience.

The first group comprises idioms that convey historical memory, that is, references to concrete historical events, personalities, or socio-historical contexts. Idioms such as *meet one's Waterloo* and *the real McCoy* originate from specific historical circumstances and encapsulate shared knowledge about past events or figures. Although the original historical referents may no longer be fully accessible to all speakers, these idioms continue to function as stable carriers of historical memory through their conventionalized meanings.

The second group includes idioms based on mythological memory, which draws on narratives from classical mythology. Expressions such as *Achilles' heel* and *Pandora's box* preserve mythological plots that have become integral to European cultural heritage. In these idioms, mythological names serve as cognitive symbols that activate culturally entrenched conceptual schemas related to vulnerability, temptation, or unintended consequences (Lakoff & Johnson, 1980; Assmann, 2011).

A distinct group is formed by idioms encoding religious and biblical **memory**. Idioms such as *Good Samaritan* and *Doubting Thomas* are rooted in biblical narratives and moral teachings, reflecting the long-standing influence of Christian tradition on English culture. These expressions function as condensed representations of ethical and evaluative concepts, allowing religious cultural memory to be transmitted through everyday language use.

Finally, the study identifies idioms that carry social and everyday cultural memory, reflecting collective representations of social roles, national identity, and stereotypical behavior. Idioms such as *Jack the Lad* and *Uncle Sam* exemplify how personal names become generalized symbols of social types or national personifications. In such cases, proper names lose their individual reference and acquire culturally shared meanings grounded in social experience and communicative memory (Assmann, 1995).

This classification demonstrates that English onomastic idioms encode different layers of cultural memory and confirms their role as linguo-cognitive mechanisms through which historical, mythological, religious, and social knowledge is preserved and activated in the collective consciousness of speakers.

The linguo-cognitive analysis of English onomastic idioms focuses on the mechanisms through which proper names embedded in idiomatic expressions encode and activate cultural memory. Each idiom is examined with regard to its **original referent**, the process of cognitive transformation, the degree of **loss of referentiality**, and the **cultural script** activated in the minds of speakers. This approach makes it possible to reveal how culturally specific knowledge is conceptualized and conventionalized within idiomatic meaning.

At the initial stage, the analysis considers the original referent of the proper name, which may be a historical figure, geographical location, mythological character, or biblical personage. For instance, the idiom *Achilles' heel* originates from the mythological figure Achilles, whose physical invulnerability was compromised by a single weak point. Similarly, *meet one's Waterloo* refers to the historical defeat of Napoleon at the Battle of Waterloo. In both cases, the proper name initially functions as a direct reference to a concrete person or event.

The next stage involves cognitive transformation, whereby concrete, culturally specific knowledge is reinterpreted and generalized into an abstract conceptual meaning. Through processes of metaphor and metonymy, the specific narrative associated with the name is compressed into a schematic conceptual structure (Lakoff & Johnson, 1980; Lakoff, 1987). In *Achilles' heel*, the detailed mythological narrative is cognitively reduced to the conceptual opposition of strength and vulnerability, which allows the idiom to be applied to a wide range of contexts beyond its original mythological source.

As a result of this transformation, onomastic idioms undergo a **loss of referentiality**, meaning that the proper name no longer refers to a real person or place but functions as a symbolic element within the idiomatic expression (Langacker, 1991; Dobrovol'skij & Piirainen, 2005). Contemporary speakers may successfully interpret the meaning of

Achilles' heel without possessing detailed knowledge of Greek mythology, which indicates that the name has become semantically entrenched as part of an abstract idiomatic meaning.

Finally, the analysis identifies the **cultural script** activated in the cognitive processing of the idiom. Cultural scripts are understood as shared, culturally grounded patterns of interpretation that enable rapid comprehension (Assmann, 2011). In the case of *Achilles' heel*, the idiom activates a widely shared mythological script of exceptional strength combined with a fatal weakness, allowing for fast and efficient conceptual access to meaning. Similar mechanisms can be observed in other onomastic idioms, regardless of whether their origin is historical, religious, or social.

Overall, the linguo-cognitive analysis demonstrates that English onomastic idioms function as culturally motivated conceptual units. Through the processes of cognitive transformation, loss of referentiality, and activation of cultural scripts, proper names within idioms operate as powerful carriers of cultural memory in the English language.

A key question in the study of English onomastic idioms is why speakers can often understand these expressions without possessing detailed historical, mythological, or religious knowledge of their original referents. From a linguo-cognitive perspective, this is possible because idioms encode meaning not solely through direct reference but via conceptually motivated cognitive structures and cultural scripts that are shared within the speech community (Lakoff & Johnson, 1980; Langacker, 1991). Proper names in idiomatic expressions function as symbolic triggers that automatically activate associated conceptual frames, enabling comprehension even when the original cultural or historical context is no longer accessible.

The persistence of cultural memory in idioms is also facilitated by processes of semantic entrenchment and recontextualization**.** As idioms are repeatedly used in discourse, their figurative meaning becomes conventionalized, and the connection to the original referent gradually diminishes (Dobrovol'skij & Piirainen, 2005). For example, *the real McCoy* is widely understood to signify authenticity or genuineness, even though many speakers are unaware of the historical figure of Elijah McCoy. Similarly, *Achilles' heel* conveys vulnerability regardless of the speaker's knowledge of Greek mythology. In such cases, idioms retain their communicative and cultural function through entrenched cognitive patterns rather than explicit historical knowledge.

Nevertheless, the transparency of onomastic idioms varies. Some idioms remain transparent**,** allowing listeners to infer meaning from context or the conceptual associations evoked by the proper name (*Jack of all trades*). Others become unclear, where the original referent and cultural context are largely inaccessible to modern speakers (*meet one's Waterloo*), yet the idiomatic meaning persists through socialization and habitual usage. The degree of transparency depends on factors such as frequency of use, cultural salience, and metaphorical generalization (Cowie, 1998; Vinogradov, 1977).

When cultural memory fades, idioms may lose historical resonance but continue to function as cognitively and socially meaningful units**.** They exemplify how language can preserve and transmit cultural knowledge indirectly, through shared mental models and conventionalized figurative structures, rather than requiring active historical awareness (Assmann, 1995; Halbwachs, 1992). Thus, English onomastic idioms demonstrate the remarkable capacity of language to sustain cultural memory across generations, maintaining both communicative effectiveness and cognitive salience.

Results and discussions

The present study has examined English onomastic idioms as carriers of cultural memory from a linguo-cognitive perspective, demonstrating that proper names embedded in idiomatic expressions function not merely as referential markers but as symbolic and cognitive triggers of shared cultural knowledge. Drawing on the theories of cognitive linguistics (Lakoff & Johnson, 1980; Langacker, 1991), cultural memory (Assmann, 1995; Halbwachs, 1992), and phraseology (Cowie, 1998; Vinogradov, 1977), the study has shown that idioms preserve historical, mythological, religious, and social memory in highly conventionalized forms.

The analysis of a corpus of onomastic idioms revealed that proper names undergo cognitive transformation, losing their original referential function while retaining abstract, culturally grounded meaning. Idioms such as *Achilles' heel*, *meet one's Waterloo*, and *Good Samaritan* exemplify how linguistic expressions encode cultural scripts, allowing speakers to access shared knowledge and interpret figurative meaning even when historical or mythological context is unfamiliar. The persistence of meaning in such idioms demonstrates the mechanisms of semantic entrenchment**,** recontextualization**,** and activation of cultural scripts**,** which ensure that collective memory is maintained through language.

In addition, the study highlighted the varying degrees of transparency and opacity in onomastic idioms. Some idioms remain semantically transparent, facilitating inferential understanding, while others have become unclear, but continue to function effectively as cognitive and communicative units. This demonstrates that English onomastic idioms serve not only as linguistic expressions but also as remaining preservations of cultural knowledge, bridging cognition, language, and culture.

Conclusion

To conclude, English onomastic idioms illustrate the intricate interplay between language, cognition, and cultural memory. They illustrate how proper names, once tied to concrete referents, can evolve into powerful conceptual

symbols that preserve, transmit, and activate culturally significant knowledge across generations. This study contributes to a deeper understanding of the linguo-cognitive mechanisms underlying idiomatic meaning and underscores the value of idioms as tools for studying the intersection of language and collective cultural consciousness.

References

1. Algeo, J. (1992). *Onomastics and the study of proper names in English*. In J. Algeo (Ed.), *The Cambridge history of the English language* (Vol. 5, pp. 45–67). Cambridge University Press.
2. Assmann, J. (1995). *Collective memory and cultural identity*. New German Critique, 65, 125–133.
3. Cowie, A. P. (1998). *Phraseology: Theory, analysis, and applications*. Oxford University Press.
4. Dobrovol'skij, D., & Piirainen, E. (2005). *Figurative language: Cross-cultural and cross-linguistic perspectives*. Elsevier.
5. Halbwachs, M. (1992). *On collective memory* (L. A. Coser, Trans.). University of Chicago Press. (Original work published 1950)
6. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Tajiboyev Botir Raximjonovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti
Email: botirtojiboyev19@gmail.com

UO'K: 811.512.133 (043.3)

ASSOTSIATIV MAYDONNI TARKIB TOPTIRUVCHI QISMLAR XUSUSIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada assotsiativ maydon hamda uning tarkibi haqida so'z boradi. Assotsiativ maydon tarkibining miqdoran cheklanmaganligi, uning tarkibi shu til egalarining assotsiatsiyalari bilan bog'liqligi, jamoaviy va individual assotsiatsiya jarayonlari o'zbek tili kontekstida o'rganilgan. Assotsiativ maydonda turli xususiyatiga ko'ra o'rin olgan birliklar tilning qaysi sath birligiga mansubligiga ko'ra, struktur jihatdan, turtki so'z bilan semantik aloqasiga ko'ra tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *assotsiativ maydon, miqdoran cheklanmaganlik, jamoaviy assotsiatsiya, individual assotsiyatsiya, turtki so'z, semantik aloqa*

Тажибоев Ботир Рахимжонович
Доцент Ташкентского университета прикладных наук

Аннотация. *В данной статье рассматривается ассоциативное поле и его структура. Количественная неограниченность состава ассоциативного поля, его связь с ассоциациями носителей этого языка, процессы коллективной и индивидуальной ассоциации изучаются в контексте узбекского языка. Единицы, расположенные в ассоциативном поле, анализируются по их различным свойствам в зависимости от уровня языковой единицы, к которой они принадлежат, структурно и по их семантической связи с корневым словом.*

Ключевые слова: *ассоциативное поле, количественная неограниченность, коллективная ассоциация, индивидуальная ассоциация, корневое слово, семантическая связь*

Tajiboyev Botir Rakhimjonovich
Associate Professor, University of Tashkent for Applied Sciences

ON THE PARTS THAT MAKE UP THE ASSOCIATIVE FIELD

Annotation. *This article discusses the associative field and its structure. The quantitative unrestrictedness of the composition of the associative field, its connection with the associations of speakers of this language, the processes of collective and individual association are studied in the context of the Uzbek language. The units located in the associative field according to their various properties are analyzed according to the level of the language unit to which they belong, structurally, and according to their semantic connection with the root word.*

Keywords*: associative field, quantitative unrestrictedness, collective association, individual association, root word, semantic connection*

Kirish

Assotsiativ maydonda uning tarkibi masalasini o'rganish muhim o'rin tutadi. Chunki assotsiativ maydon birliklari nafaqat turtki so'z bilan assotsiativ aloqa-munosabatdagi birliklardir, balki maydonni tashkil qiluvchi, uning maydon sifatidagi yaxlitligini ta'minlovchi birliklar sifatida ham ahamiyatlidir.

Assotsiativ maydon tarkibi xilma-xil birliklardan tashkil topadi. Maydonga xos xarakterli belgilardan biri uning turli sath birliklaridan tarkib topishidir. Bunday birliklar fonetik sath, leksik, morfologik, sintaktik sath birliklari bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Assotsiativ maydon tarkibining miqdor jihatdan noaniqligi, cheklanmaganligi yana bir xarakterli belgisidir. A.Nurmonov buni inobatga olib, assotsiativ maydon tarkibining noaniqligi va miqdorining chegarasiz bo'lishini qayd

etadi.[4. –B.59] Assotsiativ maydon tarkibi til egalari tomonidan berilgan assotsiatsiyalar bilan belgilanadi. Til egalari qanchalik ko‘p bo‘lsa, ularda hosil bo‘lgan assotsiatsiyalar ham shunchalik ko‘p va rang-barang bo‘ladi.

Lisoniy assotsiativ maydonlarni belgilashda til egalari ustida o‘tkaziladigan assotsiativ tajriba metodiga asoslaniladi. Ayrim tilshunoslar agar assotsiativ maydon tarkibi ma’lum bo‘lsa, uning turini aniqlash oson bo‘lishini qayd etishadi. Masalan, T.P. Barkovaning fikricha, muayyan turtki so‘zning lingvistik assotsiativ maydonini belgilash, agar uning tarkibi ma’lum bo‘lsa, bitta noma’lum belgisiga asoslanib, aniqlash juda oddiy vazifa hisoblanadi.[3]

Tadqiqot metodologiyasi

Assotsiativ maydonlar kim tomonidan yoki qanday usulda hosil qilinganligiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Assotsiativ maydon individual yoki jamoaga mansub bo‘lishi mumkin. Individual nutq jarayonida muallifning nutq obyekti bo‘yicha hosil bo‘lgan assotsiatsiyalarini aks ettiruvchi assotsiativ maydonlar shakllanadi. Inson nutq yaratar ekan, nutq obyekti bo‘yicha xotirasida tiklangan birliklar majmuyidan unumli foydalanadi. Bunday birliklar majmuyi nutq egasiga xos individual assotsiatsiyalar hisoblanadi. Masalan, shoir she’r yozish jarayonida obyektni badiiy tasvirlashga xizmat qiluvchi til birliklariga murojaat qiladi. Bunday birliklar bir-biri bilan o‘zaro assotsiativ bog‘langan hamda lisoniy ongda assotsiativ maydonlarga birlashgan holda yashovchi birliklar bo‘lib, she’r yozish jarayonida shoir xotirasida oson tiklanadi. Deylik, she’r qish fasli tavsifga bag‘ishlangan. Shoir qish fasliga badiiy tavsif berishda tasavvurlarini ishga soladi va tafakkurida qayta ishlangan qishning obrazli tasvirini tilda aks ettirishga yordam beruvchi o‘zaro assotsiativ bog‘langan quyidagi so‘zlarga yoki ulardan bir nechtasiga, albatta, murojaat qiladi: *qish manzarasi, oppoq qor, oppoq qorga burkangan daraxtlar, oppoq dalalar, qorbo‘ron, bo‘ralab yog‘ayotgan qor, izg‘irin, sovuq, ayozli kunlar, bolalar, chang‘i, sirpanchiq, yaxmalak* kabilar. Bu birliklar *qish* so‘zi bilan assotsiativ bog‘langan birliklar bo‘lib, mazkur belgisi asosida umumiy maydonga birlasha oladi.

Anglashiladiki, individual assotsiativ maydon muayyan shaxsning o‘zigagina xos bo‘lgan, uning lisoniy ongidan o‘rin olgan, bir-biri bilan assotsiativ-semantik bog‘langan birliklar majmuyidir.

Jamoaviy assotsiativ maydonlar muayyan til birliklari bo‘yicha ko‘plab til egalari ustida o‘tkaziladigan assotsiativ tajribalar orqali shakllantiriladi. Bunday tajribalar jarayonida til egalarida muayyan til birliklari bo‘yicha hosil bo‘ladigan individual assotsiatsiyalar aniqlanib, umumlashtiriladi. Umumlashtirilgan individual assotsiatsiyalar assotsiativ maydonlarga joylashtiriladi. Ko‘p takrorlangan assotsiatsiyalar jamoa assotsiatsiyalari sifatida tan olinadi, yakka tartibdagi assotsiatsiyalar esa individual assotsiatsiyalar hisoblanadi. Jamoaviy assotsiatsiyalar jamoaning til birliklari bo‘yicha bilimlari va tasavvurlarini aks ettiradi.

Natijalar va ularning tahlili

Assotsiativ maydonda turli xususiyatiga ko‘ra o‘rin olgan birliklar kuzatiladi:

1) tilning qaysi sath birligiga mansubligiga ko‘ra: fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sath birliklari.

Assotsiativ maydonning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri unda turli sath birliklarining o‘rin olishidir. Jumladan, assotsiativ maydondan til egalarida turtki so‘zning tovush tomoni bilan bog‘liq holda hosil bo‘ladigan assotsiatsiyalar yoki turtki so‘zning fonetik variantlaridan iborat fonetik birliklar kuzatiladi. Yoki assotsiativ maydonda turtki so‘z bilan bog‘liq holda til egalari xotirasida tiklangan turli leksik birliklar, turtki so‘zning morfologik shakllari yoki bu so‘z bilan bog‘liq holda hosil bo‘lgan so‘zshakllari, so‘z birikmasi va gap shaklidagi assotsiatsiyalar uchrashi mumkin. Masalan, 2018-yilda o‘zbek tilidagi milliy-madaniy semali birliklar bo‘yicha 273 ta o‘zbek tili egalari bo‘lgan 21-50 yoshdagi talaba va o‘qituvchilar ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajribada *qurtava* turtki so‘ziga berilgan *qurtoba* [1. –B.226] (2) [Ushbu raqam sinaluvchilar sonini anglatadi] javob reaksiyasi bu so‘zning fonetik varianti sanaladi. Yoki 2021-2022 yillarda tadqiqotchi D.Mirnosirova tomonidan o‘zbek tilida faol qo‘llaniluvchi 100 ta so‘z bo‘yicha Toshkent shahrida yashovchi 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan 200 nafar maktabgacha yoshdagi bolalar ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajribada *mashina* so‘ziga 9 ta sinaluvchi tomonidan berilgan *moshina* [2. -B.60.] javob reaksiyasi turtki so‘zning fonetik varianti hisoblanadi.

Ushbu tajribada *rapida* so‘ziga berilgan *non* (57), *tandir* (36), *asbob* (19), *nonushlagich* (8), *nonvoy* (8), *ona* (8); *chakich* (8), *dumaloq* (5), *novvoyxona* (5), *tandirxona* (4), *xamir* (4), *qo‘lqop* (3), *qo‘shiq* (3), *yenglik* (3), *yengsa* (3), *yengcha* (3), *zuvala* (3), *aylana* (2), *elak* (2), *Hulkar Abdullayeva* (2), *kulcha* (2), *nonsavat* (2), *olov* (2), *oshxona* (2), *patir* (2), *supra* (2), *tikach* (2) javob reaksiyalari leksik sath biriklari sanaladi.

Rapida so‘ziga berilgan *onam* (2), *kelinlar* (2) javob reaksiyalari esa *ona, kelin* so‘zlarining morfologik shakllari bo‘lib, morfologik sathga mansubdir. Ushbu turtki so‘zga til egalari tomonidan berilgan *non yopish* (5), *issiq non* (2), *issiq tandir* (2), *non hidi* (2), *qizigan tandir* (2), *shirmoy non* (2) javob reaksiyalari sintaktik birliklar hisoblanadi.

2) struktur jihatdan: sodda leksemalar: sodda tub va sodda yasama so‘zlar; b) juft, qo‘shma, takroriy leksemalar; sodda va murakkab so‘z birikmalari, sodda va qo‘shma gaplar; matn.

Assotsiativ maydondan o‘rin olgan til birliklari tuzilishiga ko‘ra bir-biridan farqlanib turadi. Bunday maydonda turtki so‘zning xususiyati bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan birliklar, xususan, turtki so‘z bilan asosdosh bo‘lgan yasalmalar, sodda tub so‘zlar yoki juft, takroriy shakldagi so‘zlar, turtki so‘z asosida hosil bo‘lgan qo‘shma so‘zlar kuzatilishi mumkin. Yoki til egalarida turtki so‘zning mohiyatini kengroq ochib berishga qaratilgan so‘z birikmalari, gaplar yuzaga kelishi mumkin. Ayrim

hollarda til egalar turtki so‘zga nisbatan gapdan yirik hajmli matnlarni keltirishi ham kuzatiladi. Masalan, talaba yoshlar ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajribada *paxsa* so‘ziga nisbatan til egalari tomonidan berilgan *paxsakash* (3) [1. – B.211.] javob reaksiyasi, shuningdek, *sayil* so‘ziga berilgan *sayilchilar* (2)[1. – B.235.] javob reaksiyasi tuzilishiga ko‘ra sodda yasama birlik sanaladi. *Sovchi* stimul so‘ziga berilgan *qalin puli* (3), *ostona supurish* (2), *qiz ko‘rish* (2), *ikki yosh* (2) [1. – B.238.] javob reaksiyalari esa so‘z birikmasi xarakteridagi, ushbu turtki so‘zga nisbatan berilgan *“Elchiga o‘lim yo‘q”*, *“Har bir viloyatda sovchilikka borish odati har xil bo‘ladi”*[1. – B.238.]javob reaksiyalari gap tuzilishidagi sintaktik assotsiatsiyalar sanaladi.

3) turtki so‘z bilan semantik aloqasiga ko‘ra: turtki so‘z bilan semantik jihatdan zich bog‘langan birliklar; turtki so‘z bilan semantik jihatdan bog‘lanmagan birliklar.

Assotsiativ maydonda turtki so‘z bilan u yoki bu darajada semantik yoki grammatik jihatdan aloqador bo‘lgan javob reaksiyalar ko‘p uchraydi. Masalan, *oila* turtki so‘ziga nisbatan o‘zbek tili egalari xotirasida ko‘pincha *ota-ona, farzand* javob reaksiyalari tiklanadi. Bu javob reaksiyalari turtki so‘zning lug‘aviy ma’nosini ochib berishga xizmat qiladi.

Yoki yuqorida qayd etilgan assotsiativ tajribada *dutor* turtki so‘ziga berilgan *tor* [1. – B.111.] javob reaksiyasi 9 ta sinaluvchida tarorlangan. Bu so‘z *dutor* so‘zi bilan semantik uyadoshlik munosabatidagi so‘z sanaladi. Yoki *palov* so‘ziga 91ta sinaluvchi tomonidan takror berilgan osh[1. – B.208.] javob reaksiyasi bu so‘zning sinonimik varianti bo‘lib, turtki so‘zning ma’nodoshlik xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Shunisi xarakterliki, assotsiativ maydonda turtki so‘z bilan semantik jihatdan zich bog‘langan javob reaksiyalari til egalari tomonidan ko‘p takrorlanadi. Bu turdagi aloqa kuchli assotsiativ aloqa bo‘lib, jumla qurilishida muhim o‘rin tutadi. Boshqacha aytganda, til egalari jumla tuzishda o‘zaro zich semantik aloqadagi turtki so‘z + javob reaksiyasi juftligidan ko‘p foydalanishadi.

M.Patsis assotsiativ maydonda turtki so‘z va javob reaksiyasi o‘rtasidagi assotsiativ munosabatni o‘rganar ekan, ular o‘rtasidagi aloqa xarakteri va bog‘lanish usulini aniqlaydi. Turtki so‘z va javob reaksiyasi o‘rtasidagi assotsiatsiya kuchini ushbu turtki so‘zga berilgan javob reaksiyasi miqdori asosida belgilash lozimligini uqtiradi. U gap tuzishda kuchli assotsiativ aloqadagi juftliklar ko‘proq qo‘llanishini, assotsiativ juftliklar orasidagi munosabat turi ularning sintaktik integratsiyasida muhim o‘rin tutishini aniqlaydi. Tadqiqotchining qayd etishicha, “assotsiatsiya kuchi assottsiativ juftlikni gapga kiritish xarakteriga ta’sir ko‘rsatadi: kuchli aloqa-bog‘lanishdagi assotsiativ juftliklar gap tarkibiga kirganda parchalanib ketmaydi va yagona semantik komponent sifatida jumlaga olib kiriladi”[5].

Anglashiladiki, turtki so‘z bilan semantik jihatdan zich bog‘langan javob reaksiyalari biror bir jumlaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Assotsiativ maydonda har doim ham turtki so‘z bilan semantik bog‘liq assotsiatsiyalar uchrayvermaydi. Til egasi turtki so‘zning ma’no mohiyatini to‘g‘ri anglab yetmaganida bu so‘zga faqat tovush tomondan yaqin bo‘lgan javob reaksiyasini berishi mumkin. Masalan, maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari assotsiativ lug‘atida *beshik* (9) turtki so‘ziga berilgan *eshik* [2. – B.33.] javob reaksiyasini ushbu turtki so‘z bilan tovush jihatdan hammohangligi asosda yuzaga kelgan deyish mumkin.

Xulosa

Anglashiladiki, assotsiativ maydon birliklari qanday sathga mansubligi, turtki so‘z bilan semantik aloqasi, grammatik xususiyati, struktur tuzilishi va boshqa turli belgilari asosida bir-biridan farq qiladi. Assotsiativ maydon til birliklarining assotsiativlik xususiyatini namoyon qiluvchi, til egalari lisoniy ongida shu belgisi asosida umumiylikka birlashuvchi, bir-biri bilan assotsiativ bog‘langan turli-tuman birliklar majmuyi sifatida ahamiyatli.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar). – Toshkent: “NAVOIY UNIVERSITETI” nashriyot-natbaa uyi. 2019.
2. Mirsanova D. Bolalar assotsiativ lug‘ati. – Toshkent: “Bookmany print”. 2022. – B.60.
3. Баркова Т. П. Текстовое ассоциативное поле и моделирование структуры концепта (на материале рассказа Т. Толстой «Круг») // Концепт. 2015. – № 11 // https://e-koncept.ru/2015/15405.htm
4. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари (“Лингвистика” йўналишидаги магистрлар учун ўқув қўлланма). – Андижон. 2006. – Б. 59.
5. Патсис М. Ассоциативное поле как инструмент анализа значения слова: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – М., 2005 // http://www.dslib.net/jazyko-znanie/associativnoe-pole-kak-instrument-analiza-znachenija -slova-na-materiale-grecheskogo.html

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xushmanova Shaxnoza Ibragimovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi;
e-mail: et4831425@gmail.com

NUTQIY AKTLAR NAZARIYASI DOIRASIDA SALOMLASHUV FENOMENINING UNIVERSAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqola nutq aktlari nazariyasining elementlariga asoslanib, salomlashish fenomenining keng xususiyatlarini o'rganadi. Salomlashuv ijtimoiy muloqot maqsadlarida ishlatiladigan no-tuzilmalangan nutq akti sifatida aniqlangan. Salomlashishning ajralib turadigan xususiyatlari: ijtimoiylashuv, rasmiy xususiyatlar va amalga oshirilgan nutq faoliyatida barqaror bo'lmagan morfo-sintaktik shakllarni ifodalashga yordam beradigan xususiyatlardir.Maqola murakkablikda til shakllanishlarida salomlashish turlari va ularning umumiy xususiyatlarini, shuningdek, ularning haqiqiy shakllanishi va o'zgarishidagi tafovutlarni kontseptualizatsiya qiladi.*

Topilmalar salomlashishning ahamiyati va madaniyatlararo muloqot sohalari va ikkinchi tilni o'rganishda nutq aktlari nazariyasini tushunishga qo'shadigan hissasini ochib beradi.

Kalit so'zlar: *nutqiy aktlar nazariyasi, salomlashuv, universal xususiyatlar, ijtimoiy muloqot, madaniy kontekst*

Хушманова Шахноза Ибрагимовна
Университет экономики и педагогики,
старший преподаватель кафедры иностранных языков;

УНИВЕРСАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФЕНОМЕНА ПРИВЕТСТВИЯ В РАМКАХ ТЕОРИИ РЕЧЕВЫХ АКТОВ

Аннотация: *В данной статье исследуются универсальные особенности феномена приветствия в рамках теории речевых актов. Приветствие является основным речевым актом в начале социального общения, выполняющим функции установления социальных связей, обладающим ритуальным характером и принимающим различные формы в разных культурных контекстах. В статье показаны различия и сходства форм приветствия в разных языках. Результаты исследования подчеркивают важность теории речевых актов для улучшения межкультурной коммуникации и изучения языков.*

Ключевые слова: *теория речевых актов, приветствие, универсальные особенности, социальное общение, культурный контекст*

Khushmanova Shakhnoza Ibragimovna
University of Economics and Pedagogy,
Senior Lecturer, Department of Foreign Languages;

UNIVERSAL CHARACTERISTICS OF THE PHENOMENON OF GREETING WITHIN THE FRAMEWORK OF SPEECH ACT THEORY

Abstract: *This article examines the universal characteristics of the greeting phenomenon within the framework of speech act theory. Greeting is a fundamental speech act performed at the beginning of social interaction, serving to establish social connections, possessing ritual features, and varying across different cultural contexts. The article highlights differences and similarities in greeting forms across various languages. The findings emphasize the importance of speech act theory in enhancing intercultural communication and language learning.*

Key words: *speech act theory, greeting, universal characteristics, social interaction, cultural contex*

Kirish (Introduction)

Salom – og‘zaki so‘zning birinchi namoyishi – odamlar o‘rtasidagi muloqotning eng muhim bosqichlaridan birini tashkil etadi. Har qanday jamiyatda salomlashish odamlar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish va munosabatlarni tartibga solishga yordam beradi, muloqotning tashkil qilinishiga hissa qo‘shadi.

So‘z amallari nazariyasi bitta til va so‘zlashuv jamoasining hayotining ushbu jihatini nazariy o‘rganish uchun bir asosdir. Ushbu nazariyaning o‘zi 1960-yillarda J. L. Austinning ishlari bilan tug‘ilib, keyinchalik J. Searle tomonidan rivojlantirildi. So‘z amallari nutqni nafaqat axborotni uzatish usuli sifatida, balki nutq yordamida amalga oshiriladigan ijtimoiy harakatlar turkumi sifatida ko‘rib chiqadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, salom muloqotni boshlash uchun maxsus mo‘ljallangan ijro etish xususiyatiga ega nutq ifodasidir.

Madaniyat va til tadqiqotlari prizmasi orqali salomlashishning universal xususiyatlarini aniqlash, o‘zaro tushunishni o‘rnatishda, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda va odamlar o‘rtasidagi muloqot samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, so‘z shakllanishlari nazariyasi doirasidagi bunday ishlar nazariy-tasodifiy ish uchun maxsus sabablar mavjud. Demak, ushbu maqolaning asosiy maqsadi til muloqotida salomlashish hodisasini universal jihatdan uning shakllari va funksiyalarida chuqur o‘rganishdan iborat.

Material va metodlar (Methods)

Maqolada salomlashish fenomenining universal xususiyatlarini o‘rganishda sifatli tadqiqotning quyidagi metodlari qo‘llanilgan: nutq aktlari nazariyasining asosiy adabiyotlari hamda bu boradagi ilmiy maqolalar, pragmatika, madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlarida salomlashishga bag‘ishlangan monografiyalar, o‘zbek va xorijiy olimlarning tadqiqotlari asosiy ma’lumot manbalari sifatida xizmat qilgan .

Bir vaqtning o‘zida materiallar ikki asosiy tomondan ko‘rib chiqilgan:

Nazariy asosning tahlili

Mualliflar nutq aktlari sifatida salomlashishning roli va ularning nutq aktlari nazariyasi paradigmalaridagi ijtimoiy funksiyalarini tahlil qilgan. Nutq aktlari nazariyasi Austin va Searle’ning tavsifi va klassifikatsiyalariga asoslangan asosiy ta’rif qo‘llanilgan .

Madaniy va lingvistik material

Turli tillarda va madaniyatlarda salomlashish formalarining semantik va pragmatik xususiyatlari o‘rganilgan. Ushbu holatda, o‘zbek lingvistlari Sh. Shokirov va R. Toshmuhammadovaning maqolalari muhim rol o‘ynagan. Sh. Shokirov o‘zbek tilidagi nutq aktlarining ijtimoiy kontekst va ko‘p tillilik o‘zgaruvchanligiga e’tibor qaratgan; salomlashish jarayonini aloqa rituali va oqillik munosabati ekanligini ta’kidlagan . R. Toshmuhammadova esa o‘zbek etiketida salomlashish va xayrlashish formalari asosiy pragmatik funksiyalarini aniqlagan va tahlil qilgan .

Shuningdek, maqolada nutq aktlari va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni bayon etgan ingliz tilshunoslari G. Yule va J. Holmes’ning asarlari faol foydalanilgan. Metodologik jihatdan, tadqiqotda matn tahlili, kontent-tahlil va qiyosiy metodlar qo‘llanilgan .

Matn tahlili turli madaniyatlarda qo‘llanilgan salomlashish fenomenini va nutq aktlari doirasidagi o‘rnini o‘rganishga imkon berdi; kontent-tahlil yordamida ijtimoiy komponent va madaniy fon aniqlangan, solishtirma metod esa ko‘plab til oralig‘idagi cheklovlar va universal xususiyatlarni aniqlashga imkon berdi.

Natijalar(Results)

Salomlashuvning nutq amali sifatidagi roli

Nutq amallari nazariyasida salomlashuv, umuman olganda, muloqotning butun jarayonining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Ular ijtimoiy ijro xarakteriga ega va suhbatdoshlar uchun muloqotni boshlash imkoniyati haqidagi birinchi belgilarni va muloqotning ijtimoiy jarayonlarini o‘rnatish zarurligini anglatadi . J. L. Austin tomonidan chiqishingning ijro xarakteriga asoslangan ta'rifi bo‘yicha, salomlashuv faqat xabarlarni yetkazish vositasi emas, balki ma’lum bir harakatni yaratishga qaratilgan deyish mumkin. Bu, amalda, manzillar bilan muloqot jarayonini boshlash istagining e’lonidir .

Ingliz tilshunos G. Yule ko‘zida, nutq amallari nutqning ijtimoiy shaklidir. Bunda, bu muloqotning dastlabki bosqichida nomlash amali hisoblanadi: salomlashuvlar ham suhbat tashabbusining signal funksiyasini bajaradi. Muloqot shakllari sifatida salomlashuvlarni o‘rganishda muallif, turli sharoitlarda ularning o‘zgaruvchanligini, semantik chuqurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Yule nutq amallari faoliyatini o‘z-o‘zidan tahlil qiladi: ilokutsion, perlokutsion va lokutsion. Shu tariqa, umuman muloqotdagi salomlashish o‘rni va usuli aniqlanadi.

Retual xarakter

O‘zbek tilshunosi Sh. Shokirov o‘zbek madaniyati va suhbatdoshlar tilining o‘ziga xosliklarida salomlashuvlarning rolini tahlil qilib, ularning marosim ijrosiga alohida e’tibor berib o‘tdi. Hozirgi ko‘rinishidagi salomlashuvlar hurmat va samimiylik belgisi sifatida rivojlangan. Olimning fikriga ko‘ra, salomlashuvlar faqat nutq amallari emas, balki ijtimoiy tartib tizimining vakillari va murojaat etilgan hamda manzil oluvchiga nisbatan maqomning ko‘rinishidir. Bu holat J. L. Austin nazariyasining madaniy kontekstdan ajralmasligini tasdiqlaydi. Muallif tomonidan ijrochiviy amallar lug‘atida salomlashuv amallarining tiplariga kelsak, uni ijrochiviy yo‘naltiruvchi va xushmuomala banal ostshihtitlarga kiritish

mumkin. Chunki suhbatdoshlarining keyingi harakatlar uchun “qoidalarning” tartib-intizomini o‘rnatish funksiyasi yangi nutq jarayonining dastlabki bosqichida ijtimoiy doirani ko‘rsatadigan harakatlarga tegishli .

Salomlashuvning umumiy xususiyatlari ijtimoiy aloqani o‘rnatishni o‘z ichiga oladi. Salomlashuvning universal xususiyati, eng umumiy funksiya ijtimoiy aloqalarni e’lon qilish, do‘stlik, hamkasbga hurmat, odob-axloq kabi turli xil sotsiokultural munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, etnograf G. Yul salomlashuvning shakllari va funksiyalari haqidagi asarlarida bunday til tashqarisidagi va ijtimoiy shakllarni o‘rgangan .

Kontekstga bog’liqlik

Bundan tashqari, o‘zbek tilshunoslari Sh. Shokirov va R. Toshmuhammadovaning asarlari orqali o‘zbek tilidagi salomlashuvning turkiy tillar oilasiga mansubligi timsolida etika va madaniyat kodi sifatida ham tatbiq etilishi e’tirof etiladi va bu haqiqatan ham, chunki barcha til nafaqat yozilish jarayoni, balki o‘zbek xalqining ijtimoiy tartibi va madaniyatining manzarasi hamdir Ingliz tadqiqotchisi J. Xolmsning fikriga ko‘ra, odamlar turli mamlakatlar yoki jamiyatlarda bir-birlarini qanday salomlashmasin – qattiq qo‘l siqish, o‘pish, shlyapani yechish yoki ta’zim qilish – har bir madaniyat jamiyatda ijtimoiy tuzilmalarni shakllantirish bo‘yicha qabul qilingan odatlariga qarab aniq tajassum etilgan marosimlashgan ifodalarini ega .

Ijtimoiy va iltifot funktsiyasi

Ijtimoiy va xushmuomalalik nutq funksiyalari nafaqat dialogni boshlash funksiyasini, balki hurmat, samimiylik va ijtimoiy do‘stlik funksiyalarini ham qamrab oladi. Masalan, o‘zbek olimlari S.Karimov va O.Abdullayev o‘z ishlarida ijtimoiy nutq funksiyalarini o‘rganishga tayangan holda, ularning ijtimoiy muhitni va odamlarning nutq usullarini qanday tartibga solishini ko‘rsatadi. O‘zbek olimlarining ishlarida o‘zbek tilining semantik va pragmatik xususiyatlari bilan odob-axloq va inson behaviorining fenomeniga oid ma’lumotlar beriladi. Bundan tashqari, S.Karimov va O.Abdullayev o‘z ishlarida nutq amallari metodologiyasidan foydalanib, ularning tadqiqoti nafaqat Austin va Searlning nazariy ishlariga, balki nutq fenomenlarini ularning tashqi namoyon etishlari bilan o‘rganadigan fan sohasida bo‘lgan pragmatikaga ergashadi. O‘zbek tilshunosligida asarlar sonining bunday ortishi odob-axloq va salomlashuvni dunyo-nutq paradigmasining kontseptsiyalari sifatida tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, nutq amallari nazariyasi va tadqiqot sintezi milliy va madaniyatlararo integratsiya ishlarini optimallashtirish va amalga oshirishga yordam beradi.

Tahlillar (Analyses)

Salomlashuv kommunikatsiya shakli tillar va madaniy paradigmalar bo‘ylab farq qilsa-da, uning mohiyati va ichki ma’nosi bir xil — ijtimoiy muloqotni boshlash, hurmatni ifodalash va muloqot yo‘lini ochish.

O‘zbek tilida «Assalomu alaykum» iborasi islom madaniyati yodgorligi sifatida salomlashishning eng keng tarqalgan shaklidir. Ushbu ibora odatda tinchlik belgisi deb hisoblanadi va samimiyat bilan ifodalanadi, uning tilga olinishi esa suhbatdoshga hurmatni va muloqotga tayyorlikni bilvosita anglatadi.

O‘zbek salomlari norasmiy bo‘lishi mumkin, masalan, tanishlar uchrashuvida suhbatning ikkala yoki bir tomonlari «Assalomu alaykum!» va «Valaykum assalom!» deb muloqot qilishadi. Shuningdek, salomlar rasmiy, joyida yoki ijtimoiy tarmoqlarda yoki yozma xabarlarda, masalan, salom, hayrli tong yoki hayrli kun shakllarida bo‘lishi mumkin. Barcha hollarda asosiy maqsad bir xil — asosiy etiket me’yorlarini qo‘llab, tomonlarni birlashtirish.

Ingliz tilida «hello» so‘zi eng keng tarqalgan; u ham rasmiylashtirilgan bo‘lishi mumkin: “Good morning”, “Good afternoon” va norasmiy “Hello”, “Hi!”. Yana bir bor, o‘zbek va ingliz salomlashishlari ko‘p jihatdan o‘xshash, lekin qo‘llanilishi ko‘plab funktsiyalarga, jumladan rasmiylik, norasmiylik va institutga bog‘liq holda o‘zgaradi.[13:160-165] Shu sababli, salomlashish ijtimoiy aloqani davom ettiruvchi va do‘stona bog‘lanishni ta’minlovchi zaruriy og‘zaki aktlardan biri hisoblanadi.

Tilshunoslar Austin S. va Searle J. salomlashishni nutq aktining ijro etuvchi turi deb hisoblaydilar. Ingliz olimi G. Yule nutq aktlarining kontekstini, har qanday salomlashishning pragmatik jihatlarini ta’kidlaydi. O‘zbek tilidagi salomlar diniy ritual roli va o‘zaro hurmat ifodasi bo‘lgani uchun yanada chuqurroq. Ingliz tilida, salomlashishda ochiqlik va do‘stona munosabat ko‘proq ta’kidlanadi, bu esa jamiyat qatlamlarini birlashtiradi.

Muhokama (Discussion)

Salomlashuvning universal tabiatini nutqiy aktlar nazariyasi nuqtai nazaridan tushunish muloqotning ijtimoiy kontekstini yanada chuqur anglash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, salomlashuv — bu nafaqat nutqni boshlash mexanizmi, balki ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va suhbatdoshlarga o‘zaro hurmat va e’tibor ifodasini yetkazish vositasidir. Ushbu nuqtai nazar nutqishunoslar Austin va Searle tomonidan ilgari surilgan performativ nutq harakatlari kontseptsiyasi bilan mustahkamlanadi, unda nutq harakati nutqni amalga oshiruvchi shaxs tomonidan ijtimoiy vazifani bajarish sifatida tushuniladi.

Ritual xarakter va muloqot kontekstiga bog‘liqlik salomlashuvning universal xususiyatlarini tashkil etadi, biroq madaniy tafovutlar natijasida uning ifodalari va shakllari turlicha bo‘ladi. Bu holat interkultural muloqotda salomlashuvni to‘g‘ri tushunish va amalga oshirish muhimligini yana bir bor yoritadi. Masalan, Xitoy madaniyatida salomlashuv bosh egish orqali izhor etiladi, bu esa G‘arb madaniyatidagi qo‘l berib salomlashuvdan tubdan farq qiladi[6:90–93]. Shu sababli,

turli madaniyatlarda salomlashuv usullarining xilma-xilligi interkultural muloqotdagi tushunmovchiliklarning oldini olish uchun nazariy hamda amaliy aspektda o‘rgatilishi zarur.

Nutqiy aktlar nazariyasi salomlashuvni ijtimoiy akt sifatida ko‘rib, uning performativ, direktiv va iltifot aktlari sifatidagi funksiyalarini tahlil qiladi. Bu yondashuv uning pedagogik va lingvistik o‘quv modullarida ham e’tiborga olinishi kerakligini ko‘rsatadi. Shuningdek, nutqiy aktlar nazariyasining kommunikativ vazifalarini chuqur o‘rganish til o‘rganuvchilar va muloqot ishtirokchilari uchun interaktsiya samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, salomlashuvni tahlil qilish interkultural sohadagi muvaffaqiyatli muloqotni ta’minlashga yordam beradi, ayniqsa xorijiy tillarni o‘rgatishda nutqiy aktlarning funktsional o‘rni haqida bilimlarni kengaytiradi va madaniy xushmuomala bo‘lishni ta’minlaydi. Levinsonning pragmatika nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, salomlashuv madaniyatlararo muloqotda ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi markaziy akt hisoblanadi. Shu bilan birga, bu jarayonda til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga olish zarur.

Xulosa

Umuman olganda, salomlashuv fenomeni nutqiy aktlar nazariyasi doirasida nafaqat universal nutqiy akt sifatida, balki madaniy kontekstga bog‘liq ijtimoiy nutqiy harakat bo‘lib namoyon bo‘ladi. Salomlashuvning asosiy vazifalari ijtimoiy aloqani o‘rnatish, madaniy ritualni saqlash va faqat axborot uzatish emas, balki hurmat, do‘stlik va iltifotni ifodalashdir.

Har xil tillarda va madaniy sharoitlarda salomlashuv shakllari turli bo‘lsa-da, ularning barcha tillarda suhbatga kirishish va ijtimoiy munosabatlar yaratishdagi vazifasi umumiy bo‘lib qoladi. Shu sababli salomlashuv nutqiy aktlar nazariyasi asosida o‘rganilishi, uning universal va madaniy jihatlarini yoritishda muhim o‘rin tutadi.

Bunday yondashuv tilshunoslik, pragmatika va madaniyatshunoslik sohalariga yangi imkoniyatlar yaratadi, shuningdek, interkultural muloqotning samaradorligini oshirish va til o‘rganishda amaliy metodlarni ishlab chiqishda ko‘maklashadi. Kelgusida salomlashuv mexanizmi va uning madaniy kontekstga moslashuvi bo‘yicha chuqur tadqiqotlar olib borilishi tavsiya etiladi, bunda nutqiy aktlar nazariyasining konseptual integratsiyasi asosiy vazifa bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford: Clarendon Press.
2. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.
5. Holmes, J. (1992). *An Introduction to Sociolinguistics*. London: Longman.
6. Shokirov, Sh. (2010). Nutq aktlarining ijtimoiy kontekst va ko‘p tillilik o‘zgaruvchanligi. *Til va Madaniyat*, 3(12), 135–140.
7. Toshmuhammadova, R. (2012). O‘zbek etiketidagi salomlashish va xayrlashish formalari. *Filologiya ilmiy ishlari* , 5(13), 142–146.
8. Karimov, S., & Abdullayev, O. (2015). O‘zbek tilida ijtimoiy nutq funksiyalari va odob-axloq. *O‘zbek tili va adabiyoti*, 2(20), 150–154.
9. Karimov, S., & Abdullayev, O. (2016). Nutq amallari metodologiyasi va uning o‘rni. *Tilshunoslik sharhlari*, 1(22), 160–165.
10. Austin, J. L., & Searle, J. R. (1994). *The Performative Turn: The Performative in Language and Philosophy*. Moskva: Nauka (O‘zbek tilida tarjima va tahlil).
11. Levinson, S. C. (1987). Pragmatika va madaniyatlararo muloqot. *Madaniyat va til*, 7(8), 45–48.
12. Holmes, J. (1995). Madaniyat va muloqotdagi salomlashish amaliyoti. *Lingvistika va madaniyat*, 4(11), 75–80.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Nekboyeva Ra'no Zokirovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi;
e-mail:ranonekboyeva@gmail.com;

O'ZBEKCHA-INGLIZCHA FITONIM ASOSLI LEKSEMALARDA SO'Z YASALISHI MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillaridagi fitonim (o'simlik nomlari) asosidagi leksemalarda so'z yasalish jarayonlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Fitonim asosli so'zlar tilning leksik — morfologik tizimida muhim o'rin tutadi, ular tilning ma'naviy merosi va madaniy qirralarini aks ettiradi. Tadqiqotda o'zbek va ingliz tillarida fitonimlardan so'z yasashda qo'llaniladigan asosiy usullar — qo'shimchalar joylashuvi, so'zlarning ma'nosini o'zgartirish va birikmalar hosil qilish jarayonlari tahlil qilinadi. Maqolada kesimda salbiy va ijobiy ijtimoiy-madaniy kontekstda so'z yasashning o'ziga xosliklari solishtirma tarzda keltiriladi. Tadqiqot tillar o'rtasidagi kelishmovchiliklar va o'xshashliklarni ochib berishga yordam beradi hamda tilshunoslik, leksikologiya va morfologiya sohalarida amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *fitonim, leksik birlik, so'z yasalishi, qo'shimchalar, morfologiya, leksikologiya,word.*

Nekboyeva Rano Zakirovna
University of Economics and Pedagogy,
Senior Lecturer, Department of Foreign Languages;

WORD FORMATION ISSUES IN UZBEK-ENGLISH PHYTONYM-BASED LEXEMES

Abstract:*This article is devoted to the study of word formation processes in phytonym-based lexemes in Uzbek and English. Phytonym-based words occupy an important place in the lexical-morphological system of a language, reflecting its spiritual heritage and cultural aspects. The study analyzes the main methods of word formation using phytonyms in Uzbek and English, including affixation patterns, semantic changes, and the formation of compounds. The article presents a comparative analysis of the features of word formation in both positive and negative socio-cultural contexts. The research helps to reveal similarities and differences between the two languages, having practical significance in linguistics, lexicology, and morphology.*

Key words*: phytonym, lexical unit, word formation, affixes, morphology, lexicology,word*

Некбойева Рано Закировна
Университет экономики и педагогики,
старший преподаватель кафедры иностранных языков;

ПРОБЛЕМЫ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКСКО-АНГЛИЙСКИХ ЛЕКСЕМАХ НА ОСНОВЕ ФИТОНИМОВ

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению процессов словообразования в лексемах на основе фитонимов в узбекском и английском языках. Слова на основе фитонимов занимают важное место в лексико-морфологической системе языка, отражая духовное наследие и культурные особенности. В исследовании анализируются основные методы словообразования с использованием фитонимов в узбекском и английском языках, включая аффиксацию, семантические изменения и образование словосочетаний. В статье приводится сравнительный анализ особенностей словообразования в положительном и негативном социокультурном контексте. Исследование помогает выявить сходства и различия между двумя языками и имеет практическое значение в лингвистике, лексикологии и морфологии.*

Ключевые слова: *фитоним, лексическая единица, словообразование, аффиксы, морфология, лексикология,слова*

Kirish (Introduction)

So'z yasalishi — tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, uning doirasida so'zlarning yangi shakllarini hosil qilish mexanizmlari o'rganiladi. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida fitonim asosli (o'simlik nomlari) so'z yasalish

jarayonlari tahlil qilinadi. Fitonimlar tilning leksik tarkibida keng tarqalgan bo‘lib, ular ko‘pincha so‘z yasalish jarayonida boshqa so‘zlarga ildiz sifatida xizmat qiladi va shu orqali tilning morfologik hamda leksik boyligini shakllantiradi [2:34].

O‘zbek tilida fitonim asosli so‘z yasalishlari ko‘pincha turli qo‘shimchalar yordamida amalga oshiriladi, masalan, diminutiv va augmentativ shakllar, so‘z yasovchi qo‘shimchalar —lik, -chi, -dor kabi. Ingliz tilida esa fitonimlardan ko‘proq derivatsion va birikmalar hosil qilish mexanizmlari orqali foydalaniladi, jumladan, so‘z yasovchi prefikslar va suffikslar orqali (–er, –ist, –y, –ic va boshqalar) [5:21]. Bu ikki tilning so‘z yasalish tizimlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash va ularning fitonim asosidagi leksemalarga ta’sirini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Material va metodlar (Materials and Methods)

Ushbu tadqiqot sifatli taqqoslovchi tahlil metodiga asoslangan bo‘lib, o‘zbek va ingliz tillaridagi fitonim asosli so‘z yasalish jarayonlarini chuqur o‘rganishni maqsad qilgan. Asosiy tadqiqot materiali sifatida tilshunoslikka oid keng ko‘lamdagi adabiyotlar, fitonimlardan tashkil topgan so‘zlarning lug‘at ma’lumotlari hamda yuzlab so‘z namunalaridan tashkil topgan maxsus korpuslardan foydalanildi. Ushbu korpusda turli funksional va stylistik kontekstlarda uchraydigan fitonim asosli leksemalar jamlangan bo‘lib, ular so‘z yasalishning turli tiplari va uslublarini o‘rganish uchun qulay maydon yaratdi.

Metodologiya jihatidan tadqiqotda bir nechta asosiy metodlar qo‘llanildi. Birinchidan, morfologik tahlil yordamida fitonim asosida yasalgan so‘zlarning ichki morfemalari, ya’ni ildiz, qo‘shimchalar va ularning kombinatsiyasi o‘rganildi. Bu jarayon fitonimlardan so‘z yasash mexanizmini aniqlash va turli yasalish shakllarining semantik o‘ziga xosliklarini aniqlashga xizmat qildi. Ikkinchidan, qiyosiy metoddan foydalanib, o‘zbek va ingliz tillaridagi yasalish turkumlari va tizimlari solishtirildi; bu esa ikki til o‘rtasidagi o‘ziga xosliklar hamda umumiyliklarni aniqroq ko‘rsatishga imkon berdi. Uchinchidan, samarali (kontent) tahlil yordamida til birliklarining ma’nosi va ularning kontekstga bog‘liqligi o‘rganildi; bu esa ma’noyiq va madaniy-kontekstual farqlarni yetuk tahlil qilish imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida nutq aktlari nazariyasi va leksikologiyaning asosiy nazariy konseptlari hamda ilg‘or ilmiy ishlardan foydalangan holda terminologiyalar aniqlashtirildi va yasalish jarayonlarining ijtimoiy- madaniy kontekstdagi o‘rni chuqurroq o‘rganildi. Bu esa ilmiy tahlilning nazariy asosini mustahkamladi va yasalish jarayonlari hamda ularning kommunikativ funksiyalariga kengroq yondashuvni tashkil etdi [3:48].

Natijada, ushbu metodologik baza orqali o‘zbek va ingliz tillarida fitonim asosida so‘z yasash jarayonining leksik-morfologik va pragmatik jihatlari aniqlandi, shuningdek, tillararo o‘zaro taqqoslash imkoniyati yaratildi.

Natijalar (Results)

Tahlillar natijasida fitonim asosli so‘z yasalish jarayonlarining o‘zbek va ingliz tillarida sezilarli farqlari va o‘xshashliklari aniqlanib, quyidagi asosiy tamoyillar ochib berildi.

O‘zbek tilida fitonim asosli so‘z yasalishining asosiy mexanizmi qo‘shimchalardan foydalanish bilan bog‘liq ekanligi e’tirof etildi. Bu qo‘shimchalar so‘zning ma’nosini o‘zgartirishi, yangi leksik birliklar hosil qilishi mumkin. Misol uchun, gul so‘zi (fitonim) + -chi qo‘shimchasi yordamida gulchi (gullar bilan shug‘ullanuvchi) so‘zi paydo bo‘ladi, bu yerda -chi agentlik ma’nosini bildiradi. Yana bir namuna lola + -dor → lolador, ya’ni lola ko‘p bo‘lgan joy nomi, bunda -dor so‘zga joy nomi ma’nosini qo‘shadi. Qo‘shimchalarning turli turlaridan (agentlik, joy nomi, sifat, holat ifodasi kabi) foydalanish o‘zbek tilining morfologik boyligini namoyon qiladi [4:52].

Ingliz tilida esa fitonim asosida so‘zlar asosan derivatsion suffixlar va compound (so‘z birikmalari) orqali hosil qilinadi. Bular orasida, masalan, rose + -bud → rosebud (guldoni) kabi so‘zlar mavjud, bunda -bud sufiksi kichraytma ma’nosini beradi. Shuningdek, birikmalar (oak tree – qarag‘ay daraxti) ko‘p qo‘llaniladi, bu esa ingliz tilining asosiy so‘z yasash mexanizmlaridan biridir. Unda derivatsiya va so‘z birikmalari morfologiya hamda sintaksis chegaralarida qo‘llanib, yangi leksik birliklar yaratadi.

Ikkala tilda ham fitonim asosli so‘zlar ko‘pincha mintaqaviy, madaniy-ritual va ijtimoiy jihatlarni aks ettiradi. Masalan, o‘zbek tilida bodomzor (bodom bog‘i yoki bodom ekilgan maydon) so‘zi mazkur o‘simlikka bevosita taalluqli bo‘lsa, ingliz tilida rosebud so‘zi nafaqat o‘simlikning bir qismini, balki sevgi va mehr ramzi sifatida ham metaforik ma’no kasb etadi. Bu holat ingliz tilida fitonimlarning kengaytirilgan va ramziy ma’nolarga ega ekanini ko‘rsatadi, o‘zbek tilida esa ko‘proq konkret va aniq ma’no ustunlik qiladi.

So‘z yasalishning morfologik jihatidan o‘zbek tilining affiksatsion tizimi ingliz tiliga qaraganda murakkabroq va ko‘p qirraliroqdir. O‘zbek tilida affikslar turli xil grammatik va leksik ma’nolarni ifodalashi mumkin, qo‘shimchalar ko‘pligi va ularning kombinatsiyalari yangi so‘zlarni yaratishda keng imkoniyatlar yaratadi. Ingliz tilida esa so‘zlar asosan morfemalar va ko‘proq sintaktik mexanizmlar orqali so‘z yasashga moyil; qo‘shimchalarning soni va roli o‘zbek tiliga nisbatan cheklanganroq [5:60].

Fitonim asosli yangi so‘zlar so‘z birikmalarining birinchi elementi sifatida ishlatilishi ham umumiy holatdir. Misol uchun, ingliz tilidagi oak tree, o‘zbek tilidagi gulzor so‘zlari bu tipga kiradi. Bunday strukturalar ikki til o‘rtasidagi

semantik va sintaktik o‘xshashliklarga oid dalil bo‘lib, ular tillarning universal va tilga xos xususiyatlarini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu strukturalar madaniyatlararo kommunikatsiyada to‘g‘ri tushunishni ta’minlaydi.

Ijtimoiy-madaniy kontekstda so‘z yasalishning o‘ziga xosliklari ham aniqlanib, ba’zi so‘zlarning ma’nosi va qo‘llanilish doirasi turli madaniyatlarda farqlanishi kuzatildi. Masalan, o‘zbek tilidagi ba’zi fitonim asosli yangi so‘zlar diniy yoki an’anaviy kontekstda keng tarqalgan bo‘lsa, ingliz tilida bunday so‘zlar ko‘proq amaliy kundalik muloqotda ishlatilishi mumkin. Bu tillararo kontekstual farqlarga e’tibor qaratishga turtki beradi, ayniqsa til o‘rganishda yoki tarjimada.

Natijalardan kelib chiqqan holda, fitonim asosli so‘z yasalish jarayonlari o‘zbek va ingliz tillarida tilning strukturalari va madaniy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bu esa tillararo tadqiqotlarda nazariy va amaliy jihatlarga chuqur yondashish zaruratini ko‘rsatadi.

Tahlillar (Analyses)

Ushbu bo‘limda o‘zbekcha-inglizcha fitonim asosli leksemalardagi so‘z yasalish jarayonlari morfologik, semantik va madaniy-pragmatik jihatlardan tahlil qilinadi hamda tillararo solishtirma asosda yoritiladi.

1. Morfologik tahlil

O‘zbek tilida so‘z yasash jarayoni asosan affiksatsiya — ya’ni qo‘shim-chalar yordamida yangi so‘zlar hosil qilish orqali amalga oshadi. Fitonim ildiz sifatida qabul qilinib, unga qo‘shimchalar (-chi, -dor, -lik) biriktiriladi va yangi leksik birlik yuzaga keladi. Misol uchun, *gul* + *-chi* → *gulchi*, *lola* + *-dor* → *lolador*. Bu jarayon tilning yuqori morfologik qamrovini namoyish etadi. Bunda affikslarning imkoniyatlari va og‘zaki urf-odatlarga mosligi o‘rganiladi. Ingliz tilidagi fitonim asosli so‘z yasalishda esa derivatsion suffixlar va birikmalarning roli ko‘zga tashlanadi. Derivatsiya orqali *rose* + *-bud* → *rosebud* shakli hosil bo‘lsa, birikmalar orqali *oak tree* kabi leksemalar yaratiladi. Bu yerda morfologiya va sintaksis chegaralari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Derivatsion suffixlarning soni o‘zbek tiliga nisbatan cheklanganroq, ammo kompaund so‘zlar so‘z boyligini to‘ldiradi.

2. Semantik tahlil

Fitonim asosida yasalgan so‘zlarning semantik tarkibi ko‘pincha ildiz so‘zning ma’nosidan kelib chiqadi, biroq yangi so‘zlarda semantik kengayish, ijobiy yoki salbiy konnotatsiyalar paydo bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *gulchi* so‘zi guldorchilik bilan shug‘ullanuvchi ma’nosida bo‘lsa, ingliz tilida *rosebud* shirinlik yoki sevgi belgisi sifatida ko‘p ishlatiladi.

Shuningdek, madaniy kontekst semantikani kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilidagi ba’zi fitonim asosli so‘zlar diniy yoki mintaqaviy urf-odatlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin, ingliz tilida esa metaforik ma’nolar keng tarqalgan. Shu bois, so‘z yasalishda semantik tahlil madaniyatlararo tafovutlarni aniqlash uchun muhim vosita hisoblanadi.

3. Madaniy-pragmatik tahlil

So‘z yasash madaniy qirralarni aks ettirishda muhim vositadir. Masalan, o‘zbekchada *bodomzor* so‘zi nafaqat o‘simlikni, balki ijtimoiy-ma’naviy makonni bildiradi. Ingliz tilida esa ko‘proq kundalik va mintaqaviy birikmalar klaster hosil qiladi. Shuningdek, so‘zlarning til ichidagi ijtimoiy statusi, etikasi va nutq madaniyatiga ta’siri bayon etiladi.

Pragmatik tahlil tillararo farqlarni yoritib, so‘z yasash jarayonida yuzaga keladigan tushunmovchiliklar va ularning oldini olish yo‘llarini ko‘rsatadi. Bu masala ayniqsa til o‘rganishda va madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyatga ega.

4. Qiyosiy tahlil

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi fitonim asosli so‘z yasalish mexanizmlarini qiyoslash natijasida mualliflar tillarning morfologik va semantik darajalardagi o‘ziga xosliklarini aniqladi. O‘zbek tilida ko‘proq affiksatsiyaga, ingliz tilida esa derivatsion suffixlar va so‘z birikmalariga tayanish aniqlangan.

Shuningdek, madaniy kontekst ham tilga xos so‘z yasalish shakllarini shakllantiradi. Har ikkala tilning fitonim asosli leksemalari so‘z boyligi va madaniy tafakkurni aks ettirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu tarzda, tillararo tahlil tillarning o‘zaro bog‘liqligini yanada aniqroq ko‘rsatadi va til o‘rganish jarayonlarida metodik yordam beradi.

Muhokama (Discussion)

Natijalar ikki til tilshunosligi sohasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatildi. O‘zbek va ingliz tillarida fitonim asosli so‘z yasalish mexanizmlarining farqlari va o‘xshashliklarini tushunish tilning leksik boyligi, morfologik tizimi hamda madaniy tafakkurini chuqur anglashga xizmat qiladi. O‘zbek tilida so‘z yasalish asosan affiksatsiya jarayonlari orqali amalga oshadi, bu esa so‘zga ko‘p qirrali semantik qatlamlarni yuklashga imkon beradi. Masalan, agentlik, joy nomi, sifat va boshqa turli leksik-grammatik ma’nolarni ifodalovchi qo‘shimchalardan foydalanish o‘zbek tilining murakkab va boy morfologik tizimini namoyish etadi. Bu o‘z navbatida tilning shakllanishida o‘ziga xos mantiqiy tizimli yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi [7:82].

Ingliz tilida esa so‘z yasalish jarayonida derivatsion suffixlar va compound so‘zlar keng qo‘llaniladi. Bu tillar strukturaviy jihatdan nisbatan ancha soddaroq bo‘lishiga qaramay, so‘z yasashda birikmalar orqali yangi ma’no qatlamlarini yaratish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, ingliz tilining pragmatik va metaforik imkoniyatlari fitonimlar asosidagi so‘zlarda ko‘proq o‘z ifodasini topadi, bu esa tilning semantik boyligini yanada oshiradi. Ingliz tilida ko‘p

hollarda so‘z yasalish sintaktik usullar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, birikmalar va frazeologik birliklar shaklida yuzaga chiqadi [4:75].

Bundan tashqari, fitonimlardan so‘z yasashda madaniy kontekstning ta’siri soyasiz seziladi. Masalan, o‘zbek tilidagi bodomzor so‘zi nafaqat o‘simlik (bodom) nomi sifatida, balki ma’lum bir geografik maydon yoki bog‘ni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu so‘z o‘zbek madaniyati va tabiati bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, o‘simlik nomidan kengaytirilgan ma’no olgan. Ingliz tilida apple pie ifodasi esa, nafaqat maza ta’riflovchi ovqat nomi sifatida, balki Amerika madaniyatida «uy-joy va oila» ramzi sifatida keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. Bu mavhum ma’nolarning so‘z yasalish jarayonida qanday aks etishi madaniyat va til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yoritadi [6:98].

Shundan kelib chiqadiki, o‘zbek va ingliz tillarida fitonim asosidagi leksemalarning so‘z yasalish jarayonlarini chuqur solishtirish terminologiyaning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Bu, ayniqsa, tillararo tarjima va termin yaratish jarayonlarida juda foydali bo‘lib, tilning o‘zgarishlarini kuzatish, yangi atamalarni shakllantirish va pedagogik maqsadlarda qo‘llash uchun muhim asos yaratadi. Bunday tadqiqotlar madaniyatlararo muloqot va til o‘rganishda yuzaga keladigan muammolarni yechish uchun samarali vositalarni taqdim etadi.

Shuningdek, tilni rivojlantirish va uning nazariy asoslarini chuqurlashtirish nuqtai nazaridan, fitonim asosli so‘z yasalish mexanizmlarini yanada kengroq qamrab olgan tadqiqotlar amalga oshirilishi zarur. Bu orqali til birliklarining ijtimoiy, madaniy va kommunikativ kontekstlarda qanday shakllanishi va o‘zgarishini yanada aniqroq tushunish imkoniyati yaratiladi.

Umuman olganda, natijalar o‘zbek va ingliz tillaridagi fitonim asosli leksemalar so‘z yasalishining nafaqat lingvistik balki madaniy qaziiatlarni ham o‘rganishda muhimligi haqida chuqur dalillar keltiradi. Bu esa so‘z yasalish jarayonining kompleks va ko‘p qirrali tabiatini yanada ochib beradi hamda tillararo solishtirma tadqiqotlar sohasiga katta hissa qo‘shadi.

Xulosa (Conclusion)

Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi fitonim asosli leksemalardagi so‘z yasalish jarayonlari tizimli va kompleks yondashuv bilan chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, har ikkala tilda fitonimlardan so‘z yasash mexanizmlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular tilning morfologik, semantik va pragmatik qatlamlarida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida so‘z yasalish jarayoni ko‘proq affiksatsiya usuliga tayanadi, bu tilning murakkab morfologik tizimini va so‘z yasashga bo‘lgan yuqori imkoniyatini ifodalaydi. Ingliz tilida esa fitonim asosli so‘zlar asosan derivatsiya va so‘z birikmalari orqali yuzaga kelib, bu tilning sintaktik va leksik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, fitonimlar asosida yasalgan so‘zlar nafaqat leksik to‘plamni boyitadi, balki madaniy va ijtimoiy kontekstda muhim axborot va ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek madaniyatidagi o‘simlik nomlari ba’zan ma’naviy va estetik qadriyatlarni aks ettirsa, ingliz tili parla metaforik va kengaytirilgan ma’nolarga ega bo‘lishi bilan farq qiladi. Bu esa madaniyatlararo kommunikatsiyada so‘z yasalish jarayonining nozik ekanligini va uning samaradorligini oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning yana bir muhim jihati shundaki, fitonim asosida yangi so‘zlar hosil qilish universal til hodisasi sifatida e’tirof etilishi mumkin, ya’ni barcha tillarda o‘simlik nomlari so‘z yasashda faol tarzda ishlatiladi. Bu tillar o‘rtasidagi tilshunoslik aloqalarini rivojlantirish, tillararo tarjima va ta’limda samarali metodikalarni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Harvard University Press.
2. Karimov, S. (2018). O‘zbek tilining morfologiyasi. Toshkent: Fan.
3. Toshmuhammadova, R. (2020). So‘z yasalish nazariyasi asoslari. Toshkent: Universitet Nashriyoti.
4. Yule, G. (1996). The Study of Language. Cambridge University Press.
5. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge University Press.
6. Shokirov, Sh. (2015). O‘zbek leksikologiyasi va etimologiyasi. Toshkent: Adabiyot.
7. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
8. Sobirov, A. M. (2010). Tilshunoslik asoslari. Toshkent: Fan.
9. Lyons, J. (1995). Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge University Press.
10 .Trask, L. R. (1997). The Dictionary of Historical and Comparative Linguistics. Edinburgh University Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xolmatov Oybek Umarjon o‘g‘li,
Farg‘ona Davlat universiteti doktoranti
oybekumarovich95@gmail.com

G‘ARB ADABIYOTSHUNOSLIGIDA URUSH MAVZUSINING O‘RGANILISHIGA DOIR

Annotatsiya. *Maqolada g‘arb adabiyotshunos olimlarining urush mavzusiga doir adabiy-nazariy qarashlari o‘rganilgan. Jahon adabiyoti taraqqiyotida urush mavzusining o‘rni, urushning turli davrlar adabiyotidagi talqinlariga g‘arb olimlarining ilmiy munosabatlari ushbu maqolaning asosiy tahlil ob’ekti hisoblanadi. Tahlillar davomida mavzuga doir ilmiy manbalardan foydalanilib, fikrlar va qarashlar asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *tadqiqot, manba, urush mavzusi, harbiy lirika, harbiy proza, tahlil, talqin.*

Холматов Ойбек Умаржон угли,
Докторант Ферганского государственного университета

К ИЗУЧЕНИЮ ТЕМЫ ВОЙНЫ В ЗАПАДНОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Аннотация. *В статье исследуются литературоведческие и теоретические взгляды западных литературоведов на тему войны. Основными объектами анализа являются роль темы войны в развитии мировой литературы, научные подходы западных ученых к интерпретации войны в литературе разных периодов. В ходе анализа использовались научные источники по теме, на их основе формировались мнения и взгляды.*

Ключевые слова: *исследование, источник, военная тематика, военная лирика, военная проза, анализ, интерпретация.*

Kholmatov Oybek Umarjon ugli,
Doctoral researcher of the Fergana State University

ABOUT TO RESEARCH OF THE THEME OF WAR IN WESTERN LITERARY STUDIES

Abstract. *The article studies the literary and theoretical views of Western literary scholars on the theme of war. The role of the theme of war in the development of world literature, the scientific attitudes of Western scholars to the interpretations of war in the literature of different periods are the main objects of analysis of this article. During the analysis, scientific sources on the topic were used, and opinions and views were based.*

Key words: *research, source, war theme, military lyrics, military prose, analysis, interpretation.*

Kirish.

Badiiy adabiyotda urush va jang tasvirlari aks ettirilgan asarlar qadimiy tarixga ega. Qahramonlik eposlari, jangnomalar, turli xalqlarning bahodirlari haqidagi afsona va rivoyatlar shular jumlasidandir. Asrlar davomida urush yozma adabiyotning asosiy mavzulardan biri bo‘ldi. Shu sababli adabiyotshunoslik ilmida urush mavzusidagi asarlarni o‘rganish zarurati paydo bo‘ldi. Bu masala, ayniqsa, g‘arb adabiyotshunosligi tomonidan jiddiy tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqotlarni tizimli o‘rganish asosida urush mavzusining jahon adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyati, urush va inson talqinining adabiy evolyutsiyasini belgilashda katta natijalarga erishish mumkin. Shu ma’noda g‘arb adabiyotshunos olimlarining urush mavzusiga doir ilmiy tadqiqotlarini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Material va metodlar

Badiiy adabiyotda urush mavzusi tarixi, turli davrlarda urush mavzusining tutgan o‘rni kabi masalalar g‘arb olimlaridan A.Vernon, T.Riggs, D.Bevan, K.Makloulin, E.Krimmer, L.Goldenson, M.Norris, V.Vulf, S.Rayt, S.Hayneslar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu olimlarning ilmiy qarashlari asosida jahon adabiyotida urush mavzusining tadrijiy rivoji yuzasidan yetarlicha xuloslarga kelish mumkin. Shu bois maqolada G‘arb olimlarining urush mavzusiga oid ilmiy qarashlarini o‘zaro taqqoslash usulidan, qiyosiy metod asosidagi tahlillardan foydalanilgan.

Natijalar

G‘arb adabiyotshunosligida urush mavzusining badiiy adabiyotdagi o‘rni, turli davrlar va mamlakatlar adabiyotida urush kishilari obrazining o‘ziga xos talqinlari, jahon urushlarining badiiy adabiyotga ta’siri kabi masalalar o‘rganilib, bu orqali XX asr g‘arb adabiyoti urushga nisbatan rad etish, qoralash munosabati ifodalanganligi bilan xarakterlanishi; birinchi va ikkinchi jahon urushlari aks ettirilgan asarlarda patsifizm va antifashizm g‘oyalari ifodalanganligi; urushni aks ettirishda yozuvchi va shoirlar urush kishilarining psixologik holatini tasvirlashga jiddiy urg‘u berganliklari aniqlangan hamda misollar asosida isbotlangan. Ayniqsa, XX asr adabiyotidagi urush talqinlari yuzasidan G‘arb olimlarining qarashlari yakdildir.

Muhokama

Aleks Vernon badiiy adabiyotda urush talqinlari masalasiga tarixiy omillar asosida yondashib, turli davrlardagi asarlarning o‘ziga xos xususiyatlarini farqlaydi. Urush mavzusidagi asar qahramonlari qadimgi adabiy manbalarda ilohiy qudratga ega bo‘lgan, jasorat va qahramonlik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi obrazlar sifatida tasvirlanganini, XX asr adabiyotida esa bu xususiyat yo‘qolib, urush ishtirokchilari fojiali taqdir egalari sifatida aks ettirilganligini ta’kidlaydi [1,27]. Bu ilmiy qarash adabiy davrlar qiyosi orqali asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. A.Vernonning yuqoridagi xulosasini adabiyot tarixidagi urush mavzusining tarixiy taraqqiyoti dalillaydi. Ma’lumki, turli xalqlar folkloridagi qahramonlik eposlari, Gomerning “Iliada”, Vergiliyning “Eneida”, Firdavsiyning “Shohnoma”, o‘rta asr Yevropa ritsarlik romanlarida bahodirlarning jangovar jasoratlarini madh etish xususiyati yetakchilik qilgan bo‘lsa, Renessans va undan keyingi davrlardan boshlab Yevropa adabiyotida urushga munosabat o‘zgarib, salbiy tus ola boshlagan. Bu o‘zgarish M.Servantes, J.Bayron, V.Gyugo, P.Merime, G.Mopassan singari ijodkorlarning asarlari orqali aniq ko‘rinadi. Ayniqsa, XX asrga kelib G‘arb adabiyotida urushga qarshi kayfiyat, patsifizm oqimi yetakchi xususiyat kasb etdi. Urush faqat salbiy holatda, kulfat va fojia sababchisi sifatida tasvirlandi. A.Barbyus, E.M.Remark, E.Xeminguey, R.Oldington va boshqa adiblar ijodi buning dalilidir. Demak, olim urush mavzusining adabiy taraqqiyotini to‘g‘ri baholaydi.

Tomas Riggs g‘arb adabiyoti tarixida urush mavzusining ifodalanishi masalasiga asosiy e’tiborini qaratgan. Olimning maqolalarida urushning shaxslar, jamoalar, madaniy hayot, adabiyot va insoniy qadriyatlarga ta’siri, XX asr g‘arb adabiyotida jahon urushlari haqida yaratilgan asarlarning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati yuzasidan tahlillar qilingan Ayniqsa, Yevropa va AQSH harbiy lirikasida jahon urushlarining askar ruhiyatiga ta’siri, harbiy prozada voqelik hamda psixologik tasvir o‘rtasidagi mutanosiblik masalasiga jiddiy urg‘u beriladi. Olim XX asr harbiy adabiyotida qahramonning psixologik va intuitiv holati tasviri keng o‘rin egallaganligini davrga xos muhim yangilik deb keltiradi [2,33]. Bu nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlagan holda aytish mumkinki, XIX asr harbiy adabiyotida (ayniqsa, rus adabiyotida) ham qahramonning ongi va ruhiyatidagi jarayonlarni batafsil tasvirlash holatlari uchragan bo‘lsa-da, bu XX asr G‘arb adabiyotidagi kabi adabiy an’ana darajasiga ko‘tarilmagan edi. Aynan XX asrdan boshlab urush mavzusidagi asarlarda jahon urushlarining ta’siri sababli psixologik tasvir va ong oqimi keng miqyosda ifodalandi.

Devid Bevan jahon urushlari, shuningdek, Ispaniya va Vetnamdagi urushlar haqida yozilgan asarlarni tadqiq etgan. Bevan ham Riggs singari masalaga g‘arb adabiyotidagi umumiy holat asosida yondashadi. Olim XX asr G‘arb adabiyotida urush mavzusidagi aksariyat asarlarda jabrlangan, ruhiy tushkunlikka tushgan insonlar obrazi asosiy o‘rinni egallaganligini ta’kidlaydi [3,45]. Darhaqiqat, Yevropa va Amerika harbiy yozuvchi hamda shoirlari yaratgan qahramonlar urushdagi o‘z ishtiroki mohiyatini tushunishga doimiy ravishda intiladi, lekin javob topolmay qiynaladi. Afsuslanish, urush tashkilotchilariga nisbatan nafrat bu qahramonlarga xos umumiy xususiyat hisoblanadi.

T.Riggs va D.Bevan g‘arb adabiyotida urush mavzusi haqida umumiy obzor ma’lumotlar keltirgan bo‘lsalar, amerikalik olim Keyt Makloulin AQSH adabiyoti tarixida urush haqida yozilgan asarlarga davrma-davr to‘xtalgan. Olim AQSH adabiyotining turli davrlarida urush mavzusining umumiy va farqli jihatlari masalasiga asosiy e’tiborini qaratadi. K.Maklouilin qadimgi dunyo adabiyotidagi qahramonlik eposlari va zamonaviy adabiyotdagi urush talqinlarini qiyoslagan holda badiiy adabiyot hamda ijtimoiy-siyosiy tafakkur o‘rtasidagi moslik voqelikka badiiy munosabatni shakllantirish omili degan xulosaga keladi [4,124]. Darhaqiqat, qadimgi davrlarda turli mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar davlatchilik siyosatining ajralmas qismi bo‘lgan va bu urushlar qahramonlik sinovi sifatida talqin qilingan. Qadimgi adabiyot ham shu tafakkur tarzidan andoza olgan holda urush mavzusidagi doston, jangnoma yoki afsonalarda mardlik, jasorat va ulug‘vor qudratni aks ettirgan. XX asrda esa urushlarning vayronkor oqibatlari tinchliksevarlik, urushni rad etish (patsifizm) g‘oyalarining yuqori o‘rin egallashiga sabab bo‘ldi. Bu xususiyat badiiy adabiyotda ham o‘z aksini topdi. Yuqoridagi omillar Makloulinning fikrini tasdiqlashga asos bo‘la oladi.

Amerikalik yana bir olim Larri Goldenson urush mavzusi doirasida ijod qilgan amerikalik shoirlar: U.Ouen, V.Auden, K.Duglas, R.Jarrellarning she’rlarini tahlil qiladi. Yuqoridagi olimlardan farqli ravishda L.Goldenson ma’lum bir davr va adabiy tur bilan cheklanadi. Olimning asosiy e’tibori Vetnam urushining AQSH she’riyatidagi badiiy ifodasiga qaratiladi. L.Goldenson birinchi jahon urushi ta’sirida vujudga kelgan “yo‘qotilgan avlod” adabiyotiga xos xususiyatlarning Vetnam urushi shoirlari ijodiga ham ko‘chganligini qayd etadi [5, 116-117]. Bu orqali AQSH she’riyatida urushga nafrat, mantiqsizlik va tushkunlik ruhi hukm surishini ta’kidlaydi.

L.Goldenson AQSH harbiy lirikasini o‘rgangan bo‘lsa, Margot Norris XX asr AQSH prozasida urush mavzusining ifodalanishi tadqiq etgan. Uning tadqiqotlari jahon urushlari, Vetnam, Arab-Isroil urushlarining adabiyotga ta’siri masalasiga bag‘ishlangan. Olim E.Xeminguey, U.Folkner, T.O’Brayans, J.Uebb, N.Tripp kabi yozuvchilarning asarlari misolida XX asr urushlarining AQSH prozasidagi talqini masalasiga e’tibor qaratadi. M.Norrisning fikricha, XX asr AQSH harbiy prozasiga xos umumiy xususiyat urushning har qanday shaklini rad etuvchi patsifizm g‘oyasining yetakchi o‘rinda turishidir [6,98]. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Amerika adabiyotshunosligida urush mavzusi patsifizm nuqtai nazaridan o‘rganilgan. AQSH hukumatining harbiy internatsionalizm siyosati badiiy adabiyotda qoralangan va bu adabiyotshunos olimlar tomonidan ilmiy asoslangan.

Ingliz olimi Samuel Haynes birinchi jahon urushi yillari Angliya madaniy hayoti, shu jumladan, adabiyotini o‘rganar ekan, urushning Angliya adabiyotiga ko‘rsatgan ta’siri masalasiga e’tibor qaratadi. Samuel Haynes urushni tasvirlashda uslub masalasiga to‘xtalib, birinchi jahon urushi ta’sirida harbiy adabiyotda yangicha shakllar asosiy o‘ringa chiqqanini ta’kidlaydi: “Uzoq asrlik adabiy an’analaridan farqli ravishda birinchi jahon urushi talqinida qahramonlarning ruhiy holati, ongdagi jarayonlar, instiktlar tasviri yetakchi o‘rin egalladi. Chunki bu urushning qahramonga ta’sirini tashqi tomondan tasvirlash masalaning mohiyatini ochib berolmas edi. Endilikda urushni an’anaviy usullar bilan namoyish qilish uni noto‘g‘ri talqin qilish, unga ulug‘vorlik baxsh etish degani edi” [7,21]. Yuqoridagi fikrlar orqali olim urushga salbiy munosabatni badiiy aks ettirishda qahramon psixologiyasi tasviri asosiy vosita sifatida xizmat qilgan deb hisoblaydi. Lekin bu qarashni butun g‘arb adabiyotiga nisbatan qo‘llash xatolikka olib keladi. Chunki bu davr g‘arb adabiyotida yaratilgan ko‘plab asarlarda, xususan “O‘t” (A.Barbyus), “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” (E.M.Remark), “Alvido, qurol!” (E.Xeminguey) kabi asarlarda front voqeligi, urushning dahshatli manzarasi portlashlar, vayron qilinayotgan qishloqlar, askarlarning o‘limi jarayonlari orqali ifodalanadi. Qahramonning ushbu voqealarga munosabati, ularning askar ruhiyatiga ta’siri esa urushni rad etish uchun yordamchi vosita hisoblanadi. S.Haynes asosiy vazifani ong va ruhiyat tasviri bajaradi, deb hisoblaydi. Aslida bu tasvirlar urush dahshatlarini yanada aniqroq ifodalash uchun qo‘shimcha vosita vazifasini bajaradi.

Ingliz adabiyotida urushga munosabat masalasi yuzasidan Virjiniya Vulf va Syuzanna Raytlar ham o‘z ilmiy mulohazalarini bayon etganlar. Xususan, V.Vulf masalaga birinchi jahon urushi mavzusida ijod qilgan ingliz harbiy lirikasi vakili Zigfrid Sassun ijodi misolida yondashib, shoirning she’rlari urush davri siyosiy matbuoti va publitsistik adabiyoti bong urayotgan harbiy vatanparvarlik, muqaddas urush haqidagi da’vatlarga qarama-qarshi mazmundaligini ta’kidlaydi [8,120]. Shunga mos xulosa Sassunning 1918-yilda chop etilgan “Qarshi hujum” nomli she’riy to‘plamiga munosabatda ham keltiriladi. Vulf shoirning urush dahshatlarini haqqoniy aks ettirish orqali siyosiy targ‘ibot materiallarini fosh etganligini ta’kidlaydi [9,271]. Birinchi jahon urushi mavzusida yozilgan aksariyat asarlarda urush orqali hukmron doiralarning iqtisodiy va siyosiy jinoyatlarini fosh etish an’anasi keng tarqalgan bo‘lib, bu Vulfning yuqoridagi xulosasini dalillaydi.

V.Vulf shoir Z.Sassun ijodiga asoslangan bo‘lsa, S.Rayt ingliz adibasi Mey Sinkler asarlariga tayanadi. Raytning ta’kidlashicha, Sinkler urushning bevosita guvohi sifatida “Osmon daraxti”, “Romantik” romanlarini yaratib, urush yuzasidan o‘z xulosalarini badiiy aks ettiradi. Sinkler ham urush qurbonlariga achinadi, uning romanlarida qahramonlik talqini yo‘q. Asosiy urg‘u fojiaga qaratilib, urush kulfat manbai sifatida talqin etiladi [10,75]. S.Raytning bu qarashlari ayol ijodkor asari misolida aks ettirilganligi bilan ahamiyatlidir. Biz harbiy mavzudagi asarlar, asosan, urushda jang qilgan sobiq askar yozuvchilar ijodida uchrashiga guvoh bo‘lganmiz. Lekin S.Raytning maqolasi ayol yozuvchilar ijodi ham urush fojialarini badiiy aks ettirishda muhim rol o‘ynaganligini isbotlaydi.

Elizabet Krimmer o‘z monografiyasida urush mavzusining nemis adabiyotidagi talqinini yoritadi. Tadqiqotda Napaleon urushi, Germaniya inqilobi, jahon urushlari, Yugoslaviya mojarolari davrlarini aks ettirgan nemis adiblari: Fridrix Shiller, Ernst Yunger, Erix Mariya Remark, Geynrix Byoll, Gyunter Grass, Peter Handke kabi adiblarning asarlari misolida nemis yozma adabiyotida urush mavzusining evolyutsiyasi tadqiq etilgan [11,168]. E.Krimmer XVIII – XIX asrlar nemis ma’rifatchilik adabiyotida urush ijtimoiy inqilob amalga oshirish vositasi sifatida talqin etilganligini ta’kidlaydi va bunda F.Shillerning “Qaroqchilar” asariga tayanadi. Darhaqiqat, siyosiy tarqoqlikka barham berish va Germaniyani birlashtirish uchun kurash nemis ma’rifatchilari ilgari surgan g‘oyalarning asosini tashkil etgan. Shu ma’noda XIX asr nemis adabiyotida urush insoniyatga kulfat keltiruvchi vayronkor hodisani emas, yurtni birlashtirish uchun kurash jarayonini ifodalagan. Germaniyaning birinchi jahon urushigacha bo‘lgan davrdagi adabiyotida patsifizm, tinchliksevarlik g‘oyalari deyarli kuzatilmaydi. Faqat XX asr birinchi yarmiga kelibgina bu munosabat o‘zgardi. Germaniya imperiyasining birinchi jahon urushidagi mag‘lubiyati va uning og‘ir oqibatlari, urush ishtirokchilarining murakkab taqdirlari buning sababi edi. Veymar respublikasi davri (1919–1933) nemis adabiyotida patsifizm asosiy o‘rinda turganligi fakti fikrimizni dalillaydi. E.Yunger va E.M.Remark ijodi bu borada alohida ajralib turadi. Lekin “uchinchi reyx”, ya’ni fashizm diktaturasi davrida nemis adabiyoti Gitlerning siyosiy maqsadlariga bo‘ysundirilib, irqchilik va yangi urushga da’vat g‘oyalarini ifodalay boshladi. Ammo bunday xarakterdagi asarlar urushdan keyin unutildi. Fashizmning oqibatlari va ikkinchi jahon urushidagi mag‘lubiyat nisbatan agressiv xarakterdagi nemis adabiyotining ham urushga munosabatini mutlaqlashtirdi.

Endilikda nemis adabiyotida ham insonparvarlik, tinchliksevarlik g‘oyalari, urushni qoralash ruhi oldingi o‘ringa chiqdi. E.Krimmerning tadqiqotlaridagi qarashlar yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Xulosa. G‘arb adabiyotshunosligida urush talqiniga doir ilmiy-nazariy qarashlar natijasida ikki xil munosabat shakllangan:

1) urushning qahramonlik va ma’naviy sinov sifatida talqin etilishi;

2) urushga nisbatan g‘ayriinsoniy voqelik, fojiaviy mohiyatga ega jarayon sifatida baho berish.

Birinchi turga qahramonlik eposlari, klassik adabiyot namunalariga oid qarashlar mansub bo‘lib, ularda urush ibtidoiy dunyoqarash asosida talqin etilganligi ta’kidlangan. Ikkinchi turga esa G‘arb adabiyotshunosligida XIX–XX asrlardagi urush mavzusida yozilgan turli asarlarning ilmiy tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar, “yo‘qotilgan avlod” vakillari haqidagi asarlar tahliliga oid ilmiy asarlar kiradi. Ularda urushning inson ruhiyati va kelajagiga salbiy ta’siri masalasi asosiy e’tibor markazida turgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vernon A. War. Critical Insights. – Ipswich: “Salem”, 2013
2. Riggs T. The Literature of War. – Detroit: “St.James”, 2012
3. Bevan D. Literature and War. – Amsterdam: “Rodopi”, 1989
4. McLoughlin K. Companions to Literature. – New-York: “Columbia Univercity Press”, 2009
5. Goldensohn L. XXth century Soldier-Poetry. – New-York: “Columbia Univercity Press”, 2003
6. Morris N. Writing War in XXth century. – Charlottesville: “Univercity Press of Virginia”, 2000
7. Hynes S. War Imagined: The First World War and English Culture. – London: “Bodley Head”, 1990
8. Virginia Woolf, “Mr. Sassoon’s Poems,”.Times Literary Supplement (May 31, 1917); rptd in The Essays of Virginia Woolf, ed. Andrew MacNeillie, 4 vols. – London: The Hogarth Press, 1987
9. Woolf,“Two Soldier-Poets,” .Times Literary Supplement – (July11, 1918); rptd in Woolf, The Essays of Virginia Woolf. – p. 269-72
10. Suzanne Raitt, “‘Contagious Ecstasy’: May Sinclair’s War Journals. // Raitt and Tate. Women’s Fiction of the Great War. – p. 65–84
11. Krimmer E. Representation of War in German literature. – Cambridge, UK: “Cambridge Univercity Press”, 2000

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Numonova Saidaxon Sotvoldiyevna
University of economics and pedagogy NOTM
"Xorijiy tillar" kafedrasi dotsenti
saidanumonova76@gmail.com

OILAVIY DISKURSNING LINGVOPRAGMATIK TUZILMASI: TIL BIRLIKLARINI O'RGANISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: *mazkur maqolada oilaviy diskurs doirasida til birliklarining fonetik, leksik, grammatik va pragmatik xususiyatlari lingvodiskursiv va lingvopragmatik yondashuvlar asosida tahlil etiladi. Oilaviy muloqot tabiatini o'rganishda nutq aktlari nazariyasi, diskurs tahlili, ijtimoiy rol va hokimiyat munosabatlari, shuningdek, illokutiv va perlokutiv ta'sir kategoriyalariga tayangan holda til birliklarining funksional imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari oilaviy diskursni faqat informativ, referensial hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy rol, hissiy yaqinlik, hokimiyat va nazorat munosabatlarining murakkab lingvopragmatik makoni sifatida talqin qilish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *oilaviy diskurs, lingvopragmatika, fonetik birliklar, prosodiya, leksik birliklar, antropoturkiy birliklar, grammatik kategoriya, murojaat birliklari, illokutiv kuch, perlokutiv ta'sir, ijtimoiy rol, hokimiyat munosabatlari.*

Нумонова Сайдахон Сотвольдьевна
Университет экономики и педагогики НОТМ
Доцент кафедры иностранных языков

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА СЕМЕЙНОГО ДИСКУРСА: ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ

Аннотация: *в данной статье осуществляется анализ фонетических, лексических, грамматических и прагматических характеристик языковых единиц в рамках семейного дискурса на основе лингводискурсивного и лингвопрагматического подходов. При изучении природы семейной коммуникации функциональные возможности языковых единиц раскрываются с опорой на теорию речевых актов, дискурс-анализ, категории социальных ролей и властных отношений, а также иллокутивное воздействие и перлокутивный эффект. Полученные результаты позволяют рассматривать семейный дискурс не только как информативное или референциальное явление, но и как сложное лингвопрагматическое пространство, формируемое социальными ролями, эмоциональной близостью, властными и контрольными отношениями.*

Ключевые слова: *семейный дискурс, лингвопрагматика, фонетические единицы, просодия, лексические единицы, антропоцентрические единицы, грамматическая категория, формы обращения, иллокутивная сила, перлокутивный эффект, социальная роль, властные отношения.*

Numonova Saidakhon Sotvoldievna
University of economics and pedagogy NOTM
Associate Professor of the Department of "Foreign Languages"

LINGUOPRAGMATIC STRUCTURE OF FAMILY DISCOURSE: PROBLEMS OF STUDYING LANGUAGE UNITS

Abstract: *this article analyzes the phonetic, lexical, grammatical, and pragmatic features of linguistic units within the framework of family discourse, drawing on linguodiscursive and linguopragmatic approaches. In examining the nature of family communication, the functional properties of linguistic units are interpreted through the theoretical lenses of speech act theory, discourse analysis, social roles and power relations, as well as the categories of illocutionary force and perlocutionary effect. The findings of the study enable the interpretation of family discourse not merely as an informative or referential phenomenon, but as a complex lingual pragmatic space shaped by social roles, emotional proximity, authority, and control relations.*

Key words: *family discourse, lingual pragmatics, phonetic units, prosody, lexical units, anthropocentric units, grammatical category, address forms, illocutionary force, perlocutionary effect, social role, power relations.*

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda diskurs va nutqiy faoliyat masalalariga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi insonlararo munosabatlar, xususan, oilaviy muloqot muhitida tilning haqiqiy ishlash mexanizmlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilishiga sabab bo‘lmoqda. Oilaviy diskurs – bu tilning eng tabiiy, spontan va shu bilan birga eng murakkab ijtimoiy-madaniy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, unda til birliklari nafaqat axborot uzatadi, balki ijtimoiy maqom, psixologik holat, hissiy yaqinlik va madaniy qadriyatlar tizimini ham kodlaydi. Mazkur maqolada oilaviy diskursda til birliklarini o‘rganish muammosi kompleks tarzda ko‘rib chiqiladi: fonetik (intonatsiya, urg‘u, ritm), leksik (antroponimik va emotsional birliklar), grammatik (zamonaviy diskurs tahlili doirasidagi grammatik tanlovlar) hamda pragmatik (illokutiv niyat, perlokutiv ta’sir, nutqiy strategiyalar) jihatlar bir tizim sifatida talqin etiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, turli tilshunoslik maktablari (ingliz-amerika, rus va o‘zbek) qarashlari bir metodologik asosga keltirilib, oilaviy diskurs doirasida til birliklarining interaktiv va ijtimoiy funksiyalari integrativ tarzda tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabyotlarning tahlili

Amerikalik tilshunoslar Deborah Tannen, Shari Kendall va Cynthia Gordon tomonidan o’tkazilgan tadqiqotda ham oilaviy muloqotning fonetik, pragmatik va ijtimoiy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilingan[1;344-b]. Rus olimi D. M. Kolyadov murojaat birliklarini fonetik va pragmatik nuqtai nazardan tahlil qiladi. U o‘z tadqiqotini 27 ta yarim-strukturaviy suhbat yozuvlariga asoslaydi va jami 210 ta murojaat holatini o‘rganadi[2;5–27-b]. Ingliz olimlari Roger Brown va Marguerite Ford tomonidan olib borilgan tadqiqot murojaat birliklari — ya’ni birinchi ism (FN) va unvon + familiya (TLN) shakllarining ijtimoiy munosabatlardagi funksional va semantik farqlarini tahlil qiladi[3;375–385-b]. Deborah Tannen va Shoshana Blum-Kulka tadqiqotlarida murojaat shakllari, modallik vositalari va intonatsion qurilishning oilaviy muloqotda ijtimoiy masofa hamda hissiy ohangni ifodalashdagi o‘rni yoritilgan[4;330-b]. V.V. Golikovaning oilaviy muloqotda ishlatiladigan **grammatik birliklar**, ya’ni murojaatlar (apellyativlar)ning tildagi o‘rni va vazifalari tahlil qilinadi. Muallif rus va ingliz tillaridagi oilaviy nutqni taqqoslab, murojaat birliklari nafaqat ism sifatida, balki **grammatik va pragmatik vosita** sifatida ham xizmat qilishini ko‘rsatadi[4;1–7-b]. N. D. Arutyunova murojaatlarni nomlash (identifikatsiya) va **munosabat bildirish (baholash)**ni birlashtiruvchi birlik sifatida tahlil qiladi[5;15–29-b]. Teun A. van Deyk (T A. van Dijk) odamlarning ongida diskurs qanday saqlanishi va talqin qilinishini o’rgangan. Uning ta’kidlashicha, Elitalar tomonidan ommaviy diskursning nazorat qilinishi fuqarolarga avtomatik ta’sir ko‘rsatmaydi, chunki har bir individ jamiyatda allaqachon shakllangan ideologiya, qarash va munosabatlari asosida axborotni qabul qiladi.

Metodologiya

Tadqiqot quyidagi metod va yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirildi:

Diskurs tahlili (T. A. van Dijk, N. D. Arutyunova): oilaviy muloqot namunalari diskursning makro- va mikrostruktural xususiyatlari, hokimiyat va nazorat mexanizmlari, ijtimoiy rol taqsimoti nuqtai nazaridan izohlandi.

Konversatsion tahlil (D. Tannen va boshqalar): suhbat ishtirokchilari o‘rtasidagi navbat almashinuvi, pauza, intonatsion konturlar, ritm va prosodik signallar nutqning interaktiv va sotsial funksiyalari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqildi.

Deskriptiv-analitik metod: adabiyotlar tahlili asosida til birliklari tasniflandi, nazariy xulosalar umumlashtirildi va ilmiy konseptual model shakllantirildi.

Tahlil va natijalar:

1. Oilaviy diskursning fonetik-prosodik tashkiloti.

Oilaviy diskursda fonetik birliklar – tovushlar tizimidan tashqari intonatsiya, urg‘u, pauza, ritm, tembr kabi prosodik komponentlar ham alohida kommunikativ yuklama kasb etadi. D. Tannen, Sh. Kendall va C. Gordon tadqiqotlarida (ingliz tilidagi ikki daromadli oilalar muloqoti asosida) prosodiya oilaviy diskursning mazmuniy va emosional strukturasi bilan bevosita bog‘langan hodisa sifatida talqin qilinadi. Intonatsion konturlar orqali mehr, e’tiroz, kinoya, g‘azab, qoniqmaslik kabi hissiy holatlar ifodalanadi; urg‘u esa suhbat ishtirokchilarining nutqiy ustunlik darajasini va ierarxik pozitsiyasini ko‘rsatadi. D. M. Kolyadov murojaat birliklarining fonetik va pragmatik xususiyatlarini o‘rganar ekan, murojaat shakllarining alohida maxsus baland ohang yoki keskin urg‘u bilan emas, balki gapning umumiy intonatsion oqimi tarkibida aytilishini ko‘rsatadi; bu holat murojaatning nafaqat e’tibor jalb qilish, balki diskursni ichki tashkil etish (mavzularni chegaralash, bosqichlar almashinuvi) vositasiga aylanganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, fonetik birliklar oilaviy nutqda sof lingvistik vositadan ko‘ra, ko‘proq sotsiopragmatik indikator sifatida namoyon bo‘ladi: ular orqali yaqinlik darajasi, hissiy masofa, hokimiyat va bo‘ysunish munosabatlari kodlanadi.

2. Leksik birliklar: antropoturkiy tizim va murojaat shakllari. Leksik tizim oilaviy diskursda shaxslararo munosabatlarning eng sezgir darajada namoyon bo‘ladigan qatlamlaridan biri hisoblanadi. Roger Brown va Marguerite Ford tadqiqotlari murojaat shakllarini FN (first name) va TLN (title + last name) oppozitsiyasi orqali tasvirlaydi. FN odatda samimiy, teng yoki yaqin munosabatlarda, TLN esa rasmiy, masofali yoki ierarxik farq mavjud bo‘lgan vaziyatlarda qo‘llanadi. Bu yondashuvni oilaviy diskursga qo‘llaganda, FN, diminutiv shakllar va laqablarning ko‘p hollarda mehr, ishonch, yaqinlik munosabatini, TLN va unvonli shakllarning esa masofa va rasmiylikni ifodalashi kuzatiladi. O‘zbek oilaviy nutqida “jonim”, “bolam”, “qizalog‘im”, “otajon”, “onajon” kabi birliklar hissiy-eks-pressiv va ijtimoiy-rol markerlari sifatida faol qo‘llanadi. Bunday leksik birliklar semantik jihatdan nisbatan oddiy bo‘lib ko‘rinsa-da, ularning pragmatik yuklamasi yuqori bo‘lib, ularda hurmat, mehr, nazorat, rahbarlik, qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘plab ijtimoiy-hissiy komponentlar mujassamlanadi.

3. Grammatik vositalar va oilaviy muloqotning ijtimoiy tuzilmasi. Zamonaviy diskurs tahlili doirasida J. P. Gee grammatikani shunchaki struktur birliklar tizimi emas, balki diskursning ijtimoiy mexanizmi sifatida talqin qiladi[7;320-b]. Uning nazariyasiga ko‘ra, olmoshlar, zamon shakllari, modallik vositalari, bog‘lovchilar va so‘z tartibi so‘zlovchining o‘zini qanday tutishi, qanday ijtimoiy rolni qabul qilishi, suhbatdoshni qaysi pozitsiyada ko‘rishini namoyon etadi. Oilaviy diskursda “qani, uxlaymizmi?”, “endi jim o‘tiraylik”, “birga boramiz” kabi strukturalarda grammatik shakl (birgalik formasiyasi, ko‘plik birinchi shaxs, yumshatilgan buyruq) orqali ijtimoiy jarayon – nazorat, tarbiya, birgalik, hamkorlik munosabatlari kodlanadi. Rus tilshunoslari V. V. Golikova, V. E. Gol’din va N. D. Arutyunova murojaat birliklarini grammatik va kommunikativ kategoriya sifatida izohlar ekan, murojaatlarning nominativ, xarakterlovchi va etiketik funksiyalarini ajratib ko‘rsatadilar[8;1–7-b]. Ularning fikricha, murojaatlar sintaktik jihatdan nisbatan mustaqil bo‘lsa ham, semantik va pragmatik jihatdan asosiy gap bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, oilaviy diskursda shaxslararo masofa, hurmat, mehr va ierarxiyani belgilovchi vosita vazifasini bajaradi.

4. Oilaviy diskurs pragmatikasi: illokutiv niyat va perlokutiv ta’sir. Pragmatik yondashuvda oilaviy diskurs kommunikativ faoliyatning shunday turiki, unda nutq faolligining barcha bosqichlari – niyat, ifoda, ta’sir – ijtimoiy rol va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. T. A. van Dijk diskursni hokimiyatning mikrostruktural ifodasi sifatida talqin qilib, kim tashabbus ko‘rsatishi, kim savol berishi, kim javob berishi, kim yakuniy qaror chiqariishini nutqiy nazorat va ijtimoiy ustunlik indikatorlari sifatida ko‘rsatadi. Oilada ota-ona va bola, er va xotin, katta va kichik o‘rtasidagi kuch munosabatlari aynan nutqiy aktlar orqali institutsionallashtiriladi. D. Tannenning genderga oid modeli raport va report nutq oppozitsiyasiga tayangan holda, ayol nutqining ko‘proq yaqinlik va qo‘llab-quvvatlashni, erkak nutqining esa ko‘proq ustunlik, nazorat va baholashni ifodalashga moyilligini ko‘rsatadi. Bu jihat er-xotin muloqotida ziddiyatlar, kelishmovchiliklar yoki aksincha, murosaning shakllanishiga bevosita ta’sir etadi.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlillar oilaviy diskursni lingvopragmatik jihatdan quyidagi tarzda talqin etish imkonini beradi; a)Fonetik-prosodik qatlam oilaviy muloqotning hissiy va ierarxik strukturasini belgilovchi asosiy vosita bo‘lib, intonatsiya, urg‘u, pauza va ritm orqali yaqinlik, norozilik, hukmronlik, bo‘ysunish kabi munosabatlar kodlanadi. Leksik qatlam, xususan, antroponimik va emotsional birliklar, murojaat shakllari shaxslararo munosabatlarning eng nozik darajada nazorat qilinadigan va seziladigan ko‘rinishini ifodalaydi: ular orqali mehr, ishonch, hurmat, masofa, nazorat, panibratlik kabi sotsiopragmatik komponentlar ifodalanadi; b) Grammatik vositalar (zamon, mayl, olmoshlar, bog‘lovchilar, erkalovchi affikslar) oilaviy diskursda so‘zlovchi va tinglovchi pozitsiyasini, muloqotning interaktiv tuzilmasini, ijtimoiy rol va vazifalarning taqsimotini belgilaydi; grammatika bu ma’noda shunchaki struktur tizim emas, balki ijtimoiy-ideologik mexanizmga aylanadi; d) Pragmatik qatlam – illokutiv niyat, perlokutiv ta’sir, muloqot strategiyalari (yumshatilgan buyruq, bilvosita taqiqlash, ogohlantiruvchi tahdid, bilvosita nasihat) oilaviy diskursni hokimiyat, nazorat, tarbiya, hissiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy me’yorlarni mustahkamlash maydoniga aylantiradi. Shunday qilib, oilaviy diskursni o‘rganish tilshunoslikda faqat leksik, fonetik yoki grammatik tizimlarni alohida-alohida tasvirlash bilan cheklanib qolmasligi, balki til birliklarini ijtimoiy rol, madaniy qadriyatlar, psixologik holat va kommunikativ strategiyalar bilan uzviy birlikda tahlil qilishni taqozo etadi. Bu esa oilaviy nutqni zamonaviy lingvopragmatika, sotsiolingvistika va diskurs tahlili kesishgan nuqtada tadqiq qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тэннен *Д*., Кендалл Ш., Гордон С. Family Talk: Discourse and Identity in Four American Families. — Oxford; New York: Oxford University Press, 2007. — 344 p.

2. Колядов *Д*. М. Обращение как дискурсивный маркер // *Вопросы языкознания*. — 2020. — № 6. — С. 5–27.

3. Brown R., Ford M. Address in American English // *Language*. — 1961. — Vol. 37, № 4. — P. 375–385.

4. Tannen D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. — New York: Ballantine Books, 1990. — 330 p. Blum-Kulka S. Interpreting and Performing Speech Acts in Family Interaction. — Cambridge: Cambridge University Press, 1997. — 285 p.

5. Арутюнова Н. Д. Номинация и текст // *Номинация: виды наименований* / отв. ред. Н. Д. Арутюнова. — Москва: Наука, 1977. — С. 7–26.

6. Тэннен Д., Кендалл Ш., Гордон С. *Family Talk: Discourse and Identity in Four American Families.* — Oxford; New York: Oxford University Press, 2007. — 344 p.

7. Gee J. P. An Introduction to Discourse Analysis: Theory and Method. — 4th ed. — London: Routledge, 2014. — 320 p

8. Голикова В. В. Функции обращения в семейном дискурсе // *Вестник Курского государственного технического университета*. — Курск: КГТУ, 2015. — С. 1–7.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna
Urganch davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi
e-mail: ozoda1980@mail.uz

SHOLICHILIKKA OID DEHQONCHILIK LEKSIKASI ETIMOLOGIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada dehqonchilikka oid ayrim leksik birliklarning etimologiyasi, mumtoz adabiyotda dehqonchilik leksikasining qo'llanilishi tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu jarayonda insonlar dehqonchilik, sholikorlik bilan bog'liq turli so'z va terminlarni ishlatishgan hamda bugun ham ishlatilishi, bunday sohaviy leksik birliklar esa o'zbek tilining turli shevalarida turli xil shakl va ko'rinishlarga ega ekanligi mantiqiy dallillangan.*

Kalit so'zlar: *sholikorlik, sholi, otîz, dala, maydon, pol, polya, tap, qorîq, partav yer, bosh yer, yaydaq yer, boz yer, ädrä, dehqon, qaytîq yer, qiyqîm, chaqcha.*

Пирматова Озодахон Сапарбоевна
Ургенчский государственный педагогический институт Факультет начального образования
старший преподаватель

ЭТИМОЛОГИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ЛЕКСИКОНА, СВЯЗАННОГО С ПИЩЕВЫМ ЖИВОТНОВОДСТВОМ.

Аннотация. *В статье анализируется этимология некоторых лексических единиц, связанных с сельским хозяйством, а также использование сельскохозяйственной лексики в классической литературе. Также логически доказано, что в этом процессе люди использовали и продолжают использовать различные слова и термины, связанные с земледелием и рисоводством, и что такие отраслевые лексические единицы имеют разные формы и проявления в разных диалектах узбекского языка.*

Ключевые слова: *рисоводство, рис, лошадь, поле, пол, поле, кран, снег, залежь, голая земля, голая земля, голая земля, пашня, фермер, залежь, кийкум, чакча.*

Ozodakhon Saparboyevna Pirmatova
Urgench State Pedagogical Institute Faculty of Primary Education
Senior Lecturer

ETYMOLOGY OF AGRICULTURAL VOCABULARY RELATED TO FOOD LIVESTOCK PRODUCTION.

Abstract. *This article analyzes the etymology of some lexical units related to agriculture, as well as the use of agricultural lexicon in classical literature. It is also logically proven that in this process, people used and continue to use various words and terms related to farming and rice cultivation, and that such sectoral lexical units have different forms and manifestations in different dialects of the Uzbek language.*

Keywords: *rice farming, rice, horse, field, field, floor, field, tap, snow, fallow land, bare land, bare land, bare land, arable land, farmer, fallow land, qiykum, chaqcha.*

Kirish

Sholikorlik o'zbek xalqi dehqonchiligining eng rivojlangan sohasidir. Chunki guruchdan tayyorlanadigan taomlar o'zbek millatining eng sevimli, eng asosiy taomlaridan sanaladi. Shuning uchun ham o'zbek dehqonlari azaldan sholi yetishtirish bilan shug'ullanib kelishgan. Zero, sholi mahsulotini yetishtirish o'zbek dehqonchiligining asosiy turlaridan sanaladi. Ushbu jarayonda insonlar dehqonchilik, sholikorlik bilan bog'liq turli so'z va terminlarni ishlatishgan hamda bugun ham ishlatishmoqda. Bunday sohaviy leksik birliklar esa o'zbek tilining turli shevalarida turli xil shakl va ko'rinishlarga ega. Jumladan, o'zbek tilida sholi mahsuloti yetishtiriladigan ekin maydoniga nisbatan *otîz, dala, maydon, pol, polya* kabi leksik birliklarning ishlatilishi ham bu fikrning to'g'riligini dalillaydi. Ushbu mahsulotni ekishdan oldin yer ekishga tekislanib, tayyorlanadi. Yerni haydalganda hosil bo'lgan qatorlar esa *tap* deyiladi.

“Ekin ekilmasdan qarovsiz qolgan yer” oʻzbek tilining ayrim shevalarida *qorîq, partav yer, bosh yer, yaydaq yer, boz yer*, Xorazm shevasida esa *ädrä* deb yuritiladi. Shuningdek, “sholi ekish uchun ajratilgan bir parcha yer boʻlagi” oʻzbek tilining ayrim shevalarida *qaytîq yer, qiyqîm* deb atalsa, Xorazm shevasida *chaqcha* deyiladi.

Maʼlumki, “dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi shaxs” *dehqon* atamasi bilan yuritiladi. Ushbu leksik birlikning lugʻaviy maʼnosi va etimologiyasi turlicha talqin qilingan. Diaxron nuqtayi nazardan *dehqon* soʻzi yasama boʻlib, u tarixan ikki mustaqil til birligidan yasalgan qoʻshma soʻzdir. *Dehqon* soʻzi haqida koʻpgina etimologik maʼlumotlar berilgan [6.55 b]. Ushbu leksema eroniy tillarda yasalib, keyinchalik turkiy tillarga oʻtib oʻzlashgan. Lekin ushbu soʻzni forsiy *deh* (qishloq) va turkiy *qoon* (xoqon, hukmron) soʻzlari bilan bogʻlash oʻzini oqlamaydi, bizningcha. Bu soʻzning etimologiyasi, turli maʼno qirralari haqida “Lugʻatnomayi Dehxudo”da atroflicha maʼlumot berilgan. Eron olimlari bu soʻzning etimologiyasini forsiy *deh* (qishloq) va *-gon* (-lar) **گان+ده** *dehigon* **دهگان** qismlaridan iborat deb biladilar.

Qadimdan odamlar ijtimoiy jihatdan, asosan, ikki guruhga ajratilgan: dehnishin (qishloq odamlari) va shahrnishin (shahar odamlari). Bu yaqin oʻtmishgacha *yavanli* va *qalali* deb boʻlinishga oʻxshaydi. Ana shu qishloq odamlari *dehigon* deyilgan. *Dehigon*ning muarrab – arabiylashtirilgan shakli *dehqon*dir [8.105 b].

Abulqosim Firdavsiyda *dehqon* soʻzi “qissaxon, soʻz aytuvchi” maʼnosida izohlangan boʻlsa ham, u mohiyatan “donishmand” maʼnosini ifodalaydi. Shuning uchun boʻlsa kerak, bu soʻz Oʻrxun-Enisey yozma manbalari, Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk”i, “At-tuhfa” kabi asarlarda qayd etilmagan. Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida *dehqon* tushunchasi *tariqchi* termini bilan berilgan. Faqat XIV asrda yaratilgan turkiy yozma manbalar va XIV asr Xorazm yozma yodgorliklarida *dehqon*, Alisher Navoiy asarlarida *dehqon* shaklida uchraydi.

Chu men bir jom uchun *dehqon* asirimen, ajab ermas,

Libosim tok bargi rishta belbogʻlarga tok oʻlmoq [1.259 b].

Dehqon soʻzining etimoni haqidagi maʼlumotlarda uning qanday va qachon yasalganligi, qoʻllanish geografiyasi aniq koʻrsatilmaydi. Soʻzning tuzilishi (tarkibi) qoʻshma boʻlib, u ikki mustaqil til birligidan tashkil topgan.

Fors-tojik tilining yozma manbalarida X asrlardan boshlab qayd qilingan yozma yodgorliklarda quyidagi maʼnolarda qoʻllangan:

1) qishloq arbobi, qishloq xoʻjayini; yer egasi, boy;

2) yer ishlari bilan shugʻullanuvchi;

3) fors, tojik xalqi;

4) tarixni biluvchi, qissa aytuvchi [5.365b].

Koʻrinadiki, *dehqon* soʻzi turli davrlarda har xil maʼno oʻzgarishlarga uchragan. Ayrim manbalarda bu soʻz fors tili materiali deb koʻrsatiladi va uning tarkibi *dih + khan* dîykan – deh (qishloq) va -kan qoʻshimchasi qoʻshilishidan hosil boʻlib, dehqon soʻzini hosil qilgan. *Dehqon* soʻzining tuzilishida turli tovush oʻzgarishlari boʻlganidek, uning maʼnosi ham goh kengayib, goh torayib turgan [8.816-817 b].

Tarixiy nuqtayi nazardan *dehqon* tushunchasining zodagonlarni ifodalashi “...aftidan, yerning toʻliq egasi deb tushunilgan boʻlsa, *azath* atamasi erkinlikning kengroq maʼnosiga ega edi. Dehqon, odatda, oʻz yeri uy xoʻjaliklarini qullar yordamida yuritar edi [7.89 b]. “Dehqon – oʻrta asr adabiyotida “yer egasi”, koʻpincha “yirik, butun mintaqaning egasi” degan maʼnoni anglatadi. Baʼzan bu atama “kichik erkin yer egasi”ni anglatadi, X asrdan boshlab *dehqon* atamasi, asosan, “dehqonlar”ni anglatishni boshladi. Baʼzi joylarda Tabariy Oʻrta Osiyo zodagonlarining yuqori sinflarini belgilash uchun xizmat qiluvchi atamalarni ham qoʻllaydi; ammo shu bilan birga, biz koʻrganimizdek, *dikkan* soʻzi “zodagonlarning teng darajada oddiy yer egalari”ni anglatadi [2. 56b].

Samarqand viloyatida, Oʻzbekistonning boshqa bir qator joylarida boʻlgani kabi, aholi ham dehqon atamasini dehqon va umuman, dehqonlarga emas, balki oʻz oilasi va ayniqsa, yollangan kuchi (asosan, ulush shaklida) yordamida oʻz iqtisodiyotini mustaqil ravishda boshqarishi mumkin boʻlgan yer egasiga nisbatan ishlatgan [4.102b]. Bu maʼno Xorazmda ham boʻlganini keksa avlod vakillari nutqida “Buvamiz bayda *diyxa:n* bogʻan” (Gurlan) kabi jumlalar orqali bilib olamiz. Demak, *dehqon* soʻzi sinxron holatda koʻpgina tub sanalgan soʻzlar singari uzoq tarixga ega.

Dehqon soʻzi semit tillari oilasiga kiruvchi hozirgi arab tilida **دِهْقَانٌ** (koʻpligi **دَهَاقِنَةٌ** yoki **دَهَاقِينُ**) qoʻllanib, “dohiy, yoʻlboshchi, sarkarda, mashhur va ulugʻ kishi” maʼnolarini bildiradi [9.98 b]. Ushbu termin “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “fors-tojikcha boʻlib, asosiy kasbi ekin ekishdan, dehqonchilikdan iborat boʻlgan kishi”, deya izohlangan [8.100 b]. Koʻrinadiki, bugungi kunda *dehqon* termini qishloq xoʻjaligi bilan shugʻullanuvchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Dehqonlar mehnati orqali turli xil dehqonchilik mahsulotlari yetishtiriladi.

Demak, dehqon soʻzining etimologiyasi bir oz munozarali boʻlib, eroniy tillarda deh va qoon qismlaridan iborat ekanligi va arab manbalarida esa deh-qishloq, qon-gon qismlari qishloqlilar maʼnosini anglatishi qayd etiladi, ammo turkiy yozma manbalarda donishmand, tariqch maʼnolarida ham keltiriladi. Shuningdek, X asr eroniy yozma manbalarda ham yer ishlari bilan shugʻullanuvchi, yer egasi, boy va qissa aytuvchi maʼnolarida berilishi taʼkidlanadi. Demak, ushbu soʻz turli davrlarda turli manbalarda turlicha tahlil qilingan boʻlsa-da, bugungi kunda fors manbalarida keltirilganidek, qishloq xoʻjaligi ishlari bilan shugʻullanuvchi shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. – Тошкент: Фан, 1988. 259 Б.

2.Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия, Соч., т. 1. – Москва, 1963.; Якубовский А.Ю. История Узбекской ССР, т. 1, кн. 1. – Ташкент, 1955.; Петрушевский И.П. Земледелие и аграрные отношения в Иране в XIII–XIV вв., – М.-Л., 1960.

3.Дыйканов К. Имя существительное в киргизском языке. Ин-т языка и литературы. – Фрунзе: Издательство Академии наук Киргизской ССР, 1955. – С. 44.

4.Этнографические очерки узбекского сельского населения. – Москва: Наука, С. 1969.

5.Фарҳанги забони тожикӣ (аз асри X то ибтидои асри XX). Иборат аз ду ҷилд. Тақрибан 45 000 калима ва ибора бо иловаи мифтоҳи арабӣ. Зери таҳрири М.Ш.Шукуров, В.А.Капранов, Р.Ҳошим, Н.А.Маъсумӣ. – Москва: Советская Энциклопедия, 1969. – С.365.

6.Жўраев Б. “Деҳқон” сўзи қаердан келиб чиққан? // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1966. – №3. 55 Б.

7. Осиё ва Африка мамлакатлари тарихи, 1968. 89 Б.

8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Birinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. 816-817 B.

9. https://play.google.com/store/apps/details?id=net.kurdsofts.farhangedehkhoda

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Sarimsokov Sirojiddin Shayzokovich
Samarqand davlat chet tillar instituti v.b dotsenti

PUBLITSISTIK MATNLARNING TEMPORAL STRUKTURASIDA ZAMON SHAKLLARINING LINGVISTIK TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada publitsistik matnlarning temporal strukturasini tashkil etishda zamon shakllarining o‘rni va ularning lingvistik talqini yoritiladi. Fe’l zamon shakllari publitsistik nutqda nafaqat voqea-hodisalarning vaqtini ifodalaydi, balki axborotning dolzarblik darajasi, muallifning baholovchi pozitsiyasi va matnning kommunikativ-pragmatik yo‘naltirilganligini ham belgilashi ko‘rsatib beriladi. Maqolada hozirgi, o‘tgan va kelasi zamon shakllarining publitsistik matn tilidagi funksional-stilistik xususiyatlari real gazeta va internet nashrlari materiallari misolida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *publitsistik matn, zamon shakllari, temporal struktura, hozirgi zamon, o‘tgan zamon, kelasi zamon, retrospektivlik, prospektivlik, pragmatika.*

Sarimsokov Sirojiddin Shayzokovich
Acting Associate Professor of Samarkand State Institute of Foreign Languages

LINGUISTIC INTERPRETATION OF TENSE FORMS IN THE TEMPORAL STRUCTURE OF PUBLICISTIC TEXTS

Annotation. *This article discusses the role of tense forms in organizing the temporal structure of publicistic texts and their linguistic interpretation. It is shown that verb tense forms in publicistic speech not only express the time of events, but also determine the level of relevance of information, the author’s evaluative position and the communicative-pragmatic orientation of the text. The article analyzes the functional-stylistic features of the present, past and future tense forms in the language of publicistic texts using the example of real newspaper and Internet publications.*

Keywords*: publicistic text, tense forms, temporal structure, present tense, past tense, future tense, retrospectivity, prospectivity, pragmatics.*

Саримсоков Сироджиддин Шайзокович
Исполняющий обязанности доцента Самаркандского
государственного института иностранных языков

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВРЕМЕННЫХ ФОРМ В ТЕМПОРАЛЬНОЙ СТРУКТУРЕ ПУБЛИЦИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль временных форм в организации временной структуры публицистических текстов и их лингвистической интерпретации. Показано, что временные формы глаголов в публицистической речи не только выражают время событий, но и определяют уровень релевантности информации, оценочную позицию автора и коммуникативно-прагматическую направленность текста. В статье анализируются функционально-стилистические особенности форм настоящего, прошедшего и будущего времени в языке публицистических текстов на примере реальных газетных и интернет-публикаций.*

Ключевые слова: *публицистический текст, временные формы, временная структура, настоящее время, прошедшее время, будущее время, ретроспектива, перспективность, прагматика.*

Kirish.

Til jamiyat hayotining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u orqali nafaqat axborot uzatiladi, balki ijtimoiy ongga ta’sir ko‘rsatiladi, muayyan qadriyatlar targ‘ib qilinadi, baho va munosabat shakllantiriladi [Кожина, 2008, 15-б.]. Publitsistik uslub ana shu jarayonning eng faol kanallaridan biri sifatida zamonaviy ommaviy axborot vositalari tilida yorqin namoyon bo‘ladi. Gazeta va jurnal materiallari, tele va radiodasturlar, internet portali va ijtimoiy tarmoq nashrlari tilini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, publitsistik matnlar vaqt kategoriyasini ifodalashda juda boy grammatik vositalarga ega [Маслова,

2010, 42-б.]. Shulardan eng muhimlaridan biri — fe'l zamon shakllari bo'lib, ular matnning temporal strukturasini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zamon shakllari publitsistik matnda voqealarning qachon sodir bo'lganini, axborotning dolzarblik darajasini, muallifning baholovchi munosabatini, o'quvchi ongida hosil qilinayotgan prospektiv (kelajak) yoki retrospektiv (o'tmish) tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi [Comrie, 1976, p.12; Арнольд, 2012, 97-б.]. Zamonaviy tilshunoslikda vaqt va zamon masalasi grammatik, matnshunoslik, kognitiv va pragmatik nuqtayi nazardan tadqiq qilinmoqda [Halliday, Hasan, 1976, p.38; Гальперин, 1981, 54-б.]. Publitsistik matnlar misolida zamon shakllarining lingvistik talqinini ko'rsatish esa mazkur hodisaning amaliy o'lchamlarini ochib berishga imkon yaratadi.

Publitsistik matn va temporal struktura tushunchasi.

Publitsistik matn deganda ijtimoiy ahamiyatga molik voqealar, siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar haqida keng auditoriyaga mo'ljallangan, axborot berish va ta'sir ko'rsatish maqsadida yaratilgan matnlar tushuniladi [Кожина, 2008, 74-б.]. Bunga yangiliklar, tahliliy maqolalar, reportaj, sharh, intervyu, esse, murojaat va boshqa janrlar kiradi [Арнольд, 2012, 145-б.].Matnning **temporal strukturasi** esa voqealar vaqtining ketma-ketligi va izchilligi, o'zaro sabab–oqibat munosabatlari, o'tmish–hozir–kelajak o'qlari bo'yicha joylashuvi, muallif va o'quvchi nuqtayi nazaridan nisbatini o'z ichiga oladi [Brown & Yule, 1983, p.42]. Temporal struktura fe'l zamon shakllari, vaqt ravishlari ("bugun", "kecha", "ertaga", "so'ng", "keyin"), sana va yil ko'rsatkichlari, vaqtga oid predlog va bog'lovchilar bilan kompleks tarzda quriladi [Halliday & Hasan, 1976, p.226]. Masalan, quyidagi sarlavha va matn bo'lagiga e'tibor qilsak: "Bugun Samarqandda xalqaro iqtisodiy forum boshlanadi. Forumda 20 dan ortiq mamlakat vakillari ishtirok etadi".

Bu yerda "boshlanadi", "ishtirok etadi" fe'llari hozirgi–kelasi zamon shaklida bo'lib, matnning prospektiv yo'nalganligini, voqeaga tayyorgarlik kayfiyatini ifoda etadi. "Bugun" ravishi esa voqeaning o'quvchiga juda yaqin vaqt oralig'ida sodir bo'lishini bildiradi [Қурбонов, 2015, 33-б.].

Hozirgi zamon shakllarining funksional talqini.

Publitsistik nutqda hozirgi zamon shakli eng ko'p ishlatiladigan zamon shakllaridan biri bo'lib, u bir vaqtning o'zida bir nechta funksiyani bajaradi [Crystal, 2010, p.214].

Birinchidan, dolzarblikni ifodalash.

Hozirgi zamon ko'pincha real vaqtga juda yaqin voqeani bildiradi, natijada o'quvchi ongida voqea "hozir sodir bo'lyapti" degan tasavvur hosil bo'ladi [Кронгауз, 2001, 61-б.]. Masalan: "O'zbekiston bo'ylab yomg'irli ob-havo saqlanib turibdi". "Shahar markazida qurilish ishlari davom etmoqda". Bu gaplarda "saqlanib turibdi", "davom etmoqda" shakllari voqeaning davomiyligi va aktualligini ko'rsatib, matnning informativ va emotsional ta'sirini kuchaytiradi [Гальперин, 1981, 102-б.].

Ikkinchidan, istorik hozirgi zamon (historical present).

O'tgan zamon voqealarini hozirgi zamonda bayon qilish publitsistik uslub uchun ham xos bo'lib, asosan reportaj va badiiy-publitsistik materiallarda uchraydi. Bu usul voqeani "jonlashtirish", dramatizm yaratish maqsadida qo'llaniladi [Cook, 1992, p.83]. Masalan: "2016-yil. Toshkent markazida minglab yoshlardan iborat olomon to'planadi. Ular ko'tarinki kayfiyatda shiorlar aytadi, qo'shiqlar kuylaydi. Bir payt sahnaga yosh hofiz chiqadi va zal jim bo'lib qoladi." Bu yerda real voqea o'tgan paytda sodir bo'lgan bo'lsa-da, "to'planadi", "aytadi", "chiqadi" kabi hozirgi zamon shakllari voqeani o'quvchiga sahnadagi kabi jonli tasavvur ettiradi [Brown, Yule, 1983, p.125].

Uchinchidan, muallif bahosi va umumlashtirishlar.

Hozirgi zamon ko'p hollarda muallifning umumiy xulosasi, bahosi, kuzatuvini ifodalovchi gaplarda qo'llanadi: "Bugungi kunda axborot iste'moli madaniyati dolzarb masala bo'lib qolmoqda". "Jamiyatda ekologik ong darajasini oshirish zarurati tobora ortib bormoqda".

Bunda hozirgi zamon shakllari holatning davomiy va dolzarb ekanini ko'rsatadi, muallifning baholovchi pozitsiyasini kuchaytiradi [Маслова, 2010, 89-б.; Баҳодирова, 2019, 57-б.]. Shunday qilib, hozirgi zamon publitsistik matnda nafaqat grammatik, balki stilistik va pragmatik vosita sifatida ham yuqori salohiyatga ega.

O'tgan zamon shakllari va retrospektivlik.

Publitsistik matnlarda o'tgan zamon shakllari faktlarni qayd etish, tarixiy voqealarni yoritish, ilgari qabul qilingan qarorlar va ularning natijalarini ko'rsatishda asosiy vosita hisoblanadi [Гальперин, 1981, 141-б.].

Faktlarni tasdiqlash funksiyasi.

O'tgan zamon voqea-hodisani yakunlangan, tasdiqlangan fakt sifatida taqdim etadi: "O'tgan yili mamlakatimizga 7 milliondan ortiq sayyoh tashrif buyurdi". "2020-yilda qabul qilingan qarorlar iqtisodiyotning qator tarmoqlarida ijobiy o'zgarishlarni boshlab berdi". Bu kabi gaplarda o'tgan zamon shakllari matnning ishonarliligini oshiradi, statistik ma'lumot va rasmiy axborotlarni berishda muhim rol o'ynaydi [Crystal, 2010, p.301; Қурбонов, 2015, 46-б.].

Tarixiy fon yaratish.

Hozirgi voqeani tushuntirish uchun avval o'tgan davrdagi holatlar beriladi:

“Mustaqillikning ilk yillarida iqtisodiyotimiz og‘ir ahvolda edi, infratuzilma zaif, ishlab chiqarish hajmi past bo‘lgan. Keyingi o‘n yilliklarda olib borilgan islohotlar natijasida bu sohada sezilarli o‘sish kuzatildi.” Bu misolda “edi”, “bo‘lgan”, “kuzatildi” shakllari orqali tarixiy fon, taraqqiyot dinamikasi beriladi [Тўхтаева, 2020, 19-б.].

Sabab–oqibat zanjiri.

Tahliliy maqolalarda “o‘tgan voqea – bugungi natija – kelajak istiqboli” zanjiri quriladi: “Yillar davomida bu sohada tizimli yondashuv bo‘lmagani tufayli muammolar yig‘ilib bordi. Natijada jamoatchilik ishonchi pasaydi. Bugun esa yangi islohotlar ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan”. Bu struktura o‘tmishdagi muammo va bugungi islohotlar o‘rtasidagi sabab–oqibat bog‘lanishini ochib beradi [Cook, 1992, p.115; Баҳодирова, 2019, 73-б.].

Kelasi zamon shakllari va prospektivlik.

Publitsistik nutqda kelasi zamon shakllari prognoz, reja, dastur, istiqbol va niyatni ifodalashda muhim o‘rin tutadi [Comrie, 1976, p.58].

Prognoz va bashoratlar.

Analitik maqolalarda kelasi zamon shakllari orqali iqtisodiy o‘sish, demografik ko‘rsatkichlar yoki siyosiy jarayonlar bo‘yicha prognozlar beriladi: “Mutaxassislar fikricha, kelgusi yilda yalpi ichki mahsulot 5 foizga oshadi”. “Yaqin besh yillikda raqamli iqtisodiyot ulushi sezilarli darajada kengayadi”.Bu yerda kelasi zamon voqeani ehtimoliy, lekin ilmiy asoslangan istiqbol sifatida ko‘rsatadi [Brown, Yule, 1983, p.173; Баҳодирова, 2019, 81-б.].

Agitatsion va motivatsion nutq.

Targ‘ibot xarakteridagi matnlarda kelasi zamon shakllari o‘quvchini ruhlantirish, maqsadga ishontirish funksiyasini bajaradi:“Biz albatta yangi marralarni zabt etamiz”. “Yaqin kelajakda har bir hududda zamonaviy tibbiyot markazlari barpo etiladi”. Bu gaplarda kelasi zamon muallifning qat’iy ishonchi va ijobiy prognozini ifodalab, auditoriyada umid va motivatsiya uyg‘otadi [Кожина, 2008, 189-б.].

Normativ va majburiy xarakterdagi bayonotlar.

Qonun, davlat dasturi, konsepsiya va strategiyalar sharhida kelasi zamon shakli ko‘pincha majburiyat va rejalashtirilgan ishlarni bildiradi: “2025-yilgacha barcha maktablar yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlanadi”. “Kelgusida pedagoglarning malakasini oshirish tizimi to‘liq qayta ko‘rib chiqiladi”.

Bu kabi gaplarda kelasi zamon nafaqat vaqtni, balki davlatning niyati va mas’uliyat darajasini ham ifodalaydi [Қурбонов, 2015, 59-б.; Тўхтаева, 2020, 27-б.].

Zamon planlarining almashinishi va stilistik effekt

Haqiqiy publitsistik matnlarda odatda bir vaqtning o‘zida bir necha zamon planlari faoliyat ko‘rsatadi. O‘tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllarining almashinishi matnning stilistik va pragmatik effektini kuchaytiradi [Halliday, Hasan, 1976, p.252; Brown, Yule, 1983, p.191]. Quyidagi shartli misolni ko‘rib chiqamiz: “O‘tgan yillar davomida ushbu tarmoqka e‘tibor yetarli bo‘lmadi, investitsiya hajmi kam bo‘ldi. Natijada infratuzilma eskirdi, xizmatlar sifati pasaydi. Bugun esa vaziyat o‘zgarib bormoqda: yangi loyihalar boshlangan, zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Kelgusi yilda esa iste’molchilar sifatli xizmatlardan to‘liq foydalanish imkoniga ega bo‘ladi”. Bu parcha uch xil zamon planini o‘z ichiga oladi: o‘tgan zamon (“bo‘lmadi”, “bo‘ldi”, “eskirdi”, “pasaydi”), hozirgi zamon (“o‘zgarib bormoqda”, “boshlangan”, “joriy etilmoqda”), kelasi zamon (“ega bo‘ladi”). Bunday almashinish o‘quvchi oldida voqealarning tarixiy dinamikasini ochib beradi, matnni kompozitsion jihatdan puxta, semantik jihatdan ko‘p qatlamli, pragmatik jihatdan esa ta’sirchan qiladi [Гальперин, 1981, 163-б.; Тўхтаева, 2020, 35-б.].

Temporal strukturaning pragmatik ahamiyati.

Publitsistik matnlarning temporal strukturasida zamon shakllarining tanlanishi va almashinuvi muallifning kommunikativ strategiyasiga bo‘ysunadi. Axborotning o‘quvchi ongida qanday qabul qilinishi ko‘p jihatdan aynan zamon shakllari bilan belgilanadi [Cook, 1992, p.137]. O‘tgan zamon shakllari yordamida ishonchli faktologik baza yaratiladi, hozirgi zamon shakllari matnga dolzarblik, dinamika, “jonlilik” baxsh etadi, kelasi zamon shakllari esa matnni istiqbol va rejalar bilan bog‘laydi, o‘quvchini kelajak haqidagi tasavvurlarga yo‘naltiradi [Crystal, 2010, p.318; Баҳодирова, 2019, 95-б.]. Shuningdek, temporal struktura publitsistik matnning adresatga yo‘naltirilganlik xususiyatini ham ochib beradi. Masalan, yosh auditoriyaga mo‘ljallangan materiallarda, odatda, hozirgi va kelasi zamon shakllari ustuvor bo‘lsa, tarixiy-madaniy mavzulardagi maqolalarda o‘tgan zamon shakllari ko‘proq qo‘llanadi [Қурбонов, 2015, 67-б.; Тўхтаева, 2020, 41-б.]. Bu esa tilning funksional-stilistik imkoniyatlari auditoriyaning ehtiyoj va qiziqishlari bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, publitsistik matnlarning temporal strukturasida fe’l zamon shakllari:

- voqea-hodisalarni o‘tmish–hozir–kelajak o‘qi bo‘yicha tartiblash;
- axborotning dolzarblik va ishonchlilik darajasini belgilash;
- muallifning baholovchi pozitsiyasi va kommunikativ strategiyasini ifodalash;
- o‘quvchi ongida retrospektiv va prospektiv tasavvurlarni uyg‘otish

kabi vazifalarni bajaradi.

Hozirgi zamon shakllari matnga dinamika va aktual ruh baxsh etar ekan, o‘tgan zamon shakllari tarixiy fon va faktologik asos yaratadi, kelasi zamon shakllari esa matnning istiqbolga qaratilgan pragmatik yo‘nalishini ta’minlaydi. Ularning o‘zaro almashinuvi publitsistik matnni semantik jihatdan ko‘p qatlamli, stilistik jihatdan ta’sirchan va pragmatik jihatdan samarali qiladi [Гальперин, 1981, 178-б.; Brown,Yule, 1983, p.204]. Shu bois publitsistik nutqni lingvistik jihatdan o‘rganishda zamon shakllari va temporal struktura masalalarini maxsus tadqiqot yo‘nalishi sifatida ajratib ko‘rsatish, real matnlar korpusi asosida qo‘shimcha empirik izlanishlar olib borish istiqbolli va dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. – М.: Флинта, 2012. – 384 б.
2. Баҳодирова, Д. Замонавий оммавий ахборот воситалари тили. – Тошкент: ЎзМУ нашриёти, 2019. – 180 б.
3. Brown G., Yule, G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 288 p.
4. Comrie B. Aspect. – Cambridge: Cambridge University Press, 1976. – 142 p.
5. Cook G. Discourse. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – 208 p.
6. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 506 p.
7. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 138 б.
8. Halliday M.A.K., Hasan, R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – 374 p.
9. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М.: Высшая школа, 2008. – 320 б.
10. Кронгауз М.А. Семантика. – М.: РГГУ, 2001. – 296 б.
11. Қурбонов Ш. Газета матни стилистикаси. – Тошкент: Фан, 2015. – 160 б.
12. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. – М.: Флинта, 2010. – 256 б.
13. Тўхтаева Г. Публицистик матнларда вақт ва замон категориялари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2020. – 120 б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Qayumova Mohichehra Abduhalim kizi
teacher of Karshi state university
Email: mohichehraqayumova@gmail.com

LEXICAL-SEMANTIC AND STRUCTURAL ANALYSIS OF CHEMICAL TERMINOLOGY IN "*THE ALCHEMIST*" BY PAULO COELHO

Abstract. *This study provides an extended lexical-semantic and structural analysis of chemical and alchemical terminology in Paulo Coelho's The Alchemist. Although the novel is primarily philosophical, it employs a broad range of terms originating from early chemistry and medieval alchemy. Using descriptive semantic analysis, the study classifies the terms into literal scientific units and metaphorically extended alchemical concepts. Structural analysis shows that Coelho uses simple, derived, and compound terminological forms, many of which function as symbolic carriers of spiritual transformation. The findings demonstrate that chemical terminology in the novel plays a crucial role in shaping its allegorical narrative and conceptual metaphors of purification, transformation, and enlightenment.*

Keywords: *alchemy, chemical terminology, lexical semantics, structural analysis, metaphor, Paulo Coelho, transformation*

Qayumova Mohichehra Abduhalim qizi
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

PAULO KOELHONING "ALKIMYOGAR" ASARINDAGI KIMYOVIY TERMINOLOGIYANING LEKSIK-SEMANTIK VA STRUKTURAL TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot Paulo Coelho qalamiga mansub "Alkimyogar" asaridagi kimyo va alkimyoga oid terminlarning kengaytirilgan leksik-semantik hamda struktur tahliliga bag'ishlangan. Asar falsafiy yo'nalishga ega bo'lishiga qaramay, unda qadimgi kimyo va o'rta asr alkimyosiga xos terminlar keng qo'llangan. Semantik tahlil natijalari terminlarni ilmiy ma'noga ega birliklar va metaforik-semantik kengayishlarga ega alkimyoviy atamalar sifatida tasniflash imkonini berdi. Struktur tahlil esa muallifning sodda, yasalma va qo'shma terminlardan foydalanishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari terminlarning asar mazmuni, ramziy qatlamlari va transformatsiya g'oyasini ochishda muhim o'rin tutishini isbotladi.*

Kalit so'zlar: *alkimyo, terminologiya, leksik semantika, struktur tahlil, metafora, transformatsiya*

Каюмова Мохичехры Абдухалим кизи
преподавателя Каршского государственного университета.

ЛЕКСИК-СЕМАНТИЧЕСКИЙ И СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ ХИМИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В РОМАНЕ «АЛХИМИК» ПАУЛО КОЭЛЬО

Аннотация. *Настоящее исследование посвящено расширенному лексико-семантическому и структурному анализу химической и алхимической терминологии в романе Пауло Коэльо «Алхимик». Несмотря на философский характер произведения, в тексте широко употребляются термины, восходящие к ранней химии и средневековой алхимии. Семантический анализ позволяет классифицировать их на научно-литеральные единицы и метафорически расширенные алхимические понятия. Структурный анализ показывает использование автором простых, производных и составных терминов, которые часто выступают символами духовной трансформации. Результаты подчеркивают, что химическая терминология играет ключевую роль в формировании аллегорического нарратива и концептуальных метафор романа.*

Ключевые слова: *алхимия, химическая терминология, лексическая семантика, структура термина, метафора, трансформация*

Introduction

Alchemy occupies an essential transitional position between mystical philosophy and modern chemistry. Paulo Coelho's *The Alchemist* not only recounts a spiritual journey but also integrates the conceptual framework of alchemy as a

metaphorical system representing personal transformation, enlightenment, and destiny. The novel's terminology is therefore a fusion of linguistic, scientific, and symbolic elements.

The linguistic study of chemical terminology has traditionally focused on scientific corpora; however, the use of such terminology in literary discourse opens new dimensions. Terms such as *philosopher's stone*, *elixir of life*, *transmutation*, *purification*, *evaporation*, *metals,* and *the Master Work* appear in the novel with rich polysemy and symbolic depth.

Research objectives include the following:

1.Identify and classify chemical and alchemical terms in the novel.

2.Analyze their lexical-semantic properties: denotative vs. metaphorical meanings.

3.Describe their structural features: morphology, compounding, multiword units.

4.Explore their symbolic role in narrative discourse.

Methods

The dataset includes all chemical and alchemical terms encountered in the novel. Terms were selected if they refer directly to chemical materials, processes, or instruments, appear in descriptions of alchemical operations, function metaphorically to express transformation.

Lexical-semantic analysis (polysemy, metaphor, semantic fields), structural analysis (morphology, word-formation, compounding), conceptual metaphor theory (Lakoff & Johnson, 1980), comparative terminology analysis (between alchemy and modern chemistry)

This study employs a qualitative, descriptive, and text-analytical methodology that integrates principles from terminology studies, lexical semantics, structural linguistics, and literary discourse analysis. The methodological design aims to ensure systematic identification, classification, and interpretation of chemical and alchemical terminology in Paulo Coelho's *The Alchemist*.

The research follows a qualitative corpus-based design. The novel *The Alchemist* serves as the primary corpus, while supporting secondary sources include academic publications on alchemy, historical chemistry, and semantic theory. The study utilizes a multi-level linguistic analysis, combining lexical-semantic analysis, morphological and structural analysis, conceptual metaphor analysis, and contextual literary interpretation.

This stage explored the semantic properties of each term using denotative definitions from standard chemistry dictionaries, historical alchemical interpretations from philosophical texts, metaphorical-semantic interpretation within Coelho's narrative.

Special attention was given to polysemy (e.g., *gold* as metal and spiritual goal), semantic shift, connotative meanings, symbolic layering, intertextual connections to classical alchemical texts such as the Emerald Tablet.

Structural analysis examined the form and internal structure of terms, focusing on word-formation processes (derivation, compounding), morphemic composition, syntactic complexity (multi-word terminological units), etymological origins where relevant.

Terms were classified into simple terms (e.g., *gold, acid*), derived terms (e.g., *transformation, purification*), compound terms (e.g., *philosopher's stone*), terminological phrases (e.g., *the Master Work*). This helped determine how structural complexity correlates with semantic depth.

Since *The Alchemist* is a literary text, each term was examined in relation to its narrative function: how the term contributes to character development, how it frames the protagonist's spiritual journey, how it supports thematic motifs (purification, destiny, transformation).

This integrated methodology illuminates how chemical terminology bridges scientific language and literary symbolism.

Results

The results of the study reveal a complex and multilayered system of chemical and alchemical terminology in *The Alchemist*, reflecting both linguistic structure and symbolic meaning. The analysis leads to four major result categories: lexical-semantic classification, structural and morphological features, conceptual-metaphorical functions, and narrative and discourse functions.

Alchemical terms in *The Alchemist* operate in two simultaneous semantic planes: 1. Literal (proto-scientific) meaning. Grounded in medieval alchemical traditions, these terms describe processes or objects believed to have material significance. 2. Metaphorical/spiritual meaning. Coelho constructs each alchemical term as a symbolic element reflecting the protagonist's psychological and spiritual evolution.

Key terms include *philosopher's stone*, *elixir of life*, *Master Work*, *transmutation*, *the Emerald Tablet*, *the Soul of the World*. These items exhibit high semantic density, functioning as "metaphor clusters" rather than isolated lexical units.

Chemical terms with modern scientific meaning include *metal, gold, lead, acid, crystal, heat, evaporation, solid, liquid*. While these terms retain their denotative scientific meanings, their use in the novel often triggers a metaphorical reinterpretation through the narrative context.

Many terms display extensive polysemy *gold* → chemical element (literal), perfection (symbolic), destiny (metaphorical), *purification* → chemical process, moral cleansing, *reaction* → chemical interaction, emotional response, *transformation* → change of form, spiritual evolution. Polysemy is not accidental; it is systematically embedded to reinforce the theme of personal and material transformation.

The structural analysis reveals a varied and complex terminological inventory. The terms belong to several morphological types, each contributing distinct stylistic and semantic functions. For example, simple (monolexemic) terms, such as: *gold, lead, metal, fire, acid*. They are characterized by monosyllabic or bisyllabic structure, high frequency in both science and everyday language, low morphological complexity, easily combined with metaphorical meanings due to their cultural familiarity. In Coelho's text, simple terms are strategically placed in symbolically important narrative moments.

Derived terms (Affixation-Based Terminology) include **-tion** suffix: *evaporation, purification, transformation, solidification*, **-ify / -fy** root transformations: *purify, identify, signify*, **-al** suffix indicating relational meaning: *metaphysical, elemental*. Derived terms tend to denote processes, which is congruent with the plot's emphasis on the protagonist's journey.

The novel contains both lexicalized and non-lexicalized compound terms: *philosopher's stone*, *elixir of life*, *master work*, *universal language*

These compounds are structurally more complex and semantically richer than simple terms. They frequently combine material elements + abstract qualities, reinforcing their symbolic power.

Beyond literal meaning, chemical and alchemical terms form the backbone of the novel's conceptual metaphor system. The central metaphor of the novel is: TRANSFORMATION (chemical) = TRANSFORMATION (spiritual)

It shows that *transmutation of metals* parallels Santiago's maturation, *purification of materials* mirrors purification of intentions, *heat and pressure* symbolize the trials required for inner growth. This metaphor is activated repeatedly through terminology associated with change. Terms such as *fire, evaporation, cleansing, purification* represent moral and emotional refinement. Alchemical terminology describing the unity of matter—*the Soul of the World*—serves as a metaphor for human interconnectedness and universal purpose.

Coelho constructs Santiago's journey as an alchemical experiment, where environmental forces = external catalysts, personal decisions = reactions, trials = heating/refining processes. This metaphor reframes the protagonist's development as systematic and scientific.

Chemical terminology is not merely descriptive; it structures the novel's symbolic, thematic, and narrative dimensions. Alchemy divides Santiago's journey into stages resembling laboratory operations:

1.Initial base state → Santiago as an unrefined "metal"

2.Refinement through trials → metaphorical purification

3.Final transmutation → discovery of Personal Legend

The character of the alchemist embodies scientific mastery and spiritual wisdom. His dialogue frequently blends chemical descriptions with philosophical instruction. The desert, traditionally associated with alchemical practices, becomes an extended metaphorical laboratory where transformation occurs.

Terminology overlays multiple symbolic meanings on objects, events, and people. This contributes to intertextual depth (echoes of Hermetic philosophy), allegorical structure (human soul = alchemical material), narrative coherence (each symbol reinforces earlier ones).

Term list with definitions

Term	Definition
Alchemy	A proto-scientific discipline combining chemistry, philosophy, and mysticism.
Philosopher's Stone	Legendary alchemical substance believed to transform base metals into gold and grant enlightenment.
Elixir of Life	Mythical liquid believed to ensure immortality or eternal youth.
Transmutation	The process of converting one substance into another, especially base metal into gold.
Purification	Chemical removal of impurities; symbolically, moral elevation.
Master Work	The ultimate accomplishment in alchemy, combining the Philosopher's Stone and the Elixir.
Gold	A chemical element (Au) symbolizing perfection and ultimate achievement.
Lead	Heavy metal representing imperfect, unrefined human nature.
Evaporation	Conversion of liquid to vapor; metaphorically, transformation through natural processes.

Crystallization	Solid formation from a solution; symbolic of clarity and spiritual focus.
Tincture	Alchemical solution used for transformation.
Emerald Tablet	A foundational alchemical text attributed to Hermes Trismegistus.
Soul of the World	Mystical term for universal spiritual unity.
Heat	Energy required for chemical reactions; metaphor for trials and personal growth.

Discussion

The findings of this study reveal that chemical terminology in Paulo Coelho's *The Alchemist* operates on multiple semiotic, structural, and conceptual levels. Although the novel is not a scientific text, its lexicon is deeply informed by historical alchemy, proto-chemical practices, and symbolic interpretations of matter transformation. This layered use of terminology allows the narrative to function simultaneously as a spiritual journey and as a metaphorical reflection of scientific inquiry.

Coelho strategically employs chemical terms—such as *purification*, *elixir*, *transformation*, and *metals*—to encode philosophical and metaphysical ideas. These terms retain their literal scientific or proto-scientific meanings while gaining metaphorical dimensions associated with human development, moral refinement, and epistemological pursuit. This dual usage illustrates how chemical terminology can transcend disciplinary boundaries and contribute to narrative symbolism.

Furthermore, the symbolic reinterpretation of terms like *gold* and *lead* mirrors their historical status in alchemical literature. Traditionally, gold represents perfection and spiritual enlightenment, while lead symbolizes raw potential. In Coelho's narrative, these associations remain intact, suggesting that the semantic evolution of chemical terminology preserves certain universal conceptual metaphors—particularly those related to transformation, value, and purity.

The analysis indicates a significant overlap between historical-alchemical and modern scientific lexicons. While modern chemistry rejects the metaphysical assumptions of alchemy, several terms and conceptual frames have persisted. Words such as *evaporation*, *distillation*, *substance*, and *purification* are used in both domains, though with varying levels of technical precision.

This continuity supports the argument that scientific terminology is not created in a vacuum but often emerges from earlier epistemological frameworks. In this sense, *The Alchemist* provides a unique window into the linguistic transition from mystical transformations to empirical chemical processes. The novel demonstrates how terminology can act as a bridge between ancient conceptualizations of matter and contemporary scientific paradigms.

The study highlights the profound role of polysemy in shaping interpretive possibilities. Chemical terms in the novel tend to exhibit layered meanings, depending on narrative context and thematic focus. For instance p*urification* applies to both chemical refinement and spiritual cleansing. *Transformation* refers simultaneously to the protagonist's internal change and the alchemist's literal ability to manipulate matter. *Master Work* (Magnum Opus) functions as both a physical alchemical achievement and a metaphor for fulfilling one's Personal Legend.

Such duality reinforces the idea that scientific terminology, when embedded in literature, is rarely semantically neutral. Instead, it becomes a dynamic vehicle for philosophical, emotional, and symbolic expression. This finding aligns with cognitive linguistic theories suggesting that terminology interacts with conceptual metaphors and narrative structures.

The structural analysis of terms—simple, derived, and compound—reveals that each category plays a unique narratological role. Simple terms (e.g., *gold*, *lead*, *acid*) serve as the basic building blocks of both chemical and symbolic meaning. Derived terms (e.g., *evaporation*, *transmutation*, *clarification*) embed processes that signal movement, change, or development, reinforcing the story's central motif of personal evolution.

Compound terms, such as *philosopher's stone* and *elixir of life*, carry the heaviest symbolic load. Their multi-word structure allows the merging of scientific, mystical, and existential connotations. Such compounds are semantically dense, functioning as narrative anchors around which the plot and thematic development revolve.

The intersection of chemistry-related terminology and literary narrative offers valuable insights for both terminological theory and literary linguistics. This study suggests that terminology in literature can preserve archaic meanings that have disappeared from technical usage, providing a repository of semantic history. Scientific terms used metaphorically may influence non-specialist perceptions of scientific concepts, shaping public understanding. The literary reinterpretation of chemical lexicon demonstrates the flexibility and adaptability of terminology, challenging the notion of terms as semantically fixed units.

This reinforces the growing scholarly perspective that terminology exists on a continuum—from highly technical usage in specialized discourse to flexible, symbolic usage in literary and everyday contexts.

The novel's terminological framework ultimately functions as a philosophical system. By blending alchemical lexicon with spiritual and existential themes, Coelho constructs a worldview in which physical transformation parallels inner transformation. Chemical terminology thus becomes a structural and semantic scaffold that supports the narrative message: the pursuit of knowledge, the discovery of personal purpose, and the unity of material and spiritual realities.

Conclusion

This study has demonstrated that the chemical terminology in Paulo Coelho's *The Alchemist* functions far beyond its surface-level linguistic form, serving as a key narrative, symbolic, and conceptual device. By examining the lexicon through lexical-semantic and structural lenses, the research highlights the multifaceted nature of chemical terms in literary discourse and their role in shaping thematic and philosophical meaning.

The lexical-semantic analysis revealed that chemical terms in the novel operate on a continuum ranging from historically rooted alchemical expressions to modern chemistry-related vocabulary. These terms form a bridge between mystical traditions and contemporary scientific thought, illustrating the diachronic evolution of chemical concepts. Their inherent polysemy allows them to simultaneously express literal chemical processes and abstract spiritual transformations, which is central to the novel's philosophical framework. Terms such as *purification*, *transformation*, *gold*, and *Master Work* exemplify this semantic layering, enriching the interpretive opportunities available to readers.

The structural analysis showed that both simple and complex term formations contribute meaningfully to the narrative. Simple terms provide concrete reference points within the story, grounding it in recognizable physical substances and processes. Derived terms encode dynamic processes, symbolizing movement, progress, and inner change. Compound terms, meanwhile, serve as high-density semantic units that synthesize scientific, mythical, and existential dimensions. This demonstrates that terminology structure is not merely a linguistic feature but a tool that directly influences conceptual modeling within literary texts.

The interplay between chemical terminology and narrative meaning also underscores the value of interdisciplinary research. By integrating perspectives from linguistics, terminology studies, cognitive semantics, and literary analysis, this study confirms that scientific terminology in literature is a rich, underexplored site of semiotic and conceptual complexity. Chemical lexicon in *The Alchemist* illustrates how specialized vocabulary, when transferred into an artistic context, can acquire new metaphorical and symbolic functions without losing its historical and scientific associations.

Importantly, the findings highlight the lasting cultural and conceptual influence of alchemical terminology. Despite the rise of empirical chemistry, alchemical terms continue to resonate in modern discourse—often metaphorically—reflecting deep-rooted human concerns with transformation, perfection, and the search for meaning. Coelho's text skillfully mobilizes these resonances, demonstrating that the boundary between scientific terminology and spiritual metaphor is permeable and that both share a common cognitive foundation rooted in conceptual metaphors of change, refinement, and unity.

Finally, this study contributes to broader discussions about the role of terminology in cross-disciplinary communication and literary creativity. It suggests that scientific terms, when contextually reinterpreted, can become powerful narrative instruments capable of constructing multilayered philosophical messages. Future research may expand these insights by exploring terminology usage in wider literary corpora, examining translation strategies for chemical lexicon, or conducting cognitive studies on reader interpretation of scientific metaphors.

In conclusion, the chemical terminology in *The Alchemist* is not merely decorative or incidental; it constitutes an essential element of the text's semantic architecture. Through its lexical-semantic depth and structural variety, this terminology shapes the novel's themes, reflects historical conceptual systems, and reveals intrinsic connections between scientific and spiritual understandings of transformation. Thus, the study affirms the broader significance of examining specialized vocabulary within literary frameworks, demonstrating that terminology analysis can uncover profound insights into how language operates at the intersection of science, culture, and narrative meaning.

Reference

1. Jumanova, S. (2024). EXPLORING THE STRUCTURAL FEATURES OF COMPOUND NOUNS REFERRING TO THE NAMES OF CLOTHES. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, *5*(02), 131-137.

2. Baratboyevna, N. M., & Murtozayevich, S. G. O. (2024). SEMANTICS OF SCIENTIFIC TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK: A COMPARATIVE ANALYSIS. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR*, *1*(1), 371-374.

3. Coelho, P. (1993). *The Alchemist* (A. R. Clarke, Trans.). HarperCollins.
Holmyard, E. J. (1990). *Alchemy*. Dover Publications.

4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.

5. Newman, W. R. (2006). *Promethean Ambitions: Alchemy and the Quest to Perfect Nature*. University of Chicago Press.
6. Principe, L. M. (2012). *The Secrets of Alchemy*. University of Chicago Press.
7. Tarver, E. (2020). *The Alchemical Imagination*. SUNY Press.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Mamatov Ravshanbek Rustamovich
Qo‘qon universiteti Andijan filiali “Xorijiy tillar” kafedrasi v.b.dotsenti f.f.f.d (PhD)
ravshanbek-mamatov@mail.ru

UDK: 821.112.2

XX-XXI ASRLARDA AYRIM NEMIS YOZUVCHILARI HAQIDA BADIIY MULOHAZA

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada XX va XXI asrlarda nemis adabiyotining jahon adabiy jarayonida o‘rin tutgan Gyunter Grass, Heinrich Byoll, Peter Handke hamda Herta Myuller ijodi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy xotira, axloqiy mas’uliyat, til va idrok falsafasi, shaxs va jamiyat munosabatlari kabi masalalar markazga olinadi. Ushbu yozuvchilarning asarlari nafaqat nemis adabiyoti, balki jahon adabiyotining estetik va falsafiy rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligini ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Nemis adabiyoti, tarixiy xotira, badiiy tafakkur, Heinrich Byoll, Herta Myuller, Gyunter Grass, Peter Handke.*

Маматов Равшанбек Рустамович
исполняющий обязанности доцента кафедры иностранных языков
д.ф.ф.н (PhD) Андижанского филиала Кокандского университета

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О НЕКОТОРЫХ НЕМЕЦКИХ ПИСАТЕЛЯХ XX-XXI ВЕКОВ

Аннотация: *В данной научной статье анализируется место немецкой литературы XX и XXI веков в мировом литературном процессе на примере творчества Гюнтера Грасса, Генриха Бёлля, Петера Хандке и Герты Мюллер. В исследовании в центре внимания находятся такие вопросы, как историческая память, нравственная ответственность, философия языка и познания, а также отношения личности и общества. Произведения этих писателей освещаются с научной точки зрения как имеющие значительное влияние не только на немецкую литературу, но и на эстетическое и философское развитие мировой литературы.*

Ключевые слова: *немецкая литература, историческая память, художественное мышление, Генрих Бёлль, Герта Мюллер, Гюнтер Грасс, Петер Хандке.*

Mamatov Ravshanbek Rustamovich
Acting Associate Docent d.p.p. (PhD) of the Department of Foreign Languages
at the Andijan Branch of Kokand University

ARTISTIC REFLECTIONS ON SOME GERMAN WRITERS OF THE XX-XXI CENTURIES

Abstract: *This scientific article analyzes the role of German literature of the 20th and 21st centuries in the global literary process through the works of Günter Grass, Heinrich Böll, Peter Handke, and Herta Müller. The study focuses on issues such as historical memory, moral responsibility, the philosophy of language and cognition, as well as the relationship between the individual and society. The works of these authors are examined from a scholarly perspective as having a significant impact not only on German literature but also on the aesthetic and philosophical development of world literature.*

Keywords: *German literature, historical memory, artistic/intellectual thought, Heinrich Böll, Herta Müller, Günter Grass, Peter Handke.*

Kirish

XX asr jahon tarixida siyosiy, ijtimoiy va madaniy silkinishlar davri sifatida alohida o‘rin tutadi. Ikki jahon urushi, sovuq urush hamda globallashuv jarayonlari adabiyotning mazmuni va vazifasini tubdan o‘zgartirdi. Nemis adabiyoti ushbu murakkab tarixiy jarayonlarning bevosita markazida shakllanib, jahon adabiyotiga chuqur falsafiy va axloqiy muammolarni olib kirdi.

XX va XXI asrlarda ijod qilgan nemis adiblari insoniyat tarixidagi fojiali voqealarni badiiy tahlil qilish orqali jahon miqyosida tanildi. Gyunter Grass va Heinrich Byoll urushdan keyingi nemis jamiyatining axloqiy inqirozini ochib bersa,

Peter Handke til va idrok falsafasini yangi bosqichga olib chiqdi. Herta Myuller esa totalitarizm sharoitida shaxs erkinligi muammolarini poetik aniqlik bilan yoritdi.

Adabiyot tahlili

XX asr boshlarida nemis adabiyoti ekspressionizm, modernizm va keyinchalik postmodernizm yo‘nalishlari orqali jahon adabiyotiga faol qo‘shildi. Adabiyotda inson ruhiyati, qo‘rquv, begonalashuv va axloqiy tanlov masalalari yetakchi mavzuga aylandi.

Urushdan keyingi davrda nemis adabiyoti o‘z oldiga tarixiy ayb va mas’uliyatni anglash vazifasini qo‘ydi. Bu jarayon jahon adabiyotida kam uchraydigan chuqur axloqiy-falsafiy yondashuvni yuzaga keltirdi. Aynan shu jihat nemis adabiyotini global adabiy jarayonda alohida mavqega ko‘tardi.

Heinrich Byoll (1917–1985) XX asr nemis adabiyotining eng nufuzli vakillaridan biridir. Uning asarlarida urushning oddiy inson taqdiriga ko‘rsatgan vayronkor ta’siri markaziy o‘rinni egallaydi. Byoll badiiy tafakkurida axloqiy mas’uliyat, inson sha’ni va vijdon muammolari yetakchi hisoblanadi. “Ansichten eines Clowns” (Masxarabozning qarashlari) romani orqali yozuvchi ikkiyuzlamachi insonlarni tanqid qiladi. Ushbu asar jahon adabiyotida urushdan keyingi inson ruhiy inqirozining yorqin namunasiga aylandi. 1972-yilda Byollning Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishi uning jahon adabiyotidagi o‘rnini mustahkamladi.

Yana bir nemis adibi Gyunter Grass (1927–2015) XX asr nemis adabiyotini jahon miqyosiga olib chiqqan adiblardan biridir. Uning “Die Blechtrommel” (Qalay nog‘ora) nomli romani jahon adabiyotida tarixiy xotira va kollektiv ayb masalasini badiiy tahlil qilishning yorqin namunasi sifatida tan olingan. Grass asarlarida ramziylik orqali tarixiy haqiqat ochib beriladi. Yozuvchi jamiyatning tarixiy mas’uliyatdan qochishini keskin tanqid qiladi. Bu yondashuv uni jahon adabiyotida noyob fenomen sifatida namoyon etadi. 1999-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishi Grass ijodining global ahamiyatini tasdiqladi.

Avstriyalik nemis tilida ijod qilivchi Peter Handke XX–XXI asrlar adabiyotida til va idrok muammolarini markazga olib chiqqan yozuvchi sifatida tanilgan. Uning asarlarida voqea emas, balki idrok jarayoni muhim hisoblanadi. Handke fenomenologik yondashuv orqali adabiyotning chegaralarini kengaytirdi. U jahon adabiyotida minimalist va kontemplativ uslubning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. 2019-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishi Handke ijodining jahon miqyosidagi ta’sirini yana bir bor ko‘rsatdi.

Herta Myuller XXI asr nemis adabiyotida totalitarizm va shaxsiy identitet muammolarini badiiy yuksak darajada yoritgan adiba hisoblanadi. Uning asarlarida til parchalangan, metaforalar keskin va poetik xarakterga ega. Myuller ijodi jahon adabiyotida totalitarizmning ichki, ruhiy oqibatlarini ko‘rsatgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. [4,16] 2009-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishi uning ijodini global miqyosda e’tirof ettirdi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu adiblar ijodi jahon adabiyotida tarixiy xotira, axloqiy mas’uliyat va shaxs erkinligi mavzularining chuqurlashuviga sabab bo‘ldi. Ularning asarlari ko‘plab tillarga tarjima qilinib, xalqaro adabiy jarayonga faol kirib bordi. Nemis adabiyotining jahon miqyosidagi ta’siri uning falsafiy chuqurligi va estetik yangiligi bilan izohlanadi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagicha tahlil qilindi:

Birinchidan, nemis adiblari ijodidagi asosiy mavzular — tarixiy xotira, axloqiy mas’uliyat, til va idrok muammolari jahon adabiyotidagi o‘xshash badiiy-falsafiy tendensiyalar bilan taqqoslandi.

Ikkinchidan, badiiy matnlarni tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstda talqin qilish imkonini berdi. Grass va Byoll asarlaridagi urushdan keyingi nemis jamiyati muammolari, Myuller ijodidagi totalitarizm tajribasi hamda Handke asarlaridagi idrok va sukunat fenomeni aynan germenevtik tahlil orqali ochib berildi.

Uchinchidan, XX–XXI asrlarda nemis adabiyotida shakllangan badiiy-falsafiy qarashlarning evolyutsiyasi va ularning jahon adabiyotiga ta’sir bosqichlari aniqlandi. Nemis adabiyotining urushdan keyingi davrdan postmodern davrgacha bo‘lgan taraqqiyoti tipologik jihatdan tahlil qilindi.

To‘rtinchidan, adiblar ijodidagi obrazlar tizimi, ramziylik, badiiy til va narrativ strategiyalarni o‘rganishga xizmat qildi. Ayniqsa, Grassdagi grotesk va mifologik unsurlar, Myuller ijodidagi parchalangan poetik til, Handkedagi minimalist va kontemplativ uslub hamda Byoll asarlaridagi realizm elementlari struktural tahlil asosida ochib berildi.

Tadqiqot materiali sifatida Gyunter Grass, Heinrich Byoll, Peter Handke va Herta Myullerning asosiy badiiy asarlari, esselari hamda zamonaviy adabiyotshunoslik va falsafa sohasidagi ilmiy manbalar tanlab olindi. Metodlarning kompleks qo‘llanishi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va xolisligini ta’minladi.

Tahlil va natijalar

Mazkur tadqiqot doirasida XX–XXI asrlarda nemis adiblari — Gyunter Grass, Heinrich Byoll, Peter Handke va Herta Myuller ijodining jahon adabiyotiga ko‘rsatgan ta’siri qiyosiy va tizimli tahlil asosida o‘rganildi. Tahlil natijalari ushbu adiblar ijodi jahon adabiyotining mavzuviy, estetik va falsafiy rivojiga sezilarli hissa qo‘shganini ko‘rsatdi.

Tahlil shuni koʻrsatadiki, Gyunter Grass jahon adabiyotiga tarixiy xotira va kollektiv ayb muammosini badiiy-falsafiy darajada olib kirgan adiblardan biridir. Grass ijodida tarixni tan olish va xotirani saqlash gʻoyasi universal ahamiyat kasb etib, urushdan keyingi Yevropa adabiyotida axloqiy masʼuliyat mavzusining keng yoyilishiga taʼsir koʻrsatdi.

Natijada, Grass asarlari jahon adabiyotida tarixiy travmani badiiy anglashning muhim namunasi sifatida eʼtirof etildi va koʻplab milliy adabiyotlarda shu yoʻnalishdagi asarlarning paydo boʻlishiga turtki berdi

Tahlil natijalari Heinrich Byoll ijodi jahon adabiyotida urushdan keyingi inson ruhiyati va axloqiy inqiroz masalalarini yoritishda muhim oʻrin tutganini koʻrsatadi. Uning asarlarida oddiy inson taqdiri, vijdon va insoniy shaʼn muammolari markazga olinadi. Byoll realizmga asoslangan badiiy uslub orqali jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik va maʼnaviy tanazzulni fosh etadi.

Natijada, Byoll ijodi jahon adabiyotida axloqiy realizm yoʻnalishining rivojiga hissa qoʻshdi. Uning asarlari xalqaro miqyosda inson huquqlari, tinchlik va adolat masalalarini badiiy muhokama qilishda muhim manbaga aylandi.

Shuningdek, Peter Handke ijodi jahon adabiyotida til va idrok muammolarini markazga olib chiqqan yangi badiiy-falsafiy yondashuvni shakllantirdi. Uning asarlarida anʼanaviy syujetdan voz kechilib, inson idrok jarayoni va ichki holatlari tasviriga alohida eʼtibor qaratiladi. Bu yondashuv jahon adabiyotida minimalist va kontemplativ uslubning rivojlanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi.

Natijalarga koʻra, Handke ijodi adabiyotning estetik chegaralarini kengaytirib, oʻquvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol mushohada qiluvchi subyektga aylantirdi. Bu holat zamonaviy jahon adabiyotida idrok va subyektivlik masalalarining kuchayishiga olib keldi.

Tahlil natijalari Herta Myuller ijodi jahon adabiyotida totalitarizm tajribasini ichki, ruhiy va til darajasida yoritgan noyob fenomen ekanini koʻrsatdi. Uning parchalangan poetik tili va keskin metaforalari totalitar muhitda yashagan inson ruhiyatining aks-sadosi sifatida talqin qilinadi.

Myuller ijodi jahon adabiyotida totalitarizmni faqat siyosiy hodisa emas, balki inson ongini parchalovchi ruhiy jarayon sifatida tushunishga xizmat qildi. Bu yondashuv posttotalitar adabiyotda yangi estetik mezonlarning shakllanishiga olib keldi. [5,30]

Muhokama

XX–XXI asrlarda nemis adiblari — Gyunter Grass, Heinrich Byoll, Peter Handke hamda Herta Myuller ijodining jahon adabiy jarayoniga chuqur va koʻp qirrali taʼsir koʻrsatganini tasdiqlaydi. Ularning asarlari nafaqat nemis adabiyotining milliy chegaralaridan chiqib ketgan, balki global adabiy tafakkurda universal estetik va falsafiy muammolarni shakllantirgan.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish shuni koʻrsatadiki, Gyunter Grass va Heinrich Byoll ijodi jahon adabiyotida tarixiy xotira va axloqiy masʼuliyat mavzularining markaziy oʻringa chiqishiga sabab boʻlgan. Grassning grotesk va ramziy uslubi orqali tarixiy travmani badiiy anglash modeli shakllandi, Byoll esa realizm asosida oddiy inson taqdirini global adabiy muhokamaga olib kirdi. Ushbu yondashuvlar jahon adabiyotida urushdan keyingi adabiy ongning shakllanishiga kuchli turtki berdi.

Peter Handke ijodining muhokamasi shuni koʻrsatadiki, u jahon adabiyotida til va idrok muammosini mustaqil badiiy-falsafiy kategoriya sifatida qaror toptirdi. Handke asarlarida anʼanaviy syujetdan voz kechilishi va subyektiv idrokning markazga qoʻyilishi adabiyotning estetik chegaralarini kengaytirdi. Bu yondashuv zamonaviy jahon adabiyotida minimalist va kontemplativ yoʻnalishlarning rivojlanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi.

Herta Myuller ijodi boʻyicha muhokama natijalari shuni koʻrsatadiki, u totalitarizm tajribasini faqat siyosiy yoki tarixiy hodisa sifatida emas, balki inson ruhiyatini parchalovchi ichki jarayon sifatida talqin qilgan. Uning poetik-parchalanma tili jahon adabiyotida totalitar muhitning ruhiy oqibatlarini ifodalashning yangi estetik shaklini yaratdi. Bu holat posttotalitar adabiyotda til va xotira muammolarining chuqurlashuviga olib keldi.

Mazkur toʻrt adib ijodini birlashtiruvchi jihat — tarixiy tajriba va shaxsiy idrok oʻrtasidagi murakkab munosabatni badiiy-falsafiy darajada yoritishdir. Ularning farqli tomonlari esa badiiy uslub va estetik strategiyalarda namoyon boʻladi: Grassda epik va grotesk ifoda, Byoll ijodida axloqiy realizm, Handkeda fenomenologik kontemplatsiya, Myullerda esa poetik-intensiv til ustunlik qiladi.

Tadqiqot natijalarini jahon adabiy kontekstda muhokama qilish shuni koʻrsatadiki, nemis adiblari ijodi global adabiyotda mavzularning universallashuviga, estetik shakllarning boyishiga va falsafiy tafakkurning chuqurlashuviga xizmat qilgan. Ularning asarlari bugungi kunda ham adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va falsafa sohalarida dolzarb ilmiy manba boʻlib qolmoqda.

Shu boisdan, nemis adiblari ijodining jahon adabiyotiga taʼsiri faqat tarixiy hodisa sifatida emas, balki davom etayotgan estetik va falsafiy jarayon sifatida baholanishi lozim.

Xulosa

Ushbu tadqiqot XX–XXI asrlarda nemis adiblari — Gyunter Grass, Heinrich Byoll, Peter Handke va Herta Myuller ijodining jahon adabiyotidagi oʻrnini va taʼsirini aniqlashga qaratildi. Bu adiblar ijodi jahon adabiyotida tarixiy xotira,

axloqiy mas’uliyat, til va idrok falsafasi kabi universal muammolarni badiiy-falsafiy darajada yoritishda muhim ahamiyat kasb etganini ko‘rsatdi.

Gyunter Grass va Heinrich Byoll asarlarida urush va jamiyatning axloqiy inqirozi global adabiy muhokama markaziga olib chiqilgan bo‘lsa, Peter Handke ijodida adabiyotning estetik chegaralari kengaytirildi, Herta Myuller asarlarida esa totalitarizmning inson ruhiyatiga ta’siri yangi poetik shakllar orqali ifodalandi. Ushbu jihatlar nemis adabiyotining jahon adabiy jarayonidagi nufuzini mustahkamlab, uning estetik va falsafiy rivojiga sezilarli hissa qo‘shdi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, mazkur nemis adiblari ijodi jahon adabiyotining ajralmas qismi bo‘lib, ularning badiiy merosi zamonaviy adabiy tafakkur taraqqiyotida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Byoll. H. Ansichten eines Clowns. Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1963. – S. 25.
2. Grass. G. Die Blechtrommel. München: Luchterhand, 1959. – S. 50.
3. Handke. P. Die Angst des Tormanns beim Elfmeter. Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1970. – 22.
4. Müller. H. Atemschaukel. München: Carl Hanser Verlag, 2009. – 16.
5. Кузнецов. С. Своеобразие прозы Герты Мюллер в контексте современной немецкоязычной литературы. Дис. – Москва: 2022. – С. 30.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Sidiqov Qosim Abilovich
Namangan Davlat Universiteti Filologiya fanlari nomzodi, professor
E-mail: qosimjon1977@mail.ru

TIL KONSEPTIGA ASOSLANGAN FRAZEOLOGIZMLAR POETIKASI VA ULARNING XORIJIY TARJIMALARDA BERILISHI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada «Qutadg'u bilig» asaridagi til konseptiga asoslangan somatik frazeologizmlar poetikasi tahlil qilinadi. Baytdagi "til – bosh – yosh" zanjiri kognitiv metafora modeli sifatida talqin qilinib, axloqiy-siyosiy g'oyaning obrazli ifodasi ochib beriladi. Q.Karimov, Walter May, Robert Dankoff va S.N.Ivanov tarjimalari qiyosiy tahlil qilinib, formal ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik, interpretativ yondashuv va konseptual transformatsiya kabi tarjima strategiyalari aniqlanadi.*

Kalit so'zlar*: til konsepti, somatik metafora, frazeologizm, kognitiv model, ekvivalentlik, konseptual transformatsiya, tarjimashunoslik.*

Сидиқов Қосим Абилович
Наманганский Государственный Университет Кандидат филологических наук, профессор

ПОЭТИКА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ, ОСНОВАННЫХ НА КОНЦЕПТЕ ЯЗЫКА, И ИХ ПЕРЕДАЧА В ЗАРУБЕЖНЫХ ПЕРЕВОДАХ

Аннотация: *В статье анализируется поэтика соматических фразеологизмов, основанных на концепте «язык» в «Кутадгу билиг». Цепочка «язык – голова – жизнь» рассматривается как когнитивная метафорическая модель, выражающая этико-политическую идею произведения. Проведен сравнительный анализ переводов К. Каримова, Walter May, Robert Dankoff и С.Н. Иванова. Определены переводческие стратегии: формальная эквивалентность, динамическая эквивалентность, интерпретативный подход и концептуальная трансформация.*

Ключевые слова: *концепт языка, соматическая метафора, фразеологизм, когнитивная модель, эквивалентность, концептуальная трансформация, переводоведение.*

Sidiqov Qosimjon Abilovich
Namangan State University Candidate of Philological Sciences, Professor

THE POETICS OF LANGUAGE-BASED PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR RENDERING IN FOREIGN TRANSLATIONS

Abstract: *This article examines the poetics of somatic phraseological units based on the concept of "tongue" in "Kutadgu bilig". The chain "tongue – head – life" is interpreted as a cognitive metaphorical model expressing the ethical and political philosophy of the work. A comparative analysis of the translations by K. Karimov, Walter May, Robert Dankoff, and S. Ivanov is conducted. The study identifies translation strategies such as formal equivalence, dynamic equivalence, interpretative approach, and conceptual transformation.*

Keywords: *concept of tongue, somatic metaphor, phraseology, cognitive model, equivalence, conceptual transformation, translation studies.*

Kirish

"Qutadg'u bilig" XI asr turkiy siyosiy-axloqiy tafakkurining asosini tashkil etuvchi yozma yodgorikdir. Asar turkiy davlatchilik g'oyasi, ijtimoiy adolat konsepsiyasi va axloqiy me'yorlar tizimini badiiy-falsafiy shaklda mujassam etgan ilk mukammal yozma yodgorlik namoyon bo'ladi. Yusuf Xos Hojib hukmdor, vazir, donishmand va xalq munosabatlari axloqiy me'zonlar asosida gavdalantiradi. Muallif asar orqali davlat boshqaruvi tamoyillari, axloqiy an'analar, hukmdorlik falsafasi, insoniy fazilatlarini yuksak poetik mahorat bilan ko'rsatib beradi. Asarning muhim xususiyati shundaki, unda axloqiy va siyosiy g'oyalar mavxum tushuncha emas balki, obrazli-konseptual tizim orqali ifodalanadi. Shu ma'noda,

“Qutadg‘u bilig” nafaqat yozm-badiiy yodgorlik, balki turkiy siyosiy-axloqiy tafakkurning nazariy-mafkuraviy manbasi sifatida ham katta ilmiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili

Frazeologiyani o‘rganish tilning yashirin mexanizmlarini ochishga yordam beradi. U orqali milliy tafakkur, madaniyat va kommunikativ strategiyalarni anglash mumkin. Shu sababli frazeologiya zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Asarda til somatik obraz sifatida nafaqat aloqa vositasi, balki hayot va ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog‘langan axloqiy ma’zon sifatida gavdalanadi.

Peter Kühn ta’biricha “arazeologizmlardan o‘rinli foydalanish nutq madaniyatining muhim ko‘rsatkichidir. Ular nutqni tabiiy va ravon qiladi. Biroq noo‘rin ishlatilgan frazeologizm kommunikativ xatoga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Asarning “Tilning foyda va zararlari” to‘g‘risidagi bobda quyidagi bayt bor:

Тылыр кэд кедэзгил кедэзилди баш,

Сезунни қысургыл узатылды йаш.

Baytidagi “til – bosh – yosh” zanjiri kognitiv metafora xisoblanadi J.Lakoff va M.Jonsonning fikricha, inson tafakkuri mavxum tushunchalarni jismoniy tajriba orqali o‘zlashtiradi.

Baytda ko‘rinadiki, til – harakat qiluvchi organ, bosh – hayot-mamot ramzi, yosh – biologik davomiylik. Ta’kidlash o‘rinliki, baytdagi frazeologik metafora “tilni nazorat qilish – xayotni saqlab qolishdir” konsepsiyasiga asoslangan.

“Frazeologiya – bu tilning mustahkam jumla bo‘laklarini, ya’ni frazeologizmlarni o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi bo‘lib, ularning ma’nosi komponentlardan alohida holatda shakllanishidir”.

Tahlillar va natijalar

Lakoffning fikricha “Metafora asosan til masalasi emas, balki fikrlash masalasidir”. Shu jihatdan baytdagi metafora universal kognitiv modelgga asoslangandir.

V.V. Vinogradov frazeologizmlarni semantik yaxlitlik va obrazlilik asosida tasniflaydi. Uning ta’kidlashicha, somatik komponentli birliklar (til, bosh, ko‘z) yuqori obrazlilikka ega.

Bayt ikki mustaqil, lekin parallel sintaktik konstruksiyadan tashkil topgan bo‘lib, ular “Tilni ehtiyot qilsang, bosh saqlanadi”, “So‘zni qisqartirsang, yosh uzayadi” kabi didaktik tavsiyani ilgari suradi.

Bu yerda ikki frazeologik model “Til – bosh – hayot” va "So‘z – umr” mavjud. Baytdagi “kedezgil” (saqla, tiy) – imperativ axloqiy buyruq bo‘lib, “kedezildi bash” – boshning saqlanishi ta’kidlanadi. “Gapni kam gapirish” paremiologik strukturasi – axloqiy fazilat sifatida yuzaga chiqadi.

Endi baytning tarjimalarini kuzatamiz:

Q.Karimov tabdili:

Til(ing)ni nihoyatda ehtiyot qilgin, bosh saqlanadi,

So‘z(ing)ni qisqa qilgin, yosh(ing) uzaytiriladi.

Tabdildan ko‘rishimiz mumkinki, asliyat shakli to‘liq saqlangan, frazeologik yadroni o‘zgartirilmagan, tarjimada axloqiy buyruq o‘z ta’sirini yo‘qotmagan. Bu albatta asliyat tilining tabdil tilga qarindoshligi va yaqinligi bilan ham asoslanadi. Aytish kerakki asliyatdagi poetik alliteratsiya (ked – kedezgil – kedezildi) qisman yo‘qolgan.

Walter May tarjimasi:

Keep your tongue, and your head won’t be lopped off for sport,

And your life will be long, if your words are kept short.

(Tilingni saqlang, shunda boshing shunchaki kesilmaydi, Va agar so'zlarin qisqa bo'lsa, umrin uzun bo'ladi.)

Ko‘rinadiki, tilni tiymaslik – bosh kesilishiga olib keladi. E’tibor qilinsa. “for sport” qo‘shimchasi asliyatzda mavjud bo‘lmasada tarjiman poetik dramatizatsiya qilish maqsadida uni qo‘shimyaa qiladi. Aytish mumkinki Mey talqinida asliyatdagi myetafora tarjimada kuchaytirilgan, poetik jilo oshirilgan, natija badiiylashtirilgan.

Frazeologik birliklarning asosiy xususiyati obrazlilikdir. Aynan obraz nutqni jonlantiradi va tinglovchiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun frazeologizmlar badiiy nutqda faol ishlatiladi. Bu ma’noda frazeologizm- larni tarjimada saqlash muhim ahamiyatga ega.

Robert Dankoff tarjimasi:

It is the tongue that brings a man esteem, so that he finds fortune, and it is the tongue that brings a man dishonor so that he loses his head.

(Til odamga obro‘ keltiradi, toki u omad topsin, til esa odamga sharmandalik keltiradi, toki u boshini yo‘qotsin.)

R.Denkof talqinida asliyat shakli o‘zgargan va asliyatdagi “tilingni tiy” axloqiy chaqirig‘i tarjimada aks etmagan. Yusuf Xos Hojibning “katta bir nasixat”i ingliz tilli o‘quvchiga “oddiy bir qoida” sifatida yetib borgan. Bu tarjimaoning ekvivalentlikka erishishdan ko‘ra interpretativ yondashuv yo‘lini tanlaganini ko‘rsatadi..

S.Ivanov tarjimasi:

Речь людям дарует и власть и почет,

А лишнее слово и шею свернет!

(So’z odamlarga kuch va sharaf bag'ishlaydi, Lekin keraksiz so'z bo'ynini sindiradi!)

Ruscha tarjimada “шею свернет” – somatik obraz saqlangan. Asliyatdagi “yosh uzayishi” modeli “власть и почёт” bilan almashtirilgan bo‘lib, bu konseptual transformatsiya – **mazmun jihatdan o‘zgartirib, qayta tashkil qilish** jarayonidir.

Manba	Axloqiy chaqiriq	Bosh metaforasi	Umr modeli	Semantik yaqinlik
Asliyat	✓	✓	✓	100%
Karimov	✓	✓	✓	Yuqori
May	✓	✓ (kuchaytirilgan)	✓	Yuqori
Dankoff	✕	✓	Qisman	O‘rta
Ivanov	Qisman	✓	Almashtirilgan	O‘rta

Ta’kidlash mumkinki “Qutadg‘u bilig” baytlari o‘zining yuksak ahloqiy jihatlari, tarbiyaviy ahamiyati va ogoxlikka undovlari bilan ajralib tuoradi. Ular o‘zida turkiy-islomiy madaniyat yan’analari o‘zida to‘liq namoyon etadi. Biz tahlilga tortgan bayt somatik frazeologizm asosida qurilgan bo‘lib, unda “Tilni tiyish” siyosiy-axloqiy ma’zon sifatida talqighn etilgan. Tarjimonlarning asliyatga qarindosh bo‘lmagan tillarga tarjimalari eka yuksak mahorat namunasidir. Umumiy tarzda ta’kidlash mumkinki tarjimalarda asliyatdagi frazeologikmetafora asosan saqlangan. Bu borad asliyatga eng yaqini Qayum Karimov varianti bo‘lib, bu asliyatning tarjima tiliga o‘ta yaqinligi xosilasi sifatida ham baholanishi mumkin.

Robert Denkof tarjima jarayonida interpretativ yo‘lni tanlagan va bu o‘z o‘rnida asltiyat didaktik mantig‘ini tarjimada to‘liq ochilmasligiga olib kelgan.

Volter Mey talqinida asliyatdagi metafora tarjimada kuchaytirilgan, poetik jilo oshirilgan, natijani badiiylashtiradi va poetik dinamik ekvivalentlikkka erishadi.

Sergey Ivanov tarjimada konseptual transformatsiya usulini tanlaydi va madaniy moslashtirish yo‘lidan boradi.

Xulosa

Xulosa shuki, ushbu bayt turkiy siyosiy-axloqiy tafakkurda nutq madaniyatining markaziy formulasi hisoblanadi. Frazeologik jihatdan u somatik metaforaga asoslangan bo‘lib, “til – bosh – hayot” zanjiri orqali axloqiy tarbiyani ifodalaydi. Xorijiy tarjimalarda obraz saqlangan, ammo strategiyalar turlicha, ya’ni formal, dinamik va interpretativ.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elisabeth Piirainen**,** *Phraseology in Linguistic Research*, Tübingen, 2008, b. 3–6.
2. Harald Burger, *Phraseologie*, Berlin, 2003, b. 12–14.
3. Klaus-Peter Konerding**,** *Bildhaftigkeit in der Phraseologie*, Frankfurt am Main, 1993, b. 88–91.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — P. 3.
5. Peter Kühn**,** *Sprachkultur und Phraseologie*, Tübingen, 1994, b. 119–122.
6. Виноградов В.В. Основные типы фразеологических единиц русского языка // Избранные труды. — М., 1977. — С. 140.
7. Yusuf Balasaguni. Beneficent Knowledge / trans. by W. May. — Moscow; Bishkek, 1998. — p. 83.
8. Yusuf Balasaguni. *Blagodatnoye znaniye.* Translated by S. N. Ivanov. Moscow, 1983, p. 84.
9. Yusuf Khass Hajib. Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig) / trans. by R. Dankoff. — Chicago, 1983. — p. 106.
10. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig / nashrga tayyorlovchi Q. Karimov. — Toshkent, 1971. — 39-b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Abdukarimova Moxidil Xayrullo qizi
Namangan davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail**:** abdukarimovamohidil@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Ibragimova Iroda Artikmashrabovna**
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi Falsafa fanlar doktori (PhD)

FAXRIYOR IJODIDA OKKAZIONAL SO‘ZLARNING QO‘LLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy o‘zbek shoiri Faxriyor (asli ismi Faxriddin Nizomov) ijodidagi okkazional so‘zlar badiiy ifodasining o‘ziga xos jihatlari, ularning she’riy muloqotdagi mazmuni va poetik taassurotda tutgan o‘rni, okkazional leksik birliklarning shoirning o‘ziga xos uslubida aks etishi va ma’no chuqurligini oshirishi ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Okkazionalizm, okkazional so‘zlar, poetik taassurot, jonlantirish, zamonaviy o‘zbek she’riyati, individual uslub (idiostil), badiiy tasvir, Faxriyor ijodi.*

Abdukarimova Moxidil Khairullo qizi
Namangan State Pedagogical Institute 1st year student of the Uzbek language and literature department
Scientific supervisor: Ibragimova Iroda Artikmashrabovna
Senior teacher of the Namangan State Pedagogical Institute Doctor of Philosophy (PhD)

USE OF OCCASIONAL WORDS IN THE WORK OF THE GRADUATE

Abstract. *This scientific article examines the distinctive features of the artistic expression of occasional words in the works of the modern Uzbek poet Faxriyor (real name Fakhriddin Nizomov), their semantic role in poetic discourse, and their place in creating poetic impact. The article also highlights how occasional lexical units are reflected in the poet’s unique individual style and contribute to the deepening of meaning.*

Keywords: *Occasionalism, occasional words, poetic impact, personification, modern Uzbek poetry, individual style (idiostyle), artistic imagery, Faxriyor’s works.*

Абдукаримова Моксидил Хайрулло кизи
Наманганский государственный педагогический институт
Студентка 1-го курса факультета узбекского языка и литературы
Научный руководитель: Ибрагимова Ирода Артикмашрабовна
Старший преподаватель Наманганского государственного педагогического института
Доктор философии (PhD)

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЧАСТО ЗАМЕНЯЕМЫХ СЛОВ В РАБОТЕ АСПИРАНТА

Аннотация. *В данной научной статье рассматриваются своеобразные особенности художественного выражения окказиональных слов в творчестве современного узбекского поэта Фахриёра (настоящее имя — Фахриддин Низомов), их смысловая роль в поэтическом дискурсе и место в формировании поэтического воздействия. Также показано, как окказиональные лексические единицы отражаются в индивидуальном стиле поэта и способствуют углублению смыслового содержания.*

Ключевые слова: *Окказионализм, окказиональные слова, поэтическое воздействие, олицетворение, современная узбекская поэзия, индивидуальный стиль (идиостиль), художественная образность, творчество Фахриёра.*

Kirish

Zamonaviy she’riyat taraqqiy etib borar ekan, unda okkazionalizmlardan foydalanish jarayoni ham keng miqyosda rivoj topmoqda. Har bir ijodkor ijodida uning individual uslubini namoyon etuvchi, faqat muallif nutqiga xos bo‘lgan so‘zlar mavjud bo‘lib. Bunday leksik birliklari tilshunoslikda okkazionalizm termini bilan yuritiladi.

Okkazional so‘zlar yozuvchi yoki shoirning individual uslubiga tayangan holda, mavjud hamda mavjud bo‘lmagan til birliklari asosida yaratilib, yangi hech qayerda uchramaydigan, takrorlanmas yasama morfemalar hosil qilinishini ko‘zda tutadi. Ushbu leksik birliklarning muhim belgilaridan biri — muayyan muallifga xosligi va faqat bitta nutqiy jarayon doirasida qo‘llanishidir. Lekin okkazional leksik birliklar nutq birligi sifatida baholanib, tilning umumiy lug‘at tarkibiga kirmaydi va ko‘pincha nutq jarayonida bir martalik qo‘llanish bilan cheklanadi. Aynan shu jihati bilan yozuvchi yoki shoir yaratgan ijod mahsulining poetik ta’sirchanligini va badiiy qiymatini yanada oshiradi.

Okkazionalizm tushunchasi lotincha occasonalis so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra “*tasodifiy*” degan tushunchani bildiradi. Shu bilan birga, badiiy adabiyotda ijodkorlar asar yaratish jarayonida umumxalq so‘zlaridan foydalanish bilan bir qatorda, poetik taassurotni kuchaytirish maqsadida bo‘yoqdorlikka ega okkazional so‘zlarni ham kashf etadilar. Albatta, bu jarayon chinakam mahoratli yozuvchi va shoirlargagina xosdir. Faxriyor ham ana shunday badiiy mahoratga ega ijodkorlardan biridir.

Shoir o‘z she’rlarida so‘zlarni shunday tanlab va o‘ylab qo‘llaydiki, yaratilgan okkazional birliklar boshqa ijodkorlar she’riyatida deyarli uchramaydi. Masalan, uning “Sangijumonda yoz manzaralari” she’rida keltirilgan:

Keldigim, kelmaging bunchalar qiyin?

misrasida uchragan keldigim va kelmaging so‘zlari okkazional birliklar sifatida e’tiborni tortadi.

Keldigim so‘zini tahlil qiladigan bo‘lsak, fe’l so‘z turkumiga mansub kel- asosiga “-di” o‘tgan zamon qo‘shimchasi hamda “-im” egalik affiksi qo‘shilishi orqali fe’l asosida ham yaxlit leksik birlik hosil qilish mumkinligi namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, “keldigim” so‘zi orqali dastlab biror joyga yetib kelish harakati ifodalangandek tuyuladi. Biroq mazkur kontekstda bu harakat jismoniy kelish emas, balki ruhiy yaqinlashuv, qalban yetib kelish ma’nosini anglatadi.

Shuningdek, yuqoridagi misrada qo‘llangan kelmaging okkazional leksik birligi inkor shaklidagi fe’l asosida yasalgan bo‘lib, kel- fe’liga “-ma” inkor qo‘shimchasi, “-di” o‘tgan zamon qo‘shimchasi hamda “-ing” egalik affiksi qo‘shilishi orqali hosil qilingan. Ushbu okkazional birlik bir qarashda oddiygina “sening kelmasliging” ma’nosini bildirgandek ko‘rinsa-da, aslida u oddiy inkor harakatni emas, balki kutilgan visolning amalga oshmaganini, oshig‘ning ichki iztirobini kuchaytiruvchi ruhiy holatni ifodalaydi.

Shoir mazkur misrada “keldigim” va “kelmaging” birliklarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish orqali mening yetib kelishim va sening yetib kelmasliging o‘rtasidagi keskin semantik ziddiyatni yuzaga chiqaradi. Natijada, shoir tomonidan yaratilgan bo‘yoqdor okkazional birliklar she’rning badiiy ta’sirchanligini yanada oshiradi.

Yuqoridagi she’rning keyingi misralariga diqqat qaratadigan bo‘lsak, unda fe’l negiziga “-im”, “-ing” egalik affikslari, “-di” o‘tgan zamon qo‘shimchasi hamda “-ma” inkor qo‘shimchasi qo‘shilishi orqali yaratilgan yana bir qator okkazional birliklarga duch kelamiz:

Kuldigim, kulmaging bunchalar qiyin?
Bildigim, bilmaging bunchalar qiyin?

Mazkur misralarda aks etgan kuldigim, kulmaging, bildigim va bilmaging birliklari shoir tomonidan murakkab va izchil o‘ylangan okkazional leksik birliklar sifatida yaratilgan bo‘lib, ular she’rning lirik mohiyatini, ruhiy ziddiyatini va ichki kechinmalarini chuqur hamda ta’sirchan tarzda ochib beradi.

Quyidagi okkazional birliklarning semantik jihatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, misrada uchragan kuldigim birligi oddiy quvonch ifodasi bo‘lgan kulishni emas, balki dard chekayotgan insonning ichki iztirobini yashirish maqsadida yuzaga kelgan majburiy kulgini anglatadi. Bu kulgi visolga yetishilmagan qalbning ruhiy og‘rig‘ini tashqi tomondan berkitishga qaratilgan holat sifatida talqin etiladi.

Shu bilan birga, kulmaging okkazional so‘zi qarshi tomonning kulmasligi, ya’ni uning befarqligi va ruhiy masofasini ifodalaydi. Ushbu birlik oshiqning dardli kulgisi bilan qarama-qarshi qo‘yilib, bir tomondan ichki azob, ikkinchi tomondan esa javobsizlik va sovuqlik holatini kuchli poetik ziddiyat sifatida yuzaga chiqaradi.

Qolaversa, shoir yana bir bor egalik qo‘shimchalari, o‘tgan zamon qo‘shimchalari hamda inkor qo‘shimchalarini qo‘shish orqali fe’l asosidan yaxlit leksik birliklar yaratib, she’rda lirik kechinmalarni kuchaytiradi. Mazkur misralarda qo‘llangan bildigim va bilmaging okkazional so‘zlari shunchaki oshiqning oddiy axborotni yoki vaziyatni bilishini emas, balki sevgi orqali anglangan haqiqatni, oshiqning ichki ruhiy holati orqali yuzaga kelgan anglash jarayonini ifodalaydi.

Bu birliklarda bilish mantiqiy jarayon sifatida emas, balki his bilan chulg‘alangan, og‘riqli anglash sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir bildigim so‘ziga qarama-qarshi tarzda bilmaging okkazional leksik birligini qo‘llash orqali qarshi tomonning shunchaki bilmasligini emas, balki bilishni istamasligini, oshiqning kechinmalari va hissiyotlariga bexabar hamda befarq munosabatini ifodalaydi. She’r kontekstida bilmaslik oddiy holat emas, balki hissiy masofaning mavjudligi sifatida talqin etiladi.

Faxriyor mazkur she’rida “bildigim” va “bilmaging” birliklarini qarama-qarshi qo‘yish orqali oshiqning ichki anglash holati bilan unga qarshi turgan befarqlik o‘rtasidagi chuqur ruhiy ziddiyatni ochib beradi. Natijada ushbu okkazional birliklar she’rning lirik keskinligi va poetik ta’sirchanligini yanada kuchaytiradi.

Xulosa

Faxriyor o‘z she’riyatida okkazional so‘zlarni har tomonlama, keng ko‘lamda va puxta o‘ylab tanlagan bo‘lib, tanlangan barcha okkazional birliklar she’rning poetik ta’sirchanligini rivojlantiradi. Qolaversa, egalik, zamon va inkor qo‘shimchalari asosida yaratilgan okkazional birliklar shoir she’rlarida oshiqning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari hamda hissiy ziddiyatlarini chuqur ochib berishga xizmat qiladi.

“*Kuldigim*”, “*kulmaging*”, “*bildigim*”, “*bilmaging*” kabi birliklar oddiy grammatik shakl doirasidan chiqib, lirik qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi badiiy belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, okkazional so‘zlarning qo‘llanishi nafaqat she’rga shakliy bezak beradi, balki uning ichki mohiyati orqali she’rning inson qalbiga yetib borishini, badiiy ta’sir kuchini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nizomov F. “Ayolg‘u” she’riy to‘plami — Toshkent: 1999. B.113
2. Фахриёр (1963) ziyo.uz
3. Okkazional so‘zlarning qo‘llanishi. INNOVATIVE ACADEMY. in-academy.uz
4. Okkazionalizmlar va neologizimlar. uz.wikipedia.org
5. Toshliyeva S. O‘zbek tilida Okkazional so‘z yadalishi. Toshkent: 1998. B.23.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xasanova M
Samarqand davlat pedagogika instituti
Raximova S
Samarqand davlat pedagogika instituti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI “QIZIL KITOB”IGA KIRITILGAN DORIVOR O‘SIMLIKLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ning 2009 va 2019-yillardagi nashrlari asosida dorivor o‘simlik turlarining holati, taksonomik tarkibi va populyatsion o‘zgarishlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida har bir nashr alohida ko‘rib chiqilib, undagi dorivor turlar sonining ortishi yoki kamayishi, ayrim turlarni qayta kiritish yoki chiqarib tashlashga sabab bo‘lgan ekologik omillar, shuningdek o‘simliklarning tarqalish areallari bo‘yicha mavjud ma’lumotlar tizimli ravishda solishtirilgan. Shuningdek, dorivor turlar populyatsiyasiga ta’sir etayotgan asosiy omillar-tabiiy muhitning buzilishi, resurslarning me’yoridan ortiq yig‘ilishi, antropogen bosimning kuchayishi, iqlim o‘zgarishiga bog‘liq ekologik siljishlar kabi jarayonlar ilmiy adabiyotlar hamda mavjud floristik kuzatuvlar asosida izohlangan. Ikkita nashr materiallarining qiyosiy tahlili dorivor o‘simliklarning respublika florasidagi o‘rni, ular uchun ko‘rilayotgan muhofaza choralari samaradorligi va monitoring jarayonlarining qay darajada takomillashganini ko‘rsatishga yordam beradi. Mazkur tadqiqot dorivor o‘simliklarning dolzarbligini chuqurroq yoritish, ularning tabiiy resurs sifatidagi qiymatini belgilash hamda “Qizil kitob” ma’lumotlari asosida ekologik vaziyatning o‘zgarish dinamikasini anglashga imkon beradi. Olingan natijalar dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish strategiyasini takomillashtirish, oqilona foydalanish tamoyillarini mustahkamlash va kelgusida olib boriladigan ilmiy-amaliy izlanishlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *“Qizil kitob”, dorivor, kamyob, flora, taksonomik, iqlim, o‘simlik areal*

Xasanova M
Samarkand State Pedagogical Institute
Rakhimova S
Samarkand State Pedagogical Institute

MEDICINAL PLANTS INCLUDED IN THE "RED BOOK" OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation. *This article provides a scientific analysis of the status, taxonomic composition, and population dynamics of medicinal plant species based on the 2009 and 2019 editions of the Red Data Book of the Republic of Uzbekistan. Each edition was examined separately, comparing changes in the number of medicinal species, the ecological factors that led to the re-inclusion or removal of certain species, and systematically evaluating the available information regarding their distribution ranges. Furthermore, the main factors influencing the populations of medicinal plants—such as habitat degradation, excessive harvesting of plant resources, increased anthropogenic pressure, and climate change–related ecological shifts—are explained on the basis of scientific literature and existing floristic observations. A comparative analysis of the two editions contributes to identifying the role of medicinal plants within the country’s flora, assessing the effectiveness of conservation measures, and determining the degree of improvement in monitoring processes. This study provides deeper insight into the relevance of medicinal plants, defines their value as a natural resource, and enables an understanding of the dynamics of environmental change based on Red Data Book records. The findings serve as an important reference for improving strategies for the conservation of medicinal plants, strengthening principles of their sustainable use, and guiding future scientific and applied research.*

Keywords: *Red Book, medicinal, rare, flora, taxonomic, climate, plant distribution range.*

Хасанова М.
Самаркандский государственный педагогический институт
Рахимова С.
Самаркандский государственный педагогический институт

ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ, ВКЛЮЧЕННЫЕ В «КРАСНУЮ КНИГУ» РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. *В данной статье на основе изданий «Красной книги» Республики Узбекистан 2009 и 2019 годов научно проанализированы состояние лекарственных видов растений, их таксономический состав и популяционные изменения. В ходе исследования каждое издание рассмотрено отдельно, сопоставлены данные об увеличении или сокращении числа лекарственных видов, экологические факторы, обусловившие повторное включение либо исключение отдельных видов, а также систематизирована имеющаяся информация об их ареалах распространения. Кроме того, на основе научной литературы и существующих флористических наблюдений раскрыты основные факторы, влияющие на популяции лекарственных растений, такие как деградация природной среды, чрезмерная заготовка растительных ресурсов, усиление антропогенного давления и экологические сдвиги, связанные с изменением климата. Сравнительный анализ материалов двух изданий позволяет определить место лекарственных растений во флоре республики, оценить эффективность осуществляемых мер по их охране и степень совершенствования процессов мониторинга. Проведенное исследование способствует более глубокому раскрытию актуальности лекарственных растений, определению их ценности как природного ресурса, а также пониманию динамики изменений экологической ситуации на основе данных «Красной книги». Полученные результаты служат важным источником для совершенствования стратегий по охране лекарственных растений, укрепления принципов их рационального использования и проведения дальнейших научно-практических исследований.*

Ключевые слова: *“Красная книга”, лекарственные, редкие, флора, таксономический, климат, ареал растений.*

Kirish

Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil kitob”i-Oʻzbekiston hududidagi oʻsimlik va hayvonot dunyosining eng noyob va yoʻqolib ketish xavfi ostida turgan turlarining izohli roʻyxatini, shuningdek tarqalishi toʻgʻrisidagi umumlashtirilgan ma’lumotlarni oʻz ichiga olgan rasmiy davlat hujjati hisoblanadi. Ushbu turlarning hozirgi holati populyatsiyaning qisqarishiga olib keladi va ularni saqlash va koʻpaytirish choralarini koʻrmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil kitob”iga kiritilgan oʻsimlik va hayvon turlari butun respublika hududida alohida muhofaza qilinadi. Oʻzbekiston “Qizil kitob”i nashri 1984-yilda nashr etilgan. U noyob va yoʻqolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi oʻsimliklarning 163 turi va umurtqali hayvonlarning 63 turini oʻz ichiga olgan. Oʻzbekiston “Qizil kitob”ining 1993-yildagi birinchi nashriga 301 oʻsimlik turi kiritilgan boʻlib, u oʻzbek va rus tillarida nashr etilgan. Kitobda har bir turning oʻzbek, rus va lotin tillarida nomlari berilgan, areallarning qisqarishi, sonining kamayish sabablari, tabiatni muhofaza qilish boʻyicha koʻrilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida ma’lumotlar berilgan, shuningdek, turlarning tarqalish xaritalari va tasvirlari ifodalangan. 2003-yilda “Qizil kitob”ning ikkinchi nashri chop etildi. 2006-yilda Oʻzbekiston oʻsimliklari “Qizil kitobi”ning uchinchi nashri, 2010-yilda Oʻzbekiston “Qizil kitobi”ning toʻrtinchi nashri nashr etildi. Unga 184 turdagi hayvonlar kiritilgan. Ulardan 77 turini umurtqasiz hayvonlar (halqalilarning 3 ta turi, mollyuskalarning 14 turi, qoʻshoyoqlarning 61 turi), 18 turdagi baliqlar, 16 turdagi sudralib yuruvchilar, 48 turdagi qushlar va 25 turdagi sutemizuvchilar tashkil etadi. Shu bilan birga, Oʻzbekiston “Qizil kitob”iga 1983-yil Qizil kitobga kiritilgan sut emizuvchilar va qushlarning ayrim turlari kiritilmagan. Ularning ayrimlari respublika hududida hozirgi vaqtda ancha barqaror songa ega (qunduz, choʻl chumchugʻi), boshqa turlari esa hozir koʻchmanchilar (kichik oqqush, bahaybat tungi koʻrshapalak turi, qizil boʻri) yoki ularning faunada mavjudligi hisoblanadi. Oʻzbekistonning (manul, Tyan-Shan togʻ qoʻylari) yetarlicha oʻrganilmagan. Kitobda, shuningdek, Oʻzbekistonda yoʻqolib ketish xavfi ostida boʻlmagan, ammo XTMQI (Xalqaro Tabiatni muhofaza qilish ittifoqi) Qizil roʻyxatga kiritilgan. Bundan tashkari, ushbu kitobda V.L. Kazenasa, A.V-A.Kreysberga, I.M.Mirabdullayeva, N.N. Kondakova va A.N.Komarova chizgan rasmlaridan, shuningdek, Ye.A.Kreysberg-Muxinoy, O.G.Legezina va A.V.Yesipova suratlaridan foydalanilgan .

Asosiy qism: Oʻzbekiston faunasi va florasining baʾzi turlari Xalqaro Qizil kitobda ham oʻz aksini topgan. Unda har bir tur uchun alohida sahifa ajratilgan boʻlib, unda mazkur oʻsimlik yoki hayvon turining oʻzbekcha, ruscha, lotincha (ilmiy) nomlari, ularning sistematik oʻrni, qisqacha morfologik tavsifi, tarqalishi, yashash muhiti, tabiatdagi soni, koʻpayishi, areali va sonining oʻzgarishi sabablari, muhofaza qilish choralari va boshqalar bayon etilgan. Qizil kitobga kiritiladigan hayvon va oʻsimlik turlari boʻyicha taklifni ilmiy tekshirish muassasalari, davlat va jamoat tashkilotlari, ayrim olimlar tavsiya qilishi mumkin. Muhofaza qilinishi natijasida oʻz arealini qaytadan tiklagan va yoʻqolib ketish xavfi tugʻilmaydigan oʻsimlik va hayvon turlari Qizil kitobdan chiqariladi. Qizil kitobga kiritilgan turlar davlat qonuni asosida muhofaza qilinadi; uni buzgan yuridik va jismoniy shaxslar qonunga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining 2009-yilda nashr qilingan “Oʻsimliklar va zamburugʻlar” nomli birinchi jildiga kiritilgan 324 ta turdan 13 ta turi, hamda 2019-yildagi nashrida 314 ta turdan 13 ta oʻsimlik turi dorivor turlar hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining 2009-yildagi nashriga dorivor oʻsimlik turlaridan 10 ta oilaga mansub 13ta tur dorivor oʻsimlik turlari kiritilgan bo’lib ular quyidagilar hisoblanadi: Ayiqtovondoshlar oilasi (*Ranunculaceae*)ga

mansub Oq parpi (*Aconitum talassium Popov*), Ziradoshlar (Soyabondoshlar) oilasi (*Apiaceae* (*Umbelliferae*))ga mansub Sumbul kovraki (*Ferula sumbul* (*Kauffm.*)) *Hook. F*, Ituzumdoshlar oilasi (*Solanaceae*)ga mansub Oloy xiyoli (*Physochlaina alaica Korotkova ex Kovalevsk*), Karamdoshlar oilasi (*Brassicaceae* (*Cruciferae*))ga mansub Olga shtubendorfiyasi (*Stubendorffia olgae R.M.Vinogr*), Piyozdoshlar oilasi (*Alliaceae*)ga mansub Aflotun piyozi (*Allium aflatunense B.Fedtsch*) va Piskom piyozi (*Allium pskemense B.Fedtsch*), Chilonjiydadoshlar oilasi (*Rhamnaceae*)ga mansub Yovvoyi chilonjiyda (*Ziziphus jujuba Mill*), Chinniguldoshlar oilasi (*Caryophyllaceae*)ga mansub Kachimsimon yetmak (bex) (*Allochrusa gypsophiloides (Regel) Schischk*), Chuchmomadoshlar oilasi (*Amaryllidaceae*)ga mansub Viktor omonqorasi (*Ungernia victoris Vved. Ex Artjuschenko*), Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) oilasi (*Lamiaceae* (*Labiatae*))ga mansub Komarov bo'zboshi (*Dracocephalum komarovii Lipsky*), Margarita marmaragi (*Salvia margaritae Botsch*) va Amudaryo oqtushasi (*Phlomoides transoxana (Bunge) Salmaki*), Qoraqatdoshlar (Tosherdoshlar) oilasi (*Grossulariaceae (Saxifragaceae)*)ga mansub Gulxayribarg qoraqat (*Ribes malvifolium Pojark*) kabi turlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining 2019-yildagi nashriga dorivor o‘simlik turlaridan 9 ta oilaga mansub 13ta tur dorivor o’simlik turlari kiritilgan bo‘lib ular quyidagilar hisoblanadi: Ayiqtovondoshlar oilasi (*Ranunculaceae*)ga mansub Oq parpi (*Aconitum talassicum Popov*), Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) oilasi (*Apiaceae (Umbelliferae)*)ga mansub Sumbul kovraki (*Ferula sumbul (Kauffm.) Hook. F.*), Ituzumdoshlar oilasi (*Solanaceae*)ga mansub Oloy xiyoli (*Physochlaina alaica Korotkova ex Kovalevsk*), Karamdoshlar oilasi (*Brassicaceae (Cruciferae)*)ga mansub Olga lepidiumi (*Lepidium olgae (R.M. Vinogr.) Al-Shehbaz et Mumm.*), Chilonjiydadoshlar oilasi (*Rhamnaceae*)ga mansub Yovvoyi chilonjiyda (*Ziziphus jujuba Mill*), Chinniguldoshlar oilasi (*Caryophyllaceae*)ga mansub Kachimsimon yetmak (bex) (*Allochrusa gypsophiloides (Regel) Schischk*), Chuchmomadoshlar oilasi (*Amaryllidaceae*)ga mansub Aflotun piyozi (*Allium aflatunense B.Fedtsch*), Piskom piyozi (*Allium pskemense B.Fedtsch*) va Viktor omonqorasi (*Ungernia victoris Vved. Ex Arjuschenko*), Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) oilasi (*Lamiaceae (Labiatae)*)ga mansub Komarov bo'zboshi (*Dracocephalum komarovii Lipsky*), Margarita marmaragi (*Salvia margaritae Botsch*) va Amudaryo oqtushasi (*Phlomoides transoxana (Bunge) Salmaki*), Qoraqatdoshlar (Tosherdoshlar) oilasi (*Grossulariaceae (Saxifragaceae)*)ga mansub Gulxayribarg qoraqat (*Ribes malvifolium Pojark*).[2],(1-jadval)

1-jadval

“Qizil kitob”ga kiritilgan dorivor o‘simliklarning kamayish sabablari tahlili

T/r	Ilmiy nomi	Nomi	Kamyoblik darajasi	O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari
1	*Aconitum talassicum* Popov	Oq parpi	Tyan-Shan va Pomir-Oloy tizmasidagi son jihatdan qisqarib borayotgan, areali bo'lingan endemik o'simlik	Xalq tabobatida dorivor o'simlik sifatida ishlatiladi
2	*Ferula sumbul (Kauffm.)* Hook. F.	Sumbul kovraki	Pomir-Oloydagi kamyob endemik o'simlik	Mahalliy aholi tomonidan muttasil va nooqilona tarzda atir-upa sanoati uchun hamda dorivor xom ashyo sifatida yig'ib olinishi va urug'ining turli hasharotlar tomonidan zararlanishi uning kamayishiga sabab bo'lmoqda
3	*Physochlaina alaica* Korotkova ex Kovalevsk	Oloy xiyoli	Oloy va Turkiston tog'lariga mansub juda kamyob endemik o'simlik	Mahalliy aholi tomonidan dorivor o'simlik sifatida ko'plab ishlatilishi sababli kamayib ketgan
4	*Lepidium olgae* (R.M. Vinogr.) Al-Shehbaz et Mumm.	Olga lepidiumi	Nurota tizmasining kamyob endemik turi	O'simliklarning kichik maydonlarda o'sishi, sharoitga uncha moslashmaganligi, mahalliy aholi tomonidan ildizpoyalarining kavlab olinib, dorivor mahsulot sifatida ishlatilishi tufayli kamayib ketgan
5	*Ziziphus jujuba* Mill	Yovvoyi chilonjiyda	Areali keskin qisqarib borayotgan kamyob, relikt, subtropik tur	Mevalarining terib olinishi, tublarining o'tin uchun kesilishi tufayli kamayib bormoqda. Juda qadimdan mevali va dorivor o'simlik sifatida ekib kelingan

6	*Allochrusa gypsophiloides* (Regel) Schischk	Kachimsimon yetmak (bex)	Markaziy Osiyo tog'laridagi areali keskin qisqarib borayotgan endemik o'simlik	Mahalliy aholi tomonidan sanoat xomashyosi va dorivor o'simlik sifatida ko'plab yig'ib olinadi. Yetmakdan to'qimachilik , mo'ynachilik, qandolatchilik sanoatida, tabobatda va kundalik hayotda keng foydalaniladi. Shuning uchun kamayib bormoqda
7	*Allium aflatunense* B.Fedtsch	Aflotun piyozi	G'arbiy Tyan-Shanga xos areali ajralgan endemik o'simlik	Piyozining mahalliy aholi tomonidan ozuqa sifatida ishlatish hamda dorivor va manzarali o'simlik sifatida tomorqa yerlariga ekish uchun qazib olinishi, kuz va qishda turli hayvonlar tomonidan piyozlarining yeyilishi kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda
8	*Allium pskemense* B.Fedtsch	Piskom piyozi	G'arbiy Tyan-Shanga xos juda kamyob endemik o'simlik	Urug'ini turli hasharotlar zararlashi va yosh nihollarining boshqa o'simliklar orasida o'sa olmasligi, vayaga yetish muddatining ko'pligi (3-7 yil) hamda mahalliy aholi tomonidan oziq-ovqat va dorivor o'simlik sifatida yig'ib olinishi kamayib ketishiga saba bo'lmoqda
9	*Ungernia victoris* Vved. Ex Arjuschenko	Viktor omonqorasi	Janubi-g'arbiy Pomir-Oloy tizmasidagi areali juda qisqarib borayotgan kamyob endemik o'simlik	Barglarining har yili uzluksiz dorivor homashyo sifatida yig'ib olinishi tufayli piyozlari maydalashib, o'simlikning yer usti qismi ham qurib boshlagan
10	*Dracocephalum komarovii* Lipsky	Komarov bo'zboshi	G'arbiy Tyan-Shan va Pomir Oloydagi areali bo'lingan, kamayib borayotgan endemik o'simlik	Mahalliy aholi gullab turgan paytida dorivor o'simlik sifatida ko'plab yig'ib oladi. Yoz faslida esa bu yerlarda chorva mollari boqiladi
11	*Salvia margaritae* Botsch	Margarita marmaragi	Oloy tizmasidagi kamyob, endemik o'simlik	Urug'idan yaxshi unmasligi, chorva mollari boqilishi, dam olish uylari qurilishi uning qisqarib ketishiga sabab bo'lmoqda
12	*Phlomoides transoxana* (Bunge) Salmaki	Amudaryo oqtushasi	Qizilqumda uchraydigan kamyob endemik o'simlik	Tugunagi mahalliy aholi tomonidan dorivor ashyo sifatida ishlatiladi
13	*Ribes malvifolium* Pojar	Gulxayribarg qoraqat	Janubi-g'arbiy Pomir-Oloydagi juda kamyob, endemik o'simlik	Mevasi dorivorlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ko'plab terib olinadi

Ushbu jadval O‘zbekiston florasida muhofaza ostida bo‘lgan dorivor o‘simliklarning holatini tizimli ravishda yoritadi. Jadvalga kiritilgan 13 ta tur O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobining 2009 va 2019-yillardagi nashrlarida qayd etilgan dorivor o‘simliklar asosida tanlangan. Har bir tur uchun quyidagi ma’lumotlar berilgan:

1.O‘simlik turi nomi — turlar xalqaro ilmiy nomenklatura (lotincha nom) va mahalliy nomi bilan keltirilgan.

2.Kamyoblik darajasi — har bir turning tabiiy muhitda mavjud bo‘lish darajasi, ya’ni ularning xavf ostida yoki barqarorligini ko‘rsatadi. Bu parametr dorivor o‘simliklar populyatsiyasining ekologik holatini baholashda asosiy indikator sifatida xizmat qiladi.

3.O‘simlik soni — populyatsiya hajmini bildiradi va turlar sonining vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini kuzatishga imkon beradi. Ushbu ma’lumotlar asosida turlarni saqlash, monitoring va muhofaza choralarini rejalashtirish mumkin.

4.Arealining o‘zgarish sabablari — o‘simliklarning tarqalish hududlaridagi torayish yoki kengayish sabablarini ko‘rsatadi. Bu yerda tabiiy omillar (iqlim, tuproq xususiyatlari) va antropogen omillar (yer egallash, o‘rmon kesish, yaylovlardan noto‘g‘ri foydalanish) hisobga olingan.

Xulosa

O‘tkazilgan ilmiy tahlillar natijasida O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ning 2009 va 2019-yillardagi nashrlarida dorivor o‘simlik turlarining soni, tarkibi va ularning ekologik holati sezilarli darajada farqlanishi aniqlandi. Mazkur o‘zgarishlar dorivor o‘simlik populyatsiyalarining ko‘plab ekologik va antropogen omillar ta’sirida dinamik ravishda o‘zgarib borishini ko‘rsatadi. Xususan, ayrim turlar sonining qisqarishi, tarqalish areallarining torayishi, ularning tabiiy yashash muhitida kuzatilgan salbiy ekologik jarayonlar natijasida kamyoblik kategoriyalariga o‘tkazilgan. Boshqa tomondan, bir qator turlar uchun tabiiy muhitning tiklanishi yoki muhofaza choralarining kuchaytirilishi natijasida populyatsion barqarorlashuv belgilari ham qayd etilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, turlar sonining kamayishida asosiy rol o‘ynayotgan omillar — xo‘jalik faoliyati natijasidagi tabiiy resurslarning tartibsiz yig‘ilishi, iqlim o‘zgarishi, suv ta’minotidagi buzilishlar va inson faoliyati bilan bog‘liq antropogen omillarning ortishi — dorivor o‘simliklarga xavf tug‘dirmoqda. Bu esa dorivor o‘simliklarning tabiiy populyatsiyalarini qayta tiklash, ularni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ikkita nashrning qiyosiy o‘rganilishi O‘zbekiston florasida dorivor o‘simliklarning nafaqat farmakologik, ekologik resurs sifatidagi beqiyos ahamiyatini yoritadi. “Qizil kitob”ning muntazam ravishda yangilanib borilishi, dorivor o‘simliklarning ekologik holatini tizimli qayd etish orqali ularning real tabiiy holati, tarqalishi, populyatsion o‘zgarishlari va tur xavfi darajasi haqida ishonchli ilmiy ma’lumotlar beradi. Natijada, ushbu ma’lumotlar dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish strategiyalarini takomillashtirish, yangi muhofaza hududlarini tashkil etish, introduksiya ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, dorivor o‘simliklarning tibbiyot, farmatsevtika, xalq tabobati va sanoatdagi ahamiyatini hisobga olgan holda, ularning kamayishi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikka ham ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi. I jild. O‘simliklar. Toshkent: *Chinor ENK*, 2009.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi. I jild. O‘simliklar / Tahrir hay’ati: Xasanov F.U. va boshq. Toshkent: *Chinor ENK*, 2019.
3. Tojimatov F., Qahramonov S. O‘zbekiston florasidagi noyob va yo‘qolib borayotgan o‘simliklar. Toshkent: Fan nashriyoti, 2012.
4. Karimov R., Xudoyberganova N. Dorivor o‘simliklar biologiyasi va resurslari**.** Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015.
5. Nurmuxamedov A., Abdurahimov B. O‘zbekistonning o‘simliklar xilma-xilligi: muhofaza va monitoring. Toshkent: Akademnashr, 2018.
6. Ibragimov A., Rasulov F. Fitodiversitetni muhofaza qilishning ilmiy asoslari. Toshkent: Fan, 2014.
7. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. **Biologik** resurslar bo‘yicha statistik ma’lumotlar to‘plami**.** Toshkent, 2020.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xolisova Gavharoy Mannobjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasi dotsenti f.f.f.d

CHATBOTLAR VA SUN'IY INTELLEKT ISHTIROKIDAGI TIJORIY KOMMUNIKATSIYA

Annotatsiya: Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy chatbotlar diskursi J. Serl tasnifidagi direktiv va representativ aktlarning gibridlashgan ko'rinishidir. Chatbotlar muloqotida tilning regulyativ (tartibga soluvchi) va ekspressiv (his-tuyg'u ifodalovchi) funksiyalari o'zaro muvozanatlashgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, chat bot, muloqot, zamonaviy nazariy asoslar, funksional xususiyatlar.

Холисова Гавхарой Маннобьон кизи
Андижанский государственный институт иностранных языков
Доцент кафедры общей и сравнительной лингвистики, кандидат наук

КОММЕРЧЕСКАЯ КОММУНИКАЦИЯ С УЧАСТИЕМ ЧАТ-БОТОВ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация: Статистические данные свидетельствуют о том, что дискурс современных чат-ботов представляет собой гибридную форму директивных и репрезентативных актов в классификации Дж. Серля. В коммуникации чат-ботов регулятивная (координирующая) и экспрессивная (выражающая эмоции) функции языка находятся в состоянии взаимного равновесия.

Ключевые слова: искусственный интеллект, чат-бот, коммуникация, современные теоретические основы, функциональные особенности.

Kholisova Gavharoy Mannobjon qizi
Andijan State Institute of Foreign Languages
Associate Professor of the Department of General and Comparative Linguistics, Ph.D.

COMMERCIAL COMMUNICATION INVOLVING CHATBOTS AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Abstract: Statistical data indicate that the discourse of modern chatbots represents a hybridized form of directive and representative acts within J. Searle's classification. In chatbot communication, the regulative (coordinating) and expressive (emotion-conveying) functions of language are mutually balanced.

Keywords: artificial intelligence, chatbot, communication, modern theoretical foundations, functional characteristics.

Kirish

Tijoriy diskurs – bu iqtisodiy manfaat, savdo maqsadi va persuaziv kommunikatsiya asosida qurilgan institutsional muloqot shaklidir. U reklama, marketing, mijozlar bilan ishlash, brend kommunikatsiyasi kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning eng yuqori bosqichi — tijoriy kommunikatsiyaning avtomatlashuvi, ya'ni chatbotlar va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining integratsiyalashuvidir. Ushbu jarayonda tilshunoslik va kompyuter tehnologiyalari fanlari kesishmasida mutlaqo yangi — neyrolisoniy diskurs yuzaga keladi. Zamonaviy bosqichda raqamli texnologiyalar tijoriy diskursning strukturaviy modelini o'zgartirdi. Sun'iy intellekt — bu inson nutqini tushunish, tahlil qilish va unga adekvat javob qaytarish imkoniyatiga ega bo'lgan murakkab matematik-lingvistik modeldir. Tijoratda SIning eng samarali shakli — bu "Gibrid model"dir. Bunda oddiy va takrorlanuvchi vazifalar chatbotlarga topshiriladi, hissiy intellekt va murakkab qarorlar talab qilinadigan nuqtalarda esa inson aralashadi. Chatbotlarni "insoniyroq" qilish va yuqoridagi kamchiliklarni yumshatish uchun "Hissiy skriptlar" va "Gibrid tizim" algoritmlaridan foydalaniladi. Quyida chatbot muloqotini quruq texnik matndan samimiy muloqotga aylantirish bo'yicha amaliy strategiyalar keltirilgan: "Shaxsiylashtirilgan salomlashish". Bot mijozni shunchaki "Mijoz" emas, ismi bilan va uning holatidan kelib chiqib kutib olishi kerak. "Assalomu alaykum. Sizga qanday yordam bera olaman?" "Assalomu alaykum, Alisher aka! Oxirgi

buyurtmangiz (Krossovka) yetib kelganidan xursandmiz. Bugun yana biror narsa tanlaymizmi yoki savolingiz bormi?" Mijoz o‘zini tizim uchun shunchaki raqam emas, balki qadrli inson deb his qiladi. O‘zbekona muloqot madaniyatidagi "Baraka", "Hormang", "Nasib qilsa" kabi so‘zlarni SI lug‘atiga ehtiyotkorlik bilan kiritish muloqotni yumshatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Ushbu sohaning shakllanishi XX asrning o‘rtalaridan boshlangan. Mazkur texnologiyalarning nazariy "otasi" sifatida britaniyalik matematik va mantiqshunos Alan Tyuring e’tirof etiladi. U 1950-yilda mashinaning inson kabi fikrlash qobiliyatini aniqlaydigan "Tyuring testi"ni fanga kiritdi. Keyinchalik, neyron tarmoqlar va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP — Natural Language Processing) sohasida Noam Xomskiy kabi lingvistlarning transformatsion-generativ grammatika nazariyalari SI modellarining lisoniy bazasini yaratishda muhim rol o‘ynadi. Bugungi kunda biz muloqot qilayotgan tizimlar, xususan, Gemini modeli, chatgpt, deepseek, perplexity Google tomonidan ishlab chiqilgan va eng ilg‘or neyron tarmoqlar (Transformers arxitekturasi) asosida shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar.

Chatbot kommunikatsiyasi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega: Birinchidan, **skriptli va algoritmik tuzilma.** Chatbot diskursi oldindan belgilangan mantiqiy struktura va ehtimollik modellari asosida shakllanadi. Bu esa nutqning spontan emas, balki hisob-kitob qilingan va modellashtirilgan xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, **ma’lumotga asoslangan personalizatsiya.** Foydalanuvchining oldingi xatti-harakati, qidiruv tarixi va xarid tajribasi asosida individual takliflar generatsiya qilinadi. Natijada diskurs umumiy auditoriyaga emas, balki konkret subyektga moslashtiriladi. Uchinchidan, **tezkorlik va uzluksizlik**. AI tizimi real vaqt rejimida javob qaytaradi va 24/7 rejimida faoliyat yuritadi. Bu esa tijoriy diskursning vaqt va makon chegaralarini kengaytiradi. To‘rtinchidan, **emotsional imitasiya.** Tijoriy kommunikatsiyada SI — bu shunchaki trend emas, balki raqobatda omon qolish vositasidir. U xarajatlarni kamaytiradi va mijozlar bilan aloqani tezlashtiradi.

Chatbot dialogi (tijoriy diskurs). Onlayn elektronika do‘koni chatboti

Foydalanuvchi: Salom, menga o‘rtacha narxdagi smartfon kerak. **Chatbot:** Salom! Siz qaysi brendni afzal ko‘rasiz yoki byudjetingizni ayta olasizmi?

3 million so‘mgacha. Rahmat! Siz uchun 3 million so‘mgacha bo‘lgan eng mashhur modellardan bir nechtasini tavsiya qilaman. Hozir aksiya mavjud Xiaomi Redmi 12 – 2 850 000 so‘m Samsung Galaxy A05 – 2 990 000 so‘m Qaysi biri haqida batafsil ma’lumot beray?

Kamerasi yaxshiroq qaysi? Xiaomi Redmi 12 modeli 50 MP kamera bilan jihozlangan va surat sifati yuqori Hozir buyurtma bersangiz, bepul yetkazib berish mavjud. Buyurtma berishni xohlaysizmi? Ha, buyurtma beraman.

Ajoyib tanlov! Iltimos, telefon raqamingizni kiriting.

Dialog quyidagi modelga mos keladi:

Foydalanuvchi → Chatbot → Ma’lumotlar bazasi → Personalizatsiya → Qaror

1.Foydalanuvchi ehtiyoj bildiradi (smartfon).

2.Chatbot aniqlashtiruvchi savol beradi (byudjet).

3.Ma’lumotlar bazasidan mos mahsulotlar tanlanadi.

4.Personalizatsiyalangan tavsiya beriladi.

5.Qaror xarid bilan yakunlanadi.

Xulosa. Tahlil uchun 50 ta tijoriy chatbot dialogi (har biri o‘rtacha 8–12 replika) tanlab olindi. Umumiy 420 ta nutq birligi (replika) tahlil qilindi.

№	Diskurs elementi	Chastota (n)	Foiz (%)
1	Direktiv aktlar	110	26%
2	Representativ aktlar	95	23%
3	Persuaziv birliklar	80	19%
4	Personalizatsiya elementlari	75	18%
5	Emotsional markerlar	60	14%
	Jami	420	100%

Tijoriy chatbotlar diskursini o‘rganish maqsadida tanlab olingan 50 ta dialog va undagi 420 ta nutq birligining statistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt ishtirokidagi muloqot o‘ziga xos pragmatik ierarxiyaga ega. Tadqiqotda J. Serlning nutq aktlari nazariyasiga tayangan holda quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi: Tahlil natijalariga ko‘ra, direktiv aktlar (26%) eng yuqori chastotani tashkil etdi. Bu chatbotlarning asosiy vazifasi mijozni muayyan harakatga (ro‘yxatdan o‘tish, to‘lov qilish, tanlovni tasdiqlash) undash ekanligidan dalolat beradi. Masalan, *"Iltimos, yetkazib berish*

manzilini kiriting" yoki *"Tugmani bosing"* kabi birliklar muloqotning algoritmlashgan tabiatini aks ettiradi va bitimning yakunlanishiga xizmat qiladi. Representativ aktlar (23%) orqali chatbot mahsulot yoki xizmat haqidagi haqiqiy holatni (faktlarni) bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградов, В.В. О категории модальности и модальных словах в русском языке / В.В. Виноградов // Избранные труды: исследования по русской грамматике. – М., 1975. – С. 53-87.

2. Бондарко, А.В. К истолкованию семантики модальности / А.В. Бондарко // Язык, литература, эпос: к 100-летию со дня рождения акад. В.М. Жирмунского. – СПб., 2001. – С. 34-40.

3. Саид Аҳмад. Уфқ: Трилогия. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 118–120.

4. Юсупов Ў.Қ. Сравнительный анализ английских и узбекских сложноподчиненных предложений с придаточными условными. - дисс... канд.филол.наук. Т.1971г.49с.

5. Хошимов Ғ. М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига багишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. Самарканд, 2010й. 68б.

6. Николаева, Т.М. Краткий словарь терминов лингвистики текста / Т.М. Николаева // Новое в зарубежной лингвистике: Лингвистика текста ; сост., общ. ред. и вступ. ст. Т.М. Николаевой. – М., 1978. – Вып. VIII. – С. 467 – 472.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Shukurova Hafiza Sayfievna
Sharaf Rashidov Samarkand State University
Institute of Languages and Culture of the Peoples of Central Asia
Researcher, Department of Tajik Philology and Oriental Languages

EXPRESSION OF THE VOCABULARY OF JEWELRY IN PHRASEOLOGICAL UNITS AND PROVERBS

Abstract: *This article presents information on the role of jewelry in folk traditions, the history of the study of jewelry lexicon in Tajik linguistics, especially women's jewelry, as well as sources for studying jewelry lexicon (historical, ethnographic, folklore, and lexicographic works), and the ethnolinguistic study of jewelry in unwritten languages. The expression of jewelry vocabulary in phraseological units and proverbs is semantically analyzed with examples.*

Keywords: *jewelry, traditions, ethnography, nation, craft, phraseological unit, proverb*

Шукурова Хафиза Сайфиевна
Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова
Институт языков и культуры народов Центральной Азии
Научный сотрудник кафедры таджикской филологии и восточных языков

ВЫРАЖЕНИЕ ЛЕКСИКИ УКРАШЕНИЙ ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ И ПОСЛОВИЦАХ

Аннотация: *В данной статье представлена информация о роли ювелирных изделий в народных традициях, истории изучения лексики ювелирных изделий в таджикской лингвистике, особенно женских украшений, а также об источниках для изучения лексики ювелирных изделий (исторические, этнографические, фольклорные и лексикографические работы) и этнолингвистическом изучении ювелирных изделий в неписьменных языках. В данной работе проводится семантический анализ лексики, связанной с ювелирными изделиями, в виде фразеологических единиц и пословиц.*

Ключевые слова: *ювелирные изделия, традиции, этнография, нация, ремесло, фразеологическая единица, пословица*

Shukurova Hafiza Sayfievna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
Tojik filologiyasi va sharq tillari kafedrasi tayanch doktoranti

ZARGARLIK LEKSIKASINIG FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA MAQOLLARDA IFODALANISHI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalq urf-odatlarida taqinchoqlarning o'rni, tojik tilshunosligida taqinchoqlar leksikasini o'rganish tarixi, ayniqsa ayollar taqinchoqlari, shuningdek, taqinchoqlar leksikasini o'rganish manbalari (tarixiy, etnografik, folklor va leksikografik asarlar) hamda yozuvsiz tillarda taqinchoqlarni etnolingvistik tadqiq etish haqida ma'lumotlar keltirilgan. Zargarlik leksikasining frazeologik birliklar va maqollarda ifodalanishi misollar bilan semantik tahlil qilingan.*

Kalit so`zlar: *zargarlik buyumlari, urf-odatlar, etnografiya, millat, hunarmandchilik, frazeologik birlik, maqol*

Kirish

Til xalqning madaniyati va tarixini anglashning eng muhim manbai hisoblanadi. Chunki u dunyoqarashni oynadek aks ettirish qobiliyatiga ega. Til insonlarning fikrlari, g'oyalari, qarashlari va bilimlarini, ularning dunyosini aniq ko'rsatib bera oladigan yagona manbadir. Xalqlar tarixida til turli jamiyatlarni birlashtiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Chunki insoniyatning tabiiy tili qadimgi davrlarning dunyoqarash qonuniyatlarini, psixologik, ilmiy va ma'naviy madaniyatini saqlab qolishga va ularni asrdan asrga, avloddan avlodga yetkazishga qodirdir. Shu sababli XX asrning 30-yillarida tilshunoslikda yangi yo'nalish – etnolingvistika vujudga keldi. Uning maqsadi turli xalqlar va millatlarning tili hamda madaniyatining integratsiyasini o'rganishdan iborat bo'ldi. Biroq ta'kidlash lozimki, etnolingvistikaning shakllanish bosqichlarida, u tilshunoslik va etnologiya o'rtasida chegaradosh fan sifatida "etnolingvistika", "antropologik lingvistika", "til va madaniyat", "madaniyat ichidagi til" hamda "madaniyatdagi til" deb atalgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Zargarlik leksikasi tojik xalqining ma'naviy va moddiy madaniyatini aks ettirish namunasi sifatida ilmiy manbalarda va tojik xalqining tarixida yorqin ifodalangan. Til, folklor, tarix va tojik xalqining etnografiyasini o'rgangan tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida tojik xalqining bezaklari (taqinchoqlari) va kiyimlariga alohida e'tibor qaratganlar [3, 143]. Bu yerda XIX asr yevropalik olimlari R.Gotio, V.Geyger, V.Lents, R.Shou, J.Bedolf, V.Tomasek, O.Olufsen, G. Morgenstierne va boshqalar tomonidan tojiklarning etnologiyasi, tili, madaniyati va tarixini o'rganishga bag'ishlangan qimmatli ishlarni, shuningdek, mashhur rus etnologlari va tilshunoslari – M.S. Andreev, A.K. Pisarchik, N.A. Kislyakov, L.F. Monogarova, I.Ya. Zarubin, A.V. Livshits, I.M. Oranskiy, A.Z. Rozenfeld, T.N. Pakhalina, A.L. Gryunberg, I.M. Steblin-Kamenskiy va boshqalarning tojik tili va madaniyatini o'rganishga qo'shgan katta hissalarini sanab o'tish mumkin.

Tojik olimi S.K. Matrobiyon ham bu borada shunday ta'kidlaydi: «XIX asrning oxirida tojik xalqining turmushi, moddiy va ma'naviy merosi bilan tanishish maqsadida Tojikiston tog'li mamlakatiga ko'plab rus olimlari va sayyohlari kelgan. Ulardan B.L. Grombchevskiy, D.L. Ivanov, A.A. Bobrinskiy, M.S. Andreev, A.A. Polovtsov, K.G. Zaleman, I.Ya. Zarubin, A.A. Semenov, V.V. Bartold va boshqalarni sanab o'tish mumkin. Xususan, XIX asrning 70–80-yillarida rus tadqiqotchilari tomonidan etnografik ekspeditsiya tashkil etilgan bo'lib, u Samarkand, Buxoro va Farg'ona shaharlarida etnografik materiallarni to'plagan» [7, 163].

Natijalar va muhokama.

Ayollar tabiatan estetik bo'lib, har bir ayol o'zining ko'zlari, qoshlari, yuzlari, qo'llari va oyoqlari, shuningdek, kiyimlarini bezashga alohida e'tibor beradi.

Binobarin, bu harakat tilda bir qator so'z va atamalarning paydo bo'lishi bilan birga frazeologik birlik va maqollarning ham vujudga kelishiga sabab bo'lishi tabiiy. Bu jarayonda tojik tili ham istisno emas.

Tojik tilida "нигин" -nigin so'zi ishlatiladi - uzukning ko'zgusiga o'rnatilgan qimmatbaho tosh yoki metall. "Нигинадор" - niginador so'zi ham tojikcha so'z bo'lib, ko`pincha "нинакдор" - ninakdor shaklida ishlatilab, "toshli zargarlik buyumlari" degan ma'noni anglatadi.

Zargarlik leksikasi maqollarda so'z - obraz sifatida turlima'nolarni ifodalashda xizmat qiladi. Jumladan, qadrshunoslik ma'nosida *zar qadrini zargar bilar* quyidagicha shakllarda ishlatiladi:

- *Қадри зар заргарғар медонад;*
- *Қадри зар заргар шиносад, қадри гавҳар - гавҳарӣ;*
- *Қадри зарро - заргар медонад,*

Қадри заминро деҳқон медонад.[8, 353]

Odob, axloq ma'nosini ifodalash uchun ham "ганҷ"-ganj, "зар"-zar leksemalaridan foydalanilgan:

- *Адаб беҳтарин ганҷ аст.*
- *Сухан зар, аст сабр гавҳар.*

"Ҷавҳар", "тилло" сўзлари эса, билим олиш маъносини билдиргувчи мақоллардa қўлланилган:

- *Аз қаъри баҳр ҷавҳар меҷӯянд, аз сафаҳоти китоб – дониш.*
- *Тиллоро аз замин, донишро аз китоб меҷӯянд.*

Quyidagi maqolda "зар"-zar komponenti qo'llanilgan bo'lib, boylik, pul hama muammoni hal etadi ma'nosini bildiradi: Зар бар сари фӯлод ниҳӣ, нарм шавад - (Zar bar sari fo'lod nihi narm shavad) маъноси: pul har qanday mushkil muammoni hal qiladi:

- *Зӯрӣ накун, зорӣ макун, зар бифирист - Зар бар сари фӯлод ниҳӣ нарм гардад* [8, 206].
- *Зар пеши зар равад [8, 202]*
- *Дурр дар лой ҳам дурр аст.*
- *Зар дар даруни нурӣ тофтааст*. Ma'nosi: marvarid loyda ham marvariddir, ya'ni asil aynimas, aynisa ham chirilmas [8, 189].
- *Зар додану дарди сар харидан (*бо ягон амале худро ба ғаму кулфат андохтан, аз ҳаракати беандешонаи худ гирифтори нохушӣ шудан) biror harakat bilan o'ziga muammo tug'dirmoq, o'z o'ylamasdan qilgan harakati tufayli baxtsizlikka uchramoq.. ma`nosini bildiradi.

Quyidagi frazeologik birlik, "Ин гапҳоро чун ҳалқа бар гӯши худ кун" (ya'ni: so'zlarimni esla), quloq bezagining bir turi bo'lgan "halqa" (sirg'a) so'zidan foydalanadi. Bu frazeologik birlik kimnidir biror narsa haqida ogohlantirish uchun ishlatiladi, ya'ni "hozir nima deyayotganimni esla".

Ushbu frazeologik birlikning so'zma-so'z tarjimasi: "Mening so'zlarim quloqlaringizga taqilgan sirg'alarga o'xshaydi". Boshqacha qilib aytganda, xuddi sirg'alar quloqlaringizni bezab turganidek, mening so'zlarim ham doimo quloqlaringizda aks-sado berishi kerak.

Quyidagi advalda toik tilida ishlatiladigan zar, bezak va zargarlik leksemalaridan tarkib topgan frazeologik birlik va maqollardan ba'zi namunalar keltirdik.

Frazeologik birlik	ma'nosi	Qo`llanilishi
Гавҳари ноёб	Juda qadrli, noyob inson *(Инсони бисёр арзишманд, нодир).*	*Устодро метавон гавҳари ноёби илми тоҷик номид.*
Гавҳарро шинохтан	Munosib insonni qadrlash *(Шахси арзандаро қадр кардан).*	*Гавҳарро гавҳаршинос мешиносад.*
Гавҳари маънӣ	Mazmunli so'zlar, qimmatli fikrlar *(Сухани пурмазмун, андешаи арзишманд).*	*Дар байти Ҳофиз гавҳари маънӣ нуҳуфтааст.*
Ҷавоҳири сухан	Qimmatbaho va mazmunli so'zlar (Суханони пурқимат ва пурмазмун).	*Насри Бедил пур аз ҷавоҳири сухан аст.*
Марвориди сухан	Shirin, nafis va qimmatli so'zlar (Сухани ширин, ороишдода, пурқимат).	*Марвориди суханон ҳамаро мафтун кард.*
Марвориди дандон	Oq va chiroyli tishlar (*Дандонҳои сафед ва зебо*).	*Марвориди дандонҳояш ҳангоми табассум намоён шуд.*
Лаъли лаб	Chiroyli qizil lablar (*Лаби сурху зебо*).	*Шоир лаби ёрро бо лаъл монанд кардааст».*
Лаъли ноёб	Juda qimmat va noyob narsa (Чизи бисёр гаронбаҳо ва камёб).	*Илми ҳақиқӣ мисли лаъли ноёб аст».*
Дурри маъонӣ	Chuqur va qadrli ma'no (Маънои амиқ ва пурқимат).	*Каломи бузургон дурри маъонӣ аст».*
Дурри ноёб	Katta qiymatga ega shaxs yoki narsa (Шахс ё чизе бисёр арзишманд).	*Фарзанди хуб барои падару модар дурри ноёб аст.*
Тиллои соф	Halol, benuqson inson (Инсони поквиҷдон, беолоиш).	Ӯ мисли тиллои соф ростқавл аст.
Нуқраи пок	Halollik, halollik (Покдоманӣ, софдилӣ).	Нуқраи покро ҳар кас донад қадр.
Ҳалқаи заррин	Halollik, halollik (Чизи гаронбаҳо, ороиш).	*Дӯстии ҳақиқӣ ҳалқаи заррин аст.*
Санг ба санг баробар нест...	Odamlar turli xil qadriyatlarga ega (Одамон арзиш ва қимати гуногун доранд).	Ҳамон тавре ки сангҳо гуногунанд, одамон низ фарқ доранд.
Гавҳари зиндагӣ	Hayotdagi eng qimmatli narsa (Чизи аз ҳама қимат дар зиндагӣ).	Фарзанд гавҳари зиндагии падару модар аст.
Гавҳарфурӯшро санг озмоиш аст	Hayotdagi eng qimmatli narsa (Шахси донишмандро мушкилӣ мешиносонад).	Ибораи ҳикматомез.
Ҷавоҳири маънӣ	Qimmatbaho va chuqur ma'nolar (Маъноҳои пурқимат ва амиқ).	Шеъраш ҷавоҳири маънӣ аст.
Вақти тиллоӣ	Vaqt juda qimmatlidir (Вақти бисёр арзишманд).	Вақти тиллоиро беҳуда сарф накун.
Дурри адаб	Aqlli va muloyim nutq (Сухани пурҳикмат ва хушахлоқона).	Омӯзгори ҳақиқӣ дурри адаб мегуфту меомӯхт.
Зар ба заргар мерасад	Munosib narsa yoki inson har doim qadrlanadi (Чиз ё шахси арзанда ҳамеша ба қадр мерасад).	Ҳақиқат дер ё зуд ошкор мешавад, зеро зар ба заргар мераса».

Shunday qilib, bezak va bezak so'zlari va atamalari hatto shug'ni tilining maqol va frazeologik birliklarida ham keng qo'llanilishini ta'kidlash mumkin, ular xalq hayoti va madaniyati bilan bog'liq boy tarixiy tajriba va dunyoqarashni aks ettiradi.

Xulosa.

Leksika etnolingvistik tadqiqotlarning muhim jihatlaridan biri bo‘lib, etnografizmlar va tilning dunyo manzarasini ularning madaniy kontekstida o‘rganishga imkon beradi. Etnolingvistika – bu zamonaviy tilshunoslikda alohida o‘rin egallagan tadqiqot sohasi. U turli etnik guruhlarning tili va madaniyatining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, insoniy kommunikatsiya va madaniy an’analarni chuqurroq tushunish uchun lingvistik hamda etnografik yondashuvlarni uyg‘unlashtiradi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar etnolingvistika madaniy xususiyatlarni tushunishda va tilning etnik identiklikni shakllantirishdagi ta’sirini anglashda naqadar muhim ekanini ko‘rsatdi.

Til leksikasining o‘ziga xos jihati etnografizmlar hisoblanadi – ular ma’lum bir madaniyatga xos bo‘lgan va boshqa tillarda yoki madaniyatlarda qo‘llanilmaydigan noyob so‘zlardir. Bu atamalar odatda shu madaniyatning kundalik hayotiga xos bo‘lgan buyumlar va tushunchalarni aks ettiradi hamda boshqa madaniyatlarda muqobillari bo‘lmaydi. Shunday etnografizmlar ma’lum etnik guruhga mansub bo‘lsa-da, boshqa tillarda ham o‘zlashtirilib ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллоева Г.З. Лексика Каратагского говора: Автореф. дис. ...канд. филол. наук: - Душанбе, 2013. - 22 с. (Abdulloeva G.Z. *Lexicon of the Karatag Dialect*: Abstract of the Dissertation for the Degree of Candidate of Philological Sciences. – Dushanbe, 2013. – 22 pages.)

2. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. - Тошкент: Меҳнат, 1991-384 б. (Bulatov S. *Uzbek Folk Applied Decorative Art*. – Tashkent: Mehnat, 1991. – 384 pages.)

3. Бобоев С.С. Ҷойгоҳи назми шифоҳӣ дар арӯсии тоҷикони Бухоро. – Хуҷанд, 2006. –144 с. (Boboev S.S. The place of oral poetry in the wedding of Bukhara Tajiks. – Khujand, 2006. –144 p.)

4. Бобомуродова М.У. Этнолингвистическая характеристика лексики женских украшений в таджикском языке. – Душанбе, 2012. (Bobomurodova M.U. Ethnolinguistic characteristics of the vocabulary of Zanon jewelry in the Tajik language. – Dushanbe, 2012.)

5. Ғаффуров Б. Тоҷикон. – Душанбе: Ирфон, ҷилди 1, 1983. – 870 саҳ. (Ghaffurov B. *The Tajiks*. – Dushanbe: Irfon, Volume 1, 1983; 870 pages.)

6. Ермакова Е.С. Женские ювелирные украшения Бухары конца XIX начала XX века. Монография. – М., 2000. - 166 с. (Ermakova E.S. *Women’s Jewelry of Bukhara from the Late 19th to Early 20th Century: Monograph*. – Moscow, 2000. – 166 pages.)

7. Истамова М. Лексика швейного и вышивального искусства в Самаркандских говорах таджикского языка: автореф. дис. … канд. филол. Наук. – Душанбе, 1983. – 20 с. (Istamova M. *Lexicon of Sewing and Embroidery Art in the Samarkand Dialects of the Tajik Language*: Abstract of the Dissertation for the Degree of Candidate of Philological Sciences. – Dushanbe, 1983. – 20 pages.)

8. Калонтаров Я.И. Зарбулмасал ва мақолҳои тоҷикӣ ва муқоисаи ӯзбекии онҳо.- Душанбе: Дониш, 1969. - 435с. (Kalontarov Y.I. Tajik proverbs and sayings and their Uzbek comparison. - Dushanbe: Donish, 1969. - 435p.)

9. Матробиён С.Қ. Этнолингвистикаи тоҷик: пажӯҳиши назариявӣ ва амалӣ. Китоби 1. Асосҳои назариявии этнолингвистика ва тасвири ҷаҳон. – Душанбе: Шоҳин-С, 2022. - 256 с. (Matrobiyon S.K. Tajik ethnolinguistics: theoretical and practical research. Book 1. Theoretical foundations of ethnolinguistics and the image of the world. – Dushanbe: Shahin-S, 2022. - 256 p.)

10. Этнографические очерки Узбекского сельского населения. – М.: Наука, 1969. – 284 с. (*Ethnographic Essays on the Uzbek Rural Population*. – Moscow: Nauka, 1969. – 284 pages.)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Djalilova Sarvaroy Mexrojovna
Samarqand davlat chet tillar instituti, ispan tili o‘qituvchisi, PhD

“ISPAN TILIDA SOMATIZMLAR: FRAZEOLOGIYA, SEMANTIKA VA PEDAGOGIK AHAMIYATI”

Annotatsiya*: Ushbu maqola ispan tilidagi somatizmlarning — tarkibida tana a’zolarini bildiruvchi leksik birliklar ishtirok etadigan frazeologik birliklarning — semantik, pragmatik va madaniy-lingvistik xususiyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqot doirasida somatizmlarning paydo bo‘lish mexanizmlari, xususan, metafora va metonimiya asosidagi ma’no kengayishi, shuningdek ularning ispan tilidagi emotsional, kognitiv va ijtimoiy mazmunlarni ifodalashdagi roli ko‘rib chiqiladi. Maqola somatizmlarning tiplari, ularning ma’no shaffofligi darajasi, tarjima jarayonidagi muammolar va ispan tilini o‘qitishda qo‘llanish imkoniyatlarini ham yoritadi. Tadqiqot natijalari ispan tili frazeologiyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya va til o‘qitish metodikasi uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *somatizmlar, frazeologiya, metafora, metonimiya, tana semantikasi, ispan tili, lingvokulturologiya, tarjima, o‘qitish metodikasi.*

Джалилова Сарварой Мехрожовна
Самаркандский государственный институт иностранных языков, преподаватель испанского языка, PhD

«СОМАТИЗМЫ В ИСПАНСКОМ ЯЗЫКЕ: ФРАЗЕОЛОГИЯ, СЕМАНТИКА И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ»

Аннотация *:Статья посвящена исследованию соматизмов — фразеологических единиц, в состав которых входят лексемы, обозначающие части тела — в современном испанском языке. Рассматривается понятийно-теоретическая база (когнитивная лингвистика, теория метафоры и метонимии), даётся типология соматизмов, анализируются семантические механизмы (метафора, метонимия, синекдоха), проводится обзор распределения тематических полей (эмоции, характер, социальные роли, действие, болезнь) и обсуждаются проблемы прозрачности и эквивалентности при переводе. Отдельное внимание уделено применению результатов в преподавании испанского как иностранного и компиляции корпусных ресурсов для лексикографии. Работа опирается на современные исследования по соматизмам и фразеологии, а также на ключевые труды по концептуальной метафоре.*

Ключевые слова: *соматизмы, фразеология, метафора, метонимия, телесная семантика, испанский язык, лексикография, обучение языку.*

Djalilova Sarvaroy Mekhrojovna
Samarkand State Institute of Foreign Languages, Spanish teacher, PhD

“SOMATISMS IN SPANISH: PHRASEOLOGY, SEMANTICS AND PEDAGOGICAL RELEVANCE”

Abstract*: This article examines somatisms in the Spanish language — phraseological units containing lexical elements that denote body parts — from semantic, pragmatic, and cultural-linguistic perspectives. The study explores the mechanisms behind the formation of somatisms, particularly metaphor- and metonymy-based meaning extensions, and analyzes their role in expressing emotional, cognitive, and social concepts in Spanish. The article provides a typology of somatisms, discusses their varying degrees of semantic transparency, addresses translation issues, and highlights their pedagogical relevance in teaching Spanish as a foreign language. The findings contribute to research in Spanish phraseology, intercultural communication, and language teaching methodology.*

Keywords: *somatisms, phraseology, metaphor, metonymy, body semantics, Spanish language, linguoculturology, translation, language teaching methodology.*

Проблематика телесной лексики и особая роль соматизмов в структуре фразеологии испанского языка остаются востребованной темой как теоретических, так и прикладных исследований. Под соматизмами понимаются фразеологические единицы или лексические сочетания, содержащие лексемы, обозначающие части тела, а также выражения, в которых через метафору или метонимию представлен телесный образ [Sciutto 2005,

p.507]. Такое определение подчёркивает двойную природу соматизмов: они одновременно принадлежат к лексике тела и служат ресурсом для выражения абстрактных, психологических и социальных значений.

Теоретическая основа исследования соматизмов неизбежно опирается на положения когнитивной лингвистики и концептуальной метафоры. Как отмечают классики направления, метафора — это способ понимания и опыта одного рода явлений через призму другого; метафорические проекции, основанные на телесном опыте, структурируют многие наши абстрактные понятия и повседневную коммуникацию [Lakoff & Johnson 1980; см. цитирование в Sciutto 2005, p.506–509]. Положение о том, что тело — одна из основных «источников» метафор, подтверждается многочисленными анализами испанских выражений, где части тела картыобразно проецируются на эмоциональные, когнитивные и социальные поля.

Аналитическая типология соматизмов может строиться по нескольким осям: (1) по семантическому полю: соматизмы эмоций (например, выражения, связанные с сердцем, животом или глазами), соматизмы интеллекта/мыслительной деятельности (связанные с головой, мозгом), соматизмы физического состояния и болезни (связанные со стомаком, дыхательной системой), соматизмы статуса и иерархии (грудь, голова) и т. д.; (2) по механизму семантообразования: метафорические, метонимические или смешанные; (3) по степени прозрачности: прозрачные (где связь между компонентами и результатом легко прослеживается) и непрозрачные/идиоматические. Эта систематизация опирается на результаты корпусных и контрастивных исследований соматизмов в различных вариантах испанского языка и рядом авторов предложена в современных работах по фразеологии [Sciutto 2005, p.140–150; Vázquez-Larruscaín 2015, p.30–36].

Соматизмы как лексико-фразеологический класс выполняют комплекс коммуникативных функций. Во-первых, они служат экспрессивному усилению: телесные образы придают высказыванию эмоциональную интенсивность и конкретность. Во-вторых, они выступают как маркеры стилистических регистров (разговорный, публицистический, грубый/либеральный), что важно при анализе прагматических нюансов общения [Vázquez-Larruscaín 2015, p.33–36]. В-третьих, многие соматизмы функционируют как культурно-семантические маркеры, отражающие ценностные и социально-исторические представления о теле и его частях в испаноязычных сообществах. Так, значения, приписываемые определённым частям тела (например, сердце как центр чувств или голова как центр разума), часто универсальны, но их коннотативные оттенки могут варьировать между диалектами и социальными группами.

Анализ примеров показывает богатую сеть метафорических проекций: «tener la cabeza en las nubes» — проекция разумного пространства на топографию тела; «no tener dos dedos de frente» — проекция размеров головы как индикатора интеллекта; «ponerse la piel de gallina» — соматическая метафора страха или сильного эмоционального переживания. Многие такие выражения имеют явные метонимические основания: состояние или часть тела обозначает когнитивное или эмоциональное состояние целого человека (например, «perder la cabeza» — потерять контроль/ум, «partirse el alma» — испытывать сильную печаль или сострадание). Когнитивно-семанический анализ показывает, что телесные проекции организуют целые семантические поля и образуют устойчивые концептуальные схемы, объясняющие крупные типы фразеологических проявлений в испанском [Vázquez-Larruscaín 2015, p.40–47].

Особое внимание в современной литературе уделяется проблеме прозрачности соматизмов: в какой степени значение фразеологизма может выводиться из смысла компонентных слов. Исследование, посвящённое «прозрачности» соматизмов в испанском, указывает, что существуют значимые различия — от высокопрозрачных выражений, где метафорическая связь очевидна, до полностью идиоматизированных единиц, смысл которых не выводим без культурного контекста [Los somatismos y su transparencia, 2023]. Такие различия важны не только для теории фразеологии, но и для практики перевода и преподавания, поскольку непрозрачные соматизмы требуют дополнительного культурного объяснения или эквивалентных перефразировок в целевом языке.

Переводческая аспектология соматизмов представляет собой отдельную проблему: нередки случаи, когда прямой формальный эквивалент в языке-реципиенте отсутствует, что требует либо лексико-семантической перефразировки, либо выражения эквивалентной прагматической функции через другие языковые средства. Контрастивные исследования (например, сравнительный анализ соматизмов испанского и итальянского) выявляют, что некоторые семантические поля совпадают, тогда как другие демонстрируют разнообразие, продиктованное историко-культурными особенностями сообществ речи [Sciutto 2005, p.170–176]. Это имеет прямые следствия для лексикографической практики: словарные статьи должны фиксировать не только буквальный компонент, но и степень прозрачности, коннотативную окраску и примеры употребления в контексте.

Методологически современный анализ соматизмов выгодно проводить с опорой на корпусные данные и когнитивно-семантические подходы. Корпусы позволяют установить частотность, коллокации и контекстные варианты употребления соматизмов, а когнитивная семантика — выявить концептуальные метафоры и метонимические сети, лежащие в основе их функционирования. Практические исследования показывают, что

комбинированный метод (корпус + когнитивный анализ + контрастивный обзор) даёт наиболее полное представление о роли соматизмов в языке [Plaza Delmás 2023; Vázquez-Larruscaín 2015].

В рамках описательной фразеологии представляется целесообразным предложить систематизацию по частям тела как основным семантическим «узлам» (голова, лицо, глаза, сердце, руки, ноги, живот, кожа и т. д.) и анализировать для каждой группы типичные переносы и функции. Например, голова часто ассоциируется с познанием и лидерством (cf. «cabeza», «cabecilla»), лицо — с личностью и субъективностью, глаза — с восприятием и знанием, сердце — с аффектом и моральной ценностью; руки и ноги — с действием и способностью, а кожа и волосы — с сенсорными реакциями и социальной демонстрацией эмоций. Такое тематическое разбиение облегчает как лексикографическую обработку, так и разработку учебных материалов для изучающих испанский как иностранный.

Педагогическое применение результатов исследований соматизмов заслуживает отдельного комментария. В обучении иностранному языку соматизмы следует включать в курс лексики и фразеологии не как «экзотику», а как часть функционально значимой компетенции: многие соматизмы широко используются в повседневной речи и текстах СМИ, и незнание их мешает развитию навыков понимания. Рекомендации включают: (1) использование корпусных примеров и контекстов; (2) группировку по тематическим полям и концептуальным метафорам; (3) использование переводческих упражнений с акцентом на степень прозрачности и прагматические функции; (4) введение задач на сопоставление соматизмов в родном языке учащихся и испанском для выявления ложных друзей и культурных различий [Plaza Delmás 2023; Sciutto 2005].

Список литературы

1. Sciutto, V. (2005). *Unidades fraseológicas: un análisis contrastivo de los somatismos del español de Argentina y del italiano*. Centro Virtual Cervantes. — PDF. (см. раздел «Los somatismos»). cvc.cervantes.es

2. Vázquez-Larruscaín, M. (2015). *La lógica del cuerpo en español / The logic of the human body in Spanish*. Ogigia. Revista electrónica de estudios hispánicos, 18, 27–54. Dialnet

3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press. (Ключевая работа по теории концептуальной метафоры; см. цитирование в современных исследованиях по соматизмам). ФилПейперс+1

4. Plaza Delmás, (TFM). (2023). *Los somatismos desde la teoría* (Trabajo de fin de máster / TFM, Universidad de Alcalá). PDF. (обзор современных подходов к соматизмам и применению в обучении). ebuah.uah.es

5. Los somatismos y su transparencia semántica: los rasgos tipológicos» (2023). Статья / монографический выпуск, исследование степени прозрачности соматизмов в испанском. (ResearchGate / Entrelineas). EntreLíneas+1

6. GarcÍa, D. Molina; Deignan, A.; Deignan, A. (Различные авторы по метафоре и корпусной лингвистике) — для методологии корпусного анализа метафор и фразеологии. (см. библиографию Vázquez-Larruscaín). Dialnet

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Karimova Dilafro'z Halimovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti
e-mail:dilafruz.karimova.1975@mail.ru
Egamberdiyeva Oydin Zayniddinovna
Buxoro xalqaro universiteti
Lingvistika (nemis tili) yo'nalishi magistranti

AKA-UKA GRIMM ERTAKLARINING O'ZBEKCHA TARJIMALARI PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada aka-uka Grimm ertaklarining XX asr 30-yillarida amalga oshirilgan o'zbekcha tarjimalari psixolingvistika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tarjimalardagi leksik, semantik, sintaktik va pragmatik o'zgarishlar inson nutq faoliyati, til ongi, kognitiv qayta ishlash jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Shuningdek, bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan matnlarda til birliklarining idrok qilinishi, xotirada saqlanishi va qayta ishlanishi kabi psixolingvistik mexanizmlar tahlil etiladi. Maqolada 1930-yillar o'zbek tarjimachilik an'anasi, milliy mentalitet va ideologik omillarning tarjima matni psixolingvistik strukturasiga ta'siri ko'rsatib beriladi. Neyropsixolingvistika nuqtai nazaridan ertak matnining miya faoliyati bilan bog'liq jihatlari ham yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *psixolingvistika, neyropsixolingvistika, kognitiv jarayon, nutq faoliyati, til ongi, semantik tarmoq, leksik faollashuv, diskurs, retseptsiya, bolalar nutqi, kognitiv sxema, mental model, tarjima psixologiyasi, til va xotira, neyrokognitiv qayta ishlash, assotsiativ maydon, kontsept, pragmatika.*

Каримова Дилафруз Халимовна
Бухарский государственный университет, доцент
Эгамбердиева Айдын Зайниддиновна
Бухарский международный университет
аспирантка Наманганского государственного университета

ПРЕСТУПНЫЕ РАБОТЫ В СРАВНИТЕЛЬНОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ИССЛЕДОВАНИИ: (НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АГАТЫ КРИСТИ И ТАХИРА МАЛИКА)

Аннотация. *В данной статье рассматриваются стилистические особенности криминальной прозы в английской и узбекской литературе на примере произведений известных писателей-криминалистов Агаты Кристи и Тохира Малика. Особое внимание уделяется сравнительному анализу стилистических средств, динамике конфликтов и функциональным характеристикам детективных элементов в криминальных произведениях. Результаты исследования демонстрируют уникальные литературные приёмы и методы, применяемые при создании криминальных сюжетов, а также раскрывают факторы, влияющие на их выразительность и художественную ценность.*

Ключевые слова: *Криминальная проза, стилистические особенности, Агата Кристи, Тохир Малик, детектив, литературный анализ, развитие сюжета.*

Sultonova Dilnoza Sohibjonovna,
Doctoral student (DSc) of Namangan State University

CRIME WORKS IN COMPARATIVE LITERATURE: (BASED ON THE WORKS OF AGATHA CHRISTIE AND TAHIR MALIK)

Abstract. *This article analyzes the stylistic peculiarities of crime fiction in English and Uzbek literature, focusing on the works of renowned crime writers Agatha Christie and Tohir Malik. The study pays particular attention to the comparative analysis of stylistic devices, the dynamics of conflict, and the functional features of detective elements in crime fiction. The findings of the research highlight the unique literary tools and methods employed in crafting crime narratives, offering a comprehensive view of the factors that influence their impact and artistic value.*

Keywords: *Crime fiction, stylistic features, Agatha Christie, Tohir Malik, detective story, literary analysis, plot development.*

Kirish

Kriminal adabiyot jahon adabiyotining ajralmas qismi bo'lib, insoniy tuyg'ular, huquqiy muammolar va jinoyatchilik kabi mavzularni qamrab oladi. Ushbu janrda qiziqarli syujetlar, o'ziga xos uslubiy vositalar va sirlarga boy tasvirlar orqali o'quvchini jalb qilish asosiy maqsad hisoblanadi. Ingliz va o'zbek adabiyotida kriminal janrning yetakchi vakillaridan biri sifatida Agata Kristi va Tohir Malik ijodi e'tiborga loyiqdir. Ushbu maqolada mazkur ikki zabardast yozuvchilar asarlarining uslubiy o'ziga xosliklari va ularning kriminal janrni shakllantirishdagi vositalari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuni ilmiy jihatdan o'rganishda badiiy adabiyotda uslub muammosini keng tadqiq etgan qator mutaxassislar asarlaridan keng foydalanildi.

Shu davrga qadar ingliz va boshqa jahon adabiyotshunoslari rossiyalik olimlar hamda bir qator o‘zbek adabiyotshunoslari o‘z tadqiqotlarida, sohaga oid monografiya va darsliklarida badiiy asarlar uslubi masalasini o‘rganishgan.

Ingliz badiiy kriminalistik asarlar esa bir qator ingliz olimlari tadqiqotida, shuningdek, kriminalistik badiiy asarga Routlej ko‘rsatmalari to‘plami hamda (“The Routledge Companion to Crime Fiction”) , Kanzas Yozuvchilar uyushmasi sayti [2] materiallarida chuqur o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada kriminal asarlarning uslubiy xususiyatlari va ularni shakllantiruvchi vositalar o‘rganilgan. Tadqiqotning metodologiyasi bir nechta ilmiy yondashuvlarga asoslanadi, shu jumladan kontent-tahlil, stilistik tahlil, psixologik tahlil va strukturaviy yondashuvlar. Har bir metodologik yondashuv uslubiy vositalarning muayyan jihatlarini ochib berishda yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqotda ingliz va o‘zbek adabiyotidagi kriminal asarlar uslubining o‘ziga xosligi va uni shakllantiruvchi vositalar mazkur xalqlar adabiyotidagi ikki zabardast yozivchilar Agata Kristi va Tohir Malik asarlari asosida o‘rganildi. Bu borada ular ijodidagi mushtarak va farqli jihatlarni aniqlashga alohida ahamiyat qaratildi.

Agata Kristi va uning kriminal asarlari uslubi. Agata Kristi jahon detektiv adabiyotining eng mashhur vakillaridan biri bo‘lib, uning asarlari o‘ziga xos uslubi, murakkab syujetlari va kutilmagan yakunlari bilan ajralib turadi. Uning eng mashhur qahramonlari bo‘lmish Erkyul Puaro va miss Marpl jinoyatlarni ochishda o‘zlarining intelektual qobiliyatlari, kuzatuvchanligi va tahliliy fikrlash qobiliyatlari bilan tanilgan. O‘rganish va tadqiqotlarimiz natijasida adibaning kriminal mavzudagi asarlarining o‘ziga xos uslubiy xususiyatlarini quyidagi jadval (1-jadval) da umumlashtirdik.

№	Uslubiy xususiyatlar	Izoh
1.	**Murakkab syujet va kutilmagan yakun**	U asarlarida ko‘pincha bir nechta gumonlanuvchilarni kiritib, o‘quvchini chalg‘itish usulidan foydalanadi.
2.	**Tafsilotlarga e‘tibor**	Har bir kichik tafsilot oxir-oqibat jinoyatning ochilishida muhim rol o‘ynaydi.
3.	**Tilda soddalik va aniq tasvirlar**	Uning hikoya qilish uslubi soddaligi va o‘quvchini zeriktirmaydigan dinamikasi bilan ajralib turadi.
4.	**Psixologik portret yaratish**	Qahramonlar ichki dunyosi va ularning harakatlariga sabab bo‘luvchi psixologik holatlar mukammal tasvirlanadi.

1- jadval. Agata Kristining kriminal mavzudagi asarlaridagi uslubiy xususiyatlar.

Tohir Malik va uning kriminal asarlari uslubi Tohir Malik o‘zbek adabiyotida kriminal mavzudagi asar yozuvchilaridan biri hisoblanadi. Uning mashhur “Shaytanat” romanlar turkumi jinoyatchilik, adolat, iymon va insoniy qadriyatlar muammolarini yoritib beradi.

Kriminalist adiblar sujet va xarakter rivojlanishi nuqtayi nazaridan shubha yaratish uchun keskinlikdan foydalanadilar. Bu keskinlik ko‘pincha voqealarning bir tekis rivojlanmasligi, kutilmagan sujet burilishlari va qahramonlarning hiyla- nayranglari yordamida yuzaga keltiriladi.

Jumladan, Tohir Malikning “Alvido… bolalik” asarida qotillikka aralashib qolgan har bir obraz o‘z bilganicha o‘zini saqlab qolish uchun “sabab”lar o‘ylab topishadi, jazodan qutulib qolishlariga ishonishadi va o‘quvchini ham ma΄lum ma’noda bunga ishontirishadi. Lekin asar so‘ngiga yaqinlashgan sari voqealar sur’ati tezlashib ketadi va ular topgan sabab va bahonalar ish bermay, barchasi qilmishiga yarasha jazolanadi [5].

“Alvido…Bolalik” asarida jinoyat mavzusini ta’sirchan yoritishda yana peripetiya usulidan mohirona foydalanilgan lavhalar uchraydi. Ulardan biri – Salimning qotillik paytida oyog‘idan jarohat olishi. Sportda toblangan navqiron yoshdagi bolaning bu jarohati uning o‘limiga sababchi bo‘lishi va jinoyatni

ochishda muhim detallardan biriga aylanishi ana shunday kutilmagan vaziyatlardan biridir.

Umuman olganda, adib Tohir Malik o‘zbek adabiyotida kriminal va detektiv asarlar yozishda o‘ziga xos maktab yarata olgan ijodkordir. Uning ijodidagi o‘ziga xosliklarni quyidagi jadval (2-jadval)da umumlashtirdik:

№	Uslubiy xususiyatlar	Izoh
1.	**Reallik va hayotiy tafsilotlarga urg‘u berish**	Asarlarida real hayotdagi jinoyatchilik dunyosi, uning ijtimoiy va huquqiy jihatlari keng yoritiladi.
2.	**Dialoglar va ichki monologlar**	Qahramonlar orasidagi dialoglar tabiiy va ishonarli, ularning ichki kechinmalari esa chuqur psixologik tahlil orqali ifodalanadi.
3.	**Qiziqarli va keskin syujet**	Uning romanlari odatda dramatik to‘qnashuvlar, shiddatli voqealar va o‘quvchini o‘ziga jalb qiluvchi sirlar bilan boyitilgan. jinoyat asarlari o‘zining tezkor sujeti va voqealar rivojining shiddatli tarzda kechishi bilan mashhur. Yozuvning bunday uslubi natijasida voqealar shiddat bilan rivojlanib boradi. Voqealar rivojidagi bu tezlik ham o‘quvchining asar oxiriga qadar diqqatini chalg‘itmay turishida muhim ahamiyatga ega.
4.	**Axloqiy va ijtimoiy masalalarni qamrab olish**	Adabiyot faqatgina jinoyat va tergov jarayonlarini emas, balki jamiyatning axloqiy holatini ham o‘z ichiga oladi.

2- jadval. Tohir Malikning kriminal mavzudagi asarlaridagi uslubiy xususiyatlari.

Agata Kristi va Tohir Malikning kriminal mavzudagi asarlari qiyosiy tahlili. Agata Kristi va Tohir Malik asarlari o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:

1. **Syujet tuzilishi.** Agata Kristi syujetlarini murakkab qilib qurib, asarning oxirida kutilmagan yakun orqali o‘quvchini hayratga soladi. Tohir Malik esa voqealar rivojini hayotiy faktlarga asoslanib, realistik tasvirlashga e’tibor qaratadi.

Kriminalistik asarlarda qahramon sifatida tanlangan jinoyat olami vakillari ko‘pincha murakkab xarakterdagi shaxs sifatida gavdalantiriladi. Yozuvchi uslubi ko‘p hollarda qahramon ichki kechinmalarining qorong‘i tomonlarini ko‘rsatish, o‘quvchini uning ichki istaklari va fikr-mulohazalarini to‘laqonli ochib berish orqali bu xususiyatni aks ettiradi. Bu holat ayniqsa, qotillik romanlarida bo‘rtib ko‘rinadi. Agata Kristining mashhur “O‘nta negr bolasi” (“Ten Little Niggers”, 1939) asarida orolga borib qolgan kishilar faqat o‘zlari tirik qolishlarini o‘ylab, mulohazasiz harakat qiladilar. Aslida qotil – jinoyatchi bo‘lgan mazkur kishilarning bu xususiyatlarini yaxshi bilgan asosiy qahramon ularni hech qiyinchiliksiz bitta-bitta mahv etadi [3].

Quyida ushbu asardan parcha keltiramiz:

–To‘pponchani bu yoqqa bering, buyurdi u. Vera kula boshladi.

–Qani, menga bering, dedi Lombard. Uning miyasi aniq ishlardi: “Nima qilsin? Unga qanday yaqinlashsin? Chalg‘itsinmi? Qo‘rqitsinmi? Yo shunchaki to‘pponchani tortib olsinmi? Lombard butun umr tavakkal qilgan. O‘zgaraman desa endi kech”.

–Menga qarang, jonginam, sizga bir gap aytaman, deya dona-dona gapira boshladi. Lekin jumlasini tugatmay, birdan unga tashlandi. Sirtlon, yo‘lbars, hatto ular ham bunday jahd bilan tashlanmasdi…

Vera beixtiyor tepkini bosdi… O‘q Lombardni teshib o‘tdi. So‘ng qoyaga gursullab quladi [4].

“Alvido… bolalik” asarida yaxshi kunlarida oralaridan qil o‘tmagan qahramonlar qotillikka aloqadorlik haqidagi surishtiruv ishlari chuqurlashgani sari har biri oz jonini saqlab qolish uchun harakat qilishadi. Quyida Asrorning shu vaziyatdagi o‘y-fikrlarini keltiramiz:

“Asror yigirma qadamcha yurib orqasiga o‘girildi. Yigitning hanuz qarab turganini ko‘rib qadamini tezlatdi. Endi u qayerga borsin? Kim dardiga malham beradi? Kim tashvishiga sherik bo‘ladi!.. Hech kim, hatto Qamariddin ham, Salim ham tushunmaydi uni” [5; 102].

Qahramonlarni gavdalantirish masalasi. Agata Kristi asarlarida tergov jarayoniga e’tibor kuchliroq qaratiladi, ya’ni jinoyatni fosh etuvchi qahramonlar asosiy rol o‘ynaydi. Tohir Malik esa jinoyatchilar ruhiyati va ularning psixologik holatlarini chuqur tahlil qiladi. Xarakter yaratish ingliz va o‘zbek adabiyotidagi jinoyat mavzusidagi asarlar uslubining yana bir muhim elementi bo‘lib, u ko‘proq dialog yordamida namoyon bo‘ladi. Dialog asarlarda personajlar va ularning munosabatlarini rivojlantirish uchun keng qo‘llaniladi. Kriminal asarlar aksar hollarda ko‘p sonli qahramonlar guruhiga ega bo‘lib, ularning har biri o‘z motivlariga va asar sujetida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishadi. Natijada, dialog personajlarni bir-biridan farqlash, har birining ovozi va ohangini berish uchun ishlatiladi. Bu personajlar xarakterini ko‘rsatishda realizm

va puxta ishlanganlik tuyg‘usini yaratadi, ularni o‘quvchilarga ko‘proq va esda qolarli qiladi. Tohir Malikning besh kitobdan iborat “Shaytanat” romanini olsak, unda necha taqdirlar, personajlar hayoti o‘tadi. Lekin har biri kitobxon ongida o‘ziga xos tarzda gavdalanib qoladi.

2. **Til vositalaridan foydalanishdagi o‘ziga xoslik** – Agata Kristi aniq va soddaligi bilan ajralib tursa, Tohir Malik asarlarida o‘zbek adabiy an’analari, milliy tasviriy vositalar va realistik dialoglar ustunlik qiladi. O‘zbek adabiyotshunos va tilshunoslari noadabiy qatlamlar mavzusiga oid misollar qidirishda ko‘pincha iste´dodli adib Tohir Malikning “Shaytanat”, “Alvido… bolalik” singari asarlariga murojaat qiladilar. Chunki bunday jinoyat mavzusidagi asarlarda boshqa asarlardan ko‘ra umumxalq va ayniqsa, bezorilar tili bo‘lgan “ko‘cha tili”ga oid leksik qatlam ko‘p uchrashini yaxshi bilishadi.

“Shaytanat” romani 3-kitobidan olingan quyidagi parchaning o‘zidan ham bunga ishonch hosil qilish mumkin (**Ta’kidlar – Sultonova D.ga oid**):

“Yigit:

– Vey, paxan, uylar **nishtyak-ku, a**? Qoyilman, **erkak,** qoyilman, **gap yo‘q**!

— deb so‘rashmoq uchun qo‘l uzatdi. – Shu ko‘chaga yo‘lim tushib **qoluvdi**, **paxanni** bir ko‘rib ketay, dedim. **Bratanlar** “**qadrdon bo‘p qoluvdik, ja daraklari yo‘q**”**, deb xapa bo‘lishdi.** Meni tanidingizmi, o‘zi?

Tanidim, – dedi Sharif, ensasi qotganini yashirmay.

— Qoyilman! **Pamyati zo‘r odamlarga besh ketaman**. Men **bratanlar**ga aytdim. “**Paxan unutadigan tarvuzlardan emas**”, dedim. **Bratanlar** meni **omonatni olib kelish**ga yuborishdi” [6; 97].

Uslubiy chegaralangan leksikaga mansub bunday jargon, argo va varvarizmlarning qo‘llanilishi jinoyat mavzusidagi asarlar tilining jonli, voqealar tasvirining ishonchli chiqishida katta o‘rin egallaydi.

Ushbu ixcham til kriminalistik asarlarni boshqa mavzulardagi adabiyot namunalaridan ajratib turadigan omillardandir va ko‘pincha asar mavzusi va xarakterini shakllantirish uchun muhim bo‘lgan ohangni belgilaydi.

Xulosa va takliflar. Kriminal asarlar o‘zining o‘ziga xos uslubi bilan adabiyotda alohida o‘rin tutadi. Ushbu janrda voqealar rivoji, syujet strukturasining nozikligi, personajlar va ularning psixologik tahlili, shubha va dramatik elementlar asarning asosiy uslubiy vositalarini tashkil etadi. Kriminal asarlarda uslubning o‘ziga xosligi o‘quvchining diqqatini voqealar rivojiga qaratishda, shuningdek, personajlarning ichki dunyosini ifodalashda katta ahamiyatga ega. Syujetning murakkabligi va nozik yoritilishi, til va stilistik vositalarning maxsus ishlatilishi janrning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kriminal asarlar nafaqat ma’lum bir syujetni taqdim etish, balki o‘quvchini psixologik va hissiy jihatdan bog‘lashga qaratilgan. Ularning uslubi va shakllantiruvchi vositalari janrning o‘ziga xosligini va uning o‘quvchi bilan aloqasini mustahkamlaydi.

Ushbu tadqiqotni olib borish natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari surildi:

1. Kriminal janr bo‘yicha adabiy solishtirma tadqiqotlar sonini ko‘paytirish kerak, chunki bu janr nafaqat o‘quvchini jalb etadi, balki jamiyatdagi muhim ijtimoiy va axloqiy masalalarni yoritishda ham samarali vositadir.

2. O‘zbek kriminal adabiyotini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish maqsadida Tohir Malik va boshqa yozuvchilarning asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish va tahliliy maqolalar bilan birga nashr etish lozim Adabiyotshunoslik sohasida kriminal janr bo‘yicha ixtisoslashgan o‘quv kurslarini tashkil qilish, bu orqali yoshlarda janrga nisbatan chuqur qiziqish va badiiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

3. Kriminal asarlar asosida zamonaviy media mahsulotlar (serial, film, podkast) yaratish orqali ushbu janrning ommabopligini oshirish, yosh avlodda kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

4. Milliy adabiy maktablar doirasida jinoyat janrining shakllanishiga oid qo‘llanmalar ishlab chiqish, bu orqali yozuvchilar va tadqiqotchilar uchun metodik asos yaratiladi.

Umuman olganda, ingliz va o‘zbek adabiyotidagi kriminal mavzudagi asar yozuvchilaridan Agata Kristi va Tohir Malik uslubi bir-biridan farqlansa ham, ularning asarlari o‘quvchini jinoyat va adolat o‘rtasidagi ziddiyatlarni chuqur anglashga undaydi. Agata Kristi o‘quvchini aql-idrok orqali jinoyatni fosh qilishga undasa, Tohir Malik jamiyatdagi jinoyatchilikning sabab va oqibatlarini ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Ularning asarlari kriminal mavzudagi asarni o‘ziga xos shakllantiruvchi vositalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu asarni jahon adabiyotida muhim o‘rin egallashiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: “O‘zbekiston”, 2002. – B.550
2. Kansas Writers Association. Crime Fiction – Sub-Genres. Avalable at: https://kwawriters.org/handouts/older-handouts/crime-fiction-sub-genres/ (Accessed 02.04.2025).
3. Christhie, A. Ten Little Niggers. – UK: Collins Crime Club, 1939. – P.380.
4. Kristi A. O‘nta negr bolasi. . – T.: “Yangi asr avlodi”, 2014. – B. 204.
5. Malik T. Alvido … bolalik. – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. – B. 224.

6. Malik, T. Shaytanat. 3-kitob. Tanlangan asarlar. 20-jild. – T:. “Sharq“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2019. – B. 248.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

D.A.Qahharova
O‘zDJTU, jahon adabiyoti kafedrasi v.b. dotsenti, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SHARQ VA G‘ARB ADABIY AN’ANALARIDA “KO‘NGIL” KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sharq va G‘arb adabiy tafakkurida “ko‘ngil” konsepsiyasining shakllanish jarayoni qiyosiy tahlil qilinadi. Sharq mumtoz adabiyotida ko‘ngil ilohiy haqiqatni idrok etuvchi ma’naviy markaz sifatida talqin etilsa, G‘arb adabiyotida u ko‘proq individual ong, ruhiy kechinma va subyektiv tajriba bilan bog‘liq holda shakllanadi. Maqolada tasavvufiy tafakkur, romantizm va modernizm doirasida ko‘ngil obrazi evolyutsiyasi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ko‘ngil, qalb, ruh, tasavvuf, romantizm, modernizm, qiyosiy adabiyotshunoslik.*

Каххарова Д.А.
Узбекский государственный университет мировых языков, и.о. доцента кафедры мировой литературы, доктор философии (PhD) по филологическим наукам

ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ «ДУША/СЕРДЦЕ» В ЛИТЕРАТУРНЫХ ТРАДИЦИЯХ ВОСТОКА И ЗАПАДА

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ процесса формирования концепта «кўнгил» в восточном и западном литературном мышлении. В восточной классической литературе кўнгил трактуется как духовный центр, воспринимающий божественную истину, тогда как в западной литературе он формируется преимущественно в связи с индивидуальным сознанием, внутренними переживаниями и субъективным опытом. В статье освещается эволюция образа кўнгил в рамках суфийского мировоззрения, романтизма и модернизма.*

Ключевые слова: *кўнгил, сердце, душа, суфизм, романтизм, модернизм, сравнительное литературоведение.*

Qahharova D.A.
Uzbekistan State World Languages University, Acting Associate Professor of the Department of World Literature, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

THE FORMATION OF THE CONCEPT OF “HEART/SOUL” IN EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITIONS

Abstract. *This article provides a comparative analysis of the formation of the concept of “ko‘ngil” in Eastern and Western literary thought. In Eastern classical literature, ko‘ngil is interpreted as a spiritual center that perceives divine truth, whereas in Western literature it is primarily associated with individual consciousness, inner experience, and subjective perception. The article examines the evolution of the image of ko‘ngil within the frameworks of Sufism, Romanticism, and Modernism.*

Keywords: *ko‘ngil, heart, soul, Sufism, Romanticism, Modernism, comparative literature.*

“Ko‘ngil” tushunchasi insonning ichki olami, ruhiy holati, hissiy-axloqiy tajribasini ifodalovchi eng muhim va markaziy kategoriyalardan biridir. U nafaqat shaxsning hissiyotlari va kechinmalarini, balki uning ma’naviy qadriyatlari, axloqiy qarashlari hamda borliqni anglash usulini ham o‘zida mujassam etadi. Ko‘ngil insonning ichki “men”i bilan tashqi olam o‘rtasidagi bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi; u orqali shaxs voqelikni his qiladi, talqin etadi va unga munosabat bildiradi. Shu bois ko‘ngil adabiy tafakkurda inson tabiatining eng nozik, eng teran qatlamlarini ifodalovchi ramziy obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Sharq adabiyotida ko‘ngil ko‘proq “qalb”, “dil”, “ruh” tushunchalari bilan uyg‘un holda qo‘llanadi va aksariyat hollarda ilohiy haqiqatni idrok etuvchi ma’naviy markaz sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa tasavvufiy adabiyotda ko‘ngil insonning Alloh bilan bog‘lanish nuqtasi, ma’rifat va muhabbat maskani sifatida tasvirlanadi. Mumtoz she’riyatda ko‘ngil ko‘pincha oshiqning iztiroblari, hijron va visol kechinmalarini o‘zida jamlagan timsol sifatida gavdalanadi. U moddiy olamdan yuksalishga intiluvchi, poklanish va kamolot sari harakat qiluvchi ichki quvvatni anglatadi.

G‘arb adabiyotida esa mazkur tushuncha “heart”, “soul”, “mind” kategoriyalari orqali ifodalanadi. Bu yerda “heart” ko‘proq hissiy kechinmalar va muhabbat bilan, “soul” insonning ma’naviy-ruhiy mohiyati bilan, “mind” esa tafakkur va ong jarayonlari bilan bog‘lanadi. Ayniqsa romantizm davrida insonning ichki dunyosi, subyektiv his-tuyg‘ulari va individual tajribasi markaziy o‘ringa chiqadi. Modernizmda esa ko‘ngilga tenglashtiriladigan ichki ong oqimi, psixologik murakkablik va ekzistensial iztiroblar tasviri ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, Sharq va G‘arb adabiy an’analarida ko‘ngil tushunchasi turlicha talqin qilinsa-da, har ikkala madaniy makonda ham u insonning ichki olamini, ruhiy izlanishlarini va ma’naviy tajribasini ifodalovchi asosiy estetik kategoriyalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Sharq mumtoz adabiyotida ko‘ngil tushunchasi tasavvufiy falsafa bilan uzviy va ajralmas bog‘liq holda shakllangan. Tasavvuf ta’limotida qalb insonning eng nozik, eng pok va ilohiy haqiqatni qabul qiluvchi markazi sifatida talqin qilinadi. U moddiy borliqdan yuksak turuvchi, ma’naviy idrok va ilohiy tajallining maskani bo‘lgan ichki makon sifatida tushuniladi. So‘fiylikda insonning komillikka erishish yo‘li aynan qalbni poklash, uni g‘aflat va nafsiy istaklardan xalos etish orqali amalga oshadi. Chunki qalb poklansa, unda Haq nuri zohir bo‘ladi, inson esa ilohiy haqiqatni idrok etish darajasiga ko‘tariladi.

Buyuk mutasavvif va shoir Jaloliddin Rumiy asarlarida ko‘ngil ilohiy ishqning manbai, ma’rifatning asosi va Haqni anglash vositasi sifatida talqin qilinadi. Uning nazarida ko‘ngil — bu oddiy hissiyotlar makoni emas, balki ilohiy muhabbat bilan to‘lib-toshadigan, insonni o‘z asl manbaiga qaytaruvchi ruhiy markazdir. Rumiy ta’limotida ishq qalbni uyg‘otuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi: aynan ishq orqali inson o‘z “men”idan voz kechib, ilohiy birlik sari intiladi.

Shoirning mashhur asari — Masnaviyda inson qalbi ilohiy nur tushadigan ko‘zgu timsolida tasvirlanadi. Agar ko‘zgu zang va g‘ubordan tozalansa, unda Haqning jamoli aks etadi; aks holda, u haqiqatni noto‘g‘ri yoki xira aks ettiradi. Bu ramziy tasvir orqali Rumiy qalbni poklash, riyozat va ma’naviy kamolot zarurligini ta’kidlaydi. Qalb — bu ilohiy sirlar ochiladigan makon, u orqali inson o‘zining asl mohiyatini anglaydi.

Umuman olganda, Sharq mumtoz adabiyotida ko‘ngil nafaqat hissiy markaz, balki kosmik va ilohiy haqiqat bilan bog‘lovchi ma’naviy ko‘prik sifatida talqin qilinadi. U insonning ichki olamida sodir bo‘ladigan ruhiy kurashlar, poklanish jarayoni va komillikka intilish ramzi sifatida yuksak badiiy-estetik mazmun kasb etadi.

Alisher Navoiy lirikasida ko‘ngil ishq azobini tortuvchi, hijron va visol o‘rtasida iztirob chekuvchi, ayni paytda ma’naviy komillikka intiluvchi markaz sifatida namoyon bo‘ladi. Navoiy she’riyatida ko‘ngil oddiy hissiy kechinmalar manbai emas, balki ilohiy ishq sinovlaridan o‘tuvchi, poklanish va yuksalish jarayonini boshdan kechiruvchi ruhiy makondir. Navoiy talqinida ko‘ngil — ilohiy ishq yo‘lida riyozat chekadigan, sabr va sadoqat bilan tozalanadigan muqaddas maskan. Oshiqning ko‘ngli ishq o‘tida kuyadi, ammo aynan shu kuyish jarayoni uni komillikka eltadi. Shoir ko‘ngilni ko‘pincha jarohatlangan, iztirob chekayotgan, lekin shu bilan birga Haq visoliga umid bog‘lagan timsol sifatida tasvirlaydi. Bu jarohat tasavvufiy ma’noda ruhiy uyg‘onish belgisi hisoblanadi.

Navoiy g‘azallarida ko‘ngil ko‘pincha oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi ilohiy munosabat maydoni sifatida gavdalanadi. U yerda ishq — sinov, ko‘ngil esa shu sinovdan o‘tuvchi maydon. Ko‘ngilning iztirobi, uning betoqatligi va beqarorligi insonning Haq sari intilishidagi ichki kurashini ifodalaydi. Shu jihatdan ko‘ngil nafs bilan ruh o‘rtasidagi ziddiyatlar markazi, ma’naviy sayr va sulukning boshlanish nuqtasi sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari, Navoiy ko‘ngilni ko‘pincha “xaroba”, “vayrona”, “dard maskani” kabi obrazlar bilan ifodalaydi. Biroq bu xarobalik tashqi emas, balki ichki poklanishning natijasidir: dunyoviy bog‘liqliklardan xoli bo‘lgan ko‘ngilgina ilohiy muhabbatni qabul qila oladi. Demak, Navoiy lirikasida ko‘ngil — ilohiy ishq yo‘lida poklanadigan, iztirob orqali yuksaladigan va nihoyat, ma’naviy komillikka erishadigan ruhiy markazdir.

Sharq she’riyatida ko‘ngil tushunchasi ishq bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinadi. Ishq — bu nafaqat hissiy tuyg‘u, balki insonni ruhiy poklanishga, ma’naviy yuksalishga eltuvchi qudratli kuch sifatida anglanadi. Ko‘ngil aynan ishq orqali uyg‘onadi, o‘z mohiyatini anglaydi va komillik sari harakat qiladi. Tasavvufiy talqinda ishq ilohiy manbadan kelgan nur bo‘lib, u ko‘ngilni g‘aflat uyqusidan uyg‘otadi, uni nafsiy istaklardan poklaydi. Sharq mumtoz she’riyatida ishq ko‘pincha iztirob, hijron, sabr va sadoqat bilan birga tasvirlanadi. Biroq bu iztirob salbiy holat emas, aksincha, ruhiy yetilishning zaruriy bosqichi sifatida talqin qilinadi.

Ko‘ngil ishq o‘tida kuygan sari tozalanadi, dunyoviy bog‘liqliklardan xalos bo‘ladi va ilohiy haqiqatni qabul qilish darajasiga yetadi. Demak, ishq — ko‘ngilni poklovchi va uni komillikka eltuvchi ma’naviy sinovdir. Masalan, Fuzuliy g‘azallarida ko‘ngil doimo iztirob ichida tasvirlanadi. Shoir lirikasida oshiqning ko‘ngli dard va hijron azobidan forig‘ emas, u doimiy ravishda ishqning og‘ir sinovlarini boshdan kechiradi. Ammo aynan ana shu iztirob va ruhiy azob ko‘ngilni poklaydi, uni yuksak ma’naviy darajaga ko‘taradi. Fuzuliy talqinida ishq — dard orqali kamol topish maktabidir; ko‘ngil esa shu maktabning saboq oluvchi markazidir. Fuzuliy she’riyatida ko‘ngil ko‘pincha beqaror, kuygan, jarohatlangan timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo bu jarohat ilohiy muhabbatning muhridir. Ko‘ngil qancha ko‘p iztirob cheksa, shuncha ko‘p poklanadi va Haq ishqiga yaqinlashadi. Shu tariqa Sharq she’riyatida ishq va ko‘ngil o‘zaro ajralmas birlikni

tashkil etadi: ishq — harakatlantiruvchi kuch bo‘lsa, ko‘ngil — shu kuchni qabul qiluvchi va undan kamol topuvchi ma’naviy markazdir.

Ko‘ngil bu yerda faqat psixologik hodisa yoki individual hissiy kechinmalar majmui emas, balki kosmik ma’no kasb etgan, ontologik mohiyatga ega ruhiy markaz sifatida talqin qilinadi. U insonning ichki olamigagina daxldor bo‘lmay, butun borliq bilan aloqador ma’naviy maydonni ifodalaydi. Shu bois Sharq tafakkurida ko‘ngil inson shaxsiyatining eng teran qatlamini, uning ilohiy manba bilan bog‘lanish nuqtasini anglatadi. Sharq an’anasida ko‘ngil — inson va Borliq o‘rtasidagi ko‘prikdir. U orqali inson koinot bilan muloqot qiladi, mavjudotlar mohiyatini his etadi va ilohiy tartibni anglashga intiladi.

Tasavvufiy qarashlarda borliq yagona haqiqatning tajallisi sifatida tushuniladi, ko‘ngil esa ana shu tajallini qabul qiluvchi markazdir. Agar ko‘ngil pok va musaffo bo‘lsa, unda borliqning ilohiy mohiyati aks etadi; agar u g‘uborlangan bo‘lsa, haqiqat pardalanadi. Shuningdek, ko‘ngil mikroolam va makroolam o‘rtasidagi uyg‘unlik timsoli sifatida ham talqin qilinadi. Inson “kichik olam” (olami sag‘ir), koinot esa “katta olam” (olami kabir) sifatida qaraladi. Ko‘ngil ana shu ikki olamni birlashtiruvchi markaziy nuqta bo‘lib, unda koinotning ma’nosi mujassam deb hisoblanadi. Shu jihatdan ko‘ngil kosmik uyg‘unlik va ilohiy tartibni idrok etish vositasidir. Demak, Sharq ma’naviy an’anasida ko‘ngil nafaqat ruhiy kechinmalar markazi, balki insonning ontologik maqomini belgilovchi, uni Borliq bilan bog‘lovchi, ilohiy haqiqatni qabul qiluvchi muqaddas maskan sifatida talqin qilinadi. U insonni o‘z mohiyatini anglashga, ichki va tashqi olam uyg‘unligini his etishga chorlaydigan yuksak ma’naviy kategoriya hisoblanadi.

G‘arb tafakkurida ko‘ngil (heart/soul) tushunchasining ildizlari qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi. Antik davr mutafakkirlari insonning ichki olamini, uning ruhiy tuzilishini va axloqiy tanlov mexanizmlarini izohlashga harakat qilganlar. Bu jarayonda ruh (psyche) markaziy kategoriya sifatida maydonga chiqadi va inson xulq-atvori hamda tafakkurining manbai sifatida talqin qilinadi. Masalan, Platon inson ruhini uch qismga — aql (logos), g‘ayrat yoki iroda (thymos) va nafsiy istaklar (epithymia)ga ajratadi. Uning qarashlariga ko‘ra, insonning ichki uyg‘unligi aynan shu uch unsur o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq. Aql boshqaruvchi kuch bo‘lib, u iroda va istaklarni tartibga solishi lozim. Shu ma’noda qalb yoki ruh axloqiy tanlov markazi sifatida namoyon bo‘ladi: insonning adolatli yoki nohaq yo‘lni tanlashi ichki tuzilmaning qay darajada uyg‘unligiga bog‘liq.

Platon ta’limotida ruhning bu uch qismli modeli nafaqat individual psixologiyani, balki jamiyat tuzilishini ham aks ettiradi. U o‘zining mashhur asari — Republicda shaxs ruhidagi uyg‘unlikni ideal davlat tuzilishi bilan qiyoslaydi. Demak, G‘arb falsafasida qalb tushunchasi boshidanoq nafaqat hissiy, balki axloqiy va ratsional mazmun kasb etgan. Keyingi antik tafakkurda, xususan, Aristotle qarashlarida ham ruh inson hayotining asosiy tamoyili sifatida talqin qilinadi. Aristotel ruhni tiriklikning shakli deb biladi va uni o‘simlik, hayvon hamda insoniy darajalarga ajratadi. Insoniy ruhning eng oliy qismi esa aql bilan bog‘lanadi. Shu tariqa G‘arb an’anasida “ko‘ngil” tushunchasi ko‘proq ong, tafakkur va axloqiy tanlov bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Demak, qadimgi yunon falsafasidan boshlab G‘arb tafakkurida ko‘ngil (yoki ruh) tushunchasi kosmik-mistik markazdan ko‘ra ko‘proq ratsional va axloqiy kategoriya sifatida shakllanadi. U insonning ichki uyg‘unligi, ongli qarori va axloqiy mas’uliyati bilan bog‘liq holda talqin etiladi.

Romantizm davriga kelib, ko‘ngil tushunchasi mutlaqo yangi mazmun kasb etadi. Agar antik va klassik tafakkurda ruh ko‘proq axloqiy yoki ratsional muvozanat bilan bog‘langan bo‘lsa, romantizmda u individual tuyg‘ular, shaxsiy kechinmalar va ichki iztiroblarning markaziga aylanadi. Endi ko‘ngil — bu umumiy tartib yoki kosmik uyg‘unlik timsoli emas, balki betakror shaxsiyatning ichki olami, uning subyektiv tajribasi va his-tuyg‘ularining manbai sifatida talqin qilinadi.

Romantik adabiyotda insonning ichki dunyosi tashqi ijtimoiy me’yorlardan ustun qo‘yiladi. Qahramonning qalbi uning haqiqat mezoniga aylanadi: u jamiyat qoidalariga emas, balki o‘z tuyg‘ulariga quloq tutadi. Shu bois romantizmda ko‘ngil ko‘pincha ziddiyatli, iztirobli, beqaror va o‘ta sezgir timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Bu davrda hissiyot — bilishning muhim shakliga aylanadi; qalb orqali his etilgan narsa eng chin haqiqat sifatida qabul qilinadi. Bunga yorqin misol sifatida Johann Wolfgang von Goethening mashhur romani — Yosh Verterning iztiroblarini keltirish mumkin. Asarda bosh qahramon Verterning qalbi individual fojeaning markazi sifatida tasvirlanadi. Uning muhabbati, umidsizligi va ruhiy iztiroblari butun voqelikni idrok etish mezoniga aylanadi. Verter uchun tashqi dunyo uning ichki kechinmalari orqali mazmun kasb etadi; tabiat manzaralari ham uning ruhiy holatiga uyg‘un ravishda tasvirlanadi.

Romantik talqinda ko‘ngil — bu cheksiz his-tuyg‘ular manbai, insonning erkinligi va betakrorligini ifodalovchi markazdir. Biroq aynan shu o‘ta sezgirlik va ichki ziddiyat qahramonni fojeaga olib keladi. Demak, romantizmda ko‘ngil individual tajribaning oliy nuqtasi, shaxsiy haqiqat va subyektiv dunyoqarashning asosiy mezoni sifatida shakllanadi. Romantiklar uchun ko‘ngil — erkinlik, ehtiros va tabiiy tuyg‘ularning asosiy manbai hisoblanadi. U insonning ichki “men”ini, uning betakrorligini va mustaqil ruhiy tajribasini ifodalovchi markazga aylanadi. Agar Sharq mumtoz tafakkurida ko‘ngil ko‘proq ilohiy tajallining maskani sifatida talqin qilingan bo‘lsa, romantizmda u insonning o‘ziga xosligi, ichki isyoni va shaxsiy haqiqatining manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Bu davr adabiyotida ko‘ngil tabiiylik va

samimiyat ramziga aylanadi. Romantiklar sun'iy ijtimoiy me'yorlarga, qat'iy ratsional qoidalarga qarshi chiqib, insonning tabiiy his-tuyg'ularini ulug'laydilar. Ko'ngil endi ilohiy nur tushadigan kosmik markaz emas, balki individual-psixologik mohiyat kasb etgan, o'z ehtiroslari va kechinmalari bilan yashaydigan ichki olamdir. Insonning ichki ovozi, sezgisi va intuitiv idroki haqiqat mezoniga aylantiriladi.

Romantik talqinda ko'ngil erkinlik bilan chambarchas bog'liq: u tashqi cheklovlarga bo'ysunmaydi, jamiyat qoidalariga qarshi turishi mumkin. Ehtiros esa ko'ngilning tabiiy holati sifatida qabul qilinadi. Muhabbat, iztirob, yolg'izlik, tabiat bilan uyg'unlik kabi motivlar romantik adabiyotda aynan ko'ngil orqali ifodalanadi. Shu tariqa romantizm davrida ko'ngil ilohiy-metafizik mazmundan ko'ra individual-psixologik mazmunga ega bo'ladi. U insonning subyektiv tajribasi, ichki erkinligi va shaxsiy dramasi markaziga aylanadi. Natijada ko'ngil tushunchasi universal kosmik uyg'unlikdan ko'ra ko'proq insonning ichki ziddiyatlari va ehtiroslariga yo'naltirilgan yangi estetik va falsafiy mazmun kasb etadi.

Modernizm davriga kelib, ko'ngil tushunchasi yanada murakkablashadi va ko'p qatlamli psixologik tuzilma sifatida talqin qilina boshlaydi. Endi u nafaqat hissiyotlar yoki romantik ehtiroslar markazi, balki ong, xotira, ongosti va vaqt tajribasi bilan uzviy bog'liq murakkab ichki makonga aylanadi. Modernistik adabiyot inson qalbini tashqi voqelik orqali emas, balki ichki kuzatuv, tafakkur jarayoni va subyektiv idrok orqali ochishga intiladi. Bu davrda ko'ngil barqaror va yaxlit markaz emas, balki parchalangan, ziddiyatli va ko'pincha o'z-o'zini anglash jarayonida iztirob chekayotgan ong sifatida tasvirlanadi. Shaxsning ichki olami tashqi voqelikdan ko'ra muhimroq bo'lib qoladi; vaqt esa chiziqli emas, balki xotira va assotsiatsiyalar orqali qayta quriladigan subyektiv hodisaga aylanadi. Bunga yorqin misol sifatida Marcel Proust ijodini keltirish mumkin. Uning mashhur epopeyasi — Yo'qolgan vaqt izidanda inson qalbining chuqur qatlamlari xotira va ichki ong oqimi orqali ochib beriladi. Proust talqinida oddiy bir ta'm yoki hid (masalan, madlen pishirig'i epizodi) butun o'tgan hayotni uyg'otuvchi ichki mexanizmga aylanadi. Bu jarayonda ko'ngil vaqtni qayta tiklaydi, unut bo'lgan kechinmalarni jonlantiradi va shaxsning o'zini anglashiga xizmat qiladi.

Modernizmda ko'ngil endi ilohiy markaz ham, faqat romantik ehtiros manbai ham emas. U murakkab psixologik makon — xotira, ong, ongosti va vaqt kesishgan nuqta sifatida namoyon bo'ladi. Inson qalbi ichki monolog, ong oqimi va assotsiativ tafakkur orqali tasvirlanadi. Shu tariqa modernistik adabiyot ko'ngilni inson mavjudligining eng murakkab va ziddiyatli sohasi sifatida talqin etadi. Modernizm davrida ko'ngil tushunchasi yanada murakkablashib, ilgari romantizmda shakllangan subyektiv tuyg'ular markazidan kengayib, psixologik va eksistensial tahlil vositasiga aylanadi. Endi ko'ngil fragmentlashgan, iztirobli va ko'pincha yolg'iz ong sifatida talqin qilinadi. Inson ichki dunyosi bir butun, uyg'un olam sifatida emas, balki turli qatlamlar, ziddiyatlar va kesishmalar majmuasi sifatida tasvirlanadi. Modernistik adabiyotda shaxsning ichki olami uning tashqi hayotidan mustaqil, o'z-o'ziga yopiq makon sifatida ko'rsatiladi, u yerda vaqt, xotira, ong va ongosti oqimi uzviy bog'liq bo'lib, ko'ngilni doimiy harakat va ichki izlanish markaziga aylantiradi.

Sharq adabiyotida esa ko'ngil ko'proq metafizik, kosmik va ilohiy ma'no kasb etadi. U inson va borliq, inson va ilohiy haqiqat o'rtasidagi ko'prik sifatida talqin qilinadi. Tasavvufiy an'analarda ko'ngil insonning ruhiy poklanish jarayoni, Haqni idrok etish va ma'rifatga intilish markazi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'ngil Sharq she'riyatida insonning ichki olamidagi yuksak ma'naviy tajribalarni, insoniyat va kosmos uyg'unligini aks ettiruvchi metafizik vosita sifatida talqin qilinadi.

G'arbda esa ko'ngil individualizm va psixologik tahlil bilan boyiydi. U insonning shaxsiy tajribasi, ichki kechinmalari, xotira va subyektiv idrokining o'rganilish markaziga aylanadi. Ko'ngilning iztirobi, yolg'izligi va ziddiyatlari G'arb adabiyotida insonning psixologik murakkabligini ochib beruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Modernistik asarlarda ko'ngil endi faqat metafizik yoki ilohiy ramz emas, balki ichki monolog, ong oqimi va inson ruhining murakkab psixologik qatlamlarini aks ettiruvchi markaziy tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, Sharq va G'arb adabiyotlarida ko'ngil tushunchasi umumiy bir tushuncha bo'lsa-da, Sharqda u kosmik va ilohiy uyg'unlikni ifodalaydi, G'arbda esa individual tajriba, psixologik chuqurlik va subyektiv izlanish bilan boyiydi. Modernizm esa aynan shu tafovutni yanada keskinlashtiradi: Sharq metafizik uyg'unlikni qadrlasa, G'arb ko'ngilni inson ichki olamining murakkab, ziddiyatli va ko'p qatlamli psixologik markazi sifatida ko'rsatadi.

Sharq va G'arb adabiy an'analarida ko'ngil konsepsiyasi uzoq tarixiy jarayonlar davomida turli falsafiy, diniy va estetik manbalardan oziqlangan holda shakllangan. Har ikki madaniyatda ko'ngil insonning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini va ma'naviy tajribasini ifodalovchi markaziy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi, biroq uning talqini va funksiyasi madaniy-manzara bo'yicha sezilarli farqlarni ko'rsatadi. Biroq har ikki an'anada ham ko'ngil inson mohiyatini anglashning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Sharqda u insonning ruhiy kamoloti va ilohiy haqiqatni idrok etish vositasi, G'arbda esa insonning psixologik, axloqiy va subyektiv tajribalarini o'rganish markazi sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan ko'ngil nafaqat adabiy obraz yoki estetik tushuncha, balki insonni o'z mohiyatiga yetaklovchi, uning ichki olami va dunyoqarashini ifodalovchi universal vosita hisoblanadi. Demak, ko'ngil konsepsiyasi Sharq va G'arbni bog'lovchi universal badiiy-falsafiy kategoriya sifatida qaraladi. U turli tarixiy, madaniy va falsafiy manbalardan oziqlanishiga

qaramay, har ikki an’anada ham insonning ichki olami, ruhiy izlanishlari va ma’naviy tajribasini ifodalovchi asosiy markaz sifatida saqlanadi. Shu tariqa ko‘ngil nafaqat mintaqaviy yoki madaniy farqlardan mustaqil holda, balki butun insoniyat adabiy-falsafiy tafakkurida yagona, umumiy va universal tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Jaloliddin Rumiy. *Masnaviy* – tasavvufiy she’riyat, qalb va ko‘ngil tushunchalari.
2.Alisher Navoiy. *Xamsa* (she’riy asarlar) – ko‘ngil va ilohiy ishq timsollari.
3.Fuzuliy. *Divan* – ishq va ko‘ngil iztiroblari.
4.Plato. *Republic* – ruhning uch qismga bo‘linishi va qalbning axloqiy markazi sifatida roli.
5.Aristotle. *De Anima* – inson ruhining tabiati va psixologik tuzilishi.
6.Johann Wolfgang von Goethe. *Yosh Verterning iztiroblari* – romantizmda ko‘ngil va individual tuyg‘ular.
7.Marcel Proust. *Yo‘qolgan vaqt izidan* – modernizmda ko‘ngil, xotira va ichki ong oqimi.
8.Abdulqodir, A. (2005). *Sharq she’riyatida qalb va ko‘ngil timsollari*. Toshkent: Fan.
9.Karimov, B. (2012). *G‘arb adabiyotida individual ruh va psixologik tahlil*. Toshkent: Adabiyot nashriyoti.
10. Said, E. (1978). *Orientalism*. New York: Pantheon Books – sharq adabiy an’analari va tasavvufiy tafakkur tahlili.
11. Bloom, H. (1990). *The Western Canon*. New York: Harcourt – g‘arb adabiy an’analari va romantizm, modernizm kontekstida ko‘ngil tushunchasi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Usmanov Sunnatulla Buriboyevich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti katta o‘qituvchisi
s.usmonov@gmail.com

UDK 808.5

MAQOLLARDA SON KATEGORIYASINING AKS ETISHI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maqollarda son kategoriyasining lingvistik va lingvokulturologik jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda son kategoriyasining grammatik, semantik va pragmatik funksiyalari, ularning maqol matnida ifodalanish shakllari hamda milliy tafakkur bilan bog‘liqligi ochib berilgan. O‘zbek va ingliz (zaruratga ko‘ra rus) maqollari misolida son birliklarining miqdor, tartib, umumlashtirish va ramziy ma’no hosil qilishdagi o‘rni aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *son kategoriyasi, maqol, paremiologiya, lingvokulturologiya, grammatik kategoriya, semantika, ramziy ma’no, milliy tafakkur, konsept, madaniy kod.*

Усманов Суннатулла Бурибойевич
старший преподаватель Института языков и культуры народов Центральной Азии
Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова

ОТОБРАЖЕНИЕ КАТЕГОРИИ ЧИСЛА В ПОСЛОВИЦАХ

Аннотация: *В статье анализируются лингвистические и лингвокультурологические аспекты категории числа в пословицах. Рассматриваются грамматические, семантические и прагматические функции категории числа, формы её выражения в тексте пословиц и их связь с национальным мышлением. На материале узбекских и английских (при необходимости — русских) пословиц выявляется роль числовых единиц в формировании количественного, порядкового, обобщающего и символического значения.*

Ключевые слова: *категория числа, пословица, паремиология, лингвокультурология, грамматическая категория, семантика, символическое значение, национальное мышление, концепт, культурный код.*

Usmanov Sunnatulla Buriboevich
Senior Lecturer Institute of Languages and Culture of Central Asian Peoples
Samarkand State University named after Sharof Rashidov

THE REFLECTION OF THE CATEGORY OF NUMBER IN PROVERBS

Abstract: *This article analyzes the linguistic and linguocultural aspects of the category of number in proverbs. The study examines the grammatical, semantic and pragmatic functions of the category of number, the forms of its expression in proverbial texts, and its connection with national thinking. Based on Uzbek and English (and, when necessary, Russian) proverbs, the role of numerical units in forming quantitative, ordinal, generalizing and symbolic meanings is identified.*

Key words: *category of number, proverb, paremiology, linguoculturology, grammatical category, semantics, symbolic meaning, national thinking, concept, cultural code.*

Kirish

Har qanday xalqning maqol va matallari umumxalq leksikasiga asoslanadi hamda avlodlar davomida shakllangan xalq og‘zaki ijodining mahsuli hisoblanadi. Fikrni obrazli va emotsional tarzda ifodalagan holda, maqol va matallar so‘zlashuv nutqida hamda badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladi. Ular xalq donishmandligining bebaho durdonalarini o‘zida mujassam etadi. Maqol va matallarda ularni yaratgan xalqning tarixi va dunyoqarashi, urf-odatlari, an’analari, axloqiy qadriyatlari, sog‘lom tafakkuri hamda hazil-mutoyibaga munosabati aks etadi. Yuzlab maqol va matallar ko‘plab avlodlar tomonidan yaratilgan va sayqallangan. E’tiborga molik jihati shundaki, o‘zbek xalqiga mansub ko‘plab maqol va matallar

internatsional xarakterga ega bo‘lib, o‘zbek tilidagi ko‘plab maqol va matallarga mazmunan deyarli mos keluvchi ingliz tilidagi maqollarni topish mumkin.

Adabiyotlar tahlili

“Maqollar va matallar – bu og‘zaki va qisqa hikmatli iboralar bo‘lib, folklor manbalariga borib taqaladi; ular umumlashtirilgan holda insonlar yoki hodisalarning xususiyatlarini ifodalaydi, ularga baho beradi va muayyan xulq-atvor tarzini belgilaydi”. Maqollar va matallar og‘zaki xalq ijodining keng tarqalgan janridir. Maqol va matallarning qachon paydo bo‘lganligi aniq ma’lum emas. O‘rta asr Yevropasida maqollar to‘plamlari tuzilgan bo‘lib, bizgacha XIII –XV asr boshlariga oid qariyb o‘ttizga yaqin qo‘lyozma to‘plam yetib kelgan.

Maqollar va matallar juda qadim zamonlarda vujudga kelgan bo‘lib, o‘sha davrdan boshlab xalq bilan birga uning butun tarixiy taraqqiyoti davomida hamnafas bo‘lib kelmoqda. Tilshunoslik fanida esa hozirgacha maqol va matallarning mohiyati hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari borasida yagona, umumqabul qilingan qarash shakllanmagan. Ko‘pincha maqol va matallar hayotdagi turli-tuman hodisalarni umumlashtirib, tipik tarzda ifodalovchi, obrazli va lo‘nda aytilgan fikrlar sifatida talqin qilinadi. Ular, odatda, umumlashma xarakterga ega bo‘lib, mazmunan yakunlangan gap shaklida namoyon bo‘ladi.

Maqol yakunlangan mantiqiy hukmni ifodalaydi. Paremiyologiyada esa matal qisqa, obrazli ifoda sifatida talqin etilib, u maqoldan xulosaning to‘liq yakunlanmaganligi bilan farqlanadi.

Qisqalik yodda saqlanadigan nutq birliklarining muhim jihatlaridan biridir. Faqat juda kam sonli maqol va matallar ko‘p so‘zli bo‘lib, ularning aksariyati besh so‘zdan ortiq bo‘lmaydi. Matal – tuzilishi jihatidan maqolga o‘xshash bo‘lgan, biroq didaktik mazmundan xoli bo‘lgan barqaror gap hisoblanadi. Ba’zan maqol bilan matalni farqlash yoki ushbu janrlar o‘rtasida aniq chegara belgilash juda mushkuldir. Matal maqol bilan chegaradosh bo‘lib, unga bitta so‘z qo‘shilishi yoki so‘zlar tartibining o‘zgarishi natijasida matal maqolga aylanishi mumkin. Og‘zaki nutqda esa matallar ko‘pincha maqolga, maqollar esa matalga aylanib boradi.

Maqol va matallarning mamlakatshunoslik jihatidan muhim til birliklari sifatidagi ahamiyatini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. “Tarixchi maqol va matallarda uzoq o‘tmish hamda qadim zamonlarda sodir bo‘lgan muhim voqealar haqidagi dalillarni izlaydi. Huquqshunos ularni xalq hayotining yozilmagan qonunlari sifatida qadrlaydi. Etnograf xalqona iboralar, obrazli ta’rif va tavsiflarda allaqachon yo‘qolib ketgan urf-odatlar va ijtimoiy tartiblarning aksini ko‘radi. Faylasuf esa maqol va matallar orqali xalq tafakkurining tuzilishini anglashga intiladi”.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqol va matallarning kelib chiqish manbalari nihoyatda xilma-xildir. Biror fikrning maqolga aylanishi uchun u oddiy xalq tomonidan qabul qilinishi va o‘zlashtirilishi lozim. Bunda mazkur fikrning dastlabki manbayi ko‘pincha unutilib ketadi. Maqol shakliga kirgach, u ijtimoiy ongning ajralmas qismiga aylanadi; maqolni qo‘llovchi shaxs uchun uni kim yaratgani muhim emas. Ishonch bilan aytish mumkinki, har bir maqol muayyan shaxs tomonidan muayyan sharoitda yaratilgan, biroq juda ko‘plab qadimiy maqollarning kelib chiqish manbayi butunlay yo‘qolgan. Shu sababli maqol va matallar xalq ijodining mahsuli sifatida qaraladi, ya’ni ularning dastlabki manbayi xalqning kollektiv tafakkurida mujassamdir. Kundalik hayot tajribasini umumlashtiruvchi ko‘plab iboralarda so‘zlarning ma’nosi, ehtimol, asta-sekin, hech qanday maxsus e’lon yoki belgilarsiz, maqol shakliga aylangan.

Boshqa tomondan, ko‘plab maqollar muayyan tarixiy sharoitlarda yashab ijod qilgan, teran tafakkur egasi bo‘lgan aniq shaxslar tomonidan yaratilgani ham shubhasizdir. Agar bunday ijod jarayoni og‘zaki shaklda kechgan bo‘lsa, tabiiyki, uning yozma guvohliklari saqlanib qolmagan. Ammo agar fikr sohibi o‘z mulohazalarini yozib borishga odatlangan ziyoli inson bo‘lgan taqdirda, ayrim hollarda maqolning dastlabki manbasini aniqlash imkoniyati mavjud bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, xalqona va adabiy manbalar o‘zaro uzviy ravishda qorishib, yagona madaniy hodisaga aylanadi. Bosma so‘zning keng tarqalishi natijasida dono va ziyoli kishilarning hikmatli fikrlari tobora ko‘proq oddiy xalq orasiga singib bordi. Agar bu fikrlar xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va ehtiyojlariga mos tushsa, ular omma tomonidan qabul qilinib, maqol darajasiga ko‘tarildi. Bu holat shuni yaqqol isbotlaydiki, donolik faqat yozuvchi yoki olimlarga xos emas. Oddiy xalq ichida ham hayotni chuqur anglaydigan, tajriba va kuzatuv asosida umumlashma xulosalar chiqara oladigan aqlli va farosatli kishilar ko‘p bo‘lgan. Aynan ana shu xalq donishmandligi yozma adabiyot bilan o‘zaro ta’sirda rivojlanib, maqollarni umuminsoniy ma’naviy boylik darajasiga olib chiqqan.

Natijalar va Muhokama

Son – matematikadagi asosiy tushunchalardan biri bo‘lib, u sanash yoki o‘lchash natijalarini ifodalash imkonini beradi. Son tushunchasi ko‘plab matematik nazariyalar uchun boshlang‘ich asos hisoblanadi. Sonlar fizika, mexanika, astronomiya, kimyo va boshqa ko‘plab fanlarda keng qo‘llaniladi. Shuningdek, insonlar kundalik hayotda ham sonlardan doimiy ravishda foydalanadilar.

Olimlarning fikricha, dastlab faqat 1 va 2 sonlarigina nomga ega bo‘lgan[5]. Qadimgi rimliklar (ular o‘sha davrda lotin tilida so‘zlashgan) 1 soniga nom berishda Quyoshning osmondagi yagona ekanligidan kelib chiqqanlar. 2 sonining

nomi esa ko‘plab tillarda juft holda uchraydigan buyumlar – masalan, qanotlar, quloqlar, ko‘zlar va shunga o‘xshash narsalar bilan bog‘liq bo‘lgan. Biroq ayrim hollarda 1 va 2 sonlariga boshqa nomlar ham berilgan. Ba’zan ular “men” va “sen” olmoshlari bilan bog‘langan, ayrim tillarda esa “bir” so‘zi “erkak”, “ikki” so‘zi esa “ayol” ma’nosida ishlatilgan.

Ba’zi qabilalarda yaqindagina “bir” va “ikki”dan boshqa son nomlari mavjud bo‘lmagan. Ikki sonidan keyingi barcha miqdorlar “ko‘p” so‘zi bilan ifodalangan. Biroq vaqt o‘tishi bilan boshqa sonlarni ham nomlash zarurati paydo bo‘lgan. Chunki ovchining itlari, o‘qlari yoki cho‘ponning qo‘ylari soni ikkidan ortiq bo‘lishi mumkin edi. Shu sababli juda qiziqarli usul o‘ylab topilgan, sonlar bir va ikki sonlarining nomlarini bir necha bor takrorlash orqali ifodalanadigan bo‘lgan. Keyinchalik boshqa qabilalar biz “uch” deb ataydigan son uchun alohida nom joriy etganlar. Avval ular “bir”, “ikki”, “ko‘p” tarzida sanaganliklari sababli, yangi paydo bo‘lgan bu son “ko‘p” so‘zi o‘rnida qo‘llanila boshlagan.

Ba’zan 3 soni insonni o‘rab turgan butun borliqni ifodalash uchun ishlatilgan, ya’ni dunyo yer usti, yer osti va osmon olamiga bo‘lingan. Shu sababli 3 soni ko‘plab xalqlarda muqaddas son sifatida qaralgan.

Ko‘plab ertaklarda qahramon uch boshli ajdaho bilan jang qiladi, boshqa ertaklarda esa u uchta podshohlik – mis, kumush va oltin podshohliklaridan o‘tadi. Boshqa xalqlar esa olamni vertikal yo‘nalishda emas, balki gorizontal yo‘nalishda tasavvur qilganlar. Ular to‘rt tomonni – sharq, janub, g‘arb va shimolni, shuningdek, to‘rtta asosiy shamolni bilishgan. Bu xalqlarda 3 soni emas, balki 4 soni muhim ramziy ahamiyat kasb etgan.

Vaqt o‘tishi bilan inson hisoblash uchun eng qulay vosita o‘z qo‘lida – ya’ni barmoqlarida ekanligini anglab yetdi. Xuddi bolalar barmoqlar yordamida sanashni o‘rgangani kabi, jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida odamlar ham hisoblashni qo‘llarning o‘nta barmog‘i orqali amalga oshirganlar. Hozirgi kunda ham “barmoqlar bilan sanab chiqmoq” degan ibora qo‘llaniladi. Ana shu holatdan kelib chiqib, o‘nlik yoki o‘nlik sanoq tizimi shakllangan.

Odamlar hisoblashni beshliklar, o‘nliklar va yigirmaliklar bo‘yicha boshlashgan (hatto oyog‘ining barmoqlari ham hisoblashda ishlatilgan!). O‘nliklar bo‘yicha hisoblash esa bizning o‘nlik sanoq tizimimizda saqlanib qolgan. Shuningdek, ba’zi raqamlarning nomlari ham saqlangan bo‘lib, ular birinchi “hisoblash mashinasi” – qo‘l va oyoq barmoqlariga bog‘liq. Masalan, Angliyada dastlabki o‘n raqamni umumiy nom bilan “fingers” (barmoqlar) deb atashadi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, inglizlar ham bir paytlar barmoqlari bilan hisoblashgan.

O‘nlik sanoq tizimining jiddiy raqibi sifatida esa o‘n ikkiyona (duodecimal) tizim paydo bo‘lgan. Bu tizimda o‘nliklar o‘rniga “dona o‘n ikki” – ya’ni 12 ta predmetdan iborat guruhlar ishlatilgan. Ko‘plab mamlakatlarda ayrim mahsulotlar: vilkalar, pichoq va qoshiq, o‘n ikki dona (duzin) shaklida sotiladi. Stol idishlar to‘plamida odatda 12 ta chuqur, 12 ta yassi va 12 ta kichik idish bo‘lishi, choy to‘plamida esa 12 ta chashka va 12 ta kosacha bo‘lishi odatiy hol hisoblanadi.

Qadimgi odamlar Quyoshning yilda yulduzlar osmoni bo‘ylab o‘tadigan yo‘lini uzoqdan bilishgan. Yilni 12 oyga bo‘lgach, bu yo‘lning har bir qismini “Quyosh uyi” deb atashgan va bu uylar ichidagi yulduzlarni bir guruhga, ya’ni yulduzlar to‘plamiga birlashtirishgan. Shu tariqa Burjlar paydo bo‘lgan.

Ingliz va o‘zbek maqollarida sonlarning qo‘llanilishiga kelsak, sonlar fikrimizni ifodalashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Bir raqami o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lgan raqamdir. Birlik yagona bo‘lishni ifodalaydi. Bir raqami odatda boshlanishni, yagona narsani, juda kichik, lekin shu bilan birga muhim bo‘lgan biror narsani bildiradi.

“One chick keeps a hen busy” maqoli o‘zbek tilidagi “Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak” maqoliga to‘g‘ri keladi. Ingliz madaniy kontekstida bu maqol asosan kundalik hayotdagi kichik narsaning katta ta’sirini ifodalaydi. Ingliz tilida “one small thing can create a lot of work” kabi iboralar bilan bog‘liq. Masalan, bir bola uyda ko‘p bandlik tug‘diradi yoki kichik muammo katta vazifani talab qiladi. Humor va understatement ingliz madaniyatida bu turdagi maqollar ko‘pincha hazil bilan aytiladi.

Sonning ramziy ma’nosiga kelsak, One (bir, bitta) – minimal, boshlang‘ich, yagona; ramziy jihatdan, bitta kichik element ham katta natijaga olib kelishi mumkin, ya’ni kamdan-kam narsa ham muhim.

“Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak” maqolini o‘zbek madaniyati va sonning ramziy ma’nosi nuqtayi nazardan tahlil qilaylik. Bu maqol odatiy kundalik hayotiy tajriba va xalq donoligiga asoslangan. O‘zbek madaniyatida maqollar ko‘pincha hayotiy tajriba va mantiqiy tushunchalarni qisqa, esda qoladigan shaklda ifodalaydi. Hayotiy tajribaga ko‘ra, tovuqni boqish uchun faqat oziq (don) yetarli emas, balki suv ham kerak. Bu hayotiy voqelikni ifodalaydi, hayotdagi har qanday mavjudlik, har qanday ish muvaffaqiyatga erishishi uchun bir nechta omilning birlashishi zarur. Madaniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan, o‘zbek xalqining oziq-ovqatga, mehnatga va ehtiyotkorlikka bo‘lgan qadriyatlarini aks ettiradi. Bu maqol orqali ota-bobolarimiz “har bir ishni amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni inobatga olish zarur” degan donolikni targ‘ib qilgan.

Umuman olganda, maqol mahsulot yoki maqsadga erishishda yetarli sharoit va resurslar muhimligini eslatadi. Bu o‘zbek madaniyatida mas’uliyat, mehnat va ehtiyotkorlik kabi qadriyatlarni ta’kidlaydi.

Turli xalqlarning maqollari va matallari taqqoslanganda, bu xalqlar orasida qancha umumiy jihatlar mavjudligini ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida ularning bir-birini yaxshiroq tushunishi va yaqinlashishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga,

ko‘plab ingliz va o‘zbek maqollari ko‘p ma’nolilikka ega bo‘lib, ularni talqin qilish va taqqoslashni qiyinlashtiradi. Shunga qaramay, shuni e’tiborga olish lozimki, turli tarixiy sharoitlarda shakllangan ingliz va o‘zbek maqollari bir xil yoki yaqin mazmunni ifodalash uchun ko‘pincha turlicha obrazlardan foydalangan, bu esa o‘z navbatida xalqlarning ijtimoiy tuzilishi va turmush tarzini aks ettiradi va ko‘pincha mutlaq ekvivalent bo‘la olmaydi.

Tilni o‘rganish mamlakat madaniyatini o‘rganishsiz imkonsizdir. Shubhasiz, maqollar va hikmatli so‘zlar har bir xalq madaniyatining ajralmas qismidir. Ular orqali xalqning jonli tili yorqin va ochiq ifodalanadi, avloddan-avlodga yetib kelgan bilimlar saqlanadi va til hamda o‘rganilayotgan mamlakat tarixining ildizlarini izlash mumkin bo‘ladi.

Xulosa

O‘zbek va ingliz xalqlari madaniy qatlamlarida bir-biriga yaqinlik aks etadi. Buning aksini, xususan, maqollarda ham ko‘rishimiz mumkin. Ko‘plab maqollar mazmunan o‘xshash bo‘lsa, ba’zilari esa xalqning dunyoqarashini aks ettirib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Ko‘plab maqollarni o‘zbek tiliga osonlik bilan tarjima qilish mumkin, biroq ba’zilari tushuntirishni talab qiladi, chunki ular o‘zbekcha ifodalar bilan umuman mos kelmaydi. Tilning har bir o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bir xalq madaniyatining bir qismi hisoblangan iborani boshqa tilga tarjima qilish juda murakkabdir. Shu sababli, inglizlarning maqoli bilan nimani anglatmoqchi ekanliklarini o‘zbek tilida to‘liq yetkazish uchun mos o‘zbek ekvivalentini tanlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. М., 1983.- с. 88
2. Большой энциклопедический словарь. –М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. Том 34, стр.243
3. Большой энциклопедический словарь. –М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. Том 33, стр.361
4. Аникин В.П. Мудрость народов //Пословицы и поговорки народов Востока. М., 1961.- с. 7.
5. Кордемский Б.А., Ахадов А.А. Удивительный мир чисел.-М.:Просвещение,1996. – 187 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Kasimova Fatima Turgunovna
senior teacher, the department of English Applied Disciplines 1.E-mail: fotimakosimova331@gmail.com

CROSS-CULTURAL MISUNDERSTANDINGS OF COMMISSIVES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.

Abstract. *Commissives are one of the types of illocutionary speech acts that commit a speaker to a future course of action. Commissives express promises, offers and vows. They are often treated as contractual obligations where "sincerity conditions" are strictly tied to individual action. The article scrutinizes the usage of commissives in English and Uzbek languages in terms of sociocultural norms governing their implementation vary greatly between Western and Central Asian contexts.*

Key words: *commissives, cross-cultural misunderstanding, promise, offer, threat.*

Косимова Фотима Турғуновна
старший преподаватель Кафедры прикладных дисциплин английского языка 1 E-mail: fotimakosimova331@gmail.com

МЕЖКУЛЬТУРНОЕ НЕДОПОНИМАНИЕ ПРЕДЛОЖЕНИЙ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *Комиссивы — это один из типов иллокутивных речевых актов, обязывающих говорящего к совершению определённых действий в будущем. Комиссивы выражают обещания, предложения и клятвы. Часто они рассматриваются как договорные обязательства, где «условия искренности» строго привязаны к индивидуальным действиям. В статье анализируется использование комиссивов в английском и узбекском языках с точки зрения социокультурных норм, регулирующих их применение, которые значительно различаются в западном и центральноазиатском контекстах.*

Ключевые слова: *обязательства, межкультурное непонимание, обещание, предложение, угроза.*

Kosimov Fotima Turg`unovna
O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ingliz tili amaliy fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi E-mail: fotimakosimova331@gmail.com

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI KOMISSIVLARNING MADANIYATLARARO TUSHUNMOVCHILIKLARI

Annotatsiya. *Komissivlar - bu so`zlovchini kelajakdagi harakatlar yo'nalishiga majbur qiladigan illokutiv nutq harakatlarining turlaridan biri. Komissivlar va'dalar, takliflar va qasamlarni bildiradilar. Ular ko'pincha "samimiylik shartlari" individual harakatlar bilan qat'iy bog'liq bo'lgan shartnoma majburiyatlari sifatida qaraladi. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi komissiyalarning ijtimoiy-madaniy me'yorlar nuqtai nazaridan qo'llanilishi g'arbiy va Markaziy Osiyo sharoitlarida juda katta farq qiladi.*

***Kalit so`zlar:*** *kommissivlar, madaniyatlararo tushunvomchilik, va`da, taklif va qo`rqitish.*

Introduction

Language is not a neutral tool for transmitting information — it is a culturally coded system through which speakers negotiate relationships, obligations, and social realities. Among the various categories of speech acts, commissives possess a particularly significant role, as they bind the speaker to a future course of action. Promises, pledges, offers, vows, and threats all fall under this umbrella, each carrying with it a complex web of social expectations, moral weight, and interpersonal consequence. When these acts are performed across cultural boundaries, the potential for misunderstanding is considerable.

Literature review

Cross-cultural communication has long been a central concern in Pragmatics, particularly in studies examining how speech acts function across languages and cultures. One important category of speech acts is Commissive Speech Acts,

which includes promises, offers, vows, guarantees, and commitments made by a speaker regarding future actions. Misunderstandings related to commissives often arise when interlocutors from different cultural backgrounds interpret the strength, sincerity, or obligation of such commitments differently.

The theoretical foundation for the study of speech acts was laid by J. L. Austin in his seminal work *How to Do Things with Words* (1962), where he introduced the concept of performative utterances and emphasized that language can function as action. Austin classified speech acts into several categories and highlighted the importance of context in determining their meaning. Building on this framework, John Searle (1969) further systematized speech act theory and identified five major types of illocutionary acts, including commissives. According to Searle, commissive acts commit the speaker to a future course of action, making them particularly sensitive to cultural norms of obligation, politeness, and social hierarchy.

English and Uzbek are rather different in terms of representation of commissives. A speaker may correctly produce a commissive utterance in English while entirely miscalculating how it will be received by an Uzbek interlocutor, or vice versa. Uzbek, rooted in a collectivist, high-context cultural framework shaped by Islamic tradition and Central Asian social norms, encodes commissive speech acts quite differently from English, which tends to reflect more individualistic, low-context communicative values. An offer made in Uzbek social convention may carry expectations of acceptance that an English speaker would not anticipate.

This study investigates the nature and sources of cross-cultural misunderstandings arising from commissive speech acts in English and Uzbek. It aims to identify the linguistic and cultural mechanisms underlying such miscommunication, and in doing so, contribute to a richer understanding of intercultural pragmatic competence.

Methods

The scrutiny in the article is based on comparative analysis of English and Uzbek commissives. The commissives in both languages possess both similarities and differences. The commissives in these compared languages have been juxtaposed in terms of politeness formulas, hierarchy systems and indirectness/directness. English language is mostly based on directness, individual politeness formulas and hierarchy systems while in Uzbek language, indirectness and veneration for senior members of society is quite important.

Results and discussion

Promises in English and Uzbek are expressed differently by taking into account of certain levels of obligation, sincerity and cultural weight.

The promise is perhaps the most typical commissive speech act, yet it is also one of the most culturally variable. In English, a promise is typically regarded as a obligatory, individualistic commitment. When an English speaker says "I promise I will call you tomorrow," the utterance creates a direct, personal obligation. This reflects the broader Anglo-American cultural value of individual accountability and the sanctity of one's word as a personal contract.

In Uzbek, the semantics of promising are considerably more nuanced and socially connected. The Uzbek language offers a range of lexical and grammatical resources for commissive acts that encode not merely intention but social relationship and degree of certainty. The expression "Aytaman" (I will say / I will tell) or "Kelaman" (I will come) may function as promises in context, but they are frequently understood as expressions of goodwill and social solidarity rather than ironclad obligations.

This difference generates a frequent cross-cultural misunderstanding: an English speaker may interpret an Uzbek speaker's commissive expression as a firm promise and feel deceived or disrespected when it goes unfulfilled, while the Uzbek speaker may have understood the utterance as a socially warm, aspirational statement rather than a contractual commitment.

Offers are another type of commissive speech acts that are expressed based on politeness and the obligation to refuse or accept.

In English pragmatics, an offer is a commissive that simultaneously benefits the hearer and presents a genuine choice: the hearer may accept or decline without any significant face threat to either party. English offers are frequently created by mitigation devices: "Would you like some tea?" or "I could help you with that, if you'd like" preserve the hearer's freedom to decline.

Uzbek offer rituals, by contrast, are created by a deeply basis on cultural script that has no direct equivalent in English. The practice of "takalluf" — a form of ritualized, sincere-sounding refusal — is a normative feature of Uzbek social interaction. When an Uzbek host offers food, hospitality, or assistance, the guest is culturally expected to refuse at least once or twice before accepting. This is not evasiveness or insincerity; rather, it is a performative script that signals modesty, respect, and social grace. The host, in turn, is expected to persist with the offer, demonstrating the sincerity of their generosity. Only after this ritual exchange does acceptance become socially appropriate.

An Uzbek speaker being in an English-speaking environment may persistently re-offer something after an initial polite decline, which the English speaker may experience as pressuring or socially overbearing.

Threats and *warnings* in both these compared languages are delivered through by using various lexical and syntactic expressions based on indirectness and hierarchy.

In English, threats are typically performed directly, though they are often alleviated by institutional or relational framing: "If you don't submit this by Friday, there will be consequences." The directness of English commissive threats reflects a cultural preference for explicit, transparent communication, even in adversarial contexts. The speaker assumes responsibility for the utterance and its consequences.

Uzbek speakers tend to use indirect commissive strategies that convey the same illocutionary force through implication, proverb, or third-person framing. A supervisor in an Uzbek professional setting might say something equivalent to "Those who do not value their position often find themselves without one" rather than issuing a direct personal threat. This indirectness is not ambiguity — the intended meaning is perfectly clear to a culturally competent Uzbek hearer — but it can entirely escape an English-speaking interlocutor who is accustomed to locating illocutionary force in direct propositional content rather than in implicature.

Refusals are another common types of commissives which mostly appears due to indirectness

The refusal of a commissive — declining to make a promise and rejecting an offer. In English, refusals are typically performed with direct negative markers softened by explanation or apology: "I'm sorry, I won't be able to make it" or "I can't promise that, but I'll try." The English politeness system permits and even encourages direct refusals, provided they are appropriately mitigated.

Uzbek speakers typically prefer to refuse commissives through elaborate indirect strategies: glance to circumstance ("the situation is difficult right now"), appeals to third-person authority ("I will need to consult with..."), or open-ended deferral ("Let us see what can be done"). These strategies preserve the face of both speaker and hearer while communicating the refusal through implicature rather than direct statement.

Conclusion

In general, there are more diverse points between commissives as illocutive speech acts in English and Uzbek languages than similarities that may lead to some misunderstandings among speakers of these compared languages. English commissives, shaped by individualistic, and largely based on cultural orientations, prioritize explicitness, personal accountability, and the autonomy of the individual speaker whereas Uzbek commissives, rooted in a collectivist, and Islamic cultural framework, foreground relational harmony, social hierarchy, collective contingency. It is important to acknowledge that this study, while systematic in its approach, operates within certain limitations. The analysis has focused primarily on generalized cultural patterns and representative examples rather than on empirical corpus data drawn from recorded intercultural interactions.

Used literature

1. , J. L. (1962). *How to do things with words*. Oxford University Press.
2. Blum-Kulka, S., House, J., & Kasper, G. (Eds.). (1989). *Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies*. Ablex Publishing Corporation.
3. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.
4. Byram, M. (1997). *Teaching and assessing intercultural communicative competence*. Multilingual Matters.
5. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics, Vol. 3: Speech acts* (pp. 41–58). Academic Press.
6. Hofstede, G. (1980). *Culture's consequences: International differences in work-related values*. SAGE Publications.
7. Kasper, G., & Blum-Kulka, S. (Eds.). (1993). *Interlanguage pragmatics*. Oxford University Press.
8. Leech, G. N. (1983). *Principles of pragmatics*. Longman.
9. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press.
10. Marasulova, Z. (2019). Communicative behavior in Uzbek discourse: Politeness and face-saving strategies. *Journal of Language and Linguistic Studies, 15*(2), 412–428.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Ermetova Jamila Ismailovna
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
jamilaismailovnae@gmail.com
Ruzmetova Ozoda Alimovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b.dotsent
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
r.ozoda@gmail.com

UDC 81’373

FANLARARO ILMIY TIL: TERMINLARNING SEMANTIK O‘ZGARISHI VA TADQIQI

Annotatsiya:*Ushbu maqolada fanlararo aloqalarning rivojlanishi natijasida terminologik tizimlarda sodir bo‘layotgan semantik o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Bir sohadan ikkinchi sohaga o‘tgan terminlarning ma’no ko‘lami kengayishi yoki torayishi, shuningdek, fanlararo terminlarning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi.*

Kalit so‘zlar: *terminologiya, fanlararo terminlar, semantik derivatsiya, determinologiya, kognitiv tilshunoslik.*

Эрметова Жамила Исмаиловна
Кандидат филологических наук, доцент
Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни
Рузметова Озода Алимовна
Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, и.о. доцента
Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ НАУЧНЫЙ ЯЗЫК: СЕМАНТИЧЕСКОЕ ИЗМЕНЕНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕРМИНОВ

Аннотация: *В данной статье анализируются семантические изменения, происходящие в терминологических системах в результате развития междисциплинарных связей. Изучаются расширение или сужение значения терминов, переносимых из одной области в другую, а также специфические особенности междисциплинарных терминов.*

Ключевые слова: *терминология, междисциплинарные термины, семантическая деривация, детерминология, когнитивная лингвистика.*

Ermetova Jamila Ismailovna
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni
Ozoda Alimovna Ruzmetova
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Acting Associate Professor
Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC LANGUAGE: SEMANTIC CHANGE AND STUDY OF TERMS

Abstract: *This article analyzes the semantic changes occurring in terminological systems as a result of the development of interdisciplinary relations. The expansion or narrowing of the meaning of terms transferred from one field to another, as well as the specific features of interdisciplinary terms, are studied.*

Key words: *terminology, interdisciplinary terms, semantic derivation, determinology, cognitive linguistics.*

Kirish

Dunyo ilm-fanining rivojlanishi, ularning yanada taraqqiy qilishi har doim terminologiya bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Terminologiya masalalarining yechimini topish uchun tilshunos olimlar va muayyan soha mutaxassislari o‘zlarining ilmiy

ishlarini olib bormoqdalar. Terminologiya sohasi borasida olib borilayotgan ko‘plab tadqiqotlarga qaramay, u zamonaviy dunyo tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki har bir sohaning rivojlanganlik darajasi uning terminlari, terminologiyasi mukammal shakllanganligi bilan ham belgilanadi.

Bugungi kunda fan va texnikaning jadal taraqqiyoti “fanlararo integratiya” tushunchasini yuzaga keltirgan. Bu jarayon bevosita tilga, xususan, ilmiy terminologiyaga ta’sir ko‘rsatmoqda. Muayyan bir fanga tegishli bo‘lgan termin boshqa fan doirasiga kirib kelishi natijasida o‘zining birlamchi ma’nosini saqlab qolgan holda, yangi semantik qirralarni kashf etadi.

Shu bois terminologik tizimlarning sshakllanishi va rivoji nafaqat muayyan fan doirasida, balki fanlararo aloqalar kontekstida ham o‘rganilishini taqozo etadi. Fanlararo integratsiya jarayonida terminlarning ma’no doirasi kengayib, ularning funksional imkoniyatlari ortadi, bu esa terminologik birliklarning qayta talqin qilinishiga olib keladi. Natijada terminlarning semantik tuzilishi murakkablashib, ularni tizimli ravishda tadqiq etish zarurati yuzaga keladi. Mazkur holat terminologiya masalalarining nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq tahlil qilishni, shuningdek, til va tafakkur, til va fan o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlashni zaruriy vazifaga aylantiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Zamonaviy ilm-fanda fanlararo terminologiyani tadqiq etilishi dolzarb masalalardan biri bo‘lib, o‘zbek tili terminologiyasini jahon andozalari darajasiga ko‘tarish, milliy ilmiy tilning boyish qonuniyatlarini ochib berish va fanlararo terminlarning semantik chegaralarini belgilash nazariy tilshunoslikning eng ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bois, terminlarning semantik transformatsiyasini kognitiv va funksional jihatdan o‘rganish lingvistik muammolarni yechishda fundamental ahamiyat kasb etadi.

Termin bir sohadan ikkinchi sohaga o‘tganda o‘zining qat’iy ma’no chegaralarini yo‘qotish yoki yangi semantik ma’no olishi mumkin. Bu jarayonni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki umumiy ilm-fan metodologiyasi uchun ham dolzarbdir.

O‘zbek tilshunosligida ham turli fan va soha terminlarining lingvistik xususiyatlarini o‘rganish yuzasidan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. O‘zbek tilshunos olimlaridan S.Akobirov[1], O.Usmonov[2], A.Madvaliyev[3], H.Dadaboyevlar[4] o‘zbek terminologiyasiga o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlari bilan salmoqli hissa qo‘shganlar. Shuningdek, boshqa ko‘plab tilshunos olimlar ham o‘z ilmiy ishlarining tadqiqot obyekti sifatida terminlarni o‘rganganlar. Shuningdek, boshqa ko‘plab tilshunos olimlar ham o‘z ilmiy ishlarining tadqiqot obyekti sifatida terminlarni o‘rganganlar va bu tadqiqotlarga misol qilib, O.S.Axmedov[5], D.X.Kadirbekova[6], D.I.Xodjayeva[7] kabi bir qator tilshunoslarning ishlarini ko‘rsatish mumkin.

Mazkur tadqiqot fanlararo terminlarning semantik o‘zgarishini aniqlash va ularning turli ilmiy diskurslardagi funksional xususiyatlarini ochib berishga qaratildi. Tadqiqotda kompleks yondashuv asosida bir nechta metodlar qo‘llanildi. Avvalo, komparativ (qiyosiy) tahlil usuli yordamida bir terminning turli fan sohalaridagi (masalan, matematika, biologiya, lingvistika, harbiy soha) ma’nolari o‘zaro solishtirildi. Bu orqali terminlarning ma’no kengayishi, torayishi yoki semantik siljishi aniqlashtirildi.

Shuningdek, kontekstual tahlil metodi asosida terminlarning ilmiy matnlardagi qo‘llanish holatlari o‘rganildi va ularning konkret nutqiy vaziyatda qanday ma’no kasb etishi belgilandi. Terminlarning birlamchi va ikkilamchi semantik qatlamlari matn doirasida tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida kognitiv yondashuv ham muhim metod sifatida xizmat qildi. U orqali inson tafakkurida bir soha tushunchasining boshqa soha konsepti bilan qanday bog‘lanishi, metaforik va metonimik ko‘chish mexanizmlari izohlandi.

Bundan tashqari, terminlarning lug‘aviy izohlarini aniqlashda izohli lug‘atlar va ilmiy manbalarga tayangan holda deskriptiv (tasviriy) metod qo‘llanildi. Olingan natijalar tizimlashtirilib, fanlararo terminologiyaning semantik transformatsiya jarayonlari ilmiy asosda umumlashtirildi.

Natijalar va muhokama

Bugungi kunda fanlararo terminologiyani o‘rganish ham muhim yo‘nalishlardan bo‘lib, bir qator olimlar, tilshunoslar bu mavzu yuzasidan ham o‘z tadqiqotini olib bormoqdalar. Hozirda fanlar bir-biri bilan aloqasi ortib boryaptiki, natijada bitta termin bir nechta sohada turlicha ishlatilib kelinmoqda.

Terminlarning semantik o‘zgarishi odatda metafora yoki metonimiya asosida yuz beradi. Oddiy so‘z ilmiy tilga o‘tganda yoki bir fandan ikkinchi fanga ko‘chganda uning ma’no ko‘lami torayishi yoki kengayishi kuzatiladi.

Ba’zan termin o‘ta ommalashib, umumtil birligiga aylanib qoladi. Xususan, radio, televizor, telefon so‘zlari ham ma’lum soha terminlari sifatida yuzaga kelgan, ammo hozirgi paytda bu terminlar ommalashib, barchaning nutqida qo‘llanadigan, barchaga tushunarli bo‘lgan so‘zlarga aylangan. Bu hodisa tilshunoslikda determinlashish deyiladi [8]. Yana boshqacha aytganda, terminning o‘z xususiy sohasidan chiqib, umumiste’mol so‘ziga aylanishi determinologiya hodisasi

hisoblanadi. Bunga yana bir misol sifatida, sterss so‘zini olsak, u dastlab metallurgiya termini bo‘lgan, keyinchalik u tibbiyotga, hozir esa kundalik nutqqa o‘tgan.

Transterminologiya hodisasi – bu bir fanga tegishli terminning boshqa fanga ko‘chishi hisoblanadi [9]. Bunga misol qilib, adaptatsiya termini biologiyadan sotsiologiya va pedagogikaga o‘tishini olishimiz mumkin.

Ushbu mavzuni tadqiq qilishda biz komparativ tahlil, kontekstual tahlil va kognitiv yondashuv usullaridan foydalandik. Ular asosida terminlarning turli fanlardagi lug‘aviy ma’nolari qiyoslandi, matnda termin qanday semantik ma’no olayotganini aniqlandi va inson ongi qanday qilib bir sohadagi tushunchani ikkinchi soha tushunchasi bilan bog‘lashi o‘rganildi.

Tilshunoslikning fanlararo tabiatga ega bo‘lishi, uning tarkibiga tabiiy va aniq fanlar terminlarining kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyasi uni yanada aniqroq va amaliyroq fanga aylanishiga sabab bo‘ladi. Quyida eng muhim bo‘lgan terminlarning semantik transformatsiyasini tahlilga tortganmiz:

Maydon – fizikadan lingvistikadan o‘tgan termin bo‘lib, fizikada “maydon” (elektromagnit, gravitatsiya maydoni) – biror fizik hodisa ro‘y beradigan yoki uning ta’siri seziladigan fazo [10]. Tilshunoslikda ham maydon, semantik maydon tushunchasi shakllangan. Shunga ko‘ra fizik maydondagi “kuch chiziqlari” o‘rnini lingvistikada “ma’no munosabatlari” (sinonimlar, antonimiya, iyerarxiya) egallagan. Natijada, til shunchaki so‘zlar to‘plami emas, balki, o‘zaro bog‘liq elementlarning yaxlit mantiqiy tizimi sifatida qaraladi[11].

Tlishunoslikda leksemalar o‘rtasidagi shakliy o‘xshashlik hodisasi omonimiya sifatida o‘rganiladi. Omonim so‘zlar aynan shakl jihatdan bir xil bo‘lishiga qaramay, ular o‘zida turlicha farqli ma’nolarni ifodalaydilar. Ularning ma’nolarida o‘zaro bog‘liqlik zanjiri mavjud emas. Tilshunoslikda yana shunday termin ishlatiladiki, unga ko‘ra terminologik birlik turli sohalarda, ba’zan faqat sohada emas, balki umumiste’mol so‘z sifatida turlicha ma’nolarni ifodalab keladi.

Ba’zi terminlar faqatgina matematikaga oid diskurslardagina emas, balki boshqa soha vakillari tomonidan ham faol foydalaniladi. Ular tegishli sohadagi o‘ziga xos ta’riflari bilan farqlanadi.

O‘zbek tilida matematik terminlardan biri bo‘linma termini matematikada “biror sonning ikkinchi songa bo‘linishi natijasida kelib chiqqan uchinchi son, bo‘lish amalining natijasi” ma’nosi bilan ishlatiladi. Biroq mazkur termin harbiy sohaga ham tegishli bo‘lib, unga ko‘ra bo‘linma termini “yirikroq harbiy qism tarkibidagi kichikroq harbiy birlik” ma’nosida ishlatiladi[13].

Bundan tashqari o‘zbek tilidagi doira termini matematikada, aynan geometriyada “tekislikning aylana bilan o‘ralgan yuzasi” ma’nosini ifodalaydi. Bu terminni, shuningdek, musiqa sohasiga oid termin sifatida ham bilamiz, ya’ni doira musiqa asbobini nomlash uchun ishlatiladi va u “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “aylana shaklidagi, gardishsimon urma musiqa asbobi; childirma” tarzida izohlangan.

Yuqorida tahlil qilgan bo‘linma – quotient (the quotient is the answer to a division problem. In the equation 33:3=11, the number 11 is the quotient) va doira – round (a circular surface of a plane) so‘zlari ingliz tilida ham o‘zbek tilidagi kabi matematikaga oid terminologik birlik sifatida umumiylik hosil qilsalar, biroq ular harbiy soha yoki musiqa ilmiga xos birlik sifatida qo‘llanilmaydi. Ingliz tilida round so‘zining umumiste’moldagi bir qancha ma’nolari va sport sohasiga oid ma’nosini uchratish mumkin[14]. “Macmillan English Dictionary”da round so‘zining 5ta umumiste’moldagi ma’nosi keltirilgan: 1. a series of visits to different people or places that are made as part of someone’s job; 2. A bullet or a shot that is fired from a weapon; 3. (Sport)A complete game of golf; 4. A drink for each of the people in a group; 5. A sliece of bread or other food kabi ma’nolarda izohlangan.

Ingliz tilida function termini ham nafaqat matematikada, balki boshqa sohada, masalan, kompyuter sohasi, biologiyaga oid termin sifatida, shuningdek, umuiste’molda ishlatiladigan faol leksik birlik hisoblanadi. Function matematikada “a dependent variable that changes depending on the change of the independent variable (argument)” ma’nosini ifodalaydi. Shuningdek, uning quyidagi ma’nolari ham izohli lug‘atda keltirilgan: 1. The job that something is designed to do; 2. (Biology) something that happens in your body, or something that a part of your body does; 3. (Computing) the purpose of a computer program or piece of a computer equipment; 4. A social event such as a party, especially for a large number of people[15].

Funksiya termini o‘zbek tilida ham turli soha termini sifatida o‘rganilishi mumkin. Chunki u ham o‘zbek tilida ikkita sohada turlicha ma’nolarda qo‘llaniladi. Matematikada funksiya – “erkin o‘zgaruvchi miqdor (argument)ning o‘zgarishiga qarab o‘zgarib turadigan, bog‘liq (tobe) o‘zgaruvchan miqdor” ma’nosini ifodalasa, biologiyada funksiya – “biror a’zo yoki organizmning ishlab turishi, faoliyati” ma’nosi bilan izohlanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da funksiya so‘zining “biror ijtimoiy tashkilot, kimsa yoki narsaning ish, faoliyat doirasi; vazifasi” ma’nosida ham kelishi izohlangan[16].

Xulosa

Tahlillar natijasidan shuni anglash mumkinki, bir soha terminlarining boshqa soha tomonidan ishlatilishi ham til lug‘at tarkibining boyib borishining o‘ziga xos usuli hisoblanadi. Bu hodisaga bir so‘z tarkibidagi ma’nolarining ko‘pligi

va ma’lum vaqt davomida mazkur ma’nolarning bog‘liqlik zanjirining uzilishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lishi ehtimol qilinadi.

Fanlararo terminologiya ilmiy tilning, aniq va izchil bo‘lishini ta’minlashda markaziy rol o‘ynaydi. Terminlarning semantik o‘zgarishi va tarjima bilan bog‘liq muammolar lingvistik, tilshunoslik va fanlararo kommunikatsiya sohasidagi tadqiqotlar uchun dalzarb mavzulardan biri bo‘lib qoladi. Terminologiya nazariyasini chuqur o‘rganish fanlararo ilmiy muloqotni yanada samarali qiladi va ilmiy bilim almashinuvining sifatini oshiradi.

Demak, fanlararo terminologiyaning shakllanishi va rivoji til tizimining dinamik xususiyatini yaqqol namoyon etadi. Turli sohalar o‘rtasidagi ilmiy aloqalar kuchaygani sari terminlarning semantik kengayishi, ularning yangi kontekstlarda qo‘llanishi va qayta talqin qilinishi tabiiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat terminologik birliklarni me’yorlashtirish, ularning ma’no chegaralarini aniqlash va tarjima jarayonida yuzaga keladigan noaniqliklarni bartaraf etish zaruratini kuchaytiradi. Shunday ekan, fanlararo terminologiyani tizimli va kompleks tadqiq etish nafaqat tilshunoslik nazariyasini boyitadi, balki turli fan sohalari o‘rtasidagi samarali ilmiy integratsiyalashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. F. Akobirov, Til va terminologiya. Tashkent, 1968.
2. S. Usmonov, O‘zbek terminologiyasining ba’zi masalalari. Tashkent, 1968.
3. A. Madvaliev, O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
4. H. Dadaboyev, O‘zbek terminologiyasi. Tashkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
5. O. S. Axmedov, “Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari,” D.Sc. dissertation, O‘zDJTU, Tashkent, 2016.
6. D. X. Qadirbekova, “Inglizcha-o‘zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari,” Ph.D. dissertation, O‘zDJTU, Tashkent, 2017.
7. D. I. Xodjayeva, “Tilshunoslik terminlarining leksikografik tahlili (ingliz, rus va o‘zbek tillari izohli lug‘atlari materiallari misolida),” Ph.D. dissertation, BuxDU, Bukhara, 2018.
8. H. Jamolxonov, Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Tashkent: Talqin, 2005.
9. I. G. Mirzayevich, “Transterminologization in the Uzbek Language,” ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, vol. 5, no. 5, pp. 8–16, 2016. https://www.anglisticum.ielas.org/index.php/IJLLIS/article/view/1070
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (M harfi). Tashkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
12. Longman Dictionary of Contemporary English, e-book. https://www.ldoceonline.com/dictionary/decimal
13. J. I. Ermetova and N. M. Matyakubova, “Derivatsionny analiz terminov kompyuternoy lingvistiki,” Byulleten nauki i praktiki, no. 4, 2020. https://cyberleninka.ru/article/n/derivatsionnyy-analiz-terminov-kompyuternoy-lingvistiki
14. N. V. Kondratyeva, J. I. Ermetova, and O. A. Ruzmetova, “Differentsialnye priznaki matematicheskikh terminov v udmurtskom yazyke (v sopostavlenii s uzbekskim yazykom),” Vestnik ugrovedeniya, no. 4, 2022. https://cyberleninka.ru/article/n/differentsialnye-priznaki-matematicheskih-terminov-v-udmurtskom-yazyke-v-sopostavlenii-s-uzbekskim-yazykom
15. J. Ermetova, “Synchronic and diachronic approaches to the study some problems of English punctuation,” in Proceedings of Conferences, Apr. 2021.
16. O. Ruzmetova, “The usage of technology at ESP lessons,” Arkhiv nauchnykh issledovaniy, vol. 2, no. 1, 2022.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

11.00.00-GEOGRAFIYA
journal.namdu.uz
GEOGRAPHICAL

Tursunov Yunusali Abduaziz o'g'li
Namangan davlat universiteti
E-mail: yunusalitursunov8@gmail.com
Domlajonov Abduvali Orifjon o'g'li
Namangan davlat universiteti
E-mail: abduvalidomlajonov160@gmail.com
Abdurasulov Sherzodbek Xatamboy o'g'li
Namangan davlat universiteti
E-mail: alioken0312o@gmail.com
Obidov Abdulvahob Abduvohid o'g'li
Namangan davlat universiteti
E-mail: abdulvahobobidov81@gmail.com

WORDWALL PLATFORMASINING GEOGRAFIK DIDAKTIK MATERIALLARNI ISHLAB CHIQISHDAGI IMKONIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Wordwall platformasining geografiya fanida didaktik materiallar ishlab chiqishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Wordwall asosida savollar bazasini shakllantirish, turli o'yin modellarini tanlash, yakuniy mashg'ulotlarni saqlash va bosma shaklga o'tkazish imkoniyatlari geografik bilimlarni mustahkamlashda samarali vosita sifatida baholangan. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning geografik jihatdan mantiqiy fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *Wordwall platformasi, geografiya fanini o'qitish, didaktik materiallar, interaktiv o'yinlar, raqamli ta'lim, geografik bilimlarni mustahkamlash.*

Турсунов Юнусали Абдуазиз угли
Наманганский государственный университет
Домлажонов Абдували Орифжон угли
Наманганский государственный университет
Абдурасулов Шерзодбек Хатамбой угли
Наманганский государственный университет
Обидов Абдулвахоб Абдувохид угли
Наманганский государственный университет

ВОЗМОЖНОСТИ ПЛАТФОРМЫ WORDWALL В РАЗРАБОТКЕ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ДИДАКТИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ

Аннотация: *В данной статье анализируются возможности платформы Wordwall в разработке дидактических материалов по географии. Возможности формирования базы вопросов, выбора различных игровых моделей, сохранения готовых заданий и их преобразования в печатный формат на основе Wordwall оцениваются как эффективное средство для закрепления географических знаний. В ходе исследования установлено, что использование платформы оказывает положительное влияние на развитие у обучающихся логического географического мышления и навыков самостоятельной работы.*

Ключевые слова: *платформа Wordwall, обучение географии, дидактические материалы, интерактивные игры, цифровое образование, закрепление географических знаний.*

Tursunov Yunusali
Namangan State University
Domlajonov Abduvali
Namangan State University

Abdurasulov Sherzodbek
Namangan State University
Obidov Abdulvahob
Namangan State University

CAPABILITIES OF THE WORDWALL PLATFORM IN DEVELOPING GEOGRAPHICAL DIDACTIC MATERIALS

Abstract: *This article analyzes the capabilities of the Wordwall platform in developing didactic materials for geography education. The possibilities of creating a question database, selecting various game models, storing completed activities, and converting them into printed formats using Wordwall are evaluated as effective tools for reinforcing geographical knowledge. The study reveals that the use of the platform has a positive impact on the development of students' geographical logical thinking and independent learning skills.*

Keywords: *Wordwall platform, geography teaching, didactic materials, interactive games, digital education, reinforcement of geographical knowledge.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi ham tubdan yangilanib, an'anaviy o'qitish usullaridan raqamli va interaktiv texnologiyalar asosidagi o'qitish tizimiga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Ayniqsa, umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan geografiya fanini o'qitishda ham raqamli platformalar va interaktiv didaktik materiallardan foydalanish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Dolzarbligi. Geografiyada didaktik materiallar tahlili fani esa ushbu vositalarning mazmuni, tuzilishi, samaradorligi va ta'lim jarayonidagi o'rnini ilmiy asosda baholashga xizmat qiladi. Mazkur fan doirasida yaratiladigan didaktik materiallar o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Shu bilan birga, raqamli muhitda yaratilayotgan yangi avlod didaktik materiallar an'anaviy vositalarga nisbatan ko'proq interaktivlik va moslashuvchanlikni talab etadi. So'nggi yillarda ta'limda gamifikatsiya (o'yinlashtirish) yondashuvi keng qo'llanila boshladi. Bu yondashuv o'quv jarayonini o'yin elementlari orqali tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning bilimlarni faol o'zlashtirishini ta'minlashga qaratilgan. Gamifikatsiya asosida ishlovchi raqamli platformalar orasida Wordwall alohida ahamiyatga ega bo'lib, u turli fanlar, jumladan geografiya fanida ham interaktiv o'yinli topshiriqlar va baholash vositalarini yaratish imkonini beradi. Wordwall platformasi yordamida geografik ma'lumotlar bazasi asosida testlar, moslashtirish mashqlari, mantiqiy bog'lanishlar, xarita bilan ishlashga doir topshiriqlar, terminlar bilan ishlash mashqlari hamda o'yinli didaktik modellarni ishlab chiqish mumkin. Ushbu platforma geografik tushunchalarni mustahkamlash, statistik va kartografik ma'lumotlarni tahlil qilish hamda o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanish usullari va metodlari. Mazkur tadqiqot Wordwall platformasining geografik didaktik materiallarni ishlab chiqishdagi imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy-nazariy va amaliy metodlar uyg'unligi asosida izlanish olib borildi. Tadqiqot jarayonida asosan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-pedagogik tahlil, kontent-tahlil hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Birinchi navbatda, Wordwall platformasining ta'lim jarayonidagi samaradorligi bo'yicha chop etilgan ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Nikadambayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotda Wordwall dasturi gamifikatsiya asosida o'quvchilar faolligini oshiruvchi raqamli vosita sifatida baholangan bo'lib, uning interaktiv shablonlari orqali bilimlarni mustahkamlash imkoniyatlari asoslab berilgan [1]. Boqijonov tadqiqotida esa Wordwall platformasidan foydalanish orqali talabalar bilimini baholash jarayonini avtomatlashtirish va soddalashtirish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan [2]. Ushbu ishlarda platformaning test, moslashtirish, o'yinli topshiriqlar yaratish imkoniyatlari pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Ikkinchi bosqichda xorijiy ilmiy manbalar asosida Wordwall platformasining didaktik samaradorligi baholandi. Çil tomonidan olib borilgan tadqiqotda Wordwall yordamida tashkil etilgan mashqlar o'quvchilarning bilimni eslab qolish darajasini oshirishi aniqlangan [3]. Firmansyah tadqiqotida Wordwall asosida tashkil etilgan mashqlar lug'at boyligini oshirish bilan birga, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi qayd etilgan [4]. Ushbu natijalar Wordwall platformasining nafaqat til fanlarida, balki geografiya kabi tushunchaviy fanlarda ham samarali qo'llanilishi mumkinligini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Uchinchi bosqichda Wordwall platformasining shablonlari geografiya faniga moslashtirildi. Jumladan, "Matching pairs" shabloni davlat–poytaxt, relyef shakllari va iqlim mintaqalarini moslashtirish uchun, "Open the box" shabloni geografik atamalarni mustahkamlash uchun, "Diagram with labels" shabloni esa xarita va sxemalar bilan ishlash uchun qo'llanildi. Wayan va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotda Wordwall asosida yaratilgan topshiriqlar o'quvchilarning fan bo'yicha bilimlarini o'zlashtirish darajasini sezilarli oshirishi aniqlangan [5]. Bu yondashuv geografiyada raqamli didaktik

materiallarni ishlab chiqish metodikasi sifatida asos qilib olindi. To‘rtinchi bosqichda Wordwall platformasining baholash vositasi sifatidagi imkoniyatlari o‘rganildi. Burhanudin va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Wordwall platformasi orqali test, juftlik tanlash, krossvord va rasm asosida baholash mashqlarini yaratish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [6]. Ushbu yondashuv geografiya fanida mavzularni mustahkamlash va joriy nazoratni tashkil etishda muhim metodik asos sifatida qabul qilindi. Shuningdek, Callella tomonidan ishlab chiqilgan “Word wall” konsepsiyasi asosida interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarning vizual xotirasi va tushunchalarni tez o‘zlashtirishiga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan [7]. Ushbu g‘oya geografik tushunchalarni (materiklar, okeanlar, relyef turlari, iqlim zonalari) tizimli ravishda o‘zlashtirishga mos keladi. Mualliflik pozitsiyasiga ko‘ra, Wordwall platformasi geografiyada didaktik materiallar yaratishda oddiy texnik vosita emas, balki geografik ma’lumotlar bazasini tizimlashtirish, ularni interaktiv shaklga keltirish va tahlil qilish imkonini beruvchi raqamli muhit hisoblanadi. Muallif fikricha, Wordwall asosida yaratilgan didaktik materiallar geografiya fanida:

terminologik bilimlarni mustahkamlash
hududiy tafakkurni rivojlantirish
statistik va kartografik ma’lumotlarni tushunishni osonlashtirishga xizmat qiladi.

Shu sababli mazkur tadqiqotda Wordwall platformasining geografik didaktik materiallarni ishlab chiqishdagi imkoniyatlari ilmiy-metodik yondashuv asosida baholandi.

Wordwall’ning asosiy xususiyati uning shablonlar tizimiga asoslanganligidir. Foydalanuvchi avvalo mashg‘ulot turini tanlaydi, so‘ngra mazmunni (savollar, atamalar, jumlalar yoki javob variantlarini) kiritadi va tayyor bo‘lgan resursdan foydalanadi. Ushbu mexanizm murakkab texnik bilimlarsiz interaktiv mashg‘ulot yaratish imkonini beradi. Natijada o‘qituvchi vaqtini tejaydi, o‘quv jarayoni esa yanada samarali tashkil etiladi. Platformaning shablonlari turli didaktik vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning ayrimlari tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni shakllantirishga, ayrimlari bilimni mustahkamlashga, yana boshqalari esa nazorat va baholashga xizmat qiladi. Saytga kirish, tizimga kirish va ro‘yxatdan o‘tish bosqichlari yakunlangach, foydalanuvchi shaxsiy boshqaruv paneliga yo‘naltiriladi. Ushbu panelda “Faoliyatim”, “Mening natijalarim” va “Faoliyat yaratish” kabi asosiy bo‘limlar joylashgan bo‘ladi. Mazkur bo‘limlar orasida “Faoliyat yaratish” tugmasi yangi ma’lumotlar bazasini shakllantirish, ya’ni yangi interaktiv mashg‘ulot (o‘yin) yaratish jarayonining boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi. Ushbu tugma orqali foydalanuvchi mavjud tayyor namunalarni qidirishi yoki yangi mashg‘ulotni noldan ishlab chiqishi mumkin. Faoliyat yaratish jarayonida tizim avvalo “namunani tanlang” bosqichini taklif etadi. Bu bosqich mashg‘ulotning shaklini belgilaydi va uning didaktik maqsadini aniqlashga xizmat qiladi. Wordwall platformasida turli xil o‘yin va mashq shakllari mavjud bo‘lib, ular orasida “flesh-kartalar”, “viktorina”, “tenglashtirish”, “gapirish kartalari”, “o‘yinni qidirish”, “g‘ildirakni aylantirish”, “gapni bajarish”, “anagramma”, “guruh saralash”, “mos keladigan juftliklar”, “o‘chirish o‘yini”, “javobni kiritish”, “qayta tiklash”, “krossvord”, “balloon pop”, “yangiliklar tartibi”, “samolyot”, “word magnets” va boshqalar kabi modellar uchraydi. Ushbu shakllarning mavjudligi platformaning ko‘p funksiyali va moslashuvchan tuzilishga ega ekanini ko‘rsatadi. Mazkur rasmda aynan shunday holat aks etgan bo‘lib, foydalanuvchi “G‘ildirakni aylantirish” o‘yin turini tanlab, geografiya faniga oid yangi didaktik mashg‘ulot yaratgan (2-rasm). Faoliyat nomi sifatida “Avstraliya iqlimi, ichki suvlari va tabiat zonalari” mavzusi kiritilgan bo‘lib, bu o‘yin aniq geografik mazmunga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Rasmda ko‘rinib turganidek, o‘yin savol-javob shaklida tashkil etilgan va javoblar “Ha” yoki “Yo‘q” ko‘rinishida beriladi. Savollar bazasi tuzilib, ularga mos javoblar belgilangach, foydalanuvchi pastki qismda joylashgan “Tayyor” tugmasini bosish orqali o‘yin yaratish jarayonini yakunlaydi. Ushbu bosqichdan so‘ng tizim savollar asosida avtomatik ravishda yakuniy interaktiv mahsulotni shakllantiradi. Natijada o‘yin foydalanuvchi uchun ko‘rinadigan va bajariladigan holatga o‘tadi. 3- rasmda aynan shu yakuniy holat tasvirlangan bo‘lib, “G‘ildirakni aylantirish” shaklida ishlab chiqilgan geografik didaktik o‘yin namoyish etilgan. Mazkur o‘yinda savollar g‘ildirak sektorlariga joylashtirilgan bo‘lib, har bir sektor alohida savolni ifodalaydi. G‘ildirakni aylantirish orqali savol tasodifiy tanlanadi va o‘quvchi unga javob beradi. Bu holat ta’lim jarayonida ehtimollik va tasodifiylik elementini kiritib, o‘yin jarayonini jonlantiradi hamda o‘quvchining e’tiborini faollashtiradi.

Umuman olganda, rasmda aks etgan yakuniy o‘yin holati savollar bazasi, javoblar tizimi, vaqt cheklovi, dizayn va audio imkoniyatlarning yagona muhitda birlashganini ko‘rsatadi. Bu holat o‘qituvchining metodik mahorati bilan raqamli texnologiyalar uyg‘unlashgan zamonaviy didaktik modelni ifodalaydi. Yaratilgan o‘yinning muhim funksional imkoniyatlaridan biri uni bosma formatga o‘tkazishdir. “Chop etish” buyrug‘i orqali interaktiv mashg‘ulot ish varaqasi shakliga aylantiriladi. Bu jarayonda savollar ketma-ketlikda joylashtiriladi va o‘quvchi tomonidan yozma javob berish uchun bo‘sh joylar ajratiladi. Shu tariqa bir xil savollar bazasi raqamli interaktiv muhitdan yozma mashq shakliga o‘tkaziladi. Bosma shaklga keltirilgan didaktik materiallardan turli pedagogik maqsadlarda foydalanish mumkin. Jumladan, ular sinfda tarqatma material sifatida qo‘llanilishi, mustaqil ish uchun ish varaqasi ko‘rinishida berilishi yoki nazorat mashqi sifatida foydalanilishi mumkin. Geografiya fanida bunday materiallar iqlim zonalari, materiklar tabiiy sharoiti, daryo tizimlari va tabiat zonalariga oid bilimlarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu materiallar metodik qo‘llanmalarga ilova sifatida kiritilishi yoki darsliklarga qo‘shimcha resurs sifatida ishlatilishi mumkin.

Bosma formatga o‘tkazish jarayoni bir xil savollar asosida turli ko‘rinishdagi didaktik materiallar tayyorlash imkonini beradi. Masalan, viktorina shaklidagi o‘yin test varaqasi sifatida, flesh-karta shaklidagi o‘yin kartochkalar ko‘rinishida, moslashtirish mashqlari esa juftlash asosidagi topshiriqlar shaklida ishlab chiqiladi. Natijada bir mavzu asosida turli formatdagi mashqlar majmuasi yaratiladi Mazkur imkoniyat Wordwall platformasining metodik ustunligini belgilaydi. Chunki u faqat raqamli interaktiv mahsulot yaratish bilan cheklanib qolmay, balki an’anaviy ta’lim muhiti uchun ham didaktik resurs ishlab chiqishga xizmat qiladi. O‘qituvchi birgina savollar bazasi asosida ham raqamli o‘yin, ham bosma mashq yaratishi mumkin bo‘ladi. Bu esa ta’lim jarayonida raqamli va an’anaviy metodlarning uyg‘unlashuvini ta’minlaydi.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Wordwall platformasi bir xil savollar bazasi asosida turli shakldagi (viktorina, g‘ildirak, moslashtirish, flesh-karta va boshqalar) o‘yinlarni yaratish imkonini beradi. Bu holat bilimni yodlash, tushunish, qo‘llash va baholash jarayonlarini bir butun tizimda amalga oshirishga sharoit yaratadi. Mazkur platformaning amaliy ahamiyati shundaki, u o‘qituvchiga bir vaqtning o‘zida raqamli interaktiv mashg‘ulot va bosma didaktik material yaratish imkonini beradi. Yaratilgan o‘yinlar sinfda interaktiv doskada qo‘llanishi, masofaviy ta’limda havola orqali tarqatilishi, shuningdek, ish varaqasi yoki tarqatma material sifatida chop etilishi mumkin. Bu esa ta’lim jarayonida an’anaviy va raqamli metodlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi hamda o‘qituvchining metodik ishini yengillashtiradi.Wordwall platformasidan foydalanish ta’lim jarayonida interfaollikni kuchaytiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va bilimlarni tizimli ravishda mustahkamlash imkonini beradi. Kelgusida ushbu platformani boshqa fanlar kesimida ham keng joriy etish, o‘yin turlarini murakkablik darajasi bo‘yicha moslashtirish va metodik tavsiyalar bilan boyitish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nikadambayeva D.R. Wordwall is a digital tool that can be used in organizing gamification education. – European International Journal of Pedagogics, 2024. – Vol.4, №2. – P.33–43.

2. Boqijonov D. Talabalar bilimlarini baholashda Wordwall dasturidan foydalanish. – Экономика и социум, 2023. – №6(109). – B.94–97.

3. Çil E. The effect of using Wordwall.net in increasing vocabulary knowledge of 5th grade EFL students. – Language Education & Technology, 2021. – Vol.1, №1. – P.21–28.

4. Firmansyah M. Increasing students’ vocabulary mastery by using Wordwall method of the second grade at SMP Negeri 4 Tolitoli Utara. – JME, 2016. – №4. – P.308–313.

5. Wayan M. et al. History learning based on Wordwall applications to improve student learning results class X IPS in MA As’adiyah Ketapang. – IJERLAS, 2023. – P.605–612.

6. Burhanudin A.G. et al. Efektivitas platform Wordwall pada pembelajaran PAI di Madrasah Aliyah Negeri. – Intelektual: Jurnal Pendidikan dan Studi Keislaman, 2021. – Vol.11. – P.203–221.

7. Callella T. Making your word wall more interactive. – USA: Creative Writing Press, 2001. – 156 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

11.00.00-GEOGRAFIYA
journal.namdu.uz
GEOGRAPHICAL

Usmonova Odina Muhitdin qizi,
NamDU Tabiiy fanlar fakulteti 1-kurs magistranti
Email: usmonovaodina5225@gmail.com
Sobirxonov Abdulbositxon Toxirxon o'g'li,
Namangan davlat universiteti dotsent v.v.b.,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Email: yshoxbola@gmail.com

AFRIKA MATERIGINING ICHKI SUVLARINI O'RGANISHDA KO'RGAZMALI MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI (7-SINF GEOGRAFIYA DARSLIGI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ko'rgazmali qurollarning ta'lim jarayonidagi, shuningdek, o'quvchilarning mantiqiy, analitik va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati, Afrika materigining ichki suvlari mavzusini o'zlashtirishda va o'quvchilar fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni, ko'rgazmali materiallar, jumladan rasmlar, jadvallar, sxemalar, prezentatsiyalar, modellar yordamida o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq anglab olishlari, eslab qolishlari va mustahkamlashlari keng ilmiy misollar asosida ochib beriladi, xulosalar umumlashtiriladi va amaliy ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *xarita, rasmlar, jadvallar, sxemalar, prezentatsiyalar, vizual vositalar, verbal, vizuab, kinestetik.*

Usmanova Odina Mukhitdin kizi,
Faculty of Natural Sciences, Namangan State University, master's student,
Sobirkhanov Abdulbasitkhan Tokhirkhan ugli,
Acting associate professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF THE USE OF ILLUSTRATIVE MATERIALS IN THE STUDY OF THE INLAND WATERS OF THE AFRICA MAINLAND (ON THE EXAMPLE OF A 7TH GRADE GEOGRAPHY TEXTBOOK)

Abstract. *This article discusses the importance of visual aids in the educational process, as well as in developing students' logical, analytical and creative thinking skills, their role in mastering the topic of the inland waters of the African continent and developing students' thinking, and how visual materials, including pictures, tables, diagrams, presentations, and models, help students better understand, remember, and consolidate the topic on the basis of extensive scientific examples, summarizes the conclusions, and shows their practical significance.*

Keywords: *maps, pictures, tables, diagrams, presentations, visual aids, verbal, visual, kinesthetic.*

Усманова Одина Мухитдин кизи,
Магистрант факультета естественных наук Наманганского государственного университета,
Собирханов Абдулбаситхан Тохирхан угли,
Исполняющий обязанности доцента Наманганского государственного университета,
Доктор философии (PhD) в области педагогических наук.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИЛЛЮСТРАТИВНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ВНУТРЕННИХ ВОД МАТЕРИКОВОЙ ЧАСТИ АФРИКИ (НА ПРИМЕРЕ УЧЕБНИКА ПО ГЕОГРАФИИ ДЛЯ 7 КЛАССА)

Аннотация*. В данной статье рассматривается важность наглядных пособий в образовательном процессе, а также в развитии у учащихся логического, аналитического и творческого мышления, их роль в освоении темы внутренних вод африканского континента и развитии мышления учащихся, а также то, как визуальные материалы, включая рисунки, таблицы, диаграммы, презентации и модели, помогают учащимся лучше понимать, запоминать и закреплять тему на основе многочисленных научных примеров, подводятся итоги и демонстрируется их практическое значение.*

Ключевые слова: *карты, рисунки, таблицы, диаграммы, презентации, наглядные пособия, вербальные, визуальные, кинестетические.*

Bugungi zamonaviy ta'lim metodlari o‘quvchilarning o‘zgacha fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. O‘quvchilar fanlarni o‘rganish va mavzularni o‘zlashtirishda dars o‘tish metodlarigina emas balki dars jarayonida namoyish etiluvchi va tarqatma materiallardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, har bir insonning axborot qabul qilish xislati o‘ziga xosligi barchamizga ma’lumdir. Ayniqsa o‘quvchilarning mantiqiy, analitik va ijodiy fikrlashlarini shakllantirishda ko‘rgazmali qurollar muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rgazmali qurollar — bu ta'lim jarayonida o‘quvchiga bilimlarni taqdim etish, tushunishni mustahkamlash va o‘zlashtirishda samarali yordam beruvchi vizual vositalardir. Ko‘rgazmali material deganda o‘quv jarayonini tushunarli, qiziqarli va samarali qilish uchun qo‘llaniladigan vizual vositalar (rasmlar, jadvallar, sxemalar, prezentatsiyalar, modellar) nazarda tutuladi, ular murakkab mavzularni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi va mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi. Ko‘rgazmali qurollar yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlash darajasini, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi. D.Tojiboyeva, A.Yo‘ldoshevlar o‘zlarining “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” deb nomlangan darsligida “Insonda olgan axborotni qayta ishlash qobiliyati ham turlicha. Talabalar bilim olish, olgan axborotlarini yodda saqlash, tushunish va qo‘llashda ham bir-biridan farq qiladilar. Ba’zi talabalar uchun verbal (so‘zda ifodalangan) axborot, masalan, ma’ruza eshitish yoki radio orqali tinglash yetarli. Boshqalari uchun esa vizuab (ko‘rish) axboroti muhim . Ular ko‘rgazmali qurollar: jadval, sxema, grafik, diagramma kabilar orqali mavzuning mazmuniga tez tushunishadi. Uchinchi guruh talabalar uchun kinestetik (o‘zi qatnashuvchi) axborot foydali. Ular o‘qitishning aktiv uslublari, modellashtirilgan o‘yinlarda rol o‘ynash orqali axborotni yaxshi o‘zlashtiradilar deb qimmatli ma’lumotlar berishadi. Ta’limning ko‘rgazmaliligini ta’minlashni shartli ravishda ikki katta guruhga: ko‘rgazmali va namoyish qilish usullariga bo‘lish mumkin. Ko‘rgazmalilik o‘quvchi-talabalarga turli qo‘llanmalar, jumladan, xarita, plakat, chizma va rasmlar, suratlar va boshqalami ko‘rsatishni ko‘zda tutadi. Namoyish qilish esa, odatda, qurilma, asboblar, tajribalar, turli tipdagi apparatlarni namoyish qilish bilan bog‘liq.

Ko‘rgazmali qurollar yordamida bir vaqtning o‘zida muhokama qilinayotgan savolni, axborotni ham eshitish, ham ko‘rish orqali qabul qilish shubhasiz talabalarni puxta bilim olishlariga yordam beradi. Ayrim mavzularni esa umuman namoyish qilinadigan materiallarsiz, ko‘rgazmali qurollarsiz o‘tib bo‘lmaydi. Darsni tashkil etishda ko‘rgazmali qurollar muhim o‘rin tutadi. Xususan,

7-geografiya darsligining Afrika materigining ichki suvlari deb nomlangan 5-bob 4-mavzusini o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirishida ko‘rgazmali qurollardan foydalanish muhim ahamiyatga ega va darslikda Nil daryosi (53-rasm), Kongo daryosi (54-rasm), Viktoriya sharsharasi (55-rasm), Tanganika va Nyasa ko‘llari (56-rasm), Afrika materigining ichki suvlar xaritasi (57-rasm) ko‘rgazmali materiallari berilib o‘quvchilar mavzuni puxta o‘zlashtirishlariga zamin yaratyapti. Afrikaning ichki suvlariga daryolari, ko‘llari, muzliklari, botqoqliklari va yerosti suvlari kiradi. Afrika materigida jami 3000 dan ziyod katta va kichik daryolar mavjud bo‘lib ularning hammasi ham darslik va qo‘llanmalarda berilmagan. Masalan, 7-sinf Geografiya darsligida Oq Nil, Ko‘k Nil, Kongo, Niger, Zambezi, Limpopo, Rufiji, Tana, Jubba, Uebi Shebelle, Shari kabi 11 ta daryo haqida ma’lumot berib o‘tiladi. 7-sinf Geografiya darsligi xaritasida 1. Nil, 2. Oq Nil, 3. Nil Ko‘k, 4. Senegal, 5. Niger, 6. Benue, 7. Shari, 8. Ubangi, 9. Kongo, 10. Kasai, 11. Kvango, 12. Lualaba, 13. Kagera, 14. Zambezi, 15. Okavango, 16. Limpapo, 17. Oranj kabi 17 ta daryolar nomi ko‘rsatilgan. 6-sinf Geografiya darsligi xaritasida 1. Nil, 2. Oq Nil, 3. Nil Ko‘k, 4. Senegal, 5. Niger, 6. Benue, 7. Shari, 8. Ubangi, 9. Kongo, 10. Kasai, 11. Kvango, 12. Lualaba, 13. Kagera, 14. Zambezi, 15. Okavango, 16. Limpapo, 17. Oranj kabi 17 ta daryo haqida ma’lumot beriladi. N.Mamataliyevaning “Afrika materigi subregonlari” deb nomlagan kurs ishida jami 32 ta daryolar: 1. Nil, 2. Oq Nil, 3. Nil Ko‘k, 4. Atbara, 5. Kongo, 6. Luapuluga, 7. Zambezi, 8. Kalunga, 9. Lukuga daryosi, 10. Ubangi, 11. Kasai, 12. Lulua, 13. Sankuru, 14. Fimi, 15. Kvango, 16. Niger, 17. Benue, 18. Zambezi, 19. Kafue, 20. Oranj, 21. Limpapo, 22. Ulifants, 23. Rufiji, 24. Luvegu, 25. Kilombero, 26. Senegal, 27. Gambiya, 28. Shari, 29. Volta, 30. Oq Volta, 31. Qora Volta, 32. Oti haqida ma’lumot berib o‘tadi. X.Vaxobov, A.A.Abdulqosimov, N.R.Alimkulovlar “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” nomli darsligida materikning Atlantika va Hind okeani havzalari o‘rtasidagi bosh suvayirg‘ich uning balandroq ko‘tarilgan sharqiy qismidan o‘tadi. Afrikaning 51% maydoni Atlantika okeani havzasiga, 18% maydoni Hind okeani havzasiga va qolgan 31% maydoni ichki berk oqim havzasiga qaraydi deb ma’lumot bersa, O.Abdullayev materikning bosh suv ayirg‘ichi uning eng baland ko‘tarilgan sharqiy chekkasidan o‘tadi, oqimning 1/3 qismidan ko‘prog‘i Atlantika okeaniga, 1/6 qismi Hind okeaniga va bundan ham kam qismi O‘rta dengizga to‘g‘ri keladi deb ma’umot beradi. Shundan kelib chiqqan holda Afrika materigining ichki suvlarini o‘rganishda, o‘quv jarayonini tushunarli, qiziqarli va samarali qilish uchun yangi ko‘rgazmali qurol yaratishni taqozo etadi.

Atlantika okeaniga quyiladigan daryolar	**Hind okeaniga quyiladigan daryolar**	**Berk havza daryolar**

1. Nil	1. Zambezi	1. Shari
2. OqNil	2. Limpopo	2. Kagera
3. Ko‘k Nil	3. Rufiji	
4. Benue	4. Okavango	
5. Senegal		
6. Niger		
7. Ubangi		
8. Kasai		
9. Kvango		
10. Lualaba		
11. Volta		
12. Kongo		
13. Oranj.		

7-sinf Geografiya darsligida berilgan daryolar asosida uni qiyidagi jadval va xaritada ko‘rish mumkin:

Ushbu jadval orqali Afrika ichki suvlarini yodlab qolish va o‘rganish o‘quvchilar uchun qulaylik yaratadi, chunki unda daryolar okean havzalari bo‘yicha tizimli ravishda guruhlangan bo‘lib, bu ma’lumotlarni solishtirish, tahlil qilish hamda xarita bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, jadvaldan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini kuchaytirib, geografik tushunchalarni oson va mustahkam o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bu xaritada yashil rang ichida joylashgan daryolar Atlantika okeaniga, och jigarrrang bilan belgilangan qismda joylashgan daryolar Hind okeniga quyiluvchi daryolar hisoblanadi. Sariq rang ichida joylashgan daryolar esa ichki oqim daryolari hisoblanib ular hech qaysi okenga quyilmasligini ko‘rsatadi. Bu ko‘rgazmali material orqai o‘quvchilarda Afrika ichki suvlarini o‘rganish va o‘rgatish qulaylshganini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ko‘rgazmali qurollar yordamida o‘qituvchilar tomonidan o‘tilgan darslar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchilarda ham mavzuni tushuntirishi uchun qulaylik yaratadi. Ko‘rgazmali materiallar nafaqat o‘quvchilarning materialni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi, balki ularning analitik, mantiqiy va ijodiy fikrlashlarini rivojlantiradi. O‘quvchilar ko‘rgazmali vositalar yordamida darsda faol ishtirok etadilar, yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar va bu jarayon orqali o‘z fikrlarini aniq ifodalashni o‘rganadilar. Ko‘rgazmali qurollarning ta'lim jarayonida o‘quvchi fikrlashini rivojlantirishdagi o‘rni katta bo‘lib, ta'limda muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun zarur vosita bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Qayumov, I.Safarov, M.Tillaboyeva, V.Federko. Geografiya. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi. 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik. T. 2019. 140-145-bet.
2. T.V.Vlasova. Materiklar tabiiy geografiyasi (okeanlar tutash qismlari bilan birga)- O‘qituvchi. T., 1981.
3. X.Vaxobov, A.A.Abdulqosimov, N.R.Alimkulov. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. Toshkent , 2021.
4. D.Tojiboyeva, A.Yo‘ldoshev. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: «Aloqachi», 2009. B-394
5. Geografiya [Matn]: 7-sinf uchun darslik / M. Mirakmalov [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. B-58
6. 6-sinf. Materiklar va okeanlarning tabiiy geografiyasi atlasi. Toshkent-2010. B-14
7. Abdullayev O. Jahon tabiiy geografiyasi. Termiz -2009 yil. B-68
8. https://lex.uz/docs/-4312785
9. https://lex.uz/docs/4574008

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

11.00.00-GEOGRAFIYA
journal.namdu.uz
GEOGRAPHICAL

Olimjanova Nozima Adxamjon qizi
[2] Namangan davlat universiteti Geografiya va ekologiya asosalari kafedrasi 2-bosqich magistranti.
E-mail: nozimaolimjanova2001@gmail.com
ORCID: 0009-0006-8130-5296

FARG‘ONA IQTISODIY RAYONIDA XORIJIY INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH OMILLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Farg‘ona iqtisodiy rayonida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, Farg‘ona vodiysi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari, xorijiy investitsiyalarni qo‘llab quvvatlash, Farg‘ona vodiysi infratuzilmasi, Farg‘ona vodiysi asosiy eksport turlari, Hududga keluvchi investitsiya oqimi va mahalliy hamkorlar, Xorijiy investitsiyalar jalb qilishdagi muammolar va tavsiya etilgan yechimlar, iqtisodiyotning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va uni barqarorligini ta’minlashga doir masalalar yechimi topilgan. Mualliflar tomonidan Farg‘ona iqtisodiy rayonida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha strategik chora-tadbirlar taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona iqtisodiy rayoni, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy ko‘rsatkichlari, investitsiya oqimi, mahalliy hamkorlar, iqtisodiy o‘sish, Strategik yondashuv, raqamli infratuzilma.*

Олимжанова Нозима Адхамжон кизи
Наманганский государственный университет, кафедра географии и основ экологии, магистрант 2 курса

ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РЕГИОНЕ ФЕРГАНЫ

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы эффективного использования иностранных инвестиций в Ферганском экономическом регионе, основные экономические показатели Ферганской долины, поддержка иностранных инвестиций, инфраструктура Ферганской долины, основные виды экспорта Ферганской долины, инвестиционные потоки в регион и местные партнеры, проблемы привлечения иностранных инвестиций и рекомендуемые решения, вопросы, связанные с повышением инвестиционной привлекательности экономики и обеспечением ее стабильности. Авторы предлагают стратегические меры по эффективному использованию иностранных инвестиций в Ферганском экономическом регионе.*

Ключевые слова: *Ферганский экономический регион, иностранные инвестиции, экономические показатели, инвестиционный поток, местные партнеры, экономический рост, стратегический подход, цифровая инфраструктура.*

Olimjanova Nozima Adxamjon kizi
Namangan State University, Department of Geography and Fundamentals of Ecology, 2nd-year Master’s student

FACTORS OF EFFECTIVE USE OF FOREIGN INVESTMENTS IN THE FERGANA ECONOMIC REGION

Abstract: *This article examines the effective use of foreign investment in the Fergana economic region, key economic indicators of the Fergana Valley, support for foreign investment, the Fergana Valley’s infrastructure, the Fergana Valley’s main exports, investment flows to the region and local partners, challenges in attracting foreign investment and recommended solutions, and issues related to increasing the investment attractiveness of the economy and ensuring its stability. The authors propose strategic measures for the effective use of foreign investment in the Fergana economic region.*

Keywords: *Fergana economic region, foreign investment, economic indicators, investment flow, local partners, economic growth, strategic approach, digital infrastructure.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmonida investitsiya faoliyatini, jumladan xorijiy investitsiyalarni qo‘llab quvvatlash, iqtisodiyotning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda islohotlarni jadal davom ettirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar belgilangan [1].

Bugungi rivojlanish jarayonlarida mamlakatni iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim omillarda biri bu xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishdir chunki ular orqali mamlakat ichidagi korxonalarning kapitali ortadi va bu mamlakatning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirib, iqtisodiy o‘sishga olib keladi. Shuning uchun mamlakat iqtisodiyotiga ko‘proq investitsiya jalb qilish va ulardan samarali foydalanish zarur. Barcha mamlakatlar yuqori o‘sish sur'atlariga erishishni maqsad qilib qo‘yadi, bu esa yuqori investitsiya stavkalariga (yuqori jamg‘armalarga) erishishni talab qiladi [2]. Uzoq muddatda iqtisodiy o‘sish qashshoqlikni kamaytiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ichki jamg‘armalar kam bo‘lsa, iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun xorijiy investitsiyalarga zaruriyat tobora kuchayadi. Shu sababli, davlatlar o‘rtasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun raqobat doimo mavjuddir [3]. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijiy investitsiyalarning barcha turlari ma’qullanmaydi. Xorijiy investitsiyalarning davomiyligi va tabiati qabul qiluvchi mamlakat uchun juda muhimdir. Qisqa muddatli portfel investitsiyalari tezda o‘zgarib, mezbon mamlakatlarda iqtisodiy tebranishlarga olib kelishi mumkin, bu esa istalmagan holatdir, chunki barqaror rivojlanish uchun makroiqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli investitsiyalar zarur hisoblanadi. Shu sababli mamlakatlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishda global raqobat mavjud. Ushbu raqobatda g‘alaba qozonish uchun mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni qondirishlari kerak. Tadqiqotning maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda unga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar toifasiga kirish uchun ikki asosiy talab mavjud: iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanish. Iqtisodiy o‘sish muhim bo‘lsa-da, ijtimoiy rivojlanish uchun yetarli emas. Ijtimoiy rivojlanish qashshoqlik, ishsizlik, daromad taqsimoti, sog‘liqni saqlash va ta’lim kabi ko‘rsatkichlarni yaxshilashni talab qiladi. Iqtisodiy o‘sishni kuchaytirish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy jamg‘armalar yetarli bo‘lmaydi, shuning uchun ular xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga muhtoj bo‘ladilar. Tadqiqotning asosiy vazifalari xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ishtirok etuvchi omillarni aniqlash, investitsiyalarni samarali boshqarish va ulardan foydalanishning usullarini ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalar va milliy iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish, xorijiy investitsiyalarning ijtimoiy va ekologik ta’sirini baholash hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Xorijiy sarmoyaning iqtisodiy mohiyati xorijiy investorlarning daromad olish maqsadida boshqa davlat iqtisodiyotiga kapital qo‘yishidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Levine va Renelt, Dollar va Kraaylar, [1, 2], Geografik yondashuv nuqtai nazaridan A.S.Soliyev O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi deb nomlangan darsligida mintaqalarning ixtisoslashuvi va hududiy salohiyatini ochib bergan. Shuningdek, O‘zbekiston Geografiya Jamiyati Axboroti nashrlarida ham regional rivojlanish va investitsion muhitga oid tahlillar keltiradi [4]. Mazkur yondashuv investitsion siyosatga strategik qarashni taklif etadi va mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiluvchi omillarni aniqlashda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda aynan Farg‘ona iqtisodiy rayoni doirasida investitsion salohiyatning iqtisodiy-geografik tahliliga kompleks yondashuv yetarli darajada ko‘zga tashlanmaydi. Ushbu maqola mazkur bo‘shliqni to‘ldirish, empirik ma’lumotlar asosida hududiy investitsion faoliyatni baholash va tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yig‘ilgan ma’lumotlarni statistic tahlil qilish, umumqabul qilingan zamonaviy usullardan foydalanib Farg‘ona iqtisodiy rayonida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish imkoniyati tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Investitsiyalardan samarali foydalanishda Farg‘ona iqtisodiy rayoni ham aloxida ahamiyatlidir.

Ushbu Farg‘ona iqtisodiy rayoni O‘zbekistonning eng zich aholi yashaydigan va sanoati rivojlangan hududlaridan biridir. Hudud iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmatlar sohalarini o‘z ichiga oladi. 2025-yilga kelib, Farg‘ona vodiysi aholisi 3,5 milliondan ortiq bo‘lib, mintaqaning iqtisodiy salohiyati mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega.

Xorijiy investitsiyalar mintaqada iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, ish o‘rinlarini yaratadi va texnologik rivojlanishni rag‘batlantiradi. Shu bois, hududning investitsiya muhitini chuqur tahlil qilish va samarali foydalanish omillarini aniqlash zarur.

2015–2025 yillarda Farg‘ona vodiysi iqtisodiyotining o‘sish sur’ati barqaror bo‘lib, YaIMning mintaqadagi ulushi o‘rtacha 18–19 % darajasida baholangan. Bu hududga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari katta ekanligini ko‘rsatadi.

Investitsiyalarning samaradorligi ko‘pincha siyosiy va iqtisodiy muhitga bog‘liqbo‘ladi.

O‘zbekistonning 2019–2025-yillarda qabul qilgan “Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”gi qonuni investorlar uchun soliq imtiyozlari, mulk huquqi va shartnomalarni himoya qilish kafolatini beradi.

Hudud tabiiy resurslar bilan yetarli darajada ta’minlanmagan bo‘lib, uning asosiy boyligi mehnat resurslari bilan ifodalanadi. Farg‘ona vodiysi shartli ravishda uch bosqichli tizim – tabiiy sharoit, demografik tarkib va xo‘jalik faoliyati ko‘rinishida piramida shaklida tasvirlansa, ushbu piramidaning eng nozik qismi – tabiiy komponent (yer, suv, ekologik barqarorlik), o‘rtadagi qatlam – yuqori demografik bosimni aks ettiruvchi aholi zichligi, eng yuqori qismi esa – o‘rtacha darajadagi xo‘jalik tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Farg‘ona iqtisodiy rayoni uchun

antropogen bosimning yuqoriligi, yer va suv resurslarining cheklanganligi mintaqaning asosiy geografik xususiyatlari sifatida ajralib turadi [6; 170-b.].

Farg‘ona vodiysi mamlakatning eng barqaror hududlaridan biridir va bu investorlar uchun uzoq muddatli sarmoya kiritishga qulay sharoit borligidan dalolat beradi.

Farg‘ona vodiysi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

1-jadval

№	Yillar	YaIM o‘sish darajasi (%)	Inflyatsiya (%)	Ish bilan ta’minlanganlar soni (ming)
1	2015	7,2	8,1	850
2	2016	7,5	7,5	870
3	2017	7,8	7,2	890
4	2018	8,0	6,9	910
5	2019	8,2	6,5	930
6	2020	7,0	10,5	940
7	2021	7,5	9,0	960
8	2022	7,8	8,0	980
9	2023	8,0	7,5	1000
10	2024	8,2	7,0	1020
11	2025	8,0	6,8	1040
Jami		***70.5***	***69.4***	***8670***

Jadval. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan bajarildi

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona vodiysi iqtisodiy o‘sish sur’ati barqarorligi, inflyatsiya nisbatan past va ish bilan ta’minlanganlar soni ortib borganligi bu esa xorijiy investorlar uchun ijobiy muhitni ko‘rsatadi.

Mintaqadagi infratuzilmaning amonaviy tarzda shakllantirilganligi ushbu xududda xorijiy investitsiyalarning samarali ishlashida muhim axamiyatli bo’lib xizmat qiladi.

Farg‘ona vodiysi viloyatlarida avtomobil yo‘llari va temir yo‘l infratuzilmasi juda yaxshi rivojlangan, bu esa ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga yetkazishni qulayligini oshiradi. Raqamli infratuzilmaning mavjudligi internet tezligi va raqamli xizmatlarning doimiy biznesni samarali ishlashini ta’minlaydi.

Farg‘ona vodiysi infratuzilmasi (2025-yil)

2-jadval

№	Tur	Holati	Samaradorlik (1-5)
1	Yo‘l tarmoqlari (km)	4500	4
2	Temir yo‘l (km)	520	4
3	Elektr energiya quvvati (MW)	3200	4
4	Suv ta’minoti (m^3/kun)	1,2 mln	3
5	Internet tezligi (Mb/s)	100	4

Jadval. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan bajarildi

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra mintaqadagi infratuzilma investorlar uchun qulay, faqat xuxdning suv ta’minotini optimallashtirish orqali samaradorlikni oshirishga erishish mumkin.

Farg‘ona vodiysi viloyatlarida bozor imkoniyatlari va eksport salohiyati ichki va tashqi bozor imkoniyatlariga boyligi bilan ajralib turadi.

Hozirda ushbu mintaqa aholi soni 3,6 mln kishini tashkil etadi. Shunday bo‘lsada hudud ichki talabni qondirish uchun qulay hisoblanadi.

Asosiy eksport mahsulotlari paxta, meva-sabzavot, ip-sanoat va kimyo mahsulotlari Rossiya, Qozog‘iston va Yevropa bozorlariga chiqarilib kelinmoqda.

Farg‘ona vodiysi asosiy eksport turlari (2025-yil)

3-jadval

№	Mahsulot turi	Eksport hajmi (mln $)	Asosiy bozorlar
1	Paxta va paxta mahsulotlari	120	Rossiya, Qozog‘iston
2	Meva-sabzavot	80	Qozog‘iston, Rossiya
3	Kimyo mahsulotlari	50	O‘zbekiston ichki bozor, Qozog‘iston

4	Tekstil mahsulotlari	40	Turkiya, Rossiya

Jadval. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan bajarildi

Bu hududda joylashgan bozorlar bozorlarning umumiy salohiyati investorlar uchun daromadni kafolatlaydi va loyihalarning rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu mintaqa iqtisodiyoti Sanoat va tarmoqlar diversifikatsiyasida qishloq xo‘jaligi, kimyo, oziq-ovqat va xizmatlar tarmoqlariga asoslangan bo’lib, tarmoqlarning xilma-xilligi investorlar uchun xavfni kamaytiradi.

Sanoat sohalari orasida qayta ishlash, yengil sanoat va agro-sanoat korxonalarini mavjudligi esa hududga sarmoya jalb qilish imkoniyatini yanada oshiradi.

Soha tarmoqlar bo‘yicha ishlab chiqarish va investitsiya hajmi (2025-yil)

4-jadval

№	Tarmoq	Ishlab chiqarish hajmi (mln $)	Xorijiy investitsiya (mln $)
1	Qishloq xo‘jaligi	500	50
2	Oziq-ovqat sanoati	300	40
3	Kimyo va tekstil sanoati	250	60
4	Xizmatlar	200	30

Jadval. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan bajarildi

Diversifikatsiya jarayonlar sarmoyalarni samarali ishlatishga va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Farg‘ona iqtisodiy rayonida mahalliy sheriklar bilan integratsiyalashuvi tobora kengayib bormoqda**.** Xorijiy investorlar ushbu xududdagi mahalliy korxonalar bilan hamkorlik qilganda resurslar samaradorligi ortadi. Investitsiya forumlari yangi loyihalarni targ‘ib qiladi, sheriklar va moliyaviy resurslar bilan bog‘laydi.

Mintaqada tadbirkorlik muhiti yaxshi shakllangan mahalliy kichik va o‘rta biznes (KOB) bilan integratsiya investorlar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Hududga keluvchi investitsiya oqimi va mahalliy hamkorlar bilan bog‘liqlik darajasi

5-jadval

№	Hamkorlik turlari	2010	2015	2020	2025
		Investitsiya oqimi (mln $)	Investitsiya oqimi (mln $)	Investitsiya oqimi (mln $)	Investitsiya oqimi (mln $)
1	Mahalliy KOB	11	21	33	40
2	Davlat korxonalari	8	12	23	30
3	Xorijiy kompaniyalar	14	28	49	60

Jadval. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan bajarildi

Jadvalda ko‘rinib turganidek mahalliy biznes va investitsiya muhitining rivojlanganligi sarmoyalarni tez va samarali ishlatishga yordam bermoqda. Ushbu mintaqada xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish strategiyalarining quyidagi yo‘nalishlar aytish mumkin:

Agrosanoat, kimyo, yengil sanoat va xizmatlar sektorlari ustuvor hisoblanadi.

Farg‘ona iqtisodiy rayoni xorijiy investitsiyalar uchun jozibador bo‘lsa-da, bir qator muammolar mavjudligi ko‘zga tashlanadi:

- Ba’zi qishloq hududlarida transport va suv resurslari yetarli emas.

-Kichik biznes va KOB bilan integratsiya yetarli darajada emas.

-Texnologik loyihalar uchun yuqori malakali kadrlar kamligi

Xorijiy investitsiyalar jalb qilishdagi muammolar va tavsiya etilgan yechimlar

6-jadval

№	Mavjud muammo	Tavsiya etilgan yechimlar
1	Infratuzilma cheklovlari	Transport va suv resurslarini modernizatsiya qilish
2	Mahalliy hamkorlik yetishmasligi	KOB va xorijiy investitsiyalarni integratsiya qilish
3	Malakali ishchi kuchining yetishmasligi	Ta’lim va kasb-hunar markazlarini kengaytirish
4	Soliq va huquqiy to‘siqlar	Soliq imtiyozlari va qonuniy kafolatlarni kuchaytirish

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish orqali investitsiyalarning samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

Xulosa va takliflar. Farg‘ona iqtisodiy rayonida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish quyidagi omillarga bog‘liq, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, zamonaviy transport, energetika va raqamli infratuzilma, ichki va tashqi bozor salohiyati, malakali ishchi kuchi va inson kapitali, sanoat va tarmoqlar diversifikatsiyasi, mahalliy hamkorlik va tadbirkorlik muhitidir

Bugungi rivojlanib borayotgan davrda har bir investor o‘z loyihasini rejalashtirishda yuqoridagi omillarni hisobga olishi, hududdagi sektorlar va imkoniyatlarni chuqur o‘rganishi lozim. Shu tarzda, xorijiy investitsiyalar mintaqada yuqori darajada rentabellik va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bilan ishlatiladi.

Ushbu Farg‘ona vodiysi mintaqasi xorijiy investitsiyalar uchun jozibador hudud hisoblanadi. Strategik yondashuv, infratuzilma modernizatsiyasi, malakali ishchi kuchi va tarmoqlar diversifikatsiyasi orqali investorlar loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni, URL: https://lex.uz/ru/docs/-6600413

2.Levine va Renelt, 2002.

3.Dollar va Kraay, 2009

4.Солиев А.С. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий география [*Дарслик*]. –Тошкент: Университет, 2014. –360 б.

5.To‘laganova R.F ,Saidov R.B., O‘zbekistonda investitsiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili [Ilmiy jurnal] Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 3, June 2024

https://interfinance.tsue.uz/wp-content/uploads/2024/06/3-son

6.2025-yilning 1-4-choragida O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar 107,1 trln so‘mni tashkil etdi [Elektron resurs]. 27.12.2025. URL:

Internet saytlari

1.Andijon viloyati statistika boshqarmasi. [Elektron resurs]. 22.02.2023. URL: http://andstat.uz/

2.Investitsiyalar [Elektron resurs]. 24.01.2023. URL: https://yuz.uz/

3.O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika Qo‘mitasi [Elektron resurs]. URL: http://stat.uz/

4.Отчеты об инвестиционном климате 2024 года: Узбекистан [Электронный ресурс]. 22.12.2024. URL:https://www.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uzbekistan

5.https://scienceweb.uz/publication/2045.

6. https://zenodo.org/records/7643665

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti , pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Mamasoliyeva Xadichaxon Abduqaxxor qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi
ORCID:0009-0009-3501-457X
E-mail:arofatabdullayeva95@gmail.com

"O'ZBEK AYOLI TIMSOLIDA MILLIY TARBIYA VA AXLOQIY QADRIYAT UYG'UNLIGI"

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek ayoli timsolidagi milliy tarbiya va axloqiy qadriyatning uyg'unligi uni bola tarbiyasidagi o'rni, oiladek muqaddas dargohda o'zbek ayolining tarbiyaviy ahamiyati, milliy tarbiya va axloqiy qadriyatlarni avloddan-avlodga o'tishida o'zbek ayolining tutgan o'rniga asoslangan.Ayol qizlarimizning tarbiyali va salohiyatli bo'lishlari kelajak avlod qalbida va ongida eng go'zal fazilatlarning bo'lmog'i demakdir.*

Kalit so'zlar: *o'zbek ayoli,milliy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, oila,o'zbek ayolining jamiyatdagi ro'li, zamonaviy o'zbek ayoli, bugungi kunda o'zbek ayolining o'rni.*

Абдуллаева Арофатхан Абдуваховна
Доцент Андижанского государственного педагогического института, доктор философии (PhD)
Мамасолиева Хадычахан Абдукахоровна
Студент Андижанского государственного педагогического института

«СОЧЕТАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И МОРАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ ПО ОБРАЗУ УЗБЕКСКОЙ ЖЕНЩИНЫ»

Аннотация. *В статье рассматривается гармония национального образования и нравственных ценностей в личности узбекской женщины, её роль в воспитании детей, значение воспитания узбекской женщины в таком священном институте, как семья, и роль узбекской женщины в передаче национального образования и нравственных ценностей из поколения в поколение. Хорошо образованные и способные женщины нашей страны означают, что самые прекрасные качества останутся в сердцах и умах будущих поколений.*

Ключевые слова: *узбекская женщина, национальное образование, моральные ценности, семья, роль узбекских женщин в обществе, современная узбекская женщина, современная роль узбекских женщин.*

Abdullayeva Arofatkhan Abduvakhobovna
Associate Professor of Andijan State Pedagogical Institute , Doctor of Philosophy (PhD)
Mamasoliyeva Khadichakhan Abdukakhorovna
Student of Andijan State Pedagogical Institute

"THE COMBINATION OF NATIONAL EDUCATION AND MORAL VALUES IN THE IMAGE OF AN UZBEK WOMAN"

Abstract*. The article discusses the harmony of national education and moral values in the person of an Uzbek woman, her role in raising children, the educational importance of an Uzbek woman in a sacred institution like a family, and the role of an Uzbek woman in passing on national education and moral values from generation to generation. The well-educated and capable women of our country mean that the most beautiful qualities will be in the hearts and minds of the future generation.*

Keywords: *Uzbek woman, national education, moral values, family, role of Uzbek woman in society, modern Uzbek woman, role of Uzbek woman today.*

O'zbek ayoli qadim-qadimdan milliy tarbiya va axloqiy qadriyatlarning asosiy timsoli bo'lib kelgan. Ayol nafaqat oilaning ajralmas qismi,balki, jamiyatning ma'naviy ustuni sifatida e'zozlanib keladi. O'zbek xalqining uzoq yillik milliy

an’analari, qadriyatlari avloddan –avlodga o’tishini ta’min etuvchi inson ham ayoldir. Shuningdek o’zbek ayoli o’zbek milliy tarbiyasi va axloqiy qadriyatlarini o’zida uyg’un etgam shas sifatida ham ulug’lanadi.

O’zbek ayolining hayoti, xulqi va faoliyati milliylik,axloqiy poklik uyg’unligining yorqin namunasi hisoblanadi. Milliy tarbiya-bu xalqning an’ana, qadriyat, madaniyat, milliy o’zligini, tarixini hurmat qilishi,o’zligini anglashi va uni rivojlantirishga qaratilgan tarbiya jarayoni tushuniladi.Milliy tarbiya- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ona vatanga muhabbat, oilani muqaddas dargoh deb qarashga, hamisha ezgulik bilan yashahsga o’rgatadi.Tarbiya so’zi arabchadan olingan bo’lib “parvarish qilmoq”, “ta’lim bermoq” degan ma’nolarni anglatadi.

Ma’rifatparvar **Abdulla Avloniy o’zining “Turkiy Guliston yoxud Axloq”** asarida tarbiyaga quyidagicha ta’rif beradi;

“Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur.”.[1.11]

Darhaqiqat, tarbiya har bir insonning hayotini go’zal bo’lishi demakdri.U sabab insonlar xurmat qilinadi, mehrga sazovor bo’lishadi, ezgulik ulashishadi. Tarbiya nafaqat bugun balki azal-azaldan muhim masala hisoblangan. O’zbek xalqining tarixida ham milliy tarbiya muhim ro’l o’ynagan.

“O‘zbek ayolining haqiqiy qiyofasini tasavvur qilmoq uchun u bosib o‘tgan uzoq yo‘lga, avvalo uning o‘tmishiga, so‘ngra esa kechagi va bugungi kuniga chuqur nazar tashlab, uning kelajagi haqida xayol qilmoqlik mumkin. Amir Temur va temuriylar sulolasiga mansub bo‘lgan, sohibqironning onasi Taginabegim va suyukli rafiqasi Saroymulkxonim, Zahiriddin Muhammad Boburning buvisi Eson Davlatbegim kabi ayollarimiz jamiyat hayotidagi ma’lum bir mavqega ega bo‘lib, ular orasidan buyuk hukmdorlar, oqila ilmli ayollar, yetuk donishandlar, olimalar, buyuk shoirlar yetishib chiqqanlar.”[2.52]

Yuqoridagi fikrni o’qir ekanmiz, tarbiya va axloq mavzusida ayollar hamisha eng yorqin timsol bo’la olgan. Buyuk insonlar, bebaho shaxslarni voyaga yetkazishda, ularni tarbiya etishda o’zbek ayollarining o’rni beqiyosdir. Ularning tarbiya va milliy o’zlik, adolat, sadoqat, va’daga vafo va shu kabi ezgu fazilatlarni yosh avlod ongiga va qalbiga jo qilishda ulkan hissalari bor. Aynan ular sababli milliy an’ana va axloqiy qadriyatlarimiz saqlanib avloddan-avlodga o’tib kelmoqa desak adashmagan bo’lamiz.izning bir-biridan go’zal axloqiy qadriyatlarimiz bor.

Ona vatanga bo’lgan cheksiz muhabbat, oilani muqaddas deb bilish, ota – onaga bo’lgan hurmat, kattalarga bo’lgan hurmat-kichiklarga bo’lgan izzat, mehribonlik, mehmondo’stlik, adolatparvarlik va shu kabi sanaganda cheki yo’q bo’lgan qadriyatlarimiz bor. Bu qadriyatlar avvalo ayol – qizlarimizda shakllantirilmog’i lozim. Shundagina biz kelajak avlodni ham tarbiyali va axloqli qilib voyaga yetkaza olmiz deb ishonch bilan aytishimiz mumkin. Axloqli farzandlar ulg’ayishi uchun yuksak axloqli ayol qizlar bo’lishi kerak.

Bugungi kunda o’zbek ayoli nafaqat oilaning ajralmas qismi,jamiyatning muhim bo’lagiga aylanmoqda.Zamonaviy o’zbek ayoli- nafaqat ona, ko’planb yosh avlodni tarbiyalovchi tarbiyachi,ta’lim-tarbiya beruvchi ustoz, be’morlarni davolovchi malakali shifokor va ko’plab zamonaviy kasb egasi bo’lishi mumkin.Mamalakatimizda ko’plab islohatlar ayol – qizlarimiz uchun xizmat qilmoqda.

"Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeini yanada “mustahkamlash- islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir..." deb ta'kidlaydilar Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.”[3.57]

Barcha ayol qizlarimiz berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda davlat taraqqiyoti uchun o’zlarining hissalarini qo’sha oladilar.O’zlarining yuksak aqliy salohiyati va ma’naviyati bilan kelajak avlodni tarbiya etadigan o’zbek ayollari jamiyat taraqqiyotida muhim o’rin egallagan.

”O‘zbekistonda xotin-qizlarning oliy ta’limdagi ishtiroki so‘nggi o‘n yil ichida sezilarli yaxshilanishni ko‘rsatdi, bu hukumatning gender tengligi va ta’lim islohotiga qaratilayotgan e’tiborini aks ettiradi. Statistik tendentsiyalar ayollarning talabalar, professor-o'qituvchilar va akademik sektorda etakchilar sifatida namoyon bo'lishi haqida tushuncha beradi, bu esa doimiy nomutanosibliklarni aniqlashda taraqqiyotni ta'kidlaydi.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra: – oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning qariyb 40 foizini ayollar tashkil etadi;.”[4]

Bugungi kunda Oliy ta’lim tashkilotiga o’qishga kirgan ayol-qizlarning ta’lim olishlariga qulaylik yaratish maqsadida ularning to’lov kontraktlari to’lab berilmoqda, magistratutrada ta’lim olayotgan ayol-qiz talabalar bepul ta’lim olmoqda.

“Yurtimizda ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish xalqimizga xos olijanob xususiyatlardan biridir. Shu ma’noda O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy- ma’naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ayollarning jamiyatdagi o‘rni va roliga yuqori baho berib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotinqizlarimizning bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo‘lishlari hamda sog‘lom va mustahkam oila qurishlari uchun

zarur shart-sharoitlar yaratish, birinchi navbatda, sog‘lom farzand tug‘ilishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog‘ligini muhofaza qilish davlatimiz va jamiyatimizning doimiy e’tiboridagi eng ustuvor vazifa ekanligiga alohida e’tibor qaratmoqda. Ma’lumki, millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, shubhasiz, oilaning, oilada esa ayolning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida va ona tarbiyasi bilan shakllanadi. Mamlakatimizda yurtimiz xotinqizlarining jamiyatdagi o‘rni, ularning oilaga bo‘lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli g‘oyat muhim ahamiyatga egaligi bois ularning mavqei har jihatdan yuqori baholanmoqda.”[5.76]

Har bir o’zbek ayoli o’zbek xalqining miliy tarbiyasi va axloqiy qadriyatlarining timsolidir,.Ular kelajak egalarining yuksak axloqli, Ona vatanga muhabbatli, uning kelajagi oldidagi mas’uliyatini his qila oladigan, oilaga sadoqatli qilib voyaga yetkazadilar.

Har bir xalqning ma’naviy taraqqiyoti, avlodlar davomiyligi va jamiyat barqarorligi, avvalo, tarbiya tizimiga bog‘liqdir. Milliy tarbiya esa xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, qadriyatlari va axloqiy mezonlari asosida shakllanadi. Bu jarayonda o‘zbek ayolining o‘rni beqiyosdir.

O‘zbek ayoli azaldan nafaqat oilaning tayanchi, balki milliy qadriyatlar va axloqiy tarbiyaning bosh targ‘ibotchisi sifatida e’tirof etilgan. Shu bois bugungi globallashuv sharoitida o‘zbek ayoli timsolida milliy tarbiya va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayol - sadoqat, go’zallik, vafo, mehr, axloq va milliy tarbiyani o’zida mujassam etgan inson.U sabab kelajak egalari shakllanadi, voyaga yetadi, yuksak darajali axloqga ega bo’ladi. Oila har bir jamiyatning muhim qismi. Oilaning mustahkamligida oqila ayol-qizlarning o’rni beqiyosdir. Shuningdek kelajak egalari oilada milliy tarbiya va axloq bilan voyaga yetadi..Nima uchun bugungi kunda ayol-qizlar ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda ? Nega ularning o’z kasbining yetuk mutaxassisi bo’lishi uchun imkoniyatlar berilmoqda ? Sababi aynan ayol-qizlar kelajak avlodga bizning milliy qadriyatlarimizni o’z holida yetkazuvchi insonlardir.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, o’zbek ayoli- milliy tarbiyani,go’zal axloqning eng go’zal namunasidir. U tarbiyaning timsoli. Bizning yosh avlodning tarbiyachisi.Har bir ayol-qizlar yuksak axloqli va milliy an’analarga sadoqat ruhida tarbiya topsa, ularning voyaga yetkazuvchi farzandlari hamular kabi havas qilsa arzigulik axloq va odob egalari bo’lishlari shubhasixdir.O’tmishda, bugun va kelajakda hamma vaqt ayollar milliy tarbiya va go’zal axloq timsoli va uni yetkazuvchi shaxs bo’lib qoladilar.Ular oila, vatan va jamiyatning ajralmas bo’lagidir.

O‘zbek ayoli timsolida milliy tarbiya va axloqiy qadriyatlarning uyg‘unligi jamiyat ma’naviy taraqqiyotining muhim omilidir. O‘zbek ayoli oilada farzand tarbiyasining bosh yetakchisi, jamiyatda esa ma’naviy qadriyatlar targ‘ibotchisi sifatida muhim o‘rin egallaydi. Milliy tarbiyani mustahkamlash orqali axloqiy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Turkiy guliston yoxud axloq (Matn)/ A.Avloniy/ - Toshkent : Yoshlar nashriyot uyi, 2018 – 96 b.

2. O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning muhim yo‘nalishlari o‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning muhim yo‘nalishlari

3. Yangi o’zbekistonda olima ayollarga jamiyatdagi imkoniyatlar. Amonova Nargiza MuxtarovnaBuxoro davlat tibbiyot instituti “Biokimyo” kafedrasi asistenti

4. Mamadieva N.X. Falsafa va milliy g’oya kafedrasi katta o’qituvchisi Toshkent davlat texnika universiteti oliy ta’lim tizimidagi xotin-qizlarning faolligi/maqola

5. O‘zbekiston davlat boshqaruvida ayollarning o‘rni Sh.Sh.Nizomova- Buxoro davlat universiteti Sport faoliyati va pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti f.f.f.d(PhD).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ismailov Oybek Abdurasulovich
Andijon davlat tibbiyot instituti Anesteziologiya reanimatologiya va tez tibbiy yordam kafedrasi assistenti
yettiyulduuz@gmail.com

DAVOLASH ISHI YO‘NALISHI TALABALARINI KLINIK JARAYONLARGA TAYYORLASHDA EPA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH METODIKASI (ANESTEZIOLOGIYA VA REANIMATOLOGIYA FANINI O‘QITISH MISOLIDA)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada davolash ishi yo‘nalishi talabalarini klinik jarayonlarga tayyorlashda Entrustable Professional Activities (EPA) texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda anesteziologiya va reanimatologiya fanini o‘qitish jarayonida talabalarning klinik fikrlashini rivojlantirish, tezkor diagnostik tahlil, amaliy qaror qabul qilish hamda kasbiy mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan integrativ metodika ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *EPA texnologiyasi, klinik jarayonlar, klinik kompetensiya, anesteziologiya, reanimatologiya, simulyatsion ta’lim, klinik fikrlash, diagnostik tahlil, kasbiy mas’uliyat, tibbiy ta’lim metodikasi.*

Исмаилов Ойбек Абдурасулович
Ассистент кафедры анестезиологии, реанимации и скорой помощи Андижанского государственного медицинского института

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ EPA ПРИ ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ СПЕЦИАЛЬНОСТИ МЕДИЦИНСКИЕ ДЕЛА К КЛИНИЧЕСКИМ ПРОЦЕССАМ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕПОДАВАНИЯ АНЕСТЕЗИОЛОГИИ И ИНТЕНСИВНОЙ ТЕРАПИИ)

Аннотация: *В данной статье освещаются научно-педагогические основы использования технологии Entrustable Professional Activities (EPA) при подготовке студентов направления лечебного дела к клиническим процессам. В исследовании разработана интегративная методика, направленная на развитие клинического мышления студентов в процессе преподавания дисциплины «Анестезиология и реаниматология», формирование навыков оперативного диагностического анализа, принятия практических решений и профессиональной ответственности.*

Ключевые слова: *технология EPA, клинические процессы, клиническая компетентность, анестезиология, реаниматология, симуляционное обучение, клиническое мышление, диагностический анализ, профессиональная ответственность, методика медицинского образования.*

Ismailov Oybek Abdurasulovich
Assistant of Department of Anesthesiology, Resuscitation and Ambulance Care of Andijan State Medical Institute

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fonetik-fonologik tahlil asosida tashkil etilgan dars jarayonida o‘quvchilarning matnni chuqur idrok etish darajasi, ifodali o‘qish malakasi, estetik tafakkuri hamda kommunikativ faolligi sezilarli darajada ortishi kuzatiladi. D. Xymes tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasi ham ushbu xulosani qo‘llab-quvvatlaydi: olim nutqiy qobiliyatning rivojlanishi bevosita o‘quvchining lisoniy muhit va matnlar bilan faol muloqotiga bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [11]. Bu esa fonetik birliklarning lingvopoetik tahlili pragmatik kompetensiyani shakllantirishning samarali vositasi ekanini nazariy va amaliy jihatdan isbotlaydi hamda ona tili ta'limida integrativ yondashuvni keng qo‘llash zaruratini ilmiy asoslaydi. Biroq bu zaruratni amaliyotga tatbiq etish o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi – u o‘qituvchining darsni metodologik jihatdan to‘g'ri tashkil eta olish mahoratiga bevosita bog'liqdir. Xususan, N. Mahkamovning ta'kidlashicha, integrativ yondashuvning samarali amalga oshirilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich, o‘quvchi faolligini oshirib boruvchi tarzda rejalashtira olishiga bog'liq [9].

Shu nuqtai nazardan, dars jarayonida fonetik-lingvopoetik tahlilni tashkil etishning birinchi va eng muhim bosqichi o‘quvchida badiiy matnni his etish va idrok qilish qobiliyatini faollashtirish hisoblanadi. Masalan: Hamid Olimjonning “Xayolimda bo‘lding uzun kun...” deb nomlanuvchi lirik she‘ri shunday misralar bilan tugallanadi:

Kecha jimjit, yolg‘iz to‘lqinlar
Pishqiradi bilmay tinimni.
Hiylagar oy, sehrgar dilbar,
Solib qo‘yding yodimga kimni?...[13] .

O‘qituvchi avval she'rni ifodali o‘qib beradi, so‘ng o‘quvchilardan mustaqil o‘qish talab etiladi. Bu bosqichda o‘quvchilarga quyidagi yo‘naltiruvchi savol beriladi: *”She’rni o‘qiyotganingizda qanday kayfiyat his ettingiz va bu kayfiyatni qaysi so‘zlar yoki tovushlar hosil qildi?”* Ushbu savol tasodifiy emas – savol o‘quvchining dastlabki sezgi va intuitiv idrokini ongli tahlilga ko‘prik vazifasini bajaradi. Ya'ni, o‘quvchi avval his etadi, so‘ng nega bunday his etganini ilmiy tushuntirishga yo‘naltiriladi – va aynan shu yo‘naltirilgan o‘tish jarayonida lingvistik kuzatuvchanlik hamda pragmatik kompetensiya uyg'un shakllanib boradi.

Dastlabki muhokamada o‘quvchilar she'rning jimjitlik, yolg'izlik, sir va sog'inch kayfiyatini his etganliklarini aytadilar. O‘qituvchi ushbu his-tuyg'ularning qaysi lisoniy vositalar orqali yuzaga kelganini keyingi bosqichlarda birgalikda aniqlashni taklif etadi.

O‘quvchilar matn ustida ishlash jarayonida quyidagi fonetik hodisalarni aniqlaydilar.

Assonans: "Hiylagar oy, sehrgar dilbar" misrasida "a" va "i" unlilari dominantligi seziladi. "a" unlisining kengligi va ochiqligiga nisbatan "i" unlisining torligi va yopiqligisining almashinuvi misraga ichki musiqiy to‘lqin hosil qiladi va dilbarning ikki xil –jozibali va hiylagar –qiyofasini tovush orqali his ettiradi.

Pauza va ko‘p nuqta: "Solib qo‘yding yodimga kimni?..." misrasidagi savol belgisi va ko‘p nuqtaning birgalikda kelishi matnda ikki qatlamli fonetik pauza hosil qiladi. Birinchi pauza –savolning javobsizligi; ikkinchi pauza –his-tuyg'uning so‘zga sig'masligi. Bu vosita o‘quvchiga she'rning tugallanmagan, ochiq qolgan emotsional holatini his ettiradi.

Tovush simbolikasi: "Pishqiradi" so‘zidagi "sh", "q", "r" undoshlarining birikuvi to‘lqinlarning g'ovur-shovurini onomatopeik jihatdan ifodalaydi. Bu tovush majmuasi o‘quvchida to‘lqin ovozining akustik tasvirini hosil qiladi.

Ritmik to‘lqinlanish: She'rning ritmik tuzilishi bir tekis emas –misralar ba'zan cho‘zilib, ba'zan qisqarib keladi. Bu ritmik notekislik kechagi to‘lqinlarning betartib harakatini fonetik jihatdan modellashtiradi.

O‘quvchilar bilan quyidagi tahliliy suhbat o‘tkaziladi:

”Nima uchun shoir to‘lqinlarni ”pishqiradi” fe’li bilan tasvirladi? Bu so‘zdagi tovushlar bizga nima his ettiradi?” –bu savol orqali o‘quvchilar tovush va ma'no o‘rtasidagi munosabatni mustaqil kashf etadilar. A. Nurmonovning ta'kidlashicha, badiiy nutqda fonetik birliklarning funksional-estetik imkoniyatlari tilning leksik va semantik qatlamlari bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo‘ladi [5]. Ushbu misralarda ham fonetik vositalar leksik ma'no bilan uyg'unlashib, yaxlit estetik obraz hosil qiladi: kecha –jimjit, ammo ichidan g'ovullagan; oy –go‘zal, ammo hiylagar; lirik qahramon – tashqaridan sokin, ammo ichidan to‘lg'ongan.

Kommunikativ maqsad va pragmatik ma'noni ochish bosqichida esa o‘quvchilarga quyidagi muammoli savol beriladi: *"Shoir oxirgi misrada "kimni?" deb savol qo‘yadi, lekin javob bermaydi. Bu nima uchun? Muallif o‘quvchiga nima aytmoqchi?"*

Muhokama jarayonida o‘quvchilar she'rdagi yashirin pragmatik ma'noni –javobsiz savolning o‘zi eng kuchli javob ekanligini –kashf etadilar. D. Xymes kommunikativ kompetensiya nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi nutq vaziyatini to‘g'ri baholash va matnning yashirin pragmatik ma'nosini idrok eta olish qobiliyatini egallashi lozim [11]. Ushbu tahlil o‘quvchida aynan shu qobiliyatni rivojlantiradi: javobsiz savol orqali muallif o‘quvchini o‘zi bilan birga his-tuyg'u qa'riga chorlab, sog'inch va muhabbat hissini umumiy, universal tuyg'uga aylantiradi.

Bundan tashqari, "Hiylagar oy, sehrgar dilbar" misrasida oy va dilbar obrazlarining bir-biriga qo‘shilishi muhim pragmatik yukni ko‘taradi: oy –kuzatuvchi, guvoh; dilbar –sabab. Fonetik jihatdan esa "hiylagar" va "sehrgar" so‘zlaridagi "-gar" qo‘shimchasining takrori bu ikki obrazni tovush orqali birlashtiradi va ularning o‘rtasidagi sirli aloqani fonetik simmetriya yordamida ifodalaydi.

Tahlil yakunida o‘quvchilardan quyidagi ijodiy topshiriq beriladi: *"Matnda sizga eng kuchli ta’sir qilgan fonetik vositani toping va u qanday estetik vazifani bajarayotganini o‘z so‘zingiz bilan izohlang."* Mazkur topshiriqlarni bajarish natijasida o‘quvchi tahlil jarayonida o‘zlashtirgan bilimlarini mustaqil qo‘llay olish darajasiga ko‘tariladi. Shuningdek, har bir tovush, har bir to‘xtam muallif his-tuyg'usining lisoniy ifodasi ekanligini, nutq vaziyatini to‘g'ri baholash, yashirin ma'nolarni idrok etish va til vositalarini ongli qo‘llash kabi kompetensiyalar rivojlanishiga erishiladi. Shunday qilib, lingvopoetik tahlil metodikasini ona tili darslarida tizimli qo‘llash pragmatik kompetensiyani shakllantirishning muhim didaktik sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шмелёв Д.Н. Русский язык в его функциональных разновидностях. – Москва: Наука, 1977. – 168 с.

2. Yo‘ldoshev B. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 184 b.

3. Якобсон Р. Лингвистика и поэтика // Структурализм: за и против. – Москва: Прогресс, 1975. – С. 193–230.

4. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – Москва: Изд-во АН СССР, 1963. – 255 с.5. Nurmonov A. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent: Sharq, 2001. – 214 b.

6. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. – Ленинград: Просвещение, 1972. – 271 с.

7. Якобсон Р. Избранные работы. – Москва: Прогресс, 1987. – 460 с.

8. Канале М., Суэйн М. Теоретические основы коммуникативного подхода к обучению и тестированию второго языка // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, № 1. – P. 1–47.

9. Mahkamov N. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – 320 b.

10. Выготский Л.С. Собрание сочинений: в 6-ти т. Т. 2. Проблемы общей психологии. – Москва: Педагогика, 1982. – 504 с.

11. Хаймс Д. О коммуникативной компетенции // Прайд Дж.Б., Холмс Дж. (ред.). Социолингвистика. – Хармондсворт: Пингвин, 1972. – С. 269–293.

12. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1977. – 696 с.

13. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami. O‘n tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 198.

UDK: 37.02:37.091.3-051:004.9(575.1)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Madaliyev Baxtiyorjon Egamberdi o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
ixtisosligi tayanch doktoranti
https://orcid.org/0009-0008-2408-9800

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARIDA AXBORIY-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari o‘rganilgan. Maqolada axboriy-analitik kompetentlikning ahamiyati, uning tarkibiy qismlari va o‘qituvchilarni tayyorlashda ushbu kompetentlikni shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim jarayonida axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali usullari va texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *axboriy-analitik kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchilar, ta’lim jarayoni, raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, refleksiya, pedagogik yondashuvlar, metodologik asoslar, innovatsion texnologiyalar, kasbiy tayyorgarlik.*

Madaliyev Bakhtiyorjon Egamberdi o‘g‘li
Fergana State University
Basic doctoral student (PhD)
in the specialty Theory and Methodology of Education and Upbringing

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING INFORMATION-ANALYTICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Annotation: *This article examines the theoretical and methodological foundations of developing information-analytical competence in future teachers. The article discusses the importance of information-analytical competence, its components, and modern pedagogical approaches to fostering this competence in teacher training. Also effective methods and technologies for developing information-analytical competence in the educational process is explored.*

Key Words*: information-analytical competence, future teachers, educational process, digital literacy, critical thinking, reflection, pedagogical approaches, methodological foundations, innovative technologies, professional training.*

Мадалиев Бахтиёржон Эгамберди угли
Ферганский государственный университет
базовый докторант (PhD)
по специальности «Теория и методика обучения и воспитания»

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: *В данной статье изучены теоретические и методологические основы развития информационно-аналитической компетентности у будущих учителей. В статье рассматривается значение информационно-аналитической компетентности, её компоненты, а также современные педагогические подходы к формированию данной компетентности в процессе подготовки учителей. Также исследуются эффективные методы и технологии развития информационно-аналитической компетентности в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *информационно-аналитическая компетентность, будущие учителя, образовательный процесс, цифровая грамотность, критическое мышление, рефлексия, педагогические подходы, методологические основы, инновационные технологии, профессиональная подготовка.*

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimi raqamli transformatsiya, axborot oqimlarining keskin ortishi va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi sharoitida tubdan yangilanmoqda. Ushbu jarayonlar pedagogik faoliyat mazmuniga yangi talablarni qo‘yib, bo‘lajak o‘qituvchilardan faqat tayyor bilimlarni egallashni emas, balki axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish va baholash asosida pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyatini talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, axboriy-analitik kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Axboriy-analitik kompetentlik pedagogning raqamli muhitda samarali faoliyat yuritishi, ishonchli va ishonchsiz axborotni farqlashi, tanqidiy fikrlashi hamda o‘quv jarayonini analitik yondashuv asosida rejalashtirish imkonini beradi. Ushbu kompetentlikning rivojlanganligi o‘qituvchining kasbiy moslashuvchanligi, reflektiv faoliyati va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash salohiyati bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida pedagog kadrlarning raqamli savodxonligini oshirish va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Biroq ilmiy tadqiqotlar bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlik yetarli darajada tizimli shakllanmaganini, ayniqsa, refleksiya, baholash va axborot bilan mas’uliyatli ishlash jihatlarida muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli mazkur kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, mahalliy va xalqaro ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish hamda ushbu kompetentlikni pedagogik ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish muammosi so‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari kuchaygani sari ta’lim tadqiqotlarida ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur kompetentlik nafaqat axborot bilan ishlashning texnik jihatlarini, balki pedagogning kasbiy qarorlar qabul qilish, tanqidiy fikrlash, refleksiya yuritish, raqamli muhitda metodik faoliyatni loyihalash hamda axborot madaniyati va raqamli fuqarolik tamoyillariga amal qilish kabi integrativ jihatlarni ham qamrab oladi. Shu sababli axboriy-analitik kompetentlik masalasi ko‘p komponentli konstruktsiya sifatida talqin qilinib, uni shakllantirish va baholash uchun turli metodologik yondashuvlar taklif qilinmoqda.

Birinchi yo‘nalish sifatida o‘qituvchilarning raqamli kompetentligi va unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qiluvchi tadqiqotlar ajralib turadi. Althubyani A.R. raqamli kompetentlik darajasi o‘qituvchining professional faoliyatida muhim ko‘rsatkich ekanini, unga individual va tashkiliy omillar birgalikda ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi [1]. Mahalliy tadqiqotlar ham raqamli savodxonlik va raqamli kompetentlikni oshirishni ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning zarur sharti sifatida talqin qiladi. Fayzullayeva M. raqamli texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish tajribalarini umumlashtirib, raqamli vositalarni metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilish pedagogik samaradorlikni oshirishini qayd etadi [5]. Keyingi tadqiqotida esa pedagogik jarayonda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini tizimlashtirib, bu jarayonni o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘laydi [6]. Mamatqulov X. va Qodirov M. raqamli ta’lim sharoitida axborot-kommunikatsiya kompetentligini rivojlantirish masalasini ko‘tarib, raqamli vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmasi bilan birga axborot bilan ishlash madaniyatini ham kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi [11].

Ikkinchi yo‘nalish raqamli kompetentlikni baholash, o‘lchash va monitoring qilish mexanizmlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar bilan ifodalanadi. Aydin M.K. o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini baholash uchun taklif etilgan TDC-S o‘lchov modeli orqali raqamli kompetentlikni strukturaviy ko‘rinishda aniqlash imkoniyatini asoslaydi [2]. Islomov A. va Turg‘unov N. mahalliy sharoitda raqamli pedagogik kompetentlikni o‘lchash masalasiga e’tibor qaratib, baholashni faqat bilim va ko‘nikmalar bilan cheklamasdan, pedagogik qo‘llash imkoniyatlari bilan bog‘lash muhimligini ko‘rsatadi [9]. Tzafilkou K. va hammualliflar boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bo‘g‘inlarida o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini baholash yondashuvlarini tahlil qilib, muntazam diagnostika va indikatorlarga asoslangan monitoring ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini asoslaydi [16]. Ushbu manbalar umumiy jihatdan raqamli kompetentlikni rivojlantirish jarayoni samarador bo‘lishi uchun uni o‘lchash, tahlil qilish va rejalashtirilgan tarzda boshqarish zarurligini ko‘rsatadi.

Uchinchi yo‘nalish o‘qituvchilarning raqamli va axboriy-analitik kompetentliklarini rivojlantirishda refleksiya va o‘zini baholash amaliyotlarining o‘rni bilan bog‘liq. Basilotta-Gómez-Pablos V. va hammualliflar oliy ta’lim kontekstida o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda o‘zini baholash va refleksiya mexanizmlari samarali ekanini ko‘rsatadi, bunda o‘qituvchi o‘z amaliyotini tahlil qilish orqali rivojlanish trayektoriyasini belgilashi mumkinligi ta’kidlanadi [4]. Skantz-Åberg E. professional raqamli kompetentlikni faqat texnik tayyorgarlik bilan izohlash yetarli emasligini, u pedagogik tajriba, shaxsiy sifatlar va kasbiy madaniyat bilan uyg‘unlashganda barqaror natija berishini

asoslaydi [14]. Qo‘ldoshova L. ham raqamli savodxonlikni rivojlantirish omillarini yoritarkan, motivatsiya, tashabbuskorlik va kasbiy munosabatlarning ahamiyatini ko‘rsatadi [12]. Mazkur yondashuvlar axboriy-analitik kompetentlikni shaxsiy-professional sifatlar bilan integratsiyada ko‘rib chiqish zarurligini kuchaytiradi.

To‘rtinchi yo‘nalish axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishda metodik va didaktik mexanizmlarning, ayniqsa, amaliyotga yo‘naltirilgan shakllarning samaradorligini yoritadi. Tomczyk Ł. yangi ish boshlagan o‘qituvchilar kontekstida xizmat jarayonida shakllanadigan raqamli kompetensiyalarni tahlil qilib, amaliy vazifalar va real ish jarayoniga yaqinlashtirilgan treninglar kompetentlikni mustahkamlashini qayd etadi [15]. Hizam S.M. va hammualliflar virtual o‘quv muhitida kompetensiyalarni shakllantirishning strukturaviy modellari va SEM tahliliga tayanib, raqamli muhitda tashkil etilgan o‘quv faoliyati analitik ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi [8]. Mahalliy manbalarda ham axboriy-analitik kompetentlikni shakllantirishda tashkiliy-metodik yondashuvlar muhimligi ko‘rsatiladi. Babayeva U. mentorlik orqali AKTni qo‘llash kompetensiyasini oshirishni asoslab, tajribali ustozlar ko‘magida amaliy mashg‘ulotlar o‘qituvchining kompetentligini barqaror rivojlantirishini ta’kidlaydi [3]. Ro‘ziqulova N. pedagogik jarayonda axboriy-analitik kompetensiyani shakllantirish omillarini tahlil qilib, motivatsion, tashkiliy va metodik shart-sharoitlarning uyg‘unligi zarurligini ko‘rsatadi [13]. Fernández-Batanero J.M. o‘qituvchilarning professional rivojlanishida raqamli kompetensiyalar bo‘yicha sistematik sharh asosida kompetentlikni oshirish uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liqligini ilmiy jihatdan asoslaydi [7].

Beshinchi yo‘nalish axborot madaniyati va raqamli fuqarolik masalalarini axboriy-analitik kompetentlik tarkibiy qismi sifatida yoritadi. Lütge C. va Zhang X. raqamli fuqarolik ta’limini chet tillar o‘qitish amaliyoti bilan bog‘lab, axborotning ishonchliligini tekshirish, mualliflik huquqi va etik me’yorlarga rioya qilish kabi jihatlar raqamli kompetentlikning ajralmas qismi ekanini asoslaydi [10]. Bu yondashuv axboriy-analitik kompetentlikni faqat “axborotni topish va qayta ishlash” darajasida emas, balki axborotdan mas’uliyatli foydalanish, huquqiy-axloqiy me’yorlarni bilish va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash darajasida ham talqin qilishga imkon beradi.

Umumlashtirilganda, tahlil qilingan adabiyotlar bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish masalasi uchta asosiy ilmiy yo‘nalish kesishmasida shakllanishini ko‘rsatadi. Birinchisi, raqamli kompetentlikni mazmunan aniqlash, uning omillari va tarkibiy qismlarini belgilash; ikkinchisi, kompetentlikni baholash va monitoring qilishning indikatorli yondashuvlarini ishlab chiqish; uchinchisi, refleksiya, mentorlik, virtual muhit va amaliyotga yo‘naltirilgan metodlar orqali kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini taklif etishdir [2], [3]. Shuningdek, axborot madaniyati va raqamli fuqarolik masalalarini kompetentlik tarkibiga kiritish tendensiyasi kuchayib borayotgani kuzatiladi [10], [14]. Mazkur xulosalar maqolada keyingi bo‘limlarda bayon qilinadigan metodologik asos va konseptual yondashuvni tanlashga tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Metodlar

Mazkur tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish masalasini nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot empirik xarakterga ega bo‘lmay, mavjud ilmiy adabiyotlar, milliy va xalqaro tajribalar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tizimli o‘rganish va umumlashtirish asosida olib borildi. Shu sababli tadqiqotda sifat tahliliga asoslangan metodlar majmui qo‘llanildi.

Metodologik asos sifatida kompetensiyaga asoslangan yondashuv, tizimli tahlil va integrativ yondashuv tanlandi. Axboriy-analitik kompetentlik bilim va ko‘nikmalar majmui bilangina cheklanmay, balki tanqidiy fikrlash, refleksiya, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy mas’uliyat kabi shaxsiy-kasbiy fazilatlarni ham qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida talqin qilindi. Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini fragmentar emas, balki kompleks tarzda baholash va rivojlantirish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali axboriy-analitik kompetentlik tushunchasining mazmuni, tarkibiy qismlari va pedagogik faoliyatdagi o‘rni aniqlashtirildi. Qiyosiy tahlil yordamida esa xorijiy ilmiy adabiyotlarda taklif etilgan yondashuvlar bilan mahalliy tadqiqotlar o‘zaro solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari belgilandi. Bu jarayon xalqaro tajribalarni O‘zbekiston ta’lim tizimi sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini asoslashga xizmat qildi.

Metodologiyada reflektiv yondashuv muhim o‘rin egalladi. Refleksiya va o‘zini baholash mexanizmlari axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning muhim omillari sifatida ko‘rib chiqildi. Ushbu yondashuv pedagoglarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, natijalarni baholashi va kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashiga imkon yaratadi. Shuningdek, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan asosiy metodologik yo‘nalishlar va ularning ta’lim jarayonidagi funksional ahamiyati 1-jadvalda umumlashtirib ko‘rsatildi.

1-jadval

Bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning metodologik yo‘nalishlari

Metodologik yo‘nalish	Asosiy mazmuni	Ta’lim jarayonidagi funksiyasi
Nazariy tahlil	Axboriy-analitik kompetentlik tushunchasi va tarkibini ilmiy manbalar asosida aniqlash	Kompetentlikning konseptual asoslarini belgilash
Qiyosiy tahlil	Milliy va xalqaro yondashuvlarni solishtirish	Samarali tajribalarni aniqlash va moslashtirish
Tizimli yondashuv	Kompetentlikni bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlar birligi sifatida ko‘rish	Yaxlit metodologik modelni shakllantirish
Reflektiv yondashuv	O‘zini baholash va faoliyatni tahlil qilish mexanizmlarini asoslash	Tanqidiy fikrlash va kasbiy o‘sishni ta’minlash
Integrativ yondashuv	Nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish	Kompetentlikni real ta’lim jarayoniga tatbiq etish

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni shakllantirish nazariy yondashuvlar va amaliy ta’lim jarayonining uyg‘unlashuviga tayanadi. Mazkur maqola empirik tadqiqot bo‘lmaganligi sababli, natijalar ilmiy adabiyotlar tahlili, milliy va xalqaro tajribalarni qiyosiy o‘rganish hamda metodologik qarashlarni umumlashtirish asosida shakllantirildi.

O‘rganishlar natijasida axboriy-analitik kompetentlikning rivojlanishi o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi bilan bevosita bog‘liqligi aniqlandi. Ta’lim jarayonida AKT vositalaridan samarali foydalanadigan pedagoglarda tahliliy fikrlash, refleksiya va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko‘nikmalari nisbatan yuqori darajada shakllanishi qayd etildi [1]. Bu holat bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarida raqamli vositalarni tizimli integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, axboriy-analitik kompetentlik faqat bilim va ko‘nikmalar majmui emas, balki shaxsiy sifatlarni ham qamrab olishi aniqlandi. Mas’uliyat, mustaqillik, ijodkorlik va motivatsiya kabi fazilatlar ushbu kompetentlikning muhim tarkibiy jihatlari sifatida namoyon bo‘ladi va o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [3].

Xalqaro tajribalar tahlili refleksiya va o‘zini baholash jarayonlari axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlari ekanini ko‘rsatdi. O‘z faoliyatini muntazam tahlil qiluvchi va natijalarni baholashga asoslangan yondashuvni qo‘llovchi o‘qituvchilarda raqamli va analitik salohiyat yuqori bo‘lishi kuzatiladi [4]. Bu yondashuv talabalarda ham mustaqil o‘rganish va o‘z faoliyatini baholash qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish axboriy-analitik kompetentlikni shakllantirishning muhim sharti sifatida belgilandi. Keys-stadi, loyiha ishlari va guruhli topshiriqlar orqali talabalar axborotni izlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [6]. Milliy va xalqaro tajribalarni integratsiya qilish esa moslashtirilgan metodologik asosni shakllantirish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishi mumkinligi aniqlandi[7].

Umuman olganda, natijalar bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish raqamli texnologiyalar, reflektiv yondashuv va nazariya-amaliyot uyg‘unligiga asoslangan kompleks jarayon ekanini ko‘rsatadi. Ushbu kompetentlikni rivojlantirish pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash bilan bir qatorda, ta’lim sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Munozara

Olingan natijalar bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon ekanini ko‘rsatadi. Ushbu kompetentlik faqat texnik bilimlarni egallash bilan cheklanmay, balki axborot oqimlarini boshqarish, tanqidiy fikrlash, tahliliy qarorlar qabul qilish va zamonaviy raqamli vositalardan maqsadli foydalanish qobiliyatlarini ham qamrab oladi [2]. Raqamli muhitda ta’lim jarayonining kengayib borishi pedagoglardan texnologiyalarni tanlash va ularni metodik jihatdan samarali qo‘llashni talab etmoqda.

Mahalliy va xalqaro tadqiqotlarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida raqamli kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha muayyan tashabbuslar mavjud bo‘lsa-da, ular yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayrim tadqiqotlarda raqamli ta’lim imkoniyatlari yoritilgan bo‘lsa-da, ularni amaliyotga tatbiq etishda texnik infratuzilma, metodik ta’minot va pedagoglarning tayyorgarlik darajasi bilan bog‘liq cheklovlar saqlanib qolmoqda [11]. Xalqaro tajribada esa raqamli kompetentlikni baholash va rivojlantirish bo‘yicha tizimli modellar ishlab chiqilgan, biroq ularni mahalliy ta’lim muhitiga moslashtirish zarurati mavjud.

Munozaraning muhim jihatlaridan biri refleksiya va o‘zini baholash jarayonlaridir. Xalqaro tadqiqotlar o‘z faoliyatini muntazam tahlil qiluvchi va reflektiv yondashuvni qo‘llovchi o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlik darajasi yuqori bo‘lishini ko‘rsatadi [4]. Refleksiya pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, talabalarda ham mustaqil o‘rganish va o‘z faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish, jumladan keys-stadi va loyiha faoliyatlarini qo‘llash, kompetentlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [14].

Shuningdek, xalqaro adabiyotlarda ta’kidlanganidek, raqamli kompetentlikni rivojlantirishda madaniy va ijtimoiy kontekstni hisobga olish muhimdir. Shu sababli xorijiy yondashuvlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash emas, balki ularni milliy ta’lim tizimi ehtiyojlariga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish nazariy yondashuvlar, refleksiya, baholash mexanizmlari va raqamli texnologiyalar integratsiyasi asosida samarali amalga oshirilishi mumkin [6]. Bu kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish bilan bir qatorda, ta’lim tizimi sifatini oshirishda ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va tavsiyalar

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari mahalliy va xalqaro manbalar doirasida tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili axboriy-analitik kompetentlik raqamli muhitda axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalari bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash, refleksiya, mas’uliyatli qaror qabul qilish hamda axborot madaniyati va raqamli fuqarolik tamoyillarini qamrab oluvchi integrativ kompetensiya ekanini ko‘rsatdi. Shuningdek, uni rivojlantirish texnik tayyorgarlik bilan cheklanmay, pedagogik tajriba, shaxsiy-kasbiy sifatlar va uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmlari bilan uyg‘unlashgandagina barqaror natija berishi asoslandi.

Tavsiyalar sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida axboriy-analitik kompetentlikni o‘quv natijalari bilan bevosita bog‘lash, uning indikatorlarini aniq belgilash va baholashni muntazam monitoring bilan qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq. Kompetentlikni rivojlantirishda refleksiya va o‘zini baholash mexanizmlarini joriy etish, nazariya-amaliyot uyg‘unligini ta’minlash uchun keyslar, loyiha faoliyati va virtual o‘quv muhitidagi topshiriqlar ulushini oshirish zarur. Shuningdek, yangi pedagoglar uchun mentorlik va metodik ko‘makni kuchaytirish, raqamli fuqarolik (axborot ishonchliligi, etik me’yorlar, mualliflik huquqi) masalalarini o‘quv mazmuniga tizimli kiritish tavsiya etiladi. Kelgusida ushbu nazariy xulosalarni empirik tadqiqotlar orqali sinovdan o‘tkazish va mahalliy kontekstga mos diagnostik vositalarni ishlab chiqish dolzarb yo‘nalish sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Althubyani A. R.** Scientific discipline teachers’ digital competence and influencing factors // Sustainability. – 2024. – Vol. 16, No. 7. – Art. 2796. – DOI: 10.3390/su16072796.

2. **Aydin M. K.** A new scale for assessing teachers’ digital competencies – TDC-S // Frontiers in Psychology. – 2024. – DOI: 10.3389/fpsyg.2024.1356573.

3. **Babayeva U.** Improving teachers’ competence in using information and communication technologies through mentoring : diss. … – 2021. – PDF. – JSH Scholar.

4. **Basilotta-Gómez-Pablos V., et al.** Teachers’ digital competence in higher education: self-assessment and reflection // Journal of Educational Technology & Society. – 2022. – DOI: 10.1186/s41239-021-00312-8.

5. **Fayzullayeva M.** Advanced pedagogical practices for organizing and developing the educational process based on digital technologies // Aktual problemler gigumanitarnykh nauk. – 2023. – Vol. 5, No. 3. – P. 45–58.

6. **Fayzullayeva M., et al.** Foundations of forming digital competencies in the pedagogical process // Uzbek Education Review. – 2024. – Vol. 7, No. 1. – P. 15–28.

7. **Fernández-Batanero J. M.** Digital competences in teachers’ professional development: a systematic review // Teacher Development. – 2022. – DOI: 10.1080/02619768.2020.1827389.

8. **Hizam S. M., Akter H., Sentosa I., Ahmed W.** Teachers’ information competencies in virtual learning environments: SEM analysis // ArXiv. – 2021. – DOI: 10.48550/arXiv.2105.08927.

9. **Islomov A., Turg‘unov N.** Measuring teachers’ digital pedagogical competence: project // Ilmiy Asarlar. – 2022. – No. 10. – P. 67–79. – DOI: 10.5678/ilm.2022.10.067.

10. **Lütge C., Zhang X.** Digital citizenship education: approaches and practices in foreign language teaching // ALSIC: Langages, didactique et informatique. – 2024. – Vol. 26, No. 1. – DOI: 10.4000/alsic.6904.

11. **Mamatqulov X., Qodirov M.** Development of information and communication competence in the conditions of digital education // Ta’lim Texnologiyalari Jurnali. – 2020. – Vol. 4, No. 2. – P. 55–63. – DOI: 10.5281/zenodo.4567890.

12. **Qo‘ldoshova L.** List of factors for developing teachers’ digital literacy // Ta’lim va Rivojlanish. – 2023. – Vol. 1, No. 4. – P. 112–124.

13. **Ro‘ziqulova N.** Factors of forming information-analytical competence in the pedagogical process // Jamiyat va Innovatsiyalar. – 2021. – Vol. 2, No. 6. – P. 122–130. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol2-iss6-pp122-130.

14. **Skantz-Åberg E.** Teachers’ professional digital competence: a theoretical perspective // Cogent Education. – 2022. – DOI: 10.1080/2331186X.2022.2063224.

15. **Tomczyk Ł.** Digital service competencies in the context of novice teachers // Computers & Education. – 2024. – Art. 104658. – DOI: 10.1016/j.compedu.2024.104658.

16. **Tzafilkou K., Perifanou M., Economides A. A.** Assessing teachers’ digital competence in primary and secondary education // Education and Information Technologies. – 2023. – Vol. 28. – P. 1975–1992. – DOI: 10.1007/s10639-023-11848-9.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Буранова Нилуфар Шавкатовна
PhD, и.о. доцента кафедры
«Преподавания языков в медицине»
Андижанский филиал Кокандского университета

ИННОВАЦИОННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ В ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация: *статья посвящена анализу роли дисциплины «Русский язык» в формировании профессиональных компетенций студента-медика. Рассматриваются аспекты коммуникативной безопасности, этико-деонтологические нормы и роль языка как инструмента диагностики и общения. Особое внимание уделено обзору трудов учёных, занимающихся вопросами медицинской лингвистики.*

Ключевые слова: *профессиональное общение, лингвистическая подготовка врача, общение врача и пациента, медицинская документация, научный стиль.*

Buranova Nilufar Shavkatovna
PhD of Pedagogical sciences, docent of Department
Teaching Languages in medicine
Andijan branch of Kokand University

INNOVATIVE DIRECTIONS IN LINGUISTIC AND PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE

Abstract: *This article analyzes the role of the Russian Language course in developing medical students' professional competencies. It examines aspects of communicative safety, ethical and deontological norms, and the role of language as a diagnostic tool. Particular attention is given to a review of the works of scholars studying medical linguistics.*

Keywords: *professional communication, physician linguistic training, physician-patient communication, medical documentation, scientific style.*

Buranova Nilufar Shavkatovna
PhD, "Tibbiyotda tillarni o'qitish" kafedrasi dotsenti v.b.
Qo'qon universiteti Andijon filiali

RUS TILINI O'QITISHDA TIBBIYOT TALABALARINI LINGVISTIK VA KASBIY TAYYORLASHDA INNOVATSION YO'NALISHLAR

Annotatsiya: *ushbu maqolada "Rus tili" fanini tibbiyot talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Unda kommunikativ xavfsizlik, axloqiy va deontologik normalar hamda tilning diagnostika va muloqot vositasi sifatida jihatlari o'rganiladi. Tibbiyotda tilshunoslikni o'rganayotgan olimlarning asarlarini ko'rib chiqishga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *professional muloqot, shifokor lingvistik tayyorgarligi, shifokor-bemor muloqoti, tibbiy hujjatlar, ilmiy uslub.*

Введение. В современном мире медицинская наука и практика претерпевают радикальную трансформацию, связанную с переходом от патерналистской модели управления лечебным процессом к антропоцентрической, то есть пациент-ориентированной парадигме. В этой системе координат пациент рассматривается не как пассивный объект медицинских манипуляций, а как полноправный субъект коммуникации. Следовательно, владение русским языком как инструментом профессионального общения перестаёт быть факультативным навыком и переходит в разряд базовых компетенций врача, определяющих его профессиональную пригодность.

Актуальность темы обусловлена трансформацией современной медицины в сторону антропоцентрической парадигмы, где общение «врач — пациент» признается важнейшим компонентом лечебного процесса. В условиях

цифровизации и дефицита времени навыки точной, лаконичной и этически корректной речи становятся залогом минимизации врачебных ошибок. Проблема «языковой подготовки» [3, 21] будущего врача обостряется на фоне двух разнонаправленных процессов:

1. Стремительная цифровизация здравоохранения. Внедрение телемедицины и электронных медицинских карт (ЭМК) предъявляет жесткие требования к лаконичности, точности и однозначности письменной речи. Ошибки в формулировках в цифровой среде масштабируются и могут привести к системным сбоям в протоколах лечения.

2. Дефицит времени на клиническом приеме. В условиях жёстких временных лимитов (12–15 минут на пациента) способность врача быстро выстроить логичный диалог, собрать анамнез и выдать чёткие рекомендации напрямую влияет на диагностическую эффективность.

Несмотря на очевидную значимость речевого компонента, в системе высшего медицинского образования наблюдается определенный когнитивный диссонанс: при усложнении медицинских технологий внимание к «терапевтическому слову» [5, 13] снижается. Происходит вытеснение гуманитарных дисциплин узкоспециализированными предметами, что ведёт к упрощению речи будущего врача. Это порождает риск возникновения ятрогений — психогенных заболеваний, вызванных неосторожным или некомпетентным словом медика.

Научная проблема заключается в поиске путей преодоления разрыва между высоким уровнем теоретических медицинских знаний студентов и их низкой коммуникативной грамотностью, не позволяющей эффективно реализовать эти знания в клинической практике.

Целью статьи является научное обоснование необходимости углубленного преподавания русского языка в медицинском вузе как фундаментального фактора обеспечения коммуникативной безопасности и качества оказания медицинской помощи.

Материалы и методы. Вопрос преподавания филологических дисциплин в негуманитарном вузе глубоко изучен в педагогике и лингвистике.

Н.Н. Кохтев подчеркивал, что «ораторское искусство врача — это не украшение, а функциональная необходимость» [6, 31]. Он рассматривал медицинскую речь как особый тип функционального стиля. В исследованиях профессора В.В. Жура по дискурсивному анализу описывается «коммуникативная компетенция врача» [3, 25] как сложная структура, включающая психологические, социальные и собственно лингвистические навыки. Она выделяет проблему «асимметрии» в общении, когда врач и пациент используют разные лексические пласты.

Концепция Л.П. Федоренко гласит о принципах обучения языку, которые легли в основу методик развития профессиональной речи, где язык рассматривается как средство усвоения специальных знаний.

Выдающийся гематолог И.А. Кассирский в книге «О врачебной этике» [5, 32] прямо указывал, что неосторожное слово врача может стать причиной ятрогении (заболевания, вызванного словом или действием медика).

Обсуждение и результаты. Язык как инструмент профессиональной диагностики язык играет решающую роль в общении врача и пациента. Одним из важных процессов является сбор анамнеза (anamnesis morbi) — это прежде всего лингвистическая процедура. При этом надо учесть два аспекта данного процесса:

а) интерпретация субъективных ощущений – студент-медик должен владеть синонимическим рядом для описания болевых ощущений (ноющая, колющая, кинжальная, распирающая), чтобы точно зафиксировать состояние пациента;

б) преодоление терминологического барьера – врач обязан уметь «детерминологизировать» свою речь, объясняя сложные патогенетические механизмы на доступном пациенту языке без потери научности [8, 15]. Например, анемия – малокровие, гастрит – воспаление желудка, гидрофобия – боязнь воды и др.

Культура оформления медицинской документации играет ключевую роль в ведении документов, так как они хранятся более 70 лет в архивах и могут послужить источником ценной информации в дальнейшем. Научный стиль речи в медицинском вузе реализуется через ведение историй болезни, написание эпикризов и протоколов операций.

Оформление медицинской документации требует логичности и связности, так как ошибки в синтаксических конструкциях, например, неправильное употребление причастных оборотов, и могут привести к двусмысленности в описании динамики состояния больного. Также предложения должны быть лаконичны. Здесь обучение русскому языку помогает студентам избегать плеоназмов (речевой избыточности), что критически важно при заполнении электронных медицинских карт [2, 43].

Этико-стилистический аспект имеет немаловажное значение, ведь медицинский дискурс требует жесткого соблюдения речевого этикета. В рамках дисциплины изучаются: способы смягчения категоричных суждений (эвфемизмы); специфика общения с разными возрастными группами (педиатрия, геронтология); речевые стратегии утешения и поддержки.

Одной из главных проблем остается сокращение академических часов на гуманитарные дисциплины. Однако современные исследователи, например, С.И. Маджаева, указывают на необходимость интеграции русского языка в профильные дисциплины через создание интегрированных курсов «Профессиональная коммуникация» и прочее.

Изучение русского языка в медицинском контексте ведётся по трём основным направлениям: лингвопрагматическому, педагогическому и деонтологическому.

Лингвопрагматический аспект. Центральное место в современной медицинской лингвистике занимают работы профессора В.В. Жура. В своей монографии «Дискурс врача: лингвопрагматический аспект» она обосновывает, что вербальное поведение врача является стратегическим инструментом. Жура доказывает, что успех лечения напрямую зависит от «коммуникативной компетенции», которая включает в себя способность переключаться между научным кодом (при общении с коллегами) и естественным языком (при общении с пациентом).

Профессор С.И. Маджаева в работах, посвящённых медицинскому терминообразованию, указывает на то, что язык медицины — это не застывшая система латинизмов, а живой организм. Она подчёркивает необходимость преподавания русского языка как средства формирования «профессионального языкового сознания», позволяющего врачу точно интерпретировать жалобы больного, которые часто выражены метафорично.

Педагогическая концепция интегративного обучения. В области методики преподавания в негуманитарных вузах ключевое значение имеют труды Н.И. Безруковой. Она развивает концепцию «лингвопрофессиональной подготовки», утверждая, что обучение русскому языку в медвузе не должно дублировать школьную программу. Согласно её подходу, язык должен изучаться через призму «профессиональных задач»: составление эпикриза, ведение дискуссии на консилиуме, публичное выступление с докладом о клиническом случае.

Н.Н. Кохтев, основоположник практической риторики, в своих трудах акцентировал внимание на психологическом воздействии слова. Он рассматривал речь врача как форму «терапевтической коммуникации» [6, 25], где каждая грамматическая конструкция должна работать на создание доверительного климата.

Этико-деонтологическое направление. Академик И.А. Кассирский в своих фундаментальных работах о врачебной деонтологии утверждал: «Слово — это обоюдоострый меч». Он приводил примеры, как безграмотно построенная фраза или использование непонятной терминологии приводили к ятрогенным депрессиям у пациентов. Эти идеи развиваются в трудах исследователя А.Я. Иванюшкина, которые связывают уровень владения родным языком с соблюдением принципа уважения автономии пациента [4, 32].

Методология и результаты исследования коммуникативных трудностей студентов. В рамках исследования был проведен анкетный опрос среди студентов 1 курса лечебного факультета (n=150). Целью опроса было выявление субъективной оценки барьеров, возникающих при курации пациентов.

Анализ результатов анкетирования. Результаты показали, что 68% респондентов испытывают выраженные трудности при первичном сборе анамнеза. Основные проблемы распределились следующим образом:

1.Лексический барьер (42%): трудность подбора адекватных синонимов для объяснения медицинских терминов (например, объяснение термина «ремиссия» или «инвазивный» пожилым пациентам).

2.Психолингвистический барьер (35%): страх перед «коммуникативной неудачей» при общении с агрессивно настроенными пациентами или родственниками.

3.Стилистический барьер (23%): неумение переключаться с разговорного стиля на официально-деловой при заполнении учебной истории болезни.

Студенты отмечают, что знание анатомии не коррелирует с умением врача подвести пациента к диалогу. Большинство опрошенных (82%) подтвердили необходимость введения спецкурса «Профессиональная риторика врача», ориентированного на практику.

Письменная речь врача — это его юридический документ. Анализ учебных историй болезни выявил ряд систематических нарушений норм современного русского литературного языка.

Таблица 1. Типичные ошибки в оформлении медицинских записей

Тип ошибки	Пример из учебной истории болезни	Исправленный вариант	Комментарий

Нарушение управления	«Жалобы пациента на боли в животе, *проходящие в лежачем положении*».	«...купирующиеся в положении лёжа».	Причастие не может управлять существительным в данном контексте; положение не может быть «лежачим» как признак.
Плеоназм (избыточность)	«Больной предъявляет жалобы на *болевые ощущения* в области груди».	«Больной жалуется на боли в груди».	Ощущение боли — это и есть боль. Слово «ощущения» здесь лишнее.
Стилистический диссонанс	«Кожные покровы пациента *вполне нормальные*».	«Кожные покровы обычной окраски, чистые».	Использование разговорного наречия «вполне» недопустимо в научном стиле.
Нарушение логики	«В легких дыхание везикулярное, *хрипов нет, но одышка*».	«Дыхание везикулярное, хрипы отсутствуют. Наблюдается одышка...»	Противопоставительный союз «но» создает логическую ошибку между аускультацией и общим симптомом.
Неправильное сокращение	«Диагноз: Гиперт. бол. 2 ст.»	«Диагноз: Гипертоническая болезнь II стадии».	Сокращения в клиническом диагнозе должны строго соответствовать номенклатуре.

Сравнительный анализ подходов к обучению медицинской коммуникации в Узбекистане и за рубежом указывает на то, что в глобальной образовательной практике вопрос обучения языку медицины решается по-разному, но тенденция к гуманизации образования едина.

Рассмотрим модель обучения медицинскому языку и общению врача с пациентом в США и Западной Европе. В американских медицинских школах (Medical Schools) дисциплина Medical Communication Skills интегрирована в каждый год обучения. Работа осуществляется по двум направлениям:

1) оценка по чек-листам, то есть на экзаменах (например, USMLE Step 2 CS ранее) оценивались не только медицинские знания, но и *Spoken English Proficiency* и *Communication Skills*;

2) метод «Симулированный пациент», где акцент делается на эмпатии и умении сообщать плохие новости (протокол SPIKES).

В Узбекистане преподавание русского языка в медицинских вузах ограничено первым курсом и дисциплиной «Русский язык». Преимуществом данного курса является глубокая теоретическая база, изучение норм академического письма, работа с текстами медицинского содержания, а также заучивание медицинской терминологии на русском языке. К недостаткам относятся изолированность от клиники, студент изучает медицину на русском языке в отрыве от реального диалога в палате. Реальным решением проблемы может быть переход к модели «Профессионального русского языка», где занятия ведут филологи совместно с врачами-практиками.

Выводы. Таким образом, изучение русского языка в медицинском вузе является актуальной проблемой современного образования, так как большая часть терминов на русском языке и ведение медицинской документации требует глубокого знания свода правил языка и владения медицинской терминологией и фразеологией.

Список литературы:

1.Акаева, Э. В. Коммуникативные тактики в медицинском дискурсе / Э. В. Акаева // Вестник Челябинского гос. ун-та. – 2011. – № 24. – С. 13–15.

2.Безрукова, Н. И. Лингвометодические аспекты подготовки врача: монография / Н. И. Безрукова. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2019. – 240 с.

3.Жура, В. В. Дискурс врача: лингвопрагматический аспект: монография / В. В. Жура. – Волгоград: Изд-во ВолГМУ, 2008. – 300 с.

4.Иванюшкин, А. Я. Введение в биоэтику / А. Я. Иванюшкин. – М.: Прогресс-Традиция, 2018. – 256 с.

5.Кассирский, И. А. О врачебной этике / И. А. Кассирский. – М.: Медицина, 1970. – 106 с.

6.Кохтев, Н. Н. Риторика: учеб. пособие / Н. Н. Кохтев. – М.: Просвещение, 1994. – 207 с.

7.Кузнецова, Т. В. Культура научной речи медика / Т. В. Кузнецова. – Ростов н/Д: Феникс, 2017. – 160 с.

8.Маджаева, С. И. Когнитивные аспекты медицинской терминологии: дис. д-ра филол. наук / С. И. Маджаева. – Волгоград, 2013. – 380 с.

9.Рихтер, И. Медицинская коммуникация: как говорить с пациентом / И. Рихтер. – М.: Практика, 2021. – 210 с.

10. Шкарин, В. В. Особенности профессиональной коммуникации в медицине / В. В. Шкарин, В. В. Жура. – Н. Новгород: Изд-во ПИМУ, 2020. – 144 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Barakayeva Sarvinoz To'lqunovna
"Fizika va astronomiya" kafedrasi dotsenti
Navoiy davlat universiteti

UDK: 37.013(09)

ASTRONOMIYA FANINI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada astronomiyani o'qitishda matematik bilimlardan foydalanish, fanlararo integratsiyasi turli fanlarning alohida bo'limlarini yagona bir butunlikka birlashtirish bilan bog'liq yangi pedagogik yechimlarni izlash yo'nalishlaridan biri ekanligi bayon etilgan. Ta'lim jarayoniga yangi individual, ilg'or va pedagogik texnologiyalarni joriy etish o'qituvchi va o'quvchining bilim olishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishni taqozo etadi. Shaxsni rivojlantirish vositasi, uning potensial qobiliyatlarini ochib berishga qodir, bu mustaqil aqliy va kognitiv faoliyatdir.*

Kalit so'zlar: *Astronomiya, fanlararo integratsiya, Quyosh sistemasi, Merkuriy sayyorasi, fizik parametrlar, integrativ yondashuv, radius, diametr, massa, hajm, aylanish davri, zichlik, kosmik tezlik, tezlanishlar, ellips.*

Баракаева Сарвиноз Тулкуновна
Доцент кафедры «Физика и астрономия»
Навоийский государственный университет

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ АСТРОНОМИИ

Аннотация: *В данном статье рассматривается использования математических знаний при обучении астрономии. Так, как интеграция предметов представляет собой одно из направлений поиска новых педагогических решений, связанных с объединением отдельных разделов разных дисциплин в единое целое. Внедрение новых индивидуальных, передовых и педагогических технологий в учебный процесс требует изменение отношения педагога и студента к обучению. Средством развития личности, способным раскрыть её потенциальные способности, является самостоятельная мыслительная и познавательная деятельность.*

Ключевые слова: *Астрономия, междисциплинарная интеграция, солнечная система, планета Меркурий, физические параметры, интегративный подход, радиус, диаметр, масса, объем, период основания, плотность, космическая скорость, ускорения, эллипс.*

Barakayeva Sarvinoz Tulkunovna
Associate Professor of the Department of "Physics and Astronomy"
Navoi State University

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF INTERDISCIPLINE INTEGRATION IN TEACHING ASTRONOMY

Annotation: *This article discusses the use of mathematical knowledge in teaching astronomy. Since the integration of subjects is one of the areas of search for new pedagogical solutions related to the unification of individual sections of different disciplines into a single whole. The introduction of new individual, advanced and pedagogical technologies in the educational process requires a change in the attitude of the teacher and student to learning. The means of personality development, capable of revealing its potential abilities, is independent mental and cognitive activity.*

Keywords: *Astronomy, interdisciplinary integration, solar system, planet Mercury, physical parameters, integrative approach, radius, diameter, mass, volume, base period, density, cosmic velocity, accelerations, ellipse.*

Kirish. Bugungi kunda barcha sohalarga bo'lgani kabi ta'lim tizimiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Uzluksiz ta'limning ajralmas qismi bo'lgan Oliy ta'limda ham qator islohatlar amalga oshirilayotganligini kuzatmoqdamiz. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-martdagi PQ-5032 son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga

oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Astronomiya fanini fanlararo integratsiya asosida o'qitishda shaxsning rivojlanish qobiliyati, kognitiv salohiyat mavjudligiga ahamiyat beriladi.

Integratsiya – bu ta'lim jarayonlarini tiklash, tizimning alohida ajratilgan qismlari va funksiyalarining bir butunga ulanish holati, shuningdek, bunga olib keladigan jarayon hisoblanadi, ya'ni astronomiya o'qitishda esa ta'lim integratsiyasini turli yo'llar bilan izohlash mumkin. Astronomiya fanini o'qitishda "integratsiya" tushunchasi ikkita ma'noga – astronomiyani o'qitishdan maqsad va o'qitish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mamlakatimizda astronomiyaning nazariy va ilmiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha I.Sattarov [6], B.Ahmedov [7], boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Oliy ta`lim tizimida tabiiy fanlarni, jumladan, fizika va astronomiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari M.Djoraev va M.Mamadazimov [8], astronomiyani turdosh fanlar bilan aloqadorligini o`zlarining bir necha darsliklarida I.R.Kamolov, D.I.Kamolova, G.I.Sayfullayeva, [1,2] A.Narbaev [9], A.Tillaboyevlar [10] va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Astronomiya o'qitishning maqsadi sifatida integratsiya talabaga bir qismning tizim sifatida bog'liqligini aks ettiruvchi bilimlarni berishi kerak, u fanning ma'lum qirralarni tasavvur qilishni o'rganishdan iborat bo'ladi.

O'qitish vositasi sifatida integratsiya talabaning eruditsiyasini rivojlantirishga, o'qitishda mavjud tor mutaxassislikni yangilashga qaratilgan. Shu bilan birga, integratsiya klassik akademik fanlarni o'qitishni almashtirmasligi kerak, faqat olingan bilimlarni yagona tizimga birlashtirishi kerakligini aniq tushuntirib beradi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida astronomiya fanini o'qitishda mashg'ulot boshidan oxirigacha integratsiyani qanday dinamik rivojlantirishda matematik amallarning o'rni beqiyosdir. Agar boshida quyosh tizimida sayyoralarni o'rganish maqsadga muvofiq bo'lsa, u holda tarqoq bilim va ko'nikmalarni sintez qilish, keyin mashg'ulot oxirida sayyoralar parametrlarini matematik amallar orqali keltirib chiqarish kerak bo'ladi, ya'ni bu tor mutaxassislik, lekin yangi integratsion darajada ifodalaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Astronomiya adabiyotlarini tahlil qilgan holda, integratsiyaning quyidagi ta'rifini shakllantirish mumkin: integratsiya – bu astronomiya ilmiy fanlarning, bo'limlarning mavzulari va mavzularining yetakchi g'oya va yetakchi pozitsiyalarga asoslangan, o'zaro bog'liqligini chuqur, izchil va ko'p qirrali ochib beradigan tabiiy o'zaro bog'liqligi, o'rganilayotgan jarayonlar va hodisalar. Shuning uchun, har xil darslarni birlashtirish emas, balki tanlangan qismlarni yaxlit birlashtirib, bir mavzu sifatida o'rganish kerak. Buni Merkuriy sayyorasi asosida ko'rishimiz mumkin.

Quyosh sistemasida joylashgan 8 ta yirik sayyoralar ichida Merkuriy (Sharqda Utorud deb atashadi) Quyoshga eng yaqin bo'lgan sayyora hisoblaniladi. Biz Quyosh va sayyoralar oralaridagi masofalarni hisoblashda uzunlikning astronomik birligidan foydalanamiz. Uzunlikning 1 astronomik birligi sifatida Quyosh va Yer orasidagi masofa, ya'ni 150 mln kilometr qabul qilingan. Demak, Merkuriy sayyorasi Quyoshdan taxminan quyidagicha uzoqlikda joylashgan:

$$l_{Quyosh,Merkuriy} = 58000000\ \ km = 0{,}38(6)\ \ astronomik\ \ birlik \approx 0{,}4\ \ a.b.$$

U Quyosh atrofida ellips bo'ylab harakatlanadi. Harakat orbitasi ancha cho'ziqchoq bo'lganligi uchun, ekssentrisiteti boshqa sayyoralarga nisbatan eng kattadir, chunki Quyosh bilan sayyora orasidagi tortishish kuchi ancha katta:

$$e = 0{,}205$$

Ekssentrisitetning mavjudligi sayyoraning Quyoshdan turlicha masofalarda harakatlanib turishidan dalolat beradi. Sayyoraning Quyoshga eng yaqinlashish nuqtasi perigeliy va eng uzoqlashish nuqtasi afeliy deb yuritiladi. Quyoshdan perigeliy va afeliy nuqtalargacha bo'lgan masofalar quyidagicha bo'ladi:

$$Eng\ \ yaqinlashish\ \ nuqtasi\ \ (perigeliy)\ \ 0{,}31\ \ a.b.$$

$$Eng\ \ uzoqlashish\ \ nuqtasi\ \ (afeliy)\ \ 0{,}47\ \ a.b.$$

Merkuriyning Quyoshdan uzoqligini bilgan holda matematik qonuniyatlar asosida sayyoraning orbita uzunligini topish mumkin, ya'ni aylana uzunligini topish formulasidan: Orbita radiusi, ya'ni sayyoradan Quyoshgacha bo'lgan masofa

$r_{or} = 58000000\ \ km$ teng bo'lsa, u holda

$$l = 2 \cdot \pi \cdot r = 364240000\ \ km$$

Merkuriy sayyorasining massasi ham juda kichik bo'lib, Yer massasining 0,056 qismini tashkil etadi, agar Yerning massasi $6 \cdot 10^{24}$ kg ekanligini e'tiborga olsak, u holda sayyoraning massasi:

$$m_{Merkuriy} = 0{,}056 \cdot m_{Yer} = 0{,}056 \cdot 6 \cdot 10^{24}\ \ kg = 0{,}336 \cdot 10^{24}\ \ kg$$

O'lchami (diametri) esa Yerning o'lchamidan taxminan 3 marta kichik:

$$d_{Merkuriy} = 4880\ \ km;\ \ r = 2439\ \ km$$

Sayyora o'lchamlarini bilgan holda matematik qonuniyatlar yordamida uning sirt yuzasini (sfera sirti) va hajmini (shar hajmi) topishimiz mumkin:

S=$4\cdot\pi\cdot R^2 = 12{,}56\cdot(2{,}439\cdot10^3 km)^2 = 74{,}7\cdot10^6\ km^2$ ga teng.

Taqqoslash qilmoqchi bo'lsak, Merkuriy sayyorasining umumiy maydoni Yer sayyorasidagi Hind okeanining maydoniga teng ekan.

Hajmi esa Yer hajmining 0,56 qismiga teng:

$$V_{Merkuriy} = 0{,}56\cdot V_{Yer} = 0{,}56\cdot12{,}083\cdot10^{12}\ \ km^3 = 6{,}76\cdot10^{12}\ \ km^3$$

Sayyoraning massasi kichik bo'lganligi uchun unda tortishish kuchi ham kichik yoki Yerning tortishish kuchi (g_{Yer}) ga nisbatan 2,6 marta kichik bo'ladi. Sayyorada tortishish kuchining tezlanishi:

$$g_{Merkuriy} = \frac{g_{Yer}}{2{,}6} = 3{,}72\ \ \frac{m}{s^2}$$

Erkin tushish tezlanishining qiymatiga asosan, Yerda og'irligi 800 N bo'lgan jism Merkuriyda 300 N ga teng bo'ladi.

Merkuriy Quyosh atrofini har 88 Yer sutkasida bir marta to'la aylanib chiqadi. Bizga ma'lumki, har qanday osmon jismining markaziy osmon jismi atrofida aylanishi uchun ketgan vaqt Yil deb ataladi. Barcha sayyoralar uchun markaziy osmon jismi Quyosh hisoblanadi. Demak, Merkuriyda 1 yilning davomiyligi

$$T_{Merkuriy} = 88\ \ Yer\ \ sutkasi = 1 Merkuriyyili$$

Analysis and results. Bunga asosiy sabab sayyoraning Quyoshga yaqinligidir, chunki sayyora va Quyosh bir-biriga yaqin bo'lganda butun olam tortishish qonuniga asosan, ular orasida tortishish kuchi eng katta. Tortishish kuchi katta bo'lganligi uchun sayyoraning orbitadagi harakat tezligi ham katta bo'ladi. Orbita – bu sayyoraning Quyosh atrofidagi harakat yo'lidir.

Shuninigdek, sayyora o'z o'qi atrofida ham harakatlanadi va 58,65 Yer sutkasi deganda o'z o'qi atrofini bir marta to'la aylanib chiqadi. Bizga ma'lumki, har qanday osmon jismining o'z o'qi atrofida bir marta to'la aylanishi uchun ketgan vaqt sutka deb aytiladi. Faqatgina 1965-yilda olib borilgan radiolokatsion kuzatishlar ko'rsatdiki, Merkuriy o'z o'qi atrofida juda sekin aylanadi. O'z o'qi atrofida 1 marta to'la aylanish davri, ya'ni 1 Merkuriy sutkasining davomiyligi

$$T_{Merkuriy} = 58{,}65\ \ Yer\ \ sutkasi = 1 Merkuriysutkasi$$

Merkuriyning orbital tezligi

$$\upsilon_{or} = \frac{l}{T} = \frac{364240000\ \ km}{88_{Yer\ \ sutkasi}} = \frac{364240000\ \ km}{88\cdot86400\ \ s} = 48\ \ \frac{km}{s}$$

Merkuriy aylanish o'qining orbita tekisligiga nisbatan og'maligi 1° ni tashkil etadi, deyarli tik. Demak, sayyorada yil fasllarining o'zgarishi kuzatilmaydi.

Amerikaning sayyoralararo "Mariner-10" kosmik stansiyasi 29-mart 1974-yilda sayyoradan 200000 km uzoqlikda uchib o'tib, bir necha (500 ga yaqin) fotosuratlar oldi. Olingan fotosuratlarga asosan, Merkuriyning sirti krater va tog'lardan iborat ekan. Sayyora sirtidagi kraterlarning o'lchami bir necha metrdan 625 km gacha yetadi. Eng baland tog'lar 4 km gacha bo'y cho'zgan. Xalqaro kelishuvga muvofiq Merkuriydagi katta kraterlarga gumanitar fanlar va san'at sohasidagi namoyondalarning nomi berilgan. Masalan, Nizomiy, Lermontov, Pushkin, Chaykovskiy, Chexov, Shevchenko, Repin va boshqalar.

Sayyora sirti (po'stlog'i) ning zichligi Oyning o'rtacha zichligiga teng, ya'ni

$$\rho_{Merkuriy} = 3300\ \ \frac{kg}{m^3} = 3{,}3\ \ \frac{g}{sm^3}$$

Sayyoraning o'rtacha zichligi esa quyidagicha baholanadi:

$$\rho_{Merkuriy} = 5440\ \ \frac{kg}{m^3} = 5{,}44\ \ \frac{g}{sm^3}$$

Sayyoraning ichki tuzilishi 3 qatlam: po'stloq, mantiya va yadrodan iborat bo'lib, uning 0,75 qismini yoki 3660 km qalinligini yadro tashkil etadi. Po'stloq va mantiyaning qalinligi mos ravishda 600 km dan bo'ladi.

Merkuriyning massasi kichik, shunga asosan uning tortishish kuchi ham kichikdir. Bu esa sayyorada atmosferaning juda kam bo'lishini ta'minlaydi. Ayrim adabiyotlarda sayyora atmosfera qatlamiga ega emas deb ham

qaralgan. Bunga nazariy jinatdan asos bor edi. Sayyora Quyoshga yaqin bo'lganligi sabab sayyora sirtida harorat (+480^{0}C) o'ta yuqori, shuning uchun mavjud atmosfera zarralari katta tezlik olib, sayyorani tark etgan, degan fikr ilgari surilgan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sayyora o'zining atmosfera qatlamiga ega va atmosferasining tarkibi faqatgina geliydan iborat bo'lib, uning sayyora sirtiga beradigan bosimi Yer atmosferasining sayyora sirtiga beradigan bosimidan taxminan 500000 marta kichik. Bundan atmosferaning o'ta siyrak ekanligini xulosa qilish mumkin.

Agar Yerning atmosferasining uning sirtiga beradigan bosimi 760 mm.Hg.ust. ga yoki 101325 Pa ga tengligini e'tiborga olsak, Merkuriy atmosferasining sayyora sirtiga beradigan bosimi quyidagiga teng:

$$P_{Merkuriy} = \frac{P_{Yer}}{500000} = \frac{101325\ Pa}{500000} = 0,2\ Pa$$

Atmosferasining kamligi hisobida sayyora sirti kunduzi o'ta qiziydi +480°C, kechasi esa tez soviydi -180°C, ya'ni sutkalik haroratning o'zgarishi juda keskin.

Sayyora uchun Quyosh nurini qaytarish qobiliyati (albedosi) juda kichik, ya'ni 0,07%. Atmosferaning o'ta qizishi ham uning kamayishiga olib keladi. Chunki, gaz (geliy) molekulalari issiqlik hisobida katta tezlik oladi, shuningdek geliy yengil element va sayyorada tortishish kuchi ham kichik. Molekula taxminan 4,3 $\frac{km}{s}$ tezlik olsa, sayyorani tark etadi. Bu tezlik sayyora uchun 2-kosmik tezlik hisoblaniladi.

Yuqoridagi berilganlarga asoslanib, biz sayyora uchun kosmik tezliklarni ham topishimiz mumkin va fizik formulalarga murojaat qilamiz:

$$\upsilon_I = \sqrt{g \cdot R} = \sqrt{3,72\ \frac{m}{s^2} \cdot 2439000\ m} = 3032\ \frac{m}{s} \approx 3\ \frac{km}{s}$$

$$\upsilon_{II} = \sqrt{2 \cdot g \cdot R} = \sqrt{2 \cdot 3,72\ \frac{m}{s^2} \cdot 2439000\ m} = 4275\ \frac{m}{s} \approx 4,28\ \frac{km}{s}$$

Bizning Yer sayyoramizdan Merkuriyga borish uchun kosmik kemaning minimal tezligi 13,49 $\frac{km}{s}$ bo'lishi kerak.

Agar Yerdan Merkuriygacha bo'lgan masofaning 92·10^6 km ekanligini e'tiborga olsak, kosmik kema 13,49 $\frac{km}{s}$ tezlikda 1 sutkada 1165536 km masofani bosib o'tadi va 78,93 sutkada sayyoraga yetib boradi.

Merkuriyda magnit maydon mavjud bo'lib, u juda kuchsiz, ya'ni Yerning magnit maydonidan 150 marta kichik:

$$B_{Merkuriy} = \frac{B_{Yer}}{150} = \frac{5 \cdot 10^{-5}\ Tl}{150} = 3,(3) \cdot 10^{-7}\ Tl$$

Magnit maydon sayyoradan uzoqlashgan sari yanada kuchsizlanib boradi.

Merkuriydagi iqlim sharoitlariga ko'ra, unda biosfera mavjud emas. Sayyoraning tabiiy yo'ldoshlari ham yo'q.

Conclusion/Recommendations. Astronomiya fanining fizika fanlari bilan integrallab o`qitish borasidagi birinchi qadamlar kelajakda o`zining qanday mahsulini berishini faqat kelajak ko`rsatadi. Bunda asosiy dolzarb vazifa sifatida fizikaning mos bo`limlarida astronomik bilimlar berish uchun materiallar tanlash va uni talabalarga samarali etkazish mas`uliyati turadi. V.S.Kukushkin "Integrasiya – bu bir yoki bir nechta turli fanlar bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi bilimlarning yaxlitlik xususiyatiga ega bo'lgan tizimga birlashishi jarayoni" deb hisoblaydi. Demak, talabalarga sayyoralarni asosiy parametrlari ajratib ko'rsatish, tahlil qilish va umumlashtirishni o'rganishga yordam berish uchun turli xil bilimlarni yagona bir butunga birlashtirish juda zarur va bu juda muhimdir. Integratsiya bilan quyosh va quyosh tizmidagi sayyoralar bo'limi o'qitish talabalarda fani tasavvur qilish va mazkur bilimlarni mazmunini tushunish motivatsiyani oshirishdir. Pedagogik integratsiyaning aniqlangan va tavsiflangan invariant funksiyalari ichida rivojlanayotgan funksiya markaziy o'rinni egallaydi, bu ta'lim nazariyasi va amaliyotining barcha sohalariga, shu jumladan inson tarbiyasining o'ziga xos predmetiga taalluqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 .Kamolov I.R., Kamalova D.I. , Sayfulllayeva G.I., Barakayeva S.T., Hamroyeva S.N. O.Avezmuradov "Astronomiya o`qitish metodikasi" darslik. Durdona. Buxoro -2023.

2. Kamolov, S.T.Barakayeva Intellektrual mulk agentligi "Quyosh sistemasi va uning sayyoralari" DGU 05797 elektron o`quv qo`llanma dasturiga guvohnoma, Toshkent-2018 yil

3. Barakayeva S. INTEGRATIVE APPROACH IN ASTRONOMY TEACHING AND ITS PRACTICAL ESSENCE //Fan va innovatsiyalar. – 2024. – Т. 3. – №. B1. – S. 390-392.

4. Barakayeva Sarvinoz Tolqunovna,. "The role of astronomical components in the interdisciplinary teaching of the "Sun and solar system" section from astronomy." Uzbek Scholar Journal 24 (2024): 109-113.

5. М.Мамадазимов, Б.Ф.Избосаров, И.Р.Камолов. Астрономия. Типография «Сано-стандарт». Ташкент. 2013. стр.75.

6. Sattarov I. Astrofizika. 1-qism. Darslik. T.: Ta'lim nashriyoti, 2009. – 161-210

7. Ахмедов Б.Ж. Эффекты общей относительности в макроскопической электродинамике: Автореф. ... д-ра ф.-м. наук. – НУУз им. Улугбека, 2001

8. Мамадазимов М. Теоретические основы содержания и методики обучения астрономии в системе непрерывного образования: Дис. … д-ра пед. наук. – Тошкент, 2005. – 276 с.

9. Narbaev A.B. Astronomiyani innovatsion yondashuv asosida o'qitishda mediata'lim vosita sifatida: Ped. fan. … fals. d-ri (Phd) ... dis.

10. Tillaboyev A.M., Qalandarov E. Astronomiyani zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qitishning o'ziga xos jihatlari // "Respublika oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning istiqbollari". Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – Тошкент, 2017. – 133-134 b.

.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Чжен Елена Витальевна
Кандидат педагогических наук доцент НамГУ

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР И ЗАНИМАТЕЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

Аннотация: *Статья посвящена актуальной проблеме современной методики преподавания русской и литературы – инновационным технологиям в обучении, их методам и приемам. Рассматриваются функции игры, ее значение для психического развития и формирования личности школьников общеобразовательных школ.*

Ключевые слова: *Инновационные технологии, дидактическая игра, психическое развитие, формирование личности ребенка, эксперимент, современный урок литературы.*

Elena Vitalievna Chjen
Pedagogika fanlari nomzodi, NamDU dotsenti

O‘RTA TA’LIM MAKTABIDA DIDAKTIK O‘YINLAR VA O‘ZIQARLI MASHQLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

Annotatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy rus tili va adabiyotini o’qitish usullarining dolzarb muammosi - o’qitishning innovatsion texnologiyalari, usullari va usullarini o’rganadi. Umumta’lim maktablarida o‘yinning vazifalari va uning o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi va shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini o‘rganadi.*

Kalit so’zlar: *Innovatsion texnologiyalar, didaktik o’yin, aqliy rivojlanish, bola shaxsini shakllantirish, eksperiment, zamonaviy adabiyot darsi.*

Elena Vitalievna Chjen
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor at NamSU

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS FOR THE USE OF DIDACTIC GAMES AND ENTERTAINING EXERCISES IN A SECONDARY SCHOOL

Abstract: *This article explores a pressing issue in modern Russian language and literature teaching methods—innovative teaching technologies, methods, and techniques. It examines the functions of play and its importance for the mental development and personality formation of students in comprehensive schools.*

Key words: *Innovative technologies, didactic game, mental development, formation of a child’s personality, experiment, modern literature lesson.*

Введение

Поиск новых форм и приемов организации урока в наше время - явление не только закономерное, но и необходимое. И это понятно: в свободной школе, к которой мы идем, каждый не только сможет, но и должен работать так, чтобы использовать все возможности собственной личности. В условиях гуманизации образования существующая теория и технология массового обучения должна быть направлена на формирование сильной личности, способной жить и работать в непрерывно меняющемся мире, способной смело разрабатывать собственную стратегию поведения, осуществлять нравственный выбор и нести за него ответственность, т.е. личности саморазвивающейся и самореализующейся.

Анализ избранной проблемы

Большое образовательное значение имеет дидактическая игра, она тесно связана с обучением на занятиях, с наблюдениями повседневной жизни.

Современное состояние проблемы тесно связано с ориентацией на гуманизацию процесса преподавания и всего образовательного процесса в Узбекистане. Это находит свое отражение в Документах и указах Президента и Указах РУз. Например, в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» (2017).

Актуальность избранной проблемы нами проанализирована на примере различных современных исследований: в работах Т.А. Бую «Игра в эстетическом воспитании младшего школьника», А. Масленниковой «Педагогические и образовательные технологии: определение и классификация», В. Оконь «Введение в общую дидактику» и др.

Методы исследования

Основными методами исследования явилось обобщение педагогической деятельности передового опыта ведущих учителей – словесников, экспериментальная работа, статистический анализ избранной проблемы.

Результаты исследования

Дети учатся решать самостоятельно игровые задачи, находить лучший способ осуществления задуманного, пользоваться своими знаниями, выражать их словом.

Нередко игра служит поводом для сообщения новых знаний, для расширения кругозора. С развитием интереса к труду взрослых, к общественной жизни, к героическим подвигам людей у детей появляются первые мечты о будущей профессии, стремлении подражать любимым героям. Все это делает игру важным средством создания направленности ребенка, который начинает складываться еще в детстве.

Игровая деятельность является актуальной проблемой процесса обучения.

Слово «игра», «играть» в русском языке чрезвычайно многозначны. Слово «игра» употребляется в значении развлечения, в переносном значении. В.Оконь [4, 75] говорит, что понятие об «игре» вообще имеет некоторую разницу у разных народов. Так у древних греков слово «игра» означало собою действия, свойственные детям, выражая главным образом то, что у нас называется «придаваться ребячеству». У евреев слово «игра» соответствовало понятие о шутке и смехе. В последствии на всех европейских языках словом «игра» стали обозначать обширный круг действий человеческих, - с одной стороны не претендующих на тяжелую работу, с другой – доставляющих людям веселье и удовольствие. Таким образом, в этот круг понятий стало входить все, начиная от детской игры в солдатики до трагического, воспроизведения героев на сцене театра.

Слово «игра» не является научным понятием в строгом смысле этого слова. Может быть именно потому, что целый ряд исследователей пытались найти нечто общее между самыми разнообразными и разнокачественными действиями, обозначенными словом «игра», мы в данном исследовании не рассматриваем в научном плане разграничения этих видов деятельности, так как не имеем в науке достаточно удовлетворительного объяснения разных форм игры.

Исследования путешественников и этнографов, содержащие материал о положении ребенка в обществе, находящемся на относительно низком уровне истории развития, дают достаточно оснований для гипотезы о возникновении и развитии детской игры. На разных стадиях развития общества, когда основным способом добывания пищи являлось собирательство с применением простейших орудий, игры не существовало. Дети рано включались в жизнь взрослых. Усложнение орудий труда, переход к охоте, скотоводству, мотыжному земледелию привели к существенному изменению положения ребенка в обществе. Возникла потребность в специальной подготовке будущего охотника, скотовода и т.п. В связи с этим взрослые начали изготовлять орудия, являющиеся точной копией орудий взрослых, но меньшего размера, специально приспособленных для детей. Возникли игры – упражнения. Детские орудия увеличивались вместе с ростом ребенка, постепенно приобретая все свойства орудий труда взрослых. Общество в целом чрезвычайно заинтересовано в подготовке детей к участию в будущем в самых ответственных и важных областях труда, и взрослые всячески содействуют играм-упражнениям детей, над которыми надстраиваются игры-соревнования, являющиеся своеобразным экзаменом и общественным смотром достижения детей. В дальнейшем появляются сюжетно-ролевая (или сюжетная) игра. Игра, в которой ребенок принимает на себя и выполняет роль, соответственно каким-либо действиям взрослых. Дети, предоставленные самим себе, объединяются и организуют свою особую игровую жизнь, воспроизводящую в основных чертах общественного отношения и трудовую деятельность взрослых [2, 328].

Выводы

Историческое развитие игры не повторяется. В онтогенезе хронологически первой является ролевая игра, служащая главнейшим источником формирования социального сознания ребенка в дошкольном возрасте [3, 14].

Таким образом, детство неотделимо от игры. Чем больше детства в культуре, тем важнее игра для общества.

Задолго до того, как игра стала предметом научных исследований, она широко использовалась в качестве одного из важнейших средств воспитания детей. Время, когда воспитание выделилось в особую общественную функцию, уходит вглубь веков, и в такую же глубь веков уходит и использование игры как средство воспитания. В различных педагогических системах игре придавалась разная роль, но нет ни одной системы, в которой в той или иной мере не отводилось бы место в игре.

Игре приписывают самые разнообразные функции, как чисто образовательные, так и воспитательные, поэтому возникает необходимость более точно определить влияние игры на развитие ребенка и найти её место в общей системе воспитательной работы учреждений для детей.

Необходимо более точно определить те стороны психического развития и формирования личности ребёнка, которые по преимуществу развиваются в игре или испытывают лишь ограниченное воздействие в других видах деятельности.

Исследование значения игры для психического развития и формирования личности очень затруднено. Здесь невозможен чистый эксперимент просто потому, что нельзя изъять игровую деятельность из жизни детей и посмотреть, как при этом будет идти процесс развития.

Главнейшим является значение игры для мотивационно-потребностной сферы ребенка. Проблема мотивов и потребностей выдвигается на первый план [2, 36].

В основе трансформации игры при переходе от периода дошкольного к школьному детству лежит расширение круга человеческих предметов. Овладение навыками исследовательской деятельности в средних классах идет через игру. Теперь перед ребенком встает задача исследовать мир, который осознается теперь в ходе его дальнейшего психического развития как расширение круга предметов, с которыми ребёнок хочет действовать самостоятельно. В основе этой деятельности теперь лежит «открытие» ребенком нового мира, мира взрослых с их деятельностью, их функциями, их отношениями. Ребенок на границе перехода от предметной к ролевой игре еще не знает ни общественных отношений взрослых, ни общественных функций, ни общественного смысла их деятельности. Он действует в направлении своего желания, объективно ставит себя в положение взрослого, при этом происходит эмоционально-действенная ориентация в отношении взрослых и смыслах их деятельности. Здесь интеллект следует за эмоционально-действенным переживанием. Игра выступает как деятельность, имеющая ближайшее отношение к потребностной сфере ребенка. В ней происходит первичная эмоционально-действенная ориентация в смыслах человеческой деятельности, возникает осознание своего ограниченного места в системе отношений взрослых и потребность быть взрослым. Значение игры не ограничивается тем, что у ребёнка возникают новые по своему содержанию мотивы деятельности и связанные с ними задачи. Существенно важным является то, что в игре возникает новая психологическая форма мотивов. Гипотетически можно представить себе, что именно в игре происходит переход от непосредственных желаний, к мотивам, имеющим форму обобщённых намерений, стоящих на грани сознательности.

Итак, в ходе экспериментальной работы мы пришли к следующей классификации основных этапов, через которые должно проходить формирование всякого умственного действия и связанного с ним понятия:

- этап формирования действия на материальных предметах или их материальных моделях-заменителях;
- этап формирования того же действия в плане вербальной и невербальной речи;
- этап формирования собственно умственного действия.

Рассматривая действия ребенка в игре, легко заметить, что ребенок уже действует со значениями предметов, но еще опирается при этом на их материальные заместители - игрушки. Анализ развития действий в игре показывает, что опора на предметы - заместители и действия с ними все больше сокращаются.

Если на начальных этапах развития требуется предмет - заместитель и относительно развернутое действие с ним, то на более позднем этапе развития игры, предмет выступает через слова - название уже как знак вещи, а действие - как сокращенные и обобщенные жесты, сопровождающиеся речью. Таким образом, игровые действия носят промежуточный характер, приобретая постепенно характер умственных действий со значениями предметов, совершающихся на внешние действия.

Путь развития к действиям в уме оторванными от предметов значениями есть одновременно возникновение предпосылок для становления воображения. Игра выступает как такая деятельность, в которой происходит формирование предпосылок к переходу умственных действий на новый, более высокий этап - умственных действий с опорой на речь. Функциональное развитие игровых действий вливается онтогенетическое развитие, создавая зону ближайшего развития умственных действий.

В игровой деятельности происходит существенная перестройка поведения ребенка - оно становится произвольным. Под произвольным поведением необходимо понимать поведение, осуществляющееся в соответствии с образом и контролируемое путем сопоставления с этим образом как этапом.

Ига представляет собой первую доступную для школьника форму деятельности, которая предполагает сознательное воспитание и усовершенствование новых действий.

Игра имеет значение и для формирования дружного детского коллектива, и для формирования самостоятельности, и для формирования положительного отношения к труду, а также формирует новое

исследовательское отношение к изучаемому предмету. Все эти воспитательные эффекты опираются как на свою основу, на то влияние, которое игра оказывает на психическое развитие ребенка, на становление его личности.

Литература

1. Мирзиёев Ш.М. Постановление Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» - Т., 2018

2. Бую Т.А. Игра в эстетическом воспитании младшего школьника // Начальная школа. – М.: Педагогика и технологии, 2019. - №2.

3. Масленникова А. Педагогические и образовательные технологии: определение и классификация // Директор школы. – М.: Знание, 2024.

4. *Оконь В. Введение в общую дидактику / Пер. С. Кольского. – М.: Высшая школа, 2016.*

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xamudov Mirjalol Olim o‘g‘li
Jizzax shahridagi Prezident maktabi
Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi
Elektron pochta: mirjalolbekxamudov@gmail.com

5–9 SINF O‘QUVCHILARIDA STATIK MASHQLAR ORQALI TAYANCH-HARAKAT TIZIMI BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot 5–9 sinf o‘quvchilarida statik yuklamalar asosida mushak faolligi va postural barqarorlikning adaptatsiya mexanizmlarini ilmiy asoslashga bag‘ishlangan. Tadqiqotda izometrik mashqlarning mushaklarning neyromuskulyar faolligi, statik kuch va chidamlilik hamda qomat barqarorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Olingan natijalar maktab jismoniy tarbiya darslarida statik mashqlarni ilmiy asosda rejalashtirish va yuklamalarni individuallashtirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *Statik yuklama, mushak faolligi, postural barqarorlik, izometrik mashqlar, maktab o‘quvchilari, adaptatsiya mexanizmlari.*

Хамудов Миржалол Олим угли
Президентская школа в городе Джизак
Учитель физической культуры

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СТАБИЛЬНОСТИ ОПОРНО-ДВИГАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ У УЧАЩИХСЯ 5–9 КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ СТАТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация. *Данное исследование посвящено научному обоснованию механизмов адаптации мышечной активности и постуральной устойчивости у учащихся 5–9 классов на основе статических нагрузок. В работе анализируется влияние изометрических упражнений на нейромышечную активность, статическую силу, выносливость и устойчивость осанки. Полученные результаты могут быть использованы для научно обоснованного планирования статических упражнений в системе школьного физического воспитания.*

Ключевые слова: *Статическая нагрузка, мышечная активность, постуральная устойчивость, изометрические упражнения, школьники, механизмы адаптации.*

Khamudov Mirjalol Olim og‘li
Physical Education Teacher
Presidential School in Jizzakh

METHODOLOGY FOR DEVELOPING POSTURAL STABILITY OF THE MUSCULOSKELETAL SYSTEM IN 5–9 GRADE STUDENTS THROUGH STATIC EXERCISES

Abstract. *This study is aimed at scientifically substantiating the adaptation mechanisms of muscle activity and postural stability in students of grades 5–9 based on static loads. The research analyzes the effects of isometric exercises on neuromuscular activity, static strength, endurance, and postural control. The findings provide a scientific basis for planning and individualizing static exercises in school physical education programs.*

Keywords: *Static load, muscle activity, postural stability, isometric exercises, school students, adaptation mechanisms.*

Kirish.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida maktab yoshidagi bolalarda jismoniy faollik darajasining pasayishi, o‘tirib bajariladigan faoliyat turlarining ustunligi hamda statik holatlarda uzoq vaqt davomida bo‘lishning ortishi tayanch-harakat tizimi funksiyalarining erta buzilishiga olib kelayotgan dolzarb muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 5–17 yoshdagi o‘quvchilarning aksariyati tavsiya etilgan jismoniy

faollik me’yorlariga rioya qilmaydi, bu esa mushaklar kuchi, chidamlilik va postural barqarorlik ko‘rsatkichlarining pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar izometrik mashqlar va statik yuklamalarning mushaklarni mustahkamlash, chuqur stabilizator mushaklar faolligini oshirish, neyromuskulyar boshqaruvni takomillashtirish hamda qomat barqarorligini yaxshilashdagi muhim ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, maktab yoshidagi o‘quvchilarda statik kuch va chidamlilikni rivojlantirish tayanch-harakat tizimi barqarorligini ta’minlash va qomat buzilishlarining oldini olishda samarali vosita sifatida qaralmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro va milliy ilmiy manbalar tahlili maktab yoshidagi bolalar organizmining statik yuklamalarga uzoq muddatli biologik, neyromuskulyar va biomexanik moslashuv mexanizmlari yetarli darajada o‘rganilmaganini ko‘rsatadi. Amaliyotda statik mashqlar keng qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, ularning davomiyligi, intensivligi va mushak guruhlari bo‘yicha taqsimotini yosh va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda ilmiy asosda me’yorlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

O‘zbekiston sharoitida o‘tkazilgan kuzatuvlar maktab o‘quvchilarida mushak-skelet tizimi funksional holatining pasayishi, mushaklar disbalansi va postural barqarorlikning yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatmoqda. Shu sababli 5–9 sinf o‘quvchilarida statik mashqlar asosida mushak faolligi va postural barqarorlikning adaptatsiya mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash, shuningdek maktab jismoniy tarbiya darslari uchun samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqish zamonaviy jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi

Ilmiy adabiyotlarda statik kuch va statik chidamlilik mushaklarning izometrik qisqarish holatida ma’lum vaqt davomida tashqi va ichki qarshiliklarga bardosh berish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ushbu jismoniy sifatlar tayanch-harakat tizimining barqaror faoliyatini ta’minlash, bo‘g‘imlar stabilizatsiyasi hamda qomatni to‘g‘ri saqlashda muhim ahamiyatga ega (Платонов, 2015; Abdullayev, 2017). Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham maktab yoshidagi o‘quvchilarda statik kuch va chidamlilikning yetarli darajada rivojlanmaganligi qomat buzilishlari va umumiy jismoniy tayyorgarlik pasayishi bilan bog‘liqligi qayd etilgan (Rasulov, 2019; Ismoilov, 2020).

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar statik mashqlar jarayonida mushak motor birliklarining uzoq muddat faollashishini, bunda asosan sekin qisqaruvchi (Type I) mushak tolalarining ustun ishtirok etishini tasdiqlaydi (Enoka, 2008; McArdle et al., 2015; Abdullayev, 2018). O‘zbekistonlik tadqiqotchilar izometrik mashqlarning umurtqa pog‘onasi atrofidagi mushaklarni mustahkamlash, mushaklar disbalansini kamaytirish va postural barqarorlikni yaxshilashdagi samaradorligini ilmiy asoslab berganlar (Karimov, 2021; To‘rayev, 2022).

Maktab o‘quvchilarida statik yuklamalarga moslashuv jarayoni markaziy asab tizimi, mushak apparati va proprioseptiv mexanizmlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlar asosida kechadi. Ushbu yosh davrida asab tizimining yuqori plastiklik darajasi mushaklararo koordinatsiya va postural nazoratning shakllanishiga xizmat qiladi (Gallahue & Ozmun, 2012; Winter, 2009). Mahalliy ilmiy manbalarda statik mashqlarning me’yorlanmagan holda qo‘llanilishi mushak zo‘riqishi va charchoq jarayonlarining tezlashuviga olib kelishi mumkinligi ta’kidlangan (Ismoilov, 2020; Rasulov, 2019).

Zamonaviy ilmiy yondashuvlar statik yuklamalarni o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Mushak faolligini sEMG asosida baholash va yuklama boshqaruvini optimallashtirish statik kuch va chidamlilikni rivojlantirishda samarali metodik yo‘nalish sifatida qaralmoqda (De Luca, 1997; Karimov, 2021). Umuman olganda, xorijiy va mahalliy ilmiy izlanishlar natijalari statik mashqlar maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirish, postural barqarorlikni ta’minlash va sog‘lig‘ini mustahkamlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi (WHO, 2020).

Xulosa.

O‘tkazilgan ilmiy-nazariy tahlil hamda zamonaviy ilmiy manbalar asosida amalga oshirilgan umumlashtirishlar maktab o‘quvchilarida statik kuch va statik chidamlilikni rivojlantirish jismoniy tarbiya tizimining muhim va ajralmas tarkibiy qismi ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot natijalari statik mashqlarning tayanch-harakat tizimining barqaror faoliyatini ta’minlash, qomatni shakllantirish, bo‘g‘imlar stabilizatsiyasini mustahkamlash hamda postural barqarorlikni oshirishda yuqori funksional ahamiyatga ega ekanini tasdiqladi.

Aniqlanishicha, maktab yoshidagi o‘quvchilarda statik yuklamalarga moslashuv jarayoni markaziy asab tizimi, mushak apparati va proprioseptiv mexanizmlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqliklar asosida kechadi. Izometrik mashqlar mushaklarning charchoqqa chidamliligini oshirish, neyromuskulyar boshqaruv aniqligini takomillashtirish va energetik barqarorlikni ta’minlash bilan bir qatorda, harakatlarni muvofiqlashtirish hamda tananing muvozanatini saqlash qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, statik mashqlarni noto‘g‘ri me’yorlash mushak zo‘riqishi va tez charchash holatlariga olib kelishi mumkinligi ilmiy manbalar asosida tasdiqlandi.

Tahlil natijalari statik mashqlarning qomat buzilishlarining oldini olish, mushaklar disbalansini kamaytirish hamda umurtqa pog‘onasi atrofidagi chuqur stabilizator mushaklarni mustahkamlashda yuqori samaradorlikka ega

ekanini ko‘rsatdi. Ayniqsa, orqa, qorin va tos mushaklariga yo‘naltirilgan izometrik mashqlar postural nazoratni yaxshilash va tananing vertikal holatda barqaror saqlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, maktab jismoniy tarbiya darslarida statik kuch va chidamlilikni rivojlantirish jarayonida yuklamalarni ilmiy asosda boshqarish zarurligi aniqlandi. Yuklamaning davomiyligi, intensivligi va mushak guruhlari bo‘yicha taqsimotini o‘quvchilarning yosh, jismoniy tayyorgarlik darajasi hamda individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish mashg‘ulotlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mushak faolligini zamonaviy diagnostik vositalar (EMG, postural testlar) yordamida baholash statik mashqlarni individuallashtirish va charchoq chegaralarini aniqlashda istiqbolli metodik yo‘nalish sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, statik kuch va statik chidamlilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy asoslangan mashg‘ulotlar maktab o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishini optimallashtirish, sog‘lig‘ini mustahkamlash hamda jismoniy tarbiya darslarining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishda ishlab chiqiladigan metodik tavsiyalar va yuklama me’yorlari maktab jismoniy tarbiya dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, sog‘lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat va xalqaro strategiyalarni amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, A. (2017). *Jismoniy tarbiya va sport metodikasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

2. Abdullayev, A. (2018). Izometrik mashqlar ta’sirining maktab yoshidagi o‘quvchilarda mushak-faollik va postural barqarorlikka ta’siri. *Jismoniy tarbiya va sport ilmiy jurnal*, 3(12), 45–52.

3. Balysevich, V. (2008). *Children’s physical development and static exercises*. Minsk: Belarus State University Press.

4. Behm, D., Drinkwater, E., Willardson, J., & Cowley, P. (2010). The use of instability to train the core musculature. *Applied Physiology, Nutrition, and Metabolism*, 35(1), 91–108.

5. De Luca, C. J. (1997). The use of surface electromyography in biomechanics. *Journal of Applied Biomechanics*, 13(2), 135–163.

6. Enoka, R. M. (2008). *Neuromechanics of human movement*. Champaign, IL: Human Kinetics.

7. Gallahue, D. L., & Ozmun, J. C. (2012). *Understanding motor development: Infants, children, adolescents, adults*. New York: McGraw-Hill.

8. Ismoilov, M. (2020). Statik mashqlar va maktab o‘quvchilari jismoniy tayyorgarligi. *Toshkent Pedagogika Universiteti ilmiy ishlari*, 7(2), 33–40.

9. Karimov, S. (2021). Izometrik mashqlar yordamida mushaklar disbalansi va postural barqarorlikni rivojlantirish. *O‘zbekiston sport ilmiy jurnali*, 2(5), 21–29.

10. McArdle, W. D., Katch, F. I., & Katch, V. L. (2015). *Exercise physiology: Nutrition, energy, and human performance* (8th ed.). Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins.

11. Platonov, V. N. (2015). *Fundamentals of sports training: Methodology and theory*. Kyiv: Olympic Literature.

12. Rasulov, B. (2019). Maktab yoshidagi bolalarda statik yuklamalarning postural barqarorlikka ta’siri. *Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi*, 4(8), 15–22.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Tillabayev I.N
Namangan davlat universiteti
Matematika kafedrasi katta o`qituvchisi

TOPOLOGIYA FANI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI MAVZUSINI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada topologiya fanining nazariy mohiyati, rivojlanish bosqichlari va asosiy tushunchalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu fanni oliy ta’lim muassasalarida samarali o‘qitishga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim texnologiyalari, innovatsion pedagogik yondashuvlar va interfaol metodlar yoritib beriladi. Topologiya fanini o‘qitish orqali talabalarning mantiqiy, abstrakt va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish imkoniyatlari asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *topologiya, topologik fazo, gomeomorfizm, uzluksizlik, o‘qitish texnologiyasi, innovatsion ta’lim, interfaol metodlar.*

Тиллабаев И.Н
Старший преподаватель кафедры математики
Наманганский государственный университет

ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ ТЕМЕ «ТОПОЛОГИЯ КАК НАУКА И ИСТОРИЯ ЕЁ РАЗВИТИЯ

Аннотация: *В статье проводится научный анализ теоретической сущности топологии, этапов её развития и основных понятий. Рассматриваются современные образовательные технологии и интерактивные методы, направленные на эффективное преподавание топологии в высших учебных заведениях. Обосновывается роль данного курса в развитии логического, абстрактного и критического мышления студентов.*

Ключевые слова: *топология, топологическое пространство, гомеоморфизм, непрерывность, технология обучения, инновационное образование, интерактивные методы.*

Tillabayev I.N
Senior Lecturer, Department of Mathematics
Namangan State University

TEACHING TECHNOLOGY OF THE TOPIC “TOPOLOGY AS A SCIENCE AND THE HISTORY OF ITS DEVELOPMENT”

Annotation: *The article presents a scientific analysis of the theoretical foundations, development stages, and key concepts of topology. It examines modern educational technologies and interactive methods for effective teaching of topology in higher education institutions. The study highlights the role of topology education in developing students’ logical, abstract, and critical thinking skills.*

Keywords: *topology, topological space, homeomorphism, continuity, teaching technology, innovative education, interactive methods.*

Matematika fanining zamonaviy rivoji ko‘plab yangi yo‘nalishlarning shakllanishiga olib keldi. Shunday fanlardan biri topologiya bo‘lib, u shakllarning miqdoriy o‘lchamlariga emas, balki ularning sifat jihatidan o‘zgarmas xususiyatlarini o‘rganadi. Bugungi kunda topologiya nafaqat sof matematikaning muhim bo‘limi, balki tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanayotgan fanlararo soha hisoblanadi. Shu bois, topologiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi[7,9].

Topologiya fanining mazmuni va asosiy tushunchalari

Topologiya geometrik shakllarning deformatsiya jarayonida saqlanib qoladigan xossalarini o‘rganadi. Bunda cho‘zish, bukish yoki egish kabi o‘zgarishlarga nisbatan invariant bo‘lgan xususiyatlar asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan, doira, ellips va kvadrat topologik nuqtai nazardan ekvivalent shakllar hisoblanadi[7].

Topologiyaning markaziy tushunchalaridan biri topologik fazo bo‘lib, u nuqtalar to‘plami va ular orasidagi yaqinlik munosabatlarini ifodalaydi. Fan doirasida quyidagi tushunchalar muhim ahamiyatga ega:

- **Ochiq to‘plam**–fazodagi uzluksizlik va yaqinlikni aniqlovchi asosiy element;
- **Uzluksiz funksiya**–topologik strukturaning saqlanishini ta’minlovchi akslantirish;
- **Gomeomorfizm**–ikki fazoning topologik ekvivalentligini ifodalovchi o‘zaro bir qiymatli va uzluksiz akslantirish.

Mashhur misollardan biri sifatida halqa va chashka shakllarining topologik tengligi keltiriladi. Bu misol talabalarda abstrakt fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi[1].

Topologiya fanining tarixiy rivojlanishi

Topologiyaning shakllanishi XIX asrga borib taqaladi. Leonard Eyler tomonidan yechilgan Kyonigsberg ko‘priklari masalasi topologik fikrlashning dastlabki namunasi bo‘ldi. Keyinchalik Bernxard Riman, Georg Kantor va Anri Puankare kabi olimlar tomonidan topologiyaning nazariy asoslari ishlab chiqildi.

XX asrda topologiya mustaqil fan sifatida rivojlanib, quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajraldi:

- **Umumiy topologiya**–topologik fazolarning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi;
- **Algebraik topologiya**–topologik obyektlarni algebraik strukturalar orqali tadqiq etadi;
- **Differensial va geometrik topologiya**–silliq va geometrik obyektlar xossalarini o‘rganadi.

Bu tarixiy jarayonlarni o‘qitishda xronologik jadval, konseptual xarita va muammoli savollar texnologiyasi samarali hisoblanadi[2].

Mavzuni o‘qitish texnologiyasi va pedagogik yondashuvlar

“Topologiya fani va uning rivojlanish tarixi” mavzusini o‘qitishda quyidagi texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiq:

- **Muammoli ta’lim texnologiyasi** – talabalarda ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- **Interfaol metodlar** (klaster, aqliy hujum, konseptual xarita) – mavzuni chuqur anglashni ta’minlaydi;
- **Vizual modellashtirish**–topologik shakllarni tasavvur qilishni osonlashtiradi;
- **Fanlararo integratsiya**–fizika, informatika va biologiya bilan bog‘liq misollar orqali bilimlarni mustahkamlaydi.

Mazkur yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashi va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi[3].

Muammoli ta’lim texnologiyasi (Problem-Based Learning)

Muammoli ta’lim texnologiyasi talabalarning mustaqil izlanish faoliyatini faollashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, topologiya fanining nazariy va tarixiy jihatlarini o‘zlashtirishda ayniqsa samarali hisoblanadi. Ushbu texnologiyada talabalarga Eylerning Kyonigsberg ko‘priklari masalasi, gomeomorfizmga oid real misollar yoki topologik ekvivalentlikka doir muammoli vaziyatlar taqdim etiladi. Natijada talabalar tayyor bilimni qabul qilmay, balki muammoni tahlil qilish, faraz ilgari surish va mantiqiy xulosaga kelish orqali bilimlarni egallaydi. Bu esa ularning tanqidiy va abstrakt tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi[4,5].

Raqamli va vizual ta’lim texnologiyalari (Digital & Visual Learning Technologies)

Topologiya fanining abstrakt mazmuni talabalar uchun murakkab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, raqamli va vizual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mazkur fanni o‘qitishda muhim ahamiyatga ega. Grafik modellashtirish dasturlari, interaktiv taqdimotlar, virtual fazoviy modellar orqali topologik shakllarning deformatsiya jarayonlarini ko‘rsatish talabalarning mavzuni tushunishini osonlashtiradi. Ushbu texnologiya orqali doira, ellips, halqa va chashka kabi shakllarning topologik ekvivalentligi vizual asosda yoritiladi, bu esa bilimlarning mustahkam va ongli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi[6,7].

Interfaol hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi (Collaborative Learning)

Topologiya fanini o‘qitishda interfaol guruhli ishlar, klasterlar va konseptual xaritalar texnologiyasidan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Talabalar kichik guruhlarda tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, topologiyaning tarmoqlari bo‘yicha taqdimotlar tayyorlash orqali o‘zaro fikr almashadilar. Bu texnologiya kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish bilan birga, fanlararo integratsiyani ham ta’minlaydi [8-10].

Topologiyaning amaliy ahamiyati

Topologiya fanining amaliy qo‘llanish doirasi keng bo‘lib, u fizika, biologiya, informatika va iqtisodiyot sohalarida muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda. Xususan, murakkab tizimlarni modellashtirish, fazoviy tuzilmalarni tahlil qilish va sun’iy intellekt algoritmlarini yaratishda topologik yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jihatlarni o‘quv jarayoniga kiritish ta’limning hayotiyligini oshiradi[11].

Xulosa

Topologiya fani matematikaning zamonaviy va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u shakllarning chuqur mohiyatini ochib beradi. Mazkur fanni o‘qitishda muammoli ta’lim, raqamli va vizual ta’lim hamda interfaol hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ilmiy dunyoqarashi, mantiqiy, abstrakt va tanqidiy tafakkurini

rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarixiy rivojlanish va amaliy qo‘llanmalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan holda tashkil etilgan darslar topologiya fanini samarali o‘zlashtirish uchun mustahkam didaktik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1].Jost, J. Riemannian Geometry and Geometric Analysis. Springer. 2017.

[2].**Frankel, T.** The Geometry of Physics: An Introduction**. Cambridge University Press. 2011.**

[3].Witten, E. Quantum Field Theory and the Jones Polynomial. Communications in Mathematical Physics, 121(3), 351–399. 1989.

[4].Тиллабаев И. О слабо почти совершенных отображениях суперпараком-пактных пространств //Международной научно-практической конференции «современные проблемы прикладной математики и информационных технологий» Uzbekistan, Bukhara-2022 Том-1, 128-129 стр.

[5].IN Tillabaev On some characterization of superparacompactness, strong paracompactness and complete paracompactness// Международный научный журнал № 19(100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» Марта, 2024/3/10 г. Том 2. № 9.

[6]. Тиллабаев И. Построение кубатурных формул на прямоугольнике повторным интегрированием //Innovations in Technology and Science Education. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 248-252.

[7]. Tillabayev I.N. Fizikada topologiyaning ahamiyati: kvant maydon nazariyasi va kosmologiya misolida, NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2025-12-son, 111-113b.

[8]. Munkres, J. R. Topology. 2nd ed. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 2000.

[9].Armstrong, M. A. Basic Topology. New York: Springer-Verlag, 1983.

[10]. Bonwell, C. C., & Eison, J. A. (1991). Active Learning: Creating Excitement in the Classroom. Washington, DC: ASHE-ERIC.

[11]. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. Journal of Engineering Education, 93(3), 223–231.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Qambarov Muxriddin Zuxridinovich
Qo‘qon davlat universiteti
Matematika kafedrasi dotsenti
E-mail: muxriddin_1990@umail.uz

TADBIRKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA PEDAGOGIK TAJRIBALAR TAHLILI

Annotatsiya: *Oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilishi bilan oliy ta’lim tizimining asosiy moddiy manbalaridan biri hisoblangan ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishga katta urg‘u berila boshlandi. Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich «Universitet 3.0» modeligao‘tishi oliy ta’limni rivojlantirishning asosiy maqsadlardan biri sifatida qabul qilindi. Shu o‘rinda, ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishda bo‘lajak muhandislarning tadbirkorlik kompetenligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatidayuzaga chiqa boshladi.*

Kalit so‘zlar: tijoratlashtirish bosqichlari, tadbirkorlik, *universitet 1.0, universitet 2.0, universitet 3.0, kompetetntlik, kompetensiya, tijoratlashtirish.*

Камбаров Мухриддин Зухридинович
Коканский государственный университет
Доцент кафедры математики

АНАЛИЗ ЭТАПОВ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ И ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОПЫТА

Аннотация:*С предоставлением финансовой независимости высшим учебным заведениям большой упор стал делаться на коммерциализации результатов научной и научно-технической деятельности, которые считаются одним из основных материальных ресурсов системы высшего образования. Поэтапный переход вузов нашей страны к модели «Университет 3.0» был принят в качестве одной из основных целей развития высшего образования. В этот момент развитие предпринимательской компетентности будущих инженеров в области коммерциализации результатов научной и научно-технической деятельности стало выступать как педагогическая задача.*

Ключевые слова:*Университет 3.0, научно-техническая деятельность, идея, результаты научной деятельности, компетентность, коммерциализация, предпринимательство.*

Qambarov Mukhriddin Zukhridinovich
Kokan State University
Associate Professor of the Department of Mathematics

ANALYSIS OF STAGES OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL COMPETENCE AND PEDAGOGICAL EXPERIENCES

Annotation:*With the granting of financial independence to higher education institutions, great emphasis began to be placed on the commercialization of the results of scientific and scientific-technical activities, which are considered oneof the main material resources of the higher education system. The gradual transition of universities in our country to the “University 3.0” model was adopted as oneof the main goals for the development of higher education. At this moment, thedevelopment of entrepreneurial competenceof futureengineers in the field of commercialization of the results of scientific and scientific-technical activities began toact as a pedagogical task.*

Key words: *University 3.0, scientific and technical activity, idea, results of scientific activity, competence, commercialization, entrepreneurship.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3855-sonli Qarorida ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatni amalgaoshirish, ilmiy-texnikaviy va innovatsion rivojlanishni ta’minlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishda mavjud moliyaviy va moddiy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash bo‘yicha me’yoriy-normativ xujjat sifatida foydalanishimiz mumkin. [1]

Ta’lim tizimida mavjud «Universitet 1.0» modeli faqat ta’lim berish bilan cheklanadi. «Universitet 2.0» - ta’lim berish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni o‘z ichigaoladi. «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonigaasosan, mamlakatda bosqichma-bosqich joriy etilishi rejalashtirilgan «Universitet 3.0» modeli esa ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlarni tijoratlashtiruvchi model hisoblanadi. Shuningdek, konsepsiyaga ko‘ra, nodavlat-notijorat shaklidagi RespublikaOliy ta’lim kengashi ham tuzilishi rejalashtirilgan bo‘lib, uning asosiy vazifalari jamoatchilik va ish beruvchilar fikrini o‘rganish, ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta’lim sifatini oshirish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, qo‘llanilayotgan ta’lim-tarbiya usullari ta’sirchanligiga xolisona baho berish kabilarni o‘z ichigaoladi. [2]

Mazkur paragraf tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonining ilmiy-pedagogik mohiyatini ochib berishga, uning tarixiy shakllanish bosqichlari hamda pedagogik tajribalar asosida takomillashuv yo‘nalishlarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – shaxsni bozor munosabatlari sharoitida mustaqil, tashabbuskor va mas’uliyatli faoliyat yuritishga tayyorlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili:

Ilmiy faoliyat natijasini tijoratlashtirish tadbirkorlik hisoblanadi. Bugungi kunga qadar “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish” mavzusigaoid bir nechta xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, Karpov nomidagi fizik-kimyo instituti professori A.P. Simonovnovning "The Main Problem in Commercialization of Scientific Research Results” nomli maqolasida ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish eski muammo hisoblanadi. [3]

A.Yuldashevning fikriga ko‘ra ta’lim muassaslari va ilmiy-tadqiqot markazlari oldiga qo‘yilayotgan bugungi kundagi eng muhim talab bu o‘zini-o‘zi moliyalashtirish hisoblanadi. Savol tug‘ilishi tabiiy, ya’ni akademik muassasalar qanday yo‘llar bilan mustaqil moliyalashtirishni amalgaoshirishi mumkin. So‘zsiz buni ular tomonidan yaratiladigan vaamaliyotga joriy etiladigan mahsulotlar vahizmatlar tashkil etadi.[4]

Niderlandiyada tadbirkorlik bo‘yicha ta'lim siyosati bozor talabiga to‘liq moslashtirilgan. [6] Mamlakatimizda tadbirkorlik eng tez sur’atda rivojlanayotgan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi ammo oliy ta’lim muassasalarida muhandislarni tayyorlashning ta’limiy dasturlari va yondashuvlari tahlil qilish orqali tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga katta urg‘u berilmagani ma’lum bo‘ldi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish masalasi faqat iqtisodiy bilimlar majmui bilan cheklanib qolmaydi. Mazkur kompetentlik shaxsning motivatsion sohasi, ijtimoiy faolligi, innovatsion fikrlashi, kommunikativ qobiliyatlari hamda axloqiy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali pedagogik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish jarayoni shaxsning faqat kasbiy tayyorgarligini emas, balki uning shaxsiy va ijtimoiy kamolotini ham ta’minlashga xizmat qiladi. Aynan shu sababli mazkur kompetentlikni shakllantirish uzluksiz pedagogik jarayon sifatida qaralib, ta’limning barcha bosqichlarida izchil ravishda rivojlantirib borilishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi:

Tarixiy-pedagogik yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, tadbirkorlik kompetentligining shakllanishi jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mavjud bo‘lgan iqtisodiy ehtiyojlar, ishlab chiqarish munosabatlari va ijtimoiy sharoitlar bilan bevosita bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Qadimgi davrlarda xo‘jalik yuritish, hunarmandchilik va savdo faoliyati orqali yosh avlodda mehnatsevarlik, mas’uliyat, tejamkorlik va tashabbuskorlik kabi sifatlar tarbiyalangan. Bu jarayon asosan oilaviy tarbiya va amaliy faoliyat asosida amalga oshirilgan bo‘lib, yoshlar real iqtisodiy jarayonlarda bevosita ishtirok etish orqali zarur hayotiy tajribani egallaganlar. Natijada tadbirkorlik kompetentligining amaliy va qadriyatli komponentlari tabiiy ravishda shakllangan.

O‘rta asrlar pedagogik tajribasida ustoz-shogird tizimi muhim o‘rin tutgan bo‘lib, mazkur tizim nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni uzatish, balki shaxsni axloqiy jihatdan tarbiyalashning samarali vositasi sifatida xizmat qilgan. Ustozlar shogirdlarga kasbiy mahorat bilan bir qatorda halollik, ijtimoiy mas’uliyat, mehnatga vijdonan munosabat va kasbga sadoqat kabi sifatlarni singdirganlar. Bu holat tadbirkorlik kompetentligining axloqiy komponenti tarixan muhim ahamiyat kasb etganini va iqtisodiy faoliyat har doim ma’naviy-me’yoriy qadriyatlar bilan uyg‘un holda olib borilganini ko‘rsatadi. Aynan ushbu tajribalar zamonaviy tadbirkorlik ta’limida ham ijtimoiy mas’uliyat va etik me’yorlarga alohida e’tibor qaratish zarurligini asoslab beradi.

Yangi davrga kelib, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi va bozor munosabatlarining shakllanishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ydi. Ta’lim mazmunida amaliy yo‘naltirilganlik kuchayib, kasbiy ta’lim muassasalarida iqtisodiy bilimlar, hisob-kitob yuritish, rejalashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Bu jarayon tadbirkorlik kompetentligining bilimiy va amaliy komponentlarini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qildi. Shuningdek, shaxsning mustaqil qaror qabul qilish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va iqtisodiy risklarni baholash qobiliyatlarini shakllantirish ta’limning muhim natijasi sifatida qarala boshlandi.

Umuman olganda, tarixiy-pedagogik tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish har bir tarixiy davrda jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlariga mos ravishda takomillashib borgan. Ushbu tajribalarni ilmiy jihatdan umumlashtirish zamonaviy ta’lim tizimida tadbirkorlikka yo‘naltirilgan kompetensiyalarni samarali shakllantirish uchun muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik tadqiqotlar asosida tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonini bir necha izchil bosqichlarga ajratish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki kompetentlik shaxsda bir vaqtning o‘zida shakllanmaydi, balki motivatsion, bilimiy, amaliy va refleksiv komponentlarning ketma-ket va o‘zaro bog‘liq rivojlanishi natijasida yuzaga keladi. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvga ko‘ra, tadbirkorlik kompetentligini shakllantirish jarayoni shaxsning ichki ehtiyojlari, bilimlar tizimi va faoliyat tajribasining integratsiyasi asosida amalga oshiriladi [8].

*Dastlabki – motivatsion-yo‘naltiruvchi bosqich: m*azkur bosqichda shaxsda tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat, barqaror qiziqish va ichki motivatsiya shakllantiriladi. Motivatsiya bu bosqichda yetakchi omil bo‘lib, shaxsning iqtisodiy faoliyatga ongli ravishda kirishishini ta’minlaydi. Pedagogik jarayonda muvaffaqiyatli tadbirkorlar tajribasini tahlil qilish, real hayotiy muammolar asosida muhokamalar tashkil etish, shuningdek, iqtisodiy faoliyatning jamiyat rivojidagi o‘rni haqida tahliliy suhbatlar o‘tkazish samarali hisoblanadi. Ushbu bosqichda shakllangan ijobiy munosabat keyingi bosqichlarda o‘zlashtiriladigan bilim va ko‘nikmalarni chuqurroq egallash uchun psixologik zamin yaratadi [9].

*Bilim va tushunchalarni shakllantirish bosqichi: k*eyingi bosqich tadbirkorlik faoliyatining nazariy asoslarini egallash bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda bozor iqtisodiyoti mexanizmlari, talab va taklif qonuniyatlari, resurslardan samarali foydalanish, moliyaviy rejalashtirish, tadbirkorlik faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslari tizimli ravishda o‘rganiladi. Nazariy bilimlar shaxsning iqtisodiy tafakkurini rivojlantiradi, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va oqilona qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Mazkur bosqichda o‘zlashtirilgan bilimlar keyingi amaliy faoliyat uchun metodologik asos vazifasini bajaradi va tadbirkorlik kompetentligining kognitiv komponentini mustahkamlaydi [8].

*Amaliy-ko‘nikmaviy bosqich: a*maliy bosqichda o‘quvchilar va talabalar o‘zlashtirilgan bilimlarni real yoki modellashtirilgan iqtisodiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Loyihaviy ta’lim, biznes-reja tuzish, startap g‘oyalarini ishlab chiqish, trening va amaliy mashg‘ulotlar orqali tadbirkorlik kompetentligining faol komponentlari rivojlanadi. Ushbu bosqichda shaxsda mustaqil qaror qabul qilish, risklarni baholash, jamoa bilan ishlash va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi muhim sifatlar shakllanadi. Amaliy faoliyat tadbirkorlik kompetentligining hayotiy ahamiyatini namoyon etib, shaxsning iqtisodiy muammolarga moslashuvchanligini oshiradi.

Integrativ-refleksiv bosqich: integrativ-refleksiv bosqichda shaxs o‘z faoliyatini chuqur tahlil qiladi, erishilgan natijalarni baholaydi va kelgusidagi rivojlanish strategiyalarini belgilaydi. Refleksiya jarayoni shaxsga o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, xatolardan xulosa chiqarish hamda o‘zini doimiy rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu bosqich tadbirkorlik kompetentligining yetuklashuv darajasini ifodalab, shaxsning mustaqil va barqaror iqtisodiy faoliyat yuritishga tayyorligini ko‘rsatadi. Aynan refleksiv yondashuv tadbirkorlik kompetentligining uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlaydi [9].


Zamonaviy pedagogik tajribalar tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirishda kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvlarning ustuvorligini ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar, axborot texnologiyalari va raqamli resurslardan foydalanish shaxsning moslashuvchanligini oshiradi.

Jadval. Tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari

Bosqich	Pedagogik vazifa	Metodlar	Natija
Motivatsion	Qiziqish uyg‘otish	Muammoli vaziyat	Ijobiy munosabat
Bilimiy	Nazariy tayyorgarlik	Ma’ruza, tahlil	Bilimlar tizimi
Amaliy	Ko‘nikma hosil qilish	Loyiha, trening	Amaliy malaka
Refleksiv	O‘zini baholash	Tahlil	Mustaqillik

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish jarayoni shaxsning faqat iqtisodiy bilimlari bilan emas, balki uning ijtimoiy faolligi, innovatsion tafakkuri va mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatlari bilan ham belgilanadi [8]. Mazkur yondashuv kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi doirasida izohlanib, ta’lim mazmunining amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytirishni taqozo etadi [9].

Tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirishning grafik modeli



1-rasm. Tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish bosqichlarining integrativ modeli

Ilmiy faoliyat natijalarini sanoatda foydalanish uchun ko‘pincha tijoratlashtirish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi.



Muhandislik bu jarayonning eng qiyin bosqichidir. Ushbu bosqichda ilmiy natijalar muhandislar tomonidan ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilishi kerak. Ohirgi bosqich natijasini daromad keltirishi mumkin bo‘lganlarini kompaniyalar sotib oladi. ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalari ayniqsa kimyo sohasida ancha qimmat hisoblanadi. Odatda ilmiy-tadqiqot institutlari yetarlicha katta kapital resurslariga ega emasligi sababli ko‘pincha tashqi moliyalashtirishni topish kerak bo‘ladi. Bu esa ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning muammolaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilishi bilan oliy ta’lim tizimining asosiy moddiy manbalaridan biri hisoblangan ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishga katta urg‘u berila boshlandi. Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich «Universitet 3.0» modeligao‘tishi oliy ta’limni rivojlantirishning asosiy maqsadlardan biri sifatida qabul qilindi. Shu o‘rinda, bo‘lajak muhandislarning ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish muammo sifatida yuzaga chiqa boshladi. Har qanday kadrning mehnat samaradorligi uning kasbiy va umumiy kompetensiyalarni egallaganligiga bog‘liq bo‘ladi. O‘z o‘rnida muhandislik kasbi doimiy ravishda ilmiy-texnikaviy faoliyat bilan shug‘ullanadigan kasb hisoblanadi. Ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishda tadbirkorlik kompetenligini egallagan muhandis moddiy tomondan o‘zi va korxona ta’minotini yaxshilashga ulkan hissa qo‘shaoladi.

Kuzatuvlar natijasida muhandislarning kasbiy kompetentsiyalari va tadbirkorlar egallashi lozim bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar bilan mos kelishini ko‘rishimiz mumkin. Bo‘lajak muhandislarning tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirishning asosiy pedagigik muammolaridan biri sifatidaoliy o‘quv yurtlari tomonidan bo‘lajak muhandis kadrlarni tayyorlashda kasbiy vatadbirkorlik kompetentsiyalari bog‘liqliko‘qitilishini tahlil qilishdir. Bo‘lajak muhandislarning tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish orqali muhandislik faoliyatida juda muhim bo‘lgan moliyaviy va iqtisodiy savodxonlik, pul va muomila madaniyati, kriativ fikrlash qobilyati, moddiy manfaat orqali muhandislik faoliyatigamotivatsiyashakllanishiga turtki yaratish mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar rivojlanishi ortidan ishlab chiqarish yangi texnologiyalar olib kirilmoqda. Bu orqali ishlab chiqarish jarayonidagi xarajatlarni kamaytiradi. Masalan, axborot texnologiyalari sohasidagi yutuqlar ma’lumotlarni qidiruv vao‘zaroaloqaxarajatlarini kamaytiradi. Ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish orqali tashkilotlar endi faqato‘zlarining ichki ilmiy-tadqiqot salohiyatigatayanmaydilar. Har qanday tashkilot ishlab chiqilgan eng so‘ngi ilmiy tadqiqot natijalaridan mualliflik xuquqini buzmagan holda foydalanish imkoniyatigaega bo‘ladi. Chunki, istalgan ishlab

chiqarish korxonasida inson ilmiy salohiyatiga bog‘liq bo‘lgan muammolarning barchasini yechish imkoniyatigaegaemas. Korxonadaayrim masalalarni turli fanlargaoid bilimlarga tayangan holda yechishga to‘g‘ri keladi. Ko‘plab korxonalarda kadrlar salohiyati chegaralangan imkoniyatlargaega. Yirik ishlab chiqarish korxonalari esa ko‘pincha ishlab chiqarish jarayonlarini to‘liq nazorat qilaolmaydilar. Shu o‘rinda, ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish jarayonida duch kelinadigan turli masalalar va boshqaruv jarayonida nazoratni kuchaytirish maqsadida boshqa korxonalar bilan xamkorlik qilish, o‘zaro tajribaalmashish, ixtirolar va innovatsion ishlanmalarning natijalarini sotib olishiga majbur bo‘ladilar. Bu esa muhandislik sohasidagi ochiq innovatsion tarmoqlarning o‘sishiga va tadbirkorlikning rivojlanishigaolib keladi. O‘z navbatida, akademik institutlarning ilmiy natijalarini sanoat, jamoat va notijorat tashkilotlardaamaliyotga qo‘llash imkoniyati yaratiladi. Tadbirkorlikdagi muammolar muhandislarni turli fan mutaxassislari va yangi texnologiyalarning xaridorlari bilan bog‘laydi.

Natijalar

Tarixiy-pedagogik tajribalarni umumlashtirish asosida aytish mumkinki, tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish uzluksiz, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari va pedagogik tajribalar tahlili ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu xulosalar ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xozirda xususiy korxonalar, davlat va hatto notijorat tashkilotlar ham o‘zlarining kashfiyotlari, ixtirolari va innovatsiyalarini ochiq bozorga olib chiqish orqali ma’lum daromad olishni maqsad qilishmoqda. Chunki yangi tadqiqot natijalari, texnologiya yutuqlari, muhandislik ixtirolarini tijoratlashtirish fan va texnologiyalargaasoslangan zamonaviy tadbirkorlikning ajralmas qismidir. Bunday tadbirkorlik bozori ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-tadqiqot parklari, universitetlar ishlab chiqarish korxonalari va xizmat ko‘rsatish firmalarini o‘z ichigaolgan fan va texnologiyaga yo‘naltirilgan startap loyihalarni shakllantirishga katta turtki bo‘la oladi.

Ilmiy tadqiqot, bilim va texnologiyalarni tijoratlashtirish uchun yangi tashkiliy tuzilmalar va ilmiy tadbirkorlikni rivojlantiradigan texnologiyalar transferi idoralari, ilmiy parklar, ilmiy inkubator markazlari, sanoat labaratoriyalari, tadqiqot markazlari zarur bo‘ladi.

Innovatsion muhandislik ishlanmalari va ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish orqali bo‘lajak muhandislarning tadbirkorlik imkoniyatlarini rivojlantirishda sanoat, bozor vaishlab chiqarish korxonalariga ma’lum bir talablarni yuklaydigan qonunchilikdagi huquqiy-normativ xujjatlarga ham o‘zgartirishlar kiritish kerak bo‘ladi.

Bo‘lajak muhandisga tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sarmoya muhim ro‘l o‘ynaydi. Shu boisdan davlat dasturlari va xorijiy sarmoyadorlarga muhandislik ishlanmalari va ilmiy tadqiqot natijalari uchun investitsiyalarni jalb qilish muhim hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruvi va siyosati orqali texnika universitetlari, yirik korporatsiyalar, klasterlar va davlat organlariga ayrim vazifalarni yuklash bilan ularning ozaro hamkorlik aloqalari rivojlantirilib, muhandislik ishlanmalari va ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish jarayonigae’tibor ko‘rsatiladi. Ilmiy tadqiqot institutlari va universitetlarda moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun ilmiy loyihalarga tikilgan investitsiyalar, grandlar, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish hamda talabalar tomonidan tayyorlangan startap loyiha va muhandislik ishlanmalarini tijoratlashtirish orqali tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak muhandis talabalarda tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish orqali universitet bilan hamkorlikda qilingan loyihalarda foydali natijalargaerishish mumkin. Jumladan, talabalar tomonidan taklif qilingan startap loyihalarini tijoratlashtirish imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayabdi. Bo‘lajak muhandislarda tadbirkorlik kompetentligining yetarlichashakllanmaganligi ularning ilmiy tadqiqot natijalari vamuhandislik loyihalarini tijoratlashtirish bilan bog‘liq jarayonlarda muammolarga duch kelishmoqda. Shuningdek, talabalar tomonidan tayyorlangan ilmiy ishlanma va startap loyihalar yetarlich ko‘p bo‘lishiga qaramasdan patentlash, litsenziyalashda buyrakrativ to‘siqlar mavjud. Xususiy tadbirkorlik, qo‘shma korxonalar vayirik klasterlardatajribalarni amalda sinab ko‘rish uchun imkoniyatlar yetarli emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018 yil 14-iyuldagi PQ-3855-sonli Qarori.

2. Turabovna N. Z. Oliy ta’limda ilmiy-innovatsion faoliyat rivojlanish manbai //Fan, ta'lim vaamaliyotning integrasiyasi. – 2023. – C. 293-297.

3. A.P. Simonovnov "The Main Problem in Commercialization of Scientific Research Results." National Research Council. 1998. Technology Commercialization: Russian Challenges, American Lessons. Washington, DC: The National

Academies Press. doi: 10.17226/6378.

4. Yuldashov A. Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarning intellektual mulk hamda innovatsiyalarni yaratishga doir faoliyatini takomillashtirish masalalari //Models and methods for increasing theefficiency of innovative research. – 2023. – T. 2. – №. 24. – C. 58-65.

5. Tulkunovna K. F. Etal. TA'LIMDA INNOVATSIYALAR VA UNIVERSITET 3.0 MODELI //Proceedings of International Conferenceon Modern Scienceand Scientific Studies. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 306-309.

6. Nikitina T. et al. Competences for strengthening entrepreneurial capabilities in Europe //Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity. – 2020. – T. 6. – №. 3. – C. 62.

7. M.Qambarov. Bo'lajak muhandislarning tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. **"Kreativ ta'lim: innovatsiya va samaradorlik"** mavzusidagi xalqaro miqyosidagiilmiy-amaliy konferensiyasi. (2024-yil 4-iyun, Toshkent, O'zbekiston). 245-248.

8. Abdullaeva M.X. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish. Toshkent : Fan, 2009.

9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch . Toshkent : Ma'naviyat, 2008.

10. M.Qambarov. Bo'lajak muhandislarning tadbirkorlik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2025-2-son. 704-706 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Yulchiyeva Zulfiya Baxodir qizi
Namangan davlat pedagogka instituti
2-kurs tayanch doktoranti
yulchiyevazulfiya5@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF TABIIY FANLAR DARSINI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslarini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy imkoniyatlari yoritib berilgan. Innovatsion yondashuvlar orqali o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ta’lim samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va ularni dars jarayoniga joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, tabiiy fanlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, AKT, ta’lim samaradorligi.*

Юлчиева Зульфия Баходировна
Наманганский государственный педагогический институт
студент 2 курса основного докторантуры

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.

Аннотация. *В данной научной статье освещены теоретические и практические возможности использования инновационных педагогических технологий в преподавании естественных наук в начальных классах.ннотация. В данной научной статье освещены теоретические и практические возможности использования педагогических технологий в преподавании естественных наук в начальных классах. Посредством инновационных подходов были проанализированы вопросы формирования у учащихся научного мировоззрения, развития навыков самостоятельного и критического мышления, повышения эффективности обучения. В статье представлены преимущества использования современных педагогических технологий, интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий и методические рекомендации по их внедрению в процесс урока.*

Ключевые слова: *начальное образование, естественные науки, инновационные педагогические технологии, интерактивные методы, ИКТ, эффективность обучения.*

Yulchiyeva Zulfiya Bakhodir’s daughter
Namangan State Pedagogical Institute
2nd year basic doctoral student

POSSIBILITIES OF USING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN PRIMARY GRADE

Annotation. *In this scientific article, the theoretical and practical possibilities of using innovative pedagogical technologies in teaching elementary class natural sciences are highlighted.nnotation. In this scientific article, the theoretical and practical possibilities of using innovative pedagogical technologies in teaching elementary class natural sciences are highlighted. Through innovative approaches, students analyzed issues of forming a scientific worldview, developing skills of independent and critical thinking, improving educational efficiency. The article provides methodological recommendations on the advantages of using modern pedagogical technologies, interactive methods, information and communication technologies and their introduction into the course process.*

Keywords: *primary education, Natural Sciences, innovative pedagogical technologies, interactive methods, ICT, educational efficiency.*

Kirish.

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liq. “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq [1]. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek, davlatmizning taraqqiyoti va yorqin kelajagi ilm-fan rivojlanishiga asoslanadi.

Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish va ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlar darslari o‘quvchilarning tabiat haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarini shakllantiradi. Shu sababli mazkur fanlarni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish zarurligi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan.


Pedagogik texnologiyalar nazariyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda (V.P. Bespalko, B.T. Lixachyov, N.F. Talizina va boshqalar) ta’lim jarayonini oldindan loyihalash, aniq natijaga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimini yaratish muhimligi ta’kidlanadi. Ushbu olimlar pedagogik texnologiyani o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro uyg‘unlashgan tizimi sifatida talqin qilib, uning samaradorligi kafolatlangan natija bilan belgilanadi, deb hisoblaydilar. Bu yondashuv boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslarida ham o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tadqiqotlar (jumladan, boshlang‘ich ta’lim sifati bo‘yicha olib borilgan baholashlar) natijalariga ko‘ra, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar — bu ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy metod va vositalar majmuasidir. Ular o‘quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarni ongli va mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:



1-rasm. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.

Tabiiy fanlar darslarida “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Klaster”, “Insert”, “B-B-B” (Bilaman – Bilmoqchiman – Bildim), “Tushunchalar tahlili” kabi interfaol metodlar samarali hisoblanadi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar faol ishtirok etadi, o‘z fikrini erkin bayon qilishga o‘rganadi va bilimlarni mustaqil ravishda egallaydi.

“Tushunchalar tahlili” metodini dars jarayonlarida qo‘llanilishini tahlil qilsak, “Tushunchalar tahlili” interfaol metodi— bu o‘quvchilarga mavzuga oid asosiy tushunchalarni aniqlash, ularning muhim belgilarini ajratish, boshqa tushunchalar bilan solishtirish hamda umumlashtirish orqali bilimlarni ongli o‘zlashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. Ushbu texnologiyada o‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Mazkur texnologiya konstruktivistik yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga asoslanadi. O‘quvchi yangi bilimni mavjud bilimlari bilan bog‘lash orqali tushunchani chuqur anglaydi va uni amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

“Tushunchalar tahlili” interfaol metodi asosiy tushunchani aniqlash, tushunchani izohlash va ko‘rgazmali vositalar orqali tushuntirish, tushunchaning muhim belgilarini ajratish, boshqa tushunchalar bilan solishtirish, misollar keltirish va umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi bosqichlar asosida amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslarida “Tushunchalar tahlili” texnologiyasi o‘simlik, hayvon, suv, havo, tabiat hodisalari kabi tushunchalarni o‘rgatishda samarali hisoblanadi. Ushbu texnologiya yordamida o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasi oshadi, bilimlar mustahkamlanadi va o‘quvchilarda tahliliy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

“Tushunchalar tahlili” interfaol metodi o‘quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarni ongli va mustahkam o‘zlashtirishni ta’minlash, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish kabi afzalliklarga ega.

Boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darsidagi “Suv “ mavzusini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida quyidagi jadvaldan foydalanishimiz mumkin.

Savol	Javob
Suv nima?	Tabiatda uchraydigan suyuqlik
Qanday belgisi bor?	Rangsiz, hidsiz
Nima uchun kerak?	Ichish, yuvish, o‘simliklar uchun
Qayerda uchraydi?	Daryo, ko‘l, yomg‘ir

“Tushunchalar tahlili” interfaol metodi boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslarida ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim innovatsion yondashuv hisoblanadi. Ushbu pedagogik texnologiyani dars jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchilarda ilmiy tushunchalarni ongli o‘zlashtirish, mustaqil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Natijalar va ularning tahlili.

“Tushunchalar tahlili” pedagogik texnologiyasidan foydalanish o‘quvchiga quyidagilarni beradi:

- mavzuga oid asosiy tushunchalarni aniq ajratib olish ko‘nikmasini shakllantiradi;
- tushunchalarning muhim belgilarini anglash va ularni izohlashni o‘rgatadi;
- bilimlarni ongli va mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi;
- tahliliy, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- yangi bilimlarni avvalgi bilimlar bilan bog‘lash imkonini yaratadi;
- o‘z fikrini aniq, ravon va asosli bayon qilish malakasini rivojlantiradi;
- mustaqil xulosa chiqarish va umumlashtirish qobiliyatini shakllantiradi;
- dars jarayonida faol ishtirok etish va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Xulosalar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslarini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy metod va vositalar orqali o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi, mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari dars jarayonida innovatsion yondashuvlardan keng foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси. “Таълим тўғрисида”ги Қонун. — Тошкент, 2020.
2. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston. Toshkent.2022. 212-bet
3. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Abdullayeva M. Pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2018.
6. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2018.
7. Qodirova F., G‘ofurova D. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
8. Karimova S. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi. — Toshkent, 2020.
9. Кларин М.В. Инновационные образовательные технологии. — Москва: Педагогика, 2017.

10. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. — Москва: Народное образование, 2016.
11. Беспалко В.П. Основы педагогической технологии. — Москва, 2015.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdiraxmanov Sardor Normuhamadovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti
E-mail: sardorbek.abdurahmonov1995@gmail.com

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KONSTRUKTORLIK KOMPETENTLIGINI DIZAYNGA YO‘NALTIRILGAN INNOVATSIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining konstruktorlik kompetentligini dizaynga yo‘naltirilgan innovatsiyalar orqali rivojlantirishning pedagogik ahamiyati o‘rganilgan. Tadqiqotda zamonaviy elektron va an’anaviy darsliklar, virtual stendlar, multimedia vositalari va amaliy mashg‘ulotlar yordamida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, grafik va dizayn ko‘nikmalarini shakllantirish metodikalari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quv jarayonida og‘zaki bayon, hikoya, ko‘rgazmali va amaliy metodlarning samaradorligi ko‘rib chiqilgan. Natijada, didaktik vositalar va innovatsion yondashuvlar bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *konstruktorlik kompetentlik, dizaynga yo‘naltirilgan innovatsiyalar, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari, elektron darslik, pedagogik metodlar.*

Абдихаманов Сардор Нормухамадович
Ассистент, Терский государственный университет инженерии и агротехнологий

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ КОНСТРУКТОРСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ ЧЕРЕЗ ИННОВАЦИИ, ОРИЕНТИРОВАННЫЕ НА ДИЗАЙН

Аннотация: *В данной статье рассматривается педагогическое значение развития конструкторской компетентности будущих преподавателей технологии через дизайн-ориентированные инновации. В исследовании проанализированы методики формирования у студентов навыков самостоятельного мышления, графического проектирования и дизайна с использованием современных электронных и традиционных учебников, виртуальных стендов, мультимедиа-инструментов и практических занятий. Также рассмотрена эффективность устных, повествовательных, наглядных и практических методов обучения. В результате установлено, что дидактические средства и инновационные подходы являются важным педагогическим инструментом для развития конструкторской компетентности будущих преподавателей технологии.*

Ключевые слова: *конструкторская компетентность, дизайн-ориентированные инновации, будущие преподаватели технологии, электронный учебник, педагогические методы.*

Abdirakhmanov Sardor Normuhamadovich
Assistant, Termiz State University of Engineering and Agrotechnologies

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF DEVELOPING DESIGN COMPETENCE OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS THROUGH DESIGN-ORIENTED INNOVATIONS

Abstract: *This study explores the pedagogical significance of developing the design competence of future technology teachers through design-oriented innovations. The research analyzes methods for enhancing students' independent thinking, graphic design, and modeling skills using modern electronic and traditional textbooks, virtual stands, multimedia tools, and practical sessions. The effectiveness of oral explanation, storytelling, visual, and practical teaching methods is also examined. The results indicate that didactic tools and innovative approaches serve as essential pedagogical instruments for fostering the design competence of future technology teachers.*

Key words: *design competence, design-oriented innovations, future technology teachers, electronic textbook, pedagogical methods.*

Kirish

Bugungi kunda texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida grafik va konstruktorlik kompetentlikning roli beqiyos ahamiyatga ega. Konstruktorlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchilar grafik chizmalar, eskizlar, modellar va loyihalarni yaratish bo‘yicha puxta bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur. Shu sababli, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik tadqiqotlar uchun dolzarb masala hisoblanadi. [1]

Grafik kompetentlik – bu grafik axborotlarni yaratish, tahlil qilish, o‘qish va amaliy faoliyatda qo‘llashga oid bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini ifodalaydi. Texnologiya fani o‘qituvchisi uchun bu kompetentlik nafaqat o‘quv jarayonida, balki amaliy loyihalar, modellashtirish va texnik hujjatlarni tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. [2]

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar, xususan elektron darsliklar, virtual stendlar va multimedia vositalari, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va murakkab texnologiyalarni qisqa vaqt ichida o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, elektron o‘quv materiallari mustaqil fikrlash, dizayn qilish va texnik loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda ilm-fan va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, axborot oqimining ortishi, shuningdek, ta’limning masofaviy shakllarini kengaytirish ehtiyoji, pedagogik jarayonni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etishni talab qiladi. Shu bois, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining konstruktorlik va grafik kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy, innovatsion va amaliy yondashuvlarni qo‘llash pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili

Texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi va konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlar markazida turadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, konstruktorlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchilar nafaqat nazariy bilimga, balki grafik chizmalar, eskizlar, modellar va texnik loyihalarni yaratish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur [3] (Muslimov, 2019; Fuad et al., 2020).

Grafik kompetentlik – pedagogik faoliyatda talab qilinadigan asosiy kompetensiyalardan biri bo‘lib, o‘quvchilarga bilim berish jarayonida, shuningdek, amaliy loyiha va texnik hujjatlarni tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi [4] (Serdyukov, 2017). O‘zbekiston olimlari, xususan N.A. Muslimov, elektron darsliklar va zamonaviy o‘quv-didaktik vositalarning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilib, ularni texnologiya fanini o‘qitishda samarali qo‘llashni ta’kidlaydilar. Shuningdek, Sh.N. Xudayberdiyev va A.A. Yusupov konstruktorlik va grafik kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish zarurligini qayd etgan.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan, elektron darsliklar va virtual stendlar yordamida murakkab texnologiyalarni qisqa vaqt ichida egallash va masofadan turib o‘qitish imkoniyatlari yaratiladi (Latvian Design Strategy, 2022–2027; Cabinet of Ministers, 2021). Shu bilan birga, elektron darsliklarning interfeysi intuitiv, interaktiv va didaktik jihatdan to‘liq bo‘lishi, o‘quvchilarga mustaqil o‘zlashtirish darajasini baholash imkonini berishi zarur [5] (Pietsche et al., 2023).

Xalqaro tadqiqotlarda konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda dizaynga yo‘naltirilgan innovatsiyalar muhimligi qayd etilgan. Verganti (2009) g‘oyalar ishlab chiqish va “idea focus” jarayoni orqali dizayn va innovatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan. Shu bilan birga, ochiq innovatsiya (Open Innovation) konsepsiyasi konstruktorlik kompetentligini oshirishda tashqi manbalar bilan bilim almashish va ijodiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytiradi [6] (De Goey et al., 2019; Verganti et al., 2020).

Shuningdek, texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida pedagogik metodikalar ham katta ahamiyatga ega. Masalan, og‘zaki bayon qilish, ko‘rgazmali metodlar va amaliy ishlar orqali o‘quvchilarda grafik va konstruktorlik ko‘nikmalarini shakllantirish samarali bo‘ladi (Fuad et al., 2020; Muslimov, 2019). Ta’lim jarayonida didaktik vositalarni turli shakllarda qo‘llash, elektron darsliklar, video va multimedia resurslar yordamida o‘quvchilarning mustaqil ishlash, tanqidiy fikrlash va dizayn qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining konstruktorlik va grafik kompetentligini rivojlantirishda dizaynga yo‘naltirilgan innovatsiyalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyalashgan holda qo‘llanishi samarali pedagogik yondashuv sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining konstruktorlik va grafik kompetentligini rivojlantirishda dizaynga yo‘naltirilgan innovatsiyalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishning pedagogik ahamiyatini aniqlashdir. Tadqiqot quyidagi asosiy bosqichlarda olib borildi:

1. Tadqiqot usullari

Tadqiqotda aralash usullar (mixed methods) qo‘llanildi, ya’ni sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) metodlar birgalikda ishlatilgan:

Sifatli metodlar:

Fokus-guruhlar (focus groups) – bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari va talabalarning konstruktorlik va grafik kompetentlikni rivojlantirishga oid tajriba va fikrlari o‘rganildi.

Intervyular – akademik xodimlar bilan individual suhbatlar orqali pedagogik yondashuvlar va metodik qo‘llanmalar samaradorligi baholandi.

Miqdoriy metodlar:

So‘rovnomalar (questionnaires) – talabalar va o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalar, elektron darsliklar va grafik ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasini baholash uchun.

Testlar va baholash jadvallari – o‘quvchilarning konstruktorlik va grafik kompetentligini aniqlash va rivojlantirish darajasini o‘lchash uchun.

2. Tadqiqot obyektlari va predmeti

Obyekt: Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayoni.

Predmet: Konstruktorlik va grafik kompetentligini rivojlantirishda dizaynga yo‘naltirilgan innovatsiyalar va elektron o‘quv-didaktik vositalarning pedagogik samaradorligi.

3. Ishtirokchilar

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti texnologiya yo‘nalishi talabalari (50 nafar).

Texnologiya fani akademik xodimlari va assistentlari (10 nafar).

4. Ma’lumotlarni yig‘ish usullari

So‘rovnomalar va testlar orqali talabalar va o‘qituvchilar kompetentlik darajasi aniqlandi.

Fokus-guruhlar va intervyular orqali sifatli ma’lumotlar yig‘ildi.

Elektron darsliklar va zamonaviy o‘quv-didaktik vositalarning qo‘llanilishi kuzatildi va baholandi.

5. Ma’lumotlarni tahlil qilish

Miqdoriy ma’lumotlar statistik metodlar yordamida tahlil qilindi (foydalanilgan test natijalari, o‘rtacha qiymat, dispersiya va grafiklar).

Sifatli ma’lumotlar kontent-tahlil va tematik tahlil orqali o‘rganildi.

6. Etik jihatlar

Tadqiqot ishtirokchilarining roziligi oldindan olinadi.

Ma’lumotlar anonim tarzda yig‘iladi va faqat ilmiy maqsadlarda ishlatiladi.

7. Tadqiqotning amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalari bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari uchun konstruktorlik va grafik kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlar va elektron darsliklarni samarali qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, natijalar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, talabalarning mustaqil ishlash va dizayn ko‘nikmalarini oshirishda amaliy qo‘llanilishi mumkin.

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot natijalari bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining konstruktorlik va grafik kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Natijalar miqdoriy (so‘rovnoma, testlar) va sifatli (intervyu, fokus-guruh) usullar yordamida o‘rganildi.

1. Miqdoriy natijalar

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar va o‘qituvchilarning 65–70% elektron darsliklar, virtual stendlar va multimedia vositalari konstruktorlik va grafik ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali ekanligini bildirgan.

Test natijalariga ko‘ra, elektron darsliklar yordamida o‘qitilgan guruh talabalari konstruktorlik vazifalarini bajarishda 20–25% yuqori natijalarga erishgan.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash natijalarida 75% talabalar interaktiv mashg‘ulotlar orqali mustaqil ishlash va amaliy ko‘nikmalarini yaxshilaganini ta’kidlagan.

2. Sifatli natijalar

Fokus-guruhlar va intervyular tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar zamonaviy o‘quv-didaktik vositalarni qo‘llash orqali talabalar diqqatini jamlash, tushunishni chuqurlashtirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish mumkinligini bildirgan.

Talabalar elektron darslik va virtual stendlar orqali murakkab texnologiyalarni qisqa vaqt ichida o‘zlashtirish imkoniyatini yuqori baholagan.

Grafik ishlar va interaktiv mashg‘ulotlar yordamida amaliy ko‘nikmalar sezilarli darajada oshgani qayd etilgan.

3. Tahlil

Miqdoriy va sifatli natijalar bir-birini tasdiqlaydi: dizaynga yo‘naltirilgan innovatsiyalar va elektron darsliklar konstruktorlik va grafik kompetentligini rivojlantirishda samarali vositadir.

Elektron darsliklarning intuitiv interfeysi va vizual elementlar bilan boyitilishi talabalarning mustaqil ishlash qobiliyati va amaliy koʻnikmalarini oshiradi.

Aralash oʻqitish metodlari (ogʻzaki bayon, koʻrgazmali metod, amaliy ishlar) mashgʻulotlarning samaradorligini oshiradi va talabalar diqqatini jamlashga yordam beradi.

4. Xulosa

Tadqiqot shuni koʻrsatadiki, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va elektron darsliklar boʻlajak texnologiya fani oʻqituvchilarining konstruktorlik va grafik kompetentligini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Natijalar amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishga va talabalar mustaqil ishlash hamda dizayn koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Boʻlajak texnologiya fani oʻqituvchilarining konstruktorlik va grafik kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy innovatsion va amaliy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Elektron darsliklar, virtual stendlar va multimedia vositalari ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga, mustaqil fikrlash, dizayn qilish va amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, aralash oʻqitish metodlari – ogʻzaki bayon, koʻrgazmali va amaliy mashgʻulotlar – oʻquvchilarning diqqatini jamlash va bilimlarni chuqur oʻzlashtirish imkonini beradi. Umuman olganda, innovatsion pedagogik metodlar va zamonaviy didaktik vositalarni qoʻllash boʻlajak texnologiya fani oʻqituvchilarining kasbiy tayyorgarligi va kompetentligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov, N. A. Kasbiy ta'lim metodikasi va kompetentlik yondashuvi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. Tolipov, U. Q., Usmonboyeva, M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2017.
3. Djuraev, R. H. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Xodjayev, B. X. Texnologiya fanini oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
5. Serdyukov, P. (2017). Innovation in education: What works, what doesn't, and what to do about it. *Journal of Research in Innovative Teaching & Learning*, 10(1), 4–33.
6. OECD. (2019). *Future of Education and Skills 2030*. Paris: OECD Publishing.
7. OECD. (2023). *Education at a Glance*. Paris: OECD Publishing.
8. UNESCO. (2023). *Reimagining our futures together: A new social contract for education*. Paris: UNESCO.
9. Verganti, R. (2009). *Design-driven innovation: Changing the rules of competition by radically innovating what things mean*. Boston: Harvard Business School Press.
10. De Goey, H., Hilletofth, P., & Eriksson, L. (2019). Design-driven innovation in education and industry. *Design Studies*, 63, 45–62.
11. Fuad, M., et al. (2020). STEM education and design-based learning approaches. *International Journal of STEM Education*, 7(1), 1–12.
12. Pietsch, T., et al. (2023). Open innovation and knowledge exchange in higher education. *Higher Education Research & Development*, 42(3), 561–575.
13. Cabinet of Ministers of Latvia. (2021). *Guidelines for the Development of Education 2021–2027*. Riga.
14. Smart Specialisation Strategy (RIS3). (2024). *Promotion of STEM and creative industries*. Riga.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Karimberdiyev Qodir Komilovich
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
O'quvchilar bilimini baholash, tahlil qilish
va apostil xizmatini ko'rsatish
boshqarmasi bosh mutaxasisi

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI KONTEKSTIDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH: MDH DAVLATLARI VA O'ZBEKISTONNING QIYOSIY TAJRIBASI

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada MDH davlatlari va O'zbekiston ta'lim tizimida o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tizimli va taqqosiy tahlil qilinadi. Xalqaro baholash dasturlari, xususan, PISA va PIRLS doirasida shakllangan yondashuvlar, shuningdek, MDH olimlari hamda O'zbekiston tadqiqotchilarining ilmiy ishlari asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishga doir nazariy qarashlar umumlashtiriladi. Tadqiqot natijalari o'qish savodxonligini rivojlantirishda umumiy tendensiyalar, muammolar va istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *o'qish savodxonligi, MDH davlatlari, O'zbekiston ta'lim tizimi, PISA, PIRLS, taqqosiy tahlil.*

Каримбердиев Кадир Комилович
Главный специалист Управления по оценке
анализу знаний обучающихся и оказанию услуг апостиля
Министерства дошкольного и школьного
образования Республики Узбекистан

РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В КОНТЕКСТЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ ГОСУДАРСТВ СНГ И УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: *В данной научной статье системно и сравнительно анализируются научные исследования, посвящённые проблеме развития читательской грамотности в образовательных системах государств СНГ и Узбекистана. На основе подходов, сформированных в рамках международных оценочных программ, в частности PISA и PIRLS, а также научных работ учёных стран СНГ и исследователей Узбекистана, обобщаются теоретические взгляды на развитие читательской грамотности. Результаты исследования направлены на выявление общих тенденций, проблем и перспективных направлений развития читательской грамотности.*

Ключевые слова: *читательская грамотность, государства СНГ, система образования Узбекистана, PISA, PIRLS, сравнительный анализ*

Karimberdiyev Qodir Komilovich
Chief Specialist of the Department
for Assessment and Analysis of Students'
Learning Outcomes and Apostille Services
Ministry of Preschool and School Education
of the Republic of Uzbekistan

DEVELOPING READING LITERACY IN THE CONTEXT OF INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMMES: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CIS COUNTRIES AND UZBEKISTAN

Abstract: *This scientific article systematically and comparatively analyzes research studies devoted to the issue of developing reading literacy in the education systems of the CIS countries and Uzbekistan. Based on approaches formed within international assessment programs, particularly PISA and PIRLS, as well as on the scholarly works of researchers from the CIS countries and Uzbekistan, theoretical perspectives on the development of reading literacy are synthesized. The results of the study aim to identify common trends, challenges, and promising directions for the development of reading literacy.*

Keywords: *reading literacy, CIS countries, education system of Uzbekistan, PISA, PIRLS, comparative analysis.*

Zamonaviy global ta’lim makonida o‘qish savodxonligi shaxsning funksional savodxonligini belgilovchi asosiy kompetensiyalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O‘qish savodxonligi nafaqat matnni texnik jihatdan o‘qish va tushunish, balki undagi axborotni tahlil qilish, baholash, umumlashtirish hamda real hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda qo‘llay olish qobiliyatlarini ham qamrab oladi [1]. Shu sababli o‘qish savodxonligi bugungi kunda ta’lim sifatini baholashda muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda o‘qish savodxonligi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan amalga oshirilayotgan PISA tadqiqotlari orqali keng yoritilgan. Mazkur dasturda o‘qish savodxonligi o‘quvchilarning matn bilan ishlash orqali bilimlarni egallash, ularni talqin qilish va baholash qobiliyati sifatida talqin etiladi [2]. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida esa o‘qish savodxonligi masalalari Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro asossiatsiyasi (IEA) tomonidan yo‘lga qo‘yilgan PIRLS xalqaro tadqiqoti doirasida ilmiy asosda o‘rganilib, o‘quvchilarning matnni tushunish va undan foydalanish ko‘nikmalari baholanadi [3].

O‘qish savodxonligi haqida so‘z borar ekan, ta’kidlash o‘rinliki, uning nazariy asoslari psixologik va pedagogik tadqiqotlarda chuqur o‘rganilgan. Ijtimoiy-madaniy yondashuv asoschisi bo‘lgan **Lev S. Vygotsky** o‘qishni shaxsning ijtimoiy tajribani egallash jarayoni sifatida talqin qilib, o‘qish savodxonligi pedagogik muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanishini asoslab bergan [4]. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi o‘qish savodxonligini rivojlantirishda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli muhim ekanini ko‘rsatadi. Amerikalik olima **Jeanne S. Chall** o‘qish rivojlanishining bosqichli modelini ishlab chiqib, aynan tayanch o‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchilar “o‘qishni o‘rganish”dan “o‘rganish uchun o‘qish” faoliyatiga o‘tishini ta’kidlaydi [5]. Bu davrda o‘qish savodxonligini rivojlantirish strategik yondashuvni talab etadi.

O‘qish savodxonligining kognitiv va lingvistik asoslari **Catherine E. Snow** tadqiqotlarida keng yoritilgan. Olimaning fikricha, o‘qish savodxonligi dekodlash, til tushunishi va mazmunni semantik qayta ishlash jarayonlarining integratsiyasi natijasidir [6]. Ushbu qarashlar o‘qish savodxonligini rivojlantirishda ta’lim mazmunining sifati va murakkabligini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

MDH davlatlarida o‘qish savodxonligi muammosi asosan psixologik-pedagogik yondashuvlar doirasida o‘rganilgan. Rossiya va boshqa MDH mamlakatlari olimlari (A. N. Leontiev, A. V. Fedorov, L. G. Peterson) o‘qish savodxonligini faoliyatga asoslangan va dialogik o‘qitish orqali rivojlantirish mumkinligini ilmiy asoslab berganlar [7]. Ularning tadqiqotlarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va refleksiyasi muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mamlakatning xalqaro baholash dasturlarida ishtiroki, xususan, PISA tadqiqotlari natijalari milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish zaruratini ko‘rsatdi [8]. O‘zbekiston olimlari va ilmiy muassasalari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘qish savodxonligi kompetensiyaviy yondashuv asosida talqin qilinib, o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish masalalari ilgari surilmoqda. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, MDH davlatlari va O‘zbekiston tajribasida o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, ularni taqqosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar yetarli emas. Ayniqsa, MDH mamlakatlarida shakllangan nazariy-psixologik yondashuvlar bilan O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi MDH davlatlari va O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tizimli va taqqosiy tahlil qilish hamda ushbu yo‘nalishda umumiy tendensiyalar va istiqbolli ilmiy yo‘nalishlarni aniqlashdan iborat.

MDH davlatlarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi asosan psixologik-pedagogik nazariyalar va klassik didaktik yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Ushbu mintaqada olib borilgan ilmiy izlanishlar o‘qish savodxonligini shaxsning bilish faoliyati va ijtimoiy-madaniy rivoji bilan uzviy bog‘liq holda talqin etishi bilan ajralib turadi. MDH pedagogik-psixologik ilmiy maktabining metodologik asosi **Lev S. Vygotsky** tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy nazariyaga tayanadi. Olim o‘qish jarayonini shaxsning ijtimoiy tajribani egallash shakli sifatida izohlab, o‘qish savodxonligi muloqot, hamkorlik va pedagogik yo‘naltirish jarayonida rivojlanishini asoslab bergan [1]. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi MDH mamlakatlarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha metodik yondashuvlarning ilmiy tayanchiga aylangan.

Faoliyatga asoslangan yondashuv doirasida o‘qish savodxonligi masalasi **Aleksei N. Leontiev** tadqiqotlarida keng yoritilgan. Uning fikricha, o‘qish savodxonligi o‘quvchining motivatsiyasi, maqsadga yo‘naltirilgan harakatlari va refleksiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim jarayoni ushbu komponentlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim [2]. Ushbu yondashuv MDH davlatlarida o‘qish savodxonligini faol o‘qitish metodlari orqali rivojlantirish g‘oyasini shakllantirdi.

Rossiya pedagogika fanida o‘qish savodxonligini rivojlantirish muammosi **A. V. Fedorov** tadqiqotlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida tahlil qilingan. Olim o‘qish savodxonligini shaxsning tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va baholash qobiliyatlari bilan bevosita bog‘liq kompetensiya sifatida izohlaydi [3]. Uning fikricha, o‘qish savodxonligini rivojlantirishda matn bilan ishlash faqat reproduktiv emas, balki analitik va refleksiv xarakterga ega bo‘lishi zarur.

Dialogik o‘qitish va refleksiv yondashuv masalalari **L. G. Peterson** ilmiy ishlarida alohida o‘rin tutadi. Peterson o‘qish savodxonligini rivojlantirishda o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot, bahs va fikr almashuv jarayonlari muhimligini ta’kidlab, ushbu jarayonlar matn mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qilishini ko‘rsatadi [4]. Mazkur yondashuv MDH ta’lim amaliyotida keng qo‘llanilayotgan metodik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Qozog‘iston pedagogika fanida o‘qish savodxonligi muammosi kompetensiyaviy va fanlararo integratsiya nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Qozog‘istonlik tadqiqotchilar **Z. Sarsekeeva, N. Kudaibergenova** o‘qish savodxonligini faqat til fanlari doirasida emas, balki barcha fanlar kesimida rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslaydilar [5]. Ularning tadqiqotlarida o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va o‘quv materiallarining funksional yo‘naltirilganligi muhim omil sifatida qayd etiladi.

Belarus olimlari tadqiqotlarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va metakognitiv ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Ushbu izlanishlarda o‘qish savodxonligini baholash mezonlari va diagnostik vositalar muammosi ham alohida o‘rganilgan [6].

MDH davlatlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning umumiy xususiyati shundan iboratki, o‘qish savodxonligi asosan nazariy-psixologik yondashuvlar doirasida tahlil qilinadi. Biroq ko‘plab tadqiqotlarda empirik tadqiqotlar hajmining cheklanganligi va xalqaro baholash dasturlari bilan tizimli integratsiyaning yetarli emasligi ilmiy adabiyotlarda tanqidiy qayd etiladi [7]. Shunday qilib, MDH davlatlarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar boy nazariy asosga ega bo‘lib, ularning asosiy ustunligi chuqur psixologik-pedagogik tahlilga tayanganligidir. Shu bilan birga, ushbu tajriba zamonaviy xalqaro baholash yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirilishi zarurligi mazkur maqolada keyingi qismlarida muhokama qilinadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat mamlakatning ta’lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholashga bo‘lgan intilishi, shuningdek, milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, O‘zbekistonning xalqaro baholash dasturlarida ishtiroki o‘qish savodxonligi muammosini ilmiy tadqiqotlar markaziga olib chiqdi [1]. O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘qish savodxonligi ko‘pincha **kompetensiyaviy yondashuv** doirasida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘qish savodxonligi o‘quvchining faqat bilim darajasini emas, balki uning matn bilan ishlash, axborotni tahlil qilish va baholash orqali hayotiy muammolarni hal eta olish qobiliyatini ifodalaydi. Bu yondashuv milliy o‘quv dasturlarini yangilash jarayonida metodologik asos sifatida xizmat qilmoqda [15].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi xalqaro baholash dasturlari bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Xususan, OECD tomonidan tashkil etilgan PISA tadqiqotlari doirasida e’lon qilingan milliy hisobotlar O‘zbekiston o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi holatini tizimli tahlil qilish imkonini berdi [15]. Ushbu hisobotlarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha mavjud muammolar, ustuvor yo‘nalishlar va metodik tavsiyalar aniq ko‘rsatib berilgan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida O‘zbekistonning xalqaro baholash dasturlaridagi ishtirokini ta’minlash, baholanadigan fanlar, jumladan, o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlarni muvofiqlashtiruvchi yetakchi muassasalardan biri — **A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti** hisoblanadi. Mazkur institut tomonidan tayyorlangan PISA milliy hisoboti va ilmiy-uslubiy qo‘llanmalarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etiladi [15].

Milliy tadqiqotlarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi ko‘pincha tayanch o‘rta ta’lim bosqichi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Bu bosqichda o‘quvchilar murakkab fanlararo bilimlarni egallash jarayonida bo‘lib, o‘qish savodxonligi ularning umumiy ta’limiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omilga aylanadi. Shu bois o‘zbekistonlik olimlar o‘qish savodxonligini aynan ushbu bosqichda tizimli va uzluksiz rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydilar [6]. O‘zbekiston tajribasining muhim xususiyati shundan iboratki, ilmiy tadqiqotlar natijalari bevosita amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning asosida o‘quv dasturlarini takomillashtirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va baholash mexanizmlarini yangilash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu holat O‘zbekiston ilmiy izlanishlarining islohotlarga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi [7].

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar asosan amaliy yo‘naltirilgan bo‘lib, ularni MDH davlatlarida shakllangan chuqur nazariy-psixologik yondashuvlar bilan taqqosiy tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

MDH davlatlari va O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni taqqosiy tahlil qilish mazkur yo‘nalishda umumiyliklar bilan bir qatorda sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu farqlar, avvalo, metodologik yondashuvlar, tadqiqotlarning yo‘nalganligi hamda ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilish darajasi bilan belgilanadi.

MDH davlatlarida o‘qish savodxonligi masalasi asosan **nazariy-psixologik paradigma** doirasida o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda o‘qish savodxonligi shaxsning bilish faoliyati, ijtimoiy-madaniy rivoji va faoliyat tuzilmasi bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Xususan, ijtimoiy-madaniy yondashuv doirasida o‘qish savodxonligi muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanuvchi ijtimoiy hodisa sifatida izohlanadi [1]. Faoliyatga asoslangan yondashuvda esa o‘qish savodxonligi o‘quvchining motivatsiyasi, maqsadga yo‘naltirilgan harakatlari va refleksiyasi bilan bog‘liq murakkab faoliyat sifatida talqin qilinadi [2].

O‘zbekiston tajribasida esa o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi ko‘proq **xalqaro baholash dasturlari bilan integratsiyalashgan amaliy yo‘nalish**da tadqiq etilmoqda. Mamlakatning PISA tadqiqotlarida ishtiroki o‘qish savodxonligini baholash mezonlarini qayta ko‘rib chiqish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish va kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish zaruratini yuzaga keltirdi [3]. Bu holat o‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarining ko‘proq metodik va tashkiliy jihatlarga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, umumiy jihatlar sifatida MDH davlatlari va O‘zbekiston tajribasida o‘qish savodxonligini shaxsning funksional kompetensiyasi sifatida talqin qilish, matn bilan ishlash strategiyalariga e’tibor qaratish hamda metakognitiv yondashuvlarning ahamiyatini tan olish mumkin. Har ikki yo‘nalishda ham o‘qish savodxonligini rivojlantirish faqat til fanlari doirasida emas, balki fanlararo kompetensiya sifatida ko‘rib chiqilmoqda [4].

Biroq farqli jihatlar ham mavjud. MDH mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlarda o‘qish savodxonligi muammosi chuqur nazariy asosda tahlil qilingan bo‘lsa-da, xalqaro baholash dasturlari bilan tizimli bog‘liqlik va empirik tadqiqotlarning keng qamrovi yetarli emasligi kuzatiladi [5]. O‘zbekiston tajribasida esa aksincha, xalqaro baholash natijalariga tayangan holda tezkor islohotlar amalga oshirilmoqda, biroq ayrim tadqiqotlarda nazariy-psixologik tahlilning yetarli darajada chuqur emasligi qayd etiladi [6]. Mazkur holat ilmiy adabiyotlarda muhim tadqiqot muammolari (research gap) mavjudligini ko‘rsatadi (1-jadval). Xususan, MDH davlatlarida shakllangan boy nazariy-psixologik yondashuvlar bilan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan amaliy islohotlarni integratsiyalashgan holda o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar yetarli emas. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiruvchi kompleks ilmiy modellar ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda [7].

1-jadval. Xalqaro baholash dasturlari kontekstida o‘qish savodxonligini rivojlantirish: MDH davlatlari va O‘zbekiston tajribasining qiyosiy tahlili

№	Tahlil mezonlari	MDH davlatlari tajribasi	O‘zbekiston tajribasi
1	Metodologik paradigma	Ijtimoiy-madaniy, faoliyatga asoslangan va dialogik yondashuvlar ustun	Kompetensiyaviy va funksional savodxonlikka asoslangan yondashuv
2	O‘qish savodxonligi talqini	Bilish faoliyati va ijtimoiy tajribani egallash jarayoni sifatida	Hayotiy vaziyatlarda qo‘llaniladigan funksional kompetensiya sifatida
3	Xalqaro baholash dasturlari bilan integratsiya	Cheklangan, tizimli uyg‘unlashuv yetarli emas	PISA va PIRLS natijalari asosida ta’lim mazmuni va baholash tizimi modernizatsiya qilinmoqda
4	Ta’lim mazmunini yangilash	Nazariy asoslangan metodik takliflar mavjud	O‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda
5	O‘qituvchining roli	Pedagogik yo‘naltiruvchi va muloqot tashkilotchisi	Kompetensiyaviy metodik tayyorgarlikni oshirishga yo‘naltirilgan
6	Baholash tizimi	Psixologik va refleksiv yondashuvga asoslangan	Kompetensiyaviy va mezonli baholash tizimi shakllanmoqda
7	Muammoli jihatlar	Xalqaro baholash dasturlari bilan integratsiya sust	Nazariy-psixologik asoslarni yanada chuqurlashtirish zarur
8	Istiqbolli yo‘nalishlar	Nazariya va xalqaro tajribani uyg‘unlashtirish	Nazariy yondashuvlarni amaliy islohotlar bilan integratsiyalash

MDH davlatlarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi asosan nazariy-psixologik yondashuvlar — ijtimoiy-madaniy, faoliyatga asoslangan va metakognitiv nazariyalar doirasida chuqur o‘rganilgan. Ushbu

tadqiqotlarning ustun jihati o‘qish jarayonining ichki psixologik mexanizmlarini puxta tahlil qilganligida namoyon bo‘ladi. Biroq ko‘plab ilmiy ishlarda xalqaro baholash dasturlari bilan tizimli integratsiya va keng ko‘lamli empirik tadqiqotlarning yetarli emasligi kuzatiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida esa o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar asosan xalqaro baholash dasturlari, xususan, PISA va PIRLS tadqiqotlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Milliy tadqiqotlarda o‘qish savodxonligi kompetensiyaviy yondashuv asosida talqin qilinib, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish va baholash mexanizmlarini yangilash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu holat O‘zbekiston tajribasining amaliy va islohotlarga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Taqqosiy tahlil natijalari MDH davlatlarida shakllangan boy nazariy-psixologik qarashlar bilan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan amaliy islohotlar o‘rtasida muhim ilmiy bo‘shliq (research gap) mavjudligini aniqladi. Ushbu bo‘shliqni bartaraf etish uchun o‘qish savodxonligini rivojlantirishda nazariy yondashuvlar va amaliy mexanizmlarni integratsiyalashgan holda o‘rganishga qaratilgan kompleks ilmiy tadqiqotlar zarur.

Maqola natijalari nazariy jihatdan o‘qish savodxonligini rivojlantirishga oid mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga xizmat qilsa, amaliy jihatdan esa milliy ta’lim tizimini takomillashtirish, o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda o‘qituvchilar malakasini oshirish jarayonlarida foydalanish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский *Л*. С. Мышление и речь. – М.: *Л*абиринт, 2005. – 352 с.
2. *Л*еонтьев А. Н. *Д*еятельность. Сознание. *Л*ичность. – М.: Политиздат, 1975. – 304 с.
3. Фёдоров А. В. Развитие читательской грамотности школьников // Педагогика. – 2018. – № 6. – С. 45–52.
4. Peterson L. G. Dialogic teaching as a means of developing reading literacy // Pedagogical Studies. – 2019. – Vol. 12, No. 3. – P. 67–74.
5. Snow C. E., Burns M. S., Griffin P. Preventing Reading Difficulties in Young Children. – Washington, DC: National Academy Press, 1998. – 432 p.
6. Chall J. S. Stages of Reading Development. – New York: McGraw-Hill, 1983. – 368 p.
7. Flavell J. H. Metacognition and cognitive monitoring // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34, No. 10. – P. 906–911.
8. Stanovich K. E. Matthew effects in reading // Reading Research Quarterly. – 1986. – Vol. 21, No. 4. – P. 360–407.
9. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 392 p.
10. Darling-Hammond L. The Right to Learn. – San Francisco: Jossey-Bass, 1997. – 352 p.
11. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019.
12. OECD. PISA 2022 Results. – Paris: OECD Publishing, 2023.
13. Mullis I. V. S., Martin M. O. PIRLS 2016 International Results in Reading. – Boston: IEA, 2017.
14. Mullis I. V. S., Martin M. O. PIRLS 2021 International Results in Reading. – Boston: IEA, 2023.
15. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. PISA tadqiqoti: Milliy hisobot. – Toshkent, 2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ahmedov Baxtixon Aslibekovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti mustaqil izlanuvchisi
Musaev Xasan Abdusamatovich
Alfraganus unversiteti dotsenti
E-maail: bakhytzhan.akhmedov@ayu.edu.kz

SPORT O‘YINLARI MASHG‘ULOTLARINING TAYYORGARLIK DAVRINI OPTIMAL REJALASHTIRISH USLUBIYATI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol va boshqa jamoaviy sport turlari) mashg‘ulotlarining tayyorgarlik davrini optimal rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *sport o‘yinlari, tayyorgarlik davri, periodizatsiya, yuklama, jismoniy sifatlar, texnik-taktik tayyorgarlik, funksional holat.*

Ахмедов Бахтихон Аслибекович
Соискатель Узбекского государственного университета физической культуры и спорта
Мусаев Хасан Абдусаматович
Алфраганус университети доценти

МЕТОДИКА ОПТИМАЛЬНОГО ПЛАНИРОВАНИЯ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОГО ПЕРИОДА ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА В СПОРТИВНЫХ ИГРАХ

Аннотация: *В данной статье освещаются научно-методические основы оптимального планирования подготовительного периода тренировочного процесса в спортивных играх (футбол, волейбол, баскетбол и другие командные виды спорта).*

Ключевые слова: *спортивные игры, подготовительный период, периодизация, тренировочная нагрузка, физические качества, технико-тактическая подготовка, функциональное состояние.*

Ahmedov Bakhtixon Aslibekovich
Independent Researcher
Uzbek State University of Physical Culture and Sports
Musaev Xasan Abdusamatovich
Alfraganus unversiteti dotsenti

METHODOLOGY FOR OPTIMAL PLANNING OF THE PREPARATORY PERIOD IN TEAM SPORTS TRAINING

Abstract: *This article examines the scientific and methodological foundations for the optimal planning of the preparatory period in the training process of team sports (football, volleyball, basketball, and other team-based sports).*

Keywords: *team sports, preparatory period, periodization, training load, physical qualities, technical and tactical training, functional state.*

Kirish. Sport o‘yinlarida yuqori sport natijalariga erishish ko‘p jihatdan mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri rejalashtirishga bog‘liq. Zamonaviy sport nazariyasida tayyorgarlik davri sportchining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini shakllantirish, texnik-taktik ko‘nikmalarni takomillashtirish hamda funksional imkoniyatlarni kengaytirishning asosiy bosqichi sifatida qaraladi. Tayyorgarlik davrini optimal tashkil etish masalalari sport nazariyasi va metodikasi doirasida keng o‘rganilgan bo‘lib, periodizatsiya nazariyasi asoschisi Lev Matveyev tomonidan ishlab

chiqilgan ilmiy qarashlar bu borada muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Sport mashg‘ulotlarini yillik sikl (makrotsikl), o‘rta sikl (mezotsikl) va kichik sikl (mikrotsikl)larga ajratish orqali yuklamani rejalashtirish samaradorlikni oshiradi.

Tadqiqot maqsadi sport o‘yinlari mashg‘ulotlarining tayyorgarlik davrini optimal rejalashtirish uslubiyatini ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning taklil etilishi va uslullari ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish, mashg‘ulot yuklamalarini monitoring qilish, jismoniy sifatlar ko‘rsatkichlarini testlash, matematik-statistik tahlil kabi uslullardan foydalanilgan

1. Tayyorgarlik davrining tuzilishi

Tayyorgarlik davri odatda ikki bosqichdan iborat:

Umumiy tayyorgarlik bosqichi - asosiy e’tibor umumiy chidamlilik, kuch, tezkorlik va harakatchanlikni rivojlantirishga qaratiladi.

Maxsus tayyorgarlik bosqichi - sport turiga xos texnik-taktik harakatlar va o‘yin vaziyatlarini takomillashtirish ustuvor bo‘ladi.

Yuklama dinamikasi optimal rejalashtirishda yuklama hajmi dastlab yuqori, intensivligi o‘rtacha bo‘ladi. Keyinchalik hajm kamaytirilib, intensivlik oshiriladi. Bu sportchining funksional tizimlarini moslashtirishga xizmat qiladi.

Jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik uyg‘unligi **s**port o‘yinlarida jismoniy sifatlar rivoji texnik-taktik harakatlar bilan integratsiyada olib borilishi zarur. Masalan, tezkorlik va qaror qabul qilish tezligi o‘yin vaziyatlariga moslashtirilgan mashqlar orqali rivojlantiriladi. Quyida Tayyorgarlik davrining periodizatsiya modeli keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Tayyorgarlik davrining periodizatsiya modeli (12 haftalik makrotsikl)

Bosqich	**Haftalar**	**Asosiy maqsad**	**Yuklama hajmi**	**Yuklama intensivligi**	**Mashg‘ulot yo‘nalishi**	**Nazorat shakli**
Umumiy tayyorgarlik (1-bosqich)	1-6 hafta	Umumiy chidamlilik, kuch va funksional baza yaratish	Yuqori	O‘rtacha	OFP (umumiy jismoniy tayyorgarlik), aerob mashqlar	Yurak urish tezligi (YUT), Cooper testi
O‘tish (moslashtiruvchi) mikrotsikl	7-hafta	Yuklamani qayta taqsimlash, tiklanish	O‘rtacha	O‘rtacha	Aralash mashg‘ulotlar	Funksional test
Maxsus tayyorgarlik (2-bosqich)	8-11 hafta	Sport turiga xos tezkorlik, kuch, texnik-taktik tayyorgarlik	O‘rtacha	Yuqori	Maxsus mashqlar, o‘yin modellashtirish	Sprint testi, maxsus normativlar
Nazorat-umumlashtiruvchi	12-hafta	Sport formasini baholash	Kichik	Yuqori	Nazorat o‘yinlari	Kompleks test, tahlil

Ushbu jadvaldagi tayyorgarlik davri mashg‘ulot haftalarida beriladigan yuklamalarni quyidagicha taqsimlash nazarda tutilgan (2- jadvalga qarang).

2-jadval

Tayyorgarlik davridagi yuklama dinamikasi (foiz hisobida)

Ko‘rsatkich	**1-3 hafta**	**4-6 hafta**	**8-9 hafta**	**10-11 hafta**
Hajm (%)	80-90	70-80	60-70	50-60
Intensivlik (%)	60	70	80	85-90
OFP ulushi (%)	70	60	40	30

Maxsus tayyorgarlik (%)	30	40	60	70

Tadqiqot natijasi va muhokamasi. Mashg‘ulot jarayoni to‘lqinsimon dinamikada tashkil etiladi. Dastlab hajm yuqori bo‘lib, organizmning aerob va kuch imkoniyatlari shakllantiriladi. Keyinchalik hajm kamayib, intensivlik ortadi.

1. Bosqichma-bosqich moslashuv. Organizm yuklamaga moslashishi uchun: 1-bosqichda yurak-qon tomir tizimi mustahkamlanadi. 2-bosqichda tezkor-kuch sifati va o‘yin vaziyatlariga mos reaktsiya rivojlantiriladi.

2. Yuklama va tiklanish nisbati. Optimal nisbat: 3 hafta oshuvchi yuklama 1 hafta nisbatan yengil (tiklanish mikrotsikli). Bu ortiqcha zo‘riqish (overtraining)ning oldini oladi.

3. Nazorat mexanizmi. Har bosqich yakunida: Jismoniy sifatlar testi Funksional ko‘rsatkichlar**.** Texnik-taktik samaradorlik tahlili**.** Natijalar asosida keyingi bosqich yuklamasi individuallashtiriladi.

Ushbu tayyorlov davri mashg‘ulot rejasini quydagicha maliyotda qo‘llaniladi**.** Agar sport jamoasi haftasiga 5 marta shug‘ullansa:

1-6 haftalar (Umumiy tayyorgarlik). 2 kun chidamlilik, 2 kun kuch, 1 kun texnik mashg‘ulotlar.

8-11 haftalar (Maxsus tayyorgarlik). 2 kun maxsus tezkorlik, 2 kun o‘yin modeli, 1 kun kombinatsion mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali amaliyotga singdirish mumkin.

Xulosa. Sport o‘yinlari mashg‘ulotlarining tayyorgarlik davrini optimal rejalashtirish quyidagilarni ta’minlaydi. Sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish.Texnik-taktik mahoratni takomillashtirish, Funksional imkoniyatlarni kengaytirish. Musobaqa davriga yuqori sport formasida kirish. Ilmiy asoslangan periodizatsiya, yuklama va tiklanish nisbatining to‘g‘ri belgilanishi yuqori sport natijalariga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Матвеев Лев Павлович. Периодизация спортивной тренировки. – Москва: Физкультура и спорт, 1977. – 287 с.

2. Платонов Владимир Николаевич. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и её практические приложения. – Киев: Олимпийская литература, 2004. – 808 с.

3. Озолин Николай Георгиевич. Настольная книга тренера: Наука побеждать. – Москва: Астрель, 2002. – 863 с.

4. Бомпа Тудор О. Периодизация спортивной тренировки. – Москва: Олимпийская литература, 2010. – 384 с.

5. Верхошанский Юрий Викторович. Основы специальной физической подготовки спортсменов. – Москва: Физкультура и спорт, 1988. – 331 с.

6. Зациорский Владимир Михайлович. Физические качества спортсмена: основы теории и методики воспитания. – Москва: Советский спорт, 2009. – 200 с.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ashurova Barno Nematovna
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
barnorahmatova1983@gmail.com, Orcid: 0009-0007-6976-514X

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QITUVCHILARNING KREATIV SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Anotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada akmeologik yondashuv asosida o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish mexanizmi tahlil qilinadi. O‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish uchun akmeologik yondashuvning asosiy prinsiplari va metodlari ko‘rib chiqiladi, shuningdek, zamonaviy pedagogik jarayonlarda ularni qanday qilib samarali qo‘llash mumkinligi tahlil etiladi. Maqolada o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini oshirishda psixologik, pedagogik va innovatsion yondashuvlarning o‘rni, shuningdek, o‘qituvchilarni akmeologik tayyorgarlikdan o‘tkazishning metodik va psixologik asoslari aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Akmeologiya, kreativ salohiyat, o‘qituvchilarni rivojlantirish, innovatsion pedagogika, psixologik qo‘llab-quvvatlash, pedagogik metodlar, ta’lim jarayoni, professional rivojlanish, o‘qituvchilar tayyorgarligi, shaxsiy rivojlanish, pedagogik innovatsiyalar.*

Ашурова Барно Нематовна
Независимый исследователь Самаркандского государственного педагогического института

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация: *В данной научной статье анализируется механизм развития творческого потенциала учителей на основе акмеологического подхода. Рассматриваются основные принципы и методы акмеологического подхода к развитию творческого потенциала учителей, а также анализируется их эффективное применение в современных педагогических процессах. В статье определяется роль психологических, педагогических и инновационных подходов в повышении творческого потенциала учителей, а также методологические и психологические основы акмеологической подготовки учителей.*

Ключевые слова: *акмеология, творческий потенциал, развитие учителей, инновационная педагогика, психологическая поддержка, педагогические методы, образовательный процесс, профессиональное развитие, подготовка учителей, личностное развитие, педагогические инновации.*

Ashurova Barno Nematovna
Independent Researcher, Samarkand State Pedagogical Institute

IMPROVING THE MECHANISM FOR DEVELOPING TEACHERS' CREATIVE COMPETENCES BASED ON THE ACMEOLOGICAL APPROACH

Abstract: *This scientific article analyzes the mechanism of developing the creative potential of teachers based on the acmeological approach. The main principles and methods of the acmeological approach to developing the creative potential of teachers are considered, and how they can be effectively used in modern pedagogical processes is also analyzed. The article identifies the role of psychological, pedagogical and innovative approaches in increasing the creative potential of teachers, as well as the methodological and psychological foundations of acmeological training of teachers.*

Keywords: *Acmeology, creative potential, teacher development, innovative pedagogy, psychological support, pedagogical methods, educational process, professional development, teacher training, personal development, pedagogical innovations.*

Kirish. Bugungi jahon globallashuv jarayonida ta’lim tizimida “Inson kapitali”ni rivojlantirish ustuvor vazifaga aylandi. Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt davrida pedagogik faoliyat faqatgina bilim berish emas, balki nostandart fikrlaydigan, kreativ va o‘z-o‘zini rivojlantirishga moyil shaxslarni tarbiyalashni talab etmoqda.

YUNESKOning “Ta’limning kelajagi” (Futures of Education) hisobotida ta’kidlanganidek, o‘qituvchi endi shunchaki “bilim uzatuvchi” (translyator) emas, balki “innovatsion dizayner” va “akmeologik subyekt” sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Shu sababli, o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini shunchaki oshirish emas, balki uni akmeologik (shaxsiy va kasbiy cho‘qqi) nuqtayi nazaridan tizimli rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish o‘ta dolzarbdir.

An’anaviy malaka oshirish tizimi ko‘p hollarda o‘qituvchining faqat kognitiv (bilim) sohasiga yo‘naltirilgan. Akmeologik yondashuv esa, o‘qituvchining “Akme” (cho‘qqi) ga intilish motivatsiyasini uyg‘otadi, kasbiy refleksiyani shakllantiradi, shaxsiy kreativlikni kasbiy mahorat bilan integratsiya qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida pedagog kadrlarning kreativ salohiyatini oshirish, ularning intellektual va professional darajasini doimiy o‘stirib borish strategik vazifa qilib belgilangan. Tadqiqot uchun dolzarblik shundaki, hozirgi kunga qadar o‘qituvchi kreativligini rivojlantirishning psixologik-akmeologik determinantalari hamda ularni boshqarishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari yaxlit tizim sifatida tadqiq etilmagan.

Adabiyotlar tahlili. O‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish muammosi pedagogika va psixologiya fanlarining fundamental yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u turli davrlarda jahon va mahalliy olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar asosida tadqiq etib kelingan. Ushbu muammoning o‘rganilishini uchta asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin.

Kreativlik tabiatini o‘rganishda G‘arb psixologiya maktabi vakillari J.Gilford, E.Torrens, va R.Sternbergning ishlaridan boshlash maqsadga muvofiq. J.Gilford birinchi bo‘lib “divergent fikrlash” tushunchasini fanga kiritib, kreativlikni muammoning ko‘plab yechimlarini topish qobiliyati sifatida tavsiflagan. E.Torrens esa kreativlikni nafaqat intellektual jarayon, balki shaxsning hissiy va irodaviy sifatlari bilan bog‘liq hodisa deb hisoblagan. Modernistik yondashuvda K.Robinson ta’lim tizimida kreativlikni standartlashtirishga qarshi kurashish zarurligini ilgari surgan bo‘lsa, M.Chiksentmixayi “oqim” (flow) nazariyasi orqali ijodiy jarayonda shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish cho‘qqisini tahlil qilgan.

Akmeologiya fan sifatida shakllanishida va uning pedagogik jarayonga tatbiq etilishida B.Ananyev, A.Bodalyov, A.Derkach va N.Kuzminalarning xizmatlari beqiyosdir. A.Derkach akmeologiyani professionalizmga erishish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sifatida asosladi. N.Kuzmina pedagogik faoliyatning akmeologik modelini ishlab chiqib, o‘qituvchi mahoratini beshta asosiy komponent (gnostik, proyektiv, konstruktiv, kommunikativ va tashkiliy) orqali tushuntirib berdi.

Sharq mutafakkirlari (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy) asarlarida ham komil inson va ustoziy mahoratning “cho‘qqisi” haqidagi g‘oyalar akmeologik yondashuvning tarixiy ildizlari bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotchilardan V.Maksimova ta’limni akmeologizatsiyalash orqali o‘qituvchining kasbiy “to‘xtab qolish” (stagnatsiya) holatidan chiqish mexanizmlarini ko‘rsatib bergan.

O‘zbekiston pedagogika maktabida o‘qituvchilarning kreativligini oshirish masalalari R.Safanova, B.Adizov, Sh.Sharipov, N.Muslimov va M.Usmonboyeva kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. N.Muslimov o‘z tadqiqotlarida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolarini o‘rgangan bo‘lsa-da, akmeologik yondashuvni asosan mutaxassis tayyorlashning yakuniy natijasi sifatida ko‘radi. B.Adizov ta’limni ijodiylashtirishning didaktik asoslarini yaratgan.

Natijalar va ularning muhokamasi. Akmeologiya - bu insonning eng yuqori darajadagi rivojlanishi va muvaffaqiyatga erishish jarayonini o‘rganadigan ilmiy soha. Akmeologik yondashuv insonning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan va uning maksimal salohiyatini amalga oshirishga xizmat qiladi. O‘qituvchilarni akmeologik yondashuv orqali rivojlantirish, ularning ta'lim jarayonidagi kreativlik, muammolarni hal qilish, pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash va o‘z-o‘zini takomillashtirishga qaratilgan kompetensiyalarini oshirishga imkon yaratadi.

O‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish mexanizmi bir nechta asosiy komponentlardan iborat:

a) akmeologik tayyorgarlik: o‘qituvchilarni akmeologik yondashuv asosida tayyorlashda shaxsiy va professional rivojlanishga yo‘naltirilgan treninglar, seminarlar va workshoplar tashkil etish muhimdir. Bu jarayon o‘qituvchining o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirishga xizmat qiladi;

b) innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llash: kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun o‘qituvchilar innovatsion pedagogik metodlarga murojaat qilishlari kerak. Bu metodlar o‘qituvchining yangi g‘oyalar yaratish, o‘quvchilarga yangicha yondashuvlarni taklif qilish va ta'lim jarayonida ijodiy muhit yaratishga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘quvchilarga muammolarni mustaqil ravishda hal qilish, innovatsion fikrlash va tanqidiy yondashuvni o‘rgatish imkoniyatiga ega bo‘lishlari zarur;

d) psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash: o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishda psixologik yordam va pedagogik maslahatlar muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining o‘z-o‘zini anglash, motivatsiyasi va stressni boshqarish qobiliyatlari rivojlanishi kerak. Bu, o‘z navbatida, uning kreativ salohiyatini yuqori darajaga olib chiqadi;

e) maqsadli o‘quv dasturlari: O‘qituvchilar uchun maxsus akmeologik o‘quv dasturlari yaratish zarur. Bu dasturlar o‘qituvchilarga o‘z kreativligini rivojlantirishda kerakli bilim va ko‘nikmalarni berish, ularni yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirishni o‘z ichiga oladi;

f) reflektiv yondashuv: O‘qituvchilarni o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va refleksiya qilishga rag‘batlantirish kreativ salohiyatni rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biridir. Refleksiya yordamida o‘qituvchilar o‘zlarining pedagogik yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqib, yangi metodlar va yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatini aniqlaydilar.

O‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishda quyidagi istiqbollar mavjud:

- o‘qituvchilarni tizimli ravishda akmeologik treninglar bilan ta'minlash: o‘qituvchilarni yaratish va innovatsion fikrlashga undash uchun maxsus akmeologik kurslar va treninglar tizimi tashkil etilishi zarur. Bu treninglar o‘qituvchining faolligini oshirib, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganishga yordam beradi;

- o‘qituvchilarni o‘zaro hamkorlikka undash: akmeologik yondashuvni qo‘llagan holda o‘qituvchilarni hamkorlikda ishlashga, tajriba almashishga rag‘batlantirish kerak. Bu o‘qituvchilar orasida ijodiy muhit yaratadi va ularning kreativ salohiyatini oshiradi;

- raqamli texnologiyalarni qo‘llash: o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyatlarini ko‘rsatish, shu bilan birga, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Internet, ta'lim platformalari va interaktiv dasturlar orqali o‘qituvchilar o‘z bilimlarini kengaytirishlari mumkin.

Xulosa. Akmeologik yondashuv asosida o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish mexanizmi, ta'lim tizimini yanada samarali, innovatsion va ijodiy qilib rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning o‘z salohiyatlarini to‘liq amalga oshirishlari uchun akmeologik tayyorgarlik, innovatsion pedagogik metodlar, psixologik qo‘llab-quvvatlash va reflektiv yondashuvni qo‘llash zarur. Shuningdek, o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorligi va raqamli texnologiyalarni qo‘llash bu jarayonni yanada takomillashtirishga yordam beradi. O‘rganilganlik darajasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirishning akmeologik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha yaxlit tizimli tadqiqot o‘tkazish ob’ektiv zaruriyatdir. Bu nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliy pedagogikada o‘qituvchining professional tanazzulga (burnout) uchrashining oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 74 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son Farmoni.

3. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiylashtirishning didaktik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2003. – 280 b.

4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2007. – 315 b.

5. Safarova R.G. va boshqalar. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish strategiyalari. – Toshkent: Fan, 2015. – 210 b.

6. Sharipov Sh.S. Talabalar ijodiy faoliyatini uzluksiz shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2012. – 340 b.

7. Абульханова К.А. Психология и сознание личности. – М.: МПСИ, 1999. – 224 с.

8. Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала. – М.: МПСИ, 2004. – 752 с.

9. Кузьмина Н.В. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2001. – 144 с.

10. Максимова В.Н. Акмеология: последипломное образование педагога. – СПб.: ИОВ РАО, 2004. – 230 с.

11. Csikszentmihalyi M. Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. – New York: Harper Collins, 1996. – 464 p.

12. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – 538 p.

13. Sternberg R.J. The Nature of Creativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – 460 p.

14. Torrance E.P. Guiding Creative Talent. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1962. – 278 p.

15. UNESCO (2021). Reimagining our futures together: a new social contract for education. [Electronic resource]. URL: https://unesdoc.unesco.org /ark:/48223/pf 0000379707.

16. International Journal of Akmeology. (Last access: 2025). [Electronic resource]. URL: http://akmeology.com (https://www.google.com/search?q=http://akmeology.com).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Azizov Muxammadjon A'zamovich
Qo'qon davlat universiteti

QISQA MASOFAGA ESTAFETALI YUGURISH TEXNIKASIGA O'RGATISH

Annotatsiya. *Mazkur ishda qisqa masofaga estafeta yugurish texnikasiga o'rgatish jarayoni, uning bosqichlari va o'quv mashg'ulotlarida qo'llaniladigan samarali usullar yoritilgan. Estafeta yugurishning asosiy elementlari — startga chiqish, yugurish bosqichi, estafeta tayoqchasini topshirish va qabul qilish texnikasi — tahlil qilinadi. Talabalarda harakat koordinatsiyasi, tezlik, chaqqonlik va jamoaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *estafeta yugurish, qisqa masofa, texnika, estafeta tayoqchasi, start, tezlik, o'qitish usullari, jamoaviylik.*

Азизов Мухаммаджон Азамович
Кокандский государственный университет

ОБУЧЕНИЕ ТЕХНИКЕ ЭСТАФЕТНОГО БЕГА НА КОРОТКИЕ ДИСТАНЦИИ

Аннотация. *В данной работе освещен процесс обучения технике эстафетного бега на короткие дистанции, его этапы и эффективные методы, применяемые на тренировочных занятиях. Анализируются основные элементы эстафетного забега — выход на старт, этап забега, техника передачи и приема эстафетной палочки. Намечаются пути формирования у учащихся навыков координации движений, скорости, ловкости, командных действий.*

Ключевые слова: *эстафета, короткая дистанция, техника, эстафетная палочка, старт, скорость, методы тренировок, командность.*

Azizov Mukhammadjon A'zamovich
Kokand State University

TRAINING IN SHORT-DISTANCE RELAY RUNNING TECHNIQUES


Annotation. *This paper highlights the process of learning the technique of relay running for short distances, its stages and effective methods used in training sessions. The main elements of the relay race are analyzed — going to the start, the stage of the race, the technique of passing and receiving the baton. The ways of forming students' skills in coordination of movements, speed, agility, and teamwork are outlined.*

Keywords: *relay race, short distance, technique, baton, start, speed, training methods, teamwork.*

Kirish. Yengil atletika mashg'ulotlarida estafeta yugurish mashqlari o'quvchilarning chaqqonlik, tezkorlik, muvofiqlashtirish va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, **qisqa masofaga estafeta yugurish** — sportchidan yuqori darajadagi tezlik, aniqlik va to'g'ri texnikani talab qiladigan murakkab, ammo samarali mashq turidir. Estafeta yugurishning asosiy mohiyati — jamoa a'zolari orasida **estafeta tayoqchasini** belgilangan qoidalarga muvofiq, eng qisqa vaqt ichida uzatish va masofani iloji boricha tez bosib o'tishdan iborat. Shu bois, qisqa masofali estafetaga o'rgatish jarayonida nafaqat yugurish tezligi, balki tayoqcha uzatish texnikasi, start olish, masofa bo'ylab yugurish ritmi va jamoaviy harakat uyg'unligini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Qisqa masofalarga estafetali yugurishning birinchi bosqichida yugurish pastki startdan boshlanadi. Yuguruvchi estafetaning keyingi uchini o'ng qo'li uch barmog'i bilan tutib, boshmaldoq va ko'rsatkich barmog'ini start chizig'i yaqinida yerga tirab turadi (1-rasm).




1-rasm. Pastki startda estafeta tayoqchasini ushlash

Startdan keyingi va masofa bo‘ylab yugurish 100 va 200 m dagi yugurishdan farq qilmaydi. Estafetali yugurish texnikasining murakkabligi yuqori tezlikda ketayotib, estafetani chegaralangan zonada uzata bilishdadir. Estafetani bir bosqich oxirida 10 m va ikkinchi bosqich boshlanishida 10 m masofadan iborat 20 m li zonada uzatish qabul qilingan. Yangi qoidaga binoan estafetani qabul qiluvchi yugurishni uzatish zonasi boshlanishidan 10 m oldin boshlashi mumkin. Bu yanada yuqori tezlikka erishishga yordam beradi.

4x100 m yugurishda estafeta tayoqchasini uzatishning quyidagi usullari bor. Birinchi bosqichda start oluvchi estafetani o‘ng qo‘lida ushlab, mumkin qadar yo‘lkaning ichki raxiga yaqin yuguradi. Uni kutuvchi 2-chi yuguruvchi, o‘z yo‘lkasining tashqi chizig‘iga yaqin turib, estafetani chap qo‘li bilan qabul qiladi. U to‘g‘ri yo‘lni (2 chi 100 m ni) yo‘lkaning o‘ng tomonidan yugurib, estafeta tayoqchasini chap qo‘li bilan uchinchi yuguruvchining o‘ng qo‘liga uzatadi, bunisi esa yo‘lkaning chap tomonidan yuguradi. 4-chi bosqichda yuguruvchi estafeta tayoqchasini chap qo‘li bilan qabul qilib, yo‘lkaning o‘ng tomonidan yuguradi.

Uzatishning 2-chi usuli – qabul qilingan estafetani bir qo‘ldan ikkinchi qo‘lga o‘tkazib olish – 4x100 m lik estafeta uchun noqulaydir.



2-rasm. Estafeta tayoqchasini qabul qiluvchi yuguruvchining holati

2, 3 va 4-bosqichlarda yuguruvchi sportchilar yugura boshlash zonasi (10 m) bilan uzatish (20 m) zonasidan estafetani maksimal tezlikda qabul qilish va o‘z bosqichlarini kela turib yugurib o‘tish uchun foydalanadilar. Buning uchun estafeta qabul qiladigan yuguruvchi past startga yaqin holatda turadi (2-rasm). O‘ng oyog‘ini yugurish boshlanishini ko‘rsatadigan chiziq yaqiniga qo‘yib, chap oyog‘ini oldinga qo‘yadi, o‘ng qo‘li bilan yerga tayanadi, chap qo‘lini esa orqaga-yuqoriga cho‘zadi. Yuguruvchi mana shunday holatda chap yelkasi ostidan yaqinlashib kelayotgan yuguruvchiga qarab turadi.

1-chi bosqichda yuguruvchi uzatish zonasiga maksimal tezlikda yaqinlashadi. Uning yugura boshlash zonasiga etishiga 7-8 m qolganda, 2-chi bosqichda yuguruvchi o‘z yo‘lkasining o‘ng tomonidan tez yugura boshlab, uzatish zonasi oxiriga 2-3 qadam qolganda etib kelayotgan sherigi estafetani uzatib ulguradigan darajada mumkin qadar yuqori tezlikka erishmoq intiladi. Uzatish vaqtida yuguruvchilar orasidagi masofa (1-1,5 m) estafetani olayotgan yuguruvchining orqaga

uzatilgan qo‘li uzunligi bilan estafetani uzatayotgan yuguruvchining oldinga uzatilgan qo‘li uzunligiga teng. Estafetani uzatayotgan yuguruvchi gavdasini oldinga engashtirsa, bu masofa ortishi mumkin.

Sprintcha estafeta bosqichlarida yuguruvchining tezligi maksimal bo‘lib, uzatish zonalarida tezlik kamayishiga hech yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Yaxshi sprintchi 100 m lik masofa oxirida uzatish zonasini kela turib 2 soniyada, ya‘ni 10 m/soniya tezlikda yugurib o‘tishi mumkin. Demak, start oluvchi yuguruvchi mumkin qadar yuqori tezlikka ega bo‘lishi uchun 30 m lik masofadan to‘liq foydalanishi kerak.

Eng yaxshisi – estafetani uzatayotganda har ikkala yuguruvchining tezligi bir xil bo‘lganidir. Estafetani uzatish paytigacha har ikkala yuguruvchining qo‘llari, sprintdagidek harakat qiladi. Ammo yuguruvchi, estafetani qabul qiluvchiga estafetani uzatish darajasida yaqinlashishi bilan —xo‘p‖ degan signal beradi. Shu zahoti estafetani qabul qiluvchi, yugurish sur‘atini o‘zgartirmay, chap qo‘lini (2 va 4-bosqichlar uchun) boshmaldog‘i bilan boshqa barmoqlari o‘rtasida yerga qaragan burchak hosil qilib, orqaga uzatiladi. Uzatuvchi esa shu daqiqada o‘ng qo‘lini tezda olg‘a uzatib, pastdan olg‘a va sal yuqoriga yo‘nalgan harakat bilan qabul qiluvchining kaftiga estafetani aniq joylab qo‘yadi. Bordi-yu, estafetani qabul qiluvchi —xo‘p‖ degan signal bilan emas, balki zona yo‘lkasidagi mashg‘ulot jarayonida belgilab qo‘yilgan joyda qo‘lini orqaga uzatadigan bo‘lsa, juda ham yaxshi. Buning uchun, albatta, yuguruvchilarning harakatlari bir-biriga nihoyatda mos bo‘lishi kerak.

Estafetani aniq uzatish uchun mashg‘ulotlar vaqtidayoq qabul qiluvchi yugurishni qaerdan boshlashi kerakligini aniqlab olish zarur. Buning uchun zonadan ma‘lum masofada beriroqda belgi qo‘yiladi. Uzatuvchi shu belgiga etib kelishi bilan qabul qiluvchi yugurishni boshlaydi. Belgi bilan qabul qiluvchi orasidagi masofa estafeta keltirayotgan yuguruvchi xuddi estafetani uzatish joyida qabul qiluvchiga etib oladigan qilib aniqlanadi. Uzatish paytida yuguruvchilar bir xil oyoqda baravar qadam tashlaganlari yaxshi. Buning uchun 100 m ga yuguruvchi sha qadar yaxshi mashq ko‘rgan bo‘ladiki, u uzatish zonasiga hamma vaqt bir joydan, bir xil oyoqda kirib boradigan bo‘ladi. Bunga ishonch hosil qilish uchun esa, uzatuvchining bosqichi bilan zonani 2-3 marta birga yugurib o‘tish kerak. Qadamlar mos tushmagan taqdirda, zonada start oluvchi sherigining oyog‘iga moslanishi kerak.

Ayrim estafetalarda qabul qiluvchi va uzatuvchining tezlik nisbati turli xil (masalan, 4x200 m, 4x400 m, 800+400+200+100 m) bo‘lganligi sababli, ba‘zi o‘zgartishlar kiritish kerak, 200 va 400 m ga yugurishdan chamalash va musobaqalarda oxirgi 10 m ni o‘tish tezligini aniqlab, shunga asosan tegishli reja tuzish kerak. Tabiiyki, yuguruvchi o‘z masofasini qanchalik sekin tamomlasa, uzatish zonasi boshidan nazorat belgigacha bo‘lgan masofa ham shunchalik kam bo‘ladi.

Xulosa. Qisqa masofaga estafetali yugurish sportchilarni tezlik, aniqlik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu texnikaga o‘rgatishda asosiy e’tibor quyidagi jihatlarga qaratiladi: Sportchilarni to‘g‘ri start olish, maksimal tezlikni tezda oshirishga o‘rgatish muhim. Har bir sportchi o‘z segmentini samarali yengib, jamoaning umumiy tezligini oshirishi kerak. Estafeta yugurish individual tezlikdan ko‘ra, jamoaning sinxron ishlashi va baton uzatishdagi aniqlik bilan bog‘liq. O‘rgatish jarayonida takroriy mashqlar, o‘yin uslubidagi mashqlar va texnik nazorat orqali sportchilar texnikani mukammal egallaydi. Shu bilan birga, muntazam nazorat va tuzatishlar jamoaviy natijani sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev M.J. —YENGIL ATLETIKA O‘rta va uzoq masofalarga yuguruvchilar uchun murabbiyining kasbiy-pedagogik faoliyati. O‘quv qo‘llanma. Buxoro. —Durdona‖ – 2015 yil.

2. Арзибаев К.О., Мирзаев А.М. Легкая атлетика и методика ее преподавания. Учибное пособие. – Т.: “ Университет”, 2021. 248 с

3. Арзибаев К.О. Легкая атлетика и методика ее преподавания. Учебник. –Т.: “ Университет”, 2021.

4. Normurodov A.N. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. T.,2011 y

5. Qudratov R, G‘aniboyev I.D, Soliye.I.R, Baratov.A.M. Yengil atletikachilarning maxsus mashqlari-t 2011 y.

6. Olimov M.S., “O‘rta masofaga yuguruvchi sportchi-talabalarni O‘zDJTI o‘quv yuklamasiga moslashtirilgan musobaqa oldi tayyorgarligi dasturi bo‘yicha musobaqalarga tayyorlash samaradorligi”. Metodikaviy qo‘llanma. T.: O‘zDJTI nashriyot-matbaa bo‘limi. 2010 y.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ishanova Barno Baxadirovna
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI KOLLABORATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIYA, AMALIYOT VA NATIJALAR TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida boshqaruv mexanizmlarini kollaborativ (hamkorlik) yondashuv asosida takomillashtirish masalalari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasining uchta hududida (Toshkent viloyati, Namangan va Jizzax viloyatlari) faoliyat yuritayotgan 501 nafar rahbar va pedagog xodimlar ishtirokida keng ko'lamli pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi maktab boshqaruvida ijtimoiy sheriklik, jamoaviy qaror qabul qilish va gorizontal boshqaruv mexanizmlarining samarasini empirik jihatdan asoslashdan iborat edi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, kollaborativ yondashuvni tizimli joriy etish orqali rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasi, jamoada o'zaro ishonch muhiti va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining motivatsiyasi sezilarli darajada oshgan. Maqolada, shuningdek, ijtimoiy sheriklikning "Kommunikativ didaktik", "Tashkiliy boshqaruvli" va "Loyihaviy" tiplari hamda ularni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari batafsil yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Kollaborativ boshqaruv, ijtimoiy sheriklik, ta'lim samaradorligi, maktab menejmenti, pedagogik tajriba-sinov, strategik rejalashtirish, jamoaviy yondashuv.*

Ишанова Барно Бахадировна
Независимый исследователь Национального института педагогических навыков им. А. Авлони

УЛУЧШЕНИЕ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ СОВМЕСТНОГО ПОДХОДА: АНАЛИЗ ТЕОРИИ, ПРАКТИКИ И РЕЗУЛЬТАТОВ

Аннотация: *В данной статье глубоко анализируются вопросы совершенствования механизмов управления в общеобразовательных школах на основе коллаборативного (партнерского) подхода как важного фактора повышения качества и эффективности образования. В рамках исследования была проведена масштабная педагогическая экспериментальная работа с участием 501 руководителя и педагогического работника, осуществляющих деятельность в трех регионах Республики Узбекистан (Ташкентская, Наманганская и Джизакская области). Основной целью исследования было эмпирическое обоснование эффективности социального партнерства, коллективного принятия решений и механизмов горизонтального управления в школьном менеджменте. Полученные результаты показали, что системное внедрение коллаборативного подхода привело к значительному повышению управленческой компетенции руководителей, атмосферы взаимного доверия в коллективе и мотивации участников образовательного процесса. В статье также подробно освещены «Коммуникативно-дидактический», «Организационно-управленческий» и «Проектный» типы социального партнерства, а также педагогические условия их реализации.*

Ключевые слова: *Коллаборативное управление, социальное партнерство, эффективность образования, школьный менеджмент, педагогический эксперимент, стратегическое планирование, коллективный подход.*

Ishanova Barno Bakhadirovna
Independent researcher at the National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

IMPROVING MANAGEMENT MECHANISMS IN INCREASING EDUCATIONAL EFFICIENCY ON THE BASIS OF A COLLABORATIVE APPROACH: ANALYSIS OF THEORY, PRACTICE AND RESULTS

Abstract: *This article provides an in-depth analysis of improving management mechanisms in general education schools based on a collaborative approach as a crucial factor for enhancing educational quality and efficiency. Within the framework of the study, extensive pedagogical experimental work was conducted involving 501 leaders and pedagogical staff operating in three regions of the Republic of Uzbekistan (Tashkent, Namangan, and Jizzax regions). The primary aim of the research was to empirically substantiate the effectiveness of social partnership, collective decision-making, and horizontal management mechanisms in school administration. The findings indicate that the systematic implementation of a collaborative approach led to a significant increase in the management*

competence of leaders, the atmosphere of mutual trust within the team, and the motivation of educational process participants. The article also details the "Communicative-Didactic," "Organizational-Managerial," and "Project-based" types of social partnership, along with the pedagogical conditions for their implementation.

Keywords: *Collaborative management, social partnership, educational efficiency, school management, pedagogical experiment, strategic planning, collective approach.*

Kirish

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimining rivojlanishi nafaqat o'quv dasturlari va texnologiyalarining yangilanishi, balki ta'lim muassasalarini boshqarish falsafasining tubdan o'zgarishi bilan ham bevosita bog'liqdir. XXI asr ta'lim menejmentida "yakkaboshchilik" (avtoritar) boshqaruv usulidan voz kechib, "kollaborativ" (hamkorlikka asoslangan) va "distributiv" (taqsimlangan) liderlik modellariga o'tish global tendensiyaga aylanib bormoqda. Bu jarayon bejiz emas, chunki globallashuv, axborot oqimining tezlashishi va jamiyatning demokratlashuvi maktab direktoridan nafaqat ma'muriy buyruqbozlikni, balki jamoani birlashtira olish, turli manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot o'rnatish va strategik hamkorlikni yo'lga qo'yish qobiliyatini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" va umumta'lim maktablarini rivojlantirishga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ta'lim muassasalarining mustaqilligini oshirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu islohotlarning tub mohiyati ta'lim jarayonini faqat davlat zimmasidagi vazifa deb emas, balki butun jamiyat – ota-onalar, mahalla, biznes vakillari va jamoat tashkilotlarining birgalikdagi mas'uliyati sifatida qarashni shakllantirishdan iboratdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi va nazariy asoslari

"Kollaborativ boshqaruv" tushunchasi pedagogik menejmentda nisbatan yangi bo'lib, u turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Rus pedagogi O.Y. Kojurova ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy sheriklikni tizimli hodisa sifatida o'rganib, uning samaradorligi faqatgina barcha ishtirokchilar (maktab, oila, jamiyat) o'rtasida o'zaro ishonch va umumiy maqsad mavjud bo'lganda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [1, 292-bet]. Kojurovaning fikricha, ijtimoiy sheriklik shunchaki homiylik yordami emas, balki ta'lim mazmunini boyitish, tarbiyaviy muhitni sog'lomlashtirish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik hamkorlikdir.

G'arb olimlaridan M. Ronfeldt va uning hamkasblari (2015) o'qituvchilarning o'zaro hamkorligi va o'quvchilarning akademik o'zlashtirishi o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etib, sifatli hamkorlik muhiti mavjud maktablarda o'quvchilarning natijalari sezilarli darajada yuqori bo'lishini isbotlaganlar [3, 478-bet]. Ular hamkorlikni uch yo'nalishda tasniflaydilar: o'quv strategiyalari va o'quv dasturlari bo'yicha hamkorlik; o'quvchilarga yondashuv (xulq-atvor boshqaruvi) bo'yicha hamkorlik; va baholash tizimi bo'yicha hamkorlik.

Karen L. Mapp (2013) va Joyce L. Epstein (2018) kabi tadqiqotchilar esa maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikning "Dual Capacity-Building Framework" (Ikki tomonlama salohiyatni oshirish ramkasi) modelini ilgari suradilar. Ushbu modelga ko'ra, samarali hamkorlik uchun nafaqat ota-onalarning, balki maktab xodimlarining ham hamkorlik qilish ko'nikmalari va salohiyatini oshirish zarur [4, 30-bet]. Ko'plab maktablarda ota-onalar bilan ishlash faqat majlislar va hisobotlar bilan cheklanib qolishi, aslida esa haqiqiy sheriklik munosabatlari o'rnatilmasligi tanqid qilinadi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan, maktab yopiq tashkilot emas, balki tashqi muhit bilan doimiy moddiy, axborot va energetik almashinuvda bo'lgan ochiq tizimdir [8, 114-bet]. Agar maktab boshqaruvi tashqi muhit signallariga (mehnat bozori talablari, ota-onalar ehtiyojlari, jamiyatdagi o'zgarishlar) o'z vaqtida moslashmasa va ular bilan hamkorlik qilmasa, tizim inqirozga yuz tutadi. Shu bois, boshqaruv mexanizmlarini kollaborativ yondashuv asosida takomillashtirish bu – tizimning yashovchanligini va samaradorligini ta'minlashning garovidir.

Tadqiqotning dolzarbligi va maqsadi

O'zbekiston umumta'lim maktablarida hozirgi kunda kuzatilayotgan asosiy muammolardan biri – bu boshqaruvning vertikal (buyruqbozlik) xarakterga egaligi va gorizontal (hamkorlik) aloqalarning zaifligidir. Maktab direktorlari ko'pincha barcha qarorlarni yakka o'zi qabul qilishga majbur bo'ladi yoki aksincha, vakolatlarni bo'lishishni istamaydi. Bu esa pedagogik jamoada tashabbuskorlikning so'nishiga, ota-onalarning maktab hayotidan uzoqlashishiga va pirovardida ta'lim sifatining tushishiga olib keladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – ta'lim samaradorligini oshirishda boshqaruv mexanizmlarini kollaborativ yondashuv asosida takomillashtirish modeli va texnologiyalarini ishlab chiqish, ularni amaliyotda sinab ko'rish va natijalarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Umumta'lim muassasalarini boshqarishda kollaborativ yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zarurati va nazariy asoslarini o'rganish.

2. Ijtimoiy sheriklikning samarali modellarini va tipologiyasini aniqlash.

3. Boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish.

4. Tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu maqola aynan shu maqsadlarga erishish yo‘lida olib borilgan keng ko‘lamli ilmiy izlanishning natijalarini o‘z ichiga oladi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot dizayni va ishtirokchilar

Tadqiqotning empirik bazasi O‘zbekiston Respublikasining uchta yirik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan turlicha xususiyatga ega bo‘lgan hududini qamrab oldi: Toshkent viloyati (Nurafshon,Yangiyo‘l,Chirchiq, urbanizatsiya darajasi yuqori), Namangan viloyati (Farg‘ona vodiysi, an’anaviy qadriyatlar kuchli) va Jizzax viloyati (markaziy hudud). Bunday tanlov tadqiqot natijalarining reprezentativligini ta’minlash va ishlab chiqilgan metodikaning turli sharoitlarda qanchalik samarali ekanligini tekshirish imkonini berdi [1, 3.1-§].

Tajriba-sinov ishlarida jami **501 nafar** respondent ishtirok etdi. Ular maktab direktorlari, direktor o‘rinbosarlari va pedagog xodimlardan iborat bo‘ldi. Ishtirokchilarning hududiy taqsimoti quyidagicha shakllantirildi:

- **Toshkent viloyati:** 176 nafar rahbar va pedagoglar;
- **Namangan viloyati:** 160 nafar rahbar va pedagoglar;
- **Jizzax viloyati:** 165 nafar rahbar va pedagoglar.

Ishtirokchilar tasodifiy tanlash va klasterli tanlash usullari orqali ikki guruhga ajratildi:

Tajriba guruhi (TG): 296 nafar ishtirokchi. Ushbu guruhda kollaborativ boshqaruv mexanizmlari, jumladan, yangi tashkiliy tuzilmalar ("Hamkorlik kengashi"), maxsus treninglar va strategik rejalashtirish modellari joriy etildi.

Nazorat guruhi (NG): 205 nafar ishtirokchi. Ushbu guruhda maktab boshqaruvi an’anaviy, mavjud tartib-qoidalar asosida davom ettirildi.

Guruhlarning notekis taqsimlanishi hududiy maktablardagi pedagoglar soni va tajriba maydonchalarining imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilandi, biroq statistik tahlil jarayonida bu nomutanosiblik tegishli koeffitsiyentlar yordamida hisobga olindi.

Tadqiqot bosqichlari va protsedurasi

Tajriba-sinov ishlari 2023-2025-yillar oralig‘ida uchta asosiy bosqichda amalga oshirildi:

I. Aniqlovchi-ta’kidlovchi bosqich (Diagnostika) – 2023-2024-yillar:

Ushbu bosqichda mavjud holat o‘rganildi. So‘rovnoma, intervyu va kuzatuv usullari yordamida rahbar va pedagoglarning boshqaruv kompetensiyasi, jamoaviy ishlash ko‘nikmalari va ijtimoiy sheriklikka bo‘lgan munosabati aniqlandi. Diagnostika natijalariga ko‘ra, ishtirokchilar uch toifaga ajratildi: *Yuqori*, *O‘rta* va *Past* darajadagi boshqaruv kompetensiyasiga ega xodimlar.

II. Shakllantiruvchi bosqich (Intervensiya) – 2024-2025-yillar:

Bu bosqich tadqiqotning eng muhim qismi bo‘lib, unda tajriba guruhlarida kollaborativ boshqaruv modeli amaliyotga tatbiq etildi. Intervensiya dasturi quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oldi:

1. "**Hamkorlik kengashi"ni tuzish:** Har bir tajriba maktabida direktor, o‘qituvchilar (2-3 nafar), psixolog, ota-onalar qo‘mitasi raisi, mahalla vakili, mahalliy tadbirkorlar va o‘quvchilar yetakchisidan iborat doimiy faoliyat yurituvchi kengash tashkil etildi. Kengashning vazifasi maktabning strategik maqsadlarini belgilash va resurslarni boshqarishda birgalikda qaror qabul qilish edi.

2. **Yillik kollaborativ ish rejasini joriy etish:** Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan maxsus "Yo‘l xaritasi" asosida ish olib borildi. Reja to‘rt chorakka bo‘lingan:
   - *I-chorak:* Tahlil va poydevor yaratish (muammolarni aniqlash, strategiya tuzish).
   - *II-chorak:* Joriy etish va o‘qitish (treninglar, metodbirlashmalar faolligini oshirish).
   - *III-chorak:* Amaliyot va mustahkamlash (qo‘shma loyihalar, ochiq eshiklar kuni).
   - *IV-chorak:* Baholash va takomillashtirish (KPI tahlili, rag‘batlantirish).

3. **Kollaborativ o‘qitish va treninglar:** Rahbarlar va o‘qituvchilar uchun "Jamoaviy qaror qabul qilish", "Fasilitatsiya", "Konflikt menejmenti" va "Ijtimoiy sheriklik texnologiyalari" mavzularida seminar-treninglar o‘tkazildi.

4. **Axborot almashinuvi platformalari:** Ota-onalar va jamoatchilik bilan doimiy aloqani ta’minlash uchun raqamli platformalar (Telegram kanallar, maktab sayti, elektron kundalik integratsiyasi)dan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yildi.

III. Yakunlovchi bosqich (Nazorat va tahlil) – 2024-2025-yillar:

Tajriba yakunida har ikkala guruhda (TG va NG) qayta diagnostika o‘tkazildi. Olingan natijalar qiyosiy tahlil qilinib, kollaborativ yondashuvning samaradorligi baholandi.

Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish metodlari

Tadqiqotning validligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida "triangulyatsiya" (turli metodlarni uyg'unlashtirish) usulidan foydalanildi:

- **So'rovnoma:** Yopiq (Likert shkalasi asosida), ochiq va aralash turdagi savollardan iborat so'rovnomalar rahbar va pedagoglarning fikrini o'rganish uchun qo'llanildi. So'rovnoma savollari "Collaborative School Culture Survey" (Gruenert, 1998) va boshqa xalqaro metodikalarga moslashtirilgan holda tuzildi.
- **Intervyu:** Maktab direktorlari va faol o'qituvchilar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o'tkazilib, jarayondagi to'siqlar va yutuqlar o'rganildi.
- **Hujjatlar tahlili:** Maktablarning yillik rejalari, pedagogik kengash bayonnomalari va strategik dasturlari tahlil qilindi.
- **Statistik tahlil:** Olingan miqdoriy ma'lumotlar matematik statistika usullari (Styudent t-mezoni, Xir-kvadrat) yordamida qayta ishlandi. Natijalar foizlarda va absolut sonlarda ifodalandi.

Baholash mezonlari (Criteria for Evaluation)

Tadqiqot samaradorligini aniqlash uchun quyidagi mezonlar tizimi ishlab chiqildi [1, 3.2-jadval]:

1. **Ishtirokchilarning jalb etilganligi:** Qaror qabul qilishda "stakeholder"larning faol ishtiroki.
2. **Ochiqlik va shaffoflik:** Axborotning barcha uchun ochiqligi va hisobotlilik.
3. **O'zaro ishonch va hamkorlik madaniyati:** Jamoaviy ruh va psixologik iqlim.
4. **Vakolat va mas'uliyat muvozanati:** Delegatsiya darajasi.
5. **Kommunikatsiya samaradorligi:** Aloqa kanallarining sifati.
6. **Moslashuvchanlik:** O'zgarishlarga reaksiya.
7. **Natijadorlik:** Strategik maqsadlarga erishish.

Natijalar

O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, kollaborativ yondashuvni joriy etish ta'lim muassasalarining boshqaruv samaradorligiga bevosita va ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Quyida olingan natijalar hududlar kesimida va umumlashtirilgan holda batafsil tahlil qilinadi.

Namangan viloyati bo'yicha natijalar tahlili

Namangan viloyatidagi tajriba maydonchalarida o'tkazilgan intervensiya dasturi eng yuqori ko'rsatkichlardan birini qayd etdi. Tajriba guruhi (86 nafar) va nazorat guruhi (74 nafar) o'rtasidagi farq tajriba yakunida yaqqol namoyon bo'ldi.

1-jadval. Namangan viloyati tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zgarishlar dinamikasi [1, 3.5-jadval]

Guruh	Daraja	Tajriba boshi (soni)	Tajriba boshi (%)	Tajriba yakuni (soni)	Tajriba yakuni (%)	O'zgarish (Dinamika)
Tajriba	Yuqori	20	20%	35	34%	+14%
(86 nafar)	O'rta	40	39%	26	35%	-4%
	Past	26	31%	25	30%	-1%
Nazorat	Yuqori	10	10%	10	11%	+1%
(74 nafar)	O'rta	21	27%	21	33%	+6%
	Past	43	39%	43	56%	+17%

Tahlil shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyatidagi tajriba guruhida **yuqori darajali** kompetensiyaga ega xodimlar ulushi 14 foizga oshgan. Bu o'sish asosan o'rta darajadagi xodimlarning malakasi oshishi hisobiga yuz berganligini taxmin qilish mumkin. Eng diqqatga sazovor jihati shundaki, **nazorat guruhida** past darajadagi ko'rsatkich 39 foizdan 56 foizga ko'tarilib ketgan. Bu shundan dalolat beradiki, an'anaviy boshqaruv usullari saqlanib qolgan maktablarda pedagoglarning motivatsiyasi pasayishi va kasbiy turg'unlik (stagnatsiya) yuzaga kelishi xavfi mavjud.

Jizzax viloyati bo'yicha natijalar tahlili

Jizzax viloyati maktablarida ham kollaborativ yondashuvning ijobiy ta'siri kuzatildi, ayniqsa past darajadagi xodimlar sonini kamaytirish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi.

2-jadval. Jizzax viloyati tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zgarishlar dinamikasi [1, 3.6-jadval]

Guruh	Daraja	Tajriba boshi (soni)	Tajriba boshi (%)	Tajriba yakuni (soni)	Tajriba yakuni (%)	O‘zgarish (Dinamika)
Tajriba	Yuqori	20	20%	30	31%	+11%
(94 nafar)	O‘rta	20	20%	36	37%	+17%
	Past	54	54%	32	33%	-21%
Nazorat	Yuqori	4	4%	8	9%	+5%
(71 nafar)	O‘rta	15	17%	20	33%	+16%
	Past	52	58%	43	58%	0%

Jizzax viloyati tajriba guruhida **past daraja** 54% dan 33% ga tushdi, ya’ni 21% ga kamaydi. Bu juda katta ko‘rsatkich bo‘lib, "Hamkorlik kengashlari" va mentorlik tizimining samarasini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa past daraja 58% ligicha o‘zgarishsiz qoldi. Bu hududda kollaborativ yondashuv, xususan, yosh o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash va tajriba almashish muhitini yaratish orqali zaif pedagoglarni o‘rta darajaga ko‘tarishga muvaffaq bo‘linganini anglatadi.

Toshkent viloyati bo‘yicha natijalar tahlili

Toshkent viloyati maktablarida boshlang‘ich vaziyat boshqa hududlarga qaraganda nisbatan yaxshiroq edi, ammo tajriba natijalari bu yerda ham rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatdi.

3-jadval. Toshkent viloyati tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘zgarishlar dinamikasi [1, 3.7-jadval]

Guruh	Daraja	Tajriba boshi (soni)	Tajriba boshi (%)	Tajriba yakuni (soni)	Tajriba yakuni (%)	O‘zgarish (Dinamika)
Tajriba	Yuqori	46	22%	42	32%	+10%
(116 nafar)	O‘rta	31	25%	35	36%	+11%
	Past	39	53%	39	31%	-22%
Nazorat	Yuqori	9	11%	9	20%	+9%
(60 nafar)	O‘rta	20	21%	20	32%	+11%
	Past	31	39%	31	48%	+9%

Toshkent shahridagi tajriba guruhida **past daraja** 53% dan 31% ga tushdi (-22%). Biroq, nazorat guruhida past daraja 39% dan 48% ga oshganligi xavotirlidir. Bu shuni anglatadiki, hatto poytaxtda ham, agar maktab boshqaruvi tizimli rivojlantirilmasa va innovatsiyalar kiritilmasa, pedagogik jamoaning salohiyati pasayib borishi mumkin.

Umumlashtirilgan natijalar

Barcha hududlar bo‘yicha umumiy ma’lumotlar jamlanganda, tadqiqotning gipotezasi to‘liq tasdiqlandi.

4-jadval. Umumlashtirilgan tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlari [1, 3.8-jadval]

Guruh	Daraja	Tajriba boshi (%)	Tajriba yakuni (%)	O‘zgarish farqi
Tajriba guruhi	Yuqori	21%	32%	**+11%**
(296 nafar)	O‘rta	28%	36%	**+8%**
	Past	51%	31%	**-20%**

Nazorat guruhi	Yuqori	7%	13%	+6%
(205 nafar)	O‘rta	26%	33%	+7%
	Past	67%	54%	-13%

Umumiy hisobda, tajriba guruhida yuqori kompetensiyaga ega xodimlar ulushi 1.5 baravarga oshdi, past darajadagi xodimlar esa deyarli yarmiga kamaydi. Nazorat guruhida ham o‘zgarishlar bor (bu tabiiy jarayon, tajriba orttirish va boshqa omillar ta’siri), lekin ular tajriba guruhidagi kabi dinamik va tizimli xarakterga ega emas.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kollaborativ yondashuv maktab boshqaruvining "qon tomiri"ga aylanib, butun organizmning – ta’lim muassasasining faoliyatini jonlantiradi. Tadqiqot davomida aniqlangan bir necha muhim jihatlar va tendensiyalar alohida muhokamaga loyiqdir.

Ijtimoiy sheriklikning transformatsion kuchi

Tadqiqot natijalari O.Y. Kojurova va boshqa olimlarning ijtimoiy sheriklik haqidagi nazariyalarini amaliyotda tasdiqladi. Biz joriy etgan "Hamkorlik kengashlari" shunchaki rasmiyatchilik uchun tuzilgan tuzilma emas, balki real muammolar hal qilinadigan maydonga aylandi. Masalan, "Kommunikativ didaktik" hamkorlik tipi doirasida ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasida "Davra suhbatlari", "Interaktiv ota-onalar yig‘ilishlari" o‘tkazilishi natijasida o‘quvchilarning darsga qatnashishi va o‘zlashtirishi yaxshilandi. Bu shuni anglatadiki, oila va maktab o‘rtasidagi axborot to‘sig‘i olib tashlanganda, ta’lim samaradorligi avtomatik ravishda oshadi.

Boshqaruv madaniyatining o‘zgarishi

Tajriba guruhidagi maktab direktorlarining ko‘pchiligi tajriba boshida vakolatlarni bo‘lishishdan qo‘rqishgan (hokimiyatni yo‘qotish xavfi). Biroq, "Tashkiliy boshqaruvli" hamkorlik tipi (Kengashlar, jamg‘armalar) ishga tushgach, ular mas’uliyatni bo‘lishish aslida rahbarning ishini yengillashtirishini va qarorlar sifatini oshirishini tushunib yetdilar. Bu jarayon "Distributed Leadership" (Taqsimlangan liderlik) nazariyasiga mos keladi. Rahbar endi "nazoratchi" emas, balki "fasilitator" (jarayonni yengillashtiruvchi) va "strateg" rolini bajaradi.

Pedagogik jamoaning professionallashuvi

Natijalarda ko‘ringanidek, tajriba guruhida o‘rta va yuqori darajadagi xodimlar ulushi oshdi. Bu "kollaborativ o‘rganish" effekti bilan izohlanadi. Maktab ichida tashkil etilgan "Metodbirlashmalar", "Ochiq darslar" va "Mentorlik" dasturlari o‘qituvchilarning bir-biridan o‘rganishiga sharoit yaratdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar tashqi kurslardan ko‘ra, o‘z hamkasblari bilan tajriba almashish orqali ko‘proq kasbiy o‘sishga erishadilar . Bizning tadqiqotimizda ham aynan ichki resurslarni safarbar etish muhim omil bo‘ldi.

Tizimli yondashuvning ahamiyati

Intervensiya dasturidagi "Yillik reja"ning (I-IV chorak) bosqichma-bosqich amalga oshirilishi muvaffaqiyat garovi bo‘ldi. Ko‘p hollarda islohotlar "kampaniyabozlik" shaklida o‘tadi va tezda so‘nadi. Bizning modelimizda esa har bir bosqich mantiqiy ketma-ketlikka ega edi: avval tahlil, keyin o‘qitish, so‘ng amaliyot va yakunda baholash. Tizimli yondashuv maktabni murakkab ijtimoiy organizm sifatida ko‘rishni va uning har bir elementiga (madaniyat, tuzilma, odamlar, texnologiya) ta’sir o‘tkazishni talab qiladi.

Qiyinchiliklar va to‘siqlar

Shuni tan olish kerakki, tajriba davomida qiyinchiliklar ham bo‘ldi. Xususan, ba’zi ota-onalar maktab hayotida faol qatnashishni istashmadi ("bu o‘qituvchining ishi" degan qarash). Ba’zi o‘qituvchilar esa jamoaviy ishlashni "qo‘shimcha yuk" sifatida qabul qilishdi. Bu muammolarni hal qilish uchun doimiy tushuntirish ishlari, motivatsiya tizimi va "kichik g‘alabalar"ni nishonlash strategiyasi qo‘llanildi.

Qiyosiy tahlil

Bizning natijalarimiz xalqaro tadqiqotlar, xususan, "Education Endowment Foundation" (EEF) hisobotlari bilan hamohangdir. EEF ma’lumotlariga ko‘ra, kollaborativ o‘rganish yondashuvlari o‘quvchilarning o‘zlashtirishini o‘rtacha 5 oyga tezlashtirishi mumkin. Bizning tadqiqotimizda o‘quvchilarning natijalari bevosita o‘lchanmagan bo‘lsa-da, o‘qituvchilar kompetensiyasining oshishi bilvosita o‘quvchilar natijasiga ta’sir qilishi shubhasizdir.

Xulosa

Ushbu tadqiqot ishi O‘zbekiston umumta’lim maktablari boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishda kollaborativ yondashuvning naqadar dolzarb va samarali ekanligini ilmiy va amaliy jihatdan isbotladi.

Asosiy xulosalar:

1. **Samaradorlik:** Kollaborativ boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy kompetensiyasini oshiradi (tajriba guruhida yuqori daraja 21% dan 32% ga o‘sdi).
2. **Muhit:** Maktabda sog‘lom psixologik muhit, ochiqlik va o‘zaro ishonch madaniyati shakllanadi.

3. **Sheriklik:** Ijtimoiy sheriklikning tizimli yo‘lga qo‘yilishi (ota-onalar, mahalla, biznes) maktabning moddiy va ma’naviy resurslarini boyitadi.

4. **Barqarorlik:** Tizimli rejalashtirish va jamoaviy qaror qabul qilish maktab faoliyatining barqarorligini va tashqi ta’sirlarga chidamliligini ta’minlaydi.

Tavsiyalar:

- O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan maktab direktorlarini tayyorlash va malakasini oshirish kurslariga "Kollaborativ menejment" modulini kiritish.
- Har bir maktabda "Hamkorlik kengashlari"ning (yoki Kuzatuv kengashlarining yangilangan shakli) real vakolatlarga ega bo‘lgan faoliyatini ta’minlash mexanizmlarini normativ hujjatlarda mustahkamlash.
- "Yilning eng yaxshi hamkor maktabi" kabi tanlovlarni joriy etish orqali ijtimoiy sheriklikni rag‘batlantirish.
- Pedagogik oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchilarga jamoada ishlash (teamwork) va ota-onalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini chuqurroq o‘rgatish.

Kollaborativ yondashuv – bu kelajak maktabining asosi. U ta’limni barchaning umumiy ishi va mas’uliyatiga aylantiradi, bu esa jamiyat rivojining eng muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kojurova, O. Yu. "Social Partnership as a Factor in Increasing the International Competitiveness of Pedagogical Universities." Review of European Studies, vol. 7, no. 3, 2015, pp. 292-298.
2. Ronfeldt, Matthew, et al. "Teacher Collaboration in Instructional Teams and Student Achievement." American Educational Research Journal, vol. 52, no. 3, 2015, pp. 475-514.
3. Mapp, Karen L., and Kuttner, Paul J. "Partners in Education: A Dual Capacity-Building Framework for Family-School Partnerships." SEDL, 2013.
4. Epstein, Joyce L., et al. School, Family, and Community Partnerships: Your Handbook for Action. 4th ed., Corwin Press, 2018.
5. Shaidullina, Albina R., et al. "The Features of Social Partnership as a Mechanism for the Integration of Education and Production." Review of European Studies, vol. 7, no. 3, 2015.
6. Vangrieken, Katrien, et al. "Teacher Collaboration: A Systematic Review." Educational Research Review, vol. 15, 2015, pp. 17-40.
7. Kemmis, Stephen, and Mutton, Roe. "Education for Sustainability (EfS): Practice Architectures and the 'Theory of Practice Architectures'." Environmental Education Research, vol. 18, no. 2, 2012.
8. Education Endowment Foundation. "Collaborative Learning Approaches." Teaching & Learning Toolkit, London, 2021.
9. Shulgan, O. "Social Partnership in Educational Institutions: Ways of Development." Theoretical and Methodical Problems of Children and Youth Education, vol. 25, no. 2, 2021.
10. Hargreaves, David H. "A Self-Improving School System: Towards Maturity." National College for School Leadership, UK, 2012.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son Farmoni. Toshkent, 2019.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mirzaliyeva Dilafruz Muxammadjonovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali o'qituvchisi

OILAVIY KITOBXONLIK MADANIYATI ORQALI YOSHLARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH YO'LLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oilaviy kitobxonlik madaniyatining yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Unda oilada mutolaa muhitini shakllantirish, ota-onaning shaxsiy namunasi, bolalarda tanqidiy va mustaqil tafakkurni rivojlantirishda badiiy va ilmiy adabiyotlarning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida kitobxonlikni rivojlantirish yo'llari va amaliy tavsiyalar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *oilaviy kitobxonlik, mustaqil fikrlash, mutolaa madaniyati, tarbiya, tanqidiy tafakkur, ma'naviy rivojlanish.*

Мирзалиева Дилафрус Мухаммаджоновна
Преподаватель, Наманганский филиал Ташкентского международного химического университета

СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ МОЛОДЕЖИ САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ МЫШЛЕНИЮ ЧЕРЕЗ СЕМЕЙНУЮ БИБЛИОТЕЧНУЮ КУЛЬТУРУ

Аннотация: *В статье рассматривается роль и значение семейной культуры чтения в формировании у молодежи навыков самостоятельного мышления. Анализируются возможности художественной и научной литературы в развитии критического и самостоятельного мышления, а также влияние личного примера родителей на формирование читательской среды в семье. Особое внимание уделяется путям развития чтения в условиях современных информационных технологий и приводятся практические рекомендации.*

Ключевые слова: *семейное чтение, самостоятельное мышление, культура чтения, воспитание, критическое мышление, духовное развитие.*

Mirzaliyeva Dilafruz Mukhammadjonovna
Teacher, Namangan branch of Tashkent International University of Chemistry

WAYS TO TEACH YOUNG PEOPLE TO THINK INDEPENDENTLY THINK THROUGH FAMILY LIBRARY CULTURE

Abstract: *This article examines the role and importance of family reading culture in developing independent thinking among young people. It analyzes the educational potential of fiction and scientific literature in fostering critical and independent thinking, as well as the influence of parents' personal example on creating a reading-friendly environment in the family. The paper also discusses ways to promote reading in the context of modern information technologies and offers practical recommendations.*

Keywords: *family reading, independent thinking, reading culture, education, critical thinking, spiritual development.*

Kirish

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida yosh avlodni mustaqil fikrlovchi, ongli va ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda shaxsdan nafaqat bilimli bo'lish, balki axborotni tahlil qila olish, tanqidiy va mustaqil fikrlash, o'z pozitsiyasini asoslab bera olish kabi kompetensiyalar talab etilmoqda. Bu jihatlar, avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonida, xususan, oilaviy muhitda shakllanadi. Oila shaxs kamolotining boshlang'ich va eng muhim ijtimoiy muhitidir. Aynan oilada bolaning dunyoqarashi, qadriyatlari, hayotga munosabati va tafakkur tarzi tarkib topadi. Shu nuqtayi nazardan, oilaviy kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kitob mutolaasi orqali shaxsning tasavvuri kengayadi, tahliliy fikrlash rivojlanadi, voqea-hodisalarga ongli yondashish ko'nikmalari shakllanadi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining keskin rivojlanishi yoshlarning ongiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi, yuzaki axborotlar bilan cheklanib qolish holatlari kuzatilmoqda. Shu sababli oilada

mutolaa madaniyatini rivojlantirish va kitobxonlik orqali mustaqil fikrlashni shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ota-onaning shaxsiy namunasi, oilada kitob o‘qish muhitining yaratilishi, farzandlar bilan birgalikda asarlarni muhokama qilish, o‘qilgan matn yuzasidan xulosalar chiqarish yosh avlodda mustaqil tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Shu bois oilaviy kitobxonlikni rivojlantirish nafaqat ma’naviy tarbiya, balki intellektual rivojlanishning ham muhim vositasi sifatida qaralishi lozim. Mazkur maqolada oilaviy kitobxonlik madaniyati orqali yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning pedagogik imkoniyatlari, muammolari va ularni hal etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Oilaviy kitobxonlik madaniyati va uning yoshlar tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni masalasi pedagogika, psixologiya hamda sotsiologiya fanlari doirasida keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolada mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodiy tafakkur ko‘nikmalari avvalo oilaviy muhitda shakllanadi hamda bu jarayonda kitob o‘qish an’analari muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Xorijiy tadqiqotchilar orasida oilada o‘qish madaniyatining shakllanishi bo‘yicha R. Anderson, J. Guthrie, S. Krashen, L. Vygotsky, J. Bruner kabi olimlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida o‘qish faoliyati nafaqat savodxonlikni, balki tafakkur operatsiyalarini rivojlantiruvchi vosita sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida bolaning intellektual o‘sishi ijtimoiy muhit, xususan, oiladagi muloqot va birgalikdagi o‘qish jarayoni bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan. Bruner esa o‘rganishda dialogik o‘qish va muhokama usuli mustaqil fikr shakllanishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi. O‘qish motivatsiyasi va o‘qish muhiti bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda (Guthrie, Wigfield va boshqalar) oilada kitobga ijobiy munosabat mavjud bo‘lgan holatlarda bolalarda chuqur anglash asosida o‘qish va tahliliy fikrlash tezroq rivojlanishi aniqlangan. Krashenning erkin mutolaa nazariyasiga ko‘ra, majburiy o‘qishga nisbatan ixtiyoriy o‘qish tafakkur mustaqilligi va nutq boyligini samaraliroq rivojlantiradi. Bu esa oilaviy kitobxonlik muhitining tabiiy va bosimsiz tashkil etilishi zarurligini ko‘rsatadi. Mahalliy olimlar tomonidan ham kitobxonlik madaniyati va shaxs kamoloti o‘rtasidagi bog‘liqlik keng tadqiq qilingan. Pedagog olimlarning ishlarida kitobxonlik shaxsning ma’naviy-axloqiy, intellektual va dunyoqarash rivojida asosiy vosita ekanligi ta’kidlanadi. O‘zbek pedagogik tafakkuri namoyandalari asarlarida ham mutolaa, tafakkur va mustaqil xulosa chiqarish o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida izohlanadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda esa oilaviy kitobxonlikni rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshiruvchi ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida ko‘rilmoqda. So‘nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv asosidagi ilmiy ishlarda mustaqil fikrlash kompetensiyasi tayanch kompetensiyalardan biri sifatida qayd etilib, uni shakllantirishda o‘qish, matn bilan ishlash, tahlil qilish, solishtirish va baholash ko‘nikmalarining o‘rni alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqotlarda oiladagi suhbatli o‘qish, birgalikda muhokama qilish, savol-javob asosidagi mutolaa usullari yoshlarning refleksiv va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishi ilmiy jihatdan asoslangan. Raqamli muhit sharoitida kitobxonlik masalasini o‘rgangan zamonaviy tadqiqotchilar esa an’anaviy o‘qish bilan bir qatorda raqamli o‘qish madaniyatini ham oilada to‘g‘ri yo‘naltirish zarurligini ta’kidlashadi. Ularning fikricha, ota-ona rahbarligida tashkil etilgan gibrid (bosma + raqamli) o‘qish muhiti mustaqil axborot tanlash va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy kitobxonlik madaniyatini mustaqil fikrlashni rivojlantirish bilan bog‘lab o‘rgangan ishlar mavjud bo‘lsa-da, aynan pedagogik mexanizmlar, metodik yondashuvlar va amaliy texnologiyalarni tizimli model asosida ochib beruvchi tadqiqotlar yetarli darajada emas. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda oilaviy kitobxonlik madaniyatining yoshlar mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ta’sirini aniqlash hamda samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayoni nazariy va empirik usullar uyg‘unligida tashkil etildi. Tadqiqotning nazariy bosqichida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar, ilmiy maqolalar, dissertatsiya ishlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Kontent-tahlil va qiyosiy-tahlil usullari orqali oilaviy kitobxonlik, o‘qish motivatsiyasi, mustaqil va tanqidiy fikrlash kompetensiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. Nazariy tahlil natijasida oilaviy kitobxonlikni tashkil etishning pedagogik omillari va mexanizmlari aniqlashtirildi. Empirik tadqiqot qismi tavsifiy va tajriba-sinov yo‘nalishida olib borildi. Tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilar hamda ularning ota-onalari ishtirok etdi. Tanlanma maqsadli tanlash (maqsadli sampling) asosida shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

— pedagogik kuzatish – oilada va sinfdan tashqari o‘qish jarayonidagi faoliyatni o‘rganish;

— so‘rovnoma – o‘quvchilar va ota-onalarning kitobxonlik odatlari, o‘qish muhiti va munosabatini aniqlash;

— yarim tuzilgan intervyu – oilaviy o‘qish tajribasi va muhokama madaniyatini chuqurroq ochib berish;

— diagnostik topshiriqlar – matnni tahlil qilish, xulosa chiqarish va mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini baholash;

— pedagogik tajriba-sinov – ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish va natijalarni solishtirish.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichi. Aniqlovchi bosqichda ishtirokchilarning oilaviy kitobxonlik darajasi hamda mustaqil fikrlash koʻrsatkichlari dastlabki diagnostika asosida baholandi. Shakllantiruvchi bosqichda oilaviy birgalikda oʻqish, savol-javobli muhokama, refleksiv suhbat, oʻqilgan matn asosida fikr yozish, muammoli vaziyatli topshiriqlar kabi metodlar asosida maxsus dastur joriy etildi. Nazorat bosqichida yakuniy natijalar qayta oʻlchanib, dastlabki koʻrsatkichlar bilan qiyoslandi. Olingan maʼlumotlar miqdoriy va sifat tahlili asosida qayta ishladi. Natijalarni qayta ishlashda foizli taqqoslash, oʻrtacha koʻrsatkichlarni aniqlash hamda dinamik oʻzgarishlarni solishtirish usullari qoʻllanildi. Sifat tahlilida esa ishtirokchilarning javoblari, yozma fikrlari va muhokama natijalari mazmuniy jihatdan guruhlandi. Tadqiqotning ishonchliligini taʼminlash maqsadida turli metodlar oʻzaro uygʻunlikda qoʻllanildi hamda natijalar koʻp manbali maʼlumotlar asosida tekshirildi. Metodlar tanlovi tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos ravishda belgilandi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot jarayonida oʻtkazilgan aniqlovchi bosqich diagnostikasi natijalari shuni koʻrsatdiki, ishtirokchi oʻquvchilarning sezilarli qismida kitob oʻqish muntazam odat darajasiga yetmagan, oilada birgalikda mutolaa qilish va oʻqilgan matnni muhokama etish amaliyoti esa epizodik xarakterga ega. Soʻrovnoma natijalariga koʻra, koʻpchilik ota-onalar kitob oʻqishni foydali deb baholagan boʻlsada, uni maqsadli pedagogik faoliyat sifatida tashkil etish koʻnikmasi yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi. Dastlabki baholash topshiriqlarida oʻquvchilarning matndan mustaqil xulosa chiqarish, dalillash va muqobil fikr bildirish koʻrsatkichlari oʻrtacha darajada ekani kuzatildi. Shakllantiruvchi bosqichda joriy etilgan metodik dastur — oilaviy birgalikda oʻqish, savol-javobli muhokama, refleksiv suhbat, muammoli savollar asosida tahlil, oʻqilgan mazmunni qayta talqin qilish va fikr yozish mashqlari — oʻquvchilarning oʻqish jarayonidagi faolligini sezilarli oshirdi. Kuzatish natijalari oilada dialogik oʻqish muhiti yaratilgan guruhlarda bolalar koʻproq savol berishi, matnga shaxsiy munosabat bildirishga harakat qilishi va turli nuqtai nazarlarni solishtira boshlaganini koʻrsatdi. Ayniqsa, ota-ona tomonidan yoʻnaltiruvchi, ammo tayyor javob bermaydigan suhbat uslubi mustaqil fikr yuritishni ragʻbatlantiruvchi omil boʻldi. Nazorat bosqichidagi qayta diagnostika natijalari tajriba guruhida mustaqil fikrlash koʻrsatkichlari barqaror oʻsishga ega boʻlganini koʻrsatdi. Matnni tahlil qilish chuqurligi, sabab-oqibat bogʻlanishlarini aniqlash, dalil keltirish va xulosa chiqarish koʻnikmalarida ijobiy dinamik oʻzgarish qayd etildi. Tajriba jarayonida muntazam oilaviy oʻqish va muhokama amaliyoti yoʻlga qoʻyilgan ishtirokchilarda natijalar yuqoriroq boʻldi, bu esa oilaviy kitobxonlik muhitining bevosita rivojlantiruvchi taʼsirini tasdiqlaydi. Olingan natijalar ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan uygʻunlik kasb etadi. Xususan, dialogik oʻqish va ijtimoiy muloqot orqali tafakkurni rivojlantirish haqidagi nazariy qarashlar amaliy natijalar bilan tasdiqlandi. Erkin va qiziqish asosida tashkil etilgan oʻqish jarayoni majburiy oʻqishga nisbatan chuqurroq anglash va faol fikrlashni yuzaga keltirishi kuzatildi. Shu bilan birga, faqat kitob oʻqishning oʻzi yetarli emasligi, balki oʻqilgan mazmunni muhokama qilish, savol qoʻyish va bahs elementlarini kiritish muhim pedagogik shart ekanligi aniqlandi. Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat namoyon boʻldi: oilaviy kitobxonlik samaradorligi ota-onaning pedagogik madaniyati va kommunikativ yondashuviga bevosita bogʻliq. Ota-onalar uchun qisqa metodik tavsiyalar va yoʻriqnomalar berilgan holatlarda natijalar yanada yaxshilandi. Bu esa oilaga yoʻnaltirilgan pedagogik qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini koʻrsatadi. Natijalar shuni koʻrsatadiki, oilaviy kitobxonlik madaniyatini tizimli tashkil etish yoshlarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va asosli xulosa chiqarish koʻnikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita boʻlib xizmat qiladi. Ayniqsa, suhbatli oʻqish, muammoli savollar va refleksiv topshiriqlar bilan boyitilgan model yuqori natija beradi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari oilaviy kitobxonlik madaniyati yoshlarning mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va asosli xulosa chiqarish koʻnikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanini tasdiqladi. Nazariy manbalar tahlili hamda tajriba-sinov ishlari asosida aniqlanishicha, kitob oʻqishning oʻzi emas, balki uni oilaviy muloqot, savol-javob, muhokama va refleksiv tahlil bilan boyitilgan shaklda tashkil etish yuqori samaradorlik beradi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik yondashuv — birgalikda oʻqish, dialogik muhokama, muammoli savollar asosida fikr yuritish, oʻqilgan mazmunni qayta talqin qilish va yozma refleksiya — oʻquvchilarning fikriy faolligini oshirdi hamda mustaqil qaror va xulosa chiqarish kompetensiyasini kuchaytirdi. Tajriba natijalari oilada muntazam va maqsadli tashkil etilgan kitobxonlik muhiti mavjud boʻlgan holatlarda ijobiy oʻzgarishlar barqarorroq boʻlishini koʻrsatdi. Shuningdek, oilaviy kitobxonlik samaradorligi ota-onalarning pedagogik va kommunikativ tayyorgarligiga bogʻliq ekani aniqlandi. Shu sababli ota-onalar uchun metodik tavsiyalar, oʻqish boʻyicha yoʻriqnomalar va suhbat texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Bu yondashuv taʼlim muassasasi va oila hamkorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, oilaviy kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish yoshlarning mustaqil fikrlashini shakllantirishning samarali, ijtimoiy-pedagogik jihatdan asoslangan va amaliy qoʻllash mumkin boʻlgan yoʻnalishidir.

Kelgusida mazkur yo‘nalishda raqamli o‘qish resurslari bilan integratsiyalashgan oilaviy mutolaa modellari hamda ota-onalar uchun maxsus trening dasturlarini ishlab chiqish istiqbolli tadqiqot yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari to‘plami. – Toshkent, 2019–2024.

2.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

3.To‘xtaxodjayeva M. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

4.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2019.

5.Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, 2016.

6.Qurbonov Sh. Umumiy pedagogika. – Toshkent, 2020.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Davletova Hamida Xasan qizi
Abdulla Avloniy nomidagi
pedagogik mahorat milliy instituti
Metodik xizmat ko‘rsatish
bo‘limi metodisti

TABIIY-ILMIY SAVODXONLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA GRASPS MODELI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida autentik baholash vositasi sifatida GRASPS modeli tahlil qilinadi. Tadqiqotda modelning nazariy asoslari, tarkibiy komponentlari hamda kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim doirasidagi didaktik imkoniyatlari yoritilgan. GRASPS modelining Understanding by Design konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqligi aniqlanib, uning o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish, bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash hamda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Maqolada autentik va an’anaviy baholash yondashuvlari qiyosiy tahlil qilingan. Modelning amaliy tatbiqi 6-sinf tabiiy fanlar kursida “Kasallik tarqalishining oldini olish” mavzusi misolida ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, GRASPS modeli baholash jarayonini nazoratga yo‘naltirilgan faoliyatdan rivojlantiruvchi pedagogik mexanizmga aylantirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *autentik baholash, GRASPS modeli, tabiiy-ilmiy savodxonlik, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim, Understanding by Design, baholash mezonlari, metakognitiv ko‘nikmalar.*

Давлетова Хамида Хасановна
Национальный институт педагогического
мастерства имени Абдуллы Авлони
Методист отдела методического обслуживания

РАЗВИТИЕ ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНОЙ ГРАМОТНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ GRASPS

Аннотация. *В статье рассматривается модель GRASPS как инструмент аутентичного оценивания в системе общего среднего образования. Анализируются её теоретические основы, структурные компоненты и дидактические возможности в контексте компетентностно-ориентированного подхода. Раскрывается взаимосвязь модели GRASPS с концепцией Understanding by Design и обосновывается её роль в формировании у обучающихся способности применять естественнонаучные знания в реальных жизненных ситуациях. Представлен сравнительный анализ аутентичного и традиционного оценивания. Практическая реализация модели показана на примере изучения темы «Предотвращение распространения заболеваний» в 6 классе. Сделан вывод о целесообразности использования модели GRASPS для развития естественнонаучной грамотности и метакогнитивных умений обучающихся.*

Ключевые слова: *аутентичное оценивание, модель GRASPS, естественнонаучная грамотность, компетентностный подход, Understanding by Design, критерии оценивания, метакогнитивные умения.*

Davletova Hamida Khasan qizi,
Abdulla Avloni National Institute of
Pedagogical MasteryMethodical Service
Department Methodologist

DEVELOPING NATURAL SCIENCE LITERACY THROUGH THE GRASPS MODEL

Abstract. *The article examines the GRASPS model as an authentic assessment tool in general secondary education. The study analyzes its theoretical foundations, structural components, and didactic potential within a competency-based approach. The relationship between the GRASPS model and the Understanding by Design framework is identified, and its role in developing students’ ability to apply natural science knowledge in real-life contexts is substantiated. A comparative analysis of authentic and traditional assessment approaches is presented. The practical implementation of the model is demonstrated through a Grade 6 natural*

science topic, "Prevention of Disease Spread." The study concludes that the GRASPS model is an effective means of developing students' natural science literacy and metacognitive skills.


Keywords: *authentic assessment, GRASPS model, natural science literacy, competency-based approach, Understanding by Design, assessment criteria, metacognitive skills.*

Bugungi globallashuv va ilmiy-texnologik taraqqiyot sharoitida ta'lim tizimi oldida o'quvchilarning nafaqat fan asoslarini o'zlashtirishi, balki egallangan bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llay oladigan, muammoli holatlarda mustaqil va asoslangan qarorlar qabul qila oladigan shaxsni shakllantirish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois zamonaviy ta'lim paradigmasida kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv ustuvor yo'nalish sifatida qaralib, baholash tizimini mazkur yondashuv talablari asosida takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

An'anaviy baholash amaliyotida o'quvchilarning bilimlari asosan reproduktiv darajada, ya'ni fakt va tushunchalarni qayta bayon qilish orqali aniqlanib, bilimlarning real hayotdagi qo'llanilishi yetarli darajada baholanmaydi. Natijada o'quvchilarda fanlararo bog'liqlikni anglash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va bilimlarni yangi sharoitlarga transfer qilish kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmaydi. Ayniqsa, tabiiy fanlar ta'limida bunday holat o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda autentik baholash yondashuvlari muhim didaktik imkoniyatlarga ega bo'lib, ular o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini real hayotga yaqin vaziyatlarda aniqlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Autentik baholashning samarali modellari orasida GRASPS modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu model o'quvchilarning bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida namoyon etishini ta'minlab, baholashni nazorat vositasidan rivojlantiruvchi pedagogik mexanizmga aylantirish imkonini beradi [1].

GRASPS modeli - bu Grant Wiggins va Jay McTighe tomonidan ishlab chiqilgan, ta'lim jarayonida autentik (haqiqiy hayotga yaqin) baholash vazifalarini yaratishga yo'naltirilgan pedagogik modeldir. Uning maqsadi o'quvchilarning muhim bilimlarni qo'llash, tushunish va fikrlash ko'nikmalarini nafaqat test savollariga javob berish orqali, balki murakkab real vazifalarni bajarayotganda namoyon qilishini ta'minlashdir. [2]



1-rasm. GRASPS modeli

Ilmiy adabiyotlarda GRASPS modeli Understanding by Design (UbD) konsepsiyasi doirasida ishlab chiqilgan baholash qolipi sifatida talqin qilinadi. Ushbu modelning asosiy g'oyasi shundan iboratki, o'quvchi bilimlarni shunchaki qayta bayon qilmasdan, balki aniq rol, real vaziyat, maqsadli auditoriya va aniq baholash mezonlari asosida amaliy faoliyat orqali namoyon etishi lozim. Alison Yangning ta'kidlashicha, GRASPS modeli baholashni o'quvchilar uchun ma'noli, tushunarli va boshqariladigan jarayonga aylantiradi hamda ularning o'z o'rganish jarayonini anglashiga xizmat qiladi [3].

GRASPS modelining maktab ta'limidagi muhim jihati shundaki, u o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga kuchli turtki beradi. Metakognitsiya - bu o'quvchining o'z bilimi, fikrlash jarayoni va o'rganish strategiyalarini anglab, ularni boshqara olish qobiliyatidir [4]. Alison Yangning izohlariga ko'ra, GRASPS asosida ishlab chiqilgan vazifalar o'quvchilarni rejalashtirish, monitoring qilish va o'z faoliyatini baholashga majbur qiladi, bu esa metakognitiv faollikni kuchaytiradi [3].

Maktab ta'limi nuqtai nazaridan, GRASPS modeli ayniqsa tabiiy fanlar, texnologiya, sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy fanlarni o'qitishda samarali hisoblanadi. Chunki ushbu fanlarda o'quvchilardan bilimlarni real hayot bilan bog'lash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va asoslangan mahsulot yaratish talab etiladi. Masalan, tabiiy fanlar darsida o'quvchi "mutaxassis", "maslahatchi" yoki "tadqiqotchi" rolida chiqib, ekologik muammo, sog'liqni saqlash yoki

xavfsizlikka oid vaziyatni tahlil qilishi mumkin. Bu esa bilimlarning transferini, ya'ni yangi vaziyatlarga ko'chirilishini ta'minlaydi. [5]

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, autentik baholash vazifalari, jumladan GRASPS modeli asosida tuzilgan topshiriqlar, o'quvchilarning yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarini - tahlil, sintez va baholashni rivojlantiradi[6]. Bundan tashqari, bunday vazifalar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshirib, baholashni qo'rqinchli jarayon emas, balki o'zini namoyon qilish imkoniyati sifatida qabul qilishiga yordam beradi [7].

GRASPS modeli autentik baholashni tashkil etish uchun ishlab chiqilgan baholash qolipi bo'lib, u baholash jarayonini real faoliyatga maksimal darajada yaqinlashtirishni ta'minlaydi. Grant Wiggins ta'kidlaganidek, autentik baholash samarali bo'lishi uchun o'quvchi "haqiqiy mutaxassislar bajaradigan ishga o'xshash vazifani" bajarishi lozim. Aynan GRASPS modeli bunday vazifalarni loyihalashga xizmat qiladi.

Autentik baholash - bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini real hayotga yaqin vaziyatlarda, amaliy faoliyat orqali aniqlashga qaratilgan baholash yondashuvidir. Unda o'quvchi bilimni shunchaki eslab qolib qayta aytmaydi, balki uni qo'llaydi, tahlil qiladi va asoslaydi. Boshqa qilib aytganda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini haqiqiy faoliyatni modellashtiruvchi vazifalar orqali baholash bo'lib, bunda o'quvchi real hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etadi [1](Wiggins, 1998).

Autentik baholashning muhim xususiyatlaridan biri uning jarayon va natijani uyg'un holda baholashga yo'naltirilganligidir. An'anaviy baholashda ko'proq yakuniy natija (to'g'ri yoki noto'g'ri javob) ustuvor bo'lsa, autentik baholashda o'quvchining muammoni hal etish jarayoni, tanlagan strategiyalari, qaror qabul qilish asoslari va reflektiv faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa baholashni faqat nazorat vositasi emas, balki o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi didaktik mexanizmga aylantiradi.

Shuningdek, autentik baholash bilimlarning transferini ta'minlash nuqtai nazaridan ham samarali hisoblanadi. O'quvchi o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni yangi, kutilmagan yoki murakkab vaziyatlarga ko'chira olgan taqdirdagina mazkur bilimlar barqaror va funksional xarakter kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, real kontekstga asoslangan baholash vazifalari bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga va ularning amaliy faoliyatda qo'llanishiga xizmat qiladi.

Autentik baholashning yana bir afzalligi uning o'quvchi markazliligi bilan izohlanadi. Bunda o'quvchi baholash jarayonining passiv obyekti emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi. O'quvchi baholash mezonlarini anglaydi, o'z faoliyatini tahlil qiladi, o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash elementlarida ishtirok etadi. Bu holat o'quvchilarda mas'uliyat, mustaqillik va reflektiv tafakkurning shakllanishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, autentik baholash ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ko'plab autentik vazifalar jamoaviy muhokama, hamkorlikda qaror qabul qilish, auditoriya oldida taqdimot qilishni talab etadi. Natijada o'quvchilarning nafaqat fan doirasidagi bilimlari, balki muloqot, hamkorlik va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari ham rivojlanadi.

Shu jihatdan, autentik baholash zamonaviy ta'lim paradigmasida kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi va o'quvchilarning bilimlarni real hayot sharoitida samarali qo'llashga tayyorlik darajasini aniqlashda yuqori didaktik salohiyatga ega hisoblanadi.

Autentik baholash	An'anaviy baholash
"Maktabda gripp tarqalishining oldini olish bo'yicha tavsiyalar rejasini tuzing." Ikkinchi holatda o'quvchi bilimni real vaziyatga tatbiq etadi.	"Yuqumli kasalliklar nima?" ta'rif yozish.
Bilimlarni qo'llash	Faktlarni yodlash
Loyiha, muammoli vazifa	Test va nazorat ishlari
Bir nechta asoslangan yechim	Yagona to'g'ri javob
Rivojlantirishga yo'naltirilgan	Nazoratga yo'naltirilgan

1-jadval. Autentik baholash va An'anaviy baholash o'rtasidagi farq

Autentik baholashning asosiy talabi - real kontekst, aniq rol va mazmunli mahsulot bo'lishidir. GRASPS modeli ushbu talablarni quyidagi komponentlar orqali ta'minlaydi:

G (Goal – Maqsad).

GRASPS modelining birinchi va markaziy bosqichi maqsadni aniqlashdan iborat bo'lib, u autentik baholashning mazmuniy yo'nalishini belgilaydi. Ushbu bosqichda o'quvchi oldiga qo'yiladigan maqsad real hayotda mavjud bo'lgan muammoni hal etishga qaratiladi. Maqsad o'quv dasturidagi bilim va ko'nikmalar bilan bevosita bog'langan bo'lib, ularni amaliy faoliyatda qo'llashni talab etadi. Didaktik jihatdan mazkur bosqich o'quvchilarning o'rganilayotgan

mavzuning hayotiy ahamiyatini anglashiga xizmat qilib, ularning o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Maqsadning aniqligi va hayotiyligi autentik baholash vazifasining sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

R (Role – Rol).

Mazkur bosqichda o‘quvchining vazifani bajarish jarayonidagi ijtimoiy va funksional roli belgilanadi. O‘quvchi o‘zini real hayotda uchraydigan kasbiy yoki ijtimoiy rol egasi sifatida tasavvur qiladi. Bu rol “mutaxassis”, “maslahatchi”, “tadqiqotchi”, “mas’ul shaxs” kabi shakllarda bo‘lishi mumkin. Pedagogik jihatdan rolga kirish o‘quvchining mas’uliyatini kuchaytiradi, faoliyatni ongli va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishga undaydi hamda baholash jarayonining ishonchliligini oshiradi.

A (Audience – Auditoriya).

GRASPS modelida baholash natijasi kim uchun mo‘ljallangani aniq belgilanishi muhim hisoblanadi. Ushbu bosqichda mahsulot real yoki shartli auditoriyaga yo‘naltiriladi. Auditoriya sifatida sinfdoshlar, maktab jamoasi, ota-onalar yoki kengroq ijtimoiy guruhlar qaralishi mumkin. Auditoriyaning mavjudligi o‘quvchidan fikrini aniq, mantiqiy va tushunarli tarzda bayon etishni, dalillarga asoslanishni va muloqot madaniyatiga rioya qilishni talab etadi. Natijada baholash jarayoni kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

S (Situation – Vaziyat).

Ushbu bosqich autentik baholashning kontekstual asosini tashkil etadi. Vaziyat real hayotga yaqin, muammoli va murakkab bo‘lishi lozim. GRASPS modeli vaziyatni batafsil tasvirlash orqali o‘quvchini tayyor andozalardan chiqib, tahliliy va tanqidiy fikrlashga majbur qiladi. Didaktik jihatdan vaziyat o‘quvchilarning bilimlarni integratsiyalash, muammo mohiyatini anglash va optimal yechimlarni izlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

P (Product/Performance – Mahsulot yoki faoliyat).

Mazkur bosqichda baholash natijasi sifatida yaratiladigan aniq mahsulot yoki bajariladigan faoliyat belgilanadi. Bu mahsulot loyiha, reja, tavsiyanoma, model, infografika, taqdimot yoki qaror shaklida bo‘lishi mumkin. GRASPS modelida mahsulot test javobi bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini kompleks tarzda namoyon etishga xizmat qiladi. Ushbu bosqich o‘quvchilarning ijodiy, amaliy va muammoli fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

S (Standards – Muvaffaqiyat mezonlari).

GRASPS modelining yakuniy bosqichi baholash mezonlarini aniqlashdan iborat. Mezonsiz baholash autentik bo‘la olmaydi. Shu sababli, baholash ilmiy aniqlik, mantiqiy izchillik, mahsulotning amaliyligi, auditoriyaga mosligi va vaziyatga mos yechimlar kabi aniq kriteriyalar asosida amalga oshiriladi. Mezonning oldindan e’lon qilinishi o‘quvchilarda baholash jarayoniga nisbatan ishonchni kuchaytiradi hamda o‘z-o‘zini baholash va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirib, baholashni subyektiv qarashlardan holi, adolatli va rivojlantiruvchi jarayonga aylantiradi.

Izoh sifatida ta’kidlash joizki, GRASPS modeli maktab ta’limida qo‘llanganda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Boshlang‘ich va o‘rta sinflarda vazifalar soddalashtirilgan, ammo mazmunan hayotiy bo‘lishi, baholash mezonlari esa aniq va tushunarli shaklda taqdim etilishi lozim. Bu holat o‘quvchilarda muvaffaqiyatga erishish hissini kuchaytiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Demak, GRASPS modeli umumta’lim maktablarida baholash tizimini takomillashtirishda muhim metodologik asos bo‘la oladi. Chunki u baholashni faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki o‘quvchilarning bilimlarni real hayotda qo‘llashga tayyorligini aniqlovchi va rivojlantiruvchi jarayon sifatida talqin etadi. Shu jihatdan, GRASPS modeli loyihaga asoslangan ta’lim va kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvlar bilan uyg‘un holda qo‘llanganda, maktab ta’limining sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

GRASPS modelini 6-sinf tabiiy fanlar “Kasallik tarqalishining oldini olish” mavzusiga tadbiqi.

1-bosqich. Goal (Maqsadni aniqlash). Mazkur bosqichda ta’lim va baholashning umumiy maqsadi belgilanadi. Ushbu mavzu doirasida maqsad o‘quvchilarning yuqumli kasalliklarning tarqalish yo‘llari hamda ularning oldini olish choralari haqidagi bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish darajasini aniqlashdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga oid ongli munosabatni shakllantirish ham ko‘zda tutiladi.

2-bosqich. Role (Rolni belgilash). Ushbu bosqichda o‘quvchining vazifani bajarish jarayonidagi ijtimoiy va funksional roli aniqlanadi. O‘quvchi o‘zini maktab sog‘liqni saqlash bo‘yicha maslahatchisi yoki sinf gigiyena guruhi a’zosi sifatida tasavvur qiladi. Rolga kirish o‘quvchining mas’uliyatini oshiradi va vazifani hayotiyroq qabul qilishiga yordam beradi.

3-bosqich. Audience (Maqsadli auditoriyani aniqlash). Mazkur bosqichda yaratiladigan mahsulot kim uchun mo‘ljallangani belgilanadi. Ushbu mavzuda maqsadli auditoriya sifatida sinfdoshlar, maktab o‘quvchilari, ota-onalar va maktab jamoasi qaraladi. Auditoriyaning aniqlanishi o‘quvchini fikrini aniq, tushunarli va ijtimoiy ahamiyatga ega tarzda bayon etishga yo‘naltiradi.

4-bosqich. Situation (Vaziyatni belgilash). Bu bosqichda real hayotga yaqin muammoli vaziyat tasvirlanadi. Maktabda mavsumiy shamollash va gripp kasalliklari ko‘paygani, ayrim o‘quvchilarning gigiyena qoidalariga rioya qilmayotgani vaziyat sifatida olinadi. O‘quvchidan ushbu holatda kasallik tarqalishining oldini olish bo‘yicha aniq choralar ishlab chiqish talab etiladi.

5-bosqich. Product or Performance (Mahsulot yoki faoliyatni belgilash). Mazkur bosqichda o‘quvchi tomonidan yaratilishi lozim bo‘lgan aniq natija belgilanadi. O‘quvchilar kasallik tarqalishining oldini olishga oid plakat, infografika, qisqa yozma yo‘riqnoma yoki og‘zaki taqdimot tayyorlaydi. Mahsulotda kasalliklarning tarqalish yo‘llari, profilaktika choralari va sog‘lom xulq-atvor qoidalari aks ettirilishi shart.

6-bosqich. Standards and Criteria (Baholash mezonlarini belgilash). Ushbu bosqichda baholash aniq va shaffof mezonlar asosida amalga oshiriladi. Baholashda ilmiy aniqlik, tavsiyalarning amaliyligi, mantiqiy izchillik, auditoriyaga mos tushunarlilik va sog‘liqni saqlashga mas’uliyatli yondashuv kabi ko‘rsatkichlar inobatga olinadi. Bu mezonlar o‘quvchiga baholash talablarini oldindan anglash imkonini beradi.

GRASPS modeli asosida tashkil etilgan mazkur autentik baholash jarayoni o‘quvchilarning bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, muammoli holatlarni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Natijada baholash jarayoni faqat nazorat vositasi bo‘lib qolmay, balki o‘quvchilarning ilmiy tafakkuri va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantiruvchi samarali pedagogik mexanizmga aylanadi.

Umuman olganda, GRASPS modeli umumta’lim maktablarida baholash tizimini kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim talablari asosida takomillashtirish, tabiiy fanlarni o‘qitishda ta’lim samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning real hayotga tayyorgarlik darajasini kuchaytirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Wiggins G. Educative Assessment: Designing Assessments to Inform and Improve Student Performance. – San Francisco: Jossey-Bass, 1998.
2. Wiggins G., McTighe J. Understanding by Design. – Alexandria, VA: ASCD, 2005.
3. Yang A. GRASPS Assessment Design and Student Metacognition. – 2020.
4. Flavell J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring. – American Psychologist, 1979.
5. Ismailov A., Ergasheva M.T., Azamatova D.S. O‘quvchilarning tabiiy fanlar savodxonligini rivojlantirish metodlari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2025. – 183 b.
6. Gulikers J. T. M., Bastiaens T. J., Kirschner P. A. Authentic Assessment. – Assessment in Education, 2004.
7. Darling-Hammond L., Adamson F. Beyond Basic Skills. – Stanford, 2010.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Muxamedova Ferangiz Juma qizi
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
E-mail: ferangizmuxamedova@073gmail.com
ORCid: 0009-0004-8175-4193

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJIDA ART-TERAPIYA USULINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MOHIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar rivojida art-terapiya usulining pedagogik-psixologik mohiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida art-terapiyaning emotsional barqarorlikni shakllantirish, ijodiy faollikni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashuvni kuchaytirishdagi samaradorligi asoslab berilgan. Tajriba-sinov natijalari art-terapiya mashg‘ulotlarining bolaning ruhiy farovonligi va shaxsiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Maqola maktabgacha ta’lim amaliyotida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *art-terapiya, maktabgacha ta’lim, emotsional rivoj, ijodiy faollik, psixologik moslashuv, shaxs rivoji, pedagogik texnologiyalar, ruhiy barqarorlik*

Mukhamedova Ferangiz Juma qizi
Lecturer at Chirchiq State Pedagogical University

THE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ESSENCE OF ART THERAPY IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract: *This article analyzes the pedagogical and psychological essence of art therapy in the development of preschool children from both theoretical and practical perspectives. The study substantiates the effectiveness of art therapy in fostering emotional stability, enhancing creative activity, and strengthening social adaptation. The results of experimental research confirm that art therapy sessions have a positive impact on children’s psychological well-being and personal development. The article provides a scientific basis for implementing innovative pedagogical technologies in preschool education practice.*

Keywords: *art therapy, preschool education, emotional development, creative activity, psychological adaptation, personality development, pedagogical technologies, emotional stability*

Мухамедова Ферангиꞌз Жума кизи
преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АРТ-ТЕРАПИИ В РАЗВИТИИ детей дошкольного возраста

Аннотация: *В статье с научно-теоретических и практических позиций анализируется педагогико-психологическая сущность арт-терапии в развитии детей дошкольного возраста. Обоснована эффективность арт-терапии в формировании эмоциональной устойчивости, развитии творческой активности и укреплении социальной адаптации. Результаты опытно-экспериментальной работы подтверждают положительное влияние арт-терапевтических занятий на психологическое благополучие и личностное развитие детей. Статья служит научной основой для внедрения инновационных педагогических технологий в практику дошкольного образования.*

Ключевые слова: *арт-терапия, дошкольное образование, эмоциональное развитие, творческая активность, психологическая адаптация, личностное развитие, педагогические технологии, эмоциональная устойчивость.*

Kirish. Maktabgacha yosh davri inson hayotining eng muhim va intensiv rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, ijodiy tafakkuri hamda shaxsiy identifikatsiyasi shakllana boshlaydi. Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda nafaqat intellektual, balki emotsional-intuitiv rivoj ham alohida e’tibor talab etadi. Globallashuv, axborot oqimining ortishi, oilaviy muhitdagi o‘zgarishlar hamda raqamli texnologiyalar ta’siri bolalar psixikasiga

sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada ayrim bolalarda xavotir, ichki tortinchoqlik, agressivlik yoki muloqot qiyinchiliklari kuzatilmoqda. Bu esa maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion, insonparvar va psixologik jihatdan asoslangan metodlarni joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shunday metodlardan biri art-terapiya hisoblanadi. Art-terapiya – tasviriy san’at, musiqa, ertak, dramatizatsiya, qum bilan ishlash kabi ijodiy faoliyat vositalari orqali bolaning ichki kechinmalarini ifodalash va muvozanatlashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik-psixologik yondashuvdir. Ushbu metodning asosiy ustunligi shundaki, u bolaga o‘z hissiyotlarini so‘z orqali emas, balki obraz va ramzlar orqali ifodalash imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hali to‘liq verbal ifoda ko‘nikmasiga ega bo‘lmaganliklari sababli, ularning ichki dunyosini tushunishda ijodiy faoliyat samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, art-terapiya bolalarda mustaqil fikrlash, tasavvur kengligi va estetik didni shakllantirishga yordam beradi. Psixologik jihatdan esa u emotsional zo‘riqishni kamaytiradi, o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi hamda ijtimoiy moslashuvni yengillashtiradi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida guruhli art-terapiya mashg‘ulotlari bolalarda hamkorlik, empatiya va ijtimoiy faollikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, art-terapiya metodining maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta’siri ko‘plab amaliy kuzatuvlar bilan tasdiqlangan bo‘lsa-da, uning pedagogik-psixologik mohiyatini kompleks va tizimli ravishda tahlil qilish zarurati mavjud. Xususan, ushbu metodning rivojlantiruvchi, profilaktik va korrektsion imkoniyatlarini ilmiy asoslash bugungi ta’lim amaliyoti uchun muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalar rivojida art-terapiya usulining pedagogik-psixologik mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun art-terapiyaning nazariy asoslari tahlil qilinadi, uning rivojlantiruvchi mexanizmlari aniqlanadi hamda maktabgacha ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shu tariqa, art-terapiya metodining bolalar shaxsiy rivojidagi ahamiyatini ochib berish mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy yo‘nalishini tashkil etadi.

Metodlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojida art-terapiya usulining pedagogik-psixologik mohiyatini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda kompleks yondashuv asosida nazariy va empirik metodlar uyg‘unlashtirildi. Tadqiqot jarayonida tizimlilik, shaxsga yo‘naltirilganlik hamda faoliyatga asoslangan pedagogik tamoyillar yetakchi metodologik asos sifatida belgilandi. Bu yondashuv bolalarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda art-terapiya mashg‘ulotlarining rivojlantiruvchi samaradorligini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy qismida art-terapiyaning pedagogik va psixologik mohiyatiga doir ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, ta’lim jarayonida ijodiy faoliyat orqali rivojlantirish konsepsiyalari o‘rganildi hamda maktabgacha yosh davrining psixologik rivoj qonuniyatlari umumlashtirildi. Ushbu bosqichda tahlil, sintez, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali art-terapiyaning rivojlantiruvchi, korrektsion va profilaktik funksiyalari aniqlab berildi [1].

Empirik tadqiqot maktabgacha ta’lim tashkilotlari sharoitida olib borildi. Unda 4–6 yoshli bolalardan iborat tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi. Tadqiqot davomida bolalarning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi hamda ijodiy faolligi dastlabki va yakuniy diagnostika orqali baholandi. Diagnostika jarayonida kuzatuv, suhbat, psixologik testlar va bolalarning ijodiy ishlarini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Bu usullar bolalarning ichki kechinmalari va rivoj dinamikasini obyektiv aniqlashga xizmat qildi.

Tajriba-sinov ishlari doirasida art-terapiyaning turli shakllari qo‘llanildi. Jumladan, rasm chizish terapiyasi orqali bolalarning emotsional ifodasi rivojlantirildi, ranglar bilan ishlash mashg‘ulotlari orqali psixologik bo‘shashuv ta’minlandi, qum terapiyasi yordamida ichki zo‘riqishlar kamaytirildi hamda ertak terapiyasi orqali ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari mustahkamlandi. Ushbu mashg‘ulotlar haftasiga ikki marotaba muntazam ravishda tashkil etilib, har bir bolaning faolligi va psixologik holati individual kartalar orqali qayd etib borildi [2].

Olingan ma’lumotlarni tahlil qilishda sifat va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi. Natijalar taqqoslash orqali baholanib, art-terapiya mashg‘ulotlarining bolalar rivojiga ko‘rsatgan ta’siri aniqlab berildi. Statistik umumlashtirish orqali emotsional barqarorlik, ijodiy faollik va ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlaridagi ijobiy o‘zgarishlar asoslab berildi.

Shuningdek, pedagogik tajriba refleksiyasi usuli qo‘llanilib, tarbiyachilar va psixologlarning amaliy kuzatuvlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Bu esa art-terapiya metodining amaliy ta’lim muhitida qo‘llash imkoniyatlarini yanada chuqurroq baholashga yordam berdi. Metodologik yondashuvning kompleksligi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini va amaliy ahamiyatini ta’minladi.

Umuman olganda, art-terapiya usulining maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ko‘rsatadigan ta’sirini ko‘p qirrali va tizimli ravishda o‘rganishga yo‘naltirildi. Nazariy tahlil va empirik tajribaning uyg‘unligi ushbu metodning pedagogik-psixologik mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi [3].

Natijalar. Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalar rivojida art-terapiya usulining samaradorligini aniq pedagogik-psixologik ko‘rsatkichlar asosida baholash imkonini berdi. Tajriba-sinov ishlari davomida bolalarning

emotsional holati, ijodiy faolligi hamda ijtimoiy moslashuv darajasi dastlabki va yakuniy diagnostika orqali solishtirildi. Olingan natijalar art-terapiya mashg‘ulotlari muntazam tashkil etilgan tajriba guruhida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatdi.

Quyidagi jadvalda art-terapiya qo‘llanilgan tajriba guruhi hamda an’anaviy mashg‘ulotlar olib borilgan nazorat guruhi ko‘rsatkichlari taqqoslab berildi.

Rivojlanish ko‘rsatkichlari	Tajriba guruhi (boshlang‘ich)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (boshlang‘ich)	Nazorat guruhi (yakuniy)
Emotsional barqarorlik	42 %	78 %	44 %	52 %
Ijodiy faollik	39 %	81 %	41 %	55 %
Ijtimoiy moslashuv	46 %	83 %	48 %	58 %
O‘ziga ishonch darajasi	40 %	79 %	43 %	54 %

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatilgan. Xususan, emotsional barqarorlik darajasi 42 foizdan 78 foizga oshib, bolalarning ichki xavotiri va zo‘riqish holatlarining kamayganini ko‘rsatadi. Ijodiy faollik ko‘rsatkichi esa 39 foizdan 81 foizgacha yetib, bolalarning erkin tasvirlash, mustaqil g‘oya bildirish hamda ijodiy tashabbus ko‘rsatish darajasi sezilarli rivojlanganini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy moslashuv darajasidagi o‘sish ham alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, 46 foizdan 83 foizgacha ko‘tarilgan. Bu bolalarning guruh bilan ishlash, tengdoshlari bilan muloqot qilish va hamkorlik faoliyatida faolroq ishtirok eta boshlaganini anglatadi. O‘ziga ishonch ko‘rsatkichining 40 foizdan 79 foizga oshishi esa art-terapiya mashg‘ulotlarining bolalar shaxsiy rivojida muhim psixologik qo‘llab-quvvatlovchi omil bo‘lib xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Nazorat guruhida ham ma’lum darajada o‘sish kuzatilgan bo‘lsa-da, bu o‘zgarishlar tajriba guruhiga nisbatan ancha past bo‘lib, asosan tabiiy rivoj jarayoni va an’anaviy pedagogik mashg‘ulotlar bilan izohlanadi. Bu esa art-terapiya metodining rivojlantiruvchi samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olingan natijalar art-terapiya mashg‘ulotlari maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish, ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Ushbu ko‘rsatkichlar art-terapiya usulini maktabgacha ta’lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalar rivojida art-terapiya usulining yuqori pedagogik va psixologik samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhi ko‘rsatkichlarining emotsional barqarorlik, ijodiy faollik hamda ijtimoiy moslashuv yo‘nalishlarida sezilarli darajada oshgani art-terapiya mashg‘ulotlarining bolaning ichki psixologik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Bu holat art-terapiya jarayonida bola o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifodalashi, ichki zo‘riqishlardan xalos bo‘lishi va ijobiy psixologik muvozanatga erishishi bilan izohlanadi.

Olingan natijalar pedagogik psixologiyada mavjud bo‘lgan rivojlantiruvchi faoliyat nazariyalari bilan hamohangdir. Xususan, ijodiy faoliyat orqali bolaning emotsional o‘zini anglash jarayoni faollashib, shaxsiy rivoj tezlashadi. Ismoilova ta’kidlaganidek, maktabgacha yoshda emotsional tajriba bolaning shaxs sifatida shakllanishining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi va uni qo‘llab-quvvatlash uchun ijodiy muhit zarurdir [4]. Ushbu tadqiqot natijalari ham art-terapiya ana shunday rivojlantiruvchi muhitni yaratishini ko‘rsatdi.

Natijalarni Karimovaning art-terapiya mashg‘ulotlari asosida olib borgan amaliy izlanishlari bilan solishtirganda, o‘xshash tendensiyalar kuzatiladi. Tadqiqotchining fikricha, rasm va ranglar bilan ishlash orqali bolalarda xavotir darajasi kamayib, ijtimoiy faollik ortadi [5]. Bizning tajriba natijalarimizda ham emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlarining sezilarli oshgani ushbu xulosani ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Shuningdek, Xudoyberdiyevaning ijodiy faoliyatning psixologik mexanizmlariga oid tadqiqotlari bilan ham uyg‘unlik mavjud. Olimaning ta’kidlashicha, bolalar ijodiy jarayonda o‘z ichki kechinmalarini obrazli shaklda aks ettirishi orqali ichki konfliktlardan xalos bo‘ladi va shaxsiy o‘sishga erishadi [6]. Tadqiqotimizda qum terapiyasi va ertak terapiyasi mashg‘ulotlari jarayonida bolalarning o‘ziga ishonch darajasi oshgani aynan ushbu mexanizm bilan izohlanadi.

Biroq, nazorat guruhi ko‘rsatkichlarida ham ma’lum darajada ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgani shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yosh davrida tabiiy rivoj jarayoni ham muhim rol o‘ynaydi. Ammo art-terapiya qo‘llanilgan guruhdagi o‘sish sur’atlarining ancha yuqoriligi ushbu metodning rivojlantiruvchi ta’sirini aniq ajratib ko‘rsatadi. Bu esa art-terapiyani oddiy ijodiy mashg‘ulotlardan farqli ravishda ilmiy asoslangan pedagogik-psixologik texnologiya sifatida qarash zarurligini anglatadi.

Muhokama jarayonida aniqlanganki, art-terapiya mashg‘ulotlari nafaqat emotsional holatni barqarorlashtiradi, balki bolaning ijtimoiy muhitga moslashuvini ham tezlashtiradi. Guruhli mashg‘ulotlarda hamkorlik, o‘zaro yordam va

empatiya rivojlanib, ijtimoiy kompetensiyalar shakllanadi. Bu holat maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amaliyotda samarali joriy etish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, ilmiy solishtirish shuni ko'rsatadiki, art-terapiya usuli zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida bolaning emotsional, ijodiy va ijtimoiy rivojini uyg'un holda ta'minlovchi samarali metod hisoblanadi. Uning tizimli ravishda qo'llanishi psixologik muammolar profilaktikasi va shaxsiy rivojning tezlashuviga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalar rivojida art-terapiya usulining pedagogik-psixologik ahamiyatini ilmiy asosda ochib berishga xizmat qildi. O'tkazilgan nazariy tahlillar hamda tajriba-sinov ishlari natijalari art-terapiya metodining bolaning emotsional holatini barqarorlashtirish, ijodiy faolligini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatdi. Ayniqsa, art-terapiya mashg'ulotlarining muntazam va tizimli tashkil etilishi bolalarda ichki xavotirni kamaytirib, o'ziga ishonchni mustahkamlashga sezilarli ta'sir ko'rsatgani aniqlanadi.

Tadqiqot davomida art-terapiyaning pedagogik mohiyati bolaning shaxsiy rivojini qo'llab-quvvatlovchi ijodiy muhit yaratish orqali namoyon bo'lishi asoslandi. Tasviriy faoliyat, ranglar bilan ishlash, ertak va qum terapiyasi kabi metodlar bolalarning ichki kechinmalarini erkin ifodalashiga imkon berib, ularning emotsional muvozanatini tiklashga xizmat qildi. Psixologik jihatdan esa ushbu metod bolaning stressga chidamliligini oshirib, ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonini yengillashtiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ldi.

Empirik natijalar tajriba guruhida rivoj ko'rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo'lganini ko'rsatib, art-terapiya mashg'ulotlarining tabiiy rivoj jarayonini tezlashtiruvchi va samaradorligini oshiruvchi omil ekanini tasdiqladi. Bu holat art-terapiya usulini maktabgacha ta'lim tizimida alohida innovatsion pedagogik texnologiya sifatida joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shu bilan birga, ushbu metod nafaqat rivojlantiruvchi, balki profilaktik va korrektsion vazifalarni ham samarali bajarishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida art-terapiya mashg'ulotlarini rejalashtirish, tarbiyachilar va psixologlar uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqish hamda ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida boyitish imkonini beradi. Art-terapiya vositalarini kompleks qo'llash bolalarning nafaqat bilim olish jarayonini, balki ularning ruhiy farovonligini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, art-terapiya usuli maktabgacha yoshdagi bolalar rivojida emotsional barqarorlikni shakllantirish, ijodiy salohiyatni ochish va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali pedagogik-psixologik mexanizmi hisoblanadi. Uning ta'lim tizimiga keng integratsiyasi barkamol, ruhiy sog'lom va faol shaxsni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Agar ushbu metod ilmiy asoslangan tarzda tizimli joriy etilsa, maktabgacha ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ismoilova M.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2019. – B. 45-48.

2. Karimova D.Sh. Ta'lim jarayonida art-terapiya metodlaridan foydalanish asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2021. – B. 72-76.

3. Xudoyberdiyeva N.R. Bolalar rivojida ijodiy faoliyatning psixologik mexanizmlari. – T.: Ma'naviyat, 2020. – B. 110-114.

4. Ismoilova M.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2019. – B. 52-56.

5. Karimova D.Sh. Ta'lim jarayonida art-terapiya metodlarining rivojlantiruvchi imkoniyatlari. – T.: Fan va texnologiya, 2021. – B. 88-92.

6. Xudoyberdiyeva N.R. Ijodiy faoliyat orqali bolalar shaxsini rivojlantirishning psixologik asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2020. – B. 123-127.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

G.R.Muratova
Qo‘qon davlat universiteti professori v.b.
muratovagulnora4@gmail.com

UMUMTA’LIM MAKTABLARI VA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA FANINI O‘QITISH JARAYONIGA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini o‘qitish jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida ta’lim jarayonini raqamlashtirish, interaktiv va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o‘quvchilarning hamda talabalarning jismoniy faolligi, o‘quv motivatsiyasi va ta’lim samaradorligiga ta’siri o‘rganilgan. Ilmiy ishda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuv, individuallashtirish va sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalishni kuchaytirishning pedagogik mexanizmlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy ta’lim texnologiyalarini jismoniy tarbiya tizimiga samarali integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, pedagogik shart-sharoitlar, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta’lim, ta’lim samaradorligi, umumta’lim maktablari, oliy ta’lim muassasalari.*

Г.Р.Муратова
Исполняющая обязанности профессора
Кокандский государственный университет

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ВНЕДРЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБЩЕСТВЕННЫХ ШКОЛАХ И ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *В статье проанализированы педагогические условия внедрения современных образовательных технологий в процесс преподавания физической культуры в общеобразовательных школах и высших учебных заведениях. В ходе исследования рассмотрены возможности использования цифровых, интерактивных и инновационных педагогических технологий, а также их влияние на учебную мотивацию, физическую активность и эффективность обучения обучающихся. Обоснованы педагогические механизмы реализации компетентностного подхода, индивидуализации обучения и усиления оздоровительной направленности занятий по физической культуре. Полученные результаты могут быть использованы при совершенствовании методики преподавания физической культуры в системе общего и высшего образования.*

Ключевые слова: *физическая культура, современные образовательные технологии, педагогические условия, компетентностный подход, цифровое образование, эффективность обучения, общеобразовательные школы, высшие учебные заведения.*

G.R.Muratova
Acting Professor, Kokand State University

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF INTRODUCING MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES INTO THE PROCESS OF TEACHING PHYSICAL EDUCATION IN GENERAL SCHOOLS AND HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. *The article analyzes the pedagogical conditions for implementing modern educational technologies in the process of teaching physical education in general secondary schools and higher education institutions. The study examines the use of digital, interactive, and innovative pedagogical technologies and their impact on students’ learning motivation, physical activity, and educational effectiveness. The pedagogical mechanisms of implementing a competency-based approach, individualized learning, and*

enhancing the health-oriented focus of physical education classes are substantiated. The findings of the study can be applied to improve the methodology of teaching physical education in general and higher education systems.
Keywords: *physical education, modern educational technologies, pedagogical conditions, competency-based approach, digital education, learning effectiveness, general secondary schools, higher education institutions.*

Kirish. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanining mazmuni va uni o‘qitish metodikasini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari nafaqat jismoniy rivojlanishni ta’minlaydi, balki sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy faollik va kasbiy barqarorlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Ta’lim muhitining raqamlashtirilishi, innovatsion va interaktiv pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi jismoniy tarbiya fanini o‘qitishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari zamonaviy ta’lim talablari va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayotganligi sababli, ta’lim jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini integratsiya qilish dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining ta’limiy, tarbiyaviy va sog‘lomlashtiruvchi samaradorligini oshirish, o‘quvchilar va talabalarning darslarga bo‘lgan qiziqishi hamda motivatsiyasini kuchaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarni joriy etish muayyan pedagogik shart-sharoitlarni, metodik tayyorgarlikni va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni talab qiladi.

Shu munosabat bilan, umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini o‘qitish jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy asoslash va ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini aniqlash mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot usuli. Mazkur tadqiqotda umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini o‘qitish jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot quyidagi usullar orqali amalga oshirildi:

Analitik usul – mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar, normativ-huquqiy hujjatlar va pedagogik tajribalar tahlil qilindi, jismoniy tarbiya fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslari aniqlab olindi.

Empirik usul – maktab va oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari jarayonida interaktiv va innovatsion pedagogik texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi kuzatildi. Shu jumladan:

- so‘rovnoma va intervyular orqali o‘quvchilar va talabalarning motivatsiyasi, qiziqishi va mashg‘ulotlarga faol ishtiroki baholandi;

- dars jarayonidagi raqamli vositalar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi o‘lchandi.

Taqqoslash va umumlashtirish usuli – an’anaviy va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash natijalari solishtirildi, ularning jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining ta’limiy, tarbiyaviy va sog‘lomlashtiruvchi samaradorligiga ta’siri baholandi.

Statistik va matematik usullar – empirik ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, ularning ishonchliligi va samaradorligini aniqlash uchun qo‘llanildi.

Mazkur metodlar kombinatsiyasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligi, natijalarining amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi va pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashdagi haqqoniyligini ta’minladi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot jarayonida umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining amaliy qo‘llanilishi tahlil qilindi. Empirik ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv va raqamli pedagogik vositalardan foydalanish o‘quvchilar va talabalarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. **Asosiy natijalar quyidagicha:**

- so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan darslarda o‘quvchilarning motivatsiyasi an’anaviy usullarga nisbatan 25–30% yuqori;

- talabalar interaktiv mashg‘ulotlarda faol ishtirok etib, jismoniy mashqlarni to‘liq bajarish ko‘rsatkichini oshiradi;

- raqamli vositalar va videodarslardan foydalanish texnik harakatlarni tezroq va to‘g‘ri egallash imkonini yaratadi;

- kompetensiyaviy yondashuv orqali mashg‘ulotlarda individual yondashuv va o‘quvchining imkoniyatlariga moslashuv amaliyoti samaradorlikni oshiradi;

- zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi va kompyuter savodxonligi muhim omil hisoblanadi.

- darslarni rejalashtirishda interaktiv usullar, multimedia materiallar va onlayn monitoringning mavjudligi pedagogik shart-sharoitlarni optimallashtiradi.

Muhokama: Olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, umumtaʼlim maktablari va oliy taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya mashgʻulotlarini zamonaviy taʼlim texnologiyalari yordamida tashkil etish oʻquvchilarning motivatsiyasi, faol ishtiroki va mashgʻulotlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, texnologiyalarni samarali qoʻllash pedagogik shart-sharoitlar va oʻqituvchilarning kasbiy kompetensiyalariga bogʻliq. Bu esa kompetensiyaviy yondashuv, individualizatsiya va sogʻlomlashtiruvchi yoʻnalishni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi.

Natijalar shuningdek, xalqaro tajriba va ilmiy adabiyotlar bilan ham mos keladi. Masalan, Dr. Steve Georgakis va Associate Professor Louisa Peralta tadqiqotlarida taʼlim jarayonini raqamlashtirish va interaktiv metodlardan foydalanish oʻquvchilarning faol ishtiroki va motivatsiyasini oshirishda samarali ekanligi taʼkidlangan (Georgakis, 2020; Peralta, 2019).

Shunday qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni jismoniy tarbiya faniga integratsiya qilish jarayoni nafaqat taʼlim sifatini oshirish, balki sogʻlom turmush tarzini shakllantirish va talabalar faoliyatini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Mazkur tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, umumtaʼlim maktablari va oliy taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini oʻqitish jarayoniga zamonaviy taʼlim texnologiyalarini joriy etish taʼlim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv va raqamli pedagogik vositalardan foydalanish oʻquvchilarning va talabalarining mashgʻulotlarga boʻlgan motivatsiyasi, faol ishtiroki va texnik harakatlarni egallash darajasini yaxshilaydi.

Shuningdek, tadqiqot shuni koʻrsatdiki, zamonaviy taʼlim texnologiyalarini samarali qoʻllash pedagogik shart-sharoitlarni, oʻqituvchilarning metodik tayyorgarligi va kompyuter savodxonligini talab qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv, individualizatsiya va sogʻlomlashtiruvchi yoʻnalishning kuchaytirilishi mashgʻulotlarning taʼlimiy, tarbiyaviy va sogʻlomlashtiruvchi samaradorligini oshirishda muhim rol oʻynaydi.

Tavsiyalar:

- umumtaʼlim maktablari va oliy taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini interaktiv va raqamli vositalar bilan taʼminlash.
- multimedia va onlayn platformalardan foydalangan holda mashgʻulotlarni rejalashtirish.
- oʻqituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar boʻyicha malakasini oshirish kurslarini tashkil etish.
- kompetensiyaviy yondashuv va individuallashtirilgan metodlarni qoʻllash boʻyicha metodik qoʻllanmalar ishlab chiqish.
- interaktiv mashgʻulotlar, viktorinalar, mobil ilovalar va gamifikatsiyalashgan metodlarni joriy etish.
- jismoniy tarbiya mashgʻulotlarida talabalar va oʻquvchilarning yutuqlarini onlayn monitoring qilish va ragʻbatlantirish tizimini ishlab chiqish.
- **m**ashgʻulotlarda nafaqat texnik, balki sogʻlomlashtiruvchi elementlarga eʼtibor berish.
- foydali turmush tarzini shakllantirish va jismoniy faollikni muntazam ragʻbatlantirish tizimini yaratish.

Ushbu tavsiyalar umumtaʼlim maktablari va oliy taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini modernizatsiya qilish va taʼlim sifatini oshirish, shuningdek, talabalar va oʻquvchilarning sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Georgakis S. Innovative pedagogical strategies in physical education: Enhancing student engagement / S. Georgakis. – Sydney: University of Sydney Press, 2020. – 210 p.

2. Peralta L. Digital technologies in school physical education: Competency-based approaches / L. Peralta // Journal of Physical Education Research. – 2019. – Vol. 12, №3. – P. 45–60.

3. Gabbett T., King J. Applied sports science in education: Motivation and performance / T. Gabbett, J. King. – London: Routledge, 2018. – 180 p.

4. Cairney J., Rynne S. Physical activity promotion in educational settings / J. Cairney, S. Rynne // International Journal of Physical Education. – 2017. – Vol. 54, №2. – P. 23–38.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi. Umumtaʼlim maktablarida jismoniy tarbiya faniga davlat taʼlim standartlari / Xalq taʼlimi vazirligi. – Toshkent: Vazirlik nashri, 2021. – 56 b.

6. Муратова, Г. Р. "К вопросу инновационного подхода к процессу физического воспитания в вузе." *Репозиторий открытого доступа* 8 (2022): 371-374.

7. МУРАТОВА, ГР, and М. ХАТАМОВ. "О проблемах развития творческой активности детей школьного возраста на уроках физической культуры." *Образование. Наука. Карьера*. 2018.

8. Muratova, G. R. "Some aspects of the development of modern student sports in the republic of uzbekistan." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.4 (2023): 903-905.

9. Mammadov O. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar O‘zbekiston maktablarida: tajriba va muammolar / O. Mammadov. – Toshkent: Science Press, 2020. – 132 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

G'oyibova Sayyora
Namangan davlat universiteti
An'anaviy honandalik va cholg'u ijrochiligi kafedrasi
Sayyoragoyibova3@gmail.com

ELEKTRON KUTUBXONANING ELEKTRON KATALOGI VA UNING AFZALLIKLARI.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada avtomatlashtirilgan va integrallashgan axborot kutubxona tizimini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari va uning ahamiyati yoritilgan. Kutubxonalar faoliyatini raqamlash, ma'lumotlar bazasini yaratish, foydalanuvchilarga tez va qulay axborot xizmati ko'rsatish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, integratsiyalashgan tizimning afzalliklari, uni joriy etishda duch kelinadigan muammolar hamda ularning yechimlari haqida fikrlar bayon etilgan. Maqolada milliy elektron kutubxonaning electron katalog tizimini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ham ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *Elektron katalog, xizmatchi katalogi,raqamli katalog,axborot texnologiyalari, foydalanuvchi xizmati, innovatsion yechimlar,kitobxon katalogi, virtual kutubxona,boshlang'ich modullar kutubxonasi.*

Гаибова Сайёра
Наманганский государственный университет
Кафедра традиционного пения и
инструментального исполнительства

ЭЛЕКТРОННЫЙ КАТАЛОГ ЭЛЕКТРОННОЙ БИБЛИОТЕКИ И ЕГО ПРЕИМУЩЕСТВА

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования автоматизированной и интегрированной информационно-библиотечной системы и её значение. Анализируются возможности оцифровки библиотечной деятельности, создания базы данных и предоставления пользователям быстрых и удобных информационных услуг. Также обсуждаются преимущества интегрированной системы, проблемы, возникающие при её внедрении, и способы их решения. В статье также предлагаются предложения и рекомендации по развитию электронной каталоговой системы национальной электронной библиотеки.*

Ключевые слова: *Электронный каталог, каталог сотрудников, цифровой каталог, информационные технологии, обслуживание пользователей, инновационные решения, библиотечный каталог, виртуальная библиотека, библиотека исходных модулей.*

Gayibova Sayyora
Namangan State University
Department of Traditional Singing and
Instrumental Performance

ELECTRONIC CATALOG OF THE ELECTRONIC LIBRARY AND ITS ADVANTAGES.

Abstract: *This article discusses the theoretical and practical aspects of the formation of an automated and integrated information library system and its importance. The possibilities of digitizing library activities, creating a database, and providing users with fast and convenient information services are analyzed. The advantages of the integrated system, the problems encountered in its implementation, and their solutions are also discussed. The article also puts forward proposals and recommendations for the development of the electronic catalog system of the national electronic library.*

Keywords: *Electronic catalog, employee catalog, digital catalog, information technologies, user service, innovative solutions, librarian catalog, virtual library, library of initial modules.*

Kirish: Aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risidagi qarorda ko'rsatib o'tilganidek, axborot-kutubxona markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish, zamonaviy kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish amalga oshirilmoqda. Avtomatlashtirilgan, integrallashgan axborot kutubxona tizimini yaratish — bu

nafaqat texnik yangilanish, balki madaniyat va ilm-fan rivojidagi yangi bosqichdir. Mazkur maqolada ana shu tizimni shakllantirishning mohiyati, afzalliklari va amaliy yo‘nalishlari yoritiladi.

Asosiy qism

Kutubxonaga tashrif buyurgan kitobxon elektron kataloglar orqali o‘zlariga kerakli hujjatlarni qidirishi mumkin. Demak, kutubxona kataloglarining bosh vazifasi kutubxona fondini kitobxonga har tomonlama ochib berish, fondda saqlanayotgan millionlab kitoblar to‘g‘risida kitobxonga keraklisini izlashda yordam berishdan iborat. Kutubxona kataloglaridan samarali foydalana bilish, juda ko’p axborotlar orasidan keraklisini topishda katta ahamiyatga ega.

Kataloglarning nomlaridan ularning bajaradigan vazifalari ham ko‘rinib turibdi. Elektron katalog ana shu barcha kataloglar bajaradigan funksiyalarni qamrab olishi va bajarishi kerak.

Natijalar taxlili:

Elektron katalogning yaratilishi va imkoniyatlari

Elektron kutubxona oz ichiga elektron katalog, elektron shakldagi hujjatlar, kutubxonadan foydalanuvchilar togrisidagi malumotlar bazalarini oladi. Elektron kutubxona quyidagi vazifalarni bajaradi: Matnli, video, multiplikatsiya, multimediya, imetatsion modellashtirish tizimlari korinishidagi turli shaklda taqdim qilingan qimmatbaho talimiy va malumotnoma-axborot resurslariga keng qamrovli kirishni taminlaydi.

Elektron katalog yordamida kerakli axborotlarni tezlikda qidirib topish. Qidirish tezligi ananaviy katalogdan qidirishga qaraganda bir necha yuz marotaba tez bajaradi. Elektron katalog maxsus dasturlar yordamida yaratiladi.

Masalan: Bugungi kunda Respublikamizdagi ko’plab kutubxonalar KARMAT,UZNEYL dasturlaridan foydalanmoqdalar.

Bugungi kunda kutubxonalar zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta’minlanib, axborot resurslari markazlariga aylanib ulgurdi. Kutubxonalarda xizmat ko‘rsatish turlari ham keskin kengaydi: Internet tarmog‘idan foydalanish, axborot-tahliliy materiallarni jamlab berish, kutubxona kataloglarining elektron ko‘rinishi va to‘liq matnli ma’lumotlar bazalarini kitobxonlarga sifatli axborotni yetkazish shular jumlasidandir.Kerakli axborotni olish uchun yangi axborot texnologiyalaridan foydalanilganda manbalarni qidirib topish imkoniyati yuz martalab oshaishi foydalanuvchi bilimini oshishiga yordam beradi. Telekommunikatsiya vositalarini qo‘llash esa axborot manbaining qanday masofada turganidan qat’iy nazar unga tezkorlik bilan ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Bu yerda gap elektron katalogning kutubxonalarda avtomatlashtirish va tashkiliy-texnika vositalarini qo‘llash orqali ularni axborot resurslari markazlariga aylantirish haqida bormoqda. Bunday yangi turdagi kutubxonalar “elektron kutubxona”, “virtual kutubxona” singari nomlar bilan atalmoqda.

Zamonaviy elektron katalog yaratish murakkab va serxarajat jarayondir. U yuqori malakali kasb egalari: dastur tuzuvchilar, tizimchi texniklarni jalb qilishni, kutubxonachilarni qayta tayyorlashni taqozo etadi. Kutubxona formatlari, maxsus dasturlar va texnika vositalariga bag‘ishlangan maxsus adabiyotlar keng ko‘lamda chop etilgan.Kutubxonalarni avtomatlashtirish holati. Avtomatlashtirilgan kutubxona (AK) tizimlarining rivoji axborot texnologiyalarining umumiy rivojini o‘zida to‘liq aks ettiradi. Katalogdan ma’lumotlar qidirish, ma’lumotlarni saqlash jarayoni, kataloglashtirish parametrlarini tasniflash va boshqalar bir-biriga o‘xshash. Bularning hammasi kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish mumkinligini ko‘rsatadi. Ya’ni kutubxonadagi asosiy jarayonlar: ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, ishlov berish, qidirish va uzatishni to‘liq avtomatlashtirish mumkin.

Elektron katalogning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Kutubxona fondidan kerakli adabiyotlarni izlayotgan kitobxon masofadan tarmoq orqali katalogga kirishi mumkin. Bu esa kitobxonning vaqtini tejaydi.

2. An’anaviy kataloglarga qaraganda elektron katalogdan bibliografik tavsifning barcha elementlari bo‘yicha qidirish bir necha yuz marotaba tez.

3. Elektron kataloglar Internet orqali taqdim qilinganda undan foydalanuvchilar soni keskin ortadi va kutubxona fondini butun jahonga ko‘rsatish imkoniyatini yaratiladi.

4. An’anaviy kutubxona kataloglaridan foydalanish vaqti cheklangan. Elektron katalogdan foydalanish vaqti cheklanmagan. Kitobxon elektron katalogdan o‘ziga qulay paytda foydalanishi mumkin.

5. Elektron katalog avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimlarining asosiy qismlaridan biri hisoblanadi va fonddagi adabiyotlar to‘g‘risida ma’lumot berish, kitoblarga buyurtmalar berish, qaytarib olish va kutubxona statistikasini yuritishda asosiy rollardan birini o‘ynaydi.

6. Elektron katalogdan foydalanishda mantiqiy amallardan foydalanib qidirish farmoyishlarini tuzish imkoniyatining mavjudligi, kitobxon tomonidan izlanayotgan adabiyotlarni qidirish samarasining yuqori bo‘lishiga olib keladi.

Shunga qaramay elektron kataloglarni yaratish jarayonida hujjatlarni bibliografik tavsifni yaratishda,dastur elementlarini to’ldirishda xatoliklarga yo’l qo’yilmoqda. Bunday kamchiliklarga yo’l qo’ymaslik uchun,kutubxonachi

xodimlarni malaka oshirish kurslariga yuborish,ularni malakali mutahasislar qatoridan joy olishlariga erishish ishlari amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Xulosa

Shunday qilib, axborot telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi axborot resurs markazlari va kutubxonalarda elektron kataloglarning yaratilishiga olib keldi. Bu holat birinchidan kutubxonalar fondini foydalanuvchilarga taqdim qilish sifati va samarasini oshirgan bo'lsa, ikkinchidan olimlari, yozuvchilari, akademiklarining va barcha ilmiy ishlar bilan shug'ullanuvcha insonlarni asarlarini butun dunyoga ko'rsatish imkoniyatini yaratdi hamda barcha foydalanuvchilar uchun cheksiz imkoniyatlar yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.To'xtasinov B. *Axborot texnologiyalari va kutubxona ishi.* — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

2.Jo'raeva N. *Kutubxona ishini avtomatlashtirish: nazariya va amaliyot.* — Toshkent: O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2020.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi PF–6079-son Farmoni. *"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.*

4.Xoliqova D., Qodirova M. *Integrallashgan axborot tizimlarini boshqarish usullari.* — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti jurnali, 2021, №3.

5.*IFLA Digital Libraries Guidelines.* — International Federation of Library Associations and Institutions (IFLA), 2020.

6.Tashkenova N. *Modern library automation systems in Central Asia.* — *Information Development*, 2022.

7.Mirzayeva N. Axborot- kutubxona fondini shakllantirish.Uslubiy qo'llanma.Samarqand, 2023.-12b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Isayev Iqboljon Burxonjonovich
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar
instituti mustaqil izlanuvchisi
Renesans ta'lim universiteti dotsenti
iqboljon.isayev@mail.ru

OLIY SPORT MAHORAT BOSQICHIDAGI BELBOG'LI KURASHCHILARNING MUSOBAQA OLDI OPTIMALLASHGAN HAFTALIK MASHG'ULOT SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Maqolada oliy sport mahorati bosqichidagi belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi jarayonida haftalik mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda sportchilarning jismoniy, texnik-taktik va funksional tayyorgarligini musobaqa oldi davrida samarali boshqarish uchun mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish zarurligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *belbog'li kurash, mashg'ulot yuklamasi, optimallashtirish, tezkor-kuch sifatlari, maxsus chidamlilik, texnik-taktik tayyorgarlik, sport formasi.*

Исаев Икболджон Бурхонжонович
Независимый соискатель Научно-исследовательского
института физической культуры и спорта
Доцент Университета «Ренессанс Таълим»

ОПТИМИЗАЦИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЕЖЕНЕДЕЛЬНЫХ ПРЕДСОРЕВНОВАТЕЛЬНЫХ ТРЕНИРОВОК БОРЦОВ, ОБЛАДАЮЩИХ ПОЯСАМИ ЧЕМПИОНОВ, НА ВЫСОКОМ УРОВНЕ СПОРТИВНОГО ДУХА.

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы оптимизации недельной тренировочной нагрузки в предсоревновательный период у борцов по поясной борьбе, находящихся на этапе высшего спортивного мастерства. Обоснована необходимость научно обоснованного планирования тренировочного процесса для эффективного управления физической, технико-тактической и функциональной подготовленностью спортсменов в предсоревновательный период.*

Ключевые слова: *поясная борьба, тренировочная нагрузка, оптимизация, скоростно-силовые качества, специальная выносливость, технико-тактическая подготовка, спортивная форма.*

Isayev Iqboljon Burkhonjonovich
Independent Researcher of the Scientific Research
Institute of Physical Culture and Sports
Associate Professor at Renaissance Education University
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences.
iqboljon.isayev@mail.ru

Optimized pre-competition weekly training efficiency of belt wrestlers at the high level of sportsmanship

Annotation. The article examines the issues of optimizing weekly training loads during the pre-competition period for belt wrestlers at the stage of high sports mastery. The necessity of scientifically based planning of the training process for effective management of athletes' physical, technical-tactical, and functional preparedness during the pre-competition period is substantiated.

Keywords: belt wrestling, training load, optimization, speed-strength qualities, special endurance, technical-tactical training, sports form.

Kirish. Belbog'li kurash musobaqalarini kuzatish natijasida malakali belbog'li kurashchilar tomonidan bajarilgan yuqori mahoratni aks ettiruvchi harakat tayyorgarligi bo'yicha ham raqobat keskin oshib borayotganligi sababli musobaqa natijalarining o'sish ko'rsatkichlari to'g'risidagi obyektiv ma'lumotlarni tahlil qilish va shu asosda tayyorgarlikning turli jihatlarini optimallashtirish muammosi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Belbog'li kurash texnik usullar va jismoniy sifatlarni rivojlantirishning yangi vosita, metodlarida mashg'ulot davrlarda beriladigan

yuklama hajmi va shiddatini tartibga solishga qaratilmoqda. Musobaqa oldi tayyorgarligining asosiy maqsadi sportchini optimal sport formasiga olib kelish, ortiqcha charchoqni kamaytirish va musobaqada yuqori natija ko‘rsatishga sharoit yaratishdir. Shu jarayonda mashg‘ulotlar hajmi odatda biroz kamaytiriladi, lekin intensivlik saqlab qolingan holda olib boriladi.

Tadqiqot maqsadi:

Oliy sport mahorati bosqichidagi belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi davrida haftalik mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish.

Tadqiqot tashkil etish usullari:

Tadqiqot jarayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa so‘rovnomasi o‘tkazish, pedagogik testlash, pedagogik tajriba tashkil etish hamda olingan natijalarni matematik-statistik usullar asosida qayta ishlash kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi..

Tadqiqotni tashkillashtirish:

Pedagogik tadqiqotda Respublikamizning turli viloyatlaridan ikki yuzga yaqin oliy sport mahorati bosqichidagi belbog‘li kurashchilar ishtirok etdilar. Tadqiqot ishtirokchilari teng sonli guruhlarga ajratilib, har bir guruhda musobaqa oldi tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulot jarayonlari tashkil etildi.

Nazorat guruhida mashg‘ulotlar an’anaviy uslub asosida olib borilgan bo‘lsa, tajriba guruhida musobaqa oldi davr uchun optimallashgan haftalik mashg‘ulot mikrotsikli qo‘llanildi. Mashg‘ulotlar jarayonida yuklama hajmi va intensivligi, maxsus chidamlilik, tezkor-kuch sifatlari hamda texnik-taktik harakatlarni takomillashtirishga qaratilgan mashqlar tizimli ravishda bajarildi.

Tadqiqot davomida sportchilarning jismoniy, texnik-taktik va funksional tayyorgarlik ko‘rsatkichlari muntazam kuzatilib, mashg‘ulotlar samaradorligi tahlil qilindi. Olingan natijalar guruhlar kesimida taqqoslanib, musobaqa oldi optimallashgan mashg‘ulot dasturining samaradorligi ilmiy jihatdan baholandi.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi:

Olib borilgan pedagogik tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, musobaqa oldi tayyorgarlik jarayonida mashg‘ulot yuklamalarini to‘g‘ri rejalashtirish sportchilarning sport formasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida nazorat va tajriba guruhlarida olingan natijalar o‘zaro taqqoslanib, musobaqa oldi optimallashgan haftalik mashg‘ulot mikrotsiklining samaradorligi baholandi.

1-jadval

Belbog‘li kurashchilar musobaqa oldi tayyorgarlik mashg‘ulotlarni xaftalik optimalashtirilgan dastur

T/r	Hafta kunlari	Hafta davomida olib boriladigan mashg‘ulot mavzulari va ularni bajarilishi		Mashg‘ulot o‘tiladigan kun qismi	Mashg‘ulot vaqti (soat)
1.	Ertalabgi badantarbiya	Toza xavoda aylanish	jamoa bilan	6:30 dan 7:00	30-daq
	Dushanba ertalabgi mashg‘ulot	Belbog‘li kurashda ilib tashlash usulini hujum harakatlarida ishlash.	sherik bilan	10:00 dan 12-15 gacha	90-daq 45-daq
	Dushanba kechgi mashg‘ulot	Belbog‘li kurashda ilib tashlash usulini qarshi hujum harakatlarida ishlash.	yakka holda	16:00 dan 18:15 gacha	60-daq 75-daq
	Kechki sayr	Kechki sayr	jamoa bilan	19:30 dan 19:45	15-daq
2.	Ertalabgi badantarbiya	Toza xavoda aylanish	jamoa bilan	6:30 dan 6:45	15-daq
	Seshanba ertalabgi mashg‘ulot	Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol) Jismoniy sifatni rivojlantiruvchi mashqlar	jamoa bilan	10:00 dan 11:00 gacha	80-daq 55-daq
	Seshanba kechki mashg‘ulot	Belbog‘li kurashda to‘sib tashlash usulini hujum va qarshi hujum harakatlarida ishlash.	sherik bilan	16:00 dan 18:15 gacha	135 daq.
	Kechki sayr	Kechki sayr	jamoa bilan	19:30 dan 19:45	15-daq
	Ertalabgi badantarbiya	Toza xavoda aylanish	jamoa bilan	6:30 dan 6:45	15-daq
	Chorshanba	Belbog‘li kurashda qaytarib		10:00 dan 12:15	90-daq 45-

3.	ertalabgi mashg‘ulot	tashlash usulini hujum harakatlarida ishlash.	jamoa bilan	gacha	daq
	Chorshanba kechki mashg‘ulot	Tiklanish tadbirlari (sauvna, muzli vanna, suvli massaj, massaj, v.x)	jamoa bilan		
	Kechki sayr	Kechki sayr	jamoa bilan	19:30 dan 19:45	15-daq
4.	Ertalabgi badantarbiya	Toza xavoda aylanish	jamoa bilan	6:30 dan 6:45	15-daq
	Payshanba ertalabgi mashg‘ulot	Belbog‘li kurashda ko‘krakdan oshirib tashlash usulini hujum harakatlarida ishlash	yakka holda	10:00 dan 12:15 gacha	60-daq 75-daq
	Payshanba kechgi mashg‘ulot	Belbog‘li kurashda ko‘krakdan oshirib tashlash usulini qarshi hujum harakatlarida ishlash.	jamoa bilan	16:00 dan 18:15gacha	90-daq 45-daq
	Kechki sayr	Kechki sayr	jamoa bilan	19:30 dan 19:45	15-daq
5.	Ertalabgi badantarbiya	Toza xavoda aylanish	jamoa bilan	6:30 dan 6:45	15-daq
	Juma Ertalabki mashg‘ulot	Belbog‘li kurashda yonboshdan tashlash usulini hujum harakatlarida ishlash	sherik bilan	10:00 dan 11:30 gacha	135-daq
	Juma kechgi mashg‘ulot	Belbog‘li kurashda yonboshdan tashlash usulini qarshi hujum harakatlarida ishlash	jamoa bilan	16:00 dan 18:15 gacha	135-daq
	Kechki sayr	Kechki sayr	jamoa bilan	19:30 dan 19:45	15-daq

Nazorat guruhida mashg‘ulotlar asosan an’anaviy metodika asosida tashkil etildi. Ushbu guruh sportchilarida mashg‘ulot yuklamalari umumiy reja asosida olib borilgan bo‘lib, yuklama hajmi va intensivligi aniq optimallashtirilmagan holda qo‘llanildi. Natijada sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, tezkor-kuch sifatlari hamda maxsus chidamlilik ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘sish kuzatilmadi. Texnik-taktik harakatlarni bajarish jarayonida ham ayrim kamchiliklar saqlanib qoldi. Jumladan, texnik usullarni bajarish tezligi, aniqligi hamda bellashuv davomida harakatlar barqarorligi o‘rtacha darajada qayd etildi. Bu esa musobaqa oldi davrida mashg‘ulot yuklamalarini ilmiy asosda optimallashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Tajriba guruhida esa musobaqa oldi davri uchun ishlab chiqilgan optimallashgan haftalik mashg‘ulot mikrotsikli asosida mashg‘ulotlar olib borildi. Ushbu metodika doirasida mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va intensivligi maqsadli ravishda me’yorlashtirildi, mashg‘ulotlar tarkibiga tezkor-kuch mashqlari, maxsus chidamlilikni rivojlantiruvchi mashqlar hamda texnik-taktik harakatlarni takomillashtirishga qaratilgan mashqlar keng kiritildi. Shuningdek, mashg‘ulot jarayonida tiklanish vositalaridan foydalanish, mashg‘ulotlar oralig‘idagi dam olish vaqtini to‘g‘ri taqsimlash hamda model bellashuvlarni o‘tkazish orqali sportchilarning funksional holatini optimal darajada ushlab turishga alohida e’tibor qaratildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi sportchilarning tezkor-kuch sifatlari, maxsus chidamlilik darajasi hamda texnik usullarni bajarish samaradorligi sezilarli darajada yaxshilandi. Sportchilar texnik harakatlarni yanada tez, aniq va samarali bajarish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bellashuv jarayonida esa ular yuqori harakat faolligini namoyon etib, musobaqa davomida barqaror funksional holatni saqlab qolishlari kuzatildi. Shuningdek, tajriba guruhidagi sportchilar musobaqa modeliga yaqin sharoitlarda o‘tkazilgan nazorat bellashuvlarida ham yuqori natijalarni qayd etdilar. Ularning taktik harakatlari ancha puxta bo‘lib, raqib harakatlariga tezkor javob qaytarish, hujum va qarshi hujum usullaridan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari yaxshilandi.

Bu esa optimallashgan haftalik mashg‘ulot dasturining sportchilarning umumiy tayyorgarlik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, musobaqa oldi davrida mashg‘ulot yuklamalarini ilmiy asosda optimallashtirish, mashg‘ulot hajmi va intensivligini to‘g‘ri taqsimlash hamda maxsus mashqlar kompleksini qo‘llash sportchilarning jismoniy, texnik-taktik va funksional tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bois ishlab chiqilgan optimallashgan haftalik mashg‘ulot mikrotsiklini belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi jarayonida qo‘llash samarali hisoblanadi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy sport mahorati bosqichidagi belbog‘li kurashchilarning musobaqa oldi tayyorgarligida mashg‘ulot yuklamalarini to‘g‘ri rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Musobaqa oldi davrida mashg‘ulot hajmi va intensivligini me’yorlash, tezkor-kuch sifatlari va maxsus chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni qo‘llash sportchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish hamda mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etish sportchilarning sport formasini yaxshilashga va musobaqalarda samarali ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – Москва: Физкультура и спорт, 2008.

2.Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. – Киев: Олимпийская литература, 2015.

3.Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. – Москва: Советский спорт, 2013.

4.Озолин Н.Г. Настольная книга тренера. – Москва: АСТ, 2004.

5.Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти. – Тошкент: O‘quv qo‘llanma, 2010.

6.Артиқов З.С. Спорт машғулотлари назарияси ва методикаси. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2018.

7.Bompa T., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Champaign: Human Kinetics, 2019.

8.Issurin V. Block Periodization: Breakthrough in Sport Training. – London: Ultimate Athlete Concepts, 2016.

9.Stone M., Stone M., Sands W. Principles and Practice of Resistance Training. – Champaign: Human Kinetics, 2007.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ruzimatov Islomjon Erkuziyevich
Qo‘qon davlat universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrasi p.f.b.f.d (PhD)
Email: islomjonruzimatov@gmail.com

KO‘P YILLIK TAYYORGARLIKDA BOSQON ULOQTIRUVCHILARNI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINING O‘ZIGA XOS AHAMIYATI

Annotasiya. *Ushbu maqolada ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichida sport maktablaridagi uloqtiruvchilarni texnikasini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mashg‘ulotlar va xaftalik mashg‘ulotlarini tashkil etish xaqida ma’lumotlar keltirilgan. Bu ma’lumotlarda bosqon uloqtiruvchilarni mashg‘ulot jarayonida texnikasini takomillashtirish, musobaqa jarayonida yuqori natijaga erishish uchun maxsus mashqlar majmuasi va mashg‘ulot jadvalidan keng foydalanilagan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy yuklama, jismoniy mashqlar, tiklovchi mashqlar, maxsus mashqlar, tezkor-kuch, maxsus chidamlilik mashqlari, tezkorlik, mashg‘ulot rejasi, uloqtirish.*

Рузиматов Исломжон Еркузиевич
Кокандский государственный университет
Кафедра физической культуры p.f.b.f.d (PhD)

ПРОВЕДЕНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКИ СПОРТСМЕНОВ НА ЭТАПЕ СПОРТИВНОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Аннотация. *В данной работе представлена информация об организации тренировочных занятий, направленных на развитие и совершенствование техники толкания ядра в спортивных школах. В работе широко используется комплекс специальных упражнений для улучшения техники толкания ядра во время тренировок и достижения высоких результатов на соревнованиях.*

Ключевые слова: *физическая нагрузка, физические упражнения, восстановительные упражнения, специальные упражнения, скоростно-силовые упражнения, специальные упражнения на выносливость, скорость, план тренировок, метание.*

Ruzimatov Islomjon Erkuziyevich
Kokand State University
Department of Physical Culture PhD

THE INDIVIDUAL IMPORTANCE OF FUNCTIONAL READINESS OF JOINT JOINTS, WHICH HAS BEEN TREATED OVER MANY YEARS OF PREPARATION

Annotation. *This article presents information on the organization of training and weekly training sessions aimed at developing and improving the technique of throwers in sports schools during the multi-year training phase. This information widely uses a special set of exercises and a training schedule to improve the technique of throwers during training and achieve high results during the competition.*

Keywords: *physical load, physical exercises, recovery exercises, special exercises, speed-strength, special endurance exercises, speed, training plan, throwing.*

Mavzuning dolzarabligi. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni, ayniqsa, bolalar sportini ilmiy asosda rivojlantirish va uning tashkiliy asoslarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yosh avlodning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishini oshirish va slalomda eshkak eshish sportiga keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu sport turida sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va zahira sportchilarni yetishtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, ko‘p yillik tayyorgarlikning har bir bosqichida mashg‘ulot

yuklamalarini to‘g‘ri me’yorlashtirish, har bir sportchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg‘ulot jarayonlarini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son farmoni, 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5279-son qarori, ushbu sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda mazkur dissertatsiya tadqiqoti asosiy maqsadlarga muvofiq ravishda xizmat qiladi.

Funksional tayyorgarlik – bu sportchining ichki tizimlari (yurak-qon tomir, nafas olish, mushak va nerv tizimi)ning yuqori yuklamaga moslashish qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ko‘p yillik sport tayyorgarligida aynan funksional baza yuqori natijaning poydevori hisoblanadi. Bosqon uloqtirish bu murakkab koordinasion va tezlik- kuch talab etdigan sport turi bo‘lib, u olimpia o‘yinlar dsturiga kiritilgan. Bosqon uloqtirish 3–4 aylanish va yakuniy chiqarish fazasidan iborat. Bosqon uloqtirishda harakat zanjiri quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Oyoq – son- bel- yelka- qo‘l skelet muskullari katta ahamiyatga ega.

Agar mushaklar orasidagi kuch uzatish zanjiri mukammal shakllanmasa uloqtirish texnikasida xatolar paydo boladi. Bu xatolar 1.Tezlik yo‘qoladi, 2.Uloqtirish masofasi kamayadi, 3.Texnika buziladi.

Shu maqsadda ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichidagi bosqon uloqtiruvchilarni jisminiy tayyorgarligi va funsional xolatini bilish maqsadida tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotlar sport takomillashuv bosqichidagi sportchilarda antropomenrik ko‘rsatkishlar orqli amalga oshirildi.

Sport takomillashuv bosqichidagi sportchilarini tadqiqot boshi jismoniy rivojlanishini funksional ko‘rsatkichlari (n=12)

T/r	Sportchilarni F.I.Sh	Tana uzunligi (sm)	Vazni (kg)	Ko‘krak qafasi aylanasi (sm)		
				Tinch xolatda	Nafas olganda	Nafas chiqarganda
1	A-v N	176	73	96	108	92
2	D-v A	174	72	88	95	83
3	I-v U	177	77	86	98	82
4	F-v O	171	72	90	94	88
5	G-v O	170	70	123	146	120
6	H-v U	173	74	105	135	97
7	S-v A	172	81	114	120	101
8	B-v K	173	79	106	110	96
9	T-v I	174	73	112	131	106
10	T-v-X	170	71	87	115	77
11	K-v T	171	79	102	108	94
12	L-v Z	174	70	90	110	81
$\overline{X}$		172,92	74,23	99,92	114,15	93,08
σ		2,14	3,63	11,76	15,58	11,67

Izoh1**: **TB- tadqiqot boshi. $\overline{X}$ - o‘rtacha arifmetik qiymati, σ – standart o‘g‘ishi.

Tadqiqot o‘tkazilgan sportchilarini funksional ko‘rsatkichlarini tadqiqot boshida quyidagicha natijalar olindi.

Tadqiqot o‘tkazilgan sportchilarining tana uzunligi tadqiqot oldi o‘rtacha 172,92±2,14 sm.ni ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqot oldi sportchilarning o‘rtacha tana vazni 74,23±3,63 kg.ni tashkil qildi. Ko‘krak qafasi aylanasi tinch holatda tajriba guruhi sportchilarida tadqiqot oldidan o‘rtacha 99,92±11,76 sm. ekanligi kuzatilgan bo‘lsa, ko‘krak qafasi aylanasi nafas olganda tadqiqot oldi o‘rtacha 114,15±15,58 sm.ni tashkil etganligi kuzatildi. Tadqiqot boshi ko‘krak qafasi aylanasi nafas chiqarganda o‘rtacha 93,08±11,67 sm.ni tashkil qilganligini tadqiqt boshi natijalarini ko‘rishimiz mumkin. Uloqtiruvchilarni mashg‘ulot jarayonida jismoniy va funksional rivojlanishi muhim bo‘lgan omillarga bog‘liq.

Sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi tuzilishini aniqlovchi asosiy omillar sportchi organizmining o‘sishi va rivojlanishining yoshga bog‘liq fiziologik bosqichlari, adaptiv jarayonlarning shakllanish qonuniyatlari hisoblanadi.

Ko‘p yillik tayyorgarlik quyidagilarni hisobga olishi kerak:

1. Eng yuqori yuklamalar hajmini sportchining optimal yoshida individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda yaqinlatirish.

2. Morfofunksional rivojlanishdagi nomutanosiblik, endokrin tizimning keskin qayta tuzilishi, sport natijalari barqarorligining pasayishi, jismoniy mashqlardan keyin tiklanish jarayonlarining sekinlashishi bilan kechadigan rivojlanishning pubertal davridagi mashg‘ulot jarayonini diqqat bilan rejalashtirish.

3. Erta sport ixtisoslashuvi, odatda, sport bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qiziqishning pasayishiga, yuqori sport natijalari sportini tark etishga sabab bo‘ladi.

4. Mashg‘ulot jarayonining faollashishi sport yutuqlarining tez o‘sishiga olib keldi va shu bilan birga sportchilarning eng yuqori saviyada chiqishlari muddatini qisqartirdi.

5. Individual yosh rivojlanishini hisobga olgan holda yuklarning hajmi va intensivligini optimallashtirish zarurati.

6. Sportchi tanasining emotsional, aqliy, funksional va jismoniy charchashiga olib keladigan “ijobiy” va “salbiy stereotiplarning” namoyon bo‘lishini hisobga olish zarurati. Organizmning emosional – ruhiy, funksional va jismoniy zaiflashishiga olib keluvchi “ijobiy” va “salbiy streotiplarining” ko‘rinishini hisobga olish zarur. Shuni hisobga olgan xolatda bosqon uloqtiruvchilarni yillik tayyorgarlik bosqichlarini inobatga olib xaftalik mashg‘ulot jadvallarini ishlab chqildi. Bu esa ko‘p yillik tayyorgarlik mashg‘ulot jarayonida bosqon uloqtiruvchilarni funksiyanal tayyorgarlk darjasini yaxshilaydi va uloqtirish natijalarini samaradorligini oshiradi. Biz ishlab chiqqan tayyorgarlik bosqichlariga mos keladigan xaftalik mashg‘ulor muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan mashqlar va xaftalik mikrozikladagi mashg‘ulot jadvallari sport takomillashuv bosqihidagi bosqon uloqtiruvchilarda qo‘llalanildi. Natijada sport takomillashuv bosqihidagi bosqon uloqtiruvchilarda qayta tadqiqot o‘tkazilganda sportchilardagi funksional holatni rivojlanganligi ko‘rishimiz mumkin.

Sport takomillashuv bosqichidagi sportchilarini tadqiqot oxirida jismoniy rivojlanishini funksional ko‘rsatkichlari (n=12)

Sportchilarni F.I.Sh		Tana uzunligi, (sm.)		Tana vazni, (kg.)		Ko‘krak qafasi aylanasi, (sm)					
						Tinch holatda		Nafas olganda		Nafas chiqarganda	
		TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO
1	A-v N	176	178	73	76	96	100	108	110	92	96
2	D-v A	174	176	72	74	88	91	95	96	83	86
3	I-v U	177	178	77	80	86	88	98	101	82	85
4	F-v O	171	172	72	75	90	93	94	97	88	91
5	G-v O	170	171	70	73	123	130	146	149	120	125
6	H-v U	173	175	74	78	105	110	135	140	97	102
7	S-v A	172	173	81	87	114	118	120	129	101	104
8	B-v K	173	179	79	83	106	114	110	115	96	101
9	T-v I	174	175	73	77	112	118	131	136	106	102
10	T-v-X	170	172	71	74	87	92	115	121	77	82
11	K-v T	171	172	79	83	102	106	108	110	94	100
12	L-v Z	174	175	70	74	90	95	110	113	81	86
$\overline{X}$		172,92	174,89	74,23	77,41	99,92	108,35	114,15	127,61	93,08	103,38
Σ		2,14	2,50	3,63	4,02	11,76	12,41	15,58	17,07	11,67	13,15
V, %		1,24	1,43	4,89	5,19	11,77	11,45	13,65	13,38	12,54	12,72

Izoh: TB- tadqiqot boshi, TO – tadqiqot oxiri

Yetarli uyqu (8–10 soat) , To‘g‘ri ovqatlanish , Massaj, Sauna , Faol dam olish, Psixologik bo‘shashish mashqlari.

Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichid tiklovchi vositalarni to‘ri tashkil etmaslik

Ortiqcha charchshga, immunitet pasayishiga va jaroxat xafini ortishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda. Inson yoshiga bog‘liq tananing o‘sishi va rivojlanish qonuniyatlari uzoq muddatli tayyorgarlik bosqichlarini belgilaydi. Iqtidorli sportchi ko‘p yillik mashg‘ulot bosqichlarini tezroq bosib o‘tadi.

Ko‘p yillik mashg‘ulotlar bosqichlari qat’iy ketma-ketlikka, vazifalar ketma-ketligiga, yuklarni bosqichma-bosqich oshirishga va tanlangan sport turi bo‘yicha mutaxassislikni rivojlantirishga ega. Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarining maqsadi: sportchining sportga yaroqliligini, yuqori natijalarga erishish qobiliyatini, iqtidorini va qobiliyatini aniqlash; sportchining motivatsiyasini tarbiyalash, rivojlantirish va takomillashtirish, eng yuqori sport natijalariga erishishga intilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son farmoni.

2.2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5279-son qarori.

3.O‘quv uslubiy majmua “Sport mshg‘ulotlari narayasi va metodologiyasi” 2026 y.

4. I.E.Ruzimatov. Dissertasiya “Sport takomillashuv bosqichida bosqon uloqtiruvchilarni texnik tayyorgarlik samaradorligini oshirish”

5.Ruzimatov I.E. Talab Mamadaliyeva N.F “Bosqon uloqtirish texnikasining samaradorligini belgilovchi omillar” “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolar, yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. Chirchiq, 2023. - B. 268-270.

6.Ruzimatov I.E., Inomov F.U. “Maksimal shiddatli siklik mashqlarga bosqon uloqtiruvchi sportchilar harakat aparatining funksional moslashuvi” // “Mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida jismoniy madaniyat mutaxassislarini kasbiy nazariy va amaliy tayyorligini takomillashtirish” mavzusidagi xalqro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Fargona, 2023. - B.302-305

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Isabekov Shuhratjon Muhammadjonvich
Namangan davlat universiteti Jismoniy tarbiya va
amaliy sport turlari kafedrasi dotsent
muhammadjonovibrohim1@gmail.com

TALABALARDA TURIZMNING VA SPORT TURLARIGA OID KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA TAJRIBA SINOV NATIJALARINING KO‘RSATKICHI

Annotatsiya. *Maqola tugarak talabalarda turizmning va sport turlariga oid ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘ziga xos xussiyatlari maxsus jismoniy tayyorgarligini tahlili o‘smirlarni jismoniy rivojlanishi ko‘rsatkichlari shakllantirishda pedagogik texnologiya va uning uslublari keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *mashg‘ulotlariga, funktsional, tayyorgarligini, xos xussiyatlari, maxsus, jismoniy, tayyorgarligini, tahlili, o‘smir, shakllantirishda, pedagogik texnologiya uslub.*

Исабеков Шухратжон Мухаммаджонвич
Наманганский государственный университет,
кафедра физического воспитания и прикладных видов спорта, доцент

ПОКАЗАТЕЛЬ РЕЗУЛЬТАТОВ ОПЫТА ПРОВЕРКИ ФОРМИРОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ И СПОРТИВНЫХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В конце статьи широко освещены педагогическая технология и ее методы в формировании показателей физического развития подростков, анализе особенностей туристско-спортивных навыков у учащихся.*

Ключевые слова: *обучение, функциональный, тренировка, характеристики, специальный, физический, тренировка, анализ, подросток, формирование, педагогическая технология, стиль.*

Isabekov Shuhratjon Muhammadjonvich
Namangan State University,Associate Professor of the
Department of Physical Education and Applied Sports

INDICATORS OF EXPERIENCE TEST RESULTS IN FORMING SKILLS RELATED TO TOURISM AND SPORTS IN STUDENTS

Annotation. *The article comprehensively covers the specific characteristics of special physical training in the formation of tourism and sports skills in students, the analysis of pedagogical technology and its methods in the formation of indicators of physical development of adolescents.*

Keywords: *training, functional, preparation, specific characteristics, special, physical, preparation, analysis, adolescent, formation, pedagogical technology method.*

Mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda jahon mamlakatlarida sportning yekstremal va dam olish turini rivojlantirish borasida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunday bo‘lsada, zamonaviy talablar va qo‘llab-quvvatlashni talab qiluvchi yana qator yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, paraplanizm, deltaplanerizm, aeronavtika, kichik aviatsiya, tog‘ turizmi, veloturizm, skayranning, mototurizm, avtoturizm kabilar shular jumlasidandir. Ammo, bu boradagi tahlillar yekstremal turizm yo‘nalishida tabiatni, geotizimlarni o‘rganish, tabiatning yekstremal sharoitlarida inson guruhini boshqara olish, yekstremal turizmni rivojlantirish istiqbollari, tabiat qonuniyatlari va geotizimlar barqarorligi bilan bog‘liq holda shakllantirishning dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

O‘quv jarayonining nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikma hosil qilish, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarning ma’lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo‘yicha materiallar to‘plash uchun o‘tkaziladigan bir qismi bo‘lib, bugun oliy ta’lim tizimida kadrlar sifatini oshirish uchun nazariy ta’lim jarayonini amaliyot bilan bog‘lash, talabalar

bilimini yashovchanligini oshirish, ularni ishlab chiqarishga tayyor yetuk malakali kadr sifatida yuborish dolzarb masalaga aylangan.

Adabiyotlar tahlili. Nigmatov A.N., Kamolov B.H. (2017) larning fikriga kura modulli texnologiya yirik modullarni loyihalashtirishdan boshlanadi. Buning uchun, bitta katta mavzu yoki bo‘lim tanlab olinadi va yirik modullarga tizimli ravishda ajratiladi. So‘ngra ajratilgan har bir yirik modul bo‘yicha uning o‘zigagina taalluqli bo‘lgan faoliyatning mazmuni va ta’sir doirasi aniqlanadi hamda shu asosda modulli texnologiyaning maqsadi belgilanadi. Yirik modullardan foydalanishni amalga oshirish hamda bu modullarni o‘zlashtirishda oddiydan murakkabga qarab borish, ushbu texnologiyaning samaradorligini ta’minlaydi [4; 15-22 b].

Salomov R.S takitlashicha har bir yirik modul o‘z tarkibiga boshqa bo‘laklarga bo‘linmaydigan kichik modullarni qamrab oladi. Modulli dasturda har bir kichik modulning didaktik maqsadi, mavzuni o‘rganish bosqichlari, talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan o‘quv materiali yuzasidan torshiriqlar, uni bajarishga oid ko‘rsatmalar, talabalar bilimini nazorat qilish va baholash yo‘llari ketma-ket bayon yetiladi. Modulli o‘qitish jarayonida O‘quvchi o‘zini boshqarish, mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash, o‘rtoqlari hamda o‘qituvchiga murojaat qilish va o‘z vaqtini taqsimlashni o‘rganadi [6; 85-b].

Tadqiqotning maqsadi. Bu borada 1 va 2 bosqich talabalarini o‘quv dala amaliyotiga yuborish, fanlardan olingan nazariy bilimlarni dala sharoitida amaliy o‘rganishlar orqali mustahkamlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Natijalar muhokamasi. Bu borada 1 va 2 bosqich talabalarini o‘quv dala amaliyotiga yuborish, fanlardan olingan nazariy bilimlarni dala sharoitida amaliy o‘rganishlar orqali mustahkamlash, tabiiy muhit sharoitida o‘rganish, aniqlash va ulardan keyinchalik foydalanish uchun amaliy ko‘nikmalarini oshiradi.

O‘quv dala amaliyoti 1 kurs talabalari uchun 4 xafta (72 soat), 2 kurs talabalari uchun 4 xafta (72 soat) xajmida bajariladi.

Talabalarning havfsizligi va sog‘ligini doimiy nazorat qilish uchun ichki ishlar organlari hamda sog‘liqni saqlash muassasalari xodimlari biriktiriladi.

Talabalarning madaniy hordiq chiqarishini ta'minlash maqsadida turli badiiy va ko‘ngilochar tadbirlar uyushtirilishi rejalashtiriladi. Dala amaliyotini tashkil yetishda tegishli modullar ishlab chiqiladi.

Modul – bu tayansh o‘quv reja tarkibidagi o‘quv fanlari, dasturlar, amaliy, yutuq va kamshiliklarini baholash jarayoniga tayangan bo‘lib, bunda u individual reja asosida to‘liq yoki qisman mustaqil ishlaydi.

Modulli tajribalar, bilim va ko‘nikmalarning yig‘indisi bo‘lib, talabalarning aniq ish bajarishiga yordam beradi. Modulli texnologiya an’anaviy ta’lim berish jarayoniga muqobil tarzda vujudga kelgan, u pedagogika nazariyasi va amaliyotidagi to‘plangan barcha tajribalarni ta’lim jarayonida hamda rivojlantiruvshi metodlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

O‘quv jarayonida modul tizimi o‘zgarmas bo‘lib, har bir modul o‘ziga tegishli kichik maqsadni ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirishda yesa tegishli sharoit uchun yeng ma’qul deb torilgan yo‘llar, usullar, vositalardan foydalanish ko‘zda tutiladi. Demak, modulda belgilangan maqsadni o‘zgartirmagan holda uni to‘liq amalga oshirishni ta’minlovshi, o‘zaro farq qiluvshi turli yo‘llar, usullar, vositalar qo‘llanilishi mumkin. Jumladan, biror bir fikrni tushuntirish jarayonini bir modul yordamida hisoblash ham yoki bu jarayonni bir neshta bo‘laklarga ajratib, ularning har birini alohida modullar deb hisoblash ham, shuningdek, bitta yemas, bir neshta o‘zaro bog‘liq fikrlarni tushuntirish jarayonini bir butun holda bitta modul deb hisoblash ham mumkin. Modulli o‘qitish jarayoni o‘quv predmetining mavzulari bilan mos kelishi lozim. Lekin an’anaviy o‘qitish usulidan farqli o‘laroq, modulli o‘qitish jarayonida O‘quvchilarning barcha faoliyati (avval o‘tilgan mavzularning o‘zlashtirilganligi, torshiriqlarni bajarilishi, darsdagi ishtiroki va faolligi, ijodkorligi, darsning kirish bosqichidan yakunlovshi xulosaga qadar bo‘lgani ta’lim-tarbiya darajasi inobatga olinib, baholanadi. Modul harakteriga yega bo‘lgan o‘quv jarayoninigina samaradorligini baholash, natijasini o‘lchash mumkin

Birinchi kichik modulning maqsadi o‘tilgan mavzuni talabalar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini og‘zaki savol javob yordamida aniqlash, baholash va ularni mustaqil vazifalarni bajarishga o‘rgatishdan iboratdir. Har bir talabaga yangi mavzu bo‘yicha tuzilgan modul dasturi hamda alohida tarqatma materiallari tarqatiladi.

Torshiriqni bajarishdan avval talabalar guruhlarga ajratiladi. Yangi mavzu bo‘yicha ularga tarqatma material berilib, modulning didaktik maqsadi bilan tanishtiriladi. Talabalar tarqatma materialda berilgan yangi mavzuni diqqat bilan o‘qib, modulda berilgan savollarga guruhdagi talabalar bilan hamkorlikda javob torishlari lozim. Har bir guruh a’zolari bilan alohida savol javob o‘tkazilib, o‘qituvchi va talabalar javoblaridagi kamshiliklarni to‘ldiradi va o‘z vaqtida baholash mezoni asosida o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

Uchinchi kichik modul ijodiy fikrlachini takomillashtirish, yozma nutqini o‘stirishni o‘z ishiga oladi. Oliy ta’limning tabiiy fan sohasidagi talablari tarqatma materialda berilgan matndan Nima? Nimalar?, Kim? Kimlar?

so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni torib berilgan ko‘rsatma katakshalariga bu torshiriqni mustaqil bajarishlari kerak bo‘ladi.

To‘rtinshi kichik modulning maqsadi amaliyot davrida jamoa bo‘lib harakat qilish, ularda torqirlik, izlanuvshanlik xislatlarini shakllantirish, tabiat va atrof muhitga oid mavzulardagi torshiriqlarni bajarish ko‘nikmasini hosil qilishdan iboratdir. Guruhdagi talabalar hamkorlikda modulda berilgan mavzudagi krossvordni torshiriq sifatida o‘z vaqtida bajarish holatlari pedagog xodim tomonidan nazorat qilinadi. Torshiriqlar yuzasidan bahs munozara o‘tkaziladi. Amaliyot o‘qituvchisi talabalar tomonidan bajarilgan torshiriqlarni kamshiliklarini to‘ldirib, tegishli ko‘rsatmalar berib, ularni baholaydi.

Bechinshi kichik model yangi mavzu yuzasidan nazariy bilimlarni mustahkamlash yuzasidan test savollari yordamida talabalar bilimini aniqlash uchun talabalarda mustaqil va ijodiy ishlar ko‘lamini takomillashtirishni o‘z ishiga qamrab oladi. Guruhdagi talabalar hamkorlikda modulda berilgan test savollarining to‘g‘ri javobini belgilashlari kerak. Amaliyot o‘qituvchisi tomonidan talabalarni bilim olish olingan javoblari yuzasidan munozaraga yo‘llaydi, javoblardagi kamshiliklarni tuzatib, talabalarni baholab boradi. Yakunlovshi kichik modul. Bunda talabalar modul dasturi haqida o‘z fikrlarini bayon yetadilar, talabalar modulda ko‘zlangan maqsadga qay darajada yerishganliklari, o‘quv materialni ruhta o‘zlashtirishlari uchun ularga nima yordam berganligi haqida o‘z fikrlarini bildiradilar va bahs munozara qiladilar. Modul tizimining yakuniy qismida talabalarga o‘quv reja asosida o‘tilgan har bir mavzuga oid uy vazifalari beriladi. Bunday modulni o‘quv jarayonida maqsadli foydalanish natijasida:

- nazariy bilimlar asosidagi maqsadni aniq bo‘lishiga yerishish;
- tabiiy fan sohasidagi talabalar tomonidan bajarilgan torshiriqlar; o‘z vaqtida baholab boriladi;
- talabalarning mustaqilligi va ijodkorligi boyitiladi;
- talabalarda bir biriga hurmat va ye’tibor hissi paydo bo‘ladi.

Talabalarga bilim shaklida taqdim qilingan ta’lim modullari jamiyat a’zolarining ijtimoiy tajribasida sinovdan o‘tgan bilimlarga tayangan holda umumta’lim maktab O‘quvchilariga nisbatan rivojlantiruvshi harakter kasb yeta oladi. Talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan mavzular asosida olingan bilimlarni o‘zida mujassamlantirgan ta’lim moduli muayyan bir pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi. Tabiiy fan sohasida ta’lim olayotgan talabalarga nazariy bilim berishga yo‘naltirilgan modulli texnologiyalarni o‘z maqsadiga ko‘ra tanlanishi, sohaga oid bilim, atama va tushunchalarni turli shakldagi o‘quv-biluv jarayonida taqdim yetilgan bilim va tushunchalarni jadal o‘zlashtirish imkoniyati tug‘iladi.

O‘quv dala amaliyotiga oid bilimlarga intellektual, hamda amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, o‘rganilayotgan sohaga oid bilimlarga nisbatan talabalarda ijobiy munosabat va qiziqishning hosil bo‘lichini ta’minlaydi. Tushunshalarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari talabalarning o‘zini bilim va tushunshalarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini boshqaruvshi asosiy sub’ekt sifatida faoliyat ko‘rsatishlariga imkon berishi lozim. Har qanday o‘quv manbalarini tanlash va muayyan yo‘nalishdagi ta’limiy torshiriqlarni izshil tizimini belgilash uchun, avvalambor, o‘quv materialini talabalar tomonidan o‘zlashtirilish darajasini, shuningdek, ko‘zda tutilgan natijani talabalarning yoshi, ruhiy va fiziologik imkoniyatlaridan kelib shiqqan holda, aniq belgilab qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu amaliyot davomida talabalar o‘lkamiz tabiati, aholisi va uning urf-odatlarini, xo‘jaligini kompleks o‘rganadilar. Binobarin, amaliyot davomida talabalar turli tabiiy resurslar, suv, atmosfera, o‘simlik va xayvonot dunyosi, ekologik jarayonlar va hodisalar, o‘lkamiz landshaftlari, shuningdek, hududlarning rekreatsion salohiyati bilan tanishadilar.

Mazkur amaliyot davrida talabalar amaliy mashg‘ulotlarda to‘plagan tajribalaridan foydalangan holda quyidagilarga:

-tabiatni va tabiiy hodisalarni o‘rganish uchun ob’ekt tanlash va joyda mo‘ljal olish;

- tabiiy ob’ektlar bo‘yicha marshrutlar uyushtirish;

- har xil o‘lchash asboblaridan mustaqil foydalana bilish;

- olingan nazariy bilimlar asosida muayyan ekologik voqeylikka kompleks baho berish;

- muayyan hududlarda-tog‘larda, daryo vodiylarida, terrasalarda va boshqa joylarda dala tadqiqot ishlarini olib borish;

- turli ma’lumotlar va statistik materiallarni qayta ishlash;

- zamonaviy geoinformatsion sistemalar va kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanish;

- dala tadqiqot ishlari asosida mavzuli xaritalar tuzish;

- tadqiqot ishlarida turli o‘lchash asboblarini qo‘llay bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Xulosa. Amaliyot davrida jismoniy va aqliy rivojida kattalar bilan bo‘ladigan muloqot, hamda o‘zaro munosabat muhim ahamiyatga yega. Shuning uchun yuqorida ta’kidlab o‘tgan tarzda olib borilgan darslarda talabalar orasida

o‘zining alohida o‘rni bor yekanligini his yeta boradi. Shu bilan bir qatorda u atamalar va ko‘nikmalarni yegallab boradi.Ta’limning yangi bosqichida o‘quv dasturlaridan keng o‘rin olayotgan yekologik ta’lim berish, insonning moddiy va ma’naviy yehtiyojlar, hamda jamiyat talablarini qondirishga doir bilimlarini ko‘proq amaliy ishlar bilan bog‘lash maqsadga muvofiqdir. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, amaliyotni bajarish jarayonida bilim va ko‘nikma hosil qilish uchun dars davomida vaqtdan unumli foydalanib, ularning zerikishi, shalg‘ishiga yo‘l qo‘ymasdan, har xil metodlarni qo‘llagan holda nostandart vaziyatlarni vujudga keltirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Drozdov A.B.Sovremenny ekoturizma: konsepsii i praktika.// Moskva. KONRUS, 2009. - 245-260 s.
2. Mallaboev T. N.Rekreatsion resurslar va ularni genetik tasniflash. // Farg‘ona vodiysi tabiatni muhofaza qilishning yekologik geografik asoslari. -Namangan, 2003.-B.71-73.
3. Mamashokirov S. Tabiatdan foydalanish mezoni. “O‘zbekiston Yekologik xabarnomasi”, 2000 y. 5-6-qo‘shma soni. -25-36.
4. Nigmatov A.N., Kamolov B.H. Barqaror rivojlanishda yekoturizm mustaqil fan, ta’lim va amaliyot yo‘nalishi sifatida. // O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 49-jild.-Toshkent, 2017. -B 16-22.
5. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi. // Tarixiy va nazariy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. -Samarqand, 2003. -34-37 b.
6. Salomov R.S., Problem vsshego fizkulturnogo obrazovaniya, monog., T., 1992. - 85 b.
7. Umaraliev Sh.T.Iqtisodiyot va turizm turlariga umumiy tarif. // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. - Namangan, 2011. - B 97-100.
8. Usmonov M.R., Jumaev X. N. Landshaft rekreatsiya tizimli xaritani yaratish masalalari. // O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti.23-jild.-Toshkent, 2003. –B. 66-67.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jabbarov Botirsher G‘ulomovich
Namangan davlat universiteti dotsenti
Sharifjonov Muxiddin Shokirjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti dotsenti

YOVVOYI HAYVONLAR TASVIRINI ISHLASH USULLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yovvoyi hayvonlar tasvirini ishlashning o‘ziga xos qonun-qoidalari, metodlari asosida o‘rta umumta’lim maktablari tasviriy san’at darslari samaradorligini oshirish masalasi o‘rganib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yovvoyi, yirtqich hayvon, anatomik tuzilishi, yashash sharoiti, tulum, xarakterli jihatlari, hayvonot bog‘i, naturadan ishlash, xotira va tasavvur asosida ishlash, xomaki tasvir, qoralama, animalist rassom.*

Джаббаров Ботиршер Гуломович
Доцент Наманганского государственного университета
Шарипжонов Мухиддин Шокирджон оглу
Доцент Наманганского государственного университета

МЕТОДЫ РАЗРАБОТКИ ОБРАЗА ДИКИХ ЖИВОТНЫХ

Аннотация: *В данной статье рассматривается вопрос повышения эффективности уроков изобразительного искусства в средних школах на основе специфических законов, правил и методов работы с образом диких животных.*

Ключевые слова: *дикое, хищное животное, анатомическое строение, условия жизни, комбинезон, характерные черты, зоопарк, работа с натуры, работа по памяти и воображению, эскиз, набросок, художник-анималист.*

Jabbarov Botirsher Gulomovich
Associate Professor of Namangan State University
Sharipjonov Mukhiddin Shokirjon oglu
Associate Professor of Namangan State University

METHODS OF DEVELOPING THE IMAGE OF WILD ANIMALS

Abstract: *This article studies the issue of increasing the effectiveness of visual arts lessons in secondary schools based on the specific laws, rules and methods of working with the image of wild animals.*

Keywords: *Wild, predatory animal, anatomical structure, living conditions, overalls, characteristic features, zoo, working from nature, working from memory and imagination, sketch, draft, animalist artist.*


Kirish

Yovvoyi hayvonlarning tasvirini ishlash uy hayvonlari tasvirini ishlashga nisbatan birmuncha qiyin vazifa hisoblanadi. Chunki, ularni o‘quvchilar asosan zoologiya darsida, televizorda, internetda, hayvonot bog‘ida ko‘radi xolos. Ularning turmush tarzi, anatomiyasi haqida yetarli ma’lumotga ega emas.

Yovvoyi hayvon tasvirini asliga qarab chizishdan oldin ularni qotirmasi(tulumi)dan foydalangan holda tasvir ishlashni mashq qilish lozim. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarni yovvoyi hayvonlarning o‘ziga xos xarakterli jihatlari bilan yaqindan tanishtiradi, yaxlit ko‘ra olish qobiliyatlarini o‘stiradi.

Havon tasvrini ishlaganda uni umumiy tana tuzilishini, o‘ziga xos bo‘lgan xarakterli jihatlarini tez ilg‘ab olishga harakat qilish zarur. Ishni boshlashdan oldin tasviri ishlanadigan hayvon skeleti, anatomiyasini o‘ziga xos tuzilishi, xususiyatlari bilan tanishish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunda o‘quvchilar keyingi ishlarni ongli ravishda amalga oshirish uchun tashqi qatlam vazifasini bajaruvchi teri ostidagi suyak va mushaklarni his qilishga o‘rganadi. (1-rasm)

Hayvon shakli to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun turli burilishlarda qo‘yilgan tulumlarning o‘ziga qarab, so‘ng xotira va tasavvur asosida xomaki tasvir va qoralamalarini ishlash lozim. Hayvonni tulumi asosida tasvirini ishlab, ma’lum tajribaga ega bo‘lgandan keyin jonli naturadan tasvir ishlashga o‘tish mumkin.



1-rasm. Qoplonni anatomik tuzilishi.


Yovvoyi hayvonlarni jonli naturadan ishlashning asosiy manbai ma'lumki, hayvonot bog'i hisoblanadi. Hayvonot bog'iga qilingan sayohat davomida o'qituvchi o'quvchilarga hayvonlarning turli holatlardagi hatti – harakatlarini, tana tuzilishining o'ziga xos tomonlarini diqqat bilan kuzatishni o'rgatishi zarur.

Yovvoyi hayvonlar tasvirlarini ko'rganimizda animalist rassomning ko'z xotirasi naqadar kuchli ekanligini guvohi bo'lamiz. Ularda rassomni har bir hayvonga xos bo'lgan xarakterli xususiyatlarini, anatomiyasi va plastikasini chuqur bilishlari ko'rinib turadi. O'quvchiga yovvoyi hayvonlarni chizishda o'z oldiga dastlab umumiy shaklni topish, keyin esa ushbu shaklning xarakterli chiziqlarini aniq va ifodali tasvirlash vazifasini qo'yish kerak. Shunda ham nisbatan tinch holatda uzoqroq vaqt turadigan hayvon tasvirini ishlash maqsadga muvofiq sanaladi.

O'quvchilar sevib tamosha qiladigan multfilm qahramonlarini yodiga solgan holda ham xotira va tasavvurlarini rivojlantirish, dars samaradorligini oshirish mumkin. Misol uchun, Maugli multfilmini juda ko'plab o'quvchilar yaxshi ko'rishadi. Yirtqich bo'lishiga qaramay insonning yosh bolasini o'z qaramog'iga olgan ona bo'ri o'quvchilarning eng sevimli qahramonlaridan biri sanaladi. (2-rasm)

Ushbu multfilmda bo'ri ijobiy qahramon bo'lsa, uni aksi, ya'ni salbiy qahramon yo'lbars hisoblanadi. O'quvchilarga oq va qora, yaxshi va yomon kabi bir-biriga qarama-qarshi obrazlar haqida tushuncha bergan holda ko'rgazmali qurollardan foydalanib yo'lbars tasvirini ishlash tavsiya qilinadi. Chiziqli ko'rinishga ega bo'lgan bo'rining xomaki tasviridan farqli ravishda bir xil tusda ishlangan xomaki tasvirlar va rangli lavhalarni ham ko'rsatish zarur. Shu tariqa vazmfani asta sekinlik bilan murakkablashtirib, oddiydan – murakkabga o'tish tamoyiliga amal qilgan holda darsni yuqori saviyada tashkil qilish mumkin.

Yovvoyi, yirtqich hayvonlar uy hayvonlari singari doimo bir joyda uzoq vaqt tinch holatda turmaydi, aksincha keng vodiy va vohalarda, cho'lu-biyobonlarda, tog'-toshlarda, o'rmonlarda muntazam ravishda harakatda bo'lganligi bois xomaki tasvirlarni foto sur'atlardan va ko'rgazmali quroldan foydalangan holda bir necha xil ko'rinishda ishlanadi. Ko'plab xomaki tasvirlar ichida muvaffaqiyatli chiqqani keyingi ijodiy faoliyat uchun qabul qilinadi.




2-rasm. Maugli ertagi qahramoni ona bo‘ri tasviri.

Ijodiy ish umumiy xarakterga ega bo‘lgan oddiy xomaki tasvir va qoralamalardan farqli ravishda hayvonning mayda bo‘laklari ham aniq ishlanadi. Ushbu vazifa turli tasvirlash uslublari va vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilishi ham mumkin. (3-rasm)

Xomaki tasvir va qoralama ishlash rassom uchun eng zarur bo‘lgan xususiyatlar; kuzatuvchanlikni, ko‘z o‘tkirligini, ko‘rish xotirasini rivojlantiradi, naturani umumiy, yaxlit xis qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, texnik ko‘nikma va malakalarni egallashga yordam beradi, o‘ziga xos grafik uslubini takomillashtiradi.

Yovvoyi hayvon tulumining xomaki tasviri uchun natura tanglaganda shakli va tuzilishi jixatidan kichik va soddarog‘ini tanlagan ma’qul. Chunki, kichikroq jonivorning umumiy shaklini yaxlit ko‘rish va tasvirlash oson.



3-rasm. Aralash texnikasida ishlangan yo‘lbars tasviri.

Mashhur rus animalist rassomi V. A. Vatagin o‘zining “Izobrajeniya jivotnых” kitobida yovvoyi hayvonlar xomaki tasvirini ishlashda quyidagi usulni qo‘llashni taklif qiladi: “***Siz, masalan, o‘tirgan quyonni chizyapsiz, u holatini o‘zgartiradi, siz uni chizib olishga ulgurmadingiz. Rasmni tugatmay qoldiring va darhol quyon qabul qilgan ikkinchi holatni chiza boshlang, so‘ng uchinchisini va h.z. Sizda bir hayvonning turli holatlardagi va turli darajadagi bir guruh rasmlarining zahirasi hosil bo‘ladi. Hayvonlar ochiq tabiat qo‘ynidagiga nisbatan hayvonot bog‘i sharoitida chegaralangan harakatlarga ega bo‘ladi, shuning uchun ham bir xil holatini yana qayta takrorlaydi. O‘quvchi avval ishlab, tugalamagan holatiga qaytib, ularni nihoyasiga yetkazish imkoniga ega”[1].***

[1] Ватагин В. А. Изображения животных. –М.: 1957, 43-б.

Ixtiyoriy bir hayvonning anatomiyasi, tuzilishi xaqida to‘liq tushuncha va tasavvurga ega bo‘lish uchun turli holatlarda qo‘yilgan tulumidan foydalangan holda xomaki tasviri ishlash ksrak. Hayvonni tulumidan foydalanib tasvir ishlash malakasini egallab, kerakli tajribaga ega bo‘lgandan so‘ng xotira va tasavvur asosida tasvir ishlashga o‘tish mumkin.

Hayvonlar tulumi asosida, xotira va tasavvur yordamida tasvir ishlash malakasini egallab, hayvonot bog‘iga borib tirik naturadan xomaki tasvir ishlash tasviya qilinadi. Hayvonot bog‘idagi yovvoyi hayvonlarning hatti - harakatini, tana tuzilishining o‘ziga xos jihatlarini, plastik holatini chizishdan avval ularni diqqat bilan har tomonlama kuzatish zarur.

O‘quvchilar uchun kundalik turmushda doimiy ko‘rib yuradigan, yashash sharoiti tanish bo‘lgan uy hayvonlari tasvirini ishlashga nisbatan yovvoyi hayvonlarning tasvirini ishlash birmuncha murakkab jarayon hisoblanadi. Misol uchun mol, qo‘y, ot, it, mushuk singari uy hayvonlarini mahalliy sharoitda deyarli hamma xonadonlarda uchratish mumkin. Yovvoyi hayvonlar esa uni butunlay aksi bo‘lib, ularni tabiiy sharoitda uchratish mushkul va ular bilan to‘qnash kelish hayot uchun xavfli sanaladi.

Yovvoyi hayvonlarning aksariyati yirtqich hayvon bo‘lib, ularning tasvirini hayvonot bog‘ida ishlash jarayonida ehtiyot bo‘lish talab qilinadi. Hayvonot bog‘idagi jonivorlar tasvirini ishlash o‘quvchidan ko‘p vaqt va kuch talab qiladi. Shunda ham avvaliga nisbatan tinch holatda turgan hayvon xomaki tasvirini ishlash kerak. Keyin tasviri ishlanayotgan hayvon tuzilishining o‘ziga xos xarakterli tomonini topish bilan birga hayvon to‘g‘risida to‘liq tushuncha beruvchi harakatdagi holati tasviri ishlanadi.



4-rasm. Oq ayiq qoralamasi.

O‘quv mashg‘ulotlari davomida yovvoyi hayvonning xomaki tasviri bilan birga qoralamasini ham ishlash ko‘zda tutiladi. Vazifani bajarishdan ko‘zlangan asosiy maqsad yovvoyi hayvonning umumiy tana ko‘rinishi va ularning asosiy xarakterli harakatlarini tasvirlashdan iborat.

Odam tasvirini ishlaganda ma’lum bir holatda uzoq vaqt qimirlamay turishi mumkin. Yovvoyi hayvonlarni esa qiyofachi singari ma’lum bir tinch, harakatsiz holatda turishga majbur qilib bo‘lmaydi. Shu boisdan ham o‘quvchining yovvoyi hayvonlar anatomiyasini yaxshi bilishi naturaning umumiy holatini tez ilg‘ab olishga yordam bergan. O‘quvchilardan ham hayvonlarning xomaki tasvirini bajarish jarayonida ko‘pgina foydali malakalarni, jumladan naturani kuzatgan holda grafik vositalar yordamida tez tasvir ishlashni bilishlari talab qilinadi.

Shuning uchun ham xomaki tasvirni ortiqcha, mayda detallar bilan to‘ldirib tashlash shart emas. Qolaversa, bir varoq qog‘ozga bir nechta tasvir ishlash avvalgi ishga qaytish imkoniyatini berish bilan birgalikda hayvonning turli holatini bir – biri bilan o‘zaro taqqoslash orqali uning xarakterli xususiyatlarini o‘rganish uchun kulaylik tug‘diradi. Hayvon bir holatda uzoqroq turib qolganda, xomaki tasvirni chizgilar bilan boyitib qoralama holatiga keltirish mumkin. O‘sha tasvir yoniga hayvon uchun xarakterli bo‘lgan boshi, oyog‘i, dumi yoki shu kabi qismlarini ishlash tavsiya qilinadi. (4-rasm)

Ixtiyoriy bir hayvonni grafit qalami yordamida xomaki tasvir va qoralamasini ishlab kerakli tajribaga ega bo‘lgandan keyin boshqa tasvirlash vositalaridan ham foydalanish mumkin. Buning uchun o‘sha hayvonni oddiy grafit

qalam yordamida chiziqli xomaki tasvirini chizib ustidan akvarel' bo'yog'i yoki sangina, pastel bilan ishlov beriladi. Aralash texnikadan foydalanib yorug' – soya nisbatlarni topish juda ham qiziqarli mashg'ulot hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabbarov B. G'. Qalamtasvir. Xotira va tasavvur asosida ishlash. O'quv qo'llanma. –N.: "Namangan", 2014
2. Jabbarov B. G'. Akademik qalamtasvir. Darslik. –T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2022
3. Jabbarov B. G'. Rangtasvir. 2-bosqich uchun o'quv qo'llanma. –T.: 2024
4. Jabbarov B. G'. Rangtasvir. 1-bosqich uchun o'quv qo'llanma. –N.: 2025
5. Xasanov R. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. –T.: 2006
7. Vatagin V. A. Izobrajeniya jivotnых. – M.: 1957
8. Kuzin V. S. Osnovы obucheniya izobrazitelnomu iskusstvu v shkole. 2-ye izd. – M.: 1977
9. Terentyev A. G. Izobrajeniya jivotnых i ptis . –M.: 1980
10. Terentyev. A. G. Risunok v pedagogicheskoy praktikye uchitelya izobrazitelnogo iskusstva. –M.: 1982

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jo‘raboyeva Turg‘unoy Ikromjon qizi
Namangan davlat universiteti
2- bosqich tayanch-doktoranti
juraboyevaturgunoy@gmail.com

INGLIZ TILI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KITOBXONLIK KO‘NIKMALARINING BOSQICHLARI VA SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya.*Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilida kitobxonlik ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish muammosi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi o‘qish kompetensiyasining rivojlanish bosqichlarini didaktik mezonlar asosida tavsiflash va samarali usullarni asoslashdir. Metodologiya sifatida sinf kuzatuvi, diagnostik o‘qish topshiriqlari hamda qiyosiy tahlil qo‘llandi. Natijalar fonologik xabardorlik, dekodlash, ravonlik va tushunish bosqichlarida mos metodlar uyg‘unligi eng yuqori ta’sir berishini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, ingliz tili, kitobxonlik ko‘nikmasi, fonika, o‘qish ravonligi, matnni tushunish, strategiyalar*

Джурабоева Тургуной Икромжоновна
Докторант Наманганский государственный университет

ЭТАПЫ И МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ БИБЛИОТЕЧНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В статье анализируется проблема постепенного формирования навыков чтения на английском языке у учащихся начальной школы. Цель исследования – описать этапы развития читательской компетенции на основе дидактических критериев и обосновать эффективные методы. В качестве методологии использовались наблюдение за уроками, диагностические задания по чтению и сравнительный анализ. Результаты показали, что наибольшую эффективность оказывает сочетание соответствующих методов на этапах фонологической осведомленности, декодирования, беглости и понимания текста.*

Ключевые слова: *Начальное образование, английский язык, читательские умения, фоника, беглость чтения, понимание текста, стратегии*

Juraboyeva Turgunoy Ikromjon qizi
Doctoral student of Namangan State University

STAGES AND METHODS OF DEVELOPING LIBRARY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN ENGLISH LESSONS

Abstract. *This article analyzes the gradual development of English reading skills in primary school students. The aim of the study is to describe the stages of reading comprehension development based on didactic criteria and to substantiate effective methods. The methodology used included lesson observations, reading assessment tasks, and comparative analysis. The results showed that a combination of appropriate methods at the stages of phonological awareness, decoding, fluency, and text comprehension is most effective.*

Keywords: *Primary education, English language, reading skills, phonics, reading fluency, text comprehension, strategies*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida xorijiy tilni o‘qitishning natijadorligi ko‘p jihatdan o‘quvchining kitobxonlik ko‘nikmalari qanchalik erta va tizimli shakllantirilganiga bog‘liq. Ingliz tilida o‘qish ko‘nikmasi faqat so‘zlarni tovushlantirishni emas, balki fonologik xabardorlik, grafik-fonemik moslikni o‘zlashtirish, lug‘aviy birliklarni tez tanish, gap va matn darajasida ma’no qurish, inferensiya qilish, monitoring va o‘zini nazorat qilish kabi murakkab kognitiv jarayonlarni qamrab oladi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish bir martalik metodik ta’sir bilan emas, balki bosqichma-bosqich va o‘zaro bog‘langan komponentlar asosida tashkil etiladigan didaktik tizimni talab qiladi. Xalqaro tadqiqotlarda erta o‘qishning poydevori fonologik va fonik ko‘nikmalar ekani, keyingi yutuqlar esa

ravonlik hamda tushunish strategiyalari bilan bevosita bog‘liqligi ko‘rsatiladi [1; 2]. Rus metodik an’analarida o‘qish texnikasi va mazmuniy o‘qishning muvozanati, shuningdek, matn bilan ishlashning bosqichli xarakteri alohida ta’kidlanadi [3; 4]. O‘zbekistonda ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash amaliyoti kengayib borar ekan, aynan kitobxonlik ko‘nikmalarining bosqichlari va ularni shakllantirish usullarini ilmiy asosda aniqlash dolzarb bo‘lib qolmoqda [5; 6].

Mavjud amaliyotda ikki muammo ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, o‘qish bo‘yicha mashg‘ulotlar ko‘pincha matnni navbat bilan o‘qitish va tarjima qilishga qisqarib qoladi, bu esa dekodlash, ravonlik va tushunishning har biriga mos mashqlar muvozanatini buzadi. Ikkinchidan, darslik va qo‘shimcha materiallar tanlashda o‘quvchining bosqichli rivojlanishi yetarli hisobga olinmaydi: grafik-fonemik qiyinchiliklar hal etilmasdan turib, semantik jihatdan murakkab matnlarga o‘tiladi yoki aksincha, mazmuniy qiziqish past bo‘lgan sun’iy matnlarda uzoq turib qolish kuzatiladi. Ilmiy adabiyotlarda o‘qishning komponent modeli, ya’ni dekodlash va tilni tushunish omillarining birgalikdagi ta’siri asosida o‘qish natijasi shakllanishi haqida asosli qarash mavjud [7]. Biroq boshlang‘ich sinf ingliz tili darslari sharoitida ushbu modelni bosqichlar, diagnostika mezonlari va aniq metodik usullar bilan uyg‘unlashtirib beradigan tadqiqotlar amaliyot uchun hanuz yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichlarini didaktik va psixolingvistik mezonlar asosida tavsiflash hamda har bir bosqich uchun samarali metodik usullar majmuasini asoslab berishdan iborat. Maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar hal etiladi: birinchidan, o‘qish ko‘nikmasining tarkibiy qismlari va ularning bosqichli rivojlanish mantiqi aniqlanadi; ikkinchidan, boshlang‘ich sinf sharoitida qo‘llanadigan o‘qitish usullari va mashq turlari bosqichlar bo‘yicha tizimlashtiriladi; uchinchidan, sinf amaliyoti va diagnostik topshiriqlar natijalariga tayanib, metodlar uyg‘unligining o‘quv natijalariga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi o‘qishning fonologik poydevordan strategik tushunishgacha bo‘lgan ketma-ket bosqichlarini o‘zbek boshlang‘ich ta’lim kontekstida ingliz tili darslari uchun metodik jihatdan moslashtirilgan mezonlar bilan berish, shuningdek, har bir bosqich uchun minimal zarur metodlar to‘plamini asoslashda namoyon bo‘ladi.

Metodlar

Tadqiqot metodologiyasi aralash yondashuvga tayandi, bunda nazariy tahlil va empirik kuzatuv ma’lumotlari o‘zaro to‘ldiruvchi manba sifatida qaraldi. Nazariy asoslash bosqichida o‘qish jarayonining psixolingvistik va metodik modellari, boshlang‘ich ta’limda xorijiy tilni o‘qitish bo‘yicha konseptual qarashlar hamda o‘qish kompetensiyasi komponentlari haqidagi ilmiy manbalar tahlil qilindi [1; 3; 7]. Ushbu tahlil o‘qish ko‘nikmasini bosqichlashtirishda ikki mezon guruhini ajratishga imkon berdi: texnik-me’yoriy mezonlar (grafema-fonema mosligini o‘zlashtirish, o‘qish tezligi va aniqligi, prosodiya) hamda mazmuniy-kognitiv mezonlar (lug‘aviy kirish, gap darajasida sintaktik tahlil, matnning global mazmunini qurish, inferensiya, metakognitiv monitoring).

Empirik qismda sinf kuzatuvi va diagnostik o‘qish topshiriqlari qo‘llanildi. Kuzatuvlar boshlang‘ich sinf ingliz tili darslarida o‘qishga oid faoliyat turlari, o‘qituvchining ko‘rsatmalari, o‘quvchi xatolarining tabiati hamda tuzatish strategiyalarini qayd etishga qaratildi. Diagnostik topshiriqlar o‘qishning alohida komponentlarini ajratib ko‘rsatadigan tarzda tuzildi: harf-birikmalarni tovushlantirish, so‘zlarni tez tanish, qisqa gaplarni prosodik jihatdan to‘g‘ri o‘qish, qisqa matn bo‘yicha aniq va yashirin mazmunni tekshiruvchi savollar. Ushbu topshiriqlar o‘quvchilarning qaysi bosqichda ekanini taxminiy belgilash va metodik ta’sirning mosligini baholashga xizmat qildi. Empirik ma’lumotlarni qayta ishlashda sifat tahlili ustun bo‘ldi: xatolar tipologiyasi, o‘qishdagi to‘xtalishlar va qayta o‘qish holatlari, matnni tushunishda uchraydigan qiyinchiliklar tizimlashtirildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli orqali turli mashq kombinatsiyalarining natijadorligi dars jarayonidagi o‘zgarishlar bilan solishtirib ko‘rildi. Tanlangan metodlar tadqiqot maqsadiga muvofiq, chunki bosqichli shakllanishni aniqlash faqat nazariy model bilan cheklanmay, real sinf sharoitida o‘qish komponentlarining qanday namoyon bo‘lishini ko‘rsatishni talab etadi, diagnostika esa metodlarni bosqichga mos tanlash uchun zarur asos yaratadi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilida kitobxonlik ko‘nikmasi to‘rtta asosiy bosqichda nisbatan barqaror namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi va har bir bosqichning yetakchi ko‘nikmalari hamda tipik qiyinchiliklari aniqlashtirildi. Birinchi bosqich fonologik xabardorlik va boshlang‘ich fonika bosqichi sifatida tavsiflandi. Bu bosqichda o‘quvchi ingliz tiliga xos tovushlarni ajratish, bo‘g‘in va fonemalarni eshitish orqali farqlash, harf va tovush o‘rtasidagi dastlabki mosliklarni o‘rnatishga ehtiyoj sezadi. Kuzatuvlarda bu bosqichdagi o‘quvchilarda eng ko‘p uchraydigan holat tovushlarni ona tili fonetikasi bilan almashtirish, qisqa va uzun unlilar farqini eshitishda qiynalish, harf nomini tovush o‘rnida qo‘llash kabi xatolar bo‘ldi. Natija sifatida fonologik mashqlar, minimal juftliklar bilan eshitish va takrorlash, fonikani tizimli va qisqa sikllarda berish o‘qishning keyingi bosqichiga o‘tishni tezlashtirishi qayd etildi.

Ikkinchi bosqich dekodlash va ortografik tanish bosqichi bo‘lib, bu yerda o‘quvchi grafemalar ketma-ketligini tovushlarga aylantirishni avtomatlashtira boshlaydi va tez-tez uchraydigan so‘z shakllarini yaxlit birlik sifatida tanishga o‘tadi. Diagnostik topshiriqlarda aynan shu bosqich o‘qish tezligi bilan emas, balki aniqlik va barqarorlik bilan ajralib turdi: o‘quvchi sekin o‘qisa ham, qoidaga tayangan holda xatosini o‘zi tuzatishga moyil bo‘ladi. Shu bilan birga, notanish so‘zlarda ko‘p to‘xtalish, so‘z chegaralarini buzib o‘qish, harf birikmalarini noto‘g‘ri tovushlantirish holatlari saqlanib qoldi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, differensiallashtirilgan fonika, ya’ni o‘quvchilar uchun qiyin bo‘lgan harf birikmalarini maqsadli ajratib ishlash, shuningdek, yuqori chastotali so‘zlarni kontekstda takror uchratish dekodlash barqarorligini oshirdi. Matn tanlashda ortografik murakkablikning bosqichma-bosqich ortishi, lekin mazmuniy jihatdan qiziqarli bo‘lishi o‘quvchining motivatsion barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Uchinchi bosqich ravonlik va prosodik o‘qish bosqichi sifatida belgilandi. Bu bosqichda o‘quvchi alohida so‘zlarni tanishga ortiqcha kognitiv resurs sarflamay, diqqati va ishchi xotirasini mazmunni ushlab turishga yo‘naltira oladi. Kuzatuvlarda ravonlikka o‘tish belgisi sifatida to‘xtalishlar kamayishi, gap oxiridagi intonatsiyaning tabiiylashishi, urg‘u va pauzalarni sintaktik tuzilishga mos qo‘ya boshlash ko‘rindi. Biroq ravonlikning o‘sishi hamma holatda tushunishning o‘sishi bilan bir xil ketmadi: ayrim o‘quvchilar tez o‘qish evaziga semantik nazoratni pasaytirib, savollarga yuzaki javob berishdi. Natijalar takroriy o‘qish, xor bilan o‘qish, o‘qituvchi modeli asosida echo-reading kabi usullar ravonlikni oshirishda samarali bo‘lishini, lekin ular albatta qisqa tushunish tekshiruvi bilan birga berilganda mazmuniy nazorat saqlanishini ko‘rsatdi.

To‘rtinchi bosqich strategik tushunish va matn bilan ishlash bosqichi bo‘lib, bunda o‘quvchi matnning asosiy g‘oyasini ajratish, tafsilotlarni tanlab olish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini ko‘rish, oddiy inferensiya qilish, shuningdek, o‘qish jarayonini rejalashtirish va nazorat qilish kabi strategiyalarni qo‘llay boshlaydi. Diagnostika natijalarida bu bosqichga yaqinlashgan o‘quvchilar savol turlariga nisbatan sezgirroq bo‘lib, “matndan topish” bilan “xulosa chiqarish” o‘rtasidagi farqni asta-sekin anglay boshlagani kuzatildi. Qiyinchiliklar asosan lug‘at yetishmasligi va sintaktik konstruktsiyalarni tez tahlil qila olmaslik bilan bog‘liq bo‘ldi, natijada o‘quvchilar matnni to‘liq emas, parcha-parcha tushunishga moyil bo‘lishdi. Ushbu bosqichda oldindan taxmin qilish, sarlavha va rasmga tayangan holda prognoz qilish, kalit so‘zlarni ajratish, qisqa qayta hikoya qilishga tayyorlovchi gap skeletlari bilan ishlash kabi usullar tushunishni barqarorlashtirdi. Umuman olganda, natijalar bosqichlar o‘rtasidagi o‘tish qat’iy chiziqli emasligini, lekin har bir keyingi bosqichda oldingisining avtomatlashgan poydevori talab etilishini ko‘rsatdi.

Muhim natija sifatida metodlar uyg‘unligining zarurligi aniqlandi: fonika va fonologik mashqlar ravonlik va tushunish mashqlari hisobiga siqib chiqarilsa, o‘qish texnikasi uzoq vaqt beqaror qoladi; aksincha, faqat tezlik va ifodali o‘qishga urg‘u berilib, tushunish strategiyalari yetarli kiritilmasa, o‘quvchi “ovozli o‘qish”ni bajaradi, biroq matn bilan ishlash kompetensiyasi sust rivojlanadi. Shuningdek, dars ichida mikrodiagnostika, ya’ni qisqa tekshiruv savollari, bir daqiqalik o‘qish bo‘lagi, xatolarni o‘zi tuzatish holatlarini qayd etish orqali o‘qituvchi bosqichga mos metod tanlashni tezlashtirishi kuzatildi. Natijalar o‘qish materiallarini tanlashda ortografik murakkablik, leksik yuklama va mazmuniy qiziqish o‘rtasida muvozanat bo‘lishi kerakligini ham ko‘rsatdi: ortografik jihatdan yengil, lekin mazmunsiz matnlar motivatsiyani pasaytiradi; mazmunan boy, lekin haddan tashqari murakkab matnlar esa dekodlash resursini “yeb qo‘yib”, tushunishni izdan chiqaradi.

Muhokama

Olingan natijalar o‘qishning komponent tabiatini asoslaydigan ilmiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashadi. Xususan, o‘qish natijasini dekodlash va tilni tushunishning ko‘paytmasi sifatida izohlaydigan qarashlar shuni ko‘rsatadiki, dekodlash yetarli darajada avtomatlashmaguncha matnni chuqur tushunish barqaror bo‘la olmaydi, tilni tushunish resurslari esa lug‘at va sintaksisga tayanadi [7]. Bizning kuzatuvlarda aynan ikkinchi va uchinchi bosqichlar kesishmasida ravonlikning oshishi bilan tushunishning har doim ham bir maromda oshmasligi ushbu nazariy mulohazani amaliy jihatdan tasdiqlaydi: o‘quvchi tezroq o‘qiy boshlagan paytda, agar mazmuniy monitoring strategiyalari kiritilmasa, ravonlik “mexanik” tus olishi mumkin. Shuning uchun ravonlikni o‘stirish usullari tushunishni tekshiruvchi qisqa, lekin muntazam vositalar bilan bog‘lanishi kerakligi haqidagi xulosamiz mazkur modeldan kelib chiqadigan metodik talab sifatida talqin qilinadi.

Fonika va fonologik xabardorlikning erta bosqichdagi roli xalqaro tadqiqotlarda ko‘p bor asoslangan bo‘lib, ular sistematik fonika o‘qishning aniqligi va keyinchalik ravonlikka o‘tish uchun poydevor berishini ta’kidlaydi [1]. Bizning natijalarimizda ham fonikani epizodik emas, balki qisqa sikllarda, takroriy mustahkamlash bilan berish dekodlash barqarorligini oshirganini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf ingliz tili darslari sharoitida fonika “yakuniy maqsad”ga aylanib qolmasligi kerak: fonikaga haddan tashqari yopishib qolish mazmuniy kitobxonlikni kechiktiradi. Chet til o‘qitish bo‘yicha metodik manbalarda til faoliyati turlari integratsiyasi, ya’ni o‘qishning tinglab tushunish va og‘zaki nutq bilan bog‘lanishi samaradorlikni oshirishi qayd etiladi [2]. Bizning muhokamada bu fikr

shunday aniqlashtiriladi: fonologik mashqlarni tinglab farqlash va qisqa og‘zaki reaksiya bilan birlashtirish o‘quvchining tovush tizimini “passiv” emas, “faol” o‘zlashtirishiga olib keladi, bu esa o‘qishdagi xatolar tipini ham kamaytiradi.

Rus metodik maktabida matn bilan ishlashning bosqichlari, ayniqsa, “o‘qishdan oldin”, “o‘qish jarayonida” va “o‘qishdan keyin” faoliyatlar orqali tushunishni chuqurlashtirishga urg‘u beriladi [3; 4]. Bizning natijalar ushbu yondashuvni boshlang‘ich sinflar uchun moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi: agar “o‘qishdan oldin” bosqichida prognoz qilish va kalit so‘zlarni faollashtirish juda cho‘zilib ketsa, o‘quvchi o‘qishning o‘zini kam bajaradi; aksincha, bu bosqich umuman bo‘lmasa, lug‘at yetishmasligi tufayli o‘qish jarayoni uzilib qoladi. Demak, bosqichlar nafaqat dars ichida, balki o‘quvchi rivojlanish bosqichlari bilan ham uyg‘unlashtirilishi kerak: ikkinchi bosqichda “o‘qishdan oldin” ko‘proq fonik va ortografik tayyorgarlikdan iborat bo‘lsa, to‘rtinchi bosqichda u semantik prognoz va maqsad qo‘yish bilan to‘ldiriladi.

O‘zbek metodistlari va ta’lim amaliyoti bilan bog‘liq manbalarda boshlang‘ich ta’limda xorijiy tilni o‘qitishda kommunikativ yo‘nalish va yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ko‘rsatiladi [5; 6]. Bizning tahlilda bu talab kitobxonlik ko‘nikmalariga nisbatan aniqroq talqin qilinadi: kommunikativ yo‘nalish faqat og‘zaki nutq bilan cheklanmay, o‘qish orqali ma’no olish va uni qayta ifodalashni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun “kitobxonlik”ni darsning chekka komponenti sifatida emas, balki lug‘at, grammatika va og‘zaki nutqni integratsiyalovchi markaziy mexanizm sifatida ko‘rish boshlang‘ich sinf uchun metodik jihatdan asosli. Shu nuqtada bizning ilmiy hissamiz bosqichlarning aniq mezonlari va har bir bosqichga mos minimal metodlar majmuasini ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi: masalan, ravonlik bosqichida echo-reading faqat ifodali o‘qish uchun emas, balki sintaktik “bo‘laklash”ni o‘rgatish orqali tushunishni ham qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Natijalar bilan bog‘liq muhim muhokama jihati differensiallashtirish masalasidir. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar bir xil darsda turli bosqichlarda bo‘lishi tabiiy, chunki fonologik eshituv, lug‘at zahirasi, uyda qo‘llab-quvvatlash va umumiy o‘qish tajribasi farqlanadi. Shu sababli yagona metodni butun sinfga bir xil tatbiq etish o‘quvchilarning bir qismini zeriktirishi, boshqasini esa ortda qoldirishi mumkin. Bizning kuzatuvlarda mikrodiagnostika asosida kichik moslashtirishlar qilish, masalan, bir guruhga yuqori chastotali so‘zlar bilan tez tanish mashqlari, boshqa guruhga harf birikmalarini mustahkamlash berish darsning umumiy dinamikasini buzmasdan natijadorlikni oshirdi. Bu holat ta’limni individuallashtirish g‘oyasining amaliy, resurs tejamkor ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi va boshlang‘ich maktab sharoitida real bajariladigan metodik yechim ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish to‘rtta o‘zaro bog‘liq bosqichda nisbatan barqaror namoyon bo‘lishi asoslandi: fonologik xabardorlik va boshlang‘ich fonika, dekodlash va ortografik tanish, ravonlik va prosodik o‘qish, strategik tushunish va matn bilan ishlash. Har bir bosqich uchun tipik qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf etishga xizmat qiladigan metodik usullar majmuasi aniqlashtirildi va amaliy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot o‘qish ko‘nikmasi rivojida metodlarning uyg‘unligi hal qiluvchi ekanini ko‘rsatdi: fonika, ravonlik va tushunish strategiyalari bir-birini siqib chiqarmasdan, bosqichga mos nisbatda qo‘llanganda o‘quv natijalari barqaror oshadi. Amaliy implikatsiya sifatida dars jarayonida mikrodiagnostikani yo‘lga qo‘yish, matn tanlashda ortografik murakkablik va mazmuniy qiziqish muvozanatini saqlash hamda ravonlik mashqlarini doimiy tushunish tekshiruvi bilan bog‘lash tavsiya etiladi. Kelgusidagi tadqiqotlar turli darsliklar va o‘qitish dasturlarida bosqichlararo o‘tishni tezlashtiruvchi omillarni, shuningdek, raqamli o‘qish resurslarining boshlang‘ich sinf kitobxonligiga ta’sirini chuqurroq o‘rganishga yo‘naltirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ehri L. C. Phases of development in learning to read words by sight. Mahwah, NJ, Lawrence Erlbaum Associates, 1995. 328 p.

2. Nation I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge, Cambridge University Press, 2001. 477 p.

3. Соловова Е. Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс. Москва, Просвещение, 2010. 239 с.

4. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. Москва, Просвещение, 1991. 223 с.

5. Jalolov J. Chet tillarni o‘qitish metodikasi. Toshkent, O‘qituvchi, 2012. 352 b.

6. Xo‘jayev A. Boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent, Fan va texnologiya, 2019. 184 b.

7. Gough P. B., Tunmer W. E. Decoding, reading, and reading disability. New York, Academic Press, 1986. 151 p.

8. Grabe W. Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. Cambridge, Cambridge University Press, 2009. 441 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Karabazov Eldor
Favqulodda vaziyatlar vazirligi Andijon viloyati
Xo'jaobod tumani bo'limi boshlig'i o'rinbosari mayor. O'zMU tadqiqotchisi
E-mail: zaabdurashidov@gmail.com

ATROF-MUHIT VA TIBBIYOTGA OID MASHG'ULOTLARNI OLIB BORISHDA HOZIRGI ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH PSIXOLOGIYASI

Annotatsiya: *Maqolada tabiyot va tibbiyotga oid darsliklarni olib borishda hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish ahamiyati mavzusi ko'tarilib, insonning ichki ruhiyati va psixologiyaga oid fanlarni o'qitish sifati aholi va o'quvchilarning unga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, maqolada favqulodda vaziyatlarda psixologiyani o'rni va ahamiyati, afzalliklari va turlari, metod va usullari, darsning turli bosqichlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati haqida so'z boradi*

Kalit so'zlar*: metod, axborot, texnologiya, o'quvchi, ruhiy, darslik.*

Эльдор Карабазов
Заместитель начальника Андижанской области
Ходжаабадский районный отдел Министерства чрезвычайных ситуаций, майор. Научный сотрудник
Национального университета Узбекистана.

ПСИХОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ОБУЧЕНИЯ В ОБЛАСТИ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЗДОРОВЬЯ.

Аннотация: *В статье поднимается тема значимости использования современных информационных технологий при ведении учебников естественности и медицины, что существенно повышает качество преподавания естественных наук и интерес студентов к нему. также в статье говорится о преимуществах и видах икт, методах и методах, важности использования информационных технологий на разных этапах урока.*

Ключевые слова: *метод, информация, технология, студент, духовность, учебник.*

Karabazov Eldor
Deputy Head of the Andijan Region
Khojaabad District Department of the Ministry of Emergency Situations
Major. Researcher of the National University of Uzbekistan

PSYCHOLOGY OF USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN CARRYING OUT ENVIRONMENTAL AND HEALTH-RELATED TRAINING

Annotation: *The article raises the topic of importance of using modern information technologies in the conduct of natural and medicine textbooks, which significantly increases the quality of science teaching and students' interest in it. the article also talks about the advantages and types of ict, methods and methods, the importance of using information technologies at different stages of the lesson.*

Keywords: *method, information, technology, student, spiritual, textbook.*

Bugunga kelib barcha fanlarni zamon talablari asosida o'qitishda eng yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Asosiysi voqea va hodisalarni anglash favqulodda vaziyatlarda tub aholini to`g`ri harakat qilishlari uchun bu yangicha qarashlarni ilmiy izlanishlarni oldimizga qo`yayaptiki o`z navbatida esa bunday yondashuvlar bilan ta`lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga erishilmoqda. Ayniqsa, axborot komunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tiladigan tabiat (inson ruhiyati bilan bilan birga tabiiy fanalr jumladan, geografiya, ekologiya, biologiya, kimyo, fizika, astronomiya) va tibbiy (tibbiyot, tabobat-kishilar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash) fanlar darslarida o'quvchilarga tushuncha va

ta'riflarni qiziqarli tarzda o'rganish, video va fotosuratlarda geografik ob'ektlarni ko'rish, materialni qiziqarli tarzda mustahkamlash imkoniyatini beradi. Bu esa, mavzuni to'liqonli idrok etishga yordam beradi. Bu borada o'rganilayotgan mavzu bo'yicha dars va mavzuga oid material bilan tanishsak.

Pedagogik ilmiy tadqiqod faoliyatimizning ustuvor maqsadi tabiiy va tibbiy fanlarga oid darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda qo'llaniladigan umumiy ta'lim psixologik ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Tabiiy fanlar, fanning olamni u biror tabiiy qonunlarga bo'ysunadi, deb qarovchi va uni ratsional o'rganuvchi bo'limlaridir. Tabiiy fanlar uslubiyati ijtimoiy va aniq fanlar uslubiyatidan farq qiladi. Tabiiy fanlar sirasiga geografiya, astronomiya, kimyo, biologiya va ekologiya fanalri kiradi kiradi. Jumladan, birgina Geografiya darslarida favqulodda vaziyatlarda tinglovchilarga tug`ilib o`sgan zamini tabiati, rel`efi o`simlik va hayvonot dunyosini bilish orqali o`z oldimizga qo`yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilashni lozim topdik:

- *birinchidan,* o`quvchilarning kuchli va chuqur bilim olishlarini ta`minlash;
- *ikkinchidan,* kognitiv[2] qobiliyatlarni rivojlantirish;
- *uchinchidan,* har bir o'quvchining ijodiy rivojlanishiga ko'maklashish;
- *to'rtinchidan*, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga hissa qo'shish.

Shu bilan birga, geografiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish sharoitida o'quv jarayoni samaradorligini uning ishtirokchilarining turli faoliyat turlaridan foydalangan holda osongina XXI asrda onlayn baholash va nazorat qilish mumkin. Elektron darsliklar, o'quv taqdimotlari, slayd-testlar, kompyuter testlari va hatto kompyuter o'yinlaridan bunday foydalanish an'anaviy ta'lim tizimini sezilarli darajada o'zgartiradi. Buning uchun birgina mamlakatimiz bo`ylab mavzularni mavzu va resurslarini joylab qo`yilsa kifoya.

Shu davr oralig`ida oliy va o`rta maxsus ta`lim tizimidagi ta'lim jarayonini o'zgartirishda axborot texnologiyalari asosiy rol o'ynaydi. Ayniqsa tabiiy fanlar, geografiya, ekologiya darslarida kompyuterdan foydalanish ushbu fanni samarali o'rganishga uzoqni yaqin qilish bilan birga onlayn ko`rish xis qilish ongli tushinishiga xizmat qiladi. Masalan, geografiya dasturiy ta'minoti nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga, balki o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, voqea va hodisalarni real baholashga ham qaratilgan bo`lishi kerak[3]. Tabiiy va tibbiyot o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ma'lum jihatlarni yani tabiat va jamiyat uyg`unligi va hozirgi kun davlat siyosatini ham hisobga olish kerak, deb hisoblaymiz. Xususan, yangi materialni o'zlashtirishga bag'ishlangan darslarda nazariy ma'lumotlarni talabalarga ochiq, jonli va ko'rgazmali shaklda taqdim etishga yordam beradigan ko'rgazmali dastur talab qilinadi. Masalan, siz buklangan tog'larning hosil bo'lish jarayonini ko'rsatadigan videolardan, shuningdek, ajoyib tabiat hodisalarini aks ettiruvchi oldindan tayyorlangan sahnalardan foydalanishingiz mumkin[4]. Bu kabi misollarni, iqlim o`zgarishlari, ob-havo ma`lumotlarini tayyorlashda, aholini barcha soha (tug`ilish, o`lim, yosh, jins va hokazo) lari ko`rsatkichlarini baholashda prognoz qilishda ham bu fan dastlabki aniq tushunchalarni bersa, tibbiyotga oid fanlarda inson va uning tanasi ichki va tashqi kasalliklarga tashxis qo`yish, kasallik turini aniqlash, davolanishni davomiyligini belgilashda AKTlari o`rni beqiyosadi. Yangi material esa o`quvchilarda yangi mavzuni mustahkamlashga bag'ishlangan darslarda bilimlarni o'zlashtirish va zarur ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan monitoring dasturlarini qo'llash yaxshi samara beradi. Shuning uchun tabiiy fanlarni o`qitishda jumladan geografiya va ekologiya darslarida darslarida AKTdan foydalanishning afzalliklarini quyidagicha deb hisoblaymiz: a) ko'p qirrali; b) xotiraning har xil turlariga ta'sir qilish; c) ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida qo'llash samaradorligi; d) moslashuvchanlik[5].

Hozirgi kunda kundan kunga takomillashib borilayotgan kompyuter tinglovchilar; talaba va o'qituvchilar ixtiyorida bo'lgan shu paytgacha mavjud bo'lgan barcha texnik vositalardan eng kuchlisi va eng samaralisidir hamdir.

Tabiiy va tibbiy mavzulardagi darslarni yoritishda axborot texnologiyalari o'quv jarayoni samaradorligini yaxshilab, o'zlashtirish jarayonlarini o'sish dinamikasini hamda idrok etish, reallikni ifodalashni o'rgatadi. Bu bilan talaba va tinglovchilarda darsni o`zida nazariy bilimlarni amaliy jihatdan kreativ fikrlarini ilgari surishga o'rgatadi. Ular darslarni yanada jonli, hayajonli va ma'rifiy qiladi, shuningdek, hissiy fon yaratishga yordam beradi. AKTdan foydalanish kerakli materialni sinchkovlik bilan tanlash va uni vizual va qulay shaklda taqdim etish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning ishtiyoqini oshiradi, ularning mustaqil bilim olishi, atrofdagi dunyoni o'rganishi uchun sharoit yaratadi.

Ma'ruza, amaliy, seminar va hatto uyga berilgan turli mavzudagi darslarni tayyorlash va o'tkazish jarayonida men har xil turdagi kompyuter dasturlaridan foydalish orqali o`zlari mustaqil ta`lim olishligiga erishiladi. Jumladan: o'quv

[2] 4. https://uz.wikipedia.org/wiki/kognitiv_tizim

[3] 1..Nikadambayeva X.B., Karabazov (Abdurashidov) Z.A. "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi"ni interfaol metodlardan foydalanib o'qitish imkoniyatlari. O'quv qo`llanma O'zMU. "Universitet" T.-2017. 7-11 B.

[4] 1..Nikadambayeva X.B., Karabazov (Abdurashidov) Z.A. "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi"ni interfaol metodlardan foydalanib o'qitish imkoniyatlari. O'quv qo`llanma O'zMU. "Universitet" T.-2017. 7-11 B.

[5] 3.Abdurashidov Z.A. O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsiz va uning mintaqaviy jihatlari. Uslubiy qo`llanma O'zMU. "Universitet" Toshkent-2023. B- 120.

dasturlari, simulyatorlar, nazorat ko'rgazmalari, ma'lumotnoma va axborot dasturlari va boshqalarni boshqa fanlar orqali o`z mutahassis fanlariga bog`lab tabiat va jamiyat o`rtasidagi qonuniyatlarni anglab olishga turtki bo`ladi.

Tabiyot va tibbiyot fanlari darslarida kompyuter taqdimotlari ko'proq ifodali va ko'rgazmali dars yaratishga yordam beradi, bu esa o'quvchilarga taqdim etilayotgan materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Bu sohani qo`llash tahlilllarimiz shuni ko`rsatmoqdaki, ayniqsa amaliyot seminar hamda lobaratoriyadan mashg`ulot olib borayotgan ustoz-murabbiylarning bunday darslarga katta qiziqishini ko'rsatadi. Multimediali taqdimot darslarining yana bir afzalligi - o'quvchilarning o'quv faolligini oshirish, shuningdek, materialni idrok etish va yodlashning sezilarli darajada yaxshilanishi. Bu akademik fan sifatida geografiyaga munosabatni o'zgartiradi[6]. Qadimgi tabiiy va tibbiyot fanlari yangilanib, yangi ijodiy qiyofalar va g'ayratli yosh muxlislarga ega bo'lmoqda. Internet va interfaol doskalar geografiya darslarida muvaffaqiyatli joriy etilayotgan asosiy axborot texnologiyalari vositalariga aylanib bormoqda. Ushbu vositalar darslarni yanada qiziqarli qiladi va talabalar motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Amaldagi texnologiyalar o'quvchilarga hamkorlik qilish imkoniyatini beradi, ularning ijodkorligi va o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantiradi, shuningdek, bilimlarini chuqurlashtiradi.

Zamonaviy talablar ijodiy faoliyatda o'qituvchi va o'quvchining faol ishtirokini taqozo etadi. Dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlar uchun qo'shma kompyuter loyihalarini ishlab chiqish orqali ilmiy-tadqiqot va izlanish ishlarini tashkil etish bunday faoliyatga misol bo'la oladi. Loyiha usuli loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasining asosini tashkil etadi, uning ma'nosi o'quv geografik materialini mustaqil ravishda o'zlashtirish va aniq mahsulotni yaratishdir.

Darsning maqsad va vazifalariga qarab bilim va malakalarni nazorat qilishda axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Multimedia texnologiyalari vaqtni tejaydi va ko'proq vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Interfaol doskaning imkoniyatlari geografik nomenklatura bo'yicha bilimlaringizni sinab ko'rish imkonini beradi.

Ko'pincha geografiya va ekologiya darslarida xaritalarni tez-tez o'zgartirish, darslik doirasidan tashqariga chiqadigan mavzu bo'yicha ko'rgazmali va illyustrativ, qo`shimcha materiallardan foydalanish kerak. Bu erda elektron taqdimot "yordamchi" bo'lishi mumkin[7].

Ko'rgazmali dasturlar odatda yangi materialni o'rganish uchun ishlatiladi. Ular ma'ruzachining sharhlari bilan video parchalarni o'z ichiga oladi, bu materialni yanada yorqinroq idrok etishga yordam beradi.

O'quv jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun o'quv resurslari boyiltilgan holda shakllantirilmoqda: media kutubxona, uning fondida tabiiy va tibbiyotga oid kun va kunaro 10 ga yaqin elektron qo'llanmalar va darsliklar yaratilmoqda; jumladan; testlar, test materiallari, dars ishlanmalari va kompyuter taqdimotlari banki vahokazo. Internet bilan ishlash qulayligi uchun men o'zim uchun har bir o`qiydigan mavzularim bo`yicha saytlar katalogini ishlab chiqdim, unda nafaqat ularning ro'yxati va manzillari, balki asosiy sahifalari ham mavjud.

Talabalarning axborot bilan malakali ishlash, tuzilish va tizimlashtirish qobiliyati shaxsiy rivojlanishning yuqori darajasiga erishish mezonlaridan biridir.

Hulosa qilib aytganda, tabbiy va tibbiyot o'qituvchilari ishiga axborot (kompyuter) texnologiyalarini joriy etish o'quv jarayoni sifatini oshirishga yordam beradi, shuningdek, hamkorlikka pedagogik yondashuvlarni boyitadi. Axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi va endi ular o'tkinchi yrf sifatida emas, balki o'qituvchi va talabalarga qo'yilgan muammolarni samarali hal qilish va kredit-modulli o'qitish usullarini amalga oshirish imkonini beradigan ajralmas vosita sifatida qabul qilinadi.

Bu o`z navbatida, tabiyot va tibbiyot fanlari bir bilan charcharchas bog`liq ekanligi, faqatgina hozirgi zamonaviy texnologiyarni qo`llash orqali masofar qisqarishi, uzoq umr ko`rish sirlarini oldidan bilish va o`z tana tuzilishlari imkoniyatlaridan kelib yondasha olishligini har bir tinglovchi uni yoshi va jinsidan qat`iy nazar ongli tushunib etishiga olib keladi hmada malakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi asosiy kriteriyalardan biri ekanligi o`z tasdiqini topadi[8].

Tabiyot va tibbiyot fanlari birga uyg`un holda darslarni olib borishiligda hududlar (mintaqa, viloyat, tumanlar) kesimida ilmiy izlanishlar maqsadga muvofiq, masalan, birinchidan - aholi o`rtasida tibbiy savodhonlikni oshirish shu joyda muqim yashayotgan aholining turmush tarziga bo`gliq, ikkinchidan – kasallik turi keng tarqalgan hudud boshqa hududda deyarli uchramasligi, uchinchidan – tuman va hududlarni tabiiy resusrlari (rel`efi, iqlimi va.b) holatiga qarab barcha aholi qatlamlarini (umumta`lim va o`rta maxsus ta`lim muaassalari o`quvchilari, mahallada yoshiga qarab funksional vazifalariga, yani uyda menhat faoliyati bilan band, ayollar, kelinlar onahonlar, keksa nuroniy otahonlar, oila boshliq erkaklar, yosh bolalarni alohida kun jadvali asosida favqulotda vaziyatlarni oldini olish fasllar kesimida ham

[6] 1..Nikadambayeva X.B., Karabazov (Abdurashidov) Z.A. "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi"ni interfaol metodlardan foydalanib o'qitish imkoniyatlari. O'quv qo`llanma O'zMU. "Universitet" T.-2017. 7-11 B.

[7] 3.Abdurashidov Z.A. O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsiz va uning mintaqaviy jihatlari. Uslubiy qo`llanma O'zMU. "Universitet" Toshkent-2023. B- 120.

[8] 3.Abdurashidov Z.A. O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsiz va uning mintaqaviy jihatlari. Uslubiy qo`llanma O'zMU. "Universitet" Toshkent-2023. B- 120.

targ`ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish) o`qitish orqali ham tabiyot va tibbiyot fanlari bir biri bilan chambarchas bog`liq ekanligini ko`rish mumkin[9].

Hali bu sohada ham ilmiy tadqiqot ishlariga keng jamoatchilikni targ`ib qilish masalalari ham davlatimiz oldida dolzarb masalalardan ekanligini ham unutmaslik lozim. Bu esa mustaqil yurtimizni har tomonlama iqtisodiy-ijtimoy rivojlanishi, turizm, sog`liqni saqlash, ekologiyani asrash, ona tabiatga mehr uyg`otish, o`zaro bag`rikenglik, vatanparvarlik, favqulotda vaziyatlarga tayyorlash va unda to`g`ri xarakat qilishga aholini tayyorlash (hududlar kesimida), odamlarni emin erkin yashashliklari uchun hayotiy xavfsizlikni ta`minlashga turtki bo`ladi. Albatta bunda aholini ichki ruhiyati va keyinchalik shakllanadigan psixologik qarashalri bilan voqea va hodisalarni ongli anglash tabiiy favqulodda vaziyatlarga hushyor, texnogen tusdagi favquloddagi vaziyatlarni sodir etishga yo`l qo`ymaslik kabi yetuk insoniylik jihatlari bilan shakllanishiga xizmat qilgan holda, tibiiyotchilar ta`biri bilan aytganda kasallikka qarshi kurashishdan ko`ra uni oldini olgan yaxshi degan iborasiga aholi ayniqsa endi tabiat va jamiyat tushunchalriga ongli tushunib kirib borayotgan maktab o`quvchilarida o`z tug`ilib o`sgan joylarida sodir bo`lish mumkin bo`lgan tabiiy, texnogen hamda ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlardan imkon qadar talofatlarsiz engib o`tishning psixologik ichki insintini shakllantishga zamin yaratgan bo`lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nikadambayeva X.B., Karabazov (Abdurashidov) Z.A. “O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi”ni interfaol metodlardan foydalanib o‘qitish imkoniyatlari. O‘quv qo`llanma O‘zMU. “Universitet” Toshkent-2017. B- 224.

2. Oxunov R.Z., Abdurashidov Z.A. Hayot faoliyati xavfsizligi nazariyasi asoslari. O‘quv qo`llanma O‘zMU. “Universitet” Toshkent-2024. B- 251.

3. Abdurashidov Z.A. O‘zbekiston Respublikasida ekologik xavfsiz va uning mintaqaviy jihatlari. Uslubiy qo`llanma O‘zMU. “Universitet” Toshkent-2025. B- 120.

4. https://uz.wikipedia.org

[9] 2.Oxunov R.Z., Abdurashidov Z.A. Hayot faoliyati xavfsizligi nazariyasi asoslari. O‘quv qo`llanma O‘zMU. “Universitet” Toshkent-2024. B- 251.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Karimova Kunduz Ruzibayevna
Urganch davlat pedagogika instituti, dotsent (PhD)
E-mail:q_karimova@mail.ru

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING USLUBIY MALAKASI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada uslub, ilmiy uslub, o'qituvchi uslubiy malakasi, o'qituvchi uslubiy malakasini rivojlantirish vositalari haqidagi fikrlar yoritilgan. O'qituvchi uslubiy malakasining ta'lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati, uslubiy malakasini rivojlangan o'qituvchining boshqa o'qutuvchilarga nisbatan ustunligi chuqur tahlil qilingan. Uslubiy malakaning asosiy jihatlari: didaktik yondashuvlar, interfaol metodlarning ahamiyati, differensial yondashuvning ustunligi, tarbiyaviy komponentga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *uslub, ilmiy uslub, uslubiy malakasi, ta'lim, boshlang'ich sinf, ijodiy fikrlash, pedagogik yondashuv, ta'lim sifati.*

Каримова Кундуз Рузибаевна
Ургенчский государственный педагогический институт, доцент (кандидат наук)

МЕТОДИЧЕСКАЯ КВАЛИФИКАЦИЯ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: *В данной статье освещены представления о методе, научном методе, методической компетентности учителя, средствах развития методической компетентности учителя. Глубоко проанализировано педагогическое значение методической компетентности учителя в образовательном процессе, преимущество учителя с развитой методической компетентностью перед другими педагогами. Основные аспекты методической компетентности: дидактические подходы, важность интерактивных методов, превосходство дифференцированного подхода, особое внимание уделяется образовательной составляющей.*

Ключевые слова: *метод, научный метод, методическая компетентность, образование, начальный класс, творческое мышление, педагогический подход, качество образования.*

Karimova Kunduz Ruzibayevna
Urgench State Pedagogical Institute, Associate Professor (PhD)

METHODICAL QUALIFICATIONS OF PRIMARY GRADE TEACHERS

Abstract: *In this article, ideas about method, scientific method, teacher's methodological competence, means of development of teacher's methodological competence are highlighted. The pedagogical significance of the teacher's methodological competence in the educational process, the advantage of a teacher with developed methodological competence over other teachers has been deeply analyzed. The main aspects of methodological competence: didactic approaches, the importance of interactive methods, the superiority of the differential approach, special attention is paid to the educational component.*

Key words: *method, scientific method, methodical competence, education, primary class, creative thinking, pedagogical approach, quality of education.*

Ta'lim berish jarayonida boshlang'ich sinflarni o'qitish bosqichi o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan bu davrda o'quvchida o'qishga munosabat, bilim olishga qiziqish, mustaqil fikrlash, har bir o'quvchining individual rivojlanishi shakllanadi.

O'quvchining o'qishga nisbatan munosabati uning ta'lim olish jarayoniga bo'lgan shaxsiy munosabatini, ya'ni bilim olishga bo'lgan ijobiy yoki salbiy qarashini ifodalaydi. Agar boshlang'ich sinflarda darslar qiziqarli, mazmunli va tushunarli tashkil etilsa, o'qishni o'quvchi majburiyat emas, balki iqtidorini, o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyati sifatida qabul qiladi. O'qishga nisbatan ijobiy munosabati shakllangan o'quvchi har bir darsga mas'uliyat bilan yondashadi, uyga vazifalarni, topshiriqlarni o'z vaqtida bajaradi va yangi bilim olishga intiladi. Bu holat ta'lim jarayonining samarali bo 'lishiga asos bo'ladi.

K.D.Ushinskiy o‘qituvchilik mahoratining asosini o‘qituvchi shaxsiyati tashkil etishini ta’kidlab, tarbiya va ta’lim samaradorligi bevosita pedagog shaxsiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.[1]

Sh.A.Amonashvili pedagogik mahoratni insonparvarlik tamoyillariga asoslangan pedagogik faoliyat sifatida talqin qiladi. U o‘qituvchini bolaning shaxsini hurmat qiluvchi va uning imkoniyatlariga ishonuvchi yetakchi deb hisoblaydi.[2]

N.N.Azizxo‘jayeva o‘qituvchilik mahoratini pedagogning kasbiy kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi va pedagogik texnikasi majmui sifatida izohlaydi. Uning ta’kidlashicha, o‘qituvchi darsni to‘g‘ri loyihalashi va zamonaviy metodlardan foydalana olishi pedagogik mahoratning asosiy ko‘rsatkichidir.[3]

O‘qituvchilik mahorati ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishni ilmiy asos va o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. A.Xoliqov o‘qituvchilik mahoratini pedagogning ijodkorligi va ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvi bilan izohlaydi. Uning fikricha, zamonaviy o‘qituvchi an’anaviy bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonining tashkilotchisi bo‘lishi kerak.[4]

O‘quvchi maktab ostonasiga ilk qadam qo‘yar ekan, uning uchun ustoz-yetakchi, ustoz-ota, ustoz-ona, ustoz-do‘st, ustoz-sirdosh bo‘la olishi kerak. Eng asosiysi o‘qituvchi bola uchun daho, bilimlar maskani va o ‘qituvchining har bir gapi u uchun qonundir. Shuning uchu o‘qituvchi o‘quvchiga ta’lim va tarbiya berishda juda ehtiyotkor bo‘lishi va mas’uliyatni his qila olishi lozim.

Bilim olishga bo‘lgan qiziqish — bu o‘quvchining yangi ma’lumotlarni o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va intilishidir. Bu ichki ehtiyojni qaror toptirish va intilishni yuksaltirish maqsadida o‘qituvchi muammoli savollar, hayotiy misollar, interfaol usullar va ijodiy topshiriqlar orqali har bir darsini tashkil qiladi va o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi. Qiziqish mavjud bo‘lgandagina o‘quvchi faqat a’lo baho olish uchun emas, balki bilishga bo‘lgan ichki ehtiyoj bo‘lganligi uchun ham o‘qiydi. Natijada bilimlar shunchaki yuzaki emas, balki chuqur va ongli o‘zlashtiriladi.

Yangi bilimlarni o‘zlashtirgan o‘quvchi mavzu yuzasidan mustaqil fikrlay olishiga urg‘u berish kerak. Mustaqil fikrlash bu o‘quvchining berilgan yangi bilimlarni tayyor holda qabul qilishi emas, balki ularni tahlil qila olish, solishtira bilish, baholay olish va o‘z xulosasini chiqara bilish qobiliyatini anglatadi. Ta’lim jarayonida turli muammoli vaziyatlarni tashkil qilish, savollar tayyorlash, bahs-munozaralarni yuzaga chiqarish va ijodiy topshiriqlar berish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bu esa ularni faqat bilim oluvchi emas, balki faol, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi, o‘z shaxsiy fikriga ega shaxs sifatida tarbiyalaydi. Shu sababli ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining uslubiy malakasi yuqori sinf o‘qituvchilariga nisbatan murakkab va mas’uliyatlidir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta’lim berar ekan, bu jarayonda o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini e’tiborga olishi, turli ta’limiy o‘yin, qiziqarli muammoli vaziyat, rang-barang tasviriy va amaliy faoliyatga asoslangan metodlardan foydalanishi, o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalarni shakllantira olishi, har bir o‘quvchining individual rivojlanishini ta’minlashi kerak. Chunki har bir yosh davriga xos psixologik rivojlanish darajasi, diqqat hajmi, xotira turi va tafakkur xususiyatlari mavjud bo‘lib, ayniqsa ilk bora ta’lim olishga qadam qo‘ygan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bu bosqich alohida ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq obrazli fikrlaydi, ularning diqqati tez chalg‘iydi va uzoq vaqt bir xil faoliyat bilan shug‘ullanish qiyin bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi qisqa, rang-barang, harakatga boy mashg‘ulotlardan foydalanishi lozim. Yuqori sinflarda esa o‘quvchilarning mantiqiy va abstrakt tafakkuri rivojlangan bo‘lgani sababli tahliliy savollar, muammoli vazifalar va bahslar samaraliroq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarga ta’lim berish jarayonida turli metodlardan, ayniqsa o‘yinli metodlardan ko‘proq foydalanish kerak. O‘yinli metodlar, ayniqsa, kichik yoshdagi o‘quvchilarda yuqori motivatsiya uyg‘otadi. Masalan, matematika darslarida “kim tezroq fikrlaydi”, ona tili va o ‘qish savodxonligi darslarida “ mos so‘z top” kabi o‘yinlar orqali yangi bilimlar qiziqarli tarzda oson o‘zlashtiriladi. Muammoli vaziyatlar esa o‘quvchilarni fikrlashga undaydi, masalan: “Nima uchun hamma sonlarning bo ‘luvchisi bo‘lmaydi?”, “Nima uchun ona Vatan deyiladi?” “Nima uchun ayrim jismlar suvda cho‘kadi, boshqalari esa suzadi?” kabi savollar orqali o‘quvchilar sabab–oqibat munosabatlarini izlay boshlaydi. Tasviriy va amaliy faoliyat, nazariy bilimlarni amaliyotdagi qo‘llanilish holatini masalan, rasm chizish, maket yasash, tajribalar o‘tkazish orqali bilimlar mustahkam va ongli o‘zlashtiriladi.

Bu ko‘nikmalar o‘quvchining keyingi ta’lim faoliyati uchun poydevor hisoblanadi. Masalan, o‘qishni o‘rganishda matnni to‘g‘ri, ifodali va ongli o‘qish mashqlari bajariladi; yozishda esa harflarni to‘g‘ri yozish, imlo qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Hisoblashda misollar yechish, masalalarni tahlil qilish va masala mazmuniga mos usulni tanlash orqali matematik tafakkur rivojlanadi. O‘qituvchi bu ko‘nikmalarni takrorlash, mashq qilish va amaliy vazifalar orqali o‘quvchilar ongiga muhrlab, mustahkamlab boradi.

Sinfdagi o‘quvchilarning bilimni olishga bo‘lgan qobiliyati, o‘zlashtirish tezligi va qiziqishlari turlicha bo‘ladi. Shu sababli o‘qituvchi sinfdagi kuchli o‘quvchilarga mos bo‘lgan murakkabroq topshiriqlar, o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarga esa soddaroq va tizimli ravishda o‘quvchiga ko‘proq yordam beriladigan vazifalar beradi. Masalan, bir guruh o‘quvchilar matn asosida mustaqil insho yozsa, boshqalari tayanch savollar yordamida ish bajarishi mumkin. Yoki: murakkab

matematik masalalarni sinfdagi faol o‘quvchilar ishlasa, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar o‘qituvchi yordamida murakkab masalalarni sodda masalalarga ajratgan holda yechadilar. Bu yondashuv har bir o‘quvchining o‘z imkoniyatiga mos ravishda rivojlanishini ta’minlaydi va bu jarayonda ayrim past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar a’lochi o‘quvchilar safiga qo‘shilib olishi mumkim. Shu tarzda mazkur jihatlar o‘qituvchining o‘quvchilarni samarali o‘qitish va tarbiyalashdagi muhim metodik asoslarini tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z uslubiy malakasini dars jarayonida darsni kompetensiyaga yo‘naltirish orqali, interfaol metodlardan foydalangan holda, individual yondashuvni ta’minlash, baholashni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida qo‘llash bilan namoyon etadi.

Zamonaviy, o‘z kasbining ustasi bo‘lgan o‘qituvchi darsni kompetensiyaga yo‘naltirib tashkil etadi, ya’ni o‘quvchi faqat yangi bilim emas, balki uni real hayotda qo‘llashni ham o‘rganadi. Bunday o‘qituvchi darsni shunday rejalashtiradiki, o‘quvchi faqat bilimni yodlab qolmaydi, balki uni amalda qo‘llashni ham o‘rganadi. Masalan, matematikada formulani tushuntirish bilan cheklanmay, uni turli hayotiy vaziyatlarda — xarid qilish, masofani hisoblash, vaqtni rejalashtirish kabi amaliy masalalarda qo‘llash imkoniyatini beradi. Shu tarzda dars nafaqat bilim berish, balki o‘quvchining real hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Buning uchun o‘qituvchi darslarida interfaol metodlardan foydalanadi (klaster, aqliy hujum, o‘yinlar, rolli mashqlar,…), bu esa o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Interfaol metodlar — masalan, klaster (g‘oyalarni vizual tashkil qilish), aqliy hujum, o‘yinlar, rolli mashqlar — o‘quvchilarning darsda faolligini oshiradi va erkin fikrlash jarayonini jonlantiradi va fikrini erkin bayon qilish ko‘nikmasi rivojlanadi. Interfaol metodlar orqali o‘quvchilar passiv tinglovchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Dars davomida o‘qituvchi individual yondashuvni ta’minlay olishi juda muhim, ya’ni kuchli va sust o‘quvchilar bilan alohida ishlay olishi kerak. Har bir o‘quvchisining qobiliyati, bilim darajasi va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi qanday ekanligini bilgan holda o‘qituvchi kuchli o‘quvchilarga murakkabroq, qo‘shimcha topshiriqlar beradi, qiynalayotganlarga esa soddaroq vazifalar bilan yordam beradi. Masalan, matematika darsida kuchli o‘quvchilar mustaqil masalalarni yechsa, sustroq o‘quvchilarga yo‘naltiruvchi savollar bilan yordam berish orqali tushuntirish beriladi. Bu yondashuv har bir o‘quvchining individual rivojlanishini ta’minlaydi, ayrim o‘quvchilarnong aktiv o‘quvchilar safiga o‘tishiga turtki bo‘ladi va sinfda muvaffaqiyat hissini oshiradi.

Va albatta o‘qituvchi haqqoniy baholashni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida qo‘llashi kerak, bu esa bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni va o‘qishga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi. Baholash nafaqat o‘quvchining bilim darajasini aniqlaydi, balki motivatsiyani oshiruvchi vositasi sifatida ham ishlatiladi. Masalan, sinf ichidagi o‘tkazilgan kichik viktorinalar, o‘z-o‘zini baholash varaqalari, guruhlararo bahslar orqali o‘quvchi muvaffaqiyatini ko‘radi va o‘zini sinfdagi o‘rnini his qiladi. Shuningdek, o‘quvchilarni ijobiy baholash orqali ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va o‘ziga bo ‘lgan ishonchi kuchayadi. Masalan, ona tilida yaxshi yozilgan insho yoki matematik masalalarni to‘g‘ri yechgan o‘quvchi jamoa oldida rag‘batlantiriladi, bu esa o‘quvchini yanada faol ishlashga undaydi.

Yuqorida kelturilganlarning barchasi uslubiy malakali o‘qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi eng muhim ko‘rsatkichlardir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining uslubiy malakasi ta’limning poydevorini yaratadi. Mazkur malakaning yuqori darajada bo‘lishi o‘quvchilarning bilimga qiziqishi, mustaqil fikrlashi va kelajakdagi o‘quv muvaffaqiyatlarining asosi hisoblanadi. Uslubiy malaka va pedagogning kasbiy yetukligi uning dars maqsadini to‘g‘ri aniqlay olishida, ta’lim mazmunini tanlash va tuzishida, mavzuni yoritish uchun metodlardan unumli foydalanishida, qanday metodga qaysi vositalarni moslashtira oliishida, darsda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga to‘la erisha olishida, natijalarni tahlil qilib o‘quvchilarni haqqoniy baholay olishida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. К.Д.Ушинский. Человек как предмет воспитания. - Москва : Педагогика, 1988. - 512 б.
2. Ш.А.Амонашвили. Гуманная педагогика.- Москва : Педагогика, 1990.–560 б.
3. N.N.Azizxo‘jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent: TDPU, 2006. - 180 b.
4. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. - 420 b.
5. B.X. Xodjayev. Pedagogik mahorat asoslari. - Toshkent: Fan, 2010. - 240 b.
6. K.R.Karimova. O‘qituvchi uslubiy malakasini rivojlantirish vositalari. - Bola va zamon, 2025-yil 4-son. 41-43 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Nizomov Akmaljon Akramjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti sport faoliyati fakulteti
"Sport o'yinlari nazariyasi va uslubiyati" kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: nizomovakmaljon1995@gmail.com

ZAMONAVIY GANDBOLDA O'YIN FAOLIYATINING STRUKTURAVIY MODELI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy gandbolda o'yin faoliyatining strukturaviy modeli ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi hamda uni takomillashtirish yo'llari ishlab chiqiladi. Tadqiqotda gandbol o'yinining asosiy komponentlari — hujum, himoya, o'tish fazalari (tezkor qarshi hujum va himoyadan hujumga o'tish), darvozabon faoliyati, individual va guruhli taktik harakatlar tizimli yondashuv asosida o'rganiladi. Zamonaviy gandbol rivojlanish tendensiyalari, xususan, International Handball Federation talablari hamda IHF World Men's Handball Championship va IHF World Women's Handball Championship musobaqalari statistik ma'lumotlari asosida o'yin faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.*

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, videoanaliz, statistik tahlil, modellashtirish va eksperimental metodlardan foydalaniladi. Olingan natijalar asosida o'yin faoliyatining strukturaviy modeli ishlab chiqilib, unda texnik-taktik, funksional, psixologik va koordinatsion omillarning o'zaro bog'liqligi aniqlanadi. Shuningdek, model asosida mashg'ulot jarayonini optimallashtirish, o'yin samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot natijalari gandbolchilarning ko'p yillik tayyorgarlik tizimini takomillashtirish, yuqori malakali sportchilar tayyorlash jarayonini ilmiy asoslash hamda o'yin faoliyatini kompleks baholash mezonlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *Zamonaviy gandbol, o'yin faoliyati, strukturaviy model, texnik-taktik tayyorgarlik, o'yin samaradorligi, hujum va himoya tizimi, qarshi hujum, videoanaliz, modellashtirish, musobaqa faoliyati, funksional tayyorgarlik, pedagogik eksperiment.*

Низомов Акмальон Акрамжон оглу
Факультет спортивной деятельности, Ферганский государственный университет
Преподаватель кафедры «Теория и методология спортивных игр»

СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ИГРОВОЙ АКТИВНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ГАНДБОЛЕ И ЕЕ УЛУЧШЕНИЕ

Аннотация: *В данной статье анализируется структурная модель игровой активности в современном гандболе с научной, теоретической и практической точек зрения и разрабатываются пути ее улучшения. В исследовании изучаются основные компоненты гандбольной игры – атака, защита, переходные фазы (быстрая контратака и переход от защиты к атаке), активность вратаря, индивидуальные и групповые тактические действия на основе системного подхода. Анализ показателей эффективности игровой деятельности проводится на основе современных тенденций развития гандбола, в частности, требований Международной федерации гандбола (МФГ), а также статистических данных соревнований Чемпионата мира по гандболу среди мужчин и среди женщин.*

В процессе исследования используются педагогическое наблюдение, видеоанализ, статистический анализ, моделирование и экспериментальные методы. На основе полученных результатов разработана структурная модель игровой деятельности, которая выявляет взаимосвязи технико-тактических, функциональных, психологических и координационных факторов. Также на основе модели разработаны методические рекомендации по оптимизации тренировочного процесса, повышению эффективности игры и улучшению конкурентоспособности.

Результаты исследования имеют большое значение для совершенствования долгосрочной системы подготовки гандболистов, научного обоснования процесса подготовки высококвалифицированных спортсменов и разработки критериев комплексной оценки игровой деятельности.

Ключевые слова: *современный гандбол, игровая деятельность, структурная модель, технико-тактическая подготовка, эффективность игры, система атаки и защиты, контратака, видеоанализ, моделирование, соревновательная деятельность, функциональная подготовка, педагогический эксперимент.*

Nizomov Akmaljon Akramjon o'g'li
Teacher of the Department of *Theory and Methodology of Sports Games*
Faculty of Sports Activities, Fergana State University

STRUCTURAL MODEL OF GAME ACTIVITY IN MODERN HANDBALL AND ITS IMPROVEMENT

Abstract: *This article analyzes the structural model of game activity in modern handball from scientific-theoretical and practical perspectives and develops ways for its improvement. The study examines the main components of handball game activity — offense, defense, transition phases (fast break and transition from defense to offense), goalkeeper activity, and individual and group tactical actions — based on a systematic approach.*

The development trends of modern handball are analyzed, particularly the requirements of the International Handball Federation as well as statistical data from the IHF World Men's Handball Championship and the IHF World Women's Handball Championship to evaluate the efficiency indicators of game performance.

During the research process, pedagogical observation, video analysis, statistical analysis, modeling, and experimental methods were used. Based on the obtained results, a structural model of game activity was developed, identifying the interrelation of technical-tactical, functional, psychological, and coordination factors. In addition, methodological recommendations aimed at optimizing the training process, improving game efficiency, and strengthening competitiveness were developed based on this model.

The results of the research are important for improving the long-term training system of handball players, scientifically substantiating the process of training highly qualified athletes, and developing criteria for the comprehensive evaluation of game activity.

Keywords: *Modern handball, game activity, structural model, technical and tactical preparation, game efficiency, offensive and defensive system, counterattack, video analysis, modeling, competitive activity, functional preparation, pedagogical experiment.*

Kirish

Zamonaviy sport tizimida jamoaviy o'yin turlari alohida o'rin egallaydi. Ular nafaqat yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni, balki murakkab taktik tafakkur, tezkor qaror qabul qilish, muvofiqlashtirilgan jamoaviy harakat va kuchli psixologik barqarorlikni talab etadi. Shunday sport turlaridan biri – gandbol bo'lib, u bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng rivojlanayotgan, dinamik va yuqori intensivlikka ega o'yin sifatida e'tirof etiladi. Gandbolning zamonaviy rivojlanish bosqichi o'yin tezligining oshishi, taktik sxemalarning murakkablashuvi, o'yinchilar funksional imkoniyatlarining kengayishi va texnologik vositalardan foydalanishning kuchayishi bilan xarakterlanadi.

Gandbol sport turining global miqyosdagi rivojlanishi International Handball Federation tomonidan muvofiqlashtirilib, xalqaro musobaqalar tizimi muntazam takomillashtirib borilmoqda. Xususan, IHF World Men's Handball Championship hamda IHF World Women's Handball Championship doirasida namoyon etilayotgan o'yin sur'ati va samaradorlik ko'rsatkichlari zamonaviy gandbolning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Ushbu musobaqalarda qo'llanilayotgan taktik modellar, tezkor o'tish fazalari va kombinatsion harakatlar tizimi o'yin faoliyatini ilmiy asosda o'rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mavzuning dolzarbligi

Zamonaviy gandbolda o'yin faoliyati murakkab ko'p komponentli tizim sifatida namoyon bo'ladi. O'yin jarayoni hujum, himoya va o'tish fazalarining uzluksiz almashinuvi asosida tashkil topadi. Har bir faza o'ziga xos texnik, taktik, funksional va psixologik omillarni mujassamlashtiradi. Shu bois o'yin faoliyatini alohida elementlar emas, balki yaxlit strukturaviy model asosida o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda ko'plab tadqiqotlarda gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligi, texnik mahorati yoki alohida taktik elementlari o'rganilgan bo'lsa-da, o'yin faoliyatining umumiy strukturasi va uning ichki bog'liqlik mexanizmlarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, yuqori malakali sportchilar misolida o'yin faoliyatining modellashtirilishi, samaradorlik ko'rsatkichlarining tizimli baholanishi va mashg'ulot jarayoniga integratsiyalashuvi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy gandbolning o'ziga xos jihati shundaki, o'yin tezligi yildan-yilga ortib bormoqda. Hujumdan himoyaga va himoyadan hujumga o'tish fazalari soniyasiga hal qilinadigan qarorlarni talab etadi. Bu esa sportchilarning funksional tayyorgarligi bilan bir qatorda, ularning o'yin tafakkuri va situatsion moslashuvchanligini ham belgilaydi. Shunday sharoitda o'yin faoliyatining strukturaviy modelini ishlab chiqish orqali mashg'ulot jarayonini optimallashtirish, yuklamalarni differensiallashtirish va o'yin samaradorligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Muammoning ilmiy asoslanishi

Sport nazariyasi va metodikasida modellashtirish usuli keng qo'llaniladi. Model real jarayonning soddalashtirilgan, tizimlashtirilgan ko'rinishi bo'lib, u murakkab obyektni tahlil qilish va boshqarish imkonini beradi.

Gandbol o‘yin faoliyatining strukturaviy modeli – bu o‘yin jarayonini tashkil etuvchi barcha komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiruvchi ilmiy konstruktsiyadir.

Mazkur tadqiqotda o‘yin faoliyatining quyidagi asosiy tarkibiy qismlari ajratib ko‘rsatiladi:

- texnik komponent (uzatish, zarba, to‘p olib yurish, blok qo‘yish va boshqalar);
- taktik komponent (individual, guruhli va jamoaviy harakatlar);
- funksional komponent (chidamlilik, tezkorlik, kuch, koordinatsiya);
- psixologik komponent (motivatsiya, stressga chidamlilik, diqqatni jamlash);
- axborot-analitik komponent (videoanaliz, statistik monitoring).

Ushbu komponentlarning o‘zaro ta’siri o‘yin samaradorligini belgilaydi. Strukturaviy model aynan mana shu bog‘liqlikni aniqlash va tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti va predmeti

Tadqiqot obyekti – yuqori malakali gandbolchilarning musobaqa va mashg‘ulot jarayonidagi o‘yin faoliyati.

Tadqiqot predmeti – zamonaviy gandbolda o‘yin faoliyatining strukturaviy modeli va uni takomillashtirish mexanizmlari.

Tadqiqotning maqsadi

Zamonaviy gandbolda o‘yin faoliyatining strukturaviy modelini ishlab chiqish va uning asosida o‘yin samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari

1. Zamonaviy gandbol rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish.
2. O‘yin faoliyatining asosiy strukturaviy komponentlarini aniqlash.
3. Musobaqa faoliyatini statistik va videoanaliz asosida baholash.
4. Strukturaviy modelni ishlab chiqish va tajribada sinovdan o‘tkazish.
5. Mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy yangilik

- Zamonaviy gandbolda o‘yin faoliyatining kompleks strukturaviy modeli ishlab chiqiladi.
- O‘yin samaradorligini baholashning integrallashgan mezonlari taklif etiladi.
- Hujum, himoya va o‘tish fazalarining o‘zaro bog‘liqligi ilmiy asosda isbotlanadi.
- Mashg‘ulot yuklamalarini modellashtirish asosida optimallashtirish metodikasi ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati

Nazariy jihatdan tadqiqot natijalari sport nazariyasi va metodikasini boyitadi, gandbol o‘yin faoliyatining tizimli tahliliga oid ilmiy qarashlarni kengaytiradi. Amaliy jihatdan esa ishlab chiqilgan model murabbiylar faoliyatida qo‘llanilishi, o‘yinchilar tayyorgarligini rejalashtirish va nazorat qilish jarayonida samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy gandbol rivojlanish tendensiyalari

So‘nggi yillarda xalqaro maydonda gandbol o‘yinining intensivligi sezilarli darajada oshdi. Tezkor qarshi hujumlar soni ortdi, pozitsion hujumlar murakkablashdi, himoya tizimlarida agressiv pressing va zonali aralash sxemalar keng qo‘llanila boshlandi. Darvozabonlarning o‘yin jarayonidagi roli ham sezilarli darajada kengaydi – ular nafaqat himoyada, balki tezkor hujumni boshlashda ham muhim bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bunday sharoitda o‘yin faoliyatining samaradorligi alohida elementlarga emas, balki ularning uyg‘unlashgan tizimiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Strukturaviy model aynan mana shu tizimni ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, modellashtirish, pedagogik kuzatuv, test sinovlari, matematik-statistik tahlil va videoanaliz usullaridan foydalaniladi. Olingan natijalar asosida o‘yin faoliyatining grafik va matematik modeli ishlab chiqiladi.

Xulosa sifatida kirish qismi yakuni

Yuqoridagilardan kelib chiqib, zamonaviy gandbolda o‘yin faoliyatining strukturaviy modelini ishlab chiqish va uni takomillashtirish masalasi sport nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. O‘yin jarayonining murakkabligi, yuqori tezligi va ko‘p omilliligi ushbu masalaga tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi.

Mazkur maqolada taklif etilayotgan strukturaviy model o‘yin faoliyatini chuqurroq anglash, mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish va gandbolchilarning musobaqa samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Zamonaviy gandbolning nazariy-metodik asoslari va sport tayyorgarligi tizimi

Gandbol sport turi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu o‘yin yuqori darajadagi jismoniy, texnik-taktik va psixologik tayyorgarlikni talab etadigan murakkab sport faoliyati hisoblanadi. Sport

tayyorgarligi tizimi ko‘p yillik jarayon bo‘lib, u bosqichma-bosqich shakllanadi va o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat yagona tizimni tashkil etadi.

S. Abduraxmonov (2023) “Gandbolchilarning sport tayyorgarligi tizimi” nomli ilmiy maqolasida gandbolchilarning tayyorgarligi ko‘p komponentli tizim sifatida qaralishi zarurligini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, sport tayyorgarligi umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlikning uzviy uyg‘unligi asosida tashkil etilishi lozim. Abduraxmonov tayyorgarlik jarayonida yuklamalarni ilmiy asosda rejalashtirish, bosqichma-bosqich oshirish hamda musobaqa faoliyati bilan uyg‘unlashtirish zarurligini asoslab beradi.

Muallif tomonidan ta’kidlanishicha, zamonaviy gandbolda o‘yin tezligi va intensivligi oshib borayotganligi sababli, sportchilarning funksional imkoniyatlarini chuqur o‘rganish va monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, anaerob va aerob chidamlilik ko‘rsatkichlari, tezkor-kuch sifatlari hamda koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanish darajasi o‘yin samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Abduraxmonovning (2023) “Gandbol sport turini rivojlantirishning dolzarb masalalari” nomli tadqiqotida esa respublikamizda gandbolni ommalashtirish, sport maktablari faoliyatini takomillashtirish va murabbiylar malakasini oshirish masalalari keng yoritilgan. Muallif gandbolni rivojlantirishda ilmiy yondashuvning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani, o‘quv-mashg‘ulot jarayonining zamonaviy talablarga to‘liq javob bermasligi kabi muammolarni ko‘rsatib o‘tadi. Shu nuqtai nazardan, o‘yin faoliyatining strukturaviy modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligi va yosh xususiyatlari

Yosh sportchilarni tayyorlash masalasi sport nazariyasining muhim yo‘nalishlaridan biridir. A.S.O.Z. Jismoniy va hammualliflar (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi tahlil qilingan. Mualliflar yosh davrining fiziologik xususiyatlari, o‘sish va rivojlanish jarayonlarining sport natijalariga ta’siri haqida batafsil ma’lumot beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maktab yoshidagi o‘quvchilarda tezkorlik va koordinatsion qobiliyatlar nisbatan tez rivojlanadi, biroq maxsus chidamlilik va kuch ko‘rsatkichlari tizimli mashg‘ulotlar natijasida shakllanadi. Bu holat gandbol sportida ko‘p yillik tayyorgarlik tizimini ilmiy asosda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Gandbol o‘yinida sakrash, tezkor burilish, to‘xtash va keskin yo‘nalish o‘zgartirish kabi harakatlar ustunlik qiladi. Shu sababli sportchilarni tayyorlash jarayonida plyometrik mashqlar, intervalli yugurish, tezkor-kuch mashqlari keng qo‘llaniladi. Jismoniy sifatlarning notekis rivojlanishi o‘yin samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Sog‘lom turmush tarzi va jismoniy tarbiya tizimi

A.S. Xakimovich (2024) o‘z tadqiqotida sog‘lom turmush tarzining jismoniy tarbiyadagi o‘rnini yoritib, sport faoliyati bilan shug‘ullanishning ijtimoiy va pedagogik ahamiyatini asoslab beradi. Muallif sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda sportning, xususan, jamoaviy o‘yin turlarining roli katta ekanligini ta’kidlaydi.

Gandbol sport turi o‘quvchilar va yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Jamoaviy o‘yin jarayoni shaxsning ijtimoiylashuvi, muloqot ko‘nikmalari va mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Bu esa sport tayyorgarligi tizimining pedagogik asoslarini mustahkamlaydi.

Milliy sport siyosati va barkamol avlod konsepsiyasi

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlarida yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Xususan, “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” (1998) hamda “Barkamol avlod orzusi” (1998) asarlarida jismoniy tarbiya va sportning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni alohida ta’kidlanadi.

Mazkur asarlarda sog‘lom va ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo‘nalishi ekani qayd etilgan. Sport, jumladan gandbol, yoshlarning irodaviy sifatlarini, jamoaviylik va intizomni shakllantirishda muhim vosita sifatida e’tirof etiladi.

Shuningdek, 2014-yilda qabul qilingan “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi (PQ-2133-son Qaror) sport infratuzilmasini rivojlantirish, bolalar va o‘smirlar sportini qo‘llab-quvvatlash hamda jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. Ushbu qaror doirasida zamonaviy sport inshootlari qurildi, sport maktablari moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Bu esa gandbol sport turining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Gandbol bo‘yicha o‘quv dasturlari va metodik manbalar

F.A. Abduhahmonov va Sh.K. Pavlov (2005) tomonidan ishlab chiqilgan “Gandbol” namunaviy dasturi jismoniy tarbiya institutlari uchun asosiy metodik manba hisoblanadi. Ushbu dasturda gandbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligi bosqichma-bosqich yoritilgan.

Shuningdek, Sh.K. Pavlov va F.A. Abdupaxmanov (2006) tomonidan yaratilgan “Подготовка гандболистов” asarida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jarayoni, mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish va musobaqa faoliyatini tahlil qilish metodikasi batafsil bayon etilgan. Mualliflar o‘yin faoliyatini tizimli tahlil qilish zarurligini ta’kidlab, texnik-taktik harakatlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash usullarini taklif etadi.

Mazkur manbalar gandbol o‘yinining nazariy va metodik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq zamonaviy o‘yin tezligi va taktik murakkablik darajasi ortgan sharoitda o‘yin faoliyatining yangilangan strukturaviy modelini ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

Darvozabon o‘yini va maktab tizimida gandbol

A. Nizomov (2024) o‘z tadqiqotida gandbolda darvozabon o‘yinining texnikasini chuqur tahlil qiladi. Muallif darvozabonning pozitsion joylashuvi, refleks tezligi, sakrash texnikasi va psixologik barqarorligi o‘yin natijasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslaydi. Darvozabon o‘yinini alohida strukturaviy komponent sifatida ko‘rib chiqish zamonaviy gandbol modelini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, A. Nizomov (2024) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida gandbolni o‘rgatish xususiyatlarini yoritib, yosh sportchilarni tayyorlashda metodik yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi. Maktab bosqichida texnik elementlarni to‘g‘ri shakllantirish kelgusida yuqori sport natijalariga erishishning poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, gandbol sport turida jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik masalalari keng o‘rganilgan. S. Abduraxmonov, F.A. Abduhahmonov, Sh.K. Pavlov, A. Nizomov va boshqa olimlarning ilmiy ishlari gandbol nazariyasi va metodikasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan.

Biroq zamonaviy gandbol o‘yin faoliyatini kompleks, tizimli va strukturaviy model asosida o‘rganish masalasi hali to‘liq ishlab chiqilmagan. O‘yin jarayonining ko‘p omilliligi va yuqori intensivligi ushbu yo‘nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Shu sababli zamonaviy gandbolda o‘yin faoliyatining strukturaviy modelini ishlab chiqish va uni takomillashtirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur dissertatsiya aynan mana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Natija va muhokama

Mazkur bobda zamonaviy gandbolda o‘yin faoliyatining strukturaviy modeli asosida o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari bayon etiladi hamda olingan ko‘rsatkichlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tajriba (n=14) va nazorat (n=14) guruhlari shakllantirildi. Tajriba guruhi mashg‘ulot jarayoni ishlab chiqilgan strukturaviy model asosida tashkil etildi, nazorat guruhi esa an’anaviy metodika asosida tayyorlandi.

Tajriba 4 oy davom etdi va quyidagi yo‘nalishlarda monitoring olib borildi:

* texnik-taktik ko‘rsatkichlar;
* funksional tayyorgarlik;
* o‘yin samaradorligi;
* darvozabon faoliyati;
* o‘tish fazalarining tezligi.

Texnik-taktik ko‘rsatkichlar tahlili

Tajriba boshida va oxirida o‘yinchilarning asosiy texnik-taktik ko‘rsatkichlari baholandi.

1-jadval: Texnik-taktik harakatlar samaradorligi (%)

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi (boshl.)	Nazorat guruhi (yakun)	Tajriba guruhi (boshl.)	Tajriba guruhi (yakun)
Zarba aniqligi	54,2	58,1	53,8	65,4
To‘p uzatish aniqligi	71,5	74,3	72,1	82,6
Qarshi hujum samaradorligi	48,7	52,4	49,1	63,8
Himoyadagi to‘p olib qo‘yish	6,2	7,1	6,4	9,3

Tahlil: Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhida barcha ko‘rsatkichlar sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa zarba aniqligi 11,6% ga, qarshi hujum samaradorligi 14,7% ga oshgani kuzatildi. Nazorat guruhida esa o‘sish 3–4% atrofida bo‘ldi.

Bu holat strukturaviy model asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish o‘yinchilarning texnik-taktik uyg‘unligini kuchaytirganini ko‘rsatadi.

Funksional tayyorgarlik koʻrsatkichlari

2-jadval: Funksional tayyorgarlik dinamikasi

Koʻrsatkich	Nazorat (boshl.)	Nazorat (yakun)	Tajriba (boshl.)	Tajriba (yakun)
30 m yugurish (sek)	4,21	4,15	4,19	4,02
Sakrash balandligi (sm)	54	57	55	63
Yo-yo testi (m)	1120	1240	1135	1460
Yurak urish tezligi (tiklanish, 1 min)	132	128	131	120

Tahlil: Tajriba guruhida tezkorlik va chidamlilik koʻrsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Yo-yo test natijalari 325 metrga oshdi, bu esa oʻyin intensivligiga moslashuv kuchayganini bildiradi. Sakrash balandligining 8 sm ga oshishi esa zarba samaradorligiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Nazorat guruhida esa oʻsish nisbatan past boʻldi. Bu natijalar strukturaviy modelda funksional tayyorgarlik komponentiga alohida eʼtibor berilganining samaradorligini koʻrsatadi.

Oʻyin samaradorligi koʻrsatkichlari

3-jadval: Musobaqa oʻyinlari natijalari (oʻrtacha koʻrsatkich)

Koʻrsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Oʻrtacha urilgan gollar	24,1	29,7
Oʻrtacha oʻtkazib yuborilgan gollar	26,3	23,2
Oʻyin samaradorligi indeksi	0,92	1,28
Tezkor oʻtishlar soni	7,4	12,1

Tahlil: Tajriba guruhi oʻrtacha 5,6 taga koʻproq gol urdi va 3,1 taga kam gol oʻtkazib yubordi. Oʻyin samaradorligi indeksi 39% ga oshdi. Bu natijalar strukturaviy model asosida hujum va himoya fazalarining uygʻunlashtirilgani bilan izohlanadi.

Tezkor oʻtishlar sonining oshishi zamonaviy gandbol talablariga mos ravishda oʻyin surʼati oshganini koʻrsatadi.

Darvozabon faoliyati samaradorligi

4-jadval: Darvozabon koʻrsatkichlari (%)

Koʻrsatkich	Nazorat (yakun)	Tajriba (yakun)
Qaytarilgan zarbalar	28,4	35,7
7 metrlik jarimalarni qaytarish	18,2	26,5
Tezkor hujumni boshlash aniqligi	61,3	78,9

Tahlil: Darvozabonning samaradorligi tajriba guruhida ancha yuqori boʻldi. Ayniqsa tezkor hujumni boshlash aniqligi 17% ga oshdi. Bu esa darvozabonni oʻyin faoliyatining alohida strukturaviy elementi sifatida modelga kiritish toʻgʻri qaror boʻlganini tasdiqlaydi.

Umumiy muhokama

Olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, ishlab chiqilgan strukturaviy model quyidagi ustunliklarga ega:

1. Oʻyin komponentlari oʻrtasidagi bogʻliqlik kuchayadi.
2. Mashgʻulot yuklamalari aniq maqsadga yoʻnaltiriladi.
3. Hujum va himoya oʻrtasidagi oʻtish fazalari tezlashadi.
4. Oʻyin samaradorligi statistik jihatdan ishonchli darajada oshadi ($p<0,05$).

Natijalar S. Abduraxmonov (2023) tomonidan ilgari surilgan tizimli tayyorgarlik konsepsiyasi bilan mos keladi. Shuningdek, F.A. Abduhahmonov va Sh.K. Pavlov tomonidan taklif etilgan metodik yondashuvlar zamonaviy talablarga mos ravishda kengaytirildi. A. Nizomov (2024) taʼkidlagan darvozabon oʻyinining ahamiyati ham tajriba natijalarida oʻz tasdigʻini topdi.

Umuman olganda, strukturaviy model asosida tashkil etilgan mashgʻulot jarayoni oʻyinchilarning texnik, taktik va funksional koʻrsatkichlarini kompleks ravishda yaxshilash imkonini berdi.

Xulosa

Pedagogik tajriba natijalari zamonaviy gandbolda oʻyin faoliyatining strukturaviy modelini qoʻllash yuqori samaradorlikka ega ekanini koʻrsatdi. Tajriba guruhi barcha asosiy koʻrsatkichlar boʻyicha nazorat guruhidan ustun natija qayd etdi.

Demak, ishlab chiqilgan modelni amaliyotga keng joriy etish yuqori malakali gandbolchilar tayyorlash jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati

1.Abduraxmonov,S.(2023).Gandbolchilarning sport tayyorgarligi tizimi. Евразийский журнал академических исследований, 3(10), 195-197.

2. Abduraxmonov, S. (2023). Gandbol sport turini rivojlantirishning dolzarb masalalari. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(25), 95-98.

3.Jismoniy, A S.O.Z. D., Farg'Ona, T. V. S. U., Va, F. S. O. Y. N., & O'Qituvchisi, U. A. (2024). Maktabyuqori sinf o 'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi. Экономика и социум, (2-2 (117)), 19-22.

4.Xakimovich, A. S. (2024). Sog 'lom turmush tarzini jismoniy tarbiyadagi o 'rni. Xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmati, 1(1), 220-222.

5.Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., 1998.

6.Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: Sharq, 1998.

7."Sog'lom bola yili" Davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2133-son Qarori. 19-fevral, 2014- yil.

8.Abduhahmonov F.A., Pavlov Sh.K. Gandbol. Jismoniy tarbiya institutlari uchun namunaviy dastur. – T.: O'zDJTI, 2005.

9.Павлов Ш.К., Абдурахманов Ф.А., Подготовка гандбо-листов. – Т.: УзГИФК, 2006.

10.Nizomov, A. (2024). Gandbolda darvozabon o 'yinining tehnikasi. *Research and Implementation*, 440-444.

11.Nizomov, A. (2024). Umumiy o 'rta ta'lim maktablarida gandbolni o 'rgatish hususiyatlari. *Research and Implementation*, 433-436.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mansurov Farrux Najmitdinovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
Pedagogika, psixologiya va ta 'lim
texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: farruxmansurov@gmail.com

O‘QITUVCNILAR KASBIY RIVOJLANISHINING STRATEGIK TARIXIY-PEDOGOGIK TAHLILI.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonining tarixiy-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sharq mutafakkirlari — Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib hamda jadidchilik harakati namoyandalari Ismoil G‘aspirali va boshqalarning pedagogik-falsafiy qarashlari asosida o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan kasbiy, axloqiy va ma’naviy talablarning evolyutsiyasi yoritilgan. Mualliflar tomonidan ilgari surilgan uquv-idrok, bilim, fazilat, hikmat va uzluksiz ilmiy kamolot haqidagi g‘oyalar zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim metodologik manbai sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishini strategik rejalashtirish va boshqarishda tarixiy-pedagogik merosning dolzarbligini asoslab beradi.*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi, tarixiy-pedagogik tahlil, Sharq mutafakkirlari, uquv-idrok, bilim va fazilat, pedagogik meros, uzluksiz kasbiy rivojlanish, kompetensiyaviy yondashuv.*

Мансуров Фаррух Наджмитдинович
Самаркандский областной центр
педагогического мастерства
Кафедра педагогики, психологии
и технологий обучения
старший преподаватель

СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ИСТОРИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: *В статье анализируются историко-педагогические основы профессионального развития учителей в системе общего образования. На основе педагогико-философского наследия восточных мыслителей — Абу Насра Фараби, Абу Райхана Беруни, Абу Али ибн Сины, Алишера Навои, Юсуфа Хос Ходжиба, а также представителей джадидского движения, в частности Исмаила Гаспринского, раскрывается эволюция профессиональных, нравственных и духовных требований к личности учителя. Идеи о взаимосвязи знаний, мышления, добродетели, мудрости и непрерывного саморазвития рассматриваются как методологическая основа формирования профессиональных компетенций современного педагога. Результаты исследования обосновывают значимость историко-педагогического наследия в стратегическом планировании и управлении профессиональным развитием учителей в условиях современных образовательных реформ.*

Ключевые слова: *профессиональное развитие учителя, историко-педагогический анализ, восточные мыслители, знание и мышление, педагогическое наследие, непрерывное профессиональное развитие, компетентностный подход.*

Mansurov Farrux Najmitdinovich
Samarkand Regional Center for
Pedagogical Excellence
Senior Lecturer, Department of Pedagogy
Psychology and Educational Technologies

TOPIC: STRATEGIC HISTORICAL AND PEDAGOGICAL ANALYSIS OF TEACHERS PROFESSIONAL

Annotation: *This article examines the historical and pedagogical foundations of teachers’ professional development in the general education system. Based on the pedagogical and philosophical heritage of Eastern thinkers such as Abu Nasr al-Farabi, Abu*

Rayhan al-Biruni, Abu Ali ibn Sina, Alisher Navoi, Yusuf Khos Hajib, as well as representatives of the Jadid movement, particularly Ismail Gasprinskiy, the study reveals the evolution of professional, moral, and spiritual requirements for the teacher's personality. The concepts of knowledge, cognition, virtue, wisdom, and continuous intellectual development are interpreted as key methodological sources for the formation of modern teachers' professional competencies. The findings emphasize the relevance of historical-pedagogical heritage in strategic planning and management of teachers' continuous professional development in the context of contemporary educational reforms.

Keywords: *teachers' professional development, historical-pedagogical analysis, Eastern thinkers, knowledge and cognition, pedagogical heritage, continuous professional development, competency-based approach.*

Umumta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti, ta'limga qo'yilgan davlat talablari hamda pedagogik faoliyat mazmunining murakkablashuvi bilan uzviy bog'liq holda shakllanib kelgan. Tarixiy - pedagogik tahlil shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi kasbiy rivojlanishi dastlab shaxsiy tajriba va ustoz - shogird an'analari doirasida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik bu jarayon tizimli, normativ-huquqiy va institutsional jarayon sifatida takomillashib kelinmoqda.

Shuningdek, tarixiy jihatdan qaralganda, o'qituvchilik kasbi jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo'lib kelgan. Qadimiy Sharq va Markaziy Osiyo ta'lim an'analarida, xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar asarlarida o'qituvchi shaxsining ma'naviy yetukligi, axloqiy pokligi va ilmiy saviyasiga doir chuqur falsafiy-pedagogik qarashlar ilgari surilgan. Ushbu merosda muallim jamiyat ma'naviy taraqqiyotining yetakchi sub'ekti sifatida talqin etiladi. Abu Nasr Forobiy "Fozil shahar ahlining nazariyalari" asarida komil insonni tarbiyalash jarayonida muallimning o'rni va rolini asoslab, o'qituvchining vazifasi faqat bilim berish bilangina cheklanmasdan, balki shaxsni ezgulikka, aqliy va axloqiy kamolotga yo'naltirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Forobiyning mazkur qarashlari o'qituvchilik faoliyatining ijtimoiy-ma'naviy mohiyatini ochib berib, pedagog kasbiy rivojlanishining faqat amaliy ko'nikmalar bilan emas, balki ma'naviy kamolot bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Abu Nasr Forobiyning pedagogik-falsafiy qarashlarida fazilat tushunchasi insonning komillikka erishish qobiliyati bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Mutafakkir fikricha, haqiqiy fazilatlar insonda tabiiy ravishda shakllanmaydi, balki ta'lim berish, tarbiyalash, ishontirish va ongli faoliyatni yo'lga qo'yish orqali bosqichma-bosqich tarkib topadi. Forobiy ushbu jarayonda qo'llaniladigan usullarning samaradorligini shaxslarning bilim darajasi va idrok imkoniyatlari bilan bog'lab, jamiyat a'zolarini xalq (omma) va olimlar qatlamiga ajratadi. Forobiyning ta'kidlashicha, olimlar fazilatlarni ishonchli dalillar va aqliy mushohada asosida o'zlashtira oladigan tanlangan shaxslar hisoblanadi. Aynan ular haqiqiy ilmning manbai bo'lib, jamiyatda ma'naviy va intellektual yetakchilik vazifasini bajaradi. Ushbu yondashuv o'qituvchilik faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan kasbiy talablarning tarixiy-falsafiy asosini tashkil etib, pedagog shaxsining bilim, tafakkur va ma'naviy yetuklik jihatidan jamiyatning ilg'or qatlamiga mansub bo'lishi zarurligini asoslab beradi.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosida bilimning uzluksizligi va ilm ahlining doimiy ravishda o'z ustida ishlashi zarurligi asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi. Uning qarashlariga ko'ra, ilm statik hodisa emas, balki tajriba, kuzatish va tahlil orqali uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayondir. Bu yondashuv o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ham doimiy va izchil jarayon sifatida tushunishga asos bo'ladi. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ilm egasining haqiqatni izlashdagi mas'uliyatini ta'kidlab, bilimni faqat meros sifatida emas, balki faol izlanish mahsuli sifatida talqin qiladi. Ushbu fikrlar zamonaviy pedagogikada o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimlarining tarixiy ildizlarini ochib beradi.

Abu Ali Ibn Sino ham pedagogik qarashlarida muallim shaxsiga qo'yiladigan kasbiy, axloqiy va psixologik talablarni bir butun tizim sifatida ko'rib chiqadi. Uning fikricha, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi va shaxs kamolotini ta'minlovchi yetakchi sub'ektdir. Ibn Sino "Donishnoma" va "Tadbir al-manzil" asarlarida ta'lim jarayonida muallimning bosiqligi, adolatliligi, shogirdning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi zarurligini ta'kidlaydi. Bu qarashlar o'qituvchining kasbiy rivojlanishini faqat bilim doirasini kengaytirish bilan cheklamasdan, balki pedagogik mahorat, muloqot madaniyati va kasbiy mas'uliyatni rivojlantirish zarurati bilan bog'laydi. Mazkur yondashuv zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasining tarixiy-falsafiy asoslarini tashkil etadi.

Abu Ali Ibn Sino o'zining "Donishnoma" asarida hikmat tushunchasining mohiyatini keng va batafsil tarzda yoritib beradi. Mutafakkirning ta'kidlashicha, hikmat ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lib, mukammal bilim va mukammal harakat birligini ifodalaydi. Mazkur yondashuvga ko'ra, donolik faqat nazariy bilimga ega bo'lish bilangina emas, balki ushbu bilimni amaliy faoliyatda to'g'ri va samarali qo'llay bilish bilan belgilanadi. Bu fikrlar o'qituvchilik kasbida kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalarning uyg'un rivojlanishi masalasini tarixiy-pedagogik jihatdan asos hisoblanadi. Ibn Sino inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni keng qamrovda tahlil qilib,

shaxs xarakterining jamiyatdagi ijtimoiy faoliyati bilan uzviy bog‘liqligini axloqiy nuqtai nazardan yoritadi. U jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va shaxslar bilan ularning ichki holati, intellektual salohiyati hamda imkoniyatlarini inobatga olgan holda muomala qilish zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu qarashlar pedagogik jarayonda o‘qituvchining individual yondashuvi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarining tarixiy ildizlarini ochib beradi.

Bu borada mazkur risola Ibn Sinoning pedagogik-falsafiy qarashlaridagi o‘ziga xoslik, avvalo, bilim tushunchasining talqini bilan bog‘liqdir. Mutafakkir fikricha, inson aql yordamida borliqni idrok etadi va bilim inson ongining narsa va hodisalarni xato va shubhalarga o‘rin qoldirmaydigan darajada anglashidir. Ibn Sinoning ta’kidlashicha, agar bilim ishonchli va haqiqiy dalillar bilan asoslangan bo‘lsa donolik darajasiga ko‘tarilish hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida ilmiy asoslanganlik, tanqidiy tafakkur va refleksiv faoliyatning muhim ahamiyatga ega ekanligini tarixiy - pedagogik nuqtai nazardan tasdiqlaydi. Ibn Sino tomonidan ilgari surilgan hikmat, bilim va axloqiy faoliyat birligi haqidagi qarashlar umumta’lim tizimida o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishining tarixiy - falsafiy asoslarini tashkil etib, pedagog shaxsining ilmiy saviyasi, amaliy mahorati va ma’naviy yetukligini uyg‘un rivojlantirish zaruratini asoslab beradi.

Mutafakkir Alisher Navoiy pedagogik tafakkurida ustoz va murabbiy shaxsining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni alohida e’tirof etiladi. U ilm ahlini jamiyatning ma’naviy tayanchi sifatida baholab, muallimning kasbiy yetukligini axloqiy kamolot bilan uzviy bog‘laydi. “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy ilmni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy faoliyat va shaxsiy namuna bilan uyg‘un holda talqin qiladi. Uning fikricha, ustoz doimo o‘z ustida ishlashi, bilim va axloq birligini ta’minlashi lozim. Bu qarashlar o‘qituvchilarning professional etikasi, pedagogik madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatiga doir zamonaviy talablarga to‘la mos keladi.

Umuman olganda, Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishining tarixiy asoslarini yoritishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Beruniyda kasbiy rivojlanish uzluksiz ilmiy izlanish sifatida talqin etilgan bo‘lsa, Ibn Sinoda esa pedagogik mahorat va shaxsiy yetuklik bilan uyg‘un holda qaraladi. Navoiyda ushbu holat muallimning kasbiy kamoloti jamiyat ma’naviy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘lanadi. Ushbu qarashlar zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashda mustahkam tarixiy-pedagogik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Sharq mutafakkirlari merosida uquv - idrok va bilim inson kamolotining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi. Xususan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (Saodatga yo‘llovchi bilim) asarida didaktik - falsafiy qarashlarida uquv - idrokni insonni zulmatdan nurga yetaklovchi ichki quvvat sifatida baholaydi. Mutafakkir talqinida uquv - idrok qorong‘u makonda yo‘l ko‘rsatuvchi mash’al vazifasini bajarsa, bilim ana shu mash’aldan taralayotgan nur bo‘lib, inson tafakkurini yoritadi, unga ma’naviy ravshanlik bag‘ishlaydi. Yusuf Xos Hojib fikriga ko‘ra, uquv - idrok inson hayotiga baraka va qut keltirsa, bilim unga ijtimoiy hurmat, sharaf va obro‘ - e’tibor ato etadi. Aynan shu ikki omil uyg‘unligi tufayli inson ulug‘lik darajasiga ko‘tariladi. Mutafakkir bilimni faqat ma’lumotlar majmui emas, balki insonni turli balo - ofat va xatarlardan asraydigan ma’naviy qalqon sifatida tushunadi. Shu bois, nodonlik va uquvsizlik insonni hayotiy jihatdan ojiz holga soluvchi, uni ma’nan “tirik o‘lik”ka aylantiruvchi holat sifatida keskin tanqid qilinadi. Asarda uquv - idroksiz shaxs jamiyatda e’tibor va hurmatga sazovor bo‘la olmasligi, uning ijtimoiy faoliyati samarasiz kechishi ta’kidlanadi. Hurmat va e’tirof kishining mansabi yoki boyligidan emas, balki uning aql-zakovati, bilim va idrok darajasidan kelib chiqishi g‘oyasi ilgari suriladi. Shu ma’noda, uquv-idroksiz kishi ma’nan qadrsiz, ijtimoiy foydasiz unsur sifatida tasvirlanadi. Yusuf Xos Hojib ta’limotida uquv - idrok insonni ichki poklikka yetaklovchi, bilim esa uni yuksaklikka ko‘taruvchi kuch sifatida talqin etiladi. Inson boshqa mavjudotlardan aynan bilim orqali ajralib turadi. Jamiyatda mavjud bo‘lgan turli san’atlar, hunar va kasblarning qadrlanishi ham uquv va bilimga tayanishi bilan izohlanadi. Shu sababli, mutafakkir nazarida, uquv-idrokdan ozgina ulush olgan inson ham hayotda katta naf ko‘rishi mumkin.

Mazkur qarashlar umumta’lim tizimida o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishining tarixiy - pedagogik asoslarini ochib berishda muhim metodologik jarayon hisoblanadi. Zero, Yusuf Xos Hojib tomonidan ilgari surilgan uquv - idrok va bilimning o‘zaro uyg‘unligi haqidagi g‘oya pedagog shaxsiga qo‘yiladigan kasbiy va ma’naviy talablarning tarixiy ildizlarini yoritib beradi. Ushbu qarashlarning bugungi pedagogika fanida o‘qituvchi kasbiy yetukligining asosiy omillari sifatida e’tirof etilayotgan kompetensiya, kasbiy tafakkur va ma’naviy mas’uliyat tushunchalari bilan hamohangligi ularning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Tarixiy-pedagogik tahlil shuni ko‘rsatadiki, barcha davrlarda o‘qituvchining kasbiy nufuzi, pedagogik ta’sir kuchi va jamiyatdagi ijtimoiy mavqei uning bilim darajasi hamda uquv-idrokiga bevosita bog‘liq bo‘lgan. Uquv -idrok pedagogga ta’lim jarayonini anglash, o‘quvchi shaxsini tushunish va pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri baholash imkonini bersa, bilim uning kasbiy faoliyatini mazmunan boyitib, ta’lim sifatini yuksaltirgan. Shu bois, uquv - idroksiz va yetarli bilimga ega bo‘lmagan o‘qituvchi faoliyati tarixan samarasiz deb baholangan.

Mazkur g‘oyalar bugungi zamon uchun muhim tarixiy - merosiy ahamiyatga ega bo‘lib, ular zamonaviy ta’lim islohotlari sharoitida o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishini strategik rejalashtirish va boshqarishda mustahkam konseptual asos vazifasini o‘taydi. Ayniqsa, raqamli ta’lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi sharoitida uquv - idrok va bilimning uyg‘unligi o‘qituvchining kasbiy moslashuvchanligi, tanqidiy tafakkuri va ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Demak, Yusuf Xos Hojib merosida ilgari surilgan uquv - idrok va bilimga asoslangan pedagogik qarashlar bugungi ta’lim tizimida faqat tarixiy tajriba sifatida emas, balki zamonaviy o‘qituvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiluvchi dolzarb metodologik meros sifatida baholanishi lozim. Bu esa ularning uzviy ravishda bugungi ta’lim strategiyalari bilan integratsiyalashuvi zarurligini taqozo etadi.

Keyingi tarixiy davrlarda ham pedagogik fikr rivojida o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi markaziy o‘rinda turgan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida jadidchilik harakati namoyandalari bo‘lgan Ismoil G‘aspirali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqalar o‘qituvchining yangi davr talablariga mos ravishda fikrlaydigan, milliy o‘zlikni anglaydigan, zamonaviy bilimlarni egallagan shaxs sifatida shakllanishi zarurligini o‘z davrida ilgari surganlar. Ular ta’lim tizimini isloh etish g‘oyasini o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirish bilan bog‘ladilar.

Tarixiy pedagogik tadqiqotlarda Ismoil Gaspirali (Ismail Gasprinskiy) XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sharqdagi ta’limning tub islohoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan jadidchilik harakatining yetakchi vakili sifatida muhim o‘rin egallaydi. U jadidchilikning asoschisi bo‘lib, ilgarilab borayotgan metodik yondashuvlarni ta’lim tizimiga joriy etish orqali maktab pedagogikasining taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Gaspirali boshlang‘ich maktablar uchun yangi pedagogik usullarni ishlab chiqdi, darsliklar yozdi hamda “Tarjimon” gazetasi orqali ta’limning zamonaviylashtirilishi g‘oyalarini keng ommaga yetkazdi.

Ismoil Gaspiralining pedagogik merosida alohida o‘rin tutgan “yangi usuldagi maktablar” konsepsiyasi o‘quv jarayonini tubdan yangilashga qaratilgan bo‘lib, unda ta’limni o‘quvchi faolligiga asoslash, ona tilida o‘qitish tamoyilini joriy etish hamda zamonaviy metodik - pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv O‘rta Osiyo maktablarida an’anaviy ta’limdan farqli ravishda interfaol o‘qitish, tartibli metodologiya va amaliyotga yo‘naltirilgan pedagogika tamoyillariga asoslangan edi. Gaspiralining eng mashhur pedagogik asarlari orasida “Hujai Subyona”, “Qirsat turki”, “Rahbari muallimin” kabi darslik va metodik qo‘llanmalar mavjud bo‘lib, ular o‘quv jarayonini tashkil etish, didaktik va metodik ko‘rsatmalar berish kabi masalalarni o‘z ichiga olgan. Bu asarlar, tarixiy nuqtayi nazardan, jadid maktablari pedagogik amaliyotining mustahkam ilmiy - metodik poydevori bo‘lib xizmat qilgan.

Shuningdek, Gaspiralining pedagogik qarashlari xalqning o‘z milliy til va madaniyatiga e’tibor qaratgan holda, ona tilida ta’lim orqali inson tafakkurini rivojlantirish g‘oyasini ilgari surdi. Bu tamoyil nafaqat pedagogik amaliyotga, balki milliy ongning shakllanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi, bu esa keyingi avlod pedagoglari uchun muhim pedagogik qo‘llanma sifatida qabul qilindi.Tarixiypedagogik tahlil nuqtayi nazaridan, Gaspiralining pedagogik merosi umumta’lim tizimida o‘qituvchilarning professionalizmi shakllanishida nazariy va amaliy asoslar yaratgan pedagogik konsepsiya sifatida jiddiy ilmiy e’tibor talab qiladi. Uning ta’limiy asarlari pedagogik metodika, maktab boshqaruvi va o‘quv jarayonini integratsiyalash uslublarini o‘rganishda qadimiy, hamda zamonaviy pedagogik tahlil uchun boy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, umumtaʼlim tizimida oʻqituvchilarning kasbiy rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, taʼlimga qoʻyilgan davlat talablari va pedagogik faoliyatning murakkablashuvi bilan uzviy bogʻliqdir. Tarixiy-pedagogik tahlil shuni koʻrsatadiki, oʻqituvchilik faoliyati dastlab shaxsiy tajriba va ustoz-shogird anʼanalari orqali shakllangan boʻlsa, keyinchalik tizimli, normativ-huquqiy va institutsional jarayon sifatida rivojlanib, uzluksiz kasbiy oʻsish konsepsiyasi hosil boʻlgan. Sharq mutafakkirlari — Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy — pedagogik merosida oʻqituvchi shaxsining ilmiy saviyasi, axloqiy kamoloti va maʼnaviy yetukligi asosiy ahamiyatga ega ekanligi taʼkidlangan. Ular oʻqituvchining kasbiy tayyorgarligi va jamiyat taraqqiyoti oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni ochib bergan. Oʻqituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki shaxsni maʼnaviy, intellektual va axloqiy jihatdan rivojlantiruvchi yetakchi subʼekt sifatida talqin qilingan. Beruniy ilmning uzluksizligini va oʻqituvchining doimiy izlanishdagi rolini taʼkidlagan boʻlsa, Ibn Sino pedagogik mahorat, tanqidiy tafakkur va shaxsiy yetuklikni uygʻun rivojlantirishni asosiy vazifa sifatida koʻrsatgan. Yusuf Xos Hojib esa uquv-idrok va bilim uygʻunligini pedagog shaxsining kasbiy va maʼnaviy yetukligining asosiy mezoni sifatida belgilagan. XIX–XX asrlar oʻrtalarida jadidchilik harakati namoyandalari, xususan, Ismoil Gʻaspirali, oʻqituvchining milliy

oʻzligini anglaydigan, zamonaviy bilimlarni egallagan va interfaol pedagogik yondashuvlarni qoʻllaydigan shaxs sifatida shakllanishi zarurligini ilgari surgan. Uning "yangi usuldagi maktablar" konsepsiyasi oʻquvchi faolligiga asoslangan taʼlimni rivojlantirish orqali oʻqituvchining kasbiy kompetensiyasini mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, barcha davrlarda oʻqituvchining kasbiy nufuzi, pedagogik taʼsir kuchi va jamiyatdagi mavqei uning bilim darajasi va uquv-idrokiga bevosita bogʻliq boʻlgan. Zamonaviy taʼlimda esa raqamli texnologiyalar, innovatsion metodikalar va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi sharoitida bu tarixiy pedagogik meros bugungi oʻqituvchi shaxsini shakllantirishda dolzarb metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1.Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. Арабчадан А. Ирисов ва М. Маҳмудов таржимаси. - Тошкент: Абдулла Қодирий номли халқ мероси, 1993.

2.Соловьева Г.Г.Учение аль-Фараби о счастье в контексте совре-менного аксиологического дискурса // Мир ценностей аль-Фараби и ак-сиология XXI века. – Кн. 2. – Алматы, 2006. –б.12

3.Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар.1-жилд. -Тошкент: Фан, 1968 – 386 б.

4.Ибн-Сина. Даниш-намэ (Книга знания). / Пер. А.М. Богоутдинова. – Сталинабад, 1957. С: 171

5.Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoniy tarjimasi. -Tehron: Eron Milliy kutubxonasi, 1902. - 111 b.

6.Ибн Сина. Трактат об этике. В кн.: Абу Али ибн Снна. Избранное. Т. 2. - Душанбе–Ашхабад, 2003. – С. 168.

7.Алишер Навоий. Маҳбуб – ул – қулуб. Асарлар. 13-том. – Тошкент: Фан, 1966.

8.Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. - Cbo'lpon nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, Toshkent.: 2007. B: 22-24

9.Исмоилбек Гаспринский ва Туркистон /Масъул муҳаррир Наим Каримов/. — Т.: «Шарқ», 2005. Б: 167-169

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xakimov Sardorbek Maxmud o'g'li
Namangan davlat unversiteti tadqiqotchisi

OZIQ-OVQAT TA'LIMI YO'NALISHIDA LABORATORIYA VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH HAMDA BOSHQARISHNING METODIK TIZIMI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oziq-ovqat ta'limi yo'nalishida laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda boshqarishning metodik tizimi yoritilgan. Tadqiqot doirasida kompetensiyaviy yondashuv asosida amaliy mashg'ulotlarni loyihalash, ularni modul tamoyili bo'yicha tuzilmalashtirish, o'qitish metodlari uyg'unligi, raqamli vositalarni joriy etish, xavfsizlik va sanitariya talablarini integratsiyalash hamda baholash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Taklif etilayotgan metodik tizim talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, texnologik fikrlashni rivojlantirish va amaliy tayyorgarlikni ishlab chiqarish ehtiyojlariga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar*: metodik tizim, laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, kompetensiyaviy yondashuv, modul tamoyili, oziq-ovqat ta'limi, kasbiy tayyorgarlik.*

Хакимов Сардорбек Махмуд оглу
Научный сотрудник Наманганского государственного университета

МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ОРГАНИЗАЦИИ И УПРАВЛЕНИЯ ЛАБОРАТОРНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКОЙ В ПИЩЕВОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В данной статье рассматривается методическая система организации и управления лабораторно-практической подготовкой в пищевом образовании. В рамках исследования проанализированы вопросы проектирования практической подготовки на основе компетентностного подхода, ее структурирования по модульному принципу, гармонизации методов обучения, внедрения цифровых инструментов, интеграции требований безопасности и санитарии, а также совершенствования механизмов оценки. Предложенная методическая система служит для формирования профессиональных компетенций студентов, развития технологического мышления и приближения практической подготовки к производственным потребностям.*

Ключевые слова: *методическая система, лабораторная подготовка, практическая подготовка, компетентностный подход, модульный принцип, пищевое образование, профессиональная подготовка.*

Khakimov Sardorbek Makhmud oglu
Researcher at Namangan State University

METHODICAL SYSTEM OF ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF LABORATORY AND PRACTICAL TRAINING IN FOOD EDUCATION

Abctract*: This article discusses the methodological system of organization and management of laboratory and practical training in food education. Within the framework of the study, the issues of designing practical training based on a competency-based approach, structuring them according to the modular principle, harmonization of teaching methods, introduction of digital tools, integration of safety and sanitary requirements, and improvement of assessment mechanisms were analyzed. The proposed methodological system serves to form professional competencies of students, develop technological thinking, and bring practical training closer to production needs.*

Keywords: *methodological system, laboratory training, practical training, competency-based approach, modular principle, food education, professional training.*

Kirish

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishida malakali mutaxassislar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oziq-ovqat sanoatining jadal rivojlanishi, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, xalqaro sifat standartlari va xavfsizlik talablarining kuchayishi

mutaxassislarning amaliy tayyorgarligi darajasiga nisbatan talablarni tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda talab nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ishlay oladigan, texnologik jarayonlarni tahlil qiladigan, sifat nazoratini amalga oshiradigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlarga yo'naltirilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida oziq-ovqat ta'limi yo'nalishi bo'yicha laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish amaliyoti tahlili mavjud metodik yondashuvlarning takomillashtirishga muhtojligini ko'rsatadi. Ko'plab holatlarda laboratoriya mashg'ulotlari an'anaviy tarzda, nazariy bilimlarni tasdiqlovchi oddiy topshiriqlar ketma-ketligi sifatida tashkil etilmoqda. Bu esa talabalarning kasbiy kompetensiyalarini to'liq shakllantirish, ularni real ishlab chiqarish sharoitlariga tayyorlash imkonini bermayapti.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – oziq-ovqat ta'limi yo'nalishida laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda boshqarishning ilmiy asoslangan, kompetensiyaviy yondashuvga tayanadigan metodik tizimini ishlab chiqish va asoslashdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqot metodologik asosini tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv va faoliyatli yondashuv tashkil etadi. Tizimli yondashuv laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni o'zaro bog'liq komponentlar majmui sifatida qarash imkonini beradi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijalarini kasbiy kompetensiyalar bilan bog'lash, ularni aniq ko'rsatkichlar asosida loyihalashga xizmat qiladi. Faoliyatli yondashuv esa talabaning amaliy harakatlar orqali bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishiga asoslanadi.

Metodik tizimni loyihalashda ta'lim maqsadlari, o'quv mazmuni, o'qitish metodlari va shakllari, o'quv-laboratoriya muhiti, nazorat va baholash mezonlari kabi tarkibiy qismlarning o'zaro uzviy bog'liqligi inobatga olingan. Mazkur komponentlar oziq-ovqat sohasining o'ziga xos xususiyatlari – texnologik jarayonlar ketma-ketligi, sanitariya-gigiyena me'yorlari, xomashyo sifat ko'rsatkichlari, fizik-kimyoviy va mikrobiologik tahlillar, sifat menejmenti tamoyillari va standartlashtirish talablari bilan uyg'unlashtirilgan.

Natijalar

Tadqiqot natijasida oziq-ovqat ta'limi yo'nalishida laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda boshqarishning metodik tizimi ishlab chiqildi. Mazkur tizim beshta asosiy komponentni o'z ichiga oladi: maqsad va kutilayotgan natijalar, o'quv mazmuni, o'qitish metodlari va shakllari, o'quv-laboratoriya muhiti, nazorat va baholash mezonlari.

Metodik tizimning maqsadli komponenti nazariy bilimlarni real texnologik holatlar bilan uyg'unlashtirish, mahsulot sifati va xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, laboratoriya asbob-uskunalaridan oqilona foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda natijalarni standart talablari asosida hujjatlashtirishga o'rgatishga yo'naltirilgan.

Mazmuniy komponentni loyihalash bosqichida laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar dasturiga kiritiladigan ishlar kompetensiyalar xaritasi bilan moslashtiriladi. Umumkasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda maxsus kompetensiyalar aniq ko'rsatkichlar bilan belgilanadi:

· xomashyoni qabul qilish va baholash;
· texnologik rejimlarni tanlash;
· o'lchash va tahlil qilish;
· jarayonni sanitariya talablari asosida olib borish;
· ishlab chiqarish xatolarini aniqlash va tuzatish;
· me'yoriy hujjatlar asosida xulosa chiqarish.

Mashg'ulotlarni timalashtirish modul tamoyili asosida amalga oshiriladi. Har bir modul quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

· kirish yo'riqnomasi;
· nazariy tayanch tushunchalar;
· xavfsizlik bo'yicha talablar;
· uskunalar va reaktivlar ro'yxati;
· ishni bajarish algoritmi;
· nazorat savollari;
· mustaqil topshiriqlar;
· natijani rasmiylashtirish talablari;
· baholash .

Modullar ketma-ketligi oddiydan murakkabga, umumiydan xususiyga, kuzatishdan boshqaruvga tomon yo'naltiriladi. Dastlab xomashyo namunalari bilan ishlash va asosiy fizik ko'rsatkichlarni o'lchashdan boshlanib, keyin texnologik jarayon parametrlarini tanlash, sifat ko'rsatkichlarini taqqoslash, mikrobiologik xavflarni baholash, mahsulotning saqlanish barqarorligini tahlil qilish kabi murakkab amaliy vazifalarga o'tiladi.

O'qitish metodlari va shakllari komponentida ko'rgazmali, amaliy, muammoli, loyihaviy va tadqiqotga yo'naltirilgan metodlar uyg'unligi taklif etiladi. Ko'rgazmali metodlar asbob-uskunalar tuzilishini, o'lchash prinsiplari va texnologik operatsiyalarni tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy metodlar harakatlarni aniqlik bilan bajarish, vaqtni boshqarish, o'lchash madaniyatini shakllantiradi. Muammoli metodlar texnologik fikrlashni chuqurlashtirib, sabab-oqibat bog'lanishlarini topishga undaydi. Loyihaviy yondashuv yangi mahsulot namunasi uchun texnologik karta tuzish yoki sifat nazorati rejimini ishlab chiqish singari vazifalarda qo'llaniladi. Tadqiqotga yo'naltirilgan metod esa talabaning tahliliy fikrini rivojlantirib, natijalarni ilmiy asosda izohlashni o'rgatadi.

Raqamli vositalar va simulyatsiya elementlari metodik tizimda muhim o'rin egallaydi. Virtual laboratoriyalar, interaktiv treninglar, videoyo'riqnomalar, raqamli protokollar, onlayn testlar va laboratoriya jurnallarini elektron yuritish kabi yechimlar mashg'ulotlarning uzluksizligini ta'minlaydi. Raqamli vositalar real tajribani almashtirish uchun emas, balki tayyorgarlik, xavfsiz mashq qilish, natijalarni to'plash va tahlilni tezlashtirish uchun xizmat qiladi.

Sanitariya-gigiyena va texnika xavfsizligi talablari metodik tizimning markaziy komponentlaridan biri sifatida qaraladi. Mashg'ulotlarning har birida individual himoya vositalaridan foydalanish, ish joyini toza saqlash, asboblarni to'g'ri dezinfeksiya qilish, issiqlik uskunalari va kesuvchi jihozlar bilan ishlash qoidalari aniq tartibda o'rgatiladi.

Nazorat va baholash shaffoflik va jarayonli yondashuv asosida tashkil etiladi. Baholash faqat yakuniy natijaga qarab emas, balki jarayonning barcha bosqichlarini qamrab oladi: tayyorgarlik, algoritmga rioya qilish, o'lchash aniqligi, ma'lumotlarni qayd etish, xatolarni tahlil qilish, jamoada ishlash, xavfsizlik va sanitariya talablariga rioya qilish, xulosa chiqarish. Monitoring natijalari asosida o'qituvchi keyingi mashg'ulotlarda qaysi ko'nikmalar sust rivojlanayotganini aniqlab, tuzatish kiritadi.

Metodik tizimni amalda qo'llashda fanlararo integratsiya yuqori samara beradi. Oziq-ovqat texnologiyasi, analitik kimyo, mikrobiologiya, biokimyo, standartlashtirish va metrologiya, sifat menejmenti kabi fanlar o'rtasida amaliy bog'lanishlar kuchli bo'lsa, talaba jarayonni yaxlit tizim sifatida ko'ra boshlaydi.

Xulosa

Oziq-ovqat ta'limi yo'nalishida laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda boshqarishning taklif etilayotgan metodik tizimi kompetensiyaviy yondashuv, xavfsizlik va sanitariya talablari, raqamli qo'llab-quvvatlash, modul asosida rejalashtirish, jarayonga yo'naltirilgan baholash va fanlararo integratsiya birligiga asoslanadi.. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar talabaning kelajakdagi ishlab chiqarish faoliyatini modellashtiruvchi, texnologik fikrlashni shakllantiruvchi va xavfsiz ishlash madaniyatini mustahkamlovchi jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Metodik tizimning tarkibiy qismlari o'zaro uzviy bog'liqlikda loyihalashtirilishi va oziq-ovqat sohasining o'ziga xos xususiyatlari bilan boyitilishi zarur. Umumkasbiy va maxsus kompetensiyalar aniq ko'rsatkichlar bilan belgilanishi maqsadga muvofiq. Modul tamoyili asosida tuzilgan mashg'ulotlar mazmuni boshqaruvni qulaylashtiradi, talabalarning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi va o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.. Raqamli vositalar va simulyatsiya elementlaridan foydalanish real laboratoriya sharoitida bajarish qiyin bo'lgan jarayonlarni o'zlashtirish, xavfsizlikni ta'minlash va tahlil imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. Kash ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 128 b.

2. Tolipov O'Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006. – 264 b.

3. Azizzo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003. – 174 b.

4. Xodjaboev A.R., Xodjaboev F.A. Oziq-ovqat mahsulotlari ekspertizasi va sifati nazorati. – T.: O'zbekiston, 2018. – 320 b.

5. Jo'raev R.H., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T.: Voris, 2012. – 264 b.

6. Yusupova N.M. Oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish texnologiyalari. // Pedagogik mahorat, 2020. – №2. – B. 45-49.

7. Karimova D.A. Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar. // Uzluksiz ta'lim, 2021. – №3. – B. 22-26.

8. Tursunov S.Q. Oziq-ovqat xavfsizligi va sifat menejmenti. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 248 b.

9. Yuldashev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – T.: O'qituvchi, 2000. – 232 b.

10. Xalilova D.M. Oliy ta'limda o'quv jarayonini modul tizimi asosida tashkil etish. // Tafakkur, 2020. – №4. – B. 67-71.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Turayeva Sevara Rashidovna
Toshkent shahridagi Belarus- O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti tayanch doktoranti: E-mail: sevara08.90@mail.ru

OLIY TA’LIMDA MOLEKULYAR FIZIKA BO‘LIMINI O‘QITISHDA VIRTUAL MODELLASHTIRISHGA ASOSLANGAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’limda molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda virtual modellashtirishga asoslangan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda molekulyar fizika bo‘limidagi murakkab va mikroskopik jarayonlarni, xususan gazlarda diffuziya hodisasini o‘rganishda virtual modellar va simulyatsiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilindi. Model-Based Learning texnologiyasi asosida amaliy mashg‘ulotlarni bosqichma-bosqich tashkil etish, virtual eksperimentlar orqali fizik jarayonlarning dinamikasini kuzatish, parametrlarni o‘zgartirish va natijalarni hisoblash masalalari bilan taqqoslash metodik jihatdan asoslandi. Shuningdek, raqamli baholash va refleksiya elementlaridan foydalanish orqali talabalarning tahliliy va kreativ tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berildi. Tadqiqot natijalari virtual modellashtirishga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda ta’lim samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *molekulyar fizika, virtual modellashtirish, amaliy mashg‘ulotlar, gazlarda diffuziya, Model-Based Learning, fizika o‘qitish metodikasi.*

Тураева Севара Рашидовна
Аспирантка Белорусско-Узбекского совместного межотраслевого института прикладных технических квалификаций в Ташкенте

МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ НА ОСНОВЕ ВИРТУАЛЬНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ НА КАФЕДРЕ МОЛЕКУЛЯРНОЙ ФИЗИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В данной статье рассмотрена методика организации практических занятий на основе виртуального моделирования при преподавании раздела «Молекулярная физика» в системе высшего образования. В исследовании проанализирован дидактический потенциал использования виртуальных моделей и симуляций для изучения сложных и микроскопических процессов в разделе молекулярной физики, в частности явления диффузии газов. Методика базируется на поэтапной организации практических занятий с использованием технологии Model-Based Learning, наблюдении динамики физических процессов через виртуальные эксперименты, изменении параметров и сравнении полученных результатов с расчетными задачами. Кроме того, показаны возможности развития аналитического и креативного мышления студентов через использование элементов цифровой оценки и рефлексии. Результаты исследования подтверждают, что практические занятия на основе виртуального моделирования повышают эффективность преподавания раздела молекулярной физики.*

Ключевые слова: *молекулярная физика, виртуальное моделирование, практические занятия, диффузия газов, Model-Based Learning, методика преподавания физики.*

Turayeva Sevara Rashidovna
Doctoral student at the Belarus-Uzbek Joint Inter-Sectoral Institute of Applied Technical Qualifications in Tashkent:

ORGANIZATION OF PRACTICAL LESSONS BASED ON VIRTUAL MODELING IN TEACHING THE MOLECULAR PHYSICS SECTION IN HIGHER EDUCATION

Abstract. *This article discusses the methodology for organizing practical lessons based on virtual modeling in the teaching of the molecular physics section in higher education. The study analyzes the didactic potential of using virtual models and simulations to investigate complex and microscopic processes in the molecular physics section, particularly the phenomenon of gas diffusion. The methodology is based on step-by-step organization of practical lessons using Model-Based Learning technology, observing the dynamics of physical processes through virtual experiments, modifying parameters, and comparing results with problem-solving*

exercises. Furthermore, the use of digital assessment and reflection elements demonstrates the possibilities for developing students' analytical and creative thinking. The research results confirm that practical lessons based on virtual modeling enhance the effectiveness of teaching the molecular physics section.

Keywords: *molecular physics, virtual modeling, practical lessons, gas diffusion, Model-Based Learning, physics teaching methodology.*

Kirish. Molekulyar fizika bo‘limi oliy ta’lim tizimida talabalarni fizika fanining mikroskopik jarayonlari bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, gazlarda diffuziya, issiqlik harakati va molekulalarning kinetikasi kabi jarayonlar talabalar uchun murakkab va abstrakt bo‘lishi mumkin. Shu sababli, amaliy mashg‘ulotlar orqali bu jarayonlarni vizual va interfaol shaklda tushuntirish talabaning bilimini chuqurlashtirishga xizmat qiladi [1]. Hozirgi kunda fizik jarayonlarni modellashtirish va virtual eksperimentlardan foydalanish pedagogik samaradorlikni oshirish vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda [2]. Virtual modellashtirish talabalar uchun murakkab jarayonlarni kuzatish, parametrlarni o‘zgartirish va natijalarni tahlil qilish imkonini beradi, bu esa talabaning tahliliy va kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi [3]. Shuningdek, fizika ta’limida interfaol va modelga asoslangan o‘qitish yondashuvlari, xususan Model-Based Learning, talabalarni muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlashga, eksperimentlarni rejalashtirishga va natijalarni tahlil qilishga yo‘naltiradi [6]. Bu esa amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiradi va talabalarda real fizik jarayonlarni tushunish kompetensiyasini shakllantiradi [9].

Adabiyotlar sharhi. Molekulyar fizika va gazlar kinetikasi bo‘limida talabalarni chuqur tushunishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar metodikasi so‘nggi yillarda bir qator tadqiqotlarda muhokama qilinmoqda. Virtual modellashtirish va simulyatsiya asosida fizik jarayonlarni o‘qitish pedagogik samaradorlikni oshiruvchi vosita sifatida ko‘riladi [2]. T.Ahmadjanov ishida fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish amaliy mashg‘ulotlarda murakkab hodisalarni vizualizatsiya qilish imkonini berishi, shuningdek talabalar fikrlashini mustahkamlashi ko‘rsatildi [2]. Shu bilan birga, T.A.Axunov molekulyar jarayonlarni modellashtirish orqali talabalar o‘rtasida tahliliy va eksperimental fikrlashni rivojlantirish usullarini ilgari suradi [3]. S.M.Downes virtual modellar va Model-Based Learning (MBL) konsepsiyasini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilgan bo‘lib, modellar talabalarning ilmiy tushunchalarini shakllantirishda markaziy rol o‘ynashini ta’kidlaydi [6]. Shu nuqtai nazardan, modelga asoslangan o‘qitish nafaqat amaliy jarayonlarni tushuntirishga, balki talabaning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [9]. Shuningdek, D.Dumas va K.Dunbar tadqiqotlari virtual simulyatsiyalar asosida bajarilgan amaliy mashg‘ulotlar talabalarda kreativ tafakkur va muammoli fikrlash jarayonlarini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi [7]. Badger va Firth ham pedagogik kreativlik nuqtai nazaridan, interfaol va vizual metodlarni o‘qitishda integratsiya qilish amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiradi deb hisoblaydi [4]. Xalqaro tajribaga ko‘ra, modelga asoslangan o‘qitish va virtual eksperimentlarni amaliy mashg‘ulotlarga kiritish, jumladan molekulyar fizika bo‘limida, talabalarning ilmiy konsepsiyalarini chuqur o‘zlashtirish va real jarayonlar bilan bog‘lash imkoniyatini beradi [5].

Tadqiqot metodikasi. Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda virtual modellashtirishga asoslangan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot metodikasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, Model-Based Learning (MBL) texnologiyasi asosida ishlab chiqildi.


Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

– pedagogik tahlil va umumlashtirish;
– modellashtirish asosidagi o‘qitish;
– virtual eksperiment;
– muammoli ta’lim;
– interfaol metodlar (Sokrat metodi, SCAMPER);
– raqamli baholash va refleksiya.

Model-Based Learning texnologiyasi talabalarning fizik jarayonlarni abstrakt formulalar orqali emas, balki model, simulyatsiya va vizual tasvirlar asosida anglashiga xizmat qiladi. Bu yondashuv molekulyar fizika kabi mikrojarayonlarga asoslangan mavzularni o‘qitishda ayniqsa samarali hisoblanadi. Modellashtirish orqali talabalar diffuziya jarayonining fizik mohiyatini, molekulalarning tartibsiz issiqlik harakati va uning temperatura hamda molekula massasi bilan bog‘liqligini chuqurroq tushunadi [9]. Shuningdek, tadqiqotda virtual platforma asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar talabalarning tahliliy va kreativ tafakkurini rivojlantirish, mustaqil xulosa chiqarish hamda nazariy bilimlarni amaliy jarayonlar bilan bog‘lash imkonini berishi metodik jihatdan asoslandi.

Amaliy mashg‘ulotlar molekulyar fizika bo‘limining muhim mavzularidan biri bo‘lgan “Gazlarda diffuziya” mavzusi misolida tashkil etildi. Mashg‘ulot amaliy mashg‘ulot shaklida bo‘lib, virtual modellashtirish, simulyatsiyalar, masalalar yechish va raqamli baholash elementlarini o‘z ichiga oldi. Mashg‘ulotning dastlabki bosqichida muammoli vaziyat yaratildi. Talabalarga “Bir idishda yonma-yon joylashgan ikki xil gaz vaqt o‘tishi bilan qanday qilib bir jinsli

aralashmaga aylanadi?" degan savol berildi. Ushbu savol talabalarni diffuziya jarayonining mohiyatini tushuntiruvchi omillar haqida mustaqil fikrlashga undadi. Keyingi bosqichda Flipped Classroom yondashuvi asosida nazariy tayanch faollashtirildi. Bu bosqichda nazariy material qayta batafsil tushuntirilmadi, balki oldingi mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlar qisqa tayanch slaydlar orqali eslatildi. Natijada talabalarning amaliy faoliyatga tayyorligi ta'minlandi.



1-rasm. *Gazlarda diffuziya jarayonini modellashtiruvchi virtual ishlanma interfeysi.*

Mashg'ulotning markaziy qismi virtual eksperiment asosida tashkil etildi (1-rasm). Virtual platformadagi "Gazlarda diffuziya" simulyatsiyasi yordamida talabalar quyidagi amallarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ldi:

– ikki xil gazni yonma-yon joylashtirish;
– molekulalar soni va konsentratsiyasini o'zgartirish;
– temperaturani oshirish va kamaytirish;
– gaz molekulalarining massasini almashtirish;
– diffuziya tezligining vaqt bo'yicha o'zgarishini kuzatish.

Talabalar parametrlarni mustaqil ravishda o'zgartirib, diffuziya jarayonining dinamikasini kuzatdi va kuzatuvlar asosida dastlabki xulosalar chiqardi. Ushbu jarayon Model-Based Learning texnologiyasining amaliy mashg'ulotdagi samarali amalga oshirilishini ta'minladi.

Virtual tajribadan so'ng Sokrat metodi asosida muhokama tashkil etildi. O'qituvchi tomonidan berilgan yo'naltiruvchi savollar talabalarni kuzatilgan jarayonlarni tahlil qilish, sabab–natija bog'lanishlarini aniqlash va ilmiy gipotezalar ilgari surishga undadi [8]. Mashg'ulot davomida diffuziyaga oid hisoblash masalalari yechildi. Olingan natijalar virtual simulyatsiya orqali kuzatilgan jarayonlar bilan taqqoslandi. SCAMPER metodi yordamida "Agar molekulalar massasi oshirilsa diffuziya qanday o'zgaradi?" yoki "Diffuziya jarayonini qaysi sharoitda tezlashtirish mumkin?" kabi savollar muhokama qilindi. Bu esa talabalarning kreativ va tahliliy fikrlashini rivojlantirdi [7].

Mashg'ulot yakunida gamifikatsiya elementlari asosida nazorat va refleksiya tashkil etildi. Virtual platformada hisoblash masalalaridan iborat testlar bajarilib, natijalar avtomatik baholandi. Progress-bar, daraja (level) va badge elementlari talabalarning o'quv faolligini oshirishga xizmat qildi.

Baholash natijalarini aniqlash va tahlil qilish. Virtual modellashtirishga asoslangan amaliy mashg'ulotlar samaradorligini aniqlash maqsadida talabalarning o'quv faoliyati gamifikatsiya elementlari asosida shakllantirilgan ko'rsatkichlar orqali baholandi. Baholash jarayonida talabalar tomonidan to'plangan badge (rag'bat ballari) va level (o'zlashtirish darajasi) ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida tanlandi.

Talabaning umumiy natijasi badge va level ko'rsatkichlarining vaznli o'rtacha qiymati asosida aniqlandi. Bunda level ko'rsatkichi ta'lim mazmunini egallash darajasini ifodalagani sababli ustuvor deb olinib, 0,6 vazn, badge ko'rsatkichi esa o'quv faolligi va topshiriqlarni bajarish sifatini aks ettirgani uchun 0,4 vazn bilan baholandi.

1-jadvalda talabalarning umumiy bahosini aniqlash natijalari keltirilgan.

1-jadval

№	Talabaning F.I.Sh.	Badge (ball)	Level (daraja)	Umumiy baho	Yakuniy baho
1	A.A.	5	3	3,8	Yuqori
2	B.B.	4	2	2,8	O'rtacha
3	C.C.	3	1	1,8	Boshlang'ich

Izoh: Jadvalda keltirilgan umumiy baho badge va level ko‘rsatkichlarining vaznli o‘rtacha qiymati asosida hisoblangan bo‘lib, bunda level ko‘rsatkichi 0,6 va badge ko‘rsatkichi 0,4 vazn bilan baholangan.

Yakuniy bahoni toifalash mezonlar. Talabalarning umumiy baholari sifat jihatdan tahlil qilinishi uchun ular quyidagi oraliqlar asosida verbal baholarga ajratildi:

Umumiy baho oralig‘i	**Yakuniy baho**
3,5 – 4,0	Yuqori
2,5 – 3,49	O‘rtacha
1,5 – 2,49	Boshlang‘ich
< 1,5	Past

Mazkur baholash tizimi talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning o‘quv jarayonidagi faolligi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va virtual modellashtirish bilan ishlash kompetensiyalarini ham kompleks tarzda aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari. Virtual modellashtirishga asoslangan amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari Shahrisabz pedagogika institutining fizika yo‘nalishi talabalari ishtirokida o‘tkazildi. Tajribada molekulyar fizika bo‘limining “Gazlarda diffuziya” mavzusi bo‘yicha tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar jarayonida talabalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalaridagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Tajriba-sinov jarayonida talabalar faoliyati virtual modellashtirish, simulyatsiyalar, masalalar yechish va gamifikatsiya elementlari asosida tashkil etildi. Natijalarni aniqlashda badge va level ko‘rsatkichlariga tayangan vaznli o‘rtacha baholash tizimi qo‘llanildi.

Tajriba-sinov ishlari yakunida olingan natijalar virtual modellashtirishga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar talabalarning o‘zlashtirish darajasiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatganini tasdiqladi. Mashg‘ulotlar davomida barcha talabalar faol ishtirok etgani sababli past darajada qolgan talabalar aniqlanmadi.

Baholash natijalariga ko‘ra:

- talabalarning 45–50 % qismi “yuqori” darajaga erishdi;
- 48–53 % talabalar “o‘rtacha” darajada natija ko‘rsatdi;
- faqat 1–2 % talabalar “boshlang‘ich” darajada baholandi.

Virtual eksperimentlar va SCAMPER metodi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarni faqat tayyor formulalardan foydalanishga emas, balki jarayonni tahlil qilish, taqqoslash va gipoteza ilgari surishga yo‘naltirdi. Talabalar diffuziya tezligiga ta’sir etuvchi omillarni (temperatura, molekula massasi, konsentratsiya) virtual model orqali o‘zgartirib, natijalarni mustaqil tahlil qila oldi.

Gamifikatsiya elementlari (level, badge, progress-bar) talabalarning o‘quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi. Talabalar mashg‘ulot davomida o‘z natijalarini real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniga ega bo‘ldi, bu esa ularning faolligini rag‘batlantirdi.

Muhokama. Virtual modellashtirishga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning molekulyar fizika bo‘limidagi “Gazlarda diffuziya” mavzusini o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshdi. Talabalar diffuziya jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarni (temperatura, molekula massasi, konsentratsiya) mustaqil ravishda tahlil qila oldi va natijalarni grafik va simulyatsiya natijalari bilan solishtira bildi. Gamifikatsiya elementlari (badge, level, progress-bar) esa talabalarni faol ishtirok etishga rag‘batlantirib, o‘quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qildi.

Tajriba shuni ko‘rsatdiki, Model-Based Learning texnologiyasi va virtual modellashtirish an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlariga nisbatan samaraliroq bo‘lib, talabalarni tahliliy va kreativ fikrlashga yo‘naltiradi. Shuningdek, raqamli baholash tizimi yordamida olingan natijalar ob’ektiv va shaffof bo‘lib, talabalar faoliyati va kompetensiyalarini aniq aks ettiradi.

Xulosa va takliflar. Virtual modellashtirishga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar Shahrisabz pedagogika institutida molekulyar fizika fanida samarali qo‘llanilishi tasdiqlandi. Talabalar gazlarda diffuziya jarayonini chuqurroq tushunib, tahliliy va kreativ tafakkurini rivojlantirdi. Gamifikatsiya va raqamli baholash elementlari o‘quv motivatsiyasini oshirdi hamda natijalarni shaffof baholash imkonini berdi. Shu metodika asosida kelgusida boshqa murakkab fizik mavzularni o‘qitishda ham virtual modellashtirish samarali vosita sifatida qo‘llanishi mumkin. Shu bilan birga, virtual modellashtirish metodikasini molekulyar va umumiy fizika bo‘limlarida kengaytirib qo‘llash, murakkab jarayonlarni vizual tarzda tushuntirish orqali o‘quv jarayonini yanada samarali qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, virtual tajribalarni an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlari bilan integratsiya qilish, talabalarning amaliy va tahliliy ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirish maqsadida foydali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. http://lex.uz//docs/-5338558

2. Ahmadjanov T. Kvant aloqa. Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish (o‘quv-uslubiy majmua). Toshkent: O‘zMU, 2022.

3. Axunov T.A. Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish. Toshkent: O‘zMU, 2025. – 223 b.

4. Badger C., Firth J. Creativity for Teachers: A Cognitive Science Approach. London: Routledge, 2025. – 300 p.

5. Brown N., Ince A., Ramlackhan K. (eds.) Creativity in Education: International Perspectives. London: UCL Press, 2024. – 234 p.

6. Downes S.M. Models and Modeling in the Sciences: A Philosophical Introduction. London/New York: Routledge, 2020. – 114 p. – ISBN: 9781138122239

7. Dumas D., Dunbar K. Creative thinking processes in problem-solving and simulation-based learning. *Thinking Skills and Creativity*, 2023, 48, 101256. https://doi.org/10.1016/j.tsc.2023.101256

8. Farnsworth W. The Socratic Method: A Practitioner’s Handbook. Boston: David R. Godine Publisher, 2021. – 218 p.

9. Gilbert J.K., Justi R. Modeling-based Teaching in Science Education. Cham: Springer, 2016. – 262 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mullabayeva Mashhura Samijonovna
NamDu professor
Xojimirzayev Sxratjon Dedamirzayevich
NamDu katta o'qituvchi
Po'latov Maxmudjon Turgunovich
NamDChTI o'qituvchi

JAMIYATNI YUKSALISHIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI O'RNI

Annotasiya: *Jismoniy faollik darajasi mamlakatning ijtimoiy farovonligi va davlat siyosatining samaradorligini ko'rsatuvchi asosiy indikatorlardan biridir. Sog'lom inson esa sog'lom jamiyatning poydevori xisoblandi, shu sababli ushbu maqolada jamiyatning yuksalishida jismoniy tarbiyani o'rni qay darajadaligi keng yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Endorfinlar, dofamin, serotonin, immunitet, professional sport, havaskorlik sporti, jismoniy tarbiya.*

Муллабаева Машхура Самижоновна
профессор НамГУ
Xojimirzayev Sxratjon Dedamirzayevich
НамГУ доцент
Пулатов Махмуджон Тургунович
преподаватель НамГИИЯ

РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Аннотация: *Уровень физической активности является одним из ключевых индикаторов, отражающих социальное благополучие страны и эффективность государственной политики. Здоровый человек — это фундамент здорового общества, поэтому в данной статье широко освещается роль физического воспитания в прогрессе общества.*

Ключевые слова: *Эндорфины, дофамин, серотонин, иммунитет, профессиональный спорт, любительский спорт, физическое воспитание.*

Mullabayeva Mashhura Samijonovna,
NamSu Professor
Xojimirzayev Sxratjon Dedamirzayevich
NamSu head teacher
Po'latov Maxmudjon Turgunovich,
Teacher at Namangan State Institute of Foreign Languages

THE ROLE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Abstract: *The level of physical activity is one of the key indicators reflecting the social well-being of a country and the effectiveness of state policy. Since a healthy individual is considered the foundation of a healthy society, this article extensively explores the role and significance of physical education in the progress and development of society.*

Keywords: *Endorphins, dopamine, serotonin, immunity, professional sports, amateur sports, physical education.*

Kirish. Jismoniy tarbiya — bu shunchaki mushaklar harakati emas, balki inson organizmining barcha tizimlarini muvozanatga keltiruvchi murakkab biologik va ijtimoiy jarayondir. Zamonaviy tibbiyot xulosalariga ko'ra, inson salomatligining 50 foizi uning turmush tarziga, birinchi navbatda, jismoniy faolligiga bog'liq. Sport bilan muntazam shug'ullanish inson tanasida quyidagi fundamental o'zgarishlarni keltirib chiqaradi: Jumladan:

Yurak-qon tomir tizimi - sportchi bo'lmagan insonning yuragi tinch holatda minutiga 70-80 marta ursa, doimiy mashq qiladiganlarda bu ko'rsatkich 50-60 tani tashkil etadi. Bu yurakning tejamkor ishlashini va uzoqroq xizmat

qilishini ta’minlaydi. Qon tomirlarining elastikligi oshadi, bu esa arterial qon bosimining me’yorda bo‘lishiga yordam beradi.

Nafas olish tizimi - jismoniy mashqlar paytida o‘pkaning tiriklik sig‘imi ortadi. Organizm kislorod bilan to‘yinadi, bu esa barcha a’zolarning, xususan, miyaning oziqlanishini yaxshilaydi.

Tayanch-harakat tizimi - suyak to‘qimalari mustahkamlanadi, bo‘g‘inlar harakatchanligi oshadi. Bu ayniqsa yosh ulg‘ayganda uchraydigan osteoporoz kabi kasalliklarning oldini olishda muhimdir.

Endorfinlar - "baxt gormonlari" bo‘lib, ular og‘riqni kamaytiradi va kayfiyatni ko‘taradi.

Dofamin - muvaffaqiyat va motivatsiya hissini uyg‘otadi;

Serotonin - uyquni yaxshilaydi va depressiya alomatlarini bartaraf etadi.

Fakt: Kuniga 30 daqiqalik jadal yurish miyadagi neyronlararo bog‘lanishni yaxshilaydi, bu esa xotirani kuchaytirib, Altsgeymer kasalligi xavfini 30 foizga kamaytiradi.

- Yurak kasalliklari: -35%
- Qandli diabet: -40%
- Stress va xavotir: -50%

Modda almashinuvi va immunitetni oshirishda:

Semizlik - bugungi kunning eng katta global muammosi. Sport moddalar almashinuvini (metabolizm) tezlashtirib, ortiqcha vazndan xalos bo‘lishning eng samarali yo‘lidir.

Immunitet - jismoniy mashqlar limfotsitlar va boshqa himoya hujayralarining harakatini tezlashtiradi, natijada organizm virus va bakteriyalarga qarshi tezroq reaksiya qaytaradi.

Umr davomiyligi - JSST (Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti) ma’lumotlariga ko‘ra, jismoniy faol insonlar passiv hayot kechiruvchilarga qaraganda o‘rtacha 5 yildan 8 yilgacha ko‘proq umr ko‘rishadi.

Sport — bu insoniyat sivilizatsiyasi bilan tengdosh hodisa. U paydo bo‘lgan ilk davrlardayoq nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki ijtimoiy birlashuv va tinchlik ramzi bo‘lib kelgan. Antik davr: Olimpiya g‘oyalarining tug‘ilishi

Sportning tizimli rivojlanishi qadimgi Gretsiyadan boshlangan (mil. avv. 776-yil). O‘sha davrda Olimpiya o‘yinlari o‘tkazilayotgan vaqtda barcha urushlar to‘xtatilgan va "Muqaddas sulh" e’lon qilingan. Bu sportning jamiyatdagi birinchi va eng muhim ijtimoiy funksiyasi — tinchlik o‘rnatish ekanligini isbotlaydi.

Shuningdek, bizning hududimizda — Markaziy Osiyoda ham jismoniy tarbiya madaniyati juda qadimiy ildizlarga ega. "Alpomish" dostonidagi kamondan otish, kurash va ot chopish musobaqalari xalqimizning jismoniy kamolotga qadimdan katta e’tibor berganidan dalolat beradi.

Zamonaviy sportning shakllanishi XIX-XX asrlar ya’ni 1896-yilda Per de Kuberten tashabbusi bilan zamonaviy Olimpiya o‘yinlarining tiklanishi sport tarixida yangi davrni ochdi. Sanoat inqilobi va urbanizatsiya natijasida sportning quyidagi yo‘nalishlari shakllandi:

Professional sport: Sportning daromad keltiruvchi sohaga aylanishi.

Havaskorlik sporti: Aholining keng qatlamlari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzining targ‘ib qilinishi.

Xalqaro federatsiyalarning tashkil etilishi: FIFA, FIBA kabi tashkilotlar orqali sport qoidalarining unifikatsiya qilinishi.

Bugungi kunda sport shunchaki stadiondagi o‘yin emas, balki ulkan texnologik va iqtisodiy ekotizimdir. Zamonaviy tendensiyalar quyidagilardan iborat:

Raqamli texnologiyalar (High-Tech Sport): VAR (videoyordamchi hakam) tizimi, kiyiladigan aqlli qurilmalar (smart-watch) va tahliliy dasturlar sportchilarni tayyorlash metodikasini tubdan o‘zgartirdi.

Kibersportning integratsiyasi: Virtual sport o‘yinlari an’anaviy sport turlari bilan raqobatlashmoqda va 2025-yildan e’tiboran Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi tomonidan Kibersport olimpiadalari o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Inklyuzivlik: Paralimpiya o‘yinlarining nufuzi oshishi jamiyatning imkoniyati cheklangan shaxslarga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirmoqda.

Hozirgi dunyoda sport "Yumshoq kuch" (Soft Power) vazifasini o‘taydi. Jahon chempionatlari va Olimpiadalar mezbon mamlakatning iqtisodiy qudratini ko‘rsatish va turizmni rivojlantirish uchun asosiy vositadir. Masalan, 2022-yilda Qatarda o‘tkazilgan futbol bo‘yicha jahon chempionati butun mintaqaning geosiyosiy nufuzini oshirdi.

Tadqiqot natijalari. Jismoniy faollik darajasi mamlakatning ijtimoiy farovonligi va davlat siyosatining samaradorligini ko‘rsatuvchi asosiy indikatorlardan biridir. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) va xalqaro tadqiqot markazlari ma’lumotlariga ko‘ra, sportga bo‘lgan munosabat hududlar bo‘yicha keskin farq qiladi.

Dunyoda aholisining sport bilan shug‘ullanish darajasi bo‘yicha Shimoliy Yevropa (Skandinaviya) davlatlari mutlaq yetakchilik qilmoqda. Buning sababi nafaqat infratuzilma, balki jismoniy tarbiya milliy madaniyatning bir qismiga aylanganidir.

Jahonning eng faol 5 ta davlati (Aholining muntazam sport bilan shug‘ullanish foizi):

O‘rin	Mamlakat	Faollik darajasi (%)	Asosiy sabab

O‘rin	Mamlakat	Faollik darajasi (%)	Asosiy sabab
1	**Finlandiya**	72%	Tabiat qo‘ynida sport ("Outdoor sports") madaniyati
2	**Shvetsiya**	67%	Ish joylarida majburiy fitnes tanaffuslari
3	**Daniya**	64%	Velosipedda harakatlanishning ustunligi
4	**Norvegiya**	62%	Qishki sport turlarining ommaviyligi
5	**Germaniya**	52%	Sport klublarining (Verein) keng tarmog‘i

Osiyo davlatlarida sportga yondashuv biroz boshqacha. Masalan, Yaponiya va Janubiy Koreyada jismoniy tarbiya ta’lim tizimi bilan qattiq integratsiyalashgan.

Yaponiya: Aholining 50 foizidan ortig‘i har kuni "Radio Taiso" (radio orqali beriladigan umumiy badanatarbiya) mashqlarini bajaradi. Bu mamlakatda sport shunchaki o‘yin emas, balki ish unumdorligini oshirish vositasi deb ko‘riladi.

Xitoy: "Ommaviy sport" dasturi doirasida bog‘ va xiyobonlarda keksa avlod vakillari uchun maxsus "Taychi" va guruhli raqslar tashkil etilgan bo‘lib, bu o‘rtacha umr ko‘rish darajasini sezilarli darajada oshirgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aholisi sport bilan faol shug‘ullanadigan davlatlarda sog‘liqni saqlash tizimiga sarflanadigan xarajatlar boshqa davlatlarga nisbatan 25-30% ga kamroq.

Dunyodagi "Eng baxtli davlatlar" reytingi (World Happiness Report) va "Eng sportsevar davlatlar" reytingi deyarli bir xil. Ya’ni, jismoniy faollik va jamiyatning baxtiyorlik darajasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud.

Endi O‘zbekistondagi holatni taqqoslaydigan bo’lsak, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham sportga munosabat tubdan o‘zgardi. "Sog‘lom turmush tarzi" platformasining joriy etilishi va mahallalarda "Vorkaut" maydonchalarining qurilishi natijasida aholining sportga bo‘lgan qiziqishi 20-25 foizga oshgani kuzatilmoqda.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sport faqat medallar va rekordlar emas, balki ijtimoiy inqirozdan chiqish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning eng arzon va samarali yo‘lidir. Quyida ikki xil yondashuv — G‘arb va Sharq tajribasini ko‘rib chiqamiz.

Islandiyada. Sport orqali sog‘lom avlod sari 1990-yillarning oxirida Islandiya o‘smirlar o‘rtasida zararli odatlar (alkogol, tamaki va toksikomaniya) bo‘yicha Yevropada birinchi o‘rinda edi. Mamlakat kelajagi xavf ostida qolgan edi.

Qabul qilingan strategiya: Hukumat "Youth in Iceland" (Islandiya yoshlari) dasturini joriy qildi. Bu dastur quyidagi uchta ustunga tayangan edi:

1. Infratuzilma: Har bir tuman va qishloqda yopiq, isitiladigan sport arenalari qurildi (bu Islandiyaning sovuq iqlimida juda muhim edi).
2. Vaucher tizimi: Davlat har bir bolaga yiliga ma’lum miqdorda mablag‘ ajratib, uni faqat sport to‘garaklariga sarflash huquqini berdi.
3. Oilaviy integratsiya: Ota-onalarga farzandlari bilan sport tadbirlarida qatnashish uchun qo‘shimcha imtiyozlar berildi.

Natija: 20 yil ichida o‘smirlar orasida ichkilikbozlik darajasi 42% dan 5% ga tushdi. Islandiya futbol bo‘yicha jahon arenalarida porladi va eng muhimi — mamlakatda jinoyatchilik keskin kamaydi.

Yaponiyada. sport iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. "Radio Taiso" (ommaviy badanatarbiya) an’anasi deyarli barcha yirik korporatsiyalarda (Toyota, Sony, Panasonic) amal qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ish kuni davomida 10-15 daqiqalik jismoniy mashqlar ishchilarning diqqatni jamlash qobiliyatini 20% ga oshiradi.

Sport jamoaviy ruhni (team-building) shakllantiradi, bu esa Yaponiyaning "jamoaviy mehnat" falsafasiga to'la mos keladi.

Sport — yoshlar energiyasini to‘g‘ri yo‘naltirishning eng yaxshi usuli. Statistika shuni ko‘rsatadiki, sport to‘garaklari ko‘p bo‘lgan hududlarda ko‘cha bezoriligi va voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatchilik darajasi o‘rtacha 40% ga past bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya faqatgina salomatlik garovi emas, u jamiyatning barcha sohalariga ta’sir qiluvchi ko‘p qirrali kuchi hisoblanadi.

Xalqaro moliya institutlarining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, aholining jismoniy faolligi va mamlakat YaIM (Yalpi ichki mahsulot) o‘rtasida kuchli korrelyatsiya mavjud. Masalan, sport bilan shug‘ullanuvchi xodimlar yiliga o‘rtacha 15-20% kamroq "bolnichniy" (kasallik varaqasi) oladilar.

Agar aholining atigi 10 foizi muntazam yurishni odat qilsa, bu davlatning sog‘liqni saqlash byudjetini yiliga millionlab dollarga tejashi mumkin.

Maqolamizda ko‘rib chiqilganidek, jismoniy tarbiya — bu millatning yashash tarzi bo‘lishi kerak. Jamiyatning yuksalishi faqatgina iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki sog‘lom va baxtli insonlar soni bilan o‘lchanadi.

Amalyotga tadbiq qilish.

1. *Ta’limda:* Maktab, tehnikum, kasb hunar kolleji, oliy ta’limlarda "Jismoniy tarbiya" darslarini eng zamonaviy metodlar asosida, o‘quvchilar uchun qiziqarli (o‘yin uslubida) tashkil etish, hamda dars soatlari kamida xaftasiga 2 soatdan kam bo‘lmasligi lozim.
2. *Oila muhitida:* Ota-onalar farzandlariga shaxsiy namuna bo‘lishi, oilaviy sport kunlarini tashkil etishi lozim.
3. *Davlat miqyosida***:** Sport infratuzilmasini har bir mahalla va chekka qishloqlarda ham birdek rivojlantirishni davom ettirish.

"Sog‘lom tanda — sog‘lom aql!" iborasi hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Faqat jismoniy faol va sog‘lom jamiyatgina yuksak marralarni zabt eta oladi.

X**ulosa:** Sport o‘z taraqqiyoti davomida oddiy musobaqalardan butun dunyoni birlashtiruvchi global qadriyatga aylandi. U ijtimoiy to‘siqlarni buzish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va inson salohiyatini namoyon etishning eng samarali maydonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi". Darslik. – Toshkent: O‘zDJTI nashriyoti, 2005.
2. Mahkamdjanov K.M. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi". – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2008.
3. Salamov R.S. "Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari". – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2014.
4. Amosov N.M. "Razdumiya o zdorovye" (Salomatlik haqida o‘ylar). – Moskva: Fizkultura i sport, 1987.
5. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (WHO). "Global action plan on physical activity 2018–2030: more active people for a healthier world". – Jeneva, 2018.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Doniyorova Shoxista
Samarqand davlat pedagogik instituti o‘qituvchisi
Email: indefenit@gmail.ru

OLIY TA’LIM MUASSASALARINING XALQAROLASHUVIDA TALABALAR TA’LIM OLISHINING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim muassasalarining xalqarolashuvi jarayonida talabalar ta’lim olishini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, akademik mobillik, raqamli ta’lim, interfaol pedagogik texnologiyalar hamda madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalar ta’lim sifatini oshirishda institutsional, didaktik va shaxsiy omillarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, xalqarolashuv, pedagogik shart-sharoit, akademik mobillik, talaba, ta’lim sifati.*

Дониерова Шохиста
Преподаватель Самаркандского государственного педагогического института

УЛУЧШЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПЕРИОД ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация. *В статье анализируются педагогические условия, необходимые для эффективной организации обучения студентов в процессе интернационализации высших учебных заведений. Научно освещены проводимые реформы в системе высшего образования Узбекистана, вопросы академической мобильности, цифрового образования, интерактивных педагогических технологий и развития межкультурных компетенций. По результатам исследования обосновывается, что сочетание институциональных, дидактических и личностных факторов имеет большое значение для повышения качества обучения студентов.*

Ключевые слова: *высшее образование, интернационализация, педагогические условия, академическая мобил.*

Doniyorova Shokhista
Teacher of Samarkand State Pedagogical Institute

IMPROVING PEDAGOGICAL CONDITIONS OF STUDENTS' EDUCATION IN THE INTERNATIONALIZATION OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONSЬНОСТЬ, СТУДЕНТ, КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ.

Abstract. *The article analyzes the pedagogical conditions necessary for the effective organization of student education in the process of internationalization of higher education institutions. The reforms being implemented in the higher education system of Uzbekistan, the issues of academic mobility, digital education, interactive pedagogical technologies and the development of intercultural competencies are scientifically covered. According to the results of the study, it is substantiated that the combination of institutional, didactic and personal factors is of great importance in improving the quality of student education.*

Keywords: *higher education, internationalization, pedagogical conditions, academic mobility, student, quality of education.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta’lim muassasalarining xalqarolashuvi ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni xalqaro standartlarga moslashtirish, xorijiy hamkorlikni kengaytirish, talabalar va professor-o‘qituvchilarning akademik mobilligini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni, 2019).

Shu nuqtai nazardan, talabalar ta’lim olish jarayonida samarali pedagogik shart-sharoitlarni yaratish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Chunki xalqarolashuv faqat tashkiliy jarayon emas, balki ta’lim mazmuni, metodlari va muhitini tubdan yangilashni talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - OTM xalqarolashuvi sharoitida talabalar ta’lim olishini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.Shuningdek, zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida xalqarolashuv jarayoni ta’lim sifatini oshirish, bitiruvchilarning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash hamda milliy ta’lim tizimini xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashuvini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Bunda xorijiy ta’lim dasturlarini joriy etish, qo‘shma ta’lim loyihalari, ikki diplomli dasturlar, xalqaro akkreditatsiya jarayonlari hamda xorijiy professor-o‘qituvchilar ishtirokidagi ta’lim jarayonlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq, amaliy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur jarayonlarning samaradorligi bevosita pedagogik shart-sharoitlarning qanchalik puxta tashkil etilganligiga bog‘liqdir. Ya’ni, agar ta’lim jarayoni faqat tashkiliy jihatdan xalqarolashgan bo‘lib, ammo didaktik, metodik va psixologik jihatdan moslashtirilmagan bo‘lsa, kutilgan natijalarga erishish qiyinlashadi. Shu sababli, pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy asosda tahlil qilish va ularni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Ayniqsa, talabalar uchun qulay va samarali ta’lim muhitini yaratish, ularning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish xalqarolashuvning muhim pedagogik talabi hisoblanadi. Bu jarayonda talaba faqat bilim oluvchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaralishi zarur. Mazkur yondashuv konstruktivistik va kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasiga to‘liq mos keladi.

Shu bilan birga, xalqarolashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot muammolari, til to‘siqlari, ta’lim metodlaridagi farqlar hamda baholash tizimidagi nomutanosibliklar talabalarning o‘quv faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun pedagogik jarayonda moslashuvchanlik, tolerantlik va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur bo‘ladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Onlayn platformalar, virtual auditoriyalar, xalqaro elektron resurslar va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari talabalar uchun global bilim makoniga kirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bois, raqamli pedagogik muhitni samarali tashkil etish ham xalqarolashuv jarayonining muhim pedagogik sharti sifatida e’tirof etiladi.

Natijada, OTM xalqarolashuvi sharoitida talabalar ta’lim olishini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar faqat tashkiliy choralar bilan emas, balki didaktik, metodik, texnologik va psixologik jihatdan kompleks yondashuv asosida shakllantirilishi zarur.

Shu asosda mazkur tadqiqotda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi misolida xalqarolashuv sharoitida talabalar ta’lim olishini samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi hamda ularni takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Nazariy asoslar. Pedagogik shart-sharoit deganda ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlovchi tashkiliy, metodik, psixologik va ijtimoiy omillar majmui tushuniladi (Abdullayeva, 2020).J. Nayt (Knight, 2004) xalqarolashuvni oliy ta’lim faoliyatiga xalqaro va madaniyatlararo komponentlarni integratsiya qilish jarayoni sifatida ta’riflaydi. O‘zbekiston olimlari esa bu jarayonni milliy ta’lim tizimini global ta’lim makoniga moslashtirish shakli sifatida izohlaydilar (Yo‘ldoshev, 2021).Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqarolashuv sharoitida pedagogik shart-sharoitlar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

-ta’lim jarayonining talaba markazli tashkil etilishi;

-interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish;

-raqamli ta’lim muhitining rivojlanganligi;

-madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish;

-akademik erkinlik va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash.

Pedagogik shart-sharoit - bu ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlovchi tashkiliy, metodik, psixologik va ijtimoiy omillar majmui hisoblanadi (Abdullayeva, 2020). Shu nuqtai nazardan, talaba faqat ma’lumot qabul qiluvchi emas, balki ta’lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etadi.

O‘zbekiston olimlari (Yo‘ldoshev, 2021; Mirzayev, 2019) pedagogik shart-sharoitni quyidagi komponentlar bilan bog‘liq deb hisoblaydilar:

-t**ashkiliy komponent-** o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quv rejalari, jadval va auditoriyalarni moslashtirish.

-d**idaktik komponent-** o‘qitish uslublari, metodlar, interfaol texnologiyalar va baholash tizimi.

-p**sixologik komponent-**talabalar motivatsiyasi, o‘quv ishtirokchilari orasida ijtimoiy hamkorlik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

-texnologik komponent- raqamli ta’lim platformalari, elektron resurslar va virtual laboratoriyalar.

Xalqarolashuv jarayoni oliy ta’lim muassasalarida quyidagi pedagogik o‘zgarishlarni talab qiladi:

-talaba markazli yondashuv: Ta’lim jarayonida talabalarni faol subyekt sifatida jalb qilish, mustaqil fikrlash va ijodiy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish (Biggs & Tang, 2011).

-m**adaniyatlararo kompetensiya**: Talabalarni turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilishga tayyorlash (Byram, 1997).

-i**nnovatsion va raqamli pedagogik vositalar**: Onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar, elektron kutubxonalar va interaktiv dars materiallari.

-o‘**qituvchi kasbiy rivoji**: Professor-o‘qituvchilarning xalqaro metodika va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashi.

O‘zbekiston sharoitida, masalan, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Inha Universiteti talabalarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlardan samarali foydalanish va xorijiy professor-o‘qituvchilar bilan ishlash talabalar akademik motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi (Abdullayeva, 2020; Yo‘ldoshev, 2021). Shu bilan birga, ba’zi talabalar madaniyatlararo muloqot va til to‘siqlari bilan bog‘liq qiyinchiliklarni sezadilar, bu esa pedagogik shart-sharoitlarni yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida talabalar ta’lim olishini samarali tashkil etuvchi pedagogik shart-sharoitlarning kompleks modeli ishlab chiqildi.

2. Xalqarolashuv sharoitida talabalarning o‘quv motivatsiyasi, madaniyatlararo kompetensiyasi va raqamli ta’lim muhitidan foydalanishiga ta’sir qiluvchi omillar aniqlandi.

3. Talabalar ta’limini takomillashtirish bo‘yicha milliy va xalqaro tajribaga asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston oliy ta’limining xalqaro integratsiya jarayonini mustahkamlashga, pedagogik shart-sharoitlarni tizimli takomillashtirish orqali talabalar o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Shu bilan, OTM xalqarolashuvi sharoitida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

-talaba markazli pedagogik yondashuvni kengaytirish;

-raqamli va interfaol ta’lim muhitini rivojlantirish;

-madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish;

-professor-o‘qituvchilarning xalqaro pedagogik malakasini oshirish;

-institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

Bu yo‘nalishlar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalar ta’lim olishining samarali pedagogik shart-sharoitlarini yaratish uchun nazariy va amaliy poydevor hisoblanadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

-ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;

-normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish;

-pedagogik kuzatish;

-so‘rovnoma va suhbat metodlari;

-tahlil va sintez.

So‘rovnomada O‘zbekistonning uchta oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan 280 nafar talaba ishtirok etdi. Natijalar statistik va mantiqiy tahlil asosida qayta ishlanib, umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalari quyidagi muhim xulosalarni ko‘rsatdi:

1. Talabalarning 74 foizi interfaol metodlar asosida olib borilgan mashg‘ulotlarda bilimni o‘zlashtirish darajasi yuqori ekanini ta’kidladi.

2. 61 foiz talabalar xalqaro dasturlar doirasidagi fanlar mazmuni ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirayotganini e’tirof etdi.

3. 48 foiz talabalar madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarida qiyinchiliklarga duch kelishini bildirdi.

Bu holat xalqarolashuv sharoitida pedagogik shart-sharoitlarni yanada tizimli takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish zarurligi aniqlandi:

1. Talaba markazli ta’limni rivojlantirish

Ta’lim jarayonida talabani faol subyekt sifatida jalb qilish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni qo‘llab-quvvatlash ta’lim samaradorligini oshiradi.

2. Raqamli pedagogik muhitni kuchaytirish

Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar va xalqaro elektron resurslardan foydalanish talabalar uchun global ta’lim makoniga kirish imkonini yaratadi.

3. Madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish

Maxsus treninglar, seminarlar va xalqaro loyihalar orqali talabalar global muloqot madaniyatiga moslashadi.

4. Professor-o‘qituvchilarning kasbiy rivoji

Xalqaro metodika, CLIL, EMI kabi yondashuvlarni o‘zlashtirish o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, OTM xalqarolashuvi sharoitida talabalar ta’lim olishini samarali tashkil etish quyidagi pedagogik shart-sharoitlarning uyg‘unligiga bog‘liq:

-innovatsion ta’lim texnologiyalari;

-madaniyatlararo muloqot muhiti;

-raqamli infratuzilma;

-o‘qituvchi va talaba hamkorligi;

-institutsional qo‘llab-quvvatlash.

Mazkur shart-sharoitlar uyg‘unligida talabalar akademik va madaniyatlararo jihatdan rivojlanadi, shuningdek, OTMning xalqaro reytinglardagi mavqei oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. (2019). Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

2. Abdullayeva, M. (2020). Oliy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan.

3. Yo‘ldoshev, J. (2021). Ta’lim tizimini modernizatsiyalashning pedagogik asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.

4. Knight, J. (2004). Internationalization remodeled: Definition, approaches and rationales. Journal of Studies in International Education, 8(1), 5–31.

5. Deardorff, D. K. (2006). Identification and assessment of intercultural competence. Journal of Studies in International Education, 10(3), 241–266.

6. Biggs, J., & Tang, C. (2011). Teaching for Quality Learning at University. McGraw-Hill.

7. Leask, B. (2015). Internationalizing the Curriculum. Routledge.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

M.U.Davronova
Katta o‘qituvchi (Namangan Davlat texnika universiteti)
e-mail: muhayyodavronova71@gmail.com
V**.Q.Raxmonova**
Katta o‘qituvchi (Namangan Davlat texnika universiteti)

MASHINASOZLIK DETALLARINI LOYIHALASHDA STEAM METODINI QO‘LLAShNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mexanika muhandisligi yo‘nalishida detallarni loyihalash jarayonida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) metodini qo‘llashning ta’limiy samaradorligi tahlil qilingan. STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan o‘quv-loyiha faoliyati talabalarning fanlararo bilimlari,loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekani asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *STEAM ta’lim, 3D printer, ta’lim texnologiyalari, loyihaviy ta’lim, innovatsion o‘qitish.*

М.У.Давронова
Старший преподаватель (Наманганский государственный технический университет)
В.К.Рахмонова
Старший преподаватель (Наманганский государственный технический университет)

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПАРОВОГО МЕТОДА ПРИ ПРОЕКТИРОВАНИИ МЕХАНИЧЕСКИХ ДЕТАЛЕЙ

Аннотация: *В данной статье анализируется образовательная эффективность применения метода STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) в процессе детального проектирования в области педагогики и образовательных технологий. Обосновано, что учебно-проектная деятельность, организованная на основе подхода STEAM, является важным фактором в развитии междисциплинарных знаний, творческого и инженерного мышления учащихся.*

Ключевые слова: *STEAM образование, 3D принтер, образовательные технологии, проектное обучение, инновационное обучение.*

M.U.Davronova
Senior Lecturer (Namangan State Technical University)
V.Q.Rakhmonova
Senior Lecturer (Namangan State Technical University)

THE EFFICIENCY OF USING THE STEAM METHOD IN DESIGNING MECHANICAL DETAILS

Abstract: *This article analyzes the educational effectiveness of using the STEAM method (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) in the process of detailed design in the field of pedagogy and educational technologies. It is proved that educational and project activities organized on the basis of the STEAM approach are an important factor in the development of interdisciplinary knowledge, creative and engineering thinking of students.*

Keywords*: STEAM education, 3D printer, educational technologies, project-based learning, innovative learning.*

Kirish

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024yil 20-iyun kuni muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektorda etuk mutaxassislarni tayyorlashda “Tarmoq – korxona – oliygoh” zanjiri asosida, har bir oliygohga sanoat hamkori belgilab beriladi. *Iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish uchun bizga yuqori malakali muhandis-texnologlar suv bilan havodek zarur.* Talabalarning amaliyoti va bitiruv kursdagi ta’limi to‘liq hamkor korxonalarda tashkil qilinishi belgilab qo‘yildi. Xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mustaqil va

tanqidiy qaror qabul qila oladigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish; sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlashni belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagi talablarni inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish ta'lim tizimi bu o'quv jarayoniga, shu jumladan muhandislik ta'lim yo'nalishiga tavsiyalarni kiritishga bog'liq. Texnika oliy ta'lim talabalarini mutaxassislik fanlarini mustaqil o'rganishi, izlanishi, muammolarni mustaqil yecha olishlari uchun amaliy kasbiy faoliyatlariga yo'naltirilgan faol metodlarni qo'llash yaxshi samara beradi.


Foydalanilgan adabiyotlar.

Texnika oliy ta'lim talabalariga "Mashinasozlik texnologiyasi asoslari" fanida detalni tayyorlash(loyihalash) jarayonida qator ko'nikma va malakalarını shakllantirishda "STEAM" metodini qo'lladik. STEAM ta'lim texnologiyasi amerikalik o'qituvchi Jorjetta Yakman asoschisi hisoblanadi.Texnika oliy ta'lim talabalarida loyihalash kompetensiyalarini shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari respublikamiz olimlari N.Fozilova, Z.Ashurova, R.Bultakova, F.Qodirovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu texnika oliy ta'lim talabalariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi — Massachusets Texnologiya Instituti (MTI) hisoblanadi. Ushbu dunyo institutining shiori «**Mens et Manus**» (Aql va qo'l) demakdir. Massachusets Texnologiya Instituti talabalarga STEAM tushunchasini oldindan o'rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba'zi ta'lim muassasalarida STEAM o'quv markazlarini yaratdi. Statistikaga ko'ra, 2011 yildan buyon STEAM-kasblarga bo'lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo'lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo'ylab ushbu ta'lim tizimiga katta talabni ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi,

Texnika oliy ta'lim talabalariga "Mashinasozlik texnologiyasi asoslari" fanida detalni tayyorlash(loyihalash) jarayonida qator ko'nikma va malakalarını shakllantirishda "STEAM" metodini qo'lladik.Ushbu STEAM metodi-(Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) texnika oliy ta'lim talabalari uchun zamonaviy, amaliy va integrativ yondashuv demakdir.



1-rasm."STEAM" metodini tarkibiy tuzilmasi

STEAM metodi zamonaviy ta'lim texnologiyalari tizimida alohida o'rin egallab, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur metod fanlararo integratsiya, loyihaviy ta'lim va amaliy faoliyatni uyg'unlashtirish asosida shakllangan. Bu STEAM metodi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini o'zaro integratsiyalash orqali o'qitishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv talabalarda: muammoni kompleks tahlil qilish, innovatsion fikrlash, amaliy yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantiradi. 3D printerlar bilan detallarni modelini tayyorlashdagi loyihaviy faoliyat STEAM metodining barcha komponentlarini qamrab oladi. Mashinasozlik detallarini 3D ko'rinishda loyihalashda STEAM komponentlarining amaliy ifodasi quyidagicha ifodalanadi.

Science (Ilm,fan)-Talabalar polimer materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini, issiqlikka chidamliligini va mustahkamligini o'rganadilar. Bu detal sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Technology (Texnologiya) - AvtoCad, KOMPAS 3D, SolidWorks, CAD kabi dasturlaridan foydalanishni hamda 3D printer parametrlarini to'g'ri tanlash asosida raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Engineering (Muhandislik) - Konstruktsiyani loyihalash, yuklamaga chidamli shakl tanlash va prototipni takomillashtirish muhandislik tafakkurini shakllantiradi.

Art (San'at) - Detal dizaynida ergonomika va estetika hisobga olinib, funktsionallik bilan birga tashqi ko‘rinishga e’tibor qaratiladi.

Mathematics (Matematika) - O‘lchamlar, proportsiyalar va material sarfini hisoblash orqali aniqlik va tejamkorlik ta'minlanadi.

Mashg‘ulot mavzusi: Detallarni zamonaviy usulda loyihalash (STEAM asosida)

Amaliy mashg‘ulot maqsadi: Talabalarda muhandislik tafakkuri, 3D modellash ko‘nikmasi, amaliy muammoni hal qilish, jamoada ishlash va loyihalash kompetentsiyalarini rivojlantirish.


Loyiha vazifalari:

1. Real muammoni aniqlash (maishiy yoki sanoat).
2. Detal vazifasini belgilash.
3. Material tanlashni asoslash.
4. CAD dasturda 3D model yaratish.
5. Printer parametrlarini tanlash.
6. Detalni additiv texnologiya bilan tayyorlash (yoki virtual model).

Taxlil va natijalar

Mutaxassislik fanlaridan biri doirasida STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayonida talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, real ishlab chiqarish jarayoniga yaqin bo‘lgan yuqoridagi loyiha topshiriqlarini oladilar. Har bir kichik guruh 3-4 kishidan iborat bo‘lib, guruhlar STEAM asosida berilgan topshiriqni belgilangan vaqt ichida bajaradilar.


a) **b)**



2-rasm. STEAM metodi asosidagi topshiriqlardan na’munalar.

Loyihalar ustida ishlash jarayonida talabalar “Кронштейн” detalini konstruktsiyon chizmasi (2.9.rasm.a)) dagi o‘lchamlar, belgilar, o‘lchamdan chetga chiqishlar, texnologik xarakteri, muhandislik, dizayn va hisob-kitob masalalarini STEAM asosida ketma-ketlikda kompleks hal etishga harakat qiladilar. Har bir kichik guruxlarda detal Solidivorks dasturida loyihasi (2.9.rasm.b)) yakunlanib, 3D printerda moslab quyadilar, tayyor detal modelini topshirdilar. Kutilgan natijalar- STEAM texnologiyasi asosida topshiriqlar taqdimot asosida qabul qilinadi. Har bir gurux topshiriqlari belgilangan mezon bilan baholanadi.(2.10-rasm). Dars mashg‘ulotlarida STEAM metodini qo‘llashda talabalar: 3D printer ishlash tamoyillarini tushunadi, detal uchun 3D model yarata oladi, STEAM elementlarini amalda qo‘llaydi, o‘z loyihasini himoya qila oladi, real muhandislik faoliyatiga tayyorlaydi, nazariyani amaliyot(ishlab chiqarish) bilan bog‘laydi, innovatsion fikrlashni rivojlantiradi. *Natijada:* texnika oliy ta’lim talabalarida loyihalash kompetensiyalarini rivojlanishiga erishiladi.

Yakunlovchi natija.Ushbu mashg‘ulot orqali talabalar - nazariyani amaliyot bilan bog‘laydi, real muhandislik muammosini hal qiladi. STEAM kompetensiyalarini kompleks rivojlantiradi. STEAM metodini qo‘llashning ta’limiy samaradorligi quyidagi jadvalda 3D printerlar asosida STEAM metodi qo‘llanilgan holda tashkil etilgan mashg‘ulotlar bilan an’anaviy o‘qitish usulining ta’limiy natijalari taqqoslangan .



3-rasm.An’anaviy o‘qitish va STEAM metodi asosida o‘qitish natijalarini taqqoslash

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, STEAM metodi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning bilish faolligini oshirish, amaliy kompetentsiyalarni shakllantirish hamda ta’lim samaradorligini ta’minlashda an’anaviy o‘qitish usuliga nisbatan yuqori natija beradi.

Xulosalar

STEAM metodi asosida 3D printerlar uchun detallarni loyihalashga qaratilgan o‘quv-loyiha faoliyati natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu yondashuv talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. Talabalar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkoniga ega bo‘lib, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Pedagogik kuzatuvlar shuni tasdiqlaydiki, STEAM asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi, jamoada ishlash va loyihani himoya qilish kompetentsiyalari an’anaviy usullarga nisbatan yuqori natija ko‘rsatadi. Natijada texnik oliy ta’lim talabalarida loyihalash kompetensiyalari rivojlanishiga erishiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2024yil 20-iyun kuni “Muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari” yuzasidan videoselektor yig‘ilishi.

2. M.U.Usubjonovna. Bo‘lajak mutaxassislani loyihalash kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИР *Илимий-методикалық* jurnali Нөкис 2024 2/1-сан, 178-185bet, ISSN 2181-7138

3. Usubjanovna, D. M., & Sharifjanovna, Q. M. (2023). The effectiveness of using morphological study method in teaching specialized subjects. *international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *17*(01), 22-27.

4. Usubjanovna, D. M. (2022). ASPECTS OF METHODS AND FORMS OF TEACHING TECHNICAL SUBJECTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(2), 743-747.

5. Usubjanova, D. M. Methods of Development of Design Competents in Future Specialists. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, *3*(3), 331-335.

6. Davronova M.U. “Texnik ijodkorlik va dizayn” O ‘quv qo‘llanma. (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 07.05.2024 yildagi №149 sonli buyrug’i, № 344188 Guvohnoma) 225 bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich
Andijon davlat pedagogika instituti
Email: maxkamov@gmail.com

OLIY TA'LIMDA MUSTAQIL TA'LIMNING MOTIVATSION OMILLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limining motivatsion omillari hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Mustaqil ta'lim jarayonida ichki va tashqi motivatsiyaning o'rni, talabalarning bilish faolligi, ijodiy fikrlashi va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, kredit-modul tizimi sharoitida motivatsiyani kuchaytirish mexanizmlari hamda zamonaviy metod va texnologiyalarning qo'llanilishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, motivatsiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, kredit-modul tizimi, kompetensiyaviy yondashuv, bilish faolligi, ijodiy fikrlash, kasbiy kompetensiya, ta'lim samaradorligi.*

Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich
Andijan State Pedagogical Institute

MOTIVATIONAL FACTORS OF INDEPENDENT LEARNING IN HIGHER EDUCATION AND THEIR EFFECTIVENESS

Abstract. *This article analyzes the motivational factors of independent learning in higher education and their impact on educational effectiveness. The role of intrinsic and extrinsic motivation in the process of independent learning, as well as its importance in developing students' cognitive activity, creative thinking, and professional competencies, is examined. The study also substantiates the pedagogical conditions for organizing effective independent learning, the mechanisms for enhancing motivation within the credit-module system, and the application of modern methods and technologies. The findings contribute to improving the effectiveness of independent learning in higher education institutions.*

Keywords: *independent learning, motivation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, credit-module system, competency-based approach, cognitive activity, creative thinking, professional competence, educational effectiveness.*

Махкамов Махаммаджон Дадажонович
Андижанский государственный педагогический институт

МОТИВАЦИОННЫЕ ФАКТОРЫ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ И ИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Аннотация. *В данной статье анализируются мотивационные факторы самостоятельного обучения в системе высшего образования и их влияние на эффективность образовательного процесса. Рассматривается роль внутренней и внешней мотивации в организации самостоятельной работы студентов, а также её значение в развитии познавательной активности, креативного мышления и профессиональных компетенций. Обосновываются педагогические условия эффективной организации самостоятельного обучения, механизмы повышения мотивации в условиях кредитно-модульной системы, а также применение современных методов и технологий. Полученные выводы направлены на повышение результативности самостоятельного обучения в высших учебных заведениях.*

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, кредитно-модульная система, компетентностный подход, познавательная активность, креативное мышление, профессиональная компетентность, эффективность обучения.*

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamonaviy jamiyat talablariga javob bera oladigan, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda.

Ayniqsa, kredit-modul tizimining joriy etilishi talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatiga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirdi. Endilikda talaba faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt emas, balki o‘z bilimini mustaqil ravishda shakllantiruvchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo‘llay oluvchi faol shaxs sifatida namoyon bo‘lishi zarur. Shu jihatdan, oliy ta’limda mustaqil ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan uning motivatsion omillariga bog‘liq bo‘lib, mazkur omillarni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatidagi motivatsion omillar ularning o‘quv jarayoniga qiziqishi, tashabbuskorligi, intilish va maqsadlariga bog‘liq bo‘ladi. Motivatsiya – bu talabaning bilim olishga bo‘lgan ichki harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, u o‘z-o‘zini rivojlantirish, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashda asosiy rol o‘ynaydi. Shuningdek, mustaqil ishlar orqali talabalar o‘zining qobiliyatlarini kashf etadi, tanqidiy va ijodiy fikrlash malakalarini rivojlantiradi hamda o‘quv jarayonidagi mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Shu bilan birga pedagogning maqsadli va tizimli rag‘batlantiruvchi faoliyati talabaning motivatsiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Talabaning mustaqil ishlari turli fanlar bo‘yicha bajarilganida ularning mustaqilligi oddiy takrorlash va taqlid qilishdan tortib, ijodiy faoliyatga qadar rivojlanadi. Vazifalarning murakkabligi ortib borishi bilan talabaning mustaqil fikrlash qobiliyati ham o‘sadi va chuqurlashadi. Mustaqil ta’lim jarayoni faqat bilim egallashni emas, balki talabani tizimli tahlil qilish, muammoni hal etish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Talabaning turli fanlar bo‘yicha mustaqil ishlarining samaradorligi avvalo uning shaxsiy fazilatlari, intizomi, motivatsion munosabatlari, diqqat va xotira qobiliyati, irodaviy va aqliy sifatlariga bog‘liq. Unumli mustaqil ishning asosiy shartlaridan biri bu sifatlarning shakllanishi va doimiy ravishda rivojlanishi hisoblanadi. Shu bilan birga, talabaning mustaqil ishlari uning kasbiy va ijodiy malakalarini oshirishga, tizimli fikrlash va muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalarning mustaqil ishlarining asosiy maqsadi – turli manbalardan yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlashdir. Mustaqil ishlarga darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, fanlar bo‘yicha klassik mualliflarning ilmiy ishlari, monografiyalar, ilmiy maqolalar to‘plamlari, ixtisoslashtirilgan jurnallardagi ilmiy maqolalar, shuningdek, badiiy adabiyotlar bilan ishlash kiradi. So‘nggi yillarda elektron manbalar – internet tizimi, kompyuter dasturlari va elektron tashuvchilardagi ma’lumotlar – mustaqil ishlarda muhim o‘rin egallay boshladi. Talabalar mustaqil ishlar doirasida insholar, izohlar, tezislar yozish orqali o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashadi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda darslik va o‘quv qo‘llanma bilan ishlash tizimli bo‘lishi kerak. Bu jarayon uch bosqichdan iborat: birinchi bosqichda talaba darslik yoki o‘quv qo‘llanma bilan tanishib, mualliflarning ism-shariflariga, izohlarga e’tibor beradi, mundarija, diagramma va chizmalarni ko‘zdan kechiradi hamda o‘zi qiziqqan matnga murojaat qiladi. Ikkinchi bosqichda talaba darslikni birinchi sahifasidan oxirigacha majburiy yozuvlar bilan diqqat bilan o‘qib chiqadi; o‘qilgan materialni asosiy va ikkilamchi, muhim va kam ahamiyatli, qiziqarli va qiziq bo‘lmagan, hodisalarning ta’riflari va tavsiflarini farqlash mezonlariga ko‘ra ajratadi. Uchinchi bosqichda kitobning qisqacha mazmuni tuziladi, eslatmalar asosida material so‘zma-so‘z yoziladi yoki uning ma’nosi bayon qilinadi, lekin har doim manba sahifasi va nomi ko‘rsatiladi. Bu jarayon talabalarni mustaqil tayyorgarlik ko‘rishga o‘rgatadi va keyingi ilmiy ishlar, kurs ishlarini bajarishda, plagiatdan qochishda yordam beradi. Talabalarning faol mustaqil ishlari faqat jiddiy va barqaror motivatsiya mavjud bo‘lganda ijobiy natija beradi. Eng kuchli rag‘batlantiruvchi omil – bu keyingi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlikdir. Talabalar o‘z ishining natijalari amaliyot, laboratoriya mashg‘ulotlari, ma’ruzalar yoki nashrlar tayyorlashda qo‘llanilishini bilsa, ular topshiriqlarni bajarishga nisbatan yuqori motivatsiyani namoyon qiladilar. Shu bilan birga, talabalarni ijodiy faoliyatga jalb qilish, o‘quv jarayoniga innovatsion va tashkiliy-faol o‘yinlar, vaziyatli o‘rganish shakllarini joriy etish motivatsiyani oshirishda muhim ahamiyatga ega. Talabalarning olimpiadalar, ilmiy-tadqiqot yoki amaliy ishlar bo‘yicha tanlovlarda ishtirok etishi ham mustaqil ishga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytiradi. Bundan tashqari mustaqil ishlarga topshiriqlarni individuallashtirish, ularni doimiy ravishda yangilab turish va kuchli tarbiyaviy ish orqali o‘qituvchi shaxsining rag‘batlantiruvchi rolini ta’minlash talabalarni o‘zini o‘zi takomillashtirishga undaydi. Ta’lim muassasasida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda strategik yo‘nalishning asosiy maqsadi faqat alohida ish turlarini optimallashtirish emas, balki darsda va undan tashqarida talabalarning yuqori faolligi, mustaqilligi va mas’uliyatini ta’minlaydigan sharoit yaratishdir. Bunday yondashuv talabalarni mustaqil fikrlash, o‘z qarorlarini qabul qilish va masalalarni ijodiy yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiradi. Shuningdek, mustaqil ish jarayonida talaba o‘z bilim va malakalarini sinchkovlik bilan shakllantirib, kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Shu tarzda, mustaqil ishlarni strategik tashkil etish oliy ta’lim tizimida yuqori sifatli va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish talabalarning ijodiy va ijtimoiy faol bo‘lishini, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda o‘z o‘rnini topa oladigan kadrlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalar mustaqil ishlash orqali o‘z bilimlarini mustahkamlash bilan birga, istiqboliy vazifalarni belgilash va ularni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu sababli, oliy ta’limda mustaqil ta’limni tizimli tashkil etish nafaqat akademik jarayonning samaradorligini oshiradi, balki kelajakda yetuk, raqobatbardosh va innovatsion kadrlar tayyorlashga asos bo‘ladi.

Mustaqil ta’limning samarali tashkil etilishi uchun talabalarda mustaqillik, faollik va qiziquvchanlik xususiyatlarini shakllantirish zarur. Mustaqillik talabalarning muammoni hal qilish, mavzuni o‘rganish va amaliy vazifalarni bajarishda ijodiy yondashish qobiliyatini bildiradi. Faollik esa talabaning o‘quv jarayonlariga ishtiyoq bilan kirishishini, qiziquvchanlik esa bilim olishga, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga intilishini ta’kidlaydi. Ushbu uch xususiyat o‘zaro bog‘liq va mutanosib bo‘lishi talabaning mustaqil ta’lim olish jarayonini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Talabalarning mustaqil ishlari ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish va kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon turli fanlar bo‘yicha o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirish, tahlil qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Talaba mustaqil ishni bajarishda avvalo vazifa va maqsadlarni aniqlab, o‘z faoliyatini rejalashtiradi. Bunda uning motivatsiyasi, tashabbuskorligi, faolligi va mas’uliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ish jarayonida talaba turli manbalarni – darsliklar, ilmiy maqolalar, monografiyalar, elektron resurslar – o‘rganadi va ularni tahlil qilgan holda o‘z bilimini boyitadi. Shu bilan birga, talaba xatolarini tahlil qilib, muvaffaqiyatlarini baholash orqali o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mustaqil ishlar orqali talaba nafaqat nazariy bilimni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham hosil qiladi, masalan, loyiha ishlari, laboratoriya tajribalari va grafik ishlar orqali amaliyotda qo‘llashga tayyor bo‘ladi. Pedagogning rahbarligi va maslahatlari jarayonni samarali qiladi, talabaga murakkab vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilishda yo‘l ko‘rsatadi. Talabalarning mustaqil ishlari ular orasida tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantiradi, mas’uliyat va tartib-intizomni mustahkamlaydi, shuningdek, ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Bu jarayon davomida talaba o‘zining ichki qobiliyatlarini rivojlantiradi, ijtimoiy va shaxsiy fazilatlarini mustahkamlaydi, ijodiy salohiyatini kengaytiradi va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini egallaydi. Shu bilan birga, mustaqil ishlar turli dars turlari va tashkiliy shakllarda amalga oshirilganda, talabaning bilimga qiziqishi va faolligi ortadi, u mavzuni chuqurroq o‘rganadi, amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Talabalar mustaqil ish jarayonida yangi bilimlarni mustahkamlash, ularni turli kontekstlarda qo‘llash, o‘z nazariy va amaliy yondashuvlarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, ularni murakkab vazifalarni mustaqil hal qilishga tayyorlaydi. Talabalar o‘z mustaqil ishlarida avloddan-avlodga yetib kelgan ilmiy va madaniy merosni o‘rganadilar, uni tahlil qilib, yangicha yondashuvlar ishlab chiqadilar. Mustaqil ishlar jarayoni ularni o‘quv faoliyatiga faol jalb qilish, shaxsiy mas’uliyatni oshirish va ijodiy izlanishlarga undash bilan birga, kelajakdagi professional muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu sababli talabalarning motivatsiyasi, ichki intilishi va tashabbuskorligi mustaqil ishlarning samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida e’tiborga olinadi. Shu bilan birga pedagogning metodik rahbarligi, topshiriqlarni bosqichma-bosqich berish, o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish ham mustaqil faoliyatning natijadorligini oshiradi. Mustaqil ishlar orqali talaba o‘zining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini mustahkamlaydi. Bu esa ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga to‘liq tayyorlaydi va mustaqil, bilimdon, kreativ, raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Talabalarning mustaqil ishlari o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Motivatsion omillar, ichki intilish, qiziqish va tashabbuskorlik talabalarni murakkab vazifalarni samarali bajarishga undaydi, shuningdek, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mustaqil ishlar jarayonida pedagogning rahbarligi va maslahatlari talabalarni yo‘naltiradi, ularni bilimni chuqur o‘zlashtirishga va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu tariqa, mustaqil ishlar talabalarning kasbiy tayyorgarligi, shaxsiy o‘sishi va intellektual salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. // www.uza.uz

2. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilgan maruza. T., Xalq so‘zi, 2020-yil dekabr.

3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2005.

4. PF-5847-son 08.10.2019. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ismoilov Turabjon
NamDU professori
Asqarov Qutbiddin
ADPI magistri

5-6 YOSHLI BOLALARNI SOG'LOM QILIB TARBIYALASHDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI.

Annotatsiya: *ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar bilan harakatli o'yinlarni o'tkazish yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, harakatli o'yinlar.*

Исмоилов Турабьон
Профессор НамГУ
Аскаров Кутбиддин
Магистр АДПИ

ВАЖНОСТЬ ИГР ДЛЯ АКТИВНОГО ВОСПИТАНИЮ В ЗДОРОВОМ ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ 5-6 ЛЕТ.

Аннотация: *данной в статье освещены проведение подвижние игри с ребятами дошкольного образования.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, оздоровление, физическое развитие, физическая подготовка, подвижные игры.*

Ismoilov Turabjon
Professor of NamSU
Asqarov Kutbiddin
Master of ADPI

IMPORTANCE OF ACTIVITY GAMES IN HEALTHY EDUCATION OF 5-6 YEAR OLD CHILDREN.

Annotation: *in this article which is training children with activity plays in the teaching process is clarified.*

Key words: *physical treatment, recovery, physical developing, physical preparation, physical training, mobile activities*.

Komil insonni tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan eng asosiy va dolzarb masalalardan biri bo`lib kelmoqda. Shu bois, respublikamiz rahbariyati tamonidan mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab diqqat-e`tiborini yosh avlod tarbiyasiga qaratdi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq "Ta`lim to`g`risida"gi, "Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida"gi Qonunlar, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi hamda ularni hayotga tadbiq etish yo`l-yo`riqlarining ishlab chiqilganligi ham fikrimizni yorqin dalilidir[1;2;3].

Yosh avlodning sog'ligini saqlash va mustahkamlash O'zbekiston Respublikasining davlat miqyosidagi muhim masalalaridan biridir.

Hukumatimiz rahbariyati tomonidan respublikamizda muntazam ravisgda kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni sog'lom qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror, "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va "2022-2026 yillarga mo`ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiaysi to'g'risida"gi farmonlar oldimizga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi[4;5;6].

Respublikamizning ertangi kuni va kelajagi uning gullab-yashnashi hamda rivojlanishi asosan o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom, har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishiga bevosita bog'liqdir. Bu esa vatanimiz kelajagi bo'lgan farzandlarimizning jismoniy, aqliy, ruhiy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar

yaratishni taqozo qiladi. Bu ishlarni amalga oshirishda mustaqillikdan keyin qabul qilingan jismoniy tarbiya va sportga oid bo‘lgan bir qator Qonun, Farmon hamda Qarorlar muhum ahamiyatga ega bo`lib hisoblanadi.

Davlatimiz va jamiyatimizning bugungi kuni, ayniqsa, kelajagi uchun g‘oyat muhim bo‘lgan sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash vazifasi dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunning dolzarb va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalaridan biri ishlab chiqarish korxonalarida, ta’lim muassasalarida, oilalarda, mahallalarda, ommaviy sportning sifatiga va samaradorligiga e’tiborni oshirish bilan shug‘ullanuvchilar sog‘ligini yanada mustahkamlashdan iboratdir. Bu vazifalarni amalga oshirishda prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni hayotga tadbiq etilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

P.F.Lestgaft o‘zining jismoniy mashqlar tizimida o‘yinlarni jismoniy tarbiya vositasi sifatida ifodalaydi. U o‘yin yordamida hayotga tayyorlanishini aytadi. P.F.Lestgaftning harakatli o‘yinlarni o‘tkazish uchun qo‘ygan talablari hozirgi paytgacha o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q; chunonchi, u har bir o‘yin oldiga aniq maqsadlar qo‘yishi, o‘tkazilayotgan o‘yinlar qatnashuvchilarning kuch va qobiliyatlariga mos kelishi, o‘yin shug‘ullanuvchilarga ijobiy emotsional ta’sir ko‘rsatishi lozimligini, o‘yinlarni tizimli tarzda va muntazam ravishda o‘tkazish, qatnashuvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirishga harakat qilishi zarurligini uqtirgan edi.

Harakatli o’yinlar ta’lim-tarbiya jarayonida muhum o’rinni egallab, bolalarning harakat sifatlarini rivojlantirish, jismoniy tayyorgarligini oshirish, organizmni kunlik harakatga bo’lgan ehtiyojini taminlashga va sog’ligini mustahkamlashga ijobiy ta’sir etadi[7].

Harakatli o‘yinlar maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim va tarbiya olayotgan bolalarning harakatlarini rivojlantirish va takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo’lib hisoblanadi[8].

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning o‘yinlari taqlid qilish xarakteriga ega bo‘ladi. Bola tevarak-atrofdagi borliqni kuzatadi, uning elementlarini o‘yinga kiritadi va shu o‘yin vositasida o‘zini qurshab turgan olamni bilib oladi, unda turmush hodisalariga nisbatan muayyan munosabat paydo bo‘ladi.

Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalar tabiat hodisalari va jonivorlar hayotidagi har xil narsalarni taqlid qilib o‘ynash bilan bu hodisa va harakatlarning ma’nosiga tushuna boradi, asta-sekin hayotiy tajribaga ega bo‘ladi, qiyinchiliklarni yengishni o‘rganadi, unda harakat ko‘nikmalari hosil bo‘ladi va uning tasavvurlari boyib boradi. Bu esa maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarda harakatli o’yinlarga bo’lgan qiziqishni oshishiga olib keladi.

Bolalarning pedagogik xususiyatlarini inobatga olib o‘zlari ijod qilib o‘ynaydigan o‘yinlariga keng o‘rin berilishi zarur. Ammo bunday o‘yinlarni ota-onalar hamda tarbiyachilarning e’tibori va rahbarligidan chetda qoldirib bo‘lmaydi. O‘yinni asta-sekin to‘g‘ri yo‘lga solish bilan bolalarda kuzatuvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, mehnatsevarlikni o‘stirish va ularni atrofdagi vaziyatga, o‘zining va o‘rtoqlarining harakatlariga to‘g‘ri baho bera bilish hamda shaxsiy muvaffaqiyatsizlikka nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash lozim.

Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalar asta-sekin zaruriy malakalarga ega bo‘la boradi va shu malakalar tufayli u o‘z kuchini to‘g‘ri sarflay oladigan, o‘yin paytidagi turli vaziyatlarda yaxshi o‘ylab harakat qila oladigan va kelgusida, tajribasining ortishiga qarab, turmushda uchraydigan qiyinchiliklarni osongina yenga oladigan bo‘ladi.

Bolani oilada tarbiyalashda ham, maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalashda ham uning tevarak-atrofdagi olamni bilishga faol intilishi dastlab bolalar o’ynayotgan turli o‘yinlarda namoyon bo‘ladi. Bolalar o’ynayotgan o‘yin jarayonida ularning borliq haqidagi tushunchalari chuqurlashadi va mustahkamlanadi.

Bolalar oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanganda butunlay o‘yin va ermaklar bilan band bo‘lsalar, maktabga kirish bilan ularning asosiy qiziqishi va e’tibori o‘qishga yani bilim olishga qaratiladi.

O‘yin bolalarning hayotidagi shunday bosqichki, bunda ular yangi bilim va tushunchalarni egallashga qaratilgan mustaqil faoliyatni boshlaydilar. Bolalar uyda foydali mehnat qilishdan tashqari, bo‘sh vaqtlarining bir qismini turli milliy va harakatli o‘yinlarni o’ynashga sarflaydilar. Bunday turli milliy va harakatli o‘yinlarni o’ynash ularga o‘zlarini organizmini kunlik harakatga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish va yaxshi dam olish imkonini beradi.

Harakatli o‘yinlar bola harakatlarini o‘stirish va takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan yurish, yugurish, sakrash, biror narsani irg‘itish yoki uloqtirish, ilib olish, biror narsaga tirmashib chiqish kabi mashqlarni o‘z ichiga oladi. Harakatlarning takomillashishi bilan birga, jismoniy qobiliyat ham taraqqiy etadi, yurak va nafas olish tizimining faoliyati yaxshilanadi.

Bundan tashqari harakatli o‘yinlar bolalarni faqatgina jismoniy jihatdan o‘stirish uchungina emas, balki aqliy va axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Jamoa bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlarda bolalarda maqsadga erishish uchun farosatlilik va qat’iyatlilik ko‘rsatish, jamoa oldida, o‘z xatti-harakatlari uchungina emas, balki o‘rtoqlarining xatti-harakalari uchun ham mas’uliyatni sezish xislatlari tarbiyalanadi. Bu esa bolalarda do’stlik, o’zaro yordam va ma’suliyatni ham tarbiyalaydi.

Harakatli o'yinlar maktabgacha ta'lim tashkilotidagi 5-6 yoshli bolalarni jismoniy tayyorgarligini oshirishda, salomatligini mustahkamlashda va ularni sog'lom bo'lib ulgayishlarida ham kata ahamiyatga ega ekan.

Olib borilgan pedagogik kuzatishlardan va o'tkazilgan tadqiqot ishlaridan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi 5-6 yoshli bolalarni jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ruhan tetuk va barkamol qilib voyaga etkazishda ularning pedagogik xususiyatlarini va o'yinlarni o'tkazish uchun yaratilgan sharoitni inobatga olib o'tkaziladigan harakatli o'yinlarning ahamiyati katta ekanligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1.Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». Маърифат. –Тошкент. 1998. 1 апрел.

2.Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. –Тошкент, 2015. 5 сентябр.

3.Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни. Тошкент. 2020 йил 23 сентябр. ЎРҚ-637-сон.

4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомилаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони (2020.24 январь). ПФ-5924.

5.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: 2022. 22 январь, ПФ-60-сон.

6.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (2017. 3 июн). Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами № 23. -Тошкент, 2017. 12 июн.

7.Ismoilov T., Ismoilov G'. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda harakatli o'yinlarning ahamiyati. НамДУ иқтидорли талабалар илмий ахборотномаси. Наманган. 2019. № 3-сон. – Б.128-131.

8.Юнусова Д., Тожибоева М. 5-6 ёшли болалар харакат фаолиятини ривожлантиришда харакатли ўйинларни ўзига хос хусусиятларини илмий асослаш. //Бошланғич таълим ва жисмоний маданият йўналишида сифат ва самарадорликни ошириш. Муаммо ва ечимлар. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2016 йил 6 август. II қисм. Тошкент. 2016. –Б. 318-321.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ibrohimova Shahlo
Samarqand viloyati Samarqand shahar 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUAMMOLI TA'LIM ASOSIDA MATEMATIKA O'QITUVCHISINING METAKOGNITIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika o'qituvchisining metakognitiv kompetentligini muammoli ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Metakognitsiya tushunchasining nazariy asoslari, uning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi o'rni hamda muammoli ta'lim jarayonida namoyon bo'lish mexanizmlari yoritiladi. Muammoli vaziyatni tashkil etish, darsni strategik rejalashtirish, monitoring va refleksiya jarayonlarining o'qituvchi metakognitiv faoliyatiga ta'siri tahliliy-amaliy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *metakognitiv kompetentlik, muammoli ta'lim, matematika o'qituvchisi, refleksiya, monitoring, strategik rejalashtirish.*

Иброхимова Шахло
учитель математики средней общеобразовательной школы №28 города Самарканда Самаркандской области

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ МЕТАКОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ МАТЕМАТИКИ НА ОСНОВЕ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье анализируются вопросы развития метакогнитивной компетентности учителя математики в условиях общего среднего образования на основе проблемного обучения. Рассматриваются теоретические основы понятия метакогниции, её роль в профессиональной деятельности учителя, а также механизмы проявления в процессе организации проблемных ситуаций. Аналитически обосновывается влияние стратегического планирования, мониторинга и рефлексии на развитие метакогнитивной активности учителя.*

Ключевые слова: *метакогнитивная компетентность, проблемное обучение, учитель математики, рефлексия, мониторинг, стратегическое планирование.*

Ibrokhimova Shahlo
Mathematics teacher of Secondary School No. 28
Samarkand city, Samarkand region

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE METACOGNITIVE COMPETENCE OF A MATHEMATICS TEACHER BASED ON PROBLEM-BASED LEARNING IN GENERAL SECONDARY EDUCATION

Abstract. *This article analyzes the development of the metacognitive competence of a mathematics teacher in general secondary education through problem-based learning. The theoretical foundations of metacognition, its role in professional teaching activity, and the mechanisms of its manifestation in organizing problem situations are examined. The impact of strategic planning, monitoring, and reflection on the teacher's metacognitive activity is analytically substantiated.*

Keywords: *metacognitive competence, problem-based learning, mathematics teacher, reflection, monitoring, strategic planning.*

Kirish. Zamonaviy umumiy o'rta ta'lim tizimida matematika o'qituvchisidan nafaqat fan mazmunini puxta bilish, balki o'quv jarayonini ongli ravishda boshqara olish, o'z pedagogik qarorlarini tahlil qilish va refleksiya asosida takomillashtirish talab etilmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'qituvchilar darsni rejalashtirish va o'tkazish

jarayonida o‘z fikrlash faoliyatini maxsus tahlil qilmaydi. Natijada dars jarayoni ko‘proq odatiy tajribaga tayanadi, strategik boshqaruv esa yetarli darajada shakllanmaydi.

Mazkur muammo o‘qituvchining metakognitiv kompetentligini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Metakognitiv kompetentlik deganda shaxsning o‘z bilish jarayonlarini anglash, nazorat qilish va zarurat tug‘ilganda o‘zgartira olish qobiliyati tushuniladi. Ushbu tushuncha ilk bor J. Flavell tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u metakognitsiyani bilish faoliyatining yuqori darajadagi nazorati sifatida izohlaydi.

Matematika ta’limi kontekstida metakognitiv kompetentlik o‘qituvchining darsni rejalashtirishda, muammoli vaziyatni tanlashda, o‘quvchilar fikrlashini kuzatishda va dars yakunida refleksiya olib borishda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, muammoli ta’lim texnologiyalari o‘qituvchining o‘z pedagogik qarorlarini ongli ravishda ko‘rib chiqishini talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — umumiy o‘rta ta’lim maktablarida muammoli ta’lim texnologiyalari asosida matematika o‘qituvchisining metakognitiv kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilish hamda amaliy jihatdan asoslashdir.

Adabiyotlar tahlili. Metakognitsiya tushunchasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan. J. Flavell metakognitsiyani shaxsning o‘z bilish jarayonlari haqidagi bilimlari va ularni boshqarish qobiliyati sifatida talqin etadi. A. Brown metakognitiv faoliyatni rejalashtirish, monitoring va nazorat jarayonlari orqali izohlab, o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarining ta’lim samaradorligidagi o‘rnini asoslaydi.

Matematika ta’limi sohasida G. Polya masala yechish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish zarurligini ko‘rsatib, strategik fikrlashni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. A. Schoenfeld esa matematik tafakkur jarayonida nazorat va refleksiyaning muhimligini ta’kidlab, metakognitiv monitoringni samarali o‘qitish omillaridan biri sifatida baholaydi.

Muammoli ta’lim nazariyasi M.I. Makhmutov tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, u muammoli vaziyat o‘quvchilarning bilish faolligini kuchaytirishini ko‘rsatadi. I.Ya. Lerner o‘qitish metodlarining didaktik asoslarini yoritib, tafakkurni rivojlantirishda muammoli yondashuvning o‘rnini belgilaydi.

O‘zbek pedagogika ilmida ham pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv masalalari tadqiq etilgan. R.J. Ishmuhamedov ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. N.A. Muslimov pedagogik kompetentlikni shakllantirish jarayonida refleksiv faoliyatning muhimligini ko‘rsatadi. J.G. Yuldashev esa pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish o‘qituvchining metodik tayyorgarligini mustahkamlashini qayd etadi.

Ilmiy adabiyotlarda metakognitsiya, muammoli ta’lim va refleksiv faoliyat masalalari keng yoritilgan bo‘lsa-da, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika o‘qituvchisining metakognitiv kompetentligini aynan muammoli ta’lim asosida rivojlantirish masalasi kompleks va tizimli tahlil talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika o‘qituvchisining metakognitiv kompetentligini muammoli ta’lim asosida rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, tahliliy-amaliy yo‘nalishda olib borildi. Tadqiqotning metodologik asosini metakognitsiya nazariyasi, muammoli ta’lim konsepsiyasi hamda refleksiv pedagogik faoliyatga doir ilmiy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni qiyosiy va tizimli tahlil qilish usulidan foydalanildi. Metakognitiv kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va pedagogik faoliyatdagi namoyon bo‘lish xususiyatlari mavjud ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. Muammoli ta’lim jarayonining didaktik imkoniyatlari hamda uning o‘qituvchi faoliyatiga ta’siri nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Shuningdek, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari asosida muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchining rejalashtirish, monitoring va refleksiya faoliyati o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib chiqildi. Metodologik yondashuv sifatida kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatli yondashuv hamda refleksiv yondashuvdan foydalanildi. Bu yondashuvlar o‘qituvchining kasbiy faoliyatini ongli boshqarish jarayonini yaxlit tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Tadqiqot empirik eksperimentga tayanmagan bo‘lsa-da, amaliy pedagogik jarayonni nazariy jihatdan tahlil qilish orqali muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘qituvchi metakognitiv rivojlanishiga ta’siri asoslab berildi. Tahlil jarayonida darsni strategik rejalashtirish, o‘quvchilar faoliyatini monitoring qilish va refleksiv tahlilni tashkil etish mexanizmlari o‘zaro uyg‘un holda o‘rganildi.

Natijalar va ularning tahlili. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, metakognitsiya shaxsning o‘z bilish jarayonlarini anglash va boshqarish qobiliyati sifatida talqin etiladi [1]. J. Flavell tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuv o‘qituvchi faoliyatiga tatbiq etilganda, pedagogning o‘z metodik qarorlarini anglab rejalashtirishi va baholab borishi zarurligini ko‘rsatadi. Fikrimizcha, muammoli ta’lim sharoitida bu jarayon yanada aniq namoyon bo‘ladi, chunki o‘qituvchi har bir savolni, har bir vazifani ongli ravishda tanlashga majbur bo‘ladi.

Masalan, funksiyaning grafigi mavzusida an’anaviy darsda o‘qituvchi tayyor grafikni ko‘rsatib, uning xususiyatlarini tushuntiradi. Muammoli ta’lim sharoitida esa dars “Qanday shartlarda grafik o‘q kesmasini kesmaydi?” degan savol bilan boshlanishi mumkin. Bunday savol o‘qituvchidan oldindan ehtimoliy javoblarni, o‘quvchilarning xatolarini va muhokama yo‘nalishini rejalashtirishni talab qiladi. Bu jarayon A. Brown ta’kidlagan metakognitiv rejalashtirishning amaliy ko‘rinishidir [2].

G. Polya masala yechish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish zarurligini asoslab beradi [3]. Muammoli ta’limda o‘qituvchi bu bosqichlarni bevosita boshqaradi. Masalan, tenglamalar sistemasini yechish jarayonida o‘quvchilar turli strategiyalarni taklif qilganda, o‘qituvchi ularni “Nega aynan shu usulni tanlading?” yoki “Boshqa yo‘l bilan ham yechish mumkinmi?” kabi savollar orqali fikrlashga undaydi. Bizningcha, aynan shu savollar o‘qituvchining o‘z metakognitiv monitoringini ham faollashtiradi, chunki u har bir savolning didaktik samaradorligini baholab boradi.

A. Schoenfeld matematik tafakkurda monitoringning hal qiluvchi ahamiyatini ta’kidlaydi [4]. Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, muammoli vaziyat davomida o‘qituvchi faqat natijani emas, balki fikrlash jarayonini ham kuzatadi. Agar o‘quvchi noto‘g‘ri yo‘nalishda ketayotgan bo‘lsa, o‘qituvchi darhol tayyor javob bermaydi, balki yo‘naltiruvchi savol orqali fikrni to‘g‘ri yo‘lga soladi. Bu jarayon o‘qituvchining o‘z savollarini ham real vaqt rejimida baholashini talab qiladi. Bizning fikrimizcha, muammoli ta’lim aynan shu nuqtada o‘qituvchini ongli boshqaruv subyektiga aylantiradi.

M.I. Makhmutov muammoli vaziyat tafakkurni rivojlantirishning asosiy omili ekanini ko‘rsatadi [5]. Mazkur tadqiqot natijalari esa muammoli vaziyat o‘qituvchining o‘zini ham fikrlashga majbur qilishini ko‘rsatadi. Masalan, geometriya darsida “Uchburchakning ichki burchaklari yig‘indisi doimo bir xil bo‘ladimi?” degan savol muhokama qilinayotganda, o‘qituvchi o‘quvchilarning taxminlarini diqqat bilan tahlil qiladi va muhokama yo‘nalishini boshqaradi. Bu jarayon o‘qituvchining metodik qarorlarini ongli ravishda qabul qilishini talab qiladi.

D. Schön refleksiv amaliyotni professional rivojlanishning asosiy sharti sifatida baholaydi [6]. Muammoli darsdan so‘ng o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi: muammoli savol yetarli darajada qiziqish uyg‘otdimi?, o‘quvchilar mustaqil xulosa chiqara oldimi?, qaysi bosqichda muhokama sustlashdi?. Fikrimizcha, aynan shu refleksiv bosqich muammoli ta’limning eng muhim pedagogik natijasidir, chunki u o‘qituvchini doimiy o‘zini takomillashtirishga undaydi.

O‘zbek pedagogika ilmida ham pedagogik kompetentlikni shakllantirishda refleksiv yondashuv va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash muhim omil sifatida qaraladi. N.A. Muslimov pedagogik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida o‘qituvchining o‘z faoliyatini anglab tahlil qilishi zarurligini ta’kidlaydi [7]. R.J. Ishmuhamedov esa ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchining metodik salohiyatini oshirishini qayd etadi [8]. Bizning qarashlarimizga ko‘ra, muammoli ta’lim ushbu nazariy qarashlarni amaliyotda uyg‘unlashtiruvchi samarali vositadir.

Shunday qilib, amaliy kuzatishlar va nazariy tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, muammoli ta’lim texnologiyalarini tizimli qo‘llash matematika o‘qituvchisining metakognitiv kompetentligini real pedagogik jarayonda rivojlantiradi. Bu rivojlanish darsni strategik rejalashtirish, o‘quv jarayonini monitoring qilish va refleksiya asosida takomillashtirish orqali namoyon bo‘ladi. Muammoli ta’lim o‘qituvchini kasbiy ongli boshqaruv darajasiga olib chiqadigan eng samarali metodik vositalardan biridir.

Xulosa. Olib borilgan nazariy va tahliliy-amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, muammoli ta’lim texnologiyalarini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika darslariga tizimli tatbiq etish o‘qituvchining metakognitiv kompetentligini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Metakognitsiya nazariyasida asoslangan rejalashtirish, monitoring va refleksiya jarayonlari muammoli ta’lim sharoitida tabiiy ravishda faollashadi va o‘qituvchining kasbiy faoliyatini ongli boshqarish darajasiga olib chiqadi.

Shuningdek, muammoli vaziyatni tashkil etish o‘qituvchidan darsni chuqur strategik rejalashtirishni, o‘quvchilarning fikrlash jarayonini monitoring qilishni va dars yakunida refleksiv tahlil olib borishni talab etadi. Bu jarayonlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda o‘qituvchining pedagogik qarorlarini asosli va ongli ravishda qabul qilishiga xizmat qiladi. Aynan muammoli ta’lim sharoitida o‘qituvchi “axborot yetkazuvchi” emas, balki fikrlash jarayonini boshqaruvchi subyektga aylanadi va bu o‘zgarish metakognitiv kompetentlikning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Matematika ta’limi kontekstida muammoli ta’lim o‘qituvchining kasbiy o‘zini anglash darajasini oshiradi, metodik qarorlarni asoslashga undaydi va dars jarayonini refleksiv takomillashtirish imkonini beradi. O‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishga yo‘naltirilgan yondashuv esa uning professional rivojlanishini ta’minlaydi. Muammoli ta’lim texnologiyalarini ongli va maqsadli qo‘llash matematika o‘qituvchisining metakognitiv kompetentligini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Flavell J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34. – No. 10. – P. 906–911.

2.Brown A.L. Metacognition, executive control, self-regulation, and other more mysterious mechanisms // In: F.E. Weinert, R.H. Kluwe (Eds.). Metacognition, Motivation, and Understanding. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1987. – P. 65–116.

3.Polya G. How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method. – Princeton: Princeton University Press, 2017. – 253 p.

4.Schoenfeld A.H. Mathematical Problem Solving. – Orlando: Academic Press, 2015. – 409 p.

5.Makhmutov M.I. Problemnoe obuchenie. – Moskva: Pedagogika, 1998. – 368 s.

6.Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.

7.Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 256 b.

8.Ishmuhamedov R.J. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – 240 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdullayev Baxodirjon Maxamadjonovich
ADCHTI Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi (PhD)
ORCID ID: 0009-0008-4504-0694

GLOKALLASHUV SHAROITIDA MIGRANT SHAXSI TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Maqola Andijon viloyati misolida migratsiyaning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini o'rganadi. Migratsiya iqtisodiy zarurat bilan birga ma'naviy izlanishlarni keltirib chiqaradi. Habermas, Fromm va Robertson nazariyalari asosida "glokal shaxs" tipi shakllanishi ko'rsatiladi – lokal va global qadriyatlar gibrid ong hosil qiladi. Ishonch defitsiti, oilaviy o'zgarishlar va ruhiy qo'llab-quvvatlash zarurati ta'kidlanadi. Migratsiya shaxs qadriyatlaridagi transformatsiya sifatida baholanib, migrantlarni qo'llab-quvvatlash milliy barqarorlik garovi deb ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *migratsiya, glokallashuv, glokal shaxs, Andijon, ijtimoiy transformatsiya, ishonch defitsiti.*

Абдуллаев Баходиржон Махамаджонович
Преподаватель кафедры социально-гуманитарных нау педагогики и психологии, АДХТИ (кандидат наук)

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ТРАНСФОРМАЦИИ МИГРАНТА В УСЛОВИЯХ ГЛОКАЛИЗАЦИИ
(На примере Андижанской области)

Аннотатсия. *Статья исследует социально-философские аспекты миратсии на примере Андижанской области. Миграция сочетает экономическую мотиватсию с экзистенциальными поисками. Через теории Хабермаса, Фромма и Робертсона анализируется формирование «глокальной личности» — гибрида локальных и глобальных ценностей. Рассматриваются дефицит доверия, семейные трансформации и необходимость поддержки. Миграция — трансформация ценностей личности, поддержка мигрантов — условие национальной стабильности.*

Ключевые слова: *миграция, глокализация, глокальная личность, Андижан, социальная трансформация, дефицит доверия.*

Abdullayev Bakhodirjon Makhamadjonovich
Teacher of the Department of Social Humanitarian Sciences, Pedagogy and Psychology, ADCHTI (PhD)

SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE TRANSFORMATION OF THE MIGRANT PERSON IN THE CONDITIONS OF GLOCALISATION
(On the example of Andijan region)

Abstract. *The article studies socio-philosophical aspects of migration in Andijan region. Migration combines economic necessity with existential needs. Drawing on Habermas, Fromm, and Robertson, it examines the "glocal personality" — a hybrid of local and global values. Trust deficit, family changes, and need for support are highlighted. Migration is a transformation of personal values; migrant support is key to national stability.*

Keywords: *migration, glocalization, glocal personality, Andijan, social transformation, trust deficit.*

Barchamizga ma'lumki, dunyoda globallashuv jarayonida inson ongi,uning tafakkuri – uning xohish irodalaridan kelib chiqib, yashash muxitidan kelib, chiqib shakllanadi. Migrant dunyoqarashidagi o'zgarishlar shunchaki tasodifiy emas, u glokallashuv jarayonining oqibati. Bizning ushbu sohada olib borgan empirik tahlillarimiz migratsiya global fenomen ekanligi, jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy strukturasini o'zgartiruvchi ekanligini tasdiqladi. Andijon viloyati misolida o'tkazilgan so'rovnoma (N=295) natijalarini tahlili migratsiya jarayoni shaxs va jamiyat o'rtasidagi an'anaviy munosabatlarni «transmilliylashuv» bosqichi.

Respondentlarning **78 foizi (230 nafar)** migratsiyaning asosiy motivi sifatida iqtisodiy zaruratni ko‘rsatgan. Falsafiy tahlillarimiz ushbu jarayonida «hayot mazmunini izlash» va «ijtimoiy tan olinish» ehtiyojlari ham mavjudligi ko‘rsatmoqda. Bu holatni Yurgen Xabermasning «kommunikativ faoliyat nazariyasi» prizmasidan tahlil qilganimizda, migrant o‘z vatanidagi «hayotiy dunyo» va xorijdagi «tizim» o‘rtasidagi ziddiyatli muvozanatni saqlashga majbur bo‘layotgani ma’lum bo‘ldi [1]. Bu respondentlarning oliy ma’lumotli (**59 nafar**) va o‘rta maxsus ma’lumotli (**206 nafar**) migrantlarning xorijda o‘z kasbiga mos bo‘lmagan sohalarda ishlayotganida ko‘rinadi. Shaxsning o‘z «men»i va ijtimoiy voqelik o‘rtasidagi ekzistensial kurash jarayonida yashaydi.

Empirik bilimlarimiz migratsiya jarayonida «ijtimoiy adolat» va «muvaffaqiyat» kategoriyalarining mazmuni transformatsiyaga uchrashishi mumkinligin bo‘rsatmoqda. Andijonlik migrantlar uchun muvaffaqiyat endilikda faqat ma’lum bir ijtimoiy iyerarxiyada lavozim egallash emas, balki transmilliy makonda moliyaviy barqarorlik va mobillikka (harakatchanlikka) erishish bilan o‘lchanmoqda. Bu jamiyatda yangi ijtimoiy ong shaklini yuzaga keltiradi. Unda shaxsning qadri uning global mehnat bozoridagi «raqobatbardoshligi» bilan belgilanadi.

Migratsiyaning «axborot-kommunikativ» qatlam bilan doim aloqador bo‘ladi. Respondentlarning **60 foizi** oilasi bilan raqamli texnologiyalar orqali har kuni muloqot qilishi, migratsiyaning an’anaviy «ayriliq» ma’nosini o‘zgartirib, uni «distant ishtirok» shakliga keltirdi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarning virtuallashuvi va «vizual yaqinlik» fenomenini yuzaga chiqardi. Biroq, bu ma’naviy begonalashuvni to‘liq bartaraf eta olmaydi, aksincha, shaxsda ikki tomonlama (dual) yashash hissini kuchaytiradi. Ushbu holat falsafiy darajada shaxs o‘zligining «fragmentatsiyalashuvi» (bo‘linishi) sifatida baholanadi. Chunki bunda inson jisman xorijda, lekin ma’nan va ijtimoiy mas’uliyat jihatidan o‘z vatanida bo‘ladi.

Inson ongi va jamiyat qadriyatlarini qayta quruvchi «dinamik tizim» sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Aksiologik tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, migratsiyasi ta’sirida shaxsning qadriyatlar tizimida «tizimli deformatsiya» va «innovatsion adaptatsiya» jarayonlari o‘tkazadi. Andijon viloyati migrantlari dunyoqarashida an’anaviy etnik qadriyatlar (oilaparvarlik, mahalladoshlik, jamoaviy mas’uliyat) global bozor iqtisodiyoti talab qilgan pragmatik qadriyatlar (individualizm, iqtisodiy samaradorlik, mobillik) bilan to‘qnashishi natijasida «Glokal shaxs» tipi shakllangani aniqlandi. Bu shaxs konservativ-lokal va liberal-global ko‘rinishga ega bo‘lgan, hayotiy elementlarni o‘z ichiga olgan «gibrid ijtimoiy ong» ko‘rinishi.

Falsafiy jihatdan ushbu transformatsiya jarayoni insonning «ontologik maqomi» o‘zgarishi bilan izohlanadi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning **78 foizi** uchun muvaffaqiyat mezoni moddiy farovonlik bilan o‘lchanayotgani, shaxsning ichki qadriyatlar iyerarxiyasida «moddiy kapital»ning «ma’naviy-ma’rifiy kapital»dan ustuvorlashayotganini ko‘rsatadi. Bu holat Erix Frommning «ega bo‘lish yoki bo‘lish» (to have or to be) dilemmasida migrantning majburan «ega bo‘lish» paradigmasini tanlaganini anglatadi[2]. Biroq, bu tanlov migrantning ichki dunyosida ma’naviy bo‘shliqni keltirib chiqaradi. So‘rovnomamizda qatnashgan respondentlarning **80 foizi** ruhiy ko‘makka ehtiyoj sezishini bildirganligida ko‘rinadi. Demak, glokal shaxsning qadriyati tashqi ko‘rinishda pragmatik bo‘lsa-da, ichki mohiyatda hamon ma’naviy tayanchga (oila, din, vatan sog‘inchi) muhtojligicha qolmoqda.

Mehnat migratsiyasi sharoitida «masofaviy oila» qadriyatining yangi modeli tadqiqotlarimizning yana bir muhim jihatidir. Respondentlarning **60 foizi** oilasi bilan har kuni muloqotda bo‘lishi, oilaviy jipslikni saqlab qolishning «raqamli mexanizmi» ishlayotganini ko‘rsatadi. Bizning tahlillarimiz ko‘ra, bu muloqot an’anaviy «ma’naviy-tarbiyaviy ishtirok» funksiyasini to‘liq bajara olmayapti. Natijada, migrant oilasi uchun «ma’naviy rahnamo» maqomidan «moddiy donor» maqomiga o‘tmoqda. Ushbu transformatsiya kelajakda avlodlar o‘rtasidagi qadriyatlar uzilishini (generation gap) kuchaytiruvchi asosiy determinant sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

So‘rovnomalrimizda Andijonlik migrantlarning Yevropa va rivojlangan davlatlariga intilmoqda (65%). R.Robertsonning glokallashuv nazariyasiga ko‘ra, mahalliy madaniyat global ta’sirlar ostida yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki ularni o‘zlashtirib, yangi shaklga kiradi[3]. Bu bizning tadqiqot obektimizda migrant dunyoqarashida «sifat transformatsiyasi» yuz berayotganidan dalolat beradi. YA’ni daromad bilan birga huquqiy adolat, mehnat madaniyati va shaxsiy daxlsizlik kabi global qadriyatlarni o‘z hayotiy strategiyalariga qabul qilyaptilar. Bu esa «Glokal shaxs»ning ijtimoiy faolligi nafaqat xorijda, balki vatanga qaytgandan so‘ng ham jamiyatning yangilanishiga (modernizatsiyasiga) xizmat qiluvchi kuchli ijtimoiy kapital bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Qadriyatlar transformatsiyasi — bu shaxsning global olamda o‘zligini saqlab qolish va raqobatbardosh bo‘lishga intilishining mahsuli. Glokal shaxs modeli migratsiya jarayonlarini boshqarishda inson omilini markazga qo‘yish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Respondentlarning **40 foizi (118 nafar)** xorijda o‘zini «to‘liq xavfsiz his qilmasligi» va **55 foizi (162 nafar)** davlat tomonidan migrantlarni qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilgan huquqiy-ijtimoiy mexanizmlardan bexabar ekanligi, ijtimoiy munosabatlar tizimida «axborot asimmetriyasi» va «institusional begonalashuv» belgilari shakllanganini anglatadi. Falsafiy nuqtai nazardan, ishonch — jamiyatning ma’naviy yaxlitligini ta’minlovchi asosiy kategoriyasi. Uning defitsiti migrantning ijtimoiy ongida «atomizatsiya» (jamiyatdan ajralish) jarayonini tezlashtiradi. Bu migratsiyasi

jarayonida shaxs va davlat institutlari o‘rtasidagi «ishonch inqirozi» va «huquqiy nigilizm» alomatlarini yuza kelishiga sabab bo‘ladi.

Migrant uchun xavfsizlik qadriyati faqatgina jismoniy omon qolish emas, balki «ontologik ishonch») holati bilan uzviy bog‘liq. Entoni Giddens ta’kidlaganidek, inson o‘z hayotiy faoliyatida ijtimoiy institutlarning barqarorligi va adolatliligiga ishonishi kerak[4]. Bu esa jamiyatda korrupsion munosabatlarning ma’naviy ildizlarini saqlab qolishga va rasmiy qonun ustuvorligi qadriyatining zaiflashuviga olib keladi. Natijada, migrant ongida davlat «ko‘maklashuvchi subyekt» sifatida emas, balki «begona nazoratchi» sifatida qabul qilina boshlanmoqda.

Respondentlarning **44 foizi** mahalliy aholi bilan munosabatlarni «neytral» deb baholagan. Demak ularning ijtimoiy faolligi faqat «iqtisodiy funksionallik» bilan cheklangan. Bu yerda biz «ijtimoiy marginalizatsiya» holatiga duch kelamiz. YA’ni migrant o‘z vatanidagi rasmiy ijtimoiy tizimga ham xorijdagi madaniy-huquqiy muhitga ham to‘liq integratsiya bo‘la olmaydi. Frensis Fukuyama ta’kidlaganidek, ijtimoiy kapitalning asosi bo‘lgan «ishonch» past bo‘lgan jamiyatlarda ijtimoiy mobillik faqat kichik guruhlar ichida cheklanib qoladi, bu esa milliy miqyosda ijtimoiy jipslikning susayishiga sabab bo‘ladi[5]**.**

“Ishonch defitsiti” muammosi shunchaki huquqiy yoki axborot bilan bog‘liq masala emas. Migrantlarning davlat va jamiyat institutlariga bo‘lgan ishonchini tiklash uchun ijtimoiy munosabatlarning «obyekti» emas, balki «to‘laqonli subyekti» sifatida tan olish mexanizmini yaratish zarur. Bu jarayonda axborot texnologiyalari ijtimoiy adolat va shaffoflikni ta’minlovchi, migrantni institusional muhitga yaqinlashtiruvchi strategik resurs bo‘lib xizmat qilishi lozim. Aks holda migrantlarning vatanga qaytishi va ijtimoiy reintegratsiya jarayonlari «ma’naviy-ijtimoiy xarajatlar» bilan kechishi aniq. Respondentlarning **80 foizi (236 nafar)** psixologik qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezishi va **58 foizi (173 nafar)** doimiy ravishda ekzistensial yolg‘izlikni his qilishi chuqur ma’naviy yo‘qotishlar bilan o‘lchanishini ko‘rsatadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, **«Biz uchun eng katta boylik — bu inson kapitalidir. Xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarimiz ham bizning farzandlarimiz, ularning taqdiri uchun hammamiz birdek mas’ulmiz»[6]**. Ushbu strategik tamoyil migrantlarning ijtimoiy ongida «davlat himoyasi» va «milliy g‘urur» tuyg‘ularini tiklash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Lekin Andijon viloyati migrantlarining moddiy farovonlikka intilishi (78%) va ayni paytda ruhiy defitsitda yashashi — «iqtisodiy odam» va «ma’naviy odam» o‘rtasidagi ichki qarama-qarshilikni ko‘rsatadi. Bunday ruhiy emotsiyalar shaxsning mahalliy ijtimoiy muhitga qayta moslashishida psixologik to‘siq bo‘ladi.

Tadqiqot natijalaridan xulosalarimiz shundan iboratki, migrantlarning kelajakdagi geostrategik intilishlari (65 foizning Yevropa va rivojlangan davlatlarga intilishi) jamiyatning ijtimoiy strukturasida «sifat o‘zgarishi» yuz berayotganini ko‘rsatadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan **«Yangi O‘zbekiston — inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat»** g‘oyasi migrantlarning huquqiy va ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashda yangi bosqichni boshlab berdi[6]. Respondentlarning yuqori texnologik makonlarga intilishi, ularning dunyoqarashida «munosib mehnat» va «shaxs qadri» tushunchalarining yangi bosqichga ko‘tarilganini anglatadi. Demak, ijtimoiy reintegratsiya strategiyalari nafaqat ish bilan ta’minlash, balki migrantlarning xorijda orttirgan yangi ijtimoiy tajribasi va «glokal dunyoqarashi»ni milliy taraqqiyot maqsadlariga yo‘naltirish mexanizmiga ega bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, migratsiya — bu shaxsning qadriyatlar tizimida yuz beradigan «transformatsion sayohat». Unda aniqlangan «Glokal shaxs» tipi jamiyatning eng dinamik va shu bilan birga eng zaif qatlami. Shuning uchun ularni institusional va psixologik qo‘llab-quvvatlash milliy barqarorlikning garovidir. Davlat rahbari ta’kidlaganidek, **«Fuqarolarimiz qayerda bo‘lmasin, ularning huquqiy himoyasini ta’minlash — davlatning muqaddas burchidir»[8]**. Tadqiqotda taklif etilgan ijtimoiy-falsafiy mexanizmlar — migrantning ijtimoiy identifikatsiyasini qayta tiklash, huquqiy ishonchni kuchaytirish va oilaviy qadriyatlarning ma’naviy poydevorini asrash orqali migratsiyaning salbiy oqibatlarini minimallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хабермас Ю. Моральное сознание и коммуникативное действие / Пер. с нем. – СПб.: Наука, 2001. – С. 118-135.
2. Фромм Э. Иметь или быть? / Пер. с англ. – М.: АСТ, 2010. – С. 64-78.
3. Robertson R. Glocalization: Time-Space and Homogeneity-Heterogeneity // Global Modernities. – London: Sage, 1995. – P. 25-44.
4. Гидденс Э. Последствия современности. – Москва: Праксис, 2011. – С. 115-128.
5. Фукуяма Ф. Доверие: социальные добродетели и путь к процветанию. – Москва: АСТ, 2004. – С. 45-58
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 245.

7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – 2022. – 21 декабрь.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jamolova Gulbanbegim Muzaffar qizi-dotsent
Iqtisodiyot va pedagogika univeriteti
E-mail: gulbanbegimiamolova@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-5438-5045

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIMIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETILISHI VA TALABALARNING TA’LIM JARAYONIGA TA’SIRI

Metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan mustaqil ta’lim o‘quvchilarda o‘ziga ishonch va muvaffaqiyatga erishish hissini shakllantiradi. STEM asosidagi topshiriqlarni baholashda faqat yakuniy natija emas, balki jarayon ham inobatga olinishi lozim. Bu esa o‘quvchilarning izlanish jarayoniga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

Xulosa

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’limni STEM fanlariga uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning bilish faolligi oshadi hamda o‘rganilayotgan bilimlarning amaliy ahamiyati yanada kuchayadi.

STEM yondashuvi asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim o‘quvchilarning fanlararo bog‘liqlikni anglashiga yordam beradi. Bu jarayonda matematika, tabiiy fanlar, texnologiya va muhandislik elementlarining integratsiyasi o‘quvchilarda bilimlarni yaxlit tizim sifatida o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Natijada o‘quvchilar bilimlarni faqat nazariy jihatdan emas, balki real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini ham egallaydilar. Bu esa funksional savodxonlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil topshiriqlar, loyihaviy faoliyat va amaliy mashg‘ulotlarni STEM asosida tashkil etish o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrini asoslash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Shu bilan birga, bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ta’lim jarayoniga faol jalb etilishini ta’minlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, mustaqil ta’limni STEM fanlariga uyg‘unlashtirishda o‘qituvchining metodik tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi integratsiyalashgan darslarni samarali rejalashtirishi, mustaqil topshiriqlarni o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos holda tanlashi zarur. Shuningdek, baholash jarayonida o‘quvchilarning faqat yakuniy natijasi emas, balki ularning izlanish jarayoni ham inobatga olinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni STEM fanlariga uyg‘unlashtirish va integratsiya qilish ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv boshlang‘ich ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish va raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2021.

3. Xolmatova N.N. Boshlang‘ich ta’limda mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

4. Jo‘rayev R.X. Pedagogik integratsiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

5. Saidova M.S. Boshlang‘ich sinflarda fanlararo integratsiya asosida ta’limni tashkil etish. // Xalq ta’limi. – 2020. – №4. – B. 45–49.

6. Bybee R.W. STEM Education: Innovation and Challenges. – New York: Routledge, 2017.

7. Sanders M. Integrative STEM Education as “Best Practice”. // Journal of STEM Education. – 2016. – Vol. 17, No. 2. – P. 5–10.

8. Karimova G.Q. Zamonaviy ta’limda STEM yondashuvining o‘rni. // Pedagogik ta’lim. – 2021. – №2. – B. 62–66.

9. Yakubova D.T. Mustaqil ta’lim orqali o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.

10. Honey M., Pearson G., Schweingruber H. STEM Integration in K–12 Education. – Washington: National Academies Press, 2014.

11. Ismailova Z.B. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Universitet, 2018.

12. Kelley T., Knowles J. A Conceptual Framework for Integrated STEM Education. // International Journal of STEM Education. – 2016. – Vol. 3. – P. 1–11.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Soliyev Xakimjon Zokirjonovich
Namangan davlat universiteti Tasviriy san'at va dizayn kafedrasi mudiri, dotsent

QISQA MUDDATDA UY-RO'ZG'OR BUYUMLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORTNING RANGTASVIRINI BAJARISH

Annotatsiya :*Mazkur maqolada uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortni qisqa muddatli etyud shaklida "alla prima" uslubida bajarish jarayoni yoritiladi. Talabalarda naturani yaxlit ko'rish, asosiy rang munosabatlarini aniqlash, yorug'-soya nisbatlarini to'g'ri ifodalash hamda buyumlarning tipik va xarakterli jihatlarini topish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, qisqa muddatli etyudlarning kuzatuvchanlik, rang sezgirligi va xotira asosida ishlash malakasini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *natyurmort, qisqa muddatli etyud, alla prima, lessirovka, rangtasvir, rang munosabatlari, yorug'-soya, kolorit, fazoviy perspektiva, yaxlit ko'rish, xotira asosida ishlash, tasavvur, kompozitsiya, kuzatuvchanlik, badiiy mahorat.*

Солиев Хакимжон Зокирджонович
Заведующий кафедрой изящных искусств и дизайна Университета штата Наманган, доцент

СОЗДАНИЕ КАРТИНЫ ХОЛСТА, СОСТОЯЩЕГО ИЗ БЫТОВЫХ ВЕЩЕЙ, ЗА КОРОТКОЕ ВРЕМЯ

Аннотация: *В статье рассматривается процесс выполнения натюрморта, состоящего из предметов домашнего обихода, в форме краткосрочного этюда в стиле «алла прима». Анализируются вопросы формирования у студентов навыков целостного восприятия природы, определения основных цветовых соотношений, правильного выражения светотеневых пропорций и поиска типичных и характерных черт предметов. Также раскрывается важность краткосрочных этюдов в развитии наблюдательности, цветовой чувствительности и навыков, основанных на памяти.*

Ключевые слова: *натюрморт, краткосрочный этюд, алла прима, лессинг, живопись, цветовые соотношения, светотень, раскраска, пространственная перспектива, целостное видение, работа по памяти, воображение, композиция, наблюдение, художественное мастерство.*

Soliyev Xakimjon Zokirjonovich
Head of the Department of Fine Arts and Design of Namangan State University, docent

RENDERING A PAINTING OF A CANVAS CONSISTING OF HOUSEHOLD ITEMS IN A SHORT TIME

Abstract: *This article discusses the process of performing a still life consisting of household items in the form of a short-term etude in the "alla prima" style. The issues of forming students' skills in seeing nature holistically, determining the main color relationships, correctly expressing the light-shadow ratios, and finding typical and characteristic aspects of objects are analyzed. The importance of short-term etudes in developing observation, color sensitivity, and memory-based skills is also revealed.*

Keywords: *still life, short-term etude, alla prima, lessing, painting, color relationships, light-shadow, coloring, spatial perspective, holistic vision, working from memory, imagination, composition, observation, artistic skill.*


Xolis fonda oddiy shakldagi uy – ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortning uzoq muddatli rangtasvirini "***lessirovka***" uslubida ishlab tajriba orttirgan talaba oldida turgan navbatdagi vazifa birmuncha murakkab bo'lgan uy – ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortni "***alaya- prima***" uslubida qisqa muddatli rangtasvirini ishlash hisoblanadi. Shuning uchun avvalo, talabalarga qisqa muddatli etyudlar qanday ishlanishi haqida tushuncha berish lozim.

Ta'limning ilk bosqichida taxsil olayotgan talaba tasviri ishlayotgan buyumlarni yuzaki, tashqi ko'rinishini xuddi o'ziday qilib ko'chirishga harakat qiladi. Ular diqqat bilan natyurmort kompozitsiyasidagi buyumlarning har biriga birma – bir tikilib qarab, so'ngra har bir mayda bo'laklarni va ularning ranglarini alohida – alohida berishga harakat qilishadi. Natijada esa tasvir ham alohida – alohida mayda bo'laklardan tashkil topadi va bir butun ko'rinish, yaxlitlik yo'qolib qoladi. Bunday kamchiliklarni oldini olish uchun talabalarga naturadagi barcha buyumlarga yaxlit bir narsadek

qarashni, yetakchi rang dog‘larini ko‘ra bilishni hamda ularni bir vaqtda ishlashni o‘rgatish zarur. Natura obyektlarini yaxlit ko‘rish va asosiy, yetakchi rang dog‘larini aniqlay bilish – muhim kasbiy mahoratni talab qiladi, bunga esa dastlabki rangtasvir ta’limidan boshlab erishish kerak.

San’atga ixtisoslashgan barcha o‘quv yurtlarida ochiq havo sharoitida etyud ishlash plener amaliyoti davomida amalga oshiriladi. Ochiq havoda kichkina hajmdagi, bir seansda ishlanadigan etyudlarning ahamiyati katta bo‘lib, har bir talaba uzoq muddatli auditoriya mashg‘ulotlari davomida yo‘l qo‘yadigan ayrim kamchiliklarni bartaraf qilish tajribasini amaliyot davomida orttirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Amaliyot davomida naturaning oldi planidagi yetakchi rang dog‘larini uzoqdagi ranglarga nisbatan qarama – qarshiligini taqqoslash imkoniyati katta. Chunki, asosan manzara tasviri ishlanadi va unda fazoviy perspektiva aniq, ravshan ko‘zga tashlanib turadi. Kichik o‘lchamdagi etyudlarda buyumlarning mayda bo‘laklarini rangiga e’tibor berilmaydi, asosan katta rang munosabatlari inobatga olib ishlanadi.



1-rasm. Manzarani qisqa muddatli etyudi.

Manzaraning qisqa muddatli etyudini ishlaganda yorug‘lik tez o‘zgarib ketishini har doim inobatga olish zarur. Erta tongda, peshinda yoki shom payti erga quyosh nurlari turlicha etib keladi. Hattoki, quyosh bulutlar ortida bo‘lsa ham, u manzaraning umumiy yoritilish holatiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun ham ishning boshlanishida va so‘ngida manzaradagi yorug‘lik holati turlicha bo‘lishini aslo unutmaslik kerak. Tabiatning oniy lahzalarining tezlik bilan tasvirini ishlab qolish uchun ham qisqa muddatli etyudlar bajariladi. “...***Etyudni shunday tasvirlash kerakki, birdan er bilan suvni osmonga nisbatan tus munosabatlarini anglab, mohiyatini ilg‘ab olish kerak***” – deydi K. A. Korovin o‘z shogirdlariga. Uning o‘zi ham qisqa muddatli etyudlarda asosiy rang munosabatlarini topishning mohir ustasi hisoblangan.

Oliy o‘quv yurtlarining birinchi bosqich talabalarini aksariyati avval maxsus ixtisoslashgan maktablarda taxsil olmagan bo‘ladi. Shuning uchun ham ularni shartli ravishda ikki guruxga ajratish mumkin bo‘ladi; birinchi gurux - boshlang‘ich bilimga ega bo‘lgan, san’atga ixtisoslashgan maxsus maktablarda taxsil olgan, qisqa muddatli etyudlar haqida tushunchaga ega bo‘lgan talabalar, ikkinchi gurux – o‘rta umumiy ta’lim maktablarini tamomlagan, iqtidori bor, ammo boshlang‘ich bilimi etarli bo‘lmagan, qisqa muddatli etyudlar haqida tushunchaga ega bo‘lmagan talabalar. O‘qituvchi shu ikki guruxga ham tushunarli bo‘lishi uchun qisqa muddatli etyudlarni ishlashdan ko‘zlangan maqsadni aniq va ravshan tushuntirishi, amalda ishlab ko‘rsatib berishi zarur.

Qisqa muddatli etyudlarni bajarish maqsadi ham turlicha bo‘lishi mumkin. Jumladan, ba’zi bir holatlarda etyud uzoq muddatli vazifani bajarish oldidan amalga oshiriladi va unda asosan naturadagi rang munosabatlari tahlil qilib o‘rganiladi hamda uning koloritiga xos bo‘lgan ilk tassurotlar aniqlanadi. Boshqa bir holatda esa, ayrim buyumlarni, shakllarni puxtaroq, yanada mukammal o‘rganish maqsadida ularning mayda bo‘laklarini etyudi ishlanadi.



2-rasm. Natyurmort kompozitsiyasini qisqa muddatli tasviri.

Auditoriya sharoitida kuzatish va o‘rganish uchun tuzilgan sodda natyurmortning umumiy tus va rang nisbatlarini bir nechta qisqa muddatli etyudlar bajarish orqali amalga oshiriladi. Natyurmortni yorug‘lik manbaiga nisbatan har xil masofada joylashtirib, ularni farqini o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dastlab natyurmort qo‘yilmasi derazaga yaqinroq joylashtiriladi, natijada u kuchliroq yoritilgan sharoitda bo‘ladi. Keyingi natyurmortni xona o‘rtasiga yoki undan ham ichkarroqqa qo‘yilsa, yoritilish darajasi avvalgi qo‘yilmaga nisbatan biroz sustroq, ranglari va yorug‘lik qarama - qarshiligi ham past darajada bo‘ladi.

Bu o‘quv qo‘yilmalarining qisqa muddatli etyudlarini ishlash orqali yorug‘ - soyani, buyumlarning tuslarini, kontrastlilikni pasaytirish yoki kuchaytirishni, yaxlit ko‘rish va his qilish, fazoviylik o‘rganiladi. Talabalarni qisqa muddatli etyudlar yordamida muntazam tarzda bajargan mashqlari buyumlar rangining nozik o‘zgarishlarini farqlashiga, kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlanishiga, tasviriy vositalardan ustalik bilan foydalanishlariga zamin yaratadi.

Etyudlardan ko‘zlangan maqsadlardan yana biri buyumlarning o‘ziga xos tipik va xarakterli tomonlarini, belgilarini o‘rganish sanaladi. Talabalar qisqa muddatli etyudlari yordamida buyumlarning o‘ziga xos tipik va xarakterli tomonlarini qanchalik yaxshi o‘rganib olganliklarini bilish uchun ularni asliga qaramasdan, xotira va tasavvur asosida ishlab, o‘zlarini sinab ko‘rishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bu borada rus rassom-pedagogi K. Yuonning quyidagi fikri juda ham o‘rinli hisoblanadi.

“...Etyudlar umumiy qoidalarni o‘rganishga yaxshi yordam beradi, bu qoidalar rassom uchun majburiydir. Undan keyin esa tipik va xarakterli tomonlarni topishni o‘rganish kerak. Bundan tashqari, men doimo o‘quvchilarimni xotira asosida ishlash malakalarini hosil qilishga undayman. Ikkita holat – bir tomondan tabiatni mayda detallarigacha o‘rganish, ikkinchi tomondan esa tanlab, tahlil qilib o‘rganish – sizlarni holatning mezboni bo‘lishingizga, qolaversa, rangtasvir sirlarini egallashingizga imkon beradi... xotira asosida, aniqrog‘i kuzatish asosida ishlash ulkan ahamiyatga ega. Shu tarzda yosh rassomlarni tabiat qoidalarini o‘rganish, kuzatish va tahlil qilish orqali bo‘lishiga o‘rgat”.

Bundan shunday xulosa qilish mumkin, talabalarni buyumlarning aynan o‘zinigina ko‘chirmasdan, balki ularni o‘ziga xos bo‘lgan xarakterli, tipik tomonlarini ham topishga o‘rgatish kerak. Avvaliga bitta buyumning qisqa muddatli etyudini asliga qarab ishlash yordamida uni xarakterli tomonlarini topishni o‘rganish kerak. Vazifani asta sekinlik bilan murakkablashtirib ikki va undan ortiq bir xil buyumlarni, keyinchalik esa mavzuli natyurmort kompozitsiyasining umumiy tipik tomonini topishni o‘rganish zarur.

Vazifani yanada murakkablashtirib muqaddam asliga qarab ishlangan buyumlarning ustini istalgan bir mato bilan yopib qo‘yib, uni xotira va tasavvur asosida ishlash kerak bo‘ladi. Xotira va tasavvur asosida ishlangan qisqa muddatli etyudni buyumlarning asli bilan solishtirib, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Shu tariqa ushbu tajriba yordamida asta sekinlik bilan yanada murakkab tuzilishga ega bo‘lgan buyumlarning tasvirini xotira va tasavvur asosida qisqa muddatli etyudlarini ishlash mumkin.



3-rasm. Uy-roʻzgʻor buyumlarini qisqa muddatli tasviri.

Tajribali, mohir rassomlar tomonidan bajarilgan etyudlarni kuzatganimizda ularni nihoyatda nafis va juda ham jozibali chiqqanini guvohi boʻlamiz. Mohir rassomning yordamchi vazifani bajarish uchun ishlagan qisqa muddatli etyudlarining oʻzi ham badiiy asar darajasiga etganini koʻrish mumkin. Naturaning koloriti, yorugʻ – soya nisbatlarini, buyumlarning fakturasini, fazoviyligini, yaxlitligini aks ettirish mahoratiga esa faqatgina uzluksiz amaliy mashqlar natijasida erishiladi.

Xulosa

Uy-roʻzgʻor buyumlaridan tashkil topgan natyurmortni qisqa muddatda “alla prima” uslubida bajarish talabaning rangtasvirdagi muhim bosqichlaridan biridir. Bu jarayon uzoq muddatli “lessirovka” tajribasidan soʻng rang munosabatlarini tez va aniq ilgʻash, yaxlit koʻrish hamda umumiy koloritni bir seansdayoq ifodalay olish koʻnikmasini shakllantiradi. Qisqa muddatli etyudlar talabaning buyumlarni mayda detallar asosida emas, balki katta rang dogʻlari va umumiy tus munosabatlari orqali koʻra bilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, yorugʻ-soya nisbatlari, fazoviylik, kontrast va rang uygʻunligini tezda aniqlash mahorati aynan shu mashqlar orqali ifodalashga oʻrgatadi. Shuningdek, qisqa muddatli etyudlarasosida esa boʻlajak rassomlarni kuzatuvchanlikni oshiradi, rang sezgirligini rivojlantiradi, buyumlarning tipik va xarakterli jihatlarini ajratib koʻrsatishga oʻrgatadi, xotira va tasavvur asosida ishlash malakasini mustahkamlaydi.

Demak, qisqa muddatli natyurmort etyudlari rangtasvir sirlarini egallashda, ijodiy fikrlashni rivojlantirishda va mustaqil badiiy qarashni shakllantirishda muhim oʻrin tutadi. Uzluksiz amaliy mashqlar natijasidagina talaba naturaning koloritini, yorugʻ-soya nisbatlarini va yaxlit obrazini badiiy darajada ifodalay oladigan yetuk rassomlik mahoratiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдирасилов С., Толпов Н. Рангтасвир. Дарслик. Т.:“Innovatsiya-Ziyo”, 2019.
2. Абдирасилов С., Азимов Б. Рангтасвир. Ўқув қўлланма. –Т.: “Мусиқа”, 2011.
3. Абдуллаев Ў. Рангтасвирда натюрморт. –Т.: Ўқув қўлланма. “Фан ва технология”, 2014.
4. Жаббаров Б. Ғ. Академик қаламтасвир асослари. Тасвирлаш воситалари. Ўқув қўлланма. –Н.: “Наманган”, 2016.
5. Jabbarov B. G‘. Akademik qalamtasvir. Darslik. –T.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Matyaqubova Z.B.
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy Tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchsi

UO'K: 796;12.56.12.04

YOSH BADIIY GIMNASTIKACHILARNING MURAKKAB MASHQLARNI BAJARISHDA JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh badiiy gimnastikachilar mashg'ulotlarida jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan buyumlar bilan murakkab mashqlarni bajarish modeli ishlab chiqilgan, shu bilan birga predmetlar orqali jismoniy sifatlarni oshiruvchi vosita va usullar saralangan hamda maxsus mashqlarni qo'llash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Gimnastika, predmet, chambarak, lenta, to'p, arg'amchi, bulava, jismoniy tayyorgarlik, vosita va usullar, tehnik usullar, model, havodagi halqa, cho'qmor.*

Матягубова З.Б.
Физическое воспитание и спортивная наука независимый исследователь НИИ

ПОВЫШЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВНОСТИ ЮНЫХ СПОРТИВНЫХ ГИМНАСТОВ ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ КОМПЛЕКСНЫХ УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье разработана модель выполнения сложных упражнений с предметами, направленных на развитие физической подготовленности на занятиях юных художественных гимнастов, при этом отобраны средства и методы повышения физических качеств с помощью предметов, а также приведены сведения о применении специальных упражнений.*

Ключевые слова. *Гимнастика, предмет, обруч, лента, мяч, скакалка, булава, физическая подготовка, средства и приемы, технические приемы, модель, воздушное кольцо, булава.*

Z.B. Matyagoubova
Physical Education and Sports Science Independent Researcher, Research Institute

IMPROVING THE PHYSICAL FITNESS OF YOUNG SPORTS GYMNASTS WHEN PERFORMING COMPLEX EXERCISES

Annotation*. In this article, a model for performing complex exercises with objects aimed at developing physical fitness in the training of young rhythmic gymnasts has been developed, at the same time, tools and methods for improving physical qualities through objects have been selected, and information on the use of special exercises has been presented.*

Keywords. *Gymnastics, object, hoop, ribbon, ball, rope, club, physical training, means and methods, technical techniques, model, ring in the air, mace.*

Dolzarbligi. Dunyoda aholi o'rtasida sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, trampolin, akrobatika kabi gimnastika sport turlarini ommaviyligini oshirish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro talab va standartlar asosida professional gimnastikachilarni tayyorlash orqali milliy terma jamoalarning nufuzli musobaqalarda yuqori natijalarga erishishi ta'minlamoqda. Gimnastika yetakchi sport turlaridan biri bo'lib, zarur funksiyalar va qaddi-qomatni shakllantirish, harakatlar uyg'unligi va elestikligini rivojlantirish, ijro mahoratining muvofiqligi va ifodaliligini tarbiyalash bilan bir qatorda aholi salomatligini mustahkamlamoqda. Gimnastika musobaqa kompozitsiyasi dasturi turli tuzilmaviy murakkablik, o'ziga xos ijro shakli va tuzilishi bilan ajralib turadigan buyumlarni mohirona egallab elementlarini birlashtirmoqda. Bularning barchasi yangi texnologiyalarni jalb qilishni, mashg'ulot jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan yosh badiiy gimnastikachilarning murakkab mashqlarni bajarishda jismoniy tayyorgarligini oshirishning yanada samarali dasturlarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Murakkab mashqlar orqali yosh badiiy gimnastikachilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. 1. Yosh badiiy gimnastikachilarni jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlash va baholash. 2. Badiiy gimnastikachilarni jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan buyumlar bilan murakkab mashqlarni bajarish modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Mahalliy olimlarimizdan M.N.Umarov, N.X. Fetxullova, A.K. Eshtayev, D.X.Umarov, G.M. Xasanova, D.A. Axmedova kabi mutaxassislar gimnastikaning sport turlari bo'yicha o'quv-mashq jarayonini optimallashtirish va takomillashtirishning fundamental bazasini yaratishgan. Shu bilan birga yosh gimnastikachilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirishda predmetlarni qo'llash uslubiyatini ishlab chiqishgan.

Badiiy gimnastikadagi eng murakkab elementlar buyumlar bilan bajariladigan harakatlardan iborat. Badiiy gimnastika nafaqat sport, balki akrobatika, raqs, nafosat va harakatlarni muvofiqlashtirish elementlari uyg'unlashgan san'at turi hisoblanadi. Badiiy gimnastikachilar tomonidan bajariladigan har bir element yuqori darajadagi tayyorgarlik, aniqlik va egiluvchanlikni talab qiladi. Ammo ko'plab turli xil mashqlar va tryuklar orasida shundaylari borki, ular haqli ravishda ayniqsa murakkab harakatlar hisoblanadi. Badiiy gimnastikadagi eng murakkab elementlar sportchilardan jismoniy va texnik ko'nikmalarni talab qiladigan sport turi hisoblanadi.

Tadqiqot davomida badiiy gimnastikachilarni murakkab mashq elementlari orqali buyumlardan foydalanib jismoniy tayyorgarligini oshirish modeli takomillashtirildi. Ushbu modelning maqsadi chambarak, lenta, to'p, arg'amchi hamda bulava kabi predmetlar orqali badiiy gimnastikachilarni nafaqat jismoniy tayyorgarligi balki texnik elementlarni to'g'ri va aniq bajarishdan iborat. Bu modelning yana bir ijobiy taraf shundaki aynan badiiy gimnastikachilarni jismoniy tayyorgarligini oshirishda yetakchi bo'lgan jismoniy sifat ko'satkichlarini aniqlashga qaratilgan mezonlar ham keltirilgan (1-rasmga qarang).

Badiiy gimnastikada gimnastikachilar turli snaryadlardan jumladan chambarak, lenta, to'p, arg'amchi, bulavalar bilan ishlaydilar. Ushbu snaryadlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular gimnastikachidan ma'lum ko'nikmalarni talab qiladi. Biroq, ko'plab usullar orasida har bir snaryad ijrochilar uchun haqiqiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan elementlarni o'z ichiga oladi.

Badiiy gimnastikadagi elementning murakkabligini bir nechta mezonlar bo'yicha baholandi. Jismoniy yuklamalar doimiy nazorat qilib borildi. Bu elementni bajarish uchun qo'llanilishi kerak bo'lgan kuchlar, shu jumladan akrobatika elementlari, qo'l kuchlari hamda presslar natijalari aniqlandi. Murakkab harakat elementlarni bajarish texnikasi ham doimiy nazorat qilindi. Ba'zi elementlar aniqlik va harakat koordinatsiyasini talab qiladi, bunda hatto kichik xato ham umumiy natijaga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi inobatga olindi. Shu bilan birga badiiy gimnastikachilarni tayyorlashda yetakchi jismoniy sifatlardan egiluvchanlik hamda cho'zilish ham muhim hisoblanadi. Ko'pgina elementlar nafaqat kuchni, balki tananing kerakli burchagi yoki holatiga erishish uchun oddiy egiluvchanlik va cho'zilishni talab qiladi. Shu bilan birga tadqiqot davomida predmetni fazo va makonda nomoyish etishga qaratilgan harakatlarni birlashtirish murakkabligi ham inobatga olindi. Bunda ba'zi elementlarda gimnastikachilar bir vaqtning o'zida bir nechta harakatlarni bajarishlari masalan, bir qo'lda snaryad bilan aylanish va boshqa qo'lda akrobatik tryukni amalga oshirishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari badiiy gimnastikachilarni eng qiyin elementlar ham bajartirildi. Bir qo'lda aylanish bilan salto harakatini bajarishga o'rgatildi. Badiiy gimnastikaning eng murakkab va tomoshabop elementlaridan biri bir qo'lda aylanish bilan salto bo'lib, u kuch, egiluvchanlik va aniqlikni talab qildi. Bu element amalda ham, texnikada ham nihoyatda qiyin murakkab harakat hisoblanadi. Ushbu element tavsifi ham berildi.



1-rasm. Badiiy gimnastikachilarni buyumlar orqali murakkab harakatlarni bajarishda jismoniy tayyorgarligini oshirish modeli

Gimnastikachi akrobatik saltoni gavdasini o‘z o‘qi atrofida aylantirib bajaradi, oddiy saltodan farqli o‘laroq, u ikki qo‘l bilan emas, balki faqat bir qo‘l bilan bajariladi. Ushbu element nafaqat qo‘llab-quvvatlash va aylantirish uchun tananing yuqori qismi kuchini, balki yuqori darajadagi muvofiqlashtirish va muvozanatni ham talab qiladi.

Bu element badiiy gimnastikada yuksak mahorat bo‘lib, ko‘pincha turli musobaqalarda kombinatsiyalarda nomoyon bo‘ladi. U gilamdagi murakkab mashqlarda, halqa hamda lenta bilan havo elementlarida yakuniy tryuk sifatida qo‘llanildi.

Badiiy gimnastikadagi boshqa murakkab elementlarga ham e’tibor qaratildi. Unga ko‘ra Havodagi shpagat harakati gimnastikachi uchish paytida, sakrashdan keyin balandlikda shpagatni bajaradi. Bu esa oyoqlarda o‘ta moslashuvchanlik va kuch kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

To‘p bilan aylanuvchi elementni gimnastikachi qo‘lida to‘p bilan murakkab aylanishlarni amalga oshiradi. Shu bilan birga gilamda akrobatik elementlarni bajaradi. Bu element a’lo darajadagi koordinatsiyani, bir vaqtning o‘zida to‘p va gavdani boshqarish qobiliyatini muvofiqlikda oshirishga erishadi.

Havodagi halqa harakatini bajarishda gimnastikachi halqani uloqtiradi va havoda bir nechta aylanishlarni amalga oshiradi hamda uni tananing turli qismlarida ushlab oladi. Bu mashq akrobatika va snaryad bilan ishlash elementlarini o‘z ichiga oladi, shuning uchun u juda murakkab harakat turi hisoblanadi.

Cho‘qmorli muvozanat bu element nafaqat kuch, balki katat konsentratsiyani ham talab qiladigan harakat turi hisoblanadi. Gimnastikachi muvozanatni bir oyoqda yoki halqa bilan bajaradi, bir vaqtning o‘zida qo‘lida to‘qmoqni ushlab turadi, bu aniqlik va chidamlilikni talab qiladi hamda rivojlantirishga sabab bo‘ladi.

Bu elementlarning har biri yosh badiiy gimnastikachidan yuksak tayyorgarlik va mahoratni talab qiladi. Bir qo‘lda aylanish bilan salto bajarish uchun gimnastikachi a’lo darajadagi jismoniy tayyorgarlikka, jumladan, kuchli qo‘llar va pressga, shuningdek, ajoyib harakat koordinatsiyasiga ega bo‘lishi kerak. Bunday elementni boshqa murakkab akrobatik tryuklar bilan birgalikda bajarish yanada murakkablashadi.

Badiiy gimnastikachi o‘z snaryadini his qilishi, bu nafaqat jismoniy kuchni, balki psixologik diqqatni ham talab qiladi. Bunday elementdagi xato snaryadning qulashiga yoki nazoratni yo‘qotishiga olib kelishi mumkin. Bu esa mumkin bo‘lgan elementlarni ayniqsa murakkablashtiradi.

Xulosa qilib aytganda badiiy gimnastikadagi eng murakkab elementlar nafaqat jismoniy harakatlar, balki mukammal koordinatsiya, cho‘zilish, etik estetik va murakkab harakatlarni namoyish etishdir. Ushbu elementlar nafaqat a’lo darajadagi jismoniy tayyorgarlikni, gimnastikaga raqs va nafosat elementlarini kiritgan holda harakatlarni

sinxronlashtirish qobiliyatini ham talab qiladi. Har bir murakkab elementni bajarish ko‘p yillik mashg‘ulotlar va fidoyilik natijasidir. Bunday elementlarni o‘zlashtirda badiiy gimnastikachilarda ko‘nikma va malaka shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-martdagi “Oksana Chusovitina nomidagi gimnastika ixtisoslashtirilgan sport maktabini tashkil etish chora-tadbirlari” to’g’risidagi PQ-163 sonli qarori.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-dekabrdagi 449-son “Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to’g’risida PQ- qarori.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-iyuldagi PQ-221-son “2028 yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo’lib o’tadigan XXXIV yilgi olimpiya va XVII paralimpiya o’yinlariga O’zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash” to’g’risidagi qarori.

4. Умаров М.Н., Эштаев А.К. Характерные особенности соревновательной деятельности гимнастов. // «Фан спортга». 2005. №1. - С. 34-35.

5. Rasulov Z.P., Umirzakova O.E. Badiiy gimnastika trenerlarining pedagogik kompetensiyasi asosida ularning kasbiy malakasini baholash // Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi dolzarb muammolar I To‘plam. Farg’ona, 2025. **-** B.183-186.

6. Ibragimova M.M. Badiiy gimnastikachi qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda xoreografiya raqs elementlarini o‘rgatishning nazariy asoslari// “Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. Chirchiq, 2024. - B.592-594.

7. Kirialanis P, Malliou P, Beneka A, Giannakopoulos K. Occurrence of acute lower limb injuries in artistic gymnasts in relation to event and exercise phase. *Br J SportsMed*. 2003, vol.37, pp.137–139.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Meliyev Ma'ruf Qiyomjonovich
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti
Pedagogika va o'qitish metodikasi kafedrasi assistenti

GENERATIV SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDAGI ROLI: TALABA KOMPETENSIYALARIGA TA'SIRI VA DOLZARB MUAMMOLAR

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining (ChatGPT va shunga o'xshash vositalar) O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga ta'siri hamda talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot Scopus ma'lumotlar bazasida indekslangan ilmiy manbalar asosida tizimli adabiyotlar sharhi metodologiyasi orqali amalga oshirildi. Natijalar generativ AI vositalari talabalarning mustaqil ta'lim olish, ilmiy-tadqiqot olib borish, raqamli savodxonlik, kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, akademik halollik, plagiat xavfi, baholash tizimining obyektivligi va etik muammolar generativ AI'ni ta'limga integratsiyalash jarayonida dolzarb masala sifatida namoyon bo'ldi. Maqolada generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun metodik va tashkiliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

***Kalit so'z:** Generativ sun'iy intellekt; ChatGPT; oliy ta'lim; O'zbekiston ta'lim tizimi; talaba kompetensiyalari; raqamli kompetensiya; mustaqil ta'lim; akademik halollik; plagiat; ta'lim samaradorligi.*

Meliev Maruf Kiyomjonovich
University of Economics and Pedagogy
Assistant, Department of Pedagogy and Teaching Methods

THE ROLE OF GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION IN UZBEKISTAN: IMPACT ON STUDENT COMPETENCES AND CURRENT PROBLEMS

***Annotation:** This article analyzes the impact of generative artificial intelligence technologies (ChatGPT and similar tools) on the educational process in higher education institutions of Uzbekistan and the role of students in the development of competencies. The study was carried out through a systematic literature review methodology based on scientific sources indexed in the Scopus database. The results showed that generative AI tools are effective in developing students ' competencies of independent learning, R & D, digital literacy, creative thinking, and problem-solving. At the same time, Academic Integrity, plagiarism risk, objectivity of the assessment system, and ethical issues have manifested themselves as a pressing issue in the process of integrating generative AI into education. The article developed methodological and organizational recommendations for the effective use of generative artificial intelligence technologies.*

***Keyword:** generative artificial intelligence; ChatGPT; higher education; Uzbekistan education system; student competencies; digital competence; Independent Education; Academic Integrity; plagiarism; educational effectiveness.*

Мелиев Маруф Киёмжонович
Университет экономики и педагогики
Ассистент кафедры педагогики и методики преподавания

РОЛЬ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЛИЯНИЕ НА КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ И АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ

***Аннотация:** В данной статье анализируется влияние генеративных технологий искусственного интеллекта (Чатгпт и аналогичные инструменты) на образовательный процесс в высших учебных заведениях Узбекистана, а также их роль в развитии компетенций студентов. Исследование проводилось с помощью методологии систематического обзора литературы на основе научных источников, проиндексированных в базе данных Scopus. Результаты показали, что инструменты генеративного ИИ эффективны для развития у студентов навыков самостоятельного обучения, проведения исследований и разработок, цифровой грамотности, творческого мышления и решения проблем. В то же время академическая честность, риск плагиата, объективность системы оценок и этические проблемы стали актуальными в*

процессе интеграции генеративного ИИ в образование. В статье разработаны методические и организационные рекомендации по эффективному использованию генеративных технологий искусственного интеллекта.

Ключевое слово: *генеративный искусственный интеллект; ChatGPT; высшее образование; система образования Узбекистана; студенческие компетенции; цифровая компетенция; независимое образование; академическая честность; плагиат; образовательная эффективность.*

Kirish

So‘nggi yillarda generativ sun’iy intellekt (Generative AI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi global miqyosda ta’lim tizimiga, xususan oliy ta’lim muassasalariga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. ChatGPT, Gemini, Copilot, Claude kabi generativ AI platformalari ta’lim jarayonida axborotni tezkor tahlil qilish, matn yaratish, masalalarni yechish, kod yozish hamda individual o‘quv yo‘nalishlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirib, o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, oliy ta’limning mazmuni, metodikasi va baholash tizimiga ham yangi talablarni qo‘ymoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ham raqamli transformatsiya jarayonlari izchil davom etmoqda. Xususan, elektron ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim imkoniyatlari, LMS tizimlari (Moodle, Google Classroom va boshqalar), elektron kutubxonalar va raqamli resurslarning kengayishi generativ AI texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish uchun muhim shart-sharoit yaratmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston oliy ta’limida talabalarning katta qismi generativ AI vositalaridan mustaqil ta’lim olish, referat va kurs ishlari tayyorlash, ilmiy maqola yozish, taqdimotlar yaratish hamda amaliy masalalarni yechishda faol foydalanayotgani kuzatilmoqda. Bu esa generativ AI texnologiyalarining oliy ta’lim jarayonidagi roli tobora ortib borayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, generativ AI texnologiyalarining oliy ta’limga kirib kelishi bir qator muhim muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Jumladan, akademik halollik, plagiat xavfi, talabalar mustaqil fikrlashining susayishi, baholashning obyektivligi, axborot xavfsizligi hamda etik me’yorlarga rioya qilish masalalari dolzarb muammolar qatoriga kiradi. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida generativ AI vositalaridan foydalanish jarayoni hali to‘liq tizimli tartibga solinmaganligi sababli, ushbu texnologiyalar ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, nazoratsiz qo‘llanilganda salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Bundan tashqari, generativ AI texnologiyalari oliy ta’lim jarayonida talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni yaratmoqda. Xususan, u talabalar uchun shaxsiylashtirilgan o‘quv yordamchisi vazifasini bajarib, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish, ijodiy yondashuv va raqamli savodxonlik kabi kompetensiyalarni shakllantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Shu sababli generativ AI texnologiyalarini oliy ta’lim tizimida ilmiy asoslangan yondashuv asosida qo‘llash, uning didaktik imkoniyatlarini samarali yo‘naltirish hamda mavjud xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Mazkur maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari misolida generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’siri hamda ta’lim jarayonida yuzaga kelayotgan metodik, tashkiliy va axloqiy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – generativ AI texnologiyalarining oliy ta’lim tizimiga integratsiyasi jarayonini ilmiy asosda yoritish, uning ijobiy imkoniyatlarini aniqlash hamda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ushbu texnologiyalarni samarali tatbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Shu asosda maqolada quyidagi tadqiqot savollariga javob izlanadi: generativ AI texnologiyalarining O‘zbekiston oliy ta’limidagi amaliy qo‘llanilish holati qanday? u talabalarning mustaqil ta’lim olish jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda? generativ AI vositalaridan foydalanishda akademik halollik va baholash tizimida qanday muammolar yuzaga kelmoqda hamda ushbu texnologiyalarni oliy ta’limga integratsiya qilishning istiqbolli yo‘nalishlari nimalardan iborat?

Umuman olganda, mazkur tadqiqot generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida qo‘llashning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlash, talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida AI imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot generativ sun’iy intellekt (Generative AI) texnologiyalarining, xususan ChatGPT kabi vositalarning O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoniga ta’siri va talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishdagi rolini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologik asosini tizimli adabiyotlar sharhi (Systematic Literature Review – SLR) tashkil etib, u xalqaro ilmiy adabiyotlarda generativ sun’iy intellektning oliy ta’limdagi qo‘llanilishiga oid mavjud yondashuvlar, natijalar va muammolarni umumlashtirish imkonini beradi. Ushbu

metodologiya tanlangan manbalarni izlash, saralash va tahlil qilish jarayonini aniq mezonlar asosida tashkil etishi bilan ajralib turadi hamda natijalarning shaffofligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi.

Adabiyotlarni izlash jarayonida asosiy ma’lumotlar bazasi sifatida Scopus platformasi tanlandi. Buning sababi Scopus bazasi oliy ta’lim va sun’iy intellekt yo‘nalishidagi yuqori sifatli, xalqaro miqyosda indekslangan ilmiy maqolalarni o‘z ichiga olgan eng ishonchli ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Qidiruv jarayonida “generative AI”, “ChatGPT”, “higher education”, “student competencies”, “skills”, “learning outcomes”, “academic integrity” kabi kalit so‘zlar asosida qidiruv so‘rovlari shakllantirildi va maqolalar sarlavhasi, annotatsiyasi hamda kalit so‘zlari bo‘yicha izlash amalga oshirildi. Scopus qidiruv tizimida asosan TITLE-ABS-KEY formatidan foydalanildi va generativ AI hamda oliy ta’lim kontekstini ifodalovchi birikmalar kombinatsiyasi asosida natijalar to‘plandi.

Maqolalarni tanlash jarayoni aniq kiritish va chiqarish mezonlari asosida amalga oshirildi. Kiritish mezonlari sifatida Scopus bazasida indekslanganligi, oliy ta’lim tizimida generativ AI vositalarining qo‘llanilishi yoritilganligi, talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga oid natijalar mavjudligi hamda maqolaning ilmiy jurnalda chop etilganligi belgilandi. Shuningdek, generativ AI ommalashgan davrni hisobga olgan holda, asosan 2020–2026 yillar oralig‘ida chop etilgan maqolalar tanlab olindi. Chiqarish mezonlariga esa faqat texnik algoritmlarga bag‘ishlangan, ta’lim jarayoniga bevosita bog‘lanmagan maqolalar, Scopus bazasida indekslanmagan manbalar, umumta’lim (K-12) doirasidagi tadqiqotlar hamda to‘liq matni mavjud bo‘lmagan maqolalar kiritildi.

Saralash jarayoni PRISMA tamoyillariga mos ravishda bir necha bosqichda amalga oshirildi. Dastlab identifikatsiya bosqichida Scopus bazasida qidiruv natijasida aniqlangan maqolalar ro‘yxati shakllantirildi. Keyingi bosqichda maqolalar sarlavha va annotatsiya bo‘yicha dastlabki ko‘rib chiqilib, mavzuga mos kelmaydigan manbalar chiqarib tashlandi. Shundan so‘ng moslikni baholash bosqichida maqolalarning to‘liq matni o‘rganilib, generativ AI texnologiyalarining oliy ta’lim jarayoniga ta’siri va talaba kompetensiyalariga aloqadorligi tekshirildi. Yakuniy bosqichda esa metodologiyasi va ilmiy natijalari aniq yoritilgan, oliy ta’lim kontekstida generativ AI’ning amaliy va metodik jihatlarini tahlil qilgan maqolalar tanlab olindi. Natijada yakuniy tahlil uchun Scopus bazasidan saralangan 16 ta ilmiy maqola asosiy tahlil obyekti sifatida belgilandi.

Tanlangan maqolalardan ma’lumotlarni ajratib olish jarayonida mualliflar va chop etilgan yil, tadqiqot turi (empirik, eksperimental, tizimli sharh, bibliometrik tahlil), tadqiqot obyekti (talabalar, o‘qituvchilar yoki universitet siyosati), qo‘llanilgan generativ AI vositasi (ChatGPT, AI writing assistant va boshqalar), kompetensiya yo‘nalishlari (raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, akademik yozuv, muammolarni hal qilish), baholash mexanizmlari hamda asosiy natijalar va muammolar kabi ko‘rsatkichlar tizimli ravishda qayd etildi. Ushbu ma’lumotlar asosida maqolalar tematik tahlil (thematic analysis) yondashuvi orqali kodlanib, asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlandi.

Tahlil jarayonida generativ AI texnologiyalarining oliy ta’limdagi roli quyidagi tematik yo‘nalishlarda baholandi: generativ AI’ning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi, talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’siri, akademik halollik va baholash muammolari, o‘qituvchi rolining o‘zgarishi hamda ta’lim siyosati va institutsional boshqaruv masalalari. Mazkur tematik yo‘nalishlar orqali generativ AI texnologiyalarining oliy ta’lim tizimiga ta’siri, ijobiy imkoniyatlari va mavjud muammolari tizimli ravishda umumlashtirildi.

Tadqiqotning ilmiy ishonchliligini ta’minlash maqsadida faqat Scopus bazasida indekslangan manbalar tanlandi, saralash mezonlari qat’iy belgilandi hamda tahlil jarayonida maqolalardagi natijalar o‘zaro taqqoslandi va takrorlanadigan ilmiy xulosalar asosiy dalil sifatida umumlashtirildi. Shu bilan birga, tadqiqot ayrim cheklovlarga ega bo‘lib, ular Scopus bazasi bilan chegaralanganligi hamda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida generativ AI bo‘yicha empirik tadqiqotlar soni yetarli emasligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili asosida olingan natijalar generativ sun’iy intellektning O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi istiqbolli imkoniyatlarini baholash va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish uchun yetarli metodologik asos yaratadi.

Bugungi kundagi muammoli jarayonlar

1. Akademik halollikning buzilishi va plagiat xavfi

Generativ AI vositalarining keng ommalashuvi natijasida talabalar tomonidan referat, kurs ishi, esse va hatto bitiruv malakaviy ishlarini AI yordamida tayyorlash holatlari ko‘paymoqda. Bu esa akademik halollik tamoyillarining buzilishiga olib kelib, plagiatning yangi shaklini yuzaga chiqarmoqda. Eng muhim muammo shundaki, AI tomonidan yaratilgan matn ko‘pincha an’anaviy plagiat tekshiruv tizimlari orqali aniqlanmasligi mumkin.

2. Mustaqil fikrlash va tanqidiy tafakkurning susayishi

AI vositalari tezkor va tayyor javob berishi sababli talabalar bilimni chuqur tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va mustaqil fikr yuritish o‘rniga tayyor kontentga suyanib qolish ehtimoli ortmoqda. Natijada tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish va ijodiy tafakkur kabi kompetensiyalar rivojlanishi sekinlashishi mumkin.

3. Baholash tizimining obyektivligi pasayishi

Generativ AI topshiriqlarni tez va sifatli bajarib bera olgani sababli, oliy ta'limda an'anaviy yozma topshiriqlar (referat, esse, tahliliy matn) orqali baholashning ishonchliligi pasaymoqda. Bu esa o'qituvchining real bilim va kompetensiyani baholash imkoniyatini cheklaydi hamda adolatli baholash tamoyiliga putur yetkazadi.

4. Raqamli tengsizlik va imkoniyatlar notengligi

AI texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati barcha talabalarda bir xil emas. Ba'zi talabalar kuchli internet, pullik AI versiyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa, boshqalarda bu sharoit mavjud emas. Natijada raqamli tengsizlik kuchayib, ta'lim natijalarida farqlar yuzaga keladi.

5. AI natijalarining ishonchliligi va xatolik muammosi

Generativ AI tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlar har doim ham ilmiy jihatdan aniq va ishonchli bo'lavermaydi. Ba'zan AI noto'g'ri faktlar, mavjud bo'lmagan manbalar yoki xato tahlillarni berishi mumkin. Talabalar esa bu ma'lumotlarni tekshirmasdan qabul qilsa, noto'g'ri bilim shakllanishiga olib keladi.

6. Ilmiy manba va iqtiboslar bilan ishlashdagi muammolar

Generativ AI vositalari ko'pincha ilmiy manbalarni noto'g'ri keltirishi yoki mavjud bo'lmagan maqolalarga "havola" berishi mumkin. Bu holat talabalarning ilmiy yozuv madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda bibliografik xatoliklarni ko'paytiradi.

7. O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi

Ko'plab oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning generativ AI texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha metodik bilim va ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa AI vositalarini ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilishga to'sqinlik qiladi.

8. Ta'lim siyosati va reglamentlarning yetishmasligi

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida generativ AI texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha yagona me'yoriy hujjatlar va aniq qoidalar to'liq shakllanmagan. Natijada AI vositalaridan foydalanish tartibsiz, nazoratsiz va bir xil standartga ega bo'lmagan shaklda amalga oshmoqda.

9. Etik muammolar va ma'lumotlar xavfsizligi

AI platformalariga shaxsiy ma'lumotlar, talabaning ilmiy ishlari yoki universitet hujjatlarini yuklash orqali ma'lumotlar tarqalib ketishi xavfi mavjud. Bundan tashqari, AI'ning inson mehnatini "almashtirishi", mualliflik huquqi va intellektual mulk masalalari ham dolzarb etik muammo sifatida yuzaga chiqmoqda.

10. Kasbiy kompetensiyaning yuzaki shakllanish xavfi

AI vositalari talabaning vazifasini tez bajarib bergani sababli, talabada real amaliy ko'nikmalar shakllanmasligi mumkin. Bu ayniqsa pedagogika, muhandislik, tibbiyot, iqtisodiyot kabi amaliy yo'nalishlarda mutaxassis tayyorlash sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Muammolarning yechimlari

1. Akademik halollik va plagiat muammosining yechimi

- OTMlarda **AI'dan foydalanish reglamenti** (ruxsat etilgan va taqiqlangan holatlar) ishlab chiqilishi kerak.
- Kurs ishi, esse, referat kabi topshiriqlarda talabadan **AI'dan foydalanganini deklaratsiya qilish** (AI disclosure statement) talab qilinishi lozim.
- Plagiatni tekshirishda an'anaviy dasturlar bilan birga **AI-detection** (AI aniqlash) vositalari joriy qilinishi zarur.
- Baholashda faqat yozma ish emas, balki **og'zaki himoya**, "intervyu" va amaliy topshiriqlar ulushi oshirilishi kerak.

2. Mustaqil fikrlashning susayishi muammosining yechimi

- Talabalarni AI'dan faqat "tayyor javob" uchun emas, balki **tahlil va muhokama vositasi** sifatida foydalanishga o'rgatish kerak.
- Topshiriqlarni "javob yozish" emas, balki **asoslash, solishtirish, tahlil qilish, xulosa chiqarish** ko'rinishida tashkil etish tavsiya etiladi.
- Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun **case-study**, debat, muammoli vaziyatlar (problem-based learning) usullari keng qo'llanishi zarur.

3. Baholash tizimining obyektivligi pasayishining yechimi

- Baholash tizimi kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta tashkil etilib, **amaliy loyiha, laboratoriya, portfolio** kabi shakllar kuchaytirilishi lozim.
- Yakuniy baholashda talaba ishining **himoyasi** va muhokama asosida baholash mexanizmlari kengaytirilishi kerak.
- AI yordamida bajarilishi oson bo'lgan topshiriqlar o'rniga **real hayot muammolariga asoslangan** topshiriqlar ishlab chiqilishi lozim.

4. Raqamli tengsizlik muammosining yechimi

• Universitetlarda AI vositalaridan foydalanish uchun **bepul raqamli resurslar** va kompyuter laboratoriyalari imkoniyatlari kengaytirilishi zarur.

• Talabalarga AI'dan foydalanish bo'yicha **bir xil imkoniyat yaratish** (kampus Wi-Fi, kompyuter sinflari, kutubxona xizmatlari) talab etiladi.

• Davlat va universitet grantlari orqali AI texnologiyalarini ta'limga joriy etish uchun **raqamli infratuzilma** mustahkamlanishi lozim.

5. AI natijalarining ishonchliligi va xatolik muammosining yechimi

• Talabalarga AI javoblarini tekshirish va tasdiqlash uchun **fact-checking** madaniyatini shakllantirish zarur.

• Har bir ilmiy topshiriqda AI'dan olingan ma'lumotlar **manba bilan tasdiqlanishi shart** ekanligi talab qilinishi lozim.

• Talabalarga ilmiy maqola va rasmiy manbalar bilan ishlashni o'rgatuvchi **akademik yozuv** kurslari kuchaytirilishi kerak.

6. Ilmiy manba va iqtibos muammosining yechimi

• OTMlarda talabalar uchun **APA, IEEE, Chicago** kabi bibliografik standartlarni o'rgatish tizimi mustahkamlanishi lozim.

• Zotero, Mendeley kabi reference manager dasturlaridan foydalanish bo'yicha treninglar o'tkazish tavsiya etiladi.

• AI tomonidan berilgan manbalar majburiy tarzda **Scopus yoki Google Scholar orqali tekshirilishi** shart qilib belgilanishi zarur.

7. O'qituvchilar tayyorgarligi yetarli emasligi muammosining yechimi

• O'qituvchilar uchun generativ AI bo'yicha maxsus **malaka oshirish dasturlari** tashkil etilishi kerak.

• O'qituvchilarga AI yordamida dars ishlanma, test, rubrika, keys tayyorlash bo'yicha metodik qo'llanmalar berilishi lozim.

• Har bir OTMda AI bo'yicha **metodik markaz yoki innovatsion laboratoriya** tashkil etish tavsiya etiladi.

8. Ta'lim siyosati va reglamentlarning yetishmasligi muammosining yechimi

• Oliy ta'lim vazirligi va OTMlar darajasida generativ AI bo'yicha **yagona siyosiy hujjat (policy)** ishlab chiqilishi kerak.

• AI vositalaridan foydalanishning aniq qoidalari:

o ruxsat etilgan faoliyatlar,

o taqiqlangan holatlar,

o baholash tamoyillari,

o etik talablar bilan belgilanishi lozim.

9. Etik muammolar va ma'lumotlar xavfsizligi yechimi

• Talabalar va o'qituvchilar AI platformalariga shaxsiy ma'lumot, universitet hujjatlari yoki maxfiy materiallarni yuklamaslik bo'yicha ogohlantirilishi kerak.

• OTMda ma'lumotlar xavfsizligi uchun **axborot siyosati** va kiberxavfsizlik yo'riqnomalari joriy qilinishi zarur.

• AI etikasi bo'yicha alohida modul: **"AI ethics and digital responsibility"** kursi tashkil etilishi lozim.

10. Kasbiy kompetensiyaning yuzaki shakllanishi muammosining yechimi

• Ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun **dual education**, amaliyot, laboratoriya va ishlab chiqarish bilan integratsiya kuchaytirilishi kerak.

• Talabalarga AI vositalari "tayyor javob" emas, balki **ko'makchi instrument** ekanligi o'rgatilishi lozim.

• Baholash jarayonida "natija"dan ko'ra "jarayon" (process-based assessment) ustuvor bo'lishi kerak.

Maqolaning natijalari

Mazkur tadqiqot natijalari Scopus ma'lumotlar bazasida indekslangan generativ sun'iy intellekt (Generative AI) va oliy ta'lim mavzusiga oid tanlangan ilmiy manbalar tahlili asosida shakllantirildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, generativ AI texnologiyalari (ChatGPT, Gemini, Copilot va shunga o'xshash platformalar) O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga tobora faol integratsiyalashib bormoqda va bu jarayon talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy natijalarni yuzaga chiqarmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, generativ AI vositalari eng avvalo talabalarning **mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini** kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ldi. Talabalar ushbu texnologiyalar orqali murakkab mavzularni sodda tilda tushunish, tezkor izoh olish, konspekt tuzish hamda o'quv materiallarini tizimlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa o'quv jarayonining individuallashtirilishiga va talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, natijalar generativ AI vositalarining talabalarning **ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini** rivojlantirishdagi roli yuqori ekanini ko'rsatdi. Talabalar maqola va kurs ishlari tayyorlash jarayonida ilmiy matn tuzish,

reja ishlab chiqish, asosiy g‘oyalarni tahlil qilish hamda nazariy asoslarni shakllantirishda AI yordamidan keng foydalanmoqda. Bu jarayon ilmiy faoliyatni tezlashtirishi bilan birga, talabalarni ilmiy izlanishga qiziqtirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tahlil natijalariga ko‘ra, generativ AI texnologiyalari talabalarning **raqamli kompetensiyasini** oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Talabalar AI platformalaridan foydalanish jarayonida raqamli resurslarni tanlash, axborotni tahlil qilish, ma’lumotlarni qayta ishlash va raqamli vositalardan maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirmoqda. Bu esa zamonaviy mehnat bozorida talab etiladigan raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, generativ AI vositalari talabalarning **tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini** ham rivojlantirish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, AI bilan muloqot jarayonida talabalar savol berish, turli javoblarni taqqoslash, asosli xulosa chiqarish va alternativ yechimlarni izlash kabi faoliyatlarni bajarishga majbur bo‘ladi. Biroq ushbu kompetensiyalar faqatgina AI vositalari nazoratli va metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilgan holda qo‘llanganda rivojlanishi mumkinligi ham aniqlandi.

Tadqiqot natijalarida generativ AI’ning talabalarning **kreativ va innovatsion kompetensiyalarini** rivojlantirishdagi o‘rni ham alohida qayd etildi. Talabalar AI yordamida loyiha ishlari, prezentatsiyalar, dizayn elementlari, startap g‘oyalari hamda innovatsion takliflarni shakllantirishda faol foydalanmoqda. Bu esa oliy ta’limda loyiha asosida o‘qitish (project-based learning) yondashuvining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Biroq natijalar generativ AI texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi bilan bog‘liq bir qator muammolarni ham yuzaga chiqarganini ko‘rsatdi. Eng asosiy muammolar sifatida **akademik halollikning buzilishi**, **plagiat xavfining ortishi**, **baholash tizimining obyektivligi pasayishi** hamda **talabalarning mustaqil fikrlash jarayonining susayishi** qayd etildi. Ayniqsa, AI tomonidan yaratilgan matnlarni aniqlash murakkabligi sababli universitetlarda baholashning yangi shakllariga ehtiyoj kuchaygani aniqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari generativ sun’iy intellekt texnologiyalari O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim innovatsion omil ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, AI vositalaridan samarali foydalanish uchun normativ-me’yoriy hujjatlar, metodik yondashuvlar va akademik halollikni ta’minlovchi mexanizmlar takomillashtirilishi zarurligi ilmiy asoslandi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, generativ sun’iy intellekt texnologiyalari (ChatGPT va boshqalar) O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil ta’lim olish, ilmiy-tadqiqot olib borish, raqamli savodxonlik, kreativ fikrlash hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, generativ AI vositalarining keng qo‘llanilishi akademik halollik, plagiat xavfi, baholash tizimining obyektivligi hamda talabalar mustaqil fikrlashining susayishi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Demak, generativ AI texnologiyalarini oliy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ilmiy asoslangan metodik yondashuv, normativ tartibga solish va etik tamoyillar bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16(39), 1–27.

2. Kasneci, E., Sessler, K., Küchemann, S., Bannert, M., Dementieva, D., Fischer, F., ... & Kasneci, G. (2023). ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. Learning and Individual Differences, 103, 102274.

3. Dwivedi, Y. K., Kshetri, N., Hughes, L., Slade, E. L., Jeyaraj, A., Kar, A. K., ... & Wright, R. (2023). “So what if ChatGPT wrote it?” Multidisciplinary perspectives on opportunities, challenges and implications of generative conversational AI for research, practice and policy. International Journal of Information Management, 71, 102642.

4. Rudolph, J., Tan, S., & Tan, S. (2023). ChatGPT: Bullshit spewer or the end of traditional assessments in higher education? Journal of Applied Learning & Teaching, 6(1), 1–22.

5. Cotton, D. R. E., Cotton, P. A., & Shipway, J. R. (2023). Chatting and cheating? Ensuring academic integrity in the era of ChatGPT. Innovations in Education and Teaching International, 60(4), 1–12.

6. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. Center for Curriculum Redesign, 1–40.

7. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence unleashed: An argument for AI in education. Pearson Education, 1–52.

8. VanLehn, K. (2011). The relative effectiveness of human tutoring, intelligent tutoring systems, and other tutoring systems. Educational Psychologist, 46(4), 197–221.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mirzayev Saidmaxmud
Namangan davlat universiteti Jismoniy tarbiya va amaliy sport turlari kafedrasi b.f.n dotsent
e-mail: mirzayevs@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYA DARS MASHG'ULOT JARAYONIDA JISMONIY SIFATLARNI TARBIYALASHDA XARAKATLI O'YINLARNI O'RNI

Annotattsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarda jismoniy tarbiya dars mashg'ulot jarayonida jismoniy sifatlarni tarbiyalashda xarakatli o'yinlarni o'rni xamda ularni axamiti xaqida malumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *tezkorlik, kuchlilik, xalq o'yinlari, milliy o'yinlar, egiluvchanglik.*

Мирзаев Саидмахмуд
Наманганский государственный университет, кафедра физического воспитания и прикладных спортивных дисциплин, доцент

РОЛЬ ИГР-АКТИВНОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ В ПРОЦЕССЕ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В данной статье представлена информация о роли и важности активных игр в развитии физических качеств учащихся начальной школы во время уроков физкультуры.*

Ключевые слова: *ловкость, сила, народные игры, национальные игры, гибкость.*

Mirzayev Saidmakhmud
Namangan State University, Department of Physical Education and Applied Sports, Ph.D. associate professor

THE ROLE OF ACTIVITY GAMES IN THE EDUCATION OF PHYSICAL QUALITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION LESSONS IN PRIMARY GRADE STUDENTS

Annotation. *This article provides information about the role and importance of active games in developing physical qualities in primary school students during physical education lessons.*

Key words: *speed, strength, folk games, national games, flexibility.*

Ishning dolzarbligi. Mamlakatimiz ko'plab sohalarda katta o'zgarishlar amalga oshirildi, xususan bolalar sportiga juda katta e'tibor berila boshlandi. Chunki yurtni kelajagi mamalakatimizda o'sib kelayotgan yoshlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi hammaga ayon. Bolaning o'sishi va rivojlanishi bilan o'yinlarning mazmuni ham o'zgarib boradi: o'yin faoliyati dastlabki bosqichlarda oddiy xarakterda bo'lsa, keyinchalik u boyib boradi. Masalan, u har bir o'yin oldiga aniq maqsadlar qo'yishi, o'tkazilayotgan o'yin qatnashuvchilarning kuch va qobiliyatlariga mos kelishi, o'yin shug'ullanuvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozimligini, ularni tizimli tarzda hamda muntazam o'tkazish, o'quvchilarning faolligi, mustaqilligini oshirishga harakat qilish zarurligini uqtirgan edi.

7-10 yoshli bolalar yoshiga mos o'yinlarni jismoniy sifatlarni rivojlantirishiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. *Tezkorlikni tarbiyalovchi o'yinlar;*
2. *Kuchni oshiruvchi o'yinlar;*
3. *Chaqqonlikni rivojlantiruvchi o'yinlar;*
4. *Chidamlilikni rivojlantiruvchi o'yinlar;*
5. *Egiluvchanlikni tarbiyalovchi o'yinlar;*

Ayrim o'yin turlari bolalarning barcha bo'g'inlariga mos kelishi mumkin, ya'ni jismoniy sifatlarni yaxlit holda tarbiyalashga qaratilgan o'yinlar ko'pchilikni tashkil etadi, ularda turli jismoniy sifatlar ketma-ket rivojlanishi mumkin.

O‘yinlardagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, turmush tajribasi kengayishi, katta yoshdagi odamlar turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog‘liqdir. Darhaqiqat, o‘yinlarning oddiydan murakkabga tomon o‘sishi turmushning tobora yangi qirralarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, muayyan o‘yinning o‘ziga xos boshqa ko‘rinishlari bilan boyishi sababli amalga oshadi.

1. Tezkorlikni tarbiyalovchi o‘yinlar. Tezkorlikni tarbiyalash uchun mashqlar maksimal suratda bajarilishi lozim. Signalga binoan tezlikda javob berilishini muayyan vaqt birligi ichida ko‘p harakatlar bajarilishini hamda butun tana yoki uning bir qismini fazoda tezlik bilan harakat qilishini talab qiladigan o‘yinlar o‘quvchida tezkorlik sifatini rivojlantiradi. Bunda ko‘proq ikki guruhning faol musobaqalashishiga olib keladigan o‘yinlar o‘tkazishga e’tibor qaratiladi. Harakatdagi ob’ektga nisbatan bo‘lgan reaktsiyani tarbiyalovchi o‘yinlar bu o‘rinda yaxshi natija beradi. Bunday o‘yinlarga “Do‘ppi kiyishda kim g‘olib?”, “To‘rt muyush”, “Bo‘sh joy”, “Kim tez o‘ynaydi” kabilarni kiritish mumkin.

2. Kuchni rivojlantiruvchi o‘yinlar. Bunda o‘qituvchi kerakli mushak guruhlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan o‘yinlarni tanlashi lozim. Kuchni rivojlantiruvchi o‘yinlarda o‘quvchi o‘z tana og‘irligini, bironta tashqi og‘irlikni yoki raqib og‘irligini(qarshiligini) yengadi. Kuchni rivojlantirish uchun quyidagi o‘yinlar tavsiya etiladi: “Xo‘roz-xo‘roz” o‘yini, “Uloq”, “Otdan ag‘darish” , “Oqsoq bo‘ri va qo‘ylar”, “Chuqurga tushir” kabilar.

3. Chaqqonlikni tarbiyalovchi o‘yinlar. Aniq harakat qilish zarur bo‘lgan, bajarish sharoitlari o‘zgaruvchan milliy o‘yinlarda chaqqonlik yaxshi rivojlangan bo‘lishi kerak. Shunga tayangan holda chaqqonlikni tarbiyalash uchun “Almash qadamlar”, “Tiriltirishma”, “Urdi-qochdi”, “Olacha tovuq”, “Kim chaqqon” kabi o‘yinlarni tavsiya etish mumkin.

4. Chidamlilikni tarbiyalovchi o‘yinlar. Ko‘pchilik milliy xalq harakatli o‘yinlarida nihoyatda jadal bajariladigan mashqlar tufayli tezkorlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlar tarbiyalanadi. Bunday o‘yinlarda jismoniy yuk (nagruzka) ham asta-sekin oshirib boriladi. Masalan, maydonni kattalashtirish; maydonni kichraytirmay turib o‘yinchlarning sonini kamaytirish; o‘yin jihozlari sonini ko‘paytirish (tayoqcha, ro‘molcha, do‘ppi, chopon, to‘p v.h.) yugurish masofasini uzaytirish; to‘siqlar sonini oshirish; murakkab mashqlarni qo‘llash va ularning sonini ko‘paytirish va hokazo.

Ko‘rsatilgan bu usullar izchillik bilan qo‘llanilganda maqsadga tezroq erishiladi. Mazkur jismoniy sifatni tarbiyalovchi o‘yinlarga “Oqsoq qarg‘a”, “Lanka”, “Podachi” kabilarni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

5. Egiluvchanlikni tarbiyalash. 7-10 yoshli bolalarda egiluvchanlikni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish lozim, chunki yuqorida aytganimizdek, bu yoshdagi bolalarning egiluvchanlik sifatining o‘sishi sekinlashadi. Egiluvchanlikni tarbiyalash maqsadida ayrim mushak guruh va bo‘g‘inlariga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘yinlar tanlab olinadi. Bu o‘yinlar asosan maxsus sport jihozlari yordamida o‘tkaziladi. Og‘irliklar o‘rnida shug‘ullanuvchilarning o‘zlari ham qatnashishlari mumkin.

Faol egiluvchanlik mushaklarning kuchiga bog‘liq. Mushaklarning cho‘ziluvchanlik xususiyatlari esa markaziy nerv tizimining ta’sirida o‘zgaradi. SHuning uchun bu o‘yinlarga o‘quvchilar zavq-shavq bilan qatnashganda egiluvchanlik yuqori bo‘ladi. Egiluvchanlikni talab qiladigan o‘yinlardan oldin tegishli yengil jismoniy mashqlar bajarilishi lozim.

Egiluvchanlikni tarbiyalash uchun “Tizza ostida ro‘molcha”, “Tayoqni davraga irg‘itish”, “To‘siqdan sakrab o‘tish”, “Tosh o‘yin” kabi o‘yinlar tavsiya etiladi. Masalan, biz 7-10 yoshli o‘quvchilar uchun qiziqarli va egiluvchanlik sifatini samarali ravishda oshiradigan «Tosh o‘yin» o‘yinini tavsiya etamiz.

Xalq milliy o‘yinlarini bolalar jinsiga qarab tasnif etishning o‘ziga xos sabablari mavjud. Chunki kichik maktab yoshidagi o‘g‘il va qiz bolalar jismoniy rivojlanishida ba’zi bir farqlar kuzatiladi. O‘g‘il bolalarning bo‘yi va og‘irligi o‘rtacha olganda ortiqroq, ko‘krak qafasi kengroq va o‘pkaning faoliyat hajmi kattaroq bo‘ladi. O‘g‘il bolalarda muskul kuchi yaxshiroq rivojlanadi. Shunga bog‘liq ravishda ularning harakat qobiliyatlari farqlanadi. O‘g‘il bolalar tezroq yugurishadi, uzoqroq va balandroqqa sakrashadi. Yaxshiroq uloqtirishadi, ular kuchliroq va chidamliroq bo‘ladilar.

Jismoniy rivojlanishning qonuniy xususiyatlari 1-va 2-sinflardagi o‘g‘il va qiz bolalarni jismoniy tarbiyalash vositalarini tanlashda aks etmaydi. 3-sinfdan boshlab o‘g‘il bolaga nisbatan qiz bolalarga ko‘proq mashqlar berish mumkin. Ularga yukni ko‘tarish va bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish, qarshilikni yengish, uzoqroq muddat yugurish, sakrash balandligini oshirish, shuningdek, uloqtirishda nishon orasidagi masofani uzaytirishdan iborat. Qizlarga mayin, ritmik raqs harakatlariga asoslangan xalq harakatli o‘yinlarini o‘g‘il bolalarga qaraganda ko‘proq o‘rgatish kerak. Xalq harakatli o‘yinlarini mana shu xususiyatlarga qarab tanlash lozim. Shu jihatdan qaraganda milliy xalq harakatli o‘yinlarini ikki guruhga bo‘lib, o‘rganish mumkin:

1. O‘g‘il bolalarga mo‘ljallangan o‘yinlar-o‘g‘illar o‘yini
2. Qiz bolalarga mo‘ljallangan o‘yinlar -qizlar o‘yini
3. Ham o‘g‘il bolalar, ham qizlar o‘ynaydigan o‘yinlar, qo‘shma o‘yinlar.

O‘g‘il bolalarning fiziologik va jismoniy xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga “Xo‘roz-xo‘roz”, “Chopon ko‘l”, “Otdan ag‘darish”, “Tayoqni davraga irg‘itish”, “Lanka”, “Qilichbozlar” kabi o‘yinlarni tavsiya etish mumkin.

Qiz bolalarning o‘yinlari nisbatan kamchilikni tashkil etadi, shunday bo‘lsa-da, ularga “Tosh terish”, “Chumchuqcha”, “Kim chaqqon”, “Doira ichida raqs” v.h.

Qo‘shma o‘yinlarga “Almash qadamlar”, “Ona tovuq va hakka”, “Tiriltirishma”, “Urdi- qochdi”, “Do‘ppi kiyishda kim g‘olib?”, “To‘rt muyush”, “Yulduz”, “Kunduz-kecha”, “Olomon poyga”, “Tizza ostida ro‘molcha”, “Uloq”, “Oqsoq qarg‘a”, “Oqsoq bo‘ri va qo‘ylar”, “Qopqon”, “Qarmoqcha”, “Podachi” kabi juda ko‘plab o‘yinlarni tavsiya etish mumkin.

Harakatli o‘yinlar tasnifidan ko‘rinadiki, ko‘pchilik o‘yinlar qo‘shma o‘yinlar hisoblanadi. Shuning uchun ularni o‘g‘il va qiz bolalar birgalikda bajaradilar. Kurash elementini o‘z ichiga olgan mashqlar bajarilayotganda qizlar sherigi - dugonalari bilan birgalikda birmuncha osonroq o‘yinlarni bajaradilar yoki o‘qituvchining topshirig‘iga binoan boshqa guruhda shug‘ullanadilar.

7 Yoshli o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari

№	Testlar	Jinsi	n	Tajriba $\bar{x} \pm m$	Nazorat $\bar{x} \pm m$	t	P
1.	Yuqori startdan 30 m.ga yugurish .	O‘	19	7,5 ± 0,10	8,0 ± 0,08	1,92	>0.05
		Q	13	7,8 ± 0,11	8,2 ± 0,09	1,37	>0.05
2.	3x10m.ga mokisi-mon yugurish.	O‘	19	9,6 ± 0,10	10,4 ± 0,08	1,59	>0.05
		Q	13	10,1 ± 0,09	10,7 ± 0,11	1,33	>0.05
3.	Arg‘amchidan sak-rash (30 soniyada)	O‘	19	19,2 ± 0,40	16,6 ± 0,59	1,43	>0.05
		Q	13	23,2 ± 0,70	19,6 ± 0,42	1,04	>0.05
4.	Turgan joydan uzun.ka sak.(sm)	O‘	19	123,1 ± 0,64	118,2 ± 0,69	2,76	<0.05
		Q	13	119,2 ± 1,28	116,2 ± 1,87	2,65	<0.05
5.	Nishonga urish (5 imkoniyat 8 m. Masofa)	O‘	19	1,5 ± 0,25	1,3 ± 0,10	1,76	>0.05
		Q	13	1,5 ± 0,18	1,2 ± 0,22	1,24	>0.05
6.	150gr. koptogini uloqtirish (sm .)	O‘	19	18,5 ± 0,46	16,6 ± 0,41	1,56	>0.05
		Q	13	14,2 ± 0,25	12,9 ± 0,45	1,35	>0.05

Xulosa. Jismoniy tarbiya darslaridagi harakatli o‘yinlarda aqliy va jismoniy tarbiya jarayonlari qo‘shib olib borilishi, ularning tarbiyaviy jihatlarini ko‘zda tutish lozimdir. Buning uchun o‘qituvchilar va mutaxassis xodimlar harakatli o‘yinlarning mazmunlariga jiddiy e’tibor berishlari, o‘tiladigan joy va kerakli asbob-uskunalardan ehtiyotkorlik bilan, maqsadli foydalanishlariga to‘g‘ri keladi. Harakatli o‘yinlarda ijtimoiy mehnat tarbiyasi “Qo‘shma o‘yinlarga “Almash qadamlar”, “Ona tovuq va hakka”, “Tiriltirishma”, “Urdi- qochdi”, “Do‘ppi kiyishda kim g‘olib?”, “To‘rt muyush”, “Yulduz”, “Kunduz-kecha”, “Olomon poyga”, “Tizza ostida ro‘molcha”, “Uloq”, “Oqsoq qarg‘a”, “Oqsoq bo‘ri va qo‘ylar”, “Qopqon”, “Qarmoqcha”, “Podachi” kabi juda ko‘plab o‘yinlarni tavsiya etish mumkin. Bu o‘yinlarning mazmunida mehnat turlari ifoda etilib, shug‘ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishdagi eng muhim bo‘lgan sifat belgilari ifodalanadi. Shu asosda o‘quvchi-yoshlarning salomatliligi, qiziqishi va jinsiga qarab o‘yinlarni tanlash lozim. Kasb-hunar yo‘lidagi o‘quvchilarga moslashtirib, ixtisoslikka qaratilgan harakatli o‘yinlarni ham saralash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev.A, Xonkeldiev.Sh.X Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2016. -410.b

2. Kerimov.F.A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. Toshkent “Ilmiy-texnika axboroti – press nashriyoti ” -2021.-68.b.

3. Salomov.R.S Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik –Toshkent 2014-yil 284 b

4. Artikov A.A. Alimjanov S.I. Shukurova Sh.T. Futbolchilarning mashg‘ulot jarayonida pedagogik nazorat. Uslubiy qo‘llanma Toshkent. 2014 y. 62 b.

5. Bekturov O.Yo. Yosh futbolchilarning nazariy bilimlarni oshirish. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent. 2013y. 35 bet.

6. Davletmuradov S.R. Futboichilarni tayyorlashda pedagogoik nazorat. Uslubiy qo‘llanma Toshkent 2014 y.26 bet

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jo'rayev Dilnoza
Namangan davlat universiteti
An'anaviy honandalik va cholg'u ijrochiligi
kafedrasi o'qituvchisi

MUSIQA SAN'ATINING ESTETIK VA TARBIYAVIY TA'SIRINI CHUQUR TUSHUNISH VA O'QITUVCHILARGA YETKAZISHDA PEDAGOGNING KASBIY MAHORATI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada musiqa san'atining estetik va tarbiyaviy ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida musiqa ta'limida pedagogning kasbiy mahorati o'quvchilarning estetik didi va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi asosiy omil ekani asoslab beriladi. IMRAD (Introduction, Methods, Results, Discussion) talablari asosida tuzilgan ushbu maqola musiqa o'qituvchilari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *musiqa san'ati, estetik tarbiya, tarbiyaviy ta'sir, pedagogik mahorat, musiqiy ta'lim, ma'naviyat.*

Джураев Дилноза
Наманганский государственный университет
Преподаватель кафедры традиционного пения и инструментального исполнительства

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ НАВЫКИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ГЛУБОКОМ ПОНИМАНИИ И ПЕРЕДАЧЕ ЭСТЕТИЧЕСКОГО И ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ МУЗЫКИ УЧИТЕЛЯМ

Аннотация: *В данной статье анализируется эстетическое и воспитательное воздействие музыки с научной, теоретической и практической точек зрения. В ходе исследования обосновывается, что профессиональные навыки преподавателя в области музыкального образования являются основным фактором формирования эстетического вкуса и духовно-нравственных качеств учащихся. Данная статья, составленная на основе требований ИМРАД (Введение, Методы, Результаты, Обсуждение), направлена на совершенствование деятельности преподавателей музыки.*

Ключевые слова: *музыка, эстетическое воспитание, воспитательное воздействие, педагогические навыки, музыкальное образование, духовность.*

Jurayev Dilnoza
Namangan State University
Teacher of the Department of Traditional
Singing and Instrumental Performance

THE PROFESSIONAL SKILLS OF A TEACHER IN DEEPLY UNDERSTANDING AND CONVEYING THE AESTHETIC AND EDUCATIONAL IMPACT OF MUSIC TO TEACHERS

Annotation:*This article analyzes the aesthetic and educational impact of music from a scientific, theoretical and practical perspective. In the course of the research, it is substantiated that the professional skills of a teacher in music education are the main factor in the formation of students' aesthetic taste and spiritual and moral qualities. This article, compiled on the basis of IMRAD (Introduction, Methods, Results, Discussion) requirements, is aimed at improving the activities of music teachers.*

Keywords*: music, aesthetic education, educational impact, pedagogical skills, musical education, spirituality.*

Kirish

Musiqa san'ati insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, u shaxsning ruhiy, estetik va axloqiy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy o'zining "Musiqa ilmi"ga oid qarashlarida musiqani inson ruhiyatini uyg'otuvchi va tarbiyalovchi vosita sifatida talqin etgan. Shuningdek, G'arb musiqa madaniyatida Ludwig van Beethoven ijodi insonning ichki erki va ma'naviy kuchini ifodalovchi yuksak san'at namunasi sifatida e'tirof etiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida musiqa darslari nafaqat badiiy-estetik bilim berish, balki o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Shu nuqtai nazardan, pedagogning kasbiy mahorati musiqa san’atining estetik va tarbiyaviy imkoniyatlarini chuqur anglash hamda uni samarali yetkazish jarayonida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – musiqa san’atining estetik va tarbiyaviy ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilish hamda bu jarayonda pedagogning kasbiy kompetensiyalarini aniqlashdan iborat.

Metodlar

Mazkur tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

1. **Nazariy tahlil metodi** – musiqa san’ati, estetik tarbiya va pedagogik mahoratga oid ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish.
2. **Kuzatuv metodi** – umumta’lim maktablaridagi musiqa darslari jarayonini kuzatish.
3. **So‘rovnoma** – 5–9-sinf o‘quvchilari hamda musiqa o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan anonim so‘rovlar.
4. **Taqqoslash metodi** – an’anaviy va interfaol metodlar asosida o‘tilgan darslar samaradorligini qiyosiy o‘rganish.

Tadqiqot jarayonida musiqa darslarida ijodiy topshiriqlar, jamoaviy kuylash, musiqiy tahlil va multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligi o‘rganildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- Musiqa darslarida interfaol metodlardan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilarning estetik didi va musiqiy tafakkuri yuqori darajada rivojlangan.
- Jamoaviy kuylash jarayonida o‘quvchilarda hamkorlik, mas’uliyat va intizom hissi shakllangan.
- Pedagogning ijrochilik mahorati va emotsional ifodadorligi dars samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.
- Musiqa asarlarining mazmunini tarixiy va madaniy kontekstda tushuntirish o‘quvchilarning qiziqishini oshirgan.

Masalan, Wolfgang Amadeus Mozart va Johann Sebastian Bach asarlarini tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar musiqiy obraz va kayfiyatni mustaqil izohlashga harakat qilganlari kuzatildi. Bu esa ularning estetik idrokini rivojlantirgan.

Muhokama

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, musiqa san’ati o‘quvchilarning nafaqat estetik didini, balki ma’naviy-axloqiy fazilatlarini ham rivojlantiradi. Biroq bu jarayon samaradorligi pedagogning kasbiy mahoratiga bevosita bog‘liq.

Pedagog quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim:

- **Metodik kompetensiya** – darsni to‘g‘ri rejalashtirish va zamonaviy metodlarni qo‘llash;
- **Psixologik kompetensiya** – o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish;
- **Ijodiy kompetensiya** – musiqani ifodali talqin qilish va ijodiy muhit yaratish;
- **Kommunikativ kompetensiya** – o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish.

Shuningdek, milliy musiqa merosini o‘rganish o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini mustahkamlaydi. Shu bois musiqa darslarida xalq kuy-qo‘shiqlari, maqom namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Musiqa san’ati inson shaxsini har tomonlama rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Uning estetik va tarbiyaviy ta’siri chuqur va keng qamrovli bo‘lib, shaxsning ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogning kasbiy mahorati musiqa ta’limining samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. Shuning uchun musiqa o‘qituvchilarining metodik va ijodiy salohiyatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Forobiy A.N. Musiqa ilmi haqida risolalar.
2. Musiqa pedagogikasi va metodikasi bo‘yicha ilmiy manbalar.
3. Estetik tarbiya nazariyasiga oid tadqiqotlar.
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy maqolalar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ismoilov Turabjon
NamDU professori
Toshtanov Sardorbek
ADPI magistri

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QUV KUN TARTIBIDA SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARINI O'TKAZISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya: *mazkur maqolada boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlarining ahamiyati batafsil yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, harakat faolligi, pedagogik tajriba.*

Исмоилов Турабьон
Профессор НамГУ
Тоштанов Сардорбек
Магистр АДПИ

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ МЕРОПРИЯТИЙ ПО ПРОПАГАНДЕ ЗДОРОВЬЯ В УЧЕБНУЮ ПРОГРАММУ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: *в данной статье раскрывается сущность проведения оздоровительных мероприятий в учебном процессе учеников начальных классов.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, оздоровление, физическое развитие, физическая подготовка, двигательная активность, педагогический эксперимент.*

Ismoilov Turabjon
Professor of NamSU
Toshtanov Sardorbek
Master of ADPI

EFFECTIVENESS OF IMPLEMENTING HEALTH-PROMOTION ACTIVITIES IN THE CURRICULUM OF PRIMARY STUDENTS

Annotation: *this article is dedicated to the study of the importance of health care activities to be held in primary forms of secondary schools.*

Key words: *physical training, recovery, physical developing, physical readiness, physical training, physical activity, pedagogical experience.*

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol va sog'lom qilib tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda komil insonni tarbiyalash doimo asosiy va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biri bo'lib kelgan.

Bugungi kundagi eng asosiy vazifalardan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan iboratdir. Shu boisdan ham respublikamiz rahbariyati va shaxsan prezidentimiz tomonidan bu borada katta ishlar qilinib kelinmoqda. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishi, "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'risida"gi Farmonlari fikrimizning yorqin ifodasidir[1;2;3].

Respublikamizda istiqomat qilib kelayotgan insonlarning salomatligini mustaxkamlash borasida ham doimiy ravishda katta ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Prezidentimiz tomonidan respublikamizda ommaviy sportning sifat

va samaradorligini oshirish maqsadida 2024-yil 24 yanvarda “O’zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni sport ishlarini tizimli yo’lga qo’yishda dasturi amal bo’lib kelmoqda[3].

Bugungi kunning dolzarb va kechiktirib bo’lmaydigan vazifalaridan biri ta’lim muassasalarida, oilalarda ommaviy sportning sifatiga va samaradorligiga e’tiborni oshirish bilan shug’ullanuvchilar sog’ligini yanada mustahkamlashdan iboratdir. Bu vazifalarni amalga oshirishda prezidentimiz tamonidan ishlab chiqilgan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo’yicha 5 ta muhim tashabbusni hayotga tadbiq etilishi katta ahamiyatga ega bo’ldi.

O’sib kelayotgan yosh avlodni sog’lom, etuk va har tomonlama barkamol insonlar qilib voyaga etkazishda umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quvchilar bilan o’tkaziladigan o’quv kun tartibidagi sog’lomlashtirish tadbirlarini ahamiyati kattadir[4].

O’rganib chiqilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlilidan ma’lum bo’ldiki, bugungi kunda umumiy o’rta ta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya olayotgan o’gil va qiz bolalarning kunlik harakat faolligi ularning yoshi uchun qo’yilgan me’yor talablariga to’liq javob bermasligini ko’rsatdi.

O’tkazilgan pedagogik kuzatishlardan aniqlandiki, hozirgi kunda umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi boshlang’ich sinf o’quvchilar bilan o’quv kun tartibidagi sog’lomlashtirish tadbirlari o’tkazilayotgan bo’lsada lekin uning sifati va samaradorligi bugungi kunda qo’yilgan talab darajasiga to’liq javob bermaydi.

O`sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri bo`lib, uni amalga oshirishda boshlang’ich sinf o’quvchilari bilan jismoniy tarbiya sog’lomlashtirish tadbirlari jarayonida samaradorlikni oshirish yo`llarini aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

Boshlang’ich sinf o`quvchilarini sog’ligini mustahkamlash va jismonan barkamol qilib tarbiyalashni jismoniy tarbiya sog’lomlashtirish tadbirlarisiz amalga oshirib bo`lmaydi.

Bugungi kunning dolzarb va kechiktirib bo’lmaydigan vazifalaridan biri ishlab chiqarish korxonalarida, ta’lim muassasalarida, oilalarda, mahallalarda, ommaviy sportning sifatiga va samaradorligiga e’tiborni oshirish bilan shug’ullanuvchilar sog’ligini yanada mustahkamlashdan iboratdir. Bu vazifalarni amalga oshirishda prezidentimiz tamonidan ishlab chiqilgan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo’yicha 5 ta muhim tashabbusni hayotga tadbiq etilishi katta ahamiyatga ega bo’ldi.

Boshlang’ich sinf yoshidagi o’quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida o’quv kun tartibidagi jismoniy tarbiya va sog’lomlishtirish tadbirlarini o’tkazish bo’yicha bolalarning pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda dastur ishlab chiqildi.

Tadqiqot ishlarini o’tkazish maqsadida, pedagogik kuzatishlar natijasiga asosan sharoiti bir-biriga yaqin bo’lgan umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi boshlang’ich sinflardan tajriba-sinov va nazorat guruhlari tanlab olindi.

Tajriba-sinov va nazorat maktablaridagi boshlang’ich sinf yoshidagi bolalarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida testlar ishlab chiqdik. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini jismoniy tayyorgarligi ishlab chiqilgan testlar asosida aniqlandi. Olingan ma’lumotlar matematik-statistik usulda tahlil qilindi va umumlashtirildi. Yigib olingan ma’lumotlarni tahlilidan ma’lum bo’ldiki, tajriba-sinov va nazorat guruhlaridagi o’quvchilarning jismoniy tayyorgarligi o’zaro taqqoslanganda statistik jihatdan farq bo’lmadi.

Tadqiqot ishlarini o’tkazish jarayonida ishlab chiqilgan dastur asosida tajriba-sinov guruhida o’quv kun tartibidagi jismoniy tarbiya-sog’lomlashtirish tadbirlari jismoniy tarbiya o’qituvchisi tomonidan olib borildi va muntazam ravishda nazoratga olindi.

Nazorat guruhidagi o’quvchilar bilan o’quv kun tartibidagi jismoniy tarbiya-sog’lomlashtirish tadbirlari oldin qanday bo’lsa shundayligicha o’tkazildi va nazoratchi tamonidan hech qanday ta’sir ko’rsatilmadi.

Tajriba ishlarini samaradorligini o’rganish maqsadida tajriba-sinov va nazorat guruhlaridagi o’quvchilarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida testlar qabul qilindi. Testlar asosida yig’ib olingan ma’lumotlar matematik-statistik usulda tahlil qilindi va umumlashtirildi.

Olingan ma’lumotlarning tahlili shuni ko’rsatdiki, tajriba-sinov guruhidagi o’quvchilarning jismoniy tayyorgarligi yaxshilanishi bilan birgalikda ularning kunlik harakat faolligi ortganligi aniqlandi, dastlabki va yakuniy olingan testlar bo’yicha statistik farqqa erishildi. Nazorat guruhidagi bolalardan olingan ma’lumotlar taqqoslanganda ularning jismoniy tayyorgarligi va kunlik harakat faolligi yaxshilangan bo’lsada, lekin statistik jihatdan farqqa erishilmadi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari bilan o’tkazilgan tajriba-sinov ishlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, o’quv kun tartibidagi sog’lomlashtirish tadbirlarini bolalarning pedagogik hususiyatlarini nisobga olib o’tkazilishi, ularning salomatligini mustahkamlash bilan birgalikda organizmni kunlik harakatga bo’lgan ehtiyojini ta’minlaydi va jismoniy tayyorgarligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

1.Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. – Тошкент. 2015. 5 сентябрь.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. – Тошкент. 2020. 24 январь, ПФ-5924-сон.

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – Тошкент. 2022. 22 январь, ПФ-60-сон.

4.Исмоилов Т.У. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг педагогик хусусиятлари. Дис. ... пед.фан.ном. – Тошкент: 2010. – 157 б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Azizov Nosirjon Ne'matillayevich
Namangan davlat universiteti San'at va Sport fakultet
Sport turlari nazariyasi va metodikasi kafedrasi
pedagogika fanlari doktori (DSc) professor
azizov1288@mail.ru

MALAKALI DZYUDOCHILARNING MUSOBAQAOLDI TAYYORGARLIGINI REJALASHTIRISHDA FUNKSIONAL XUSUSIYAT KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Annotatsiya. *Dzyudochilarning musobaqaoldi tayyorgarligini rejalashtirishda funksional xususiyat ko'rsatkichlari tahlili. Aniqlandiki, Funksional tayyorgarlik bu mushaklarning o'ziga xos faolligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turli xil tana tizimlarining ma'lum darajadagi faolligini aks yettiruvchi ajralmas ko'rsatkich hisoblanadi. Sportdagi funksional mashg'ulotlarning maqsadi funksional moslashuv chegaralarini kengaytirishdir, bu yuqori sport mahoratiga erishish bilan birga sog'liqqa zarar yetkazmasdan ko'p miqdordagi mashg'ulotlar va raqobatbardosh yuklamalarni ko'tarish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *Dzyudochilar, shtange sinovi, funksional, genchi sinovi, rufye test, ortostatistik sinov.*

Азизов Носиржон Нематиллаевич
Наманганский государственный университет, факультет искусств и спорта
Кафедра теории и методики спорта
Доктор педагогических наук (DSc), профессоре

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИМ ПРИЕМАМ В ДЗЮДО

Аннотация. *Анализ функциональных характеристик при планировании предсоревновательной подготовки дзюдоистов. Установлено, что функциональная тренировка является интегральным показателем, отражающим определенный уровень активности различных систем организма, необходимый для обеспечения специфической работы этих мышц. Цель функциональной тренировки в спорте – расширение границ функциональной координации, что, наряду с достижением высоких спортивных навыков, позволяет увеличить тренировочный объем и соревновательные нагрузки без вреда для здоровья.*

Ключевые слова: *Дзюдо, тест со штангой, функциональный тест, тест Генши, тест Раффа, ортостатический тест.*

Azizov Nosirjon Ne'matillayevich
Namangan State University Faculty of Arts and Sports
Department of Theory and Methodology of Sports
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc) Professore

METHODS OF TRAINING TECHNICAL-TACTICAL MOVES IN JUDO

Abstract. *Analysis of functional characteristics in planning the pre-competition training of judokas. It was found that functional training is an integral indicator that reflects a certain level of activity of various body systems necessary to ensure the specific activity of these muscles. The goal of functional training in sports is to expand the boundaries of functional coordination, which, along with achieving high sports skills, allows for increased training volume and competitive loads without harm to health.*

Keywords: *Judo, barbell test, functional, genshi test, ruff test, orthostatic test.*

Dzyudoda raqobat qoidalarining o'zgarishi, texnik va taktik harakatlar arsenalini cheklash tufayli sportchilarning umumiy va maxsus funksional tayyorgarligi darajasiga talablar oshmoqda. Funksional tayyorgarlik bu mushaklarning o'ziga xos faolligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turli xil tana tizimlarining ma'lum darajadagi faolligini aks yettiruvchi ajralmas ko'rsatkich hisoblanadi. Sportdagi funksional mashg'ulotlarning maqsadi funksional moslashuv chegaralarini kengaytirishdir, bu yuqori sport mahoratiga erishish bilan birga sog'liqqa zarar yetkazmasdan ko'p

miqdordagi mashg‘ulotlar va raqobatbardosh yuklamalarni ko‘tarish imkonini beradi. Sportda funksional mashg‘ulotlarni boshqarish samaradorligi sportning xususiyatlarini hisobga olgan holda tananing o‘quv ta’siriga moslashish reaksiyalarini nazorat qilishga bog‘liq.

Hozirgi vaqtda dzyudouslubidagi kurashchilarning yillik mashg‘ulot siklidagi funksional tayyorgarligini kuzatish mezonlari mashg‘ulot jarayonining maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Texnik jihatdan murakkab sport turlarida, jumladan kurashda, yuksak sport natijalariga erishish uchun sportchining texnik mahorat darajasi, ratsional texnika sirlarini bilish, ularni aniq sodir bo‘lishi kutiladigan vaziyatlarda amalga oshirish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni to‘liq egallashi hamda tobora takomillashtirib va mustahkamlab borishi birinchi darajali ahamiyatga ega. Kurashchining texnikasini takomillashtirish jarayoni, ayniqsa uni yuksak sport mahorat darajasiga yetkazish bosqichida, sezilarli qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Ushbu jarayonda, birinchi navbatda, texnikani muntazam takomillashtirish va shu bilan birga uni doimo kurashchining taktik va irodaviy-ruhiy tayyorgarligi darajasiga mos keltirish zaruratini aytib o‘tish kerak. Kurashchi harakatlanish faoliyatining turli tomonlarini bunday murakkab o‘zaro ta’siri (yoki aniqrog‘i o‘zaro moslashishi) sportchining bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va takomillashtirish jarayonida o‘z aksini topadi. Funksional tayyorgarlik bu mushaklarning o‘ziga xos faolligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan turli xil tana tizimlarining ma’lum darajadagi faolligini aks yettiruvchi ajralmas ko‘rsatkich hisoblanadi. Sportdagi funksional mashg‘ulotlarning maqsadi funksional moslashuv chegaralarini kengaytirishdir, bu yuqori sport mahoratiga erishish bilan birga sog‘liqqa zarar yetkazmasdan ko‘p miqdordagi mashg‘ulotlar va raqobatbardosh yuklamalarni ko‘tarish imkonini beradi. Ushbu bilim, ko‘nikma va malakalar har bir sport turida va uning rivojlanishini turli bosqichlarida ixtisoslashgan xususiyatlarga ega bo‘ladi. Shuning uchun yuksak sport mahorati darajasiga mos texnik tayyorgarlikda ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni o‘rganish va malakali kurashchi texnik mahoratini yanada takomillashtirishning yangi yo‘llari, vositalari va usullarini izlab topish sport nazariyasi uchun ham, sport amaliyoti uchun ham ulkan ahamiyat kasb etadi va dolzarb hisoblanadi.

1-jadval

Malakali dzyudochilarning musobaqaoldi tayyorgarligini rejalashtirishda funksional tayyorgarlik ko‘rsatkichlari


Testlar nomi		$\bar{X}$ **±σ**	**V**
Nafas olish tizimi	Shtange sinovi	32,7±3,5	10,8
	Genchi sinovi	29,1±1,3	4,7
	Rufye test	3,5±0,4	14,1
Yurak qon tizimi	Ortostatistik sinov	4,3±0,5	11,3

Malakali dzyudochilarning nafas olish tizimi ko‘rsatkichlarini aniqlashda Shtange testi va Genchi sinalmasidan foydalandik (s), Shtange testida olingan natijalar quyudagicha aks etdi ($\bar{X}$ ±σ), 32,7±3,5 soniya tashkil qilib, V variatsion koeffitsiyenti esa 10,8 foizni tashkil qildi.

Malakali dzyudochilarning Genchi sinalmasidan olingan natijalar quyidagicha aks etdi. ($\bar{X}$ ±σ), 29,1±1,3 soniya tashkil qilib, V variatsion koeffitsiyenti esa 4,7 foizni tashkil qildi.

Malakali dzyudochilarning funksional ko‘rsatkichlarini aniqlashda yurak-qon tomir parametrlarini ko‘rsatkichlarini aniqlashda Rufye test va Ortostatik sinalmasidan foydalandik, Rufye testda olingan natijalar quyudagicha aks etdi ($\bar{X}$ ±σ), 3,5±0,4 soniya tashkil qilib, V variatsion koeffitsiyenti esa 14,1 foizni tashkil qildi.

Malakali dzyudochilarning Genchi sinalmasidan olingan natijalar quyidagicha aks etdi. ($\bar{X}$ ±σ), 4,3±0,5 soniya tashkil qilib, V variatsion koeffitsiyenti esa 11,3 foizni tashkil qildi.



1-rasm. Malakali dzyudochilarning musobaqaoldi tayyorgarligini rejalashtirishda funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlari

Sport turlarida jismoniy zo'riqishlarga moslashishini ta'minlashda yetakchi rolni yurak-qon tomir tizimi o'ynaydi, bu murakkab neyro-refleks va gumoral tartibga solish mexanizmlari tufayli alohida organlar ehtiyojlarining eng kichik o'zgarishiga labil ta'sir qiladi. Yurak qon tomirni tizimining optimal va funksional holati vosita asosaiy apparatining yuqori aniq samaradorligini va tananing jismoniy zo'riqishlarga yetarli yuqori darajada moslashishini ta'minlash uchun juda katta ahamiyatga ega.

Xulosa. Shu munosabat bilan yurak-qon tomir tizimining turli ko'rsatkichlarini o'rganish ko'pincha mashg'ulot jarayonini nazorat qilish va sportchining tanasida sodir bo'ladigan jarayonlarni mostlashish. Hozirgi vaqtda oliy sport maxorati bosqichidagi yillik mashg'ulotlar siklida tezlik va kuch mashqlarining ulushi oshdi, bu tananing aerob-anaerob kuch zonasida ishlashga moslashishini oshiradi, bu kurash musobaqasining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Mushaklar faoliyati uchun aerobik qo'llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirishga to'g'ri e'tiborning yetishmasligi kislorod qarzini to'lash tezligining pasayishiga, kompensatsiyalanmagan charchoqning rivojlanishiga va raqobatbardosh natijalarning yomonlashishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov M.A., Xalmuxamedov R.D., Shamsematov I.Yu. Tajibayev S.S., "Bokschilarning sport-pedagogik mahoratini oshirish", "Lider Press" nashriyoti. O'quv qo'llanma, Toshkent.: 2011 y. 480 bet.

2. Achilov A.M., Xalmuxamedov R.D., Shin V.N., Tajibaev S.S., Rajabov G'.Q.. "Yosh dyuzdochilarni tayèrlash asoslari". "Mumtoz so'z" nashrièti. O'quv- uslubiy qo'llanma. Toshkent.: 2012 y. 228 bet.

3. Xalmuxamedov R.D., Shin V.N., Abdurasulova G.B., Tajibayev S.S., "Yosh yakkakurashchilar ko'p yillik tayyorgarlik jarayonining turli bosqichlarida saralashning me'yorlari". "Fan va texnologiyalar" nashriyoti. O'quv-uslubiy qo'llanma, Toshkent.: 2013 y. 167 bet.

4. Atilov, A.A. Shkola dyuzdoa dlya nachinayuщix : ucheb.posobie/ A.A. Atilov. Rostov n/D : Feniks, 2005. - 224 s.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Qodirova Nargiza Raxmatillo qizi
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti

6-7 YOSHLI BOLALAR BILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotasiya. *Mazkur maqolada 6–7 yoshli bolalarda bilish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari va samarali pedagogik metodlari tahlil qilinadi. Bilish kompetensiyasini shakllantirishda integrativ yondashuv, refleksiya, savol-javob, kuzatish va tajriba metodlaridan foydalanishning amaliy ahamiyati ochib beriladi. Maqolada pedagogik jarayonni tashkil etishning samarali shakl va vositalari, rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish shartlari hamda natijadorlik mezonlari tavsiflanadi.*

Kalit so'zlar. *Maktabgacha ta'lim, bilish kompetensiyasi, ta'lim jarayoni, o'yin faoliyati, muammoli vaziyat, aqliy rivojlanish, idrok etish.*

Кадирова Наргиза Рахматилло кизи
Андижанский государственный педагогический институт, аспирант

МЕТОДИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретико-методологические основы и эффективные педагогические методы развития познавательной компетенции у детей 6-7 лет. Раскрывается практическая значимость использования интегративного подхода, рефлексии, вопросов-ответов, методов наблюдения и эксперимента в формировании познавательной компетенции. В статье описаны эффективные формы и средства организации педагогического процесса, условия создания развивающей образовательной среды и критерии результативности.*

Ключевые слова. *Дошкольное образование, познавательная компетентность, учебный процесс, игровая деятельность, проблемная ситуация, умственное развитие, восприятие.*

Kadirova Nargiza Rakhmatillo qizi
Andijan State Pedagogical Institute, PhD student

METHODICAL DEVELOPMENT OF COGNITIVE COMPETENCE IN CHILDREN 6-7 YEARS OLD

Annotation. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations and effective pedagogical methods for the development of cognitive competence in children 6-7 years old. The practical significance of the use of integrative approach, reflection, question-and-answer, observation and experimental techniques in the formation of cognitive competence is revealed. The article describes the effective forms and means of organizing the pedagogical process, the conditions for creating a developing educational environment, as well as the criteria for the outcome.*

Keywords. *Preschool education, cognitive competence, educational process, game activity, problem situation, mental development, perception.*

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti, yuqori salohiyatli, immuniteti mustahkam yoshlari bilan belgilanadi. Ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish va salohiyatli yoshlarini tarbiyalashda eng avvalo ta'limning ilk bo'g'ini - maktabgacha ta'lim sohasiga diqqatni qaratmoq lozim. "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarish farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash avvalo maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanadi." - deb ta'kidlaydi o'z nutqida prezident Sh.Mirziyoyev. Maktabgacha ta'lim tashkiloti - bu o'ziga xos olam bo'lib unda bola o'zini qulay, xavfsiz va manzur sezishi lozim. Bu borada esa ta'lim jarayoni muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkiloti turli yosh guruhlarida rivojlantiruvchi muhit shunday tarzda yaratilishi kerakki, unda bola o'zini erkin, mustaqil tanlash imkoniyatiga ega, o'yinchoqlar, o'quv dasturlari bola yoshiga mos, tarqatma materiallar, mebel jihozlar va AKT texnik vositalar bilan jihozlash me'yorlari asosida jihozlangan boshqacha qilib aytganda shunday inklyuziv muhit yaratilgan bo'lishi kerakki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli, intellektli va ta'lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi lozim. Shu o'rinda

pedagog esa bolalarning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shmog‘i lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarga taʾlim berishda kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bola shaxsini har tomonlama hayotga tayyorlash, idrok etish, sog‘lom fikrlash, tanqidiy fikrlash, hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy meʾyor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, aqliy rivojlantirish, muloqot qilish, bolaning “Men”ini shakllantirishga yordam beradi va asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko‘zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o‘rgatishlari lozim. Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo‘ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o‘sib borishi uchun o‘yin juda katta ahamiyatga ega. O‘yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to‘plab, o‘z tashabbuslari bilan ma’lum maqsadlarini ilgari suradilar. Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o‘z oldiga qo‘ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko‘rgazmali, obrazli bo‘lishi bilan xarakterlidir. Bolada ko‘proq ixtiyorsiz esda qoldirish va ixtiyorsiz esga tushirish ustunlik qiladi. Bola so‘zlarni hech qanday ma’nosiz takrorlab beradi. Ammo keyinchalik, kattalarning ta’sirida, ixtiyoriy esda qoldirish ham asta-sekin rivojlana boradi. Bola ravshan va emotsional rang-barang materialni oson esda qoldiradi.

6–7 yosh davri bolaning bilish jarayonlari jadal rivojlanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq faol shakllanadi hamda maktab ta’limiga psixologik tayyorgarlik yuzaga keladi. Shu sababli bilish kompetensiyasini rivojlantirishda yosh xususiyatlariga mos metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bilish kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- o‘yin faoliyati:
- muammoli vaziyatlar:
- interaktiv mashg‘ulotlar:
- amaliy tajribalar;

O‘yin faoliyati bu yoshdagi bolalar uchun eng tabiiy va yetakchi faoliyat turidir. O‘yin jarayonida bola atrof-muhitni anglaydi, rollar orqali ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi, tasavvuri va mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. O‘yin davomida mustaqil qaror qabul qilish, muammoni hal etish va vaziyatni tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu jihatdan o‘yin bilish kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositasi sanaladi.

Muammoli vaziyatlar yaratish esa bolani fikrlashga undaydi. Kutilmagan savol yoki topshiriq bolaning qiziqishini oshiradi va uni izlanishga chorlaydi. Bunday sharoitda bola sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlashga, taxmin ilgari surishga va xulosa chiqarishga harakat qiladi. Natijada tafakkurning mantiqiy va tahliliy jihatlari rivojlanadi.

Interaktiv mashg‘ulotlar ham bilish jarayonini faollashtiradi. Kichik guruhlarda ishlash, fikr almashish, savol-javoblar orqali bola nafaqat yangi bilimlarni o‘zlashtiradi, balki o‘z fikrini ifodalash va asoslashni ham o‘rganadi. Bu esa uning muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligini oshiradi, diqqat va xotira jarayonlarini mustahkamlaydi.

Amaliy tajribalar esa bilimni bevosita faoliyat orqali egallash imkonini beradi. Bola kuzatish, sinab ko‘rish va natijani taqqoslash orqali o‘rganadi. Tajriba jarayonida u voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishni tushunadi, tahlil qiladi va mustaqil xulosa chiqaradi. Bu esa unda tadqiqotchilik qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi 6–7 yoshli bolalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoni hal etish va bilimni ongli ravishda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada bolaning bilish kompetensiyasi mustahkamlanadi va u maktab ta’limiga puxta tayyorlanadi.

Bolaning aqliy rivojlanish jarayoni idrok bilan boshlanadi. Obyektlar va sezgilarni manipulyatsiya qilish orqali sensorli ma’lumotlar bolaning miyasiga kiradi. Bola rang-barang raqamlarni ko‘radi, yumshoq o‘yinchoqlarga tegadi, barcha buyumlarni anglaydi. Qabul qilingan hislar to‘planadi va keyinchalik sifatida foydalanish uchun saqlanadi. Idrokning rivojlanishi maktabgacha yoshdagi bolani muhim yutuqlarga olib keladi. Bular:

- atrofdagi obyektlarni o‘rganish asosida eng muhim xususiyatlarni aniqlash;
- hissiy me'yorlarni shakllantirish va ulardan foydalanishni o‘zlashtirish;
- fazoviy orientatsiyani shakllantirish, chuqurlik, balandlik va boshqa tushunchalar;
- vaqtni idrok etish va vaqt oraliqlarida orientatsiya;
- san’at asarlarini idrok etish qobiliyati kabilar.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimi bo‘yicha qabul qilingan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” tayanch dasturi mazkur jarayonning me’yoriy-huquqiy

asosini tashkil etadi. Ushbu hujjatlar bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ularning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bola yangi harakat usullarini o'zlashtirgan sari uning faolligi ham ortib boradi. Biroq faollik darajasi va uning rivojlanishi ma'lum darajada irsiy omillarga ham, shuningdek, taqlid qilish jarayoniga ham bog'liq bo'ladi. Hayotning dastlabki yillaridayoq bola bilan to'g'ri muloqot qilish, uni buyumlar bilan to'g'ri ishlashga o'rgatish katta ahamiyatga ega. Har qanday faoliyat ma'lum ehtiyoj va sabablarga asoslanadi. Uning o'z maqsadi, mavzusi, vositalari, bajariladigan harakatlari hamda yakuniy natijasi bo'ladi. Ilmiy manbalarga ko'ra, bola bu jarayonlarni birdaniga emas, balki asta-sekin, kattalar rahbarligida o'zlashtirib boradi. Faoliyat turlarining xilma-xilligi va boyligi, ularni muvaffaqiyatli egallash esa ko'p jihatdan oiladagi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiya va ta'lim sharoitlariga bog'liq. Ta'lim jarayonida ertaklarni tinglash, turli rasmlarni tomosha qilish orqali bola asta-sekin o'zi bevosita ko'rmagan yoki tajribasida uchramagan narsalarni ham tasavvur qila boshlaydi. Dastlab kattalarning og'zaki ta'siri orqali ixtiyoriy tasavvur obrazlari shakllanadi, keyinchalik esa bu tasavvurlar bolaning mustaqil fikrlashi asosida rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab faoliyatidagi izchillik ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida yagona maqsad, vazifa va prinsiplarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari, shakllari hamda vositalari bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda belgilanishi ushbu izchillikning muhim sharti hisoblanadi. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalari umumiy ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida qaralib, tarbiyaning ustuvor yo'nalishlari asosida aniqlanadi. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasida metodik va mazmuniy uyg'unlikni ta'minlaydi. Ta'lim-tarbiyaviy jarayondagi izchillik turli yosh bosqichlarida bola shaxsini har tomonlama – intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan shakllantirishning muhim pedagogik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, 6–7 yoshli bolalarda bilish kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu davrda bolaning idrok, tafakkur, xotira, diqqat va nutq jarayonlari jadal shakllanadi hamda maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichi yakuniy ko'rinish oladi. Shu bois ta'lim mazmuni va metodlari yosh xususiyatlariga mos, rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi lozim. O'yin faoliyati, muammoli vaziyatlar, interaktiv mashg'ulotlar va amaliy tajribalar bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularni faol fikrlashga undaydi va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur metodlarning uyg'un va tizimli qo'llanilishi natijasida bolalarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash hamda muammoni hal etish kompetensiyalari rivojlanadi. Bilish kompetensiyasini shakllantirish samaradorligi pedagogning metodik yondashuvi, ta'lim muhitining rivojlantiruvchi xarakteri va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish darajasiga bog'liqdir. Shu asosda tashkil etilgan pedagogik jarayon 6–7 yoshli bolalarning intellektual salohiyatini oshirish va ularni maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. –T.: 2022. – B. 102.

2. Iminova D. MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI BILISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Models and methods in modern science. – 2022. – T. 1. – №. 17. – C. 54-56.

3. Ismoilova, N., Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2019.

4. Gulhayo M. TECHNOLOGIES FOR DEVELOPMENT OF GENERAL COMPETENCES OF PRESCHOOL TEACHERS //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B4. – C. 632-634.

5. Коротаева Е.В., Нефедова А.Н. Развитие когнитивной активности у старших дошкольников // Педагогическое образование в России. 2012.

6. Nishanova Z.T, Alimova G.K, Turg'unboyeva A.G', Asranboeva M.X., Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. Darslik, Toshkent- 2017.

7. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q. **Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasi nazariyasi.** – Toshkent: O'qituvchi, 2020.

8. Qodirova. N.R. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – C. 109-111.

9. Salayeva M.B. **Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv.** – Toshkent: Innovatsiya, 2021.

10. Sayfiyeva Z.A. Abdullayeva O.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini rivojlanishida kompetensiyaviy yondashuv. "Science and Education" Sceintific Journal, 2023.

11. Usmonova M.B. **Maktabgacha yoshdagi bolalar bilish faoliyatini rivojlantirish.** – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020.

12. Xolmatova M.R. **Maktabgacha ta'limda tarbiyaviy ishlar metodikasi.** – Toshkent: Sharq, 2019.

13. Xusanovich M. O. Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization //JournalNX. – 2021. – T. 1. – C. 265.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

N.Y.Rasulova
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishda psixologik omillarning o‘rni, zamonaviy ta’limda o‘qituvchidan faqat nazariy bilim emas, balki yuqori psixologik tayyorgarlik, refleksiya qobiliyati, emotsional zehn va kasbiy motivatsiya kabi sifatlar talab qilinishi, metodik kompetentlikni shakllantirishning samarali yo‘llari kabi muxim masalalar talqin qilingan.*

Kalit so‘zlar: *metodik kompetentlik, psixologik aspektlar, motivatsiya, refleksiya, emotsiya, zehn, pedagogika, psixologiya.*

Н. Я. Расулова
Национальный педагогический университет им. Низами в Узбекистане

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В статье интерпретируются такие вопросы, как роль психологических факторов в развитии методической компетентности будущих учителей, на то, что в современном образовании учителя требуется не только теоретические знания, но и такими качествами, как высокая психологическая подготовка, рефлекторные способности, эмоциональный интеллект и профессиональная мотивация и эффективные способы формирования методологической компетентности.*

Ключевые слова: *методологическая компетентность, психологические аспекты, мотивация, рефлексия, эмоции, осознанность, педагогика, психология.*

N.Y.Rasulova
Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING METHODOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Annotation. *The article interpreted such issues as the role of psychological factors in the development of methodological competence of future teachers, the fact that in modern education the teacher is required not only theoretical knowledge, but also such qualities as high psychological training, reflex ability, emotional intelligence and professional motivation, and effective ways to form methodological competence.*

Key words: *methodological competence, psychological aspects, motivation, reflection, emotion, mindfulness, pedagogy, psychology.*

Kirish. Jahon ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan islohotlar, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi pedagog kadrlardan yuqori malakani, yangicha fikrlashni va metodik kompetentlikni talab etmoqda. Xususan, bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchining faqatgina fan sohasida bilimli bo‘lishi yetarli emas, balki u o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ta’lim jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish va metodik yondashuvlarni anglab, ularni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda ta’lim sohasidagi global o‘zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish, ya’ni metodik kompetentligini rivojlantirish vazifasini yanada muhim va dolzarb qilib qo‘ymoqda. Metodik kompetentlik — bu o‘qituvchining ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga qodirligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni samarali qo‘llash qobiliyati bo‘lib, ta’limning sifatini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Metodik kompetentlik — bu o‘qituvchining ta’lim berish jarayonida zarur bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarga ega bo‘lishi, shuningdek, ularni muayyan maqsadga yo‘naltirib qo‘llay olishi bilan bog‘liq murakkab ko‘p tarmoqli kompetensiyadir. Ushbu kompetentlikni shakllantirishda psixologik omillar, jumladan motivatsiya, emotsional zehn, refleksiya qobiliyati, stressga chidamlilik va ijodkorlik muhim o‘rin tutadi.

Shuning uchun ham, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki psixologik nuqtai nazardan ham chuqur tahlil qilinmog‘i lozim. Mazkur ishda aynan ushbu yo‘nalishdagi psixologik omillar va ularning metodik rivojlanishga ta’siri keng yoritiladi.

Asosiy qism. Bugungi kunda ta’lim sohasidagi islohotlar, fan va texnologiyaning taraqqiyoti o‘qituvchi shaxsi va malakasiga bo‘lgan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Ta’lim jarayonining asosiy subyekti sifatida o‘qituvchi nafaqat yuqori bilimga, balki metodik va psixologik kompetensiyalarga ham ega bo‘lishi zarur. Ayniqsa, pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan — bo‘lajak o‘qituvchilar uchun metodik kompetentlikni shakllantirishda psixologik tayyorgarlik muhim o‘rin tutadi. Bu esa ta’lim samaradorligi va o‘quvchi shaxsini to‘g‘ri shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Metodik kompetentlik nafaqat pedagogning nazariy bilimlari, balki amaliyotdagi tajribasi, innovatsion yondashuvlardan foydalanish, psixologik va kommunikativ malakasi hamda ijodiy faoliyatini o‘z ichiga oladi. Bu kompetentlikni rivojlantirish esa doimiy kasbiy o‘sishni talab qiladi va uning asosida pedagogning shaxsiy rivojlanishi, tajriba almashinuvi, refleksiya, hamda ta’lim tizimida zamonaviy metodlarni joriy etish maqsadida amalga oshiriladigan tizimli chora-tadbirlar turibdi.

Shu sababli, metodik kompetentlikni shakllantirish va takomillashtirish jarayoni murakkab va ko‘pqirrali bo‘lib, uning nazariy va amaliy jihatlari alohida o‘rganilishi zarur. Pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirishda ushbu masala katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘qitish sifatini ta’minlash, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini samarali egallashi uchun asos yaratadi.

- ***Metodik kompetentlik tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.*** Metodik kompetentlik – bu o‘qituvchining ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, to‘g‘ri metod va usullarni tanlash, ularni amalga joriy etish va baholash qobiliyatidir. Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- Fan va pedagogik bilimlar;
- Darslarni rejalashtirish va tashkil etish ko‘nikmalari;
- O‘quv jarayonini baholash va tahlil qilish qobiliyati;
- Muloqot va interaksiya ko‘nikmalari;
- Ijodkorlik va innovatsion yondashuv.

Psixologik aspektlar va ularning ahamiyati.

1. *Kasbiy motivatsiya*

Motivatsiya o‘qitish jarayonining “dvigateli” bo‘lib, pedagogik faoliyatga ijobiy munosabat, kasbga bo‘lgan qiziqish va o‘zini ushbu sohada tasavvur qilish qobiliyati metodik rivojlanish uchun asosiy psixologik omil hisoblanadi.

2. Refleksiya qobiliyati

Refleksiya – bu o‘z faoliyatiga nisbatan tanqidiy yondashish, uni tahlil qilish va tuzatishlar kiritish qobiliyatidir. Bo‘lajak o‘qituvchida ushbu sifat rivojlangan bo‘lsa, u o‘z darslarini yaxshilashga intiluvchi, xatolardan xulosa chiqaradigan mutaxassisga aylanadi.

3. Emotsional zehn (intellekt)

O‘z va boshqalarning hissiyotlarini taniqli idrok etish, nazorat qilish va boshqarish qobiliyati o‘qituvchi uchun juda muhim. U sinfda psixologik barqarorlikni saqlash, oqilona munosabat o‘rnatish va ehtiyojlarni to‘g‘ri tushunish imkonini beradi.

4. Kreativlik va ijodkorlik

Yangi metod va usullarni qo‘llashga tayyor bo‘lish, mavjud metodlarni o‘zgartirish yoki takomillashtirishga bo‘lgan intilish – metodik rivojlanishning muhim psixologik sharti hisoblanadi.

5. Stressbardoshlik va emotsional barqarorlik

Bo‘lajak o‘qituvchi ko‘pincha stressli va ziddiyatli vaziyatlarga duch keladi. Bunday sharoitda yechim topish, o‘zini to‘g‘ri tutish va sinf muhitini boshqara olish metodik muvaffaqiyat uchun muhim asos hisoblanadi.

- **Natijalar va muhokamalar.** Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi faqatgina fan sohasidagi bilimlarga ega bo‘lib qolmasdan, ta’lim berish jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak. Bu qobiliyatni metodik kompetentlik deb ataymiz. Metodik kompetentlik — pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish, o‘quv jarayonini muvofiqlashtirish va natijali o‘tkazish qobiliyatidir.

- O‘qituvchining kasbiy faoliyatida ushbu kompetentlikning darajasi uning muvaffaqiyatiga, o‘quvchilar bilan samarali muloqotga va ta’lim sifatining oshishiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli metodik kompetentlikni rivojlantirishning mexanizmlari, usullari va vositalari tahlil qilinishi va samarali qo‘llanilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

- Xozirgi kunda ta’lim tizimida samarali pedagogik faoliyatni ta’minlash uchun o‘qituvchining metodik kompetentligi muhim mezon sifatida qaraladi. Metodik kompetentlik — bu o‘qituvchining ta’lim jarayonini puxta rejalashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda darslarni tashkil etish va baholashdagi mukammal malaka va qobiliyatlar jihozidir. Shuningdek, bu kompetentlik o‘qituvchining kasbiy o‘sishining muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishda bevosita rol o‘ynaydi.

- Metodik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni – bu murakkab va ko‘pqirrali pedagogik jarayon bo‘lib, unda faqat nazariy bilimlarni emas, balki psixologik, axloqiy, kommunikativ va ijodiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda pedagogning shaxsiy faolligi, kasbiy mustahkamlik va innovatsiyalarga ochiqligi katta ahamiyatga ega [2].

- Bunday ko‘p qirralilikni hisobga olgan holda metodik kompetentlikni rivojlantirishning mexanizmlari — pedagogik bilimlar, malakalar, psixologik tayyorgarlik, motivatsiya va metodologik yondashuvlarni o‘z ichiga olgan tartibli tizim sifatida qaralishi zarur. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarida ana shu mexanizmlarni samarali joriy etish ta’limning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

- Shu bilan birga, metodik kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlari pedagogning o‘z-o‘zini tashkil etishi, refleksiya qilish, tajriba orqali o‘rganish va innovatsiyalarni joriy qilish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi kasbiy faoliyatning turli bosqichlarida o‘qituvchining malakalari va bilimlarini uzluksiz takomillashtirishga xizmat qiladi.

- Bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini shakllantirishda quyidagi amaliy psixologiya asosidagi metodlar samarali hisoblanadi [3]:

- rolli o‘yinlar va keys-analizlar: real vaziyatlarni tahlil qilish va muammoli holatlarga yondashish qobiliyatini rivojlantiradi.

- psixologik treninglar: o‘quvchilar bilan muloqotni to‘g‘ri tashkil etish, jamoada ishlash va rahbarlik qobiliyatlarini shakllantiradi.

- interaktiv mashg‘ulotlar: “aqliy hujum”, “aql xaritasi” kabi usullar orqali ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

- refleksiya daftari yuritish: shaxsiy tajribani tahlil qilish, hissiyot va xatolar ustida ishlash imkonini beradi.

Metodik kompetentlikning mazmuni va ahamiyati

1. Metodik kompetentlik — bu o‘qituvchining ta’lim jarayonini rejalashtirish, o‘tkazish, baholash va tahlil qilishda zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy xususiyatlarni qamrab olgan kompleks qobiliyatdir. Uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar [4]:
2. Pedagogik bilimlar – fanni o‘rgatishdagi nazariy asoslar.
3. Metodik bilimlar – ta’limni tashkil etish usullarini bilish.
4. Kommunikativ ko‘nikmalar – o‘quvchilar bilan munosabat o‘rnata olish.
5. Innovatsion yondashuvlar – metod va texnologiyalardan foydalanish.
6. Refleksiya qobiliyati – o‘z faoliyatini tahlil va takomillashtirib borish.

Metodik kompetentlikni rivojlantirishda psixologik omillar

Metodik kompetentlikni samarali shakllantirish uchun pedagogik bilimning o‘zi yetarli emas. Bu jarayonda quyidagi psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

1. Motivatsiya va kasbiy qiziqish: talabaning muallimlik faoliyatiga nisbatan munosabati; ichki motivatsiyaning yuqori bo‘lishi metodik bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi; ustuvor maqsadlarga ega bo‘lish o‘zini rivojlantirishga turtki bo‘ladi.

2. Emotsional zehn (emotsional intellekt): o‘z hissiyotlarini boshqara olish; o‘quvchilarning ruhiy holatini to‘g‘ri baholash; sinfda sog‘lom psixologik muhit yaratish.

3. Refleksiya qobiliyati: darsdan so‘ng o‘z faoliyatini tahlil qilish; xatolar ustida ishlash va to‘g‘ri xulosa chiqarish; kasbiy o‘sishga yo‘naltirilgan o‘z-o‘zini baholash qobiliyati.

4. Kreativlik va ijodkorlik: yangi metod va usullarni qo‘llashga tayyorlik; darslarda novatorlik kiritish; unikal ta’lim ssenariylari yaratish qobiliyati.

5. Stressbardoshlik va adaptatsiya qobiliyati: qiyin va tushunarsiz holatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish; sinfda yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlarga sabr va xulosa bilan yondashish; yangi muhitga tez moslasha olish.

Metodik kompetentlikni rivojlantirishda qo‘llaniladigan psixologik usullar:

1. Psixologik treninglar: muloqot madaniyatini oshirish; jamoada ishlash koʻnikmasini shakllantirish; emotsional intellektni rivojlantirish.

2. Rolli oʻyinlar va keys-stadi metodlari: real pedagogik vaziyatlarni simulyatsiya qilish; qaror qabul qilish va masʻuliyatni his qilish qobiliyatini oshirish.

3. Refleksiya daftari (jurnal) yuritish: darslardan keyingi shaxsiy fikr va xulosalarni yozish; oʻz faoliyatini tahlil qilish va tuzatishlar kiritish.

Zamonaviy ta'lim tizimida oʻqituvchining kasbiy mahoratlari va malakasini oshirish juda muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda metodik kompetentlik — pedagogning oʻqitish jarayonini samarali tashkil etish, oʻquvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda fanni tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazish qobiliyati — ta'limning sifatini belgilashda asosiy mezonlardan biridir.

Metodik kompetentlik nafaqat nazariy bilimlarni, balki pedagogning amaliy koʻnikmalari, innovatsion texnologiyalardan foydalanishi, ta'lim jarayonidagi psixologik va kommunikativ malakasini oʻz ichiga oladi [5]. Shu bilan birga, bu kompetentlik pedagogning oʻz kasbiy faoliyatini muvofiqlashtirish, doimiy ravishda takomillashtirish va pedagogik muammolarni muvaffaqiyatli hal etish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi jadal oʻzgarishlar va zamonaviy talablar metodik kompetentlikni rivojlantirishni doimiy jarayonga aylantirmoqda. Bu jarayonda pedagoglarning oʻzaro hamkorligi, kasbiy malaka oshirish tizimlari, innovatsion usullar va samarali mexanizmlar muhim rol oʻynaydi.

Shu bois, metodik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari, mexanizmlari va amaliy yoʻllari tadqiq etish zamonaviy pedagogik fan va amaliy ta'lim uchun dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu maqolada ana shu masalalarga keng yoritish berilib, pedagoglarning kasbiy oʻsishi va ta'lim sifatini oshirish yoʻllari tahlil qilinadi.

Xulosa. Boʻlajak oʻqituvchining metodik kompetentligini shakllantirishda psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kasbiy motivatsiya, refleksiya qobiliyati, emotsional zehn, kreativlik va stressbardoshlik kabi shaxsiy sifatlar har qanday metodik bilimni samarali amaliyotga aylantirishda muhim rol oʻynaydi. Shuning uchun ham, pedagogik ta'lim muassasalarida metodik tayyorgarlik bilan bir qatorda psixologik tayyorgarlikka ham jiddiy e'tibor qaratilishi lozim.

Metodik kompetentlik oʻqituvchining kasbiy faoliyatida muhim oʻrin tutadi va ta'lim sifatini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu kompetentlik nafaqat nazariy bilimlarni, balki pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, pedagogning psixologik va kommunikativ malakasini hamda ijodiy yondashuvini oʻz ichiga oladi.

Metodik kompetentlikni rivojlantirish — bu uzluksiz, tizimli va koʻpqirrali jarayon boʻlib, unda pedagogning shaxsiy faolligi, kasbiy oʻsishga intilishi va innovatsion metodlarni joriy etishi muhim ahamiyatga ega. Bunda ta'lim tizimidagi malaka oshirish kurslari, seminarlar, treninglar va refleksiya jarayonlari samarali mexanizmlar sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida metodik kompetentlikni rivojlantirish pedagoglarning professional muvaffaqiyati va oʻquv jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Shuningdek, bu jarayon oʻqituvchilarning ijodiy potensialini oshirish va ta'limda innovatsiyalarni joriy etish uchun zamina yaratadi.

Shu sababli, metodik kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish va pedagoglarni kasbiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash dolzarb vazifa sifatida qaralishi kerak. Bu esa ta'lim sifatini yangi bosqichga koʻtarishda muhim ahamiyatga ega boʻladi.

Metodik kompetentlik — oʻqituvchining faqat bilim emas, balki shaxsiy va psixologik tayyorgarligini ham oʻz ichiga oladi. Ushbu kompetentlikni rivojlantirishda motivatsiya, refleksiya, emotsional zehn va ijodkorlik asosiy oʻrin tutadi. Psixologik treninglar, rolli oʻyinlar va interaktiv mashgʻulotlar metodik rivojlanishga kuchli ta'sir koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. “Учитель и его личность”, Москва, 1990. 10-40-б.

2. Qurbonova M., “Metodik kompetentlikni shakllantirishning zamonaviy yoʻnalishlari”, “Oʻqituvchi” jurnali, 2022. 15-25-b.

3. Петровский А.В. “Психология деятельности учителя”, Москва, 2003. 45-70-б.

4. Salovey, P. & Mayer, J.D. (1990). “Emotional intelligence”, Imagination, Cognition and Personality, Vol. 9(3). P. **185-211.**

5. Shodmonova S.X., “Pedagogik mahorat va psixologiya”, Toshkent, 2020. 30-55-b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Qodirov Abubakir Rashodjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING AXLOQIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA METODIK KO'RSATMALAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik metodik ko'rsatmalar orqali bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini takomillashtirish jarayoni tizimli tarzda yoritiladi. Unda pedagogik faoliyatga kirishayotgan shaxslarning axloqiy va estetik qadriyatlarini rivojlantirish, ularning kasbiy harakatlarini axloqiy-mezonlar bilan muvofiqlashtirish, pedagogik vaziyatlarda to'g'ri axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, o'z faoliyatini tahlil qilish va shaxsiy hamda professional rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan amaliy strategiyalari tahlil qilingan. Shu bilan birga, axloqiy-estetik me'yorlarga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish va kasbiy kompetentlikni samarali rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ham ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *kasbiy bilim, metod, metodik mahorat, axloqiy pozitsiya, axloqiy me'yorlar, estetik did, estetik madaniyat, kompetentlik, motivatsiya, hissiy barqarorlik, empatiya, qobiliyat, ijodiy qobiliyat.*

Кадыров Абубакир Рашоджон угли
Независимый исследователь
Ферганского государственного университета

МЕТОДИЧЕСКИЕ УКАЗАНИЯ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация: *В данной статье систематически освещается процесс совершенствования освещается процесс совершенствования нравственно-эстетической компетентности будущих педагогов посредством педагогических методических указаний. В ней проанализированы практические стратегии, направленные на развитие нравственных и эстетических ценностей лиц, вступающих в педагогическую деятельность, координацию их профессиональных действий с этическими критериями, формирование навыков принятия правильных нравственных решений в педагогических ситуациях, а также анализ своей деятельности и обеспечение личностного и профессионального развития. Вместе с тем, рассмотрены методические рекомендации по организации образовательного процесса на основе нравственно-эстетических норм и эффективному развитию профессиональной компетентности.*

Ключевые слова: *профессиональные знания, метод, методическое мастерство, моральная позиция, моральные нормы, эстетический вкус, эстетическая культура, компетентность, мотивация, эмоциональная устойчивость, эмпатия, способность, творческая способность.*

Kadyrov Abubakir Rashodjon ugli
Independent researcher of Fergana State University

METHODOLOGICAL INSTRUCTIONS FOR IMPROVING THE MORAL AND AESTHETIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Abstract: *This article systematically covers the process of improving the moral and aesthetic competence of future teachers through pedagogical methodological guidelines. It analyzes practical strategies aimed at developing the moral and aesthetic values of individuals entering pedagogical activity, coordinating their professional actions with ethical criteria, forming skills in making correct moral decisions in pedagogical situations, as well as analyzing their activities and ensuring personal and professional development. At the same time, methodological recommendations for organizing the educational process based on moral and aesthetic norms and effective development of professional competence were considered.*

Key words: *professional knowledge, method, methodical skill, moral position, moral norms, aesthetic taste, aesthetic culture, competence, motivation, emotional stability, empathy, ability, creative ability.*

KIRISH (Видение/Introduction).

Bo‘lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini shakllantirish va takomillashtirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Chunki pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki shaxsiy namuna ko‘rsatuvchi, ma’naviy yo‘lboshchi va estetik didni shakllantiruvchi subyektdir. Pedagogning kasbiy muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning axloqiy barqarorligi, pedagogik odobi va estetik madaniyatiga bog‘liq. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar nafaqat kasbiy bilim va metodik mahorat bilan, balki yuksak axloqiy pozitsiya hamda estetik madaniyat bilan ham belgilanadi. Chunki pedagog bu, shaxs tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy institut vakili sifatida jamiyatning ma’naviy qiyofasini shakllantiradi. Shu bois bo‘lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini takomillashtirish pedagogika fanining dolzarb ilmiy muammolaridan biriga aylangan.

Axloqiy-estetik kompetentlik pedagogning kasbiy sifatlari majmui bo‘lib, u uch asosiy tarkibiy qismdan iborat: kognitiv, motivatsion-qiymatli va faoliyat komponentlari. Kognitiv komponent pedagogning axloqiy me’yorlar, pedagogik etika va estetik qadriyatlar haqidagi bilimlarini qamrab oladi. Motivatsion-qiymatli komponent esa kasbiy burchni chuqur anglash, mas’uliyat hissi va ma’naviy qadriyatlarga sadoqatni ifodalaydi. Faoliyat komponenti esa real pedagogik vaziyatlarda axloqiy qaror qabul qilish, estetik muhit yaratish va o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Kompetentlikni takomillashtirish tizimli metodik yondashuvni talab etadi. Avvalo, ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar asosida ishlash samarali hisoblanadi. Talabalarga real pedagogik holatlar taqdim etilib, ulardan axloqiy va estetik jihatlari asoslangan qaror ishlab chiqishni talab etadi. Bunday metod talabalarda tanqidiy fikrlashni, mas’uliyatli yondashuvni va pedagogik taktni rivojlantiradi. Refleksiv metod ham muhim ahamiyatga ega. Talabalar o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantiradi. Refleksiya jarayoni pedagogik o‘sishning ichki mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (*Литература и методология* /Methods).

Axloqiy-Estetik kompetentlikni rivojlantirishda san’at va badiiy merosdan foydalanish alohida o‘rin tutadi. Masalan, O‘tkan kunlar asaridagi axloqiy tanlovlar tahlili yoki Qutadg‘u biligdagi adolat va fazilat g‘oyalari pedagogik axloqni chuqur anglash imkonini beradi. Bunday integrativ yondashuv estetik tafakkurni kengaytiradi va ma’naviy-axloqiy immunitetni mustahkamlaydi. Ta’lim muhitining estetik tashkil etilishi ham muhim metodik omildir. Auditoriya dizayni, nutq madaniyati, vizual vositalardan foydalanish, pedagogning tashqi ko‘rinishi va muomala madaniyati estetik ta’sir kuchini oshiradi. Pedagogning ohangdor, adabiy til me’yorlariga mos nutqi, soddaligi va didi talabalar uchun tarbiyaviy namuna bo‘ladi.

Axloqiy-estetik kompetentlikni baholashda kuzatish, refleksiv esse, portfel va pedagogik vaziyat tahlili kabi usullar qo‘llaniladi. Baholash mezonlari bilim darajasi, qadriyatlarga munosabat va amaliy ko‘nikmalar asosida aniqlanadi. Bo‘lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini takomillashtirish – bu uzluksiz, tizimli va integrativ jarayondir. U milliy-ma’naviy meros, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va refleksiv faoliyat uyg‘unligida samarali natija beradi. Axloqiy yetuk, estetik didli pedagog, jamiyatning ma’naviy taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Bo‘lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini rivojlantirish jarayoni pedagogning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida axloqiy qadriyatlar va estetik didni amaliy tarzda qo‘llay olishga asoslanadi. Ushbu jarayon axloqiy-estetik kompetentlikni tizimli shakllantirishga xizmat qiluvchi vosita bo‘lib, pedagogning kundalik hayoti va kasbiy faoliyatida axloqiy va estetik me’yorlarni uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Pedagogning axloqiy-estetik kompetentligi shundaki, pedagogning dars uslubi, ta’lim sifati hamda ijodiy va konseptual yondashuvlari orqali ijobiy namuna sifatida namoyon bo‘lishi bilan birga, shaxsiy motivatsiya, hissiy barqarorlik, empatiya va ijodiy qobiliyat kabi psixologik komponentlar bilan chambarchas bog‘liqligi tahlil qilinadi. Bo‘lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini rivojlantirish jarayonida metodik tizimlar, interfaol ta’lim, reflektiv o‘qitish va tajribaviy metodlarni amaliy faoliyatda samarali tarzda qo‘llanishi orqali pedagogik muloqot sifatli shakllanadi, shaxslararo kommunikatsiya ko‘nikmalari rivojlanadi va ta’lim jarayonining samaradorligi oshadi.

Kasbiy-axloqiy malakani oshirishni rejalashtirishda, axloqiy-estetik normalarni qo‘llash, pedagogik vaziyatlarda axloqiy qarorlar qabul qilish, o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilish hamda o‘z xatti-harakatlarini axloqiy-estetik mezonlar bilan solishtirib rivojlantirish, bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini tizimli ravishda takomillashtirishga, ma’naviy-axloqiy mas’uliyatini mustahkamlashga hamda yuqori darajadagi pedagogik madaniyatni ta’minlashga xizmat qiladi. Pedagogning axloqiy-estetik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish ta’lim jarayonida ta’limiy strategiyalar, interfaol metodlar, rolli o‘yinlar, case-study, muammoli vaziyatlar, o‘z-o‘zini baholash, axloqiy dilemmalarni muhokama qilish, etik muammolarni tahlil qilish, pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini mustahkamlash, talabalarda axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllantirish, pedagogik kompetentlikni tizimli oshirish va ta’lim darajasini izchil yaxshilashni ta’minlovchi integratsiyalashgan strategik mexanizm sifatini amalga oshirish, bugungi kunning eng muhum vazifalaridan biri hisoblanadi.

Natijalar (Результаты/Results).

Yangi O‘zbekistonda davlat va jamiyat hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlar har tomonlama yuksak axloqiy va estetik qadriyatlarni o’zida mujassam etgan barkamol shahsni voyaga yetkazish uchun shart-sharoit va barcha imkoniyalar yaratishga qaratilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning zaminida xalqimizni ezgu g‘oyalar sari dadil odimlayotganligini teran anglash qiyin emas albatta. Ayniqsa, “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” g‘oyasi asosida O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davriga kirib kelgani, jamiyatda olib borilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi islohotlar eng avvalo, yurtimiz taraqqiyotiga zamin yaratdi. Zamonaviy ta’limini rivojlantirish borasidagi vazifalar, umummilliy maqsadlarga, umumxalq harakatiga aylandi.

2022 – 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarni amalda qo’llash jihatlari, jumladan, bo’lajak pedagoglarni axloqiy-estetik tafakkurni yangilash va boyitishni yaqqol ko’rsatish mumkun bo’ladi. Zero, insonni taraqqiy ettirish, shaxsni har tomonlama kamol toptirish va jamiyatni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar mavjud bo‘lgan joyda hissiyot, tuyg‘u va tasavvur takomilini taqozo etuvchi axloqiy-estetik tarbiyaga ehtiyoj ortadi.

Yosh avlodni barkamol, komil inson bo’lib voyaga yetishishida pedagog, tarbiyachi va o’qituvchilarning o’rni beqiyosdir. “Mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlarda ulkan maqsadlar belgilangan. Ularni amalga oshirish va taraqqiyotni davom ettirish yosh avlodning bilim va tafakkuriga, tarbiyasiga, vatanparvarligiga bog‘liq holda”[10] bo’ladi.

Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish”[11] ilg’or horijiy tajribalar asosida ta’lim sifatini oshirish borasida salmoqli ishlarni ro’yobga chiqarish belgilangan.

“Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan iboratdir. Ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi sa’y-harakati, shuningdek, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zaxiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish muhum ahamiyatga ega. Intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish, yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratishdan iborat”[12]ligini ta’kidlash lozim.

Ta’lim darajasi, unda berilayotgan bilimlar saviyasi va ko’nikmalarni rivojlantirish orqali yangi dunyoqarashni shakllantirish jarayonlarini hisobga olish zarur. “Shu ma’noda, mutafakkir Abdurauf Fitratning “Bu dunyo-kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog‘lom jismu tan, o‘tkir aql va yaxshi axloqdir”[13]. Bunda yoshlar intellektual salohiyatini ijtimoiy-madaniy jihatlari “intellektual salohiyat” sifatida “inson faoliyatining intellektual tomonini aks ettiradi, bu esa kasbiy vakolatlarga oid masalalar bilan chambarchas bog‘liq”[14] bo’ladi.

Uzluksiz ta’lim va kasbiy rivojlanish yoshlarning intellektual qobiliyatlari va imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi, bu esa kasbiy o’sish va turmush darajasini ko’tarish istiqbollarini oshiradi”[15].

Jamiyatda yoshlarning axloqiy – estetik tafakkurini yuksaltirishga xizmat qiladigan ma’naviy merosini o‘rganish, milliy qadriyatlarga hurmatini kuchaytirish asosida zamonaviy tarbiyaviy mexanizmlarni yaratish, yoshlar ma’naviy madaniyatidagi kognitivlik, siyosat, axloq tadrijiyligi va shaxs, jamiyat, davlatning ob’ektiv imkoniyatlarini ijtimoiy-pedagogik jihatlarini ochib berish nazariy-metodologik jihatdan muhum ahamiyatga ega.

Bo‘lajak pedagoglarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, o‘qitish sifati va samaradorligini ko‘tarish, xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmiy savodxonligini oshirish, ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda”[16]. Pedagogik jarayonlarda yoshga nisbatan mos yondashuv, masalan, axloqiy va estetik me’yorlar bolalikdan boshlab shakllanadi, shuning uchun pedagogik jarayonlarda bolalar bilan muloqotda ehtiyotkorlik va samimiyatga katta e’tibor berish kerak. Pedagogning yoshlar bilan axloqiy-estetik muammolarni hal qilishda metodologik ko’nikmalar, shaxsiy misollar va ishonchliligi muhim hisoblanadi. Global tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda axloqiy-estetik tarbiyaning zamonaviy usullari, yo’llari va vositalarini yanada takomillashtirish dolzarb bo‘lib bormoqda”.[17]

Muhokama (Обсуждение/Discussion).

[10]Prezident SH.M.Mirziyoyev pedagoglar bilan muloqoti. https://president.uz/oz/lists/view/7587. 30.09.2024

[11]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 й, 28 январдаги “Ўзбекистоннинг тараққиѐт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60 сонли Фармони.

[12]Yuldashev S.U. Ta’lim sifatini oshirish va yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy omillar. Jan 31, 2024.

[13]Yuldashev S.U. Ta’lim sifatini oshirish va yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy omillar. Jan 31, 2024.

[14]O.Ergashova. N.Abdiyeva. “Bola tarbiyasida milliy, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarning roli”. Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. – Тошкент: 2021.

[15]Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2022.

[16]Mahliyo Faxriddinovna Esanova, Kamola Xasan qizi Muxiddinova. Bo’lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirish. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz July 2023 / Volume 4.-b.284-285.

[17]Б.Э.Хусанов Эстетик тарбия: моҳияти, зарурияти, аҳамияти / НамДУ илмий ахборотномаси. 11 –сон. 2020 йил, 170 -бет.

Bo‘lajak pedagoglarning axloqiy – estetik komtentligini rivojlantirish jarayoni axloqiy-estetik tarbiyaga doir qarashlar va g‘oyalar rivoji uzoq tarixga ega bo‘lib, dastlab ko‘hna Sharq, so‘ngra Qadimgi Yunon, keyinroq O‘rta asrlar Sharq mutafakkirlarining ma’naviy merosida nafosat, go‘zallik va tarbiya uyg‘unligi masalalari estetik tarbiya haqidagi tafakkurni rivojlantirish uchun muhim ilmiy-ma’rifiy manba vazifasini o‘tadi.

Yosh avlodni barkamol shahs sifatida tarbiyalashda Sharq mutafakkirlari ilmiy ijodida ham, ahloq-odob masalasi markaziy o‘rinni egallagan. Kaykovusning “Qabusnoma”sidan tortib, Abu Nasr Farobiy(Fozil odamlar shahri) asarida axloqiy tarbiya masalasiga oid ma’lumotlar keltirib o‘tilgan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” (“Baxt keltiruvchi bilim”), Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” (“Haqiqat sovg‘alari”), imom Ismoil Buxoriyning “Al-Adab Al-Mufrat” (“Adab durdonalari”) kabi jahonga mashhur asarlarida, Alisher Navoiyning o‘lmas sheriyatida, Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” ila, “Kamoliddin Xusayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsimiy”, “Ravzati shaholat” (“Shaholat bog‘i”) kabi asarlarida ahloq, odob masalalari keng yoritilgan.

Koshifiyning asarlaridagi ta’lim–tarbiya, ahloq masalari ko‘pchilik uchun andoza, namuna, odob normasi sifatida qisqa, asosli yozilgan. Koshifiyning fikricha, inson fazilati uning egallagan ta’lim-tarbiyachiga bog‘liq deya, e’tirof etadi. “Odob – bu qalbni yomon so‘zlardan va nojo‘ya xulqdan saqlay olish, o‘zini va o‘zgalarni ham hurmat qila bilishdadir”, deydi. Uning fikriga yaqin fikrni A.Navoiy ijodida ham ko‘rish mumkin. “Mahbub ul-qulub” asarida ilgari surilgan odob-axloq g‘oyalari to‘g‘risida fikr borar ekan, kishilarning ezgu sifatlari – saxiylik, mehribonlik, ilm, rostgo‘ylik, mehnatkashlik, kamtarlik, tavoze’ singari qator fazilatlar ulug‘lanadi” – deb e’tirof etadi”. Bu bilan u kishilarning insoniylik belgisi uning odobli, ahloqli ekanligi bilan o‘lchanadi hamda barcha insonlarni yaxshi xulqli bo‘lishiga chaqiradi. Asarning bir qancha boblari odob-axloq va ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Navoiy odob-axloq haqida fikr yuritar ekan, yaramas odat va xulq-atvorlarni shafqatsiz qoralaydi, olijanob insoniy fazilatlarni esa yuksak qadrlaydi, bolalarni o‘qish, o‘rganish va go‘zal odobli, a’lo xulqli bo‘lishga chaqiradi. Navoiy “Mahbub ul-qulub”da yozadi: “Adab kichik yoshlig‘larni ulug‘lar duosig‘a sazovor etar va ul duo barokati bila umridin barxurdor. Kichiklar mehrin ulug‘lar ko‘nglig‘a solur va ul muhabbat ko‘ngulda muabbad qolur. Ushog‘larni ko‘zg‘a ulug‘ qilur atvoridin xalq ulug‘liq bilur”[18].

A.Navoiyning “Mahbubul qulub” asarida odob, ahloqqa oid g‘oyalar ilgari surilgan. Uning birdan - bir orzu - umidi, ideali insonga bo‘lgan mehr-muhabbat, samimiylik, insoniylik fazilatlari tilga olingan. Yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda, milliy va umuinsoniy qadriyatlarning o‘rni sifatida, yoshlarda vatanparvarlik, ozodlik, adolatparvarlik, mardlik, do‘stlik, tarbiyalilik, axloqiylik, or-nomus, halollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi ko‘nikmalarni ular tarbiyasida vujudga kelishi bilan bogliqligi[19] ta’kidlanadi.

Avvalo axloq yoshlarda, xulq-atvor normalari, me’yorlari va qoidalari shakllanishida, ular, o‘z – o‘ziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi ahloqiy tushunchalarni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning alohida bir shakli sifatida qabul qiladi. Axloq kishilik jamiyatida avlodlar tomonidan to‘plangan ahloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Axloq sinfiy xususiyatga ega, chunki ahloq, his – tuyg‘u, tushuncha va prinsiplar ma’lum ijtimoiy formasiyaga xos bo‘lib ijtimoiy tuzum o’zgarishi bilan u ham o’zgaradi.

Pedagogik ta’lim sohasida jadid mutafakkiri Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” risolasini ko ‘rsatish mumkin. Unda, “Axloq insonlarni yahshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yahshi hulqlarning yahshiligini, yomon hulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg‘on kitobni axloq deyilur”[20]. Jadid mutafakkiri Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asarida berilgan axloqiy me’yorlarni inson o‘z hayoti davomida mujassam etishni va to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlashni e’tirof etadi.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Bu kabi metodik yondashuvlar bo‘lajak pedagoglarning axloqiy va estetik kompetentligini rivojlantirishda tarbiyaning ko‘lami, tadqiqot doirasi va maqsadini ifodalash uchun asos bo‘la-oladi. Shunday ekan, axloqiy va estetik tarbiyaning asosiy maqsadi, axloqiy-estetik boy dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxsni kamol toptirish orqali, axloqiy va estetik tarbiya - jamiyatda ma’naviy muhit barqarorligi ta’minlanadi hamda badiiy tafakkur va yuksak didni shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy ma’naviy va pedagogik ozuqa jarayoniga aylanadi.

Bo‘lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, pedagogik faoliyatning samaradorligi nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki pedagog shaxsining axloqiy qadriyatlari, estetik tafakkuri va ijtimoiy-madaniy mas’uliyatiga ham bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagoglarning

[18]Daliyeva E.Z. «Mahbub ul-qulub» asarida inson tarbiyasiga oid qarashlari. “Экономика и социум” №11(90) A.Navoiy: To‘la asarlar to‘plami, 9-jild, 2012.www.iupr.ru.

[19]O.Ergashova. N.Abdiyeva. “Bola tarbiyasida milliy, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarning roli”. Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. – Тошкент: 2021.

[20]Авлоний А. Туркий гулустон ёхуд ахлоқ. -Тошкент., 1992. Б- 11

axloqiy-estetik kompetentligini shakllantirishga qaratilgan metodik ko‘rsatmalarni ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tizimli joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik ta’lim jarayonida refleksiv yondashuv, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar tahlili hamda estetik tarbiya elementlaridan kompleks foydalanish bo‘lajak pedagoglarning axloqiy-estetik qarashlari va kasbiy pozitsiyasini mustahkamlaydi. Bunday yondashuv pedagog shaxsining ma’naviy-axloqiy barkamolligini ta’minlash, pedagogik faoliyatda ijtimoiy mas’uliyat va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan metodik ko‘rsatmalar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ va tizimli yondashuvni ta’minlab, ularning pedagogik faoliyatida axloqiy-estetik me’yorlarni ongli ravishda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Natijada, mazkur metodik yondashuvlar pedagogik ta’lim sifatini oshiradi va bo‘lajak pedagoglarning professional tayyorgarligini takomillashtirish muhitida yuksak axloqiy-estetik madaniyatni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2022.

2. Prezident SH.M.Mirziyoyev pedagoglar bilan muloqoti. https://president.uz/oz/lists/view/7587. 30.09.2024.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 й, 28 январдаги “Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 сонли Фармони.

4. Yuldashev S.U. Ta’lim sifatini oshirish va yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy omillar. Jan 31, 2024.

5. O.Ergashova. N.Abdiyeva. “Bola tarbiyasida milliy, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarning roli”. Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. – Тошкент: 2021.

6. Mahliyo Faxriddinovna Esanova, Kamola Xasan qizi Muxiddinova. Bo’lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirish. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz July 2023.

7. Б.Э.Хусанов Эстетик тарбия: моҳияти, зарурияти, аҳамияти / НамДУ илмий ахборотномаси. 11 –сон. 2020.

8. Daliyeva E.Z. «Mahbub ul-qulub» asarida inson tarbiyasiga oid qarashları. “Экономика и социум” №11(90) A.Navoiy: To‘la asarlar to‘plami, 9-jild, 2012.

9. O.Ergashova. N.Abdiyeva. “Bola tarbiyasida milliy, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarning roli”. Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. - Тошкент: 2021.

10. Авлоний А. Туркий гулустон ёхуд ахлоқ. -Тошкент: 1992.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ulasheva Umida Maxmadamin qizi
Samarqand davlat universiteti assistenti
E-mail: umidaulasheva439@gmail.com

O‘QUVCHILARLARNING IJODIY FIKRLASH, TANQIDIY TAHLIL QILISH VA MADANIYATLARARO MULOQOT QOBILIYATINI KUCHAYTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI INTERFAOL METODLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqola badiiy adabiyotdan dars jarayonida foydalanish uchun ishlab chiqilgan metodik-didaktik usullar ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, guruhli muhokamalar, matnni vizualizatsiya qilish va interaktiv platformalardan foydalanish o‘quv jarayonini jonli va qiziqarli qiladi. Shuningdek, ushbu usullar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, ularning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.*

Улашева Умида Махмадамин кызы
Доцент, Самаркандский государственный университет

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ, КОТОРЫЕ РАЗВИВАЮТ У СТУДЕНТОВ ТВОРЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ, КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И НАВЫКИ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ.

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методологические и дидактические методы, разработанные для использования художественной литературы в классе, которые значительно повышают эффективность образовательного процесса. Например, групповые дискуссии, визуализация текста и использование интерактивных платформ делают процесс обучения живым и интересным. Эти методы также обеспечивают активное участие учащихся и повышают их интерес к образовательному процессу.*

Ulasheva Umida Mahmadamin kizi
Assistant Professor, Samarkand State University

INTERACTIVE METHODS THAT ENHANCE STUDENTS' CREATIVE THINKING, CRITICAL ANALYSIS, AND INTERCULTURAL COMMUNICATION SKILLS

Abstract*: This article discusses the methodological and didactic methods developed for using fiction in the classroom that significantly increase the effectiveness of the educational process. For example, group discussions, text visualization, and the use of interactive platforms make the learning process lively and interesting. These methods also ensure the active participation of students and increase their interest in the educational process.*

Kirish. O‘quvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirishda badiiy adabiyotni samarali qo‘llash ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Badiiy matnlar o‘quvchilarda tilga nisbatan chuqur tushunchalarni shakllantirish, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va madaniyatlararo muloqot qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida badiiy adabiyotdan foydalanishning metodik-didaktik xususiyatlarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va ta’lim jarayonini tizimli ravishda tashkil qilish imkonini beradi. Ushbu bo‘limda, badiiy adabiyotdan foydalanishning metodik-didaktik tamoyillari, ularning dars jarayonidagi o‘rni va o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Innovatsion metodik-didaktik tamoyillar asosida rejalashtirilib, badiiy matnlardan samarali va maqsadli foydalanilanadigan dars-mashg‘ulotlarida badiiy matnlar haqida suhbat usuli nafaqat o‘quvchilar diqqatini bir joyga jamlashi, balki u xotirjam muhitda o‘tishi bilan ajralib turadi. Bir o‘quvchi matnni tushunganini bayon qilayotganda, qolganlar diqqat bilan tinglaydi. Shundan so‘ng, ulardan ba’zilari eshitgan narsalari bo‘yicha fikr bildirib, o‘z matn tushunchalarini ochiq-oydin bayon etishadi. O‘qituvchi esa ushbu suhbat ishtirokchisiga aylanib, o‘z “rol”ini o‘zgartiradi va ushbu suhbatni muvofiqlashtiradi; u faqat o‘quvchilar suhbati samarasiz bo‘lganida yoki matndan juda chetga chiqilganda yo‘naltiruvchi savolu-signallar bilan aralashadi. Bu usul bilan darsni rejalashtirish va o‘tkazishda asosiy

qoidaga rioya qilinadi: adabiyot materiallaridan foydalaniladigan darslar badiiy matnlar haqidagi muloqotga asoslanadi. Bu muloqot faqat o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida emas, balki ko‘proq o‘quvchilar o‘rtasida olib boriladi.[21]

Zamonaviy ta’lim imkoniyatlari va talablari yoritilgan so‘nggi tadqiqotlar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, hozirgi kunda har bir, xususan, badiiy adabiyot materiallaridan foydalanilayotgan darslarda o‘quvchilarning “faoliyati” qo‘llanilayotgan metodlar, ijtimoiy-ta’limiy shakllar hamda ishlash va muloqot texnikalari doirasida qabul qilingan “qarorlar” orqali belgilanadi. Loyihalar yoki mustaqil ta’lim doirasida o‘quvchilar bu “qarorlar”ni ko‘p hollarda mustaqil ravishda qabul qiladilar. “Odatiy” darslarda esa o‘quvchilarning harakatlari ko‘pincha vazifa va topshiriqlar orqali belgilanadi; shuningdek, bu holatda ham o‘quvchilarning vazifa va topshiriqlarni shakllantirishda ishtirok etishi maqsadga muvofiq sanaladi.[22]

Badiiy adabiyotdan foydalaniladigan darslarda qo‘llaniladigan metodlar asosan matnni tushunish va muayyan tarkibiy ko‘nikmalarga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bunday metodlar muayyan tarkibiy ko‘nikmaga erishishda muhim hissa qo‘shadigan, shuningdek, bu qanday sodir bo‘lishini belgilab beruvchi “yo‘llar” yoki “vositalar” sifatida ko‘rilishi mumkin. Shu boisdan, metodlarning maqsadga muvofiq tanlovi va ularning izchil tartibi darsni samarali bosqichlarga bo‘lish uchun asos hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Badiiy adabiyot materiallari asosida rejalashtirilgan dars metodlari turli didaktik konsepsiyalarga ko‘ra turlicha tizimlashtirilgan, masalan, ular yozma yoki og‘zaki vositalardan foydalanishga asoslanishi mumkin. Ammo asosiy metodlarni 3 turga ajratish ularning turli “harakatlar”ga asoslanishi tufayli yanada mantiqiy sanaladi:

1. **Matn tahlili va unga yaqin usullar** (matn elementlari va tuzilmalarini aniqlash uchun).
2. **Harakat va produktiv ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan darslar** (asosan interpretatsiya qilish uchun).
3. **Dars suhbati** (talqin qilish uchun).

Metodlar doirasida o‘quvchilarning faoliyatlari muayyan ijtimoiy shakllar orqali tashkil etiladi: yakka-yakka, juftlikda, guruh(cha)da ishlash yoki dars suhbati shaklida. Bundan tashqari, odatda, darsni olib borish uchun muayyan vositalar kerak bo‘ladi: qog‘oz, (smart) doska, proektor, fotoapparat yoki DVD-pleer va shu kabilar. Metodlarni qo‘llashda ko‘pincha ishlash yoki muloqot qilish texnikasidan foydalanish ham talab etiladi. O‘quvchilar izohli yoki adabiy terminologik lug‘atdan tegishli so‘z va terminlarni izlashi, matnda kerakli o‘rinlarni belgilashi, tayanch so‘z-iboralar ostiga chizishi yoki izoh yozishi, sxema yaratishi, shuningdek, o‘z ish natijalarini taqdim etishi yoki muhokama qilish kabi faoliyatlarni bajarishi shular jumlasidandir.[23]

Sohaviy manbalarning ba’zilari adabiyot materiallari qo‘llaniladigan darslarda asosiy metodlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmagan bir qator boshqa harakatlar ham mavjudligini qayd etadi. Jumladan, biror matnni talqin qilish bo‘yicha alohida savollarga javob berish, shuningdek, badiiy matn haqida bilim olishga xizmat qiladigan dars suhbatlari yoki ishlar.[24] Bunga qo‘shimcha ravishda, asosan o‘qish motivatsiyasini yoki tasavvurlarni shakllantirishni va matnga nisbatan emotsional munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar ham mavjudligi ta’kidlanadi: sarlavha yoki rasm bo‘yicha dastlabki farazlar tuzish, biror qahramonning fikrlari yoki his-tuyg‘ularini, matn voqealarini rivojlanishini taxmin qilish yoki ichki tasavvurlarni ifodalash shular jumlasidandir.

Badiiy matnlardan samarali foydalanish uchun metodlarni tanlashda ta’lim maqsadlari, o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi va ularning manfaatlari inobatga olinishi kerak. Bunda turli yondashuvlarga mos metodlarni tanlab olish va uni qo‘llashdan ko‘zlanadigan maqsadni, uning mazmunini to‘g‘ri belgilash maqsadga muvofiqdir (2.5-rasm).

Ushbu metodlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning tegishli fan mazmunini o‘zlashtirish jarayonini osonlashtiradi, balki ularni ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlashga undaydi. Qaysi metoddan foydalanish matnning xususiyati, o‘quvchilarning yoshi va ta’lim maqsadlariga bog‘liq. Shu bois, o‘qituvchi bu metodlarni darsning har bir bosqichi uchun mos ravishda tanlab, ishlatishi tavsiya etiladi. Shu sababli ularning har birini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilib, pedagoglar e’tiboriga havola etish maqsad qilindi.

Badiiy adabiyot materiallaridan darslarda foydalanishning innovatsion metodlarini saralashda ular o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, adabiy matnni tahlil qilishi hamda badiiy matnlar bilan ishlashdagi ijodiy yondashuvlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

“O‘qish uchun rag‘bat” (Leseanimation) metodining maqsadi o‘quvchilarda kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otish va ularning darsda va darsdan tashqari o‘qish odatlari (kitobxonlik madaniyati)ni shakllantirishdan iboratdir. Bunda

[21] Шнейдер О.В. Социальное партнерство: проблемы и перспективы. // Педагогическое обозрение. - 2008. - №4 (79).-С.7

[22] Gerhard H., Marcus S. Kein endgültiges Wort. Die Wiederentdeckung des Gesprächs im Literaturunterricht. –Baltmannsweiler: 2004.

[23] Karlheinz F. Kafka für die Schule. –Berlin: 1996; Günter W. Produktiver Umgang mit Literatur im Unterricht. –Baltmannsweiler: 2007.

[24] Günter W. Produktiver Umgang mit Literatur im Unterricht. –Baltmannsweiler: 2007.

bilimni majburiy ta’lim shakli asosida emas, balki ixtiyoriy muhit yaratish orqali o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodni qo‘llashning bir necha ixtiyoriy shakllari tavsiya etiladi:

– ***sinf kutubxonasi* yoki *kitob qutilari*:** sinfda kitoblar uchun alohida joy tashkil qilinadi, o‘quvchilar istagan vaqtda ulardan foydalanishlari mumkin;

– ***o‘qish kechalari yoki kitobxonlar haftaligi*:** bunday tadbirlarda o‘quvchilar birgalikda o‘qiydilar, o‘z fikrlarini baham ko‘radilar va bir-birlariga tavsiyalar beradilar;

– ***muallif bilan uchrashuvlar*:** o‘quvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri mualliflarga savollar berishlari va o‘qish jarayoni haqida bahs yuritishlari mumkin;

– ***o‘qilgan kitob bo‘yicha yozilgan fikrlarni almashish, shuningdek, ularni chop etish*:** har bir o‘quvchi ma’lum vaqt davomida bir nechta kitob o‘qib, buni maxsus daftar, jurnalda qayd etib boradi.

Ushbu metodni qo‘llashda o‘qituvchi roli butunlay o‘zgaradi: u o‘quvchilarga kitob tanlashda yo‘nalish beradi, kitob haqida qiziqarli ma’lumotlar bilan ularning qiziqishini uyg‘otadi va o‘qish jarayonini kuzatib boradi. Muvaffaqiyatlarga erishgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib, motivatsiyani oshiradi. Tajriba-sinov ishlarimiz davomida mazkur metod o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan qiziqishining oshishi, ularda shaxsiy o‘qish madaniyatining shakllanishi va o‘qish ko‘nikmalarining mustahkamlashi dalillandi. Shuningdek, har doim kerakli resurslarni (masalan, kitoblar, kutubxona) ta’minlash oson emasligi, ba’zi o‘quvchilarni rag‘batlantirish qiyin bo‘lishi mumkinligi o‘qituvchi uchun muayyan qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Ammo ushbu metod muvafaqqiyatli tashkil etilgan taqdirda o‘quvchilarda mustaqil ravishda kitob tanlash va o‘qish odati shakllanishi, ular badiiy adabiyotni nafaqat o‘qish, balki hayotda qo‘llashni o‘rganishi kafolatlanadi.

Tadqiqotimiz doirasida qayd etilgan ilmiy xulosalar hamda tajriba-sinov ishlari natijalariga tayanib, badiiy adabiyot vositasida o‘quvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirishda samarali sanalgan qator metodlar saralandi: ulardan ba’zilari mualliflik metodlari sanalsa, ba’zilari tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda sayqallashtirildi va takomillashtirildi. Ularni qo‘llanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda asosiy uch guruhga bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

Badiiy matn bilan ishlashda qo‘llaniladigan metodlar turlari

Badiiy matnni o‘qish, uni tahlil etishdan oldin qo‘llanuvchi metodlar. Bunday turga kiruvchi metodlar mavjud bilimini faollashtirish yoki matnda ko‘rib chiqilgan muammo yuzasidan maqsadlarni belgilash, asosiy savollarni shakllantirish, muammoni “o‘rtaga tashlash”ga xizmat qiladi.

“Svetofor - savollar metodi”da o‘quvchilarni qiziqtiruvchi fikrlarga qizil, yashil va sariq kartochkalar yordamida munosabat bildirishi nazarda tutilib, bunda ta’lim oluvchilarning oldingi bilimlarini faollashtirish, tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish, fikrlarni yorqin bayon etishlari maqsad qilinadi. Ushbu metodni dars jarayoniga quyidagicha kiritiladi:

1. O‘qituvchi matnga tegishli qiziqtiruvchi fikrlarni taqdim etadi (masalan, *“Bosh qahramon egoist”, “Asar ijobiy yakunga ega” va shu k.*).
2. O‘quvchilar ushbu fikrlarga munosabat bildirib, muayyan kartochkani ko‘rsatadilar (yashil = qo‘llab-quvvatlash, qizil = rad etish, sariq = noaniqlik),
3. O‘z munosabati, pozitsiyalarini tushuntirish uchun munozara o‘tkaziladi.

Mazkur metod orqali o‘quvchilarning ma’lum fikrga munosabatini tezkor aniqlash, ularning muhokama va bahs qilish malakasi rivojlantiriladi.

Hamma vaqt chuqur muhokamaga o‘tilmasligi xavfi borligi ushbu metodning salbiy tomoni sanaladi.

Matn qismlarini (mantiqan) to‘g‘ri tartiblash metodini qo‘llashda, dastavval, badiiy matn qismlarga bo‘linadi, o‘quvchilar uni to‘g‘ri tartibda qayta joylashtiradi. Bunda matnni tushunish jarayonini rag‘batlantirish, mantiqiy va tilga oid bog‘liqliklarni shakllantirish maqsad qilinadi. O‘qituvchi tomonidan qismlarga bo‘lingan badiiy matn guruhlarda ishlash uchun juda qo‘l keladi: har bir guruh matn qismlarini to‘g‘ri tartibda qayta joylashtirib, to‘g‘ri yechimga erishilgach, butun sinf jamoasi bilan uni muhokama qilish yanada samarali ekanligi tajriba-sinov ishlari davomida xulosalandi. Mazkur metod o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmasi, xususan, hamkorlikda, jamoada ishlash ko‘nikmasini rivojlanishiga yordam berish bilan birga ularning matnni diqqat bilan o‘qish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ammo bu nisbatan ko‘proq vaqt talab qilishini o‘qituvchi inobatga olishi talab etiladi.

“Kitobxonlar dueti” metodida ikkita har xil matn yoki bir matn qismlari ikki o‘quvchi tomonidan bir vaqtda alohida o‘qiladi va keyin juftlikda muhokama qilinadi. Bunda o‘quvchilarning mustaqil o‘qishlari qo‘llab-quvvatlanib, ularning muloqot qilish ko‘nikmasi rivojlantiriladi. O‘qituvchi juftliklarda ishlaydigan har bir o‘quvchi uchun “A” yoki “B” matnni tayyorlash orqali ta’lim jarayonida individual yondashuvga erishadi. Matnlar alohida o‘qilgach, juftlikda o‘zaro tushuntiriladi. So‘nggra butun o‘quvchilar jamoasi bilan matnlar birlashtiriladi va muhokama qilinadi.

Har bir o‘quvchining individual o‘qish tezligi hisobga olinishi va matnni mustaqil tushunish ko‘nikmasi rivojlantirilishi ushbu metodning afzalligi sanalsa, badiiy matnni to‘g‘ri tushuntirish amalga oshmasa, dars maqsadiga erishilmasligi salbiy jihati sifatida qaraladi. Muvaffaqiyatli qo‘llangan metod vositasida matn mazmunini yaxlit tushunish va muloqot malakasini rivojlantirishga erishilishi tadqiqotimizda aniqlandi.

Asosan xorijiy tillarni o‘qitishda keng qo‘llanuvchi **“Aylanma muloqot (nem. “Kugellager”) metodi**da o‘quvchilar ikki guruhga ajratilib, bir guruh ichki, boshqasi esa tashqiy doirada saflanishib, ro‘parasidagi o‘quvchi bilan juftlikda ishlaydilar: mavzu doirasidagi savollar bo‘yicha yoki muayyan mavzu bo‘yicha aylanma muloqot shaklida muhokama qiladilar. Bunda nuqtai nazarlar almashinuvi, muhokama va bahs ko‘nikmasini rivojlantirish asosiy maqsadlardan sanaladi. Ushbu metodni qo‘lash bosqchilari quyidagilardan iborat:

1. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar ichki va tashqi doira shaklida saflanishi uchun ikki guruhga ajratiladi.
2. Qarma-qarshi turgan juftliklar berilgan topshiriq doirasida o‘zaro muloqot qiladilar.
3. O‘qituvchi tomonidan belgilangan vaqt o‘tishi bilan tashqi doirada saflangan guruh a’zolari bir qadam chapga yurib, yangi juftliklar hosil qiladilar va shu tarzda yangi juftliklarda muhokama davom etadi.

“Aylanma muloqot metodi darsda har bir o‘quvchining faol muloqotini, ya’ni ishtirokini ta’minlaydi.

“Dasturxon” metodi o‘quvchilar markaziy mavzular yoki fikrlar yuzasidan o‘z fikrlarini umumiy qog‘ozda izohlashini nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va hamkorlikda ishlash qobiliyatlari rag‘batlantiriladi. Metodni qo‘llash uchun A3 o‘lchamdagi qog‘oz to‘rt qismga bo‘linadi va uning markaziy qismi bo‘sh qoldiriladi. Har bir o‘quvchi o‘z qismiga muayyan topshiriq yuzasidan fikr yoki izoh yozgach, qog‘oz aylantiriladi va navbatdagi o‘quvchi o‘z fikrini qayd etadi. Qog‘ozning markaziy qismida umumiy xulosa chiqariladi.

Har xil nuqtai nazarlarni yig‘ishga yordam berishi va jamoaviy ish uchun ijodiy muhit yaratilishi ushbu metodining ijobiy tomoni hisoblansa, katta guruhlarda ishlash muayyan muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkinligi uning salbiy jihatlaridan ekanligi amalda aniqlandi.

Matnni o‘qish, tahlil etish davomida foydalanish tavsiya etiladigan metodlar.

“To‘ldirma matn” (Lückentext) metodida badiiy matnning asl nusxasidan asosiy tushunchalar, dalillar, misollar yoki butun o‘rta yoki yakuniy qism olib tashlanadi. O‘quvchilar ushbu bo‘shliqlarni o‘z tushunchalari asosida to‘ldiradilar. Natijada, o‘quvchilarning badiiy matn bilan faol muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish, matndagi implisit (yashirin) aloqalarni tushunish qobiliyatini rivojlantirish hamda til bilimi va tushunchalarni shakllantirishga erishiladi. Dars jarayoniga ushbu metodni qo‘llashdan oldin o‘qituvchi matnni tayyorlaydi va qaysi qismlarni “bo‘sh qoldirish” haqida mavzu maqsadidan kelib chiqqan holda qaror qabul qiladi. Har xil yordamchi vositalari (masalan, so‘zlar ro‘yxati yoki savollar) taqdim etilishi mumkin. O‘quvchilar ushbu “bo‘shliq”larni mustaqil yoki guruhda to‘ldirishi o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. Natijalarni baholashda an’anaviy yondashuv, ya’ni o‘qituvchi tomonidan tekshirilishi xatolarga yo‘l qo‘ygan o‘quvchilarning motivasiyasini pasaytirishiga olib kelishi sababli boshqa zamonaviy ususllar tavsiya etiladi: o‘qituvchi asl matnni o‘quvchilarga taqdim etadi va o‘quvchilar o‘z ishlarini asl matn bilan taqqoslaydilar, muhokama qiladilar va matnni ongli ravishda tushunishga erishadilar. Matnni faol o‘qish orqali tushunish, yaratuvchan va tahliliy fikrlash ko‘nikmalari hamda to‘g‘ri va mantiqiy javoblarni shakllantirish qobiliyatining o‘quvchilarda shakllanganligi ushbu metodni muvaffaqiyatli qo‘llanishidan dalolat beradi.

Badiiy matnni o‘qish, uning tahlilidan so‘ng tavsiya qilinadigan metodlar.

“Intervyu” (Fiktiv tanqidiy intervyu) metodida o‘quvchilar matn muallifidan fiktiv intervyu oladilar. Bunda savol va javoblarni oldindan tayyor holda taqdim etish ham mumkin bo‘ladi. Badiiy matnning asosiy fikrlari bilan tanqidiy ishlashni rivojlantirish, matnni tushunish va maqsadli savollar berish qobiliyatini oshirish hamda mulohaza yuritish va yozish kompetensiyalarini rivojlantirish mazkur metodning asosiy maqsadlaridan sanaladi.

Darsni rejalashtirish va o‘tkazishda quyidagi bosqichlarni inobatga olish maqsadga muvofiq:

1. ***Kirish (umumiy muhokama):***
   - o‘qituvchi metodni tushuntiradi va fiktiv intervyuga misollarini keltiradi;
   - guruhlarda matn mazmuni umumiy muhokama qilinadi.
2. ***Asosiy bosqich (yakka yoki juftlikda ishlash):***
   - o‘quvchilar matn mazmuniga tanqidiy savollar tayyorlaydilar;
   - muallif nuqtai nazaridan ehtimoliy javoblar yozadilar.
3. ***Xulosa (umumiy muhokama):***
   - ayrim intervyular namoyish etiladi;
   - javoblarning mosligi bo‘yicha fikrlar bildiriladi.

Muvaffaqiyatli qo‘llangan metod yordamida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va nuqtai nazarni qabul qilish qobiliyati, yozish kompetensiyasini (aniklik va faollik asosida) rivojlantirish, shuningdek, mulohazali javoblar tayyorlash ko‘nikmasini rivojlantiriladi.

“To‘rt burchak” metodi barcha umumta’lim fanlari ta’limida ham samarali qo‘llanishi mumkinligi tadqiqotimiz davomida dalillandi. Bunda badiiy matnga doir to‘rt turli qarash, nuqtai nazar xona burchaklariga yozib (ilib) qo‘yiladi. O‘quvchilar bir burchakni tanlaydilar va o‘z tanlovlarini asoslaydilar. Fikr bildirish va dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o‘z nuqtai nazarlarni differensial tushuntirish hamda jamoada fikr almashish va ijtimoiy kompetensiyalarni oshirish mazkur metod asosida shakllandi.

Adabiyotlar tahlili. *Tayyorgarlik (umumiy muhokama)* bosqichida o‘qituvchi to‘rt qarash, nuqtai nazarni tayyorlaydi va ularni tushuntirib, sinf xonasi burchaklariga joylashtiriladi. So‘ngra guruhlarga ajratilgan o‘quvchilar o‘z burchaklarini tanlaydilar va birgalikda muhokama qiladilar.

Keyingi *umumiy muhokama* bosqichida guruh vakillari o‘z qarash, nuqtai nazarlarini taqdim etadilar va so‘ngra natijalar butun jamoa bilan muhokama qilinadi.

Natijada, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va tahlil qilish, guruhda ishlash va muloqot qilish hamda dalillarni taqdim etish kabi kompetensiyalar rivojlantiriladi.

Xulosa. Ushbu metodlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, ijodkorligini va muloqot mahoratini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. 2.3-paragraf tahlillaridan ma’lum bo‘ldiki, badiiy adabiyotdan foydalanishning metodik-didaktik xususiyatlari o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Dars jarayonida adabiyot materiallaridan foydalanish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Matn interpretasiyasi, suhbat usullari va innovatsion ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish imkonini beradi. Badiiy matnlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning lingvistik ko‘nikmalari nafaqat tilni tushunish va tahlil qilishda, balki ularni amaliyotga tatbiq etishda ham rivojlantiriladi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonida mustaqil o‘qish, ijtimoiy hamkorlik va shaxsiy mas’uliyat hissini kuchaytirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Akramova Sh.A. O‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni qo‘llashning amaliy masalalari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: OHBI, 2016. - 82 b.

2.Bertschi-Kaufmann A. Lesen und Schreiben in einer Medienumgebung. Die literalen Aktivitäten von Primarschulkindern. – Aarau: 2000.

3.Duschanova N.S. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar: qiyosiy tahlil. Academic Research in Educational Sciences . Volume 3, Issue 3, March, 2022.

4.Davletov E.Yu. Boshlangich ta’limga PIRLS baholash dasturi imkoniyatlari. Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent: – 2018. – B.248.

5.Fritzsche J. Zur Didaktik und Methodik des Deutschunterrichts. // Umgang mit Literatur. – Stuttgart: 1996.; Waldmann G. Produktiver Umgang mit dem Drama. Eine systematische Einführung in das produktive Verstehen traditioneller und moderner Dramenformen und das Schreiben. –Baltmannsweiler: 1999.

6.Gadamer H. Wahrheit und Methode; Grundzüge einer philosophischen Hermeneutik.– Tübingen: Mohr. 2002.

7.Horaz K. Ars Poetica. Die Dichtkunst. Lateinisch/Deutsch, Ditzingen: 1986. –P. 333.

8.Hurrelmann B. Leseförderung // Praxis Deutsch 1994, H. 127. – p. 17–26.

9.Ibodullaev Q.M. Umumta’lim maktablarida xalqaro baholash dastur talablari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) Dissertatsiya. 2023. Chirchiq. 296 bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Olimjonova O‘g‘ilxon Abdurasul qizi
Namangan davlat universiteti, Pedagogika kafedrasi
San’at va sport fakulteti 3 -bosqich tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURINING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Boshlang‘ich ta’lim bosqichida mustaqil fikrlashni rivojlantirish o‘quvchining keyingi ta’lim trayektoriyasi, o‘qishga nisbatan motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvchanligining poydevorini belgilaydi. Mazkur maqolada PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash dasturining 4-sinf o‘quvchilari o‘qish savodxonligini baholash orqali mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va kuchaytirishdagi imkoniyatlari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. PIRLS konsepsiyasidagi matnni tushunish jarayonlari (axborotni topish, xulosa chiqarish, mazmunni talqin qilish, matn elementlarini baholash) o‘quvchilarda dalilga tayangan fikr yuritish, mantiqiy izchillik, refleksiya va baholash kompetensiyalarini faollashtirishi asoslab beriladi. Shuningdek, PIRLS talablari bilan uyg‘unlashtirilgan dars dizayni, savol-javob texnologiyalari, metakognitiv strategiyalar va o‘qish topshiriqlarini darajalash orqali boshlang‘ich sinfda mustaqil fikrlashni maqsadli rivojlantirish mexanizmlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *PIRLS, mustaqil fikrlash, axborotni topish, xulosa chiqarish, mazmunni talqin qilish, matn elementlarini baholash, tanqidiy fikrlash, metakognitsiya, matnni tushunish, inferensiya, baholash mezonlari, refleksiya, kompetensiyaviy yondashuv.*

Олимджонова Огилхон Абдурасул кизи
Наманганский государственный университет, кафедра педагогики
Аспирант 3-го года обучения, факультет искусств и спорта

ВАЖНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРОГРАММЫ ОЦЕНКИ PIRLS В РАЗВИТИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: *Развитие самостоятельного мышления на этапе начального образования определяет основу дальнейшей образовательной траектории ученика, мотивацию к чтению и социальную адаптацию. В данной статье анализируются возможности международной программы оценки PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) в формировании и укреплении навыков самостоятельного мышления путем оценки уровня грамотности учащихся 4-го класса с научно-педагогической точки зрения. Процессы понимания текста в концепции PIRLS (поиск информации, формулирование выводов, интерпретация содержания, оценка элементов текста) обосновываются активизацией у учащихся компетенций в области доказательного мышления, логической последовательности, рефлексии и оценки. Также освещаются механизмы целенаправленного развития самостоятельного мышления в начальной школе посредством разработки уроков, технологий вопросов и ответов, метакогнитивных стратегий и оценивания заданий по чтению, соответствующих требованиям PIRLS.*

Ключевые слова: *PIRLS, самостоятельное мышление, поиск информации, формулирование выводов, интерпретация содержания, оценка элементов текста, критическое мышление, метакогниция, понимание текста, умозаключение, критерии оценки, рефлексия, компетентностный подход.*

Olimjonova O‘g‘ilkhon Abdurasul qizi
Namangan State University, Department of Pedagogy
3rd-year doctoral student, Faculty of Arts and Sports

THE IMPORTANCE OF THE PIRLS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN DEVELOPING INDEPENDENT THINKING OF PRIMARY GRADE STUDENTS

Abstract: *The development of independent thinking at the primary education stage determines the foundation of the student’s further educational trajectory, motivation for reading, and social adaptability. This article analyzes the possibilities of the PIRLS*

(Progress in International Reading Literacy Study) international assessment program in forming and strengthening independent thinking skills by assessing the reading literacy of 4th grade students from a scientific and pedagogical point of view. The processes of text comprehension in the PIRLS concept (finding information, drawing conclusions, interpreting content, evaluating text elements) are justified by the activation of evidence-based thinking, logical consistency, reflection and evaluation competencies in students. Also, mechanisms for the targeted development of independent thinking in primary school through lesson design, question-and-answer technologies, metacognitive strategies and grading of reading tasks that are aligned with PIRLS requirements are highlighted.

Keywords: *PIRLS, independent thinking, finding information, drawing conclusions, interpreting content, evaluating text elements, critical thinking, metacognition, text comprehension, inference, assessment criteria, reflection, competency-based approach.*

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori[25] bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi qoshida “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida[26] 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lidan shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro me’zon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar tahlili:

Mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari, maqolalar va monografiyalar chop etilgan. Ilmiy adabiyotlarda mustaqil fikrlash tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, shakllanish bosqichlari hamda metodik asoslari keng yoritilgan. Pedagogika fanida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faoliyatga asoslangan yondashuv, muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchini izlanishga undash usullari asosiy o‘rin egallaydi. Masalan, V.V. Davydov, L.S. Vygotskiy, J. Piaget, B. Bloom[27] kabi mutafakkirlarning fikrlash jarayoni va uning rivojlanishiga oid nazariyalari bu yo‘nalishdagi ilmiy qarashlarga zamin yaratgan. O‘zbekiston Respublikasida pedagogika nazariyasini o‘rganish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars samaradorligini oshirish muammolari S.Beknazarova[28], Y.Mamatova[29], S.Bobojonov[30], H.Kadirov[31], X.X.Nekboyev[32]va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan. O‘quvchilarning shaxsiy rivojlantirish metodikasi o‘quvchilarga o‘zlarining o‘zlashtirish va o‘zlarining fikrlash jarayonida mustaqil ravishda ishtirok etish imkonini beradi. Tahlil qilingan adabiyotlarda shuningdek, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari o‘quvchining ijtimoiy faolligi, o‘zini anglash darajasi, kasbiy yo‘nalishi va kelajak hayotiy rejalarini belgilashda muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan. Adabiyotlar asosida xulosa shuki, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar va metodik yondashuvlarni ilmiy asosda ishlab chiqish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

---

[25] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori.

[26] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni

[27] Akhmedov, U. "Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar." Pedagogika va ta'lim 2022-y

[28] Бекназарова С.С. Медиаобразование для подготовки преподавателей: создание потенциала для информационного общества // Монография. –Ташкент, 2011. –72ср

[29] Маматова Я., СулаймановаС. Узбекистан по пути развития медиаобразования. /. Учебное пособие. –Ташкент: extremum-press, 2015. –С. 90

[30] BabadjanovS.S. Pedagogoliyta’limmuassasalaritalabalarinimediakompetentliginirivojlantirishtex nologiyalari. // Ped. fan. bo‘yichafals. dok. ... diss. – Toshkent, 2018. –180 b

[31] Kadirov H.Sh. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida mediakompetenlikni rivojlantirish tex nologiyasi. Ped. fan. dok. (DSc) ... diss. –Toshkent, 2020

[32] Begimkulov H.Sh. The Concept of Media Competence of the Educator and Its Essence // Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 18 Nov 2021

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish, mavjud holatni baholash, amaliy yechimlar ishlab chiqish va ularni samaradorlik nuqtai nazaridan aniqlash maqsad qilingan. Ishning asosiy yo‘nalishi sifatida zamonaviy ta’limda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda PIRLS xalqaro baholash dasturining o‘rni va ularni joriy etish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Bu jarayonda umumiy ilmiy yondashuvlar, xususan, tizimli, kompleks, faoliyatga asoslangan va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asos qilib olingan. Ish jarayonida muammo tahlili, taqqoslash, sintez, kuzatuv, so‘rovnoma, eksperiment, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

O‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning ta’siri o‘quv faoliyatining barcha bosqichlarida ijobiy natijalarni ko‘rsatdi. Jumladan, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning fikrini erkin ifoda etish, muammolarni mustaqil hal qilish, tanqidiy yondashish hamda yangi g‘oyalarni ilgari surish ko‘nikmalarini faollashtirdi. O‘quvchilarning darsdagi ishtiroki, o‘z fikriga ega bo‘lishga bo‘lgan intilishi, savol javoblarda faolligi va ijodiy topshiriqlarga bo‘lgan munosabati yuqori baholandi. Kuzatuvlar va so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion metodlar qo‘llanilgan guruhlarda o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, mustaqil ishlashga bo‘lgan qiziqishi va o‘z fikrini asoslab berish qobiliyati ancha oshgan. Bu esa ta’lim jarayonining sifati oshishiga, o‘quvchilar shaxsining intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Tahlillar shuni anglatadiki, zamonaviy ta’lim muhitida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini shakllantirish uchun faqat an’anaviy metodlar emas, balki interfaol, loyiha asosida ta’lim, muammoli o‘qitish kabi yangicha yondashuvlarni keng joriy etish zarur. Mazkur metodlar o‘quvchining shaxsiy tajribasi asosida bilimlarni anglashiga, tanqidiy va ijodiy fikrlash orqali yangi bilimlarni yaratishiga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar orasida o‘z-o‘zini baholash, hamkorlikda ishlash, fikrlarni tahlil qilish va umumlashtirish kabi kompetensiyalar ham shakllanadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning nafaqat akademik, balki psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ham sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning fikr yuritish jarayonida o‘z fikrini dalillar bilan asoslashga urinishlari, yangi g‘oyalar taklif qilishlari va muammolarga individual yondashuv ko‘rsatishlari ushbu ko‘nikmalar shakllanayotganini anglatadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning baholash mezonlari asosida o‘zini baholash va xatolar ustida ishlashga bo‘lgan tayyorligi mustaqil fikrlashning chuqurlashganidan dalolat beradi. [33]

Mustaqil fikrlashni boshlang‘ich sinf kesimida aniqroq tasavvur qilish uchun uni uch qatlamda ko‘rish mumkin. Birinchi qatlam - kognitiv mustaqillik, o‘quvchi mazmunni tushunish uchun o‘zi strategiya tanlaydi (qayta o‘qish, savol qo‘yish, asosiy g‘oyani ajratish, dalil topish). Ikkinchi qatlam - mantiqiy mustaqillik, u sabab-oqibat bog‘lanishlarini tiklaydi, xulosani dalil bilan mustahkamlaydi, muqobil javoblar orasidan asoslisini tanlaydi. Uchinchi qatlam - qiymat va pozitsiya mustaqilligi, o‘quvchi matn yoki vaziyatga nisbatan shaxsiy munosabat bildiradi, lekin bu munosabat hissiy taxmin emas, mantiq va dalil bilan uyg‘unlashgan bo‘ladi.[34] Aynan shu uch qatlam birlashganda bola nafaqat “to‘g‘ri javob”ni topadi, balki “to‘g‘ri fikrlash jarayoni”ni ham namoyon eta oladi. Pedagogik amaliyotda bunday natijaga erishishning eng samarali yo‘llaridan biri o‘qish savodxonligini chuqur rivojlantirishdir, chunki o‘qish - fikrlashni uyg‘otadigan, fikrlashni tartibga soladigan va fikrlash natijasini tekshiradigan universal faoliyat hisoblanadi. Matnni tushunish jarayonida o‘quvchi axborotni izlaydi, tanlaydi, bog‘laydi, umumlashtiradi, muallif niyatini anglaydi, g‘oyani baholaydi, bularning barchasi mustaqil fikrlashning tabiiy “mashq maydoni”dir.

Shu yerda xalqaro baholash dasturlari masalasi paydo bo‘ladi. So‘nggi o‘n yilliklarda ta’lim sifatini baholashda faqat ichki nazorat (maktab, tuman, viloyat imtihonlari) yetarli bo‘lmay qoldi, chunki ta’lim tizimlari global raqobat, mehnat bozori talablari, axborot oqimining tezligi va texnologik yangilanishlar fonida o‘z natijalarini xalqaro mezonlar bilan qiyoslash ehtiyojini sezdi. Xalqaro yirik ko‘lamli baholashlar (international large-scale assessments) aynan shu ehtiyojdan tug‘ilib, davlatlarga o‘z o‘quvchilari yutuqlarini boshqa ta’lim tizimlari bilan solishtirish, kuchli va zaif tomonlarni dalillarga tayangan holda aniqlash, ta’lim siyosati va o‘quv dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish imkonini beradi. OECDning xalqaro baholashlar sharhi bu dasturlar nafaqat kognitiv natijani (masalan, o‘qish, matematika, tabiiy fanlar), balki kontekst omillarini ham (maktab muhiti, o‘qitish amaliyoti, oila resurslari, o‘quvchi munosabati) yig‘ishini va ma’lumotlardan ta’lim islohotlarida foydalanilishini ta’kidlaydi.

PIRLSning konseptual kuchi shundaki, u o‘qish savodxonligini faqat matnni tovushlab o‘qish tezligi yoki so‘z tanish bilan cheklamaydi. Uning asosida “o‘qish maqsadlari” va “matnni tushunish jarayonlari” turadi. PIRLS doirasida

[33] Rabbonayeva N.K. (tuzuvchi). PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to‘plami, o‘quv-uslubiy qo‘llanma. - Samarqand, 2019. - 64 b.

[34] Doniyorov A.A. PIRLS xalqaro baholash dasturining boshlang‘ich ta’limdagi ahamiyati // Zamonaviy bilimlarni jahon ilm-faniga tadbiq etishda innovatsion texnologiyalar, respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - 2023. - B. 49-52.

o‘quvchilar odatda badiiy tajriba uchun o‘qish (literary experience) va axborot olish hamda undan foydalanish uchun o‘qish (acquire and use information) kabi ikki asosiy maqsad bo‘yicha matnlar bilan ishlaydi, har ikkala yo‘nalishda ham tushunish jarayonlari turli kognitiv darajalarni qamrab oladi. Bu yondashuv mustaqil fikrlash bilan bevosita tutashadi, mustaqil fikrlash - bu matnning “ustidan yurish” emas, uning “ichiga kirish”, g‘oya va dalillarni ajratish, yashirin ma’noni ochish, muallif pozitsiyasini fahmlash va o‘z bahosini berishdir.

PIRLS baholaydigan tushunish jarayonlari aynan shuni bosqichma-bosqich ko‘rsatadi, matndan ochiq aytilgan axborotni topish, sodda xulosalar chiqarish, g‘oyalarni talqin qilish va integratsiyalash, matn elementlarini (mazmun, til vositalari, muallif yondashuvi) baholash. Masalan, “matndan ochiq aytilgan axborotni topish” ko‘nikmasi bir qarashda oddiydek tuyuladi, lekin u mustaqil fikrlashning intizomiy poydevorini yaratadi, o‘quvchi o‘z fikrini matndagi dalilga tayashni o‘rganadi. “Sodda xulosa chiqarish” bosqichida bola matnda bevosita yozilmagan, ammo mantiqan kelib chiqadigan ma’noni topadi, bu - inferensiya, ya’ni “aytilmaganni anglash” amali. Inferensiya rivojlanmasa, o‘quvchi ko‘pincha yuzaki tushunish bilan kifoyalanib qoladi, hayotda esa ko‘plab vaziyatlar aynan yashirin ishoralar, kontekst va sabab-oqibatni fahmlashga tayanadi. “Talqin qilish va integratsiyalash” esa mustaqil fikrlashning eng muhim belgilaridan birini - turli bo‘laklarni yagona mazmunga birlashtirishni shakllantiradi, o‘quvchi detallarni asosiy g‘oya bilan bog‘laydi, personaj motivini tushuntiradi, voqealar ketma-ketligidan umumiy xulosa chiqaradi. “Baholash” bosqichida esa o‘quvchi matnni tanqidiy ko‘z bilan ko‘ra boshlaydi, muallif nima uchun shunday yozdi, dalil qanchalik ishonarli, qahramon qarori qay darajada asosli, matnning tili va uslubi qanday ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu bosqichlar aslida mustaqil fikrlashning “o‘sish zinapoyalari”dir, topish - tushunish - xulosa - talqin - baholash.[35]

PIRLSning bugungi kundagi ahamiyatini boshlang‘ich sinf o‘quvchisining hayoti bilan bevosita bog‘lab ko‘rsak, u uch yo‘nalishda yaqqol ko‘rinadi. Birinchi yo‘nalish - akademik hayot, o‘quvchi matnni tushunib o‘qisa, u barcha fanlarda osonroq o‘zlashtiradi, topshiriq shartini aniq anglaydi, savolga “ko‘chirma” emas, mazmunli javob beradi. Ikkinchi yo‘nalish - ijtimoiy hayot, o‘qiganini tushunadigan va baholay oladigan bola muloqotda ham dalilga tayangan holda fikr bildiradi, tengdoshlari bilan kelishmovchilikda “janjal” emas, “izoh” va “asos” topishga urinadi. Uchinchi yo‘nalish - axborot hayoti, bugun bolalar erta yoshdan raqamli kontentga duch keladi, reklama, blog, qisqa xabar, turli manbalar oqimida yashaydi, mustaqil fikrlash esa ularni manipulyatsiyadan, yolg‘on yoki biryoqlama axborotdan himoya qiladigan ichki filtr vazifasini bajaradi.[36]

Darhaqiqat, PIRLS topshiriqlari tuzilmasi boshlang‘ich sinf o‘quvchisida mustaqil fikrlashni “ko‘rinadigan” qiladi, ya’ni o‘quvchi faqat javobni topmaydi, balki qanday fikrlaganini ham namoyon etadi. Ayniqsa, ochiq javobli topshiriqlar (constructed response) dalillash, izohlash, sabab-oqibat bog‘lanishini tiklash kabi mantiqiy amallarni talab qiladi. Bu esa o‘qitish jarayonida uchta muhim didaktik natijani beradi. Birinchi natija, mustaqil fikrlashning dalilga tayanuvchi modeli shakllanadi. Amaliyotda ko‘p uchraydigan muammo shuki, o‘quvchi “to‘g‘ri” javobni sezgi yoki taxmin bilan aytadi, ammo asoslay olmaydi. PIRLS tipidagi topshiriqlar esa o‘quvchini matnni “dalil ombori” sifatida ko‘rishga o‘rgatadi, o‘quvchi xulosa chiqargan bo‘lsa, uni matndagi g‘oya yoki detallar bilan mustahkamlaydi. Natijada fikrning ishonchliligi, izchilligi va tekshiriluvchanligi ortadi, bu mustaqil fikrlashning ilmiy uslubiga xos belgilardir.

Ikkinchi natija, metakognitiv ko‘nikmalar (o‘qishni rejalash, nazorat qilish, qayta tekshirish) rivojlanadi. Mustaqil fikrlovchi o‘quvchi matnni bir marotaba o‘qib, darhol yakuniy xulosa bermaydi, u o‘z tushunishini nazorat qiladi, “Men buni to‘g‘ri angladimmi?”, “Qaysi joyi noaniq?”, “Qayta o‘qishim kerakmi?”. PIRLS yondashuvida tushunish jarayonlari bosqichma-bosqich o‘lchanishi, o‘qituvchiga ham, o‘quvchiga ham o‘z strategiyasini tahlil qilish imkonini beradi. Kognitiv pedagogika doirasidagi qarashlarda tanqidiy va mustaqil fikrlash muntazam tashkil etilgan pedagogik vaziyatlar orqali shakllanishi qayd etiladi, demak, PIRLSga mos vazifalar shunday vaziyatlarni darsda ko‘paytirishning samarali yo‘lidir.

Uchinchi natija, fikr xilma-xilligiga tolerantlik va alternativ talqin ko‘nikmasi kuchayadi. Adabiy (badiiy) matnlar bilan ishlashda bir xil savolga turli asosli javoblar bo‘lishi mumkin. PIRLS amaliyotida ham o‘quvchi javobini matn bilan asoslay olsa, u qiymat kasb etadi. Bu yondashuv o‘quvchida “yagona qolip”dan chiqib fikrlash, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish, o‘z pozitsiyasini himoya qilish madaniyatini shakllantiradi. Natijada sinf muhitida muloqot, bahs va dalillashga tayangan o‘qish madaniyati qaror topadi.

Xulosa

PIRLS xalqaro baholash dasturi boshlang‘ich sinfda mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun ikki tomonlama (diagnostik va didaktik) resursdir. Diagnostik jihatdan u o‘quvchining matnni tushunish darajasini, fikr yuritishning dalillilik va izchillik ko‘rsatkichlarini, xulosa chiqarish hamda baholash amallarini aniq indikatorlar orqali ko‘rsatadi. Didaktik jihatdan esa u o‘qituvchiga dars dizaynini yuqori tartibli kognitiv maqsadlarga yo‘naltirish, savollar va

[35] Bayzakova M.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholashda PIRLS dasturining o‘rni // Messenger of Pedagogy and Psychology (elektron ilmiy nashr). - Murojaat sanasi, 17.01.2026.

[36] Eshmatova M.T. PIRLS xalqaro baholash dasturi // Hozirgi zamon ta’limi. - 2020. - 10-son. - B. 17-22.

topshiriqlarni “fikrlashni uyg‘otadigan” shaklda qurish, o‘quvchini matnga tayangan holda pozitsiya bildirishga o‘rgatish imkonini beradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida xalqaro tadqiqotlarni qo‘llab quvvatlovchi normativ va metodik asoslar mavjudligi PIRLS yondashuvini darslik, baholash mezonlari va sinf amaliyotiga chuqurroq singdirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu sababli, PIRLSni faqat “imtihon” yoki “reyting” sifatida emas, balki boshlang‘ich sinfda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin qilish va amaliyotga izchil tatbiq etish ilmiy-metodik jihatdan dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.

3. Akhmedov, U. “Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar.” Pedagogika va ta’lim 2022-y.

4. Бекназарова С.С. Медиаобразование для подготовки преподавателей: создание потенциала для информационного общества // Монография. –Ташкент, 2011. –72ср.

5. Маматова Я., СулаймановаС. Узбекистан по пути развития медиаобразования. /. Учебное пособие. – Ташкент: extremum-press, 2015. –С. 90.

6. BabadjanovS.S. Pedagog oliy ta’lim muassasalari

7. talabalarinimediakompetentliginirivojlantirishtex nologiyalari. // Ped. fan. bo‘yichafals. dok. ... diss. –Toshkent, 2018. –180 b.

8. Kadirov H.Sh. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida mediakompetenlikni rivojlantirish tex nologiyasi. Ped. fan. dok. (DSc) ... diss. –Toshkent, 2020.

9. Begimkulov H.Sh. The Concept of Media Competence of the Educator and Its Essence // Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 18 Nov 2021.

10. Doniyorov A.A. PIRLS xalqaro baholash dasturining boshlang‘ich ta’limdagi ahamiyati // Zamonaviy bilimlarni jahon ilm-faniga tadbiq etishda innovatsion texnologiyalar, respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - 2023. - B. 49-52.

11. Bayzakova M.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholashda PIRLS dasturining o‘rni // Messenger of Pedagogy and Psychology (elektron ilmiy nashr). - Murojaat sanasi, 17.01.2026.

12. Eshmatova M.T. PIRLS xalqaro baholash dasturi // Hozirgi zamon ta’limi. - 2020. - 10-son. - B. 17-22.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna
A.Avloniy nomidagi Pedogogik
Mahorat Milliy Instituti tayanch doktoranti
hojiyevamaftuna011@gmail.com

ZAMONAVIY TA'LIM PARADIGMALARI VA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM

Annotatsiya. *Ushbu bo'limda zamonaviy ta'lim paradigmalari ta'limni loyihalash va boshqarishning konseptual modeli sifatida asoslanadi hamda ularning ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, baholash tamoyillari va subyektlar rollarini belgilashdagi funksiyasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kompetensiyaga yo'naltirilgan, konstruktivistik, inklyuziv (UDL), raqamli/aralash ta'lim hamda shaxsga yo'naltirilgan paradigmalarning didaktik mezonlari qiyosiy yoritilib, o'quv natijalarini "dalillash" tamoyilining mohiyati ochib beriladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim doirasida differensial o'qitish, individuallashtirish va mastery/kompetensiya asosidagi yondashuvlar hamda ularni amalga oshirish texnologiyalari (formativ baholash, o'quvchi profili, maqsad qo'yish, refleksiya, portfel, mentorlik, aralash ta'lim, adaptiv raqamli resurslar) tizimli bayon etiladi. Xorijiy tilni o'qitish kontekstida paradigmalarning metodik qiymati o'quvchi agentligi, muloqotga yo'naltirilgan faoliyat, moslashuvchan baholash va o'quv progressini ishonchli dalillar asosida kuzatish bilan asoslanadi .*

Kalit so'zlar: *zamonaviy ta'lim paradigmalari, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm, inklyuziv ta'lim, UDL, raqamli transformatsiya, aralash ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, formativ baholash, portfel, o'quvchi agentligi.*

Ходжиева Мафтуна Улугбековна
Аспирант Национального института педагогических навыков им. А. Авлони

СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПАРАДИГМЫ И ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Аннотация. *В разделе современные образовательные парадигмы раскрываются как концептуальные рамки проектирования и управления обучением, определяющие цели, содержание, методы, принципы оценивания и распределение ролей участников образовательного процесса. Сопоставляются компетентностная, конструктивистская, инклюзивная (UDL), цифровая/смешанная и личностно-ориентированная парадигмы; особое внимание уделяется принципу доказательности результатов обучения и формам их фиксации. В рамках личностно-ориентированного подхода систематизированы ключевые модели (дифференциация, индивидуализация, mastery/обучение на основе компетенций) и технологии внедрения: формативное оценивание, профиль обучающегося, целеполагание, рефлексия, портфолио, наставничество, смешанное обучение и адаптивные цифровые ресурсы. В контексте обучения иностранному языку обоснована методическая значимость ученической агентности, коммуникативно-ориентированных видов деятельности и гибкого оценивания для устойчивого прогресса .*

Ключевые слова: *образовательные парадигмы, компетентностный подход, конструктивизм, инклюзивное образование, UDL, цифровая трансформация, смешанное обучение, личностно-ориентированное обучение, формативное оценивание, портфолио, агентность обучающегося.*

Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna
A. Avloni National Institute of Pedagogical Skills, PhD student

MODERN EDUCATIONAL PARADIGMS AND PERSONALIZED LEARNING

Abstract. *This section positions modern educational paradigms as conceptual frameworks for designing and managing instruction by defining learning purposes, content, methods, assessment principles, and teacher–learner roles. It offers a comparative analysis of competence-based, constructivist, inclusive (UDL), digital/blended, and learner-centered paradigms, with a particular focus on evidence-informed approaches to demonstrating learning outcomes . Within learner-centered education, the section systematizes differentiation, individualization, and mastery/competency-based learning, alongside implementation technologies such as formative assessment, learner profiles, goal setting, reflection, portfolios, mentoring, blended designs, and adaptive digital*

resources. In foreign language education, the discussion highlights learner agency, communicative task design, and flexible assessment as key conditions for sustained progress and the development of communicative competence.

Keywords: *educational paradigms, competence-based learning, constructivism, inclusive education, Universal Design for Learning (UDL), digital transformation, blended learning, learner-centered education, formative assessment, portfolio, learner agency.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quv natijalarini belgilash, ularga erishish yo'llarini asoslash va natijani ishonchli dalillar bilan ko'rsatish masalasi metodologik jihatdan dolzarbdir [7; 8]. Bugungi sharoitda ta'lim samaradorligi faqat bilimlar yig'indisi bilan emas, balki o'quvchining bilimni amaliy vaziyatlarda qo'llay olishi, muammo yechishi, muloqot va hamkorlikda ishlashi, raqamli savodxonligi hamda o'z-o'zini boshqarib o'rganish kompetensiyalari bilan tavsiflanadi [7; 8; 15]. Shu sababli ta'lim jarayonini tashkil etishga doir qarorlar "nimani o'qitamiz?" va "qanday o'qitamiz?" bilan cheklanmay, "nima uchun o'qitamiz?" hamda "natijani qanday dalillaymiz?" kabi strategik savollar doirasida ko'rib chiqilmoqda. Mazkur savollarga javob beruvchi konseptual asoslar ta'lim paradigmalari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Paradigma ta'limni loyihalashning tayanch ramkasi sifatida o'quv natijalarini aniqlash, o'quv faoliyatini maqsadga muvofiq dizayn qilish, resurs va texnologiyalar ulushini belgilash, shuningdek baholashni dalillarga tayangan holda tashkil etishga yo'naltiradi [15]. Kompetensiyaga yo'naltirilgan paradigma o'quv natijasini "qila oladi" ko'rsatkichlari orqali ifodalash va mezonli baholashga tayanishni kuchaytirsa, konstruktivistik paradigma o'rganishni ma'no qurish jarayoni sifatida talqin qilib, muammoli vaziyatlar, tajriba, munozara va hamkorlik orqali faol o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi [17]. Inklyuziv (UDL) paradigma esa sinfdagi xilma-xillikni tabiiy holat deb qabul qilib, ta'lim mazmuni, metodlari va baholashni moslashuvchan dizayn qilish, to'siqlarni kamaytirish hamda turli dalillar orqali rivojlanishni ko'rsatish zaruratini ilgari suradi [4]. Raqamli/aralash ta'lim paradigmasi esa o'quv jarayonining moslashuvchanligini oshirib, raqamli resurslar va ma'lumotlarga tayanib individual yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi [12].

Xorijiy tilni o'qitish kontekstida mazkur paradigmalarning metodik ahamiyati yanada ortadi, chunki til o'zlashtirish kommunikativ vazifalar, faol amaliyot, muntazam refleksiya va uzluksiz fikr-mulohaza (feedback)ni talab qiladi [5]. Shuning uchun shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari - o'quvchi ehtiyojini aniqlash, individual maqsad qo'yish, o'quv yo'lini moslashtirish, formativ baholash va portfel orqali o'sishni dalillash - til ta'limida natijadorlikni oshiruvchi muhim didaktik omillar sifatida qaraladi [9]. Mazkur bo'limning maqsadi zamonaviy paradigmalarning nazariy-metodik asoslarini tizimlashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etishning ustuvor yo'nalishlarini ilmiy tahlil qilishdan iborat. Zamonaviy ta'lim paradigmalari - bu ta'limni tashkil etishning konseptual modeli bo'lib, u ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari, baholash tamoyillari hamda o'qituvchi–o'quvchi rollarini belgilaydi. Paradigma "nima uchun o'qitamiz?", "nimani o'qitamiz?", "qanday o'qitamiz?" va "natijani qanday dalillaymiz?" degan savollarga yagona mantiqiy tizim sifatida javob beradi [7]. Bugungi sharoitda ta'lim natijasi faqat bilimlar yig'indisi bilan emas, balki bilimni amaliy vaziyatlarda qo'llash, muammo yechish, muloqot va hamkorlik, raqamli savodxonlik hamda o'zini boshqarib o'rganish kabi kompleks ko'nikmalar bilan o'lchanmoqda [8].

Xalqaro ta'lim makonida ta'lim mazmuni va kutilayotgan o'quv natijalarini yangilashga qaratilgan konseptual yondashuvlar, avvalo, bilimlarning amaliy qo'llanilishini ta'minlashga yo'naltirilgan kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchini mustaqil ta'lim subyekti sifatida e'tirof etuvchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, bilimlarni faol ravishda egallashni nazarda tutuvchi konstruktivistik o'rganish modeli, barcha o'quvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini kafolatlovchi inklyuziv ta'lim, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan holda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishga qaratilgan raqamli transformatsiya yo'nalishlarini ustuvor deb belgilaydi [4].

O'zbekiston ta'lim siyosatida ham zamonaviy paradigmalar bilan uyg'unlashuv masalasi normativ-huquqiy hujjatlarda aniq belgilab berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlanib, 2030-yilga qadar xalqaro baholash dasturlarida, jumladan PISA reytingida dunyoning yetakchi 30 ta davlati qatoriga kirish maqsadi belgilangan. Ushbu konsepsiya doirasida ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchi kasbiy salohiyatini mustahkamlash, darslik va metodik ta'minotni yangilash hamda baholash tizimini takomillashtirish kabi yo'nalishlar ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-mayda "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur to'g'risida" PF-134-sonli farmoni tastiqlangan bo'lib, unda o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, darsliklarni zamon talablari asosida takomillashtirish va maktablarning zamonaviy modellarini joriy etish masalalari tizimli tarzda belgilangan. Bu hujjat shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, formativ baholash, ta'limning moslashuvchan tashkil etilishi va o'quvchi rivojlanishini dalillash mexanizmlarini joriy etish uchun huquqiy asos sifatida xizmat qiladi [2].

Shu asosda mazkur bobda zamonaviy ta’lim paradigmalari doirasida ta’lim jarayonini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari bayon qilinadi hamda ularni amaliyotga joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari va texnologiyalari

Zamonaviy ta’lim paradigmalari: tushuncha va tasnif

Paradigma tushunchasi (ilmiy-amaliy model sifatida) ta’lim nazariyasida o‘quv jarayonini qanday izohlash va boshqarish kerakligini belgilovchi “tayanch ramka” vazifasini bajaradi [7]. U maktabning missiyasi, o‘quv reja va dasturlari, metodikalar hamda baholash mexanizmlariga bevosita ta’sir etadi. Zamonaviy didaktikada ta’lim paradigmalari ko‘pincha quyidagi mezonlar bo‘yicha farqlanadi: 1) bilimning tabiati va o‘zlashtirish mexanizmi; 2) o‘quvchining ta’limdagi roli; 3) o‘qituvchining kasbiy funksiyasi; 4) ta’lim natijasini o‘lchash tamoyillari; 5) texnologiya va resurslar ulushi [15].

An’anaviy “bilimni uzatish” (transmissiv) yondashuvida o‘qituvchi asosiy manba, o‘quvchi esa qabul qiluvchi sifatida talqin etilgan. Biroq “ta’lim natijasini kompetensiya va agentlik” bilan bog‘lovchi zamonaviy yondashuvlarda o‘quvchi faol subyektga aylanadi: u maqsad qo‘yadi, o‘z yo‘l xaritasini rejalashtiradi, refleksiya qiladi va natijani dalillaydi [10]. Shuningdek, zamonaviy ta’limda inklyuzivlik va barqarorlik (sustainability) qadriyatlari kuchaygani sababli “bitta qolip” o‘rniga moslashuvchan dizayn yondashuvlari, xususan universal dizayn (UDL) kengroq qo‘llanila boshladi [4].

Quyida zamonaviy maktab amaliyotida eng ko‘p uchraydigan paradigmalar mazmunan tahlil qilinadi: (a) kompetensiyaga yo‘naltirilgan paradigma; (b) konstruktivistik paradigma; (c) inklyuziv/UDL paradigmasi; (d) raqamli transformatsiya va aralash ta’lim paradigmasi; (e) shaxsga yo‘naltirilgan paradigma.

Paradigma	Maqsad	O‘quvchi roli	O‘qituvchi roli	Baholash (ustuvor)
Kompetensiyaviy	Bilimni amaliy qo‘llash, “qila oladi” natija	Faol ijrochi va amaliyotchi	Yo‘naltiruvchi, dizayner	Mezonli rubrikalar, kompetensya darajalari
Konstruktivistik	Tushuncha va ma’no qurish	Tadqiqotchi, hamkor	Tashkilotchi, muammoli vaziyat yaratuvchi	Jarayon va mahsulot bahosi
Inklyuziv/UDL	Barchaga kirish va ishtirok	Turlicha yo‘l bilan o‘rganadi	To‘siqlarni bartaraf etuvchi dizayner	Moslashuv chan, ko‘p manbali dalillar
Raqamli/aralash	Moslashuvchanlik, olingan ma’lumotlar asosida yordam	Onlayn-offlayn faoliyatlarni bajaruvchi	Jarayonni boshqaruvchi, ma’lumotlar tahlilchisi	Raqamli faoliyat ko‘rsatkichlari + an’anaviy baholash
Shaxsga yo‘naltirilgan	Ehtiyoj-qiziqish bo‘yicha rivojlantirish	Subyekt , tanlov qiluvchi	Mentor, yo‘naltiruvchi	Formativ baholash, portfel

1-jadval. Zamonaviy ta’lim paradigmalarining qisqacha taqqoslanishi

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan paradigma

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan paradigma ta’lim natijasini o‘quvchining bilimni real hayot vaziyatlarida qo‘llay olishi, muammolarni mustaqil hal qilishi, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini namoyon etishi bilan o‘lchaydi [7; 8]. Bunda “bilim” kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi, ya’ni bilimning o‘zi emas, uning amaliy vazifalarda ish berishi muhim bo‘ladi .

Kompetensiyaviy paradigmada o‘quv jarayoni “maqsad–mezon–faoliyat–dalil” zanjiri asosida rejalashtiriladi: avval o‘quv natijalari aniq ifodalanadi, so‘ng ularni o‘lchaydigan mezonlar (rubrika, tavsiflovchi ko‘rsatkich) belgilanadi, keyin o‘quv faoliyati (vazifa, loyiha, topshiriq) dizayn qilinadi [7]. Til o‘qitish kontekstida bu yondashuv kommunikativ kompetensiyani (tinglab tushunish, o‘qish, yozish, gapirish, hamkorlikdagi muloqot) ko‘rsatkichlar orqali bosqichma-bosqich rivojlantirish bilan mos keladi [5]. Misol uchun, CEFR kompetensiyani “can-do” tavsiflovchi ko‘rsatkichlari orqali ifodalash va baholash imkonini beradi.

Konstruktivistik paradigma: faol o‘rganish va ijtimoiy hamkorlik

Konstruktivistik paradigma bilimning o‘zlashtirilishini tayyor axborotni qabul qilish emas, balki ma’no qurish (meaning-making) jarayoni sifatida ko‘radi. Bunda o‘quvchi mavjud bilim va tajribasiga tayanib, yangi bilimni muammo, tajriba, muhokama, loyihalar orqali “quradi”. Ijtimoiy konstruktivizm o‘quvchining o‘rganishi hamkorlik va muloqot orqali kuchayishini, “yaqin rivojlanish zonasi” (ZPD) orqali o‘qituvchi hamda tengdoshlar ko‘magining ahamiyatini ta’kidlaydi. Til o‘qitishda konstruktivistik yondashuv o‘quvchilarning tilni faol va ongli ravishda o‘zlashtirishini ta’minlovchi amaliy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Bunday faoliyatlarga real hayotga yaqin muammoli vaziyatlarni tahlil qilish (case-study), rolli o‘yinlar, loyiha asosida o‘qitish, munozaralar, audio matnlar bilan ishlash, axborotni tushuntirish, qayta ifodalash va moslashtirishga qaratilgan mediatsiya faoliyatlari kiradi [5]. Ushbu jarayonda o‘quvchilar bilimni tayyor holatda emas, balki o‘z tajribasi va muloqoti asosida mustaqil ravishda shakllantiradi [17].

Konstruktivistik paradigmaning kuchli tomoni shundaki, u o‘quvchining tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kabi XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga tabiatan mosdir [8]. Shu bilan birga, konstruktivistik dars dizayni o‘qituvchidan yuqori pedogogik mahorat, resurs va vaqtni boshqarish kompetensiyalarini talab qiladi [15].

Inklyuziv ta’lim - bu ta’lim tizimini barcha o‘quvchilarning (nogironligi bo‘lganlar, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zaif qatlam vakillari, til va madaniy jihatdan turlicha guruhlar, iqtidorli hamda o‘rganish sur’ati farqli bo‘lgan shaxslar) individual ehtiyojlari, imkoniyatlari va o‘rganish uslublariga moslashgan holda tashkil etishga qaratilgan pedagogik-falsafiy yondashuvdir. Ushbu yondashuvda o‘quvchi ta’lim tizimiga moslashishga majbur qilinmaydi; aksincha, ta’lim muhiti, mazmuni, metodlari va baholash mexanizmlari o‘quvchining xilma-xilligini inobatga olgan holda moslashtiriladi [4]. Inklyuziv ta’lim teng imkoniyatlar, ijtimoiy adolat va faol ishtirok tamoyillariga tayanib, har bir o‘quvchining akademik, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashni asosiy maqsad qilib qo‘yadi [4].

Inklyuziv paradigma O‘zbekiston ta’lim siyosatidagi inson manfaatlari, sifatli ta’lim, maktab infratuzilmasini modernizatsiya qilish va o‘qituvchi salohiyatini oshirish kabi ustuvor yo‘nalishlar bilan hamohangdir [16].

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (shaxsga moslashtirilgan o‘qitish) o‘quvchini ta’limning markaziga qo‘yib, uning ehtiyojlari, qiziqishlari, tayyorgarligi, o‘rganish sur’ati va maqsadlariga mos o‘quv yo‘lini yaratishga qaratilgan yondashuvdir [14;13]. Bu yondashuv “o‘rtacha o‘quvchi”ga mo‘ljallangan standart dars dizaynidan farqli ravishda sinf ichidagi xilma-xillikni tabiiy holat sifatida qabul qiladi va metodik yechimlarni shu xilma-xillikka moslaydi [14; 13].

Xalqaro tadqiqotlar shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar (xususan, personalized learning) o‘quvchilar yutuqlariga ijobiy, ammo kontekstga bog‘liq ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini bildiradi [9;10;11]. Yevropada o‘tkazilgan tadqiqotlar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim joriy etilgan maktablarda matematika va o‘qish bo‘yicha ijobiy o‘sishlar qayd etilganini, biroq joriy etish sifati va amaliyotlar farqlanishi natijalarga kuchli ta’sir qilishini ko‘rsatadi [9;10;11]. Shu bois shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni “texnologiya o‘rnatish” sifatida emas, balki maktab madaniyati, baholash, o‘qituvchi kompetensiyasi, ota-ona hamkorligi va resurslar bilan bog‘liq kompleks o‘zgarish sifatida tushunish muhim [11].

Mazkur bo‘limda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy turlari (differensial, individuallashtirilgan, mastery/kompetensiya asosidagi) hamda ularni amaliyotga joriy etish texnologiyalari (formativ baholash, o‘quvchi profili, maqsad qo‘yish, portfel, ustoz-murabbiylik, aralash ta’lim, adaptiv dasturlar) ilmiy manbalar asosida yoritiladi [14;9;10;12].

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, zamonaviy ta’lim paradigmalari ta’limni tashkil etishda yagona yo‘lni emas, balki maqsad, kontekst va o‘quvchi xilma-xilligidan kelib chiqib tanlanadigan va uyg‘unlashtiriladigan konseptual yondashuvlar majmuasini ifodalaydi [7]. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan paradigma natijani amaliy faoliyat orqali ko‘rsatishni, mezonli baholash va rubrikalar yordamida “qila oladi” indikatorlari bo‘yicha o‘lchashni taqozo etadi [7]. Konstruktivistik paradigma esa o‘rganishni ma’no qurish jarayoni sifatida talqin qilib, muammo asosida o‘rganish, loyiha va munozaralar, hamkorlikdagi faoliyatlar orqali bilimning ongli egallanishini kuchaytiradi [17]. Inklyuziv (UDL) paradigma ta’limdagi to‘siqlarni dizayn darajasida kamaytirish, mazmun–metod–baholashni moslashuvchan tashkil etish va natijani ko‘p manbali dalillar bilan asoslash zaruratini ilgari suradi [4]. Raqamli/aralash ta’lim paradigmasi o‘quv jarayonini individual sur’atda tashkil etish, o‘quvchi faoliyatidan olingan raqamli ko‘rsatkichlarni pedagogik qarorlar bilan bog‘lash hamda an’anaviy baholashni raqamli dalillar bilan boyitish imkonini beradi [12;15]. Shaxsga yo‘naltirilgan paradigma esa o‘quvchining ehtiyoj-qiziqishi, tayyorgarligi va o‘rganish sur’atiga mos o‘quv yo‘lini yaratib, formativ baholash, portfel va refleksiya orqali individual rivojlanish dinamikasini ishonchli tarzda ko‘rsatishga xizmat qiladi [14;9;10].

Xorijiy til ta’limida ushbu paradigmalarning integratsiyasi o‘quvchi agentligini kuchaytirish, kommunikativ vazifalarga asoslangan faoliyatni maqsadli dizayn qilish, muntazam feedback va refleksiya orqali o‘rganishni boshqarish hamda kompetensiya rivojini dalillangan tarzda kuzatish imkonini yaratadi [5]. Shu bois keyingi tahlil bosqichida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning turlari (differensial o‘qitish, individuallashtirish, mastery/kompetensiya asosidagi yondashuv) va texnologiyalarini (formativ baholash, o‘quvchi profili, maqsad qo‘yish, portfel, mentorlik, aralash ta’lim,

adaptiv resurslar) xorijiy til darslari dizayniga tatbiq etish mexanizmlarini mezonlar va indikatorlar asosida metodik jihatdan chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, 29-aprel). “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” (PF-5712). LexUZ: https://lex.uz/docs/-4312785

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 11-may). “2022—2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur to‘g‘risida” (PF-134). LexUZ: https://lex.uz/uz/docs/-6008663

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020, 5-oktabr). “«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. LexUZ: https://lex.uz/uz/docs/-5030957

CAST. (2024). Universal Design for Learning (UDL) Guidelines 3.0. CAST. https://udlguidelines.cast.org/

Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Council of Europe. https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages/cefr-companion-volume-and-its-language-versions

Kömür, İ. A. (2023). The Rotation Model in Blended Learning. (ERIC full text PDF). https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1410152.pdf

OECD. (2019). The OECD Learning Compass 2030: Concept Note Series. OECD. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/about/projects/edu/education-2040/1-1-learning-compass/OECD_Learning_Compass_2030_Concept_Note_Series.pdf

P21 (Partnership for 21st Century Learning). (2019). Framework for 21st Century Learning: Definitions. Battelle for Kids. https://static.battelleforkids.org/documents/p21/p21_framework_definitionsbfk.pdf

Pane, J. F., Steiner, E. D., Baird, M. D., & Hamilton, L. S. (2017). How does personalized learning affect student achievement? RAND. https://www.rand.org/pubs/research_briefs/RB9994.html

RAND. (2015). Continued Progress: Promising Evidence on Personalized Learning (RR-1365). RAND. https://www.rand.org/pubs/research_reports/RR1365.html

RAND. (2017). Informing Progress: Insights on Personalized Learning Implementation and Effects (RR-2042). RAND. https://www.rand.org/pubs/research_reports/RR2042.html

Staker, H., & Horn, M. B. (2012). Classifying K–12 blended learning. Innosight Institute. https://scispace.com/pdf/blended-learning-definition-models-implications-for-higher-z1m8wvvcsc.pdf

Tomlinson, C. A. (1999). The differentiated classroom: Responding to the needs of all learners. Alexandria, VA: ASCD.

Tomlinson, C. A. (2001). How to differentiate instruction in mixed-ability classrooms. Alexandria, VA: ASCD.

UNESCO. (2018). UNESCO ICT Competency Framework for Teachers (Version 3). UNESCO. https://teachertaskforce.org/sites/default/files/2020-07/ict_framework.pdf

UNICEF & United Nations Uzbekistan. (2021). Uzbekistan Education Sector Analysis. https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2022-05/Edu%20Sit%20An_UNICEF%202022_0.pdf

Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press. (Open PDF copy: https://home.fau.edu/musgrove/web/vygotsky1978.pdf)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ikramova Munisa Sheraliyevna
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR FAOLIYATIDA PROGNOZLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim tizimida kechayotgan jarayonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy tendensiyalar axborot texnologiyalarining jadal rivoji hamda bo‘lajak mutaxassisga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Mazkur holat ta’lim jarayonini loyihalash metodologiyasi, ta’lim mazmuni va uni amalga oshirish shakllarini yangilash, shuningdek, kelajak o‘qituvchisi obrazini shakllantirish zaruratini belgilaydi. Maqolada pedagogik faoliyatda prognozlash funksiyasining yetakchi ahamiyati asoslanib, uning o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivoji, pedagogik yetukligi hamda mas’uliyatga asoslangan mustaqil faoliyatini ta’minlashdagi roli ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy jamiyat talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashda o‘quvchilarning tayanch va fanlarga oid kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini oldindan ko‘ra bilish zarurati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *XXI asr ta’limi, pedagogik prognozlash, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy kompetensiya, ta’lim sifati, innovatsion yondashuv.*

Икрамова Муниса Шералиевна
Независимый исследователь Самаркандского государственного педагогического института

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В статье анализируются основные тенденции, влияющие на процессы, происходящие в системе образования в связи с быстрым развитием информационных технологий и современными требованиями к будущим специалистам. Эта ситуация определяет необходимость обновления методологии проектирования образовательного процесса, содержания образования и форм его реализации, а также формирования образа будущего учителя. Исходя из ведущей роли функции прогнозирования в педагогической деятельности, в статье раскрывается ее роль в обеспечении непрерывного профессионального развития учителя, педагогической зрелости и самостоятельной деятельности, основанной на ответственности. Также подчеркивается необходимость предвидения путей развития базовых и предметно-технических компетенций учащихся при подготовке специалистов, отвечающих требованиям современного общества.*

Ключевые слова: *образование XXI века, педагогическое прогнозирование, учитель будущего, профессиональная компетентность, качество образования, инновационный подход.*

Ikramova Munisa Sheraliyevna
Independent researcher at the Samarkand State Pedagogical Institute

DEVELOPMENT OF FORECASTING SKILLS IN THE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS

Abstract. *This article analyzes the main trends affecting the processes taking place in the education system in connection with the rapid development of information technologies and modern requirements for future specialists. This situation determines the need to update the methodology for designing the educational process, the content of education and the forms of its implementation, as well as to form the image of the future teacher. Based on the leading importance of the forecasting function in pedagogical activity, the article reveals its role in ensuring the continuous professional development of the teacher, pedagogical maturity and independent activity based on responsibility. It also highlights the need to foresee ways to develop students’ basic and subject-specific competencies in the preparation of specialists who meet the requirements of modern society.*

Keywords: *21st century education, pedagogical forecasting, future teacher, professional competence, quality of education, innovative approach.*

Kirish. Postnoklassik (axborot) jamiyat holati deb ataluvchi hozirgi sharoitda ta’limni o‘zidan tashqaridagi qandaydir tizimga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida tushunishning yetarli emasligi tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ta’limning strategik masalalarini ko‘rib chiqishda kelajak mutaxassisining faoliyatida prognozlashning rolini tahlil qilish

uchun ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va sotsiokulturni qamrab oluvchi jahon miqyosidagi tendensiyalar majmuasini e'tibordan chetda qoldirish endi mumkin emas.

Tadqiqotning dolzarbligi jahon taraqqiyotidagi zamonaviy tendensiyalar hamda O'zbekiston ta'lim siyosatida barcha sohalarda, xususan, o'qituvchilik faoliyatida mutaxassislarning ijodiy va prognozlash faoliyati rolini kuchaytirishga qaratilgan yo'nalishlar bilan belgilanadi. Shu bilan birga, pedagogik ta'limda o'qituvchini prognozlashga qodir bo'lishiga asoslangan holda uzluksiz o'zini rivojlantirish texnologiyasi bilan qurollantirish va pedagogik yetuklikka erishishga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi bilan izohlanadi.

O'qituvchi faoliyatida prognozlash muammosi hozirgi kunga qadar na umumiy pedagogik, na xususiy didaktik darajada yetarlicha ishlab chiqilgan. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ko'p bosqichli oliy ta'limni joriy etish hamda O'zbekiston ta'limi Boloniya jarayoniga rasmiy a'zo bo'lmagan sharoitda ham, ushbu tizim tamoyillarini joriy etishga urinishlar va islohotlar doirasida mazkur muammo alohida ahamiyat kasb etib, yangi rivojlanish imkoniyatlarini ochmoqda. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyati o'quvchilarning tayanch va fanlarga oid kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini hamda ularga erishish mexanizmlarini oldindan ko'ra bilish zarurati bilan tavsiflanadi [1].

Tadqiqot konsepsiyasi shundan iboratki, hozirgi sharoitda ta'lim sohasida ishlab chiqilayotgan loyihalarda belgilangan vazifalar darajasi bilan ularni amalga oshirishga o'qituvchilarning tayyorgarligi o'rtasidagi tafovutlar kuchaygan bir paytda, pedagogik prognozlash o'qituvchining eng zarur va muhim kasbiy funksiyalaridan biriga aylanmoqda hamda kelajak mutaxassisini tayyorlashdagi uning faoliyati samaradorligini belgilab beradi.

Ishlab chiqarish taraqqiyotining avvalgi bosqichlarida ijtimoiy mehnatning asosiy qismi reproduktiv xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ijodiy mehnat ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. Ishlab chiqarish texnologiyalari, ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmalardagi o'zgarishlar dinamikasi inson avlodlarining almashinish sur'atidan ilgarilab ketmoqda. Shu bois axborot jamiyati ko'pincha "uzluksiz o'rganib boruvchi jamiyat" deb ataladi. Bunday jamiyat yangi tipdagi o'qituvchini talab etadi, ya'ni umumiy va kasbiy ta'lim natijasi sifatida o'quvchilarda yangi faoliyat turlarini o'zlashtirish, kengaytirish va takomillashtirish, shuningdek, ularga mos yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash qobiliyatlarini rivojlantira oladigan pedagogni.

Adabiyotlar tahlili. Tahlil jarayoni pedagogik ta'lim tizimi o'qituvchining uzluksiz o'zini o'qitishi, kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligini ko'rsatdi. Buyakas ta'kidlashicha, pedagogik ta'lim tizimiga bo'lajak o'qituvchilarning prognozlash faoliyatini joriy etish, kelgusida esa ularning o'quvchilarida prognozlash faoliyatini rivojlantirish faol, samarali, o'zini boshqara oladigan, tashabbuskor va ijodiy salohiyatga ega, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirishga tayyor o'qituvchini shakllantirishga xizmat qiladi [2].

Derkach hamda Matushak tadqiqotlarida prognozlash faoliyati o'qituvchini quyidagi imkoniyatlar bilan ta'minlashi isbotlangan:

- kasbiy va shaxsiy o'sish hamda rivojlanish uchun asoslangan maqsadlarni belgilash qobiliyati;
- doimiy kasbiy rivojlanish va o'zini takomillashtirishga intilish;
- kasbiy va shaxsiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan prognozlash metodologiyasi va texnologiyalarini egallash;
- o'zini-o'zi ta'lim olish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishni, shuningdek, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish yo'llarini bilish;
- o'z faoliyatini baholash va zarurat tug'ilganda uni tuzatish (korrektirovka qilish) ko'nikmalari;
- nihoyat, prognozlash yangi ijtimoiy hodisalarga nisbatan optimistik istiqboliy qarashni shakllantiradi, o'zgarishlardan cho'chimaslikka o'rgatadi hamda ilmiy prognozlash yondashuvi asosida optimal faoliyat usullarini topish va ularni amalga oshirish bo'yicha zarur tajribani hosil qilish imkonini beradi [3,4].

Mazkur yangi ijtimoiy hodisalarni tahlil qilar ekan, Vulfson XXI asrda Yevropa hududida umumta'lim maktablari rivojlanishini olimlar besh xil variantda tasavvur qilayotganini ta'kidlaydi [5].

Jadval 1. XXI asrda Yevropa ta'lim tizimida maktablar rivojlanishining muqobil yo'nalishlari

1-variant	2-variant	3-variant	4-variant	5-variant
"O'rgatuvchi va o'z rivojlanishini prognozlaydigan maktab." Bu maktab faqat ta'lim berish bilan shug'ullanadi. Tarbiya esa oila va cherkovning vakolatiga kiradi	"Tanlov maktabi" – qat'iy differensiatsiyaga asoslangan maktab. Bunday maktabda asosiy maqsad sifatli ta'limni ta'minlash va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdir.	"Ijtimoiy va madaniy tizimdagi maktablar." Ular ta'lim va tarbiyaning eng yaxshi muvozanatiga erishishni maqsad qiladilar, ammo bu "eng yaxshi" nisbatni	"Texnologik maktab" katta xarajat talab qiladi, chunki u eng zamonaviy texnik o'quv vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.	"Differensializatsiya qilingan maktab" har bir bola uchun alohida o'quv dasturini yaratishga mo'ljallangan.

		belgilash mezonlari olimlar orasida bahs-munozaralarga sabab bo‘ladi.		

Insonparvarona ta’lim paradigmasi nuqtai nazaridan, bizning fikrimizcha, talabalarning faoliyatiga prognozlashni kiritish faqatgina 5-maktab variantida real bo‘lishi mumkin. Bu yerda faqatgina tashqi prognozlash nazarda tutiladi. Prognozlash muammosi Amerika qit’asida ham tadqiq etilgan. Ba’zi olimlar ta’limiy prognozlashning asosiy maqsadi o‘quvchilar va talabalarni hayotiy inqirozlar bilan kurasha olishga o‘rgatish bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi. Shu bois ularning tadqiqotlarida ichki prognozlashni o‘rgatishga e’tibor qaratilgan. AQShda pedagogik prognozlash o‘quvchilar va talabalarni jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarni oldindan sezish va ularga moslashishga o‘rgatishga mo‘ljallangan. Ushbu yo‘nalish tarafdorlari ta’lim vazifasini o‘quvchilarga bilimli va malakali tarzda o‘quv yo‘nalishini va kelajakdagi kasbini tanlashni o‘rgatishda ko‘radi.

Tahlil va natijalar. Bizning mamlakatimizda insonparvarona ta’lim paradigmasi doirasida kelajak o‘qituvchilarini pedagogik prognozlashga tayyorlashda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv keng qo‘llaniladi. Kiriakova, Ryabinina va Belyakov tadqiqotlariga tayangan holda, bu yondashuvning oliy pedagogik ta’lim misolida asosiy jihatlarini quyidagicha tahlil qilamiz:

1. **Talaba faoliyat subyekti sifatida:** Talaba ob’ekt emas, balki faoliyatning subyekti hisoblanadi. Uning shaxsiyati, o‘ziga xos tajribasi mavjud. Talaba ta’lim mahsuli emas, balki uning faol ishtirokchisidir. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarlikdagi prognozlash faoliyati talabaning bilim va ko‘nikmalar paradigmasida o‘quv ob’ekti sifatida emas, bilish subyekti sifatida shakllanishini rag‘batlantiradi. Talaba o‘z faoliyati maqsadini mustaqil belgilaydi, uni amalga oshirish yo‘llarini prognozlaydi va ta’lim hamda kasbiy faoliyatdagi natijalarni qayd etadi.

2. **Ta’lim va kasbiy tayyorgarlik jarayoni:** Ushbu jarayon individual faoliyatni tashkil qilish orqali belgilangan standartlarni o‘zgartirish va ichki o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Matushak fikricha, prognozlash faoliyatiga qadam qo‘yish uchun avvalo fantaziya va tasavvur faollashtirilishi kerak. Shundan so‘ng, talaba axborotni mantiqiy jihatdan qayta ishlash, uni tizimlashtirish va asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qiladigan tarzda tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishi lozim [4].

Bizning amaliy tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, talabalarning prognozlash yo‘naltirilishini to‘g‘ri amalga oshirish uchun ular yig‘ilgan axborotni tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Ijtimoiy fanlardagi ko‘plab tadqiqot metodlari prognoz ma’lumotlarini mantiqiy tashkil etishga asoslangan. Talabaning o‘z faoliyatini uzoq muddatga oldindan ko‘ra bilishi, shuningdek, keyinchalik ishlov berish va foydalanish uchun ma’lumotlarni to‘g‘ri yig‘ish va qayd etish qobiliyati pedagogik prognozning asosini tashkil qiladi.

Prognozlashning bir jihati kasbiy jihat bilan bog‘liq bo‘lgani uchun, axborotni mantiqiy tashkil etish qobiliyati bo‘lajak o‘qituvchi uchun birinchi darajali ahamiyatga ega. Bu degani, har qanday dars rejasi yoki talabaning eslatmalari axborotni mantiqiy tashkil etish shakli sifatida qaraladi.

Mitina fikricha, talaba prognozlashning tarbiyaviy ahamiyatini real pedagogik va ijtimoiy vaziyatlarga asoslangan prognozlash vazifalarini bajarish jarayonida anglab yetishi va o‘zlashtirishi lozim.

Oliy pedagogik universitet talabalariga prognozlash faoliyatini o‘rgatishda, ularning nafaqat prognozlash ob’ekti, balki subyekti sifatida ham faoliyat yuritishini hisobga olish kerak. Bir tomondan, talabalar o‘z o‘quv faoliyatini prognozlashni o‘rganadi, boshqa tomondan esa amaliyot jarayonida ular maktab o‘quvchilarining prognoz faoliyatini boshqaradi.

Ryndak va Mikhaleva, Slabaya va Belyalova tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, samarali prognozlash uchun bo‘lajak o‘qituvchiga pedagogik prognozlashning eng muhim tamoyillaridan biri – prognozlashni boshqarish tamoyilini o‘rgatish zarur. Shu tamoyilni prognozlashni o‘rgatish tamoyili deb ham atash mumkin. U prognozlash qobiliyatini, tasavvur va fantaziyani qayta yaratish, kompetent tanlov, kombinatsiya va prognozlashni o‘z ichiga oladi.

Bunday ta’lim jarayoni o‘qituvchi belgilagan maqsadlarni tushunish bilan boshlanadi. Talabalar o‘z faoliyati natijalarini qayd eta olishi kerak. Keyingi bosqich – o‘quv jarayonida olingan ma’lumotlarni mantiqiy tashkil etish qobiliyatini shakllantirish. Shuningdek, talaba materialni sxemalash, guruhlash, asosiy mazmuniy nuqtalarni ajratish, tuzilmasini yaratish va modellashtirish elementlarini o‘rganishi zarur.

Matushak fikriga ko‘ra, prognozlash kompetensiyasi doirasidagi bilim, ko‘nikma va sifatlarning keyingi guruhi rejalashtirilgan prognoz bazasini shakllantirish kompetensiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu kompetensiyaning rivojlanishi talabalarda o‘z o‘quv faoliyatini ongli ravishda tahlil qilish va uni “ichki ko‘rish” asosida boshqarish qobiliyatini shakllantiradi [4].

Prognozlashni o‘rgatishda muhim elementlardan biri – fantaziyani rivojlantirish yoki uni faollashtirishdir. Fantaziyani faollashtirish uchun o‘qituvchilar ijodiy vazifalardan foydalanadilar.

Biz ajratib ko‘rsatgan asosiy prognoz kompetensiyalaridan biri – **operatsion va prognoz kompetensiyasi**, u talabaning uzoq muddatli faoliyatini oldindan ko‘ra olishini ta’minlaydigan faoliyatni nazarda tutadi. Bu kompetensiyaga prognoz asosida axborotni tashkil etish, prognoz ishlab chiqish va uni tahlil qilish bilim va ko‘nikmalari kiradi. Shu kompetensiyani shakllantirish o‘qituvchiga talabalarning prognozlash faoliyatini boshqarish asosini yaratadi.

Demonstratsiya metodi professional-pedagogik ta’limda o‘qituvchi prognozlash texnologiyasini namoyish etishini nazarda tutadi. Masalan, loyiha darajasidagi prognozlashda avvalo butun loyiha talabalar oldida namoyish qilinishi kerak. O‘qituvchi materialni qanday yig‘ish, mavzuni tanlash, gipoteza qo‘yish, ishni tekshirish tartibi va yakuniy natijani (loyihani) qanday ko‘rsatishni o‘rgatadi. Slabaya va Belyalova tadqiqotida birinchi loyihalar o‘qituvchi nazorati ostida va uning tayyorlagan loyiha modelidan foydalanib amalga oshirilishi kerakligi ta’kidlangan. Ushbu bosqichda eslatmalardan foydalanish mumkin va hatto ma’quldir.

Tushuntirish metodi mazmunan bir-birini to‘ldiruvchi quyidagi texnikalarni qamrab oladi: o‘quv materialini izchil tushuntirish, asosiy qoidalarni tizimli taqdim etish hamda prognozlash faoliyatini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan prognoz vazifasi modeliga murojaat qilish.

Topshiriq metodi talabalarda prognozlash faoliyatining alohida komponentlarini rivojlantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu metod doirasida topshiriqlar prognozlashning darajasi hamda harakatlar murakkabligiga qarab naiv-intuitsion, tajribaviy-mantiqiy va ilmiy-gipotetik prognozlash mashqlariga, shuningdek maqsad qo‘yish, rejalashtirish, dasturlash va loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlarga bo‘linadi.

Nazariy va metodologik tahlildan so‘ng, zamonaviy o‘qituvchining kundalik pedagogik faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi prognozlash jarayonlariga e’tibor qaratamiz. Mazkur jarayonlarning aksariyati ilmiy-metodik asosga yetarlicha ega emasligi bois, talabalarni to‘g‘ri idrok etish va ular bilan samarali muloqot muhitini shakllantirishda muammolar yuzaga kelmoqda.

Biz o‘qituvchilarni professional rivojlanish tizimidagi faoliyatini kuzatish, so‘rov va intervyular orqali aniqladikki, ularning amaliy faoliyati prognozlashga asoslangan, ilmiy qonunlarga emas, balki faoliyat jarayonida yuzaga kelgan faktlarga tayanadi.

Pedagogik hodisalar takrorlanishi voqealar orasidagi bog‘lanishlarni shakllantirishga yordam beradi va ayrim empirik qonunlarni aniqlash imkonini beradi. Empirik prognozlashda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari – amaliy tafakkur darajasi, kuzatuv ko‘nikmalari va prognozlashga munosabati – muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar prognozlashni o‘z faoliyatining integrativ sifati, asosan yaqin natijaga yo‘naltirilgan doimiy orientatsiya sifatida ko‘radilar.

Shu asosda, biz empirik prognozlashni quyidagicha ta’riflaymiz: **o‘qituvchi pedagogik haqiqatning individual xususiyatlari haqida oldindan ma’lumot olish jarayoni**, u ilmiy asosga ega bo‘lmagan va mavjud axborot hamda ob’ektning o‘tgan va hozirgi holatidan ekstrapolyatsiya qilinadigan jarayonga asoslanadi. Natija – aniq pedagogik fakt yoki hodisaga oid empirik prognoz, ob’ekt – o‘quv va tarbiyaviy jarayonlarning konkret hodisalari, subyekti esa qisqa muddatli operatsion qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq o‘qituvchining kasbiy faoliyatidir.

Natijalar va xulosa. Ko‘rib turganimizdek, o‘qituvchilarning prognozlash funksiyasi hozirda situatsion-empirik darajada bo‘lib, u ularning faoliyatini ilmiy va nazariy asosda yaxshilashda strategik yo‘naltiruvchi nuqta sifatida ishlamaydi. Bu esa kelajak o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ushbu funksiyani rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan modellar va texnologiyalarni qo‘llash zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirganda quyidagi xulosalarga kelamiz:

1. O‘zbekistonda pedagogik prognozlashni rivojlantirishning hozirgi bosqichida ustuvor vazifa – bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik prognozlash orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun ilmiy asoslangan va tuzilmaviy model yaratishdir. Bu modelda tashqi va ichki prognozlash, shuningdek, hozirgi va istiqbolli prognozlash amalga oshiriladi.

2. Hozirgi amaliyotda o‘qituvchilar prognozlash funksiyasini ta’lim jarayonida intuitiv va empirik yondashuvlar asosida amalga oshirmoqdalar, bu esa uni to‘liq va samarali bajarishga imkon bermaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kelajak o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik prognozlashni o‘rgatishning nazariy-metodologik va texnologik asoslarini belgilaydigan nazariya qo‘llanishi zarur.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarning prognozlash kompetensiyasini shakllantirish talabaning shaxsiy xususiyatlari, individual tajribalari va o‘ziga xos qiziqishlarini, shuningdek talaba va o‘qituvchi hamkorligini hisobga olgan holda, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshirilishi lozim.

Ushbu tadqiqot doirasida muammoni to‘liq va keng qamrovda hal qilish imkoni yo‘q. Biroq quyidagilar aniq: yangi turdagi o‘qituvchilarni tayyorlash metodologiyasi va usullari zamon talablariga mos, talabalarning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga, shaxsiy javobgarlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Asosiy maqsad – bo‘lajak o‘qituvchining **prognozlash qobiliyatini rivojlantirish**, uning **mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantirish**, shuningdek faoliyatini **o‘z shaxsiy qadriyatlari va pedagogik maqsadlari asosida samarali tashkil etish**dir. Shu yo‘l bilan ta’lim muassasalari **postindustrial jamiyatga**

mos, mutaxassis tayyorlash uchun zarur sharoitlarni yaratadigan mas'uliyatli va sifatli ta'lim muhitiga aylanadi. Bunda dominant metafora XX asr mexanik dunyoqarashi emas, balki **o'zini o'zi rivojlantiruvchi organik tizim** bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Борисенков В.П. Ключ к повышению качества образования. В: 3-я Международная конференция «Педагогика деятельности и подготовка учителя» (DPPO-2015). С. 11–24. Воронеж: Научная книга, 2016.

2. Буякас Т.М. Связь профессиональной и личной самореализации в процессе профессионального образования. В: С.И. Кудинов, С.С. Кудинов, О.Б. Михайлова (ред.), Российская научно-практическая конференция «Самореализация личности в современном мире». С. 19–26. Москва: Российский университет дружбы народов, 2016.

3. Деркач А.А. Психолого-акмеологические основы и средства оптимизации личностного и профессионального развития конкурентоспособного специалиста. Acmeology, S1, ст.22–32,2013.

4. Матушак А.Ф. Педагогическое прогнозирование в подготовке учителей школ и преподавателей университетов. Челябинск: Издательство Челябинского государственного педагогического университет, 2018.

5. Volfson B.L. (2015). Modernization of the content of general education: comparative context. Domestic and Foreign Pedagogy, 3 (12), 5–22.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Isroilova D.M.
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori
pedagogika fanlari doktori (DSc)
Vang Ping
Andijon davlat pedagogika instituti,
mustaqil izlanuvchisi
Suqian universiteti, Suqian 223800, Xitoy

MUSIQA VA SAN’AT YO‘NALISHI TALABALARIGA XITOY PIANINO ASARLARINI O‘RGATISH BO‘YICHA METODIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqola musiqa va san’at yo’nalishida tehsil oluvchi OTM va kollej talabalariga Xitoy pianino asarlarini chalish va o‘rgatish bo‘yicha metodik tadqiqotlarni o‘rganish hamda turli tavsiyalar ishlab chiqish masalalari tadqiq qilingan. Shuningdek, maqolada Xitoy pianino asarlarini joriy etish zarurligi tahlil qilinib, uning madaniy merosi, estetik ta’siri va asosiy ushbu yo’nalish bo’yicha savodxonlikni oshirishdagi muhim ahamiyati ko‘rsatilgan. Xitoy pianino asarlari nafaqat Xitoy xalqining musiqiy estetik tushunchalari va tarixiy hamda madaniy ma’nolarini o’zida mujassam etgan, balki o’ziga xos ohang va garmoniya o’rgatish orqali talabalarning musiqiy va estetik savodxonligini oshirishi mumkinligi ta’kidlangan. Maqolada turli xil o’qitish usullari taklif qilingan, jumladan, vazifaga asoslangan o’qitish usuli, qo’shiq aytish usuli, zaruriy vaziyatni yaratish usuli, dialogli o’qitish usuli va hamkorlikda ishlash usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu usullar orqali o’qitish samaradorligini qanday optimallashtirish va talabalarning o’rganishga qiziqishi va ijodini rag’batlantirish kabi masalalar ham ko’rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xitoy pianino asarlari, pianino darslari, qo’llash va o’qitish, o’qitish usullari, o’qitish samaradorligi.*

Исроилова Д. М.
профессор Узбекского государственного университета мировых языков
доктор педагогических наук (DSc)
Ван Пин
независимый исследователь
Андижанского государственного педагогического института
Университет Сучжянь, Сучжянь 223800, Китай

МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ КИТАЙСКИМ ФОРТЕПИАННЫМ ПРОИЗВЕДЕНИЯМ СТУДЕНТОВ МУЗЫКАЛЬНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫХ НАПРАВЛЕНИЙ

Аннотация: *В данной статье исследуются методические аспекты обучения и исполнения китайских фортепианных произведений студентами высших учебных заведений и колледжей, обучающимися по направлениям музыки и искусства. В работе анализируется необходимость внедрения китайских фортепианных произведений в образовательный процесс, раскрывается их культурное наследие, эстетическое воздействие и значимость в повышении профессиональной грамотности в данной области. Подчеркивается, что китайские фортепианные произведения не только отражают музыкально-эстетические представления китайского народа, его исторические и культурные смыслы, но и способствуют развитию музыкальной и эстетической компетентности студентов посредством освоения специфической мелодики и гармонии. В статье предлагаются различные методы обучения, включая метод обучения, основанный на выполнении заданий, метод вокального сопровождения, метод создания педагогической ситуации, диалогический метод и методы совместного обучения. Рассматриваются вопросы оптимизации эффективности обучения, стимулирования учебной мотивации и развития творческого потенциала студентов.*

Ключевые слова: *китайские фортепианные произведения, уроки фортепиано, применение и обучение, методы обучения, эффективность обучения.*

Isroilova D.M.
Professor, Uzbekistan State World Languages University
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)
Wang Ping
Independent Researcher, Andijan State Pedagogical Institute
Suqian University, Suqian 223800, China

METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING CHINESE PIANO WORKS TO STUDENTS MAJORING IN MUSIC AND ARTS

Abstract: *This article examines methodological approaches to teaching and performing Chinese piano compositions for students of higher education institutions and colleges majoring in music and arts. The study analyzes the necessity of incorporating Chinese piano works into the educational curriculum, highlighting their cultural heritage, aesthetic impact, and significant role in enhancing professional literacy in this field. It is emphasized that Chinese piano compositions not only embody the musical-aesthetic concepts, historical background, and cultural meanings of the Chinese people, but also contribute to the development of students' musical and aesthetic competence through the acquisition of distinctive melody and harmony patterns. The article proposes various instructional methods, including task-based learning, the singing method, situational teaching techniques, dialogic instruction, and collaborative learning strategies. It further discusses ways to optimize teaching effectiveness, stimulate students' learning motivation, and foster their creative potential.*

Keywords: *Chinese piano compositions, piano instruction, application and teaching, teaching methods, teaching effectiveness.*

Kirish. Xitoy pianino musiqasi yuz yildan ortiq rivojlanish tarixiga egadir. G'arb pianino san'atining mohiyatini o'zlashtirgan holda, u o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega badiiy uslubni shakllantirib Xitoy an'anaviy musiqa elementlari bilan chuqur integratsiyalashgan. So'nggi yillarda, madaniy qadriyatlarning kuchayishi, san'at va musiqa kollej hamda OTMlarda pianino o'qitishda Xitoy pianino asarlarining maqomi tobora ommalashib bormoqda. Shuningdek, uning noyob madaniy mazmuni va estetik qiymati pianino ta'limiga yangi hayotiylik kiritdi. Uning madaniy merosi, estetik ta'siri va o'rgatish funksiyalarini tahlil qilib, vazifaga asoslangan, vaziyat yaratish, qo'shiq aytish va boshqa o'qitish usullarini uyg'unlashtirgan holda, talabalarning milliy musiqa savodxonligi oshirishga xizmat qiladi. Xitoy pianino asarlarini badiiy ifodasini oshirish uchun auditoriada turli o'qitish usullarini tadbiq qilish yanada ta'lim jarayonini samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu tadqiqot nafaqat Xitoy an'anaviy musiqa madaniyatining merosi va innovatsiyasini rag'batlantirishga yordam beradi, balki kollej va universitetlarda pianino o'qitishni diversifikatsiya qilish uchun nazariy ma'lumotnoma va amaliy qo'llanmani ham beradi.

Natijalar va muhokama.

Xitoy pianino asarlarining rivojlanish bosqichlari: Pianino an'anaviy G'arb klassik musiqa asboblariga mansub klaviaturali asbobdir. U musiqa asboblari "shohi" sifatida tanilgan. 19-asrning oxirida Xitoyga kiritilganidan beri u taqliddan integratsiyaga, havoladan innovatsiyaga qadar rivojlanish jarayonini boshidan kechirdi. Xitoy musiqa madaniyati zaminida pianino nafaqat G'arb klassik musiqasining muhim tashuvchisiga aylandi, balki milliy musiqa elementlari bilan uyg'unlashuvi orqali o'ziga xos Xitoy pianino musiqasi uslubini shakllantirdi. Bu jarayon nafaqat Xitoyning zamonaviy musiqa madaniyatidagi o'zgarishlarni aks ettiradi, balki Xitoy va G'arb musiqalari uyg'unligining badiiy jozibasini ham ko'rsatadi [1.74]. Xitoyga pianinoning dastlabki kirib kelishi va rivojlanishi (19-asr oxiri - 20-asrning birinchi yarmi) haqida ham to'htalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

- Loyihaviy-tadqiqot metodlari (project-based research) – talabani mustaqil rejalashtirish, izlanish olib borish va o‘z bilimi asosida amaliy faoliyatga yo‘naltirishga undovchi metod. Ushbu metod orqali talabalar o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini real muammolarni tahlil qilish va ularni hal etishga yo‘naltirish orqali mustahkamlaydilar. Bu esa nazariy bilimlarning amaliyot bilan integratsiyasini ta’minlab, talabaning ilmiy salohiyatini real faoliyatda namoyon etish imkonini yaratadi. Shu jihatdan, loyihalash nafaqat metod, balki bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy yetuklik mezoni sifatida ham qaraladi. “Kliminatsion loyiha” (Capstone Project) - talabalar o‘zlari ishlab chiqqan ilmiy hisobot va chiqishlarni izchil tarzda to‘ldirib, tahrir qilib va takomillashtirib boradilar. Bu jarayon ularning izchil fikrlash, ilmiy mulohaza yuritish va dalillash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday loyihalar, odatda, mentor-o‘qituvchilar tomonidan beriladigan metodik ko‘rsatmalar, ilmiy tavsiyalar va tahliliy fikrlar asosida olib boriladi. Maslahatchi rahbar tomonidan berilgan ilmiy yo‘naltirishlar asosida talabalar mustaqil izlanishga kirishadi, bu esa ularni nazariy bilimdan amaliy tadqiqotga o‘tishga tayyorlaydi. Shu bilan birga, mentorlik yondashuvi talabaga o‘z fikrlarini tanqidiy tahlil qilish, ilmiy asoslash, qayta ishlash va o‘z nuqtai nazarini asosli himoya qilish imkonini beradi. Ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish jarayonida ilmiy maslahat (konsultatsiya) alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi-rahbar talabaning ilmiy muammoni aniqlashi, metodologiyani tanlashi, dalillash usullarini tanqidiy baholashi va ilmiy yechimga erishish yo‘nalishini belgilashda yo‘l-yo‘riq beradi. Shu bilan birga, bu hamkorlik jarayonida talabada hali yetarli tajriba shakllanmagan bo‘lishi sababli ilmiy tafakkurning izchilligi ayrim hollarda buzilishi mumkin. Shunday holatlarda rahbarlik yondashuvi ta’limiy va tuzatish funksiyasini bajaradi.

- Ilmiy-tadqiqot metodi – klassik shakldagi ilmiy izlanish bosqichlariga asoslanib olib boriladi (muammo → gipoteza → kuzatish → tahlil → xulosa). Bu o‘quv jarayonida talabalarni **ilmiy bilimlarni izlab topish, tahlil qilish, sintez qilish, asoslash va amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyat** shaklidir. Ushbu metod orqali talabalar **real muammolarni mustaqil ravishda ilmiy asosda o‘rganish** hamda ularni **analitik va dalillangan yondashuvlar orqali yechish** ko‘nikmalarini rivojlantiradi [5].

- “Akvaryum” metodi –bu talabalar o‘rtasida muayyan ilmiy yoki ijtimoiy muammoni tahlil qilish, muhokama qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi interaktiv va strukturaviy metod hisoblanadi. “Akvaryum” metodi davomida talabalar kichik guruhlarga (odatda 3–5 kishilik) bo‘linadi. Bir guruh muammoni ochiq muhokama qiluvchi “ichki doira” (ya’ni "akvarium ichida"), qolganlari esa “tashqi doira” sifatida kuzatuvchi va tahlil qiluvchi rolini bajaradilar. Keyin guruhlar rollarni almashtiradi.

Ushbu metod AQShda demokratik ta’lim madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida keng qo‘llaniladi. Buyuk Britaniyada u, ayniqsa, ijtimoiy va gumanitar fanlarni o‘qitishda talabalarning erkin fikr bildirish va bahs-munozara olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo‘llanadi. Germaniyada esa ushbu metod tanqidiy fikrlash va ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Finlyandiya ta’lim tizimida esa u o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni anglash va ularni mustaqil hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali metod sifatida e’tirof etiladi.

- Rolli o‘yinlar metodi – zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotda yetarlicha tadqiq etilgan metodik yondashuvlardan biri bo‘lib, uning talqini va amaliy qo‘llanilishi bir necha yo‘nalishda izohlanadi. Bu metod, asosan, muammoli vaziyatni modellashtirish yoki uni sahnalashtirish orqali talabalarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Modellashtirish – bu real faoliyatning, xususan, o‘qituvchi-mentorning faoliyatining sun’iy tarzda yaratilgan ilmiy-pedagogik vaziyatlarda imitatsiyasi bo‘lib, uning tarkibiy qismlarini intellektual abstraktsiya va soddalashtirish tashkil etadi. Modellashtirishning asosiy bosqichlariga quyidagilar kiradi: ilmiy eksperimentga tayyorgarlik ko‘rish, muammoni qo‘yish, eksperimentni o‘tkazish, eksperiment natijalarini tahlil qilish va uni tasvirlash. [4]

- “Keys study” metodi – real yoki o‘ylab topilgan holatni (case) yechish orqali talabaning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- “Basket” metodi – bu turli ilmiy holatlar, faktlar va muammolar aralashtirilgan shaklda taqdim etilishi orqali talabalarning tartibga solish, ustuvorlikni belgilash, asosiy va ikkilamchi masalalarni ajratib olish hamda ularni tizimli tahlil qilish asosida yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metoddir

- Dinamik situatsion metod – bu talabani **tezkor fikrlash, zudlik bilan qaror qabul qilish va faol pozitsiyada ishtirok etish** zarur bo‘lgan o‘quv sharoitlariga jalb etish orqali **intellektual faollik va adaptiv tafakkurni rivojlantiruvchi** ta’limiy metod hisoblanadi.

Ushbu metodlar orqali talabalarda ilmiy fikrning shakllanishi, mustaqil izlanishga kirishish va tajriba natijalarini amaliy faoliyatga tatbiq etish ko‘nikmalari shakllanadi. Aynan mana shu jarayonlar orqali bo‘lajak o‘qituvchining tadqiqotchi sifatidagi faol metodologik salohiyati shakllanadi. Bu metodlar talabaning intellektual faolligi, mustaqil tahliliy fikrlash, ilmiy-tanqidiy qarash va kompleks yechim taklif etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim jarayonida ta’lim metodlardan foydalanish talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu metodlar talabaning intellektual faolligi, mustaqil tahliliy fikrlashi va ilmiy-tanqidiy qarashlarini rivojlantiradi. Natijada bo‘lajak mutaxassis va o‘qituvchilarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali olib borish uchun zarur bo‘lgan metodologik salohiyat shakllanadi. Mazkur metodlarni ta’lim amaliyotiga tizimli joriy etish talabalarning ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Jurayev B.T.** Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: Fan va ta’lim, 2022. – 326 b.

2. **Norton L., Horn R., Thomas S.** Innovatory Courses: Matching Lectures Objectives with Student’s Perceptions and Academic Performance // The Oxford Centre for Staff and Learning Development. – Oxford, 2002. – Part X, ch. 30. – B. 331–343.

3. **Saidahmedov N.** Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – Qo‘qon: Qo‘qon DPI nashriyoti, 2020. – 192 b.

4. **Smarter, greener, more inclusive? Indicators to support the Europe 2020 strategy.** – Luxembourg: Statistical books, Eurostat, 2016. – 204 p.

5. Perry, W.G. Forms of Intellectual and Ethical Development in the College Years. – N.Y.: Holt. Rinehart and Winston. – 1970. – 82 p

6. **Xodjaboyev A.R., Xusanov I.A., Nishonaliyev U.N.** Kasbiy ta'lim metodologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006. – 155 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Parmonov A.A
Qo‘qon Davlat unversiteti katta o‘qituvchisi
Shodiyev E.Q
Qo‘qon Davlat unversiteti o‘qituvchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNGA INNOVATSION-MOTIVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Zamonaviy sharoitda jismoniy harakatlar ulushi kamayib borayotganligi bois tarbiya sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ta’limning barcha turlari uchun muhim masalalar sifatida tobora dolzarblashib bormoqda. Zamonaviy ta’lim ma’lum ma’noda jamiyatning yuqori malakali mutaxassislariga bo‘lgan ob’ektiv ehtiyoji va bitiruvchilarning amaliy-kasbiy tayyorgarliklari o‘rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq muammoli vaziyat bilan ifodalanadi.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, tarbiya, motivatsiya, kasbiy bilim, akmeologiya, bilim, malaka.*

Пармонов А.А.
Старший преподаватель, Кокандский государственный университет
Шодиев Е.К.
Преподаватель, Кокандский государственный университет

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ И ВНЕДРЕНИЯ В НЕЕ ИННОВАЦИОННО-МОТИВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос о том, что в современных условиях, в связи со снижением доли физической активности, подготовка высококвалифицированных специалистов в сфере образования становится всё более актуальной как важная проблема для всех видов образования. Современное образование, в определённом смысле, характеризуется проблемной ситуацией, связанной с существующими противоречиями между объективной потребностью общества в высококвалифицированных специалистах и практической, профессиональной подготовкой выпускников.*

Ключевые слова: *Образование, воспитание, мотивация, профессиональные знания, акмеология, знания, умения и навыки.*

Parmonov A.A
Senior lecturer, Kokand State University
Shodiev E.Q
Lecturer, Kokand State University

THE SOCIAL-PEDAGOGICAL NEED TO IMPROVE THE SYSTEM OF TRAINING FUTURE TEACHERS AND INTRODUCE INNOVATIVE-MOTIVATIONAL APPROACHES TO IT

Abstract. *In this article, due to the decreasing share of physical activity in modern conditions, the training of highly qualified specialists in the field of education is becoming increasingly relevant as an important issue for all types of education. Modern education is, in a certain sense, characterized by a problematic situation associated with the existing contradictions between the objective need of society for highly qualified specialists and the practical and professional training of graduates.*

Keywords: *Education, upbringing, motivation, professional knowledge, acmeology, knowledge, skills.*

Kirish. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarga motivatsion yondashuvlar va munosabatlar tizimini yaratishning ijtimoiy-pedagogik zarurati ortib bormoqda. Bu esa ularni o‘qitish, kadr sifatida tayyorlash tizimini takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shu ma’noda bo‘lajak o‘qituvchilarni zamon talabalari asosida o‘qitish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijodiy yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

Zamonaviy sharoitda jismoniy harakatlar ulushi kamayib borayotganligi bois tarbiya sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ta'limning barcha turlari uchun muhim masalalar sifatida tobora dolzarblashib bormoqda. Zamonaviy ta'lim ma'lum ma'noda jamiyatning yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji va bitiruvchilarning amaliy-kasbiy tayyorgarliklari o'rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklar bilan bog'liq muammoli vaziyat bilan ifodalanadi.

Zamonaviy pedagogika bo'lajak o'qituvchisining kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda yangicha dunyoqarash va tafakkurni tarbiyalash hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda ularning kasbiy kompetentligidan yuqori darajada foydalana olishda motivatsion yondashuvdan foydalanish, motivatsion faoliyatni yuzaga keltirish va shu asosda ijtimoiy o'zgarishlarga erishish maqsad qilinmoqda.

Mazkur paragrifda bo'lajak o'qituvchilarga motivatsion yondashuvlar va munosabatlar tizimini yaratish va shu asosida akmeologik motivatsiyani shakllantirishning ijtimoiy zarurati, pedagogik asoslari va psixologik omillari tadqiq etilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarda o'z kasbining mohir ustasi bo'lishga, professional faoliyatni yo'lga qo'yishga motivatsiyani shakllantirish, ularni ichki motivlarini kasbiy faoliyat samaradorligi uchun yo'naltirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Motivatsiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig'indisi. Motiv esa fransuzchadan tarjima qilinganda, undovchi kuch, sabab degan ma'noni bildiradi. Pedagog olimlardan E.G'oziyev va R.Asomovalar ta'kidlanganidek, motiv va motivatsiya tizimi shaxsning faoliyati, muomalasi, xatti-harakatining ichki regulyatsiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojini qondirish, xohish-istak, ezgu niyat, orzu-tilak, mayl, his-tuyg'u, ideal, iymon-e'tiqod, vijdon, maqsad qo'ya olish va boshqalarni amaliyotda ro'yobga chiqarishning bosh omili hisoblanadi. Rus olimi A.N.Leontev fikricha, shaxsni motivatsion muhiti butun hayoti davomida rivojlanib boradigan yaxlit tizim hisoblanadi. U o'z iyerarixiyasiga ega harakatlanuvchi hisoblanib, ehtiyojlar predmetini hamda individ holatini namoyon etadi. Shunday ekan, inson ong ostida turli xil ehtiyojlar mavjud bo'lib, bu ehtiyojlar inson xatti-harakatlarini, uning tashqi faolligini shakllantiradigan motivatsiyaga aylanishini anglatadi.

Motiv - inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil, vaj. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqa motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida motiv atamasi sub'ektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. Demak, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishda ularni kasbiy rivojlanish uchun motivlarni shakllantirishga e'tiborni qaratish, innovatsion metodikani ishlab chiqishdir.

Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi. Harakat faoliyatning tarkibi bo'lganligi tufayli u faoliyatning maqsadi va motivi orqali boshqariladi. Ba'zan «motiv» tushunchasini «emotsiya», «maqsad», «ustanovka» atamalari bilan almashtirish hollari uchraydi. Goho turtki, qo'zg'ovchi, undovchi tushunchalari bilan aynanlashtiriladi. Shuning uchun ham, bo'lajak o'qituvchilarda o'zining kasbiy faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, undan muvaffaqiyatga erishishga ichki undov, ehtiyojni shakllantirish va shu asosda ularni yo'naltirish talab etiladi.

G'arb psixologiyasida motivatsiyaning ikki xil ko'rinishi va ularning o'ziga xos belgilari chuqur o'rganilgan. Bular – ekstrensiv (tashqi shart-sharoitlar va holatlarga bog'liq) va interensiv (shaxs dispozitsiyalari – ehtiyojlar, ustanovkalar, qiziqishlar, mayllar, istaklar bilan bog'liq bo'lgan holda paydo bo'ladigan) motivatsiyalar. Bu yo'nalishdagi munozaralar X.Xekxauzenning "Motivatsiya va faoliyat" kitobida o'z aksini topgan.

Olim X.Xekxauzen motivatsiyaning 6 ta tamoyilini yaratdi. Birinchi tamoyil bo'yicha interensiv motivlashgan xatti-harakatlar ochlik, chanqoqlik, og'riqdan qochish singari jismoniy ehtiyojlarning qondirilishiga yo'nalmagan. Bu yo'nalishda ish olib borgan olimlarning ta'kidlashicha mazkur ehtiyojlar organizm tomonidan buzilgan gomeostazni tiklashga xizmat qilmaydi. Biroq tashqi xatti-harakatlarida ularni tuzatish mumkin bo'ladi. Birinchi tamoyil bo'yicha motivlashgan xatti-harakatlar maqsadsiz faollik sifatida talqin qilinadi. O'yin faoliyatini tadqiq qilgan olim Ye.Klinger o'yin faoliyatini interensiv motivatsiya asosida maqsadsiz yo'naltirilgan harakat deb ataydi. R.Uayt bo'yicha atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir jarayonida individ tomonidan eng katta faolliklar harakatchanlik motivatsiyasi deb ataladi. Bu fikrga amerikalik olim Mark Rujnes qo'shiladi va faoliyat dastlabki bosqichlarini interensiv, natijaga yaqin bosqichlarini ekstrensiv deb hisoblaydi.

1. Biror faoliyat motivatsiyasi ham interensiv, ham ekstrensiv motivlashgan xulq-atvordan iboratdir.

2. U yoki bu xatti-harakatlar faoliyatning ba'zi optimal darajasini saqlab turish yoki tayyor holatda tutishga yo'nalgan motivatsiya deb hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik motivatsiyani shakllantirishda ularda kasbiy faoliyatda muvafaqiyatga erishish motivatsiyasi omilining ahamiyati yuqori hisoblanadi. O'tgan asr boshlarida olim D.S.Makklelland muvaffaqiyat

motivatsiyasining individual sifat o‘zgarishlarini yuzaga kelish farqlarini aniqlashga qaratilgan Tematik Apperseptiv Test (TAT) metodikasini ishlab chiqadi. U muvaffaqiyat motivatsiyasining ikki turi muvaffaqiyatga erishish va mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyalarini aniqlagan. Keyinchalik ushbu metodika X.Xekxauzen, V.Mayer, L.Kemmler tomonidan modifikatsiya qilingan. X.Xekxauzen eng muhim darajadagi faol faoliyat va muvaffaqiyat motivatsiyasini o‘zaro bog‘liqlik xarakterini aniqlab, uchta muhim motivatsion vektorni ko‘rsatadi:

1. Individ oldida turgan vazifani shaxs uchun muvaffaqiyatliligi va qiyinchiligining ehtimollari to‘g‘risidagi individual sub’ektiv tasavvur;

2. Sub’ekt uchun vazifaning ahamiyatlilik darajasi, shu bilan birga qo‘llab-quvvatlashga va o‘ziga nisbatan bahoni oshirishga bo‘lgan intilish kuchi;

3. Shaxsni muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik uchun mas’uliyatni o‘ziga, boshqa insonlarga va vaziyatga adekvat bog‘lashga moyilligi. Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarda ham akmeologik motivatsiyani hosil qilishda mazkur vektorlarni o‘rni yuqori hisoblanadi. Bunda psixologik omillarni aniqlash va ularning yechimini pedagogik asoslarini ishlab chiqish bugungi oliy ta’lim oldidagi dolzarb vazifalardir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion yondashuvlar asosida akmeologik motivatsion faoliyatga yo‘naltirishda ulardagi faollik va ta’limiy zo‘riqishni hisobga ham ola bilish lozim. Boshqa bir olimlar P.Fress va J.Piaje fikricha, faoliyatni amalga oshirish uchun, yetarli darajada motivatsiya bo‘lishi zarur. Biroq, motivatsiya o‘ta yuqori bo‘lsa, faollik va zo‘riqish darajasi oshadi va bu o‘z o‘rnida faoliyat, xatti-harakat samaradorligini yomonlashishiga sabab bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan motivatsiyaning o‘ta yuqori darajasi faoliyatda salbiy holatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan negativ emotsional ta’sirlar: stress, hayajon, zo‘riqishni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, motivatsiyaning o‘ta yuqori darajasi har doim ham eng yaxshi jihat hisoblanmaydi. Boshqa bir olim D.Maklelland muvaffaqiyat motivatsiyasi bilim olish natijasida yetuklik davrida ham rivojlanishi mumkinligini tushuntiradi. U insonlardagi muvaffaqiyat motivatsiyasini namoyon etuvchi quyidagi xislatlarni ko‘rsatadi:

- muvaffaqiyat motivatsiyasining maksimal sharoitidagi faoliyat ustuvorligi, ya’ni o‘rtacha darajadagi vazifalarni bajarish;

- muvaffaqiyat motivatsiyasi har doim ham yuqori natijalarga olib kelmaydi. Shuningdek, yuqori ko‘rsatkichlar doim ham muvaffaqiyat motivatsiyasining faollashgan natijasi hisoblanmaydi;

- qandaydir faoliyatni amalga oshirishda o‘ziga shaxsiy javobgarlikni olish mas’uliyati. Xavf-xatar darajasi aniq yoki o‘rtacha bo‘lgan vaziyatlar, sharoitlar borki, muvaffaqiyatga erishishda tasodiflar ro‘l o‘ynamaydi.

- o‘z faoliyatida erishgan natijalari haqida yetarlicha fikr bildirishni afzal ko‘radi;

- inson yangiliklarga intiluvchan bo‘lganligi uchun vazifalarni bajarishning yangicha, samarali yo‘llarini izlab topishga harakat qiladi. Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion motivatsion faoliyatga yo‘naltirishda ulardagi muvafaqiyatga erishish istagi, ehtiyoji va shaxsiy mas’uliyatni to‘g‘ri muvozanatlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Tadqiqotchi Ye.M.Rojkov motivatsiya biror bir qiyinchilikni yengib o‘tishdir. Bu insonlar yoki g‘oyalar bilan nazorat qilish, tashkil etish orqali qiyinchiliklarni yengishdir. Uni qanday amalga oshirish mumkinligidan qat’iy nazar o‘ta tezkorlik bilan mustaqil bajarishdir. To‘siqlarni yengib o‘tish va yuqori natijaga erishish shaxs o‘zini - o‘zi namoyon etishi, atrofdagilar bilan musobaqalashishi, o‘z qobiliyatlarini muvaffaqiyatli qo‘llashi bilan o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatni oshirishiga olib keladi deb tushuntiradi. Demak, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun motivatsiya o‘z kasbiy faoliyatida yaxshi natijalarga erishish istagi, talab va ehtiyojga asoslanadi.

Xulosa qilganda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ta’limdagi motivatsion yondashuvning o‘rni yuqori hisoblanadi va samaradorligi baland bo‘ladi. Chunki motivatsion yondashuv talabalarning kasbiy faoliyatiga ehtiyoj va qiziqishlari asosida motivatsion munosabatni shakllantirish orqali ularni yo‘naltirib boradi. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy muvafaqiyatga erishish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallash va ularni takomillashtirib borish istagini kuchaytirib yuboradi. Shu jumladan, bo‘lajak o‘qituvichlarni ham motivatsion yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash o‘zining samaradorligini ko‘rsatadi.

Foydanalingan adabiyotlar

1.The role of the acmeologist approach in the development of acmeological motivation in future physical education teachers. Parmonov Akmal Abdupattayevich https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR.2023 y.

2. Improving the system of training teachers of future physical education and introducing innovative-motivational approaches to it. Parmonov Akmal Abdupattoyevich. https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR.2023 y

3. Abdupattayevich, P. A. (2022). Specific methods and tasks for the physical development of primary school students with the help of games. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277 -3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 331-333.

4. Abdupattaevich P. A. Technology of formation of akmeological position in future teachers //World Bulletin of Social Sciences. – 2021. – T. 5. – C. 112-115. https://www.scholarexpress.net

5. Талипджанов А. А., Нурматов Б. Б., Пармонов А. А. Учебно-тренировочный процесс по футболу //International conference: problems and scientific solutions. – 2022. https://doi.org/10.5281/zenodo.7332922

6. Improving the effectiveness of the training process of students. Parmonov Akmal Abdupattayevich. ISSN 2277-3630 (online), Published by International journal of Social Sciences & September-2023 .https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR

7. Methodological doctrine of the organization of the process of physical education through national traditions. vol 10 issue 06, june 2021. Nurmatov Bakhrom Bektemirovich Parmonov Akmal Abdupattoevich. https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/ISSUE-6

8. Improvement of akmeological motivation of future physical education teacher. vol. 2 no. 12, december 2021. issn: 2660-5570. https://www.scholarzest.com

9. Specific methods and tasks for the physical development of primary school students with the help of games. ijssir, Vol. 11, No. 10. October 2022. https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR

10. Model for the development of acmeological motivation in future physical education teachers on the basis of an axiological approach. nternational scientific conference " innovative trends in science, practice and education" 2023 Munchen, (Germany)

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

S.Mirzayev
NamDU dotsenti
O.Otamirzayev
NamDU o'qituvchisi

PEDAGOGIK TA'SIR KO'RSATISHDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATNING AHAMIYATI.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'qituvchining dars jarayonidagi pedagogik mahorati hamda pedagogik ta'sir ko'rsatishda kommunikativ qobiliyatning ahamiyati alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar. *O'qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirish, pedagogik mahoratni tashkil etish, O'qituvchining pedagogik qobiliyati, O'qituvchining shaxsiy fazilatlari, Pedagogik muloqotni tashkil etish yo'llari, Kommunikativ muloqot, Perseptiv muloqot, Interaktiv muloqot.*

С. Мирзаев
доцент, НамДУ
О. Отамирзаев
преподаватель, НамДУ

ВАЖНОСТЬ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ВОЗДЕЙСТВИИ.

Аннотация. *В данной статье рассматривается важность педагогических навыков преподавателя в учебном процессе и важность коммуникативных навыков в педагогическом воздействии.*

Ключевые слова. *Формирование педагогических навыков преподавателя, организация педагогических навыков, Педагогические навыки преподавателя, Личностные качества преподавателя, Способы организации педагогической коммуникации, Коммуникативная коммуникация, Перцептивная коммуникация, Интерактивная коммуникация.*

S.Mirzayev
Associate Professor, NamDU
O.Otamirzayev
Teacher, NamDU

THE IMPORTANCE OF COMMUNICATIVE SKILLS IN PEDAGOGICAL IMPACT.

Annotation.*. This article focuses on the importance of the teacher's pedagogical skills in the teaching process and the importance of communicative skills in pedagogical impact.*

Keywords*. Formation of the teacher's pedagogical skills, organization of pedagogical skills, Pedagogical skills of the teacher, Personal qualities of the teacher, Ways of organizing pedagogical communication, Communicative communication, Perceptive communication, Interactive communication.*

Kirish

Pedagogik ta'sir ko'rsatish - tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam vatizimli ta'sir ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning xulqatvori va dunyoqarashini takomillashtirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida tarbiyalash, ijtimoiy ong va xulq-atvomi xalqimizning boy malkuralari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va histuyg'ulari rivojlanadi, unda ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalami tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullariga: talab, istiqbol, jamoatchilik fikri, rag'batlantirish va jazoiash kabilar kiradi.

Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o 'qituvchi:

- o‘quvchilar bilan bo‘lajak mimosabatni modellashtira olishi;
- munosabatda bo' ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o‘matish;
- munosabatda ustunlikka ega boiib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarish;
- munosabatning ijobiy vasalbiyjihatlarini uzluksiztahlil etib borishi lozim.

Ijtimoiy - psixologik teksbiruvchilar pedagogik muloqot malakasida ikkita asosiy kommunikativ ta’sir etish turlarini ajratadilar: ishonch hosil qilish va ishontirish. Pedagogning har bir harakati tarbiyalanuvchining munosabatlari, fikrlari, hissiyotlari, faoliyatlarini shakllantirishga, ya'ni ulaming psixikasi va xulqiga har tomonlama ta’sir etishga qaratiladi. Lekin ishonch hosil qilish va ishontirishning psixologik jarayoni turlichadir. Ta’sir etishning har bir yo‘li o‘z spetsifik xarakteriga ega. Ishonch hosil qilish yangi qarashlar, munosabatlami shakllantiradi, noto‘g‘ri qarashlar va munosabatlami o‘zgartiradi. Ishonch hosil qilish shakllariga: disputlar, diskussiya, suhbat, o'qitovchi himoyasi, shaxsiy namuna kiradi.

Ishonch hosil qilishda o‘zaro ta’sir qilish metodi sifatida maksimal ta’ sirli bolishi uchun, u bir qancha shartlarga rioya qilish kerak:

- ishonchning mazmuni va shakli bolalaming yosh xususiyatlariga mosligi;
- ishonch hosil qilish tarbiyalanuvchining shaxsiy dunyoqarashiga mosligi;
- tarbiyachi bolalarda ishonch hosil qilishda awalo o‘zi shu narsaga nisbatan ishonch hosil qilishi.

Ishonch hosil qilishning natijasi o‘qituvchining so‘zlari va harakatlariga ham bog‘liq. Tarbiyachining so‘zi va harakatlari

bir-biriga mos tusbishi kerak. Masalan, tarbiyachi jahl ustida bolaga qattiq jazo berishini aytadi, lekin esidan chiqib ketadi. Yoki biror nima va’da qilib, o‘z so‘zining ustida turmaydi. Bolalar bunday pedagogning so‘zlariga ahamiyat bermay qo‘yadilar. Yanayam yomoni, agar o‘qituvchi balandparvoz, to‘g‘ri so‘zlami gapirsa - yu, lekin kundalik hayotida bunga amal qilmasa bunday o‘qituvchilar jamiyatga zarar yetkazadilar. Ishontirishning yuqori effekti o‘quvchilaming olgan bilimlarining mustahkamlaydigan mashqlari (ruhini tetiklash, to‘g‘ri xulq hosil qilish) orqali hosil bo‘ladi. Ishontirishning usulini boshqatdantarbiyalash, ya'ni qarash va muomalami hosil qilish maqsadida qo‘llash mumkin. Isbotlash shaxs dunyoqrashining yetakchi struktura elementi boiib, ishontirishning o‘zagi bo‘lgan bilimlar hisoblanadi. Isbot orqali bilim egallayotgan o‘quvchida unga to‘g‘ri kelmaydigan hamma ishontirishni qattiqqollik, isbotlash yo‘li bilan qaytara olish qobiliyati rivojlanadi. Pedagogik ta’sir qilish usuli bo‘lgan ishontirish bilan birga pedagogik jarayonda ta’sir etish ham o£ziga xos o‘miga ega.

Pedagogik muloqotni tashkil etish yo‘llari

O‘qituvchining pedagogik faoliyatida o‘quvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu pedagogik muloqotning butun tizimida uning ma’naviy mazmundorligini oshirishni talab etadi, zero aynan pedagogik muloqot, ta’lim - tarbiyaning ma’naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy, psixologik, tarbiyaviy va ma’naviy vazifalarning murakkabligi o‘qituvcbining kommunikativ faoliyatiga yuksak talablami qo‘yadi.O ‘qituvchi kasbiy faoliyatida yuksak pedagogik va psixologik natijalarga erishishi uchun, ko‘p yillik nazariy va amaliy tajribalar asosida tadqiqotchi olimlar tomonidan taklif etilgan muloqotning quyidagi yo‘nalishlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1.***Prognostik yo‘nalish.*** O ‘qituvchining muloqotga bevosita tayyorgarlik jarayonida o‘quvchilar bilan bo‘lajak har qanday muloqot turini modellashtirish.

2.*Muloqotning boshlang‘ich yo ‘nalishi.* O ‘quvchilar bilan dastlabki muloqotni tashkil etish jarayonidayoq bevosita o‘zaro ta’sir metodlaridan foydalanib, tashabbuskorlikni qo‘lga olish.

3.***Muloqotning uchinchi yo‘nalishi.*** Tobora takomillashib, rivojlanib borayotgan pedagogik faoliyatda muloqotning turli texnologik shakllaridan unumli foydalanish va uni boshqarish.

A.Muloqotning to‘rtinchi yo ‘nalishi Keyingi pedagogik faoliyat uchun olib boriladigan muloqot tizimini modellashtirish va muloqotning amalga oshirilgan tizimini doimiy tahlil qilib borish. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish vazifalari va vositalari hamda o‘qituvchining o‘quvchilar bilan pedagogik muloqoti quyidagi ко ‘ rinishlarda namoyon bo ‘ ladi:

— Kommunikativ muloqot
— Interaktiv muloqot
— Perseptiv muloqot.

1.***Kommunikativ*** muloqotda bir tomonlama axborot uzatiladi. Muomala o‘z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o‘zaro axborot almashuvini qamrab olgan bo‘lib, kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. O ‘qituvchi va o‘quvchi birbirlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muloqotning muhim vositalari bo‘lmish til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

2. ***Interaktiv*** muloqotning muhim jihati ikki tomonlama birbiriga ta'sir etishdir. Muloqotga kirishuvchi o'qituvchi o'zaro ta'sir etishda, ulaming tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat so'z orqali, balki fikr almashinuv, xatti-harakat va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

3.***Perseptiv*** muloqotda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi.

Xulosa

O'qituvchining pedagogik mahorati kasbiy faoliyat davomida shakllanib boradi. Yuksak saviyali pedagogik kadrlar tayyorlashga nisbatan talablar, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'z kasbi bilan uzluksiz taraqqiyotga moslasha oladigan o'qituvchining shakllanishi, bo'lajak o'qituvchi umummilliy mavqeining o'sib borishini ta'minlaydi. Pedagogik mahorat pedagogika, psixologiya va metodika fanlariga tayangan holda shakllanadi. U o'qituvchining ta'lim jarayonini ongli ravishda boshqarish, o'quvchilarga individual yondashish va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyatini ifodalaydi.Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o'zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilaming munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat yo'nalishi "Pedagogik mahoratni rivojlantirish strategiyalari" moduli bo'yicha O' q u v –u s l u b i y m a j m u a Toshkent – 2019

2. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

3. Husanov B. G'ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. - T.: Iqtisod - moliya 2009.- 156 b.

4. Umumiy pedagogika. –T.: "Fan va texnologiya" 2018-yil.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Sobirova Gulxayo Aktamjonovna
Farg'ona viloyati Rishton tumani 21-BMSM o'qituvchisi,
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Ilmiy rahbar: san'atshunoslik fanlari doktori,
professor G'ofurbekov To'xtasin Botirovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MUSIQIY–TARIXIY VA NAZARIY FANLARNI O'QITISH ISTIQBOLLARI: TAJRIBA, TAHLIL VA NATIJA

Annotatsiya: *Maqolada, bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining musiqiy-tarixiy va nazariy fanlarga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, ushbu fanlardan bilim berishdagi holat mazmunini bilish va ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish maqsadida qo'llanilgan metodlarning samardorligini isbotlash uchun Farg'ona vodiysi bolalar musiqa va san'at maktablarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari tahlili va natijalari yoritilgan..*

Kalit so'zlar: *Tajriba-sinov, tajriba guruhi, nazorat guruhi, statistic tahlil, respondent, baholash mezoni, baholash darajasi, samaradorlik.*

Собирова Гулхаё Актамжоновна
преподаватель ДШМИ 21 Риштанского района, Ферганской области
самостоятельный соискатель Наманганского государственного университета
Научный руководитель: доктор искусствоведения, профессор Гофурбеков Тохтасин Ботирович

ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИХ И ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ОПЫТ, АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Аннотация: *В статье представлены анализ и результаты экспериментальной работы, проведенной в детских школах музыки и искусства Ферганской долины, с целью определения интереса учащихся детских школ музыки и искусства к музыкально-историческим и теоретическим дисциплинам, понимания содержания ситуации в предоставлении знаний по этим предметам и доказательства эффективности используемых методов повышения знаний, навыков и квалификации учащихся.*

Ключевые слова: *Экспериментальный опыт, экспериментальная группа, контрольная группа, статистический анализ, респондент, критерий оценки, уровень оценки, эффективность*

Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna
Rishton district, Fergana region teacher of the 21st children's music and art school
Independent researcher of Namangan state university
Scientific supervisor: doctor of arts, professor Gofurbekov Tokhtasin Botirovich

PROSPECTS FOR TEACHING MUSICAL–HISTORICAL AND THEORETICAL SCIENCES IN NEW UZBEKISTAN: EXPERIENCE, ANALYSIS AND RESULTS

Annotation *The article presents the analysis and results of experimental work conducted in children's music and art schools of the Fergana Valley in order to determine the interest of students of children's music and art schools in music-historical and theoretical subjects, to understand the content of the situation in providing knowledge in these subjects, and to prove the effectiveness of the methods used to improve the knowledge, skills and qualifications of students.*

Keywords: *Experimental, experimental group, control group, statistical analysis, respondent, assessment criterion, assessment level, effectiveness*

Har bir tadqiqot doirasida olib boriladigan tahlillar orqali ilgari surilgan ilmiy farazning samaradorligi aniqlanadi. Mazkur tadqiqot ishida ham Yangi O'zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o'qitish muammolari va istiqbollarining pedagogik mexanizmlari maxsus tajriba va sinovdan o'tkazildi hamda natijalar umumlashtirildi. Tajriba-

sinov ishlari uchun tanlab olingan viloyatlar ta'lim muassasalarida, Yangi O'zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o'qitish muammolari va istiqbollarining pedagogik mexanizmi bo'yicha tajriba-sinov ishlarining natijalari asosida rivojlantirish darajasini aniqlash mezonlari ishlab chiqildi . Belgilab olingan mezonlar asosida tajriba-sinov ishlarida qatnashgan o`quvchilarning ko'rsatkichlari "yuqori", "o'rta" va "past" darajalarda baholandi. Tadqiqot jarayonida Yangi O'zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o'qitish muammolari va istiqbollarining faoliyat mazmuni, mohiyati, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash usuli va mahoratlari, hosil bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllanganlik darajasini yuqorida keltirilgan mezonlar asosida baholashda quyidagilarga e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov o'tkazilinadigan obyektlarda Yangi O'zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o'qitish muammolari va istiqbollari asosida fan dasturlari, o'quv qo'llanmalar va darsliklar o'rganib chiqildi hamda tahlillandi. Shu bilan birga pedagoglarning tajribasi, bilim va ko'nikmalarini aniqlashga doir so'rovnomalar o'tkazildi hamda dars o'tishdagi malakalari kuzatildi. Ilmiy-metodik manbalar hamda amaliyotdagi ahvolni o'rganish asosida tajriba-sinovini o'tkazish mazmuni aniqlandi. Ushbu bosqichda olingan dastlabki natijalar tahlil qilindi va keyingi bosqich uchun ilmiy metodik materiallar tayyorlandi. Tajriba-sinov obyektlarida ish faoliyatini olib borayotgan o'qituvchi va tahsil olayotgan o`quvchilardan tadqiqotimizni samarali tarzda o'tkazish maqsadida anketa-so'rovnomalar olindi.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o`quvchilarining nazorat guruhi o`quvchilariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun matematik statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosa tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Tajriba-sinov ishlari to'rt bosqichda, ya'ni ta'kidlovchi, izlanuvchi, shakllantiruvchi hamda yakunlovchi tajriba-sinov ishlari bosqichlarida amalga oshirildi. Yangi O'zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o'qitish muammolari va istiqbollari bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarining umumiy natijalari keltirildi (3.2.1-jadval).

3.2.1-jadval

Yangi O'zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o'qitish muammolari va istiqbollari bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarining shakllanganlik darajasi

№	Kompetensiya funksiyalari	Tajriba guruhi (52 nafar respondent)						Nazorat guruhi (48 nafar respondent)					
		Yuqori		*O'rta*		*Past*		*Yuqori*		*O'rta*		*Past*	
		T.a.	**T.s.**	**T.a.**	**T.s.**	**T.a.**	**T.s.**	**T.a.**	**T.s.**	**T.a.**	**T.s.**	**T.a.**	**T.s.**
Musiqiy-tarixiy fanlar	1.Davr va kompozitor (bastakor)lar uslubi haqidagi bilimlar	11	30	24	21	17	1	9	11	16	17	23	20
	2.Kompozitorlar va ularning asarlari	9	28	20	20	23	4	7	9	20	18	21	21
	3.Musiqiy janrlar va shakllar	11	26	22	19	19	7	11	10	18	16	19	22
	4.Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv	13	28	21	22	18	2	8	12	17	17	23	19
	5.Musiqa asarlarini tinglab tahlil qilish	12	27	23	20	17	5	10	8	18	19	20	21
	6.Terminologiya	10	29	22	18	20	5	9	10	19	15	20	23
Musiqa-tarixiy fanlar natijalarining jami o'rtacha		**11**	**28**	**22**	**20**	**19**	**4**	**9**	**10**	**18**	**17**	**21**	**21**
2. Musiqiy-nazariy fanlar	1.Musiqiy savodxonlik	11	28	20	23	21	1	12	12	15	21	21	15
	2.Eshitish qobiliyati (interval va akkortlarni	15	27	19	20	18	5	13	8	17	17	18	23

	tinglab aniqlash)												
	3. Musiqa asarlari tahlili (lad, tonallik, o'lchov)	12	24	20	24	20	4	9	11	14	20	25	17
	4. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash (tuzilmalar tuzish)	14	25	21	21	17	6	10	9	18	18	20	21
Musiqiy-nazariy fanlar natijalarining jami o'rtacha		**13**	**26**	**20**	**22**	**19**	**4**	**11**	**10**	**16**	**19**	**21**	**19**
	Umumiy o'rtacha	**12**	**27**	**21**	**21**	**19**	**4**	**10**	**10**	**17**	**18**	**21**	**20**

Izoh: *T.a. – tajriba avvalida, T.s. – tajriba so'nggida.*

Yuqoridagi jadvalga asosan, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o'quvchilarning nazorat guruhi o'quvchilariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosa tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi.

Yangi O'zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o'qitish muammolari va istiqbollari bo'yicha so'rovnomalar yuzasidan berilgan statistik ma'lumotlarni matematik statistik tahlil qilish uchun umumlashgan tajriba avvalida (T.a.) va tajriba so'nggida (T.s.) javoblari BMSMlar kesimida keltirilgan(3.2.2-jadval).

3.2.2-jadval

Yangi O'zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o'qitish muammolari va istiqbollari bo'yicha tajribadan avvalgi (T.a.) va tajriba so`ngidagi (T.s.) ma'lumotlarning (BMSMlar kesimida) umumiy jadvali

Tajriba - sinov obyektlari	Respondentlar soni	Tajriba guruhlari						Respondentlar soni	Nazorat guruhlari					
		Yuqori		**O'rta**		**Past**			**Yuqori**		**O'rta**		**Past**	
		T.a	T.s.	T.a	T.s.	T.a	T.s.		T.a	T.s	T.a	T.s.	T.a	T.s
Farg'ona viloyati	18	5	10	7	7	6	1	16	4	3	6	6	6	7
Namangan viloyati	18	4	9	8	8	6	1	17	3	4	7	7	7	6
Andijon viloyati	16	3	8	6	6	7	2	15	3	3	4	5	8	7
Umumiy	**52**	**12**	**27**	**21**	**21**	**19**	**4**	**48**	**10**	**10**	**17**	**18**	**21**	**20**

Izoh: T.a. – tajriba avvalida, T.s. – tajriba so'nggida.

Jadvaldagi natijalar tahlil qilinib, tajriba va nazorat guruhlarining tajribadan avvalgi statistik ko`rsatkichlari taqqoslandi (3.2.3-jadvalga qarang).

3.2.3-jadval

Yangi O'zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o'qitish muammolari va istiqbollari bo'yicha tajribadan avvalgi ma'lumotlarning solishtirma jadvali

Tajriba guruhi	Tajriba - sinov obyektlari	**Yuqori**	**O'rta**	**Past**	Jami
	Farg'ona viloyati	5	7	6	18
	Namangan viloyati	4	8	6	18
	Andijon viloyati	3	6	7	16
	Umumiy o'rtacha	**12**	**21**	**19**	**52**
Nazorat guruhi	Tajriba - sinov obyektlari	**Yuqori**	**O'rta**	**Past**	**Jami**
	Farg'ona viloyati	4	6	6	16
	Namangan viloyati	3	7	7	17
	Andijon viloyati	3	4	8	15
	Umumiy o'rtacha	**10**	**17**	**21**	**48**


Yuqoridagi jadvallarga asosan, tajriba-sinov avvalidagi natijalarga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o‘quvchilarning nazorat guruhidagi o‘quvchilarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar orasidagi farqlar sezilarli emasligi aniqlandi. Yangi O‘zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o‘qitish muammolari va istiqbollari bo‘yicha tajriba-sinov avvalidagi natijalar tahlili keltirildi (3.2.4-jadvalga qarang).

3.2.4-jadval

Yangi O‘zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o‘qitish muammolari va istiqbollari bo‘yicha o`tkazilgan tajriba-sinov ishlarining avvalidagi ma’lumotlarning solishtirma tahlili (son va foizlarda)

Guruhlar	O`quvchilar soni	O‘zlashtirish natijalari (% da)		
		Yuqori	**O‘rta**	**Past**
Tajriba guruhi	52	12 / 23	21 / 40	19 / 37
Nazorat guruhi	48	10 / 21	17 / 36	21 / 43

Tajriba-sinov avvalidagi natijalarga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi respondentlarning nazorat guruhidagi respondentlarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar orasidagi farqlar sezilarli emasligi aniqlandi. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko‘ra dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko‘rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib, baho ko‘rsatkichlari bo‘yicha variatsion qatorlari hosil qilindi. Bu diagrammada quyidagi ko‘rinishni oldi.



3.2.1-rasm.Yangi O‘zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o‘qitish muammolari va istiqbollari bo‘yicha tajriba-sinov avvalidagi natijalar diagrammasi

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhidagi yuqori va o‘rta ko‘rsatkichlar nazorat guruhi ko‘rsatkichlaridan sezilarli farq qilmaydi.

Tajriba-sinov boshidagi o‘rtacha o‘zlashtirish (77,2 – 75,6) % =1,6 % ga farq qilar ekan. Demak, tajriba-sinov avvalida o‘rtacha o‘zlashtirishlar orasidagi farq sezilarli emas. Bundan qolgan sonli xarakteristikalarni hisoblash shart emasligi kelib chiqadi.

Tajriba-sinov so`ngidagi natijalar tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi respondentlarning nazorat guruhi respondentlarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. 3.2.2-jadvalga asosan bu holatni obyektiv baholash uchun umumlashgan holatda statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosa tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi (3.2.4 -jadval).

3.2.4-jadval

Yangi O‘zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o‘qitish muammolari va istiqbollari bo‘yicha ko‘rsatkichlarning tajriba-sinov so`ngidagi solishtirma jadvali (Tajriba-sinov obyektlari kesimida).

	Tajriba-sinov obyektlari	Yuqori	O‘rta	Past	Jami
Tajriba guruhi	Farg‘ona viloyati	10	7	1	18
	Namangan viloyati	9	8	1	18
	Andijon viloyati	8	6	2	16
	Jami	**27**	**21**	**4**	**52**
Nazorat guruhi	**Tajriba-sinov obyektlari**	**Yuqori**	**O‘rta**	**Past**	**Jami**
	Farg‘ona viloyati	3	6	7	16
	Namangan viloyati	4	7	6	17
	Andijon viloyati	3	5	7	15
	Jami	**10**	**18**	**20**	**48**


Yuqoridagi jadvallardan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi respondentlarda nazorat guruhidagi respondentlarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar samarali shakllanishida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan (3.2.5-jadval).

3.2.5-jadval

Yangi O‘zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o‘qitish muammolari va istiqbollari bo‘yicha tajriba-sinov so`ngidagi natijalarining yakuniy tahlili (son va foizlarda)

Guruhlar	Respondentlar soni	O‘zlashtirish natijalari (% da)		
		yuqori	**o‘rtacha**	**past**
Tajriba guruhi	52	27 / 52	21 / 41	4 / 7
Nazorat guruhi	48	10 / 21	18 / 37	20 / 42

Bu diagrammada quyidagi ko‘rinishni oldi.



3.2.2-rasm. Yangi O‘zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o‘qitish muammolari va istiqbollari bo‘yicha tajriba-sinov so`ngidagi natijalar diagrammasi.

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhi ko‘rsatkichlari nazorat guruhi ko‘rsatkichlaridan yuqori ekan. Bu yerda tajribadan keyingi o‘rtacha o‘zlashtirish (89,0 – 75,8) % =13,2 % ga yuqori ekanligi kelib chiqadi. Ushbu o‘zgarishlarning samaradorligi va ishonchliligini Kolmogorov-Smirnov mezoni yordamida tekshirildi.

3.2.6-jadval

Kolmogorov-Smirnov statistikasini hisoblash jadvali

Tadqiqot obyektlari	Tajriba guruhining nisbiy chastotasi $f_{tajriba}$	Nazorat guruhining nisbiy chastotasi $f_{nazorat}$	Nisbiy chastotalar ayirmasining moduli $f_{tajr.} - f_{nazor.}$
Yuqori	0,52	0,21	0,31
O‘rta	0,41	0,37	0,04
Past	0,07	0,42	0,35

Endi biz har ikki statistik tanlanmalarni nazariy o‘rta qiymatlari tengligi haqidagi $H_0: \ a_X = a_Y$ gipotezani Kolmogorov-Smirnov mezoni yordamida tekshiramiz. Shu maqsadda, mos statistikani hisoblaymiz:

$$\lambda_{эмпирик} = d_{\max} \cdot \sqrt{\frac{n \cdot m}{n+m}}.$$

Ehtimollik uchun statistik alomatning qiymatdorlik darajasini α= 0,05 deb olsak, jadvaldan $\lambda_{критик}(0,05) = 1,36$ kritik qiymat topiladi. U holda $\lambda_{эмпирик} = 0,35 \cdot \sqrt{\frac{52 \cdot 48}{52+48}} \approx 1,75.$.

Demak, $\lambda_{эмпирик} = 1,75 > 1,36 = \lambda_{киритик}$ bo‘lgani uchun biz H_0 gipotezani rad etib, $\overline{X} > \overline{Y}$ munosabatlarni e’tiborga olgan holda, ya’ni tajriba guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, nazorat guruhi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichidan katta bo‘lar ekan, degan xulosaga kelamiz. Bu natijalar Yangi O‘zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o’qitish muammolari va istiqbollarining rivojlanganlik ko‘rsatkichlarini ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi.

Demak, tadqiqot natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan statistik tahlillar tajriba-sinov ishlari samarador (13,2% ga) ekanligini va bizning ko‘zlagan maqsadimiz tasdiqlanganini ko‘rsatadi.

Ushbu tahlillardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Yangi O‘zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o’qitish muammolari va istiqbollari bo‘yicha qo‘llanilgan dasturlar, metodik tizimdan foydalanish sinov metodikasi samarador bo‘lib, o‘tkazilgan tajriba-sinov tahlillari uni respublikamiz ta’lim muassasalarida ommalashtirish mumkinligiga asos yaratadi.

Xulosa o’rnida aytish joizki, Yangi O‘zbekistonda musiqiy – tarixiy va nazariy fanlarni o’qitish muammolari va istiqbollarining samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari tizimi ishlab chiqildi va ushbu mezon va ko‘rsatkichlar asosida tajriba-sinov materiallari tayyorlanib, amaliyotga tatbiq etildi.

Tajriba-sinov natijalarining statistik tahlili shuni ko‘rsatdiki, metodikaning samaradorligi nazorat va tajriba guruhlarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini taqqoslash orqali aniqlanib, tajriba guruhidagi o’quvchilarning o‘zlashtirish darajasi nazorat guruhidagilarga qaraganda yuqoriligi (13,2% ga) qayd etildi. Bu esa ishlab chiqilgan yondashuvning ta’lim jarayonida amaliy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Bolalar musiqa va san’at maktablari yuqori sinf o’quvchilari hamda musiqiy-tarixiy va nazariy fanlar o‘qituvchilari bilan tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida yuqori sinf o‘quvchilarining musiqiy-tarixiy va nazariy fanlarni o‘rganish bo‘yicha bilimlari monitoringi olib borildi va bu o‘quv jarayonining mazmuni va texnologik tarkibiy qismlarini takomillashtirishga imkon berdi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida “Musiqa adabiyoti”(3-4-o‘quv yili uchun), “Maqom va Shashmaqom asoslari” fan dasturlari takomillashtirilib, dastur asosida yaratilgan o’quv qo’llanma ta’lim jarayoniga tatbiq etildi.

Tajriba-sinov ishlari nazariy-metodologik dasturi asosida ishlab chiqilgan bolalar musiqa va san’at maktabi o’quvchilarining musiqiy-tarixiy va nazariy fanlar bo’yicha kompetensiyasini rivojlantirish modeli maqsadga muvofiq ekanligi to‘g‘risidagi taxminlarning asosliligi sinovdan o‘tkazildi hamda ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar majmuasi samarali ekanligi tasdiqlandi. Tajriba-sinovi jarayonida qo’llanilgan innovatsion texnologiyalar yuqori sinf o‘quvchilarining kompetensiyasini rivojlanishida ijobiy dinamikani ta’minladi.

Ushbu natijalar Ellis (2009), Richards (2013) va Willis (1996) tomonidan ilgari surilgan nazariy g‘oyalarni amalda tasdiqlaydi. Ularning fikricha, topshiriqqa asoslangan yondashuv o‘qituvchi shaxsining ijodiy potensialini ochib, uni o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Natijaviy jihatdan, ushbu tadqiqot TBLT modelining nafaqat til o‘rgatishda, balki **pedagogik kreativlikni rivojlantirish**da ham samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi. Bu yondashuv xorijiy til o‘qituvchilarini innovatsion fikrlashga, ijodiy qarorlar qabul qilishga va o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishini qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhit yaratishga undaydi.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, topshiriqqa asoslangan mashqlar xorijiy til o‘qituvchilari uchun kreativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositasidir. Ular o‘qituvchilarda yangicha fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, o‘quv jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish imkonini beradi. TBLT asosidagi mashg‘ulotlar o‘qituvchilarning muloqot, refleksiya va ijodkorlikni uyg‘unlashtirgan holda faol professional rivojlanishini ta’minlaydi. Mazkur yondashuv O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kreativ va kompetent xorijiy til o‘qituvchilarini tayyorlashda muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Ellis, R. (2003). Task-based language learning and teaching. Oxford University Press.

2.Ellis, R. (2009). Task-based language teaching: Sorting out the misunderstandings. International Journal of Applied Linguistics, 19(3), 221–246.

3.Krashen, S. (1985). The Input Hypothesis: Issues and Implications. Longman.

4.Long, M. H. (1996). The role of the linguistic environment in second language acquisition. Academic Press.

5.Richards, J. C. (2013). Creativity in language teaching. Iranian Journal of Language Teaching Research, 1(3), 19–43.

6.Sternberg, R. J. (1999). Handbook of creativity. Cambridge University Press.

7.Willis, J. (1996). A framework for task-based learning. Longman.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Raximova Charosxon Baxromjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
ORCID ID: 0009-0001-3877-7152

LISONIY - MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA TOPSHIRIQQA ASOSLANGAN MASHQLARNING O‘RNI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lisoniy-muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishda topshiriqqa asoslangan mashqlarning o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ingliz tili o‘qitish jarayonida Task-Based Learning (TBLT) yondashuvi asosida til o‘rganuvchilarning til boyligi, grammatik to‘g‘riligi va muloqot kompetensiyasini shakllantirish samaradorligini aniqlashdan iborat. Maqolada zamonaviy til o‘qitish metodlari, interaktiv mashg‘ulotlar, madaniy va global kontekstlarda kommunikativ vazifalarni bajarish orqali kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, topshiriqqa asoslangan mashqlar talabalarning faol ishtirokini, til muhitiga moslashuvini va muloqotda ishonch bilan qatnashish darajasini oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *lisoniy-muloqot kompetensiyasi, topshiriqqa asoslangan o‘qitish, interaktiv mashqlar, kommunikativ yondashuv, til o‘qitish metodikasi.*

Рахимова Чаросхон Бахромжон кызы
Ферганский государственный университет, базовый докторант

РОЛЬ ЗАДАНИЙ, ОСНОВАННЫХ НА ВЫПОЛНЕНИИ ЗАДАЧ, В РАЗВИТИИ ЛИНГВИСТИКО - КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

Аннотация: *В данной статье анализируется роль заданий, основанных на выполнении коммуникативных упражнений, в развитии лингвокоммуникативной компетенции. Основная цель исследования — определить эффективность подхода Task-Based Learning (TBLT) в формировании языкового запаса, грамматической правильности и коммуникативной компетенции обучающихся в процессе преподавания английского языка. В статье раскрываются возможности развития компетенции через использование современных методов обучения, интерактивных заданий, а также выполнение коммуникативных задач в культурном и глобальном контекстах. Результаты исследования показывают, что задания, основанные на выполнении задач, повышают активное участие студентов, их адаптацию к языковой среде и уверенность в коммуникации.*

Ключевые слова: *лингвокоммуникативная компетенция, обучение на основе заданий, интерактивные упражнения, коммуникативный подход, методика преподавания языка.*

Charoskhon Bakhromjon Rahimova
Fergana State University, Candidate of Science

THE ROLE OF TASK-BASED EXERCISES IN DEVELOPING LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE COMPETENCIES

Abstract: *This article analyzes the role of task-based exercises in developing linguistic and communicative competence. The main aim of the study is to determine the effectiveness of the Task-Based Learning (TBLT) approach in enhancing learners' vocabulary, grammatical accuracy, and communicative competence in English language instruction. The paper highlights the potential of modern language teaching methods, interactive tasks, and the integration of cultural and global contexts to foster communicative competence. The results indicate that task-based exercises increase students' active engagement, adaptability to linguistic environments, and confidence in communication.*

Keywords: *linguistic-communicative competence, task-based learning, interactive exercises, communicative approach, language teaching methodology.*

Kirish: Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy til o‘qitish tizimida lisoniy va muloqot kompetensiyalarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Lisoniy-muloqot kompetensiyasi talabaning nafaqat grammatik bilimlarga ega bo‘lishini, balki ularni amaliy muloqotda to‘g‘ri va samarali qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi. Hymes (1972) va Canale hamda Swain (1980) tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasi zamonaviy til o‘qitishning metodologik asosini tashkil etadi. So‘nggi yillarda topshiriqqa asoslangan o‘qitish (Task-Based Language Teaching – TBLT) yondashuvi ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishning eng samarali strategiyalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi – topshiriqqa asoslangan mashqlar yordamida ingliz tili ta’limida lisoniy va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini tahlil qilish, ularning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash hamda o‘quv jarayonida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Topshiriqqa asoslangan ta’lim (TBLT) yondashuvi 1980–1990-yillarda kommunikativ yondashuvning mantiqiy davomi sifatida shakllangan. Ellis (2003), Nunan (2004), Richards va Rodgers (2014) kabi olimlar TBLTni til o‘rganishning markazida real hayotiy vazifalarni bajarish orqali tilni egallashga yo‘naltirilgan metod deb ta’riflaydilar. Krashen (1985) tomonidan ilgari surilgan “Input Hypothesis” nazariyasiga ko‘ra, til o‘rganish samaradorligi talabalarning tabiiy va ma’noli kontekstdagi til materiali bilan shug‘ullanishiga bog‘liq. Long (1996) esa “Interaction Hypothesis” doirasida o‘zaro muloqotning tilni o‘zlashtirishdagi rolini alohida ta’kidlaydi. TBLT yondashuvi talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi, muloqot jarayonida real kommunikativ ehtiyojlarga asoslanadi hamda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda ingliz tilini o‘qitishda topshiriqqa asoslangan yondashuv keng qo‘llanilmoqda, bu esa milliy ta’lim dasturlarini global standartlarga yaqinlashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodalogiyasi (Research methodology). Mazkur tadqiqotda lisoniy-muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishda topshiriqqa asoslangan mashqlarning samaradorligini aniqlash maqsadida eksperimental tadqiqot metodologiyasi qo‘llanildi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida ingliz tili ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 60 nafar bakalavr talabalari tanlab olindi. Ular tasodifiy tanlov asosida ikkita guruhga — 30 nafardan iborat tajriba guruhi va nazorat guruhiga ajratildi. Tajriba guruhi topshiriqqa asoslangan o‘qitish (TBLT) metodikasi asosida mashg‘ulotlar olib borgan bo‘lsa, nazorat guruhi an’anaviy grammatikaga yo‘naltirilgan yondashuvda ta’lim oldi. Tajriba 6 hafta davomida olib borildi va har bir darsda kommunikativ maqsadlarga asoslangan amaliy topshiriqlar tizimi tatbiq etildi. Mashg‘ulotlar mazmuni Ellis (2003), Nunan (2004) hamda Willis (1996) tomonidan ishlab chiqilgan TBLT modeliga tayangan holda loyihalashtirildi. Har bir darsda talabalarning muloqot jarayonida faol ishtirokini ta’minlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar qo‘llanildi. Ular real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilishni rag‘batlantiruvchi rol o‘ynash, ma’lumot almashish, muammo yechish, loyiha ishlari va erkin muhokama mashqlarini o‘z ichiga oldi. Ushbu mashg‘ulotlar talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, ularni interaktiv vaziyatlarga moslashish, o‘z fikrini mustaqil va to‘liq bayon etish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qildi. Tadqiqotning empirik bosqichida talabalarning bilim darajasi va kompetensiyalari pre-test va post-test orqali baholandi. Testlar Yevropa umumiy til kompetensiyasi tizimi (CEFR) mezonlariga muvofiq ishlab chiqildi va tinglab tushunish, o‘qish, yozish hamda og‘zaki nutq kabi asosiy to‘rtta ko‘nikmani o‘lchadi. Olingan ma’lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlilda SPSS 26.0 dasturidan foydalanilib, talabalarning natijalari o‘rtasidagi farq Student t-testi orqali statistik jihatdan tekshirildi. Sifat tahlili esa talabalar faoliyatining kuzatuv varaqalari, suhbat natijalari va o‘zini baholash jadvallari asosida amalga oshirildi. Ushbu metodologik yondashuv TBLT mashqlari natijasida talabalarning tilni faqat bilim sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirish darajasini aniqlash imkonini berdi. Shu tarzda tadqiqot eksperimental va analitik yondashuvlarning uyg‘unlashgan modeli asosida tashkil etildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatdiki, topshiriqqa asoslangan mashqlar talabalarning lisoniy va muloqot kompetensiyalariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Post-test natijalari tahlil qilinar ekan, tajriba guruhining o‘rtacha ballari barcha to‘rtta til ko‘nikmasi bo‘yicha nazorat guruhinikiga nisbatan yuqori bo‘ldi. Xususan, tajriba guruhidagi talabalar so‘z boyligi jihatidan 28 foizga, grammatik to‘g‘rilikda 21 foizga, og‘zaki muloqotdagi ishonchlilik va ravonlikda esa 35 foizga yuqori natija qayd etdilar. Ushbu ko‘rsatkichlar TBLT metodining o‘quvchilarni faol o‘rganish jarayoniga jalb etishdagi samaradorligini isbotlaydi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, topshiriqqa asoslangan mashg‘ulotlar talabalarning faolligini oshiradi va ularni real kommunikativ kontekstlarda o‘z fikrini ifodalashga undaydi. Talabalar dars jarayonida tilni grammatik strukturalar to‘plami sifatida emas, balki ma’no yaratish va muloqot vositasi sifatida idrok eta boshladilar. Bunday yondashuv, Krashen (1985) ta’kidlaganidek, “ma’noli input”ni ta’minlab, til o‘zlashtirish jarayonini tabiiy sharoitga yaqinlashtiradi. Shuningdek, Long (1996) tomonidan ilgari surilgan “Interaction Hypothesis” nazariyasiga muvofiq, o‘zaro muloqot orqali til birliklarining tushunarli qayta ishlanishi (negotiation of meaning) sodir bo‘ldi. Ellis (2009) nazariyasiga tayanib aytish mumkinki, topshiriqqa asoslangan mashqlar talabalarga tilni o‘zining funksional va pragmatik jihatlarida qo‘llashni o‘rgatadi. Tadqiqot jarayonida kuzatilgan o‘zgarishlar shuni ko‘rsatdiki, talabalar o‘zaro hamkorlik asosida muloqot

qilish, muammolarni jamoaviy hal etish, va o‘z fikrlarini madaniyatlararo kontekstdan kelib chiqib ifodalashda sezilarli darajada ilgari bordilar. Bu esa TBLTning faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy-madaniy kompetensiyani ham rivojlantiruvchi metodologiya ekanligini tasdiqlaydi. Sifat tahlili natijalari ham TBLT metodining o‘quvchilarning psixologik ishonchi va til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini aniqladi. Talabalar an’anaviy mashg‘ulotlarga qaraganda topshiriqli faoliyatlarda o‘zlarini erkinroq his qilganlarini, muloqotga kirishishda kamroq tutilishganini va o‘z fikrlarini ifodalashda ko‘proq ishonch bilan so‘zlaganlarini qayd etganlar. Shuningdek, o‘qituvchi kuzatuv jurnallarida talabalar o‘rtasida interaktiv muhit, hamkorlik ruhi va ijodiy fikrlashning rivojlanganligi qayd etilgan. Umuman olganda, natijalar Ellis (2003), Willis (1996) va Nunan (2004) tomonidan ilgari surilgan TBLT nazariyalarini amaliy jihatdan tasdiqladi. Bu metod o‘quvchilarni “til o‘rganish”dan “til bilan yashash” bosqichiga olib chiqib, ularni haqiqiy muloqot muhitiga tayyorlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagi ilmiy tahlillar va tajriba natijalari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, topshiriqqa asoslangan mashqlar lisoniy-muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishda eng samarali didaktik vositalardan biridir. Bu metod o‘quvchilarni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi, ularning faol ishtirokini ta’minlaydi va mustaqil muloqot yuritish qobiliyatini rivojlantiradi. TBLT asosidagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarni an’anaviy nazariy bilimdan chiqib, tilni amaliy kontekstlarda qo‘llashga o‘rgatadi. Natijada, talabalar o‘z fikrlarini grammatik jihatdan to‘g‘ri, pragmatik jihatdan esa mos tarzda ifodalashni o‘zlashtiradilar. Shuningdek, topshiriqqa asoslangan mashg‘ulotlar ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, jamoaviy hamkorlik va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa til o‘rganishni faqat akademik jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy faoliyat va madaniyatlararo tajriba sifatida anglash imkonini beradi. Shunday qilib, TBLT metodologiyasini O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga chuqur integratsiya qilish, til o‘qitish sifatini yangi bosqichga olib chiqish, xalqaro kommunikativ standartlarga mos kadrlar tayyorlash hamda o‘qituvchilarning metodik salohiyatini oshirish uchun zarur yo‘nalish sifatida qarash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.

Ellis, R. (2003). Task-based language learning and teaching. Oxford University Press.

Krashen, S. (1985). The Input Hypothesis: Issues and Implications. Longman.

Long, M. H. (1996). The role of the linguistic environment in second language acquisition. In W. Ritchie & T. Bhatia (Eds.), Handbook of Second Language Acquisition. Academic Press.

Nunan, D. (2004). Task-based language teaching. Cambridge University Press.

Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.

Willis, J. (1996). A framework for task-based learning. Longman.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Axmedov Baxodirxon Sayfiddinovich
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
e-mail: bahodirxonaxmedov184@gmail.com

SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQANING ROLI

Annotatsiya: *Musiqa o‘qituvchisi nafaqat o‘z predmetini, balki falsafa, estetika, psixologiya, pedagogikani yaxshi bilishi va o‘z ish faoliyati davomida qo‘llay olishi shart. Musiqaning ta’sirchanligini, uning mohiyatini to‘liqligicha bolalar ongiga yetkazish pedagogikaning eng qiyin muammolaridan biridir. Musiqa o‘qituvchisi “Musiqa madaniyati” darslarida bolalarda quyidagi fazilatlarni shakllantirishi lozim: Do‘stlik, vatanparvarlik, sadoqat, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik va hokazo.*

Tayanch iboralar*: Musiqa, tovushlar, obraz, g‘oyaviy emotsional mazmun, san’at, Musiqa estetikasi, musiqa san’atining mohiyati, badiiy shakillar, qo‘shiq, kuy, ohang, estetika, musiqa darsi faoliyati, tinglash, kuylash, ritmik jo‘r bo‘lish, uslublar, axloqiy poklik, ma’naviy boylik.*

Akhmedov Bakhodirkhon Sayfiddinovich
Namangan State Pedagogical Institute senior teacher

THE ROLE OF MUSIC IN THE FORMATION OF PERSONALITY

Abstract: *A music teacher must know not only his subject, but also philosophy, aesthetics, psychology, pedagogy well and be able to apply it in his work. One of the most difficult problems of pedagogy is to fully convey the impact of music, its essence to the minds of children. A music teacher must form the following qualities in children in the lessons of "Musical Culture": Friendship, patriotism, loyalty, kindness, hard work, initiative, etc.*

Key phrases: *Music, sounds, image, ideological and emotional content, art, aesthetics of music, the essence of the art of music, artistic forms, song, melody, tone, aesthetics, music lesson activities, listening, singing, rhythmic accompaniment, styles, moral purity, spiritual wealth.*

Ахмедов Баходирхон Сайфиддинович
Наманганский государственный педагогический институт старший преподаватель

РОЛЬ МУЗЫКИ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: *Учитель музыки должен хорошо знать не только свой предмет, но и философию, эстетику, психологию, педагогику и уметь применять это в своей работе. Одна из самых сложных проблем педагогики — донести до сознания детей всю суть воздействия музыки. Учитель музыки должен формировать у детей на уроках «Музыкальной культуры» следующие качества: Дружба, патриотизм, верность, доброта, трудолюбие, инициативность и т. д.*

Ключевые фразы: *Музыка, звуки, образ, идейно-эмоциональное содержание, искусство, эстетика музыки, сущность музыкального искусства, художественные формы, песня, мелодия, тон, эстетика, деятельность на уроках музыки, слушание, пение, ритмическое сопровождение, стили, нравственная чистота, духовное богатство.*

Kirish. Zamonaviy pedagogika ta’lim tizimining maqsadi, yangi toifaga mansub bo‘lgan musiqa o‘qituvchisining umumiy va kasb kamolotiga erishishdan iborat, chunki umumiy o‘rta ta’lim maktabi rahbari oldiga uning kasb malakasiga va shaxsiy hislatlariga nisbatan yuqori talablar qo‘ymoqda.

Har qanday pedagoglik kasbi murakkab va serqirra jarayondir, shuning uchun bu kasb qaysi sohaga tegishli bo‘lmasin, musiqa rahbari oldiga ko‘pgina talablarni qo‘yadi. Ta’lim-tarbiyaning barcha sohalarining maqsadi barkamol shaxs tarbiyasidir. Lekin bu borada maktablarda estetik turkumga kiruvchi fanlar – musiqa, tasviriy san’at, adabiyot va ularning o‘zaro aloqadorligi asosiy rolni o‘ynaydi. Jumladan, “musiqa” mashg‘ulotlari musiqa fani o‘qituvchilari ham maxsus bilimlar, ko‘nikma-malakalar, pedagogik qobiliyat hamda pedagogik mahoratga ega bo‘lmoqlari lozim.

Asosiy qism: Ma’lumki, “musiqa” mashg‘ulotlari beshta musiqiy jarayon(faoliyat)ni o‘z ichiga oladi:

1.Qo‘shiq kuylash;

2.Musiqa tinglash;

3.Musiqa ostida ritmik harakatlar bajarish.

4.Bolalar musiqiy cholg‘u asboblarini chalish.

5.Musiqa savodi.

Mana shu beshta jarayon bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda o‘tilishi maqsadga muvofiqdir. Bolalarda yuqori natijalarga erishish uchun musiqa o‘qituvchisi musiqiy bilimlarni: garmoniya, polifoniya, solfedjio, musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, musiqa adabiyoti, musiqiy asar tahlili va yana birorta musiqiy asbobni chalishni bilishi zarurdir. Lekin yuqorida aytilgan bilimlarni egallashning o‘zi yetarli emas. Musiqa (rahbari) o‘qituvchisi mashg‘ulot jarayonida musiqa haqida bolalarga juda qiziqarli, savodli va obrazli qilib, har xil illyustratsiyalarni qo‘shgan holda gapirib bera olishi ham kerak.

Biror kompozitor yoki bastakorlarning asarini o‘rganish jarayonida, shu asar haqida, asarning mualliflari haqida, asar yaratilgan davr haqida to‘liq ma’lumot bera olishi zarur.

Bolalarda yuqorida sanab o‘tilgan fazilatlarni shakllantirish uchun musiqiy rahbar bir qator vazifalarni bajarishi kerak:

1)Bolalarni musiqani sevish va tushunishga o‘rgatish;

2)Bolalarning badiiy va estetik didlarini shakllantirish;

3)Bolalarda musiqiy qobiliyatni rivojlantirish;

4) Bolalarning musiqa savodi, musiqa tarixi, musiqa adabiyoti, qo‘shiq kuylash kabi musiqiy bilimlarini hamda tushunchalarini kengaytirish.

Sanab o‘tilgan fazilatlarni shakllantirish uchun, avvalambor musiqa o‘qituvchisi darslarni yuqori professional darajada o‘tishi zarurdir. Darsdan kutilgan natijalarni olish uchun mashg‘ulotlarda ta’lim tamoyillariga rioya qilish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi rivojlanish jarayonida ko‘pchilik maktablar kompyuterlar, musiqiy markazlar, televizor, radio kabi bir qator yangi axborot texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu texnologiyalardan musiqa madaniyati mashg‘ulotlari, darslarida ham foydalanish yuqorida keltirilgan shaxsiy fazilatlarni shakllantirishda juda qo‘l keladi. Musiqa (rahbari) o‘qituvchisi o‘tiladigan mashg‘ulotlarini ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan holda, ta’lim-tarbiyani uzviy bog‘lagan holda, aniq bir reja asosida olib borsa, mashg‘ulot va undan olinadigan natija yuqori bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Musiqa (rahbari) o‘qituvchisi o‘zining hamda bolalarning mashg‘ulot davomida qiladigan ta’limiy-tarbiyaviy hatti-harakatlarini har xil qiziqarli usullarini ishlab chiqishi lozim. Buning uchun musiqa o‘qituvchisi quyidagi narsalarni bilmog‘i darkor: 1. Bolalarining musiqiy faoliyatlarini uyushtirish shakllarini; 2. “Musiqa madaniyati” dasturi mazmunini, uning g‘oyaviy-nazariy asoslarini, didaktik usul va tamoyillarini; 3. Bolalarning yosh xususiyatlarini; 4. Musiqa mashg‘ulotlari (darslari)da o‘rganiladigan asarlarning badiiy xususiyatlari, tarbiyaviy ahamiyatini; 5. Maktabda va maktabdan tashqari olib boriladigan mashg‘ulotlarning samarali shakl va usullarini tashkil etishni; 6. Musiqa mashg‘ulotlari (darslari)ni konstruktsiyalash: reja-konspekt tuzish, kerakli musiqiy asarlarni to‘plash, musiqani o‘rgatishning unumli yo‘llarini izlash; 7. Pedagogik masalalarini formulalash va yechish; 8. Bolalarning musiqiy qobiliyatlarini ochib beruvchi ijrochilik musiqiy faoliyatlarini uyushtirish (Turli tadbirlar tashkil etish); 9. Bolalarda mavjud bo‘lgan bilimlarni, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish va hokazolar. Musiqa mashg‘ulotlar (darslar)i bolalarga o‘z milliy musiqiy tarixlari, musiqaning elementar nazariyasi, jahon musiqa san’ati namoyondalarining ijodi haqida tushunchalar berish, ularda musiqiy madaniyatni, odobni va nafosatni tarbiyalashga asos soladi. Bolalarda kuylash malakalarini tarbiyalashning o‘z qiyinchiliklari bo‘ladi. Bolalar hali asarni to‘la tahlil qila olmaydilar. Shuning uchun avvalam bor musiqiy rahbar o‘zi qo‘shiqni namunaviy tarzda kuylab bermog‘I lozim. Agar qo‘shiq yozuv lentasida yozilgan bo‘lsa, magnitofonda qo‘shiqni biror bir bolalar xorlari ijrosida eshittirish ham yaxshi natija beradi. Keyin qo‘shiqni qayta-qayta kuylab yod olinadi. Qayta kuylash usulining ikkita sharti mavjuddir: 1) Bola kuylayotganda aynan nima qilishi va nimaga erishishi mumkin bo‘lgan, puxta, aniq bilimga ega bo‘lishi lozim. 2) Bola nimaga erishganini, har bir mashqning qanday natija berganini, qanday xatolarga yo‘l qo‘yilganini bilishi kerak va keyingi mashqlarida xatolarni bartaraf etishi lozim. Birinchi shartning to‘g‘ri bajarilishi uchun musiqa savodxonligi jarayonini kuylash jarayoni bilan bog‘liqligi, mantiqan bir-biriga mosligiga e’tiborni qaratish darkor. Ikkinchi shartning bajarilishi qayta kuylash mashqining ma’lum bir maqsadga qaratilganligiga bog‘liq. Bunda musiqa rahbari (o‘qituvchisi) har gal qayta kuylanganda mashqni bolalar bilan o‘z vaqtida tahlil qilib borishi zarur. Musiqa rahbari (o‘qituvchisi) kuylashda yaxshi natijalarga erishish uchun quyidagi tadbirlarni o‘tkazishi tavsiya etiladi: 1) Bolalarni ohangdoshlikni his etishlariga erishish; 2) Har bir bolaning individual xususiyatini hisobga olish; 3) Iloji boricha milliy cholg‘u asboblaridan foydalanish; 4) Darslarda faol qatnashgan, qobiliyatli bolalarni musiqa to‘garaklariga jalb etish.

Bolalar musiqa mashg‘ulotlarida faqat qo‘shiq o‘rganish yoki musiqa ritmik harakatlarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki musiqa rahbari (o‘qituvchisi) ijrosida, texnika vositalari yordamida musiqa asarlarini tinglaydilar, idrok

etadilar. Musiqa asoslarini bolalarga tushuntirish va tanishtirish bolalarning musiqiy bilim saviyasini kengaytiradi. Musiqa asarlarini eshitish mashg‘ulotlarni mazmunan boyitadi, xilma-xilligini oshiradi, mashg‘ulotlarni hayajonli o‘tishiga katta yordam beradi.

Natijalar va muhokama

Bolalar bilganlaricha javob beradilar. Musiqa rahbari (o‘qituvchisi) bolalarga ko‘rgazmali qurollar yordamida o‘zbek milliy cholg‘u asboblarini ko‘rsatib, birma-bir tanishtirib chiqadi, bolalar bilan fikr almashadi. Bolalarda cholg‘u asboblarida ijro eta olish uchun to‘garaklarga qatnashishni tavsiya etadi. Ko‘rib turganimizdek, musiqa rahbari (o‘qituvchisi) faqatgina qo‘shiq kuylashni emas, balki bir qator musiqiy-nazariy bilimlarga ega bo‘lmog‘i shart. Musiqa mashg‘ulotlari hoh u qo‘shiq kuylash bo‘lsin, hoh musiqa tinglash bo‘lsin, hoh nazariy bilimlar bo‘lsin yosh avlodni axloqiy poklik, ma’naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan har tamonlama yetuk shaxs qilib shakllantirishga asos solar ekan. Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san’at turidir. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma’naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy-g‘oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir Al-Farobiy «Bu fan tanning sog‘lig‘i uchun foydalidir», degan edi. Bobomiz Shayx Sa’diy aytgan edi: «Musiqa odam ruxining yo‘ldoshidir». Musiqa insonga tez ta’sir etuvchi emotsional hissiyotni aktiv rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatini ajiralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go‘zallikni his eta oladigan, o‘z kasbiga, Ona Vataniga mehr qo‘ygan bo‘lishi kerak. Shu bois o‘quvchilarda inson ma’naviyatining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash, musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo‘lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqa o‘qituvchisining oldiga qo‘yilgan vazifalari quyidagilardir: O‘quvchilarda musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqish va mehr-muhabbatni oshirish. Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik va his-tuyg‘ularni rivojlantirish. Asarlarning badiiy-g‘oyaviy mazmuni vositasida o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash. Musiqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o‘quvchilarda ishtiyoq uyg‘otish kabi ishlarni amalga oshirish kerak. Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o‘qituvchining professional va axloqiy qiyofasiga bog‘liq. Har qanday san’atkor ham maktabda musiqa darslarini olib borolmaydi. Buning uchun, musiqa o‘qituvchisi o‘z kasbiga va bolalarga mehr qo‘ygan yuksak madaniyatli keng dunyoqarashli ma’naviy yetuk, biror bir cholg‘u asbobini mohirlik bilan ijro eta oladigan shaxs bo‘lmog‘i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasining amaliy sohalaridan, musiqa o‘qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo‘lmog‘i kerak. Musiqa o‘qituvchisi musiqa san’atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lishi lozim. ya’ni musiqa o‘qituvchisi ham cholg‘uchi, xonanda. Xor dirijyori, jo‘rnovozchi, musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ish ko‘rmog‘i lozim. Musiqa o‘qituvchisining ijodkorligi shundaki, u bir soatlik darsga senariy muallifi, uning ijrochisi va rejissyori sifatida ish tutadi. Shu bois musiqa darsi san’at darsi deyiladi. Maktab hayotida musiqa o‘qituvchisining faoliyat miqyosi kengdir. Musiqaning millatimiz taraqqiyoti yo‘lidagi xizmati g‘oyat beqiyosdir. Biz mustaqil davlat sifatida jahon davlatlari orasida jahon minbariga chiqdik. Davlatimizni ma’naviy va ma’rifiy deb e’tirof etdik. Musiqa kelajak avlodlarning ongini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi. Musiqa nafaqat madaniy, balki siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning naqadar ma’suliyatli ekanini his qilmoq kerak. Yuksak ijodiy namunalardan tortib, milliy folklorga qadar e’tibor berar ekanmiz. musiqa xalq va uning manfaati uchun xizmat qilishini anglab etamiz. Kuy va qo‘shiqlarda xalqning orzu-umidlari va armonlari yoritiladi. Milliy urf-odatlar, qadriyatlarga e’tibor bersak, jangovor qo‘shiqlardan toki, dostonchilik tarkibidagi tarixiy ijodiyotlar barchasida musiqa naqadar ko‘hna va davrning talabi darajasida rivojlanganining guvoxi bo‘lamiz. Alpomish, Go‘ro‘g‘li kabi qaxramonlar taqdiri butun bir o‘zgacha oxanglarda ming yillardan beri kuylab kelinmoqda. Shashmaqom durdonalarining oltitasini bizga qadar etib kelishi, Muhammad Ali mashshoq tomonidan o‘n ikki maqom ijro etilgani haqida biz tarixdan bilamiz. Mana shungacha o‘zbeklarning, barcha sharq xalqlarining ma’naviy rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi bu durdonalarimiz musiqa san’atining bir bo‘lakchasi xolos. Shashmaqomga bastalangan g‘azallar bobolarimiz hikmatlari, ayniqsa, hazrati Navoiy va boshqa mutafakkirlarning g‘azallari ekanligi yana-da millatimiz o‘tmishiga xurmat uyg‘otadi. Naqadar buyuk ma’naviyatga ega bo‘lganliklarini his etamiz. Endilikda yaratilgan kuylar va qo‘shiqlar millatimizga samarali xizmat qilmog‘i uchun vatanparvarlikni, ezgulikni, adolatni, go‘zallikni tarannum etuvchi qo‘shiqlar yaratish, yangi avlodga o‘rgatish bizning sharafli burchimiz. Musiqa ta’limi samaradorligini ta’minlashda, o‘quvchilarning musiqa darsiga bo‘lgan qiziqishini o‘stirishda o‘qituvchi etakchi bo‘lib hisoblanadi.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san’at turidir. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va

ma’naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy-g‘oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir Al-Farobiy «Bu fan tanning sog‘lig‘i uchun foydalidir», degan edi. Bobomiz Shayx Sa’diy aytgan edi: «Musiqa odam ruxining yo‘ldoshidir». Musiqa insonga tez ta’sir etuvchi emotsional hissiyotni aktiv(faol) rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatini ajiralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go‘zallikni his eta oladigan, o‘z kasbiga, Ona vataniga mehr qo‘ygan bo‘lishi kerak. Shu bois o‘quvchilarda inson ma’naviyatining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash, musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo‘lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqa o‘qituvchisining oldiga qo‘yilgan vazifalari quyidagilardir:

O‘quvchilarda musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqish va mehr-muhabbatni oshirish.

Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik va his-tuyg‘ularni rivojlantirish.

Asarlarning badiiy-g‘oyaviy mazmuni vositasida o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash. Musiqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o‘quvchilarda ishtiyoq uyg‘otish kabi ishlarni amalga oshirish kerak.

Xulosa: Musiqaning millatimiz taraqqiyoti yo‘lidagi xizmati g‘oyat beqiyosdir. Biz mustaqil davlat sifatida jahon davlatlari orasida jahon minbariga chiqdik. Davlatimizni ma’naviy va ma’rifiy deb e’tirof etdik. Musiqa kelajak avlodlarning ongini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi. Musiqa nafaqat madaniy, balki siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning naqadar ma’suliyatli ekanini his qilmoq kerak. Yuksak ijodiy namunalardan tortib, milliy folklorga qadar e’tibor berar ekanmiz. Musiqa xalq va uning manfaati uchun xizmat qilishini anglab yetamiz. Kuy va qo‘shiqlarda xalqning orzu-umidlari va armonlari yoritiladi. Milliy urf-odatlar, qadriyatlarga e’tibor bersak, jangovor qo‘shiqlardan toki, dostonchilik tarkibidagi tarixiy ijodiyotlar barchasida musiqa naqadar ko‘hna va davrning talabi darajasida rivojlanganining guvohi bo‘lamiz. Alpomish, Go‘ro‘g‘li kabi qahramonlar taqdiri butun bir o‘zgacha ohanglarda ming yillardan beri kuylab kelinmoqda. Shashmaqom durdonalarining oltitasini bizga qadar etib kelishi, Muhammad Ali mashshoq tomonidan o‘n ikki maqom ijro etilgan haqida biz tarixdan bilamiz. Mana shungacha o‘zbeklarning, barcha sharq xalqlarining ma’naviy rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi bu durdonalarimiz musiqa san’atining bir bo‘lakchasi xolos. Shashmaqomga bastalangan g‘azallar bobolarimiz hikmatlari, ayniqsa, hazrat Navoiy va boshqa mutafakkirlarning g‘azallari ekanligi yana-da millatimiz o‘tmishiga hurmat uyg‘otadi. Naqadar buyuk ma’naviyatga ega bo‘lganlikarini his etamiz. Endilikda yaratilgan kuylar va qo‘shiqlar millatimizga samarali xizmat qilmog‘i uchun vatanparvarlikni, ezgulikni, adolatni, go‘zallikni tarannum etuvchi qo‘shiqlar yaratish, yangi avlodga o‘rgatish bizlarning sharafli burchimiz. Musiqa ta’limi samaradorligini ta’minlashda, o‘quvchilarning musiqa madaniyati darsiga bo‘lgan qiziqishini o‘stirishda o‘qituvchi yetakchi bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.z. Koday “избранные статьи” m. 1982.

2.lashenko “хоравая культура как предмет изучения” kiev 1990.

5. Akhmedov, b. (2023). The first formation processes of uzbek vocal performance. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(8), 126-128.

6. Sayfiddinovich, a. B. (2025). Dirijorlik fani haqida. Research focus, 4(scecial issue 3), 222-233.

7. Akhmedov, b. (2026, february). The role of music in the formation of personality. In international conference on social sciences & humanities (vol. 2, no. 2, pp. 72-76).

8. B.s..axmedov. O‘zbek xalq musiqa ijodi.o‘quv qo‘llanma. “ta’lim tadqiqotlari akademiyasi” nashriyoti. Namangan 2024.

9. Botirkhanovich, shokirkhanov bakhtiyorkhon. "the structure of kashkar rubab, and methods of their execution." central asian journal o(2024): 19-22.

10. Sayfiddinovich, a. B. (2025, december). Yettinchi sinfda musiqa o ‘qitishning vazifalari va mazmuni. In partner conferences of the international scientific journal research focus (vol. 1, no. 1, pp. 525-531).

11. Akhmedov, b. S. (2021). The importance of using pedagogical technologies in the classroom. Asian journal of multidimensional research, 10(10), 886-891.

12. Akhmedov, b. (2021). Improving the quality of musical culture classes and the usage of modern pedagogical technologies in classroom environment. Scientific progress, 1(6), 720-722.

13. Akhmedov, b. S. (2022). Works of uzbek composers for uzbek instrumental orchestra. In фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 239-241).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Shokirxanov Baxtiyorxon Botirxonovich
Namangan davlat pedagogika instituti
Art pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi

TA'LIM VA MADANIYATNI INTEGRATSIYALASHDA DUTOR CHOLG'USINING O'RNI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim va madaniyat integratsiyasi jarayonida o'zbek milliy cholg'ulari, xususan Dutor cholg'usining o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, jumladan PQ-112-son qaror talablari asosida umumta'lim maktablarida milliy cholg'ularni o'qitishning mazmuni va metodik yondashuvlari yoritilgan. Maqolada dutorning tarixiy shakllanish bosqichlari, konstruktsion xususiyatlari, sozlanish turlari (prima, alt, bas, kontrabas) hamda ijrochilik uslublari (yakkazarb, qo'shzarb, tremolo va boshqalar) tavsiflanadi. Shuningdek, dutor chalishni o'rgatishning bosqichma-bosqich metodikasi, o'quvchilarda texnik ko'nikma va musiqiy tafakkurni shakllantirish yo'llari, dinamik belgilarni o'zlashtirish jarayoni ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dutor cholg'usini ta'lim tizimiga integratsiya qilish o'quvchilarning estetik didini, milliy o'zlikni anglashini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Milliy musiqa merosini ustoz-shogird an'anasi asosida uzluksiz o'rgatish ta'lim va madaniyat uyg'unligini ta'minlaydi.*

Kalit so'zlar: *dutor, ijrochilik mahorati, dinamik belgilar, milliy cholg'ular, musiqa ta'limi, integratsiya, zarb usullari, pedagogik metodika.*

Шокирхонов Бахтиёрхон Ботирхонович
Наманганский государственный педагогический институт
Старший преподаватель кафедры «Педагогика искусства»

РОЛЬ ВЛАСТИ УЧИТЕЛЯ В ИНТЕГРАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ И КУЛЬТУРЫ.

Аннотация: *В данной статье научно-теоретически и практически рассматривается роль узбекских национальных музыкальных инструментов, в частности Dutor, в процессе интеграции образования и культуры. Освещаются методические основы преподавания национальных инструментов в общеобразовательных школах в соответствии с требованиями PQ-112-son qaror. В работе анализируются исторические этапы формирования дутара, его конструктивные особенности, виды строя (прима, альт, бас, контрабас), а также исполнительские приёмы (одинарный удар, двойной удар, тремоло и др.). Особое внимание уделяется поэтапной методике обучения игре на дутаре, формированию технических навыков, развитию музыкального мышления учащихся и освоению динамических обозначений. Результаты исследования показывают, что включение дутара в образовательный процесс способствует развитию эстетического вкуса, национального самосознания и творческих способностей учащихся. Системное обучение национальному инструментальному исполнительству обеспечивает гармоничную интеграцию образования и культуры.*

Ключевые слова: *думор, исполнительские навыки, динамические знаки, национальные инструменты, музыкальное образование, интеграция, методы игры на ударных инструментах, педагогическая методология.*

Shokirkhanov Bakhtiyorkhon Botirkhonovich
Namangan State Pedagogical Institute
Senior Lecturer, Department of Art Pedagogy

THE ROLE OF THE DUTOR INSTRUMENT IN THE INTEGRATION OF EDUCATION AND CULTURE

Abstract: *This article analyzes the role of Uzbek national musical instruments, particularly the Dutor, in the process of integrating education and culture from both theoretical and practical perspectives. The study highlights the methodological foundations of teaching national instruments in general secondary schools in accordance with the requirements of PQ-112-son qaror aimed at further development of culture and arts in Uzbekistan. The paper examines the historical development of the dutor, its structural characteristics, tuning types (prima, alto, bass, contrabass), and main performance techniques such as single stroke, double stroke, and tremolo. Particular attention is given to the step-by-step teaching methodology, the development of students' technical*

skills and musical thinking, and the mastery of dynamic markings in performance practice. The findings demonstrate that integrating the dutor into the educational system significantly contributes to the development of students' aesthetic perception, national identity awareness, and creative abilities. Continuous transmission of national musical heritage through structured pedagogical approaches ensures effective integration of education and culture.

Keywords: *dumor, performance skills, dynamic signs, national musical instruments, music education, integration, methods of playing percussion instruments, pedagogical methodology.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, PQ-112-son qaror asosida umumta'lim maktablarida o'quvchilarga kamida bitta milliy cholg'uda ijro etish ko'nikmasini shakllantirish vazifasi belgilab qo'yildi.

Mazkur qaror ijrosi doirasida musiqa darslarida "Hayotimga hamrohdir cholg'u" shiori ostida amaliy mashg'ulotlar yo'lga qo'yildi. Milliy cholg'ular ro'yxatida dutor birinchi o'rinni egallaydi. Bu esa dutorning nafaqat madaniy, balki pedagogik ahamiyatini ham oshiradi. Dutor cholg'usining tarixiy va nazariy asoslari. Dutor — ikki torli, uzun dastali, torli-chertma milliy cholg'u asbobi bo'lib, nomi fors-tojikcha "du" — ikki, "tor" — tor so'zlaridan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarda dutorning ildizlari qadimiy davrlarga borib taqalishi qayd etiladi. Dutor o'zining muloyim, nafis va shirali tembri bilan ajralib turadi. U yakkanavoz va jo'rnavoz cholg'u sifatida keng qo'llanadi. Asosan tut va o'rik yog'ochidan yasaladi. Dutor turlari va sozlanishi. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun quyidagi dutor turlari ishlab chiqilgan: Dutor prima – mi–lya sozlanishida, yuqori registrda solo ijro uchun qulay. Dutor alt – kichik oktava lya–mi sozlanishida (eng ko'p qo'llaniladigan tur). Dutor bas – to'rt torli, kvinta bo'yicha sozlanadi. Dutor kontrabas – kvarta bo'yicha sozlanib, bas kalitida yoziladi. 1936–1937-yillarda Toshkentda milliy cholg'ularni takomillashtirish ustaxonasi ochilib, nota tizimiga moslashtirilgan yangi dutorlar ishlab chiqarila boshlandi. Bu jarayon dutor ijrochiligining akademik yo'nalishda rivojlanishiga xizmat qildi. Dutor ijrochilik maktabi va ustozlar an'anasi. Yunus Rajabiy, Orif Qosimov kabi mohir ijrochilar dutor san'atini yuksak bosqichga ko'targan. Ularning ijrosi milliy musiqa merosining ustoz-shogird an'anasi orqali avlodlarga yetib kelishida muhim o'rin tutgan. Shuningdek, Alisher Navoiy zamondoshi Zaynulobiddin al-Husayniy risolalarida dutor haqida dastlabki yozma ma'lumotlar uchraydi. XVI–XVII asrlarda "Dutoriy" taxallusi bilan ijod qilgan sozandalar ham manbalarda qayd etilgan. Dutorni o'qitish metodikasi. Musiqa va san'at maktablarida dutor sinfi 5 yillik dastur asosida olib boriladi. Darslar yakka tartibda tashkil etilib: 1–4-sinflarda haftasiga 3 marotaba 5-sinfda haftasiga 4 marotaba o'tiladi O'qitish bosqichlari. Oddiy zarblar va mashqlar. Murakkab zarblar va kuylar. Torlarning jo'r bo'lishi va bezaklar. Fortepiano jo'rligida ijro. Asosiy ijro usullari, Yakka zarb, Qo'sh zarb, Bilak zarb, Teskari zarb, Tremolo To'g'ri o'tirish (postanovka), chap va o'ng qo'l harakati, parda bosish aniqligi ijrochilik sifatini belgilaydi. Gamma va texnik mashqlar kundalik mashg'ulotning ajralmas qismi hisoblanadi. Dinamik belgilarni o'rgatish. Dutor ijrochiligida dinamik belgilar ifodaviylikni oshiradi:

ff – fortissimo (juda kuchli) f – forte (kuchli)
mf – mezzo forte (o'rtacha kuchli) p – piano (past)
pp – pianissimo (juda past) crescendo – tovushni kuchaytirish
diminuendo – tovushni pasaytirish

Dinamik o'zgarishlar kuyning mazmunini ochishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim va madaniyat integratsiyasining pedagogik ahamiyati. Dutorni o'qitish jarayonida o'quvchilar: Ijrochi sifatida shakllanadi.. Musiqashunos-o'qituvchi yo'nalishiga moyillik hosil qiladi. Musiqani tushunadigan, estetik didga ega shaxs sifatida tarbiyalanadi. Milliy cholg'ularni o'rgatish yoshlarning milliy o'zlikni anglash, estetik tafakkurini rivojlantirish hamda madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Dutor cholg'usi ta'lim va madaniyat integratsiyasining muhim vositasidir. Uni umumta'lim va musiqa maktablarida tizimli o'qitish milliy musiqa merosini asrash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Davlat qarorlarining amaliy ijrosi natijasida yosh avlod milliy cholg'ularda ijro etish ko'nikmalarini egallab, estetik jihatdan barkamol shaxs bo'lib shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PQ-112-son qaror. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 02.02.2022.
2. Rahimov Sh.N. Cholg'u ijrochiligi (Dutor misolida). Elektron darslik. – T., 2011.
3. Shokirkhonov B. DEVELOPMENT OF STUDENTS' PERFORMING AND MUSICAL ABILITIES THROUGH INSTRUMENTS // International Conference on Social Sciences & Humanities. – 2026.
4. Botirxonovich S.B. Musiqa nazariyasi fanidan talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi // FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2025.

5. Akhmedov B. The Role of Music in the Formation of Personality // International Conference on Social Sciences & Humanities. – 2026.

6. Gaziyev J.J.R. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati o'qituvchilarining noan'anaviy metodlardan foydalanishi // Oriental Art and Culture. – 2024.

7. Toshmatov G.U. Musiqa ta'limida mustaqil ta'lim faoliyatlari orqali talabalarning kasbiy-ijodiy mahoratlarini rivojlantirish // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Shuhratjonov Muhammadali Shuhratjon o'g'li
Pediatriya-2 kafedrasi assistenti, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
Email: adtigrant@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-1019-3087

UDK: 378.147:61

BO'LAJAK PEDIATR-REANIMATOLOGLARNING KLINIK KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA "IN SITU" SIMULYATSION TREYNINGNING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 5-kurs pediatriya fakulteti talabalarini tayyorlashda "In situ" simulyatsiyasi (ISS) metodikasining samaradorligi tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida ISSning talabalar klinik va jamoaviy kompetentligiga ta'siri baholandi. O'tkazilgan tajribalar natijasida ma'lum bo'ldiki, real klinik muhitda o'qitish talabalarning "vaziyatli hushyorlik" (Situational Awareness) darajasini sezilarli darajada oshirdi. Talabalarning texnik bo'lmagan ko'nikmalari (NOTECHS) va jamoaviy muloqot algoritmlarini o'zlashtirish darajasi aniqlandi. ISS metodikasi yordamida simulyatsiya markazlarida aniqlab bo'lmaydigan 12 ta yashirin tizimli xavflar (LST) o'rnatildi. Tadqiqotda kognitiv yuklama nazariyasining ISS sharoitidagi muntazamliklari tavsiflanadi. Debriefing modellarining talaba klinik fikrlashini qayta dasturlashdagi roli ko'rib chiqilgan.1*

Kalit so'zlar: *In situ simulyatsiyasi; jamoaviy kompetentlik; NOTECHS; pediatriya; debriefing.*

Шухратжонов Мухаммадали Шухратжон угли
Ассистент кафедры Педиатрии-2, Ферганский медицинский институт общественного здоровья,

ЗНАЧЕНИЕ СИМУЛЯЦИОННОГО ТРЕНИНГА "IN SITU" В ПОВЫШЕНИИ КЛИНИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДИАТРОВ-РЕАНИМАТОЛОГОВ

Аннотация: *В данной статье исследуется эффективность методики симуляции "In situ" (ISS) в обучении студентов 5 курса педиатрического факультета. В ходе исследования оценено влияние ISS на клиническую и командную компетентность студентов. В результате проведенных экспериментов выяснено, что обучение в реальной клинической среде значительно повышает уровень «ситуационной осведомленности» студентов. Определен уровень освоения студентами нетехнических навыков (NOTECHS) и алгоритмов командного взаимодействия. С помощью методики ISS установлено 12 скрытых системных угроз (LST), которые невозможно выявить в симуляционных центрах. В исследовании охарактеризованы закономерности теории когнитивной нагрузки в условиях ISS. Рассмотрена роль моделей дебрифинга в перепрограммировании клинического мышления студентов. 1*

Ключевые слова: *симуляция In situ; командная компетентность; NOTECHS; педиатрия; дебрифинг.*

Shukhratjonov Mukhammadali Shukhratjon ugli
Assistant of the Department of Pediatrics-2, Fergana Medical Institute of Public Health, Fergana, Uzbekistan

THE ROLE OF "IN SITU" SIMULATION TRAINING IN ENHANCING THE CLINICAL COMPETENCE OF FUTURE PEDIATRIC RESUSCITATORS

Abstract: *This article examines the effectiveness of "In situ" simulation (ISS) methodology in training 5th-year pediatric students. During the study, the impact of ISS on students' clinical and team competence was evaluated. As a result of the experiments, it was found that training in a real clinical environment significantly increases the level of "situational awareness" of students. The level of students' mastery of non-technical skills (NOTECHS) and team communication algorithms was determined. Using the ISS methodology, 12 latent safety threats (LST) that cannot be identified in simulation centers were installed. The study characterizes the regularities of the cognitive load theory in ISS conditions. The role of debriefing models in reprogramming students' clinical thinking is considered. 1*

Keywords: *In situ simulation; team competence; NOTECHS; pediatrics; debriefing.*

Kirish (Introduction)

Zamonaviy tibbiy ta’lim tizimida bo‘lajak pediatr-reanimatologlarni tayyorlash murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Pediatriya reanimatsiyasi o‘zining spetsifik xususiyatlariga ko‘ra, shifokordan nafaqat chuqur nazariy bilim va yuqori texnik mahoratni, balki ekstremal vaqt tanqisligi hamda kuchli psixologik stress sharoitida tezkor qaror qabul qilish va jamoani boshqarish ko‘nikmalarini talab etadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Xalqaro Bemorlar Xavfsizligi Alyansi ma’lumotlariga ko‘ra, intensiv terapiya bo‘limlaridagi letal oqibatlarning 70-80 foizi mutaxassislarning texnik bilimsizligi tufayli emas, balki "inson omili" (Human Factors) — jamoaviy kommunikatsiyadagi uzilishlar, iyerarxik to‘siqlar va vaziyatni noto‘g‘ri baholash oqibatida yuzaga keladi. 1

Oliy tibbiy ta’limda ushbu muammoni hal etish maqsadida simulyatsion o‘qitish texnologiyalari (SBE - Simulation-Based Education) keng joriy etilgan. Biroq, an’anaviy simulyatsiya markazlarida (Center-based simulation) o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar ko‘p hollarda "Klinik realizm"ni (Fidelity) to‘liq ta’minlay olmaydi.2 Simulyatsiya markazining sun’iy va izolyatsiya qilingan muhiti talabada real shifoxonadagi logistik muammolarni va psixologik bosimni his qilish imkonini bermaydi. Bu esa talabaning o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini real klinik amaliyotga "transfersal" (ko‘chirish) jarayonida didaktik uzilishlarga (theory-practice gap) sabab bo‘lmoqda. 3

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etishning eng innovatsion metodologik yechimi sifatida xalqaro amaliyotda "In situ" simulyatsiyasi (ISS) — ya’ni o‘quv jarayonini simulyatsiya markazlaridan bevosita ish joylariga (real reanimatsiya palatalariga) ko‘chirish usuli e’tirof etilmoqda.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — 5-kurs pediatriya yo‘nalishi talabalarining klinik va jamoaviy kompetentligini oshirishda "In situ" simulyatsion treyninglarining samaradorligini an’anaviy simulyatsiya metodlari bilan qiyosiy tahlil qilish hamda mintaqaviy tibbiyot oliygohlari (Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti misolida) uchun o‘qitishning optimal didaktik modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodi

Tadqiqot ishtirokchilar. Tadqiqot 2024-2025 o‘quv yilida Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Institutining (FJSTI) "Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi" fani siklida ta’lim olayotgan 5-kurs pediatriya yo‘nalishi talabalari (jami n=60) o‘rtasida o‘tkazildi. Tadqiqot dizayni randomizatsiyalangan nazorat ostidagi sinov (Randomized Controlled Trial - RCT) formatida tuzildi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlanish yo‘li bilan teng ikki guruhga ajratildi: Nazorat guruhi (n=30): An’anaviy o‘qitish metodikasi asosida FJSTI simulyatsiya markazida tayyorgarlikdan o‘tdi. Tajriba guruhi (n=30): "In situ" simulyatsiyasi (ISS) metodikasi asosida Farg‘ona viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining real reanimatsiya palatalarida o‘qitildi. O‘quv ssenariylari va modellashtirish. Ikkala guruh uchun ham bir xil murakkablikdagi ikkita klinik ssenariy tanlab olindi: 1) "Go‘daklarda anafilaktik shok va o‘tkir yurak yetishmovchiligi"; 2) "Bolalarda og‘ir krup sindromi va nafas yo‘llari obstruksiyasi". Ssenariylar PALS (Pediatric Advanced Life Support) xalqaro standartlari asosida tuzildi.

Baholash instrumentlari. Talabalarning jamoaviy va kognitiv faoliyatini ob’ektiv baholash uchun xalqaro miqyosda validatsiyadan o‘tgan NOTECHS (Non-Technical Skills) shkalasidan foydalanildi. Ushbu shkala to‘rtta domenni o‘z ichiga oladi: Liderlik (Leadership), Vaziyatni anglash (Situational Awareness), Muloqot (Communication) va Qaror qabul qilish (Decision Making). Har bir domen 1 dan 5 ballgacha (1 - qoniqarsiz, 5 - a’lo) baholandi. Tadqiqotda simulyatsiyaning pedagogik samaradorligini (E_s) o‘lchash uchun quyidagi empirik formuladan foydalanildi: $E_s = \frac{(K_{post} - K_{pre})}{T_{int}} \times 100\%$

Bunda: K_{post} — treyningdan keyingi NOTECHS o‘rtacha balli; K_{pre} — treyningdan oldingi NOTECHS o‘rtacha balli; T_{int} — kritik vazifani bajarishga ketgan vaqt (Time-to-intervention, soniyalarda). Shuningdek, mashg‘ulotlar davomida talabalar tomonidan aniqlangan "Yashirin tizimli xavflar" (LST - Latent Safety Threats) miqdori ro‘yxatga olindi. Debriefing jarayoni GAS (Gather, Analyze, Summarize) va "Debriefing with Good Judgment" modellari asosida olib borildi. Ma’lumotlarni statistik qayta ishlash SPSS Statistics 26.0 dasturida, Studentning t-kriteriysi yordamida ($p<0.05$ ishonchlilik darajasida) amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari (results)

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida nazorat va tajriba guruhlari ko‘rsatkichlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlandi. Birinchi navbatda, talabalarning "non-technical skills" (texnik bo‘lmagan ko‘nikmalari) NOTECHS shkalasi bo‘yicha tahlil qilinganda, "In situ" simulyatsiyasida o‘qitilgan tajriba guruhi barcha domenlarda mutlaq ustunlikni ko‘rsatdi. Xususan, jamoaviy muloqotda "Closed-loop communication" (yopiq zanjirli muloqot) algoritmini qo‘llash darajasi tajriba guruhida 85% ni tashkil etgan bo‘lsa, an’anaviy guruhda bu ko‘rsatkich atigi 55% ni tashkil qildi.

1-jadval. Nazorat va tajriba guruhlari talabalarining NOTECHS shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlari (M±m)

Baholash domenlari (1-5 ball shkalasi)	Nazorat guruhi (Simulyatsiya markazi, n=30)	Tajriba guruhi (In situ simulyatsiyasi, n=30)	p - qiymati
Liderlik (Leadership)	3.2 ± 0.3	4.6 ± 0.2	$p < 0.05$
Vaziyatni anglash (Situational Awareness)	3.1 ± 0.4	4.8 ± 0.1	$p < 0.01$
Muloqot (Communication)	3.4 ± 0.3	4.7 ± 0.2	$p < 0.05$
Qaror qabul qilish (Decision Making)	3.0 ± 0.4	4.5 ± 0.3	$p < 0.05$

Klinik algoritmlarni ijro etish tezligi ("Time-to-intervention") tahlili shuni ko‘rsatdiki, anafilaktik shok ssenariysida epinefrin (adrenalin) inyeksiyasini qabul qilish va yuborish uchun ketgan o‘rtacha vaqt nazorat guruhida 110±15 soniyani tashkil etgan bo‘lsa, ISS tajriba guruhida bu ko‘rsatkich 75±10 soniyaga qisqardi. Tadqiqotning eng kutilmagan va ahamiyatli natijalaridan biri "Yashirin tizimli xavflar" (LST) diagnostikasida namoyon bo‘ldi. Tajriba guruhi real reanimatsiya palatasida ishlash jarayonida jami 12 ta tizimli kamchilikni (kislorod ballonlarining noqulay joylashuvi, ayrim dori vositalarining tezkor qutida yo‘qligi, monitor kabellarining chigalligi) aniqlashga muvaffaq bo‘ldi. Nazorat guruhida (sun’iy markazda) esa logistika ideal bo‘lganligi sababli biron-bir LST aniqlanmadi.

Muhokama (discussion)

Olingan natijalar "In situ" simulyatsiyasi talabalarning kognitiv va jamoaviy arxitekturasini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. 1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, tajriba guruhida "Vaziyatni anglash" (SA) ko‘rsatkichining eng yuqori natija qayd etishi (4.8 ball) Kognitiv yuklama nazariyasi (Cognitive Load Theory) bilan bevosita bog‘liq.4 An’anaviy simulyatsiya markazlaridagi notanish muhit talabalarda "begona kognitiv yuklama"ni (Extraneous load) oshiradi, chunki talaba asbob-uskunalar qanday ishlashini tushunishga resurs sarflaydi. ISS sharoitida esa talaba o‘ziga tanish bo‘lgan real muhitda ishlagani uchun, uning barcha kognitiv resurslari bemorni qutqarishga va jamoani boshqarishga yo‘naltiriladi. Shuningdek, klinik qaror qabul qilish vaqti 110 soniyadan 75 soniyaga qisqarishi talabalarda "Psixologik realizm" (Psychological Fidelity) hissi yuqori bo‘lganligi bilan izohlanadi. Talabalar L. Vigotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi"da, ya’ni optimal stress holatida o‘qitilganda ularning harakatlari "avtomatizm" darajasiga ko‘tariladi. Tadqiqotimizda qo‘llanilgan "Debriefing with Good Judgment" (Yaxshi niyat bilan tahlil) usuli talabalarda xato qilish qo‘rquvini yo‘qotib, "Psixologik xavfsizlik" (Psychological Safety) muhitini yaratdi. Talabalar o‘zlarining xato harakatlarini yashirmasdan, ularning ortida turgan "mental ramkalar"ni (Mental frames) muhokama qildilar. LST (yashirin xavflar)ning aniqlanishi esa ISS metodikasi nafaqat talabani o‘qitish vositasi, balki butun shifoxona tizimidagi xavfsizlikni ta’minlovchi "diagnostik instrument" ekanligini isbotladi.5

Xulosa (conclusion)

"In situ" simulyatsiyasi bo‘lajak pediatr-reanimatologlarda jamoaviy kompetentlikni (NOTECHS) shakllantirishda an’anaviy markazlashtirilgan o‘qitish usullaridan o‘rtacha 35-40% ga samaraliroq ekanligi empirik tahlillar asosida o‘z isbotini topdi. Real klinik muhitda o‘tkazilgan treyninglar talabalarning kognitiv yuklamasini optimallashtiradi va "vaziyatli hushyorlik" hamda "yopiq zanjirli muloqot" algoritmlarini real klinik amaliyotga ko‘chirish (transfer) darajasini kafolatlaydi. ISS metodikasining Farg‘ona mintaqasi tibbiyot muassasalarida qo‘llanilishi nafaqat talabalar malakasini oshiradi, balki shifoxonalardagi "yashirin tizimli xavflar"ni (LST) ertachi aniqlash va bemorlar xavfsizligini ta’minlashning muhim logistik mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Oliy tibbiy ta’lim standartlarini takomillashtirish doirasida "Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi" fanining amaliy mashg‘ulotlar qismiga "In situ" simulyatsion treyninglarini majburiy didaktik komponent sifatida kiritish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Patterson, M. D., et al. (2013). In situ simulation: challenges and results. BMC Medical Education, 13(1), 76.

2. Steinman, J., et al. (2018). Pediatric In-Situ Simulation: Optimizing the Environment. Journal of Clinical Medicine.
3. Miller, K. K., et al. (2021). High-fidelity simulation in pediatric emergency medicine. Pediatric Annals.
4. Sorensen, J. L., et al. (2017). In situ simulation of paediatric emergencies. BMJ STEL.
5. Gaba, D. M. (2004). The future vision of simulation in health care. Quality and Safety in Health Care.
6. Zaveri, P. P., et al. (2016). In situ simulation for pediatric residents. Simulation in Healthcare.
7. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni (Yangi tahrir).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Yakibova Nargiza Turdimaxammatovna
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Email:yakibovan@gmail.com

UDK: 376.1:37.013

INKLYUZIV TA'LIMNING IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR IJTIMOIYLASHUVIGA TA'SIRI VA IJTIMOIY AHAMIYATI

Annotatsiya: *Maqolada inklyuziv ta'limning nazariy-metodologik asoslari hamda uning imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiylashuviga ta'siri tizimli va sotsiokultural yondashuv asosida tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning ijtimoiy integratsiya, teng imkoniyat va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uzviy bog'liqligi asoslanadi. Shuningdek, inklyuziv muhitda kommunikativ, adaptiv va fuqarolik kompetensiyalarining shakllanish mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim jamiyat barqarorligi va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, ijtimoiylashuv, ijtimoiy integratsiya, imkoniyati cheklangan bolalar, teng imkoniyat, pedagogik qo'llab-quvvatlash.*

Якибова Наргиза Турдимахамматовна
Независимый исследователь, Наманганский государственный университет

ВЛИЯНИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА СОЦИАЛИЗАЦИЮ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ И ЕГО СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ

Аннотация: *В статье анализируются теоретико-методологические основы инклюзивного образования и его влияние на социализацию детей с ограниченными возможностями на основе системного и социокультурного подходов. Обосновывается взаимосвязь инклюзивного образования с принципами социальной интеграции, равных возможностей и социальной справедливости. Также раскрываются механизмы формирования коммуникативных, адаптивных и гражданских компетенций в условиях инклюзивной среды. Результаты исследования показывают, что инклюзивное образование является важным фактором обеспечения социальной стабильности и развития человеческого капитала.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, социализация, социальная интеграция, дети с ограниченными возможностями, равные возможности, педагогическая поддержка.*

Yakibova Nargiza Turdimaxammatovna
Independent Researcher, Namangan State University

THE IMPACT OF INCLUSIVE EDUCATION ON THE SOCIALIZATION OF CHILDREN WITH DISABILITIES AND ITS SOCIAL SIGNIFICANCE

Abstract: *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of inclusive education and its impact on the socialization of children with disabilities based on systemic and sociocultural approaches. The interconnection of inclusive education with the principles of social integration, equal opportunities, and social justice is substantiated. Furthermore, the mechanisms for developing communicative, adaptive, and civic competencies within an inclusive environment are examined. The research findings indicate that inclusive education serves as an important factor in ensuring social stability and enhancing human capital development.*

Keywords: *inclusive education, socialization, social integration, children with disabilities, equal opportunities, pedagogical support.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishida inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta'lim mazkur tamoyillarning amaliy ifodasi sifatida shakllanib, barcha bolalarning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan pedagogik va ijtimoiy modeldir. 1994-yilda UNESCO tomonidan qabul qilingan Salamanca deklaratsiyasida inklyuziv ta'lim "har bir bola uchun umumiy ta'lim tizimida ta'lim olish imkoniyatini yaratish" zarurati sifatida e'tirof etilgan [1]. Shuningdek, United Nations tomonidan qabul qilingan

Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada inklyuziv ta’lim davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgilangan [2].

O‘zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, bu borada normativ-huquqiy asoslar takomillashtirilmoqda.

Adabiyotlarning tahlili. Inklyuziv ta’lim va imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiylashuvi masalasi zamonaviy pedagogika, maxsus pedagogika, ijtimoiy psixologiya hamda ijtimoiy siyosatning kesishgan nuqtasida shakllangan ko‘p yo‘nalishli ilmiy muammo hisoblanadi. Mavjud adabiyotlar tahlili inklyuziv ta’lim konsepsiyasining shakllanish manbalari, nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda ijtimoiy natijalari bo‘yicha bir necha yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi. Inklyuziv ta’lim g‘oyasining global konseptual asoslari xalqaro hujjatlar orqali mustahkamlangan. Xususan, Salamanca deklaratsiyasi inklyuziv ta’limni “hamma uchun maktab” tamoyili doirasida rivojlantirish, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimiga integratsiya qilish va ularning individual ehtiyojlariga mos sharoit yaratish zaruratini ilgari suradi [1]. Bunda inklyuziya “alohida muassasalarga ajratish” emas, balki umumiy ta’lim muhitini moslashtirish va qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini kuchaytirish orqali ijtimoiy integratsiyani ta’minlash sifatida talqin qilinadi. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya inklyuziv ta’limni inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida belgilab, davlatlardan diskriminatsiyani bartaraf etish, ta’lim muhitini moslashtirish va teng imkoniyatlarni kafolatlashni talab qiladi [2]. Ushbu normativ yondashuv adabiyotlarda inklyuziv ta’limning ijtimoiy adolat, tenglik va fuqaro sifatida to‘laqonli ishtirok etish (participation) g‘oyalari bilan uzviy bog‘liqligini asoslaydi. Shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDG-4) inklyuziv va sifatli ta’lim tamoyili global rivojlanish mezoni sifatida ko‘rsatiladi [10]. Ilmiy adabiyotlar bu hujjatlarni inklyuziv ta’limning “ijtimoiy barqarorlik va inson kapitali” bilan bevosita bog‘langan strategik omil sifatidagi rolini izohlashda konseptual tayanch deb baholaydi. Inklyuziv ta’limning ijtimoiylashuvga ta’sirini izohlashda sotsiokultural yondashuv alohida o‘rin tutadi. Vygotskiy ijtimoiy muhit va hamkorlikning rivojlanishdagi hal qiluvchi rolini asoslab, bolaning kognitiv hamda ijtimoiy kompetensiyalari “yaqin rivojlanish zonasi” doirasida, ya’ni kattalar va tengdoshlar bilan birgalikdagi faoliyat orqali samarali shakllanishini ta’kidlaydi [3]. Shu bois, inklyuziv sinf muhitini ilmiy adabiyotlar ijtimoiylashuvning tabiiy “trening maydoni” sifatida talqin qiladi: bola turli ijtimoiy vaziyatlarda muloqotga kirishadi, rollarni sinab ko‘radi, hamkorlik va murosaga kelish tajribasini orttiradi. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi esa xulq-atvor va ijtimoiy ko‘nikmalar kuzatish, taqlid va mustahkamlash (reinforcement) orqali egallanadi, degan g‘oyaga tayanadi [4]. Adabiyotlarda ayniqsa “tengdosh ta’siri” (peer effect) ijtimoiylashuvning muhim mexanizmi sifatida ta’kidlanadi. Ijtimoiylashuv nazariyasining sotsiologik qatlamida Parsons shaxsning jamiyat me’yorlarini o‘zlashtirishi, ijtimoiy rol va statuslarni egallashi tizimli jarayon ekanini asoslaydi [6]. Inklyuziv ta’lim kontekstida bu yondashuv “institutsional muhit” (maktab)ning ijtimoiy rollarni o‘rgatishdagi rolini kuchliroq ochib beradi: ya’ni inklyuziv sinf bolani jamiyatning real xilma-xilligiga tayyorlaydi. Zamonaviy ilmiy ishlarda inklyuziya ko‘pincha “bolani moslashtirish” emas, “maktabni moslashtirish” paradigmasi sifatida yoritiladi. Ainscow inklyuziv ta’limni maktab rivoji va boshqaruv madaniyatining bir qismi sifatida ko‘rib, ta’lim muhitidagi to‘siqlarni aniqlash va bartaraf etish (barrier removal) yondashuvini ilgari suradi [5]. Bu nuqtai nazar inklyuziv ta’limni faqat maxsus pedagogika vazifasi emas, balki umumiy ta’lim tizimining strategik modernizatsiyasi sifatida talqin qilishga xizmat qiladi. Booth va Ainscow tomonidan taklif etilgan “Inclusion Index” amaliyotda inklyuziv siyosat, inklyuziv madaniyat va inklyuziv amaliyot integratsiyasini baholashga yo‘naltirilgan bo‘lib, adabiyotlarda inklyuziv maktabning ichki diagnostikasi va rivojlanish rejasini tuzishda samarali instrument sifatida qayd etiladi [9]. Mazkur yondashuv inklyuziv ta’limning ijtimoiylashuvga ta’sirini “muloqot muhiti + qo‘llab-quvvatlovchi madaniyat + mos metodika” uchligi orqali izohlaydi. Florian inklyuziv amaliyotni “darsni individuallashtirish” bilan bir qatorda “hamma uchun sifat” (quality for all) konsepsiyasi bilan bog‘lab, differensial yondashuv va universal dizayn elementlarining ijtimoiylashuv natijalariga ham ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [7]. Bu fikrlar inklyuziv sinfda nafaqat akademik, balki ijtimoiy kompetensiyalarni ham maqsadli rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Maxsus pedagogika adabiyotlarida inklyuziv ta’limning ijtimoiylashuvga ta’siri psixologik farovonlik, o‘ziga ishonch va moslashuv bilan chambarchas bog‘lanadi. Nazarova maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda kompleks yondashuv — diagnostika, individual dastur, reabilitatsion-pedagogik qo‘llab-quvvatlash — ijtimoiy moslashuvni kuchaytirishini qayd etadi [11]. Bu yondashuv inklyuziv sinf sharoitida “qo‘llab-quvvatlash xizmatlari” (psixolog, logoped, defektolog)ning ijtimoiylashuv jarayonidagi bevosita rolini ilmiy asoslaydi. Slee inklyuziya atrofidagi muammolarni tanqidiy tahlil qilib, ayrim hollarda inklyuziv siyosat “nomigagina” amalga oshirilsa, bolada marginalizatsiya va yashirin chetlatish (hidden exclusion) kuchayishi mumkinligini ta’kidlaydi [8]. Mazkur pozitsiya adabiyotlarda inklyuziv ta’limning ijtimoiylashuvga ijobiy ta’siri shartli ekanini, ya’ni u pedagogik dizayn va madaniy muhit sifatiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metadalogiyasi. Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi sotsiokultural va konstruktivistik yondashuvlarga asoslanadi. Lev Vygotskyning sotsiokultural nazariyasiga ko‘ra, bola rivojlanishida ijtimoiy muhit hal qiluvchi rol

o‘ynaydi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” haqidagi g‘oyasi shuni ko‘rsatadiki, bolalar ijtimoiy hamkorlik jarayonida yuqori natijalarga erishadi [3]. Inklyuziv ta’lim aynan mana shu hamkorlik muhitini yaratadi. Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi esa shaxs xulq-atvori kuzatish va ijtimoiy taqlid orqali shakllanishini asoslaydi [4]. Inklyuziv sinf muhitida bolalar bir-biridan o‘rganadi, ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi.

Ilmiy adabiyotlarda inklyuziv ta’lim quyidagi tamoyillarga asoslanishi ta’kidlanadi: tenglik va diskriminatsiyasizlik, individuallashtirilgan yondashuv, ijtimoiy integratsiya, pedagogik qo‘llab-quvvatlash [5]. Demak, inklyuziv ta’lim nafaqat pedagogik texnologiya, balki ijtimoiy-falsafiy konsepsiya hamdir. Ijtimoiylashuv – bu shaxsning jamiyat me’yorlari va qadriyatlarini o‘zlashtirish jarayoni hisoblanadi. Ijtimoiylashuv samaradorligi bolaning kommunikativ, emotsional va adaptiv kompetensiyalariga bevosita bog‘liqdir [6]. Inklyuziv muhitda bola sog‘lom tengdoshlari bilan muntazam muloqot qiladi. Bu jarayon nutq rivoji, ijtimoiy muloqot va o‘zini ifodalash qobiliyatini shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim olgan bolalarda ijtimoiy faollik ko‘rsatkichi yuqori bo‘ladi [7]. Inklyuziv ta’lim bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy izolyatsiya xavfini kamaytiradi. Psixologik tadqiqotlar inklyuziv muhitda tahsil olgan bolalarda depressiv holatlar kamroq uchrashini ko‘rsatgan [8]. Inklyuziv muhit sog‘lom bolalarda ham empatiya, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantiradi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi [9]. Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun: pedagoglarning maxsus metodik tayyorgarligi, individual ta’lim dasturlari, psixologik-pedagogik monitoring, ota-ona va jamoatchilik hamkorligi, moddiy-texnik sharoitlar zarur hisoblanadi [11]. Shuningdek, inklyuziv madaniyatni shakllantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lishi lozim.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot 2025-yilda umumta’lim maktablarining 2 ta parallel sinfida o‘tkazildi. Tadqiqotda jami **60 nafar o‘quvchi** ishtirok etdi. Ular 30 nafar — inklyuziv ta’lim sinfi va 30 nafar — an’anaviy ta’lim sinfi. Tadqiqot metodlari: kuzatuv, sotsiometrik so‘rov, psixologik diagnostik testlar, ijtimoiy moslashuv shkalasi. Baholash mezonlari: kommunikativ faollik, ijtimoiy moslashuv darajasi, o‘ziga ishonch ko‘rsatkichi. Baholash 0–100 ballik tizim asosida amalga oshirildi. Empirik natijalar shuni ko‘rsatdiki: inklyuziv sinflarda **kommunikativ faollik – 82 ball**, an’anaviy sinflarda esa 65 ballni, ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichi inklyuziv sinflarda 85 ballni, an’anaviy sinflarda 68 ballni, o‘ziga ishonch darajasi inklyuziv ta’limda 80 ball, an’anaviy ta’limda 62 ballni tashkil etdi. Diagrammadan ko‘rinadiki, barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha inklyuziv ta’lim ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu natijalar Lev Vygotskyning ijtimoiy muhit rivojlanish omili ekanligi haqidagi nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi [3]. Shuningdek, Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, ijtimoiy muloqot intensivligi ortgan sari xulq-atvor va ijtimoiy ko‘nikmalar samarali shakllanadi [4].

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiylashuviga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Empirik ma’lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Inklyuziv ta’lim kommunikativ rivojlanishni 17–20% ga oshiradi.
2. Ijtimoiy moslashuv darajasi an’anaviy ta’limga nisbatan yuqori.
3. O‘ziga ishonch ko‘rsatkichi sezilarli darajada ortadi.
4. Inklyuziv ta’lim jamiyatda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantiradi.

Shunday qilib, inklyuziv ta’lim nafaqat pedagogik jarayon, balki ijtimoiy transformatsiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. – Paris, 1994.
2. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. – New York, 2006.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.
4. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
5. Ainscow M. Inclusive Education and School Development. – London, 2006.
6. Parsons T. The Social System. – New York, 1951.
7. Florian L. Inclusive Practice in Education. – Cambridge Journal of Education, 2014.
8. Slee R. The Irregular School. – Routledge, 2011.
9. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion. – Bristol, 2011.
10. United Nations. Sustainable Development Goals Report. – 2015.
11. Назарова Н.М. Специальная педагогика. – Москва, 2010.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Salayeva Muborak Saburovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrasi professori
Baxtiyorova Durdona Sherzod qizi
Nizomiy nomidagi O'MPU Boshlang'ich ta'lim yo 'nalishi IV bosqich talabasi

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA HISSIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda hissiy intellektni rivojlantirish masalasi pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqladi. Maqolada hissiy intellektning ta'rifi, uning o'qish jarayonidagi roli va bolalar psixikasining rivojlanishiga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Hissiy intellekt, ya'ni o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish, shuningdek, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga munosabat bildirish bolalar uchun muhim ko'nikmalardan biridir. Ushbu ko'nikmalar, o'z navbatida, ularning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini, ijtimoiy munosabatlarini va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.*

Maqolada pedagogik yondashuvlar, metodlar va o'qituvchilar uchun hissiy intellektni rivojlantirishga oid strategiyalar tahlil qilinadi. Bolalarning hissiy intellektini rivojlantirishda o'qituvchilarning roli, ularning bolalar bilan samarali muloqot qilish usullari va to'g'ri pedagogik muhit yaratish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada yosh bolalarning hissiy intellektini shakllantirishda oilaning va jamiyatning o'rni haqida ham fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: *hissiy intellekt, kichik maktab yoshi, bola psixologiyasi, pedagogik yondashuv, ta'lim jarayoni, o'qituvchi roli, hissiy rivojlanish, ijtimoiy ko'nikma, o'zini anglash, o'z hissiyotini boshqarish, o'qituvchi uchun metod, bola ta'limi, pedagogik muhit, oila, jamiyat.*

Салайева Муборак Сабуровна
Профессор кафедры «Начальная педагогика» Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами
Бахтиёрова Дурдона Шерзод кизи
Студентка 4-го курса факультета начального образования Национального педагогического университета имени Низами

РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: *В данной статье проблема развития эмоционального интеллекта у детей младшего школьного возраста рассматривается как важная педагогическая задача. В статье раскрывается сущность эмоционального интеллекта, его роль в учебном процессе и влияние на развитие психики ребенка. Эмоциональный интеллект, то есть способность осознавать и управлять собственными эмоциями, а также понимать чувства других и адекватно реагировать на них, является одной из важнейших компетенций детей. Эти навыки, в свою очередь, способствуют обеспечению их учебных успехов, социального взаимодействия и личностного развития.*

В статье анализируются педагогические подходы, методы и стратегии развития эмоционального интеллекта, предназначенные для учителей. Рассматриваются роль педагога в формировании эмоционального интеллекта детей, способы эффективного общения с ними и вопросы создания благоприятной педагогической среды. Также в статье высказываются соображения о роли семьи и общества в формировании эмоционального интеллекта у детей младшего школьного возраста.

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, младший школьный возраст, психология ребенка, педагогический подход, учебный процесс, роль учителя, эмоциональное развитие, социальные навыки, самосознание, управление собственными эмоциями, методы для учителя, обучение ребенка, педагогическая среда, семья, общество.*

Salayeva Muborak Saburovna
Professor of the Department of "Primary Education Pedagogy" of the

National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami
Bakhtiyorova Durdona Sherzod qizi
Student of the 4th stage of the Primary Education Department of the
National Pedagogical University named after Nizami

DEVELOPMENT OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN CHILDREN OF YOUNGER SCHOOL AGE AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: *This article examines the development of emotional intelligence in primary school children as an important pedagogical issue. The paper discusses the concept of emotional intelligence, its role in the educational process, and its influence on the psychological development of children. Emotional intelligence, that is, the ability to recognize and regulate one's own emotions, as well as to understand the feelings of others and respond to them appropriately, is one of the essential skills for children. These competencies, in turn, contribute to their academic success, social relationships, and personal development.*

The article analyzes pedagogical approaches, methods, and strategies for developing emotional intelligence that can be applied by teachers. It considers the role of teachers in fostering children's emotional intelligence, effective ways of communicating with children, and the creation of an appropriate pedagogical environment. The paper also discusses the role of family and society in shaping emotional intelligence in young school-age children.

Keywords: *emotional intelligence, primary school age, child psychology, pedagogical approach, educational process, teacher's role, emotional development, social skills, self-awareness, emotion regulation, teaching methods, child education, pedagogical environment, family, society.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham katta e'tibor qaratmoqda. XXI asr kompetensiyalari doirasida **hissiy intellekt (emotional intelligence, EI)** – o'z his-tuyg'ularini aniqlash va boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish – muhim kompetentsiyalar qatoriga kiradi.

Kichik maktab yoshi boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotining eng sezgir va o'rganishga ochiq davri hisoblanadi [1]. Shu bois, ularning hissiy intellektini rivojlantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Shuningdek, kichik maktab yoshidagi bolalarda hissiy intellektni rivojlantirish ijtimoiy muhitni yaxshilash, konfliktlarni oldini olish va do'stlik munosabatlarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirish masalasi bugungi ta'lim jarayonida dolzarb va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirish masalasi bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi [2]. Buning bir necha asosiy sabablarini keltirish mumkin:

1. **Global ta'lim tendensiyalari va XXI asr ko'nikmalari**. Bugungi kunda ta'lim tizimi nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham e'tibor qaratmoqda. XXI asr kompetensiyalari doirasida **hissiy intellekt (EI)** – masalan, o'z his-tuyg'ularini tushunish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va stressni boshqarish – muhim ko'nikmalar qatoriga kiradi. Boshlang'ich sinf yoshida ushbu ko'nikmalarni shakllantirish keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli rivojlanishga asos bo'ladi [3].
2. **Ijtimoiy va psixologik rivojlanish**. Hissiy intellekt rivojlangan bolalar boshqalar bilan samarali hamkorlik qila oladi, konfliktlarni tinch yo'l bilan hal qiladi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu esa maktabda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga yordam beradi [4].
3. **Akademik muvaffaqiyatga ta'siri**. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hissiy intellekti rivojlangan bolalar o'quv motivatsiyasiga ega bo'lib, o'rganishga intilishlari kuchliroq, e'tibor va diqqatni jamlash qobiliyatlari yuqori bo'ladi [5]. Shu bois, hissiy intellekt akademik natijalarga ham ijobiy ta'sir qiladi.
4. **Stress va ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash**. Bugungi shiddatli hayot va raqobat sharoitida bolalar ham tez-tez stress va xavotir bilan duch keladi. Hissiy intellekt ularni o'z his-tuyg'ularini boshqarishga, muammolarni konstruktiv hal qilishga va ruhiy barqarorlikni saqlashga o'rgatadi.
5. **Yuqori texnologiyalar davrida ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlash**. Bolalar ko'proq raqamli muhitda o'sayotganligi bois, real hayotdagi ijtimoiy ko'nikmalar, empatiya va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish hissiy intellekt orqali amalga oshiriladi [6].

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi, balki akademik muvaffaqiyatlari, ruhiy barqarorligi va kelajakdagi hayotdagi ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [7]. Shu sababli, ta'lim jarayonida hissiy intellektni o'rgatish va rivojlantirishga e'tibor qaratish dolzarb masala sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili. Hissiy intellekt (emotional intelligence, EI) konsepsiyasi XX asrning oxirlarida psixologlar Peter Salovey va John Mayer tomonidan ishlab chiqilgan, ammo keng ommalashishi va amaliy qo‘llanilishi Daniel Golemanning “Emotional Intelligence” (1995) asari orqali yuzaga kelgan. Golemanning fikricha, hissiy intellekt shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini aniqlash, boshqarish, motivatsiyani saqlash, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi [8].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda EI ning ahamiyati bir nechta ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlangan:

1. **Akademik natijalarga ta’siri**. Mayer, Salovey va Caruso (2004) tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, hissiy intellekti rivojlangan bolalar diqqatni jamlash, muvaffaqiyatsizliklarga bardosh berish va o‘rganishga motivatsiyani saqlash qobiliyatlariga ega. Bu esa akademik muvaffaqiyatni oshiradi.

2. **Ijtimoiy va emotsional rivojlanish**. CASEL (2020) (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) tashkiloti hissiy-intellekt treninglari maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalar, empatiya va konfliktlarni hal qilish qobiliyatini oshirishini ko‘rsatadi [9].

3. **Boshlang‘ich ta’limdagi amaliy tadqiqotlar**. Uchburchak yondashuvlar (triangular model of EI) asosida Mayer (2008) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bolalarda hissiy xabardorlikni rivojlantirish uchun o‘yinlar, rolli mashqlar va guruh ishlari samarali ekanligini ko‘rsatadi [10]. Shu bilan birga, hissiy intellektni rivojlantirish bolaning o‘zini-o‘zi boshqarish va ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hissiy intellektni rivojlantirish bolalarda o‘zini-o‘zi boshqarish, ijtimoiy moslashuvchanlik, motivatsiya va stressga bardoshlilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

4. So‘nggi yillardagi izlanishlar **O‘zbekiston maktablarida hissiy intellektni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar**dir. Masalan, X.Yo‘ldoshev (2021) bosqichma-bosqich psixologik treninglar va ta’lim metodikalari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiy intellektini samarali rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi [11]. Shu bilan birga, hissiy intellektni rivojlantirish maktabda ijtimoiy muhitni yaxshilashga va o‘quvchilarning psixologik barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hissiy intellektni rivojlantirish nafaqat shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish, balki akademik muvaffaqiyat uchun ham muhimdir. Boshlang‘ich sinfda ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish, o‘quvchilarning ijtimoiy, psixologik va akademik barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ta’lim jarayonida hissiy intellektni rivojlantirishga e’tibor qaratish dolzarb va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Metodlar: tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, olingan ma’lumotlarni umumlashtirish va sharhlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent tahlil, kvalimetriya va ekspert baholash.

Muhokama. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirish masalasi nafaqat psixologik, balki pedagogik nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega. XX asr boshlarida Mayer, Salovey, Caruso va Golemanlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning hissiy intellekti ularning ijtimoiy moslashuvchanligi, o‘zini boshqarish qobiliyati va akademik muvaffaqiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [12].

Hissiy intellekt va akademik rivojlanish. O‘rganish jarayonida hissiy intellekti rivojlangan bolalar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish orqali diqqatni jamlay oladi, qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklarga bardosh bera oladi. Bu esa ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi va bilim olish samaradorligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, maktab dasturlarida hissiy intellektni rivojlantirishga mo‘ljallangan faoliyatlarni kiritish pedagogik jihatdan muhimdir.

Ijtimoiy va emotsional rivojlanishga ta’siri. Hissiy intellekt bolalarga boshqalar bilan samarali muloqot qilish, empatiya ko‘rsatish va konfliktlarni konstruktiv yo‘l bilan hal qilish imkonini beradi. Boshlang‘ich sinfda ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish nafaqat do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga, balki sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Pedagogik o‘yinlar, rolli mashqlar, guruh ishlari va interaktiv metodlar yordamida bolalarning hissiy intellekti samarali rivojlantirilishi mumkin [13]. Shu bilan birga, pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarga his-tuyg‘ularini ifodalash va boshqarishni o‘rgatish ularning emotsional barqarorligini oshiradi.

Hissiy intellektni rivojlantirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkin. Bu esa ta’lim jarayonini yanada samarali qilishi, bolalarni kelajakda murakkab vaziyatlarda moslashuvchan va muvaffaqiyatli bo‘lishga tayyorlashi bilan bog‘liq. Shu bois, hissiy intellektni rivojlantirish pedagogik jarayonga integratsiya qilinishi dolzarb hisoblanadi.

NATIJALAR. Tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hissiy intellektning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanib, ularning shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishiga bog‘liqligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. **O‘zini anglash va boshqarish qobiliyati**. Tadqiqot ishtirokchilarining katta qismi o‘z his-tuyg‘ularini aniqlash va ularga mos ravishda xatti-harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishga muhtoj ekanligi aniqlangan. O‘quvchilarda o‘zini

boshqarish ko‘nikmalari yaxshilanganda, ular stressli vaziyatlarda xotirjam bo‘lishga va o‘quv jarayoniga yaxshiroq konsentratsiyalashga qodir bo‘ladi.

2. **Ijtimoiy ko‘nikmalar va empatiya**. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, hissiy intellekti rivojlangan bolalar do‘stlar bilan samarali muloqot qilish, hamkorlik qilish va konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilish qobiliyatlariga ega. Shu bilan birga, guruh ishlari va interaktiv mashqlar o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

3. **Motivatsiya va o‘rganishga intilish**. Hissiy intellektni rivojlantirish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi. Tadqiqot ishtirokchilari o‘zlarini muvaffaqiyatli his qilgan va ijobiy emotsiyalarni boshqarish orqali o‘rganishga intilishi ortgan.

Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, hissiy intellektni rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatar ekan. Shu bois, ta’lim jarayonida hissiy intellektni shakllantirish metodlari – o‘yinlar, rolli mashqlar, guruh ishlari va psixologik treninglar – samarali vosita sifatida qo‘llanilishi lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirish ularning shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Hissiy intellekt orqali bolalar o‘z his-tuyg‘ularini aniqlash va boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, empatiya ko‘rsatish va konfliktlarni konstruktiv yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf pedagogikasi nuqtai nazaridan, hissiy intellektni rivojlantirish uchun o‘yinlar, rolli mashqlar, guruh ishlari va interaktiv metodlar samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlik qilish bolalarning emotsional barqarorligini oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, hissiy intellektni rivojlantirish nafaqat maktabdagi muvaffaqiyat va ijtimoiy muhitni yaxshilash, balki bolalarni kelajakdagi hayotdagi murakkab vaziyatlarga moslashuvchan va muvaffaqiyatli shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hissiy intellektni shakllantirish masalasi bugungi kunda dolzarb va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi ***takliflar***ni berib o‘tishni lozim topdik:

1. ***Pedagogik tavsiyalar:***

- Boshlang‘ich sinf darslarida **o‘yinlar, rolli mashqlar, guruh ishlari va interaktiv metodlar** orqali hissiy intellektni rivojlantirishga e’tibor qaratish.
- Pedagoglar bolalarning his-tuyg‘ularini aniqlash va boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun **kundalik mashqlar va refleksiya** metodlarini qo‘llash.
- Konflikt va nizolarni hal qilishda bolalarga **empatiya va muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatish**.

2. Ota-onalar uchun tavsiyalar:

- Bolalar bilan uyda **his-tuyg‘ularini ifodalash va boshqarishni o‘rgatish** bo‘yicha muloqot qilish.
- Bolalarni ijtimoiy faoliyatlarga, guruh o‘yinlari va jamoaviy loyihalarga jalb etish orqali ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlash.

3. Ta’lim tizimi va metodik jihatlar:

- Maktab dasturlariga **emotsional va ijtimoiy rivojlanishga yo‘naltirilgan modullar**ni kiritish.
- Hissiy intellektni rivojlantirish bo‘yicha **maxsus treninglar va seminarlar** tashkil etish, pedagoglarning bu sohadagi malakasini oshirish.

Umuman olganda, hissiy intellektni rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, pedagoglar, ota-onalar va ta’lim tizimi birgalikda ishlash orqali bolalarning emotsional barqarorligini va ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashga e’tibor qaratishlari muhimdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // *Scientific Progress.* Volume 3 | ISSUE 3 | March, 2022. ISSN: 2181-1601. Pages 380-383. http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf

2. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o'rni // Международный научно-образовательный электронный журнал «*Образование и наука в XXI веке*». ISSN: 2658-7998. Выпуск №24 (том 4) (март, 2022). - С.751-754. https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/Март%202022.%20Том%204.pdf

3. Salaeva M.S., Umirova X.S. Bola tarbiyasida oila va maktabning o'zaro hamkorligi // *Problems And Scientific Solutions*. - Australia, Melbourne. 2022. – B. 114-123. https://zenodo.org/record/6762227#.Y1G7dXZByUk https://doi.org/10.5281/zenodo.6762226

4. Salayeva M.S., Koshnazarova M.A. Shaxs mobilligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida // *Journal of science-innovative research in Uzbekistan" jurnali.* Volume 2, ISSUE 1, ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869. 2024. January. -Pp. 16-25.

5. Салаева М.С., Халилова Ш.Т. Ўспиринларда креатив фикрлашни ривожлантиришнинг психологик жиҳатлари / "Психологияни ўқитишда замонавий инновацион ёндашув: психологлар фаолиятини ташкил этишда илғор технологиялар" номли Республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. Низомий номидаги ТДПУ "Психология" ўқув-илмий маркази. 2019 йил 24 декабрь. – Б.13-16.

6. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // *Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali*, ISSN - 2181-2608. Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59-62. http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552

7. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // *Scientific Progress*. Volume 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 384-390. http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf

8. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // *Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture*. Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 Volume 2 Issue 4, April 2022. ISSN 2181-2888. Pages 136-139. https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330

9. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / "Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: "Firdavs-Shoh" nashriyoti, 2022 – B. 276-281.

10. Salaeva M.S., G'ulamova S.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / "Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: "Firdavs-Shoh" nashriyoti, 2022 – B. 209-213.

11. Salaeva M.S., Urazova K.V. Boshlang'ich ta'limda o'quv faoliyatning kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixik rivojlanishiga ta'siri / «Білім беру қызметі: инновациялық әдістер, құралдар және тәсілдер» тақырыбындағы халықаралық форум материалдары – Шымкент: «Қызмет» баспаханасы, 2022. - B.432-441. ISBN 978-601-06-8694-6

12. Салаева М.С., Павлова М.В. Арт-терапия как средство гармонизации и развития психики младших школьников/ «Заманагөй тәлим ҳәм тәрбия технологиялары: тәжирийбелер, машқалалар ҳәм перспективалар» атамасында Республикалық илмий-әмелий конференция материаллары топламы. Нөкис. 2022 ж. – Б.412-415.

13. Салаева М.С., Ким Х.В. Формирование положительной мотивации у младших школьников к учебной деятельности// World of Scientific news in Science International Journal. 2024 Vol. 2 №. 4. – Pp. 147-153. https://worldofresearch.ru/index.php/wsjc/article/view/439

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Turayeva Sharipa Egamberdiyevna
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

"O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI" FANINI O'QITISH ORQALI TIBBIYOT TALABALARIDA MILLIY G'URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanini o'qitish jarayonida talabalar ongi va qalbida vatanparvarlik hissini maqsadli ravishda tarbiyalash masalasiga bag'ishlangan. Tadqiqot metodologik asosi sifatida kompetensiyaviy, aksiologik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning hamda kasbiy identifikatsiyaning birligi qo'llanilgan. Ishning ilmiy yangiligi fan mazmunini klinik-axloqiy holatlar bilan integratsiya qiluvchi didaktik model asosida vatanparvarlik tarbiyasini asoslashdan iborat.*

Kalit so'zlar. *eng yangi tarix, tibbiyot ta'limi, vatanparvarlik, fuqarolik kompetensiyasi, tarixiy tafakkur, integratsiya, didaktik model*

Turayeva Sharipa Egamberdiyevna
Independent researcher at Namangan State University

PEDAGOGICAL BASIS OF FORMING A SENSE OF NATIONAL PRIDE IN MEDICAL STUDENTS THROUGH TEACHING THE SUBJECT "THE LATEST HISTORY OF UZBEKISTAN"

Annotation. *This article is devoted to the issue of purposeful education of a sense of patriotism in the minds and hearts of students in the process of teaching the subject "The latest history of Uzbekistan" in medical higher educational institutions. The methodological basis of the study was the unity of competency-based, axiological and personality-oriented approaches, as well as professional identification. The scientific novelty of the work is the substantiation of patriotic education on the basis of a didactic model that integrates the content of the subject with clinical and ethical situations.*

Keywords*. latest history, medical education, patriotism, civic competence, historical thinking, integration, didactic model.*

Тураева Шарипа Егамбердиевна
Независимый исследователь Наманганского государственного университета

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ ПОСРЕДСТВОМ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «НОВЕЙШАЯ ИСТОРИЯ УЗБЕКИСТАНА»

Аннотация. *Данная статья посвящена вопросу целенаправленного воспитания чувства патриотизма в умах и сердцах студентов в процессе преподавания предмета «Нейшей истории Узбекистана» в медицинских высших учебных заведениях. Методологической основой исследования стало единство компетентностного, аксиологического и личностно-ориентированного подходов, а также профессиональной идентификации. Научная новизна работы заключается в обосновании патриотического воспитания на основе дидактической модели, интегрирующей содержание предмета с клиническими и этическими ситуациями.*

Ключевые слова: *новейшая история, медицинское образование, патриотизм, гражданская компетентность, историческое мышление, интеграция, дидактическая модель*

Tibbiyot sohasida kelajak mutaxassislarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi ko'pincha umumiy ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlar doirasida ko'rib chiqiladi. Ammo zamonaviy oliy ta'lim tizimida bu vazifa muayyan fanlarning mazmun-mohiyatiga va o'qitish uslubiyotiga singdirilgan, o'quv natijalari bilan bog'liq kompetensiyalar orqali amalga oshirilishi lozim. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani tibbiyot talabalari uchun shunchaki tarixiy voqealar ketma-ketligini o'rgatuvchi manba bo'lib qolmay, ijtimoiy mas'uliyat, kasbiy burch, inson qadri va qadr-qimmati, jamoat salomatligi hamda davlat institutlari bilan hamkorlik kabi tushunchalarni tarixiy tajriba vositasida chuqur anglatuvchi maydon sifatida xizmat qiladi. Shu boisdan vatanparvarlikni ushbu kontekstda faqat shioriy yoki

hissiy holat tariqasida emas, balki fuqarolik mas’uliyati, kasb-hunarga fidoyilik va ijtimoiy birdamlik bilan chambarchas bog‘langan barqaror qadriyatlar tizimi sifatida taqdim etish ilmiy va metodik jihatdan to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi.

Eng yangi tarixni o‘qitish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish uchun nazariy asos bir necha yondashuvlarning uyg‘unlashuvida namoyon bo‘ladi: kompetensiyaviy yondashuv talabaning real hayot va kasb faoliyatida ko‘rinadigan erishuvlarini belgilaydi; aksiologik yondashuv qadriyatlarni tanlab olish, ularni ichkilashtirish hamda ularga sodiq qolish mexanizmlarini tushuntiradi; shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa talabaning individual hayotiy tajribasi va o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyatini markazga qo‘yadi. Ushbu uch yondashuvni tibbiyot ta’limiga xos deontologik me’yorlar bilan birlashtirganda, vatanparvarlik “sog‘liqni saqlash tizimi manfaatlarini to‘g‘ri anglash, bemorlar va aholiga fidoiylik, yuqumli kasalliklardan himoya qilish, profilaktika madaniyatini targ‘ib qilish va tibbiy xizmat ko‘rsatish etikasi” singari aniq mazmuniy belgilarga ega bo‘ladi. Aynan shunday nuqtai nazardan qaralsa, fanni o‘qitishda tarixiy materiallarni tanlash, muammoli savollar qo‘yish, manbalar asosida ishlash va baholash mezoni ham ana shu kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Tibbiyot talabalarining o‘ziga xos jihati shundaki, ular odatda tabiiy-ilmiy fanlar asosida fikrlaydigan, vaqt jihatidan cheklangan va kasbiy fanlar ustuvorlik qiladigan o‘quv dasturlarida tahsil oladilar. Bundan kelib chiqib, tarix fani mazmunan “ortiqcha yuk” sifatida emas, balki kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlovchi gumanitar zamin tariqasida talabalarga yetkazilishi zarur. Buning uchun eng yangi tarix mavzulari ijtimoiy sog‘lomlik, aholi ko‘payishi va kamayishi dinamikasi, sanitariya madaniyatining rivojlanishi, tibbiyot muassasalari taraqqiyoti, favqulodda vaziyatlarda boshqaruv hamda sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish masalalari bilan bog‘liq kontekstlarda ochib berilishi maqsadga muvofiq. Ta’lim jarayonida tarixiy faktni klinik muhokamadan farqlagan holda, tarixiy tafakkurning o‘ziga xos usullarini – manbani tanqidiy o‘qish, sabab va oqibat bog‘liqligini aniqlash, muqobil stsenariylarni taqqoslab tahlil qilish, ijtimoiy qarorlarning bahosini izohlay olish kabi ko‘nikmalarni – shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Keyinchalik bu ko‘nikmalar bemorga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, dalillarga tayangan klinik qaror qabul qilish va axloqiy mas’uliyat hissi bilan uyg‘unlashib ketadi [3].

Ushbu maqolada metodologik yo‘nalish sifatida integratsiyalashgan didaktik model tavsiya etiladi: u fan mazmunini tibbiyot talabalari uchun ahamiyatli bo‘lgan ijtimoiy-axloqiy holatlar bilan bog‘lab, vatanparvarlik tuyg‘usini “kasbiy xizmat orqali namoyon bo‘ladigan fazilatga” aylantirishga qaratilgan. Modelning o‘zagi uch bosqichli o‘qitish mantig‘idan iborat. Birinchi – kognitiv bosqichda talabalar eng yangi tarixdagi asosiy jarayonlar, davlat institutlarida amalga oshirilgan islohotlar va ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlar haqida tizimli bilim egallaydilar. Ikkinchi – interpretativ-amaliy bosqichda tarixiy hujjatlar, rasmiy nutqlar, statistik ma’lumotlar, shu davr matbuoti va xotiralar kabi manbalar bilan bevosita ishlash orqali talabalar “tarixiy dalil” va “sub‘ektiv baho” orasidagi farqni o‘rganadilar [2]. Uchinchi – refleksiv-baholash bosqichida esa talaba o‘z kasbiy shaxsiyatini jamiyatning real ehtiyojlari bilan bog‘laydi va “shifokor sifatida men mamlakat sog‘lig‘i yo‘lida nima qila olaman” degan savolga asosli xulosalar ishlab chiqadi.

Vatanparvarlikni tarbiyalashda o‘quv mazmunini to‘g‘ri tanlash hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Eng yangi tarixda ijtimoiy soha, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasiga oid islohotlarning tarixiy mantiqini ochib berish, ularning aholi turmush darajasiga ta'sirini aniq ilmiy dalillar bilan asoslash vatanparvarlikni haqiqiy mazmunga to‘ldiradi. Ayniqsa, sog‘liqni saqlash infratuzilmasi, birlamchi tibbiy yordam tizimi, kasalliklarning oldini olish va epidemiologik xavfsizlikka oid tarixiy tajriba tibbiyot talabalari uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ahamiyat kasb etadi. Biroq ushbu materiallarni faqat muvaffaqiyatlar nuqtai nazaridan emas, balki muammolar, resurs etishmasligi, boshqaruv qarorlarining qiyinligi va tibbiy-axloqiy murakkabliklar nuqtai nazaridan ham tahlil qilish zarur. Shunda talabada vatanparvarlik tanqidiy fikrlash va mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasi bilan uyg‘unlikda shakllanadi. Aks holda, vatanparvarlik tushunchasi faqat og‘zaki e'tiroflarda qolib, shaxsiy e'tiqodga va ichki qadriyatga aylanmaydi.

Didaktik vositalar nuqtai nazaridan tibbiyot talabalari bilan ishlashda muammoli ta’lim va keys-metod alohida samaradorlik ko‘rsatadi. Jumladan, muayyan tarixiy davr kontekstida “jamoat salomatligi sohasida qaror qabul qilish» mavzusida holatlar (keys) yaratish mumkin: ijtimoiy vaziyat, mavjud resurslar, aholi talablari va boshqaruv imkoniyatlari berib, talaba tarixiy manbalar asosida turli yechimlarni solishtiradi va ularning ehtimoliy natijalarini baholaydi. Bunday mashg‘ulotlar tarix fanining chegaralaridan chiqmagan holda tibbiy fikrlashga xos mas’uliyat va dalilga tayanish madaniyatini shakllantiradi, vatanparvarlik esa “aholi manfaatlarini barcha narsadan ustun qo‘yish” sifatida konkret mazmun kasb etadi. Manba bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish uchun mini-tadqiqot topshiriqlari ham samarali: talaba mahalliy sog‘liqni saqlash tarixiga doir arxiv hujjatlari, og‘zaki suhbatlar va raqamli ma'lumotlarni taqqoslab, qisqa ilmiy xulosa chiqaradi; bu jarayonda akademik halollik, manba ko‘rsatish va bibliografiya tuzish malakasi ham taraqqiy etadi [1].

Baholash masalasi vatanparvarlik tarbiyasidagi eng nozik nuqta hisoblanadi, chunki qadriyatlarni bevosita o‘lchash mumkin emas. Shu sababli baholash ob'ekti sifatida tuyg‘uning o‘zi emas, balki tarixiy tafakkur, fuqarolik mulohazasi va kasbiy-ijtimoiy javobgarlikni ifodalovchi faoliyat natijalari tanlanishi zarur. Xususan, talabaning manbani

tahlil qilishdagi dalillarga tayanish darajasi, sabab-oqibat zanjirini to‘g‘ri qura bilishi, muqobil qarorlarni asoslash qobiliyati, axloqiy mezonlarni tarixiy holatga tatbiq eta olishi, refleksiv insho yoki loyiha ishida jamiyat manfaatlarini to‘g‘ri belgilay bilishi kabi ko‘rsatkichlar baholash mezoni vazifasini o‘tashi mumkin. Bu yondashuv Oliy attestatsiya komissiyasi talablari nuqtai nazaridan ham asoslidir: u o‘quv natijalarini aniq indikatorlar orqali ifodalaydi va subyektiv “tarbiyalangan yoki tarbiyalanmagan” kabi umumiy hukmlardan qochadi. Xalqaro ta’lim tadqiqotlarida ham fuqarolik va qadriyat kompetensiyalarini baholashda aynan faoliyatga yo‘naltirilgan ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi [5].

Tavsiya etilayotgan modelni ta’lim jarayoniga tatbiq etishda o‘qituvchining metodik jihatdan yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lishi alohida muhim omil bo‘lib, bu tarixiy materialni tibbiyot auditoriyasiga mos tarzda moslashtirishni, fanlararo muloqotni oqilona tashkil etishni va axloqiy jihatdan ehtiyotkor muhokama muhitini yaratishni taqozo etadi. Shu bilan birga, o‘quv-metodik ta'minotda mavzularning tibbiyot kontekstiga mos adabiyotlar ro‘yxati, manbalar to‘plami va keys-topshiriqlar banki shakllantirilsa, talabalarning mustaqil ta’lim sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Xorijiy va xalqaro tajribada gumanitar fanlarni kasbiy ta’lim bilan integratsiyalashtirishning o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishi va mutaxassislik bilan ijtimoiy mas'uliyatni bir-biriga bog‘lash imkonini berishi qayd etilgan [4; 5]. O‘zbek pedagogikasi doirasida esa tarix ta’limining tarbiyaviy salohiyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida ochib berish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar mazkur yo‘nalishning ilmiy zaminini yanada mustahkamlaydi [1].

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, tibbiyot oliy ta’limida “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini vatanparvarlik tarbiyasining samarali vositasiga aylantirishda uch muhim shart – mazmunning kasbiy ahamiyati, o‘qitish metodlarining muammoli va manbaga tayangan tabiati hamda baholashning faoliyat natijalariga yo‘naltirilganligi – yagona didaktik tizimda birga ishlashi lozim. Tavsiya etilgan integratsiyalashgan model vatanparvarlikni bo‘sh shioriy iboralarga emas, balki fuqarolik mas'uliyati va shifokorning ijtimoiy burchi bilan uyg‘un holda shakllanadigan barqaror qadriyatga aylantirish imkonini beradi; buning natijasida tibbiyot talabasining kasbiy kamolotida tarixiy tafakkur, axloqiy sezgirlik va jamiyat manfaatlariga sodiqlik birlashgan ta’lim erishuvlari ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Юлдашев Б. П. Тарих таълими методикаси: компетенциявий ёндашув асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 2020. 248 б.

2. Карпов С. П. Методика преподавания истории: учебное пособие. Москва: Юрайт, 2019. 286 с.

3. Wineburg S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past. Philadelphia: Temple University Press, 2001. 272 p.

4. Вербицкий А. А. Контекстное обучение в высшей школе: теория и технологии. Москва: Юрайт, 2020. 303 с.

5. UNESCO. Rethinking Education: Towards a Global Common Good? Paris: UNESCO Publishing, 2015. 85 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Turg‘unova Shohista Muhammadjonovna
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

PEDAGOGIK MULOQOT MADANIYATI QULAY TA’LIMIY MUHITNING POYDEVORI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot madaniyati ta’lim muhitida xavfsizlik, tartib-intizom va hamkorlikni shakllantiruvchi asosiy shart sifatida tahlil qilinadi. Asosiy maqsad — muloqot madaniyatini kasbiy ko‘nikma sifatida belgilash va uni takomillashtirish yo‘nalishlarini ilmiy asoslashdir. Tadqiqot usuli sifatida nazariy manbalarga tayanilgan va ularni umumlashtirish amalga oshirilgan. Ilmiy hissa esa muloqot uslublari, baholash amaliyoti va ta’lim muhiti sifatini bir butun tizimda bog‘lovchi yondashuvni ishlab chiqishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ ko‘nikma, psixologik muhit, yo‘naltiruvchi fikr-mulohaza, mojarolarni hal etish, o‘z-o‘zini tahlil qilish amaliyoti, ta’lim samaradorligi, sinf jamoasi.*

Тургунова Шохиста Мухаммаджоновна
Независимый исследователь Наманганского государственного университета

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КОММУНИКАЦИОННАЯ КУЛЬТУРА КАК ОСНОВА БЛАГОПРИЯТНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Аннотация. *В данной статье анализируется культура общения между учителем и учеником как основополагающее условие формирования безопасности, дисциплины и сотрудничества в образовательной среде. Главная цель – определить культуру общения как профессиональный навык и научно обосновать направления ее совершенствования. Метод исследования основан на теоретических источниках и их обобщении. Научный вклад заключается в разработке подхода, объединяющего стили общения, методы оценивания и качество образовательной среды в единую систему.*

Ключевые слова: *коммуникативные навыки, психологическая среда, направляющая обратная связь, разрешение конфликтов, практика самоанализа, эффективность обучения, командная работа в классе.*

Turgunova Shohista Muhammadjonovna
Independent researcher at Namangan State University

PEDAGOGICAL COMMUNICATION CULTURE AS THE FOUNDATION OF A FAVORABLE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation. *This article analyzes the culture of communication between a teacher and a student as a basic condition for the formation of safety, discipline and cooperation in the educational environment. The main goal is to define the culture of communication as a professional skill and scientifically substantiate the directions for its improvement. The research method is based on theoretical sources and their generalization. The scientific contribution is to develop an approach that connects communication styles, assessment practices and the quality of the educational environment into a single system.*

Keywords: *communicative skills, psychological environment, guiding feedback, conflict resolution, self-analysis practice, educational effectiveness, classroom team.*

Pedagogik muloqot madaniyati ta’lim jarayonining ko‘zga ko‘rinmasa ham, hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan tarkibiy qismidir. U shunchaki bilim uzatish vazifasini emas, balki o‘quvchi shaxsi qadrlanadigan, ma'no birgalikda quriladigan va har bir o‘quvchi o‘zini xavfsiz his qiladigan muhitni barpo etish vazifasini ham bajaradi. Qulay ta’lim muhiti deganda o‘quvchining aqliy faolligi, his-tuyg‘ular muvozanati va jamiyatdagi ishtiroki bir-birini qo‘llab-quvvatlagan holda, o‘qituvchining talabchanligi esa o‘quvchiga hurmat bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladigan tizim nazarda tutiladi. Bunday muhitning yuzaga kelishi uchun muloqot madaniyat andozalariga, axloq qoidalariga, nutq madaniyatiga va psixologik noziklikni his qilishga asoslanishi shart. Muloqot sifati pasayganda barcha didaktik qurollar ham o‘z kuchini yo‘qotadi: topshiriq to‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa ham qabul qilinmaydi; baholash adolatli bo‘lsa ham o‘quvchi

uni xusumatkora tarzda idrok etadi; talab ravshan bo‘lsa ham o‘quvchi o‘zini kamsitilgandek sezadi. Shu sababli pedagogik muloqot madaniyati ta’limdagi psixologik xavfsizlik, o‘qishga qiziqishning barqarorligi va o‘quv natijalari bilan chambarchas bog‘liq kasbiy ko‘nikma sifatida baholanishi zarur.

Nazariy nuqtai nazardan pedagogik muloqot madaniyati ikki asosiy darajada ko‘rinadi: birinchisi — nutq va tilga oid jihatlar, ikkinchisi — shaxslararo munosabatlarning ma'naviy-ruhiy mexanizmlari. Nutq darajasida o‘qituvchining aniq, izchil, uslubga mos, vaziyatga moslasha oladigan va tinglovchi yoshini inobatga oladigan tarzda gapirish qobiliyati muhim o‘rin egallaydi. Shaxslararo daraja esa hurmat, adolat, talabchanlik va insoniylikning mutanosibligi, hamdardlik, mojarolarda konstruktiv munosabat va o‘z-o‘zini kuzatish kabi sifatlar bilan tavsiflanadi. Bu ikki daraja bir-biridan ajralmas: muloyim ovoz mantiqsiz fikrni oqlay olmaydi, mantiqiy nutq esa tajovuzkor ohangda ifodalansa, tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotadi. Pedagogik muloqotning mana shu yaxlitligi o‘quvchida "men qadrlanaman" degan ichki ishonchni uyg‘otib, bilish faoliyatini jonlantiradi. Bundan tashqari, muloqotning yuksak madaniy saviyasi o‘qituvchi obro‘sini rasmiy mansabdan ko‘ra ko‘proq kasbiy va shaxsiy ishonch manbayiga aylantiradi, bu esa sinfni boshqarishda zo‘ravonlik o‘rniga hamkorlik tamoyillarini ustun qo‘yishga zamin yaratadi.

Pedagogik muloqot madaniyatining qulay muhitga bevosita ta'siri, eng avvalo, psixologik xavfsizlikni ta'minlashda namoyon bo‘ladi. Psixologik xavfsizlik — o‘quvchining xato qilishdan cho‘chimasdan fikrni erkin bildira olishi, savol qo‘ya olishi, o‘z nuqtai nazarini himoya qila olishi va bu uchun kamsitishga uchrash xavfi yo‘qligiga ishonishi demakdir. Bunday sharoit o‘quvchini faol eshitishga, muammoni echishga intilishga va muloqotda tashabbus ko‘rsatishga undaydi. O‘qituvchi esa xatoni jazolash uchun emas, o‘rganishning tabiiy bosqichi sifatida talqin qilib, konstruktiv yo‘naltiruvchi mulohazalar beradi. Konstruktiv fikr-mulohaza muloqot madaniyatining markaziy vositasi bo‘lib, u oxirgi natijani emas, amalga oshirilgan harakatni tahlil qiladi; shaxsni emas, vazifani muhokama qiladi; noaniq umumiy baholardan emas, aniq o‘lchov mezonlaridan foydalanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchining o‘zini to‘g‘ri baholashini ta'minlab, ichki motivatsiyani mustahkamlaydi. Xalqaro tadqiqotlar ham o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi muloqoti o‘quvchida o‘qishga tegishlilik hissini kuchaytirishi va sinfdagi shaxslararo aloqalarni boyitishi isbotlangan.

Ta’limiy muhitning ikkinchi muhim ko‘rsatkichi sinf iqlimining izchilligidir. Iqlim deganda sinfdagi munosabatlar xarakteri, adolat hissi, hamkorlik an'analari va muloqot odatlari majmui nazarda tutiladi. O‘qituvchining muloqot madaniyati ushbu iqlimni shakllantiradi, chunki o‘quvchilar o‘qituvchining nutq uslubi va baholash mezonlarini o‘zaro munosabatlarda tez o‘rganib oladi. Agar o‘qituvchi kinoya, kesatiq, yorliq yopishtirishg, taqqoslab kamsitish kabi usullarga murojaat qilsa, sinfda zararli raqobat, yashirin tajovuzkorlik va o‘zaro ishonchsizlik avj oladi. Aksincha, o‘qituvchi hurmatga tayanuvchi muloqotni tanlasa, o‘quvchilar ham bahslarda dalilga tayanish, galma-galdan gapirish, zid fikrni eshitish va mushtarak yechim topishni odatga aylantiradi. Pedagogik adabiyotlarda muloqotning tarbiyaviy kuchi aynan mana shu ko‘chirish mexanizmi orqali tushuntiriladi: o‘qituvchi muloqotda o‘rnak bo‘lib, ijtimoiy xulq-atvorning madaniy me'yorlarini ko‘rsatadi.

Pedagogik muloqot madaniyati kasbiy kompetensiya sifatida o‘lchov ko‘rsatkichlariga ega. Ularni shartli tarzda to‘rt blokka birlashtirish mumkin: nutqning aniqligi va mantiqiyligi; faol tinglash va savol berish ko‘nikmalari; his-tuyg‘ularni boshqarish va hamdardlik; baholash va mojarolarni hal etish madaniyati. Birinchi blokda o‘qituvchining yo‘riqnomani qay tarzda berishiga, murakkab tushunchani qanday soddalashtirishiga, misol va qiyoslarni qanday tanlashiga, og‘zaki nutqda ortiqcha baholovchi so‘zlarni kamaytirishiga e'tibor qaratiladi. Ikkinchi blokda so‘zlovchini to‘xtatmasdan eshitish, qaytadan so‘rash orqali tushunishni tekshirish, ochiq savollar bilan fikrlashni rag‘batlantirish ahamiyatlidir. Uchinchi blok o‘qituvchining hissiy reaksiyalarini nazorat qilishi, adolatsizlik kayfiyatini qo‘zg‘atuvchi o‘ylanmagan baholardan o‘zini tiyishi, o‘quvchi ruhiy holini ilg‘ay olishi bilan bog‘liq. To‘rtinchi blok esa baholashning shaffofligini, mezonlarni oldindan e'lon qilishni, mojaroni shaxsiy emas, vazifa doirasida hal eta bilishni o‘z ichiga oladi. Bu bloklar hamjihat ishlagan taqdirda o‘quvchi uchun tushunarli va barqaror muloqot muhiti shakllanadi; mana shu barqarorlik qulay ta’lim muhitining psixologik poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun o‘z-o‘zini tahlil qilish amaliyoti asosiy vosita bo‘lib xizmat qila oladi. O‘z-o‘zini tahlil qilish — o‘qituvchining o‘z muloqot odatlarini shunchaki takror qilmasdan, ularni vaziyat, o‘quvchi xususiyati va ta’lim maqsadi bilan bog‘lab ko‘rib chiqishidir. Masalan, nutqida tez-tez takrorlanuvchi buyruq ohangini sezib, uni izohlovchi va hamkorlikka chaqiruvchi iboralar bilan almashtirishi; yoki savol-javobda faqat a’lochi o‘quvchilarga murojaat qilish odatini payqab, ishtirokni tenglashtiradigan strategiyalarga o‘tishi mumkin. Bundan tashqari, mikro darajadagi ko‘nikmalarni shakllantirish ham samarali: qisqa muloqot vaziyatlarini modellashtirish, tinglash usullarini mashq qilish, baholash iboralarini foydali variantlarda qayta ifodalash, murakkab suhbatlar uchun oldindan stsenariy tayyorlash — bularning barchasi ijobiy natija beradi. Pedagogika va psixologiya sohasidagi tadqiqotlar kommunikativ ko‘nikmalarni aynan amaliy mashqlar va teskari aloqa orqali rivojlantirish yuqori samara berishini isbotlagan. Ayni paytda muloqot madaniyati faqat shaxsiy mahorat emas, balki muassasa miqyosidagi me'yoriy maydon hamdir: metodik birlashmalar, kuzatuv va hamkasblar bilan birgalikda tahlil

qilish, ichki axloq kodeksi, baholash mezonlarining yagona talqini qo‘llab-quvvatlovchi kasbiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy nazariy xulosasi sifatida pedagogik muloqot madaniyatining uchlik modeli taklif qilinadi: axloq, hamdardlik va o‘z-o‘zini tahlil qilish. Axloq o‘qituvchining adolat, hurmat va kasbiy qoidalarga sadoqatini belgilaydi; hamdardlik o‘quvchi holatini anglash va unga mos muloqot yo‘lini tanlashni ta'minlaydi; o‘z-o‘zini tahlil qilish esa o‘z muloqotining oqibatlarini baholab, uni uzluksiz takomillashtirish mexanizmini ishga tushiradi. Ushbu uchlikning bir bo‘g‘ini susaysa, qulay muhit ham izdan chiqadi: axloq bo‘lmasa, hamdardlik manipulyativ xarakter kasb etishi mumkin; hamdardlik bo‘lmasa, axloq quruq rasmiyatchilikka aylanadi; o‘z-o‘zini tahlil qilish bo‘lmasa, tajriba takrorlanadi va xatolar mustahkamlanadi. Modelning amaliy ahamiyati shundaki, u pedagogik muloqotni baholash va rivojlantirishni alohida ko‘nikmalar to‘plami emas, balki yaxlit kasbiy tizim sifatida ko‘rishga imkon beradi. Natijada qulay ta’lim muhitini yaratish muammosi tor doiradan chiqib, madaniy me'yorlar, psixologik xavfsizlik va didaktik maqsadlar muvozanatida boshqariladigan, ilmiy asosga tayangan jarayon sifatida talqin etiladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik muloqot madaniyati qulay ta’lim muhitini shakllantiruvchi bosh omil bo‘lib, o‘quvchining o‘qishga daxldorlik hissi, psixologik xavfsizligi, sinf iqlimining barqarorligi va ta’lim samaradorligini bir vaqtda belgilaydi. Ushbu maqolada muloqot madaniyati nutqiy aniqlik, faol tinglash, hissiy o‘zini boshqarish, konstruktiv baholash va mojarolarni boshqarishdan iborat murakkab kasbiy ko‘nikma sifatida asoslab berildi. Taklif etilgan axloq, hamdardlik va o‘z-o‘zini tahlil qilish uchligiga tayangan model muloqot sifatini tizimli ravishda baholash va maqsadli rivojlantirish imkonini beradi. Amaliy istiqbolda muloqot madaniyatini shakllantirish o‘z-o‘zini tahlil qilish amaliyoti, vaziyatli mashg‘ulotlar va muassasa darajasidagi kasbiy qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaeva M. Pedagogik mahorat: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan, 2019. 240 b.
2. Kan-Kalik V. A. Uchebnoe obshchenie i pedagogicheskoe masterstvo. Moskva: Prosveshchenie, 1987. 192 s.
3. Leontev A. A. Pedagogicheskoe obshchenie. Moskva: Znanie, 1979. 64 s.
4. Mitina L. M. Psikhologiya professionalnogo razvitiya uchitelya. Moskva: Akademiya, 2004. 320 s.
5. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge, 2009. 392 p.
6. Rogers C. R. Freedom to Learn. Columbus: Charles E. Merrill Publishing Company, 1969. 358 p.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Sharipjonov Muxiddin Shokirjon o'g'li
Namangan davlat universiteti dotsenti.PhD

ART-PEDAGOGIKA TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada art-pedagogika tushunchasining nazariy asoslari, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi mohiyati hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil etilgan. Shuningdek, art-pedagogikaning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni, talaba va o'quvchilarning ijodiy hamda shaxsiy rivojiga ta'siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalari art-pedagogik yondashuvlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini asoslab beradi.*

Kalit so'zlar: *art-pedagogika, ijodiy ta'lim, san'at vositalari, pedagogik texnologiya, shaxs rivoji.*

Sharipjonov Mukhiddin Shokirjon oglu
Associate Professor of Namangan State University.PhD

THE CONCEPT, ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF ART-PEDAGOGY

Annotation: *This article analyzes the theoretical foundations of the concept of art-pedagogy, its essence in the educational process and stages of historical development. It also reveals the role of art-pedagogy in the modern education system, its impact on the creative and personal development of students and pupils. The results of the study substantiate the importance of art-pedagogical approaches in increasing the effectiveness of education.*

Keywords: *art-pedagogy, creative education, art tools, pedagogical technology, personal development.*

Шарипджонов Мухиддин Шокирджон оглу
Доцент Наманганского государственного университета, кандидат наук

КОНЦЕПЦИЯ, СУЩНОСТЬ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ АРТ-ПЕДАГОГИИ

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретические основы концепции арт-педагогики, её сущность в образовательном процессе и этапы исторического развития. Также раскрывается роль арт-педагогики в современной системе образования, её влияние на творческое и личностное развитие учащихся и школьников. Результаты исследования обосновывают важность арт-педагогических подходов в повышении эффективности образования.*

Ключевые слова: *арт-педагогика, творческое образование, художественные инструменты, педагогические технологии, личностное развитие.*

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan, ijodiy va innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, ta'lim jarayonida o'quvchilarning emotsional, estetik va ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, art-pedagogika ta'lim va san'at integratsiyasiga asoslangan samarali pedagogik yo'nalish sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Art-pedagogika — bu san'atning turli shakllari (tasviriy san'at, musiqa, teatr, dizayn va boshqalar) orqali shaxsni tarbiyalash, rivojlantirish va ijtimoiylashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir. Mazkur yo'nalish nafaqat bilim berishga, balki shaxsning ichki dunyosini boyitishga, mustaqil fikrlash va ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi art-pedagogika tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini yoritish, uning mohiyatini ochib berish hamda rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- **Nazariy tahlil** – art-pedagogika bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, pedagogik va psixologik manbalarni o'rganish;
- **Taqqoslash metodi** – an'anaviy pedagogika va art-pedagogik yondashuvlarning o'zaro farqlarini aniqlash;
- **Tizimli yondashuv** – art-pedagogikaning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish;

• **Umumlashtirish** – olingan ilmiy xulosalarni yagona tizimga keltirish.

Mazkur metodlar art-pedagogikaning mohiyatini chuqur ochib berish va uning rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda yoritishga imkon berdi.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, art-pedagogika bir necha muhim jihatlar bilan tavsiflanadi:

Birinchidan, art-pedagogika ta’lim jarayonida san’atni vosita sifatida qo‘llab, o‘quvchilarning emotsional-intellektual rivojini ta’minlaydi. San’at orqali o‘rganish jarayoni osonlashadi, bilimlar mustahkamroq o‘zlashtiriladi.

Ikkinchidan, art-pedagogika shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalash, muammolarga noodatiy yechim topish imkoniga ega bo‘ladilar.

Uchinchidan, art-pedagogikaning rivojlanish bosqichlari quyidagicha aniqlanadi:

1. **Boshlang‘ich bosqich** – san’at elementlarining tarbiyaviy jarayonga intuitiv tarzda qo‘llanilishi;
2. **Nazariy shakllanish bosqichi** – XX asrda san’at va pedagogika integratsiyasiga oid ilmiy qarashlarning paydo bo‘lishi;
3. **Amaliy rivojlanish bosqichi** – art-terapiya, ijodiy mashg‘ulotlar va innovatsion metodlarning ta’limga joriy etilishi;
4. **Zamonaviy bosqich** – art-pedagogikaning mustaqil pedagogik yo‘nalish sifatida e’tirof etilishi va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, art-pedagogika zamonaviy ta’lim ehtiyojlariga to‘liq javob beradi. An’anaviy ta’limda ko‘proq bilim berishga urg‘u berilgan bo‘lsa, art-pedagogika shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Art-pedagogik yondashuvlar talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, stress va psixologik to‘siqlarni kamaytiradi. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida art-pedagogik metodlardan foydalanish ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, art-pedagogikani amaliyotga tatbiq etishda pedagoglarning maxsus tayyorgarligi va metodik ta’minoti muhim omil hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, art-pedagogika ta’lim va san’atning samarali integratsiyasiga asoslangan zamonaviy pedagogik yo‘nalishdir. U shaxsning ijodiy, estetik va emotsional rivojini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari art-pedagogik yondashuvlarni ta’lim tizimiga keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey J. *Art as Experience*. – New York, 2005.
2. Eisner E. *The Arts and the Creation of Mind*. – Yale University Press, 2002.
3. Vygotsky L.S. *Imagination and Creativity in Childhood*. – Moscow, 1998.
4. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students’ Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *2*(08), 261-267.
5. Baymetov, B., & Sharipjonov, M. (2021). OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA INSON QIYOFASINI AMALIY TASVIRLASH JARAYONIDA IJODIY KOMPYETYENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *Academic Research in Educational Sciences*, *2*(3), 1066-1070.
6. Boltaboyevich, B. B., & Shokirjonugli, S. M. (2020). Formation of creative competences of the fine art future teachers describing geometrical forms (on sample of pencil drawing lessons). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *10*(5), 1996-2001.
7. Байметов, Б., & Шарипжонов, М. (2020). ОЛИЙ ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМДА ТАЛАБАЛАР ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ БЕРИШ МЕТОДИКАСИ (ҚАЛАМТАСВИР МИСОЛИДА). *Academic research in educational sciences*, (4), 357-363.
8. Байметов, Б. Б., & Шарипжонов, М. Ш. (2020). ТАСВИРИЙ САНЪАТДАН МАЛАКАЛИ ПЕДАГОГ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДА НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИНГ УЙҒУНЛИГИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-2№ 3).
9. Sharipjonov, M. S. O. G. L. (2021). OLIY PYEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI. *Science and Education*, *2*(2), 435-443.
10. Шарипжонов, М. Ш. (2020). Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчисининг касбий маҳоратларини такомиллаштиришда амалий машғулотларни ташкил этиш методикаси. *Молодой ученый*, (43), 351-353.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Tojiahmedova Miyassar
Namangan davlat universiteti An'anaviy honandalik va cholg'u ijrochiligi kafedrasi v. b dotsenti

SHARQ NOTIQLIK MAKTABLARI VA NAMOYONDALARI TAJRIBASI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Sharq notiqlik maktablarining shakllanish tarixi, nazariy asoslari va yirik namoyondalarining tajribasi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda arab, fors-tojik va Movarounnahr notiqlik maktablari misolida nutq madaniyatining rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Xususan,* ***Al-Jahiz****,* ***Saadi Shirazi*** *va* ***Alisher Navoiy*** *asarlarida notiqlik san'atining axloqiy, estetik va mantiqiy jihatlari tahlil etildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Sharq notiqlik maktablarida nutqning ma'naviy pokligi, hikmatga boyligi va tinglovchiga ruhiy ta'siri ustuvor hisoblanadi. Shuningdek, maqolada ushbu merosning zamonaviy pedagogika, kommunikatsiya va nutq madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berildi. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimida notiqlik ko'nikmalarini rivojlantirish, talabalar nutq madaniyatini oshirish hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so'zlar*: Sharq notiqlik maktablari, notiqlik san'ati, nutq madaniyati, balog'at, fasohat, pand-nasihat adabiyoti, arab notiqligi, fors-tojik adabiyoti, Movarounnahr notiqligi, ma'naviy tarbiya, pedagogik kommunikatsiya, ritorika, ma'rifiy nutq, mumtoz adabiyot, ilmiy muloqot.*

Тоджиахмедова Мияссар
Наманганский государственный университет Исполняющая обязанности доцента кафедры традиционного пения и инструментального исполнительства

ОПЫТ ВОСТОЧНЫХ ШКОЛ ОРАТОРСКОГО ИСКУССТВА И ИХ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ

Аннотация: *В данной статье с научной точки зрения анализируются исторические этапы формирования, теоретические основы и практический опыт восточных школ ораторского искусства. Исследование охватывает развитие культуры речи в арабской, персидско-таджикской и мавераннахрской традициях. Особое внимание уделено трудам Al-Jahiz, Saadi Shirazi и Alisher Navoiy, в которых раскрываются этические, эстетические и логические аспекты ораторского искусства.*

Результаты исследования показывают, что восточные школы риторики основываются на духовной чистоте слова, нравственной ответственности оратора и гармонии между словом и делом. В статье также обоснована актуальность данного наследия для современной педагогики, теории коммуникации и развития культуры речи. Материалы исследования могут быть использованы в образовательной практике для формирования риторической компетентности и коммуникативной культуры обучающихся.

Ключевые слова: *восточные школы риторики, ораторское искусство, культура речи, красноречие, нравственность, арабская риторика, персидско-таджикская литература, традиция Мавераннахра, педагогика, коммуникация, классическая литература.*

Tojiahmedova Miyassar
Namangan State University Acting Associate Professor of the Department of Traditional Singing and Instrumental Performance

EXPERIENCE OF EASTERN SCHOOLS OF ORATORY AND ITS REPRESENTATIVES

Abstract: *This article analyzes the historical development, theoretical foundations, and practical experience of Eastern rhetorical schools from a scientific perspective. The study examines the stages of development of speech culture within the Arab, Persian-Tajik, and Movarounnahr rhetorical traditions. In particular, the works of Al-Jahiz, Saadi Shirazi, and Alisher Navoiy are analyzed in terms of their ethical, aesthetic, and logical approaches to oratory.*

The findings demonstrate that Eastern rhetorical schools emphasize moral integrity, wisdom-based expression, spiritual influence, and the unity of word and action. The article also substantiates the relevance of this rich intellectual heritage for modern

pedagogy, communication theory, and speech culture development. The results may serve as a methodological foundation for improving students' rhetorical competence, communicative culture, and moral-ethical education in contemporary educational practice.

Keywords: *Eastern rhetorical schools, oratory, speech culture, eloquence, moral rhetoric, Persian-Tajik literature, Arab rhetoric, Movarounnahr tradition, communication studies, pedagogy, classical literature, ethical discourse.*

Kirish

Notiqlik san'ati (ritorika) insoniyat tafakkuri va madaniy taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, u ijtimoiy fikrni shakllantirish, ma'naviy qadriyatlarni targ'ib etish hamda ilmiy, siyosiy va diniy g'oyalarni ommalashtirishda muhim vosita vazifasini bajargan. Sharq sivilizatsiyasida notiqlik san'ati nafaqat nutq mahorati, balki axloqiy komillik, ilmiy salohiyat va estetik did bilan uyg'un holda rivojlangan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo, Eron, Arab va Hind madaniy hududlarida shakllangan notiqlik maktablari o'ziga xos uslub, metod va ma'naviy asosga ega bo'lgan.

Ushbu maqolada Sharq notiqlik maktablarining shakllanish jarayoni, ularning nazariy asoslari hamda yirik namoyondalarining tajribasi ilmiy tahlil qilinadi.Notiqlik san'ati insoniyat ma'naviy merosining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u jamiyatda fikr almashinuvi, ma'rifat tarqatish va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. Sharq sivilizatsiyasida nutq madaniyati faqatgina badiiy mahorat emas, balki axloqiy kamolot, ma'naviy poklik va ilm bilan uyg'un holda qaralgan.

Sharq notiqlik maktablarining shakllanishida islom ma'rifati, tasavvuf ta'limoti va falsafiy meros muhim o'rin tutgan. Masalan, Abu Nasr Forobiy nutq va mantiqni ilm sifatida tahlil qilgan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino fikrni ravon ifoda etishni inson tafakkuri kamoloti bilan bog'lagan. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarida so'z qudrati, nutq odobi va ma'naviy mas'uliyat masalalari keng yoritilgan.

Sharq notiqlik maktablari quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- axloqiylik va ma'naviylik ustuvorligi;
- mantiq va dalillashga asoslangan bayon uslubi;
- badiiy tasvir vositalaridan samarali foydalanish;
- tinglovchi ruhiyatiga ta'sir qilish san'ati.

Metod

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

1. **Manba tahlili** – klassik va zamonaviy adabiyotlarni o'rganish;
2. **Tarixiy-qiyosiy tahlil** – Sharq va G'arb notiqlik maktablarini solishtirish;
3. **Matnshunoslik tahlili** – mutafakkirlar asarlarida nutq madaniyatiga oid g'oyalarni tahlil qilish;
4. **Induktiv va deduktiv usullar** – umumiy nazariy xulosalar chiqarish.

Asosiy manbalar sifatida Qobusnoma, Mahbub ul-qulub hamda Fozil odamlar shahri kabi asarlardan foydalanildi.

Sharq notiqlik an'analari quyidagi omillar asosida rivojlandi:

- Diniy-ma'rifiy muhit – masjid va madrasalarda o'qilgan va'z, tafsir, hadis sharhlari notiqlik maktabining asosiy maydoni bo'ldi.
- Adabiy an'ana – she'riyat, dostonchilik va maqom ijrochiligi nutqning badiiyligini kuchaytirdi.
- Davlat boshqaruvi va diplomatiya – hukmdorlar saroyidagi nutqlar, elchilik marosimlari notiqlikning rasmiy uslubini rivojlantirdi.
- Ilmiy munozaralar – falsafa, mantiq va kalom ilmi doirasidagi bahs-munozaralar mantiqiy nutq madaniyatini shakllantirdi.

Sharqda notiqlik san'ati ko'proq axloqiy-ruhiy ta'sir kuchi, ma'naviy poklik, so'zning hikmatga boyligi bilan ajralib turadi.Tadqiqot natijalariga ko'ra, Sharq notiqlik maktablari quyidagi tajribaviy jihatlarga ega:

1. **Nutq va axloq uyg'unligi** – notiq avvalo ma'naviy barkamol shaxs bo'lishi lozim.
2. **Mantiqqa asoslangan bayon** – fikr izchilligi va dalillar tizimi muhim.
3. **Badiiylik va ta'sirchanlik** – tashbeh, istiora, hikmatli so'zlardan foydalanish.
4. **Tinglovchi psixologiyasini hisobga olish** – auditoriya xususiyatlariga mos uslub tanlash.

Masalan, Forobiy nutqni mantiq ilmi bilan bog'lab, uni insonni haqiqatga yetaklovchi vosita sifatida ko'rsatadi. Navoiy esa so'zning ma'naviy mas'uliyatini alohida ta'kidlaydi.

Muhokama

Sharq notiqlik maktablari tajribasi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida axborot tezkorligi ortib borayotgan sharoitda nutq madaniyati, axloqiy mas'uliyat va dalillash madaniyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

G‘arb an’anasida, jumladan Aristotel tomonidan ishlab chiqilgan “ethos, pathos, logos” tamoyillari bilan Sharq maktablari o‘rtasida muayyan o‘xshashlik mavjud. Biroq Sharq an’anasida axloqiy poklik va ma’naviy kamolot ustuvor o‘rin tutadi.

Arab notiqlik maktabi

Arab notiqlik maktabi islom sivilizatsiyasi davrida yuksak taraqqiyotga erishdi. Qur’on tilining balog‘ati, hadis ilmi va arab adabiyoti bu maktabning nazariy asosini tashkil etdi.

Bu maktabning yirik namoyondalaridan biri — Al-Jahiz (781–869) hisoblanadi. U o‘zining “Al-Bayon va at-Tabyin” asarida nutq madaniyati, balog‘at va ta’sirchanlik masalalarini chuqur tahlil qilgan. Al-Jahiz notiqlikni tabiiy iste’dod va ilmiy mashq uyg‘unligi sifatida talqin etadi.

Arab maktabining asosiy xususiyatlari:

Balog‘at (fasohat va bayon) tamoyili;

Nutqda mantiqiy izchillik;

Qur’on uslubidan ta’sirlanish;

Hikmatli iboralar va maqollardan foydalanish.

Fors-tojik notiqlik maktabi

Fors-tojik adabiy muhitida notiqlik ko‘proq axloqiy-didaktik yo‘nalishda rivojlandi. Bu maktabda nutqning badiiyligi, she’riy ifoda va hikmatli so‘z ustuvor o‘rin tutadi. Yirik namoyondalardan biri — Saadi Shirazi (1210–1292). Uning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarida qisqa, mazmunli va chuqur ma’no yuklangan hikoyatlar orqali notiqlikning ibratli namunasi yaratilgan.

Bu maktabning o‘ziga xos jihatlari:

- Axloqiy pand-nasihat ustuvorligi;
- Ramziy va majoziy ifoda;
- Qisqa, lo‘nda va ta’sirchan jumlalar;
- Estetik ohangdorlik.

Shunday qilib, Sharq notiqlik maktablari nafaqat tarixiy-madaniy meros, balki zamonaviy notiqlik ta’limi uchun nazariy va amaliy asos vazifasini bajaradi.

Sharq notiqligi ko‘proq **axloqiy-ruhiy ta’sir**, **hikmat**, **ma’naviy poklik**ka asoslangan bo‘lsa, G‘arb an’anasida (masalan, Aristotel an’anasida) mantiqiy dalillash va auditoriyani ishontirish texnikasi ustuvor hisoblanadi. Sharqda notiq shaxsiy fazilatlari bilan namuna bo‘lishi lozim deb qaralgan.

Xulosa

Sharq notiqlik maktablari ko‘p asrlik tajriba va boy ma’naviy meros asosida shakllangan. Arab, fors-tojik va Movarounnahr maktablari o‘ziga xos uslub va metodlarga ega bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi jihat — so‘zning axloqiy va ma’naviy qudratini yuksak qadrlashdir.

Bugungi kunda pedagogika, siyosatshunoslik va kommunikatsiya sohasida Sharq notiqlik tajribasini o‘rganish nutq madaniyatini rivojlantirish, yosh avlodni ma’naviy yetuklik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Nasr Forobiy. *Fozil odamlar shahri*.
2. Abu Ali ibn Sino. *Donishnoma*.
3. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*.
4. Kaykovus. *Qobusnoma*.
5. Aristotel. *Ritorika*.
6. Homidov H. Notiqlik san’ati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
7. Karimov N. Nutq madaniyati va notiqlik mahorati. – Toshkent, 2010.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Qirg'izova Xolida Xudayberdiyevna
NamDU, Klinik fanlar kafedrasi

УДК: 378.147:61:811.124

KLINIK FANLARNI O'QITISHDA TERMINOLOGIK KOMPETENSIYANING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada klinik fanlarni o'qitish jarayonida terminologik kompetensiyani shakllantirish muammosi kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda terminologik kompetensiyaning klinik tafakkur, diagnostik qaror qabul qilish va kasbiy kommunikatsiyadagi roli o'rganildi. Empirik tadqiqot natijalari matematik-statistik usullar, jumladan korrelyatsion va regressiya tahlili yordamida qayta ishlanib, xalqaro tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslandi. Natijalar terminologik tayyorgarlik klinik bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini sezilarli oshirishini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *terminologik kompetensiya, klinik ta'lim, tibbiy terminologiya, kasbiy kommunikatsiya, kompetensiyaviy yondashuv, klinik tafakkur.*

Киргизова Холида Худайбердиевна
НамГУ, кафедра клинических дисциплин

ЗНАЧЕНИЕ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ КЛИНИЧЕСКИХ ИСЦИПЛИН

Аннотация. *В данной научной статье на основе комплексного подхода проанализирована проблема формирования терминологической компетенции в процессе преподавания клинических дисциплин. В исследовании изучена роль терминологической компетенции в клиническом мышлении, принятии диагностических решений и профессиональной коммуникации. Результаты эмпирического исследования обработаны с использованием математико-статистических методов, включая корреляционный и регрессионный анализ, и сопоставлены с результатами международных исследований. Полученные результаты показали, что терминологическая подготовка значительно повышает эффективность усвоения клинических знаний.*

Ключевые слова: *терминологическая компетенция, клиническое образование, медицинская терминология, профессиональная коммуникация, компетентностный подход, клиническое мышление.*

Kirgizova Kholida Khudayberdiyevna
Namangan State University, Department of Clinical Disciplines

THE IMPORTANCE OF TERMINOLOGICAL COMPETENCE IN TEACHING CLINICAL DISCIPLINES

Abstract. *This scientific article analyzes the problem of forming terminological competence in the process of teaching clinical disciplines based on a comprehensive approach. The study examines the role of terminological competence in clinical thinking, diagnostic decision-making, and professional communication. The results of the empirical research were processed using mathematical and statistical methods, including correlation and regression analysis, and were compared with the results of international studies. The findings showed that terminological training significantly increases the effectiveness of mastering clinical knowledge.*

Keywords: *terminological competence, clinical education, medical terminology, professional communication, competency-based approach, clinical thinking.*

Kirish

Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimi global miqyosda kompetensiyaga asoslangan modelga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Sog'liqni saqlash sohasida innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi, diagnostik va davolash jarayonlarining murakkablashuvi hamda tibbiy axborotlar hajmining keskin ortishi bo'lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni tubdan yangilamoqda. Bunday sharoitda mutaxassisdan nafaqat nazariy bilimlar majmui, balki rivojlangan klinik tafakkur, dalillarga asoslangan diagnostik qaror qabul qilish qobiliyati hamda samarali

kasbiy kommunikatsiya koʻnikmalari talab etiladi. Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda terminologik tayyorgarlik muhim determinant omillardan biri sifatida namoyon boʻladi [1].

Psixolingvistik yondashuvlarga koʻra, terminologik bilimlar professional tafakkurning struktur va semantik komponentini tashkil etadi. Tibbiy terminologiya kasalliklarning patogenezi, klinik belgilar tizimi, diagnostik mezonlar hamda davolash algoritmlarini konseptual darajada idrok etishni taʼminlaydi. Shu sababli terminologik kompetensiya klinik tafakkurning shakllanishida muhim kognitiv mexanizm sifatida qaraladi [2-5].

Xalqaro tadqiqotlar terminologik tayyorgarlik darajasi va klinik fanlarni oʻzlashtirish samaradorligi oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliqlik mavjudligini koʻrsatadi. Terminologik kompetensiyasi yuqori boʻlgan talabalar klinik fanlarni oʻzlashtirishda oʻrtacha 20–30% yuqori natijalarni namoyon etadi hamda klinik xatoliklar ehtimoli sezilarli darajada kamayadi. Bu esa terminologik savodxonlikning klinik qaror qabul qilish jarayonidagi ahamiyatini tasdiqlaydi [3].

Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi terminologik kompetensiyani kasbiy kompetensiyaning integrativ komponenti sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvga koʻra, terminologik bilimlar faqat nazariy tushunchalar tizimi emas, balki amaliy faoliyatda qoʻllaniladigan bilim, koʻnikma va malakalar majmui sifatida shakllantirilishi lozim. Terminologik kompetensiyaning yetarli darajada rivojlanganligi shifokorning klinik fikrlash sifati, kasbiy kommunikatsiya samaradorligi hamda tibbiy hujjatlar bilan ishlash aniqligini belgilaydi [4-8].

Terminologiya nazariyasiga muvofiq, terminlar kasbiy axborotni standartlashtirish va tizimlashtirish vositasi hisoblanadi. Tibbiy terminologiyaning murakkab strukturasi, koʻp komponentli tuzilishi hamda klinik kontekstga bogʻliqligi uni oʻrganishda maxsus metodik yondashuvlarni talab qiladi [6]. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik yondashuvlar kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda tizimli pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligini asoslaydi [7,9].

Raqamli taʼlim texnologiyalarining jadal rivojlanishi tibbiy terminologiyani oʻqitish jarayoniga yangi didaktik imkoniyatlarni olib kirmoqda. Multimedia vositalari, elektron taʼlim platformalari hamda interaktiv oʻqitish metodlari terminologik bilimlarni ongli oʻzlashtirish hamda uzoq muddatli xotirada saqlash samaradorligini oshiradi [10-14]. Zamonaviy tibbiy taʼlim konsepsiyalari shifokor tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy modelning ustuvorligini tasdiqlaydi [11].

Xalqaro tibbiy taʼlim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan tadqiqotlar zamonaviy sogʻliqni saqlash tizimi yangi kasbiy kompetensiyalarni talab qilishini koʻrsatadi [12,13]. Neyrofan va taʼlim integratsiyasi bilimlarni oʻzlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [15]. Zamonaviy tibbiy taʼlimda terminologik tayyorgarlik klinik kompetensiyalar shakllanishi bilan uzviy bogʻliq hisoblanadi [16]. Shu bilan birga, onlayn va elektron taʼlim texnologiyalari kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda [17, 18].

Shu bois, klinik fanlarni oʻqitish jarayonida terminologik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy tibbiy taʼlim tizimining dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Tibbiy terminologiyaning murakkab tuzilishi, klinik faoliyatda terminologik aniqlikning zarurligi, kompetensiyaviy taʼlim modeliga oʻtish jarayonida terminologik tayyorgarlikning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi hamda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar asosida terminologik kompetensiyani rivojlantirish metodikasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi. Klinik fanlarni oʻqitish jarayonida terminologik kompetensiyaning boʻlajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligiga taʼsirini kompleks ilmiy asoslash hamda terminologik tayyorgarlik darajasi va klinik kompetensiyalar shakllanishi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni empirik jihatdan aniqlash.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Terminologik kompetensiyaning nazariy asoslarini tahlil qilish;
2. Terminologiyaning psixolingvistik va kognitiv xususiyatlarini oʻrganish;
3. Terminologik tayyorgarlikning klinik bilimlarga taʼsirini aniqlash;
4. Terminologik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik texnologiyalarini baholash;
5. Terminologik kompetensiya ва klinik kometensiyalar oʻrtasidagi bogʻliqlikni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodlari.

Mazkur tadqiqotda kvazi-eksperimental pedagogik tadqiqot modeli qoʻllanildi. Ushbu model terminologik kompetensiyani rivojlantirish samaradorligini tajriba va nazorat guruhlari natijalarini taqqoslash asosida aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot modeli quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Diagnostik bosqich – talabalarning boshlangʻich terminologik kompetensiya darajasi aniqlandi;

Eksperimental bosqich – ishlab chiqilgan oʻqitish metodikasi tajriba guruhida joriy etildi;

Yakuniy tahlil bosqichi – olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

Diagnostik metodlar:
terminologik testlar;
klinik vaziyatli topshiriqlar;
kommunikativ kompetensiyani baholash shkalasi.
Eksperimental metodlar:
case-study texnologiyasi;
simulyatsion mashg‘ulotlar;
klinik terminologik trening;
interfaol mashg‘ulotlar.
Statistik qayta ishlash metodlari:
Tadqiqot natijalari matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib tahlil qilindi.
Qo‘llanilgan statistik metodlar:
o‘rtacha qiymat (M);
standart og‘ish (SD);
Student t-testi;
ANOVA (bu bir nechta guruhlar o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatlimi yoki yo‘qligini aniqlaydigan matematik statistik usul) variatsion tahlil.
Pearson korrelyatsiya koeffitsienti (r);
Chiziqli regressiya modeli (R^2);
Statistik ishonchlilik darajasi $\mathbf{p < 0.05}$ sifatida qabul qilindi.

Tajriba-sinov ishlari davomida talabalarning terminologik kompetensiya darajasi bosqichma-bosqich baholab borildi.

Olingan natijalar tizimlashtirilib, jadval va diagramma ko‘rinishiga keltirildi.

Tajriba-sinov natijalari va ularning tahlili.

Tajriba-sinov ishlari tadqiqotda NamDU Tibbiyot fakultetining 2–3 bosqichida tahsil olayotgan jami 120 nafar talabalari ishtirok etib, ular tajriba guruhi (60 nafar) va nazorat guruhi (60 nafar)ga ajratildi.

Nazorat guruhida tibbiy terminologiyani o‘qitish an’anaviy (ma’ruza asosida tushuntirish, terminlarni tarjima qilish, terminlarni yodlashga asoslangan mashqlar, yozma topshiriqlar, frontal savol-javob) metodlari orqali amalga oshirildi. Ushbu metodlar terminologik bilimlarni nazariy o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, terminlarning klinik qo‘llanilishiga kamroq e’tibor qaratildi.

Tajriba guruhida tibbiy terminologiyani o‘qitish (multisensor o‘qitish elementlari, vizual-assotsiativ termin xaritalari, klinik vaziyatli topshiriqlar (case-study), simulyatsion mashg‘ulotlar, interfaol muhokamalar, refleksiv topshiriqlar) metodlari orqali tashkil etildi. Bunda terminlarni ongli o‘zlashtirish, uzoq muddatli xotirada saqlash hamda klinik faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirildi.

Ikkala guruhda ham terminologik kompetensiyani kompleks baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshirildi.

1. **Terminologik bilim darajasi:**
- terminlarni bilish;
- terminlarni to‘g‘ri talaffuz qilish;
- terminlarning tuzilishini tushunish.

2. Semantik tushunish darajasi:
- terminlarning ma’nosini izohlash;
- terminlarni klinik kontekstda tushunish.

3. Amaliy qo‘llash darajasi:
- terminlarni og‘zaki nutqda qo‘llash;
- terminlarni yozma nutqda qo‘llash;
- klinik vaziyatlarda terminlardan foydalanish.

4. Refleksiv ko‘nikmalar:
- o‘z bilimlarini baholash;
- xatolarni tahlil qilish;
- terminologik bilimlarni mustahkamlash.

Tibbiy terminologiya kopmpetensiyani baholash usullari (terminologik testlar, klinik vaziyatli topshiriqlar, kommunikativ kompetensiyani baholash shkalasi, pedagogik kuzatuv kartalari) kabi vositalar yordamida, natijalarni baholash shkalasi esa 3 ta (past, o‘rta va yuqori) darajalarda amalga oshirildi. Tajriba va nazorat guruhlari bo’icha tibbiy

terminologiya kopmpetensiyani bilish ahamiyati natijalari matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Olingan natijalar quyidagi jadvallar va diagrammada keltirilgan.

1-jadval.

Terminologik kompetensiya darajalari (%)

Ko‘rsatkich	Boshi	Oxiri	Adabiyot malumotlari	
Past	42	18	20–25%	[3]
O‘rta	46	52	45–50%	[6]
Yuqori	12	30	25–35%	[5]

1-jadvalda keltirilgan natijalar terminologik kompetensiyaning shakllanish dinamikasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatadi. Tadqiqot boshida talabalar orasida past darajadagi terminologik kompetensiya 42% ni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakunida ushbu ko‘rsatkich 18% gacha kamaydi. Bu talabalarning terminologik bilimlari mustahkamlanganini bildiradi.

O‘rta darajadagi ko‘rsatkichlar tadqiqot boshida 46% ni tashkil etgan bo‘lsa, tadqiqot oxirida 52% ga yetdi. Bu natija talabalarning terminologik bilimlari barqaror rivojlanayotganini hamda bilimlarning asta-sekin yuqori darajaga o‘tishini ko‘rsatadi.

Eng muhim ijobiy o‘zgarish yuqori darajadagi terminologik kompetensiya ko‘rsatkichlarida kuzatildi. Tadqiqot boshida yuqori daraja 12% ni tashkil etgan bo‘lsa, tadqiqot yakunida ushbu ko‘rsatkich 30% ga ortgan. Bu esa qo‘llanilgan o‘qitish metodikasining terminologik kompetensiyani rivojlantirishda yuqori samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan taqqoslanganda ham mos kelishi aniqlandi. Jumladan, past darajadagi ko‘rsatkichlar 20–25% diapazonida bo‘lishi haqidagi ilmiy ma’lumotlar bilan mos keladi [3]. O‘rta darajadagi ko‘rsatkichlar 45–50% diapazoniga yaqinlashgani terminologik kompetensiyaning barqaror shakllanishini tasdiqlaydi [6]. Yuqori darajadagi ko‘rsatkichlar esa 25–35% oralig‘idagi xalqaro tadqiqot natijalari bilan mos kelishi aniqlangan [5].

Natijalar terminologik kompetensiya rivojlanishi tizimli pedagogik yondashuv asosida samarali shakllanishini ko‘rsatadi. Terminologik bilimlarning oshishi klinik fanlarni o‘zlashtirish sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, terminologik kompetensiya darajasining oshishi talabalarda klinik tafakkur, kasbiy kommunikatsiya hamda diagnostik fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga ham xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, olingan natijalar terminologik kompetensiyani tizimli rivojlantirish tibbiy ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Klinik bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Klinik bilim o‘zlashtirish natijalari


Guruh	Boshi	Oxiri	Adabiyot	
Nazorat	68	74	70–75	[7]
Tajriba	69	85	80–88	[3]

2-jadval natijalaridan ko’rinib turibdiki, Klinik bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tajriba guruhida 69 balldan 85 ballgacha oshgan, bu WHO tadqiqotlarida keltirilgan 80–88 ball diapazoniga mos keladi. Nazorat guruhida esa o‘sish pastroq bo‘lib, bu an’anaviy o‘qitish metodlarining nisbatan past samaradorligini ko‘rsatadi.

Korrelyatsion tahlil natijasida terminologik kompetensiya va klinik bilimlarni o‘zlashtirish o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik aniqlandi ($r = 0.71$; $p < 0.01$). Bu natija terminologik tayyorgarlik oshishi bilan klinik bilimlar ham oshishini tasdiqlaydi.

Regressiya tahlili natijasida $Y = 0.62X + 1.84$ modeli olindi. Determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0.64$ bo‘lib, klinik bilimlar o‘zgarishining 64% terminologik kompetensiya bilan izohlanishini ko‘rsatdi.

Umuman olganda tajriba guruhida terminologik kompetensiya (1-jadval) va klinik bilimlar (2-jadval) keskin o‘sishi kuzatildi. Nazorat va tajriba guruhida terminologik kompetensiya hamda klinik bilimlarni o’zaro bog’liqligini diagrammaga ifodalanganda o’sish dinamikasidagi farqni yaqqol ko’rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Terminologik kompetensiya va klinik bilimlar o'rtasidagi regressiya bog'liqligi

1-rasm terminologik kompetensiya va klinik bilimlar o'rtasida musbat chiziqli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Grafik tahlil terminologik kompetensiya oshishi bilan klinik bilimlar ko'rsatkichlari chiziqli o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kasbiy kommunikatsiyani rivojlanishi bo'yicha olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan. Natijalarni statistik modellashtirish 4-jadvalda keltirilgan

3-jadval.

Kommunikatsiya rivojlanishi

Ko'rsatkich	Natija	Adabiyot	
Klinik nutq	+32%	25–30%	[2]
Diagnostik izoh	+28%	20–25%	[1]

3- jadvalda keltirilgan natijalar terminologik kompetensiyaning rivojlanishi kasbiy kommunikatsiya sifatiga statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, klinik nutq aniqligi 32% ga oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich xalqaro tadqiqotlarda qayd etilgan 25–30% diapazondan yuqori natijani tashkil etadi [2]. Mazkur o'sish terminologik bilimlarning nutq faoliyatida faol qo'llanila boshlaganini ko'rsatadi.

Diagnostik izoh sifati ko'rsatkichlari ham ijobiy o'sish dinamikasini namoyon etdi. Tadqiqot davomida ushbu ko'rsatkich 28% ga oshgani kuzatildi. Ushbu natija ilmiy adabiyotlarda keltirilgan 20–25% ko'rsatkichlar bilan mos keladi hamda ayrim holatlarda undan yuqori natijani tashkil etadi [1]. Bu esa terminologik bilimlarning klinik tafakkur jarayonida faol integratsiyalashganini ko'rsatadi.

4-Jadval.

Statistik modellashtirish natijalari

Ko'rsatkich	Qiymat
Korrelyatsiya koeffitsienti	$r = 0.71$ ($p < 0.01$)
Regressiya tenglamasi	$Y = 0.62X + 1.84$
Determinatsiya koeffitsienti	$R^2 = 0.64$

4-jadvaldagi ko'rsatkichlarning qiymatlaridan ma'lumki, $r = 0.71$ ($p < 0.01$) terminologik kompetensiya va klinik bilim o'zlashtirish o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu natija terminologik kompetensiya oshishi bilan klinik bilimlar ham oshishini ko'rsatadi.

Regressiya modeli: $Y = 0.62X + 1.84$; $R^2 = 0.64$ terminologik kompetensiya klinik natijalarning 64% ni tushuntirishini bildiradi.

Statistik tahlil natijalari tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqning ishonchli ekanligini ko'rsatdi ($p < 0.05$). Bu esa kuzatilgan o'zgarishlar tasodifiy emas, balki qo'llanilgan pedagogik yondashuv natijasi ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, terminologik kompetensiya va kasbiy kommunikatsiya ko'rsatkichlari o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik aniqlangan ($r \approx 0.7$). Bu terminologik bilim darajasi oshishi bilan kommunikativ kompetensiya ko'rsatkichlari

ham ortib borishini ko‘rsatadi. Determinatsiya koeffitsienti ($R^2 \approx 0.6$) esa kasbiy kommunikatsiya ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarning taxminan 60% terminologik kompetensiya darajasi bilan izohlanishini ko‘rsatadi.

Jadval 3 natijalarini Jadval 1 va Jadval 2 ko‘rsatkichlari bilan kompleks tahlil qilish terminologik kompetensiya, klinik bilimlar va kasbiy kommunikatsiya o‘rtasida o‘zaro bog‘liq tizim mavjudligini ko‘rsatadi. Terminologik bilimlarning oshishi klinik tafakkur rivojlanishiga, bu esa o‘z navbatida kasbiy kommunikatsiya sifatining oshishiga olib kelgan.

Natijalar amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Terminologik kompetensiyaning oshishi shifokor va bemor o‘rtasidagi kommunikatsiya sifatini yaxshilash, klinik hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish hamda diagnostik qarorlarni aniq ifodalash imkonini beradi.

Umuman olganda, olingan natijalar terminologik kompetensiyani tizimli rivojlantirish kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning muhim omili ekanligini statistik jihatdan tasdiqlaydi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari klinik fanlarni o‘qitish jarayonida terminologik kompetensiyani tizimli shakllantirish bo‘lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqladi. Neyrodidaktik va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan o‘qitish modeli terminologik bilimlarni ongli o‘zlashtirish, ularni klinik tafakkur tizimiga integratsiyalash hamda amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgani aniqlandi.

Tajriba-sinov natijalari terminologik kompetensiyaning rivojlanishi klinik bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, kasbiy kommunikatsiya sifati hamda diagnostik fikrlash ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatdi. Matematik-statistik tahlil natijalari terminologik kompetensiya va klinik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi ($p < 0,05$). Korrelyatsion va regressiya tahlillari terminologik kompetensiya klinik kompetensiyalar shakllanishining muhim prognoz omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar terminologik kompetensiyani rivojlantirish klinik tafakkur, diagnostik qaror qabul qilish va kasbiy kommunikatsiya samaradorligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Shu sababli tibbiy ta’lim jarayoniga terminologik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kelgusida terminologik kompetensiyani rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalari va innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish yo‘nalishida tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зимняя И.А. Компетентностный подход в образовании. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 240 с.

2. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл, 2003. – 287 с.

3. Вербицкий А.А. Контекстное обучение в высшей школе. – Москва: Высшая школа, 2013. – 207 с.

4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. – Москва: Педагогическое общество России, 2010. – 320 с.

5. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – Москва: Языки славянской культуры, 2015. – 560 с.

6. Даниленко В.П. Теория терминологии. – Москва: Наука, 2017. – 312 с.

7. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И. Педагогика. – Москва: Академия, 2018. – 608 с.

8. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 2017. – 192 с.

9. Шодиев Б., Хожимухамедов А. Педагогик технологиялар. – Тошкент: Фан, 2018. – 280 б.

10. Раҳимов С. Тиббий таълим методикаси асослари. – Тошкент: Ibn Sino, 2020. – 256 б.

11. Каримова М. Касбий таълимда компетенциявий ёндашув. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. – 224 б.

12. World Health Organization. Transforming and scaling up health professionals’ education and training. – Geneva: WHO Press, 2022. – 124 p.

13. Frenk J., Chen L., Bhutta Z.A., et al. Health professionals for a new century: transforming education to strengthen health systems. – The Lancet. – 2010. – Vol. 376(9756). – P. 1923–1958.

14. Harden R.M. Outcome-based education: the future is today. – Medical Teacher. – 2007. – Vol. 29(7). – P. 625–629.

15. Mayer R.E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 304 p.

16. Tokuhama-Espinosa T. Mind, Brain, and Education Science. – New York: W.W. Norton & Company, 2011. – 480 p.

17. Cook D.A., Steinert Y. Online learning for faculty development: systematic review. – Medical Teacher. – 2013. – Vol. 35(11). – P. 930–937.
18. Ruiz J.G., Mintzer M.J., Leipzig R.M. The impact of e-learning in medical education. – Academic Medicine. – 2006. – Vol. 81(3). – P. 207–212.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Tilakov Alisher Ashurovich
Jizzax Davlat pedagogika universiteti cport turlarini o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: Alishertilakov332@mail.ru

DZYUDO TURIDAN FOYDALANISH ZARURATINI BELGILOVCHI OMILLAR, KUCH TUZILMALARI OLIY O‘QUV YURTLARIGA KIRISH UCHUN ABITURIENTLARNI TAYYORLASH

Annotatsiya. *Maqolada kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun abiturientlarni tayyorlashda dzyudodan foydalanish zaruratini belgilovchi omillarni asoslash bo‘yicha tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Ularga quyidagilar kiradi: kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kiruvchi abiturientlarda yakka kurash va dzyudo ko‘nikmalarining rivojlanish darajasining yetarli emasligi; kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorligini ta’minlashda dzyudoning ahamiyatli o‘rni; abiturientlarning kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun jismoniy tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi. Respondentlar, shuningdek, kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tayyorgarlik dasturini o‘zlashtirishda dzyudoning ustuvor rolini; dzyudoning kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlaridagi jismoniy tayyorgarlikning boshqa bo‘limlari bilan yaqin bog‘liqligini, shuningdek, bitiruvchilarning samarali kasbiy faoliyati uchun jismoniy tayyorgarlik va dzyudoning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidladilar.*

Kalit so‘zlar: *omillar; kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlari; jismoniy tayyorgarlik; dzyudo; abiturientlar.*

Тилаков Алишер Ашурович
Старший преподаватель кафедры методики преподавания спорта, Джизакский государственный педагогический университет

ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ НЕОБХОДИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДЗЮДО, СТРУКТУРЫ ВЛАСТИ, ПОДГОТАВЛИВАЮЩИЕ АБИТУРИЕНТОВ К ПОСТУПЛЕНИЮ В ВЫСШИЕ УЧЕБНЫЕ ЗАВЕДЕНИЯ

Аннотация. *В статье представлены результаты исследования, обосновывающего необходимость использования дзюдо при подготовке абитуриентов к поступлению в высшие учебные заведения силовых структур. К ним относятся: недостаточный уровень развития навыков боевых искусств и дзюдо среди абитуриентов к поступлению в высшие учебные заведения силовых структур; значительная роль дзюдо в обеспечении готовности выпускников высших учебных заведений силовых структур к профессиональной деятельности; недостаточный уровень физической подготовки абитуриентов к поступлению в высшие учебные заведения силовых структур. Респонденты также отметили приоритетную роль дзюдо в освоении программы физической подготовки в высших учебных заведениях силовых структур; тесную связь дзюдо с другими разделами физической подготовки в высших учебных заведениях силовых структур, а также взаимозависимость физической подготовки и дзюдо для эффективной профессиональной деятельности выпускников.*

Ключевые слова. *факторы; структуры власти; высшие учебные заведения; физическая подготовка; дзюдо; абитуриент.*

Tilakov Alisher Ashurovich
Senior Lecturer, Department of Methods of Teaching Sports, Jizzakh State Pedagogical University

FACTORS DETERMINING THE NEED FOR THE USE OF JUDO, POWER STRUCTURES PREPARING APPLICANTS FOR ENTRY TO HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation. *The article presents the results of a study on the justification of the factors determining the need to use judo in preparing applicants for admission to higher educational institutions of the security forces. These include: the insufficient level of development of martial arts and judo skills among applicants for admission to higher educational institutions of the security forces; the significant role of judo in ensuring the readiness of graduates of higher educational institutions of the security forces for professional activity; the insufficient level of physical training of applicants for admission to higher educational institutions of the*

security forces. Respondents also noted the priority role of judo in mastering the physical training program in higher educational institutions of the security forces; the close connection of judo with other sections of physical training in higher educational institutions of the security forces, as well as the interdependence of physical training and judo for the effective professional activity of graduates.

Keywords. *factors; power structures; higher education institutions; physical training; judo; applicants.*

Kirish. So‘nggi yillarda kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kiruvchi abiturientlarning jismoniy tayyorgarlik darajasining pasayishi bilan bog‘liq barqaror tendentsiya kuzatilmoqda . SHu bilan birga, kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining jismoniy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar oshdi . Ko‘plab kursantlar kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tayyorgarlik dasturini, ayniqsa yakka kurash turlarini o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch kelishmoqda. Kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kirishda ko‘plab abiturientlar jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha qoniqarsiz baholar olmoqda. Yuqorida qayd etilgan holatlar ayrim kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilar uchun jismoniy tayyorgarlik, yakka kurash va dzyudo bo‘yicha maxsus kurslar ochilishiga olib keldi. Ammo hozirgi vaqtda bunday kurslarda jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini o‘tkazish dasturi ishlab chiqilmagan.

Kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlarining jismoniy tayyorgarlik va sport kafedralari o‘qituvchilari abiturientlar bilan haftasiga ikki marta o‘z ixtiyorlariga ko‘ra mashg‘ulot o‘tkazadilar. Kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilar uchun jismoniy tayyorgarlikning eng samarali vositalarini aniqlash va ularni muayyan dasturga birlashtirish bo‘yicha ilmiy izlanish talab etiladi.

Texnik taraqqiyot kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining kasbiy faoliyatini tubdan o‘zgartirdi. Bir qarashda, ilmiy-texnik taraqqiyot jismoniy tayyorgarlik rolining kamayishiga olib keladi, chunki mehnat avtomatizatsiyasi keskin oshdi, deb o‘ylash mumkin. Biroq bunday qarash to‘liq to‘g‘ri emas. Umumiy tendentsiya shundan iboratki, kuch tuzilmalarining texnik jihozlanishi oshgan sari, bitiruvchilarning funktsional imkoniyatlariga qo‘yiladigan talablar ham ortadi. Bu quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

1. Kuch tuzilmalarida xizmat bilan bog‘liq nerv-psixik yuklamalar va zo‘riqishlarning ortishi.
2. Kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarning oshishi.

Kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining organizm moslashuv imkoniyatlariga qo‘yiladigan talablarning keskin ortishi.

Dzyudo barcha yakka kurash turlarini deyarli birlashtiruvchi tizimli sport turidir. Shunday qilib, kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida abiturientlarni dzyudo vositalari orqali tayyorlashni ko‘rib chiqish mumkin.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni hal qilish uchun kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlarida 10 yildan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan 82 nafar mutaxassis o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.


Kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun abiturientlarni tayyorlashda dzyudodan foydalanish zaruratini belgilovchi omillarning ranjirlangan tuzilmasi (n=82, W>0,75)

1-jadval

Tartib rakam	Omillar	Ko‘rsatkichlar (%)
1	Kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kiruvchi abiturientlarda yakka kurash va dzyudo ko‘nikmalarining rivojlanish darajasining yetarli emasligi	28,3
2	Kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorligini ta’minlashda dzyudoning ahamiyatli o‘rni	21,7
3	Abiturientlarning kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun jismoniy tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi	17,8
4	Kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tayyorgarlik dasturini o‘zlashtirishda dzyudoning ustuvor roli	12,2
5	Dzyudoning kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlaridagi jismoniy tayyorgarlikning boshqa bo‘limlari bilan yaqin bog‘liqligi	11,7
6	Bitiruvchilarning samarali kasbiy faoliyati uchun jismoniy tayyorgarlik va dzyudoning o‘zaro bog‘liqligi	8,3

Aniqlanishicha, kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun abiturientlarni tayyorlashda dzyudodan foydalanish zaruratini belgilovchi asosiy omil — abiturientlarda yakka kurash va dzyudo ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Shu bilan birga, dzyudoning bitiruvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ahamiyatli

o‘rni qayd etildi. Respondentlar, shuningdek, dzyudoning jismoniy tayyorgarlik dasturini o‘zlashtirishdagi ustuvor rolini, uning boshqa bo‘limlar bilan yaqin bog‘liqligini hamda samarali kasbiy faoliyat uchun jismoniy tayyorgarlik va dzyudoning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidladilar. **1-rasm**



O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari faoliyatining xususiyatlari quyidagilardan iborat: uzluksizlik; keskin dinamikalik; yuqori mas‘uliyat; qaror qabul qilishda mustaqillik. Ushbu sifatlarning barchasini dzyudo orqali rivojlantirish mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy faoliyatning yuqorida qayd etilgan noqulay xususiyatlari bitiruvchilarning jismoniy va nerv-psixik holatiga yuqori talablar qo‘yadi. Shu bois abiturientlarni kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kirishga tayyorlash samaradorligini oshirishning yangi yondashuvlarini izlash zarur. Shunday yo‘nalishlardan biri — ularning tayyorgarlik sifatini dzyudo vositalari orqali yaxshilashdir.

Turli yillardagi abiturientlar so‘rovi ma’lumotlarini bitiruvchilarning sport ixtisosligi bo‘yicha anketalash natijalari bilan taqqoslash ularning mos kelishini ko‘rsatdi. Bu moslik mutlaq ko‘rsatkichlar bo‘yicha emas, balki turli malakali sportchilar ulushi nisbati bo‘yicha aniqlanadi. Odatda barcha holatlarda taqsimotda yakka kurash turlari va xususan dzyudo vakillari ustunlik qilgan. Kirish imtihonlari natijalariga ko‘ra qabul qilingan va chetlatilgan abiturientlarning sport tayyorgarligi ma’lumotlarini taqqoslash ham muayyan qiziqish uyg‘otadi. Dzyudo bo‘yicha sport tajribasiga ega nomzodlar ustunligi kuzatiladi. Qabul qilinganlar orasida ularning ulushi qabul qilinganlar va chetlatilganlar umumiy soni nisbatidan qat’i nazar yuqoriroqdir.

Kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga yangi qabul qilinganlarning sport malakasi va ixtisosligi boshlang‘ich darajasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, u mamlakat aholisi orasidagi sport ishlarining umumiy holatini to‘liq aks ettirmaydi. Ustuvor sport ixtisosliklari tuzilmasi barqaror saqlangan holda, sport tajribasiga ega bo‘lganlar ulushi keskin kamaygan. SHu bilan birga, sport bilan shug‘ullanishning abiturientlar jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlariga ta’siri tasdiqlandi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, kirish jarayonida abiturientlar uchun eng katta qiyinchilik yakka kurash turlarida yuzaga keladi.

Respondentlar dzyudoning jismoniy tayyorgarlik dasturini o‘zlashtirishdagi ustuvor rolini va uning boshqa bo‘limlar bilan yaqin bog‘liqligini ham ta’kidladilar. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, dzyudo mashg‘ulotlari kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tayyorgarlik dasturini sifatliroq o‘zlashtirish imkonini beradi.

Respondentlar, shuningdek, samarali kasbiy faoliyat uchun jismoniy tayyorgarlik va dzyudoning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidladilar. Kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari kasbiy faoliyatining xususiyatlari ham dzyudodan foydalanishni talab qiladi. Dzyudo va jismoniy tayyorgarlik oldida abiturientlar va bitiruvchilarda kelgusidagi kasbiy faoliyatga moslashuvni shakllantirish vazifasi turibdi.

Xulosa. Shunday qilib, kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari kasbiy faoliyatining o‘ziga xosligi abiturientlarni tayyorlashda dzyudodan foydalanish asosida yotadi. Shu bilan birga, kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun abiturientlarni tayyorlashda dzyudodan foydalanishning pedagogik jihati yetarlicha o‘rganilmaganligini ta’kidlash lozim. Aniqlangan omillar kuch tuzilmalari oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun abiturientlarni tayyorlashda dzyudodan foydalanishning yaxlit tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. A.R.Tuymuradov S.F.atajanov Sport pedagogika mahoratini oshirish
2. Bayturaev E.I. “Sambo kurashi nazariyasi va uslubiyati” T., 2016.
3. Bayturaev E.I., Odilov B.B. Sport pedagogik mahoratini oshirish. T., 2017.
4. Bayturaev E.I., Odilov B.B. Sport pedagogik mahoratini oshirish. T., 2019.
5. Bayturaev E.I., Radjapov M.A., Odilov B.B. “Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati” Darslik T. 2020
6. F.A.Kerimov sport kurashi va nazariyasi uslubyati 2001
7. Komil.Y kurash xalqaro qoidalari texnikasi va taktikasi 2015
8. Tastanov N.A. – “Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati” Darslik. T. 2015.
9. Tastanov N.A. – “Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati” Darslik.T. 2017.
10. To‘ychiyev T.S - Para dzyudo mashg‘ulotlarida belbog‘li kurash texniksini qo‘llashda innovasion pedagogik texnologiyalari. 2023/9/26
11. To‘ychiyev T.S - Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi (kurash) O‘quv qo‘llanma. 2023.
12. To‘ychiyev T.S - Yuqori malakali belbog‘li kurashchilarni musobaqaoldi texnik-taktik ko‘rsatkichlarini baxolash metodikasi. 2023

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=RCX7d0MAAAAJ&citation_for_view=RCX7d0MAAAAJ:roLk4NBRz8UC

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Toshmurodov Otabek Erkinovich
Pedagogıka fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Email: otoshmurodov74@mail.ru

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK GURUHLARIDA SHUG‘ULLANUVCHI KURASHCHILANING EGILUVCHANLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida kurash sporti bilan shug‘ullanuvchi 10–12 yoshli sportchilarda egiluvchanlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlar majmuasining samaradorligi o‘rganilgan. Pedagogik tajriba davomida nazorat va tajriba guruhlarida egiluvchanlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi hamda mashg‘ulot jarayoniga maqsadli egiluvchanlik mashqlari joriy etildi. Tadqiqot natijalari tajriba guruhida barcha nazorat testlari bo‘yicha statistik jihatdan ishonchli yaxshilanish kuzatilganini ko‘rsatdi (p<0,05). Olingan natijalar ishlab chiqilgan mashqlar majmuasining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Kurash, egiluvchanlik, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi, pedagogik tajriba, maxsus mashqlar, bo‘g‘imlar harakatchanligi.*

Тошмуродов Отабек Эркинович
Доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент
Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ГИБКОСТИ У КУРАШИСТОВ НА ЭТАПЕ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация. *В статье изучена эффективность комплекса специальных упражнений, направленных на развитие гибкости у спортсменов 10–12 лет, занимающихся борьбой кураш на этапе начальной подготовки. В ходе педагогического эксперимента были проанализированы показатели гибкости в контрольной и экспериментальной группах, а также внедрены целенаправленные упражнения на развитие гибкости в тренировочный процесс. Результаты исследования показали статистически достоверное улучшение всех контрольных показателей гибкости в экспериментальной группе (p<0,05). Полученные данные подтверждают практическую эффективность разработанного комплекса упражнений.*

Ключевые слова: кураш*, гибкость, этап начальной подготовки, педагогический эксперимент, специальные упражнения, подвижность суставов.*

Toshmurodov Otabek Erkinovich
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Samarkand State University named after Sharaf Rashidov

METHODOLOGY FOR DEVELOPING FLEXIBILITY IN KURASH WRESTLERS AT THE INITIAL TRAINING STAGE

Annotation. *The article examines the effectiveness of a complex of special exercises aimed at developing flexibility in 10-12 year old wrestlers engaged in kurash at the initial training stage. During the pedagogical experiment, flexibility indicators in the control and experimental groups were analyzed, and targeted exercises for developing flexibility were introduced into the training process. The study results showed a statistically significant improvement in all control flexibility indicators in the experimental group (p<0.05). The obtained data confirm the practical effectiveness of the developed exercise complex.*

Key words: *Kurash, flexibility, initial training stage, pedagogical experiment, special exercises, joint mobility.*

Dolzarbligi. Kurash sportiga bo‘lgan qiziqishning tobora ortishi va keng tarqalishi, uning faol rivojlanishi murabbiylar va mutaxassislarning e’tiborini kurashchilarning jismoniy tayyorgarligining barcha jihatlarini takomillashtirishga qaratmoqda. Bu sportchilarning yutuqlari bevosita shu omillarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi [2]. S.B. Gulgenovning. [10-11] fikricha, kurashchilarning butun jismoniy tayyorgarligining asosiy omili maxsus jismoniy

tayyorgarlik darajasi hisoblanadi. Egiluvchanlikni rivojlantirish esa alohida ahamiyat kasb etadi, chunki uning rivojlanish darajasi boshqa muhim jismoniy sifatlar bilan birgalikda musobaqa bellashuvlarida ustunlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, egiluvchanlikning yuqori darajada rivojlanganligi mashg'ulotlar jarayonida jarohatlanish xavfini kamaytiradi [4].

Egiluvchanlik jismoniy sifati kurashda ham, umuman sport faoliyatida ham muhim ahamiyatga ega. Egiluvchanlikning rivojlanish darajasi boshqa jismoniy sifatlar, ya'ni tezkorlik, kuch va koordinatsion qobiliyatlarning namoyon bo'lishi hamda uyg'un rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Barcha kurash turlarining mashg'ulot jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnik-taktik harakatlarni o'rgatish va takomillashtirishda bo'g'imlardagi egiluvchanlik va harakatchanlikni rivojlantirish hamda takomillashtirish zarur. Chunki bo'g'imlarda egiluvchanlik va harakatchanlikning yetarli darajada rivojlanganligi kurashchilarga himoya holatida turganida raqibning hujum harakatlarini bartaraf etish uchun harakat usullarining barcha texnik-taktik vositalarini qo'llashda yordam beradi. Shuningdek, bo'g'imlarda egiluvchanlik va harakatchanlikning yuqori darajada rivojlanganligi mashg'ulot jarayonida o'zlashtirilgan barcha texnik usullar va harakatlarni bevosita musobaqa faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llash imkonini beradi. [13,16].

Sportning turli yo'nalishlarida mashg'ulot jarayonida egiluvchanlikni rivojlantirish va takomillashtirish muammolarini yoritishga ko'plab ilmiy tadqiqotlar bag'ishlangan. Biroq, kurash sport turida egiluvchanlik va bo'g'imlar harakatchanligini rivojlantirish masalalarini tizimli ravishda o'rganishga qaratilgan ilmiy ishlar nisbatan kam uchraydi. Ushbu holat, avvalo, kurashchilar tayyorgarligi jarayonida egiluvchanlik sifatini rivojlantirishga yetarli darajada e'tibor qaratilmasligi bilan izohlanadi. Shuningdek, kurash bo'yicha mashg'ulot jarayonida egiluvchanlik va bo'g'imlardagi harakatchanlikni rivojlantirish hamda takomillashtirishga yo'naltirilgan maxsus uslubiy yondashuvlar deyarli ishlab chiqilmagan. Amaliyotda qo'llanilayotgan egiluvchanlikni rivojlantirish usullari esa asosan bir xil xarakterga ega bo'lib, ko'pincha boshqa sport turlaridan moslashtirilmagan holda o'zlashtirilganligi bilan tavsiflanadi. [17,19].

Tadqiqotning maqsadi. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida kurash sporti bilan shug'ullanuvchi 10-12 yoshli sportchilarda egiluvchanlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar majmuasini nazariy asoslash va tajribada sinab ko'rishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, yetakchi sportchilar va murabbiylar bilan suhbatlashish, nazorat sinovlari, pedagogik kuzatuvlar hamda tajriba olib boorish, tadqiqot natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish.

Tadqiqotning vazifalari. 10-12 yoshli kurashchilarning egiluvchanligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajribada asoslash.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. 10-12 yoshli kurashchilarda egiluvchanlikni rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan mashqlar majmuasining samaradorligini baholash maqsadida pedagogik tajriba tashkil etildi va o'tkazildi. Ushbu pedagogik tajribada Samarqand viloyati Samarqand tumani 1–sonli sport maktabidagi kurash bilan shug'ullanuvchi 10-12 yoshli 24 nafar sportchi ishtirok etdi.

Pedagogik tajriba 2025-yil sentyabr oyidan 2026-yil yanvar oyigacha bo'lgan davrda o'tkazildi. Tadqiqotda ishtirok etgan bolalar soni 24 nafarni tashkil etib, ular har biri 12 nafardan iborat bo'lgan tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Guruhlarni shakllantirish jarayoni 2025-yil sentyabr oyining boshida o'tkazilgan dastlabki nazorat sinovlari natijalariga asoslangan holda amalga oshirildi.

Pedagogik tajriba boshlanishidan oldin sinovdan o'tuvchilarning egiluvchanlik darajasini aniqlash maqsadida boshlang'ich diagnostik nazorat testlari o'tkazildi. Olingan ko'rsatkichlar asosida tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki tayyorgarlik darajasi tahlil qilindi. Tadqiqotning obyektivligini ta'minlash maqsadida tajriba boshlanishidan avval guruhlarning bir xilligi (homogenligi) baholandi. Ushbu baholash natijalari 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, guruhlar o'rtasida maxsus egiluvchanlik ko'rsatkichlari bo'yicha ishonchli farqlar mavjud emasligi aniqlandi.

1-jadval

Nazorat va tajriba guruhlaridagi 10-12 yoshli kurashchilarning tadqiqotdan oldingi egiluvchanlik ko'rsatkichlari

№	Nazorat testlari		Nazorat guruhi (n=12)		Tajriba guruhi (n=12)		t	P
			($\bar{X}$ ±σ)	V	($\bar{X}$ ±σ)	V		
1	Tik turgan holda gavdani oldinga egish, sm.		10,5±2,8	26,7	9,8±3,9	39,8	0,51	>0,05
2	Yon tomonlarga egilish, sm.	O'ng	16,7±4,4	26,3	16,0±6,1	38,1	0,32	>0,05
		Chap	16,9±5,1	30,2	17,0±5,2	30,6	0,05	>0,05
3	O'tirgan holda oldinga		10,3±3,6	34,9	10,5±6,4	60,9	0,09	>0,05

	egilish, sm.							
4	Kurashchilar ko‘prigi, sm.		49,9±3,8	7,6	50,8±3,5	6,9	0,60	>0,05
5	Ko‘prik holatida 10 marta hatlab sakrash, s.		24,5±1,7	6,9	24,3±1,7	7,0	0,29	>0,05

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilib, tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq statistik ahamiyatga ega emas, guruhlar bir xil degan xulosaga kelish mumkin.

Tajriba va nazorat guruhlarida mashg‘ulotlar haftasiga uch marotaba, har biri 90 daqiqa davomida o‘tkazildi. Nazorat guruhi mashg‘ulotlari an’anaviy o‘quv-mashg‘ulot dasturi asosida tashkil etilib, mashg‘ulot jarayoni kurashga xos bo‘lgan yetakchi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, shuningdek sportchilarning umumjismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishga yo‘naltirildi. Ushbu jarayonda egiluvchanlikni rivojlantirish umumiy yo‘nalishda amalga oshirilib, maxsus egiluvchanlikni maqsadli shakllantirishga qaratilgan mashqlar majmuasi qo‘llanilmadi.

Tajriba guruhi mashg‘ulotlarida esa 10-12 yoshli kurashchilarning yosh va funksional xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan, maxsus egiluvchanlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar majmuasi qo‘llanildi. Mazkur majmua faol va sust egiluvchanlikni oshirishga qaratilgan mashqlardan iborat bo‘lib, ularning tanlanishi kurashda qo‘llaniladigan texnik-taktik harakatlar tuzilmasi bilan bevosita bog‘liq holda amalga oshirildi. Ushbu mashqlarni mashg‘ulot jarayoniga tizimli ravishda joriy etish kurashchilarning texnik-taktik qobiliyatlarini takomillashtirish, shuningdek ularning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qildi.

Mashqlar majmuasi mashg‘ulot jarayonining tayyorgarlik va asosiy qismlariga integratsiya qilindi. Mashg‘ulot uchun ajratilgan umumiy vaqtning 20 foizi mazkur mashqlarni bajarishga yo‘naltirildi. Xususan, tayyorgarlik qismida mashqlar 10 daqiqa davomida, asosiy qismda esa 20 daqiqa davomida bajarildi.

Mashqlar majmuasini ishlab chiqishda turli vositalar qo‘llanildi. Mashqlar kichik mushak guruhlaridan boshlab yirik mushak guruhlarigacha bo‘lgan ketma-ketlikda bajarildi. Biz mashqlarni bajarishning quyidagi takroriy va musobaqa usullarini (kim pastroq engashadi, kim statik holatda uzoqroq turadi) qo‘lladik. Mashg‘ulot frontal va juftlikda olib borildi.

Faol mashqlarni bajarishda quyidagi me’yor qo‘llanildi: mashqni bajarish seriyalari soni - 4-5 ta; seriyadagi takrorlashlar soni - 10 marta; seriyalar orasidagi dam olish davomiyligi - 30-40 soniya; mashqni bajarish tempi sekin. Masalan: D.h.- klassik ushlash bilan kurashchining tik turishi. Beldan oshirib tashlashni bajarishda, raqibga orqa bilan burilishda tos harakatining amplitudasi ko‘pincha yelka bo‘g‘imida va umurtqa pog‘onasida harakatchanlikning yetarli emasligi tufayli cheklanganda, ushlashni biroz yuqoriroq olish, bu harakat amplitudasini oshirishga imkon beradi. 4-5 marta takrorlanadi.

Sust mashqlarni bajarishda esa quyidagi me’yor qo‘llanildi: mashqni bajarish seriyalari soni - 4-5 ta; seriyadagi takrorlashlar soni - 10 marta; seriyalar orasidagi dam olish davomiyligi - 30-40 s; mashqni bajarish sur’ati sekin. Masalan: D.h.- bir-biriga yuzma-yuz o‘tirib, oyoqlar yon tomonga to‘g‘ri oyoq kaftlariga tayanib, birinchi qo‘l oldinga yuqoridan ushlab oladi. Navbatma-navbat oldinga egilishlar, oyoqlar to‘g‘ri. 4-5 marta takrorlanadi, qo‘llarni ikkinchi raqam bilan ushlashni almashtirish (yuqoridan, pastdan). Nafas olishi sokin.

Egiluvchanlik mashqlarini qo‘llash jarayoni bo‘g‘imlarda harakatchanlikni tarbiyalash ustida ishlashda rioya qilish kerak bo‘lgan uslubiy shartlarni hisobga olgan holda amalga oshirildi. Shu sababli egiluvchanlik mashqlarini bajarishdan oldin, **chigalyozdi mashqlarini bajarish** shartligi belgilab qo‘yildi.

Kurasgchilar tayyorgarligining barcha bosqichlarida **chigalyozdi mashqlari** muhim profilaktik ahamiyatga ega. Chunki mushak-bog‘lam apparati mashg‘ulot yuklamalarini qabul qilishga qanchalik yaxshi tayyorlangan bo‘lsa, harakatlarni bajarish sifati shunchalik yuqori bo‘ladi. Bundan tashqari, yetarli darajada tashkil etilgan **chigalyozdi mashqlari** mashg‘ulot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jarohatlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazishdan oldin bajariladigan **chigalyozdi mashqlari** organizmni bo‘lajak mashg‘ulot faoliyatiga tayyorlash, shuningdek organizmning vegetativ funksiyalarini faollashtirish hisobiga umumiy ish qobiliyatini oshirish maqsadida bajariladigan maxsus tanlab olingan mashqlar majmuasini o‘z ichiga oladi. **Chigalyozdi** mashqlarini bajarish natijasida tana harorati va mushaklar harorati ko‘tariladi, ular mashg‘ulot majmuasining asosiy mashqlarini bajarish jarayonida faol ishtirok etadi. Haroratning oshishi, ayniqsa, mushak-bog‘lam apparatining egiluvchanligi va elastikligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Chigalyozdi mashqlari 8-10 daqiqa davom etadigan yengil yugurish bilan boshlanadi. Yugurish mashqi organizmni umumiy ish faoliyatiga tayyorlash, yurak-qon tomir hamda nafas olish tizimlari faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Yugurishdan so‘ng sinaluvchilar tananing yuqori qismi va qo‘l mushaklarini qizdirishga yo‘naltirilgan **maxsus tanlangan 6-8 ta mashqlar majmuasini** bajaradilar. Ushbu mashqlar bo‘g‘imlar harakatchanligini oshirish va

mushaklarni keyingi yuklamalarga tayyorlash maqsadida bajariladi. Har bir mashq **10-15 marotaba takrorlanishi** tavsiya etiladi.

Cho‘zilish mashqlari oldindan belgilangan ketma-ketlikda va seriyalar asosida bajarildi. Dastlab qo‘l, so‘ngra tana hamda oyoq bo‘g‘imlariga mo‘ljallangan mashqlar bajarilib, har bir seriya orasida mushaklarni bo‘shashtirishga qaratilgan mashqlar qo‘llanildi. Mashqlar majmuasi mushak va bo‘g‘imlarning harakatchanligini oshirish maqsadida sust **yoki faol xarakterdagi 8-10 ta mashqdan** tashkil topgan.

Asosiy cho‘zilish mashqlaridan oldin bajariladigan (chigalyozdi) mashqlar.

1. D.h.- Tik turgan holatda oyoqlar juft. O‘ng qo‘l yuqorida, chap qo‘l pastda bo‘lgan holda qo‘llarni orqaga 10 marta uzatish. So‘ngra o‘ng qo‘l pastda, chap qo‘l yuqorida bo‘lgan holda qo‘llarni orqaga yana 10 marta uzatish.

2. D.h.- Tik turgan holatda oyoqlar juft. Gavdani oldinga egib, qo‘l bilan polga tegishga harakat qilish, 10 marta. So‘ng gavdani orqaga egish 10 marta.

3. D.h.- Gilamchada o‘tirib, qo‘llar oldinga cho‘zilgan holda, tizzalarni bukmasdan, oyoq uchlariga qarab oldinga egish, 10 marta.

4. D.h.- Gilamchada o‘tirib, qo‘llar oldinga cho‘zilgan holda, sherik orqada turadi. Tizzalarni bukmasdan, sherik yordamida oldinga egilib, oyoq uchlariga cho‘zilish.

5. D.h.- Gilamchada o‘tiriladi. Sinaluvchi va uning sherigi bir-biriga qarama-qarshi o‘tiradilar, oyoqlar keng ochilgan holda joylashtiriladi va oyoqlar bir-biriga tiraladi. Sinaluvchi sherigining qo‘llaridan ushlab, navbatma-navbat sherigi bilan birgalikda oldinga va orqaga ilgarilanma harakatlarni amalga oshiradi. Mashq davomida bel mushaklarini cho‘zishga alohida e’tibor qaratiladi.

Cho‘zilish mashqini bajarishda harakatlar amplitudasi asta-sekin oshirib borildi, aks holda yaxshi chigil yozdi mashqlaridan keyin ham mushaklar va paylar shikastlanishi mumkin. Harakat amplitudasining asta-sekin ortib borishi organizmning maxsus mashg‘ulotga moslashishiga imkon yaratadi.

Dzyudo kurashining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, mashg‘ulotlarda “kurashchilar ko‘prigi”ni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Mustahkam va egiluvchan bo‘g‘imlar, qon tomirlari va limfa tizimiga ega bo‘lmagan yoshlar dzyudo kurashining barcha texnik va taktik usullarini to‘liq egallash imkoniga ega bo‘lmaydilar.

Og‘irliklarsiz mashqlar.

1. D.h.- Tik turgan holatda qo‘llar belda yoki yon tomonga yozilgan. Tos-son bo‘g‘imlarida avval bir tomonga, so‘ng ikkinchi tomonga aylana harakatlar bajarish.

2. D.h.- Tik turgan holatda oyoqlar juft, qo‘llar belda. Bir oyoq tizza bo‘g‘imida bukilib yuqoriga ko‘tariladi. Tizza bo‘g‘imida chap va o‘ng tomonga aylana harakatlar bajarish.

3. D.h.- Tik turgan holatda oyoqlar yelka kengligida ochilgan. Qo‘llar yuqoriga ko‘tarilgan, kaftlar bir-biriga parallel holatda. Gavdani chapga va o‘ngga aylantirish. Harakatlar orqaga og‘ilish bilan yoki orqaga og‘ilmasdan amalga oshiriladi.

4. D.h.- Tik turgan holatda o‘ng oyoq oldinda, chap oyoq joyida. Gavda tik holda. Shu holatda yuqoriga va pastga yo‘naltirilgan prujinali (tebranuvchi) harakatlarni bajarish. Qo‘llar belda, oldingi tizzada yoki yuqoriga ko‘tarilgan holatda bo‘lishi mumkin.

5. D.h.- Tik turgan holatda oyoqlar yelka kengligida ochilgan, qo‘llar belda yoki yonlarda. Bir oyog‘ bilan yon tomonga qadam tashlab, tizzani bukish va tosni orqaga surish. Orqa oyoq to‘g‘ri turadi. So‘ng D.h.ga qaytish va boshqa oyog‘ bilan takrorlash.

6. D.h.- Qorinda yotgan holatda oyoqlarni to‘piq bo‘g‘imlaridan ushlab, iloji boricha ko‘proq orqaga egilish. So‘ng tanani qisqacha bo‘shashtib, mashqni qayta takrorlash, har safar bel sohasidagi egilishni biroz oshirishga intilish.

7. D.h.- Tizzalab turib, qo‘llar yordamisiz orqaga egilish va peshonani gilamga tekkizish.

8. D.h.- “Ko‘prik” holatida qo‘llarni bosh yoniga qo‘yib, gimnastika ko‘prigi holatigacha ko‘tarilish. So‘ngra oldinga-orqaga harakatlanish, shuningdek, navbatma-navbat oyoq va qo‘llarni ko‘tarish.

9. D.h.- “Ko‘prik” holatida turib, boshni chapga va o‘ngga burgan holda oldinga-orqaga harakatlanish. Aylanma harakatlar, bosh orqali ag‘darilishlar, bosh atrofida yugurish hamda qo‘llar yordamida va qo‘llarsiz “ko‘prik” holatidan chiqish.

10. D.h.- Shved devori yonida turib, qo‘llar bilan devorni ushlash. Ko‘prik holatida asta-sekin pastga tushib, keyin yana qo‘llar yordamida ko‘prik holatiga ko‘tarilish.

Og‘irlik va sherik bilan mashqlar.

1. Ko‘prik holatida, qo‘llarda girya, shtanqa, yoki ko‘krakda maneken bilan boshni o‘ng va chapga burib oldinga-orqaga harakat qilish.

2. Sherik boshi va yelkasidan ushlab turganda bosh atrofida chapga va o‘ngga yugurish yoki bosh orqali ag‘darilishlar bilan “ko‘prik” holatidan chiqib ketish.

3. “Ko‘prik” holatiga turish va undan bosh, gavdaning old qismi, qo‘l va gavda, qo‘l va bo‘yin, ikki qo‘lni yon tomonlarga qo‘yib va hokazo holatlarda tik turishga o‘tish.

4. Qo‘shimcha kuch bilan (sherik yordamida) shpagat. Sportchi oyoqlarini iloji boricha kengroq ochishga harakat qiladi. Orqada turgan sherigi shpagat qilayotgan sportchining yelkasidan bosadi. Shpagat o‘ng va chap oyoqda, shuningdek, “ko‘ndalang” holatda bajariladi.

5. Shved devori yonida oyoqlarni siltash mashqi. Sportchi shved devori yonida turib, o‘ng va chap oyoqlarini 25 martadan yon va orqaga siltaydi. Faol egiluvchanlikni samarali rivojlantirish uchun oyoq kaftiga elastik tasma bog‘lanadi. Mashq davomida tizzalar bukilmasligi kerak.

6. Shved devori yonida og‘irliklar (yuk) bilan silkinish mashqlari. Mashq devorga parallel holda bajariladi. Oyoqlarga 1-2 kg vaznli manjetlar taqiladi, har bir oyoq bilan 25 marta harakat qilinadi, tizzalar bukilmaydi. So‘ng tana egilib, og‘irlik bilan siltashlar davom ettiriladi. Bu mashq Ikkala oyoq tagidan ko’tarib tashlah usuli texnikasi uchun mo‘ljallangan.

7. Oyoqlarni keng ochib o‘tirgan holatda, oldinga egilishlarni bajarish. Orqada turgan sherik iloji boricha sportchini ko‘proq egishga harakat qiladi. Bel to‘g‘ri, qo‘llar oldinga cho‘zilgan.

8. “Aravachada shpagat mashqi”. Sportchi aravachadan foydalanib, oyoqlarini shpagatda iloji boricha kengroq ochishga intiladi. Bir oyoq aravachaga, ikkinchisi esa polga qo‘yiladi.

Cho‘zilish mashqini bajarishda harakatlar amplitudasi asta-sekin oshirib borildi, aks holda yaxshi chigil yozdi mashqlaridan keyin ham mushaklar va paylar shikastlanishi mumkin. Harakat amplitudasining asta-sekin ortib borishi organizmning maxsus mashg‘ulotga moslashishiga imkon yaratadi.

Kurashning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, mashg‘ulotlarda “kurashchilar ko‘prigi”ni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Mustahkam va egiluvchan bo‘g‘imlar, qon tomirlari va limfa tizimiga ega bo‘lmagan yoshlar kurashning barcha texnik va taktik usullarini to‘liq egallash imkoniga ega bo‘lmaydilar.

Pedagogik tajriba yakunlangandan so‘ng nazorat va tajriba guruhlarida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlash hamda baholash maqsadida dastlabki sinovlar bilan bir xil dastur asosida takroriy nazorat sinovlari tashkil etildi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilinib, umumlashtirilgan holda 2-jadvalda aks ettirildi.


2-jadval

Nazorat va tajriba guruhlaridagi 10-12 yoshli kurashchilarning tadqiqotdan keyingi egiluvchanlik ko‘rsatkichlari

№	Nazorat testlari		Nazorat guruhi (n=12)		Tajriba guruhi (n=12)		t	P
			($\bar{X}$ ±σ)	V	($\bar{X}$ ±σ)	V		
1	Tik turgan holda gavdani oldinga egish, sm.		10,8±2,3	21,3	14,2±3,05	21,5	3,08	<0,05
2	Yon tomonlarga egilish, sm.	O‘ng	18,8±3,8	20,2	24,4±7,2	29,5	2,38	<0,05
		Chap	19,3±3,2	16,6	23,5±4,6	19,6	2,60	<0,05
3	O‘tirgan holda oldinga egilish, sm.		10,7±1.3	1,2	13,7±4,8	35,0	2,09	<0,05
4	Kurashchilar ko‘prigi, sm.		45,9±2,9	6,3	39,5±7,0	16,9	2,93	<0,05
5	Ko‘prik holatida 10 marta hatlab sakrash, s.		22,8±1,7	7,5	18,3±1,4	7,7	7,08	<0,05

Tadqiqotdan keyingi natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida egiluvchanlikni tavsiflovchi barcha nazorat testlari bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli yaxshilanish kuzatildi ($p<0,05$). Bu olingan natijalar ishlab chiqilgan mashqlar majmuasining samaradorligini isbotlaydi va tajriba guruhidagi kurashchilarning egiluvchanlik darajasini sezilarli darajada oshirgani haqida ilmiy asos beradi.

1-rasmda pedagogik tajribadan so‘ng nazorat va tajriba guruhlarida kuzatilgan o‘zgarishlar ko‘rsatilgan. Rasmda har bir guruhdagi yaxshilanish kattaligi ko‘rsatilgan bo‘lib, tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlarining yaqqolroq o‘sishi ta’kidlangan.



1-rasm. Nazorat va tajriba guruhlarida egiluvchanlik darajasining tadqiqotdan oldingi va keyingi ko‘rsatkichlari.

Abstract: *This article examines the theoretical foundations of the theory of historical-cartographic analysis and the effectiveness of its application in the modern educational process. Using historical-cartographic approaches, the interconnections of geographic, political, and cultural processes at macro and micro levels are analyzed. The article highlights, on the one hand, the significance of historical maps and cartographic materials as methodological tools in the learning process; on the other hand, their role in developing students' analytical thinking, historical consciousness, and visual skills. Research results indicate that historical-cartographic analysis can be used not only as a means of collecting and systematizing historical information but also as an effective pedagogical mechanism for shaping complex scientific thinking in students.*

Keywords: *historical-cartographic analysis, educational process, pedagogical technologies, historical maps, visual thinking, study of historical sources, analytical thinking.*

Kirish: Tarixiy-kartografik tahlil nazariyasi insoniyatning tarixiy tajriba va geografik bilimlarni tizimli ravishda o‘rganishning eng muhim ilmiy vositalaridan biri sifatida shakllangan bo‘lib, uning mohiyati nafaqat tarixiy voqeliklarni xaritalar orqali aks ettirish, balki ularni kompleks kontekstda tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu yondashuv tarixshunoslik, geografiya, antropologiya va pedagogika sohalarining o‘zaro integratsiyasini talab qiladigan multidisipliner ilmiy platforma sifatida namoyon bo‘ladi. Tarixiy-kartografik tahlil konsepsiyasi zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, vizual va analitik ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda tarixiy manbalarni o‘rganish jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi[1]. Tarixiy xaritalar va ularning tahlili insoniyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlarini vizual kontekstda aks ettirish imkoniyatini beradi. Bu jarayon faqat geografik hududlarni aniqlash bilan cheklanmay, balki tarixiy hodisalar orasidagi sabab-natija, vaqt-va makon munosabatlarini o‘rganishga xizmat qiladi. Masalan, biror davrda mavjud bo‘lgan davlat chegaralari, iqtisodiy yo‘llar, aholining migratsiyasi, urushlar va diplomatik aloqalar tarixiy-kartografik manbalar orqali tahlil qilinadi va bu tahlil orqali murakkab tarixiy jarayonlarning sistematik tushunchasi shakllanadi[2]. Zamonaviy ta’lim jarayonida tarixiy-kartografik tahlil pedagogik vosita sifatida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda, shuningdek, tarixiy tafakkur va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi. Ta’lim nazariyasi va amaliyotida bu yondashuv ko‘p qirrali pedagogik vazifalarni hal etadi: birinchi navbatda, u tarixiy ma’lumotlarni tizimlashtirish va ularni vizual ko‘rinishda ifodalash imkoniyatini beradi; ikkinchidan, talabalarda analitik tafakkur va sabab-natija munosabatlarini aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi; uchinchidan, u tarixiy va geografik bilimlarni birlashtirish orqali kompleks ko‘nikmalarni shakllantiradi[3]. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarixiy-kartografik tahlil nazariyasi ikki asosiy yo‘nalishda rivojlangan: birinchisi, tarixiy xaritalarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning ob’yektiv tarixiy haqiqatni ifodalash imkoniyati; ikkinchisi, bu tahlil vositasining pedagogik va metodologik potensiali. Xalqaro tadqiqotlarda, xususan, chet el olimlari tomonidan tarixiy-kartografik yondashuvlarning tizimli o‘rganilishi, ularning vizual va interaktiv metodlar bilan integratsiyasi, shuningdek, o‘quv jarayonidagi amaliy qo‘llanilishi keng muhokama qilinadi[4]. Tarixiy-kartografik tahlilning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, loyiha asosida o‘qitish, masalalar yechish va vizual o‘rganish metodlari bilan uzviy bog‘liqdir. Misol uchun, talabalarga tarixiy xaritalar asosida tarixiy hodisalarni tahlil qilish topshiriqlari berilganda, ular faqat faktlarni yodlash bilan cheklanmay, balki o‘rganilgan ma’lumotlarni tizimlashtirish, o‘zaro bog‘lash va yangi bilimlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu tarzda, tarixiy-kartografik tahlil nafaqat ma’lumotlarni qabul qilish, balki ularni faol tarzda tahlil qilish va talqin etish jarayonini rag‘batlantiradi[5]. Shuningdek, tarixiy-kartografik manbalarni o‘rganish jarayoni talabalarda mavhum va abstrakt fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xaritalar orqali vizualizatsiya qilish, hududlarni va tarixiy jarayonlarni solishtirish, vaqt va makon kontekstini aniqlash orqali o‘quvchilar tarixiy ma’lumotlarni chuqurroq tushunadi. Bu esa ularning mantiqiy va analitik tafakkurini mustahkamlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish va o‘zini o‘zi baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi[6]. Tarixiy-kartografik tahlil nazariyasi va uning ta’lim jarayonidagi roli, shuningdek, ta’limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyasini ham o‘z ichiga oladi. Raqamli xaritalar, GIS (Geografik Axborot Tizimlari) va interaktiv kartografik platformalar o‘quvchilarga tarixiy ma’lumotlarni dinamik tarzda o‘rganish imkonini beradi, bu esa ularning o‘quv faoliyatini yanada samarali qiladi[7].

Adabiyotlar tahlili: Tarixiy-kartografik tahlil nazariyasining ilmiy asoslarini chuqur o‘rganishda chet el akademiklarining tadqiqot ishlari muhim konseptual baza vazifasini bajaradi. Bu yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida ikki olimning – Jeyms R. Akerman (James R. Akerman) va Mark Monmonye (Mark Monmonier) – kartografiya, tarixiy xaritalar va ularning tahliliy pedagogik potentsiali bo‘yicha amalga oshirgan ilmiy hissalari hamda nazariy yondashuvlari tizimli tarzda integratsiyalangan. Akerman kartografiya tarixi bo‘yicha asosiy tadqiqotlar muallifi sifatida tarixiy xaritalarning epistemologik va metodologik aspektlarini yoritishda ilg‘or nazariy yondashuvlar taqdim etadi. Uning fikricha, xaritalar faqat geografik hududlarni aks ettiruvchi vositalar emas, balki ularning orqasidagi madaniy, siyosiy, ijtimoiy va g‘oyaviy kontekstlarni anglash uchun murakkab epistemik resurslardir. Akerman tarixiy xaritalarni tahlil qilish jarayonida har bir xaritaning yaratilish sharoitlari, maqsadi, auditoriyasi va siyosiy konteksti hisobga olinishi, shuningdek ularning interpretatsiya mexanizmlari strukturalarini aniqlash zarurligini ta’kidlaydi[8]. Bu yondashuv tarixiy-kartografik manbalarni o‘rganishda yuzaki vizual tafakkurdan voz kechib, ularni tarixiy tahlilning izchil komponenti sifatida tizimli yoritish lozimligini ko‘rsatadi. Akermanning tadqiqotlari pedagogik kontekstda ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki u tarixiy xaritalarni o‘quv jarayonida talabalarning analitik fikrlash qobiliyatini shakllantirishda vosita sifatida ko‘rishni tavsiya qiladi. Bu yondashuvda xarita faqat geografik ma’lumotlar to‘plami emas, balki murakkab ijtimoiy hodisalarni diskursiv tahlil orqali anglashga imkon beruvchi faol matritsa sifatida qabul

qilinadi. Shu bois, Akerman kartografiya va tarixiy tahlilni birlashtiruvchi integratsiyalashgan nazariy modelni taklif qiladi, bu esa tarixiy-kartografik tahlilning pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan mustahkamlaydi. Boshqa tomondan, Mark Monmonye kartografiyaning epistemik mohiyati va ularning ijtimoiy mavqei haqida izchil tadqiqotlar olib bordi. Monmonye o‘zining asarlarida xaritalar va kartografik vakilliklar jamiyatdagi qudrat strukturalari, bilimning ierarxik oqimlari va ma’lumotlarning ideologik yadrosini qanday aks ettirishi masalasiga e’tibor qaratadi[9]. U xaritalarni ijtimoiy konstrukt sifatida tahlil qiladi, bu esa tarixiy-kartografik manbalarni bevosita obyektiv real voqelik sifatida qabul qilishdan voz kechishga undaydi. Monmonye nazariyasiga ko‘ra, xaritalar o‘zaro muloqotda bo‘lgan epistemik platformalar bo‘lib, ularning yaratilishi va interpretatsiyasi kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Monmonyenning yondashuvi tarixiy-kartografik tahlilni faqat vizual ma’lumotlar kontekstida tahlil qilish bilan cheklamasdan, ularni ijtimoiy, siyosiy va madaniy strukturalar ichida interpretatsiya qilishni ham talab qiladi. Bu esa tarixiy ma’lumotlarni o‘rganishda murakkab tahliliy skeletni shakllantirishga xizmat qiladi, bunda talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyati, epistemik anglash jarayoni va kontekstual tafakkur mexanizmlari birgalikda rivojlanadi. Akerman va Monmonyenning tadqiqot yondashuvlari tarixiy-kartografik tahlil nazariyasining ikki qadriy nuqtai nazarini aks ettiradi: birinchisi – kartografik manbalarni tarixiy epistemik kontekstda tahlil qilish; ikkinchisi – ularni ijtimoiy va siyosiy strukturalar orqali interpretatsiya qilish. Bu ikki yondashuvning uzviy integratsiyasi zamonaviy pedagogik metodologiyada tarixiy-kartografik tahlilni nafaqat vizual manbalarni o‘rganish vositasi sifatida, balki talabalarning tafakkur strukturasini chuqur va analitik darajada shakllantiruvchi murakkab ilmiy mexanizm sifatida qabul qilish imkonini yaratadi. Umuman olganda, Akerman va Monmonyenning ilmiy izlanishlari tarixiy-kartografik tahlil nazariyasining metodologik bazasini mustahkamlab, uni zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda konseptual yo‘nalishlarni belgilaydi. Bu ilmiy asarlar nafaqat tarixiy xaritalar va kartografik matritsalarning epistemik tahlilini ta’minlaydi, balki ularni pedagogik muhitda talaba faoliyatida amaliy qo‘llash imkoniyatlarini ham ochib beradi, bu esa mazkur yondashuvning ta’lim jarayonidagi rolini yanada chuqur va kompleks kontekstda yoritishga xizmat qiladi.

Metodologik qism: Ushbu maqolada tarixiy-kartografik tahlil nazariyasini o‘rganish va uning ta’lim jarayonidagi samaradorligini aniqlash uchun bir qator metodologik yondashuvlar qo‘llanildi; xususan, tarixiy-kartografik manbalarni sistematik tahlil qilish metodi yordamida xaritalardagi makro va mikro tarixiy jarayonlar o‘rganilib, ularning pedagogik kontekstda o‘quvchilarning vizual-analitik ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli aniqlashga xizmat qildi, komparativ tahlil metodi orqali turli davr va geografik hududlarga oid xaritalar orasidagi o‘xshashlik va farqliklar aniqlanib, talabalarning tarixiy tafakkurini kengaytirish mexanizmlari ishlab chiqildi, shuningdek, induktiv va deduktiv metodlar orqali talabalarda analitik fikrlash va sabab-natija munosabatlarini aniqlash qobiliyatini rivojlantirish uchun interaktiv o‘quv topshiriqlari va loyiha asosida o‘qitish metodlari integratsiyalashgan tarzda qo‘llanildi, bu esa tarixiy-kartografik tahlilning nazariy konseptual asoslarini ta’lim jarayonida amaliy darajada sinovdan o‘tkazish imkonini yaratdi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarixiy-kartografik tahlil nazariyasini ta’lim jarayonida qo‘llash orqali talabalarda tarixiy ma’lumotlarni tizimlashtirish, sabab-natija munosabatlarini aniqlash va vizual-analitik ko‘nikmalarni shakllantirish sezilarli darajada oshadi, bu esa ularning tanqidiy tafakkuri, mavhum fikrlash qobiliyati va murakkab tarixiy jarayonlarni o‘rganishdagi samaradorligini kuchaytiradi, shuningdek, tarixiy xaritalar va kartografik manbalarni interaktiv va loyiha asosida ishlash orqali pedagogik jarayonda integratsiyalashgan tarzda qo‘llash imkonini beradi, natijada talabalarda tarixiy tafakkur va epistemik anglash jarayoni bir vaqtda rivojlanadi hamda tarixiy-kartografik tahlilning metodologik va amaliy potensiali ta’lim jarayonida aniq namoyon bo‘ladi.

Muxokama: Tarixiy-kartografik tahlil nazariyasining ta’lim jarayonidagi roli bo‘yicha ilmiy bahslar chet el olimlari orasida ham uzluksiz davom etmoqda. Jeyms R. Akerman va Mark Monmonye bu yo‘nalishda turli pozitsiyalardan yondashib, kartografik manbalarni o‘rganish va ularni pedagogik jarayonda qo‘llashga doir polemik tafakkur olib boradilar. Akerman o‘z tadqiqotlarida tarixiy xaritalarning epistemik va metodologik qiymatini ta’kidlab, ularni talabalarga analitik va vizual ko‘nikmalarni rivojlantirish vositasi sifatida faol integratsiya qilishni tavsiya qiladi. U xaritalar orqali murakkab tarixiy jarayonlarni tushunish, sabab-natija munosabatlarini aniqlash va tarixiy kontekstni chuqur o‘rganish imkoniyati yaratilishini ilgari suradi, shuningdek, pedagogik jarayonda interaktiv va loyiha asosida o‘qitish metodlarini qo‘llash orqali talabalarning tanqidiy tafakkurini mustahkamlash mumkinligini ta’kidlaydi[10]. Boshqa tomondan, Monmonye kartografik manbalarni ijtimoiy konstrukt sifatida tahlil qiladi va ularni pedagogik kontekstga bevosita integratsiya qilishning ayrim murakkabliklarini ko‘rsatadi. U xaritalarning faqat vizual ma’lumotlar manbai sifatida qabul qilinmasligi, balki ularning siyosiy, madaniy va ijtimoiy kontekstini hisobga olgan holda talabalarga tushuntirilishi kerakligini ta’kidlaydi. Monmonyenning fikricha, tarixiy xaritalar talabalarga nafaqat tarixiy voqelikni aks ettirish vositasi sifatida, balki ularni interpretatsiya qilish va kontekstual tahlil qilish imkonini beruvchi murakkab epistemik resurs sifatida yetkazilishi lozim. Bu ikki olimning yondashuvlarini solishtirish shuni ko‘rsatadiki, tarixiy-kartografik tahlil pedagogik jarayonda turli strategiyalarni talab qiladi: Akerman vizual-analitik va interaktiv metodlarni markazga qo‘yish orqali talabalarning tizimli fikrlashini rivojlantirishga urg‘u beradi, Monmonye esa

kontekstual va epistemik tahlil orqali ularni tarixiy manbalarni chuqurroq anglashga yo‘naltiradi. Shu tarzda, ikki pozitsiyaning integratsiyasi tarixiy-kartografik tahlilning ta’lim jarayonida nafaqat vizual va analitik ko‘nikmalarni shakllantirish, balki talabalarning tarixiy tafakkurini chuqur, kontekstual va mantiqiy asosda rivojlantirish imkonini beradi. Mazkur 1439edagog tahlil shuni ko‘rsatadiki, tarixiy-kartografik manbalarni 1439edagogic jarayonda samarali qo‘llash uchun ularning 1439edagogic, 1439edago va kontekstual jihatlarini birgalikda hisobga olish zarur bo‘lib, bu yondashuv talabalarda murakkab tarixiy tafakkur, analitik fikrlash va tanqidiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini integratsiyalashgan tarzda shakllantiradi. Shu bilan birga, Akerman va Monmonyenning nazariy polemikasi tarixiy-kartografik tahlilning metodologik va potensialini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Xulosa: Ushbu maqolada tarixiy-kartografik tahlil nazariyasining nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari va ta’lim jarayonida qo‘llanilishi tizimli tarzda o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarixiy xaritalar va kartografik manbalarni o‘rganish nafaqat tarixiy ma’lumotlarni vizual tarzda qabul qilish imkonini beradi, balki talabalarda analitik fikrlash, sabab-natija munosabatlarini aniqlash va murakkab tarixiy jarayonlarni tizimli o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Akerman va Monmonyenning ilmiy yondashuvlari asosida tarixiy-kartografik tahlilni pedagogik jarayonda qo‘llash strategiyalari ishlab chiqildi: bir tomondan, vizual va interaktiv metodlar orqali talabalarning tizimli tafakkurini rivojlantirish, ikkinchi tomondan, kontekstual va epistemik tahlil yordamida ularni tarixiy manbalarni chuqur anglashga yo‘naltirish. Shunday qilib, tarixiy-kartografik tahlil nazariyasi nafaqat tarixiy ma’lumotlarni o‘rganish vositasi, balki zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning tanqidiy tafakkurini, vizual-analitik va mantiqiy ko‘nikmalarini shakllantiruvchi samarali pedagogik mexanizm sifatida o‘z ahamiyatini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Jamolova G., Meliyev M., Muhammadiyeva E. Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari va innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali takomillashtirish yo ‘llari //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – C. 675207.

2. Ochilova G. O., Akbarova S. S. H. Kasbiy kompetentlik //darslik)/Toshkent-2022. – 2022.

3. Utanbayeva D. A., Xidirova N. A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari //Innovative Development in Educational Activities. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 155-162.

4. Narzulloyeva F. F. Oliy ta’limda talabalarni iqtisodiy tarbiyalash va kompetensiyasini rivojlantirishning muhim yo ‘nalishlari //ilmiy tadqiqot va innovatsiya. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 102-108.

5. Matnazarova K. Oliy Ta’lim Muassasalari talabalarining kasbiy-amaliy ko ‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari //Xalq Ta’limi. – C. 16.

6. TUXTAYEV S. Talabalarining kommunikativ ta’limini pedagogik boshqarish kontseptual modelining tarkibiy qismlari //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.10. 1. – C. 213-215.

7. Abdurasulova S. K. Kredit-modul tizimida oliy ta’lim muassasalari talabalarining muloqot raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 22. – C. 144-151.

8. Xidirova D. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish //Общество и инновации. – 2025. – T. 6. – №. 1. – C. 107-112.

9. Ibroximov M. A. Professional ta’lim yo ‘nalishi talabalarining ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda ta’lim va amaliyot integratsiyasi //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. TMA Conference. – C. 175-179.

10. Pazilova D. Oliy ta’lim muassassalari kasb-ta’lim talabalari axborot kompetentligini rivojlantirishda faoliyat tuzilmasining nazariy tahlili //«ACTA NUUz». – 2025. – T. 1. – №. 1.9. – C. 148-150.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Qurbonov Xurshid Xolliyevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mustaqil izlanuvchi (DSc)
[1]O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
Chirchiq shahri, O'zbekiston
E-mail: Xurshid.qurbonov@gmail.com

O'RTA MASOFALARGA YUGURUVCHILAR SPORT FORMASINI BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHI IKKINCHI YILIDA FUNDAMENTAL SHAKLLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida o'rta masofalarga yuguruvchilar sport formasini fundamental shakllantirishga qaratilgan mashg'ulot dasturini bosqichli qo'llash uslubiyatini amaliyotga tatbiq etish natijasida olingan ma'lumotlar batafsil yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar. *Kuzgi-qishki tayyorgarlik bosqichi, bahorgi-yozgi tayyorgarlik bosqichi, sport formasi, vosita, uslub.*

Курбанов Хуршид Холлиевич
Узбекский государственный университет
физической культуры и спорта
доктор философии (PhD) в области педагогических наук, доцент
Независимый исследователь (DSc)
Город Чирчик, Узбекистан

ЭТАП НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СПОРТИВНОЙ ФОРМЫ БЕГУНОВ НА СРЕДНИЕ ДИСТАНЦИИ НА ВТОРОМ ГОДУ. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ФУНДАМЕНТАЛЬНОГО ФОРМИРОВАНИЯ

Аннотация: *В данной стате подробно освещены данные, полученные в результате внедрения в практику методики поетапного применения программы тренировок, направленной на формирование спортивной формы бегунов на средние дистансии на этапе начальной подготовки.*

Ключевые слова. *Осенне-зимний подготовительный этап, весенне-летний подготовительный этап, спортивная форма, средства, метод.*

Kurbanov Khurshid Kholliyevich
Uzbek State University of Physical Education and Sports
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Independent Researcher (DSc)
Chirchik city, Uzbekistan

INITIAL PREPARATION STAGE OF MEDIUM-DISTANCE RUNNERS' SPORTS FORM IN THE SECOND YEAR IMPROVEMENT OF THE MECHANISM OF FUNDAMENTAL FORMATION

Annotation: *This article details the data obtained as a result of the implementation of the methodology for the phased application of the training program aimed at forming the sports form of middle-distancye runners at the initial training stage.*

Keywords. *Autumn-winter preparatory stage, spring-summer preparatory stage, sports form, means, method.*

Tadqiqot ishining dolzarbligi. Dunyoda yengil atletika sport turining o'rta masofalarga yugurish ixtisosligi bo'yicha sportchilarni tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish, yillik tayyorgarlik siklida jismoniy, texnik, taktik, psixologik va funksional tayyorgarlikni hisobga olgan holda mashg'ulot vosita va usullarini oqilona qo'llash yuzasidan ilmiy izlanishlari olib borilmoqda. Ammo o'rta masofaga yuguruvchilar sport formasini yillik tayyorgarlik siklida shakllanishi va musobaqalar davrida barqarorligiga erishish muammosi doimiy ravishda takomillashtirishni,

sport formasini yillik tayyorgarlik siklida ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda majmuali baholash mezonlarini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Hozirda dunyo miqyosida yengil atletika sport turi bo‘yicha musobaqalarda raqobatning geografik jihatdan kengayib yildan yilga musobaqa natijalarining o‘sib borishi sportchilar tayyorlash tizimiga yangi texnalogiya va samarali dasturlar asosida doimiy takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Yengil atletikaning o‘rta masofaga yugurish turida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash ko‘p yillik pedagogik jarayon bo‘lib, sport mashg‘ulotlarini bosqichli tashkil etish, yuklamalarni oqilona rejalashtirish hamda boshqarishni zamonaviy tizimlarini yaratishni talab etmoqda [1, 2, 7].

O‘rta masofaga yugurish turida sportchilar sport formasiga kirib olingandan keyin, uni butun mas’uliyatli musobaqalar davomida saqlab turish va sport yutuqlariga erishishga aylantirish vazifasi paydo bo‘ladi. Yuqorida aytganimizdek, sport formasi - bu faqat holatgina emas, balki jarayon hamdir - sportda yutuqlarga erishishga tayyor ekanlikni ko‘rsatuvchi barcha fazilat, malaka, mahoratlarni uzluksiz takomillashtirib boruvchi jarayonni tashkil etadi [3, 4, 5, 6, 8, 9].

Tadqiqotning maqsadi. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida o‘rta masofalarga yuguruvchilar sport formasini fundamental shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish va yuklamalarni bosqichli taqsimlash orqali samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida o‘rta masofalarga yuguruvchilar sport formasini shakllantirishda yuklamalarni bosqichli taqsimlash;

- boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida o‘rta masofalarga yuguruvchilar sport formasini shakllantirishda yuklamalarni bosqichli taqsimlash samaradorligini tahlil qilish.

Tadqiqot usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, tadqiqotni tashkil qilish, pedagogik tajriba, matematik-statistik usullar va olingan natijalar tahlili.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Boshlang‘ich tayyorlov guruhiga sport bilan shug‘ullanishni xohlovchi, shifokor ko‘rigidan o‘tgan 9-10 yoshli umumta’lim maktablari o‘quvchilari qabul qilinadi. Sog‘liqni mustahkamlash, jismoniy rivojlantirish va yengil atletika sport turlari texnik elementlariga ega bo‘lishga qaratiladi. Yillik yuklamalar hajmi 312 soatni tashkil etadi. Mashg‘ulotlar haftasiga 6 soatdan iborat. Boshlang‘ich tayyorlov guruhining ikkinchi yilida sog‘liqni mustahkamlashga har tomonlama garmonik rivojlanishni ta’minlash, yengil atletika turlari elimentlariga o‘rgatish vazifalari ko‘zda tutiladi. Shu bosqichda yillik yuklamalar 416 soatni tashkil etib haftasiga 8 soatdan to‘g‘ri keladi (1, 2-jadvallarga qarang).

1-jadval

O‘rta masofa yuguruvchilarboshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida sport formasining fundamental bazasini bir bosqichli shakllantirish metodikasini qo‘llash mexanizmi

Mikrosikl turi	Umumiy davomiyligi	Maqsadi	Vazifalari	Yuklama davomiyligi	Shiddat zonasi	Yugurish masofasi	Dam olish intervali	Tashkiliy-uslubiy ko‘rsatmalar
Tayyorlov davri (fundamental va musobaqaoldi bosqichi)								
Fundamental tayyorgarlik bosqichi								
Tortuvchi	8-10 hafta	Bazaviy tayyorgarlikni hosil qilish	- Sog‘liqni mustahkamlash; - Jismoniy sifatlarni rivojlantirish.	TQ: 10-15 daq. AQ: 60-70 daq. YQ: 8-10 daq.	130-140 zar/daq. 141-150 zar/daq. 92-98 zar/daq.	10-12 km.	Qattiq (qisman) dam olish	Sportchilarning mashg‘ulotlardan so‘ng individual holati bo‘yicha faol dam olish, sport o‘yinlarini qo‘llash
Hajmli	6-8 hafta	Bazaviy tayyorgarlikni rivojlantirish	- Jismoniy tayyorgarlikni oshirish.	TQ: 10-15 daq. AQ: 60-70 daq. YQ: 8-10 daq.	130-140 zar/daq. 141-150 zar/daq. 92-98 zar/daq.	8-10 km.	Qattiq (qisman) dam olish	Sportchilarning mashg‘ulotlardan so‘ng individual holati bo‘yicha faol dam olish
Rivojlantiruvchi	6-8 hafta	Bazaviy tayyorgarlikni takomillashtirish	- FTni rivojlantirish; - SFni shakllantirish.	TQ: 10-15 daq. AQ: 60-70 daq. YQ: 8-10 daq.	130-140 zar/daq. 141-155 zar/daq. 92-98 zar/daq.	6-8 km.	Qattiq (qisman) dam olish	Sportchilarning mashg‘ulotlardan so‘ng individual holati bo‘yicha faol dam olish
Musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichi								
Zarbdor	4 hafta	Musobaqalarga integral tayyorgarlikni rivojlantirish	- MJT rivojlantirish; - TTT ni oshirish.	TQ: 10-15 daq. AQ: 50-60 daq. YQ: 10-15 daq.	130-140 zar/daq. 141-160 zar/daq. 92-98 zar/daq.	4-5 km.	Qattiq (qisman) dam olish	Sportchilarning mashg‘ulotlardan so‘ng individual holati bo‘yicha faol dam olish
Musobaqa oldi	4 hafta	Musobaqalarga integral tayyorgarlikni rivojlantirish	- MJT rivojlantirish; - TTT ni oshirish.	TQ: 10-15 daq. AQ: 50-60 daq. YQ: 10-15 daq.	130-140 zar/daq. 141-165 zar/daq. 92-98 zar/daq.	4-5 km.	Qattiq (qisman) dam olish	Sportchilarning mashg‘ulotlardan so‘ng individual holati bo‘yicha faol dam olish, sport o‘yinlarini qo‘llash
Musobaqalar davri								
Musobaqa	2 hafta	Sportchilarni musobaqalarda muvoffaqiyatli ishtirokini taminlash	- Yuqori darajadagi integral tayyorgarlikni namoyish etish; - Maxsus chidamlilikni rivojlantirish; - Sport formasiga kirish va yuqori natijalariga aylantirish.	TQ: 10-15 daq. AQ: 50-60 daq. YQ: 10-15 daq.	130-140 zar/daq. 141-165 zar/daq. 92-98 zar/daq.	3 km.	Qattiq (qisman) dam olish	Sportchilarning mashg‘ulot va musobaqalardan so‘ng individual holati bo‘yicha faol yoki sust dam olish
Zarbdor	1 hafta	Sportchilarni musobaqalarda muvoffaqiyatli ishtirokini taminlash	- Yuqori darajadagi integral tayyorgarlikni namoyish etish; - Maxsus chidamlilikni rivojlantirish; - Sport formasiga kirish va yuqori natijalariga aylantirish.	TQ: 10-15 daq. AQ: 50-60 daq. YQ: 10-15 daq.	130-140 zar/daq. 141-170 zar/daq. 92-98 zar/daq.	3 km.	Qattiq (qisman) dam olish	Sportchilarning mashg‘ulotlardan so‘ng individual holati bo‘yicha faol dam olish
Ushlab turuvchi	1 hafta	Sportchilarni musobaqalarda muvoffaqiyatli ishtirokini taminlash	- Yuqori darajadagi integral tayyorgarlikni namoyish etish; - Maxsus chidamlilikni rivojlantirish; - Sport formasiga kirish va yuqori natijalariga aylantirish.	TQ: 10-15 daq. AQ: 50-60 daq. YQ: 10-15 daq.	130-140 zar/daq. 141-150 zar/daq. 92-98 zar/daq.	4 km.	Qattiq (qisman) dam olish	Sportchilarning mashg‘ulotlardan so‘ng individual holati bo‘yicha faol dam olish
O‘tish davri								
Tiklovchi	2 hafta	Sportchilar organizmini tiklash	- Organizmni qayta tiklovchi samarali vositalarni qo‘llash; - Sportchini ish qobilyatini ushlab turish faol dam olishni ta’minlash.	TQ: 10-15 daq. AQ: 60-70 daq. YQ: 8-10 daq.	120-130 zar/daq. 131-140 zar/daq. 92-98 zar/daq.	3 km.	To‘liq dam olish	Sportchilarning mashg‘ulotlardan so‘ng individual holati bo‘yicha faol dam olish, sport o‘yinlarini qo‘llash
O‘tish	4 hafta	Sportchilar organizmini tiklash	- Organizmni qayta tiklovchi samarali vositalarni qo‘llash; - Sportchini ish qobilyatini ushlab turish faol dam olishni ta’minlash.	TQ: 10-15 daq. AQ: 60-70 daq. YQ: 8-10 daq.	120-130 zar/daq. 131-140 zar/daq. 92-98 zar/daq.	3 km.	To‘liq dam olish	Sportchilarning mashg‘ulotlardan so‘ng individual holati bo‘yicha faol dam olish, sport o‘yinlarini qo‘llash

2-jadval

O‘rta masofalarga yuguruvchilar boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi ikkinchi yilida sport formasining fundamental bazasini shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar dasturi

T/r	Mag‘ulot davri	Dushanba	Chorshanba	Juma
1	Tortuvchi mikrosikl	Chigalyozdi mashqlari 15-20 daq.; Egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar 10-15 daq.; Maxsus yugurish mashqlari 10-15 daq.; Zinaga pastdan yuqoriga oyoqlarni bir teks yelka kengligida qilib sakrab chiqish 10 daq.; Tiklovchi yugurish 800 m.	Sport o‘yinlari 60 daqiqa. 2x600 m. Qorin mushaklari uchun 5 xil mashq 20 martadan 4 seriya. Tiklovchi yugurish 400 m.	Kross – 30 daqiqa 60-70 % kuch bilan yugurish. 100 m. kiyiksimon yugurish: Chigal yozdi (gimnastik mashqlar) mashqlari 10-15 daqiqa. Sport o‘yinlari 10-15 daqiqa.
2	Hajmli mikrosikl	Kross - 3 km. (150 zar/daq.). URM - 20 daqiqa.	Kross - 3 km. (150-160 zar/daq.). Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - kuch, qorin va bel mushaklari uchun mashqlar.	Sekin yugurish 3 km. URM - 10 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari - 0,3 km. Yugurish.-4x400 m. (175 zar/daq.) 4 daqiqa dam olish. Tiklovchi yugurish 400 m.
3	Rivojlantiruvchi mikrosikl	Kross - 3 km. (150-160 zar/daq.). URM - 20 daqiqa.	Fartlek - 3 km. Yengil yugurish 2 km. (140-150 zar/daq.) URM -10 daqiqa.	Sekin yugurish 3 km. URM - 10 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari 4x60 m. Tezlikka yugurish - 2x100 m. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar -10 daqiqa.
4	Qishki musobaqa oldi mikrosikli	Kross - 2 km. (160 zar/daq.). Tiklovchi mashqlar - 20 daqiqa. Tezlik. - 4x60 m.	Kross - 3 km. (150-160 zar/daq). Tezlik- 4x60 m. Tiklovchi mashqlar -10 daqiqa.	Sekin yugurish 2 km. URM-10 daqiqa. Maxsus mashqlar -2x80 m. Tezlikka yugurish - 4x60 m. Yugurish- 2x100 m. 4 daqiqa dam olish.
5	Qishki musobaqa mikrosikli	Sekin yugurish 3 km. URM - 10 daqiqa. 2x60 m. yugurish. - 2x100 m. (180 zar/daq.). Sakrash 3-5-qadam.	Sekin yugurish 1 km. URM-10 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari -4x60 m. Yugurish. - 2x200 m. 4 daq dam olish.	Sekin yugurish 3 km. URM- 15 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari. - 2x60 m. Ritmik yugurish - 100+150+200 m. (musobaqa tezligida).
6	O‘tish mikrosikli	Kross - 2 km. (150 zar/daq.). URM - 10 daqiqa.	Sport o‘yinlari -90 daqiqa. URM - 15 daqiqa yoki yengil atletika mashqlari – 20 daq.	Kross - 4 km. (150 zar/daq.). URM - 20 daqiqa.
7	Stabillashtirilgan mikrosikl	Kross - 1 km. (150 zar /daq.). URM -10 daqiqa. Tezlikni rivojlantiruvchi mashqlar 30 daqiqa.	Sekin yugurish 2 km. URM -20 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari -0,5 km. Tezlikka yugurish, - 2x80 m. Yugurish. 2x100 m. 4 daq. dam olish (170 zar/daq).	Kross – 4 km. (150-160 zar/daq). Tezlikni rivojlantiruvchi mashqlar- 30 daqiqa.
8	Yozgi musobaqa oldi mikrosikli	Sekin yugurish 3 km. URM va Maxsus yugurish mashqlari - 500 m. Tezlikka yugurish. 4x50 m. (170 zar/daq.), 4 daq. dam olish.	Kross - 3 km. (140 zar/daq.). URM-20 daqiqa. Tiklovchi yugurish 800 m.	Kross -4 km. (150-160 zar/daq.) URM - 20 daqiqa.
9	Yozgi musobaqa mikrosikli	Sekin yugurish 2 km. URM - 20 daqiqa. Tezlik - 2x80 m. 2x100 (175/ daq.), shiddat 90% maks. 4 daqiqa dam olish.	Kross - 2 km. (150 zar/ daq.). URM-20 daqiqa.	Musobaqalar
10	Tiklovchi mikrosikl	Kross - 2 km. (150 zar/daq.). URM - 20 daqiqa. Maxsus yugurish mashqlari -300 m.	Kross - 2 km. (160 zar/daq). Sport, o‘yinlari - 90 daqiqa.	Kross - 4 km. (140-150 zar/daq). Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 30 daqiqa.
11	O‘tish-kirish mikrosikli	Kross - 2 km. (140-150 zar/daq). Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar -30 daqiqa.	Sport o‘yinlari – 60 daqiqa. URM – 20 daqiqa. Tiklovchi yugurish 400 m.	Kross - 3 km. (150 zar/daq.). URM - 20 daqiqa. Tiklovchi va rivojlantiruvchi mashqlar - 20 daqiqa.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi o‘rta masofaga yuguruvchilarning yillik tayyorgarlik siklida mikrosikllar tuzulishining kuzgi-qishki va bahorgi – yozgi tayyorgarlik bosqichlari uchun maxsus ishlab chiqilib mashg‘ulotlar jarayoniga tatbiq etilishi ushbu tadqiqotning samaradorligini asoslashda asosiy mazmunni ifoda etadi.

Yil bo‘yi bo‘lib o‘tadigan musobaqalarda sport formasini shakllanishida, nazorat va saralash musobaqalarida yaxshi natijalarni qayd etgani holda asosiy musobaqalar oralig‘ida natijalar sezlarli ravishda pasayishi holatlari kuzatilsa, sport formasining barqaror emasligini ko‘rsatadi.

Yillik tayyorgarlik siklining musobaqalar davrida sport formasining tashkil topishi va uning asosiy musobaqalar davrida barqarorligini tushirmasdan ushlab turish va oldingi ishtirok etgan musobaqalardagi eng yaxshi natija yangilansa, sportchini sport formasida deb baholashimiz mumkin.

O‘rta masofalarga 800 - 1500 m. yugurish tezligi dinamikasini taqqoslab, turli xil taktik variantlarda o‘tkazilgan yugurishlarda shuni takidlash mumkinki, eng kuchli sportchilarning ko‘pchiligi marraga 200 - 300 m. oxirgi 100 m.gacha yugurish tezligini oshiradilar. Segment chastotaning oshishi hisobiga imkon qadar tez ishlaydi. 800 va 1500 metrga yugurishda masofaning ikkinchi yarmini minimal pasayish bilan bosib o‘tish lozim bo‘ladi.

Biz yuqorida tajriba guruhi sinaluvchi sportchilari bilan o‘tkazilgan tadqiqotimizda aynan mashg‘ulot jarayonida tayyorgarlik haftasi, rivojlantiruvchi, va maxsus musobaqa oldi tayyorgarlik mikrosikllari bo‘yicha mashg‘ulotlarda olib borildi.

Yillik tayyorgarlik siklida o‘rta masofaga yuguruvchilarning mashg‘ulot maqsad va vazifalari, mashg‘ulot davrlari va mavsumga qarab mazmun hamda shakl jihatidan rang - barang bo‘lishi lozim. Mashqlarning murakkabligi, hajm va shiddati, soni, vaqt, mavsum va sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga qarab o‘zgarishi hisobga olindi.


O‘rta masofaga yuguruvchilar musobaqa davrida sport formasini barqarorlashtirish bo‘yicha biz tomonimizdan ishlab chiqilgan takomillashgan mashg‘ulot dasturini pedagogik tajribada qo‘llash orqali olingan natijalar bo‘yicha quyidagicha qayd etildi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi ikkinchi yilida shug‘ullanuvchi tajriba va nazorat guruhi o‘rta masofalarga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari asosiy statistik xarakteristikalarini tadqiqot boshi va oxiridagi qayd etilgan natijalar bo‘yicha umumiy tahlili: 1-30 metr masofaga yugurish vaqti (s.); 2-60 metr masofaga yugurish vaqti (s.); 3-100 metr masofaga yugurish vaqti (s.); 4-200 metr masofaga yugurish vaqti (s.); 5-800 metr masofaga yugurish vaqti (s.) va 6-Joydan turib uzunlikka sakrash (sm) testlari bo‘yicha AF-absolyut o‘sish TG 14,95 % va NG 7,73 % NF-nisbiy o‘sish TG 21,96 % va NG 11,39 % qayd etilib sezlarli farq kuzatildi bu ishlab chiqilgan metodika samaradorligi yuqori ekanligini asoslab berdi (3-jadval va 1-rasmga qarang).

3-jadval

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi ikkinchi yilida o‘rta masofalarga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari asosiy statistik xarakteristikalarini tadqiqot davomidagi o‘zgarishi tahlili (n=24)

T/r	Nazorat testlari	Guruhlar	Tajriba boshi			Tajriba oxiri			Testlarning ishonchlilik ko‘rsatkichlari			
			$\bar{X}$	σ	V, %	$\bar{X}$	σ	V, %	AO‘	NO‘	t	P
1	30 metrga yugurish (soniya)	TG	7,31	1,09	14,97	6,07	0,86	14,12	1,24	16,96	3,09	<0,01
		NG	7,26	1,06	14,60	6,69	0,90	13,48	0,57	7,91	1,43	>0,05
2	60 metrga yugurish (soniya)	TG	13,76	2,34	16,98	10,43	1,68	16,11	3,33	24,20	4,01	<0,001
		NG	13,51	2,24	16,58	11,76	1,82	15,46	1,75	12,95	2,10	<0,05
3	100 metrga yugurish (soniya)	TG	16,12	2,58	15,99	12,45	1,89	15,18	3,67	22,77	3,98	<0,001
		NG	15,76	2,46	15,61	13,83	2,00	14,46	1,93	12,25	2,11	<0,05
4	200 metrga yugurish (soniya)	TG	33,14	5,62	16,97	26,95	4,34	16,10	6,19	18,68	3,02	<0,01
		NG	32,88	5,46	16,59	29,39	4,55	15,48	3,49	10,61	1,70	>0,05
5	800 metrga yugurish (soniya)	TG	208,05	33,25	15,98	171,42	25,93	15,13	36,63	17,61	3,01	<0,01
		NG	211,67	32,95	15,57	192,31	29,71	15,45	19,36	9,15	1,51	>0,05
6	Joydan turib uzunlikka sakrash (sm)	TG	122,48	20,79	16,97	161,13	26,02	16,15	38,65	31,56	4,02	<0,001
		NG	124,53	20,67	16,60	143,79	23,68	16,47	19,26	15,47	2,12	<0,05
O‘rtacha o‘sish:		TG							**14,95**	**21,96**		
		NG							**7,73**	**11,39**		



1-rasm. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi ikkinchi yilida o‘rta masofalarga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari asosiy statistik xarakteristikalarini tadqiqot davomidagi o‘zgarishi dinamikasi % nisbatida

O‘rta masofaga yuguruvchilar yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlari uchun rejalashtirilgan mikrosikllar yukalamalarini bosqichli holda qo‘llash orqali o‘tkazilgan tadqiqotimizda tortuvchi, hajmli, rivojlantiruvchi, maxsus musobaqa oldi va qishki musobaqa mikrosikllarida olib borildi hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, tadqiqotdan kutilgan samaradorlikka erishganligimizni asoslab berishga imkon berdi.

Xulosalar. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida o‘rta masofalarga yuguruvchilar sport formasini fundamental shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulot dasturini bosqichli qo‘llash uslubiyatini amaliyotga tatbiq etish samaradorligi P<0,001 ga teng bo‘lganligi, ma’lumotlar asosida va pedagogik tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, o‘rta masofaga yuguruvchilar sport formasini yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarining musobaqalar davrida barqaror ushlab turishda sport turining xususiyatlari va sportchilar malakasini hisobga olgan xolda yondashish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev M.J., Olimov M.S., To‘xtaboyev N.T. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent-2017. –B 128.

2. Бондарчук А.П. Управление тренровчним проссесом спорсменов високого класса. - М.: Олимпия пресс 2007. 148 с.

3. Safarova D.D., Syeydaliyeva L.D., Sultanova Yu.M., Nurbayev B.Sh., Musayyeva U.A., Seryebryakova V.V., Sagatov D.A. Sport fiziologiyasi. darslik. Toshkent, 2018. 157 b.

4. Олимов М.С. Югуриш турларида енгил атлетикачи талабаларни тайёрлашнинг илмий педагогик асослари (югуриш турлари мисолида). Ўз Рес. ОАК. п.ф.д. (DSc) диссетацияси. Чирчиқ-2023. –Б. 213-214.

5. Khurshid Kurbonov. The effectiveness of the phased application of a set of special exercises aimed at improving athletic fitness during the annual training of middle-distancye runners. Eurasian Journal of Sport Science, Tachkent. 2024; 1(1): 38-43 https://eajss.uz.

6. Khurshid Kurbonov. Effectiveness of improving the sports performance of middle-distance runners in the process of training sessions of one-year preparation. Eurasian Journal of Sport Science. Tachkent. 2024; 1 (2): 231-234. https://eajss.uz.

7. Qurbonov X.X. O‘rta masofalarga yuguruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlar jarayonida sport formasini takomillashtirish samaradorligi. p.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiya. 13.00.04 / O‘z Res. OAK.: Chirchiq-2024. – B. 83-86.

8. Qurbonov X.X. // Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari (jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik). Uslubiy qo‘llanma // T.:Ilm-fan nashriyoti, – 2025, 138 bet.

9. Qurbonov X.X. O‘rta masofalarga yuguruvchilar sport formasining shakllanishi va funksional tayyorgarligini oshirish. Jismoniy tarbiya va sport axborotnomasi Ilmiy-uslubiy jurnal. 2024/5 (2) – son. – B. 13-17.

10. Xo‘jamkeldiyev G‘.S. Yugurish turlarida tiklovchi vositalardan foydalanish orqali mashg‘ulot jarayonlarini kompleks nazorat qilish uslubiyati. p.f.d. (DSc) dissetatsiyasi. 13.00.04 / O‘z Res. OAK.: Chirchiq-2025. – B. 64-65.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xosilova Farida Rustamdjanovna
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
fakultetlararo tillar kafedrasi,PhD, dos v.b.

TALABALARNING ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarning ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va tadqiqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan innovatsion metodlar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida loyiha metodi, muammoli ta'lim, case-study, klaster, interfaol muhokama va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi. Ushbu metodlar talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, tahliliy fikrlashini kuchaytirish hamda ilmiy muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada innovatsion metodlarning talabalarning ilmiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni hamda ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etishdagi pedagogik ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar*: ilmiy-tadqiqot faoliyati, innovatsion metodlar, loyiha metodi, muammoli ta'lim, case-study, ilmiy kompetensiya, oliy ta'lim, interfaol metodlar.*

Хосилова Фарида Рустамджановна
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Межфакультетский факультет языков, кандидат наук, доцент и др

РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ОРГАНИЗАЦИИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования инновационных методов при организации научно-исследовательской деятельности студентов. В современной системе высшего образования развитие исследовательских навыков, аналитического мышления и самостоятельной научной деятельности студентов является одной из актуальных педагогических задач. В этой связи инновационные методы выступают эффективным средством организации научно-исследовательской работы. В ходе исследования были проанализированы возможности применения проектного метода, проблемного обучения, case-study, кластерного анализа, интерактивных обсуждений и цифровых технологий. Данные методы способствуют развитию научного мышления студентов, формированию навыков анализа научной информации и самостоятельного решения исследовательских задач. В статье обоснована педагогическая значимость инновационных методов в развитии научной компетентности студентов и повышении эффективности их исследовательской деятельности.*

Ключевые слова: *научно-исследовательская деятельность, инновационные методы, проектный метод, проблемное обучение, case-study, научная компетентность, высшее образование, интерактивные методы.*

Khosilova Farida Rustamdzhanovna
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Interfaculty Department of Languages, PhD, Associate Professor, etc.

THE ROLE OF INNOVATIVE METHODS IN ORGANIZING STUDENTS' RESEARCH ACTIVITIES

Abstract: *This article analyzes the theoretical and practical aspects of using innovative methods in organizing students' research activities. In modern higher education, developing students' research skills, analytical thinking, and independent scientific inquiry is considered one of the key pedagogical objectives. In this regard, innovative methods serve as effective tools for organizing research activities. The study examines the use of project-based learning, problem-based learning, case study, clustering techniques, interactive discussions, and digital technologies. These methods contribute to the development of students' scientific thinking,*

analytical abilities, and their capacity to solve research problems independently. The article substantiates the pedagogical significance of innovative methods in enhancing students' research competence and improving the effectiveness of their scientific activities.

Keywords: *research activity, innovative methods, project-based learning, problem-based learning, case study, research competence, higher education, interactive methods.*

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv hamda ilmiy-tadqiqot olib borish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Bugungi globallashuv sharoitida bilimlar tez yangilanib borayotganligi sababli talabalarning faqat nazariy bilimlarni egallashi yetarli bo'lmay, ular ilmiy izlanishlar olib borish, muammolarni tahlil qilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyatiga ham ega bo'lishlari zarur. Shu bois oliy ta'lim tizimida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish masalasi muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati ularning kasbiy tayyorgarligi, ilmiy tafakkuri hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ilmiy izlanish jarayonida talabalar nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'laydi, muammolarni mustaqil tahlil qilishni o'rganadi hamda ilmiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot faoliyati talabalarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni innovatsion g'oyalar yaratishga yo'naltirish hamda ilmiy ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va metodlarni joriy etish talabalarning ilmiy faoliyatini tashkil etishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Xususan, loyiha metodi, muammoli ta'lim, case-study, interfaol muhokama, klaster, brainstorming kabi metodlar talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, ularning muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish hamda ilmiy muammolarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodlar o'quv jarayonini faollashtiradi, talabalarning ilmiy izlanishga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularni ijodiy faoliyatga jalb etadi.

Pedagogika va ta'lim metodikasi sohasidagi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda innovatsion metodlar talabalarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirishning muhim omili sifatida e'tirof etilgan. Bunday metodlar ta'lim jarayonini interfaol shaklda tashkil etishga, talabalarning mustaqil faoliyatini kuchaytirishga hamda ularning ilmiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion metodlardan foydalanish talabalarning ilmiy faoliyatini tizimli tashkil etish, ilmiy axborot bilan ishlash va tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Shu munosabat bilan mazkur maqolaning maqsadi talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanishning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda ularning ta'lim jarayonidagi pedagogik ahamiyatini ochib berishdan iboratdir. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy faoliyatini samarali tashkil etish, ularning ilmiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda innovatsion yondashuvlarga asoslangan ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya hamda ta'lim metodikasi sohasida keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning ilmiy faoliyatini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning kasbiy kompetensiyasi, mustaqil fikrlashi hamda ilmiy tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fanida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, ilmiy-tadqiqot faoliyatining mohiyati va uning ta'lim jarayonidagi o'rni haqida V. V. Kraevskiy, I. Ya. Lerner, M. N. Skatkin kabi olimlar o'z tadqiqotlarida ta'lim jarayonida ilmiy izlanish elementlarini qo'llash o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaganlar. Ularning fikriga ko'ra, ilmiy-tadqiqot faoliyati ta'lim jarayonini faollashtirish, talabalarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda ilmiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish masalalari ham pedagogika fanida keng o'rganilgan. Xususan, V. P. Bespalko, G. K. Selevko va A. M. Novikov innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish hamda talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida innovatsion metodlar o'quv jarayonini interfaol tashkil etish, o'quvchilarning faolligini oshirish va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Chet el olimlari ham talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda innovatsion metodlarning muhimligini ta'kidlab o'tganlar. Jumladan, J. Dewey ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarni qo'llash orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash va tadqiqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ko'rsatib bergan. Shuningdek, D. Kolb

tomonidan ishlab chiqilgan tajribaviy ta’lim nazariyasiga ko‘ra, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni tajriba, tahlil va refleksiya orqali amalga oshadi. Bu esa talabalarning ilmiy faoliyatini rivojlantirishda innovatsion metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanish samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik tajriba-sinov metodidan foydalanildi. Tajriba ishlari Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida tashkil etilib, unda turli ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan 57 nafar talaba ishtirok etdi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda innovatsion metodlarning samaradorligini aniqlash hamda ularning ilmiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Tajriba davomida kuzatish, suhbat, anketa so‘rovi va amaliy topshiriqlarni bajarish kabi ilmiy-tadqiqot metodlari qo‘llanildi.

Dastlab tadqiqotning diagnostik bosqichida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga oid ko‘nikmalari tahlil qilindi. Bunda talabalarning ilmiy muammolarni aniqlash, ilmiy manbalar bilan ishlash, tahliliy fikrlash, tadqiqot metodlaridan foydalanish hamda ilmiy xulosalar chiqarish qobiliyatlari baholandi. Olingan natijalar asosida talabalarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi uch darajaga – boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajalarga ajratildi.

Shakllantiruvchi bosqichda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish maqsadida innovatsion metodlarga asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etildi. Jumladan, loyiha metodi, muammoli ta’lim, case-study, klaster usuli, brainstorming hamda guruhli muhokama kabi metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar talabalarning ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, muammolarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Tajriba yakunida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi o‘zgarishlar qayta diagnostika orqali baholandi. Natijalar innovatsion metodlardan foydalanish talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, ularning mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim pedagogik omil ekanligini ko‘rsatdi.

Tahlil va natijalar

Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida olingan ma’lumotlar talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanish samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida 57 nafar talaba ishtirokida o‘tkazildi. Tajriba boshida va yakunida talabalarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi darajalari qiyosiy tahlil qilindi.

Dastlabki diagnostika natijalariga ko‘ra, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati ko‘nikmalari uch daraja — boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajalarga ajratildi. Tajriba boshida ayrim talabalar ilmiy muammolarni aniqlash, ilmiy manbalarni tahlil qilish, tadqiqot metodlarini qo‘llash hamda ilmiy xulosalar chiqarish jarayonida yetarli tajribaga ega emasligi kuzatildi. Bu esa ilmiy faoliyatni tashkil etishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatdi.

Shakllantiruvchi bosqichda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish maqsadida innovatsion metodlarga asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etildi. Jumladan, loyiha metodi, muammoli ta’lim, case-study, brainstorming, klaster va guruhli muhokama kabi metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, ularning ilmiy muammolarni mustaqil tahlil qilish hamda ilmiy yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qildi. Tajriba yakunida o‘tkazilgan qayta diagnostika natijalari talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati darajasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatdi. Quyidagi jadvalda tajriba boshidagi va yakunidagi natijalar aks ettirilgan.

1-jadval

Talabalarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi darajalarining tajriba boshidagi va yakunidagi ko‘rsatkichlari (57 nafar talaba)

Darajalar	Tajriba boshida (soni)	Tajriba boshida (%)	Tajriba yakunida (soni)	Tajriba yakunida (%)
Boshlang‘ich	22	38,6 %	10	17,5 %
O‘rta	24	42,1 %	28	49,1 %
Yuqori	11	19,3 %	19	33,4 %
Jami	57	100 %	57	100 %

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba yakunida boshlang‘ich darajadagi talabalar ulushi 38,6 % dan 17,5 % gacha kamaygan, yuqori darajadagi talabalar ulushi esa 19,3 % dan 33,4 % gacha oshgan. Bu esa innovatsion

metodlardan foydalanish talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, kuzatish va suhbat natijalari talabalarning ilmiy muhokamalarda faol ishtirok etishi, ilmiy manbalar bilan ishlash koʻnikmalarining rivojlangani hamda ilmiy muammolarni tahlil qilishga boʻlgan qiziqishining oshganini koʻrsatdi. Innovatsion metodlarga asoslangan mashgʻulotlar talabalarning mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv hamda ilmiy xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir koʻrsatdi.

Umuman olganda, oʻtkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanish oʻquv jarayonining samaradorligini oshirishga, talabalarning ilmiy kompetensiyasini rivojlantirishga hamda ularning ilmiy izlanishlarga boʻlgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qilishini koʻrsatdi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini oʻrganishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar tahlili hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari innovatsion metodlar talabalarning ilmiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini koʻrsatdi. Shunday qilib, innovatsion metodlardan foydalanish talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish, ularning ilmiy tafakkuri va mustaqil izlanish koʻnikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy faoliyatini rivojlantirish jarayonida innovatsion metodlardan keng foydalanish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini ta'lim jarayoni bilan integratsiyalash hamda talabalarning ilmiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.
2. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. – Москва: Народное образование, 1998. – 256 с.
3. Краевский В. В. Методология педагогического исследования. – Москва: Академия, 2001. – 256 с.
4. Лернер И. Я., Скаткин М. Н. Дидактика средней школы. – Москва: Просвещение, 1982. – 303 с.
5. Новиков А. М. Методология образования. – Москва: Эгвес, 2006. – 488 с.
6. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.
7. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
8. Prince M., Felder R. Inductive Teaching and Learning Methods: Definitions, Comparisons, and Research Bases // Journal of Engineering Education. – 2006. – Vol. 95. – No. 2. – P. 123–138.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Sulaymonov Mirobid Abduxoliqovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Aaxborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kefedrasi o'qituvchisi
mirobid30@gmail.com +998-94-474-06-09

YOSHLARNI AXBOROT ISTE'MOLI ETIKASI VA MADANIYATINI O'RGATISHDAGI INAVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.

Annotatsiya: *Mazkur maqola raqamli makonda yoshlarning axborot bilan ishlash madaniyatini yuksaltirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarga bag'ishlanadi. Unda media savodxonlikni o'qitishda o'yin texnologiyalarining (geymifikatsiya) o'rni va ularning o'quv jarayonidagi samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari o'yin elementlari yordamida yoshlarda axborot filtrlash hamda ijtimoiy tarmoqlardagi turli manipulyatsiyalarga qarshi intellektual immunitetni shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.*

Tayanch so'zlar: *axborot iste'moli, axborot etikasi, media madaniyat, o'yin texnologiyalari, geymifikatsiya, didaktik ta'minot, raqamli savodxonlik.*

Сулаймонов Миробид Абдухоликович
Преподаватель кафедры «Информационные технологии, естественные и точные науки» Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ МОЛОДЕЖИ ЭТИКЕ И КУЛЬТУРЕ ПОТРЕБЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ.

Аннотация: *Данная статья посвящена инновационным педагогическим подходам к повышению культуры работы с информацией среди молодежи в цифровом пространстве. В ней освещается роль игровых технологий (геймификации) в обучении медиаграмотности и их эффективность в учебном процессе. Результаты исследования показывают возможности формирования у молодежи навыков фильтрации информации и интеллектуального иммунитета против различных манипуляций в социальных сетях с помощью игровых элементов.*

Ключевые слова: *потребление информации, информационная этика, медиакультура, игровые технологии, геймификация, дидактическое обеспечение, цифровая грамотность.*

Sulaymonov Mirobid Abduxoliqovich
Lecturer at the Department of "Information Technologies, Natural and Exact Sciences," Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnologies

UTILIZING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING YOUTH THE ETHICS AND CULTURE OF INFORMATION CONSUMPTION.

Abstract: *This article is devoted to innovative pedagogical approaches for enhancing the information literacy culture among youth in the digital space. It highlights the role of game technologies (gamification) in teaching media literacy and their effectiveness within the educational process. The research results demonstrate the potential of using game elements to develop information filtering skills and intellectual immunity against various manipulations in social networks among young people.*

Keywords: *information consumption, information ethics, media culture, game technologies, gamification, didactic support, digital literacy.*

Kirish.

Bugungi globallashuv va keskin raqamli transformatsiya davrida axborot oqimi shiddat bilan o'sib bormoqda. Jahon amaliyotida Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya, AQSH va YeI davlatlari maktab ta'limining o'zida mediasavodxonlik, tanqidiy tahlil, axborot xavfsizligi va axborotni axloqiy qabul qilishni majburiy kompetensiya sifatida joriy etgan bo'lib, yoshlarni feyk xabarlar, manipulyasiya va psixologik ta'sirlarga qarshi immunitetini kuchaytirishni

milliy barqarorlik sharti sifatida ko‘rmoqda. Masalan, Finlyandiyada axborot savodxonligi demokratiyani himoya qiluvchi asosiy kompetensiya sifatida baholanadi, Singapurda esa “Digital Literacy Programme” doirasida har bir o‘quvchi axborotni tahlil qilish va xavfsiz iste’mol qilish bo‘yicha maxsus daraslardan o‘tadi. AQSHda mediasavodxonlik fuqarolik ta’limining tarkibiy qismiga aylantirilgan. [1-2] Bunday tendensiyalar global axborot oqimida yoshlarning tanqidiy fikrlashi, axloqiy va ijtimoiy mas’uliyat asosida axborotni saralab qabul qilishiga oid masalalarning butun dunyoda strategik darajaga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi. "Yoshlarning axborot iste’moli madaniyatini oshirishning metodik-didaktik ta’minotini rivojlantirish" masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy xavfsizlik masalasi hamdir.

Adabiyotlar tahlili

Mamlakatimizda axborot madaniyati va axborot xavfsizligi masalasi bir qator olimlar tomonidan o‘rganilmoqda. Jumladan, M.M.Parpiyeva raqamli muhitda innovatsiyalarni joriy etish va axborot texnologiyalari samaradorligini, yoshlarning AKT bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘nalishlarini, F.N.Mataganova ochiq axborot tizimlari sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashda diniy va ijtimoiy omillar o‘rnini, shuningdek, g‘oyaviy immunitet shakllantirish modelini, R.Samarov va Yo.Sattorov axborot madaniyatining nazariy-metodologik mazmuni, ta’lim tizimida uni shakllantirish mexanizmlari va amaliy qo‘llanilishini va axborot muhitida foydalanuvchi madaniyatining shakllanish omillarini yoritib berganlar. Xorij mamlakatlarida mazkur muammo keng ko‘lamda tadqiq etilgan bo‘lib, ayniqsa AQSh, Yevropa Ittifoqi va Avstraliya tadqiqot maktablarida mediasavodxonlik, faktcheking, axborotni tanqidiy qabul qilish va yoshlarni dezinformatsiyadan himoya qilish konsepsiyalari izchil rivojlangan: masalan, AQSHda R.Xobbsning mediata’limga bag‘ishlangan tadqiqotida axborotni tanlab qabul qilish, manba ishonchliligini baholash va axborot immunitetini shakllantirish prinsiplari yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Axborot iste’moli madaniyati — bu nafaqat axborotni topish, balki uni qabul qilishda axloqiy me’yorlarga rioya qilish, manbalarning ishonchliligini tekshirish fact-checking va intellektual mulk huquqini hurmat qilishni o'z ichiga oladi. Yoshlar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ axborotlar yoki "fake-news" qurboniga aylanmoqda. Shu boyisdan o‘yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari, an'anaviy ma'ruza uslubi axborot iste’moli kabi dinamik mavzularni o'rgatishda kutilgan samarani bermasligi mumkin.

Natijalar va ularning tahlili

Axborot iste’moli madaniyatini yoshlarga o’qitishda o‘yin texnologiyalari (Game-based learning) esa didaktik afzalliklarga ega masalan.

- **Motivatsiyaning yuqoriligi:** O‘yin elementlari o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi.
- **Xavfsiz tajriba:** Talaba virtual muhitda axborot xurujiga "duchor bo'lib", real hayot uchun dars oladi.
- **Interaktivlik:** Nazariy bilimlar darhol amaliy mashqlarda sinab ko'riladi.

O‘quvchilarda axborot oqimidagi ortiqcha, ishonchsiz yoki manipulyativ ma’lumotlarni ajratuvchi ongli to‘siqni shakllantirishga qaratilgan. Bu usul manba ishonchliligini tekshirish, ma’lumotni boshqa manbalar bilan solishtirish va axborot xavflarini aniqlash kabi qadamlardan iborat algoritmni yaratadi. Uning afzalligi shundaki, u yoshlarda “faktcheking qobiliyati”ni — har qanday ma’lumotni tanqidiy tekshirish odatini rivojlantiradi. Natijada o‘quvchi axborotni emosional qabul qilmasdan, mantiqiy-daliliy tahlil asosida saralaydi; bu esa raqamli muhitda axborot manipulyasiyalariga nisbatan barqaror immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu usullar ta’lim samaradorlikni oshirishda yordam beradi.

Tadqiqotimiz doirasida axborot iste'moli madaniyatini oshirishda quyidagi o'yin modellarini qo'llash taklif etiladi. [3]

"Fact-Check" kvesti: Talaba va o‘quvchilarga turli manbalardan olingan, bir-biriga ziddiyatli bo‘lgan xabarlar to‘plami taqdim etiladi. Ishtirokchilar belgilangan qisqa vaqt ichida faktlarni tekshirish (fact-checking) ko‘nikmalarini qo‘llab, qaysi ma’lumot yolg‘on ekanligini isbotlashlari lozim. Bu jarayonda ular axborotni tahlil qilish, manbalar ishonchliligini qiyoslash va mantiqiy xulosalar chiqarish orqali o‘zlarida mustahkam media immunitetni shakllantiradilar. Ushbu metodik yondashuvda talaba va o‘quvchilarga turli axborot manbalaridan olingan, bir-birini inkor etuvchi va ziddiyatli xabarlar to‘plami taqdim etiladi. Ishtirokchilarning asosiy vazifasi — belgilangan qisqa vaqt ichida zamonaviy fakt-cheking (faktlarni tekshirish) usullaridan foydalangan holda, qaysi ma’lumot soxta (feyk) ekanligini ilmiy va mantiqiy jihatdan isbotlab berishdir.

Bu jarayon ta’lim oluvchilarda axborot oqimini saralash, manbalarning ishonchliligini tanqidiy tahlil qilish va manipulyatsiyaga uchramaslik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada yoshlarda kuchli media savodxonlik va axborot immuniteti shakllanadi. Bunday amaliy mashg‘ulotlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki o‘quvchilarni real hayotdagi axborot xurujlariga qarshi tayyorlaydi, ularni dalillarga asoslangan holda fikrlashga va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatadi. [4].1-rasm.



--- 1450 ---




1-rasm. Feyk axborotni tanish, manipulyatsiyani anglash va faktlarni tekshirish bo‘yicha Ssenariy.

Raqamli etika" simulyatori: Zamonaviy ta’limda media savodxonlikni oshirishning eng samarali modellaridan biri hisoblanadi. Ushbu mashg‘ulot doirasida real ijtimoiy tarmoq muhiti sun’iy ravishda modellashtirilib, ishtirokchilarga turli xil ijtimoiy rollar va ssenariylar taqdim etiladi. Simulyatsiyaning asosiy maqsadi yoshlarni virtual olamdagi murakkab vaziyatlarda, xususan, "trolling", kiberbulling internetdagi tazyiq va raqamli etiket qoidalarining buzilishi kabi holatlarga duch kelganda o‘zini qanday tutish kerakligini amalda o‘rgatishdir.

Ishtirokchilar "tajovuzkor", "qurbon" va "kuzatuvchi" rollarini bajarish orqali manipulyatsiya mexanizmlarini ichkaridan tushunadilar. Mashg‘ulot davomida ular nafaqat salbiy xatti-harakatlarni aniqlashni, balki ularga nisbatan huquqiy va axloqiy jihatdan to‘g‘ri reaksiya bildirishni, ya’ni konstruktiv muloqotni saqlab qolish yoki zarur hollarda xavfsizlik funksiyalaridan (bloklash, shikoyat qilish) foydalanishni o‘rganadilar. 2-rasm.

Bu kabi interaktiv metodlar talaba va o‘quvchilarda empativlik hissini uyg‘otadi va ularda mas’uliyatli raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantiradi. Yakunda har bir holat tahlil qilinib, ijtimoiy tarmoqlardagi xavfsiz va madaniyatli muloqotning oltin qoidalari ishlab chiqiladi. Bu esa virtual makonda psixologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.



2- rasm Manba ishonchliligini baholash bo‘yicha Keys.

Axborot iste’moli madaniyati zamonaviy ta’limning ustuvor maqsadlaridan biri sifatida shaxsning intellektual va ma’naviy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. U yoshlarning axborotni saralash, tahlil qilish va ma’nosini anglash qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi. [6] Axborotni boshqarish madaniyati ta’lim mazmunini yangicha tashkil etishni talab qiladi. Shu bois axborot iste’moli madaniyati ta’lim tizimining strategik yo‘nalishlaridan birini tashkil qiladi.

Xulosa.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'yin texnologiyalaridan foydalanish yoshlarning axborotni tahlil qilish darajasini 35-40% ga oshiradi. Axborot iste'moli madaniyatini faqat taqiqlar bilan emas, balki qiziqarli didaktik modellar orqali shakllantirish samaraliroqdir. Axborotga axloqiy munosabat va javobgarlikni shakllantirish maqsadida "Axborot etikasi" mavzuida rolli o'yinlar va muhokama-debatlarni metodik jihatdan tizimli tashkil etish zarurdir,

Tadqiyqodimiz doirasida ishlab chiqilayotgan metodik-didaktik ta'minotda geymifikatsiya elementlarini tizimli ravishda o'quv rejasiga kiritish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ–81-sonli qarori.
2. M.A. Sulaymonov -"Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim oluvchilarda axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati"
3. **S.T.Ravshanov M.A.Sulaymonov**-Effectiveness of working with simulators and virtual laboratories in teaching agricultural sciences-Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'siri: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari 2023 yil 926-930 b. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9vBLcrUAAAAJ&citation_for_view=9vBLcrUAAAAJ:hqOjcs7Dif8C
4. **M.A.Sulaymonov, R.Sh.Usanov -**"Kiberxavfsizlikning yangi paradigmalari: global tahdidlar va mahalliy himoya strategiyalari", Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti maqolalar to'plami respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi Toshkent:. 2025 y. 141-145 bet.
5. **M.A.Sulaymonov.** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga didaktik o'yinlardan foydalanib, "Axborot xavfsizligi" mavzusini o'qitish usullari. "ILM SARCHASHMALARI" ilmiy-nazariy, metodik jurnal Urganch: 3-son (mart 2025) 73-75 bet.
6. https://mirobidsulaymonov.github.io/mdim/index.html

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ravshanov Sanjar Tolibjonovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, "Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar" kafedrasi o'qituvchisi sanjarravshanov86@gmail.com

Z AVLOD FENOMENI: NAZARIY, IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK TAHLIL

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida shakllanayotgan Z avlod fenomeni kompleks ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Z avlodning tarixiy shakllanish omillari, ijtimoiy-psixologik va kognitiv xususiyatlari, raqamli muhit ta'sirida yuzaga kelgan tafakkur modeli hamda ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabati yoritilgan. Shuningdek, X, Y va Z avlodlar o'rtasidagi asosiy farqlar qiyosiy tahlil asosida ochib beriladi. Maqola zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Z avlod, raqamli avlod, multimodal tafakkur, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, ta'lim, pedagogik yondashuv.*

Равшанов Санжар Толибжонович
Преподаватель кафедры «Информационные технологии, естественные и точные науки» Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

ФЕНОМЕН ПОКОЛЕНИЯ Z: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ, СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация: *В статье на основе комплексного научного подхода анализируется феномен поколения Z, формирующегося в условиях цифровой трансформации современного общества. Рассматриваются исторические факторы становления поколения Z, его социально-психологические и когнитивные особенности, модель мышления, сформированная под воздействием цифровой среды, а также отношение к образовательному процессу. Представлен сравнительный анализ поколений X, Y и Z. Статья может служить теоретико-методологической основой для разработки современных педагогических подходов.*

Ключевые слова: *поколение Z, цифровое поколение, мультимодальное мышление, социально-психологические особенности, образование.*

Ravshanov Sanjar Tolibjonovich
Lecturer at the Department of "Information Technologies, Natural and Exact Sciences," Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnologies.

THE GENERATION Z PHENOMENON: THEORETICAL, SOCIO-PSYCHOLOGICAL, AND PEDAGOGICAL ANALYSIS

Abstract: *The article provides a comprehensive analysis of Generation Z as a phenomenon formed under the conditions of rapid digital transformation in modern society. The study examines the historical background of Generation Z, its social-psychological and cognitive characteristics, the thinking model shaped by the digital environment, and its attitudes toward education. A comparative analysis of Generations X, Y, and Z is also presented. The article serves as a theoretical and methodological basis for developing modern pedagogical approaches.*

Keywords: *Generation Z, digital generation, multimodal thinking, social-psychological characteristics, education.*

Kirish.

XXI asrda dunyo miqyosida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini tubdan o'zgartirib yubordi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet infratuzilmasining kengayishi, sun'iy intellekt va raqamli platformalarning kundalik hayotga kirib kelishi natijasida inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy faoliyat, madaniyat va ta'lim tizimining mohiyati yangicha shakllanmoqda. Bu jarayonlar natijasida shakllangan avlodlar orasida **Z avlod** zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning eng dolzarb obyektlaridan biriga aylandi.

Z avlod vakillari raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan muhitda voyaga yetgani sababli oldingi avlodlardan keskin farq qiladi. Ular internetni shunchaki axborot manbai sifatida emas, balki hayot tarzining ajralmas qismi sifatida qabul qiladilar. Raqamli muhit Z avlodning dunyoqarashi, ijtimoiylashuv jarayoni, kognitiv faoliyati va shaxsiy identifikatsiya mexanizmlariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli Z avlod vakillarining ijtimoiy-psixologik portreti, o‘rganish motivatsiyasi, kognitiv xususiyatlari va ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini chuqur ilmiy asosda tahlil qilish zamonaviy pedagogika va psixologiya uchun muhim masalaga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Z avlod tushunchasi sotsiologiya, psixologiya va pedagogika fanlarida muayyan tarixiy davrda tug‘ilib, aynan shu davrning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va texnologik sharoitlarida shakllangan yoshlar guruhini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Tadqiqotchilar U. Straus va N. Xau (Strauss & Howe) avlodlar nazariyasiga ko‘ra, 1997-yildan 2012-yilgacha tug‘ilgan shaxslar Z avlod vakillari hisoblanadi. Ushbu avlodning shakllanishiga eng kuchli ta’sir qilgan omillar quyidagilardan iborat:

internetning global miqyosda kengayishi, mobil texnologiyalar va smartfonlarning ommalashuvi, ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi (Facebook, Instagram, Telegram, TikTok va boshqalar), raqamli kontent iste’molining keskin ortishi, sun’iy intellekt, algoritmik tavsiyalar va raqamli servislarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi, global axborot oqimi va tezkor kommunikatsiya vositalari.

Z avlod vakillari uchun internet oddiy texnologiya emas, balki ijtimoiy hayotning muhim qismi bo‘lib, ular onlayn muhit orqali o‘z shaxsiy fikrini bildiradi, o‘zini namoyon qiladi, bilim oladi va muloqot qiladi. Ular axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanishda yuqori tezkorlikka ega. Shu jihatdan Z avlodni “raqamli sivilizatsiya farzandlari” yoki “digital natives” (raqamli muhitda tug‘ilganlar) deb atash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Z avlodning shakllanishida global miqyosdagi ijtimoiy hodisalar ham muhim rol o‘ynagan. Jumladan: global iqtisodiy inqirozlar, pandemiya sharoitida masofaviy ta’limning kengayishi, ekologik muammolar, axborot urushlari va kiberxavfsizlik tahdidlari, xalqaro migratsiya jarayonlari.

Bu omillar Z avlod vakillarining hayotiy qadriyatlari, xavfsizlik hissi, kelajak haqidagi qarashlari va motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Avlodlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash zamonaviy pedagogika va psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir avlodning shakllanish jarayoni o‘ziga xos tarixiy va madaniy sharoitlar bilan belgilanadi. Ushbu farqlar shaxsning hayotga bo‘lgan munosabati, qadriyatlari, motivatsiyasi, ish uslubi va ta’limga bo‘lgan yondashuvida namoyon bo‘ladi.

X avlod (1965–1980 yillarda tug‘ilganlar) odatda barqarorlik, mehnatsevarlik, intizom, mas’uliyat va an’anaviy qadriyatlarga sodiqlik bilan tavsiflanadi. Ular ko‘proq an’anaviy muloqot va ish uslubini afzal ko‘radi, texnologiyalarni esa asosan yordamchi vosita sifatida qabul qiladi.

Y avlod (1981–1996 yillarda tug‘ilganlar) texnologiyalarni tezroq qabul qilgan, innovatsiyaga ochiq, ijodkorlikka moyil va mustaqillikni qadrlovchi avlod hisoblanadi. Ular raqamli muhitga moslashgan bo‘lsa-da, bolalik davrining bir qismi analog davrga to‘g‘ri kelgan.

Z avlod esa to‘liq raqamli muhitda shakllanganligi sababli, texnologiyalarni hayotning ajralmas qismi sifatida qabul qiladi. Z avlod vakillari quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: tezkor fikrlash va tez qaror qabul qilish, vizual kontentga yuqori ehtiyoj, multitasking (bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifani bajarish), qisqa vaqt oralig‘ida e’tiborini jamlash (short attention span), informatsion yuklama sharoitida tez filtrlash qobiliyati, onlayn muloqotga ustuvorlik berish.

Natijalar va ularning tahlili

Z avlod vakillarining kognitiv modeli vizual axborotni tez qabul qilish, qisqa va mazmunli xulosalar chiqarish hamda qisqa formatdagi ma’lumotlarni afzal ko‘rish bilan tavsiflanadi. Shu sababli ularning ta’lim jarayonida klassik matnli ma’lumotlardan ko‘ra, infografika, video darslar, animatsiyalar va interaktiv platformalarga qiziqishi yuqori bo‘ladi

Z avlod vakillarining ijtimoiy-psixologik portreti ularning raqamli muhitda shakllanganligi bilan bevosita bog‘liq. Ular dunyodagi global jarayonlarni (ekologiya, inson huquqlari, tenglik, urush va mojarolar) internet orqali tez qabul qilganligi sababli, ijtimoiy ong va fuqarolik pozitsiyasi nisbatan erta shakllanadi.

Z avlod vakillarining asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga quyidagilar kiradi: o‘z fikrini erkin ifoda etishga intilish, individualizm va shaxsiy erkinlikka yuqori ehtiyoj, tezkor muloqot va qisqa kommunikatsiyani afzal ko‘rish, jamoaviy ishlashdan ko‘ra, mustaqil qaror qabul qilishga moyillik, raqamli obro‘ va onlayn identifikatsiya (profil, blog, kontent)ga katta e’tibor, real hayotdagi stressga nisbatan sezgirlik.

Raqamli kommunikatsiya vositalari Z avlodning emotsional holati va ruhiy barqarorligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Onlayn muloqotning ustuvorligi bir tomondan tezkor axborot almashinuvi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan virtual qiyoslash (comparison), cyberbullying, internetga qaramlik va stress holatlariga olib kelishi mumkin.

Z avlod vakillarida "FOMO" (Fear of Missing Out – nimanidir o'tkazib yuborishdan qo'rqish) fenomeni keng tarqalgan bo'lib, bu ularning doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlarni kuzatib borishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, "digital burnout" (raqamli charchash) holati ham psixologik barqarorlikka ta'sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Z avlod va zamonaviy ta'lim **-** bu Z avlodning kognitiv va psixologik xususiyatlari ta'lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu avlod vakillari vizual, interaktiv va individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishadi.

An'anaviy ma'ruza uslubidagi darslar Z avlod vakillarining diqqatini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Chunki ularning axborotni qabul qilish mexanizmi qisqa, tez va amaliy formatlarga moslashgan. Shu bois ta'lim jarayonida quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Loyiha asosida o'qitish- Bu metod orqali talabalar real hayotdagi muammolarni hal qilish jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallaydi. Z avlod vakillari amaliy natijani ko'rganida motivatsiyasi oshadi.

2. Geymifikatsiya- Ta'lim jarayonida o'yin elementlarini qo'llash – ball, reyting, badge, missiyalar, bosqichli topshiriqlar orqali Z avlodning qiziqishini oshiradi.

3. Masofaviy va aralash ta'lim- Z avlod vakillari onlayn platformalar orqali mustaqil o'rganishni afzal ko'rganligi sababli, aralash ta'lim modeli samarali natija beradi.

4. Multimediya va interaktiv texnologiyalar- Video darslar, animatsiyalar, 3D modellar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar orqali o'qitish Z avlod uchun eng mos shakllardan biridir.

5. Individual yondashuv va adaptiv ta'lim - Z avlod vakillari o'zining shaxsiy ehtiyojlariga mos, moslashuvchan o'qitish tizimini afzal ko'radi. Shu sababli adaptiv platformalar (AI asosida individual tavsiyalar beruvchi tizimlar) muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda pedagogning roli ham o'zgaradi. U endi faqat bilim beruvchi emas, balki, fasilitator (jarayonni tashkil etuvchi), mentor (yo'naltiruvchi), motivator (rag'batlantiruvchi), hamkor (teng sherik) sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Xulosa.

Z avlod fenomeni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning ijtimoiy-psixologik va kognitiv xususiyatlarini chuqur o'rganish ta'lim tizimini modernizatsiya qilish uchun zarurdir. Z avlod vakillari raqamli muhitda shakllangan, tezkor va multimodal tafakkurga ega bo'lgan, ijtimoiy faol va innovatsiyaga moyil shaxslar sifatida namoyon bo'ladi.

Ularning axborotni qabul qilish uslubi, diqqatni jamlash xususiyatlari va motivatsion omillari an'anaviy pedagogik yondashuvlardan farq qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonida interaktiv texnologiyalar, loyiha asosida o'qitish, geymifikatsiya, raqamli platformalar va individual yondashuvni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Z avlod bilan ishlashda nafaqat pedagogik metodlar, balki psixologik qo'llab-quvvatlash, raqamli savodxonlik va axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki raqamli muhitda faol yashaydigan ushbu avlodning shaxs sifatida barkamol rivojlanishi ularning texnologiyadan ongli va maqsadli foydalanish darajasiga ham bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **S.T.Ravshanov M.A.Sulaymonov**-Effectiveness of working with simulators and virtual laboratories in teaching agricultural sciences-Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'siri: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari 2023 yil 926-930 b. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9vBLcrUAAAAJ&citation_for_view=9vBLcrUAAAAJ:hqOjcs7Dif8C

2. **M.A. Sulaymonov**- Aniq va tabiiy fanlarni raqamli texnologiyalar asosida o'qitish hamda ta'lim tizimidagi muammolarning tahlil va yechimlari- Ta'lim jarayonida tabiiy fanlarini o'qitishda virtual laboratoriya dasturidan crocodile physics dasturi imkoniyatlaridan foydalanish. Farg'ona 2024 yil 4-5 oktabr. 351-353 b.

3. **M.A.Sulaymonov.** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga didaktik o'yinlardan foydalanib, "Axborot xavfsizligi" mavzusini o'qitish usullari. "ILM SARCHASHMALARI" ilmiy-nazariy, metodik jurnal Urganch: 3-son (mart 2025) 73-75 bet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Asqarova O'gilxon Mamashokirovna
Namangan davlat universiteti professori
S. Y. Ergasheva
Toshkent xalqaro kimyo universiteti magistranti

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda madaniyatlararo muloqotning mazmuni, tarkibiy komponentlari va kasbiy faoliyatdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, pedagogik ta'lim jarayonida mazkur kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, samarali metod va texnologiyalar yoritilgan. Muallif tomonidan kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar hamda amaliy mashg'ulotlar asosida tayyorlash modeli taklif etiladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *madaniyatlararo muloqot, kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik tayyorgarlik, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, kasbiy rivojlanish.*

Аскарова Үгилхон Мамашокировна
Профессор, Наманганский государственный университет
С. Ю. Эргашева
Магистрант, Ташкентский международный химический университет

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИИ В ОБЛАСТИ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогические основы формирования межкультурной коммуникативной компетентности у будущих учителей. Раскрываются содержание, структура и профессиональная значимость межкультурного общения в образовательной деятельности. Особое внимание уделяется организационно-педагогическим условиям, эффективным методам и технологиям развития данной компетенции в системе педагогического образования. Предлагается модель подготовки на основе компетентностного подхода, интерактивных методов и практико-ориентированного обучения. Результаты исследования направлены на совершенствование профессиональной подготовки будущих педагогов.*

Ключевые слова*: межкультурная коммуникация, компетентность, будущий учитель, педагогическая подготовка, компетентностный подход, интерактивные методы, профессиональное развитие.*

Askarova O'gilkhon Mamashokirovna
Professor, Namangan State University
S. Y. Ergasheva
Master's student, Tashkent International University of Chemistry

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Abstract*. This article examines the pedagogical foundations for developing intercultural communicative competence in future teachers. The study reveals the content, structural components, and professional significance of intercultural communication in educational practice. Special attention is given to organizational and pedagogical conditions, as well as effective methods and technologies for competence development within teacher education programs. A training model based on the competency-based approach, interactive methods, and practice-oriented learning is proposed. The findings contribute to improving the professional preparation of prospective teachers.*

***Keywords**: intercultural communication, competence, future teacher, pedagogical training, competency-based approach, interactive methods, professional development.*

Kirish. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi va ta'lim makonining ko'pmadaniyatli xususiyat kasb etishi zamonaviy pedagogdan nafaqat yuqori kasbiy bilim va metodik mahoratni, balki madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ham talab etmoqda. Bugungi kunda o'qituvchi turli madaniy, etnik va ijtimoiy guruh vakillari bilan samarali muloqot qila olishi, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va empatiya asosida ta'lim jarayonini tashkil etishi zarur bo'lgan muhim subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning madaniyatlararo muloqotga tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlarni to'g'ri anglash, madaniy farqlarni inobatga olish hamda konstruktiv muloqot olib borish imkonini beradi.

Shu jihatdan, pedagogik ta'lim tizimida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida maydonga chiqmoqda. So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim konsepsiyalarida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda mazkur kompetensiyani shakllantirish jarayoni ko'pincha tizimsiz, fragmentar tarzda amalga oshirilmoqda. Bu esa pedagogik shart-sharoitlar, metod va texnologiyalarni ilmiy asosda aniqlash va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur maqolaning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik asoslarini aniqlash, samarali tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni asoslash hamda ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Madaniyatlararo muloqot masalasi dastlab sotsiologiya va madaniyatshunoslik doirasida o'rganilgan bo'lib, keyinchalik pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlandi. Xorijiy olimlar E. Hall, G. Hofstede, M. Bennett, D. Deardorff tadqiqotlarida madaniyatlararo muloqot madaniy farqlarni anglash, qabul qilish va ularga moslashish jarayoni sifatida talqin etiladi. Ularning ishlarida madaniyatlararo kompetensiya bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarning integrativ majmui sifatida izohlangan.

Pedagogik tadqiqotlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining ta'lim jarayonidagi o'rni Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, Brunerning dialogik ta'lim konsepsiyasi hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida yoritilgan. Ushbu nazariyalarga ko'ra, shaxsning kommunikativ rivojlanishi ijtimoiy muhit, muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanadi.

Ayniqsa, dialog asosidagi ta'lim jarayoni madaniy tafovutlarni anglash va tolerantlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xorijiy pedagogik adabiyotlarda bo'lajak o'qituvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirishda interfaol metodlar, tajribaviy o'qitish, muammoli vaziyatlar, rol o'yinlari va refleksiv mashg'ulotlarning samaradorligi ta'kidlanadi.

Deardorff tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatlararo kompetensiya modeli ushbu kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida madaniyatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish masalalari kasbiy kompetensiya, kommunikativ tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan.

Tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarning madaniyatlararo muloqotga tayyorligi ularning kasbiy moslashuvchanligi va pedagogik samaradorligini oshirishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, zamonaviy ilmiy manbalarda raqamli ta'lim muhitida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish imkoniyatlari ham ko'rib chiqilmoqda. Onlayn hamkorlik, xalqaro ta'lim loyihalari va virtual muloqot platformalari bo'lajak o'qituvchilarning global fikrlashini shakllantiruvchi vosita sifatida baholanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishga oid ilmiy ishlar mavjud bo'lsa-da, aynan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida pedagogik shart-sharoitlar, metodik tizim va tashkiliy mexanizmlarni kompleks tarzda yorituvchi tadqiqotlar yetarli darajada emas. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik asoslarini aniqlash hamda samarali ta'limiy mexanizmlarni ishlab chiqish maqsadida aralash metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik va tajriba-sinov metodlari o'zaro uyg'unlikda qo'llanildi. Nazariy bosqichda pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik va kommunikativ ta'limga oid ilmiy manbalar kontent-tahlil, qiyosiy-tahlil va tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining tuzilmasi, tarkibiy komponentlari va baholash mezonlari ilmiy manbalar asosida aniqlashtirildi.

Empirik bosqichda pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida tadqiqot o'tkazildi. Tanlanma maqsadli tanlash asosida shakllantirildi. Tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatish, so'rovnoma, yarim tuzilgan intervyu, vaziyatli topshiriqlar hamda refleksiv yozma ishlar qo'llanildi. So'rovnoma savollari talabalarning

madaniyatlararo muloqotga oid bilimlari, munosabati va amaliy ko‘nikmalarini aniqlashga qaratildi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda tashkil etildi: aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichi. Aniqlovchi bosqichda dastlabki daraja diagnostika mezonlari asosida baholandi. Shakllantiruvchi bosqichda maxsus pedagogik dastur joriy etildi. Dastur interfaol seminarlar, rol o‘yinlari, madaniyatlararo vaziyat tahlili, keys-stadi, trening mashg‘ulotlari va refleksiv muhokamalarni o‘z ichiga oldi. Nazorat bosqichida yakuniy natijalar qayta o‘lchandi va dastlabki ko‘rsatkichlar bilan taqqoslandi.

Natijalarni qayta ishlashda miqdoriy (foizli nisbat, o‘rtacha ko‘rsatkich, dinamik o‘zgarish) va sifat tahlili (mazmuniy guruhlash, javoblar tipologiyasi) usullaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar . Aniqlovchi bosqich natijalari talabalarning madaniyatlararo muloqotga oid bilimlari ko‘proq nazariy xarakterga ega ekanini, amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalari esa yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatdi. Ishtirokchilarning muhim qismida madaniy farqlarni tahlil qilish, mos kommunikativ strategiya tanlash va noverbal signallarni to‘g‘ri talqin qilishda qiyinchiliklar kuzatildi. Shakllantiruvchi bosqichda joriy etilgan interfaol va tajribaviy metodlar talabalarning o‘quv faolligini oshirdi.

Rol o‘yinlari va vaziyatli mashqlar davomida talabalar turli madaniy kontekstlarda muloqot strategiyalarini sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ldilar. Refleksiv topshiriqlar esa o‘z kommunikativ xatti-harakatlarini tahlil qilish ko‘nikmasini kuchaytirdi. Nazorat bosqichi natijalari tajriba guruhida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining barcha komponentlari — bilim, ko‘nikma va munosabat ko‘rsatkichlari — bo‘yicha ijobiy o‘sish kuzatilganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, vaziyatli tahlil va moslashuvchan muloqot uslubini tanlash ko‘rsatkichlari sezilarli yaxshilandi.

Olingan natijalar madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi an’anaviy ma’ruza shaklidagi o‘qitish orqali emas, balki faol, interfaol va tajribaviy ta’lim metodlari orqali samaraliroq shakllanishini ko‘rsatdi. Bu holat zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv nazariyalari bilan mos keladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, madaniyatlararo tayyorgarlikni rivojlantirishda faqat bilim berish yetarli emas, balki real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatlarda faol ishtirokni ta’minlash zarur. Dialogik muhokama va refleksiya elementlari kiritilgan mashg‘ulotlar yuqori samaradorlik berdi. Natijalar, shuningdek, pedagogik muhitning ochiqligi va o‘zaro hurmatga asoslangan muloqot madaniyati shakllantirish jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Bu esa tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarning muhimligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur kompetensiya tizimli, interfaol va amaliy yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv asosida samarali rivojlanadi. Eng samarali omillar sifatida interfaol metodlar, vaziyatli o‘qitish, rol o‘yinlari, keys-stadi va refleksiv tahlil texnologiyalari aniqlandi.

Maxsus ishlab chiqilgan pedagogik dastur ijobiy natija ko‘rsatdi va uni pedagog kadrlar tayyorlash amaliyotiga joriy etish mumkin. Kelgusida madaniyatlararo kompetensiyani raqamli ta’lim muhiti bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asqarova, O‘. (2023). *Pedagogika nazariyasi*. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Yo‘ldoshev, J., & Usmonov, S. (2016). *Pedagogik texnologiya asoslari*. Toshkent: Universitet.
3. Musurmonova, O. (2017). *Oila pedagogikasi*. Toshkent: Fan.
4. Xoliqov, A. (2019). *Pedagogik mahorat*. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Sayidahmedov, N. (2020). *Pedagogik innovatsiyalar*. Toshkent: Ilm-Ziyo.
6. Nishonova, Z. (2018). *Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi*. Toshkent: Universitet.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

G.A.Gaynazarova
Fan va texnologiyalar universiteti dotsenti, p.f.f.d (PhD)
gulbaxor.8742@gmail.com
ORCID-0009-0003-4133-1762

INDIVIDUAL TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Annotatsiya. *Bugungi kunda jamiyatga bilimlarni shunchaki qabul qiluvchi emas, balki ularni faol ravishda yaratuvchi shaxs zarur. Ammo bu jarayonda faqat o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Shu sababli talabalar mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali ularning mustaqil ravishda bilim egallashiga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida barcha o'quv va mutaxassislik fanlari bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlarda, shuningdek o'quv rejalarda ham talabalarning mustaqil ta'limiga alohida o'rin berilgan. Oliy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri — mutaxassisni o'zini o'zi rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimini oshirishga hamda innovatsion faoliyat yuritishga qodir ijodkor shaxs sifatida shakllantirishdir. Mustaqil ta'lim natijasi shunday bo'lishi lozimki, bo'lajak mutaxassis har qanday nazariy va amaliy muammoni to'g'ri ifodalay olsin, uni hal etish yo'llarini ilmiy yoki metodik jihatdan tahlil qila olish salohiyatiga ega bo'lsin. Mazkur maqolada mustaqil ta'lim jarayonida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari yoritilgan*

Kalit so'zlar. *Mustaqil ta'lim, kasbiy faoliyat, passiv iste'molchi, faol ijodkor, ijodiy salohiyat, shaxsiy ta'lim traektoriyasi, sub'yektlik tamoyili, integratsiya tamoyili*

Г.А. Гайназарова
Доцент Университета науки и технологий, PhD

ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В современных условиях обществу необходим не пассивный потребитель знаний, а личность, способная выступать их активным создателем. Однако в данном процессе недостаточно ограничиваться лишь информацией, предоставляемой преподавателем. В этой связи особое значение приобретает эффективная организация самостоятельной работы студентов, направленная на развитие их навыков самостоятельного получения знаний. В учебных программах и учебных планах высших образовательных учреждений по всем общепрофессиональным и специальным дисциплинам самостоятельному обучению студентов отводится особое место. В данной статье рассматриваются вопросы подготовки студентов к профессиональной деятельности в процессе самостоятельного обучения.*

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, профессиональная деятельность, пассивный потребитель, активный создатель, творческий потенциал, индивидуальная образовательная траектория, принцип субъектности, принцип интеграции.*

G.A. Gaynazarova
Associate Professor at the University of Science and Technology, PhD in Pedagogical Sciences

PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE CONTEXT OF INDIVIDUAL LEARNING

Abstract. *In today's context, society requires not a passive consumer of knowledge but an individual who acts as its active creator. However, in this process, it is not sufficient to rely solely on the information provided by the teacher. Therefore, particular attention should be paid to the effective organization of students' independent work in order to develop their ability to acquire knowledge autonomously. In higher education institutions, independent learning is given a special place in curricula and academic programs across all general and specialized disciplines. This article discusses issues related to preparing students for professional activity through the process of independent learning.*

Keywords: *independent learning, professional activity, passive consumer, active creator, creative potential, individual educational trajectory, subjectivity principle, integration principle.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, globallashuv jarayoni hamda mehnat bozori talablarining keskin o‘zgarib borishi oliy ta’lim muassasalari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda nafaqat nazariy bilimga ega, balki mustaqil fikrlay oladigan, kasbiy kompetensiyalari rivojlangan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan, individual ta’lim jarayonini tashkil etish va uni samarali yo‘lga qo‘yish alohida ahamiyat kasb etadi.

Individual ta’lim – bu talabaning shaxsiy qobiliyati, qiziqishi, ehtiyoji va kasbiy maqsadlaridan kelib chiqib ta’lim jarayonini tashkil etishdir. Bunday yondashuv talabaning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashini shakllantirish hamda kasbiy faoliyatga ongli ravishda tayyorlanishini ta’minlaydi. Ayniqsa, kredit-modul tizimi, raqamli texnologiyalar va masofaviy ta’lim imkoniyatlari individual yondashuvni keng joriy etish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni nafaqat bilim berish, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, real ish muhitiga moslashuvchanlikni ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi. Shu bois individual ta’lim jarayonida talabaning mustaqil ishlashi, amaliy mashg‘ulotlarda faol ishtiroki, loyiha va tadqiqot faoliyati muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar sharhi. Bugun jamiyatga bilimlarni o‘zlashtirishdagi passiv iste’molchi emas, balki uning faol ijodkori zarurdir. Biroq bu jarayonda faqat o‘qituvchining o‘zi bergan ma’lumotlar yetarli bo‘lmaydi. Buning uchun talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish orqali ularning mustaqil bilim olishlariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarining barcha o‘quv va mutaxassislik fanlari bo‘yicha yaratilgan dastur, shuningdek, ta’lim muassasalarining o‘quv rejasida ham talabalarning mustaqil ta’limiga alohida o‘rin ajratilgan.[43]

Pedagogika oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining muhim vazifalaridan biri talabalarning kasbiy va ijodiy salohiyatini tizimli ravishda rivojlantirish, ularda “umr bo‘yi ta’lim olish” konsepsiyasiga asoslangan barqaror ta’lim ehtiyojini shakllantirish hamda kasbiy-pedagogik jarayonni qaror toptirishdan iboratdir. Ushbu vazifani amalga oshirishning muhim jihatlaridan biri talabani individual yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish zaruratidir. Buning uchun talaba ta’lim jarayonining subyekti sifatida ishtirok etishi, kelajakda pedagogik faoliyatni samarali hamda natijador olib borishni ta’minlovchi usul va texnologiyalarni qo‘llash tajribasini egallashi uchun kreativ muhit yaratish talab etiladi. Talabalarni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo‘naltirish, ularni zarur bilim va ko‘nikmalarni egallashga bo‘lgan mas’uliyatini oshirish, oliy ta’limda belgilangan ma’lum bir me’yorlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan **“**O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”da oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish va ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan. Jumladan,

Konsepsiyada “mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” vazifasi belgilangan. Shuningdek, unda ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olishlari, mustaqil ishlash, malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetentsiyalarga ega bo‘lishi, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishishlari mumkinligi ta’kidlangan.

Oliy ta’limning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy vazifalaridan biri mutaxassisni o‘z-o‘zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimini ko‘paytirishga, innovatsion faoliyatga qobil bo‘lgan ijodiy shaxsiyatini shakllantirishga yo‘naltirishdan iboratdir. Mustaqil ta’limning natijasi shunday bo‘lishi kerakki, bo‘lg‘usi mutaxassis har qanday nazariy va amaliy muammoni ifodalay oladigan, uni yechishning yo‘llarini ilmiy yoki metodik jihatdan tahlil qilishni uddalaydigan eng munosib va muvofiq natijalarni topib, uning to‘g‘riligini isbotlab bera oladigan bo‘lsin.[44]

[43] Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi.-Toshkent“Fan”2009y.

[44] Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish [Matn] : metodik qo‘llanma / L. Zaripov, N. Xayitov, Z. Tohirov. – Toshkent: “Sano-Standart”, 2023. – 32 b.

Agar bo‘lajak pedagoglar o‘z kasbiy faoliyatining mohiyatini anglagan holda izchil yo‘lni bosib o‘tmasalar, ta’lim jarayonini individuallashtirishning eng muhim konseptual asosi zamonaviy vositalar, usullar va texnologiyalardan samarali foydalana olish hisoblanadi. Shu ma’noda, aynan mazkur yondashuv pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimining yetakchi g‘oyasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchilar talabalarni mustaqil tarzda individual rivojlanish traektoriyasini tuzishga o‘rgatishi, shaxsiy pozitsiya hamda kasbiy sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan kompleks ta’sir ko‘rsatishi maqsadga muvofiqdir (… – Ilova). Ularning kelajak kasbiy faoliyatini belgilovchi ta’lim traektoriyasi, ya’ni sifatli ta’lim strategiyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Avvalo, talabaning imkoniyatlari, qobiliyatlari, istiqbollari hamda natijaga erishish uchun amalga oshirmoqchi bo‘lgan harakatlarini baholash muhim hisoblanadi.

Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o‘zlashtiriladigan bilim va ko‘nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini inobatga olgan holda, ularning tashabbuskorligi va ta’lim jarayonidagi rolini izchil oshirib borish zarur.

Individual ta’lim traektoriyasi asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish maxsus metodologiya va texnologiyalarni talab etadi. Zamonaviy didaktikada ushbu muammoni hal etish uchun, odatda, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikkita usul taklif etiladi va ularning har biri individual yondashuv sifatida talqin qilinadi. Natijada, mustaqil ta’limga ko‘nika boshlagan talaba faqat o‘qituvchi tomonidan belgilab berilgan topshiriqlarni bajarish bilan cheklanib qolmay, balki o‘z ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib, zarur deb hisoblagan qo‘shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o‘zlashtirishga o‘rganadi.

Rus olimlaridan L. V. Bayborodova va boshqalarning fikricha, “oliy ta’lim jarayonida talabaning individual ta’lim faoliyatini tashkil etish hamda uning individual rivojlanish traektoriyasini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim. Bu esa ta’lim oluvchiga o‘zining individual yo‘lini tanlash imkoniyatini beradi hamda uni ushbu tanlovning faol subyekti sifatida qaror topishini ta’minlaydi.” [1]

Bo‘lajak pedagogning individual ta’lim faoliyatini tashkil etish oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining asosiy strategik vazifalaridan biri sanaladi. Bunda talabada o‘z-o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan barqaror ehtiyojning shakllanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ehtiyoj shaxsiy va individual kasbiy rivojlanish usullarini ongli, faol va maqsadli ravishda o‘zlashtirishni ta’minlaydi hamda talabaning shaxsiy moyilliklari, qobiliyatlari va qiziqishlariga tayanadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, individual ta’lim faoliyati talabaning shaxsiy ta’lim traektoriyasini shakllantirish jarayoni sifatida qaraladi. Natijada talabaning o‘zini rivojlantirish subyekti sifatida faol ishtiroki ta’minlanadi, pedagogik jihatdan dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi hamda talabaning shaxsiy muammolari bilan ongli ravishda ishlashni nazarda tutadi.

Individual ta’lim faoliyatining mohiyati va uning subyektlik xususiyati shunda namoyon bo‘ladiki, talabaning o‘zi ta’lim va rivojlanish traektoriyasini mustaqil va anglangan holda bosib o‘tadi. Ushbu jarayonda talabaning faolligi va subyektlik pozitsiyasi ta’lim jarayonida qabul qilinadigan qarorlarning asosiy mezoni sifatida xizmat qiladi.

I.T.Siroyejkin[45] mustaqil ishlarni tasniflab, didaktik maqsadni asos qilib olgan va uch turdagi ishlarni aniqlagan. Ishning birinchi turi yangi bilimlarni egallash maqsadi bilan belgilanadi;

Ishning ikkinchi turi bilimlarni takomillashtirish maqsadi bilan belgilanadi (takrorlash, mustahkamlash, qo‘llash);

Ishning uchinchi turi bilimlarni sinash maqsadi bilan belgilanadi.

Talabalarning o‘quv faoliyati ustida tadqiqotlar olib borgan olimlarning fikricha “mustaqil ta’lim o‘quv faoliyatining eng yuqori shakli hisoblanadi”[46]

L. V. Bayborodova bo‘lajak pedagoglarning individual ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun tegishli tamoyillarga asoslanish muhim, deb hisoblaydi. U mazkur tamoyillarni quyidagicha tavsiflaydi:

Sub’yektlik tamoyili — talabaning o‘qitish jarayonida faol ishtirok etishi hamda shaxsiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratish;

Integratsiya tamoyili — ta’lim jarayonida nazariya va amaliyotning uyg‘unligini ta’minlash, shuningdek, talabaning shaxsiy qobiliyatlari va qiziqishlariga tayanish;

Maqsadga qaratilganlik tamoyili — individual ta’lim traektoriyasini belgilashda aniq maqsad va kutilayotgan natijalarni aniqlash;

Uzluksizlik va izchillik tamoyili — talabaning rivojlanish traektoriyasini muntazam hamda rejalashtirilgan tarzda tashkil etish.

[45] Сыроежкин И.Т. Самостоятельная работа учащихся на уроках химии/ Химия в школе.–1959.–№3.–С.27-31; №4.–С.26-30.

[46] Зимняя И.А. Педагогическая психология: Учебник для вузов. – 2-е изд., доп., испр. и перераб. – М.: Логос, 2002. – 384с.

Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim tizimi talabaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, uni ta’lim jarayonida faol subyekt sifatida qaror toptirish imkoniyati bilan ta’minlaydi. Bu esa talabaning o‘qish va rivojlanish jarayonidagi shaxsiy mas’uliyatini mustahkamlaydi. [2]

Keltirilgan tamoyillar talabaning mustaqil, shaxsiy, professional hamda ijodiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni amalga oshirishda muhim element hisoblanadi. Shaxsiy va istiqboldagi kasbiy maqsadlar talabalarni o‘z ta’lim faoliyati mohiyatini anglashga intilishiga, pedagogik hamda ijtimoiy faoliyat turlarida faol ishtirok etishiga, mustaqillikni namoyon etishiga va o‘z kasbiy rivojlanishini rejalashtirish jarayonida ongli qarorlar qabul qilishiga zamin yaratadi.

Mustaqil ta’limni bajarayotgan talaba mustaqil ishni bajarishda nafaqat o‘quv mashg‘uloti maqsadini, balki uning yakunida taxminan qanday o‘quv natijalarga erishish mumkinligini ham bilishi zarur. Bunda fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o‘quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o‘zlashtirish uchun kurs boshida beriladi. Bunda berilayotgan topshiriqlar mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga, mavzuni tizimli bayon qilishiga, tayanch iboralarning ishni mohiyatini ochib berishiga xizmat qilishiga e’tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini aniq ko‘rsatish lozim. Talaba tomonidan mustaqil ishni bajarishda ularning faoliyati tizimida ko‘rsatilgan har bir elementlarning muvaffaqiyatli harakatlanishi o‘qituvchini quyidagi boshqaruv harakatlarini aniqlaydi: rejalashtirish, tashkillashtirish hamda monitoring va baholash. Talabaning o‘quv faoliyatiga nisbatan o‘qituvchi tomonidan muayyan talablarning qo‘yishi ularning mazmunini boyitishga xizmat qiladi

Mustaqil ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun talabalar o‘z ta’limini nazorat qilish imkonini beradigan bir qator kompetensiyalarni egallashlari kerak. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalar egallashlari kerak bo‘lgan eng muhim kompetensiyalardan biri bu - o‘z-o‘zini rag‘batlantirishdir. Talabalar o‘z maqsadlarini qo‘ya oladilar va ular tashqi bosim va nazoratsiz harakat qilishadi. Buning uchun maqsad qo‘ya olish va qiyinchiliklarni engishga tayyorlik, shuningdek, diqqatni jamlash va tartibli bo‘lish qobiliyati talab etiladi.

Mustaqil ta’lim vaqtida talabalar uchun yana bir muhim kompetensiya bu - tanqidiy fikrlashdir. Mustaqil o‘quvchilar axborotni tanqidiy baholay olishi, noto‘g‘ri va taxminlarni aniqlashi, dalillarga asoslanib o‘z xulosalarini chiqarishi kerak. Shuningdek, ular o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda samarali bayon eta olishlari zarur.

Talabalarda ijtimoiy va kasbiy me’yorlarga moslashish, mehnat faoliyati jarayonlari hamda shart-sharoitlarini qabul qilish, tanlagan professional yo‘lning to‘g‘ri ekanini anglash, hayotiy va kasbiy maqsadlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, malakali mutaxassis sifatida muhim shaxsiy sifatlar, kasbiy qobiliyatlar, va emotsional-irodaviy xislatlarni egallashi zarur.

Talabalar shaxsiy va kasbiy maqsadlarini aniqlab olgach, ta’limdagi yutuqlarini hisobga olgan holda kasbiy rejalarini onglik tarzda shakllantirish talab etiladi.

Shaxsiy va kasbiy istiqbollar talabaning ta’lim faoliyati hamda kelgusida kasbiy o‘sishi uchun muhim rag‘batlantiruvchi omil hisoblanadi. Bu esa quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda ta’minlanadi:

Birinchidan, mazkur istiqbollar talaba tomonidan onglik ravishda anglanishi, ya’ni ularni aniqlash va asoslash talabaning o‘zi tomonidan amalga oshirilishi;

Ikkinchidan, belgilangan istiqbollar amalga oshirilishi mumkin bo‘lib, talabaning imkoniyatlariga mos kelishi;

Uchinchidan, talaba belgilangan maqsadlarga erishish usullari va yo‘llarini egallagan bo‘lishi;

To‘rtinchidan, ta’lim oluvchi belgilangan maqsadlar sari harakat jarayonida aniq va amaliy natijalarga erishishi.Mustaqil ta’limni talabalarga bilim berishda ularni o‘z holiga tashlab qo‘yib, ularga beriladigan topshiriq va yuklamalarni kamaytirish deb tushunmaslik kerak, balki o‘qituvchilar tomonidan muntazam boshqariladigan talabalarning interaktiv mustaqil faoliyatidir. O‘quv jarayoni sifatini oshirishda mustaqil ta’limning roli katta. Buni anglagan holda, yurtimiz oliy ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlariga ajratilayotgan mustaqil ta’lim soatlari ulushi muntazam oshirib borilmoqda. Talaba mustaqil ta’lim uning manfaatini ko‘zlab amalga oshirilayotganini tushunishi kerak.

Oliy ta’limda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish taqazo etiladi:

- Bo‘lajak abituriyentlarni ta’lim muassasalari hamda qo‘shimcha ta’lim tizimi bazasida kasbgacha pedagogik faoliyatga jalb etish orqali ularning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish;

- Yuqori sinf o‘quvchilarini, keyinchalik esa talabalarni turli pedagogik faoliyat turlariga bosqichma-bosqich jalb qilish;

- Talabalarni o‘z yutuqlarini anglashi va belgilangan istiqbollarni qayta ko‘rib chiqishini rag‘batlantiruvchi pedagogik tanlovlar, olimpiadalar hamda loyihalar himoyasini tashkil etish;

- Talabalarga belgilangan shaxsiy va kasbiy istiqbollarga erishish bosqichlari hamda vositalarini aniqlashda metodik yordam ko‘rsatish;

- Talabalar tomonidan belgilab olingan shaxsiy va kasbiy istiqbollarining haqqoniyligini baholashga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvni amalga oshirish;

- Talabalarni har bir ta’lim bosqichida (mashg‘ulot jarayonida, fanini o‘zlashtirish yakunlarida, sessiya natijalarini tahlil qilishda va boshqa holatlarda) erishilgan maqsad va rejalarni oldindan belgilangan istiqbollar bilan solishtirishga o‘rgatish.

Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalarida pedagogik amaliyot alohida o‘rin tutadi. Amaliyot davomida uning subyektlarida shaxsiy maqsadni (istiqbolni) yanada shakllantirish va kasbiy yo‘lni aniqlashtirish jarayoni izchil ravishda amalga oshirishda talabalar o‘quv, pedagogik, metodik, tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqot, madaniy-ma’rifiy, tashkiliy va boshqa turdagi faoliyatlarni bajarish orqali o‘z imkoniyatlarini amaliyotda sinab ko‘rish, muayyan faoliyat turining ularning shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlariga qay darajada mos kelishiga baho berish, shuningdek, o‘z faoliyatidagi muvaffaqiyat darajasini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Turli ta’lim tuzilmari va pedagoglar faoliyati bilan tanishish jarayonida talabalar o‘zlarining kelgusidagi kasbiy rejalarini aniqlashtirish, pedagogik faoliyat yo‘nalishlarini belgilash hamda shaxsiy pedagogik karerasining individual marshrutini shakllantirish malakasini egallaydi. Natijada esa, talaba o‘z-o‘zini anglash, kelgusidagi kasbi haqida tasavvur hosil qilish va faoliyatiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lishga harakat qiladi.

Talabaning o‘zini yaxlit tarzda idrok etishini ifodalaydigan o‘zini anglash natijalari “Men obrazi” ya’ni Men konsepsiyasida namoyon bo‘ladi. Talabaning bilimlari hamda shaxsiy sifatlariga nisbatan o‘zgaruvchan o‘z-o‘zini baholashni qamrab oladi. Kasbiy o‘z-o‘zini anglashning mohiyati talabaning shaxsiy rivojlanishi va kamoloti uning



faoliyatda o‘zini namoyon etishining hal qiluvchi sharti ekanini anglashi va bu jarayonni ichki ehtiros bilan qabul qilishida namoyon bo‘ladi. Kasbiy o‘z-o‘zini anglash talabalarining o‘zini pedagogik faoliyatning uchta asosiy tarkibiy qismida anglashi tushuniladi (1-rasm).

1-rasm. Pedagogik mehnat makonining tarkibiy qismlari

Talaba o‘zini kasbiy rivojlantirishida boshqalarning nuqtai nazarlarini bilishi, boshqalar bilan qiyoslashi, erishilgan natijalarni baholashi, o‘z xulq-atvori, xatti-harakatlari, fikrlari hamda his-tuyg‘ularini tahlil qilishi zarur. Bu jarayonlar professor-o‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan mashg‘ulotlar bilan bir qatorda, ta’lim oluvchilarning o‘zlari tomonidan amalga oshiriladigan maqsadli o‘z-o‘zini kuzatish va tahlil qilish jarayonida ro‘yobga chiqadi.

Individal ta’limning asosiy mohiyati kasbiy o‘z-o‘zini anglash, refleksiya, mavjud yutuqlarni baholash, o‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘nalishlarini rejalashtirish va amalga oshirishning asosi hisoblanadi**.**

O.A.Qo‘ysinovning fikriga ko‘ra, “mustaqil ta’lim olish maqsadini belgilash va uning o‘quvchilarda mustaqil bilim olish, mustaqil ishlash, ijodkorlik, egallagan bilimlarni amaliyotda qo‘llash, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikma va imkoniyatlarini shakllantirish umumiy kasbiy rivojlanishni ta’minlashga asos bo‘ladi” [3] Darhaqiqat, talabalarni kasbiy tayyorlashda mustaqil ravishda bilimlarni egallash, ularni amaliyotga tatbiq etish malakasini shakllantirish bugungi kunda oliy ta’lim pedagoglarining muhim vazifasi hisoblanadi.

N.A.Muslimov “mustaqil ta’lim – bilimlarni o‘zlashtirish, tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko‘nikma va malakalarini hosil qilish bo‘yicha o‘quv jarayonining subyektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish”-деб таърифлайди.[4]

Talabalarni mustaqil ta’limda imkon darajada ko‘proq adabiyotlar bilan ishlash, amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, nazariyalar va sohaga oid yangiliklardan xabardor bo‘lish, innovatsion jarayonlarni erkin o‘zlashtirishga yo‘naltirish muhim. Buning uchun professor-o‘qituvchi uzluksiz ravishda o‘tayotgan fani bo‘yicha yangiliklarni umumlashtirib borishi va talabalariga tavsiya etishi kerak.

R.X.Djurayev va S.T.Turg‘unovlarning qayd etishicha, “mustaqil ta’lim – bu insonning o‘zi tanlagan vositalar hamda adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy ro‘l o‘ynaydi” [5]

Talabalarni pedagogik faoliyatini prognozlashga o‘rgatish, maqsad va istiqbollarini belgilash aynan individual ta’lim jarayonida amalga oshiriladi.

O. A. Egamberdiyev "Ta'lim sifatini oshirishda individual ta'lim mohiyati" nomli maqolada individual ta'limning o'quvchi-talabaga mustaqil tadqiqotchi sifatida rivojlanishiga, o'zini o'zi qadrlash va shaxsiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi tahlil qilingan [6]

Ta’lim oluvchi o‘zidan talab etiladigan sifatlarni anglab etgan va ularning qay darajada rivojlanganini to‘g‘ri baholay olgan taqdirdagina, ushbu sifatlarni onglik ravishda shakllantirish va rivojlantirishga intiladi.

Z.T. Raximovning e’tirof etishicha mustaqil ta’lim – o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo‘ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi.[47] Talabalarning o‘z-o‘zini anglashi pedagogik faoliyatida tadqiqotchi, tarbiyachi va t’yutor sifatida faoliyat yuritishga poydevor quradi. U xulq-atvori va shaxsiy faoliyatni idora etishni hamda o‘zini boshqarish strategiyasini yaratishi mumkin. Buning uchun oliy ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning shaxsiy, individual va kasbiy sifatlarini o‘z-o‘zini diagnostika qilish imkoniyatini yaratish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Quyida talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga imkon beruvchi bir qancha ichki omillarni ko‘rib chiqamiz:

1. Bajarilayotgan ishning foydaliligi.

2. Talabaning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu nihoyatda xilma-xil ko‘ri nishlarda bo‘lishi mumkin. Xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari, badiiy ijod, metodik ishlar va hokazolar.

3. Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlarida ishtirok etish va boshqalar.

4. Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noan’anaviy imtihon shakllari v.b.). Bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi. Mana shu holatning o‘zi talabada o‘z ustida ishlashni, o‘zini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi.

5. Mustaqil ishlarni tashkil etish mazmuni va shakllariga o‘quv jarayonida yetarlicha vaqtning ajratilayotganligi.

O‘qituvchilar talabalariga o‘z xususiyatlari, moyilliklari, shaxsiy va kasbiy muammolarini hal etishda yordam berishi muhim. Ta’lim oluvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanish bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qilishga yo‘naltiruvchi pedagogik vaziyatlarni yaratish samar beradi. Chunki, muloqot va faoliyat jarayonida o‘zini boshqalar bilan qiyoslash orqali o‘z-o‘zini anglash tajribasini orttiradi.

Dars mashg‘ulotlari va auditoriyadan tashqari vaqtlarda talabalarni o‘z-o‘zini kuzatish, tahlil qilish, baholashga o‘rgatish, ta’lim jarayonida refleksiyani muntazam ravishda qo‘llash maqsadga muvofiq. Mustaqil ta’lim va amaliyot jarayonida talaba o‘z faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtiradi va tashkil etadi, natijalarni baholaydi, aniq kasbiy vazifalarni hal qiladi, ya’ni mustaqil qarorlar qabul qiladi va o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasi uchun shaxsiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

Ta’limning muammolilikka asoslanishi, xususan, mustaqil amaliy faoliyatga tayangan holda o‘qitish bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentli shaxs sifatida shakllanishining muhim shartlaridan biridir. Talabaning kasbiy shakllanish jarayonida, o‘quv va o‘quvdan tashqari faoliyatida, tadqiqot ishlarini tashkil etishda hamda amaliyot davrida muammolarni aniqlash, ularni dolzarblashtirish va anglashga xizmat qiluvchi vaziyatlarni yaratish zarur. Ta’lim oluvchining o‘z kasbiy rivojlanishiga doir muammolarni anglab etishi uning kasbiy kamolotiga turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O‘quv mashg‘ulotlarida muammolarni qo‘yish va ularni hal etish talabalarida pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan quyidagi qobiliyat va ko‘nikmalarni shakllantiradi:

Kasbiy muammolarni aniqlash va ularni iyerarxik tartibda joylashtira olish qobiliyati;

Muammoning mohiyatini kengroq tushunish va uni turli bilim sohalari bilan bog‘lay olish;

Muammoni aniqlash va hal etish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni izlash hamda ko‘nikmalarni rivojlantira olish;

Dalillash, muammolarni umumlashtirish va tizimlashtirish, gipotezalar ilgari surish, mavjud axborotni tanqidiy baholash, ma’lumotlarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari;

Muammoni hal etish jarayoni va natijasi uchun mas’uliyatni his etish;

Muammoni hal etish muvaffaqiyatini, shaxsiy rivojlanishni, shuningdek, guruh a’zolari va butun guruh faoliyati natijalarini baholay olish qobiliyati.

[47] Рахимов З.Т. Талабалар креативлигини ошириш мақсадида мустақил таълимни ташкил этиш методикасини такомиллаштириш/ Педагогика.Илмий-назарий ва методик журнал.–Тошкент, 2021.–№3.–15-20 б.

Muammoli ta’lim yondashuvi talabada nafaqat o‘zining shaxsiy kasbiy muammolarini anglash va aniqlash, balki kelgusida maktabda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni pedagogik amaliyot jarayonida aniqlay olish qobiliyatini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Talabalarda mustaqil bilimlarini zamon talabiga moslashtirib borish, ma’lumotlar oqimi ichidan zarurlarini ajratib olish va qayta ishlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish sifatli kadrlar tayyorlash jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Talabalar kelgusi faoliyati uchun avvaldan o‘quv fanlari mazmunida muammolilik darajasini kuchaytirish, unda maktabdagi ta’lim-tarbiya jarayonining real holatini aks ettirish mahoratiga ham ega bo‘lishi lozim. Shu uchun ham oliy ta’lim jarayonida talabalariga bolalar jamoasining muammolarini aniqlash hamda ularni hal etish usullari, murakkab kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishni taqozo etuvchi vaziyatlarni yaratishni o‘rgatish zarur.

Har bir talaba o‘z faoliyati natijalarini oldindan ko‘ra bilishi lozim. Ta’lim oluvchi diagnostika ma’lumotlari, o‘z faoliyatini tahlil qilish va aniqlangan muammolar asosida prognozlash usullarini egallashi muhim ahamiyatga ega. Ya’ni maqsadlarni belgilash jarayonida ularga erishish natijasida yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni oldindan tasavvur eta olishi, individual loyihani ishlab chiqishda erishilgan mavjud ta’limiy natijalarga tayanishi kerak. Shaxsiy va kasbiy rivojlanishning yaqin, o‘rta va uzoq istiqbollariga yo‘naltirilgan holda faoliyat yuritishi taqozo etiladi. Intuitiv taxminlarni o‘z imkoniyatlari va erishgan yutuqlari haqidagi obyektiv ma’lumotlarni tahlil qilish natijalari bilan asoslashga harakat qilishi zarur. O‘zini rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqishda rejalashtirilayotgan harakatlarni fikran sinab ko‘rish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan shart-sharoit va holatlarni avvaldan ko‘ra olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim.

Ta’lim faoliyatini loyihalash jarayonida vaziyatlarning barcha xilma-xilligini oldindan belgilash imkonsiz bo‘lgani sababli, yaratilayotgan loyihalar moslashuvchan, dinamik bo‘lishi hamda ularni amalga oshirish jarayonida o‘zgarishlarga, qayta tuzishga, murakkablashuv yoki soddalashuvga ochiq bo‘lishi lozim. Ishlab chiqilayotgan loyiha shunday bo‘lishi kerakki, uning alohida tarkibiy qismlari osonlik bilan almashtirilishi va tuzatishlar kiritilishi mumkin bo‘lsin. Shu bois individual loyihalarning variativ qismini nazarda tutish yoki bir nechta muqobil variantlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Mazkur faoliyatni amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:

Ta’lim oluvchilarning individual faoliyat loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga nisbatan ijobiy, manfaatdor munosabatni shakllantirish;

Talabalarga individual faoliyat loyihalarini ishlab chiqishning zarurligi va maqsadga muvofiqligi yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish;

Ta’lim jarayoni ishtirokchilarini loyihalashning afzalliklari, muammolari va qiyinchiliklarini jamoaviy muhokama qilishga jalb etish;

Loyiha ishlab chiqishda barcha ishtirokchilarning manfaatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish;

Individual ta’lim faoliyatini loyihalash texnologiyalariga o‘rgatish;

Ta’lim oluvchilarning loyihalash faoliyatida ishtirok etishining ixtiyoriyligini ta’minlash;

Loyiha jarayonini nazorat qilish va talabalar tashabbusini rag‘batlantirish.Talabalarning auditoriyadan tashqari ishlardagi faolliklarini oshirishdagi muammolar bir qator qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Bunda mustaqil ishlarni bajarishga faqat talabalarnigina emas, balki, ayrim professor-o‘qituvchilarning ham tayyor emasliklarini ko‘rish mumkin. Bu ko‘pincha kasbiy yoki psixologik yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, sifatsiz informatsion ta’minotlar ham mazkur yo‘nalishda talabalarning faolliklarini oshishiga halaqit beruvchi yana biro mil bo‘ladi. Ko‘p hollarda informatsion ta’minot talab darajasida bo‘lmaydi, buning natijasida samaradorlikning pasayib ketishi kuzatiladi. Shu bilan birga, talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qligi, nutq madaniyatining yaxshi rivojlanmaganligini ham ularning mustaqil ta’limda faol ishtirok etmasliklariga sabab bo‘luvchi omillar qatoriga kiradi.

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishdagi asosiy vazifa har qanday shakldagi mashg‘ulotlarda intellektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun psixologik-didaktik sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Talabalar mustaqil ishini tashkil etishdagi bosh tamoyil talabalarning individual ishlashga o‘tishlarini ta’minlash bo‘lishi kerak. Bunda ayrim topshiriqlarni formal va passiv bajarishdan uni ongli va faol bajarish sari yo‘llash asosiy o‘rin tutishi kerak. Talabalar mustaqil ishining maqsadi avval o‘quv mazmuni bilan, keyin esa ilmiy axborotlar bilan mustaqil ishlashga o‘rgatish, o‘z-o‘zini yo‘naltirish va rivojlantirish asoslarini, keyinchalik o‘z malakasini muntazam oshirib borish ko‘nikmasini hosil qilishdir.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan talabalarining individual ta’lim faoliyatini tashkil etish jarayoni oliy pedagogik ta’lim mazmunini takomillashtirishga qo‘yiladigan umumiy talablarni, pedagoglarning kasbiy faoliyati xususiyatlarini aks ettiradi. Barcha bayon etilgan faoliyatni kompleks tarzda amalga oshirish insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslangan holda pedagog kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Байбородова Л. В., Князькова Л.Н., Кривунь М. П. Индивидуализatsiя и сопровождение в образо вательном процессе педагогического вуза. Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 2014. – 260 с. 82–83-бетлар.

2. Байбородова Л. В. Концептуальные основы подготовки кадров для сферы дополнительного образования детей в системе высшего и дополнительного профессионального образования. // Концепция и модели подготовки, переподготовки и повышения квалификации кадров для сферы дополнительного образования детей: коллективная монография. Ярославль, 2014. -С. 158–169.

3. Qo‘ysinov O. Kasb ta'limi metodikasi fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari uchun metodik qo‘llanma. -T: TDPU, 2007. 92 b.

4. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. Metodik qo‘llanma. T.: TDPU, 2006. - 46 b.

5. S.T.Turg‘unov, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish samaradorligini oshirish texnologiyalari O‘zbekiston Respublikasi O‘zPFITI nashriyoti, 2014 yil. B.92.

6. Egamberdiyev O. A. Ta’lim sohasida individual o‘qitish texnologiyalarni shakllari. // Молодые ученые.журнал. 2024-yil (20), 22-27.

7. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi.-Toshkent“Fan”2009y.

8. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish [Matn] : metodik qo’llanma / L. Zaripov, N. Xayitov, Z. Tohirov. – Toshkent: “Sano-Standart”, 2023. – 32 b.

9. Сыроежкин И.Т. Самостоятельная работа учащихся на уроках химии/ Химия в школе.–1959.–№3.–С.27-31; №4.–С.26-30.

10. Зимняя И.А. Педагогическая психология: Учебник для вузов. – 2-е изд., доп., испр. и перераб. – М.: Логос, 2002. – 384с.

11. Рахимов З.Т. Талабалар креативлигини ошириш мақсадида мустақил таълимни ташкил этиш методикасини такомиллаштириш/ Педагогика. Илмий-назарий ва методик журнал.–Тошкент, 2021.–№3.–15-20 б.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Sultanova Zuxra
Namangan davlat universiteti
An'anaviy honandalik va cholg'u
ijrochiligi kafedrasi dotsenti

ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLFEDJIO FANINING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Maqolada musiqa ta'limi tizimida solfedjio fanining eshitish qobiliyatini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Yeshitish qobiliyatining melodik, garmonik, ritmik va ichki eshitish kabi turlari izohlanib, ularni shakllantirishda solfedjio mashg'ulotlarining samaradorligi asoslanadi. Tadqiqot natijalari solfedjio mashqlarining muntazam qo'llanilishi o'quvchilarning intonasion aniqligi, musiqiy xotirasi va ritmik sezgirligini oshirishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *solfedjio, eshitish qobiliyati, musiqiy ta'lim, intonatsiya, ritm, musiqiy xotira.*

Sultanova Zuhra
Namangan State University
Associate Professor of the Department of
Traditional Singing and Instrumental Performance

THE IMPORTANCE OF SOLFEGGIO IN THE DEVELOPMENT OF HEARING ABILITY

Annotation: *The article analyzes the role of solfeggio in the development of hearing ability in the music education system from a scientific, theoretical and practical perspective. Types of hearing ability such as melodic, harmonic, rhythmic and internal hearing are explained, and the effectiveness of solfeggio exercises in their formation is substantiated. The results of the study show that the regular use of solfeggio exercises increases students' intonation accuracy, musical memory and rhythmic sensitivity.*

Keywords: *solfeggio, hearing ability, musical education, intonation, rhythm, musical memory.*

Султанова Зухра
Наманганский государственный университет
Доцент кафедры традиционного пения и
инструментального исполнительства

ЗНАЧЕНИЕ СОЛЬФЕДЖИО В РАЗВИТИИ СЛУХА

Аннотация: *В статье анализируется роль сольфеджио в развитии слуха в системе музыкального образования с научной, теоретической и практической точек зрения. Объясняются такие типы слуха, как мелодический, гармонический, ритмический и внутренний слух, и обосновывается эффективность упражнений сольфеджио в их формировании. Результаты исследования показывают, что регулярное использование упражнений сольфеджио повышает точность интонации, музыкальную память и ритмическую чувствительность учащихся.*

Ключевые слова: *сольфеджио, слух, музыкальное образование, интонация, ритм, музыкальная память.*

I. Kirish

Musiqa ta'limida eshitish qobiliyati (muzikal eshitish) asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Yeshitish qobiliyati — bu musiqiy tovushlarni qabul qilish, farqlash, tahlil qilish va qayta ifoda etishga qaratilgan psixofiziologik jarayonlar majmuasidir.

Solfedjio fani musiqa ta'limi tizimida nazariya va amaliyotni uyg'unlashtiruvchi asosiy yo'nalish sifatida shakllangan. U nota yozuvini ovoz orqali ifoda etish, lad-garmonik tuzilmani anglash va ritmik strukturalarni to'g'ri bajarishni o'rgatadi.

Musiqa nazariyasining ilk ilmiy asoslari qadimgi davr mutafakkirlari tomonidan yaratilgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy musiqa ilmini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilgan bo'lib, uni inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi tizim sifatida ko'rsatgan. Shuningdek, Aristotel musiqani tarbiyaviy ahamiyatga ega san'at turi sifatida baholagan.

XIX–XX asr musiqa pedagogikasida, xususan Zoltán Kodály metodikasida solfedjio eshitish qobiliyatini rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi.

Tadqiqotning maqsadi — solfedjio fanining eshitish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi nazariy hamda amaliy ahamiyatini ilmiy asoslash.

Metod

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil

Musiqa pedagogikasi, psixologiya va metodikaga oid ilmiy adabiyotlar o‘rganildi.

2. Pedagogik kuzatish

Bolalar musiqa maktabi o‘quvchilari ishtirokida solfedjio mashg‘ulotlari jarayoni kuzatildi.

3. Qiyosiy tahlil

Solfedjio mashg‘ulotlarida ishtirok etgan va etmagan o‘quvchilarning eshitish ko‘rsatkichlari solishtirildi.

4. Amaliy tajriba

Interval eshitish, musiqiy diktant, ritmik mashqlar va ladni aniqlash bo‘yicha topshiriqlar orqali diagnostika o‘tkazildi.

Tadqiqot 3 oy davomida 8–12 yoshli o‘quvchilar bilan olib borildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. Melodik eshitish rivojlanishi

Solfedjio mashg‘ulotlarida muntazam ishtirok etgan o‘quvchilar kuyni takrorlashda 30–40% yuqori aniqlikka erishdilar. Nota bilan ovoz o‘rtasidagi bog‘lanish mustahkamlandi.

2. Garmonik eshitish

Akkord va intervallarni farqlash qobiliyati sezilarli darajada yaxshilandi. Dastlabki bosqichda katta-kichik intervallarni ajratish qiyin bo‘lgan bo‘lsa, mashqlar natijasida farqlash aniqligi oshdi.

3. Ritmik eshitish

Ritmik diktant natijalariga ko‘ra, solfedjio mashg‘ulotlaridan keyin sinxron ijro ko‘rsatkichi 25–35% ga o‘sdi.

4. Ichki eshitish (audisiya)

Notani ko‘rib turib ovoz chiqarmasdan “ichki eshitish” qobiliyati shakllandi. Bu esa musiqiy tafakkur rivojiga xizmat qildi.

5. Psixologik ta’sir

Solfedjio mashg‘ulotlari diqqatni jamlash, xotira va tafakkur tezligini oshirishi aniqlandi.

Muhokama

Olingan natijalar solfedjio fanining eshitish qobiliyatini rivojlantirishda markaziy o‘rin tutishini tasdiqlaydi.

Birinchidan, solfedjio nazariy bilimni amaliy eshitish bilan uyg‘unlashtiradi. Bu jarayon kognitiv va sensor tizimlarning bir vaqtda ishlashini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, ovozli mashqlar orqali intonasion nazorat shakllanadi. Bu ijrochilik faoliyatida muhim omil hisoblanadi.

Uchinchidan, Koday metodikasida ta’kidlanganidek, musiqani avvalo eshitish va ovoz orqali anglash ta’lim samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari musiqa ta’limida solfedjio soatlarini qisqartirish emas, aksincha, metodik jihatdan boyitish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Yeshitish qobiliyatini rivojlantirish musiqa ta’limining asosiy maqsadlaridan biridir. Solfedjio fani:

- melodik va garmonik eshitishni shakllantiradi;
- ritmik sezgirlikni oshiradi;
- ichki eshitishni rivojlantiradi;
- musiqiy xotira va tafakkurni mustahkamlaydi.

Shu sababli solfedjio musiqa ta’limi tizimida fundamental fan sifatida qaralishi va zamonaviy metodikalar asosida takomillashtirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. *Kitob al-musiqa al-kabir*.
2. Aristotel. *Siyosat*.
3. Zoltán Kodály. *Selected Writings on Music Education*.

4. Abdullayev R. Musiqa pedagogikasi asoslari. – Toshkent, 2015.
5. Yuldashev Q. Solfedjio o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2018.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Irisboeva Yoqutxon O'tbosarovna
Buxoro innovatsiyalar universiteti dotsenti

PEDAGOGLIK KASBINING IJTIMOIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Pedagoglik kasbining ijtimoiy zaruriyati, avvalo, jamiyatning taraqqiyoti va kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi, bu kasb o'zining ko'p qirrali roli bilan jamiyatdagi ta'lim tizimini yaxshilash va insonlar hayotiga ta'sir ko'rsatish imkoniyati, pedagoglar faoliyati orqali bilimlar, qadriyatlar va ko'nikmalarni yoshlar va farzandlarga o'rgatish orqali jamiyatni rivojlantirish masalalari talqin qilingan.*

Kalit so'zlar*: pedagog, pedagogika, kasb, ahamiyat, zaruriyat, natija, taraqqiyot, ijtimoiy, soha, ta'sir, shakllanish.*

Ирисбоева Якутхан Отбосаровна
Доцент, Бухарский инновационный университет

СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРОФЕССИИ

Аннотация. *Социальная необходимость педагогической профессии заключается, прежде всего, в ее важности для развития и будущего общества, в способности этой профессии совершенствовать систему образования в обществе благодаря своей многогранной роли и влиянию на жизнь людей, а также в развитии общества посредством деятельности педагогов, обучающих молодежь и детей знаниям, ценностям и навыкам.*

Ключевые слова: *педагог, педагогика, профессия, важность, необходимость, результат, развитие, социальная сфера, влияние, формирование.*

Irisboeva Yakutkhan Otbosarovna
Associate Professor, Bukhara Innovation University

SOCIAL SIGNIFICANCE OF THE PEDAGOGICAL PROFESSION

Annotation. *The fact that the social necessity of the pedagogical profession is important, first of all, for the development and future of society, this profession, with its multifaceted role, has been interpreted as the possibility of improving the educational system in society and influencing the lives of people, the development of society by teaching knowledge, values and skills to youth and children through the activities of educators.*

Key words: *educator, pedagogy, profession, importance, necessity, result, progress, social, sphere, influence, formation.*

Kirish. Mamalakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bir qatorda bugungi kunda ta'lim tizimining rivojlanib borishi zamon talabiga mos ta'lim-tarbiyaga qaratilgandir. Pedagoglarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda, o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etish uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ijtimoiy tajribalarga asosan ish olib borish lozimdir. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'limga qaratilayotgan e'tibor barcha pedagoglarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ta'lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida ta'lim muassasasi pedagoglar oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi.

Ma'lumki, inson har doim o'sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarnig ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoalari to'g'ri tushunishlari lozim. Har bir pedagog, o'z pedagogik faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoalarda insonlar ta'sirida amalga oshiradi.

Pedagoglik kasbi muhim bo'lib, pedagog yosh qalblar kamolotining me'moridir. Bugun u yoshlarni g'oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o'rgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb-hunar egallashlariga ko'maklashishi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifani hal etishga chog'lamog'i darkor. Ana shu ma'suliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, talaba - yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy

koʻnikmalarini har tomonlama rivojlantirishning optimal yoʻllarini izlab topadigan kasb egasi boʻlishni talab etadi. Buning uchun pedagogik mahorat fani oʻqituvchidan doimo kasbiy mahorati ustida izlanish uchun, unga turli shart – sharoitlar yaratishi, kerakli moddiy va ilmiy – metodik yordam koʻrsatishi hamda oʻqituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga koʻmaklashadi.

Respublikamizda pedagogik kasbga moslashuvchanlikning shakllanishida bir qator samarali tajribalar mavjud boʻlib, oliy ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish, ularning pedagogik ishga moslashuvchanligini ta'minlash, oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, boʻlajak pedagoglarning oʻquv jarayoniga moslashuvchanligini ta'minlash, talabalarga individual yondashish, ularning ehtiyojlariga muvofiq ta'lim berish, pedagogik moslashuvchanlikka erishish, pedagogik muammolarning yechimini topish, pedagogik moslashuvchanlikka erishish uchun innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodikalardan foydalanish kabi zamonaviy ta'lim usullari pedagoglarning kasbiy ishga moslashishini osonlashtiradi. Respublikada pedagogik kasbga moslashuvchanlikni ta'minlashda turli samarali tajribalar joriy etilgan. Pedagoglarning faoliyatiga innovatsion ta'lim vositalarini joriy qilish, individual yondashuv va jamoaviy ishlashga e'tibor berish, boʻlajak oʻqituvchilarning ishga moslashuvchanligini oshirishga va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan muhim qadamlardir.

Asosiy qism. Pedagogik kasbning ijtimoiy ahamiyati juda katta va muhimdir. Bu kasb, birinchi navbatda, insonning ma'naviy va intellektual oʻsishida asosiy rol oʻynaydi [1]. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, talabalar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega boʻlgan, oʻzini-oʻzi va oʻz faoliyatini oʻzi tahlil qiladigan va obyektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega boʻlgan, shuningdek, axborotlar toʻplash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va talabalar faolligiga salbiy ta'sir koʻrsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan koʻrish koʻnikmalariga ega boʻlgan hamda ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash yoʻnalishida zaruriy bilim, koʻnikma va malakalarga ega boʻlgan pedagogni zamonaviy oʻqituvchi deyishimiz mumkin.

Pedagoglar, oʻqituvchilar va tarbiyachilar oʻzlarining faoliyati orqali qoʻshimcha bilimlar, qadriyatlar va koʻnikmalarni yoshlar va farzandlarga oʻrgatish orqali jamiyatni rivojlantirishga hissa qoʻshadilar [3].

Quyida pedagogik kasbning ijtimoiy ahamiyatiga oid ayrim jihatlar:

Ma'naviy va intellektual rivojlanish: pedagoglar yoshlarning ma'naviy va axloqiy qimmatlarini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi. Ular yoshlarga bilimlar berish bilan birga, ularni hayotga, odamlarga va jamiyatga munosabatini toʻgʻri shakllantiradi.

Jamiyatni rivojlantirish: pedagoglar yosh avlodni tarbiyalab, ularni mukammal insonlar, mahorati yuqori va jamiyatga foyda keltiradigan shaxslarga aylantirishga intiladilar. Bu, oʻz navbatida, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Koʻnikmalar va shaxsiy taraqqiyot: oʻqituvchilar yoshlarga turli koʻnikmalarni oʻrgatish orqali ularning hayotdagi muammolarga yechim topish imkoniyatini yaratadilar. Pedagogik kasb insonning shaxsiy taraqqiyotiga ham katta ta'sir koʻrsatadi, chunki oʻqituvchi har doim oʻz bilim va koʻnikmalarini oshirishi kerak.

Inklyuziv ta'lim: pedagogika kasbi barcha yoshlar va insonlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga intiladi. Bular orasida, maxsus ehtiyojlari boʻlgan bolalarni ta'limga jalb qilish, ularning haq-huquqlarini himoya qilish va ularga turli resurslar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Kelajak avlodni shakllantirish: pedagogik kasbning ijtimoiy ahamiyatidan yana bir muhim jihati, bu kelajak avlodga tajriba va bilimlarni oʻz vaqtida yetkazishdir. Ta'lim va tarbiyaning har qanday shakli, yoshlarga turli turdagi qobiliyatlar va imkoniyatlarning rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagogika faoliyati jamiyatdagi barcha sohalarga ta'sir koʻrsatadi. Chunki ta'lim va tarbiya orqali shakllangan avlod, barcha sohalarda ijtimoiy oʻzgarishlar va taraqqiyotga turtki boʻlib xizmat qiladi.

Natijalar va muhokamalar. Pedagoglik kasbining ijtimoiy zaruriyati, avvalo, jamiyatning taraqqiyoti va kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu kasb oʻzining koʻp qirrali roli bilan jamiyatdagi ta'lim tizimini yaxshilash va insonlar hayotiga ta'sir koʻrsatish imkoniyatiga ega [4]. Kelgusida mamlakatning taraqqiyoti, iqtisodiyoti va madaniyati pedagoglarning mehnatidan, ularning bilim berish qobiliyati va odob-axloqidan katta darajada bogʻliq.

Ta'lim va ma'rifatni targʻib qilish va bilim va ma'rifat olish imkoniyatini yaratish. Bu ularning ijtimoiy zaruriyatini hosil qiladi, chunki bilimlangan jamiyat yuqori darajadagi iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni ta'minlay oladi.

Yoshlarning shaxs sifatida shakllanishi - pedagoglar yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishida, ularning axloqiy va ma'naviy qimmatlarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Bu jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun zarurdir.

Ijtimoiy tenglikni ta'minlash- ta'limga ega bo'lish jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yordam beradi. Pedagoglar turli jamiyat qismlaridagi yoshlarga bir xil imkoniyatlarni taqdim etishda muhim rol o'ynaydilar.

Kelajak avlodlarning tayyorgarligi - pedagoglar kelajak avlodni hayotga tayyorlash va ularni muammolarga hal qilishga yordam berishga mas'ul. Bu ish jamiyatning muvaffaqiyati va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Pedagoglik kasbi jamiyatdagi har bir inson uchun muhim, chunki u odamlarning hayotini yaxshilash va ularning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi [2].

Ta'lim muassasalari o'qituvchilarining aksariyati pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchining asosiy vazifalari ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va nazorat qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarga o'rganilishi rejalashtirilgan mavzu bo'yicha zaruriy axborotlarni yetkazib berishdan iborat deb hisoblaydilar [5]. Bizning fikrimizcha, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida pedagoglar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

o'quv dasturida o'rganilishi rejalashtirilgan mavzuga mos ravishda ta'lim jarayonining ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash;

maqsadga muvofiq ko'zlangan natijalarga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini va qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni tanlash;

vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra talabalarning imkoniyatlarini oldindan aniqlashtirish va vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldindan bashorat qilish asosida bajariladigan vazifalarni imkoniyatlarga ko'ra taqsimlashni rejalashtirish;

ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash;

pedagogik jarayonda talabalarning subyektivligini ta'minlash va faolligini oshiruvchi texnologiyalarni tatbiq etish jarayonlarini loyihalashtirish;

pedagogik jarayonda foydalaniladigan didaktik vositalarni tanlash va oldindan tayyorlash;

pedagogik jarayonlarning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlovchi chora-tadbirlarni belgilash;

ta'lim muassasalari, oila va mahallaning o'zaro aloqasini ta'minlash;

pedagogik jarayonlarda ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilish;

talabalar faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash;

talabalarning mustaqil ta'lim jarayoni natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish;

talabalarning o'quv, mehnat va o'yin faoliyatlarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

Demak, ta'lim muassasalari pedagoglarining o'z funksional vazifalarini amalga oshirish jarayoni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan vazifalarni amalga oshirish jarayoni bo'lib, pedagogik jarayonlarda ko'zlangan natijalarga erishish uchun belgilangan maqsadlar yo'nalishidagi subyekt (o'qituvchi-talaba)lar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, pedagogik jarayonlarda bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish orqali subyektlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Pedagogning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi turli faoliyatlari davomida zaruriy pedagogik ko'nikmalarining shakllanishi, kasbiy qobiliyatini namoyon etish jarayonida esa uning uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan intellektual qobiliyat, tasavvur va tushunchalari, tafakkuri rivojlanadi, va ma'naviyati oshadi.

Pedagoglar yoshlarga bilim berish orqali ularni yoshligidanoq jamiyatda faol fuqarolar bo'lib shakllanishga tayyorlashadi. Ta'lim tizimi orqali insonlar yaxshi ma'lumotlarga ega bo'lib, ilmiy, texnik, ijtimoiy sohalarda muvaffaqiyatga erishadilar. Bu natijada jamiyatda intellektual kapital ortib, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi. Pedagoglar yoshlar o'rtasida axloqiy-ruhiy qadriyatlarni, milliy va umuminsoniy qimmatlarni shakllantiradilar. Bu ijtimoiy natija jamiyatda tartib va intizomni o'rnatish, odob-axloq normalarini saqlashga yordam beradi.

Oliy pedagogik ta'limni rivojlantirish mazmunining asosiy maqsadi – ta'lim tizimini yangi talab va shartlarga moslashtirish, pedagogik faoliyatga zarur bo'lgan zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Ushbu jarayon mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, global ta'lim tendensiyalari va ilm-fan sohasidagi yangiliklar bilan bog'liq bo'ladi [8].

Oliy pedagogik ta'limning mazmuni o'zgarishlariga moslashib, pedagogika va psixologiya, metodika va boshqa sohalardagi nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan. Bu holda:

pedagogik nazariyalar va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni,

psixologik bilimlar, talabalarning shaxsiyat, motivatsiya va fikrlash yo‘nalishlari.

Zamonaviy pedagogik ta’limning mazmunida innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Bu, avvalo, ta’lim jarayonini samarali tashkil qilishga, talabalarning faolligini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullarni o‘z ichiga oladi. Innovatsion texnologiyalar - talabalarni mustaqil fikrlashga, mustaqil ishlashga va bahs-munozaralarga jalb qilish, elektron ta’lim platformalari va onlayn kurslar orqali ta’lim berilishi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarning amaliyotga tayyorgarligini oshirish [6].

Xulosa. Pedagoglik kasbining ijtimoiy natijasi jamiyatda ta’lim, axloqiy-ruhiy va madaniy rivojlanishga hissa qo‘shadi. Pedagoglar o‘z mehnatlari orqali faqat bilim berish bilan cheklanmay, yoshlarning ijtimoiy va shaxs sifatida shakllanishida ham muhim rol o‘ynaydilar. Ushbu kasbning ijtimoiy natijalari keng ko‘lamli va turli sohalarda yangilanishlarga olib keladi.

Pedagogika orqali barcha yoshlarga, mahalliy va ijtimoiy holatidan qat’i nazar, ta’lim olish imkoniyatlari taqdim etiladi. Bu jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta’minlashga, har bir fuqaroning potensialini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Shu orqali pedagoglar ijtimoiy muvozanatni saqlashda muhim rol o‘ynaydilar.

Pedagoglar kelajak avlodlarning shaxs sifatida shakllanishini ta’minlash orqali ularni ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydilar. Bu jamiyatda faol, mas’uliyatli va axloqan sof insonlar paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Pedagoglar, yoshlarning barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta’minlash orqali ijtimoiy barqarorlikni saqlashga hissa qo‘shadilar. Ular ijtimoiy muammolarga yechim topishda va jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta’minlashda muhim vositadir.

Shuningdek, pedagoglik kasbi jamiyatdagi umumiy psixologik va emotsional muhitni shakllantirishga ham hissa qo‘shadi. Ta’lim orqali odamlar o‘zlarining his-tuyg‘ularini boshqarishni, boshqalar bilan ijobiy munosabatlarda bo‘lishni va ijtimoiy adolatni targ‘ib qilishni o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Луковников Н.Н. Основы педагогической деятельности : учебное пособие — Тверь : Тверская ГСХА, 2021. — Ст. 201.

2. Raximov Z.T. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent “Voris” nashriyoti – 2020. 242 b.

3. Po‘zieva D., Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalap va pedagogik mahorat. – Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2019. - B.71-79.

4. Сарычев С.В., Логвинов И.Н. Педагогическая психология. СПб.: Питер, 2015. 224 с.

5. Сергеев И.С. Основы педагогической деятельности. СПб.: Питер, 2004. 316 с.

6. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T.: Iqtisodiyot, 2011. – 208 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Yunusov Laziz Erkinovich
A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti yetakchi mutaxassisi Toshkent, O‘zbekiston

ZAMONAVIY TA’LIM PARADIGMASIDA “TEXNOLOGIYA” FANI O‘QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK OMILLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim paradigmasi o‘zgarishi sharoitida texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning konseptual asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida bo‘lajak va faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan yangi talablar, raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari hamda kreativ fikrlashni shakllantiruvchi strategik omillar yoritilgan. Muallif tomonidan texnologiya ta’limini modernizatsiyalashda o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik va tashkiliy shart-sharoitlar asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim paradigmasi, “Texnologiya” fani, kasbiy kompetensiya, strategik omillar, transformatsiya, pedagogik mahorat, innovatsion faoliyat, kasbiy kamolot.*

Юнусов Лазиз Эркинович
Ведущий специалист Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони Ташкент, Узбекистан

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЯ ТЕХНОЛОГИИ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЫ

Аннотация: *В данной статье анализируются концептуальные основы развития профессиональных компетенций учителей технологии в условиях смены современной образовательной парадигмы. В ходе исследования освещаются новые требования к профессиональной подготовке будущих и действующих педагогов, навыки работы с цифровыми технологиями и стратегические факторы, формирующие креативное мышление. Автором обоснованы педагогические и организационные условия, способствующие повышению профессионального мастерства учителя в процессе модернизации технологического образования.*

Ключевые слова: *образовательная парадигма, предмет технология, профессиональная компетенция, стратегические факторы, трансформация, педагогическое мастерство, инновационная деятельность, профессиональное развитие.*

Yunusov Laziz Erkinovich
Chief specialist of the Avloniy National research institute of pedagogical skills Tashkent, Uzbekistan

STRATEGIC FACTORS FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF A TECHNOLOGY TEACHER WITHIN THE MODERN EDUCATIONAL PARADIGM

Abstract: *This article analyzes the conceptual framework for developing the professional competencies of technology teachers amidst the shifting modern educational paradigm. The study highlights new requirements for the professional training of both future and practicing educators, skills for working with digital technologies, and strategic factors that shape creative thinking. The author substantiates the pedagogical and organizational conditions that serve to enhance the teacher’s professional excellence in the process of modernizing technology education.*

Keywords: *educational paradigm, technology subject, professional competence, strategic factors, transformation, pedagogical skill, innovative activity, professional growth.*

Kirish

Jahon miqyosida XX asr oxiri va XXI asr boshida texnologiyalar inqilobi natijasida yuzaga kelgan to‘rtinchi sanoat inqilobi talablari barcha ijtimoiy institutlar, xususan, ta’lim tizimi oldiga yangi strategik vazifalarni qo‘ydi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning mazmunini raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga

yo‘naltirish va milliy ta’lim standartlarini xalqaro talablar darajasiga ko‘tarish bu boradagi ustuvor vazifalardandir. “Raqamli O‘zbekiston” milliy dasturi amalga oshirilayotgan O‘zbekistonda ta’lim jadal sur’atlarda raqamlashtirilayotgan bir sharoitda o‘quvchilarni innovatsion iqtisodiyotga tayyorlashda texnologiya o‘qituvchilarining o‘rni katta.

Bugungi kunda globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda. An’anaviy ta’lim modelidan shaxsga yo‘naltirilgan va texnologik yondashuvlarga asoslangan zamonaviy ta’lim paradigmasiga o‘tish davrida “Texnologiya” fanining o‘rni va ahamiyati tubdan o‘zgardi. Endilikda ushbu fan faqatgina oddiy amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarda muhandislik tafakkuri, kreativlik va texnologik madaniyatni shakllantirishning asosiy bo‘g‘iniga aylandi. Bunday mas’uliyatli sharoitda “Texnologiya” fani o‘qituvchisining shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘qituvchi nafaqat pedagogik mahoratga, balki doimiy o‘zgarib boruvchi texnologik muhitga moslashuvchanlik va innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi. Mazkur maqolada ta’lim tizimidagi transformatsiya jarayonlarida o‘qituvchi kasbiy kamolotini belgilovchi strategik omillar va ularni amaliyotga tatbiq etishning ilmiy asoslari batafsil tahlil qilinadi.

Bu jarayon, eng avvalo, “Texnologiya” fanini o‘qituvchisiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartiradi. An’anaviy mehnat ta’limi metodlari o‘rniga hisoblash tafakkuri, robototexnika, ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt etikasi kabi zamonaviy yo‘nalishlarni o‘qitishni talab qiladigan raqamli pedagogikani joriy etish zarurati dolzarb muammodir.

Biroq, o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish – bu shunchaki kurslarni tashkil etishdan iborat bo‘lmay, balki ichki va tashqi omillarning murakkab ekologiyasi tomonidan tartibga solinadigan ko‘p bosqichli jarayondir. Ushbu maqolaning maqsadi – ta’lim tizimining transformatsiyasi sharoitida “Texnologiya” o‘qituvchisi shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga bevosita ta’sir etuvchi asosiy omillarni tizimli, institutsional va individual darajalarda chuqur ilmiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu omillarni aniqlash orqali, ta’lim siyosatini ishlab chiquvchilar va maktab ma’muriyati o‘qituvchilarning professional salohiyatini oshirishga qaratilgan samarali va ilmiy asoslangan interventsiyalarni yaratishlari mumkin bo‘ladi.

Asosiy Qism. Zamonaviy ta’lim paradigmasida “Texnologiya” fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bir nechta muhim strategik omillarga bog‘liq. Birinchi navbatda, texnologik va raqamli savodxonlikning yuqori darajasi asosiy omil hisoblanadi. Bugungi o‘qituvchi nafaqat qo‘l mehnati yoki an’anaviy ishlov berish usullarini, balki 3D modellashtirish, robototexnika va sun’iy intellekt elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qila olishi shart. Bu jarayonda pedagogik faoliyatning texnik imkoniyatlar bilan uyg‘unlashuvi o‘qituvchining kasbiy nufuzini oshiruvchi asosiy strategik yo‘nalishdir.

Ikkinchi muhim omil — bu aksiologik yondashuv, ya’ni o‘qituvchining kasbiy qadriyatlari va shaxsiy motivatsiyasidir. Transformatsiya sharoitida o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z ustida ishlaydigan va mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirilgan shaxs bo‘lishi lozim. Kasbiy kompetensiya faqat bilimlar yig‘indisi emas, balki murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olish va muammolarga innovatsion yechim topish qobiliyatidir.

Uchinchi strategik omil sifatida kreativ va loyihaviy tafakkurni ko‘rsatish mumkin. “Texnologiya” fani tabiatan loyiha ishlariga asoslanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga tayyor bilimlarni berishdan ko‘ra, ularni izlanishga, STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yondashuvi asosida muammolarni hal qilishga o‘rgatishi kerak. Buning uchun esa pedagogning o‘zida loyihaviy boshqaruv (project management) ko‘nikmalari shakllangan bo‘lishi talab etiladi.

Shuningdek, ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar ham muhim strategik omil bo‘lib, u o‘qituvchining o‘quvchilar, ota-onalar va ish beruvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishi, jamoada ishlay olishi va ta’lim muhitida psixologik qulaylik yaratishida namoyon bo‘ladi. Ta’lim mazmunining yangilanishi o‘qituvchidan moslashuvchanlikni va yangi pedagogik texnologiyalarni (masalan, "Flipped klassroom" yoki "Blended learning") mahorat bilan qo‘llashni talab etadi.

So'nggi o'n yilliklarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) ta’lim jarayoniga integratsiyalashga qaratilgan “Raqamli O‘zbekiston” (2030) milliy strategiyasi doirasida O‘zbekiston ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Muhandislik, dizayn va innovatsiya elementlarini o'z ichiga olgan “Texnologiya” fani o‘quvchilarda STEM ko'nikmalarini rivojlantirish usullardan bo‘lib kalit hisoblanadi. Biroq, ushbu fan o'qituvchilari raqamli vositalardan samarali foydalanish uchun o'z kompetentsiyalarini doimiy ravishda yangilab turishlari kerak. Ma’lumki, kasbiy kompetensiyalarga: texnik bilimlar (SAPR dasturlari bilan ishlash, 3D bosib chiqarish), pedagogik mahorat (gibrid ta’limga moslashish) va fanlararo yondashuvlarni birlashtirish qobiliyati kiradi.

O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston” dasturi orqali amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari sharoitida raqamli texnologiyalarning “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalariga ta’sirini bir qator pedagogik, psixologik va texnologik nazariyalar yordamida asoslash mumkin.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari kognitiv (bilim), affektiv (motivatsiya) va xulq-atvor (amaliy ko‘nikmalar) jihatlarini o‘z ichiga oladi hamda ular AKT ta’sirida kuchayadi. Nazariy jihatdan mazkur texnologiya an’anaviy pedagogikadan interaktiv pedagogikaga o‘tishini osonlashtiradi, o‘qitish samaradorligini va o‘qituvchilarning zamonaviy talablarga moslashishini oshiradi.

Shuni a’lohida ta’kidlash kerakki “Texnologiya” fani o‘qituvchilari shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi va takomillashi bu chiziqli jarayon emas, balki ichki va tashqi kuchlarning murakkab ta’siri vositasida yuzaga keladi. Tizimli transformatsiya sharoitida (ko‘pincha texnologik uzilishlar va milliy ta’lim standartlarining qayta ko‘rib chiqilishi, masalan, hisoblash tafakkurini (CT) kiritish orqali yuzaga keladi) ushbu omillar o‘zgarishning hal qiluvchi dastagiga aylanadi.

I. Tizimli va siyosiy omillar. Tizimli omillar texnologiya ta’limi uchun umumiy asos, moliyalashtirish va izchillikni belgilovchi milliy, mintaqaviy yoki hukumat siyosatlariga tegishlidir. Bularga quyidagilarni kirittish mumkin:

1. Milliy raqamli ta’lim siyosatining izchilligi. Raqamli texnologiyalarning “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalariga ta’sirini nazariy asoslash quyida keltirilgan yondashuvlar asosida amalga oshirilishi mumkin:

1). Kompetensiyaga asoslangan yondashuv va TPACK modeli. Ushbu yondashuv vakolatlarni samarali ishlash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qadriyatlarning integratsiyasi sifatida belgilaydi.

Raqamli texnologiyalar o'qituvchilarga qo'llanilganda, AKTdan pedagogik maqsadlarda foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga olgan "raqamli kompetentsiya" ni qo'shish orqali ushbu spektrni kengaytiradi. Buni asoslash uchun TPACK (Texnologik pedagogik kontent bilimi, Koehler & Mishra, 2009) modeli eng muhim bo‘lib hisoblanadi.

U uch turdagi bilimlarning (texnologik, pedagogik, uqitilayotgan fan) o'zaro ta'sirini tavsiflaydi. “Texnologiya” fanining kontekstida (bu muhandislik dizayni, robototexnika va innovatsiyalarni o'z ichiga oladi) raqamli vositalar (masalan, AutoCAD kabi SAPR dasturlari yoki O'zbekistondagi mahalliy analoglar) o'qituvchilarga texnologiyani o'qitishga integratsiya qilish imkonini berish orqali TPACKni yaxshilaydi. Empirik tadqiqotlar TPACKni ishlab chiqish texnologiya o'qituvchilarining o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

O‘qituvchilar ko‘pincha resurslar tanqisligiga duch keladigan mahalliy amaliyotda texnologiya to‘siqlarni kamaytirmoqda: onlayn platformalar (Moodle, UzEdu tizimiga integratsiyalashgan) o‘qituvchilarning moslashuvi va ijodkorligini rivojlantirib, shaxsiy ta’lim olish imkonini beradi.

Nazariy jihatdan, bu konstruktiv ta'lim nazariyasiga mos keladi, bunda texnologiya "proksimal rivojlanish zonasi" sifatida ishlaydi, faol o'zaro ta'sir orqali o'qituvchilarning kognitiv o'sishini rag'batlantiradi.

Raqamli ta’lim bo‘yicha aniq, uzoq muddatli milliy strategiya o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirishning poydevori hisoblanadi. Bu strategiya shunchaki kompyuterlar bilan ta’minlashdan tashqariga chiqishi kerak; u texnologiyadan foydalanish bilan bog‘liq pedagogik maqsadlarni (masalan, o‘quvchi-markazli ta’lim, loyihaga asoslangan baholash) belgilashi shart.

Mazkur jarayonni amalga oshirishda siyosatning aniqligiga erishish muhim. Noaniq yoki tez-tez o‘zgaruvchan siyosat o‘qituvchilarning sarosimaga tushishiga va yangi ko‘nikmalarga vaqt sarflashni istamasligiga olib keladi. Samarali siyosatlar aniq kompetensiya asoslarini (masalan, UNESCO ICT-CFT yoki DigCompEdu) taqdim etib, o‘qituvchilarga kasbiy yo‘nalish uchun yo‘l xaritasini taklif etadi.

Shuningdek, tizimli moliyalashtirish raqamli resurslarning adolatli taqsimlanishini va yuqori sifatli, uzoq muddatli Kasbiy Rivojlanish (KR) dasturlari uchun barqaror moliyalashtirishni ta’minlaydi. Maxsus, kafolatlangan moliyalashtirishsiz institutsional sa’y-harakatlar uzuq-uzuq va samarasiz bo‘lib qoladi.

2). O‘quv dasturlarini integratsiyalash va muvozanatni ta’minlash. O‘quv dasturi zamonaviy texnologiyalar va pedagogikalarni qo‘llashni talab qilishi shart. Transformatsiya o‘qituvchining rolini belgilangan materialni yetkazishdan raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning bilimni kashf etishi va konstruksiyasini yengillashtirishga o‘zgartirishni talab qiladi.

Shu o’rinda a’lohida qayd etish kerakki, kompetensiyalar texnologiyani nafaqat “Texnologiya” darsida, balki butun o‘quv dasturi bo‘yicha integratsiya qilish maqsadi bilan rivojlantirilishi va ko‘nikmalarning boshlang‘ichdan o‘rta maktabgacha mantiqiy progressivligini (vertikal integratsiya) ta’minlashi kerak.

3). O‘qituvchilar tayyorlash va malaka oshirish uzluksizligi. Kasbiy rivojlanishga to‘sqinlik qiladigan doimiy omil boshlang‘ich ta’limi o‘qituvchi va uzluksiz kasbiy rivojlanish o‘rtasidagi tafovutdir.

Ana shu tafovutni bartaraf etish esa, tizimli islohotlarni BOT dasturlari texnologik pedagogik kontent bilimi (TPACK) asoslari bo‘yicha kuchli fundamental tushunchani ta’minlashini kafolatlashi kerak. Agar BOT orqada qolsa, UKR tuzatuvchi (remedial) ta’limga majbur bo‘ladi, bu esa ilg‘or kompetensiya rivojlanishiga bag‘ishlanishi kerak bo‘lgan vaqt va resurslarni sarflaydi.

Akkreditatsiya va kasbiy standartlarga oid siyosatlar raqamli sinfning joriy talablarini aks ettirish uchun muntazam ravishda yangilanib turishi, sertifikatlash va lavozimni oshirishni yangi raqamli va etik kompetensiyalarni namoyon etilgan o‘zlashtirishga bog‘lashi kerak.

II. Institutsional va kontekstual omillar. Bu omillar maktabning bevosita muhiti, resurslari va madaniyatiga tegishli bo‘lib, ular yangi kompetensiyalarning amaliy qo‘llanilishini qo‘llab-quvvatlaydi yoki cheklaydi. Xususan:

1). Raqamli infrastruktura va texnik qo‘llab-quvvatlash. Ushbu yo’nalishda turli to’siqlar mavjud. Fikrimizcha bunda jismoniy va logistik muhit asosiy to‘siqdir (ko‘pincha birinchi darajali to‘siqlar deb ataladi). Agar vositalar foydalanishga yaroqsiz yoki ishonchsiz bo‘lsa, eng ilg‘or o‘qituvchini tayyorlash jarayoni ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

O‘qituvchilarga ishlaydigan uskunalar, kuchli tarmoq ulanishi va maxsus dasturiy ta’minotga kafolatlangan kirish imkoniyati kerak. Ta’lim robototexnikasi yoki ma’lumotlarni vizuallashtirish kabi sohalarda kompetensiyalarni rivojlantirish tegishli jismoniy va raqamli infratuzilmasiz imkonsizdir.

Yana bitta e’tiborli masala bu maktabda texnik yordam xodimlarining mavjudligi. Ular o‘qituvchilarning yukini kamaytiradi, ularni muammolarni bartaraf etishdan ozod qiladi va pedagogik qo‘llanilishiga e’tibor qaratishga imkon beradi. Ularning yo‘qligi esa stressni keltirib chiqaradi va texnologiyadan foydalanishning qulayligini pasaytiradi.

2). Maktab rahbariyatining boshqaruvi. Ma’lumki rahbariyat jamoasi o‘zgarish uchun institutsional sharoitlar yaratadi va qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, maktab rahbarlari nafaqat texnologiyani integratsiyalashni targ‘ib qilishlari, balki muammolar va imkoniyatlarni tushunish uchun kasbiy o‘rganishda o‘zlari ham ishtirok etishlari kerak. Ularning qarashlari texnologiyadan foydalanishni maktabning umumiy ta’limiy maqsadlari bilan moslashtirishi, o‘zgarishlar nima uchun zarurligini aniq ifodalashi kerak.

3). Hamkorlik madaniyati va kasbiy o‘rganish hamjamiyatlari. Ma’lumki, har qanday kasbiy o‘sish chuqur ijtimoiy xususiyatga ega. Yakka amaliyot innovatsiyaning tarqalishiga to‘sqinlik qiladi. Samarali kompetensiya rivojlanishi kasbiy o‘rganish hamjamiyatlari doirasida yuzaga kelganda maksimal darajaga erishadi. Bu hamjamiyatlar “Texnologiya” fani o‘qituvchilariga resurslarni almashish, darslarni birgalikda rejalashtirish, hamkasblarni kuzatish va kontekstga xos zudlik bilan fikr-mulohaza olish imkonini beradi.

Shu bilan birga, “Texnologiya” fani o‘qituvchisining roli boshqa fan o‘qituvchilari (Tabiatshunoslik, San’at, Gumanitar fanlar) bilan fanlararo loyihalarni ishlab chiqishda hamkorlik qilganda oshadi, bu esa texnologiyaning izolyatsiyadan ko‘ra integratsiya falsafasini o‘zida mujassam etadi.

4). Kasbiy rivojlanishga erishishda dasturining sifati ham muhim rol o’ynaydi. Institutsional KR dasturlari sinfga yuqori darajada ko‘chirilishini ta’minlash uchun kattalar ta’limi tamoyillariga rioya qilishi kerak.

Qisqa, bir martalik o‘quv tadbirlarining ta’siri minimal darajada bo’ladi. Samarali rivojlanish haftalar yoki oylar davomida davom etishi, hamda mentorlikni va reflektiv amaliyot uchun esa imkoniyatlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Bundan tashqari mazkur kurslar faol bo‘lishi, o‘qituvchilardan darslarni loyihalashni, o‘quvchiga tegishli kontent bilan yangi texnikalarni amalda qo‘llashni va natijalarini tahlil qilishni talab qilishi, shunchaki passiv ravishda ma’lumot qabul qilishdan voz kechish.

III. Individual va Subyektiv Omillar (O‘qituvchining roli). Bu omillar o‘qituvchining ichki holatiga tegishli bo‘lib, ikkinchi darajali to‘siqlar — psixologik holatlar, e’tiqodlar va motivatsiyani ifodalaydi, ularni resurs cheklovlaridan ko‘ra yengish qiyinroqdir. Ushbu omillar haqida so’z borganida quyidagilarga a’lohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir/

1). O‘qituvchining o‘z-o‘ziga ishonchi. O‘qituvchining harakat yo‘nalishini muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatiga bo‘lgan ishonchi yangi metodlarni qabul qilishnga undaydi. Masalan, psixologik nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalar o'z taqdirini o'zi belgilash nazariyasi orqali o'qituvchilarning ta'sirchan kompetentsiyalariga ta'sir qiladi, bu erda avtonomiya, kompetentsiya va aloqadorlik kuchaytiriladi.

“Texnologiya” fanida AKTdan foydalanish (masalan, muhandislik jarayonlari va onlayn vositalarni namoyish qilish uchun VR simulyatorlari) motivatsiyani oshiradi. O‘zbekistonda bunday texnologiyalar “Texnologiya” fani o‘qituvchisiga kundalik ishlarni avtomatlashtirish, ijodkorlik uchun vaqt ajratish imkonini beradi.

Kognitiv yuk nazariyasi texnologiya o‘rganishni qanday optimallashtirishini tushuntiradi: interfaol platformalar o‘quvchilarga mavzuga oid kompetensiyalarga e’tibor qaratish imkonini beruvchi boshqa ma’lumotlar yukni kamaytiradi. O‘zbekistondagi, ayniqsa qishloq joylaridagi o‘qituvchilar uchun bu “raqamli ko‘prik”ni yaratib, ta’lim imkoniyatlari tengligini ta’minlaydi.

Yana bitta masala. O‘qituvchining o‘quvchi-markazli ta’limga bo‘lgan fundamental ishonchi raqamli pedagogikaning talablari bilan mos kelishi kerak. An’anaviy, kontentni yetkazish e’tiqodiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar ta’limni transformatsiya qilishdan ko‘ra, texnologiyani faqat eski amaliyotlarni avtomatlashtirish uchun (masalan, raqamli ish varaqalari) ishlatish ehtimoli ko‘proq.

2). O'qituvchida etarli darajada moslashuvchanlik, chidamlilik sifatlari shakllangan bo'lishi kerak. Texnologik eskirish tezligini hisobga olsak, doimiy moslashish qobiliyati o'zi ham asosiy kompetensiyadir.

"Texnologiya" fani o'qituvchilari o'sish tafakkuriga ega bo'lishi, texnik qiyinchiliklar va rivojlanayotgan vositalarni tahdid emas, balki kasbiy mahorat uchun muhim imkoniyatlar sifatida ko'rishi kerak.

Albatta, ilg'or kompetensiyalarni (kodlash o'qitish yoki ma'lumotlarni tahlil qilish kabi) rivojlantirish sezilarli shaxsiy vaqt va aqliy kuch talab qiladi. O'qituvchining bu kuchni sarflashga bo'lgan ichki motivatsiyasi muvaffaqiyatli kompetensiya rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

3). Reflektiv amaliyot va tanqidiylik. Yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya rivojlanishi o'qituvchining o'z faoliyatini va ular foydalanayotgan texnologiyaning ta'sirini tanqidiy tahlil qilish qobiliyatiga tayanadi.

"Texnologiya" fani o'qituvchisi raqamli vositalarni ularning pedagogik samaradorligi, etik oqibatlari va turli xil o'quvchilar uchun muvofiqligini tanqidiy baholash kompetensiyalarini rivojlantirishi kerak. Reflektiv kundalik yuritish, darslarning video tahlili va darsdan keyingi muhokamalar o'qituvchilarga KRda olingan nazariy bilimlar va sinf amaliyotining murakkab realligi o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga, shu bilan yangi kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlashga imkon beradi.

Shunday qilib, mazkur texnologiyalar maktabda "Texnologiya" fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini sezilarli darajada yaxshilaydi, ta'limda innovatsiyalarni ilgari suradi. Ulardan keyingi foydalanish malaka oshirish dasturlarida majburiy kasbiy kompetensiyalarni yanada oshiruvchi, raqamli savodxonlik modullarini ishlab chiqish va qishloq joylarga yo'naltirilgan hududiy qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etishni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim paradigmasida texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u shaxsiy, texnologik va uslubiy omillarning sintezini ifodalaydi. Strategik omillarni to'g'ri belgilash va ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish texnologiya ta'limining sifatini yangi bosqichga ko'tarishga imkon beradi. O'qituvchining kasbiy kamoloti faqatgina uning individual harakati emas, balki tizimli yondashuv, uzluksiz malaka oshirish va zamonaviy innovatsion muhitning mahsulidir. Mazkur strategik omillarni inobatga olish bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Transformatsiya qilinayotgan ta'lim tizimida "Texnologiya" fani o'qituvchisining kasbiy rivojlanishi yuqori darajada o'zaro bog'liq jarayondir. Bu tizimli omillar aniq va adolatli siyosat yo'nalishini ta'minlaganda; Institutsional omillar zarur resurslarni, vaqtni va hamkorlik madaniyatini taqdim etganda; va Individual omillar motivatsiya, o'z-o'ziga ishonch va uzluksiz o'rganishga sodiqlikning asosiy elementlarini qo'shganda erishiladigan holatdir.

Ta'lim tizimlari texnologiyaning transformatsion salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun siyosatchilar va maktab ma'murlari o'z e'tiborini texnologiyani sotib olishdan o'qituvchini vakolatli qilishga o'tkazishlari kerak. Interventsiyalarni strategik ravishda ishlab chiqish orqali, ular barcha uch toifadagi omillarni tan oladi va proaktiv ravishda hal qiladi — texnik infrastrukturaning mavjudligini ta'minlash, ishga kiritilgan o'rganishni rag'batlantirish va o'qituvchining raqamli o'z-o'ziga ishonchini rivojlantirish — yuqori kompetentli "Texnologiya" fani o'qituvchilarini rivojlantirishni barqaror qilish mumkin, bu esa yakunda o'quvchilarning murakkab raqamli kelajakka tayyorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK): A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017-1054.
2. UNESCO. (2018). UNESCO ICT Competency Framework for Teachers (ICT-CFT), Version 3. Paris: UNESCO.
3. Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge.
4. OECD. (2021). The Future of Education and Skills 2030: Learning Compass. Paris: OECD Publishing.
5. Yunusov L.E. Trategic factors for developing professional competencies of a technology teacher in the modern educational paradigm// American Journal of Science on Integration and Human Development Volume 4, Issue 01, 2026 ISSN (E): 2993-2750.-P.21-27.
6. Yunusov L.E. "Texnologiya" o'qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning o'rni // Zamonaviy ta'limning dolzarb muammolari, yechimlar va rivojlantitish tendetsiyalari (xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami), 2025.-Б.408-410.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

S.T.Abdurahmanov
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
sohib_1978@inbox.ru
D.Nazarova
Namangan davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi
diloramnamdu-@inbox.ru

EKOLOGIK QADRIYATLARNI O'RGANISHNING MILLIY, ETNIK XUSUSIYATLARI VA METODLARI

Annotatsiya: *Maқолада ekologik qadriyatlarni shakllantirishning milliy va etnik xususiyatlari, shuningdek ularni o'rganishning nazariy va amaliy metodlari tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar va an'analar ekologik ongni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, etnik xususiyatlar esa tabiat bilan uyg'unlik va mahalliy ekologik bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik qadriyatlarni o'rganish va rivojlantirishda nazariy va amaliy metodlarni uyg'un qo'llash, milliy va etnik kontekstni inobatga olish samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, milliy va etnik qadriyatlarni global ekologik me'yorlar bilan integratsiya qilish pedagogik jarayonda talabalar ekologik xulq-atvorini mustahkamlashga imkon yaratadi.*

Kalit so'zlar: *ekologik qadriyatlar, milliy xususiyatlar, etnik xususiyatlar, ekologik ta'lim, metodlar*

С.Т. Абдурахманов
Доцент Наманганского государственного педагогического института, кандидат наук
Д. Назарова
Наманганский государственный университет, независимый исследователь

НАЦИОНАЛЬНЫЕ, ЭТНИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ И МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация: *В статье рассматриваются национальные и этнические особенности формирования экологических ценностей, а также теоретические и практические методы их изучения. Национальные ценности и традиции играют важную роль в развитии экологического сознания, а этнические особенности способствуют гармонии с природой и формированию местных экологических знаний. Результаты исследования показывают, что эффективное изучение и развитие экологических ценностей требует сочетания теоретических и практических методов с учётом национального и этнического контекста. Кроме того, интеграция национальных и этнических ценностей с глобальными экологическими стандартами способствует укреплению экологического поведения студентов в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *экологические ценности, национальные особенности, этнические особенности, экологическое образование, методы.*

S.T. Abdurahmanov
Associate Professor, Namangan State Pedagogical Institute, PhD
D.Nazarova
Namangan State University, independent researcher

NATIONAL, ETHNIC CHARACTERISTICS AND METHODS OF STUDYING ECOLOGICAL VALUES

Abstract: *The article examines the national and ethnic characteristics of ecological values formation and the theoretical and practical methods of their study. National values and traditions play a significant role in fostering ecological awareness, while ethnic characteristics contribute to harmony with nature and the preservation of local ecological knowledge. The findings indicate that effective study and development of ecological values require an integration of theoretical and practical methods while considering national and ethnic contexts. Furthermore, incorporating national and ethnic values into global ecological standards enhances students' ecological behavior within the educational process..*

Keywords: *ecological values, national characteristics, ethnic characteristics, ecological education, methods.*

Kirish.

Mamlakatimizda o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijasida yosh avlodda tarixiy-madaniy dunyoqarashni, milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishning uslubiy-me'yoriy asoslarini tarkib toptirish, o'quvchilarning folьklor namunalarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'zbek xalqining an'analari va urf-odatlarini o'quvchi yoshlar ongiga yetkazish metodikasini takomillashtirish yo'nalishida bo'lgan tadqiqotlarga bo'lgan qiziqishning ortganligi kuzatilmoqda.

Ekologik qadriyatlarni o'rganishning milliy xususiyatlari milliy an'analar, odatlar, diniy qarashlar va tarixiy tajribalarga bog'liq bo'lib, asosiy metodlari qatorida milliy qadriyatlar orqali ekologik tarbiya, folьklor tahlili, etnoekologik tadqiqotlar, milliy-pedagogik yondashuv va amaliy-amaliy loyihalar qo'llaniladi, maqsad – tabiatga hurmatni milliy ongga singdirish.

Odatda qadriyatlarni milliy xususiyatlari quyidagilarda nomoyon bo'ladi. Qadriyatlarning milliy xususiyatlari jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, ma'naviy merosi, dunyoqarashi va hayot tarzi bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Ayniqsa, tabiatga munosabat masalasida milliy qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ekologik qadriyatlar insoniyatning tabiiy muhit bilan munosabatini belgilovchi asosiy kontseptsiya sifatida XXI asr ekologik ta'limining markazida turadi. Ularning shakllanishi nafaqat global ekologik muammolarga yechim topish bilan bog'liq, balki milliy va etnik xususiyatlarga ham chuqur bog'liq. Shu bois, ekologik qadriyatlarni o'rganishda milliy va etnik kontekstni hisobga olish, ularning metodologik asoslarini aniqlash pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va ekologiya fanlari sohalarida muhim ilmiy masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

So'nggi yillarda ekologik qadriyatlarni shakllantirish bo'yicha milliy xususiyatlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'paydi. Milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar ekologik xulq-atvorni shakllantirishda asosiy vosita sifatida qaraladi. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi Markaziy Osiyo mamlakatlarida ekologik madaniyat ko'pincha xalq folklori, bayramlar, an'ana va qo'shiqlar orqali uzatiladi.

Milliy xususiyatlar insonning ekologiyaga munosabatida o'zini namoyon etadi. Masalan, O'zbekistonning turli mintaqalarida, ayniqsa qishloq hududlarida, tabiatni asrashga oid qadriyatlar xalq rivoyatlari, afsona va qissalar orqali tarqalgan. Bolalarda tabiatni sevish va hurmat qilish tushunchasi ko'pincha mahalliy ta'lim va madaniy materiallar orqali beriladi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonida ekologik tushunchalarning shakllanishi milliy adabiy meros, she'rlar, hikoyalar va xalq qo'shiqlari orqali amalga oshiriladi.

SHuningdek, milliy qadriyatlar global ekologik bilimlar bilan integratsiya qilinadi, ya'ni universal ekologik me'yorlar va qadriyatlar bilan uyg'unlashtiriladi. Bu esa talabalarda ham milliy, ham umuminsoniy ekologik ongni rivojlantirish imkonini beradi.

Etnik xususiyatlar ham ekologik qadriyatlarning shakllanishida muhim rolь o'ynaydi. Turli etnik guruhlarda tabiat bilan bog'liq qadriyatlar an'anaviy bilim va tajriba orqali uzatilgan. Masalan, qishloq va tog' hududlaridagi aholi suv, yer va o'simliklarning barqarorligini ta'minlash bo'yicha an'anaviy usullardan foydalanadi. Bundan tashqari, etnik bayramlar, madaniy marosimlar va rituallar ham ekologik bilim va qadriyatlarni avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda madaniy ramzlar, qo'shiqlar va hikoyalar orqali atrof-muhitga hurmat va tabiatni asrash tushunchasi singdiriladi. SHu bois, etnik xususiyatlarni inobatga olmagan holda ekologik qadriyatlarni samarali rivojlantirish amaliyotda qiyinchilik tug'diradi.

Ekologik qadriyatlarni o'rganishda turli metodlar qo'llaniladi. Ular asosan ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi: nazariy va amaliy. Nazariy metodlar asosan adabiyotlar tahlili, turli etnik va milliy guruhlarning ekologik xulq-atvorini solishtirish, shuningdek kontseptual modellarni ishlab chiqishdan iborat. Bu metodlar orqali ekologik qadriyatlarning tarkibi, shakllanish mexanizmlari va ularning milliy va etnik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi.

Amaliy metodlar esa ekologik qadriyatlarning hayotda qanday namoyon bo'lishini o'rganishga qaratilgan. Masalan, soo'rovnomalar, intervьyular va kuzatishlar orqali bolalar va kattalarning tabiatga munosabati, ularning ekologik xulq-atvori va qiziqishlari tahlil qilinadi. SHuningdek, sinflarda va oliy ta'lim muassasalarida eksperimentlar va turli ekologiyaga oid loyihalar o'tkazish orqali ekologik qadriyatlarni shakllantirish samaradorligi baholanadi.


Bunda, milliy va etnik an'analardan foydalanish talabalarning o'rganish jarayoniga qiziqishini oshiradi va ekologik ongni chuqurlashtiradi.

Turli pedagogik metodlar orqali ekologik qadriyatlar samarali ravishda o'rgatiladi. Masalan, rol o'yinlari va dramatizatsiya usullari orqali bolalar tabiatni muhofaza qilishning muhimligini his qiladilar va ularni amaliy holatlarda qo'llay oladilar. SHu bilan birga, keys-stadi va simulyatsiya usullari orqali milliy va etnik an'analarni zamonaviy ekologik bilimlar bilan uyg'unlashtirish mumkin. Bu metodlar talabalarda ekologik qadriyatlarning nazariy va amaliy jihatlarini mukammal egallash imkonini beradi.

Natijalar va muhokama

Ekologik qadriyatlarni o'rganish milliy va etnik xususiyatlarini o'rganish milliy qadriyatlar, odatlar, an'analar orqali insonning tabiatga munosabatini shakllantirishni nazarda tutadi, bunda etnopedagogika, milliy g'oya, o'qitish metodlari va vositalari (maktabgacha ta'limdan tortib, sinfdan tashqari mashg'ulotlargacha) qo'llaniladi, maqsadi esa ekologik madaniyatni rivojlantirish va barkamol insonni tarbiyalashdir.

Ekologik qadriyatlarni o'rganishning milliy metodlari etnopedagogika, milliy urf-odatlar, folьklor (maqollar, rivoyatlar), milliy madaniyat va an'analar, shuningdek, tarixiy obidalar va tabiat bilan bog'liq milliy g'ururni shakllantiruvchi vositalarni qamrab oladi; bular tabiatga hurmatni, ona tabiatga adoqatni va uni asrash his-tuyg'usini milliy-madaniy meros orqali o'quvchilar ongiga singdirishga qaratilgan.




Rasm-1.

O'zbek xalqining ekologik qadriyatlarini o'rganishda o'ziga xos milliy xususiyatlari

Jahonda yosh avlodda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish asosida shaxsning ongli faoliyatini rivojlantirish, shu maqsadda ta'lim-tarbiya jarayoniga insonni ma'naviy-madaniy rivojlantirishga xizmat qiladigan etnopedagogik qadriyatlarni singdirish bugungi kunda alohida dolzarb muammo hisoblanadi.

Ayni vaqtda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Ispaniya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlarda yoshlarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish orqali muayyan tarixiy bosqichda yashagan xalqning ko'p asrlik ma'naviy-tarixiy merosidan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

SHaxsni madaniy-ma’naviy rivojlantirish jarayonida jahon miqiyosida sharqona ta’limtarbiyaning insonparvarlik mohiyati, uning ma’rifiy-madaniy ahamiyati va rivojlanish tendentsiyalarini ilmiy asosda o’rganish hamda yosh avlod ongiga yetkazish muhim pedagogik ahamiyat kasb etmoqda.



Rasm-2. Milliy – madaniy qadriyatlarni shakllantirish metodlari

Mamlakatimizda o’quvchilarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yo’naltirilgan ko’plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijasida yosh avlodda tarixiy-madaniy dunyoqarashni, milliy g’urur tuyg’usini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishning uslubiy-me’yoriy asoslarini tarkib toptirish, o’quvchilarning folklor namunalarini o’rganishga bo’lgan qiziqishlarini oshirish, o’zbek xalqining an’analari va urf-odatlarini o’quvchi yoshlar ongiga yetkazish metodikasini takomillashtirish yo’nalishida bo’lgan tadqiqotlarga bo’lgan qiziqishning ortganligi kuzatilmoqdi.

Milliy madaniyat va an’analar doirasida shakllangan ekologik qarashlar o’quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitib, ularda tabiatni milliy-madaniy merosning ajralmas qismi sifatida qabul qilish ko’nikmasini rivojlantiradi. Tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, qadimiy bog’lar va tabiiy yodgorliklar bilan bog’liq tarbiyaviy faoliyat esa tabiat va tarix uyg’unligini anglashga, milliy iftixor va ekologik mas’uliyat tuyg’usini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Natijada, ekologik qadriyatlarni o’rganishning milliy metodlari orqali o’quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabat, ona tabiatni asrashga qaratilgan barqaror qadriyatlar tizimi va ekologik faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi. Bu esa ekologik ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo’ladi.

Xulosa

Integratsiyalashgan yondashuv turli fanlar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Tarix darslarida tabiat va tsivilizatsiya munosabati, adabiyotda tabiat obrazlarining ma’naviy-axloqiy talqini, geografiyada esa tabiiy resurslar va ekologik muammolar milliy nuqtai nazardan yoritiladi. Bu yondashuv o’quvchilarda ekologik masalalarni kompleks va tizimli anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Amaliy loyihalar ekologik tarbiyada faoliyatga yo'naltirilgan metod sifatida muhim ahamiyatga ega. "Yashil maktab", "Obodlik - besh, yashash - yigirma" kabi milliy an'analarga asoslangan tadbirlar, obodonlashtirish ishlari va tabiatni tozalash aktsiyalari orqali o'quvchilar ekologik bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularda jamoaviy mas'uliyat, faol fuqarolik pozitsiyasi va ekologik madaniyatni rivojlantiradi.

O'z-o'zini anglash metodi o'quvchilarning ichki dunyosiga murojaat qilish orqali ekologik ongni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu metod yordamida o'quvchilar milliy qadriyatlar, shaxsiy hayot tarzi va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglaydilar. Natijada tabiatni asrash tashqi talab emas, balki ichki ehtiyoj va shaxsiy mas'uliyat sifatida shakllanadi.

Bu metod ekologik tarbiyani mahalliy sharoitlar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan. Qoraqalpog'iston, Xorazm, Farg'ona vodiysi kabi hududlarning tabiatga doir urf-odatlari, an'analari va ekologik muammolari o'rganiladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda o'z yurti tabiatiga nisbatan mehr, milliy iftixor va uni muhofaza qilishga bo'lgan mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdurahmonov Q., Rahmonov A. Ekologik ta'lim va tarbiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Aliev A.A. Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Ashurova D.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik omillari // *Xalq ta'limi*. – 2021. – №4. – B. 45–49.
4. Babanskiy Yu.K. Pedagogika. – Moskva: Prosveщenie, 2018.
5. Vernadskiy V.I. Biosfera va noosfera. – Moskva: Nauka, 2017.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Tojiev Muzafarjon Akbarovich
O‘zDJTSU Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasi v.b, professori

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHDA YOSH GIMNASTIKACHILARNING MASHG‘ULOTLARINI OMMAVIYLASHTIRISH VA ULARNING IJTIMOIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *ushbu makolada yosh gimnastikachilarni mashg‘ulotlarini, yosh sportchilarni tayyorlash va ularning ijtimoiylashuviga ijobiy tasiri, yosh gimnastikachilarni mashg‘ulotlarini rejalashtirishda mashg‘ulotlarni ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olish hamda ularda liderlik, boshqaruv, va ko‘maklashish kabi insoniy fazilatlarini rivojlantirish tomonlari ochib berilgan. Bundan tashqari yosh bolalar orasida gimnastika sport turini ommaviylashtrirish usullarini oqilona qo‘llash, tayyorgarlikning turli bosqichlariga ommaviy saralash va va ularni bosqichma bosqich amalga oshirish yo‘llari hamda xarakatlardan kutilayotgan natijalar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich tayyorgarlik, yosh gimnastikachilar, mashg‘ulot jarayoni, ommaviylashtirish, jismoniy sifatlar, ijtimoiy xususiyatlar, pedagogik yondashuv, motivatsiya, sog‘lom turmush tarzi, sport tarbiyasi, jamoaviylik, ijtimoiy moslashuv, koordinatsiya, intizom.*

Тожиев Музафаржон Акбарович
ЎзДЖТСУ, кафедра «Физическая культура, спорт: теория и методика», и.о. профессора

НАЧАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА МАССОВИЗАЦИЯ ЗАНЯТИЙ МОЛОДЫХ ГИМНАСТОВ И ИХ СОЦИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация: *В данной статье рассмотрены занятия молодых гимнастов, их подготовка и положительное влияние на социализацию юных спортсменов. Открыты аспекты учета социальных особенностей при планировании занятий, развитие у гимнастов лидерских качеств, управления и взаимопомощи. Кроме того, представлены методы рационального применения массовизации спортивных занятий среди детей, поэтапная селекция на различные стадии подготовки, а также ожидаемые результаты тренировочного процесса.*

Ключевые слова: *начальная подготовка, молодые гимнасты, процесс занятий, массовизация, физические качества, социальные особенности, педагогический подход, мотивация, здоровый образ жизни, спортивное воспитание, коллективность, социальная адаптация, координация, дисциплина.*

Tojiev Muzaffarjon Akbarovich
Uzbek State University of Physical Education and Sport, Department of Physical Education, Sport: Theory and Methodology, Acting Professor

INITIAL TRAINING STAGE: MASS PARTICIPATION OF YOUNG GYMNASTS IN TRAINING AND THEIR SOCIAL CHARACTERISTICS

Abstract: *This article examines the training of young gymnasts, their preparation, and the positive influence on the socialization of young athletes. It highlights the consideration of social characteristics in planning training sessions, the development of leadership, management, and cooperation skills in gymnasts. Additionally, it presents methods for the rational application of mass participation in gymnastics among children, stage-by-stage selection for various levels of training, and the expected outcomes of the training process.*

Keywords: *initial training, young gymnasts, training process, mass participation, physical qualities, social characteristics, pedagogical approach, motivation, healthy lifestyle, sports education, teamwork, social adaptation, coordination, discipline.*

Kirish. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida (odatda 5-7 yosh) yosh gimnastikachilarning mashg‘ulotlari nafaqat jismoniy rivojlanish, balki bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim ijtimoiy xususiyatlarga ega. Bu davrda sport

bilan shug‘ullanish bolaning jamiyatdagi ilk qadamlarini belgilab beradi. Bolalarda sportga bo‘lgan qiziqishini erta yoshdan uyg‘otish esa ulardagi shaxsiy fazilitlarini va dunyoqarashini shaklllantirishda juda ham ahamiyatli. Bugungi kunda insonlar kundalik faoliyatini bir qismiga aylanib borayotgan ijtimoiy tarmoqlar va ularni muntazam kuzatuvchi shaxslar xam bolalarni ijtimoiylashuvida sport sektsiyalarini o‘rni va axamiyati xaqida blim va kunikmalarga ega emasligi tez-tez uchrab turishi achinarli xol albatta. Sport sektsiyalari jumladan gimnastika mashg‘ulotlari yosh bolalar ijtimoylashuvida juda xam axamiyatli. Brinchidan gimnastika zali — bu bola uchun oiladan tashqaridagi yangi ijtimoiy muhit. Bu muxitda bola o‘z tengdoshlari bilan muloqot qilishni, jamoada ishlashni va do‘stlashishni o‘rganadi. Buyruklarga bo‘ysunish va boshqaruv tamoillariga amal qiladi. Bu jarayonda asosan "Murabbiy-sportchi" munosabatlari orqali bola kattalarga hurmat, tartib va ko‘rsatmalarni bajarish mas’uliyatini anglaydi. Bolalarni kichik yoshdan intizom va o‘zini boshqarishga odatlantirish ta’lim-tarbiyaning barcha turlarida yuqori samaradorlikka olib kelishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichda gimnastika qat’iy kun tartibi va qoidalarga asoslanadi. Bu qoidalarni vaqti vaqti bilan belllashuv va uyin uslublarini mashg‘ulotlarga kiritish asosida o‘zgartirib turish tavsiya kilinadi. Gimnastika mashg‘ulotlaridagi xarakatlar boshqa sport turlariga qaraganda murakkab va kuchli iroda talab qilganligi uchun xam mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan vosita va uslublarni optimal nisbatlarini talab qiladi.

Kirish. Bugungi kunda jahonda energiya resurslariga bo‘lgan talab ortib bormoqda. An’anaviy yoqilg‘i manbalarining kamayib borishi hamda ekologik muammolarning keskinlashuvi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni dolzarb masalaga aylantirdi [1]. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha bilimlarni yosh avlod ongiga singdirish, ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish va ta’lim tizimida alohida fan sifatida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish mamlakatning energetik mustaqilligini mustahkamlashda, ekologik xavfsizlikni ta’minlashda hamda barqaror rivojlanishga erishishda muhim o‘rin tutadi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Bugungi kunda energetika tarmog‘ida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi lozim.” Ushbu fikrlar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘qitish va ilmiy jihatdan rivojlantirishning naqadar dolzarb ekanini yana bir bor tasdiqlaydi [2,3]. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni, 2017-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi innovasion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-son farmoni, 2019-yil 8-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni, 2020-yil 29-oktyabrda “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni hamda 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son qarori, 2018-yil 5-iyunda “Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilaètgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3775-son qarori va 2020-yil 27-fevralda “Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son qarorlari mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi [4,5]. Texnika oliy ta’limida “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ulardan foydalanish asoslari” fanini o‘qitish zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va amaliy yo‘naltirilgan metodlarga tayangan holda tashkil etilishi zarur. Quyida ushbu fanni samarali o‘qitish metodlari tizimli ravishda bayon etiladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Dastlab ushbu fanni o‘qitishning maqsad va vazifalarini belgilab olish lozim. Fanning maqsadi: talabalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari texnologiyalari, ularning mohiyati va qo‘llanilish sohalari haqida ilmiy-nazariy chuqur bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish. Fanning vazifalariga esa quyidagilar kiradi: qayta tiklanuvchi energiya turlarini o‘rganish, energiya tizimlarining ishlash prinsiplarini tushuntirish, energiya samaradorligini baholash ko‘nikmasini shakllantirish va ekologik tafakkurni rivojlantirishdan iborat. Talabalarda eng avvalo qayta tiklanuvchi energiya manbalari turlari haqida tushuncha berish ham zarur, ya’ni quyosh energiyasi – fotovoltaik panellar va issiqlik kollektorlar yordamida olinadi; shamol energiyasi – shamol turbinalari orqali mexanik energiya elektr energiyasiga aylantiriladi; gidroenergiya – suv oqimi energiyasidan foydalanishga asoslanadi; biomassa energiyasi – organik chiqindilarni qayta ishlash orqali energiya olish [6,7].



1-rasm. Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, bioenergiya qurilmalari.

O‘qitishning eng afzal interfaol metodlaridan “Aqliy hujum”(Brainstorming) – bu muammoni hal qilish yoki yangi g‘oyalar toppish uchun guruh bo‘lib erkin fikr almashinish usuli. Bu metod 1940-yillarda reclama mutaxassisi Alex


F.Osborn tomonidan ishlab chiqilgan metodi bo‘lib, talabalarda muammoli vaziyatni tez tahlil qilish, innovasion yechimlar izlash, qayta tiklanuvchi energiya bo‘yicha ijodiy erkin fikrlashni rivojlantirishdan iborat. Asosiy qoidalari – tanqid yo‘q (hech qanday g‘oya darhol rad etilmaydi), erkin fikrlash (noodatiy va ijodiy fikrlar qo‘llab-quvvatlanadi), ko‘p-g‘oya-yaxshi natija (qancha ko‘p g‘oya bo‘lsa, shuncha yaxshi) va g‘oyalarni rivojlantirish (boshqalarning fikrini to‘ldirish mumkin) [8].

Talabalarga dastlabki bosqichda - elektr energiya sarfini kamaytirish uchun nima qilish lozim? - deb muammoli savol tashlanadi. talabalar muammoni yechish yo‘llarini aniqlab, misollar yordamida tushuntiradi. G‘oya ishlab chiqishi, masalan bino tom qismiga fotoelektr panellar o‘rnatish; avtonom yoritish tizimini yaratish; talabalat uchun quyosh laboratoriyasini tashkil etish; elektr transport zaryadlash nuqtalarini tashkil qilishi vazifasi beriladi. Shundan so‘ng, tahlil qilish. Eng yaxshi va amaliy g‘oyalar saralanadi va rag‘batlantiriladi [9,10].

1-jadval

Bosqich	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
Muammo qo‘yish	Muammoli savol beradi	Fikr yuritadi
G‘oya yig‘ish	Tanqidsiz muhit yaratadi	Erkin fikr bildiradi
Tahlil	Yo‘naltiradi	Saralaydi
xulosa	Yakuniy natijani umumlashtiradi	Eng maqbul yechimni tanlaydi

O‘qitishdagi innovatsion metodlaridan biri “Klaster” (inglizcha “cluster” – to‘plam) metodi – bu ma’lumotlarni markaziy tushuncha atrofida tarmoqlantirib, mantiqiy bog‘lanishlar asosida tizimlashtirish usuli. Ushbu metod talabalrda tizimli fikrlash, tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bir so‘z bilan aytganda – talabalrning bilimlarini tizimlashtirish va mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu metodning nazariy asoslari quyidagilar: mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi; murakkab mavzularni soddalashtiradi; tahliliy va sintez qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi va talabalarning mustaqil ishlash faolligini oshiradi [11,12].



2-rasm. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha klaster namunalari.

Talabalar ushbu ma’lumot orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan – quyosh energiyasi, shamol energiyasi, biomassa energiyasi, atom energiyasi, geotermal energiya, gidroelektr energiya, tabiiy gaz, suv oqimi energiyasi va bioyoqilg‘I energiyasi haqida bilib olishadilar va har bir tarmoq ichida texnologik asoslar, iqtisodiy samaradorlik, ekologik ta’sir hamda qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

2-jadval

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
1-muammo: Qayta tiklanuvchi energiya manba kuchlanishining me’yordan chetga chiqishi	Ayrim aholi yashash joylarida elektr energiyaning taqchilligi	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini aholi yashash punktlarida qo‘llash
2-muammo: Elektr energiyasining uzilishlari natijasida	Elektr energiyasida uzi-lishlar bo‘lganda kuchlanish	Aholi yashash punktlarida rezerv va qayta tiklanuvchi energiya

yuzaga keladigan nuqsonlar	kuchlanish avtomatik rostlash imkoniyati bo‘lmaydi, ish hajmi ortadi, mahsulot sifati yomonlashadi	manbalarini o‘rnatish lozim
3-muammo: Elektr qurilmalarini noto‘g‘ri tanlas	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini himoyalashda qurilmalar noto‘g‘ri tanlash oqibatida qurilmaning ishdan chiqish ehtimoli ortadi, ishlab chiqarish intensivligi kamayadi	Elektr qukrilmalarini belgilangan me’yorlar, hisob-kitoblar asosida to‘g‘ri tanlash kerak

Tadqiqot natijalari va muhokamalar. Case study metodining afzalligi shundaki, u energetika tizimlarini kompleks yondashuv asosida baholash imkonini beradi. Talabalar nafaqat texnik, balki iqtisodiy va ekologik omillarni ham hisobga olishni o‘rganadi. Bu esa barqaror rivojlanish konsepsiyasiga mos keladi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar qo‘llanilgan darslarda:

- talabalarning faolligi oshadi;
- mavzuni o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlash rivojlanadi;
- ekologik tafakkur shakllanadi.

Bu esa energetika sohasida zamonaviy mutaxassis tayyorlash talablariga mos keladi.

Xulosa. Oliy ta’limda “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ulardan foydalanish asoslari” fanini o‘qitishda interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ushbu metodlar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, talabalarda muhandislik tafakkurini shakllantiradi. “Klaster metodi”dan foydalanish nazariy bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi. Ushbu metod talabalarda ekologik madaniyatni shakllantiradi, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va innovatsion g‘oyalarni ilgari surishsa, “Case study” metodidan foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metod energetika sohasida zamonaviy fikrlaydigan, tahliliy yondashuvga ega muhandis mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича “Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. “Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами”, 2017 й. 6-сон, 70-модда.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qayta tiklanuvchi energiya manbalarito‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 21-may.

3. Mirziyoyev Sh.M. ―Yangi O‗zbekiston: Taraqqiyot sari dadil odimlar‖ Toshkent. 2019

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli Oliy ta‘lim muasassalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida‖gi Qarori. https://lex.uz/ru/docs/-3765586

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. https://lex.uz/docs/-4545884

6. Mamatov, S. Energetika tizimida innovatsion texnologiyalar va ularning o‘qitish metodikasi. TATU ilmiy jurnali. 2022-yil

7. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. –Toshkent, 2005. -149 bet.

8. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Toshkent, 2011. 423 bet.

9. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T. 2006 y.

10. Шарифзода С.У.Т, Атамуратова М.М, Сафаева Д.Х, Сапорбоев М.Ш, Каримова Н.Б. // Общая педагогика (теория педагогики) ―BOOKMANY PRINT‖, - ТАШКЕНТ-2023

11. Ruzimova I.X. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlik kompetensiyasini shakllantirish // Eurasian Journal of Social Sciences Philosophy and Culture. -Ilmiy jurnal, 2023-yil. https://doi.org/105281/zenodo.10349877.

12. Xakimov V.A. Pedagogik oliy ta‘lim muassasalarida sifat menejmenti tizimining bosqichli ishlab chiqarishning qiyinchiliklari. Toshkent, 2015. 66-68 betlar.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abduqodirov Davron Solijon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti Sport faoliyati fakulteti Sport o'yinlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi o'qituvchisi
Abduraxmonov Saydillo Xakimovich
Farg'ona davlat universiteti Sport faoliyati fakulteti Sport o'yinlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi o'qituvchisi.
saydilloab1988@gmail.com
ORCID:0009-0000-2689-0089

FUTBOL O'YININING ASOSIY TEXNIK HARAKATLARIGA O'RGATISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy-metodik maqolada futbol o'yinining asosiy texnik harakatlariga (to'pni qabul qilish va uzatish, olib yurish, fintlar, zarba berish, to'xtatish, bosh bilan o'ynash, himoyaviy texnika elementlari) o'rgatishning nazariy hamda amaliy asoslari tizimli tahlil qilinadi. Texnik tayyorgarlikni shakllantirishda tizimlilik, bosqichma-bosqichlik, individuallashtirish, variativ amaliyot hamda mashqlarni o'yin sharoitiga yaqinlashtirish tamoyillarining ustuvor ahamiyati yoritiladi. Motor o'rganish nazariyasining (ko'nikma bosqichlari, variativ amaliyot, kontekstual aralashuv, qayta aloqa turlari) qoidalari futbol texnikasini o'rgatish jarayoniga moslashtirib bayon etiladi. Shuningdek, o'rgatishning 4 bosqichli modeli (namoyish–soddalashtirish–murakkablash-tirish–o'yinga integratsiya), tipik xatolar diagnostikasi va tuzatish algoritmi, mashg'ulot tuzilmasi, mikrotsikl doirasida texnik yuklamani rejalashtirish hamda nazorat mezonlari taklif etiladi. Taqdim etilgan yondashuv yosh futbolchilarda texnik barqarorlikni oshirish, o'yin vaziyatida qaror qabul qilish tezligini yaxshilash va musobaqaviy faoliyatdagi texnik xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *futbol; texnik tayyorgarlik; texnikaga o'rgatish metodikasi; bosqichma-bosqichlik; individuallashtirish; variativ amaliyot; qayta aloqa (feedback); texnik xatolar; nazorat mezonlari; small-sided games.*

Абдукадиров Даврон Солижан оглу
Преподаватель кафедры теории и методологии спортивных игр факультета спортивной деятельности Ферганского государственного университета
Абдураксмонов Сайдилло Хакимович
Преподаватель кафедры теории и методологии спортивных игр факультета спортивной деятельности Ферганского государственного университета

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЙ ОБУЧЕНИЯ ОСНОВНЙМ ТЕКҲНИЧЕСКИМ ДЕЙСТВИЯМ В ФУТБОЛЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются научно-методические основы обучения базовым техническим действиям в футболе (приём и передача мяча, ведение, финты, удары, остановка, игра головой, элементы защитной техники). Показано, что эффективность формирования техники определяется соблюдением принципов системности, поэтапности, индивидуализации, вариативности и приближения упражнений к игровым условиям. Положения теории моторного научения (стадии освоения навыка, вариативная практика, контекстуальная интерференция, типы обратной связи) адаптированы к задачам футбольной подготовки. Представлена 4-этапная модель обучения, алгоритмы диагностики типичных ошибок, планирование технической нагрузки в микроцикле и критерии контроля. Рекомендации ориентированы на повышение технической устойчивости юных футболистов, ускорение принятия решений в условиях дефицита времени и снижение количества технических ошибок в соревновательной деятельности.*

Ключевые слова: *футбол; техническая подготовка; обучение технике; поэтапность; индивидуализация; вариативная практика; обратная связь; технические ошибки; контроль; игровые упражнения.*

Abdukadirov Davron Solijan ogli
Lecturer of the Department of Theory and Methodology of Sports Games, Faculty of Sports Activities, Fergana State University
Abduraxmonov Saydillo Xakimovich

Lecturer of the Department of Theory and Methodology of Sports Games, Faculty of Sports Activities, Fergana State University

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING THE BASIC TECHNICAL MOVEMENTS OF THE FOOTBALL GAME

Abstract. *The article examines scientific and methodological foundations for teaching core football technical skills (receiving and passing, dribbling, feints, shooting, ball control, heading, and defensive techniques). Training effectiveness is linked to systematic progression, step-by-step learning, individualization, practice variability, and task constraints close to match conditions. Motor learning concepts (skill acquisition stages, variable practice, contextual interference, and feedback types) are adapted to football coaching. A four-stage teaching model (demonstration–simplification–complexification–game integration) is proposed along with typical error diagnostics, microcycle-based planning of technical load, and assessment criteria. The recommendations aim to improve technical stability, decision-making speed under time pressure, and reduce technical errors in competitive performance.*

Keywords: *football; technical skills; teaching methodology; progression; individualization; variable practice; feedback; error analysis; assessment; small-sided games.*

KIRISH

Zamonaviy futbolda o‘yin sur’ati, pressing intensivligi va taktik o‘zgaruvchanlik ortgani sari texnik harakatlarni aniq bajarish talabi ham oshmoqda. Maydonning “siqilishi” va qaror qabul qilish vaqtining qisqarishi sharoitida texnik mahorat faqat harakatni toza ijro etish bilan cheklanmaydi; u vaziyatni tez o‘qish, harakatni moslashtirish va raqib bosimi ostida ham barqaror bajarish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu bois yosh futbolchilarni tayyorlashda texnik elementlar (qabul, uzatma, olib yurish, fint, zarba va h.k.)ni o‘rgatish jarayoni motor o‘rganish qonuniyatlari, yosh xususiyatlari hamda o‘yin faoliyatining funksional talablari bilan uyg‘un tashkiletilish zarur. Amaliyotda tez-tez uchraydigan kamchiliklardan biri — texnikani uzoq vaqt “steril sharoitda” (raqibsiz, vaqt cheklovisiz, past tezlikda) takrorlashdir. Bunda ko‘nikma mashg‘ulotda shakllangandek ko‘rinsa ham, musobaqa sharoitida transfer to‘liq yuz bermaydi: birinchi teginish sifati pasayadi, uzatma aniqligi kamayadi, zarba tanlash vaqti cho‘ziladi. Demak, metodika o‘quv-tarbiyaviy jarayonni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, variativ amaliyotni oshirish va mashqlarni o‘yin vaziyatlariga yaqinlashtirishga tayangan bo‘lishi kerak.

TADQIQOT MAQSADI VA VAZIFALARI

Maqolaning maqsadi futbol o‘yinining asosiy texnik harakatlariga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslarini tizimlashtirish va murabbiylik amaliyoti uchun qo‘llaniladigan tavsiyalarrni ishlab chiqishdir. Vazifalar: (1) texnik harakatlarning tasnifi va o‘rgatish mantiqini aniqlash; (2) o‘rgatish tamoyillari va pedagogik shartlarni asoslash; (3) 4 bosqichli o‘rgatish modelini ishlab chiqish; (4) tipik xatolar diagnostikasi va tuzatish algoritmini taklif etish; (5) mikrotsikl doirasida texnik yuklamani rejalashtirish va nazorat mezonlarini ko‘rsatish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Futbolchilarning texnik tayyorgarligi nazariy-metodik asoslari sport tayyorgarligi umumiy nazariyasi, pedagogik qonuniyatlar hamda motor o‘rganish jarayonining bosqichlari bilan uzviy bog‘liq. Texnik harakatlarni samarali o‘rgatish masalasi ilmiy manbalarda ko‘nikma shakllanishining ketma-ketligi, mashqlar tanlash mezonlari, variativ amaliyot va nazorat-korreksiya mexanizmlari orqali izohlanadi.

Mahalliy manbalarda futbol texnikasini o‘rgatishda namoyish–tushuntirish–takrorlash–xatoni tuzatish–mustahkamlash zanjiri ustuvor ekani, elementlarni o‘yin vaziyatiga yaqin sharoitlarda qo‘llash esa barqaror ko‘nikma hosil bo‘lishini kuchaytirishi qayd etiladi [1–2]. Platonov sportchi tayyorgarligi tizimida texnik mahoratni funksional tayyorgarlik va taktik fikrlash bilan integratsiyalash muhimligini ta’kidlaydi: koordinatsiya, tezkor qaror qabul qilish va harakat stereotiplarining barqarorligi texnik harakatlar sifatiga bevosita ta’sir qiladi [3]. Bompa tomonidan ishlab chiqilgan periodizatsiya yondashuvi texnik-taktik vazifalarni mavsum bo‘ylab maqsadli rejalashtirishga, yuklama–tiklanish nisbatini optimallashtirishga yordam beradi [4]. FIFA metodik tavsiyalarida esa texnikani o‘rgatishda «oddiydan murakkabga» va «sekin–aniq–tez» ketma-ketligi, shuningdek, kichik tarkibli o‘yinlar (small-sided games) orqali o‘yinga transferni tezlashtirish tavsiya qilinadi [5]. Mazkur maqolada pedagogik kuzatuv, mashg‘ulot materiallarini tahlil qilish va amaliy modellashtirish metodlari qo‘llanib, 12–14 yoshli futbolchilar bilan ishlash sharoitida texnik elementlarni o‘rgatish algoritmi hamda nazorat ko‘rsatkichlari tizimi taklif etiladi.

TEXNIK TAYYORGARLIKNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Texnik tayyorgarlik — bu futbolchining to‘p bilan va to‘psiz bajariladigan harakatlarini maqsadga muvofiq, tejamkor hamda barqaror tarzda ijro etish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonidir. Texnika sifatini uchta o‘zaro bog‘liq komponent orqali baholash maqsadga muvofiq: (a) biomekanik aniqlik (harakat tuzilishi), (b) vaqt ko‘rsatkichlari (tezlik va ritm), (c) vaziyatga moslashuv (qaror va ijro uyg‘unligi). Ushbu komponentlar rivojlanishi motor o‘rganishning umumiy bosqichlari bilan mos keladi: kognitiv bosqichda o‘yinchi harakatning “qoidalari”ni laydi; assotsiativ bosqichda

xatolar kamayadi va barqarorlik ortadi; avtonom bosqichda esa harakat avtomatlashtiriladi va e'tibor taktik vaziyatlarga ko'proq yo'naltiriladi.

Shu nuqtayi nazardan, o'rgatish metodikasi quyidagi tamoyillarga tayangan bo'lishi kerak: 1) tizimlilik (muntazamlik va ketma-ketlik); 2) bosqichma-bosqichlik (murakkablikni boshqarish); 3) individuallashtirish (yosh, koordinatsiya, dominant oyoq, pozitsion talablar); 4) variativ amaliyot (sharoit va vazifaning o'zgarishi); 5) qayta aloqa (tezkor va kechiktirilgan feedback); 6) o'yin sharoitiga yaqinlashtirish (raqib bosimi, vaqt/makon cheklovi, maqsadli vazifa).

1-jadval. Asosiy texnik harakatlar tasnifi va o'rgatish yo'nalishlari

Blok	Texnik elementlar	Metodik urg'u (asosiy maqsad)
To'pni boshqarish	qabul qilish, to'xtatish, birinchi teginish, burilish	birinchi teginishda yo'nalish va tezlik nazorati; tana holati
Uzatish va yakunlash	qisqa/uzoq pas, keskin pas, zarbalar (ichki qism, oyoq usti), bosh bilan zarba	aniqlik + vaqtida bajarish; tayanch oyoq va zarba nuqtasi
Raqibga qarshi texnika	dribbling, fintlar, to'pni olib qo'yish, to'sish, pressingdagi oyoq ishlashi	timing, masofa, tezkor qaror; raqib bosimida barqarorlik

TEXNIK HARAKATLARNI O'RGATISHNING 4 BOSQICHLI MODELI

Texnikani o'rgatish jarayonida "ko'rsatma–amaliyot–o'yin transferi" zanjirini aniq bosqichlarga ajratish murabbiyga o'quv vazifalarini boshqarish imkonini beradi:

1) Namoyish va tushuntirish: murabbiy texnik elementni namunali ko'rsatadi, 2–3 ta "kalit nuqta"ni ajratadi (tayanch oyoq, gavda, teginish nuqtasi), o'yinchiga oddiy verbal signallar beradi. 2) Soddalashtirilgan amaliyot: raqibsiz, past tezlikda, stabil sharoitda ko'p takror; maqsad — harakat tuzilishini shakllantirish. 3) Murakkablashtirish va variatsiya: tezlik oshiriladi, burchak/masofa o'zgartiriladi, vaqt cheklovi qo'shiladi, qaror tanlash elementlari kiritiladi. 4) O'yinga integratsiya: kichik tarkibli o'yinlar (3x3, 4x4, 5x5) va vaziyatli mashqlar orqali texnika taktik vazifa bilan bog'lanadi.Har bir bosqichda qayta aloqa berish usuli ham mos tanlanadi: dastlab ko'proq tashqi ko'rsatma (murabbiy), keyin esa o'z-o'zini baholash va video tahlil ushbu jarayonni mustahkamlaydi.

2-jadval. Tipik xatolar diagnostikasi va tuzatish algoritmi (namuna)

Element	Tipik xato	Sabab (diagnostika)	Tuzatish (qisqa ko'rsatma)
Birinchi teginish	to'p "sakrab" ketadi	oyoqqa "qattiq" tegish; tizza bukilmagan	oyoqqa yumshoqlik; tizza bukish; kontakt nuqtasini pasaytirish
Qisqa pas	aniqlik past	tayanch oyoq uzoq; gavda burilishi	tayanch oyoq yonida; gavdani nishonga yo'naltirish; 8–12 m nishonli pas
Dribbling	to'p juda uzoqqa ketadi	qadam–teginish ritmi buzilgan	har 2–3 qadamda teginish; slalom + ritm mashqi
Zarba	to'p yuqoriga uchadi	gavda orqaga; zarba nuqtasi noto'g'ri	gavda oldinga; tayanch oyoq yonida; oyoq usti bilan markazga zarba
To'pni olib qo'yish	penalti xavfi	timing erta/kech; masofa noto'g'ri	kutish–bosim; yonlama yondashuv; birinchi kontaktda to'pga urinish

MIKROTSIKLDA TEXNIK YUKLAMANI REJALASHTIRISH (12–14 YOSH)

Yosh futbolchilarda texnik tayyorgarlik hajmi va intensivligi haftalik mikrotsikl doirasida maqsadga muvofiq taqsimlanadi. Yuklama oshishi, asosan, murakkablik va o'yin sharoitiga yaqinlik hisobiga amalga oshiriladi; ortiqcha charchash esa texnika sifatini pasaytiradi. Quyida 5 mashg'ulotli mikrotsikl uchun namunaviy taqsimot keltiriladi (musobaqa sharoiti bo'lmaganda).

3-jadval. 5 mashg'ulotli mikrotsikl uchun namunaviy reja

Kun	Asosiy texnik mavzu	Metodik urg‘u	O‘yin integratsiyasi (SSG)
Dushanba	qabul + qisqa pas	harakat tuzilishi, 2 teginish	4x2 rondo, 5x5 (2 teginish)
Seshanba	dribbling + fintlar	ritm, tezlikni boshqarish	3x3/4x4 zonali, 1v1 duel
Chorshanba	uzoq pas + birinchi teginish	burchak/masofa variatsiyasi	6x6 (maydon keng), “switch play” vazifa
Payshanba	zarba + yakunlash	tayanch oyoq, zarba tanlash	4x4 + neytral, “finish in 6 sec”
Juma	kombinatsiya va takror	xatolarni tuzatish, sifat	o‘yin 7x7, vazifali ssenariylar

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot doirasida 12–14 yoshli 24 nafar futbolchi ishtirok etdi; ular tajriba (n=12) va nazorat (n=12) guruhlariga ajratildi. 8 hafta davomida tajriba guruhida texnik harakatlarni 4 bosqichli model asosida o‘rgatishga yo‘naltirilgan dastur qo‘llanildi (birinchi teginish va qabul, dribbling, qisqa/uzoq uzatma, zarba), mashg‘ulotlarda kichik tarkibli o‘yinlar hamda qayta aloqa (kuzatuv protokoli va qisqa video-tahlil) muntazam qo‘llandi. Nazorat guruhida esa an’anaviy mashg‘ulot mazmuni saqlab qolindi.Samaradorlikni baholash uchun boshlang‘ich va yakuniy nazoratda quyidagi ko‘rsatkichlar o‘lchandi: slalom dribbling (vaqt, s), 10 ta uzatma aniqligi (%), 10 ta zarba aniqligi (gol/10), to‘pni qabul qilishdagi xatolar (marta/10). Natijalar o‘rtacha qiymat ± standart og‘ish ko‘rinishida taqdim etildi; guruhlararo farqlar Student t-mezoni yordamida baholandi ($p<0.05$).

4-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarida texnik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi

Ko‘rsatkich	Tajriba (boshl.)	Tajriba (yakuniy)	Nazorat (boshl.)	Nazorat (yakuniy)
Slalom dribling, s	15.8±1,2	14.1±1.0	15.7±1.1	15.2±1.1
Uzatma aniqligi, %	62±8	76±7	63±7	68±8
Zarba aniqligi, gol/10	4.1±1.0	5.8±1.1	4.0±0.9	4.6±1.0
Qabul xatolari, marta/10	3.2±0.8	1.9±0.7	3.1±0.9	2.8±0.8

4-jadvaldan ko‘rinishicha, tajriba guruhida barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha yaqqol ijobiy dinamik o‘sish kuzatildi: slalom dribbling vaqti qisqardi, uzatma va zarba aniqligi oshdi, qabuldagi xatolar kamaydi. Nazorat guruhida ham o‘sish qayd etildi, biroq u asosan mashg‘ulotning tabiiy ta’siri bilan izohlanadi va tajriba guruhiga nisbatan past bo‘ldi. Bu natijalar variativ amaliyot va small-sided games yordamida texnik harakatlarni o‘yinga transfer qilish samarali ekanini ko‘rsatadi. Muvofiq ravishda, mashqlarni “steril” sharoitdan vaziyatli sharoitga bosqichma-bosqich o‘tkazish o‘yinchining harakat stereotiplarini moslashuvchan qiladi, qaror qabul qilish tezligini oshiradi va raqib bosimi ostida texnik barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, tadqiqotning cheklovlari ham mavjud: ishtirokchilar soni nisbatan kam, kuzatuv muddati 8 hafta bilan chegaralangan, taktik qarorlar sifati va psixologik omillar alohida o‘lchanmadi. Keyingi tadqiqotlarda turli yosh toifalari va mavsumiy periodizatsiya sharoitida texnik tayyorgarlik dasturlarining uzoq muddatli ta’sirini baholash maqsadga muvofiq.

XULOSA

1) Futbol o‘yinining asosiy texnik harakatlarini samarali o‘rgatish motor o‘rganish qonuniyatlari, yosh xususiyatlari va o‘yin talablari integratsiyasini talab qiladi.

2) 4 bosqichli model (namoyish–soddalashtirish–murakkablash-tirish–o‘yinga integratsiya) texnik ko‘nikmalarni raqib bosimi va vaqt cheklovi sharoitida barqaror bajarishga olib keladi.

3) Variativ amaliyot, small-sided games va muntazam qayta aloqa (kuzatuv + video tahlil) texnik xatolarni kamaytiradi hamda uzatma, dribbling va zarba aniqligini oshiradi.

4) Mikrotsikl doirasida texnik yuklamani rejalashtirishda murakkablik, tezlik va vaziyat omillarini me’yoriy oshirib borish texnika sifatini saqlash va jarohat xavfini pasaytirish uchun muhimdir.

Amaliy tavsiyalar (murabbiylar uchun)

- Har bir texnik element uchun 2–3 ta “kalit signal”ni (qisqa verbal ko‘rsatma) oldindan belgilab oling.
- Mashqlar murakkabligini avvalo tezlik va qaror tanlash hisobiga oshiring, so‘ngra raqib bosimini qo‘shing.
- Har mashg‘ulotda kamida 10–15 daqiqa small-sided games orqali texnikani taktik vazifa bilan bog‘lang.
- Qayta aloqada “bitta mashq – bitta tuzatish” tamoyiliga amal qiling: ortiqcha ko‘rsatmalar o‘rganishni sekinlashtiradi.
- Nazorat rubrikalaridan foydalanib, o‘yinchini o‘z-o‘zini baholashga o‘rgating.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kerimov F.A. Futbol nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2018.
2. Axmedov B.Sh. Sport mashg‘ulotlarini rejalashtirish asoslari. Toshkent, 2020.
3. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2015.
4. Bompa T., Haff G. Periodization: Theory and Methodology of Training. Champaign: Human Kinetics, 2016.
5. FIFA. Football Coaching Manual. Zurich: FIFA, 2019.
6. Reilly T., Williams A.M. Science and Soccer. London: Routledge, 2003.
7. Wein H. Developing Game Intelligence in Soccer. Reedswain, 2007.
8. Schmidt R.A., Lee T.D. Motor Control and Learning. Champaign: Human Kinetics, 2011.
9. Magill R.A. Motor Learning and Control: Concepts and Applications. New York: McGraw-Hill, 2010.
10. Bangsbo J. Fitness Training in Football. Copenhagen, 1994.
11. Williams A.M., Ford P.R. Expertise and skill acquisition in soccer: implications for training. Journal of Sports Sciences, 2008.
12. Carling C., Williams A.M., Reilly T. Handbook of Soccer Match Analysis. London: Routledge, 2005.
13. Davids K., Araújo D., Shuttleworth R. Applications of dynamical systems theory to football coaching. Sports Medicine, 2005.
14. Ericsson K.A. Deliberate practice and acquisition of expert performance. Psychological Review, 1993.
15. Gabbett T.J. The training-injury prevention paradox: should athletes be training smarter and harder? British Journal of Sports Medicine, 2016.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Odiljonova Shohsanam Abdug‘affor qizi
Toshkent Aniq fanlar universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TA’LIMDA TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy ishning mavzusi — “Ta’limda talabalarning faolligini oshirishda interfaol pedagogik metodlarning samaradorligi”. Tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishdir.*

Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, tahlil, anketa so‘rovi, suhbat va tajriba-sinov metodlari qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, “bahs-munozara”, “keys-stadi”, loyiha asosida ishlash va klaster metodlari talabalarning darsga faolligini sezilarli darajada oshiradi, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi va ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, interfaol metodlarning samaradorligi amaliy jihatdan tasdiqlangan va talabalarning ijodiy, tahliliy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning aniq yo‘llari aniqlangan. Natijalar zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni optimallashtirish va dars samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *interfaol metodlar, talaba faolligi, dars samaradorligi, pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash, loyiha asosida o‘qitish, bahs-munozara, keys-stadi, klaster metodi.*

Одильонова Шохсанам Абдуг'аффор кизи
Старший преподаватель, Ташкентский университет точных наук, доктор педагогических наук (PhD)

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПОВЫШЕНИИ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАНИИ

Примечание: *Тема данной научной работы — «Эффективность интерактивных педагогических методов в повышении активности студентов в процессе обучения». Основная цель исследования — изучение теоретических и практических аспектов использования интерактивных методов в повышении активности студентов в учебном процессе, развитии самостоятельного мышления и творческих навыков. В исследовании использовались методы педагогического наблюдения, анализа, анкетирования, интервьюирования и экспериментально-тестового исследования. Результаты показали, что методы «дискуссия-дискуссия», «кейс-стади», проектная работа и кластерный метод значительно повышают активность студентов на уроке, способствуют более глубокому усвоению знаний и развитию навыков самостоятельного мышления. Научная новизна исследования заключается в практическом подтверждении эффективности интерактивных методов и выявлении конкретных путей развития у студентов творческого, аналитического и самостоятельного мышления. Результаты служат основой для разработки рекомендаций по оптимизации педагогического процесса и повышению эффективности обучения в современных высших учебных заведениях.*

Ключевые слова: *интерактивные методы, студенческая активность, эффективность обучения, педагогические технологии, самостоятельное мышление, проектное обучение, дискуссия, кейс-стади, кластерный метод.*

Odiljonova Shohsanam Abdug'affor qizi
Senior Lecturer, Tashkent University of Exact Sciences, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE METHODS IN INCREASING STUDENT ACTIVITY IN EDUCATION

Annotation: The topic of this scientific work is “Effectiveness of interactive pedagogical methods in increasing student activity in education”. The main purpose of the study is to study the theoretical and practical aspects of using interactive methods in increasing student activity in the lesson process, developing independent thinking and creative skills. The research used pedagogical observation, analysis, questionnaire survey, interview and experimental-testing methods. The results showed that the “discussion-discussion”, “case study”, project-based work and cluster methods significantly increase student activity in the lesson, help to master knowledge more deeply and develop their independent thinking skills. The scientific novelty of the study is that the effectiveness of interactive methods has been practically confirmed and specific ways of developing students’ creative, analytical and independent

thinking skills have been identified. The results serve to develop recommendations for optimizing the pedagogical process and increasing the effectiveness of the lesson in modern higher education institutions.

Keywords: *interactive methods, student activity, lesson effectiveness, pedagogical technologies, independent thinking, project-based learning, discussion, case study, cluster method.*

KIRISH

Hozirgi davrda oliy ta'lim tizimida talabalarning darsdagi faolligini oshirish pedagogik muammo sifatida dolzarb hisoblanadi. An'anaviy o'qitish metodlari ko'pincha passiv qabul qiluvchilikni rag'batlantiradi, bu esa bilimni chuqur o'zlashtirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini cheklaydi.

Shu sababli interfaol pedagogik metodlarni darsga joriy etish talabalar faolligini oshirish, fikr almashish va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur hisoblanadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u interfaol metodlarning samaradorligini ilmiy asoslashga va ularni amaliy dars jarayonida qo'llashning aniq yo'llarini ko'rsatishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarning darsdagi faolligini oshirishda interfaol pedagogik metodlarning samaradorligini aniqlashdir.

Tadqiqotda foydalanilgan metodlar:

- Pedagogik kuzatuv
- Ilmiy-nazariy tahlil
- Taqqoslash
- Anketa va suhbatlar
- Tajriba-sinov ishlari

Interfaol metodlarning samaradorligi:

- Bahs-munozara – talabalarning fikr yuritish va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi
- Keys-stadi – o'quv materialini kichik guruhlarda tahlil qilish imkonini beradi
- Loyiha asosida o'qitish – talabalarning ijodiy va amaliy ko'nikmalarini shakllantiradi
- Klaster metodi – mavzuni vizual tarzda tizimlashtirish va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi

Interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan darslarda talabalar o'rtasida hamkorlik muhiti yaratiladi, fikr almashish faollashadi va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkoniyati ortadi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari darslarni interaktiv va vizual jihatdan boy qiladi.

Tajribaviy sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlardan foydalangan darslarda talabalarning darsga qiziqishi va faolligi sezilarli darajada oshgan, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlari rivojlangan.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, interfaol pedagogik metodlar talabalarning darsdagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi.

Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishda:

Interfaol metodlarni tizimli qo'llash

O'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini oshirish

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilish

muhim hisoblanadi. Natijada interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning zamonaviy jamiyat va mehnat bozoriga tayyorlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
3. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2018.
4. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
5. Muslimov N. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2020.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Абдукодиров Даврон Солиджон оглу
Факультет спортивной деятельности, Ферганский государственный университет
Преподаватель кафедры теории и методики спортивных игр
Мирзабаев Диёрбек Камилович
Факультет спортивной деятельности, Ферганский государственный университет
Преподаватель кафедры теории и методики спортивных игр

СПЕЦИАЛЬНАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА ФУТБОЛИСТОВ 13–15 ЛЕТ

***Аннотация**: Актуальность. Возраст 13–15 лет является сенситивным периодом для развития скоростно-силовых качеств и координации, что делает поиск эффективных средств специальной физической подготовки (СФП) юных футболистов особенно важным.* ***Цель исследования** – экспериментально обосновать эффективность применения комплексов СФП, интегрированных с технико-тактическими действиями, у футболистов 13–15 лет. В ходе девятимесячного педагогического эксперимента сравнивались две группы: контрольная (традиционная программа) и экспериментальная (дополнительная программа СФП, включающая стартовые ускорения, бег с максимальной скоростью на отрезках 30–200 м, прыжковые упражнения и специальные упражнения с мячом на быстроту реакции и точность).* ***Результаты.** В экспериментальной группе выявлен статистически достоверный ($p<0,05$) прирост показателей в тестах: «бег 30 м с ведением мяча», «удар на дальность» (ведущей ногой) и в координационных тестах.* ***Заключение.** Рациональная интеграция средств СФП с мячом и без мяча позволяет достоверно повысить уровень специальной подготовленности юных футболистов без негативного влияния на состояние здоровья.*

***Ключевые слова:** футбол; детско-юношеский спорт; специальная физическая подготовка; скоростно-силовые способности; координация; сенситивный период.*

Abdukodirov Davron Solijon oglu
Faculty of Sports Activities, Fergana State University
Teacher of the Department of “Theory and Methodology of Sports Games”
Mirzaboev Diyorbek Kamilovich
Faculty of Sports Activities, Fergana State University
Teacher of the Department of “Theory and Methodology of Sports Games”

SPECIAL PHYSICAL TRAINING FOR FOOTBALL PLAYERS AGED 13-15

***Abstract**: Background. The age of 13–15 is a sensitive period for the development of speed-strength qualities and coordination, making the search for effective means of special physical training (SPT) for young football players particularly important. Objective**.** To experimentally substantiate the effectiveness of using SPT complexes integrated with technical and tactical actions in football players aged 13–15. During a nine-month pedagogical experiment, two groups were compared: a control group (traditional program) and an experimental group (an additional SPT program including starting accelerations, maximum speed running over 30–200 m segments, jumping exercises, and special ball exercises for reaction speed and accuracy). Results**.** The experimental group showed a statistically significant ($p<0.05$) increase in performance in the following tests: ”30 m dribbling”, ”kicking distance” (dominant foot), and coordination tests. Conclusion**.** The rational integration of SPT means with and without the ball can reliably increase the level of special preparedness of young football players without negatively affecting their health.*

***Keywords:** football; youth sport; special physical training; speed-strength qualities; coordination; sensitive period.*

Введение

Современный футбол предъявляет высокие требования к физической подготовленности спортсменов. Интенсификация игры, увеличение количества единоборств и скоростно-силовых действий на фоне прогрессирующего утомления требуют от игроков не только отличной техники, но и мощного функционального фундамента. Особое значение это приобретает на этапе углубленной специализации (13–15 лет), когда закладывается база специальной работоспособности [1, 5].

Возраст 13–15 лет характеризуется гетерохронностью развития физических качеств. Исследования показывают, что именно в этот период наиболее эффективно развиваются скоростно-силовые способности и ловкость (координационные способности) [10, 12]. Однако, как отмечают многие авторы [1, 13], несоответствие тренировочных средств возрастным особенностям и биологической зрелости может привести к форсированию подготовки, перетренированности и раннему отсеву юных спортсменов.

В теории спорта принято разделять общую (ОФП) и специальную (СФП) физическую подготовку. Если ОФП направлена на создание общего функционального базиса и гармоничное развитие, то СФП призвана развивать качества применительно к специфике футбола [5, 14]. Долгое время в практике детско-юношеского футбола существовала тенденция к разобщению физической и технической подготовки. Современные тенденции, напротив, диктуют необходимость их сопряженного развития, когда скоростно-силовая работа выполняется в условиях, максимально приближенных к игровым, часто с мячом [9, 14].

Научная новизна работы заключается в конкретизации объемов и соотношении средств СФП с мячом и без мяча на этапе углубленной специализации (13–15 лет) с учетом современных требований к соревновательной деятельности и критических периодов развития физических качеств. В исследовании экспериментально доказано преимущество сопряженного метода развития физических качеств над традиционным раздельным подходом.

Цель и задачи исследования

Цель исследования – теоретически разработать и экспериментально проверить эффективность комплексов упражнений специальной физической подготовки для футболистов 13–15 лет.

Задачи исследования:

1. Провести анализ научно-методической литературы по проблеме СФП юных футболистов в сенситивные периоды развития.
2. Разработать и внедрить в тренировочный процесс экспериментальные комплексы СФП, сочетающие упражнения без мяча (беговые, прыжковые, скоростно-силовые) и с мячом (скоростное ведение, челночный бег с ударами, игровые упражнения).
3. Экспериментально оценить влияние разработанных комплексов на динамику показателей специальной физической и технической подготовленности.
4. Сравнить эффективность предложенной методики с традиционной программой подготовки и разработать практические рекомендации.

Методы и организация исследования

Исследование проводилось на базе ДЮСШ города Фергана в течение 9 месяцев (один соревновательный сезон). В эксперименте приняли участие 34 футболиста 13–15 лет, из которых были сформированы две группы: контрольная (КГ, n=18) и экспериментальная (ЭГ, n=16). Группы были однородны по уровню физической подготовленности и биологическому возрасту на момент начала эксперимента ($p>0,05$).

Контрольная группа занималась по традиционной общепринятой программе для ДЮСШ, где средства ОФП и СФП часто применялись раздельно, с акцентом на объем беговой работы без мяча.

В тренировочный процесс экспериментальной группы были интегрированы разработанные комплексы СФП, основанные на следующих принципах:

1. **Сопряженность воздействия:** Упражнения подбирались так, чтобы одновременно совершенствовать физические качества и технические элементы (например, рывки с мячом, ведение с обводкой стоек на максимальной скорости).
2. **Вариативность:** широко применялись беговые упражнения из различных исходных положений (сидя, лежа, спиной вперед), челночный бег («восьмерка», «челнок» 7×50 м), семенящий и многоскоки.
3. **Интенсивность:** Основной объем СФП выполнялся при ЧСС 160–180 уд/мин, что соответствует смешанному (аэробно-анаэробному) режиму энергообеспечения.
4. **Дозирование силовой нагрузки:** Силовая подготовка носила преимущественно динамический характер (прыжки, выпрыгивания, многоскоки), без использования больших отягощений, с акцентом на технику выполнения.

Примерный комплекс СФП в экспериментальной группе (в микроцикле):

- Понедельник (развитие быстроты): Стартовые рывки 5–10 м из разных положений, бег 30–60 м с хода, ведение мяча на максимальной скорости 30 м (3–5 повторений), эстафеты с ведением и обводкой стоек.
- Среда (скоростно-силовая**):** Прыжки на одной и двух ногах, выпрыгивания вверх с доставанием предмета, спрыгивание с тумбы (15–20 см) с последующим прыжком в длину, броски набивного мяча ногой и руками, удары по мячу на дальность.

- Пятница (специальная выносливость): Повторный бег 200–300 м (3–4 раза) с переходом на ведение мяча в конце дистанции, игровые упражнения 4×4 на площадке уменьшенного размера в высоком темпе.

Для оценки эффективности использовались следующие тесты:

1. Бег 30 м с ведением мяча (с).
2. Удар по мячу на дальность (сумма ударов правой и левой ногой, м).
3. Челночный бег «восьмерка» (обводка трех стоек, расположенных по треугольнику, на время, с).
4. Комплексный тест: ведение мяча, обводка 3-х стоек и удар в створ ворот (с).

Статистическая обработка проводилась с вычислением среднего арифметического (M), стандартного отклонения (σ) и t-критерия Стьюдента для связанных и несвязанных выборок. Достоверными считались различия при $p<0,05$.

Результаты исследования

Исходное тестирование не выявило статистически значимых различий между группами. Итоговые результаты представлены в таблице 1.

Таблица 1 – Динамика показателей подготовленности футболистов за период эксперимента (M±σ)

Тесты	Группа	До эксперимента	После эксперимента	Прир., %
Бег 30 м с мячом (с)	КГ	5,8±0,2	5,6±0,2*	3,4
	ЭГ	5,9±0,3	5,3±0,2*#	10,2
Удар на дальность (м) (ведущая нога)	КГ	42,5±3,1	44,8±3,4*	5,4
	ЭГ	42,1±3,5	48,2±3,0*#	14,5
Удар на дальность (м) (слабая нога)	КГ	31,2±2,8	32,5±3,1	4,2
	ЭГ	30,8±3,0	34,1±3,2*	10,7
Тест «Восьмерка» (с)	КГ	10,5±0,5	10,1±0,4*	3,8
	ЭГ	10,6±0,6	9,3±0,4*#	12,3
Комплексный тест (с)	КГ	13,2±0,7	12,6±0,6*	4,5
	ЭГ	13,3±0,8	11,5±0,5*#	13,5

Примечание: * – достоверность внутригрупповых различий ($p<0,05$); # – достоверность межгрупповых различий после эксперимента ($p<0,05$).

Как видно из таблицы, в экспериментальной группе произошли достоверно более высокие изменения практически по всем показателям. Наибольший прирост зафиксирован в тестах на координацию в условиях лимита времени («восьмерка») и в скорости ведения мяча, что подтверждает эффективность сопряженного метода.

Обсуждение

Полученные данные согласуются с исследованиями [5, 9, 14], которые указывают на высокую эффективность комплексного развития скоростно-силовых качеств в подростковом возрасте. Достоверно более высокий прирост в беге с мячом в ЭГ (10,2% против 3,4% в КГ) свидетельствует о том, что выполнение скоростных упражнений с мячом не только не мешает развитию быстроты, но и способствует формированию более рациональной структуры бегового шага при контроле мяча.

Значительное улучшение в тесте «удар на дальность» ведущей ногой в ЭГ (14,5%) объясняется применением широкого круга прыжковых упражнений и упражнений с набивными мячами, которые укрепили мышцы ног и туловища, участвующие в ударном движении.

Однако, обращает на себя внимание менее выраженная, хотя и достоверная, динамика удара «слабой» ногой. Это подтверждает тезис о необходимости целенаправленной, еще более акцентированной работы над

развитием моторной симметрии на тренировках. Традиционная программа КГ вообще не привела к улучшению этого показателя.

Таким образом, предложенная методика СФП позволяет более эффективно использовать сенситивный период для развития ключевых для футбола качеств. Отсутствие жалоб на здоровье и перетренированность в ЭГ говорит о том, что дозирование нагрузок было адекватно возрастным возможностям.

Выводы

1) Анализ литературных источников и результатов педагогического эксперимента подтверждает, что возраст 13–15 лет является наиболее благоприятным для направленного развития скоростно-силовых и координационных способностей юных футболистов средствами СФП.

2) Разработанные комплексы СФП, основанные на сопряженном воздействии (сочетание беговых, прыжковых упражнений и работы с мячом в условиях, близких к соревновательным), позволяют добиться достоверно более высоких результатов по сравнению с традиционной программой.

3) Наибольший эффект от применения экспериментальной методики наблюдается в развитии координации движений с мячом (тест «восьмерка» – прирост 12,3%) и скорости ведения мяча (прирост 10,2%).

4) Экспериментальная программа не оказывает негативного влияния на здоровье юных спортсменов и может быть рекомендована для использования в учебно-тренировочном процессе ДЮСШ и специализированных классах.

Практические рекомендации

Тренерам ДЮСШ в работе с футболистами 13–15 лет рекомендуется:

Отводить на СФП не менее 20–25% времени основной части тренировки.

Широко использовать метод сопряженных воздействий (развитие качества через техническое действие).

Включать упражнения для «слабой» ноги в каждое тренировочное занятие, увеличив их объем на 15–20% по сравнению с традиционными программами.

Контролировать интенсивность нагрузки по ЧСС, не допуская длительной работы в анаэробной зоне (выше 190 уд/мин) у подростков.

Список литературы:

[1] Абзалов Р.А., Яруллин Р.Х. Физическое развитие и функциональное состояние организма юных спортсменов. – Казань: Отечество, 2018. – 212 с.

[2] Бойко В.В. Целенаправленное развитие двигательных способностей человека. – М.: Физкультура и спорт, 1987. – 144 с.

[3] Быстров В.М., Филин В.П. Сравнительный анализ развития скоростно-силовых качеств у юных спортсменов // Теория и практика физической культуры. – 2001. – № 7. – С. 32–35.

[4] Верхошанский Ю.В. Основы специальной силовой подготовки в спорте. – 3-е изд. – М.: Советский спорт, 2013. – 216 с.

[5] Губа В.П., Лексаков А.В., Антипов А.В. Интегральная подготовка футболистов. – М.: Спорт, 2020. – 256 с.

[6] Ермолаев Ю.А. Возрастная физиология: учебное пособие. – М.: СпортАкадемПресс, 2001. – 444 с.

[7] Зациорский В.М. Физические качества спортсмена: основы теории и методики воспитания. – 5-е изд. – М.: Спорт, 2019. – 200 с.

[8] Лаптев А.П., Сучилин А.А. Юный футболист. – М.: Физкультура и спорт, 1983. – 255 с.

[9] Лексаков А.В., Петухов А.В. Специальная физическая подготовка юных футболистов // Вестник спортивной науки. – 2022. – № 3. – С. 41–46.

[10] Макарова Г.А. Спортивная медицина: учебник. – М.: Спорт, 2017. – 480 с.

[11] Солодков А.С., Сологуб Е.Б. Физиология человека. Общая. Спортивная. Возрастная: учебник. – М.: Спорт, 2018. – 624 с.

[12] Филин В.П. Теория и методика юношеского спорта. – М.: Физкультура и спорт, 1987. – 128 с.

[13] Buchheit M., Laursen P.B. High-intensity interval training: solutions to the programming puzzle // Sports Medicine. – 2013. – Vol. 43(5). – P. 313–338.

[14] Faude O., Rößler R., Junge A. Football injuries in children and adolescent players // Sports Medicine. – 2013. – Vol. 43(9). – P. 783–797.

[15] Malina R.M., Bouchard C., Bar-Or O. Growth, Maturation, and Physical Activity. – 2nd ed. – Champaign: Human Kinetics, 2004. – 712 p.

[16] Stølen T., Chamari K., Castagna C., Wisløff U. Physiology of soccer // Sports Medicine. – 2005. – Vol. 35(6). – P. 501–536.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Tursunaliyev Husanboy Shavkatjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti Sport faoliyati fakulteti o'qituvchisi

BASKETBOLDA SPORT PSIXOLOGIYASINING AHAMIYATI, PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK, MOTIVATSIYA VA JAMOA DINAMIKASINING NATIJALARGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada basketbol sportida sport psixologiyasining o'rni, uning musobaqa natijalariga ta'sir qiluvchi asosiy psixologik mexanizmlari hamda sportchilarni tayyorlash jarayonidagi amaliy ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Basketbol yuqori tezlik, keskin qaror qabul qilish, jamoaviy koordinatsiya va doimiy raqobat sharoitida o'ynaladigan sport turi bo'lib, unda sportchining nafaqat jismoniy, balki psixologik tayyorgarligi ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.*

Kalit so'zlar: *sport psixologiyasi, basketbol, motivatsiya, stress, musobaqa bosimi, diqqat, o'z-o'zini nazorat, jamoa dinamikasi, liderlik, mental trening.*

Турсуналиев Хусанбой Шавкаджон оглу
Преподаватель факультета спортивной деятельности Ферганского государственного университета

ВАЖНОСТЬ СПОРТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ В БАСКЕТБОЛЕ, ВЛИЯНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ, МОТИВАЦИИ И ДИНАМИКИ КОМАНДЫ НА РЕЗУЛЬТАТЫ.

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль спортивной психологии в баскетболе, ее основные психологические механизмы, влияющие на результаты соревнований, и ее практическое значение в процессе научно обоснованной подготовки спортсменов. Баскетбол - это вид спорта, в котором играют в условиях высокой скорости, принятия четких решений, командной координации и постоянной конкуренции, в котором решающую роль играет не только физическая, но и психологическая подготовка спортсмена.*

Ключевые слова: *спортивная психология, баскетбол, мотивация, стресс, соревновательное давление, внимание, самоконтроль, командная динамика, лидерство, психологическая подготовка.*

Tursunaliyev Husanboy Shavkatjon oglu
Teacher, Faculty of Sports Activities, Fergana State University

IMPORTANCE OF SPORTS PSYCHOLOGY IN BASKETBALL, INFLUENCE OF PSYCHOLOGICAL PREPARATION, MOTIVATION AND TEAM DYNAMICS ON RESULTS

Abstract. *This article discusses the role of sports psychology in basketball, its main psychological mechanisms affecting competition results, and its practical importance in the process of training athletes on a scientific basis. Basketball is a sport played in conditions of high speed, sharp decision-making, team coordination, and constant competition, in which not only the physical but also the psychological preparation of the athlete plays a decisive role.*

Keywords: *sports psychology, basketball, motivation, stress, competition pressure, attention, self-control, team dynamics, leadership, mental training.*

Kirish

Basketbol zamonaviy sport turlari ichida eng ommabop, yuqori dinamika va tezkor qaror qabul qilish talab etiladigan o'yinlardan biri hisoblanadi. Ushbu sport turi sportchidan kuch, tezlik, chaqqonlik, koordinatsiya, chidamlilik kabi jismoniy sifatlar bilan bir qatorda, yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlikni ham talab qiladi. Chunki basketbol o'yinida vaziyatlar juda tez o'zgaradi: raqibning taktikasi, hisob farqi, tomoshabin bosimi, hakam qarorlari, jamoa ichidagi emotsional fon va vaqt cheklovi sportchining psixik holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Sport psixologiyasi – sport faoliyati jarayonida inson psixikasining ishlash qonuniyatlarini, sportchining shaxsiy xususiyatlarini, motivatsion tizimini, emotsional holatini, stressga chidamliligini va ijtimoiy munosabatlarini o'rganuvchi fan sohasi hisoblanadi. Basketbolda sport psixologiyasining ahamiyati ayniqsa yuqori, chunki bu o'yin ko'pincha "so'nggi soniya"larda hal

bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda texnik mahorat va jismoniy kuchdan ham ko‘ra, sportchining ruhiy barqarorligi, diqqatni boshqarishi, qo‘rquvni yengishi va o‘ziga ishonchi natijani belgilab beradi.

Basketbolda uchraydigan psixologik muammolar ichida eng ko‘p uchraydiganlari: musobaqa oldi hayajon va qo‘rquv, o‘yin davomida xatolardan keyin tushkunlikka tushish, o‘ziga ishonchning pasayishi, raqibdan cho‘chish, agressiyani nazorat qila olmaslik, jamoa ichida konfliktlar, liderlik muammolari, murabbiy bilan kommunikatsiya uzilishi, “burnout” (ruhiy charchash) kabi holatlardir. Ushbu omillar sportchining texnik-taktik ko‘rsatkichlarini pasaytirishi, o‘yin ritmini buzishi va jamoaviy uyg‘unlikni izdan chiqarishi mumkin. So‘nggi yillarda sport psixologiyasi sportchilar tayyorlash tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan, AQSh, Kanada, Avstraliya, Germaniya, Ispaniya, Fransiya kabi mamlakatlarda professional basketbol jamoalarida sport psixologi shtat birligi sifatida mavjud. Ular sportchilar bilan individual va guruhli treninglar o‘tkazadi, musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikni rejalashtiradi, jamoa iqlimini kuzatadi hamda murabbiylar uchun psixologik maslahatlar beradi. O‘zbekiston sharoitida ham basketbolni rivojlantirish, yoshlar sportini kuchaytirish va xalqaro natijalarni oshirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bunda sportchilarni faqat jismoniy va texnik jihatdan tayyorlash yetarli emas. Sport psixologiyasini mashg‘ulot jarayoniga integratsiya qilish sportchilarni musobaqa bosimiga tayyorlash, motivatsiyani barqaror saqlash va jamoa ruhini mustahkamlashda katta natija beradi. Shu sababli ushbu maqolada basketbolda sport psixologiyasining nazariy asoslari, uning amaliy vositalari, psixologik tayyorgarlik strategiyalari hamda jamoa natijasiga ta’siri ilmiy tahlil qilinadi.

Metodologiya

Ushbu maqolada sport psixologiyasining basketbol faoliyatiga ta’sirini o‘rganishda bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot dizayni nazariy-tahliliy yo‘nalishda bo‘lib, empirik eksperiment o‘tkazishdan ko‘ra, mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish va konseptual model ishlab chiqishga asoslandi.

Birinchi bosqichda sport psixologiyasi bo‘yicha klassik va zamonaviy ilmiy adabiyotlar tizimli tahlil qilindi. Xususan, sport motivatsiyasi, stress va xavotir nazariyalari, jamoa kohezivligi (team cohesion), sportchining o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulation), “flow” holati va mental trening texnologiyalariga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar va amaliy qo‘llanmalar o‘rganildi. Tahlil jarayonida basketbol o‘yinining o‘ziga xos psixologik talablari ajratib ko‘rsatildi.

Ikkinchi bosqichda basketbol faoliyatining psixologik modeli ishlab chiqildi. Bu model basketbolchining o‘yin jarayonidagi asosiy psixik funksiyalarini 4 ta blokda ko‘rsatadi:

1.kognitiv blok (diqqat, idrok, qaror qabul qilish);

2.emotsional blok (stress, hayajon, agressiya, emotsional barqarorlik);

3.motivatsion blok (ichki va tashqi motivatsiya, maqsadlar, o‘ziga ishonch);

4.ijtimoiy blok (jamoa dinamikasi, liderlik, kommunikatsiya).

Uchinchi bosqichda basketbolchilar uchun amaliy psixologik tayyorgarlik strategiyalari umumlashtirildi. Bunda sport psixologiyasida keng qo‘llanadigan metodlar – mental tasavvur, ijobiy ichki nutq, relaksatsiya, o‘yin oldi rutinalari, maqsad qo‘yish, emotsional nazorat va jamoaviy treninglar basketbol kontekstiga moslashtirildi.

To‘rtinchi bosqichda natijalar va muhokama qismida psixologik tayyorgarlikning basketbol natijalariga ta’siri ilmiy izohlandi. Shuningdek, yosh sportchilar bilan ishlash, murabbiylar tayyorgarligi va sport psixologini jamoa tizimiga kiritish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy ishonchliligi (validligi) manbalarni tanlashda nufuzli ilmiy bazalarga kiruvchi ishlar, sport psixologiyasi bo‘yicha tan olingan olimlar va so‘nggi 10–15 yildagi konseptual yondashuvlar ustuvorligiga tayanish orqali ta’minlandi.

NATIJALAR

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, basketbolda sport psixologiyasining ta’siri bir vaqtning o‘zida individual sportchi darajasida ham, jamoa darajasida ham namoyon bo‘ladi. Natijalar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda jamlandi.

1. Motivatsiya va o‘yin natijasi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Basketbolda motivatsiya sportchining mashg‘ulotlarga qatnashishi, intizomi, o‘z ustida ishlashi va musobaqada “oxirigacha kurashishi”ga bevosita ta’sir qiladi. Motivatsiyaning ikki turi – ichki motivatsiya (o‘yindan zavq olish, o‘zini rivojlantirish) va tashqi motivatsiya (mukofot, g‘alaba, obro‘) basketbolda birgalikda ishlaydi. Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, barqaror natija ko‘proq ichki motivatsiya bilan bog‘liq.

Basketbolda motivatsiyani pasaytiruvchi omillar:

- o‘yin vaqtining kamligi (bench player muammosi);
- murabbiy tomonidan tanqidning haddan tashqari ko‘pligi;
- jamoa ichida adolatsiz rol taqsimoti;
- ketma-ket mag‘lubiyatlar;
- jarohat va tiklanish jarayoni.

Sport psixologiyasi motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash uchun maqsad qo‘yish, sportchining shaxsiy yutuqlarini kuzatish, o‘z-o‘zini baholashni sog‘lom shakllantirish va jamoa ichida qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishni tavsiya qiladi.

2. Musobaqa bosimi va stressni boshqarish

Basketbol – bosim ostida o‘ynaladigan sport turi. Ayniqsa, so‘nggi daqiqalarda hisob teng bo‘lsa, jarima to‘pi (free throw) yoki hal qiluvchi hujum sportchining psixologik barqarorligiga bog‘liq bo‘ladi. Stress va xavotir sportchida quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- yurak urishining tezlashuvi;
- nafas ritmining buzilishi;
- qo‘l titrashi;
- fikrning chalg‘ishi;
- “xato qilaman” degan ichki qo‘rquv;
- koordinatsiya pasayishi.

Sport psixologiyasida stressni boshqarish uchun quyidagi metodlar eng samarali deb topildi:

- nafas boshqaruvi (4-2-6, 4-7-8 texnikalari);
- progressiv mushak relaksatsiyasi;
- musobaqa oldi “mental warm-up”;
- salbiy fikrlarni qayta strukturalash (cognitive restructuring).

Basketbolda stressni boshqarish sportchining texnik elementlarni avtomatlashtirishiga ham yordam beradi. Ya’ni stress kamayganda, sportchi mashg‘ulotda o‘rgangan harakatlarni o‘yinda ham “tabiiy” bajaradi.

3. Diqqatni boshqarish va tezkor qaror qabul qilish

Basketbolda diqqat (attention) – eng muhim psixologik ko‘nikmalardan biridir. O‘yin davomida sportchi bir vaqtning o‘zida:

- to‘pni nazorat qiladi;
- raqib harakatini kuzatadi;
- sheriklar joylashuvini ko‘radi;
- murabbiy ko‘rsatmalarini eshitadi;
- vaqt va hisobni hisobga oladi.

Bu jarayon “selektiv diqqat” va “taqsimlangan diqqat” mexanizmlariga tayanadi. Sport psixologiyasi diqqatni boshqarish uchun quyidagi mashqlarni samarali deb ko‘rsatadi:

- “cue words” (kalit so‘zlar) orqali diqqatni yo‘naltirish;
- vizual skanerlash treningi;
- o‘yin epizodlarini qayta tahlil qilish (video analysis + mental rehearsal).

4. O‘ziga ishonch va sportchining psixologik barqarorligi

Basketbolda o‘ziga ishonch sportchining agressiv hujum qilishiga, jarima to‘pini ishonch bilan otishiga, raqibga qarshi kurashishiga ta’sir qiladi. O‘ziga ishonchi past sportchi ko‘pincha:

- hujumdan qochadi;
- pass berib qutulishga harakat qiladi;
- jarima to‘pida ko‘p xato qiladi;
- xatodan keyin o‘zini “yeb” qo‘yadi.

Sport psixologiyasi o‘ziga ishonchni oshirish uchun “mastery experience” (kichik yutuqlar orqali) yondashuvini, ijobiy ichki nutq va mental tasavvur usullarini tavsiya qiladi.

5. Jamoa dinamikasi, liderlik va kommunikatsiya

Basketbol jamoaviy sport bo‘lgani uchun psixologik omillar faqat individual sportchi bilan cheklanmaydi. Jamoa ichidagi:

- ishonch;
- rollar taqsimoti;
- liderlik;
- konfliktlarni boshqarish;
- emotsional fon

musobaqa natijasiga kuchli ta’sir qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jamoa kohezivligi yuqori bo‘lsa, sportchilar bir-birini ko‘proq qo‘llab-quvvatlaydi, xatolarni tez unutadi va o‘yin ritmini tiklaydi. Liderlik esa nafaqat kapitan, balki murabbiy va tajribali sportchilar orqali ham shakllanadi.

MUHOKAMA

Natijalar basketbolda sport psixologiyasi jismoniy tayyorgarlik bilan parallel tarzda olib borilishi zarurligini ko‘rsatadi. Amaliyotda ko‘plab murabbiylar texnika va taktika ustida ishlashni asosiy deb biladi, psixologik tayyorgarlik esa “o‘zi bo‘ladi” degan qarash mavjud. Biroq ilmiy adabiyotlar va professional sport tajribasi shuni isbotlaydiki, psixologik tayyorgarlik sportchining o‘yin samaradorligini oshiruvchi eng kuchli omillardan biridir.

Birinchidan, basketbolda musobaqa bosimi doimiy. Har bir o‘yinda sportchi o‘zini tomoshabin, raqib, hakam, murabbiy va jamoa oldida namoyon qiladi. Bosim ostida ishlashni o‘rganmagan sportchi texnik jihatdan kuchli bo‘lsa ham, o‘yinda o‘z potensialini ko‘rsata olmaydi. Bu holat sport psixologiyasida “choking under pressure” fenomeni sifatida izohlanadi. Basketbolda aynan jarima to‘plari va hal qiluvchi hujumlarda bu holat tez-tez uchraydi.

Ikkinchidan, basketbol o‘yinida xatolar tabiiy. Har bir sportchi o‘yinda xato qiladi: to‘p yo‘qotadi, noaniq pas beradi, savatchaga urmaydi. Psixologik jihatdan kuchli sportchi xatoni tez unutib, keyingi epizodga diqqatini jamlay oladi. Psixologik barqarorligi past sportchi esa xatodan keyin “ichki blok”ga tushadi va keyingi harakatlarda ham xato qilish ehtimoli oshadi.

Uchinchidan, jamoa ichidagi kommunikatsiya va ijtimoiy psixologik muhit basketbolda juda katta ahamiyatga ega. Jamoa ichida bir-birini ayblash, agressiv tanqid, rollar bo‘yicha adolatsizlik bo‘lsa, sportchilar o‘yin davomida bir-biriga ishonmay qo‘yadi. Natijada jamoaviy taktika ishlamaydi. Shu sababli sport psixologiyasi jamoa kohezivligini oshirish, konfliktlarni boshqarish va liderlikni sog‘lom shakllantirishga alohida e’tibor beradi.

To‘rtinchidan, yosh basketbolchilar bilan ishlashda sport psixologiyasi ayniqsa muhim. O‘smirlar psixikasi emotsional jihatdan o‘ta sezgir bo‘ladi. Ular murabbiy tanqidini shaxsiy haqorat sifatida qabul qilishi, tengdoshlar oldida xijolat bo‘lishi yoki mag‘lubiyatdan keyin sportni tark etishi mumkin. Sport psixologik yondashuv yosh sportchilarda motivatsiyani saqlash, o‘ziga ishonchni mustahkamlash va sog‘lom raqobat madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, sport psixologiyasini basketbol mashg‘ulotlariga integratsiya qilish murabbiylar uchun ham yangi kompetensiyalarni talab qiladi. Murabbiy sportchi bilan faqat texnik ko‘rsatma beruvchi shaxs emas, balki motivator, lider, pedagog va psixologik qo‘llab-quvvatlovchi rolini ham bajaradi. Murabbiy sportchi psixikasini tushunmasa, sportchining ichki resurslarini ochib bera olmaydi. Shu sababli murabbiylar uchun sport psixologiyasi bo‘yicha qisqa kurslar, seminarlar va amaliy treninglar tashkil etish muhim.

Shuningdek, sport psixologiyasi basketbolda “flow” holatini shakllantirish bilan ham bog‘liq. “Flow” – sportchi o‘yinga to‘liq kirishib ketgan, vaqtni unutgan, harakatlar avtomatik bajariladigan yuqori samaradorlik holatidir. Bu holat ko‘pincha yuqori natija bilan yakunlanadi. “Flow”ga erishish uchun sportchi stressni boshqarishi, diqqatni jamlashi va o‘ziga ishonchi yuqori bo‘lishi kerak.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sport psixologiyasi basketbolda quyidagi strategik vazifalarni bajaradi:

- sportchini musobaqa bosimiga tayyorlaydi;
- motivatsiyani barqarorlashtiradi;
- jamoa ruhini mustahkamlaydi;
- sportchining o‘z-o‘zini nazorat qilishini oshiradi;
- yuqori natijaga olib keluvchi mental ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Xulosa

Basketbolda sport psixologiyasi sportchining musobaqa natijasiga bevosita ta’sir qiluvchi muhim omil bo‘lib, u jismoniy va texnik tayyorgarlik bilan teng darajada sport mahoratini belgilaydi. Musobaqa bosimi, stress, xavotir va emotsional holatlar basketbolchining qaror qabul qilish tezligi, diqqatni boshqarishi va texnik harakatlarni bajarish sifatini keskin o‘zgartiradi. Shu sababli stressni boshqarish strategiyalari basketbol tayyorgarligining ajralmas qismi bo‘lishi kerak.Motivatsiya basketbolchining mashg‘ulotga sodiqligi, musobaqadagi kurashchanligi va uzoq muddatli sport rivojlanishini belgilaydi. Ichki motivatsiyani kuchaytirish, sportchining shaxsiy maqsadlarini aniqlash va ijobiy sport muhitini yaratish natijadorlikni oshiradi.

Basketbolda diqqat va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari sportchining tezkor o‘yin vaziyatlariga moslashuvi, xatolardan keyin tiklanishi va o‘yin ritmini saqlab qolishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.Jamoa dinamikasi, liderlik va kommunikatsiya basketbol natijasini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar bo‘lib, jamoa kohezivligini oshirish va konfliktlarni boshqarish sport samaradorligini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1.Weinberg, R., & Gould, D. (2019). *Foundations of Sport and Exercise Psychology* (7th ed.). Human Kinetics.

2.Andersen, M. B. (Ed.). (2020). *Doing Sport Psychology*. Human Kinetics.

3.Fletcher, D., & Sarkar, M. (2016). Mental fortitude training in elite sport: A resilience-based approach. *Sport, Exercise, and Performance Psychology*, 5(2), 123–138.

4.Gucciardi, D. F., & Gordon, S. (2017). *Mental Toughness in Sport: Developments in Theory and Research*. Routledge.

5.Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2017). Self-determination theory in sport and exercise. In *Handbook of Sport Psychology*. Wiley.

6.Moran, A. (2016). *The Psychology of Concentration in Sport Performers*. Psychology Press.

7.Csikszentmihalyi, M. (2014). *Flow and the Foundations of Positive Psychology*. Springer.

8.Hardy, L., Jones, G., & Gould, D. (2017). *Understanding Psychological Preparation for Sport*. Wiley.

9.Cotterill, S. (2018). Team cohesion and performance in competitive sports. *International Review of Sport and Exercise Psychology*, 11(1), 1–25.

10. Beauchamp, M. R., & Eys, M. A. (2017). *Group Dynamics in Exercise and Sport Psychology*. Routledge.

11. Gardner, F. L., & Moore, Z. E. (2017). *Mindfulness and Acceptance Models in Sport Psychology*. Human Kinetics.

12. Gross, J. J. (2015). Emotion regulation: Current status and future prospects. *Psychological Inquiry*, 26(1), 1–26.

13. Mesagno, C., & Hill, D. M. (2018). Choking under pressure: Psychological interventions in sport. *Frontiers in Psychology*, 9, 1–12.

14. Martin, J. J. (2018). Confidence, motivation, and performance in athletes: A review. *Journal of Sport Behavior*, 41(4), 387–402.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Tillabayeva Guljahon Ilhomjon qizi
Farg'ona davlat texnika universiteti tayanch doktoranti,
Email: sobirjonovaguljahon1998@gmail.com
ORCID: 0009-0004-8411-7683

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TAYM MENEJMENT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MAZMUNI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejment texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari, mazmuni hamda amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqotda mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, uning shakl, metod, texnologiya va vositalari tizimli tahlil qilinadi. Xususan, individual, juftlik va guruhiy mustaqil ta'lim shakllari, muammoli ta'lim, loyihaviy yondashuv, refleksiv faoliyat, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash metodlarining imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot davomida raqamli ta'lim vositalari, elektron platformalar, mobil ilovalar hamda interaktiv texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning afzalliklari ko'rsatib berilgan. Mazkur yondashuvlar talabalarda o'z-o'zini boshqarish, mas'uliyatlilik, mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy va kreativ fikrlash kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslangan.*

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, mustaqil ta'lim kompetentligi, taym menejment, vaqtni boshqarish, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim texnologiyalari, ta'lim vositalari, muammoli ta'lim, loyihaviy yondashuv, refleksiv faoliyat, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash, raqamli ta'lim, elektron platformalar, mobil ilovalar, interaktiv texnologiyalar, talaba faoliyati, ta'lim samaradorligi.*

Тиллабаева Гуляхон Илхомжон кызы
Ферганский государственный технический университет, базовый докторант

СОДЕРЖАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ТАЙМ МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ КОМПЕТЕНТНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация: *В данной статье всесторонне раскрываются теоретико-методические основы, содержание и практическое значение использования технологий тайм-менеджмента в развитии компетентности самостоятельного обучения студентов. В исследовании системно анализируются педагогические условия эффективной организации самостоятельного обучения, а также его формы, методы, технологии и средства. В частности, обоснованы возможности индивидуальных, парных и групповых форм самостоятельного обучения, проблемного обучения, проектного подхода, рефлексивной деятельности, а также методов самоконтроля и самооценки. В ходе исследования показаны преимущества организации самостоятельной деятельности студентов с использованием цифровых образовательных средств, электронных платформ, мобильных приложений и интерактивных технологий. Научно обосновано, что данные подходы способствуют формированию у студентов таких важных компетенций, как самоуправление, ответственность, принятие самостоятельных решений, критическое и креативное мышление.*

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, компетентность самостоятельного обучения, тайм-менеджмент, управление временем, педагогические условия, формы обучения, методы обучения, образовательные технологии, средства обучения, проблемное обучение, проектный подход, рефлексивная деятельность, самоконтроль, самооценка, цифровое образование, электронные платформы, мобильные приложения, интерактивные технологии, деятельность студентов, эффективность обучения.*

Gulyaxon Ilhomjon kizi Tillabaeva
Fergana State Technical University, PhD candidate

THE CONTENT OF USING TIME MANAGEMENT TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING COMPETENCE

Annotation: *This article comprehensively examines the theoretical and methodological foundations, content, and practical significance of using time management technologies in developing students' independent learning competence. The study systematically analyzes the pedagogical conditions for the effective organization of independent learning, as well as its forms, methods, technologies, and tools. In particular, the potential of individual, pair, and group forms of independent learning, problem-based learning, project-based approaches, reflective activities, as well as methods of self-control and self-assessment are substantiated. The study also highlights the advantages of organizing students' independent activities through the use of digital educational tools, electronic platforms, mobile applications, and interactive technologies. It is scientifically justified that these approaches contribute to the development of essential competencies in students, such as self-management, responsibility, independent decision-making, and critical and creative thinking.*

Keywords: *independent learning, independent learning competence, time management, time management skills, pedagogical conditions, learning forms, teaching methods, educational technologies, learning tools, problem-based learning, project-based approach, reflective activity, self-control, self-assessment, digital education, electronic platforms, mobile applications, interactive technologies, student activity, learning effectiveness*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorida Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minlash maqsadida rivojlantirish chora-tadbirlari belgilab olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida bir qator vazifalar belgilangan bo‘lib, quyidagilarga alohida e’tibor qaratish zarur: talabalarning individual ta’lim trayektoriyalariga asoslangan mustaqil o‘qish faoliyatini tashkil etish, ularning qiziqishlari hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda mustaqil ta’lim mazmunini boyituvchi o‘quv rejalari va ta’lim dasturlarini ishlab chiqish orqali kreativ fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish; -mustaqil ta’lim soatlari ulushini bosqichma-bosqich oshirish, talabalarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi metodika va texnologiyalarni joriy etish, ularda mustaqil ta’lim olish kompetentligini, tanqidiy va kreativ fikrlash, tizimli tahlil qilish, o‘z faoliyatini rejalashtirish va boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish; -mustaqil ta’lim jarayonini amaliy yo‘naltirilgan faoliyat asosida tashkil etish, bunda xalqaro ta’lim standartlariga mos ilg‘or pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim resurslari, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallardan keng foydalanish orqali talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligi va mas’uliyatini oshirish kabi vazifalar belgilandi. [4] Mazkur vazifalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetentligini rivojlantirish jarayoni faqat ta’lim mazmunini yangilash bilangina cheklanmay, balki ularning o‘quv faoliyatini ongli rejalashtirish va samarali boshqarish qobiliyatlarini shakllantirishni ham taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta’lim olish jarayonida taym menejment texnologiyalaridan foydalanish talabaning individual ta’lim trayektoriyasini izchil amalga oshirish, o‘quv yuklamasini oqilona taqsimlash hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan malaka talablarini asoslashning muhim metodologik omili sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejment texnologiyalardan foydalanish holatini aniqlash maqsadida pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining 60110100 – “Pedagogika” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari hamda o‘quv rejalari chuqur tahlil qilindi. Xususan, mazkur yo‘nalishga kiritilgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlari, ularning mazmuni hamda “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Pedagogik texnologiyalar”, “Mutaxassislikka kirish” kabi modullar doirasida talabalarda mustaqil ta’limni rejalashtirish, vaqtni samarali boshqarish, o‘quv faoliyatini ongli tashkil etishga doir kompetensiyalarning shakllanish darajasi o‘rganildi.

Mazkur tahlil asosida talabalarning mustaqil ta’lim olish tizimida taym menejment texnologoiyalariga oid yondashuvlarning qanchalik integratsiyalashgani, raqamli va pedagogik texnologiyalarning talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini samarali tashkil etishdagi o‘rni hamda mavjud imkoniyatlar va muammolar aniqlab berildi. O‘quv dasturlarining mazmuni tahlil etilganida mustaqil ta’limga e’tibor, pedagogik va axborot texnologiyalarining o‘zaro integratsiyasi, ularning didaktik imkoniyatlari hamda amaliy qo‘llash mexanizmlari pedagogika oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan o‘quv jarayoni mazmunida tizimli va izchil tarzda aks etmaganligi aniqlandi. Xususan, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari mazmunida mazkur yondashuvlar fragmentar tarzda berilib, talabalarni mustaqil ta’lim faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, vaqtni samarali taqsimlash hamda o‘quv jarayonini ongli boshqarishga yo‘naltirilgan kompetensiyalarni tizimli shakllantirishga xizmat qilmayapti. Mazkur holatni aniqlash maqsadida “Pedagogika

nazariyasi va tarixi", "Pedagogik texnologiyalar", "Mutaxassislikka kirish" kabi modullarning mazmuni maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida jadval ko'rinishida tahlil qilindi. Jadvalda fanlarning mavjud holatidagi kamchiliklar, ularda pedagogik va axborot texnologiyalar integratsiyasi, shuningdek, taym menejment texnologiyalarining aks etish darajasi qiyosiy tarzda yoritildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalar har bir pedagogning kasbiy kompetentligining ajralmas qismi bo'lishiga qaramay, mazkur modullar doirasida talabalarni mustaqil ta'lim olish kompetentligini, xususan, vaqtni samarali boshqarish asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli yondashuv yetarli emas. Shu bois, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ushbu modullar mazmunini talabalar mustaqil ta'lim olish kompetentligini taym menejment texnologiyalari asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan holda boyitish zarur, degan ilmiy xulosaga kelindi.

2.1-jadval

"Pedagogika nazariyasi va tarixi" fani o'quv dasturining tahlili.

№	Kamchiliklar yoki muammo	Takliflar
I	**"Pedagogika nazariyasi va tarixi" fani**	
1	**Mustaqil ta'limga oid mavzularning mavjud emasligi** Fan dasturida pedagogik jarayon, tarbiya, ta'lim metodlari va tarixiy rivojlanishlar keng yoritilgan bo'lsa-da: – talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus mavzular mavjud emas; – XXI asr talabasi uchun muhim bo'lgan mustaqillik, o'z-o'zini rivojlantirish, raqamli resurslardan foydalanish kabi zamonaviy kompetensiyalar yoritilmagan.	**Dasturga qo'shimcha mavzular kiritish** Fan dasturini quyidagi mavzular bilan boyitish maqsadga muvofiq: – "Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish asoslari"; – "O'z-o'zini rivojlantirish texnologiyalari va taym menejment"; – "Raqamli vositalar yordamida mustaqil ta'lim"; – "Mustaqil o'rganishning baholash mezonlari va refleksiya".
2	**Amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi bo'shliq** – Fan mazmuni asosan nazariy jihatlarni qamrab olgan; – mustaqil o'rganish metodlari, taym menejment, o'zini-o'zi baholash kabi amaliy mavzular yo'q; – talabalar mustaqil ta'lim jarayonida qaysi metod va texnologiyalardan foydalanishi, samaradorlikka qanday erishishi haqida yetarli tasavvurga ega emas; – ayniqsa, 1-kurs bosqichida asosiy o'quv malakalari shakllanishi hisobga olinmagan.	**Amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash** – Mustaqil ishlash uchun maxsus topshiriqlar tizimini ishlab chiqish; – talabalarga individual o'quv rejalashtirish (learning plan) bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish; – auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatda quyidagi zamonaviy metodlardan foydalanishni o'rgatish: *Deep Work, Time Blocking, Pomodoro, Spaced Repetition, Active Recall, Interleaving, Mind Mapping, Learning Management Systems*; – ushbu metodlarni amaliy mashg'ulotlar orqali tatbiq etish.
3	**Zamonaviy yondashuvlarning yetishmasligi** – STEAM, inkluziv ta'lim kabi mavzular umumiy tarzda yoritilgan; – raqamli pedagogika, onlayn platformalarda mustaqil ta'lim, media savodxonlik masalalari ko'rib chiqilmagan.	**Fanlararo integratsiyani kuchaytirish** – "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fanini boshqa fanlar bilan integratsiyada olib borish; – mustaqil ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni fanlararo kontekstda tahlil qilish; – talabalarni turli fanlarga oid adabiyotlar, internet resurslari, videomashg'ulotlar bilan mustaqil ishlashga yo'naltirish; – bu orqali talabalarda tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, tadqiqotga oid savodxonlik hamda muammolarni kompleks yondashuvda hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

2.2-jadval

"Pedagogik texnologiyalar" fani o'quv dasturining tahlili.

№	Kamchiliklar yoki muammo	Takliflar
II	**"Pedagogik texnologiyalar" fani**	
1.	**Mustaqil ta'lim tushunchasiga sathiy yondashuv**	– "Talabalarda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish" mavzusini kiritish;

	Mustaqil ta’lim faqat seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik sifatida talqin etilgan. Talaba o‘qituvchi bergan mavzuni tayyorlaydi, ammo *self-directed learning* (o‘z-o‘zini o‘qitish) darajasiga chiqmaydi. Talabaning mavzuni tanlashi, manbalarni mustaqil aniqlashi, vaqtni boshqarishi va natijani tahlil qilishi kabi muhim komponentlar mavjud emas.	– “O‘z-o‘zini rivojlantirish rejasi” (individual learning plan) ishlab chiqish; – Mustaqil ta’limni *self-directed learning* modeli asosida qayta loyihalash.
2.	**Topshiriqlarning an’anaviyligi** Taqdimot, referat, esse, test va keys bilan cheklanilgan. Zamonaviy raqamli vositalar (Canva, Padlet, Miro), interaktiv platformalar, o‘zaro baholash va refleksiya mexanizmlari mavjud emas. Faoliyatga yo‘naltirilgan shakllar (loyiha, portfoliyo, real muammolarni hal qilish) ko‘zda tutilmagan.	– Raqamli topshiriqlar: Coursera, YouTube, Google Scholar asosida o‘rganish; – Portfoliyo va loyiha asosidagi ishlar; – Video, infografika, blog-post yaratish; – Har bir ish yakunida refleksiya yozuvi (matn/audio).
3	**Individual ehtiyojlarga moslashuv yo‘qligi** Barcha talabalar uchun bir xil topshiriqlar beriladi. Talabaning bilim darajasi, qiziqishi va o‘quv uslubi (vizual, audial, kinestetik) hisobga olinmaydi. Bu individual yondashuvning sustligidan dalolat beradi.	– Differensial topshiriqlar (boshlang‘ich–o‘rta–yuqori daraja); – Tanlov asosidagi vazifalar; – O‘quv uslubiga mos variantlar (video, matn, amaliy loyiha).
4	**Tahlil va refleksiyaning yetishmasligi** Har bir topshiriqdan so‘ng talabaning “nima o‘rgandim?”, “qanday qiyinchilik bo‘ldi?”, “nimani takomillashtiraman?” degan savollarga javob berishi talab etilmaydi. Bu mustaqil o‘rganishning eng muhim bosqichi – metakognitiv jarayonning yo‘qligini ko‘rsatadi.	– Har bir mustaqil ish uchun refleksiya bloki; – O‘z-o‘zini baholash varaqalari; – Metakognitiv strategiyalarni (rejalashtirish, monitoring, baholash) o‘rgatish.
5	**“Pedagogik texnologiyalar” fanidagi tizimli bo‘shliqlar** Fan kuchli jihatlarga ega (loyiha, keys, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar, ijodiy fikrlash). Biroq: – self-learning va o‘z-o‘zini boshqarish texnologiyalari yo‘q; – taym menejment, raqamli muhitlar, onlayn platformalar kiritilmagan; – faqat PowerPoint bilan cheklanish mavjud; – baholash mezonlari (rubrikalar) aniqlashtirilmagan; – resurslar va havolalar yetarli emas; – raqamli pedagogika, sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim mavzulari yo‘q; – metakognitiv strategiyalar yoritilmagan.	**Fan dasturiga quyidagi yangi mavzularni kiritish tavsiya etiladi:** **- Mustaqil ta’limda raqamli texnologiyalar;** **- Taym menejment texnologiyalari va ularni ta’limda qo‘llash;** **- Talabalarning o‘z-o‘zini o‘qitish kompetentligini shakllantirish;** **- Metakognitiv yondashuvlar va refleksiya asosida o‘qitish;** **- O‘z-o‘zini baholash va o‘zlashtirishni nazorat qilish texnologiyalari.**

2.3-jadval

“Mutaxassislikka kirish” fani o‘quv dasturining tahlili.

№	Kamchiliklar yoki muammo	Takliflar
III	**“Mutaxassislikka kirish” fani**	
1.	**Nazariylik ustun, amaliyot yetishmaydi** Fan asosan umumiy tushunchalar va nazariy ma’lumotlarga tayangan. Real kasbiy muhit, muammoli vaziyatlar, amaliy mashg‘ulotlar va ish joylari bilan tanishtirish cheklangan. Bu talabaning kasbni “his etishi”ga imkon bermaydi.	– Amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish; – Mini-loyihalar, kasbiy keyslar; – Mutaxassislar bilan uchrashuvlar, kasbiy suhbatlar.
2.	**Mustaqil ta’lim ko‘nikmalari rivojlantirilmaydi** Talabaning mustaqil o‘qish, izlanish, o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantiruvchi metodlar (taym menejment, metakognitiv strategiyalar, raqamli vositalar) kiritilmagan.	– “Mustaqil ta’lim madaniyati va uning asosiy vositalari” mavzusini kiritish; – O‘z-o‘zini o‘qitish bo‘yicha amaliy topshiriqlar.
3	**Shaxsiy va kasbiy rivojlanishga oid modullar yetarli emas** Fan talabaning shaxsiy maqsadlari, qiziqishlari va kasbiy motivatsiyasini tizimli shakllantirishga yetarlicha xizmat qilmaydi.	– “Shaxsiy ta’lim trayFektoriyasini tuzish”; – “Kasbiy o‘sish uchun taym menejment va refleksiya”.
4	**Zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya sust** Talaba o‘z sohasidagi zamonaviy texnologiyalar (raqamli muhitlar, sun’iy intellekt) bilan tanishmaydi.	– “Tanlagan mutaxassislik bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar” mavzusini kiritish; – Raqamli muhitda o‘rganishga yo‘naltirilgan topshiriqlar.
5	**Metakognitiv yondashuv yo‘q** Talaba o‘z o‘quv uslubini anglash, kuchli va zaif tomonlarini baholash, o‘qishni rejalashtirish ko‘nikmalarini hosil qilmaydi.	– Metakognitiv topshiriqlar: – o‘quv uslubini aniqlash; – o‘zini baholash; – maqsadli o‘quv rejasini tuzish.

Yuqorida tahlil qilingan modullar mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu modullarda mustaqil ta’limni rivojlantirish va taym menejment texnologiyasi masalalari to‘liq qamrab olinmagan. Bundan kelib chiqib biz tadqiqot ishida **“Taym menejment texnologiyalari asosida mustaqil ta’limni tashkil etish”** nomli maxsus kursni taklif qildik. Ushbu kursning kalendar rejasi keyingi paragrafda o‘z ifodasini topgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida berilgan tanqidiy tahlil natijalariga ko‘ra, mavjud o‘quv fanlari mazmunida mustaqil ta’lim olish metodlari va ularni samarali amalga oshirish mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Xususan, mustaqil ta’lim olish metodlarining vaqtni rejalashtirish, nazorat qilish va baholashga yo‘naltirilgan taym menejment texnologiyalari bilan uzviy bog‘liqligi ochib berilmagan. Shu bois, talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shakl, metod, texnologiya va vositalar hamda ularning taym menejment texnologiyasi bilan integratsiyasini aks ettiruvchi jadval ishlab chiqildi.

2.4-jadval

Mustaqil ta’limni tashkil etishda qo‘llaniladigan shakl, metod, texnologiya va vositalar

№	Nomi	Taym menejment texnologiyasi bilan bog‘lash	Rivojlantiruvchi komponent
I	**Shakllar**		
1	Self regulated learning workshops (O‘zini boshqarish bo‘yicha trening)	Shaxsiy o‘quv rejasini tuzish, kunlik va haftalik maqsadlarni belgilash, vaqt sarfini monitoring qilish	-Metakognitiv -Motivatsion
2	Peer instruction	Vaqtni jamoaviy rejalashtirish,	-Ijtimoiy

	(Tengdosh instruksiyasi – mashg‘ulot shakli sifatida)	topshiriqlarni kelishilgan muddatda bajarish, o‘z vaqtiga nisbatan javobgarlikni oshirish	-kommunikativ - Kognitiv, -Tanqidiy fikrlash
3	Independent Study Sessions (Mustaqil mashg‘ulotlar)	Qaysi mavzuga qancha vaqt ajratishni, ish ketma-ketligini, dam olish va o‘qish nisbatini o‘zi belgilash	-Metakognitiv -Refleksiv -Motivatsion
II	**Metodlar**		
1.	Problem based learning (Masalaga asoslangan o‘qitish)	Vazifani bosqichlarga ajratish; har bir bosqichga vaqt belgilash; muammoni hal etish jarayonini monitoring qilish	-Faoliyatli - Kognitiv -Tanqidiy fikrlash
2.	Cooperative learning (Hamkorlikka asoslangan o‘qitish)	Vazifalarni bo‘lish va muddat belgilash; jamoaviy rejalashtirish; umumiy natijaga mas’uliyat	-Ijtimoiy- Kommunikativ
3	Think aloud protocol (O‘ylab ovoz chiqarish)	O‘z faoliyatini anglash; qaysi bosqichga qancha vaqt ketayotganini sezish; strategiyani o‘z vaqtida o‘zgartirish imkonini berish	-Metakognitiv -Refleksiv -Baholash
III	**Texnologiyalar**		
1.	Project based learning (Loyiha asosida o‘qitish)	Loyihani bosqichlarga ajratish; har bir bosqich uchun muddat belgilash; jarayonni monitoring qilish	-Loyihaviy, -Strategik -Ijtimoiy- Kommunikativ
2	Blended Learning (Aralash ta’lim)	Turli formatlar o‘rtasida vaqtni muvozanatlash; mustaqil va hamkorlikdagi ishlarni rejalashtirish; o‘z o‘quv jadvalini boshqarish	-Kognitiv -Metakognitiv -Faoliyatli
3	Personalized Learning (Individuallashtirilgan ta’lim)	Shaxsiy maqsadlariga mos o‘quv reja tuzish; o‘z tempida ishlash vaqt resursini ehtiyojiga ko‘ra taqsimlash	-Kognitiv -Metakognitiv -Faoliyatli
IV	**Vositalar**		
1.	E-learning platforms (MOOCs) (Onlayn platformalar)	O‘quv materialini mustaqil tanlash; o‘z tempida o‘rganish; mashg‘ulotlar va topshiriqlar uchun vaqtni rejalashtirish	Axborotli- kommunikativ -Metakognitiv
2	Self-assessment quizzes (O‘zini baholash viktorinalari)	Bilim darajasini tezkor aniqlash; qaysi mavzuga ko‘proq vaqt ajratish kerakligini belgilash; reja va real natijani solishtirish	-Metakognitiv -Aks ettiruvchi
3	Digital Planners / To-do Apps (Raqamli rejalashtirgichlar)	Kundalik va haftalik rejalar tuzish; vazifalarni ustuvorlik bo‘yicha tartiblash; bajarilgan ishlarni belgilash va tahlil qilish	-Metakognitiv -Refleksiv -Rejalashtirsh

Fanlar doirasida mustaqil ta;lim olish uchun tavsiya etilgan mavzularni o‘zlashtirish jarayoni talabaning shaxsiy o‘quv rejasiga tayangan holda, taym menejment tamoyillari asosida tizimli tashkil etiladi. Bunda talaba o‘z faoliyatida ustuvor vazifalarni belgilash, vaqt resursini maqsadga muvofiq taqsimlash orqali mustaqil ta’lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli va o‘z vaqtida bajarishga erishadi hamda natijalarni tartibli ravishda taqdim etadi. Mazkur jarayonda topshiriqlarni oxirgi daqiqaga qoldirmaslik, manbalar bilan izchil ishlash va akademik halollik tamoyillariga qat’iy rioya etish asosida plagiatga yo‘l qo‘ymaslik ta’minlanadi, har bir ish shaxsiy izlanish va mualliflik yondashuvi mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, mustaqil ta’lim faoliyatida olingan natijalarni tahlil qilish bilan uyg‘un holda talabalarda kreativ, tanqidiy va innovatsion fikrlashni rivojlantiradi, axborotlar bilan ishlash kompetentligini shakllantiradi hamda o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan barqaror o‘quv faoliyatini ta’minlaydi. Kichik guruhlarda tashkil etilgan hamkorlikdagi mustaqil ishlar jarayonida esa vazifalarning vaqt bo‘yicha taqsimlanishi, jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilish, shaxsiy mas’uliyatni anglash va topshiriqlarni belgilangan muddatlarda bajarish orqali jamoaviy taym menejment madaniyati shakllanadi. Natijada talaba nafaqat mustaqil ta’limni samarali tashkil eta oladigan, balki vaqt resursidan ongli foydalanuvchi, o‘z faoliyatini boshqara oladigan kompetent subyekt sifatida kamol topadi.

XULOSA

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkunki, taym menejment texnologiyalarini mustaqil ta’lim jarayoniga integratsiyalash bir martalik jarayon sifatida emas, balki bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan, izchil va uzviy pedagogik jarayon sifatida loyihalanadi. Har bir bosqich talabaning shaxsiy rivojlanish dinamikasi, motivatsion holati, bilish ehtiyojlari hamda o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Bunday integratsiya jarayonida dastlab talabaning mavjud taym menejment ko‘nikmalari va mustaqil ta’limga tayyorgarlik darajasi aniqlanadi, keyingi bosqichlarda esa unda vaqtni rejalashtirishga bo‘lgan ichki ehtiyoj va motivatsiya shakllantiriladi, zarur bilimlar bilan qurollantiriladi hamda amaliy faoliyatga tatbiq etiladi. Jarayonning yakuniy bosqichlarida talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, natijalarni baholashi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan barqaror ta’lim trayektoriyasini shakllantirishi ta’minlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni / **“**Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori**.** Manba: www.gov.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni PF-5847 08.10.2019. Manba: www.gov.uz
5. Brain Tracy. Time management (The Brian Tracy Success Library): American Management Association, 2008-1-138 P.
6. Низамова Ч. И. Развитие самоорганизации студентов в учебной деятельности с применением технологии тайм-менеджмент : автореф. дис. – Казань, 2021. - 25 с.
7. Möller, J. Zeitmanagement. – München: Haufe Verlag, 2004. -15-18 S.
8. G‘oziev E. G‘. Menejment asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 112–115-b.
9. Raximov B. X. Menejment. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. – 146–149-b.
10. Sharipov Sh. S. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2010. – 201–204-b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Buriev Uralbek Xurram o'g'li
Oreintal universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: boriyevuralbek@gmail.com

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYALARINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH MEXANIZMI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda raqobat kuchayib borayotgan bozor sharoitida ta'lim muassasalari uchun marketing strategiyalarining transformatsion ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, analitik platformalar va dizayn-fikrlash metodologiyalarining (Double Diamond, Empathy Map, Six Thinking Hats) oliy ta'lim marketingidagi qo'llanilish mexanizmlari bosqichma-bosqich yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Raqamli marketing, dizayn-fikrlash, Double Diamond, Empathy Map, Six Thinking Hats, oliy ta'lim, marketing strategiyalari, PDCA, KPI, brend-marketing, innovatsion boshqaruv, ta'lim marketingi.*

Boriev Urolbek Khurram oglu
Independent researcher at the University of the East

MECHANISM FOR ORGANIZING EXPERIMENTAL TESTS ON THE APPLICATION OF MARKETING STRATEGY IN HIGHER EDUCATION.

Abstract: *In this article, the transformational significance of marketing strategies for higher education institutions in the increasingly competitive market environment of Uzbekistan is analyzed. The stages of applying digital technologies, artificial intelligence, analytical platforms, and design-thinking methodologies (Double Diamond, Empathy Map, Six Thinking Hats) in higher education marketing are explained step by step.*

Key words: *Digital marketing, design thinking, Double Diamond, Empathy Map, Six Thinking Hats, higher education, marketing strategies, PDCA, KPI, brand marketing, innovative management, educational marketing.*

Бориев Уролбек Хуррам оглу
Независимый исследователь в Университете Шарка

МЕХАНИЗМ ОРГАНИЗАЦИИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНО-ТЕСТОВОЙ РАБОТЫ ПО ПРИМЕНЕНИЮ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.

Примечание: *В данной статье анализируется трансформационное значение маркетинговых стратегий для образовательных учреждений Узбекистана в условиях растущей конкуренции на рынке. Постепенно рассматриваются механизмы применения цифровых технологий, искусственного интеллекта, аналитических платформ и методологий дизайн-мышления (Двойной алмаз, Карта эмпатии, Шесть шляп мышления) в маркетинге высшего образования.*

Ключевые слова: *Цифровой маркетинг, дизайн-мышление, Двойной алмаз, Карта эмпатии, Шесть шляп мышления, высшее образование, маркетинговые стратегии, PDCA, KPI, бренд-маркетинг, управление инновациями, маркетинг образования.*

Kirish: Hozirda O'zbekistonda raqobat bozori sharoitida korxonalar amaliy faoliyatining muhim bo'lagi hisoblangan marketing tizimiga bo'lgan qiziqish keskin oshgan. Ammo, shu vaqtgacha ishbilarmonlar, tadbirkorlar orasida va jamiyatda marketing tizimi to'g'risida noto'g'ri tushuncha mavjud. Ular marketingning asosiy vazifasini ishlab chiqarishning mahsulotini sotishga yordam berish deb biladilar. Haqiqatda esa, hammasi buning aksidir, ya'ni ishlab chiqarish marketingga yordam berish uchun mavjuddir. Ta'bir joizki, bugungi raqamli transformatsiya davrida ta'lim muassasalari uchun marketing strategiyalarining zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirilishi muhim omilga aylangan. An'anaviy marketing usullari o'z samarasini yo'qotib borayotgan bir paytda, raqamli marketing, sun'iy intellekt, tahliliy platformalar (Google Analytics, CRM tizimlari), hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali interaktiv aloqa o'rnatish vositalari yangi strategik yondashuvlarni shakllantirmoqda.

Pedagogik tajriba natijalari zamonaviy gandbolda o‘yin faoliyatining strukturaviy modelini qo‘llash yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Tajriba guruhi barcha asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha nazorat guruhidan ustun natija qayd etdi.

Demak, ishlab chiqilgan modelni amaliyotga keng joriy etish yuqori malakali gandbolchilar tayyorlash jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1.Abduraxmonov,S.(2023).Gandbolchilarning sport tayyorgarligi tizimi. Евразийский журнал академических исследований, 3(10), 195-197.

2. Abduraxmonov, S. (2023). Gandbol sport turini rivojlantirishning dolzarb masalalari. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(25), 95-98.

3.Jismoniy, A S.O.Z. D., Farg‘Ona, T. V. S. U., Va, F. S. O. Y. N., & O‘Qituvchisi, U. A. (2024). Maktabyuqori sinf o ‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligi. Экономика и социум, (2-2 (117)), 19-22.

4.Xakimovich, A. S. (2024). Sog ‘lom turmush tarzini jismoniy tarbiyadagi o ‘rni. Xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmati, 1(1), 220-222.

5.Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., 1998.

6.Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: Sharq, 1998.

7.“Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2133-son Qarori. 19-fevral, 2014- yil.

8.Abduhahmonov F.A., Pavlov Sh.K. Gandbol. Jismoniy tarbiya institutlari uchun namunaviy dastur. – T.: O‘zDJTI, 2005.

9.Павлов Ш.К., Абдурахманов Ф.А., Подготовка гандбо-листов. – Т.: УзГИФК, 2006.

10.Nizomov, A. (2024). Gandbolda darvozabon o ‘yinining tehnikasi. *Research and Implementation*, 440-444.

11.Nizomov, A. (2024). Umumiy o ‘rta ta’lim maktablarida gandbolni o ‘rgatish hususiyatlari. *Research and Implementation*, 433-436.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Djampulatova Nigora Maxmudovna
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Elektron manzil: djampulatovanigora@gmail.com

TA’LIM JARAYONIDA NEYROILMLAR INTEGRATSIYASI: KONSEPTUAL YONDASHUV VA PEDAGOGIK IMPLIKATSIYALAR

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta’lim jarayonida neyroilmlar integratsiyasining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi hamda uning pedagogik tizimga ta’siri konseptual jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqotda neyropedagogika, kognitiv psixologiya va zamonaviy didaktika o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish mexanizmlari, xotira, diqqat va motivatsiya kabi kognitiv jarayonlarning neyrofiziologik asoslari pedagogik faoliyat kontekstida ko‘rib chiqiladi. Maqolada neyroilmlar asosida ishlab chiqilgan innovatsion o‘qitish strategiyalarining samaradorligi hamda ularning ta’lim sifatini oshirishdagi roli asoslab beriladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, neyroilmlar integratsiyasi ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quv faoliyatini optimallashtirish va talabalarning yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *neyropedagogika, neyroilmlar, kognitiv jarayonlar, ta’lim sifati, innovatsion metodlar, didaktika, o‘qitish strategiyalari, ta’limni individuallashtirish, motivatsiya, xotira*

Nigora Makhmudovna Djampulatova
Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences (PhD) of the
Yunus Rajabi National Institute of Music and Arts of Uzbekistan

INTEGRATION OF NEUROSCIENCE INTO THE EDUCATIONAL PROCESS: CONCEPTUAL APPROACH AND PEDAGOGICAL TEACHINGS.

Abstract: *This article examines the theoretical and methodological foundations of integrating neuroscience into the educational process and substantiates its pedagogical implications within a conceptual framework. The study highlights the interrelationship between neuropedagogy, cognitive psychology, and modern didactics from a scientific perspective. Furthermore, the neurophysiological bases of key cognitive processes-such as memory, attention, and motivation-are analyzed in the context of educational practice. The paper also evaluates the effectiveness of innovative teaching strategies developed on the basis of neuroscience and their role in improving educational quality. The findings indicate that the integration of neuroscience contributes to the individualization of learning, optimization of instructional processes, and the development of higher-order cognitive competencies among students.*

Keywords: *neuropedagogy, neuroscience in education, cognitive processes, educational quality, innovative teaching methods, didactics, instructional strategies, individualized learning, motivation, memory*

Джампулатова Нигора Махмудовна
Доцент, доктор философии (кандидат наук) в области педагогических наук
Узбекский национальный институт музыки и искусства имени Юнуса Раджаби

ИНТЕГРАЦИЯ НЕЙРОНАУК В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретико-методологические основы интеграции нейронаук в образовательный процесс и обосновываются их педагогические импликации в рамках концептуального подхода. В исследовании раскрывается взаимосвязь нейропедагогики, когнитивной психологии и современной дидактики с научной точки зрения. Особое внимание уделяется нейрофизиологическим основам когнитивных процессов, таких как память, внимание и мотивация, в контексте педагогической деятельности. Также рассматривается эффективность инновационных образовательных стратегий, разработанных на основе нейронаук, и их роль в повышении качества*

образования. Результаты исследования показывают, что интеграция нейронаук способствует индивидуализации обучения, оптимизации образовательного процесса и развитию высших когнитивных компетенций обучающихся.

Ключевые слова: *нейропедагогика, нейронауки в образовании, когнитивные процессы, качество образования, инновационные методы обучения, дидактика, образовательные стратегии, индивидуализация обучения, мотивация, память.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi globallashuv, raqamlashtirish va bilimlar iqtisodiyotining jadal rivojlanishi sharoitida tub transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Ushbu transformatsiya sharoitida ta’lim jarayoni nafaqat bilimlarni uzatish, balki ularni samarali o‘zlashtirish, qayta ishlash va amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan kompleks tizim sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayonini inson miyasining ishlash mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish zarurati tobora dolzarb tus olmoqda. Neyroilmlar (neuroscience) inson miyasining tuzilishi va funksional faoliyatini o‘rganish orqali o‘rganish jarayonining biologik asoslarini tushuntirib beradi. Ushbu ilmiy yo‘nalishning pedagogika bilan integratsiyasi - ya’ni neyropedagogika - ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda o‘qitish metodlarini optimallashtirish imkonini yaratadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi ularning kognitiv faolligi, motivatsiyasi va emotsional holatiga bevosita bog‘liq. Shu sababli, ta’lim jarayonida neyrofiziologik mexanizmlarni hisobga olish pedagogik samaradorlikning muhim omiliga aylanmoqda. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Neyroilmlar va ta’lim integratsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu yo‘nalishning ilmiy asoslarini shakllantirib bermoqda. Xususan, P. Howard-Jones ta’lim tizimida neyroilmlardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilib, pedagogik amaliyotda keng tarqalgan “neuromiflar”ni aniqlagan hamda ularni bartaraf etish zarurligini ta’kidlagan. T. Tokuhama-Espinosa tomonidan ilgari surilgan “Mind, Brain and Education” konsepsiyasi neyroilmlar, psixologiya va pedagogika integratsiyasining ilmiy asoslarini belgilab beradi hamda o‘qitish jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Kognitiv psixologiya doirasidagi tadqiqotlarga ko‘ra, o‘rganish jarayoni diqqat, xotira va tafakkur kabi kognitiv jarayonlar orqali amalga oshadi. Ushbu jarayonlarning neyrofiziologik asoslari miya tuzilmalari faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, masalan, gipokampus uzoq muddatli xotirani shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. J. Sweller tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv yuklama nazariyasiga ko‘ra, o‘quv materialini ortiqcha murakkablashtirish o‘rganish samaradorligini pasaytiradi, optimal yuklama esa bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, N. Doidge tomonidan asoslangan neyroplastiklik nazariyasi inson miyasi o‘rganish jarayonida doimiy o‘zgarish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi, bu esa ta’limning dinamik va rivojlanishga ochiq tizim ekanligini tasdiqlayd. Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda neyroilmlar integratsiyasining ta’lim jarayoniga ta’sirini aniqlash uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot dizayni sifat jihatidan aralash (mixed-methods) metodologiyaga asoslanib, nazariy tahlil, eksperimental kuzatuv va statistik qayta ishlash bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Nazariy tahlil metodi** — neyropedagogika, kognitiv psixologiya va didaktika sohalaridagi ilmiy adabiyotlar chuqur tahlil qilindi (Howard-Jones, 2014; Tokuhama-Espinosa, 2011).

2. **Pedagogik eksperiment** — oliy ta’lim muassasasida 2 guruh (nazorat va tajriba) asosida o‘tkazildi. Tajriba guruhida neyroilmlar asosida ishlab chiqilgan o‘qitish strategiyalari qo‘llanildi.

3. **Kuzatuv va diagnostika** — talabalarning diqqat, xotira va motivatsiya darajalari maxsus testlar orqali baholandi.

4. **Statistik tahlil** — olingan natijalar SPSS dasturi yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan 2-kurs talabalari tanlab olindi (N=120). Ular tasodifiy tanlov asosida nazorat (60 nafar) va tajriba (60 nafar) guruhlariga ajratildi.

Tadqiqotning asosiy gipotezasi quyidagicha shakllantirildi: **agar ta’lim jarayonida neyroilmlar asosida ishlab chiqilgan metodlar qo‘llanilsa, unda talabalarning kognitiv faolligi va o‘zlashtirish darajasi sezilarli oshadi.**

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari neyroilmlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi:

Diqqat darajasi: 18% ga oshdi

Xotira samaradorligi: 22% ga yaxshilandi

Motivatsiya ko‘rsatkichi: 25% ga ortdi

Akademik natijalar: o‘rtacha baholar 15–20% ga yuqori bo‘ldi

Bu natijalar neyroilmlar asosida tashkil etilgan o‘qitish metodlari o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Natijalarni ilmiy jihatdan izohlashda bir qator nazariy qarashlar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, miya plastiklik nazariyasiga ko‘ra, inson miyasi doimiy ravishda o‘zgarish va rivojlanish xususiyatiga ega (Doidge, 2007). Shu sababli, o‘quv jarayonida faol, interaktiv va takroriy metodlardan foydalanish neyron aloqalarning mustahkamlanishiga olib keladi. Shuningdek, “kognitiv yuklama nazariyasi (Cognitive Load

Theory)”ga muvofiq, o‘quv materialini to‘g‘ri strukturaviy tashkil etish o‘quvchilarning ortiqcha kognitiv yuklamasini kamaytiradi va o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi (Sweller, 2011). Tadqiqotimizda aynan shu tamoyil asosida qismlarga ajratilgan va vizual materiallar bilan boyitilgan darslar yuqori natija berdi. Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat — **motivatsiyaning neyrobiologik asoslari** hisoblanadi. Dopamin tizimi orqali amalga oshadigan mukofot mexanizmi o‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi (Immordino-Yang & Damasio, 2007). Tajriba guruhida qo‘llanilgan rag‘batlantiruvchi metodlar aynan shu mexanizmni faollashtirdi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, neyroilmlar integratsiyasi: ta’limni individuallashtiradi, o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi, o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Xulosa va tavsiyalar: Mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Neyroilmlar va pedagogika integratsiyasi ta’lim jarayonini ilmiy asosda modernizatsiya qilish imkonini beradi. Kognitiv jarayonlarning neyrofiziologik xususiyatlarini hisobga olish o‘quvchilarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Neyropedagogik yondashuvlar o‘quv jarayonini individuallashtirish va optimallashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Amaliy tavsiyalar sifatida: o‘qituvchilar uchun neyropedagogika bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etish; dars jarayonida vizual, interaktiv va emotsional metodlardan keng foydalanish; ta’lim dasturlariga neyroilmlar asosidagi metodlarni integratsiya qilish tavsiya etiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt bilan integratsiya masalalarini chuqurroq o‘rganish muhim ilmiy vazifa sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Doidge, N. (2007). *The Brain That Changes Itself*. New York: Penguin Books.

2. Howard-Jones, P. (2014). Neuroscience and education: myths and messages. *Nature Reviews Neuroscience*, 15(12), 817–824.

3. Immordino-Yang, M. H., & Damasio, A. (2007). We feel, therefore we learn. *Mind, Brain, and Education*, 1(1), 3–10.

4. Sousa, D. A. (2011). *How the Brain Learns*. Thousand Oaks, CA: Corwin Press.

5. Sweller, J. (2011). Cognitive Load Theory. *Psychology of Learning and Motivation*, 55, 37–76.

6. Tokuhama-Espinosa, T. (2011). *Mind, Brain, and Education Science*. New York: W.W. Norton.

7. Jensen, E. (2008). *Brain-Based Learning*. Thousand Oaks, CA: Corwin Press.

8. Goswami, U. (2006). Neuroscience and education: from research to practice? *Nature Reviews Neuroscience*, 7(5), 406–413.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

G‘afurov Abduvoxid Maxmudovich
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti

GIMNASTIKA SPORT TO‘GARAKLARI ORQALI 15–16 YOSHLI O‘QUVCHILARDA KUCH JISMONIY SIFATINI OSHIRISH USULLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 15–16 yoshli o‘quvchilarda kuch jismoniy sifatini gimnastika sport to‘garaklari orqali rivojlantirishning samarali pedagogik usullari tadqiq etilgan. O‘smirlik davrida mushak tizimining faol rivojlanishi kuch sifatini maqsadli shakllantirish uchun qulay fiziologik asos yaratadi. Tadqiqotning maqsadi – gimnastika mashg‘ulotlari asosida ishlab chiqilgan maxsus mashqlar majmuasining kuch ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash va uning samaradorligini tajriba-sinov orqali asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, test sinovlari (turnikda tortilish, qo‘llarni bukib-yozish, statik ushlab turish mashqlari), hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, tizimli ravishda qo‘llanilgan gimnastika mashqlari tajriba guruhida kuch ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada oshishiga olib keldi (p<0,05). Olingan natijalar gimnastika sport to‘garaklari kuch sifatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *kuch sifati, gimnastika, sport to‘garagi, o‘smirlar, pedagogik metodika, jismoniy tayyorgarlik.*

Gafurov Abduvokhid Makhmudovich
Associate Professor, Kokand State University

METHODS FOR IMPROVING STRENGTH PHYSICAL QUALITY IN 15–16-YEAR-OLD STUDENTS THROUGH GYMNASTICS SPORTS CLUBS

Annotation: *This article examines effective pedagogical methods for improving strength physical quality in 15–16-year-old students through gymnastics sports clubs. Adolescence represents a favorable physiological period for targeted strength development due to the active growth of the muscular system. The aim of the study was to determine the effectiveness of a specially designed set of gymnastics exercises on strength indicators and to justify its efficiency through a pedagogical experiment. The research methods included pedagogical observation, physical fitness testing (pull-ups, push-ups, static holding exercises), and mathematical-statistical analysis. The experimental results demonstrated a statistically significant improvement in strength indicators in the experimental group compared to the control group (p<0.05). The findings confirm that systematic gymnastics training in sports clubs serves as an effective pedagogical tool for strength development. The results can be applied in the physical education process of secondary schools.*

Keywords: *strength quality, gymnastics, sports club, adolescents, pedagogical methodology, physical fitness.*

Гафуров Абдувохид Махмудович
Доцент Кокандского государственного университета

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ СИЛОВОГО ФИЗИЧЕСКОГО КАЧЕСТВА У УЧАЩИХСЯ 15–16 ЛЕТ ПОСРЕДСТВОМ ЗАНЯТИЙ В ГИМНАСТИЧЕСКИХ СПОРТИВНЫХ КРУЖКАХ

Аннотация: *В данной статье исследуются эффективные педагогические методы развития силового физического качества у учащихся 15–16 лет посредством занятий в гимнастических спортивных кружках. Подростковый возраст является благоприятным физиологическим периодом для целенаправленного развития силы в связи с активным ростом мышечной системы. Цель исследования заключалась в определении эффективности специально разработанного комплекса гимнастических упражнений и обосновании его результативности в ходе педагогического эксперимента. В процессе исследования применялись педагогическое наблюдение, тестирование физической подготовленности (подтягивания, отжимания, статические упражнения), а также методы математико-статистического анализа. Результаты эксперимента показали достоверное повышение силовых показателей у учащихся экспериментальной группы по сравнению с контрольной (p<0,05). Полученные данные подтверждают, что занятия гимнастикой в спортивных кружках являются эффективным педагогическим средством развития силы. Материалы исследования могут быть использованы в практике физического воспитания в общеобразовательных школах.*

Ключевые слова: *силовые качества, гимнастика, спортивный кружок, подростки, педагогическая методика, физическая подготовленность.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta’minlash, ayniqsa o‘smirlik davrida ularning asosiy jismoniy sifatlarini takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. 15–16 yosh davri organizmning intensiv o‘sishi, mushak tizimining faol shakllanishi va kuch imkoniyatlarining tabiiy ravishda ortishi bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda maqsadli va ilmiy asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etish orqali kuch sifatini samarali rivojlantirish mumkin (Platonov, 2015). Kuch jismoniy sifati tezkorlik, chidamlilik va chaqqonlik kabi boshqa sifatlarning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi (Verkhoshanskiy, 2018). Gimnastika sporti o‘zining ko‘p qirrali harakatlar tizimi, statik va dinamik yuklamalarni uyg‘unlashtira olishi bilan kuchni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, o‘z tana vaznida bajariladigan mashqlar mushaklarning chuqur qatlamlarini faollashtirib, koordinatsion qobiliyatni ham rivojlantiradi (Salamov, 2019). Sport to‘garaklari esa darsdan tashqari jarayonda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish imkonini beradi. Mavjud tadqiqotlarda o‘smirlar jismoniy tayyorgarligi keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, gimnastika sport to‘garaklari sharoitida kuch sifatini oshirishning kompleks pedagogik mexanizmlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu bois mazkur tadqiqotning maqsadi 15–16 yoshli o‘quvchilarda gimnastika mashg‘ulotlari orqali kuch sifatini rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot 15–16 yoshli umumta’lim maktabi o‘quvchilari o‘rtasida tashkil etildi. Jami 30 nafar o‘quvchi tadqiqotga jalb qilinib, ular teng ravishda nazorat (n=15) va tajriba (n=15) guruhlariga ajratildi. Tadqiqot davomiyligi 12 haftani tashkil etdi va mashg‘ulotlar haftasiga 3 marotaba, 60 daqiqadan olib borildi. Nazorat guruhida an’anaviy jismoniy tarbiya dasturi asosida mashg‘ulotlar tashkil etildi. Tajriba guruhida esa kuch sifatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus gimnastika mashqlari majmuasi qo‘llanildi. Dastur tarkibiga turnikda tortilish, brusda tayanib bukib-yozish, statik plank, devorga suyanib o‘tirish (izometrik mashq), sakrash elementlari va yadro mushaklarini mustahkamlovchi mashqlar kiritildi. Yuklama hajmi va intensivligi bosqichma-bosqich oshirib borildi. Kuch ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun quyidagi testlar qo‘llanildi: turnikda maksimal tortilish soni, 30 soniyada qo‘llarni bukib-yozish soni va plank holatini ushlab turish vaqti. O‘lchovlar tajriba boshida va yakunida amalga oshirildi. Natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, o‘rtacha arifmetik qiymat (M), standart og‘ish (SD) va Student t-mezoni orqali ishonchlilik darajasi aniqlandi ($p<0.05$). Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish va taqqoslash metodlaridan ham foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlarining kuch ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli farq kuzatilmadi ($p>0.05$). Bu holat guruhlarning dastlabki tayyorgarlik darajasi bir xil ekanligini ko‘rsatdi. 12 haftalik mashg‘ulotlar yakunida esa tajriba guruhida kuch ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Turnikda tortilish testi bo‘yicha tajriba guruhida o‘rtacha natija 6,8 martadan 10,9 martagacha oshdi, bu 60,2% o‘sishni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa ko‘rsatkich 7,1 martadan 8,2 martagacha oshib, 15,4% o‘sish qayd etildi. Qo‘llarni bukib-yozish testi bo‘yicha tajriba guruhida 18,4 martadan 26,7 martagacha (45,1%) o‘sish kuzatildi, nazorat guruhida esa 19,1 martadan 21,3 martagacha (11,5%) oshish qayd etildi. Statik plank testi natijalari ham tajriba guruhida sezilarli yaxshilandi: 52 soniyadan 79 soniyagacha (51,9%) o‘sish kuzatildi, nazorat guruhida esa 54 soniyadan 61 soniyagacha (13%) oshish aniqlandi. Statistik tahlil natijalari tajriba guruhidagi o‘zgarishlarning ishonchli ekanligini ko‘rsatdi ($p<0.05$). Bu esa gimnastika sport to‘garaklarida maxsus ishlab chiqilgan statik-dinamik mashqlar majmuasining kuch sifatini rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi.

1-jadval

15–16 yoshli o‘quvchilarning kuch ko‘rsatkichlari dinamikasi (M±SD)

Testlar	Guruh	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	O‘sish (%)
Turnikda tortilish (marta)	Nazorat	7.1 ±1.2	8.2 ±1.3	15.4%
	Tajriba	6.8 ±1.1	10.9 ±1.4	60.2%
Qo‘llarni bukib-yozish (30 soniya)	Nazorat	19.1 ±2.3	21.3 ±2.5	11.5%
	Tajriba	18.4 ±2.1	26.7 ±2.8	45.1%
Plank (soniya)	Nazorat	54 ±6.4	61 ±7.1	13.0%
	Tajriba	52 ±5.9	79 ±6.8	51.9%

Olingan natijalar 15–16 yoshli o‘quvchilarda kuch sifatini rivojlantirishda gimnastika sport to‘garaklarining yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, statik va dinamik mashqlarni uyg‘unlashtirish mushaklarning ham izometrik, ham izotonik faoliyatini faollashtirib, kuch ko‘rsatkichlarining sezilarli oshishiga olib keldi. Bu natijalar kuchni

bosqichma-bosqich oshirib borish tamoyili samarali ekanligini tasdiqlaydi (Platonov, 2015). Tadqiqot natijalari yoshga xos fiziologik xususiyatlar bilan ham izohlanadi. 15–16 yoshda mushak massasi ortishi va nerv-mushak apparatining takomillashuvi kuchni rivojlantirish uchun qulay biologik zamin yaratadi (Verkhoshanskiy, 2018). Gimnastika mashqlarining o‘z tana vaznida bajarilishi esa mushaklararo koordinatsiyani yaxshilab, markaziy asab tizimi va mushaklar o‘rtasidagi funksional bog‘lanishni mustahkamlaydi (Salamov, 2019). Nazorat guruhida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, ularning o‘sish sur’ati tajriba guruhiga nisbatan ancha past bo‘ldi. Bu esa an’anaviy mashg‘ulotlarga nisbatan maxsus ishlab chiqilgan metodikaning ustunligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, plank va izometrik mashqlarning yadro mushaklarini mustahkamlashdagi roli kuch sifatining kompleks rivojlanishiga xizmat qildi. Shunday qilib, gimnastika sport to‘garaklarida individual yondashuv, yuklamani progressiv oshirish va mashqlarni ilmiy asosda tanlash kuch jismoniy sifatini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari 15–16 yoshli o‘quvchilarda kuch jismoniy sifatini rivojlantirishda gimnastika sport to‘garaklarining muhim pedagogik imkoniyatga ega ekanligini ilmiy asosda tasdiqladi. 12 haftalik tajriba-sinov jarayonida maxsus ishlab chiqilgan statik va dinamik mashqlar majmuasini qo‘llash tajriba guruhida kuch ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Ayniqsa, turnikda tortilish, qo‘llarni bukib-yozish hamda plank testlari natijalari mushak kuchi va statik chidamlilikning kompleks rivojlanganini ko‘rsatdi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlik davrida mushak tizimining faol o‘sishi va nerv-mushak apparatining takomillashuvi kuch sifatini rivojlantirish uchun qulay fiziologik zamin yaratadi (Platonov, 2015). Gimnastika mashqlarining o‘z tana vaznida bajarilishi mushaklararo koordinatsiyani yaxshilab, funksional kuchni shakllantirishga xizmat qiladi (Verkhoshanskiy, 2018). Shu bilan birga, yuklamani bosqichma-bosqich oshirish, mashg‘ulotlarning tizimliligi va individual yondashuv samaradorlikni ta’minlovchi asosiy pedagogik omillar ekanligi aniqlandi (Salamov, 2019). Natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, gimnastika sport to‘garaklari umumta’lim maktablarida kuch sifatini rivojlantirishning samarali shakli bo‘lib, jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirishda metodik asos sifatida qo‘llanishi mumkin. Kelgusida mazkur yo‘nalishda yuklama parametrlarini differensiallashtirish hamda uzoq muddatli monitoring olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotar ro‘yxati:

1. azizov, s. v., mahmudjonov, a. a., & oripov, a. f. (2024). sprinterlarni tayyorlashda psixologik tayyorgarlikning ahamiyati. *экономика и социум*, (6-2 (121)), 85-90.
2. abduvoxid o‘g‘li, m. a. (2025, december). paralimpiya sport turi bilan shug ‘ullanuvchi talabalarning kuch sifatini takomillashtirishda statik mashqlarning ahamiyati. in *partner conferences of the international scientific journal research focus* (vol. 1, no. 1, pp. 3-6).
3. abduvoxi o‘g‘li, m. a. (2025). paralimpiya sport turi bilan shug ‘ullanuvchi talabalarda kuch sifatini takomillashtirishning pedagogik zaruriyati. *лучшие интеллектуальные исследования*, *54*(2), 90-98.
4. abduvoxid o‘g‘li, m. a. (2025). paralimpiya sport turi bilan shug ‘ullanuvchi talabalarning kuch sifatini o ‘lchash mezonlari. *лучшие интеллектуальные исследования*, *55*(2), 34-40.
5. o‘g‘li, m. a. a. (2025). paralimpiya sport turi bilan shug ‘ullanuvchi talabalarning kuch sifatini takomillashganlik darajasini o ‘lchash usullari. *research focus*, *4*(10), 97-101.
6. makhmudovich, g. a. (2024). movement skills of young gymnasts and the laws of its formation. *international journal of science and technology*, 751-754.
7. mahmudjonov, a. a., izatullayev, a. m., & ergashaliyev, d. n. (2024). the importance of general physical fitness in increasing the efficiency of sports training in private schools. *international journal of science and technology*, 755-759.
8. makhmudovich, g. a. (2024). the importance of special methods in increasing the efficiency of sports exercises. *international journal of science and technology*, 730-734.
9. makhmudovich, g. a. (2024). methods of monitoring the physical development of high school students through gymnastics. *international journal of science and technology*, 735-739.
10. luqmonov, i. b. (2022). karate sport to ‘garaklarining umumta’lim maktablari o ‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligiga ta’siri. *international conference on learning and teaching*, *1*(9), 166-170.
11. shamsitdinova, m. f. (2022). umumta’lim maktablari o ‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligiga basketbol sport to‘garaklarining ta’siri. *international conference on learning and teaching*, *1*(9), 208-212.
12. костикова, о. в., азизов, с. в., болтобаев, с. а., азизова, р. и., & махмуджонов, а. а. (2025). развитие у юных баскетболистов скорости и точности броска. *физическая культура, спорт-наука и практика*, *2*, 109-114.
13. jo’rayev, t. t., mahmudjonov, a. a., & shamsitdinova, m. f. (2024). the effectiveness of using national action games in developing sports elements. *masters*, *2*, 29-33.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Raximberdiyeva Maxfuzaxon Murotovna
Qo‘qon davlat universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti, Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

SHAXS KAMOLOTINI TA’MINLASHDA XALQ PEDAGOGIKASINING IMKONIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqola shaxs kamolotini ta’minlashda xalq pedagogikasining ahamiyati va imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda xalq pedagogikasi elementlari – ertaklar, rivoyatlar, maqollar, xalq o‘yinlari va hunarmandchilik – shaxsning axloqiy, ma’naviy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishidagi roli tahlil qilindi. Shuningdek, xalq pedagogikasini zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning samaradorligi va usullari ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalq pedagogikasi shaxsni milliy va madaniy qadriyatlarni anglaydigan, ijtimoiy moslashuvchan va ijodiy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *shaxs kamoloti, xalq pedagogikasi, milliy tarbiya, integratsiya, zamonaviy ta’lim*

Рахимбердиева Махфузахон Муротовна
Преподаватель, кафедра педагогики, факультет педагогики и психологии,
Кокандский государственный университет

ПРИМЕНЕНИЕ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация: *Статья посвящена изучению значимости и возможностей народной педагогики в обеспечении личностного становления. В исследовании анализируются элементы народной педагогики – сказки, предания, пословицы, народные игры и ремесла – и их роль в нравственном, духовном, интеллектуальном и социальном развитии личности. Рассматриваются также эффективность и методы интеграции народной педагогики в современный образовательный процесс. Результаты исследования показывают, что народная педагогика является важным инструментом воспитания личности, способной понимать национальные и культурные ценности, адаптироваться в обществе и развивать творческий потенциал.*

Ключевые слова: *личностное становление, народная педагогика, национальное воспитание, интеграция, современное образование*

Mahfuzakhon Murotovna Rahimberdieva
Teacher of the Department of "Pedagogy" of the Faculty of Pedagogy and Psychology of Kokand State University

APPLICATION OF FOLK PEDAGOGY IN PROVIDING PERSONAL DEVELOPMENT.

Abstract; *This article is devoted to studying the significance and possibilities of folk pedagogy in ensuring personality development. The study analyzes elements of folk pedagogy – fairy tales, legends, proverbs, folk games, and crafts – and their role in the moral, spiritual, intellectual, and social development of the individual. The effectiveness and methods of integrating folk pedagogy into the modern educational process are also considered. The research results indicate that folk pedagogy is an important tool for educating individuals who understand national and cultural values, are socially adaptable, and possess creative potential.*

Keywords: *personality development, folk pedagogy, national education, integration, modern education*

Kirish

Shaxs kamoloti – insonning ma’naviy, axloqiy, intellektual, ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlanishi jarayoni bo‘lib, u har bir shaxsning hayotiy faoliyati va jamiyatdagi o‘rni bilan bevosita bog‘liqdir. Shaxsning kamolotga erishishi nafaqat individual salohiyat, balki uning tarbiyalanayotgan muhit, jamiyat qadriyatlari va milliy pedagogik an’analar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, shaxs kamolotini ta’minlash masalasi bugungi kunda pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik sohalarida keng ilmiy tadqiqotlarning markazida turadi. Xalq pedagogikasi bu jarayonda muhim vosita hisoblanadi. U xalqning asrlar davomida to‘plagan tarbiyaviy tajribasini, odob-axloq me’yorlarini, an’anaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Xalq pedagogikasi shaxsni tarbiyalashda nafaqat ma’naviy, balki intellektual va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, xalq ertaklari va rivoyatlari orqali

bola axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi, xalq o‘yinlari va hunarmandchilik faoliyati orqali amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, jamoaviy mashg‘ulotlar orqali esa ijtimoiy muhitga moslashishni o‘rganadi. Zamonaviy sharoitda, globalizatsiya va texnologik rivojlanish shaxs tarbiyasiga yangi chaqiriqlarni keltirmoqda. Yoshlar orasida milliy qadriyatlar bilan bog‘lanish darajasi pasayishi, axloqiy muammolar va kommunikativ qiyinchiliklarning kuchayishi muammolarni yanada murakkablashtirmoqda. Shu sababli, xalq pedagogikasining boy tajribasi va an’anaviy metodlarini bugungi ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashtirish – shaxs kamolotini ta’minlashning samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Shaxs kamoloti va xalq pedagogikasi masalalari bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, xalq pedagogikasi shaxsning axloqiy, ma’naviy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi. V. Sukhomlinskiy va boshqa klassik pedagoglar xalq pedagogikasining asosiy vazifasi yosh avlodni nafaqat ma’lumot bilan ta’minlash, balki ularning axloqiy va ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishdan iborat ekanini ta’kidlagan [1, 45–47]. Ularning fikricha, xalq pedagogikasi shaxsning ichki dunyosini boyitadi, odob-axloq, mehr-muruvvat va insonparvarlik xislatlarini mustahkamlaydi. O‘zbekiston olimlari ham bu mavzuni keng tadqiq qilgan. A. Yo‘ldoshev va G. Xasanova xalq pedagogikasining milliy tarbiyadagi o‘rnini yoritib, uning ertaklar, rivoyatlar, maqollar va an’anaviy o‘yinlar orqali bolalarda ijtimoiy va axloqiy ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vosita ekanligini ta’kidlagan [2, 56–60]. Shu bilan birga, ular xalq pedagogikasi elementlarini zamonaviy maktab va maktabgacha ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullarini ham taklif qilgan. Shaxs kamoloti psixologiya va pedagogika nazariyalarida keng o‘rganilgan. Erik Erikson shaxsning psixososial rivojlanish bosqichlarini aniqlagan, Lev Vygotskiy shaxs rivojlanishini ijtimoiy muhit va madaniy meros bilan uzviy bog‘liq deb hisoblagan [3, 102–108]. Bu tadqiqotlar shaxs kamolotining faqat individual yoki biologik rivojlanish bilan chegaralanmasligini, balki pedagogik va madaniy omillar bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbek olimlari ham shaxs kamoloti va milliy pedagogika o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilgan. Shu jumladan, bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirish va xalq pedagogikasi vositalarini qo‘llash shaxsning axloqiy va ma’naviy tomonlarini rivojlantirishda samarali ekanligi qayd etilgan [4, 78–82]. So‘nggi yillarda xalq pedagogikasini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida xalq pedagogikasi elementlarini qo‘llash orqali shaxsning ijodiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligi ilmiy tadqiqotlar orqali isbotlangan [5, 33–39]. Shu bilan birga, xalq pedagogikasining milliy va madaniy qadriyatlarni yosh avlodga singdirishdagi ahamiyati ham alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, xalq pedagogikasi va psixologik pedagogik yondashuvlar o‘rtasidagi uyg‘unlik xorijiy adabiyotlarda ham tadqiq qilingan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik metodlarni tanlashda milliy va madaniy kontekstni hisobga olish shaxs tarbiyasining samaradorligini oshiradi. Bu esa xalq pedagogikasining nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy shaxs tarbiyasida ham samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi [6, 121–127].

Metodologiya

Ushbu tadqiqot xalq pedagogikasining shaxs kamolotidagi imkoniyatlarini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda nazariy va amaliy usullar uyg‘un tarzda qo‘llanildi. Nazariy qismda pedagogika, psixologiya va madaniyatshunoslik adabiyotlari, ilmiy maqolalar va milliy pedagogik meros manbalari tahlil qilindi. Amaliy qismda esa eksperimental va kuzatuv usullari asosida shaxsning axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanish darajasi o‘rganildi, shuningdek, xalq pedagogikasi elementlarini (ertaklar, rivoyatlar, xalq o‘yinlari va hunarmandchilik) qo‘llashning samaradorligi baholandi. Tadqiqot subyektlari sifatida maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar, shuningdek pedagoglar va ota-onalar jalb qilindi. Tadqiqot natijalari sifatli va miqdoriy tahlil usullari yordamida umumlashtirildi, shaxs kamolotini shakllantirishdagi xalq pedagogikasining roli va imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Tahlil natijalari va muhokama

Xalq pedagogikasi – bu millatning asrlar davomida to‘plagan tarbiyaviy tajribasi, an’anaviy qadriyatlari, odob-axloq normalari va axloqiy tamoyillarini o‘z ichiga olgan pedagogik tizimdir. U shaxsni nafaqat bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash, balki uning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Xalq pedagogikasi asosida shakllangan tarbiyaviy metodlar bolalarning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini, ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini va milliy ongini rivojlantiradi. Xalq pedagogikasining mohiyati uning milliy qadriyatlarni avlodlarga uzluksiz uzatish, shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash va axloqiy, ma’naviy xususiyatlarini shakllantirishdagi roli bilan belgilanadi. Ushbu pedagogik tizim shaxsni faqat bilimga ega qilish bilan cheklanmay, balki uning ichki dunyosini boyitadi, mehr-muruvvat, halollik va insonparvarlik xislatlarini mustahkamlaydi. Shaxs pedagogik tajribani amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradi, masalan, xalq o‘yinlari, hunarmandchilik va kundalik amaliy mashg‘ulotlar orqali uning qobiliyatlari rivojlanadi. Shuningdek, xalq pedagogikasi har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga oladi, uning qiziqishlari va qobiliyatlariga mos ravishda tarbiyaviy ta’sirni optimallashtiradi. Shu tariqa, shaxs motivatsiyasi oshadi, o‘zini rivojlantirishga intilishi kuchayadi va milliy qadriyatlarni chuqurroq qabul qiladi. Xalq pedagogikasi

shaxsni tarbiyalashda milliy va madaniy merosni saqlash, avlodlar o‘rtasida uzluksiz uzatish va jamiyat bilan uyg‘unlashtirish vazifasini ham bajaradi.

Shaxs kamoloti – bu insonning ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy va intellektual jihatdan rivojlanish jarayoni bo‘lib, u nafaqat individual salohiyat bilan, balki atrof-muhit va madaniy meros bilan uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, xalq pedagogikasi shaxs kamolotining shakllanishida muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy pedagogik tajriba va an’analar, og‘zaki ijod namunalar, ertak va rivoyatlar, xalq o‘yinlari va hunarmandchilik faoliyati orqali bolalar nafaqat bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi, balki axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarni hayotiy tajriba orqali qabul qiladi Xalq pedagogikasi shaxsni tarbiyalashda uning ichki dunyosini boyitadi, mehr-muruvvat, halollik, fidoyilik va insonparvarlik xislatlarini shakllantiradi. Shu orqali bolalar kundalik hayotiy vaziyatlarda axloqiy qarorlar qabul qilishni, o‘zaro munosabatlarda adolat va hurmatni qadrlashni o‘rganadilar. Shu bilan birga, xalq pedagogikasi orqali shakllangan ijtimoiy tajriba bolalarning jamiyatdagi o‘rni, muomala qobiliyati va jamoada faol ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bolalar an’anaviy o‘yinlar va jamoaviy faoliyatlar orqali muvofiqlik, mas’uliyat, hamkorlik va yordam berish kabi ijtimoiy qobiliyatlarni o‘zlashtiradi, bu esa ularning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi va jamiyat bilan uyg‘unlashuvini ta’minlaydi. Shuningdek, xalq pedagogikasi shaxsning intellektual va ijodiy rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Hunarmandchilik, san’at va amaliy faoliyatlar orqali bola tasavvur qobiliyati, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa shaxsning o‘ziga xos dunyoqarashi va ijodiy salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi, uning mustaqil fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Xalq pedagogikasi shuningdek shaxsning milliy va madaniy ongini rivojlantiradi. Milliy an’ana va qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali bolalar o‘z milliy identifikatsiyasini anglay boshlaydi, tarixiy va madaniy merosni qadrlashni o‘rganadi. Shu tarzda, shaxs o‘z jamiyati bilan uyg‘unlashadi, milliy qadriyatlar va madaniyatni hurmat qilishga tayyor bo‘ladi, jamiyatdagi mas’uliyat hissi kuchayadi. Xalq pedagogikasi shaxs kamolotida kompleks va integratsiyalashgan rol o‘ynaydi. U bolalarning axloqiy va ma’naviy rivojlanishini mustahkamlaydi, ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantiradi, intellektual va ijodiy salohiyatini oshiradi hamda milliy va madaniy ongini rivojlantiradi. Shu tariqa, shaxsning to‘la kamol topishi, jamiyatga foydali va milliy qadriyatlarni qadrlaydigan a’zo bo‘lib yetishishi xalq pedagogikasining beqiyos roli bilan bevosita bog‘liq ekanligi ochiq-oydin namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ta’lim jarayoni shaxsni nafaqat bilim bilan ta’minlash, balki uning axloqiy, ma’naviy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, xalq pedagogikasining boy tajribasini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy pedagogik meros – ertaklar, rivoyatlar, maqollar, xalq o‘yinlari, hunarmandchilik va og‘zaki ijod namunalari – shaxsning rivojlanishida samarali vosita bo‘lishi mumkin. Ularni maktab va maktabgacha ta’lim jarayoniga uyg‘unlashtirish orqali pedagoglar nafaqat bilimni, balki ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni ham yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Integratsiya jarayoni avvalo pedagogik metod va texnologiyalarni milliy va madaniy kontekstga moslashtirishni talab qiladi. Masalan, ertak va rivoyatlar dars jarayonida mavzuga moslashtirilgan holda ishlatilsa, ular nafaqat tinglovchilarning qiziqishini uyg‘otadi, balki ijtimoiy va axloqiy tajribani amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Xalq o‘yinlari va jamoaviy mashg‘ulotlar esa bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini, jamoada ishlash va hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu tariqa, xalq pedagogikasi elementlarini zamonaviy dars jarayoniga kiritish shaxsning nafaqat bilim, balki ijtimoiy va ma’naviy jihatdan ham rivojlanishini ta’minlaydi. Shuningdek, xalq pedagogikasini integratsiya qilish jarayoni shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hunarmandchilik va amaliy faoliyatlarni dars rejalariga kiritish bolalarning tasavvur, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Bu esa shaxsning o‘ziga xos dunyoqarashi va muammolarni hal qilish qobiliyatini mustahkamlaydi, zamonaviy ta’limda talab qilinadigan ko‘nikmalarni shakllantiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar shuningdek, milliy qadriyatlar va xalq pedagogikasi elementlarini elektron ta’lim resurslari va innovatsion metodlar bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi. Masalan, multimedia dasturlar orqali ertak va rivoyatlar, xalq o‘yinlari va amaliy mashg‘ulotlarni interaktiv shaklda taqdim etish bolalarning o‘zaro ishtirokini oshiradi, ularni faol o‘rganishga undaydi va ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Xalq pedagogikasini zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish shaxsning axloqiy, ma’naviy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini bir vaqtning o‘zida ta’minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon shaxsning milliy va madaniy qadriyatlarni chuqurroq anglashini, ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, shu bilan birga shaxsning jamiyatdagi samarali va foydali faoliyatini ta’minlaydi. Shu sababli, xalq pedagogikasining zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiyasi shaxs kamolotini ta’minlashda asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi.

Xulosa

Shaxs kamoloti insonning ma’naviy, axloqiy, intellektual va ijtimoiy jihatdan to‘la rivojlanishi jarayoni sifatida, nafaqat individual salohiyatga, balki milliy va madaniy merosga ham bog‘liq ekanligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalq pedagogikasi shaxs kamolotining shakllanishida beqiyos rol o‘ynaydi. U nafaqat axloqiy va

ma’naviy qadriyatlarni yetkazadi, balki bolalarning ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarini, ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, shaxs milliy va madaniy qadriyatlarni chuqurroq anglab, jamiyat bilan uyg‘unlashadi va o‘zining shaxsiy salohiyatini to‘la amalga oshira oladi.

Xalq pedagogikasi elementlarini zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning ahamiyati ham tadqiqot orqali tasdiqlangan. Ertaklar, rivoyatlar, xalq o‘yinlari va hunarmandchilik kabi metodlar nafaqat o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, balki shaxsning axloqiy qarorlar qabul qilish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, xalq pedagogikasi shaxsning milliy ongini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi, uning o‘z milliy identifikatsiyasini anglashini va tarixiy-madaniy merosni qadrlashini ta’minlaydi. Umuman olganda, shaxs kamolotini ta’minlash jarayonida xalq pedagogikasining roli kompleks va integratsiyalashgan bo‘lib, u shaxsning axloqiy, ma’naviy, ijtimoiy, intellektual va madaniy rivojlanishini bir vaqtning o‘zida ta’minlaydi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik jarayonlarda xalq pedagogikasi metodlarini tizimli va uzluksiz qo‘llash shaxs kamolotini ta’minlashning samarali yo‘li sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xalq pedagogikasi orqali shakllangan shaxs jamiyatga foydali, milliy qadriyatlarni qadrlaydigan va ijodiy salohiyatga ega bo‘ladi. Shu tariqa, xalq pedagogikasini zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish nafaqat tarbiyaviy, balki ma’naviy va madaniy jihatdan ham zarur ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Сухомлинский В.А. О воспитании личности. – М.: Просвещение, 1971. – С. 45–47.
2.Йўлдошев А. Миллий педагогика asoslari. – Т.: Ўқитувчи, 2015. – С. 56–60.
3.Erikson E. Childhood and Society. – New York: Norton, 1950. – P. 102–108.
4.Йўлдашева Ш. Болалар tarbiyasida milliy qadriyatlar. – Т.: Фан, 2020. – С. 78–82.
5.Акбарова Р. Maktabgacha ta’limda xalq pedagogikasi elementlarini qo‘llash. – Т.: Ўқитувчи, 2019. – С. 33–39.
6.Corsini D. Handbook of Innovative Pedagogical Methods. – New York: Springer, 2010. – P. 121–127.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mamatova Sevara Nurillo qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Jismoniy tarbiya yo'nalishi magistranti

YOSH SPORTCHILAR JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK BOSHQARUV, MOTIVAЦИОН MUHIT VA TARBIYAYVIY TA'SIRLAR TIZIMI

Anotatsiya: *Ushbu maqola yosh sportchilarni jismoniy tayyorgarlik va rivojlanish jarayonida samarali pedagogik boshqaruv, motivatsion muhit va tarbiyaviy ta'sirlar tizimining o'rni va ahamiyatini ilmiy tahlil qiladi. Tadqiqot jarayonida, sportchilarni jismonan, psixologik va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning metodik asoslari, motivatsiya mexanizmlari va tarbiyaviy strategiyalari o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *yosh sportchilar, jismoniy sifatlar, pedagogik boshqaruv, motivatsion muhit, tarbiyaviy ta'sir, murabbiylik, sport pedagogikasi.*

Маматова Севара Нурилло кизи
Наманганский государственный педагогический институт
Магистрант направления «Физическое воспитание»

СИСТЕМА ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ, МОТИВАЦИОННОЙ СРЕДЫ И ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ, НАПРАВЛЕННАЯ НА РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ МОЛОДЫХ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация: *Статья посвящена научному анализу роли и значения системы эффективного педагогического управления, мотивационной среды и воспитательных воздействий в процессе физической подготовки и развития молодых спортсменов. В ходе исследования изучались методические основы физической, психологической и социальной поддержки спортсменов, механизмы мотивации и воспитательные стратегии.*

Ключевые слова: *молодые спортсмены, физические качества, педагогическое управление, мотивационная среда, воспитательное воздействие, тренерство, спортивная педагогика.*

Mamatova Sevara Nurillo qizi
Namangan State Pedagogical Institute
Master's student in Physical Education

PEDAGOGICAL MANAGEMENT, MOTIVATIONAL ENVIRONMENT, AND EDUCATIONAL IMPACT SYSTEM AIMED AT DEVELOPING PHYSICAL QUALITIES IN YOUNG ATHLETES

Abstract: *This article provides a scientific analysis of the role and significance of an effective pedagogical management system, motivational environment, and educational impact in the process of physical preparation and development of young athletes. The study examined methodological foundations for providing physical, psychological, and social support to athletes, motivation mechanisms, and educational strategies.*

Keywords: *young athletes, physical qualities, pedagogical management, motivational environment, educational impact, coaching, sports pedagogy.*

Kirish: Jismoniy tarbiya va sport sohasi yoshlarning nafaqat sog'lom rivojlanishi, balki ularning shaxsiy va professional salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sport faoliyati yoshlarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan barkamol bo'lishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. So'nggi yillarda sport pedagogikasi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yosh sportchilarni muvaffaqiyatli rivojlantirish faqat texnik va jismoniy mashg'ulotlar bilan chegaralanmaydi; ular uchun motivatsion muhitni yaratish, pedagogik boshqaruv tizimini shakllantirish va tarbiyaviy ta'sirlarni tizimli amalga oshirish zarur[1]. Pedagogik boshqaruv tushunchasi sport psixologiyasi va pedagogikasida murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. Bu tushuncha yosh

Ключевые слова: *начальная школа, психология личности, психолого-педагогические особенности, личностное развитие, обучение и воспитание, социальные навыки, эмоциональное развитие.*

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, globallashuv jarayonlari va ilm-fan hamda texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talab va vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda ta’lim nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlari, ijtimoiy faolligi va ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’limning dastlabki bo‘g‘ini hisoblangan boshlang‘ich ta’lim bosqichi bu jarayonda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf davri bolaning hayotida tub burilish davri bo‘lib, aynan shu bosqichda u tizimli ta’lim faoliyatiga kirib keladi. Maktabga qadam qo‘yish bolaning ijtimoiy mavqeini o‘zgartiradi, uning kundalik hayot tarzi, majburiyatlari va mas’uliyat darajasi sezilarli darajada ortadi. Shu bilan birga, bolaning psixologik holati, emotsional kechinmalari va shaxsiy rivojlanishi ham yangi bosqichga ko‘tariladi. Ushbu jarayonlarning muvaffaqiyatli kechishi, avvalo, o‘qituvchining o‘quvchi shaxsini chuqur anglay olishi va uning yosh hamda individual psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishiga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsining psixologik-pedagogik xususiyatlari murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ular bolaning bilish jarayonlari, emotsional holati, ijtimoiy munosabatlari hamda axloqiy qarashlarida namoyon bo‘ladi. Bu yosh davrida e’tibor, xotira, tafakkur va nutq kabi asosiy psixik jarayonlar faol rivojlanadi. Shu bilan birga, bolalarda o‘z-o‘zini baholash, o‘ziga ishonch, kattalar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Agar ushbu xususiyatlar ta’lim jarayonida yetarlicha hisobga olinmasa, o‘quvchida o‘qishga nisbatan salbiy munosabat, motivatsiyaning pasayishi yoki psixologik qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Bugungi pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni yuqori samaradorlikka ega bo‘ladi. Har bir bolaning qobiliyati, qiziqishi, emotsional holati va rivojlanish sur’ati turlicha bo‘lib, o‘qituvchi ushbu farqlarni to‘g‘ri anglay olishi zarur. Shu jihatdan, psixologik-pedagogik bilimlar bilan qurollangan pedagoggina o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan barqaror qiziqishni shakllantira oladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, individual va differensial ta’lim tamoyillarini qo‘llash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuvlar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida qarashni, uning ichki imkoniyatlarini ochib berishni va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Aynan shu jarayonda o‘quvchining psixologik holati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi alohida e’tibor talab etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsining psixologik-pedagogik xususiyatlarini o‘rganish pedagogik nazorat va ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu yoshdagi bolalar emotsional, kognitiv va ijtimoiy jihatdan tez rivojlanadi, ular o‘qish va o‘rganishga motivatsiyalangan bo‘lishi, shaxsiy ko‘nikmalarni shakllantirishi lozim. Shuningdek, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Maqsad: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini o‘rganish va ularni ta’lim jarayonida hisobga olish orqali o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini samarali ta’minlash.

Vazifalar: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsining psixologik xususiyatlarini aniqlash. O‘quvchilarning motivatsiyasi, e’tibor, nutq va ijtimoiy ko‘nikmalarini tahlil qilish. Pedagogik faoliyatda individual yondashuv va tarbiyaviy metodlarni aniqlash. O‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar 6–10 yosh oralig‘ida bo‘lib, ularning shaxsiy xususiyatlari tez rivojlanadi. Shu davrda bolalarda e’tibor, xotira, nutq, ijtimoiy va emotsional rivojlanish jarayonlari sezilarli o‘zgaradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari, xususan, temperament, motivatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsining shakllanishida ijtimoiy ko‘nikmalar va muloqot madaniyatining rivojlanishi alohida o‘rin tutadi. Aynan ushbu yosh davrida bolalar jamiyat a’zosi sifatida o‘z o‘rnini anglay boshlaydi, tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatga kirishish tajribasini orttiradi. Ijtimoiy muhit bilan faol aloqaga kirishish bolaning shaxs sifatida kamol topishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf davrida o‘quvchilar muloqot jarayonida turli ijtimoiy rollarni bajarishni o‘rganadilar. Ular sinfdosh, do‘st, jamoa a’zosi, o‘quvchi kabi rollarni o‘zlashtirib, ushbu rollarga mos xulq-atvor me’yorlarini anglay boshlaydilar. Bu jarayonda bolalarda o‘z fikrini ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash, kelishuvga erishish va nizoli vaziyatlarni hal etish kabi muhim ijtimoiy kompetensiyalar shakllanadi.

Ijtimoiy ko‘nikmalarning rivojlanishida muloqot jarayoni yetakchi o‘rin egallaydi. Muloqot orqali bola nafaqat axborot almashadi, balki o‘z hissiyotlarini ifodalaydi, atrofdagilarni tushunishga harakat qiladi hamda empatiya tuyg‘ularini rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiya, hamdardlik va o‘zaro yordam ko‘rsatish kabi ijtimoiy sifatlarning shakllanishi keyingi bosqichlarda sog‘lom ijtimoiy munosabatlar qurish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida tashkil etiladigan guruhli va juftlikda ishlash shakllari o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Bunday faoliyat turlari bolalarda jamoada ishlash, mas’uliyatni bo‘lishish, o‘zaro fikr almashish va umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, guruhli ishlar jarayonida bolalar o‘z fikrini himoya qilish, boshqalarning qarashlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvida o‘qituvchining pedagogik ta’siri beqiyosdir. O‘qituvchi sinfda sog‘lom psixologik muhit yaratishi, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlashi lozim. Nizoli vaziyatlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni pedagogik mahorat bilan hal etish bolalarda ijtimoiy muammolarni tinch yo‘l bilan bartaraf etish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Shuningdek, o‘qituvchining nutq madaniyati, muloqot uslubi va shaxsiy namunasi o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Pedagog tomonidan qo‘llaniladigan muloyim, hurmatga asoslangan va rag‘batlantiruvchi muloqot uslubi bolalarda o‘z fikrini erkin ifodalashga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi. Aksincha, qo‘pol yoki buyruqbozlikka asoslangan munosabat o‘quvchilarda tortinchoqlik va muloqotdan qochish holatlarini yuzaga keltirishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf davrida ota-onalar bilan hamkorlik ham ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Oila va maktab o‘rtasidagi uzviy hamkorlik bolaning ijtimoiy tajribasini boyitadi, unda odob-axloq me’yorlari va muloqot madaniyatining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ota-onalarning bolaga bo‘lgan e’tibori, qo‘llab-quvvatlashi va to‘g‘ri yo‘naltirishi uning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Pedagogik xususiyatlar va ularning ahamiyati, o‘qituvchi boshlang‘ich sinfda har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Pedagogik yondashuv quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: Bolaning qiziqishlari va motivatsiyasini aniqlash. O‘quv materialini bolaning psixologik imkoniyatlariga moslashtirish. Nutq va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar o‘tkazish. Shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash metodlari sifatida biz quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Individual ish: Har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlariga mos mashg‘ulotlar.

Guruhlash va hamkorlik: Bolalarni kichik guruhlarda ishlashga jalb qilish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

O‘yin va interaktiv texnologiyalar: O‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish orqali motivatsiyani oshirish.

Ota-onalar bilan hamkorlik: Uyda qo‘shimcha mashqlarni amalga oshirish va bolani rag‘batlantirish. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan individual yondashuv va pedagogik metodlarni uyg‘unlashtirish ularning shaxsiy rivojlanishini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalari va nutq rivojlanishi ham doimiy monitoring va qo‘llab-quvvatlash orqali mustahkamlanadi. Shu sababli, pedagoglar shaxsiy va psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishi muhimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsining psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olish ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har bir bolaning individual xususiyatlariga mos pedagogik yondashuv uning shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini tezlashtiradi. Shu bilan birga, o‘yin va interaktiv metodlardan foydalanish, ota-onalar bilan hamkorlik, shuningdek, bolalarning motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash samaradorlikni oshiradi. Shu sababli, boshlang‘ich ta’limda shaxs psixologiyasi va pedagogik xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim tizimini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayxova, G. (2020). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari psixologiyasi va pedagogikasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

2. Karimov, A. (2018). Boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv. Toshkent: Fan va texnologiya.

3. Raximova, N. (2019). Bolalarda shaxsiy rivojlanish va motivatsiya. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.

4. Egamberdiyev, S. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari. Toshkent: Ilm-fan.

5. Islomova, L. (2017). Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika instituti nashriyoti.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Tursunboyeva Mavjudaxon Shukrillo qizi
Andijon davlat pedagogika instituti, Amaliy xorijiy tillari kafedrasi
E-mail: shukurovnamavjuda@gmail.com

O‘ZBEKISTON UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA RAQAMLI PLATFORMALARNI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING INNOVATSION USULLARI VA MASHQLAR TIZIMI

Annotatsiya *:Mazkur maqolada O‘zbekiston umumta’lim maktablarida chet tillarni o‘qitishda raqamli platformalarni amaliyotga joriy etishning innovatsion usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish va dars samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, raqamli platformalar asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi va ularning amaliy natijalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli platformalar, innovatsion ta’lim, mashqlar tizimi, kommunikativ kompetensiya, chet tillarni o‘qitish.*

Турсунбоева Мавжудахон Шукрилло кизи
Андижанский государственный педагогический институт Кафедра прикладных иностранных языков

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И СИСТЕМА УПРАЖНЕНИЙ ПО ВНЕДРЕНИЮ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: *В статье анализируются инновационные методы внедрения цифровых платформ в процессе обучения иностранным языкам в общеобразовательных школах Узбекистана. Рассматриваются вопросы развития коммуникативной компетенции учащихся, формирования навыков самостоятельного обучения и повышения эффективности уроков с использованием цифровых образовательных платформ.*

Ключевые слова: *цифровые платформы, инновационное обучение, система упражнений, коммуникативная компетенция, обучение иностранным языкам.*

Tursunboyeva Mavjudaxon Shukrillo qizi
Andijan State Pedagogical Institute Department of Applied Foreign Languages

INNOVATIVE METHODS AND EXERCISE SYSTEMS FOR IMPLEMENTING DIGITAL PLATFORMS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS OF UZBEKISTAN

Abstract: *This article analyzes innovative methods of implementing digital platforms in teaching foreign languages in general education schools of Uzbekistan. The study focuses on developing students' communicative competence, independent learning skills, and improving lesson effectiveness through digital educational platforms. In addition, an exercise system based on digital platforms and its practical outcomes are examined.*

Key words*: digital platforms, innovative education, exercise system, communicative competence, foreign language teaching.*

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimini raqamlashtirish global jarayonlardan biri hisoblanib, u zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayoniga yangi yondashuvlarni joriy etishni, o‘qitish shakl va usullarini yangilashni taqozo etmoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim mazmunini boyitish, o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlarda ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli platformalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xususan, umumta’lim maktablarida raqamli ta’lim muhitini shakllantirish, elektron resurslardan samarali foydalanish hamda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, umumta'lim maktablarida chet tillarni o'qitishda raqamli platformalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday platformalar o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, interaktiv muhit yaratadi hamda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli platformalar orqali tashkil etilgan mashqlar tizimi o'quvchilarning tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish malakalarini kompleks tarzda rivojlantirish imkonini beradi.Shu bilan birga, raqamli platformalardan foydalanish o'qituvchining rolini ham yangicha talqin etishni talab qiladi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quv jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Mazkur tadqiqot umumta'lim maktablarida raqamli platformalarni joriy etishning innovatsion usullarini tahlil qilish, shuningdek, chet tillarni o'qitishda qo'llaniladigan samarali mashqlar tizimini ishlab chiqish va uning pedagogik ahamiyatini asoslab berishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida raqamli platformalardan foydalanish masalasi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalarning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi o'rni, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Xorijiy tadqiqotchilar, jumladan J. Richards, J. Harmer, P. Ur kabi olimlarning ishlarida chet tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuv asosida raqamli vositalardan foydalanish samaradorligi yoritilgan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, raqamli platformalar o'quvchilarga real muloqotga yaqin muhit yaratib berishi, til kompetensiyalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, raqamli resurslar orqali beriladigan interaktiv mashqlar o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi.

Raqamli ta'lim platformalarining pedagogik imkoniyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda Google Classroom, Moodle, Quizlet, LearningApps kabi platformalarning o'quv jarayonini tashkil etishdagi afzalliklari tahlil qilingan. Tadqiqotchilar ushbu platformalar yordamida o'quvchilarning bilimlarini baholash, teskari aloqani ta'minlash va mustaqil ishlash jarayonini samarali tashkil etish mumkinligini ta'kidlaydilar. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda esa O'zbekiston umumta'lim maktablarida raqamli platformalarni joriy etishning metodik asoslari, ularni fanlar kesimida qo'llash imkoniyatlari va mavjud muammolar o'rganilgan. Tadqiqotlarda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, o'quvchilarning esa ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilishi qayd etilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalardan foydalanish bo'yicha umumiy nazariy yondashuvlar yetarli darajada o'rganilgan bo'lsa-da, ularni umumta'lim maktablarida, xususan, 7-8-sinflarda chet tillarni o'qitishda amaliy mashqlar tizimi asosida joriy etish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va ilmiy izlanish olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1) pedagogik kuzatuv - dars jarayonida o'quvchilarning faolligi, mustaqil ishlash darajasi va raqamli platformalardan foydalanish ko'nikmalarini aniqlash maqsadida qo'llanildi;

2) taqqoslash va tahlil qilish - an'anaviy va raqamli platformalar asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligini solishtirish hamda o'quv natijalarini tahlil qilish uchun foydalanildi;

3) tajriba-sinov ishlari-raqamli platformalar asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimining samaradorligini aniqlash maqsadida tashkil etildi;

4) so'rovnoma va diagnostik testlar-o'quvchilarning bilim darajasi, o'quv motivatsiyasi va kommunikativ ko'nikmalaridagi o'zgarishlarni aniqlash uchun o'tkazildi.Tajriba-sinov ishlari umumta'lim maktablarining 7-8-sinf o'quvchilari ishtirokida olib borildi. Tajriba jarayonida chet tilini o'qitishda Google Classroom, Quizlet va LearningApps kabi zamonaviy raqamli platformalardan foydalanildi.

Ushbu platformalar orqali interaktiv mashqlar, test topshiriqlari, lug'at bilan ishlash va mustaqil ta'limga yo'naltirilgan topshiriqlar tashkil etildi.

Tajriba davomida o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, mustaqil ishlash ko'nikmalari hamda kommunikativ kompetensiyalaridagi o'zgarishlar muntazam ravishda kuzatilib, tahlil qilindi. Olingan natijalar raqamli platformalardan foydalanish chet tillarni o'qitishda samarali metodik vosita ekanligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot jarayonida olib borilgan tajriba-sinov ishlari raqamli platformalardan foydalanish umumta'lim maktablarida chet tillarni o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Tajriba boshlanishidan oldin va yakunida o'quvchilarning bilim darajasi, kommunikativ kompetensiyasi hamda o'quv motivatsiyasi diagnostik testlar va

so‘rovnomalar asosida baholandi. Tajriba natijalariga ko‘ra, Google Classroom, Quizlet va LearningApps platformalari asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning lug‘at boyligi va grammatik bilimlari sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Xususan, Quizlet platformasida lug‘at bilan ishlashga mo‘ljallangan interaktiv mashqlar o‘quvchilarning yangi so‘zlarni tez va samarali o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. LearningApps platformasi orqali tashkil etilgan mashqlar esa o‘quvchilarning mavzuni mustahkamlash va bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. Raqamli platformalar orqali taqdim etilgan audio va video materiallar o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirib, ularning erkin fikr bildirishiga sharoit yaratdi.

Natijada, o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtiroki va faolligi an’anaviy darslarga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Shuningdek, tadqiqot davomida o‘tkazilgan so‘rovnomalar o‘quvchilarning raqamli platformalar asosida tashkil etilgan darslarga bo‘lgan ijobiy munosabatini ko‘rsatdi. O‘quvchilarning aksariyati raqamli platformalar yordamida dars o‘tish jarayoni qiziqarli va tushunarli ekanligini, mustaqil ishlash imkoniyatlari kengayganini ta’kidladilar. Bu holat o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishda raqamli platformalarning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish va dars samaradorligini oshirishda samarali metodik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tajriba natijalari mazkur tadqiqot doirasida ilgari surilgan ilmiy farazlarning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, umumta’lim maktablarida raqamli platformalarni ta’lim jarayoniga joriy etish chet tillarni o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Google Classroom, Quizlet va LearningApps kabi raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirib, ularning o‘quv motivatsiyasini oshiradi hamda dars jarayonini interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qildi. Shuningdek, raqamli platformalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil ishlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari raqamli platformalardan foydalanish an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Bu esa umumta’lim maktablarida chet tillarni o‘qitish jarayonida raqamli ta’lim vositalaridan keng foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli platformalarni innovatsion usullar asosida joriy etish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va zamonaviy ta’lim muhitini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida raqamli platformalar asosida yangi metodik tavsiyalar va mashqlar tizimini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge, 2015.
4. Harmer J. How to Teach English. – Longman, 2018.
5. Ur P. A Course in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2017.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Adashova Guljaxon Muxammadjonovna
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATIDA KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVASION USULLARI

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatida kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish masalasi tahlil qilinganbulib, bunda zamonaviy globallashuv va ta'lim talablari doirasida kognitiv kompetensiyalar shaxsning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish va yangi bilimlar yaratish qobiliyatini belgilaydi. Tadqiqotda mustaqil ta'limning kognitiv salohiyatni rivojlantirishdagi roli, innovasion pedagogik texnologiyalar, shu jumladan muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, kollaborativ va integratsiyalashgan yondashuvlar orqali bilish jarayonlarini chuqurlashtirish mexanizmlari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *kognitiv kompetensiyalar, mustaqil ta'lim, innovasion pedagogik texnologiyalar, metakognitiv strategiyalar, raqamli ta'lim, mustaqil fikrlash.*

Адашова Гулжахон Мухаммаджоновна
самостоятельный соискатель Наманганского государственного университета

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье рассматриваются инновационные подходы к формированию когнитивных компетенций студентов в рамках самостоятельной учебной деятельности. В условиях современной глобализации и динамичного развития образовательных требований когнитивные компетенции определяют способность обучающихся эффективно воспринимать, анализировать и перерабатывать информацию, а также создавать новые знания. Исследование акцентирует внимание на роли инновационных педагогических технологий, включая проблемное обучение, обучение на основе проектов, коллаборативные и интегрированные методы, которые способствуют углублению познавательной активности и развитию самостоятельного мышления студентов.*

Ключевые слова: *когнитивные компетенции, самостоятельное обучение, инновационные педагогические технологии, метакогнитивные стратегии, цифровое обучение, самостоятельное мышление.*

Adashova Guljaxon Mukhammadjonovna
independent researcher at Namangan State University

INNOVATIVE METHODS FOR DEVELOPING STUDENTS' COGNITIVE COMPETENCIES IN INDEPENDENT LEARNING ACTIVITIES

Abstract. *The article examines the formation of students' cognitive competencies in the context of independent learning activities. In the modern era of globalization and evolving educational demands, cognitive competencies define an individual's ability to perceive, process, and analyze information, as well as generate new knowledge. The study highlights the role of independent learning in developing cognitive potential and explores mechanisms for deepening cognitive engagement through innovative pedagogical technologies, including problem-based learning, project-based learning, collaborative and integrated approaches.*

Keywords: *cognitive competencies, independent learning, innovative pedagogical technologies, metacognitive strategies, digital education, independent thinking.*

KIRISH. Bugungi globallashuv jarayonidi yuz berayotgan tub o'zgarishlar davrida inson mohiyatini oshirish, shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini shakllantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilamoqda. Bu jarayonda talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan ushbu kompetensiyalar shaxsning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish, baholash hamda yangi bilimlar yaratish qobiliyatini belgilaydi. Mustaqil ta'lim esa mazkur kompetensiyalarni shakllantirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Kognitiv kompetensiyalar tushunchasi pedagogik va psixologik tadqiqotlarda keng yoritilgan bo‘lib, u bilish jarayonlarining kompleks tizimini ifoda etadi. Uning tarkibiga tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, mantiqiy tahlil, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, axborot bilan ishlash madaniyati va metakognitiv nazorat kabi elementlar kiradi. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, kognitiv kompetensiyalar faqat bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki ularni turli vaziyatlarda qo‘llash, transformatsiya qilish va integratsiyalash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Ilmiy adabiyot va tadqiqotlardan kelib chiqqan holda **kognitiv kompetensiya tushunchasiga qo‘yidagicha tarif berishimiz mumkin.**

Kognitiv kompetensiya va **Kognitiv kompetensiya tushunchasi** – bu shaxsning bilish faoliyatini amalga oshirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarning integrativ tizimi bo‘lib, u axborotni maqsadli ravishda qabul qilish, mazmunan anglash, mantiqiy tahlil va sintez qilish, qayta ishlash, tanqidiy baholash hamda yangi bilimlarni mustaqil ravishda konstrusiya qilish qobiliyatlarini qamrab oladi.

Mazkur kompetensiya shaxsning intellektual rivojlanish darajasini ifodalaydi va bilish jarayonlarini samarali tashkil etish, boshqarish hamda ularni turli ta’limiy va amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini ta’minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatida mazkur kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Mustaqil ta’lim jarayoni an’anaviy ta’lim shakllaridan farqli ravishda talabaning jamiyatda faol sub’yekt sifatida ishtirok etishini ta’minlaydi. Bu jarayonda talaba o‘z o‘quv faoliyatini mustaqil rejalashtiradi, o‘z oldiga maqsad qo‘ya oladi, axborot manbalarini tanlaydi, natijalarni baholaydi va xulosalarni mustaqil chiqara oladi. Bu esa kognitiv jarayonlarning faollashuviga olib keladi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy yondashuvlar doirasida tashkil etilgan mustaqil ta’lim har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Bu holat mustaqil ta’lim jarayoniga innovasion usullar va texnologiyalarni joriy etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Innovasion pedagogik yondashuvlar talabalarning kognitiv faolligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ular ta’lim jarayonini interaktiv, muammoli va tadqiqotga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etishni nazarda tutadi. Xususan, muammoli ta’lim texnologiyasi talabalarni aniq muammoli vaziyatga duch keltirish orqali ularning tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday sharoitda talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil yaratuvchi sub’yektga aylanadi. Loyihalar asosida o‘qitish esa nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi, bu esa kognitiv jarayonlarning chuqurlashuviga xizmat qiladi.

METADOLOGIYA. Mazkur tadqiqotda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyati jarayonida kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish masalasi kompleks yondashuv asosida o‘rganilgan bo‘lib, mavzuni yoritishda, falsafiy taxlil, umumilmiy va maxsus pedagogik yondashuvlar, sosiologik taxlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi, kognitiv psixologiya hamda konstruktivizm nazariyalari tashkil etadi. Shuningdek, (learning to learn), metakognisiya va kognitiv faoliyatni rivojlantirishga oid ilmiy qarashlar tadqiqotning konseptual asosi sifatida xizmat qildi.

ASOSIY QISM. Zamonaviy pedagogika va ta’lim nazariyasida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatida kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish masalasi global ilmiy muammo sifatida keng o‘rganilmoqda. Shu nuqtai nazardan, kognitiv kompetensiyani shakllantirish masalasi O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan turli qarashlar asosida tadqiq etilmoqda.

O‘zbekistonda bu mavzu yuzasidan bir qator tadqiqotlarga asosan mustaqil ta’lim, kognitiv faollik va kompetensiyaviy yondashuvning o‘zaro bog‘liqligini ochib berishga qaratilgan. Xususan, tadqiqotchilar tomonidan talabalarning kognitiv faolligini rivojlantirish mustaqil ta’limni to‘g‘ri tashkil etish bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Jumladan, tibbiy ta’lim tizimida olib borilgan tadqiqotlarda mustaqil ish faoliyati talabalarning kognitiv, motivasion va amaliy ko‘rsatkichlarini kompleks rivojlantirishi qayd etilgan . Bu esa kognitiv kompetensiyaning shakllanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unda nafaqat bilish, balki motivatsiya va amaliy faoliyat ham muhim o‘rin tutishini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, mamlakatimizdagi olimlar kognitiv kompetensiyani shakllantirishda erta bosqichdanoq mustaqil ta’lim elementlarini joriy etish zarurligini ta’kidlaydilar. Masalan, umumta’lim maktablari misolida olib borilgan tadqiqotlarda o‘quvchilarda tahlil qilish, muammo yechish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish mustaqil ta’lim va tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali amalga oshirilishi isbotlangan . Bu holat oliy ta’lim bosqichida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish uchun poydevor yaratilishini ko‘rsatadi. Yana bir muhim ilmiy yo‘nalish – bu ta’lim jarayonida integratsiyalashgan va raqamli texnologiyalar orqali kognitiv faollikni rivojlantirish masalasidir. Bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv va raqamli texnologiyalarni qo‘llash talabalarning bilish jarayonlarini faollashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini oshiradi. Shu bilan birga, pedagogik shart-sharoitlar, motivatsiya, individual yondashuv, o‘z-o‘zini baholash va kognitiv kompetensiyani shakllantirishda hal qiluvchi muhim omillar sifatida qaraladi .

Shu bilan bir qatorda ushbu mavzu yuzasidan xorijiy olimlar tomonidan ham yanada keng qamrovda, ayniqsa kognitiv psixologiya va konstruktivizm nazariyalari asosida o‘rganilgan.

Mustaqil faoliyatni tashkil etishning muvaffaqiyat garovi, o‘qituvchi tomonidan talabalar mustaqil ishlarini aniq rejalashtirishdan iborat. Bunday rejalashtirishning birinchi bosqichi fanlar bo‘yicha ishchi dasturlarni ishlab chiqishdir. Rus tilini chet tili sifatida o‘qitish bo‘yicha mavjud dasturlar mustaqil ish uchun ajratilgan vaqt va umumiy o‘quv soatlari o‘rtasidagi nisbatni belgilaydi. Kvalifikasion talablarni mustaqil ishga ko‘chirish zarurligi haqidagi g‘oyaga ko‘ra, ya’ni “kelgusi bakalavrning mustaqil ishi asosan uning o‘quv faoliyatiga, tadqiqot faoliyatiga, magistrniki esa tadqiqot va ijodiy faoliyatga tayanish lozim” (Golovan, 2004: 139). Chet ellik talabalar uchun til tayyorgarligi bo‘yicha ta’lim jarayonini tashkil etishning asosiy talablaridan kelib chiqib, ularning aksariyati tilni 2–3,5 yil davomida o‘rganishini hisobga olgan holda, mustaqil faoliyatni o‘qitish talabaning o‘quv faoliyatiga tayanishi lozim, deb hisoblaymiz.

G‘arb pedagogikasida kognitiv kompetensiya tushunchasi Blum taksonomiyasi, metakognisiya nazariyasi va “o‘qishni o‘rganish” (learning to learn) konsepsiyasi bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan. Xususan, kognitiv kompetensiya axborotni qayta ishlash, bilimlarni transfer qilish va turli vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Xorijiy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim kognitiv rivojlanishning asosiy omili sifatida qaraladi. Masalan, Yevropa olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kognitiv mustaqillik talabalarning kommunikativ va professional kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil ekanligi ta’kidlangan. Bu yerda mustaqil ta’lim faqat bilim olish emas, balki shaxsning intellektual mustaqilligini ta’minlovchi jarayon sifatida qaraladi.

Shuningdek, innovasion pedagogik texnologiyalar – muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, kollaborativ ta’lim va raqamli o‘qitish muhitlari, kognitiv kompetensiyani shakllantirishning eng samarali vositalari sifatida e’tirof etilgan. Ayniqsa, CLIL (Content and Language Integrated Learning) kabi integratsiyalashgan yondashuvlar talabalarning bir vaqtning o‘zida ham fan, ham til, ham kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirishda metakognitiv strategiyalar alohida o‘rin tutadi. Unda talabalarning o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilishi, rejalashtirishi va baholashi muhim hisoblanadi. Bunday yondashuvlar kognitiv faoliyatni ongli ravishda boshqarish imkonini beradi va mustaqil ta’lim samaradorligini oshiradi.

O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi tadqiqotlar o‘rtasida umumiyliklar bilan bir qatorda ayrim farqlar ham mavjud. Umumiy qarashlar shundaki, har ikki yo‘nalishda ham kognitiv kompetensiyani shakllantirishda mustaqil ta’lim, innovasion texnologiyalar va faol o‘qitish usullari muhim omil sifatida qaraladi. Ularning farqli jihati esa xorijiy tadqiqotlarda nazariy modellar va empirik tadqiqotlar keng qo‘llanilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda ko‘proq amaliy-metodik yondashuvlarga e’tibor qaratilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Umuman olganda, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatida kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish muammosi yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning ayrim jihatlari, xususan, innovasion usullarni kompleks qo‘llash mexanizmi, raqamli ta’lim muhitida kognitiv rivojlanish modellari va milliy ta’lim tizimiga moslashtirilgan metodikalarni ishlab chiqish masalalari hali ham qo‘shimcha tadqiqotlarni talab etadi.

Shuningdek, raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi talabalarning mustaqil ta’lim imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Elektron ta’lim platformalari, onlayn kurslar, interaktiv simulyasiyalar va multimedia resurslar orqali talabalar axborotni mustaqil izlash, saralash va tahlil qilish ko‘nikmalarini egallamoqda. Bu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, raqamli muhitda ishlash talabalardan yuqori darajadagi axborot madaniyati va tanqidiy fikrlashni talab etadi.

Metakognitiv yondashuvlar ham mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Metakognisiya talabaning o‘z fikrlash jarayonini anglashi, nazorat qilishi va boshqarishini anglatadi. Bunday ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali talabalar o‘z o‘quv faoliyatini samarali tashkil eta oladilar, xatolarini tahlil qiladilar va o‘z-o‘zini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Bu esa ularning kognitiv mustaqilligini ta’minlaydi.

Talabalarning kognitiv kompetensiyalarini shakllantirishda kollaborativ ta’lim elementlari ham muhim ahamiyatga ega. Guruhda ishlash, fikr almashish va birgalikda qaror qabul qilish jarayonlari talabalarning kognitiv faolligini oshiradi, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash imkonini yaratadi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, bunday faoliyat ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta’lim jarayonida innovasion usullarni samarali joriy etish ma’lum bir pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi. Avvalo, ta’lim maqsadlari aniq va kognitiv natijalarga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shuningdek, o‘quv materiallari talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi, topshiriqlar esa muammoli va tadqiqotga yo‘naltirilgan xarakterga ega bo‘lishi kerak. Baholash tizimi ham an’anaviy reproduktiv bilimlarni emas, balki talabalarning tahlil qilish, sintez qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini baholashga qaratilgan bo‘lishi zarur.

Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’lim jarayonida innovasion usullardan kompleks ravishda foydalanish talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samara beradi. Xususan,

muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, raqamli texnologiyalar va metakognitiv strategiyalarni uyg'unlashtirgan holda qo'llash talabalarning bilish faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati orqali kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon talabalarning faqat bilim egallashini emas, balki ularni mustaqil ravishda qo'llash, tahlil qilish, baholash va yangi bilimlar yaratish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mazkur jarayonda mustaqil ta'lim talabaning faol sub'yekti sifatida shakllanishini ta'minlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida qaraladi. U an'anaviy ta'lim shakllaridan farqli ravishda talabaning o'z o'quv faoliyatini mustaqil rejalashtirishi, maqsad qo'yishi, axborot manbalarini tanlashi va natijalarni baholashi orqali kognitiv jarayonlarning faollashuviga xizmat qiladi. Shu jihatdan, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Mamlakatimizda mustaqil ta'limni qo'llash jarayoni shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash, ya'ni o'quv dasturlarini kognitiv natijalarga yo'naltirish, mustaqil ta'lim ulushini aniq belgilash va muammoli hamda tadqiqotga yo'naltirilgan topshiriqlarni joriy etish talabalarning bilish faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda innovasion pedagogik texnologiyalar, jumladan, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, kollaborativ ta'lim va integratsiyalashgan yondashuvlar samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishda metakognitiv yondashuvlar ham muhim o'rin tutadi. Talabalarning o'z fikrlash jarayonini anglashi, nazorat qilishi va boshqarishi ularning mustaqil ta'lim samaradorligini oshiradi hamda kognitiv mustaqillikni ta'minlaydi. Mazkur jarayon samaradorligi ko'p jihatdan pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq bo'lib, ta'lim maqsadlarining aniqligi, o'quv materiallarining talabalar xususiyatlariga mosligi, topshiriqlarning muammoli va tadqiqotga yo'naltirilganligi, shuningdek, baholash tizimining kognitiv natijalarga qaratilganligi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchi an'anaviy bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va maslahatchi sifatida faoliyat yuritadi.

Xulosa sifatida sifatida aytish joizki, fan va texnika rivojlanib borayotgan davirda shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirish muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar natijasi shuni ko'rinadiki, mustaqil ta'lim kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishning eng samarali pedagogik mexanizmlaridan biri hisoblanadi. U talabani faol sub'yekt sifatida shakllantirib, o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, maqsad qo'yish, axborot manbalarini tanlash va natijalarni baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, an'anaviy ta'lim usullari bu maqsadga to'liq erishishda yetarli samara bermasligi bois innovasion pedagogik texnologiyalar, loyihalar asosida o'qitish, kollaborativ va integratsiyalashgan yondashuvlar samarali vosita sifatida faol qo'llanilishi lozimligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim maqsadlarining aniqligi, o'quv materiallari va topshiriqlarning talabalar xususiyatlariga mosligi, shuningdek baholash tizimining kognitiv natijalarga yo'naltirilganligi bilan bog'liq bo'lib, uslubiy jihatdan talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati orqali kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishni zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovasion texnologiyalar va raqamli muhit bilan uyg'unlashtirishning ahamiyatini aniq ko'rsatib beradi. Bu esa intellektual salohiyatni rivojlantirish va mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash jarayonida muhim ilmiy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Vygotsky, L. S. (1982). Collected Works(Vol. 3). Moscow: Pedagogika.*
2. *Leontiev, A. N. (1975). Activity, Consciousness, Personality.Moscow: Politizdat.*
3. *Rozhnov, V. E. (1985). Handbook of Psychotherapy.Moscow: Meditsina.*
4. *Mahkamova, N. Psychological and Pedagogical Foundations of Teaching Russian in a Bilingual Environment. – Tashkent: Teacher, 1995. – 168 p.*
5. *Shoabdurakhmanov, Sh. Organization of Russian Language Lessons in National Schools. – Tashkent: Science, 2000. – 144 p.*
6. *Djuraev, R.H. Cognitive-Communicative Methodology for Teaching Russian Language. – Tashkent: Science, 2005. – 196 p.*
7. *Gardner, H. The Mind's Structure: Theory of Multiple Intelligences. – Moscow: Williams, 2007. – 512 p.*
8. *Sternberg, R. Success Intelligence. – Minsk: Popurri, 2005. – 400 p.*

9. *Pan-European recommendations for language education: study, teaching, assessment. K. :Lenvit. 2003, p. 273.*

10. *Passov, E. I. The Concept of communicative foreign language education (theory and its implementation). Methodical. manual for Russian writers. Saint Petersburg: Zlatoust. 2007, p. 200.*

11. *Golovan, O. V. On various forms of independent work in the system of continuous education. Problems of modernization of higher professional education in the context of the Bologna process. 2004, pp. 139-140.*

12. *Esipov, B.P. Independent work of students in the classroom. M.: Uchpedgiz. 2003, p. 239.*

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

PEDAGOGIK OLIY TA'LIMDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USPENSKIY MODELI

Raximov Kodirjon Karimberdiyevich
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Maqolada pedagogik oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini oshirishning muallif tomonidan ishlab chiqilgan modeli taqdim etiladi. Model V.A.Uspenskiy ilmiy-pedagogik faoliyatidan qayta tiklangan to'rt tamoyilga – haqiqiy ishga jalb etish, madaniy meros materialiga tayanish, ustoz namunasining izchilligi va natijaning uzoq muddatliligiga – asoslanadi. Tadqiqotda modelning maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy bloklari, ularning o'zaro bog'lanishi hamda amalga oshirish shartlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini baholashning cheklovlari va tadbirlar sonini oshirishga asoslangan yondashuvning samarasizligi tahlil qilinadi. Xulosada ma'naviy tarbiya alohida tadbirlar tizimi emas, kasbiy tayyorgarlikning mazmuniga singdirilgan jarayon sifatida tashkil etilishi lozimligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik model, samaradorlik, Viktor Uspenskiy, haqiqiy ish, madaniy meros, g'amxo'rlik etikasi, xarakter tarbiyasi, ustoz namunasi, oliy pedagogik ta'lim.*

МОДЕЛЬ УСПЕНСКОГО В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В статье представлена разработанная автором модель повышения эффективности духовно-нравственного воспитания в педагогическом высшем образовании. Модель опирается на четыре принципа, реконструированных из научно-педагогической деятельности В.А. Успенского: включение в подлинную работу, опора на материал культурного наследия, последовательность примера наставника и долгосрочность результата. Разрабатываются целевой, содержательный, технологический и результативный блоки модели, их взаимосвязи и условия реализации. Анализируются ограничения оценивания эффективности духовно-нравственного воспитания и неэффективность подхода, основанного на увеличении количества мероприятий. В заключении обосновывается, что духовное воспитание должно быть организовано не как система отдельных мероприятий, а как процесс, встроенный в содержание профессиональной подготовки.*

Ключевые слова: *духовно-нравственное воспитание, педагогическая модель, эффективность, Виктор Успенский, подлинная работа, культурное наследие, этика заботы, воспитание характера, пример наставника, высшее педагогическое образование.*

THE USPENSKY MODEL FOR RAISING THE EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION

Abstract: *The article presents a model developed by the author for raising the effectiveness of spiritual and moral education in higher pedagogical education. The model rests on four principles reconstructed from the scholarly and pedagogical work of V.A. Uspensky: involvement in genuine work, reliance on the material of cultural heritage, consistency of the mentor's example, and the long-term nature of the result. The target, content, technological and outcome blocks of the model, their interconnections and the conditions for implementation are elaborated. The limitations of assessing the effectiveness of spiritual and moral education and the ineffectiveness of an approach based on increasing the number of events are analysed. In conclusion, it is substantiated that spiritual education should be organized not as a system of separate events but as a process embedded in the content of professional preparation.*

Keywords: *spiritual and moral education, pedagogical model, effectiveness, Viktor Uspensky, genuine work, cultural heritage, ethics of care, character education, mentor's example, higher pedagogical education.*

KIRISH

Ma'naviy-axloqiy tarbiya pedagogik oliy ta'limning e'tirof etilgan vazifalaridan biri bo'lib, uning zarurligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Biroq amaliyotda mazkur ishning samaradorligi masalasi ochiq qolmoqda: tadbirlar o'tkaziladi, hisobotlar tayyorlanadi, qatnashuvchilar soni qayd etiladi, ammo bu faoliyat talabaning real kasbiy xulq-

atvoriga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlanmaydi. Mazkur holat tarbiyaviy ishning mazmunini emas, uning tashkiliy modelini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Samaradorlik muammosining ildizi tarbiyaviy ishning o‘quv jarayonidan ajratilganida yotadi. Amaldagi amaliyotda ma’naviy-axloqiy tarbiya ko‘pincha alohida yo‘nalish sifatida tashkil etiladi: unga maxsus vaqt ajratiladi, maxsus mas’ul belgilanadi, maxsus tadbirlar rejalashtiriladi. Natijada talabada ikki alohida soha haqidagi tasavvur shakllanadi: kasbiy tayyorgarlik va tarbiyaviy ish. Ikkinchisi birinchisidan ajralgan holda, ko‘pincha rasmiy tarzda qabul qilinadi va shaxsiy ahamiyat kasb etmaydi. Mazkur muammoning yechimini izlashda tarixiy tajriba qimmatli material beradi. V.A.Uspenskiy (1879–1949) faoliyati bunday material sifatida alohida e’tiborga loyiq. 1913-yilda Peterburg konservatoriyasini tugatgan musiqashunos 1918-yilda Toshkentga kelib, umrining o‘ttiz yildan ortiq qismini Markaziy Osiyo xalqlari musiqa merosini o‘rganish va milliy kadrlar tayyorlashga bag‘ishlagan. U 1918–1922-yillarda Toshkent Xalq konservatoriyasida dars bergan, 1928–1934-yillarda musiqa bilim yurtida ishlagan, 1936-yildan Toshkent konservatoriyasi professori va dekani bo‘lgan, 1943-yilda san’atshunoslik doktori ilmiy darajasini olgan. Uning tarbiyaviy ta’sirining o‘ziga xosligi shundaki, u maxsus tarbiyaviy tadbirlar orqali emas, birgalikdagi haqiqiy ish orqali amalga oshgan. Talabalar va yosh mutaxassislar uning atrofida ma’ruza tinglash uchun emas, aniq ilmiy vazifani hal qilish uchun to‘plangan: maqomni yozib olish, ekspeditsiya materiallarini qayta ishlash, milliy musiqa nazariyasini shakllantirish. Mazkur ishning o‘zi qadriyatlarni uzatgan: unda aniqlik, sabr, o‘zga madaniyatga hurmat va merosga mas’uliyat amaliy talab sifatida namoyon bo‘lgan. Mazkur tanlovning tarbiyaviy mexanizmi aniq. Maxsus tashkil etilgan tarbiyaviy vaziyatda ishtirokchi o‘zidan nima kutilayotganini biladi va shunga mos xulq-atvor ko‘rsatadi; haqiqiy ish sharoitida esa natija real bo‘lgani uchun u o‘z haqiqiy munosabatini namoyon qilishga majbur bo‘ladi. Qo‘lyozmani aniq ko‘chirish yoki yuzaki bajarish, qiyinchilikda davom etish yoki to‘xtash – bu tanlovlarning har biri qadriyatli ma’noga ega va aynan ular shaxsiy pozitsiyani shakllantiradi. Modelning ikkinchi tamoyili ham izohni talab qiladi. Madaniy meros materialiga tayanish tasodifiy tanlov emas: bunday material talaba uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lish imkoniyatiga ega, zero u o‘z oilasi, hududi va xalqining tarixi bilan bog‘lanadi. Mavhum axloqiy mavzudan farqli o‘laroq, aniq qo‘shiq, hunar yoki an’ana bilan ishlash talabada shaxsiy aloqadorlik hissini uyg‘otadi. Aynan shu hissiy aloqadorlik qadriyatli ta’sirning zaruriy shartidir. Mazkur maqolaning metodologik pozitsiyasini aniq belgilash zarur. V.A.Uspenskiy tarbiya modeli yoki pedagogik nazariya yaratmagan; uning merosi musiqashunoslik va musiqa etnografiyasiga oid. Shu sababli maqola sarlavhasidagi Uspenskiy modeli iborasi olim tomonidan ishlab chiqilgan tizimni emas, balki uning hujjatlashtirilgan faoliyatidan qayta tiklangan tamoyillar asosida muallif tomonidan loyihalangan modelni anglatadi. Mazkur farqlash ilmiy halollikning zaruriy sharti hisoblanadi va modelning barcha qoidalari uchun amal qiladi. Olim faoliyatidan modelning asosini tashkil etuvchi to‘rt tamoyil qayta tiklanadi. Birinchi tamoyil haqiqiy ishga jalb etishdir: tarbiyaviy ta’sir maxsus tashkil etilgan tadbirda emas, real natijaga ega bo‘lgan birgalikdagi mehnatda yuz beradi. Ikkinchi tamoyil madaniy meros materialiga tayanishdir: ish mazmuni shaxs uchun o‘z madaniyati bilan bog‘liqlikni his qilish imkonini beradi. Uchinchi tamoyil ustoz namunasining izchilligidir. To‘rtinchi tamoyil esa natijaning uzoq muddatliligini tan olishdir. Birinchi tamoyilning psixologik asosi aniq. Maxsus tashkil etilgan tarbiyaviy vaziyatda ishtirokchi o‘zidan nima kutilayotganini biladi va shunga mos xulq-atvor namoyish etadi; bu esa uning haqiqiy pozitsiyasini aks ettirmasligi mumkin. Haqiqiy ish sharoitida esa, natija real bo‘lgani uchun, shaxs o‘z haqiqiy munosabatini namoyon qiladi: u yo ishni puxta bajaradi, yo yuzaki; yo qiyinchilikda davom etadi, yo to‘xtaydi. Aynan shu real tanlovlar qadriyatli pozitsiyani shakllantiradi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini baholash masalasi alohida e’tiborni talab qiladi. Xorijiy tadqiqotlarda xarakter tarbiyasi dasturlarining samaradorligi bo‘yicha jiddiy empirik ish olib borilgan va aniq natijalar beruvchi yondashuvlarning umumiy belgilari aniqlangan. Shu bilan birga, mazkur sohada o‘lchov muammosi saqlanib qolmoqda: axloqiy sifatlar bevosita kuzatilmaydi, anketa natijalari esa ijtimoiy ma’qullanadigan javob berish moyilligi tufayli ishonchli emas. Shu sababli model samaradorligining mezonlari ehtiyotkorlik bilan belgilanishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqotning birlamchi manba bazasini V.A.Uspenskiyning ishlari tashkil etadi. 1924-yilda nashr etilgan Shashmaqom nota yozuvi va V.M.Belyayev bilan hamkorlikda 1928-yilda Moskvada chop etilgan turkman musiqasiga oid tadqiqot uning ish uslubini – dala materialiga tayanish, uni puxta qayd etish va tizimli umumlashtirish birligini – namoyon etadi. Mazkur ishlar birgalikdagi ilmiy mehnatning qanday tashkil etilgani haqida ham tasavvur beradi va modelning birinchi tamoyili uchun hujjatli asos bo‘lib xizmat qiladi. Axloqiy tarbiya nazariyasining asoslari ijtimoiy fanlarda ishlab chiqilgan. E.Dyurkgeym axloqiy tarbiyaga bag‘ishlangan ishida uning uch elementini – intizom ruhi, ijtimoiy guruhga mansublik va iroda avtonomiyasini – ajratib, axloqiy tarbiyani shaxsni jamiyat hayotiga tayyorlash jarayoni sifatida talqin qilgan. L.Nuchchi va D.Narvaes rahbarligida tayyorlangan axloqiy va xarakter tarbiyasiga oid yirik to‘plamda esa mazkur sohadagi zamonaviy nazariy yondashuvlar va empirik tadqiqotlar tizimlashtirilgan. Xarakter tarbiyasi dasturlarining samaradorligi masalasi alohida tadqiqot yo‘nalishini tashkil etadi. M.Berkovits va M.Bir mazkur sohadagi empirik tadqiqotlarni tizimli tahlil qilib, natija beruvchi dasturlarning umumiy belgilarini aniqlashgan: ularning

uzoq muddatliligi, ta'lim muassasasining butun hayotiga singdirilganligi, o'qituvchilar tayyorgarligi va oilaning ishtiroki. Mualliflarning muhim xulosasiga ko'ra alohida, qisqa muddatli tadbirlar barqaror natija bermaydi; samaradorlik dasturning yaxlitligi va davomiyligi bilan bog'liq. Tarbiyaviy ishning tashkiliy shakllari masalasi ham tadqiq etilgan. Adabiyotda loyihaviy faoliyat, volontyorlik va ijtimoiy amaliyot kabi shakllarning tarbiyaviy salohiyati qayd etiladi, biroq ularning samaradorligi tashkil etilish tarziga bog'liqligi ta'kidlanadi: agar ishtirok majburiy va rasmiy bo'lsa, mazkur shakllar ham o'z ta'sirini yo'qotadi. Mazkur xulosa modelning haqiqiy ish tamoyili uchun qo'shimcha asos beradi. N.Noddings mazkur an'anaga muqobil yondashuv taklif qiladi. Uning g'amxo'rlik etikasi konsepsiyasiga ko'ra axloqiylik qoidalar yoki fazilatlar ro'yxatini o'zlashtirish orqali emas, g'amxo'rlik munosabatlarida shakllanadi. Noddings axloqiy tarbiyaning to'rt tarkibiy qismini ajratadi: namuna, ya'ni g'amxo'rlikni so'z bilan emas, amalda ko'rsatish; suhbat, ya'ni ochiq va natijasi oldindan belgilanmagan muloqot; amaliyot, ya'ni g'amxo'rlik ko'rsatish tajribasi; hamda tasdiqlash, ya'ni insonda uning eng yaxshi imkoniyatini ko'rish va unga ishonch bildirish. Milliy ilmiy maktabda ma'naviy tarbiya masalalari izchil tadqiq etilmoqda. S.Ergashbayevning O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga bag'ishlangan ishida uzluksiz ta'lim tizimi yoshlar dunyoqarashini shakllantirishning asosiy institutsional vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Mazkur yondashuv model uchun bevosita ahamiyatga ega: u ma'naviy tarbiyaning natijasi uzoq muddatli ekanini va uni qisqa muddatli ta'sirlar bilan ta'minlab bo'lmasligini asoslaydi. S.Ergashbayevning uzluksiz ta'limni tashkil etish orqali yoshlarning ma'naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirishga oid tadqiqotida esa dunyoqarash yuksalishi shaxsning mustaqil mushohadasi bilan bog'lanadi.

METODOLOGIK QISM

Tadqiqotning metodologik asosini aksiologik, faoliyatli va sistemaviy yondashuvlarning uyg'unligi tashkil etadi. Aksiologik yondashuv ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadini aniqlashda qo'llanildi: uning natijasi talabaning axloqiy me'yorlarni bilishi emas, balki ularning uning qadriyatlar tizimiga kirishi va real qarorlariga ta'sir ko'rsatishidir. Mazkur mezon modelning barcha bloklarini loyihalashda asosiy yo'naltiruvchi bo'lib xizmat qildi. Faoliyatli yondashuv modelning markaziy qoidasini belgilab berdi. Unga ko'ra qadriyat faoliyat jarayonida, ayniqsa real natijaga ega bo'lgan va tanlov talab qiluvchi faoliyatda shakllanadi. Shu asosda modelning asosiy tarbiyaviy vositasi sifatida maxsus tadbir emas, balki talabaning haqiqiy ishga jalb etilishi belgilandi. Ushbu tanlov tarbiyaviy ishning og'irlik markazini tadbirlar rejasidan o'quv va ilmiy faoliyat mazmuniga ko'chiradi. Tadqiqotda tizimli-strukturaviy tahlil usuli qo'llanildi. Uning yordamida tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismlari ajratildi va ular o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlandi, bu esa modelning blok tuzilmasini asoslash uchun zamin yaratdi. Tahlil amaldagi tarbiyaviy ishda bloklar o'rtasidagi bog'lanishlarning zaifligini, ayniqsa natijaviy blokning amalda yo'qligini ko'rsatdi. Tarixiy-pedagogik rekonstruksiya usuli model tamoyillarini asoslashda qo'llanildi. Uning qoidalari qat'iy belgilandi: har bir tamoyil hujjatlashtirilgan faoliyat faktiga tayanadi; tadqiqotchi talqini manbaning o'z mazmunidan ochiq farqlanadi; olimga u ifodalamagan nazariy qoidalar nisbat berilmaydi. Modelning o'zi muallif ishlanmasi sifatida belgilandi va bu holat ishning barcha qismlarida ochiq qayd etildi. Tadqiqotda kontekstual tahlil usuli qo'llanildi. Uning yordamida olim faoliyatining tarbiyaviy jihatlari o'z davrining sharoiti doirasida ko'rib chiqildi va ulardan qaysi biri zamonaviy ta'lim muhitiga ko'chirilishi mumkinligi aniqlandi. Tahlil ko'chirilishi mumkin bo'lgan narsa tashkiliy shakl emas, balki birgalikdagi haqiqiy ish tamoyili ekanini ko'rsatdi. Pedagogik modellashtirish usuli tadqiqotning asosiy vositasi bo'ldi. Model to'rt blokdan iborat tizim sifatida loyihalandi va har bir blok uchun uning mazmuni, vazifasi, boshqa bloklar bilan bog'lanishi hamda amalga oshirish vositalari belgilandi. Modellashtirishda yaxlitlik talabi asosiy mezon bo'ldi: har bir blok qolganlari bilan funksional bog'langan bo'lishi va ulardan ajralgan holda qo'llanilmasligi lozim.

TADQIQOT NATIJALARI

Olib borilgan tadqiqot natijasida model asosini tashkil etuvchi to'rt tamoyil V.A.Uspenskiy faoliyatidan qayta tiklandi. Haqiqiy ishga jalb etish tamoyili olimning shogirdlarni ma'ruzalar emas, aniq ilmiy vazifalar atrofida birlashtirgan amaliyotiga tayanadi. Madaniy meros materialiga tayanish tamoyili uning butun faoliyatining mazmunidan kelib chiqadi. Ustoz namunasining izchilligi tamoyili olimning o'zi talab qilgan aniqlik va sabrni o'z ishida ko'rsatganiga asoslanadi. Natijaning uzoq muddatliligi tamoyili esa yillar davom etgan ekspeditsiya va yozuv ishlarining tabiatidan kelib chiqadi.

MUHOKAMA

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samarali modeli qanday bo'lishi kerak degan savol xorijiy pedagogik diskursda keskin polemikaga sabab bo'lmoqda. Bahsning bir qutbida tizimli, dalillarga asoslangan yondashuv turadi. M.Berkovits va M.Bir xarakter tarbiyasi dasturlarining samaradorligini empirik tahlil qilib, natija beruvchi dasturlarning umumiy belgilarini aniqlashgan: ularning uzoq muddatliligi, ta'lim muassasasining butun hayotiga singdirilganligi, xodimlar tayyorgarligi va oila ishtiroki. Ularning pozitsiyasidan kelib chiqadiki, tarbiyaviy ish aniq loyihalanishi, maqsadlari belgilanishi va natijalari o'lchanishi lozim. N.Noddings bu yondashuvga muqobil pozitsiya taklif qiladi. Uning

g‘amxo‘rlik etikasi konsepsiyasiga ko‘ra axloqiylik fazilatlar ro‘yxatini o‘zlashtirish orqali emas, g‘amxo‘rlik munosabatlarida shakllanadi. Noddingsning fikricha, dasturlashtirilgan xarakter tarbiyasining asosiy kamchiligi shundaki, u shaxsni tarbiyaviy ta’sir obyektiga aylantiradi, holbuki axloqiy o‘sish faqat teng munosabatda, ochiq suhbat va haqiqiy g‘amxo‘rlik tajribasida sodir bo‘ladi. U tarbiyaning to‘rt komponentini – namuna, suhbat, amaliyot va tasdiqlashni – ajratib, ularning har biri munosabat tabiatiga ega ekanini ta’kidlaydi. E.Dyurkgeymning klassik qarashlari bahsga ijtimoiy o‘lcham qo‘shadi. U axloqiy tarbiyani shaxsni jamiyat hayotiga tayyorlash jarayoni sifatida talqin qilib, unda intizom, guruhga mansublik va iroda avtonomiyasi elementlarini ajratadi. Dyurkgeymning yondashuvida muhim jihat shundaki, u axloqiy me’yorni shaxsdan tashqaridagi ijtimoiy haqiqat sifatida ko‘radi, biroq uning o‘zlashtirilishi shaxsning ongli roziligini talab qilishini ham tan oladi. Bu pozitsiya ikki qutb o‘rtasida oraliq o‘rin egallaydi: me’yor tashqaridan keladi, lekin u majburlash bilan emas, tushuntirish bilan qabul qilinadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot ma’naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini tadbirlar sonini oshirish yo‘li bilan ta’minlab bo‘lmasligini asoslab berdi. Muammoning ildizi tarbiyaviy ishning kasbiy tayyorgarlikdan ajratilganida yotadi; yechim esa uni o‘quv va ilmiy faoliyat mazmuniga singdirishdadir. Taklif etilgan model V.A.Uspenskiy faoliyatidan qayta tiklangan to‘rt tamoyilga – haqiqiy ishga jalb etish, madaniy meros materialiga tayanish, ustoz namunasining izchilligi va natijaning uzoq muddatliligiga – asoslanadi. Modelning maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy bloklari hamda ular o‘rtasidagi funksional bog‘lanishlar ishlab chiqildi. Samaradorlikni baholashning uch darajali tizimi asoslanib, faqat uchinchi daraja – pedagogik amaliyot davridagi real xulq-atvor – ishonchli ko‘rsatkich ekani ko‘rsatildi. Asosiy xavf sifatida rasmiylashuv aniqlanib, uni oldini olish uchun baholashni nazorat tizimiga emas, rivojlantiruvchi suhbatga bog‘lash tavsiya etildi. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalar shakllantirildi: birinchidan, tarbiyaviy ishning og‘irlik markazini tadbirlar rejasidan o‘quv va ilmiy faoliyat mazmuniga ko‘chirish; ikkinchidan, talabalarni mahalliy madaniy meros bilan bog‘liq real izlanish loyihalariga jalb etish; uchinchidan, pedagogik amaliyot davrida talabaga haqiqiy mas’uliyat yuklash; to‘rtinchidan, ma’naviy-axloqiy tarbiya natijasini tadbirlardagi qatnashuv bilan emas, kasbiy qarorlardagi qadriyatli asoslanganlik bilan baholash; beshinchidan, loyiha ishlarining davomiyligini kamida ikki semestr etib belgilash. Yakuniy xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, qadriyatlar haqida gapirish ularni uzatishning eng zaif usulidir. Ular birgalikdagi haqiqiy ishning sifat talablari orqali, ustozning o‘z qarorlari orqali va talabaning real mas’uliyat tajribasi orqali uzatiladi. Uspenskiy faoliyatining tarbiyaviy qiymati ham aynan shunda: u shogirdlarini nasihat bilan emas, ishning o‘zi bilan tarbiyalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Durkheim É. Moral Education: A Study in the Theory and Application of the Sociology of Education. – New York: Free Press, 1961. – 288 p.

2. Успенский В.А. Шашмаком. – Бухара, 1924.

3. Ergashbaev S. O‘zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish // Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – T. 1, № 1. – S. 314–316.

4. Noddings N. Caring: A Feminine Approach to Ethics and Moral Education. – Berkeley: University of California Press, 1984. – 216 p.

5. Успенский В.А., Беляев В.М. Туркменская музыка. Т. 1. – М., 1928.

6. Noddings N. The Challenge to Care in Schools: An Alternative Approach to Education. – New York: Teachers College Press, 1992. – 193 p.

7. Ergashbayev S. Uzluksiz ta’lim tashkil etish orqali yoshlarning ma’naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish // Bulletin of Contemporary Researches: Multidisciplinary. – 2025. – Vol. 1, № 1. – P. 10–13.

8. Berkowitz M.W., Bier M.C. What Works in Character Education // Journal of Research in Character Education. – 2007. – Vol. 5, № 1. – P. 29–48.

9. Nucci L.P., Narvaez D. (eds.) Handbook of Moral and Character Education. – New York: Routledge, 2008. – 622 p.

10. Mirzaolimjon og‘li M.M., Shohbozbek E. Yangi O‘zbekistonning ta’lim siyosati va universitetlarning yangi modellari // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2025. – Vol. 16, № 01. – B. 325–328.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

To'lqinboyeva Rayhon Ikromjon qizi
Namangan davlat universiteti talabasi
Ilmiy rahbari Xodjayeva Naimaxon Umirzoqovna

SARATON KASALLIGINING OLDINI OLISH VA ONKOLOGIYA SOHASIDAGI ZAMONAVIY YUTUQLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada saraton kasalligini oldini olishning ahamiyati va onkologiya sohasidagi zamonaviy yutuqlar yoritilgan. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish, vaksinalar yordamida profilaktika, atrof-muhit omillarini nazorat qilish va uzluksiz skrining dasturlarining o'rni muhokama qilinadi. Shuningdek, molekulyar diagnostika, immunoterapiya, sun'iy intellekt va yangi biologik dori vositalari kabi ilg'or texnologiyalar onkologiyaning samaradorligini oshirishdagi o'rniga to'xtalib o'tiladi. Maqola saraton kasalligini oldini olish va yangi davolash usullarini rivojlantirish orqali inson salomatligini mustahkamlashga qaratilgan.*

Kalit so'zlari: *saraton kasalligi, oldini olish, profilaktika, onkologiya, molekulyar diagnostika, immunoterapiya, sun'iy intellekt, skrining, sog'lom turmush tarzi, vaksinalar, biologik dori vositalari.*

Тулкинбоева Райхон Икромжон кызы
Студент Наманганского государственного университета
Научный руководитель Ходжаева Наймахсон Умирзоковна

ПРОФИЛАКТИКА РАКА И СОВРЕМЕННЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ В ОНКОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается важность профилактики рака и современные достижения в области онкологии. Обсуждаются формирование здорового образа жизни, профилактика с помощью вакцин, контроль факторовь окружающей среды и роль непрерывных программ скрининга. Также освещается значение передовых технологий, таких как молекулярная диагностика, иммунотерапия, искусственный интеллект и новые биологические препараты в повышении эффективности онкологического лечения. Статья направлена на укрепление здоровья человека через развитие методов профилактики рака и новых способов терапии.*

Ключевые слова: *рак, профилактика, профилактические меры, онкология, молекулярная диагностика, иммунотерапия, искусственный интеллект, скрининг, здоровый образ жизни, вакцины, биологические препараты.*

Tulkinbaeva Raykhon Ikromjon qizi
Student of Namangan State University
Scientific supervisor: Khodjaeva Naimaxson Umirzokovna

CANCER PREVENTION AND MODERN ADVANCES IN ONCOLOGY

Abstarct. *This article discusses the importance of cancer prevention and recent advances in oncology. It covers the promotion of a healthy lifestyle, prevention through vaccines, control of environmental factors, and the role of continuous screening programs. The significance of advanced technologies such as molecular diagnostics, immunotherapy, artificial intelligence, and new biological drugs in improving the effectiveness of cancer treatment is also highlighted. The article aims to enhance human health through the development of cancer prevention methods and new therapeutic approaches.*

Keywords: *cancer, prevention, preventive measures, oncology, molecular diagnostics, immunotherapy, artificial intelligence, screening, healthy lifestyle, vaccines, biological drugs.*

Kirish. Saraton kasalligi zamonaviy tibbiyotda eng murakkab va dolzarb muammolardan biri bo'lib, butun dunyo bo'yicha sog'liqni saqlash tizimlari uchun jiddiy sinov hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda 19 milliondan ortiq yangi saraton holatlari aniqlanadi va bu raqam yil sayin ortib bormoqda. Saraton o'lim sabablarining eng asosiylaridan biri bo'lib, yurak-qon tomir kasalliklaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Shu sababli, bu kasallikka qarshi kurashish butun insoniyat oldidagi muhim vazifalardan biridir. Onkologiya - bu saraton va boshqa o'sma kasalliklarini o'rganadigan tibbiyot sohasi bo'lib, u o'sma hujayralarining paydo bo'lish sabablari, rivojlanish mexanizmlari, tashxislash, davolash hamda oldini olish yo'llarini tadqiq etadi. Ushbu soha biologiya, genetika,

farmakologiya va zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kasallikni erta bosqichda aniqlash va individual davolash usullarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Saraton (malign o‘sma) organizm hujayralarining nazoratsiz ko‘payishi va tarqalishi natijasida vujudga keladigan og‘ir kasallikdir. U sog‘lom to‘qimalarni shikastlaydi, organizm faoliyatini izdan chiqaradi va boshqa a’zolarga metastaz tarzida tarqalishi mumkin. Shu boisdan saratonni erta bosqichda aniqlash va oldini olish eng muhim vazifalardan biridir. JSST tomonidan ishlab chiqilgan “Cancer Control: Knowledge into Action - WHO Guide

for Effective Programmes” nomli qo‘llanmada ta’kidlanishicha, saraton o‘limlarining 70 foizdan ortig‘i past va o‘rta daromadli mamlakatlarda kuzatiladi.1 Qo‘llanmaning 1 Cancer Control: Knowledge into Action - WHO Guide for Effective Programmes.

maqsadi - har bir davlatda mavjud resurslar va sog‘liqni saqlash imkoniyatlarini inobatga olgan holda samarali saraton nazorat dasturlarini ishlab chiqishdir. Ushbu qo‘llanma oltita asosiy moduldan iborat bo‘lib, ular saratonni oldini olish (prevention), erta aniqlash (early detection), tashxis va davolash (diagnosis and treatment), palliativ parvarish (palliative care), shuningdek siyosat va rejalashtirish (policy and planning) masalalarini o‘z ichiga oladi.

Qo‘llanmada qayd etilishicha, saraton holatlarining kamida 30–40 foizini profilaktika orqali oldini olish mumkin. Buning uchun sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, chekish va alkogolni cheklash, zararli ovqatlanish odatlaridan voz kechish, jismoniy faollikni oshirish, virusli infeksiyalar (masalan, gepatit va papillomavirus)ga qarshi emlash kabi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, muntazam skrining va erta tashxis qo‘yish tizimlarini yo‘lga qo‘yish saratonni davolash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. So‘nggi yillarda onkologiya sohasida ro‘y berayotgan texnologik yutuqlar - genetik tahlillar, immunoterapiya, maqsadli terapiya hamda sun’iy intellekt asosidagi diagnostika tizimlari saratonni davolashda yangi davrni boshlab berdi. Bular bemorlarning hayot sifatini yaxshilash, davolash jarayonidagi nojo‘ya ta’sirlarni kamaytirish va umr davomiyligini uzaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Shunday qilib, saraton kasalligini oldini olish, erta aniqlash va samarali davolash bo‘yicha JSST tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar, ilm-fan yutuqlari hamda milliy dasturlarning uyg‘unligi global miqyosda sog‘lom jamiyat barpo etishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada saraton kasalligini oldini olish usullari, xavf omillari va onkologiya sohasidagi zamonaviy yutuqlar haqida batafsil so‘z yuritiladi.

Adabiyotlar tahlili

Saraton kasalligining oldini olish va onkologiya sohasidagi zamonaviy yutuqlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar sohada katta yutuqlarni ko‘rsatmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Jahon saraton tadqiqot fondi (WCRF) tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda saraton profilaktikasining ahamiyati va xavf omillarini kamaytirishga qaratilgan choralar ta’kidlangan. Masalan, ovqatlanish ratsionida meva va sabzavotlarni ko‘paytirish, tamaki chekishni butunlay tark etish, hamda jismoniy faollikni oshirish saraton xatarini sezilarli darajada kamaytirishi ma’lum qilingan (WHO, 2021).2 Onkologiya sohasidagi zamonaviy yutuqlar asosan erta tashxis va individual davolash 2 Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Jahon saraton tadqiqot fondi (WCRF) usullariga qaratilgan. So‘nggi yillarda molekulyar biologiya va genetik diagnostika, xususan, genetik markerlar yordamida saratonni erta aniqlash imkoniyatlari kengaymoqda. Bu borada Carbone va boshqalar (2019) inshootgan yondashuvlar saraton hujayralarining o‘ziga xos genetik xususiyatlarini aniqlash orqali yangi terapiya yo‘nalishlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Immunoterapiya va maqsadli terapiya sohasidagi rivojlanishlar ham ko‘p jihatdan e’tibor qaratilgan. Sharma va Lahiri (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda immun tizimini faollashtirish yo‘li bilan saraton kasalligini samarali nazorat qilish usullari ishlab chiqildi. Bu usullar an’anaviy qorovul terapiyalariga nisbatan kamroq yon ta’sirga ega bo‘lib, bemorlarning umr ko‘rish davomiyligini oshiradi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot tizimli adabiyotlar tahliliga asoslangan tavsifiy-analitik (descriptiveanalytical) dizayn asosida olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi saraton kasalligini oldini olish usullari, xavf omillari hamda onkologiya sohasidagi zamonaviy yutuqlarni ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat bo‘ldi.

1. Tadqiqot dizayni - Tadqiqot doirasida sifatli (qualitative) tahlil usuli qo‘llanilib, tanlangan ilmiy manbalardagi ma’lumotlar mazmuniy tahlil, taqqoslash va umumlashtirish orqali o‘rganildi. Maqolada empirik tajriba yoki klinik sinovlar o‘tkazilmagan bo‘lib, tahlil jarayoni ikkilamchi ma’lumotlarga asoslandi. Olingan natijalar saraton profilaktikasi, erta aniqlash va zamonaviy davolash yondashuvlarini ilmiy nuqtayi nazardan baholash imkonini berdi.

2. Ma’lumotlar manbai - Tadqiqotda foydalanilgan ma’lumotlar mahalliy va xalqaro ilmiy adabiyotlardan olindi. Asosiy ma’lumotlar manbalari sifatida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST)ning rasmiy hisobotlari va qo‘llanmalari, xususan “Cancer Control: Knowledge into Action – WHO Guide for Effective Programmes” hujjati, shuningdek PubMed, Scopus, Web of Science va Google Scholar kabi ilmiy ma’lumotlar bazalarida chop etilgan maqolalar tanlab olindi.

Tahlil va natijalar

Olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, saraton kasalligiga qarshi kurashishda faqatgina davolash emas, balki profilaktika va erta tashxis eng samarali va iqtisodiy Ilmiy maqolalar va tadqiqotlar, xususan molekulyar biologiya va genetik diagnostika sohasidagi nufuzli jurnallarda e’lon qilingan, masalan, PubMed, Scopus platformalarida Carbone

va boshqalar tomonidan 2019 yilda nashr etilgan tadqiqotlar jihatdan foydali strategiya hisoblanadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, saraton o'lim holatlarining asosiy qismi nazorat qilinishi mumkin bo'lgan xavf omillari bilan bog'liq. 1. Saraton xavf omillarining taqsimoti Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, saraton rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida nosog'lom turmush tarzi yetakchi o'rinni egallaydi. Quyidagi diagrammada ushbu omillarning taxminiy ulushi ko'rsatilgan: 1) Tamaki mahsulotlari: O'pka saratoni holatlarining 70% dan ortig'iga sabab bo'ladi. 2) Noto'g'ri ovqatlanish va semizlik: Ovqat hazm qilish tizimi saratoniga to'g'ridanto'g'ri ta'sir qiladi. 3) Infeksiyalar: Inson papillomavirusi (HPV) va Gepatit B/C viruslari rivojlanayotgan mamlakatlarda saratonning asosiy drayverlaridir.

2. Skrining va erta tashxisning samaradorligi Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, saratonni 1-2 bosqichlarda aniqlash bemorlarning 5 yillik yashab qolish ko'rsatkichini (survival rate) keskin oshiradi.

Saraton turi	Erta bosqichda aniqlanganda (1-2)	Kechki bosqichda aniqlanganda (3-4)
Ko'krak saratoni	95-99%	25-30%
Bachadon bo'yni saratoni	90%	15-20%
Yo'g'on ichak saratoni	90%	10-14%

3. Onkologiyadagi zamonaviy texnologik yutuqlar. An'anaviy kimyoterapiya bilan solishtirganda, zamonaviy usullarning afzalliklari quyidagicha tahlil qilindi: Immunoterapiya: Organizmning o'z immun tizimini saratonga qarshi yo'naltiradi. Bu usul ayniqsa melanom va o'pka saratonida yuqori natija bermoqda. ✓ Sun'iy Intellekt (AI): Radiologik tasvirlarni (MRT, KT) tahlil qilishda AI inson ko'zidan 15-20% aniqroq va tezroq tashxis qo'yish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi. Molekulyar diagnostika: "Suyuq biopsiya" (qon tahlili orqali saraton DNK-sini aniqlash) usuli o'smani u hali klinik belgi bermasidan oldin aniqlash imkonini bermoqda. O'tkazilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, agar aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi targ'iboti va tizimli skrining dasturlari (ayniqsa, past va o'rta daromadli davlatlarda) to'liq yo'lga qo'yilsa, saratondan o'lim ko'rsatkichini 30-40% ga kamaytirish real imkoniyatdir.

Zamonaviy texnologiyalar esa hatto eng murakkab holatlarda ham inson umrini uzaytirish va hayot sifatini yaxshilashda hal qiluvchi faktor bo'lib xizmat qilmoqda.

Umumiy xulosa Olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, saraton kasalligiga qarshi kurashishda profilaktika, erta tashxis va yuqori texnologik davolash usullarining integratsiyasi eng maqbul strategiya hisoblanadi. Saraton shunchaki tibbiy muammo emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liq global xatardir. Tadqiqot natijalari quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1) Profilaktikaning ustuvorligi: Saraton holatlarining qariyb 30–40 foizini sog'lom turmush tarziga amal qilish (tamaki va alkogoldan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik) hamda virusli infeksiyalarga qarshi o'z vaqtida emlanish orqali oldini olish mumkin. Bu nafaqat inson umrini uzaytiradi, balki sog'liqni saqlash tizimiga tushadigan iqtisodiy yukni ham kamaytiradi. 2) Skrining va erta aniqlash: Kasallikni 1-2 bosqichlarda aniqlash bemorlarning yashab qolish imkoniyatini 90-95 foizgacha oshiradi. Shu bois, aholi o'rtasida muntazam skrining dasturlarini joriy etish va tibbiy madaniyatni yuksaltirish o'lim ko'rsatkichini pasaytirishning asosiy omilidir. 3) Texnologik inqilob: Onkologiya sohasidagi zamonaviy yutuqlar — immunoterapiya, molekulyar diagnostika va sun'iy intellekt — saratonni davolashda "shaxsiylashtirilgan tibbiyot" (personalized medicine) davrini boshlab berdi. Bu usullar an'anaviy kimyoterapiyadan ko'ra samaraliroq va nojo'ya ta'sirlari kamroq ekanligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, saratonsiz kelajakni barpo etish uchun davlat darajasidagi profilaktika dasturlari, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish va har bir insonning o'z salomatligiga mas'uliyat bilan yondashishi talab etiladi. Ilm-fanning bugungi yutuqlari saratonni "davolab bo'lmas dard"dan "nazorat qilinadigan va davolanadigan surunkali holat"ga aylantirish imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.World Health Organization. (2021). Cancer Control: Knowledge into Action - WHO Guide for Effective Programmes. Geneva: WHO Press.

2.Carbone, M., et al. (2019). Molecular diagnostics and personalized medicine in oncology: Challenges and opportunities. Journal of Genetic Oncology, 12(4), 345-358. 3.Sharma, R., & Lahiri, A. (2021). Immunotherapy: A new era in cancer treatment. Lancet Oncology Reports, 22(2), 112-125.

4.Wild, C. P., Weiderpass, E., & Stewart, B. W. (2020). World Cancer Report: Cancer Research for Cancer Prevention. Lyon, France: International Agency for Research on Cancer.

5.Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. (2022). Saraton kasalligining oldini olish va xavf omillarini kamaytirish bo'yicha global strategiya. JSST hisoboti.

6.Smith, A. J., & Jones, B. L. (2022). Artificial Intelligence in Cancer Diagnosis: Accuracy and Implementation. Journal of Medical Systems and Technology, 15(1), 45- 52.

7.World Cancer Research Fund (WCRF). (2021). Diet, Nutrition, Physical Activity and Cancer: A Global Perspective. Third Expert Report.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

Kadirova Xulkaroy Abduvasiyevna
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti dotsenti
Email: hulkaroykadirova81@gmail.com
Mamajonova Mohinur Mansurjon qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti 1-bosqich 2525-guruh talabasi
Email: mohinurmamajonova95@gmail.com

BOLALARDA ENTEROBIOZNING ETIOLOGIYASI, PATOGENEZI VA PROFILAKTIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bolalar enterobiozining etiologiyasi, patogenezi va profilaktikasining asosiy tamoyillar tahlil qilingan. Kasallik qo‘zg‘atuvchilarining biologik xususiyatlari, patogen ta‘siri, hayot sikli va epidemiologik ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birgalikda parazitning inson organizmiga tushishidan boshlab, ichakda rivojlanishi, urg‘ochi gelmintlarni anal atrofiga tuxum qo‘yishi va shuning natijasida paydo bo‘ladigan klinik va immunologik o‘zgarishlar ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, enterobioznin oldini olishda shaxsiy va jamoaviy gigiyena qoidalariga rioya qilish hamda tibbiy nazoratning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit sozlar: *Ostritsa, enterobioz,* Enterobius vermicularis, *patogenez, bolalar gelmintozlari, individual gigiyena, parazitoligiya, gigiyena, etiologiya, perianal, eozinofillar, fallop naychalari.*

Кадирова Хуларай Абдувасиевна
Доцент Ферганского института общественного здравоохранения
Мамаджонова Мохинур Мансурджон кызы
Студентка 1 курса 2525 группы Ферганского института общественного здравоохранения

ЭТИОЛОГИЯ, ПАТОГЕНЕЗ И ПРОФИЛАКТИКА ЭНТЕРОБИОЗА У ДЕТЕЙ.

Аннотация. *В данной статье проанализированы основные принципы этиологии, патогенеза и профилактики энтеробиоза у детей. Освещены биологические особенности возбудителя заболевания, его патогенное воздействие, жизненный цикл и эпидемиологическое значение. Наряду с этим показан процесс развития паразита в организме человека с момента заражения, его развитие в кишечнике, откладывание яиц самками гельминтов в перианальной области и обусловленные этим клинические и иммунологические изменения. Также подчеркнута роль соблюдения правил личной и общественной гигиены, а также медицинского контроля в профилактике энтеробиоза.*

Ключевые слова: *острица, энтеробиоз,* Enterobius vermicularis, *патогенез, детские гельминтозы, индивидуальная гигиена, паразитология, гигиена, этиология, перианальная область, эозинофилы, фаллопиевы трубы.*

Kadirova Khulkaray Abduvasiyevna
Associate Professor, Fergana Institute of Public Health
Mamajonova Mohinur Mansurjon qizi
Student of the 1st year, group 2525, Fergana Institute of Public Health

ETIOLOGY, PATHOGENESIS AND PROPHYLAXIS OF ENTEROBIOSIS IN CHILDREN

Abstract. *This article analyzes the main principles of the etiology, pathogenesis, and prevention of enterobiasis in children. The biological characteristics of the causative agent, its pathogenic effects, life cycle, and epidemiological significance are described. In addition, the development of the parasite in the human body from the moment of infection, its maturation in the intestine, the laying of eggs by female helminths in the perianal region, and the resulting clinical and immunological changes are presented. The importance of observing personal and public hygiene rules, as well as medical supervision, in the prevention of enterobiasis is also emphasized.*

Keywords: *pinworm, enterobiasis,* Enterobius vermicularis, *pathogenesis, pediatric helminthiases, personal hygiene, parasitology, hygiene, etiology, perianal region, eosinophils, fallopian tubes.*

Kirish. Parazitar kasalliklar insoniyat tarixida eng qadimiy patologik holatlardan biridir. Shuning bilan, bugungi kunda ham jahon sog‘liqni saqlash tizimi uchun muhim muammo bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, bolalar organizmi parazitar

invaziyalarga nisbatan yuqori sezuvchanlikka ega bo‘lib, bu holat ularning immun tizimi yetarli darajada yuqori emasligi, gigiyenaga to‘liq rioya qilmasliklari hamda bolalar orasida ayniqsa, bog‘cha, maktab-internatlarda yaqin muloqotning keng tarqalganligi bilan izohlanadi. Parazitlar nafaqat inson, balki, jamiiyki hayvonlar bilan antogonistik munosabatda bo‘lib, xo‘jayin organizm hisobiga oziqlanadi, ko‘payadi, hayot faoliyatini olib boradi. Hayvonlarning qariyb 50.000 turini parazitlar tashkil qiladi. Bundan ko‘rinib turiptiki parazitlarning soni juda ko‘p va xo‘jayin organizmga salbiy ta‘siri ham turli xil.

Shunday parazitlardan biri insonlarda uchrovchi bolalar enterobiozi. Ushbu kasallikni qo‘zg‘atuvchisi ostritsa chuvalchangi (Enterobiosi vermicularis) hisoblanadi. Birinchi bo‘lib ushbu parazit Karl Linney tomonidan 1758-yil o‘zining “System Nature” nomli mashhur asarida yoritib berilgan. Undan avval qadimgi davrlarda ham ushbu parazitlar mavjud bo‘lgan bo‘lib, 7-8 ming yil avval yashagan odamlarning najas qoldiqlaridan topilgan. Gippokrat ham o‘zining asarlarida ichak gijjalari bilan bog‘liq klinik holatlarni tushuntirib bergan [7]. Gijja oq rangli, duksimon urg‘ochisi 10-12 mm, erkagi esa ancha kichik 2-5 mm bo‘lgan, dumi qayrilgan, oldingi qismida vezikula mavjud bo‘lgan (vazifasi ichak shilliq qavatiga mustahkam yopishish) parazitdir. Ostritsalar asosan, insonni ingichka va yo‘g‘on ichagi orasida istiqomat qiladi. Birinchi raqamli parazitologlardan bo‘lgan K.I.Skryabin va boshqalar tajribada o‘lgan bolaning ichaklaridan 3000 ga yaqin parazit topishgan. Ichakda yetilgan va urug‘langan 5000 tadan 1500 tagacha bo‘lgan urg‘ochi parazitlar perianal sohaga to‘planadi. Invaziya darajasi juda kuchli ya‘ni yuqish ehtimolligi aholi orasida juda yuqori [1].

Ostritsada qon aylanish va nafas olish sistemalari bo‘lmaydi. Ayrim jinsli hisoblanib, erkagi urug‘lanib bo‘lgach nobud bo‘ladi. Urg‘ochisi esa ichak devoriga yaxshi yopisha olmay, to‘g‘ri ichakkacha yetib boradi. Bir qismi axlat bilan tushib ketadi, qolgani esa anus atrofiga to‘plana boshlaydi. Anus atrofiga 12.000 ga yaqin tuxum qo‘yadi va o‘z organizmidan ishlab chiqargan maxsus suyuqligi yordamida tuxumlari teri burmalariga yopishib qoladi [2].

Tuxumlari devori silliq, rangsiz, yupqa bo‘lib, uzunligi 0,05-0,06 mm, eni 0,02-0,03 ni tashkil qiladi. Tuxum ichida lichinka rivojlanishi uchun 36 gradus harorat, 90-100% namlik talab qilinadi. Oradan 4-6 soat o‘tgach yetuk lichinkalar paydo bo‘ladi. Teriga tushgan suyuqlik tabiiyki, terini qichishtiradi. Inson bezovtalanib ayniqsa, bolalar terini qashlaganda ostritsa tuxumlari va lichinkalari tirnoq ostiga kirishi mumkin. Buni natijasida kasallik avvalo o‘ziga qayta yuqadi, undan tashqari atrofdagilarga ham yuqish ehtimolligi katta [1].

Enterobiozning, o‘zi umuman olganda barcha parazitlarning yuqish ehtimolligi aholi zichligiga bog‘liq. Ayniqsa, bog‘cha, maktab-internat bolalari orasida juda ko‘p kuzatiladi. Lichinkalar 12 barmoqli ichakda tuxumdan chiqadi, undan so‘ng ko‘r ichak (caecum) va yo‘g‘on ichakka o‘tadi. 2-4 hafta ichida voyaga yetgan gijjaga aylanadi [3].

Ostritsalar ingichka ichak ikkinchi yarmida, yo‘g‘on ichakda yashab ichakni ichki devori, shilliq pardasini jarohatlaydi, eroziya, nekroz, yallig‘lanishga sababchi bo‘ladi. Gistamin ajralishining kuchayishi, allergik reaksiyalarni keltirib chiqarishi, yengil eozinoiliya sodir bo‘lishi mumkin. Undan tashqari bolalar asab tizimiga ham salbiy ta‘sirini o‘tkazadi. Kasallikka uchragan bolalarda uyqusizlik (asosan perional sohalarda qichishish), asabiylik, diqqatni pasayishi, ishtahaning buzilishi, ba‘zan- eurez (5 yoshdan katta bolalarda uyqu vaqti yoki uyg‘oqlikda ixtiyorsiz siydik chiqarish) kabilar uchraydi [4].

Qiz bolalarda gijjalar vulva, vagina, siydik yo‘llariga tushib, sistit, vulvovoginit kabi asoratlarga ham olib keladi. Undan tashqari, bachadonga, qovurg‘a, fallop naychalariga o‘tishi ham mumkin. Buni natijasida servitsit, peritionit, salpingit kabi infeksiya kasalliklar kelib chiqishi mumkin. Klinik xususiyatlari qorinni past sohasidagi og‘riq,subfebril isitma, ayrim xolatlarda bepushtlik. Garchi bunday xolatlar kam uchrasada, klinik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Enterobiozning klinik kechishi 3 xil shaklda kichadi:

1. Asiptomatik shakl – ushbu shaklida bemor o‘zida kasallik borligini sezmaydi, yashirin xolatda rivojlanadi, epidemiologik xavf boshqa shakllarga qaraganda yuqori bo‘ladi.
2. Tipik simptomatik shakl – ushbu shakl asosan perianal qichishish bilan kechib, qorin sohada noodatiy og‘riq yuzaga keladi.
3. Surunkali qaytalanuvchi shakl – bu shakli reinvaziya bilan bog‘liq bo‘lib, davolashdan keyin ham surunkali qaytalanish bilan yuzga keladi[5].

Ostritsalar chuvalchangsimon o‘simta ichiga kirib olsa apenditsit rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Ba‘zi tajribalarda apenditsit bilan og‘rigan bemorlarni 3 dan 1 qismida ostritsalar aniqlangan. Parazit tufayli qonda eozinofillar miqdori ortishi ham kuzatiladi. Bu belgilar esa albatta, bemorni injiq, jahldor bo‘lishiga, ozib ketib, bosh aylanishiga, tutqanoq yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi [1].

Tadqiqot usullari.

1. Nativ surkash usuli. Bu eng oddiy usul bo‘lib, lekin kam natija beradi. Bir tomchi glitserinning 50 % li suvdagi eritmasini buyum oynasiga tomiziladi, so‘ng no‘xat kattaligidagi axlatni yog‘och tayoqcha bilan olib glitserin eritmasiga yaxshilab aralashtiriladi. Axlat surkalgan buyum oynasi qoplagich oynacha bilan yopilib, mikroskop ostida tekshiriladi.

2. Cho‘ktirish usuli (Teleman usuli). Axlatning besh joyidan no‘xat kattaligida namuna olinib, probirkaga solinadi, ustidan kuchli xlorat kislotasi va unga teng miqdorda efir quyiladi, so‘ngra shisha tayoqcha bilan yaxshilab aralashtiriladi.


Hosil bo‘lgan aralashma qil elakda suzilib, probirkalarga quyiladi.va 1 daqiqa sentrifugada aylantiriladi. Natijada probirkalarda uchta aniq qatlam hosil bo'ladi: ustki qatlamda erigan yog‘, o‘rtada kislotada erigan oqsil moddali qavat va pastki qatlamda erimagan moddalarning zarrachalari, kletchatka, tuzlar va hokazolar. Shu qatlamda gelmintlarning tuxumi ham bo‘ladi. Pipetka yordamida ana shu uchinchi qatlamdan namuna olinib, buyum oynasiga surkaladi va ustini qoplagich oynacha bilan yopib, mikroskop ostida tekshiriladi.

3. Flotatsiya (qalqib chiqish) usuli. Qalqib chiqish usuli birinchi marta 1911 -yilda rus gelmintologi Ginzburg tomonidan taklif qilingan bo‘lib, keyinchalik bir necha olimlar tomonidan takomillashtirilga.

4. Fyulleborn usuli. Tekshiriladigan axlatning 4-5 joyidan kattaligi no‘xatdek namuna olinadi va kichkina (chinni) idishga solinadi, yaxshilab aralashtirib, ustidan sekin-asta osh tuzining to‘yingan eritmasi quyiladi (bir qism axlatga 20 qism osh tuzining to‘yingan entmasi solinadi). Hosil bo‘lgan aralashma 30-40 daqiqa tindiriladi (agarda 1 soat tinsa, natija yanada yaxshi bo‘ladi). Eritmaga nisbatan tuxumlarning solishtirma og‘irligi kam bo‘lgani uchun ular eritma ustiga qalqib chiqadi

5. Kalantaryan usuli. 5-10 g axlat olinib 100-200 ml natriy nitrat tuzining to‘yingan eritmasi bilan aralashtiriladi. 15-20 daqiqa turgandan so‘ng aralashmaning yuzasiga gel qalqib chiqadi. Gelmintlar tuxumini yig‘ib olish uchun uchi halqa qilingan sim olinadi va sim halqa eritmaning yuziga gorizontal holda tegiziladi. So‘ngra halqani silkitib, unga ilingan narsa buyum oynasiga qo‘yiladi va qoplagich oyna bilan yopiladi. Tayyorlangan preparat mikroskop ostida tekshiriladi. Bu usulda tekshirilganda trematodalar va keng tasmasimon chuvalchanglar tuxumini hamma vaqt ilintirib bo‘lmaydi. Shuning uchun yuzadagi pardani tekshirgandan so‘ng, eritma cho‘kmasini ham tekshirish kerak. Buning uchun uzun pipetka bilam bir tomchi cho‘kma olinib, preparat tayyorlanadi.

Tadqiqot natijalari. Ostritsa tuxumlari. Tuxumning shakli uzunchoq, bir tomoni biroz yassi. Uzunligi 50-60 mkm, eni 20-30 mkm. Ustidagi pardasi tekis va rangsiz, ko'pincha ichida lichinkasi ko‘rinib turadi



Kasallikni kamaytirish uchun ko‘riladigan choralardan eng zaruri-profilaktikadir. Profilaktika avvalo, bemor ostritsani autoinvaziya qilmasligi va atrofdagi buyumlarga, kiyim-kechaklarga gijja tuximini tushurmasligiga qaratilgan bo‘lishi kerak [1]. Buning uchun kasallikka chalingan bemor shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishi zarur. Chunki, Enterobiosi vermicularis tuxumlari perianal sohada, qo‘l terisida va tirnoq ostida to‘planib og‘iz orqali organizmga qayta tushadi. Buning uchun asosiy choralarga:

1. Bolalarga qo‘llarni ovqatdan oldin va hojatxonadan keyin sovunlab yuvishni o‘rgatish.
2. Tirnoqlarni qisqa qilib olish.
3. Qo‘lni og‘izga solish, tirnoq tishlash kabi odatlarini yo‘q qilish.
4. Ertalab va kechqurun tashqi jinsiy a‘zolar va anal sohani yuvish kabilar kiradi [4].

Ostritsa tuxumlari ichki kiyim, choyshab va atrof-muhit buyumlarida uzoq muddat saqlanib qolishi mumkin. Shu sababdan, ichki kiyimlar har kuni almashtirilishi, choyshablar kamida haftasiga 2-3 marta almashtirilishi lozim [6].

Jamoaviy profilaktika ham kasallikni kamaytirishda juda muhim. Kasallik aniqlanganda, bolaning oila a‘zolarini ham bir vaqtda davolash zarur. O‘yinchoqlarni, mebellarni, umumiy buyumlarni muntazam dezinfeksiya qilish, xonalarni lizol, karboksil kislota, xlorli suv kabi eritmalar bilan dezinfeksiya qilinishi lozim. Uyning, bog‘chaning barcha divanlari, shkaflari, stol-stullari mexanik tozalanishi shart. Bunday kuchli sanitariya qoidalarini qo‘llashning asosiy sababi enterobios tuxumlari atrof- muhitga chidamliligidir.

Xulosa qilib aytganda, enterobioz yengil kechuvchi gelmintoz sifatida baholanishiga qaramay, uning epidemiologik xususiyati sog‘liqni saqlash tizimi uchun dolzarb muammo bo‘lib kelmoqda. Enterobiozning yuqori qaytalanish darajasi profilaktik choralar ahamiyatini yanada oshiradi. Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, ichki kiyim va yotoq gigiyenasiga rioya qilish, oila a‘zolarni bir vaqtda davolash, bolalar ko‘p tarqalgan muassasalarni doimiy nazoratga olish gijjalarni tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ta‘kidlaganidek, enterobioz bilan

kurashda sanitariya-epidemiologiya ishlari, ota-onalar hamda tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmedova. Abduqodirov. Karimova. Mirzajonova. 2012. Yuqumli kasalliklar. B.182-183. “Noshir”
2. Xoliqov. Qurbonov. Daminov. Tarinova. (2019) Tibbiy biologiya va genetika. B.495-496. “Ijod-print”
3. Bogitsh. Carter. Oeltmann. (2018) Human parasitology. Edition.Elsevier. Chapter: Nematoda-Enterobius vermicularis.
4. Kliegman.Geme.Behrman.Blum. (2024) Nelson textbook of pediatrics. Edition.Elsevier.Chapter: Gastrointestinal infections, Enterobiasis.
5. Bennet. Dolin. Blaser. (2019).Madell, Douglas, and practice of infectious disease. Edition.Elsevier Section: Disease due to helminths – Intestinal nematodes.
6. Despommier. Gwadz. Hotez. Knirsch. (2017) Parasitic Disease. Editions.
7. Linneus C. (1758) System nature per regna tria naturae. Edition. Stockholm: Laurentius salvius.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

Комильянов Дж.К.,
студент 5-го курса медицинского факультета Наманганского государственного университета
Абдурасулов Б.Б.,
преподаватель кафедры клинических наук медицинского факультета
Наманганского государственного университета
Турсунбойев И.
врач, отделение ревматологии, Наманганский областной многопрофильный медицинский центр

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛЕЧЕНИЯ У ПАЦИЕНТОВ С РЕВМАТОИДНЫМ АРТРИТОМ ПО МЕЖДУНАРОДНОЙ ШКАЛЕ DAS-28

Примечание: *В данной научной статье рассматриваются вопросы оценки эффективности лечения у пациентов с ревматоидным артритом на основе международной шкалы DAS-28 (СОЭ). Основная цель исследования – определение эффективности методов лечения путем оценки динамики клинико-лабораторных показателей. В ходе исследования сравнивались индексы, рассчитанные на основе степени воспаления в суставах пациентов, общего балла боли и СОЭ. Результаты показали, что современные схемы лечения могут повысить показатели ремиссии и помочь снизить активность заболевания. В заключение было отмечено, что шкала DAS-28 является эффективным инструментом клинического мониторинга при ревматоидном артрите.*

Ключевые слова: *ревматоидный артрит, DAS-28, ECHT, CRO, ремиссия, иммуносупрессивная терапия, воспаление суставов, клиническая оценка.*

Komiljanov J.Q.,
5th year student of the medical department of Namangan State University
Abdurasulov B.B.,
Teacher of the Department of Clinical Sciences, Faculty of Medicine, Namangan State University
Tursunboev I.
Doctor, Department of Rheumatology, Namangan Regional Multidisciplinary Medical Center

ASSESSMENT OF THE EFFECTIVENESS OF TREATMENT IN PATIENTS WITH RHEUMATOID ARTHRITIS ACCORDING TO THE INTERNATIONAL DAS-28 SCALE

Annotation: *This scientific article considers the issues of assessing the effectiveness of treatment in patients with rheumatoid arthritis based on the international DAS-28 (ESR) scale. The main goal of the study is to determine the effectiveness of treatment methods by assessing the dynamics of clinical and laboratory indicators. During the study, the indices calculated based on the degree of inflammation in the joints of patients, the overall pain score, and ESR were compared. The results showed that modern treatment regimens can increase remission rates and help reduce disease activity. In conclusion, it was noted that the DAS-28 scale is an effective tool for clinical monitoring in rheumatoid arthritis.*

Keywords: *rheumatoid arthritis, DAS-28, ECHT, CRO, remission, Immunosuppressive, Pannus joint inflammation, clinical assessment.*

Komiljanov J.Q.,
Namangan davlat universiteti davolash yo'nalishi 5-kurs talabasi
Abdurasulov B.B.,
Namangan davlat universiteti Tibbiyot fakulteti klinik fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Tursunboyev I.
Namangan viloyat ko`p tarmoqli tibbiyot markazi revmatologiya bo'limi shifokori

REVMATOID ARTRIT BILAN XASTALANGAN BEMORLARDA XALQARO DAS-28 SHKALASI BO'YICHA DAVOLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

***Annotatsiya**: Ushbu ilmiy maqolada revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda xalqaro DAS-28 (ESR) shkala asosida davolash samaradorligini baholash masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi klinik va laborator ko'rsatkichlarning dinamikasini baholash orqali davo usullarining natijaviyligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida bemorlarning bo'g'imlaridagi yallig'lanish darajasi, umumiy og'riq bahosi va ESR ko'rsatkichlari asosida hisoblangan indekslar solishtirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy davolash rejimlari remissiya ko'rsatkichlarini oshirishi va kasallik faolligini kamaytirishga yordam beradi. Yakunda DAS-28 shkalasi revmatoid artritdagi klinik monitoringning samarali vositasi ekanligi ta'kidlandi.*

***Kalit so'zlar**: revmatoid artrit, DAS-28, ECHT, CRO, remissiya, Immunodepressiv, Pannus bo'g'im yallig'**la**nishi, klinik baholash.*

Kirish.

Revmatoid artrit (RA) — biriktiruvchi to`qimalarning surunkali autoimmun tizimli yallig`lanish kasallik bo'lib, asosan kichik periferik bo'g'imlarni zararlaydi va bo'g'imlarning eroziv - destruktiv o'zgarishlariga olib keladi. Kasallik populyatsiyada 0,5–1% chastotada uchraydi va poliklinikaga murojat qilgan revmatoidli artritga chalingan bemorlarning 21,5% nogironlar bo`lib, 28,6% mehnatga layoqatsiz insonlardir. Keltirilgan raqamlar ushbu patologiyaning katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini ko`rasatadi. Ko`pgina mamlakatlarda kasallik ayollar orasida erkaklarga nisbatan 4–1 barobar ko'proq qayd etiladi.[1] So'nggi yillarda RA faolligini baholashda xalqaro DAS-28 shkalasining qo'llanilishi kengayib, u klinik amaliyotda ham, ilmiy tadqiqotlarda ham asosiy diagnostik qo'rsatkichlardan biriga aylangan. Mazkur tadqiqotning maqsadi RA bilan og'rigan bemorlarda zamonaviy davolash rejimlarining samaradorligini DAS-28 (ESR) ko'rsatkichlari asosida baholashdan iboratdir.

Revmatoid artritning klinik xususiyatlari

RA 3 – tip allergik reaksiyalar turiga kirib immunitet tizimi tomonidan autoantigenlarga noto'g'ri javob berilishi natijasida rivojlanadi. Shuning uchun bu kasallik Immunokompleks kasalliklarga kiritiladi. Kasallik yallig'lanish mediatorlari — TNF-α, IL-6, IL-1 kabi sitokinlar faollashuvi orqali davom etadi. Hosil bo`lgan antigen – antitelo kompleksi kichik periferik bog`imlarning yuzasiga o`rnashib olishi natijasida, hujayra immune sistemasi aynan shu bo`g`imlarga erziv va destruktiv tasir ko`rsata boshlaydi. Klinik belgilar sifatida ertalabki qotishish, simmetrik bo'g'im shishlari, og'riq va funksional cheklanish kuzatiladi. Bo'g'im sinovial membranasida pannus hosil bo'lishi uzoq muddatda destruksiyaga olib keladi.[2], [3]

DAS-28 shkalasining mohiyati va hisoblash tamoyillari

DAS Disease Activity Score (kasallik faolligi indeksi) sifatida talqin qilinadi. U 28 ta bo'g'imlaringiz holatini, qon tahlili natijalarini - C-reaktiv oqsil (CRO) yoki eritrotsitlarning cho'kish tezligini (ECHT) hamda so'nggi hafta davomida o'zingizni qanday his qilganingiz haqidagi shaxsiy fikringizni baholaydi. DAS-28 uchun quyidagi formula qo'llaniladi.[4]: DAS-28 = 0,56 × √(TJC28) + 0,28 × √(SJC28) + 0,70 × ln(ESR) + 0,014 × VAS. Bunda TJC--Og`riyatgan bo`g`imlar soni, SJC—Shishgan bo`g`imlar soni, ESR—ECHT, VAS—Bemorni visual baholash. Ikkinchi formula DAS28-CRP=0,56 × √(TJC28) + 0,28 × √(SJC28) + 0,36 × ln(CRP+1) + 0,014 × VAS+ 0,96. Bu formula yuqoridagi bilan bir xil faqat endi ECHT ni o`rniga CRP— CRO (C- reaktiv oqsil)ni ko`rsatkichi qo`yiladi. Unga ko'ra baholash mezonlari quyidagicha: DAS28 < 2,6— remissiya; 2,6–3,2 — past faollik; 3,2–5,1 — o'rta faollik; >5,1 — yuqori faollik.[5]

Davolash usullari va klinik monitoring

RA terapiyasining asosiy tamoyili kasallik faolligini erta pasaytirish va bo'g'im destruksiyasining oldini olishdan iborat. Shu sababli 'treat-to-target' yondashuvi klinik protokollarda yetakchi o'rinni egallagan. Dastlabki bosqichda DMARD (Disease – Modifying Anti– Rheumatic Drugs) kasallikni o`zgartiruvchi revmatizmga qarshi qorilar. Bularga metotreksat asosiy bazis dorilar sifatida qo'llaniladi. Uning mexanizmi immunodepressiv tasir ko`rsatadi. Agar monoterapiya yetarli bo'lmasa, leflunomid yoki sulfasalazin qo'shilishi mumkin. O'rta va yuqori darajadagi faollikda TNF-blokatorlari (infliximab, adalimumab) yoki IL-6 ingibitorlari (tocilizumab), kortikosteroidlar va Fizoterapiya kabi davolovchi preparatlar qo'llanadi. Monitoring esa DAS-28 orqali 3 oylik oraliqlarda baholanadi.[6]

Tadqiqot maqsadi

Tadqiqot prospektiv, ochiq klinik kuzatuv tarzida olib borildi. Namangan Viloyat Ko`p Tarmoqli Tibbiyot Markazi Revmatologiya bo`limida 01.12.2024 dan 11.11.2025 gacha bo`lgan davrda amalga oshirildi. Tadqiqotda RA tashxisi ACR/EULAR (2010) mezonlari asosida tasdiqlangan 60 nafar bemor ishtirok etdi.


Tadqiqotga kiritish mezonlari:

1. 18 yoshdan katta bemorlar
2. Revmatoid artritning klinik va laborator faol shakli (DAS – 28 > 3,2)
3. Kamida 6 oy davomida kasallikka qarshi bazis yoki bazis bo`lmagan davo olgan bemorlar


Tadqiqot vazifasi

1. Revmatologiya bo`limida revmatoid artrit (RA) bilan og`rigan bemorlarni ajratib olish. Ularni tadqiqot va nazorat gruppalariga ajratish. Guruhlarda yosh va jins bo`yicha o'xshashlikni ta'minlash.
2. RA bilan og`rigan bemorlarda bazis davo olayotgan bemorlarda dori vositasini klinik samaradorligini solishtirish. Shu o`rinda bemorlarni qabul qilayotgan davo turiga qarab uch guruhga ajratish: 1–guruh – metotreksat qabul qilayotgan bemorlar, 2 – guruh–leflunomid qabul qilayotgan bemorlar, 3–guruh – nazorat gurihi: bazis davo olmayotgan bemorlarga bo`lib chiqish.
3. Bemorlarni ilk kelgan kunida va qayta murojat qilgan paytda DAS – 28 shkalasi bo`yicha davo samaradorligini baholash.
4. Olingan natijalarga statistik ishlov berish.

Tadqiqot natijalari



Kasallik faolligi DAS – 28 (ESR) shkalasi asosida baholandi. Baholash davolash boshlanishida, 12 – haftada va 24 – haftada amalga oshirildi. Statistik tahlil Student t – testi yordamida bajarildi, natijalar o`rtacha qiymat ± standart og`ishi (M±SD) ko`rinishida ifodalandi. Klinik kuzatuvda RA bilan og'rigan 44 nafar bemor ishtirok etdi. Tadqiqot 6 oy davomida olib borildi. Davo boshlanishida bemorlarning o'rtacha DAS-28 ko'rsatkichi 5,44±0,8 bo'lib, bu yuqori faollikni ko'rsatdi. Bemorlar dinamikada kuzatuvda bo`ldi. 12-haftada ko'rsatkich 3,97±0,7 gacha pasaydi, 24-haftada esa 3,47±0,6 gacha tushdi. Tadqiqot natijasida metotreksat olayotgan bemorlarda o`zgarish ancha ijobiy ko'rinish oldi:



		Bemorlar soni	O'rtacha yoshi	DAS-28 bo'yicha ball		
				Davolash boshida	12-xaftada	24-xaftada
1	Metotreksat qabul qilganlar	13	34,8	5,4 ± 0,7	3,8 ± 0,5	2,9 ± 0,9

2	Leflunomid qabul qilganlar	15	39,2	5,1 ± 0,2	4,2 ± 0,8	3,3 ± 0,7
3	Bazis davo qabul qilmaganlar	16	40,6	5,8 ± 0,2	3,9 ± 0,7	4,1 ± 0,2

Bemorlarning qayta ko`ruvi davomida 6 oy ichida bemorlarning 18,8% remissiyaga erishdi, 31,8% past faollik darajasiga yetdi, 47,7% qismida esa o‘rta faollik saqlanib qoldi. Lekin shuni aytish lozimki remissiyaga o`tgan kasallar ischida 62,5% kasallar metotreksat, 37,5% kasallar leflunomid ichishgan qolgan

		Bemor soni	24-xaftalik davodan keyingi natijalar							
			Remissiya		Past faollik		O‘rta faollik		Yuqori faollik	
			n	%	n	%	n	%	n	%
1	Metotreksat qabul qilganlar	13	5	38,6	5	38,6	3	23,1	0	0
2	Leflunomid qabul qilganlar	15	3	20	7	46,6	5	33,3	0	0
3	Bazis davo qabul qilmaganlar	16	0	0	2	12,5	13	81,2	1	6,2

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki DAS – 28 shkalasi bo`yicha bazis davo olgan deyarli barcha bemorlarda kasallik past faollikka va remissiyaga erishildi. ECHT ko‘rsatkichlari ham sezilarli pasaydi ($p<0,05$). Bazis davoni erta boshlanishi, individual davo rejimlarining tanlanishi va muntazam monitoring orqali remissiya ko‘rsatkichlari yuqori darajada ta’minlanadi. RA bilan kelgan bemorlarga bazis terapiyani qo`llash boshqa usullardan manfaatli ekanligini isbotlab berdi. Bu borada metotreksat tanlov preparati ekanligi yana bir bor tasdiqlandi.

Yakuniy natijalardan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, DAS-28 shkalasi RA bilan og‘rigan bemorlarda klinik faollikni aniq baholash va davo samaradorligini monitoring qilishda ishonchli va informativ usul hisoblanadi. Shifokorlar o’z amaliyotlarida DAS-28 indeksini qo’llash orqali RA bilan xastalangan bemorlarda davo sifatini samarali va qulay baholay olish imkoniyatiga ega bo’ladi. DAS-28 shkalasidan klinik amaliyotda keng foydalanish treat – to – target strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi va kasallik oqibatida rivojlanadigan nogironlik holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.”Ichki kasalliklar”, Abdig`affor Gadayev , 2021 yildagi nashr, 713-715 b.

2. “Наглядная аллергология”, М.Рёкен, Г.Гревес, В.Бургдорф, 2022 – год 3 – е издание, стр 11 – 16.

3. “Клиника, Диагностика и Лечение Основних Ревмотических Болезней”, Д.И.Турахан, С.Н.Филимонов, И.А.Викторова, стр 105 – 109.

4. “DAS28 definitions and criteria in RA management” , Aletaha D, et al.. Ann Rheum Dis, 2015.

5. https://www.4s-dawn.com/DAS28/

6. Theory & practice of Treat-to-Target (T2T) in rheumatoid arthritis, Jing He, Yifan Wang, Qinghong Liu, Ru Li, 15 March 2025.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

Хамдамова Махлиё Элъёржон кизи,
Студентка Наманганского государственного университета Медицинского факультет,
Рустамова Шохиста Омонжоновна
PhD, Доцент кафедры Анатомии и физиологии, факультет Медицины, НамГУ

БИОХИМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ЛЕЧЕНИЯ ОСТРОГО ПАНКРЕАТИТА

Аннотация. *В статье рассмотрены биохимические основы возникновения и лечения острого панкреатита (ОП). Освещены основные механизмы патогенеза заболевания, связанные с преждевременной активацией панкреатических ферментов и развитием воспалительной реакции. Проанализирована роль биохимических процессов в повреждении ткани поджелудочной железы (ПЖ) и формировании системных осложнений. Рассмотрены основные биохимические маркеры, применяемые в диагностике острого панкреатита, а также обоснованы принципы патогенетически направленной терапии. Подчёркнуто значение биохимического подхода для понимания заболевания и повышения эффективности лечения.*

Ключевые слова. *Острый панкреатит, панкреатические ферменты, патогенез, АЛТ.*

Xamdamova Maxliyo Elyorjon qizi,
NamDU Tibbiyot fakulteti talabasi
Rustamova Shoxista Omonjonovna,
NamDU Tibbiyot fakulteti Anatomiya va fiziologiya kafedrasi dotsenti, (Phd)

O'TKIR PANKREATITNING KELIB CHIQISHI VA DAVOSINING BIOKIMYOVIY ASOSLARI.

Annotatsiya. *Maqolada o‘tkir pankreatitning (OP) yuzaga kelishi va davolashining biokimyoviy asoslari ko‘rib chiqilgan. Kasallik patogenezining asosiy mexanizmlari, xususan, pankreatik fermentlarning muddatidan oldin faollashuvi va yallig‘lanish reaksiyasining rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonlar yoritilgan. Oshqozon osti bezi (OOB) to‘qimalarining shikastlanishida hamda tizimli asoratlarning shakllanishida biokimyoviy jarayonlarning roli tahlil qilingan. O‘tkir pankreatit diagnostikasida qo‘llaniladigan asosiy biokimyoviy markerlar ko‘rib chiqilgan hamda patogenetik yo‘naltirilgan terapiya tamoyillari asoslab berilgan. Kasallikni tushunish va davolash samaradorligini oshirishda biokimyoviy yondashuvning ahamiyati ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar*: O‘tkir pankreatit, pankreatik fermentlar, patogenez, ALT*

Khamdamova Mahliyo Elyorjon qizi,
Student of the Medical Faculty of Namangan State University
Rustamova Shokhista Omonjonovna,
Associate Professor of the Department of Anatomy and Physiology of the Medical Faculty of Namangan State University, Candidate of Medical Sciences.

BIOCHEMICAL BASIS OF THE ORIGIN AND TREATMENT OF ACUTE PANCREATIS.

Abstract. *The article examines the biochemical foundations of the development and treatment of acute pancreatitis (AP). The main mechanisms of the disease pathogenesis are highlighted, particularly those associated with the premature activation of pancreatic enzymes and the development of an inflammatory response. The role of biochemical processes in pancreatic tissue damage and in the formation of systemic complications is analyzed. The principal biochemical markers used in the diagnosis of acute pancreatitis are reviewed, and the principles of pathogenetically oriented therapy are substantiated. The significance of the biochemical approach for understanding the disease and improving treatment effectiveness is emphasized.*

Keywords: *Acute pancreatitis, pancreatic enzymes, pathogenesis, ALT.*

Введение. Острый панкреатит остаётся актуальной проблемой современной медицины в связи с высокой распространённостью и возможностью развития тяжёлых осложнений [1,6]. Заболевание может протекать в различных клинических формах и нередко требует неотложной медицинской помощи. Несмотря на развитие диагностических и лечебных методов, острый панкреатит по-прежнему сопровождается значительным риском

неблагоприятных исходов [5]. В основе заболевания лежат сложные биохимические нарушения, связанные с преждевременной активацией панкреатических ферментов и развитием воспалительной реакции [2,4]. Биохимические процессы, определяют, как повреждение ткани поджелудочной железы, так и системные проявления заболевания [6]. В связи с этим изучение биохимических механизмов возникновения и лечения острого панкреатита имеет важное теоретическое и практическое значение. **Основная часть:** Острый панкреатит — это воспаление поджелудочной железы, в основе которого лежат ферментная аутогрессия и некробиоз клеток железы с последующим некрозом и дистрофией ее ткани [4,6]. Во время ОП наблюдается преждевременное активация ферментов в поджелудочной железе, котороая приводит к повреждению паренхиму ПЖ. Для острого панкреатита характерны резкие и внезапные боли слева в подреберье или опоясывающие боли, потеря аппетита и затруднённое пищеварение [1]. Поджелудочная железа — важный орган пищеварительной системы, под действием её ферментов перевариваются белки, жиры и углеводы. Факторы риска развития заболевания: злоупотребление алкоголем, алкоголем, а также лица с нарушением оттока желчи и желчнокаменной болезнью [1,6]. **Этиология:** К причинам возникновения острого панкреатита относится камни в общем желчном протоке и хроническое злоупотребление алкоголем [2,5]. При прогнозируемом тяжелом остром панкреатите важно на ранней стадии выявить мочекаменную болезнь как причину заболевания, поскольку эндоскопическая ретроградная холангиопанкреатография (ЭРХПГ) с билиарной сфинктеротомией в течение 24–72 часов после начала симптомов улучшает показатели заболеваемости и смертности. Активность аланин-аминотрансферазы (АЛТ) в сыворотке крови у 50% пациентов с острым панкреатитом, вызванным желчнокаменной болезнью, будут наблюдаться высокие значения АЛТ Острый панкреатит, вызванный алкоголем, является результатом острого токсического воздействия на фоне хронического повреждения поджелудочной железы, вызванного длительным воздействием алкоголя. В качестве диагностического теста для выявления алкогольного панкреатита было предложено соотношение липазы к амилазе >5, однако его чувствительность составляет менее 50% [2]. **Работа ферментов ПЖ.** В полость двенадцатиперстной кишки за сутки выделяется 10-20 г пищеварительных ферментов ПЖ, которые участвует в расщепление белков, жиров, углеводов и нуклеиновых кислот [3]. Развитие панкреатита ведёт к самопереариванию железы. При этом преждевременные активированные ферменты в самой ПЖ переваривают паренхиму. Активированные ферменты выступают в качестве первичных факторов агрессии. Фосфолипаза А2 разрушает клеточные мембраны, способствуя проникновению в клеток [6]. Липаза, в свою очередь, гидролизуют внутриклеточные триглицериды до жирных кислот, вызывая жировой (коагуляционный) некроз тканей поджелудочной железы. Под влиянием трипсина, расщепляющего тканевые белки, и эластазы, разрушающей стенки сосудов и межтканевые соединительно тканные структуры, развивается геморрагический (колликвационный) некроз поджелудочной железы. На начальном этапе формирующиеся очаги некроза в железе и забрюшинной клетчатке неинфицированы. Активированные панкреатические ферменты, кроме того, поступают в просвет сосудов, брюшную полость и за брюшинное пространство.

Три фермента, полученные из клеток ПЖ амилаза, липаза и профермент трипсиноген идут в качестве биохимических маркеров ОП.

Амилаза – один из ферментов пищеварительного сока, который выделяется слюнными железами и поджелудочной железой. Она отвечает за расщепление углеводов. В норме только небольшое количество амилазы циркулирует в кровяном русле (из-за обновления клеток поджелудочной железы и слюнных желез) и попадает в мочу. Если происходит повреждение поджелудочной железы, как при панкреатите, или если панкреатический проток блокируется камнем либо опухолью, амилаза начинает в больших количествах попадать в кровоток, а затем в мочу [3]. Повышенный уровень активности сывороточной амилазы, как минимум в три раза превышающий верхнюю границу нормы, подтверждает диагноз острого панкреатита. Ее активность быстро возрастает в течение первых 12 часов после начала симптомов и возвращается к норме в течение трех-пяти дней [2] ***Липаза -*** Липазы (переваривают липиды) липаза, фосфолипаза, холестеролэстераза. Липаза ПЖ не повреждает только здоровые клетки железы. Фосфолипаза А разрушает клеточные мембраны и способствует проникновению в клетку липазы. Освобождение тканевой липазы, которая усиливает расщепление липидов (в том числе липидов клеточной мембраны), ускоряет деструктивные процессы. По сравнению с сывороточной амилазой, активность сывороточной липазы остается повышенной дольше (до 8–14 дней), что обеспечивает большую чувствительность у пациентов с отсроченным проявлением заболевания. Активность панкреатической липазы более чем в четыре раза выше, чем у амилазы, и поэтому она с меньшей вероятностью подвержена влиянию хронической панкреатической недостаточности такие препараты, как фуросемид, могут повышать активность в сыворотке крови [2,5 **Трипсиноген -** Трипсиноген является наиболее важным, вырабатываются ацинарными клетками в виде проферментов и активируются в двенадцатиперстной кишке кишечными эндопептидазами. Трипсиноген существует в виде двух основных изоферментов: трипсиногена-1 (катионный) и трипсиногена-2 (анионный), причем последний имеет значительно более высокие концентрации в сыворотке крови при остром панкреатите.

При остром панкреатите уровни трипсиногена-2 в сыворотке и моче повышаются до высоких значений в течение нескольких часов и, как правило, снижаются в течение трех дней [6]. ***Лечение -*** Лечение острого панкреатита легкой степени обычно включает краткосрочную госпитализацию с введением жидкостей внутривенно, во время которой применяют болеутоляющие средства для облегчения боли. При тяжёлых формах острого панкреатита показано хирургическое лечение. Существует следующие типы операций: некрэктомия и резекция — хирургическое удаление мёртвых тканей поджелудочной железы; оментобурсостомия — создание отверстия в сальниковой сумке; удаление или дренирование кист некрэктомия и резекция — хирургическое удаление мёртвых тканей поджелудочной железы; оментобурсостомия — создание отверстия в сальниковой сумке; удаление или дренирование кист [1,4,5,6].

Вывод: Острый панкреатит представляет собой заболевание, в основе которого лежат сложные биохимические нарушения, связанные с преждевременной активацией панкреатических ферментов внутри поджелудочной железы. Активация трипсиногена, липазы, фосфолипазы и эластазы приводит к самопереариванию паренхимы органа, развитию жирового, геморрагического и коагуляционного некроза, а также формированию системной воспалительной реакции. Таким образом, именно биохимические механизмы определяют тяжесть повреждения поджелудочной железы и клиническое течение заболевания.

Важное значение в диагностике острого панкреатита имеют биохимические маркеры. Сывороточная амилаза остаётся наиболее часто используемым показателем, однако её диагностическая ценность ограничена при позднем обращении пациентов и ряде сопутствующих состояний. В то же время панкреатическая липаза обладает более высокой чувствительностью и длительно сохраняется повышенной в крови, что делает её более информативным маркером. Существенную роль играет и определение трипсиногена-2, особенно в сыворотке и моче, поскольку его уровень быстро повышается в первые часы заболевания и может использоваться для ранней диагностики. Понимание биохимических основ острого панкреатита имеет принципиальное значение для выбора тактики лечения. Патогенетически обоснованный подход, направленный на уменьшение ферментативной агрессии и предупреждение осложнений, позволяет повысить эффективность терапии и улучшить прогноз заболевания. Таким образом, биохимический анализ патогенеза и диагностики острого панкреатита является ключевым элементом современного подхода к ведению пациентов с данной патологией.

Использованные литературы:

1. Ивашкин В. Т. Клинические рекомендации. Гастроэнтерология — 2009.
2. Калинин А. В., Хазанов А. И. Гастроэнтерология и гепатология: диагностика и лечение — 2007.
3. Маев И. В., Кучерявый Ю. А. Болезни поджелудочной железы — 2008.
4. Охлобыстин А. В., Ивашкин В. Т. Алгоритмы ведения больных острым и хроническим панкреатитом // Consilium-Medicum — М.: Медиа Медика. 2013.
5. Савельев В. С., Филимонов М. И.. Острый панкреатит как проблема ургентной хирургии и интенсивной терапии — 2010.
6. Федоров А.Г, С.В. Давыдова, В.А. Иванов, А.Е. Климов. Острый панкреатит. Панкреанекроз- 2021
7. https://www.medicina.ru/patsientam/zabolevanija/ostryj-pankreatit/
8. https://jcp.bmj.com/content/59/4/340.long

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

Boyturayeva Omina Iskandar qizi
Namangan davlat universiteti Davolash yonalishi 2- kurs talabasi
Sharipova Nargizaxon Ibrohimjonovna
Namangan davlat universiteti Pediatriya yonalishi 2- kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Kozirahimova Nargiza Qodirjonovna
Namangan davlat universiteti tibbiyot fakulteti o‘qituvchisi

STRABIZMNING KLINIK SHAKLLARI VA ULARNI DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI

Annotatsiya: Strabismus - ko’zdan tashqari mushaklarning koordinatsiyasining buzilishi bilan tavsiflangan keng tarqalgan oftalmologik kasallik bo’lib, binokulyar ko’rishning buzilishiga olib keladi. To’g’ri davolash uchun uning klinik shakllarini va differentsial tashxisini to’g’ri aniqlash juda muhimdir.

Kalit so’zlar: strabismus, klinik shakllari, differentsial tashxis, binokulyar ko’rish, ambliyopiya.

Бойтораева Омина Искандар кизи
Студентка 2-го курса университетского отделения НамГУ
Шарипова Наргизахон Иброхимжоновна
Студентка 2-го курса педиатрического отделения НамГУ
Научный руководитель: Козирахимова Наргиза Кадиржоновна
Преподаватель медицинского факультета НамГУ

КЛИНИЧЕСКИЕ ФОРМУЛИРОВКИ КОСОГЛАЗИЯ И ИХ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНАЯ ДИАГНОСТИК

Аннотация: *Страбизм является распространённой офтальмологической патологией, связанной с нарушением координации глазодвигательных мышц и расстройством бинокулярного зрения. Определение клинических форм заболевания и их дифференциальная диагностика имеют важное значение для выбора тактики лечения.*

Ключевые слова: *страбизм, клинические формы, дифференциальная диагностика, бинокулярное зрение, амблиопия.*

Boytorayeva Omina Iskandar qizi
2nd year student of the University Faculty of Namangan State University
Sharipova Nargizakhon Ibroximjonovna
2nd year student of the Pediatric Faculty of Namangan State University
Scientific supervisor: Kozirakhimova Nargiza Kadirjonovna
Teacher of the Medical Faculty of Namangan State University

CLINICAL FORMULATIONS OF STRABISMUS AND THEIR DIFFERENTIAL DIAGNOSIS.

Abstract: *Strabismus is a common ophthalmological disorder characterized by impaired coordination of extraocular muscles, leading to disruption of binocular vision. Accurate identification of its clinical forms and differential diagnosis is essential for appropriate management.*

Keywords: *strabismus, clinical forms, differential diagnosis, binocular vision, amblyopia.*

Kirish. Strabizm — ko‘zlarning vizual o‘qlari o‘zaro parallel bo‘lmasligi natijasida yuzaga keladigan patologik holat bo‘lib, binokulyar ko‘rish mexanizmining buzilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu kasallik ko‘z mushaklari, ularni innervatsiyalovchi asab tizimi hamda markaziy nerv tizimi o‘rtasidagi murakkab funksional muvozanatning izdan chiqishi natijasida rivojlanadi. Strabizm bolalar oftalmologiyasida muhim muammo hisoblanib, o‘z vaqtida aniqlanmagan holatlarda ambliopiya, stereoko‘rishning yo‘qolishi va psixosotsial moslashuv buzilishlariga olib kelishi mumkin.

Klinik amaliyotda strabizmning turli shakllari uchraydi va ularning etiologiyasi, patogenezi hamda klinik kechishi sezilarli darajada farqlanadi. Ayniqsa, do‘stona (komitant) va falajlik (paralitik) strabizmni bir-biridan, shuningdek,

psevdo-strabizm va neyro-oftalmologik patologiyalardan aniq farqlash muhim diagnostik ahamiyatga ega. Noto‘g‘ri differensial diagnostika davolash taktikasining samarasiz tanlanishiga olib kelishi mumkin.


So‘nggi yillarda strabizmni aniqlashda klinik tekshiruvlar bilan bir qatorda funksional va apparat diagnostika usullaridan keng foydalanilmoqda. Cover–test, Hirschberg va Krimsky testlari, sinoptofor yordamida binokulyar ko‘rish bahosi hamda refraksion tekshiruvlar strabizm shakllarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda neyrologik tekshiruvlar ham talab etiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi strabizmning asosiy klinik shakllarini tizimli ravishda tahlil qilish hamda ularni boshqa ko‘z va neyro-oftalmologik kasalliklardan differensial diagnostika qilish mezonlarini yoritishdan iborat.

Materiallar va usullar. Mazkur tadqiqotda strabizm tashxisi bilan oftalmologik muassasaga murojaat qilgan bemorlarning klinik ma’lumotlari tahlil qilindi. Tadqiqot retrospektiv va qisman prospektiv xarakterga ega bo‘lib, turli yosh guruhlariga mansub bemorlar qamrab olindi. Bemorlar tanlashda asosiy mezon sifatida ko‘z o‘qlarining og‘ishi va binokulyar ko‘rish buzilishining mavjudligi olindi. Barcha bemorlarga standart oftalmologik tekshiruv o‘tkazildi. Tekshiruv ko‘rish o‘tkirligini aniqlash, oldingi segment va ko‘z tubini biomikroskopik baholashni o‘z ichiga oldi. Refraksiya holatini aniqlash uchun siklоplegiya ostida autorefraktometriya va skiaskopiya usullaridan foydalanildi.

Strabizmni aniqlash va uning klinik shaklini baholash maqsadida quyidagi maxsus testlar qo‘llanildi: **Cover–test va alternate cover–test** — yashirin va oshkor strabizmni aniqlash uchun **Hirschberg va Krimsky testlari** — ko‘z og‘ish burchagini taxminiy baholash uchun **Sinoptofor tekshiruvi** — binokulyar ko‘rish, fuzion zaxira va sensor moslashuvni aniqlash uchun Falajlik strabizmiga shubha qilingan holatlarda ko‘z harakatlarining hajmi barcha qarash yo‘nalishlarida baholandi. Zarur hollarda bemorlar neyrolog ko‘rigidan o‘tkazildi hamda qo‘shimcha instrumental tekshiruvlar tavsiya etildi. Differensial diagnostika jarayonida psevdo-strabizm, ambliopiya, nistagm va markaziy nerv tizimi bilan bog‘liq patologiyalar inobatga olindi. Olingan klinik ma’lumotlar asosida strabizmning shakli, turi va og‘irlik darajasi aniqlanib, keyingi davolash strategiyasi belgilandi.

Natijalar. O‘tkazilgan klinik tahlil natijasida strabizmning turli klinik shakllari aniqlanib, ularning uchrash chastotasi, klinik belgilari hamda differensial diagnostik mezonlari baholandi. Tekshiruvdan o‘tgan bemorlarning aksariyatida do‘stona (komitant) strabizm shakllari kuzatildi, falajlik (paralitik) strabizm esa nisbatan kam hollarda aniqlangan.



O‘tkazilgan klinik tahlil natijasida strabizmning turli klinik shakllari aniqlanib, ularning uchrash chastotasi, klinik belgilari hamda differensial diagnostik mezonlari baholandi. Tekshiruvdan o‘tgan bemorlarning aksariyatida do‘stona (komitant) strabizm shakllari kuzatildi, falajlik (paralitik) strabizm esa nisbatan kam hollarda aniqlangan. Yo‘nalishiga ko‘ra tahlil qilinganda, **ezotropiya** eng ko‘p uchraydigan shakl bo‘lib, u asosan bolalar yosh guruhida giperopik refraksiya bilan birga namoyon bo‘ldi. **Ekzotropiya** esa ko‘proq intermittent xarakterga ega bo‘lib, uzoqqa qarashda va vizual charchash fonida kuchayishi bilan ajralib turdi. Vertikal strabizm holatlarida ko‘pincha yuqori yoki pastki to‘g‘ri mushaklar faoliyatining buzilishi qayd etildi. Do‘stona strabizm holatlarida ko‘z harakatlari barcha qarash yo‘nalishlarida to‘liq saqlangan bo‘lib, og‘ish burchagi nisbatan barqaror ekanligi aniqlandi. Binokulyar ko‘rish ko‘pchilik bemorlarda buzilgan bo‘lsa-da, ayrim holatlarda sensor adaptatsiya belgilariga duch kelindi. Falajlik strabizm bilan og‘rigan bemorlarda esa ko‘z harakatlarining cheklanishi, qarash yo‘nalishiga bog‘liq ravishda og‘ish burchagining o‘zgarishi hamda diplopiya asosiy klinik belgilar sifatida kuzatildi. Ushbu guruhda neyrologik anamnez va qo‘shimcha tekshiruvlar differensial diagnostikada muhim rol o‘ynadi. Differensial diagnostika jarayonida **psevdo-strabizm** holatlarida ko‘z o‘qlari haqiqiy og‘ishsiz ekanligi, cover–test natijalarining manfiy bo‘lishi bilan tasdiqlandi. Ambliopiya bilan kechuvchi strabizm holatlarida esa ko‘rish o‘tkirligining asimmetrik pasayishi yetakchi belgi sifatida qayd etildi. Olingan natijalar strabizmning klinik shakllarini aniq baholashda kompleks oftalmologik tekshiruvlarning zarurligini ko‘rsatdi hamda differensial diagnostika mezonlarining amaliy ahamiyatini tasdiqladi. Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, strabizmning klinik shakllari bemorlarning yoshiga, etiologiyasiga va og‘ish yo‘nalishiga qarab sezilarli farqlanadi. Do‘stona (komitant) strabizm holatlari bolalar yoshida eng ko‘p uchrashi, ezotropiyaning esa giperopik refraksiya bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi oldingi adabiyotlar bilan mos keladi (Kanski, 2016; Wright, 2018). Ekzotropiya va vertikal

strabizm holatlarida og‘ish burchagining qarash yo‘nalishiga bog‘liq o‘zgarishi falajlik (paralitik) strabizm bilan differensial diagnostikani talab qiladi. Tadqiqotda kuzatilgan falajlik strabizm holatlarida diplopiya va ko‘z harakatlarining cheklanishi asosiy belgilar sifatida namoyon bo‘ldi, bu esa boshqa tadqiqotlar bilan uyg‘un (von Noorden, 2002). Differensial diagnostika jarayonida psevdo-strabizmning haqiqiy strabizm bilan chalkashmasligini aniqlash uchun cover–test va Hirschberg testi samarali vosita ekanligi ko‘rsatildi. Shuningdek, ambliopiya bilan bog‘liq strabizm holatlarida ko‘rish o‘tkirligining asimmetrik pasayishi yetakchi belgi sifatida tasdiqlandi. Bu klinik jihat amaliyotda erta tashxis qo‘yish va samarali davolashni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, strabizmni baholashda **kompleks oftalmologik tekshiruvlar** va differensial diagnostika mezonlariga rioya qilish zarur. Ushbu yondashuv nafaqat kasallik shaklini aniqlash, balki ambliopiya va stereoko‘rish buzilishlarining oldini olishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, klinik amaliyotda strabizmni erta aniqlash va tegishli konservativ yoki jarrohlik davolash strategiyasini tanlash orqali bemorlarning binokulyar ko‘rish qobiliyati sezilarli darajada saqlanishi mumkin. Tadqiqot natijalari global adabiyotlar bilan solishtirganda, mahalliy bemor populyatsiyasida strabizm shakllarining tarkibi va tez-tez uchraydigan formalarining o‘ziga xosligini ham ko‘rsatadi.

Xulosa. Strabizmning klinik shakllari bemorlarning yoshiga, etiologiyasiga va ko‘z og‘ish yo‘nalishiga qarab sezilarli farq qiladi. Do‘stona (komitant) strabizm bolalarda ko‘proq uchraydi, ezotropiya esa giperopik refraksiyaga bog‘liq holatlarda ko‘p uchraydi. Falajlik (paralitik) strabizmda ko‘z harakatlarining cheklanishi va diplopiya asosiy klinik belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Psevdo-strabizm va ambliopiya bilan kechuvchi strabizmni ajratish uchun cover–test, Hirschberg testi va binokulyar ko‘rishni baholash zarur. Kompleks oftalmologik tekshiruv va differensial diagnostika natijalari erta tashxis qo‘yish va samarali davolashni ta’minlashga yordam beradi, ambliopiya va binokulyar ko‘rish buzilishlarining oldini olish imkonini beradi. Klinik amaliyotda strabizmni erta aniqlash va mos konservativ yoki jarrohlik davolash strategiyasini tanlash bemorlarning binokulyar ko‘rish qobiliyatini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Kanski, J.J., Bowling, B. **Clinical Ophthalmology: A Systematic Approach.** 8th edition. Elsevier, 2016.

2.Wright, K.W., Spiegel, P.H., Thompson, L.P. **Pediatric Ophthalmology and Strabismus.** 4th edition. Springer, 2018.

3.von Noorden, G.K., Campos, E.C. **Binocular Vision and Ocular Motility: Theory and Management of Strabismus.** 6th edition. Mosby, 2002.

4.Helveston, E.M. **Surgical Management of Strabismus.** Ophthalmology Clinics of North America, 2007; 20(3): 357–372.

5.Pediatric Eye Disease Investigator Group (PEDIG). **Intermittent Exotropia: Natural History and Treatment Outcomes.** Archives of Ophthalmology, 2011; 129(12): 1475–1482.

6.Kushner, B.J. **Strabismus in Adults.** New England Journal of Medicine, 2002; 347: 974–981.

7.MedlinePlus. **Strabismus (Crossed Eyes).** https://medlineplus.gov/ency/article/001026.htm

8.Wikimedia Commons / Open-i NIH Medical Image Archive (Clinical illustrations of strabismus).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

14.00.00-Tibbiyot
journal.namdu.uz
MEDICAL

Qirg'izbayev Xusniddin Xasanbayevich
Unuversity of business science tibbiyot fakulteti, Umumkasbiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: kirgizbayev.husniddin@gmail.com
Qirg'izbayeva Dildora Akramjon qizi
Namangan davalat universitet, tibbiyot yo'nalishi talabasi
E-mail: kirgizbayev.husniddin@gmail.com
Olimov Habibjon Qodirjon o'g'li
Unuversity of business science tibbiyot fakulteti,
Umumkasbiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: khabibdjan@gmail.com

BIOMATERIALLARNI GLIOBLASTOMANI DAVOLASH UCHUN QO'LLASH USULLARI

Annotatsiya: *Hozirgi miya saratoni davolash usullari dori moddalarining qon-miya to'sig'i (GEB) orqali o'simta joyiga yetkazilishi yetarli darajada emasligi bilan to'xtatilgan. Biomateriallar operatsiyadan oldin va operatsiya paytida o'simta aniqlash usullarini o'zgartirish orqali miya o'smalarini tadqiq qilish, tashxislash va davolash qobiliyatini sezilarli darajada oshirdi. Nanostrukturali polimer zarrachalari dorilarni uzoq vaqt davomida to'g'ridan-to'g'ri o'simta joyiga yetkazishi mumkin. Biomateriallar, shuningdek, gen terapiyasi, fotodinamik terapiya, anti-angiogen terapiya va termoterapiya kabi innovatsion davolash usullarini taqdim etish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Ushbu maqola glioblastomani davolash yoki tashxislash uchun ilgari qo'llanilgan biomateriallar va to'qimalarni texnik usullarini batafsil baholashni maqsad qiladi.*

Kalit so'zlar: *Glioblastoma, Hujayra, signalizatsiyasi, Mikro muhit, Biomateriallar, Dori vositalarini transporti*

Киргизбаев Хусниддин Хасанбаевич
Старший преподаватель кафедры общих профессиональных наук медицинского факультета Университета деловых наук
Кыргизбаева Дилдора Акрамджон кизи
Студентка медицинского факультета Наманганского государственного университета
Олимов Хабибджон Кадиржон оглу
Преподаватель кафедры общих профессиональных наук медицинского факультета Университета деловых наук

БИОМАТЕРИАЛЫ ДЛЯ ЛЕЧЕНИЯ ГЛИОБЛАСТОМЫ

Аннотация:*Современные методы лечения опухолей мозга ограничены тем, что доставка лекарственных препаратов через гематоэнцефалический барьер (ГЭБ) до опухолевого очага часто оказывается недостаточной. Биоматериалы значительно улучшили наши возможности по исследованию, диагностике и лечению опухолей мозга за счёт совершенствования методов обнаружения опухоли до и во время операции. Наноструктурированные полимерные частицы способны длительно доставлять препараты непосредственно в очаг опухоли. Биоматериалы также могут использоваться для реализации инновационных методов лечения, таких как генотерапия, фотодинамическая терапия, антиангиогенная терапия и термотерапия. Целью данной статьи является подробная оценка биоматериалов и тканевых инженерных подходов, ранее применявшихся для диагностики или лечения глиобластомы.*

Ключевые слова: *Глиобластома, Клеточная сигнализация, Микроокружение, Биоматериалы, Доставка лекарств*

Kirgizbaev Khusniddin Khasanbayevich
Senior lecturer, Department of General Professional Sciences, Faculty of Medicine, University of Business Science
Kirgizbaeva Dildora Akramjon qizi
Student of medical department, Namangan State University
Olimov Khabibjon Kadirjon o'gli
Teacher, Department of General Professional Sciences, Faculty of Medicine, University of Business Science

BIOMATERIALS FOR TREATING GLIOBLASTOMA


Annotation: *Current treatment methods for brain cancer are limited because delivery of therapeutic drugs across the blood–brain barrier (BBB) to the tumor site is often insufficient. Biomaterials have substantially enhanced our ability to study, diagnose, and treat brain tumors by improving tumor-detection strategies before and during surgery. Nanostructured polymer particles can deliver drugs directly to the tumor site for prolonged periods. Biomaterials can also enable innovative therapies such as gene therapy, photodynamic therapy, anti-angiogenic therapy, and thermotherapy. This article aims to provide a detailed evaluation of biomaterials and tissue-engineering techniques that have been previously used for the diagnosis or treatment of glioblastoma.*

Key words: *Glioblastoma, Cell signaling, Microenvironment, Biomaterials, Drug delivery*

Kirish

Glioblastoma multiforme yoki **Glioblastoma (GBM)** - bu har yili 100,000 kishidan 1 tasiga ta'sir ko'rsatadigan eng ko'p tarqalgan invaziv, odatda halokatli asosiy yoki kichik miya saratoni hisoblanadi [1], [2], [3]. Glioma — bu miya va umurtqa pog'onasini qo'llab-quvvatlaydigan glial hujayralardan kelib chiqadigan miya o'smasidir. Ushbu turdagi miya saratoni miyada minimal va maksimal darajaga (sekin va tez o'sadigan) ega [4]. Bu glial hujayralar uch xil turga bo'linadi: astrotsitlar, oligodendrotsitlar va ependimal hujayralar. Ularning tegishli o'smalari esa astrotsitoma yoki glioblastoma, oligodendroglioma va ependimoma o'smalari hisoblanadi. GBM dan tashqari, gliomalar anaplastik ependimoma, anaplastic astrotsitoma, anaplastik oligoastrotsitoma va anaplastik oligodendroglioma ga bo'linadi, ammo eng keng tarqalgan turi astrotsitomadir [5]. Yuqorida sanab o'tilgan o'smalar birdan to'qqizgacha bo'lgan miqyosda baholanadi, eng past va eng yuqori qiymatlar afzal ko'riladi. Yuqorida aytilgan malign gliomalar uch va to'rt darajalarida baholanadi va ular odamlarda keng tarqalgan, ya'ni tez rivojlanayotgan o'smalar, ayniqsa to'rtinchi darajaga kiruvchi **Glioblastoma** hisoblanadi. Yosh bolalarda birinchi va ikkinchi darajadagi (sekin o'sadigan) astrotsitoma yoki **Glioblastoma** o'smalarini rivojlanishi ehtimoli ko'proq ekanligi aniqlangan [6]. **Glioblastoma. GBM ning anatomik holati**

Eng ko'p uchraydigan xavfli miya o'smasi GBM (glioblastoma) bo'lib, u o'zgaruvchan bo’lib tez rivojlanish xususiyatiga ega va bir necha miya loblarida aniqlanishi mumkin. Ushbu anatomik joylashuv bemorlarga tashxis qoyish va prognozlashda muhim ahamiyatga ega, chunki bu o'sma hujayralarining paydo bo'lishini ham ko'rsatishi mumkin. Glioblastoma kattalarda ko'proq miya yarimsharlarida, xususan, frontal lobda uchraydi.



1-rasm. Glioblastoma miya ichida boshidan rivojlanishi

Glioblastoma miya ichida boshidan rivojlanishi yoki past darajali astrotsitomalar yoki oligodendrogliomalardan paydo bo'lishi mumkin. U shuningdek, miya materialida o'sib, normal miya o'smalari bilan tez-tez aralashgani uchun **ichki o'sma** sifatida tanilgan. GBM turli loblarda glial to'qima miqdoriga qarab farqli tezlikda o'sishi mumkin. Gliomadagi har bir genetik subguruhning o'ziga xos anatomik joylashuvi bor bo'lib, bu klinik tashxisni oldindan aytib berishi mumkin. Molekulyar diagnostika to'liq tashxisga qimmatli qo'shimcha sifatida ishlatilishi mumkin. Molekulyar biomarkernlar va o'sma joyi o'rtasida bog'liqlik o'rnatish uchun ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan.


Glioblastoma diagnostikasi va turli xil davolash usullari

Glioblastomani aniqlashni ikki xil usuli mavjud, bular, Kompyuter tomografiyasi (KT) yoki magnit-rezonans tomografiyasi (MRT) yordamida amalga oshiriladi.Agar jarrohlik amaliyotidan oldin MRT(magnit-rezonans tomografiyasi) mavjud bo’lmasa yoki jarrohlik amaliyotidan uch haftada oldin MRT olingan bo’lsa va KT(kompyuter tomografiyasi)mavjud bo’lsa, aniqlash KT(kompyuter tomografiyasi) skanerida amalga oshiriladi. Jarrohlik amaliyotidan keyin MRT mavjud bo'lmaganida diagnostika KTda amalga oshiriladi.

GBM/GB ni davolash

So'nggi yigirma yil ichida GB / GBM ni davolash texnologiya bilan o'zgartirildi va ishlab chiqildi. Jarrohlik yo'li bilan neyro-navigatsiyani qo'llash va intraoperativ lyuminestsent mikrojarrohlik 5-ALA (5-AminoLevulin kislotasi) so'zboshisi radiologik agregat o'simta amputatsiyasiga erishish imkoniyatini yaratdi. O'simta amputatsiyasining kattaroq darajasi omon qolishning oshishi bilan bog'liq. Jarrohlikdan so'ng, TMZ (Temozolomid) bilan davolash va yordamchi TMZ bilan

birga radiatsiya terapiyasi klinik amaliyotda ishlab chiqilgan va yuqori samarali bemorlar uchun asosiy yordam mavjud. O'simta rivojlanishi uchun asosiy ikkinchi darajali terapiya haqida xabar berilmagan. Bevacizumab qon tomir endotelial o'sish omili (anti-QEO'F) antikorlari kimyoterapiyaga alternativ yoki tanlangan bemorlar toifasida monoterapiya sifatida ishlatilgan. Shunga qaramay, u asosiy davolash usuli ekanligi ma'lum emas va Evropada GBMni davolash uchun tasdiqlanmagan



2 rasm. Klinik mulohazalar, tizim progressiyaning eksizyonning qiymati


Kimyoterapiya


Bugungi kunga kelib, EORCT (Evropa saratonni tadqiq etish va davolash tashkiloti) EORTC 26981 hakamlar hay'atiga qo'shgan hissasi kimyoterapiyaning muntazamligini aniqlaydi, masalan, nosog'lom dietada TMZ(Temozolomid) bilan 7,5e-8 g / mm2 tana massasidagi yordamchi aralashuv. radiatsiya bilan davolashdan taxminan 120 daqiqa oldin va ertalab yoki kechroq ovqatni o'tkazib yubormaslik. Moslashuv qonni hisobga olgan holda, davolanishni to'xtatib turish asosida amalga oshiriladi va *Pneumocystis jirovecii* pnevmoniyaning oldini olish, ayniqsa limfsitopenik bemorlarda ko'rsatiladi. Bir oylik tanaffus mavjud va TMZ (Temozolomid) ning oltita xizmat ko'rsatish halqasi bilan umumiy va ayniqsa, gematologik qarshilikka nisbatan kimyoterapevtik tugatiladi.

GBM uchun asosiy va mos biomateriallar

Tabiiy va polimerik biomateriallar dori vositalarini yetkazib berishning yangi usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Biomateriallar biologik parchalanish qobiliyatini yaxshilashi va in vitro yoki in vivo potentsial dori vositalarini qo'llash, shuningdek, ularning o'xshash fiziologik omillari, tuzilishi, xususiyatlari va qo'llanilishiga ega. Biomuhandislik yondashuvlariga qarab, ushbu biomateriallar GBM mikro-muhitiga va ularning biologik jihatdan tegishli muhitda intruzivligiga qarab, GBM ning pro-intruziv xususiyatlarini aniqlashtirish uchun biofizik va biokimyoviy nuqtai nazardan o'rganildi. GBM to'qimalari uchun muhitni yaratishning hozirgi va oldingi usullari, shuningdek, GBM muhitini taqlid qilishning kelajakdagi imkoniyatlari va klinik bo'lmagan yutuqlari muhokama qilinadi.

Tabiiy biomateriallar





Xitozan

Xitosan - chig'anoqlar va qisqichbaqasimonlarda joylashgan asosiy tarkibiy uglevod bo'lgan xitindan hosil bo'lgan tabiiy polimer . Xitosan bir qator qiziqarli xususiyatlarga ega, xususan,yuqori o'tkazuvchanlik, gel hosil bo'lishi va biomoslashuv. Ushbu biomaterial aktiv biologik parchalanadigan va sitotoksik bo'lmagan, bakteriyaga qarshi, antifungal va saratonga qarshi xususiyatlarga ega. Bundan tashqari,xitosan moslashuvchan biomaterial bo'lib, iskala,gubkalar, gellar, membranalar bilan osongina qayta ishlash mumkin, chunki u ma'lum bir maqsad uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Xulosa

Ushbu maqola glioblastomani davolash uchun turli turdagi biomateriallarga qaratilgan. GBM(glioblastoma) tajovuzkor davolanayotgan bo'lsa-da, standart kimyoterapiya va radiatsiya muvaffaqiyatsiz bo'ladi va o'simtaning barqarorligi deyarli aniq. GBM(glioblastoma) muhiti odatda ko'plab o'smalar va malign hujayralar uchun profilaktik hisoblanadi haqida ko'proq bilimga ega bo'lishga yordam beradi va joyni tartibga solishni buzish uchun yangi usullarni yaratishdan oldin bo'lishi mumkin. Klinik foydalanishga hali kiritilmagan to'qimalarni muhandislik dasturlari qatorida nanomed-sinovlarni biomateriallar va genlar bilan faollashtirilgan darajalarga taqsimlash foydalanish potentsialini ko'rsatdi. Yaqinda glioblastomani davolash nafaqat terapevtik moddalarning miyaga tarqalishi tufayli, balki o'simtaning geterogenligi, xavfliligi va takrorlanishi tufayli ham ayniqsa qiyin. Glioblastoma bilan kasallangan bemorlar uchun prognoz pastligicha qolsa-da, dori vositalarini yetkazib berish bo'yicha yondashuvlardagi so'nggi yutuqlar glioblastomani samarali davolashga umid beradi. Biroq, glioblastomani to'qima muhandisligi yondashuvi sifatida davolash uchun biomateriallardan foydalanish o'rganilmagan imkoniyatdir. Turli xil biomateriallar va texnikalar ko'plab in vitro modellari tomonidan qo'llanilganligi sababli, bu o'lik kasallikka qarshi kurashishda yordam beradigan ushbu tajribalar ichida allaqachon yashiringan texnika mavjud bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kirgizbaev H.H., Muhitdinov B.I., Turaev A.S., Normakhamatov N.S., Amonova D.M., Boydedaev A.A. Synthesis and characterization of low molecular weight hyaluronan sulfates // Int. J. Mater. Chem. –2021. –V. 11, –№ 1. –P. 10–16.
2. Kirgizbayev H.H., Muhitdinov B.I., Amonova D.M., Turaev A.S., Huang Y., Normakhamatov N.S., Khashimova Z.S., Wang H. Preparation, characterization and antitumor property of doxorubicin-derivatized hyaluronans
3. //4.P. DeBonis , C. Anile , A. Pompuchchi , A. Fiorentino , M. Balduchchi , S. Kyesa , L. Lauriola , G. Mayra , A. Mangiola Jarrohlikning glioblastomaning takrorlanishiga ta'siri Klin. Neyrol. Neyroxirurg. , 115 (2013 yil) , 37-43 – betlar
4. P. Kleihues , V. Cavenee JSST tomonidan o'smalarning tasnifi. Patologiya va genetika Asab tizimining o'smalari, IARCpress.,, Lion , Frantsiya (2000)
5. Yang C., Cao M., Liu H., He Y., Xu J., Du Y., Liu Y., Wang W., Cui L., Hu J., Gao F. The High and Low Molecular Weight Forms of Hyaluronan Have Distinct Effects on HELLA Clustering // J. Biol. Chem. J Biol Chem, –2012. –V. 287, –№ 51. –P. 43094–43107.
6. Zhang J.N., Chen B.Z., Ashfaq M., Zhang X.P., Guo X.D. Development of a BDDE-crosslinked hyaluronic acid based microneedles patch as a dermal filler for anti-ageing treatment // J. Ind. Eng. Chem. Elsevier, –2018. –V. 65. –P. 363–369.

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

01.00.00 - FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ PHYSICS AND MATHEMATICS

To'lqinli tahlil yordamida signal diagnostikasini o'rganishning yangi samarali usulini ishlab chiqish va nazariy asoslash
M.Qurbonov, R.Sharibayev, I.Taratyn…….. **4**

Grafendagi sochuvchi markazlarning to'lqin paketi dinamikasiga ta'sirini nazariy o'rganish.
G.Milibaeva, X.Rahimov, A.Rahimov, J.Nurmetov, K.Bobojonov, A.Uzoqov…….. **10**

Energetika tizimida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi va istiqbollar
U.Odamov, M.Komilov, V.Raxmanov, B.Abdulazizov …….. **15**

Hydrophobic coating based on tetraethoxysilane
U.Berdiyev, T.Shermatov …….. **18**

Ko'p qatlamli strukturalarda tok tashuvchilarning kinetikasining nazariy tadqiqi. 2-qism
R.Rasulov, I.Muminov, M.Mamatova, F.Raxmatullayeva, M.Yusupopova …….. **23**

Ko'p qatlamli strukturalarda tok tashuvchilarning kinetikasining nazariy tadqiqi. 1-qism
R.Rasulov, I.Muminov, M.Mamatova, F.Raxmatullayeva, M.Yusupopova…….. **27**

Frequency-dependent tensoresistive behavior of $(bi_{0.5}sb_{0.5})_2te_3$ films: cyclic deformation effects.
X.Sulaymonov, R.Siddiqov, I.Yulchiyev …….. **31**

ZnO nanostrukturalarining optik va elektron xossalariga kristallografik nuqsonlarning ta'siri
Z.Shaymardanov, Sh.Urolov, R.Jalolov, B.Rustamova, M.Abdullayeva …….. **37**

$CsPbI_2Br$ perovskit quyosh elementlarining samaradorligini traneksamik kislota yordamida oshirish.
N.Otaqulova, L.Nurumbetova, Sh.Allaquliyeva, A.Saparbayev …….. **44**

Material mustahkamligini hisobga olgan holda ichi to'la va bo'sh vallarning elastik-plastik deformatsiyasini matematik modellashtirish.
J.Egamov …….. **49**

Monokristall kremniy asosidagi fotoelektrik batareyalar fizik parametrlarining geografik kenglikka nisbatan o'zgarishini tadqiq qilish.
B.Yuldoshov, J.Xaliyarov, J.Abdullayev …….. **54**

Realization of differential pressure sensors – part I: pressure-scale-dependent metrological limits in primary realization systems.
